O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Guliston davlat universiteti

САМАРСКИЙ ПОЛИТЕХ

“SIRDARYO VILOYATINI INNOVATSION HUDUDGA AYLANTIRISH: MUAMMO, YECHIM VA XALQARO TAJRIBA”

mavzusidagi xalqaro forsayt formatidagi ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi

"TRANSFORMING SIRDARYA REGION INTO INNOVATION REGION: PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL EXPERIENCE"

participant of the scientific-practical conference in the format of the international website

Guliston-2023

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti

“SIRDARYO VILOYATINI INNOVATSION HUDUDGA AYLANTIRISH: MUAMMO, YECHIM VA XALQARO TAJRIBA”

mavzusidagi xalqaro forsayt formatidagi ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi

“TRANSFORMING SIRDARYA REGION INTO INNOVATION REGION: PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL EXPERIENCE"

participant of the scientific-practical conference in the format of the international website

TASHKILIY QO‘MITA RAISI:

Xodjiyev Muksin Todjiyevich-t.f.d., prof, Guliston davlat universiteti rektori,
tel: (+998 67) 225-42-75

RAIS O‘RINBOSARI:

Zikriyayev Zokir Mamirovich-GulDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, i.f.f.d., dots,
tel: (+998 67) 225-38-01

MAS’UL KOTIB

Djurayev Mansur Egamberdiyevich-GulDU Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, g.f.f.d., dots,
tel: +998 99 314 13 23

A’ZOLARI:

Sattorqulov Obidqul Turdiqulovich – GulDU Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi mudiri, i.f.n., dots,
tel: +998 93 325 85 25

Toshtemirov Doniyor Eshboyevich – GulDU Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, p.f.n., dots,
tel: +998 91 100 84 73

Uzoqov Akram Xikmatovich – GulDU Rus tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, f.f.f.d. PhD,
tel: +998 94 588 56 65

Pozilov Abdushoxid Abduvoidovich – GulDU Ingiliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dots,
tel: +998 94 162 35 35

SO‘ZBOSHI

Yangi O‘zbekiston dunyo tamaddunining ajralmas qismi sifatida bugungi globallashuv jarayonlarining asosiy ishtirokchisiga aylanib ulgurgan hozirgi zamonda innovatsion hududlarni barpo etish zamon talabidir. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hududlarni innovatsion rivojlantirish ta’lim tizimini, jumladan fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlanishini taqozo qilmoqda. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini to‘liq isloh qilish, bunda ishlab-chiqarish tarmoqlariga malakali mutaxassislarni tayyorlash yuqorida qayd qilinganidek, fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasi masalalariga alohida yondashuvni talab qilmoqda.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning 2023 yil 7 aprel sanasida Sirdaryo viloyatiga tashriflarida Sirdaryo viloyatini innovatsion hududga aylantirish g‘oyasi tashabbuskori bo‘ldilar. Prezidentimizning mazkur g‘oyalarini amalga oshirish uchun, hududning innovatsion jozibadorligini oshirish va umuman hududga innovatsiyalarni joriy qilish chuqur bilim talab qilishi sir emas.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi uzviylikni ta’minlash, jumladan oliy ta’lim tizimini fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasi asosida rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugun oliy ta’limni jahon andozalari asosida rivojlantirish, bunda sohaga zamonaviy tendensiyalarni joriy qilish zamon talabidir. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ishlab chiqarish tarmoqlari uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash birinchi navbatda zamonaviy va dolzarb sohalar bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash, shu bilan birga tayyorlanayotgan kadrlardagi bilim, malaka va ko‘nikmalar hamda kasbiy kompetensiyalar nazariya va amaliyot bilan uzviy bog‘langan holda shakllantirilgan bo‘lishini taqozo qiladi. Bunga erishish uchun fan-ta’lim-ishlab chiqartish integratsiyasini ta’minlashga erishish birinchi galdagi vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-60-sonli va «Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-61-sonli qarorlari bilan ko‘plab oliy ta’lim muassasalariga hududdagi mehnat bozori talablariga mos ravishda bakalavr ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish vakolati berishilishi xam hududlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda katta zamin yaratmoqda.

Bugun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlarning talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha katta qadamlar bilan ildamlamoqda. Bu borada, ta’limga, ilm-fanga davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratilayotganligi fikrimiz isbotidir.

Oliy ta’lim muassasalariga shu jumladan, Guliston davlat universitetiga 2021 yil 24 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan oliy ta’lim tizimini tub ijobiy o‘zgarishlarga olib keladigan oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy, akademik va tashkiliy-boshqaruvda mustaqillik berish borasidagi 2 ta muhim hujjat, ya’ni «Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» hamda «Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlar imzolandi.

Ushbu qarorlar Oliy ta’lim muassasalariga bir qator yengilliklar yaratib berish bilan birga, professor-o‘qituvchilar va talabalarga ham katta qulaylik olib kelishi, OTM rahbariyati tomonidan ta’limni optimallashtirish orqali sifat darajasini oshirish, o‘qituvchi va talabalardan o‘quv yuklamasini kamaytirish orqali fanlarni yaxshi o‘zlashtirishga yo‘l ochib beradi.

Bunga ko‘ra: oliy ta’lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta’lim muassasalari uchun o‘z grifti asosida darsliklar hamda boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish, ta’lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish, tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida: faoliyatining asosiy yo‘nalishi ta’lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan, davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish, oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan normativlardan qat’iy nazar muassasaning tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash; mehnat bozoridagi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni ochish, amaldagi ta’lim yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklarni tugatish; pedagog va boshqa

xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash; xorijiy davlat fuqarolarini to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish va masofaviy ta’lim olish shaklida o‘qitishni tashkil etish kabi sohalarda mustaqillik berildi.

Albatta, sohaga qaratilayotgan bunday e’tibor davlatimizning oliy ta’lim sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Demak, biz ilm va ta’lim sohasi vakillarining bunday g‘amxo‘rlikka barcha bilim va tajribalarimizni ishga solgan holda munosib javob berishimiz lozim. Vaqtning o‘tishi bilan bunday mashaqqatli ishlar o‘zining ijobiy natijasini berishiga to‘liq ishonamiz.

Muksin Xodjiev
Guliston davlat universiteti rektori,
texnika fanlari doktori, professor

SIRDARYO VILOYATINI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA INNOVATSION VOSITALAR HAMDA IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

IZOLYATSION KAMERALI TAKOMILLASHTIRILGAN SEPARATORNI ISHLAB CHIQISH

Xodjiyev Muksin Tadjiyevich, Eshmurodov Dilmurod Dusmurod o‘g‘li
[1]Guliston davlat universiteti rektori, t.f.d., professor, [2]Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti dekan o‘rinbosari, PhD., dotsent.

“Jahon bozorida tabiiy maxsulotlar, xususan, paxta tolasidan tayyorlangan to‘qimachilik va yengil sanoat maxsulotlariga talab doimo yuqori bo‘lgan va jadal ravishda ortib borayotgan aholi son hisobiga bu talabning istiqbolda ortib borishi kutilmoqda. Har yili dunyo miqyosida 24-25 mln. tonna atrofida paxta tolasi ishlab chiqariladi, lekin uning yillik iste’moli 0,12-0,25 % ga ko‘p. Yetishmagan tola hajmi xomashyo zaxiralari hisobiga qoplanmoqda”. Paxta tolasining sifatiga bo‘lgan talablarni yanada kuchayishi paxta tolasini jaxon bozorida uning raqobatbardoshliligini oshirish, zamonaviy hamda texnologik jihatdan ishonchli va sifatli maxsulot tishlab chiqarishga mo‘ljallangan to‘qimachilik sanoatining oldiga eng dolzarb muammolardan biri bo‘lgan paxta tozalash korxonalarini yangi texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlashga alohida e’tibor berishni talab qilmoqda. Ayniqsa, jahon paxta tozalash sohasida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan yangi texnika va texnologiyalarni takomillashtirish, amaliyotga joriy qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash, resurstejamkor texnologiyalarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Paxta tozalash korxonalarida yangi konstruktsiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish, paxtani havodan ajratishda separator asosida ish unumini oshirish, paxtani tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish bo‘yicha chet mamlakatlarda M.D.Buser, D.I.Misyulya, D.P.Whitelock, J.K.Green, Van Dorn, K.Wise, D.Richard va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan.

Mamlakatimizda paxta xomashyosini dastlabki ishlash texnologik jarayonidagi pnevmotransportlarni takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy masalalar hamda metodologik asoslarini yaratish bo‘yicha R.G.Maxkamov, X.A.Ziyayev, R.M.Murodov, B.M.Mardonov, X.T.Axmadxo‘jayev, Yu.D.Yangiboyev, S.Qodirxo‘jayev, M.T.Xodjiyev, Z.O.Shodiyev, X.S.Usmanov, O.T.Mamatqulov, M.Saloxiddinova, S.M.Xusanov va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan.

Olib borilgan ilmiy-adabiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, paxtani havodan ajratish jarayonida paxtaning to‘rli yuza bilan uchrashish qismi yuqoriligi, shunindek tolalarning havo oqimi bilan chiqib ketishi hamda paxtani to‘rli yuzaga yopishib qolishi va qirg‘ichning havo bosimi ta’sirida paxtani to‘rli yuzadan ajratish jarayonida ishqalanishi natijasida chigitning mexanik shikastlanishi sodir bo‘ladi. Yuqoridagilarni inobatga olib, separatsiya jarayonini yanada chuqurroq o‘rganish hamda uni takomillashtirish, paxtaning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydigan konstruktsiyasini ishlab chiqish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar etarlicha o‘tkazilmagan.

Izolyatsion tipdagi qirg‘ich konstruktsiyasi kirish zonasidan oldin bo‘shliq zonasi hosil qiladi. Bo‘shliq zonasida havoni so‘rish va uni bosim kuchi kamayib, paxtani to‘rli yuzaga bosuvchi kuch miqdori nolga teng bo‘ladi.

Ushbu kuchning nolga teng bo‘lishi tola bilan to‘rli yuza orasidagi F_2 ishkalanish kuchini kamaytiradi. Bu esa o‘z navbatida paxtani to‘rli yuzadan ajratish kuchi bo‘lgan F_1 kuchini kamaytirishga olib keladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu yangi moslamalarni amalga tadbiq etish paxtaning tabiiy xususiyatlarini saqlashga va erkin tolalar miqdorini kamayishiga olib keladi.

Taklif etilayotgan takomillashtirilgan paxta uchun separator kiruvchi va chiquvchi tarmoq quvurlari bo‘lgan, pastki qismida vakuum-klapan o‘rnatilgan korpusdan tarkib topgan bo‘lib, korpus ichida teshik-teshik to‘r bo‘lgan tsilindrsimon kamera joylashtirilgan. To‘rga chiquvchi tarmoq quvur tutushgan va kamera ichida uzatmali valga mahkamlangan kurakcha joylashtirilgan. Valda to‘rning tashqi tomonida izolyatsion kamera mahkamlangan bo‘lib, u markaziy burchagi $\alpha q25\text{-}30°$ bo‘lgan sektordan iborat [1].



1- korpus; 2. patrubka; 3- ajralgan havo chiqadigan quvur; 4-vakuum-klapan; 5-ishchi
2-
3-
4- kamera; 6-to‘rli yuza; 7- val; 8-qirg‘ich; 9-izolyatsion kamera

1-rasm. SS-15A separatoriga o‘rnatilgan yangi moslamaning umumiy, ko‘ndalang, aksonometrik va bo‘ylama qirqim ko‘rinishi

Izolyatsion kameraning kurakcha qarshisida joylashgan yon tomoni valda kurakcha bilan bir sathda mahkamlangan, izolyatsion kameraning yon tomonlari bo‘ylab esa to‘rga tutashgan rezinali cho‘tkalar mahkamlangan. Cho‘tkalarning balandligi *hq6-12* mm keladi, izolyatsion kameralar metalldan bajarilgan [3].

Takomillashtirilgan separatorda tadqiqotlar o‘tkazilishi natijasida tanlab olingan qo‘shimcha qurilma izolyatsion kameraga ega separatorda asosan paxtani tabiiy xususiyatlaridan tolani chiqish darajasini oshirish, ifloslik tarkibidagi erkin tolalarni ko‘payishini oldini olish va chigitni mexanik shikastlanish darajasini kamaytirishi kuzatildi. Biroq quritish barabanining yuqori qismidagi va perevalkadagi separatorda VTs-12 ventilyator ishlatilganligi sababli, havo orqali kelayotgan paxta yuqori tezlikda separatorning to‘g‘ri devoriga borib urilishi kuzatilmoqda. Buning natijasida to‘g‘ri devorning eyilishiga, ishdan chiqishi va ta’mirlanishi, shuningdek ushbu joyda chigitni mexanik shikaslanishi yanada oshib ketishi kuzatilmoqda.

Separatorlarni kirish qismida paxta qatlami uning to‘g‘ri orqa devoriga katta tezlikda borib urilmasligi va vakuum-klapanning ishchi uzunliklari bo‘yicha teng taqsimlanib, vakuum-klapanga tushayotgan paxtani tabiiy xususiyatlarini saqlash asosiy maqsad deb olindi. Mavjud separatorlarda paxta oqimi separatsiya kamerasiga quvur orqali 12-15 m/s tezlik bilan keladi [4]. Natijada, paxta massasini separator orqa devoriga kuch bilan urilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa chigitlarning mexanik shikastlanishiga, separator orqa devorini tez eyilishiga va separatorning ishlash davomiyligini kamayishiga olib keladigan kamchiliklardan hisoblanadi.

1-jadval

Uster HVI 1000 laboratoriya uskunasida aniqlangan sifat ko‘rsatkichlarini natijalari

№	HVI 1000 aniqlaydigan sifat ko‘rsatkichlarini nomlanishi	G‘aramdan olingan paxta DL-10 jinida jinlangandan kuyingi tolasi	SS-15A separatoridan keyin olingan paxta DL-10 jinida jinlangandan kuyingi tolasi	Takomillash-tirilgan SS-15A separatoridan keyin olingan paxta DL-10 jinida jinlangandan keyingi tolasi
1	Len - (Uzunligi), (1,0-1,8) dyuym	1.145	1.140	1.143
2	Unf - (Uzunligi bo‘yicha bir tekisdalik indeksi), (75-85) %.	84.8	84.3	84.6
3	SFI - (Kalta tola indeksi), (2-20) %	6,9	7.4	7.0

Ushbu ma’lumotlarni tasdig‘i o‘rnida bir xil nav, namlik va ifloslikdagi paxtani quritish barabanining yuqori qismidagi hozirgi kundagi mavjud separatordan oldingi va keyingi qismidan namunalar olib, uni DL-10 laboratoriya jinida jinlanib, tolasini Uster HVI 1000 laboratoriya uskunasida Len, Unf, SFI ko‘rsatkichlari, ya’ni Len - yuqori o‘rtacha uzunlik, Unf - uzunlik bo‘yicha bir xillik indeksi va SFI - kalta tolalar indeksiyasi tekshirildi. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.



2-rasm. Uster HVI 1000 laboratoriya uskunasida Len, Unf, SFI ko‘rsatkichlari keltirilgan

Tadqiqotlar natijasida, Uster HVI 1000 laboratoriya uskunasida yuqori o‘rtacha uzunlik (Length) tekshirilganda buntdan olingan paxtaning tolasida o‘rtacha 1.148 dyuym bo‘lgan bo‘lsa, separatordan keyin olingan paxtaning tolasida 1.140 dyuym ni tashkil qildi, ya’ni kamayishi kuzatildi. Shuningdek, uzunlik bo‘yicha bir xillik indeksi (Uniformity index) tekshirilganda buntdan olingan paxtaning tolasida o‘rtacha 85,0 % bo‘lgan bo‘lsa, separatordan keyin olingan paxtaning tolasida 84,4 % bo‘lishi kuzatildi, ya’ni bunda ham umumiy namunadagi barcha tolalarni o‘rtacha uzunligi kamayishi kuzatildi. Bundan tashqari, kalta tolalar indeksi (Short fiber index) ushbu laboratoriya uskunasida tekshirilganda, mavjud separatordan keyin olingan paxtaning tolasida 7,4 % bo‘lishi kuzatilgan bo‘lsa, taklif etilgan separatordan so‘ng bu ko‘rsatgich 7,0 % gacha kamayishi kuzatildi. Umumiy tahlillar natijasida takomillashtirilgan izolyatsion kamera va yo‘naltirgichli SS-15A separatorini ishlab chiqarishga qo‘llash bo‘yicha tavsiya berildi [5].

Xulosa: Separator to‘rli yuzasidan paxtani qirg‘ich yordamida ajratib olish jarayonida paxta qatlamini to‘rli yuzaga ta’sir etuvchi bosim kuchini nolga tengligini ta’minlovchi izolyatsion kamera ishlab chiqildi. Buning natijasida ifloslik tarkibidagi erkin tola miqdori sanoat navlari bo‘yicha mavjud separatorga nisbatan 36,4% kamayishiga erishildi.

Adabiyotlar:

1. Patent UZ № FAP 01317. Chigitli paxta uchun separator / Xojiev M.T., Gaibnazarov E.E., Xakimov Sh.Sh., Sarimsakov O.Sh., Ruzmetov M.E., Axmatov N.M., Eshmurodov D.D. // Rasmiy axborotnoma. – 2018. № 8. 51-52 b.
2. Khodjiev, M. T., O. J. Murodov, and D. Eshmurodov. "Creation of Scientific-Based Construction of the Separator with Insulation Camera." International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering 9.4 (2020): 3231-5.
3. Khodjiev, M. T., Murodov, O. J., Eshmurodov, D. D., & Eshnazarov, D. A. (2020, May). Tests in the insulating cameras of the improved separator. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 862, No. 3, p. 032025). IOP Publishing.
4. Khodjiev M. T., Eshmurodov D. D., Ortiqova D. A. Study on the development of improved routing technology of CC-15A cotton separator //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 939. – №. 1. – С. 012070.
5. Eshmurodov D.D., Xodjiev M.T., Salimov A.A. Separatorda paxta xomashyosi sifatiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish. // «O‘zbekiston to‘qimachilik muammolari» №3, 2021 y. 4-12 b.

SIRDARYO VILOYATI IQTISODIYOTI TARMOQLARIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI

Maxmudov Sherali Xusanovich, Elmurodov Ulug‘bek
Guliston davlat universiteti Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar instituti direktori
Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i
Shermax1977@gmail.com telefon raqam +99899 470 49 04

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatining investitsion muhiti tahlil qilingan, viloyati iqtisodiyoti tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy tendensiyalari izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *investitsiya, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, ishlab chiqarish, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, markazlashgan investitsiya, markazlshmagan investitsiya.*

Bugungi kunda O‘zbekistonda qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta’minlash ustuvor vazifadir. Bunda davlatning asosiy vazifasi kapital jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish bilan izohlanadi. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o‘z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o‘ziga xos yo‘nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag‘batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida investitsion muhitning jozibadorligini baholash, hududlararo vujudga keladigan tabiiy-demografik, ma’muriy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tafovutlarni hosil qiladigan omillarni aniqlash, investitsion faollikni ta’minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy, uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralarini ko‘rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmog‘i lozim” [1], deb ta’kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e’tirof etadi.

Taraqqiyot strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida hududlar bilan ishlashning quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tartibi o‘rnatildi. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o‘rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqildi[1]. Ushu jarayonlar Sirdaryo viloyatida ham jadal bormoqda.

Sirdaryo viloyati hududi 4276,2 km^2 ni tashkil etib, shimolda Qozog‘iston hamda janubda Tojikiston Respublikalari bilan, shimoliy-sharq, sharq va janubiy –sharqda Toshkent viloyati, janubiy-g‘arb va g‘arbda Jizzax viloyati bilan chegaradoshdir. Viloyat aholisi 896,6 ming kishini tashkil etib, viloyat qaramog‘ida 5 ta shahar, 25 ta shaharchalar hamda 238 ta fuqarolar yig‘ini mavjuddir.

Sirdaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmi 2018-yilda 3,4 foizga o‘sgani holda 2022-yil yakuni bo‘yicha 5,0 foizga o‘sishi ta’minlandi. Viloyat iqtisodiyotida investitsiyalarning ulushi esa 2018-yildagi 31,6 foizdan 2022-yilda 69,3 foizni tashkil qildi. O‘z navbatida ko‘rinib turibdiki, viloyat yalpi hududiy mahsulotini yildan yilga ko‘payishiga iqtisodiyotning soha, tarmoqlariga jalb etilayotgan va o‘zlashtirilayotgan investitsiyalarning ahamiyati juda salmoqlidir[3]. (qarang: 1-jadval)

1-jadval

Sirdaryo viloyati YaHM hajmida asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi dinamikasi (joriy narxlarda) [1]

[1] Сирдарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида тузилди.

Yillar	YaHM hajmi, mlrd.so‘m	O‘tgan davrga nisbatan o‘sish sur’ati, %	Asosiy kapitalga investitsiyalar mlrd. so‘m	YaHM hajmidagi ulushi, %
2018	8 532,7	103,4	2 699,3	31,6
2019	11 865,2	109,5	5 869,1	49,5
2020	12 803,8	101,8	7 191,9	56,2
2021	15 071,5	109,0	8 051,8	53,4
2022	18 136,8	105,0	12 574,7	69,3

So‘ngi yillarda Sirdaryo viloyatini modernizatsiya qilish texnik va texnologik jihatidan qayta jihozlash, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, diversifikatsiya qilish maqsadida investitsiyalarni jalb etish hajmi yildan-yilga o‘sib bormoqda. Bunga sabab respublikamizda olib borilayotgan islohotlar va investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etish uchun qulay investitsiyaviy muhit yaratilganidir. Bunda, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli Qonuni muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini yaratishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ko‘plab farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”PQ-4937-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-72-sonli qarorlari kiradi.

Sirdaryo viloyatida investorlar uchun qulay investitsiyaviy muhit yaratilganligi uchun ham asosiy kapitalga investitsiyalar joriy narxlarda 2018-yildagi 2699,3 mlrd. so‘mdan 2022-yilda 12574,7 mlrd.so‘mga ko‘payib, oxirigi 5 yillikda yuqori o‘sish sur’atlari ta’minlanmoqda. (qarang: 2-jadval)

2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi (joriy narxlarda) [2]

Yillar	Asosiy kapitalga investitsiyalar mlrd. so‘m	O‘tgan davrga nisbatan o‘sish, %
2018	2 699,3	31,0
2019	5 869,1	86,0
2020	7 191,9	11,2
2021	8 051,8	7,7
2022	12 574,7	37,6

Ushbu 2-jadval ma’lumotlari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining 2018-2022 yillar mobaynida yuqori sur’atlar bilan o‘lchanishdan dalolat beradi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning yillik o‘sish sur’ati 2018-yilda 31,0 % ni, 2019-yilda 86,0 % ni, 2020-yilda 11,2 % ni, 2021-yilda 7,7 % ni hamda 2022- yilda 37,6 % ni tashkil etdi[3] (qarang: 1-chizma).

Sirdaryo viloyatida 2018-2022 yillarda investitsiyalar o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilga nisbatan foizda)

[2] Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi.



Ta’kidlash joizki, 2020-yilda dunyo miqyosida ro‘y bergan pandemiya sharoitida investitsiyalarning o‘sish sur’atlari bir muncha kamaydi. Ammo shunday bo‘lsa ham, respublika Hukumati tomonidan ko‘rilgan tezkor chora-tadbirlar natijasida bu ko‘rsatkichning ijobiy o‘sishi ta’minlandi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarining moliyaviy manbalari tarkibida chet el investitsiyasi va kreditlarining 2018-yildagi 9,6 foizdan 2022-yilda 77,4 foiz (67,8 band) ga ko‘payishi natijasida respublika byudjeti mablag‘larining ulushi 2018-yildagi 9,6 foizdan 2022-yildagi 5,5 foizga, viloyatda faoliyat yurituvchi korxona va aholi mablag‘larining umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 2018 yilda 30,9 foizdan, 2022 yilda 12,5 % foizga kamaydi[3]. (qarang: 3-jadval)

3-jadval

Mablag‘ manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi (yakuniga nisbatan % hisobida)

Ko‘rsatkichlar	**2018 y**	**2019 y**	**2020 y**	**2021 y**	**2022 y**
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami	100	100	100	100	100
Respublika byudjeti mablag‘lari	9,6	10,5	7,8	9,9	5,5
Korxona va aholi mablag‘lari	30,9	20,4	29,9	19,6	12,5
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	36,1	22,4	11,2	9,2	4,1
Chet el investitsiyasi va kreditlari	9,6	44,8	48,7	59,8	77,4
Byudjetdan tashqari fondlar	13,8	12,4	2,4	1,5	0,5

Bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari ulushi tahlil davrida 36,1 foizdan 4,1 foizga, byudjetdan tashqari fondlar ulushi 13,8 foizdan 0,5 foizgacha kamaydi.

Investitsiyalar tarkibida boshqa manbalar, O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot va tiklanish jamg‘armasi va boshqalarning ulushi 13,8 % dan 0,5 % ga kamaydi. 2022-yilda esa investitsiyalarning tarkibi yanada o‘zgaradi. Davlat byudjeti ulushi 5,5 % ga, korxonalar va aholi mablag‘lari ulushi 12,5 % ga kamaygani holda chet el investitsiyalari ulushi 77,4 % ni, boshqa manbalar ulushi 0,5 % ni tashkil etishi kutilmoqda[3].

Viloyat iqtisodiyoti tarmoqlarida barcha moliyalashtirish manbalari asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning katta qismi ishlab chiqarish tarmoqlariga yo‘naltirilmoqda. Jumladan, 2022 yilda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 11004,8 mlrd. so‘mi yoki 87,5 % ishlab chiqarish tarmoqlariga, 1569,9 mlrd. so‘m yoki 12,5 % noishlab chiqarish tarmoqlariga yo‘naltiriladi(qarang: 4-jadval).

Viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar tarkibida sanoatning ulushi 2018-yildagi 22,3 % dan 2021-yilda 29,7 % ga o‘sdi. Sanoat yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi 2019-yilda eng yuqori darajaga erishdi. Bu sohada yo‘naltirilgan investitsiyalarning katta qilish yoqilg‘i-energetika, yengil sanoat, qurilish materiallari hamda tibbiyot sanoatiga to‘g‘ri keladi.

4-jadval

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi (yakuniga nisbatan foiz hisobida)

Ko‘rsatkichlar	**2018y**	**2019y**	**2020y**	**2021y**	**2022y**
Jami	100	100	100	100	100
shu jumladan: Sanoat	22,3	40,7	37,5	29,7	23,1
Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi	23,6	13,7	11,2	9,5	6,6
Qurilish	2,4	2,3	1,5	9,2	1,6
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	2,4	11,7	13,7	18,3	56,2
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash	4,6	2,1	1,9	1,4	1,1
Uy-joy qurilishi	13,4	9,2	18,2	3,0	1,3
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	0,8	0,2	0,1	1,9	1,8
Tashish va saqlash	4,0	4,6	2,8	0,6	1,1
Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta’minot	3,8	1,7	2,3	1,7	0,9
Ta’lim	3,7	3,2	2,6	3,4	1,3
Boshqa ob’ektlar	19,0	10,6	8,2	21,3	5,0

Viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar tarkibida sanoatning ulushi 2018- yildagi 22,3 % dan 2021 yilda 29,7 % ga o‘sdi. Sanoat yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi 2019 yilda eng yuqori darajaga erishdi. Bu sohada yo‘naltirilgan investitsiyalarning katta qilish yoqilg‘i-energetika, yengil sanoat, qurilish materiallari hamda tibbiyot sanoatiga to‘g‘ri keladi.

2018-2022 yillarda qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi kamayib borgan.

Oxirgi yillarda mamlakat miqiyosi sanoat tarmoqlari rivojlanayotgan bir paytda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasiga ham katta investitsiyalar jalb kilinmoqda[2]. 2022-yilda bu sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar miqdori va ulushining oshib borishi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, kiritilayotgan sarmoyalarning asosiy qismi ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirilayotganligini investitsiyalarning texnologik tarkibida ham ko‘rish mumkin. (qarang: 5-jadval)

5-jadval

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (yakuniga nisbatan foiz hisobida)

Ko‘rsatkichlar	**2018y**	**2019y**	**2020y**	**2021y**	**2022y**
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami	100	100	100	100	100
shu jumladan: Qurilish- montaj ishlari	55,8	31,4	39,3	47,5	22,7
Asbob- uskuna va jihozlar	42,2	32,9	57,0	50,2	75,8
Boshqa kapital ishlari va sarflar	2,0	35,7	3,7	2,3	1,5

Ushbu jadval ma’lumotlari investitsiyalar texnologik tarkibida qurilish- montaj ishlari ulushining kamayib borish tendentsiyasi oxirigi yillarda kuzatilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, zamonaviy asbob- uskuna va jihozlar harid qilish yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi 2018-yildagi 42,2 foizdan 2022-yilda 75,8 foizgacha o‘sdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, investitsion faollik Xovos, Boyovut, Guliston, Sirdaryo tumanlarining viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi yuqoridir.

2022-yilda viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar Xovos tumanida 8,7 martaga o‘sgani holda, Boyovut tumanida 2,7 martaga %, Guliston tumanida 33,4 % o‘sdi. Ammo investitsiyalar hajmi 2021-yilga nisbatan 2022-yilda Oqoltin tumanida 3,9 % ga o‘sdi. Shirin shahrida esa investitsiyalar hajmi 4,7 barobardan ortiqqa kamayib ketganligini ko‘rish mumkin[3].

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar tarkibida chet el investitsiyalar va kreditlar hajmi va ulushi ham o‘sib bormoqda. Viloyat iqtisodiyotiga kiritilgan chet el investitsiyalar va kreditlar miqdori 2019-yilda 2630,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 9738,2 mlrd. so‘mni, ya’ni 3,7 barobarga o‘sdi.(qarang: 6-jadval).

Jadval ma’lumotlari 2019-2022-yillar davomida chet el kapitalini kiritishning sezilarli miqdorda oshib borlagligi kuzatish mumkin. 2020-yilda 2019-yilga nisbatan chet el kapitalini kiritish viloyatda 1,3 barobarga o‘sdi. Davlat tomonidan kiritilgan investitsiyalar ulushi 2,6 % ni xo‘jalik birlashmalarining ulushi 2020-yilda 57,2 % ni, 2021 yilda 48,1 % ni, 2022 yilda 21,5 % ni tashkil etdi. Keyingi yillarda qo‘shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlar ulushi o‘sib bormoqda.

6-jadval.

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotiga chet el investitsiyalari va kreditlarni jalb etish

Investitsiya kiritish yo‘nalishlari	2019 y		2020 y		2021 y		2022 y	
	mlrd so‘m	ulushi, %	mlrd so‘m	ulushi, %	mlrd so‘m	ulushi, %	mlrd so‘m	ulushi, %
Asosiy kapitalga kiritilgan chet el investitsiyalari jami	2630,1	100	3503,7	100	4814,8	100	9738,2	100
Davlat	137,2	5,2	91,5	2,6	34,8	0,7	43,8	0,4
Xo‘jalik birlashmalari	986,8	37,5	2004,7	57,2	2316,3	48,1	2094,5	21,5
Qo‘shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari	1506,1	57,3	1407,5	40,2	2463,7	51,2	7599,9	78,1

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotiga 2018-2022 yillarda Birlashgan Arab Amirligi, Buyuk Britaniya, Germaniya, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi, Rossiya, Polsha, AQSh, Turkiya, Xitoy, Quvayt, Avstriya, Niderlandiya, Tayland, Italiya, Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni kabi mamlakatlar investorlari kapital kiritgan. Jumladan, viloyat iqtisodiyotining soha va tarmoqlariga 2018-2022 yillarda Saudiya Arabistoni 6605,7 mlrd. so‘mlik, Xitoy Xalq Respublikasidan 2224,2 mlrd. so‘m, Turkiya 2169,3 mlrd. so‘m, Germaniyadan 2100,6 mlrd. so‘m, Rossiya federatsiyasidan 2013,5 mlrd. so‘m, Osiyo taraqqiyot banki 75,7 mlrd. so‘m hamda Islom taraqqiyot banki tomonidan 736,2 mlrd. so‘m investitsiyalar kiritilgan.

Endilikda viloyatning barcha tumanlariga chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish chora tadbirlarini ko‘rish lozim bo‘ladi. Shu yo‘l bilan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish mumkin bo‘ladi.

Viloyatda 2022-2026-yillar davomida jami 2337,3 mln.dollar shundan, 76,9 foizi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o‘zlashtirilishi maqsad qilib qo‘yilgan. Jumladan, 2022-yilda 367,6 mln.dollar (shundan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 282,6 mln.doll), 2023-yilda 404,3 mln.doll. (310,8 mln.doll.), 2024-yilda 444,7 mln.doll. (341,9 mln.doll.), 2025-yilda 533,7

mln.doll. (410,3 mln.doll.) hamda 2026-yilda 587,1 mln.doll (451,3 mln.doll.) hajmdagi investitsiyalar o‘zlashtirilishi rejalashtirilgan[2].

Ushbu investitsiyalar o‘zlashtirilishida viloyatda loyiha qiymati 1017,0 mln.doll. hajmdagi quvvati 1500 MVt bo‘lgan yangi issiqlik elektr stantsiyasini qurish, qiymati 140,0 mln.doll. hajmdagi quvvati 220 MVt bo‘lgan gaz-porshenli elektr stantsiyasini qurish, qiymati 19,5 mln.doll. hajmdagi «Eurasia Gaz Beton» MChJda gaz-beton bloklari ishlab chiqarishni tashkil etish, qiymati 75,5 mln.doll. bo‘lgan Guliston, Shirin va Yangier shaharlarida kanalizatsiya tizimlarini rekonstruktsiya qilish va kengaytirish, Sirdaryo, Guliston va Sayxunobod tumanlari va Yangier shahrida qiymati 76,0 mln.doll. bo‘lgan ichimlik suvi ta’minotini hamda 5 ta tuman markazlarida oqova suv ta’minotini yaxshilash, «Rc Success Agro» MChJ XK tomonidan qiymati 201,1 mln.doll. bo‘lgan texnik kannabis ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalarining ahamiyati juda kattadir.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizning, jumladan Sirdaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tendentsiyasi va ko‘rsatkichlari hamda kelgusi yillarga mo‘ljallangan prognozlariga ko‘ra ustuvor yo‘nalishlardan biri, eng avvalo, jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, xorijiy investorlar uchun ishonchli kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

Bugungi kunda O‘zbekistonga, jumladan Sirdaryo viloyatiga xorijiy investitsion mablag‘larini jalb etish bo‘yicha bir qator masala va muammolarning ochiq qolayotganligini ta’kidlash kerak. Iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda sarmoya oqimiga to‘siq bo‘layotgan bir qator sabablar sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- bank-kredit tizimining takomillashmaganligi;
- sarmoyadorlar huquqlarining himoyasi zaifligi va yetarli darajada samarali bo‘lmagan sud tizimi;
-ma’muriy-byurokratik to‘siqlar (masalan, litsenziya va ruxsat olish tartib-qoidalari;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-72-sonli qarori.
3. Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti *(https://sirstat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments)*

TA’LIM XIZMATLARI BOZORINING MILLIY IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich, Xolmirzayeva Sarvinoz Komiljon qizi

Guliston davlat universiteti, o‘qituvchi
Email: sherzod86@mail.ru (+998) 88 278 32 92

Annotatsiya: Har qanday jamiyatning iqtisodiy rivojlantirish bilan bog‘liq strategiyasida milliy innovatsion tizimni shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Milliy innovatsion tizim tushunchasi iqtisodiyotning muhim belgisi sifatida fanga XX asrning 70-yillarida kirib keldi va bu tushuncha har xil manbalarda turlicha ta’riflangan. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) materiallarida (1997) ma’nosiga ko‘ra bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’riflar keltirilgan bo‘lib, ularda milliy innovatsion tizim muayyan davlat miqyosida individual va bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda yangi texnologiyalarni rivojlantirish va tarqatishni ta’minlovchi, xususiy va davlat sektorlariga tegishli bo‘lgan institutlar majmui sifatida tavsiflanadi. K.Frimanning fikriga ko‘ra, milliy innovatsion tizim – jamiyat tomonidan iste’mol qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishda, saqlashda, tarqatishda va yangi texnologiyalarga

aylanishida qatnashadigan iqtisodiy sub'ektlar va ijtimoiy institutlarning (qadriyatlar, me'yorlar, huquqlarning) murakkab tizimi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmati, milliy innovatsion tizim, milliy iqtisodiyot, mahsulot.

Kirish. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida milliy innovatsion tizim Y.Shumpeter g'oyasiga asoslangan milliy innovatsion iqtisodiyot, AQShlik olim D.Bell tomonidan asoslangan postindustrial jamiyatning rivojlanish tendentsiyalari, J.Xokinsning bilimlar iqtisodiyoti yoki kreativ iqtisodiyot nazariyasi, Y.Benklerning "Digital Economy" deb nomlangan ilmiy ishlarida keltirilgan kontseptsiyalarida ilgari surilgan tarmoqli iqtisodiyot hamda D.Tepskott tomonidan kiritilgan raqamli iqtisodiyot kabi tadqiqot natijalarida ham o'z aksini topgan. O'zbekistonning bugungi milliy innovatsion rivojlanishida ham aynan raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasi ilgari surilmoqdaki, bunga oliy ta'lim tizimini rivojlantirish asosida erishish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Jahon iqtisodiyotining bugungi yuksalishi sharoitida, aksariyat mamlakatlar barqaror iqtisodiy o'sish va aholining yuqori turmush darajasiga erishishining asosiy omili sifatida rivojlanishning innovatsion yo'lini tanlamoqdalar. Xo'jalik yuritish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish shartlaridan biri bo'lib, bozor munosabatlarini jadallashtirishning zaruriy omili sifatida qabul qilinadi.

Asosiy qism. Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va ma'lum bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar, uskunalar, shuningdek, turli tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarga joriy etiladigan innovatsiyalarni yaratish hamda amalga oshirish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish muammosini hal qilish, uning har bir bo'g'ini uchun iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining samarali o'zaro munosabatlari metodologiyasi va usullari ko'zda tutilgan innovatsion modelni shakllantirish hamda amalga oshirish talab qilinadi.

Bugungi kunda har bir mamlakat, ilmiy, texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, innovatsiyalar umumiy tamoyillariga asoslanib, ilmiy-texnologik salohiyati, mehnat va xom ashyosi zahiralari holati, tabiiy-iqlim sharoitlari, iqtisodiyotining o'ziga xosliklari kabilarni hisobga olgan holda o'zining innovatsion tizimini yaratishga intilishi kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati ilmiy salohiyatni saqlab qolish, ilm-fan sohasini isloh qilish va uni dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga yo'naltirishning samarali choralarini ko'rmoqda. Shu bilan bog'liq holda oliy ta'lim tizimi va uning fani rivojlantirish milliy innovatsion tizimni rivojlantirishdagi roliga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda oliy ta'lim va uning fani rivojini mamlakat ilmiy-texnologik salohiyatini mustahkamlash iqtisodiyotni izchil innovatsion rivojlanishiga bosqichma-bosqich o'tishining zaruriy sharti deb qaralmoqda.

Texnologik darajani, ishlab chiqarish raqobatbardoshligini yuksaltiruvchi, innovatsion mahsulotlarning ichki va tashqi bozorga chiqishiga, import o'rnini qoplovchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga va milliy strategik maqsadlarga erishishda yordam beradigan samarali innovatsion tizimni yaratish maqsadida 2016 yilda "O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda innovatsion rivojlanish dasturi" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Mazkur Dasturning asosiy maqsadi "...ilg'or ilmiy-texnik, texnologik yutuqlardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalar va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, tabiiy xom-ashyo va investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish, iqtisodiy, energetik, oziq-ovqat va ekologik xavfsizlik hamda boshqa aholi turmush tarzini yuksalishi" uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan milliy innovatsion tizimni shakllantirishdir.

Iqtisodiy sohaga milliy innovatsion rivojlanish tamoyillarini joriy etish ta'lim xizmatlari bozori va uning asosiy sub'ektlari – oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun samarali va qulay ob'ektiv imkoniyatdir. Bugungi jahon iqtisodiyotidagi muhim tendentsiyalar innovatsiyalarni rivojlanishning asosiy manbaiga aylantirish va bunda inson kapitali rolini mustahkamlashdan iborat bo'lib, bunda Milliy innovatsion tizim omillarining o'zaro aloqalari mexanizmini rivojlantirish keng ko'lamli murakkab vazifadir. Buni davlat, tadbirkorlik, iqtisodiy va ilmiy hamjamiyatlarning puxta o'ylangan, o'zaro kelishilgan samarali hatti-harakatlari orqaligina amalga oshirish mumkin bo'ladi. Ayrim tadqiqotlardan ma'lumki, agar ilgari ba'zi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi asosan ulardagi mavjud tabiiy zahiralar bilan baholangan bo'lsa, iqtisodiyotning innovatsion modeli

sharoitida esa innovatsion rivojlanishga moslashtirilgan yangi texnologiyalar, intellektual kapital ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda sanoatlashgan iqtisodiyot axborot iqtisodiyoti yoki bilimlar iqtisodiyotiga aylanmoqda, amaldagi ta'lim modellari kirib kelayotgan o'zgarishlarga mos kelmay qolmoqda. Bu oxir-oqibat mavjud ta'lim tizimi holati bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi o'rtasidagi tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Mavjud ta'lim modellari barcha sohalardagi innovatsion rivojlanish faoliyatiga mos kelgan taqdirdagina taraqqiyotga erishilishi mumkin.

So'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat organlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi harakatlari tufayli oliy ta'lim tizimi va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish muammosiga e'tibor kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Ta'lim sifatining o'sib borishi milliy innovatsion tizimning takomillashi va mamlakat iqtisodi rivojlanishni ta'minlashning zarur vositasidir. Shuning uchun dunyo rivojlangan mamlakatlarining iqtisodiy siyosati ta'lim xizmatlari bozorida innovatsion rivojlanish kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan.

Hozirgi sharoit dunyo mamlakatlarining rivojlanishini baholashda iqtisodiyot fani milliy raqobatbardoshlik kontseptsiyasini etakchi o'ringa olib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimi innovatsion rivojlanishga erishish va jahon iqtisodiyotidagi mamlakatlar iqtisodiy raqobatdoshligini oshirish borasida hal qiluvchi o'rin tutadi.

Dunyo mamlakatlarining milliy raqobatbardoshlik reytinglarini aniqlash jarayoniga qaratilgan tadqiqotlar ta'lim tizimining samarali faoliyati mamlakatning raqobatbardoshligi va iqtisodiy yuksalishining yuqori sur'atlarini ta'minlashi hamda aholi farovonligining oshishiga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini isbotladi.

Jahon mamlakatlarining dunyo miqyosidagi yoki global raqobatbardoshlik indeksi uchta kichik indekslarni qamrab oladi va ular o'n ikkita asosiy guruh ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Xulosa. Oliy ta'lim mehnat bozorining samarali rivojlanishiga, jamiyatdagi turli ijtimoiy institutlar va tadbirkorlikni taraqqiy etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu jumladan, oliy ta'lim mamlakatning xalqaro maydonda milliy raqobatbardoshligini ta'minlashning eng muhim omilidir va binobarin ushbu sektorni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Oliy ta'lim tizimi barcha bosqichlarining barqaror rivojlanishi mamlakat va jamiyat rivojlanishining muhim va ajralmas shartidir. Oliy ta'limning har tomonlama rivojlanishi malakali ishlab chiqarish, texnologik, innovatsion va texnikaviy taraqqiyotga intilayotgan davlatlarning iqtisodiy yuksalishi uchun muhim shartdir. Bu holat jahon iqtisodiyotida global va integratsion jarayonlarning rivojlanishi kontekstida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, xalqaro mehnat taqsimotida muhim o'rinni egallashni va jahon bozorida o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashni istagan har bir mamlakat o'zgaruvchan muhitga tez moslasha oladigan va mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish choralarini ta'minlaydigan yuqori malakali mutaxassislarga ega bo'lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021- йилга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш дастури.

2. Benkler Y. The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom. New Haven, Conn: Yale University Press, 2006. 515

3. Усмонов Б. Олий таълим тизимини уйғунлаштиришда олий таълим муассасасида илмий фаолият ва ўқув жараёни интеграцияси. "Инновацион фан-таълим тизимини ривожлантиришнинг баркамол авлодни вояга етказишдаги роли ва аҳамияти" – Илмий амалий конференцияси материаллар тўплами, Тошкент, 2014 йил, Тошкент давлат аграр университети

4. Тухлиев И.С. Миллий инновацион тизимни шакллантириш ва ривожлантириш омиллари //"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil. -Б.200-206. http://iqtisodiyot.tsue.uz

INVESTITSIYA VA INVESTITSION JOZIBADORLIK

Aliqulov Ravshan Shodiyor o‘g‘li
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola investitsiya va investitsiya faoliyati tushunchasining mazmunmohiyati, uning subyektlari hamda investistiya va investitsiya faoliyati turlarining xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar asosidagi tahlilini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion faoliyat subyektlari, kapital investitsiya, moliyaviy investitsiya, real investitsiya.

KIRISH

Bugungi iqtisodiy globallashuv jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Boisi mazkur faoliyat mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror hamda progressiv o‘sishiga xizmat qiladi. Shu bois investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi har bir davlat o‘zining bu boradagi aniq maqsadlarini ifodalovchi yo‘l xaritasini ishlab chiqadi. Xususan, mamlakatimizda ham investitsiyalarni turli sohalarga jalb etish, ularning oqimini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha turli reja va dasturlar ishlab chiqildi

Adabiyotlar tahlili

Prof. N.H. Haydarov investitsiyalar mazmun - mohiyatiga quyidagi ta’rifni beradi: “Investitsiya - bu mulk shaklidan qat’iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o‘z boyliklarini qonun doirasida bo‘lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir”. [1]

Mahalliy iqtisodchi-olimlar tomonidan: «investitsiyalar - pulni saqlash, ko‘paytirish yoki ijobiy miqdordagi daromadni ta’minlashni hisobga olgan holda uni joylashtirish mumkin bo‘lgan har qanday vosita sifatida ifodalanadi». Xorijlik iqtisodchi-olimlardan U.Sharp, K.Eklund, Kempbell R.Makkonell, Stanli L.Bryu kabilar investitsiyalarning mazmun-mohiyati yuzasidan turlicha tariiflami bayon etishgan. Jumladan, Nobel mukofotining iqtisodiyot bo‘yicha laureati (1990 yil) U.Sharp ta’kidlashicha: «investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir» [2]

Shved iqtisodchi-olimi K.Eklund fikricha: «investitsiya - bu kelajakda ko‘proq iste’mol qilish sharoitiga ega bo‘lish uchun ertangi kunga qoldirilgan narsa. Uning bir qismi hozirda ishlatilmasdan zaxiraga qoldiriladigan iste’mol buyumlari bo‘lib, boshqa qismi esa bu ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirilgan resurslardir»

Muhokama va natijalar

Investitsion faoliyat tushunchasi investitsiya hamda investor kabi tushunchalarga asoslangan bo‘lib, bu bo‘yicha to‘liq tasavvurga ega bo‘lish uchun dastlab mazkur tushunchalar haqida so‘z yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. “Investitsiya” atamasi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “invest”, ya’ni “qo‘yilma” degan ma’noni anglatadi. Umuman olganda, investitsiya deganda foyda olish yoki boshqa foydali maqsadga erishish uchun tadbirkorlik yoki boshqa faoliyatga jalb qilinadigan pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, moddiy va nomoddiy boyliklar, shu jumladan, mol-mulkka bo‘lgan huquqlar nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasidagi investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnomada “Investitsiya” atamasi Ahdlashuvchi tomon davlati hududida davomiy iqtisodiy aloqalar o‘rnatish maqsadida uning qonunchiligiga muvofiq qo‘lga kiritilgan va investitsiya xususiyatlariga ega bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq har qanday turdagi aktivni anglatishi nazarda tutilgan. Va nihoyat, O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi 2019-yil 25-dekabridagi Qonuni 3-moddasiga muvofiq investitsiyalar – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar – deb bayon etilgan. Bizning fikrimizcha, investitsiya deganda avvalo, iste’moldan ortgan moliyaviy vositalar hamda boshqa mol-mulklarni foydali natijaga erishish uchun qonun bilan ta’qiqlanmagan har qanday faoliyatga jalb qilish, harakatga keltirishdir. Muayyan sohaga investitsiya kiritish bevosita investitsion faoliyat natijasida amalga

2020 yilda O‘zbekiston hududlari bo‘yicha investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida aholi mablag‘lari ulushiga ko‘ra guruhlanishi, foizda

Daraja guruhlari	Hududlar ulushi
Yuqori daraja	Andijon (17,1), Xorazm (17,1), Buxoro (14,2), Namangan (13,3)
O‘rta daraja	Samarqand (12,9), Surxondaryo (12,9), Farg‘ona (12,2), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (10,2), Toshkent (9,4)
Past daraja	Qashqadaryo (8,6), Navoiy (8,6), Jizzax (5,5), Sirdaryo (2,9), Toshkent sh. (2,7)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, aholi shaxsiy jamg‘armalarini oshirish hamda ularning investitsiya resurslariga aylanishini rag‘batlantirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Aholi shaxsiy jamg‘armalari va investitsiyalarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarini ilgari surish mumkin:

1) aholida shaxsiy jamg‘arma hosil qilish va uni ko‘paytirish ko‘nikmasini rivojlantirish, mazkur jarayonga undovchi avtomatik dastaklarni shakllantirish;

2) shaxsiy jamg‘armani to‘g‘ri va samarali sarflash ko‘nikmasini shakllantirish;

3) jamg‘armaning investitsiyaga aylanish jarayonlarini soddalashtirish, zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Aholi ixtiyoridagi bo‘sh pul mablag‘larni daromad keltiruvchi jarayonga jalb etish ko‘nikmasini shakllantirishda ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanib, uni harakatga keltiruvchi kuch sifatida iqtisodiy manfaatdorlik xizmat qilishi lozim.

Xulosa

Aholi shaxsiy jamg‘armalari va investitsiyalarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan aholida shaxsiy

jamg‘arma hosil qilish va uni ko‘paytirish ko‘nikmasini rivojlantirish, mazkur jarayonga undovchi avtomatik dastaklarni shakllantirish; shaxsiy jamg‘armani to‘g‘ri va samarali sarflash ko‘nikmasini shakllantirish; jamg‘armaning investitsiyaga aylanish jarayonlarini soddalashtirish, zarur shart-sharoitlarni yaratish kabi yo‘nalishlarini ,belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Л.Ю. Рыжановская, 2010 Национальное агентство финансовых исследований [Электронный ресурс].
2. Remund D. Financial literacy explicated: the case for a clearer definition in an increasingly complex economy. Journal of Consumer Affairs, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 276–295
3. Обилов Миркомил Рашидович “Аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш методологияси” Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 4-son 160B
4. Sen A.K., Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. https://www.livelib.ru/book/1006054312
5. Артемьева С.С., Митрохин В.В. Оценка финансовой грамотности российской и зарубежной молодежи и рекомендации по ее повышению. / ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ. Т. 22. № 1. 2018. С. 46.
6. Чаплинска А. “Оценка финансовых знаний молодежи в Латвии”. Банкаўскі веснік, ЛІСТАПАД 2019. С. 47.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2021 йил 13 апрель, ПФ-6207-сон. – www.lex.uz
8. To‘rayeva, G. (2023). Iste'mol savatida g'alla yetishtirish barqarorligining ahamiyati. E3S Web *of Conferences da* (420-jild, 01019-bet). EDP fanlari.
9. Gulizahro, T., Feruza, B., Diyora, Q. C., & Ma'mur, U. (2023). Korxonalar buxgalteriya hisobini yurutishda uzoq muddatli aktivlarning o ‘rni va ahamiyatli. *" Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi*, *2*(10), 48-50.
10. Turayeva, G., Berdiyev, G., Eshpulatov, D., Alimova, D., Odilbekov, A., Davletova, D., ... & Burxanov, A. (2022, December). OPPORTUNITIES TO USE FINANCIAL SERVICES–“1 C PROGRAM”. In *Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems* (pp. 556-561).

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ИМПОРТ ЎРНИНИ БОСУВЧИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Тошбоев Бекзод Бахтиёрович

(PhD), катта ўқитувчи, Гулистон давлат университети, +99897 247-75-83, bek_gdu@bk.ru

Аннотация: *Мақолада импорт ўрнини босувчи саноат сиёсатини такомиллаштиришнинг йўналишлари ўрганилган. Муаллифлар томонидан Ўзбекистон республикасида импорт ўрнини босувчи иқтисодий сиёсатнинг зарурияти, хусусиятлари ва устувор йўналишлари назарий жиҳатдан тадқиқ этилиб, эконометрик усуллар асосида Ўзбекистон республикасининг импорт ўрнини босувчи иқтисодий модели таклиф этилган.*

Калит сўзлар: *модель, маҳаллийлаштириш, экспорт, импорт, саноат, импорт ўрнини босиш, асосий капитал, инвестиция, регрессия, корреляция.*

Кириш. Жаҳон ҳамжамияти мамлакатларида бозор иқтисодиётининг ривожланиши ижтимоий-иқтисодий ривожланишни рағбатлантиришнинг турли усуллари билан тавсифланадиган иқтисодий ривожланишнинг реал моделларини яққол кўрсатиб берилган. Бундай моделлар орасида Америка модели, Япон модели, Германия модели, Швед модели, Француз модели ва Жанубий Корея моделларини алоҳида ажратиб кўрсатишимиз мумкин.

Ривожланишнинг Америка модели давлат мулки улушининг пастлиги ва давлат томонидан тартибга солиш даражасининг аҳамиятсизлиги, тадбиркорликнинг барча усул ва воситалар билан қўллаб-қувватланиши (қарийб 80% янги иш ўринлари кичик бизнес томонидан яратилади), бой ва камбағал аҳоли қатламлари ўртасида кескин фарқланишнинг мавжудлиги,

кам таъминланган аҳоли қатламлари ҳаёт даражасининг бошқа мамлакатларга нисбатан бир мунча юқори эканлиги ва шу каби жиҳатлар билан ажралиб туради[1].

Ривожланишнинг япон модели ижтимоий йўналтирилган бўлиб, миллий иқтисодиётнинг асосий соҳаларига юқори даражада давлат аралашувини, иқтисодий ривожланиш режаларини тузишни ва иш ҳақи даражасида унча катта бўлмаган фарқланишни таъминлайди[2].

Германиянинг иқтисодий ривожланиш модели ҳам ўзининг ижтимоий йўналиши билан ажралиб туради ва иқтисодиётга давлатнинг юқори таъсирини, асосий макроиқтисодий кўрсаткичларни прогноз қилишни, иш ҳақи даражасидаги кичик фарқларни ва бошқалар билан тавсифланади[3].

Швед модели иқтисодий ривожланишнинг бир мунча муваффақиятли ижтимоий йўналтирилган модели ҳисобланади, у миллий даромадни тақсимлаш орқали мулкий тенгсизликни камайтириш, кам таъминланган аҳоли қатламлари тўғрисида қайғуриш, нархни шакллантириш жараёнида давлатнинг фаол аралашувинини таъминлаш (қатъий белгиланган нархларни ўрнатиш) ва давлат секторининг миллий иқтисодиётдаги юқори улуши билан тавсифланади[4].

Бундан ташқари, Францияниг иқтисодий ривожланиш модели ҳам алоҳида қизиқиш уйғотади, у давлатнинг юқори тартибга солувчи роли (беш йиллик ривожланиш режалари тузилади), кенг кўламли давлат тадбиркорлиги ва капитални жамғариш жараёнига давлатнинг фаол аралашуви билан ажралиб туради[5].

Муваффақиятли модел нуқтаи назаридан Жанубий Кореянинг иқтисодий ривожланиш модели энг катта қизиқиш уйғотади. Жанубий Кореянинг ривожланиш модели ижтимоий-иқтисодий ривожланишни режалаштиришдан кенг фойдаланади, кредит-молия соҳасида универсал назоратни амалга оширади, давлат экспортни рағбатлантириш ва импортни чеклаш орқали ташқи иқтисодий соҳани тартибга солади.

Жанубий Кореяда импорт ўрнини босиш стратегиясининг амалда қўлланилиши енгил ва озиқ-овқат саноатини қисқа вақт ичида ривожлантириш имконини берди. Иккинчи босқичда улар ички бозорга унчалик ҳам катта эътибор қаратмаган ҳолда, оғир саноатни ривожлантириш ва жаҳон бозорига чиқишга интилдилар. Мазкур мамлакатда импорт ўрнини босиш сиёсати аста-секин экспортга йўналтирилган ишлаб чиқаришларни қўллаб-қувватловчи иқтисодий сиёсатнинг муҳим ташкил этувчисига айланди. Бу хил силлиқ ўтишнинг ўзига хос жиҳати шундаки, янги маҳсулотлар яратилгач, уларни дарҳол ташқи бозорларга таклиф этишга ҳаракат қилишди. Импорт ўрнини босиш ва ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш Жанубий Кореяга қолоқ мамлакатлардан илғор мамлакатлар қаторига ўтиш имконини берди[6].

Таҳлил ва натижалар. Тадқиқот ишида, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришга таъсир қилувчи омиллар эконометрик таҳлил қилиниб 2026 йилга қадар прогноз кўрсаткичлар ишлаб чиқилган. Ўзбекистонда импорт ўрнини босувчи маҳсулотларни ишлаб чиқаришни рағбатлантириш ҳукумат дастурларининг асосий йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда. Саноат ишлаб чиқаришига таъсир этувчи асосий омилларни аниқлаш ва унинг турли хил иқтисодий салоҳият даражасидаги прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш учун, саноат ишлаб чиқаришига асосий 10 та омиллар таъсир қилиши тўғрисидаги гипотеза илгари сурилган: Саноатда оралиқ истеъмол ҳажми, млрд.сўм; Товарлар ва хизматлар экспорти, млн.дол; Товарлар ва хизматлар импорти, млн.дол; Саноатда электр энергия истеъмоли млн. кВт. Соат; Асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар, млрд.сўм; Қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг ҳажми, млрд.сўм; Инновациялар жорий қилган корхона ва ташкилотлар сони; Корхона ва ташкилотларда шахсий компьютерларнинг (серверлардан ташқари) мавжудлиги; Интернетга уланган корхона ва ташкилотлар улуши фоизда; ИТТКИ га харажатлар жами, млн.сўм. Шубҳасиз барча омиллар саноат ишлаб чиқаришига қандайдир даражада ўз таъсирини кўрсатади.

Тадқиқотда барча 10 та омилларнинг саноат ишлаб чиқаришига биргаликдаги таъсирини аниқлаш учун кўп сонли корреляция усулидан фойдаланиб қуйидаги натижалар олинган,

$$R_{j,1,2,\dots j-1,j+1,\dots k} = \sqrt{1-\frac{|R|}{R_{jj}}} \qquad F_{набл} = \frac{R^2\cdot(n-k)}{(1-R^2)\cdot(k-1)}$$

(3) (3.4)

Шундан R = -8,01782E-14 R_{11} = 2,60806E-11 демак, R_1 = 0,998

1-жадвал.

Регрессион таҳлил натижалари

	Коэффициент	*т-статистика*	*п-значение*	
Сонст	101726	2,596	0,0318	**
X2	−6,04946	−2,281	0,0520	*
X5	1,86770	20,39	<0,0001	***
X7	−14,6126	−1,159	0,2797	

Среднее завис.перемен	169905,1	Ст. откл. завис.перем	141492,6
Сумма кв. остатков	1,50e+09	Ст. ошибка модели	13701,52
Р-квадрат	0,993180	Исправ. Р-квадрат	0,990623
Ф(3, 8)	601,5937	Р-значение (Ф)	9,32e-10
Лог.правдоподобие	−128,8976	Крит. Акаике	265,7952
Крит. Шварца	267,7349	Крит. Хеннана-Куинна	265,0771
параметр рҳо	−0,197991	Стат. Дарбина-Уотсона	1,716865

Тадқиқот давомида, сонли корреляция коэффициенти жуда юқори даражада боғлиқликни намоён этаётган. Бироқ, ушбу коэффициенти аҳамиятлилик даражасини Фишер тестида текширилганда $F_{кузатилган}$ (72,1) < $F_{жадвал}$ бўлиб, ушбу коэффицииент аҳамиятсиз эканлигини кўрсатди.

Демак, ушбу кўрсаткичларнинг биргаликдаги таъсири аҳамиятсиз, лекин алоҳида омиллар Y ўзгарувчига таъсир этмаслиги тўғрисидаги 0 гипотезани қабул қилиб бўлмаслиги сабабли, регрессион таҳлилни амалга ошириш учун аввал Y ўзгарувчига таъсир этувчи экзоген омиллар мултиколлениарликка текширилиб, улар орасидаги, товар ва хизматлар экспорти (X_2), Асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар (X_5) ва инновациялар жорий этилган корхоналар сони (X_7)да мультиколлениарлик кузатилган.

Натижада ушбу омиллар регрессион модел тузишдан олиб ташланган. Регрессион таҳлил давом эттирилиб натижада (1-жадвал), (X_2) ва (X_5) омиллар тўғирланган, R квадрат 0.990, P қиймат мос равишда 0.05 ва 0.0001 қийматларга эга бўлган, демак, товарлар ва хизматлар экспорти ва асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар ҳажми санаоат ишлаб чиқариш ҳажмига ва бевосита импорт ўрнини босишга энг кўп таъсир кўрсатган, яъни экспортнинг бир бирлик ортиши саноат ишлаб чиқаришнинг 6.05 бирликка пасайтирган, асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар ҳажми бир бирликка ортиши, саноат ишлаб чиқаришни 1.87 бирликка ошириши мумкин. Олинган модел қуйидагича акс этан.

$$Y = 101\ 726 – 6{,}049X2 + 1{,}867X5 – 14{,}612X7+C$$



1-диаграмма. Прогноз ва ҳақиқий кўрсаткичларни солиштириш (соноат маҳсулотлари ҳажми)

График маълумотлари моделнинг ва Y нинг ҳақиқий кўрсаткичлари юқори мосликни кўрсатган (1-диаграмма), шунинг учун ушбу омилларни таъсирида ўзгаришини ишончли прогноз қилишга имкон берган. Бунинг учун X_2 ни тренд таҳлили ёрдамида 2026 йилга қадар

бошқа омиллар ўзгаришсиз қолиб, X_2 ва бошқа омиллар ўзгаришсиз қолиб X_5 ларда тренд сақланиб қолганда прогноз кўрсаткичларини аниқланган (2-жадвал).

2-жадвал

Саноат маҳсулотлари ҳажми прогнози

Йил	Товарлар ва хизматлар экспорти, млн.дол	Саноат маҳсулот ҳажми млрд.сўм (прогноз)	Асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар, млрд.сўм	Саноат маҳсулот ҳажми млрд.сўм (прогноз)
2022	15590,3	438006,6	2059622	3830861,9
2023	15809,6	436679,8	2080423	3869711,9
2024	16028,9	435352,9	2101224	3908561,9
2025	16248,3	434026,1	2122025	3947412,1
2026	16467,6	432699,3	2142826	3986262,1

Импорт тузилмаси ва унга таъсир кўрсатувчи омиллар таҳлили маҳаллийлаштириш механизмининг асосий қисмларидан бири ҳисобланади.

Турли мамлакатлар ривожланишининг кўриб чиқилган моделлари уларнинг турли устувор йўналишларга эга бўлиши мумкинлигини кўрсатади, бу бизнинг фикримизча ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасига боғлиқ ҳолда, муайян бир мақсадларга эришилишини кўзда тутади.

3-жадвал.

Ўзбекистонда иқтисодиёт тармоқларининг ялпи қўшилган қиймати таҳлили[7]

Йиллар	**Тармоқларнинг ялпи қўшилган қиймати (млрд. сўм)**	**Саноат (қурилишни қўшган ҳолда) ялпи қўшилган қиймати (млрд. сўм)**
2014	168 449,10	41234,9
2015	201 204,00	49849,2
2016	232 990,40	58545,9
2017	282 684,40	74799
2018	379 152,90	117905
2019	484 128,70	166698,6
2020	557 831,50	190736,4
2021	681 423,70	235408,9

Мамлакатимизда иқтисодий тараққиётнинг ҳозирги босқичи учун ижтимоий-иқтисодий ривожланиш моделлари орасида импортга қарамлик даражасини камайтириш билан биргаликда маҳаллий ишлаб чиқаришни ривожлантиришни таъминлаётган моделлар алоҳида қизиқиш уйғотади.

Бошқача айтганда, ҳозирги шароитда мамлакатимизда импорт ўрнини босувчи ривожланиш модели зарур. Бироқ, импорт ўрнини босиш моделини танлаш ва ишлаб чиқишда жуда эҳтиёт бўлиш ва мамлакатнинг барча ўзига хос хусусиятлари ва имкониятларини (табиий ва иқлим шароитлари, мамлакатнинг географик жойлашуви, ички ишлаб чиқаришнинг ривожланиш даражаси, мамлакатнинг ишлаб чиқариш омиллари билан тўйинганлиги, миллий иқтисодиёт тармоқларининг ҳақиқий салоҳияти) ҳисобга олиш талаб қилинади.

4-жадвал.

Регрессия тенгламаси (статистикаси таҳлили)

Регрессионная статистика	
Множественный R	0,998323799
R-квадрат	0,996650407

Нормированный R-квадрат	0,996092141
Стандартная ошибка	11594,12049
Наблюдения	8

Юқоридаги маълумотларни (4-жадвал) Microsoft Excel дастури асосида таҳлил қилиш саноат (қурилишни қўшган ҳолда) ялпи қўшилган қийматининг бир бирликка ўсиши R квадрат 0,996 даражада тармоқларнинг ялпи қўшилган қийматини 2,53 бирликка ортишига олиб келишини кўрсатди ёки саноатда (қурилишни қўшган ҳолда) яратилаётган ялпи қўшилган қийматнинг 1,0 млрд. долларга қўшимча ўсиши ўз навбатида миллий иқтисодиёт тармоқ ва соҳаларида яратилаётган ялпи қўшилган қийматнинг 2,53 млрд. долларга кўпайишини таъминлайди, деган хулосага келиш имконини беради.

Эконометрик, хусусан дисперсион ва коэффициентлар таҳлилидан фойдаланган ҳолда, саноат корхоналаридан импорт ўрнини босиш самарадорлигини баҳолашга хизмат қилувчи қуйидаги модел кўринишига эга бўлди:

$$Y=77274,36+2,533*X1$$

Мазкур ёндашувдан фойдаланган ҳолда, Республикада саноатни истиқболли ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш мумкин бўлади. Иқтисодий муносабатлар тизимининг ҳар томонлама ривожланиши шароитида глобализация жараёнларини кенгайтириш, иқтисодий хавфсизлик борасида турли ички ва ташқи таҳдидларни бартараф этиш, ижтимоий-иқтисодий ривожланишни таъминлашга миллий ишлаб чиқаришни қўллаб-қувватламасдан эришиб бўлмайди. Айнан шу сабабли, импорт ўрнини босиш мамлакатнинг зарур товарлар ва хизматлар билан ўз-ўзини таъминлаш стратегияси сифатида давлат дастурларида ўз аксини топиши керак. Мамлакатимизда амалга оширилаётган импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришларни ташкил қилиш ва м**аҳаллийлаштириш дастурларининг асосий мақсади -** Ўзбекистон Республикасида экспортга мўлжалланган ва импорт ўрнини босадиган рақобатбардош замонавий маҳсулотлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, маҳаллий хомашё ва минерал ресурслар негизида ички ва ташқи бозор талабларига жавоб берадиган маҳаллий маҳсулотларни ишлаб чиқаришни рағбатлантиришдан иборатдир. Шу билан бирга дастур доирасида ички тармоқ ва тармоқлараро, шу жумладан республиканинг кичик бизнес ва йирик корхоналари ўртасидаги саноат кооперациясини кенг йўлга қўйиш ва уни янада мустаҳкамлаш кўзда тутилган. **Т**аъкидлаш лозимки, импорт ўрнини босиш стратегиясини амалга ошириш учун илмий асосланган дастурларни ишлаб чиқишнинг зарурий шарти - бу миллий иқтисодиётнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олишдир ва шундан кейингина, импорт ўрнини босувчи механизмлар протекционистик чора-тадбирлар билан биргаликда муваффақиятли амалга оширилиши мумкин.

Ўзбекистон ҳозирча иккинчи даражали импорт ўрнини босишга даъво қилмайди. Импортнинг товар таркибига кўра, унинг маълум қисми саноат мақсадларида ишлатиладиган хомашёлардан иборат. Қисман импорт ўрнини босиш, импорт қилинган ёки маҳаллий ресурслар ва хомашёлардан маҳсулот ишлаб чиқариш орқали биз юқори қўшилган қиймат занжирига эга бўламиз. Бундан ташқари, бизнинг эмпирик таҳлилимиз шуни кўрсатдики, Ўзбекистон Республикасида фойдаланилмаган ишлаб чиқариш имкониятлари жуда катта. Мавжуд ишлаб чиқариш потенциалидан кенг фойдаланиш борасида импорт ўрнини босувчи саноат ва маҳаллийлаштириш сиёсати мамлакатнинг самарали ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг ягона йўлидир.

Импорт ўрнини босувчи ривожланиш стратегиясидан муваффақиятли фойдаланишда, биз ўзимизнинг салоҳият ва амалий кўникмаларимиз бўлган товарларни ишлаб чиқаришга эътибор қаратишимиз мақсадга мувофиқдир.

Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолатини ва унинг ўзига хос хусусиятларининг эмпирик таҳлилини ҳисобга олиб, биз импорт ўрнини босувчи иқтисодий ўсиш моделини мантиқий диаграмма шаклида тақдим этишга ҳаракат қиламиз (1-чизма).

Бу схематик моделнинг мантиқий мазмуни унинг тизимли ва мажмуавий тавсифга эга эканлигидан иборатдир. Импорт ўрнини босувчи иқтисодий ўсишнинг таклиф этилаётган моделимизнинг тизими ва мураккаблиги шундаки, ҳар бир қайд этилган чора-тадбирларнинг

бир пайтда қўлланилиши шароитидагина, ижобий натижага эришишимиз мумкин. Фақат интеграциялашган ёндашув орқали, самарали импорт ўрнини босувчи иқтисодий ўсишни таъминлашимиз мумкин. Бундай ёндашув қайд этилган тадбирларнинг якка ҳолда қўлланилиши ижобий натижа бера олмаслиги билан изоҳланади. Таклиф этилаётган моделни мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш нуқтаи назаридан асослаб беришга ҳаракат қиламиз.



1-чизма. Ўзбекистон Республикасининг импорт ўрнини босувчи иқтисодий модели (муаллифлар ишланмаси)

Биринчидан, давлат мустақиллиги қўлга киритилиб, бозор ислоҳотларини амалга оширишга киришилгач, мамлакатимизда рестрикцион пул-кредит сиёсати амалга оширилаб бошланди ва бу жараён ҳозиргача давом этиб келмоқда. Шу боис, импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришларни ташкил этишга асосланган саноат сиёсатини рағбатлантириш мақсадида пул-кредит сиёсати механизмларини юмшатишни таклиф қиламиз. Ишлаб чиқариш

корхоналари учун тақдим этилаётган банк кредитлари ўз табиатига кўра, импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришларни рағбатлантиришда билвосита омил вазифасини ўтайди.

Иккинчидан, мақбул чегаралар доирасида селектив протекционизм чора-тадбирлари мамлакатимизда ишлаб чиқариш имконияти мавжуд бўлган муайян товарларни маҳаллий даражада ишлаб чиқаришни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш имкониятини беради. Бизнинг фикримизча, озиқ-овқат саноати, фармацевтика саноати давлат томонидан қўллаб-қувватлашга ҳар қачонгидан кўра муҳтож. Шу сабабли, селектив протекционистик чора-тадбирларнинг амалга оширилиши мавжуд вазиятни ижобий томонга буришга хизмат қилади.

Учинчидан, селектив протекционизм чораларини амалиётда қўллаш ва унинг натижасида кўзланган натижаларга эришиш ушбу чора-тадбирлар қўлланилаётган маҳсулотларга нисбатан импорт квоталари қўлланилганда янада самаралироқ ҳисобланади. Бунинг учун ушбу товарларга бўлган ички талаб ҳажмини, бу талабни қондиришдаги маҳаллий ишлаб чиқариш улушини аниқлаш ва етишмаётган қисмини импортнинг оқилона ҳажми ҳисобига қоплаш лозим. Бошқа томондан, импорт протекционизмининг юқори даражасидан ҳамма тармоқларда бирдек қўллаб бўлмайди: тармоқларни ҳимоя қилиш қатъий тартибда селектив бўлиши ва тартибга солишнинг бозор нуқсонларига асосланган бўлиши лозим. Бошқача қилиб айтганда, номукаммал бозор шароитида зарар кўрувчи тармоқ ва соҳаларни қўллаб-қувватлаш талаб этилади[8]. Импорт ўрнини босиш режалаштирилган маҳсулотлар учун импорт квоталарнинг белгиланиши биз томонимиздан таклиф этилган чора-тадбирлар билан биргаликда маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг маҳаллий бозорлардаги ўрнини мустаҳкамлаш ва уларни истиқболда хориж бозорларига олиб чиқиш имконини беради.

Тўртинчидан, мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш билан боғлиқ бозор ўзгаришлари натижасида ўз фаолиятини тўхтатган ёки белгиланган тартибда ишламаётган мавжуд корхоналарнинг ишлаб чиқариш фаолиятини қайта тиклаш борасида уларни тиклаш бўйича зарур чораларни кўриш керак. Ушбу чора-тадбирлар ишлаб чиқаришни модернизация қилиш жараёнини ўз ичига олади.

Бешинчидан, қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС) дан озод қилиш шаклида импорт ўрнини босувчи корхоналар (тармоқлар)ни фискал рағбатлантириш импорт ўрнини босувчи маҳсулотлар ишлаб чиқариш билан шуғулланувчи корхоналарнинг хорижий корхоналарга нисбатан рақобат мавқеларини мустаҳкамлашга хизмат қилади. Нарх рақобатида рақобат устунликларини қўлга киритиш орқали бу корхоналар ишлаб чиқариш кўламини кенгайтириш учун бир қатор рағбатга эга бўладилар. Пировардида бу тадбирлар маҳаллий ишлаб чиқариш ривожига кучли ижобий таъсир кўрсатади. Шуни таъкидлаш керакки, импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришни рағбатлантиришнинг ушбу молиявий механизмлари узоқ муддатли эмас, балки қисқа ва ўрта муддатли тавсифга эгалиги билан ажралиб туради.

Олтинчидан, хомашёни қайта ишлаш босқичи даражасидан келиб чиққан ҳолда адекват божхона тариф сеткасидан фойдаланиш хомашёни чуқур қайта ишлаш ва юқори қўшилган қийматли маҳсулотлар яратишни рағбатлантиради. Бу йўналишда ҳам экспорт, ҳам импорт учун тариф ставкаларидан фойдаланишни зарур деб ҳисоблаймиз. Ушбу тадбирнинг моҳияти шундаки, хомашёни экспорт қилишда юқори божхона тарифларини қўллаш ва қайта ишлаш чуқурлашгани сари божхона тарифларини камайтириш лозим. Импортга келсак, тайёр маҳсулотлар импортига нисбатан юқори тариф ставкасидан фойдаланиш (импорт ўрнини босиш стратегияси қўлланилувчи товарлар учун) ва ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланилувчи ишлаб чиқариш техник аҳамиятга эга бўлган маҳсулотлар импорти учун божхона тарифларининг қуйи ставкаларини қўллаш (баъзи ҳолатларда бирламчи хомашёни бож тўловларидан озод қилиш) мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Бизнингча, маҳаллий ишлаб чиқаришнинг паст даражасини ҳисобга олган ҳолда, бундай чора-тадбирларнинг амалга оширилиши илгари импорт қилинган товарлар ишлаб чиқаришни қайта тиклаш ва кенгайтириш имконини беради. Шу жиҳатдан, хомашё, материаллар, ишлаб чиқариш ускуналари ва тайёр маҳсулотларни экспорт ва импорт қилиш учун божхона тарифлари сеткасини қўллаш орқали миллий иқтисодиётда юқори қўшилган қийматли маҳсулотларни яратишга пойдевор яратилади.

Еттинчидан, тайёр маҳсулотларни экспорт қилиш ва хомашё, материаллар ва саноат ускуналарини импорт қилишнинг устуворлиги мавжуд ишлаб чиқариш корхоналарини қайта тиклаш, илғор техника ва технологиялардан фойдаланган ҳолда янги ишлаб чиқаришларни

яратиш орқали саноатни кенг миқёсда ривожлантириш учун қўшимча рағбат бўлиб хизмат қилади.

Саккизинчидан, 1-чизмадаги мантиқий схемадан кўриниб турибдики, Ўзбекистон учун импорт ўрнини босувчи саноат сиёсатига асосланган иқтисодий ўсишнинг таклиф этилаётган модели ва кўриб чиқилган импорт ўрнини босишнинг намоён бўлиш шакллари аграр соҳани интенсив ривожлантиришни кўзда тутади. Бу ўз навбатида бугунги кунда мамлакатимизда қишлоқ хўжалигининг мавжуд салоҳиятидан тўлалигича фойдаланилмаётганлиги билан боғлиқдир.

Ушбу моделда кўзда тутилган барча чора-тадбирлар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ ва фойдаланиш жараёнида улар бир-бири билан ўзаро уйғунликда ижобий натижаларни бериши мумкин. Улардан бирининг яхши ишламаслиги, иккинчисининг мутлақо натижасизлигига сабаб бўлиши мумкин. Шу тариқа, шуни таъкидлаш жоизки, импортга қарамликнинг муайян даражаси билан ажралиб турувчи мамлакатимиз иқтисодиёти учун энг мақбул ривожланиш йўлларидан бири-бу импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришга асосланган саноат сиёсати ҳисобланади.

Хулоса. Биз томондан таклиф этилаётган модел мамлакатда саноат ишлаб чиқаришни ташкил этиш борасида тўпланиб қолган кўплаб муаммоларни ҳал қилишга имкон беради, хусусан ишсизликни қисқартириш, аҳолининг турмуш даражасини ошириш, меҳнат муҳожирларининг катта оқимини камайтириш, республиканинг импорт ва иқтисодий жиҳатдан ташқи мамлакатларга қарамлигини бартараф этиш ва ташқи иқтисодий хавфсизлик соҳасидаги мавқеини мустаҳкамлашга бевосита хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Виктор Супян Американская модель экономики. Характерные черты и современные особенности «Экономические стратегии- Центральная/ Азия», №4-2007, стр.20-29

2. https://zagranportal.ru/yaponiya/finansy-yaponiya/ekonomika-yaponii.html

3. https://economy-web.org/?p=377

4. https://cyberleninka.ru/article/n/osnovy-modeli-shvedskoy-ekonomiki/viewer

5. https://zagranportal.ru/franciya/finansy-franciya/ekonomika-francii.html

6.https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-respubliki-koreya-v-realizatsii-politiki-importozamescheniya/viewer

7. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2

8. https://centrasia.org/newsA.php?st=1067896440

QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA

Zaripov Azamat Djurayevich

Guliston davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi, Guliston, O‘zbekiston, zaripovazamat461@gmail.com, +998930431275

Maqola annotatsiyasi. *Maqola qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti yondashuvlarining rivojlanish nazariyasiga qo'shgan hissasi bo'yicha muhim tadqiqotdir. U iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyasiga, ishlab chiqarish nazariyasiga va o'sish va daromadlar tengsizligi o'rtasidagi bog'liqlik nazariyasiga yondashuvlarda qo‘llaniladigan asosiy yutuqlarni taqdim etadi.*

Bugungi kunda jahon qishloq xo‘jaligi yangi sharoitda inqirozni boshdan kechirayotgan bir paytda, jahon mamlakatlarida rivojlanayotgan fermer xo‘jaliklari tajribasini xolisona baholash va bundan zarur tavsiyalar berish muhim ahamiyatga ega.

Tayanch so‘zlar *davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, fermerlik iqtisodiyoti, fermerlik, jahon bozori, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, investitsiya, intensiv dehqonchilik, diversifikatsiya, ijtimoiy.*

Kirish (Introduction)

So‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va investitsiyalar oldidagi turli to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iyat timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunini samarali amalga oshirish uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va investorlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning 4 bosqichli mexanizmi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar rahbarlari o‘rinbosarlari va diplomatik vakolatxonalardan iborat. Chet el va tijorat banklari investorlarning barcha murojaatlariga tezkorlik bilan javob berish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi samaradorligini tegishli tarzda nazorat qilish imkonini bermoqda.

Bu borada Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ko‘magida tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining respublikada faoliyat yuritayotgan investorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni ta’minlovchi rolini alohida ta’kidlash lozim.

Davlat va mahalliy investorlar tomonidan qonun ustuvorligini hamda qabul qilingan majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini ta’minlaydigan xalqaro arbitraj sudlari institutini rivojlantirish ham faol qo‘llab-quvvatlanmoqda, bu esa mamlakatimiz investitsiya muhitining muhim va tizimli muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugun fermerlik rivoji yangi davrni boshdan kechirmoqda. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda ko‘plab yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, amaldagi fermerlik modeli ko‘plab muammolarni ko‘rsatmoqda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi oziq-ovqat xavfsizligi va sifati, miqdori, kelib chiqishi kabi ko‘p jihatlarda hamon past. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari, ichki cheklovlar va iqtisodiy zaifliklar bilan birgalikda, ko'plab mamlakatlar ushbu fermerlik modelini ishlab chiqishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, jahon qishloq xo‘jaligida tez o‘zgaruvchan texnologiyalar kabi kuchli o‘zgarishlar tufayli iqtisodiy integratsiya barcha uch iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda bozor standartlarini oshirishga, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligi fermer xo‘jaliklari uchun muhim bo‘ladigan muhitga olib kelmoqda.Ushbu maqolaning maqsadi fermer xo'jaliklarining samarali iqtisodiyotini rivojlantirish, o'zgaruvchan global bozorlar va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga javob berish uchun fermerlar va davlat idoralari o'rtasida aniq harakatlar va zarur muvofiqlashtirishni tavsiya qilishdir.

Olimlarning taxminlariga ko‘ra, 2050 yilga borib Er sayyorasi aholisi 9,6 milliardga etib, ularni oziq-ovqat bilan ta’minlash uchun bugungiga nisbatan mahsulot ishlab chiqarishni 60 foizga oshirish zarur bo‘ladi.

Agar xorijiy tendentsiyalarga e’tibor bersak, har yili 1 mln. aholiga to‘g‘ri keladigan yaratilgan innovatsiyalar soni (xorijiy patent idoralarida tan olingan): AQSh da – 261,7; Yaponiyada – 213,0; Germaniyada – 206,3; Frantsiyada – 171,9; Rossiyada – 1,3 ni tashkil etmoqda [4].

Asosiy qism

Mavzuni o‘rganilganlik darajasi

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida dehqonchilikni rivojlantirish nazariyasi Yangi sharoitda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan dehqonchilikni rivojlantirish nafaqat hudud, balki viloyat va butun xalq xo‘jaligi uchun muhim tarkibiy qismlardan biridir. Bir tomondan, fermerlikning rivojlanishi hosildorlikni oshiradi, fermerlar daromadini oshiradi, ikkinchi tomondan, intensiv dehqonchilikning yuqori ixtisoslashgan sohalarini shakllantiradi, aholi bandligini oshiradi, qishloq xo'jaligi va qishloq iqtisodiyotining yuksalishiga yordam beradi. V.Rostouning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi deduktiv tarixiy model sifatida ham tanilgan [5, 6-9-betlar] iqtisodiy jarayonni besh bosqichga ajratadi: an’anaviy ijtimoiy bosqichlar tizimi, yuksalishga tayyorgarlik bosqichi, ko'tarilish bosqichlari (investitsiyalar tezligini yalpi milliy mahsulotning 5 dan 10 foizigacha oshirish), iqtisodiy kamolot yo'lidagi bosqich (investitsiyalarning yuqori darajasi, ko'plab o'sish qutblari paydo bo'ladi, iqtisodiyot strukturasi o'zgarmoqda) va yuqori iste'mol bosqichi. Ushbu bo'linish bilan rivojlanayotgan mamlakatlar hozirda 1-3 bosqichda. Uch iqtisodchining tadqiqot modeli qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jarayonini 3 bosqichga ajratadi.

1-jadval. Qishloq xo'jaligining bosqichma-bosqich o'sishi modelining fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanishida qo'llanilishi

	Tadqiqot nazariyasi asoslari	**Rivojlanish bosqichi**	**Dehqonchilikda qo'llanilishi**
Tod	Jahon	— Qishloq xo‘jaligi ishlab	Qishloq

aro MP [16]	mamlakatlarida qishloq xo'jaligining rivojlanish tarixini tahlil qilish	chiqarish bosqichi — Qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish diversifikatsiya qilish bo‘yicha qayta qurish bosqichi — Zamonaviy qishloq xo'jaligi bosqichi. Foyda olish uchun ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish	xo'jaligini rivojlantirish jarayoni pastdan yuqoriga qarab boradi, ammo zamonaviy qishloq xo'jaligining asosini miqyosning afzalliklariga asoslangan
Park S.S [15]	Ishlab chiqarish modeliga asoslanib, muallif rivojlanishning har bir bosqichi turli omillarga bog'liq bo'ladi, deb hisoblaydi	- Erta bosqich. Bu bosqichda sanoat sektori resurslaridan foydalanilmadi. - Rivojlanish bosqichi. Bu bosqichda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi sanoat tarmog‘i resurslarga bog‘liq bo‘ladi. - Rivojlanish bosqichi. Bu bosqichda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyalarga, bog'liq.	Bu model qishloq xo‘jaligining o‘sishiga ta’sir etuvchi omillardan biri miqyosning afzalligi, yer unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ko‘paytirish uchun resurslar.
Oshimm H.T [14]	Yevropa-Amerika mamlakatlariga nisbatan Osiyo davlatlarining turli xususiyatlaridan kelib chiqib, ikki soha (qishloq xo‘jaligi va sanoat) o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish.	- 1-bosqich, qishloq xo'jaligiga investitsiyalar, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va qishloq xo'jaligiga ishchi kuchini jalb qilish uchun keng ko'lamda rivojlantirish. - 2-bosqich qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishga investitsiyalar kiritish bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilishni davom ettirish. — 3-bosqich, ishchi kuchiga bo‘lgan talabni kamaytirish uchun iqtisodiyot tarmoqlarini chuqur rivojlantirish.	Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jarayoni uchun fermerlik va kooperatsiya shaklida yirik ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur.

A) Ishlab chiqarish nazariyasida “Ishlab chiqarish miqyosi ta’siri” R.S. Pindik va D. L. Rubinfeld [6] ishlab chiqarish hajmining o'sishini umumiy ishlab chiqarish hajmining o'sishiga nisbatan o'lchash uzoq muddatda ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini tushunish uchun juda muhim ekanligini ko'rsatadi. Samaradorlik oshadi, chunki ishlab chiqarish ikki baravar ko'payadi. Bu ishlab chiqarish ko‘lami kattaroq bo‘lganda sodir bo‘ladi, bu esa ishchilar va rahbarlarga o‘z vazifalariga ixtisoslashish va ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan yer va mashinalar, asbob-uskunalar, zavodlar, transport vositalari va hokazolardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Umumiy xulosa shundan iboratki, kam daromadli yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda fermer xo‘jaliklari hajmi va qishloq xo‘jaligi unumdorligi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud [7;]. Bu salbiy munosabatni tushuntirib, F.Ellis [8] kichik fermerlar kam imkoniyat mehnati xarajatlari va yuqori yer narxidan aziyat chekishini taklif qiladi. Binobarin, ular yerdan unumli foydalanib, yuqori hosil olishlari kerak. Texnik samaradorlik nuqtai nazaridan xo‘jalikning ishlab chiqarish ko‘lamining kengayishi yuqori mahsuldorlik va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish imkonini beradi. Biroq, miqyos ma'lum darajada oshganda, u ko'proq ishchilarni yollashga majbur bo'ladi va menejment va nazoratda samarasizlikka olib keladigan muammolarga duch keladi [9]. Aksincha, S.Simmons [10] dehqonlar o‘rtasida yerdan foydalanish samaradorligining past bo‘lishining sababi ishlab chiqarish ko‘lamining yetarli darajada katta emasligi, bu esa mashinalardan foydalanishga imkon bermasligini ta’kidlaydi. Boshqa tadqiqotlar

ham shuni ko'rsatdiki, rentabellik doimiy bo'lib qoladi yoki miqyosda ortib boradi, nisbiy omillar narxlarining o'zgarishi fermer xo'jaliklari hajmining o'sishida muhim rol o'ynaydi [11] .

Shuningdek yer hajmi va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha umumiy fikr mavjud bo‘lmasa ham, ko‘pchilik tadqiqotchilar mayda fermerlar yerlarini yirik ishlab chiqarishlar dehqonchilik tizimiga markazlashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlaydilar.

v) O'sish va daromadlar tengsizligi o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish kerak bo'lgan muhim masala. Torbek va Charumilind [12] iqtisodiy o'sish va daromad taqsimotidagi tengsizlik teskari U shaklida rivojlanadi - birinchi o'sish daromadning o'sishi bilan bog'liq. tengsizlik, keyin o'sish davom etadi, lekin tengsizlik kamayadi. Bu shuni anglatadiki, o'sib borayotgan tengsizliklarni fermer xo'jaliklari rivojlanishining boshida qabul qilish kerak, chunki samaraliroq fermer xo'jaliklari ko'proq er va kapital to'playdi va ko'proq foyda keltiradi. Aholi jon boshiga daromad ortib, tengsizlik kamayib ketganda rivojlanishning yuqori bosqichiga o‘tish uchun qanday qilib tez rivojlanish muammosi qoplaydi.Jahon bankining o‘sish nazariyasi daromadlarni qayta taqsimlash bilan birgalikda iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda o‘sishning foydasini ham kam ta’minlangan odamlarga qayta taqsimlash zarurligini ko‘rsatadi

Tahlil va natijalar

Fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanishi va qishloqda daromad taqsimotidagi tengsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni hal etish Jahon banki nazariyasiga asoslanishi kerak, deb hisoblaydi.

Bu iqtisodiy o'sishni tezlashtirish uchun dehqonchilikni rivojlantirishni jadallashtirishni anglatadi va shu bilan birga, dehqonchilikni rivojlantirishda u ham bo'linish muammosini hal qilishdan manfaatdor. Rivojlanish siyosati davlat byudjeti, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari kapitali kabi o'sish natijasida hosil bo'ladigan imtiyozlardan qishloq kambag'allari foyda ko'rishi mumkin bo'lgan sohalarga sarmoya kiritishga yo'naltirilishi kerak, masalan: infratuzilma (elektr energiyasi, toza suv, axborot, yo'llar va boshqalar); qishloq joylarida qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan kasblar; qishloq joylarda ta'limi va ta'lim markazlari; maktablar, sog'liqni saqlash xizmatlari.

Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullana olmaydigan uy xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan qishloq joylarda qishloq xo'jaligidan tashqari faoliyatga o'tkazilishi kerak. Zamonaviy yangi sharoitda qishloq joylarda agrosanoat majmualari shakllanib, rivojlanmoqda. Demak, bu qishloq xo'jaligi ishchilarini qishloq xo'jaligidan tashqariga ko'chirish imkoniyati bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lmagan uy xo'jaliklari kooperativ dehqonchilik modelida ishtirok etishlari kerak. Sarmoyasiz odamlar er va mehnatga hissa qo'shishlari mumkin; Qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritmoqchi bo'lgan sarmoyaga ega bo'lganlar o'z hissalarini qo'shishlari, texnik mutaxassislarni yollashlari va foydani kiritilgan kapital qiymatiga bo'lishlari mumkin. Bu model nafaqat miqyosdan foydalandi, balki kambag'al fermerlar yerlarini yo'qotmadi, barqaror ish joylariga ega bo'ldi va qishloq xo'jaligiga investitsiya resurslarini jalb qilish uchun ijtimoiylashuvni joriy qildi.

Xulosa va takliflar

2017-2022-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida agrar sektor ulushi bosqichma-bosqich pasaydi (32 foizdan 25 foizgacha), biroq ishlab chiqarishning barqaror o‘sish sur’atlariga erishildi. Keyingi 6 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 16 foizga (o‘rtacha yillik o‘sish – 2,5 foiz) oshib, 365 trillion so‘mga yetdi, bu sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar 8,5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

2022-yilda mazkur tarmoq yalpi ichki mahsulotning 25 foizini, investitsiyalarning 7 foizini, eksport tushumining 6 foizini va band aholining 25 foizini tashkil etdi, qishloq xo‘jaligi eksporti esa 1,1 milliard AQSh dollariga yetdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 62 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 32 foizi fermer xo‘jaliklari, 6 foizi qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda klaster tizimining joriy etilgani qisqa vaqt ichida bu borada sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga zamin yaratdi. 2017-yilda O‘zbekistonda 2 ta qishloq xo‘jaligi klasteri faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni 633 taga yetdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 134 ta paxta-to‘qimachilik, 200 ta g‘allachilik, 249 ta meva-sabzavotchilik, 42 ta sholichilik, 8 ta farmatsevtika klasterlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Samarali ishlab chiqarish fermerdan ishlab chiqarish omillarini ma'lum miqyosda jamlashni talab qiladi. Yuqorida aytilganlarning barchasi zamonaviy sharoitda fermer xo‘jaliklarining rivojlanishini ularning kooperatsiyasisiz va xo‘jalik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinmasdan turib amalga

oshirish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Bir qator dolzarb ustuvor yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash dasturlari, masalan:

1. Fermerlar va ular tuzayotgan qishloq xo‘jaligi kooperativlarini, ayniqsa, kichik fermer xo‘jaliklariga investitsiya manbalarini kengaytirish.

2. Xarid, ta'minot va marketing tuzilmalarini yaratishni rag'batlantirish, takror ishlab chiqarishda investitsiyani rivojlantirish.

3. Fermer xo‘jaliklarining global qiymat zanjiri va qiymat zanjirlari bilan bog‘lanishini rag‘batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.12.2017 y. Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili, lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2019-2021 yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasida to‘g‘risida”gi Farmoni. Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasida to‘g‘risida”gi 06.07.2022 yildagi PF-165-son Farmoni. Lex.uz.

4. Бурханов А.Х. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyon faoliyatni rivojlantirish – potensiyal imkoniyatlari. // Agroiqtisodiyot. 1 (27) 2023. 76-78-бетлар.

5. Ruttan, V.W. Growth stage theories, dual econoy models and agricultural development policy // Working Papers 244600, University of Guelph, Department of Food, Agricultural and Resource Economics. — 1968. — p. 1-28. — DOI: https://doi.org/10.22004 / ag.econ.244600

6. Pindyck, R.S, Rubinfeld, D.L. Microeconomics (6th Edition), Prentice Hall of India, 2004, -754p.

7. Benjamina, D. Can unobserved land quality explain the inverse productivity relationship? // Journal of Development Economics. — 1995. — vol. 46(1). — p. 51-81. – DOI: https://doi.org/10.1016/0304-3878(94)00048-Нн

8. Ellis, F. Peasant Economics: Farm households and Agrarian development (2nd Ed.). Cambridge University Press, Cambridge. 1993. 166p. URL:

9. Hayami, Y., Kawagoe, T. Farm mechanization, scale economies and polarization: the Japanese experience // Journal of Development Economics. — 1989. — vol. 31(2). — p. 221-239. – DOI: https://doi.org/10.1016/0304-3878(89)90013-8

10. Simmons, S. Land fragmentation in developing countries: the optimal choice and policy implication // Exploration in Economic History. — 1987. — vol. 25. — p. 254-262. – DOI: https://doi.org/10.22004 /ag.econ.183032

11. MacDonald, J.M., McBride, W.D. The Transformation of U.S. Livestock Agriculture: Scale, Efficiency, and Risks. Economic Information Bulletin 43. Economic Research Service, U.S. Department of Agriculture, Washington, DC. 2009. 46p. URL: https:// www. ers.usda. gov/webdocs /publications/ 44292/10992_ eib43.pdf?v=0.

12. Thorbecke, E., Charumilind, C. Economic Inequality and Its Socialeconomic Impact // World Development. 2002. vol. 30(9). p. 1477-1495.

SIRDARYO VILOYATINING OZIGA XOS XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Alimova Dilafruz

Guliston Davlat Universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sirdaryo viloyati iqtisodiy rivojlanishida investitsion muhitning roli va ahamiyati, 2021- 2023 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturining mazmuni, O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar markazlashgan moliyalashtirish manbalari, markazlashmagan moliyalashtirish manbalariga oid ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar,

xalqaro moliya institutlari tomonidan kiritilayotgan investitsiyalar, investitsiya jozibadorligini aniqlash uslubiyoti yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro kapital, investitsiya, investitsion muhit, investitsiya jozibadorligi, BERI indeksi, xalqaro savdo, xalqaro moliya institutlari.

Kirish. Har bir mamlakat, avvalo, iqtisodiy rivojlanishga, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishga harakat qiladi. Shu orqali makro va mikro muhitni rivojlantirishga, yalpi ichki mahsulotni oshirishga intiladi. Bunday keng ko‘lamli ishlarni bajarish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ham katta ahamiyat kasb etadi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadida, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish ko‘zda tutilgan.[1]

Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsion muhitning modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar to‘g‘risida aniq tushunchalarga ega bo‘lishi, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu jarayonlarning barchasi respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo‘lga qo‘yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida “Iqtisodiyotimizga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetganligini” e’tirof etib, 2023-yildagi eng ustuvor yo‘nalishlardan oltinchisi iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko‘paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilaymiz deb belgilab berdi. Bu esa xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhiti va uni jozibadorligini yanada oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi. [2]

Tadqiqot metodologiyasi. . Ilmiy maqolada respublikadagi investitsion muhit va uni jozibadorligini oshirish masalalarini atloflicha tahlil qilish, shuningdek, induktsiya va deduktsiya, tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy statistik kabi usullardan keng foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Investitsiya va investitsion jozibadorlikni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan bir qancha monografiyalar, ilmiy to‘plamlar, jurnallar va davriy matbuotda ko‘plab maqolalar chop etilgan, ularda bu sohada mavjud muammolarning turli jihatlari yoritib bepilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy investorlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini joriy etish, ularga erkin faoliyat yuritishlari uchun qulay imtiyoz va preferentsiyalar berish, umuman, investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda.[3] Bu borada qabul qilingan bir qator qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investorlar huquqlarini muhofaza qilishni kafolatlashda muhim dasturilamal bo‘lmoqda. Investitsion muhit, Respublikamizning iqtisodiyotini rivojlanish darajasini, shuningdek, investitsiya faolligining oshishiga olib keladi. Shuning uchun, chet el investitsiyalarini respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi zarurdir. [4]. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘grisida”gi qonunida “investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar”, deb keltirilgan.[5]

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda mamlakatimizda investitsion muhit va uning jozibardorligini yanada oshirish milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishida muhim o‘rin egallaydi. Buning asosiy sabablari bo‘lib quyidagilar:

birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlarining eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilash kerakligi;

ikkinchidan, sanoat tarmog‘i moddiy texnika bazasining pastligi, zarar ko‘rib ishlaydigan korxonalarning mavjudligi;

uchinchidan, mamlakatimizning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda koplab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligi;

to‘rtinchidan, qishloq hududlariga yaqin joylarda kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish zarurligi;

beshinchidan, respublikamizda ko‘plab tayyor mahsulot ishlab chiqarish zarurligi va boshqalar hisoblanadi. [6]

Fikrimizcha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolardan biri bu qulay investitsiya muhitining yo‘qligi, ya’ni xususiy mulk huquqlarini tartibga solish va himoya qilish sohasining takomillashtirish bo‘lib hisoblanadi. Bunday holat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini pasaytirishi mumkin

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan qishloq xo‘jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o‘zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo‘lgan investitsion muhitni yaratib berish kerak. Investitsion muhit iqtisodiyotda yangi tushuncha emas. Bir qator rivojlangan davlatlar bu jarayonni ijobiy tarzda amalga oshirgan. [7]Investitsion muhitning ahamiyati, amaliy jihatdan, qaysi boyliklar va yo‘nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat yuritishlari to‘g‘risida tushuncha beradi va shuning negizida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi. Har qaysi investor ma’lum bir mamlakat va uning hududiga investitsiya kiritishdan avval o‘sha mamlakat va hududning investitsiya muhitini baholash, uning jozibadorligini aniqlashga kirishadi. Albatta, bunda yuqorida ko‘rib o‘tilgan omillar o‘rganiladi, tahlil qilinadi va shu asosda investitsiya qarorlari qabul qilinadi.[8]

Viloyatimiz investitsion jozibadorligini oshirish bir qancha omillarga, ya’ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, tashkiliy-huquqiy va jugrofiy omillarga bog‘liqdir. Ushbu omillardan kelib chiqib, mamlakatlar investitsion muxitini tahlil qilidigan bo‘lsak, investorlar mamlakatga investitsiyalarni kiritish yoki kiritmaslik to‘g‘risida birinchi navbatda to‘g‘ri va izchil qaror qabul qilish kerak.

Jahon banki tomonidan har yili e’lon qilinadigan “Doing Business” hisobotida turli mamlakatlarning 6700 dan ortiq ekspertlari tomonidan 189 ta mamlakatning biznesni yuritish bo‘yicha (jami 10 indikatori) reytingi e’lon qilib boriladi. Jahon banki tomonidan e’lon qilib boriladigan reytingda biznesni ochish va uni yuritish bo‘yichadavlat tomonida yaratilgan ma’muriy taomillar o‘rin olgan bo‘lib, unda ham mamlakatning iqtisodiy potensialiga tegishli bo‘lgan asosiy omillar (bozor hajmi, ishchi kuchining narxi va b.), shuningdek, potensial investor duch kelishi mumkin bo‘lgan xavflar inobatga olinmagan (1-jadval)

1-jadval

Investorlar uchun investitsion muhit va mamlakatlarning jozibadorligini namoyon etadigan reytinglar

Reyting	Reytingni tuzuvchi tashkilotlar	Baholanadigan parametrlar	Axborotlar manbai
Biznesni yuritish	Jahon banki	Biznesni yuritish uchun huquqiy muhit	Statistik va huquqiy axborotlar, ekspertlardan so‘rovnomalar
Global raqobatbardoshlik indeksi	Butunjahon iqtisodiy forum	Mamlakatlarning ijtimoiyiqtisodiy parametrlari	Statistik axborotlar va kompaniya rahbarlaridan so‘rovnomalar
Davlatlarning faoliyatsizlik indeksi	Tinchlik uchun jamg‘armasi	Mamlakatda istiqomat qilayotgan insonlar va faoliyat yuritayotgan kompaniyalar uchun	Axborotlarni to‘plash va tahlil qilishning ichki tizimi

		mavjud xavflar	

Mazkur reytingda aks etgan barcha ko‘rsatkichlarni ham mukammal deb bo‘lmaydi, albatta. Ularda quyidagi muhim omillar: makroiqtisodiy siyosat, infratuzilmalarning sifati, ishchi kuchining malakasi, valyuta kurslarining tebranib turishi, investorlarning fikri, korrupsiyaning xavfi va uning darajasi bilan bog‘liq omillar aks etmasdan qolgan.[9]

Investitsiya muhitining har tomonlama, chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya tavakkali aniqlanadi. Investitsiya muhiti va tavakkal darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Ya’ni investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investorning tadbirkorlik tavakkali shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko‘paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo‘lsa, tavakkal darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomonning sarf-harajatlari o‘sishiga olib keladi.[10]

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib borayotgani investitsiya muhitining qulayligidan dalolat beradi.Xususan Sirdaryo viloyatida bunday investitsiya holati iqtisodiy o‘sish texnologik darajasini tezkor o‘zgartirish imkoniyatini berib kelmoqda. Ko‘plab ekspertlarning fikrlariga qaraganda, o‘sish sur’atlarini yanada oshirib borish taqozo etilmoqda. Investitsiyalarning bunday o‘sish sur’atlari investorlar uchun qulay muhit yaratilganligi, investitsiya dinamikasi va tarkibiga ta’sir ko‘rsatadigan jami iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Xususan, investitsiyalar importining oshib borayotganligi ham bundan dalolat berib turibdi. Ijobiy investitsiya muhitini yaratish vazifasini hal qilgan holda iqtisodiyotning globallashuvi jahonda mavjud investitsiya resurslaridan foydalanishni kengaytirgan holda shu orqali investitsiya retsipiyentlari o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirishini ko‘zda tutish muhim. Mos ravishda, agar biz tashqaridan qo‘yilmalar hajmini oshirishni xohlasak, ular uchun raqobatchilardan ko‘ra yaxshiroq sharoitlarga ega bo‘lishimiz kerak. Bunda nafaqat xorijiy, balki milliy investitsiya resurslari ham ko‘zda tutilmoqdaki, ularning chet elga «oqib ketishi» ular uchun o‘z mamlakatida yaratilgan muhit unchalik qulaymasligini ko‘rsatadi. Mintaqalar investitsiya muhitining mazmuni quyidagilar hisoblanadi: [11]

- ob’ektiv omillar;
- iqtisodiyotning turli darajalari bo‘yicha investitsiya muhitini tabaqalashtirish;
- milliy iqtisodiyot investitsiya muhitining mintaqalar investitsiya muhitlari majmuiga olib kelmasligi (sinergizm xossasi);
- mintaqa iqtisodiy tizimiga investitsiya muhitini kiritish;
- ma’lum sharoitlar oqibati sifatida turli risklarning vujudga kelishi.

Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8 milliard 100 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o‘rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o‘rnini to‘ldirish imkoniyatiga ega. Shu bilan bir qatorda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yo‘naltirilmaganligini ham ko‘rishimiz mumkin. 2022-yilda 9 milliard 500 million dollardan ziyod to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalarni o‘zlashtirish, 282 ta yirik va 9 mingdan ortiq hududiy loyihalar ishga tushirish mo‘ljallangan. Eksport hajmini 14 milliard dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan.[12]

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagicha bo‘lgan: asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami investitsiyalar – 245 trln. so‘m, markazlashgan investitsiyalar – 44,8 trln. so‘m, markazlashmagan investitsiyalar – 200,2 trln. so‘m, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar – 104,5 trln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 17,3 trln. so‘m, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 87,2 trln. so‘m bo‘lgan. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritmoqda. Strategik rivojlanish agentligi rahbari o‘rinbosari Aleksey Simning «Iqtisodiy sharh» nashriga bergan intervyusida bergan ma’lumotlariga ko‘ra 2021-yilda O‘zbekistonga eng ko‘p quyidagi davlatlar investitsiya kiritgan: Xitoy – 2,2 mlrd dollar; Rossiya – 2,1 mlrd dollar; Turkiya – 1,18 mlrd dollar; Germaniya – 800,7 mln dollar; Janubiy Koreya – 137,4 mln dollar. 2021-yil yakuniga ko‘ra, o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd dollarni tashkil etib, yillik

prognozga nisbatan 113 foizga bajarilgan. Shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd dollarga yetgan (2020-yil ko‘rsatkichlariga nisbatan o‘sish sur’ati 110 foiz).[13]

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarning investitsion mablag‘larini jalb etish bo‘yicha bir qator masala va muammolar mavjudligi aniqlandi.

Birinchidan, bank kredit tizimini yanada rivojlantirish masalasi;

ikkinchidan, investorlarning huquqlarining yetarli darajada ximoyalanmaganligi;

uchinchidan, litsenziya va ruxsat olish tartibqoidalarining murakabligi.

Yuqorida keltirilgan tahlillarimizdan kelib chiqib, investitsiya muhitini yaxshilash uchun xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha institutsional asosni shakllantirish lozim deb hisoblaymiz. Xorijiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish imkonini oshirish lozim.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash borasida qabul qilgan qonunlari, qarorlarini o‘rganish, kerakli jihatlarini O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi

3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4937 son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagi PF-6042-son va “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni

5. Mustafakulov Sh.I. (2017). Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. Toshkent: Baktria press,320 b. G‘ Mustafakulov Sh.I. (2017). The attractiveness of the investment climate. Scientific and practical guide. Tashkent: Baktria press, 320 p

6.O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ №598 son qonuni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida28.01.2022 yildagi PF-60-son

8. “Science and Education” Scientific Journal Volume 1issue 4 July 2020 8. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

9.Qaxxorovna, T. G. (2023). The Impact of Artificial Intelligence on the Economy. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(2), 57-61.

10. Khahharovna, T. G., & Jumaboevich, M. T. (2022). Fintech Development in the Republic of Uzbekistan. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(1), 71-83.

11. Qaxxorovna, T. G., & Ikrom o‘g‘li, X. J. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIGA BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY QILISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *3*(2), 85-90.

KORXONALARDA PUL MABLAG‘LARINING INVESTITSION VA MOLIYAVIY FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA SARFLANISHI

Norbo‘tayev Baxtiyor Abduraximovich

Guliston davlat universiteti

„Buxgalteriya hisobi va moliya’’kafedrasi o;qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada pul mablag‘lari hisobini ham nazariy ham amaliy jihatdan o‘rganish kelgusida moliyaviy hisobning uslubiy asoslaridan biri hisoblangan bugalteriya hisobi hisob- varaqlar

rejasini moliyaviy hisobot shakllari talab qiladigan ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlash nuqtai nazaridan rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Hisob kitob scheti, naqdsiz pul, to‘lov topshiriqnomasi, aksept me’morial order, akkreditiv, chek daftarchalari, uzoq muddatki kreditlar.

Kirish.

Ma’lumki, iqtisodiyot rivojlanishining barcha bosqichlarida naqd pulsiz hisob kitoblar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan va ularni hisobga olish tartibi o‘sha davrdagi iqtisodiyotning rivojlanishi darajasidan kelib chiqqan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida naqd pulsiz hisob kitoblardan samarali foydalanish korxonalar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Chunki korxonalar faoliyatining uzluksiz davom etishini ta’minlash uchun zarur ishlab chiqarish zahiralari va mehnat vositalari sotib olish, davlat byujetidan tashqari fondlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish ma’lum miqdorda naqd pulsiz hisob kitoblar talab qiladi. Shuning uchun ham korxonalar mavjud pul mablag‘larini yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarga sarflashda iqtisodiy jihatdan manfaatli va tejamli bo‘lgan hamda korxonaga o‘z mablag‘laridan ratsional foydalanish imkonini berishni birinchi navbatda hisobga olishi zarur.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

L.Yu. Ro‘janovskaya, tadqiqotchining fikriga ko‘ra, investitsion va moliyaviy faoliyat – bu insonning ijtimoiy takror ishlab chiqarishda investor sifatida ongli tarzda ishtirok etishdan iborat ajralmas qobiliyati bo‘lib, u moliyaviy dastaklarni tanlashga oqilona va mas’uliyat bilan yondashilgan holatda daromadga olib keladi, yoki hech bo‘lmaganda, bilim egasining moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi[1].

Johnson and Sherraden , Remundlarining ta’kidlashicha, investitsion va moliyaviy faoliyat - moliyaviy imkoniyatlar, moliyaviy kompetentlik (financial capability) – bu mavjud bilimlardan kelib chiqqan holda investitsiya kiritishga harakat qilish qobiliyati hamda shunchaki yashab qolish yoki to‘laqonli hayotni ta’minlash maqsadida iqtisodiy tizimda harakat qilish imkoniyatlari, kompetentsiyalaridir.[2].

Muxokama va natijalar

Korxona amalga oshiruvchi har qanday faoliyat turi pul mablag‘larini talab qiladi. Korxona pul mablag‘lari asosan mahsulot, ish va xizmatlar, shuningdek qimmatbaho qog‘ozlarni va mol mulkni sotishdan kelib tushadi. Yuridik shaxslarning pul mablag‘larining tashkil topishi, saqlanishi va ulardan foydalanish tartibi O‘zR Markaziy banki boshqaruvi tomonidan nazorat qilinadi. 2015 yil 16 mayda MB tomonidan tasdiqlangan va 2015 yil 22 iyunda Adliya Vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan "Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari"da batafsil yoritib berilgan.[3]

Korxonalarda pul mablag‘larining buxgalteriya hisobini yuritish ko‘p jihatdan ularning turkumlanishiga bog‘liq. Chunki pul mablag‘larining qaysi manbalardan kelib tushishi va qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha sarflanishini tahlil qilish asosida ulardan samarali va maqsadga muvofiq foydalanish mumkin.[4,5]

Hozirda amaliyotda pul mablag‘lari quyidagicha turkumlanadi:

1) valyuta turlari;
2) qaysi joyda saqlanishi;
3) qaysi maqsadlarga sarflanishi;
4) qaysi manbalardan kelib tushishi;
5) pul mablag‘lari turlari.

Respublikamizda xo‘jalik sub’ektlariga nafaqat O‘zbekiston milliy valyutasi so‘mda balki boshka chet el valyutalarida ham banklarda hisob raqamlarini ochish imkoniyatlari berilgan. O‘zR Markaziy bankining qaroriga ko‘ra, barcha xo‘jalik sub’ektlariga 1999 yil 1 iyuldan boshlab, bir necha banklarda o‘zlarining turli valyutalardagi hisob raqamlarini ochish imkoniyati berildi. [6,7] (1-jadval).

1-jadval.Pul mablag‘larining faoliyat turlari bo‘yicha sarflanishi[1]

	Faoliyat turlari	**Pul mablag‘larining sarflanishi**
	Asosiy (operatsion)	a) ish haqi

[1] Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

	faoliyat	b) ishlab chiqarish zahiralarini sotib olish c) xarajatlarni to‘lash d) olingan kreditlarga foizlar to‘lash e) soliqlarni to‘lash
	Investitsiyaviy faoliyat	a) asosiy vositalarni sotib olish b) qimmatli qog‘ozlarni sotib olish v) kreditlar berish
	Moliyaviy faoliyat	a) o‘z aktsiyalarini sotib olish b) obligatsiyalar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish v) dividendlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish

Pul mablag‘larining akkreditiv va chek daftarchasi shakliga o‘tkazilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad, xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasidagi hisob-kitoblarni tezlatish va ishonchdan chiqqan yoki bir-biridan ancha uzoqda joylashgan yuridik shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblarda qo‘llashdan iboratdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda pul mablag‘lari bu – korxonaning asosiy to‘lov vositalaridan biri hisoblanadi. Korxonalarning pul mablag'la’i asosan hisob-kitob schetida, kassada, valyuta schetida va maxsus schetlarda saqlanadi. Pul mablag‘lari hisobi kassa kitobi, kassa kirim-chiqim orderlari, hisob-kitob schetidan ko‘chirmalar va boshqa hujjatlar yordamida yuritiladi.Korxonalarning bankdagi milliy va xorijiy valyuta hisob raqamlarida saqlanayotgan pul mablag‘lari mamlakatimiz iqtisodiyotining poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, pulning birinchi vazifasi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi vazifasi esa korxonalarga ma’lum miqdorda daromad keltirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Л.Ю. Рыжановская, 2010 Национальное агентство финансовых исследований [Электронный ресурс].
2. Remund D. Financial literacy explicated: the case for a clearer definition in an increasingly complex economy. Journal of Consumer Affairs, 2010, vol. 44, no. 2, pp. 276–295
3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni № 404. –T.: 2016 y
4. Turayeva, G., Mullajonov, B., Qurbonbekov, R., To‘raqulov, S., Mamadaliyev, U., & Fozilov, S. (2023). BUXGALTERIYA HISOBINING USULLARI VA TAMOYILLARI. *Наука и технология в современном мире*, *2*(14), 53-55.
5. Turayeva, G., Mamarahimov, A., Berdiqulov, S., & Robimqulov, N. (2023). BUXGALTERIYA HISOBI FANINI RIVOJLANISHIDA AKT NING O‘RNI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *2*(15), 25-26.
6. Gulizahro, T., Hurriyat, M., Oydinoy, N., Umida, N., & Muxlisa, O. (2023, April). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA “1C: BUXGALTERIYA HISOBI”. In *" Conference on Universal Science Research 2023"* (Vol. 1, No. 4, pp. 96-98).
7. Gulizahro, T., Shodiyor, X., Zulhumor, S., Feruza, B., & Mohinur, Y. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING USULLARI VA TAMOYILLARI. In *" Conference on Universal Science Research 2023"* (Vol. 1, No. 4, pp. 90-92).
8. Gulizahro, T., Kamola, H., Zulayxo, P., Aziza, T., & Nozima, G. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBI SCHOTLARIDAN FOYDALANISH TALABI. In *" Conference on Universal Science Research 2023"* (Vol. 1, No. 4, pp. 99-101). Madinabonu, A., Nurjahon, N., & Mehriniso, M. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI. In *" Conference on Universal Science Research 2023"* (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).

SIRDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA INNOVATSION HUDUDGA AYLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Allayarova Mastura Qudratullayevna, Joniqulov Behzodbek Ravshan o‘g‘li
GuLDU, katta o‘qituvchi,
GulPI, o‘qituvchi.
Birinchi yo‘nalish

Har qanday mamlakatning jadal ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi asosini innovatsiyalar tashkil etadi. Shuning uchun barcha davlatlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida innovatsion rivojlanishni joriy etishi, yangi g‘oya va taraqiyotning noan’anaviy usullarini qo‘llashi zarurdir.

Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari sanaladi: yangi g‘oyalar; tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar; noan’anaviy yondashuvlar; odatiy bo‘lmagan tashabbuslar; ilg‘or ish uslublari.

Hududlar darajasida innovatsion faollik hududning raqobatbardoshligini oshirishning omili, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sharti hisoblanadi. Ayni damda viloyat iqtisodiyotida innovatsiyalar sust rivojlanishi va shundan kelib chiqqan holda uning raqobatbardoshlik darajasi past bo‘lgan sharoitda mazkur tendentsiyani bartaraf etish uchun innovatsion faoliyatni ham davlat, ham hudud, ham korporatsiyalar darajasida rag‘batlantirish, xususan moliyaviy-iqtisodiy choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1]

Ayni damda Sirdaryo viloyati iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridan biri barcha sohalarni modernizatsiyalash va innovatsion rivojlanishga o‘tish hisoblanadi. Davlat ilmiy-texnika taraqqiyotini uning butun zanjiri (fundamental tadqiqotlardan tortib to ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etishgacha bo‘lgan jarayon) bo‘yicha rag‘batlantirishi lozim.

Oxirgi paytlarda korxonalar bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion faoliyatni kengaytirish bo‘yicha xususiy shakllarning afzallik tomonlari va samarasini seza boshladi. Xususiy innovatsion loyihalarni venchur moliyalashtirish dolzarb hisoblanib, u katta xatar bilan bog‘liq.

Viloyatdagi innovatsion korxonalar o‘z mablag‘larining yetishmasligi, yuqori soliq stavkalari, nomaqbul kreditlash shartlari va shu kabi muammolarga duch keladi. Shu sababdan venchur faoliyatni rivojlantirmoq zarur. Venchur faoliyatini olib borish quyidagi bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Bir nechta yuridik va (yoki) jismoniy shaxsning sarmoyalari birlashadi, katta bo‘lmagan, ammo juda ixcham va samarador korxonalar tashkil etiladi.

2. Alohida innovatsion loyihalar joriy etiladi va tijoratlashadi.

3. Mazkur loyihalar tugagandan keyin venchur korxonalarni rivojlantirishning bir nechta variantlari mavjud: yirik firmalar tomonidan qo‘shib olinishi; ishlab chiqilgan innovatsion mahsulotlarga litsenziya sotish yordamida moliyaviy ahvolini yaxshilash; o‘z ishlab chiqarishini tashkil etish va tijorat operatsiyalarini bajarish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini olib borish.

Yaqin istiqbolda Sirdaryo viloyatida Rossiyaning “ImpaktBio” kompaniyasi bilan hamkorlikda Yangiyer shahridagi kichik sanoat zonasi hududida “Metanotrof sintez qilish orqali oqsil va oqsilpolimer mahsulotlarini ishlab chiqish” innovattsion loyihasini amalga oshiriladi.

Mazkur loyihaga Rossiya kompaniyasi tomonidan 20 million AQSh dollarga teng to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya yo‘naltirish rejalashtirilgan. Natijada, 56ta yangi doimiy ish o‘rni yaratiladi. Korxonada 260-tonna biomassa xomashyosi qayta ishlanib, 130-tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

So‘nggi olti yilda viloyatga 30 trillion so‘m investitsiya jalb qilinib, 6 ming 640 ta yangi korxona ishga tushirilgan. Bu orqali 55 mingta doimiy ish o‘rni yaratilgan, 17 mingta oila kambag‘allikdan chiqarilgan.

Sirdaryoda ham tadbirkorlar soni ko‘paydi. Hozirgi kunda tadbirkorlar, o‘rta va kichik biznes sub’ektlari jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilayotir.

Sirdaryo viloyatida o‘tgan yilning 1 noyabr holatida byudjet daromadlari 1,1 trillion so‘mni tashkil etib, ularning 830 milliard so‘mi yoki 74 foizi aynan xususiy tadbirkorlik sub’ektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Mahalliy byudjet xarajatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 835 milliard so‘m yoki 67 foiz xarajatlar aynan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq sohalarga yo‘naltirilmoqda.

Bugungi kunda viloyatimizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub’ektlari soni 10 ming 189 tani tashkil etib, ularda jami ish bilan band aholining 60 foizi mehnat qilmoqda,

Ilgari bo‘lmagan qurilish materiallari, farmatsevtika, charm va oziq-ovqat sanoati kabi yangi tarmoqlar paydo bo‘ldi. Xususan, qurilish materiallarida 274 ta loyiha amalga oshirilib, bu tarmoq yangi drayverga aylandi. Viloyat sanoatida bu sohaning ulushi 7 foizdan oshdi.

O‘tgan yili oktyabr oyida Prezident tashrifidan so‘ng, Sirdaryoni “ishsizlikdan xoli hudud”ga aylantirish bo‘yicha dastur qabul qilingan edi. Dasturdagi tadbirlar uchun viloyatga qo‘shimcha 2 trillion so‘m ajratildi. Jumladan, 20 ming aholi imtiyozli kredit bilan ta’minlandi, 5 ming ishsiz

yoshlarga asbob-uskunalar uchun grantlar ajratildi. Shuningdek, 2 mingdan ziyod yangi hunarmand faoliyati yo‘lga qo‘yildi, 12 mingdan ziyod yoshlar kasb-hunarga o‘qitildi. Aholi dehqonchiligi uchun qo‘shimcha 5 ming gektar er tarqatilib, 10 ming aholi daromadli ish bilan ta’minlandi.

Sirdaryo respublikamizdagi eng katta iste’mol bozori – Toshkent shahriga yaqin joylashgan. Shuningdek, u ikki qo‘shni davlat – Qozog‘iston va Tojikiston bilan qulay transport koridoriga ega.

Sirdaryo viloyatini sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va tibbiyot bo‘yicha “ilg‘or innovatsiyalar hududi”ga aylantirish zarur deb hisoblaymiz. Bu borada Xitoy tajribasiga tayanish katta ijobiy natijalarga olib keladi. Xitoylik investorlarning viloyatga qiziqishlari katta. Oxirgi olti yilda ular bilan birga, Shirin shahri, Mirzaobod va Sirdaryo tumanlarida 60 dan ortiq yirik sanoat korxonalari ochilgan. Viloyatga 2022 yilning o‘zida 250 million dollardan ziyod Xitoy investitsiyalari jalb qilingan.

Sirdaryo viloyatida kambag‘allikni qisqartirish, aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan 5 ta yangi tashabbus qabul qilindi.

Birinchi tashabbus, ilg‘or innovatsiyalar hududida bio-farmatsevtika, qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, elektro-texnika, tibbiyot, ta’lim sohalarining 20 ta yo‘nalishidagi loyihalariga alohida imtiyozlar rejimi joriy qilinadi. Unga ko‘ra er, mol-mulk, foyda va aylanma uchun soliqlar hamda bojxona bojlaridan 3 yilgacha ozod qilinadi. Er uchastkalari soddalashgan tartibda ajratiladi, er va binolarni sotib olishda 5 yilgacha bo‘lib to‘lashga ruxsat beriladi. Shuningdek, Sirdaryoda 500 million dollarlik investitsiya hisobiga O‘zbekiston-Xitoy biotexnologiyalar klasteri barpo etiladi. Unda Xitoyning etakchi oliygohlari bilan birga Gulistonda xalqaro ta’lim va tadqiqot universiteti, innovatsion tibbiyot klinikasi, Markaziy Osiyo genom markazi, onkologik kasalliklarni davolash uchun Hujayra terapiyasi markazi tashkil qilinadi.

Ikkinchi tashabbus. Viloyatning 11 ta tuman va shahri Xitoy modeli asosida sanoatga ixtisoslashadi, har birida innovatsion texnoparklar tashkil qilinadi. Ularda elektrotexnika, bio-farmatsevtika, kimyo, qurilish materiallari, ipak va oziq-ovqat sanoatida innovatsion loyihalar amalga oshiriladi. Texnoparklarga erkin iqtisodiy zona maqomi beriladi va “bojxona hududida qayta ishlash” rejimining soddalashgan tizimi joriy qilinadi. Joriy yilda texnopark infratuzilmasiga 200 milliard so‘m ajratiladi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun Sirdaryoda “O‘zbekiston-Xitoy investitsiya jamg‘armasi” tashkil etiladi. Bu jamg‘arma Xitoyning nufuzli Ipak yo‘li fondi va boshqa moliya tashkilotlari bilan birga tashkil qilinadi. Jamg‘armaga 1 milliard dollar sarmoya olib kelinadi.

Uchinchi tashabbus. Sirdaryoda eng ilg‘or agrotexnologiyalar joriy etiladi. Xitoydan viloyat hokimiga qishloq xo‘jaligi bo‘yicha maslahatchilar, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari modernizatsiyasiga investorlar jalb qilinadi. Shuningdek, Xitoy tajribasi yordamida Sayxunobodda qoramol va parrandachilik eko-komplekslari, Mirzaobodda intensiv anor, qovun, pekan yong‘og‘i va baliqchilik plantatsiyalari tashkil qilinadi. Xovosda o‘simliklardan tabiiy bo‘yoqlar ishlab chiqarish quvvati, meva-sabzavotni saqlash, qayta ishlash va qadoqlash texnoparki tashkil etiladi. Sho‘r va suvsizlikka chidamli ekin turlari, chorvachilik nasllarini yaratish bo‘yicha Xitoyning etakchi oliygohlari bilan hamkorlik qilinadi. [2]

To‘rtinchi tashabbus. Sirdaryo mamlakatimizni Qozog‘iston, Tojikiston, Xitoy va Afg‘oniston bilan bog‘laydigan yirik logistika xabiga aylantiriladi. Buning uchun, Xitoylik investorlar bilan hamkorlikda respublikaning sharqiy va markaziy qismlarini hamda chet el yo‘nalishlariga bog‘laydigan yangi transport marshrutlari va multi-modal logistika markazi quriladi. Bulardan tashqari, yo‘llarni qurish, ta’mirlash va boshqarishga xususiy sektorni jalb qilish ham Sirdaryodan boshlanadi.

Beshinchi tashabbus. Tibbiyotdagi islohotlar natijasi va sohadagi imkoniyatlarga tayanib, Guliston shahri mamlakatimizning “innovatsion meditsina xabi”ga aylantiriladi.

Hozirgi kunda Sirdaryo farmatsevtika sanoati rivojlanayotgan hududlar reytingida etakchilardan biri hisoblanadi. 2022 yilda viloyatdagi 21 ta farmatsevtika korxonasi tomonidan 393,8 milliard so‘mlik 317 turdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarilib, 3,3 million dollarlik eksport amalga oshirilgan. Shu erda viloyatdagi 6 ta yangi korxonani ishga tushirish marosimi bo‘ldi. Ular – Sirdaryo tumanidagi “River Med farma”, “Evroaziya gaz beton”, “Modern Marbel”, “Peng Sheng Charm”, Sayxunobod tumanidagi “Toshkent siti gold blok” hamda Yangier shahridagi “Inter Treyding-grup” mas’uliyati

cheklangan jamiyatlaridir. Ularning rahbarlari videoaloqa orqali majmualar salohiyati haqida axborot berdi.

“River Med farma” korxonasida yiliga 42 million dona infuzion dori mahsulotlari tayyorlanib, 250 kishi ish bilan ta’minlanadi.

“Evroaziya gaz beton” qurilish sohasiga ixtisoslashgan. U erda Niderlandiya texnologiyasi asosida yiliga 450 ming kub gazobeton ishlab chiqariladi, 100 ta ish o‘rni tashkil etiladi. “Modern Marbel”da yiliga 800 ming kvadrat metr marmar kesimlari tayyorlanadi. “Peng Sheng Charm” yiliga 1500 kvadrat metr tabiiy charm hamda 468 tonna jelatin ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ularning asosiy qismi eksportga yo‘naltirilishi rejalashtirilgan.

Sirdaryo viloyatini innovatsion hududga aylantirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni belgilab oldik:

- birinchidan, yalpi hududiy mahsulotda kichik biznesning ulushini bugungi kundagi 76 foizdan yil yakuniga qadar 80 foizga oshirish;

- ikkinchidan, Davlatimiz rahbarining 2018 yil 12 apreldagi “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan 897 gektar maydonda tashkil etilgan Erkin iqtisodiy zonadagi 41 ta loyihalarni amalga oshirish va ularga farmonda nazarda tutilgan imtiyozlar va preferentsiyalarni qo‘llash orqali import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish; [3]

- uchinchidan, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini uch toifaga ajratish, xususan, o‘zi, hech qanday yordamsiz mustaqil faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlar, to‘liq quvvatda ishlamayotgan sub’ektlar, faoliyat ko‘rsatmayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari ro‘yxatlarini shakllantirib, har birining muammoli masalalari yoki ishlamaslik sabablarini aniqlash hamda muammolarini echish yuzasidan yo‘l xaritasini ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash;

- to‘rtinchidan, suv tanqisligi tufayli foydalanishdan chiqib ketgan 4 ming 600 gektar ekin maydonlariga artezian quduqlar qazish orqali kichik (1-5 gektarlik) bog‘dorchilik, uzumchilik, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, parrandachilik, quyonchilik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- beshinchidan, “E-ijro auktsion” elektron savdo maydoniga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 94 gektarlik 339 er uchastkalarini savdoga chiqarish va ushbu er uchastkalarida savdo do‘konlari, maishiy xizmat shoxobchalari va ishlab chiqarish tsexlari tashkil etish;

- oltinchidan, viloyatda mavjud 551 ta bo‘sh turgan ob’ektlarni ijaraga berish yoki sotish orqali kichik biznes sub’ektlarini tashkil qilish.

Sirdaryo viloyati kichik va o‘rta biznesni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha qulayliklar ega. Jumladan, viloyat poytaxtga yaqin, Qozog‘iston va Tojikiston Respublikalari bilan chegaradoshligi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksport qilish imkoniyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, shuni aytib o‘tish joizki, innovatsion jarayonlarning davlat tomonidan tartibga solinishini ham umummilliy ahamiyati, ham innovatsiyalarning iqtisodiy mazmuni bilan izohlash mumkin. Biroq davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmini ishga tushirish uchun rag‘batlantirish ob’ektini aniq va to‘g‘ri tushunish lozim. Xususan, innovatsion faoliyatni huquqiy rag‘batlantirish bo‘yicha puxta o‘ylangan tizimni yaratish lozim, chunki busiz innovatsiyalarni ham hudud, ham mamlakat miqyosida izchil rivojlantirib bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Совершенствование институционально-финансовых мехенизмов формирования и реализации инвестиционной политики государства/ Монография. О.М. Белоусова и др. Финансовый университет, кафедра макроэкономического регулирования; авт. колл. О.М. Белоусова. – М.: «Финансовый университет», 2019. –с. 248.

2.https:G‘G‘m.kun.uzG‘newsG‘2023G‘04G‘07G‘sirdaryo-xitoy-tajribasi-asosida-ilgor-innovatsion-hududga-aylanadi

3.«Sirdaryo» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.04.2018 yildagi PF-5412-son

4. Lundvall B. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. London, 1992.

SIRDARYO VILOYATI KORXONALARINING IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O‘RNI

Begimqulov Javohirbek Jo‘raqul o‘g‘li, Suyunov Shohzod Murod o‘g‘li

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xorijiy sarmoyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va salmog‘i ushbu mamlakatda investitsiya muhiti qanchalik qulay ekanligini belgilaydi. Bu muhit asosan davlatning xorijiy investitsiyalar va tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishga nisbatan siyosati bilan belgilanadi. Strategik investorlar katta miqdordagi mablag‘larni birinchi navbatda iqtisodiyoti ichki imkoniyatlardan kelib chiqib barqaror va izchil rivojlanayotgan davlatga yo‘naltiradilar. Faqat shunday mamlakatlarda qo'yilgan mablag'larni tejash va barqaror foyda olish mumkin. Mahalliy va xorijiy investorlarni birinchi navbatda minimal soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va qulay istiqbollar qiziqtiradi.

“Biz investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqaligina iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz” [1]. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi holatida milliy iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlariga investitsiyalarni faol jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda [2]:

- birinchidan, o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan korxonalarni tashkil etish;

-ikkinchidan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish. Ushbu ishlab chiqarishning rivojlanishi mamlakat eksport iqtisodiyoti va xalqaro integratsiyaning o'sishiga olib keladi;

- uchinchidan, mahalliy xomashyo negizida jahon bozorida sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan korxonalar tashkil etish;

- to‘rtinchidan, korxonalarda energiya va resurslarni tejaydigan, arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqarishga ko‘maklashish;

- beshinchidan, fan va texnika yutuqlarini keng tatbiq etgan holda iqtisodiyot tarmoqlari, jamiyat va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etish;

- oltinchidan, transport-logistika va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish. Bu sohada samarali davlat boshqaruvi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va birlamchi ishlab chiqarishning samarali faoliyatiga olib keladi;

- yettinchidan, kam rivojlangan hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish. Bunga samarali investitsiya faoliyatini olib borish orqali erishiladi.

Investitsion faoliyatni moliyalashtirish moliyaviy vositalardan foydalanish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida investorlarning investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan manfaatdorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Investitsion resurslarni bunday taqsimlashdan faqat real investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta’minlash jarayonida foydalaniladi. Bizningcha, moliyalashtirish mexanizmi quyidagi to‘rt qismni tizim sifatida o‘zida jamlay olgan taqdirdagina to‘liq va ob’yektiv bo‘ladi (1-chizma).

1-chizma. Investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari[3]

- moliyalashtirish munosabatlari;
- moliyaviy institutlar;
- moliyalashtirish tizimi;
- moliyalashtirish tartiblari.

Bu tarkibiy qismlar va qismlar doimo o'zaro bog'liq bo'lib, bu birlikdan birlik kelib chiqadi. Investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari tarkibini asoslashga oid qarashlar moliya institutlarining boshqaruv va kredit munosabatlari tomonidan amalda qamrab olinmaganligi sababli moliyalashtirish manbalarini quyidagi guruhlarga ajratishni maqsadga muvofiq deb bildik:

- investorlarning o'z mablag'lari (mablag'lar, amortizatsiya ajratmalari, yuridik va jismoniy shaxslar va fuqarolarning badallari, aktsiyalardan tushgan mablag'lar va boshqalar);
- investorlarning qarz mablag‘lari (korxonalar, tijorat banklari, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, kreditlar, obligatsiyalar, sertifikatlar, veksellar va boshqa qarzlar, byudjet ssudalari);
- budjetning investitsion resurslari (davlat va mahalliy byudjet mablag'lari).

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyatini boshqarish va rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Iqtisodiyotni texnik-iqtisodiy modernizatsiya qilish ustuvor tarmoqlarni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tashqi va ichki bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh tovarlarni ko‘paytirish, yangilarini yaratishni taqozo etmoqda. Investitsiyalarning aniq yo‘nalishlarini belgilash, ilmiy asoslangan investisiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarni topish iqtisodiy o‘sishning shartiga aylandi. investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha davlat vazifalarining bajarilishini ta’minlaydigan investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiya samaradorligini oshirish, respublika hududida turli investitsiya ob’yektlariga investitsiya kiritish uchun xavfsiz shart-sharoitlar yaratish. davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- ✓ investisiya faoliyatining huquqiy bazasini takomillashtirish;
- ✓ investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O‘zbekiston Respublikasi hukumati kafolatlarini ta’minlash;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi hududida maxsus iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish;
- ✓ asosiy vositalarni tezlashtirilgan eskirish huquqini berish;
- ✓ texnik nuqtai nazardan tartibga soluvchi normalar, qoidalar va talablarni belgilash;
- ✓ raqobatni qo'llab-quvvatlash choralarini qo'llash;
- ✓ yer uchastkalari va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash.

Faol investitsiya siyosati tarmoqni tarkibiy qayta qurishning eng samarali vositasidir. O‘zbekiston investitsiya strategiyasida ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlangan yangi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish va xomashyo resurslarimizni chuqur o‘zlashtirishni ta’minlash, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan investitsiya loyihalari ustuvor deb hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning

raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlariga qaratilgan sanoat tarmoqlarida investitsiya jarayonini rivojlantirish bozor islohotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrdagi “2023-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 459-son qarorida respublika iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish. ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalariga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega eksport qilinadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, investitsiya jarayonlarini va faol to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etishni ko‘zda tutilgan hududlarga jadallashtirish, shuningdek, yuqori maoshli ish o‘rinlari yaratish va mahalliy bandlik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi - Toshkent. //Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 25-dekabr, 6-modda. // lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 25-dekabr, 4-modda. // lex.uz.

HUDUDLARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA ULARNI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamajonova Saida Vaxabjonovna, Abduvahobova Gulira’no Xayrulla qizi
katta o‘qituvchi,
talaba
Guliston davlat universiteti

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tarkibiy o‘o‘zgarishlarni chuqurlashtirish va hudud korxonalarining innovatsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiyalash sharoitida esa investitsiyalarni samarali boshqarish va bu boradagi vazifalarni izchil amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyotga investitsion resurslarni jalb qilish murakkab jarayondir, chunki bu chet el investitsiyalarni ham qo‘shgan holda, barcha potentsial mavjud innovatsion investitsion resurslar imkoniyatlarini strategik safarbar etishni talab etadi. Innovatsion investitsiya iqtisodiyotning rivojlanishi, jumladan, unda bandlikning o‘sishi, yuqori ish haqi va mehnat unumdorligining oshishi, bundan tashqari real sektorni rivojlantirish va modernizatsiyalash ko‘rinishlaridagi katta iqtisodiy samarani olib keladi. Kapital qo‘yilmalaridan foydalanishning strategik rejasi – iqtisodiyotning bir qator muhim sohalaridagi iqtisodiy orqada qolishni bartaraf etadi va milliy iqtisodiyotni jahon xo‘jligiga integratsiyasining samarali usullaridan biri hisoblanadi.

Investitsiya termini lotincha investire - “kiyintirmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, uning mazmuniga yondashuvlar tubdan takomillashib bormoqda. Endilikda innovatsion investitsiya iqtisodiyot nazariyasida hamda uning amaliyotida ham keng tadqiq etiladigan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Iqtisodiy kategoriyaning turlicha talqin etilishi oqibatida ko‘pincha turli xil ma’nolarda qo‘llaniladi, buning natijasida esa ularning mazmuni ma’lum ma’noda tarqoq bo‘lib qoladi va o‘zining qat’iy ma’nosini yo‘qotadi. Shu sababli ishni “investitsiya” tushunchasini oydinlashtirish va unga aniqlik kiritishdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

J.Keyns investitsiyalarni “ushbu davrda topilgan daromadning iste’molga ishlatilmagan qismi” deb ta’riflaydi. Ayrim iqtisodchilar tomonidan investitsiyalar daromad (foyda) olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik ob’ektlariga va boshqa faoliyat turlariga solinadigan pul mablag‘lari, maqsadli omonatlar, aktsiyalar, boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlardir degan ta’rif beriladi. P.Samuelson va V.D. Nordxauslar investitsiyalarga: “kelgusida ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun bugungi kundagi iste’moldan voz kechish” – sifatida ta’rif berishadi. Ularning tushunchalariga ko‘ra investitsiya moddiy (infratuzilma, asbob-uskunalar, zahiralar) va ijtimoiy (ta’lim yoki inson kapitali, tadqiqot va ishlanmalar, shuningdek sog‘liqni saqlash) kapitalga qo‘yilmalarni ifoda etadi. Ushbu keltirib o‘tilgan ta’rifning afzal tomoni shundan iboratki, mualliflar iste’mol va

investitsiya o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib o‘tganlari holda, nomoddiy aktivlarga qo‘yilmalarni ham qarab chiqadilar.

Barchamizga ma’lumki, har qanday investor o‘z kapital qo‘yilmalarining ishonchliligi va samaradorligi yuqori bo‘lishidan manfaatdordir. Shuning uchun investitsion jarayonlarni boshqarish investitsiyalash ob’ektlarining egalari va investorlarning ob’ektiv manfaatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilsa, ko‘zlangan samaraga erishiladi. Bu borada mamlakatimizda chet ellik investorlarning O‘zbekistonda olgan daromadlarini qaytadan investitsiya sifatida kiritish bo‘yicha hech qanday cheklovlar yo‘q-chet ellik investorning daromadi, uning xohishiga ko‘ra, har qanday shaklda ishlatilishi mumkin.

Yurtimizda chet el investitsiyalari va xorijiy investorlarning boshqa aktivlari xalqaro xuquqda qabul qilingan umumiy xolatlarni mustasno etganda, natsionalizatsiya qilinmasligiga yana bir bor e’tibor qaratish o‘rinlidir.

Yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni qurishga, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnoglogik yangilashga, transport, muxandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmalarni jadal rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta’minlash va buning negizida yangi ish o‘rinlarini yaratish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga erishish maqsad qilib belgilab olingan .

Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada yaxshilashga yo‘naltirilgan bir qator qo‘shimcha muhim qonun hujjatlari va huquqiy normalar qabul qilindi. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va uni rag‘batlantirish borasida ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borishgan va o‘z mualliflik yondoshuvlarini bildirishgan. Ulardan biri A. Yusupov fikriga ko‘ra: “Hozirgi davrda jahon investitsiyasi muxitida keskin o‘zgarishlar yuzaga kelayotgan bir sharoitda moliyaviy resurslar xalqaro xarakati yangicha xususiyat kasb etmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda xorijiy investitsiyalar butun dunyo mamlakatlari tomonidan yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muxim omili sifatida qarab kelinmoqda”- deb ta’kidlagan. [2]

Qiymati 50 million dollardan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan aniq loyihalarning o‘z muddatida amalga oshirilishini ta’minlaydigan infratuzilmani loyiha xujjatlari asosida o‘z vaqtida qurish majburiyati olinmoqda. Bunga misol qilib, Surg‘il koni negizida Ustyurt gaz kimyo majmuasini qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihani ko‘rsatish mumkin. Bu erda umumiy qiymati 212 million dollarni tashkil etadigan tashqi muxandislik infratuzilmasini barpo etishni davlat o‘z zimmasiga olgan.”Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi va “Angren” maxsus industrial zonasida yaratilagan sharoitlar ham bunga misold bo‘la oladi.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ham ichki, ham tashqi bozorni to‘yintirish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadlarida tashkil qilinishi lozim. Bu esa, chet el investitsiyalari oqimini tezlashtiradi. Chet el kapitalini jalb qilish va undan foydalanish bo‘yicha maqsadli uzoq muddatga mo‘ljallangan respublika dasturida chet el texnologiyalari va uskunalari bilan birinchi navbatda jihozlanishi lozim bo‘lgan u yoki bu tarmoqlarni belgilash talab etiladi.

Tadqiqotchi Yusupov A fikriga ko‘ra, “Investitsiya muxiti va investitsion jozibadorlikni oshirish masalasi muxim bo‘lib, investitsiya muhitini yaxshilashning iqtisodiy mohiyatini o‘rganish va uni iqtisodiyotga jalb qilinishi bevosita investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishga, investitsiyalar hajmi ko‘payishiga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z-o‘zidan investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning yangi manbalarini aniqlash, nazariy-xuquqiy asoslarini takomillashtirish bilan birga investitsion muhit jozibadorligini oshirishning moliyaviy asoslari yaxshilanishini talab etadi”–deya o‘z yondoshuvlarini bildirib o‘tadi. [2]

Investitsion jozibadorlikni baholash va investitsiya hajmini bashoratlash modellaridan bir vaqtda foydalanish, bir xil natijalarga erishishga imkon beruvchi, iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini o‘zgartirish bo‘yicha juda ko‘plab chora-tadbirlar variantlarini ishlab chiqishga imkoniyat beradi.

Investitsiya hajmini bashoratlash modelida investitsion jozibadorlikni aniqlovchi har bir ko‘rsatkich qanchalik ta’sir ko‘rsatishga moyilligini hamda ko‘rsatkichga ta’sir etish va investitsion jozibadorlik holatining o‘zgarishi o‘rtasida qancha vaqt o‘tishini hisobga olish lozim. Tegishli ko‘rsatkich o‘zgaradigan vaqtdan boshlab iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini o‘zgartirishga zarur bo‘ladigan muddatni aniqlash uchun korrelyatsion tahlildan foydalanish tavsiya

etiladi. Korrelyatsiya koeffitsentining maksimal qiymati kapital oqimi o‘zgarishi va investitsiya jozibadorligi orasidagi bog‘liklikni ifoda etadi. Iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorlikka ta’sir etuvchi barcha ko‘rsatkichlarini boshqaruvchi sub’ektning ta’sirni qabul qilish darajasidan kelib chiqib, quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Ta’sirni deyarli qabul qilmaydigan ko‘rsatkichlar, 3-5 yil;
- Ta’sirni ozroq qabul qiluvchi ko‘rsatkichlar, 1,5-3 yil;
- Ta’sirni har doim ham to‘liq qabul qilmaydigan, lekin tez o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlar, 6-12 oy;
- “lahzali ta’sir”, ya’ni, ta’sirni tez qabul qiluvchi va o‘z xolatini qisqa muddatlarda o‘zgartiruvchi ko‘rsatkichlar, 3-6 oy.

Ishlab chiqiladigan chora-tadbirlar tizimi nafaqat investitsion jozibadolrlik ko‘rsatkichi ortishiga, qolaversa, xududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir etmog‘i lozim.

Umumiy holatda avvalo quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi :

1. Mahalliy va xorijiy investorlarga mo‘ljallangan, investorlarga kafolat va imtiyozlar berishni nazarda tutuvchi me’yoriy-xuquqiy bazani takomillashtirish.investitsion jozibadorlikni o‘ziga xosligidan kelib chiqib, bu chora tadbirni tabaqalashtirish maqsadga muvofiq. Bunda kapitalni joylashtirish xamda kapital hosil qiluvchi investitsiyalar narxini pasaytirish uchun investorlar orasida raqobatni kuchaytirish va boshqa qo‘yilmalardan qaytimni oshirish uchun qayta investitsiyalangan hududlarda investitsiyalash shartlari samaradorligini oshirish. Hududlarga investorni tanlash imkoniyatini berish va investitsion jarayonni nazorat qilishni osonlashtirish.
2. O‘z ichiga yagona mahalliy bank, sug‘urta tashkilotlari, qarz beruvchi markaz, lizing kompaniyalari, moliyaviy mahalliy tizim, investitsion fondlarni oluvchi yagona moliyaviy mahalliy tizimni yaratish.
3. Munitsipial obligatsiyalar tizimini takomillashtirish. Inqirozni boshidan kechirayotgan, shuning hisobiga investorlarni jalb qila olmaydigan korxonalar uchun davlat va munitsipial buyurtmalar muhim ahamiyatga ega. Davlat buyurtmasi bajarilishi shunday korxonalar uchun material zaxiralarini to‘ldirish va ishlab chiqarishni takomillashtirishga imkon beradi, bu esa ularni investitsion jozibadorligini oshiradi.
4. Hudud byudjetiga soliq va to‘lovlar doimiy to‘lanishini ta’minlash hamda to‘lov intizomini yaxshilash. Soliq yig‘ish darajasini oshirish davlat institutlarini rivojlantirish, xududning infratuzilmaviy ta’minotini kengaytirish uchun ma’lumotlar bazasini va axborot oqimlari harakati hisobiga investitsion bozorning ochiqligini ta’minlaydi.
5. Xududlar sanoat korxonalarining texnologik kooperatsiyasini tashkil etish va buning hisobiga yuqori iqtisodiy samara olish. Xududlarda, ayniqsa, er osti boyliklarini ishlab chiqarishga mo‘ljallangan hududlarda kooperatsiyani rivojlantirish tadbirkorlarning transport va transaktsion xarajatlari qisqartirilishini ta’minlaydi, xamda sifatli tayyor maxsulot ishlab chiqarishga imkon beradi. Iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, qo‘shimcha kapital oqimini vujudga keltiradi.
6. Korxonalarga investorlarni izlab topish, ilmiy asoslangan biznes rejalar ishlab chiqish, investitsion marketing bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish va investitsiya faoliyati masalalariga e’tibor qaratgan N. Haydarov fikricha, “Barqaror va iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan investorlar investitsiya qilayotgan davlat, mintaqa, korxona yoki loyihaning yuqori iqtisodiy samara berishiga qat’iy ishonch hosil qilgandagina o‘z mablag‘larini investitsiyalashtirish uchun qaror qabul qiladilar.”– deya ta’kidlaydi. [3]

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalarning samarali boshqaruviga erishish respublikamiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yanada jadallashuviga xizmat qiladi. Bunda quyidagilarni amalga oshirish ijobiy samara beradi:

-hududlardagi korxonalarning umumiy rivojlanish strategiyasi va investitsion bozor kon’yukturasini bashoratlash.

-mamlakatimiz hududlarida investitsion portfelni shakllantirish va daromadlilik, tavakkalchilik va likvidlilik mezonlari bo‘yicha ularni baholash.

-loyihalarni amalga oshirish jarayoniga investitsiyalar samaradorligi hamda loyihalarni amalga oshirish monitoringini tashkil etish.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, hududlarimizda to‘g‘ri va oqilona investitsiya siyosatini olib borish va ularning investitsion jozibadorligini oshirish orqali ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini keskin rivojlantirib, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini, korxonalarni texnik va texnologik qayta jihozlash natijasida axoli farovonligini tobora yuksaltira borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. “Innovatsion g‘oyalarni ilm-fan va sanoatga keng tatbiq etish- islohotlar samaradorligining bosh mezoni” Xalq so‘zi, №107 (7337). 2019 yil 29 may.

2.Yusupov A.Xorijiy investitsiyalar - korxonalar iqtisodiy taraqqiyot omili.//. Bozor, pul va kredit. 2017, №11.

3.Xaydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalarning investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T:. 2003.

XORIJIY INVESTITSIYALAR TUSHUNCHASI VA ULARNI JALB QILISHDA MAHALLIY HOKIMLIKLAR FAOLIYATINING O‘RNI VA ROLI

Pardaboyev Nursulton Abdukarim o‘g‘li
mustaqil tadqiqotchi

Sirdaryo ulkan xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilayotgan viloyatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. Viloyatimiz jahon hamjamiyati oldida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, respublika xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o‘ynaydi. Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri bo‘lgan investitsiyalar bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o‘zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalarning sonini tobora ortib borishi va barpo etilayotganligi hukumatimizning bu sohaga bo‘lgan katta e’tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir. Shu boisdan ham viloyatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag‘batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo‘lib kelmoqda. Investitsiya muhiti - bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me’yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui. Investitsiya muhiti eng avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, shu jumladan foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o‘rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon’yunktura holati, ichki bozor sig‘imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi va h.k. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Xorijiy investitsiyalar - chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Chet el investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag‘batlantirgan holda jalb qilinadi. Lekin chet el kapitalini jalb qilishning hamma shakllari ha moliyalashtirishning tashqi manbai bulmasligi mumkin. Bu, birinchi navbatda foiz to'lovlari bilan qaytarishni talab etadigan kreditlar va qarzlarga taalluqli. Chunki, chet el kreditlari va xalqaro moliya institutlari qarzlari ma’lum vaqt o‘tgach asosiy qarz bilan birga belgilangan foizlarining qaytarilishini talalb etadi[1].

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan bilarga turli

soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.[2]

Biz “investitsiya” deganda kelgusida biror daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli jabhalariga investorlar (sarmoyadorlar) tomonidan ko‘yiladagan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intekllektual boyliklarni tushunishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, investitsiyalar - mulkchilikning har xil ko‘rinishlaridagi moddiy, moliyaviy va nomoddiy boyliklarni iqtisodiy-ijtimoiy daromad, samara olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish hamda rekonstruktsiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish katta ahamiyat kasb etadi. Avvalambor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy muammolarni echish imkoniyatini beradi. Shu boisdan ham mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag‘batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatida investorlar investitsiya resurslarini iqtisodiyot sohalariga foyda (daromad) olish yoki samaraga erishish uchun joulashtiradi. Bunda investitsiya faoliyatining tarkibini quyidagi 1-rasm asosida ifodalash mumkin.



1-rasm. Investitsiya faoliyatining tarkibi[3]

Investitsiya faoliyati investorning o‘z resurslarini investitsiya ob’yektiga safarbar etishga asoslanar ekan, mazkur faoliyat investorning maqsadiga ko‘ra tashkil etilishi va moliyalashtirishni taqozo etadi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning zarurligi shuning bilan izohlanadiki, investitsiya faoliyatiga yo‘naltirilgan har qanday sarmoya, pirovardida, o‘z-o‘zidan investor manfaatlarini ta’minlab bera olmaudi. Bilamizki, investorlar doimo amalga oshirgan investitsiya faoliyatidan katta foyda va samara olishni ko‘zlaydilar. Bu orqali o‘z kapitalini ko‘paytirish va uni bozor risklari ostida qiymatining yo‘qolishidan himoyalashni xohlaydilar.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh

mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin emas. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyatlar va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyani, eksportbop tovarlarni o‘zlashtirishga, ularni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xorijiy_investitsiya
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr, https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliasy-28-12-2018
3. Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2008.

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISHDA RAQAMLASHTIRISH VA JAHON TAJRIBASI

Qodirova Dilafruz Olimovna
Guliston davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga “raqamli texnologiyalar”ni joriy etish bugungi kunda o‘zining potentsial imkoniyatlarini kengaytirish jarayonida bo‘lgani holda, texnik baza, dasturiy ta’minotning nomukammalligi, aholi kompyuter savodxonlik darajasining pastligi, raqamli texnologiyalar sohasini tartibga solish borasida qonunchilik bazasining bugungi kun talablariga javob bera olmasligi kabi omillar kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish va biznes muhitiga yangi “raqamli texnologiyalar”ni integratsiyalashuviga to‘sqinlik qilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda davlatning qo‘llab-quvvatlovchi siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi tasdiqlandi [1]. Mazkur strategiyada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning:

zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;

innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;

sug‘urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug‘urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish kabi ustivor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Elektron tijorat va elektron to‘lovlar tizimini rivojlantirish maqsadida:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish;

raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog‘i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalardan ulanish imkoniyatlari va ko‘lamlarini oshirish;

elektron tijorat va elektron to‘lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to‘lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish;

bitta savdo maydonchasida keng ko‘lamli bank va bankdan tashqari moliyaviy xizmatlarni (qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar, sug‘urta va boshqalar) taqdim etishga yo‘naltirilgan moliyaviy supermarketlarning biznes modelini yaratish;

tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish ko‘lamini va sifatini oshirish kabilar belgilab berildi.

Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni bilan “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasi” tasdiqlandi[2]. Mazkur strategiyada ham bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalarini va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aktsiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov savdolari asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish belgilab berilgan.

Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida – “raqamli iqtisodiyot” kontseptsiyasi vujudga keldi, mazkur kontseptsiyaning asosini katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish sohasini (onlayn xizmatlar, elektron to‘lovlar va boshqalar) rivojlantirish imkonini beruvchi raqamli va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va ularni jamiyat hayotining barcha sohalariga izchil joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatini tashkil etishning o‘ziga shakl va usullari tashkil etadi. Zamonaviy, intellektual iqtisodiyot sari rivojlanish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘plab omillarga bog‘liq va ularning ekonometrik tahlili raqamli iqtisodiyotni oqilona boshqarish hamda tartibga solish imkonini beradi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishga mamlakatimiz olimlari orasida R. Ayupov, D. Rasulova, D. Rasulev, Z. Mamadiyorov kabilar katta hissa qo‘shganlar.

Raqamli iqtisodning xarakterli ko‘rsatgichlari sifatida yangi ishlab chiqarish usullarini, ommaviy hamkorlikni, ommaning intellektual mulkka egalik qilishini, iste’mol modellaring o‘zgarishini va ochiq mehnat bozorini keltirish mumkin. Ammo, hozirgi paytda raqamli iqtisod (internet-savdo, internet-xizmatlar, kontentlar, elektron to‘lov va boshqalar)ning O‘zbekiston Respublikasi yalpi milliy daromadidagi hissasi 1% ga ham bormaydi[3].

1-jadval.

Moliya tizimini raqamlashtirish evolyutsiyasi

Davr	Bosqich	Xususiyati
1950-yillar	bank kartalarining paydo bo‘lishi va keg tarqalishi	chakana mijozlarning keng doirasi uchun bank mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish va targ‘ib qilish. Kredit kartalar banklar tomonidan ommaviy iste’molchi uchun ishlab chiqilgan universal mahsulot hisoblanar edi
1960-yillar	bankomatlardan foydalanish	Avtomatlashtirilgan avtomat (ATM) bankomatlar mijozlarga hizmat ko‘rsatish va naqd operatsiyalarni amalga oshirish qulayligi uchun ixtiro qilingan va faol ishlatilgan bo‘lib, bu bank xizmatlaridan bank filiallaridan tashqarida foydalanish imkoniyatini yaratdi.
1970-yillar	elektron savdo maydonchalarini yaratish (birinchisi - NASDAQ)	qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalarni tizimlashtirish va avtomatlashtirish moliyaviy operatsiyalarni o‘tkazishni ancha soddalashtirdi
1980-yillar	birinchi bank kompyumterlari va axborot texnologiyalari echimlari	Molsashtirilgan mikrokompyuterlar asosida bank ma’lumotlarini qayta ishlash uchun maxsus elektron vositalarni yaratish kredit tashkilotlariga xarajatlarni kamaytirishga imkon berdi. Bank xodimining ish joyini kompyuter bilan jihozlash mumkin bo‘ldi

1990-yillar	“moliyaviy texnologiyalar” tarmog‘ining shakllanishi	moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar sohasida innovatsion echimlar va texnologiyalarni birlashtirgan maxsus ekotizimning paydo bo‘lishi
2000-yillar	robotlashtirish, vizualizatsiya, buyumlar Internetining paydo bo‘lishi, shuningdek insonlar va raqamli agentlarni birlashtirgan SMART ekotizimlarni yaratish	Internet-kommunikatsiyalarniyu ommaviylashishi. An’anaviy operatsion va axborot texnologiyalarining birlashishi, “aqlli” mashinalarning ko‘payishi. Bunday holda, axborot nafaqat qiymat yaratish vositasi, balki mustaqil mahsulotga ham aylanadi (prognozli va retsept bo‘yicha tahlil, masofaviy monitoring va boshqarish)

Manba: Умные финансы: современные технологии в международных финансах: сб.докладов / под ред. В.Д.Миловидова, С.Ю. Перцевой. – Москва: МГИМО – Университет, 2018.

Lekin mamlakatimizning rivojlanish tendentsiyalari shuni ko‘rsatadiki, yuqorida ko‘rsatilgan bozorlar kelajakda tezlik bilan rivojlanib ketadi. Bundan tashqari, to‘rtinchi sanoat revolyutsiyasi va 4.0 industriya texnologiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan texnologik o‘zgarishlar, ya’ni, ommaviy robotlashtirish, qo‘shimcha va virtual reallik texnologik platformalari hamda 3D-printer texnologiyalari ushbu jarayonni yanada tezlashtiradi. Yuqorida aytib o‘tilgan 4.0 Industriya atamasi 2011 yilda Gannover yarmarkasida iste’molga kirdi va uning ma’nosi qiymat hosil qilish global zanjirini ko‘rsatishdan iborat. “Aqlli zavodlar”, “aqlli texnologiyalar” va “aqlli robotlar” kabi texnologiyalarining jahon bo‘ylab tarqalishini amalga oshirgan holda, to‘rtinchi sanoat revolyutsiyasi global darajada virtual va fizikaviy tizimlarning bir-biriga o‘zaro ta’sirini amalga oshiradi. Bu esa o‘z navbatida mahsulotlarning to‘liq moslashuvchanligiga hamda yangi operatsion modellar yaratilishiga olib keladi.

Raqamli iqtisodiyotning yana boshqa bir hizmatlari, shu jumladan, big data, sun’iy intellekt, mashina vositasida ta’lim berish, kraudsorsing, kraudfanding, blokcheyn va bulutli texnologiyalar ham kelajak iqtisodiyotida va korporativ boshqaruvda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini hayotning rivojlanish tendentsiyalari yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Moliya sektorini raqamlashtirish zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanishining ajralmas xususiyatidir. Moliya bozori sub’ektlari muvaffaqiyatli va raqobatbardosh bo‘lishlari uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy qilishda global tendentsiyalarga rioya qilish va “raqamli” bo‘lishi zarur. Ushbu vazifani bajarish an’anaviy dunyo biznes modellarini zamonaviy dunyo muammolariga javob beradigan tarzda o‘zgartirishga olib keladi. Kredit tashkilotlari, sug‘urta kompaniyalari va boshqa institutsional investorlar raqamli texnologiyalar ta’sirida o‘z faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha muhim o‘zgarishlarni amalga oshirmoqdalar.

Bank sektorini raqamlashtirish murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ammo uning yakuniy maqsadi aniq va sodda —ya’ni mijozlar va banklarning o‘zlari uchun resurslarni (vaqt va pulni) tejashdan iboratdir.

Bankni raqamlashtirish iste’molchiga qanday navf beradi:

- iste’molchi bank xizmatlaridan istalgan vaqtda va istalgan kanallar: bank ofisi, koll-markaz, videoa aloqa, bankomat, mobil va Internet-banking, chat-botlar ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali foydalanishi mumkin bo‘ladi;

- mijozning bank ofisiga kelishiga hojat qolmaydi, ular masofadan turib har qanday xizmatni olishlari mumkin: o‘z uyiga etkazib berish sharti bilan kartani ochish, kreditni rasmiylashtirish, omonat ochish va boshqalar;

Katta ma’lumotlar tufayli banklar mijozlar haqida juda ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘ladilar, bu esa turli rasmiyatchiliklarga barham beradi.

Moliya sohasini raqamlashtirishni zamonaviy jamiyat taraqqiyotining evolyutsion bosqichi sifatida tahlil qilib, uning shakllanishining asosiy bosqichlarini ko‘rib chiqish kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu jarayonning asosini moliyaviy texnologiyalar sohasidagi moliyaviy munosabatlar sohasidagi yutuqlarni faol joriy etish tashkil etadi.

Moliyaviy texnologiyalar - bu moliyaviy xizmatlar va texnologiya sohalari kesishmasidagi dinamik segment bo‘lib, unda bozor texnologik startaplari va yangi ishtirokchilari hozirgi davrda an’anaviy moliyaviy hizmatlar sektorlar hizmat va mahsulotlariga innovatsion yondashuvni qo‘llashadi.

Raqamlashtirish jadal rivojlanib, an’anaviy qiymat zanjiridagi narsalarning an’anaviy tartibini buzmoqda.

Eng yangi texnologiyalar va yangi biznes yo‘nalishlaridan foydalanadigan moliyaviy texnologik kompaniyalar moliyaviy xizmatlar ishtirokchilari o‘rtasida o‘rnatilgan chegaralarni buzib, raqobat muhitini qayta shakllantirmoqdalar.

Moliyaviy texnologiyalar ekotizimi startaplar, texnologik kompaniyalar, moliya institutlari va infratuzilma ishtirokchilari kabi elementlarni o‘z ichiga oladi [4].

Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishda yuqoridagi bosqichlarni ajratish mumkin (1-jadval). Moliya sohasidagi raqamlashtirish evolyutsiyasi yuqori intensivlik va rivojlanish dinamikasini namoyish etadi. Ushbu jarayon iqtisodiy tizim, uning institutlari va butun jamiyat uchun sifat jihatidan yangi talablarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari biznes strategiyasini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Innovatsion echimlarni qo‘llashning yuqori samaradorligi moliya sektorini bozorda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun ham, mijozlar va bozor ishtirokchilari bilan o‘zaro ta’sir darajasini oshirish uchun ham o‘zgarishga majbur qiladi.

Kredit tashkilotlari quyidagi talablarga javob beradigan moliyaviy yuqori texnologiyali korporatsiyalarga aylanishga intilmoqda:

• mijozlarga moliyaviy texnologiyalar ekotizimi doirasida keng qamrovli xizmatlar to‘plamini taqdim etish;

• axborot shaffofligini oshirish, moliya bozoridagi vositachilikni yo‘q qilishga yordam berish;

• real vaqt rejimida ishlash va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan raqamli echimlarni doimiy ravishda takomillashtirish va boshqalar.

An’anaviy biznes modelini o‘zgartirish bank faoliyatining barcha yo‘nalishlarini birlashtirgan axborot texnologiyalarining muhim qismini o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Doimiy tuzatishlar kiritish zarurligini hisobga olgan holda, biznesni yuritish va uning missiyasi asosida raqamli strategiyani ishlab chiqish (raqamli innovatsiyalar paydo bo‘lishining yuqori tezligi, qonunchilikdagi o‘zgarishlar va boshqalar).

2. IT tizimlari yoki IT landshaftining arxitekturasini yaratish. Ushbu bosqich ma’lum bir konfiguratsiyada qurilgan va biznes bo‘limlari uchun operatsion jarayonlarning ishlashini ta’minlaydigan dasturiy ta’minot, hisoblash va telekommunikatsiya vositalari to‘plamlarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi;

3. IT-echimlarni ishlab chiqish va ularni ishga tushirish.

Ushbu bosqichlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Bankning raqamli strategiyasini ishlab chiqish barqaror rivojlanishning asosiy segmentlarini aniqlashga asoslangan: raqamli mahsulotni, shu jumladan shaxsiylashtirilgan bank xizmatlarini yaratish; mijozlar, regulyator va hamkorlar bilan shaffof o‘zaro a’loqalarni ta’minlash; hamkorlarning moliyaviy ekotizimini ishlab chiqish, biznes-inkubatorlarni yaratish va boshqalar (2-jadval).

IT landshaftidan foydalangan holda raqamli strategiyani amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasini yaratish alohida biznes yo‘nalishlarini ajratishni nazarda tutadi: ko‘p kanalli tarqatish va marketing, xizmatlar va jarayonlarni birlashtirish, ishlov berish operatsiyalari, qo‘llab-quvvatlash, ma’lumotlar fabrikasi, strategiya va menejment[5].

Ushbu biznes yo‘nalishlarini samarali rivojlantirish uchun banklar ko‘p kanalli xizmatlarni boshqarishga imkon beradigan yagona ko‘p kanalli raqamli platformani joriy qilishlari kerak.

2 – jadval.

Bankning raqamli strategiyasining asosiy segmentlari

Yo‘nalish	**Tavsifi**
Raqamli mahsulotni yaratish	Mijozlarning talablar va istaklarini qondirish zarurati mijozlar bazasini va xaridorga to‘g‘ri keladigan mahsulot sonini ko‘paytiradi.

Mijoz bilan bevosita o‘zaro aloqani amalga oshirish	Masofali bank xizmatlaridan foydalanish, shu jumladan shaxsiylashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni real vaqt rejimida taklif qilish mijozlar bazasini faollashtiradi va mijozlarni ushlab qolish darajasini oshiradi
Hamkorlarning moliyaviy ekotizimini ishlab chiqish	Bank mahsulotlarini hamkor platformalar orqali sotish imkoniyatlarini yaratish, bu mijozlar bazasi darajasini oshirishga va har bir mijozga to‘g‘ri keladigan mahsulotlarning sonini ko‘paytirishga imkon beradi.
Regulyator bilan masofadan ishlash	Ichki jarayonlarning avtomatizatsiyasi va ortqicha rasmiyatchilikdan holi qilish tranzaktsiya xarajatlarini, vaqt va operatsion xatarlarni kamaytiradi.
Biznes inkubatorlarini qo‘llash	G‘oyalar va manbalar ekotizimini rivojlantirish tezkor qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishga yordam beradi, bu jarayon xarajatlarini kamaytiradi va mijozlar ehtiyojini qondiradi.

Manba: Умные финансы: современные технологии в международных финансах: сб.докладов / под ред. В.Д.Миловидова, С.Ю. Перцевой. – Москва: МГИМО – Университет, 2018.

Kompleksli raqamli transformatsiya doirasida mijoz uchun iste’mol qiymatini yaratish maqsadida zarur bo‘lgan biznes-jarayonlarning standartlashtirish va integratsiyalashuv darajasini aks ettiruvchi mavhum vosita bo‘lgan axborot texnologiyalarining (IT) operatsion modelini sozlash zarur. Operatsion modelning asosiy elementlari biznes jarayonlari, biznesning tashkiliy tuzilmasi, texnologiyasi va raqamli vositalari, shuningdek ushbu jarayonlarni amalga oshirayotgan insonlar hisoblanadi.

Bank statistikasiga ko‘ra, raqamli transformatsiya faoliyati kredit tashkilotlarining moliyaviy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va muhim investitsiyalar maqsadlar kombinatsiyasiga erishish orqali qoplanadi.

Bunday sharoitlarda kredit tashkilotlaridan o‘zgaruvchan tashqi omillar ta’siri ostida vujudga keladigan barqaror strategik va taktik maqsadlarga erishish uchun (moliyaviy, insoniy, moddiy) resurslarni ajratish talab etiladi.

Texnologik xizmatlar biznes strategiyasini o‘zgartirish va ijobiy moliyaviy natijalarga erishish vositasi va drayveri hisoblanadi. Kredit tashkilotining ushbu yo‘nalishdagi faoliyati sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarilib, mijoz uchun yanada jozibador bo‘lishiga imkon beradi, harakatsizlik esa ishtirokchini bozordan siqib chiqarib yuborilishiga olib kelishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, raqamli transformatsiya nafaqat potentsial imkoniyat va imtiyozlarni, balki muhim xavf va tahdidlarni ham o‘z ichiga oladi. Ularni bartaraf qilish uchun moliyaviy texnologiyalarni tartibga solish sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani, ayniqsa, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar xavfsizligi nuqtai nazaridan muvofiqlashtirish zarur. Shuni ta’kidlash kerakki, mamlakat moliya sektorining barqaror rivojlanishi umuman olganda iqtisodiy o‘sishning innovatsion omillariga tayanib ish ko‘rishni talab qiladi.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi fikrlarni ilgari suramiz:

1. Tijorat banklari faoliyatiga tadbirkorlik sub’ektlarining bankni kreditlash amaliyotidan mamnunlik ko‘rsatkichi va ularning bankni kreditlash amaliyotidagi kamchiliklar ko‘rsatkichini qo‘llash orqali bankning kreditlash amaliyoti samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqligi quyidagilar bilan izohlanadi:

bankning kreditlash samadorligini o‘lchash va baholash orqali kredit bo‘limi xodimlari faoliyati baholanadi, tadbirkorlik sub’ektlarini jalb qilish va ularni saqlab qolish darajasi o‘lchanadi;

tadbirkorlik sub’ektlarining tajribasini oshirish va o‘zaro bilim almashishga erishiladi, bank mijozlarini soni ortishiga olib keladi. Natijada, bank daromadini oshirish imkoniyati yaratiladi.

2. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish borasida ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish va umumlashtirish natijalari ko‘rsatdiki:

AQSh tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash amaliyotidagi mavjud bo‘lgan kafolat berish tajribasi, ularning kreditlash amaliyoti takomillashganligidan dalolat beradi;

Bangladesh davlati banklarida kreditlash amaliyoti mijozlarni bir xil imkoniyatga ega bo‘lgan guruhlar bo‘yicha ajratib, alohida bank xizmatlarini ko‘rsatish va kredit berish amaliyoti takomillashgan;

Islom bank-moliya kreditlash amaliyotini mamlakatga tatbiq qilinishi, tadbirkorlik sub’ektlariga o‘z faoliyatlarini nafaqat amaldagi qonunchilik doirasida, balki o‘z dinlari talablariga muvofiq tarzda – halol yo‘llar bilan amalga oshirish mumkinligidan dalolat beradi.

3. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit qo‘yilmalarida davlat ulushi mavjud banklar salmog‘ini kamaytirish zarur.

Buning uchun Yaponiya davlatining kreditlash amaliyotini quyidagi tajribalarini taklif etamiz birinchidan, davlat dasturlarini amalga oshirish uchun maxsus davlat tijorat bankini tashkil etish; ikkinchidan, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida davlatning ulushini keskin kamaytirish va to‘liq sotish kerak.

4. O‘zbekiston bank amaliyotida innovatsion onlayn kreditlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida kreditlash amaliyoti onlayn tarzda keng qo‘llanilmoqda. Bu xizmat turini takomillashtirishda internet tezligi va sifatini yaxshilash, tadbirkorlik sub’ektlarining kompyuter savodxonligini oshirish lozim. Chunki, innovatsion onlayn kreditlash tadbirkorlik sub’ektlarini ko‘p kuch va vaqt sarflamasdan kreditlash amaliyotiga bo‘lgan talabini qondirish bilan ifodalash mumkin.

5. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlash samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqligi quyidagilar bilan izohlanadi:

tadbirkorlik sub’ektlariga kredit liniyasini ochish orqali beriladigan mablag‘larni talab va taklif asosida shakllantirish lozim;

kreditning umumiy miqdoriga tadbirkorlik sub’ektining garov ta’minotini rasmiylashtirish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olish kerak;

bosh bank tomonidan tijorat banklari filiallariga kredit limitini belgilashda kredit miqdorini erkinlashtirish lozim;

xorijiy valyutada ajratilgan kreditning xorijiy valyutada qoplanishi va kredit muddati o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni hisobga olish muhim, ushbu jihatlarni yaxshilash banklarda tadbirkorlik sub’ektlari kreditlash amaliyotini yanada rivojlantirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni.
3. Ayupov Ravshan Hamdamovich& Kurbanov Zafar Mamanazarovich&Ergasheva Mamura Gayratovna. MAIN DIRECTIONS OF USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE ECONOMIC SECTORS OF UZBEKISTAN. Journal of innovations in economy. 2020. Special Issue 4. pp. 36-4.
4. Перцева С.Ю. Финтех: механизм функционирования / С.Ю. Перцева // Инновации в менеджменте. 2017. №12. — С. 50-53.
5. Умные финансы: современные технологии в международных финансах: сб.докладов / под ред. В.Д. Миловидова, С.Ю. Перцевой. - Москва: МГИМО - Университет, 2018.

ХУДУД ИҚТИСОДИЁТИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

О.Т.Сатторкулов, У.И.Усмонова
и.ф.н., доцент
ГулДУ Иқтисодиёт кафедраси
ўқитувчи
ГулДУ Рус тили ва адабиёти кафедраси

Инновация субъектлари фаолияти самарадорлигини аниқлаш иқтисодиётни диверсификация жараёнларида жуда зарур. Илмий ишлаб чиқариш корхоналари янги технологияни татбиқ этган ҳолда янги, сифатли маҳсулот ишлаб чиқарадиган корхоналар асосини ташкил қилади. Иқтисодий ислоҳотларнинг муваффақиятли амалга ошиши эса, кўп жиҳатдан ушбу корхоналар фаолиятини муайян баҳоланишини таъминлайдиган услубий ва методологик мосламалар қўлланилишига боғлиқ. Шу муносабат билан, ишлаб чиқариш корхоналарининг молия-хўжалик, инновация ва инвестиция фаолиятини таҳлил қилиш ва баҳолаш, бундан тўғри ва фойдали хулосалар чиқариш, муаммонинг ечимини топиш тўғрисидаги масалалар ривожланган мамлакатлар, хусусан, бозор иқтисодиётига ўтаётган мамлакатлар учун муҳим аҳамиятга эга.

Диверсификация шароитида корхонада инновацион фаолиятнинг давлат томонидан қўллаб-қувватланиши жуда муҳим аҳамиятга эга. Илмий фаолият давлат сиёсатининг анъанавий йўналиши бўлиб ҳисобланади. Гап шундаки, мақсади фойда олиш бўлган илмий ғояларни бевосита тўғридан-тўғри хўжалик фаолиятига қўллаш мумкин эмас. Шу сабабли корхона ва компаниялар тадқиқотларни молиявий таъминлашда эҳтиёткор бўладилар, ваҳоланки, уларнинг натижаларидан манфаатдордирлар. Ҳозирги замон шароитида бизнесни инновацион жараённинг муҳим ресурсларидан бири бўлган - илмий ғоялар ва билимлар билан таъминлаш функциясини ўз таркибига олади. Худди шунинг учун ҳам етакчи давлатларнинг расмий ҳужжатларида илмий-техник тараққиёт ягона занжир сифатида кўрилади: илмий ғоялар ва ишлаб чиқилган ишланмалар - инновацион бизнесни кенг кўламли ривожланишини таъминлайди.

МДҲнинг бошқа давлатлари каби бозор иқтисодиёти билан боғлиқ бўлган ислоҳотларни амалга ошираётган Ўзбекистон учун ҳам илм ва техника доирасини давлат томонидан бошқаришнинг оқилона шаклларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эгадир. Чунки илмий тадқиқотлар ва тажриба синовлари -иқтисодий ўсишнинг асосий манбаси бўлиб ҳисобланади. Жаҳон етакчи давлатлари илмий ва инновацион сиёсатининг мақсадлари бўлиб қуйидагилар ҳисобланади: - мамлакат иқтисодиётининг ўсишида илм ва техника улушини ошириш; - моддий ишлаб чиқаришда прогрессив ўзгаришларни таъминлаш; - жаҳон бозорида миллий маҳсулотимизнинг рақобатбардошлигини ошириш; - мамлакат хавфсизлиги ва мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш; - экологик муҳитни яхшилаш; - мавжуд илмий мактабларни сақлаш ва ривожлантириш. Давлат ўз сиёсатининг мақсадларини аниқлаш билан бир вақтда принциплар ва бу сиёсатни амалга ошириш механизмини ҳам ишлаб чиқади. Бу принциплар мамлакатда шаклланган хўжалик тизими ва давлат институтларининг иқтисодий фаолиятига таъсирининг чуқурлигига боғлиқдир.

Илмий ва инновацион фаолиятда давлат сиёсатининг асосий принципларига қуйидагилар киради: - илмий ва илмий-техник ижоднинг эркинлиги; - интеллектуал мулкнинг ҳуқуқий ҳисобланиши; - илмий, илмий-техник фаолият ва таълим интеграцияси; - илм ва техника соҳасида рақобатни қувватлаш; - илмий ривожланишнинг устувор йўналишларида ресурсларни концентрациялаш; - илмий, илмий-техник ва инновацион фаолиятда ишбилармонликни рағбатлантириш Жаҳон амалиётида қўллаб-қувватлаш даражаси ва шакллари бўйича қуйидаги кўринишлар мавжуд бўлади: - фаол аралашган давлат стратегияси; - номарказлашган; - аралаш.

Республикамизда хорижий сармояларни жалб этиш тадбирларини амалга оширишда қуйидаги тамойилларга асосланади: Биринчидан, ташқи иқтисодий фаолиятни янада эркинлаштириш соҳасида аниқ мақсадни кўзлаб сиёсат юргизиш. Иккинчидан, республика иқтисодиётига бевосита капитал маблағни жалб этишни таъминлайдиган ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа шартшароитларни тобора такомиллаштириш. Учинчидан, республикага жаҳон даражасидаги технологияни етказиб бераётган, халқ хўжалигининг замонавий таркибини вужудга келтиришда кўмаклашаётган хорижий сармоядорларга нисбатан эшикларни очиб қўйиш сиёсатини изчиллик билан ўтказиш. Тўртинчидан, маблағларни республика мустақиллигини таъминлайдиган ва рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган энг муҳим устувор йўналишларда жамлаш. Республикада хорижий имтиёзларнинг кенг тизимини вужудга келтирган хорижий сармоядорлар учун имтиёзли солиқ жорий этилган.

2022 йилда 17 та инновацион-инвестиция лойихаларини молиялаштириш учун 17,3 млн АҚШ дол(10,3 млн доллари ташқи ва 7 млн доллари ички манбалар)ларига тенг маблағлар жалб этилди. Мамлакатимизда тижоратлаштириш натижасида илмий-ҳажмдор махсулот ишлаб чиқариш динамикасини тахлил қилар эканмиз, ушбу кўрсаткич 2019 йилда 38,8 млрд сўм, 2020 йилда 41,7 млрд сўм, 2021 йилда 153,2 млрд сўм ва 2022 йилда 216,7 млрд сўмни ташкил этди ёки 2019 йилга нисбатан 2022 йилда илмий-ҳажмдор махсулот ишлаб чиқариш ҳажми салкам олти баравар кўпдир [1].

Амалдаги имтиёзлар ва рағбатлантириш омиллари тизимида: —ишлаб чиқариш ҳажмида товарлар (ишлар, хизматлар) экспорти камида 30 фоизни ташкил этадиган корхоналарга, мулкчилик шаклларидан қатъий назар, фойда солиғини амаидаги ставкалардан икки баробар камроқ тўлаш ҳуқуқини бериш; —Республика давлат инвестиция дастурига киритилган лойиҳалар бўйича солиқлар тўлашдан беш йил муддатга озод этиш; —хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар даромадининг ишлаб чиқаришни кенгайтиришга ва технологияни янгилашга сарфланадиган қисмидан солиқ олмаслик; —ўзи ишлаб чиқарган маҳсулотни рухсатномасиз бемалол четга олиб кетиш; -Ўзбекистон ҳудудида қўшма корхоналарнинг ва фақат хорижий сармоя билан ишлайдиган корхоналарнинг устав фондига ҳисса қўшиш учун мол-мулкни четдан бож тўловларсиз олиб кириш; —жисмоний ва юридик шахсларнинг, жумладан, ажнабийларнинг давлат мулкини хусусийлаштириш жараёнида, шу жумладан, кўчмас мулкнинг кенг миқёсда сотилишида бемалол иштирок этишларини таъминлаш; — инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш учун ер участкаларидан фойдаланиш ва улами тасарруф этиш ҳуқуқини танлов асосида сотиб олиш кўзда тутилган.

Ўзбекистон инвестицияларни ўзаро ҳимоя қилиш тўғрисида Германия, Туркия, Миср, Индонезия, Малайзия, Покистон, Финляндия, Корея, АҚШ, Франция каби 20 тага яқин давлатлар билан битимлар имзолади [2]. 2018-2022 йилларда Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги томонидан 44 та инвестиция лойиҳаларга 58,5 млн. долл. инвестиция маблағлари, шундан 33,1 млн. долл. хорижий инвестиция жалб қилинган. Хитой, Жанубий Корея, Туркия, Россия, Польша давлатларининг салоҳиятли компаниялари республикада инвестиция лойиҳаларини амалга оширмоқдалар[3].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлдаги «2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-165-сонли фармонига мувофиқ инновацион фаолиятни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг институционал механизмларини такомиллаштириш орқали инновацион фаол ташкилотлар улушини ошириш белгиланган. Ушбу йўналишда қуйидаги чора-тадбирлар амалга оширилади:

давлат илмий дастурлари доирасида хусусий секторнинг инновацион фаоллигини оширишда уларнинг илмий-тадқиқот лойиҳаларини танловлар асосида молиялаштиришнинг янги таъсирчан механизмларини жорий этиш;

илмий-тадқиқот фаолият сифатини ошириш ҳамда уни тижоратлаш- тириш даражаси самарадорлигини таъминлаш;

илмий-тадқиқот ва инновацион лойиҳаларни давлат-хусусий сектор шериклигида молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш ва ҳажмини ошириш;

инновацион экотизимни ривожлантириш учун халқаро молия ташкилотлари ва жамғармалари маблағларини жалб қилиш;

технопарклар резидентлари ўртасида инновацион тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш учун ягона солиқ ва божхона имтиёзларини жорий этиш;

илмий ташкилотларда бошқарув ва илмий фаолият самарадорлигини оширишда уларни модернизация қилишнинг намунавий тизимини ишлаб чиқиш ва синовдан ўтказиш;

яшил иқтисодиёт тамойилларига асосланган қайта тикланувчи энергетика, янги композит материаллар, робототехника, биотехнология, озиқ-овқат хавфсизлиги, ақлли қишлоқ хўжалиги, ақлли тиббиёт, ақлли саноат ва кластерлаш (мис ва виночилик) каби стратегик йўналишлар бўйича сунъий интеллект, буюмлар интернети ҳамда рақамлаштириш технологияларини жорий этишда ресурсларни жамлаш, янги иш ўринлари ва маҳсулот яратиш ҳамда янги хизматлар ташкил қилиш;

тадбиркорлик ва бизнесни бошқариш соҳаларининг зарур кўникмаларини ривожлантириш учун инновация марказлари ва ёшлар технопарклари асосида кичик ва инновацион

тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўйича ихтисослаштирилган ўқув дастурларини амалга ошириш;

давлат харидлари доирасида инновацион технологиялар асосида товар ишлаб чиқарувчилар ва хизмат кўрсатувчилар учун имтиёзлар яратиш, маҳаллий илмий ташкилотлар билан илмий-тадқиқот ва инновация ишларини амалга оширувчи маҳаллий компаниялар эҳтиёжлари учун давлат грантларини ажратиш;

хусусий секторнинг ишланма ва тадқиқотларга бўлган қизиқишини ошириш ва илмий ташкилотлар билан ҳамкорлигини мустаҳкамлаш, хусусий сектор томонидан инновацияларни молиялаштиришни (co-finance) рағбатлантириш, шу жумладан, хусусий ишланма ва тадқиқот ёки молиялаштириш фаолияти билан шуғулланаётган ташкилотлар учун махсус қўллаб-қувватлаш чораларини жорий этиш;

илм-фан намоёндалари ва тадбиркорлар ҳамда ёшлар ўртасида интеллектуал мулк объектларини муҳофаза қилишнинг аҳамияти ҳақида маърифий-тарғибот тадбирларини ташкил этиш;

жамоатчилик ва хусусий сектор вакиллари орасида инновацион лойиҳалар ва стартап компанияларни венчур ташкилотлари томонидан молиялаштириш механизмларини кенг ёритиш [4].

Ҳозирги пайтда жаҳон ҳамжамиятининг ривожланган мамлакатларида анъанавий илмий техника тараққиётида инновацион, илмий технологик тартибга жадал ўтиш жараёни рўй бермоқда. Айниқса диверсификация шароитида бундай жараён кўлами янада кенгайиб бориши табиий. Инновацион тартибнинг аввалгисидан фарқи шундаки, фаннинг шаклланиши ва давлат томонидан молиялаштириш тизимидан технологик ва илмий инновациялар барча турларини давлат томонидан рағбатлантиришга ўтиш кузатилмоқда. Ҳозирда АҚШда ва хусусан, Ғарбий Европада энг аввало Франция, Германияда фан-техника сиёсатининг инновацион сиёсатга айланиши рўй бермоқда. Унинг асосий вазифаси – илмий ва технологик инновациялар, энг аввало, кичик ва ўрта корхоналар учун, шунингдек, ўрта ва қисқа муддатли дастурлар соҳасида тезкор диверсификация учун энг қулай шароитлар яратишдир. Фанни молиялаш бўйича АҚШ жаҳонда етакчи ўринлардан бирини эгаллайди. Янгиликларни жорий этиш жараёнлари жуда тез амалга оширилиб уларнинг рақобатчилари ҳам топилади. Кўплаб ривожланган мамлакатларда диверсификация шароитида илмий тадқиқот ишлари ва муҳандислик тадқиқотлари (ИТИМТ)ни молиялашдаги давлатнинг роли анча фаол бўлиб, фақат давлат ташкилотлари томонидангина амалга оширилмайди. Бунинг учун хусусий корхоналар ҳам ўз хиссаларини қўшиб борадилар. Ҳозирги вақтда АҚШда федерал ҳукумат улуши (молиялаш манбаи сифатида) барча харажатлар салмоғининг 50 фоизини ташкил этади. Бу кўрсаткич Буюк Британия, Швеция ва Германияда 40 фоиз атрофида, Францияда 57 фоиз, Японияда 28 фоизга тўғри келади. Илмий тадқиқот ишлари ва муҳандислик тадқиқотлари (ИТИМТ) соҳасининг давлат томонидан бундай эътибор билан қўллабқувватланиши қонуний бўлиб, бир қатор далиллар билан изоҳланади. Диверсификация шароитида илмий тадқиқот конструкторлик ишлари давлат томонидан турли шаклларда қўллаб-қуввтланиши мумкин, жумладан: − илмий тадқиқотлар учун бевосита бюджет маблағларини ажратиш (давлат ташкилотлари орқали молиялаш, шартномалар тузиш, субсидиялар ажратиш). Айни ҳолатда давлат йирик харажатлар талаб қилинадиган ва кўплаб таваккалчиликка эга бўлган фаннинг етакчи йўналишларидаги кўп капиталли тадқиқотларни молиялашни ўз бўйнига олади; − илмий тадқиқотларни (ИТИМТ) билвосита молиялашнинг турли усуллари: хусусий компаниялар, инновация жараёнини рағбатлан-тириш, шунингдек, улар инвестициясини янги асбоб-ускуналар олиш учун кенгайтириш мақсадларида солиқ ва аммортизация имтиёзларидан фойдаланиш. Давлат айни вақтда кичик тадқиқот бизнеси учун шарт-шароит яратишга кўмаклашади, давлат томонидан фан-техника тараққиётини бевосита молиялаш тизими алоҳида эътиборга лойиқдир.

Ривожланган давлатларда инновацияларни амалда қўллаш учун субсидиялар (грантлар) берилади, субсидияларнинг ўзига хослигини қуйидагича белгилаш мумкин: − улар кичик ижрочиларнинг асосий иш жойида ойлик иш ҳақидан ва унга боғлиқ бўлмаган ҳолда берилади; − субсидиялар қайтариб берилмайди; − субсидия олган олим ёки илмий жамоа, олган маблағларни мустақил сарфлайди. АҚШ давлат инновация сиёсатининг объекти – бу асосан хусусий бизнесдир. Давлатнинг бу борадаги сиёсати мавжуд илмий-техник ютуқлардан

хўжаликда фойдаланишга, илмий-техник мажмуада ички алоқаларни мустаҳкамлашга қаратилган. Давлат инновация сиёсатининг усул ва воситалари анча кенг. Бунга у ёки бу маънода бизнеснинг инновацион фаоллигини рағбатлантирувчи турли хил давлат тадбирлари киради.

Америкалик мутахассисларнинг таъкидлашича, энг самарали ташкилий шакллардан бири университет – саноат ва тадқиқот марказлари саналади. Давлат иштирокида ташкил этиладиган бундай марказлар доирасида жуда кенг кўламдаги илмий-техник масалаларни ҳал этиш имкони мавжуд. Саноат корхоналари ва университетларнинг ҳамкорликдаги тадқиқотларига оид йирик дастурлар давлатнинг мақсадли илмий жиҳатдан иштирокчилар фаолиятининг бошқа корпорация механизмини назарда тутади. Ўзбекистонда АҚШ давлат инновация сиёсатининг маълум бир томонини қўллаш мумкинки, бунда давлат молиявий маблағларининг умумлашишини ва саноат моддий техника базасини малакали олий ўқув юртлари кадрлари билан таъминлаши рағбатлантирилиши лозим. Узоқ истиқболга мўлжалланган таваккал илмий техника лойиҳаларига маблағ ажратишга саноат корхоналарини қизиқтириш учун давлат дастлабки харажатларни ўз бўйнига олиб қолмасдан, иштирокчи фирмаларга кашфиёт ва ихтиролардан фойдаланишда бепул лицензиялар ҳам бериши керак бўлади [5].

АҚШдаги энг йирик компанияларда ишлаб чиқариш ҳажми кўпинча энг мақбул меъёрдан ошади, айнан шу нарса илмий техника соҳаси ривожланишида монополияни тўхтатади, кичик фирмалар фаолиятининг муваффақияти ҳам шунда. Ўзбекистонда йирик фирмалар кўмакчиси сифатида ишлайдиган кичик фирмаларни ташкил этиш учун шартшароитлар мавжуд, уларни амалдаги ҳолатини фаоллаштириш зарур. Маълумки, Япония тез амалга оширилиб уларнинг рақобатчилари ҳам топилади. Кўплаб ривожланган мамлакатларда диверсификация шароитида илмий тадқиқот ишлари ва муҳандислик тадқиқотлари (ИТИМТ)ни молиялашдаги давлатнинг роли анча фаол бўлиб, фақат давлат ташкилотлари томонидангина амалга оширилмайди. Бунинг учун хусусий корхоналар ҳам ўз хиссаларини қўшиб борадилар. Ҳозирги вақтда АҚШда федерал ҳукумат улуши (молиялаш манбаи сифатида) барча харажатлар салмоғининг 50 фоизини ташкил этади. Бу кўрсаткич Буюк Британия, Швеция ва Германияда 40 фоиз атрофида, Францияда 57 фоиз, Японияда 28 фоизга тўғри келади. Илмий тадқиқот ишлари ва муҳандислик тадқиқотлари (ИТИМТ) соҳасининг давлат томонидан бундай эътибор билан кўллабқувватланиши қонуний бўлиб, бир қатор далиллар билан изоҳланади [5] .

Диверсификация шароитида илмий тадқиқот конструкторлик ишлари давлат томонидан турли шаклларда қўллаб-қуввтланиши мумкин, жумладан: − илмий тадқиқотлар учун бевосита бюджет маблағларини ажратиш (давлат ташкилотлари орқали молиялаш, шартномалар тузиш, субсидиялар ажратиш). Айни ҳолатда давлат йирик харажатлар талаб қилинадиган ва кўплаб таваккалчиликка эга бўлган фаннинг етакчи йўналишларидаги кўп капиталли тадқиқотларни молиялашни ўз бўйнига олади; − илмий тадқиқотларни (ИТИМТ) билвосита молиялашнинг турли усуллари: хусусий компаниялар, инновация жараёнини рағбатлантириш, шунингдек, улар инвестициясини янги асбоб-ускуналар олиш учун кенгайтириш мақсадларида солиқ ва аммортизация имтиёзларидан фойдаланиш.

Давлат айни вақтда кичик тадқиқот бизнеси учун шарт-шароит яратишга кўмаклашади, давлат томонидан фан-техника тараққиётини бевосита молиялаш тизимини алохида ёритиш мақсадга мувофиқдир. Ривожланган давлатларда инновацияларни амалда қўллаш учун субсидиялар (грантлар) берилади, субсидияларнинг ўзига хослигини қуйидагича белгилаш мумкин: − улар кичик ижрочиларнинг асосий иш жойида ойлик иш ҳақидан ва унга боғлиқ бўлмаган ҳолда берилади; − субсидиялар қайтариб берилмайди; − субсидия олган олим ёки илмий жамоа, олган маблағларни мустақил сарфлайди. АҚШ давлат инновация сиёсатининг объекти – бу асосан хусусий бизнесдир. Давлатнинг бу борадаги сиёсати мавжуд илмий-техник ютуқлардан хўжаликда фойдаланишга, илмий-техник мажмуада ички алоқаларни мустаҳкамлашга қаратилган.

Давлат инновация сиёсатининг усул ва воситалари анча кенг. Бунга у ёки бу маънода бизнеснинг инновацион фаоллигини рағбатлантирувчи турли хил давлат тадбирлари киради. Америкалик мутахассисларнинг таъкидлашича, энг самарали ташкилий шакллардан бири университет – саноат ва тадқиқот марказлари саналади. Давлат иштирокида ташкил этиладиган бундай марказлар доирасида жуда кенг кўламдаги илмий-техник масалаларни ҳал этиш имкони

мавжуд. Саноат корхоналари ва университетларнинг ҳамкорликдаги тадқиқотларига оид йирик дастурлар давлатнинг мақсадли илмий жиҳатдан иштирокчилар фаолиятининг бошқа корпорация механизмини назарда тутади.

Ўзбекистонда АҚШ давлат инновация сиёсатининг маълум бир томонини қўллаш мумкинки, бунда давлат молиявий маблағларининг умумлашишини ва саноат моддий техника базасини малакали олий ўқув юртлари кадрлари билан таъминлаши рағбатлантирилиши лозим. Узоқ истиқболга мўлжалланган таваккал илмий техника лойиҳаларига маблағ ажратишга саноат корхоналарини қизиқтириш учун давлат дастлабки харажатларни ўз бўйнига олиб қолмасдан, иштирокчи фирмаларга кашфиёт ва ихтиролардан фойдаланишда бепул лицензиялар ҳам бериши керак бўлади. АҚШдаги энг йирик компанияларда ишлаб чиқариш ҳажми кўпинча энг мақбул меъёрдан ошади, айнан шу нарса илмий техника соҳаси ривожланишида монополияни тўхтатади, кичик фирмалар фаолиятининг муваффақияти ҳам шунда. Ўзбекистонда йирик фирмалар кўмакчиси сифатида ишлайдиган кичик фирмаларни ташкил этиш учун шартшароитлар мавжуд, уларни амалдаги ҳолатини фаоллаштириш зарур.

Адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги, Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2022-йил январь-декабрь.Тўплам –Т.:2023й.

2.2022-yilda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahliliy axborotnoma. Toshkent 2023y.

3.Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигининг 2018-2022 йиллар кесимида амалга оширган ишлари юзасидан Ҳисоботи. Тошкент. 2023й

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлдаги «2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-165-сонли фармони

5.А.М.Абдуллаев, К.Ахмедов. Инновационный менеджмент.-Т.: “LESSON PRESS” МЧЖ нашриёти. 2020. 728 стр.

SANOAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHDA INVESTITSION FAOLLIKNING JAHON TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Atabayeva Karomat Rajabovna
Urganch davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qulay investitsiya muhitini shakllantirmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiuatli integratsiyalasha olmaudi. SHu maqsadda O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish jarayonini faollashtirish uchun real shart-sharoit yaratish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar hududlarga investitsiyalarni yanada faol jalb etish maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bugungi kunda hududlar investitsion jozibadorligini yanada oshirish borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida har bir hududda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda uuksalish va samaralarga erishilmoqda.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi 2023 yilning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya kiritish masalalariga alohida to‘xtalib, “…Keng ko‘lamli va samarali islohotlarimiz natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotimizga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksrortimiz esa, 19 milliard dollarga etdi[1].

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirishga xalqaro ekspertlarning munosabatlari va bergan baholari ham davlatimizning iqtisodiy islohotlarni to‘g‘ri yo‘lda va samarali amalga oshirayotganligidan dalolat beradi. Mamlakat hududlari va iqtisodiyoti tarmoqlariga

yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibiy tuzilishini aks ettiruvchi 1-jadvalda so‘nggi yillarda ijobiy tomonga o‘zgarishlar yuz berganligini kuzatish mumkin.

So‘nggi 6 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 4 martaga ko‘payib, o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lmoqda. 2022 yil davomida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 269,9 trln. so‘m investitsiya o‘zlashtirilgan.

So‘nggi yillardagi ularning o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2019 yilgacha o‘sib borgani va 138,1 % ga yetgani, 2020 yilda keskin tushgani – 95,6 % hamda hozirgi davrgacha yana o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘layotganini ko‘rish mumkin – 100,9 %. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021 yilga nibatan 3,8 % punktga kamayib, 15,4 %ni yoki 41,5 trln. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so‘m yoki jami investitsiyalarning 84,6 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, 2021 yilga nisbatan 3,8 % punktga ko‘paydi.

1-jadval

Mamlakatimizda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar[2]

Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	**Markazlashgan investitsiyalar**	**Markazlashmagan investitsiyalar**
Investitsiyalar hajmi 269 857,5 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 100,9 % Ulushi 100 %	Investitsiyalar hajmi 41 436,4 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 80,4 % Ulushi 15,4 %	Investitsiyalar hajmi 228 421,1 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 105,8 % Ulushi 84,6 %
Respublika byudjeti	**Suv ta’minoti va kanali-zatsiya tizimlarini rivoj-lantirish jamg‘armasi**	**Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi**
Investitsiyalar hajmi 20 910,1 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 84,4 % Ulushi 7,8 %	Investitsiyalar hajmi 2 873,6 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 92,0 % Ulushi 1,1 %	Investitsiyalar hajmi 2 470,8 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 73,5 % Ulushi 0,9 %
Kafolat ostidagi xorijiy kreditlar	**Korxona mablag‘lari**	**Aholi mablag‘lari**
Investitsiyalar hajmi 15 181,9 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 74,9 % Ulushi 5,6 %	Investitsiyalar hajmi 84 516,0 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 110,6 % Ulushi 31,3 %	Investitsiyalar hajmi 25 738,1 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 103,2 % Ulushi 9,5 %
To‘g‘ridan-to‘g‘ri va kafo-latlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar	**Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari**	**Korxonalar soni**
Investitsiyalar hajmi 97 037,6 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 104,3 % Ulushi 36,0 %	Investitsiyalar hajmi 21 129,4 mlrd. so‘m 2021 yilga nisbatan 98,7 % Ulushi 7,8 %	Yirik tashkilotlar 3 650 ta Kichik biznes (Investitsiya dasturi doirasidagi loyihalar ijrochilari) 1910 ta

Jalb etilgan mablag‘lar 159,6 trln. so‘m, jamiga nisbatan 59,1 %, o‘z mablag‘lari 110,3 trln. so‘m, jamiga nisbatan 40,9 %ni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga kiradigan davlat maqsadli jamg‘armalarining ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 917-sonli qaroriga asosan 2019 yilda “Davlat maqsadli jamg‘armalari”ning ro‘yxati o‘zgarganligi munosabati bilan investitsiya yo‘naltirilishi ham to‘xtatilgan.

Darhaqiqat, 2019 yilning o‘zida barcha manbalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalarning qariyb 30 foizini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar tashkil etdi. Umumiy qiymati 5,4 milliard AQSH dollari bo‘lgan 145 ta tarmoq va 167 ta hududiy loyihalar ishga tushirildi. 2020 yil uchun 1569 ta xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya loyihalari ro‘yxati tasdiqlandi. Mazkur dasturga asosan shu

yilda 233 trillion 200 mlrd. so‘m, jumladan 7,1 mlrd. AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan[3].

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 120126,4 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lib, jami investitsiyalarning 44,5 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo‘yicha 131021,2 mlrd. so‘m (jami investitsiyalardagi ulushi 48,6 %) va boshqa xarajatlarga 18709,9 mlrd. so‘m (6,9 %) o‘zlashtirildi. Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatida kuzatildi – 66,7 % yoki 7679,2 trln. so‘m. Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo‘yicha eng quyi daraja Sirdaryo viloyatida kuzatilib, 22,7 %ni yoki 2858,1 trln. so‘mni tashkil etdi. SHuningdek, Sirdaryo viloyatida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich – 75,8 % yoki 9529,9 trln. so‘mni tashkil etdi.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamligini ta’minlashga hamda xususiy, shu jumladan xorijiy investitsiyalar uchun respublikaning investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo‘naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 153783,9 mlrd. so‘mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 57,0 %ini tashkil etdi. Iqtisodiyotda mavjud ob’ektlarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar 72038,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va respublikadagi jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 26,7 %ini tashkil etdi. Qolgan 16,3 %, ya’ni 44035,6 mlrd. so‘m boshqa xarajatlarga yo‘naltirildi.

2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (01.01.2023 yil holatiga)

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so‘m	**Jamiga nisbatan % da:**		
		yangi qurilish	**kengaytirish, rekonstruktsiya, modernizatsiya**	**boshqa yo‘nalishlar**
O‘zbekiston Respublikasi	269857,5	57,0	26,7	16,3
Qoraqalrog‘iston Respublikasi	10099,8	33,7	45,0	21,3
viloyatlar:				
Andijon	14758,6	41,5	46,6	11,9
Buxoro	21138,0	62,0	22,8	15,2
Jizzax	10763,1	50,3	20,3	29,4
Qashqadaryo	16181,5	37,1	32,2	30,8
Navoiy	19396,1	69,9	21,5	8,6
Namangan	14348,2	47,7	37,6	14,6
Samarqand	21955,2	60,9	30,7	8,4
Surxondaryo	11507,3	66,2	22,9	10,8
Sirdaryo	12574,7	75,2	14,4	10,4
Toshkent	34954,7	69,9	17,8	12,3
Farg‘ona	15396,7	62,0	23,8	14,2
Xorazm	8806,6	66,5	17,9	15,6
Toshkent sh.	56725,8	49,5	28,0	22,5

2022 yil yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning kengaytirish, rekonstruktsiya va modernizatsiyaga investitsiyalar ulushi bo‘yicha yuqori natijalar Andijon viloyatida – 46,6 % (6883,8 mlrd. so‘m), Qoraqalrog‘iston Respublikasida – 45,0 % (4540,0 mlrd. so‘m), Namangan viloyati – 37,6 % (5400,5 mlrd. so‘m), Qashqadaryo viloyati – 32,2 % (5204,9 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatida –30,7 %ga tengligi (6745,4 mlrd. so‘m) kuzatildi (2.7-jadval). 2022 yil davomida 112,2 trln. so‘m (dollar ekvivalentida 10,2 mlrd. AQSH doll.) yoki 2021 yilga nisbatan 99,0 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 41,6 %ni tashkil etdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va

kreditlar hisobidan joriy davrda 97,0 trln. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 15,2 trln. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hamda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi mos ravishda 86,5 % va 13,5 %ni tashkil etdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 37,0 trln. so‘m yoki jamiga nisbatan 38,1 %ni, boshqa investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 60,0 trln. so‘mni yoki jamiga nisbatan 61,9 %ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 45,2 trln. so‘mni yoki jamiga nisbatan 40,2 %ni va mos ravishda xorijiy kreditlar 67,0 trln. so‘mni yoki 59,8 %ni tashkil qildi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat va xususiy innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish muayyan tarmoqlarda texnologik yutuqni ta’minlaydigan innovatsion rivojlanishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan maqolada mintaqaviy darajada innovatsion infratuzilmani tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajriba ko‘rib chiqiladi.

Mamlakatning innovatsion rivojlanishini shakllantirishdan maqsad hududiy, shahar hokimiyatlari, ilmiy-texnikaviy tashkilotlar va tadbirkorlarning integratsiyalashuvidir. Mintaqaviy innovatsion infratuzilmani shakllantirish federal va mintaqaviy hokimiyat organlari uchun muhim vazifa hisoblanadi. Xorijiy tajribani ko‘rib chiqish natijasida xorijda innovatsion-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish natijalari bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mintaqa innovatsion rivojlanishini shakllantirish va rivojlantirishga yagona yondashuvga ega bo‘lmagan ko‘plab mamlakatlar (AQSh, Fransiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya) uchun umumiy bo‘lgan narsa tadbirkorlik sub’yektlarining innovatsion faolligini oshirish, iqtisodiyotning real sektoriga, ilmiy-tadqiqot institutlari, tadbirkorlar va hududiy hokimiyat organlarining o‘zaro hamkorligini rag‘batlantirish yuqori texnologiyalarni joriy qilishdir.

2. Innovatsion infratuzilma ob'ektlarini shakllantirish va rivojlantirish tendentsiyasi innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Innovatsion infratuzilma tarkibiy qismlarining barqaror to‘plami: bilimlarni ishlab chiqarish va uzatish tizimi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma va yuqori texnologiyali innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish mintaqaning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishning umumiy modelidir.

4. Ilm-fanni talab qiluvchi va yuqori texnologiyali mahsulotlar yaratish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga ko‘p bosqichli davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

5. Mintaqaviy kompaniyalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va davlat idoralari (hudud ichida ham, boshqa (bilimni talab qiluvchi) mintaqalar bilan ham) o‘rtasida aloqalarning shakllanishi yuqori texnologiyali mahsulotlarni yaratish va ularni xalqaro bozorlarda tijoratlashtirishga yordam beradi.

O'tkazilgan tahlillar turli xorijiy mamlakatlarda innovatsion rivojlanishni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish imkonini beradi. Masalan, Fransiyada mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli siyosat yuritish tajribasi shakllangan. Xorijiy mamlakatlar mintaqasi innovatsion infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi ilmiy-innovatsion parklar bo‘lib, ularda kompaniyalar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari olib boradilar, startaplar yaratadilar, o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ob’yektlarini joylashtiradilar va pirovardida innovatsion mahsulotni yaratadilar.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik universitetlar yirik ilmiy markazlarga aylanib, ko‘plab sanoat va ilmiy tashkilotlarni birlashtirgan. Ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish va zamonaviy fan va ishlab chiqarishda yuqori mahsuldor mutaxassislarni tayyorlash uchun ilmiy-texnikaviy va tadbirkorlik faoliyatining faol o‘zaro hamkorligi zarur.

Tadqiqot institutlari AQSh innovatsion infratuzilmasining asosini tashkil qiladi. Ular mamlakatning ilmiy va amaliy tadqiqotlaridagi aksariyat tadqiqotlarini jamlagan. Ilm-fan va ta’lim muassasalari ular negizida texnoparklar tashkil etish orqali hududlarni shakllantirishda qudratli kuch vazifasini o‘taydi. Stenford universitetida tashkil etilgan birinchi ilmiy-texnologik park uning faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarga ega edi, xususan, ijara haqining pastligi, venchur kapitalning mavjudligi va texnologik kompaniyalar va universitetlar bilan yaqin hamkorlik. AQShda universitetlar va xususiy kompaniyalar o'rtasida o'zaro hamkorlik rivojlangan. Masalan, Massachusets texnologiya instituti 300 dan ortiq tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

AQSh tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, universitetlarda fan, ta'lim va biznesni integratsiyalash maqsadida ilmiy parklar tashkil etilmoqda. Mamlakatda innovatsiyalar transferiga katta e'tibor qaratilmoqda, bu ham universitetlar, ham xususiy kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsiyalarni Qo'shma Shtatlarga o'tkazish daromad olish va yangi ish o'rinlarini yaratishning eng muhim vositalaridan biridir. Bu borada innovatsion infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirish va qonunchilikni takomillashtirish muhim rol o'ynadi.

Bundan tashqari, AQShda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali tizimi mavjud. Innovatsion va ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish shartnomalar va grantlar hisobidan amalga oshiriladi. Shartnomalar va grantlar tizimi tashkilotlarga innovatsion va ilmiy-texnik faoliyatning eng ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkoniyatini beradi. AQShda innovatsion faoliyat va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish usullaridan biri venchur fondlari hisoblanadi. Ilgari, hatto Apple Computers, Microsoft, Sun Microsystems, Intel kabi taniqli kompaniyalar ham shakllanish bosqichida venchur fondlari tomonidan moliyalashtirilgan. Mamlakatda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning yana bir vositasi ko'plab kredit dasturlari hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish va texnologik ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida AQSHning ko‘pgina kompaniyalari ham moliya bozori imkoniyatlaridan, ya’ni imtiyozli shartlarda kreditlar olish, keyinchalik ularni qaytarish bilan foydalanishadi. Qo'shma Shtatlar innovatsion infratuzilmaning asosiy elementlarini ishlab chiqdi: bilimlarni ishlab chiqarish, texnologiyalarni uzatish, moliyalashtirish, ishlab chiqarish va o'qitish. Har bir elementning ishlashi ham davlat, ham xususiy kompaniyalar tomonidan ta'minlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalarni tijoratlashtirish mexanizmini yaratishga katta e’tibor berilmoqda. **Innovatsiyalarni tijoratlashtirish** - bu ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini joriy etish va bozorga yangi mahsulot va xizmatlarni kiritish bilan bog‘liq faoliyatdir. Texnologiyalarni tijoratlashtirish mexanizmi kontseptsiyasining mohiyati texnologiyalarni fandan ishlab chiqarishga o'tkazishdan iborat bo'lib, bu innovatsiyalarning barcha sub'ektlarining faol o'zaro ta'siri va intellektual mulk huquqlarini amalga oshirish bilan mumkin. Intellektual mulk huquqlarini amalga oshirish shakllaridan biri bu kichik innovatsion va bilim talab qiladigan korxonalarni shakllantirishdir.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning tarmoqlar va tarmoqlarga an’anaviy bo‘linishi o‘z ahamiyatini yo‘qotib, klasterli yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda, bu esa hududning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning eng samarali vositasiga aylanmoqda. Binobarin, innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish amaliyotini tubdan rivojlantirish so‘zsiz manfaatdor va amaliy foyda keltiradi. Innovatsion klaster - turli tashkilotlarning (sanoat korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, jamoaviy foydalanish markazlari, tadbirkorlar, shahar va viloyat hokimiyatlari, ijtimoiy tashkilotlar va boshqalar) uyushgan guruhi. Klasterni yaratish natijasi yangi g‘oyalar, bilimlar, texnologiyalar va innovatsiyalarni tarqatish tizimini ta'minlashdir. Ta’kidlash joizki, barcha klaster a’zolari o‘rtasida barqaror munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish ixtirolarni raqobatdosh ustunliklarga ega bo‘lgan innovatsiyalarga samarali aylantirishning muhim shartidir [4].

O‘zbekistonda davlat iqtisodiyoti va mintaqa innovatsion infratuzilmasini innovatsion shakllantirishning jahon tajribasidan foydalanish mumkin. Iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda ma’lum ijobiy isbotlangan yondashuvlardan foydalanish innovatsion infratuzilmaning hududiy rivojlanishini ta’minlaydi. Binobarin, O‘zbekistonda innovatsion infratuzilmaning yuqori samarali tizimini shakllantirish uchun xalqaro tajribani, mamlakat davlat tuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, mintaqaviy innovatsion rivojlanishning o‘ziga xos konsepsiyasini yaratish, shuningdek, bu boradagi jiddiy rivojlanish zarur.

Ta’kidlash kerakki, iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida O‘zbekistonda sharoitida bu masalaga ham jiddiy e’tibor qaratish zarur. Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida tarkib topgan real vaziyat shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga erishish talab qilinadi.

Birinchidan, turli mamlakatlar, shu jumladan biz ko‘rib chiqqan mamlakatlarning bu boradagi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xususiy sektorning iqtisodiyotda katta ulushga ega bo‘lishiga qaramasdan, turli xil tartibga solish va ta’sir ko‘rsatish mexanizmlariga ega bo‘lgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlovchi asosiy omil sifatida maydonga chiqadi. Davlat tomonidan tartibga solish bozor faoliyatining salbiy oqibatlarini bartaraf etishning zaruriy va muqarrar mexanizmi sifatida

qaraladi. Har qanday holatda ham, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshirishning asosiy maqsadi - o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi sifatiga bog‘liq bo‘lgan aholining yuqori turmush darajasini ta’minlashdan iboratdir.

Ikkinchidan, davlatning iqtisodiy siyosati asosan pul-kredit va byudjet-soliq yo‘nalishlarida amalga oshiriladi. SHuni inobatga olgan holda, P.Samuelson davlat fiskal va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashini ta’kidlab o‘tadi.

Uchinchidan, pul massasining xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ehtiyojlarini qay darajada qondirishini aniqlamasdan turib, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan iqtisodiy o‘sishni ta’min etishning iloji yo‘q. Pul-kredit siyosati mexanizmlari orqali davlat bank tizimi faoliyatiga bevosita va bilvosita ta’sir qiladi. Bunday ta’sir choralari iqtisodiyotni kreditlash ko‘lamlarini kengaytirish yoki qisqartirish orqali iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatadi. Bunday tartibga solish pul emissiyasi, majburiy zahira me’yorlari, qayta moliyalashtirish stavkasi va ochiq bozorlarda operatsiyalar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Ushbu vositalarning barchasi pul-kredit siyosatini amalga oshirishning unsurlari hisoblanadi.

To‘rtinchidan, byudjet-soliq (fiskal) siyosati - bu davlatning daromad olish va xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish qobiliyatini belgilaydigan makroiqtisodiy nisbatlarni tartibga solish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuini ifoda etadi. Soliq tizimi va davlat xarajatlari soliq-byudjet siyosatining asosiy vositalari hisoblanadi. Davlat daromadlarini ta’minlash muammosini hal qilish va uning asosida soliq siyosatini amalga oshirishning ustivor yo‘nalishlarini aniqlashtirish iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotning me’yorda faoliyat ko‘rsatishi uchun davlat xarajatlarining yetarliligini ta’minlash soliq tizimining makroiqtisodiy ahamiyatini belgilab beradi. Ushbu holatda, soliq to‘lovchilarning iqtisodiy faoliyatiga putur yetkazmaslik maqsadida ularni yetarlicha moliyaviy resurslar bilan ta’minlash lozimligini ham ko‘zdan qochirmaslik lozim.

Beshinchidan, investitsiya va / yoki investitsiya siyosati iqtisodiy o‘sishni davlat tomonidan rag‘batlantirishning yana bir muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sishning har qanday ko‘rinishida, u xoh ishlab chiqarish hajmining oshishi yohud sifat ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi bo‘lsin, qo‘shimcha investitsiya manbalariga ehtiyoj seziladi. O‘z tabiatiga ko‘ra, investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni harakatga keltiriuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sish omili sifatida investitsiyalarga depozitlar va ssudalar bo‘yicha foiz stavkasi, fond bozorining faoliyat ko‘rsatishi, bank sektorining rivojlanishi, qulay investitsiya muhitini yaratish kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, investitsiyalarning o‘zi ham o‘z tabiatiga ko‘ra, davlatning iqtisodiy siyosatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://daryo.uz/2022/12/20/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-va-ozbekiston-xalqiga-murojaatnomasi-suratlarda
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2022-yil yanvar-dekabr
3. http://uza.uz. 2020 yil 15 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport, investitsiya va mahalliylashtirishni kengaytirish” masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi ma’ruzasi.
4. Абдувохидов А. и др. Инновацион иқтисодиётда импорт ўрнини босувчи саноат ишлаб чиқаришларни ташкил этиш масалалари //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 23-33.

MUQOBIL ENERGIYA MANBAALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINNI OSHIRISH

Qodirova Arofat Abdukarimovna, Miralieva Habiba

Toshkent davlat agrar universiteti Texnologik jrayonlar va ishlab chiqarishni avtomatalshtirish yo‘nalishi 3-kurs talabasi

arofatqodirova31@gmail.com

Toshkent davlat agara universiteti O'rmon xo'jaligi va landshaft dizayni fakulteti fakultati 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada muqobil energiya manbaalaridan foydalanish asoslari va shulardan foydalanib yurtimizda ekologik toza energiya olishning hozirgi kundagi holati bo‘yicha olib borilayotgan chora tadbirlar to‘g‘risida, so‘nggi yillarda ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda elektr energiyasini tejash bo‘yicha olib borilayotgan bir qancha islohotlar va qayta tiklanuvchi energiya manbaalarini yuanada rivojlantirishda respublikada energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha prezidentimiz qarorlari to‘g‘risida, xususan bu borada yurtimizda quyosh elektrostansiyalari va shamol elektrostansiyalaridan unumli foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar.energiya, muqobil energiya , qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejamkorlik quyosh elektrostansiyasi, shamol elektrostansiyasi.

KIRISH. Hozirgi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish dunyo bo‘yicha eng global mavzulardan biri hisoblanadi. Naegaki, bugungi kunga kelib ko‘plab rivojlangan davlatlar elektr energiyasini ishlab chiqarishda an’naviy usullardan voz kechmoqdalar. Bunga sabab nima? Asosiy sabab shundan iboratki, bugungi kunda an’anaviy usul bilan olinayotgan energiyani biror joyga umuman olganda uni saqlab qolishning umuman imkoni yo‘q. Chunki elektr energiyasi yo‘qdan bor bo‘lmaydi yoki bordan yo‘q bo‘lmaydi. U bir turdan ikkinchi turga op’tish natijasida paydo bo‘ladi va albatta bizning ishlab turgan texniklarimizni ta’minlashigacha bo‘lgan davr jarayon vaqt ichida ko‘plab yo‘qotishlarga uchuraydi . Va bugungi kunda aynan mana shu muammo eng dolzarb hisoblanadi. Binobarin , butun yer yuzida odamlar soni keskin ortib bormoqda va odam soni ortgan sayin ehtiyojlar ham ortib boradi va ehtiyojlar ham ortib boradigan bo‘lsa, insonlar o‘z ehtiyojlarini oson usul bilan qondirish uchun texnika texnologiyalarni yaaratib kelmoqda. Ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda inson qo‘li sun’iy ongni yaratdi, uning bu kashfiyotlari hozir butun bir korxona tashkilotni yoki buni qo‘ya turaylik butun bir o‘simlik yetishtirish: ekish , suv quyish to vitaminlarga boyitib uni tayyor holatga keltirishgacha bo‘lgan davrni o‘zi boshqarmoqda va u ishlashi uchun ham ma’lum miqdorda albatta energiya talab qiladi Bu zamonaviy innnovatsiyalar esa bizdan energiya ta’lab etadi . Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy energiya tejamkor texnologiya zarur ekanligi va yaratilayotgan yangi innovatsiyalar ham energiya tejamkor bo‘lishi talab etilmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda respublikamizning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida elektr energiyasini tejashni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda, xususan qayta tiklanuvchi energiya manbaaalarini rivojlantirishda respublikda energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha prezidentimizning asosiy qarorlaridan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.02.2023 yildagi PQ-57-sonli qarori ya’ni 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida , bunga ko‘ra ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta’minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.07.2022 yildagi PQ-314-sonli qaroriga ko‘ra : qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun zarur yer maydonlarini ajratish maqsadida o‘zbekiston respublikasi prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 5- maydagi PQ-2343-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Energiya tejovchi texnologiyalar va tizimlarni joriy etish bo‘yicha chora –tadbirlar dasturi” to‘g‘risidagi qaror bilan tasdiqlangan “2017-2019- yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirib , iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘rosida” gi farmon va qarorlari hisoblanadi. hisoblanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot natijalariga ko‘ra ko‘chalar, turar joylar va ijtimoiy binolarni yoritishda energiya tejamkor lampalar hamda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish ishlari olib borilgan va shu kunga kelib ham bunn barcha jabhalarda qo‘llash davomiy bo‘lib kelmoqda. Ya’ni bundan ham kuchliroq va barcha sohalarda yanada rivojlantirish shular jumlasidandir . Bunga ko‘ra

respublikamizning barcha hududlarida 40 Vtdan ortiq kuchlanishli lampalarni sotilishi to‘xtatib qo‘yildi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrda qabul qilingan VMQ-568-sonqarori bilan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarning bir qismini qoplab berish tartibi tasdiqlandi.

Fuqarolar (jismoniy shaxslar) 2022-yil 1-oktabrdan boshlab mamlakatimizda ishlab chiqarilgan quyosh va shamol elektr stansiyalari hamda quyosh suv isitish qurilmalarini uch yil muddatga foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olishlari mumkin.

Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining to‘liq narxini to‘lagan holda sotib olganda iste’molchilar kompensatsiya olishlari mumkin.

Energetika vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari tarmoqlararo energiya tejash jamg‘armasiga qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini sotib olishda imtiyoz va preferensiyalar berish yuklangan. Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq quyosh yoki shamol elektr stansiyasini o‘rnatish uchun jismoniy shaxslarga quvvatiga qarab kompensatsiya miqdori quyidagicha beriladi:

- 0,5 kVt dan 1 kVt gacha – BHMning 7 barobari;
- 1 kVt dan 1,5 kVt gacha - BHMning 10 barobari;
- 1,5 kVt dan 2 kVtgacha - BHMning 15 barobari;
- 2 kVt va undan yuqori - BHMning 20 barobari.
- 5 kVt va undan yuqori qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi bilan ta’minlangan vertikal quduqlarga yangi yerlarni o‘zlashtirish va suv nasoslarini o‘rnatishda BHMning 50 baravari miqdorida kompensatsiya berilishi haqidagi qarorlari ko‘rish mumkin.

Davlatimiz rahbarining 2023- yil 16 fevraldagi qarori bilan qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan soydalanish samaradorligi va bu boradagi ishlarni jadallashtirish bo‘yicha dastur qabul qilingan edi. Unga ko‘ra, joriy yilda ijtimoiy soha va davlat idoralarida 220 megavatt quvvatga ega bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Qayd etilishicha bugungi kunga kelib shundan 107 megavattlik quyosh panellari o‘rnatilgan bo‘lib, yirik davlat kompaniyalarida ishlar yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rish mumkin, ammo ijtimoiy muassalarda natijalar hali ahmon yetarli emasligi ham kundek ayon. Masalan, oliy o‘quv yurti binolarida 36 foiz, maktablarda 33 foiz, tibbiyot muassasalarida 28 foiz panellar o‘rnatilgan. Hududlar bo‘yicha olganda, respublikada bu ko‘rsatkich qariyb 50 foizga yetgan. Ammo Toshkent shahrida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘rnatish darajasi rejaga nisbatan 26 foizni tashkil etmoqda.

Davlatimiz rahbari bu borada hali imkoniyatlar ko‘pligini ta’kidlab, ishlarni jadallashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berib kelmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Energetika har bir odamning va umuman jamiyatning hayotida muhim o‘rin tutadi. So‘ngi 40 yillarda odamlarning energiyaga bo‘lgan talabi sezilarli darajada oshdi, shu davrda butun insoniyat tarixi davomida qazib olingan organik yoqilhidan ham ko‘proq yoqilhi qazib olindi. Bugungi kunda yiliga tabiiy yoqilhi ishlatish miqdori dunyo bo‘yicha 12 milliard tonna neft ekvivalentiga to‘hri keladi (taxminan bir kishiga 2 tonna). Qazib olinayotgan neft, tabiiy gaz, ko‘mir va uran hozirgi vaqtda dunyoda asosiy energiya manbalari hisoblanadi. Agar ularni shu sur’atlarda ishlatish davom etsa, dunyodagi qazib olinayotgan neft zahiralari 45-50 yilga, tabiiy gaz zahiralari 70-75 yilga, tosh ko‘mir zahiralari 165-170 yilga, qo‘nhir ko‘mir zahiralari 450-500 yilga yetadi. Cheklangan uglevodorod energetik resurslarga alternativ tarzda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o‘tilmoqda. Energetik balansga bir vaqtning o‘zida ekologik toza bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng jalb qilish atrof- muhitga texnogen ta’sirlarning kamayishi nuqtai nazaridan ham talab qilinmoqda. Bundan tashqari qayta tiklanuvchi energiya manbalari ijtimoiy muammollarni hal qilishda muhim omil hisoblanadi, jumladan aholi yashash joylarida bandlikni ta’minlaydi. Shu munosabat bilan, dunyoning ko‘pgina mamlakatlari atrof muhit energiya oqimidan olingan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va tadbiq qilish hajmini oshirishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Bunday energiya manbalari tarkibiga quyosh, shamol, suv resurslari, geotermal manbalar, shuningdek sanoat, qishloq xo‘jaligi va maishiy chiqindilardan olingan biogaz kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi barqaror rivojlanish uchun energiyaning muhimligini e’tiborga olgan holda 2012 yilni "Barqaror energetika hamma uchun" Xalqaro yili deb e’lon qilgan edi . Bundan ko‘rinadiki o‘zimizning sof ekologiyamizni himoya qilish va o‘z energiyaviy ehtiyojimizni qondirishda albatta qayta tiklanuvchi energiya manabaalaridan samarali foydalanish lozim bo‘ladi. .

Joriy 2023 – hyilda 2 ming megavatt quvvatli quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bundan tashqari, yaqinda O‘zbekiston Prezidentining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi doirasida 4,4 milliard dollarlik, jami quvvati 4,8 gigavattga teng 11 ta quyosh va shamol stansiyalarini qurish bo‘yicha kelishuvga erishildi.



MUHOKAMA

O‘zbekiston Respublikasining o‘ziga xos iqlim sharoitlarida qayta tiklanuvchi energiya man’balaridan foydalanishning kelajagi judayam porloq. Ayniqsa, bu quyosh energiyasiga tegishli. O‘zbekistonning quyosh energiyasi bo‘yicha yalpi salohiyati 50 973 mln. tonna neft ekvivalentiga teng deb baholanadi, bu esa respublika hududidagi hozirgacha tekshirilgan barcha qayta tiklanuvchi energiya manbalarining 99,7 % iga teng. Respublikada quyoshli vaqt bir yilda shimolda 2000 soatga yetadi va janubiy hududlarda 3000 soatdan oshadi. Sutka davomida quyosh nur sochishi 7-10 soat, yillik jami nurlanish shimolda 4800 MDj /m2 dan janubda 6500 MDj /m2 gacha o‘zgarib turadi.

2023 – yilda qayta tiklanuvchi energiya manbaalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini keltirish mumkin. Qarorda aytilgan so‘zlarning samarasiniBuxoro viloyati misolida

ko‘rish mumkinQarorga muvofiq shu yilning o‘zida Buxoro viloyatida shamol elektr stansiyasi qurilishi doirasida balandligi 100 metr, parraklarining uzunligi 84 metr bo‘lgan ilk turbuna qad rostladi .Bu qurilmadan yana 157 ta o'rnatilishi kerak . Stansiyalarning ilk quvvatlari 2024 – yilda ishga tushirilishi ko‘zda tutilgan.

XULOSA

O‘z xulosalarimiz bilan bo‘lishadigan bo‘lsak yurtimiazda bu borada olib b orilayotgan ishlar yuksak darajada amalga oshirilmoqda. Hali oldinda ko‘plab muammolar yechimi va qaraor va farmonlar ijrosini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.Yurtboshimiz aytganlaridek har birimiz harakatdan to‘xtamasligimiz kerak.



Joriy yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra **ishlab chiqarish:** yanvar – may oylarida respublikamizda 31,9 mlrd kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Bu o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 1,0 mlrd kVt•soat yoki **3,3 foiz ko‘p;**

Yetkazib berish: respublika iste’molchilariga mazkur muddat davomida 27,0 mlrd kVt•soat elektr energiyasi yetkazib berildi. Ushbu ko‘rsatkich 2022-yilning shu davridagiga nisbatan 1,6 mlrd kVt•soat yoki **6,5 foiz ko‘pdir;**

Import: yanvar – may oylarida o‘sib borayotgan ichki iste’molni qoplash maqsadida 2,5 mlrd kVt•soat elektr energiyasi import qilindi.**Eksport:** yanvar-may oylarida 1,1 mlrd kVt•soat elektr

energiyasi eksport qilindi. Bu o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 243,2 mln kVt•soat yoki**18,5 foiz kam** ekanligi aniqlangan .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kazuo Matsuda, Yasuki Kansha, Chihiro Fushimo, Atsushi Tsutsumi, Akira Kishimoto. Advanced Energy Saving and its Applications in Industry. Japan - «Springer», 2013. - 94 P

2. Аллаев К.Р. Электроэнергетика Узбекистана и мира, - Т.: Fan va texnologiya, 2009. - 463 с.

3. Аллаев К.Р. Энергетика мира и Узбекистана, — Т.: Moliya, 2007. -388 с.

4. Elektr tarmoqlari va sistemalari: uslubiy qo‘llanma/ O‘zR O O‘MTV; Rasulov A.N., Taslimov A.D., Mamarasulova F.S., Raxmonov I.U.-Toshkent: TDTU, 2014. - 90 b.

5. Xoshimov F.A., Taslimov A.D. Energiya tejamkorligi asoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Voris, 2014.

6. Karimov X.G., Bobojonov M.Q. Avtomatik boshqarish va rostlash nazariyasi asoslari. 0 ‘quv qo‘llanma. - T.: Intellekt ekspert, 2014.

7. Xoshimov F.A., Taslimov A.D. Energiya tejam korligi asoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Vneshinvestrom, 2014.

INTERNET SAYTLAR

1. https://www.facebook.com/minenergyuz
2. https://lex.uz/uz/docs/-6385716
3. https://daryo.uz/2023/05/20/shavkat-mirziyoyevning-xitoyga-amalga-oshirgan-davlat-tashrifi-tahlili
4. https://president.uz/oz/lists/view/6359

SIRDARYO VILOYATIDA MEHNAT RESURSLARI VA MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

UDK 371.13:677

TEXNOLOGIK JARAYONNI OPERATSIYALARGA BO‘LIB O‘RGANISHDA O‘TKAZILGAN TAJRIBALARNI NATIJASI VA ULARNI SAMARADORLIGI

Xodjiyev M.T., Sultonov.O.S.
[1]*Guliston davlat universiteti rektori*
[2]*Namangan muxandislik-texnologiya instituti*

Annotatsiya*: Mazkur maqola texnologik jarayonni operatsiyalarga bo‘lib o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarni natijasi va ularning samaradorlik darajasi mazmuni yoritilishiga hamda asoslovchi va ta’kidlovchi tajriba sinov ishi jarayonida “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” ta’lim yo‘nalishi talabalarining tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar*: texnologik jarayon operatsiyalari, paxta–to‘qimachilik klasterlari, innovatsion rivojlantirish, tajriba-sinov ishlari, respondent-talabalar, paxtani tozalash jarayoni, operatsiyalar, paxtani quritish jarayoni, paxtani tolasini chigitdan ajratish jinlash jarayoni, tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi.*

Tajriba-sinov ishlarini tashkil qilishda qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda talabalarning bilim darajasini ularning kelajakdagi faoliyatni e’tiborga olgan holda aniqlash vazifasi qo‘yilgan edi.

Tajriba-sinov ishini maqsadi paxtani quritish, tozalash, jinlash jarayonlarini operatsiyalarga bo‘lib o‘rgatish mazmunini amaliyotga joriy etish yo‘llarini aniqlash va ularning samaradorligini baholash.

Ushbu o‘rinda asoslovchi va ta’kidlovchi tajriba-sinov ishi jarayonida “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” ta’lim yo‘nalishi talabalarining tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllanganlik darajasini aniqlashga qapatildi. Tajriba va nazorat guruhlarida ta’lim jarayonining farqi shundan iboratki, nazorat guruhida talabalar bilan mashg‘ulotlar an’anaviy metodlar yordamida olib borildi, tajriba guruhida esa tadqiqotchi tomonidan taklif qilingan kompyuter uchun tayyorlangan muloqotli dasturlar vositasida ta’lim berildi. Uning mazmuni bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan va ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinayotgan elektron o‘quv qo‘llanmaning ta’lim jarayoni amaliyotga joriy etish yo‘llarini aniqlash hamda ta’lim amaliyotida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradopligini oshipish muhim pedagogik zaruriyat ekanligini talabalar ongiga singdirishdan iborat.

Paxtani quritish, tozalash, jinlash jarayonlarini operatsiyalarga bo‘lib o‘rgatish bo‘yicha talabalarda kasbiy tayyorgarlik darajalarini shakllanishida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish ijobiy natijalarga erishishni kafolatlash bilan birga talabalarda quyidagi malakalarni shakllantirdi:

– mazkup texnologiya an’anaviy o‘qitish texnologiyasidan keskin fapq qilib, uning yordamida o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ko‘proq, chuqur, batafsil ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin; zero, mazkur texnologiya tez, aniq, qiziqarli va yakuniy natijaga (bosqichga) optimal erishini kafolatlaydi;

– ishlab chiqilgan kompyuter animatsion dasturi univepsal didaktik vosita bo‘lib, undan foydalangan holda o‘qitishni boshqarish algoritmini amalga oshirish mumkinligini ta’minlaydi [1].

2021-2022 yillarni qamrab olgan ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlari mobaynida talaba-yoshlarni “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” faniga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish darajasi sezilarli darajada o‘sganligini ko‘rish mumkin. Mazkur holatni Pespublikamizda ta’lim sifatini oshirishga qaratilayotgan alohida e’tiborning samapasi sifatida qarash mumkin. Biroq aniq maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyaning mavjud bo‘lmaganligi bu davrlarda ham qoniqapli ko‘rsatkichlarga erishish imkoniyatini bepmas edi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida (2021-2022 yillar) talabalarda texnika fanlarini o‘qitish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni paxta-to‘qimachilik klasterlari asosida innovatsion rivojlantirish bir muncha yuqori natijalar qo‘lga kiritilganligini qayd qilish mumkin. Bu holat DTSlarining joriy etilishi samapasi sifatida qaralishi mumkin. Biroq ularning ehtiyojini to‘la qondiradigan bilim manbalari: o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va elektron axbopot manbalari ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli, biz amalga oshirgan tadqiqotlarimiz bu yo‘nalishda yuzaga kelgan tabiiy ilmiy-amaliy ehtiyojlarga asoslanadi.

1-jadval

Respondent-talabalarning texnika fanlarini o‘qitish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlikni paxta-to‘qimachilik klasterlari asosida innovatsion rivojlantirish bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlari darajasi (asoslovchi tajriba)

Guruhlar	Talabalar soni	Ko‘rsatkichlar darajasi		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba	360	80	138	142
Nazorat	360	85	136	139



1-diagramma. Respondent-talabalarning “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” fanida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish bo‘yicha o‘zlashtirgan malaka ko‘rsatkichlari.

Diagramma ko‘rsatkichlari talabalarning innovatsion texnologiya yordamida kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi qoniqarli emasligidan dalolat beradi. Bu kabi salbiy holatga barham berish va talabalarda zamonaviy axbopot texnologiyalari yordamida kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishlariga imkoniyat yaratish maqsadida shakllantiruvchi tajriba davrida maxsus metodika bevosita amaliyotda sinovdan o‘tkazildi [1].

Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondent-talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllanganlik darajasi jadval ko‘rsatkichlari matematik-statik metodi yordamida tahlil qilindi. Statistik tahlil uchun Styudent-Fishep kriteriyasi tanlandi. Metodika samaradorligini obyektiv baholash uchun ta’kidlovchi tajriba natijalarini ifodalovchi son ko‘rsatkichlarini matematik-statistik metod bo‘yicha tahlil etish to‘g‘ri deb topildi. Styudent-Fishep kriteriyasi g‘oyasiga tayangan holda asosiy formulaga solish uchun Respondent-talabalarning davrida qayd etilgan boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi malaka ko‘rsatkichlari qabul qilindi.

Navbatdagi bosqichda mazkur tanlanmalarga mos keluvchi 2-diagrammani shakllantiriladi:



2-diagramma. Respondent-talabalarning paxta to‘qimachiligi klasteri asosida kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda o‘zlashtirgan malaka ko‘rsatkichlari (shakllantiruvchi tajriba).

Diagramma grafiklari tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlanmalarning modal qiymatlari matematik nuqtai nazapdan tegishli ravishda $M_t > M_n$ va X>U bo‘lishi talab etiladi. Ya’ni, tajriba va nazorat guruhlarida qo‘lga kiritilgan natijalar bir-biridan sezilarli ravishda farq qilishi, tajriba guruhlarida muqobil guruhlarga nisbatan yuqori natijalar qayd etilgan bo‘lishi lozim. Har ikki guruh ko‘rsatkichlari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\overline{X} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{360}(90\cdot 5 + 163\cdot 4 + 107\cdot 3) = \frac{1}{360}(450 + 652 + 321) = \frac{1423}{360} = 4$$

$$\overline{Y} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n=3} n_i y_i = \frac{1}{360}(78\cdot 5 + 145\cdot 4 + 137\cdot 3) = \frac{1}{360}(390 + 580 + 411) = \frac{1381}{360} = 3{,}8$$

Demak, tajriba guruhlarida respondent-talabalarning kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha amaliy malakalari darajasi nazorat guruhlariga nisbatan yuqori, ya’ni X>U ga teng ekan.

Tanlangan metod g‘oyasiga ko‘ra tajriba va nazorat guruhlarida ko‘rcatkichlar X>U ga teng bo‘lsa, u holda olib borilgan tajriba-sinov ishlari samarali yakunlangan hisoblanadi. Natijalarning haqqoniyligini baholash uchun tajpiba va nazorat gupuhlari uchun tarqoqlik koeffitsiyentlarini topish talab etiladi.

Xulosa. Hosil bo‘lgan ko‘rcatkichlar tajpiba-sinov ishlarining samaradorlik darajasini baholovchi mezonning birdan, tajriba guruhlari respondent-talabalarining paxta to‘qimachiligi klasteri asosida kasbiy kompetenlikni shakllantipish bo‘yicha innovatsion malakalarga egaliklari ko‘rsatkichlarini baholovchi mezonning noldan kattaligini ko‘psatadi. Xuddi mana shu holat tajriba guruhlapida qayd etilgan natijalarning nazorat guruhi natijalaridan yuqori ekanligini yana bir bop tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гмурман.В.Е. Теория вероятностей и математическая статистика. –Москва: Высшая школа.- 1999, 367 с.

2. Гордеева Н.А. Диагностическое исследование психологических особенностей воображения у активных студентов. // Ж. Инновации в образовании. –Москва.-2007.№9 –С 96-98.

3. Наумов В.А. Формирование межотраслевых кластерных образований в промышленности: автореф ... дис. кан. эк. наук. – Москва, 2007. – 22 с.

4. Xodjyiev M.T., Eshnazarov D.A. “Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish asoslari” Monografiya Guliston 2021-yil.

5. Xodjiyev M.T. Eshnazarov D.A. “Oliy ta’lim muassasalari texnika yo‘nalishi bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari” Guliston Davlat universiteti.

6. Xodjiev M.T., Sultanov O.S. Texnologik jarayonni operatsiyalarga bo‘lib o‘rganishda o‘tkazilgan tajriba natijalari va ularning samaradorligi. / Mug‘allim ham uzluksiz ta’lim. Ilmiy-uslubiy jurnali. № 4. Nukus. 2022. 40-45 bet.
7. Xodjiev M.T., Sultanov O.S. Paxta to‘qimachilik klasterlari asosida rivojlantirishning tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish / GulDU Axborotnomasi. Ilmiy-uslubiy jurnali. № 3. Guliston. 2022. 39-52 bet.
8. Xodjiev M.T., Sultanov O.S. “Development of professional compotence of students in conditions of informatization of the educational process”. International Journal of Health Sciences 2022.

MAHALLIY VA HALQARO STANDARTLARDA PAXTANING SIFAT KO‘RSATKICHLARI

Xodjiyev Muksin Tadjiyevich, Bayxanov Baxtiyor Ashrobidinovich, Sherqul Sherg‘oziyevich
Guliston Davlat universiteti rektori,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti, t.f.n., dots.Xakimov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati instituti, t.f.d., professor.

Paxta tozalash korxonasida qayta ishlashgacha bo‘lgan davrda tayyorlov punktlaridagi paxtani qabul qilish dastlabki klassifikatsiyasi, miqdorining hisobi va saqlash O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlari talablari orqali amalga oshiriladi [1].

Paxtaning yakuniy iste’mol xususiyatlari paxta tozalash korxonalarida qayta ishlangandan keyin O‘z DSt 604 davlat standartiga muvofiq tolaning sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlanadi.

Paxta tolasi uzunlik ko‘rsatkichi bo‘yicha to‘qqiz ta: 1a, 1b, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 tiplarga bo‘linadi. 1a, 1b, 1, 2 va 3 tipdagi tolalarga ega bo‘lgan paxta uzun tolali g‘o‘za navlariga, 4, 5, 6 va 7 – tipdagi tolalarga ega bo‘lgan paxta esa o‘rta tolali g‘o‘za navlar turkumiga kiradi. Har bir tipdagi paxta rangi, tashqi qo‘rinishi, pishib etilganlik koeffitsiyenti bo‘yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan namunalarga muvofiq beshta navga bo‘linadi: I, II, III, IV, V. Paxta navi rangi va pishib yetilganlik koeffitsiyentining eng yomon ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlanadi. Paxta navi iflos aralashmalarning miqdori (iflos aralashmalarning massaviy ulushi) va namligiga (namlikning massaviy nisbati) muvofiq, 1, 2, 3-sinflarga bo‘linadi [2].

Paxta tolasining tipi bo‘yicha yakuniy baho paxta to‘dasi paxta tozalash korxonalarida qayta ishlangandan so‘ng O‘z Dst 604 standarti talablariga muvofiq sertifikatlash natijalariga ko‘ra, tolaning uzunlik ko‘rsatkichi bo‘yicha baholanadi. Paxtaning I va II navlari uchun solishtirma uzilish kuchining qiymatlari belgilangan me’yordan past bo‘lgan holda narxdan chegiriladi va aksincha, me’yordan yuqori bo‘lganda ustama narxlar belgilanadi. Yakuniy hisob-kitob paxta to‘dasi qayta ishlab bo‘lingandan so‘ng amalga oshiriladi. Agarda 1 yoki 2-sinflar paxtasining iflos aralashmalarining massaviy ulushi me’yori yuqori bo‘lsa, iflos aralashmalarning massaviy ulushi bo‘yicha mos kelgan sinfga o‘tkaziladi. Namlikning massaviy nisbati me’yordan yuqori bo‘lsa, belgilangan tartibda narxi pasaytiriladi. I, II, III va IV navlar bo‘yicha 3-sinf uchun belgilangan iflos aralashmalarning massaviy ulushi yoki namlikning massaviy nisbati me’yorlaridan oshgan hollarda past nav bo‘yicha qabul qilinadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan standart talablari, paxtani qabul qilishda, saqlashda va qayta ishlashda uning tarkibi maksimal darajada bir xillikda bo‘lishni zarurligigini ko‘rsatadi.

Qabul qilinayotgan paxta tarkibini tahlillari, bir to‘dada ifloslik, namlik va pishib etilganlik bo‘yicha har xil paxtalar borligini ko‘rsatdi [3]. Bu esa, paxtani saqlash va qayta ishlashda bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, saqlash davrida iflosligi va namligi yuqori bo‘lgan paxta bo‘laklari bo‘lgan g‘aramning qatlamlarida lokal qizish va buning natijasida butun bir paxta g‘aramidagi paxtaning tabiiy sifat ko‘rsatkichlari pasayishiga olib keladi. Bu paxtadan olinadigan tolaning yigirishga yaroqlilik xususiyatlarini kamaytiradi. Shu sababli, paxtani ifloslik va namlik bo‘yicha ajratgan holda qayta ishlash jarayonida sifat ko‘rsatkichlarini bir xillik darajasi yuqori bo‘lgan tolalarni olish dolzarb xisoblanadi.

Xalqaro klassifikatsiya bo‘yicha paxta tolasi HVI (High Volume Instrument - yuqori samaradorlikdagi uskuna) tizimida baholanadi. Bu tizimda asosiy mezonlarga quyidagi ko‘rsatkichlar kiradi: mikroneyr, tolaning uzunligi, birxillik indeksi, kalta tolalar miqdori, iflosliklar darajasi,

solishtirma uzilish kuchi va elastikligi.

Bu ko‘rsatkichlardan tashqari, HVI tizimida tolaning nur qaytarish koeffitsienti, ya’ni tolaning oqlik darajasi, sarg‘ishlik darajasi va tolani yigirishga yaroqlilik indeksi va ipni pishiqligi ham baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi standartlarida tolaning pishib etilganligi – tolaning eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u tola devorlarida tsellyuloza qatlami to‘planishi natijasida, uni qalinlashishi va tola kanalini torayishini xarakterlab beradi. Tolani kanali diametrini, uni ko‘ndalang diametri yuzasiga nisbati pishib etilganlik koeffitsienti deb ataladi:

$$K = \frac{d_t}{d_k}$$

bunda, d_t -tolani effektiv diametri, mk;

d_k - tola kanalini effektiv diametri, mk.

Paxta tolasi pishib etilganlik koeffitsiyentiga qarab 11 ta guruhga bo‘linadi: 0,0; 0,5; 1,0; 1,5; 2,0; 2,5; 3,0; 3,5; 4,0; 4,5; 5,0. Tolaning pishib yetilgan koeffitsiyenti 3,0 dan past bo‘lsa - juda ingichka; 3,0 dan 3,9 gacha - ingichka; 4,0 dan 4,9 gacha – o‘rta; 5,0 dan 5,9 gacha – dag‘al; 6,0 dan yuqori - juda dag‘al hisoblanadi.

Tolaning pishib yetilganlik darajasini HVI tizimida mikroneyr ko‘rsatkichi bilan ifodalanadi. Mikroneyr - paxta tolasi namunasining havo o‘tkazuvchanligiga qarab tolaning ingichkaligi yoki qalinligini baholaydi. Mikroneyrni aniqlash, havoni ma’lum bosim ostida vazni aniq bo‘lgan tola namunasidan o‘tishiga asoslangan. Tolani massasi va kamerani hajmi doimiy bo‘lib, tolalarning yuzasi ortib borishi bilan havoning qarshiligi ortib boradi. Mikroneyr ko‘rsatkichi tolalar perimetri yoki tolalar devorining qalinligiga (tsellyuloza bilan to‘ldirilganligi darajasiga) yoki ikkala ko‘rsatkichlarga bog‘likdir. Mikroneyrni bazis oralig‘i 3,5 dan 4,9 gacha qilib olingan. Shu oraliqdagi mikroneyrli tolalar narxlari bo‘yicha chegirimlarsiz sotiladi. Undan yuqori yoki kam bo‘lsa belgilangan bazis narxidan har bir 0.1 mikroneyrga 2 % dan chegirmalar amalga oshiriladi.

Mikroneyr ko‘rsatkichini bazis oralig‘i 3,5 ÷ 4,9 bo‘lgani bilan, dunyo paxta bozorida 3,7-4,2 mikroneyr oralig‘ida bo‘lgan tolalar "Premium", ya’ni xaridorgirligi yuqori bo‘lgan mikroneyr oralig‘i hisoblanadi.

Paxta tolasining solishtirma uzilish kuchi yoki nisbiy uzilish kuchi - tolaning pishiqligini ifodalaydi. Tolaning uzilish kuchi to‘qimachilik mahsulotlarining ishlatilishi jarayonida har xil deformatsiyalarga (buralish, cho‘zilish, egilish) bardosh berishini belgilovchi pishiqligini aniqlaydi.

Tolaning solishtirma uzilish kuchi bo‘yicha bazaviy mustahkamligidan past bo‘lgan darajalarga tolaning narxidan chegirma qilinadi va aksincha bazaviy oralig‘idan yuqori bo‘lganda tolaning narxiga ustima narxlar belgilanadi.

1-jadval

Tolaning solishtirma uzilish kuchi bo‘yicha diapazoni (Str), gf/tex	Tolaning mustahkamlik darajasi
23,0 dan kam	juda kuchsiz
23,0 – 24,9	kuchsiz
25,0 – 26,9	o‘rtadan past
27,0 – 28,9	bazaviy mustahkam
29,0 – 30,9	o‘rtadan yuqori
31,0 – 32,9	mustahkam
33,0 va undan ko‘p	juda mustahkam

Paxta tolasining uzunlik ko‘rsatkichi – HVI tizimida yuqori o‘rtacha uzunligi aniqlanadi, ya’ni tekshirilayotgan namuna og‘irligining yarmini tashkil qiluvchi eng uzun tolalarning o‘rtacha uzunligi bo‘lib, dyuym yoki mm larda aniqdanadi. Jahon bozorida tolaning uzunlik birligi qilib dyuym belgilangan. Bir dyuym 1"-1/32 ko‘rinishda klasserlik usulida yoki NVI usulida 1,00 ko‘rinishida aniqlanadi. Uzunlik bo‘yicha bazis 36 kod yoki 4 tip belgilangan. Har bir uzunlik kodiga yuqori yoki kam bo‘lgan tolalarga o‘rtacha 0,5%dan ustama yoki chegirma narxlar belgilanadi. O‘zbekistonda etishtirilgan paxtaning aksariyati, ya’ni o‘rtacha 85-87 foizi 4 tiplarga taaluqlidir.

Bir xillik indeksi (Uniformity Index)- tolalarning o‘rtacha uzunligini yuqori o‘rtacha uzunligiga nisbati bilan belgilanadi va foizlarda ifodalanadi. Bu ko‘rsatkich tolalarni uzunlik bo‘yicha bir tekisligi yoki notekisligini ko‘rsatadi.

$$\mathbf{UI} = \frac{\text{ML}}{\text{UHML}}$$

bunda, ML – tolaning o‘rtacha uzunligi,

UHML – tolaning yuqori o‘rtacha uzunligi.

Agarda namunadagi barcha tolalarning uzunligi bir xil bo‘lganda, bir xillik indeksi 100 foizga teng bo‘lar edi. Birxillik indeksi o‘rtacha 80-82% bo‘lgan tolalar to‘qimachilik sohasida yaxshi tolalar hisoblanadi. Tolani uzunlik bo‘yicha birxilligi xom ipning birxilligi va pishiqligiga, shuningdek paxtadagi kalta tolalar miqdoriga ta’sir qiladi. Bir xilligi past bo‘lgan paxta tolasida odatda, kalta tolalarni foizi yuqori bo‘ladi.

2-jadval

Tolaning uzunligi bo‘yicha bir xillik indeksi diapazoni (UI), %	Tolaning uzunlik bo‘yicha bir xillik darajasi
77,0 dan kam	juda past
77,0 – 79,9	past
80,0 – 81,9	bazaviy birxillik
82,0 – 83,9	o‘rtadan yuqori
84,0 – 85,9	yuqori
86,0 va undan ko‘p	juda yuqori

Ko‘rsatilgan HVI tizimi talablari, paxtani qabul qilishda, saqlashda va qayta ishlashda uning tarkibi maksimal darajada bir xillikda bo‘lishni zarurligigini ko‘rsatadi.

Bu omillar tolaning umumiy yigirilish xususiyatlarini yaxshilash uchun paxtani qayta ishlash davrida sanoat nav va sinflarini yaqinlashtirish dolzarbligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yixati:

1. Paxta xomashyosini qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi, PDI-30-2012, Toshkent, “Mexnat”, 2017 y.

2. O‘z DSt 615-2015 davlat standarti.

3. M.T.Xodjiyev, B.A.Bayxanov, Sh.Sh.Xakimov. G‘aramdagi paxtani har xil sanoat navlarini ajratish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar. To‘qimachilik muammolari № 2022-yil.

MEHNAT FAOLIYATIDA INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMI

Maxmudov Sherali Xusanovich, Sherxonov Iftixor
Guliston davlat universiteti Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar instituti direktori
Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Shermax1977@gmail.com telefon raqam +99899 470 49 04

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatining mehnat bozorida ishchi kuchiningtarkibi, ta’minlanganlik, ularning tayyorgarlik darajalari tahlil qilingan, mehnat faoliyatida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *inson kapitali, inson kapitaliga investitsiyalar, bandlik, ishsizlik,o‘z-o‘zini band qilish, mehnat bozori, mehnat staji.*

Mamlakat hududlarini barqaror rivojlantirish, hududlar o‘rtasidagi nomutanosibliklarni qisqartirishda innovatsion faollik muhim o‘rin tutadi, bu borada inson kapitali sifatini yaxshilash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev: “Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z

salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadimizdir”[1],-deb ta’kidlab o‘tganidek, barqaror rivojlantirishga katta ahamiyat berilmmoqda.

Ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash sohasidagi muammo shundaki, kasb-hunar kollejlarida o‘qitish tizimi iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojlariga javob bermadi, kasb-hunar kollejlariga qabul qilish uchun belgilangan kvotalar mehnat bozoridagi haqiqiy vaziyatni hisobga olmadi. Natijada ushbu tizim bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash bilan bog‘liq muammolarga olib keldi [3].

Bandlik va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik xalqaro ekspertlarning ko‘plab tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Xususan, ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, o‘rta ma’lumotli respondentlarning 57 foizi ish bilan ta’minlangan, oliy ma’lumotli kishilar orasida ish bilan ta’minlash darajasi 77 foizni tashkil etgan[3].

Universitet bitiruvchilarining yuqori ish bilan ta’minlanishi, ularning ish joylariga bo‘lgan talabning yuqori natijasidir, chunki ular yuqori mahsuldorlikka ega ekanliklari bilan tavsiflanadi. Yuqorida aytib o‘tilganlardan tashqari, mehnat bozoridagi nomutanosibliklar “yosh iste’dodlarni drenajlash” muammosi sababli ham yuzaga chiqadi, bunda munosib daromad olish, ish tajribasi va kasbiy o‘sish uchun yoshlarning mamlakatdan chiqib ketishi kuzatiladi.

Aholini o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlashi uchun tijorat banklari tomonidan, birinchi navbatda, yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlik, uy sharoitida ishlash sohasida, shuningdek qishloq joylarda ham shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar asosida beriladigan kirish joylari va mikrokreditlar hajmini tubdan kengaytirish rejalashtirilgan.

Mehnat bozoridagi nomutanosibliklarning asosiy sabablaridan biri bu ish beruvchilar fikriga ko‘ra, respublikada, jumladan Sirdaryo viloyatida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning samarali tizimining mavjud emasligidir.

Bugungi kunda yosh avlodning mamlakatning innovatsion rivojlanishi uchun qobiliyatlarini aniqlash zarur. To‘g‘ri yo‘nalishni tanlash borasida yoshlar professional psixologlar va maslahatchilarning yordamiga muhtoj.

Yangicha iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi sharoitida xodimlarning mehnat faoliyatini amalga oshirishlari borasida o‘z bilim darajasini oshirishga intilishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishi lozimligi kabi jiddiy talablar ilgari surilmoqda[3].

Shu bilan birga, sanoat korxonalari rahbarlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaliyotda ular ishchilarning bilim darajasi va kasbiy mahoratining etarli darajada emasligi, kadrlar etishmasligi muammolariga duch kelishlariga to‘g‘ri keladi, bu esa mehnat unumdorligini o‘sishini va sanoat ishlab chiqarishini o‘sishini ushlab turadi.

Yuqorida tilga olib o‘tilgan muammolar doirasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan aksariyat ilmiy izlanishlarda ta’lim muassasalarida olingan bilimlar bilan amaldagi ish joylarida qo‘yilayotgan talablar o‘rtasida muayyan darajada tafovutlar mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan. Texnik-texnologik jarayonlardagi o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlarining kuchayishi asnosida ish beruvchilar tomonidan ishchilarga qo‘yiladigan yangi talablar; bo‘lajak mutaxassislarning ta’lim tayyorgarligi sifatining pasayishi va ular uchun bu yoki boshqa sabablarga ko‘ra, ularning bilim darajasini ko‘tarish mumkin emasligi (ish beruvchilarning past malakali ishchilarning kasbiy saviyasini oshirishga qiziqishi yo‘qligi) kabilar bunday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsion aloqalarning sustligi bu boradagi asosiy muammo hisoblanadi.

Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarish korxonalarining kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasi, ishchilarning kasbiy tayyorgarligi va malakasi, hududlar kesimida ishchilarning ish joylari talablariga muvofiqligi, mutaxassisligi bo‘yicha ishlamaslik holatlari, shuningdek, kasb-mahorat kurslari va treninglarga qatnashish zarurligi kabilardan tahlil davomida foydalanildi. Ta’kidlab o‘tganimizdek,

Sirdaryo viloyatida malakali kadrlar etishmasligi muammosi ko‘lami yuqori, respondentlarning 30 foizi shu fikrni ilgari suradilar (1-jadval).

1-jadval.

Sanoat tashkilotlari rahbarlarining “O‘z korxonangizda kadrlar bilan ta’minlash darajasini qanday baholaysiz?” savoliga javoblarning taqsimlanishi, 2022 yil

O‘zgarish xususiyati	Guliston	Yangier	Viloyat
Jami sanoat ishlab chiqarish xodimlari			
Qoniqarli	82,6	55,7	69,8
Etarli emas	17,4	38,2	26,1
Juda past	0	0	0
Javob berishga qiynalaman	0	6,1	4,1
Etakchi kasblarning yuqori malakali ishchilari			
Qoniqarli	48,6	42,4	44,2
Etarli emas	43,8	41,2	46,5
Juda past	4,5	12,2	6,9
Javob berishga qiynalaman	3,1	4,2	2,4
Quyi darajadagi menejerlar (magistrlar)			
Qoniqarli	73,7	56,3	61,7
Etarli emas	14	37	26,4
Juda past	8,1	0	6,5
Javob berishga qiynalaman	4,2	6,7	5,4
O‘rta darajadagi menejerlar			
Qoniqarli	72,8	62	62,9
Etarli emas	20,9	31,3	29,5
Juda past	2,3	0	3,3
Javob berishga qiynalaman	4	6,7	4,3
Mutaxassislar			
Qoniqarli	78,4	69,6	68,9
Etarli emas	17	30,4	25,4
Juda past	2,3	0	3,3
Javob berishga qiynalaman	2,3	0	2,4

Manba: Sirdaryo viloyatida joylashgan korxona va tashkilotlarning xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, 2022 yil.

Tajribaviy tadqiqotlar natijasida ish beruvchilar quyidagilarni mehnat salohiyati va mutaxassislar uchun bozor ehtiyojlarini rivojlantirish bilan bog‘liq asosiy muammolar sifatida qayd qilishgan:

(a) bitiruvchilar raqobatbardoshligining pastligi, zarur bilim va ko‘nikmalarning etishmasligi;

(b) bitiruvchilar kasbiy malakalarining hudud iqtisodiyoti ehtiyojlariga va mavjud bo‘sh ish o‘rinlari tarkibiga mos kelmasligi;

(c) mehnat bozori va ta’lim xizmatlari bozori o‘rtasidagi munosabatlarni ta’minlash mexanizmining yo‘qligi va shu kabilar.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Kasbiy malaka va vakolatlarni rivojlantirish milliy tizimini amalga oshirishni nazarda tutuvchi qaror qabul qildi. Qarorda vakolatlarni nodavlat

baholash markazlarini tashkil etish, vakolatlarni baholash markazlari tomonidan ma’lum bir mutaxassislik (kasb) bo‘yicha kasbiy vakolat darajasini tasdiqlovchi va malaka toifalarini berish uchun asos bo‘lgan sertifikat berish amaliyotini joriy etish ko‘zda tutilgan[4][3].

Hozirda vakolatlarni baholash nodavlat markazlari faoliyatini tashkil etish uchun me’yoriy-huquqiy baza ishlab chiqilmoqda. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan akkreditatsiyadan o‘tgan vakolatlarni baholash markazlari norasmiy va o‘z-o‘zidan o‘rganish natijalarini baholash va malaka berish bo‘yicha vakolatli organlar bo‘ladi.

2-jadval.

Sanoat tashkilotlari rahbarlarining: “Siz korxonangizning ta’lim muassasasini endigina tamomlagan yangi xodimlarini tayyorgarlik darajasini qanday baholaysiz?” savolga javoblarni taqsimlash

O‘zgarishlarning mohiyati	Guliston	Yangier	Viloyat
Kasb-hunar maktabi, litsey			
Baland	2,9	1,8	2,7
Etarlicha baland	4,2	0	5,1
O‘rta	45,7	47	43,2
Past	47,2	51,2	49
Texnikum, kollej			
Baland	2,1	0	1,4
Etarlicha baland	13,3	12,3	11,2
O‘rta	48,3	48,4	48,1
Past	36,3	39,3	39,3
Universitet			
Baland	0,0	0,0	0,0
Etarlicha baland	17,6	15,6	14,6
O‘rta	56,7	59,2	55,6
Past	25,7	25,2	29,8

Manba: Sirdaryo viloyatida joylashgan korxona va tashkilotlarning xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, 2022 yil.

Ta’lim tizimi va biznes o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning yo‘qligi bitiruvchilar o‘rtasida amaliy ko‘nikma va malakalarning etishmasligiga olib keldi. Bu, shuningdek, ish beruvchilar va ta’lim va kasb-hunar ta’limi dasturlarini ishlab chiquvchilar o‘rtasidagi muloqot va teskari aloqa darajasining pastligidan dalolat beradi (2-jadval).

Kasb-hunar kollejlari talabalarining mahoratini ish beruvchilar ehtiyojlariga mos kelishini ta’minlashning dolzarbligini hisobga olgan holda, milliy malakaviy tizimni joriy etish hukumat tomonidan amaliyotchilar va turli sektor vakillari bilan yaqin hamkorlikda oldinga tashlangan muhim qadam bo‘ladi.

Milliy tadqiqotlar tahlili natijalariga ko‘ra, mamlakat aholisining 30-40% ining malakasi ish joyi talablariga mos kelmaydi; Sirdaryo viloyatida xuddi shu ko‘rsatkich 14,6% ni tashkil etadi.

3-jadval.

2022 yilda ish joylari talablariga muvofiqlik darajasi to‘g‘risidagi savolga sanoat tashkilotlari rahbarlarining javoblarini taqsimlash

Talablarga muvofiqlik darajasi	Guliston	Yangier	Viloyat
Mening malakam yuqori, ko‘proq yuqori malaka talab etiluvchi ish bilan shug‘ullanishim mumkin	19,4	20,2	19,2
Mening malakam talabga javob beradi (ko‘proq ustimda ishlashim kerak)	44,9	42,9	43,6
Malakam kerakli darajadan past	4,4	3,4	3,2

[3] Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 394-son qarori. https://lex.uz/docs/4334804

Malakam ish joyi talablariga mos kelmaydi	15,6	14,1	14,6
Javob berishim qiyin	11,6	7,6	8,3
Ishsizman	4,1	11,8	11,1

Manba: Sirdaryo viloyatida joylashgan korxona va tashkilotlarning xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, 2022 yil.

Ish joylari talablari tasnifiga mos kelmaslik, nomutaxassislik bo‘yicha bandlikka asoslangan sifat jihatdan nomutanosibliklar ham keng tarqalgani aniqlandi (3-jadval). Kadrlar tayyorlash sifatining yomonlashuvi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda - viloyat miqyosida, so‘rovda qatnashgan korxona rahbarlarining yarmidan ko‘pi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarining ta’lim darajasiga past baho berishgan, hududda, hudud aholisining 40% dan ortig‘i kasb-hunar ta’limi muassalari, kollejlarda o‘qitish darajasini o‘rtacha, 30% dan ko‘prog‘i - past deb tavsiflaydi (respondentlarning hech biri universitetlarda o‘qishni yuqori deb ta’riflamagan, ularning yarmidan ko‘pi uni o‘rtacha deb baholagan; 2-jadval).

Ushbu muammo Evropa mamlakatlarida “keng yo‘nalishlar” bo‘yicha o‘qitish tufayli kamroq uchraydi, bu esa kelajakda nomutaxassislikda ishlash xavfini kamaytiradi[3]. Ushbu mamlakatlarda bitiruvchilarning taxminan 70-80% tanlagan ta’lim yo‘nalishlariga sodiq qolishadi - aholining faqat to‘rtdan bir qismining olgan ma’lumoti va ish bilan bandligi o‘zaro mos kelmaydi.

O‘zbekistonda aholining yarmidan ko‘pi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlamaydi, bu hududlar darajasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi (4-jadval).

4-jadval.

Savolga javoblarni taqsimlash: “Siz kasb-hunar ta’limi muassasasida olgan mutaxassisligingiz bo‘yicha ishlaysizmi?”, 2020-2022 yillar (respondentlar soniga nisbatan,%da)

Javob variantlari	2020	2021	2022
Ha	48,9	46,4	48,6
Yo‘q	51,1	53,6	51,4

Manba: Sirdaryo viloyatida joylashgan korxona va tashkilotlarning xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, 2020-2022 yil.

Mazkur vaziyat lavozim bo‘yicha o‘sish va yuqori daromad olish istiqbollarining yo‘qligi, kasbiy afzalliklarning o‘zgarishi, ish beruvchi talablarining ishchilar tomonidan qabul qilinmasligi kabilar bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarimiz davomida oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli xodimlarning mehnatiga haq to‘lash nisbati tahlili asosida quyidagilar aniqlandi:

- oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli erkaklarning daromadlaridagi maksimal farq 35-44 yoshda - 2 barobarni , 25-29 va 50-54 yoshdagi ayollarning daromadlari o‘rtasida mos tarzda 2,3 va 1,8 martani tashkil qiladi;

- oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli ishchilarning ish haqidagi farqlar ularning qaysi ish guruhiga mansubligiga bog‘liqligi bilan izohlanadi.

Ish faoliyatining birinchi o‘n yilligida ish haqi tezroq o‘sib boradi va ularning pasayishi umumiy ish staji 35-40 yilga etganda boshlanadi.

Shunga ko‘ra, katta mehnat stajiga va inson kapitali zahiralariga ega bo‘lgan yoshi kattaroq guruh xodimlarining ish haqi ba’zan bunday uzoq tajribaga ega bo‘lmagan xodimlarning ish haqi bilan mos keladi. Xodimlarning yoshi va ish staji ta’sirida daromadlarning bunday o‘zgarishi ish haqi yoshi, tajribasi va inson kapitali zahiralarining to‘planishi bilan ortib borishi haqidagi farazga mos kelmaydi. Bu O‘zbekistondagi o‘tish davrining o‘ziga xos xususiyatlari, keksa avlod ishchilari mahorati va qobiliyatining “qadrsizlanishi” bilan izohlanadi.

“Yoshi uchun mukofotlar” (ma’lum bir yoshdagi ishchilarining ish haqi va barcha xodimlarining ish haqi o‘rtasidagi foiz nisbati bilan farqi) tahlili asosida quyidagi xususiyatlar aniqlandi:

- yordamchi va malakasiz kadrlar lavozimlaridagi yoshlar (24 yoshgacha) va pensiya yoshidagi ishchilarda ish haqi ushbu lavozim guruhi umumiy olgandagiga qaraganda 30 - 37 % kam;

- 25-29 yoshdagi ayollarni yuqori darajadagi bilim va kasbiy tayyorgarlikni talab qilmaydigan ishlarga jalb qilish (yordamchi xodimlar va malakasiz ishchilar), ularni boshqa yoshdagi ushbu

lavozimlarda ishlaydigan ishchilarga nisbatan yuqori ish haqi bilan ta’minlaydi (past malaka talab qiladigan ish joylarida uzoq tajriba to‘plash talab qilinmaydi, eng katta haq dastlabki mehnat faoliyatlarida kuzatiladi);

- boshqaruvning o‘rta, quyi bo‘g‘inlari rahbarlari orasida, shuningdek, o‘rta malakali mutaxassislar orasida vaziyat aksincha: ularning ishlarining mohiyati yuqori malakali va uzoq yillik kasbiy tajribaning mavjudligini talab qiladi, shuning uchun ish haqiga eng katta miqdor 40-49 va 55-59 yoshlarda erishiladi.

Hududiy darajadagi “ta’lim uchun mukofotlar” (ma’lum darajadagi ma’lumotga ega bo‘lgan ishchilarning ish haqi va barcha ta’lim darajalarida tegishli ish guruhlaridagi o‘rtacha ish haqi o‘rtasidagi farq) tahlili quyidagilarni aniqlashga imkon yaratdi:

- oliy ma’lumotli ishchilarning ish haqi va tegishli ish guruhlaridagi ishchilarning o‘rtacha ish haqi o‘rtasidagi farq boshqa ta’lim darajalari uchun xuddi shu ko‘rsatkich bilan taqqoslaganda eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib chiqadi;

shunga ko‘ra, oliy ma’lumotga ega bo‘lish xodimlarga, ishning xususiyatidan va qaysi ishchi guruhga mansubligidan qat’i nazar, yuqori haq olish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ish haqi mahorat darajasi va ish joyida talab qilinadigan malaka o‘rtasidagi eng kichik farqda, yuqori ish haqi esa eng yuqori malakaga ega bo‘lgan professional guruhlarda.

Xulosa qilib ta’kidlash lozimki, aholi bilim darajasining oshishi daromadlarning ko‘payishi bilan birga yuz beradi:

- o‘qish davomiyligining bir yilga ko‘payishi aholi barcha guruhlari o‘rtacha oylik ish haqining oshishiga olib keladi;

- oliy ma’lumotli insonlar orasida eng kam ta’minlangan (eng kam ish haqiga ega bo‘lgan) ishchilarning ulushi umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ma’lumot-lilarga nisbatan 4 baravar kam ko‘rsatkichni tashkil qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, inson kapitali sifati va samaradorligini oshirishda ta’lim xizmatlarining o‘rni sezilarli darajada yuqoridir. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan o‘qitish va malaka oshirish tizimi xususiy inson kapitalining boyishiga olib keladi, bu esa pirovardida korxona, hudud va mamlakat darajasida iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi (PF–158-son Farmoni, 11.09.2023-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5313-sonli Farmoni. 25.01.2019 y. https://lex.uz/docs/-3523206.

3. Abduraxmonova G., RUSTAMOV D. Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo‘nalishlari //Архив научных исследований. – 2020. – №. 4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 394-son qarori. https://lex.uz/docs/4334804

EFFECTIVE ISSUES IN AGRICULTURAL FOOD PRODUCTION

Turayeva Gulizahro Kaxxarovna, Asadullayev Chingizxon Sherzod o‘g‘li, Ravshanbekova Zilola Ikromjon qizi
Guliston davlat universiteti

„Buxgalteriya hisobi va moliya’’kafedrasi o;qituvchisi

GulDU Raqamli iqtisoditot va innovatsiyalar instituti **talabalari**

(Abstract)

The role and importance of the agricultural sector in ensuring the food security of the population on a global scale is increasing day by day. Wheat, in particular, is one of the most common cereal crops. Wheat bread is highly valued for its taste, richness and digestibility, the use of available resources and opportunities in our country to ensure a guaranteed supply of agricultural products,

further increase productivity and interest in the implementation of scientific advances and modern approaches in the field is a pressing problem.

(Key words): grain and grain products, grain production, yield, efficiency, grain independence, agrotechnology.

Introduction

Ensuring the stability of grain production is the driving force behind much of the country's economic system. More than half of the nations of the world use wheat bread for food.In the strategy of agricultural development of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030, the average yield of goat grain by 2025 should be brought to 70 tce/ha. it is planned to reach 75 tce/ha by 2030 [1]. In this regard, application of intensive agricultural technologies in cultivation of winter wheat varieties with high productivity, efficient use of irrigated land along with increase of grain yield, improvement of technological indicators of grain quality are the most relevant. In irrigated conditions, each province has different soil and climatic conditions depending on its geographical location and regions. In addition, a set of new agro-technological measures applied to new promising varieties will be developed based on the natural conditions of the area and recommended for use by cereal growers in the near future [2,3].

Analysis and results

The multifaceted linkages between grain production and economic sectors help to underline that sustainable grain production is the basis for ensuring the stability of all agricultural production and the commodity market. Sustainable grain production has significant potential for the development of a large part of the country's economic system. At the same time, considering questions of definition of scientific category "Stability of grain production", peculiarities of structure of production-economic potential of grain production, cycles of economic development of grain production, influence of weather and climate change conditions of released Development of climatic conditions and long-term scenarios of providing stability of grain production remain understudied.At the same time fast changing economic and technological conditions of agriculture, instability of grain growing require yes. Economic growth in the grain industry is expressed by growth of gross grain production, both in physical terms and per capita, which is stable in dynamics[4,5].

It would also be no exaggeration to say that our neighboring Republic of Kazakhstan has found its place in Central Asia, as well as in the world market, in sowing and selling grain products. We know that Kazakhstan is a neighboring country to us, but why haven't we heard of the brand Uzbek wheat or Uzbek grain today? Because farmers themselves have the right to plant and sell their own grain when planting and purchasing grain, delivery of grain products is important.

TABLE 1: Cereal and legume crops cultivated on farms of all categories in the Republic of Uzbekistan[1]

Type of products	**Unit of measurement**	**2017**	**2018**	**2019**	**2020**	**2021**
1	2	3	4	5	6	7
Cereals and legumes, total	**thousand tons**	**7 288,5**	**6 535,5**	**7 437,8**	**7 636,0**	**7 634,6**
including:	x	x	x	x	x	x
Wheat	thousand tons	6 079,2	5 410,8	6 093,5	6 157,8	5 984,8
Barley	thousand tons	134,3	111,8	133,5	161,5	95,8
Rye	thousand tons	-	0,7	0,8	5,2	3,8
Corn for grain	thousand tons	389,4	413,2	421,3	475,3	590,0
Corghum	thousand tons	-	21,1	14,7	19,0	22,1
Millet	thousand tons	-	54,5	104,3	99,1	99,8
Oats	thousand tons	-	1,3	1,7	1,9	53,7
Buckwheat	thousand tons	-	0,1	0,6	0,02	0,2
Rice	thousand tons	395,4	221,1	314,7	293,5	334,2
Leguminous crops,	thousand tons	212,5	260,0	339,6	401,6	439,8

total						
including:	x	x	x	x	x	x
Peas	thousand tons	-	37,5	34,2	23,9	29,7
Beans	thousand tons	-	65,1	72,2	77,3	73,7
Lentils	thousand tons	-	-	2,1	0,01	0,2

[1] Compiled by the author on the basis of information from **STAT.uz**.

In this connection in order to provide population with wheat and flour products in 2022 on 1 million 27 thousand hectares of lands in republic it is planned to grow 7 million 679 thousand in June-July of this year. [6].

Conclusions and recommendations (Conclusion/Recommendation)

Grain is one of the most common cereal crops. The multifaceted links between cereal production and the branches of the economy allow us to underline that sustainable cereal production is the basis for the stability of the whole agricultural production and the commodity market. Sustainable grain production has considerable potential for the development of a large part of a country's economic system.More than half of the world's population uses wheat bread for food. Wheat bread is high in protein and starch, and its protein component consists mainly of gluten, which is why it is used to bake quality bread.[7]

I can make the following additional suggestions for the sustainability of grain production.

- Increase the number of mills;
- to expand the area of grain cultivation and increase the yield;
- introducing a system of reimbursement of transport costs for the delivery of flour and flour products to remote settlements;
- ensuring price stability.

References

1. **Presidential Decree No. PF-5853 of 23.10.2019.**

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, PP-10 of 15.11.2021.

3. A. H. Burkhanov. Textbook "Economics of Agriculture" 2021, 22 pp.

4. Zavorotin, E.F. Organizacionno-jekonomicheskij mehanizm ustojchivogo razvitija agropromyshlennogo kompleksa i sel'skih territorij v Povolzh'e / E.F. Zavorotin, V.I. Afanas'ev, A.A. Gordopolova, N.S. Tzhurina, A.P. Nesmyslenov and dr. - Saratov: Saratovskij istochnik, 2017. - 300 p.

5. Mazloev, V.Z. Formirovanie processesov transformsii jekonomicheskogo mehanizma agrarnogo sektor [Text] / V.Z. Mazloev, M.G. Ozerova // Dzhekonomika sel'skogo hozjajstva Rossii. - 2017. - No. 8. 15-21 p..

6. Decree No. 284 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated 30.05.2022.

7. To‘rayeva, G. (2023). Iste'mol savatida g‘alla yetishtirish barqarorligining ahamiyati. E3S Web of Conferences da (420-jild, 01019-bet). EDP fanlari.

CLASSIFICATION OF TAXES AND OTHER COMPULSORY PAYMENTS

Chorshanbayev Umurzak, Aldashova Maftuna, Muratjanova Lobar

Lecturer at Gulistan State University

+998941617901 umurzokchorshanbayev@gmail.com

Gulistan State University the direction of economy student

+998900211190 aldashevamaftuna@gmail.com

Guliston State University the student of accounting and auditing

+998994222609 muratjanovalobar@gmail.com

ABSTRACT. The article is devoted to the methods of reduction of tax and other compulsory payments arrears, as well as the issues of changing and improving the mechanism of compulsory collection of arrears are covered in detail. As a result of the research relevant conclusions have been formed, scientific offers and practical recommendations have been worked out.

Keywords: tax debt, arrears, compulsory collection, tax administration, Tax Code, benefits, taxpayer, tax liability, business entities.

INTRODUCTION. The main part of State budget revenues of the RepuЬlic of Uzbekistan is formed Ьy taxes and fees. As a result of wide-scale reforms carried out in our country during the years of independence, effective formation of budget revenues has been achieved, finally, necessary conditions for realization of important tasks set Ьy our country and achieving goals have been created.[l] 2017-2021 in order to further enhance the effectiveness of the reforms carried out in our country, to create conditions for the comprehensive and advanced development of the state and society, the modernization of our country and liberalization of all spheres of life. [2]

Tax is defined as a compulsory non-selective payment to the State Budget of the RepuЬlic of Uzbekistan or to the state special fund defined in the Tax Code. [3]

A levy is a compulsory payment to the budget system estaЬlished Ьy the Tax Code or other normative legal acts, the payment of which is the implementation Ьy an authorised body or its official of legally significant actions in relation to the person paying it, including certain conditions for granting rights or authorisations.Shaxsning zimmasiga sud tartibida yuklatilgan jarimalar va boshqa to‘lovlar, shuningdek qonunda belgilangan hollarda mol- mulkni musodara qilish hamda boshqacha tarzda olib qo‘yish soliqlar yoki yig‘imlar jumlasiga kirmaydi.[4]

RESUL TS AND DISCUSSION

The ongoing efforts to develop and liberalise the economy will contribute to the timely full payment of taxes and levies, timely financing of the budget and earmarked funds, and ultimately, further improvement of the country's level of development and the standard of living of the population. On the other hand, failure to pay these funds to the relevant budgetary and earmarked funds on time and in full may hinder the fulfilment of government objectives for a given period.[5]

The oЬligation of a taxpayer to pay a certain tax or fee, to write off existing tax debts is the oЬligation to calculate and pay these taxes and fees in due time and in full. possiЬle ways

- bank guarantee; - pledge of property; - guarantee; - registration of the taxpayer's property; - suspension of operations on bank accounts; - penalties Amounts of assessed (calculated) and unpaid taxes, including unpaid and current payments on them, as well as unpaid financial penalties and fines within the deadlines estaЬlished Ьy the Tax Code of the Russian Federation are recognised as tax arrears.[6]

In the event of non-compliance with a tax oЬligation, i.e. non-payment of tax arrears, measures are taken to recover tax arrears in accordance with the rules set out in legislation. Inpractice, in a number of cases, in addition to mandatory measures for the collection of tax arrears, there are also cases where benefits and facilities, such as partial or full exemption from paying tax arrears, permission to submit accounts late, deferral of payment, are providedto support taxpayers. [7] 641 O "Taxes payaЬle to budget (Ьy type)", the amount of the liability to Ье paid to budget is credited to accounts, expenses of the period, use of profit to pay taxes and other compulsory payments is recorded in connection with accounts that take into account settlements with employees on remuneration of labour. [8]At final settlement, one-off payments previously transferred to budget on taxes and other oЬligatory payments aretransferred to budget on debit of account 641 O"lndebtedness on payments to budget (Ьy type)". Reflected in connection

with cash payment account (4400). Amounts actually transferred to budget shall Ье recorded in debit of account 6410 "lndebtedness in payments to budget (Ьу type)" in connection with cash accounting accounts. [9]

6410 "Debt on payments to the budget (Ьу type)" account analytical accounting is kept separately for each type of tax. A separate account shall Ье opened in account 641 O for each type of tax and levy.[10] For example: 6410 "Value Added Tax", 6411 "Excise Tax", 6412 "Corporate lncome Tax", 6413 "Personal lncome Tax" and others. Accounts сап Ье connected according to source of taxes and charges to budget: Д 2010, 2310, 2510, 2900, 4410, 9430, 9810, etc. К 6410. Linking accounts when transferring sums payaЬle to the budget D 6410 andK 5110, 5200, 5500.[11]

CONCLUSION

ln conclusion, in order to remove obstacles to business development Ьу solving proЬlems in the sphere of entrepreneurship, to attract foreign investments into the country and to provide guaranteed protection of rights and legitimate interests of entrepreneurs, as well as pandemics and global economic crisis. [12] ln cases where their negative impact on economic sectors has increased as a result of the situations that caused the situation, to prevent taxpayers from incurring debts, to increase existing debts and to create additional relief for them, taxpayers shall Ье charged taxes and fees for a certain period of time, it is assumed that tax exemptions, reduced tax rates and possibility of reporting and declaring, late payment of taxes and fees shall Ье determined Ьу adding[I3].

REFERENCES:

1. Constitution of the RepuЬlic of Uzbekistan. - T.: Justice 2016.
2. Civil Code of the RepuЬlic of Uzbekistan. 21.12.1995. No. 163-1 of 29.08.1996. Approved Ьу Law No. 256-1 (last amended Ьу Law O‘RQ-542 of 23.05.2019 of the RepuЬlic of Uzbekistan).
3. Labour Code of the RepuЬlic of Uzbekistan. 21.12.1995 of the RepuЬlic of Uzbekistan. Approved Ьу Law No. 161-1 (last amended Ьу Law O‘RQ-514 of 09.0l.2019).
4. Tax Code of the RepuЬlic of Uzbekistan. UzR 30.12.2019 Approved Ьу LawNo. O‘RQ-599
5. Law No. O‘RQ-580 of 5 November 2019 on Banks and Banking Activities, as amended.
6. Law of the RepuЬlic of Uzbekistan "On Accounting" (new edition). 13.04.2016 No. UzRK-404.
7. Turaeva G., Mullajonov B., Gurbanbekov R., Torakulov S., Mamadaliev U. and FozilovS. (2023). ACCOUNTING METHODS AND PRINCIPLES. Science and Technology in the Modern World, 2(14), 53-55.
8. Turaeva G., Sherkhanov A, Abdukhalilov A, Khusanov H. & Rakhmonkulov H.(2023). CLASSIFICATION OF TAXES AND OTHER OBLIGATORY PAУMENTS, TYPES AND ACCOUNTING DUTIES. Science and technology in the modern world, 2(14),46-48.
9. Turaeva G., Mamarakhimov A, Berdikulov S. & Robimkulov N. (2023). THE ROLE OF ICT 1N THE DEVELOPMENT OF ACCOUNTING SCIENCE. lnnovative research of modern bog: theory and practice, 2(15), 25-26.
10. Madinabonu, A, Nurjahan, N., and Mehriniso, M. (2023, April). A NATIONAL ACCOUNTING STANDARD. ln Universal Research Conference 2023 (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).
11. Gulizahro T., Shadiyar H., Zulhumor S., Feruza B. and Mohinoor У. (2023, April). ACCOUNTING METHODS AND PRINCIPLES. ln Universal Research Conference 2023 (Vol. 1, No. 4, pp. 90-92).

12. Gulizahro T., Kamola H., Zulaiho P., Aziza T. and Nozima G. (2023, April). A REQUIREMENT FOR THE USE OF BOOKKEEPING ACCOUNTS. In Universal Science Research Conference 2023 (Vol. 1, No. 4, pp. 99-101).

13. Turaeva, G. (2023). THE IMPORTANCE OF THE SUSTAINABILITY OF GRAIN PRODUCTION 1N THE CONSUMER BASKET. Economics and Education, 24(2), 440-444.

SIRDARYODA KLASTER TIZIMLARI: INNOVATSION VECTOR

Berdiyev Gayrat Ibragimovich, Sheraliyeva Farangis Narzulla qizi,

GulDU, "Buhgalteriya hisobi va moliya" kafedrasi mudiri,dotsent
Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Klasterlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida samarali, innovatsiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim mexanizmi hisoblanadi. O'zbekistonda ham iqtisodiyot tarmoqlarini klasterlash siyosati olib borilmoqda. Maqolada O'zbekistonda va jahon mamlakatlarida ilmiy-texnikaviy klasterlarni shakllantirish masalalari ochib berilgan, respublika innovatsion klasterlarini innovatsiyalar qatoriga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar taklif etilgan..

Kalit so'zlar: Global innovatsiyalar indeksi, dunyo mamlakatlari, O'zbekiston reytingi.

Kirish. Hozirgi tez o'zgarib borayotgan dunyoda iqtisodiy taraqqiyoti innovatsiyalarga asoslangan, ishlab chiqarish ilm-fan, ta'lim bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini eng qisqa vaqt ichida tayyor raqobatbardosh mahsulotga aylantira oladigan mamlakatlar muvaffaqiyatga erishadi.

Bugungi kunda ko'plab davlatlar mamlakat yuksalishi uchun innovatsion rivojlanish muhimligini anglab, "innovatsion yutuq" siyosatini olib bormoqda, innovatsion tuzilmalarni tashkil etish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratmoqda. Ulardan eng muhimi innovatsion klasterlar bo'lib, ular mahsulot va xizmatlarni doimiy ravishda takomillashtirishga olib keladigan innovatsion texnologiyalar va yechimlarni yaratishga qaratilgan.

Innovatsion klaster - innovatsion startaplar, kichik, o'rta va yirik firmalar, shuningdek, bir xil tarmoq va mintaqada faoliyat yurituvchi va intensiv o'zaro hamkorlik, imkoniyatlarni almashish va bilim almashish orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan mustaqil korxonalar guruhi. va kompetensiyalar, texnologiyalar transferiga hissa qo'shish, hamkorlik tarmoqlarini yaratish va klaster sub'ektlari o'rtasida ma'lumot tarqatish [1, p. 9].

Bugungi kunda O'zbekistonda klasterlashning asosiy strategiyasi innovatsion tipdagi klasterlarni yaratish bo'lib, ular oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida amalga oshirilayotgan texnologiyalar va ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish jarayonida paydo bo'layotgan ko'plab yangi kompaniyalarni o'z ichiga oladi. Bunday klasterlar respublikada ilg'or innovatsion g'oyalar va ishlanmalar hayotga tatbiq etilayotgan texnologiyalar va IT-parklar shaklida faoliyat yuritadi.

O'zbekistonda innovatsion yo'naltirilgan klasterlar "Tashkent Pharma Park" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteri tashabbusi bilan tashkil etilgan bo'lib, bu yerda dori vositalari ishlab chiqarish yirik farmatsevtika tarmoqlari ilmiy laboratoriyalari va ixtisoslashtirilgan institutning innovatsion ishlanmalari asosida amalga oshiriladi. Innovatsion klasterlarga Quyosh klasteri tashkiloti, kimyoviy va texnologik tadqiqotlar va ishlab chiqarish klasterlari kiradi:

"Navoiy kimyo texnoparki", "Farg'ona kimyo texnoparki", "Qoraqalpog'iston kimyo texnoparki", shuningdek, Sho'rtan majmuasi tarkibidagi yirik gaz-kimyo klasteri. Klasterlar faoliyati ilmiy va ta'lim tuzilmalarining ishlab chiqarish, startap va innovatsion tashkilotlarni tashkil etish bilan yaqin hamkorligini nazarda tutadi.

Dunyoning ilm-fan va texnologiya klasterlarini o'rganuvchi va eng ko'p bilim talab qiladigan yetakchi global klasterlarni aniqlaydigan Global Innovatsiyalar indeksi (GII) 2022 da "Taraqqiyot holati va klaster chuqurligi" (klaster rivojlanishi holati va chuqurligi) reytingida O'zbekiston 27-o'rinni egalladi. 132 mamlakat. Bundan tashqari, klasterlarning kuchliligi (kuchliligini ko'rsatadi) va rentabelligi (daromad guruhining kuchliligi), yaxshi rivojlanish istiqbollari qayd etilgan (Inset) [3].

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli innovatsion klasterlar ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy infratuzilmaning butun majmuasini o'z ichiga olgan yirik aglomeratsiyalardir.

Innovatsion rivojlanishdagi yutuqga asosan mamlakat va jahon darajasida innovatsiyalarning muhim massasini to‘plash bilan erishish mumkin, bu munosabatlar tarmog‘ini yaratishni o‘z ichiga oladi: ta'lim - fan - amaliyot - ishlab chiqarish.

O‘zbekistonda poytaxt aglomeratsiyasi negizida muhim ilmiy-texnikaviy va ta’lim salohiyati Toshkent shahrining innovatsion yo‘nalishlari, yuqori texnologiyali tarmoqlari va hududlarida jamlangan yirik “Toshkent” ilmiy-ishlab chiqarish klasterini yaratish imkoniyati mavjud (Chirchiq, Ohangaron, Zangiota qishlog‘i va boshqalar) - zamonaviy sanoat kooperatsiyasi markazlari.

Yangi tarmoqlar bilan kengayib borayotgan sanoat klasteri kuchli kooperatsiya aloqalari mavjud bo‘lsa, klaster a'zolari bir vaqtning o‘zida ushbu tarmoqda bir-biri bilan raqobatlashsa va hamkorlik qilsa, bir-birini to‘ldirsa va alohida kompaniyalar va umuman klasterning raqobatdosh ustunliklarini kuchaytirsa, raqobatbardosh bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рогатных Елена, Сердунь Марина. Зеленая экономика и ее влияние на экономическое развитие в XXI веке // Российский внешнеэкономический вестник. 2022. №3. Стр. 21. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-iee-vliyanie-na-ekonomicheskoe-razvitie-v-hhi-veke.

2. База публикаций ОЭСР. URL: www.oecd.org/publications/

3. База публикаций Всемирного банка. URL: www. worldbank.org/en/research/brief/publications

4. Концепция по переходу к зеленой экономике РК. URL: https://ecounion.kz/?p=686#:~:text=Концепция%20

5. Обновленный определяемый на национальном уровне вклад 2021. Республика Узбекистан. URL: https:// unfccc.int/sites/default/files/NDC/2022-06/Uzbekistan_ Updated%20NDC_2021_RU.pd

6. Alisher, B., Dostonbek, E., Turgunboy, M., Gulizakhro, T., & Alisher, K. (2021). Issues of Digitization of the Banking and Financial System in the Integration of the Republic of Uzbekistan into the World Economy. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 10, 76-81.

7. Eshpulatov , D. (2022). Analysis of the organizationaleconomic mechanism to improve the sustainability of economic growth in agriculture. science and innovative development, 5(6), 104–122. Retrieved from https://indep-ilm.uz/index.php/journal/article/view/340

8. Abduvokhidov , A., Eshpulatov , D., & Kodyrova , D. (2022). Assessment of the quality of economic growth in agriculture. science and innovative development, 5(5), 61–70. Retrieved from https://indep-ilm.uz/index.php/journal/article/view/326

DON ISHLAB CHIQARUVCHI XALQARO TRENDLAR

Turayeva Gulizahro Qaxxorovna
Guliston Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi
+998945851984 zakhroturaeva@gmail.com

Abstract Maqola materiallari jahonda bug‘doy yetishtirish to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi , asosiy bug‘doy ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda yig‘imlar hajmi to‘g‘risidagi ma'lumotlar (TOP-100). Maqola AB-Center Agrobiznes ekspert-tahlil markazi ekspertlari tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) statistik va prognoz ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Key words: grain and grain products, grain production, productivity, efficiency, grain independence, agricultural technology.

Kirish.

Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda agrar sohaning o‘rni va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Jumladan, bug‘doy eng ko‘p tarqalgan asosiy donli ekinlardan biri hisoblanadi. Bug‘doy noni o‘zining ta’mi, to‘yimliligi va hazm bo‘lishi bilan yuqori baholanadi, mamlakatimizda ham mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini

qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masaladir.

Bug‘doy eng ko‘p tarqalgan asosiy donli ekinlardan biri hisoblanadi. Bug‘doy noni o‘zining ta’mi, to‘yimliligi va hazm bo‘lishi bilan yuqori baholanadi. Bug‘doy donining tarkibida uning naviga, ekish sharoitiga qarab 11,0% dan 18-19% gacha oqsil moddasi bo‘ladi. Bug‘doy nonidagi oqsilning hazm bo‘lishi 95% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, bug‘doy donidan yorma tayyorlanadi, uning uni makaron va konditer sanoatida ishlatiladi. Bug‘doy donining sifati, ya’ni tarkibidagi oqsil, kleykovina miqdori bug‘doy naviga hamda etishtirilayotgan mintaqaning tuproq–iqlim sharoitiga qarab o‘zgaradi.Bug‘doyning somoni va poxoli em-xashak sifatida chorva mollariga beriladi, yanchishdan chiqqan chiqindilari yuqori sifatli ozuqa hisoblanadi. Texnikada bug‘doy donidan spirt, kraxmal, kleykovina, dekstrin, kley va boshqa har xil mahsulotlar olinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Don ishlab chiqarish barqarorligini taminlashning qanchalik zarurligi va uning foydali jixatlari haqida iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘zlarining tadqiqotlarida va xalqaro konferentsiyalarda fikr va mulohazalarini keltirib o‘tishgan. Ular tomonidan don maxsulotini samaradorligini oshirishda tabiiy va intensiv yo‘l bilan ishlab chiqarishni ko‘paytirish amaliyotlari, don maxsulotining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ularning ijobiy jihatlarini o‘z davrlaridagi mavjud holatlar bo‘yicha ko‘rsatib o‘tishgan. [1]

Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. larining ta’kidlashicha Bug‘doy eng ko‘p tarqalgan Asosiy donli ekinlaridan biri xisoblanadi. Butun dunyo xalqlarining yarmidan ko‘prog‘i oziq-ovqat sifatida bug‘doy nonidan foydalanadi. Bug‘doy nonning tarkibida oqsil va kraxmal ko‘p, oqsil moldalar asosan kleykovina tarkibida bo‘lganligi uchun uning unidan sifatli non tayyorlanadi. Bug‘doy noni o‘zining ta’mi, to‘yimliligi va xazm bo‘lishi bilan yuqori baxolanadi. Bug‘doy donining tarkibida uning naviga, ekish shapoitira qarab 11,0% dan 18-19% gacha oqsil moddasi bo‘ladi.[2]

Z.M.Ilyina qishloq xo‘jaligida oziq-ovqat bozori barqarorlikni tahlili uchun quyidagi yondashuvlardan foydalanishni taklif qiladi [3]: statik (bozor rivojlanish chegaralarini aniqlash); dinamik (dinamiklar qatorining tebranishini o‘rganish); adaptiv (oziq-ovqat tizimining tashqi sharoitlarning o‘zgarishiga moslashish darajasini omilli baholash).

“Iste'mol savatida g‘alla yetishtirish barqarorligining ahamiyati ” mavzusidagi maqolamizda bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil etib, oziq – ovqat tizimini barqaror rivojlantirish, xususan qishloq xo‘jaligida g‘alla maxsuloti savdosida birja mexanizmi faoliyati don barqarorligi bilan bevosita bog‘liqligini aniqlaganmiz [4,5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Don ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash istiqbollarini yaratish bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, tarif va narx shakllanishini qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, ma’lumotni guruxlash, nisbiy va garmonik o‘rtachalar aniqlash analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Cheklangan resurslar sharoitida ulardan oqilona foydalanish, shuningdek, ularning optimal nisbati ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va biznes jarayonlarini qurishda muhim omil hisoblanadi. Ishlab chiqarish resurslarining haddan tashqari sarflanishi yoki to‘liq foydalanilmasligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining samaradorligini pasayishiga olib keladi, bu esa keyinchalik ishlab chiqarishni kengaytirishning mumkin emasligi va g‘alla sanoatining turg‘unligida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida asosan don yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi va barqarorligini ta’minlashning ayrim jihatlari masalalari ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, “G‘alla yetishtirish barqarorligi” ilmiy kategoriyasini aniqlash, don yetishtirishning ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyati strukturasining xususiyatlarini, g‘alla yetishtirishning iqtisodiy rivojlanish sikllarini, o‘zgaruvchan ob-havo va iqlim sharoitlarining ta’sirini aniqlash masalalari ko‘rib chiqildi. g‘alla yetishtirishning barqarorligi bo‘yicha iqlim sharoiti va uzoq muddatli xavfsizlik stsenariylarini ishlab chiqish yetarli darajada o‘rganilmaganligicha qolmoqda.Shu bilan birga, xo‘jalik yuritishning tez o‘zgarib borayotgan iqtisodiy va texnologik sharoitlari, mamlakatimizning ko‘pgina hududlarida g‘alla yetishtirishning beqarorligi nazariy usullarni yanada

rivojlantirish zarurligini taqozo etmoqda.G‘alla sanoatida iqtisodiy o‘sish dinamikada barqaror bo‘lgan yalpi g‘alla ishlab chiqarishning ham natura, ham aholi jon boshiga o‘sishi bilan ifodalanadi[6,7,8]

Xalqaro Don Kengashining (IGC) iyul oyidagi hisobotida global bug‘doy ishlab chiqarish 2022-23 yillarda 770 million tonnaga yetishi, 2021-22 yillardagi 781 million tonnadan 195 million tonnasi savdo uchun mavjud bo‘lishini prognoz qiladi.[9] Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko‘ra, bug‘doyning ko‘p ishlab chiqarilishi bir necha mamlakatlarda va undan ham kamroq mamlakatlar asosiy eksportchilar hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, jahon qishloq xo‘jaligi hozirda nisbatan davlat ko‘magiga bog‘liq. Kehribar savatning chora-tadbirlarning umumiy hajmidagi ulushi qanchalik kichik bo‘lsa va yashil savatning ulushi qanchalik katta bo‘lsa, milliy qishloq xo‘jaligining samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi, bu esa qishloq xo‘jaligi sohasidagi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Амирова Э. Ф. Проблемы сельского хозяйства Индии [электронный ресурс] – Режим доступа https://agroekonomika.ru/problemy-selskogo-khozyaistva-indii
2. ЕАЭС. ОБЗОР мирового опыта предоставления государственной поддержки сельского хозяйства. 2018 [электронный ресурс] – Режим доступа http://www.eurasiancommission.org/ru/act/prom_i_agroprom/dep_agroprom/sxs/Documents/Обзор%20мирового%20опыта%20предоставления%20государственной%20поддержки%20сельского%20хозяйства%202018.pdf
3. Официальный сайт Министерства сельского хозяйства США. Закон О Сельском Хозяйстве 2018 [электронный ресурс] – Режим доступа https://www.usda.gov/farmbill
4. Официальный сайт Комитета по сельскому хозяйству (COAG) [электронный ресурс] – Режим доступа http://www.fao.org/coag/en/
5. Официальный сайт Европейского Союза. Общая сельскохозяйственная политика [электронный ресурс] – Режим доступа https://ec.europa.eu/info/food—farming—fisheries/key—policies/common—agricultural—policy/cap—glance_en
6. Система управления сельскохозяйственной информацией ВТО [электронный ресурс] – Режим доступа https://agims.wto.org/
7. Черкасова О.В. Государственное регулирование сельского хозяйства Китая [электронный ресурс] – Режим доступа http://www.dslib.net/economika-mira/gosudarstvennoe-regulirovanie-selskogo-hozjajstva-kitaja.html

УДК 338.43

QISHLOQ XO‘JALIGINI DAVLAT TOMONIDAN QO`LLAB-QUVATLASH – RAG`BATLANTIRISH OMILI

Burxanov Alisher Xadjimurodovich, Matrasulov Baxodir Erbutayevich
iqtisod fanlari nomzodi, Guliston davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, Guliston, O‘zbekiston, alisher892jentra@gmail.com, +998998870794
ORSID.org 0000-0002-2794-0823
Guliston davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Maqola annotatsiyasi. *Maqola qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muammolariga bag‘ishlangan. Maqolaning maqsadi qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zaruriyati, samaradorligi tahlil qilingan.*

Tayanch so‘zlar *qishloq xo‘jaligi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, subsidiya, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash jamg`armasi.*

Agrosanoat majmuasining eng muhim bo‘g‘ini qishloq xo‘jaligidir. Bu tarmoq nafaqat agrosanoat majmuasida, balki butun mamlakat iqtisodiyotida o‘rin tutadi. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hozirgi kunda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Sababi, mazkur tarmoq mamlakatimiz iqtisodiyoti va dunyoning har qanday rivojlangan davlati oziq-ovqat xavfsizligi uchun strategik ahamiyatga ega.

Oxirgi bir necha o‘n yillikda dunyoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va xomashyo ishlab chiqarishda o‘zgarishlar ro‘y berdi. Turli mamlakatlar bu o‘zgarishlarni turlicha izohlaydi.

Agrosanoat kompleksini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganishda Rossiya, AQSh, Kanada, Polsha va boshqalar kabi yirik davlatlarning tajribasini o‘rganish katta qiziqish uyg‘otadi.

Dunyoning ayrim mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohasida davlat dasturlari 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval.

Dunyoning ayrim mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohasida davlat dasturlari

Mamlakatlar	**Dasturlar**
O`zbekiston	❖ O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ❖ Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi ❖ O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan kontseptsiyasi ❖ Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini 2021 — 2025 yillarda ustuvor rivojlantirish kontseptsiyasi
Rossiya	❖ 1996-2000 yillar mo‘ljallangan agrosanoat ishlab chiqarishini barqarorlashtirish va rivojlantirish bo‘yicha federal maqsadli dasturi ❖ 2001-2010 yillarda Rossiyani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi ❖ Qishloqlarda 2010 yilgacha ijtimoiy rivojlantirish dasturi (2003) ❖ “Agrosanoat kompleksini rivojlantirish” milliy loyihasi (2006-2007) ❖ 2008-2012 yillarga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat bozorlarni tartibga solish davlat dasturi ❖ 2014-2017-yillarda va 2020-yilgacha bo‘lgan davrda qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish. ❖ 2013-2020 yillarga mo‘ljallangan Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat bozorlarni tartibga solish davlat dasturi ❖ 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat bozorlarni tartibga solish davlat dasturi
AQSH	❖ Oziq-ovqat xavfsizligi qonuni (1985) ❖ Qishloq xo‘jaligini muhofaza qilish, oziq-ovqat va savdoni ta’minlash to‘g‘risidagi qonun (1990). ❖ “Qishloq xo‘jaligini takomillashtirish va isloh qilish to‘g‘risida”gi qonun (1996). ❖ “Qishloq taraqqiyotiga fermer investitsiyalarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun (2002)
Kanada	❖ Fermer xo‘jaliklarining daromadlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (1991) ❖ Istiqbolda o‘sish dasturi (2008) ❖ Kelajakdagi o‘sish asoslari - 2 (2013)
Polsha	❖ 2000-2004 yillarda qishloq joylarini faollashtirish dasturi ❖ 2004-2006 yillarda qishloq hududlarini rivojlantirish rejasi. ❖ 2004-2006 yillarda oziq-ovqat sektorini qayta qurish va modernizatsiya qilish va qishloqlarni rivojlantirish. ❖ 2007-2013 yillarda qishloq hududlarini rivojlantirish dasturi.
Qozog`is	❖ 2017-2021 yillarda Qozog‘iston Respublikasi agrosanoat

ton	kompleksini rivojlantirish dasturi ❖ 2021-2025 yillarda Qozog‘iston Respublikasi agrosanoat kompleksini rivojlantirish milliy loyihasi

Muallif ishlanmasi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu sohani muvaffaqiyatli rivojlantirish davlat tomonidan samarali qo‘llab-quvvatlansagina ko‘zlangan natijalarni beradi. Dunyoning etakchi davlatlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash, oziq-ovqat bozorini tartibga solish, qishloqning ijtimoiy va ekologik dasturlarini qo‘llab-quvvatlash uchun katta byudjet mablag‘larini ajratadi va uning ijrosini nazoratga oladi.

Menejment nazariyasi bozor sharoitida faoliyat yurituvchi davlatlar har qanday tarmog`ida iqtisodiyot samarali va ko‘plab bozor mexanizmlaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi ta`minlashga erishishi zarur deb hisoblaydi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va davlat xaridi uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishning barcha tashkiliy bo‘g‘inlari va bosqichlarida moliyalashtirishning uzviy va samarali yagona tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, agrosanoat majmuasi tovar ishlab chiqaruvchilari texnika parkini zamonaviy, yuqori samarali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish texnikasi bilan tubdan yangilash va jihozlash maqsadida 2017 yil 27 iyulda PF-5095-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinganligi qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangicha iqtisodiy munosobatlari yuzaga kelishiga olib keldi..

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 noyabrda “G‘alla etishtirish va sotishda erkin raqobatni ta’minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida” PQ-10-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qariorga muvofiq quyidagi tartiblat joriy qilindi:

1). Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi kredit resurslari hisobidan g‘alla etishtirish xarajatlarini qoplash uchun imtiyozli kreditlarni g‘alla etishtiruvchi fyermyer xo‘jaliklari, Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug‘chilik xo‘jaliklari va g‘allachilik klastyerlariga ajratiladi;

Bunda, Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan 12 oy muddatgacha g‘alla yalpi hosili umumiy qiymatining 40 foizigacha bo‘lgan miqdorda moliyalashtirilganda yillik 10 foiz, 50 foizigacha bo‘lgan miqdorda moliyalashtirilganda yillik 12 foiz stavkadan (shundan bank marjasi 2 foiz) oshmagan miqdorda tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratilmoqda.

G‘alla etishtiruvchi fermyer xo‘jaliklari, Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug‘chilik xo‘jaliklari va g‘allachilik klastyerlariga kredit mablag‘laridan erkin foydalanish, minyeral o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoya qilish vositalari, yoqilg‘i-moylash mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi texnikalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilish huquqini byerildi.

2022 yildan boshlab respublika hududida ekishga tavsiya etilgan bug‘doy navlarini xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan yer-suv sharoitlaridan kelib chiqqan holda mustaqil joylashtiriladi.

2). Ushbu qarorga muvofiq, Davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan barcha darajadagi mahalliy hokimliklar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning quyidagilarga aralashuvi qat’iyan taqiqlandi:

- boshoqli don etishtirishda agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish, moddiy-texnik resurslar bilan ta’minlashga;

- ajratilgan imtiyozli kreditlardan foydalanish yo‘nalishlariga; - bug‘doyni sotish jarayonlariga, shu jumladan shartnomalar tuzishga, xo‘jaliklarni don tayyorlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi ma’lum korxonalarga biriktirish, respublika hududlari o‘rtasidagi ichki tashuvlarga aralashuvi;

- g‘allachilik klastyerlari faoliyatiga chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va boshqa yo‘nalishlarni qo‘shish to‘g‘risida yozma yoki og‘zaki tartibda ko‘rsatma byerishlari.

3). 2022 – 2024 yillarda g‘allachilik klastyerlari va fermer xo‘jaliklari etishtirgan hosilning g‘alla ekilgan har gektar sug‘oriladigan maydon hisobidan respublika bo‘yicha o‘rtacha 2,5 tonnadan bug‘doyni erkin birja savdolari orqali, qolgan qismini birjada shakllangan narxlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida sotiladi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizizmi yuqorida qay etganimizdek ilg`or xorij tajribalaridan foydalanilgan holda takomillashtirilib bormoqda Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 noyabrda “Paxta xom ashyosini yetishtirish va uning yig‘im-terim xarajatlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2-sonli qarori qabul qilinishi ham mazkur soha strategic ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu qarorga quyidagilar belgilandi:

1. 2022 yil hosilidan boshlab Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan paxta yetishtirish va paxta yig‘im-terimi xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibi joriy qilindi:

a) paxta xom ashyosini yetishtirish va paxta yig‘im-terimini imtiyozli moliyalashtirish paxta-to‘qimachilik klasterlari va Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug‘chilik xo‘jaliklari orqali amalga oshiriladi;

b) tijorat banklari tomonidan Jamg‘arma resurslari hisobidan quyidagilar uchun imtiyozli kreditlar ajratiladi:

paxta-to‘qimachilik klasterlariga paxta yetishtirish uchun — paxta xom ashyosi qiymatining 60 foizigacha miqdorda yillik 10 foiz (shundan, 2 foizi bank marjasi) stavkada 24 oyga, shu jumladan 18 oylik imtiyozli davr va 19-oydan boshlab so‘nggi 6 oy davomida teng ulushlarda qaytarish sharti bilan;

Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug‘chilik xo‘jaliklariga paxta xom ashyosi yetishtirish uchun — paxta xom ashyosi qiymatining 60 foizigacha miqdorda yillik 10 foiz (shundan, 2 foizi bank marjasi) stavkada 14 oyga;

paxta-to‘qimachilik klasterlari va Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug‘chilik xo‘jaliklariga paxta yig‘im-terimini moliyalashtirish uchun — paxta xom ashyosi qiymatining 20 foizigacha miqdorda yillik 10 foiz (shundan, 2 foizi bank marjasi) stavkada 12 oyga, shu jumladan 3 oylik imtiyozli davr bilan.

2. Shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlariga paxta xom ashyosi xaridi bo‘yicha yakuniy hisob-kitob uchun 12 oygacha muddatga milliy valyutada ajratiladigan tijorat kreditlari bo‘yicha foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, lekin 10 foiz punktidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun Jamg‘arma tomonidan kompensasiya to‘lanadi.

Bunda, yakuniy hisob-kitob uchun ajratiladigan tijorat kreditlari bo‘yicha kompensasiya xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladi.

Shuningdek O`zbekistonda qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli amaliy ishlar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Jumladan, Jamg‘arma tomonidan qishloq xo‘jaligi korxonalariga lizing tashkilotlari orqali lizing shartlarida yetkazib byeriladigan paxta terish mashinasi va g‘alla o‘rish kombaynlari uchun Markaziy bank asosiy stavkasining 50% miqdorida 7-10 yil muddatga mablag‘ ajratiladi.

Bunda, lizing oluvchi tomonidan texnika qiymatining 20 foizi avans to‘lovi sifatida, qolgan 80 foizi lizing tashkiloti tomonidan Jamg‘armadan ajratiladigan mablag‘laridan to‘lab beriladi.

Jamg‘arma tomonidan 2 xil yo‘nalishda subsidiyalar:

1. Qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan mahalliy qishloq xo‘jaligi texnikalari kredit yoki lizing shartlarida xarid qilinganda (traktorlar, aylanma omochlar, pnevmatik va mexanik ekish seyalkalar) kredit yoki lizing foiz xarajatlarining 10 foizlik punkti miqdorigacha;

2. Qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan mahalliylashtirish darajasi 20 foizdan kam bo‘lmagan texnikalar xarid qilinganda texnika qiymatining 15 foiz miqdorida ajratilmoqda.

Endi bevosita O`zbekistonda qishloq xo`jaligini qo`llab-quvvatlash maqsadida davlat buydjetidan ajratilagan subsidiyalarni oshib boorish tendensiyasiga etiborni qaratsak (1-rasm).



1-rasm. Agrar sohada davlat buydjetidan ajratilgan subsidiyalar, mlrd.so‘mda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александрова О. А. Господдержка аграрной экономики США // Финансы. 2012. №3. С. 67-71.

2. Герасимов А., Барсуков М., Молчаненко С. Анализ результатов государственной поддержки сельского хозяйства // 2016. №5. С. 74-77

3. Папцов А. Роль государства в аграрном секторе развитых стран. // АПК: экономика, управление. 2007. №4. С. 83-87.

4. Узун В.Я. Особенности господдержки сельского хозяйства в России // Экономика сельского хозяйства России. 2012. №7. С.57-64.

5. Шестакова М.В. Мировой опыт государственной поддержки функционирования малого бизнеса в сельском хозяйстве/ Проблемы современной аграрной науки: сборник статей Международной научной конференции. Красноярск, 15 октября 2019г. – с.328-333

5. Бурханов А. (2023). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА НА ОСНОВЕ РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ – КРИТЕРИЙ НОВЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ. *Экономика и образование*, *24*(2), 284–289. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/1048

ПОВЕДЕНЧЕСКАЯ ЭКОНОМИКА КАК НОВАЯ ОБЛАСТЬ ЭКОНОМИКИ

Отабеков Жавдод Нурилла угли, Ибодуллаев Нодиржон Илхомжон угли

ГулГУ, преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет и финансы»
ГулГУ, преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет и финансы»

Аннотация. Поведенческая экономика присоединилась к науке как новое направление в 1970-х и 1980-х годах. В статье рассматриваются сущность, историческая эволюция и теоретические основы поведенческой экономики, а также теоретические и практические аспекты, связанные с поведенческой экономикой. Исследуются параллели и контрасты между теориями, выдвинутыми представителями школы поведенческой экономики, и теориями классической экономики, а также процесс принятия экономических решений и его эффективность. Автор рекомендует иметь научный и практический опыт интеграции принципов поведенческой экономики в экономику.

Ключевые слова: поведенческая экономика, экономический анализ, политика.

Введение .

Технологические изменения XX века показали, что определение человеческого фактора в экономике следует обсуждать шире. На основе концепций утилитаризма и Homo Economicus (рациональных личностей, максимизирующих свои корыстные интересы) уже давно изучаются различные взгляды на концепцию человека. В свою очередь утверждалось, что человек

обладает когнитивными характеристиками и принимает решения в условиях определенных ограничений. Противоречия экономической теории легли в основу поведенческой экономики и взаимоотношений экономики и психологии. Стала осознаваться необходимость включения психологических процессов в экономический анализ при принятии решений в условиях риска и неопределенности.

Хотя поведенческая экономика считается новым направлением в современной науке, ранние исследования в этой области восходят к работам философа и экономиста Дэвида Юма (Матсон и Долд , 2021). В 1970-е и 1980-е годы важность и теоретические и практические аспекты поведенческой экономики обсуждались рядом зарубежных ученых, в частности Тверски (1972), Смит (1982), Канеман (2003), Санстейн (2016), Талер (2019).). . После того как Вернон Смит, Дэниел Канеман и Ричард Талер были удостоены Нобелевской премии по экономике за вклад в изучение поведенческой науки, интерес к этой области возрос. Во многих странах исследования в области поведенческой науки начали внедряться в государственную политику. В 2018 году как минимум 202 правительственных ведомства в мире использовали поведенческие концепции в своей политике. На основе практики стран и международных внешних эффектов предполагается, что поведенческая государственная политика более эффективна, чем общая государственная политика, в повышении социального благосостояния при низких затратах (Afif et al. 2018).

Указ Президента Республики Узбекистан от 6 июля 2020 года № ПФ-6019 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию конкурентной среды и снижению роли государства в экономике» определяет принципы поведенческой экономики при анализе товарных и финансовые рынки Узбекистана. . Это, в свою очередь, означает, что данная сфера должна учитываться в мерах, связанных с ее реализацией в Узбекистане. Тем не менее, тот факт, что эта тема не была тщательно изучена местными экономистами, можно увидеть по отсутствию или очень небольшому количеству научной литературы по этой теме на узбекском языке (Зияева 2018). В качестве примера можно привести эту статью и исследование, принадлежащие исследователю Рано . Можно процитировать Юлдашеву . В статье «Ты то, что смотришь? «: Оценка влияния насилия в СМИ на поведение молодежи во время карантина из-за COVID-19 в Узбекистане», Юлдашева Рано и Боидурджо Рик Мукхопадьяй , изучаются научные аспекты этой области. С этой точки зрения данная статья создает литературу на узбекском языке, анализируя поведенческую экономику и ее сущность. В статье также подчеркивается, как повысить эффективность реформ с учетом поведенческой экономики. На примерах обсуждается тот факт, что поведенческая экономика ближе к практике, чем к теории.

Методология исследования.

В статье методы обзора литературы, научного наблюдения и системного подхода были использованы для изучения теорий, относящихся к теме. Также на примерах показан эффект использования опыта зарубежных стран в реализации реформ.

Литературный обзор.

Истоки поведенческой экономики можно проследить до работ философа и экономиста Дэвида Юма. Дэвид Юм в своем «Трактате о человеческой природе» (1739) прокомментировал симпатию , зависть, статус и социальные нормы в связи с развитием современной поведенческой экономики (Selby- Bigge and David 1964). По мнению Дэвида Юма, человек по своей природе сочувствует тому, как к нему относятся другие, поэтому личный интерес является основным мотивом установления справедливости. Точно так же сочувствие общественному благу является источником морального принятия, сопровождающего эту добродетель. Юм утверждал, что корысть людей заставляет их наслаждаться болью и страданиями своих противников. Исследователи-знакомцы, знакомые с философской и экономической психологией экономистов-классиков, отмечают, что Дэвид Юм исследует некоторые проблемы, которые сегодня волнуют поведенческих экономистов (Матсон и Дольд , 2021).

Адам Смит очень интересовался психологическими основами человеческого поведения. В своей «Теории моральных чувств» (1759) Смит описывает поведение и страсти как объекты беспристрастного наблюдения. Также психологические основы понятия полезности даны в

работах экономиста и философа Джереми Бентама и работах политэконома Фрэнсиса Айсадора Эджворта о социальном выборе.

В 1960-е годы некоторые психологи занялись экономикой после своих исследований когнитивного поведения, интуиции, предвзятости, принятия решений и иррациональности. С 1970-х годов Дэниел Канеман и Амос Тверски проводили эксперименты по принятию решений и поведению человека в условиях неопределенности, закладывая основу новой области поведенческой науки.

Исследования показывают, что две разные системы мозга работают вместе. Работа первой системы быстрая, простая, автоматическая и зачастую интуитивно понятная. Контролировать или изменять относительно сложнее , и это зависит от привычек. Работа второй системы медленнее, чем первой, и ею можно сознательно управлять. Рациональная вторая система находится под сильным влиянием быстрой, интуитивной и автоматической первой системы (Талер и Санстейн , 2019).

Приложения поведенческой экономики

Важным аспектом этих исследований является то, что они дают политикам важные советы по осуществлению реформ. Оно имеет форму стимулов и включает в себя методы, которые можно непосредственно применить к экономике. С точки зрения понимания экономических фактов и разработки политики интерес к поведенческой экономике растет. Налоги, штрафы и стимулы предназначены для контроля поведения. Политика, разработанная политиками, постоянно влияет на решения, подталкивая приложения с использованием методов поведенческой экономики. Например, в Техасе 18-24-летние не следят за чистотой дорог. Чтобы решить эту проблему, городские власти начали очень дорогостоящие рекламные кампании, утверждая, что обязанностью населения является поддержание чистоты в общественных местах. Но когда эта реклама провалилась, сняли патриотический рекламный ролик. В рекламе игроки футбольной команды Техаса убирали мусор на дорогах и скандировали лозунг, призывающий к чистоте. В результате по итогам года проблема загрязнения была решена на 29% (Талер и Санстейн , 2019).

Энергосбережение также является проблемой, которую можно решить с помощью методов поведенческой экономики. Исследование по сравнению и снижению счетов за электроэнергию показывает, что с помощью метода стимулирования можно добиться лучших результатов в экономии энергии. Есть возможность отслеживать потребление электроэнергии (кВт) в течение определенного месяца на уровне микрорайона и микрорайона. Если потребитель потребляет меньше электроэнергии, чем обе группы, на его счет добавятся два смайла. Если группа потребляет меньше электроэнергии, будет добавлен только один смайл. Поступая таким образом, потребители вынуждены сравнивать себя с другими потребителями и соответствующим образом корректировать свое потребление.

В Турции в рамках проекта «Зеленая Турция вместе с нашей нацией» письмо президента было разослано по почте двадцати трем миллионам граждан. В письмо также включена брошюра и семена рассады, а также в брошюре представлена информация об инвестициях в озеленение, которые были сделаны по всей Турции и на региональном уровне. Активность в этом направлении объясняется цифрами, подчеркивающими усилия государства и обращающими внимание на понимание гражданами ответственности. В письме говорится: «Посадите семена в конверт и внесите свой вклад в создание зеленой Турции» и указаны контактные телефоны, по которым граждане могут выразить свое мнение (Бал и Килич , 2019). В этом проекте, используя поведенческие элементы, граждане попытались вызвать у граждан особые чувства, связанные с вкладом в проект.

Выводы .

Главным действующим лицом традиционной экономики является «Homo Economicus » или рациональный человек, максимизирующий свои собственные интересы. В этом его считают рациональным, эгоистичным и корыстным человеком. Архитекторы традиционных экономических теорий исключили поведенческие процессы из своих моделей из-за неспособности смоделировать психологические ограничения в большинстве теоретических тестов. В реальной жизни люди не являются ни полностью эгоистичными, ни полностью рациональными; эмоции часто влияют на экономические решения людей. В поведенческой

экономике экономические решения принимаются этими людьми в реальной жизни. С этой точки зрения расширяется использование результатов исследований в области психологии в экономике. Использование этих результатов для интерпретации экономических фактов — одна сторона вопроса, а применение методов психологических исследований к экономике — другая сторона вопроса. Такие методы, как анкеты, стандартизированные психологические шкалы и эксперименты, дают новые результаты в научных исследованиях в области экономики. Таким образом, будут разработаны более реалистичные решения проблем развития, более широко будут освещены психологические факторы, определяющие условия труда на рынке труда, распределение доходов, относительный доход, налоговая политика, безработица, предпринимательство и другие ситуации.

Таким образом, поведенческая экономика — это междисциплинарная область исследований, которая изучает неадекватную информацию и иррациональное поведение, решения и выбор экономических агентов. Поведенческая экономика, охватывающая общие аспекты экономики и психологии, позволяет проводить аналитические, эмпирические и экспериментальные исследования. Поведенческая экономика позволяет нам понять феномен «иррациональности», сосредоточив внимание на когнитивных предубеждениях и эвристиках, не отвергая при этом полностью принцип «рациональности», преобладающий в классической экономике (Baddeley 2017). Кроме того, поведенческая экономика обогащает экономику с точки зрения методологии исследования.

Рекомендации

1. Афиф , Зейна , В. Уэйд Ислан , Оскар Кальво -Гонсалес и Эбигейл Далтон. 2018. «Поведенческая наука во всем мире: профили 10 стран». Группа Всемирного банка: Отдел разума, поведения и развития.

2. Баддели, Мишель. 2017. Поведенческая экономика: очень краткое введение. Том. 505. Издательство Оксфордского университета.

БАЛ , Ясемин и Мустафа Эрджан Килич . 2019. ' Шевре Дуярлилигинин Олушмасинда Давраниссал Яклашимлар ». Малатья: Инёню Университеты .

4. Канеман , Дэниел. 2003. «Психологический взгляд на экономику». Американский экономический обзор 93 (2): 162–68.

5. Мэтсон, Эрик В. и Малте Долд . 2021. «Экономист по поведенческому благосостоянию в обществе: соображения Дэвида Хьюма». Обзор поведенческой экономики 8 (3–4): 239–58.

6. Селби- Бигг , Льюис Амхерст и Хьюм Дэвид. 1964. Дэвид Хьюм «Трактат о человеческой природе». Том. 2. Рипол Классик .

7. Смит, Вернон Л. 1982. «Микроэкономические системы как экспериментальная наука». Американский экономический обзор 72 (5): 923–55.

8. Санстейн , Касс Р. 2016. Этика влияния: правительство в эпоху поведенческой науки. Издательство Кембриджского университета.

9. Талер , Ричард Х. и Касс Р. Санстейн . 2019. «Подталкивание к улучшению решений, касающихся здоровья, благосостояния и счастья».

10. Тверски , Амос. 1972. «Устранение по аспектам: теория выбора». Психологический обзор 79 (4): 281.

11. Зияева , Мухтасар . 2018. ' Истеъмолчилар хулқ - атворидаги ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда хизматларни таснифлаш тамойиллари '. Иктисодийот ва Инновации Технологии , нет . 2: 318–325.

12. Акмаль А., Достонбек Э., Одина Дж. и Нозима А. (2022). Современное состояние влияния иностранных инвестиций на качество экономического роста страны и регионов Узбекистана. Азиатский журнал исследований в области экономики бизнеса и менеджмента, 12 (4), 24–29.

13. Акмаль А., Достонбек Э., Одина Дж. и Нозима А. (2022). Совершенствование кредитной политики коммерческих банков в сфере развития малого бизнеса и частного предпринимательства в регионах. Азиатский журнал исследований в области экономики бизнеса и менеджмента, 12 (4), 18-23.

14. Эшпулатов , Д. (2022). Анализ организационно-экономического механизма повышения устойчивости экономического роста в сельском хозяйстве. наука и инновационное развитие, 5(6), 104–122. Получено с https://indep-ilm.uz/index.php/journal/article/view/340 .

15. Эшпулатов, Д. (2022). Анализ организационно-экономического механизма повышения устойчивости экономического роста в сельском хозяйстве. наука и инновационное развитие, 5(6), 104–122. Получено с https://indep-ilm.uz/index.php/journal/article/view/340 .

HUDUDDA QISHLOQ XO‘JALIGI TADBIRKORLIGIDA “AQLLI” TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Allayarova Mastura Qudratullaevna, Murotjonova Lobar Murod qizi
GuLDU, katta o‘qituvchi
GuLDU, 2 bosqich talabasi

Hozirgi kunda hududda iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi oshib bormoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda asosiy o‘rinni egallaydigan agrar sektorda ham keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Qishloq xo‘jaligiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi kelajakda qo‘lga kiritadigan yutuqlari qishloq xo‘jaligining raqobatbardoshligini oshiradi va mavjud muammolarni echimini topadi. Biroq bu jarayon xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uchun yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni talab qiladi.

Agrar sektorda innovatsiyalarni joriy etishi “Aqlli qishloq xo‘jaligi” kontseptsiyasi asosida qishloq xo‘jaligi tasarrufidagi er, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Ushbu kontseptsiya qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xarajatlarini kamaytiradi, o‘simchilikda hosildorlikni, chorvachilikda mahsuldorlikni oshiradi. Qishloq xo‘jaligining jahonda tez sur’atlar bilan rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi”.[1]

“Aqlli qishloq xo‘jaligi” kontseptsiyasining amalda joriy etilishi dalada mehnat unumdorligi 30 foizga oshiradi va terim ishlarini texnika bilan amalga oshiriladi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining stressga chidamli, serhosil, ko‘chiriladigan navlarini yaratish 100 foiz kafolatlangan.

2020 yildan boshlab, Prezident farmonlari va qarorlariga muvofiq, qishloq xo‘jaligi sohasida bozor mexanizmlarini kengaytirish, fermerlarning qiziqishini oshirish maqsadida davlat paxta va g‘alla uchun bozor tartibini bekor qilmoqda. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari 2020 yil 28 yanvardagi «2020 yilda O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi farmonni imzoladi. Ushbu kontseptsiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi, chorvachilikning mahsuldorligini oshirish, ekin maydonlarini turli kasalliklardan, zararkunandalardan himoya qilish, shuningdek innovatsion dehqonchilik usullarini joriy etish va vni tadbiq etish ko‘lamini kengaytirishdir.

Qishloq xo‘jaligi sohalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalom bor Aqlli dehqonchilik, Aqlli fermalar, Aqlli issiqxonalar, Aqlli omborlar va Aqlli issiqxonalar to‘g‘risida to‘xtalamiz.

O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 794-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligida aqlli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirishi aytildi.

“Aqlli dehqonchilik” raqamli texnologiyalari - avtomatlashtirilgan intellektual tizim bo‘lib, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, tuproq va er resurslari maydonlarining holati bo‘yicha ma’lumotlarni yangilash, qishloq xo‘jaligi erlarini taqsimlash, almashlab ekishni qo‘llash, ekinlarni

etishtirish agrotexnologiyalari, qishloq xo‘jaligi erlarini avtomatlashtirilgan tarzda baholash, er va suv resurslaridan foydalanish va adaptiv-landshaft dehqonchiligi tizimining faoliyati va samaradorligini nazorat qilish va monitoringini olib borishni o‘z ichiga oladi. “Aqlli dehqonchilik” mineral o‘g‘itlar, kimyoviy moddalar, suvdan yangi texnologiyalar asosida samaraliroq foydalanishga imkon beradi. [2]

“Aqlli fermalar” xarajatlarni kamaytiradi, uy hayvonlarining mahsuldorligini oshiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Ekspertlarning fikriga ko‘ra, eski usullarga asoslangan chorvachilikni rivojlantirishning samarasi kam. Jahondagi erlarining 3G‘1 qismida chorva mollari boqilmoqda, ekinda esa hayvonlar etishtirilgan donning katta qismini eyishadi. Boqish, sog‘ish va hayvonlarning sog‘lig‘ini nazorat qilish uchun Avtomatlashtirilgan tizimlardan hayvonlarni boqish, sog‘ish, sog‘lig‘ini nazorat qilish sut sog‘ib olish hajmini 30-40 foizga oshiradi va mavjud ozuqa zaxirasidan unumli foydalanish imkonini beradi.

“Aqlli issiqxonalar” haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, jahon bozorida ularning umumiy soni har yili 9 foizga oshmoqda. Ular issiqxonalarda sug‘orish jarayonini va mikroiqlimni boshqarish imkoniyatini yaratadi.

“Beshinchi avlod” issiqxonalari eng ilg‘or “Ultra Clima” nou-xau texnologiyasi asosida ishlab chiqariladi. Oddiy issiqxonalardan farqli, unda barcha jarayonlar avtomatlashtirilgan bo‘lib, bu inshoot ichidagi haroratni kerakli darajada saqlab turish, ko‘chatlarni gidroponika usulida oziqlantirish hisobiga yuqori hosildorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, plyonkali issiqxonlarda pomidor ko‘chati 6 oy hosil bersa, mazkur innovatsion issiqxonada bir yil mobaynida uzluksiz mahsulot olish mumkin.

Hozirgi kunda viloyatlar issiqxonalarida Niderlandiyaning “Kubo” kompaniyasida ishlab chiqarilgan “Ultra Clima” nou-xau texnologiyasi o‘rnatilib, barcha jarayonlar avtomatlashtirildi. Ushbu yangi texnologiyaning muhim afzalligi - ultra iqlim zonasiga issiqlik ventilyator yordamida tortiladi va kerakli joyga plastik quvurlar orqali yuboriladi. Eng asosiysi, harorat butun issiqxonaga emas, balki etishtirilayotgan sabzavotning ildiziga yo‘naltiriladi. Energiya va suvni tejab, hosildorlikni oshirishga maqsadida issiqxona tepasiga quyosh nuriga o‘xshash maxsus chiroqlar o‘rnatiladi. Bu esa fotosintez jarayoniga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi.

“Aqlli omborlar” sabzavot va mevalarni real vaqt rejimida maxsus saqlash qoidalariga asosan, jumladan, saqlash harorati, namlik darajasi, karbonat angidrit tarkibi, saqlash paytida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining holatini kuzatish imkonini yaratadi. Bu to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Agarda berilgan shartlar buzilsa, tizim vaziyatni mustaqil ravishda tuzatadi bu haqida ombor egasiga xabar beradi. [4]

“Aqlli omborlar” mahsulotning sifatini oshirish bilan birga xarajatlarni kamaytiradi va hosilni 20-40 foizga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi dunyoning etakchi kompaniyalari o‘z taraqqiyot strategiyalarini dehqonchilik jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilab olishni allaqachon boshlab yuborishgan.

“Aqlli traktor” deb nomlangan yangi texnologiyaga AQShning Monarch Tractor kompaniyasi dunyodagi ilk aqlli traktor misol bo‘la oladi. MK4 nomli traktorlar joriy yilning kuzidan boshlab mijozlarga etkazib berila boshladi. Bunday qaraganda hech narsa o‘zgarmagandek, avvalgi traktordan farqi yo‘qdek. Boshqa tarafdan qaraganda, qishloq xo‘jaligida hozirgacha haydovchisiz traktor mavjud emasdi. Shuning uchun ham Monarch Tractor kompaniyasi tomonidan yaratilgan traktorlar misli ko‘rilmagan ixtiro hisoblanadi. G‘ildirakli mo‘jiza 3tasi 1da seriyasidan. Ushbu texnika vositasi traktor sifatida ishlashidan tashqari, istalgan erda yura oladigan transport va dala sharoitida mobil generator vazifasini ham bajara oladi.

Haydovchisiz elektr traktor zamonaviy qishloq xo‘jaligidagi vujudga kelgan quyidagi muammolarni hal qiladi:

- dehqonchilikda ishchi kuchining etishmovchiligi sharoitida fermerlar aqlli texnikaga kuchli qiziqish bildirishyapti;
- haydovchisiz traktorning foydalanish batareyasi 10 yillik kafolatga ega bo‘lib oddiy traktorga nisbatan arzonroqqa tushadi;
- eng asosiy ustunligi ekologik sofligi va texnik jihatdan xavfsizligi.

Shunday qilib, hozirgi kunda fermerlik harakatining an’anaviy eski usullari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlab bera olmaydi. Shu sababli fermer xo‘jaliklari aqlli qishloq xo‘jaligiga ko‘proq

murojaat qilmoqdalar. Mamlakatimizning erlari serhosil, biroq aholi sonining yildan yilga ko‘payib borishi suv, energiya va tabiiy zaxiralar cheklanganligi sababli resurslardan oqilona foydalanish uchun “aqlli qishloq xo‘jaligi” ning o‘rni naqadar katta ekanligini his qildik. Shu sababli, qishloq xo‘jaligini zamonaviy innovatsion tizimlarni tadbiq etish zamon talabidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.G‘G‘ «Xalq so‘zi», 2020 y., 25 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.O‘R VM qarori 2020 yil 17 dekabr, 794-son
3. B. Qulmatova. D. Buranova.“Avtomatlashtirilgan ofis texnologiyalari (Automated office technologies)”. Global Congress of Contemporary Study virtual conference 2020 Multidisciplinary International Scientif c Conference Pune, M.S, India www.econferenceglobe.com. November 7 th, 2020
4. N. Karimov, B. A. Qulmatova, D. Buranova. “Aqlli qishloq xo‘jaligini yuritishda raqamli texnologiyalarning joriy etish masalalari”. «The XXI Century Skills for Professional Activity» International Scientific-Practical Conference. TASHKENT, UZBEKISTAN 2021, MARCH 15.

SIRDARYO VILOYATIDA NOGIRONLIGI MAVJUD BITIRUVCHI YOSHLARNI BANDLIGINI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Shoyev Alim Xalmuratovich
Guliston davlat universiteti – katta o‘qituvchi

Yoshlarni ish bilan ta’minlash, shu jumladan mehnat bozoriga endigina kirib kelgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mehnat bozoriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odatda yoshlar mehnat bozorining raqobatbardoshligi past qismini ifoda etadi, ishsizlik borasida to‘xtaladigan bo‘lsak, yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasi katta yoshdagilarga nisbatan yuqori ekanligiga guvoh bo‘lamiz[1]. Mutaxassislarning fikricha, O‘zbekiston yoshlarining qisqa va uzoq muddatli istiqbolda mehnat bozoriga integratsiyalashuvini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar va mexanizmlarni ishlab chiqish milliy va mahalliy darajada dolzarb vazifa hisoblanadi. Mutaxassislik bo‘yicha ish tajribasi va malakaning yetarli emasligi mehnat bozorida bitiruvchilarga talab pastligining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi, bu esa, o‘z navbatida ularning bo‘sh ish o‘rinlari uchun kurash borasida raqobatbardoshligini pasaytiradi. Shu bilan bir qatorda, bitiruvchilar qanday qilib to‘g‘ri ish qidirish, o‘zlarini ish beruvchilarga mohirona taqdimot qilishi va ishga joylashgandan so‘ng, ish joyida muvaffaqiyatli ishlab ketishni ko‘pincha uddalay olmasliklari bois, ishga joylashish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladilar.

Nogiron va salomatligida nuqsonlar mavjud bitiruvchi yoshlar mehnat bozoriga kirib kelayotgan bitiruvchilarning eng zaif toifalaridan biri sanaladi[2]. Bir qator mualliflarning tadqiqotlarida[3] ta’kidlanishicha, ish tajribasi yo‘q yoki yetarlicha ish stajiga ega bo‘lmagan bitiruvchilar mehnat bozorining eng zaif ishtirokchilari hisoblanadilar va ish axtaruvchining salomatligida har qanday cheklovlarning mavjudligi, ularning ishga joylashish borasida shusiz ham qiyin vaziyatini yanada murakkablashtiradi. Buni nogiron bitiruvchilar, shuningdek mutaxassislar va ish beruvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan ko‘plab so‘rov va kuzatishlar natijalari ham yaqqol tasdiqlaydi.

Nogiron yoshlar, shu jumladan kasb-hunar ta’limi tashkilotlari va oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarini ish bilan ta’minlash muammosi har qachongidek, dolzarb va qiyin bo‘lib qolaveradi, bu esa ham davlat organlari ham butun jamiyat tomonidan alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan imkoniyatlari cheklangan (nogiron) talabalar 6120 nafarni, shundan 2877 nafari talaba-qizlarni tashkil qiladi. 2021/2022 o‘quv yilida respublika oliy ta’lim muassasalarini jami 660 nafar I-II-guruh nogironligi bo‘lgan talabalar bitirgan. 2022 yil noyabrь holatiga nogironligi bo‘lgan bitiruvchilarning jami 301 nafari (246 nafari davlat tashkilotlarida, 55 nafari xususiy sektorda) mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.02.2023 yildagi PQ-74-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[4]gi, 01.06.2023 yildagi PF-82-son “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”[5]gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksi va shu kabi bir qator me’yoriy – huquqiy hujjatlar asosida davlat nogironlarni, shu jumladan yaqinda o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ma’lumot olgan yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Shu bilan bir qatorda, yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida e’tirof etilishi, shuningdek, Konstitutsiyaning 57-moddasida “... davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar ob’ektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi...” - deb belgilab qo‘yilishi O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Nogiron yoshlarni mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilari tarkibiga kiritish ularning kasbiy reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyalashuvi samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi ekanligini ta’kidlash muhimdir. Bu nafaqat muhim ijtimoiy, balki iqtisodiy samaraga ham ega. Shu sabablarga ko‘ra, birinchi marta ish izlayotgan yosh nogironlarni ish bilan ta’minlash mahalliy davlat hokimiyati idoralarining ustuvor vazifasi bo‘lishi lozim.

Jamiyatga kasbiy jihatdan integratsiyalashuv borasida aynan mazkur toifadagi yoshlar ish topishda eng katta muammolarga duch kelishadi. Inklyuziv mehnat bozorida ish topish borasidagi qiyinchiliklarning boisi, ularning ish joyiga jismoniy kirib-chiqishlari va muayyan mehnat funktsiyalarini bajarishlarini qiyinlashtiruvchi tana funktsiyalarining birgina jiddiy buzilishi emas, balki nogironlardagi ruhiy nuqsonlar hamdir. Nogiron yoshlarning mehnat bozoriga kirishdagi ijtimoiy tajribasining past darajasi ularga nafaqat kasbiy mahorat, balki psixologik tayyorgarlik va moslashish qobiliyatlari jihatidan ham raqobatbardosh bo‘lishga imkon bermaydi.

Ushbu jihatlar shuningdek, nogironlarning kasbiy va mehnat imkoniyatlari borasida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lmagan ish beruvchilarning mehnat qobiliyati borasida u yoki bu ko‘rinishdagi cheklovlarga ega bo‘lmagan fuqarolarni ishga yollashni afzal ko‘rishlari bilan yanada chigallashadi, chunki nogironlarni yollashda ko‘pincha ish jarayonini ularning imkoniyatlariga moslashtirish, maxsus mehnat sharoitlarini yaratish lozim bo‘ladi, bu esa katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Nogironligi mavjud shaxslarning kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish borasida motivatsiyasining pastligi, ish axtarishdagi passivlikning yuqori darajasi nogiron bitiruvchilarni ishga jalb qilishning past darajasini aks ettiruvchi muhim omillardan sanaladi.

Nogiron yoshlarga ko‘mak ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlash uch muhim yo‘nalishni ko‘zda tutadi: **birinchidan**, mos ish joyini topishda yordam berish; **ikkinchidan**, nogironga o‘z vazifalarini bajarishga va professional moslashishga imkon beradigan zarur shart-sharoitlarni yaratish; **uchinchidan**, zarur holatlarda nogironga uydan ish joyigacha, shuningdek ishxona hududida va ishdan uyga qaytishgacha bo‘lgan harakatlanish rejasini tuzishda ko‘mak berish.

Ish stajiga ega bo‘lmagan yosh bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash samaradorligi nuqtai nazaridan bandlik xizmatining eng samarali yo‘nalishi - bu ular uchun korxonalarda amaliyot va stajirovka o‘tashni tashkil etishdir. Ishga joylashishni qo‘llab-quvvatlash, dastlabki ish tajribasiga ega bo‘lish va ijtimoiy-kasbiy muhitga moslashishning ushbu shakli nogiron talabalar uchun ayniqsa muhimdir. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi, keyingi ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Nogironligi mavjud barcha shaxslar ochiq, inklyuziv va qulay bo‘lishi lozim bo‘lgan mehnat bozorida munosib ish topish uchun umumiy texnik va kasb-hunarga yo‘naltirish dasturlari, bandlik xizmatlari, shuningdek kasb-hunar va uzluksiz ta’limdan samarali foydalanish borasida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishlari lozim.[6]

Nogironlar ixtisoslashtirilgan va umumiy kasb-hunar ta’limi, yo‘naltiruvchi dasturlar va bandlik xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari lozim. Ochiq mehnat bozoridagi mavjud to‘siqlardan tashqari, ta’lim va o‘qitishning past darajasi nogironlarning munosib ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Qonunchilikka muvofiq, davlat nogironlarga inklyuziv ta’lim olish imkoniyatini kafolatlashiga qaramay, ularning aksariyati hali ham umumiy ta’lim dasturlari standartlari yoki talablariga javob bermaydigan alohidalashtirilgan muassasalarda yoki uyda ta’lim olishadi. Buning natijasi o‘laroq, o‘qishni tamomlagandan so‘ng, katta yoshdagi nogironlar ochiq mehnat bozoriga samarali qo‘shilish borasida zarur bo‘lgan yuqori sifatli akademik, ijtimoiy va kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lmay qolishmoqda.

Mavjud ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari eskirgan o‘quv dasturlari asosida o‘qitishni amalga oshirib kelishmoqda, shu bilan birga, asosiy kasb-hunar ta’limi dasturlari esa nogironlar uchun inklyuziv yoki qulay emas.

Nogironlar munosib mehnatga ega bo‘lishlari va har qanday tashqi xatarlardan himoyalanishlari, shuningdek, ish joyida ijtimoiy va iqtisodiy himoyalanganlik imkoniyatlaridan foydalana olishlari lozim. Biroq, ular ish topa olsalar ham, ularning ishi odatda himoyalanmagan, past malakali yoki ish haqi past bo‘ladi. Rasmiy mehnat bozoridagi mavjud to‘siqlar tufayli nogironlar norasmiy bozorda doimiy bo‘lmagan ish topadilar. COVID-19 pandemiyasi va u bilan bog‘liq zaruriy karantin choralari norasmiy ish bilan band bo‘lgan nogironlarga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi va ular duch keladigan salomatlik va moliyaviy jihatlar bilan bog‘liq xatarlarni yaqqol yuzaga chiqardi.

Nogironlarning manfaatlariga asoslangan bandlik barcha uchun foydali bo‘lgani holda, jamoalar va jamiyatning o‘zaro ijtimoiy hamjihatligini mustahkamlaydi. Buning sabablari sifatida quyidagilarni tilga olib o‘tishimiz mumkin:

- Nogironlarni munosib ishlarga jalb qilish ularning ijtimoiy nafaqalarga bog‘liqligini kamaytirgan holda, ularning mustaqillik darajasini oshiradi va yuqori turmush darajasiga erishishga imkon beradi. Ta’lim singari, mehnat ham jamiyatga qo‘shilish va u tomonidan qadrlanishning eng muhim usullaridan biridir. Ochiq va inklyuziv mehnat bozorida ish bilan ta’minlash orqali nogironlar o‘zlarining kasbiy ko‘nikmalari va bilimlarini qo‘llash orqali o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlari, jamiyatdan ajralib qolish xavfidan o‘zlarini himoya qilishlari mumkin;
- Nogironligi mavjud ishchi va xizmatchilarning 73 foizdan 80 foizigacha bo‘lgan qismi uchun maxsus mehnat sharoitlari talab qilinmaydi[7];
- Bundan tashqari, nogironlarni ish bilan ta’minlaydigan korxona va tashkilotlar uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari va preferentsiyalar taqdim etiladi;
- Barcha xodimlarning ehtiyojlarini qondiruvchi va ularning salohyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi, inklyuziv va qulay ish o‘rinlarining mavjudligi xususiy korxonalarning yanada jozibador va raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi;
- Ish joylarining inklyuzivlik darajasi korporativ ijtimoiy javobgarlikning ajralmas qismidir. Inklyuziv ish usullari xususiy sektorning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi va kompaniyalarga jamiyat ishonchini qozonish, hurmatga sazovor bo‘lish va obro‘sini oshirish imkonini beradi, shu bilan yangi mijozlarni jalb qilish, shuningdek, ijodiy va mas’uliyatli xodimlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi;
- Nogironlarni ish bilan ta’minlash borasida munosib imkoniyatlarning mavjud emasligi, yoki ularni yaratishga shunchaki e’tibor qaratmaslik nogironlarning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada zaiflashtirishi bilan bir qatorda, jamiyatda iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini ham pasaytiradi;

Imkoniyati cheklangan shaxslarning mehnat bozorida ishtirok etishi va qo‘shilishi borasida ko‘plab institutsional, xulq-atvor va infratuzilma to‘siqlari mavjud. Bu borada mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish, quyidagi to‘siqlar mavjudligini ko‘rsatadi: (1) nogironlikni ish bilan ta’minlash imkoniyatini yo‘qotish bilan tenglashtiruvchi, nogironlikni baholashning eskirgan tizimi; (2) ochiq mehnat bozorida nogironlik bo‘yicha keng tarqalgan stigmatizatsiya va kamsitish, shuningdek, nogironligi mavjud ish izlovchilarning huquqiy himoyasi va xabardorligi yo‘qligi; (3) nogironlarni davlat va xususiy sektorda ish bilan ta’minlashda majburiy kvotalarga rioya qilmaslik; (4) mavjud ish joylarining yetishmasligi, (5) nogironlarni ish bilan ta’minlash uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan soliq imtiyozlari va preferentsiyalar to‘g‘risida ish beruvchilarning xabardorlik darajasining pastligi va (6) ish beruvchilarning majburiyatlari borasida qonunchilik talablarining haddan tashqari yuqoriligi.

Bizning fikrimizcha nogironligi mavjud shaxslarning ochiq mehnat bozoriga erkin kirib borishi uchun quyidagi asosiy jihatlar ta’minlanishi lozim:

• Nogironlarning ochiq mehnat bozoriga doimiy kirishini ta’minlash borasida nogironlikni baholash tizimini isloh qilish;

• Mehnat huquqlari to‘g‘risida huquqiy himoya va xabardorlikni kuchaytirish va nogironlik asosida kamsitishni ta’qiqlash;

• Nogironlarni ish bilan ta’minlash kvotalariga rioya etilishini nazorat qilish va ta’minlash;

• Ish beruvchilarni davlat imtiyozlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish orqali ish joylarida qulaylik va inklyuzivlikni ta’minlashga undash;

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Антонова Г.В., Кураева Л.Н. Бондарчук А.Ж.. (2020) Проблемы трудоустройства выпускников с инвалидностью в реалиях современного рынка труда [Problems of disabled graduates employment in the modern labour market]. Экономика труда. 7. (11). – 1007-1022. doi: 10.18334/et.7.11.111100

2. Михайлова Т.А. Потенциал общественного объединения для социализации молодежи с ограничениями по состоянию здоровья // Социальные отношения. – 2015. –№ 3(14). – с. 72-75.

3.Аржаных Е.В., Гуркина О.А., Терехова А.М. Трудоустройство выпускников с ограниченными возможностями здоровья // Высшее образование в России. – 2014. –№ 10. – с. 35-44.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.02.2023 yildagi PQ-74-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/docs/6391378

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023 yildagi PF-82-son “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/docs/6480342#6483437

6. “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konventsiya (Nyu-York, 2006 yil 13 dekabr). O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 7 iyundagi O‘RQ-695-sonli Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan, https://lex.uz/docs/5501227

7. BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha departamenti, Nogironlik va bandlik bo‘yicha ma’lumotlar, https://www.un.org/development/desa/disabilities/resources/factsheeton-persons-with disabilities/disability-and-employment.html

HUMAN CAPITAL AND APPROACHES TO THE STUDY OF INNOVATIVE ECONOMIC DEVELOPMENT

Kamilova Sanobar Mirjamalovna
Employee of the Research Center at TSEU

In progressive countries, investment in human capital is seen as an important factor in increasing competitiveness and ensuring economic growth at the micro and macro levels. Improving the quality of human capital, ensuring the consistent implementation of a strategy aimed at improving the professional skills and experiences of people on the basis of continuous education throughout their life activities, is an important condition for ensuring the sustainable development of the economy.

The processes taking place in the world economy clearly show that the ratio is changing among the factors affecting the socio-economic development of the country. The World Bank noted that during the research of the composition of global national wealth on the example of the world's “141 countries, the share of human capital in its total value is 64%, and over the past 20 years its volume has grown by 55%. In high-income countries affiliated with the organisation for Economic Co-operation and development (OECD), the proportion of human capital in national wealth was 70%, while in lower-income countries its contribution was 41%” (Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018). It is the differences in human capital that determine the differences in the competitiveness of the country's economy in the world market, the well-being of the population and, in general, human development, in particular, “10-30% of the differences in per capita income between countries are explained precisely by Human Capital” (World Bank Group. Human Capital: a Project for the world, 2018). It should be noted that the factors of economic growth are changing today.

Instead of factors such as traditional factors (labor, land, capital, entrepreneurial ability), factors such as science and education, that is, the intellect of the nation when summarized, come to the fore.

Since the share of the human capital indicator in the structure of national wealth in Uzbekistan is 62%, according to World Bank experts, the share of physical capital in the structure of national wealth in countries of the world averages 16%, Natural Capital - 20%, human capital - 64% (in such progressive countries as Germany, Japan, Sweden, the share of human capital in the structure of

Today we can observe that interest in studying the impact of human capital on processes in ensuring the socio-economic development of the country increases day by day. Although a large number of scientific studies have been carried out by researchers in this regard, certain inaccuracies remain in the clarification of the category of "human capital", while its founders are not yet fully clarified, the impact of human capital on the innovative development of the national economy has not been assessed quantitatively. In the context of finding the composition of a new economic relationship, there is not enough balance of research work carried out in the national economy on the use of human capital and the methodology for ensuring its quality.

Among the problems that hinder innovative development is the difference in the scale, speed and depth of changes in the territorial conditions.

The growth of imbalances during the emergence of various conflicts creates differences in the innovative development of Regions (Barlibaeva, 2011), which in turn assumes the study of factors that determine the level of innovative development in every way.

Based on the above, the decree of the president of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 PF-60 "on the development strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026"as the 52nd goal: "to improve the position of Uzbekistan on low indicators recorded in the Global Innovation Index.

To create wide opportunities in all directions for the implementation of innovative projects, to introduce modern mechanisms for the support of research and innovative initiatives"-the question of determining the self-sufficient, innovative economy testifies to how important it is for the national economy.

Currently, the world has four models of innovative development based on the interaction of Business, Science and the state, and countries prefer to choose one or another model, taking into account certain conditions and factors. Of great interest is the "Triple spiral" Model, which is based on the relationship between the university, industry and the state, based on the comparison of the advantages of existing models of innovative development and their study. In this model, great attention is paid to universities in the formation of the foundations of an innovative economy. In the United Kingdom in 1995, Professor Henry Itskowitz of the University of Newcastle is invited by Professor Loyet Leidesdorfs of the University of Amsterdam to model the "triple helix" (Etzkowitz H., Zhou C.,2017). Unlike other models of innovation development, the "Triple spiral" Model emphasizes the interaction of three organizers: University, business and state.

Overcoming technological backwardness and ensuring innovative progress on this basis can be ensured at the expense of creating technologies in the national economy or borrowing them from technologically advanced countries.

The establishment of technology production or imitation of technologically advanced countries is studied at the cross-country and country level, as well as at the micro level. In this regard, the swing of scientific research published in recent years is a minority.

It should also be overlooked that the impact of human capital on the innovative development of enterprises is the product of a number of research studies that have been studied in detail. Among such studies, we can list the scientific research of Carina hitch and Giovanni Sulis, who, based on the analysis of data from 37 industries in 42 countries during the period 1980-1990, based on the positive impact of human capital on innovative development, and Di Libertó, who statistically studied the impact of human capital on economic growth.

The sustainable development of the national economy relies on the interaction of the participants of the economic system, including changes in the system of relations arising in the process of reproduction. Transition processes are considered to be largely dependent on the degree and quality of the impact of scientific and technical progress. Researchers distinguish several stages of such changes that occurred during the historical and evolutionary development of society. While the first stage of such technological changes began in the 50s of our last century and was associated with the

development of semiconductor electronics; since the second stage began in the 1960s, most ideas related to technological progress were expressed in microelectronics; the third stage dates back to the seventies of the last century and is characterized by the development of microprocessor technologies and the The fifth technological order, which lasted from 1980-1990 to the present day, is associated with the elimination of economic restrictions on energy and material consumption, increasing the production process and the variety of products produced.

Summarizing the above, we can distinguish the following points separately:

1. In the context of innovative development, research on the clarification of the concept of human capital is scientifically and practically the necessity of today.
2. In the study of human capital, approaches have been clarified from the point of view of the individual; investment; economic growth factor. It has been proven that the study of human capital should be approached at individual and macro levels.
3. The generalization and systematization of approaches to the study of human capital allows you to determine whether human capital is based on the reserve of knowledge, abilities and skills.
4. Analysis of the evolutionary progress of the concept of" human capital " shows that it acquires a complex nature over time.
5. A comparative analysis of private and total human capital according to the criteria of formation and use (formation characteristics, investment entities, results of use) allows you to determine the difference between these two types, thereby forming definitions for them.
6. The formation and use of human capital are interconnected processes that make up the process of reproduction of human capital, which occurs continuously throughout the life cycle of a person.
7. As stages of reproduction of human capital, we can distinguish such as birth, upbringing of children, the period of the accumulation of strength of a person physically and intellectually; the period of formation and development of professional competencies; the period of decline in social, labor and creative activity. The stages of reproduction of human capital differ from each other by the subjects involved in the processes, the scale and direction of investments.
8. Factors affecting the formation of human capital are classified according to such characteristics as subjects, areas, stages of formation, the nature of their influence on the process of formation, the results of formation. Among these factors, individual abilities, parental data, social status of the population, tax policy, ideological factors occupy a special place.

List of literature used

1. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6.

2. World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, 2018. October, 13. Development Committee Meeting.

3. Schultz Theadore W.investment In Human Capital // The American Economic Review, 1961. Vol.51(1), pp.1-17/

4. Becker, Gary. Investment In Human Capital. A. Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, 1962. Vol. 70 (5, Part 2, Supplyment). Pp.9-49

5. Bowen, H.r. Investment Learning San Francisco . Jossey- Bass , 1977.p.507; Blaug M. The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey/ Journel of ecomic literature 1976, September 1, 14(3): pp.827-55

6. Blaug M. The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey/ Journel of ecomic literature 1976, September 1, 14(3): pp.827-55

7. Jacob Minser: Investment In Human Capital and Personal Income Disturbution // Journal of Political Economy, 66. August 1958.pp.281-302

8. Mincer J, Polochek S. Family Investments in Human Capital: Earnings of Woman // Journal of Political Economy Volume 82 Number 2. Part II March/aprel 1974 Http://www.nber.org

9. Aghion P., Meghir C. (2004). Growth, distance to frontier and consumption of human capital. The Institure for Fiscal Studies, WP04/31, 1—50.

10. Hansen A.H. Business Cycles and National Income–N.Y. 1951y.

11. Акрамова Ш.Г. Ўзбекистонда инновацион иқтисодиёт шаклланиши шароитида инсон капиталини ривожлантириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент. 2019.

12. Барлыбаева, Ф.Б.Потенциал инновационного развития территории: методика исследования и направления эффективной реализации [Электронный ресурс] / Ф.Б. Барлыбаева, Г.В. Княгинина, И.А. Ситнова // Управление экономическими системами. - 2011. - №3. - Режим доступа: http://www.uecs. ru/logistika/ item/384-2011-04-04-09-03-17

13. Etzkowitz H., Zhou C. The Triple Helix:University-indastry-government innovation and entrepreneurship. London,NY:Routledge,2017.-327 p.

14. Illoong Kwon. Specificity of Human Capital and Promotions [Text] / Illoong Kwon, Eva M Meyersson Milgrom. - University at Albany, Stanford University, 2010.

15. Human Capital in the Time of COVID-19. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1552-2. License: Creative Commons Attribution CC BY 3.0 IGO.

16. Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, *1*(2), 5–14. Retrieved from https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/39

17. Абдувохидов А. А. и др. САНОАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 40-45.

HUDUDIY DARAJADAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLARDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O‘RNI

Umaraliyev Olimjon Raushanovich
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchi

.Raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, hududlarni izchil rivojlantirish, davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy infratuzilmani qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Axborotlashtirish va iqtisodiyotni globallashtirish, shuningdek an’anaviy usullar va sohalar ulushini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarini yuqori texnologiyalar bilan ta’minlash, iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi, hududlarni kompleks rivojlantirish raqamlashtirish sharoitida zarur bo‘lgan tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy shartidir.

Hozirgi kunda zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar va tuzilmalar murakkablashmoqda. Bularning barchasi raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot o‘zining umumiy shaklidagi yangi iqtisodiyot turi bo‘lib, unda ko‘payib borayotgan ma’lumotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar muhim ahamiyatga ega. 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, parlament palatalari qo‘shma majlisi va tashkiliy yig‘ilishlarida belgilangan vazifalarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan jumladan, 2020 yil 1 iyundan boshlab davlat ulushiga ega bo‘lgan banklar transformatsiyasi bo‘yicha «yo‘l xarita»larini amalga oshirishga kirishilsin, shu jumladan aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish hamda zamonaviy chakana bank xizmatlari turlarini ko‘paytirish; 2020 yilda «raqamli markirovka va onlayn kassa» loyihasini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish hamda «E-ombor» tovarlarni hisobga olishning elektron tizimini ishlab chiqish va joriy etish; 2020 yilda kamida 800 mingta keng polosali Internet portlari yaratilsin va 12 ming km optik tolali aloqa liniyalari yotqizish va boshqalar.

Iqtisodiy agentlarni hamkorlik qilish va muayyan maqsadlarni hal qilish uchun birlashtirish va muvofiqlashtirishning innovatsion usullari mavjud. Shuni ta’kidlash kerakki, raqamli texnologiyalarning barcha darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning tarkibini o‘zgartirishga ta’siri aniq, ammo ko‘p jihatlar yetarlicha o‘rganilmagan. Quyidagi asosiy masalalarga e’tibor berilmaydi:

– boshqaruvning barcha darajalarida innovatsion o‘sishni ta’minlash uchun raqamli salohiyatni rivojlantirish;

– raqamli iqtisodiyotni institutsionalizatsiya qilish;

– raqamli iqtisodiyot sharoitida biznesni rivojlantirish yo‘nalishlari, istiqbollari va to‘siqlari;

– zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida raqamli iqtisodiyotning o‘rnini aniqlash.

Bugungi kunda raqamli xizmatlar ko‘lamining yillik o‘sishi 3-4% tashkil qiladi. Shuningdek, tashkilotlarning raqamli texnologiyalar, innovatsion faoliyat bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish uchun moliyaviy xarajatlarining ko‘payishi kuzatilmoqda. Raqamli infratuzilma faol rivojlanmoqda, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda boshqaruv yanada qulayroq bo‘lmoqda, aloqa tarmoqlari sifati o‘sib bormoqda, jumladan, optik tolali texnologiyalar, 4G va hatto 5G. Shuning uchun butun dunyo boylab raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirishni prognoz qilish mumkin. Raqamli texnologiyalarning afzalligi xarajatlarning kamligidir, bu esa tovar va xizmatlar tannarxining qisqarishi va ohirgi (so‘nggi) iste’molchi uchun narxning pasayishiga ta’sir qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi quyidagi texnologiyalarga asoslanadi:

– katta ma’lumotlar texnologiyasi (Big Data);

– neyrotexnologiya; – sun’iy aql;

– ma’lumotlarning taqsimlangan reestri texnologiyalari (blokcheyn);

– kvant texnologiyalari;

– yangi ishlab chiqarish texnologiyalari;

– Internet;

– robotika;

– sensorlashtirish;

– simsiz aloqa;

– virtual va kengaytirilgan haqiqatlar (VR).

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Ushbu jarayonni kuchaytirish uchun mamlakatimizda 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori imzolangan va ushbu qaror asosida tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. U mamlakatda aloqa tarmoqlarini, “Blokcheyn” texnologiyalarini, turli ma’lumotlar bilan ishlaydigan raqamli platformalarni, shuningdek, ta’lim va tadqiqot bazasini yaratishni nazarda tutadi.

“Blokcheyn” texnologiyalari, “sun’iy aql”, superkompyuterlar imkoniyat-laridan foydalanish, shuningdek, kriptoaktivlar bo‘yicha faoliyat jahonning ko‘plab mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Blokcheyn” texnologiyalari nafaqat iqtisodiyotning ko‘plab sektorlariga, balki davlat boshqaruvi tizimiga va boshqa jamoatchilik munosabatlariga asta-sekin joriy etilmoqda.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot talablarini inobatga olgan holda, hududiy darajadagi tarkibiy o‘zgarishlarga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar mavjud, ular: tegishli infratuzilma; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari; aholining salmoqli qismini raqamli savodsizlik darajasi yetarli emasligi. Raqamlashtirish sharoitida hududlar iqtisodiyotini maqsadli tarkibiy o‘zgartirishning ustuvor yo‘nalishlari texnologik-modernizatsiya, klaster, bozor-raqobat, infratuzilma, shuningdek, ijtimoiy o‘zgarishlardir.

Raqamli iqtisodiyot talablarini inobatga olgan holda hududiy iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlarini amalga oshirish orqali quyidagi ijobiy natilalarga erishish mumkin bo‘ladi:

1) shaxsiyat, tashkilot va jamiyatning mehnat salohiyatini rivojlantirish va inson kapitalining o‘sishi;

2) ish bilan bandlikning nostandart shakllariga (frilanc, vaqtinchalik, masofaviy, o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlash va h.k.) asoslangan mehnat mobilligini, aholining ishbilarmonlik faolligini oshirish uchun shartsharoitlar yaratilishi;

3) mintaqadagi investitsion faoliyat uchun katalizator sifatida raqamli infratuzilmani shakllantirilishi;

4) aholining turmush darajasini oshirilishi va shaxslarning mehnat sharoitlarini yaxshilanishi. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotning talablari iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgarishlarning mazmun-

mohiyatini hududiy darajada o‘zgartirishni nazarda tutadi, bu maqsadni aniqlashtirish, tamoyillarni to‘ldirish, omillar tarkibini kengaytirish hamda yo‘nalishlarni o‘zgartirishdan iborat.

Yuqorida sanab o‘tilganlarni umumlashtirib, hududiy iqtisodiy tizimning murakkabligi va ko‘p qirraliligini tizimli o‘zgarish obyekti sifatida qayd etish lozim, bu esa raqamlashtirish talablariga moslashish sharoitida hududiy hokimiyat organlari, biznes va uning vakillari, ilmiy institutlar, ta’lim muassasalari, kasaba uyushmalari va aholini konsensus va sheriklik asosida o‘zaro hamkorlik qilishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, bugungi kunda iqtisodiyotdagi xaotik tarkibiy o‘zgarishlarni to‘liq bartaraf etish hamda strategik va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish doirasida bozor va ma’muriy o‘zgarishlar uchun asos yaratish hududiy hokimiyat organlarining ustuvor vazifasi bo‘lib, bu jamiyat va iqtisodiyotni, shu jumladan, globallashuv, raqamlashtirish, insonparvarlik va boshqa rivojlanish tendensiyalarini to‘liq hisobga olish imkonini beradi. O‘z navbatida, raqamlashtirish jarayoni hududiy iqtisodiyotni tarkibiy tuzilish metodologiyasini tubdan o‘zgartiradigan talablarni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5349-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni

3. Xajiyev B. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr,
2020 yil.

HUDUDLAR TARAQQIYOTINI TA’MINLASHDA AGROKLASTERLAR SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Nurmuxamidova Muxtabar Xasanovna, Berdiqulov Samandar Anvar o‘g‘li
katta o‘qituvchi
talaba

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy tendentsiyalari-globallashuv, nomarkaz-lashuv, iqtisodiyotni erkinlashtirish, raqobatning shiddatli tus olishi, innovatsion iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy ehtiyojlarning inson hayot darajasi va sifatini yaxshilashga yo‘naltirilishi, bularning barchasi bugungi kunda Yangi O‘zbekiston uchun xos bo‘lgan jihat hisoblanadi. Dunyo hamjamiyatining ajralmas bir qismi sifatida O‘zbekistonda bundan buyon kutilayotgan texnologik o‘zgarishlarning yangi to‘lqini va ulardan samarali foydalanish; xomashyo eksportiga asoslangan iqtisodiy o‘sish modelidan voz kechish; hududlar o‘rtasidagi tavofutlarni bartaraf etish; iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida inson kapitaliga alohida e’tibor qaratishi talab etiladi.

Hududlarda barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishmasdan turib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini ta’minlash haqida fikr bildirishning o‘zi mantiqiy nuqtai nazardan samarasiz bo‘lib hisoblanadi. Dunyoning jadal taraqqiy etayotgan mamlakatlari, xususan Xitoy tajribasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning muhim sharti sifatida hududlar o‘rtasidagi tafovutlarga barham berishdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, bugungi iqtisodiy voqelikdan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, aholi turmush sifatini yaxshilash, bir so‘z bilan aytganda ijtimoiy davlat kontseptsiyasini hayotga izchil joriy qilish maqsadida mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini atroflicha tahlil qilish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Bu borada, respublikamiz hududlarini barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligi, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyati, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-4702-son qarori[1] ga muvofiq statistik ko‘rsatkichlar va so‘rovnomalar natijalari asosida hududlarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi. Bu esa, o‘z

navbatida respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish borasidagi muammo-larning amaliy yechimi bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida 22-maqsad sifatida Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish; 26-maqsad sifatida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish [2]; 28-maqsad sifatida Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish; 33-maqsad sifatida hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 - 1,6 barobar oshirish[2] va shu kabi ustuvorliklarning belgilab berilishi hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish masalasi qanchalik muhim ekanligiga isbotdir.

Mamlakatimizning har bir hududi o‘ziga xos. Bir viloyat ichidagi tumanlarning imkoniyatlari ham bir-biriga o‘xshamaydi. Bunday tafovut albatta, inson salohiyatini oshirish hisobiga bartaraf etilishi lozim. 2022 yilda Respublika bo‘yicha YaIMning shakllanishida Toshkent shahri 16,6 % ulush bilan eng katta hissa qo‘shdi. Toshkent va Navoiy viloyatlari 10,5 % va 7,5 % ko‘rsatkichlari bilan keyingi o‘rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIMini shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,0 %) va Jizzax (3,1 %) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi hududlarining 2022 yil mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishdagi ulushi, %[3]

Shu bois Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari alohida, manzilli tarzda muhokama qilib borilmoqda. Prezidentning hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan uchrashish va muloqot qilish maqsadidagi hududlarga tashriflarida birinchi navbatda hududlar iqtisodiyotidagi o‘sish nuqtalarini belgilash va shu orqali ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida so‘nggi yillarda Sirdaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasida erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda, istiqbolda hududni barqaror rivojlantirish, hududning mavjud imkoniyatlaridan foydalangan holda, rivojlanishning noyob ustunliklarini yaratish borasida tashabbuslar ilgari surildi.

So‘nggi olti yil ichida viloyat sanoat mahsulotlari qariyb olti barobarga, ya’ni 3,5 trln. so‘mdan 12 trln. so‘mga oshdi. Hudud iqtisodiyotining imkoniyatlaridan unumli foydalanish hisobiga yalpi hududiy mahsulot 2016 yildagi 6 trln. so‘mdan 2022 yilda 18 trln. so‘mga yetdi. Viloyatning barcha tumanlarida katta-kichik sanoat loyihalarining ishga tushirilishi natijasida Yangiyer shahrida sanoat

mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10 baravar, Mirzaobod tumanida 6 baravar, chekka tumanlar sanaluvchi Sardoba, Xovos tumanlarida qariyb 2 baravar o‘sdi.

Xovos tumanida Turkiya bilan hamkorlikda 220 MVt quvvatli issiqlik elektr stantsiyasi foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, 2023 yilda Shirin shahri va Boyovut tumanlarida 1500 MVt quvvatga ega bo‘lgan zamonaviy issiqlik elektr stantsiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

2017 - 2022 yillarda viloyatda 30 trln. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi. Buning natijasida 6640 ta yangi korxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi, 55 mingta doimiy ish o‘rinlari yaratildi va 17 ming oila kambag‘allikdan chiqarildi.

Birgina, 2022 yilning o‘zida Sirdaryo viloyatiga 250 mln. dollarlik Xitoy investitsiyalari jalb qilindi, bu investitsiyalar umumiy hajmining 90 foiziga teng demakdir.

Sirdaryoni “ishsizlikdan holi hudud” dasturi uchun 2 trln.so‘m mablag‘ ajratildi. Bu mablag‘lar hisobiga 20 ming aholiga imtiyozli kreditlar berildi, 5 ming nafar yoshlarga asbob-uskunalar uchun subsidiyalar ajratildi, 2 ming nafar hunarmand faoliyati yo‘lga qo‘yildi, 1200 nafar yoshlar kasb-hunarga o‘qitildi, aholiga 5 ming gektar yer ajratib berilishi hisobiga 10 ming nafar aholi ish bilan ta’minlandi. Aholi bandligiga alohida e’tibor qaratilishi natijasida 2016 yilda 41 ming nafar aholi ish bilan ta’minlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 125 ming nafarga etishi ko‘zda tutilgan.

Ijtimoiy sohaga alohida e’tibor qaratilishi natijasida birgina bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 2016 yildagi 26 foizdan, 2022 yilda 70,1 foizgacha o‘sdi. 165 ming aholi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Sirdaryo viloyatini ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasida so‘nggi olti yil ichida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijasi o‘laroq, yalpi hududiy mahsulotning aholi jon boshiga hajmi 22 mln. so‘m, sanoat mahsulotlari 14,2 mln. so‘m, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 13.1 mln. so‘m, budjet tushumlari 1,2 trln. so‘mni tashkil qilmoqda.

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotida agrar soha muhim o‘rin egallaydi. Xususan, Sirdaryo viloyatida 2022 yilda YaHM hajmi 18 136,8 mlrd. so‘mni tashkil etgani holda, YaHMning o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 39,4 %), sanoatda 109,5 % (24,9 %), qurilishda 100,5 % (8,0 %) va xizmatlar sohasida 105,0 % (27,7 %) kuzatilgan ijobiy o‘sish sur’atlari ta’sir qilgan[3]. Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining uchdan bir qismi, charm mahsulotlarining 16 foizi, farmatsevtika mahsulotlarining 10 foizi ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa-da, viloyat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining ulushi yuqori ko‘rsatkichni tashkil qiladi (2-rasm).



2-rasm. 2018-2022 yillarda Sirdaryo viloyati YaHMining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi (Yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan %da)[3]

Sirdaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti 2018 yilda 103,4%, 2019 yilda 109,5%, 2020 yilda 101,8%, 2021 yilda 109,0%, 2022 yilda 105 % o‘sishni qayd etgan bo‘lsa, yalpi hududiy mahsulotning

o‘sishiga eng katta ulushni sanoat va qishloq xo‘jaligi qo‘shayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 2021 yilda yalpi hududiy mahsulotning 5 foizlik o‘sishiga qishloq xo‘jaligi 1,3 foizlik ulush qo‘shgan bo‘lsa, sanoatning qo‘shgan hissasi 2.2 foizni tashkil qilgan. Keyingi besh yil ichida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining yalpi hududiy mahsulotning o‘sishiga qo‘shgan jami ulushi 5,5 foizni tashkil qilgan, sanoatning qo‘shgan hissasi 8,0 foizni tashkil qilgan.

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotida kuzatilayotgan ijobiy siljishlar bilan bir qatorda, viloyatda hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘p, jumladan:

Sirdaryoning yer, suv va tabiat resurslari boy. Aholi jon boshiga ekin maydonlari boshqa hududlarga nisbatan 2-3 baravar ko‘p. Viloyatda qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlanganlik darajasi ham yuqori, viloyatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2-2,5 baravarga, eksport hajmini 5-7 baravarga oshirish imkoniyatlari mavjud;

- Sirdaryo viloyati Respublika hududlarini Toshkent bilan bog‘lovchi o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi, birgina Toshkent shahri va Toshkent viloyatining yaqinligi qariyb 5 mln. iste’molchi mavjud bozor yaratish imkonini beradi;

- innovatsion iqtisodiyotning muhim sharti-bu ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o‘zaro uyg‘unligi va hamkorligi hisoblanadi, lekin bugungi kunda bu hamkorlik yetarlicha o‘zini namoyon qilayotgani yo‘q;

- Sirdaryo viloyati bir vaqtning o‘zida 2 qo‘shni davlat Qozog‘iston va Tojikiston bilan yaqinligi logistika nuqtai nazaridan viloyatga qo‘shimcha afzalliklarni taqdim qiladi;

- Sirdaryo viloyatiga bir oyda qo‘shni Respublikalarning kamida bir yarim ming nafar fuqarolari davolanish uchun tashrif buyurishadi, bu viloyatda tibbiyot turizmi, umuman olganda tibbiyot sohasini rivojlantirishda katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatadi;

- Sirdaryoni innovatsion hududga aylantirishda oliy ta’limning ustuvor ahamiyat kasb etishi, bu borada shu paytgacha viloyatda yagona oliy ta’lim muassasasi sifatida faoliyat ko‘rsatib kelgan Guliston davlat universitetida katta salohiyatning mavjudligi va shu kabilar.

Sirdaryo viloyati qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlar katta ulushni tashkil qiladi. Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida umumiy yer maydonining 263750 gektari yoki 71 foizi sug‘oriladigan yerlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu o‘z navbatida Sirdaryo viloyatida sug‘oriladigan yer maydonlaridan samarali foydalanish borasida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishni, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalarini doimiy nazoratda ushlab turishni taqozo etadi.

Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish, zamonaviy boshqaruv tizmini yo‘lga qo‘yish hisobiga paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi. Mavjud er maydonlaridan samarali foydalanish, ayniqsa eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, viloyatda anor yetishtirish va uni qayta ishlash yo‘lga qo‘yildi, shuningdek, eksportbop poliz mahsulotlari hisoblangan qovun va tarvuz yetishtirish, hamda baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha boy tajribalardan samarali foydalanish choralari belgilandi. Shu bilan birga, Sirdaryo viloyatida o‘tkazilgan xatlov natijalariga ko‘ra, jami 19238 gektar, shu jumladan l0203 gektar sug‘oriladigan yerlar va 9035 gektar foydalanilmayotgan bo‘z va yaylov yer maydonlari mavjudligi aniqlangan. Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 avgustdagi 690-sonli “Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi [4].



3-rasm. Sirdaryo viloyati yer fondining taqsimlanishi, %

Mazkur Qarorga muvofiq, sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Buning natijasi sifatida o‘tgan uch yil mobaynida 10 ming gektardan oshiq sug‘oriladigan erlar qishloq xo‘jaligi aylmansiga kiritildi.

Sirdaryo viloyatining yer fondining taqsimlanishida ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijasi o‘laroq, 5386 gektar bog‘, 639 gektar tokzor, 1623 gektar tutzorlar tashkil qilindi.

Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini xo‘jalik yurituvchi tashkilot va korxonalar kesimida tahlil qiladagan bo‘lsak, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar va fermer xo‘jaliklarining salmog‘i yetarlicha katta ekanligini ko‘ramiz, xususan 2022 yilda viloyatda jami ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 39,2 foizi fermer xo‘jaliklari, 50,3 foizi dehqon xo‘jaliklari, 10,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Chorvachilik mahsulotlarining 90 foizdan ortig‘i shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelishi e’tiborni tortadi. Hozirda dehqonchilik mahsulotlarining 62,2 foizi fermer xo‘jaliklari, 22,8 foizi dehqon xo‘jaliklari, 15 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish puxta o‘ylangan davlat siyosatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 aprelda Sirdaryo viloyatiga tashrifida mavjud salohiyat va imkoniyatlarni tahlil qilib, kelgusida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha besh muhim tashabbusni ilgari surildi.

Birinchi tashabbus. “Ilg‘or innovatsiyalar hududi”da biofarmatsevtika, qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, elektrotexnika, tibbiyot, ta’lim sohalarining 20 ta yo‘nalishini qamrab olgan loyihalarga alohida imtiyozlar rejimi joriy qilinadi. Unga ko‘ra, mazkur hudud нег, mol-mulk, foyda va aylanma uchun soliqlar hamda bojxona bojlaridan 3 yilgacha ozod qilinadi. Yer uchastkalari soddalashgan tartibda ajratiladi, yer va binolarni sotib olishda 5 yilgacha bo‘lib to‘lashga ruxsat beriladi.

Shuningdek, Sirdaryoda 500 million dollarlik investitsiya hisobiga O‘zbekiston – Xitoy biotexnologiyalar klasteri barpo etiladi. Bunda Xitoyning ilg‘or oliy o‘quv yurtlari bilan birga Guliston shahrida Xalqaro ta’lim va tadqiqot universiteti, Innovatsion tibbiyot klinikasi, Markaziy Osiyo genom markazi, onkologik kasalliklarni davolash uchun Hujayra terapiyasi markazi tashkil qilinadi. Shuningdek, klaster tomonidan zamonaviy diagnostika qurilmalari, innovatsion vaktsinalar, probiotiklar va onkologik kasalliklar uchun dori vositalari ishlab chiqariladi.

Ikkinchi tashabbus natijasida viloyatning 11 ta tuman va shahri Xitoy modeli asosida sanoatga ixtisoslashadi, har birida innovatsion texnoparklar tashkil qilinadi. Ularda elektrotexnika, biofarmatsevtika, kimyo, qurilish materiallari, ipak va oziq-ovqat sanoatida innovatsion loyihalar ro‘yobga chiqiriladi.

Shuningdek, Sirdaryoda avtomashinalar ishlab chiqarish masalasiga ham alohida ustuvorlik beriladi. Texnoparklarga erkin iqtisodiy zona maqomi berilib, “bojxona hududida qayta ishlash” rejimining soddalashgan tizimi joriy qilinadi. 2023 yilda texnopark infratuzilmasiga 200 mlrd. so‘m ajratiladi.Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun bu erda “O‘zbekiston – Xitoy investitsiya jamg‘armasi” ochiladi. Mazkur muassasa Xitoyning nufuzli Ipak yo‘li fondi va boshqa moliya tashkilotlari bilan birga tashkil qilinadi. Jamg‘armaga 1 milliard dollar sarmoya olib kelinadi.

Uchinchi tashabbus Sirdaryoda eng ilg‘or agrotexnologiyalar hayotga tatbiq etilishidir. Xitoydan viloyat hokimiga qishloq xo‘jaligi bo‘yicha maslahatchilar biriktiriladi, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari modernizatsiyasiga investorlar jalb qilinadi. Shuningdek, Xitoy tajribasi yordamida Sayxunobodda qoramol va parrandachilik eko-komplekslari, Mirzaobodda intensiv anor, qovun, pekan yong‘og‘i va baliqchilik plantatsiyalari tashkil qilinadi. Xovosda o‘simliklardan tabiiy bo‘yoqlar ishlab chiqarish quvvati, meva-sabzavotni saqlash, qayta ishlash va qadoqlash texnoparki barpo etiladi. Sho‘r va suvsizlikka chidamli ekin turlari, chorvachilik nasllarini yaratish bo‘yicha Xitoyning yetakchi oliygohlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

To‘rtinchi tashabbus natijasi o‘laroq Sirdaryo mamlakatimizni Qozog‘iston, Tojikiston, Xitoy va Afg‘oniston bilan bog‘laydigan yirik logistika xabiga aylantiriladi. Buning uchun, xitoylik investorlar bilan hamkorlikda respublikaning sharqiy va markaziy qismlarini hamda chet el yo‘nalishlariga bog‘laydigan yangi transport marshrutlari va multimodal logistika markazi yaratiladi.

Bulardan tashqari, yo‘llarni qurish, ta’mirlash va boshqarishga xususiy sektorni jalb qilish ham ayni shu viloyatdan boshlanadi.

Beshinchi tashabbus sharofati bilan tibbiyotdagi islohotlar natijasi va sohadagi imkoniyatlarga tayanib, Guliston shahri mamlakatimizning “innovatsion meditsina xabi”ga aylantiriladi.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida yalpi hududiy mahsulotni 1,6 baravar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,6 baravar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 baravar oshirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 mayda PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori, https://lex.uz/docs/4803531

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, https://lex.uz/docs/5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022 yil yanvar-dekabr). T. 2023.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 avgustdagi 690-sonli “Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori,

МАТЕМАТИКА И ЭКОНОМИКА КАК СИСТЕМНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ МОНИТОРИНГА РЕГИОНА

Михаил Долгополов, Александр Чипура, Гулноз Абдикайимова, Абдумалик Эшниязов
Самарский государственный технический университет
Ташкентский Государственный Технический Университет имени Ислома Каримова
Гулистанский государственный университет

Научное направление конференции:

1. Основные направления повышения инвестиционной привлекательности Сырдарьинской области и использования инновационных инструментов и возможностей.

Scientific direction of the conference:

1. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Syrdarya region and the use of innovative tools and opportunities.

Abstract. Based on the current trends presented in the report, examples and calculations, we will present a number of proposals for joint development of the applied research for the Syrdarya region. Solving problems of broad mathematical training of engineers for the Syrdarya region as a region of advanced innovations with the objectives of analyzing economic factors and optimization in applied programs. Development on analytical models of growth indicators based on multiplier models and input-output models.

1. Актуальность темы исследования.

В настоящем тренде Сырдарьинская область превращается в регион передовых инноваций в сферах промышленности, предпринимательства, сельского хозяйства, образования и медицины. В инновационном регионе руководители каждый день стремятся к внедрению новшеств в сфере создания условий для населения и предпринимателей, у них изменяется мировоззрение и подходы. И немаловажную роль здесь играет интерфейс математики и экономики, как отмечал в своих трудах нобелевский лауреат Василий Васильевич Леонтьев [1]. При этом экономическую сущность вычислений необходимо изучать экспериментально, а сами результаты имеют большое значение для понимания окружающего мира, который предполагается дискретным. Таким образом, вычислительная наука описывается как пересечение математических, экономических, инженерных и научно-эмпирических традиций.

Поэтому важной составляющей подготовки студентов инженерных направлений и специальностей является математическая часть. Рассмотрение исследовательского и дидактического потенциала исследуемой системы или проекта является важной педагогической задачей, связанной с повышением качества прикладной математической подготовки бакалавра.

В данной заметке рассмотрим вопросы анализа статистики, примеры прогноза и корреляции факторов для промышленности и сельского хозяйства с акцентом на Сырдарьинский регион, предложения для развития моделей оценки экономики региона.

2. Обсуждения и дискуссии.

Динамика изменений отдельных показателей экономики по ключевым отраслям приведена на рисунках 1-3 на основе аналитической системы Wolfram Mathematica [2,3,4].



Рис. 1. Результаты запроса экономических показателей Узбекистана. ВВП по обменному курсу. GDP at exchange rate



Рис. 2. Результаты запроса экономических показателей сельского хозяйства



Рис. 3. Результаты запроса экономических показателей промышленности



Рис. 4. Прогноз по населению Узбекистана к 2030 и 2050 годам

Прогностические модели, возможно составит на основе корреляционного статистического анализа. Например, прогноз по основным демографическим показателям страны к 2030 году представлен на рисунках 4 и 5.



Largest cities

city	population
Tashkent	2.31 million people
Samarkand	504 423 people
Namangan	475 700 people
Fargona	340 600 people
Andijon	333 400 people

(1989 to 2016)

Comparisons

≈ 0.96 × current population of California (39.54 million people)

≈ current population of Canada (36.62 million people)

≈ 1.3 × current population of Texas (28.3 million people)

Рис. 5. Прогноз по возрастному составу населения Узбекистана к 2030 году

По данным Агентства статистики Президента Республики Узбекистан в 2022 году объем производства продукции сельского хозяйства Сырдарьинской области в январе – июне 2022 года составил 3902,3 млрд. сум, или 103,3 % к соответствующему периоду 2021 года. Из общего объема производства продукции сельского хозяйства в Сырдарьинской области наибольший удельный вес приходится на мясо (33,0 %), зерно (26,0 %), молоко (15,9 %) и овощи (8,4 %).

По анализу работы 2015 года [5] видно развитие сельскохозяйственных отраслей и фермерства в Сырдарьинской области. По данным 2020 года Министерства сельского хозяйства Республики Узбекистан общая площадь сельскохозяйственных угодий в области составляет 369 052 га, из них пашни – 245 533 га, многолетние леса – 7 331 га, ледниковые земли – 9 584 га, пастбища – 18 645 га, всего сельхозугодий – 28 1092 га.

Общая посевная площадь составляет 227 816 га, в том числе 80 557 га технических культур, 92 900 га зерновых, 520 га зернобобовых культур, 2200 га масличных культур, 8720 га овощей, 300 га картофеля, 16 380 га бахчевых культур, 1761 га садов, 350 га шелкопряда, 72 га виноградников, 20 382 га кормовых культур, 3 674 га прочих посевов, представлено на рисунке 6.



Рис. 6. Диаграмма общей посевной площади

Всего в 2020 году в Сырдарьинской области действовало 19 предприятий агрокластеров, из них 7 хлопково-текстильных, 8 зерновых и 4 плодоовощных кластеров. Им выделено 95 106 га земли, из которых 33 337 га закреплены за кластером, а 2 054 за фермерскими хозяйствами,

которые входят в кластер и занимают 61 769 га земли. Охват хозяйств составляет 64,9 %, в том числе 62,3 % в хлопковом и текстильном секторах, 78 % в зерновом секторе и 19 % в фруктово-овощном секторе. Объем продукции, выращенной этими кластерами, составил 301 662 тонны, в том числе 123 452 тонны кластерами и 178 211 тонны подсобными хозяйствами. Объем продукции, выращенной в хлопковой и текстильной промышленности, составил 203 650 тонны, в том числе 76 603 тонны в кластере, 127 047 тонны в обмене. Объем продукции, выращенной в зерновом кластере, составил 54 341 тонну, в сельском хозяйстве – 42 535 тонны и в овощеводстве – 43 671 тонну, в том числе 35 042 тонны в кластере, 8 629 тонны в сельском хозяйстве.

В области функционируют 3 679 фермерских хозяйств, из них 1 540 хлопково-зерновых, 266 зерновых, 357 садоводческих, 326 садоводческо-виноградарских, 5 виноградарских, 241 садоводческих и бахчевых культур, 26 садоводческо-зерновых, 437 животноводческих, 47 шелкопрядческих, 62 птицеводческих, 224 рыбоводческих, 116 других. В области земли площадью 160 га земли распределены между 69 фермерскими хозяйствами под теплицы, на которых планируется выращивать 6,5 тыс. тонны продукции ежегодно.

В 2020 году по данным Министерства сельского хозяйства Республики Узбекистан в области 88 фермерским хозяйствам выделено 640 га земли под интенсивные сады.

В последнее время наблюдается переход от анализа прямых показателей эффективности проектов к анализу показателей косвенных мультипликативных эффектов [6,7]. Последнее важно не только для проекта, но и для всей экономики в целом, и является весомым фактором при принятии решения об инвестировании средств на государственном уровне и для крупных предприятий. Классический мультипликатор Кейнса учитывает увеличение любых из компонент отраслевых затрат, результатом которого является увеличение производства, что приводит к увеличению национального совокупного дохода государства. Однако, интересен вопрос о применении данного показателя к реальному проекту и прогнозированию показателя мультипликатора, учитывающего все сложные взаимосвязи между экономическими агентами. Возможно совместно использовать классический мультипликатор Кейнса и модель «затраты-выпуск» Леонтьева [1,7-9].

3. Научно обоснованные предложения и рекомендации. На основе современных тенденций, представленных в докладе, примеров и расчетов, в заключение представим ряд предложений к совместному развитию. Предлагаем темы для развития исследований прикладных для Сырдарьинской области:

1. Решения задач широкой математической подготовки инженеров для Сырдарьинской области как региона передовых инноваций с целями анализа факторов экономических и оптимизации в прикладных программах.
2. Развить аналитические модели индикаторов роста на основе моделей мультипликатора и моделей типа «затраты-выпуск».

Список использованной литературы:

[1] Леонтьев В.В. Экономические эссе. Теории, исследования, факты и политика. М. Издательство политической литературы, 1990.

[2] Schmidhuber Jurgen. Origin of main ideas in Wolfram’s book “A New Kind of Science”. Based on a letter in CERN Courier (Intl. Journal of High-Energy Physics, vol 43:5, June 2003).

[3] Gray Lawrence. A Mathematician Looks at Wolfram’s New Kind of Science. 2003. Notices of the AMS. 50 (2): 200–211.

[4] Муханов С.А., Муханова А.А. Использование сервиса Wolfram|Alpha в экономико-статистических расчетах. Системные технологии. 2019. № 30. С. 152-157.

[5] Аллаярова М.К. Развитие сельскохозяйственных отраслей и фермерства в Сырдарьинской области. Economics. 2015. №8 (9).

[6] Музычкин П. А. Метод "input-output" на одноплатном компьютере. / Транспортное дело России. 2019. № 1. С. 39-42. – EDN ZCQRYD.

[7] Заводов С.П., Долгополов М.В. Модель "затраты-выпуск" и её связь с мультипликатором Кейнса. Вопросы науки и образования. 2017. № 7 (8). С. 54-57.

[8] Сильвестров С.Н., Бауэр В.П., Еремин В.В. Оценка зависимости мультипликатора инвестиций от изменения структуры экономики региона. Экономика региона. 2018. Т. 14. № 4. С. 1463-1476.

[9] Экономика и менеджмент в условиях нелинейной динамики. Акимченко А.А., Алетдинова А.А., Анисимова В.Ю., Бабкин А.В., Богданова Е.Л., Бондарь А.П., Буркальцева Д.Д., Бухвальд Е.М., Вертакова Ю.В., Волкова А.А., Воробьева Д.А., Глухов В.В., Голденова В.С., Греченюк О.Н., Григорьева Е.А., Гук О.А., Джамбинов Б.В., Долгополов М.В., Епифанова Н.Ш., Занин Г.Г. и др. Санкт-Петербург, 2017.

INNOVATSIYALARNI AMALIYOTGA JORIY QILISHNING AYRIM JIXATLARI

Umirov Ulug‘bek Tayirbayevich, Tojiqulov Samandar Orufjon o‘g‘li
TDIU Samarqand filiali, Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o‘qituvchisi
TDIU Samarqand filiali, AIF-120-guruh talabasi

Tadqiqod mavzusining dolzarbligi

2023-yilning 7-8-sentabr kunlari Respublikamizda qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda oziq-ovqat havfsizligini ta’minlashga bag‘ishlangan halqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Bugungi kunda oziq-ovqat havfsizligi va innovatsiyalar hamda investitsiyalar dunyo miqqiyosida dolzarb bo‘lib turibdi. Cho‘llanish, yer degredatsiyasi, suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishlari, ishsizlik, investitsiyalarning dunyo bo‘tylab harakati kabi omillar ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirishni taqozo qilmoqda.

Natijalar va ularning tahlili.

Har qanday loyihani amalga oshirishda ishchi kuchi, energiya, sarmoyaning kam sarflanishi e’tiborga olinadi. Tabiiyki, biror yangi g‘oya muallifi mana shu jihatlarni hisob- kitob qila olmasligi mumkin. Bu borada biznes akselerator dasturlarining ko‘magi asqotadi. Ular rezidentlarga o‘z biznes modelini “charxlash”, zarur shartnomalarga ega bo‘lish, savdoni amalga oshirishga ko‘mak beradigan dasturni taklif qiladi. Yangi g‘oya bilan kelgan izlanuvchilarga akselarator yordam berib, g‘oyani loyihaga aylantirishga ko‘maklashadi. Uning rostdan ham iqtisodiy samara berishi, iste’molchilarga naf keltirishi isbotlansa, startap loyiha sifatida shakllanadi. Yoshlarni innovatsion tadbirkorlikka keng jalb qilish va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib kichik biznes loyihalarini amalga oshirishda tizimli mexanizmni joriy qilish maqsadida Innox biznes inkubatorini tashkil qilish lozim. Bu yoshlar g‘oyalarini kichik biznes loyihalariga (startap loyihalar) aylantirishga, mavjud kichik biznes loyihalarini esa o‘qitish orqali rivojlantirishga qaratilgan dastur.

Avvallari ilm fan kishilari biror ilmiy ish, kashfiyot qilsa, uni tijoratlashtiradigan mexanizm qonunchiligimizda yo‘q edi. Endi nafaqat biror soha yetakchilari, balki yoshlar ham g‘oyalarini daromadli mahsulotga aylantiradigan yaxlit tizim yo‘lga qo‘yildi. Soha rivojiga qaratilgan e’tibor sabab ilm fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga yo‘l ochildi. Davlatimiz rahbarining “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni bilan innovatsion g‘oyalar va startap ekotizimni qo‘llab quvvatlash infratuzilmasini yaratish maqsadida“ UzVC” milliy venchur fondi tashkil etilgani soha rivojida muhim omil bo‘ldi.[1]

Startaplarni rivojlantirish uchun mablag‘ ajratadigan bunday moliyaviy muassasalar g‘oyaning mahsulotga aylanishi, shu bilan birga, jahon bozorlariga chiqishiga ham xizmat qilmoqda. Har bir startapning istiqbolli yoki aksinchaligini tahlil qilish uchun investorda yetarlicha bilim bo‘lmasligi mumkin. Venchur fond investitsiyalardan kapital yig‘adi va uni istiqbolli loyihalarga sarflaydi. Eng asosiysi, bu jarayonda loyiha mualliflari qarzdor sanalmaydi.

Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, innovatsiyani barcha birdek qabul qilishini kutish kerak emas. Yangi yondashuv bo‘lgani va bozorda sinovdan o‘tmagani uchun tadbirkorlik subyektlari innovatsiyadan cho‘chiydi. Sohadagi islohotlarning bosh maqsadi shu qo‘rquvni yengib, bozor tamoyillariga moslashishni ta’minlaydigan metodlarni amaliyotga tatbiq qilishdir. Bunda venchur fondlar yordamga keladi. Fondlar startaplarga sarmoya kiritgandan so‘ng ular bilan faol muloqot qila boshlaydi. Bozor strategiyasini o‘rganib, biznes modellarni ishlab chiqadi. Shuningdek, resurslardan foydalanishni

nazorat qilib, mahsulotning bozorga tez kirishini ta’minlaydi. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va ularni rivojlantirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, shuningdek, kapital bozorini takomillashtirish orqali moliyaviy resurslarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Masalan, oqshoq, ya’ni mayda siniq guruchdan yuqori qiymatli mahsulot tayyorlash loyihasini olaylik. Sirdaryolik olimlar uni un holiga keltirib, so‘ngra yana butun don ko‘rinishida qayta ishlashdi. Mana shu birgina yangicha yondashuv sabab uning qiymati bir necha barobar oshadi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida kichik tadbirkorlarning “oyoqqa turib olishi” va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuv joriy etilishi, soha vakillarini tadbirkorlikka o‘qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo‘yicha yaxlit ekotizim yaratilishi ta’kidlandi. Shu maqsadda tashkil etilgan Biznesni rivojlantirish banki tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashadi. Yangi loyihalarga zarur mutaxassislar jalb qilinadi. Tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshka konsalting xizmatlari ko‘rsatadi. Bu “tesha tegmagan” loyihalarni amalga oshirish, nafaqat mahalliy, balki jahon bozorlaridan ham munosib o‘rin egallash istagidagilar uchun katta imkoniyat. Shuningdek, ilmiy natijadorlikni yanada yuqori pog‘onaga olib chiqadi.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda yunikorn, ya’ni kapitalizatsiyasi 1 milliard dollardan oshgan startaplar trend darajasiga chiqqan. Sirdaryoda ham aynan shunday startaplar bo‘lishi lozim.

Sirdaryo viloyati 1963-yil 16-fevralda tashkil etilgan bo‘lib, shimoldan Qozog‘izton Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi va g‘arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Hozirgi kunda aholisi 900 ming kishidan ortiq. Shundan mehnat resurslari soni statistik ma’lumotlarga ko‘ra 500 ming kishidan oshgan. Viloyatning investitsion jozibadorligini oshirishda va savdo-sotiq uchun geografik jihatdan qulay joylashganligi e’tiborga molik.

Bugun dunyo hamjamiyatini o‘ylantirayotgan va tashvishga qo‘yayotgan muammolardan biri bu shubhasiz, suvni tejash, qishloq xo‘jaligida undan oqilona foydalanish masalasi. Binobarin, obihayot taqchilligi sharoitida uni iste’mol qilish va sarflashda tejamkor texnologiyalar qanchalik tez qo‘llanilsa, ommalashsa, shunchalik yaxshi.

Suv resurslari Markaziy Osiyo mintaqasida, shu jumladan, O‘zbekistonda xam yildan-yilga kamayib bormoqda. Demak, suvdan foydalanish madaniyatimizni o‘zgartirish, faoliyatda yangicha yondashuvlarni tatbiq etish biz uchun hayotiy zaruratga aylanmog‘i kerak. Bu boradagi ishlarni aslo kechiktirib bo‘lmaydi. Ayni paytda mamlakatimizdagi 70 foizdan ziyod ekin maydonlari eski usulda sug‘oriladi. Bunday sug‘orish tizimi Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “yerga nisbatan ham, suvga nisbatan ham vaxshiylikdir”. Buni odamlar ongiga, madaniyatiga singdirish o‘ta muhim.

2030-yilga qadar respublikamizdagi sug‘orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to‘liq suv tejaydigan texnologiyalarga o‘tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tatbiq etish, bunday uskunalarni joriy etgan fermer va dehqonlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini yanada ko‘paytirish choralari ko‘rilishi belgilandi. Umuman, mamlakatimizda oldingi yillarda boshlangan va o‘z samarasini bergan tizim suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha sa’y-harakatlar izchil davom ettirilmokda.

O‘zbekistonda 2019-yildan boshlab suv tejovchi texnologiyalarni joriy etganlarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash mexanizmi yo‘lga qo‘yilgani, jumladan, subsidiyalar ajratilayotgani katta samara berib, klaster tashkilotlari va fermerlarni rag‘batlantirmoqda. Bu kabi yengillik va qulayliklar mazkur yo‘nalishdagi ishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, albatta. Suv tejovchi texnologiyalarning afzalligi ko‘p. Avvalo, bu usul davlat byudjetiga ko‘p yuk bo‘lib tushmaydi, asosan, suv iste’molchilarining o‘z mablag‘lari hisobiga barpo etiladi. U tufayli nafaqat suv, balki mineral o‘g‘itlar, yonilg‘i moylash mahsulotlari, ishchi kuchi xarajatlari sezilarli darajada iqtisod qilinadi. Hosildorlik esa oshadi. Mamlakatimizda hozirga qadar jami 473,5 ming gektar maydonda tomchilatib, 44,7 ming gektarda yomg‘irlatib, 18 ming gektarda diskret, 133,9 ming gektar maydonda boshka suv tejovchi sug‘orish tizimlari joriy qilindi. 569 ming gektar ekin maydoni lazer uskunasi yordamida tekislandi. Natijada ularning ko‘rsatkichi 1,2 million gektarga yoki sug‘oriladigan umumiy

maydonga nisbatan 28 foizga yetkazildi. Shu tariqa mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligi yil sayin ortib bormoqda.

Shu o‘rinda yurtimizda, umuman, jahon qishloq xo‘jaligida eng ommalashgan tomchilatib, yomg‘irlatib hamda pulsar sug‘orish usullari Sirdaryo viloyatida ham keng joriy qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Tomchilatib sug‘orish tizimi jahonning qishloq xo‘jaligi taraqqiy etgan ko‘pgina mamlakatlarida keng qo‘llaniladi. U jamoatchilik va ilmiy jihatdan intensiv texnologiya, deb tan olingan. Yomg‘irlatib sug‘orish ekinlarni sun’ iy yomg‘ir hosil qilish asosida sug‘orishga mo‘ljallangan usul hisoblanadi. Bunda sug‘orish quvurlar va yomg‘irlatuvchi maxsus muhandislik qurilmasi yordamida amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar

To‘g‘ri olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri bu iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdir. Iqtisodiy o‘sish aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o‘sishini hamda aholining turmush darajasi oshganligini ko‘rsatadi.[2] Iqtisodiy o‘sish tabiiy resurslarning miqdori va sifatiga, mehnat resurlarning miqdori va sifatiga, asosiy kapital hajmiga, texnologiya darajasiga, talab va taklifga, resurslarning oqilona taqsimotiga, hududning investitsiyon jozibadorligiga, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga va hududagi qulay tadbirkorlik muhitiga bog‘liq deb xulosa qilishimiz mumkin.

Sirdaryo viloyatida qulay investitsion hududga aylantirishda quyidagi omillarga e’tibor qilish taklifini beramiz:

- Sirdaryo viloyatining qulay geografik joylashuvini hisobga olgan holda logistika tizimini yanada rivojlantirish;
- Tadbirkorlarga va xorijiy investorlarga qulaylik yaratish maqsadida eksport-import operatsiyalarida tizimni to‘liq raqamlashtirish va Jahon Savdo Tashkilotining “Yagona standartlar” ta’riflariga o‘tish;
- Viloyatda qishloq xo‘jaligining, jumladan, paxtachilik, g‘allachilik tarmog‘ining rivoijlanish xususiyatlarini inobatga olib, suv tejovchi texnologiyalarni ko‘proq amaliyotga joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] O.To‘ychiyev “G‘oya-qo‘shimcha qiymatli, yuqori daromadli mahsulot”. Yangi O‘zbekiston, 2023-yil 30-avgust, 176-son.

[2] E.Egamberdiyev “Mikroiqtisodiyot”. Toshkent ilm-ziyo 2014-yil.

PAXTANI TASHISH JARAYONINI TAXLILI ASOSIDA ATROF-MUHITGA CHIQARILADIGAN CHANGNI KAMAYTIRISH

Salimov Otabek Alisherovich

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Mehnat muhofazasi va ekologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Mamlakatimiz paxtachilik sohasida “Paxta va to‘qimachilik klasteri” tizimini joriy etish bilan bog‘liq integratsion, innovatsion, iqtisodiy hamda nazariy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Shu jumladan, paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash bilan birga, atrof-muhitga chiqariladigan paxta changini kamaytirish orqali ekologik holatni yaxshilash masalalariga e’tibor berilmoqda [2].

Bu borada, ekologik holatni yaxshilash maqsadida paxtani qayta ishlash texnika, texnologiyasi va ularning ilmiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha keng miqyosida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, paxtani tashish va tozalash bo‘yicha bog‘lanishlar madeli, paxta tarkibidan iflos aralashmalar va changni ajratib olish vositalari parametrlarini aniqlash, paxtani tashishda harakatlanish va uni tozalash texnologiyasini muqobillashtirish zarurdir.

Ushbu yo‘nalishda energiya va resurslarni tejash maqsadida texnologik jarayonlar uyg‘unlashtirilgan mashinalarni va qurilmalarni ishlab chiqish hamda uning, parametrlari va ish rejimlarini ilmiy asoslashga alohida e’tibor berilmoqda.

Shu sababli paxta tozalash korxonalarida atrof-muhitga chiqariladigan paxta changini kamaytirish asosida ekologik holatni yaxshilash bilan birga, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini saqlash dolzarb vazifa hisoblanadi [2,3].

Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxtani qayta ishlashda paxtani tashish bilan birga, ifloslik va changni tozalash jarayonini uyg‘unlashtirish maqsadida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ushbu yo‘nalishda mahalliy va xorijiy paxta tozalash korxonalarida ekologik holatni yaxshilash uchun paxtani tashish va tozalash qurilmalarini ishlatish bo‘yicha chet el ilmiy tadqiqot institutlari, kompaniyalari “Platt Lummus”, “Continental Eagl Corparation”, “Continental Murray” AQSH, chet el olimlari: R.K.Byler, J.W.Laird, J.G. Khinast, L. Pezo, S.G. Jackson, B.S.Sajin, L.I.Gudim, va boshqalar izlanishlar olib borganlar.

Mamlakatimiz paxta tozalash korxonalarida ekologik holatni yaxshilash uchun paxtani ifloslik va changdan tozalash texnologik uskunalarni takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy masalalarni metodologik asoslarini yaratishda B.A.Levkovich, G.I.Boldinskiy, A.K.Kudratov, Y.S.Sosnovskiy, M.B.Mardonov, I.T.Maksudov, M.T.Xodjiyev X . T.Axmedxodjayev va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Ular o‘tkazgan ilmiy izlanishlarni tahlili paxtani tashishda ifloslik va changdan tozalash samaradorligi yetarli emasligi, hamda texnologik jarayonlarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari to‘liq ochib berilmagan.

Shu maqsadda paxtani qayta ishlash texnologik jarayonini taxlili asosida paxtani tashish jarayonida iflosliklardan tozalash va atrof-muhitga chiqariladigan changni kamaytirish masalalarini o‘rganildi. Paxtani dastlabki ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologik jarayoni 1-rasmda keltirilgan [4].



1-g‘aram buzgich-ta’minlagich; 2-pnevmoquvurlar; 3-tosh tutgich; 4- separator; 5-paxta uzatish shnegi; 6-issiqlik generatori IICH-1,9; 7- tutun so‘rgich; 8-barabanli quritgich 2SB-10; 9-qiya transporter; 10-regenerator 1RX; 11-paxta tozalagich UXK; 12-arrali jin 5DP-130; 13- chigit shnegi; 14-tola tozalagich; 15 -kondensor5KV; 16-lotok; 17-tola namlagich; 18-tola pressi; 19-toy o‘rash uskunasi; 20-elektron tarozi.

1-rasm. Paxtani qayta ishlash texnologik jarayoni.

Paxtani qayta ishlash texnologik jarayonidan chiqayotgan mayda ifloslik va chang manbalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

№	Chang manbai	Atmosferaga chiqariladigan havo miqdori m^3/sek	Tozalangan havoning changligi, mg/m^2
.	Tozalash uskunalarning havo so‘rish tizimi	4÷6	1000÷3000
.	Tolaning pnevmotransport tizimi	10÷12	1700÷2000
.	Paxtaning pnevmotransport tizimi	6	3000 gacha
.	Momiqning pnevmotransport tizimi	6÷9	1700
.	Paxta quritish barabanlarida ishlatiladigan quritish agenti	6÷9	1700÷2000

.	Jin-lintr sexi texnologik uskunasining havo so‘rish tizimi	4,5÷6	1700÷2000

Paxtani qayta ishlash texnologik jarayonining dastlabki bosqichlarida ya’ni, paxtani tashish tizimlari va quritish-tozalash jarayonlarida atrof-muhitga chiqariladigan ifloslik va changni ko‘p ajralashini ko‘rish mumkin (1-jadval).

Paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonida texnologik mashina-uskunalardan ajralib chiqadigan ifloslik va chang asosan uchta fraksiyadan mineral, organik va tolali chiqindilardan iborat bo‘ladi.

“Realagro cotton” MCHJ paxta klasterlarida texnologik jarayonlaridan chiqayotgan chiqindilarni fraksion tarkibini o‘rganildi (2-jadval).

2-jadval

Paxta tozalash korxonasi texnologik jarayonlaridan chiqayotgan chiqindilarni navlar bo‘yicha fraksion tarkibi, %

Fraksion tarkibi	I	II	III	IV	V
Quritish sexidan chiqayotgan chiqindilar					
Mineral	45	47	48	46	44
Organik	34	33	31	35	34
Tolali	21	20	21	19	22
Tozalash sexidan chiqayotgan chiqindilar					
Mineral	36	39	40	38	41
Organik	36	35	33	34	31
Tolali	28	26	27	28	28

Unga ko‘ra, mineral chiqindilar 44-48% gacha, organik chiqindilar 31-36% gacha va tolali chiqindilar 19-22% gacha mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Tozalash sexida paxta turli texnologik mashina-uskunalarda tozalashda tolalarini mexanik shikastlanishi hisobiga tolali chiqindilar miqdori sezilarli darajada oshmoqda.

Paxtani tashish, ifloslik va changdan tozalash texnologik jarayonlarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari o‘rganish maqsadida SHX-rusumli paxtani tashish konveyeri takomillashtirilib tadqiqot ishlari olib borilmaqda. Qurilmada paxtani tashish jarayonida ifloslik va chang ajratish bo‘yicha statistik tadqiqotlar olib borildi [5,6].

Tajriba natijalari statistik ishlov berilib, xom ashyoni mayda ifloslik va changdan tozalash samaradorligining qurilma uzunligining turli qiymatlarida samaradorlik bilan xom ashyoning boshlang‘ich namligi va iflosligi orasidagi regression bog‘lanish olindi. Regression bog‘lanishning qurilmaning maksimum va minimum qiymatlarida tahlili keltirilib, samaradorlikning o‘zgarish diapozonlari aniqlanib, boshlang‘ich ifloslik ma’lum bo‘lsa, tozalash talab etilgan samaradorligini taminlash uchun namlikning ratsional qiymatini regression bog‘lanishi ko‘rib chiqildi. Unda qurilmaning mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi, paxtadagi iflosliklar darajalari va qurilmaning uzunligiga bog‘lilikligi aniqlandi [7].

O‘tkazilgan va tajriba natijalari, hamda ularning statatik ishlov natijalarining taxliliga ko‘ra paxtani tashish va tozalash qurilmasidagi paxtaning namligini kamaytirish hisobiga tozalash samaradorligini oshirib tolaning sinfini yaxshilash imkoniyati borligi aniqlandi. Natijada qurilmada paxtani tashish va ifloslik hamda changdan tozalash jarayonlarini uyg‘unlashtirish hisobiga ishlab chiqarilayotgan tola sinfini yaxshilash hamda atrof-muhitga chiqarilayotgan chang miqdorini kamaytirish mumkunligi aniqlandi.

Adabiyotlar:

1. Раҳматов М., Зарипов Б. “Кластер - интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш”. Ўқув қўлланма. Замин нашр. Т.:2018 й.

2. Kudratov A.K. “Sanoat ekologiyasi”.O‘quv qo‘llanma.T.:, 1999. 34-40 b.

3.Abbazov I.Z., Salimov O.A., Salimov A.M. “Paxtachilik sanoatida texnosferik omillar”.O‘quv qo‘llanma. T.:2023 y. 197 b.

4.“Paxtani dastlabki ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi” (PDI 70 - 2017), Toshkent “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ - T.:2019, -45 b.

5..Salimov O. A., Mardonov B. M., Madumarov I. D., Salimov A. M. **“**Research of the process of cleaning of small litter and dust during transportation of raw cotton”. Texas Journal of engineering and texnology. https://zienjournals.com ISSN NO: 2770-4491 Date: 07-12-2022, pp:1-9.

6.Salimov O. A., Mardonov B. M., Salimov A. M. “Study of the process of cleaning raw cotton from weed in sections of screw conveyors”. Eurasian journal of engineering and texnology. www.geniusjournals.org. ISSN(E): 2795-7640 GJPG Brussels, Belgium. Date: January 2023, pp:8-16.

7. Mardonov B.M., Aminov X.X., Salimov O.A. “Havo va chang aralashmasini harakatini paxtani tashish qurilmasida o‘rganish”. Ekologiya xabarnomasi. T.: 2023. №2. –88-91

ШАХСНИНГ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИНСТИТУТЦИОНАЛ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Маматов Сардор Ахматжонович
ТДИУ мустақил тадқиқотчиси
+99899-300-48-32
mamatovahmadjon@rambler.ru

Янги Ўзбекистон стратегиясининг “Адолатли ижтимоий сиёсат” бобида бугунги кунда Ўзбекистон Республикасини иқтисодий тараққиётининг янги босқичида ижтимоий соҳадаги муаммолар: аҳолини ва айниқса унда ёшларни бандлигини ошириш, фуқароларни ижтимоий ҳимоя қилиш ва уларнинг саломатлигини сақлаш, соғлом турмуш тарзи, жисмоний трабия ва спорт, таълим ва тарбия, илм-фан ва инновацион тараққиёт ва аҳолининг муҳтож қатламларига кўрсатиладиган ижтимоий ёрдам сифатини оширишда мавжуд муаммоларга алоҳида эътибор қаратилган. **“**«Аввал — инсон, кейин — жамият ва давлат» деган ғояни Конституциямиз ва қонунларимизга ҳам, кундалик ҳаётимизга ҳам чуқур сингдиришимиз керак. Ҳозирги кундаги жиддий синовлар ва башорат қилиб бўлмайдиган хавф-хатарларни енгиб ўтишга қодир бўлган миллий давлатчилигимиз асосларини мустаҳкамлашимиз зарур**”**[1].

Бугунги кунда жахонда иқтисодий ривожланиш муаммолари хамда жаҳон иқтисодиётининг беқарорлашуви туфайли иқтисодий субъектлар манфаатларидаги қарама-қаршиликларнинг кескинлашуви юзага келмоқда. Бунинг натижасида жамиятда аҳоли табақаланишининг кучайиши, ижтимоий соҳага юклатилган юкламанинг, давлат томонидан ижтимоий қўллаб-қувватланишига бўлган эътиборни ортиши ва ижтимоий-иқтисодий вазиятнинг беқарорлашиши, юз бераётган янги жараёнлар билан олдинги тизим таъсирини тўқнашуви натижасида иқтисодий ривожланиш суръатларини пасайишига олб келмоқда. Бу иқтисодий субъектларнинг фаолиятига эътиборнинг долзарблигини кучайиши иқтисодиётнинг транзитив тури билан тавсифлайди.

Ривожланишнинг транзитивлиги мамлакатнинг турмуш фаолиятини таъминлаш ялпи тамойилларини амалга ошириш ёндашувларини ва қоидаларини мажмуали ўзгартиради, бу эса янги иқтисодий имкониятларнинг вужудга келишига, хўжалик юритувчи субъектларнинг фаоллашувига. уларнинг салоҳияти ва имкониятларидан фойдаланишда кўпвариантликга ва субъектларнинг иқтисодий барқарорлигини ўсишига олиб келади. Бироқ, трансформация жараёнида иқтисодий салоҳиятнинг баъзис асосларини шакллантириш билан бир қаторда, ижтимоий таъминот соҳасида бузилишлар, тартибсизликлар хам кузатилмоқда. Ижтимоий кафолатлар тизимини бузилиши ва янги иқтисодий тизимни шакллантириш суръатларининг пасайиши ижтимоий ҳимоя механизмларининг қисқаришига туртки беради. Шаклланаётган янги тизим ўз-ўзини мослаштириш имкониятларини рўёбга чиқариш шароитида давлат томонидан минимал даражада қўллаб-қувватлашга қаратилган бўлиб, унинг натижасида ижтимоий жараёнларни қайта қуриш ва бу жараёнларни тартибга солувчи давлатнинг ролини аниқламасдан туриб иқтисодиётни ислоҳ қилиш мумкин эмас.

Мартинс-да-Рожа ва Вайлакис [2] га кўра, асосий эндоген транзакциялар, ҳатто молиявий каби анъанавий бозорларда ҳам ахборотни қидириш, ташиш, сақлаш ва ўлчашни ўз ичига олган

жараёндир. Бинобарин, истеъмолчининг бозор коньюктура ахборотларини олиш харажатлари унинг транзакция харажатлари ҳисобланади. Бундан ташқари, транзакция харажатларига сотувчиларни топиш, оппортунизмдан ҳимоя қилиш ва бошқалар хам киради. Транзакция харажатларини камайтириш истеъмолчилар учун танлов имкониятини тенглаштириш орқали амалга оширилиши мумкин. Бу ёндашув сўнгиси нуқтаи назаридан маҳсулотнинг нафлилигининг энг муҳим хусусиятларидан бири бўлиб, унинг қийматига таъсир қилади, бу эса реклама билан боғлиқ бўлган транзакция харажатларининг юқори улушига эга ихтисослашган ишлаб чиқарувчиларда юқори даражадаги рақобатбардошликни белгилайди. Транзакция харажатларининг қисқариши иқтисодиётнинг институтционаллашувининг кучайишига олиб келади, бу эса муқобил институтларнинг шаклланиши ва фаолиятининг ижтимоий харажатларини тартибга солувчи давлат сиёсатини амалга оширишни тақозо этади.

Шахснинг иқтисодий хавфсизлиги тизимини шакллантиришда давлатнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсати муҳим ўрин тутади, шу боис шахснинг иқтисодий хавфсизлигига бевосита таъсир кўрсатувчи мамлакатнинг ижтимоий соҳадаги иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш масалаларига катта урғу берилади. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида аҳолини иқтисодий қўллаб-қувватлаш мақсадида давлат иқтисодий сиёсати ўз-ўзини банд қилиш тизимини яратиш орқали даромадларни кўпайтириш ва қарорлар қабул қилишда мустақилликни амалга ошириш бўйича иқтисодий субъектларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам берадиган жиҳатлари шакллантирилмоқда. Хўжалик юритувчи субъектларнинг мустақиллиги, масалан, ишсиз сифатида рўйхатдан ўтган фуқаролар томонидан кичик корхоналар ташкил этиш бўйича дастурларни амалга ошириш орқали янги иш ўринлари ташкил этиш, креативликни ривожлантириш, турмуш форовонлигини оширишнинг янги жиҳатларини аниқлаш. бизга иқтисодий нофаол ижтимоий ёрдамга мухтож фуқаролар сонини камайтиришга ёрдам беради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 октябрдаги “Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш давлат дастурлари доирасида амалга оширилаётган лойиҳаларни кредитлаш тартибини такомиллаштиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4498-сонли қарори билан ҳунармандчилик, аёлларни қўллаб-қувватлаш ва оилаларни мустаҳкамлаш;"Ёшлар - бизнинг келажагимиз" дастури; деҳқон ва деҳқон хўжаликлари фаолиятини яхшилаш; ҳар бир оила - бу тадбиркор дастур; аҳоли бандлигини таъминлаш мақсадида кичик бизнес субьектларига имтиёзли 15 фоизли кредитлар берилиши йўлга қўйилди.

Жаҳон банки "камбағалликнинг халқаро кўрсаткичи" тушунчасини киритиб, даромадлар бўйича камбағаллик таснифини киритди. Бунда асосий ёндашув барча давлатлар учун бир хил бўлиб, фуқароларнинг даромад даражаси тўрт гуруҳга ажратилган ҳолда тавсифланади. Яъни: кам даромадли мамлакатлар бунда: йилига бир кишига 1035 доллар ёки ундан кам; паст-ўрта даромадга эга бўлганлар йилига 1036-4045 долларни ташкил этади; ўрта-юқори даромадга эга бўлганлар, бунда даромад миқдори йилига 4046-12535 долларга тенг; юқори даромадга эга бўлганлар яъни йилига 12 536 доллар ёки ундан кўп топадиганлар киритилади. Ўртача паст даромадли мамлакатларга, жумладан Ўзбекистон учун камбағаллик чегараси бир кишига кунига 3,2 АҚШ долларига, юқори ўртача даромадли мамлакатлар учун эса кунига бир киши учун 5,50 АҚШ доллари тенг деб эътироф этилган[3].

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида аҳоли умумий даромадларининг шаклланишига кўра таркиби (%) да [4]

Кўрсаткичлар	**2017 йил**	**2018 йил**	**2019 йил**	**2020 йил**	**2021 йил**	**2022 йил**
Умумий даромадлар- жами, шу жумладан:	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
бирламчи даромадлар	76,2	77,5	76,2	75,4	73,6	70,2

ишлаб чиқаришдан олинган даромадлар	71,0	74,6	73,5	73,3	71,5	67,9
меҳнат фаолиятидан олинган даромадлар	68,8	66,7	66,1	65,9	65,0	61,6
ёлланма ишчиларнинг даромадлари	34,3	24,8	27,2	27,3	27,5	28,3
мустақил равишда банд бўлишдан олинган даромадлар	34,5	41,9	39,0	38,6	37,4	33,3
шахсий истеъмол учун ўзига ишлаб чиқарилган хизматлардан олинган даромадлар	2,2	7,9	7,4	7,4	6,5	6,3
мол-мулкдан олинган даромадлар	4,2	2,9	2,7	2,1	2,2	2,3
трансфертлардан даромадлар	24,8	22,5	23,8	24,6	26,4	29,8
умумий даромадлар жами миқдоридан кичик тадбиркорликдан олинган даромадлар	64,3	64,2	61,8	60,3	60,1	59,4

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Жаҳон банкининг техник ёрдамида минимал истеъмол харажатлари қийматини аниқлашди ва у бир шахсга ойига 498 сўмни ташкил қилмоқда[16]. Агарда камбағал шахснинг кунлик истеъмол қилаётган товарлар ва хизматлар хажми 1,90 долларга тўғри келадиган бўлса, унда ушбу шахс бир ойда 30 кунда 646,4 сўмлик товарлар ва хизматлар истеъмол қилиши керак, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан ҳисоблаган 498 сўм эмас.

Ўзбекистон Республикасида аҳоли умумий даромадларининг шаклланишига кўра таркиби таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, сўнгги олти йилда меҳнат фаолиятидан олинган даромад 68,8 %дан 61,65гача ўзгарган. Бу тадқиқ этилаётган даврда аҳолининг трансфертлардан олинган даромадларини 24,8%дан 29,8%га ўсиши ҳисобига юз берган. Тадқиқ этилаётган даврда мехнат фаолиятидан олинган даромадлар таркибида ёлланма ишчилар даромадини 34,5%дан 28,3%га пасайганини ва мустақил равишда банд бўлишдан олинган даромадларни ўсганлигини кузатиш мумкин. Бу давлатнинг аҳолини ижтимоий-иқтисодий қўллаб-қуватлаш ва камбағалликни камайтириш ва аҳолини тадбиркорлик фаоллигини ошириш бўйича олиб борган чора-тадбирлари натижаси сифатида хамда 2022 йилга келиб бирламачи даромадлар – 70,2 %, ўз-ўзини банд қилишдан даромад 33,3% ни ташкил қилиб, мазкур кўрсаткичлар меҳнат муносабатлари соҳасидаги олиб борилаётган ўзгаришлар натижасида деб ҳисоблаш мумкин.

2022 йилга келиб аҳоли умумий даромадларининг катта қисми ёлланма ишчиларнинг даромадлари ва мустақил равишда банд бўлишдан олинган даромадларни ўз ичига олган меҳнат фаолиятидан олинган даромадлардан (жами аҳоли умумий даромадларининг 61,6 % и) шаклланди, ҳамда номинал ўсиш суръати 2021 йилнинг мос даврига нисбатан 115,9 % ни ташкил этди. Аҳоли умумий даромадлари таркибида шахсий истеъмол учун ўзида ишлаб чиқарилган хизматлардан олинган даромадларнинг улуши 6,3 %, мол-мулкдан олинган даромадларнинг улуши 2,3 %, трансфертлардан олинган даромадлар улуши 29,8 % ни ташкил қилди. Тадқиқ этилаётган даврда кичик тадбиркорликдан олинган даромадлар улушининг ўсиши эса мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантириш, янги иш ўринлари яратиш ва аҳоли даромадларини оширишнинг энг муҳим омили сифатида кичик тадбиркорликни жадал ривожлантириш учун ишончли ҳуқуқий кафолатлар яратилганлигидан деб баҳолаш мумкин. Аҳолининг камбағал тоифаси тезкор иқтисодий ўсишдан фойда кўриш имкониятидан маҳрум бўлибгина қолмай, жамиятнинг турли соҳаларида иштирок этиш имконияти чекланганлиги туфайли ривожланишга ҳам ҳисса қўша олмайди. Бу аҳолининг камбағал тоифасининг миқдорини ўсиши мамлакатда иқтисодий ўсишга катта тахдит сифатида баҳолаш мумкин.

Транзатив иқтисодиёт шароитида шахсларнинг иқтисодий хавфсизлигини шакллантириш фақат ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар натижаларини баҳолаш билан мураккаблашади ва иқтисодий агентларни бир томонлама ўрганиш ва унинг алоҳида гуруҳлар муаммоларини ҳал

қилиш, бу мақсадни амалга оширишга имкон бермайди. Умуммиллий ривожланиш йўлидаги миллий тўсиқларни ва уларнинг оқибатларини эмас, балки муаммолар манбасини ҳал этиш йўлларини кўриб чиқиш зарурлиги шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг институтционал асосларини такомиллаштиришни долзарблаштиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси 21.12. 2022 йил.
2. Martins-da-Rocha V. F., Vailakis Y. Financial Markets with Endogenous Transaction Costs / V. F. Martins-da-Rocha, Y. Vailakis // Economic Theory. – 2010. – Vol. 45. – P. 65–97.
3. Санақулова Б.Р., Қаюмов С.А Камбағаллик даражасини аниқлаш ва уни пасайтириш. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. № 3, июнь, 2021 йил. ISSN: 2181-1016.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.

ШАХСНИНГ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ СТРАТЕГИЯСИ

Маматов Ахметжон Атажанович
ТМИ профессори
+99899-300-48-32
mamatovahmadjon@rambler.ru

Давлатининг ижтимоий сиёсати ва унинг ижтимоий-иқтисодий хавфсизлигини таъминловчи тизим фаолиятини трансформацияси жараёнида юзага келадиган иқтисодий муносабатлар мамлакатда ижтимоий хавфсизликнинг институтционал асосларини такомиллаштирувчи тизим бўлиб ҳисобланади. Шахснинг иқтисодий хавфсизлиги тизимини шакллантиришда давлатнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсати муҳим ўрин тутади. Шу боис Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасида “Биринчидан, камбағалликни қисқартириш борасида комплекс ёндашув ва ностандарт усулларни жорий этамиз. Бир ҳақиқатни аниқ тушуниб олишимиз керак – камбағаллик масаласи кредит, ижтимоий нафақа ёки уй бериш билан ўз-ўзидан ҳал бўлиб қолмайди. Бунинг учун таълим, соғлиқни сақлаш, касб-ҳунарга ўқитиш, ичимлик сув, энергия ва йўл инфратузилмаси билан боғлиқ комплекс муаммоларни ҳал этиб бориш керак [1]-деб таъкидлаганлар.

Янги Ўзбекистон стратегиясида шахснинг иқтисодий хавфсизлигига бўлган ижтимоий таҳдидларни бешта катта блок асосида тизимлаштириш мумкин: аҳолининг пул даромадлари даражаси билан боғлиқ таҳдидлар; демографик вазият билан боғлиқ таҳдидлар; бандлик соҳасидаги таҳдидлар, ишсизлик даражаси юқори бўлган ҳолларда; ижтимоий нафақалар миқдори ва аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш чоралари билан боғлиқ таҳдидлар; соғлиқни сақлаш, таълим, маданият ва коммунал соҳада юзага келадиган жараёнлар туфайли келиб чиқадиган таҳдидлар. Таҳдид – бу бевосита хавф – хатар бўлиб унинг манбаи кўпроқ ёки камроқ даражада аниқланган бўлиши мумкин. Таҳдид кимга қарши йўналтирилган бўлса, шуларнинг унга тез муносабат билдиришини талаб қилади. Кам сонли бойлар ва кам таъминланган фуқаролар сонининг кўплигини ифода этувчи жамиятнинг мулкий жиҳатдан табақаланиши ижтимоий соҳада мамлакатнинг хавфсизлигига катта таҳдид туғдиради [2].

Шахс бир пайтнинг ўзида хавфсизлик соҳасининг ҳам объекти ҳам субъекти бўлгани ҳолда, хавфсизлик соҳасининг барча тизимларида мавжуд бўлади ва тизим ташкил этувчи вазифасини бажаради. Шундан келиб чиққан ҳолда, шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш, иқтисодий хавфсизликнинг барча босқичларида муҳим ўрин тутади, аммо шуни таъкидлаш лозимки, шахснинг иқтисодий хавфсизлиги ўз навбатида жамият, хўжалик юритувчи субъектлар, давлат ва экологик вазиятга чамбарчас боғликдир.

Шахс иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий тамойиллари қуйидагилардан иборат:

- қонунийлик;
- шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий муҳим манфаатлари мутаносиблигига риоя қилиш;

- хавфсизликни таъминлаш бўйича шахс, жамият ва давлатнинг ўзаро масъулиятли бўлиши;
- халқаро хавфсизлик тизимлари билан интеграциялашув.

1.жадвал.

Ўзбекистон Республикаси аҳоли даромадларининг аҳолининг 10%ли гурухлари бўйича нотекис тақсимланиши [3].

№	Детцил гурухлари	2017й	2018й	2019й	2020й	2021й	2022й
1.	1 детцил	3,9	3,9	3,7	3,4	3,3	3,5
2.	2 детцил	5,5	5,4	5,3	5,1	5,1	5,1
3.	3 детцил	6,4	6,4	6,4	6,2	6,2	6,1
4.	4 детцил	7,2	7.3	7,3	7,1	7,2	7,0
5.	5 детцил	8,1	8,1	8,2	8,1	8,2	7,9
6.	6 детцил	9,1	9,1	9,2	9,1	9,3	8,9
7.	7 детцил	10,2	10,3	10,5	10,5	10,6	10,2
8.	8 детцил	11,6	11,7	12,1	12,1	12,5	11,9
9.	9 детцил	13,9	14,1	14,7	14,8	15,2	14,7
10.	10 детцил	24,1	23,7	22,6	23,5	22,5	24,8
11.	Аҳоли даромадлар ининг 10%ли гурухлар бўйича дифференцация коэффициенти	6,2	6,1	6,0	6,9	6,8	7,0

Ўзбекистон Республикасини ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига ўтиши, даромадлар тенгсизлиги муаммосини кескинлаштиради. Бу ерда асосий ролни мол-мулкка уй-жой, кўчмас мулк, акция (ва бошқалар)га эга бўлиш омили ўйнай бошлайди. Даромадларнинг табақаланиш жараёни етарли даражада тез боради, минимал даражадан бир неча ўн баравар юқори даромадга эга бўлган ижтимоий қатлам шаклланади [4]. Даромадларнинг табақаланиши мулкий табақаланишни келтириб чиқаради. Вақт ўтиши билан оилаларнинг тўплаган мол-мулки мерос қолдирилиши сабабли даромадлар табақаланишининг кучайиши рўй беради. Бу жараён қуйидаги жадвалда ифода этилган (қаранг 1.жадвал). Ўзбекистон Республикаси аҳоли даромадларининг 10%ли гурухлари бўйича нотекис тақсимланиши маълумотларига кўра 2022 йилга келиб Ўзбекистон Республикасида аҳоли даромадларининг 10%ли гурухлар бўйича дифференцация коэффициенти 6,2 дан 7,0 гача ўсганлигини кузатиш мумкин.

Ижтимоий тенгсизлик ва даромадлар тақсимотидаги адолатсизлик аҳолининг кам таъминланган қатламининг норозилигини ўсишига ва жамиятда ижтимоий хавфсизликни кучайишига олиб келади. Аҳолининг даромадлар бўйича табақалашувининг меъёрида сақлаб турилиши ижтимоий хамжиҳатликни кафолатлайди. Ижтимоий барқарорлик камбағаллар сонининг қисқариб бориши билан ҳам боғлиқ. Бундай шароитда давлатнинг даромадларни қайта тақсимлаш вазифаси даромадлар тенгсизлигидаги фарқларни камайтириш ва жамият барча аъзолари учун анча қулай моддий ҳаёт шароитини таъминлашга қаратилади. Даромадлар тенгсизлиги камайишининг тахминан 80 фоизини асосан трансферт тўловлари тақозо қилади. Аниқроқ айтганда давлат трансферт тўловлари энг паст даромад олувчи кишилар гуруҳи даромадининг асосий қисми (70-75%)ни ташкил қилади ва тенгсизликни юмшатишнинг энг муҳим инструменти ҳисобланади.

Иқтисодий адабиётларда шахснинг иқтисодий хавфсизлиги деганда “шахснинг манфаатларини ҳуқуқий ва иқтисодий ҳимоя қилишни таъминловчи турмуш фаолияти ҳолати” тушунилади деб баҳо берилган [5]. Республикамизда чоп этилган бошқа бир иқтисодий адабиётда “Шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш нафақат давлат бошқаруви органлари, хукумат, фуқоролик жамияти институтлари, жамоат ва нодавлат ташкилотларининг биргаликдаги сай-характларигагина, балки хар бир фуқоронинг ўзига хам боғликдир деб таъкидлаб ўтилган [6]. Бизнинг фикримизча, шахснинг иқтисодий хавфсизлиги - бу аҳолининг моддий ва маънавий эҳтиёжларини қондирилишини белгилаб берувчи даромадлари ва мулкий

салоҳияти бўлиб, бу салоҳиятнинг узоқ муддат давомида таъминланишини кафолатлайди. Шахснинг иқтисодий хавфсизлигини шахснинг ҳар томонлама камол топиши учун тегишли шарт-шароитларнинг мавжудлиги, инсон манфаатлари ва эҳтиёжлари қондирилишининг турли хавф-хатар ва таҳдидлардан ҳимояланганлиги, ижтимоий барқарорлик, таълим ва соғлиқни сақлаш хизматларидан эркин фойдалана олиш имкониятларининг таъмин этилиши, фуқароларнинг қонуний ҳақ-ҳуқуқларини кафолатланганлиги сифатида тушунишимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабр.//Халқ сўзи, 2020 йил 30 декабр.

6. Абулқосимов Х., Абулқосимов М. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт” Т. 2019 йил “Ноширлик ёғдуси” нашриёти. –Б.78.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.

8. Қобилов Ш.Р. Иқтисодий хавфсизликни таъминлашнинг илмий-назарий асосларини такомиллаштириш: Монография.-Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. 2017 й.-Б. 208.

9. Теория переходной экономики: учеб.пособие / под ред. И. П. Николаевой. – М.: ЮНИТИ: Изд-во полит.лит. «Единство», 2001. – 487 с.

10. Турсунов Б.О. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма.-Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матба уйи, 2021 .-Б.99.

THE ROLE OF THE STATE IN ENSURING THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF YOUTH EMPLOYMENT

Tagaev Bekhzod Anvarovich

Independent researcher of the Higher School of business and entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Measures to regulate youth employment carried out by the State are a set of economic, administrative, organizational, legislative and other measures to influence employment. The state policy on employment regulation is aimed at involving unemployed citizens in labor activity, that is, providing them with jobs, in many ways the state plays the role of an intermediary between an employer and a potential employee. In order to implement this policy, the state conducts a large number of social events, provides access to data on monitoring the situation in the labor sphere (current professions at present and in the medium term, etc.), organizes training, training and retraining of personnel to provide citizens with professional activities in a new specialty that is most in demand on the labor market.

Currently, a number of methods will be applied to regulate the employment of the population, including young people. It is possible to distinguish among them the most priority areas:

1. Development of the personnel of enterprises, compliance of salary expectations with wages, development of the national qualifications framework at the federal and regional levels aimed at improving the efficiency of employment of the population.

2. Improving the efficiency of the vocational education system through high-quality career guidance work.

3. Improving the efficiency of the use of labor resources by creating new jobs for different classes of the population (segmentation of employment).

4. Creating conditions for attracting labor from among labor emigrants, through the organization of advanced training and retraining, as well as through the legalization of emigrant labor.

5. Forecast of the employment situation based on the balance of labor resources, as well as the development of methods of state regulation of employment on this basis.

The implementation of the state employment policy is directly related to effective methods of regulation and structural transformations of the economy [1].

The Roadmap for 2022-2023 for the implementation of the new Country Program on Decent Work in the Republic of Uzbekistan for 2021-2025 covers priority areas that allow applying the

fundamental principles of the ILO, which are implemented by international labor standards and social dialogue to solve the main problems associated with the promotion of decent work. In particular, such as improving the legislative framework in the field of employment and labor relations, expanding employment opportunities and decent work for young people, women and vulnerable groups, labor protection, social protection and inclusive education, strengthening social partnership. The Roadmap has become a kind of the main formula for promoting the principles of decent work in the country and has opened up new opportunities for ensuring the labor rights of citizens in the New Uzbekistan, and it will also contribute to the development of economic opportunities, employment, the creation of new jobs and, most importantly, the sustainable development of the economy, society and the state.

According to representatives of the International Labor Organization, Uzbekistan has become one of the leading partners of the ILO, whose example attracts many countries to cooperation. And the proof of this is the fact that the Decent Work Country Program for Uzbekistan for 2021-2025 fully complies with the Sustainable Development Goals.

The Government of Uzbekistan is reasonably focusing its efforts on solving a large–scale and difficult task - reducing poverty. To date, there are about 1.3 million unemployed people in Uzbekistan. As a result of the measures taken to ensure employment last year, the unemployment rate in the republic decreased from 9.6% at the beginning of the year to 8.9%. 2.7 million people were provided with permanent employment in various fields. More than 4 million people have been sent for seasonal work. This was announced at an expanded meeting of the Committee on Labor and Social Affairs of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis and the Committee on Budget and Economic Reforms of the Senate of the Oliy Majlis. Legal entities have provided employment for 1.33 million citizens, including 305 thousand people through the implementation of new investment projects.

Ensuring employment of the population and improving the welfare of the population by increasing the number of business entities is one of the priority directions of economic reforms in Uzbekistan. The number of enterprises in the regions in 2022 increased by 85 thousand and reached 550 thousand, due to which the number of officially employed citizens increased by 400 thousand and amounted to 5.1 million people. 1.1 million citizens were registered as self-employed, and their total number exceeded 2 million people. During this period, 101 thousand citizens were provided with employment at the expense of individual entrepreneurs and 199 thousand citizens in farms. According to the Statistics Agency, the total number of enterprises and organizations operating in Uzbekistan in 2022 (without farms and dehkan farms) is 592.4 thousand. The greatest growth in the number of business entities was observed in Navoi, Samarkand, Kashkadarya, Surkhandarya, Bukhara and Jizzakh regions[2].

Taking into account the role of industry in economic growth and ensuring the macroeconomic stability of the country, a twofold increase in the number of enterprises should be noted as a positive factor, the share of which reached almost 17.0%. The positive structural changes taking place in the economy are evidenced by the growth in the number of IT enterprises (by 1.9 times) and medical services (by 2 times).

In 2023, the labor market in Uzbekistan has undergone serious changes. The Government and the President of Uzbekistan are doing everything possible to resolve issues that exist in the field of labor relations and the labor market. Special programs are being developed, subsidies are being introduced, specialists are being involved in specific types of work necessary for the economy. Jobs have been created, specialized bodies have appeared that regulate the labor activity of the population, support the unemployed, develop market mechanisms for employment growth among citizens. When studying the unemployment rate in the country, experts and analysts take into account many factors, including the availability of labor resources, the potential of the labor market in Uzbekistan, the demand for specialists in a particular field, the state of industry, agriculture, banking, the level of internal and external migration. Young people make up almost 50% of the potential of the entire working-age population in the country. This suggests that the employment of the population in Uzbekistan has great prospects in terms of formation and development.

Young people play an important role in creating sustainable, inclusive and stable societies and combating serious threats and challenges to sustainable development, including the effects of climate change, unemployment, poverty, gender inequality, conflict and migration. At the same time, the growth of youth unemployment has become one of the most serious problems faced by the economy

and society in the modern world in both developed and developing countries. Youth is an active period of life when a person builds a career, participates in social activities, creates a family. It is assumed that the acquisition of additional skills by young people will facilitate their access to the changing labor market and help them make the right decisions regarding work and life.

Today, there are 1.2 billion young people aged 15 to 24 in the world, which makes up 16% of the world's population. According to experts, in the coming decade it will be necessary to create at least 475 million new jobs for 73 million young men and women who are currently unemployed, and for 40 million people entering the labor market for the first time every year. Vocational training and employment of young people occupy a separate item in the ILO documents in the field of sustainable development for the period up to 2030.

Uzbekistan, being a full member of the international community, carries out large-scale work on educating young people spiritually developed, physically healthy, selfless individuals, protecting their rights and interests, creating decent conditions for finding their place in life, providing them with all possible support, ensuring professional employment, stimulating initiatives.

A lot of government agencies, the relevant ministry and the employment service are engaged in solving the problem of employment in our country. Special attention is paid to young people who, after graduation, have difficulty finding a job. Youth has always been and remains at the center of attention of the state policy of Uzbekistan. Today, large-scale reforms are being carried out in every sphere in our country, work is underway to eliminate urgent problems in society, conditions are being created for the harmonious development and education of young people.

According to statistics, about 20% of unemployed youth have unique abilities to start their own business, but due to certain circumstances, only 5% decide to do so. To solve this problem, it is necessary to develop programs to support youth entrepreneurship. The development of youth entrepreneurship is a powerful tool for combating unemployment, providing ample opportunities for self-employment of the population and creating conditions for increasing jobs [3].

Uzbekistan has created all the necessary conditions for young people to show their talents and abilities, business initiative. The leadership of Uzbekistan pays priority attention to the full support of the younger generation, the radical reform of the system of protection of the rights and legitimate interests of this category of the population. We are all witnessing how educated, modern, strong-willed young people, intelligently using the created opportunities and knowledge, become a decisive force in the development of the country today and tomorrow. And in this, of course, education and vocational training are key factors of success in the labor market.

List of used literature:

1. Дятлов С.А., Селищева Т.А. Регулирование экономики в условиях перехода к инновационному развитию. Монография/С.А. Дятлов, Т.А. Селищева. – М.: Издательство. Инфра–М, 2016. – 246 С.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.
3. Абдурахманов К. Совершенствование рынка труда – ключевой фактор успеха// Биржа #19(3006) 14.03.2023
4. Abdulazizovich A. A. et al. IQTISODIY MUNOSABATLAR SUBYEKTI SIFATIDA UY XO ‘JALIKLARINING MOHIYATINI ANIQLASH //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 16-18.

РЕФОРМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В СФЕРЕ ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

Алимов Темур Эркинович
Сотрудник международного отдела сотрудничества ГулГУ

Аннотация: Сегодня среди реформ в социальной и политической сферах, проводимых странами мира, совершенствование работы по регулированию внешней трудовой миграции признано одной из основных задач, стоящих перед мировым сообществом. Одним из важнейших аспектов является то, что увеличение числа стран, участвующих на внешней

трудовой миграции по сравнению с последними годами, требует большего внимания к данному вопросу.

Данный доклад посвящается периоду после смены власти в Узбекистане (2017-2022-гг.) и включает в себя усилия и проводимые реформы новой власти по координации внешней трудовой миграции и созданию достойных условий для мигрантов.

Ключевые слова. *Трудовая миграция, трудовые мигранты, внешняя трудовая миграция Узбекистана, реформы, законодательство Республики Узбекистан.*

За годы независимости Узбекистан прошел непростой путь развития. От советского периода были унаследованы макроэкономические дисбалансы в экономике, безработица и относительно низкий уровень жизни населения. В начале 90-х годов около 70% населения имели доходы ниже прожиточного минимума. В связи со спадом производства в первые годы реформ ситуация еще более обострилась. За 1991–1996 гг. реальный ВВП сократился более чем на 30%, а уровня 1991 г. он достиг только в 2003 г. Это привело к уменьшению доходов самых низкооплачиваемых слоев населения, они упали как в абсолютных, так и относительных значениях. Тем не менее, Узбекистану, в отличие от ряда других стран СНГ, удалось избежать ещё большего падения производства. В результате реформирования и государственной поддержки ведущих отраслей экономики – промышленности и сельского хозяйства – спад производства в них был преодолен. Только за 2006 – 2008 гг. ВВП Узбекистана увеличился почти в 2 раза. Все это не могло не отразиться на миграции населения.

Глобализация общемировых процессов приводит к усилению открытости стран и интеграции их в мировое сообщество. Она стимулирует не только движение сырья, капитала, финансовых и материальных ресурсов, но и рабочей силы. Активизируется формирование мировых рынков труда, что вызывает рост трудовой миграции. В современных условиях международная трудовая миграция становится неотъемлемой составной частью мировой экономики.

В этих процессах активно участвует Узбекистан, представляющий яркий пример посылающей страны. Трудовая миграция является здесь самым большим миграционным потоком. Как показывают социологические обследования, граждане Республики в основной своей массе не стремятся переехать в другие страны на постоянное место жительства, они предпочитают жить дома, но время от времени выезжать на заработки – на временные, сезонные работы за пределы Республики.

Длительное время большинство трудовых мигрантов Узбекистана в странах СНГ имело преимущественно нелегальный статус, но во второй половине 2000-х годов принимающие страны сделали достаточно эффективные шаги по упорядочению правового оформления мигрантов.

В 2006 г. акция по легализации незаконных мигрантов была проведена в Казахстане. Получить право на трудовую деятельность могли граждане стран СНГ, прибывшие в страну легально до 31 мая 2006 г. и успевшие устроиться на работу.

В 2007 г. ФМС России провела всероссийскую акцию по легализации мигрантов, въехавших в страну до 15 января 2007 г. и находящихся на ее территории с нарушением миграционного законодательства. Легализация касалась только граждан стран СНГ из числа коренного населения, занятых в сферах трудовой деятельности, в которых ощущается дефицит рабочей силы. Это строители, работники жилищно-коммунального хозяйства, транспорта, сельского хозяйства, т.е. именно те виды деятельности, которыми занимаются мигранты из Узбекистана. Лишь за полтора месяца с начала действия программы по легализации разрешение на работу получили более 200 тыс. человек, а численность официально зарегистрированных трудовых мигрантов из Узбекистана в 2007 г. составила в России 344,6 тыс. человек (против 111 тыс. человек в 2006 г.) (По данным ФМС и Госкомстата РФ). На 1 января 2008 г. в России всего было выдано 2136,3 тыс. разрешений на работу иностранным гражданам, в том числе 1821,7 – из государств-участников СНГ. Среди них на первое место и по количеству мигрантов, и по объемам денежных переводов из России вышел Узбекистан.

Уменьшение негативных последствий трудовой миграции возможно при условии более эффективного международного сотрудничества, объединяющего усилия как посылающих, так и

принимающих стран. Узбекистаном в этом направлении уже во второй половине 2000-х годов были сделаны конкретные шаги. Заключен ряд межправительственных соглашений с Российской Федерацией: о трудовой деятельности и защите прав трудящихся-мигрантов; о сотрудничестве в борьбе с незаконной миграцией; о реадмиссии.

Данные соглашения были достигнуты 4 июля 2007 г. и утверждены Постановлением Президента Узбекистана от 31 октября 2007 г. В России они были ратифицированы в мае 2009 г.

Несмотря на то, что в результате принятых мер в принимающих странах доля трудовых мигрантов из Узбекистана, получивших официальное разрешение на работу, значительно выросла, тем не менее, проблема правового оформления мигрантов окончательно не была решена.[1]

Исследования показывают, что миграционный процесс имеет тенденцию к нарастанию и уменьшению в определенные периоды времени и оказывает положительное, отрицательное, а при необходимости и политическое влияние на общественную жизнь определенной территории, страны или региона.

Вопрос регулирования внешней трудовой миграции важен для Узбекистана, а прошедшие годы ознаменовались избеганием её обсуждения. В связи со сменой власти и обновлением внутренней и внешней политики в Узбекистане, наблюдаются позитивные изменения в этом направлении. Отношение официальных лиц, СМИ, ННО к вопросу трудовой миграции изменилось, мигранты стали восприниматься как частичка Узбекистана за рубежом, с которой нужно говорить. При этом, систематизированный и слаженный механизм связи с трудовыми мигрантами все ещё на стадии формирования, работа в этом направлении весьма актуальна.[2]

В последние годы в Узбекистане были осуществлены масштабные реформы в области регулирования внешней трудовой миграции. Акцент делается на создании множества возможностей и условий для граждан, работающих за границей, с созданием прочной правовой базы.

- 5-марта 2018 года был принят постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по обеспечению безопасности граждан Республики Узбекистан во время их выезда на транспорте за пределы республики для осуществления временной трудовой деятельности»;
- 25-мая 2018 года был принят постановление Президента Республики Узбекистан «Об открытии зарубежных представительств Агентства по внешней трудовой миграции при Министерстве занятости и трудовых отношений Республики Узбекистан»;
- 12-сентября 2018 года был принят постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию и коренному пересмотру системы организованного трудоустройства граждан Республики Узбекистан за рубежом»;
- 20 августа 2019 года был принят указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему усилению гарантий защиты граждан Республики Узбекистан, осуществляющих временную трудовую деятельность за рубежом и членов их семей»;
- 23-августа 2019 года был принят постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по защите прав и законных интересов граждан Республики Узбекистан, осуществляющих временную трудовую деятельность за рубежом»;
- 11 августа 2020 года был принят постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах, направленных на привлечение к предпринимательству, повышение трудовой активности и профессиональное обучение бедных и безработных граждан, а также обеспечение занятости населения»;
- 13 августа 2020 года был принят закон Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О частных агентствах занятости»»;
- 15-сентября 2020 года был принят постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по внедрению системы безопасной, упорядоченной и легальной трудовой миграции»;
- 30-июля 2021 года был принят постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по поощрению граждан, выезжающих в организованную трудовую миграцию за рубеж»;

- марта 2022 года был принят постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по поддержке граждан Республики Узбекистан, осуществляющих временную трудовую деятельность за рубежом, и членов их семей».[3]

В частности, принятие постановления Президента Республики Узбекистан от 5 июля 2018 года № 3839 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы внешней трудовой миграции» показывает, что необходимо уделять внимание таким важным вопросам, как регулирование процессов внешней трудовой миграции, заключение международных договоров на осуществление трудовой деятельности граждан за рубежом, создание благоприятных условий для обеспечения их безопасного прибытия на места работы за пределы республики.

При этом стоит отметить, что в последние годы в рамках принимаемых государством мер по совершенствованию и регулированию политики внешней трудовой миграции коренным образом изменилось отношение к гражданам, работающим за границей, налаживается диалог с трудовыми мигрантами, была введена работа в новой системе для изучения и решения их проблем и потребностей. В частности, Министерством занятости и трудовых отношений создан фонд поддержки и защиты прав и интересов лиц, работающих за рубежом, в целях оказания практической помощи гражданам Узбекистана, осуществляющим внешнюю трудовую миграцию.

На сегодняшний день за счет средств этого фонда оказывается помощь более чем тысяче граждан, ведется практическая работа по возвращению трудовых мигрантов на родину, находящихся в трудной жизненной ситуации за границей, оказанию им юридической помощи, в том числе по взысканию невыплаченной заработной платы с работодателей. В частности, к таким мероприятиям относятся страхование жизни и здоровья трудовых мигрантов, выделение ипотечных кредитов членам их семей, субсидирование транспортных расходов граждан, выезжающих за границу на временную работу, а также в целях обеспечения занятости возвращающихся трудовых мигрантов реализуются масштабные проекты по предоставлению субсидий работодателям на покрытие расходов на профессиональное обучение безработной молодежи и женщин, обучение желающих работать за границей востребованным профессиям. На основе опыта Корейского агентства международного сотрудничества (KOICA) по подготовке безработных к профессии с помощью моноцентра «Ишга Мархамат» («Приглашаем на работу») и его региональных отделений создана практическая система обучения внешних трудовых мигрантов иностранным языкам, профессиям и законам зарубежных стран.

Кроме того, Министерство труда предоставляет субсидии работодателям, нанимающим на работу людей, нуждающихся в социальной защите, даются субсидии безработным, желающим начать свое дело, а также тем, кто развивает собственное фермерское хозяйство, осуществляется исчисление трудового стажа и предоставление пенсионных прав лицам, прекратившим работу в иностранной трудовой миграции и являющимся самозанятыми, были созданы представительства Агентства по вопросам иностранной трудовой миграции, в крупных городах Российской Федерации и Республики Казахстан, часто посещаемых узбекскими трудовыми мигрантами, через которые реализуются меры, направленные на поддержку деятельности трудовых мигрантов за рубежом. В частности, в рамках изучения и анализа этих вопросов изучаются аналитические данные о результатах, проблемах, причинах внешней трудовой миграции и ожидаемых будущих ситуациях.

Последние и знаковые изменения в сфере внешней миграции связаны с внедрением системы по оказанию материальной поддержки трудовым мигрантам. Они могут рассчитывать на компенсацию различных расходов, связанных с трудоустройством и помощь после возвращения на родину. Более детальный учёт мигрантов по полу, семейному положению, социальной принадлежности и по другим показателям позволит систематизировать статистику по различным группам мигрантов (женщин, многодетных семей, семей, утративших кормильца и т.п.), наиболее нуждающихся в дополнительной поддержке. Адресный подход позволит поднять на новый уровень деятельность уполномоченных органов и улучшить экономическое положение особых групп мигрантов в первую очередь.

Реформа миграционной политики изменила структуру системы миграции, появились новые государственные (зарубежные представительства агентства, фонд материальной

поддержки трудовых мигрантов) и негосударственные институты (частные агентства занятости). Последние позволяют снизить нагрузку агентства внешней трудовой миграции, но вопрос эффективности их деятельности остаётся открытым. Изменение подхода к работе с потенциальными мигрантами, добросовестное выполнение своих обязанностей должностными лицами, а также надлежащий контроль над деятельностью ЧАЗ позволит выстроить более качественную систему.

Список литературы и источников:

1. Людмила Максакова – «Узбекистан в системе международных миграций» - Демоскоп weekly ISSN 1726-2887, Электронная версия бюллетеня «Население и общество» Институт демографии Государственного университета - Высшей школы экономики, 07.05.2010 г.

URL: http://www.demoscope.ru/weekly/2010/0415/analit03.php

2. Мадина Абдуллаева – «Новые механизмы регулирования внешней трудовой миграции Узбекистана» - Central Asian Bureau of Analytical Reporting, 2022. URL: https://longreads.cabar.asia/labour_m_uz

3. Lex.uz – Нормативна-правовая база Республики Узбекистан

URL: https://www.lex.uz/ru/

4. Министерство занятости и трудовых отношений Республики Узбекистан.

URL: https://mehnat.uz/ru

5. Агентство по внешней трудовой миграции при Министерстве занятости и трудовых отношений Республики Узбекистан.

URL: http://migration.uz/

6. Моноцентр «Ишга мархамат» («Приглашаем на работу»).

URL: https://monomarkaz.uz/

7. Министерство иностранных дел Республики Узбекистан.

URL: https://www.mfa.uz/ru/

VILOYATDA ISHLAB CHIQARISH VA FAN INTEGRATSIYASINI YANADA RIVOJLANTIRISH

PAXTANI MAYDA IFLOSLIKDAN TOZALASH MASHINASINI TAKOMILLASHTIRISH

Xodjiyev Muksin Tadjiyevich, Isayev Shaxbozbek Shavkatjonovich
1Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mikrorayon.
2Namangan to‘qimachilik sanoat instituti, 160115. Namangan viloyati, Namangan shahar, Janubiy aylanma yo‘l, ko‘chasi 17-uy.
E-mail:m.xojiyev@titli.uz

Paxta tozalash korxonalaridagi texnologik jarayonlarga o‘rnatilgan jihozlarning samaradorligini oshirishda, ularning uzluksiz ishlashini ta’minlovchi xomashyoning tarkibi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Paxta xomashyosi tarkibidagi og‘ir aralashmalar qayta ishlash vaqtida jin va linter mashinalarining arra tishlarini shikastlanishiga, chang va tuproqlar mashinalarning moylanuvchi detallarini ancha tez ishdan chiqishiga hamda organik ifloslikiar esa tola sifatini pasayishiga olib keladi.

Paxta xomashyosini mayda ifloslikiardan tozalash muhim jarayon hisoblanib, uni keyingi bosqichda qayta ishlash, ya’ni jinlash va tolani tozalash jarayonlariga katta ta’sir etadi. Agar mayda ifloslikiar yetarli darajada tozalanmasa u passiv ifloslikdan aktiv ifloslikga o‘tadi va tola tozalagichda ajratilishi qiyinlashadi. Paxta xomashyosidan mayda ifloslikiarni ajratuvchi barcha tozalagichlar bir xil yo‘sinda ishlaydi, ya’ni paxta xomashyosi qoziqli barabanlarda titkilanib to‘rli sirtlar orqali harakatlantiriladi. Bu jarayon bir necha marotaba takrorlanadi va paxta xomashyosi mayda ifloslikiardan tozalanadi. Tozalanish samaradorligi qoziqli barabanlar aylanish soniga, to‘rli yuzasiga va paxta xomashyosining sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liq.

Hozirgi paytda paxta xomashyosini mayda ifloslikiardan tozalovchi tozalagichlarni yig‘ishni osonlashtirish uchun tarkibida bir juft qoziqli plankali baraban bo‘lgan EN.178 rusumli bo‘linma ishlatiladi. Bu bo‘linmalardan to‘rttasi yig‘ilib 1XK rusumidagi (1-rasm) sakkiz barabanli tozalagich ishlab chiqarildi.

EN.178 bo‘linmalarning qulayligi ulardan foydalanib hohlagan sonli qoziqchali plankali barabanga ega mayda ifloslikiardan tozalovchi tozalagich hosil qilinishi mumkin. Bu bo‘linmalardan UXK agregatida ham foydalanilgan. Uzoq yillardan buyon paxta xomashyosini mayda ifloslikdan tozalovchi tozalagichlarida bir xil qoziqchali plankali barabanlar ishlatilinib kelinayapti.



1-boshlang‘ich me’yorlashtirilgan qoziqli bo‘lim EN. 178.01 (ta’minlovchi valiklar bilan); 2, 4-ustun, 3-me’yorlashtirilgan qoziqchali plankali bo‘lim EN.178.02, 5-bunker.

1-rasm. 1XK tozalagich.

U (2-rasm) val 1, disk 2, qoplamadan 3 tashkil topgan. Qoplama 3 qobirg‘asimon bo‘lib, bu qobirg‘alarning o‘rtasiga 150 mm qadamlarda 75 dona qoziqlar payvandlangan.

Barabanda qoplamalar soni to‘rtta. Shu hisobdan barabanda jami 300 dona qoziq bor. Qoplamalar disklarga va bir biriga bolt-gaykalar yordamida mahkamlangan. Ular mahkamlangan joyda baraban perimetri bo‘yicha planka hosil bo‘lgan. Shu munosabat bilan bu tozalash barabanlari qoziqchali plankali baraban deb nomlangan. Bu barabanlarning asosiy kamchiligi ularni tayyorlash texnologiyasining murakkabligi va ekspluatatsiya jarayonida qoziqlarning qobirg‘alarga payvandlangan joydan ajralib ketishi oqibatida tez-tez almashtirilishidir.



1-val, 2-disk, 3-qobiq, 4-qoziq, 5- bolt, 6 - bolt, gayka, shayba.

2-rasm. Qoziqchali plankali baraban.

Qoziqlar tez-tez almashtirilishi oqibatida qoplama o‘z holatini yo‘qotadi va uni ham alamashtirish zarur bo‘ladi. Undan tashqari qobirg‘alarda hosil bo‘lgan teshiklardan baraban bo‘shlig‘iga iflosliklarning kirishi oqibatida barabanning dinamik muvozanati buziladi va baraban vali podshipnik o‘rnatilgan qism yeyiladi, podshipnik ishdan chiqadi. Bu holatlar esa ekspluatatsiya xarajatlarining oshishiga sabab bo‘ladi.

Har bir baraban tagida to‘rli yuza uzunligi bo‘yicha baraban aylanishida alohida qoplamalarning birlashish joyida ventilyatorlar parraklaridagi kabi hosil bo‘ladigan havo oqimi paydo bo‘lishi tufayli to‘rli yuzaning boshlanish segmentida havo tashqariga puflanadi va iflos aralashmalarning ajralishiga yordam beradi, keyingi segmentda havo tortiladi va iflos aralashmalarning ajralishini qiyinlashtiradi. Buning oqibatida ushbu qoziqchali plankali tozalash barabanlarda “ventilyator effekti” sodir bo‘ladi.

1XK rusumli paxta tozalagichining kamchiligi shundan iboratki etarli tozalash samarasiga olib chiqish uchun ko‘p marta takroroiy ishchi organlarni ishlatilashi, bu esa tola va chigitni shikastlanishini oshiradi; hamma ishchi organlar bir xil o‘lchamda, bir xil rejimda monoton ishlaydi, bu paxtani yaxshi titmaydi, hamda tozalash samarasi yuqori emas.

Amalga oshirilgan tahlillar natijalariga ko‘ra mavjud paxta tozalash mashinalarida texnologik ta’sirlar ko‘p, paxtani shikastlanish darajasi yuqori va eshilgan tolalarning ulushi oshib ketgan. Shu muammoni hal qilish maqsadida yangi mayda iflosliklardan tozalash uskunasining ishchi barabani qoziqchalari almashuvchan va ishchi qismi asosidan boshlab, konus shaklida ingichkalashib boradigan qilib tayyorlangan.

Shuningdek, baraban yaxlit tsilindr shaklida, uning qoziqchalari ishchi qismi konus shaklida tarkibli va almashuvchan qilib tayyorlangan. Bu xolat uskunaning ta’mirlanuvchan bo‘lishini va ishlash muddati oshishini ta’minlaydi. Qoziqcha konus asosi amaldagi qoziqchalar diametriga, balandligi esa amaldagi qoziq uzunligiga teng qilib ishlangan.

Qoziqcha konusli qilib tayyorlangani uchun tozalash jarayonida paxtaga tushadigan zarba kuchi to‘g‘ri qoziqdagiga nisbatan α burchak ostida to‘rga tomon yo‘naladi (3-rasm). Zarba kuchi, og‘irlik kuchi va markazdan qochma kuch ta’sirida paxta to‘rli yuzaga uriladi. Paxta elastik material bo‘lgani uchun to‘rga urilganda deformatsiyalanadi va tezda dastlabki holiga qaytadi, ya’ni paxtada titrash holati yuz beradi. Buning natijasida paxta yuzasida bo‘lgan iflosliklar undan ajraladi. So‘ngra, paxtaga navbatdagi qoziqcha uriladi va jarayon qaytariladi. Qoziqchaning ishchi qismi o‘lchami (diametri) amaldagidan kichik bo‘lgani uchun zarba nisbatan intensiv bo‘ladi. Shuningdek, uning o‘lchami kichik bo‘lishi qoziqchaning ifloslik zarrachalariga urilish ehtimoli kamayadi. Natijada ifloslik zarrachalarining maydalanib, tola orasiga kirib ketish holatlari ham kamayadi.

Paxta to‘r yuzasida bo‘lgani uchun uning ost qismi to‘rga ilashadi, so‘ngra og‘irlik markazdan qochma va ishqalanish kuchlari ta’sirida to‘r bilan kontaktda bo‘lgan qismi tormozlanadi, yuqori qismi esa zarba kuchi ta’sirida paxtani harakatlanishga majbur qiladi. Bu kuchlar ta’sirida paxtani og‘irlik markazi atrofida aylanishga majbur qiladigan kuch momenti yuzaga keladi va paxta to‘r ustida yumalaydi, ya’ni aylanma harakat qiladi. Natijada paxtaning to‘r bilan ta’sirlashmagan tomoni ham to‘r bilan ta’sirlashadi. Bu hol paxtaning barcha yuzasi to‘r bilan ta’sirlashuvini va yuqori darajada tozalanishini ta’minlaydi.



3-rasm. Taklif etilayotgan almashuvchan konus uchli qoziqchalarga ega bo‘lgan ishchi baraban.

Qoziqchalar diametri kichik bo‘lgani uning ifloslik bilan kamroq, lekin intensivroq, paxta massasi bilan esa ko‘proq va intensiv ta’sirlashuvini ta’minlaydi. Bu holat ham paxtaning yanada kuchliroq tozalanishiga olib keladi.



4-rasm. Turli xil shakldagi qoziqchalar ko‘rinishi.

4-rasmda ishchi yuzalari (qoziqcha uchi) turli shakldagi qoziqchalar tasvirlangan bo‘lib, diametri 12 mm li ishchi yuzaga ega bo‘lgan amaldagi qoziqchalarga qaraladigan bo‘lsa, qoziqchalar diametri katta bo‘lgani uning ifloslik bilan ko‘proq, lekin past intensivlikda ta’sirlashuviga sabab bo‘ladi. Ammo bunda qoziqchalar mustaxkamligi yuqori darajada bo‘ladi.

Bizning dastlabki tadqiqotlarimizda qoziqchalarning ishchi zonasidan diametrini 2 mm gacha ingichkalashtirildi. Bunda, diametri 2 mm li ishchi yuzaga (qoziqcha uchiga) ega bo‘lgan qoziqchalar xomashyodagi ifloslik bilan kamroq, lekin intensiv, paxta massasi bilan esa ko‘proq va intensivroq tasirlashadi lekin, mantiqan qaraganda qoziqchalar mustaxkamligi past darajada bo‘ladi. Shuning uchun, tadqiqotlarimizda qoziqchalarning kerakli mustaxkamligini ta’minlash masalasini hal etish zarur bo‘ladi.

Diametri 6 mm li ishchi yuzaga (qoziqcha uchiga) ega bo‘lgan qoziqchalar xomashyo iflosligi bilan kamroq, lekin intensiv, paxta massasi bilan esa ko‘proq va intensiv ta’sirlashuvini ta’minlaydi va qoziqchalar mustaxkamligi xam yuqori darajaga ega bo‘ladi. Bu holat ham paxtaning yanada kuchliroq tozalanishiga olib keladi. Shuning uchun, navbatdagi tadqiqotlarga ishchi zonadagi diametri 6 mm bo‘lgan qoziqchalar tanlandi. Shuningdek, baraban yaxlit tsilindr shaklida, uning qoziqchalari tarkibli va almashuvchan qilib tayyorlandi. Bu holat uskunaning ta’mirlanuvchan bo‘lishini va ishlash muddati oshishini ta’minlaydi. Qoziqcha konus asosi amaldagi qoziqchalar diametriga, balandligi esa amaldagi qoziq uzunligiga teng qilib ishlangan [1].

Nazariy tadqiqotlar natijalariga asosan, ishchi barabanning bitta qatorida o‘rnatiladigan qoziqchalarning ratsional soni 43 ta ekani aniqlangan. 5-rasmda amaldagi va taklif etilayotgan ishchi barabanlarning bir qatorda joylashgan qoziqchalari soni va orasidagi masofa ko‘rsatilgan.

N=38



5-rasm. Bir qatorda joylashgan qoziqchalar ko‘rinishi.

Tahlillarga ko‘ra, bir qatorda joylashgan qoziqchalar diametrini kamaytirib, ular sonini 38 tadan oshirib borilganda tozalash samaradorligi oshishi va qoziqchalar soni 43 tadan oshirilganda tozalash samaradorligi o‘zgarishsiz qolishi nazariy jihatdan asoslab berildi. Qoziqchalar orasidagi masofa esa amaldagi ishchi barabanda 26 mm ni, konus uchli qoziqchalarga ega bo‘lgan ishchi barabanda 23 mm ni tashkil etdi. Bu esa paxta xomashyosini tozalash samaradorligini oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi [2-3-4].

6-rasmda konus uchli, almashuvchan qoziqchaning sxemasi va umumiy ko‘rinishi tasvirlangan bo‘lib, qoziqchalarning balandligi amaldagi qoziqchalarning balandligiga teng (75 mm), uning asosi 12 mm ga uchi esa 6 mm li qilib ishlangan. Qoziqcha asosining 25 mm qismiga ishchi barabanning qoplamasiga uni gayka va shayba yordamida mahkamlash uchun rezba ochilgan.



6-rasm. Konus uchli almashuvchan qoziqcha ko‘rinishi.

7-rasmda paxta tozalash qurilmasining konus uchli almashuvchan qoziqchalarga ega bo‘lgan ishchi barabanlari foto tasviri keltirilgan. Ishchi baraban 4 ta qoplamadan tashkil topgan, xar bir qoplamada 2 qatordan konus uchli almashuvchan qoziqchalar joylashgan bo‘lib, qoplamalar bir-biriga va ishchi baraban asosiga bolt yordamida mahkamlangan. Qoplamalarning o‘zaro birikkan qismida plankalar xosil bo‘lib, ishchi barabanda jami 8 ta qoziqchali 4 ta plankali qator shakllangan.

7-rasm. Konus uchli almashuvchan qoziqchalarga ega bo‘lgan ishchi baraban ko‘rinishi.

Paxta tozalash qurilmasi Namangan viloyatidagi Chortoq mexanika zavodida tayyorlandi va ko‘chma qilib g‘ildirakli asosga o‘rnatildi. U universal bo‘lib, uni paxtani g‘aramlashdan oldin tozalash uchun hamda quritish-tozalash sexida yoki bosh binoda paxtani amaldagi texnologiyaga qo‘shimcha tozalagich sifatida kiritgan holda ishlatish mumkin.

8-rasm. Paxta tozalash qurilmasiga o‘rnatilgan ishchi baraban ko‘rinishi.

8-rasmda konus uchli almashuvchan qoziqchalarga ega bo‘lgan ishchi barabanning paxta tozalash qurilmasiga o‘rnatilgan holati tasvirlangan. Yuqoridagi tasvirda qoziqchali barabanlarning yonma-yon joylashgan, pastdagida esa ta’minlovchi valiklar ostida joylashgan holati tasvirlangan. Ularga e’tibor bersak, ishchi baraban va ta’minlash valiklarining joylashuvi tozalagichning avvalgi konstruktsiyasidan farq qilmasligini ko‘rishimiz mumkin. Almashuvchan va konus uchli qoziqchalar universal bo‘lib, ularni 1XK va UXK mashinalari qoziqli barabanlariga ham o‘rnatish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. UZ FAP 2021/0071 (M.T.Xojiev O.Sh.Sarimsakov Sh.Sh.Isayev va boshqalar,) raqamli mualliflik guvoxnomasi.

2. E.E.Gaybnazarov, M.T.Xodjiyev, SH.Isayev, F.Sirojiddinov, N.Sattarov. Modeling the Process of Separation of Small Contaminants into the Stream of Raw Cotton Moving in the Area of Treatment. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology,USA December 2018 Vol. 5, Issue 12, pag 7481-7487.

3. Sh.Sh.Isayev. I.Muxsinov. Paxta tozalash mashinalarini tolaning xususiyatlariga ta’siri. NamMTI Ilmiy-Texnika jurnali, Namangan 2021, Tom 6, № Maxsus son 1, 172-179 b**.**

4. M.T.Xojiyev, E.E.G‘aybnazarov. Tavsiya etilgan qurilmaning yangi texnologik parametrlarida tozalash jarayonidan olingan natijalarining amaliy va nazariy tahlili. TTESI.Xalqaro ilmiy amaliy anjumani.2019.

Guliston davlat universiteti rektori, t.f.d., professor
texnika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
St. Shoxjaxon, 5, 100000, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi
e-mail: baxrinjom@mail.ru;

Annototsiya *Maqolada kompozitsion materialdan tayyorlangan panjarali, poliamid matritsali va bazalt tolali plomba bilan mualliflar tomonidan taklif qilingan panjaraning ishlashi muhokama qilinadi. Eksperimental panjara panjaralari chiziqli bo'lmagan qat'iylikka ega elastik kauchuk tayanchlarga o'rnatiladi. Cheklangan elementlarni modellashtirish asosida paxta tozalagich panjarasining katta axlatdan erkin tebranish shakllari va tabiiy chastotalari tahlili o'tkazildi. Birinchi 12 ta tabiiy chastotalar 2,579 dan 2,692 Gts gacha bo'lgan tor diapazonda joylashganligi ko'rsatilgan. Bu panjaraning dizayn xususiyatlari bilan izohlanadi. Ishlash vaqtida panjara 45...75 Gts chastotali majburiy tebranishlarni amalga oshirishi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar*: paxta tozalash, panjara, elastik tayanch, chiziqli bo'lmagan qattiqlik, tabiiy chastotalar, tebranish rejimlari, chekli element1***.**

Kirish.

So'nggi yillarda polimer kompozitsion materallarning sifati, barqarorligi va narxi yaxshilanib bormoqda. Hozirgi vaqtda ular asosida nafaqat sanoat soxasida, balki maxsulotlarni qayta ishlash va paxtaga dastlabki ishlash jarayonlarida xam keng qo'llanilib kelinmoqda.

Paxta tozalash zavodlarida paxta xomashyosi dastlab mayda va yirik chiqindilardan tozalagichlar yordamida ikki bosqichda tozalaniladi [1]. Yirik iflosliklarni tozalash agregatining asosiy ishchi qismlari arrachali baraban va kolosnikli panjara hisoblanadi. Kolosnikli panjaralar mashinaning yon devorlariga mahkamlangan bo'lib, o'ziga xos tebranish chastotalariga ega tizimdir.

Shuning uchun uni yaxlit birlashtirilgan parametrlarga ega bo'lgan bir massali model sifatida tahlil qilish va olingan natijalar [2-4] juda qo'pol taxmindir. Panjaraning tabiiy tebranish chastotalarining butun spektrini aniqroq aniqlash uchun eng zamonaviy ANSYS Mechanical APDL tizimida Modal tahlil turidan foydalangan holda modellashtirish maqsadga muvofiqdir [5].

Dastlab ANSYS dasturi uchun kolosnikli panjaraning geometrik modeli qurildi. Panjara beshta bir xil qismdan iborat, shuning uchun, rasmda ko'rsatilgan tahlilda bitta bo'lim ishlatiladi 1-rasm.

Bu yon devorlarga maxkamlagich 1; po'latdan tashkil topgan panjarani muvozanatda ushlagich 2 dumaloq prut; oraliq tayanchlar 3, kompozitsion plastmassali kolosniklarga biriktirilgan; 4 yangi polimer kompozitsion materalli kolosnikli panjaralar, ular dumaloq ko'ndalang kesimli kompozit materialdan tayorlangan. b-panjaralari kattalashtirilgan rasmda ko'rsatilgan elastik kauchuk vtulkalar 5 orqali ramkaga o'rnatiladi [6].



a b

1 a va b-rasm. Kolosnikli panjaraning geometrik modeli

Hisob-kitoblarni amalga oshirayotganda, ramka modeli uchta koordinata bo'ylab harakatlanishi xisobga olinmagan ya'ni yon devorlar Z o'qi bo'ylab harakatlanish taqiqlandi. Ushbu mahkamlash sxemasi panjaraning haqiqiy mahkamlanishiga mos keladi. Barcha strukturaviy elementlar uchun elastik izotrop material modeli ishlatilgan. Ramka materiali uchun elastik modul E q $2 \cdot 10^{11}$ Pa, Poisson nisbati 0,3, zichligi 7800 kg/m^3, bu po'latning parametrlariga mos keladi. Panjaraning elastik moduli

Eq1,4·10^9 Pa, Puasson nisbati 0,4, zichligi 900 kgG‘m^3 bo‘lgan bazalt tolalari bilan mustahkamlangan strukturaviy poliamid asosidagi kompozit materialdan tayyorlanadi. Kauchuk vtulkalar uchun elastik modul Eq10^6 Pa, Puasson nisbati 0,4, zichligi 1000 kg/m^3. Ularning ishlashi davomida kauchuk vtulkalar konstruktiv nochiziqlikka ega bo‘lib, bu chekli elementlarni modellashtirishda hisobga olinadi. Model yon tomoni 1 sm bo‘lgan tetraedral shaklning chekli elementlariga bo‘lingan. Unga chekli elementlar to‘ri qo‘yilgan modelning bir qismi 2-rasmda ko‘rsatilgan [7-10].



2-rasm. Cheklangan elementlar tarmog‘ining bo‘lagi

Tizimning 0 dan 50 Gts gacha bo‘lgan 12 ta tabiiy chastotasi. Hisoblash natijalari 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Panjaraning 12 ta tabiiy chastotasini hisoblash natijalari

Birinchi ustun garmonik raqamni, ikkinchi ustun esa mos keladigan chastotani beradi. Hisoblash natijalariga ko‘ra, barcha chastotalar 2,579 dan 2,692 Gts gacha bo‘lgan juda tor diapazonda joylashgan. 4-rasmda mos keladigan chastotalar uchun tebranish shakllari ko‘rsatilgan.



a b v



g d e



j z i



k l m

4-rasm. Tabiiy chastotalarga mos keladigan panjara tebranish shakllari

Rasmdagi chastotalar nima uchun bir-biriga juda yaqin joylashganligini tushunishga imkon beradi. Panjara 4 ta bir xil oraliqlarga bo‘lingan beshta bir xil panjaradan iborat. Hisoblash natijasida aniqlangan chastotalarning har biri gorizontal yoki vertikal tekislikdagi mos keladigan oraliq uchun birinchi tebranish rejimini ifodalaydi. Nazariy jihatdan, bu chastotalar bir-biriga mos kelishi kerak. Mavjud bo‘lgan kichik tafovutlar o‘rta va tashqi oraliqlarni mahkamlashning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, o‘rtada yoki yukni yon devorlar va oraliq tayanchlarning muvofiqligidagi farq bilan bog‘liq. Tadqiqotlarda ko‘rsatilgandek [11, 12], kolosnikli panjara ishlash vaqtida qayta ishlanayotgan paxtaning tasodifiy ta’siridan kelib chiqadigan majburiy tebranishlarni hosil qiladi. Bu chastotalar 45...75 Gts oralig‘ida bulishini kurish mumkin, bunda eng katta tozalash effektiga erishiladi. Ular panjaralarining erkin tebranish chastotalari bilan mos kelmaydi. Ya’ni, panjara rezonansdan uzoq rejimlarda ishlaydi [13-15].

XULOSA

Aniqlanishicha, UXK paxta tozalagich kolosnikli panjarasining majburiy tebranishlari, paxtani yirik chiqindilardan tozalashda paxta ta’sirida sodir bo‘ladi. ANSYS Mechanical APDL muhitida chekli elementlarni modellashtirish natijalaridan olingan panjaraning tabiiy tebranish chastotalari majburiy tebranish chastotalaridan pastroq bo‘lib, rezonansli ish rejimining paydo bo‘lish ehtimolini kolosnikli panjaradan yo‘q qiladi.

Adabiyotlar:

1. Murodov, O. (2019). Perfection of designs and rationale of parameters of plastic Koloski.
2. Khojiev, M. T., Juraev, A. D., Murodov, O. D., & Rakhimov, A. K. (2019). Development of design and substantiation of the parameters of the separator for fibrous materials. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, *8*(2), 5806-5811.
3. Khodjiev, M. T., Murodov, O. J., & Eshmurodov, D. (2020). Creation of Scientific-Based Construction of the Separator with Insulation Camera. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, *9*(4), 3231-5.
4. Khojiev, M. T., & Murodov, O. J. (2019). Researches Gained in Process with Developed CC-15A Separator. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, *6*(4), 8735.
5. Khodjiev, M. T., Murodov, O. J., Eshmurodov, D. D., & Eshnazarov, D. A. (2020, May). Tests in the insulating cameras of the improved separator. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 862, No. 3, p. 032025). IOP Publishing.
6. Patent, R. U. (2019). № 2701220. *Separator khlopkasyrtsa/O. Zh. Murodov, MT Khozhiev, A. Rakhimov i dr*, *19*.
7. Khodjiev, M., Abbazov, I., & Karimov, J. (2021). Influence of Local Resistance on Pressure and Speed Changes in Expanded Pneumatic Conveying. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 304, p. 03016). EDP Sciences.
8. Муродов, О. Ж. (2018). Разработка конструкции и обоснование параметров вибрационного пластмассового колосника очистителя хлопка от крупного сора.
9. MURODOV, O., JURAEV, A., PLEKHANOV, A., & TASHPULATOV, D. (2022). Influence of parameters of a plastic multi-face grate on elastic supports in a cotton cleaner on the frequency of system vibrations and the effect of cleaning fiber mass from weed and hardimpurities. *proceedings of higher education institutions*, *171*.
10. Khodjiev, M. T., Eshmurodov, D. D., & Ortiqova, D. A. (2021, December). Study on the development of improved routing technology of CC-15A cotton separator. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 939, No. 1, p. 012070). IOP Publishing.
11. Муродов, О. Ж., Рудовский, П. Н., & Корабельников, А. Р. (2022). Определение собственных частот и форм свободных колебаний колосниковой решетки очистителя хлопка-сырца. *Технологии и качество*, (1), 55.

12. Murodov OJ, Tashpulatov DS, Juraev A, Gafurov JK. Design development and parameters calculation methods of plastic diamond pattern bars on resilient supports in ginning machines. InAegean International Textile and Advanced Engineering Conference (AITAE 2018) IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 2019 (No. 459, p. 1).

13. Муродов О. Ж. РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИИ И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ ВИБРАЦИОННОГО ПЛАСТМАССОВОГО КОЛОСНИКА ОЧИСТИТЕЛЯ ХЛОПКА ОТ КРУПНОГО СОРА// Диссертация. Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности. 2018 г. 154 с.

14. Khodjiev, M., Ashurov, A., & Rakhimov, K. (2022, December). Substantiation of the parameters of modernized cotton bundle disassembler machine with the working drum with a curved peg and a flexible element. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1112, No. 1, p. 012046). IOP Publishing.

15. Abbazov, I., Khodjiev, M., Salimov, A., & Egamberdiyev, F. (2023, March). Investigation of air velocity in expanding and contracting pipes for the transport of fibrous materials. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1142, No. 1, p. 012101). IOP Publishing.

IKKI QARAMA-QARSHI QUVURDAN KELAYOTGAN HAVO VA TOLALI ARALASHMANI O‘ZARO XARAKATLANISHINI HISOBLASH

M.T. Xodjiyev, O.N.Alimov
1. Gusliston Davalar universiteti rektori, t.f.d., professor.
2. Jizzax politexnika instituti dotsenti, PhD.

Ma’lumki, paxtani qayta ishlash texnologik jarayonida havo oqimidan juda keng foydalaniladi. Ayniqsa, paxtani tashish jarayonida, tolani tashish jarayonida hamda texnologik jarayonlardan ajralib chiqayotgan chiqindilarni tashishda havo oqimidan juda keng foydalaniladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha texnologik jarayonlardan ajralib chiqayotgan havo oqimi va uning tarkibidagi tolali iflosliklarni ajratib olish muammosi nihoyatda dolzarb muammo bo‘lib, uni yechimini topish nihoyatda muhimdir [1].

Ushbu muammoni yechimini topishda biz tomonimizdan qarama-qarshi yo‘naltirilgan havo oqimini bir-biriga ta’sir etish kuchi asosida havo tarkibidagi og‘ir zarrachalarni tezligini keskin kamaytirish asosida ularni ajratib olish texnologiyasini yaratishga qaratildi [2].

Ushbu jarayonni nazariy tadqiqini yaratish muhim vazifalardan biridir. Buning uchun ushbu jarayonni ikki qarama-qarshi quvurdan kelayotgan havo va tolali aralashmani o‘zaro harakatlanish qonuniyati tarzida ko‘rib chiqamiz. Unda asosan 1-rasmda keltirilgan texnologik sxemaga asosan ushbu masalani nazariy tadqiqini ko‘rib chiqamiz [3].

Gorizontal holatda joylashgan ikki quvurdan aralashma harakati jarayonida bir-biriga urilib, 1-rasmda keltirilgan sxemada ko‘rsatilganidek, yuqori va quyi vertikal quvurlar bo‘ylab tarqaladi. Qarama-qarshi oqimlar urilishi natijasida, ularning urilish nuqtasi E atrofida oqimning turg‘un holati hosil bo‘ladi (2, 3-rasmlar). Natijada muallaqlikning yuzaga kelishidagi 2-rasmdagi holati (C_0ED_0) ikki muhit oqimining G_z simmetrik holati 2.3-rasmda tasvirlangan sxema asosida tadqiqot ishlari olib borildi.



1-rasm. Ikki qarama-qarshi quvurdan kelayotgan havo va tolali aralashmani o‘zaro xarakatlanish sxemasi

Tadqiqot natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar va ularni parametrlari aniqlanadi:

- oqimda harakatlanayotgan chiqindi va tolali materiaolarni C_0ED_0 oraliqda turg‘unlik ko‘rsatkichlari;
- chiqindi va tolali materiallarni yig‘ilish bunkeri Lc pastki kanalning kengligi;
- havo oqimini soqilish nuqtasidan turg‘unlik boshlanish nuqtasigacha bo‘lgan masofa Lox masofa (Eo va E nuqtalar orasidagi)ni aniqlash;
- turg‘unlik yoyi radiuslari $R_1 \text{ва } R_2$ $(R_2 = R_2(E_0C_o))$ $(R_1 = R_1(C_oE))$ egrilik radiuslarini aniqlash;
- chiqindilarni va tolali materiallarni yig‘ilish bunkeriga harakatlanayotgan q_c oqimning miqdorini aniqlash;
- chiqindilarni ushlab qolingandan so‘ng yuqori va pastki vertikal joylashgan oqimlarning V_1 va V_2 tezliklari.

Nazariy tadqiqot natijalarini olishni soddalashtirish maqsadida masalani ikki o‘lchamli va vaqtga bog‘liq emas degan farazlarni keltiramiz. Bunday masalalarni yechishda kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar va ideal suyuqliklar nazariyasining usullariga asoslanamiz [2;3;]. Masala parametrik ko‘rinishda yechiladi. Yordamchi soha uchun parametrik o‘zgaruvchili yuqori yarim tekislikni qabul qilamiz va uni $G_z\,(t = \xi + i\eta)$ – deb belgilaymiz (5-rasm). U holda, S.A.Chapliginning maxsus nuqtalar qoidasiga asosan $G_w(W = \varphi + i\Psi)$ - kompleks potensial sohasi (2.4-rasm), $\omega = \tau + i\theta; \left(\tau = \ln\frac{V_{no}}{V_n}\right)$ – N.Ye.Jukovskiy funksiyasini, $G_z\,(t = \xi + i\eta)$ sohaga konform akslantiramiz (5-rasm). Akslantirish jarayonida $G_z(z = x + iy)$ sohaning chegarasi G_z - sohaning haqiqiy o‘qiga $\mathrm{Re}\,G_z = \xi,\ \eta = 0$ ga akslanadi (ya’ni tushadi) deb qabul qilamiz. G_z - soha va G_w - sohalar orasidagi munosabat 3 va 4-rasmlarda ko‘rsatilganidek moslab joylashtiriladi.

U holda S.A.Chapliginning mahsus nuqtalar nazariy usuliga binoan [3,4,5]. $t = \xi + i\eta$ parametrlar bo‘yicha $W(t)$ funksiyaning hosilasi $A(t = \pm\infty)$, $c(t = -1)$, $E(t = e)$ va $D(t = 1)$ nuqtalarda birinchi tartibli qutb va nollarga ega bo‘ladi.

$\frac{dW}{dt}$ - funksiyani qutb va nollari bo‘yicha qurib ushbu natijani xosil qilamiz:

$$\frac{dW}{dt} = -\frac{q_n}{\pi}\frac{t-e}{t^2-1},\ q_n = q_c + q_d = V_nL_{n3}L_n = L_A \quad (1)$$

bunda: q_n - (AA) quvurdagi aralashmaning oqim sarfi (2-rasm)

$q_c = q_1$ - yuqori kanal bo‘yicha havo sarfi;

$q_c = q_2$ - pastki kanal bo‘yicha tolali chiqindi miqdori.



2-rasm. Qarama-qarshi oqimlarni to‘qnashish sxemasi



3-rasm. Aralashma oqimining yarim sohasi sxemasi



4-расм. G_w - kompleks potensial soha.



5-rasm. Kanonik soha.

N.Ye.Jukovskiy funksiyasining chegaraviy qiymatlarini aniqlaymiz:

$$\omega_n(t)=\tau+i\theta,\ \tau=\ln\frac{V_{n0}}{V_n},\ \omega_n(t)=\ln\left|\frac{V_{no}}{\frac{dW_n}{dz}}\right| \quad (2)$$

bunda $\frac{dW_n}{dz}=V_n,\ \theta=\theta_n(t).\quad (n=1;2)$

N.Ye.Jukovskiy funksiyasiga o‘xshash funksiyani kiritamiz

$$\omega(z)=\ln\sqrt{\frac{\rho_1 V_{10}{}^2+\rho_2 V_{20}{}^2}{\rho_1 V_1{}^2+\rho_2 V_2{}^2}} \quad (3)$$

бунда $\theta=\theta(t)$ - tezlik vektorining og‘ish burchagi;

V_{n0} - havo bilan tolali chiqindi aralashmasining tezligi;

V_1 - havo tezligi;

V_2 - quvur boshidagi tolali chiqindining tezligi;

V_{10}, V_{20} - mos ravishda kanallar bo‘yicha tolali chiqindi va havoning tezliklari.

(2.1) va (2.2) dan quyidagilarga ega bo‘lamiz.

$$\frac{V_{no}}{V_n}=\sqrt{\frac{\rho_1 V_{10}{}^2+\rho_2 V_{20}{}^2}{\rho_1 V_1{}^2+\rho_2 V_2{}^2}}\ \text{n=1.2} \quad (4)$$

U holda N.Ye.Jukovskiy funksiyasining chegaraviy qiymati quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi. 5-rasmga ko‘ra, $E=e, \mathrm{D}_0=d_0, \mathrm{B}=\text{-b}$

$$\tau_m\omega_n(t)=\begin{cases}0,\ \text{agar},\ -\infty<\xi<-\text{b},\ \eta=0 & (AB),\\ \frac{-\pi}{2},\text{agar},-\text{b}<\xi<-1,\ \eta=0 & (BC)\\ -\frac{\pi}{2},\text{agar},-1<\xi<C_0,\ \eta=0 & (CC_O)\\ \theta_1(\xi),\text{agar},\ C_O<\xi<e,\ \eta=0 & (C_oE)\\ \theta_2(\xi),\ \text{agar},\ e<\xi<d_o,\ \eta=0 & (ED_0)\\ \frac{\pi}{2},\ \text{agar},d_0<\xi<1,\eta=0 & (D_oD)\\ \frac{\pi}{2},\ \text{agar},1<\xi<f,\ \eta=0 & (DF)\\ 0,\text{agar},\ f<\xi<\infty,\ \eta=0 & (FA)\end{cases}$$

K.Shvars integral formulasini qo‘llab, quyidagini hosil qilamiz [2].

$$\omega_n(\xi)=\frac{1}{\pi}\int_{-\infty}^{+\infty}\frac{\tau_m\omega_n(\xi)d\xi}{\xi-t}$$

yoki to‘liqroq ko‘rinishga o‘tkazsak, Jukovskiy funksiyasining chegaraviy shartlaridan:

$$\omega_n(\xi)=-\frac{1}{2}\int_{-b}^{-1}\frac{d\xi}{\xi-t}-\frac{1}{2}\int_{-1}^{-C_O}\frac{d\xi}{\xi-t}+\frac{1}{\pi}\int_{-C_o}^{e}\frac{\theta_1(\xi)d\xi}{\xi-t}+\frac{1}{\pi}\int_{e}^{d_o}\frac{\theta_2(\xi)}{\xi-t}d\xi+\frac{1}{2}\int_{d_0}^{1}\frac{d\xi}{\xi-t}+\frac{1}{2}\int_{1}^{f}\frac{d\xi}{\xi-t}=$$

$$=-\frac{1}{2}\ln\frac{-1-t}{-b-t}-\frac{1}{2}\ln\frac{-C_o-t}{-1-t}+\frac{1}{\pi}\int_{-C_o}^{e}\frac{\theta_1(\xi)d\xi}{\xi-t}+\frac{1}{\pi}\int_{e}^{d_0}\frac{\theta_2(\xi)d\xi}{\xi-t}+\frac{1}{2}\ln\frac{1-t}{d_0-t}+\frac{1}{2}\ln\frac{f-t}{1-t}=$$

$$=-\frac{1}{2}\ln\frac{1+t}{b+t}\bullet\frac{C_0+t}{1+t}+\frac{1}{2}\ln\frac{1-t}{d_0-t}\cdot\frac{f-t}{1-t}+I_1(t)+I_2(t)=$$

$$=-\frac{1}{2}\ln\frac{C_0+t}{b+t}+\frac{1}{2}\ln\frac{f-t}{d_0-t}+I_1(t)+I_2(t)=$$

$$=\frac{1}{2}\ln\frac{f-t}{d_0-t}\cdot\frac{b+t}{C_0+t}+I_1(t)+I_2(t)=\ln\sqrt{\frac{(t+b)(t-f)}{(t+C_0)(t-d_0)}}+I_1(t)+I_2(t) \quad (5)$$

$$B=-Ae=-\frac{\pi e}{2(e+C_0)}\Rightarrow\theta_2(t)=\frac{\pi(t-e)}{2(e+C_0)}=\begin{cases}0,\ \text{agar},\ t=e\\ -\frac{\pi}{2},agar,\ t=-C_0\end{cases} \quad (6)$$

$$\theta_1(t)=At+B;\ \begin{cases}0=Ae+B\\ \frac{\pi}{2}=Ad_0+B\end{cases}\quad A=\frac{\pi}{2(d_0-e)},\ B=-\frac{\pi e}{2(d_0-e)}$$

$$\theta_1(t)=\frac{\pi(t-e)}{2(d_0-e)}=\begin{cases}0,\text{agar},t=e\\ \frac{\pi}{2},agar,t=d_0\end{cases} \quad (7)$$

Bunda (5) - (7) formulalarni hisobga olgan holda, $I_1(t)$ va $I_2(t)$ larni hisoblaymiz:

$$\omega_n(t)=1+\ln\sqrt{\frac{(t+b)(t-f)}{(t+C_0)(t-d_0)}}\cdot\left(\frac{t-e}{C_0+t}\right)^{\frac{t-e}{2(e+C_0)}}\cdot\left(\frac{d_0-t}{e-t}\right)^{\frac{t-e}{2(d_0-e)}} \quad (8)$$

Bunda $1=\ln e_1,\ e_1\approx 2{,}71$

(2) ga ko‘ra,

$$V_n=V_{n0}\sqrt{\frac{(t+C_0)(t-d_0)}{(t+b)(t-f)}}\cdot\left(\frac{C_0+t}{t-e}\right)^{\frac{t-e}{2(e+C_0)}}\cdot\left(\frac{e-t}{d_0-t}\right)^{\frac{t-e}{2(d_0-e)}}\cdot\frac{1}{2{,}71} \quad (9)$$

(9) formulaning to‘g‘riligini tekshiramiz.

1. $y_1=(t+C_0)^{\frac{1}{2}}\cdot(C_0+t)^{\frac{t-e}{2(e+C_0)}}=(t+C_0)^{\frac{t-e}{2(e+C_0)}}$

$$\ln y_1=\frac{1}{2(e+C_0)}(t+C_0)\ln(t+C_0)\Rightarrow\ln y_1=\frac{1}{2(e_1+C_0)}\lim_{t\to-C_0}(t+C_0)\ln(t+C_0)=$$

$$=\frac{1}{2(e+C_0)}\lim_{t\to-C_0}\frac{\ln(t+C_0)}{\frac{1}{t+C_0}}=\left(\frac{\infty}{\infty}\right)$$

bo‘lganligi uchun Lopital qoidasiga ko‘ra,

$$\lim_{t\to -d_0}\ln y_2=\frac{1}{2(d_0-e)}\lim_{t\to d_0}\frac{-\frac{1}{d_0-t}}{-\frac{1}{(d_0-t)^2}}=\frac{1}{2(d_0-e)}\lim_{t\to d_0}(d_0-t)=0$$

$$\ln y_2=0,\ y_2=e^0=1;\ y_1=y_2$$

Masalaning geometrik ifodalarini aniqlash uchun (1), (2) va (9) formulalarni qo‘llab, quyidagiga ega bo‘lamiz.

$$\frac{dz}{dt}=\frac{dz}{dW}\cdot\frac{dW}{dt}=-\frac{q_n}{\pi}\frac{t-e}{t^2-1}\cdot\frac{1}{\frac{dW}{dt}}$$

Shuningdek ,

$$\frac{dz}{dt}=-\sqrt{2,71}\frac{L_nF}{\pi}\cdot\frac{t-e}{t^2-1}I_{10}(t)\cdot I_{20}(t) \quad (10)$$

Agar $f_1+f_2=1$, fazalarning konsentrasiyasini hisobga olsak, unda quyidagini hosil qilamiz. (3) ga ko‘ra,

$$F=\hat{V}_1\sqrt{\frac{(1-f_2)^2+f_2^2\hat{\rho}_2g_1}{1+\hat{\rho}_2g_2}} \quad (11)$$

bunda: $\hat{\rho}_2=\frac{\rho_2}{\rho_1}$; ρ_1 va ρ_2 - quvur boshidagi tolali chiqindining va havoning zichliklari

$\hat{V}_1=\frac{V_{10}}{V_1}$ V_{10} va V_1 (AA) quvur boshidagi va tik kanal bo‘yicha havoning tezliklari

$\hat{g}_1=\left(\frac{V_{20}}{V_{10}}\right)^2$, $\hat{g}_2=\left(\frac{V_2}{V_1}\right)^2$ V_{20} va V_2 - mos ravishda (AA) kanal boshida va pastki kanal bo‘yicha tolali aralashmalarning tezliklari.

Demak, ikki qarama-qarshi quvurlardan kelayotgan havo va tolali aralashmalarning o‘zaro harakatlanish qonuniyati: (AA) quvur boshidagi tolali havo zichlikliklari va kanallar bo‘yicha havo va tolali aralashmalarning tezliklariga bevosita bog‘liq ekanligi yuqoridagi xisoblashlarda o‘z isbotini topdi.

Bundan ko‘rinadiki, (1), (9), (10) va (11) ifodalar (AA) quvurdan kelayotgan havo va tolali aralashmaning o‘zaro haraktlanish qonuniyatini aniq ifodalash imkoniyatini beradi. Qarama-qarshi ikki quvurlardagi havo va tolali aralashmalar oqimidagi harakatlar parametrlarni hisoblaymiz.

Xulosalar.

Kompleks o‘zgaruvchining funksional nazariya metodlarini qo‘llagan holda ideal suyuqliklari nazariyasi metodlari tadqiqoti ikki yon qismlari bilan yopiq gorizantal joylashgan kanaldagi, G_z - oqim sohasi simmetriyasida oqimning bo‘linish nuqtasi atrofida turg‘unlik zonasini hisobga olgan holda hamda ikki muhit harakati qonuniyatlarini yoritishda funksiyalarni aniqlash uchun oqimning statsionarligi olindi. $w(t)=\psi+i\psi$ - kompleksli potensial, $V_n(t)=e^{\omega(t)}$ har bir fazadagi aralashmaning muvofiqlashgan kompleks tezligi, shuningdek $z(t)=x(t)+iy(t)$-Koshi-Rimanning shartlarini qanoatlantiruvchi geometrik formulalar asosida ikki qarama-qarshi quvurlardan kelayotgan havo va tolali aralashmalarning o‘zaro harakatlanish qonuniyati: (AA) quvur boshidagi tolali havo zichlikliklari va kanallar bo‘yicha havo va tolali aralashmalarning tezliklariga bevosita bog‘liq ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ходжиев МТ, Аббазов ИЗ, Алимов ОН. Способы очистки хлопкового волокна, производимого в хлопкоочистительных предприятиях. Узбекский Текстильный Журнал. 2019;1:1.

2. Fraction structure of cotton cleaning equipment in cotton enterprises and their cleaning effectiveness / M Khodjiev, I Abbazov, O Alimov, J Karimov//International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology-2019-Vol 8.-Issue 1. –P 7983-7988

3. M.T. Khojiev, I.Z. Abbazov, O.N. Alimov, Ways to efficiently cleaning of cotton waste produced at cotton cleaning factories, Textile Journal of Uzbekistan 1, 2 (2019)

ОТМ ТАЛАБАЛАРИНИ ИШ БИЛАН БАНДЛИККА ТАЙЁРЛАШ АСОСИДА МЕҲНАТ БОЗОРИНИНГ САМАРАЛИ РИВОЖЛАНИШНИ СТРАТЕГИК КОНЦЕПЦИЯСИ

Ф.М.Зикрияев, Н.Расулова, С.Қаюмова

ГулДУ мустақил изланувчиси
ГулДУ мустақил изланувчиси
ГулДУ таянч докторанти

Аннотация: мазкур мақолада ОТМ талабаларини иш билан бандликка тайёрлаш асосида **меҳнат бозорининг самарали ривожланишни стратегик концепциясига оид илмий назарий таҳлиллар келтирилган.**

Таянч иборалар:иш билан бандлик, меҳнат бозори, ОТМ талабаларини иш билан бандликка тайёрлаш, стратегик концепция.

Иш билан бандликка, ишсизликка таъсир қилувчи ҳар қандай воситалар, ёшлар меҳнат бозорини давлат томонидан тартибга солишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмини кенг даражада акс эттиради.

Мазкур ёндашув асосида ислоҳотлар шароитида жойларда иш билан бандлик тизими фаолият кўрсатишининг асосий қонуниятлари ва тамойилларини ишлаб чиқиш мумкин, бу эса ўз навбатида меҳнат бозорининг самарали ривожланиши ижтимоий йўналганликни кучайиши ва инсон капитали, жумладан, унинг мулкчиликни турли шаклидаги корхоналарда ривожланиши билан тавсифланади.

Мазкур жараёнда қуйидаги методологик тамойилларга асосланиши лозим.

1- иқтисодиётдаги ислоҳотлар нуқтаи назаридан, иш билан бандликни ривожланиши ва уни тартибга солишга меҳнат бозори тизими фаолият кўрсатиши ва самарали ривожланишини ташкил этиш;

2- бошқариш назарияси ва амалиёти нуқтаи наза-ридан жойларда иш билан бандликни тартибга солишни меҳнат бозорини бошқаришнинг муҳим бир функцияси деб белгилаш;

3- меҳнат бозори назарияси ва амалиётига мос равишда иш билан бандликни тартибга солиш;

Шунинг учун, жойларда иш билан бандликни тартибга солиш жараёни ижтимоий-иқтисодий тизимнинг ҳаммага маълум хусусиятлари билан бирга ахборот билан таъминланганлик ва импульсив ривожланиш, узлуксизлик ва ўзгарувчанлик, ижтимоий йўналганлик ва тартибга солинувчанлик, транзитивлик ва эволюционлик, кўникувчанлик ва асосланганлик каби хусусиятлар билан ҳам тўлдирилиши зарур. Улар бевосита меҳнат бозори фаолият кўрсатишининг объектив қонуниятларидан келиб чиқади.

Шундай қилиб, меҳнат бозорининг назарий ва методологик асослари, асосий вазифалари ва элементлари мазмунини чуқур ўрганиш унинг рационал шаклланиши ва самарали ривожланиши йўлини равшанроқ кўришга имкон беради.[1].

Меҳнат бозорида ишсиз ёшлар рақобатбардошлигини таъминлашнинг қуйидаги усуллари мавжуд:

Ҳуқуқий усуллари, иқтисодий усуллари, ташкилий усуллари, ижтимоий-психологик усуллари ва ҳ.к. улар ёшларни иқтисодий фаоллик, бозор минталитетини барпо этишга йўналтиркатта аҳамият касб этади.

Меҳнат бозорида ишсиз ёшлар рақобатбардошлигини таъминлаш функциялари қуйидагилардан иборат:

1. Режалаштириш ёрдамида хизмат кўрсатиш бўйича ишсиз ёшлар рақобатбардошлигини оширувчи ва уларнинг иш билан бандлигига кўмаклашувчи аниқ вазифалар қўйилади, шунингдек, ишга жойлашиш органлари кесимида уларнинг қарорлари ва молиялаштириш манбалари белгиланади.

2. Ташкиллаштириш ишсиз ёшлар эҳтиёжини иш жойларида аҳоли бандлигига ёрдам берувчи фаол дастурларни ишлаб чиқишни ташкиллаштириш орқали амалга оширишга йўналтирилган.

3. Назорат ижро этилувчи тартиб-интизом шартларини мустаҳкамлаш, бошқарувни ошириш учун зарур ва бандлик хизматларининг бажарадиган функциялари билан боғлиқ бўлган барча жараёнларни қамраб олади. [2].

Меҳнат бозорида ишсиз ёшлар рақобатбардошлигини таъминлашнинг такомиллаштирилган янги механизми қуйидаги асосий шарт-шароитларнинг таъсирини тартибга солиши лозим: ёшлар меҳнат бозорида ишчи кучига талабнинг ошиши ва унга таклифнинг камайиши; ёлланма ишчи кучига меҳнат ҳақини (нархини) энг паст миқдорини аҳоли жон бошига тўғри келадиган минимал истеъмол бюджетидан кам бўлмаган ҳолда белгилаш; ишсиз ёшлар иш билан бандлигини оширишни рағбатлантириш; ишсиз ёшларнинг малакаси, рақобат қобилияти ва касбий ҳаракатчанлигини ошириш, ёшлар меҳнат бозори инфратузилмасининг самарали ривожланишини таъминлаш ва бошқалар. . [6].

ОТМ талабаларини иш билан бандликка тайёрлаш асосида меҳнат бозорининг самарали ривожланишни стратегик концепциясининг асосий мақсади - меҳнатга лаёқатли аҳоли бандлигини камайиши, ишсизликнинг ўсиши, янги иш жойларини яратилиши, ҳақиқий меҳнат даромадларининг камайиши каби шароитларда **ишчи кучига талабни ошириш ва унинг таклифини камайтириш бўйича комплекс тадбирлар ишлаб чиқишдан иборатдир.** . [7].

Буни ҳисобга олган ҳолда мазкур концепциянинг **стратегик мақсадлари** қилиб қуйидагиларни белгилаш мумкин:

– **ижтимоий** йўналтирилган **қишлоқ меҳнат бозорини босқичма**-босқич шакллантириш;

– меҳнатга лаёқатли иш билан банд бўлмаган аҳолини иш билан таъминлаш тизимини такомиллаштириш;

– янги иш жойларини ташкил этишга, аҳолининг бандлик даражасиниаи ошириш;

– аҳолини оқилона бандлигини шакллантириш;

– қайта ишлаш саноати, хизмат, сифат ва шахсий меҳнат секторларида янги иш жойларини яратиш;

– ишчи кучига талабнинг ошиши ва ишсизликнинг камайишини таъминловчи кичик ва ўрта бизнес ҳамда хусусий тадбиркорликни ривожлантириш;

– мулкчиликнинг ижара, жамоа, ҳиссадорлик ва хусусий шакллари ва шахсий ёрдамчи хўжаликларини ривожлантириш;

– ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни маҳаллий ва хорижий самарали технология ва техника билан таъминлаш;

– қишлоқ хўжалиги саноат корхоналарини ва ишлаб чиқариш - ижтимоий инфраструктура объектларини вужудга келтириш;

– маҳаллий ходимларнинг малакасини, рақобатбардошлигини ва чет элга юборилишини амалга ошириш ва уларда янги иқтисодий маънавий ва мафкуравий тафаккурни шакллантириш;

– ҳар бир ишсиз учун иҳтиёрий ва мустақил иш жойини танлаш ва меҳнат қилиш имкониятларини яратиш;

меҳнат бозорининг иқтисодий, ташкилий ва ҳуқуқий механизмларни такомиллаштириш. [8].

Мазкур мақсадларга узлуксиз эришиш учун меҳнат бозори ривожланишнинг асосий босқичлари ва вазифаларини аниқ белгилаш зарур.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кичик ва ўрта бизнесни хизмат ва шахсий меҳнат

секторларида ташкил қилиш зарур. Чунки бу секторлардаги иш жойларининг қиймати юқори эмас. Шунинг учун кўплаб янги иш жойларини яратиш мумкин. Мазкур тадбирларни амалга оширишда, биринчи навбатда хусусий тадбиркорлар хизматидан фойдаланиш керак.

Турли хил иқтисодий ва ижтимоий имтиёзлар ва квоталаштирилган иш жойларини тақдим этиш йўли билан меҳнатга лаёқатли ёш ва кўп болалик аёллар, ўсмирлар, пенсионерлар ва ногиронлар **фаолиятларини моддий рағбатлантиришнинг тизимини янада такомиллаштириш** қишлоқ ишчи кучига талабни оширишнинг муҳим иқтисодий тадбирларидан бири ҳисобланади. [8].

Ёш болани тарбиялаш муддатини узайтириш (келажакда бола етти ёшга тўлгунга қадар) ва унга ҳақ тўлаш миқдорини доимо ошира бориш аёлларни ихтиёрий равишда меҳнат бозоридан, халқ хўжалигининг бандлик тармоқларидан «тортиб олишга» имкон берар эди. Улар оилавий ишлар билан машғул бўлганликлари сабабли иш жойларида юқори самара бера олмайдилар. Ёш болалик аёлларнинг «сунъий» ишсизлигини ҳал қилишнинг муҳим усули уларнинг болага қараш бўйича амалий фаолиятларини моддий рағбатлантириш ва уни расмий тан олиш бўлиши мумкин. Шу мақсадда бандликка кўмаклашиш жамғармасининг **ишсизлик нафақаларига сарфланаётган маблагларини ижтимоий суғурта жамғармасига қайта тақсимлаш** ва уларни ижтимоий тўловлар кўринишида аёлларга бериш лозим. [9].

Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш саноати ва ижтимоий ишлаб чиқариш инфраструктураси корхоналарида ва хусусий хўжаликларда квоталаштирилган иш жойлари миқдорини ошириш, ҳамда уйда ишлаш кўламини кенгайтириш **кўп болалик аёллар** фаолиятини иқтисодий рағбатлантирилишини сезиларли даражада оширади.

Ёшлар ишсизлиги муаммосини мактабларда ўсмирларни касбий йўналтириш бўйича фаолиятни яхшилаш, ҳамда даромад келтирувчи ишларнинг турларини кўпайтириш йўли билан ҳал қилиш мумкин.

Меҳнатга лаёқатли пенсионерлар ва ногиронлар учун квоталаштирилган иш жойини ташкил этувчиларга имтиёзли кредитлар бериш ва уларнинг даромадларига пасайтирилган солиқ ставкаларини белгилаш лозим.

Шу билан бирга қишлоқ ишчи кучи таклифини рағбатлантирувчи ёки чекловчи солиқ ставкалари муҳим иқтисодий тадбирлар гуруҳига киради. Даромад солиғи ставкасининг ўсиши ёлланган ходимларни янги иш жойига таклифини камайишига олиб келади. Шу билан бирга юқори малакали мутахассисларнинг кўшимча ишга қизиқишлари камаяди. Солиқ ставкасининг ошиши кўпчилик аҳоли бандлигига салбий таъсир қилади. Шунинг учун бизнинг фикримизча, бундай тадбирларни амалга оширишдан аввал унинг оқибатларини комплекс таҳлил қилиш керак.

Мазкур концепцияда иш кучи таклифининг камайишига олиб келувчи иқтисодий ва ижтимоий тадбирлар ҳам ишлаб чиқилган: шахсий-ёрдамчи хўжаликларни, якка меҳнат фаолиятини ва ўзини ўзи банд қилиш тизимини ривожлантириш; бандликнинг эгилувчан ва нестандарт шаклларини кенгайтириш; ишлаб чиқариш ва меҳнатни ташкил қилишнинг бозор усулларини тадбиқ этиш; инфляциянинг ўсишини қисқартириш; ишсизликни камайтириш ва унинг нафақа миқдорини ошириш; ёлланган ходимлар ва иш берувчилар моддий манфаатдорлигини таъминлаш; иш билан банд бўлмаган шахсларнинг малакасини, рақобатбардошлилигини, сафарбарлигини ва экспорт қилинишини ошириш ва уларнинг ижтимоий ҳимоясини таъминлаш. [7,8].

Шунингдек, иш билан банд бўлган ходимларнинг малакасини оширишни ташкил қилиш ҳам **ижтимоий тадбирларнинг** муҳим қисмини ташкил қилади. Ҳозирги вақтда бозор услубида хўжалик юритишнинг талабларига мос келувчи юқори малакали мутахассисларни тайёрлашга объектив зарурият вужудга келди. Бунинг учун, аввало, қишлоқ ўқув масканларининг моддий-техникавий ва молиявий таъминотларини яхшилаш ва ундаги профессор-ўқитувчиларнинг иқтисодий манфаатдорлигини, ижтимоий ҳимоясини ва профессионал-малака даражасини тубдан яхшилаш лозим.

Янгича хўжалик юритиш услубиёти эса, уларнинг улушим 30-40%га тенглаштиришни, ривожланган хорижий давлатлар тажрибаларини ўрганишни ҳам тақозо этмоқда. Шунинг учун менежментлар, маркетологлар, бизнесменлар, ишбилармонлар каби ҳозирги замон мутахассисларини тайёрлашнинг мақсадли режалаштирилган республика ва ҳудудий

дастурларини ишлаб чиқиб, изчил амалга оширилишини доимий назорат қилиш ва зарур маблағ билан таъминлаш лозим. Бундай тадбирларни ижобий амалга ошириш учун эса, аввало, педагогик ва илмий ходимлар иш ҳақига нисбатан солиқлар даражасини кескин камайтириш билан бирга уларни илғор тажрибга эга бўлган хорижий давлатларга бир-икки ойлик эмас, балки икки-уч йиллик малака оширишга жўнатиш керак. Бундан иқтидорли студентлар ҳам истисно бўлмаслиги зарур.

Юқори малакали кадрлар уларга эҳтиёжи юқори бўлган корхоналарнинг, ташкилотларнинг, шахсий хўжаликларнинг ва ишбилармонларнинг соф даромадлари ҳисобидан тайёрланиши давлат бюджети маблағларини тежашга олиб келади. Мазкур тадбирлар қишлоқ ишчи кучининг рақобатбардошлилигини оширишга ва экспорт қилинишини кўпайтиришга ҳамда ва унинг таклифи камайишига бевосита таъсир этади.

Иш ҳақини тартибга солиш бўйича тадбирлар ишчи кучи талаб ва таклифи ўртасидаги нисбатга таъсир қилишнинг умумиқтисодий - ижтимоий услубидир. У кўпроқ ишчи кучининг таклифига таъсир этади. Чунки иш ҳақининг миқдори меҳнатни татбиқ қилиш соҳасини белгилайди. Шунинг учун, давлат иш ҳақи соҳасида оқилона сиёсатни ўтказиб, ишчи кучига талабнинг миқдори ва тузилишига таъсир кўрсатиши мумкин. У – иш ҳақининг барча кўрсаткичларини тартибга солувчидир. Давлатнинг аралашуви - маъмурий ва иқтисодий бўлиши мумкин. Унинг иш вақти давомийлиги ва иш вақти бирлигига иш ҳақи тўлашга таъсири одатда маъмурий характерга эга. Кўпгина ривожланган мамлакатларда давлат иш ҳафтасининг энг катта давомийлиги ва энг кам иш ҳақини тартибга солиб боради. Иш ҳақининг аниқ миқдорини белгилашда тўртта субъект ўзаро ҳамкорлик қилади: давлат, касаба уюшмаси, тадбиркорлар ва меҳнат бозори. Давлат иш ҳақини белгилаш бўйича масъулиятни касаба уюшмалари ва тадбиркорларга юклаши мумкин бўлса ҳам, бу жараёнда фаол иштирок этади. Бозор шароитларида давлат иш ҳақи даражасини маъмурий белгилашдан воз кечиши лозим. Унинг миқдори иш берувчилар билан ёлланма ходимлар ўртасида тузиладиган меҳнат шартномаси (контракт) асосида касаба уюшмаси вакилининг мутлақ иштирокида белгиланиши керак. [6].

Бундан ташқари, концепцияда таъкидланганидек, меҳнат биржалари томонидан ишчи кучига талабнинг ошиши ва ишсизликни камайтириш бўйича амалга ошириладиган муҳим иқтисодий чора-тадбирлар сирасига банд бўлмаган ходимларга касблари бўйича иш жойларини тақдим этиш, бандликка кўмаклашиш жамғармасидан имтиёзли кредитлар бериш йўли билан кичик ва ўрта бизнес ҳамда хусусий тадбиркорликни ривожлантириш, бўш иш жойлари ярмаркаларини ўтказиш, ўз вақтида нафақалар ва моддий ёрдам бериш, ижтимоий ҳимояни таъминлаш киради.

Ушбу концепцияда Ўзбекистон Республикасининг «Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисидаги» Қонуни ва Меҳнат Кодекси қоидалари ва «Аҳолини иш билан таъминлаш ва янги иш жойларини яратиш», «Кадрларни тайёрлаш», «Қишлоқ ижтимоий инфраструктурасини ривожлантириш» бўйича давлат дастурларининг асосий кўрсаткич лари инобатга олинди. Улар концепциянинг ишчи кучига талабнинг ошиши ва унинг таклифинг камайиши бўйича **ташкилий чора-тадбирларни ишлаб чиқишга бевосита ёрдам беради.** Булар жумласига корхона хусусийлаштирилган, иқтисодий ночорлашган ва ихтисоси ўзгарган шароитларда ишлаётганларнинг (айниқса малакали ходимларнинг) бандлигини сақлаб қолиш ва барқарорлаштириш (иш жойларини маблағлар билан таъминлаш ва квоталаштириш), ходимларнинг рақобат қобилиятини ошириш, иш билан банд бўлмаган шахсларни қайта ўқитиш, бундайлар қўшимча касб ва мутахассисликларни эгаллашлари учун шароитлар яратиш ва уларнинг руҳий кайфиятларини кўтариш, бандликни эгилувчан ва ўзини ўзи банд қилиш шаклларини рағбатлантириш, қишлоқ хўжалиги бўлмаган қўшимча иш жойларини яратиш ва бўш лавозимларни эгаллаш учун бандликка кўмаклашиш жамғармасидан оқилона фойдаланиш (қарзлар, имтиёзли кредитлар), ёшлар, кўп болалик аёллар, меҳнатга лаёқатли пенсионерлар ва ногиронлар учун квоталаштирилган иш жойларини яратувчи корхоналарни иқтисодий рағбатлантириш, қишлоқ ўқув юртларини тугатган ва ўз мутахассислиги бўйича иш топа олмаган ёш кадрларни иш ҳақи учун бандликка кўмаклашиш жамғармасидан маблағлар ўтказиш шарти билан (бандлик хизмати ташкилотлари билан шартномалар асосида) ишга қабул қилиш

амалиётини кенгайтириш, ноқишлоқ хўжалиги янги иш жойларини яратишни инвестиция билан таъминлаш ва ижтимоий инфраструктура объектларини ривожлантириш киради. [4,5, 7,8,9].

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2909 – сонли қарори.
2. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «FAN» нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 281-б
3. Андреев С.В. Кадровый потенциал и проблемы занятости в условиях перехода России к рыночным отношениям. -М.: Институт социологии РАН, 1997. С.76.
4. Рикардо Д. Сочинения - М., 1961.-С. 25-30.
5. Роденкова Т.Н., Кондратьева А.А., Климова А.А., Расчетнова Д.С. Интегральная оценка результативности деятельности кафедр и факультетов вуза//Вестник Российской экономической академии имени Г.В.Плеханова.-2011.-№4 (40).
6. Мирзакаримова М., Рахимова У. Касбий таълим тизими битирувчилари меҳнат бозорига маркетинг ёндашуви (ёки соҳани модернизациялашнинг айрим жиҳатлари). Таълим, фан ва инновация, 2/2016. 39-б.
7. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотлари. ОТМ фаолиятининг асосий кўрсаткичлари. Статистик тўплам (2016-2017 ўқув йили). – Т.: 2017. 214 б.
8. Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигининг маълумотлари. Меҳнат ва бандлик. – Т.: 2018.
9. www.islohot.uz

ОТМ ТАЛАБАЛАРИНИ ИШ БИЛАН БАНДЛИККА ТАЙЁРЛАШ АСОСИДА ИҚТИСОДИЁТНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МАВЖУД ХОЛАТИ

З.Зикрияев, Б.Норбўтаев, Н.Расулова, З.Негматуллаева
ГулДУ проректори
ГулДУ мустақил тадқиқотчиси
ГулДУ мустақил тадқиқотчиси
ГулДУ талабаси

Аннотация. Мазкур мақолада ОТМ талабаларини иш билан бандликка тайёрлаш асосида иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг мавжуд холати бўйича илмий назарий таҳлиллар келтирилган.

Таянч иборалар: ОТМ талабалари, иш билан бандлик, иқтисодиётни инновацион ривожлантириш.

Сўнгги йилларда хорижий ва маҳаллий иқтисодий адабиётларда ёшларнинг иш билан бандлиги ва ишсизлиги, йигит ва қизларни меҳнат фаолиятига тайёрлаш муамосига анча кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистонда бу шу мавзуга бағишлаб илмий-техник конференциялар ўтказиш, ишсиз ёшлар рақобатбардошлигининг асоси сифатида умумий ва касбий таълим сифатини оширишга йўналтирилган диссертациялар тайёрлаш, қонунчилик ва бошқа меъёрий ҳужжатлар қабул қилишда намоён бўлмоқда. Бу мавзу С.Д. Резник, И.Л. Игошина, А.А. Сочилова («Шахсий рақобатбардошлик асослари», «Менежмент карьераси»), В.И. Андреев («Конкурентология»), М.Холмухамедов (Ёшлар меҳнат бозорини тартибга солиш), К.А.Эшпўлатов (Меҳнат бозори ва касбий таълим узвийлигини таъминлаш), М.Б.Атаниязова (Миллий меҳнат бозорини тартибга солишни такомиллаштириш) ва бошқаларнинг тадқиқотларида ўз ривожини топган.

Бизнинг ҳаётимизга барқарор кириб келган “ишсиз ёшлар рақобатбардошлиги” тушунча муносабати билан, уни янада аниқлаштириш зарур, деб ҳисоблаймиз, чунки шу масала бўйича фикрлар бир-биридан кескин фарқ қилади. .[1]

Хусусан, Л.Г. Шатохин “кенг маънода бу – потенциал сотиб олувчи, яъни ёлланиб ишлайдиган иш берувчи учун меҳнат бозоридаги ходимлар хислатларининг фойдалилик (жозибадорлик) даражаси; тор маънода бу – ходимга бўш иш ўрни учун курашда устунлик берадиган касбга (мутахассисликка) эга бўлиш”, деб ҳисоблаган. .[10].

А.Г. Шатохин уларнинг қарашларидан (бир инчи кўрсатилганлар рақобатбардошликни иқтисодий соҳага нисбатан кенг маънодаги мусобақада ютиш имконияти – иқтисодий мусобақа субъектлари учун устунликлар яратувчи хислатларга эга бўлиш имконияти, деб билади ва иккинчи кўрсатилганлар рақобатбардошликни – замонавий иш берувчи меҳнат бозорида ўз ишчи кучига талаб топиш имконияти деб тушунади) фарқ қилувчи ўз нуқтаи назарини асослаб беради. Бунда у рақобатбардошликни ишчи кучининг фарқ қилувчи сифатлари ва тавсифи, ишчи кучига бўлган талабни қондириш имконияти билан эмас, унинг жозибадорлиги билан боғлайди. [10].

И.В. Виринанинг ёш мутахассисларнинг рақобатбардошлиги ҳақидаги фикрлари А.Г.Шатохиннинг нуқтаи назарига анча яқин. У рақобатбардошликни “ишсизнинг рақобатчилар олдидаги устунлигини яратишга кўмаклашувчи қобилиятлари тавсифининг йиғинидисигина эмас, балки ишчи кучи харидорининг муайян эҳтиёжини қондириш лаёқати ҳам”, деб тушунган. .[1.], .[10].

Бизнинг назаримизда, кўрсатиб ўтилган ёндошувлар қизиқарли ва катта назарий материалга асосланган. Лекин бунда рақобатбардошликнинг натижадорлигини бир томонлама ҳаракатли йўл сифатида кўрилган, яъни иш берувчига у ёки бу ёш киши ёққан-ёқмаганлигидан келиб чиқиб, ишга қабул қилиш масаласини ҳал қилиш нуқтаи назаридан қарашган. Айни пайтда, ишсиз ёшлар ҳам баъзи тўсиқларга қарамасдан ишга жойлашиш ҳуқуқидан фойдаланиши мумкинлиги далили инобатга олинмаган.

А.А. Малышева ва И.В. Невраевалар меҳнат бозорида ишсиз ёшлар рақобатбардошлигини бошқача нуқтаи назардан кўриб чиққан. Уларнинг фикрига кўра, касб таълими тизими ёш битирувчисининг рақобатбардошлиги, бу – биринчидан, талаб юқори бўлган ва шахсий қобилиятлар билан унинг ўрнини тўлдириб бўлмайдиган махсус билимларга (масалан, ахборот технологиялари, геофизика, микробиология ва ҳ.к.) эга бўлишдир. Махсус билимлар муайян ихтисосликдаги битирувчиларни рақобатбардошлик ҳудудидан ташқарига чиқариб қўяди. Иккинчидан, бозор иқтисодиётида талаб қилинадиган ва бир битирувчининг уни бир қатор курсдошларидан (шу билимларга эга бўлган, лекин зарур қобилиятларга эга бўлмаган) ажратиб турадиган шахсий сифатлари мавжудлигини кўрсатади. Бу қобилиятлар ўз эгаларини ҳатто улар таклиф талабдан устун бўлган мутахассислик олган бўлсалар-да рақобатбардош қилиши мумкин. Бу қобилиятлар қуйидагилардан иборат:

- фаол ҳаётий позицияга эга бўлиш;
- касбга жиддий ёндашиш;
- ўзини ўзи ривожлантиришга мойиллик;
- меҳнатсеварлик;
- мулоқот кўникмалари;
- юқори натижаларга эриша олиш қобилияти;

саломатлик. .[5]

Бундай ёндашув бизнинг тадқиқотга яқинроқ, чунки у ўзининг нуқтаи назари асосига ёшларга меҳнат ҳаётида ўз ўрнини ишонч билан ҳимоя қилишга имкон берувчи ёшлар рақобатбардошлигининг муҳим омилларини киритган.

Академик Қ.Х.Абдураҳмонов ёшларнинг меҳнат бозорида рақобатбардош эмаслигини уларнинг зарур кўникмаларга, иш тажрибасига эга эмаслиги билан изоҳлаган. [1].

А.А. Малышева ва И.В. Невраеванинг фикрлари билан А.А. Берзина ва А.В.Сидоринларнинг ёндашувлари ўзаро мувофиқ бўлиб, улар меҳнат бозоридаги рақобатбардошлик, мутахассис билимдонлигининг меҳнат бозори ёки иш берувчилар талабига мос келиш даражаси нисбати айнан бир касб (ихтисослик) мутахассисларига таққослаганда, юқорироқ деб таърифлаган. [5].

М.И.Шилова ва И.Л.Белих назарида «айнан профессионализм ва универсализмнинг оптимал уйғунлиги шахс ва бўлғуси мутахассисга меҳнат бозоридаги рақобатбардошликни

таъминлаб бериши мумкин». Лекин тадқиқот муаллифи ўзининг узоқ муддатли иш тажрибасига асосланиб, кўрсатилган сифатлар бир вақтнинг ўзида намоён бўлиши мумкин эмас, чунки, мисол учун, профессионализм фаолият жойида маълум вақт оралиғида шаклланади, баъзан касбнинг мураккаблигига қараб, бунга йиллар кетади, деган фикрга келади. [11].

Сўнгги қоида айнан эгалланган билимларнинг мавжудлиги ишлаб чиқариш ёки бошқарув вазифаларини ҳал қилиш тажрибалари билан тасдиқланмаган ёш касбий таълим битирувчиларига тааллуқли.

А.В.Ковалёв томонидан “шахснинг ушбу шахсга жамиятда муваффақиятли фаолият кўрсатиш ва касбий ўсиш муаммоларини маданиятли ҳал қилишига имкон берадиган асосий билимлари ва қадриятлар борасидаги йўналишлари йиғиндисини намоён қиладиган интеграл қобилиятлари” сифатида тавсифланадиган рақобатбардошлик анча кенг тавсифга эга. Бизнинг назаримизда, муаллиф томонидан масаланинг бундай қўйилиши зиддиятли, чунки улар эндигина таълим муассасасини тугатиб, ишга қабул қилинган, яъни аввалиги иш ўрни учун рақобат курашида ғалаба қозониб, ўзининг касбий ўсишини кейинчалик таъминлайдиган ёш мутахассисга қаратилган. [4].

С.И. Сотниковнинг таърифида “рақобатбардошлик” – нисбий тушунча, чунки меҳнат бозори бир хил эмас ва меҳнатнинг функционал хусусиятидаги бозор талаби даражаси, ишчи кучининг ноёблиги даражаси, шунингдек, ишчи кучига бўлган истеъмол талабининг хусусиятлари билан фарқланувчи сегментларга ажратиб тузилиши мумкин. Бундай ёндашувга тўлиқ қўшилиш тўғри бўлмайди, чунки ушбу тушунча нисбий бўлиб, иш билан бандлик, бу – рақобатбардошликнинг меҳнат бозори шаклланишига боғлиқ бўлмаган муайян натижасидир. [9].

Б.Д. Паригин меҳнат бозоридаги олий маълумотли ёшлар рақобатбардошлиги “ўз ресурслари (психофизиологик саломатлик, ёш, ташқи кўриниш, қобилиятлар, истеъдод, интеллект даражаси, куч-қувват захираси) ва ахлоқий хусусиятларига (қадриятлар поғонаси, ишонч-эътиқод тизими, таъқиқлар ва шахсий чекловларнинг мавжудлиги) эга бўлган комплекс хусусият” сифатида ёндашган. Бизнинг назаримизда, айтиб ўтилган белгилар, ўз асосига кўра, меҳнат салоҳиятининг таркибий қисмлари ҳисобланади. [7].

Кўриб турибмизки, олимлар ва мутахассислар, асосан, меҳнат бозорида касбий таълим ўқув муассасалари битирувчиларининг рақобатбардошлигини кўриб чиққан. Ва бу мантиқан тўғрилиги шундаки, меҳнат бозорига умумтаълим мактабини битирганлар камдан-кам ҳолларда касбий маҳорат ва кўникмаларга эга бўлишади (бу, асосан, турмушда зарур бўлган энг оддий операцияларни бажариш маҳорати ва қийин бўлмаган қишлоқ хўжалик ишларидир). Тадқиқотлар кўрсатишича, бундай фуқароларнинг бир қисмида касбга эга бўлиш имконияти ва истагининг йўқлиги, малакали меҳнат талаб қиладиган ва одатда оммавий талаб предмети бўлмаган иш ўринларига ишга жойлашишга тўсиқ бўлмайди. [7].

Малакасиз ходимларнинг рақобатбардошлиги бўлғуси меҳнат жараёнида намоён бўлади ва ёш мутахассислардан фарқли равишда фақат шахсий сифатлар билан белгиланади. Бундай хислатлардан энг муҳими қаторига биз ҳаракатчанлик, киришимлилик, ишга нисбатан виждонан муносабатда бўлишни киритамиз. Кўрсатилган сифатлар уларнинг эгасига барчанинг, жумладан, ташкилот раҳбариятининг кўз ўнгида бўлиш ва шу билан ахлоқий ва моддий жиҳатдан ютиб чиқишга имкон беради. Кўпинча улар иш берувчилардан келгусида юқори малакали ишларда ёки маъмурий лавозимларда банд бўлиб, махсус касбий билимларни ўзлаштириш таклифини оладилар.

Биз меҳнат бозоридаги ёшлар рақобатбардошлигини тизимлаштириш асосида рақобатбардошлик ҳақидаги ўз фикр-мулоҳазаларни келтирдик. Унга кўра, меҳнат бозорида ёшлар рақобатбардошлиги индивидуумнинг иқтисодиёт талаб қилган, ташқи ва ички меҳнат бозорида муносиб иш ўрнига эга бўлиш ҳуқуқи учун муваффақиятли рақобатлашишига имкон берувчи маҳоратлар, кўникмаларга тўпламига эга бўлишидир.

Бизнинг фикримизча, ёшлар, айниқса, касбий таълим тизими битирувчиларининг рақобатбардошлигини, касбий жиҳатдан тўла аниқлик билан баҳолашнинг имкони йўқ. Чунки меҳнат бозорида фақат потенциал ходимлар ўртасидагина эмас, балки уларнинг бирор маълумот (асосий, қўшимча) олганлиги тўғрисидаги ҳужжатлари, резюмелари, иш берувчида

яхши таассурот қолдириш маҳоратлари ўртасида ҳам мусобақалашиш бўлмоқда. Ўзини намоён қилиш маҳорати (ўзининг индивидуал хусусиятларини, имкониятлари, қобилиятларини кўрсата билиш) бугунги кунда ишчи кучига бўлган талабни шакллантирувчи томонга таъсир этувчи умумэътироф этилган воситалар қаторига киритилиши, бежиз эмас. Биз 2018 йилда кадрлар хизматининг 60 вакили ва бевосита корхоналарнинг раҳбарлари ўртасида ўтказилган сўровлар шуни кўрсатдики, бу босқичда бўш иш ўринларини эгаллашга талабгорларни баҳолаш учун усуллар йиғиндиси, шахсан суҳбатлашиш асосида қилинган хатолар 47% ва 65% ўртасида силжиб туради. Иш берувчиларнинг таъкидлашича, кўпинча муносиб номзод қидириш учун вақтнинг йўқлиги туфайли суҳбатлашиш вақтида ўзини лозим даражада кўрсата олмаганлиги сабабли ишга қабул қилинганлар, ўзини фойдалироқ томондан намоён қилганларга қараганда иш жойи (лавозим)да жараёнга тезроқ қўшилиб кетган ва ишда яхши натижалар кўрсатган. Демак, бизнинг фикримизча, ишсиз ёшлар рақобатбардошлигини бирламчи ва иккиламчига ажратиш керак.

Бирламчи рақобатбардошлик касбий тайёргарлик ва қайсидир даражада дастлабки қабул пайтида зарур шахсий сифатларни тарбиялаш давомида, унинг иккинчи босқичи эса бевосита иш ўрнида шаклланади.

Ўргатиш давомида касбий билимлар қанчалик яхши ўзлаштирилган бўлса, келгуси меҳнат фаолиятидаги маҳорат шунчалик тез ошиши мумкин. Шундан келиб чиққан ҳолда, биз касбий таълим олган ишсиз ёшларнинг бирламчи рақобатбардошлиги назарий билимлар ва қисман ишга ёллаш бўйича иш берувчи билан мулоқот давомида намоён бўладиган ва иш ўрни (лавозим)га бошқа рақобатчилар ичидан муайян ёш кишини ажратиб олишга имкон берадиган баъзи амалий кўникмалар (ўқув ва ишлаб чиқариш амалиёти давомида олинган) тўплами билан белгиланади, деб ҳисоблаймиз. Иккиламчи рақобатбардошлик ички меҳнат бозорида шахсга эгаллаётган иш ўрнини (лавозими) сақлаб қолиш ёки юқорироқ мавқега эришишга интилишида устуворликни таъминловчи касбий ўзини такомиллаштиришда намоён бўлади.

Иш ўрни (лавозим) учун курашда ютқазганлар ички ва ташқи меҳнат бозорларида рақобатбардош бўлиш учун ўз малакасини оширишга мажбур бўлади.

Рақобатбардошликнинг ўзига хос белгилари бўйича ишсиз ёшлар контингентининг ҳар хил бўлганлиги сабабли биз иш қидириш бўйича мурожаат қилган барча ишсиз ёшларни келгусида тегишли тадбирлар ўтказиш учун қуйидаги гуруҳларга ажратишни таклиф қилдик:

– касбий таълимга эга бўлмаганлар;

– таълим муассасасини тугатган, аммо мутахассислиги бўйича меҳнат тажрибасига эга бўлмаганлар;

– меҳнат бозорида иш берувчи томонидан талаб бўлмаган касб танлаган норақобатбардош ёшлар.

Шундай қилиб, бу ерда ёш тоифалари бўйича бўлиниш сезиларли аҳамиятга эга эмас, чунки у ёки бу иш ўринларига талабгор ёки касб танлашга мажбур бўлганларнинг рақобатбардошлиги дастлабки нуқта ҳисобланади.

Бозор иқтисодиёти шароитида меҳнат бозорида рақобатбардошликни ошириш, унинг ўз ишини муфассал билишини, бажарилаётган меҳнатнинг моҳиятини, белгиланган мақсадларга етиш усуллари ва воситаларини билишни, шунингдек, тегишли маҳоратлар ва кўникмаларни англатадиган компетентлигини шакллантириш билан узвий боғлиқ. Бугунги кунда жамиятда компетентлик деганда, фақат билимлар мавжудлиги ва уларнинг ҳажмигина эмас, балки уларни зарур вақтда фаоллаштира олиш ва хизмат вазифаларини амалга оширишда улардан фойдаланиш маҳорати ҳамдир, деган фикр устунлик қилади. Таҳлил қилиш ва самарали қарорлар қабул қилиш маҳорати замонавий мутахассис компетентлигининг таркибий қисми ҳисобланади.

Олий таълим муассасаларининг талабаларни фан ва ишлаб чиқаришнинг муайян соҳаларидаги асосий билимларга таянган билимдонликни шакллантириш асосида тайёрлашга ўтиши рақобатбардош мутахассисни уйғун ривожлантиришга интилишни англатади. Компетентликка асосланган ёндашув, аввалambор, муҳим билимларни эгаллашга йўналтирилади.

Демак, ишсиз ёшлар рақобатбардошлигининг асосида унинг ижтимоий-иқтисодий шароитларда талаб қилинадиган янги билимларни эгаллаш орқали компетенциялар заифлашишини енгиб ўтишга рағбати ётади.

С.Д.Резник ва А.А.Сочилова фикрича, касбий таълим тизимида ўқишни давом эттиришда, энг аввало, эътибор рақобатга йўналганликка қаратилиши лозим бўлиб, «... талаба фикрлаши ҳозирги дунёда яшаб қолиши учун доимо курашиш зарурлиги ва бундай кураш технологияларини эгаллаш лозимлигига қаратиш керак».[8].

Хулоса қилиб айтганда, хорижлик ва маҳаллий иқтисодчи олимларнинг ишсиз ёшларнинг рақобатбардошлиги уларнинг фаол ҳаётий позицияга эга бўлиши, касбга жиддий ёндашиш, ўзини ўзи ривожлантиришга мойиллик, меҳнатсеварлик, мулоқот кўникмалари, юқори натижаларга эриша олиш қобилияти, саломатлиги билан белгиланишини кўрсатди.

Меҳнат бозорида ишсиз ёшлар рақобатбардошлигини таъминлаш механизми, фикримизча, органлар, воситалар ва усуллар мажмуи, бошқарувчи ва бошқарилувчи ижтимоий ташкилотлар тизимости билан орасида ўзаро таъсир кўрсатади. Бу ерда иш билан бандликнинг кенг тармоқли хизмати, иш ўринлари ҳақидаги маълумотлар банки, ишсизлар рақобатбардошлигини оширишга қаратилган мақсадли дастурлар ва ҳ.к. ларни ўз ичига олувчи касбий таълим органлари, бандликка кўмаклашиш марказлари орқали унинг функционаллигини аниқлаштирувчи барча иқтисодий, ҳуқуқий, ижтимоий ва психологик омиллар мажмуини қамраб олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «FAN» нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 281-б

2.Вирина И.В. Формирование и развитие конкурентоспособности молодых специалистов на рынке труда / Автореферат дисс. на соиск. уч. степ. канд. экон. наук. – Москва, 2007 – С.5.

3.Гельвановский М. Конкурентоспособность в микро- мезо- и макроуровневом измерениях // Российский экономический журнал, 2008, №3 – С. 66-77.

4.Ковалев А.В. Развитие конкурентоспособности будущего специалиста – гарант качества профессионального образования/Материалы научно-практической конференции «Участие работодателей в формировании содержания образовательных программ ФГОС», 2016 – С.3.

5.Малышева А.А., Невраева И.В. Компетенции молодых выпускников вузов глазами работодателей // Известия Томского государственного политехнического университета, 2015, № 8 – С.226-227.

6.Меликьян Г.Г., Колосова Р.П. Экономика труда и социально-трудовые отношения. – Москва, 2014. – С.300.

7.Паригин Б.Д. Практикум по социально-психологическому тренингу. – СПБ, 2000 – С.51.

8.Резник С. Основы личной конкурентоспособности. – М.: «Инфра-М», 2010. - С.5.

9.Сотникова С.И. Конкурентоспособность рынка труда генезис социально-экономического содержания // Ж. Маркетинг в России и за рубежом. № 2, 2015. – С.4.

10.Шатокин А.Г. Конкурентоспособность работников на рынке труда / Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд. экон. наук. – Ярославль, 2000 – С.6-7.

11.Шилова М И., Белых И.Л. Формирование конкурентоспособности выпускника вуза //Вестник Томского государственного политехнического университета, 2010. №4 – С.39.

PEDAGOGICAL COMMUNICATION IN STRATEGY AND TACTICS PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL IMPACT

F. Niyazov
GSU assistant- professor

Today, effective teaching activities should be built on subject-subject interaction between teacher and student. But due to age characteristics, the teacher has a number of advantages over children in the development of gnostic skills: he knows more and he knows how, he better expresses,

perceives, understands, he has richer life experience, and therefore higher level of culture. Awareness of this difference dictates to the teacher a very specific nature of interaction with the student at the time of broadcasting information. Firstly, it is necessary to instrument the position “on equal terms”, in which it is possible to establish subject-subject relationships and create a favorable psychological atmosphere. Secondly, to awaken the student’s intellectual activity, expand his knowledge about the world and ways to independently search for truth, meaningfully build your own version of life, therefore, for the purpose of the child’s personal development, the teacher a technological algorithm for informative impact should be implemented. Conventionally, it can be distinguished two blocks - speech and demonstration, which in practice they merge together. Speech and demonstration influence complement each other and help perception of information. For example, verbal explanation in combination with clarity deepens comprehension and understanding of the subject of conversation, promotes adequate perception and understanding. Thus, speech It is not so much about pedagogical as about psychological impact. Psychological space is what represents the psyche at the level of the individual, inherent in a particular person. Different authors give different descriptions of psychological space: how “image of the world”, “quasi-space”, “system of relations”, “semantic space”. The category of psychological time, as a psychological concept, necessary to describe the characteristics of the reflection in the psyche of a system of dynamic parameters and relationships that affect the functioning of various systems

in the mental organization of a person, and also determine a person's assessment of the events of his life. The purpose of psychological influence is to overcome subjective defenses and barriers of the individual, restructuring of his psychological characteristics or models behavior in the right direction. the barrier has not been overcome, full impact is impossible. There are personal, emotional, cognitive and activity-based psychological contacts [2]. Personal contact involves taking into account the personal characteristics of the pupil: orientation, motives of behavior, relationships, interests, age and individual personality characteristics. Emotional contact is expressed in the commonality of emotional positions and experiences of the teacher and student in relation to the situation and to each other. The establishment of emotional contacts is achieved on the basis of the rapprochement of emotional positions and experiences, what is possible based on knowledge the pupil, as well as understanding his situational emotional state. An experienced teacher usually does not take serious action until he finds out emotional position of pupils and will not provide removing the emotional barrier.

Establishing emotional contacts with children during depends largely on the style of pedagogical communication of the teacher. The style of pedagogical communication expresses the features of communicative capabilities teacher; the existing nature of the relationship between the teacher and students; creative individuality teacher; characteristics of students. Being a socially and morally charged category, communication style inevitably reflects the general and pedagogical culture of the teacher and his professionalism. The generally accepted classification of pedagogical communication styles is their division into: authoritarian, democratic and liberal-permissive (A.V. Petrovsky, Ya.L. Kolominsky, V.V. Shpalinsky, M.Yu. Kondratyev and others). With an authoritarian style of communication, the teacher alone resolves all issues related to life activities both the class team and each student. Based on his own settings, he determines the position and goals of interaction, subjectively evaluates the results of activities. In its most pronounced form this style manifests itself with an autocratic approach to education when students do not participate in the discussion

problems that are directly related to them, and their initiative is assessed negatively and rejected. The authoritarian style of communication is implemented using tactics dictatorship and guardianship. Schoolchildren's opposition to the authorities teacher pressure most often leads to persistent conflict situations. The role position of these teachers is objective. The student’s personality and individuality are outside the interaction strategy. In this regard, mutual positive personalization of teacher and student

turns out to be unlikely. Authoritarian style of communication, according to N.F. Maslova, generates inadequate self-esteem in students, instills a cult of power, creates neurotics, and causes an inadequate level of aspirations in communicating with other people [3]. Moreover, the dominance of authoritarian methods in communicating with students, according to V.V. Shpalsky, leads to a distorted understanding values, to a high appreciation of such personality qualities, as “the ability to get away with it”, “the ability to use others to do what needs to be done oneself”, “the ability to force

others to obey unquestioningly", "external attractiveness and physical strength", etc. [4]. The liberal-permissive (anarchic, ignoring) style of communication is characterized by the desire

the teacher is minimally involved in activities, which explained by the removal of responsibility for its results. Such teachers formally perform their functional duties, limiting themselves only to teaching. Liberal-permissive communication style implements non-intervention tactics, the basis of which constitute indifference and disinterest in the problems of both the school and students. The consequence of such

tactics is the lack of control over activities schoolchildren and the dynamics of their personality development. Academic performance and discipline in the classes of such teachers are, as a rule, unsatisfactory. The common features of liberal-permissive and authoritarian communication styles, despite the apparent opposite, are distant relationships, lack of trust, obvious isolation, aloofness, demonstrative emphasis on one's own dominant position. An alternative to these communication styles is cooperation between participants in pedagogical interaction, more often called democratic. With this

communication style, the teacher is focused on improving the subjective role of the student in interaction, to involve everyone in solving common problems. The main feature of this style is mutual acceptance and mutual orientation. As a result of open and free discussion students together with the teacher when problems arise come to one decision or another. Democratic The style of communication between the teacher and students is the only one a real way to organize their cooperation. Teachers who adhere to this style are characterized by an active and positive attitude towards students, adequate assessment of their capabilities, successes and failures. Them characterized by a deep understanding of the student, the goals and motives of his behavior, the ability to predict his development personality. According to external indicators of its activities teachers of democratic communication style are inferior their authoritarian colleagues, but the socio-psychological climate in their classes is always more favorable. Interpersonal relationships are characterized by trust and high demands on oneself and others. With a democratic style of communication, the teacher stimulates students to creativity, initiative, and organizes conditions for self-realization, which creates opportunities for mutual personalization of the teacher and schoolchildren. The characteristics of the above styles of pedagogical communication are given in a "pure" form, however, in real pedagogical practice they most often occur mixed communication styles. The teacher cannot completely exclude from his arsenal some private techniques of authoritarian communication style. As research has shown, they are sometimes quite effective, especially when working with classes and individual students with a relatively low level of socio-psychological and personal development. But even in this case the teacher should be generally focused on a democratic style of communication, dialogue and cooperation with students, since this style of communication allows for maximum implement a personal development strategy for pedagogical interaction.

Used literature:

1. Психология воздействия (проблемы теории и практики) / Редкол.: А.А. Бодалев, А.Г. Ковалев и др. М., 1989.—24–25с.
2. Белинская, Е.П., Тихомандрицкая О.А. Социальная психология личности.— М., 2001.— 17–20 с.
3. . Маслова, Н.Ф. Стиль руководства учителя как способ социально-психологического воздействия // Руководство и лидерство. Сборник научных трудов ЛГПИ им. И.А. Герцена». Л. 1973.— 19с. 4. Шпалинский, В.В. Психологические механизмы мотивации человека.— М.: Педагогика, 1999.—188с.
4. G.Norimova.Innovative and streaming technologies in foreign languages lessons Uzluksiz Ta'lim ilmiy-uslubiy Jurnal, 2022, №5

SPORT TRENIROVKASI TIZIMIDA ISH QOBILIYATINING JISMONIY VA FUNKSIONAL KOMPONENTLARINI RIVOJLANTIRISH

Bairbekov Mamatqul Gaibnazarovich
p.f.n., dotsent
email: bairbekovmamatqul1965@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport trenirovkasi tizimida ish qobiliyatining jismoniy va funksional komponentlarini rivojlantirish texnologiyasini ko‘nikma, “qobiliyat” va “qayd etilgan xislatlar” kabi kompetensiyalariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: ko‘nikma, qobiliyat, xislat, ish qobiliyat, tezkorlik, kuch, harakat,chidamkorlik, mushak, nerv, kompetensiya, komponenta, psixofunksional.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Inson hayoti va uning kasbiy faoliyatida, shu jumladan sport amaliyotida ham, “ish qobiliyati” – degan tushuncha qo‘llanilib turilishi odat tusiga kirgan. Ushbu tushuncha gohida “umumiy jismoniy ish qobiliyati”, gohida “maxsus jismoniy ish qobiliyati”, gohida esa faqat “ish qobiliyati” ma’nolarida ifoda etiladi. Agar gap inson yoki sportchining hayotiy zarur harakat ko‘nikmalari va harakat malakalari, shu jumladan uning jismoniy sifatlari haqida ketadigan bo‘lsa, unda asosan “umumiy jismoniy ish qobiliyati” degan ibora qo‘llaniladi. Bordiyu, insonning kasbiy faoliyati yoki sportchi shug‘ullanadigan sport turiga xos harakatlar izohlanadigan bo‘lsa, unda “maxsus jismoniy ish qobiliyati” atamasidan foydalaniladi. Ammo, ba’zi holatlarda, ayniqsa kasbiy faoliyatda yoki muayyan sport turida hal qiluvchi o‘ziga xos tartibda ixtisoslashtirilgan harakatlar, texnik-taktik usullar hajmi baholanadigan bo‘lsa, unda “ish qobiliyati” tushunchasi qo‘llaniladi. Mazkur atamalardan foydalanilganda birinchi navbatda ularning tarkibiy komponentlari e’tiborga olinadi.

Sport turlarida qo‘llaniladigan o‘ziga xos maxsus jismoniy sifatlarni rivojlanganlik darajasi, yuklamalarga bardosh berish xususiyati va texnik-taktik harakatlar hajmining organizmga ta’sir etish dinamikasini baholashda aksariyat “maxsus ish qobiliyati” tushunchasini qo‘llash odat tusiga kirgan. Ammo shuni ta’kidlash joizki, muhokama etilayotgan atama-tushunchalarni o‘z manbalarida goh “jismoniy ish qobiliyati”, goh “maxsus jismoniy ish qobiliyati”, goh faqat “ish qobiliyati” degan iboralardan foydalanganlar. Ana shu atamalarning tarkibiy komponentlarini izohlashda ham bir xil yondashuv prinsipiga amal qilinmasligi kuzatiladi. Vaholanki, bunday yondashuvga rioya qilish sportchining jismoniy, funksional yoki texnik-taktik imkoniyatiga to‘g‘ri va ob’ektiv tashxis qo‘yishga asos bo‘ladi.

Mavzu doirasida tahlillar. Ma’lumki, jismoniy ish qobiliyati umumiy yoki maxsus bo‘lmasin, o‘z tarkibiga qator jismoniy sifatlar (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik)ni kiritadi. Lekin, V.B.Korenbergning ta’kidlashicha, “tezkorlik” yoki ish qobiliyatini yugurish bilan bog‘liq testlar yordamida baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi[1]. Chunki, birortexnik-taktik harakatni bajarish ham “tezkorlik” talab qiladi. “Ish qobiliyati” deganda sportchini u yoki bu ishni tez, vaziyat va talabga muvofiq aniq bajarish tushuniladi. Ishni ma’lum vaqt ichida (ayniqsa uzoq vaqt ichida) tez va aniq bajarish qobiliyati sportchining psixofunksional imkoniyati bilan belgilanadi.

Sport amaliyotida, shu jumladan voleybolda ham “jismoniy sifat, harakat ko‘nikmasi va harakat malakasi” kabi atamalar qo‘llaniladi. Harakat ko‘nikmasi rus tilida “Двигателные умения”, “Harakat malakasi” esa “Двигателные навыки” deb yuritiladi. Demak, “Harakat ko‘nikmasi”ning mantiqiy tarjimasi “Harakatni bilish yoki uni qo‘llashni bilish” ma’nosini anglatishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasida “harakat ko‘nikmasi” birlamchi, “harakat malakasi” esa ikkilamchi deb izohlanadi. Boshqacha qilib aytganda, avval “harakat ko‘nikmasi” shakllantiriladi, keyin shu harakat muvofiq mashqlar yordamida “harakat malakasi”ga aylantiriladi deb ta’kidlanadi. Ammo V.B.Korenberg bu borada mantiqqa mos fikrni ilgari suradi: avval “harakat malakasi” “avtomatizm” darajasigacha shakllantiriladi, keyin shu shakllangan “harakat malakasi”[1] vaziyat va raqib taktikasiga qarab, foyda beruvchi qulay fursatda ijro etiladi.

Ko‘nikma – bu biror harakatga ko‘nikish, moslashish, uni odat tusiga kirishini anglatadi.

“Qobiliyat” – bu inson naslidan naslga o‘tishi mumkin bo‘lgan yoki unda mujassam bo‘lgan, muayyan faoliyatda kuzatiladigan xislatdir. Ushbu xislatda iste’dod ham bo‘lishi shu qobiliyatni yanada kuchayishiga asos bo‘ladi. Bu borada boshqa olimlar ham o‘z fikrlarini bildirishgan. Ammo, ushbu mualliflarning shu tushunchalar bo‘yicha bildirgan fikrlari mantiqiy jihatdan ham, ma’no jihatidan ham bir-biridan farq qiladi.

Qayd etilgan xislatlar – iste’dod, iqtidorlik, qobiliyat, shu jumladan jismoniy ish qobiliyati va ularning tarkibiy komponentlarining fiziologik mexanizmlari yoki funksional qiymati muvofiq metodik yondashuvlar asosida o‘rganilmasa, ularning real holatini bilish va tashqi-ichki omillar ta’sirida o‘zgarish sabablarini aniqlash imkoniyati mushkullashadi.

Ilmiy assoslangan takliv va tavsiyalar. Demak, har bir maqsadli harakatni o‘ziga xos jismoniy sifatlar asosida samarali ijro etish avvalambor sportchining real funksional imkoniyatiga bog‘liqdir. Funksional imkoniyat zahirasi qanchalik katta bo‘lsa va diapazoni keng bo‘lsa, uni jismoniy yuklamalarga moslashish hamda ularni o‘zlashtirish darajasi shunchalik yuqori bo‘lar ekan. Ana shunday yondashuv bir qator mualliflar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan. Shu bilan bir qatorda ayrim manbalarda jismoniy ish qobiliyati yoki jismoniy tayyorgarlik va funksional tayyorgarlikni rivojlantirish masalalariga avtonom yondashuv asosida e’tibor qaratiladi. Lekin sport nazariyasi va metodikasi doirasida o‘tkazilgan fundamental tadqiqotlarga asosan jismoniy va funksional tayyorgarlik va bir tayyorgarlik turining bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki tomonidir. Jismoniy yoki texnik-taktik mashqlarni muntazam qo‘llash natijasida birinchi navbatda organizmning barcha funktsiyalari (nerv-mushak, qon-tomir, nafas olish va h.k.) shakllanadi (mashqlanadi) va bir vaqtning o‘zida shu mashqlar jismoniy sifatlarni (kuch, tezkorlik, chidamkorlik va h.k.) yoki texnik-taktik usullarni shakllantiradi. Texnik-taktik harakatlar ham jismoniy sifatlar kabi yuklama tarkibiga mansubdir, faqat texnik harakat jismoniy yuklamani ifodalaydi, taktik harakat esa intellektual yuklama (diqqat, idrok, tafakkur, ong, iroda va h.k.)ni bildiradi. Demak, funksional jihatdan shakllanish tayyorgarlikning ichki tomoni, jismoniy rivojlanish esa tayyorgarlikning tashqi tomonidir. Biroq, shuni nazarda tutish lozimki, jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ham, funksional organlarni shakllantirishda ham ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan kam hajmli va sekin shiddatli relaksatsion-qayishqoqlik-nafas mashqlarini qo‘llab borish maqsadga muvofiqdir.

Qayd etilgan ma’lumotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, jismoniy ish qobiliyati yoki harakat qobiliyati bilan bog‘liq tushunchalar mohiyati va ularning tarkibi faqat jismoniy sifatlar hamda texnik-taktik harakatlardan iborat bo‘lmaydi, ularni yuklamalarga bardosh berish imkoniyati ustuvor jihatdan funksional mexanizmlarning shakllanganlik darajasiga bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda har bir ish yuklamasini “oson” hamda engil o‘zlashtirish va texnik-taktik harakatlar samaradorligini qisqa yoki uzoq muddat davomida saqlab qolish funksional tayyorgarlik zahirasi bilan belgilanadi (yurak-tomir, nafas olish, nerv-mushaklar funktsiyalarini tejamli reaksiyasi).

Mushak faoliyatini energiya ta’minlovi

Energiya hosil qilish manbalari	**Energiya ajralish yo‘llari**	**Energiya ajralish vaqti, sek.**	**Saqlanish vaqti**	**Energiya ajralishining max. davom etishi**
Alaktat anaerob	Kreotin-fosfokineziya va miokineziya reaktsiyasi, mushakdagi ATF	0	30 sek.gacha	10 sek.gacha
Laktat anaerob	Glikoliz – sut kislotasi	15-20	30 sek.dan 5-6 min.gacha	30 sek.dan 1,5 soatgacha
Aerob	O_2asosida uglevod va yog‘larning parchalanishi	90-180	Bir necha soatlargacha	2-5 min.

Panjiyev Orifjon Erkinovich, Yunusov Alisher Pardayevich, Ibragimov Zuxriddin Ziyadulla O‘g‘li
1.GulDU. To‘qimachilik va yengil sanoat texnologiyasi kafedrasi,
2.GulDU. Talabasi

Annotatsiya: Chizma bo‘yicha ijodiy mexnat harakatlari tizimi rejalashtirildi. Chizma bo‘yicha ijodiy mexnat natijalari amalga oshiriladi va nazorat qilinadi. Shu sababli chizma «texnika tili» deyiladi. Ushbu maqolada muhandislik grafikasini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o‘rni yoritilgan, shuningdek, "texnologiya", "innovatsiya" kabi tushunchalar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Chizma, ijodiy tafakkur, texnika tili, tassavur, kasb-xunar kollejlari, texnik yo‘nalish, grafika, muhandis, yondashuv, nazariy material, bo‘lajak o‘qituvchi, shaxsiy yondashuv, uslubiy asos.

Muhandis – pedagoglar tayyorlash jarayonida jahon ta’limi tizimida yuqori samara berayotgan innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish va qo‘llash ustuvor vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Davlatimiz rahbari ta’kidlab o‘tganlaridek Oliy o‘quv yurtlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘z ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur nazariy bilimlar, puxta amaliy malakalarga ega bo‘lgan yetuk zamonaviy bakalavr va magistrlar tayyorlab etishtirishdir. Hozirgi zamon texnika texnologiyasiga doir bilimlarni muvaffaqiyatli egallashning shartlaridan biri, talabalarda grafik savodxonlik, ko‘nikma, malakalarini ya’ni chizmalarni o‘qiy va bajara bilishdir. Shu munosabatda chizma chizishning asosi – chizma geometriya fanini mukammal egallashni talab etadi. Xalq ho‘jaligini fan texnika taraqqiyoti asosida jadallashtirish – bozor iqtisodiyotining muhim vazifasi hisoblanadi. [1] Bu ulkan ishlarni bajarish kadrlarning malakasiga bog‘liq. Bunday kadrlar prinsipial yangi ilmiy g‘oyalar va yuksak texnik echimlarni yaratish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan chizmalarni tuzish va o‘qishga imkon beradigan bilim va malakalar orttirish, shuningdek, fazoviy tasavvurni rivojlgntirish uchun zarurdir. Chizmalarni tuza bilish va o‘qiy olish, tasvirlar yasash metodini, turli pozitsion va metrik masalalar yechishni va chizma geometriya hamda qurilish chizmachilikda qabul qilingan bir qator shartliliklarni bilishga asoslanadi. Fazoviy tasavvur deganda insonning ayrim qismlar shakli, o‘lchamlari, proporsiyasini, rangni, sirt fakturasnni va turli buyumlarning, jumladan, bino, inshoot va konustruksiyaniig ayrim sifatlarini fikran ko‘z oldiga keltirish xususiyati tushuniladi. [2]

Ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim berish jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun ishonchli zamin yaratadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin.

Interaktiv shakllar o‘qituvchiga o‘quvchilarni dars bilan jalb qilish, ularni faol ishtirok etish, natijalarga erishish va jamoaviy ishlarga undashga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, faol usullardan farqli o‘laroq, interaktiv o‘quvchilar nafaqat o‘qituvchi bilan, balki bir-birlari bilan ham, o‘quv jarayonida talabalarning faolligining ustunligiga qaratilgan. Interaktiv darslarda o‘qituvchining o‘rni talabalarning dars maqsadlariga erishish yo‘nalishi bo‘yicha qisqartiriladi. O‘qituvchi shuningdek, dars rejasini ishlab chiqadi, odatda, bu interaktiv mashqlar va vazifalar bo‘lib, unda talaba materialni o‘rganadi. O‘quvchilarning grafik ta’lim sifatini oshirish o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida bilimlarni taqdim etishning aniq, maqsadli va metodik jihatdan o‘ylangan tizimi tomonidan katta hissa qo‘shadi. O‘quv jarayoniga yangi, eng ilg‘or o‘qitish va o‘qitish usullarini joriy etish, ta’limning texnik vositalarini oqilona jalb qilish kerak.

L.M.Mitinaning qayd etib o‘tgan kasbiy sifatlar ro‘yxatini quyidagicha: xushmuomalalik, o‘ychanlik, talabchanlik, ta’sirchanlik, yaxshi tarbiya, ehtiyotkorlik, chidamlilik va o‘zini tuta bilish, xatti-harakatlarning moslashuvchanligi, fuqarolik, insonparvarlik, samaradorlik, intizom, mehr-oqibat, vijdonlilik, xayrixohlik, g‘oyaviy ishonch, tashabbuskorlik, samimiylik, kollektivizm, siyosiy ong, kuzatuvchanlik, qat’iyatlilik, tanqidiylik, izchillik, bolalarga muhabbat, mas’uliyat, sezgirlik, tashkilotchilik, xushmuomalalik, odoblilik, vatanparvarlik, rostgo‘ylik, pedagogik bilimdonlik, uzoqni ko‘ra bilish, to‘g‘rilik, mustaqillik, o‘zini o‘zi tanqid qilish, hayo, adolat, zukkolik, jasorat, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilish, xushmuomalalik, yangilikni his qilish, o‘zini o‘zi qadrlash, sezgirlik, emotsionallik. Sifatlarning ushbu umumiy ro‘yxati ideal o‘qituvchining psixologik portretini tashkil qiladi. Uning o‘zagi, zamini aslida shaxsiy sifatlar – pedagogik yo‘nalganlik, intilish darajasi, o‘zo‘zini baholay bilish, «men» timsolidir. Ko‘pgina olimlar kasbiy sifatlarlar to‘g‘risida alohida e’tirof etishgan. Bo‘lajak chizmachilik fani o‘qituvchisining nazariy bilimlari tizimini va ularni muayyan pedagogik vaziyatlarda qo‘llash usullarini, shuningdek, uning madaniyatining integrativ ko‘rsatkichlarini nutqi, muloqot uslubi, o‘ziga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini o‘z ichiga oladi. “Kasbiylik” atamasi “kasbiy kompetensiya” atamasidan kengroqdir. Professional bo‘lish nafaqat buni qanday qilish, balki bu bilimlarni amalga oshirish, kutilmagan natijaga erishishdir. Inson kasbiy mahoratining zaruriy tarkibiy qismi bu kasbiy kompetentsiyadir. Kasbiy kompetentsiya masalalari mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarida ko‘rib chiqiladi. Kasbiy kompetentsiyaning zamonaviy yondashuvlari va talqinlari juda xilma-xildir. Xorijiy adabiyotlarda hozirda mavjud bo‘lgan kasbiy kompetentsiya ta’riflari “chuqur bilim”, “adekvat topshiriqni bajarish holati”, “faoliyatni amalda bajarish qobiliyati” (G.K.Britell, R.M.Jyuger, V.E.Blank) va boshqalar. [3]

Muhandislik kompyuter grafikasini o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchi va talabalarga chizmachilik va muhandislik fanlaridan bajariladigan grafik axborotlarni-chizma, diagramma va sxemalar kabi tasvirlarni kompyuter yordamida bajarish tartibi va qoidalarini o‘rgatishdan iborat. «Muhandislik kompyuter grafikasi»ning asosiy masalasi amaliy va operatsion dasturlar hamda tayyor buyruqlar paketidan foydalanib, loyihalash va texnologik jarayonlarning modellarini yaratish ishlarini o‘quvchi yoki talabalar tomonidan kompyuterda erkin bajarishlari uchun zaruriy bo‘lgan bilim va malakalarga erishtirishdan iborat.

Muxandislik grafikasi bo‘lajak bakalavrlarga texnikaviy g‘oyalarni chizmalar vositasida bayon etish, shuningdek berilgan chizmalar orqali texnik buyumlarni ishlash prinsiplarini tushinish malakasini o‟rgatadi. Muxandislik grafika fani bakalavrlar uchun, konstruktorlik hujjatlarni rasmiylashtirishning asosiy qoidalarini o‘rganishlarida birinchi bosqich hisoblanadi. Chizmalarga qarab to‘liq texnik fikr yuritish va ularni ishlab chiqarish hujjatlari sifatida bilish, muxandislik grafikasidan yetarli malaka va ko‟nikmaga ega bo‘lish, tegishli mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha barcha texnik fanlarni mukammal o‘rganish, kurs ishi va diplom loyixalarini bajarish bilan erishiladi. [4]

Har bir amaliy mashg‘ulotda 30 minut davomida grafik axborotlarning primitivlarini-tarkibiy qismlarini kompyuter ekranida chizish, ularni qayta o‘zgartirib maqbul bo‘lgan variantlarini yaratish va ekranda bajarilgan tasvirlarni xotiraga saqlash va qog‘ozga chiqarib olish kabi vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan nazariy bilimlar bosqichma-bosqich berib boriladi3 . Shunday qilib, kasbiy sifatlar tuzilmasi o‘zida bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni, qobiliyatni, didaktik tamoyilga asoslanib-oddiydan murakkabga, kompyuterda ishlay oladigan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarini mujassam etadi.

Kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari jadal sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida kompyuter grafikasi alohida fanga aylandi va bu fanning asosiy maqsadi barcha sohalarga integratsiyalashuv jarayonidir. Muhandislik grafikasi ham bundan mustasno emas. Kompyuter grafikasining muhandislik grafikasiga integratsiyalashuvi yangi muhandislik kompyuter grafikasi fanining paydo bo‘lishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR:

1. Nozima Xotamovna Gulomova, Xilola Ikrom Qizi Abdullayeva, Muslimaxon Baxodirxon Qizi Abdurashidxonova, & Aziza Savronboy Qizi Abdurazzoqova (2021).

2. Saydaliev, S. S., & Gulomova, N. X. TASVIRIY FAOLIYATGA O ‘RGATISHNING METOD VA USULLARI. Муаллим узликсизбилимлендири³,

. 3. Гуломова, Н. Х. (2013). НАЧЕРТАТЕЛЬНАЯ ГЕОМЕТРИЯ: ПОЗИЦИОННЫЕ И МЕТРИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ. SCIENCE AND WORLD, 99., . 4. Gulomova Nozima Xotamovna. (2022). TALABALARGA CHIZMACHILIK DARSIDA “KESIMLAR” MAVZUSINI MUSTAQIL O‘ZLASHTIRISHIDA METODIK TAVSIYALAR.

O‘ZBEK AN’ANAVIY KIYIMLARINI ZAMONAVIY ISHLAB CHIQARISHDAGI O‘RNI

Sharipova Nilufar Mavlonovna
Ishlab chiqarish texnologiyalari instituti
To‘qimachilik va yengil sanoat texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Qadim zamonlarda yaratilgan va bugungi kungacha qo‘llanilgan o‘zbek milliy libosi o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xosligini aks ettiradi. O‘zbek milliy liboslarining o‘ziga xosligi shundaki, bichim soddaligi, shakli, bezaklari, matolari va naqsh elementlari bilan ahamiyatlidir.*

Kalit so‘zlar: *milliy kiyim, xalq an’anasi, dizayn, xalq libosi, rang-barang, zardo‘zlik.*

O‘tmishsiz kelajak ham bo‘lmaydi. O‘z tarixini bilmasdan turib, hech kim bugungi kun va kelajakka yo‘lning maqsad va yo‘nalishi haqida aniq va to‘g‘ri tasavvur hosil qila olmaydi. Binobarin, o‘z tarixiy qadriyatlari, milliy an’analari va madaniyatini e’zozlash va qayta tiklash kuchli va ongli kelajakni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek milliy kostyumi - bu ma’lum bir hududga xos bo‘lgan an’anaviy kiyimlar to‘plami. U o‘zining bichilishi, kompozitsion va plastik shakli, matoning teksturasi va rangi, dekoratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Fransuz modasi tarixchisi shunday degan edi: "Agar hamma odamlar yo‘q bo‘lib ketsa va faqat kostyum qolsa, kostyumdan bu svilizatsiyaning butun tarixini qayta tiklash mumkin bo‘ladi".

O‘zbek milliy libosi tarixi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning Buxoro, Samarqand, Toshkent kabi yirik markazlarida shahar madaniyati ta’sirida u chekka hududlarga qaraganda ancha tez o‘zgargan. Samarqandda ikki xalq – o‘zbek va tojik xalqlarining birga yashashi, ularning madaniyatining doimiy o‘zaro ta’siri qisman an’anaviy libosda o‘z aksini topdi. Samarqandning boshqa shaharlar, xususan, Buxoro va Toshkent bilan doimiy iqtisodiy va madaniy aloqalari ham ayollar kiyimida yangi shakl va elementlarning yuzaga kelishiga xizmat qildi.

Qadimda ayollar uchun an’anaviy kiyim-kechak ko‘ylak (ko‘ylak), shim, ustki kiyim - munisak, burqa, chopon, bosh kiyim va poyabzaldan iborat edi. Kundalik va marosim kiyimlari kesishda farq qilmadi. Yagona farq shundaki, marosim kostyumida marosim maqsadining asosiy ekspressiv xususiyatlari rang, materialning tuzilishi va dekorativ dizayn edi.

O‘zbekiston aholisining milliy liboslari barcha sharq xalqlariga xos xususiyatlarni hayratlanarli tarzda o‘zida mujassam etgan bo‘lib, o‘ziga xos individual va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbek milliy libosi vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlarga uchragan bo‘lsa-da, zamonaviy ko‘rinishida u sharq xalqlari madaniy an’analarining barcha boyligini va qadimiylikdan ildiz otgan tarixiy bog‘liqlikni saqlab qolgan.

O‘zbek libosining o‘ziga xos xususiyati mohirona zardo‘zlik bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Bunday kiyimlar badavlat odamlarga xosdir. Hukmdor o‘z atrofidagilarga sovg‘a qilgan tilla bilan

tikilgan milliy o‘zbek liboslari mashhur bo‘lgan va buning evaziga bunday sovg‘alarni ham olgan. Tilla kashtachilikda faqat shoyi va baxmal kabi olijanob materiallardan foydalanilgan.

Naqshlar asosan o‘simlik mavzularida tikilgan, geometrik naqshlar zarhal naqshli liboslarda ham kam uchraydi. Kashtado‘zlik yordamida oltin iplar nafaqat kiyim-kechak buyumlarini, balki bosh kiyimlar va poyabzallarni bezash uchun ham ishlatilgan.

Qadimda O‘zbek erkaklarning to‘y libosi an’anaviy tarzda brokar va tilla yoki kumush bilan bezatilgan. Milliy o‘zbek libosining rang diapazoni ancha keng. Mamlakatning turli mintaqalari aholisining o‘ziga xos rang afzalligi bor, ammo o‘zbeklar qora kiyimlarni yoqtirmaydilar, chunki ular muammoni o‘ziga jalb qilishiga ishonishadi. Erlarining holatini ayollar kiyimlarining ranglariga qarab ham baholash mumkin edi. Boy o‘zbeklar o‘z xotinlariga ko‘k yoki binafsha rangli libos kiygan, hunarmandlarning xotinlari esa yashil libos kiygan. Lekin kostyumlarning bichilishi, aksincha, juda oddiy va erkaklar va ayollar modellari uchun bir xil. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri mato bo‘laklariga bo‘linib, qo‘l choklarida tikilgan.

Ayollar va qizlar uchun an’anaviy o‘zbek kiyimlari O‘zbekistonda ayollar milliy libosi ko‘ylak, shim, erkaklarnikiga o‘xshagan xalat va bosh kiyimdan iborat. Qolaversa, o‘zbek qizlari va ayollari o‘zlarini oltin va kumush buyumlar bilan bezashadi. An’anaviy qashqar-baldoq va gumbazli sirg‘alar, uzuk va bilaguzuklar nafis sharqona uslubda tayyorlangan. Ayol bo‘yniga marjon bonchuklar yoki tanga marjonlarni taqib yuradi. Qadim zamonlardan buyon o‘zbek go‘zallarining yana bir bezaklari peshona bezaklaridir.

O‘zbek an’anaviy milliy liboslari to‘g‘ri uzun yengli va oyoq barmoqlarigacha bo‘lgan uzunlikda bichib tikilgan. Tarixiy jarayonlar va siyosiy bosqinlar o‘zbek an’anaviy kiyimlariga katta ta’sir o‘tkazmay qolmadi. Ushbu ta’sirlarni natijasi o‘laroq, o‘zbek an’anaviy kiyim bichimi, matolari va kiyim shaklida o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. O‘tgan asrning boshlariga kelib, kiyim-kechak uslublarining kichik turlari paydo bo‘ldi: yenglarida manjetlar yoki tik yoqa bo‘lishi mumkin. Kostyumning bu qismini tikish uchun an’anaviy ravishda olijanob ipak va atlas ishlatiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy kiyimlar xilma-xildir. Shahar aholisi va ayrim qishloq aholisi, ayniqsa, o‘qimishli yoshlar zamonaviy yevropacha liboslarni kiyishni afzal ko‘rishadi. Shu bilan birga, o‘zbeklar zamonaviy liboslarga o‘z mamlakatiga xos bo‘lgan tafsilotlarni ham kiritishga intiladilar - qizlar an’anaviy zargarlik buyumlaridan foydalanadilar, yoshlar do‘ppi kiyishlari mumkin. Keksalar, ayniqsa, shaharda yashamaydiganlar urf-odatlarini muqaddas bilib, o‘z xalqining liboslarini kiyib yurishadi.

To‘y va marosimlar yoki milliy bayram kabi tadbirlarda milliy kostyumlar kiyish hali ham saqlanib, kiyib kelinmoqda, bu esa o‘zbek xalqining urf-odatlarga, o‘tmishiga bo‘lgan sadoqati va hurmati ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek milliy kostyumi - bu ma’lum bir hududga xos bo‘lgan an’anaviy kiyimlar to‘plami. U o‘zining tuzilishi, kompozitsion va plastik shakli, matoning teksturasi va rangi, dekoratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O‘zbek milliy libosida badiiy xususiyatlar, xalq hunarmandchiligining arxaik xususiyatlari, kiyim-kechak taraqqiyotining etnografik va mintaqaviy shakllari o‘z ifodasini topgan.

Milliy kiyimdagi ornamentlar - kundalik hayotimizning o‘zgarmas ishtirokchisi, inson va insoniyatning abadiy hamrohi bo‘lib, islomda bezak dunyoni ramziy shaklda idrok etish usuliga aylangan. Borliqning o‘ziga xos kodlariga aylangan o‘zgarmaslik, belgi va belgilarning polisemiyasi dunyo haqidagi alohida tushunchani shakllantirdi. Islom bezak san’atining chuqur ma’nosi uning ma’nosi haqida gapirishga imkon beradi.

Yaqin o‘tgan asrning 90-yillarida ayollarimiz milliy libosimiz, naqshinkor va o‘zbekcha naqshli liboslar yoki milliy matolarimizdan tikilgan kostyum kiyishdan qat’iyan bosh tortdilar. Lekin shu kunlarda barcha milliy madaniy an’analarimiz, jumladan, o‘zbek milliy matolarimiz va liboslarimiz, o‘z uslubimizni qayta tiklash va targ‘ib qilish faol davom etmoqda. Bir necha yildirki, bizning dizaynerlarimiz taniqli xorijiy dizaynerlarning (Oskar de La Renta, Dolce & Gabbana, Versace, Pao Rabane va boshqalar) barcha ko‘rgazmalarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Xullosa. Mustaqillik yillarida ishlab chiqarish sohasida bir muncha o‘zgarishlar ro‘y berdi, - “Ishlab chiqarish soxasida birinchi marta o‘zlarining rivojlanishi uchun davlatdan emas, balki xususiy tuzilmalardan buyurtmalar olishni boshladilar. Bundan tashqari, yangi tashkil etilgan tijorat tuzilmalarining o‘zi ko‘plab logotiplar, savdo markalari, vizitkalar, kalendar sovg‘alari, broshyuralar va boshqa reklama materiallariga muhtoj edi”. Yuqorida keltirilgan sifatlarlarni inobatga olgan xolda milliy kiyinish madaniyatiga mos bo‘lgan libos namunalarini ishlab chiqish va ularni tavsiya etish dizaynerlarning bosh maqsadidir. O‘zbek milliy kiyimlarining nihoyatda boy tarixga ega ekanligi va milliy mentalitetimizni hamisha ushbu tarix bilan bog‘lash maqsadga muvoffiqdir. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy sohalar qatorida ishlab chiqarish sohasida ham mana shularni inobatga olgan holda kiyimlarni milliy bichim, milliy matolar, milliy naqsh elementlari bilan bog‘lagan holda ishlab chiqarilayotgan kiyimlarda milliylik ruhini aks etib turishi maqsadga molik.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1.Nafisa Sodiqova. O‘zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar.-Toshkent:Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. 2003 yil.

2.Abdullaev T.A. O‘zbek kiyimlari. - Toshkent: Fan, 2000 yil.

3.Lobacheva N. Burqa: Ritual kostyum yoki to‘y libosi. — “Osiyo va Afrika bugun”, 1995, N8, 78-80-betlar.

4.Suxareva O.A. O‘rta Osiyo liboslari tarixi: Samarqand M., 2004 yil.

KIYIM ISHLAB CHIQARISH SANOATIDA CHIQINDILARNI TURINI ANIQLASHNING AHAMIYATI

Sherqulova Nargiza Rustambekovna
Ishlab chiqarish texnologiyalari instituti
To‘imachilik va yengil sanoat texnologiyasi kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotasiya: Maqolada turli assortimentdagi tikuv buyumlarini tayyorlashda ishlab chiqarishdagi chiqindilarning turini taxlili yoritilgan

Kalit so‘zlar: Tikuvchilik sanoati, mahsulot sifati, assortiment, gazlama, xom-ashyo.

Kirish. Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi har qaysi soha oldida murakkab yangi vazifalarni qo‘ydi. Jumladan yengil sanoat sohasi xodimlari oldiga korxonalarni qayta qurish, uskunalarni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish, yuqori sifatli, chiroyli kiyimlarning ommaviy turlarini tikadigan yuksak unum, tezda qayta moslashuvchi yangi texnologik oqimlarni qurish yo‘li bilangina tubdan yaxshilash vazifasi qo‘yilgan.

Loyihalangan mahsulot turini ishlab chiqarishda joylashmalar orasidan chiqadigan material qoldiqlari-chiqindi deb ataladi. Bunday qoldiqlar ratsional yoki noratsional turlarga bo‘linadi. Agar gazlamani bichishda iloji bo‘lsa faqat ratsional qoldiq qoldirib bichish tavsiya etiladi. Ushbu chiqindilardan xuddi shu korxonaning o‘zida boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishda dastlabki xom-ashyo sifatida foydalaniladi yoki ikkilamchi tur tikuv maxsulotlarini tayorlash uchun xom-ashyo sifatida boshqa bir korxonalarga yuboriladi.

Yechiladigan muammo va masalaning qo‘yilishi. Turli tashkilotlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, bunda matodan oqilona foydalinilsa, ko‘pgina miqdorda rezervlarni tejash mumkin. Birgina bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan chiqindilar (tushamadagi andozalar orasidagi chiqindilar, to‘shama uzunligi va kengligi bo‘yicha chiqindilar) kamaytirilganda mato sarfini 3—4% ga kamaytirish mumkin.

Bevosita bichish jarayonidagi chiqindilarni kamaytirishga sezilarli darajada ta’sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni: to‘plarning chiziqiy o‘lchamlarini, ulardagi nuqsonlarning topografik ta’sirini, nazorat usullarini tashkil etish va uni parametrlarini aniqlash, shuningdek foydalanilgan materiallarni hisoblashda qo‘llaniluvchi usul va vositalarni kiritish mumkin.

To‘quvchilik korxonalarida ishlab chiqarilayotgan ko‘pgina mato turlariga xos bo‘lgan mato kengligining o‘zgarishi, yetkazib berilayotgan partiya ichida ham, mato to‘plari ichida ham nomoyon bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda amaliy jihatdan turli kenglikdagi matoni ishonchli qayd qilinishi ta’minlovchi, mato to‘pi kengligini aniqlash bo‘yicha ob’ektiv metodika mavjud emas. Bu bilan bog‘liq bo‘lgan holda, hozirgi paytda amaliyotda matoning to‘liq kengligidan foydalanilmaydi. Material to‘pini tanlashda va hisoblashda ularning kengligi turlicha bo‘lishi yetarlicha hisobga olinmayapti, natijada ko‘pincha to‘shamalar turli kenglikdagi to‘plardan shakllantiriladi, bu esa materialning qo‘shimcha yo‘qotilishiga olib keladi.

Bundan tashqari hisoblash uchun material to‘plarini taxminiy konfektsion tanlash tasodifiy xarakterga ega, qoidaga binoan, mazkur kenglikdagi resursni taqsimlash optimalligini ta’minlamaydi, ma’lum modeldagi buyumni bichishda xar doim ham ratsional kenglikdagi materialdan foydalanilmaydi. Bundan tashqari, asosan matoning fizik-mexanik xususityati bilan aniqlanuvchi, vaqt bo‘yicha uzunlik o‘lchovidagi mavjud nostabillik o‘lchov natijalariga ta’sir etadi va material to‘pini ratsional hisoblashda, ularni to‘shashda va bichishda bir qator qiyinchiliklar tug‘iladi. Umuman olganda, matoning chiziqli o‘lchamlari haqida ishonchli ma’lumot olish juda muhim bo‘lishiga qaramay, ularni to‘g‘ri aniqlash muammosi, shuningdek materiallardan tejamkor foydalanishga ularning ta’sir etishi yetarlicha o‘rganilmagan.

Bunda xar bir mato to‘pi bir marta ko‘zdan kechirilgan holda, faqatgina bitta bichish kartasi uchun hisoblash amalga oshiriladi, bu esa mazkur jarayon samaradorligini kamaytiradi, chunki partiyadagi materialni bir vaqtning o‘zida hisoblashda buyumining barcha seriyasi uchun olinadigan afzalliklardan foydalanilmaydi. Xususan, bu barcha mavjud mato massivi bir necha marta ko‘rib chiqqan holda, xar bir to‘pni hisoblash variantlari sonini va eng yaxshi variantni tanlash imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi, berilgan assortimentga qo‘yilgan talablarni kafolatlaydi. Bularning barchasi

sezilarli darajada mato chiqindilarini kamaytirishga va bir qator opretsiyalarda mehnat unumdorligi kamayib ketishiga olib keladi.

Tikuv korxonalarida materiallarni qoldiqsiz bichish samaradorligi ko‘pincha yetkazib berilayotgan mato to‘plarining ratsional uzunligiga, ulardagi haqiqiy va shartli rezervlar miqdoriga, nuqsonlar turiga va joylashuviga bog‘liq bo‘ladi. Texnik va tashkiliy xarakterga ega bo‘lgan sabablarga ko‘ra katta uzunlikda ishlab chiqarilayotgan matolar, hozirgi paytda to‘qimachilik korxonalarida chiziqli o‘lchamlari va biror sortga mansubligi yakuniy nazoratdan o‘tkazilayotganda uncha katta bo‘lmagan uzunlikka nisbatan bo‘laklarga (otrezlarga) qirqiladi. Bunda sortining baland-pastlik ko‘rsatgichi va ayniqsa mato bo‘laklarining bichish bo‘yicha tavsifi ma’lum miqdorda katta uzunlikdagi mato to‘plarini bo‘laklarga ajratishda qo‘llanilgan usulga bog‘liq bo‘ladi. To‘qimachilik korxonalarida katta uzunlikdagi mato to‘plarini bo‘laklarga ajratish amaliy jihatdan nuqsonlar topografiyasini hisobga olmagan holda, ketma-ket amalga oshiriladi, chunki nazoratchi kerakli ma’lumotga ega emas.

Modomiki, sub’ektiv baholash asosida matoni tartiblash optimaldan yiroq ekan, bu jarayonni o‘tkazish metodikasi xalq xo‘jaligida tejamkorlikni hisobga oladigan yakuniy samaradorlikni olish imkoniyatini ta’minlamaydi, tikuv korxonasi iste’molida uning yo‘qotilishini minimallashtirgan holda, tayyor matoni qayta ishlash bosqischida unga erishish mumkin.

Yuqorida qayd qilingan muammolarni yechish matodan unumli foydalanish, tikuv korxonalari mahsulotlariga gazlama sarf hajmini kamaytirish, material rezervlari o‘lchovini kamaytirish va ishlab chiqarish rentabilligini oshirish imkonini beradi.

Xalq xo‘jaligida va tikuvchilik korxonalarida chiqindilarni va material sarfini reja asosida qisqartirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunda mahsulot tannarxini kamaytirishda matodan ratsional foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omil hisoblanadi va korxona rentabellik darajasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Tikuv korxonalarini tashkillashtirish, matoni qayta ishlash bo‘yicha takomillashtirilgan texnika va texnologiyadan foydalanishga, shuningdek, xom-ashyo chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlarga qaramay, hozirgi paytgacha materiallarning sarflanish hajmi yuqori bo‘lib qolmoqda. Joylashmalar orasidan chiqqan chiqindilardan esa yetarli darajada sanoatda keng foydalansa bo‘ladigan mahsulotlar ishlab chiqarilmayapti.

Tikuv korxnalarida matoning solishtirma ulgurji bahosi mahsulot tannarxida 80—90% ni tashkil etsa, matodan foydalanish koeffitsienti 0,86dan oshmaydi.

Korxona rentabellik darajasini oshirish uchun birinchi navbatda, foydalanishga yaroqsiz chiqindilarni kamaytirish evaziga, matoning solishtirma sarfini kamaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni uzluksiz amalga oshirish kerak. Bir vaqtning o‘zida bitta polotnoda ikkita va undan ortiq andoza komplektini va to‘shamada matoni “o‘ngini-o‘ngiga” qaratib joylashtirish evaziga, barcha yo‘qotilishga nisbatan 72% ni tashkil etuvchi andozalar orasidagi mato rezervlari tashlanishini sezilarli darajada kamaytirishga erishiladi. Andozalar konfiguratsiyasi turlicha va taqsimlanish nisbati variantlari ko‘p bo‘lsa, qayd qilingan yuzada lekalalar taqsimlanish nisbatining optimal variantini tanlash juda qiyin kechadi.

Hozirgi paytda bu maqsadni amalga oshirish uchun matematik apparat ishlab chiqilgan. Amaliy jihatdan erishilgan lekalalar orasidagi yo‘qotilishni kamaytirishning yagona usuli taqsimlanish nisbati uzunligini oshirish hisoblanadi, bu ikkita va undan ortiq lekalalar komplektini taqsimlagan holda,va mato polotnolaridan xar biriga ikkinchi xuddi shunday polotnoni to‘shab amalga oshiriladi. Kattalar uchun ustki kiyim bichishda, bunday bichish usuli buyum detallari ikkita lekala komplektini “yuzini yuziga” qo‘yib, bir vaqtning o‘zida umumiy uzunligi 7,5 dan to 10mgacha bo‘lgan ikkita bir xil matoni to‘shashni talab qiladi. Bitta buyumda xar xil rangdagi detallar bo‘lmasligi uchun buyum detallarini alohida turli matolarda bichish texnologik jihatdan mumkin emas. SHunday ekan, faqatgina yaxlit sonli qiymatda buyum taqsimlanish nisbatini to‘liq komplektda kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Polotnolarni qoldiqsiz bichish uchun uzunligi 7,5÷10*m li*to‘plaridan foydalanish kerak.

Tikuv korxonalariga turli uzunlikdagi va kenglikdagi mato to‘plari kelib tushadi. Uzunliklari turlicha bo‘lgan gazlamalar qanday alohida bichilsa, xuddi shunday turli rangdagi polotnolar ham alohida bichiladi. Bunda bir vaqtning o‘zida alohida bichiladigan va birga qo‘shib bichiladigan gazlamalar turli variantlarda ishlanadi. Bu bichishning cheksiz qaytarilmas mavjud miqdoriga ta’sir

qiladi, buning natijasida bichishning xar bir alohida variantida bichishning optimal variantini izlash maqsadga muvofiq bo‘ladi degan xulosa kelish mumkin.

Bichish uchun mo‘ljallangan gazlamalar asosan “o‘ngini pastga qaratib yalang qavat yoki o‘ngini-o‘ngiga qaratib yalang qavat” to‘shaladi. Gazlama to‘plaridan ratsional foydalanish maqsadida avval ular to‘shamaga mo‘ljallab xisoblanadi. Agar xisob natijasida qoldiqlar chiqadigan bo‘lsa, faqat ratsional qoldiqlar chiqarish tavsiya etiladi. Bunday qoldiqlardan erkaklar, ayollar va bolalar ustki kiyimlarida bezak detallar, qo‘shimcha buyumlarni yaratishda foydalaniladi. Qoldiqlardan foydalanish buyum tannarxini oshib ketishiga ta’sir qilmasligi kerak.

Xulosa. Tikuvchilik sanoatida chiqadigan chiqindilarning turlarini o‘rganishda, avvalo, tikuv buyum turi uchun tanlangan gazlama turi o‘rganib chiqiladi. Joylashma tayyorlashda ushbu gazlama turi qanday enlarda mavjud ekanligi ham tadqiq qilinadi. Masalan, ayollar koplektlari uchun mo‘ljallangan trikotaj va kostyumbop gazlamalar orasidan chiqadigan chiqindilar shakli o‘xshashdir. Ular asosan romb, ovalsimon, to‘g‘ri to‘rtburchak va yarim aylana shakllariga ega. Bunday shakldagi chiqindilardan “quroq maxsulotlari” yaratishda foydalansa

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Х.К.Камилова, Ҳ.К.Хамраева “Тикув буюмларини конструкциялаш”, ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги.-Т.: “Чўлпон” номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011 й.

2. Град И.Н., Авсеев Е.Г., Петроченко В.Ф. “Организация рационального использования материалов в швейной промышленности”, М.: Легпромбытиздат, 1986 г.

3. Ismatullaev, N.; Dadamirzaev, B. (2020) Naqsh turlari va uning o‘ziga xosligi. Молодой исследователь: вызовы и перспективы. Сборник статей по материалам CXCII международной научно-практической конференции. 2020. Стр 676-680. https://elibrary.ru/item.asp?id=44466714

4. Манзура Р.А., Бахромжон Д.Б., Зухра Б.А. Использование практично – декоративных украшений в национальных костюмах. East European Scientific Journal (Warsaw, Poland) 2019 part 6, 13-16. https://eesa-journal.com/wp-content/uploads/EESA_journal_6_part_0-1.pdf

5. Parpiev,U.M.; Dadamirzayev,B.B.; Urinova,S. Analysis Of Vibration Effects On Sewing Machines. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research (ISSN–2642-7478) Published:January 31, 2021| Pages:65-69 Doi: https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue01-11

6. Dadamirzayev B.B., Axmadjanov A.O. Bolalar sport uslubidagi kiyimlari uchun gazlama tanlash tadqiqi. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ, 6-2 (97), 2022, 57-60, https://www.elibrary.ru/item.asp?id=49231405

7. www.google.ru

8. www.rambler.ru

FAN-TA’LIM-ISHLAB CHIQARISHDA INTEGRATSIYON YONDASHUV

Shodiyev Dilmurod Turdimuratovich
Ishlab chiqarish texnologiyalari instituti
To‘qimachilik va yengil sanoat texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
idilmurod298@gmail.com

ANNOTATSIYA

Fan-ta’lim-ishlab chiqarishni integratsiya qilishda uchrayotgan muammolarni bartaraf qilish va integrasiyalash jarayoni yakunida ko‘zda tutilgan istiqbollar haqida mulohaza qilinadi.

Kalit so‘zlar: integratsiya, innovatsiyon texnologiyalar, Ilm-fan, texnologik va korporativ pozitsiyalar, integratsion ta’lim klasteri.

KIRISH

Hozirgi vaqtda yurtimiz iqtisodiyoti va uning ishlab chiqarish salohiyati jahon talablariga mos ravishda shakillanib bormoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarini o‘zaro integratsiyalash jahon talablariga mos ravishda faoliyat yuritishning asosi hisoblanadi.

Nafaqat iqtisodiy sohani balki ilm-fan va ta’limni ham bevosita iqtisodiyotimiz ishlab chiqarish salohiyatimiz bilan bog‘liq holatda amalga oshirish uni jahon talablarga mos ravishda shakilantrish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda integratsiya atamasi jahonda turli sohalarni, masalan,

ijtimoiy, mintaqaviy, iqtisodiy, diniy, irqiy, tashkiliy integratsiya kabi sohalarni qamrab oladigan ijtimoiy tushuncha sifatida ishlatilinmoqda.

So‘nggi vaqtlarda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar provard natijasi ong-tafakkuri ozod inson shaxsini tarbiyalash ekan bu o‘z o‘zidan integratsion ta’lim klasterlari tuzishni taqazo etadi. Shu o‘rinda yuqoridagi barcha jarayonlarni tahlil qilgan holatda maqolada fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va istqbollari haqida fikir yuritamiz. Quyida:

Integratsiya o‘zi nima?

- Ta’lim tizimidagi ahamiyati nimada?

- Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishda integratsiya qanday amalga oshiriladi? Kabi savollarga javob olishingiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Integratsiya lotincha integratio – tiklash, to‘ldirish hamda integer – butun so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, qismlarni bir butunga aylantirish uchun ularni birlashtirish, qo‘shish yoki bir-biriga almashtirish harakatidir[1].

Ta’limda integratsion yondashuvning zarurati: O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish to‘g‘risidagi Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 4-qismini 4.1. bandida yaqin besh yilda aholini ish bilan bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, buning uchun esa “yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash”[2] kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan edi.

Sh.M.Mirziyoyevning “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI” nomli asarida sifatli ta’lim - inson kapitalini rivojlantirishning xal qiluvchi omili to‘g‘risida gapirib, bunda uzluksiz ta’lim tizimi uchun milliy o‘quv dasturini joriy etish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor berib o‘tgan[3]. Bu masalalarni bugungi mehnat bozori tamoyillari asosida hal etishda “fan-ta’lim-ishlab chiqarish” innovasion hamkorligini amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev raisligida joriy yilning 16 iyun kuni oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag„ishlangan videoselektor yig‘ilishida 4 ta ustuvor vazifani ko‘rsatib o‘tdi:

Birinchisi – oliy ta’lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish.

Ikkinchisi – o‘quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta’minlash va talabaning o‘z ustida ishlashi uchun muhit yaratish. Uchinchisi – oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish.

To‘rtinchisi – professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun qog‘ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish. Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta’lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta’kidlandi va amalyotga tadbiq etilmoqda. Shuningdek, integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalaming ayrim jihatlari mashhur pedagoglaming (Y. Komenskiy, O. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (Zverev, MA Oanilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova, Meller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.1. Vergeles), medist olimlaming (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan[4, 215-217].

TAHLIL VA NATIJALAR

20-asrda avtonom ilmiy-tadqiqot institutlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimi tahlilini yuritgan holatda unga mos ravishdagi nazaryalarni amalyotga joriy etish bilan shug‘ulangan. Mutaxassislar tayyorlash bilan shug‘ullanadigan universitet va institutlar keng ko‘lamli tadqiqotlar bilan shug‘ullanmagan. Shuningdek, 21-asr boshlarida ta’lim va tadqiqot bir-biridan ajralib turgan mamlakatlar oliy ta’lim muasasalaridan yetishib chiqgan kadrlarining raqobatbardoshligi va innovatsion texnologik ishlanmalarning rivojlanishi bilan bog‘liq jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechira boshladilar. Shu vaqtdan ayrim malakatlarda ilm-fan va boshqa ta’lim muassasalar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish boshlandi. Innovatsion tipdagi iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ushbu sohadagi vaziyat sezilarli darajada o‘zgardi.

Tadqiqot mehnat bozorida talabga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun asos bo‘lishi kerak. Shunday qilib, ilmiy tadqiqot markazlari nafaqat ilmiy bilimlarni yaratish va tarqatish, balki ishlab chiqarishda kadrlar, texnologik va korporativ pozitsiyalarni shakllantiradi hamda amalyotda uzviy qo‘llab boradi.

MUHOKAMA

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e’tibor kuchaydi. Shuning uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va unda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda o‘zaro hamkorligi masalasini tadqiq etish xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Lekin ular tadqiqotlari bilan tanishish mazkur masalaga turli yondashuv va qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi. Moddiy mahsulotdan farqli ravishda oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoni va uning sifatini aniqlash juda ko‘p o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Kadrlar tayyorlash va uning sifatini oshirish masalalarini tadqiq etgan mahalliy hamda xorijiy olimlar asosan mavzuga sotsiologik va pedagogik nuqtai-nazardan yondoshganlar. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va uning ta’lim sifati hamda mehnat bozori talabiga moslashuvchan kadr tayyorlashdagi roli va uning samaradorligini oshirishda iqtisodiy-huquqiy mexanizmlardan foydalanish masalalari o‘rganilmagan.

Oliy ta’limda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta’lim sifatiga ta’sirini baholash va ushbu mexanizmdan samarali foydalanish yo‘llarini belgilashga oid tavsiyalar berish maqsadida avvalo ta’lim sifati tushunchasi mazmuni to‘g‘risidagi qarashlarni o‘rganish zarur. Ta’lim sifati, uning mazmuni va fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi to‘g‘risidagi qarashlarni o‘rganish asosida ta’lim sifatini yaxshilashdagi rolini oshirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimizda ta’limtarbiya sohasidagi ishlar bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar maqsadga muvofiqdir.

Akademik A.Novikov fikricha, «Ta’lim sifati deganda – me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxs ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim natijasi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi tushiniladi»[5]. Olimning fikricha ta’lim sifati komponentlari me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojdan iborat. Uni baholash uchun esa ushbu komponentlar darajasini ifodalovchi kursatkichlar tizimini aniqlash zarur.

A.M.Katsning fikricha “Ta’lim sifati shaxs, jamiyat va davlatning belgilangan talablarini qondirish darajasini ifodalovchi ta’lim elementlari yig‘indisi” hisoblanadi [6].

V.A.Malkova “Ta’lim sifati – o‘quvchining mavjud ijtimoiy sharoitlarga moslashishini ifodalovchi munosabatlar tizimi”, degan qarashni ilgari surgan [7]. Fikrlar va qarashlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ta’lim sifatida shaxs, jamiyat hamda davlat manfatlari uyg‘unligini ta’minlanishi muhim jihat hisoblnmoqda.

Demak, bu borada yetarlicha tariflar va nazariyalar mavjud. Bu muammolarni yo‘qotish va ta’lim orqali fanni, fan orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun integratsiyani amalga oshirish zarur. V.A.Slastyoninning fikricha, “innovatsiya” maqsadga qaratilgan o‘zgarish bo‘lib, qo‘llanish sohasidagi tizimni bir holatdan sifat jihatdan yangi holatga o‘tkazish, uni tubdan takomillashtirishni, innovatsion jarayon-yangilikni yaratish, o‘zgartirish, qo‘llash va tarqatishdagi kompleks faoliyatni anglatadi [8]. Innovatsiyalar nafaqat ta’limni balki, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida ham ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

XULOSA

Ta’lim jarayonida yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o‘n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi bir yoki bir necha mashg‘ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub’ektiv yangi bilimga - olib kelishi kerak bo‘ladi. Ya’ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, u fanlararo aloqalarni o‘rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog‘lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog‘lanish, ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ilmit tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muasasalari va ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan har bir shaxs, rahbar va ilmiy xodim integratsiya va innavatsion- korporativ hamkorlik yordamida sifatini ta’minlash uchun zamonaviy yondashuvlar asoslarini bilishlari maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuvlar asosida o‘quvchilarga ta’lim dargohlarida olgan bilimlarini limiy tadqiqot muasaslarida mustahkamlash, ishlab chiqarish soha va tarmoqlarida amaliy jihatdan ko‘rib chiqish imkonyati yaratilgan bo‘lar edi.

REFERENCES

1. Nazarova G. Xalqaro iqtisodiyot integratsiya –Toshkent: Tafakkur-2010.-B.36. 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947-son farmoni // Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.

3. Sh.M.Mirziyoyev “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI”. -Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.

4. Yo‘ldoshev, A. (2022). Uyg‘onish davri va uchunchi renessans poydevori: vorisiylik va o‘ziga xoslik. Markaziy osiyo uyg‘onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari xalqaro ilmiy anjumani.

5. Новиков А.М., Д.А. Новиков, «Как оценивать качество образования?», www.anovikov.ru, (Муаллиф таржимаси).

6. Кац А.М. www.mathnet.ru/at13796автор: АМ Кац. Теория и применение регуляторов скорости с упруго-присоединенным катарактом. А. М. Кац. Центральный научно-исследовательский дизельный.

7. Малькова В.А. studopedia.ru/11_140699_vnmalkova.html13 июн. 2015 г. - Новое понимание качества образования формируется в ответ на вызовы со стороны мирового сообщества, страны, области, города.

8. В.А. Сластѐнин и др. Педагогика: учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений. М.:, 2015 г. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1 / March 2022 ISSN 2181- 063X

9. G‘afforova, G., & Yoldoshev, A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati. International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions”.

10. Berkinov, O. T. (2022). Changes in media cultureand human thinking. Инновации в технологиях и образовании: XV Международная научная конференция.

11. Berkinov O.T. (2022). Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va “kelajak” // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son, -B.181-187.

12. Yo‘ldoshev, A. (2022). Ta’limga e’tibor - kelajakka e’tibor. Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta’lim: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy anjumani.

13. uz.wikipedia.org

14. yuz.uz

ISHLAB CHIQARISHDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINING O‘RNI

Yangiboyev Ikromjon Berdikul o‘g‘li

Ishlab chiqarish texnologilari instituti

To‘imachilik va yengil sanoat texnologiyasi kafedrasistajyor-o‘qtuvchisi

Annotasiya: Maqolada paxta to‘qimachilik klaster tizmini joriy qilinishi hamda ularni ishlash tizimi yoritilgan

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik klaster , paxta xom-ashyosi, klaster.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, uning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini samaradorligini oshirish, qishloq turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta’minlash

masalalari bevosita qishloq xo‘jaligini boshqarishning zamonaviy usuli - klasterlar tizimi bilan bog‘liq. Ushbu yangi tuzilma o‘tgan qisqa vaqt ichida agrar sohani harakatlantiruvchi yetakchi kuchga aylandi. Hozirgi murakkab va qaltis davr dunyo miqyosida agrar sohaning hal qiluvchi o‘rni va ahamiyatini yana bir bor yaqqol ko‘rsatib bermoqda. Mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlash, sohada yangi ish o‘rinlari yaratish, manfaatdorlikni yanada oshirish eng muhim masalaga aylanmoqda.

Ishlab chiqarish tizimiga oxirgi yillarda klaster tizimi kirib keldi. “Klaster” fransuzcha so‘z bo‘lib, “bog‘lam”, “guruh”, “to‘planish”, degan ma’nolarni anglatadi. “Klaster” tushunchasi ilk bor 1990-yilda Maykl Porterning asarida keltirilgan. Klasterlar tizimi bu xom-ashyo yetishtirishdan boshlab to qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab olgan bir butun tizim. Klaster - bu qo‘shilgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini (fermerlar, qayta ishlovchi korxona, eksportyor) bir maqsad sari jamlagan korxonalar guruhidir.

Respublikada klasterlar tizimi 2017-yilda joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2978-son qarori asosida Buxoro viloyatida hamda 2017-yil 15-sentyabrdagi “Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3279-son qarori [1] asosida Sirdaryo viloyatida “Bek cluster” MCHJ QK paxta-to‘qimachilik klasterlari tajriba-sinov tariqasida tashkil etildi. Tajriba-sinov davrida ushbu klasterlar kutilganidan ko‘ra yuqori natija qayd etishdi. Shuning natijasida, 2018-yili paxta-to‘qimachilik klasterlari soni 16 taga, 2019-yili 77 taga, 2020-yili 97 taga hamda 2021-yili 122 taga, 2022-yilda esa 134 taga yetdi va klasterlar respublikada mavjud paxta maydonlarining 100 foizini qamrab oldi.

Xususan Sirdaryo viloyatida “Indaroma-Agro”, “Boyovut texno culaster”, “Poly tex Sirdaryo” ,“Oq oltin APK”, “Guliston sayqal textil” paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etilib, faoliyatlari davom ettirishmoqda. [2] Yanada takomillashtirish, ularning qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanishdagi roli va mas’uliyatini oshirish, mahsulot yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchilarning manfaatdorligini ta’minlashga doir bozor tamoyillarini keng joriy etish maqsadida 2021-yil 16-noyabrda “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-14-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga asosan, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika komissiyasi tashkil etildi. Shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etishda to‘rt tomonlama bitim imzolash tartibi joriy etildi. Bunda bitim Vazirlar Mahkamasining paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil qilish bo‘yicha qaroriga asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligi, «O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari» uyushmasi, tegishligiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki viloyat hokimligi va paxta-to‘qimachilik klasterini tashkil qilish bo‘yicha talabgor o‘rtasida o‘ttiz yil muddatga, talabgor chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona yoki chet ellik yuridik shaxs bo‘lgan taqdirda yigirma besh yilgacha bo‘lgan muddatga tuzilishi belgilangan

Bundan tashqari, bir hududda (Qoraqalpog‘iston Respublikasi yoki tegishli viloyat) barcha paxta-to‘qimachilik klasterlariga fermer xo‘jaliklari bilan shartnoma asosida faoliyat yuritishiga va fermer xo‘jaliklariga ushbu klasterlar bilan paxta xomashyosini yetkazib berish bo‘yicha ixtiyoriy ravishda fyuchers shartnomalarini tuzishga ruxsat berildi. Bu esa o‘z navbatida fermer xo‘jaliklariga erkinlik berdi va ular manfaatdorligini oshirdi.[3] Shuningdek, Farmonda paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil qilishda yetishtiriladgan yoki sotib olinadigan paxta xom ashyosining kamida 50 foizini o‘zida qayta ishlash quvvati (eng kamida ip-kalava) mavjud bo‘lgan talabgorga boshqalarga nisbatan ustunlik berilishi belgilab o‘tilgan. Ushbu mezon paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika komissiyasi tomonidan paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish uchun talabgorlarning arizalarini ko‘rib chiqish davrida e’tiborga olinadi va talabgorga klaster tashkil etiladigan hududlar uchun o‘tkaziladigan tanlovda ustunlik beradi.

Qishloq xo‘jaligi klasterining yerni shudgorlashdan tortib, ekish, parvarishlash va xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayondagi ko‘p bosqichli kompleks tizimga ega korxona ekanligidan xabaringiz bor. Chunki bu haqida ommaviy axborot vositalarida yetarlicha ma’lumot berildi. Natijaning qanday bo‘lganligi ko‘pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Ma’lumotlarni tahlil qilarkanmiz, klasterlar agrar sohasining asosiy qismiga aylanayotganini e’tirof etishimiz mumkin.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan joylarda bosqichma-bosqich zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini yaratish, sohani mexanizatsiya darajasini oshirish, yetishtirilgan hosilni chuqur qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish, mahsulot yetishtirishda band bo‘lgan aholini sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga o‘tkazish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan qishloq xo‘jaligida ish samaradorligini oshirish maqsadida texnikalar bilan ta’minlanganlik darajasini yaxshilash bo‘yicha so‘ngi yillarda qishloq xo‘jalik texnikalari xarid qilindi.

Suv resurlaridan oqilona foydalanish, paxtachilikda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish borasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan Sirdaryo viloyatida tomchilab sug‘orish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa fermer xo‘jaligi hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari keng qo‘llanilmoqda. Bu esa fermer xo‘jaliklariga sarf-xarajatlarini 20-25 foizga kamayib, mehnat unumdorligini 20-25 foizga oshirishga erishmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki paxta-to‘qimachilik klasterlariga xozirgi kunda davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berilayotganligi ko‘rishimiz mumkin. Paxta-to‘qimachilik klasterlari sifatli, arzon va raqabotbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish korxonalarini o‘z maxsulotlarini chet davlatlarga eksportlar qila oladigan mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligini ta’kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.lex.uz.
2. https://www.agro.uz/.
3. https://uzptk.uz/

TA’LIM XIZMATLARI BOZORINING MILLIY IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich, Xolmirzayeva Sarvinoz Komiljon qizi
Guliston davlat universiteti, o‘qituvchi
Email: sherzod86@mail.ru (+998) 88 278 32 92

Annotatsiya: Har qanday jamiyatning iqtisodiy rivojlantirish bilan bog‘liq strategiyasida milliy innovatsion tizimni shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Milliy innovatsion tizim tushunchasi iqtisodiyotning muhim belgisi sifatida fanga XX asrning 70-yillarida kirib keldi va bu tushuncha har xil manbalarda turlicha ta’riflangan. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) materiallarida (1997) ma’nosiga ko‘ra bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’riflar keltirilgan bo‘lib, ularda milliy innovatsion tizim muayyan davlat miqyosida individual va bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda yangi texnologiyalarni rivojlantirish va tarqatishni ta’minlovchi, xususiy va davlat sektorlariga tegishli bo‘lgan institutlar majmui sifatida tavsiflanadi. K.Frimanning fikriga ko‘ra, milliy innovatsion tizim – jamiyat tomonidan iste’mol qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishda, saqlashda, tarqatishda va yangi texnologiyalarga aylanishida qatnashadigan iqtisodiy sub’ektlar va ijtimoiy institutlarning (qadriyatlar, me’yorlar, huquqlarning) murakkab tizimi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim xizmati, milliy innovatsion tizim, milliy iqtisodiyot, mahsulot.

Kirish. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida milliy innovatsion tizim Y.Shumpeter g‘oyasiga asoslangan milliy innovatsion iqtisodiyot, AQShlik olim D.Bell tomonidan asoslangan postindustrial jamiyatning rivojlanish tendentsiyalari, J.Xokinsning bilimlar iqtisodiyoti yoki kreativ iqtisodiyot nazariyasi, Y.Benklerning “Digital Economy” deb nomlangan ilmiy ishlarida keltirilgan kontseptsiyalarida ilgari surilgan tarmoqli iqtisodiyot hamda D.Tepskott tomonidan kiritilgan raqamli iqtisodiyot kabi tadqiqot natijalarida ham o‘z aksini topgan. O‘zbekistonning bugungi milliy innovatsion rivojlanishida ham aynan raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasi ilgari surilmoqdaki, bunga oliy ta’lim tizimini rivojlantirish asosida erishish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Jahon iqtisodiyotining bugungi yuksalishi sharoitida, aksariyat mamlakatlar barqaror iqtisodiy o‘sish va aholining yuqori turmush darajasiga erishishining asosiy omili sifatida rivojlanishning innovatsion yo‘lini tanlamoqdalar. Xo‘jalik yuritish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyatni rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish shartlaridan biri bo‘lib, bozor munosabatlarini jadallashtirishning zaruriy omili sifatida qabul qilinadi.

Asosiy qism. Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va ma’lum bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar, uskunalar, shuningdek, turli tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlarga joriy etiladigan innovatsiyalarni yaratish hamda amalga oshirish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish muammosini hal qilish, uning har bir bo‘g‘ini uchun iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining samarali o‘zaro munosabatlari metodologiyasi va usullari ko‘zda tutilgan innovatsion modelni shakllantirish hamda amalga oshirish talab qilinadi.

Bugungi kunda har bir mamlakat, ilmiy, texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat’i nazar, innovatsiyalar umumiy tamoyillariga asoslanib, ilmiy-texnologik salohiyati, mehnat va xom ashyosi zahiralari holati, tabiiy-iqlim sharoitlari, iqtisodiyotining o‘ziga xosliklari kabilarni hisobga olgan holda o‘zining innovatsion tizimini yaratishga intilishi kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati ilmiy salohiyatni saqlab qolish, ilm-fan sohasini isloh qilish va uni dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga yo‘naltirishning samarali choralarini ko‘rmoqda. Shu bilan bog‘liq holda oliy ta’lim tizimi va uning fani rivojlantirish milliy innovatsion tizimni rivojlantirishdagi roliga alohida e’tibor berilmoqda. Bunda oliy ta’lim va uning fani rivojini mamlakat ilmiy-texnologik salohiyatini mustahkamlash iqtisodiyotni izchil innovatsion rivojlanishiga bosqichma-bosqich o‘tishining zaruriy sharti deb qaralmoqda.

Texnologik darajani, ishlab chiqarish raqobatbardoshligini yuksaltiruvchi, innovatsion mahsulotlarning ichki va tashqi bozorga chiqishiga, import o‘rnini qoplovchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga va milliy strategik maqsadlarga erishishda yordam beradigan samarali innovatsion tizimni yaratish maqsadida 2016 yilda “O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda innovatsion rivojlanish dasturi” ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Mazkur Dasturning asosiy maqsadi “...ilg‘or ilmiy-texnik, texnologik yutuqlardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalar va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, tabiiy xom-ashyo va investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish, iqtisodiy, energetik, oziq-ovqat va ekologik xavfsizlik hamda boshqa aholi turmush tarzini yuksalishi” uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan milliy innovatsion tizimni shakllantirishdir.

Iqtisodiy sohaga milliy innovatsion rivojlanish tamoyillarini joriy etish ta’lim xizmatlari bozori va uning asosiy sub’ektlari – oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish uchun samarali va qulay ob’ektiv imkoniyatdir. Bugungi jahon iqtisodiyotidagi muhim tendentsiyalar innovatsiyalarni rivojlanishning asosiy manbaiga aylantirish va bunda inson kapitali rolini mustahkamlashdan iborat bo‘lib, bunda Milliy innovatsion tizim omillarining o‘zaro aloqalari mexanizmini rivojlantirish keng ko‘lamli murakkab vazifadir. Buni davlat, tadbirkorlik, iqtisodiy va ilmiy hamjamiyatlarning puxta o‘ylangan, o‘zaro kelishilgan samarali hatti-harakatlari orqaligina amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ayrim tadqiqotlardan ma’lumki, agar ilgari ba’zi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi asosan ulardagi mavjud tabiiy zahiralar bilan baholangan bo‘lsa, iqtisodiyotning innovatsion modeli sharoitida esa innovatsion rivojlanishga moslashtirilgan yangi texnologiyalar, intellektual kapital ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda sanoatlashgan iqtisodiyot axborot iqtisodiyoti yoki bilimlar iqtisodiyotiga aylanmoqda, amaldagi ta’lim modellari kirib kelayotgan o‘zgarishlarga mos kelmay qolmoqda. Bu oxir-oqibat mavjud ta’lim tizimi holati bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi o‘rtasidagi tafovutlarni yuzaga keltirmoqda. Mavjud ta’lim modellari barcha sohalardagi innovatsion rivojlanish faoliyatiga mos kelgan taqdirdagina taraqqiyotga erishilishi mumkin.

So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida davlat organlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi harakatlari tufayli oliy ta’lim tizimi va ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirish muammosiga e’tibor kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Ta’lim sifatining o‘sib borishi milliy innovatsion tizimning takomillashi va mamlakat iqtisodi rivojlanishni ta’minlashning zarur vositasidir. Shuning uchun dunyo rivojlangan mamlakatlarining iqtisodiy siyosati ta’lim xizmatlari bozorida innovatsion rivojlanish kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan.

Hozirgi sharoit dunyo mamlakatlarining rivojlanishini baholashda iqtisodiyot fani milliy raqobatbardoshlik kontseptsiyasini etakchi o‘ringa olib chiqadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimi innovatsion rivojlanishga erishish va jahon iqtisodiyotidagi mamlakatlar iqtisodiy raqobatdoshligini oshirish borasida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Dunyo mamlakatlarining milliy raqobatbardoshlik reytinglarini aniqlash jarayoniga qaratilgan tadqiqotlar ta’lim tizimining samarali faoliyati mamlakatning raqobatbardoshligi va iqtisodiy yuksalishining yuqori sur’atlarini ta’minlashi hamda aholi farovonligining oshishiga ta’sir etuvchi muhim omil ekanligini isbotladi.

Jahon mamlakatlarining dunyo miqyosidagi yoki global raqobatbardoshlik indeksi uchta kichik indekslarni qamrab oladi va ular o‘n ikkita asosiy guruh ko‘rsatkichlariga asoslanadi.

Xulosa. Oliy ta’lim mehnat bozorining samarali rivojlanishiga, jamiyatdagi turli ijtimoiy institutlar va tadbirkorlikni taraqqiy etishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu jumladan, oliy ta’lim mamlakatning xalqaro maydonda milliy raqobatbardoshligini ta’minlashning eng muhim omilidir va binobarin ushbu sektorni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Oliy ta’lim tizimi barcha bosqichlarining barqaror rivojlanishi mamlakat va jamiyat rivojlanishining muhim va ajralmas shartidir. Oliy ta’limning har tomonlama rivojlanishi malakali ishlab chiqarish, texnologik, innovatsion va texnikaviy taraqqiyotga intilayotgan davlatlarning iqtisodiy yuksalishi uchun muhim shartdir. Bu holat jahon iqtisodiyotida global va integratsion jarayonlarning rivojlanishi kontekstida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, xalqaro mehnat taqsimotida muhim o‘rinni egallashni va jahon bozorida o‘z mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta’minlashni istagan har bir mamlakat o‘zgaruvchan muhitga tez moslasha oladigan va mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish choralarini ta’minlaydigan yuqori malakali mutaxassislarga ega bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021- йилга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш дастури.

2. Benkler Y. The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom. New Haven, Conn: Yale University Press, 2006. 515

3. Усмонов Б. Олий таълим тизимини уйғунлаштиришда олий таълим муассасасида илмий фаолият ва ўқув жараёни интеграцияси. “Инновацион фан-таълим тизимини ривожлантиришнинг баркамол авлодни вояга етказишдаги роли ва аҳамияти” – Илмий амалий конференцияси материаллар тўплами, Тошкент, 2014 йил, Тошкент давлат аграр университети

4. Тухлиев И.С. Миллий инновацион тизимни шакллантириш ва ривожлантириш омиллари //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil. -Б.200-206. http://iqtisodiyot.tsue.uz

SIRDARYO VILOYATIDA SHO‘RLANISH DARAJASINI AYRIM DUKKAKLI O‘SIMLIKLARNING UNISHI VA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Alisher Qudratov Alijanovich
Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha tayanch doctarant
alisherkudratov@mail.com telefon raqam +99897 341 13 08

Annotatsiya: Maqolada tuproqlarning sho‘rlanishi, sho‘rlanishni o‘rganishga oid olib borilgan ilmiy izlanishlar tarixi, Sirdaryo viloyatidagi sho‘rlangan tuproqlarining morfologik xususiyatlari, tuproqlari suvli so‘rimining o‘ziga xosligi, kimyoviy va agrokimyoviy xususiyatlari muhokama qilingan. Sirdaryo viloyatiining quyi qismlarida tarqalgan sho‘rlangan tuproqlari tarkibiidagi quruq qoldiq, gidrokarbonat (HCO3 -), xlorid (Cl-), sulfat (SO4 2-) anionlari hamda kalsiy (Ca2+), magniy (Mg2+), natriy va kaliy (Na+ + K+) kationlarining % va mg/ekv miqdorlari o‘rganilgan. Bu viloyatning kuchli va kuchsiz sho‘rlangan tuproqlarida indigofera tinctoria (indigofera turkumi) o‘simligining gultuvaklarda, ochiq dala maydonlarida o‘sib rivojlanishi hamda mosh (Phaseolus aureus Piper) o‘simligining faqat ochiq dala maydonlarida o‘sib rivojlanishi tajriba sinov shaklida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: sho‘rlangan tuproqlar, morfologik xususiyatlari, suvli so‘rim, quruq qoldiq, xlorid, sulfat anionlari va kalsiy, magniy, natriy kationlari, sho‘rlanish,

Kirish. Tuproqlarning sho‘rlanish jarayonlari quruq va issiq iqlim mintaqalarining tekislik va pastqam hududlarida keng tarqalgan. Tuproq tarkibida suvda oson eruvchan tuzlar, ayniqsa, karbonatli va xlorli tuzlar miqdorining ko‘p bo‘lishi qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘sishi, rivojlanishi hamda

hosildorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda sho‘rlangan yerlar Xorazm, Buxoro, Sirdaryo, Navoiy, Farg‘ona, Jizzax viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida katta maydonlarni egallagan. Tuproqda mavjud bo‘lgan tuzlar ekinlar hosilini 10 – 20 % dan 50 – 60 % gacha kamaytiradi. Sho‘rxoklarda va kuchli sho‘rlangan tuproqlarda esa o‘simlik umuman o‘smaydi yoki juda siyrak va majruh holda o‘sadi. Sug‘orish va KZT fonida yuviladigan suv tartibotini qo‘llash tuproqlardagi tuzlar miqdorini keskin kamaytiradi. Shunday bo‘lsada, respublikamiz qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan sug‘oriladigan tuproqlarning deyarli 60 % i turli darajada sho‘rlangan. Demak, tuproqlar sho‘rlanishi muammosi davrimizning hal qilinishi zarur bo‘lgan dolzarb masalalari qatorida turadi.

Asosiy qism. Tadqiqot maqsadida Sordaryo viloyatidagi Guliston tumani Soyibobod QFY joylashgan “MASHRAB OTA”fermer hojaligining tanlangan yer maydoni tuproq namunalari hamda dukkaklilar oilasiga mansub bo‘lgan indigofera tinctoria hamda mosh (Phaseolu aureus Piper) o‘simliklari obyekt sifatida o‘rganildi. Dala va laboratoriya tadqiqotlarida tuproqning agrokimyoviy tarkibi hozirgi kunda foydalanib kelinayotgan umumiy uslublar orqali aniqlandi.

Suvli so‘rimdagi quruq qoldiq miqdori tuproqdagi suvda eriydigan organik va mineral moddalarning umumiy miqdorini aniqlashga imkon beradi. Bu ayniqsa, tuproq sho‘rlanish holatini aniqlashda muhim hisoblanadi. [5] Tadqiqot hududida o‘rta va kuchli darajada sho‘rlangan tuproqlar keng tarqalgan. So‘rimdagi eruvchan moddalarning umumiy miqdori quruq qoldiq hisoblanadi. Uning miqdori so‘rimning bir qismi suv hammomida quritish orqali aniqlandi. Quritib analitik tarozida massasi aniqlangan chinni kosachaga 25-50 ml so‘rimdan olinib, suv hammomida quritildi. Qurib ulgurmasidan, bunga so‘rimdan bir necha bor, ya’ni hajmi 100-250 ml hajmga yetguncha quyildi. Oxirgi quyilgan filtrat qurigach, kosachaga olinib quritish shkafida 100-105°C da 3-4 soat quritildi, eksikatorda sovutilib massasi aniqlandi. Tadqiqot natijasida ushbu kesma bo‘ylab quruq qodiq (%) miqdori 0,185-0,775 % ligi aniqlandi. Zaharli tuzlar tuproq kesmasining quyi qismlari tomon 0,037 % - 0,031 % gacha kamayishi aniqlandi.



1-rasm. Tadqiqot hududidagi sho‘rlangan tuproqlarda yengil eruvchan tuzlar miqdori, %

Активация Win
Чтобы активировать

O‘rganilgan tadqiqot natijalarini diagramma shaklida ifodalash aniqroq tasavvurga ega bo‘lish imkoni beradi. Qatlamlardagi anionlar ichida sulfat anioni xlorid anioniga nisbatan miqdori yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. (1-rasm)

Tuproq tarkibining og‘irlik miqdori mg/ekv qiymatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, zaharli tuzlarning asosiy qismini xloridlar tashkil qiladi. Xloridlar miqdori tuproq kesmasining quyi qismlari tomon 0,61 - 0,51 mg/ekv gacha kamayadi. Kationlar tarkibida kalsiy 2,0 - 8,5 mg/ekv, anionlar ichida sulfat ioni 2,0 - 10,67 mg/ekv miqdorida ustuvorlikka ega. Magniyning miqdori 0,50 - 2,58 mg/ekv ni, natriy va kaliyning miqdori esa 0,21 - 0,35 mg/ekv ni tashkil etadi. (2- jadval)

Tadqiqot hududidagi o'tloqi-voha tuproqlarda yengil eruvchan tuzlar miqdori, mg/ekv

2-jadval

Kesma	Chuqur-ligi, sm	HCO_3^-	Zaharli	Cl^-	SO_4^{--}	Ca^{++}	Mg^{++}	$Na^+ + K^+$
2-X	0-30	0,61	1,3	0,14	2,21	2,25	0,5	0,21
	30-48	0,56	1,1	0,20	2,0	2,0	0,5	0,25
	48-74	0,51	1,0	0,20	10,67	8,5	2,58	0,29
	74-100	0,51	1,0	0,25	8,83	7,0	2,25	0,35

Mevalar, ya'ni dukkaklar 2-3 sm uzunlikda bo'lib qizil-sariq tusga ega. Har bir dukkakning ichida o'rtacha hisobda 3-4 ta pishgan urug' bo'ladi. Pishgan dukkak jigarrangli bo'ladi. Urug'lari kichkina bo'lib to'q yashil, jigarrang tusli bo'ladi. [9] Tajriba natijasida kuchli sho'rlangan tuproqli gultuvakda indigofera tinctoria o'simligi urug'ining unib chiqishi biroz sekinroq, o'sib rivojlanish jarayoni ham sustligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida kuchli sho'rlangan dala maydoniga ekilgan indigofera tinctoria o'simligi kuchsiz sho'rlangan dala maydonga ekilganiga nisbatan shoxlari kamligi va bo'yining pastroq o'sganligi aniqlandi. Kuchsiz sho'rlangan yerlardagi indigoferalarning shoxlari ko'pligi, barglari kengligi hamda bo'yining balandligi bilan ajralib turishi aniqlandi. Mosh (Phaseolus aureus Piper) o'simligining unib chiqishi bo'yicha kuzatishlar olib borish natijasida sho'rlangan tuproqlarda unib chiqish jarayoni sekin ya'ni 12 kun da unib chiqdi, toza tuproqlardagi mosh urug'lari esa 6-7 kunda unib chiqa boshlashi aniqlandi.

Tuproq tarkibida oziq moddalar kam bo'lsa ham mosh ildizidagi tugunak bakteriyalar yordamida o'zini-o'zi azot bilan ta'minlaganligi tufayli sho'rlangan va sho'rlanmagan toza tuproqlarda ham mosh ildizlarida uchraydi. Mosh ildizida yashovchi azotabakteriyalarning - Rhizobium phaseoli simbioz – hamkorlikda yashashi natijasida amalga oshadi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'zida to'plangan ortiqcha tuzlarni tashqariga ajratib chiqarish xususiyatiga ega bo'lganligidan sho'rlangan tuproqlarga ancha chidamlidir. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida Farg'ona viloyatining kuchli va kuchsiz sho'rlangan tuproqli yerlarida dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lgan indigofera tinctoria (indigofera turkumi) o'simligi moslashib o'sa olishi aniqlandi. Kelgusi tadqiqotlarimizda ushbu Farg'ona viloyatining sho'rlangan tuproqli muhitlariga moslashgan indigofera tinctoria hamda mosh (Phaseolus aureus Piper) o'simliklarining biokimyoviy va biologik xususiyatlarini o'rganish maqsad qilib olindi

Xulosa: Sirdaryo viloyatida asosan sho'rlanmagan tuproqlarda quruq qoldiq 0,01-0,3 % atrofida, sho'rlangan tuproqlarda esa 0,3 % dan yuqori bo'lishini bilgan holatda [5], biz tomonimizdan o'rganilgan tadqiqot hududidagi tuproq tarkibida quruq qoldiq miqdori 0,775 % ni tashkil etdi.

Demak, ushbu tasnifga ko'ra viloyatning ko'plab hududlarida bu tuproqni sho'rlangan tuproqlar guruhiga kiritishimiz mumkin. Suvli so'rimda qatnashgan barcha xloridlar: NaCl, MgCl2, CaCl2, zaharli tuzlar hisoblanadi. Tuzlarni (Na2CO3, MgCO3, NaHCO3, Mg(HCO3)2, Na2SO4, MgSO4) qaysilari suvli so'rimda ishtirok etishiga ko'ra, ularning miqdori aniqlanadi va jamlanib V.V.Yegorov, N.G.Minashinalar tasnifiga asoslanib tuproqning sho'rlanish darajasi aniqlanadi.

Tuproq tarkibida oziq moddalar kam bo'lsa ham mosh ildizidagi tugunak bakteriyalar yordamida o'zini-o'zi azot bilan ta'minlaganligi tufayli sho'rlangan va sho'rlanmagan toza tuproqlarda ham mosh ildizlarida uchraydi. Mosh ildizida yashovchi azotabakteriyalarning - Rhizobium phaseoli simbioz – hamkorlikda yashashi natijasida amalga oshadi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'zida to'plangan ortiqcha tuzlarni tashqariga ajratib chiqarish xususiyatiga ega bo'lganligidan sho'rlangan tuproqlarga ancha chidamlidir. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida Sirdaryo viloyatining kuchli va kuchsiz sho'rlangan tuproqli yerlarida dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lgan indigofera tinctoria (indigofera turkumi) o'simligi moslashib o'sa olishi aniqlandi. Kelgusi tadqiqotlarimizda ushbu Sirdaryo viloyatining sho'rlangan tuproqli muhitlariga moslashgan indigofera tinctoria hamda mosh (Phaseolus aureus Piper) o'simliklarining biokimyoviy va biologik xususiyatlarini iqtisodiy tomondan o'rganish maqsad qilib olindi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Генусов А.З.// Земельные ресурсы Узбекистана.// -Т.: «Мехнат», 1978

2. Мақсудов А. // Изменение почвенно-экологических условий Ферганской долины под антропогенным воздействием.// –Т.: “Фан”, 1990. 101с.

3. Исаков В.Ю., Кузибаева О. К характеристике почвенного покрова конуса выноса реки Сох. // Qirg‘izistonning 2200 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -O‘sh, 2003. 210-214 b.

4. Исағалиев М. // Геохимические свойства орошаемых почв Сохского конуса выноса. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. канд. биол. наук // - Т.: 2010.

5. Yuldashev G‘., Mirzayev U. // Tuproq kimyosidan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar // o‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2019.

6. Kuziyev R., Yuldashev G‘. // O‘zbekiston tuproqlari va ulardan samarali foydalanish // darslik. Toshkent 2019. 7. Yuldashev G‘., Isag‘aliyev M. // Tuproq biogeokimyosi. // – T.: 2014

JAHON AMALIYOTIDA AGROKLASTER TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA YURITISH BO‘YIChA TO‘PLANGAN TAJRIBALAR TAHLILI

Urazmatov Jonibek Musurmanovich

Guliston davlat universiteti “Moliya va buxgalteriya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Globallashuv va davom etayotgan integratsiya jarayonlari sharoitida agrosanoat majmuasini klasterlashtirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashning eng muhim yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishning samarali va ayni chog‘da sinalgan usullaridan biri - bu tashkilotni klasterlashtirish hisoblanadi. Hozirgi bosqichda jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonlari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda, bu ko‘p jihatdan mamlakatlar milliy xo‘jaligining raqobatbardoshligi bilan belgilanadi. Shu bois, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishning asosiy omili sifatida amaliy iqtisodiy faoliyatda yangi bilim va innovatsiyalardan keng miqyosda foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda uni amalga oshirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri klasterlarni yaratish hisoblanadi.

Kirish. Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish agrosanoat majmuining muhim muammolaridan biri sanalgani holda, uning echimi mintaqa aholisini oziq-ovqat bilan, sanoatni esa qishloq xo‘jaligi xomashyosi bilan ta’minlashda muhim o‘rin egallovchi agrosanoat majmuining rivojlanish holatiga bog‘liq. Shu sababli, agrosanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish va hududlarning agrosanoat majmuasini boshqarish amaliyotida uning ijobiy variantlaridan foydalanish muayyan afzalliklarni ta’min etadi.

Dunyo mamlakatlarida klasterlashtirish siyosatiga qiziqish boshlanganiga taxminan 30-40 yil bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kunda aksariyat dunyo mamlakatlarida klasterlashtirish zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishni nomarkazlashtirish va qishloq xo‘jaligi siyosatini boshqarish kontseptsiyasini tarmoq yondashuvidan murakkab hududiy yondashuvga o‘zgartirish sharoitida qishloq xo‘jaligi sohasini muvaffaqiyatli rivojlantirishning ob’ektiv zarurati sifatida baholanadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy klasterlarni yaratish va ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish katta iqtisodiy samara beradi. Bunga rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni klasterlash tajribasi alohida mintaqalar va umuman mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda o‘z samarasini berganligi yaqqol isbot hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘plab milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirish strategiyasining asosini klaster tashabbuslari va texnologiyalari orqali raqobatbardosh-likni oshirish tashkil qiladi.

Asosiy qism. G‘arb mamlakatlarining klasterlashtirish borasidagi tajribasini o‘rganish klasterlarni quyidagi tartibda tuzish mumkinligini ko‘rsatadi:

- Yevropa modeli: muayyan bir hududda to‘plangan maxsus marketing strategiyasiga ega turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi raqobatdosh korxonalar;

- Shimoliy Amerika modeli: hududiy xususiyatlarga asoslangan geografik joylashuv tamoyiligi muvofiq o‘zaro bog‘langan geografik mujassamlashgan kompaniyalar majmuasi;

- Osiyo modeli: iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish yordamida ixtisoslashgan hududlarning vertikal integratsiyasi; bunda klasterlarni yaratishda davlat idoralari muhim rol o‘ynaydi;

- Yapon modeli: yirik monopol korxona atrofida joylashgan va mazkur korxona ehtiyojlari uchun tovarlar, va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarning mujassamlashishiga asoslangan klaster yaratish.

Bundan tashqari, klasterlashtirish kontseptsiyasining asoschilaridan biri sanaluvchi M. Enrayt tomonidan quyidagi modellar taklif qilinadi:

“- klaster siyosatining katalitik modeli, unda davlatning roli mintaqaviy klaster ishtirokchilari o‘rtasida vositachilik bilan cheklanadi;

- klaster siyosatini tashkil etishning qo‘llab-quvvatlovchi modeli, unda davlat vositachilik funktsiyasi bilan birgalikda mintaqaviy klasterlarning rivojlanishini rag‘batlantirish borasida hududlar infratuzilmasiga sarmoya kiritadi;

- davlat mintaqaviy klasterlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish funktsiyasini o‘z zimmasiga oluvchi direktiv model;

- mintaqaviy klasterlarni shakllantirish borasidagi barcha vazifalarni davlat zimmasiga yuklatilishini nazarda tutuvchi interventsionistik model.”[1]

Mintaqaviy klasterlarni shakllantirish borasida xorijiy tajribani tahlil qilish, klasterlashtirish siyosatini amalga oshirishning ikkita asosiy- liberal va dirijistik modellari mavjudligini ko‘rsatadi [2].

1-jadval.

Klasterlashtirish siyosatining modellari

	Modellar	***Mamlakatlar***	***Tavsifi***
	Liberal	AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada	Klaster bozor organizmi sifatida qaraladi. Federal hukumatning asosiy vazifasi ularning tabiiy rivojlanishi borasidagi to‘siqlarni olib tashlashdan iborat
	Dirijistik	Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Shvetsiya, Frantsiya, Finlyandiya va Sloveniya	Klasterlarni rivojlantirishda davlatning faol davlat siyosati muhim o‘rin tutadi

Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki: ”... klasterlashtirishning liberal strategiyasi an’anaviy ravishda liberal iqtisodiy siyosat olib boruvchi AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Kanada kabi mamlakatlar uchun xos. O‘z navbatida mamlakat iqtisodiy hayotida faol ishtirok qiluvchi Frantsiya, Koreya, Singapur, Yaponiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Sloveniya kabi mamlakatlar uchun dirijistik strategiya xosdir”.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, klasterlashtirishning liberal modeli erkin iqtisodiyotga ega bo‘lgan mamlakatlarga xos bo‘lib, bunda klasterlarni yaratish va ularning faoliyat yuritish jarayoniga davlatning minimal darajada aralashuvi kuzatiladi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonlarida davlatning integratsiya jarayonlarini rag‘batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish, ularning tabiiy rivojlanishi borasidagi to‘siqlarni bartaraf etishga davlat o‘zining ustuvor vazifasi sifatida qaraydi. Klasterlarni rivojlantirishning liberal modelida klaster o‘ziga xos bozor mexanizmi sifatida ko‘riladi. Klasterlashtirish borasida dirijistik siyosat ustun bo‘lgan mamlakatlarda davlat rivojlanishning imtiyozli omillarini maqsadli ravishda yaratish, klasterlarning faoliyat ko‘rsatish va rivojlanish yo‘nalishlarini tanlash va moliyalashtirish orqali integratsiya jarayonlarini shakllantirish jarayoniga faol tarzda aralashadi.

Shundan kelib chiqqan holda, davlat maqsadli ravishda klaster yaratish ko‘zda tutilgan hududni tanlaydi va ushbu hududda zaruriy infratuzilmani yaratadi va klasterlarni rivojlantirish dasturlarini qisman moliyalash-tiradi.

Yuqoridagilarga tayangan holda, klasterlashtirish modellari o‘rtasida quyidagi o‘ziga xos tafovutlarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Ustuvorliklar. Davlat darajasidagi ustuvorliklar sifatida tarmoq ustuvorliklari va rivojlantirish ko‘zda tutilgan klasterlar tanlab olinsa, klasterlashtirishning liberal modelida davlat bozor sharoitida tabiiy ravishda shakllangan klasterlarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

2. Infratuzilma. Davlat mexanizmlari ko‘magida dirijistlar tomonidan ustuvor klasterlarningfaoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi borasida maqsadli tarzda infratuzilma yaratiladi: oliy va kasbiy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari va boshqalar. Klasterlashtirishning liberal modeli sharoitida davlat, oxirgi vaziyatda, hududiy klasterlarni rivojlantirish uchun infratuzilmani yaratishga yordam beradi.

“Klasterlashtirish siyosatining o‘ziga xos jihatlariga alohida tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlashning ustuvorligi, hudud tabiiy resurs salohiyatining sifati kabilar kiradi, bu mahalliy iqtisodiyot sharoitida hududiy klasterlarni shakllantirish borasida xususiy modellardan foydalanish zarurligini asoslashga imkon beradi”.

Klasterlashtirish siyosati borasida xorijiy tajribani o‘rganish, klasterlash-tirishni ikkita katta tarixiy davrga ajratish, ya’ni klasterlarning birinchi va ikkinchi avlodini farqlash imkonini beradi:

- birinchi avlod-bu klasterni aniqlashtirish, klasterni tashkil etuvchi korxonalar faoliyati, uni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat idoralarini yaratish va barcha turdagi klasterlarni rag‘batlantirish bo‘yicha umumiy strategiyani amalga oshirish borasida davlat tomonidan amalga oshiriluvchi hatti-harakatlar va chora-tadbirlar majmui. Ushbu davrda tadqiqotlarda iqtisodiyot sohasi olimlari, geograf olimlar, shuningdek, hududiy iqtisodiyot masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ham muhim o‘rin tutadi, ular fazoviy modellashtirish orqali klasterlarning turlari, yo‘nalishlari va ularning tuzilmasini aniqlashtirishlari lozim bo‘ladi. Klasterlashning dastlabki davri odatda, an’anaviy sanoatning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Gollandiya, Germaniya va Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

- ikkinchi avlod-bu mavjud klasterlarning asosi va tajribasiga asoslangan va har bir klasterni alohida ravishda rivojlantirish muammolarini hal qilishga individual yondashuvni talab qiladigan avloddir, chunki bunda davlat idoralari buyurtmachi, menejer, ishlab chiqarish jarayonining tashabbuskori va klaster tarkibiga kiruvchi mavjud korxonalarni moliyalashtirish manbai sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Klasterlashning ikkinchi davri sanoat, innovatsion texnologiyalar va xizmat ko‘rsatish sohasidagi deyarli barcha tarmoqlar ushbu mamlakatlarda muayyan klasterlar tarkibiga kiritilgan Shveytsariya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlyandiya, Avstriya, AQSh kabi yuqori turmush darajasiga ega bo‘lgan mamlakatlarga mansub.

Klasterlashning xorijiy tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, agrosanoat integratsiyasi jarayonlarini dunyoning ko‘plab mamlakatlarida uchratish mumkin. Masalan, AQShda umumiy ishlab chiqarilayotgan parranda go‘shtining 80 foizi 20 ta korxonada ishlab chiqariladi yoki yirik shoxli qoramollarning 20 foizi vertikal integratsiyalashgan qishloq xo‘jaligi korxonalariga to‘g‘ri keladi, kartoshkaning 25 foizi yirik agrosanoat korxonalarida etishtiriladi. Shu bilan bir qatorda, Yaponiya, Gollandiya, Bolgariya, Polsha va Vengriya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishni texnik jihozlash kichik fermer xo‘jaliklarida yuqori samara-dorlikka erishishda muhim rol o‘ynaydi. Ayni paytda, Finlyandiya, Nor-vegiya, Daniya, Shvetsiya, Gollandiya va Yaponiya kabi mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi aholisi deyarli to‘liq integratsiya jarayonlari bilan qamrab olingan bo‘lsa, Germaniya va Frantsiyada qishloq xo‘jaligi korxonalarining 80 foizdan ortig‘i kooperativlarga birlashtirilgan.

“Qo‘shma Shtatlarda mintaqaviy ixtisoslashuv qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ratsionalizatsiya qilishning eng muhim tashkiliy va iqtisodiy tamoyili hisoblanadi. Buning uchun mamlakat hududi 10 ta yirik makroiqtisodiy hududlarga ajratilgan. Bunday hududlar orasida tabiiy iqlim shart-sharoitlarini tashkiliy, iqtisodiy va innovatsion afzalliklar bilan o‘zaro uyg‘unligini ta’minlay olgan hududlar jadal rivojlanish tendentsiyasiga ega ekanligini alohida qayd etib o‘tishimiz lozim”[3].

So‘nggi yillarda taraqqiy etgan mamlakatlarning jahon xo‘jaligida o‘z mavqelarini tobora mustahkamlab borayotganliklari mazkur mamlakatlar milliy xo‘jaliklarida klasterlashtirish amaliyotiga katta e’tibor qaratilishining yaqqol isboti hisoblanadi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, integratsiya jarayonlari korxona-larga sinergiya samarasi bois o‘z faoliyatini kengaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish jarayonining butun zanjiri (qishloq xo‘jaligi xoldingi va kooperativlari) bo‘ylab tarmoqlararo aloqalar bo‘yicha o‘zaro bog‘langan mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, tashish va sotish bilan shug‘ullanadigan korxonalarning integratsiyasi tufayli rivojlangan mamlakatlar agrosanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish borasida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishdi.

2-jadval.

Ba’zi Yevropa mamlakatlarining agrosanoat majmuida mavjud klasterlarning asosiy xususiyatlari

Mamlakatlar	Jami klasterlar soni, birlik	O‘rtacha 1 ta klasterga to‘g‘ri keluvchi xodimlar soni, kishi	ASM klasterlari soni, birlik	O‘rtacha 1 ta ASM klasteriga to‘g‘ri keluvchi xodimlar soni, kishi	Agroklasterlar ulushi, %
Avstriya	87	11008	8	10843	9,20
Belgiya	65	12011	5	11748	7,69
Bolgariya	48	16463	22	19403	45,83
Buyuk Britaniya	182	25990	7	14144	3,85
Vengriya	59	13118	11	14686	18,64
Germaniya	314	21316	14	26515	4,46
Gretsiya	80	11120	36	8318	45,00
Daniya	30	26298	3	30515	10,00
Ispaniya	151	29725	35	18424	23,18
Inaliya	234	26350	13	29574	5,56
Frantsiya	165	25511	20	25079	12,12
Shveytsariya	62	12755	2	8337	3,23
Shvetsiya	65	11110	1	12256	1,54
Jami:	2101	19923	241	18750	11,47

Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekiston sharoitida hududiy klasterlarni yaratish istiqbolli hisoblanadi, chunki ular agrobiznes, fan va davlat idorlarining sa’y-harakatlarini birlashtirish asosida ichki va tashqi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida mahsulotlarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Klasterning asosiy xususiyati uning innovatsion yo‘nalishidir. Innovatsion rivojlanishning turli modellariga qaramay, G‘arbiy Yevropaning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yondashuvlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirishga (subsidiyalar, kreditlar) ega bo‘lib, ular yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish xarajatlarining 50 foizini tashkil qiladi (Germaniya, Frantsiya);

- korxonalar uchun soliq yukini kamaytirish, shu jumladan ilmiy-tadqiqot xarajatlari va ITTKIga investitsiyalarni soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlash, shuningdek universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarini imtiyozli soliqqa tortish (Germaniya);

- intellektual mulk va mualliflik huquqini huquqiy himoya qilish (deyarli barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida);

- ssudalar berish, shu jumladan foizsiz (Shvetsiya);

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga maqsadli grantlar (deyarli barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida);

- mumkin bo‘lgan tijorat riskini hisobga olgan holda innovatsion fondlarni yaratish (Angliya, Germaniya, Frantsiya, Shveytsariya, Niderlandiya);

- innovatsiyalarni joriy etish xarajatlarining 50 foizigacha qaytarib bermaslik sharti bilan ssudalar berish (Germaniya);

- davlat bojlari va poshlinalarini kamaytirish va individual ixtirochilar uchun soliq imtiyozlari berish (Avstriya, Germaniya);

- energiya tejash sohasidagi ixtirolar uchun bojlarni kechiktirish yoki ulardan ozod qilish (Avstriya);

- yakka ixtirochilarning ish hujjatlarini bepul yuritish, patentlash xizmatlarini tekin tashkillashtirish, bojlarni to‘lashdan ozod qilish (Niderlandiya, Germaniya);

- iqtidorli xorijiy mutaxassislarni izlab topish va jalb qilish dasturlari (ko‘plab Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) [4].

Taklif va xulosalar. Rivojlangan mamlakatlar va o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakat-lar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy texnologiyalarni yaratish faqat integratsiya jarayonlari, shu jumladan klasterlarni rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu ilg‘or tajriba, ayniqsa, o‘tish iqtisodiyotiga ega va klasterlar endigina shakllanayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, agrosanoat majmuida klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish borasida xorijiy tajribani tahlil qilish va o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlarini klasterlashtirish tendentsiyalari ularning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta’minlashning ob’ektiv zarurati bilan bog‘liq. Ko‘pgina mamlakatlarda davlat siyosati bozor sub’ektlarining o‘zaro manfaatli hamkorlikka tayyorlik darajasini hisobga olgan holda klasterlashtirish jarayonlarini rag‘batlantirishga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda, taraqqiy etgan mamlakatlar innovatsion jarayonlarni faollashtirish borasida klaster yondashuvining afzalliklaridan foydalanishga harakat qilayotgani, rivoj-lanayotgan mamlakatlar esa investitsiya jarayonlarini faollashtirishda klasterlashtirish amaliyotidan ko‘proq manfaatdor ekanligi oydinlashadi, biroq, ikkala holatda ham davlatning o‘rni shakllanayotgan klasterlarning barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun infratuzilmani ta’minlashda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Enright M. J. Survey on the characterization of regional clusters: initial results. Working Paper / Institute of Economics and Business Strategy. Hong Kong ; Barcelona, Spain: The Competitiveness Institute, 2000. 22 p.
2. Кластерная политика: достижение глобальной конкуренто-способности / В. Л. Абашкин, С. В. Артемов, Е. А. Исланкина и др.; Минэкономразвития России, АО «РВК», НИУ «Высшая школа экономики». - М.: НИУ ВШЭ, 2017. - 324 с.
3. Сазонов С.П. К вопросу о государственно-частном партнерстве // Известия Волгоградского государственного технического университета. 2011. № 14. С. 19–21.
4. Капранова Л.Д. Финансово-экономические механизмы развития инновационных кластеров: западный опыт. // управленческие науки. 2015. № 1. Том 5. - С 56-60 58

ZAMONAVIY TA’LIM-XUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING MUXIM OMILI SIFATIDA

Raxmatov Kamoliddin Uralovich, Eshonqulov Diyorbek Dilshod o‘g’li

Guliston davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Guliston davlat universiteti Memejment yo‘nalishi 3 bosqich talabasi

Dunyodagi ko‘plab universitetlarning muhim xususiyati, ularning asosiy vazifasi – mutaxassislar tayyorlashdan tashqari, ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashuv omili hisoblanadi. Nazariy jihatdan bu omil olimlarga g‘oyalarni tayyor ilmiy mahsulot ko‘rinishida amalga oshirish, talabalarga sifatli ta’lim, universitetga esa venchur kapital qo‘yilmalaridan qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini beradi. Hozirgi bosqichda ko‘plab amerikalik, yevropalik, yaponiyalik, xitoylik va koreys olimlari eng samarali integratsiya mexanizmlarini aniqlashga, tarixiy tajribani qayta ko‘rib chiqishga harakat qilmoqdalar.

Universitetning salohiyati quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi: o‘quv va ilmiy jamoalarning malakaviy tarkibi, nisbiy jihatdan professorlar soni, tan olingan ilmiy maktablarning mavjudligi, mavjud o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari soni, o‘quv va ilmiy jihozlarning mavjudligi va progressivligi, mamlakat ichida va boshqa davlatlar bilan o‘quv va ilmiy aloqalarning kengligi.

Zamonaviy ta’limning maqsadi nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki jamiyatning yuksak axloqiy, ijodiy va tashabbuskor a’zosini tarbiyalash hamdir. Universitetlarning vazifasi ular joylashgan universitet, shahar va mamlakatning yagona, rivojlangan ilmiy-ma’rifiy, ma’naviy-axloqiy makonini yaratishdan iborat [1].

Ta’lim, fan va biznesning integratsiyasi bilim talab qiladigan iqtisodiyotni barpo etishning asosidir.

Universitet salohiyatining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

universitetning foydalilik ko‘rsatkichlari: o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlaydigan bitiruvchilarning ulushi; iqtisodiyot, davlat boshqaruvi sohasida yetakchi o‘rinlarni egallagan bitiruvchilar soni; keyinchalik yuqori malaka e’tirofini olgan bitiruvchilar soni.

Universitet faoliyati ko‘rsatkichlari: bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan bitiruvchilar soni; bitta bitiruvchini (talaba, aspirant, doktorant, tinglovchi) tayyorlash uchun jami xarajatlar summasi.

Universitetni kriteriyaviy baholash asosida umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar [2]:

- innovatsion ta’lim tizimini tavsiflovchi mezonlar;
- universitetning ilmiy va innovatsion faoliyati infratuzilmasini tavsiflovchi mezonlar;
- innovatsion universitetning jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuvi mezonlari;
- universitet innovatsion infratuzilmasining resurs salohiyatini tavsiflovchi mezonlar;
- Universitet boshqaruvining innovatsion tizimini tavsiflovchi mezonlar.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi eng dolzarb vazifalardan biri oliy o‘quv yurtlari, kafedralar va ilmiy bo‘limlarning intellektual kapitalini baholash hisoblanadi. Kafedrada professor-o‘qituvchilar va talabalarning doimiy o‘zaro hamkorligi tufayli nafaqat o‘qish, balki talabalarning ilmiy ishlarga qiziqishini uyg‘otish ham mumkin bo‘ladi.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

- ta’lim sifati va qulayligini oshirishga qaratilgan ta’limni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ta’lim tizimini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash;
- pedagog kadrlar mehnatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishni kuchaytirish.

Jahon tendentsiyalari va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari olimlarning zamonaviy sharoitda ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining chegarasi yo‘qligi va shu bilan birga, mutaxassislarning yuqori ilmiy-texnik darajasini ta’minlashda alohida ahamiyatga ega ekanligi haqidagi pozitsiyalarini tasdiqlaydi.

Ta’lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiya jarayonlari alohida hududlarda ma’lum tashkiliy shakllarda rivojlanmoqda: texnoparklar, ilmiy-tadqiqot universitetlari, NNTlar, konsalting firmalari va boshqalar, ular tadqiqot, o‘quv va ishlab chiqarish vazifalarini hal qilishga qodir, shuningdek, ular ish beruvchilarning yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondira oladilar.

Innovatsion siyosatning dolzarb yo‘nalishi bilim talab qiladigan iqtisodiyotning asosi bo‘lgan oliy o‘quv yurtlarining innovatsion faolligini oshirish uchun mamlakatning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmini shakllantirishdan iborat. Bu inson kapitaliga sarmoya kiritishni talab qiladi, bu esa tez o‘zgaruvchan dunyoga moslasha oladigan texnologik rivojlangan, samarali ishchi kuchini yaratish imkonini beradi.

Ta’lim, fan va ishlab chiqarish sohalaridagi integratsiya jarayonlari zamonaviy sharoitda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi, innovatsion ilmiy ishlanmalarni ommaviy ishlab chiqarishga joriy etish, iqtisodiyotni axborotlashtirish bilan bog‘liq. Bilimni ko‘p talab qiladigan sanoatning rivojlanishi innovatsion qobiliyatli kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, shuningdek, hozirgi vaqtda bir-biridan mustaqil ravishda samarali rivojlana olmaydigan va texnologik o‘zgarishlariga moslasha olmaydigan kompleksdagi ta’lim, fan va biznes uchun yangi talablarni qo‘yadi [3].

Innovatsion korxonalarni tashkil etish doirasida oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tashkilotlar nafaqat moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, balki ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni jadallashtirish,

ilmiy faol va innovatsiyalarni qabul qiluvchi yuqori darajadagi mutaxassislarni yetishtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Ilm-fan, ta’lim va biznes sa’y-harakatlarini birlashtirishga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan ko‘mak muhim turtki bo‘lmoqda.

Zamonaviy sharoitda bir-birini to‘ldiruvchi emas, balki yaxlit tuzilmalar zarur bo‘lib, unda innovatsiyalar olimlar, o‘qituvchilar, talabalar va aspirantlarning tadbirkorlar bilan birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan ishlab chiqariladi. Bunga “Universitet – innovatsion korxona (biznes inkubator, texnopark)” mutaxassis tayyorlashning yangi ta’lim modeli orqali erishish mumkin. Bu model ilm-fan va ishlab chiqarishning ta’lim maydoni orqali uyg‘unligini o‘z ichiga oladi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, universitet tadqiqot universiteti maqomiga o‘tadi. Jahon amaliyoti hududlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishda universitetlarning asosiy rolini ko‘rsatmoqda.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ilm-fan, yirik korxonalar, shuningdek, o‘rta va kichik biznes resurslarini birlashtiruvchi infratuzilmani yaratishdir. Innovatsion infratuzilma - bu innovatsion faoliyatni amalga oshirishga hissa qo‘shadigan tashkilotlar majmui, ular ilmiy-texnikaviy, ta’lim, ishlab chiqarish tashkilotlari va ularning birlashmalari, texnologik inkubatorlar, texnopolislar, texnoparklar, ta’lim va biznes markazlari, innovatsion va venchur fondlari va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, shuningdek, innovatsion va texnologiya markazlari va texnologiyalarni tijoratlashtirish bo‘limlari. Innovatsion infratuzilma innovatsion faoliyatni amalga oshirishga, shu jumladan innovatsion mahsulotlarni yaratish va sotish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishga hissa qo‘shadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar majmuini o‘z ichiga oladi. Innovatsion tizim infratuzilmasiga texnologiyalar transferi markazlari, innovatsiyalar, innovatsion va texnologik markazlar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar, venchur fondlari va boshqalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arislanovna Y., Bakhtiyorvich, G.B. (2021). Marketing and information support in public sector. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 8(1), 940-947.

2. Arislanovna, Y.S., &Bakhtiyorvich, G.B. (2021). Using the experience of developed countries in developing a consortium between higher education institutions and production. European journal of Molecular and Clinical Medicine, 8(1), 819-826.

3. G‘iyosidinov B.B. (2022). Fan va ta’lim integratsiyasi: zamonaviy tendensiyalar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 177-188.

ИЛМ-ФАННИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ ВА ЖОРИЙ ХОЛАТ ТАХЛИЛИ

О.Т.Сатторкулов, У.Маликов
и.ф.н., доцент
ўқитувчи
ГулДУ Иқтисодиёт кафедраси

Мамлакат тараққиётининг замини, ҳеч шубҳасиз, илм-фан ва инновациялардир[1]. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви ва унинг янги технологик ривожланишга ўтиш жараёни дунё товар ва молия бозорларида, рақамли технологияларни жорий этиш соҳасида ва аҳолининг ижтимоий-иқтисодий, ўсиб бораётган муаммоларини ҳал қилиш усул-ларида тобора рақобатнинг тобора кучайишига олиб келмоқда. Ушбу масалаларнинг асосий ечими илм-фан ва инновациялар соҳасида етакчи мамлакатлар қаторидан ўрин олиш, тўртинчи саноат инқилоби даврида халқаро рақобатбардошликка эришиш, тўпланган институционал муам-моларнинг янги ечимларини излаб топиш, шунингдек глобаллашув туфайли юзага келаётган баҳсли масалаларни ҳал қилишдан иборат бўлиши лозим.

Ушбу рақобат шароитида иқтисодиётда устувор йўналишлар ривожини таъминловчи илмий тадқиқотлар ҳамда инновацион ишланмаларни амалга оширувчи экотизимни шакллантириш энг асосий вазифа ҳисобланади.

Шу сабабдан, ривожланаётган мамлакатлар рақобатбардошликни ошириш ва мустаҳкамлаш бўйича юқори технологияли ишлаб чиқаришни ва глобал маркетингни фаол ўзлаштириш, устувор йўналишларда ўз илмий мактабларини ташкил этиш, тажрибали ва малакали мутахассисларни жалб этиш, инновацион салоҳиятга эга истиқболли стартапларни

қўллаб-қувватлаш, узоқ муддатли барқарор ривожланишнинг молиявий ва институционал асосларини яратиш учун давлат имтиёзларидан мақсадли фойдаланиш каби чораларни кўрмоқда.

Мамлакатимизнинг илм-фан сектори 100 дан ортиқ академик ва тармоқ илмий муассасаларидан иборат бўлиб, ҳозирги кунда 65 та илмий-тадқиқот институти, 31 та илмий марказ (шундан 14 та ихтисослаштирилган илмий-амалий марказ) ва 8 та бошқа турдаги илмий ташкилот фаолият кўрсатмоқда. Бундан ташқари, олий таълим муассасалари ва уларнинг филиалларида ҳам илмий-тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда.

Ўзбекистонни 2030 йилга қадар глобал инновацион индекс рейтингида дунёнинг 50 та етакчи давлатлари қаторига киритиш бўйича улкан мақсадга эришишда инсон капиталини ривожлантиришга қаратилган стратегик режа эълон қилинди. Мазкур мақсад илм-фан соҳасини замонавий иқтисодиёт талабларига мослаштиришдан иборат бўлиб, ўз навбатида, илм-фандаги тегишли ҳуқуқий база билан тартибга солинадиган туб таркибий, ташкилий, молиявий ҳамда кадрлар ва инфратузилмага оид ислоҳот-ўзгаришларни амалга оширишга қаратилган [2]. Сўнгги йилларда илм-фан соҳасини устувор ривожлантириш ва давлат томонидан қўллаб-қувватлашга қаратилган 20 дан зиёд норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниб, улар узлуксизлик, очиқлик, шаффофлик ва рақобат тамойилларига асосланган.

2023 йил 1 январдан Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ташкил этилгани алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, янги идора олий таълим, олий таълимдан кейинги таълим, илмий ва инновацион фаолиятга оид жамият ва давлат ҳаётини ҳар томонлама ривожлантиришга, мамлакатнинг интеллектуал ва технологик салоҳиятини оширишга қаратилган ягона давлат сиёсатини амалга оширмоқда.

Фанлар академиясининг барча илмий ташкилотларини Давлат бюджети ҳисобига сақлаш ва уларга илмий лойиҳаларни грант асосида молиялаштириш тизими йўлга қўйилди.

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг 10 та илмий ташкилоти Фанлар академияси тизимига қайтарилиб, унинг мақоми ва нуфузини юксалтириш баробарида илм-фан соҳасининг жамиятдаги мавқеи оширилди, ёшларнинг соҳага бўлган фикри-муносабати ижобий томонга ўзгарди.

2017 — 2021 йилларда илмий ташкилотлар лабораторияларини мустаҳкамлаш ва янгилашга 32 миллион АҚШ доллари миқдоридаги маблағ ажратилиши режалаштирилди ҳамда тегишли чора-тадбирлар босқичма-босқич амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, яқин келажакда илм-фан соҳасида ҳал этилиши зарур бўлган қуйидаги асосий муаммолар сақланиб қолмоқда:

биринчидан, иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарининг илм-фанга эътибори юқори эмаслиги. Юртимиз олимларининг технологик ишланмалари ва илмий-тадқиқотлари натижаларини амалиётга татбиқ этишга тармоқлар томонидан қизиқишнинг пастлиги мамлакат иқтисодиётининг технологик ривожланишига тўсиқ бўлмоқда ва Давлат бюджети зиммасига оғир юк бўлиб тушмоқда. Бундан ташқари, аксарият илмий лойиҳалар илмий ташкилотларнинг ташаббуслари асосида шакллантирилади, яъни давлат учун устувор бўлган тадқиқотлар эмас, балки мазкур илмий ташкилотлар истаган ва амалга ошира оладиган аниқ якуний натижа (маҳсулот) олиш имконини бермайдиган функционал вазифалар доирасидаги тадқиқотлар молиялаштирилади;

иккинчидан, инновацион инфратузилманинг алоҳида элементлари (инновацион жамғармалар, технологияларни жорий этиш марказлари, муҳандислик лабораториялари, технопарклар ва бошқалар) ўртасида иқтисодий ҳамкорликнинг ривожланмаганлиги. Ички ҳамда жаҳон бозорларига билимлар ва янги технологияларни татбиқ этиш ишларини яхшилаш лозим [3];

учинчидан, кичик инновацион тадбиркорлик ва илмий ҳажмдор маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг ривожланмаганлиги. Илмий ташкилотлар томонидан инновацион корхоналарни ташкил этиш бўйича тажриба ва кўникмалар тўлиқ шаклланмаган;

тўртинчидан, илмий ташкилотларда илм-фанни ташкил қилиш, илмий ишлар харажатларини прогнозлаштириш ва натижаларнинг иқтисодий таҳлилини олиб бориш тизими тўлиқ йўлга қўйилмаганлиги. Илмий ташкилотларнинг раҳбарияти асосан илм-фан намояндаларидан иборат бўлиб, улар илмий тадқиқот натижаларини тижоратлаштириш,

Результаты и обсуждение. Семейство ананасовых относится к семейству бромелиевых (Bromeliaceae) и представляет собой многолетнее растение с прикорневыми листьями. Листья ананаса имеют много специальных функций. Например, собирает воду, питательные вещества, необходимые для роста и развития растений. Растения, относящиеся к семейству ананасовых, являются эпифитами, они дружно живут в надземных органах растения. Однако это не относится к ананасу. Растение ананас имеет развитую корневую систему, через которую оно получает из почвы все необходимые ему для роста и развития питательные вещества. Важные аспекты растения ананас привлекли внимание ученых мира. Это видно из научных исследований, проводимых мировыми учеными на протяжении многих лет [1; с. 550-587, 2; с. 295].

В этих исследованиях были получены сведения о биологических и физиологических особенностях растения ананас и способах его размножения, а также отмечено, что ананас можно использовать в коммерческих целях и выращивать в домашних условиях. В условиях нашей республики отсутствуют полные сведения о физиолого-биохимических свойствах и способах разведения ананаса. Конечно, в течение 2015-2020 гг. профессора кафедры «Биологии» Гулистанского государственного университета провели некоторые исследования растения ананас [3; с. 6-8, 4; с. 69-107]. В этих исследованиях были обнаружены некоторые результаты о методах размножения растения ананас, в том числе о возможности его выращивания в домашних условиях. Однако методы размножения ананаса in vitro не разработаны.

Для размножения растения ананас in vitro использовали его сорт «Маспин».

Сорт ананаса «Maspine» считается одним из перспективных сортов не только в биотехнологии и производстве в Малайзии. Благодаря вкусным плодам спрос на этот сорт очень высок [5; С. 3859-3866].

Ананас-один из хороших объектов биотехнологии. Отмечается, что его можно воспроизвести in vitro. На это уходило в среднем 8 лет [6; С. 296-300].

Как известно, на создание новых сортов методами селекции обычно уходит 12-14 лет. Для этого проводится сложное скрещивание на протяжении многих лет. При этом после вегетативного размножения в результате межпородного скрещивания создавались новые сорта [7; С. 499-508].

По этой причине использование биотехнологических методов при возделывании ананаса обеспечивает возможность быстрого и масштабного размножения и селекции элитных растений [8; С. 296-300].

Размножение ананаса in vitro имеет ряд преимуществ. Прежде всего, этот способ позволяет быстро размножить ананасы. По мнению исследователей, это займет несколько лет.Известно, что от растения ананаса за 8 месяцев можно получить от 30 до 1 250 000 эксплантатов .

Были идентифицированы и отобраны специальные сорта для размножения ананаса in vitro.Еще одним важным аспектом размножения ананаса in vitro является возможность контролировать процесс «естественного цветения». Несколько факторов влияют на размножение ананаса in vitro. Для размножения ананаса in vitro использовали «спящую почку», а с помощью листа можно многократно индуцировать растение [9; С. 117-119].

Сообщается, что растворы 6-бензиламинопурина (БАП) 3,0 мг/л и *индолилуксусная* кислоты (ИУК) 2,0 мг/л эффективны при выращивании рассады ананаса in vitro. Оптимальные условия МД2 в жидких и твердых средах для получения рассады ананаса Мура сиге и Скука (МС) получили хорошие результаты при добавлении в питательную среду 7,5 мг/л БАП и 2 мг/л -нафталиновой кислоты (НУК) [10; стр. 614-619].

Отмечено, что при низкой концентрации БАП (5,0 мг/л) в жидкой среде количество проростков увеличивалось по сравнению с раствором с твердой средой (7,5 мг/л). Растворы, используемые в питательной среде, и их концентрация имеют первостепенное значение при размножении растений in vitro. Сообщалось, что высокие концентрации цитокинов негативно влияют на формирование листьев у эксплантата Для этого регенерацию получали из листа и цветка растения при концентрации раствора 1,3 мкМ БАП или 4,6 мкМ кинетина и 5,4 м.

Низкая концентрация гормона в растворе привела к получению здоровых проростков ананаса кМ растворов нафтил уксусной кислоты .

Кроме того, относительно низкая концентрация цитокинов позволила получить большое количество регенерации от растения Begonia x. Результаты проведенных исследований показали, что при выборе хорошей среды прирост растения ананаса составил от 3 см до 7 см. При этом формируется здоровая корневая система. Концентрация раствора БАП 5 мг/л. при равенстве выращено 36 сеянцев. Использование гормона (БАП) для индукции регенерации in vitro было изучено на других растениях, в том числе на Artemisia annua, члене семейства Asteraceae . Исследования, проведенные на этих растениях, показали формирование здоровых корней в течение двух недель при такой концентрации раствора. Но при высокой концентрации

раствора замедляется развитие корневой системы. Установлено, что ауксины (НУК, ИМК или их комбинация (НАА и ИМК)) более эффективны при размножении растений ананаса in vitro .

Научная работа по выращиванию растения ананас велась на территории Узбекистана. Необходимые научные материалы были использованы в культуре in vitro для выращивания рассады растений ананаса. Они были изучены и разделены для представления на практике.

Проростки in vitro получали из боковых побегов ананаса (Ananas somosus (L.) Merr). Для стерилизации растения ананаса in vitro и получения материала живой ткани использовали следующие стерилизаторы:

1. *Тимеросал 0,0005-0,001 мг/л*
2. *Гипохлорит (Na или Sa соль) 1-10% раствор*
3. *Нитрат серебра (Ag NO_3) 0,001-0,005 %*
4. *Спирт этиловый 30-70% раствор*

Перед переводом растения ананаса (Ananas somosus (L.) Merr) в стерильное состояние проверяли отсутствие повреждений в точке роста растения. Листья вокруг стебля ананаса осторожно обрывают и помещают на сутки в проточную воду. Извлекают из воды и перемешивают с хозяйственным мыльным порошком на магнитной мешалке в течение 1 часа. Гипохлорит (соль Na или Ca) 1-10% раствор выдерживают от 10 до 15 минут, а раствор тимеросал 0,0005-0,001 мг/л помещают на 20-25 минут.

За это время помещение Ламинарный бокса было подготовлено к работе, понадобились заранее подготовленная дистиллированная-стерилизованная вода и фильтровальная бумага, этиловый спирт и рабочие инструменты, т.е. пинцет и скальпель. По истечении времени стерилизации отбирают материал из раствора тимеросал 0,0005 - 0,001 мг/л, сразу замачивают в этиловом спирте, помещают в стерилизовано-дистиллированную воду, промывают 3 раза и выкладывают на стерилизованную фильтровальную бумагу для удаления избыток влаги. Поскольку стебель ананаса представляет собой сложный стебель, существует высокая вероятность наличия спор грибков и бактерий в месте, где каждая листовая пластинка присоединяется к стеблю. Учитывая это, процесс стерилизации осуществляется поэтапно.

На первом этапе изучается действие растворов, переводящих растительную ткань в стерильное состояние, при высокой концентрации велика вероятность ожога ткани, поэтому во избежание повреждения ткани ее выдерживали в небольшие концентрации. Поэтому соотношение концентраций выше явно не указано. О переходе растения в стерильное состояние известно по тому, что в питательной среде не размножаются споры грибов или бактерий.

В некоторых случаях достаточно 1-10% раствора гипохлорита (соли Na или Ca) и можно получить желаемый результат. В нашей практике для стерилизации растения ананаса применялся каждый метод, причем Тимеросал 0,0005-0,001 мг/л этих стерилизаторов дал удовлетворительный результат, причем в ходе работы применялись различные концентрации этого препарата.

Во время культивирования in vitro подлежащая стерилизации ткань может подвергнуться некрозу под влиянием стерилизующих агентов. Особенно при использовании ртутных стерилизаторов важно выбрать правильное время экссудации этих веществ. Для этого использовали раствор этилового спирта.

После стерилизации ананасов, отобранных для микроразмножения in vitro, необходимо определить оптимальное содержание питательных веществ для

выращивания. В ходе наших исследований состав макро-микроэлементов варьировал;

МС (Мурасиге-Скук).

1. DKW (Драйвер Куниюки Орех)
2. Использовались питательные вещества WPM (среда для древесных растений):

(I) состав, NH_4NO_3 – 1650 мг/л, KNO_3 – 1900 мг/л и $CaCl_2$ – 0,400 мг/л.

(II) содержание, NH_4NO_3 400,0 мг/л, $Ca(NO_3)_2$- 471,26 мг/л, $CaCl_2$ - 72,50 мг/л.

(III) содержание, NH_4NO_3-1416,0 мг/л, $Ca(NO_3)_2$ -1664,0 мг/л и $CaCl_2$-112,50 мг/л.

Витамины по Гамбургу B5-тиамин, пиридоксин, глицин; использовали реактивы сахароза -2%, агар-агар 0,6%. Из перечисленных питательных веществ хорошие результаты дала питательная среда МС (Мура сиге-Скука), которая была выбрана для дальнейшей работы.

Фитогормоны, входящие в состав ауксина и цитокинин при росте растения ананас in vitro;

1.Из ауксинов - α-нафтил уксусная кислота (НУК), индолилмасляная кислота (ИМК), аденина гемисульфат, индол уксусная кислота (ИУК).

2.Цитокинины - бензиламинопурин (БАП), фурфуролами но пурин (кинетин) использовали в разных сочетаниях, изучали в разных концентрациях и выбирали наиболее оптимальную.При этом изучалось влияние на растение, и соединения применялись в разных концентрациях.

В лаборатории клеточных технологий растение ананаса укореняли и стимулировали точку роста, пока лист розетки не касался поверхности воды.

Растущее растение отделяют от корня и стерилизуют. После достижения стерильности листья удаляли и снова стерилизовали. Заготавливали черенки, от исходных побегов отделяли побеги размером 0,2-0,5 и 1 см и высаживали на питательную среду. Цвет черенков (эксплантат), высаженных на питательную среду, был белым, светло-желтым, светло-зеленым и красноватым (рис.1). Оказывали влияние на цитокинновые соединения фитогормонов и изучали их влияние на вегетационный период растения. Подобрана концентрация, влияющая на период вегетации. С каждым суставом генотипа проводили отдельный опыт, так как апикальная часть прекращает рост, как указано выше, а 2-й сустав является относительно экзогенным. Отличием от других генотипов была укороченность суставной щели, не более 0,2 см. При этом пострадали и фитогормоны. Оказывали влияние на цитокинновые соединения фитогормонов и изучали их влияние на вегетационный период растения. Подобрана концентрация, влияющая на период вегетации. С каждым суставом генотипа проводили отдельный опыт, так как апикальная часть прекращает рост, как указано выше, а 2-й сустав является относительно экзогенным.



1-рис. Рост ананаса на срезах живых тканей и питательных средах

Отличием от других генотипов была укороченность суставной щели, не более 0,2 см. При этом пострадали и фитогормоны. Живую ткань ананаса высевают на без гормональной питательной среды, сменяемую каждые 3-5 дней, отбирают чистую ткань (эксплантат, свободный от грибковой и бактериальной инфекции, отбирают и пересаживают). Через 14 дней переносится в гармоничную среду. 16/8, т.е. 16 часов дня и 8 часов ночи, освещенность 1200-1500 лк, температура воздуха 20-22^0 С градусов. Через 15-20 дней эксплантат начал расти. Для размножения саженца срезали точку роста газона, и через некоторое время со стороны газона начали расти новые побеги. После того, как хорошо выросший эксплантат травы превысит 5 см, корневая часть развилась и саженец можно высаживать в почву.

Заключение. В нашей стране возможно вегетативное размножение ананаса. Желательно использовать для этого плоды ананаса. Проведены работы по получению стерильных эксплантат из стеблей и семян 3-х разных сортов растения ананас. Ананас, завезенный из Китая, был рекомендован для использования в культивировании in vitro. Используя 3 разных реагента для стерильного переноса, был выбран наиболее оптимальный. Раствор азотнокислого серебра ($AgNO_3$) 0,001-0,005% и этиловый спирт 30-70% дал лучший результат. Отмечена целесообразность использования питательных сред Мура сиги- Скука (МС) и Гамборга (B_5) для размножения ананаса in vitro. При этом нормальными условиями оказались: 16 часов дня, 8 часов ночи, освещенность 2000-3000 лк, температура в помещении 20-22^{0}С и относительная влажность 60-70%. Установлено, что через 21 день от микро черенков, высаженных на новую среду, черенкованием можно размножать 3 микро черенка и скорость их роста ускоряется при

третьем клонировании по сравнению со вторым за счет адаптации растения при микро клонировании.

Благодарность Работа выполнена при поддержке *Министерство высшего образования, науки и инноваций* Республики Узбекистана в рамках проекта **A-OT-2021-26** «Выращивание ананаса (ananas comosus) в условиях in vitro». Авторы выражают благодарность сотрудникам специальных лабораториях Института биоорганической химии имени О. С. Содыкова. за помощь выращивание саженцев ананаса (Ananas somosus (L.) Merr) in vitro.

ССЫЛКИ

1. Krauss, B. H. (1949). Anatomy of the vegetative organs of the pineapple, Ananas comosus (L.) Merr. (Concluded). III. The root and cork. The Botanical Gazette. 110 (4), 550-587.

2. Foote, M. V. (1956). The root system of the pineapple. Queensland Fruit and Vegetable News. April 5, 444-445.

3. Bazarova R.Sh., Sabirova M.Sh., Nasirova G.B., Xolmuratov E.G. Ananas (ananas comosus (l.) merr) o‘simligini in vitro sharoitida ko‘paytirish хоразм маъмун академияси ахборотномаси 2022-4-1, 6 -8 б.

4. Malezieux, E., Cote, F. and Bartholomew, D.P. (2003). Crop environment, plant growth and physiology. In the Pineapple: Botany, production and Uses D.P. Bartholomew, R.E. Paull and K.G. Rohrbach), CAB International, pp. 69-107.

5. Zoraida A. R., Nurul Shahn adz A. H., Harte Eni A., Rowe S., Che Radziah C. M. Z., and Sreeramanan S. A Novel Approach for rapid micropropagation of MAs pine pineapple (ananas comosus l.) shoots using liquid shake culture system**.** African Journal of Biotechnology Vol. 10(19), pp. 3859-3866, 9 May, 2011

6. Almeida WAB, Santana GS, Rodriguez APM, Costa MA, de C (2002). Optimisationof a protocol for micropropagation of pineapples. Rev. Bras. Fruct. 2: 296-300.

7.Mhatre M (2007). Micropropagation of pineapple, Ananas comosus (L.) merr. In: Jain SM and Haggman H (eds.). Protocol for micropropagation of Woody Trees and Fruits. pp. 499-508.

8.Almeida WAB, Santana GS, Rodriguez APM, Costa MA, de C (2002). Optimisationof a protocol for micropropagation of pineapples. Rev. Bras. Fruct. 2: 296-300.

9.Soneji JR, Rao PS, Mhatre M (2000b). In vitro regeneration from leaf explants of pineapple (Ananas comosus L., Mer). J. Plant Biochem. Biot. 11: 117-119.

10.Danso KE, Ayeh KO, Oduro V, Amiteye S, Amoatey HM (2008). Effect of 6-Benzylaminopurine and Naphthalene acetic acid on in vitro production of MD2 pineapple planting materials. World. Appl. Sci. J. 3(4):614-619

БАТАТ ҚАЛАМЧАЛАРИ ПОЯСИНИНГ ЎСИШ ЖАРАЁНИГА ЯНТАР КИСЛОТАСИНИНГ ТАЪСИРИ

Алмаматов Б., Жўрабоева Р.
Гулистон давлат университети, “Биология” кафедраси.
+99899 923 42 88. bahromalmamatov1988@mail.ru

Аннотация. Ўсимликларнинг ўсиш ва ривожланишини идора этиш асосида ташқи омиллар таъсиридан ҳимоя қилиш, иммун системасини ҳосил қилиш ёки чидамли навларни яратишда муҳим аҳамиятга эгадир.

Калит сўзлар. Янтар кислотаси, батат, поя, қаламча, қайтариқлар.

Ўсимликларнинг ўсиш ва ривожланишини идора этиш асосида ташқи омиллар таъсиридан ҳимоя қилиш, иммун системасини ҳосил қилиш ёки чидамли навларни яратишда муҳим аҳамиятга эгадир.

Шунга асосан олиб борилган тадқиқотлар натижалари кўпгина адабиётларда ўз аксини топган [1-4]. Лекин мавжуд маълумотлар ўсимликларнинг чидамлилиги билан боғлиқ биокимёвий ва физиологик хусусиятлари ҳамда бунда физиологик фаол моддаларнинг роли бўйича маълум ечимлар қилиш учун етарли эмас.

Айрим адабиётларда сапонинларнинг ўсимликларга таъсир эффекти ҳақида маълумотлар келтирилган [5]. Ушбу маълумотларда сапонинлар кичик концентрацияда ўсимликларнинг ўсиш ривожланишини тезлаштириши, юқори концентрацияда эса ингибирлаши баён этилади.

Шунингдек, *Glycyrrhiza Glabra L.* ўсимлигидан ажратиб олинган глицирризин кислотаси (ГК)нинг ҳам ҳайвонлар тўқималари ва ҳужайраларига таъсир эффекти ҳамда ўсимликларнинг ўсиш ривожланишини стимулловчи физиологик фаол модда сифатида айрим тасаввур ва ғояларнинг мавжудлигини қайд этиш мумкин.

ГКнинг 10^{-6}–10^{-8} М концентрацияда пахта чигитини униш ва ривожланишини тезлаштириши қайд этилган [6-8].

Амаранта ўсимлигида ўтказилган физиологик тестлар асосида ГК 10^{-6}М концентрацияда ушбу ўсимликда цитокинин сингари амарантин пигментини ҳосил бўлишини ошириши аниқланган.

Кўпгина ҳолатларда ташқи омилларнинг таъсири туфайли ўсимликларнинг ўсиш ривожланиши ёки ҳосилдорлигида салбий ҳолатлар кузатилади. Бундай ҳолатларни ўсимлик ниҳолларининг нобуд бўлиши ҳамда ҳосили сифатининг пасайиши ҳолатларида кўриш мумкин бўлади. Буни олдини олиш учун эса физиологик фаол моддалар ёки стимуляторлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Шунга асосан биз тадқиқотларимиз давомида бататнинг поясининг ўсиш ривожланишига янтар кислотасининг фоиз концентрация хисобида 0.1, 0.2, 0.3, 0.4 ва 0.5 % эритмаларини тайёрлаб уларнинг таъсирини ташқи мухит шароитида яни иссиқхона шароитида ўргандик.

Тадқиқот объекти ва усуллари. Биз тадқиқот объекти сифатида Бататнинг маҳаллий навлар Сирдарё навидан фойдаландик.

Батат туганаклари дастлаб 25-26 ^{0}С да иссиқхонада тупроқ, биогумус ва қумнинг 4:2:1 нисбатдаги аралашмасида, тупроқ нисбий намлик даражаси 80-85 % холатда ўстирилди.

Батат туганакларининг униши натижасида хосил бўлган ёш кўчатлар 4-5 бўғимдан қилиб қирқиб олинди. Тайёрланган батат қаламчалари тупроқ, биогумус ва қумнинг 4:2:1 нисбатдаги аралашмасига екиб чиқилди. Экилган батат қаламчаларининг ўсишига янтар кислотасининг таъсирини ўрганиш учун тайёрланган 0.1, 0.2, 0.3, 0.4 ва 0.5 % эритмалари икки хил холатда поясига сепилди ва илдизи учун тупроқга қуйиб чиқилди. Назорат варианти сифатида тупроқга сув қуйиб чиқилди. Янтар кислотасининг поянинг ўсишига тасирини тахлил қилиш мақсадида хар бир консентрацияли эритмаси 4 қайтариқда таъсир эттирилди.

Тажриба натижаларини тахлил учун 15 кун вақт белгиланди. Шунингдек ўсимликлар поясининг ўсиши хар бир консентрацияли эритмалар таъсирида 2, 4, 6, 8, 10, 12, 14 чи кунларда дастлабки кузатувлар ўтказилди.

Олинган натижалар

Тажриба кузатувлари олиб борилиши натижасида препаратнинг таъсири морфологик жихатдан илдизидан бериладиган, поясидан бериладиган холатларда амалга оширилди. Препарат таъсири фарқлари аниқланилиши учун назорат варианти сифатида илдизидан фақат сув билан суғориб борилди. Препарат билан уч маротаба суғорилди.

1-жадвал

Эритмаларнинг хар бир вариантдаги поя ўсишига таъсири қуйидаги жадвалларда кўрсатиб ўтилган. (поя узунликлари см да)

0.1 % янтар кислотаси																			
Кузатув кунлари																			
2				4				6				8				10			
Қайтариқлар																			
1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4
2,5	1,5	2	2	3,2	2	2	2,5	3,2	2,5	0	3	3,2	2,5	0	3	4	2	0	3

2-жадвал

0.2 % янтар кислотаси				
Кузатув кунлари				
2	4	6	8	10

Қайтариқлар																			
1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4
2	2	2	1,5	2,7	0	2	1,5	2,7	0	2	2	3	0	2	2	3	0	2,5	2,5

3-жадвал

0.3 % янтар кислотаси																			
Кузатув кунлари																			
2				4				6				8				10			
Қайтариқлар																			
1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4
3	2	1,5	3,5	3	2,2	2	4	3	2	2	4	3	1,5	1,5	4	3	0	2,5	4

4-жадвал

0.4 % янтар кислотаси																			
Кузатув кунлари																			
2				4				6				8				10			
Қайтариқлар																			
1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4
2,5	2	2,5	2	2	2,5	2,5	2	2	2,5	2,5	2	2	2,5	2	2,5	2,5	2,5	3	2,5

5-жадвал

0.5 % янтар кислотаси																			
Кузатув кунлари																			
2				4				6				8				10			
Қайтариқлар																			
1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4
1,5	1	1	0	2	1,5	0	0	0	0	0	0,5	1	0	0	0	2	0	0	0

6-жадвал

Батат асосий пояси ўсишига янтар кислотаси % консентрацияли эритмаларининг вариантлараро 10 кунлик ўсув давридаги алохидалашган узунликдаги фарқлар кўрсаткичи.

Янтар кислотаси % консентрацияли ўритмалари																			
0,1				0,2				0,3				0,4				0,5			
Қайтариқлар умумийсидаги фарқ																			
1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4	1	2	3	4
1,5	0,5	0	0,5	1	0	0,5	1	0±1	0	1	0,5	0±1	0,5	0,5	0,5	0,5	0	0	0

7-жадвал

Батат асосий пояси ўсишига янтар кислотаси % консентрацияли эритмаларининг 10 кунлик ўсув даври охиридаги вариантлараро умумий поя узунликларининг вариант сонига нисбатидаги ўсишдаги ўртача узунликдаги фарқлар кўрсаткичи.

Янтар кислотаси % консентрацияли ўритмалари																			
0,1				0,2				0,3				0,4				0,5			
Қайтариқлар ўртачаси																			
2,25				2,0				2,375				2,625				0,5			

Янтар кислотасининг 0,3 ва 0,4 % консентрацияли эритмалари батат қаламчаларининг ўсиш тезлигини ошириш хусусиятига эга эканлиги олиб борилган тадқиқотларда ўз аксини топди.

Адабиётлар

1. Полевой В.В. Физиология растений. –М.: Высшая школа, 1989.-464с

2. Дерфлинг К. Гормоны растений. - Москва: Мир, 1985. - 304 с.

3.Уоринг Ф., Филлипс И. Рост растений и дифференцировка. –М.:Мир, 1984.- 512с.

4. Volotovski I.D., Sokolovski S.G., Nikiforov L.M., Zinchenko V.P. Ca^{2+} and intracellular signalimg in plant cell. //J.Photochem. and Photobiol. B: Biol.1993.-V.20.-P.95-100.

5. Хефтманн Э. Стероиды в книге «Биохимия растений» под ред. В.Л.Кретовича.- Москва: Мир. 1968. - С.421-436.

6. Лукьянова С.В., Тойчиев А.А. ,Далимов Д.Н., Гагельганс А.И., Тонких А.К. Действие глицирризиновой кислоты на растения. //Химия природных соединений.2001. Спец выпуск.с.14-15 (19)

7. Лукьянова С.В., Тойчиев А.А.,Джураев А.Д., ,Далимов Д.Н., Тонких А.К. Действие глицирризиновой кислоты на рецепторы для фитогормонов. //Химия природных соединений.2002. Спец выпуск.с.14-15(20)

BUG‘DOYNING ZAMBURUG‘LI KASALLIKLARIGA RETKILNING TA’SIRINI BAHOLASH

N.A.Ablakulova, Yu.Saitqulova

Guliston davlat universiteti, Ekspremental biologiya laboratoriyasi

O‘simliklarda kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlarni o‘zgarishiga zamburug‘li kasaliklarni ta’siri, shuningdek shu tadqiqotlarda zamburug‘li kassalikkalarga tez chalinuvchan navlarda parazitni ta’sir mexanizmini o‘rganish.

Kalit so‘zlar: o‘simlik, retkil, triterpin, zambrug‘, bug‘doy

Mavzuning dolzarbligi

Respublikamizning iqlim sharoiti yuqori sifatli urug‘ hosil olish uchun juda qulay sharoit hisoblanadi. Nafaqat respublikamizga balki chet mamlakatlarga eksport qilish uchun ham yetarli. Lekin bunining uchun sifatli urug‘ yetishtirish, bug‘doy o‘simliklarini turli xil zamburug‘li kasalliklardan himoya qilish muxim ahamiyatga ega. Bug‘doy o‘simliklarini turli xil zamburug‘li kasalliklardan himoya qilishda fungitsitlik xususiyatiga ega bo‘lgan tabiiy triterpenoidlardan foydalanishning ahamiyati katta[1].

Biz tajribada ko‘rgan Retkil preparatining ham ta’siri juda yaxshi natijaga olib keldi. Retkil ham tabiiy triterpenoid hisoblanib, terpen kislotalar yigindisidan iborat. Bug‘doyning unib o‘sishini tezlatuvchi va hosildorlikni oshiruvchi hamda zamburug‘li kasaliklardan himoyalovchi stimulyator va fungitsitdir. Terpenlarning hosilalari, birinchi navbatda kislorod saqlagan hosilalari, terpenoidlar deb yuritiladi.

Bug‘doyning zang zamburug‘ kasalliklari *Puccinia turi, Pucciniaceae* oilasi, *Uredinales* tartibi, *Basidiomysetes* sinfiga mansubdir (Littlefield 1981). *Uredinales* tartibini 2 ta turi mavjud bo‘lib bular *Pucciniaceae va Puccinia*. *Bazidomitsetlar* bazidiyasi meyoz bo‘linish jarayonida gaploid xromosomali yagona bazidomitset sporasini hosil qiladi. Uredinales tartibi zang zamburug‘iga ta’sir qiladi, ular yuqori mahsuslikka ega patogenlarga ega.Taksanomiyasiga ko‘ra Uredinales ikki yoki undan ko‘p oilalarga bo‘linadi va ularnnig har biri o‘zining xususiyatlariga ega[2].

Zambarug‘ning sariq zang turi, *P.striiformis West*, Zamburug‘ning bu turlari faqat bug‘doyda parazitlik qiladi.

Tadqiqot usullari

Tajriba laboratoriya va dala sharoitida kuzgi bug‘doyning Krasnodar va Do‘stlik navlarida olib borildi. Ekishdan oldin urug‘lar 1 sutka davomida Retkilning 0,1 %, 0,01 %, 0,001 % eritmalari bilan ishlov berildi. Dala sharoitida 5 ta egatchalarda 3 qaytariqdan 20 g dan ekildi. Laboratoriya sharoitida esa kichik tuvaklarga 9 tadan kattarog‘iga 13 tadan ekildi.Tuvaklar yuzasini hisobga olingan holda, albatta. Shu bilan birga Petri idishlariga agar-agar ozuqasi tayyorlanib, sariq zang sporalari ekilib, ularning rivolanish tsikllari kuzatildi. Petri idishlarda o‘stirilgan zang sporalari tuvakdagi bug‘doylarga ham yuqtirildi. Zamburug‘larni o‘stirib preparat ta’sirini o‘rganishda *in vitro* usullaridan foydalanildi. Laboratoriya sharoitida xar 2-3 kunda va 4-5 kunlarda kuzatishlar olib borildi.

Sariq zang sporalari o‘simliklar tuplanishinning boshlaridayoq zang sporalari bilan zararlantirildi. Zararlantirilgan maydonlar aloxida belgilab olindi. Dala sharoitidagi tajribalar yuzasidan 1 xaftadan so‘ng kuzatishlar olib borildi. O‘simliklarning tuplanish va naychalash davrlarida preparat bilan purkagichlar yordamida sepish ishlari olib borildi. Xar 5 kunda kuzatishlar olib borildi. Nazorat sifatida dorilanmagan o‘simliklardan foydalanildi.

Do‘stlik navining laboratoriya sharoitida retkil preparati bilan ishlov berish

(Jadval-1)

№	Retkil	Nazorat	kuchli	kuchsiz	o‘rtacha
1	0,1	2	4	3	7
2	0,1	7	7	2	2
3	0,1	2	3	6	2
4	O‘rtacha	**3,66**	**4,66**	**3,66**	**3,66**
5	0,01	5	4	5	6
6	0,01	6	3	1	3
7	0,01	3	1	2	7
8	O‘rtacha	**4,66**	**2,66**	**2,66**	**5,33**
9	0,001	6	8	2	3
10	0,001	6	2	2	3
11	0,001	7	8	2	2
12	O‘rtacha	**6,33**	**6**	**2**	**2,66**

Do‘stlik navining dala sharoitida retkil preparati bilan ishlov berish

Variantlar	1000 don og‘irligi	1 g/t, ishlatilish miqdori	Preparat bilan ishlov berilganda unuvchanligi, (%)			Preparat bilan ishlov berilganda tuplanish			Barglarda kasallikga chalinishi (%)
			0,1%	0,01%	0,001%	0,1%	0,01%	0,001%	
GulDU tajriba maydonchasi									
Реткил	40,5	10	42	56,4	58,6	2,8	4	5	
Назорат			30			3			
Navbahor SIU									
Реткил	40,5	10	48	56	70	3	5	6	
Назорат			40			3			

Olingan natijalrdan ko‘rinib turibdiki Retkil preparati bilan urug‘larga ishlov berib ekilganda samarali natija beradi. Shu bilan birga o‘simliklarni purkash ham eng yaxshi usullardan biri. Demak Retkil bug‘doyda uchraydigan zamburug‘li kasalliklarga samarali ta’sir etuvchi vosita sifatida qo‘llash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аблакулова Н.А., Исмалова К., Кушиев Х.Х., Далимов Д.Н. Ростостимулирующие и фунгитоксичные активности препарата дкм-1 созданного на основе природного соединения
2. Аманов А.А., Киряш В.А., Умиров Н. Селекционная ценность образцов пшеницы из мировой коллекции в условиях богары Узбекистана //Сб.: Пути повышения урожаев зерновых, зернобобовых и кормовых культур при интенсивном земледелии. -Т., 1989. - С. 9-11.

SOYA NAVLARINING TRANSPIRATSIYA JADALLIGINI KUN DAVOMIDA O‘ZGARISHI

A.Sh. Abdurasulov
Guliston davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada soya navlaridagi transpiratsiya jadalligi o‘rganganilib barcha navlarga xos o‘suv davrining boshida suvni kam bug‘latgani, gullash va dukkak hosil qilish fazasida hamda dukkaklarning dastlabki pishish fazasida suv sarfi yuqori bo‘lganligi, ammo keyin pastlay boshlashi Sirdaryo viloyatining tuproqlarida soya navlarining transpiratsiya jarayonini o‘rganganilganda navlarning suvni maksimal bug‘latishida o‘ziga xos qonuniyatlar borligi, navlar suvni soat 12^{00} - 14^{00} da ko‘p bug‘latishi qisqa muddat bo‘lishi, transpiratsiya jarayoni kun davomida o‘zgarib borganligi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘suv davri, transpiratsiya jadalligi, unib chiqish, gullash, dukkaklash, pishish.

KIRISH. Dunyoda aholi sonining kundan kunga ortib borishi oziq-ovqatga bo’lgan ehtiyojni ham ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa qishloq xo’jaligi o’simliklarining har bir hududga xos navlarni tanlash, tanlangan navlarning hosildorligi va hosil sifatini oshirishni taqozo etmoqda. Soya doni va izolyati - oziq-ovqat sanoatida eng yaxshi xomashyo hisoblanadi. Shrotidan chorvachilikda, parrandachilikda, baliqchilikda oqsilli, to’yimli ozuqa sifatida keng foydalaniladi. Yer sharida ishlab chiqiladigan o’simlik moyining 35% asosan soya donidan olinadi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 1 martda “Soya ekinini yetishtirish va aholini soya o’simlik moyiga bo’lgan ehtiyojini to’laqonli qondirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori qabul qilindi. Hujjatda 2017-2021 yillarda soya o’simligi ekiladigan maydonlar bosqichma-bosqich ko’paytirib borilishi, mazkur vaqt davomida jami 92 266 gektar maydonga asosiy, 40 557 gektar maydonga esa takroriy ekin sifatida ekilishi ko’zda tutilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasida sug‘oriladigan yerlaridan samarali foydalanish, bir yilda ikki marta hosil olib tuproq unumdorligini oshirish, tuproqda biologik azot fiksatsiyasini oshirib bir gektar maydondan olinadigan mahsulotni kam energiya va resurslar sarflab tannarxi past biologik toza mahsulot olish, aholini o‘simlik moyi hamda oqsilga bo‘lgan talabini qondirish hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammolarni hal etish maqsadida Respublikamizda g‘o‘za g‘alla almashlab ekish qo‘llanilayotgan sharoitda tuproq unumdorligini saqlash, dehqon fermerlar uchun qo‘shimcha mahsulot va daromad olishni ta’minlash maqsadida soya bilan boshqa dukkakli o‘simliklardan takroriy ekin sifatida soya o‘simligidan foydalanish [8]. soya ekiladigan maydonlarni kengaytirish, har bir hududga xos soya navlarini ekish va ulardan serhosil olish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [1] da 2017-2021 yillarda soya o‘simligini ekish maydonlari hajmini bosqichma-bosqich kengaytirish va moy ishlab chiqarish miqdorini oshirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida respublikamizning unumdorligi past bo‘lgan tuproq sharoitida, soya ekinini asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish, ekilgan navlar biologiyasi va fiziologiyasini o‘rganish maqsad qilib belgilandi.

TADQIQOT OBYEKTLARI VA USULLARI. Ishimizning tadqiqot obyekti qilib burchoqdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub Soya (Glycine Willd.) turkumi, Glycine soya – soyaning madaniy “To‘maris-MAN-60”, Madaniyat “B”, O‘zbekiston va xorijdan keltirilgan “Vilona”, “NS Arolo” (serbiya), “Selekta-302” navlari olindi. Tadqiqot izlanish ishlarimiz Sirdaryo viloyati, Sayxunobod tumani, “Abdulakim ota” fermer xo‘jaligida g‘alladan bo‘shagan maydonlarida, hamda Guliston davlat universitetining o‘quv-dala tajriba maydonchasida olib borildi.

Barcha tajriba paykalchalarining hisobga olinadigan yuzasi 50 m. Tajribalar 4 qaytariqli, 4 yarusli qilib o‘tkazildi. Ekish chuqurligi 4-5 sm. Ekish keng qatorli paxta ekish seyalkalarida olib borildi. Ekish chuqurligi 4-5 sm, meyo‘ri 40-42 kg/gani tashkil etdi. Ekilgan kun bahorda aprel oyida, yoz oyida 6.07.2022 yil kuni ekildi . Ekilgandan 2 sutkadan keyin suv yugurtirib olindi.

Nazorat sifatida mahalliy navimiz “To‘maris-MAN-60” navi olindi. “To‘maris-MAN-60” navi respublikamizning deyarli hamma viloyatlarida asosiy ekin sifatida ekib kelinmoqda.Transpiratsiya intensivligi standart uslub yordamida aniqlandi [13; B-119–123; 14; B-391–402-b.].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. O‘simlik organizmida muhim fiziologik jarayonlardan biri suv rejimi temperatura koordinatsiyasida transpiratsiya bo‘lib, bu jarayon intensivligi vegetatsiya davri, sutkaning vaqti va shuningdek, tashqi muhit sharoitlariga bog‘liq hisoblanadi [5; B- 5-36.].

O‘simlikda moddalar almashinuvi jarayonlarining muhim qismi bu, suv rejimi bilan bog‘liq bo‘lgan transpiratsiya hisoblanadi. Transpiratsiya jarayonida o‘simlik ildizi orqali tuproq qatlamidan so‘rib olingan suvning 90% qismi barglar orqali bug‘lanadi, +20°C sharoitda o‘simlikdan 582 kal/g gacha issiqlik ajraladi va organizmda teploregulyasiya optimalligi ta’minlanadi. Transpiratsiya jarayonida o‘simlikda o‘tkazuvchi tizim orqali moddalar transporti faollashadi. O‘simlik bargi tashqi tomondan oksimonokarbon kislota bo‘lgan kutikula qavati bilan qoplangan bo‘lib, barg yuzasida diametr o‘lchami 3-12 mkm ga teng bo‘lgan, 1 sm^2 yuzaga nisbatan 1-60 tagacha barg og‘izchalari (ustitsa) joylashadi. Transpiratsiya o‘simlikda suv rejimining integral ko‘rsatkichi hisoblanadi

O‘simlikda moddalar almashinuvi jarayonlarining muhim qismi bu, suv rejimi bilan bog‘liq bo‘lgan transpiratsiya hisoblanadi [6;B-20-21b]. Transpiratsiya jarayonida o‘simlik ildizi orqali tuproq qatlamidan so‘rib olingan suvning 90% qismi barglar orqali bug‘lanadi, +20°C sharoitda o‘simlikdan 582 kal/g gacha issiqlik ajraladi va organizmda teploregulyasiya optimalligi ta’minlanadi. Transpiratsiya jarayonida o‘simlikda o‘tkazuvchi tizim orqali moddalar transporti faollashadi. O‘simlik bargi tashqi tomondan oksimonokarbon kislota bo‘lgan kutikula qavati bilan qoplangan bo‘lib, barg yuzasida diametr o‘lchami 3-12 mkm ga teng bo‘lgan, 1 sm^2 yuzaga nisbatan 1-60 tagacha barg og‘izchalari (ustitsa) joylashadi. Transpiratsiya o‘simlikda suv rejimining integral ko‘rsatkichi hisoblanadi [7; B 15-16; 8; B-305-307.]. Tajribalarda soya o‘simligining nihollari ning tabiiy tuproq sharoitida ko‘chirib o‘tkazilishi moddalar almashinuvida yuzaga keluvchi fiziologik va biokimyoviy adaptatsion o‘zgarishlar dinamikasini tahlil qilishda transpiratsiya intensivligi o‘rganildi [9;S.378-380,10;370-372-b;]. O‘simlik bargida transpiratsiya intensivligi 60 minut davomida har 10 minutda barg og‘irligini o‘lchash uslubida tahlil qilindi [11; S.95-99.].

Soya navlarining barglari tarkibidagi suv miqdorini aniqlash standart uslub yordamida aniqlandi [11; P.95-99.]. Bunda soya bargi distillangan suv yordamida tashqi yuzasi yuvilib, sterillangan qog‘oz salfetka yordamida artildi va yuzasi qurigan holatda torozida (Electroniv Balance; JA603N, aniqlik darajasi ±0,001 g) tortildi. Navbatdagi bosqichda 6 soat davomida termostatda +102°C harorat sharoitida quritildi va quritilgan holatda torozida og‘irligi o‘lchandi. Barg tarkibidagi quruq modda og‘irligi aniqlandi.

Barcha madaniy o‘simliklar o‘z rivojlanish ontogenezida suvga bog‘liq holda rivojlanadi, qachonki o‘simlikning hujayralari suv bilan ta’minlangan holatda bo‘lsa, u holda boradigan fiziologik jarayonlar o‘z vaqtida to‘g‘ri shakllanadi. Hujayrada boradigan barcha jarayonlar o‘simlikning suv balansi, ya’ni suvni qabul qilish va bug‘latish holatlari maqbul holatda bo‘lgandagina amalga oshadi. Ayniqsa, bizdagi issiq, quruq iqlim vegetatsiya paytida o‘simlik uchun suv etarli darajada bo‘lishini talab etadi, buning uchun o‘simlik suv bilan tabiiy yoki sun’iy ravishda ta’minlangan bo‘lishi lozim. Qisqa muddatda namlikning etishmasligi o‘simlik rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Soya navlari o‘simligining transpiratsiya jarayoni o‘rganilganda navlar kesimida deyarli farq sezilmadi. Nam holatdagi bargning og‘irligi 5,0 g, quritilgan bargning og‘irligini 2,5 g ni tashkil etdi. Soya navlari barg tarkibidagi quruq modda miqdorining ulushi 1,96% ni tashkil etdi.

1-jadval

Soya navlari bargi tarkibidagi quruq modda miqdori, %

	Navlar	**Nam holatdagi bargning og‘irligi, g**	**Quritilgan bargning og‘irligi, g**	**Barg tarkibidagi quruq modda miqdorining ulushi, %**
	To‘maris MAN-60	5,3	2,7	1, 96
	Madaniyat “B”	5,2	2,7	1, 92
	O‘zbekiston	5,3	2,6	2,03
	Vilona	4,9	2,5	1,96

	Selekto 302	4,7	2,4	1, 95
	NS Arolo (serbiya)	4,5	2,3	1, 95

Soya o‘simligi barglarida o‘sish sharoitiga bog‘liq holatda umumiy namlik miqdori o‘rtacha 55-58% ni tashkil qilib, sutka davomida va ob-havo haroratiga bog‘liq o‘zgarishi qayd qilinadi. Soyada transpiratsiya intensivligi maksimal 780 mg/g.soat ga teng bo‘lib, vegetatsiya davrida o‘rtacha 430-780 mg/g.soat diapazonda tebranishi qayd qilinadi. Shuningdek, yoz faslida ob-havo harorati keskin ortishi bilan transpiratsiya intensivligi kamayadi [10; C.171-185.].

Transpiratsiya jadalligini aniqlash birinchi marta soya navlarida gullash fazasining dastlabki 10 kunida olib borildi, ikkinchi marta kuzatishlar soya navlarinig to‘liq gullash va dukkak hosil qilish fazasida olib borildi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, turli soya navlarining to‘liq gullash fazasida transpiratsiya jadalligi gullash fazasining boshidagi ko‘rsatkichlardan yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bu fazada soya gullab hamda endigina dukkak hosil qilishga ham kirishgandi. Chunki, soyaning birinchi gullari poyaning pastki qismidan tepaga qarab navbat bilan gullashi kuzatildi. Turli soya navlarining dukkaklar hosil qilish fazasida transpiratsiya jadalligi barcha fazalarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lganligi tajribalar natijasida aniqlandi.

Soyaning transpiratsiya jadalligi boshqa moyli ekinlarga qaraganda yuqori emas, o‘simlikning fazalari bo‘yicha bosqichma bosqich kamayib boradi, ayniqsa dukkaklar hosil bo‘lish fazasida transpiratsiya jadalligi eng yuqori bo‘lib, bu fazada tuproqdagi suvning miqdoriga sezuvchanligi ortadi. Transpiratsiya uchun sarflangan suv soya o‘simligining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligining yuqori bo‘lishida muhim ahamiyatga ega.

Xullas, bu davrda o‘simlikning poyasi pastdan yuqoriga qarab turli fazalarni boshidan kechirayotgan bo‘ladi. Demak, o‘simlikning suvga bo‘lgan talabi ham intensiv darajada bo‘ladi. Maydonda o‘simlikning gullash va dukkaklarning hosil bo‘lish fazasida suvni eng ko‘p miqdorda bug‘latadi, dukkaklar pishib yetila boshlagan paytga kelib transpiratsiya jarayoni sekinlashadi. Transpiratsiya jadalligi davrida o‘simlik hujayrasidagi suv barg yuzasidagi ko‘rinmas teshikchalari orqali bug‘lanadi. Buning natijasida barg hujayralarida suv miqdori kamayadi va so‘rish kuchi ortadi. Barglarda so‘rish kuchining ortishi o‘z navbatida barg tomirlari va naylaridan suvni tortib olish jarayonini faollashtiradi. Havo harorati yuqori bo‘lgani sari barglar suvni so‘rish kuchini oshiradi. Yuqoridan tortib oluvchi kuchning paydo bo‘lishi o‘simlik butun poyasi, barglari, mevalari bo‘ylab hujayralarda suvning harakatini yanada tezlashtiradi.

Suvni yuqoriga harakatga keltiruvchi kuch transpiratsiya natijasida vujudga keladi. Transpiratsiya jadalligiga qarab, so‘rish kuchi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Transpiratsiya jadal borishiga havo harorati, o‘simlik biologiyasi, agrotexnik tadbirlar, tuproqdagi suvning yuza yoki chuqur joylashishi va boshqa ko‘pgina omillarga bog‘liq bo‘ladi. Tajriba maydonchasining tuproqlarida o‘rganilgan barcha soya navlarida kunning soat

12^{00} va 14^{00} bo‘lgan paytida suvni o‘simlik ko‘p miqdorda o‘zlashtirishi ma’lum bo‘ldi. Soya navlarida rivojlanish fazalari gullash fazasida transpiratsiya jadalligi soat ertalabki 8^{00} da 417,9 g/m^2 soatdan 429,0 g/ m^2soatgacha bo‘lgan bo‘lsa, navlar kesimida

“To‘maris MAN-60” navida 455,8 g/ m^2 soatdan 480,3 g/ m^2 soatgacha, “Madaniyat “B” 408,3 g/ m^2 soatdan 453,6 g/ m^2 soatgacha, “O‘zbekiston” navida 386,4 g/ m^2 soatdan 452,7 g/ m^2 soatgacha, “Vilona” navida 405,5 g/ m^2 soatdan 461, 3 g/ m^2 soatgacha, “Selekto-302” navida 380,2 g/ m^2 soatdan 443,6 g/ m^2 soatgacha, “NS Arolo (serbiya)” navida 371,5 g/ m^2 soatdan 439,2 g/ m^2 soatgacha.

Tushlik vaqtida tekshirishlar olib borilganda tush paytida 12-14^{00} oralig‘ida “To‘maris MAN-60” navida 1467,8 g/ m^2 soatdan 1605,5 g/ m^2 soatgacha, “Madaniyat “B” 1396,7g/ m^2 soatdan 1582,2 g/ m^2 soatgacha, “O‘zbekiston” navida 1369,3 g/ m^2 soatdan 1496,1 g/ m^2 soatgacha, “Vilona” navida 1357,5 g/ m^2 soatdan 1401,6 g/ m^2 soatgacha, “Selekto-302” navida 1355,6 g/ m^2 soatdan 1397,2 g/ m^2 soatgacha, “NS Arolo (serbiya)” navida 1340,3 g/ m^2 soatdan 1384,1 g/ m^2 soatgacha keskin oshib bordi. “To‘maris MAN-60” navida tush paytida bug‘latish miqdori 1237,14 g/ m^2 soatdan “Madaniyat “B” navida 1345,2 g/m^2 tushki soatlarda eng yuqori bo‘ldi. Suvni bug‘latish jadalligi soat 16^{00} dan boshlab tezlik bilan pastlashib bordi. “To‘maris MAN-60” navida 905,7 g/ m^2 soatdan 826,9 g/ m^2 soatgacha, “Madaniyat “B” 782,4g/ m^2 soatdan 801,6 g/ m^2 soatgacha, “O‘zbekiston navida” 780,5 g/ m^2 soatdan 795,6 g/ m^2 soatgacha, “Vilona” navida 792,4 g/ m^2 soatdan 812,4 g/ m^2 soatgacha,

“Selekto-302” navida 802,6 g/ m^2 soatdan 819,6 g/ m^2 soatgacha, “NS Arolo (serbiya)” navida 790,3 g/ m^2 soatdan 901,9 g/ m^2 soatgacha kuzatildi. Soat 18 ^{00} da suvni bug‘latish jadalligi “To‘maris MAN-60” navida 426,4 g/ m^2 soatdan 438,2 g/ m^2 soatgacha, “Madaniyat “B” 422,6 g/ m^2 soatdan 438,5 g/ m^2 soatgacha, “O‘zbekiston” navida 418,7 g/ m^2 soatdan 430,6 g/ m^2 soatgacha, “Vilona” navida 421,5 g/ m^2 soatdan 439,1 g/ m^2 soatgacha, “Selekto-302” navida 422,3 g/ m^2 soatdan 438,3 g/ m^2 soatgacha, “NS Arolo (serbiya)” navida 420,1 g/ m^2 soatdan 443,7 g/ m^2 soatgacha kuzatildi.

“To‘maris MAN-60” navida tush paytida bug‘latish miqdori 1237,14 g/ m^2 soatdan “Madaniyat “B” navida 1345,2 g/m^2 tushki soatlarda eng yuqori bo‘ldi. Suvni bug‘latish jadalligi soat 16^{00} dan boshlab tezlik bilan pastlashib bordi. “O‘zbekiston” va “Vilona” navlarida ham suvni bug‘latish jarayoni har xil ekanligi ma’lum bo‘ldi. O‘rganilgan “Parvoz” va “Nafis” navlarida soat 12^{00} -14^{00} da transpiratsiya jadalligi maksimal nuqtasiga etdi, soat 16^{00} boshlab suvni bug‘latish qobiliyati tez kamayganligi ma’lum bo‘ldi. Ertalab soat 8^{00} da o‘rganilgan “Parvoz” va “Nafis” navlarida 551,8 g/ m^2 va 544,7 g/ m^2 bo‘ldi. Ammo soat 12-14^{00} da transpiratsiya jadalligi eng yuqori nuqtaga yetdi, bu vaqtda jadallik 1534,3 g/ m^2 va 1589,5 g/ m^2 tashkil qildi. Ammo soat 16^{00} dan boshlab suvni bug‘latish qobiliyati pastlashgani ma’lum bo‘ldi. Sirdaryo viloyati tuproqlarida transpiratsiya jadalligi ertalab soat 8^{00} -20^{00} gacha aniqlandi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, soat 20^{00} da “To‘maris MAN-60” va “Madaniyat “B” soya navlarida 4,830 g/ m^2 va 4,714 g/ m^2 bo‘lganligi va bu ko‘rsatkichlar o‘rtapishar “O‘zbekiston” navida 5,661 g/ m^2 soatgacha, “Vilona” navida esa 5,834 g/ m^2 soatdan “Selekto-302” navida bu ko‘rsatkich 5,100 g/ m^2 soatgacha oraliqda bo‘lib,”NS Arolo (serbiya)” navida bu ko‘rsatkich 4,895 g/ m^2 soatgacha oraliqda bo‘lib, tushki soatdagidan deyarli 3 marta past suvni bug‘latgani ma’lum bo‘ldi.

Transpiratsiya jarayonining turli soatlada navlar kesimida turlicha ketishiga navlarning barglari ma’lum bir sabablarga ko‘ra yupqa ko‘rinishda va hajmi kichikroq bo‘lishi, tuklari soni kam yoki ko‘p bo‘lishi ham suvni kam yoki ko‘p ishlatishiga sabab bo‘la oladi. Qancha o‘simlikning vegetatsiya davri uzoq bo‘lsa dukkaklari pishib yetilishi uchun suv sarfi shuncha ko‘p sarflanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, soya navlaridagi transpiratsiya jadalligini o‘rganganimizda barcha navlarga xos bo‘lgan bir qonuniyat namoyon bo‘ldi. Soya navlari o‘suv davrining boshida suvni kam bug‘latdi. Gullash va dukkak hosil qilish fazasida hamda dukkaklarning dastlabki pishish fazasida suv sarfi yuqori bo‘ldi, ammo keyin pastlay boshlaydi. Barcha navlarda barcha rivojlanish fazalarida kunning ertalab va kech qismida suvni bug‘latish jarayoni sust bo‘ladi, soat 12^{00} va 14^{00} orasida suv bug‘latish nuqtasi eng yuqori nuqtaga bordi. Demak, barcha soya navlarining suvga bo‘lgan talabi bir qonuniyat asosida boradi va soya navlarning suvga bo‘lgan talabini ushbu tajriba natijalaridan kelib shakllantirish ham ishimizning ma’lum bir vazifalaridan biridir. Tajribalardan yana shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Sirdaryo viloyatining tuproqlarida soya navlarining transpiratsiya jarayonini o‘rganganimizda navlarning suvni maksimal bug‘latishida o‘ziga xos qonuniyatlar borligi aniqlandi. Navlar suvni soat 12^{00} - 14^{00} da ko‘p bug‘latdi, ammo bu muddat qisqa bo‘ldi va iyun oylariga to‘g‘ri keldi. Transpiratsiya jarayoni kun davomida o‘zgarib borganligini aniqlandi. Ertalab soat 8^{00}-da transpiratsiya jarayoni -419g/m^2 teng bo‘lgan bo‘lsa, soat 12-14^{00} da 1467-1600g/m^2, soat 16^{00}-da 1500-1600g/m^2 va 20^{00} -4.7-4.8g/m^2 teng bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 14.03.2017 й. ПҚ-2832 сон «2017-2021 йилларда республикада соя экиниэкишни ва соя дони етиштиришни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.74; Б. 236-237.

4.Абдукаримов Д.Т., Горилов Е.П., Ҳалилов Н.Х. Соя.деҳқончилик асослари ва ем-хашак етиштириш китобида. Тошкент.“Меҳнат”-1987. – Б. 275-277.

5.Головко Т.К., Табаленкова Г.Н. Физиология растений: сб. описаний лабораторных работ для подготовки дипломированного специалиста // Сыктывкар: СЛИ. - 2007. - С.5-36.

6.Ёрматова Д. Мамлакатимизда соя етиштириш хусусидахулосалар экологиямиз фодойси // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги Тошкент,2019. №1. – Б. 20-21.

7.Ёрматова Д, Назарова Ф, Хушвақтова Х, Ҳасанов Ж “Сояагротехникаси” тавсиянома Тошкент – 2017. – Б 15-16

8.Жумаев Ф.Х., Абзалов М.Ф., Н.С.Баратова Н.С., Сафарова Н.И “Соя генколлекцияси намуналарини Бухоро шароитида ўсиш-ривожланиши ва тупроқ унумдорлигини оширишда

сояни аҳамияти”. Қишлоқ хўжалик экинларини маҳсулдорлигини ошириш муъаммолари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани тўплами. Бухоро, 2009. – Б. 305-307.

9.Кушметов З.М., Ҳамроева М.К. Соя ўсимлигида транспирация жадаллигининг бориши // “Ўзбекистон республикасида бошоқли дон,ноанъанавий ва мойли ҳамда озуқа экинларини инновацион технологияларасосида етиштириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалийконференция мақолалар тўплами. Андижон, 2020. – Б. 378-380.

10.Кушметов З.М., Ҳамроева М К. Соя донининг биологияси вауниб чиқиш даври // “Ўзбекистон республикасида бошоқли дон, ноанъанавийва мойли ҳамда озуқа экинларини инновацион технологиялар асосида етиштириш истиқболлари” мавзусидаги республика илмий-амалийконференция мақолалар тўплами. Андижон-2020. – Б. 370-372.

11.Мушинский О.А., Рябина З.Н., Мушинский Н.И. Транспирация как составная часть водного режима растений и ее изучение у видов рода Populus L. // Вестник ОГУ. - 2007. - №6. - С.95-99

12. Constantin, J., Dürr, C., Tribouillois, H., Justes, E., 2015. Catch crop emergence success depends on weather and soil seedbed conditions in interaction with sowing date: A simulation study using the SIMPLE emergence model. F. Crop. Res. 176, 22–**33**.,

13.Timariu G. ef. al. (Eficacitatea in grasanintelor minerale asupra productie de marare si soil pe teren in ponta supus eroziunu)-Iucrari Sti (Inst. agram. (Iontscu de la Brad Iasc)). 1970, p 119-123

14.Yordanov I., Tsone T., Goltsev V., Kruleva L., Velikova V. Interactive effect of water deficit and high temperature on photosynthesis in sunflower and maize plants. Changes in the parameters of chlorophyll fluorescence induction kinetics and fluorescence quenching // Photosynthetica. - 1997. - V.33. - P.391-402

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР

Гаибназарова Феруза Пардабаевна
ГулДУ “Биология” кафедраси доценти, б.ф.б (PhD)

Аннотация: Таълим тизимидаги замонавий ёндашувлар ўқувчиларнинг ижодий меҳнат фаолиятига интилиш, касбий-методик компетентликни ва касбий ижтимоий қадриятлар дунёсини юқори даражада эгаллаш, креатив ижодкорлик, тадқиқотчилик фаолиятига йўналтириш алоҳида эътиборга қаратилган.

Калит сўзлар: глобал, жараён, ахборотлаштириш, ёндашув, тизим, билим, педагогика,топшириқ

Таълим тизимидаги замонавий ёндашувлар ўқувчиларнинг ижодий меҳнат фаолиятига интилиш, касбий-методик компетентликни ва касбий ижтимоий қадриятлар дунёсини юқори даражада эгаллаш салоҳиятига эга бўлишни тақозо этади. Креатив ижодкор мутахассисни шакллантиришнинг ушбу босқичида ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятига йўналтириш алоҳида эътиборга лойиқдир.

Таълим амалиётида билимларнинг аксарияти тайёр ҳолда тақдим этилади ва қўшимча изланиш ҳаракатларини талаб қилмайди, бироқ ўқувчилар учун асосий қийинчилик бу мустақил маълумот излаш, билим олишдир. Шунинг учун ўқув жараёни самарадорлигини оширишнинг энг муҳим шартларидан бири бу ўқувчиларнинг ўқув тадқиқотчилик фаолиятини ташкил этиш ва унинг асосий таркибий қисми тадқиқотчилик қобилиятларини ривожлантиришдир. Бугунги кунда педагогикада аудиторияда ва аудиториядан ташқари машғулотларда ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолияти турларини аниқлашга бир қанча ёндашувлар мавжуд изланиш, тажриба, лойиҳалаш, техник, ижодий ва ҳ.к.

Илмий-тадқиқот топшириқларининг мазмуни ўқувчиларнинг билиш мустақиллигини ривожлантириш, табиатга нисбатан эҳтиёткорона муносабатни тарбиялаш, махсус ўқув кўникмаларини ривожлантириш, флора ва фауналарнинг хилма-хиллигини ўрганиш, айниқса уларнинг ҳудудида, биология хонасининг ўқув базасини ўз мустақил фаолияти натижасида тайёрланган гербарийлар, коллекциялар билан тўлдиришга қаратилган.

Тадқиқот фаолиятини ташкил этиш қуйидаги тузилишга эга: мотив, муаммо, мақсад, вазифалар, метод ва услублар, ҳаракатлар режаси, натижалар, мулоҳаза. Тадқиқот муаммони ҳал қилишга қаратилган ғояга асосланган. Бу ўқитишнинг турли хил ташкилий шакллар орқали

зарур: дарс, (дарс - семинар, дарс - ғояларни ҳимоя қилиш, дарс - рол ўйнаш, дарс - конференция ва бошқалар), қўшимча машғулотлар, лойиҳа фаолияти, гуруҳ, индивидуал, жуфтлик шакллари ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолияти компетенцияларини шакллантириш.

Тадқиқотчилик фаолияти турлари:

1. Экспресс - тадқиқот: мақсади мустақил равишда тадқиқот олиб бориш ва тавсифга мувофиқ лойиҳалаш. Масалан - озиқлантиргичда қушларни кузатиш, уй ҳайвонларининг хатти-ҳаракатларини кузатиш ва ҳк.

2. Ўқув тажрибасини ўтказиш: бу лаборатория ва амалий машғулотларни ўз ичига олади. Ўқув тажрибаси бу энг самарали ўқитиш усулларидан биридир.

3. Тадқиқот - рақобат. Дарсларда ҳам самарали. Масалан, тестдаги хатоларни топиш.

4. Ижодий топшириқлар.

«Ўсимлик устида бир томчи сув билан саёҳат қилиш», «Ҳужайралар оламига саёҳат» композициялари, кроссвордлар, викториналар, тақдимотлар.

5. Ёзги топшириқлар: гербарийлар, тўплам (коллекция)лар тузиш

6. Аудиториядан ташқари тадқиқот фаолияти турлари: биология фанидан олимпиадаларга, мусобақаларга тайёргарлик кўриш ва қатнашиш, ўқув экспедицияларида қатнашиш, атроф-муҳитни тозалаш, ижодий ишлар, рефератлар ёзиш.

Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришда қуйидаги методлардан фойдаланилади; репродуктив, қисман-изланиш, тадқиқотчилик. Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолияти технологияси билан танишамиз. Биология таълими жараёнида ўқувчиларнинг тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришда лаборатория ва амалий машғулотлар алоҳида ўрин тутади.

Унда:

1) микроскоп остида биологик объектларни тадқиқ этиш;
2) тирик табиат жисмлари таркибини ўрганиш;
3) организмларнинг тузилишини ўрганиш;
4) тирик табиат объектларини кузатиш;
5) организмлар ҳаётий фаолияти жараёнларини кузатиш;
6) тирик материянинг (турлар ва экотизим) ташкилий тузилиш даражаларини ўрганиш.

Ўқув ишларини ташкиллаштиришда ўқувчилар тадқиқот жараёнини қийинчиликларсиз ўзлаштирадиган тарзда ташкил қилиш муҳимдир: сиз кутилган натижаларнинг аҳамиятига эътибор қаратишингиз, оригинал ёки кутилмаган тарзда тузилган ўқув вазифасини таклиф қилишингиз мумкин. Ўқувчиларга топшириқда акс эттирилганидан кўра кўпроқ умумий муаммо ҳақида «тасаввур» бериш лозим. Идеал ҳолда, муаммони ўқувчининг ўзи тузиши керак, аммо амалда бу ҳар доим ҳам самарали бўлавермайди.

Мен ўз амалиётимда ўқувчиларга аҳамиятли, муаммоли топшириқларни таклиф қилишга ҳаракат қиламан, бу эса кейинги ишларда қийинчилик туғдирмайди, балки қизиқарли бўлиб чиқади. Қуйида “Умуртқасизлар зоологияси” фанида интеллектуал хариталардан фойдаланиш орқали ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришга оид топшириқлар билан танишиб чиқамиз.

“Ҳайвонлар тўғрисидаги умумий тушунчалар. Ҳайвонлар систематикаси”нинг тузилиши ва тарқалиши мавзусидаги лаборатория машғулотини ўтказишни қуйидагича ташкиллаштириш мумкин:

Муаммоли изланишга доир топшириқлар

1-топшириқ. Саволларга жавоб беринг.

Биологик нуқтаи назаридан қуйидаги тасдиқларни тушунтиринг:

1. Зоология бошқа биология фанлари, яъни тиббиёт, ветеринария ва қишлоқ хўжалиги билан узвий боғлиқ.

2.Палеозоология қадимги геологик даврда яшаб, хозир қирилиб кетган ҳайвонларни

ўрганади.

3. Физиология фани эса ҳайвонлар организми функцияларини ўрганади.

4. Фаннинг обьектлари - ҳайвонлар, предмети - ҳайвонот оламининг хилма-хиллиги, ҳайвонларнинг тузилиши, ҳаёт кечириши, тарқалиши ва яшаш муҳити билан муносабатлари, ҳайвонларнинг хусусий хамда тарихий тараққиёти қонуниятлари.

5. аутапоморфий (ноёб ўзига хос белги) - аждодлардаги эволюцион янгилик

6. синапоморфи (умумий ирсий белгилар) - авлодлардаги эволюцион янгилик 3-топшириқ.

Аутапоморфий - аждодлардаги эволюцион янгилик, Синапоморфи - авлодлардаги эволюцион янгилик, Гелминтология – паразит чувалчангларни, Ентомология – ҳашаротларни,

Акарология – каналарни, Ихтиология балиқларни,Орнитология – кушларни, Териология – сут эмизувчиларни ўрганади.

топшириқ: Дарс маълумотларини "Ҳайвонлар тўғрисидаги умумий тушунчалар. Ҳайвонлар систематикаси" интеллект харитасида ифодаланг.

Қуйидаги атамалардан фойдаланинг:

- аутапоморфией – тур,
- синапоморфии - туркум,
- гелминтология – систематика,
- энтомология – бўлим,
- акарология – ҳужайра,
- ихтиология – организм,
- орнитология – қушлар,
- териология – сут эмизувчи,

2. "Ҳайвонлар тўғрисидаги умумий тушунчалар. Ҳайвонларсистематикаси" интеллект харитасини тузиш учун саволлар:

1. Зоология фани XIIX асрдан бошлаб фан сифатида шаклланди бунга сабабнима*?*

2. Зоология фанини бошқа фанлар билан боғлиқлиги нимада*?*

4. Зоология фани ва унинг вазифалари…. 5.Зоология фанлари системаси….. 6.Зоологиянинг тадқиқот методлари…. 7.Зоологиянинг назарий ва амалий аҳамияти…..

8. "Морфология" тушунчасига таъриф беринг?

9. "Анатомия" тушунчасига таъриф беринг?10.Этиология нимани ўрганади?

11. "Физиология" тушунчасига таъриф беринг?5-топшириқ.

1) "Ҳайвонлар систематикаси" схемасини тўлдиринг ва ўқинг.

УЙГА ВАЗИФА БЕРИШ. Қуйидаги саволларга жавоб ёзадилар.

1. Зоология фани ХИИХ асрдан бошлаб фан сифатида шаклланди бунга сабаб нима*?*

2. Зоология фанини бошқа фанлар билан боғлиқлиги нимада*?*

Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини интеллектуал хариталар ёрдамида ривожлантиришга доир ишланмалар 2-иловада келтирилган.

Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини ривожлантиришга оид бундайтопшириқлар илмий изланишга интеллектуал ривожланишига ижобий таъсиркўрсатади.

Бундай топшириқлар таълим олувчиларга қонуниятларнинг моҳиятини қидириш жараёнида рағбатлантириш, оддийгина асослаш тарзида тақдим этилади. Бундай топшириқлар ўқувчиларни оддий асослашларни олиб боришга, нақшларни излашга ундайди. Уларга тайёр гербарий намуналари, ўсимликлар, ҳайвонлар ва одамларнинг органлари коллекциялари ва моделлари билан ишлаш каби вазифалар киради.

Адабиётлар

1. Игнатьева Е.Ю. Педагогическое управление учебной деятельностью студентов в современном вузе : монография. – СПб.: Изд-во «ЛЕМА», 2012. –300 с.

. 2. Мавлонов О.М., О.Наджимова, М.Нишонбоева. Зоология ўқитиш методлари ва технологиялари. 7-синф. Ўқитувчилар учун қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2005. – 160 б

2. Нарзиева Н.Н. Умумтаълим мактаб ўқувчиларида таянч компетенциялар асосида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш. Дисс. автореф. П.ф.ф.д. (PhD). Самарқанд-2019 й. 51 б.

3. Назарова О.Л. Рефлексивное управление профессионально педагогическим образовательным учреждением: монография / О.Л. Назарова, А.Я. Найн, В.И. Кондрух. – Челябинск, 2006. – 368 с.

ҚОВУННИ ҚУРИТИШ ЖАРАЁНИГА МАТЕРИАЛНИНГ ЎЛЧАМИНИ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ

Ф.О.Рахматов
Гулистон давлат университети

Қуритиш жараёни узоқ давом этувчи ва кўп факторларга боғлиқ бўлган жараён. Қуритиш жараёнини олиб боришда ана шу омиллар эътиборга олинади.

БМТнинг Европа Иттифоқи бўйича Иқтисодий комиссияси Ўзбекистон томонидан тақдим этилган қуритилган қовун стандартини қабул қилиши орқали илк маротаба қуритилган қовуннинг халқаро бозор стандартини киритди ва бу стандарт расман комиссия томонидан қабул қилинди. Мазкур стандарт экспортчиларга қуритилган қовунни бутун дунёга экспорт қилишга имконят беради.

Экспорт қилинадиган қовун қоқи қуйидаги талабларга жавоб бериши керак:

- истеъмол қилишга тайёр бўлиши;
- тоза, ёт жисмлардан холи бўлиши;
- тирик зараркунанда ҳашоротлар ва уларнинг таъсиридан ҳоли бўлиши;
- таркибида ранги бошқа жойидан фарқ қилувчи доғлар бўлмаслиги;
- моғорлаш, чириш аломатлари бўлмаслиги;
- намлик даражаси белгиланган миқдор чегарасида бўлиши;
- маҳсулотга хос бўлмаган ҳид, таъм бўлмаслиги;
- бироз туз, лимон кислота ёки консервантлар бўлиши мумкин;
- транспортировка жараёнида ўз хусусиятларини йўқотмаслиги керак.

Ана шу талаблар ишлаб чиқарувчилар олдига қовунни қуритиш жараёнини тўғри ташкил қилиш, қуритишнинг янги техника ва технологиясини яратиш, мавжудларини такомиллаштириш вазифаларини қўяди.

Қуритиш учун “хоразм қирқма” навли қовун танлаб олинди ва лаборатория шароитида қовунни қуритиш жараёнига унинг ўлчамларини таъсири кўриб чиқилди ва қуйидагича натижалар олинди:

1-жадвал. 5 Х 5 см кубик шаклида бўлакларга бўлинган қовунни қуритиш

№	Қуритилаётган масса, г	Энергия бериш вақти, с $\tau_{киздс}$ (90^oC)	Масса, г	Совутиш вақти, с $\tau_{сов}$, (50^oC)	Умумий қуритиш вақти, с	Совутилган ковуннинг массаси
1.	200	50	184	1591	1641	174.5
2.	174.5	50	170.1	739	789	166.7
3.	166.7	50	163.6	526	576	161.1
4.	161.1	50	159.9	385.8	435.8	157.8
5.	157.8	50	145	375	425	140
6.	140	50	136.6	445.8	495.8	131.4
7.	131.4	50	125.7	849.6	899.6	115.0
8.	115.0	50	111	930.6	980.6	106.6

9.	106.6	50	100.4	682.8	732.8	96.56
10.	96.56	45	90.6	1090.8	1135.8	85.52
11.	85.52	45	77.01	1089	1134	73.51
12.	73.51	45	67.27	1082.4	1127.4	64.51
13.	64.51	45	57.61	863.4	908.4	54.94
14.	54.94	45	49.5	850.8	895.8	47.23
15.	47.23	45	38.58	747	792	36.83
∑		720		12412.6	13132.6	



1-расм. Маҳсулот массасини вақт бўйича ўзгариши.

2-жадвал. 5X5X20 ўлчамли бўлакларга бўлинган қовунни қуритиш

	Қуритилаётган масса, г	Энергия бериш вақти, $\tau_{кизд}$, с,(90^0C)	Масса, г	Совутиш вақти, $\tau_{сов}$, с (50^0C)	Умумий қуритиш вақти, с	Совуган ковуннинг массаси
	1400	50	1321.2	1303	1353	1295.23
	1295.23	50	1102.74	618.6	668.6	1054.02
	1054.02	45	942.15	454.8	499.8	921.4
	921.4	45	835.4	308.4	353.4	816.87
	816.87	50	752.19	453	503	734.45
	734.45	50	701.98	444.6	494.6	689.25
	689.25	45	597.20	852.6	897.6	574.09
	574.09	50	485.12	960.6	1010.6	458.41
	458.41	50	351.65	670.2	720.2	326.19
	326.19	45	229.24	1048.8	1093.8	215.74
	215.74	45	199.84	926.4	971.4	176.25
				8041	8566	

Жадвалдан кўринадики, микротўлқин узунлиги 122,5 бўлгани учун маҳсулотга бошланғич энергия тушишининг максимал даражалари шу тўлқин узунлиги билан белгиланади, ва кичик хажмли маҳсулотларнинг энергия ютишиши қийин бўлади, чунки таъсирлашиш юзаси ҳам кичик. Катта маҳсулотлар энергияни тўлик ютади, энергия ютиш юзаси қанча катта бўлса, маҳсулот шунча тез қизийди. Кичик ўлчамдаги намунанинг совитиш вақти эса, катта ўзчамдаги намунаники билан яқинлашиб боради. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, микротўлқинли қуритишда қуритиш тезлиги маълум ўлчамгача, маҳсулотнинг бўлаклари ўлчамига пропорционал тарзда ўзгарар экан.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.Артиков, З.А. Машарипова “Оптимальное программное управление процессом сушки при использовании микроволновой энергии” Хранение и переработка сельхоз сырья, Москва., №3/2016

2. 1.Красников В.В., Панин А.С., Скверчак В.Д. Метод комплексного определения теплофизических характеристик вязких, жидких патоко-образных и мелкодисперсных материалов. Известие ВУЗов. Пищевая технология, 1976. №2. – 135 с.

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА ЖЎХОРИНИНГ ҚОРАБОШ НАВИДА БАРГ ЮЗА САТҲИНИНГ БОШҚА БЕЛГИЛАР БИЛАН ЎЗАРО КОРРЕЛЯЦИОН БОҒЛАНИШЛАР ДАРАЖАСИ ВА ТУЗИЛИШИ

О.Х. Юнусов
Гулистон далат университети

Аннотация

Мазкур мақолада Сирдарё вилоятининг шўрланган тупроқ шаротида жўхори барг юзасининг ҳажми ва у билан боғлиқ бўлган белгиларнинг ўзаро корреляцион боғланишлар даражаси генотиплар кесимида таҳлил қилинди. Тадқиқот объекти сифатида Sorghum туркумига мансуб дон жўхорининг "Қорабош" нави олинди. Изланишлар Сирдарё вилояти Ховос тумани «Энерго насл» МЧЖ худудида, кучсиз шўрланган тупроқ шароитида олиб борилди. Тадқтқот натижалари шуни кўрсатдики, биттта ўсимликда барг ҳажми "Қорабош"навида барг юза сатҳи сатҳининг бошқа белгилари билан боғланганлик даражаси юқорилиги ва Дон таркиби 70,0 % крахмал, 12,0 % оқсил, 3,5 % ёғдан ташкил топган. Озуқа бирлиги 1,22 (дон учун) кўк массаси – 0,22 га тенг бўлиб ҳосилдорлиги 400-500 ц/га (яшил масса) ни ташкил этганлигини аниқланган. Барг юзасининг ҳажми кўпроқ унинг узунлиги ва энига боғлиқ эканлиги улар ўртасида кучли (r=>0.7) корреляцион боғланиш қайд этилди. Айнан шундай натижа барг юзасининг ҳажми ва қуруқ модда миқдори бўйича ҳам аниқланди.

Калит сўзлар: *корреляцион, озуқа бирлиги, Sorghum, барг узунлиги, барг эни, SPSS-14 дастури, рўвак оғирлиги, барг юза сатҳи.*

Ўсимликликларни танлашда ва таққослашда белгилар ва уларнинг миқдорий кўрсаткичлари муҳим аҳамият касб этади. Бунинг учун белгиларнинг миқдорий кўрсаткичларидан (ўсимлик бўйи, барг узунлиги, барг эни ва бошқ.) фойдаланилади. Ўз навбатида шуни қайд этиш керакки, белгининг миқдорий кўрсаткичлари кучли вариацияланиш хусусиятига эга. Шу сабабдан, кейинги йилларда биологик тадқиқотларда белгилар миқдорий кўрсаткичларни таҳлил қилишда тизимли ёндошиш кузатилмоқда. Замонавий ахборот технологияларидан фойдаланилган ҳолда, ўсимликларда кетадиган биологик, физиологик жараёнлар таҳлил қилинмоқда. Олинган натижалар, ноқулай ташқи муҳитда ўсимлик белгилари миқдорий кўрсаткичлари ўртасидаги корреляцион боғланишлар даражаси ортганлиги аниқланган. Бундай натижалар кўплаб қишлоқ хўжалик экинларида қайд этилган. Бунда ташқи муҳит таъсирида ўсимлик белгилари ўртасидаги ўзаро боғланишлар даражасида ўзгаришлар содир бўлиши аниқланган. Белгилар ўзаро тартибсиз эмас маълум бир тартиб асосида бирикиб корреляцион гуруҳни ҳосил қилиши қайд этилган[1. 2.].

Маълумки, жўхори қурғоқчилика ва шўрга чидамли ўсимликлардан бўлиб дони ва пояси чорва учун тўйимли ем-хашак ҳисобланади. Дон таркиби 70,0 % крахмал, 12,0 % оқсил, 3,5 % ёғдан ташкил топган. Озуқа бирлиги 1,22 (дон учун) кўк массаси – 0,22 га тенг бўлиб ҳосилдорлиги 400-500 ц/га(яшил масса) ни ташкил этганлигини аниқланган[3.]. Ўз навбатида шуни қайд этиш керакки жўхорининг фотосинтез маҳсулдорлигига боғлиқ бўлган белгиларнинг ўзаро корреляцион боғланишлар даражаси ва тузилиши бўйича тадқиқотлар шўрланган тупроқ шаротида кам ўтказилган. Мазкур ишда илк бор шўрланган тупроқ шаротида жўхори белгилари ва уларнинг миқдорий кўрсаткичлари ўртасидаги ўзаро корреляцион боғланишлар даражаси аниқланган.

Тадқиқот объекти сифатида қанд жўхорининг Қорабош нави тадқиқот объекти сифқатида олинди.Тадқиқотлар Сирдарё вилояти Ховос тумани "Энерго насл чорва" МЧЖ шўрланган дала майдонида олиб борилди. Жўхорининг ўрганилган белгилар миқдорий кўрсаткичлари ўртасидаги корреляцион боғланишлар даражаси махсус SPSS-14 дастури ёрдамида ҳисобланди. Корреляцион боғланиш даражаси бўйича гуруҳларга ажратиш учун белгилар 3 та гуруҳга ажратилди: кучсиз r=0,3-0,5; ўрта r=0,5-0,7 ва кучли корреляцион боғланиш r=>0,7 ларга ажратилди [1.].

Маълумки, организм белгилари ўзаро тартибсиз эмас маълум бир тартиб асосида бирикиб корреляцион гуруҳлар ҳосил қилиши аниқлани. Жўхорининг Қарбош нави барг юза сатҳининг бошқа белгилар билан ўзаро корреляцион боғланиш тузилиши иккита корреляцион боғланишлар гуруҳига ажратилди (расм). Биринчи гуруҳ «рўвак оғирлиги» деб аталди. Чунки ушбу гуруҳ таркиби рўвак оғирлиги (7) рўвакдаги дон оғирлиги (8) рўвак узунлиги (6), дон чиқиши (9) каби белгиларни бирлаштирди. Иккинчи - гуруҳ «барг юза сатҳи» деб номланди. Ушбу гуруҳ таркибига барг сони (2), барг узунлиги (3), барг эни (4) барг юза сатҳи (5) каби белгиларни умумлаштирди. Биринчи ва иккинчи гуруҳларни ўсимлик бўйи (1) ўзар боғлади. Демак, баргнинг юза сатҳи биринчи навбатдаги барг эни, сони ва узунлигиа боғлиқ экан. Ушбу белгиларни мужасамлаштирган баргнинг юза сатҳи маҳсулдорликка таъсир этди. Ўсимлик бўйининг баланд бўлиши баргнинг юза сатҳининг ортиши бу ўз навбатида маҳсулдорликнинг ортишига олиб келди.

Умуман олганда, жўхори барг юза сатҳи сатҳининг бошқа белгилари ўртасидаги ўзаро корреляцион боғланишлар тузлиши навларга боғлиқ бўлган ҳолда ўзгарди. Қорабош навида ушбу боғланишлар иккита гуруҳга ажратилди. Бунда барг юза сатҳи биринчи навбатда барг эни, узунлиги ва барг миқдорига ҳамда ўсимлик бўйига боғлиқ эканлиги аниқланди. Ушбу белгилар ўртасида ўрта кучли корреляцион боғланишлар қайд этилди. Барг юза сатҳи ва рўвакдаги дон оғирлиги ўртасида ҳам кучли корреляцион боғланиш аниқланди.

Олинган натижаларга асосланиб Қорабош навида баргнинг юза сатҳи биринчи навбатда баргнинг энига кўпроқ боғлиқ эканлиги антқланди. Шўрланган тупроқ шаротида сермаҳсул жўхори генотипларини танлашда баргнинг энига аҳамият бериш тавсия этилади.



Расм. Жўхорининг Қорабош навида барг юза сатҳининг бошқа белгилар билан корреляцион боғланиш тузилиши.

Изох: рақамлар белгиларни англатади; 1-ўсимлик бўйи, см; 2-ўсимликдаги барг сони, дона; 3-барг узунлиги, см; 4-барг эни, см; 5-битта ўсимликдаги барг сатҳи, см^2; 6-рўвак узунлиги, см, 7-рўвак оғирлиги, г; 8-рўвакдаги дон оғирлиги, г; 9- рўвакдаги доннинг улуши,%; 10-1000 та дон оғирлиги, г; 11-ҳосил индекси.

Адабиётлар:

1. Ростова Н.С. Корреляции: структура и изменчивость . СПб.: Изд-во С.Петерб.ун-та, 2002.

2. Брач Н.Б. Корреляционный анализ признаков, характеризующих длину вегетационного периода ульна-долгунца// Прикл. ботаника, генетика и селекция. 1987.

3. И.В.Массино. Ресурсы фотосинтетические активной радиации и резервы производства кормов на орошаемых землях Узбекистана. Ташкент 2006.

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА ЖЎХОРИ ВА АФРИКА ҚЎНОҒИ НАВЛАРИДА ФОТОСИНТЕЗ ПИГМЕНТЛАРИ МИҚДОРИ

О.Х.Юнусов, А.Халдаров, Л.Савронов
Гулистон давлат университети

Аннотация

Мазкур мақолада Сирдарё вилоятининг шўрланган тупроқ шаротида жўхори Хлорофилл «а» миқдори Қорабошда 3,73 мг/га тенг бўлган бўлса, Даулетда-3,07, Л-1 да 2,14 ва Л-2 да 2,63 мг/га ташкил этди. Генотиплар ўртасида Қорабош нави бошқаларга нисбатан юқори кўрсаткични қайд этди. Айнан шундай натижа хлорофилл «б» бўйича ҳам қайт этилиб генотиплар кесимида 1,82-1,21 мг/г тенг бўлди. Каротиноидлар миқдори Қорабошда 1,23 мг/г тенг бўлган бўлса, Даулетда 1,09 Л-1 да -0,89, Л-2 да 0,97 мг/га ни ташкил этди. Африка қўноғи нав ва линияларида пигментлар миқдори жўхори навларига деярли тенг бўлди. Хашаки-1 навида хлорофилл «а» 3,11 мг/г ни ташкил этган бўлса, Л-3 да -2,68 мг/га тенг эканлиги таҳлил қилинди.. Тадқиқот объекти сифатида жўхорининг (Sorghum vulgare) туркумига мансуб Қорабош, Даулет навлари ва Л-1, Л-2 линиялари Африка қўноғининг (Pennisetum glaukum) Хашаки-1 нави, Л-3 линияси олинди Каротиноидлар миқдори Хашаки-1 навида 0,81 мг/г тенг бўлиб жўхорининг Қорабош ва Дуалет навларига нисбатан паст кўрсаткични қайд этди. Айнан шундай натижалар илмий манбаларда ҳам қайд этилиб, дон жўжорининг тупланиш фазасида 3,67 мг/га тенг бўлган бўлса, найчалашда - 4,67 ва гуллашда–5,51 мг/г тенг эканлиги таҳлил этилган.

Калит сўзлар: *Sorghum vulgare, Pennisetum glaukum, линия, каротиноид, хлорофилл, Генотип.*

Аҳолининг озиқ-овқатга бўлган талабини, жумладан, гўшт ва сут маҳсулотларига бўлган талабини қондириш ҳозирги кунда чорвачиликнинг долзарб масалаларидан ҳисобланади. Ушбу масаланинг ижобий ечимларидан бири чорвачиликни янада ривожлантириш ва унинг озиқа базасини мустаҳкамлаш билан боғлиқ.

Маълумки, фотосинтез ҳосилдорликка кучли таъсир этувчи муҳим физиологик жараёнлардан бўлиб, генотипнинг биологик хусусиятларига боғлиқ эканлиги илмий манбаларда қайд этилган. Ўз навбатида пигметлар миқдори фотосинтез маҳсулдорлигига таъсир этади. Аниқланишича дон жўхорининг тупланиш фазасида “а” хлорофилл 3,67 мг/га тенг бўлган бўлса, гектарига 60 кг азот ўғит берилганида унинг миқдори 4,08 мг/га тенг бўлганлиги аниқланган. Ушбу маълумотдан, азотли ўғит берилганида пигментлар миқдори ошганлигини кўриш мумкин. Шу билан бирга ноқулай иқлим шароитида фотосинтез интенсивлигининг пасайганлиги қайд этилган. Стресс шароитида каротиноидлар миқдорининг ортиши бу биринчи навбатда “а” ва “б” хлорофиллар миқдори камайиши билан боғлиқ экан. Демак, каротиноидлар ўсимликларнинг стресс шароитига мосланувчанлигини аниқлашда муҳим аҳамиятга эга эканлиги қайд этилган[1]. Шундан қилиб чиқиб, шўрланган тупроқ шароитига чидамли генотпларни танлашда пигментлар, айниқса каротиноидлар миқдори аниқлаш муҳим илмий ва амалий аҳамият касб этади. Мазкур ишда жўхори ва Африка қўноғининг ўрганилган навларида пигментлар миқдори Сирдарё шароитида илк бор ўрганилди. Мазкур илмий ишда жўхори ва Африка қўноғи нав ва линияларида пигментлар миқдорини аниқлаш асосий мақсад қилиб олинди.

Тадқиқотнинг объекти сифатида (*Sorghum vulgare*) туркумига мансуб қанд жўхорининг Қорабош нави, дон жўхорининг Даулет нави, Л-1, Л-2 ва Африка қўноғи (*Pennisetum glaukum*)нинг Хашаки-1 нави ҳамда Л-3 линияларидан фойдаланилди. Тадқиқотлар Сирдарё вилояти Ховос тумани “Энерго насл чорва” МЧЖ шўрланган дала майдонида олиб борилди. Барг таркибидаги хлорофиллалар миқдори SMART Fertility дастури асосида спектрофотометрда LCK 339 (LASA, AGRO) тест кюветалар ёрдамида аниқланди.

Олинган натижалар шуни кўрсатдики, навлар кесимида ушбу кўрсаткич фарқ қилди. Хлорофилл «а» миқдори Қорабошда 3,73 мг/га тенг бўлган бўлса, Даулетда-3,07, Л-1 да 2,14 ва

Л-2 да 2,63 мг/га ташкил этди. Генотиплар ўртасида Қорабош нави бошқаларга нисбатан юқори кўрсаткични қайд этди. Айнан шундай натижа хлорофилл «б» бўйича ҳам қайт этилиб генотиплар кесимида 1,82-1,21 мг/г тенг бўлди. Каротиноидлар миқдори Қорабошда 1,23 мг/г тенг бўлган бўлса, Даулетда 1,09 Л-1 да -0,89, Л-2 да 0,97 мг/га ни ташкил этди. Африка қўноғи нав ва линияларида пигментлар миқдори жўхори навларига деярли тенг бўлди. Хашаки-1 навида хлорофилл «а» 3,11 мг/г ни ташкил этган бўлса, Л-3 да -2,68 мг/га тенг бўлди. Каротиноидлар миқдори Хашаки-1 навида 0,81 мг/г тенг бўлиб жўхорининг Қорабош ва Дуалет навларига нисбатан паст кўрсаткични қайд этди. Айнан шундай натижалар илмий манбаларда ҳам қайд этилиб, дон жўжорининг тупланиш фазасида 3,67 мг/га тенг бўлган бўлса, найчалашда - 4,67 ва гуллашда–5,51 мг/г тенг эканлиги қайд этилган [2].

Олинган натижалар асосланиб жўхори генотипларида хлорофилл “а” – 1,2-3,73; “б”- 1,21 – 1,82, каротиноидлар – 0,89 – 1,23 ва Африка қўноғида тегишли равишда 2,68 – 3,11; 1,12 – 1,39; 0,74 – 1,09 мг/г ни ташкил этди. Пигментлар миқдори, фотосинтез жадаллиги жўхорида Афрка қўноғига нисбатан юқори бўлди бу ўз навбатида жўхоридан юқори ҳосил олишга имконият берди.

Жадвал

Жўхори ва Африка қуноғи генотипларининг фотосинтетик пигментлар миқдори, мг/г ҳўл оғирликка нисбатан

/р	Навлар ва линиялар	Хлорофилл «а», мг/г	Хлорофилл «б», мг/г	Каротиноидлар, мг/г
		Жўхори		
	Қорабош	3,73±0,05	1,82±0,04	1,23±0,04
	Дуалет	3,07±0,04	1,67±0,03	1,09±0,03
	Л-1	2,14±0,03	1,21±0,02	0,89±0,03
	Л-2	2,63±0,04	1,51±0,03	0, 97±0,02
Африка қўноғи				
	Хашаки-1	3,11±0,05	1,39±0,04	0,81±0,01
	Л-3	2,68±0,04	1,12±0,03	0,74±0,02

4.

Адабиётлар

1. В.Беляев, В.В.Пронько, К.В.Корсаков. Влияние регуляторов роста на содержание пигментов в листьях кормовых культур / Проблемы и перспективы инновационного развития мирового сельского хозяйство// Материалы международной научно - практической конференции, Саратов: ФГБОУВПО «Саратовский ГАУ, 2011. - С.192-196.

2. В.В. Пронько., А.В. Беляев. Диномика содержания зеленных пигментов листьях зерного сорго Проблемы и перспективы инновационного развития мирового сельского хозяйство// Материалы международной научно- практической конференции, Саратов: ФГБОУВПО «Саратовский ГАУ, 2011.-С. 192-196

ХОЛЕСТРИННИ КАМАЙТИРИШДА АНАНАС ЎСИМЛИГИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Р.Базарова

Гулистон Давлатуниверситети,

Аннотация.Ушбу мақолада ананас мевасини озиқ рационга қўшиш натижасида ортиқча вазнни камайтириш ва семиришни олдини олиш мумкинлиги келтирилган.

Калит сўзлар:бромелайнмодда , бромелин ферменти , тартрон кислота.

Мустақиллик йилларида Республикамизда илм-фан ҳамда техниканинг мисли кўрилмаган даражада ривожланиши, турмуш фаровонлигини ошиб бориши, асосий хизматларни техника зиммасига юклатилиши натижасида аҳоли орасида камҳаракат инсонлар сони ҳам тобора кўпайиб боришига олиб келмоқда. Бундан ташқари дунёдаги етакчи илмий марказларда олиб борилган кузатувларда ҳайвон ёғидан ва юқори сифатли ун маҳсулотларидан тайёрланган таомлар ҳамда ширинликларни меъёридан ортиқ тановвул қилиш, овқатланиш тартиби ва ритмига амал қилмаслик озиқ-овқатларнинг асосий таркибий қисмлари ўртасидаги мувозанатни бузилишига ва оқибатда семизликнинг юзага келишига сабаб бўлмоқда. Бу ҳолат эса аҳоли ўртасида юрак қон-томир ҳамда бошқа қатор аъзолар касалликларини келиб чиқишигаолиб келмоқда. Касалликнинг юзага келишига асосий сабаблардан бири уларқонда холестерин(ёғсимонзаррачалар) миқдорини ошиши, қон босимини кўтарилиши, миокард инфаркти, бош мияга қон қуйилиши ёки ишемик инсульт (бошмия ва бўйин томирларида ёғлар ўтириб қолиши оқибатида унда қон айланишининг ўткир бузилиши), қандли диабетнинг юзага келтирмоқда. Бундай касалликларни бартараф этишда дори воситалари билан эмас, балки ўсимликлардан фойдаланишва улардан даво топиш бугунги куннинг энг долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.Ушбу муаммоларни хал этиш мақсадида семизликка мойил бўлган, ҳамда семиз одамлар озиқ рационига ананас меваси тавсия этилди.

Қон таркибидаги холестерин миқдори меъёридан ошиб кетса, турли хилдаги касалликлар, шу жумладан, юрак-қон томир тизими фаолияти билан боғлиқ оғир хасталикларнинг ривожланиши учун қулай шароит пайдо бўлади. Шуни қайд этиш керакки холестерин меёридан ортиқ ва аксинча, паст даражада бўлиши мумкин. Айрим тоифадаги одамлар учун организмдаги холестерин моддасининг миқдори юқори даражада бўлиши табиий ҳолдир. Баъзи ҳолатларда бу инсонларнинг генетик хусусиятлари билан боғлиқ бўлади. Шифокорлар бундай ҳолатларда оилавий гиперхолестеринемия деган тушунчадан фойдаланишади. Бундай хасталик беш юзта одамдан бирида кузатилар экан. Юқоридаги маълумотлардан ананас доривор ўсимлик сифатида муҳим аҳамият эга эканлигини кўриш мумкин. Унинг бундай хусусиятларидан фойдаланиш мақсадида биз 30-65 ёшли аҳоли ўртасида тадқиқотлар ортиқча вазнга эга, гипертония касаллиги АГ2Х3, АГ3 Х4 ЮИК, зўриқиш стенакардияси ФС 2, НЦД гипертония тури, 2-тип бронхиал астма, бел умуртқалари остеохондрози каби касалликлар билан касалланган 10 нафар аёлларда олиб борилди. Тадқиқот давомида дастлабки тана вазни, қон босими ва ундаги холестрин миқдори аниқланди. Бунда беморлар исталган озиқ-озиқ маҳсулотлари билан бирга ананас мевасини ҳам истеъмол қилишди. Икки ой довамида ҳар 10 кунда кондаги холестрин миқдори ва тана вазнини ҳисоблаб бориш натижалари шуни кўрсатдики, ананас меваси тушлик ва кечки овқатдан сўнг тана вазнига қараб 25-50 гр истеъмол қилинганда танада вазн ортмаганлиги, қон босими меъёрга тушиб ҳеч қандай дорига талаб бўлмаганлиги, қондаги холестирин миқдори 0,1ммол/л пасайганлиги маълум бўлди.

Шу билан бирга тадқиқотлар давомида организмдаги ортиқча углеводларни ёғларга айлантирувчи махсус специфик фермент борлиги тасдиқланди. Мазкур мева таркибида ўсимлик толаларидан иборат бўлган органик татрон кислотасининг мавжудлиги семизликни олдини олишда муҳим аҳамияга эга бўлди. Ананас таркибидаги марганец микроэлементи оқсиллар, углеводлар ва ёғлар алмашинувига фаол таъсир этди. Шунингдек, унинг инсулин таъсирини кучайтирувчи ва қонда холестерин кўрсаткичларини бир меъёрда сақлаб турувчи таъсири ҳам аниқланди. Марганец иштирокида организмда ортиқча ёғлар чиқиндига чиқарилиб тана вазннинг озиши кузатилди. Ананас меваси таркибида фойдали озиқа, клетчатка миқдори кўп бўлсада, унинг энергетик қиймати паст эканлиги қайд этилди. Шу сабабдан ананас мевасини кўп миқдорда истъемол қилиш мумкин, бу ўз навбатида организмни тозалайди. Юқорида маълумотларга асосланиб ананас мевасидан инсонлар соғлиғини тиклашда фойдаланиш мақсадида Гулистон шаҳар кўп тармоқли поликлиникадан 10 нафар беморлар билан олиб борилган тадқиқотда беморларда тана вазни, қон босими қон таркибидаги холестерин миқдори аниқланилди. Тана вазнига қараб озиқ рационга 35, 50, 75,100 гр.дан истеъмол қилиш тавсия этилди (1-жадвал).

Танланган беморлар ичида қон таркибида қанд миқдори баланд бўлганлариига ҳар ҳафта янги мева, қолган беморларга эса бир ҳафта ананас меваси, бир ҳафта ананас консерваси(Oasis-100 грамм маҳсулот таркибида оқсил-0,3 гр, углевод-15,4 гр, ёғ-0,1 гр ва озуқавий қиймати 64 ккал (271 кЖ/100 гр) берилди ва қондаги холестерин миқдори ҳар 10 кун давомида текширилиб турилди(31-расм). Олиб борилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики(-жадвал) ЮИК зўриқиш стенокордияси ФС2 билан касалланган беморда холестирин миқдори дастлабки ҳолатда 5.9 мг ни ташкил этган бўлса тадқиқотнинг ўничи кунида халестрин миқдорри 3.1 мг ни ташкил этди. Ушбу маълумотлардан тадқиқот давомида холестрин миқдори 2.8 мг камайганлигини ёки 47,4 % кам бўлганлигини кўриш мумкин (1-2 расмлар). Айнан шундай натижа ушбу касаллик билан касалланган (Гипертания АГЗ Х4 ЮИК зўриқиш стенокардияси ФС2) иккинчи бемарда ҳам қайд этилди. Ушбу беморда холестрин миқдори даволанишдан олдин 6.5 мг.ни ташкил этган бўлса даволанишдан кейин 4.2 мг ни ташкил этди. Бунда холестрин миқдори 2.3 мг га(35.8% га) камайганлиги қайд этилди. Сурункали калькулезли халецистит билан беморда холестрин миқдори 5.8 мг дан 3.7 мг гача камайди. Наттижада ушбу беморда холестрин миқдори 2.1 мг ёки 36.2 % га камайганлиги аниқланди (1-жадвал, 1-расмлар).

Беморларнинг тана вазнига ананас мевасининг таъсири бўйича олинган тадқиқот натижалари қуйидаги (8.17-жадвал) келтирилган. Жадвалдаги маълумотлардан ЮИК зўриқиш стенокордияси ФС2 билан касалланган беморда тана вазни 99 кг ни ташкил этган бўлса тадқиқот якунида 98.3 кг ни ташкил этди. Натижада беморнинг тана вазни 30 кун давомида 0.7 кг (0.70%) камайганлиги аниқланди. Гипертания АГЗ Х4 зўриқиш стенокардияси ФС2 билан касалланган беморда тана вазни тадқиқотдан олдин 107кгни ташкил этган бўлса тадқиқот якунида 106.3 кг ни ташкил этди. Бу бемор танасининг 0.7 кг(0.6%) камайганлигини англатади.

1-жадвал

Холестрин миқдорига ананаснинг таъсири

№	**Касаллик турлари**	Дастлабки қон қон таҳлили	Ўн кундан кейин қондаги холестрин миқдори, мг		
			1	2	3
1	ЮИК зўриқиш стенокордияси ФС2	5,9	5,8	4,7	3,1
2	Сурункали калькулез халецистит	5,8	5,7	5,0	3,7
3	Бранхиал астма 2-тип	5,9	5,6	4,5	3,7
4	Бел умрткалари остехондрози	5,7	5,5	4,4	3,5
5	Гипертания АГЗ Х4 зўриқиш стенокардияси ФС2	6,2	5,9	4,3	2,8
6	НИД гипертония тури	5,6	5,2	4,0	3,2
7	Гипертония АГ2Х3	5,9	5,6	4,6	3,7
8	Гипертания АГЗ Х4 ЮИК зўриқиш стенокардияси ФС2	6,5	6,2	5,5	4,2
9	ЮИК зўриқиш стенокордияси ФС2	6,2	5,9	4,6	3,9
10	Гипертония АГ2Х3	6,4	6,1	5,5	4,1

Олиб борилган тадқиқот натижалари асосланиб шуни қайд этиш керакки ананас меваси истеъмол қилинганида 10 кун давомида халестрин миқдори 2.1-3.4 мг ёки 36-54 % га камайганлиги аниқланди. Халестрин миқдори Гипертония АГЗ Х4 зўриқиш стенокардияси ФС2 билан касалланган беморда энг кўп миқдорда камайди (3.4 мг, 54% га). Сурункали калькулез халецистит билан касалланган беморда холестрин миқдори 2.1 мг ёки 36 % га камайиб энг паст кўрсаткични қайд этди. Беморларнинг тана вазнига ананас мевасининг таъсири ўрта ҳисобда 0.6-0.7 га камайганлиги қайд этилди(2-жадвал).

2-жадвал

Тана вазнига ананаснинг таъсири

№	Касаллик турлари	Дастлабки тана	Ўн кундан кейин тана вазни,кг		
			1	2	3

		вазни, кг			
1	ЮИК зўриқиш стенокордияси ФС2	99	99	99	98.3
2	Сурункали калькулез халецистит	85	85	85	83.5
3	Бранхиал астма 2-тип	86	85	85	83.5
4	Бел умртқалари остехондрози	88	87	87	85.9
5	ГипертанияАГ3 Х4 зўриқиш тенокардияси ФС2	107	107	107	106.3
6	НИД гипертония тури	82	82	82	81.1
7	Гипертония АГ2Х3	112	112	112	110.3
8	Гипертания АГ3 Х4 ЮИК зўриқиш стенокардияси ФС2	78	78	78	77.3
9	ЮИК зўриқиш стенокордияси ФС2	91	91	91	90.4
10	Гипертония АГ2Х3	98	98	98	97.3

Олиб борилган тадқиқот натижалари асосланиб шуни қайд этиш керакки ананас меваси истеъмол қилинганида халестрин миқдори 2.1-3.4 мг ёки 36-54 % га ва тана вазни камайганлиги аниқланди. Шу билан бирга тана вазни 10 кун давомида ЮИК зўриқиш стенокордияси ФС2 билан касалланган беморларда(99-98.3 г) 0.7кг, Сурункали калькулез халецистит- 1.5кг (85-83.5), Гипертония АГ2Х3- 0.7 кг (112-110.3) камайганлиги қайд этилди.

1. Абдурасулов А.Ш. Ананас ўсимлиги ва уни ўстириш йўллариЁш олимлар ва талабаларнинг XXI аср-интеллектуал авлод асри шиори остидаги худудий илмий-амалий анжумани материаллари 192-195 б. Жиззах-2016

2. Абдурасулов А.Ш.Бизда ананасни кўпайтириш мумкинми? Фермер ижтимоий-иқтисодий журналИюль /7-сон/ Тошкент 2016. 42-43 б

3. Sanewski, G.M. and Giles, J. (1997). Blackheart resistance in three clones of pineapple [Ananas comosus (L.) Merr.] in subtropical Queensland. Australian Journal of Experimental Agriculture, 37, 459-461.

4. 12. Malezieux, E., Cote, F. and Bartholomew, D.P. (2003). Crop environment, plant growth and physiology. In The Pineapple: Botany, production and Uses D.P. Bartholomew, R.E. Paull and K.G. Rohrbach), CAB International, pp. 69-107.

MOMORDIKA CHARANTIA L ЎСИМЛИГИНИ ЎСТИРИШНИНГ ТЕХНОЛОГИК АСОСЛАРИ

Тошбекопва Мунира Хасановна
Гулистон давлат университети

Ўзбекистон Республикаси халқ ҳўжалигини ривожланитириш қарорларида кўрсатиб ўтилганидек, мева-сабзавот ўсимликларининг янги навларини ўстириш ва тайёрлаб бериш ҳозиргача ишлаб чиқариш талаби даражасидан паст, яъни уни эҳтиёжини тўла қондира олмаётир. Ана шу жиҳатдан жаҳон генофондидан фойдаланиб, интродукция қилинган ўсимликлар сирасини боитиш, ўсимликларнинг ҳосилдорли гини ошириш, янги навларни яратиш ва уларни маданийлаштириш вазифаси шу куннинг муаммоларидан бири ҳисобланади.

Республика халқларининг ижтимоий-сиёсий маданий ҳамда моддий фаровонлигининг кун сайин ошиши, турмуш шароитининг тобора яхшиланиб бориши ишлаб чиқарилаётган барча саноат маҳсулотларининг янада сифатли бўлишини тақоза этади.

Ана шундан саноат маҳсулотларидан бири, ишлаб чиқаришдаги зарурий ўсимликлар маҳсули таркибида дориворлик хусусияти бўлган ўсимликлардир.

Ҳозирги кунда республикамизнинг суғориладиган экин майдонларининг кўпгина қисми турли даражада шўрланган. Бу ўз-ўзидан тупроқнинг чўлланишига ва шўрланишига олиб келади, бу эса кўпгина изланишларга олиб келади. Аҳолининг турли озиқ-овқат маҳсулотларга бўлган талабларини қондириш учун, мамлакатимизда янги-янги ўсимликлар экиб ҳосил олмоқда.

Кейинги пайитларда Ўзбекистон Республикамизда бошқа экинлари билан бир қаторда мева-сабзавот экинларининг халқ хужалигида аҳамияти катта. Сув танқислигининг олдини олиш мақсадида ҳозирги кунда ғўза, ғалла, экинлари қаторида аҳолини мева сабзавотлар билан таъминлашда бир қатор ўсимликлар четдан келтирилаяпти, ҳамда фойдали мақсадлари ўрганилмоқда. Агроценозга ўзининг маҳсулдорлиги ва чидамлилиги билан фарқланувчи кўпгина турлар кириб келди. Осиёдан келтирилган Momordika charantia L. ўзининг дориворлик, ем-ҳашаклик, озиқ-овқатлиги билан ажралиб туради. Бу ўсимлик яқин кунлар ичида, аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари ўрнини эгаллаб, ишлаб чиқаришда-ҳомашё , чорвачиликда ем –ҳашак ўрнини олади.

Момордика (Momordica L.) қовоқдошлар оиласига мансуб бир йиллик , кучли шоҳланган ўтсимон шаклида ўсувчи ўсимлик Осиёнинг жанубий шарқида кенг тарқалган. Хитойда, Гонкон, Тайван, Шарқий Хиндистон ва Филлипинда қояларда 1300 м баландликда ва тоғ олди ўрмонларда ўсади.

Номи лотинча Momordicus- сўзидан олинган бўлиб, қопоғон деган маънони беради. Бундай номланишга сабаб, ўсимлик вегетация давомида мева ҳосил қилгунга қадар бутун танасида туклар қапланган бўлади. Мева ҳосил бўлгандан кейин ўсимлик қичитишни тўхтатайди.

Меваси озиқ-овқатда фойдаланилади: тўлиқ пишиб етилмаганларини тузлаб, етилганлари эса мева ўрнида истеъмол қилинади. Осиё давлатларида бу ўсимликнинг илдизи, уруғи, баргларидан медицинада фойдаланилади.

Момордика сер баргли ва сариқ ғадир-будир «бодринги» билан манзарали ўсимлик сифатида эътиборни тортади. Мевалари пишгач ёрилади ва унинг ичида қизил уруғлари кўриниб туради. Ўсимлик бир неча номлар билан номланади : қутирган бодринг, қутирган қовун, аччиқ қовоқ, бальзам ноки, хинд бодринги. Барглари кўпгина турларида оч-яшил, ката бўлмаган панжасимон. Ён шоҳлари ўса бошлагандан сўнг, июнь ойида гуллай бошлайди. Гуллари тўғри, беш гултожли, бир уйли, сариқ ва оч қизил изли бўлиб, сезилар сезилмас хушбўй хидли. Ўсимликда олдин бепушт гуллар ҳосил бўлади, кейинчалик Урғочилари пайдо бўлади. Чанглангандан сўнг кучли ривожланиш бошланади. Ўсимликка манзаралиликни 10-15 см ли ғадир- будир ва ўсиқли бўлган мевалари бериб туради.

Экиш учун уруғларнинг тўғри танланиши ва тайёрланиши муҳим аҳамиятга эга. Кўпчилик ҳўжаликларда уруғлар экишдан олдин , қорамтир рангга кирган уруғлар танлаб олинади ва оч пушти маргонсовка эритмасига 24 соат давомида ботириб қўйилади. Ботириб қўйилган уруғлар 3см чуқурликка экилганда энг яхши натижа беради. Касалликларга қарши курашиш мақсадида уруғларга экишдан олдин махсус ишловлар ўтказилади.

Мамордика харантия ўсимлигидан озиқ-овқат маҳсулотлари тайёрлаш мақсадида етиштирилади, шунинг учун пестицидларни(фунгидицидларни) ишлатмасдан уруғларга экишдан олдин микроэлементлар эритмаси билан ишлов беришни таклиф этилади.

Уруғларни экиш муддати ҳосилдорлик учун катта аҳамиятга эга. Уруғлар жуда эрта экилса, ёш майсалар совуқдан, кеч экилса иссиқдан ва нам етишмаслигидан зарарланади. Кўпгина мамлакатларда асосан март ойининг охири апрель ойининг боши ва ўрталарида экилади. Шунинг учун экиш муддатини тўғри танлашга алоҳида эътибор берилди.

Ўсимликининг экиш муддатларини тўғри аниқлаш ва уни ишлаб чиқаришга тавсия этиш энг муҳим технологик жараёнлардан бири бўлиб ҳисобланади. Чунки бу муаммо ўсимликнинг биоэкологик хусусиятлари ва тупроқ иқлим шариотларига тўғриданғтўғри боғлиқ бўлади.

Момордика харантия азалдан етиштирилаётган кўпчилик мамлакатларда (Жанубийғшарқий Осиё, Хиндистон, Хиндихитой, Индонезия, Жанубий Хитой, Тайванда, ,) унинг экиш муддати баҳорнинг март ойининг охири, апрель оининг боши ва ўртасига тўғри келади (А.И.Шербакович) [1,2] маълумотига кўра ,бу регионларда Момордика харантияни экиш муддатлари асосан об-ҳаво шароитларини эътиборга олган ҳолда танланган. Момордика харантия бошқа қишлоқ ҳўжалиги экинларига нисбатан кўпроқ ҳарорат ва намликка таъсирчан ўсимликдир. Уруғларнинг униб чиқиши ва ўсимликларнинг ўсиши, ривожланиши учун нисбатан юқори ҳароратни ва сув билан мўътадил таъминланишини талаб этади. И. Шевченко [3] ва бошқаларнинг кўрсатишича Момордика харантия ўсимлигининг гуллаш ва дон тугиш даврларида ҳаво ҳарорати 25-30 ^{0}дан ошмаслиги керак. Шунинг учун ҳам экиш муддатларини

белгилашда, гуллаш қайси даврга тўғри келишини ҳам аниқлаш муҳим аҳамиятга эга. Бу муаммолар Ўзбекистон шароитида умуман ўрганилмаган.

Биз дасаввал ҳар хил муддатларда экиш учун тайёрланган Момордика харантия навлари уруғлари унувчанлигига ҳароратнинг таъсирини аниқлаш мақсадида лаборатория тажрибасини ўтказдик. Уруғлар маҳсус термостатда 12, 15, 20, 25 ва 30^0С бўлган ҳароратда ўстирилиб, униб чиқиш суръати аниқланди. Тажриба натижалари шуни кўрсатдики, Момордика харантия уруғлари 10 ^{0}С ва 15^0С ҳароратда кеч униб чиқади ва униш жараёни бироз узоқроқ муддатга чўзилади. Ўрганилган ўсимлик уруғларининг униши учун энг муътадил ҳарорат даражаси 25-26 ^{0}С бўлиб, жами унган уруғлар 98,7%га тенг бўлди. Ҳароратнинг 30^0С даражада сақланиши уруғларнинг унувчанлигига салбий таъсир этади.

Экинлардан, экиндан юқори ҳосил етиштиришда мўътадил қалинликдаги майсаларни ўстириб олиш жуда муҳим тадбирдир. Уруғларнинг дала унувчанлиги кўпгина ҳолларда лаборатория унувчанлигидан паст бўлади. Уруғларнинг дала унувчанлиги уруғларнинг сифатига, тупроқ ва иқлим шароитига, нав хусусиятларига ва бошқа омилларга боғлиқ бўлади. Айниқса муаъян табиий шароитда экиш муддатларини тўғри танлаш катта аҳамиятга эга. Экиш муддатларининг Момордика харантия уруғилари унувчанлигига таъсири илмий манбаларда ҳам кўрсатилган [1,2]

Момордика харантия ўсимлиги уруғлари 1-10 апрелда экиш яхши
натижа беради.

Уруғ ерга қадалгандан кейин, 12-16 кунлари униб чиқа бошлайди. Униб чиқа бошлагандан кейин 4-5 кун, тўлиқ униб чиқиш юзага келади. Гипокотел узунлигиғ2-3 см.ни ташкил қилди. Ҳаво ҳарорати 22-25^0С. Момордика харантия ўсимлиги ўсимталари иссиқ ва ёруғсевар ҳисобланади. Май оининг ўрталарида ўсимликнинг бўйи 25-45 см, 2та баргли бўлиб, барг узунлиги 1,8-2,0 см, эни 1,0-1,5 см га етди. Илдиз 7-8 см чуқурликка кириб борди. 22-24 май кунлари биринчи чин барглар кўринди. Ўсимликнинг бўйи 12-14см га етди. Ердан 7-8 см баландликда чин барглар 2,0-2,5х2,5-3 смга ўсди. Ҳақиқий ва биринчи барглар ораси 3,5-4,0 см, асосий илдизнинг узунлиги 10-12 смни ташкил этди. Бу давр ўсимликда 35-40 кунни ташкил этди. Ғунчанинг ҳосил бўлиш босқичи июнь оининг боши ва ўрталарида кузатилди. Ўсимликнинг гуллаши август оининг бошида –октябрь ойининг ўрталаригача давом этади.

Ўсимликлар онтогенизини тавсифловчи энг муҳим жараёнлар ўсиш ва ривожланишдир. Улар ўсимлик танасидаги барча ҳаётий реакцияларнинг натижаси ҳисобланади. Бу жараёнлар бир-бирига узвий боғлиқ бўлиб, фақат ўсиш асосида ривожланиш ва ривожланиш асосида ўсиш тавсифланади. Натижада иккаласи ўсимликнинг ҳаётий циклини белгилайди. Бироқ айни вақтда ўсиш ва ривожланиш бир-биридан фарқ ҳам қилади.

Ўсиш буғўсимликлар бўйи ва эни тобора ортиб, умумий массасининг ортишидир. Бундай ўсиш орқасига қайтмайди. Чунки янгиданғянги ҳужайралар, тўқималар ва органлар вужудга келиб, протоплазма ва ундаги органоидлар (хлоропластлар, митохондриялар ва бошқалар) тўхтовсиз шаклланиб туради.

Ривожланишғ ўсимликнинг ҳаётий циклини (онтогенизини) тавсифловчи ёшлик, вояга етиш, кўпайиш, қариш ва ўлиш арафаларидаги сифатий морфологик ва физиологик ўзгаришларни ўз ичига олади.

Ўсиш ва ривожланиш умумий бир яхлитликни ташкил этиб, ўсимлик танасида кечадиган биокимёвий жараёнларга ўсимликнинг илдиз орқали ва ҳаводан озиқланишига, энергия билан таъминланишига, умуман ассимляция ва диссимиляцияда иштирок этувчи барча жараёнлар йиғиндисига боғлиқ бўлади. Ўсимликларнинг ўсиш жадаллиги ўсимлик туплари ва навларига боғлиқ бўлиб, уларнинг ўсишига ташқи шароитнинг омиллари таъсир кўрсатади. Чунки ўсимликнинг муътадил ўсиши учун етарли ёруғлик, намлик, ҳарорат, минерал озиқланиш ва бошқалар талаб этилади. Асосий поянинг бўйига ўсиши, ўсимликнинг яхши ривожланиши билан аниқланилади. Экиш муддати ҳар хил ўсимликларда ўсиш ҳар хил кўрсаткичга эга бўлди. Апрелнинг бошида экилган ўсимликлар, май ойида экилган ўсимликка нисбатан ривожланиши ва ўсишида паст бўйли бўлиб, ривожланиши ҳам бир мунча тезлашгин.

Апрелнинг бошида экилган ўсимлик, май ойида экилган ўсимликка нисбатан ривожланиши ва ўсишида паст бўйли бўлиб, ривожланиши ҳам бир мунча тезлашган.

Шундай ҳулоса қилиш мумкинки: тупроқдаги сувлар механик ушланишига боғлиқ. Эркин сувларни ўсимлик яхши ўзлаштира олади, боғланган сувлар ўсимлик илдизидаги осмотик босимга нисбатан баланд куч билан боғланиб туради. Шунга кўра сувни осон ўзлаштириш экиш муддатга ҳам боғлиқ.

Ўсимлик вегетациясининг маълум даврида ҳосил структурасининг маълум элементлари ривожланади. Бу элементлар қаторига 1000 дона уруғ оғирлиги, қузоқ узунлиги , оғирлиги, қузоқдаги дон оғирлиги ва бошқалар киради.

Ҳосил структураси элементларининг ривожланиши ўзаро боғлиқлиги асосида ўсимлик ҳосилдорлиги шаклланади. Ҳосил структураси элементларининг ривожланиш даражаси агротехникага, нав хусусиятларига, табиий шароитга ва бошқаларга боғлиқ. Бамия ўсимлигининг ҳосилдорлиги экиш муддатларига боғлиқлигини кўрсатади.

Ҳар иккала мудатда экилган ўсимликда ҳам нисбатан юқори ҳосилдорлик кузатилди. Апрель ойининг иккинчи ярмида экилган ўсимликда ҳосилдорлик бир мунча юқори бўлди.

Тажрибамиз натижаси шуни кўрсатадики, экиш муддатининг тўғри танланиши, илдизнинг бир мунча пастга ўсишига олиб келади, бу эса ўсимликнинг сув билан бир мунча яхши таъминлайди, бу эса қузоқларнинг маҳсулдор бўлиб етилишига олиб келади.

ХУЛОСА ВА ТАВСИЯЛАР

Дунё генофондидан фойдаланиб, интродукция қилинган ўсимликлардан мақсадли фойдаланиш республикамизнинг тупроқғиқлим шароитига мослаштириш.

Республикамиз тупроқларининг турли даражада шўрланиши, тупроқнинг сифат даражасининг пасайишига ва чўлланишига олиб келмоқда. Шу муаммоларни ҳал этиш мақсадида дунё генофондидан фойдаланиб, интродукция қилинган ўсимликлардан фойдали мақсадларда фойдаланиш бу куннинг муҳим вазифаларидан бўлиб келмоқда. Биз Момордика харантия ўсимлигини Сирдарё вилояти шароитида ўрганиб чиқдик ва қуйидаги хулосаларга келдик.

1. Momordika charantia L. ўсимлиги онтогенз даври тупроқғ иқлим шароитига боғлиқ бўлиб, вегетация даври 7,5-8 ойни ташкил этади.
2. Momordika charantia L. (Момордика харантия) ўсимлигининг кўпайиш даври иқлим шароитига боғлиқ бўлиб, гуллаш жараёни 125-150 кунни ташкил этди.
3. Момордика харантия ўсимлигини экиш чуқурлиги 3 см , экиш муддати апрель оининг бошини ташкил этади.
4. Момордика харантия ўсимлиги қурғоқчиликка бир мунча чидамли ксерофит ўсимлик бўлиб, баргларида кўп сув сақлайди, сув танқислигига бир мунча чидамли бўлиши, биологик характерга эга бўлиб, юқори хосилдорликка эришилади.

Изланишлар натижаси шуни кўрсатадики, турли экологик шароитларда Момордика харантияни етиштиришнинг хусусиятлари аниқланилди ва фойдали томонлари аниқланилиб, шаҳарда алеялар барпо этишда, ўсимлик ўсганда жуда чиройли бўлиши, осилиб турган ғадир-будир мевалари кўп қаватли уйларнинг балконлари, чойхоналарга, ҳовлиларни безашда мевасидан хомлигида тузламалар тайёрлашда, пишганида истемол қилишда, яшил барглардан тайёрланган экстракт болаларда учрайдиган гижжа касалликларини даволашда ишлатилади, шу хусусиятларини эътиборга олиб ҳар бир хонадонга экиш тавсия этилади.

Фойдаланган адабиётлар

1. Meliboyeva, S. S. Q., Boltayev, M. M., Sharipova, E. M., & Sharipova, R. G. (2021). Comparative efficiency of the preparation" Nodinorm" in complex treatment of fibrocystic mastopathy. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1591-1596.

2. Б.Ш. Самадов, Ф.С. Жалилова, Ф.С. Жалилов, Н.А. Муродова., Фармакологическая свойства и химический состав лекарственного растительного сырья “Momordica Charantia L”. Матеріали IV Міжнародної науково-практичної конференції. Харків, НФаУ, 2020. С. 426-430.

3. Самадов, Б. Ш. (2020). Жалилов Фазлиддин Содикович, Жалилова Феруза Содиковна. Выращивание лекарственного растения «Momordica charantia l» в условиях бухарской области. Вестник науки и образования, (21-1), 99.

SIRDARYO VILOYATI TUPROQ IQLIM SHAROITIDA KUZGI BUG‘DOY NAVLARI VA KOLLEKSION NAMUNALARNING VEGETATSION DAVRI DAVOMIYLIGI

O‘.T.Jumanov., T.X.Kuliyev., L.D.Savronov.

Anatatsiya. *Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatining sho‘rlangan tuproq-iqlim sharotida kuzgi bug‘doy navlari va kolleksion namunalarining vegetatsion davrlari davomiyligi genotiplar kesimida tahlil qilindi. Tadqiqot ob’ekti sifatida kuzgi bug‘doy (Triticum aestivum)ning 268 ta navlari va kolleksion namunalari olindi. Tadqiqodlar Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani «Bek cluster» MChJ xududida, o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitida olib borildi. Bug‘doy donining oktyabr oyining boshida ekilganida unib chiqish 9-10 kunni tashkil etdi. Tuplanish davri unib chiqishdan 24-25 kun o‘tganida boshlandi. Ekishdan pishishgacha bo‘lgan davri genotiplar kesimida o‘rtacha 228 kunni unib chiqishdan pishishgcha 218 kunni tashkil etdi. O‘rganilgan kolleksion namunalarning 3 tasi 1,11% ni vegetatsiya davrining davomiyligi o‘rtachadan kamroq bo‘lganlari tashkil etgan bo‘lsa 230 tasi(85,82%) o‘rtacha ko‘rsatkichga teng bo‘lgan natijani qayd etdi. O‘rganilgan kolleksion namunalardan 3 ta ertapishar kolleksion namuna tadqiqot uchun tavsiya etildi.*

Kalit so‘zlar: *kuzgi bug‘doy, Triticum aestivum, erta pishar, o‘rta pishar, kech pishar, genotip, vegetatsion davr.*

Ma’lumki, so‘nggi yillarda iqlimning global isishi o‘simliklarning fiziologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlariga, o‘sishi xamda rivojlanishiga stress omil sifatida hosil miqdori va uning sifatiga bevosita ta’siri ko‘rsatmoqda. Bunday holat, ayniqsa bug‘doy, sholi va makkajo‘xori kabi ekinlarda kuzatilmoqda [1]. O‘simlikning vegetatsiya davri va uning davomiyligi sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitiga mos genotiplarni tanlashda muhim kriteriyadan bo‘lib o‘simliklarning tez yoki kechpisharligini belgilab beradi[2]. O‘simliklarning tezpisharligi muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda tez pishar navlarda fazalar davomiyligi qisqaradi va hosilni tez pishib etilishiga sabab bo‘ladi. Tezpishar navlar hosilni tez yig‘ishtirib olishga imkoniyat beradi. Ayniqsa g‘alla ekinlarida bu ahamiyatga ega. ma’lumki kuzda ekilgan bug‘doy navlarining pishish davri may iyun oylariga to‘g‘ri keladi. Bunday holatda ertapishar navlarga bo‘lgan talab ortadi. Chunki ertpishar navlar hosil tez etilib yozning issiq kunlariga don shakllanadi. Natijada hosildorlikka salbiy ta’siri kam ko‘rsatiladi.[3].

Kuzgi bug‘doyning o‘rganilgan navlari va klollektsion namunalarining o‘rta darajada sho‘rlangan dala maydonida unib chiqsh davri 9-10 kunni tashkil etdi. Ayrim navlarda 7 kunda ham unib chiqdi. Unib chiqishdan tuplanish davri o‘rtacha 25 kunni tashkil etdi. Tuplanishdan nay o‘rashgacha bo‘lgan davr 89 kunni, nay o‘rashdan boshoqlashgacha bo‘lgan davr 61 kunni va boshoqlashdan gullashgacha-69 kunni, gullashdan sut pishish davrigacha 15 kunni, sut pishishdan mum pishishgcha 13 kunni va mum pishishdan to‘liq pishishgacha 8 kunni tashkil etdi. Vegetatsiya davrining davomiyligi ekishdan boshlab pishishgacha 228 kunni tashkil etgan bo‘lsa unib chiqishdan boshlab 218 kunni tashkil etdi(1-jadval).

Ushbu ma’lumotlardan o‘rganilgan 268 kolleksion namunalar vegetatsiya davri va uning fazalar davomiyligi bo‘yicha farq qildi. Buni har faza bo‘yicha olingan minimal va maksimal ko‘rsatkichlardan ham aniq ko‘rish mumkin. Misol sifatida ekishdan unib chiqishgacha bo‘lgan davrini olaylik. Ushbu fazaning davomiyligi genotiplar kesimida 7-12 kunni tashkil etdi. Bu kuzgi bug‘doy genotilari 7-12 davomida unib chiqqanlitgini anglatadi. Ma’lumki, sho‘rlangan tuproq sharotida unib chiqish jarayoni sekinlashadi. Shu sabadan bunday farq kuzatildi.

1-jadval

Kuzgi bug‘doy genotiplarining vegetatsiya davri fazalar kesimida

Fazalar va ularning davomiyligi, kun hisobida

Ekishdan unib chiqqangacha,k	Unib chishdan tuplanishgacha	tuplanish nay o‘rash	nay o‘rash boshoqlanish	boshoqlash gullash	gullash sut pishish	sut pishish mum pishish	mum pishish to‘lik pishish	Faol o‘sish davri	Butun hayotiy davrining davomiyligi
9.68±0.09	25,42±0.15	89,30±0.11	60,77±0.10	6,93±0.04	14,99±0.01	13,00±0.01	7,99±0.01	218,41±0.15	228,11±0.22
	Minimum								
7,00	20,00	85,00	59,00	6,00	14,00	12,00	7,00	213,00	221,00
	Maksimum								
12,00	31,00	95,00	65,00	10,00	16,00	15,00	8,00	227,00	238,00

Kuzgi bug‘doyning o‘rganilgan genotiplar vegetatsiya davrining davomiyligi bo‘yicha quyidagi guruhlarga o‘rta ko‘rsatkichdan kam, o‘rtacha va o‘rtachadan yuqori bo‘lgan guruhlarga taqsimlandi. (2-jadval).

2-jadval

Kuzgi bug‘doy genotiplari bo‘yi, fazalar kesimida

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ko‘rsatkichdan past	O‘rtachaga teng	O‘rtachadan yuqori
Unib chiqishdan pishishgcha			
Miqdori, dona	**3**	**230**	**35**
% da	**1,11**	**85,82**	**13,05**
Ekishdan pishishgacha			
Miqdori, dona	**19**	**194**	**55**
% da	**7,08**	**72,38**	**20,52**

O‘rtachadan pastroq genotiplar 1,11% ni tashkil etgan bo‘lsa 230 ta (85,82%) kolleksion namunalarning ko‘rsatkich o‘rtacha darajada bo‘lib 35 tasi yoki 13,05% namunalarning ko‘rsatkichlari o‘rtachadan ko‘p bo‘ldi. Ekishdan pishishgcha bo‘lgan davrida kuzgi bug‘doy genotiplari quyidagicha guruhlarga o‘rtachadan past 19 ta (7,09 %), o‘rtacha ko‘rsatkichga teng 194 ta o‘rtachadan yuqori 55 ta (20,52%) ni tashkil etdi.

Ushbu ma’lumotlardan o‘rganilgan kolleksion namunalar orasidan ertapishar, o‘rtapishar va kech pisharlarini tanlash mumkin.

3-jadval

Ertapishar kolleksion namunalar vegetatsiya davrining davomiyligi, kun hisobida

№	Katolog raqami	Vegetatsiya davri	№	Katolog raqami	Vegetatsiya davri(unib chiqishdan)	№	Katolog raqami	Vegetatsiya davri(unib chiqishdan)
1	KGU-413	213,00	**9**	KGU-449	215,00	**17**	KGU-40	215,00
2	KGU-297	214,00	**10**	KGU-339	215,00	**18**	KGU-300	215,00
3	KGU-460	214,00	**11**	KGU-141	215,00	**19**	KGU-96	215,00

4	KGU-191	215,00	**12**	KGU-707	215,00	**20**	KGU -791	215,00
5	KGU-505	215,00	**13**	KGU-738	215,00	**21**	KGU -630	215,00
6	KGU-196	215,00	**14**	KGU-737	215,00	**22**	KGU -646	215,00
7	KGU-138	215,00	**15**	KGU-723	215,00	**23**	KGU -201	215,00
8	KGU-183	215,00	**16**	KGU-750	215,00	**24**	KGU -553	215,00

O‘rganilgan 268 ta navlar va namunalarning bo‘yi 60sm dan 132 sm oralig‘ida bo‘ldi. Bu o‘simlik bo‘yi bo‘yicha genotiplar o‘zara farq qilganligini anglatadi. Past bo‘yli kolleksion namularning bo‘yi o‘rtacha 76 sm o‘rta bo‘ylilarning bo‘yi 94,8 sm va baland bo‘ylilarning bo‘yi 114,5 sm bo‘ldi. O‘rganilgan kolleksion namunalarda 24 tasi past bo‘yli bo‘lib tadqiqot ishlarini olib borishga tavsiya etildi.

Adabiyotlar:

1. Kolbert Z., Feigl, G., Freschi L., and Poór P. (2019). Gasotransmitters in action: nitric oxide-ethylene crosstalk during plant growth and abiotic stress responses. *National Library of medicine* Antioxidants (Basel). 2019 Jun 8;8(6): - 167 p.

2. Эшкуватов.А.К. «Ташқи омиллар таъсирида буғдой белгиларидаги ўзгарувчанлик ва детерминацияланганлик даражасининг биокимёвий ва физиологик хусусиятлари» Дис. б.ф.д.. –Б.: 2019. - 13-37 б.

3. Atabayeva. X., O.Qodirxo‘jayev. O‘simlikshunoslik Darslik T.-2006-68-71 b.

SIRDARYO VILOYAT TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA KUZGI BUG‘DOY GENOTIPLARINING O‘SISH DINOMIKASI VA GURUHLARGA AJRATISH

O‘.T.Jumanov., T.X.Kuliyev., J.X.Shomatov.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Sirdaryo viloyatining sho‘rlangan tuproq-iqlim sharotida kuzgi bug‘doy navlari va kolleksion namunalarining o‘ish dinamikasi genotiplar kesimida tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida kuzgi bug‘doy (Triticum aestivum)ning 268 ta navlari va kolleksion namunalari olindi. Tadqiqodlar Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani «Bek cluster» MChJ xududida, o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitida olib borildi. O‘rganilgan 268 ta navlar va namunalarning bo‘yi 60sm dan 132 sm oralig‘ida bo‘ldi. Bu o‘simlik bo‘yi bo‘yicha genotiplar o‘zara farq qilganligini anglatadi. Past bo‘yli kolleksion namularning bo‘yi o‘rtacha 76 sm o‘rta bo‘ylilarning bo‘yi 94,8 sm va baland bo‘ylilarning bo‘yi 114,5 sm bo‘ldi. O‘rganilgan kolleksion namunalarda 24 tasi past bo‘yli bo‘lib tadqiqot ishlarini olib borishga tavsiya etildi.

Kalit so‘zlar: *kuzgi bug‘doy**,** Triticum aestivum, o‘rtachadan past, o‘rtacha, o‘rtachadan yuqori, genotip, o‘sish dinamikasi.*

Mirzacho‘lning tabiiy iqlim sharoiti keskin kontinental hisoblanadi. Chunki yozi juda issiq, qishi esa sovuq bo‘ladi. Tadqiqotlar olib borilgan yillar davomida Sirdaryo viloyatida o‘rtacha yillik harorat +12,9-14,9^{o}C ni tashkil etdi. Yozning issiqligi iyun-iyul oylarida +25,4- 29,5^{o}C ga teng bo‘lgan bo‘lsa, sovuqligi dekabr – yanvar oylarida -1,8-0,1^{o}C ni tashkil etdi. Havo haroratining kuchli o‘zgaruvchan bo‘lishi ushbu hududga xos bo‘lgan iqlim sharoitdan hisoblanadi. Ma’lumki Sirdaryo viloyati yer maydonlarining asosiy qismi kuchsiz, o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan hydudlarga ega[1]. Tuproqning sho‘rlanishi o‘simliklarda sodir bo‘ladigan hayotiy muhim metabolitik, biokimyoviy va fiziologik jarayonlarga zararli ta’siri ko‘rsatadi va bu don sifatining yomonlashishiga olib keladi. Tuzning ta’siri boshida osmotik stressni keltirib chiqaradi, keyinchalik ion toksikligi o‘sishni, don rivojlanishini va sifatini pasaytiradi [2]. Har qanday ekinning reproduktiv bosqichi abiotik stresslarga, jumladan, sho‘rlanishga eng sezgir bosqich bo‘lib, bug‘doy uchun ahamiyatlidir. Biroq, sho‘rlanish

o‘simliklarning o‘sishi va hosildorlik xususiyatlariga, birinchi navbatda, ionlarning toksikligi va osmotik stress tufayli ta’sir qilishi aniqlangan. Ion muvozanatining buzilishi bilan bir qatorda, sho‘rlanish stressi tuproq tarkibidagi va to‘qimalardagi suv miqdoriga va undan samarali foydalanishga transpiratsiya jadalligiga, ildizning o‘sishi hamda nafas olishiga, uning biomassasiga, gidravlik o‘tkazuvchanligiga ta’siri etadi [3]. O‘simlik tomonidan qabul qilingan tuz eski barglarda to‘planadi va uzoq vaqt davomida transpiratsiya jarayonida barglarga to‘planishi natijasida Na^+ va Cl^- ionlari kontsentratsiyasining ortishiga olib keladi. Bu barglar nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Tuzning kontsentratsiyasini ortishi osmotik potensialini oshiradi va bu o‘simliklar tomonidan suv qabul qilishni cheklaydi [4]. Osmotik stress ildiz tizimining suvni singdirish qobiliyatini yo‘qotishi, barglarning suv potensiali, membrananing shikastlanishi, ozuqa moddalarining nomutanosibligi, fotosintetik va metabolik jarayonlarning pasayishi va o‘simliklarning antioksidant himoyasini susaytirishi bilan yakunlanadi. Bundan tashqari fotosintez tezligini, biomassa to‘planishini pasaytiradi va bu reproduktiv organning qarishini tezlashtiradi, hosildorlikka salbiy ta’sir qiladi [5]. Sho‘rlanish bug‘doy bayroq barglarining qarishini tezlashtirdi, xlorofill, umumiy karotenoidlar, askorbin kislota, umumiy fenol, kalsiy, kaliy, magniy, K^+/Na^+ nisbati va eruvchan oqsillar kontsentratsiyasini, shuningdek, katalaza va peroksidaza faolligini pasaytiradi [6].

O‘simlik bo‘yi uning muhim biologik, fiziologik ko‘rsatkichlaridan. O‘simlik bo‘yining o‘sishi bu tashqi muhitning ta’sirini o‘zida aks etadi. Stress sharoitlarda, ayniqsa sug‘orma dehqonchilikda o‘simlik bo‘yi kuchli zarar ko‘radi. Noqulay sharoitlar ya’ni suv va oziqa moddalarning etishmasligi, sho‘rlanish, qurg‘oqchilik, kasalliklar va boshqa omillarning o‘simliklarga ta’siri birinchi navbatda o‘simlikning o‘sishiga, ya’ni bo‘yiga ta’sir etadi. Natijada o‘simlik o‘sishdan to‘xtaydi va bu o‘z navbatida fiziollogik jarayonlarga, oqibatda mahsuldorlikka ta’sir etadi [7]**.** Tadqiqotga jalb qilingan kuzgi bug‘doy genotiplari o‘sish dinamikasi bo‘yicha ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi ma’lumotlardan tuplanish davrida ya’ni o‘simlikning tinim davriga ketishdan oldin o‘simlik bo‘yi genotiplar kesimida 16,79 sm ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich kuchli variatsiyalandi. Buni uning minimal ko‘rsatkichi 3,9 sm va maksimal 28,20 sm bo‘lganligidan ham aniq ko‘rish mumkin. Naychalash fazasining boshida kuzgi bug‘doy genotiplari bo‘yining o‘sganligini ko‘rish mumkin. Ushbu fazada o‘simlik bo‘yi o‘rtacha 71,45 sm ni tashkil etgan bo‘lsa boshoq chiqarish davrida 83,46 sm ni tashkil etdi. Pishish davrida o‘simlik bo‘yi o‘rtcha 95,39 sm ni tashkil etdi. Ushbu ma’lumotlardan o‘simlik bo‘yining jadal o‘sishi bu naychalash-boshoq chiqarish fazasida kuzatildi. Pishish fazasida ya’ni boshoq chiqarib bo‘lgan o‘simliklar o‘sishdan to‘xtadi. Jadvaldagi ma’lumotlardan o‘simlik bo‘yicha kuchli variatsiyalanish qayd etilganligini ko‘rish mumkin. Buni yuqorida ham qayd etgan edik. Ayniqsa pishish fazasidagi ma’lumotlardan eng past ko‘rsatkich 60 sm ni tashkil etgan bo‘lsa eng yuqori 132 sm ni tashkil etdi. Ushbu ma’lumotlardan kuzgi bug‘doy genotiplari o‘simlik bo‘yining ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuchli farq qilganligini ko‘rish mumkin. Bu esa ushbu ma’lumotlarni guruhlarga taqsimlashga asos bo‘ldi.

1-jadval

Kuzgi bug‘doy genotiplari bo‘yi, fazalar kesimida

Statistik ko‘rsatkichlar	**Kuzgi bug‘doy genotiplarining bo‘yi, fazalar kesimida, sm**			
	Tuplash	**Naychalash-boshoqlash**	**Boshoq chiqarish-gullash**	**Pishish(to‘liq)**
O‘rtacha ko‘rsatkich	16.79±0.27	71.45±0.58	83.46±0.61	95.39±0.74
Minimum	3,90	45,20	61,80	60,00
Maksimum	28,20	99,40	110,00	132,00

Ushbu ma’lumotlar 2-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi ma’lumotlardan o‘rganilgan 268 ta kolleksion namunalarning 39 tasi past bo‘yli bo‘lib ularning bo‘yi 76,02 sm ni tashkil etdi. O‘rta bo‘yili o‘simliklar miqdori 184 taga teng bo‘lib bo‘yi 94,82 sm teng bo‘lgan bo‘lsa baland bo‘ylilarda -114,48 sm bo‘lib ularning miqdori 45 taga teng bo‘ldi. Jadvaldagi ma’lumotlardan o‘rganilgan aksariyat(184) kolleksion namunalar o‘rta bo‘yli. Past bo‘yli kolleksion namunalar selektsiya ishlarini tashkil etishda ahamiyat kasb etadi. Chunki sug‘orma dehqonchilikda baland bo‘yli kolleksiyalar yotib qolishga moyil bo‘ladi va bu o‘z navbatida hosildorlikka ta’sir etadi.

2-jadval

O‘simlilar bo‘yi bo‘yicha kuzgi bug‘doy genotiplarini guruhlarga ajratish natijalari

Statistik ko‘rsatkichlar	Past bo‘yli, sm	O‘rta bo‘yli, sm	Baland bo‘yli,sm
Miqdori	39	184	45
O‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi	76,02 ±0,82	94,82 ±0,43	114,48 ±0,97
Minimum	60,00	85,00	110,00
Maksimum	80,00	105,00	132,00

O‘rganilgan kolleksion namunalardan past bo‘ylillari tanlab olindi va ular o‘rtasidagi ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval). Jadvaldagi ma’lumotlardan past bo‘yli kolleksion namunalar KGU-260, KGU-192, KGU-744, KGU-446, KGU-460 , KGU-310, KGU-785 ning 60-70 sm teng bo‘lib eng past bo‘yli namunalardan deb topildi. Mazkur kolleksion namunalar tadqiqot ishlarini olib borish uchun xizmat qilishi mumkin.

3-jadval

Past bo‘yli kolleksion namunalar va ularning ko‘rsatkichlari

№	Katolog raqami	O‘simlik bo‘yi, sm	№	Katolog raqami	O‘simlik bo‘yi, sm	№	Katolog raqami	O‘simlik bo‘yi, sm
1	KGU-260	60,00	**9**	KGU-336	75,00	**17**	KGU-470	75,00
2	KGU-192	65,00	**10**	KGU-139	75,00	**18**	KGU-344	75,00
3	KGU-744	65,00	**11**	KGU-	75,00	**19**	KGU-96	75,00
4	KGU-192	70,00	**12**	KGU-513	75,00	**20**	KGU-142	80,00
5	KGU-446	70,00	**13**	KGU-158	75,00	**21**	KGU-49	80,00
6	KGU-460	70,00	**14**	KGU-183	75,00	**22**	KGU-304	80,00
7	KGU-310	70,00	**15**	KGU-137	75,00	**23**	KGU-600	80,00
8	KGU-785	70,00	**16**	KGU-197	75,00	**24**	KGU-188	80,00

Umuman olganda kuzgi bug‘doy genotiplarining o‘sishi naychalash va boshoq chiqarish fazalarida aktivlashganligi qayd etildi. O‘rganilgan 268 ta navlar va namunalarning bo‘yi 60 sm dan 132 sm oralig‘ida bo‘ldi. Bu o‘simlik bo‘yi bo‘yicha genotiplar o‘zara farq qilganligini anglatadi. Post bo‘yli kolleksion namularning bo‘yi o‘rtacha 76 sm miqdori 35 tani tashkil etgan bo‘lsa o‘rta bo‘ylilarning bo‘yi 94,8 sm ularning miqdori 184 tan va baland bo‘ylilarning bo‘yi 114,5 sm va miqdori 45 tani tashkil etdi. Ularda 24 ta past bo‘yli kolleksion namunalar tanlab olinib tadqiqotlar olib borish uchun tavsiya etildi.

Adabiyot.

1. Эшқуватов.А.К. «Ташқи омиллар таъсирида буғдой белгиларидаги ўзгарувчанлик ва детерминацияланганлик даражасининг биокимёвий ва физиологик хусусиятлари» Дис. б.ф.д.. –Б.: 2019. - 13-37 б.

2. Netondo, G.W., Onyango, J.C., and Beck E. Sorghum and salinity: II. gas exchange and chlorophzyll fluorescence of sorghum under salt stress.- 2004. *Crop Science.* 44, - 806–811 p.

3. Zheng Y., Wang Z., Sun X., Jia A., Jiang G., and Li Z. “Higher salinity tolerance cultivars of winter wheat relieved senescence at reproductive stage”. *Environ. Experimental. Botany.* 2008. 62, - c129–138 p.

4. Tavakkoli E, Fatehi F, Coventry S, Rengasamy P, “Additive effects of Na^+ and Cl^- ions on barley growth under salinity stress”. 2011. J Exp Bot (62) - 2189–2203 p.

5. Khataar, M., Mohammadi, M. H., and Shabani, F. “Soil salinity and matric potential interaction on water use, water use efficiency and yield response factor of bean and wheat”. *Scientific. Reports.* 2018. № 8: - 2679 p.

6. Farouk.S. “Ascorbic acid and α-tocopherol minimize salt-induced wheat leaf senescence” *J. Stress Physiology and. Biochemistry.* 7, - 58–79 p.

7. Кушиев Ҳ., Кулиев Т, Эшкувватов А. Кузги буғдой навлари морфологик белгилари ўзгарувчанлик даражасига экиш меъёрининг таъсири. Ўзбекистонда буғдой селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш технологиясига бағишланган биринчи миллий конференция. Т: 2004, - 43-45 б.

SIRDARYO VILOYATI SHAROITIGA MOSLASHGAN, GO‘SHTDOR QORAMOLLAR GURUHINI SHAKLLANTIRISH

Turdiqulov Toirqul
Guliston davlat universiteti, Biologiya kafedrasi dotsenti
Qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Prezidantining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida chorvachilikning barcha tarmoqlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, ilmiy-tadqiqot natijalari va innovatsion ishlanmalarni mahsulot ishlab chiqarish va naslchilik-selektsiya amaliyotiga joriy etish masalalari qo‘yilgan. Mazkur qarorda qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, Sirdaryo viloyatida chorvachilik faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, sohaning iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish, aholini go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlashni yaxshilash, qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer xo‘jaligi va aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaligidagi chorva mollarining mahsuldorligini oshirish va nasldorlik sifatini yaxshilash hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ushbu muammoning hal etilishi, viloyatimizda chorvachilik sohasining iqtisodiy samaradorligini o‘sishiga va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash bilan birga, ilmiy va sanoat texnologiyasiga asoslangan chorvachilikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahon chorvachiligi amaliyotida sanoat chatishtirish usulini qo‘llash asosida qoramollarning go‘sht mahsuldorligini ko‘paytirishga doir bir qancha tajribalar o‘tkazilib, ijobiy natijalarga erishilgan. Jumladan, Angliyada aholini go‘sht mahsuloti bilan ta’minlashni yaxshilash bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijasida ichki imkoniyatlar qatoriga mamlakatdagi sut va sut-go‘sht yo‘nalishidagi sigir va tanalarni go‘shtdor zotli buqalar bilan sanoat asosida chatishtirish usulini qo‘llash masalasi kiritildi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, sut yo‘nalishidagi sof zotli ayrshir tanalari 2-96 hafta davomida kundalik o‘sishi o‘rtacha 500 g ga teng bo‘lsa, F_1 ayrshir × shortgorn duragay avlodlarida ushbu ko‘rsatkich 530 g, F_1 ayrshir × gerefordlarda – 540 g va Angliyada eng yirik va tez etiluvchan hisoblangan britano-friz sof zotli tanachalar guruhida - 590 g ni tashkil qildi. F_1 britano-friz×shortgorn duragaylari shu davr mobaynida sutkasiga 620 g dan o‘sib, o‘zining tengdoshlariga nisbatan 5-24 % ko‘p qo‘shimcha vazn olishga erishdi [2].

Hamdo‘stlik davlatlarida ham bu borada ijobiy natijalarga erishganligini qayd etish mumkin. Jumladan, Krasnodar qishloq xo‘jalik ilmiy-tadqiqot instituti xo‘jaligida o‘tkazilgan tajribada sof zotli qizil cho‘l sigirlarini gereford zotli buqalar bilan sanoat usulida chatishtirib, ulardan olingan avlodlar bo‘rdoqiga boqilganda, duragay buqachalarning so‘yim vazni sof zotli qizil cho‘l tengdoshlariga nisbatan 15-20 % og‘ir ekanligi aniqlandi. Shuningdek, duragay avlodlarning so‘yim chiqimi sof zotli qizil cho‘l tengdoshlariga nisbatan 2 – 4 % ko‘p bo‘lib, har 1 kg o‘sishi uchun 9-12 % kam oziqa sarfladi. Go‘sht nimtalari sidirib ajratilganda go‘sht va yog‘ chiqimi duragay avlod vakillarida 79-80 % , sof zotli qizil cho‘l tengdoshlarida - 77 % ni tashkil qildi, 1-navga tegishli bo‘lgan sifatli go‘sht mahsulotlari ham duragay hayvonlarda 3-4 % ga ko‘p bo‘ldi.

D.L.Levantin olib borgan tajriba natijalari asosida shunday xulosaga keladi: simmental va qizilcho‘l zotli sigirlarni santa-gertruda zotli go‘shtdor buqalar bilan sanoat asosida chatishtirish usulini qo‘llashdan olingan F_1 duragay avlodlari 18 oyligida sof zotli qizilcho‘l pichma tengdoshlariga nisbatan tirik vazni bo‘yicha 19 % ga, go‘sht va yog‘ chiqimi bo‘yicha 37 % ustunlikka erishdi.

Simmental sigirlarini aberdin-angus buqalari bilan sanoat asosida chatishtirilishi natijasida olingan I avlod duragay vakillari sof zotli simmental tengdoshlariga nisbatan tirik vazni bo‘yicha 23 % og‘ir kelib, har 1 kg vazn o‘sishi uchun 7,5 oziqa birligi yoki 0,8 miqdorida kam oziqa sarfladi. Go‘shtining sifati bo‘yicha ham duragay avlodlar sof zotli sut va sut-go‘sht yo‘nalishidagi qoramollarni orqada qoldirdi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning xo‘jaliklarda olib borgan amaliy tajribalari shuni ko‘rsatadiki, qalmiq, qozoqi oqbosh, qirg‘iziston, tojikiston va respublikamizning mahalliy qoramollarini gereford, shortgorn, aberdin-angus, santa-gertruda kabi go‘shtdor buqalar bilan sanoat asosida chatishtirish usulini qo‘llash natijasida olingan I bo‘g‘in duragay avlodlari o‘zlarining onalari kabi yuqori yashovchanlik qobiliyatini saqlab qolgan holda, ularga nisbatan ancha yirikligi, tez etiluvchanligi va go‘sht sifati, ya’ni yog‘ qatlamining go‘sht nimtalarida bir tekisda joylashganligi, so‘yim chiqimining yuqoriligi, go‘sht nimtasida suyak to‘qimalariga nisbatan muskul va yog‘ qatlamlari ulushiining sezilarli darajada ko‘pligi bilan ajralib turadi [4, 6].

Yuqorida qayd etilgan adabiyot ma’lumotlariga tayangan holda, viloyatda go‘sht etishtirishni ko‘paytirish uchun, mahsuldorligi past bo‘lgan sut va sut-go‘sht yo‘nalishidagi mahalliy sigirlarni chetdan keltirilgan go‘shtdor buqalarning urug‘i bilan sun’iy urug‘lantirish orqali F_1 duragay avlodlari olinib, ularni jadal ravishda bo‘rdoqiga boqish va qisqa muddatlarda go‘shtga topshirish tadbirlarini chorvachilik amaliyotida keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda viloyatda etishtirilayotgan go‘sht va sut mahsulotlarining 93 % dan ortig‘i aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari ulushiga to‘g‘ri kelayotganligini e’tiborga olib, sanoat asosida chatishtirish ishlari aynan aholi va fermer xo‘jaliklariga tegishli bo‘lgan kam mahsuldorli, nasldorlik sifati past bo‘lgan jaydari sigirlarda olib borilishi zarur. Kelib chiqishi, zotdorlik va mahsuldorlik xususiyatlari, moslashuvchanligi va har xil kasalliklarga chidamlilik qobiliyatlarini o‘rgangan holda respublikamizda, shu jumladan Sirdaryo viloyati sharoitida go‘sht etishtirishni ko‘paytirish uchun quyidagi go‘shtdor qoramol zotlaridan foydalnish ko‘zda tutilgan:

Aberdin-angus zoti. Angliyada yaratilgan, rangi qora, shoxsiz. Sigirlarining vazni 560-600 kg, buqalariniki 800-900 kg. Bu zot tez etiluvchan, go‘shti yumshoq, “marmarsimon”, sifati va kaloriyasi yuqori. So‘yim chiqimi 65-70 %. Sutdan chiqarilgan buzoqlari (8 oylik) - 190-210 kg. keladi.

Hozirda viloyatimizning Boyovut, Sayxunobod va Sirdaryo tumanlarida faoliyat yuritayotgan ko‘pchilik fermer xo‘jaliklari va aholiga qarashli sigirlar zooveterinariya punktlari orqali aberdin-angus buqalarining urug‘lari bilan sun’iy urug‘lantirilib, go‘shtdor duragay mollar etishtirilmoqda.

Santa-gertruda zoti. AQSh ning Santa-gertruda okrugida yaratilgan. Go‘shtdor zot, rangi to‘q qizil. Sigirlarining vazni 500-550 kg, buqalariniki 800-1000 kg. So‘yim chiqimi 60-65 % gacha etadi.

Buzoqlarining tug‘ilgandagi vazni 29-30 kg, 8 oyligida 220-240 kg, 1,5 yoshligida 400 kg keladi. Bir yoshli buzoqlari sutkasiga 1000-1200 g dan semiradi. Yozning issiq kunlarida ham ularning sutkalik semirishi yuqori darajada bo‘ladi.

Santa-gertruda zotli go‘shtdor buqalar bilan mahalliy sigirlarni chatishtirish orqali sermahsul duragay avlodlar olinib, go‘sht etishtirishda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishganligi to‘g‘risida Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Jizzax va Toshkent viloyati xo‘jaliklarda etarli tajribalar to‘plangan.

Gereford zoti. Angliyada mahalliy mollarni tanlash va saralash natijasida yaratilgan. Rangi qizil, boshi, ko‘krak osti, qorni va oyoqlari oq. Sigirlarining vazni 490-580 kg, buqalariniki 800-1100 kg ga etadi. So‘yim chiqimi 65-68 %.

Buzoqlarining tug‘ilgandagi vazni 28-34 kg, 12 oylik pichilgan buqachalarining vazni 420-450 kg keladi. Go‘shti juda sifatli va mayin, “marmar”simon ko‘rinishga ega.

Gereford zoti o‘zining yirikligi va har xil tabiiy-iqlim sharoitga moslashuvchanlik qobiliyati yaxshiligi sababli, hozirgi kunda, dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida tarqalgan. Qo‘shni Qozog‘iston Respublikasida go‘sht yo‘nalishidagi qozoqi oqbosh zotining yaratilishida asosiy zot sifatida ishtirok etgan.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining ma’lumotiga ko‘ra viloyatning qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer xo‘jaliklari va aholining yordamchi xo‘jaliklarida 2023 yilning 1 iyul holatiga jami 175 ming boshga yaqin sigirlar mavjud bo‘lib, ularning 86 foizi (150 ming bosh) dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hisobiga to‘g‘ri keladi. Mazkur toifadagi xo‘jaliklarda sigirlarning o‘rtacha sut mahsuldorligi 2450-2500 kg, so‘yishga mo‘ljallangan bir bosh qoramolning o‘rtacha tirik vazni 370-

390 kg ni tashkil qiladi. Jaydari mollar bu vaznga 2,5-3 yoshda etiladi va har bir kilogramm vazn olishi uchun 10-12 oziqa birligida em-xashak sarflaydi.

Jaydari mollardan olinadigan go‘sht mahsulotining sifat ko‘rsatkichlari ham hozirgi zamon talablariga javob bara olmaydi, ya’ni bo‘rdoqiga boqish jarayonida hayvon tanasida to‘planadigan go‘sht mahsuloti tarkibidagi ichki yog‘ to‘qimalari ulushi mu’yordan ortiq bo‘lib, aksincha, go‘sht nimtalari tarkibida hosil bo‘ladigan yog‘ qatlamlari kam, shuningdek, biriktiruvchi va muskul tolalarining dag‘alligi etishtirilgan go‘sht mahsulotining sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamon talablarini hisobga olgan holda, shuningdek, aholini sifatli go‘sht mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash maqsadida, sut mahsuldorligi past, kelib chiqishi noma’lum bo‘lgan jaydari sigirlarni sermahsul go‘sht yo‘nalishidagi buqalar bilan sanoat usulida chatishtirib, olingan duragay avlodlar jadal sur’atlarda bo‘rdoqiga boqilganda, 12-15 oyligida 400-450 kg vaznga ega bo‘lgan, yuqori sifatli yosh qoramol go‘shti etishtirish mumkin.

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun O‘zbekiston naslchilik korxonasidan aberdin-angus, santa-gertruda, gereford kabi go‘sht yo‘nalishidagi sermahsul qoramol zotlarining muzlatilgan urug‘lari keltirilib, Sirdaryo viloyatidagi sut mahsuldorligi past bo‘lgan fermer xo‘jaliklari va aholi xonadonlarida parvarishlanayotgan mahalliy sigirlar sun’iy urug‘lantiriladi. Zotlararo chatishtirish natijasida olingan F_1 duragay avlodlarida geterozislik xususiyati yaxshi rivojlangan urg‘ochi tanalar tanlab olinib, ularni poda safini qayta tiklash uchun qoldiriladi, qolganlari va erkak vakillari esa jadal sur’atlarda bo‘rdoqiga boqilib go‘shtga topshiriladi.

Sut va go‘sht mahsuldorligi nisbatan past bo‘lgan mahalliy sigir va g‘unajinlarni sermahsul go‘sht yo‘nalishidagi buqalar bilan chatishtirilishi natijasida olingan duragay avlodlarning go‘sht mahsuldorligi mahalliy tengdoshlariga nisbatan 25-30 % gacha ko‘payadi. Chorva mollari mahsuldorligining ortishi hisobiga aholini sifatli, oqsil moddalariga boy bo‘lgan go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlash yaxshilanadi, ichki bozor to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan boyitiladi.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer xo‘jaliklari va aholi xonadonlaridagi mavjud chorva mollarining nasldorlik sifatini yaxshilash va mahsuldorligini oshirish hisobiga bo‘rdoqiga boqilgan qoramollarning tirik vazni jaydari mollariga nisbatan 150-200 kg gacha ortadi, xo‘jalikning iqtisodiy samaradorligi 28-35% gacha ko‘tariladi. Har bir ona moldan olinadigan umumiy daromad yiliga 4,5-5 mln so‘mni, sof foyda esa 2,1-2,5 mln so‘mni tashkil qiladi.

Yuqorida belgilangan tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirib borilsa, viloyatning tabiiy-iqlim sharoitiga moslashgan go‘shtdor qoramollar podasini shakllantirib, barcha toifadagi xo‘jaliklarda go‘sht ishlab chiqarish hajmi keskin ko‘paytirishga va chorvachilikning rentabellik darajasiniini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-sonli: “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori. Toshkent sh., 2022 yil 8 fevral. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.02.2022 y., 07/22/120/0132-son.

2. Абдурасулов А.Х. и др. Этапы создания и совершенствования киргизского мясного типа крупного рогатого скота. //Животноводство и кормопроизводство, 2017, № 5, - с. 23-25.

3. Икромов Т.Х. Чорвачилик асослари. Т.: Ўқитувчи, 1996 й.

4. Исхаков Р.Г, Левахин В.И., Титов М.Г. Мясная продуктивность бычков симментальской и абердин-ангусской пород в зависимости от технологии их выращивания. //Зоотехния, 2007. №3. С. 22-25.

5. Кажгалиев Н., Матакбаев Д. Адаптация завезённиых пород мясного скота в условиях северного региона Казахстана. //Животноводство и кормопроизводство, 2016 г.

6. Кудашева А.В. и др. Эффективность промышленного скрещивания крупного рогатого скота в производстве говядины (обзор). //Вестник мясного скотоводства. Оренбург, 2013, № 1 (79). С. 42-50.

ДАСТУРИНИНГ БОШ МЕЗОНИ СИФАТИДА

Қўшиев Ҳ.Ҳ
биология фанлари доктори, профессор
Гулистон давлат университети

Фан ва техника жадал ривожланаётган бугунги кунда олий таълим фаолиятида “Илм орқали билим” технологияларига асосланган тизимни шакллантириш асосида “таълим-фан-ишлаб чиқариш комплекси”ни ташкил этиш ва улар ўртасида инновацион-интеграцион механизмни такомиллаштириб бориш муҳим аҳамиятга эга. Чунки инновацион тизимнинг ривожланиши юқори малакали мутахассисларнинг қандай тайёрланишига кўп жиҳатдан боғлиқдир.

Шунинг учун ОТМда таълим жараёнини ҳаётий талаб ва муаммолар ечимига мос ҳолда такомиллаштириб бориш лозимки, талабанинг имконият ва лаёқати келажакда юзага келиши мумкин бўлган муаммолар ечимига қаратилган бўлиши керак. Шундагина ижтимоий жамият ва унинг иқтисодий барқарор ривожланишига асосли тарзда эришиш мумкин. Шунингдек, ишлаб чиқаришда фаолият кўрсатаётган мутахассис, илмий тадқиқот институтидаги мутахассис-олим ҳам ўз соҳаси бўйича янгиликлар ва уларнинг механизмлари билан танишиб бориб, замон талабларига мос маҳсулотлар яратиш ва кашфиётларни амалга ошириш бўйича аниқ стратегик режага эга бўлиши зарур. Чунки бугунги кун иш жараёнида қўлланилаётган технология эртанги кун талабига жавоб бермаслигига шак-шубҳа йўқ. Бунинг учун Олий таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантириш ҳамда уларнинг симбитоик мажмуасини ташкил этиш мақсадга мувофиқдир. Шундагина ишлаб чиқаришда жадал ўсиш бўлади ва иқтисодий тараққиёт илгарилаб боради.

Айнан ушбу тизим амалий тарзда ишлаб чиқариш-фан-олий таълим тизимини интеграциясини шакллантирувчи “инновацион ўқув-илмий комплекс”да ўз аксини топган.

Олий таълим жамиятнинг иқтисодий барқарор ривожланишида асосий бўғинни эгаллайди. Шунинг учун ОТМ ишлаб чиқариш йўналишлари, илмий тадқиқот ва таълим муассасаларининг методик маркази сифатида акс этиши керак. Чунки олий таълим тизимида тайёрланган мутахассислар тўғридан-тўғри ишлаб чиқариш корхоналари, таълим муассасалари ва илмий тадқиқот марказларига боради ва фаолият юритадилар.

Айнан ана шу ўринда ОТМнинг ўрни ва ишлаб чиқариш ҳамда муассасалар қайси ОТМда тайёрланган мутахассис кадрларга эҳтиёж сезиши аниқ бўлади. Демак, корхона ва муассасанинг иқтисодий барқарор ривожланиши ОТМда тайёрланадиган юқори малакали мутахассис кадрларга ва уларнинг тайёрланиш ҳолатига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Шунга асосан ОТМнинг моддий техник базасини замон талабалари даражасида шакллантириш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг механизмини такомиллаштириш бугунги куннинг долзарб масалаларидандир. Бу республикамиз Президентининг Қарор ва Фармойишларида ҳам ўз аксини топган.

“Инновацион ўқув-илмий комплекс – олий тизимини стратегик ривожлантиришнинг бош мезони сифатида” мавзусида яратилган инновацион ишланма (механизм), айнан, бугунги кунда олий таълим тизимини ривожлантиришда асос бўлувчи олий таълимни ислоҳ қилишда аҳамиятга эга бўлган амалий тавсиядир.

Тавсия этилаётган механизмда жамиятнинг асосини ташкил этувчи 3 та муҳим ва улкан йўналишлар, яъни ОТМ, фан ва ишлаб чиқариш ўртасида кучли ва замон талаблари даражасидаги симбиотик алоқани шакллантиришга эътиборни қаратиш кераклиги эътироф этилади. Бунда таълимдаги ўзига хос модел - “таълим учбурчаги” механизми шаклланади.

Тавсия этилаётган ишланмада олий таълим тизимини ривожлантириш ва олий таълим сифатини оширишнинг 2 та устувор йўналиши эътироф этилади:

1. **Биринчи устувор йўналиш.** ОТМ фаолиятини “Илм орқали билим” тизими асосида ташкил этиш. Бунда ОТМ фаолиятида илмий тадқиқот биринчи ўринга қўйилиши керак. Илмий тадқиқот ва унинг натижасисиз ОТМда таълим сифатини ошириш, инновацион фаолиятни ривожлантириш мумкин эмас. Кафедра, факультет, ОТМ базасида илмий лаборатория/марказ/ИТИ ташкил этилиши/яратилиши лозим ва профессор-ўқитувчининг

ОТМдаги фаолияти учун энг муҳим критерия тадқиқотчи бўлиши талаб этилиши мақсадга мувофиқ.

2. **Иккинчи устувор йўналиш.** “Амалиёт/ишлаб чиқариш жараёни орқали билим” тизимини жорий этиш. Бунда ОТМ ва ишлаб чиқариш фаолиятларини узвий боғлиқлигини таъминловчи симбиотик алоқа бўлиши муҳим аҳамиятга эга. Бу гигант тузилмаларнинг алоқаси шунчаки ҳамкорлик шартномаси билан эмас, балки кафедра ёки уларнинг филиалларини ишлаб чиқариш базасида ташкил этилиши билан боғлиқ:

Биринчидан, бу таълим сифатини ошиши ва юқори малакали кадрлар тайёрлаш имкониятини беради.

Иккинчидан, илмий тадқиқот фаолиятини асосли ва юқори даражада ташкил этиш ва йўлга қўйиш имкониятини беради.

Шунга кўра, ишлаб чиқариш базасида тадбиқ этиш бўлими, ОТМ базасида эса ишлаб чиқариш бўлими ташкил этилиши мақсадга мувофиқ. Бунда илмий тадқиқот фаолиятини юқори даражада йўлга қўйиш ва таълим сифатини ошириш механизмларини такомиллаштириш талаб этилади.

Инновацион фаолият ва олий таълим тизимининг стратегик ривожланиши юқорида қайд этилган иккита устувор йўналишни ташкил этилишига кўп жиҳатдан боғлиқ. Бу икки устувор йўналиш ОТМ истиқболини белгилашда аҳамиятлидир. Бу ОТМнинг ҳам моддий-техник базасини босқичма-босқич замон талабалари даражасида шакллантириш ва ҳам юқори малакали мутахассис кадрлар тайёрлаш имконини берувчи тизим яратилиши ёки халқаро миқёсда исботини топган тизимга ўтишга асос бўлади.

FAN, TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISHDA INTEGRASIYA YO‘NALISHLARI

Amanboyeva R.S
Guliston davlat universiteti. O‘qituvchi.

Integratsiya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, integratio- tiklash, to‘ldirish hamda integer- butun degan ma’nolarni anglatib, qismlarni bir butunga aylantirish uchun birlashtirish ularni qo‘shish yoki almashtirish harakatidir. [1]

Hozirgi kunda integratsiya atamasi turli sohalarni qamrab oladigan ijtimoiy tushuncha sifatida ishlatilmoqda.[2]

Ishlab chiqarish jarayoni hamda fanning birlashuvi ilk bor Kaliforniyaning Stendford Universitetida shakllangan. Hozirgi kunda ishlab chiqarish va fan, ta’limning asosiy shakllaridan biri bu Universitet qoshidagi ilmiy tadqiqot insitutlarining shakllanishidir. [3]

Integratsiya jarayoni ta’limning barcha darajalarini, fan va ishlab chiqarish tizimi va infratuzilmasini qamrab oladi va o‘zgartiradi.

Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarishning rivojlanish bosqichlariga muvofiq, ilmiy-tadqiqot institutlari va ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari, jumladan, universitetlar bilan integratsiyalash shakllari ishlab chiqilmoqda. Integrasiyaning turli yo‘nalishlari va shakllari paydo bo‘lishi va takomillashishi bilan ularning bu jarayondagi roli va o‘rni ortib boradi

Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatish mumkin. Bu o‘quv jarayonini ilmiy yoki ishlab chiqarish faoliyati bilan birlashtirishni o‘z ichiga oladi va mutaxassisni keyingi kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashtirishning eng muhim shakli hisoblanadi.

Innovatsion salohiyat milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimidagi o‘rnini belgilovchi strategik resursdir. Ko‘pgina mamlakatlarda innovatsion salohiyat iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai sifatida qaraladi va milliy boylikning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Innovatsion salohiyatga yetarlicha baho bermaslik va undan yetarli darajada foydalanmaslik davlat tomonidan belgilab berilgan iqtisodiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishni qiyinlashtiradi va raqobatbardosh, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

Mamlakatning innovatsion yo‘lga o‘tishi sharoitida nafaqat texnik g‘oyalarni yaratish, balki ularni ichki va tashqi bozorda tijoratlashtirishga ham qodir bo‘lgan innovatsion markazlarni yaratish va rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Innovatsion markazlar iqtisodiy muhitni shakllantirish, davlatning ilmiy-texnikaviy va innovatsion siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashish, ilmiy-texnikaviy, o‘quv va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshirishga

mo‘ljallangan. Innovatsiya va texnologiya markazlari fundamental va amaliy fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lishga mo‘ljallangan.

Innovatsion markazlar faoliyatining belgilab beruvchi yo‘nalishi yangi yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga ko‘maklashish va oliy o‘quv yurtlarining ilmiy-texnikaviy salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar va kichik yuqori texnologiyali biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini sifatli kadrlar bilan ta’minlashdan iborat.

Ilm-fanning ishlab chiqarish sohasiga ta’siri ilm talab qiladigan tarmoqlarning shakllanishiga olib keldi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning ushbu tarmoqlarining o‘ziga xosligi ilmiy tadqiqotlar va yangi mahsulotni eksperimental ishlab chiqish uchun xarajatlar ulushining umumiy xarajatlar miqdorida keskin ortib borishidadir. Ishlab chiqarishni intellektuallashtirish, o‘z navbatida, ta’limning ilmiy salohiyatni va umuman ishlab chiqaruvchi kuchlarni takror ishlab chiqarish sohasi sifatida faol rivojlanishini oldindan belgilab berdi. Industrial jamiyatda ta’lim mehnat unumdorligini oshiradi va mehnat natijalarini sifat jihatidan ham, umuman ijtimoiy rivojlanish uchun ahamiyati jihatidan ham qimmatli qiladi.

Bundan tashqari, jamiyatdagi ta’lim darajasi ilmiy kashfiyotlar soni va tezligini, shuningdek, ularni sanoat sohasida tarqatish tezligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nazarova G. Xalqaro iqtisodiyot integratsiya. Toshkent. Tafakkur 2010y 36-b.
2. Yo‘ldoshev A.A Fan ta’lim ishlab chiqarishda integratsion yondashuv M;2022y, 668-b.
3. Aliakberova A.E Развитие государственно-частного партнерства в области образования как фактор повышения конкурентоспособности российской экономики в условиях глобализации // Потенциал и перспективы России в условиях глобализации. – М., 2011.
4. Абалкин Л.И. Государство в меняющемся мире // Вопросы экономики. - 2009. - №1. - С. 7-12.
5. Богомолов В.А., Егоршев И.М. Научные парки и технополисы в развитых капиталистических странах // Итоги науки и техники. - 1991. - Т. 13. - С. 142-177.
6. Габитов А.Ф. Формированиеи государственное регулирование инновационнои системы России в условиях глобализации: автореф. дис. ... канд. экон. наук - М.: МГУ им. М.В. Ломоносова, 2006. - С. 45-51.

БИОЛГИЯ ДАРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Мадрахимов Мусурмон Иномжонович
Гулистон давлат университети

Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг дастлабки йилиданоқ асрларга арзигулик мазмун ва самара касб этадиган ислохатлар амалга оширилди. “Таълим тўғрисидаги” қонун ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да баркамол шахс тарбияси давлат аҳамиятига молик муҳим масала устивор йўналиш сифатида белгиланди. Бу мақсадга эришишнинг самарали воситаларидан бири “Ўқитишнинг илғор шакллари ва янги педагогик технологияларни, таълимнинг техник ва ахборот воситаларини ўқув жараёнига жорий этишдан” иборатдир.

“Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”ни амалга жорий этиш йилларида республикамиз таълим тизимида қатор мухим ўзгаришлар юз берди. Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида кўрсатиб ўтилганидек, “Таълим жараёни барча даражада компютерлаштирилади ва ахборотлаштирилади, шунингдек, замонавий ахборот технологиялари базасида таълим жараёнининг ахборот таъминоти ривожлантирилади”. Сўнги йилларда мамлакатимизнинг барча соҳаларида бўлгани каби, таълим тизимида ҳам ўзига хос янгиликлар қарор топмоқда. Айниқса таълим тизимини технологиялаштириш, таълим самародорлигини ошириш ҳамда ижтимоий ҳаётимизга кириб келаётган янги иновацион технологияларни қўллаш асосий вазифаларимиздан биридир. Чунки янги иновацион технологияларини тезда қабул қилиш, уларни тахлил этиб, назарий жиҳатдан умумлаштириш, хулоса чиқариш ҳамда талабаларга етказиб бериш ҳозирги куннинг энг долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Педагогок технологияларни ривожлантириш назарий асосларини танқидий равишда таҳлил қилиш, таълим жараёнига нисбатан самарали ёндашувини амалга ошириш ҳисобига эришилади. Таълим

тизимида ахборот технологияларини қўллаш, асосан, шахсий компьютерлар ва ахборот технологяиларининг педагогик дастурий воситалари яратилиши билан боғлиқ.

Хозирги кунда таьлим жараёнида интерактив методлар инновацион технологиялар педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида куллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда, бундай бўлишининг сабабларидан бири шу вақтгача аньанавий таьлимда ўқувчи-талабаларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологиялар уларни эгаллаётган билимларини ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб тахлил қилишларига, хатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чикаришларига ўргатади. Ўқитувчи бу жараёнда шахсни ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади ва шу билан бир каторда бошқарувчилик, йўналтирувчилик функциясини бажаради. Таълим жараёнида ўқувчи-талаба асосий фигурага айланади.

Шунинг учун ўқув юртлари факультетларида малакали касб эгаларини тайёрлашда **замонавий ўқитиш методлари – интерактив методлар, инновацион технологияларнинг** ўрни ва роли катта. Педтехнология ва пед махоратга оид билим, тажриба ва интерактив методлар ўқувчи-талабаларни билимли етук малакага эга булишларини таъминлайди.

Ахборот технологияларининг мультимедиа воситалари асосида ўқув-материалларини образли кўринишда ифодалашдек муҳим имконият мавжуд. Маълумотларни матн сифатида эмас, балки образлар воситасида тақдим этиш ахборот технологияларининг таълим тизимида ўзига хос инқилобий жараён эканлигидан далолат беради. Образлар кўринишидаги маълумотларни тақдим этиш ўқитишга ва фикрлашга кескин равишда таъсир этиши мумкин. Бунинг сабаби, образлар кўринишида берилаётган ўқув материаллари матн кўринишидагига нисбатан инсон томонидан осон ўзлаштирилиши (чунки билимларнинг 65-70 фоизи кўриш орқали олинади) ва унга ижобий таъсир этишидир. Обзарлар кўринишида маълумотларни тақдим этиш матн кўринишидагига нисбатан принципал жиҳатдан фарқ қилиб, инсоннинг фикрлаш учун жуда муҳим восита сифатида ишлатилиши мумкин.

Биология йўналишида мутахассислик фанларидан лаборатория машғулотларини тақдимот кўринишда тайёрланган электрон материаллар асосида ўтказиш амалий томондан мухим ахамиятга эга бўлиб, айниқса лаборатория машғулотлар бўйича Виртуал стендларнинг яратилиши ўқув жараёнида замонавий педагогик-ахборот технологлари асосида лаборатория ишларини бажарилишини таъминлайди. Бундан ташқари, виртуал стендларининг яратилиши натижасида лаборатория шороитда ўтказилиши мумкин бўлмаган (заҳарли моддалар, матирелларининг етишмаслиги) ишларини бажариб кўрсатиш ва улар асосида ўтказилаётган ишларни экологик соф муҳитида бажариш имкониятини беради. Виртуал стендлардан амалий ва лаборатория ишларини бажаришда фойдаланиш ўқув жараёнининг самарадорлигига эришишни таъминлайди. Компеютерда яратилган лабаратория ишларининг виртуал стендларини ўқувчи-талабалар ўзлари учун қулай ва зарур вақтларда кўриши, такрор бажариши, муҳокама қилиши каби имкониятларга эгадир. Бу эса уларнинг ўзлаштириш сифат кўрсатгичини оширишга олиб келади. Яна муҳим томонларидан бири-бу виртуал стендлардан фойдаланилганда ўқув материалларининг сарф қилинишини тежалишидир. Чунки компютерда виртуал стенд билан шуғалланган ўқувчи-талабалар лаборатория шароитида ишлатилаётган (реактив ва шунга ўхшаш) материалларини исроф қилмасдан керакли меъёрда ишлатишга эриишилади.

Замонавий педагогик технологиялар таълим тизимига кириб келар экан, керакли педагогик шарт-шароитлар бўлиши тақоза этилади. Кўпгина педагогик олимларнинг илмий изланишларидан маълумки, агар педагогик жараёнда моддий техник таъминот, метод, усул, ўқитувчи шахси ўзаро бир-билан боғлиқ холда таъсир этса, бу жараён мукаммал ва самарали бўлиши мумкин.

Таълим беришда янги иновацион технологияларнинг самараси, албатта олдинги анъанавий ўқитишдан кўра юқори натижани беради. Ҳозирги вақтда ҳар бир узлуксиз таълимда ўқитиш шакллари замонавий педагогик технологиялар асосида олиб борилаётганлиги ўз натижасини кўрсатмоқда. Замонавий ва ахборот комуникацион технологияларининг дарс жараёнида қўлланиши, таълим сифатининг ошишини самараси катта бўлиб, бунда ўқувчи-талабанинг ўзи дарсни ўтказади , муаммаони ечади, ўқитувчи уни назорат қилиб, йўналиш берган ҳолатда машғулотлар ўтказилади. Ўқув машғулотини иновацион технология асосида

ташкил этишни режалаштиришда, педагогдан юксак малака талаб этилади, материаллар тайёр бўлгач, педагог асосан ташкилий ва консультатив вазифаларни бажаради. Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, дарс жараёнида ушбу технологияларни қўллаш, гуруҳда жамоатчилик билан амалга ошириш имкони бўлмаган фаолият турларини индивидуаллаштирган ҳолда мустақил бажариш имконини беради. Биология дарсларида замонавий педагогик ва информацион



технологиялардан фойдаланиш дарс самаражорлигини оширади ва талабаларни ижодий изланишга ва мустақил фикрлашга олиб келади, бу эса таълим самарадорлигини ошириш имконини беради.

1-расм.Транспирация интенсивлигини тарози 2-расм. Фотосинтез интенсивлигини аниқлаш усулида аниқлаш

ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ИНТЕРАКТИВ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Сафарова Наргиза Камаловна
ГулДУ “Биология” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: мақолада ўқув жараёни замонавий техник воситалар, ахборот-коммуникация тизимлари ва дастурий маҳсулотлар билан ишлашнинг имкониятлари очиб берилган.

Калит сўзлар: ахборот, база, масофали таълим , техник воситалар, виртуал , ўқув-методик таъминот, электрон дарсликлар, ўқув қўлланмалар, ахборот, ресурс.

Республикамизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар таълим тизимини модернизациялаш ҳамда ривожланган хорижий давлатлар тажрибаси асосида такомиллаштириш, жаҳон ахборот базасидан кенг миқёсда фойдаланиш, масофали таълим имкониятларини кенгайтириш муаммоларини самарали ҳал этишни тақозо этмоқда. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “таълим ва ўқитиш сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий этиш асосида таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш” каби йўналишлар белгиланиб, бу борада биология таълимида интерактив дастурий воситалар ва электрон ресурслардан фойдаланиш самарадорлигига эришиш катта аҳамият касб этади.

Айни вақтда, умумтаълим муассасаларида замонавий ўқув ва моддий-техник база яратилган. Ўқув жараёни замонавий техник воситалар, ахборот-коммуникация тизимлари ва дастурий маҳсулотлар билан таъминланган. Айни вақтда узлуксиз таълим тизимининг барча босқичларида ўқув жараёнини ташкил этиш педагогик ва ахборот технологияларидан уйғун фойдаланган ҳолда махсус виртуал таълим технологиялари асосида амалга оширилмоғи лозим. Шунингдек, замонавий таълим жараёни талабларига мувофиқ ўқув-методик таъминот: электрон дарсликлар, ўқув қўлланмалар, ахборот-коммуникация тахеологиялари ва махсус компьютер дастурлари воситасида амалга оширилишини талаб этади. Мазкур жараённи самарали амалга ошириш учун таълим муассасаларининг моддий-техник таъминотини бугунги кун талаблари

даражасида қайта жиҳозлаш, биология таълими жараёни учун электрон ахборот ресурсларини шакллантириш ва ривожлантириш, виртуал таълим технологияларидан таълим жараёнида самарали фойдаланишни таъминлашнинг илмий-методик тизимини (механизмини) ишлаб чиқиш лозим.

Ҳозирги вақтда ахборот коммуникация технологияларининг ривожланиши натижасида таълим жараёнида янги технологиялар кириб келмоқда. 2014 йилдан бошлаб таълим ресурслари янгича – 3 ўлчовли кўринишга эга бўла бошлади. Бугунги кунда яратилган электрон дарсликлар, мультимедиали ўқув қўлланмалар компьютерларда 3D кўринишида, 3 ўлчовли аниқ ҳажмга кўринишга эга бўлди. Тирик организмларда амалга ошадиган кимёвий реакцияларни ёки кузатиш, кўз билан кўриш имкониятига эга бўлмаган жараёнларни авваллари анимация кўринишида ўрганилган бўлса, эндиликда 3D маконда ўрганиш имконияти пайдо бўлди. Айни вақтда молекулаларда кечаётган жараёнларни, кимёвий реакцияларни, молекула даражасида худди шу молекула сифатида ўша жараёнга қатнашиб ўрганиш имконияти вужудга келди. Ҳозирги вақтда

Витуал машғулотлар ўзлаштирилиб борилмоқда. Айнан мана шу технологияларнинг барчаси таълим жараёнида қўлланилиб келинмоқда ва натижада ўқув жараёнини ташкиллаштириш учун маълум бир имкониятлар вужудга келди. Таълим муассасаларида электрон таълимни ривожлантириш ва кенгайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Биология фанидан дарсларни ёки эскурцияларни виртуал борлиқ муҳитида ташкиллаштириш имконияти мавжуд. Виртуал борликда хавфли бўлган жараён ва ҳолатларни моделлаштириш орқали кузатиш ва амалга ошириш мумкин.

Экскурция бевосита кузатиш асосида муайян жараён, воқеа-ҳодиса ёки фаолият мазмунини ёритувчи билимларнинг пухта ўзлаштирилишини таъминловчи таълим шаклидир. Экскурциялар синф-дарс тизими, шунингдек, амалий машғулотлардан тубдан фарқ қилади. Экскурция давомида бир жойдан иккинчи жойга кўчиб юрилади. Шу боис, ўқувчилардан қатъий интизомга риоя қилиш талаб этилади. Ўқувчилар объектни кузатиш жараёнида вақти-вақти билан саволлар беради, зарур маълумотларни ёзиб боради. Экскурция якунида ўқитувчи бугунги кузатишларини аввал ўзлаштирилган материалларга боғлаб суҳбат ўтказади. Экскурция материаллари асосида баён ёки иншо ёздириш экскурция натижаларини самарали бўлишига ёрдам беради.

Хулоса қилиб айтганда, замонавий педагогикада виртуал таълим жараёнидан фойдаланган ҳолда ўқув жараёнини ташкиллаштириш муаммоси мавжуд бўлиб, биология таълими мисолида виртуал борлиқ технологияларидан фойдаланиш масофавий таълим имкониятларини кенгайтиради ҳамда иқтисодий самарадорликни юқори даражага кўтаришга ёрдам беради. Юртимизда олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотлар натижасида таълим муассасаларининг “Биология ўқитиш методикаси” йўналишларида ўқув жараёнини интерактив дастурий воситалардан фойдаланиб ташкил этишга, электрон ўқув-методик ресурслари, ахборот тизимларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Изчил ислоҳотлар натижасида таълим муассасаларида ўқув жараёнини видеоконференцалоқа ва масофадан ўқитиш методларидан фойдаланган ҳолда ташкил этиш ҳамда биология таълимида интерактив дастурий воситалардан илғор тажрибаларга таянган ҳолда самарали фойдаланишнинг такомиллаштирилган дидактик таъминоти яратилди. Амалга оширилган ишлар билан бир қаторда бугунги кунда соҳада интерактив дастурий воситалардан фойдаланиш мазмуни ва амалий-технологик тизимини такомиллаштириш зарурати юзага келмоқда. Дунёда педагогика олий таълим муассасалари ўқувчиларининг биология таълимида интерактив дастурий воситалардан самарали фойдаланишни такомиллаштириш бўйича қуйидаги устувор йўналишларда тадқиқотлар олиб борилмоқда: олий таълим тизимида электрон ўқув модулларини яратиш механизмларини такомиллаштириш;

виртуал таълим технологияларини ишлаб чиқиш;

интеллектуал таълим технологияларидан фойдаланиш; виртуал

лабораториялар, амалий машғулотлар, экскурсияларни ташкил этиш; ўқувчиларни биологиядан замонавий ахборот технологиялари, интерактив дастурий воситалардан самарали фойдаланишга касбий тайёрлашни таъминлашга йўналтирилган таълимий муҳитни яратиш жараёнини моделлаштириш. Жаҳон амалиётида ўқувчиларнинг биология таълимида интерактив

дастурий воситалардан фойдаланиш компетентлигини ривожлантириш технологияларини такомиллаштириш, ўқувчилар билим сифати даражасини орттиришга қаратилган мультимедиа воситалари яратиш бўйича илмий тадқиқотларга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Адабиётлар рўйхати:

1. F.Umarova, A.Ubbiyeva, F.Gaibnazarova, N.Jo‘rayev “O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. ”Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quv modullari. 2- modul, 2-nashr. T., “Bekinmachoq-plyus”.2013
2. D. Elmuratova. Theoretical Basis of Training Future Techers to Innovative Professional Activities. Eastern European Scientific Journal. Б 194-197. Germaniya. Ausgabe 1-2017.
3. Элмуратова Д. Бўлғуси ўқитувчиларни инновацион касбий фаолиятга тайёрлашнинг таркибий компонентлари Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат Университети Ахборотномаси № 4 Б 44-46 .Нукус 2017
4. Элмуратова Д. Бошланғич синф ўқитувчисининг инновацион фаолиятга касбий тайёргарлигининг асосий кўрсаткичлари. ТДПУ Илмий Ахборотномаси, илмий-назарий журнал. № 1. Б.63-68 Тошкент 2019
5. Элмуратова Д. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини табиатшуносликдан касбий фаолиятга тайёрлашнинг ўзига хос жиҳатлари. Тафаккур сарчашмалари. Магистрларнинг илмий-амалий мақолалари тўплами. Б.247-249. ТДПУ, Тошкент 2010
6. Элмуратова Д. Проблемы подготовки будищих учителей начальнога образования к профессиональной деятельности. Инттеграция науки и практики в современных условиях материалы VIII Междунароной конференции. Стр 91-93 Москва 2017
7. Элмуратова Д. Талабаларда креативликни ривожлантириш йўллари. Биология фанининг долзарб муаммолари ва уни ўқитишда инновацион технологиялар илмий-амалий анжуман материаллари тўплами .Б 138-141. ТДПУ. Тошкент 2017
8. Элмуратова Д. Acmelogig aspekt of professional-pedagogical preparation of the future teacher of initial classes. Молодежь и наука: шаг к успеху Сборник научных статий Всероссийской научной конференции перспективных разработок молодых ученых. Стр 10-13. Курск 2017

БИОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Холдаров Алишер Зариф Ўғли
Гулистон давлат университети

Сўнгги йилларда таълим тизимига шиддат билан кириб келаётган янги педагогик технологиялар, инновациялар, янги-янги педагогик-психологик тушунчалар, интерфаол методларни таълим берувчи томонидан ўзлаштирилиб ва қўлланиб борилиши, таълим мазмунини тубдан ўзгартириб юборди десак муболаға бўлмайди. Замонавий ўқитувчи дарс жараёнида «актёр» эмас, аксинча «режиссёр» бўлиши кераклигини англаши лозим. У ўз ўқувчи-талабаларини фанга ижодкорлик нуқтаи назари билан қарашларини ташкил қилиши, уларда изланувчанлик хусусиятларини шакллантириши ва албатта, янги педагогик технология усулларидан фойдаланган ҳолда дарсни ташкил этиши керак бўлади. Бунинг учун эса у бир неча янгича таълим усулларини яхши билиши керак [3].

Таълим жараёнида интерактив методлар, инновацион, педагогик ва ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда, бундай бўлишининг сабабларидан бири, ноанъанавий таълимда ўқувчиларни билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатади. Ўқитувчи бу жараёнда шахсни ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади. Шу билан бирга бошқарувчанлик, йўналтирувчанлик функциясини бажаради. Таълим технологиясини дарс жараёнида қўллаш бугунги кунда қуйидагиларни ўқитишнинг асосий мезонлари бу-норасмий мунозараларни ўтказиш, ўқув материалларни эркин ифодалаш, маъруза сонини камайтириш,

ўқувчиларни ташаббускорликка чорлаш, жамовий изланувчанликни талаб қиладиган гуруҳий вазифалар ва ёзма ишларни бажаришдир. Ўзаро фаоллашиш орқали индивидуал, жуфт-жуфт ёки жамоа бўлиб фикрлаш деб юритилади, яъни педагогик таъсир этиш усуллари бўлиб таълим мазмунининг таркибий қисми ҳисобланади. Бу методнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагог ва ўқувчиларнинг биргаликда фаолият кўрсатиш орқали барча ўқувчилар фаоллашиши зарур, яъни дарс ўтиш жараёнида ўқув материалларининг маълум бир қисми ўқувчилар томонидан мустақил ўрганилади, сўнгра бу материал синфда ҳар томонлама муҳокама этилади [2].

Ҳозирги кунда академик лицей ўқувчиларини дарс давомида фаоллигини таъминлаш ва билимини оширишда бир қанча ишлар амалга оширилиб келмоқда. Бунда талабаларни амалиёт дарсларида интерфаол методлардан бир нечтасини мавзуга солиниб дарс ишланмаси ишлаб чиқилди ва улар ушбу дарс ишланмага таяниб SMS, блиц-сўров методини Таянч ҳаракатланиш тизими мавзусида қўллаб дарсни қуйидагича ташкил этилди. Бунинг учун мавзуга оид плакатлар доскага илинди, янги мавзу мультимедияли материаллар асосида тушунтирилди. Мустаҳкамлаш босқичида мавзу юзасидан ишлаб чиқилган топшириқлар кичик гуруҳларга тарқатилди ва вақт белгиланди.

Вақт тугагач тақдимот асосида тўғри жавоб кўрсатилади ва ўқувчилар баҳолаш тизими бўйича ўзларини баҳолайди. Тадқиқотларимиз натижаси шуни кўрсатдики, дарс давомида интерфаол методлардан фойдаланиш ўз самарасини берди, бир дарсда 20 нафар ўқувчи баҳоланди. Дарс давомида қўйилган мақсад ва вазифалар қисқа, ўртача, узоқ муддатлилига қараб бажартиб олган ҳолда самарали режалаштиришга эришилди. Муаммоларнинг ечимни топишда муаммони муваффақиятли ҳал этиш учун унинг турли жиҳатлари аниқланди ва тахлил этилди. Ҳар бир дарс жараёнида тўғри қўлланилган метод, ўқувчиларни фаоллигини, қизиқишини, ижодий фикрлашини, энг муҳим пеш қадамлиликни оширишига ишонч ҳосил қилинди, бу эса энди ўқитувчилик касбига кириб келаётган ёш мутахассисларни ўз устида тинимсиз ишлашга ва янгидан янги методларни дарс жараёнида қўллашга олиб келади.

SMS МЕТОДИ

1-топшириқ: Қуйида келтирилган суякларни фақат тартиб номерини қайси склет суяклар гуруҳига киришини кўчиринг ва жадвални тўлдиринг

	Ўмров	0	Кичик болдир	9	Сон	8	Товон
	Пешона	1	Тос	0	Елка	9	Соҳта
	Панжа	2	Тепа	1	Энса	0	Номсиз суяк
	Ҳақиқий (чин)	3	Курак	2	Бармоқ	1	Бўйин
	Юқори жағ	4	Бурун	3	Ёноқ	2	Дум
	Кўз ёши	5	Катта болдир	4	Пастки жағ	3	Билагузук
	Кўкрак	6	Чакка	5	Чаноқ	4	Чакка
	Бел	7	Билак	6	Думғаза	5	Етим
	Тизза қопқоғи	8	Кафт	7	Елка камари	6	Тирсак

I.	**Бош склети суяклари :**
II.	**Умурқа ва кўкрак қафаси склети суяклари:**

III.	**Қўл склети суяклари :**
IV.	**Оёқ склети суяклари :**

20-26 тўғри жавоб- “қониқарли”, 27-30 тўғри жавоб- “яхши”, 31-36 тўғри жавоб- “аъло”

2-топшириқ: Қуйидаги суяк шакллари хилларини ёзинг, юқоридаги жадвалдан фойдаланиб тартиб рақами билан мисол келтиринг

Суяк шакллари	Суяк шакллари хиллари	Мисоллар келтиринг
Найсимон суяклар		1. 2.
Ғовак суяклар		1. 2.
Ғалвирсимон суяклар		
Ясси суяклар		

11-14- тўғри жавоб- “қониқарли”, 15-17- тўғри жавоб- “яхши”,18-20- тўғри жавоб- “аъло”

3-топшириқ: Қуйидаги суяк қисмларини ёзинг ва сони ҳамда номларини юқоридаги жадвалдан фойдаланиб тартиб рақам билан кўчиринг

Суяклар	Қисмларлар	Суяк ёки номлари
Бош суяги		
Гавда склети		
Умурқа поғанаси		
Кўкрак қафаси		
Қўл суяклари		
Оёқ суяклари		

20-26 тўғри жавоб- “қониқарли”, 27-30 тўғри жавоб- “яхши”, 31-36 тўғри жавоб- “аъло”

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Каримов И.А.Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.Т., 1998.

2. Базарова Р.Ш. «Таълим тизимига педагог кадрларни тайёрлаш масалалари» мавзусидаги илмий-назарий анжуман материаллари Гулистон-2016 й.

3.Баракаев М. «Глобал таълим тизимида илмий тадқиотларнинг замонавий услублари» Халқаро илмий конференция Навоий-2015 й

EKOLOGIYA LABARATORIYALARNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH

Almamatov B.
Guliston davlat universiteti, “Biologiya” kafedrasi
bahromalmamatov1988@mail.ru

Annotasiya: Oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim va labaratoriya texnologiyalaridan foydalanishni

kengaytirish hozirgi ta’lim sohasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Maqolada ekologiya bo‘yicha fanlaridan labaratoriya darslarda zamonaviy ta’limning imkoniyatlaridan foydalanish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: labaratoriya mashg‘ulot bosqichlari, ekologiyani rivojlantirish masalalari, kreativ metodlar.

Tadqiqotning dolzarbligi.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Prezident Farmonida oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda ta’lim sifatini yuqori bosqichga ko‘tarish hamda mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal etish talab etilayotganligi, o‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish lozimligi, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirish zarurati borligi ko‘rsatib o‘tilgan[1]. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetentsiyalar va o‘quv jarayonini interaktiv boshqarish mahorati tamoyillariga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish, o‘quv muddatlarini o‘zgartirmagan holda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta’minlovchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish kabi hozirgi kunning dolzarb masalalari ko‘rsatilgan [2].

Xususan ekologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tajribalarni o‘tkazish o‘quvchilarga nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirilishiga, o‘quv fanini hayot faoliyati bilan bog‘lash, tabiat hodisalarini fan nuqtai nazaridan izohlay olish kabi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, talabalarda ekologik tajribalarni o‘tkazish va amaliyotda qo‘llash kompetentsiyalarini shakllantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Ishning tadqiqot qismi.

Ekologik xavfli kimyoviy reaktivlar bilan olib boriladigan, asosan, mo‘rili shkafda o‘tkaziladigan tajribalar namoyish tajribalari qatoriga kiritish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshirish uchun ham qiziqarli namoyish tajribalari, nazariy dars jarayonida muammoli vaziyat yaratilib yechimni tajribada ko‘rsatish maqsadida namoyish tajribalaridan foydalaniladi. Bunday tajribalar asosan o‘qituvchi tomonidan yoki o‘qituvchi va bir necha nafar talabalar ishtirokida o‘tkaziladi.

Tajribalarning yuqorida keltirilgan turlaridan farqli eksperimental tajribalar murakkablik xususiyatiga ega. Eksperimental tajribalar o‘qituvchi nazoratida talaba tomonidan mustaqil amalga oshiriladi. Bunday tajribalar talabalardan nazariy bilimlar, tajribaviy tadqiqochilik ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab qiladi.

Shu bois tabiiy fanlardan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish borasidagi xalqaro tajribalarni, shuningdek, mamlakatimiz tadqiqotchilari va pedagoglari tomonidan taklif qilingan ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish asosida “Ekologiya yo‘nalishi bo‘yicha fanlardan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish” bo‘yicha labaratoriya xonasi ishlab chiqish kerak.

1-rasm. Biosfera muhitini ximoya qilish yo‘nalishi.

Mana shunday ilmiy labaratoriya xonalar joriy etish barcha talabalarni ilmiy salohiyatini oshirishga turtki bo‘ladi.

Loyiha quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- ekologiyaga oid tajribalarni amalda qo‘llash, turli muommolarni ba’taraf etish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida jamoatchilik nazoratining roli va ta’sirini oshirish;
- bioxilma-xillikni asrash, tiklash va ko‘paytirishning aniq mexanizmlari va rag‘batlantirish tizimini joriy etish;
- atrof-muhitni muhofaza qilishda davlat tashkilotlari va fuqarolarning huquq va majburiyatlari;
- ekologik nazorat va monitoring turlarini amalga oshirish tartibi, shu jumladan, “yashil iqtisodiyotni” rag‘batlantirish choralari;
- ekologik ekspertizani amalga oshirish tartibi.



2-rasm. Biosferaning tozalik darajasini aniqlash.

Bu rasmlarda atmasfera, suv, tuproq moddalar tarkibini o‘lchaydigan asboblar hisoblanadi. Bu asboblar bo‘yicha labaratoriyalarada o‘rganib, ekologik xavf-hatarni oldini olish uchun yosh tadqiqotchi sifatida ilmiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishimiz zarur.

Ekologiyani rivojlantirish uchun talabalarning tabiiy muhitni o‘rganish va yaxshilash bo‘yicha faoliyati, ta’lim jarayonida ekologik muammolarni ochib berishning global, milliy va o‘lkashunoslik munosabatlari.

Fan va an’anaviy tabiiy fanlar kurslari doirasida ochib berish eng istiqbolli hisoblanadi. Zamonaviy ekologiya tabiiy va aniq fanlar chorrahasida rivojlanmoqda, buning uchun jismoniy bilimlar fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bunda, reativ yondashuv asosida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda tayyorlov bosqichida “Mind map” va “10 ta kashfiyot” kreativ metodlaridan foydalaniladi. Tayyorlov bosqichi amaliy darsdan avvalgi nazariy darslarda olib boriladi. Shuningdek, mashg‘ulot davomida o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “O‘zganing fikri” kreativ metodidan foydalaniladi. Didaktik vosita sifatida elektron o‘quv-majmua foydalinadi.

Tadqiqotimiz doirasida olib borgan so‘rovnomalarda o‘quvchilar orasida mustaqil tajribalar o‘tkazish ishtiyoqi balandligini aniqlandi.

Xulosa.

Shunday qilib, ta’lim jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish va faol qo‘llash o‘qitish metodikasini o‘zgartiradi, bu an’anaviy usullar, uslublar va o‘zaro ta’sir usullari bilan bir qatorda o‘quvchilarda umumiy madaniy va kasbiy qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradigan innovatsion texnologiyalardan foydalanishga imkon beradi. , yuqori motivatsiya, bilim kuchi, ijodkorlik va tasavvurni ta’minlash, xushmuomalik, faol hayotiy pozitsiya, jamoaviy ruh, individuallik qadriyati, so‘z erkinligi, faollikka e’tibor, o‘zaro hurmat va demokratiya. Yangi ta’lim texnologiyalarining ta’lim jarayoniga qanchalik mohirlik bilan kiritilishi o‘qituvchining o‘ziga xos shaxsiyatiga bog‘liq. Bordovskayaning fikriga ko‘ra: "Eng qat’iy instrumental texnologiya inson mazmuni va ma’nosi bilan to‘ldirilishi, unga jon berishi, uni ma’lum darajada mualliflik qilishi, sub’ektlar, guruhlar yoki jamoalarning individual va shaxsiy xususiyatlarini, sharoitlarni hisobga olishi kerak. Yaratilgan ilmiy labaratoriyalar orqali Ekologik xavfni oldini olish talabalar orasida yangi kashfiyot g‘yalar yaratishga keng imkoniyat yaratiladi.

Foydalandan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari bazasi, 29.04.2019 y. 06/19/5712/3034-son.

2.https://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:Y88x_BPUo7EJ:https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/02/ecology/+&cd=4&hl=ru&ct=clnk&gl=uz

3.Gerasimov I.P. Zamonaviy fanni ekologlashtirishning metodologik muammolari // Falsafa, tabiatshunoslik, zamonaviylik: (tadqiqot natijalari va istiqbollari. 1970-1980) / Umumiy. ed. I.T. Frolova va L.I. Grekov. -M.: Tafakkur, 1981.-S. 151-167.

4. Белов П.С. Лабораторный практикум как эффективный способ формирования знаний и развития экспериментальных умений студентов химико-биологических специальностей в педагогическом вузе / П.С. Белов // НЕОФИТ. Выпуск 3: Сборник материалов научно-практической конференции студентов и магистрантов НГПУ. – Н. Новгород, 2006. – С. 102–103.

5. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed. Bordovskoy N.V. - 2-nashr, o‘chirilgan - M.: KNORUS, 2011. - 432 b.

KURASH HAMMAMIZ UCHUN VA URF ODATLARNI UNUTMASLIK

Saidov Umid Abdug‘afforovich
Guliston Davlat Universiteti o‘qituvchisi.

Tayanch iboralar: Kurash, tarix, rivojlanish, bosqich, farmon, qaror, mardlik, jasurlik, qadiriyat, buyuk allomalar.

Milliy qadriyatdan umuminsoniy qadriyatga aylanib bugun jahon nigohini o‘ziga mahliyo etgan kurash ma’naviy qadriyat va sport turi sifatida o‘zining chuqur tarixiga ega.

Tarixshunos, qadimshunos, elshunos va faylasuf olimlarning olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologik ilmiy qidiruvlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar kurashning yoshi kamida 2,5-3 ming yildan ziyod ekanligini tasdiqlaydi.

Asrlar sinovidan, murakkab davrlardan mardona o‘tgan, chinakam mardlar raqiblar bahsi, ezgu niyatlar, oliy maqsadlar bo‘lib e’tirof etilgan kurash yana xalq nazariga tushdi. Davlat, mamlakat darajasidagi muhim ishga aylandi. Bir necha yildirki, jahon ommasining mehrini qozonib, dunyo sport sahnasida o‘z o‘rnini topdi.

Kurash - azal - azaldan oliy janoblik, mardlik va halollik timsoli, xalqimizning bir necha ming yillik tarixiga ega milliy - madaniy merosining bir qismi va bebaho boyligi hisoblanadi.

IV asrda O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar orasida epchil akrobat-darbozlar juda mashhur bo‘lgan. Epchil, jismoniy jihatdan juda chiniqqan darbozlar, chig‘iriqli simbozlar Yunoniston, Vizantiya va Eron kabi mamlakatlarga borib, o‘zlarining ajoyib va hatarli o‘yinlarini qiziqchi va masqarabozlarning utkir satira va kulgi bilan sug‘orilgan turli sirk sahnalari, o‘qdek uchadigan muollaqchilar va kishi aqli devor qilmaydigan pahlavonlarining o‘yinlari, hukakchi va yog‘och oyoqlarining jo‘shqin raqslari va ot o‘yinlarini chuqur ma’noli so‘zlarni va baytlarini sozandalarning bu o‘yinlarga moslagan mashqlarini ko‘z- ko‘z qilganlar.

Qadim zamonlarda jamoa jismoniy tarbiya sohasida o‘z davrlari zimmasiga ma’lum majburiyatlar yuklagan. Qizlar va yigitlar hayotda kerak bo‘ladigan epchillik, chidamlilik, chaqqonlik qat’iylik va jasurlik kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishlari shart bo‘lgan.

Buyuk alloma Ibn Sino turli mashqlar orasida me’yori bilan uzoq va tez yugurish, kurash tushish va ot minishni alohida ta’kidlagan. Ibn Sinoning fikricha, mashqlardan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad qon aylanishini, nafas olishni va organizmdagi moddalar almashuvini yaxshilashdan iboratdir deydi.

Alisher Navoiy hazratlari ham kurashdan uni dovrug‘ini 7 iqlimga taratgan polvonlar bahsidan huzurlangan. Shu bois ko‘plab asarlarda polvonlar hayoti va faoliyatiga oid ajoyib-g‘aroyib voqealar lavhalarni yozib qoldirgan. Pahlavon Muhammadning odobi, sahiyligi, beozorligi, sofdilligi, mardligi, mehmonnavozligi, halolligi polvonlarga hos bo‘lgan ulug‘hislatlar ekanligini qayt etgan.

O‘z zamonasida qudratli saltanat qurgan Amir Temur buyuk davlat arbobi marifatparvar hukumdor, salohiyatli sarkarda bo‘lib qolmasdan ayni vaqtda kurash ilmiy hadisini mukammal

egallagan. Kuchli polvon sifat inson ham bo‘lgan. Shuning uchun u mamlakatda yoshlarni chiniqtirish, vatanni sevuvchi, yurt xizmatiga kamar basta, yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazishda kurashning tutgan o‘rniga katta ahamiyat bergan.

Qadimgi Sug‘diyona markazi bo‘lgan Samarqandda Navro‘z bayrami har doim xalq tomoshalari bilan o‘tgan. Bularda xalq san’at vakillari, bahshilar, xonandalar, hofizlar, darbozlar, raqqosalar o‘z san’atini namoyon qilishgan. Bu bayramlarda xalq darbozlarning chiqishi va poygani zo‘r qiziqish bilan tomosha qilishgan. Lekin har bir bayram kurashsiz o‘tmagan. Musobaqalar natijasida har yili kurashchilardan biri Sug‘diyona polvoni nomini olgan. Bayramlarda ushbu polvon obro‘li joyda o‘tirgan. Qurbon hayit bayrami kunlarida doimo kurash bellashuvlari o‘tkazilgan.

O‘zbek xalqi qadimdan kurashni insonni jismonan tarbiyalash vositasi deb qaralgan. Xalq o‘zida kuchlilikni, chidamlilikni, iroda va botirlikni mehnatkash xalqning ahloqiy sofligini mujassamlashtirgan kurashchi polvonlarga hurmat bilan munasabatda bo‘lgan. Kurashchilar juftini tanlashda ularning vazini ko‘z bilan chamalab aniqlagan. Bellashuv oldidan kurashchilar oyoq - qo‘llar chigilini yozish mashqlari sifatida gavdani uqalash, silash kabi mashqlarni qo‘llaganlar. Kurashchilar an’anaviy kiyimda musobaqalashgan. Farg‘ona qoidasi bo‘yicha kurashchilar paxtali choponda, Buxoro qoidasi bo‘yicha kurashchilar esa paxtasiz to‘n kiyib kurashganlar. Kurashchilar ba’zan mahsi kiyib, asosan oyoq yalang kurashganlar. Kurashchilarining bunday kiyinishi hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

O‘tmishda Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Qoraqalpog‘iston avtonom Respublikasi hududida Buxorocha kurash ya’ni kurash, Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Sirdaryo hududlarida Farg‘onacha kurash, ya’ni belbog‘li kurash rasm bo‘lgan.

Bugun dunyoga keng tarqalgan kurash o‘zining uzoq tarixiga ega ekanini ta’kidlab o‘tdik. Kurash odamlar qabila-qabila bo‘lib yashagan ibtidoi jamoa davrdayoq rasm bo‘la boshlagan. Buni ko‘pgina arxeologik, etnografik, yozma manbaalar va turli tuman yodgorliklar ham tasdiqlaydi.

Yunon tarixchisi Elion Saklarda bir odat bo‘lishganligini, ya’ni bu odatga ko‘ra, uylanishni istagan har bir yigit o‘zi tanlagan qiz bilan yakkama-yakka bellashishi lozimligi, bu kurashda g‘olib chiqsagina qiz yigitniki bo‘lishligi, qizni yenga olmagan taqdirda esa yigit uning asiri bo‘lib qolishligi haqida esa ma’lumot beradi. Ayollar o‘z jismoniy kuchlarini va harbiy fazilatlarini ongli ravishda baholay olganlar. Ular o‘z muhabbatlari va baxtlari uchun kurashishga tayyor edilar. Shuning uchun ham bahodirlar o‘z sevganlarini jangda qahramonlarcha oqlashlarini qat’iy talab qilganlar.

Qadimgi kurash usullaridan XX-asrdagi kurash usullari bir birida ancha farq qilgan. Qadimda bellashuv natijalari ko‘proq kurashchining texnik taktik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lgan. Ommaviy kurash mahalliy xalq orasida milliy ongining o‘sishiga turtki bo‘layotganligini fahimlab Turkiston hukumati 1915- yilda kurashni taqiqlab qo‘ygan.

1918- yil 22- aprelda “Harbiy san’atga majburiy o‘rgatish to‘g‘risda” qaror qabul qilingan. Bu qarorni amalga oshirish uchun vatan budofasiga zahira tayyorlash birlashmasi tashkil qilinadi. Ushbu birlashmaning asosiy vazifasi mahalliy aholi tarkibidan zahiralarni jismoniy tomonidan tayyorlashga rahbarlik qilishdan iborat bo‘lgan. Bu ma’suliyatli tadbirni muvofaqqiyatli amalga oshirish uchun ya’ni jismoniy tayyorgarligini aniqlashi sportning bir necha turlaridan, ayniqsa, kurash sportidan asosiy vosita sifatida foydalanishgan. 1920- yil 10 -oktyabrda Toshkentda o‘tkazilgan birinchi O‘rta Osiyo olimpiadasida sportning milliy turlari, shu jumladan, belbog‘li (Farg‘onacha) kurash ham keng namoyish qilinadi. Sportning bu turi bo‘yicha O‘zbekistonlik polvonlar g‘olib chiqishgan, 1921- yilda o‘tkazilgan ikkinchi O‘rta Osiyo olimpiadasida ham O‘zbekiston polvonlari birinchi o‘rinni olishgan. Bu olimpiadada ham belbog‘li kurash namoyish qilingan. 1926- yil ohiriga kelib O‘zbekistonda sport bilan shug‘ullanayotganlar soni 20 minga yetdi. Ularning 40 foizi mahalliy yoshlardan iborat edi. Kurash mahalliy yoshlarni sportning boshqa turlari bilan shug‘ullanishga jalb qilishda eng maqbul omil bo‘lgan. 1928-yil Qo‘qon shahrida birinchi jismoniy madaniyat bayrami o‘tkazilgan ushbu bayramda belbog‘li kurash bo‘yicha musobaqa uyushtirilgan.

Kurash musobaqasida Respublikada dong‘i ketgan, 39 ta polvon maydonga chiqishgan. 6 kun keskin davom etgan. Musobaqada Farg‘onalik 65 yoshar Ilmiyamin Ilim buva g‘alaba qozongan va O‘zbekistonning eng kuchli polvoni degan faxrga sazovor bo‘lgan. 1934yilda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo xalqlari birinchi spartagiyasi dasturiga kurashning kiritilishi uning roli oshganligidan dalolat beradi. Bu spartakiyadada kurashchilar 4 ta vazn toifasida kurashishgan. Kurashning “Farg‘onacha” va “Buxorocha” turlari bo‘yicha ham O‘zbekiston jamoasi birinchi o‘rinni egallagan. 1936-yilda

Toshkentda maxsus kurash maktabi ochiladi va O‘zbekistonning kuchli kurashchisi Asqar Ataboyev bu maktabning rahbari va murabbiyi etib tayinlanadi.

A.Atoyevning tashabbusi bilan 1964- yildan boshlab kurash Buxoro Davlat Pedagogika institute (hozirgi BuxDU) jismoniy tarbiya fakulteti o‘quv rejasiga kiritilgan. Birinchi bor 1969 -yilda O‘rta Umumiy ta’lim maktablarining 8- 10 sinf jismoniy tarbiya dasturiga milliy kurash kiritilgan. 1991-yil O‘zbekiston Mustaqillikga erishgach milliy sport turini jahon arenasiga olib chiqish masalasi ilk bor muhokama qilindi. 1991-yil 14-15 iyunda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston ilmiy konferensiyasida K.Yusupov tomonidan yaratilgan milliy kurashning yangi qonun-qoidalari, hakamlar hamda kurashchilar kiyimlari tasdiqlandi va shu yili sport gazetasining 17- sentyabr sonida e’lon qilindi. 1992- yil birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov kurash mutaxassislari bilan muloqot o‘tkazdi va alohida ko‘rsatmalar berdilar. 1992 -yil Kanadada o‘tkazilgan “dzyudo” bo‘yicha jahon chempionati hamda Dzyudo federatsiyasining butun jahon kongeressida ilk bor kurash (o‘zbek kurashi) targ‘ib etildi. 1994-yilda Hirosima shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida kurash musobaqalaridan yozib olingan video tasvirlar namoyish etildi. 1995-yil Hindistonda o‘tkazilgan “Dzyudo” federatsiyasining Osiyo Kongeressida kurash haqida atroflicha ma’lumot yetkazildi. 1998-yil 6-7 mart kunlari Irlandiyaning Dublin shahrida Yevropa Dzyudo uyushmasi taftish hay’ati yig‘ilishi o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishda kurash haqida yozma va video lavhalar namoyish qilindi. 1998-yil 15-18 aprelda Monako shahrida o‘tkazilgan dzyudo uyushmasining 50 yillik yubiley Kongeresiga O‘zbekistonlik vakillar taklif etildi. Kurashning dovrug‘ini yoyishda Irlandiya olimpia qo‘mitasi Prezidenti, Yevropa olimpia qo‘mitasi vitse - prezidenti Patrik Hikkinning xizmatlari katta. 1998-yil 6 -sentyabrda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi “KXA” tuzuldi. 1999 -yil birinchi fevralda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini” qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida farmoni qabul qilindi. 1999-yildan boshlab Jahon chempionatlari o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgach, o‘zbek xalqi milliy davlatchiligi va ma’daniyati tarixida yangi davr boshlandi. Unutilgan qadriyatlar urf -odatlar qayta tiklandi. Millatimizning faxri bo‘lgan kurash, an’anasi bir necha ming yil tarixga ega bo‘lib o‘zida o‘zbek xalqining ko‘plab urf-odatlarini, udumlarini mujassamlashtirgan, akademik A.Asqarov, professor M.Gryaznov, filologiya fanlar doktori K.Imomovlar olib brogan tadqiqot natijalari esa dastlabki sport o‘yinlaridan biri hisoblangan o‘zbek milliy kurashi 3,5- 5 ming yil ilgari tarqala boshlanganligini ko‘rsatadi.

Surxon, Zarafshon, Farg‘ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlaridan topilgan noyob topilmalar, qoya toshlarga chizilgan tasviriy san’at namunalari ham bunga to‘la shohidlik qiladi. Etnografik tadqiqotlarining guvohlik berishicha O‘zbekiston hududida kurash milodiy IX-X asrlarda keng rivoj topgan bo‘lib, xalq sayllarida musobaqa o‘tkazish an’anaviy tus olgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiy namunalaridan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Rustam”, “To‘lg‘anoy” kabi dostonlarda ham pahlavonlar kurashi madh etilib, epchil va chaqqoon, zukko va dono polvonlar ulug‘langan.

Milliy kurashimizning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, ajdodlarimiz nazarida kurash, eng avvalo, polvonlarning odob -tarbiyasi mardligi, oliy janobligi, ma’naviy qiyofasi, umuman, har tomonlama yetuklik namunasi sifatida sharaflangan. Fikrimizning yaqqol namunasi tarzida Xorazmlik mashhur shoir va polvon Pahlavon Mahmud, uning davomchilari sifatida pahlavon Vobohoqiiy, Shayh Xudoydod Azizon, Amir Uchqora kabi, keying davrlarda esa Ahmad Polvon, Avazxo‘ja polvon, Haydarali polvon, Abdurahmon polvon kabilarni misol keltirish mumkin.

Mustaqillik sharofati va birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning jon kuyarligi tufayli o‘zbek kurashi olam shumul voqeaga ega bo‘ldi. Bugun “Buyuk ajdodlarimiz ruhini shod etib, azal- azaldan xalqimiz g‘ururiga aylanib qolgan o‘zbek kurashining jahon maydoniga chiqishi, uni tan olinishi barchamizni g‘oyat quvontirdi” - deb ta’kidladi prezidentimiz. 1992- yilda yurtboshimiz taniqli polvon, xalqaro toifali sport ustasi Komiljon Yusupov bilan uchrashib milliy g‘urur va qadriyatimiz timsoli bo‘lgan o‘zbek kurashini xalqaro miqyosiga olib chiqish haqida bir qator ko‘rsatmalar berdi. Xususan, kurashning sog‘lom avlod tarbiyasida, mamlakat mudofaasini mustakamlashdagi ahamiyati eng asosiysi, inoq xalqni shakllantiruvchi tarixiy qadriyat ekanligini ta’kidlab o‘tdi. K.Yusupov iqtidorli mutaxassis sifatida kurashning tarixini, musobaqa o‘tkazish tartibi va qoidalarini ilmiy jihatda o‘rgandi. Aynan shu qoidalar, hakam va polvonlarning kiyim va emblemalari 1991 yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston ilmiy konferensiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Mustaillik tufayli o‘zbekning o‘zligi yana o‘ziga qaytdi. Unutilgan qadriyatlar, urf-odatlar qayta tiklandi. Milliy sport turi bo‘lmish kurashni rivojlantirish va jahon maydoniga olib chiqish musobaqasi kun tartibiga qo‘yildi. 1992-yilda bu jarayonni amalga oshiradigan ishchi kuchi Milliy Kurash Federatsiyasi tashkil etildi. Federatsiyaning me’yoriy hujjatlari tasdiqlanib, kurash jonkuyarlarining tashabbuskor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Tinimsiz mehnat va izlanishlar bekor ketmadi. 1998-yil 6-sentabrda milliy kurashimiz tarixiga olam shumul voqea bo‘lib kirdi. Lotin Amerikasi, Yevropa va Osiyo qit’asining 28 davlatidan kelgan vakillar ishtirokida Toshkentda bo‘lib o‘tgan tasis kongeressida kurash xalqaro assostsiatsiyasi (KXA) tuzilganligi, xalqimizning milliy qadriyati “Kurash” nomi bilan xalqaro sport maydoniga chiqanligi etirof etildi.

Kurashning jahonga yuz tutishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov KXA ning doimiy faxriy prezidenti, kurash qonun-qoidalarini ishlab chiqqan, kurash asoschilaridan biri Komiljon Yusupov assotsiatsiyasi etib saylandi. Bu ijobiy ishlarni mantiqiy davomi sifatida 1999-yil birinchi fevralda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini qullab- quvvatlash haqidagi” farmoni imzolandi. O‘z vaqtida qabul qilingan bu farmon o‘zbek kurashining butun jahonda keng quloch yoyishiga xizmat qilmoqda. Shu yil O‘zbekiston tarixida ilk bor “Yunusobod” sport majmuida kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionati bo‘lib o‘tdi.

Bu davrda XKA a’zolari bo‘lgan 6 ta davlat -Yaponiya, Vengriya, Hindiston, Polsha, Rossiya, Bolgariya Milliy federatsiyalari Prezidentlari ta’sischiligida Jahon kurashni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilgan. Jamg‘armaning asosiy maqsad va vazifalariga jahonda kurashning rivojlanishiga moliyaviy tomonidan ko‘maklashish, XKA ning taqvimiy darajasidagi jahon, qit’a chempionatlari, xalqaro turnirlari tashkil etish va o‘tkazishda asosiy moliyaviy- tashkiliy ta’minotchi vazifasini bajaradi.

2000-yil sport olamida o‘zbek kurashi dovrug‘ining ortishi va rivojlanishida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu vaqtga kelib bu har tomonlama takomillashib, xalqaro sport o‘yinlari qatoridan munosib o‘rin egalladi va mutaxassislar tomonidan “XXI asr sporti” deb etirof etildi. Shu davrda XKA Ijroya qo‘mitasi yig‘ilishda 13 mamlakatning ko‘zga ko‘ringan siyosat va sport arboblari ishtirok etdi va “Butun dunyoda kuraashni rivojlantirish Dasturi” qabul qilindi.

Shu kungacha dunyoning bir necha mamlakatlarida 1000 dan ortiq turli darajadagi xalqro turnirlar tashkil etildi. Jahon Osiyo chempionatlaridan tashqari Buyuk Britaniya, Gretsiya va Fransiyada “Islom Karimov”, Turkiyada “Bos Fors” va Eronda “Pur iyoivali” xalqaro turnirlar o‘tkazildi.

Bugungi kunda XKA ning jahoning barcha qit’alarida 129-ta kurash federatsiyalari tashkil etilgan va ularning safi kundan-kunga ko‘paymoqda bu o‘rinda Osiyo, Yevropa, Afrika va Janubiy Amerika qit’asi davlatlari bo‘layotgan hamkorlikni alohida takidlash joiz, bundan tashqari XKA ning YUNESKO qoshidagi “Jismoniy tarbiya va sport fani xalqaro kengashi a’zosidir. Kurashning jahondagi nufuzini yanada oshirish maqsadida assotsiatsiyaing oliy nishoni – “XKA Oltin ordeni” ta’sis etilgan. Uning birinchi sohibi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov, so‘ngra Hindiston Milliy Kongeressi partiyasi yetakchisi Sonya Gandi, xalqaro olimpia qo‘mitasi XOQ Jak Rogge, Osiyo Olimpia Qo‘mitasi OOQ prezidenti Shayh Ahmad Al-Fahd As-Sabah Butun jahon olimpia assotsiatsiyasining va boshqa ko‘zga ko‘ringan insonlar sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Sh.M.Mirziyoyev “Kurash” milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish chora-tadbiri to‘g‘risida”gi 2020 yil 4 noyabr PQ - 4881 sonli qarorida ma’lum qilinishicha, oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida xalqaro musobaqa, xorijiy davlatlarda O‘zbekiston Respublikasi sovrini uchun xalqaro turnirlar o‘tkaziladi.

2020- yildan har yili bir marta davlat organlari muassasalari va tashkilotlari hodimlari o‘rtasida “o‘zbek polvoni” Respublika musobaqasi o‘tkaziladi deyiladi hujjatda. Bundan tashqari, 2021-2025 yillarda kurash mahorati maktablari bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Shuningdek, 2021-2022 o‘quv yilidan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti maktab-internatlari va sport maktablarida kurash bo‘yicha o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari 2 barobarga oshiriladi.

“Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi tasdiqlandi”. Konsepsiyada, jumladan, 2028- yilda kurashning xalqaro olimpia o‘yinlari dasturiga

kirishiga erishish ko‘zda tutilgan. Qisqasi, davlatimiz rahbarining kurashni rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha kompleks chora -tadbirlar dasturini o‘z ichiga olgan mazkur qarori o‘zbek milliy sporti brendini yangi cho‘qqilarni zabt etishga zamin hozirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, asrlar sinovidan, tarixiy davrlar silsilasidan o‘tgan, mardlar va munosib raqiblar bahsi bo‘lgan o‘zbek kurashi mustaqillik sharofati bilan umumdavlat darajasidagi sportga aylanib, butun jahon nazariga tushdi. O‘zbek kurashining sport turi sifatida dunyoga yuz tutushi, mamlakatimizning xalqaro yanada oshirishda o‘zining ham beqiyos hissasini qo‘shmoqda.

Adabiyotlar:

1.Kirimov F.A Kurash tushaman -T:, 1990

2.Nurshin J.M, Salomov R.S, Kirimov F.A. O‘zbekcha milliy kurash sport turi, T:, 1993

3.Kirimov F.A Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T:, 2001

4.Taymurodov A.R. O‘zbek milliy kurashi, T: 1990

5.Choriyev Z, Toshpulatov J, Pahlavon qizlar , T:, 2008

6.Toshpulatov J. O‘zbek kurashi Toshkent: 2000

7.Al-Hakim At-Termiziy hayoti va ijodiy faoliyati. Yosh avlodni tarbiyalashda kurashning o‘rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy - anjuman materiallari. Termiz -2011

8. Yusupov.K Kurash xalqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. T. G‘afur G‘ulom 2005.

SPORT TASHKILOTLARINING MARKETING FAOLIYATIDA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Izzatullayev Sunnatulla Shermuhammad o‘g‘li

Guliston davlat unversiteti

Stajor-o‘qtuvchi

e-mil: sunnatullaizzatullayev@gmail.com

tel: +998904004542

Annotation. At all stages of human development, great importance has been attached to the management factor, there is no single aspect that can achieve the expected result without management, that is why the search and finding of effective methods and ways of human management is an urgent issue of every social and economic formation. understood that The economic and social condition of the society imposes a special responsibility on the management of its humanitarian policy.

Bozorning hozirgi holati axborotning ahamiyati va qiymatining oshishi bilan tavsiflanadi. Jamiyatni axborotlashtirishning o‘sish sur’ati oshib bormoqda, iste’molchiga ko‘proq ma’lumot taqdim etilmoqda. Biroq, korxonalar o‘z aloqalarini iste’molchi uchun mavjud bo‘lgan ma’lumotlar miqdori ortishiga mutanosib ravishda oshira olmaydi. Bunday sharoitda marketingning kommunikativ funktsiyasining ahamiyati ortib bormoqda va aloqa vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligi masalasi eng dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Marketing nazariyasi hozirgacha keng ko‘lamli aloqa vositalarini ishlab chiqdi va tavsifladi hamda aloqa jarayoni tuzilgan, aloqa siyosatini rejalashtirish va amalga oshirish sxemalari taklif etiladi. Shu bilan birga, mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda mamlakatimiz korxonalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan aloqa vositalarini aniq tizimlashtirish hali ham mavjud emas. Marketing kommunikatsiyalari sohasidagi ilg‘or mahalliy ishlanmalar, shuningdek, xorijiy tadqiqotchilarning boy tajribasi korxonaning amaliy faoliyatiga moslashishni talab qiladi.

Raqobat bosimining kuchayishi, xususan raqobatning narx bo‘lmagan omillarining ahamiyati ortib borayotgan bir sharoitda, muvaffaqiyatli raqobat qilish uchun korxona maqsadli iste’molchilar uchun ochiq b’lgan va ularning ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotni yaratish etarli emas. Korxona o‘zining aloqa siyosatining sifatiga alohida e’tibor berishi kerak. Bu mavjud aloqa vositalaridan to‘liq foydalanish sxemasini ishlab chiqish zarurligini isbotlaydi, bu ham aloqa siyosatining uslubiy asoslarini yaratishda qo‘llaniladigan vositalar, ham uni amalga oshirishda foydalaniladigan vositalarning kombinatsiyasi hisoblanadi.

Insoniyat rivojlanish davrining barcha bosqichida boshqaruv omiliga katta axamiyat berilib kelingan, biror – bir jihat yo‘qki u boshqaruvsiz kutilgan natijaga erishsa, shuning uchun ham

insoniyat boshqaruvining, boshqarishning samarali uslublari va yo‘llarini qidirish va topish har – bir ijtimoiy – iqtisodiy formatsiyaning dolzarb masalasi ekanini tushunib etdi. Jamiyatning iqtisodiy – ijtimoiy holati uning insonparvarlik siyosati boshqaruviga alohida mas’uliyat yuklaydi. Mana shunday kerakli va o‘ta muhim omillarni o‘rganib chiqqandan keyin har qanday sport xizmatini mantiqiy yo‘l bilan tashkil qilsa bo‘ladi. Xizmat ko‘rsatishni boshqarishni takomilashtirish chora-tadbirlari tizimida boshqaruvni takomilashtirishning izchil va bosqichma-bosqich modeli qabul qilindi. Boshkaruv tizimini islohot kilish jarayoni rivojlanish davrida bir kancha boskichlarni bosib o‘tdi va hozirgi kunda ham takomillashib bormokda.

O‘zgarishlar amalga oshirib borilishi davrida boshqaruv mexanizmi takomillashib bordi, iktisodiyot tarmoklari va soxalarini boshqarishning ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlariga eng yukori darajada mos keluvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga iktisodiy erkinliklar berilishiga yordamlashuvchi, tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga undovchi tashkiliy-huquqiy formalari ishlab chikildi. Respublikaning tashkillashib borayotgan umumiylik va regional bozorlari ishlab turishini ta’minlash uchun, hamda davlatlararo iktisodiy munsobatlarni iziga solib turish uchun zarur bo‘lgan bozor infrastrukturasi asosiy konturlarning yuzaga kelishi katta muaffakiyat bo‘ldi.

Sport sohasidagi nizolar ko‘pincha va hamma joyda paydo bo‘ladi. Buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki sport har bir ishtirokchi o‘z raqiblarini ortda qoldirib, g‘olib bo‘lishni istaydigan musobaqadir. Turli musobaqalar ishtirokchilari o‘rtasida qizg‘in raqobat muxlislar, sportchilar, murabbiylar, sport tashkilotlari o‘rtasida nizolar manbai bo‘lib qolmoqda. Ba’zida butun davlatlar va davlatlararo birlashmalar sport mojarolariga tortishadi. To‘qnashuvlar turli xil sabablarga ko‘ra yuzaga keladi, masalan, hakamning nomuvofiqligi yoki qobiliyatsizligi, tijorat manfaatlarining ziddiyati, doping va diskvalifikatsiya to‘g‘risidagi kelishmovchilik, firibgarlik va o‘yinlarni belgilash, korrupsiya va pora. Ba’zida sportdagi mojarolar juda ko‘payib boradi va etnik va diniy adovat manbai bo‘ladi. Hatto qarama-qarshi tomonlarning siyosiy qarama-qarshi kuchayishi, dushmanlik harakatlariga aylanish holatlari tez-tez uchrab turadi. Hissiyotlar va asabiy taranglik katta zaryadga ega bo‘lgan sport odamlarga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishga qodir. Shu sababli, salbiy portlashni minimallashtirish va salbiy ko‘rinishlarning ko‘payishini oldini olish juda muhim va amaliy ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiy va sport mashg‘ulotlarida yuzaga keladigan nizolarning asosiy manbalari va turlarini ko‘rib chiqish, ularning o‘ziga xosligini va harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlash zarur.

Sportda raqobat - raqobatbardosh faoliyatning asosidir. Sportdagi nizolarning asosiy manbai adolatsiz raqobat qoidalarining buzilishi bo‘lib, u beixtiyor (masalan, hakamning malakasi etarli emasligi) yoki raqobat munosabatlarining boshqa ishtirokchilariga qarshi qasddan qilingan harakatlar bo‘lishi mumkin. Raqobat munosabatlari raqiblarning bir-biri yoki o‘zi bilan qarama-qarshiligiga (ya’ni musobaqalar) asoslangan sport turining asosini tashkil qiladi. Ikkala sport va iqtisodiy munosabatlarda raqobat eng ilg‘or va samarali usullardan foydalangan holda eng yaxshi va salohiyatli shaxslarni aniqlashning asosiy funksiyasiga ega.

Shuni ta’kidlash kerakki, raqobat ushbu barcha ijobiy funksiyalarni faqat ikkita shartda bajaradi:

- birinchidan, raqobat sharoitida teng imkoniyatlarga ega bo‘lish;

- ikkinchidan, barcha raqobatchilar fair play (adolatli o‘yin) tamoyiliga amal qilishganda, ular axloqiy va jinoiy usullardan foydalanmaydilar.

Sport sohasida imkoniyat tengligi. Raqobat adolatli va samarali bo‘lishi mumkin, agar musobaqada barcha ishtirokchilar g‘alaba qozonishlari uchun bir xil sharoitlar yaratilsa. Ushbu tamoyil har qanday raqobatbardosh faoliyatning asosini tashkil etadi, chunki jamoani yoki sportchini kamsitishning har qanday shakli g‘oliblarning qonuniyligini, qarama-qarshilik natijalarini barcha manfaatdor tomonlar tomonidan tan olinishini shubha ostiga qo‘yadi. Bundan tashqari, bir yoki bir nechta raqobatchilarning huquqlarining buzilishi muxlislar va jamoatchilikning g‘azabini keltirib chiqaradi, bu ba’zida ochiq to‘qnashuvlar va tartibsizliklarga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, sportda imkoniyatlar tengligini har qanday buzish mojarolar, xafagarchilik va tajovuzlarni keltirib chiqaradi, oyoq osti qilingan adolat tuyg‘usini keltirib chiqaradi, bu esa sportni xarobatli va halokatli qiladi.

Sport ko‘ngilochar, jozibali va adolatli bo‘lishini ta’minlash uchun musobaqa tashkilotchilari barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydilar. Bu nimani anglatadi? Darhaqiqat, masalan, bitta jamoaning basketbolchilari raqiblaridan balandroq bo‘lishsa, dastlab ular ustunlikka ega

ekanliklari aniq. Buning uchun ularni musobaqadan chetlatish kerakmi? Yoki Evropa va Amerikadagi basketbolchilar qanday to‘p o‘ynashlari mumkin: agar kichkina to‘p bo‘lsa, unda amerikalik basketbolchilar katta ustunlikka egalar. Shunday qilib, imkoniyatlar tengligi masalasi har doim ham oddiy emas. Deyarli barcha sport tashkilotlari va xalqaro federatsiyalar tomonidan sportchilarni yosh toifalari, jinsi, vazni, sport anjomlarining parametrlari bo‘yicha ajratish bo‘yicha tegishli qoidalar va mezonlar ishlab chiqilgan bo‘lsa ham, ba’zi muammolar yuzaga keladi va hal qilinishi kerak.

Sportda halol raqobatni ta’minlash muammosi teng imkoniyatlarni ta’minlash bilan cheklanmaydi. Ushbu sohada yana adolatsiz yoki adolatsiz raqobat deb ataladigan yana bir muhim yo‘nalish mavjud. Bu nizolar manbai bo‘lgan ishlarning aksariyat qismida adolatsiz raqobat.

Sportda adolatsiz raqobat. Har qanday usul bilan, shu jumladan axloqiy nuqtai nazardan shubhali va umuman qabul qilingan amaliyot bilan raqiblardan ustun kelishga intilish, individual sportchilarni, murabbiylarni, menejerlarni va bukmeykerlarni sportda yaxshi odatlar va an’analarni buzish bilan bog‘liq bo‘lgan axloqsiz xatti-harakatlar deb tushuniladigan adolatsiz raqobat usullariga murojaat qilishga majbur qiladi. Adolatsiz raqobat sportda allaqachon paydo bo‘lgan, uning ba’zi shakllari qadimgi davrlardan beri ma’lum bo‘lgan. Hakamlar va raqiblarni pora olish, musobaqalar ishtirokchilarining fitnasi va tomoshabinlarni aldash, raqib ustidan g‘alaba qozonish uchun turli hiyla-nayranglardan foydalanish tarixi ko‘pchilikka ma’lum. Qadimgi davrlarda yirik va nufuzli musobaqalarda g‘alaba qozonish g‘oliblarga shon-sharaf va boylik keltirgan. Qadimgi Gretsiyadagi Olimpiya va boshqa yirik o‘yinlarning g‘oliblariga saxovatli sovg‘alar va yodgorliklar topshirilgan. Ularning sharafiga ashula va sherlar yozildi va eng yuqori sharaflar paydo bo‘ldi. Shu sababli, har doim ham ushbu imtiyozlar uchun murojaat etuvchilarning soni etarlicha bo‘lgan, tabiiyki, ko‘pincha adolatsiz raqobat usullari qo‘llanilgan.

Sportni rivojlantirish bilan bir qatorda adolatsiz raqobat usullari ham takomillashtirilib, ular tobora xilma-xil va murakkablashdi. Mutlaqo yangi va ilgari noma’lum usullar paydo bo‘ldi va joriy etila boshlandi: stimulyatorlarning kashf qilinishi bilan - yangi dorilar va doping usullari, ommaviy axborot vositalarining paydo bo‘lishi bilan - raqiblarga psixologik bosim o‘tkazish usullari. Hozirgi paytda adolatsiz raqobat usullarini qo‘llash intensivligi pasaymadi. Zamonaviy sport amaliyotida adolatsiz raqobatning ko‘plab usullari qo‘llaniladi. Ular o‘zlarining namoyon bo‘lishida juda xilma-xil va ko‘p qirrali bo‘lib, raqibiga bilvosita ta’sir qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan joyda qo‘llaniladi. SHu munosabat bilan, adolatsiz raqobat usullarini tasniflash keng doirada amalga oshiriladi. Asosiylarini ko‘rib chiqamiz.

Sportda doping. Raqobatbardoshlikni rivojlantirish jarayonida, inson tanasining zaxiralari, eng yuqori zo‘riqish paytida ham, umuman olganda ishlatilishi aniqlandi. Shu sababli, ushbu zaxiralardan qandaydir tarzda foydalanishga muvaffaq bo‘lgan sportchi boshqa raqiblarga nisbatan ma’lum ustunlikka ega bo‘ladi. Bugungi kunda kundalik amaliyotda giyohvand moddalarni doping, qon o‘rnini bosuvchi vositalar, qon quyish va bosim kameralari eng ko‘p qo‘llaniladi. Dori usulining mohiyati organizmga ogohlantiruvchi dorilarni kiritish orqali uning quvvatini va tezligini oshirishdir. Shunga o‘xshash maqsadlarga qon quyish (yoki boshqa birov, ya’ni transfüzyon) yordamida yoki tog‘li hududlarda musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish orqali erishiladi. Bosim kamerasi yoki baland tog‘lardan kelib chiqqan kislorod tanqisligi tananing kuchini oshiradigan qo‘shimcha qizil qon tanachalarini ishlab chiqarish bilan qoplanadi.

Ta’sirning psixologik usullari, qon o‘rnini bosuvchi moddalar va nanotexnologiyalar doping sifatida ham qo‘llanilishi mumkin. Ikkinchi holatda, sportchi uchun qo‘shimcha energiya manbai bo‘lgan kibernetik va molekulyar mikromotorlarni inson tanasiga “kiritish” mumkin bo‘ladi. So‘nggi yillarda gen dopingni qo‘llash bo‘yicha munozaralar kuchayib bormoqda, bu hali sinov usullari bilan aniqlanmagan. Umuman olganda, gen dopingini qo‘llash sxemasi quyidagicha: kerakli gen tanaga kiritiladi (masalan, hujayra devoriga kiradigan virusni biriktirish orqali). Bundan tashqari, kiritilgan gen mos keladigan jarayonlarni faollashtiradi, buning natijasida mushaklarning massasi va kuchi 50-60% ga oshadi. Xususan, bu xususiyatlarni tadqiqotchilar tomonidan distrofiyani davolash uchun tayyorlagan Pensilvaniya universitetida yaratilgan IGF-1 geni namoyish etadi. Ko‘pincha barcha darajadagi musobaqalarda adolatsiz raqobatning ushbu shakli til biriktirish sifatida ishlatiladi. Ushbu usulning mohiyati juda oddiy - kerakli natijaga erishish uchun siz raqiblar, hakamlar yoki bukmeykerlar bilan muzokaralarga kirishingiz kerak. Ko‘pgina hollarda, ma’lum bir natijadan qoniqqan raqiblar fitna uyushtirishadi. Masalan, Chempionatlarda ko‘pincha “shartnomaviy” duranglar

qayd etilardi. O‘sha paytda jamoalarga g‘alaba uchun ikki ochko berilgan, bittasida durang. Gollarning boshqa tizimi joriy etilgandan so‘ng (g‘alaba uchun - 3 ochko, durang uchun - 1 ochko), “kelishuv” uchrashuvlari soni sezilarli darajada kamaydi.

Kuch ta’sirining “yumshoq” usullari raqibga psixologik va jismoniy bosim usullarini o‘z ichiga oladi. Deyarli barcha sport jamoalarida raqiblariga jiddiy shikast etkazadigan “qattiq” o‘yinchi bor. Bunday “suyakni sindirgich” bilan kurashish usullarini bilgan holda, raqiblar jarohat olishdan qo‘rqib, to‘qnashuvlardan qochishga harakat qiladilar, kurashning qizg‘inligini kamaytiradilar va tashabbusdan voz kechadilar. “Yumshoq” usullar orasida raqib muhlislarning sportchilarga ko‘rsatadigan psixologik ta’sirini ham qayd etish mumkin. O‘n minglab ishqibozlar yig‘ilganda va stendlarning shovqini shunday bo‘ladiki, sportchilar bir-biridan bir necha qadam narida bir-birlarini eshitmaydilar, hakamlarga yoki sportchilarga qarshi jazo xavfi mavjud bo‘lganda, bu juda kuchli bosimdir. Baraban va shov-shuvlarning shovqini, milliy qo‘shiqlar, stendda ishlayotgan “to‘lqin”, muxlislarning qichqirig‘i va soxta chiroqlar yoqilishi - bularning barchasi ma’lum bir hissiy muhitni yaratadi, ta’sirchan odamlarga, shu jumladan sportchilar va hakamlarga kuchli bosim o‘tkazadi.

Qattiq ta’sir qilishning yanada qattiq va jinoiy usullari ko‘pincha stadionlar va sport majmualari tashqarisida qo‘llaniladi. Raqib jamoalarning raqiblari ba’zan raqiblarini o‘yinni to‘xtatib qo‘yish uchun jarohat olish uchun banditlarni yollaydilar va shu bilan zaiflashgan raqobat tufayli mukofotlar va sovrinlarni qo‘lga kiritadilar. Sport tarixi sportchilarni kaltaklash, og‘ir tan jarohatlari etkazish, oyoq-qo‘llarini sindirish kabi ko‘plab faktlarni biladi. Raqiblar sovrinlar miqdori katta bo‘lgan taqdirda bunday vahshiyona usullarga murojaat qilishadi.

Ammo bu nafaqat mukofot pullarida bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha ularga sport biznesidan - bukmeykerlik va sport lotereyalaridan ko‘p pul qo‘shiladi. Katta miqdordagi mablag‘ ushbu faoliyat sohasi tashkilotchilarini kurashga aralashishga majbur qiladi va nomaqbul sportchilarni yoki hakamlarni musobaqadan chiqarib yuboradi. So‘nggi yillarda bunday hodisalar soni kamaygan bo‘lsa-da, bu hali ham kam uchraydi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti” darsligi. R.Nabiullin. Muvofiqlashtiruvchi Kengashdan o‘tganligi to‘g‘risidaga guvohnoma raqami №303-014 va sanasi 2016 yil 21 aprel. I va II TOM.
2. Shomurodov H.S. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport faoliyatida tadbirkorlik. Monografiya.T.:”Tafakkur qanoti”, 2014.
3. Kruglova N. YU., Kruglov M. I. Strategicheskiy menedjment. Uchebnik. M.: RDL, 2009.- 317 s.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari www/ stat.uz.

SIRDARYO VILOYATIDA QISHLOQ XO‘JALIK TARMOQLARINI INVESTITSIYALASHNING ZAMONAVIY HOLATI TAXLILI

Qurbanov Elyor Ermamatovich
Guliston davlat universiteti

Annotasiya: Investitsiyalar qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo‘lib, Qishloq xo‘jaligi sohasida samaradorlikka erishish, mexnat unumdorligini oshirish, qo‘l mexnatini qisqartirish, mahsulot tannarhini kamaytirishda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati juda katta. Maqola Sirdaryo viloyati qishloq xo‘jalik tarmoqlariga jalb qilinayotgan investitsiyalarning miqdori va dinamikasi haqida.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, lizing, kapital, innovatsion, ijtimoiy, aktsiya, obligatsiya, veksel, sertifikat.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqi hisoblanib, mamlakatimiz aholisining 63 foizidan ko‘prog’i qishloq joylarda istiqomat qiladi. Yalpi ichki mahsulotning 22 foizga yaqini, ish bilan band aholining 1/3 qismi, valyuta tushumlarining yarmidan ko‘prog’i, ichki tovar aylanmasining 70 foizdan ortig’i ushbu sektor hissasiga to‘g’ri keladi.

Mustaqillik yillarida respublikamiz xususan Sirdaryo viloyatii qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohatlar natijasida qator muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu, eng avvalo, bozor

munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilganligida, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiharishda fermer ho‘jaliklari ulushining oshayotganligida, qolaversa, qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiharish hajmining barqaror o‘sib borayotganligida o‘z aksini topadi.

Qishloq xo‘jaligidagi muammolarni hal qilishning muhim omili va shart-sharoitlaridan biri, bu investitsiya faolligini yanada ko‘chaytirishdan iboratdir. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiharilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulot sifatida eksport qilish uchun faqat institucional o‘zgarishlarni amalga oshiribgina qolmay, balki bu sohaga keng hamrovli investitsiyalarni olib kirish lozim. Investitsiyalar qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda muhim omil bo‘lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosini tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi sohasida samaradorlikka erishish, mexnat unumdorligini oshirish, qo‘l mexnatini qishartirish, mahsulot tannarhini kamaytirish, qishloq aholisi turmush darajasini yanada oshirishda, qolaversa, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini oshirishda, mamlakatning oziq-ovqat ta’minotida investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati juda katta.

Qishloq xo‘jalik tarmoqlariga jalb qilinayotgan investitsiyalarning miqdorini va dinamikasini o‘sishida banklarning roli muhim hisoblanadi shu maqsadda bank faoliyatini yanada barqarorlashtirish va samaradorligini yanada oshirish lozim bo‘ladi.

Sinfda sog‘lom psixologik muhit yaratilishini sog‘liqni saqlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri deb bilamiz. Shunday qilib, muvaffaqiyatga erishish jarayoni butun o‘quv jarayoni uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi va shu bilan hissiy tanglikni kamaytiradi, o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarning qulayligini oshiradi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, yoshga bog‘liq xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish dolzarbligini yo‘qotmaydi. Har bir yoshda o‘ziga xos o‘yinlar to‘plami mavjud, garchi istisnolar mavjud bo‘lsa ham. O‘yin texnologiyasi - bu oddiy darsni qiziqarli va qiziqarli qilish imkonini beradigan noyob o‘rganish shakli. Jismoniy tarbiya darslarida o‘yin faoliyati o‘quv jarayonida muhim o‘rin tutadi. O‘yin faoliyatining qiymati bolaning psixologik va pedagogik xususiyatlarini inobatga olishiga, uning ehtiyojlari va manfaatlariga javob berishiga asoslanadi [2].

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatining mazmuni va maqsadini yangicha qurishga talab kuchayganligini quyidagilarda qo‘rish mumkin [3]:

– mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan buyuk ma’naviya-timizni tiklash, sog‘lom turmush tarzini barcha fuqarolar, eng avvalo, yoshlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yo‘nalish qilib belgilanishi, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalaridagi kabi uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarni zamon talablari va jahon andozalari asosida tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ular tarbiyalayotgan yoshlarda jismoniy sifatlar, yuksak ma’naviy madaniyat, axloq va ma’rifat fazilatlarini shakllantirish va singdirish muammolarining yechimini davr taqozo etishi;

– davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri – ma’naviy jihatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan sog‘lom, Vatan sarhadlarini himoya qilish uchun jismonan chiniqqan, fidoyi insonni tarbiyalash, ta’lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy istiqlol g‘oyasi asosida ma’naviy va ruhiy jihatdan yangi avlodni voyaga yetkazishga ijtimoiy zarurat tug‘ilishi;

– milliy ma’naviyatimizni tiklash borasida olib borilgan, davom etayotgan ishlar, xalq ta’limining tubdan isloh qilinayotgani jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog‘lom avlod tarbiyasiga keng katta e’tibor qaratilishi tendensiyasining kuchayishi;

– universal texnologiyalar bilan bog‘liq globallashuv jarayonida uzluksiz ta’lim tizimida jismoniy tarbiyani o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug‘ilishi va boshqalar.

Jismoniy tarbiyaga e’tiborning kuchayganligini uch bosqichli “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” kabi sport musobaqalarining tashkil etilganligi va muntazam o‘tkazilib kelinayotganligida, yoki sportning ko‘plab turlari bo‘yicha O‘zbekistondan Olimpiada va jahon chempionlari yetishib chiqib, mamlakatimiz dovrug‘ini butun dunyoga tarannum etishida ham ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, barcha maktab va mahallalarda ham turli sport muso baqalari tashkil etilmoqda, oilaviy musoba qalarni o‘tkazish yo‘lga qo‘yilib borilmoqda.

Jismoniy tarbiya – sof sport muso baqalaridan iborat bo‘lgan jarayongina emas, balki ushbu tarbiya orqali yoshlarda axloqiy-irodaviy xislat va fazilatlar tarkib toptirilishidir. Jismoniy mashqlarni bajarish davomida yoshlarda iroda, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik tarbiyalanadi, ularning sog‘ligi

mustahkamlanadi, ish qobiliyatlari, aqliy faolligi oshiriladi, jasurlik, halollik, qat'iylik, mustaqillik kabi axloqiy xulq me'yorlari tarkib topadi, yetuklik sari qadam tashlanadi.

Jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchi har tomonlama yetuk: chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyatini innovatsion tashkil qilish, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini rivojlantirish bilan birgalikda hozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchi-larini nazariy va amaliy jihatdan innova-sion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni jismonan tarbiyalashda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat jismonan barkamol, sog'lom shaxsgina o'zining intellektual, ma'naviy imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu ma'noda mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimining tarixiy tajribalarini qiyosiy-tahliliy o'rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning istiqbolli strategiyasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun maqsadli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati kelib chiqadi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda o'rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda innovatsion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish – pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish – "o'qituvchining innovatsion faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat, muayyan vaqt davomida shakllanib, takomillashib boradigan jarayon. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatining asosiy belgilari quyidagilarda o'z ifodasini topadi [4]:

- ijodiy faoliyat falsafasini jismoniy tarbiya konsepsiyalari bilan uyg'unlashtirish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni jismoniy tarbiya darslariga tatbiq etish, ularni o'z sharoitiga moslashtira olish.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining innovatsion faoliyati – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga singib boradi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish bir necha bosqichda amalga oshiriladi [4]:

– mavjud pedagogik muammoni tahlil qilish;

– mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash;

– pedagogik jarayondagi o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish, ularni tashkil qilish va nazoratini olib borish.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad – o'qituvchining yangilikka intiluvchanligi, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda quyidagi yo'nalishlar inobatga olinadi:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlik;

- bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining Davlat ta’lim standartlarida ko‘rsatilgan o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan minimal talablarni ularda shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatga ijodiy yondashishga o‘rgatish;

- ijodkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil qilish.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish – o‘qituvchi faoliyatini jahon andozalariga mos holatda tashkil etishga imkon tug‘diradi. Bunda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi innovatsion faoliyati yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatda quyidagi qobiliyatlarini namoyon etadi [5]:

- dars mashg‘ulotlarida ijodiy motivatsiyani qo‘llaydi, kasbiy faoliyatni baholaydi;

- o‘quvchilarning ijodiy o‘zaro faoliyatiga hamkorlik qiladi;

- qat’iyatlik, mas’uliyatlik va halollik bilan ishini tashkil etadi;

- innovatsion faoliyatga bo‘lgan zaruratni aniqlaydi;

- ijodiy faoliyatga jalb qilishga tayyorgarlik ko‘radi;

- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoli-yat bilan moslashtiradi va boshqalar.

Maktabdagi darslardagi o‘yin faoliyati o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishini oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Bu sizga ko‘proq ma’lumot olishga imkon beradi, o‘yinda modellashtirilgan aniq harakatlarning misollariga asoslanib, bolalarga o‘yin davomida qiyin vaziyatlarda mas’uliyatli qarorlar qabul qilishni o‘rganishga yordam beradi.

Darslarning o‘yin shakllaridan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga va materialni chuqur, mazmunli va tezkor rivojlanishiga olib keladi. O‘quv jarayonidagi o‘yinlarning ish shakllari bir qator funksiyalarni bajarishi mumkin: o‘quv, o‘quv, tuzatish-rivojlantirish, psixotexnika, kommunikativ, ko‘ngil ochish, dam olish.

Umumiy rivojlanish mashqlari bilan flesh-prezentatsiyalar va videolarni yaratish o‘qituvchiga yordamchi bo‘lishi mumkin. Bunday materialdan ertalabki mashg‘ulotlar paytida fan o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Uy vazifalarining turlaridan biri “Sog‘lom turmush tarzi va men”, “Tushirish usullari”, “Yomon odatlar”, “Gimnastika” va hokazolar bo‘yicha taqdimotni yaratish bo‘lishi mumkin. Bolalar bunday vazifalarni mustaqil ravishda ham, guruhlarda ham bajara oladilar, bu esa ularga o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etgan holda loyihalarni (“Jismoniy faoliyatning o‘quvchi sog‘lig‘iga ta’siri”) davom ettirishga imkon beradi.

Darslarda, shuningdek, o‘quvchilarning bilimlarini sinash va mustahkamlash uchun test o‘tkazish mumkin.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘qitish jarayonida darajani tabaqalashtirish texnologiyasidan foydalangan holda o‘quvchilarning salomatligini mustahkamlash va motorli faoliyatini rivojlantirish mumkin. Mashg‘ulotlarning asosiy natijalari bolalarda kasallikning oldini olish, shuningdek jismoniy mashqlarga bo‘lgan qiziqishni oshirish, har kimning o‘zini anglashi, muvaffaqiyatga yerishish imkoniyatidir.

Agar har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy qobiliyatlari va qobiliyatlariga mos keladigan vaqtni oladigan bo‘lsa, unda maktab o‘quv dasturining asosiy yadrosini kafolatlangan tarzda egallashni ta’minlash mumkin. Shu tarzda darslarda qatnashishni davom ettirgan holda, bu bolalar o‘zlarining qobiliyatlariga ishonch hosil qilmoqdalar va asta-sekin muntazam mashg‘ulotlarga qatnashmoqda.

Ba’zi bolalar o‘zlarining qobiliyatlariga ishonch hosil qilishlari kerak, ishontiradilar va rag‘batlantiradilar; boshqalar - haddan tashqari g‘ayratdan saqlanish; uchinchisi - qiziqish uchun. Bularning barchasi maktab o‘quvchilariga topshiriqlarni bajarishda ijobiy munosabatni shakllantiradi va ijtimoiy faoliyat uchun zamin yaratadi. Barcha belgilar tortishilishi kerak. Kuchli bolalarni kuchsizlarga yordam berishlari, ularga mashqni muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaif o‘rtoqni tayyorlashni taklif qilishlari va bu uchun ularga yuqori baho berishlari kerakligiga ye’tibor bering.

Maktab o‘quvchilarini har tomonlama o‘rganish, turli xil ma’lumotlarning taqqoslanishi bolalarning kechikishining sabablarini aniqlashga, ushbu sabablarning asosiy sababini aniqlashga va differensial o‘qitish uslubiga asoslangan pedagogik ta’sirni amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu texnologiya o‘quv jarayonini osonlashtiradi, talaba istalgan harakat shakllanadigan motorli

ko‘nikmalar zaxirasini bosqichma-bosqich to‘plash bilan maqsadga erishadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida, ta’lim tarkibiy qismidan tashqari, sog‘likni yaxshilash yo‘nalishi va mashg‘ulotga yondoshish kerak. Shuning uchun jismoniy tarbiya darslari: alohida nazariy, alohida amaliy va metodik va alohida amaliy bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masharipov I. Sport psixologiyasi. - Samarqand: SamDU nashr-matbaa markazi, 2013. - 98 b.
2. Maxkamjonov K.M. Tayyorlov sinflarida jismoniy tarbiya darslari. - T.: “O‘qituvchi”, 2011. – 94 b.
3. Usmonxo‘jaev T.S., Arzumanov S.G., Qodirov V.A. Jismoniy tarbiya. - T.: “O‘qituvchi”, 2013., - 144 b.
4. Nasriddinov F.N., Shaternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport. – T.:”O‘qituvchi”, 2003. -102 b.
5. Семенова З.В. Новые инновационные технологии в образовании: состояние и проблемы. Т., 2012, 2-сон. Б. 37-40.

ФИЗИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР ЗДОРОВЬЯ

Burxonov Abduali Mamatmuratovich
Guliston davlat universiteti “Sport turlarini o‘qitish uslubiyati” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: aburxonov@gmail.com

Аннотация: *в условиях глобализации отсутствие физической активности теперь признано четвертым по значимости фактором риска для повышения уровня нравственности, а также увеличения риска различных инфекционных заболеваний. В этом контексте широко признано, что регулярная физическая активность и упражнения снижают риск преждевременной смерти. Кроме того, физическая активность снижает факторы риска различных хронических заболеваний, таких как сердечно-сосудистые заболевания, диабет, рак, гипертония, ожирение, депрессия и остеопороз.*

Ключевые слова: *физическая, активность, спорт, эффективность, современной молодежи, обучения, педагог, техника упражнений.*

Физическая активность и упражнения как важная часть здорового образа жизни, и недавние научные данные показали, что регулярная физическая активность и упражнения приносят широкий спектр преимуществ как для физического, так и для психического здоровья. Предыдущая литература продемонстрировала тесную взаимосвязь между физической активностью и риском нескольких хронических заболеваний, включая ишемическую болезнь сердца, гипертонию, инсулиннезависимый сахарный диабет, остеопороз и рак толстой кишки. Кроме того, физическая активность и регулярные упражнения играют жизненно важную роль для физического и психического здоровья в любом возрасте. Физическая активность может помочь вам продолжать заниматься любимыми делами и оставаться независимыми с возрастом. Регулярная физическая активность и упражнения в течение длительного времени могут обеспечить долгосрочную компенсацию за здоровье. Итак, эксперты в области здравоохранения говорят, что пожилые люди должны быть активными каждый день, чтобы поддерживать свое здоровье. Кроме того, физическая активность и регулярные упражнения могут снизить риск заболеваний и инвалидности, которые развиваются по мере взросления человека. Физические упражнения - эффективное лечение многих хронических заболеваний. Например, при артрите, сердечных заболеваниях или диабете. Упражнения также помогают людям с высоким кровяным давлением, проблемами с равновесием или трудностями при ходьбе. Физическая активность и упражнения вносят огромный вклад в жизнь людей. Преимущества физической активности и упражнений включают благополучие, счастье участников, улучшение физического и психического здоровья.

Физическую активность можно рассматривать как любое движение тела, производимое скелетными мышцами, которое требует расхода энергии [2]. Существуют различные методы оценки физической активности - от наблюдения за поведением и самоотчета до датчиков

движения [3]. Некоторые виды физической активности могут иметь различные физические последствия. Например, бег и езда на велосипеде улучшают аэробную форму или выносливость; силовые тренировки или использование эластичных лент увеличивают мышечную силу; йога и упражнения на растяжку повышают гибкость и равновесие. В настоящем исследовании физическая активность подразделяется на два термина: аэробные и анаэробные.

Аэробная активность означает физическую активность от легкой до высокой интенсивности, которая требует больше кислорода, чем неактивное поведение, и, таким образом, способствует укреплению сердечно-сосудистой системы и другим преимуществам для здоровья, таким как прыжки со скакалкой, езда на велосипеде, плавание, бег, играть в футбол, баскетбол или волейбол.

Анаэробная активность означает интенсивную физическую активность, которая непродолжительна и требует перебоя в источниках энергии в отсутствие достаточного количества кислорода. Источники энергии пополняются по мере того, как человек восстанавливается после своей деятельности. Анаэробная активность включает спринт во время бега, плавание или езда на велосипеде, требующие максимальной производительности в течение короткого периода.

Здоровье — самое ценное достояние не только для каждого человека, но и для общества в целом. При встречах, разлуках с близкими и родными людьми мы желаем им крепкого здоровья, так как это — основное обязательство и залог полноценной и счастливой жизни. Здоровье помогает нам выполнять наши задачи, успешно решать основные жизненные проблемы, преодолевать трудности, а если придется, то и значительные перегрузки.

К сожалению, многие из нас не соблюдают самых простых условий здорового образа жизни. Последние годы в силу высокой нагрузки дома и на работе, а также других причин у большинства отмечаются: недостаточная двигательная активность, дефицит в режиме дня, обусловливающий появление гипокинезии, которая вызывает целый ряд серьёзных последствий в организме людей.

Людям не только приходится ограничивать свою естественную двигательную активность, но и длительное время поддерживать неудобную для них статическую позу, сидя.

Малоподвижное положение отражается на функционировании многих систем организма, особенно дыхательной и сердечнососудистой системы. При длительном сидении дыхание становится менее глубоким, обмен веществ существенно снижается, происходит застой крови в нижних конечностях, что ведёт к снижению работоспособности всего организма, а особенно головного мозга: нарушается координация движений, снижается внимание, увеличивается время мыслительных операций, ослабляется память.

Вследствие недостаточной активности образуется дефицит кислорода. Отрицательные последствия гиподинамии и гипокинезии проявляется также в сопротивляемости организма «острым простудным и инфекционным заболеваниям», создаются предпосылки к становлению слабого, нетренированного сердца и связанного с этим дальнейшего развития недостаточности сердечно — сосудистой системы.

Единственная допустимость нейтрализовать отрицательное явление, возникающее у людей при долгом и напряжённом умственном труде, — это активный отдых и организованная распланированная физическая деятельность. При регулярных занятиях физической культурой и спортом происходит улучшение общего самочувсвия и работы всех органов и систем организма человека.

Занятие физическими упражнениями также приподнимает настроение, бодрость, вызывает положительные эмоции.

Можно выделить некоторые базовые компоненты, на основе которых и строится ведение здорового образа жизни. К ним относятся такие как:

- Физическая активность.
- Рациональное питание.
- Общая гигиена организма.
- Закаливание.
- Отказ от вредных привычек.

Именно о физической активности в дальнейшем и пойдет речь, как о важнейшей из составляющих.

Физическая активность. Это второй из пяти базовый компонент здорового образа жизни. Ученые приводят массу доводов, которые смогли бы помочь людям осознать необходимость в занятиях физическим спортом. Среди них:

Физические упражнения — это приятно

Подходящий вид физических занятий найдется для каждого Если через несколько месяцев вы к ним привяжетесь, то ни за что уже не бросите.

Через полгода непрерывной физической активности:

Вы станете бодрее, живее

Почувствуете прилив сил, значительно улучшится координация движений, реакция станет куда более хорошей

Легче станет справляться с нервным напряжением и плохим настроением

Содержание в организме жировых отложений станет меньше

Укрепятся костные и мышечные ткани

Кровообращение станет лучше

Работоспособность значительно возрастет

Физические занятия входят в целостную систему здорового и правильного образа жизни, так как без регулярной активности состояние человека многократно ухудшается, не только физическое, но и психическое, резко снижаются интеллектуальные возможности человека (врачи доказывают, что умственная работа должна быть в полной мере компенсирована физической).

Мышечная деятельность, физические занятия особенно необходимы людям, занимающимся умственным трудом и ведущим не особенно подвижный образ жизни. Ведь существует масса последствий отсутствия физической активности: болезни мышечного бездействия (сколиоз, узкая грудь, болезни позвоночника и костного скелета в целом), хронический колит, подагра, геморрой, камни желчного пузыря и почек.

В современном обществе, где тяжелый физический труд в течение короткого, с точки зрения развития человечества, периода времени оказался вытесненным машинами и автоматами, человека подстерегает опасность, о которой уже упоминалось — гипокинезия. Именно ей приписывается в значительной степени преимущественная роль в широком распространении так называемых болезней цивилизации. В этих условиях особенно высокую эффективность в поддержании и укреплении здоровья человека играет физическая культура.

Благотворное влияние физической нагрузки на человеческий организм поистине безгранично. Ведь человек изначально был рассчитан природой на повышенную двигательную активность. Сниженная активность ведёт ко многим нарушениям и преждевременному увяданию организма.

Под влиянием физических упражнений совершенствуется строение и деятельность всех органов и систем человека, повышается работоспособность, укрепляется здоровье.

Двигательная активность является ведущим фактором оздоровления человека, т.к. направлена на стимулирование защитных сил организма, на повышение потенциала здоровья.

Полноценная двигательная активность является неотъемлемой частью здорового образа жизни, оказывающей влияние практически на все стороны жизнедеятельности человека.

Список литературы:

Кеннет Р.Ф. Влияние физической активности на психическое благополучие. Public Health Nutr. 1999; 2 (3A): 411–418.

3. Пшендин П.И. Рациональное питание спортсменов, М.Медицина, 2005 г-98 с.

Бункер Д., Торп Р. (1982). Модель для обучения играм в средних школах, Британский журнал Физического воспитания, 13: 5-8.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Jonibekov Shuxrat Jonibekovich
Guliston davlat universiteti “Sport turlarini o‘qitish uslubiyati” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: sh_jonibekov@gmail.com

Annotation: *This article covers the methods of using action and relay games in the development of physical qualities in students of the non-specific direction, according to normatives compiled with the aim of determining the physical fitness of the population.*

Key words: *board and estafeties games, physical featuers, productiveness of the lesson, teaching movement skills.*

Jismoniy tarbiya va sport barcha yoshdagi insonlar hayotida jismoniy faolligi va salomatlgi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ibot-tashviqot qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyat va iste’dodlarini ro‘yobga chikarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular salomatligii asrab-avaylash va yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishdek muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Jismoniy tarbiya darslarining asosini talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish va salomatligini yaxshilashdan iborat bo‘lib, jismoniy sifatlarni tarbiyalash jicmoniy tarbiya darclarida, asosan, cportning yengil atletika, gimnastika, harakatli va cport o‘yinlarini orqali harakat-ko‘nikma va malakalar o‘zlashtirib olishdan iborat.

Jismoniy tarbiya darslarida sport o‘yinlari bilan birga, harakatli va estafetali o‘yinlardan foydalanish talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va harakat malakalarga o‘rgatish samaradorligini oshiradi. Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan jismoniy texnik-taktik mashqlar shug‘ullanuchilar yoshi, jismoniy va funksional imkoniyatlariga moslab rejalashtirilishi va qo‘llanishi darkor. Ushbu mashqlar soni, shiddati, qaytarilishi va davom etish vaqti biologik qonuniyatlarga asoslanishi zarur. Agar yuklama shug‘ullanuvchilar imkoniyatidan o‘ta yuqori bo‘lsa, bunday yuklama shug‘ullanuvchilar organizmiga salbiy tasir ko‘rsatadi. Aksincha, o‘ta past bo‘lsa, shakllanish jaryoni susayib ketadi. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportning ommaviy turlari bilan shug‘ullantirish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yish, ularni jismonan, ruhan sog‘lomlashtirish ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, hayotiy ehtiyojlar asosida harakatga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishning samarali vositalarini izlab topish dolzarb masala hisoblanadi[1].

Jismoniy tarbiya tizimining muhim bosqichlaridan biri jismoniy vositalardir. Ularning tarkibiy qismi esa gimnastika, sport turlari, harakatli o‘yinlar va tabiatning sog‘lomlashtiruvchi ta’sir kuchlaridan iborat. Harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ko‘pchilik jismoniy tarbiya o‘qituvchilari harakatli o‘yinlarni ikkinchi darajali deb hisoblaydilar. Shu tufayli sport o‘yinlari, gimnastika, yengil atletika, kurash kabi darslarda harakatli o‘yinlarni nomigagina yuzaki tashkil qiladilar. Harakatli o‘yinlar uchun ajratilgan alohida soatlarni ham boshqa turlarga qo‘shib yuboradilar. Har bir sport turida mashg‘ulotlarni yoki darslarni harakatli o‘yinlar bilan olib borilsa, qiziqarli bo‘ladi. Chunki talabalar bir xil mashqlarni qaytaraversalar, ularni zeriktirib qo‘yishi va qiziqishining so‘nishiga olib keladi. Agar haraktli va estafetali o‘yinlar bilan olib borilsa, kutilgan natijaga erishish mumkin bo‘ladi.

Ishning maqsadi talabalarni jismoniy tarbiya darslarida xarakatli va estafetali o‘yinlardan foydalanish tajribasini o‘rganish va ularning jismoniy sifatlarni shakllantirish samaradorligini aniqlashdan iborat.

Ishning vazifalari:

–jismoniy tarbiya darslarini kuzatish va tahlil qilish orqali talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish.

– jismoniy tarbiya darslarida harakatli va estafetali o‘yinlarni qo‘llash orqali dars samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatuv, ekspert baholash usuli, matematik statistik tahlil.

Tadqiqotni tashkillashtirish. Tajriba GulDU 1-bosqich nomutaxassis yo‘nalishi talabalari jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari jarayonida o‘tkazildi.

1-jadval

Talabalarni jismoniy tarbiya darslariga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish bo‘yicha og‘zaki so‘rovnoma o‘tkazilib unda: n-30

/r	Savollar	ha	o‘q	qisman
	Siz Jismoniy tarbiya darsini yaxshi ko‘rasizmi?	6	0	4
	Jismoniy tarbiya o‘qituvchingiz harakatli o‘yinlar haqida suhbat o‘tkazadimi?	14	6	0
	Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o‘yinlarni bilasizmi?	8		15
	Qanday harakatli va estafetali o‘yinlarni bilasiz?	11	3	6
	O‘qituvchingiz jismoniy tarbiya darslarida harakatli estafetali o‘yinlardan foydalanadimi?	13		9
	Harakatli va estafetali o‘yinlarni maxsus anjomlar bilan o‘tkazilishini xohlaysizmi?	10	8	2
	Milliy xalq o‘yinlari milliy qadriyatlar deb tushunasizmi?	10	1	9

Jismoniy tarbiya darslariga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish bo‘yicha og‘zaki so‘rovnoma o‘tkazilib kerakli xulosalar chiqarildi. Unda talabalarni fikr va qiziqishlari o‘rganib chiqildi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra jismoniy tarbiya darslarida talabalar fikrlaridan shuni anglab oldikki, akademik darslarda ham, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham jismoniy sifatlarni rivojlantirish va harakat malakalariga o‘rgatishda ko‘pgina muammo va kamchiliklar kuzatildi.

Shu jihatdan harakatli o‘yinlar orqali hal qilinishi uchun oldinga qo‘yilgan maqsadlarga tezkor va samarali erishish imkonyatini yaratadi. Sport amaliyotida shunday holatlar ham uchraydiki, bir-birga o‘xshash muntazam beriladigan mashqlar sport bilan endi shug‘ullanishni boshlagan talabalarning qiziqishini so‘ndiradi. Muammoning yechimi shundaki, o‘rganish bosqichlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik-taktik mahoratini “qisqaroq yo‘l bilan” shakllantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanish o‘ta foydali va muhim masala hisoblanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘rgatishning asosiy xususiyati – bu o‘rgatishning harakat malakalari va maxsus bilimlarni egallashga qaratilganidir. O‘rgatish shug‘ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya amaliyotining har qanday sohasida bo‘lganidek, jismoniy tarbiya jarayonida ham o‘qitish o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi ijodiy faoliyatlaridan tashkil topadi va bunda, albatta, o‘qituvchi yetakchi rol o‘ynaydi.

Biz jismoniy tarbiya darsini tashkil qilish va o‘tkazishda ta’limning turli uslublaridan foydalanamiz. Harakatga o‘rgatishda so‘z, ko‘rsatmalilik, qismlarga bo‘lib o‘rgatish, o‘yin va musobaqa uslublaridan iborat. Musobaqa uslubi harakat sifatlari rivojlanishining yetarlicha yuqori darajasini talab qiladi. Bu uslub, bir jihatdan, oldindan har tomonlama tayyorgarligi bo‘lgan talabalarga eng ko‘p samara beradi, boshqa tomondan esa uning yordami bilan mavjud tayyorlik darajasini yuksaltirish mumkin. Musobaqa uslubidan foydalanishning yana bir ijobiy tomoni, talabalar darsdan tashqari o‘tkaziladigan sport musobaqalarga ham faol ishtirok etib, yaxshi natijalarga erishadilar[3].

Musobaqalashish uslubidan har xil tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda:

– jismoniy, irodaviy, axloqiy sifatlarni tarbiyalash, malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish, shuningdek, bu malaka va ko‘nikmalardan murakkab sharoitlarda to‘g‘ri foydalana bilish qobiliyatini o‘stirishda foydalaniladi. Bu uslub boshqa uslublarga qaraganda jismoniy tarbiyaga yuksak talablar

qo‘yishga, shu bilan birga, jismoniy sifatlarning yana-da rivojlanishi uchun yordamlashishga imkon beradi[2].

Jismoniy tarbiya darslarida qo‘llaniladigan harakatli va estafetali o‘yinlar “Tortishmachoq”, “Mergan”, “Kun va tun” hamda “Quvlashmachoq” harakatli o‘yinlari orqali talabalarning chaqqon va sezgir bo‘lish malakalarini oshiradi. “Do‘ngdan-do‘ngga sakrash”,“To‘pni boshdan oshirib uzatish”, “Qopqon”, “Uysiz quyon” ,“Kartoshka ekish”, “Kam ochko to‘plash”, “Keglini olishga ulgur”, “To‘pni urib tushir”, “To‘siqlardan oshib o‘tish estafetasi”, “Sakrash bilan qarama-qarshi estafeta”, “Ovchilar bilan o‘rdaklar”, “To‘pni savatga tashlash”, Yo‘laklar bo‘ylab sakrash”, ”Xo‘rozlar jangi” va boshqa o‘yinlar. Jismoniy tarbiya darslarida darsning kirish–tayyorlov qismida umumiy rivojlantirish mashqlari uchun yuklamalarning shiddatini inobatga olgan holda, harakatli o‘yinlardan foydalanildi. Mavzudan kelib chiqqan holda, basketbol to‘pini olib yurish texnikasini o‘rgatish uchun “Basketbolchilar estafetasi” o‘yinini qo‘llash mumkin. “To‘p kapitanga” va “Kim ko‘p to‘p oshirish” o‘yinlari darsning asosiy qismlarida qo‘llanilganda talabalarning ko‘nikama-malakalariga ega bo‘lishi va qiziqishlarining ortishini kuzatish mumkin bo‘ldi. Yakuniy qismda talabalarga tinchlantiruvchi va diqqatni jamlovchi mashqlarni berganda ularning fiziologik va psixologik holatlarida ijobiy ta’sirni kuzatildi.

Kuch sifatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar: ”Tortishmachoq”, “Arqon tortish”, “ Xo‘rozlar jangi”, “Eshak mindi”, “Quvlashmachoq”.

Tezkorlik sifatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar – “Kun va tun”, “Oq terakmi ko‘k terak”, Uysiz quyon”, “Bo‘sh joy” kabi.

Chaqqonlik sifatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar: “To‘p uchun kurash”, “Lapta”, “Qirq tosh”, “Ovchi va o‘rdak”, “Sichqon mushuk” kabilar.

Chidamkorlik: sifatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar: “Quvib yet”, “ Poyez” kabi.

Egiluvchanlik: sifatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlar: “Ko‘prik va mushuk”, “Otib qochar” singari.

2-jadval

Tadqiqot davomida talabalarning jismoniy tayyorgarligi aniqlagandagi ko‘rsatkich

/r	Nazorat normativlari	Tadqiqotdan oldin	Tadqiqotdan keyin
	Moksimon yugurish (3x10 m)	TG 9.8 NG 9.5	TG 9.4 NG 9.2
	Turgan joyidan uzunlikka sakrash (sm)	TG 139 NG 143	TG 144 NG 149
	6 metr masofadan basketbol to‘pini savatga tashlash (6 ta imkoniyatdan)	TG 1.7 NG 1.9	TG 1.9 NG 2.1

So‘rovnoma natijalari shunga e’tibor qaratadiki, aksariyat talabalar mashg‘ulotlarda harakatli o‘yinlar haqida biladigan ma’lumotlar yetarli emasligi, jismoniy sifatatlar va sog‘lomlashtirish uchun harakatli o‘yinlar muhim ahamiyat kashf etishi, milliy xalq o‘yinlari ham milliy qadriyatlarimizni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynashi haqida befarq ekanliklarini kuzatildi. Har qanday harakat biron-bir aniq harakat vazifani hal qilishga qaratilar ekan, buning negizida jismoniy sifatlarni rivojlantirish yotadi. Demak, jismoniy tarbiya darslarida o‘yin uslubidan foydalanish talabalarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ham samarali hamda inson salomatligi uchun ijobiy natija ko‘rsatadi. Jismoniy tarbiya darslarida ushbu uslubni qo‘llash shug‘ullanuvchilarning darslardagi faol ishtiroki qiyosiy tahlillardan keyin natijalar o‘rganib ko‘rilganda dastur materiallari bo‘yicha nazorat testlarini topshirishda o‘sish kuzatildi. Jismoniy tarbiya darslarida qo‘llanilgan harakatli va estafetali o‘yinlar talabalarda nafaqat irodaviy sifatlarni tarbiyalash, do‘stlik, hamjihatlilik, vatanparvarlik kabi fazilatlarini shakllantiradi, bundan tashqari, talabalarda harakat faolligini oshiradi, ularda jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalaydi.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahriri). Toshkent, 2015 yil 4 sentabr.

2. T.S.Usmonxo‘jaev, A.Tolibjonov, X.Meliev, N.Xotamov. 500 harakatli o‘yinlar. T., “Yangi asr avlodi”, 2014.

3. T.S.Usmonxadjaev. Milliy va harakatli o‘yinlar. T., “Iqtisod – Moliya”, 2015;

4. T.S.Usmonxadjaev, F.Xo‘jaev. 1001 o‘yin. Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990.

14-15 ЁШЛИ ЭРКИН КУРАШЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ДИНАМИКАСИ

Султонов Шуҳратжон Нурмахаматович
“Спорт турларини ўқитиш услубиёти” кафедраси доценти

Аннотация

Мазкур мақолада ўқув-машғулот гуруҳида шуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жимоний ривожланганлик холатини аниқлаш бўйича ўтказилган илмий тадқиқот ишлари натижалари баён этилган.

Калит сўзлар: эркин кураш, ўқув машғулот, жисмоний ривожланганлик, антропмитрия, эглувчанлиж, психомотор.

Жаҳонда кўплаб спорт турлари қаторида эркин кураш спорт турида ҳам рақобат кескин ўсиб бораётган айни дамда соҳа мутахасисларининг зиммасига эркин курашчиларнинг жисмоний тайёргарлиги билан бир қаторда жисмоний ривожланганлигига ҳам жиддий этиборда бўлишдек масьулятни юкламоқда. Мусобақа натижаларининг ўсиш кўрсаткичлари тўғрисидаги объектив маълумотларни таҳлил қилиш ва ушбу асосида тайёргарлигининг турли томонларини оптималлаштириш муоммоси ўта долзарб ҳисобланади. Шу боис ўқув-машғулот грухида шуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жисмоний тайёргарлик самарадорлигини оширишда машғулот юкламаларини тақсимлаш ва режалаштириш, мусобақа ва махсус машқларни бажариш ҳаракатини бошқариш ва уни биомеханик таҳлил қилиш бўйича тадқиқотлар олиб борилган. Бироқ, ўқув-машғулот грухидаги эркин курашчиларда махсус бир тизм орқали, жисмоний ривожланганлик самарадорлигини яхшилаш юзасидан илмий ишлар олиб бориш тадқиқотчилар назаридан четда қолган.

Мавзуга оид илмий-услубий адабиётларни таҳлил қилиш жараёнида спортчиларнинг жисмоний ривожлангангик самарадорлигини ошириш ҳамда уларни ўқув-машғулотлари жараёнида янгича илмий-назарий ёндашиш муаммолари қатор муаллифларнинг [А.А.Рузиев, 2001; Х.А.Саносян, С.Л.Мусаелян, М.Г.Агамян, 2002] илмий-услубий ишларида берилган.

Чет эл мутахассислари қўлланилган воситалар ва услублар ҳақида турли фикрлар

билдиришган ва амалда қўллаш йўлларини ёритишга уринганлар [А.А.Рузиев, 2001; А.Н.Абдиев, 2004; Ф.А.Керимов, 2004]. Шу билан бирга, ушбу муаллифлар қайд этадики, эркин кураш спортчиларининг жисмоний ривожланганлик самарадорлиги машғулот воситалари ва юкламаларини тўғри қўллаш тўғрисида бир қатор муаллифларнинг ишларида таъкидланган. Шу билан бирга, эркин кураш спортчиларининг жисмоний ривожлантириш ҳаракатлари самарадорлигини ошириш технологиясини ишлаб чиқишнинг илмий-назарий ва услубий-технологик асослари тизимли тартибда шакллантирилмаган [А.А.Карелин, 2002; Н.А. Керимов, 1999; А.А.Рузиев, 2001; Б.И.Тараканов, 2000; А.С.Тодоров, 1992; Ю.А.Шахмурадов, 1999; М.Эрцеган, 1990; Ю.А.Шахмурадов, 1997].

Юқорида келтирилган таҳлилий маълумотлар илмий тадқиқот ишларининг етарли эмаслигини кўрсатади ва 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жисмоний тайёргарлик динамикаси самарадорлигини ошириш муаммоси ўта долзарб эканлигини тасдиқлайди.

Бу соҳадаги катта илмий-услубий тажриба тўпланганлигини эътиборга олиб, 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жисмоний ривожланганлик динамикаси самарадорлигини ошириш вазифаларини уйғунликда ҳал қилиш йўли катта самара бериши аниқланди.

Бугунги кунда ўқув-машғулот гуруҳида шуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жисмоний тайёргарлиги холатини аниқлаш асосида жисмоний ривожланиш бўйича уйғунликда ўтказилган тадқиқотлар йўқлиги аниқланди. Бундай ёндашув 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жисмоний ривожланиш жараёнларини оқилона бошқаришга ёрдам беради. Чунки, жисмоний ривожланиш ва жисмоний тайёргарлик бир-бирига таъсир қилиш катталигини боғлаб турувчи кўрсаткичларни баҳолаб туриш спортчилар маҳорати ва спорт натижалари кўтарилишида катта самара беради.

Тадқиқотнинг мақсади: ўқув-машғулот гуруҳида шуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жисмоний ривожланганлик холатини аниқлаш.

Тадқиқот вазифалари: мавзуга доир адабиётларни таҳлил қилиш;

- ўқув-машғулот гуруҳида шуғулланувчи 14-15 ёшли ўқув машғулот гурухидашуғулланувчи эркин курашчиларнинг жисмоний ёшга хос имкониятларини аниқлаш;

- ўқув-машғулот гуруҳида шуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг (куч, тезлик, чидамлилик, эглувчанлик) жисмоний сифатларини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш;

Тадқиқот объекти: ўқув-машғулот гурухида шуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг машғулот жараёни.

Тадқиқот предмети: ўқув-машғулот гуруҳида шуғулланувчи 14-15 ёшли ўқув-машғулот гуруҳида шуғулланувчи эркин курашчиларнинг индивидуал имкониятларини инобатга олган холда уларнин, жисмоний кўрсаткичларини аниқлашга қаратилган машғулот жараёнини ташкиллаштириш.

Тадқиқот усуллари: Илмий-услубий адабиётлар таҳлили, анкета сўровномаси, педагогик кузатув, педагогик тестлаш, антропометрия, педагогик тажриба ва математик-статистик таҳлил.

Тадқиқотни ташкиллаштириш: Гулистон олимпия захиралари коллежи-нинг 27 нафар тарбияланувчилари иштирокида ўтказилди.



1-расм. 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жисмоний ривожланиш кўрсаткичлари

Ўқув-машғулот гурухида шуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг тана узунлиги ўлчамлари олиниб ўртача кўрсаткичи хисобланганида қуйдагича натижалар қўлга киритилди 14 ёшлиларда 152.7, 15 ёшлиларда эса 153.5 0,8 см билан кўрсаткичлар орасидаги фарқ сезиларли даржада катта эмаслиги аниқланди. Юқоридаги диаграммада тана узунлиги билан биргаликда кўкрак қафасининг ўртача узунлик кўрсаткичлари ҳам келтирилган. Олинган натижалар эса қуйдагича. 14 ёшлик эркин курашчиларнинг кўкрак қафасининг ўртача кенглик кўрсаткичи 68 см ташкил қилган бўлса, 15 ёшли эркин курашчиларнинг кўкрак қафаси кенгкиги 69.6 см қайт этди. Ҳар икки ёшдаги спортчиларимизнинг кўкрак қафаси кенглигидаги фарқ (1,6 см) ни ташкил қилди.

14-15 ёшли эркин курашчиларнинг тана оғирлик кўрсаткичлари ҳам олинди. Натижаларни таҳлил қиладиган бўлсак қуйдаги холатлар кузатиди, 14 ёшли шуғланувчи эркин курашчиларнинг тана оғирлик массаси. 44.6 кг натижани қайт этган бўлса 15 ёшли спортчиаримизнинг тана оғирлик массаи бирмунча юқорироқ яни 46.4 кг (фарқ 1.8 кг) кўрсалкични қайт этишди.



2-расм. 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг эглувчанлик ва қўл панжа кучи кўрсаткичлари.

Эгелувчанликни аниқлаш бўйича олинган натижалар эса қуйдагича. Ўқув-машғулот гурухида шуғулланувчи 14 ёшли эркин курашчиаримизда эглувчанлик ўртача кўрсаткичи 11,6 см ни ташкил қилган бўлса, 15 ёшли эркин курашчиларнинг эглувчанлиги 12,5 смни ташкил қилди (тафовут 0,9 см) ни ташкил қилади.

Юқоридаги диаграммада 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг панжа кучларини аниқловчи тест танижаларини ҳам кўришимиз мумкин. Ушбу тест натижалари эса қуйдагича, 14 ёшли эркин курашчиларнинг панжа кучлари ўртача 31 кг натижани кўрсатишган бўлса 15 ёшли спортчиларимизнинг натижалари бироз юқорироқни яъни 33,4 кўрсаткични қайт этишди (тафовут 2.4 кгни ташкил қилди).



3-расм. 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг 30, 3 х 10 ҳамда 1000 метрга югуриш натижалари.

Тезкорликни чаққонликни ҳамда чидамлиликни аниқлаш бўйича ҳам турли хил масофларга вақт ҳисобида югуриш учун масофалар танлаб олинди. Натижалар эса қуйдагича бўлди, 14 ёшли ўқув-машғулот гурухида шуғулланувчи эркин курашчиларнинг қисқа 30 м масофага югуриш машқининг ўртача кўрсаткичи 4,9 с бўлган бўлса 15 ёшли эркин курашчиларнинг ушбу масофага югуриш ўртача кўрсаткичи 5 с ни ташкил қилди.

14-15 ёшли спортчиларда чаққонлик сифатини аниқлаш учун 3 х 10 м, с. усулида югуриш машқи олинди. Ушбу машқлар юзасидан қўлга киритилган натижалар қуйдагич бўлди. 14 ёшли эркин курашчиларимиз 13 м, с натижани қайт этишган бўлса, 15 ёшли ўқув-машғулот гурухидаги эркин курашчиларимиз 13.1 м,с натижани қайт этиши.

Чидамлилигини аниқлаш учун 1000 м, с. метирга югуриш масофаси танлаб олинди. Бошлағич таёргарлик босқичидаги эркин курашчининг натижалари қуйдагича бўлди. 14 ёшли эркин курашчиларнинг ушбу масофага югуриш натижалари 253,9 м, с, бўлган бўлса, 15 ёшли ўқув-машғулот гурухидаги эркин курашчиларнинг 1000 метр масофага югуриш натижалари 242.2 м, с. ни ташкил қилди.



4-расм. 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг қўлларга таяниб қўлларни букиб ёйиш ҳамда қорин мускулларининг ривожланганлик даражаси кўрсаткичлари.

Қўл кучини аниқлаш учун қўллар билан ерга таянган холда қўлларни букиб ёйиш машқи танлаб олинди. Танланган машқ бўйиша спортчилар тамонидан кўрсатилган натижалар қуйдагича бўлди. 14 ёшли эркин курашчиларда ўртача кўрсаткичи 19,5 марттани ташкил қилган бўлса, 15 ёшли эркин курашчиларда эса ушбу кўрсаткич 19,8 мартта кўрсаткични қайт этишди.

ўқув машғулот гурухидашуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларни қорин мушакларининг ривожланганлик даражасини аниқлаш учун махсус машқ танлаб олинди ва қуйдагича натижалар қайт этилди. 14 ёшли ўқув-машғулот гурухидашуғулланувчи спортчиларимизнинг ўртача кўрсаткичи 19,6 марттани ташкил қилган бўлса 15 ёшлилардан ташкил топган эркин курашчиларнинг ўртача кўрсаткичи 20.5 марттани ташкил қилдилар ҳар икки гуруҳдан олинган натижаларни солиштирадиган бўлсак, қорин мушакларининг ривожланганик даражасидаги фарқлар катта эмаслиги кузатилиди.



5-расм. 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг жойда турган холда баландликка сакраш тести кўрсаткичлари.

14-15 ёшли эркин курашчиларнинг болдир ва оёқ панжа мушакларини ривожланганлик даражасини аниқлаш учун турган жойда баландликка сакраш машқи танлаб олинди. Танлаб машқ юзасидан олинган натижалар қуйдагича бўлди. 14 ёшли эркин курашчиларимиздан олинган натижаларнинг ўртача кўрсаткичи 31 см ни ташкил қилган бўлса, 15 ёшли эркин курашчиларнинг ўртача кўрсаткичи 33,4 см ни қайт этишди.

ХУЛОСАЛАР

Кўплаб ушбу мавзуда илмий изланишлар олиб борган тадқиқотчи изланувчиларнинг қўлга киритган натижалари юзасидан ҳамда болаларнинг ёшга хос функсианал кўрсаткичларини ўрганган изланувчиларнинг тадқиқот натижаларини ўрганиб чиқиб, ўқув машғулот гурухида шуғулланувчиларнинг жисмоний ривожланиш гавда узунлиги, кўкрак қафаси айланаси ва тана вазни кўрсаткичлари қониқарли эмас деб айтишимиз мумкин.

Ўқув-машғулот гурухида шуғулланувчи 14-15 ёшли эркин курашчиларнинг эгилувчанлик сифати 14 ёшли ва 15 ёшлиларнинг кўрсаткичлари орасидаги фарқ қаниқарли эмас. Қўл кучини аниқлаш бўйича олинган тест натижаларига ҳам етибор қаратадиган бўлсак 14 ёшли эркин

курашчиларнинг панжа кучлари ўртача 31 кг бўлса 15 ёшли спортчиларнинг натижалари бироз юқорироқни яъни 33,4 кг натижани қайт этишди тафовут 2.4 кгни ташкил қилди бундан кўриниб турибдики ривожланиш даражасини пассив деб бахолашимиз мумкин.

Югуриш тест натижалари ҳам деярли фарқ қилмайди мураббий зиммасига тезлик саққанлик ва тезкорлик жисмони сифатларини ривожлантиришга жиддий этибор бериш масьулятини юклайди.

Қўл ва қорин мускулларининг (куч) ривочланганлик даражасинии аниқлаш учун олинган тест натижаларидаги ривожланиш даражасини ҳам қониқарли деб бўлмайди. Куч сифатини ривожлартиришга ҳам мураббий тамамонидан жиддий ёндашувни талаб қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. – Т., 2004. -22-26с.
2. Карелин А.А. Спортивная подготовка борцов высокой квалификации. - Новосибирск, 2002. – 471-479 с.
3. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар/ -Тошкент “Зарқалам”, 2004. 120-128 б.
4. Рузиев А.А. Проблемы повышения специальной выносливости высококвалифицированных борцов //Теория и практика физической культуы. –Москва, 2001. -№8. -С.37-38.
5. Саносян Х.А., Мусаелян С.Л., Агамян М.Г. Разработка современной жисмонийной технологии контроля в видах единоборств //Теория и практика физической культуры. – Москва, 2002. -№4. –С.26-27.
6. Тараканов Б.И. Критический анализ современных тенденций развития спортивной борьбы //Теория и практика физической культуры. -Москва, 2000. -№6. -С.28-31.
7. Тодоров А.С. Контроль координации движений борцов вольного стиля: Автореф. дис. канд. пед. наук. – М., 1992. 16-24 с.
8. Шахмурадов Ю.А. Вольная борьба: научно-методические основы многолетней подготовки борцов/. –Москва: Высшая школа.1997.-ст.175-189.
9. Шахмурадов Ю.А. Научно-методические основы многолетней технико-тактической подготовки борцов (на примере вольной борьбы): Автореф. дис. . д-ра пед. наук. - М., 1999. – 24-28.
10. Эрцеган М. Цель тренировки – развитие современной соревновательной модели //Спортивная борьба: Сб. информ.-метод. матер. - М.: ЦНИИС, ВНИИФК, 1990. -№1. -С.9-10.

ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Омонбоев Б.И., Исокова Севара Абдуманноновна

Гулистанский государственный университет, г. Гулистан, Республика Узбекистан *E-mail:sevaraisokova1@gmail.com*

Аннотация: воспитание нового, всесторонне развитого человека – одно из необходимых и решающих условий успешного развития современного общества. Развитие науки и передовой практики физического воспитания значительно расширило представление о роли двигательной деятельности, в частности физических упражнений, в развитии и укреплении биологических и психических процессов, происходящих в организме человека.

Ключевые слова: физическая активность, физические упражнения, мотивация, изменение поведения, психологическая теория.

Ничто не может сравниться с преобразующей силой физической культуры и спорта. Эта сила делает неуклюжего ловким, медлительного – быстрым, слабого – сильным, всегда жалующегося на усталость – выносливым, болезненного – здоровым. Хорошая физическая подготовка позволяет быстрее осваивать новые сложные производственные профессии.

Физическая культура и спорт способствуют развитию интеллектуальных процессов – внимания, точности восприятия, запоминания, воспроизведения, воображения, мышления, улучшают умственную работоспособность. Здоровые, закаленные, хорошо физически развитые юноши и девушки, как правило, успешно воспринимают учебный материал, меньше устают на занятиях в вузе, не пропускают занятий из-за простудных заболеваний . Физическая культура – это и важнейшее средство формирования человека как личности. Занятия физическими упражнениями позволяют многогранно влиять на сознание, волю, на моральный облик, черты характера юношей и девушек. Они вызывают не только существенные биологические изменения в организме, но в значительной мере определяют выработку нравственных убеждений, привычек, вкусов и других сторон личности, характеризующих духовный мир человека. Научно-технический прогресс, бурное развитие средств массовой информации, повышение образовательного уровня студентов, совершенствование методов обучения – все это, безусловно, определяет более раннее и более высокое интеллектуальное развитие современной молодежи. Ускоренное созревание организма повышает умственную и физическую работоспособность юношей и девушек, что позволяет им успешнее справляться со значительно возросшими требованиями образовательных программ . Однако напряженная умственная работа в вузе и дома, а также и другие виды деятельности вызывают у студентов значительную перегрузку организма. Вместе с тем большую часть свободного времени они проводят в компьютерных клубах, возле телевизора. Современная молодежь, в основном, ведет малоподвижный образ жизни. А это отрицательно сказывается на физическом развитии, общем состоянии здоровья, уровне физической подготовленности. Вот почему жизненно необходимыми являются физическая культура и спорт, которые позволяют укреплять здоровье, целенаправленно воздействовать на весь организм совершенствовать двигательную деятельность и формировать физические качества . Физическая закалка в некоторой степени определяет дальнейшую жизненную деятельность человека. Осознание здоровья и полноценности дает уверенности в своих силах, наполняет бодростью, оптимизмом и жизнерадостностью. Многолетняя практика показала, что физическая культура способствует также умственному развитию, воспитывает ценные моральные качества – уверенность, решительность, волю, смелость и мужество, способность преодолевать препятствия, чувство коллективизма, дружбы .

Список литературы

1. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. М.: ФиС, 1991. С. 332 с.

2. Родиченко В.С. Западный вирус: Что угрожает международному спорту. М.: Физкультура и спорт, 1998. 145 с.

3. Сальников В.А. Индивидуальные различия как основа оптимизации спортивной деятельности // Теория и практика физической культуры, 2003. № 7. С. 2-9.

4. Столбов В.В. История физической культуры и спорта: Учебн. для ин-тов физ. культ. // Под общ. ред. В.В. Столбова. М.: Физкультура и спорт, 1995. С. 256.

KURASH HAMMA UCHUN

Bekmuratov Alisher Joniqulovich
Katta o‘qituvchi
Guliston davlar universiteti
e-mail: alisher@gmail.com

Annotatsiya

Zamonaviy sportda tiklanish (reabilitatsiya) muammosi mashg‘ulotning o‘zi kabi muhimdir, chunki faqat yuklarning hajmi va intensivligini oshirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin emas. Shu munosabat bilan sportchilarda charchoqni tiklash va bartaraf etish usullari katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada mashqdan keyin tanani tiklash bo‘yicha materiallar to‘plangan va umumlashtirilgan.

Tayanch iboralar: Kurash, tarix, rivojlanish, bosqich, farmon, qaror, mardlik, jasurlik, qadiriyat, buyuk allomalar.

Milliy qadriyatdan umuminsoniy qadriyatga aylanib bugun jahon nigohini o‘ziga mahliyo etgan kurash ma’naviy qadriyat va sport turi sifatida o‘zining chuqur tarixiga ega.

Tarixshunos, qadimshunos, elshunos va faylasuf olimlarning olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari va arxeologik ilmiy qidiruvlari, kuzatishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillar kurashning yoshi kamida 2,5-3 ming yildan ziyod ekanligini tasdiqlaydi.

Asrlar sinovidan, murakkab davrlardan mardona o‘tgan, chinakam mardlar raqiblar bahsi, ezgu niyatlar, oliy maqsadlar bo‘lib e’tirof etilgan kurash yana xalq nazariga tushdi. Davlat, mamlakat darajasidagi muhim ishga aylandi. Bir necha yildirki, jahon ommasining mehrini qozonib, dunyo sport sahnasida o‘z o‘rnini topdi.

Kurash - azal - azaldan oliy janoblik, mardlik va halollik timsoli, xalqimizning bir necha ming yillik tarixiga ega milliy - madaniy merosining bir qismi va bebaho boyligi hisoblanadi.

IV asrda O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar orasida epchil akrobat-darbozlar juda mashhur bo‘lgan. Epchil, jismoniy jihatdan juda chiniqqan darbozlar, chig‘iriqli simbozlar Yunoniston, Vizantiya va Eron kabi mamlakatlarga borib, o‘zlarining ajoyib va hatarli o‘yinlarini qiziqchi va masqarabozlarning utkir satira va kulgi bilan sug‘orilgan turli sirk sahnalari, o‘qdek uchadigan muollaqchilar va kishi aqli devor qilmaydigan pahlavonlarining o‘yinlari, hukakchi va yog‘och oyoqlarining jo‘shqin raqslari va ot o‘yinlarini chuqur ma’noli so‘zlarni va baytlarini sozandalarning bu o‘yinlarga moslagan mashqlarini ko‘z- ko‘z qilganlar.

Qadim zamonlarda jamoa jismoniy tarbiya sohasida o‘z davrlari zimmasiga ma’lum majburiyatlar yuklagan. Qizlar va yigitlar hayotda kerak bo‘ladigan epchillik, chidamlilik, chaqqonlik qat’iylik va jasurlik kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishlari shart bo‘lgan.

Buyuk alloma Ibn Sino turli mashqlar orasida me’yori bilan uzoq va tez yugurish, kurash tushish va ot minishni alohida ta’kidlagan. Ibn Sinoning fikricha, mashqlardan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad qon aylanishini, nafas olishni va organizmdagi moddalar almashuvini yaxshilashdan iboratdir deydi.

Alisher Navoiy hazratlari ham kurashdan uni dovrug‘ini 7 iqlimga taratgan polvonlar bahsidan huzurlangan. Shu bois ko‘plab asarlarda polvonlar hayoti va faoliyatiga oid ajoyib-g‘aroyib voqealar lavhalarni yozib qoldirgan. Pahlavon Muhammadning odobi, sahiyligi, beozorligi, sofdilligi, mardligi, mehmonnavozligi, halolligi polvonlarga hos bo‘lgan ulug‘hislatlar ekanligini qayt etgan.

O‘z zamonasida qudratli saltanat qurgan Amir Temur buyuk davlat arbobi marifatparvar hukumdor, salohiyatli sarkarda bo‘lib qolmasdan ayni vaqtda kurash ilmiy hadisini mukammal egallagan. Kuchli polvon sifat inson ham bo‘lgan. Shuning uchun u mamlakatda yoshlarni chiniqtirish, vatanni sevuvchi, yurt xizmatiga kamar basta, yetuk shaxslar qilib voyaga yetkazishda kurashning tutgan o‘rniga katta ahamiyat bergan.

Qadimgi Sug‘diyona markazi bo‘lgan Samarqandda Navro‘z bayrami har doim xalq tomoshalari bilan o‘tgan. Bularda xalq san’at vakillari, bahshilar, xonandalar, hofizlar, darbozlar, raqqosalar o‘z san’atini namoyon qilishgan. Bu bayramlarda xalq darbozlarning chiqishi va poygani zo‘r qiziqish bilan tomosha qilishgan. Lekin har bir bayram kurashsiz o‘tmagan. Musobaqalar natijasida har yili kurashchilardan biri Sug‘diyona polvoni nomini olgan. Bayramlarda ushbu polvon obro‘li joyda o‘tirgan. Qurbon hayit bayrami kunlarida doimo kurash bellashuvlari o‘tkazilgan.

O‘zbek xalqi qadimdan kurashni insonni jismonan tarbiyalash vositasi deb qaralgan. Xalq o‘zida kuchlilikni, chidamlilikni, iroda va botirlikni mehnatkash xalqning ahloqiy sofligini mujassamlashtirgan kurashchi polvonlarga hurmat bilan munasabatda bo‘lgan. Kurashchilar juftini tanlashda ularning vazini ko‘z bilan chamalab aniqlagan. Bellashuv oldidan kurashchilar oyoq - qo‘llar chigilini yozish mashqlari sifatida gavdani uqalash, silash kabi mashqlarni qo‘llaganlar. Kurashchilar an’anaviy kiyimda musobaqalashgan. Farg‘ona qoidasi bo‘yicha kurashchilar paxtali choponda, Buxoro qoidasi bo‘yicha kurashchilar esa paxtasiz to‘n kiyib kurashganlar. Kurashchilar ba’zan mahsi kiyib, asosan oyoq yalang kurashganlar. Kurashchilarining bunday kiyinishi hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

O‘tmishda Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Qoraqalpog‘iston avtonom Respublikasi hududida Buxorocha kurash ya’ni kurash, Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Sirdaryo hududlarida Farg‘onacha kurash, ya’ni belbog‘li kurash rasm bo‘lgan.

Bugun dunyoga keng tarqalgan kurash o‘zining uzoq tarixiga ega ekanini ta’kidlab o‘tdik. Kurash odamlar qabila-qabila bo‘lib yashagan ibtidoi jamoa davrdayoq rasm bo‘la boshlagan. Buni ko‘pgina arxeologik, etnografik, yozma manbaalar va turli tuman yodgorliklar ham tasdiqlaydi.

Yunon tarixchisi Elion Saklarda bir odat bo‘lishganligini, ya’ni bu odatga ko‘ra, uylanishni istagan har bir yigit o‘zi tanlagan qiz bilan yakkama-yakka bellashishi lozimligi, bu kurashda g‘olib chiqsagina qiz yigitniki bo‘lishligi, qizni yenga olmagan taqdirda esa yigit uning asiri bo‘lib qolishligi haqida esa ma’lumot beradi. Ayollar o‘z jismoniy kuchlarini va harbiy fazilatlarini ongli ravishda baholay olganlar. Ular o‘z muhabbatlari va baxtlari uchun kurashishga tayyor edilar. Shuning uchun ham bahodirlar o‘z sevganlarini jangda qahramonlarcha oqlashlarini qat’iy talab qilganlar.

Qadimgi kurash usullaridan XX-asrdagi kurash usullari bir birida ancha farq qilgan. Qadimda bellashuv natijalari ko‘proq kurashchining texnik taktik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lgan. Ommaviy kurash mahalliy xalq orasida milliy ongining o‘sishiga turtki bo‘layotganligini fahimlab Turkiston hukumati 1915- yilda kurashni taqiqlab qo‘ygan.

1918- yil 22- aprelda “Harbiy san’atga majburiy o‘rgatish to‘g‘risda” qaror qabul qilingan. Bu qarorni amalga oshirish uchun vatan budofasiga zahira tayyorlash birlashmasi tashkil qilinadi. Ushbu birlashmaning asosiy vazifasi mahalliy aholi tarkibidan zahiralarni jismoniy tomonidan tayyorlashga rahbarlik qilishdan iborat bo‘lgan. Bu ma’suliyatli tadbirni muvofaqqiyatli amalga oshirish uchun ya’ni jismoniy tayyorgarligini aniqlashi sportning bir necha turlaridan, ayniqsa, kurash sportidan asosiy vosita sifatida foydalanishgan. 1920- yil 10 -oktyabrda Toshkentda o‘tkazilgan birinchi O‘rta Osiyo olimpiadasida sportning milliy turlari, shu jumladan, belbog‘li (Farg‘onacha) kurash ham keng namoyish qilinadi. Sportning bu turi bo‘yicha O‘zbekistonlik polvonlar g‘olib chiqishgan, 1921- yilda o‘tkazilgan ikkinchi O‘rta Osiyo olimpiadasida ham O‘zbekiston polvonlari birinchi o‘rinni olishgan. Bu olimpiadada ham belbog‘li kurash namoyish qilingan. 1926- yil ohiriga kelib O‘zbekistonda sport bilan shug‘ullanayotganlar soni 20 minga yetdi. Ularning 40 foizi mahalliy yoshlardan iborat edi. Kurash mahalliy yoshlarni sportning boshqa turlari bilan shug‘ullanishga jalb qilishda eng maqbul omil bo‘lgan. 1928-yil Qo‘qon shahrida birinchi jismoniy madaniyat bayrami o‘tkazilgan ushbu bayramda belbog‘li kurash bo‘yicha musobaqa uyushtirilgan.

Kurash musobaqasida Respublikada dong‘i ketgan, 39 ta polvon maydonga chiqishgan. 6 kun keskin davom etgan. Musobaqada Farg‘onalik 65 yoshar Ilmiyamin Ilim buva g‘alaba qozongan va O‘zbekistonning eng kuchli polvoni degan faxrga sazovor bo‘lgan. 1934yilda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo xalqlari birinchi spartagiyasi dasturiga kurashning kiritilishi uning roli oshganligidan dalolat beradi. Bu spartakiyadada kurashchilar 4 ta vazn toifasida kurashishgan. Kurashning “Farg‘onacha” va “Buxorocha” turlari bo‘yicha ham O‘zbekiston jamoasi birinchi o‘rinni egallagan. 1936-yilda Toshkentda maxsus kurash maktabi ochiladi va O‘zbekistonning kuchli kurashchisi Asqar Ataboyev bu maktabning rahbari va murabbiyi etib tayinlanadi.

A.Atoyevning tashabbusi bilan 1964- yildan boshlab kurash Buxoro Davlat Pedagogika institute (hozirgi BuxDU) jismoniy tarbiya fakulteti o‘quv rejasiga kiritilgan. Birinchi bor 1969 -yilda O‘rta Umumiy ta’lim maktablarining 8- 10 sinf jismoniy tarbiya dasturiga milliy kurash kiritilgan. 1991-yil O‘zbekiston Mustaqillikga erishgach milliy sport turini jahon arenasiga olib chiqish masalasi ilk bor muhokama qilindi. 1991-yil 14-15 iyunda bo‘lib o‘tgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston ilmiy konferensiyasida K.Yusupov tomonidan yaratilgan milliy kurashning yangi qonun-qoidalari, hakamlar hamda kurashchilar kiyimlari tasdiqlandi va shu yili sport gazetasining 17- sentyabr sonida e’lon qilindi. 1992- yil birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov kurash mutaxassislari bilan muloqot o‘tkazdi va alohida ko‘rsatmalar berdilar. 1992 -yil Kanadada o‘tkazilgan “dzyudo” bo‘yicha jahon chempionati hamda Dzyudo federatsiyasining butun jahon kongeressida ilk bor kurash (o‘zbek kurashi) targ‘ib etildi. 1994-yilda Hirosima shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida kurash musobaqalaridan yozib olingan video tasvirlar namoyish etildi. 1995-yil Hindistonda o‘tkazilgan “Dzyudo” federatsiyasining Osiyo Kongeressida kurash haqida atroflicha ma’lumot yetkazildi. 1998-yil 6-7 mart kunlari Irlandiyaning Dublin shahrida Yevropa Dzyudo uyushmasi taftish hay’ati yig‘ilishi o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilishda kurash haqida yozma va video lavhalar namoyish qilindi. 1998-yil 15-18 aprelda Monako shahrida o‘tkazilgan dzyudo uyushmasining 50 yillik yubiley Kongeresiga

O‘zbekistonlik vakillar taklif etildi. Kurashning dovrug‘ini yoyishda Irlandiya olimpia qo‘mitasi Prezidenti, Yevropa olimpia qo‘mitasi vitse - prezidenti Patrik Hikkinning xizmatlari katta. 1998-yil 6 -sentyabrda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi “KXA” tuzuldi. 1999 -yil birinchi fevralda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini” qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida farmoni qabul qilindi. 1999-yildan boshlab Jahon chempionatlari o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgach, o‘zbek xalqi milliy davlatchiligi va ma’daniyati tarixida yangi davr boshlandi. Unutilgan qadriyatlar urf -odatlar qayta tiklandi. Millatimizning faxri bo‘lgan kurash, an’anasi bir necha ming yil tarixga ega bo‘lib o‘zida o‘zbek xalqining ko‘plab urf-odatlarini, udumlarini mujassamlashtirgan, akademik A.Asqarov, professor M.Gryaznov, filologiya fanlar doktori K.Imomovlar olib brogan tadqiqot natijalari esa dastlabki sport o‘yinlaridan biri hisoblangan o‘zbek milliy kurashi 3,5- 5 ming yil ilgari tarqala boshlanganligini ko‘rsatadi.

Surxon, Zarafshon, Farg‘ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlaridan topilgan noyob topilmalar, qoya toshlarga chizilgan tasviriy san’at namunalari ham bunga to‘la shohidlik qiladi. Etnografik tadqiqotlarining guvohlik berishicha O‘zbekiston hududida kurash milodiy IX-X asrlarda keng rivoj topgan bo‘lib, xalq sayllarida musobaqa o‘tkazish an’anaviy tus olgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiy namunalaridan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Rustam”, “To‘lg‘anoy” kabi dostonlarda ham pahlavonlar kurashi madh etilib, epchil va chaqqoon, zukko va dono polvonlar ulug‘langan.

Milliy kurashimizning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, ajdodlarimiz nazarida kurash, eng avvalo, polvonlarning odob -tarbiyasi mardligi, oliy janobligi, ma’naviy qiyofasi, umuman, har tomonlama yetuklik namunasi sifatida sharaflangan. Fikrimizning yaqqol namunasi tarzida Xorazmlik mashhur shoir va polvon Pahlavon Mahmud, uning davomchilari sifatida pahlavon Vobohoqiiy, Shayh Xudoydod Azizon, Amir Uchqora kabi, keying davrlarda esa Ahmad Polvon, Avazxo‘ja polvon, Haydarali polvon, Abdurahmon polvon kabilarni misol keltirish mumkin.

Mustaqillik sharofati va birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning jon kuyarligi tufayli o‘zbek kurashi olam shumul voqeaga ega bo‘ldi. Bugun “Buyuk ajdodlarimiz ruhini shod etib, azal- azaldan xalqimiz g‘ururiga aylanib qolgan o‘zbek kurashining jahon maydoniga chiqishi, uni tan olinishi barchamizni g‘oyat quvontirdi” - deb ta’kidladi prezidentimiz. 1992- yilda yurtboshimiz taniqli polvon, xalqaro toifali sport ustasi Komiljon Yusupov bilan uchrashib milliy g‘urur va qadriyatimiz timsoli bo‘lgan o‘zbek kurashini xalqaro miqyosiga olib chiqish haqida bir qator ko‘rsatmalar berdi. Xususan, kurashning sog‘lom avlod tarbiyasida, mamlakat mudofaasini mustakamlashdagi ahamiyati eng asosiysi, inoq xalqni shakllantiruvchi tarixiy qadriyat ekanligini ta’kidlab o‘tdi. K.Yusupov iqtidorli mutaxassis sifatida kurashning tarixini, musobaqa o‘tkazish tartibi va qoidalarini ilmiy jihatda o‘rgandi. Aynan shu qoidalar, hakam va polvonlarning kiyim va emblemalari 1991 yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston ilmiy konferensiyasida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Mustaillik tufayli o‘zbekning o‘zligi yana o‘ziga qaytdi. Unutilgan qadriyatlar, urf-odatlar qayta tiklandi. Milliy sport turi bo‘lmish kurashni rivojlantirish va jahon maydoniga olib chiqish musobaqasi kun tartibiga qo‘yildi. 1992-yilda bu jarayonni amalga oshiradigan ishchi kuchi Milliy Kurash Federatsiyasi tashkil etildi. Federatsiyaning me’yoriy hujjatlari tasdiqlanib, kurash jonkuyarlarining tashabbuskor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Tinimsiz mehnat va izlanishlar bekor ketmadi. 1998-yil 6-sentabrda milliy kurashimiz tarixiga olam shumul voqea bo‘lib kirdi. Lotin Amerikasi, Yevropa va Osiyo qit’asining 28 davlatidan kelgan vakillar ishtirokida Toshkentda bo‘lib o‘tgan tasis kongeressida kurash xalqaro assostsiatsiyasi (KXA) tuzilganligi, xalqimizning milliy qadriyati “Kurash” nomi bilan xalqaro sport maydoniga chiqanligi etirof etildi.

Kurashning jahonga yuz tutishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov KXA ning doimiy faxriy prezidenti, kurash qonun-qoidalarini ishlab chiqqan, kurash asoschilaridan biri Komiljon Yusupov assotsiatsiyasi etib saylandi. Bu ijobiy ishlarni mantiqiy davomi sifatida 1999-yil birinchi fevralda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini qullab- quvvatlash haqidagi” farmoni imzolandi. O‘z vaqtida qabul qilingan bu farmon o‘zbek kurashining butun jahonda keng quloch yoyishiga xizmat qilmoqda. Shu yil O‘zbekiston tarixida ilk bor “Yunusobod” sport majmuida kurash bo‘yicha birinchi jahon chempionati bo‘lib o‘tdi.

Bu davrda XKA a’zolari bo‘lgan 6 ta davlat -Yaponiya, Vengriya, Hindiston, Polsha, Rossiya, Bolgariya Milliy federatsiyalari Prezidentlari ta’sischiligida Jahon kurashni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilgan. Jamg‘armaning asosiy maqsad va vazifalariga jahonda kurashning rivojlanishiga moliyaviy tomonidan ko‘maklashish, XKA ning taqvimiy darajasidagi jahon, qit’a chempionatlari, xalqaro turnirlari tashkil etish va o‘tkazishda asosiy moliyaviy- tashkiliy ta’minotchi vazifasini bajaradi.

2000-yil sport olamida o‘zbek kurashi dovrug‘ining ortishi va rivojlanishida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu vaqtga kelib bu har tomonlama takomillashib, xalqaro sport o‘yinlari qatoridan munosib o‘rin egalladi va mutaxassislar tomonidan “XXI asr sporti” deb etirof etildi. Shu davrda XKA Ijroya qo‘mitasi yig‘ilishda 13 mamlakatning ko‘zga ko‘ringan siyosat va sport arboblari ishtirok etdi va “Butun dunyoda kuraashni rivojlantirish Dasturi” qabul qilindi.

Shu kungacha dunyoning bir necha mamlakatlarida 1000 dan ortiq turli darajadagi xalqro turnirlar tashkil etildi. Jahon Osiyo chempionatlaridan tashqari Buyuk Britaniya, Gretsiya va Fransiyada “Islom Karimov”, Turkiyada “Bos Fors” va Eronda “Pur iyoivali” xalqaro turnirlar o‘tkazildi.

Bugungi kunda XKA ning jahoning barcha qit’alarida 129-ta kurash federatsiyalari tashkil etilgan va ularning safi kundan-kunga ko‘paymoqda bu o‘rinda Osiyo, Yevropa, Afrika va Janubiy Amerika qit’asi davlatlari bo‘layotgan hamkorlikni alohida takidlash joiz, bundan tashqari XKA ning YUNESKO qoshidagi “Jismoniy tarbiya va sport fani xalqaro kengashi a’zosidir. Kurashning jahondagi nufuzini yanada oshirish maqsadida assotsiatsiyaing oliy nishoni – “XKA Oltin ordeni” ta’sis etilgan. Uning birinchi sohibi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov, so‘ngra Hindiston Milliy Kongeressi partiyasi yetakchisi Sonya Gandi, xalqaro olimpia qo‘mitasi XOQ Jak Rogge, Osiyo Olimpia Qo‘mitasi OOQ prezidenti Shayh Ahmad Al-Fahd As-Sabah Butun jahon olimpia assotsiatsiyasining va boshqa ko‘zga ko‘ringan insonlar sazovor bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Sh.M.Mirziyoyev “Kurash” milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini oshirish chora-tadbiri to‘g‘risida”gi 2020 yil 4 noyabr PQ - 4881 sonli qarorida ma’lum qilinishicha, oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida xalqaro musobaqa, xorijiy davlatlarda O‘zbekiston Respublikasi sovrini uchun xalqaro turnirlar o‘tkaziladi.

2020- yildan har yili bir marta davlat organlari muassasalari va tashkilotlari hodimlari o‘rtasida “o‘zbek polvoni” Respublika musobaqasi o‘tkaziladi deyiladi hujjatda. Bundan tashqari, 2021-2025 yillarda kurash mahorati maktablari bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Shuningdek, 2021-2022 o‘quv yilidan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti maktab-internatlari va sport maktablarida kurash bo‘yicha o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari 2 barobarga oshiriladi.

“Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi tasdiqlandi”. Konsepsiyada, jumladan, 2028- yilda kurashning xalqaro olimpia o‘yinlari dasturiga kirishiga erishish ko‘zda tutilgan. Qisqasi, davlatimiz rahbarining kurashni rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha kompleks chora -tadbirlar dasturini o‘z ichiga olgan mazkur qarori o‘zbek milliy sporti brendini yangi cho‘qqilarni zabt etishga zamin hozirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, asrlar sinovidan, tarixiy davrlar silsilasidan o‘tgan, mardlar va munosib raqiblar bahsi bo‘lgan o‘zbek kurashi mustaqillik sharofati bilan umumdavlat darajasidagi sportga aylanib, butun jahon nazariga tushdi. O‘zbek kurashining sport turi sifatida dunyoga yuz tutushi, mamlakatimizning xalqaro yanada oshirishda o‘zining ham beqiyos hissasini qo‘shmoqda.

Adabiyotlar:

11. 1.Kirimov F.A Kurash tushaman -T:, 1990
12. 2.Nurshin J.M, Salomov R.S, Kirimov F.A. O‘zbekcha milliy kurash sport turi, T:, 1993
13. 3.Kirimov F.A Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T:, 2001
14. 4.Taymurodov A.R. O‘zbek milliy kurashi, T: 1990
15. 5.Choriyev Z, Toshpulatov J, Pahlavon qizlar , T:, 2008
16. 6.Toshpulatov J. O‘zbek kurashi Toshkent: 2000
17. 7.Al-Hakim At-Termiziy hayoti va ijodiy faoliyati. Yosh avlodni tarbiyalashda kurashning o‘rni va ahamiyati. Xalqaro ilmiy - anjuman materiallari. Termiz -2011

18. 8. Yusupov.K Kurash xalqaro qoidalari texnikasi va taktikasi. T. G‘afur G‘ulom 2005.

BELBOG‘LI KURASHCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAHLIL QILISH

Alijonov Oybek Muzaffar o‘g‘li
Stajor o‘qituvchi
Guliston davlar universiteti
e-mail: oalijonov382@gmail.com

Annotatsiya

Zamonaviy sportda tiklanish (reabilitatsiya) muammosi mashg‘ulotning o‘zi kabi muhimdir, chunki faqat yuklarning hajmi va intensivligini oshirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin emas. Shu munosabat bilan sportchilarda charchoqni tiklash va bartaraf etish usullari katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada mashqdan keyin tanani tiklash bo‘yicha materiallar to‘plangan va umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: tahlil, asosiy texnika, belbog‘li kurash, tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o‘qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta’minlash hamda o‘quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo‘lishi, barcha fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelmoqda. Hozirgi davr o‘qituvchi va o‘quvchi oldiga katta talablar qo‘ymoqda, bu o‘quvchilarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga, maktablardagi turli xil o‘quv mashg‘ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarni turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishidir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son Qarori va 2018 yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son Farmoni bu sohani yanada rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu farmon va qarorlarning asosiy maqsadlaridan biri ham bu sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, jismoniy tarbiyaga oid ko‘nikma va malakalarga doir tushuncha hamda atamalarni to‘g‘ri shakllantirishdan iborat. Darhaqiqat, hozirgi globallashuv jarayonlari tobora keskinlashayotgan bir davrda bevosita yoshlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga qaratilayotgan e’tibor bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ularning muhim xizmatlaridan biri shundaki, o‘quvchi-talabalarni tarbiyaviy, madaniy, tibbiy, sanoat qurilish, ishlab chiqarish kabi kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘lsa, ikkinchidan ularni maxsus jismoniy tayyorgarlik bilan qurollanishga ma’lum darajada xizmat qiladi.Ushbu masalaning jismoniy tarbiya sohasidagi mutaxassislar uchun, ayniqsa, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun dolzarbligi strategik ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ushbu ishning maqsadi o‘quv yilining boshidan boshlab ushbu yil semestrining oxirida 11-12 yoshdagi yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini qiyosiy tahlil qilishdir.

Ishning maqsadiga asoslanib, bir nechta vazifalar aniqlanishi mumkin:

1. Ushbu mavzuning rivojlanishini tahlil qilish;
2. O‘qituvchi-murabbiylar va talabalarning so‘rovnomasini o‘tkazish;
3. Sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash va tayyorgarlik darajasini yaxshilash uchun tavsiyalar berish.

Ushbu maqola empirik usullardan foydalanadi – tadqiqot va kuzatish.

Bu mavzu ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan, chunki belbog‘li kurash Tatariston Respublikasida milliy kurashdir. Ushbu mavzu bo‘yicha o‘z asarlarida Habibullin I. Z., Petrov V. R., Gaynanov R. F., Svishchev I. D., Ayupov X. A., Valemeyev A., F. N.Kiyamov kabilar foydalanishgan.

Maqolaning obyekti - belbog‘li kurash zali, predmeti - kurash mashg‘ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi.

Tadqiqot natijalari 11-12 yoshdagi yosh sportchilarni jismoniy tarbiyalashda, shuningdek, belbog‘li kurashda ishtirok etgan sportchilarning mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishni takomillashtirish jarayonida qo‘llanilishi mumkin. Bizning davrimizda jang san’atining turli

yo‘nalishlari o‘z rivojlanishida qo‘llab-quvvatlandi va maktablarda, universitetlarda va hokazolarda o‘qitila boshlandi. Ular milliy sport turi – belbog‘li kurash bo‘yicha mashg‘ulotlarni chetlab o‘tishmadi. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligi pastligi bilan bog‘liq. Sportchilarning holatini mustahkamlash uchun yosh sportchilarni jismoniy va texnik tayyorgarlik vositalarining hajmi va intensivligini aniqlaydigan yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish talab etiladi. Metodik adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar va belbog‘li kurash bo‘yicha o‘quv dasturining tahlili shuni ko‘rsatdiki, sportchilarni o‘qitishning tavsiya etilgan vositalari tayyorgarlikning samarali vositasi emas. Dasturlarda jismoniy sifatlarning kompleks rivojlanishini va harakatlarning mos tuzilishini shakllantiradigan tayyorgarlik mashqlari ta’sir qilmaydi. Mavjud tayyorgarlik dasturlarining kamchiliklarini aniqlash maqsadida o‘qituvchi-murabbiylar (10 kishi) so‘rovnomasi o‘tkazildi.

So‘rov quyidagi savollarni o‘z ichiga olgan:

1. Sizning fikringizcha, asosiy texnikani o‘rganish va ularni takomillashtirish uchun qancha vaqt kerak?
2. Birinchi darslarda qanday ta’lim usullari va usullaridan foydalanish kerak?
3. Sizning fikringizcha, qanday ushlash turlari bor va ularning asosiylari qaysi?
4. Qanday to‘xtash turlari asosiy hisoblanadi?
5. Dastlabki davrda qo‘lga olish va to‘xtashdan qutulish usullarini o‘rgatish kerakmi?
6. Qanday usullar asosiy va qaysi tartibda o‘qitilishi kerak?
7. Sizning fikringizcha, texnologiya asoslarini (va ayniqsa, asosiy metodlarni) o‘qitishda turli usullar barcha yo‘nalishlarda amalga oshirilishi uchun ularni almashtirish kerakmi?
8. Asosiy texnikani o‘rganish bosqichida himoya elementlarini o‘rgatish kerakmi?
9. Asosiy ta’lim jarayonida o‘yin vazifalaridan foydalanish kerakmi?
10. Yosh sportchilar qaysi turdagi musobaqalarda ishtirok etishlari kerak?

Ushbu so‘rov savollaridandan so‘ng quyidagilar aniq bo‘ldi – minimal foizlar texnikaning o‘ziga xos xususiyatlarini amalga oshirishga beriladi, bu ma’lumotlarga ko‘ra, javoblarning 75 foizini tashkil etdi. O‘z ishlarida murabbiylarning o‘zlari yetakchi mashqlarning yetishmasligini ta’kidladilar, ularning tuzilishi texnikaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi - (80%). Murabbiylarning atigi 20 foizi o‘z mashg‘ulotlari dasturlarida hech qanday kamchilik topmagan va o‘zini o‘z sohasi bo‘yicha yuqori malakali murabbiy deb biladi. So‘rovnomadan kelib chiqib, Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 282-sonli maktabda 11-12 yoshli yosh sportchilarni o‘rganish o‘tkazildi. O‘quv dasturiga ba’zi o‘zgarishlar kiritildi, bu esa belbog‘li kurashda amalga oshiriladigan texnikaning jismoniy sifati va texnikasini kompleks rivojlantirishni ta’minladi. Taklif etilgan usul bo‘yicha an’anaviy ta’lim tizimi va mashg‘ulotlarning samaradorligini taqqoslash maqsadida pedagogik tajriba o‘tkazildi. Pedagogik tajriba 1 yil davomida 282-sonli maktabda 01.09.2020 - 01.09.2021 o‘quv yilidan boshlab yosh belbog‘li kurashchilari bilan o‘tkazildi. Guruhda 15 kishi bor edi.

Jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun belbog‘li kurashning asosiy sharti – belbog‘ni qo‘l bilan ushlashni hisobga olgan holda mashqlar taklif qilindi. Kuch, egiluvchanlik, chaqqonlikni rivojlantirish uchun:

1. Gimnastika ko‘prigida surish; Buni amalga oshirish uchun orqa tomoningizda yotgan holda, oyoqlar tizzada egilib, qo‘llar boshning orqasida tayanch holatini oling;

2. Birinchi polvon baland parter holatida, ikkinchi polvon oyoqlari bir-biridan keng, qo‘llarini boshining orqa tomoniga qo‘yib, pastki polvonga minib turadi. Ikkinchisi, bosib, boshini pastga tushiradi. Birinchisi, qarshilikni yengib, boshini ko‘tarishga intiladi;

3. Birinchi polvon baland o‘rindiqda, ikkinchisi ikki qo‘li bilan boshini ushlab chalqancha o‘tiradi. Ikkinchisi, pastki qismining qarshiligini yengib, boshini yuqoriga ko‘taradi, keyin esa taslim bo‘lib, asl holatiga qaytadi;

4. Ko‘prikda turib, iyagiga va orqasiga oldinga siljish, boshning orqa tomoni bilan gilamga tegishi;

5. Qo‘l bilan yoki qo‘l bilan tayanchsiz devorga qarshi turish. Boshning oldinga-orqaga - yon tomonlarga yoki dumaloq harakatlari;

6. Polvonning turishi yoki oyog‘i bir-biridan alohida, ko‘krakdagi qo‘llar ilgakka bog‘langan. Ko‘prik yoniga boring, gilamga yuzingiz bilan teging, so‘ngra qo‘llaringizni silkitib, tos suyagini yuqoriga ko‘tarib, muvozanatga qayting.

Tezlikni rivojlantirish uchun: 10 m., 20 m., 30 m. yugurish, bir joydan uzunlikka sakrash (rezina turniket qo‘lida); 20 soniya davomida ustundagi tortishishlar; 20 s yotib, qo‘llarni ushlab turib bukish (qo‘llar rezina turniketni ushlab turish); Orqa tarafga 10 ta maneken tashlaydi.

Bundan tashqari, jismoniy fazilatlarni rivojlantirish uchun mashqlar majmuasiga uloqtirishni o‘rgatish mashqlari kiradi:

1. Oyoqlar kerilgan, qo‘llar belda (boshning orqasida). Tos-son bo‘g‘imlarini yengil egilish bilan aylantirish;

2. Tizzalarga o‘tirgan xolda, qo‘llar orqada. Tez sur’atda, tiz cho‘kib sakrab o‘tiring;

3. Kurashchilar bir-birlariga qarama-qarshi oyoqlari kerlgan holatda, qo‘llari yon tomonda, barmoqlarini zamok holatda bog‘lab turishadi. Tutqichni ya’ni qo‘llarni qo‘yvormasdan, polvonlar bir-birlariga orqalarini burishadi. Birinchisi, oldinga egilib, to‘g‘ri qo‘llari bilan ikkinchisini orqasiga tashlaydi va uni oyoqqa qo‘yadi. Ikkinchi polvon ham shunday qiladi;

4. To‘g‘ri holatda kurashchi bilan birga bo‘lib, uning qo‘li va bo‘ynidan (yelkasi) ushlab, unga orqa tomonga buriling. Oldinga va chapga egilib, raqibni orqa tomondan silkiting. Mashq paytida ikkinchi sportchi birinchisining tanasini bo‘sh qo‘li bilan tutqichdan ushlaydi va gilamdan itarib, pastki orqa qismida egilib, oyoqqa tushadi;

5. Birinchi kurashchi tik turgan holatda oyoqlar kerilgan to‘ldirilga koptokni ikkinchi sportchining beliga qo‘yadi. Bir-biridan masofa 3-5 m. Muvozanatni saqlagan holatda, egilgan holatda to‘pni boshni ustida ushlab turish.

Eksperiment oxirida eksperimentning barcha ishtirokchilarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Xulosa.Yotgan holatda qo‘llarning egilishi va cho‘zilishi bo‘yicha nazorat sinovlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulotlarda maxsus mashqlar to‘plamidan foydalanish natijalarning 75,8% ga samarali yaxshilanishini ta’minladi. Tajriba uchun tavsiya etilgan mashqlardan foydalangan holda umumiy jismoniy tayyorgarlik bilan shug‘ullangan belbog‘li yosh kurashchilarda tortishishlar sonining o‘rtacha qiymati 2 barobarga oshdi.

Quyidagi ko‘rsatkichlarda ham o‘sish kuzatildi:

• dominant qo‘lning qo‘l mushaklari kuchining ko‘rsatkichlari - 13% ga;
• orqa tomonda yotgan holatdan tanani 30 soniya davomida ko‘tarish. - 15% ga;
• tezlik-kuch sifatlarining rivojlanish darajasining qiymati - 12% ga;
• egiluvchanlikni rivojlantirish ko‘rsatkichlari - 30% ga;
• chidamlilik ko‘rsatkichlari (yugurish) - 11% ga.

Yosh belbog‘li kurashchilarning jismoniy sifatlari va umuman jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha olingan ma’lumotlarni tahlil qilish jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan olti oylik mashg‘ulot tsiklida maxsus mashqlar to‘plamidan foydalanish samaradorligini tasdiqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Н.Ю.Валиева “Влияние гибкости на конкретные силовые качества у высококвалифицированных спортсменов” Шаг в науку, 335-337.

2. Шоалимов, М. А. Совершенствование занятий по борьбе на поясах 2016. — № 5 (109). — С. 758-761.

3. Кузнецов А.С., Шулика Ю.А. Теоретические основы и методология овладения техникой и тактикой борьбы на поясах. Казань: Поволжская ГАФКСиТ. 2010: 264.

4. M. X.Mirjamolov, R. F.Odilov, N. Y.Valiyeva, D. B.Baxtiyorov KO‘RISH QOBILYATIDA NUQSONI BO‘LGAN TALABALARDA HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI // Academic research in educational sciences. 2021. №12.

ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИЯ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Рахимов Бахтиёр Худойбердиевич, Юлдашев Шухрат Шакирович
Гулистон давлат университети, 120100. Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 4-мавзе.
Email: shuxratyuldashev1982@gmail.com

Abstract

It was introduced in many countries of the world as the most acceptable form of education during the pandemic. However, many studies prove that it is not as effective as traditional education.

Therefore, we have conducted research to identify learning strategies that can be effective in providing online training. The empirical basis of the article is a survey conducted among students and teachers, and the methodological basis is scientific articles published in authoritative journals on the subject.

Keywords:
online education, higher education, teacher, learner, traditional education, learning strategies

Ижобий ва салбий томонлари ҳақида тўлиқ билим ва тасаввурга эга эмасликларидан келиб чиқади. Шунинг учун биринчи навбатда онлайн ўқишнинг умумий хусусиятларига эътибор қаратсак. - Ўқувчи ўқиш билан бир қаторда ўзига маъқул иш билан ҳам шуғулланиши мумкин. Аслида онлайн ўқишни танлаган ўқувчи– ларнинг асосий қисми ўз ишидан воз кечишни истамайдиган, аммо билим олишни хоҳлайдиганлардир. Онлайн таълимда сиз дам олиш кунлари, ишдан қайтганингизда ҳатто ярим кечада ўқишингиз мумкин; - Маблағингиз тежалади. Ҳар қандай дастур учун масофавий таълим даражаси (Интернетда ѐки бошқа усулда), ўқув марказларидаги оддий тўловдан кўра анча арзонроқ бўлиши мумкин. Иқтисодий жиҳатдан мақбул вариантларни қидираѐтган ўқувчилар учун онлайн таълим - энг тўғри йўл; - Вақтингиз тежалади. Ўқув марказларига бориш ва қайтиш вақтида транспорт кутиш учун кетадиган вақтингизни тежашингиз мумкин. Онлайн таълимда сиз истаган жойдан туриб маълумот оласиз. - Ўз-ўзини ривожлантириш ѐки аксинча, билимларни ривожлантиришдан ортда қолиш мумкин. Онлайн дарсларда тинглаш, тасаввур қилиш қобилияти кучлироқ бўлган талабаларнинг ўқув предметларини ўзлаш– тириши секин тушунувчи, жонли мулоқот орқали кўпроқ маълумот олишга мойил ўқувчилардан яхшироқ бўлади; - Чалғиш эҳтимоли юқори. Онлайн таълимда юзма-юз мулоқот қилиш учун ўқитувчилар ва кутилаѐтган топшириқлар ҳақида доимий равишда эслатувчи синфдошлар йўқ. Агар масофавий ўқитиш курсини муваффақиятли якунламоқчи бўлсангиз, ўзингизни ғайратли ва диққатли қилишингиз керак; - АКТга тобелик.

Онлайн ўқишнинг энг катта душмани бу интернет провайдер– ларининг секин ишлаши ѐки алоқа узилиб қолиши. Бу вазиятда ўқувчининг таълим олишга бўлган интилиши сўниб, асабийлашишига сабаб бўлади. Биламизки, хоҳ анъанавий (юзма-юз) ѐки онлайн таълим олиш бўлсин таълим жараѐнининг марказида ўқитувчи туради.

Педагоглар ҳар қандай таълим муҳитида билим бериш ва ўргатишнинг ажралмас қисмидир; улар асосан дарсни ривожлан– тиради, тузилиши ва тартибини сақлайди, ўқувчилар қатнашишни рағбатлантиради ва билим беради. Шунга кўра, онлайн дарсни сифатли ўтишда ўқитувчилардан талаб қилинадиган айрим профессионал малака– ларни келтириб ўтамиз: 1. Технологияни билиш. Аввало, ўқув машғулотларидан олдин ўқитувчи ўқувчилар фойдаланадиган АКТ имкониятларини яхши билиши керак. Техник ѐрдам хизматлари мавжуд бўлса-да, ўқитувчи ўқувчи учун биринчи ѐрдамга келувчидир.

Муҳим стратегиялардан бири - ўқитувчиларнинг ўқувчиларга техник кўмак учун қаерга мурожаат қилиш кераклиги тўғрисида аниқ маълумот беришидир. Яъни, ўқитувчилардан техник ѐрдам сўралганда ўқувчиларни бошқа қулай хизматларга йўналтиришлари керак (web платформалар, қулай браузерлар, қидирув ҳизматларидан фойдаланииш каби).

Талабалар учун техник ѐрдам хизматлари мавжуд бўлса-да, ўқитувчилар шунга қарамай юзага келиши мумкин бўлган муаммоларни ҳал қилишга тайѐр бўлишлари мақсадга мувофиқ. Синхрон муҳокамалар ѐки реал вақтда жамоа машғулотлар пайтида, масалан, техник муаммоларни ҳал қилиш қобилияти дарс вақтини тежайди. 2. Фаоллик, яратувчанлик. Онлайн ўқиш пассив, ўз устида ишламайдиган ўқитувчиларнинг жойи эмас. Тадқиқотларга назар солсак, ўқувчиларнинг фикрича, онлайн дарс ўтувчи ўқитув– чилардан кўра анъанавий дарс ўтувчи ўқитувчиларни кўпроқ ҳис қила олишларини таъкидлашган. Чунки жисмоний яқинлик, ўқитувчига ҳеч қандай нутқсиз ҳам фаол иштирокини таъминлайди. Онлайн таълимдаги ўқитувчидан жисмоний яқинлик бўлмаганлиги учун кўпроқ фаоллик талаб қилинади.

Ўқитувчи дарснинг биринчи кунидан олдин ҳам барча талабаларга табрик хати ѐки иложи бўлса видео ҳабар жўнатиши талабаларнинг қизиқиш ва мотивациясини кучайтиради, эртанги онлайн машғулотга аниқ мақсад билан уланади. Дарс давомида талабаларнинг фаоллигини кучайтириш усулларини аниқлаши, масалан, мунтазам ва хилма-хил оғзаки мулоқот ѐки оғзаки бўлмаган мулоқотдан, масалан, смайлик– лардан фойдаланиши ҳам яхши натижа беради. Олиб

борилган тадқиқотларимиз асосида муваффақиятли деб топилган айрим стратегияларни келириб ўтамиз: асосий тезкор ҳабарлардан кўра видео суҳбатдан фойдаланиш, мавзулар доирасида муноза– ралар ташкил етиш (телеграм группада сўров èки мавзу бўйича викторина ўтказиш), саволларга тезкор, мунтазам ва очиқ жавоблар бериш ва ҳоказо. 3. Ўқув машғулоти бўйича аниқ тахминий натижаларни белгилаш. Онлайн дарс берувчи ўқитувчи дарснинг аниқ таҳминларини (ўқув натижаларига нисбатан) эртароқ белгилаб қўйиши керак. Ўқитувчиларнинг виртуал платформа– лардаги ўқув натижалари, одатда анъанавий дарсдагидан фарқ қилади. Ўрганилган манбаларга кўра, онлайн жамоада ўқитув– чилар ўқувчиларнинг иштирокига кўпроқ эътибор қаратишлари талаб этилади.

Ўқувчиларга фанни ўзлаштиришда белгиланадиган баҳолаш мезонларининг олдиндан эълон қилиниши ҳам онлайн дарсдаги давоматга сезиларли таъсир кўрсатади. Бунда ўқувчилар виртуал машғулотда нима учун иштирок этаèтгани, дарс учун ҳаржлаèтган вақт ва маблағ ундан олинадиган билим мазмунига мос келадими èки йўқми аниқ белгилаб олишига таъсир қилади. Бир сўз билан айтганча, онлайн таълимда ―тасодифий‖ талаба бўлмайди. Шу маънода ўқув мақсадларига етишиш даражаси юқори бўлади. Шунингдек, ўқитувчи талабаларнинг фанга оид саволларига тезда жавоб беришлари ҳам муҳим аҳамиятга эга. Жавоб бериш вақти ва воситаларининг параметр– ларини биринчи машғулотдаèқ айтиб қўйиш ҳам ўқитувчининг масъулиятли эканлигини билдирувчи омиллардан биридир. Масалан, ўқитувчи электрон почта ҳабарларига бир иш куни ичида жавоб қайтаришини ва агар бирон сабабга кўра у ушбу талабни қондирмаса, буни маълум қилиши керак. Тезкор жавоб бериш даврида талабалар ўқитувчидан бир неча соат ичида электрон почтага жавоб беришини кутишади, агар ўқитувчи жавоб бермаса, талаба алоқани узиши мумкин. 4. Қулайлик ҳисси. Виртуал муҳит онлайн таълимни биринчи бор бошлаган ўқувчилар учун янги ва ҳали синалмаган бўлганлиги боис уларда иккиланиш ва хавотирлик бўлиши табиий. Қўрқув, хавотир ва яккаланиш ҳисси чарчаш даражасига олиб келиши мумкин, шунинг учун ўқитувчилар барча ўқувчиларга қулайлик ҳиссини берадиган муҳит ярата олишлари лозим. Ўқитувчиларнинг бу маҳорати фанни ўқитишга бўлган иштиèқ, касбий билим ва қизиқиш ҳиссиèтларини кўрсата олишларида намоèн бўлади.

Педагогик маҳорат ва ўз мутахассислигини чуқур билиш ўқитувчининг энг катта ютуғидир. Ўқув жараènининг икки томонлама муносабатларга асосланганлигини ҳисобга олсак, ўқитувчиларнинг самарали дарс ўтиши ўқувчиларнинг ҳам онлайн таълимга бўлган муносабати билан боғлиқ эканлигини эслаб ўтиш ўринли. Виртуал таълим субъектларнинг ўқишга иштиèқи ўқитув– чилар томонидан етказиладиган чуқур билим, касбга қизиқтириш, келажакка ишонч уйғота олиш кабилар билан боғлиқ. Ўқувчилар томонидан иштиèқсиз, виртуал педагогик маҳорати етарли эмас деб қабул қилинган ўқитувчилар ўқувчиларда машлуғлотларда иштирок этишда икки– ланиш, асабийлашиш ҳисларини келтириб чиқаради. Шу сабабдан аввал бошидан ўқитувчи томонидан ташкил қилинган ―қулайлик ҳисси‖ ўқувчилар мотивациясини ошириб, ижобий муҳитни яратишига эътибор қаратиш лозим.

Бир сўз билан айтганда, ўқитувчилар ўқувчиларни дарсга қатнашишини таъминлаб турувчи, лозим бўлса кафолатловчи жамоат маданияти моделини ташкиллаштириши керак. 5. Сифатли асенкрон муҳокамалар орқали мулоҳаза ва мулоқотни тарғиб қилиш. Иштирокчи ўз шерикларидан ўрганиши ва мунозарага онгли равишда ҳисса қўшиши учун, мулоҳазали жавоб беришдан олдин дарснинг бошқа аъзолари шарҳлари ҳақида фикр юритиши керак. Тадқиқотларга кўра, яхши ўқитувчи бундай фикр юритишни қандай тарғиб қилиш кераклигини билади. Онлайн таълим берувчи ўқитувчининг муваффақиятли стратегиялари қаторига асенкрон муҳокаманинг даврийлик хусу– сиятини тушуниш ва жойлаштирилган мавзуни мунозара пайтида узилиб қолмаслиги муҳимлигини англаш киради (5.).

Маҳоратли ўқитувчи доимий равишда мулоҳаза юритиш ва муҳокама қилиш учун имкон берадиган мавзулар билан машғу– лотларни ташкил қилади. Шу ўринда ―синхрон‖ ва ―асенкрон‖ тушунчаларига қисқа таъриф бериб ўтсак. Онлайн ўрганиш синхрон деб айтилса, бу реал вақт режимида амалга ошириладиган онлайн èки масофавий таълим деган маънони англатади, айни пайтда асенкрон равишда ўрганиш онлайн каналлар орқали реал вақт режимида ўзаро алоқасиз амалга оширилади. Синхрон ва асенкрон – тарзда иштирок этишнинг мониторинги, онлайн ўқитишнинг зарур таркибий қисмидир. Шунинг учун ўқувчилар ўқув

жараèни динамикасини, мавзулар муҳокамаси ва мунозараларни доимий равишда ташкил қилиб кузатиб борадиган ва бундай имкониятлар берилмаган тақдирда иштирок– чиларнинг фикрларини сўраб турадиган ўқитувчини афзал кўришади.

Ўқитувчилар иштирок этиш масалаларини муҳокама қилиш учун талабалар билан алоҳида, офлайн режимда ҳам боғланиши мумкин (5.). Шуни таъкидлаш керакки, ушбу алоқа, иштирокчининг суҳбатларни ўз зиммасига олгани ва бошқа шахсларнинг имкониятларига рухсат бермаслиги натижасида ҳам бўлиши мумкин. Шунинг учун мунозараларга муносиб ва тенг равишда имкониятга кўмаклашиш мавзу бўйича муҳокамаларни доимий равишда кузатиб боришни талаб қилади. Онлайн таълим ўқитувчисининг ҳар бир ўқувчи ва жамоа бажараèтган ишни тўғри назорат қила олиши муҳим аҳамиятга эга. 6. Фаол раҳбар ва кузатувчи мувозанатини меъèрда сақлаш. Онлайн ўқитувчилар учун яна бир муҳим стратегия бу - ўқув менежери сифатида дарсни бошлаш қобилияти; бу ўқув жамоасида катта масъулиятни ўз зиммасига олади.

Дарс давом этар экан, ўқитувчи таълим бошқарувчиси вазифасини ўқувчилар жамоасига босқичма-босқич топшириши керак. Ушбу вазифа онлайн ҳамжамиятни қуриш билан боғлиқ стратегияларни самарали амалга ошириш ва аста-секин жамоат муҳокамаларидан воз кечиш орқали амалга оширилади. Дарс охирида ҳар бир иштирокчи ўзини ўзи бошқарадиган ўқувчи сифатида ҳаракат қилиши керак. Шу жараèнда билим кўникма, кўникма малака ва малакалар компетенция даражасига кўтарила олади.

ХУЛОСА

Умуман олганда, юқоридаги келтириб ўтилган стратегиялар, анъанавий таълимнинг юқори сифатини онлайн таълимда сақлаш, керак бўлса ошириш имкониятини яратади. Қайд этиш лозимки, таълим бериш режимининг ўзига хослиги онлайн муҳитда ўқитиш учун профессор-ўқитувчилардан қўшимча маҳорат ва кўникмалар талаб этади. Агар таълим муассасалари анъанавий дарслардан тўлиқ онлайн èки аралаш таълимга ўтаèтган бўлса, юқори малакали ўқитувчиларни тайèрлаш дастурини ишлаб чиқиши ва амалга ошириши мақсадга мувофиқдир. Онлайн таълимнинг анъанавий таълимдан ажралиб турувчи ютуғи юқорида келтир– ганимиздек ―тасодифий‖ ўқувчи–ларнинг бўлмаслигидир. Онлайн таълимда ўқишга онгли èндашиш тамойили устувор аҳамиятга эга. Таълим олишдан мақсади бўлмаганларга бу ерда ўрин йўқ. Бироқ, пандемия сабабли бутун дунè таълим тизимида тажрибадан ўтган онлайн таълим мазмунини янада ошириш, ўқитиш сифатини яхшилашда юқорида келтирилган таълим стратегия– ларини қўллаш самарали натижа беради. Таъкидлаш лозимки, сўнгги бир йил давомида онлайн таълим сифатини оширишга оид кўплаб тадқиқотлар олиб борилди, илмий изланишлар натижалари эълон қилинди. Бизнинг камтарона тадқиқотларимиздан олинган хулосалар ҳам онлайн таълим самарадорлигини оширишга ўзига яраша ҳисса қўшади деб умид қиламиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Мавлонова Р.А, Санокулов Х.Р, Ходиева Д.П “Меҳнат ва уни ўқитиш методикаси” Ўқув қўлланма. 2007йил ТДПУ.

2. Х.Санақулов, М.Хайдаров “Бошланғич синфларда қоғоздан амалий ишлар” ўқув-методик қўлланма 1996 йил. ТДПУ.

3. Санақулов Х.Р, Ходиева Д.П «Бошланғич синфларда табиий материаллардан амалий ишлар» ўқув-методик қўлланма 2009 йил. ТДПУ.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УСЛОВИЯХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ (НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ)

Плиева Руслана Владимировна
– ст. преподаватель
Гулистанского государственного
университета кафедры «Методика
начального образования»

Аннотация.

В статье даётся понятие об инклюзивном образовании и его проблемах во внедрении в начальную школу. Правах детей на развитие личности в системе образования, ориентированного на индивидуальные потребности, и в том числе право детей с отклонениями в развитии учиться в тех же школах, где учатся их сверстники, живущие по соседству, признаны международными стандартами прав человека. Создание условий для адаптации ребенка к школе состоит в том, чтобы ребенок был успешен не столько в обучении, сколько в сфере общения и взаимодействия между всеми участниками образовательного процесса: учителями, детьми, родителями.

Annotation.

The article gives the concept of inclusive education and its problems in introducing it to primary school. The rights of children to personal development in the system of education focused on individual needs, including the right of children with developmental disabilities to study in the same schools as their peers living in the neighborhood, are recognized by international human rights standards. Creating conditions for the adaptation of the child to school is to ensure that the child is successful not only in learning, but in the field of communication and interaction between all participants in the educational process: teachers, children, parents.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, интегрированное обучение, ВОЗ, ОВЗ, специальное образование, инклюзия, гумманизация, концепция образования.

Проблемы специального образования сегодня являются одними из актуальных в образовании не только в республике Узбекистан но и во всём мире. Это связано в первую очередь с тем ,что число детей с ограниченными возможностями здоровья и детей инвалидов по данным ВОЗ не уклонно растёт. В нашей республике последние годы этой проблеме уделяется огромное внимание со государства и лично нашего президента

Ш.М. Мирзияева. Разработана «Концепция инклюзивного образования до 2030г.»,в новом Законе об образовании выделена отдельно глава «Инклюзивное образование».

Инклюзивное образование – это обучение разных детей в одном классе (интегрированный класс), это признание особенностей развития ребёнка и его способности к обучению, которое ведётся способом, наиболее подходящим ребёнку.

Инклюзивное образование даёт возможность всем обучающимся (включая людей с ограниченным здоровьем) в полном объёме участвовать в жизни коллектива в детском саду, в школе, в учреждении

дополнительного образования детей, в институте. Но это не значит просто собрать всех детей «в кучу», а наоборот, инклюзия способствует тому, чтобы каждый ученик чувствовал себя принятым, чтобы его способности и потребности учитывались и были оценены.

Дети, которые нуждаются в инклюзивном образовании, могут иметь или не иметь инвалидность

Каждый ребёнок-особенный , это бесспорно. И всё же есть дети, о которых говорят «особенный» не для того, чтобы подчеркнуть уникальность его способностей, а для того, чтобы обозначить отличающие его особые потребности.

Назрела острая необходимость в понимании проблем детей, имеющих ограниченные возможности здоровья, уважении и признании их прав на образование ,желание и готовность включить их в детское сообщество.

Детям с особенностями в развитии сегодня не обязательно обучаться в специализированных учреждениях, напротив ,инклюзивное образование позволяет формировать для детей с ОВЗ такое образовательное пространство ,в котором любой ребёнок ,может быть включен в образовательную и социальную жизнь учреждения ,что позволит ему добиваться успехов и свою значимость в коллективе сверстников. Каждому ребёнку необходимо найти ту степень и форму образовательной интеграции ,которая ему посильна и полезна.

Внедрение интегрированного обучения требует комплексного подхода , создание определённой среды для ребёнка ,подготовку специализированных педагогических кадров и формирование терпимого отношения учащихся и родителей к проблемам «особых» детей и их

проблемам. Вынуждены отметить ,что школа без поддержки и помощи общества не может создать качественную модель инклюзивного образования.

С принятием нового Закона об образовании возникают вопросы, о том как в нашей будут обучаться такие дети насколько комфортно они будут чувствовать себя в школе. Насколько подготовлена наша школа для инклюзивного образования, как ребята относятся к совместной учёбе равных детей. Проблема заключается в том ,что дети с ОВЗ ограничены от социума.

Ребёнок имеющий ОВЗ может быть так же способен и талантлив ,как и его сверстники ,не имеющих проблем со здоровьем ,но обнаружить свои дарования ,развить их, приносить с их помощью пользу обществу ему мешает возможность в социальной адаптации.

Ограниченные возможности здоровья (ОВЗ). Что это такое?

В научной литературе описано, что дети с ВОЗ отличаются определенными ограничениями в психической, физической и в повседневной жизнедеятельности. Речь идёт о физических, психических, сенсорных и комплексных дефектах . Здесь хотелось отметить ряд типов нарушений .

1. Нарушение психических процессов (восприятие, внимание, память, мышление, речь, эмоции и воля).
2. Нарушение в сенсорных функциях это- зрение, слух, обоняние и осязание, нарушение опорно-двигательной системы (ДЦП)
3. Нарушение функций дыхания, обмена веществ, кровообращения, пищеварения и внутренней секреции.

Дети ВОЗ отличаются наличием физических и психических отклонений ,которые способствуют формированию нарушений общего развития. Многие нарушения не являются ограничителями между ребёнком и окружающим миром . Однако дети-инвалиды с серьёзными нарушениями нуждаются в специальных условиях , в особом образовании, воспитании и лечении.

Базовая проблема инклюзивного образования- создать «без барьерную» образовательную среду . Основное правило –доступность её для детей с ОВЗ решение проблем и трудностей социализации.

В образовательных учреждениях , которые обеспечивают их сопровождение, необходимо соблюдение общепедагогических требований к техническому оснащению и оборудованию. Особенно это касается осуществления бытовых нужд, формирования компетентности и социальной активности. Помимо этого ,особое внимание должно уделяться воспитанию и обучению таких детей.

Несмотря на проводимую работу, при обучении и воспитании детей ОВЗ не всё так просто. Существующие проблемы и трудности инклюзивного образования сводятся к следующим позициям.

Во-первых ,коллектив детей не всегда принимает ребёнка с ОВЗ за «своего»

Во-вторых педагоги не могут освоить идеологию инклюзивного образования, и существуют трудности при реализации методов обучения.

В- третьих многие родители не хотят ,чтобы их нормально развивающиеся дети ходили в один класс с «особенным» ребёнком.

В-четвёртых не все инвалиды способны адаптироваться к условиям обычной жизни ,не требуя к себе дополнительного внимания и условий.

Приоритетная задача современного инклюзивного образования –усилить внимание к социализации детей-инвалидов. Необходимо создания и утверждение адаптированных программ для детей с ОВЗ для обучения в общеобразовательной школе.

С одной стороны , инклюзивное образование в общеобразовательной школе начинается проявляться ,усиливается неоднородность состава учащихся с учётом их речевого ,умственного и психического развития. Этот подход приводит к тому, что существенно затрудняется адаптация как условно здоровых детей, так и детей с ОВЗ.

Включение каждого ребёнка с особыми потребностями в образовательную среду и гибкость в подходах к обучению – это и есть основные цели инклюзивного образования.

Основная цель образовательного учреждения – создание специальных условий (универсальной без барьерной среды) для развития и социальной адаптации обучающихся с особыми образовательными потребностями и их сверстников.

Это обеспечение равных прав и возможностей образования без дискриминации и пренебрежения, процесс обучения подстраивается под нужды и образовательные потребности ребёнка с обязательным предоставлением индивидуальной программы обучения, т.е.

происходит адаптация системы к образовательным потребностям детей.

Задача школы – подготовить выпускника, обладающего необходимым набором современных знаний, умений и качеств, позволяющих ему уверенно чувствовать себя в самостоятельной жизни.

Задача учителя – индивидуализировать процесс обучения, максимально приближая его к возможностям ребёнка. (Необходимы специальные программы, направленные на облегчение процесса адаптации детей с ограниченными возможностями в общеобразовательном

учреждении).

Ценности инклюзивности:

- Быть успешным

-Принадлежать обществу и быть его частью

-На образование в течение жизни

-На дружбу и значимые отношения

- На полноценную жизнь

Инклюзивное образование на территории Республики Узбекистан регулируется следующими документами:

«Всеобщая декларация прав человека»

«Декларация о правах инвалидов»

«Конвенция о правах ребёнка»

Программа ЮНЕСКО «Образование для всех»

Протокол №1 Европейской Конвенции о защите прав человека и основных свобод

Конституция РУ

Закон об образовании в РУ

Концепция инклюзивного образования до 2030г.

Обучение разных детей в одном классе (Интегрированное обучение) основывается на дидактических принципах специального и общего образования.

1. Оно должно носить воспитывающий и развивающий характер, что предполагает формирование нравственных представлений и понятий, воспитание адекватных способов поведения, включение всех обучающихся в учебную деятельность, способствующую развитию их психических функций и самостоятельности.

2. В интегрированном обучении важна систематичность и последовательность решения коррекционно-образовательных задач, что необходимо для достижения учебных и воспитательных целей, прогнозирования и преодоления возможных трудностей взаимодействия школьников с различными умственными способностями.

3. Должен осуществляться принцип индивидуального и дифференцированного подхода в обучении учащихся с различными образовательными возможностями. Во время учебного занятия по любой дисциплине важно обучать всех, но при этом принимать во внимание способности каждого ученика в отдельности.

4. Не менее важно, чтобы обучение было связано с реальной жизнью. Следует моделировать и воспроизводить ситуации, трудные для ученика, но возможные в обыденной жизни; их анализ и проигрывание могут стать основой для позитивных сдвигов в развитии личности школьника.

5. Принцип сознательности и активности в процессе обучения реализуется благодаря использованию различных приёмов обучения, помогающих вызвать у школьников переживания и сочувствие. Переживания стимулируют развитие интеллекта. Эмоциональные побуждения более действенны, чем интеллектуальные, т.к. они есть у детей с любыми отклонениями в умственном развитии. Ученики должны понимать тот учебный материал, который им предлагается усвоить, научиться его использовать в самостоятельной практической

деятельности, что невозможно без положительного эмоционального отношения ребёнка к обучению.

Для успешной работы команды специалистов образовательного учреждения необходимо соблюдать следующие условия: преемственность, согласованность действий, систематичность, планомерность, целенаправленность и поэтапность взаимных коррекционных мероприятий.

Если задача учителя – подготовить и подать материал в максимально доступной форме, а задача психолога – объединить усилия родителей, педагогов и учителя для решения проблемы, возникающей у ребёнка.

Родители должны понимать двустороннюю ответственность. Тут нельзя просто «сдать» ребёнка в школу и ждать результатов. Родители должны сотрудничать с педагогом, с другими специалистами и совместно решать задачи развития ребёнка.

Каждый ребёнок обладает уникальными особенностями, интересами, способностями и учебными потребностями. ИО – это постепенный, детальный и очень бережный процесс включения ребёнка в общую образовательную среду, которая учитывает индивидуальные особенности и опирается на сильные стороны ребёнка.

Инклюзивное образование даёт:

• Детям с ограниченными возможностями – свободу развития личности;

• Родителям - возможность использовать своё родительский потенциал в воспитании ребёнка с нарушением в развитии;

• Школе – возможность расширить индивидуальные образовательные услуги с целью подготовки выпускника к самостоятельной жизни, воспитания гражданина;

• Обществу – возможность совершенствования общественных отношений в духе гуманизма и толерантности;

• Государству – возможность реализации конституционных гарантий, соблюдения международных положений.

Литература.

1. Концепция инклюзивного образования до 2030г в РУ.
2. Саламанко- Дакарская декларация.
3. «Декларация о правах инвалидов»
4. «Конвенция о правах ребёнка»
5. Программа ЮНЕСКО «Образование для всех»
6. Трофимова Н.М. и др. Основы специальной педагогики и психологии. СПб. 2007
7. Инклюзив таълимнинг муаммолари ва истиқболлари.
Арифходжаев Ғ.С., Музаффарова Х.Н., Алимова К.Г.
8. Организация инклюзивного образования в Узбекистан Л.Р Муминова

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ

Рахимов Бахтиёр Худойбердиевич
Гулистон давлат университети профессори, педагогика фанлари доктори

Аннотация: *мазкур маколада олий таълим муассасаларида илмий тадқиқот ишларини ташкил этишнинг психологик имкониятлари, илмий тадқиқот фаолияти – талаба - шахсининг ақлий камолотини таъминловчи омил сифатида эканлиги ҳамда олий таълим муассасаларида илмий тадқиқот ишларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари баён этилган.*

Калитли сўзлар: *талаба-ёшлар**, т**адқиқот, тадқиқот ишлари,илмий тадқиқот, тадқиқот ишлари, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш,*

Инсонни ақлий ривожлантириш масаласи кишилик жамияти тараққиётининг барча босқичларида мутафаккирлар ҳамда файласуф, тарихчи, психолог ва педагог олимларнинг диққат марказида бўлиб келган. Буни, биринчи навбатда, Шарқ алломалари томонидан яратилган илмий-ахлоқий асарларда кўриш мумкин.

Қомусий олимлар – Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Алишер Навоий, Абдулла Авлоний ва бошқаларнинг баркамол инсоннинг ақлий тарбиясида илм-фаннинг ўрни ҳақидаги қарашлари бугунги кунда ҳам ўз долзарблигини йўқотган эмас.

Олимлардан Г.Ю.Айзенк, Асамова Р.З, Л.С. Выготский, М.Г.Давлетшин, Д. Дьюи, В.Каримова, А.Н.Маркова, В.С.Мерлин, Л.М.Митина, Р.С.Немов, А.Палмарь, В.В.Поспеев, А.А.Реан, И.Е.Рогов, Х.А.Рухиева, С.Л.Рубинштейн, Фридман, Э.Ғозиев каби олимларнинг тадқиқотларида илмий тадқиқот ишларини ташкил этишнинг ижтимоий-психологик моҳияти илмий жиҳатдан асослаб берилган. Шунингдек, уларда бўлажак мутахассисларнинг касбий қобилияти, эҳтиёжи, психологик хусусиятлари ва унга таъсир этувчи омиллар ҳамда ижтимоий муҳитнинг таъсири масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилган.

Олиб борилган тадқиқотлардан муҳим илмий ва амалий хулосалар олинган бўлса-да, бироқ, талаба - ёшларни бевосита илмий фаолиятга тайёрлаш масаласи илмий тадқиқотлар натижасида ўзининг тўлақонли ечимини топган эмас. Хусусан:

- педагоглик касбига тайёрлаш бўйича дарслик ва ўқув қўлланмаларда талаба - ёшларнинг илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш юзасидан алоҳида мавзулар ажратилмаган;
- таълим жараёнида илм асосида билим олиш тамойилига махсус эътибор қаратилмаган;
- педагогик амалиётлар дастурида талаба - ёшларнинг илмий ишлари фаолиятига эътибор берилмаган;

Тадқиқот муаммосига доир илмий-педагогик адабиётлар таҳлили мазкур муаммога доир илмий, услубий ва амалий жиҳатдан асосланган илмий тадқиқотлар олиб борилмаганлиги ушбу масалада муайян ютуқларга эришиш йўлида жиддий тўсиқ бўлаётганлигини кўрсатди.

Тадқиқот мақсади – талаба-ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтириш жараёнини ижтимоий-педагогик ва илмий-амалий жиҳатдан асослаш ҳамда талабаларни тадқиқотчилик фаолиятига йўналтириш юзасидан илмий-методик тавсиялар ишлаб чиқиш.

Тадқиқот методлари: умумлаштириш, таҳлил, анкета, савол-жавоб, суҳбат, кузатиш, педагогик мониторинг, педагогик прогностика, педагогик эксперимент, математик статистика.

Республикамиз мустақилликка эришганидан сўнг давлатимиз раҳбарияти томонидан мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини мустаҳкамлаш мақсадида ёшларнинг илмий тадқиқот билан шуғулланишлари учун кенг имкониятлар очиб берилди. Чунки мамлакат тараққиёти жамият аъзоларининг ижтимоий фаоллиги ва илмий салоҳияти билан белгиланади. Илмий тадқиқот ишларига эътиборни кучайтиришдан асосий мақсад жамият ва табиатдаги ўзгаришларни инсоният онгли равишда англаб етиши, унинг қонуниятлари асосида инсон манфаатларини юксалтириш, илмий назарияларни яратиш орқали миллий ва маданий бойликларга онгли муносабатни шакллантиришдан иборат.

Илмий тадқиқот жараёнида ҳиссий идрок этиш, абстракт тафаккур, амалда синаб кўриш ўз ифодасини топади. Илмий тадқиқот жараёни яхлит тизимга эга бўлиб, асосан узлуксиз таълим жараёнида шакллантирилади ва амалга оширилади. Унинг дастлабки босқичи мактаб даврига тўғри келади. Бу даврда ўқувчиларда илмий тадқиқот олиб бориш бўйича бошланғич тушунчалар шаклланади. Кейинги босқичларда билим, кўникма ва малакалар ҳосил қилинади. Тизимнинг юқори босқичлари илмий тадқиқот ишларини олиб боришнинг амалий татбиқини ифодалайди.

Илмий тадқиқот ишларини олиб боришда олий таълим асосий босқичлардан бири ҳисобланади ва унда талабалар тадқиқотчилик фаолиятларининг аниқ йўналишларига эга бўладилар.

Илм - араб тилидан олинган бўлиб, ўқиш, ўрганиш ҳамда ҳаётий тажриба асосида орттирилган билим ва малакалар мажмуи; Фан [30].

Илм - араб тилида **علم** “илмун” тарзида ёзилади, илм деб талаффуз этилади. Бу сўз араб тилида **فعل**[феълун] қолипида ясалган бўлиб I боб феълининг масдаридир, маъноси “билиш” – “ўрганиш”, маъносини англатади. «Илмий» сўзи ҳам араб тилидан ўзбек тилига ўзлаштирилган бўлиб, илм сўзи маъносида “ий” қўшимчаси асосида араб тилидан форс тилига, форс тилидан ўзбек тилига ўзлаштирилган.

Ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтириш, уларда илмий дунёқарашни шакллантириш муаммоси ўтмишда Шарқ мутафаккирларининг асарларида ҳам кенг ёритилган.

Беруний «Ўтмиш авлодлардан қолган ёдгорликлар» номли асарида шундай дейди: «Фахрланиш - ҳақиқатда яхши хулқлар ва олий феълларда олдин кетиш, илму ҳикматни эгаллаш ва имконият борича мавжуд нопокликлардан тозаланишдир. Кимда шундай сифатлар топилса, ҳукм унинг фойдасига ва кимда булар етишмаса, ҳукм унинг зарарига бўлади [ ]30 .

Абу Али ибн Сино камолотга эришишнинг биринчи мезони саналган маърифатни эгаллашга даъват этади. Чунки илм-фан инсонга хизмат қилиб, табиат қонунларини очиб, авлодларга етказиш керак. Бу мақсадга етишиш учун инсон қийинчиликлардан қўрқмаслиги зарур, дейди. “Эй биродарлар! Одамларнинг ботири мушкулотдан қўрқмайди. Камолот ҳосил қилишдан бош тортган киши одамларнинг энг қўрқоғидир” [31]..

Мирзо Улуғбек бошчилик қилган расадхона кутубхонаси кўплаб илмий асарлар, жаҳондаги машҳур кишиларнинг асарлари билан тўлдирилади ва у ерда сақланаётган китоблар сони 150 мингдан ортиқ бўлган. Ўша вақтларда Самарқандда Улуғбек атрофига 100 нафардан ортиқ олимлар уюшган бўлиб, расадхона академия вазифасини ҳам ўтаган эди. Мадраса билан расадхона орасида мустаҳкам алоқа бор эди. Расадхонада ишлаб турган илмий ходимларнинг бир қисми мадрасада мударрислик қилишган. Улуғбек мадраса толиблари билан тез-тез баҳслашиб, имтиҳон қилиб турган. Расадхона билан мадраса илм аҳлларининг биргаликдаги фаолияти Улуғбек илмий мактабида юлдуз илми ва риёзиётини ўрта асрлар даврида энг юқори поғонага кўтарди**.**

А.Авлоний илм эгаллаш ҳақида фикр юритар экан: “Илм инсонларнинг мадори, ҳаёти, раҳбари, нажотидур. Агар ақлнинг қўли нафсингни жиловини ушласа, сани ёмон йўлларга кирмоқдан сақлар. Ҳар нарса кўп бўлса, баҳоси арзон бўлур, аммо ақл эса илм ва тажриба соясида қанча кўпайса, шунча қимматбаҳо бўлур”, деб таъкидлайди.

У илмнинг жамият тараққиётидаги ролини яхши тушунади. Шунинг учун ҳам у ёшларни илм сирларини билишга, ҳодисалар моҳиятини ечишга, китоб мутолаа қилишга чақиради. Унинг фикрича, илм агар жамият манфаатига хизмат қилмаса, халқ фаровонлиги йўлида қўлланмаса, у ўликди. [3].

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, шуни айтиш жоизки, ёшларни илм ўрганишга чорлаш Шарқ мутафаккирлари асарлари мазмунининг етакчи ғояларидан бири ҳисобланган. Ёшларни илмий тадқиқот ишларига мақсадли жалб этиш жамиятнинг онгли, ижтимоий фаол иштирокчиси сифатида ўзини тўлақонли намоён этишига замин яратади.

Диалектика атамаси ўтмишда, асосан, уч маънода ишлатилиб келинган: биринчидан, баҳс-мунозара юритиш орқали суҳбатдошларининг фикридаги қарама-қаршиликларни фош этиб, ҳақиқатга эришиш қуроли сифатида; иккинчидан, фалсафий фикрлаш қонун-қоидаларини ўзида мужассамлаштирган тафаккур шакли сифатида; учинчидан, фалсафа ва бошқа фанларда илмий тадқиқот юритиш жараёнида нарса ва ҳодисаларни ҳар томонлама ҳамда атрофлича билиш учун қўлланиладиган усул сифатида[4].

Арасту “Метафизика” асарида бир неча жуфт тоифалар, яъни зарурият ва тасодиф, бутун ва бўлак, яккалик ва умумийлик тоифаларининг моҳияти ва уларнинг ўзаро алоқадорлиги ҳақидаги фикрларни илгари сурган. Унинг ёзишича, диалектика - барча фанларга ҳам дахлдордир[5]. Ҳар бир фанни ўқитишда мантиқ илмининг тўртта асосий қонун-қоидасига риоя қилинмас экан, илмий тафаккурни ривожлантириш ҳақида гап ҳам бўлиши мумкин эмас. Яъни **айният қонуни** - бирор нарса ҳақидаги фикр тугамасдан бошқасига ўтиб кетмаслик; **зиддиятсизлик қонуни**га биноан бир вақтнинг ўзида иккита зид фикрнинг бўлмаслиги;

[4] Туленов Ж. Диалектика назарияси.-Т.: Шарқ, 2001.-Б. 67.

[5] Арасту. Асарлар. –Т.2. -М.,1973.-355 б.

истисно қонуни бир вақтнинг ўзида иккита зид фикрдан бири ҳамиша рост бўлиб, иккинчиси ёлғон бўлиши; **етарли асос қонуни** далиллар асосида ўз фикрини исботлаш бўлиб, тўғри фикрлаш асосланганликни, исботлашни талаб қилади.

Юқоридаги фикрларга таянган ҳолда, шуни айтишимиз жоизки, талаба - ёшлар далиллаш, асослаш, зиддиятсизлик, истисно, айният қонунларини пухта билмоғи, шундан сўнггина илмий асосланган тўғри фикр юрита олмоғи мумкин.

Демак, талабаларнинг илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш самарадорлиги талаба тафаккури даражасига боғлиқ бўлиб, тафаккур - илмий асосланган, мустақил, мантиқий бўлмоғи лозим.

Тафаккурнинг ривожланишига кенг имкониятлар очиб беришнинг йўл-йўриқларини педагог олима Э.З.Усмонова қуйидагича кўрсатган:

1) муаммонинг юзага келиши ва фикрий вазифанинг шаклланиши;

2) вазифа жавобини излаш ва уни топиш;

3) ушбу топилган жавобни субъектив янгиликнинг очилиши сифатида идрок этиш;

4) эришилган жавобнинг тўғрилигини исботлаш, уни бошқа кишига асослаб бериш, тушунтириш.[6]

А.Чориев “Инсон фалсафаси” номли асарида “Инсон муаммосини ўрганувчи тадқиқотчиларнинг саъй-ҳаракатлари 2 йирик қутбга бўйсундирилиши, биринчи қутб - инсоннинг табиий-ижтимоий моҳиятини ўрганувчи барча фанларнинг ўзаро алоқадорлигини таъминлаши зарур”[7] эканлигини таъкидлаган ҳолда инсон муаммосига социогуманитар ва табиий-илмий ёндашувлар интеграцияси мужассамлаштирилишини уқтиради.

Унинг фикрича, фанлар ўртасидаги ҳамда нарса-ҳодисалар орасидаги алоқадорликни англаган ўқитувчи ўз дарсларини тўғри лойиҳалай олади. Онгида антиципирик лаёқатлар ривожланган ўқитувчиларгина таълим жараёнида ўқувчилар тафаккурини ўстира олади. Онгнинг антиципирик лаёқатида унинг уч хил функцияси ажратилади: билиш (фаразлар қўйиш, келажакни кўра билиш), лойиҳалаш (фикран ҳисоб-китоб қилиш, лойиҳани олдин онгда, кейин амалиётда тайёрлаш), тасдиқлай билиш (мақсад, режа, дастур, концепцияларни амалга ошириш)[8].

Маълумки, талабалик даврида ёшларда оламни билишга, фалсафий мушоҳадага, психологик таҳлилга, мантиқий фикрлашга, тафаккур қирраларини ривожлантиришга иштиёқ ва ҳаракат кучли бўлади. Шу билан бирга, уларда фантазияга мойиллик ҳам мавжуд бўладики, мана шу физиологик–психологик ҳолат тафаккурни ривожлантириш, билишга интилиш, илмий тадқиқот ишларини бажариш учун омил ҳисобланади. Бу эса талабаларнинг педагогик-психологик имкониятлари бошқа ёшдаги болаларга нисбатан кўпроқ эканини, оламни билишга иштиёқ кучлилигини билдиради. Шунинг учун ҳам талабаларнинг шахс сифатида шаклланишида асосий босқич бўлиб хизмат қилади.

Биз тадқиқот объекти сифатида танлаб олган Олий таълим муассасаси талабалари, билимдон, қизиқувчи, билимга интилувчи, ахлоқ-одоби шаклланган, мустақил фикрловчи шахс бўлиб, улардаги ички эҳтиёж ўзининг имкониятлари даражасида амалга ошади.

Талаба шахсининг ривожланиши ўзига хос хусусиятга эга. «Бу, энг аввало, уларда ўзини такомиллаштириш истагининг кучайиши ва ўқишга бўлган қизиқишининг ўсиши билан характерланади[9]. Талабалик даврининг энг муҳим хусусиятларидан бири мустақил фикр юритишга интилишнинг ривожланишидир. Шунинг учун ҳам бу даврда фақат назарий билим бермасдан, турли амалий вазиятларга муносабат билдиришни шакллантириш, кўпроқ изланиш, ижодий ёндашув, тафаккур ривожига эътибор қаратиш лозим. Жаҳон таълим тизимида фалсафа, психология ҳар бир фаннинг методологик асосида туради. Чунки барча фанлар назарий жиҳатдан фалсафий қонуниятларга асосланади. Шунингдек, илмий тафаккур ҳам инсон психологияси ва фалсафий қонуниятлар билан чамбарчас боғлиқдир.

---

[6] Усмонова Э.З. Ўқувчиларда мустақил тафаккурни қандай шакллантириш мумкин? - Т.: Педагогика ва психология илмий-оммабоп нашри, 2000.-Б. 36.

[7] Чориев А. Инсон фалсафаси.-Т.: «Hsinos ENK». 2002. -С. 139.

[8] Ибрагимов Р. Проблемный подход обучения младших школьников: Автореф. ... канд .дис. -Т., 1985. - С.16.

[9] Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. Психологический справочник учителя. - М.: Просвещение, 1991. -С. 288.

Борлиқни англаш - тафаккур шакллари орқали вужудга келади. Ҳар бир талаба ўз амалий фаолиятида фикрлашнинг мазмун-моҳияти, ранг-баранглиги, кўп қиррали хусусиятларини ҳисобга олиб, уларга онгли равишда амал қилишлари лозим.

Реал борлиқни англаш таълимнинг ҳаёт билан алоқадорлигини ўргатишдан иборат. Талабанинг фикри кенг ва атрофлича бўлиши учун ўқитувчи таълимнинг ҳаёт билан алоқадорлик томонини талабаларга англатиши лозим. Билим олувчи ана шуни тушуниб етсагина ўз куч-ғайратини, билимларни қизиқиб ўрганишга сарфлай олади.

Педагогик ва методик адабиётларда кўрсатилишича, педагогик муаммоларни комплекс ўрганиш ўқувчи шахсини ҳар томонлама ривожлантириш, ўқув-тарбия ишларининг самарадорлигини ошириш, педагогик жараённи оптималлаштириш, таълимни илмий асосда ташкил этиш ва бошқариш имкониятларини таъминлайди[10].

Методик адабиётларда педагогик ҳодисаларни комплекс ўрганишнинг икки йўли қайд этилган: а) моҳияти ва ўрганиш мақсадига кўра ўзаро дахлдор муаммоларни бир фан доирасида таҳлил қилиш; б) айнан олинган бир муаммони турли фанлар нуқтаи назаридан таҳлил қилиш.

А.И.Кочетовнинг фикрига кўра, педагогик ҳодисаларга комплекс ёндашиш кўп мақсадли изланиш олиб боришни таъминлайди, ўрганилаётган ҳодиса доирасида амал қиладиган боғланиш, алоқаларни ажратишни осонлаштиради, муаммога дахлдор бўлмаган 2-даражали ҳодисаларни чегаралаш имкониятларини оширади[11].

Ўспиринлик даврида ўз-ўзини англаш жараёни шахсий фикрга эга бўлиш, мустақил мулоҳаза юритиш, менинг фикрим тўғри, дейиш (танқидийлик) хусусиятига эга бўлади. Шунинг учун бу даврда, айниқса, ўқувчиларнинг психологиясини ўрганиб, дарс олиб бориш долзарб масала ҳисобланади. Худди шу даврда муаллим турли усул, йўл, технология воситасида, мустақил фикрлаш хусусиятини камол топтириши лозим. Ўспиринлик тафаккурини тарбиялаш, ривожлантириш учун ҳар бир имкониятни ишга солиш таълимда муҳим силжиш эканлигини психолог Э.Ғозиев алоҳида уқтириб ўтади: 1) ўсмирларни тўғри таъриф беришга, таҳлил қилишга, таққослашга, абстракциялаш ва умумлаштиришга ўргатиш; 2) ўз фикрини тўғри, равон ва аниқ изҳор этиш йўлини тушунтириш; 3) мустақил равишда ҳукм ва хулоса чиқариш, мулоҳаза юритиш кўникмаларини шакллантириш. Бу каби фикр юритиш шакллари уларда ақлий кўникма ва малакаларни ўстиради ва оқибат натижада ривожланиш амалга оширилади[12].

Психолог В.А.Крутецкий ўсмир тафаккурининг мустақиллигини фаоллаштириш мақсадида янги ўқув материалини муаммоли характерда ўзлаштириш фойдали эканлигини, у 3 босқичдан иборат бўлишини таъкидлайди[13].

Аввало, ўқитувчи тингловчилар олдига муаммо қўяди ва унинг таърифини айтиб ўтади, ўқувчилар эса муаммони ечиш учун йўл-йўриқ қидирадилар. Сўнгра ўқитувчи ўқувчилар олдига муаммони мустақил таърифлаш вазифасини қўяди-да, уни ечишга ўзи йўлланма беради. Ундан сўнг эса ўқитувчи муаммога ишора қилмайди, балки ўқувчиларни мустақил таҳлил қилиб чиқиш, ундан сўнг таърифлаш, ечиш усуллари ва имкониятларини қидириб топишга ўргатади.

Ҳақиқатан ҳам талабаларни илмий тадқиқот ишларига йўналтиришда, талабанинг фикр юритиш фаолиятини бошқаришда ўқитувчининг йўналтирувчилик қобилияти асосий восита бўлиб хизмат қилади.

Ўқитувчи талабаларнинг мустақил тафаккур эгаси бўлишлари учун мавзуларни хотирада сақлаш усулларини ишлаб чиқиши лозим.

Психолог олима В.Каримова хотиранинг саккизта қонуни борлигини таъкидлайди; а) англанганлик қонуни; б) қизиқиш қонуни; в) илгариги билимлар қонуни; г) эслаб қолишга

---

[10] Исследование методологических проблем комплексного подхода к воспитанию. - М.: Наука, 1982. -С. 190.

[11] Кочетов А.И. Педагогическое исследование. - Рязань, 1976. - С. 176.

[12] Ғозиев Э. Тафаккур психологияси.-Т.: Ўқитувчи, 1990.-Б. 170.

[13] Крутецкий В.А.. Педагогик психология асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1976.-Б. 46.

тайёргарлик қонуни; д) ассоциациялар қонуни; е) бирин-кетинлик қонуни; ж) кучли таассуротлар қонуни; з) тормозланиш қонунлари[14].

Олима В.Каримова "...етук кадр бўлиш учун шахс нафақат ўз иқтидори, билими ва савиясини ошириши зарур, балки жамиятда турлича ижтимоий муносабатлар тизимига тайёр бўлмоғи, ижтимоий фаолиятни бошқаришнинг илмий қонуниятлари ва қоидаларини мукаммал эгалламоғи зарур"[15] - деб кўрсатади.

Бунинг учун эса таълим жараёнида талабаларга **англаш** руҳини сингдириш зарурдир. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»да берилишича, Англамоқ-1. Гап, иш-ҳаракат, воқеа-ҳодиса ва шу кабиларнинг маъносига ёки сабабига тушуниб етмоқ, маъносини, моҳиятини тушунмоқ, уқмоқ, билмоқ, фаҳмламоқ. 2. Ҳақиқий қийматини тушунмоқ, баҳо бермоқдир[16].

Ҳазрат Навоий ҳам ўзининг «Насойим ул-муҳаббат» асарида бу ёруғ оламдаги энг устувор қадрият илмдир, деб кўрсатиб, уни уч тоифага ажратади: а) тавба; б) муҳаббат илми; в) ҳақиқат илми[17]. Талаба - ёшларга қайси фан бўлишидан қатъий назар, ана шу ҳақиқат илмини англаш йўл-йўриқларини сингдиришимиз фойдадан холи эмас. Чунки бу илм борлиқни тамомила сабаблари билан англаш, тушуниш илмидир.

Тадқиқотларимиз натижалари шуни кўрсатмоқдаки, олий таълим жараёнида борлиқ ҳақида маълумот, тушунча ҳосил қилибгина қолмай, ана шу дунёни ўзи англаб етиш учун шароит, имконият яратишимиз зарур.

Талабалик даврида ҳаётий ҳодисалар ўртасидаги алоқадорликни ҳис қила олса, уларни англаб етсагина билим олишга қизиқиш кучаяди. Талаба объектив борлиқни англаб етса, ўз билимларини умумлаштира олади, уларни тизимга солади, билимларни чуқур ўзлаштира олади. Бу билан уларнинг илмий дунёқараши кенгаяди. Ана ўшандан кейингина улар ўз таклифини бера олади, ғояга эга бўлади, исбот қилади, ўз фараз ва қарашларини илгари суради, тафаккури ривожланади.

Талаба - ёшларнинг илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш уларнинг тафаккури даражасига боғлиқлиги психолог олимлар томонидан илмий-назарий жиҳатдан асослаган. Жумладан, психолог олимлар томонидан қуйидагича таърифланган:

Психолог А.В.Брушлинский[18] тадқиқотларида тафаккур муҳим янгиликни қидириш ва очиш, гипотеза ва назарияларни олдиндан пайқаш хусусиятлари эканлиги алоҳида таъкидлаб ўтилади.

Психолог С.Л.Рубинштейн[19] тафаккур тўғрисидаги ғояни ривожлантириб, уни субъект фаоллигининг пайдо бўлиши, деб атайди.

Э.Ғозиев эса "тафаккур атроф - муҳитдаги воқеликни нутқ ёрдами билан бевосита, умумлашган ҳолда акс эттирувчи руҳий жараён, социал сабабий боғланишларни англашга, янгилик очишга ва прогноз қилишга йўналтирилган ақлий фаолиятдир[20], дея таъриф берган.

Профессор Н.Маҳмудов тафаккурнинг такомил даражаси-мустақиллиги ва мунтазамлиги, теранлиги ва таранглиги, ижодийлигини парвариш қилиш кераклиги ҳақида қуйидагиларни айтган эди: "Боланинг тафаккур имконияти парвариш қилинмаса, унга шаклу шамойил, йўналиш берилмаса, бола улғайганда ҳам у имконият сифатида ёки бир қолипдаги ўйлар тизими сифатида қолаверади. Бундай тўнг ва танбал тафаккур фаол, ҳаракатли, демакки, изланувчан ва яратувчан бўлолмайди[21].

Россиялик педагог олим Н.А.Гордееванинг илмий тадқиқот таҳлилларига кўра, талабалар илмий ишлари сўнгги йилларда турли педагогик ва психологик тадқиқотларнинг объекти бўлиб қолмоқда. Мазкур объект мураккаблиги ҳамда кўпқирралилиги жиҳатидан кам ўрганилган. Бу муаммони ўрганиш, айниқса, унинг амалий аспектини ишлаб чиқиш талабалар ижодий салоҳиятини ривожлантиришнинг муҳим омили ҳисобланади.

---

[14] Каримова В. Психология. -Т., 2002.-Б. 101-102.

[15] Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт.- Т.: Университет 1999.-6-б.

[16] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-М.: Рус тили, 1981.-Б. 46.

[17] Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. 15 том.-Т., 1968.

[18] Брушлинский А.В. Мышление и прогнозирование. - Москва: Мысль, 1979.

[19] Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. - Москва: АПНРСФСР.

[20] Ғозиев Э. Тафаккур психологияси-Т.: Ўқитувчи, 1990. -Б. 151.

[21] Маҳмудов М. Она тили ва ижодий тафаккур такомили.-Т.: 2001.-3-б.

Талабалар илмий тадқиқот фаолиятининг бой имкониятларидан ҳар томонлама самарали фойдаланиш учун аввалambор, илмий фаолият характери ва тузилмасига мутаносиб бўлган ҳамда шахсий хусусиятларни ривожлантиришга қаратилган усул ва шарт-шароитлар тизимини яратиш лозим.

Бу муаммоларни ҳал қилишда психодиагностиканинг хизмати каттадир. Психодиагностика илмий тадқиқот фаолияти билан шуғулланувчи талабаларда тасаввур жараёнининг психологик хусусиятларини аниқлашга қаратилади.

Айнан талабаларнинг ижодий тасаввурини ўрганиш ва ривожлантириш, бизнингча, илмий тадқиқот фаолияти самарадорлигини ошириш учун янги уфқлар очиб беради. Чунки олимнинг шахсияти айнан талабалик даврида шаклланади. Талабалик даврида рефлексия, яъни ўз билимлари чегараларини билиш ва бу чегаралардан чиқа олиш кўникма ва қобилиятлари намоён бўлади.

Россиялик педагог олимлар Э.Г.Скрибицкий ва И.Ю.Скрибицкаяларнинг илмий изланишлари натижаларига кўра тадқиқотчи сифатларини ривожлантиришда мустақил таълим муҳим роль ўйнайди. Мустақил таълим тадқиқот ишларини олиб бориш соҳасида ўз тажрибаларини юксалтиришга қаратилган шахс томонидан амалга ошириладиган мақсадли фаолиятни билдиради. Мустақил таълимнинг йўналиши ва мазмуни тадқиқотчи томонидан унинг эҳтиёжлари ва қизиқишлар (масалан, ечилаётган илмий тадқиқотнинг вазифаси, тури, тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш ва бошқалар) билан белгиланади.

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида тадқиқотчи илмий фаолиятининг қуйидагича шаклланганлик даражалари аниқланди:

- паст даража: мустақил илмий фаолият билан шуғулланиш қийин кечади, бошқарув кўникмаларининг ривожи паст даражада бўлади;

ўртача даража: илмий фаолиятни бошқариш борасида онгли кўникма намоён бўлади;

- юқори даража: мустақил илмий фаолиятида аниқлик, мақсадга мослик, илмий тадқиқотчилик фаолиятини бир мунча юқори даражада қуришга имкон берадиган бошқарув кўникмаларига эга бўлиш ва уни танқидий баҳолай олиш намоён бўлади.. [29].

Талаба - ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтириш маъноси давлат ва жамият тараққиёти билан бир қаторда муайян ҳиссий-руҳий эҳтиёж касб этишини ҳар доим назарда тутиш лозимлиги юқорида номлари тилга олинган олимларнинг ишларида маълум миқдорда илмий асосланган бўлиб, фикрларнинг уйғунлиги, илмий изланишлардаги ижтимоий-педагогик ва ижтимоий-психологик ҳамкорлик алоҳида кўзга ташланиб туради.

Талабалар тадқиқотчилик фаолияти интеграциялашувининг самарадарлиги ўзаро боғланган қуйидаги йўналишлар бўйича амалга оширилади: психологик, назарий-методологик ва технологик.

Психологик йўналиш. Илмий ишни муваффақиятли амалга ошириш кўплаб омилларга, жумладан, тадқиқотчи шахсининг индивидуал-психологик хусусиятларига ҳам боғлиқ

Қобилият – умумий психологик тушунча бўлиб, шахснинг индивидуал-психологик хусусиятлари жамини англатади ва у ёки бу фаолиятни муваффақиятли амалга оширишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Онгли равишда фаолият юритиш, илмий муаммо моҳиятини англаган ҳолда изланиш олиб бориш, танқидийлик, мустақиллик, иродавийлик, қатъиятлилик ва шахснинг бошқа сифатлари шулар жумласидандир. Тадқиқотчилик фаолияти билан шуғулланаётган талабалар қаторида бундай сифатлар ҳар қандай мутахассис учун жуда муҳим ҳисобланади. Тадқиқот муаммосини аниқлаб олиш учун талаба ўзига ўзи: «Мен нимани истайман?», «Нима учун айнан шуни истайман?» деган саволларни бериши керак. Шундагина у фаразларни текшириш ва ҳақиқатни исботлаш йўлларини қидириб топишга, жиддий тадқиқот ишларини бажаришга ўзини психологик жиҳатдан тайёрлаб боради.

Илмий фаолиятнинг маҳсулдорлиги хотиранинг имкониятлари билан чамбарчас боғлиқдир. Хотира ўтмиш тажрибани ташкил этиш ва сақлаб қолиш жараёнини билдириб, бу жараёнлар ундан фаолият давомида қайтадан фойдаланиш ёки онг доирасига қайтиб киришига имкон беради.

Хотира қуйидаги сифатлар билан характерланади: эслаб қолишнинг тезлиги, эслаб қолишнинг ҳажми, эслаб қолиш узоқлиги (давомийлиги) ва аниқлиги. Фақат жуда керакли нарсаларни эслаб қолиш, кам талаб қилинадиган ва кам керакли бўлганларни эса вақти

келгунча эсдан чиқара олиш кўникмаси, айниқса, муҳим аҳамият касб этади. Кутубхоналардаги библиографик кўрсаткич, реферативж журналлар, тизимли ва маълумотномали каталогларнинг тегишли бўлимларини кўриб чиқиш хотиранинг йўналтирилганлиги, кашфиётчилик қобилиятини ривожлантиришда кўмаклашади. Бундан ташқари, хотирани турли хил машқлар асосида ривожлантириш мумкин.

Тадқиқот жараёнида кузатувчанлик асосий эмпирик тадқиқот услубларидан бири бўлиб, инсоннинг шундай қобилиятини билдирадики, у предметлар, ҳодисалар ва жараёнларнинг муҳим, характерли, шу жумладан, кўзга деярли ташланмайдиган хоссаларини кўра билишда намоён бўлади.

Назарий-методологик йўналиш ўз ичига қуйидагиларни олади: тадқиқотчи томонидан маълум методологик меъёрлар ёки қоидаларни билишни, илмий билишни; улардан изланиш вазифаларини ҳал қилиш жараёнида фойдалана олиш кўникмасини; билиш, бошқариш ва лойиҳалашнинг маълум концепциялари, шакл ва услуб (метод)ларини илмий асослай олиш, танқидий фикрлаш ва ижодий фойдаланишга қобилиятини; асосий тадқиқотчилик ёндашувларига эга бўлишни.

Технологик йўналишга қуйидаги кўникмалар киради: изланиш олиб борганда мақсадга йўналтирилган фикрий операциялардан фойдалана олиш; турли тадқиқотчилик вазифаларини ижодий ҳал қила олиш; муҳим бўлган муаммоларга тўхталиш; тадқиқотчилик вазифаларини ҳал қилишда ахборотлаштириш воситаларини қўллаш; экспертизани амалга ошириш. Бундан ташқари, илмий излашни бажаришнинг рационал усул ва услуб (метод)ларига эга бўлиш; такомиллашган ёзма ва оғзаки нутққа эга бўлиш. Олинган билимларни мақсадга йўналтирилган тарзда янги шароитларга ўтказа олиш. Ақлий меҳнат ва уни мақсадли ташкил қилиш гигиенасига риоя қилиш, ўз жисмоний ва маънавий кучларини оқилона сарфлаш, бажарилган тадқиқот натижаларининг сифатини адекват баҳолаш ва бошқалар. Илмий тадқиқот ишини олиб боришда изланувчининг ўз фаолияти соҳасидаги профессионализми муҳим роль ўйнайди.

Юқорида кўрсатиб ўтилган йўналишларни амалга ошириш тадқиқот ишини олиб борувчи талабада тадқиқотчилик қобилиятининг шаклланишига ёрдам беради.

Келтирилган натижалар мавжуд ҳолатни яхшилаш, талаба - ёшларни илмий тадқиқот ишларига мақсадли йўналтириш ҳамда кафедраларнинг илмий салоҳияти кўрсаткичларини кучайтиришга катта талаб борлигини кўрсатиб турибди. Бу талабни амалга ошириш ҳамда диссертация вазифасидан келиб чиққан ҳолда талаба - ёшларнинг илмий тадқиқот ишларига оид фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари аниқланди.

1-жадвал

Талаба - ёшларнинг илмий тадқиқот ишларига оид фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари

.	Юқори даражадаги билимдонлиги
.	Илмий тафаккурга эга эканлиги
.	Аналитик фикрлаш қобилиятининг юқорилиги
.	Синтетик фикрлаш қобилиятининг юқорилиги
.	Тадқиқотчилик қобилиятининг кучлилиги
.	Мантиқий фикрлаш қобилиятининг устунлиги
.	Янгиликка интилувчанлиги
.	Илмий ижодий фаоллиги
.	Изланувчанлик қобилиятига эга эканлиги

0.	Яратувчанлик қобилиятига эга эканлиги
1.	Кашфиётчилик қобилиятига эга эканлиги
2.	Ижтимоий вазиятларни баҳолай олиши
3.	Илмий дунёқарашнинг кенг қамровлилиги
4.	Мустақил эркин ва тўғри фикрлай олиши
5.	Муаммоли вазиятни тўғри баҳолай олиши
6.	Ижтимоий муносабатларда фаол иштирок этиши
7.	Ташкилотчилик ва ташаббускорлиги
8.	Масъуллик ҳиссининг қарор топганлиги
9.	Илмий мунозарага кириша олиши, далиллаш, исботлаш лаёқатининг кучлилиги
0.	Илмий-техникавий ҳамда илмий жамиятларнинг ишларига кенг кўламда жалб этилганлиги
1.	Илмий ишга садоқат, муайян фанга муҳаббат
2.	Тадқиқотчилик кўникма ва малакаларининг шаклланганлиги
3.	Илмда ҳалоллик ва талабчанлиги
4.	Илмий билимларини, кашфиётини амалиётга татбиқ эта олиши
5.	Танқидга тўғри муносабатда бўлиши
6.	Ижтимоий - сиёсий фаоллиги
7.	Ўзига бўлган ишончи
8.	Илмий тадқиқотчиликка оид маданиятнинг юқори даражада шаклланганлиги

Жадвалда ўз ифодасини топган талаба - ёшларнинг илмий тадқиқот ишларига оид фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятларига мутлақо сўнгги нуқтани қўйиб бўлмайди. Чунки улар давр ўтиши билан такомиллашиб боради.

Хулоса

1. Талаба - ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтиришда Шарқ мутафаккирлари асарларидан фойдаланиш уларни илмий тадқиқот ишларига мақсадли жалб этишга, жамиятнинг онгли, ижтимоий фаол иштирокчиси сифатида ўзини тўлақонли намоён этишига замин яратади.

2. Ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтирувчи кенгашларнинг долзарб вазифалари қуйидагилардан иборат:

-илмий тадқиқот ишларига жалб этиш мақсадида махсус методика асосида иқтидорли ёшларни танлаб олиш;

- талабаларнинг илмий мавзуларини белгилаб бериш;

-уларнинг муштарак мавзулар бўйича республика, вилоят ва университет миқёсида илмий-амалий конференциялар ўтказиб туришларига кўмаклашиш;

-талаба-ёшларнинг халқаро ҳамда республика миқёсдаги илмий конференциялари, симпозиумларини ташкил этиш ва ўтказишга раҳбарлик қилиш;

-илм-фан ва ахборот технологиялари соҳасида глобаллашув жараёни кечаётган ҳозирги шароитда, мустақил давлатлар ҳамдўстлиги мамлакатлари, хориждаги Олий таълим муассасалари ва Ёш олимлар ташкилотлари, кенгашлари билан алоқа ўрнатиш ва ҳамкорликда илмий фаолият кўрсатиш учун келишув шартномаларини тузиш;

- ўқитувчи билан талабанинг таълим жараёнидаги муносабатларини илмий-педагогик ҳамкорлик даражасига кўтариб, талабанинг ўқитувчи билан тенг равишда таълим жараёнининг субъектига айланишини таъминлаш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абу Наср Форобий. Рисолалар. Масъул муҳаррир Ўзбекистон Республикаси ФА ҳақиқий аъзоси М.М.Хайруллаев. Тошкент, Фан нашриёти, 1975, 71-72 б.
2. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. I-т.Тошкент, 1968, 151 б.
3. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. -Т.: Ўқитувчи. 1992.-160 б.
4. Айзенк Г. Ю. Проверьте свои способности. Перевод с англ. – М.: Педагогика – Пресс, 1992. – 176 с.
5. Асомова Р.З. Касб танлаш мотивацияси ва унинг динамикаси. Психолог. фан. ном. дисс... автореферати. - Тошкент: 2002.-28 б.
6. Ибн Сино. Тайр қиссаси. “Фалсафий қиссалар” китобидан.Тошкент, Ўзадабийнашр, 1963, 15-б.
7. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. 15 том.-Т., 1968.
8. Арасту. Асарлар. –Т.2. -М.,1973.-355 б.
9. Брушлинский А.В. Мышление и прогнозирование. - Москва: Мысль, 1979.
10. Выготский Л.С. Педагогическая психология. –М.: Педагогика. 1991. –480 б.
11. Давлетшин М.Г Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. – Т.: Ўзбекистон. 1999. -29 б.
12. Дьюи Д. Психология и педагогика мышления. – М.: Совершенство, 1997. – 347с
13. Ибрагимов Р. Проблемный подход обучения младших школьников: Автореф. ... канд .дис. -Т., 1985. - С.16.
14. Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт.- Т.: Университет 1999.-6-б.
15. Крутецкий В.А.. Педагогик психология асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1976.-Б. 46.
16. Маркова А.Н. Психология труда учителя / Кн. Для учителей. –М.: Просвещение. 1993.-190 с.
17. Мерлин В.С. Психология индивидуальности .Под ред. Е.А.Климова. – Воронеж. НПО «Модек». 1996.-448 с.
18. Митина Л. М. .Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). – М.: Дело. 1994.-215 с.
19. Ҳасанбоева О., Ҳасанбоев Ж., Ҳамидов Ҳ. Педагогика тарихи: Ўқув қўлланма.- Т.:Ўқитувчи, 1997.-248 б.
20. Маҳмудов М. Она тили ва ижодий тафаккур такомили.-Т.: 2001.-3-б.
21. Немов Р.С. Практическая психология. - М.: 1998. - 320 с.
22. Паламарь А. Мудрость общения.- М.: Молодая гвардия, 1990.-336 с.
23. Поспеев В.В. Диагностика человека. Кн.I. - Мн.: Рек. АРТ. 1996. -208 с.
24. Bakhtiyor Rakhimov, Guli Isaeva, Dilfuza Nosirova, Shoira Fayzieva, Munavvar Erkaeva. Development of Students’ Self-Educational Activities in The Conditions of Education Informatization. https://www.psychosocial.com/article/PR270787/18961
25. Реан А. А. и др. И. Психология и педагогика. \Реан А. А., Бордовская Н. В., Розум С. И. – СПб.: Питер, 2001. – 432 с.
26. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога в образовании.-М.,1995.С-570.

27. Рухиева Х.А. Психологические особенности самоуправления учебной деятельности студентов: Дисс. …канд.психол.наук.-Ташкент, 1993.-132с.
28. Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. - Москва: АПНРСФСР.
29. Скрибицкий Э.Г.,Скрибицкая И.Ю. Формирование компонентности начинающего исследователя //Ж. Инновации в образовании. 2007. №9. –С.80-90.
30. Туленов Ж. Диалектика назарияси.-Т.: Шарқ, 2001.-Б. 67.
31. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-М.: Рус тили, 1981.-Б. 46.
32. Усмонова Э.З. Ўқувчиларда мустақил тафаккурни қандай шакллантириш мумкин? - Т.: Педагогика ва психология илмий-оммабоп нашри, 2000.-Б. 36.
33. Чориев А. Инсон фалсафаси.-Т.: «Hsinos ENK». 2002. -С. 139.
34. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси-Т.: Ўқитувчи, 1990. -Б. 151.
35. Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. Психологический справочник учителя. - М.: Просвещение, 1991. -С. 288.

BOSHLANG‘ICH SINFDA BADIIY ASAR TAHLILIDA INTEGRATSION YONDASHUVLAR

Xolyigitova Baxor Kimsanboyevna
Guliston davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti,
Boshlang‘ich ta’lim uslubiyati kafedrasi o‘qituvchisi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish texnologiyasining ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Epizod, obraz, milliy qahramon, To‘maris, Alisher, tahlil, tamsil, tashbeh, metodik yondashuv.

KIRISH

Badiiy asar tilini chuqur tadqiq etish va o‘rganish nafaqat filologiya ilmining balki tahrir ilmining ham dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki shunday tadqiqot tufayli badiiy nutqning o‘tmishdagi va hozirgi ahvoli, istiqboldagi taraqqiyot yo‘llarini belgilash mumkin bo‘ladi. O‘z navbatida badiiy nutq ham adabiy tilga ta’sir etadi va til madaniyatining tobora o‘sib, rivojlanishini ta’minlaydi. Til vositasining vazifasi adabiyotda, xususan, badiiy adabiyotda muayyan bir ma’no ifodalash bilan cheklanmaydi. Balki badiiy ijodda u timsol yaratishga ham xizmat qiladi. Timsol badiiy asarning asosini tashkil etadi. Tasvir vositasi-obrazli nutq tufayli badiiy asarning mazmun, g‘oyasi ochila boradi, shu bilan uning ta’sir kuchi, estetik mohiyati oshadi.

ASOSIY QISM

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi darsligida uchta qissa va yigirma ikkiita kichik epik asar-hikoya mavjud bo‘lib, ularning barchasida didaktik xususiyat bosh g‘oya hisoblanadi.”Alisherning onasi” qissasida har yerda o‘ylab gapirmoq g‘oyasi ilgari surilsa, “To‘maris” qissasida milliy vatanparvarlik ruhi kuchli, “Kitobga ixlos” qissasida esa boalarda kitobxonlik madaniyatini uyg‘otish mafkurasi yrtakchilik qiladi. O‘quvchilar bunday epizodlar tasvirini sharhlab, qahramon qiyofasini o‘z mulohazalari asosida yoritishlari lozim. O‘quvchilarni adabiy tahlilga yo‘llash va ijodiy ishlarga jalb qilish vositasida inson shaxsi bilan hayotining xilma-xil qirralariga ular e’tiborini qaratib hayotiy xulosalar chiqarishga o‘rgatish mumkin.

Epizodlar ustida olib boriladigan amaliy ish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tanlangan epizod o‘quvchiga qanday ta’sir ko‘rsatganini aniqlash: Ushbu epizod o‘quvchi-kitobxonni asar voqealari, qahramonlari olamiga yaqinlashtirishga xizmat qildimi? Epizod tasviri qanday kechinma yo fikrlarni uyg‘otdi?
2. Asarning syujeti va kompozitsiyasida tanlangan epizod qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlash, bu epizod qahramon xarakterini yoritishga xizmat qiladimi? Asar voqealari rivojiga tanlangan epizodning ta’sirini o‘quvchilar seza oldilarmi? - kabi savollar yechimini topish.
3. Epizodlarni o‘quvchilarga ifodali o‘qitish va asar matniga bog‘lab tahlilga yo‘llash.

Epizodlar ustida ishlash bosqichlari o‘quvchilarning yoshi, adabiy tayyorgarlik darajasi, kitobxonlik saviyasiga moslab tashkil etilishini o‘qituvchi yodda saqlashi lozim. Epik asardagi epizodlar ustida ishlash orqali kitobxon qahramonlar harakat qiladigan makonga, voqea – hodisalarga yaqinlashadi, bu hodisalarning jonli guvohiga aylanadi.

1. Agar o‘qituvchi asar qahramonlarining o‘ziga xos xarakter xususiyatlariga ega ekanliklarini yoritish maqsadida epizodlar tanlansa, tanlangan epizodlar shu maqsadni yoritishga va asoslashga mos tushishi lozim.

2. Tanlangan epizodni asar voqealari bilan bog‘lab yoritishga erishish lozim, shu yo‘l bilan o‘quvchilarning badiiy asarga doir yaxlit tasavvurlari shakllantiriladi.

3. O‘qituvchi epizodning turli jihatlaridan turli maqsadda foydalanishi mumkin. Aynan bir epizod qahramonlarning turli holatlarini, o‘y – kechinmalari yoki ruhiyatdagi o‘zgarishlarni keltirib chiqaruvchi vosita sifatida o‘rganilishi mumkin. O‘sha epizoddan voqealarga muallif munosabatini aniqlashda yoki ziddiyatlar mohiyatini yoritishda ham foydalanish mumkin.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lish degan xulosaga kelinadi. “Kompetentlik” so‘zining ma’nosi xabardorlik, obro‘, o‘z sohasi bo‘yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo‘lish bilan belgilanadi. Kompetensiya- shaxsiy sifat bo‘lib,

turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim,

ko‘nikma va malaka hisoblanadi.

Psixologik nuqtai nazardan shaxs xarakteri tasodifiy ko‘zga tashlanadigan xususiyat bo‘lmay, uning o‘zigagina xos bo‘lgan doimiy, barqaror xususiyat sanaladi. Badiiy asarlar ta’sirida shaxsda milliy xarakter xislatlarini rivojlantirishda qahramonlar qiyofasida aks etadigan sifatlar, ularning ijobiy va salbiy mazmunga egaligi, o‘quvchilarda hissiy munosabatlarni uyg‘ota olish imkoniyati hisobga olinadi. Jumladan, badiiy asar qahramoni timsolida namoyon bo‘layotgan mardlik, sabotlilik, rostgo‘ylik, sofdillik kabi xislatlarning o‘quvchilarda ijobiy fazilatlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlari yuqori. Ammo bu o‘rinda shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, badiiy asarlar qahramonlarining manmansirash, o‘z shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaatlaridan ustun qo‘yish, xudbinlik, yolg‘onchilik, atrofdagilarni mensimaslik kabi illatlarga ega ekanliklari ham o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ularning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o‘quvchilar badiiy qahramon obrazida in’ikos etayotgan illatga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi, ulardan nafratlanadi, ba’zan shaxsiy tasavvurlar orqali ular bilan kurash olib boradi. Demak, bir so‘z bilan aytganda salbiy obrazlar ham o‘quvchilarning hissiyotini tarbiyalaydi.

Adabiy ta’lim yoki ta’lim muassasasidan tashqari sharoitda o‘quvchilarni milliy hayot tarzi, milliy qadriyatlar mazmunini yorituvchi badiiy asarlar bilan tanishtirishda qahramonlar timsolida ijobiy fazilat va salbiy xislatlarning qay darajada aks ettirilganligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Zero, shaxs hayoti va faoliyati jarayonida uning qiyofasida aks etadigan barcha ijobiy fazilat hamda salbiy illatlar ham har doim ham xarakter xislatlari sifatida namoyon bo‘lavermaydi. Jumladan, agarda asar qahramonining ma’lum vaziyatdagi xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, atrofdagilar bilan munosabati, o‘zini tuta bilishi yuzasidan so‘z yuritilganda “u mardlik qildi”, “beqiyos saxovat, mehr-muruvvat ko‘rsatdi”, “uning bu ishi nomardlikdan o‘zga narsa emas edi”, “u atrofdagilarga nisbatan adolatsizlik qildi” degan iboralar ishlatiladi. Biroq, mazkur iboralar shaxsning mard, saxovatli, nomard yoki adolatsiz ekanligini anglatmaydi. Balki uning shaxsi muayyan vaziyat nuqtai nazaridan baholanadi. Mardlik, saxovatlilik, nomardlik yoki adolatsizlik kabilarning aynan badiiy asar qahramoniga xos xarakter xislati sifatida ta’riflanishi uchun u talqin etilayotgan voqelikning umumiy jarayonida, turli vaziyatlarda ham ana shu sifat yoki illat sohibi ekanligi ko‘rsatib berilishi zarur. Asar muallifi tomonidan qahramon shaxsining xarkater xususiyatlarini yaqqol ko‘z oldiga keltirilganligi, uning muayyan sharoitlardagi xatti-harakatlari mohiyatini oldindan to‘g‘ri taxmin qilinganligi o‘quvchilarda xarakter xislatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Badiiy asarlar va ularda surilgan g‘oyalar nuqtai nazaridan tahlil qilinganda qahramonlarning o‘z faoliyatlarida, shuningdek, atrofdagilarga bo‘lgan munosabatlarida aniq maqsadni ko‘zlay olishlari,

maqsadga erishishning samarali va ta’sirchan yo‘l, vositalarini muvaffaqiyatli tanlay olishlari ular xarakterida irodaviy xislatlar namoyon bo‘lishidan dalolat beradi. Binobarin, bu kabi xislatlarga ega shaxslargina o‘z xatti-harakatlari, faoliyati natijalarini oldindan ko‘ra oladilar, shu bois ularni avvaldan rejalashtirish, bashoratlashning uddasidan chiqadilar. Bunday qahramonlar asrlar davomida xalq tomonidan qo‘llab kelinayotgan “yetti o‘lchab bir kes”, “sanamay sakkiz dema” tarzida ish ko‘radilar.

XULOSA VA MUNOZARA

O‘quv - didaktik tahlil pedagogik jarayonda o‘quvchilar bilan birgalikda badiiy asarni o‘rganish, tahlillash, tadqiq qilish, uning bag‘riga yashiringan ma’rifiy - ma’naviy, estetik mo‘jizaviy qudratni idrok etish, shuningdek, badiiy asarlarning muloqot-kommunikativ, baholash-aksiologik, tarbiyaviy - axloqiy, zavqlantirish - gedonistik, bilish - gneseologik kabi vazi falaridan quvvatlanish imkoniga ega bo‘lish tushuni ladi. Manbalarda didaktik tahlilga ta’rif" O‘rganilayot gan badiiy asardagi tasvirning hozirgi hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik o‘ziga xosligini anglash orqali o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan va jamoa shaklida amalga oshiriladigan estetik - pedagogik faoliyatdir tarzida berilgan. Afsuski, adabiyot muallimlarimizning aksariyatida badiiy asarlarning o‘quv-tahliliga yondashuv hamon kiligicha, tahlil tamoyillariga nomuvofiqligicha qolmoqda. Unga ko‘ra adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchilarni badiiy asardan berilgan parcha bilan tanishtiradi, o‘quvchi badiiy matnni o‘qiydi, lirik asarlari hajmiga qarab yod oladi yoki o‘qib qo‘ya qoladi. Tahlil jarayonida esa, asar dan olingan taassurotlar aytib beriladi, asar voqealari bir chetdan bayon qilinadi, asar sujeti qayta hikoya qilinadi, she’riy asarning yod olingan qismi aytib beriladi. Yuqoridagi jarayonlar olib borilgan taqdirda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari tubdan o‘zgarishi shubhasiz.

Psixologik-pedagogik kompetentlikning asosini pedagogning turli yosh guruhlari bosqichida o‘quvchi shaxsining rivojlanish qonuniyatlariga rioya etgan holda ta’sir etuvchi faol bilimi va harakati tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan kasbiy kompetensiya pedagoglarning faoliyatidagi yetuklik ko‘rsatkichi hisoblanib, mutaxassisning muloqot jarayonida shaxs hamda mutaxassis sifatida shakllanishida asosiy omil bo‘la oladi. Demak o‘quvchilarga badiiy asar qahramonining ijobiy xislatlarini yetkazib berish va tahlil etishda pedagoglarning kasbiy kompitentligi muhim omil ekanligini unutmaslik lozim.

Adabiyotlar:

1. Xasanov sh badiiy asarning o‘quv tahliliga analitik yondashuv “til va adabiyot ta’limi” 2017 yil 17-son.

2. Toxirov z badiiy asar tilini o‘rganuvchi fan qaysi “til va adabiyot ta’limi” 2017 yil 17-son

3. Tolboeva f hikoyalarda milliy xarakter ininkosib “til va adabiyot ta’limi” 2012-yil 5-son.

4. Рашидов, д. (2022). Ногиронлиги бўлган шахслар жамиятлари тасарруфидаги корхоналар фаолиятини такомиллаштириш имкониятлари. Scienceweb academic papers collection.

5. Xolyigitova Baxor Kimsanboyevna “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda badiiy adabiyotlarning roli” Guliston davlar universiteti axborotnomasi. 2022 / 4 (97).

6. Xolyigitova Baxor Kimsanboyevna “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari”. O‘zMU xabarlari 2023. 1 / 5 / 1

7. Kholyigitova Bakhor Kimsanboyevna “Using artistic literature in forming the creative skills of primary class pupils” Science Innovation 13.02.2023. 253-257-b.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASH QOBILIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI

Ummatkulova Sayyora Shovkatovna
Guliston davlat universiteti
Boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolamizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va bu borada aynan nimalarga ahamiyat berish zarurligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: mantiq, mantiqiy fikrlash, tasavvur, qobiliyat, raqamli texnologiyalar.

KIRISH

Ta’lim tizimimiz bugungi kunda jadal rivojlanib bormoqda. Davlatimiz tomonidan rivojlangan mamalakatlarning ta’lim tizimi chuqur o‘rganilib, o‘zimizga xos va mos qilinib tadbiq qilinmoqda. Bu tajribalarning asosiy negizini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tashkil etadi. Bu jarayonda eng asosiy urg‘u bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatiga qaratilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishimiz uchun, avvalo maktab darsliklarimiz mazmunida mantiqiy fikrlashga doir topshiriqlar, masala va misollarni ko‘proq berish, shu bilan birga bu jarayonni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishimiz muhim sanaladi.

METOD VA METODOLOGIYA

Dars sifatli o‘tilsada, lekin o‘quvchi olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olmasa, ko‘nikmasi shakllanmasa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Egallangan bilimini amaliyotda qo‘llay olishlari uchun kerak bo‘ladigan mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari zarur hisoblanadi. Shu o‘rinda shunday fikrni aytishimiz mumkin: mantiqiy fikrlash insonlar hayotida muhim o‘rinni egallaydi. “*Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish”* deb bugungi mavzuimizni tanlashimiz bejiz emas. Mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarga to‘xtalib o‘tsak.

Boshlang‘ich ta’lim - umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichi. Respublikamizda Boshlang‘ich ta’lim 1 - 4-sinflarda bolalarga ilk ta’lim berish, ularni ma’naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1 - 4-sinflarni o‘z ichiga oladi va o‘qish 7 yoshdan boshlanadi.

Mantiq. Mantiq tushunchasi Yunon tilidan tarjima qilinganda: “fikrlash” , “to‘g‘ri fikrlash”, “fikrlash san’ati”, “chiroyli nutq” va hatto “aql”, “qonuniyat” degan bir nechta ma’noni anglatadi. Bugungi zamononaviy ilmiy olamimizda “mantiq” terminining mazmuni ancha boyib, u turli xil ma’nolarda ishlatiladi.

Mantiqiy fikrlash nima? Mantiqiy fikrlash bu insonning bizni o‘rab turgan atrof – muhitdagi hamma narsani va harakatlar, narsalar yoki hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar yoki farqlarni anglash qobiliyatini tahlil qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish va tasavvur qilish orqali kuzatish shu asosida fikrlashdir.

Q*obiliyat* — shaxsning individual salohiyati, imkoniyati hisoblanadi. Odatda qobiliyat bilimdan tubdan farq qiladi. Bilim bu mutolaa natijasi hisoblansa, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat bilan ko‘nikma va malaka o‘zaro bir-birlaridan farq qiladi. Insoniyat tomonidan qobiliyat ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi.

TADQIQOT NATIJASI

Tarixan bizga ma’lumki, mantiq ilmining asoschisi Arastu hisoblanadi. U o‘zigacha mavjud bo‘lgan mantiqqa oid barcha bilimlarni tartiblashtirib hamda o‘zi yaratgan yangi ta’limotlar asosida boyitib, muayyan tizim darajasiga ko‘tara olgan mutafakkirdir. Tafakkurning shakl va qonunlarini o‘rganuvchi mazkur ilmni fan tarixida «formal mantiq» yoki «an’anaviy mantiq», yoxud «Arastu mantig‘i» deb ham atashadi. Fan taraqqiyotida formal mantiq bilan birga dialektik mantiq,

matematik mantiq va intuitiv mantiq singari boshqa noan’anaviy tarmoqlar ham paydo bo‘lib, rivojlana bordi. Jumladan, nemis olimi G. Leybnitsning (1646–1716) matematik mantiq haqidagi g‘oyasi XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, mantiq ilmiga matematik usullarni tatbiq qilishda keng qo‘llanila boshlashi voqelikka aylanib, buning natijasida simvolik (ramziy) mantiq vujudga kela boshladi.

Arastuning mantiqqa oid asarlarini arab tiliga tarjima qilgan va ularni o‘z ilmlari bilan boyitgan ko‘pgina buyuk mutafakkirlar, masalan, Husayn ibn Is’hoq (808 – 877), Abu Yusuf al-Kindiy (801 – 867), Abu Bashar Matto (tug‘ilgan yili ma’lum emas – 939 yilda vafot etgan), Iso ibn Zurro (1000 – yillar), Abu Bakir ar-Roziy (865 – 925), Forobiy (873 – 950), Ibn Sino (980 – 1037), Ibn Rushd (1126 – 1198) kabilarni aytib o‘tishimiz mumkin.

O‘tmishdan tarkib topgan mantiq tushunchasi bugungi kun yoshlarining ham tasavvur va tushunchalarini shakllantirish uchun juda muhimdir. Buning uchun ta’lim tizimimizning barcha bosqichida tubdan islohotlarni amalga oshirishimiz kerak. Darsliklar, jarayonlar, kadrlar masalasi bo‘yicha qayta ish ko‘rilmog‘i lozim. Ta’lim maskanlarimizga raqamli texnologiyalarni to‘liq joriy etish shart.

MUHOKAMA

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim darslarida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda Yurtboshimiz tomonidan ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Biz buni Prezidentimizning “MATEMATIKA SOHASIDAGI TA’LIM SIFATINI OSHIRISH VA ILMIY-TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA” 4708-sonli 2020-yil 7-maydagi qarorlaridan ham bilishimiz mumkin.

O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish uchun avvalo, shu muhitga tayyorlash lozim bo‘ladi. Savollar sodda yoki qiyin, hattoki kulgili yoki o‘ta o‘ylantiruvchi bo‘lishi mumkin. Bunda savollar shunday tuzilganki, ularni bolalar oldida ovoz chiqarib o‘qish mumkin, jamoaviy holda berish ham mumkin. Berilgan mantiqiy savollarini topishda o‘quvchilarga shu savolning o‘zida javobini topishga imkon beruvchi sehrli so‘zlar bilan yoritiladi. Bunda faqat bola mantiqan tafakkur qilsagina, chuqurroq mushoxada qilsagina topa oladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanishini hohlasak, o‘quvchining oladigan bilimini real hayot bilan bog‘lashimiz shart. Ta’lim jarayoniga qanchalik mantiqiy masalalarni kiritsak, bola bu holatga ko‘p duch kelsa shunchalik bilimlari ham, dunyoqrashi ham ortib boraveradi. Darsliklarimizda bu kabi savollarning ko‘payishi orqali maqsadimizga erishishimiz mumkin.

REFERENCES:

1.“MATEMATIKA SOHASIDAGI TA’LIM SIFATINI OSHIRISH VA ILMIY-TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 4708-sonli 2020-yil 7-maydagi qarori

2. 2022-2026-YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. -Ta’lim to‘g‘risidagi qonun.

4. Hayitov.A.I. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. Uslubiy qo‘llanma. T.: ―Zuhra Baraka Biznes, 2021. – 129 b.

5. Shavkatovna, U. S. (2022). MATEMATIKA DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRISH.

6. Ummatkulova, S. S. (2021). A NEW APPROACH TO TEACHING FOLK WORKS IN LYRICAL AND SMALL GENRES. *Экономика и социум*, (2-1), 381-384.

VIRTUAL TEXNALOGIYALAR VOSITASIDA INTEGRATSION DARSLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Suvonqulova A. A.

Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti

REZYUME

Ushbu maqola ta’limda virtual texnalogiyalar samaradorligini yuqori bosqichga ko‘tarish hamda dars sifatini oshirishda uzluksiz ta’lim tizimi xodimlari, pedagog-o‘qituvchilar tomonidan virtual texnologiyalarini ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olish, shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi haqida batafsil yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: zamonaviy ta’lim, virtual ta’lim, axborot texnologiyalari, boshlang‘ich maktab, informatika kursi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, kelajakdagi kasbiy mutaxassislik

21-asr - axborot texnalogiyalari asrida axborot kommunikatsion texnologiyalarning bemisl rivojlanishi natijasida ko‘plab sohalarda yangidan yangi yutuqlarga erishilmoqda. Bugungi kunga kelib AKT dan ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida foydalanish ham o‘ta ahamiyatli hisoblanadi. Axborot jamiyati jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jabhalarida virtuallikni yuqori darajada amalga oshirilishini namoyish etmoqda va bu butun jamiyat hayoti virtuallashuvi tendensiyasidan

dalolat beradi. Ta’lim tizimining virtuallashuvi texnologik jihatdan axboriy yondashuvga asoslangan bo‘lib, u virtual axborot maydoni, virtual ta’lim modellari, virtual ta’lim texnologiyalari, virtual axborot tuzilmalari va axborot ta’siridan tarkib topgan. Ushbu komponentlar virtuallikning ajralmas qismi sifatida yangi ta’lim texnologiyalarini o‘zida ifodalaydi. Virtual modellashtirish va virtual texnologiyalar vizual tasvirlarni ob’ektiv haqiqat bilan bog‘lash uchun yangi omillarni yaratib, bular makon ko‘lami, vaqt ko‘lami, vaqtning teskari aylanishi, real bo‘lmagan vaziyatlarni modellashtirish singari omillar bilan tavsiflanadi.

Katta axborot sig‘imini o‘z ichiga olgan axborot modellarining paydo bo‘lishi virtual ta’lim uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi.Virtual ta’lim texnologiyasi – bu o‘quvchi va o‘quv manbasi o‘rtasidagi virtual axborot o‘zaro ta’siri jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan yangi ta’lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Virtual ta’limning o‘ziga xos xususiyati - bu o‘qituvchi bilan talaba va virtual haqiqat o‘rtasida vositachining yo‘qligi. Bu texnologiyani faol ishbilarmonlik o‘yiniga asoslangan o‘rganish bilan solishtirishimiz mumkin.Virtual ta’limning afzalliklari ko‘pincha multimediali o‘qitish vositalaridan foydalanish imkoniyatlari bilan oqlanadi. Medialashuv virtual ta’limning asosi bo‘lib, endi an’anaviy ta’limning zarur elementiga aylanmoqda. Atrofdagi hodisalarning xilma-xilligi va ular orasidagi aloqalar ongdagi tasvirlarning turli tuzilmalarini vujudga keltirishi mumkin. Tabiiyki, voqelikni aks ettirish usullari iloji boricha polimorf bo‘lishi kerak. Shuning uchun, axborot ta’sirining murakkabligi, ya’ni axborot vositachilik qilsa, u qabul qiluvchining ongidagi axborot-aqliy tuzilmalarga ta’sir qilish nuqtai nazaridan kommunikantga shunchalik katta ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik jarayonning izchilligi o‘qitishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining birligini nazarda tutadi. Agar o‘quv materialining mazmunini yaxshilash uchun uni tizimlashtirish, aktuallashtirish va muammoli qilish, shakllarni ishlab chiqish uchun - o‘qitishni faollashtirish, metodologiyada - individuallashtirish va avtomatlashtirish muhim vazifalar bo‘lsa, pedagogik vositalarni takomillashtirish uchun bugungi kunda eng muhim vazifa vizualizatsiya deb tan olinadi. Shuningdek, o‘quv materialining vizualizatsiyasini, axborot maydonini va xususan, ta’limni vositachiligi bo‘lgan zamonaviy global madaniy tendentsiyaning muhim tarkibiy qismi deb hisoblaymiz. Soddalashtirilgan, ma’lum bir fan sohasidagi ta’lim mazmunining har qanday elementlari - a) faoliyat usullarini bilish; b) faoliyat usullariga ega bo‘lish; v)ushbu faoliyat turidagi ijodkorlik tajribasi; d) jarayonga va faoliyat natijasiga emotsional -qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasi – umumiy holatda, ideal bir holda - kasbiy faoliyat tasvirlari tizimi orqali ifodalanishi mumkin. Keyin bu tasvirlarning har xil nisbati professional vaziyatlarni tashkil qiladi. O‘qituvchi ularni muammoli qiladi, ularni hal qilish uchun vazifalar tuzadi va shu bilan o‘quvchilarning professional tafakkurini rivojlantiradi. Ammo o‘quvchilarga hissiy ta’sirni kuchaytirishning yanada katta zaxiralari og‘zaki emas, balki vizual ta’sir qilish vositalarida bo‘lib, ular didaktik nuqtai nazardan, mulkiy - idrok etishni ko‘zda tutuvchi axborot mahsulotlarining ta’sirini bir vaqtning o‘zida turli hislar orqali sinkretlashuvini o‘z ichiga oladi. Tarbiyalanuvchilarning sezgi organlariga murakkab ta’siri tufayli, ikkinchisi ma’lum kayfiyatni yaratadi, ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va idrok etiladigan ma’lumot hajmini sezilarli darajada oshiradi.O‘quv maydonini virtuallashuviga oid tajribalar gumanitar fanlar bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda o‘tkazilishi lozim. So‘nggi yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi nazariy yutuqlar kuchayib, inson xulq-atvoridagi har xil ratsional va emotsional holatlar o‘rganildi. Virtual ta’lim muhiti (bilim muhiti) paydo bo‘lishining old shartlari quyidagi shartlardir:

- mehnat bozoridagi o‘zgarishlar (mehnat bozori mehnat resurslarini qayta taqsimlashni talab qiladi);
- axborot bozoridagi o‘zgarishlar (ilmiy -texnik taraqqiyot sur’atlarini tezlashtirish bilimlarning doimiy yangilanishini talab qiladi);
- yangi aloqa imkoniyatlarining paydo bo‘lishi (aloqa va Internetning rivojlanishi uzoq masofali axborot manbalariga kirishga imkon beradi va aloqa doirasini kengaytiradi);

Virtual ta’limda bir qancha tipik shakldagi axborot holati modeli (vaziyat modeli) ni ifodalaydigan dinamik vizual model, sahna modeli, kognitiv model, axborot beruvchi model, kosmik model, vizual interfeys va fazoviy simulyatsiya modellari mavjud. Bu ko‘rinadigan modellar. Bundan tashqari ko‘rinmas modellar mavjud bo‘lib unga quyidagilar kiradi: ssenariy modeli, test modeli, testni tekshirish modeli, xizmat ko‘rsatish modellari, fazoviy tizimli modellar.

To‘g‘ri ishlab chiqilgan virtual ta’lim modeli, ko‘zlangan maqsadga tezroq yetish uchun kalit hisoblanib, unda quyidagi tamoyillarga amal qilinsa maqsadga muvofiqdir:

– o‘qitish o‘quvchining kognitiv faolligiga asoslangan bo‘lishi;

– virtual o‘quv dasturining tuzilishi dinamik qismda modulli bo‘lishi;

– statik qismda axborot birliklaridan foydalanish.

Axborot vaziyatining modeli real sharoitlarni simulyatsiya qilish jarayoniga asoslangan. Axborot holatiga asoslangan shartlarni shakllantirish va muammoning keyingi yechimi o‘quvchilarning o‘quv maqsadlariga mos keladigan kompetentsiyasini shakllantiradi. Shunday qilib, axborot holati vakolatlarni o‘zlashtirishga qaratilishi kerak. Haqiqiy jarayonlarga taqlid simulyatsiya modellari, ularni vizual taqdim etish va virtual modellashtirish asosida amalga oshiriladi. Virtual ta’lim jarayonida modellashtirishning fazoviy (geoinformatsion), vaziyatli, dinamik kabi maxsus turlaridan foydalanishimiz mumkin. Vaziyatli modellashtirish - bu talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish uchun real ishlab chiqarish vaziyatlari va jarayonlari simluyatsiyasini yaratish. Dinamik vizual modellashtirish esa, o‘quvchining virtual vaziyat bilan axborot o‘zaro ta’siridan foydalanadigan tinglovchilarning qaror qabul qiluvchi rolidagi haqiqiy faollik tuyg‘usini to‘liq shakllantirishga mo‘ljallangan faol o‘qitish usuli. Dinamik vizual modellar yordamida o‘qitish texnologiyasi, harakatlarning indikativ asosini hisobga olgan holda, real vaziyatlarda harakatlarni bajarish sharoitida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish kontseptsiyasiga asoslangan. Ma’ruza va seminar o‘qitish metodologiyasidan farqli o‘laroq, ikkita vazifa izchil hal qilinadi, birinchidan, bilimlarni uzatish, ikkinchidan, ularni qo‘llash ko‘nikmalari shakllantirish. Dinamik vizual modellar yordamida o‘qitish texnologiyasi vaziyatli, vizual va o‘qitish singari turli modellarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Axborot situatsion modeli yoki axborot holati modeli haqiqiy ob’ekt va real vaziyatni aks ettiradi va o‘rganilayotgan jarayonlar va vazifalar mazmunini shakllantirib, bunda vaziyatni tasvirlash uchun evristik va rasmiy yondashuvlardan foydalanish mumkin.Evristik yondashuv, qoida tariqasida, vaziyat o‘rganilganda, uning ketma -ket qo‘shilishi bilan ob’ektning to‘liq bo‘lmagan qismli tavsifini nazarda tutadi. Bu ma’lumotni takroriy qayta ishlash zarurligiga olib keladi va qiyin vaziyatda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.Rasmiy yondashuv ob’ektning to‘liq tavsifiga asoslanadi va tasvirning analitik va matematik usullari yordamida amalga oshiriladi. Bu yondashuv algoritmik qayta ishlash zarurligiga olib keladi va tinglovchilarda analit ik fikrlash va tizimli tahlilni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, ta’lim tizimi virtuallashuvi an’anaviy ta’limda uchraydigan ko‘plab muammolarga yechim bo‘lib, biz ta’lim uchun sinf xona, qat’iy belgilangan vaqt, yo‘l ovvoragarchiligi, zerikarli, bir tempdagi ma’ruza, o‘tkazib yuborilgan mashg‘ulot kabi masalalarga samarali yechim sifatida ko‘riladi. Qolaversa, o‘quvchining tanqidiy, ijodiy tafakkurlashiga asos bo‘la oladi.Axborot manbalari bugungi kunda shu qadar takomillashganki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi eng qulay, eng zamonaviy, eng qiziqarli, eng oson usullarni qo‘llash orqali o‘quvchiga zaruriy bilimlarni yetkazmasa, ko‘zlangan maqsadga erishishi qiyin. Bu undan nafaqat, o‘z fanining bilimdoni, balki o‘z kasbining fidoyisi, o‘rni kelganda aktyori bo‘lishini talab etadi. Ayniqsa, fan o‘qituvchisi darslarni tashkil etishda o‘tiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqib materiallarni o‘quvchilarga singdirish yo‘llarini, qaysi usullarni qo‘llash yaxshi samara berishini oldindan belgilab olishi maqsadga muvofiq. Ilg’or pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash darslarning sifatini, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni mustaqil ishlashga va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi.Maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan barcha darslarning zamon saviyasiga mos kelishi va ta’lim samaradorligining ortishi o‘qituvchining mavzu materialini tasviriy va ovozli texnik vositalardan foydalanib, jonli obrazlar yarata olishiga bog’liqdir.

Adabiyotlar:

1. Пак Н. И. Информационный подход и электронные средства обучения: монография Красноярск: РИО КГПУ, 2013.

2. Дешко И.П. Информационное конструирование: Монография. – М.: МАКС Пресс, 2016. – 64с. ISBN 978 -5-317-05244-7.

3. Tsvetkov V. Ya. Information Constructions // European Journal of Technology and Design, 2014, Vol.(5), № 3- p147-152

4. Tsvetkov V. Ya. Information interaction // European Researcher. - 2013. - Vol.(62), № 11-1. - p.2573- 2577
5. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, *1*(10), 7-9.
6. Content, form and means of formation of basic competences in primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(10), 1494-1497.

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Abdurasulova Shoira

Anontatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompitentligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Mavzuga oid xorijiy va respublikamiz olimlarining ilmiy qarashlari umumlashtirilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompitentligini rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, kompitentlik, tamoyil, tajriba, rivojlantirish, imkoniyat, samaradorlik, metodika, qonuniyat, o'quvchi, tajriba, ta'lim, tarbiya, innovatsion, integratiya.

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, bu xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo'yadi. Mazkur vazifalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi. O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

O'qituvchining, pedagogik mahorati uning malakasi, pedagogik qobilyati, pedagogik kompitentsiyasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi usullardan biri bu doimiy kasbiy ta'lim malakalarini oshirib borishdir. Bugungi kunda ilmiy-pedagogik hamjamiyatda kasbiy-pedagogik kompetensiyaning mohiyati va tuzilishi to'g'risida qizg'in munozaralar bo'lib o'tmoqda.

Yevropa tadqiqotchilari, V.A. Adolf, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, E.L. Pupysheva, G.S. Savolainen, L.V. Shkerin va boshqalar kasbiy kompetentlikning har xil turlarini ajratadilar: metodik, innavatsion, psixologik, kreativ, kommunikativ va boshqalar.

Yuqorida keltirilganlar orasida o'qituvchining metodik kompitentligi alohida o'rin tutadi, chunki u boshqa bir qator kompitensiyalarni o'z ichiga oladi, qo'shimcha ravishda, aynan uning darajasi ta'lim sohasidagi mutaxassisning kasbiy mahorat darajasini aniqlaydi. Ma'lumki, o'quvchilarga beriladigan bilimlarning poydevori boshlang'ich ta'limda beriladi. Shaxs ongi va uning dunyoqarashining rivojlanishiga asos bo'ladigan bilimlar ham aynan shu bosqichda beriladi. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk bo'lishlari ular ta'lim tarbiya berayotgan o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining metodik kompitentligi haqida bir qancha tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida turlicha fikr bildirganlar. Hususan, O.V.Tumashevaning fikricha, o'qituvchining metodik kompetentsiyasi metodik bilim, ko'nikma va faoliyat uslublariga egalik qilishni, ularning kasbiy faoliyati uchun ham, jamiyatdagi o'zaro aloqalar uchun ham ularning qiymatini tan olishni, uslubiy muammolarni hal qilish tajribasi, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi takomillashtirishga tayyorligi va qobiliyatini nazarda tutadigan shaxsning integral xarakteristikasi sifatida qaraydi.

T. Gushchina metodik kompitentlikni o'qituvchining shaxsiyati va faoliyatining integratsiyalashgan ko'p darajali professional ahamiyatli xususiyati, ishlab chiqarish tajribasini umumlashtirib, o'qituvchining metodologiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli

ravishda egallash va kasbiy-pedagogik faoliyat metodlarining maqbul kombinatsiyasi sifatida tavsiflaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish tizimida metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ko‘p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan v ta’limning yangi yo‘nalishlari o‘qituvchini innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi.

Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish muammosini ilmiy jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi:

● zamonaviy ta’limni innovatsion jarayonlarga yo‘naltirish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion o‘quv jarayonini amalga oshirishga doir nazariy va uslubiy tayyorgarligi o‘rtasida;

● boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati va mavjud holatda bu jarayonga ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasida;

● o‘qitishning an’anaviy bilimga asoslangan yondashuvi va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda kompetentlikka asoslangan, faol va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni talab qiladigan ta’limdagi zamonaviy innovatsion tendensiyalar o‘rtasida;

● o‘qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligi sifatini oshirish zaruriyati va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi texnologiyalar va mexanizmni resursli qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi o‘rtasida.

Yuqorida qayd etilgan obyektiv va subyektiv ziddiyatlar pedagogik hodisaning mohiyatini – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun pedagogik shartsharoitlarni aniqlashdan iborat bo‘lgan tadqiqot muammosini faollashtiradi.

Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar va mavjud holat tahlilidan ko‘rinadiki, quyidagilar o‘qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o‘zini o‘zi tahlil qilish va baholash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish zaruratini keltirib chiqaradi:

● ta’lim sohasida xalqaro tajribalar va qiyosiy tahlil natijalari;

● zamonaviy texnologiyalarning takomillashuvi;

● jamiyat ehtiyoji hamda ta’limga bo‘lgan talabning o‘sishi;

● jamiyat ehtiyoji va talablari asosida o‘qituvchi rolining o‘zgarishi;

● DTS va o‘quv dasturlarining optimallashtirilishi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo‘yilgan maqsad bo‘lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir o‘qituvchi o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish uchun ma’lum darajada o‘z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi. O‘qituvchilarda o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish yo‘nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o‘qituvchilarda o‘z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga qiziqish shakllanadi, bu o‘z navbatida o‘qituvchilarda mustaqil ta’lim olish ya’ni mustaqil o‘rganish, o‘zo‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarni o‘z faoliyatida ma’lum bir ijobiy natijalarga erishish, o‘qituvchilar jamoasida obru-e’tibor qozonish, o‘zini o‘zi boshqarish va rivojlantirish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib, bu ma’lum bir vazifani mas’uliyat bilan bajarish orqali ko‘zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi – o‘qituvchini o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish ehtiyoji hisoblanadi.

Akmeologik yondashuv nuqtai nazaridan o‘zo‘zini anglash, o‘zini takomillashtirish, ichki resurslarni boyitish va qiyinchiliklarni ongli ravishda yengib o‘tish qobiliyati (tashqi va ichki) o‘qituvchi shaxsining rivojlanish modellari va xususiyatlari sifatida ajralib turadi. Shunday qilib, shaxsiy rivojlanishning yetakchi va hal qiluvchi omili shaxsning ijodiy tashabbusi va mustaqilligi

bo‘lib, bunda asosiy rol o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun motivga egaligi hisoblanadi. Shaxsni takomillashtirish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishida o‘zini o‘zi anglash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilarning o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish uchun o‘qituvchiga xos bo‘lgan akmeologik pozitsiyaning mavjudligi (uning shaxsiy faoliyati), moslashuvchanlik (atrofdagi voqelik shartlaridan shaxsiy rivojlanish uchun foydalanish qobiliyati), jamiyatda o‘z salohiyatini amalga oshirish istagi, o‘zini anglashi va shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish orqali o‘z kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirishga tayyorligi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kasbiy faoliyat subyekti sifatida rivojlanishda subyektivlik, mutaxassisning malakasi va uning shaxsiy yetukligi kabi tendensiyalar ajralib turadi. O‘qituvchi professionallikni rivojlantirishga kasbiy rivojlanishning bosqichlari va darajasini (o‘z taqdirini o‘zi belgilash, moslashtirish, o‘zini namoyon qilish, o‘zini o‘zi anglash) egallash orqali erishadi. O‘qituvchilarga kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishda tashqi va ichki sharoitlar ta’sir qiladi (o‘qituvchining o‘zi qobiliyatlari va moyilligi, atrof-muhitning xususiyatlari – oilaviy, kasbiy, o‘zini anglash xususiyatlari va aks etuvchi kompetensiya).

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni tizimli va uzviy amalga oshirishlari muhim hisoblanadi: – o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilish; – hayotiy va kasbiy tajribalarni o‘zlashtirishga intilish; – ta’lim berish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik va motivatsiyaga ega bo‘lish; – kasbiy faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish va o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etish. Asosiysi, o‘qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish va shu asosda uning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishga erishish mumkin. O‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj, bir tomondan, o‘qitishning o‘ziga xos xususiyati, uning ijtimoiy roli, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatning doimiy o‘zgarib turadigan sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan “hayot davomida o‘qish” tamoyili bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish uzluksizlik, universallik, maqsadga muvofiqlik, integrativlik, umumiylik, individuallashtirish, o‘zaro bog‘liqlik va doimiylik, past darajadan yuqori darajaga o‘tishning doimiyligi, o‘zgaruvchanlik kabi tamoyillarga asoslanadi.

O‘rganilgan ilmiy tadqiqot natijalari va tahlillari hamda kuzatishlarimiz natijasida, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarda kasbiy rivojlanishning quyidagi komponentlarining rivojlanishini inobatga olish lozim degan xulosaga keldik:

– pedagogik faoliyatdagi boshqaruvchanlik, texnologik usul va uslublarni ishlab chiqish;

– pedagogik faoliyatning har bir aniq turini loyihalash, tashkillashtirish va amalga oshirish;

– o‘qitish jarayoniga mantiqiy yakunlangan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish;

– pedagogik masalalarni ilgari surishda o‘quvchilarning ta’limiy ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olish;

– o‘quvchilarning faoliyati natijalarini baholash va hisobga olish;

– o‘quvchining motivatsiyasini rivojlantirish;

– o‘quvchi bilan ta’lim jarayonida o‘zaro munosabatlarni shakllantirish;

– o‘quvchilarning ta’limiy ehtiyojlarini va jamiyatning talablarini ko‘ra bilish;

– kasbiy kompetensiyaning shakllanish istiqbolini belgilash va uni amalga oshirish;

– o‘quvchining samarali ta’lim olishi va natijaga erishishi uchun metodik tizim yaratish;

– o‘quvchilarning xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarligining metodik tizimini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Ta’lim to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil.

2. O‘zbekiston uzluksiz ta’limining davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti 2021-yil 16-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 24.10.2020 y.

4. B.Xadjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metadologiyasi. Toshkent “Iqtisodiyot dunyosi” 2018.

5. B. S. Siddiqov, Sh. N. Mexmonaliyev Pedagogik amaliyotning bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarlik faoliyatida tutgan o‘rni. VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-10-16

6. О.В. Тумашева О методической компетентности учителя / Вестник КГПУ им. В.П. Астафьева. Ме тодика преподавания. 2009 (1).

7. О. П. Филатова Процесс формирования методической компетенции педагогов при освоении аудиовизуальных технологий обучения. Научно-теоретический журнал Выпуск. 1(14).2013

8. Е В Мальцева. Развитие профессиональной компетентности чителей начальных классов в системе непрерьюного педагогического образования / Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, 2006 –6с

9. Маркова, А.К. Психология труда учителя / А.К. Маркова. – М.: Просвещение, 1993. – 192 с

10. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova Umumiy psixologiya T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008- 137 bet

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA INTEGRATSION DARSLARNING RO‘LI

Samatova Muborak Kaxxarovna
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda innovatsion-korporativ hamkorlikning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Fan, ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlikni rivojlantirishda innovatsion uslublardan foydalanishni ta’minlash muhimahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, innovatsiya, korporativ hamkorlik, oliy ta’lim, fan, ishlab chiqarish, sifatli ta’lim.

Mavzuning dolzarbligi: Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI” nomli asarida sifatli ta’lim - inson kapitalini rivojlantirishning xal qiluvchi omili to‘g‘risida gapirib, bunda uzluksiz ta’lim tizimi uchun milliy o‘quv dasturini joriy etish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor berib o‘tgan [1 Bizga ma’lumki, taraqqiyot va yuksalishlarni ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya hamda innovatsion jarayonlarsiz tasavvur etish qiyin. Innovatsiya, innovatsion markazlar, innovatsion muhit, uning shakllanishi, rivoji bilan bog‘liq texnologiya hamda qonuniyatlar borasida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor bevosita rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlash joizdir.

Shu bois ham davlat shaxsni shakllanishi va kamol topishida muhim ahamiyatga ega bir qator vazifalarni bajarishni o‘z zimmasiga oladi. Shaxsni ta’lim olishi bepul ta’minlanishi masalasi asosiy qomusimizning 41 - moddasida ham belgilab qo‘yilgan.Chunki millat bilimining sifat darajasi mamlakatni kelgusidagi strategik rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Millat bilimining darajasiesa ta’lim xizmati natijasida shakllanadi. Mamlakatning dunyo bozoridagiraqobatbardoshligi millatning intellektual va ilmiy potentsiali darajalariga chambarchas bog‘liqdir.

Shu bois davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining negizida ta’limga muhim ahamiyat berib kelinmoqda. Ta’lim olish bo‘yicha davlat tomonidan yaratilgan shart- sharoit, imkoniyatlar asosida shaxsning shakllanishi, kamol topishi va o‘z maqsad hamda manfaatlarini ruyobga chiqarilishini ta’minlashi:

- davlatning shaxsni konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish borasidagi vazifasi ijrosini ta’minlaydi;
- shaxsning davlat, jamiyat va o‘zi uchun foydali sub’ekt sifatida shakllanishiga;
- jamiyat a’zosi sifatida shaxsda davlat va xalqning umumiy manfaatlari asosida birlashish immunitetini paydo bo‘lishiga;

- oilani moddiy jihatdan ta’minlash va oila a’zolarini jamiyat hamda davlat uchun zarur sub’ekt sifatida shakllantirishda ishtirok etishi kabi bir qator vazifalar ijrosi samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shuning uchun ta’lim sifati va uni shaklantirishni doimiy ravishda takomillashtirib borish ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan ta’lim va tarbiya, uni tashkil etish hamda huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov ta’lim va tarbiya masalalariga to‘xtalib,

«Farzandlarimiz-bizning kelajagimiz. Xalqimiz ertasining qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq», deb ta’kidlaganlarida aynan davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarini barcha jabhalardagi uyg‘unligi hamda uni ta’minlash mexanizmi negizida ta’lim-tarbiyaning sifati birinchi o‘rindaligi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida» gi Qonunining asosiy maqsadi «Ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish» hisoblanadi [2].

Milliy dastur ijrosini ta’minlash chora-tadbirlaridan biri ta’limning fan hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim omildir. Shu bois Yevropa va rivojlangan boshqa barcha davlatlarda ta’lim sifatini oshirishda fan va ishlab chiqarish integratsiyasi masalasiga jiddiy e’tibor qaratib kelmoqda.

Muhokama: Mamlakatimizda ham ta’lim sifatini oshirishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e’tibor kuchaydi. Shuning uchun kadrlar tayyorlashning uchinchi bosqichida ta’lim sifatini oshirish va unda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda o‘zaro hamkorligi masalasini tadqiq etish xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Lekin ular tadqiqotlari bilan tanishish mazkur masalaga turli yondoshuv va qarashlar mavjudligini kursatadi.Moddiy mahsulotdan farqli ravishda oliy ta’lim mahsulotini tayyorlash jarayoni va uning sifatini aniqlash juda ko‘p o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ta’lim xizmatlari mahsulotini tayyorlash va uning sifatini oshirish masalalarini tadqiq etgan mahalliy hamda xorijiy olimlar asosan mavzuga sotsiologik va pedagogik nuqtai-nazardan yondoshganlar. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va uning ta’lim sifati hamda mehnat bozori talabiga moslashuvchan kadr tayyorlashdagi roli va uning samaradorligini oshirishda iqtisodiy-huquqiy mexanizmlardan foydalanish masalalari o‘rganilmagan.

Oliy ta’limda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta’lim sifatiga ta’sirini baholash va ushbu mexanizmdan samarali foydalanish yo‘llarini belgilashga oid tavsiyalar berish maqsadida avvalo ta’lim sifati tushunchasi mazmuni to‘g‘risidagi qarashlarni o‘rganish zarur. Ta’lim sifati, uning mazmuni va fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi to‘g‘risidagi qarashlarni o‘rganish asosida ta’lim sifatini yaxshilashdagi rolini oshirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlar bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun avvalo ta’lim sifati tushunchasi, uning mazmuni, uningkomponentlari nimalardan iborat, ta’lim sifatiga qanday omillar ta’sir etadi, degan masalalar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz.

Ta’lim sifati keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni ta’minlash bir qator omillarga bog‘liqdir. Ushbu tushuncha mazmuni bilan chuqurroq tanishish uchun xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ushbu atama to‘g‘risidagi qarashlar, ularning mazmuni, umumiy hamda farqli jihatlarini o‘rganamiz. Akademik A.Novikov fikricha, «Ta’lim sifati deganda - me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxs ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim natijasi darajasini ifodalovchi kursatkichlar tizimi tushiniladi» [3].

Demak, olimning fikricha ta’lim sifati komponentlari me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojdan iborat. Uni baholash uchun esa ushbu komponentlar darajasini ifodalovchi kursatkichlar tizimini aniqlash zarur.

A.M.Katsning fikricha “Ta’lim sifati shaxs, jamiyat va davlatning belgilangan talablarini qondirish darajasini ifodalovchi ta’lim elementlari yig‘indisi” hisoblanadi [4].

V.A.Malkova “Ta’lim sifati - o‘quvchining mavjud ijtimoiy sharoitlarga moslashishini ifodalovchi munosabatlar tizimi”, degan qarashni bildiradi [5].

Yuqoridagi fikrlar va qarashlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ta’lim sifatida shaxs, jamiyat hamda davlat manfaatlari uyg‘unligi ta’minlanishi muhim jihat hisoblanadi. Ta’lim sifati va unga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida bayon etilgan qarashlarda aynan qanday kursatkichlar ta’lim sifatini baholovchi asosiy kursatkichlar hisoblanishi, ular ta’sirini baholash mezonlari hamda ta’lim sifatini baholashga yondoshishda qanday tamoyillarga asoslanish zarurligi to‘g‘risida aniq xulosaga kelinmaganligini ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizning ta’lim tizimi o‘ziga xos bo‘lib, bizda ta’limni tashkil etish bir qator xususiyatlariga ko‘ra boshqa davlatlardan farq qiladi. Shuning uchun, ta’lim sifatini ta’minlash va uni baholashda boshqa davlat amaliyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmaydi. Bu holat esa mamlakatimizda ta’lim sifatini ta’minlash va uni baholash tizimiga o‘ziga xos yondoshuv zarurligini talab etadi.

Ma’lumki, ta’lim natijasi bo‘lgan mahsulot, ya’ni yosh kadrlar ist’molchisi ta’lim xizmatlaridan foydalanuvchilar bozori hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslardir. Dunyo va mamlakatimiz ta’lim xizmatlari bozori holati tahlilida nafaqat ta’lim sifati balki, ta’lim xizmatlarini tashkil etish, iste’molchi talablarini inobatga olish va ularni baholashga oid yondoshuvlarda ham turlicha qarashlar hamda mezonlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Jamiyat hayotining rivojlanish darajasi tezlashuvi esa ta’lim xizmatlari mahsulotga bo‘lgan talab va taklifda nomuvofiqlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sifati va bozor talablari o‘rtasida yuzaga kelayotgan nomuvofiqliklar sababini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- ta’lim xizmatlarini tashkil etishning bozor talablaridan ortda qolishi;
- ta’lim xizmatlari turlarini iste’molchi bilan o‘zaro bog‘lanmaganligi;
- ta’lim muassasalari va iste’molchilar o‘rtasidagi korporativ hamkorlik masalalariga yetarli e’tibor berilmasligi;

ta’lim muassasalarining o‘zaro innovatsion korporativ hamkorligi samaradorligi pastligi va hisobotlar uchun tashkil etilishi Fikrimizcha, ta’lim sifatiga baho berishda unga ta’sir etadigan omillarni ta’lim tizimida ishtirok etuvchi sub’ektlar bo‘yicha guruhlab o‘rganish zarur. Bunda ta’lim tizimi sub’ektlari bo‘yicha ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni quyidagicha guruhlab olish maqsadga muvofiq:

ta’lim siyosatini ishlab chiquvchi organga bog‘liq omillar;ta’lim muassasasiga bog‘liq omillar;

ta’lim oluvchiga bog‘liq omillar;iste’molchilarga bog‘liq omilar;

ta’lim muassasasi va iste’molchilar innovatsion korporativ hamkorligigabog‘liq omillar.

Qayd etilgan har guruhda ta’lim sifatiga bevosita va bilvosita ta’sir etadigan omillar mavjud bo‘lib, ular ta’lim sifatining ijobiy yoki salbiy tarafga o‘zgarishiga ta’sir etadi. Shuning uchun har bir guruh omilni ta’lim sifatiga ta’sirini alohidao‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Shu bois biz ushbu loyiha ishimizda ta’lim sub’etlari uchun umumiy manfaatdorlikni ta’minlash nuqtai-nazaridan amalga oshirilishi muhim hisoblangan “ta’lim muassasasi va iste’molchilar fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga bog‘liq omillar” xususida va ularni tashkiliy, huquqiy va metodologik jihatdan takomillashtirishga oid o‘z qarashlarimizni bayon etamiz.

Mamlakatimizda ijtimoiy siyosat muhim ahamiyat kasb etishi munosabati, davlat ta’lim siyosatini yaratuvchi va uning natijasidan bevosita hamda bilvositamanfaatdor hisoblanadi. Davlatning oliy ta’lim natijasidan bevosita manfaatdorligi bitiruvchi kadrlarning davlat funktsiya hamda vazifalarini bajaruvchi shaxsni ishberuvchisi ekanligida namoyon bo‘ladi.

Bilvosita manfaatdorligi esa shaxsning ta’lim natijasida olgan bilimlarini jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda faol foydalanishi natijasida oila, yurt tinchligi, farovonligi va ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan faoliyati natijasida ifodalanadi.

Davlat ta’limni huquqiy, tashkiliy va metodologik ta’minotlari masalalarini takomillashtirish, ta’lim tizimiga innovatsion shakllarni joriy etish hamda ta’lim tashkiliy va sifat jihatlarini xalqaro me’yorlar talablariga moslashtirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirmoqda.

Davlat ta’lim xizmatlarining natijasidan bevosita va bilvosita manfaatdor taraf sifatida o‘z vazifalarini bajarib kelmoqda. Lekin ta’lim sifati va natijasidan manfaatdor taraflarning boshqa ishtirokchilarining ta’lim sifatini oshirishni ta’minlashdagi ishtiroki yetarli emas. Shuning uchun ta’lim muassasalari reytingini aniqlash bo‘yicha mezonlardan biri sifatida iste’mochilardan o‘tkazilayotgan so‘rovlar natijalariga ko‘ra ayrim yo‘nalishlar va oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlar sifati pasayishi kuzatilayotganiga guvoh bo‘lish mumkin.

Demak, bu borada yetarlicha muammolar mavjud. Bu muammolarni yo‘qotish va ta’lim orqali fanni, fan orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun integratsiyani amalga oshirish zarur.

V.A.Slastyoninning fikricha, “innovatsiya” maqsadga qaratilgan o‘zgarish bo‘lib, qo‘llanish sohasidagi tizimni bir holatdan sifat jihatdan yangi holatga o‘tkazish, uni tubdan takomillashtirishni, innovatsion jarayon-yangilikni yaratish, o‘zgartirish, qo‘llash va tarqatishdagi kompleks faoliyatni anglatadi [6]. Innovatsiyalar nafaqat ta’limni balki, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida ham ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Xulosa: OTMda Oliy ta’lim muassasalarida integratsiya “Uchburchagi” va innovatsion-korporativ hamkorlikning o‘ziga xos xususiyatlarining ahamiyati tahlil qilindi. OTM, Fan muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan har bir shaxs, rahbar va ilmiy xodim integratsiya va innovatsion- korporativ hamkorlik sifatini ta’minlash uchun zamonaviy yondashuvlar asoslarini bilishlari maqsadga muvofiq bo‘lishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev “YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI”. -Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son.
3. Новиков А.М., Д.А. Новиков, «Как оценивать качество образования?», www.anovikov.ru, (Муаллиф таржимаси).
4. Кац А.М. www.mathnet.ru/at13796автор: АМ Кац. Теория и применение регуляторов скорости с упруго-присоединенным катарактом. А. М. Кац. Центральный научно-исследовательский дизельный.
5. Малькова В.А. studopedia.ru/11_140699_vnmalkova.html13 июн. 2015 г. - Новое понимание качества образования формируется в ответ на вызовы со стороны мирового сообщества, страны, области, города.
6. В.А. Сластёнин и др. Педагогика: учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений. М.:, 2015 г.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ДЛЯ ПООЩРЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА И ИННОВАЦИЙ В НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Насриддинова Насиба Алимжоновна
Преподаватель Гулистанский государственный университет.

Аннотация: Узбекистан отстает от большинства развитых экономик по инновациям и экономическим результатам. Чтобы облегчить эту проблему, мы разработали модель устойчивого развития творчества, инноваций и предпринимательства среди учащихся начальной школы. Мы сознательно не предложили комплексной стратегии пересмотра учебного плана. Такой пересмотр, хотя и необходимый, в настоящее время в Словении явно невозможен. Наше предложение использует подход, который почти минималистичен и, таким образом, осуществим в нынешних условиях. В данной статье мы представляем три формы предлагаемой образовательной деятельности. Каждый из трех видов деятельности имеет руководящие принципы работы, основанные на нашей концепции. Мы считаем, что внедрение этих руководящих принципов будет способствовать повышению творческих, инновационных и предпринимательских компетенций молодежи. Хотя это предложение не предусматривает немедленных финансовых последствий, оно представляет собой важную и социально ответственную долгосрочную инвестицию.

Ключевые слова: инновации, креативность, предпринимательство, начальная школа, учебная программа, социальная ответственность, модель долгосрочного развития

Большинство государств Центральной Азии стремятся предоставить молодым людям более инновационные, предпринимательские и творческие стимулы. Их попытки сделать это разнообразны, и некоторые из них более успешны, чем другие. Стимулирование развития творчества, инноваций и предпринимательства в основном направлено на развитие творческого и критического мышления, укрепление чувства ценности и ответственности как перед самим собой, так и перед обществом в целом. Уточним: человек должен научиться вести себя социально ответственно, и только после этого за ним следует школа или компания. Таким образом, стимулирование творчества и инноваций является важным фактором социальной ответственности, который может по-разному влиять на общество. Крайне важно, чтобы школы поощряли развитие эмпатии у молодых людей в целях повышения их социальной ответственности. Различные, тщательно структурированные цели и подходы к поощрению творчества и инноваций должны быть внедрены на различных уровнях образования. Они могут включать в себя:

- содействие развитию личностных качеств, имеющих отношение к инновациям и предпринимательству, таких как креативность, дух инициативы, принятие риска и ответственности, а также развитие эмпатии.;
- предоставление ранних знаний и контактов с деловым миром с целью понимания роли предпринимательства (и компаний) в обществе;
- повышение осведомленности о само занятости как возможной карьере для студентов (основной посыл заключается в том, что можно стать предпринимателем, а не простым работником);
- организация деятельности, основанной на обучении во время работы: например, студенты управляют мини-компаниями или виртуальными фирмами;
- предоставление специальной подготовки о том, как начать бизнес (особенно в профессиональных или технических школах и на университетском уровне).

Творчеству, инновациям и предпринимательству нельзя научить. Необходимо создать соответствующую среду для генерирования новых идей и пробуждения любопытства и новаторского духа. Это может быть достигнуто путем интегративного обучения, которое позволяет решать проблемы в реалистичных и аутентичных ситуациях. Такие процессы повышают уверенность в себе, формируют компетенции, основанные на личных ресурсах, и улучшают склонность к действию. Если наша цель-стимулировать развитие инноваций и предпринимательства, то школьная работа не может быть отделена от местного сообщества и производственного процесса. Тем не менее, поощрение студентов к созданию новых идей-это только первый шаг. Хорошая идея должна быть разработана, закреплена, запущена и в конечном итоге реализована. Таланта и целеустремленности недостаточно; чтобы добиться успеха, человеку нужны дополнительные знания. В модели, которую мы отстаиваем, студенты пытаются воплотить свои творческие идеи в полезные результаты с помощью всего изобретательское-инновационного процесса, который включает в себя доскональное знание определенных этапов и процедур, которые они могут изучить, если их правильно проинструктировать. Помимо обучения студентов инновациям, важно также научить их представлять свои идеи и проекты общественности. Таким образом, мы помогаем им развить свою предпринимательскую компетентность, хотя их способности могут не проявляться до тех пор, пока они не войдут в “реальный мир” работы или жизни вне школы. Человек не может проявить свою компетентность, пока не окажется

в таком контексте. Самый высокий уровень компетентности лучше всего демонстрируется при реагировании на нетипичные ситуации. Важный вопрос заключается в том, способен ли человек справиться с новыми ситуациями.

Представленная выше модель включает в себя три взаимосвязанных вида деятельности: предпринимательский клуб, факультативный предмет и обучение учителей и директоров школ. Все они преследуют одну и ту же цель-повысить инновационный и творческий потенциал

студентов. Каждое из этих занятий имеет свой статус и свое место в учебном плане и может осуществляться независимо. В течение последнего десятилетия в словенской системе образования требовались новаторские изменения, но существующие структуры дали минимальные результаты. Наша модель направлена на решение проблемы по-другому. Мы понимаем, что комплексная стратегия пересмотра образовательной программы в Словении в настоящее время невозможна. В результате наше предложение принимает почти минималистский подход и, таким образом, выполнимо в нынешних условиях. Тем не менее она всеобъемлюща и основана на современных концепциях, которые были, по крайней мере, частично проверены в стране и за рубежом. Мы считаем, что внедрение предложенных нами методов и структур будет способствовать повышению творческих, инновационных и предпринимательских компетенций студентов. Эффективное стимулирование творчества и инноваций необходимо не только с точки зрения экономических результатов, но и с точки зрения социальной ответственности и связи инноваций с обществом в целом.

Список литературы:

1. Колюткин Ю.Н., Муштавинская И.В. Образовательные технологии и педагогическая рефлексия. СПб.: СПб ГУПМ. – 2002, 2003
2. Федеральные государственные образовательные стандарты начального и основного общего образования 2-го поколения. Концепция /Рос.академия.

образования; под ред. А.М.Кондакова, А.А.Кузнецова. – 2-е изд. – М.: Просвещение. – 2009

3. Carroll, M, Goldman, S, Britos, L, Koh, J, Royalty, A, Hornstein, M. 2010. Destination, imagination and the fires within: Design thinking in a middle school classroom. International Journal of Art & Design Education 29 1: 37-42.
4. Rakhmatov Dilmurod, Akhatov A., & Rakhmatov D. (2020). Research on Effective Ways to Intelligence Quotient of Perception Through Mobile Games. The American Journal of Applied Sciences, 2(08), 89-95. Retrieved from https://usajournalshub.com/index.php/tajas/article/view/693
5. Rakhmatov Dilmurod & Nomozova Elmira. (2020). The use of multimedia technologies in the educational system and teaching methodology: problems and prospects. International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education,1(2),28-32.Url: http://summusjournals.com/index.php/ijdiie/article/view/80
6. Муштавинская И.В. Технология развития критического мышления на уроке и в системе подготовки учителя. СПб.: КАРО. – 2008.

ЁШЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ СИФАТЛАРНИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВОСИТАСИДА ШАКЛЛАНТИРИШ

Сирожиддинов Мақсудбек Ботиржон ўғли
Ёшлар ишлари агентлиги Сирдарё вилояти бошқармаси бошлиғи

Annotation. This article reveals the content of the spiritual and moral qualities that are developed in students on the basis of the development of information technology in Uzbekistan, the views of oriental scholars on education and scientific and practical approaches.

Keywords: information technology, spirituality, spiritual and moral qualities, information, information culture, information literacy, professional culture.

Дунё бўйича юксак маънавиятли, ижтимоий фаол мутахассисларни тайёрлашнинг креатив-модулли технологиялари амалиётга жорий этилмоқда. Таълим муаммолари бўйича Бутунжаҳон Форуми қабул қилган 2030 йилгача мўлжалланган концепциясидаги “...барча учун бутун ҳаёти давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш...”[22] вазифаси доирасида

[1].Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitablequality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].

ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда янги таълим технологиялари, инновациялар ва замонавий ташкилий тузилмаларнинг бирлигини таъминлаш бўйича лойиҳаларни татбиқ этишга йўналтирилган тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, Призидентимиз Ш.М.Мирзиёев “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 26 март, ПҚ-5040-сонли карорида эзгулик ва инсонпарварлик тамойилига асосланган “Миллий тикланишдан—миллий юксалиш сари” ғоясини кенг тарғиб этиш орқали жамиятда соғлом дунёқараш ва бунёдкорликни умуммиллий ҳаракатга айлантириш, тарғибот-ташвиқот ва тарбия йўналишидаги ишларни илмий асосда ташкил этиш, соҳа бўйича илмий ва услубий тадқиқотлар самарадорлигини ошириш, ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини мустаҳкамлашга қаратилган доимий мониторинг тизимини жорий қилиш, қадриятларга беписандлик ва ёшлар тарбиясига масъулиятсизлик каби иллатларга барҳам беришга қаратилган комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш аҳолининг Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиш маданиятини ошириш, ғоявий ва ахборот хуружларига қарши мафкуравий иммунитетини кучайтириш, оммавий ахборот воситаларида маънавий-ахлоқий мезонлар, миллий ва умуминсоний қадриятларнинг устуворлигига эришиш муҳим эканлигини таъкидлаганлар [2,17].

“Маънавият” (арабча “маънолар мажмуи”) тушунчаси “инсоннинг руҳий ва ақлий оламини ифодалайди”**,** у “ахлоқий ҳолат ва ахлоқий хусусиятлар”**,** “ижтимоий ҳодиса” ва “инсоннинг ички оламига тааллуқли бўлган яшашдан мақсади, фикр юритиши, орзу-истаклари, интилишлари ҳамда ҳис-туйғуларидир”. Бу ёндашувларнинг барчаси маънавиятнинг педагогик хусусиятларини белгилаб олиш имконини беради. Унга кўра, маънавият шахс учун ахлоқ ва тарбия омили, унинг руҳий ва ақлий оламини шакллантиради, ижтимоий ҳодиса сифатида ахлоқини таркиб топтиради ҳамда ҳаётга йўналтиради. Чунки, давлатимизнинг ривожланиши ва ислоҳотларнинг муваффақияти кўп жиҳатдан замонавий кадрларнинг маданияти даражасига боғлиқдир. Шундай экан олий таълим муассасаларининг ёшларда маънавий-ахлоқий сифатларни такомиллаштириш, таълим мазмунини янада чуқурлаштиришда қудратли куч сифатида катта таъсир кўрсатади.

Маънавий-ахлоқий сифатлар ёшлар касбий фаолиятида муҳим жараёнларни ифодалайди. Бу борада Шарқ алломаларнинг қарашлари ҳозирги кунгача ўз мавқеини йўқотмаган. Жумладан, Буюк мутафаккир Алишер Навоий инсон фақат маънавияти туфайли бошқа жонзотлардан ажралиб туриши ва маънавият фақат инсонгага хослигини асослаб кўрсатган.[3; 83-85б]

Мутафаккир олим Юсуф Хос Ҳожиб (1019-1088) “Қутадғу билиг” асарида маънавият тушунчасини ўзбекча “билиг” тушунчаси билан ифодалайди. Бу билим ва одоб мажмуасидир деган фикр билдирган.

Маърифатпарвар педагог Абдулла Авлоний (1876-1930) “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарида дейди: “Бани одамда ахлоқ туғма бўлмайди, лекин унинг асоси бўлган туйғу инсон фитратида (табиатида) туғма мавжуд бўлади. Тарбия воситаси ана шу туйғулар ривожлантирилади шу тариқа ахлоқ юзага келади”- деган фикр юритган. Педагог боланинг туғма ва соф туйғулари яхшиликка йўналтирилса яхши фазилатларни ўзлаштиради; аксинча, тарбия суст бўлса боланинг туйғулари ёмонлик хусусиятларини юқтиради ва унинг хулқ-атвори бузилади деган ғояларни илгари суради. [4; 94б].

Мутафаккир Аҳмад Яссавий (1103-1166) эса “Девони ҳикмат” асарида дейди: “Бизга тарбия йўлини олиб келган Муҳаммад (САВ) араблардан эди, унинг тарбия йўли ахлоқлар мажмуасидан иборат”. Шу маънода маънавият ахлоқлар мажмуи сифатида намоён бўлади.

Маънавий-ахлоқий ва тарғибот-ташвиқот ишларининг мезони, аввало, уларнинг эл-юрт турмушига ўтказадиган ҳаётбахш таъсири билан белгиланади. Ёшларнинг ҳаёт сўқмоқларида адашмасликларини таъминлаш, уларни шиддаткор замоннинг бўрону тўфонларидан ҳимоя қилиш лозим. Айниқса, диний ақидапарастлик, мафкуравий курашдаги лоқайдлик тузатиб бўлмас оқибатларга олиб келиши мумкин.

“Ахборот” атамаси “ахбор” маълумотлар, кўп хабарлар деган маънони англатади. Бунда турли маълумотлар қайта ишланиб, айрим жиҳатларига тузатишлар киритилади. Ахборотларнинг ижтимоий борлиқда кечаётган воқеа ҳодисалар, алоҳида шахс томонидан бажарилаётган иш, хатти-ҳаракат, фаолият тўғрисидаги маълумотларни етказиш, хабар

беришдан иборатдир. Ахборотдан муҳим манба сифатида фойдаланилади ва унда кўникма ва малакалар эгалланади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки ёшларни ҳар томонлама маънавий-ахлоқий тарбиялаш масаласи бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир. Бу вазифалар миллий тарбиянинг асосий тамойиллари, миллий маданий ва маънавий қадриятлар, халқ ва мамлакатимиз педагогикаси ютуқлари, миллий ватанпарварлик, миллий қадр-қиммат ва миллий ифтихор туйғуларини тарбиялаш биринчи галдаги вазифа бўлиши асосида амалга оширилмоғи лозим.

Олий таьлим муассасалари ёшларида ахборот маданиятини шакллантиришнинг назарий ва услубий асослари ишлаб чиқилган. Унда жамият ҳаёти, шахснинг ижодий имкониятлари, аҳлоқий, ақлий, ижодий куч ва қобилиятлари, унинг турмуш тарзида, ижтимоий – иқтисодий соҳаларини ривожлантиришдаги долзарблиги назарий жиҳатдан асосланган. Ушбу мақолада ёшларнинг назарий дунёқараши, ахборот муҳити, ташқи дунёдаги объектив омилларни тушуниш, ишонтириш тамойиллари, шахсни шакллантириш каби назарий билимлар, амалий кўникма ва малакалар жараёнида ахборотларни аниқлаш ва қайта ишлаш операцияларини бажариш кабиларга эътибор берилган. Адабиётларни ўрганиш, таҳлил этиш ва тажрибаларга асосланган ҳолда унинг таърифи ишлаб чиқилган. Бевосита жамият тараққиётида инсоннинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги ўрни ва аҳамияти илмий назарий жиҳатдан асосланган.

Фойдаланилган адабиётлар.

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси ”Халқ сўзи” 2017 йил 27 декабрь.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори. 2021 йил 26 март, ПҚ-5040-сон

3.Халиков А.А. Навоий асарларидаги идеал образларда одоб ва ахлоқ масалалари. //Халқ таълими. –Тошкент. –2008. –№ 3. –Б. 83-85.

4.Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. – 94 б.

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA’LIM OLISH IMKONIYATLARI

Nazarqulova Gulnora Ablakulovna
Gul.DU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Kredit modul tizimida mustaqil ta’limning afzalliklari, shuningdek kredit-modulli ta’lim tizimida talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar:

Muammoli ta’lim uslubi, ijodiy muhit, tatqiqot natijasi, labaratoriya,metodika, pedagogik texnika, mustaqil ta’lim, kredit-modul.

Bizga ma’lumki, hayotda ko‘p narsalarning o‘lchov birligi mavjud. Masalan, vaqt o‘lchov birligi – sekund, uzunlik o‘lchovi – metr, Massa– kilogramm, suyuqlik – litr, elektr kuchlanish o‘lchovi birligi – Volt, tok kuchi birligi -Amper. Shunda bir savol tug‘iladi: ta’limning, xususan oliy ta’limning ham o‘lchov birligi bormi? Aytishingiz mumkin, ha, oliy ta’limning o‘lchov birliklari bu bakalavr, magistratura va doktorantura deb. Lekin bular ta’limning o‘lchov birliklari emas, balki uning bosqichlari hisoblanadi. Afsuski, hozirda mamlakatimizda oliy ta’limning talabalar progressini, ularning mutaxassis sifatida shakllanishini muntazam ravishda baholab boruvchi hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligi mavjud emas edi.

Kredit-modul tizimi avvalambor, mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga ta’limning amaldagidan ko‘ra ancha mukammal, zamonaviy lekin hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligini olib kiradi. Unga ko‘ra oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlari muayyan o‘qish natijalarini ko‘zlovchi turli fan va modullarga bo‘linadi. Har bir fan yoki modul esa undagi o‘qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi. Masalan har bir fan o‘rtacha 5, 6 yoki 7.5 kreditlarda aks

etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o‘quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to‘plab borishi va tegishli miqdordagi kreditlarni to‘plagandan so‘ng unga bakalavr yoki magistratura darajasi berilishi belgilanadi .

ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60 tani tashkil etadi. Bir o‘quv yili 2 semestrdan iborat ekanligini hisobga olsak, talaba o‘qishi davomida har semestr 30 kredit to‘plab borishi zarur. Bakalavr dasturi odatda 4 yil ekanligini hisobga olsak, talaba ushbu darajani qo‘lga kiritish uchun jami 240 kredit, magistratura dasturini tugallash uchun esa 120 kredit to‘plashi kerak bo‘ladi.

Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit talaba bajarishi kerak bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini va talaba buning natijasida muayyan o‘qish natijalariga erishganligini bildiradi. Ya’ni, ECTS kredit-modul tizimi tarkibi ikki zaruriy elementdan iborat: a) o‘qish yuklamalari va b) o‘qish natijalari. Talaba shu elementlarni bajargandagina o‘sha fan bo‘yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo‘lga kiritishi mumkin .

ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 akademik soatlik o‘qish yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni qo‘lga kiritishi uchun ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini (“learning workloads”) bajarishi zarur. O‘qish yuklamasi – bu talaba muayyan o‘qish natijalariga erishishga qaratilgan barcha tizimli o‘qish mashqlari va harakatlarini bajarish uchun kerak bo‘ladigan vaqtdir . Bu degani yuqorida 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o‘qish yuklamasi – bu talaba fanni o‘rganish uchun sarflashi ko‘zda tutilayotgan jami o‘qish harakatlar jamlanmasidir. Unga nafaqat dars vaqti, balki talabaning fanni o‘rganish uchun uyda va kutubxonada sarflagan vaqti, imtihonlar vaqti, qo‘yingki, talaba ushbu fanni o‘zlashtirish uchun barcha tizimli harakatlari vaqtini qamrab oladi .

ECTS kredit-modul tizimida talaba fanlar va modullar bo‘yicha kreditlarni qo‘lga kiritishi uchun o‘qish yuklamalarini bajarishning o‘zi kifoya qilmaydi. U tegishli miqdordagi o‘qish yuklamalarini bajargandan so‘ng ular asosida muayyan o‘qish natijalarini ham ko‘rsata olishi zarur. O‘qish natijalari – bu talaba o‘quv yuklamalarini bajarish natijasida o‘rganishi, tushunishi va qila olishi kutilayotgan bilim va ko‘nikma jamlanmasidir.

ECTS kredit-modul tizimida har bir o‘quv dasturi (bakalavr, magistratura), fan yoki modul o‘zining o‘qish natijalari oldindan aniq belgilab olinishi va bu o‘qish natijalari ro‘yhati talabalarga oldindan taqdim etilishi zarur. Shunda talabalar muayyan o‘quv dasturi yoki undagi muayyan fanni o‘rganish unga mutaxassis sifatida nimalar bera olishi haqida oldindan tushunchaga ega bo‘lgan holda o‘qishni boshlaydi. Shunda o‘qish natijalari haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lgan talaba ham, o‘qituvchi ham dastur yoki semestr davomida barcha imkoniyatlarini shu natijalarga erishishga qaratadi.

Dastur yoki fan o‘qish natijalari quyidagi asosiy savolga javob bera olishi kerak: **talaba dasturni yoki undagi muayyan fanni tamomlagandan so‘ng unda o‘rgangan bilimlari asosida nimalar qila oladi yoki qila olishi kerak?**

Ushbu savoldan kuzatganingizdek, o‘qish natijalari – bu talaba dastur yoki undagi muayyan fan davomida qo‘lga kiritgan bilimlar ro‘yxatidan iborat emas, aksincha, unda talaba o‘sha bilimlar asosida nimalar qila olishi ko‘rsatilishi zarur. ECTS kredit-modul tizimidagi bu talab oliy ta’limga amaliy, pragmatik yondashuvni shakllantiradi.

O‘qish natijalarini oldindan belgilab olishning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘quv dasturini mutaxassislik uchun taalluqli bo‘lmagan, ahamiyatsiz fanlar va modullardan tozalab boruvchi filtr vazifasini ham o‘taydi. Agar fan va modulda erishilishi kutilayotgan o‘qish natijalari talabaning mutaxassis bo‘lib yetishi uchun ahamiyati bo‘lmasa va shunga hizmat qilmasa, ushbu fan o‘quv dasturini tark etishiga to‘g‘ri keladi.

Talaba va o‘qituvchilarda ushbu umumiy o‘qish yuklamasining aynan qancha qismi dars, auditoriya soatlariga to‘g‘ri keladi, degan savol tug‘ilishi mumkin. ECTS kredit-modul qoidalari bu masala bo‘yicha aniq talab yoki chegara belgilamagan. Bunga ko‘p sabablarni keltirish mumkin. Masalan, ta’lim jarayonlari yoki modul har doim ham o‘z tarkibiga auditoriya soatlarini qamrab olavermaydi. Bunga misol qilib o‘quv dasturidagi bitiruv amaliyoti, diplom ishi va shu kabi o‘qish elementlari va modullarni keltirishimiz mumkin.

Yuqoridagi qoidalardan shuni tushunishimiz mumkinki, ECTS kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqti tushunchasi dars vaqti tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o‘qish uchun

sarflagan umumiy vaqt bilan o‘lchanadi. Unda yana bilimning manbai faqat o‘qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida o‘qish vaqti tushunchasiga o‘qituvchi nuqtai nazaridan emas, balki talaba nuqtai nazaridan yondashiladi.

Shu bois, zamonaviy dinamik hayot quyidagi qobiliyatlarga ega bo‘lgan oliy ta’lim mutaxassislarini tayyorlashni talab qiladi:

mavjud muammoli masalalarni tahlil qilishni hisobga olgan holda o‘zgaruvchan hayot va kasbiy vaziyatlarda tezda moslasha oladilar;

bilimlarni doimiy ravishda yangilashga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga, yangi bilimlarni yaratishga, kasbiy vazifalarni hal qilish uchun bilimlarni amalda mohirona qo‘llashga tayyor;

borayotgan axborot oqimlarini boshqarish, axborotni tahlil qilish, o‘zgartirish va o‘z kasbiy faoliyatida va o‘z hayotida qo‘llash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;

tanqidiy ijodiy fikrlashga ega bo‘lish;

xushmuomala, muloqotli, turli jamoalarda ishlashga qodir;

maqsadlariga erishishda faol.

Aynan shunday mutaxassislar zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, shuningdek, o‘z korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining raqobatbardoshligiga hissa qo‘shishi mumkin. Aynan ular o‘z bizneslarini yaratishlari, ish profilidagi har xil o‘zgarishlarga moslashishlari va o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari mumkin. Shu sababli, oliy ta’lim tizimi talabalarning o‘quv jarayonini ifoda etilgan tezislar kontekstida tashkil etishning muhim muammosiga duch kelmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, jamiyat kelajakdagi mutaxassislarni axborot oqimiga mustaqil yo‘naltirish, ularning bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirish, har qanday o‘zgarishlarga ijodiy yondashish, paydo bo‘layotgan muammolarni noan’anaviy va sifatli hal etish darajasiga olib chiqishni maqsad qilgan. O‘z-o‘zini o‘rganish va o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatini mustaqillik kabi shaxs sifatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, bu esa o‘z navbatida mustaqil va faqat mustaqil faoliyat bilan tarbiyalanadi.

Shunday qilib, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyati yetakchi bo‘lishi kerak. Ta’limning kredit-modulli tizimi doirasida, an’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, talabalarning mustaqil ta’limining katta miqdori taxmin qilinmoqda, uni haqiqatan ham yetakchi qilishga urinishlar qilinmoqda. Mustaqil izlanish va rivojlanish uchun katta miqdordagi o‘quv materiallari chiqariladi. Mustaqil mashg‘ulotlar doirasida o‘qituvchi rahbarligida qo‘shimcha darslar ham o‘tkaziladi, dekanlar maxsus jadval va jadvallarni ishlab chiqadilar.

Mustaqil ta’lim – bu talaba zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni oladigan, tizimli ishlashni o‘rganadigan, o‘ziga xos aqliy faoliyat uslubini shakllantiradigan ta’lim shakli.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish bizga “mustaqil ta’lim” kabi tushunchani aniqlashga asosiy yondashuvlarni aniqlashga imkon berdi, xususan:

- talabalarning auditoriya darslarida va darsdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan shaxsiy va guruhli bilim faoliyati turlari ;

- o‘qituvchi rahbarligida bajariladigan turli xil o‘quv vazifalari

- talabalarning o‘quv faoliyatini boshqarish o‘qituvchi yo‘qligida va uning bevosita yordamisiz amalga oshiriladigan ishni tashkil etish tizimi

- talabalarning shaxsiy xususiyatlari va kognitiv imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan maxsus individual o‘quv dasturi bo‘yicha olib boriladigan talabalar ishi;

- o‘quv faoliyatining o‘ziga xos turi, uning asosiy maqsadi mavzuning mustaqilligini shakllantirish va shu bilan birga uning ko‘nikmalari, bilimlari va malakalarini shakllantirish bilvosita barcha turdagi o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni va usullari orqali sodir bo‘ladi .

Shunday qilib, kredit-modulli o‘qitish tizimidagi talabalarning mustaqil ta’limi o‘qitishni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi, shu jumladan, shaxsiy va jamoaviy ta’lim faoliyati turlari va auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda, talabalarning individual xususiyatlari va bilim qobiliyatlarini hisobga olgan holda, o‘qituvchi rahbarligida olib boriladi. Talabalarning mustaqil ta’limining maqsadi nafaqat talabalarning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda to‘ldirish va ilmiy ma’lumotlar oqimida erkin harakat qilish qobiliyatini shakllantirish, balki erkin demokratik jamiyatda o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘zini o‘zi anglashning zaruriy sharti sifatida faollik va mustaqillikni rivojlantirishdir.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, Boloniya jarayoni sharoitida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) o‘quv materialining asosiy qismi mustaqil ish va o‘qish uchun taqdim etiladi;

2) mustaqil ta’lim uchun maxsus didaktik materiallar yaratish;

3) o‘quv ishlarining shaxsiy rejimi va individual fanlarni o‘rganishning individual jadvali, o‘quv materialini shaxsiy sur’atda o‘rganish;

4) o‘qituvchining funksiyalarini o‘zgartirish (tashkilot, boshqaruv, konsalting, nazorat);

5) talabaning pozisiyasini o‘zgartirish (o‘quv materiali ustida ishlash rejimida tashabbuskorlik, ularning ishini mustaqil rejalashtirish, rejalashtirilgan shaxsiy rejani amalga oshirish uchun javobgarlik va boshqalar).

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishi kredit-modulli o‘qitish jarayonida biz axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng foydalanishni ko‘rmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Nazarqulova. Kredit-modul ta’lim sharoitida talabaning mustaqil ta’limini shakllantirish natijalari va ularning samaradorlik darajasi. Guliston davlat universiteti axborotnomasi. “Universitet” nashriyoti, Guliston - 2023 2023/2 (101) 68-72-b

2. G.Nazarqulova .Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qitivchilarining mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini rivojlantirishning amaliyotdagi holati. Pedagogika. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 4/2023. 156-160-b

3. Karimova D.R. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim // Uslubiy qo‘llama. — Toshkent : OOO “Complex Print”, 2021. 126 b.

4. Lebedev V.N. Modulnoe obuchenie v sisteme professional’nogo dopolnitel’nogo obrazovaniya. // Pedagogika, 2005. -№4. -S. 60-67.

OILADA QIZ BOLANI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK MUHITNING O‘RNI

R. Turdieva
Guliston Davlat Universiteti
Boshlang ‘ich ta’lim uslubiyati, o‘qituvchi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, Oila salomatligini mustahkamlash, yosh oilalarning shart–sharoitlarini yaxshilash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning tibbiy xizmatdan keng foydalanishga imkoniyat yaratish, xotin –qizlarning ijtimoiy–siyosiy faoligini oshirish bugungi kunning dolzarbligidir. Bu haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta ‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor. Prezidentimiz fikrlarida oilaning, eng avvalo, e’tiqod va sog‘lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir rolini ta ‘kidlangandir. Shu sababli oilada ijobiy psixologik muhit yaratilsa qiz bola tarbiyasi bilan bog ‘liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an’analarining, xususan, oilaviy o‘zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o‘rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo‘lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etishni davrning o‘zi taqozo etib turibdi. Bugungi kunda oilada qiz bolaga aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e ‘tiqodni shakllantirish va shu orqali oilada qiz bolaga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabatlarni hosil qilish muhim masalalardandir. Chunki oilada qiz bola tarbiyasi asrlar mobaynida xalq an’nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir.

O ‘zbekiston Respublika prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Oila salomatligini mustahkamlash” bo ‘yicha chora tadbirlari belgilangan. Oila a ‘zolarining turmush va hayotiy tajribalari, madaniy saviyalari qanchalik boy bo ‘lsa, oilada ijobiy psixologik muhit yaratilsa, ular farzandlari bilan shu darajada yaxshi muloqotda bo‘la olishadi, ayniqsa qiz-bolalarga katta e’tiborini qarata olishadi.

Oilada qiz bolani har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, unga hamisha g‘amxo‘rlik qilishning ahamiyati yuksak, oqibati xayrlidir.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan- avlodga bebaho meros sifatida o‘tib kelayotgan oilaviy urf-odat, marosim va bayramlar ham qiz bola farzandlarni oila muhitida to‘g‘ri tarbiyalashda muhim omil bo‘ladi. Oilada psixologik muhitning sofligi, har bir oilaning qiz bola tarbiyasiga rioya etilishi lozim bo ‘lgan an ‘analari va rasm- rusmlarining borligi, ularning jamiyat va mahalla an’analari oila uyg‘unligi ham bolada oilaga nisbatan e’tiqodni tarbiyalashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Bugungi kunda qiz bola tarbiyasi haqida o‘ylaganingda kishini tashvishlantiradigan yana bir holat borki, bu qiz bolaning hali oilaviy hayotga tayyor bo ‘lmasdan turib turmush qurishidir. Buning qanday salbiy oqibatlarga olib kelayotganini hammamiz ko‘rib yuribmiz. Shuning uchun ham oilada ijobiy muhit yaratilishiga barcha ijtimoiy jamiyatdagi insonlar ma ‘suldir.

Yurtboshimizning mamlakatimiz vorislari bo ‘lmish qiz bolalarni voyaga yetishishida oila, ota-ona mas ‘uliyatini oshirishga, umumiy ta ‘lim va uning uzviy davomi bo ‘lmish umum o‘rta ta’limi sifatini oshirishga, o‘g‘il-qizlarimizning bilim olishlariga jiddiy e ‘tibor berayotgani bejiz emas.

Oilada ijobiy psixologik muhit yaratilsa, qiz bolaning aqli, idroki, tarbiyalanganlik darajasi, dunyoqarashi va boshqa qator sabablarga ko ‘ra ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda e’tiborga olinadigan xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlarga yondoshib tashkil etilgan barkamol shaxsni shakllantirishda ma ‘naviy-axloqiy tarbiya ishlari undan ko ‘zlangan maqsadga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Oilada ijobiy psixologik muhit yaratish, qiz bola tarbiyasini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish, oilaning asosiy vazifasi ekanligi va bu vazifa hozirgi kunda dolzarb masalaga aylangan;

- qiz bolalarda milliy g ‘urur, milliy ong, milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarimiz asosida shakllantirish;
- qadriyatlar asosida, ularni e ‘tiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalash uchun, shu fazilatlar avvalo ota-onaning o ‘zida mujassamlashgan bo ‘lishi zarur;
- oilada ota-ona qiz bola tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashi uchun ijobiy psixologik muhitda ularga ta ‘lim -tarbiya berishi lozim;
- qiz bolalarda milliy g ‘urur, milliy ong, milliy o ‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarimiz oiladagi psixologik muhit sof bo ‘lsagina shakllanadi. Qadriyatlar asosida , ularni e ‘tiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsak, shu fazilatlar avvalo ota-onalar mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlaridan xabardor bo ‘lish va unlardan farzandlarini tarbiyalashi uchun unumli foydalanish, hamda ijobiy muhit yaratish zarur;
- oilada qiz bola tarbiyasi bilan shug ‘ullanuvchi ota-onalar muqaddas kitobimiz “Kur ‘on” va xadislardan xabordor bo ‘lishi, ularni tushunib, talqin qila olishi hamda psixologik sog ‘lom muhitda qiz bola tarbiyasini to ‘g ‘ri tashkil eta olishi maqsadga muqofiqdir;
- oilada qiz bolaga e ‘tibor, uni tarbiyalash, ta ‘lim olishini nazorat qilish, ijobiy psixologik muhit yaratish ota -onaning asosiy vazifalaridan biridir;
- oilada qiz bola tarbiyasini yoshlikdan boshlab e’tiborga olish va ularni sog‘lom muhitini to‘g‘ri tashkil etish hammamizning burchimizdir;
- oilada qiz bola tarbiyasini shakllantirishda ham ona, ham ota namuna va ibrat bo ‘lishi davr talabidir;
- oilada qiz bola tarbiyasini shakllantirishda ota- onalar o‘zbek milliy tarbiyaga oid televideniyadagi ko‘rsatuvlardan xulosa chiqarish, mavzuga oid matbuotlardagi ma ‘lumotlardan xabardor bo‘lish lozim;
- oilada qiz bola tarbiyasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidan, rivoyatlardan, xalq og‘zaki topishmoqlardan, xalq maqollardan, masallardan, o‘zbek xalq ertaklardan ota onalar avvalo o‘zlari chuqur tushungan holda, farzandlariga etkazib berish ijobiy iqlim yaratish;
- oilada qiz bola tarbiyasini shakllantirishda o ‘zbek milliy urf odat, an ‘analarimizga katta e ‘tibor berish va ularni o ‘z o ‘rnida foydalanish;

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, oilada ijobiy psixologik muhit yaratilsagina qiz bola tarbiyasiga xos yoshlikdan boshlab salom berish odobi, kiyinish madaniyati, o‘zidan kichik va kattalar bilan munosabatga kirishish jarayonida muomala madaniyati, uy ro‘zg‘or ishlarida saramjon-sarishtalik va mehmon kutish madaniyatini milliylikka xos jihatlarini yo ‘qotmasdan ularni doimiy ravishda faxr bilan urf- odat an ‘anasiga aylantirishimiz lozim.

Bizning o‘zbek oilalaridagi azal-azaldan kelyotgan odat tusiga aylangan yosh qizlarimizning ko‘ksiga qo ‘l qo‘yib choy uzatishi, bu odat esa boshqa millatlarni lol qoldiradi. Bu haqida Ispaniyalik olim shunday deydi.”Men 16 yoshli o‘zbek qizning ko‘ksiga qo‘lini qo‘yib choy uzatishiga butun bir ilmiy ishimni almashtiraman. Bu faqatgina o‘zbek oilasiga xos bebaho odatdir” deb izohlaydi. Shundan ko‘rinib turibdiki, bizning milliy urf odatlarimiz, milliy an’analarimiz bebaho ekanligi, boshqa millatlardan shu yaxshi jihatlarimiz bilan ajralib turishimiz ko‘zga yaqqol namoyon etadi. Bu oiladagi psixologik muhitning sofligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF – 5847 – son Farmoni.

2. 2017-2021 yillarda O ‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo ‘nalishlari bo ‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYaSI. – strategy.regulation.gov.uzG‘uzG‘documentG ‘2.

3.Karimova O. Oila huquqi asoslari – T.: 2003

4.Munavvarov A. Oila pedagogikasi. – T.: O ‘qituvchi, 1994.

5.Hasanboeva O va boshqalar. Oila pedagogikasi. – T.: Aloqachi, 2007.

6.Xidirova F. Oilada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash – T.: 2007

BOSHLANG’ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘YINLAR ORQALI AXLOQIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH

Rasulova Zohida Sindarovna
GulDU “Boshlang’ich ta’lim uslubiyati” kafedrasi katta o‘qituvchisi

“Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi.” Shavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya:

Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda ta’limda o‘yin faoliyatlaridan foydalanishda o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib, tarbiyalashga yo‘naltirilgan darslar mazmuni ishlab chiqilishi va nazoratga olinishi haqida.

Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, faoliyatlar, o‘yinlar

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda. Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog‘langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekanligini unutmaslik darkor.

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta’lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab barcha davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda bolaga yaxshi ta’sir etuvchi faoliyatlarni bilish va tahlil eta olish o‘qituvchi uchun asosiy muammo hisoblanadi. Maktab yoshidagi bolaga ta’lim – tarbiya berayotganda unga tez ta’sir etuvchi omillardan biri o‘yin faoliyati hisoblanadi. O‘yin va uning bola rivojlanishidagi o‘rni haqida gapirganda, ikkita asosiy savol tug‘iladi:

O‘yinning o‘zi rivojlanishda qanday paydo bo‘ladi?

Bu faoliyat rivojlanishda qanday rol o‘ynaydi?

Menimcha, rivojlanish nuqtai nazaridan o‘yin ustun shakl emas, balki u faoliyat, ammo bu ma’lum ma’noda maktab o‘quvchisi rivojlanishning yetakchi yo‘nalishi hisoblanadi.

Maktab yoshidagi bola uchun bo‘lsa, o‘yin zavq keltiradi,qiziqarli hisoblanadi: masalan, sport o‘yinlarini keltiradigan bo‘lsak maktab yoshida bu faoliyat sport deb ham ataladi. O‘yin faoliyatidagi muammoga qanday munosabatda bo‘lish nuqtai nazaridan u bolaning ehtiyojlarini, uning faoliyatga bo‘lgan ishtiyoqini, unga ta’sirchanligini amalga oshiradi va intilishlarni paydo qiladi. Faoliyatning bu turida bola biroz erkinlikka, mustaqillikka, harakatlari jo‘shqinlikka qarab intiladi. Ta’limni amalga oshirayotganda aynan shunday holatni sodir etish orqali natija samarali yakunlanishi mumkin.

Ta’lim jarayonidan misol keltiradigan bo‘lsak, o‘yin faoliyatidagi didaktik o‘yinni quyidagicha tavsiflab chiqish mumkin:

1- qadam - didaktik o‘yinni aniqlash va shakllantirish.

2-qadam - o‘yin vazifasini aniqlash va shakllantirish. O‘yin vazifasi - o‘yin ishtirokchilari nima qilishlari kerakligini aniqlash.

3-qadam - o‘yin qoidalarini aniqlash va shakllantirish. Uslubiy jihatdan bu didaktik o‘yinning juda muhim tarkibiy qismidir, bu o‘quvchilarda o‘zlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi o‘yinda g‘alaba qozonish uchun o‘quvchilar reja tuzishni o‘rganadilar, jamoa bo‘lib ishlashga erishadilar.

4- qadam - ko‘rsatmalar yaratish. Ko‘rsatmalar o‘qituvchining kirish so‘zini ifodalaydi, shu orqali maktab o‘quvchilarini o‘yinga kiritadi va ularga o‘yin vazifasini aytib beradi. Asosiy ko‘rsatmalarga qo‘yiladigan talablar aniqlik, mavjudlik va tushunarlilik hisoblanadi.

Va nihoyat, 5-qadam o‘yin uchun didaktik materialni tanlashdir. Didaktik o‘yinlarning asosiy manbai turli janrdagi badiiy asarlar: yilnomalar, dostonlar, hikoyalar, masallar, she’rlar kabi bo‘lishi mumkin. Ularni tanlashda mavzu hisobga olingan, matnning mafkuraviy mazmuni, adabiy qiziqishlari, yosh xususiyatlari va boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olishi zarurdir.

Ta’lim berish jarayonida o‘qituvchi faqat bilim berishi emas, balki o‘quvchilarni hatti-haratkatga keltirishi ham zarur. O‘quvchi faqatgina o‘yin faoliyatida erkin fikrlashni, mustaqil yondoshishni, strategiya tuza olishni, qaror qabul qilishni va jamoani tinglashni bir vaqtda amalga oshiradi va harakatga keltiradi, keladi. Barkamol shaxsni shakllantirishda ko‘zda tutilgan tarbiya turlarining o‘zaro bog’liqligi ko‘proq o‘yin faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi olib borilgan ta’limning asosi u atrof-muhit va didaktik o‘yinlar yordamida darslarni tashkil etish orqali amalga oshirilishi kerak. Boshlang‘ich sinf ta’limida o‘quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo‘lib, o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Chunki bu davrda o‘quvchining ta’lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo‘lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning so‘zlagan nutqlari. 2022y aprel
2. A.Xoliqov Pedagogik mahorat Darslik 2014y

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA ZARURATI

Turanova Iroda Egamberdi qizi
Guliston davlat universiteti

Abstract: This article provides information about the PIRLS program, which assesses the level of reading literacy of primary school students, examples of international experience in participating in this program, factors and factors in the development of reading literacy, the experience of leading countries in achieving it.

Keywords: international assessment programs, PIRLS, reading literacy, reading comprehension, international experiences.

“Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir!” Sh.Mirziyoyev Boshlang’ich sinf o’quvchilarining matnni o’qib

tushunish darajasini baholash bo'yicha PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study - xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) - bu dunyoning turli davlatlarida boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. PIRLS har besh yilda bir bora o'tkaziladi.

2016-yilgi PIRLS xalqaro 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish malakalarini baholash sinovalariga dunyoning 50 mamlakati qatnashdi. Har bir davlat boshlang'ich darajada matnni tushunishdan tortib mukammal darajada tushunish borasida turli ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. O'rtacha hisobda, Rossiya Federatsiyasi va Singapurlik 4-sinf o'quvchilari o'qish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etishdi. Shuningdek, bu ikki mamlakatlik o'quvchilarninig to'rtdan bir qismi matnni mukammal darajada tushuna olish malakasini ko'rsatishdi. Bu darajada matnni tushungan o'quvchilar hikoya sujetlari va nisbatan murakkab matnlarda berilgan ma'lumotlarni izohlash, birlashtirish, va baholash ko'nikmalariga ega.Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rinlidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni компьуterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq 2030 yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Shuningdek, konseptsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetentsiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo'lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich o'qish savodxonligi nuqtai nazaridan shuni ta'kidlash kerakki, 2016-yilgi PIRLSda mamlakatlarining yarmidan ko'pida deyarli barcha o'quvchilar (95 foizdan ko'prog'i) fundamental o'qish qobiliyatlarini namoyish etdilar. Bu o'quvchilar matndan g'oyalar va ma'lumotlarni topib takrorlashlari va to'g'ridan to'g'ri xulosachi qarishlari kerak edi. 2016-yilgi PIRLS yakunlari bundan 15 yil avvalga qaraganda ko'proq o'quvchilar yaxshi o'qish malakasiga ega bo'lganini ko'rsatdi. PIRLS 2001 natijalaridan beri 10ta davlatdan o'qish savodxonligi o'sishi 2ta davlat bu ko'rsatkich tushishi kuzatilgan. Qiziqarli tomoni PIRLS 2016 natijalarigako'ra 50ta davlatdan 48tasida qiz bolalar o'g'il bolalarga ko'ra yuqori natijalarni ko'rsatgan. 2001-yildan beri qizlar va o'g'il bolalar savodxonligi o'rtasidagi farq qisqarmagan. Qiz bolalar 2001-yilda ham o'qish savodxonligi borasida o'g'il bolalardan o'zib ketgan. Shuni ta'kidlash lozimki, ota-onalarning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabati pasaygan. Buni 2011-yilda 31 mamlakatda va faqat 2 mamlakatda o'qish savodxonligida o'sish kuzatildi. 2016-yilda o'rtacha hisobda atigi 32 foiz o'quvchilarning ota-onalari o'qishni yoqtirishini va 17 foizi o'qishni yoqtirmasliklarini aytishdi [9].

Shu jihatdan turli mamlakatlardagi o'qish savodxonligi borasida yuqori natijalarni ko'rsatgan o'quvchilarning muvafaqqiyatiga aynan qanday omillar ta'sir ko'rsatganligini o'rganish O'zbekiston maktablarida ham yuqori darajadagi o'qish savodxonligiga ega o'quvchilarni kamol toptirishga yordam beradi. Singapurlik to'rtinchi sinf o'quvchilari ePIRLS bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatishgan bo'lsa-da, barcha ishtirokchilar ePIRLSda ham yaxshi o'qiy olishlarini isbotlashdi. O'rtacha hisobda, o'quvchilarning 50 foizi veb-sahifalardan ma'lumotlarni toppish va ularni umumlashtirib, xulosa chiqarishda mukammal darajada bilimlarini ko'rsatishdi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O'zbekistonlik o'quvchilar PIRLSda yuqori natijalarni qo'lga kiritishlari uchun ularga barcha sharoitlar yaratilgan. Faqatgina berilgan resurslardan unumli

foydalanish va o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan muhabbatini kuchaytirish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **O‘zbekistan Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637. T.: 2020.**
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni. 2018-yil 5-sentabr. https://lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.
4. Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Nilufar Hakimova N., Baxtiyorova H. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 3-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: Respublika ta’lim markazi, 2022.
5. Sariyev Sh.U. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali xalqaro tadqiqotlarda samarali natijalarga erishish imkoniyatlari // Maqola. Boshlang‘ich ta’limga xaqaro baholash dasturlarini joriy etishning istiqbollari. XV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2021-yil 15-aprel. Toshkent-2021.
6. Туранова, И. (2022). Oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalari) an foydalanish. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, *1*(1), 217-219.
9. Abdikhadirovna, U. D. (2022). Possibilities of improving the methodology of preparing primary class students for the international assessment program based on digital technologies (example of pirls). *Innovation in the modern education system*, *3*(25), 159-163.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “KASR” TUSHUNCHASINI SHAKILLANTIRISH METODIKASI

Beknazarova Muxlisa
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ulush, qism, kasr, miqdor, o‘nli kasr, aralash kasr,butun innovatsiya, axborot texnologiyalari, boshlang‘ich maktab, informatika kursi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-etibori avvalombor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotda kirib borishiga bog;liqdir. Biz bunday o‘tkit haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta’limi tizimida bolayotga o‘zgarishlar “Ta’lim tog‘risidagi”gi qonunda hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘satib o‘tganidek, har bir o‘qituvchi oldiga muhim vazifalar qo‘yilmoqda.

Mustaqillik yillari ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar yagona maqsad- barkamol shaxsni v malakali mutaxasisni tarbiyalash ham muhim ahamiyatni kasb etadi.

Davlat ta’lim standartlari o‘quv ani bo‘yicha metodik majmualar (dastur, o‘quv rejasi,darsliklarni) yaratish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi, shuningdek o‘quv fanlararo bog‘lanish va bilimlarni muvofiqlashtirish tamoyili asosida o‘quv fanlarning o‘zoro bog‘liqligi va fanlararo bo‘lanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Boshlang‘ich bilimlar yagona majmuani yaratadi, zaruriy metadologik tasavurlarni va fikirlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasining xususan, matematikadan boshlang‘ich ta’lim metodikasining vazifalaridan biri o‘qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlashda o‘qitishni aqliy rivojlanishlariga ta’sirini jadallashtiradi.

Matematikadan boshlang‘ich ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etish mumkin.

Plantatsion amaliy ishlarda ilmiy tajribalar davomida dorivor tirnoqgul uchun bahor mavsumidagi ekish muddati, maydonda ekish tartibi bo‘yicha pushtasimon qatorlab (60 sm) eng optimal variant sifatida tanlangan va optimal agrotexnik tadbirlardan foydalanildi. Plantatsion masshtabdagi amaliy ishlar Xiva tumanidagi O‘rmon xo‘jaligi ilmiy tadqiqot institutining Qoraqum ilmiy tajriba stansiyasi dalalarida olib borildi.

O‘zbekistonda ham ushbu o‘simlikni etishtirish va plantatsiyalarini tashkil etish borasida Murdaxaev (1991), To‘xtaev (2009)lar ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Ularning ishlari asosida respublikamiz ning unumdor va sho‘rlangan tuproqlarida keng masshtabli plantatsiyalari tashkil etilgan [1.5].

Rivojlanishning mavsumiy bosqichlarini o‘rganishda ilmiy andoza uslublar orqali kuzatishlar, *C. officinalis* ning asosiy rivojlanish fazalarini boshlanish va tugash muddatlari oralig‘ida o‘tkazildi. Fenologik kuzatuv natijalarining statistik tahlili V.N.Nilovning tavsiyalari bo‘yicha amalga oshirildi [6]. Olingan ma’lumotlarning o‘zaro korrelyasiyalari ham aniqlandi [7].

Har bir o‘simlik turini o‘stirish va etishrishda tadbiq etiladigan agrotexnik tadbirlar muhim rol o‘ynaydi. YA’ni, agrotexnik tadbirlarning qo‘llanilishi natijasida ekin hosildorligining miqdor va sifat jihatidan o‘zgarishiga hamda yaxshilanishiga olib keladi.

Tanlangan maydonga *C. officinalis* urug‘lari qo‘lbola uslubda qator orasi 60 sm bo‘lgan qatorlarning pushtasiga ekiladi.

Tadqiqotlarda ishlab chiqilgan agrotexnik tadbirlarga *C. officinalis* ning keng ko‘lamdagi ekin maydon plantatsiyalarini tashkil etishda rioya qilindi.

Birinchi o‘toq vaqtida yagona ham qilinib, kator oralari 15-20 sm masofada har bir uyada 1-2 tadan o‘simlik qoldirildi. Qatordagi begona o‘tlar ketmonda tozalandi va ko‘chatlar tagi yumshatildi, qator oralarida esa traktorli kultivatorda yumshatildi.

Mavsum davomida *C. officinalis* ekinzori 13 marta sug‘orildi (mayda-1, iyun-iyul-avgust-2-3 martadan, sentyabr-2 marta). Har 2-3 sug‘orishdan keyin, shox-shabbasi bir-biri bilan tutashib ketguniga qadar er yumshatiladi, qatorlar begona o‘simliklardan tozalandi.

***1- rasm. C. officinalis* ning urug‘ unishi, sug‘orish, plantatsiyaning birinchi marta begona o‘tlardan tozalashdan olidingi va generativ jarayonning boshlanishi ko‘rinishlari.**

O‘simlik yaxshi rivojlanib asosiy poya va yon poyalarining uzayishi yoki shoxlanishi bilan, to‘pgullarini zich bo‘lishini ta’minlash hamda yuqori hosil etishtirish uchun gektariga 10-12 tonna hisobida ikki marta tabiiy go‘ng sug‘orish vaqtida sharbat qilib berildi: birinchi o‘g‘itlash - maysa hosil bo‘lganidan 15-20 kun keyin, ikkinchi o‘g‘it berish gullashning boshlanish davrida o‘tkazildi.

***2-rasm. C. officinalis* ning plantatsiyasida yoppasiga gullash va gullarni terish jarayoni**.

O‘simliklarning plantatsiyada dastlab yoppasiga gullash bosqichi urug‘ ekilganidan keyin 45-50 kunda kuzatiladi. Ushbu vaqt aprel oyining 2 nchi dekadalariga to‘g‘ri keladi.

Vegetatsiya davrida (noyabr oyining o‘rtalari) dorivor tirnoqgul 9-10 martagacha gullaydi va teriladi. *C. officinalis* ning gul savatlari dastlab ancha yirik va to‘q qizil rangda bo‘ladi. Havo haroratining ko‘tarilishi bilan gulning rangi och tusga kiradi, sabab gulning efir moylari haroratning ko‘tarilishi bilan tez uchadi.

Kuzatishlar davrida har bir tup dorivor tirnoqgulda 3-5 tadan gul va 7-8 dona g‘unchalar borligi aniqlandi (3-rasm).

Hosildorlikni aniqlash uchun plantatsiyada 5 maydoncha ajratildi yoki hisob-kitoblar 5 qaytarilish asosida amalga oshirildi(1-jadval).

1-jadval

Dorivor tirnoqgulning plantatsiyasida hosildorlik ko‘rsatkichlari

Ajratilgan maydonlar	Vegetatsiya davomida terilgan gullar og‘irligi, $1m^2$/gr		1 ga hisobdagi hosildorlik, kg	
	Ho‘l holda	Quruq holda	Ho‘l holda kg	Quruq holda kg
1	130	16,25	11700	1462,5
2	170	21,25	15300	1912,5
3	120	15,00	10800	1350,0
4	140	17,50	12600	1575,0
5	150	18,75	13500	1687,5
O‘rtacha			12780	1597,5

Umuman aytganda, plantatsiyada o‘rtacha hosildorlik gektar hisobida ho‘l holda 12780 kg ni, quruq holda 1597,5 kg ni yoki o‘rtacha gektar hisobida 15,98 sentner ni tashkil etdi (3-rasm).

Dorivor tirnoqgulning yig‘ib olingan gul savatchalarini tezda quritish uchun yaxshi shamol aylanadigan maxsus angarda quritish kerak. Gullar 24-25 ^oS harorat ostida, soya ekspozitsiyada 13 % namlikkacha 3-4 kun mobaynida quritish jarayoni me’yorda bo‘ladi. Maxsus angarlarda har bir kvadrat metrga1,5 -2,0 kg. hisobida yoyiladi.

C. officinalis dan olingan hosilning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda xarajat va daromadlar ko‘rsatkichlari, aynan Xorazm viloyati sharaoitida (dorixonalar, bozorlarda sotilayotgan dorivor o‘simliklar xom ashyosi) mavjud narhlar olindi. Bugungi kunda ning 1 kg *C. officinalis* xom ashyosi 35000 so‘mni tashkil etdi. Ushbu tur dorivor o‘simliklarning plantatsiya tashkil qilinishi uchun 1 gektar hisobida ketgan sarf xarajatlar(maydonni tayyorlash, agrotexnik tadbirlarni qo‘llash uchun,

mineral o‘g‘itlardan foydalanish, hosilni yig‘ish va dastlabki qayta ishlash, xom ashyoni qoplash xisoblab chiqildi (2-jadval).

2-jadval

***M. chamomilla* va *C. officinalis* L iqtisodiy samaradorligi**

Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari		***C. officinalis***
O‘rtacha hosildorl, s/ga		15,98
1 kg xom ashyosi xarid narhi		35000
Hosilni sotishdan tushgan pul, so‘m/ga		55930000
Jami xarajatlar, so‘m/ga		30970918
SHu jumladan, so‘m/ga	**O‘g‘it uchun**	1715000
	Urug‘lik uchun	1 200 000
	mehnat haqqi	20000000
	mexanizatsiya va qo‘shimcha xarajatlar	8 055 000
sof foyda, so‘m/ga		**24950082**

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari quyidagicha xulosalar qilindi: ekish usullari dorivor tirnoqgul o‘simligining plantatsiyasida hosildorlik ko‘rsatkichlari ta’sir qiladi;

Shuni alohida takidlash kerakki, ilmiy tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra birinchi marta dorivor tirnoqgulni dorivor o‘simlik sifatida Xorazm viloyatining o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarida ekish, etishtirish va keng maydonlarda plantatsiyalarini tashkil etish hamda farmatsevtika ishlab chiqarish tarmog‘ini mahalliy xom ashyo bilan ta’minlash imkoniyatini yaratishi ilmiy natijalar bilan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi PQ-4670-son Qarori. // Halq so‘zi gazetasi, 2020 yil 11 aprel, №75 (7577). – B.3.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni etishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4901-son Qarori. // Halq so‘zi gazetasi, 2020 yil 27 noyabr, №250 (7752). – B. 1-2.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiѐt strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni.

4. О.Е. Почупайло, Формирование механизма регулирования предпринимательской деятельности в сфере производства лекарственного растительного сырья (на материалах Республики Крым) / О. Е. Почупайло // Вестник Евразийской науки. – 2019. – № 1.

5. Е. В. Карачевская, Прогноз территориального размещения лекарственной отрасли в системе агропромышленного комплекса Республики Беларусь / Е. В. Карачевская // Вестн. Белорус. гос. с.-х. акад. – 2019. – № 3 – С. 25–30.

6. В.Н.Нилов, 1980. Методы статистической обработки материалов фенологических наблюдений. Журнал ботаники. 65, №2. с.282-284.

7. Б.А.Доспехов, 1985. Методы полевых экспериментов (на основе статистической обработки результатов исследований). Агропромиздат. 351 стр.

8. Jumaniyazov J., Tukhtaev B., Abdullaev I., Khudayberganov N., Iskandarov A. (2021) Assimilation dynamics of saline soil areas by cultivating biomeliorant herbal plant in the lower Amudarya region // IOP Conference Series: earth and environmental Science. IOP Conf. Series: earth and environmental Science 939. pp.

9. Худайберганов Н. А., Тухтаев Б.Ё., Абдурахимов У.К.(2019) Влияние сроков посева семян на продуктивность календулы лекарственной в почвенно-климатических условиях Хорезмской области // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2019-6/1 Б. 37-41

10. Khudayberganov Norbek Atabaevich, Tukhtaev Bobokul YOrkulovich, Babadjanova Sayyora Khoshnutovna, Khabibullo Hoji Hojarbibi Alisher qizi (2021). The Bioecological Properties of Medicinalpot Marigold (Calendula Officinalis L) In Soil-Climate Condition of Khorezm Region // Annals of the Romanian Society for Cell Biology ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 9265 - 9273 Received 05 March 2021; Accepted 01 April 2021.

MIRZACHO‘L SHAROITIDA BO‘YOQDOR RO‘YAN (RUBIA TINCTORUM) O‘SIMLIGINING BIOEKOLOGIYASI VA PLANTATSIYALARINI TASHKIL ETISH USULLARI

Xo‘jamqulov O.R., Tagayeva D.M.

1. Guliston davlat universiteti “Dorivor o‘simliklar va botanika” kafedrasi tayanch doktaranti

2. Guliston davlat universiteti “Dorivor o‘simliklar va botanika” kafedrasi o‘qituvchisi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O‘zbekiston o‘simliklar dunyosini bioxilma-xilligini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi (To‘xtayev, Shakarboyev, 2013; Tojiboyev, 2015)[1].Ushbu masala o‘simliklar tabiiy xilma-xilligini ko‘paytirish va floristik zona tashkil etishni taqoza etadi.Mahalliy florada o‘simliklarning har bir oilasi o‘ziga xos o‘ringa ega.Ulardan biri Ro‘yandoshlar (Rubiaceae) oilasi bo‘lib, unga mansub o‘simliklar guruhi ekologik hayotiy shakllari, yashash sharoiti va xos-xususiyatlari bilan boshqa oilalarning vakillaridan ajralib turadi.Bu oila o‘z tarkibiga 6000 ga yaqin turni birlashtiradi. Ularning asosiy qismi manzarali va farmaseftika sanoatida o‘z o‘rniga ega dorivor o‘simliklardan hisoblanadi.

Ulardan bo‘yoqdor ro‘yan o‘z tarkibida qator biologik faol moddalarni, jumladan ildizpoyasi tarkibida 5-6 % gacha antratsen unumlari (alizarin, ruberitrin kislota, galiozin, purpurin, ksantopurpurin, psevdopurpurin, rubiadin-glukozid, munistin, luitsidin, iberitsin va boshqalar bo‘ladi. Ruberitrin kislota glikozid bo‘lib, gidrolizlanganda, alizarin aglikoni va primveroza(o‘z navbatida ksiloza va glukoza qandlaridan tashkil topgan) disaxaridiga parchalanadi(To‘xtayev, 2009; va boshqalar 2014)[2]. Ro‘yanning vatani O‘rta Yer dengiz mamlakatlari, Ukraina, Moldova, Rossiyaning Yevropa qismining janubida, janubi-sharqida, Kavkazda (Dog‘iston, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziyada) va O‘rta Osiyoda uchraydi. Asosan ariq bo‘ylarida, butalar orasida, kanallar bo‘yida, dalalarda va bog‘larda o‘sadi.

Bo‘yoqdor ro‘yan (Rubia tinctorum L.) juda qadimgi zamonlardan buyon insonlar tomonidan foydalanib kelingan dorivor va bo‘yoq beruvchi o‘simliklardan biri hisoblanib, xalq xo‘jaligi sanoatida dori-darmon, bo‘yoq beruvchi o‘simlik sifatida ekilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda bo‘yoqdor ro‘yanning o‘sish va rivojlanishini kuzatish va iqlimlashtirilish hamda plantatsiyalarini tashkil etish hisoblanadi. Buning uchun bo‘yoqdor ro‘yan o‘simligini Sirdaryo viloyatining sho‘rlangan tuproqlarida ekish, vegetatsiya davrida bioekologik xususiyatlarini kuzatib borish va tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot obekti va metodlari

Ilmiy tadqiqot obekti sifatida o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda o‘sish va rivojlanish jarayonini o‘rganish uchun R.tinctorum (Bo‘yoqdor ro‘yan) turi olindi.

Tanlangan obektning urug‘ va ildizpoyalari Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani G‘allakor xo‘jaligidagi tajriba maydonchasida ekildi. O‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi ustidan olib borilgan tadqiqotlarimizda I.V.Belolipov va boshqalar (2015) hamda X.Q.Qarshiboyev (2016) tomonidan tavsiya qilingan metodik ko‘rsatmalardan keng foydalanildi[4].

Introduksion tajribada introdutsent sifatida foydalanilgan o‘simlik urug‘ va ildizpoya holida O‘zR FA akademiyasi F.N.Rusanov nomidagi Botanika bog‘ining dorivor o‘simliklar kolleksiyasidan olindi.

Olingan natijalar va ularning taxlili

Tadqiqot natijasida o‘rganilgan bo‘yoqdor ro‘yan (R.tinctorum) – ko‘p yillik ildizpoyali o‘simlik bo‘lib, ro‘yandoshlar (Rubiaceae) oilasiga mansub. Tabiiy holda poyasi yonboshlab, yotib yoki yer bag‘irlab o‘sadi. Bir nechta poya hosil qiladi, poyalari to‘rt qirrali, sershox, dag‘al ilmoqli mayda oqish tuklar bilan qoplangan.

Idizpoyasi uzun qo‘ng‘ir rangda shoxlangan, yo‘g‘on, bo‘g‘inli, ko‘p boshli. Ildizpoya bo‘lakchalarining yo‘g‘onligi 2-18 mm. Ildizpoyasi bir yilda 8-12 tagacha bo‘g‘in hosil qiladi. Barglari

tuxumsimon, yaltiroq, juda ham qisqa bandli, ostki tomonidagi yo‘g‘on tomirlari dag‘al ilmoqli tuklar bilan qoplangan, poyada 4-6 gacha to‘p-to‘p bo‘lib joylashgan.

O‘simlik ildizpoyasi Mirzacho‘lning tuproq va iqlim sharoitida fevral oyining 3-dekadasi yoki mart oyining 1-dekadasida ekish maqsadga muofiqdir. Ro‘yan ildizpoyasi 4-5 yil davomida bir joyda o‘sib rivojlanishi mumkin. Shuni aytish mumkinki, fevral oyining 3-dekadasi yoki mart oyining 1-dekadasida bir gektar maydonga 1000 kilogramm gacha o‘simlik ildizpoyalari ekilishi talab etiladi.

Iyunning 1-dekadasidan to avgust oyining boshlarigacha o‘simliklarda gullash va mevalash davri kuzatiladi. Mevasi avgust-sentyabr oylarida pishib yetiladi. Mevasi qoramtir-qizil rangli. Ikkinchi vegetatsiya yilini mart oyining 1-dekadasidan boshlaydi va dastlabki kunlarida o‘simlikning o‘sishi va rivojlanishi jadal boshlanadi[3].

Ildizpoyalari va urug‘lari namlik o‘rtacha bo‘lgan tuproqda ekiladi, agar namlik yuqori bo‘lsa chirib ketadi, shuning uchun ildizpoyasi quruq tuproqda saqlanuvchanligi yuqori bo‘ladi. Bo‘yoqdor ro‘yanning katta o‘lchamli ildizpoyalari tuproqning namlik holatiga ko‘ra o‘rtacha 8-10 sm, mayda o‘lchamdagilari 3-4 sm yoki 5-6 sm chuqurlikda ekiladi.

Kurtakli ildizpoyalari ekilgandan so‘ng tuproqqa o‘rnashishini taminlash maqsadida 2-3 kundan keyin dastlabki chiqartiruvchi sug‘orish tadbiri amalga oshiriladi. O‘simlikning ekilish zichligi 1 metrda 10-12 dona ildizpoya bo‘lakchalarini tashkil etadi.

Qator oralig‘i 50 santimetr kengligida ekiladi, chunki ikkinchi va uchunchi yillarda o‘simlik ildizi bemalol o‘sib qator oralig‘i(yer usti)ni qoplashga sharoit yaratiladi. Uning bo‘yi 40-130 santimetrni tashkil etadi. O‘simlikning ildizpoyalari doimiy ravishda xar bir vegetatsiya davomida 7-11 tagacha ko‘payib boradi.

Poya yo‘g‘onligi birinchi vegetatsiya yilida 14-20 mm ni tashkil etadi va asosiy poyaning uzunligi 14,2±1,51 sm, barglar soni 15-19 ga yetadi.

Dastlabki vegetatsiya yilida o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarda o‘simlikning o‘sishi sust bo‘lsada birinchi tartibli novdalar (soni 7-9 ta va uzunligi 42 sm) va ikkinchi tartib novdalar (soni 5-6 ta va uzunligi 6-8 sm) hosil bo‘lib, vegetatsiyani oxirgi davrlarida o‘sish jadallashadi. Ro‘yan birinchi yili oktyabr oyi o‘rtalarigacha o‘z vegetatsiyasini davom ettiradi. Tadqiqot o‘tkazilgan hududning o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarida o‘simlikni o‘zlashtiruvchanlik xususiyati va bo‘yiga o‘sishi,1-vegetatsiya davr mobaynida birmuncha past bo‘ldi.

Plantatsiya maydoni o‘zgartirishni talab etilsa o‘simlikning ildizpoyalari kovlanadi va ekiladigan muddatgacha vaqt davomida o‘rtacha namlikdagi tuproqda dam beriladi. Bo‘yoqdor ro‘yandan olinadigan xomashyo qo‘ng‘ir rangli ildizpoya bo‘lakchalari bo‘ladi.

Bo‘yoqdor ro‘yan issiqlik va yorug‘likni yaxshi ko‘ruvchi o‘simlik. Bu o‘simlik bioekologik xususiyatlariga ko‘ra tuproqda namlik yuqori bo‘lgan sharoitda o‘sib rivojlanadi.Yoz faslida o‘sish tezligi biroz sekinlashadi[3].

Ilmiy tadqiqot natijalarimizga ko‘ra tahlil etilgan va aniqlangan ekologik ko‘rsatgichlar hamda introduksiya jarayonida namoyon bo‘lgan turni sho‘rga chidamlilik darajasi, urug‘ unuvchanligi, ko‘chat ko‘karuvchanligi va saqlanish parametrlari B.Y.To‘xtayev (2009) tomonidan taklif etilgan o‘simliklarni sho‘r tuproqlarda introduksiyasini gradatsiyalash prinsipiga suyangan holda olib borildi.

Sho‘rlangan tuproqda introduksiya qilingan R.tinctorum o‘simligida birinchi vegetatsiya davrida tabiiy holda (urug‘lari stratifikatsiya qilinmagan holat) unuvchanlik va nihollar saqlanishi kuzatildi (*1-jadval*).

1-jadval

Mirzacho‘l tuproqlarida introduksiya qilingan 1-vegetatsiya yilida saqlanuvchanligi

O‘simlik turi	Ko‘paytirish organi	% hisobida		
		Unuvchanlik	Ko‘karuvchanlik	Saqlanuvchanlik
R.tinctorum	ildizpoyasi	100	100	68,0
R.tinctorum	urug‘i	6	6	4

Yuqoridagi jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki O‘rtacha sho‘rlangan Mirzacho‘l tuproqlarida 1-vegetatsiya yilida ildizpoyaning ko‘karuvchanligi (100 %) va saqlanishi (68,0%) yuqori bo‘ldi.

Boshqa ko‘pchilik o‘simlik turlari kabi *R. tinctorum* ning urug‘lari ham urug‘ pishib yetilgandan keyin ma’lum tinim davrini o‘tishni talab qiladi.Bir oylik tabiiy tinim davridan so‘ng urug‘larning labaratoriya unuvchanligi 3 % ni tashkil etdi. Uch oylik tinim davridan so‘ng esa urug‘larning unuvchanligi 6 % gacha ko‘tarildi.

Bunda o‘simlikning vegetatsiya davrida va vegetatsiya davridan keyingi vaqtlarda saqlanuvchanligi 4 % ni tashkil etdi. Bu R. tinctorum ning past unuvchanlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

Ildizpoyaning tuproq ostida ma’lum qismi chirindiga aylanishi hisobiga tuproqni ozuqa miqdori ortadi.Bu jihat keng maydonlarda sho‘r tuproqlarni o‘zlashtirishda muhim omillardan biridir (Qarshiboyev X.Q., To‘xtayev B.Y)[5].

Urug‘lari mayda, dumaloq, yassi shaklida, yuzasi silliq, qattiq va qora rangda.Mevadagi urug‘lar soni 1-2 tagacha bo‘ladi. Mevasi sershira xo‘l meva. 100 dona urug‘ massasi o‘rtacha 80 gramm keladi.

Tadqiqotlarimiz davomida R. tinctorum urug‘lari unuvchanligiga stratifikatsiyalashning ta’sirianiqlandi. Olingan natijalar R. tinctorum urug‘larini stratifikatsiya qilish urug‘ unuvchanligiga ijobiy tasir qilishini ko‘rsatadi.

R. tinctorum urug‘lari past haroratda stratifikatsiyalanganda urug‘da amalga oshadigan biokimyoviy jarayonlar natijasida chuqur endogen tinim holatidan chiqishiga yordam beradi.

Xulosa va tavsiyalar

Bo‘yoqdor ro‘yan o‘simligining ildizpoyalarini sho‘rlangan maydonlarda ekish va o‘stirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning dastlabki natijalariga ko‘ra:

- 1-vegetatsiya yilida Rubia tinctorum ildizpoyasidan ekilganda ko‘karuvchanlik va saqlanish ko‘rsatkichlarining yuqori ekanligi qayd etildi
- Tekshirishlar o‘simlikni Mirzacho‘lning o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlarida ekish ijobiy natija berishini ko‘rsatadi.

Demak R.tinctorum ni introdutsent tur sifatida katta masshtabdagi plantatsiyalarini tashkil etishni tavsiya qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.X.Qarshiboyev “Mirzacho‘lda ASTRAGALUS TURKESTANUS BUNGE ning reproduktiv strategiyasi” GulDU axborotnomasi.- 2019, №1. -32 b.

2. Холматов Х. Х., Ахмедов Ў. А. Фармакогнозия. –Ташкент: Ибн Сино, 1995. –351 с

3. To‘xtayev B.Y. O‘zbekiston sho‘r yerlarida dorivor o‘simliklar introduksiyasi. Dok. diss. avtoreferati. –Toshkent, 2009. -79 b.

4. Belolipov I.V., To‘xtayev B.Y., Qarshiboyev X.Q. “O‘simliklar introduksiyasi” fanidan ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazishga oid metodik ko‘rsatmalar. – Guliston, 2011. -24 b.

5. Ашурметов О.А.,Тўхтаев Б.Е Доривор ўсимликлар интродукциясининг тарихи, муаммолари ва истиқболлари // Ўсимликлар интродукцияси: муаммолари ва истиқболлари : Республика илмий – конференция материаллари. – Хива: ХМА,2003.-Б. 12-15.

6. 2015 йил 20 январдаги № 5-сонли “2015-2017 йилларда ўрмон хўжаликлари тизимини ривожлантириш, доривор ва озиқабоп ўсимликлар хом-ашёсини етиштириш, тайёрлаш ва қайта ишлашни янада кенгайтириш чора тадбирлари тўғрисида” баённомаси.

SIRDARYO VILOYATIDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNI ETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI

Ganiev Abdumumin Kaxxarovich, Botirova Laziza Axmatovna, To‘raqulova Ozoda Mamarayim qizi
Toshkent farmatsevtika instituti, Farmakognoziya kafedrasi professori,
Guliston davlat universiteti Dorivor o‘simliklar va botanika kafedrasi dotsenti. 3-kurs talabasi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o‘simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etishni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o‘simliklarni keng qo‘llash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-251-son qarori qabul qilindi (1). Qarorda 2023 yilda Sirdaryo

viloyatida dorivor o‘simliklar plantatsiyalarini barpo etish uchun jami 251 gektar, shundan 43 gektar o‘rmon fondi erlari hamda 208 gektar fermer va qishloq xo‘jalik korxonalarida er maydonlarini ajratish ko‘zda tutilgan. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlarda dorivor o‘simliklar plantatsiyalarini barpo etishning maqsadli ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan:

Jadval №1

Respublikasi va Sirdaryo viloyatining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlarida dorivor o‘simliklar plantatsiyalarini barpo etishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	Hududlar nomi	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2026 yil
Respublika bo‘yicha, gektar		16 595	17 723	18 694	20 753	22 546
Sirdaryo viloyati bo‘yicha, gektar		191	208	228	248	268
Tumanlar kesimida						
1.	Boyovut	186	203	222	242	261
2.	Xovos	5	5	6	6	7

2022 — 2026 yillarda viloyatlar o‘rmon fondi erlarida dorivor o‘simliklar plantatsiyalarini barpo etishning maqsadli ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval №2

2022 — 2026 yillarda Sirdaryo viloyati o‘rmon fondi erlarida dorivor o‘simliklar plantatsiyalarini barpo etishning maqsadli ko‘rsatkichlari

T/r	O‘rmon xo‘jaliklar nomi	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2026 yil
Respublika bo‘yicha		4 985	5 274	5 616	5 892	6 180
Sirdaryo viloyati bo‘yicha		43	43	45	47	50
1.	Sirdaryo DO‘X	43	43	45	47	50

Jadvallarda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Sirdaryo viloyati dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish hamda qayta ishlashni tashkil etish bo‘yicha respublikada keyingi o‘rinlarda qayd etiladi. Ushbu holatni tubdan yaxshilash uchun qarorning dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlashni kengaytirish hamda aholi o‘rtasida undan foydalanishni targ‘ib qilish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»da belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirib borish zarur.

Mavzu doirasidagi tahlillar. Mazkur qarorda dorivor o‘simliklarni etishtirish va qayta ishlashni yo‘lga qo‘yishda qator imtiyoz berilgan bo‘lib, aholi tomorqalarida «bir mahalla — bir mahsulot» tamoyili asosida dorivor o‘simliklarni etishtirishni kooperatsiya usulida tashkil qilish ham belgilangan. Biroq, bu ro‘yxatda Sirdaryo viloyatining birorta tumani qayd etilmagan. Vaholanki, sho‘rlangan tuproqlarda dorivor o‘simliklarni etishtirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan mukammal o‘rganilgan (2). Boz ustiga, viloyatning Yangier tumanida “Obod yurt bog‘lari” fermer xo‘jaligi 5 gektar maydonda na’matak, godji, bodom kabi dorivor o‘simliklar bilan birga, GulDU bilan ilmiy hamkorlikda za’faron va shanbala kabi o‘simliklarni tajriba sifatida etishtirib kelinmoqda.

Shuningdek, dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlashni kengaytirish hamda aholi o‘rtasida undan foydalanishni targ‘ib qilish bo‘yicha qarorning «Yo‘l xaritasi»da aholi tomorqalarida «bir mahalla-bir mahsulot» tamoyili asosida dorivor o‘simliklarni etishtirishni kooperatsiya usulida tashkil qilish bo‘yicha salohiyatli tashabbuskorlarni aniqlash, malaka oshirish kurslarini tashkil qilish orqali ishsiz aholini sohaga jalb qilish ko‘zda tutilgan. Qarorda ishlab chiqaruvchilar, dorivor o‘simliklar klasterlarining takliflari asosida amalga oshiriladigan ilmiy loyihalar yo‘nalishlarini aniqlash va ular asosida ilmiy loyihalar portfelini shakllantirish hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi grantlari asosida ilmiy ishlanmalarni amalga oshirish vazifasi belgilangan.

Joriy yilning 24-28 aprel kunlari Qishloq xo‘jaligi vazirligi xuzuridagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi strategik rivojlanish va tadqiqotlar markazi (ISCAD) hamda O‘zbekiston "Agrar soha

ayollari" uyushmasi tomonidan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi (AKIS)da "Aholi tomorqalarida dorivor o‘simliklarni etishtirish va birlamchi qayta ishlashni tashkil etish" mavzusida 5 kunlik seminar-trening o‘tkazildi. Mazkur seminar "O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash loyihasi doirasida bo‘lib o‘tdi. Seminar-treningga oliy o‘quv yurtlarining malakali professor-o‘qituvchilari tomonidan trenerlar sifatida jalb etildi va ularning ma’ruzalari qo‘llanma shaklida chop etilib, tinglovchilarga tarqatildi [3]. Shuningdek, dorivor o‘simliklardan aholi o‘rtasida foydalanishni targ‘ib qilish maqsadida Fitobarlar uchun fitoichimliklar tayyorlash texnologiyasi bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqilgan (4).

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Taxlil natijalaridan kelib chiqib, quyidagilarni taklif qilinadi:

- Sirdaryo viloyatini investitsion jozibadorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida viloyatda dorivor o‘simliklarni etishtirish va qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish, bunda innovatsion vositalar hamda imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi.
- Sirdaryo viloyatida mehnat resurslari va mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlaridan biri sifatida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xuzuridagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi strategik rivojlanish va tadqiqotlar markazi (ISCAD) hamda O‘zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasi hamkorligida Sirdaryo viloyatida "Aholi tomorqalarida dorivor o‘simliklarni etishtirish va birlamchi qayta ishlashni tashkil etish" mavzusida seminar-trening tashkil qilish va ish bilan band bo‘lmagan aholini tamorqalaridan unumli foydalanishga jalb etish.
- Viloyatda etishtirilgan dorivor o‘simlik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish maqsadida ishlab chiqarish va fan integratsiyasini yanada rivojlantirish;
- Viloyatda qulay tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash uchun dorivor o‘simliklarni etishtirish va qayta ishlashga oid davlatimiz tomonidan berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. https://lex.uz/docs/6027139 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-251-son qarori.
2. Toxtaev B.YA. Introduksiya lekarstvennых rasteniy na zasolennых zemlyax Uzbekistana. // Dis. dok. biol. nauk. –Tashkent, 2009. -307 s.
3. To‘xtaev B.Yo., A.Q.Ganiev, A.K.Axmadjanova, F.M.Mardonov, N.Q.Asqarova. Dorivor va ziravor o‘simliklarni aholi tomorqalarida yetishtirish hamda ulardan foydalanish. Uslubiy qo‘llanma. “Ilm-ziyo-zakovati” nashriyoti. Toshkent.- 2023.-126 b.
4. Ganiev A.Q., Bektaeva X.O. Fitobar yuritishda mahalliy xom ashyolardan fitoichimliklar tayyorlash texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. «Yangi chirchiq book» MChJ.-2023.-53 b.

SIRDARYO VILOYATIDA GOJI DORIVOR O‘SIMLIGI PLANTATSIYALARINI TASHKIL ETISH

Karshibaev Khazratkul Kilichievich
Guliston davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Butun dunyo dunyo miqyosida farmatsevtika sanoatida yaratilayotgan yangi dorivor vositalarning asosiy qismi dorivor o‘simliklar xom-ashyosidan tayyorlanmoqda [3]. Ayniqsa yurak-qon tomir kasaliklarining davolashda va profilaktikasi uchun foydalaniladigan dorivor preparatlarning 77%, jigar va oshqozon-ichak kasalliklarini profilaktikasi va davolashda foydalaniladigan dorivor preparatlarning 74%, balg‘am ko‘chiruvchi dorilarning 73%, qon to‘xtatuvchi dorilarning 60% dorivor o‘simliklar xom-ashyosi asosida ishlab chiqarilmoqda.

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro tashkilotning (FAO) ma’lumotlariga qaraganda davolash maqsadlarida mahalliy flora vakillaridan foydalanish janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida ancha yuqori, Hindistonda bu ko‘rsatkich 20% ni, Xitoyda 19% ni tashkil etadi. Yaponiya, Germaniya va boshqa Yevropa davlatlari farmakopeyalarida dorivor o‘simliklar xomashyosi asosida ishlab chiqarilgan preparatlar keng o‘rinni egallaydi [4].

O‘zbekistonda 138 ta oila, 1028 turkum, 4390 tur uchrab, 79 oilaga mansub 492 tur madaniy o‘simliklar mavjud. Ulardan dorivor o‘simliklar 1157 turni tashkil etadi [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 aprelda qabul qilingan “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ta’kidlangandek dorivorlik xususiyatiga ega bo‘lgan istiqbolli o‘simliklarni tadqiq etish, o‘rganish va madaniylashtirish, ularning bioekologik xusuciyatlarini aniqlash va plantatsiyalarini tashkil etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi [2]. Sog‘liqni saqlash tizimidagi an’anaviy halq tabobati allaqachon dunyoning bir qator mamlakatlarida, ayniqsa Osiyo mamlakatlarida muhim rol o‘ynaydi. Xalq tabobatimizda Abu Ali ibn Sino davriga borib taqaladigan chuqur dunyoviy ildizlar mavjud. Bugungi kunda Respublikamizda xalq tabobati tizimi qonuniylashtirilgan [6].

Dunyo bo‘yicha *Goji* brendi nomi bilan mevalari va barglari farmsanoatda hamda xalq tabobatida keng foydalanib kelinayotgan *Lycium (Jing‘il)* turkumiga mansub bo‘lgan *Lycium barbarum* (*oddiy jing‘il*) va *L. shinense (xitoy jing‘ili*) turlari shunday istiqbolli dorivor o‘simliklardan sanaladi.

Mavzu doirasidagi tahlillar. *Lycium* turkumi turlari 20 dan ortiq mamlakatlarda etishtirilib, ularning xom ashyosi turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda va eksport qilinmoqda [7]. Goji tarkibidagi biologik faol birikmalar, jumladan polisaxaridlar, flavonoidlar, karotinoidlar inson organizmini yoshartiruvchi va stressdan himoyalovchi, immunomodulyator hamda qandli diabetga qarshi ta’sirga ega ekanligi aniqlangan [8]. Goji mahsulotlari «*superfruit»* sifatida Evropa, Amerika, Braziliya, Yaponya va Avstraliyaga import qilinadi [9]. Dunyo bozorida Goji mahsulotlarini etkazib berish bo‘yicha Xitoy etakchi o‘rinni egallaydi, ularda o‘rtacha 85 ming ga maydondan 95 ming tonna meva hosili olinmoqda [10].

Dunyo miqyosida *Lycium* turkumi vakillaridan farmsanoatda foydalanish uchun ularning tabiiy resurslarini aniqlash va monitoring qilish, turlarni molekulyar-genetik tahlil etish va genbanklarini yaratish, istiqbolli turlarni madaniylashtirish yo‘nalishlarida AQSh, Shveysariya, Polsha, Rossiya, Xitoy, Malayziya, Yangi Zelandiya kabi dunyoning qator mamlakatlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.01.2022 yilgi PF-60 son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...mamlakatda ishlab chiqariladigan dori-darmon va tibbiyot vositalari ulushini 80% etkazish» vazifalari belgilab berilgan [1]. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda *Lycium* turkumiga mansub istiqbolli *L. barbarum* va *L. shinense* turlarini respublikamiz sharoitidagi o‘sish-rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish, introduksion baholash, fitokimyoviy tarkibini aniqlash, ko‘paytirish va plantatsiyalarini tashkil etish uchun tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy- amaliy ahamiyatga egadir.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tomonidan taklif etilgan klaster tizimi o‘zining hozirgi globallashuv davrida va bozor iqtisodiyoti talablari asosida, har bir imkoniyatdan to‘liq va samarali foydalanib jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlarni etkazib berish, agrar sektorda, maxsulotni

etishtirishdan to uni kompleks qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida bozorga chiqarishga xizmat qilishini e'tirof etish kerak.

Qarorda qo'yilgan vazifalar tashkil etilayotgan klasterlar oldiga dorivor o'simliklarni etishtirish, saqlash, dastlabki va chuqur qayta ishlash hisobiga turli xil xalq tabobatida, sog'liqni saqlash tizimida ishlatiladigan dori preparatlarini yaratish, ishlab chiqarish va importdan kirib kelayotgan shu yo'nalishdagi preparatlarni o'rnini ma'lum hajmda egallash va eksport qilish imkoniyatini yaratadi. Qarorda iyundan tayyor mahsulotni sotish bo'yicha klasterlar oldiga qo'yilgan vazifalar "Dorivor o'simliklar" deb nomlangan yangi sanoat yo'nalishini yaratadi. Dorivor o'simliklarni etishtirish, himoya qilish va ulardan oqilona foydalanish ko'p mutaxassislarni, jumladan botaniklar, farmakologlar, biokimyogarlar, texnologlar, agronomlar va boshqa mutaxassislarni hamkorlikda ishlashni talab qiladi.

Dorivor o'simliklarning genofondini saqlab qolish va ko'paytirish usullaridan biri bu ularni madaniylashtirishdir. Introduksiya jarayoni juda murakkab, uzoq va ko'plab omillarga bog'liq, ya'ni: o'simliklarning kelib chiqishi, ularning ekologik tabiati, tabiiy o'sish joylarining iqlim va jug'rofiy sharoiti, kirib borish maydoni va boshqalar. Tabiatda yovvoyi holda o'sadigan shifobaxsh o'simliklarni madaniylashtirish istiqbolli yuqori mahsuldor formalari va navlarini olish maqsadida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni o'z ichiga oladi [12].

Mirzacho'l sharoitida o'tkazilgan dastlabki ilmiy kuzatishlar va adabiyotlar taxlili asosida dorivor *Lycium* turlarining ontogenez davrlarini to'liq o'tab, reproduksiya jarayoniga kirishi, *L. shinense* turida generativ davrga kirish jarayonini jadallashuvi, jing'il turlarining tashqi muhitning stress omillar ta'siriga moslashishi qayd etildi. Bu esa Mirzacho'lning sho'r tuproq sharoitida *Lycium* ning istiqbolli tur va formalarini onalik (urug'chilik) plantatsiyalarini tashkil etish, ularni urug' va qalamchalar orqali ko'paytirish imkoniyatlari katta ekanligini ko'rsatadi.

L. chinense va *L. barbarum* o'simliklarini strukturaviy tuzilishini o'rganish natijasida ushbu turlar uchun bir qator morfologik, anatomik, gistologik va xarakterli diagnostik xususiyatlarni (barg plastinkasining dorzoventral tipda ekanligi, palisad parenximasi qatlami g'ovak parenximaga nisbatan rivojlanganligi, qalin kutikulaning mavjudligi, barg hujayralarining mayda bo'lishi hamda kichik ustitsalar borligi) aniqlandi. Bu turlarning Mirzacho'l sharoitiga ko'proq moslashganligi va qurg'oqchilikkachidamliligi – kserofitizm belgilari namoyon qilishini ko'rsatadi.

Lycium turlarini vegetativ ko'paytirish samarali usul hisoblanib, bunda qalamchalarning uzunligi 15-20 sm atrofida belgilandi. "Kornevin" preparati bilan ishlov berilgan qalamchalar ko'karuvchanligi 97-98% ni, saqlanuvchanligi 92–94% ni tashkil etdi.

Mirzacho'l sharoitida *L. chinense* va *L. barbarum* turlarini introduksion baholash shkalasiga ko'ra 80 va 90 ball bilan istiqbolli dorivor o'simlik turlari sifatida baholandi.

Mirzacho'l sharoitida *L. barbarum* va *L. chinense* mevalari etli ho'l meva, ko'p urug'li, diametri 8-11 mm, uzunligi 15-20 mm keladigan, to'q qizil rangli bo'lib, may-oktyabr oylarida pishadi. Mevalari tarkibida flavonoidlar va karotinoidlar miqdori talab darajasida etarli miqdorda ekanligi qayd etildi. Urug'lari sariq - qo'ng'ir rangda. 1000 dona urug' massasi o'rtacha 0,8-1,5 grammga teng bo'ladi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Mirzacho'l sharoitida *L. chinense* va *L. barbarum* turlari plantatsiyalarini yaratish iqtisodiy jihatdan samaralidir. Mazkur istiqbolli dorivor o'simliklar plantatsiyalarini yaratishda:

- *Lycium* turkumi turlarini urug'idan ko'paytirish uchun urug'larni stratifikatsiya qilish;
- *Lycium* turkumi turlaridan sifatli ko'chatlarni olish uchun ularning 2 yillik novdalarinidan qalamchalar tayyorlash;
- qalamchalarga ekish oldidan "Kornevin" eritmasi bilan ishlov berish;
- qalamchalarni 2,5-2,5 m sxemasida mart oyining ikkinchi dekadasida ekish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60 son farmoni. - *https://lex.uz › docs*.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi «Yovvoyi holda o'suvchi

dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. - *https://lex.uz › docs*

3. Nigmatullaev B.A. *Silybum marianum* (L.) Gaertn. va *Onopordum acanthium* L. ning biologiyasi, fitotsenologiyasi va tabiiy zahiralari: Falsafa dok. diss. (PhD) avtoreferati. - Toshkent, 2019.- 43 b.

4. Karshibaev X.K. O reproduksii *Goebella pachicarpa* (Fabaceae) v aridnix zonax Uzbekistana// Rastitelnie resursi, 2014. - Tom 50. Vip. 4. -S. 544 – 550.

5. Xodjimatov O.K. Lekarstvennыe rasteniya Uzbekistana.- Toshkent: Ma’naviyat, 2021.-328 s.

6. Karshibaev X.K., Maxkamov T. Dorivor o‘simliklar biologiyasi va ekologiyasi.- Guliston, 2022.- 244 b.

7. Yao R., Heinrich M., Weckerle, C.S. The genus *Lycium* as food and medicine: A botanical, ethnobotanical and historical review. // Journal of Ethnopharmacology, 2018, 212, pp.50–66.

8. Hou C., Chen L., Yang L. and Ji X. An insight into anti-inflammatory effects of natural polysaccharides. // Int. J. Biol. Macromolecules, 2020. 153, 248–255. doi:10.1016/ j.ijbiomac. 2020.02.315.

9. Zheng Feei Ma, H. Zhang, S.S. Teh, C.W. Wang, Y. Zhang et al. Goji Berries as a Potential Natural Antioxidant Medicine: AnInsight into Their Molecular Mechanisms of Action//Oxidative Medicine and Cellular Longevity. Volume 2019, Article ID 2437397, 9 pages https://doi.org/10.1155/2019/2437397.

10. http://www.chinadaily.com.cn/chinagate/doc/2004-07/19/content_349679.htm

11. Qarshibaev H.Q., Amanova M.M. *Lycium* turkumi turlarini ko‘paytirish va etishtirish texnologiyasi.- Tavsiyanoma.- Toshkent, 2022.-22 b.

12. Belolipov I.V., Qarshiboev X.Q., Islamov A.M. Toshkent shahri sharoitida yovvoyi o‘simliklarni introduksion o‘rganishga oid metodik ko‘rsatmalar. – Toshkent, 2017. - 12 b

DORIVOR LAVANDA PLANTATSIYALARINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIGI

To‘xtaev Boboqul Yorqulovich, Qarshiboev Xazratqul Qilichievich, Xomidov Jasurbek Jamoldinovich
[1]Toshkent davlat agrar universiteti professori b.f.d;
[2]Guliston davlat universiteti professori b.f.d;
[3]O‘rmon xo‘jaligi ilmiy tadqiqot instituti Andijon filiali direktori.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O‘zbekistonda farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini dorivor o‘simliklar xom-ashyosi bilan ta’minlash, mahalliy florani yangi introdutsent o‘simlik turlari bilan boyitish va ularni etishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish, plantatsiyalarini tashkil etish xamda xom ashyo zaxirasini tashkil etish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu masalalarda O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti qabul qilgan qarorlar va berilgan farmonlar asosida dorivor o‘simliklarni ko‘paytirish va ularni tibbiyotda foydalanish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2022 yil 20 maydagi “Dorivor o‘simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash natijasida qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-139-son farmonida qizilmiya, za’faron, kavrak, lavanda, steviya, moychechak, na’matak, ravoch, mavrak, dalachoy, tog‘rayhon, bo‘ymadaron, kiyik o‘ti, kovul, qalampir yalpiz va boshqa dorivor o‘simliklar etishtirish bo‘yicha hududlar kesimida ixtisoslashtirilishi va 2022 yildan 2026 yilgacha 36 000 ga da yangi dorivor o‘simliklar plantatsiyalari tashkil etish toshiriqlari berilgan.

Yuqorida keltirilgan farmon va farmoyish hamda bayonnomalardagi topshiriqlarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha olimlar tomonidan tabiiy va madaniy holda mavjud bo‘lgan, farmatsevtika sanoatida asosiy va istiqbolda keng qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklarning tavsifi, tarqalishi, xom-ashyosini tayyorlash va uning sifati, kimyoviy tarkibi, tibbiyotda qo‘llanilishi ko‘rsatkichlari yoritib berilgan metodik qo‘llanma yoki yo‘riqnomalar ishlab chiqildi.

Ana shunday ilmiy tadqiqotlardan biri dorivor (ingichka bargli) lavanda (*Lavandula angustifolia* Mill.) ning introduksiyasi va keng masshtabdagi plantatsiyalarini tashkil bo‘lib, ushbu ilmiy

tadqiqotlarning asosiy maqsadi maxalliy farmatsevtika ishlab chiqarish sanoatida zarur bo‘lgan o‘simlik xom ashyosini tabiiylashtirish va maxalliylashtirish tadbiri nazarda tutilgan.

Mavzu doirasidagi tahlillar. Dorivor lavandaning plantatsiyalarini tashkil etishda avvalambor mazkur ob’ektning xalq xo‘jaligidagi axamiyatini nazarga tutgan xolda, albatta o‘simliklarda uchraydigan zarakunanda va kasalliklarni bilish xamda ularga qarshi kurash chora tadbirlarini ishlab chiqish, dorivor o‘simliklar xom ashyosi tarkibini tahlil etish muxim ko‘rsatkich hisoblanadi. Sabab, dorivor o‘simliklarni plantatsiyasini tashkil etish aynan mazkur iqlim va tuproq sharoitiga xosmi yoki ushbu sharoit uchun boshqa o‘simliklikni tanlash kerakmi degan masalaga oydinlik kiritadi.

1-rasm. Dorivor lavandaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati

Ilmiy tadqiqotlar davomida turli iqlim va tuproq sharoitida (tog‘oldi adirliklari, tekislik va o‘rtacha sho‘rlangan) dorivor lavandaning introduksiyasi, introduksiya sharoitida ekish muddatlari, vegetativ va generativ ko‘paytirish usullari xamda iqlim va tuproq sharoitining o‘simliklarning o‘sish va rivojlanishga ta’siri borasida tahlillarni amalga oshirdik. Dorivor lavanda nam bilan ta’minlangan (60-65%) joylarda yaxshi o‘sishi va rivojlanishi, xamda hosildorlik miqdorining yuqoriligi ilmiy tadqiqotlarda isbotlandi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, eng optimal variant uch xil iqlim va tuproq sharoitida xam kish mavsumining fevral oyida issiqxonada urug‘dan ekilgan va bahor mavsumining aprel oyi uchinchi dekadasida dala sharoitida ko‘chirilgan ko‘chatlar bo‘lib, aynan shu variant plantatsiyalar tashkil etishda foydalanildi.

Tanlangan maydonlarda erni ekishga tayyorlash -erni xaydash, molalash, baronalash va ekishdan oldingi sug‘orish agrotexnik tadbirlari amalga oshiriladi. Tayyorlangan ko‘chatlar traktorlar yordamida maxsus seyalkalarda maydonda ekiladi. O‘simlik ko‘chatlarining ekilishi uchun qator oralari (1,2x50; 1,2x40; 1,2x35; 1,4x50; 1,4x35; 0,9x50; 0,9x35:) sm ekish sxemasiga qarab, 1 ga maydonda 16500 dan 25000 gacha ko‘chat ekilishi maqsadga muvofiq.

Dorivor lavanda ko‘chatlar ekish kechqurun amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Ko‘chat ekilgandan so‘ng zaxlatib sug‘oriladi (1 ga maydonga 1000-1200 m^3). Agrotexnik tadbirlar mexanizatsiyalashgan ya’ni qator orasiga ishlov berish, hosilni yig‘ish ishlari maxsus texnikalarda amalga oshirilsa 1,4x35 ekish sxemasida ekish talab etiladi. Birinchi vegetatsiya yilida ikkinchi va uchinchi sug‘orishdan so‘ng, qator orasiga ishlov berish bilan birga begona o‘tlardan tozalanadi. Dastlabki agrotexnik tadbirlar dorivor lavanda plantatsiyalarida begona o‘tlardan tozalash ishlari amalga oshiriladi. Bu agrotexnik tadbirlar o‘simliklarning o‘sishiga ijobiy ta’sir qiladi. Keyingi yillarda begona o‘tlarga qarshi kurashga deyarli ehtiyoj qolmaydi, chunki o‘simlikning allelopatik xususiyati tufayli begona o‘tlar bostiriladi. Birinchi vegetatsiya yili davomida o‘simliklar 5-6 marta sug‘orilishi va 2 marta kultivatsiya amalga oshirilishi kerak. Ikkinchi vegetatsiya yili davomida 2-3 marta sug‘orish tadbiri va 1 yoki 2 marta kultivatsiya amalga oshirilishi, uchinchi va to‘rtinchi vegetatsiya yillari davomida 1-2 marta sug‘orish tadbirlari va 1 marta kultivatsiya amalga oshirilishi kerak. Plantatsiyada keyingi yillarda boshlab 1 marta sug‘orish tadbirlari amalga oshirilishi zarur.

Dorivor lavanda o‘simligini keyingi yillarda suvsiz sharoitda o‘stirilishi mumkin bo‘lsada, sug‘orish har bir o‘simlik gul hosilini oshiradi.

Dorivor **l**avanda plantatsiyalariga har 2-3 yilda gektar hisobiga 20 tonnadan maxalliy chirindi (xayvon go‘ngi) bilan o‘g‘itlash kerak. Maxalliy chirindi tuproq tarkibini yaxshilash bilan birga namlikni saqlashga, o‘simlik uchun juda muxim bo‘lgan mikroelementlar bilan ta’minlaydi. Biroq, o‘g‘itlash tuproq tahlillari natijalariga ko‘ra amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Dorivor lavanda o‘simligiga shakl berish. Farg‘ona vodiy tuproq va iqlim sharoitida o‘simlikning bo‘yi 45-75 sm ga o‘sadi. O‘simlik chiroyli ko‘rinishi uchun albatta shakl berish kerak. O‘simlikka shakl berish erta bahorda yoki kech kuzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. SHakl berishda sharsimon shakl o‘simlik uchun juda kulay bo‘lib, gullagan vaqtida juda chiroyli ko‘rinish hosil qiladi.

Lavanda sharsimon o‘sadigan bo‘lsa, butaning ko‘rinishini buzadigan ortiqcha novdalar kesib olinadi. Butaning sharsimon shaklini saqlab qolish

uchun, o‘simlik buyi 10-25 sm gacha qisqartirilishi albatta novdaning yog‘ochlashgan kism inobatga olish kerak. O‘simliklarga shakl berishdan maqsad vaqt o‘tishi bilan chiroyli ko‘rinishini yo‘qotadi. Yog‘ochli poyalardan yangi kurtaklar o‘smaydi. SHuning uchun yoshartirish tarbiri amalga oshirish zarur.

Shuningdek, dorivor lavandaning texnologik kartasi shakllantirilgandan so‘ng, ilmiy tajribalar davomida uch vegetatsiya yili uchun gul hosili xom ashyosining samaradorligi hisoblandi. Dorivor lavanda plantatsiyalaridan olinadigan xom ashyo hosildorligi, uch yillik ilmiy tajribalar natijalari qayta ishlanib besh yil davomida plantatsiyalardan olinadigan samaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

Dorivor lavandaning 1 ga maydondagi plantatsiyadan olingan daromad ko‘rsatkichlari

Yillar	Hosildorlik, kg/1ga		Harajatlar,	Daromad,	Sof foyda,
	Xom-ashyo (gul va gulbandi)	Efir moyi	so‘m/1 ga	so‘m/1ga	so‘m/1 ga
1	226,2	3,5	35 000 000	7245000	-27755000
2	1738	41	10 000 000	84870000	74870000
3	3581	85	10 000 000	175950000	165950000
4	4010	96	10 000 000	198720000	188720000
5	4573	110	10 000 000	227700000	217700000
5 - yilga o‘rtacha	2 825	335,5	15 000 000	138 897 000	123897000

Izoh: Dunyo bozorida *o‘simlikdan olinadigan efir moyining 1 kg narxi 180 $ baholanadi. 4-5 yillik plantatsiyadan gektariga o‘rtacha 4200-4300 kg va keyingi yillarda 6000 kg gacha ho‘l holdagi gul va gul hosildorligi xom-ashyosi olinadi. Ushbu xom ashyodan dastlabki yillar 43-45 kg va keyingi yillarda 60-65 kg gacha efir moyi 1 ga hisobidan olish rejalashtiriladi*.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Demak, dorivor lavandaning plantatsiyalarini tashkil etish va o‘simlik xom ashyosini respublikamiz iqlim va tuproq sharoitida ishlab chiqish bevosita maxalliy farmatsevtika sanoatining ushbu maxsulotga bo‘lgan talabini qondiradi va eksportbob maxsulot tayyorlashni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi “Dorivor o‘simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘shimcha qiymat

zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-139-son farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi, 2022 yil 21 may, №105 (8167). -1-2-b.
2. To‘xtaev B.Yo. “O‘zbekistonning sho‘r erlarida dorivor o‘simliklar introduksiyasi” Dissertatsiya dok. Biol. Nauk.-T. 2009.-5-307 b.
3. To‘xtaev B.YO., Mahkamov T.X., To‘laganov A.A., Mamatkarimov A.I., Mahmudov A.V., Allayarov M.O‘. Dorivor va ozuqabop o‘simliklar plantatsiyalarini tashkil qilish va xom ashyosini tayyorlash bo‘yicha yo‘riqnoma. – Toshkent, 2015. – B. 37-44.
4. Уранов А.А. Онтогенез и возрастной состав популяций цветковых растений. Изд. Москва. Наука. 1967. 9-15 с.
5. Жукова, Л.А. Онтогенез и циклы воспроизведения растений Л.А. Жукова Журнал общей биологии. 1983. – Т.44. − № 3. – С. 361-374.
6. Доспехов Б. А. Методика полевого опыта. –М.: Колос, 1973. –С. 351

SANOAT CHIQINDILARI BILAN IFLOSLANGAN HUDUDLARNI REKULTIVATSIYA QILISH MASALALARI

Abduxoliqov Farrux Baxrom o‘g‘li, Karshibaev Xazratkul Kilichevich
Guliston davlat universiteti “Dorivor o‘simliklar va botanika” kafedrasi
e-mail: farrukh.abdukholikov@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda butun dunyoda sanoat korxonalari faoliyati, foydali qazilmalarni qazib olish, ulardan foydalanish hamda boshqa antropogen omillar natijasida tuproq qoplamining kimyoviy ifloslanishi, tuproq xossalari va unumdorligining o‘zgarishi kuzatilmoqda. Tuproqning har xil turdagi ifloslanishi tuproq degradatsiyasi, unumdorlikning sifat va miqdoriy darajasining pasayishi, shuningdek, ekotizim bilan bog‘liq boshqa muammolarning shakllanishiga olib keladi [5].

Yer rekultivatsiyasi (lotincha *re*-qaytarish, tiklash ma’nosini beradigan old qo‘shimcha; *cultivo*-ishlov beraman, yetishtiraman) - foydali qazilmalarni qazib olish, suv inshootlari qurish, shaharlar qurilishi va boshqa sabablarga ko‘ra foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qolgan yerlarni qayta tiklash, atrof-muhit sharoitlarini, ekologik holatlarni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar majmui. Yer rekultivatsiyasining asosiy vazifasi tuproqning buzilgan unumdor qatlamini tiklash va qishloq xo‘jaligi yoki o‘rmon xo‘jaligini samarali yuritishni ta’minlaydigan sharoitni yaratishdan iborat [4].

Mavzu doirasidagi tahlillar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 169-sonli qarorining e’lon qilinishi mazkur mavzuda olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarni yanada aniq va mukammal belgilab beri. Qaror 5 ta banddan iborat bo‘lib, uning 1-bandidagi ilovaga muvofiq quidagi ishlar amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish - buzilgan yerlarning unumdorligini tiklashga, belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli yoki xavfsiz holatga keltirishga, shuningdek, atrof muhit sharoitini yaxshilashga qaratilgan ishlar majmui;

buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilishning texnik bosqichi (erlarni texnik rekultivatsiya qilish) - belgilangan maqsadlarga muvofiq istiqbolda maqsadli foydalanish uchun xandaqlar, chuqurliklar, erning o‘pirilishi, foydali qazilmalarni qazib olish, qurilish va boshqa xo‘jalik faoliyatida hosil bo‘lgan yot jinslardan tozalash hamda chiqindilar uyumlarini ko‘mish, tekislash va terrasalashni o‘z ichiga olgan yerlar rekultivatsiyasining birinchi bosqichi;

buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilishning biologik bosqichi (erlarni biologik rekultivatsiya qilish) - texnik rekultivatsiya qilinganidan so‘ng amalga oshiriladigan, tuproqning agrofizik, agrokimyoviy, biokimyoviy va boshqa xossalarini yaxshilashga qaratilgan agrotexnik va fitomeliorativ tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladigan yerlarni rekultivatsiya qilishning ikkinchi bosqichi;

buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish yo‘nalishi - muayyan maqsadda foydalanish uchun buzilgan yerlarni tiklash, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, rekreatsiya, tabiatni muhofaza qilish, xafvsizlikni ta’minlash, sanitar-gigiyena va qurilish yo‘nalishlari;

buzilgan yerlarning rekultivatsiya qilinadigan qatlami - o‘simliklarning o‘sib chiqishi uchun qulay sharoitga ega bo‘lgan va sun’iy ravishda tashkil etiladigan yer qatlami [1].

O‘zbekiston Respublikasida, jumladan sug‘orma dehqonchilik hududida uchraydigan yaroqsiz holga keltirilgan yer turlariga quyidagilar kiradi va Yer rekultivatsiyasiga muhtoj hisoblanadi: qurilish uchun materiallar qazib olingan (qum, shag‘al, tosh va boshqalar) yerlar; gaz va neft mah-sulotlarini qidiruv-tekshirish ishlari va ulardan foydalanishga ajratilgan yerlar; sug‘orish, zax qochirish, yo‘l tarmoqlarini qurish va ta’mirlash oqibatida me’yordan ortiqcha band bo‘lgan pastliklar, do‘ngliklar yoki chuqurliklarning paydo bo‘lish natijasida unumdor qatlami buzilgan yerlar; turli qurilish inshootlari va binolarni barpo etishda yerlarning vaqtincha foydalanishga ajratilgan qismi va boshqalar [3].

Yer rekultivatsiyasi ikki bosqichdan iborat tadbirlar yordamida amalga oshiriladi: texnik va biologik. Dastlab yaroqsiz yerlarni aniqlash, o‘rganish, istiqbolda foydalanish rejasini tuzish va loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish kabi tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Yer rekultivatsiyasining texnik bosqichi xalq xo‘jaligi uchun yerni maqsadli foydalanishga tayyorlash bo‘lsa, biologik bosqichda esa landshaft va tuproqni qayta tiklash, qishloq yoki o‘rmon xo‘jaligi uchun yaroqli holga keltirish tadbirlari amalga oshiriladi [4].

O‘zbekiston Respublikasi hududida 200 ming gektar yaroqsiz holga keltirilgan yerlar mavjud bo‘lib, shundan 65 ming gektar qishloq xo‘jaligi tarmoqlari yaxshi rivojlangan hududlarga to‘g‘ri keladi (2000). Ular asosan sug‘orish, zax qochirish va yo‘l tarmoqdarini qurish oqibatida paydo bo‘lgan. Ularni qishloq xo‘jaligi oborotiga qaytarish natijasida har yili qo‘shimcha 300-400 ming tonna paxta va ko‘plab sabzavot, meva hamda chorvachilik uchun zarur bo‘lgan yem-xashak yetishtirish mumkin [4].

Insoniyatning antropogen faoliyati natijasida dalalar, o‘rmonlar va boshqa foydali yerlarga ega yuzlab gektar unumdor yerlar butunlay vayron bo‘lish xavfi ostida. Tabiiy landshaftlar keng ko‘lamli texnogen ta’sirdan keyin nobud bo‘lmoqda. Ularni hayotga qaytarish uchun buzilgan tuproqlarni tiklash bo‘yicha butun kompleks meliorativ ishlarni amalga oshirish kerak [6].

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Tadqiqot ob’yekti sifatida Jizzax viloyati G‘allaorol tumani Marjonbuloq MFY da joylashgan “Janubiy kon boshqarmasiga qarashli Marjonbuloq oltin boyitish fabrikasi” xududidagi degradatsiyaga uchraga maydonlar tanlab olindi.

Tadqiqot ishini o‘tkazishda solishtirma, kimyoviy-analitik uslublaridan foydalanildi. Dala-tuproq tadqiqotlari «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq xaritalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnoma», «Методы химических анализов почв и растений» uslublari asosida amalga oshirilgan. Olingan ma’lumotlar matematk-statistik tahlillar asosida xisoblangan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Chiqindilar bilan ifloslangan tuproqlarni tozalash va qayta tiklashda olib boriladigan ishlarni quyidagi bosqichlarga bo’lish mumkin:

1. Tayyorgarlik bosqichi: ifloslangan hududni o‘rganish, tajriba o‘tkazish uchun maydon tayyorlash, tuproqning yuza qatlamlarini yirik chiqindilardan tozalash ishlarini olib boorish;
2. Texnik rekultivatsiya: kuchli ifloslangan tuproq qatlamini olib tashlash, uni toza tuproq bilan aralashtirish, kimyoviy melioratsiya tadbirlari olib borish;
3. Biologik rekultivatsiya: tayyorlangan maydonga tanlab olingan o‘simliklarning urug‘larini ekishv (fitomelioratsiya) orqali tozalash va unumdorligini tiklash [8].

Rekultivatsiyani amalga oshirish ishlari 2014-2023 yillar oralig‘ida o‘tkazildi. Buning uchun chiqindilar bilan to‘lgan tepaliklarning tuproqlaridan tuproq namunalari kimyoviy laboratoriya tahlili uchun olindi.

Namuna olish uchun maydonchalarning har 100 metr oraliq masofadan 40 sm qilib chuqurchalar kovlandi va namunalar 0-10 sm., 10-20 sm., 20-30 sm. va 30-40 sm. qilib olindi.

Olingan namunalarni elementar tarkibini aniqlash Guliston davlat universiteti Eksperimental biologiya laboratoriyasidagi ICP-OES (Induktiv plazmali optik emission spektrometr) asbobida tekshirib ko‘rildi. Bu asbob tuproqning tarkibidagi 20 dan ortiq elementlarning miqdoriy analizini ko‘rsatib beradi.

Insoniyatning ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishi. Sanoat sohasining rivojlanishi insoniyat rivojlanishida katta yutuqlarga erishishiga qaramay, ushbu soha sayyoramiz ekologiyasi va salomatligi uchun xavfli bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Buning sababi minerallar, tog‘ jinslarini ommaviy qazib olish, shaxtalar va minalarni yaratish, katta miqdordagi sanoat chiqindilari tuproq yuzasida qolib ketmasligi va ko‘p yillar davomida qayta ishlanmay qolishiga olib keladi [7].

Xulosa, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Cho‘l va adir mintaqasida keng tarqalgan o‘simlik oilalari vakillarining biomorfologik xususiyatlari va urug‘ biologiyasini o‘rganish natijasida ularning urug‘dan ko‘payish va tiklanilshning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashag imkon berdi.

O‘rganilgan o‘simliklardan *V. angustifolia, C. turcestanicus va A. officinalis* turlari rekultivatsiya ishlari uchun eng chidamli va tez moslashib ketadigan turlar ekanligi aniqlandi hamda fitomeliorant sifatida ekishga tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 169-sonli qarori Toshkent 2023-yil 29-aprel
2. Jabbarov Z.A., Jabborov B.T., Nomozov U., N.Sultanova, Nurgaliyev N.A. Tuproqlar rekultivatsiyasi Тошкент-2020 32 b.
3. Jabbarov Z.A., Abduraxmonov M.T., Nomozov Neft bilan ifloslangan tuproqlar rekultivatsiyasining iqtisodiy sarf xarajatlari Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi-3/2021-yil B.-43-49.
4. I. O‘razboev Tuproq rekultivatsiyasi fanidan metodik ko‘rsatma.-Guliston, 2021. – B. 5-7.
5. H.K. Karshibaev, F.B. Abduxoliqov O‘simliklarning bioekologik xususiyatlarini o‘rganishga oid metodlar // “Sifatli ta’lim va interdisplinyar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari Guliston-2023 25-26-may B. 2132-2134
6. F.B. Abdukholikov, H.K. Karshibaev, M.M. Norkulov Prospects and problems of implementation of recreation works in degradated areas // American Journal of Plant Sciences, 2023, 14, 506-516 https://www.scirp.org/journal/ajps ISSN Online: 2158-2750 ISSN Print: 2158-2742 P. 506-516
7. А. В. Васильченко Рекультивация нарушенных земель Оренбург 2017 159 с.
8. З.А. Жабборов Загрязнение степных почв южных регионов узбекистана нефтью и нефтепродуктами и их рекультивация Автореф. дисс... д-ра биол.наук. -Ташкент,2017. - 3 с.
9. Антонинова Н. Ю., Усманов А. И., Собенин А. В. Анализ процесса фиторемедиации нефтезагрязненного грунта с исползованием торфо-диатомитова мелиоранта // Проблемы недропользавания. 2020. № 4. С. 110-118.

ILM-FAN VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI IQTISODIYOTNING YUKSALISH NEGIZIDIR

Ergasheva Nilufar Abdullayevna
Guliston davlat universiteti, katta o‘qituvchi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Bugun Yangi O‘zbekiston o‘zining uzoq muddatga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi asosida tobora oldinga ilgarilamoqda. Bizning o‘z yo‘limiz, qat’iy fikrimiz, ezgu maqsadlarimiz bor. Buning uchun iqtisodiy imkoniyatlarimiz, ilmiy salohiyatimiz va ma’naviy qudratimiz yetarli.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimida 3 ming yillik davlatchilik tarixiga ega bo‘lgan mamlakatimiz uzoq davr mobaynida dunyoning savdo, iqtisodiyot, ilm-fan, madaniyat va san’at yuksak ravnaq topgan markazlaridan biri bo‘lib xizmat qilganligini alohida ta’kidladi. Darhaqiqat, bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra, Shimol va Janubni, G‘arb va Sharqni magistral tranzit koridorlari orqali bog‘lab turadigan Markaziy Osiyo mintaqasining o‘zagi hisoblanadi. Ana shunday salohiyatning bardavom bo‘lishi, mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi bugun bog‘chalardan tortib oliy ta’lim muassasalarida bilim olayotgan farzandlarimiz, yoshlarimizning intilishi, g‘ayrati va shijoatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Zero yurtimizda ularning puxta bilim olishi va malakali mutaxassis bo‘lib ulg‘ayishi uchun katta imkoniyatlar yaratilgan [1].

Mavzu doirasidagi tahlillar. Bugun oliy ta’lim tizimida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning amaldagi isbotini birgina fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi misolida ko‘rish mumkin. Uzoq yillardan buyon o‘zgarishsiz foydalanilgan va ma’nan eskirgan ko‘plab

darsliklardan voz kechish payti keldi. Endi professor-o‘qituvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini bevosita yirik korxonalarda, ularning zamonaviy laboratoriyalarida olib boradilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi «Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori ijrosi doirasida tashkil etilgan seminar ochilishida mamlakatimizda ilm-fan yutuqlari, ixtiro va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Innovatsion g‘oya va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish yoki ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik yurtimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Joriy yilning fevral oyida Sirdaryo viloyati xokimi Akmaljon Maxmudaliyev boshchiligidagi delegatsiya Xitoy Xalq Respublikasida Shensi provinsiyasi Yanlin shahrida o‘tkazilgan “Shensi – Sirdaryo” savdo-iqtisodiy hamkorlik biznes-forumida ishtirok etdi. Forumda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi”ning mazmun-mohiyati, mamlakatimizda, xususan Sirdaryo viloyatida xorijiy investorlarga yaratilgan qulay shart-sharoitlar, kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar to‘g‘risida taqdimot o‘tkazildi. “G2B” shaklidagi uchrashuvlar ham tashkil etilib, o‘zaro manfaatli takliflar ko‘rib chiqildi. Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsion, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari va boshqa sohalardagi amaliy aloqalarni kengaytirishdan tomonlar birdek manfaatdor ekani ta’kidlandi. Yangi imkoniyatlar, sheriklik aloqalarini istiqbolli tashabbuslar va loyihalar bilan boyitish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Forum yakunida Guliston davlat universiteti va Yanlin professional texnologiyalar oliy o‘quv yurti o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida kelishuv imzolandi. Shuningdek, kun tartibidan “Yanlin namoyish hududi” qoshidagi texnologik park va zamonaviy issiqxonalar faoliyati, Shimoli-g‘arbiy qishloq va o‘rmon xo‘jaligi hamda Yanlin professional texnologiyalar universitetlaridagi o‘quv jarayonlari, ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishuv ham o‘rin olgan. Formdagi kelishuvlar natija hisobidan joriy yilning may oyi oxirlarida Sirdaryo viloyatiga Xitoy Xalq Respublikasidan 3 mingta Lycium barbarum - godji o‘simligini ko‘chatlar olib kelindi.

"Lycium"ning asl kelib chiqish vatani Xitoy hisoblanadi. Uning dunyoda 90 dan ortiq turlari mavjud. O‘zbekistonda 3 ta yovvoyi turi uchraydi. "Lycium"ning tabobatda o‘simlikning mevalari, ildizi va barglari ishlatiladi. simlikning mevalari tarkibida ko‘p miqdorda askorbin kislota, vitaminlar va biologik faol moddalar borligi aniqlangan. O‘simlikning pishib etilgan mevalari karotinga, V1, V2, PP, C vitaminlariga juda boy. Ko‘p miqdorda aminokislota va oqsillar, polisaxaridlar, taurin, tetraterpenlar fizalein, betain, ko‘pgina makro va mikroelementlarni saqlaydi. Mevasi antioksidantlik faolligi juda yuqori. SHu sababli Godji mevalari modda almashinuvini yaxshilash, aqliy va jismoniy toliqishni tiklash, qarish jarayonini sekinlashtirish, organizmdagi endokrin bezlar gormon ishlab chiqarishini kuchaytirish, immunitetni tiklash, hamda anemiya, diabet, qon-tomir tizimi va teri kasalliklarida keng qo‘llaniladi [3]. Innovatsion rivojlanish vazirligi Sirdaryo viloyati innovatsion rivojlanish hududiy boshqarmasi hamda Guliston Davlat universiteti professor olimlari bilan hamkorlikda «Istiqbolli dorivor "Lycium barbarum" (godji) o‘simligi introduksiyasi va uning onalik urug‘chilik plantatsiyalarini yaratish» mavzusida amaliy loyiha ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur loyihaga biologiya fanlari doktori, professor Hazratqul Qarshiboev rahbarlik qilib kelmoqda. Loyiha 3 yilga mo‘ljallangan. E’tiborlisi shundaki, mazkur o‘simlik sho‘rlangan tuproqlarda ham o‘sadi. Amaliy loyihaning maqsadi Respublikamiz uchun yangi bo‘lgan dorivor introdutsent o‘simlik Lyciumning 1 ta turi va 1 ta formasi (Xitoy formasi)ni etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish hamda ularning birlamchi urug‘chilik plantatsiyalarini tashkil etish hisoblanadi. Loyiha bo‘yicha dorivor "Lycium barbarum" onalik plantatsiyalarini tashkil etish uchun Sirdaryo o‘rmon xo‘jaligi va Xovos tumanidagi «Obod yurt bog‘lari» dehqon-fermer xo‘jaligi, Jizzax viloyati Zomin o‘rmon xo‘jaligi va «Qutchi» dehqon-xo‘jaligi bilan o‘zaro shartnomalar imzolandi. Ular tomonidan ajratilgan erlarga Godji o‘simligi urug‘lari ekildi. SHuningdek Sirdaryo viloyati ehtiyojmand xonadonlardagi ayollarni ish bilan ta’minlash va godji o‘simligining mini plantatsiyalarini tashkil va etishtirilgan mevasini ichki va tashki bozorda sotuvini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Bir so‘z bilan aytganda, fan, ta’lim va integratsiyaning rivoji barcha sohalarda taraqqiyotning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi navbatida, oliy ta’lim muassasalari faoliyatida tub burilish yuz beradi, ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi. Natijada son salmog‘iga emas, balki ta’lim sifati samaradorligiga e’tibor kuchayadi. Yangi avlod darsliklari ko‘payadi, oliygohlarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi va malakali

mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari ortadi. Aynan ana shu kadrlar, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, milliy sanoatimizning ravnaqiga munosib hissa qo‘shadigan “oltin fond”imizga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-2909-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi «Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori

3. Peng Q., Liu H., Shi S., Li M. Lycium ruthenicum polysaccharide attenuates inflammation through inhibiting TLR4/NF-kB signalingpathway // International Journal of Biological Macromolecules. - 2014. - V. 67. - P. 330-335.

SIRDARYO SHAROITIDA *ALTHAEA OFFICINALIS* L. – DORIVOR GULXAYRINI YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI VA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Botirova Laziza Axmatovna, Maxkamov Turobjon Xusanboevich, To‘raqulova Ozoda Mamarayim qizi
b.f.n., dotsent,
b.f.n., dotsent
GulDU 3-kurs talabasi
Guliston davlat universiteti, Dorivor o‘simliklar va botanika kafedrasi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Dunyoda qimmatbaho dorivor o‘simliklardan foydalanishda intensifikatsiyaga erishish, ya’ni o‘simlikning barcha qismlaridan ma’lum maqsadlarda foydalanishga ishlab chiqarishda katta ahamiyat berilmoqda. Dorivor gulxayri dunyodagi ko‘plab mamlakatlarda dorivor xomashyo olish uchun yetishtirib kelinayotgan istiqbolli dorivor o‘simliklar qatoriga kiradi. Dorivor gulxayrini istiqbolli dorivor o‘simlik va respublikamiz hududi bo‘ylab keng yetishtirilayotganiga qaramasdan xomashyo olish imkoniyati juda past bo‘lganligi sababli, Sirdaryo tuproq-iqlim sharoitida xomashyosini yyetishtirish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-son “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yyetishtirish , qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020 yil 26 noyabrdagi PQ–4901–son “Dorivor o‘simliklarni yyetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy xolda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari tug‘risida”gi qarori mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarini arzon, sifatli dori vositalari bilan ta’minlash” vazifalari belgilab berilgan. Harakatlar strategiyasida keltirilgan muhim vazifa va topshiriqlarni bajarish maqsadida *Vaccaria hispanica* o‘simligini keng masshtabli plantatsiyalarini tashkil etish, respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitida o‘sish va rivojlanishini asoslash, ko‘paytirish yo‘llarini ishlab chiqish, fitokimyoviy tarkibini aniqlash, introduksion baholash va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mavzu doirasidagi tahlillar. So‘nggi vaqtlarda dorivor o‘simliklarni introduksiya sharoitida bioekologik xususiyatlarini o‘rganish [1, 2, 3], etnobotanik izlanishlar olib borish [4, 5], yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish [6, 7, 8], fitokimyoviy tahlillar qilish [9, 10, 11, 12] bo‘yicha ijobiy natijalar olinmoqda.

O‘simlikning tarqalishi. Dorivor gulxayri dasht zonalarda hamda O‘rta Osiyo va Kavkazning ayrim xududlarida tarqalgan. Dorivor gulxayri dasht zonalarining nam bilan yaxshi ta’minlangan joylarida yaxshi o‘sadi, daryo ariq, ko‘l bo‘ylarida, o‘tloqlarda o‘sadi. Odatda bu o‘simlik uncha katta bo‘lmagan guruhlar hosil qiladi.

Agrotexnik tadbirlar. Olib borilgan kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, gulxayri havoning yozgi quruqligiga, tuproqning qisqa muddatli qurishiga (ildiz tarmoqlari yaxshi rivojlanganligi tufayli) bardosh beradi, shamolga chidamli, qishki sovuqlardan talofot ko‘rmaydi. O‘simlikka xos maxsus zararkunanda va kasalliklar aniqlanmagan.

Dorivor gulxayri tuproqning unumdorligi va tarkibiga befarq o‘simlikdir, Respublikamizdagi barcha turdagi tuproqlarda o‘stirish mumkin. Faqat sho‘r tuproqli va botqoq erlarni yoqtirmaydi.

Ildizi 2 va 3-yili yig‘ib olinadi, urug‘i olinadigan dalalarda ekin 6-8 yil saqlanadi. Shu boisdan gulxayri poliz-sabzavot ekinlaridan bo‘shagan, begona o‘tlardan tozalangan maydonlarga ekiladi.

Kuzgi shudgorlash vaqtida har gektar maydonga 90 kg.dan superfosfat yoki 40 kg.dan go‘ng solinadi. Maydon 25-30 sm chuqurlikda xaydaladi.

Gulxayri urug‘i erta bahorda (mart) yoki kech kuzda (noyabr) ekiladi. Kuzda ekilganda unishi yaxshi bo‘ladi. Bahorgi ekishda qiyg‘os unishi uchun urug‘ 2-3 soatcha 20-25 daraja iliq suvda ivitib qo‘yiladi, keyin to‘shalgan brezent yoki bo‘z ustiga yupqa qilib yoyiladi, tez qurishi uchun dam-badam aralashtirib turiladi. Sochiluvchan holga kelgach, ekiladi. Urug‘ qadash chuqurligi 1 sm atrofida, qatorlar oralig‘i 60-70 sm, gektariga 8-10 kg urug‘ sarflanadi. Sabzavot urug‘i ekish uskunasi yordamida baxyalab ekiladi.

Maysalarida 3-5 tadan chin barg hosil bo‘lgach, egat olinadi va ketma-ket suv qo‘yiladi. Birinchi sug‘orishdan 7-10 kun keyin yagona qilinadi va har 1 metr masofada 5-7 tadan baravj nihollar koldiriladi. Nixollarning bu darajada siyraklantirilishi o‘simlikning durkun bo‘lishini ta’minlaydi. Ikkinchi va undan keyingi yillarda o‘simlik bo‘yi 230-250, eni 110 smga etadi.

Gulxayri ekilgan maydon birinchi yili 4-5 marta yumshatiladi (may-avgust), 8-10 marta sug‘oriladi (may-1, iyun-2-3, iyul-3, avgust-2, sentyabr-1). Ikkinchi va keyingi yillarda 6-8 marta sug‘oriladi (iyun -2, iyul -3, avgust -2, sentyabr - 1), 2-3 marta o‘toq qilinadi (may, iyun). Zaruratga qarab o‘simliklar orasidagi begona o‘tlar qo‘l kuchi bilan o‘taladi. Gulxayri to‘plarining shox-shabbalari bir-biriga tutashib ketganidan keyin mayda begona o‘tlar o‘simlik soyasida qolib qurib ketadi, o‘sib ketgan begona o‘tlargina qo‘lda yulib tashlanadi.

O‘simlik poyasi qirqilmay, dalada qishga qoldiriladi, u qorni tutib qolishda yordam beradi, qor eriganida tuproqni o‘yilib ketishdan saqlaydi. Yoxud 10-15 sm. qoldirib, o‘roq mashinada o‘rib olinadi va molga ozuqa sifatida beriladi.

O‘rilgan poyalar daladan yig‘ib olingach, bahorda qator oralari kultivatorda yumshatiladi, ayni vaqtda har gektar erga 60 kilogrdan azotli o‘g‘itlar solinadi (aprel - may boshlarida). Shonalash oldidan (iyun boshlari), lekin o‘simlik shox-shabbalari tutashib ketguniga qadar, ikkinchi marta azotli o‘g‘it solinadi.

Gulxayri hayotining ikkinchi yili (iyulning oxiri - avgust boshlarida) meva tugadi. Urug‘lari poyasining 10 sm.dan 230 sm.gacha balandligida, asosiy qismi 60-180 sm oralig‘ida joylashadi. Mevasi pishganidan keyin uzoq vaqt to‘kilmay turadi, bu esa to avgust oyigacha urug‘ yig‘ish imkonini beradi. Buning uchun gulxayri poyasi meva joylashish balandligida o‘roq; bilan qirqiladi, bog‘-bog‘ qilib, xirmonga olib boriladi. Xirmonda g‘alla yanchiydigan to‘qmokda yanchiladi. Urug‘lari don sovurgichda tozalanib, elangach, qoplarga joylanadi.

Ildizi ikkinchi yili, oktyabr oyida yoki erta bahorda, poyalari daladan mola, lavlagi yig‘adigan yoki kartoshka kavlaydigan mashina yordamida yig‘ib olinganidan keyin qaziladi. Kurigan ildiz 20-25 kg.dan qilib qopga, 50 kg.dan qilib qutilarga joylanadi va quruq, havo almashib turadigan xonada 3 yilgacha saqlanadi.

Hosildorlik gektar hisobiga 20-22 sentnerni tashkil etadi.

Xom-ashyoni tayyorlash va uning sifati. Gulxayri o‘simligining xom-ashyosini kuzda (sentyabr-oktyabr) yer ustki qismi nobud bo‘lgach yoki bahorda aprel va may oyining birinchi yarmida o‘simlik hali ko‘karmasidan oldin ildiz va ildizpoyasini yig‘ib olinadi. Gulxayri ildizi va o‘t qismini o‘simlik vegetatsiyasining 2-3 yili yig‘iladi. Tuproq ustki kismidan 25 sm balandlikda o‘rilgan o‘tni suvsizlantiriladi, so‘ngra usti yopiq ayvonlarda, 50 sm dan oshmagan qalinlikda yoyib quritiladi. Qazib olingan ildizlarni silkitib, tuproqdan tozalanadi, oqar suvda yaxshilab yuviladi. Ularni tez, shilliqlanguniga qadar yuviladi. Keyin qurigan ildizlar 20-25 sm uzunlikda jodida qirqiladi. Yog‘ochga aylana boshlagan ildiz va ildizpoyalar olib tashlanadi, keyin pichoq bilan po‘sti shilinadi, soya joyda quritiladi. Agar egganda bukilmay sinib ketsa, demak ildiz yaxshi qurigan bo‘ladi.

Xom-ashyoning namligi 14% dan, umumiy kul miqdori 7% dan, shuningdek 10% - li sulfat kislotasida erimaydigan kul mikdori 0,5% dan, yog‘ochlashgan ildiz 3% dan, po‘stdan tozalangani 3% dan, organik aralashmalar 0,5% dan, mineral aralashmalar (tuproq, qum, tosh) 0,5% dan oshmasligi kerak. Quruq xomashyoni shamol yaxshi aylanadigan xonalarda 3 yilgacha saqlash kerak.

Tibbiyotda qo‘llanilishi va kimyoviy tarkibi. Gulxayridan tayyorlangan preparatlar himoyalovchi, yumshatuvchi, va shamollashga qarshi xususiyatlarga ega bo‘lib, balg‘am ko‘chiruvchi va og‘rik qoldiruvchi ta’sirga ega. Undan surunkali bronxit, traxeit, laringit, o‘pka pnevmaniyasi va o‘pka astmasida foydalaniladi. Shuningdek undan oshqozon gastriti va oshqozon hamda 12-barmoqli ichak yalig‘lanishida foydalaniladi. Bundan tashqari gulxayri ildizi damlamasidan tomoqni chayish, bug‘lash va ichakni yuvishda foydalaniladi.

Dorivor gulxayrining ildizi 35% shilimshiq, pentozan va geksozandan iborat. Shuningdek uning ildizida 16% gacha pektin moddalari, 37% gacha kraxmal, 10% gacha saharoza, 2% gacha asparagin, 4% gacha betain, 1,7% gacha yog‘ moddalari mavjud. Bargi va gullarida 0,02% gacha efir moylari mavjud.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Olib borilgan kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘simlikning ildiz tizimi yaxshi rivojlanganligi, havoning yozgi qurg‘oqchiligiga, tuproqning qisqa muddatli qurishiga bardoshli, shamol va qishki sovuqlarga chidamliligi tufayli, hamda tuproqning unumdorligi va tarkibiga befarqligi o‘simlikni respublikamizdagi barcha turdagi tuproqlarda o‘stirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Meliqo‘ziev, A.A., Ergeshev, D.A., Maxkamov, T.X. (2022). Invaziv o‘simlik *Amorpha fruticosa* L. ning bioekologik xususiyatlari va ko‘paytirish usullari. Academic research in educational sciences, 3(7), 168-175.
2. Сотиболдиева Д., Махкамов Т.Х., Дусчанова Г.М. Анатомо-гистологическое строение корневища *Curcuma longa* L.(сем. Zingiberaceae) в условиях интродукции) //НамДУ илмий хабарномаси. – 2019. – Т. 1. – С. 54-59.
3. Jumaboev G.Sh., Maxkamov T.X. Invaziv o‘simlik-Ispan mingboshi (*Vaccaria hispanica* (Mill.) Rauschert) ni madaniylashtirish istikbollari va urug unuvchanligi //GulDU axborotnomasi. – 2022. – T. 1. – b. 17-23.
4. Tayjanov, K., Khojimatov, O., Gafforov, Y., Makhkamov, T., Normakhamatov, N., Bussmann, R.W. Plants and fungi in the ethnomedicine of the medieval East-a review //Ethnobotany Research and Applications. – 2021. – T. 22. – p. 1-20.
5. Makhkamov T.X., Khojimatov O.K., Bussmann R.W. Salvia deserta Schangin, *Salvia sclarea* L., *Salvia virgata* Jacq.-LAMIACEAE //Ethnobiology of Uzbekistan: Ethnomedicinal Knowledge of Mountain Communities. – Cham : Springer International Publishing, 2023. – p. 673-689.
6. Jumaboev G‘.SH., Maxkamov T.X., Avazova M.A. Toshkent voxasi sharoitida ispan mingboshini yetishtirish texnologiyasi //Agro Inform. – 2022. – №. 4. – b. 30-35.
7. To‘xtaev, B.YO., Mahkamov, T.X., To‘laganov, A.A., Mamatkarimov, A.I., Mahmudov, A.V., Allayarov, M.O‘. (2015). Dorivor va ozuqabop o‘simliklar plantatsiyalarini tashkil qilish va xom ashèsini tayèrlash bo‘yicha yo‘riqnoma.
8. Akhtar, M.T., Ahmad, M., Ramadan, M.F., Makhkamov, T., Yuldashev, A., Mamarakhimov, O., ... Majeed, S. (2023). Sustainable production of biodiesel from novel non-edible oil seeds (*Descurainia sophia* L.) via green nano CeO2 catalyst. Energies, 16(3), 1534.
9. Yuldasheva, N. E., Aminova, M. (2022). *Albuca bracteata*–hind piyozini yetishtirish usullari va shifobahshlik xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 3(2), 376-384.
10. Шерматович Ж.Ғ. Определение количество общего белка в семенах Vaccaria hispanica (Caryophyllaceae), выращенного в условиях Узбекистана //Ta’lim fidoyilari. – 2022. – Т. 2. – С. 45-47.
11. Boboev, S., Makhkamov, T., Bussmann, R.W., Zafar, M., Yuldashev, A. Anatomical and phytochemical studies and ethnomedicinal uses of Colchicum autumnale L //Ethnobotany Research and Applications. – 2023. – T. 25. – p. 1-9.
12. Sotiboldieva D.I., Mahkamov T.X. Component composition of essential oils *Curcuma longa* L.(Zingiberaceae) introduced in Uzbekistan //American Journal of Plant Sciences. – 2020. – T. 11. – №. 8. – p. 1247-1253.

ADVANCING PRODUCTION-SCIENCE INTEGRATION IN SIRDARYA: A PATHWAY TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Omirzakov Rustem, Miraddin Tursinbaev
Trainee teacher at Karakalpak State University
omirzakov_r@karsu.uz
+998997412496
ORCID: 0009-0005-3317-5258
doctoral student at Karakalpak State University
motursinbaev@gmail.com
+998999560673

Abstract: The region of Sirdarya has witnessed remarkable progress in recent years, thanks to the strong synergy between production and science. This article explores the various ways in which the collaboration between these two sectors has contributed to the growth and development of the region. By analyzing the successful initiatives, we aim to provide valuable insights and advice for other regions seeking to replicate this model. The article also highlights the importance of research and innovation in driving economic prosperity and sustainable development.

Keywords: Sirdarya, production, science, synergy, economic growth, technological advancements, sustainable development, collaboration, innovation centers, academia, industry.

Introduction

In today's rapidly evolving world, the synergy between production and science is more crucial than ever. As industries strive to meet the demands of an increasingly complex global market, the integration of production processes with scientific advancements has emerged as a powerful driver of innovation. This article explores the further development of this integration and its implications for the future.[1]

The Sirdarya region in Uzbekistan is known for its efforts in science and production. The region is actively developing scientific research, which is aimed at increasing production efficiency and improving product quality. Sirdarya, a region in Uzbekistan with a rich history and abundant natural resources, is poised to embark on a journey towards sustainable development by further integrating production and science. This integration promises to drive economic growth, enhance technological innovation, and improve the overall quality of life for its residents. In recent years, Sirdarya has witnessed significant progress in this direction, with initiatives aimed at strengthening the nexus between production and scientific research. This article explores the ongoing efforts, challenges, and potential future developments in Sirdarya's quest for production-science integration. [2]

The Current Landscape

Sirdarya, known for its fertile lands, is a significant contributor to Uzbekistan's agricultural sector. Cotton, grain, and horticultural crops are major agricultural products in the region. Traditionally, agricultural practices in Sirdarya have relied on conventional methods, but recent years have seen a shift towards modernizing farming techniques, driven by scientific research and innovation. The establishment of research institutions and collaboration with universities has played a crucial role in this transformation.[3]

Key Initiatives

1. ***Research and Development Centers:*** Sirdarya has established research and development centers that focus on addressing region-specific agricultural challenges. These centers work closely with local farmers to develop and disseminate advanced farming practices. Research includes crop rotation techniques, pest control methods, and soil quality improvement strategies.

2. ***Technology Transfer Programs:*** The region has initiated technology transfer programs to bridge the gap between scientific discoveries and practical implementation. Farmers receive training and support in adopting new technologies, such as precision agriculture tools and drought-resistant crop varieties.

3. ***Academic-Industry Collaboration:*** Sirdarya's universities and academic institutions are forging partnerships with local industries, particularly in the agribusiness sector. Joint research projects and knowledge-sharing initiatives are fostering innovation and productivity.

4. ***Green Energy Initiatives:*** The region is exploring opportunities for sustainable energy production. Research into renewable energy sources, such as solar and wind power, is helping reduce the carbon footprint of production processes. [4]

Challenges and Opportunities

While Sirdarya has made significant strides in integrating production and science, several challenges remain:

1. ***Infrastructure***: Improving infrastructure, including transportation networks and irrigation systems, is crucial to maximize the benefits of modernized production techniques.

2. ***Access to Funding***: To sustain the momentum of scientific research and innovation, consistent access to funding and investment is essential.

3. ***Skills Development***: There is a need to invest in education and training to equip the local workforce with the skills required for modernized production processes.

4. ***Environmental Sustainability***: As production intensifies, there is a growing need to balance economic growth with environmental sustainability. Implementing eco-friendly practices is vital.

5. ***Market Access:*** Ensuring that the region's products have access to national and international markets is essential for long-term economic viability. [5]

Conclusion

Sirdarya's journey towards integrating production and science is an inspiring example of how regional development can be driven by innovation and collaboration. The initiatives undertaken thus far have yielded positive results, transforming traditional agricultural practices into sustainable and efficient systems. However, the region must remain committed to addressing challenges, particularly those related to infrastructure, funding, and environmental sustainability.

As Sirdarya continues to evolve, its successful integration of production and science can serve as a model for other regions seeking to harness the power of research and innovation to drive economic growth and enhance the quality of life for their residents. With continued dedication and strategic planning, Sirdarya is on the path to becoming a beacon of sustainable development in Uzbekistan and beyond.

Reference:

1. The Embassy of the Republic of Uzbekistan in the United States of America. (2020). Uzbekistan: The Synergy of Science and Production. Retrieved from https://www.uzbekistan.org/uzbekistan-the-synergy-of-science-and-production/

2. World Bank. (2021). Uzbekistan Economic Update: Synergies for Growth. Retrieved from https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/uzbekistan-economic-update-synergies-for-growth

3. UzDaily. (2021). Synergy between science and production in Sirdarya region. Retrieved from https://www.uzdaily.uz/en/post/66224

4. Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan. (2020). Innovation Centers. Retrieved from https://miid.uz/en/innovation-centers/

5. Uzbekistan National News Agency. (2021). Sirdarya region: Synergy of science and production. Retrieved from https://uza.uz/en/society/sirdarya-region-synergy-of-science-and-production-23-08-2021

РАЗВИТИЕ ПЛАТФОРМЫ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ И БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ С ВКЛЮЧЕНИЕМ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ

Барно Абдуллаева, Михаил Долгополов,
Абдумалик Эшниязов, Ольга Юсупова
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
Самарский государственный технический университет
Гулистанский государственный университет

DEVELOPMENT OF A MATHEMATICAL EDUCATION PLATFORM FOR HIGH SCHOOL STUDENTS AND FUTURE ENGINEERS WITH THE INCLUSION OF NEURAL NETWORKS

Barno Abdullayeva, Mikhail Dolgopolov,
Abdumalik Eshniyazov, Olga Yusupova

Nizami Pedagogical University
SAMARA POLYTECH
Gulistan State University

Научные направления конференции:

3. Дальнейшее развитие интеграции производства и науки в регионе;

1. Основные направления повышения инвестиционной привлекательности Сырдарьинской области и использования инновационных инструментов и возможностей.

Conference topics:

3. Further development of the integration of production and science in the region;

1. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Syrdarya region and the use of innovative tools and opportunities.

Abstract. In this explanatory report, we present important approaches, international experience in the development of mathematical education for innovative regions, attractive for their simplicity and suitability of solutions for multiparametric problems of large dimension. In the current trend, the Syrdarya region will turn into a region of advanced innovations in the fields of industry, entrepreneurship, agriculture, education and medicine. We propose to scale the platform created and developed by Samara State Technical University and to develop the experience of holding an international seminar on problems and methods of continuing mathematical education in the Commonwealth of Independent Countries and in the world.

4. Актуальность темы исследования.

Нейронные сети все чаще используются для построения методов решения задач современной и будущей инженерии. В этом пояснительном докладе мы представляем и сравниваем важные подходы, международный опыт по развитию математического образования для инновационных регионов, привлекательные своей простотой и пригодностью решения для многопараметрических задач большой размерности: нейронные сети, основанные на физике, методы, основанные на формуле Фейнмана-Каца, методы, основанные на решении обратных стохастических дифференциальных уравнений и других уравнений с динамической оптимизацией и в частных производных, варианты для построения образовательных платформ для школьников – будущих инженеров, в том числе, облачных решений и сетевых приложений.

В настоящем тренде Сырдарьинская область должна превратиться в регион передовых инноваций в сферах промышленности, предпринимательства, сельского хозяйства, образования и медицины. В инновационном регионе хоким, руководители области и районов каждый день стремятся к внедрению новшеств в сфере создания условий для населения и предпринимателей, у них изменяется мировоззрение и подходы.

В текущих условиях и обстановке в мировом пространстве и среднеазиатском регионе, в особенности, и в целом в Азии, где Узбекистан закрепляет успешно роль международного хаба образовательной среды передового мирового уровня, огромный опыт в направлениях науки, инноваций, инженерии, электротехники, робототехники и IT требует развития компетенций применения новейших методов усвоения молодежью математических знаний как основы развития новых технологий во всех сферах деятельности.

5. Обсуждения и дискуссии.

Впечатляющие успехи нейронных сетей в задачах машинного обучения, таких как компьютерное зрение, обработка естественной речи и теория игр, а также перспектива использования вычислительной мощности специализированного оборудования, такого как

гибридные компьютеры, тензорные процессоры Google и нейронный движок Apple, предназначенные для эффективной работы нейронных сетей, побудили научное сообщество исследовать их возможности, как для высокопроизводительных вычислительных задач, так и для повседневных задач производства и науки. В результате появилась новая захватывающая область исследований, известная как научное машинное обучение, где такие методы, как глубокие нейронные сети и статистическое обучение, применяются в решении классических задач прикладной математики.

Одно из обоснованных намерений состоит в том, чтобы предоставить доступное введение в последние разработки в области численного решения линейных и нелинейных дифференциальных уравнений с частными производными, динамических уравнений с использованием методов машинного обучения и искусственного интеллекта. В работе [1] рассмотрены три подхода, приводится обширная библиография современного состояния дел. Статья [1] сопровождается набором пояснительного программного обеспечения в виде записных книжек Jupyter, в которых пошагово объясняется каждая базовая методология, что позволяет быстро усвоить ее и поэкспериментировать.

В Самарском государственном техническом университете внедрена информационно-аналитическая образовательная платформа непрерывного образования "Политех/Математика" [2], и она находится на этапе активного наполнения и адаптации методов искусственного интеллекта с задачами обратного вызова на запросы. Платформа и программы сопровождения предназначены для использования в образовательном учреждении как инструменты, позволяющие непрерывно повышать уровень образования и компетенций участников образовательного процесса. Платформа объединяет на своей базе информацию о конкурсах, олимпиадах, научных конференциях, образовательных курсах и образовательных и научных материалах, анализирует индивидуальные образовательные и научные компетенции каждого участника и формирует индивидуальные траектории дальнейшего обучения с выдачей индивидуальных рекомендаций. Используемый тип ЭВМ: IBM PC-совмест. ПК; ОС: Windows XP/Vista/7/10, macOS, Linux.

Таким образом, обосновав неотъемлемый тренд развития информационных IT технологий в плане нейросетей и искусственного интеллекта и необходимость в синергии развивать математическое образование на стадии школьной и для абитуриентов и учителей, с целями инженерного образования и освоения возможностей, которые предоставляют узкоспециализированные нейросети на гибридных компьютерах, решая большинство научно-технических задач быстрее человека, постараемся отметить доступным языком, как нейросети могут помочь нам с преподаванием математики.

Нейросети могут создать интерактивные учебные модули, которые включают в себя мультимедиа, игровые элементы, викторины и тесты. Это делает процесс обучения математике более вовлекающим и интерактивным, что может быть особенно полезно для школьников.

С помощью нейросетей возможно получать подробные объяснения решения задач, которые они находят сложными. Вместо того, чтобы просто предоставить ответ, нейросети могут объяснить каждый шаг решения, что помогает ученикам лучше понять процесс.

Нейросети могут помочь визуализировать сложные математические концепции, такие как графики функций, пространственные геометрические фигуры, и многое другое. Это может сделать математику более интересной и понятной для визуально-ориентированных учеников.

Использование нейросетей в преподавании математики открывает новые горизонты для более глубокого и продуктивного понимания предмета у обучающихся. Наша цель здесь и сейчас – помочь ученикам не просто запоминать формулы, а понимать, как они работают и как их можно применить.

Нейросети и машинное обучение включены, например, в аналитическую систему Wolfram Mathematica, с многочисленными примерами использования не только в математике, но и в биологии, сельском хозяйстве, экономике и в других областях. Отметим здесь мощнейшие возможности Wolfram Mathematica визуализации и демонстрации в задачах многопараметрических. Ряд курсов по уравнениям математической физики, теории функций комплексных переменных, прикладной математике и другим предметам математики [3]

развиты и преподаются в Самарском государственном техническом университете и Ташкентском государственном педагогическом университете имени Низами [4,5].

Также активно использовать возможно с мероприятиями сетевой научный форум как форму привлечения молодежи к научно-исследовательской деятельности [6] и концепцию интегрированной формы повышения квалификации [7].

6. Научно обоснованные предложения и рекомендации.

На основе современных тенденций, представленных в докладе, примеров и опыта, в заключение представим ряд предложений к совместному развитию. Предлагаем:

3. Масштабировать платформу, созданную и развиваемую Самарским государственным техническим университетом, на образовательную среду на базе Гулистанского государственного университета для решения задач широкой подготовки инженеров для Сырдарьинской области как региона передовых инноваций, заключив договор о сотрудничестве.

4. Дополнить и перевести на узбекский и английский языки ряд совместных пособий, с целями создания комфортного обучения и перспективами подготовки специалистов мирового уровня.

5. Организовать проведение регулярного международного семинара по проблемам и методикам непрерывного математического образования в странах СНГ и в мире на базе партнеров с участием Ташкентского государственного педагогического университета, Гулистанского государственного университета и Самарского государственного технического университета, с повышением квалификации и вариантами переподготовки.

7. Список использованной литературы.

[1] Blechschmidt J, Ernst OG. Three ways to solve partial differential equations withneural networks — A review. GAMM-Mitteilungen. 2021; Volume44, Issue2, Special Issue: Scientific Machine Learning - Part II: e202100006.

[2] Свидетельство о государственной регистрации программы для ЭВМ № 2020619256 Российская Федерация. Информационно-аналитическая образовательная платформа непрерывного образования "Политех / Математика": № 2020618471: заявл. 28.07.2020: опубл. 13.08.2020 / С.Г. Новокщенов, О.В. Юсупова; заявитель Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования "Самарский государственный технический университет".

[3] Теория рядов. Гурская А.В., Долгополов М.В., Родионова И.Н., Тургунбаев Р.М. Ташкент, 2022.

[4] Исследование принципов развития математической компетентности студентов высших образовательных учреждений. 2020. Рук. Абдуллаева Б.С.

[5] Международный онлайн-семинар «Проблемы современного непрерывного математического образования в странах СНГ и в мире» на базе Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами. 2021-2022 гг. Электронные материалы.

[6] Долгополов М.В., Зубарев А.П. Сетевой научный форум как новая форма привлечения молодежи к научно-исследовательской деятельности. Стратегические цели вуза в условиях инновационной образовательной деятельности. 2011. С. 113-115.

[7] Долгополов М.В., Зубарев А.П. Концепция интегрированной формы повышения квалификации. Вестник учебно-методического совета Самарского государственного университета. 2010. С. 88-90.

МОДЕЛИРОВАНИЕ ТЕРМОУПРУГИХ ПРОЦЕССОВ НА ОСНОВЕ ДИНАМИЧЕСКИХ СВЯЗАННЫХ ЗАДАЧ В НАПРЯЖЕНИЯХ

Каландаров А.А.[1], Каландаров А.[2]

[1]ГулГПИ, проректор по учебным делам, PhD по физико-математическим наукам, доцент

[2]ГулГУ, старший преподаватель

Аннотация. В статье предложена математическая модель термоупругости сформулированная как динамическая связанная задача в напряжениях. Разработаны явные и

неявные конечно-разностные соотношения, которые дают возможность вычислить численные решения рассматриваемой задачи. В качестве примера численно решена одномерная связанная динамическая задача для изотропных тел, с использованием явных и неявных конечно-разностных схем.

Ключевые слова. Термоупругость, напряжения, деформации, явная схема, неявная схема, сходимость.

Введение

Математическое и компьютерное моделирование термоупругих и термопластических процессов является актуальной проблемой математического и компьютерного моделирования. При математической постановке термо-упруго-пластических задач используются связанные и несвязанные краевые задачи [3,7,8].

В общем случае, связанная динамическая краевая задача термоупругости состоит из уравнения движения, соотношения между напряжениями и деформациями с учетом температуры, соотношения между деформациями и перемещениями, уравнения притока тепла и с соответствующими начальными и краевыми условиями. Если внешние факторы вызывающие движение тела изменяются во времени очень медленно, то в уравнении движения можно пренебречь инерционными членами, в этом случае имеем квазистатическую задачу. Если величины, вызывающие деформацию и температуру, изменяются достаточно медленно от нуля до своих конечных значений и остаются в таком состоянии, то мы получим статическую задачу. В этом случае имеем несвязанную задачу термоупругости. Все выше изложенные задачи термоупругости и термопластичности обычно решаются в перемещениях [1,2,4-6]. Если начальные и краевые условия заданы в напряжениях, задачу надо сформулировать в напряжениях. В этом случаи придётся добавить уравнения Бельтрами-Митчелла. В предложенной математической модели связанной динамической задачи термоупругости мы избежали использования уравнений Бельтрами-Митчелла.

Предложенный численный метод решения термоупругих краевых задач и полученные результаты могут быть использованны при численном моделировании и определении запасов прочности и надежности современных технических объектов и сооружений из композиционных материалов находящихся под действием тепломеханических воздействий

Постановка задачи

Рассмотрим математическую модель связанной задачи термоупругости в напряжениях для изотропных тел, которая состоит из уравнений движения

$$\sum_{j=1}^{3}\sigma_{ij,j}+X_i=\rho\ddot{u}_i \qquad (1)$$

соотношения Дюгамеля-Неймана

$$\sigma_{ij}=\lambda\theta\delta_{ij}+2\mu\varepsilon_{ij}-\gamma(T-T_0)\delta_{ij} \qquad (2)$$

соотношения Коши

$$\varepsilon_{ij}=\frac{1}{2}\left(u_{i,j}+u_{j,i}\right) \qquad (3)$$

уравнения притока тепла для изотропных тел

$$\lambda_0 T_{,ii}-c_\varepsilon\dot{T}-\gamma T\dot{\varepsilon}_{ii}=0 \qquad (4)$$

и соответствующие начальные и краевые условия.

Где σ_{ij} – тензор напряжений, ε_{ij} – тензор деформаций, u_i – перемещения, θ – шаровая части тензора деформаций, λ,μ – упругие постоянные Ламе, X_i – объемная сила, δ_{ij} – символ Кронекера, c_ε – теплоемкость при постоянной деформации, ρ – плотность тела, $\gamma=(3\lambda+2\mu)\alpha$, α – коэффициент теплового расширения, λ_0 – коэффициент теплопроводности.

Уравнения (1-4) в одномерном случаи имеют следующий вид

$$\begin{cases} \dfrac{\partial \sigma}{\partial x} + X = \rho \dfrac{\partial^2 u}{\partial t^2} \\ \sigma = (\lambda + 2\mu)\varepsilon - \gamma (T - T_0) \\ \varepsilon = \dfrac{\partial u}{\partial x} \\ \lambda_0 \dfrac{\partial^2 T}{\partial x^2} - c_\varepsilon \dfrac{\partial T}{\partial t} - \gamma T \dfrac{\partial \varepsilon}{\partial t} = 0 \end{cases} \quad (5)$$

Если начальные и краевые условия заданы в перемещениях и температуре [3], задача формулируется в перемещениях, но в нашем случае начальные и краевые условия заданы в напряжениях и температуре. После некоторых преобразований систему (5) можно привести к следующему виду

$$\begin{cases} \dfrac{\partial^2 \sigma}{\partial t^2} = \dfrac{\lambda + 2\mu}{\rho} \dfrac{\partial^2 \sigma}{\partial x^2} - \gamma \dfrac{\partial^2 T}{\partial t^2} \\ \dfrac{\partial T}{\partial t} = \dfrac{\lambda_0}{k} \dfrac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \dfrac{\beta}{k} \dfrac{\partial \sigma}{\partial t} \end{cases} \quad (6)$$

где

$$k = c_\varepsilon + \frac{\gamma^2 T_0}{\lambda + 2\mu}, \ \beta = \frac{\gamma T_0}{\lambda + 2\mu}.$$

Систему уравнений (6) рассмотрим с соответствующими начальными

$$\sigma(x,t)\big|_{t=0} = \phi, \ \frac{\partial \sigma}{\partial t}\bigg|_{t=0} = \psi, \ T(x,t)\big|_{t=0} = T_0 \quad (7)$$

и краевыми условиями

$$\sigma(x,t)\big|_{x=0} = \sigma_0; \ \sigma(x,t)\big|_{x=\ell} = \overline{\sigma}_0; \ T(x,t)\big|_{x=0} = T_1(t), \ T(x,t)\big|_{x=\ell} = T_2(t). \quad (8)$$

Как видно в системе (6) неизвестными являются напряжения и температура, в первом уравнении температура влияет на напряжение, во втором уравнении напряжение влияет на температуру. Система (6) с соответствующими начальными (7) и краевыми (8) условиями составляют связанную динамическую краевую задачу термоупругости в напряжениях.

Численная реализация

При численной реализации можно использовать явные или неявные конечно разностные уравнения. Рассмотрим явную схему. Заменяя в уравнениях (6) производные конечно-разностными соотношениями, получим

$$\begin{cases} \dfrac{\sigma_i^{j+1} - 2\sigma_i^j + \sigma_i^{j-1}}{\tau^2} = \dfrac{\lambda + 2\mu}{\rho} \dfrac{\sigma_{i+1}^j - 2\sigma_i^j + \sigma_{i-1}^j}{h^2} - \gamma \dfrac{T_i^{j+1} - 2T_i^j + T_i^{j-1}}{\tau^2} \\ \dfrac{T_i^{j+1} - T_i^j}{\tau} = \dfrac{\lambda_0}{k} \dfrac{T_{i+1}^j - 2T_i^j + T_{i-1}^j}{h^2} + \dfrac{\beta}{k} \dfrac{\sigma_i^j - \sigma_i^{j-1}}{\tau} \end{cases} \quad (9)$$

Решим разностные уравнения (9) относительно σ_i^{j+1} и T_i^{j+1} соответственно, получим

$$\begin{cases} \sigma_i^{j+1} = \dfrac{\tau^2(\lambda + 2\mu)}{\rho h^2}(\sigma_{i+1}^j - 2\sigma_i^j + \sigma_{i-1}^j) - \gamma(T_i^{j+1} - 2T_i^j + T_i^{j-1}) + 2\sigma_i^j - \sigma_i^{j-1} \\ T_i^{j+1} = \dfrac{\tau\lambda_0}{kh^2}(T_{i+1}^j - 2T_i^j + T_{i-1}^j) + \dfrac{\beta}{k}(\sigma_i^j - \sigma_i^{j-1}) + T_i^j \end{cases} \quad (10)$$

Разностные уравнения (10) с использованием начальных и краевых условий (7)-(8) дают возможность вычислить значения искомых функций на *(j+1)* слое по времени.

При использовании явных конечно-разностных схем нужно иметь в виду ограничения шага по времени.

Далее рассмотрим неявные конечно-разностные уравнения.

$$\begin{cases} \dfrac{\sigma_i^{j+1}-2\sigma_i^{j}+\sigma_i^{j-1}}{\tau^2}=\dfrac{\lambda+2\mu}{\rho}\dfrac{\sigma_{i+1}^{j+1}-2\sigma_i^{j+1}+\sigma_{i-1}^{j+1}}{h^2}-\gamma\dfrac{T_i^{j+1}-2T_i^{j}+T_i^{j-1}}{\tau^2} \\ \dfrac{T_i^{j+1}-T_i^{j}}{\tau}=\dfrac{\lambda_0}{k}\dfrac{T_{i+1}^{j+1}-2T_i^{j+1}+T_{i-1}^{j+1}}{h^2}+\dfrac{\beta}{k}\dfrac{\sigma_i^{j}-\sigma_i^{j-1}}{\tau} \end{cases} \quad (11)$$

Первое уравнение системы (11) можно привести к следующему трёхдиагональному виду

$$a_i\sigma_{i+1}^{j+1}+b_i\sigma_i^{j+1}+c_i\sigma_{i-1}^{j+1}=f_i \quad (12)$$

где

$$a_i=\frac{\lambda+2\mu}{\rho h^2}\ ,\ b_i=-\frac{2(\lambda+2\mu)}{\rho h^2}-\frac{1}{\tau^2}\ ,\ c_i=\frac{\lambda+2\mu}{\rho h^2}$$

$$f_i=\gamma\frac{T_i^{j+1}-2T_i^{j}+T_i^{j-1}}{\tau^2}-\frac{2\sigma_i^{j}-\sigma_i^{j-1}}{\tau^2}\ .$$

Аналогичным образом можно привести и второе уравнение системы (11) к трёхдиагональному виду

$$a_i^1T_{i+1}^{j+1}+b_i^1T_i^{j+1}+c_i^1T_{i-1}^{j+1}=f_i^1 \quad (13)$$

где

$$a_i^1=\frac{\lambda_0}{kh^2}\ ,\ b_i^1=-\frac{\lambda_0}{kh^2}-\frac{1}{\tau}\ ,\ c_i^1=\frac{\lambda_0}{kh^2}$$

$$f_i^1=-\frac{1}{\tau}T_i^{j}-\frac{\beta}{k}\frac{\sigma_i^{j}-\sigma_i^{j-1}}{\tau}$$

Определив значения искомых функций $\sigma(x,t)$ на *j=0* и *j=1* начальных слоях и $T(x,t)$ на слое *j=0* из начальных условий, далее пользуясь граничными условиями решаем уравнения (12) и (13) методом прогонки или итерационным методом.

Заключение

В данной статье рассмотрена математическая модель связанной динамической краевой задачи термоупругости относительно напряжений в одномерном случае. Нами разработан алгоритм и программные средства для численного решения связанных задач термоупругости на основе явных и неявных конечно-разностных уравнений. Предложенная математическая модель очень удобна при решении граничных задач, когда краевые условия заданы в напряжениях. Предложенный алгоритм решения может быть использован при численном решении термопластических краевых задач.

Список литературы

1. Победря Б. Е. Численные методы в теории упругости и пластичности. -М.: МГУ, 1996. - 343с.

2. Халджигитов А.А., Каландаров А.А., Юсупов Ю.С. Связанные задачи термоупругости и термопластичности. – Ташкент: «Fan va texnologiya», 2019. – 204 с.

3. Tauchert T.R. Publications On Thermal Stresses. // J. Therm. Stress. - 2001. - Vol. 24, № 1. - P. 91-92.

4. Qalandarov A.A., Khaldjigitov A.A. Mathematical and numerical modeling of the coupled dynamic thermoelastic problem for isotropic bodies. TWMS Journal of Pure and Applied Mathematics. Vol. 11, N. 1, 2020, pp. 119-126.

5. Khaldjigitov A.A., Kalandarov A.A., Djumayozov U.Z. Numerical modeling of coupled problems of thermo-plasticity on non-uniform meshes // 2nd International Conference on Energetics,

Civil and Agricultural Engineering 14-16 Oktober, 2021, Tashkent, AIP Conference Proceedings 2686, 020010 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0114013.

6. Khaldjigitov A.A., Kalandarov A.A., Djumayozov U.Z. // *Finite-Difference Equations for 2D Elasticity Problems on a Non-Uniform Grid //* International Conference on Actual Problems of Applied Mechanics APAM – 2021, 27-29 October, Samarkand, AIP Conference Proceedings 2637, 030005 (2022) https://doi.org/10.1063/5.0118482.

7. Youssef H. M., Al-Felali A.S. Generalized Thermoelasticity Problem of Material Subjected to Thermal Loading Due to Laser Pulse. Applied Mathematics, 2012, 3, 142-146.

8. Бородин П.Ю., Галанин М.П. Динамическая связанная задача термоупругости в различных пространственных приближениях. Математическое моделирование. Том 10 номер 3, 1998, с.61-82.

ISHLAB CHIQARISH VA FAN INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Xusanova Dilnoza Alimqul qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

O‘zbekiston Respublikasida joriy etilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida ishlab chiqarish va fan integratsiyasini rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Hozirgi kunda barcha sohalarni raqamlashtirish va turli xil yo‘nalishlarda chuqur ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish tendensiyalari amalga oshirilmoqda. Mazkur tendensiyalarni Sirdaryo viloyati misolida tavsiflaymiz. Ishlab chiqarish va fan integratsiyasini rivojlantirish katta sarmoyani talab etadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ilm-fan va ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun katta mablag‘ ajratilayotganlini ham alohida ta’kidlash joiz. Avvalo, integratsiya so‘ziga ta’rif berish lozim. “Integratsiya - [lot. integratio – tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish] 1.Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2.Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni.”[1] Ta’lim, fan, innovatsiyalar va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish birinchi darajali vazifa sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi PQ-216-sonli “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risda”gi qarorining qabul qilinishi ushbu sohaning huquqiy jihatdan mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi. Ushbu qarorga ko‘ra: “Qo‘shma ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirish, ilm-fan yutuqlarini joriy etish bo‘yicha agroklasterlar, kooperativlar va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari, nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari vakillaridan iborat ilmiy-innovatsion guruhlar tashkil etiladi”,– deya belgilab qo‘yildi.[2] Sirdaryo viloyati misolida fan va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish, ularni jahon standartlariga tenglashtirishda yirik islohotlarning amalga oshirilishi lozimligi dolzarb va muhim sanaladi. Sirdaryo viloyatida ilm-fan integratsiyasini takomillashtirish uchun oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, talaba yoshlar o‘rtasida ko‘proq ilmiy faoliyatni targ‘ib etish, ularni jalb qilish zarur. Bundan tashqari, ta’limda raqamlashtirish va chuqur tadqiqotlar bilan shug‘ullanadigan mutaxassis, kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Sirdayo viloyatida ishlab chiqarish va fan integratsiyasini qanday rivojlantirish mumkin? Buning aniq mexanizmini yaratish, keng qamrovda targ‘ib va tashviq ishlarini olib borish uchun quyidagi reja va maqsadlarni ishlab chiqish zarur:

–sifatli, samarali va raqamli ta’limni ta’minlash;

–oliy ta’lim tizimi bitiruvchilarini samarali ish joylari bilan ta’minlash va ularning kelajakdagi iqtidorlarini yuzaga chiqarish uchun sharoitlar yaratib berish;

–ta’limda ishlab chiqarish infratuzilmasi va amaliy misollardan keng foydalanish kabi yo‘nalishlarda oliy ta’lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini ta’minlash;

–yangi texnika-texnologiyalarga moslashgan, ishlab chiqarishni tushunib yetadigan mutaxassislarni shakllantirish;

–tarmoq korxonalari, xususiy ishlab chiqarish ob’ektlari faoliyati bilan o‘quv jarayonini uyg‘unlashtirish;

–tahsil oluvchilarning o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash;

–tajribali amaliyotchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish.

Bir so‘z bilan aytganda, mazkur viloyatda ilm-fan, innovatsiya va ta’limni milliy qadriyatlarimizga, mintelitetimizga hamohang tarzda insonparvarlik, millatparvarlik tamoyillari bilan sug‘orilgan ruhan tetiklik, sog‘lom tan va aql hamda zamonaviy intellektual salohiyatni shakllantirish orqali rivojlantirishimiz kerak. Bu sifat va rivojlanish demakdir. Aslida, jahon tajribasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish, nusxa olish kutilgan natijani bermaydi. Har bir mamlakatning taraqqiyoti darajasi, ishlab chiqarish va ta’lim tizimining rivojlanganlik darajasi iqtisodiyotning turli sohalaridan kelib chiqib, izchil tizim yaratilishi zarur. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan PQ-4805-sonli 2020-yil 12-avgustda qabul qilingan qarorga ko‘ra: “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, tegishli ilmiy va oliy ta’lim muassasalari rahbarlari — ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud muammolarining ilmiy yechimiga qaratilgan ilmiy hajmdor mahsulotlar yaratilishini, mazkur tuzilmalarning ilmiy-kadrlar salohiyatini oshirishga ko’maklashish yuzasidan muntazam ravishda tegishli tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirsin”,–deya alohida ta’kidlab qo‘yilgan.[3] Bu kabi huquqiy asoslarning mavjudligi fan va ishlab chiqarish integratsiyasining rivojlanishiga bevosita asos bo‘ladi. Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish uchun biznes yuritish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi tarmoq korxonalarini yaratish, klasterlar tizimini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni amalga oshirish joiz. Hozir esa ko‘plab xususiy korxonalar tashkil etilganligi, tarmoqlarda ishlab chiqarish ob’ektlari ko‘payayotganligi quvonarli holat. Mutaxassis, kadrlarni to‘laqonli ish bilan ta’minlash asosiy vazifamiz bo‘lib turgan hozirgi jarayonda oliy ta’limning ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyasini ta’minlashimiz o‘ta muhim. Asosiy maqsad oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish, yoshlar o‘rtasida ilmiy va ijodiy hamkorlikni rivojlantirish, fikr, tajriba almashish uchun sharoit yaratish, yoshlarni ilmiy - texnik rivojlanish yo‘lida birlashtirish, shuningdek, yosh olimlarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishdir. Sirdaryo viloyatida innovatsion rivojlanish tendensiyalari haqida gapiradigan bo‘lsak, hozir butun dunyoda sanoatni rivojlantirishdan ham ko‘ra, ilmga, innovatsiya va ta’limga ko‘proq mablag‘lar sarflanmoqda. Shu bilan birga hozir inqilobiy innovatsiyalar davri ham emas. Deylik, elektr paydo bo‘lishi natijasida yuzaga kelgan innovatsion rivojlanish bilan solishtiradigan bo‘lsak, hozirgi rivojlanishimiz u qadar shiddat bilan ketmayotganini anglash qiyin emas. Sirdaryo viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari fan integratdiyasini ta’minlash uchun sifatli kadrlar zaxirasini yaratib berishi kerak. Sirdaryo viloyatida talaba-yoshlar uchun amaliyot va stajirovka (internship)larni tashkil etish, ish bilan ta’minlash, birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish kabi qator masalalarning targ‘ib qilishi kerak. Yurtimiz aholisi o‘sish sur’ati jihatidan yuqori bo‘lgani sababli biz aholisi yosh davlat sanalamiz, bu, biz uchun katta yutug‘imiz va shu birga oldimizga yangi vazifalar va maqsadlarni qo‘yadi. Sirdaryo viloyatida o‘quv dasturlarini dunyo hamjamiyati bilan hamohangligini oshirish, talabalar uchun infratuzilmalar yaratish, laboratoriyalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, qolaversa, o‘quv qo‘llanmalaridagi ijobiy o‘zgarishlarni joriy etishni e’tirof etish kerak. Lekin shu bilan birga qator tizimli muammolar ham saqlanib turibdi. Prezidentimiz murojaatnomada bejiz ta’lim sifati va samarasini ko‘tarish kerakligiga alohida urg‘u bermadilar. Avval qilingan asosiy ishlar oliy ta’limni jonlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish bo‘lgan bo‘lsa, keyingi vazifamiz oliy ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning hamohangligi, bir-biriga uyg‘unligini ta’minlashdir.

Xulosa qilib aytganda, Sirdaryo viloyatida ilm-fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlash uchun chuqur ilmiy-tadqiqotlar yoki raqamlashtirilgan platformalarning yaratilishiga ko‘nikmasi bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlaydigan tizimni yaratishimiz kerak. Ilmiy kadrlarni tayyorlash, professor-o‘qituvchilarning ilmiy-salohiyatini oshirish fan va ta’lim integratsiyasida muhim sanaladi. Ushbu ishlab chiqarish va fan integratsiyasini ta’minlash Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshida jamlanganligi mazkur sohalarni uyg‘unlashishini ta’minlaydi. Sirdaryo viloyatida fan va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishning huquqiy negizlarini mustahkamlash talabalarning olayotgan nazariy bilimlarini jamiyat hayotida qo‘llay olish malakasini shakllantirishlari orqali nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.2. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006
2. “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risda”gi PQ-216-sonli qaror, 7-iyul 2023-yil.
3. “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805 sonli qaror 12-avgust 2020-yil.

SHAXSNING SHAKLLANISH JARAYONIDA HARAKATLANTIRUVCHI KUCHLAR

Abdurahmonova Malikaxon Ergashxon qizi

Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti biologiya ta’lim yo‘nalishi 02/20-guruh talabasi, ‘‘Grand’’ va ‘‘Mega Ziyo‘‘ o‘quv markazlari repititor o‘qituvchisi

Mavzuning dolzarbligi: Shaxsning shakllanish jarayonida harakatlantiruvchi kuchlar hozirgi shiddat bilan rivojlanayapkan zamonda eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki aynan bolaning shakllanish jarayonida unga ta’sir etuvchi kuchlar shu bolani har hil yo‘nalishda tarbiya etadi. Ya’ni shaxs shakllanishi, uning jamiyat va davlat oldida yetuk inson bo‘lishi uning shakllanish jarayonidagi harakatlantiruvchi kuchlarga bog‘liq.

Ilg‘or pedagogik texnologiya “O‘qituvchi - ta’lim – o‘quvchi” tamoyiliga asoslanib unda o‘quvchi sub’ektga, ya’ni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, uning izlanishiga, mushohada yuritishiga sharoit yaratib beriladi. Bunda o‘quv dasturi va darslik shu jarayonning bevosita tashkilotchisi, o‘qituvchi esa mazkur murakkab jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarishi kerak.

Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablarning barcha o‘quvchilar tomonidan to‘la-to‘kis bajarilishiga, ta’lim samaradorligini oshirishga erishish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni (qo‘llash) izlash, yangiliklarni yaratish va amaliyotga joriy etish lozim. Bashariyat moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, tabiat, jamiyat va inson tafakkurida amal qiladigan qonuniyatlarni bilish, moddiy hamda ma’naviy olam haqidagi bilimlarni yoshlarga o‘rgatish yoli bilan rivojlanadi. Bu jarayonlarga yetarli ahamiyat bermaslik, ularning birontasini e’tibordan chetda qoldirish jamiyatni inqirozga olib keladi. Moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish umuminsoniy tajriba bolib, u jamiyatning iqtisodiy negizini yaratishga yonalgan. Tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini falsafa, tabiiy va ijtimoiy fanlar tadqiq etadi. Bu fanlar sohasida to‘plagan bilimlar insoniyatning o‘zi uchun xizmat qiladi. Ma’lumot mazmunida hozirgi zamon fani, texnikasi madaniyati, ishlab chiqarishi va fikrlashining umumiy asoslari aks etadi. Binobarin, ma’lumot mazmunida fan, texnika, madaniyat, ishlab chiqarish, tafakkurga oid yetakchi qarashlar, goyalar, nazariyalar, faktlar beriladi, qarashlar, goyalar, nazariyalar, faktlar ortasidagi boglanishlar ma’lumot logikasi sanaladi. Ma’lumot logikasini bolalarning tayyorgarligi, yosh xususiyatlariga moslab tanlash va ularga pedagogik ishlov berish masalalari bilan ma’lumot nazariyasi shugullanadi. Keyingi yillarda ma’lumot mazmuniga sistem yondashish moyilligi kuchayib bormoqda. M.N.Skatkin, V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lerner kabi qator olimlarning, ilmiy tadqiqotlarida ma’lumot mazmunining quyidagi to‘rtta elementdan iborat ekanligi isbotlandi:

- bilimlar tizimi. Bilim - tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qiladigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko‘rinishidir. Bilimlar qarash, g‘oya, ta’rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, fakt va sh.k. shaklida beriladi;
- ko‘nikma va malakalar - bilimlarni o‘zlashtirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish yo‘llari bilan shakllanadi. Malakaning quyi bosqichiga ko‘nikma deyiladi.

Iqtidor masalasiga psixologik yondashilsa, iqtidor ijodiy faoliyat tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, an’anaga aylangan fikrlash va faoliyat chegarasidan tashqariga chiqish demakdir. O‘quv va hayotiy muammolarni original usullar bilan xal etish, oz oldiga vazifalar qoya bilish faoliyat korsatishning yangicha usullarini egallash yollari bilan oquvchilar ijodiy faoliyat tajribasini egallashadi;

Iqtidorli o‘quvchi deganda: DTS talablariga javob beradigan, fanlarni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan, ta’limning tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini to‘laqonli bajarishda, dars jarayoni chiroyli o‘tishida o‘qituvchiga eng yaqin ko‘makchi bo‘lgan o‘quvchilar. Bunday

o‘quvchilarda idrok, tushunish, umumlashtirish va fikrlash qobiliyatlari yaxshi rivojlangan. Endi bu tushunchalarga alohida to‘xtalamiz:

IDROK. O‘rganilgan narsa-xodisa mohiyatining ongda aks etishi - in’ikosi idrok deb yuritiladi. U keng tushuncha bolib, sezgi a’zolari (korish, eshitish kabi oquvlar yordamida xis qilingan narsalar haqidagi bilimlar, tajribadan oldin otgan narsa-hodisalar togrisidagi tasavvurlar, narsa-hodisalarni tanish va ajratishga oid tajribalarni ham oziga qamrab oladi.O‘qituvchining vazifasi bolalarning o‘quv materialini faol idrok etishini ta’minlash, turli motivlarni (xavas, ishtiyoq, qiziqish) uygotish, imkoniyatiga qarab sezgi a’zolarining aksariyatini ta’limda qatnashtirishdan iborat.

TUSHUNISH. Idrokning rivojlangan yuqori shakli tushunish hisoblanadi. O‘rganilayotgan narsa-hodisa tarkibini faxmlash, ular ortasidagi munosabat, aloqalarni tahlil etish, tushunchalarning asosiy va ikkilamchi belgilarini ajratish, oquv materialining tarkibiy elementlari va ular urtasidagi bog‘lanishlarni bilish, sababiyatli aloqalarni fahmlash yo‘llari bilan idrok etilgan bilimlar tushuncha darajasiga ko‘tarila boradi.

FIKRLASH. O‘quv materiali xususiyatlari to‘g‘risida oylash, narsa-hodisalarni o‘zaro taqqoslab, ularning xususiyatlarini ajratish, qo‘yilgan topshiriq, muammolarni yechish yo‘llari bilan bolalarning fikrlashi tashkil etiladi. Tushunilgan o‘quv materiallari to‘g‘risida fikrlash o‘zlashtirilgan bilimlarning yanada yuqori darajaga ko‘tarilishini ta’minlaydi. Mustakil ish, o‘quv topshiriqlarini ta’limga tatbiq etish, muammo va savollarni ortaga tashlash fikrlash jarayonining samaradorligini oshiradi.

UMUMLASHTIRISH. O‘zlashtirishning eng yuqori darajasi umumlashtirish bo‘lib, u o‘quv materialining asosiy xususiyatlarini ajratish va, aksincha bilimlarni bir tizimga solish, o‘rganilgan bilimlarni yangi o‘quv sharoitlariga tatbiq etish shakllarida amal qiladi.

Umumlashtirishning ikki xil ko‘rinishi mavjud: empirik umumlashtirish bunda o‘rganilayotgan hodisaning xis qilingan xususiyatlari o‘zaro taqqoslanadi, ikkilamchi belgilar hisobga olinmaydi, o‘xshash belgilar umumiy xususiyat sifatida qabul qilinadi; tushuncha darajasida umumlashtirish - bunda organilayotgan hodisaning umumiy xususiyatlari nazarda tutiladi. Mashq paytida yuqori darajada umumlashtirishni taqozo etadigan ish turlari, topshiriqlardan foydalaniladi. Empirik umumlashtirish har bir mashg‘ulotda tushuncha darajasidagi umumlashtirish otilgan temalar yuzasidan xulosalar chiqarishda, o‘quv predmetlarining bo‘limlari, boblari bo‘yicha qilingan ishlarni ma’lum tizimga solish maqsadida qo‘llaniladi.

MUSTAHKAMLASH. O‘zlashtirish jarayonining eng muxim tarkibiy qismi mustaxkamlashdir. O‘rganilgan ta’rif, qoidalarni qayta esga tushirish, o‘quv matrialiga oid qo‘shimcha faktlarni to‘plash va taxlil etish, yangi topshiriqlarni bajarish, mashk qilish, qo‘yilgan savollarga yana takroriy javob qaytarish, o‘quv materiali elementlari to‘g‘risida o‘ylab bilim, faoliyat usullarini qayta eslash va faoliyat ko‘rsatish yo‘llari bilan bilimlar mustahkamlanadi. Mustahkamlashning fiziologik asosi ongda hosil qilinadigan mustahkam, takroriy bog‘lanishlar bo‘lib, ular bilimlarni amaliyotga to‘g‘ri tatbiq eta olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, tarbiya shaxsni muayyan yonalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy munosabatdir.

Bu jarayonda shaxsning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar, omillar hamda tarbiyalanuvchilarning yoshi, shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olinadi. Tarbiya bir joyda tarbiyalanuvchilarga ta’sir ko‘rsatadigan barcha zvenolar birlashib, ahillik bilan ishlashga erishiladi va har bir shaxs o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatiga ertaroq ega bo‘ladi. Tarbiya aksariyat holatlarda keng ma’noda ishlatilib ta’lim, ma’lumot rivojlanish jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi. Ularning natijalarini o‘zida aks ettiradi. Ta’lim - tarbiya jarayonini ilmiy asosda ijodiy tashkil etish shaxs barkamolligining asosidir. Kamol topib borayotgan yoshlarni ta’lim - ilm berish orqali tarbiyalash, ular ongiga insoniylikni, millatparvar va vatansevarlikni singdiradi. Ongli va vijdonan olib borilgan har qanday faoliyat bola shaxsiga ijobiy ta’sir etadi. Ta’lim va tarbiya jarayonining ilmiy asoslangan bo‘lishi bolada ijtimoiy xarakterni shakllantirib, yaratuvchanlikning dastlabki kurtaklarini shakllantiradi.

Ilmga, hunarga munosabatning ijodiy mazmun olishi esa bola shaxsida yuksak onglilik va vijdoniy burchlilik uyg‘otib, u xalq millat baxt - saodati yolida mehnat qilish uchun bolada ichki, ruhiy tayyorgarlikni paydo qiladi.

Boshlang‘ich maktab yoshida ham bolaning shaxs sifatida to‘la shakllanib ulgurgan davri bolib, uning barcha harakatlari taqlidchanlik doirasida bo‘ladi. Boshlangich ta’lim - tarbiya jarayonida bu xislatlarni ijobiylashtirish uchun zargarona nozik, o‘z vaqtida o‘ta ilmiy yondashuv kerak. Aks holda, hali shakllanib ulgurmagan nihol dastlabki o‘zining shaxsiy motivlari doirasida o‘zi uchun ishlashga, o‘z mehnatini qadrlab, o‘zgalar mehnatiga e’tiborsizlik bilan qarashga ancha moyil boladi.

IMT - omillar kompleksida muhit omili alohida e’tiborni talab etadi. Oila, maktab, mahalla, ommaviy axborot vositalari (OAV) va hokazolar bolaning hayotiga bogliq muhit asta-sekinlik bilan boshlangich sinf oquvchisining ongida o‘z ta’sirini shakllantira boradi.

Bularning hammasi bola uchun yangi narsadir. Muhit taqdim etayotgan bu narsa, hodisalarni mantiqan tahlil qilish va tanlash uchun oquvchi tafakkuri kuchsizlik qiladi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, bu hol bola shaxsidagi hali shakllanib ulgurmagan mustaqillikni, mehnatsevarlikni, tashabbuskorlikni, vatanparvarlik va halollik kabi xislatlarning rivojlanishini bogib qoyadi. O‘quvchi faoliyatiga haddan tashqari nazoratni kuchaytirish, ortiqcha qiynash, majburlash kabilar ham ta’lim jarayonida yaxshi natija beravermaydi, balki ruhiyatga o‘ta salbiy ta’sir o‘tkazadi.

Maqoladan kelib chiqib hulosa qiladigan bo‘lsam shaxsning shakllanish jarayonida harakatlantiruvchi kuchlar juda ko‘p. Bular: jamiyat, maktab, ota-ona va hokazo. Har bir ota-ona farzandi rivojlanayapkan vaqtida uning kelajagiga befarq bo‘lmasdan, bu jarayonda farzandining komil inson bo‘lishi uchun turlicha shart sharoitlar yaratmog‘i darkor. Hozirgi kunda jamiyatimiz va davlatimizda komil inson shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Zero har bir farzand ota-onaning mehnatlari mevasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar: 1) J.Tolipovaning adabiyotlari
2)internet ma’lumotlari

HAMMASI SIFATLI TA’LIM HAQIDA

Sultonova Dildoraxon Toxirjon qizi
Andijon mashinasozlik instituti
“Standartlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish” tayanch doktorant (Ph.D)

Oddiy so‘zlar bilan aytganda, Sifatli ta’lim insonning jamiyatga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ta’lim darajasini anglatadi. Sifatli ta’lim shaxslar, jamoalar va jamiyatlarning gullab-yashnashi uchun zarur bo‘lgan natijalarni beradi. Sifatli ta’lim nafaqat savodxonlik va hisob-kitoblarni, balki ularga etakchi va o‘zgarishlarni yaratuvchi bo‘lishga imkon beradigan kengroq hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga olishi kerak.

Nazorat va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish assotsiatsiyasiga ko‘ra, “Sifatli ta’lim - bu butun bolaga, ya’ni jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va geografik joylashuvidan qat’i nazar, har bir o‘quvchining ijtimoiy, hissiy, aqliy, jismoniy va kognitiv rivojlanishiga qaratilgan ta’limdir. U bolani faqat sinovlarga (imtihonlarga) emas, balki hayotga tayyorlaydi”. Ta’lim sifatli bo‘lishi uchun u nafaqat "o‘quvchilarni o‘rgatish" ga, balki "nima o‘rgatilayotganiga (o‘quv dasturi) va "uning qanday o‘qitilishiga" (Pedagogika) e’tibor qaratishi kerak. Maktabda o‘qish har doim ham o‘rganishga olib kelmaydi. Dunyo bo‘ylab maktabda o‘qimaganlar soni maktabdan tashqariga qaraganda ko‘proq [1].

Shunday qilib, sifatli ta’lim "o‘rganish natijalari" yoki ta’lim natijalari, hayotiy ko‘nikmalarni o‘rganish, mavhum tushunchalarni sodda tarzda tushuntirish qobiliyatiga qaratilgan (Feynman texnikasi). Bu yodlash va eslab o‘rganishdan tushunish, tahlil qilish va real hayotda qo‘llashga o‘tishni talab qiladi - bu tajriba orqali o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Hindistonda ta’limning asosiy yo‘nalishi "Boshlang‘ich ta’limga kirish", "O‘rganishni saqlab qolish" va "Boshlang‘ich ta’lim raqobati" edi. Shunday qilib, asosiy e’tibor ta’lim natijalariga emas, balki ko‘p sonli bolalarning asosiy ta’limga ega bo‘lishi va o‘quvchilar ma’lum bir sinfda qanchalik bilim olishlari mumkinligiga qaratildi. Ilgari, mazmunni yodlash orqali bolalar ta’lim oladi, degan fikr bor edi. Tarkibning miqdori, hech bo‘lmaganda, Hindistonda sifatli ta’limning mezonlari sifatida ko‘rib chiqildi. SDG - bu ta’lim g‘oyasi etarli emas va eskirganligini tan olishdir. Ta’lim shunchaki imtihonda tarkibni etkazib berish tizimi emas. Bu barcha bolalarning o‘z salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga

chiqarishga va jamiyatga to‘la va samarali fuqarolar sifatida kirishiga yordam beradigan tizim sifatida qarash kerak [2-5].

Sifatli ta’limning asosiy elementlari Xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhiti: Mazmunli o‘rganish uchun muhit bunday o‘rganish uchun qulay bo‘lishi kerak. Bu erdagi muhit deganda jismoniy muhit, erta bolalik tajribasi va ota-onalar, o‘qituvchilar, hukumatlar va boshqalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Erta bolalik davrida sog‘lom rivojlanish muhim rol o‘ynaydi, chunki u sog‘lom hayot va muvaffaqiyatli rasmiy maktab tajribasi uchun asos bo‘ladi. Xulq-atvori bilan bog‘liq muammolar bo‘lgan bolalar, odatda, erta bolalik davrida "mahrum yoki disfunktsiyali oilalar" ni boshdan kechirgan [3].

Sifatli o‘qituvchilar: Bilim berish uchun o‘qituvchilar o‘quv dasturi bilan bir qatorda sifatli ta’limning asosidir. Talabalarga o‘rganishga yordam berish uchun o‘qituvchilar uchun kasbiy ta’lim bo‘lishi kerak. O‘qituvchilar pedagogika bilan bir qatorda o‘z fanlarini ham yaxshi bilishlari kerak. O‘qituvchining malakasi juda muhim, chunki o‘quvchilarning asosiy ko‘nikmalardan tashqari yutuqlari asosan o‘qituvchining mavzu bo‘yicha buyrug‘iga bog‘liq.

Infratuzilma: Bunga xavfsiz jismoniy tuzilmalar (masalan, yuvinish xonalari, sinfxonalar), o‘quv jarayonini kuchaytiradigan, xodimlarning talaba ovozini rag‘batlantiradigan va ijtimoiy va hissiy rivojlanishini rag‘batlantiradigan muhitlarni yaratish kiradi, shuningdek, maktablarning mavjudligi va ta’limga kirish jarayoni qanchalik xavfsiz ekanligini o‘z ichiga oladi. maktablar orqali **.** Agar qizlar qishloqda ham, shaharda ham jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lsalar, Hindistondagi kabi maktablarga sayohat qilish xavfli hisoblanadi. Infratuzilmaning mavjudligi xavfsiz va sifatli o‘quv muhiti uchun juda muhimdir [4].

Xalqaro huquqda sifatli ta’lim standartlari. Sifatli ta’lim quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Yaxshi oziqlangan va ishtirok etish va o‘rganishga tayyor bo‘lgan sog‘lom o‘quvchilar. Ularni o‘rganishda oilalari qo‘llab-quvvatlashlari kerak.
- Xavfsiz, himoyalangan va jinsga sezgir bo‘lgan sog‘lom muhit, ya’ni qizlar uchun mos bo‘lgan va o‘quv jarayoniga yordam berish uchun etarli resurslar va imkoniyatlarni ta’minlaydi.

Sifatli o‘quvchilar: Bu "Yaxshi sog‘liq va ovqatlanish", erta bolalikdagi psixologik tajribalar, maktabga muntazam qatnashish - sifatli o‘quvchilar uchun bolalar doimiy ravishda maktabga borishlari kerak.

Sifatli ta’lim muhiti: shuningdek, tegishli o‘quv materiallari va darsliklar, o‘qituvchi uchun ish sharoitlari, hojatxonalar va toza ichimlik suvi mavjudligi. Talabalar maktabni tark etib, toza ichimlik suvi uchun katta masofani bosib o‘tishlari kerak bo‘lganda, ular darsga qaytmasliklari mumkin. Maktabning keyingi mavjudligi muhim rol o‘ynaydi.[5]. Hatto maktablar etarli infratuzilmaga ega bo‘lsa ham, ota-onalar bolalarni, ayniqsa qizlarni, agar ular o‘z uylaridan uzoqda joylashgan bo‘lsa, maktabga yuborishni istamasligi mumkin.

Bundan tashqari, mehmondo‘st va kamsitmaydigan muhit sifatli ta’lim muhitini yaratish uchun juda muhimdir. Bu ayollarning ta’lim olishi uchun yanada muhimroqdir[6]. Qizlar maktablarga kirish imkoniga ega bo‘lgach, ular o‘zlarining ishonchi, qadr-qimmati, o‘z qadr-qimmati va shaxsiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri jismoniy tahdidlar va nozik tajovuzlarga duch kelishlari mumkin.

Ta’lim inson huquqi va dunyo salomatligi va kelajagi uchun muhim bo‘lgan jamoat manfaatidir. sifatli ta’lim olish har bir bolaning asosiy huquqi deb hisoblanishi kerak

Adabiyotlar:

1. G. Xaken Sinergetika M.:Mir, 1980.406 s.
2. Ignateva V.A. Pedagogicheskie aspektы sinergetiki /Pedagogika.-2001-№8.-s.26-31.
3. A.Mavlyanov, L. YUsupova, B. Asqarov, S. Abzalova “Pedagogik texnologiyalar: ilmiy-interfaol texnologiyalar” (uslubiy qo‘llanma), “Voris-Nashriyot”, Toshkent, 2011, 72b.
4. Petuxova E.I. Informatsionnыe texnologii v obrazovanii // Uspexi sovremennogo estestvoznaniya. – 2013. – № 10. – S. 80-81;
5. YArыshev S.N., Rыjova V.A. Texnologii glubokogo obucheniya i neyronnыx setey v zadachax videoanaliza: uchebnoe posobie. - Sankt-Peterburg: Universitet ITMO, 2022. - 82 s.
6. Askarov, B., Yuldashev, A., & Sultanova, D. (2021, December). SYNERGY METHOD FOR SOLVING SOME PROBLEMS OF EDUCATION. In *ASJ* (Vol. 2, No. 56, pp. 15-19).

7. https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC2830783/ 8. https://www.youtube.com/watch?v=Arqqo6CMwcM\

АНОР ТУПЛАРИНИ КЎМАДИГАН МАШИНАНИНГ ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ШАРОИТИ ВА УСУЛЛАРИ

Тўраев Носиржон Собиржонович, Абдуназаров Элбек Элмуродович
(Вилоятда ишлаб чиқариш ва фан интеграциясини янада ривожлантириш;) шўбасига
Наманган муҳандислик қурилиш институти, PhD
Қишлоқ хўжалигини механизациялаш илмий-тадқиқот институти, докторант, PhD

Маълумки, Ўзбекистон шароитида совуқ уриб кетишининг олдини олиш мақсадида анор туплари кеч кузда хашак ёки тупроқ билан кўмилиб, баҳорда очилади. Аммо махсус техника воситалари ишлаб чиқарилмаслиги сабабли анор тупларини кўмиш ва очиш ишлари механизациялашмаган ва ҳозирги кунгача ҳам қўл кучи билан амалга оширилиб келинмоқда. Бу эса ўз навбатида меҳнат сарфи ва бошқа харажатларни ортишига ва иш унумини камайишига олиб келмоқда. Ушбу таъкидланганлардан келиб чиққан ҳолда институтимизда анор тупларини кўмадиган машина ишлаб чиқиш ва параметрларини асослашга йўналтирилган тадқиқотлар олиб борилмоқда [1-3].

Анор тупларини кўмиш барг тўкиш фазасида, яъни октябр ойининг охири ва ноябр ойининг биринчи ярмида амалга оширилади. Бу даврда тупроқнинг намлиги 16-24 % оралиғида, қаттиқлиги 5 МПа гача, шудгорлашдаги солиштирма қаршилик 0,09 МПа гача бўлади.

Анор плантациялари(боғлари)да қаторлар ораларининг кенглиги 4,0±0,2 м, қатордаги туплар орасидаги масофа 2,5-3,0 м ни ташкил этади.

Анор плантациялари ҳар бирининг майдони 1 гектардан 30 гектаргача бўлган бир ёки бир нечта майдонлардан ташкил топган бўлиши ва анорзорлар орасидаги йўлакларнинг кенглиги 6 метрдан кам бўлмаслиги лозим. Анорзорлар охирида агрегат қайрилиши учун қолдирилган йўлакнинг кенглиги камида 7 м бўлиши лозим [4].

Анор тупларини кўмадиган машина уюмлагич, нов шаклидаги узатгич, осиш қурилмаси билан жиҳозланган рама ва унга ўрнатилган туп ётқизгич, таянч ғилдираклар ҳамда бир-бирига симметрик жойлашган корпуслардан ташкил топган. Иш жараёнида уюмлагич ёрдамида анор тупларининг шохлари уюмланади ва уюмлагичлардан кейин жойлашган нов шаклидаги узатгич орқали ётқизгичга йўналтирилади, ётқизгич анор тупларини ер юзасига босади ва корпуслар уларнинг устига тупроқни уюмлаб, уларни тўлиқ кўмилишини таъминлайди (1-расм) [5].

Анор тупларини кўмишда фурсатни бой бермай, ўз вақтида сифатли кўмилишини таъминлаш уларни совуқдан нобуд бўлишининг олди олинади ва келгуси йил мўл ҳосилига пухта замин яратилади.

1 – уюмлагич; 2 – нов шаклидаги узатгич; 3 – рама; 4 – таянч ғилдирак; 5 – туп ётқизгич; 6 – корпус

1-расм. Анор тупларини кўмадиган машинанинг тракторга осилган кўринишлари

Анор тупларини кўмадиган машина қўлланилганда меҳнат сарфини 95,7 % га ва 1 гектар майдонга сарфланадиган эксплуатация харажатларини 25,3 % га камайтириш ва бунинг эвазига битта машинадан йилига 25367808,8 сўм иқтисодий самара олиш имконини беради [6].

Кузда кўмилган анор туплари март ойининг охири ва апрел ойининг бошларида очилади.

Республикамизда кузда кўмилган анор тупларини баҳорда очишда қўлланиладиган осма анор тупларини очадиган машиналар ишлаб чиқилди.

Анор тупларини ярим очадиган машина рама, унда қарама-қарши ўрнатилган корпуслар, лемехлар, тупроқ йўналтиргичлар ва ҳаракатланувчи лемехлардан ташкил топган этиб ишлаб чиқилди (2-расм).

2-расм. Анор тупларини ярим очадиган машинанинг трактoрга осилган кўринишлари

Машина осма бўлиб, 1,4-2,0 классдаги тракторлар билан агрегатланади. Агрегат ҳаракатланиши давомида бир-бирига қарама-қарши ўрнатилган корпуслар анор устидаги уюмланган тупроқларни бир қисмини қирқиб олиб икки ён томонга ағдаради. Ҳаракатланувчан лемехларга ўрнатилган тупроқ сургичлар билан анор тупларида қолган тупроқни корпус ағдарган томонга суради.

Машина баҳорда ярим очиш жараёнида анор тупларининг устига уюлган тупроқни қатор ораларига суради ва бунда анор тупларининг устига уюлган тупроқнинг 50 % дан кам бўлмаган қисми қатор ораларининг ўртасига суради. Машина ўтгандан сўнг қатор ораларида ҳосил бўладиган нотекисликларнинг баландлиги кўпи билан 15 см бўлади.

Анор тупларини очадиган машина рама 1, унга ўрнатилган осиш қурилмаси 2, дискли иш органи 3, текислагич 4, чанғи (сирпанғич) 5, гидроцилиндр 6, паралелограмм механизми 7, редуктор 8, узатма 9, карданли узатма 10, вентилятор 11 ва сопло 12 дан ташкил топган (3-расм).



3-расм. Анор тупларини очадиган машинанинг орқадан ва ён томондан кўринишлари

Машинанинг иш жараёни қуйидагича кечади: дискли иш органи туплари уюмининг анор тупларини ярим очадиган машинадан қолган қисмини ишчи сиртига олиб унинг корпусидан ҳосил бўлган эгатга олиб бориб ташлайди, чанғи (сирпанғич) га ўрнатилган текислагич ёрдамида анор қатор ораларидаги нотекисликлар текисланади, дискли иш органидан қолган ҳамда анор тупларига ёпишиб қолган тупроқларни вентиляторнинг соплосидан чиқаётган ҳаво оқими қаторлар орасига суради ва натижада анор туплари тўлиқ очилади. Бунда гидроцилиндр, паралелограмм механизм ва чанғи вентилятор соплосини керакли баландликда ушлаб турилишини ва тупроқ уюмини тўлиқ пуркалишини таъминлайди.

Анор тупларини тўлиқ очадиган машина қўлланилганда меҳнат сарфини 25,65 фоизга ва 1

гектар майдонга сарфланадиган тўғридан-тўғри (эксплуатацион) харажатларни 37,78 фоизга камайтириш ва битта машинадан йилига 31517668 сўм иқтисодий самара олиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдуназаров Э.Э. Анор тупларини кўмадиган машина иш органининг параметрларини асослаш: Дис. ... техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Гулбаҳор: ҚХМИТИ, 2021. – 160 б.

2. Боқижонович И. Қ. и др. Анор тупларини кўмадиган машина уюмлагичининг конструкцияси //Механика и технология. – 2022. – Т. 3. – №. 8. – С. 98-102.

3. Qutbiddin I., AbdunazarovElbek K. S. BURYING MACHINE TO POMEGRANATE BUSHES // Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №.13. – P. 1377-1381.

4. Imomkulov K. B., Abdunazarov E. E. THE RESULTS OF THE EXPERIMENTS CONDUCTED ON THE SELECTION OF THE TYPE OF WORKING BODY OF THE MACHINE FOR BURYING POMEGRANATE BUSHES //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 65-69.

5. Абдуназаров Э. Э. ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩИЕ КОНСТРУКЦИИ ПРИГИБАЮЩЕГО УСТРОЙСТВА МАШИНЫ ДЛЯ УКРЫВАНИЯ КУСТОВ ГРАНАТА //Инновации в сельскохозяйственном машиностроении, энергосберегающие технологии и повышение эффективности использования ресурсов. – 2022. – С. 89-93.

6. Abdunazarov E. A Анор тупларини кўмадиган машина таянч текислигидан пастки осиш нуқталаригача бўлган тик масофани асослаш //Uzbekistan Journal of Engineering and Technology. – 2021.

ВОСТОЧНЫЕ ЕДИНОБОРСТВА: ОСОБЕННОСТИ И ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ОРГАНИЗМА СПОРТСМЕНОВ

Н.Ш.Юсупова
Гулистанский государственный университет
Факультет: Спортивная деятельность
д.ф.п.п.н.(PhD)

Annotation. This article is devoted to the influence of martial arts on the development of certain qualities taught through the training process.

Keywords. Martial arts, development of physical qualities, training methods.

Актуальность. Единоборства зародились как средство выживания человека в давние времена развития общества. В настоящее время единоборства трансформировались в спортивные виды и боевые искусстава, принятые на вооружение армией и полицией.

Для боевых искусств востока, в частности в Китае, основанных на комплексе моральных принципов, приёмы единоборств были средством психофизической само регуляции. Боевое искусство становилось средством индивидуального самосовершенствования. Особенностью Японских боевых искусств является морально-этическая сторона, которая должна помочь воину войти в соприкосновение с божественным духом. Основой является концентрация внимания, медитация, следование ритуалу.

В настоящее время, основным в поединке является искусство владения своим телом и соизмерение своих усилий. Важной чертой поединка является умение вывести противника из равновесия и способность сохранить устойчивое положение. Все эти качества воспитываются при помощи специальных упражнений, акробатики, спортивных игр.

Занятия единоборствами благоприятно сказываются на здоровье, укрепляют двигательный аппарат, развивают основные функции организма. Некоторые технические действия являются сложными по своей структуре, выполняются при неестественных положениях тела и требуют высокой слаженности и координации движений, способности ориентироваться в пространстве и принимать в кратчайшие сроки правильное решение в неожиданных и сложных ситуациях.

В процессе спарринга борцами применяются захваты различных частей тела, что оказывает массирующее воздействие на кожу, мышцы, лимфатические узлы и кровеносные сосуды соперника. Это в свою очередь способствует улучшению обмена веществ, кровообращению. Занятия единоборствами способствуют гармоническому развитию личности, воспитанию силы воли, целеустремлённости, честности и благородству по отношению к слабому. Развиваются такие качества как наблюдательность, бдительность, умение быстро принимать правильные решения, сводить к минимуму преимущества соперника. Навыки владения единоборствами и высокий уровень физической подготовленности также помогают в неординарной или боевой обстановке.

Занятия единоборствами требуют от занимающихся постоянного совершенствования физической подготовки. В частности, скоростно-силовых качеств, выносливости, спортивной техники именно специальных двигательных качеств и навыков, силовых способностей. Следует отметить, что полученные знания о значимости элементов структуры в эффективности соревновательной деятельности прямо указывают на необходимость развития специальных скоростно-силовых качеств как основы результативного выступления спортсменов на соревнованиях. Эксперты отмечают, что при преодолении какого-либо сопротивления развивается максимальное ускорение, в таком случае речь идёт о скоростно-силовых качествах. Данная специфика определяется группами мышц, которые несут основную нагрузку и обеспечивают рациональную амплитуду движения. Таким образом скоростно-силовые качества проявляются только в динамическом режиме и при уступающе-преодолевающем характере работы мышц. Т.е. ведущее место занимают способности мышц увеличивать силу в короткие моменты времени. В данном случае можно говорить о взрывных способностях человека. Увеличение взрывной силы находится в прямой связи с совершенствованием нервно-координационных отношений, поскольку в процесс включаются разные группы мышц.

При проявлении скоростно-силовых качеств мышцы работают в сочетании уступающего и преодолевающего режимов. Средствами развития специальной силы мышц являются различные упражнения с внешним сопротивлением (тяжести, эспандеры, и т.д.).

К числу упражнений для развития силы в ударных действиях относят удары руками и ногами в воздух, по мешкам, лапам и манекенам. Величина отягощения в таких упражнениях не должна нарушать структуры движений, а сами упражнения должны выполняться с максимальной быстротой до тех пор, пока не начнет нарушаться структура движений, или не упадет заметно их скорость.

Для развития "взрывной" силы можно использовать метания и толкания набивных мячей, ядер, гирь и камней из различных положений с максимальным ускорением в финальной части, рывки и толчки штанги, а также преодоление инерции собственного тела при ударах, защитах, при переходах от защит к ударам и наоборот. Эффективным и наиболее применяемым упражнением для развития силы мышц-разгибателей рук, которые несут основную нагрузку в ударных действиях, являются различные отжимания в упоре лежа. Кроме того, для атлетической подготовки широко применяются также упражнения на перекладине, брусьях, гимнастической стенке, с амортизаторами и отягощениями, с партнерами.

Силовые упражнения и их комплексы необходимо применять не менее 2-х раз в неделю. Одним из важнейших условий осуществления эффективной тренировки в боевых искусствах является ее оптимальное построение на достаточно длительных отрезках времени. Если подготовка имеет профессионально-прикладную направленность, то построение тренировки будет существенно отличаться от спортивной. В данном случае можно говорить о цикличности построения тренировочного процесса при отсутствии этапов участия в соревнованиях; отсутствии выраженной фазовом развитии спортивной формы, отсутствии четких критериев обще- и специально подготовительных этапов, плавную динамику тренировочных нагрузок.

Для практической реализации задачи самостоятельной подготовки в боевых искусствах необходимо иметь целостное представление о логике построения тренировочного процесса на больших отрезках времени. Эта задача может быть решена в рамках годичного цикла подготовки.

Годичный цикл состоит из четырех этапов технико-физической тренировки продолжительностью по 24 недели каждый и этапа общефизической подготовки

продолжительностью 4 недели. Каждый из этапов технико-физической тренировки состоит в свою очередь из трех четырехнедельных циклов, имеющих особенности в последовательности и объемах применения средств тренировки.

- На первом этапе главной задачей является разучивание техники выполнения основных стоек, передвижений, блоков и ударов. Упражнения для физической подготовки в основных занятиях на этом этапе применяются в рамках решения дополнительных задач.

- На втором этапе общий объем технической работы не изменяется, но происходит его перераспределение за счет большей доли относительно сложных базовых техник. Необходимо планомерно использовать подготовительные упражнения, что позволяет вносить постоянную коррекцию в технику выполнения приемов и избежать заучивания ошибок.

- На третьем этапе увеличивается объем технической работы за счет разучивания новых техник, перераспределения объемов изучаемых техник, выполнения их в усложненных вариантах. Кроме того, на этом этапе уделяется большее внимание разучиванию комбинаций и связок. Следует отметить, что плотность тренировочной нагрузки повышается от этапа к этапу. А так как продолжительность всех основных занятий планируется одинаковой и составляет два часа (20 - 30 мин. на разминку, примерно 70 мин. на разучивание и совершенствование техники, 20 мин. на физподготовку в основной части занятия, 5 - 10 мин. на заминку), то ясно, что плотность и соответственно объем нагрузки могут быть увеличены только за счет сокращения интервалов отдыха в упражнениях и повышения интенсивности работы.

- На четвертом этапе в основных занятиях можно увеличивать объем нагрузок для развития физических качеств. Следует только помнить, что разучивание техники не должно проходить в состоянии утомления.

К методам тренировки можно отнести равномерный, переменный, интервальный, повторный, круговой.

- При равномерном методе упражнения выполняются длительное время, до значительного утомления. Интенсивность нагрузок - 30 - 70% от max, пульс - 100 - 140 уд/мин.
- При переменном методе интенсивность нагрузок 50 - 90 % от max, пульс 125 - 190 уд/мин, применяются периодические ускорения с отягощениями.
- При интервальном методе воздействие происходит не во время нагрузки, а во время кратковременного отдыха. Принцип отличается строгой дозировкой времени работы и отдыха. Интенсивность нагрузок 60 - 80% max, длительность работы 30 сек - 1 мин, отдых 45 - 50 сек. Количество повторений 25 - 35, количество серий 1 - 3, отдых между сериями 8 - 15 мин. Пульс 150 - 180 уд/мин в конце упражнения, 120 - 140 уд/мин в конце отдыха, до 100 уд/мин в паузах между сериями.
- При повторном методе интенсивность нагрузок 95 - 100 % от max, количество повторений 4 - 6. Отдых от 6 до 45 сек.
- При круговом методе выполняется набор последовательно выполняемых упражнений

Физические качества, которые доступны тренировкам - прочность (крепость, сила) определяемая возможностями мускулов выдерживать нарастающую нагрузку; - сила выдержки (выносливость) тела. Это - свойство тела продолжать функционировать, не смотря на усталость, которая неизбежно настает после физической работы. Это свойство обусловлено адаптируемостью мускулов и сердечно-легочной системы к продолжительным тренировкам; - скорость, обусловленная взаимодействием нервов и мускулов; - гибкость, определяемая гибкостью мускулов, суставов и строением наших связок.

Программа тренировки, нацеленная на улучшение специфических физических качеств должна быть последовательно сбалансирована. Планируя программу тренировок необходимо учитывать ряд условий:

- объем упражнений;
- интенсивность тренировки;
- частота, тренировок;
- баланс между типами тренировок;
- баланс между тренировками и отдыхом.

Выводы. Только тренировки достаточной интенсивности могут вести к улучшению физического состояния, но и сочетание нагрузки и отдыха так же важны для прогресса, обучаемого.

Существуют пределы развития организма. Путем тщательного исследования каждый тренер должен установить, какие нагрузки обучающийся может выдержать. Это может быть определено только при близком наблюдении и индивидуально. Для каждого человека составляется персональный план тренировок.

Список литературы

1. Волков В.М.Тренеру о подростке.М.:Физкультура и спорт,1973.-5 с.
Жисмоний тайёргарлик билан техник-тактик усталикнинг ўзаро боғлиқлиги сифатини оширишда яна бир муҳим жиҳат – бу курашчиларнинг усулларни ҳар икки (ўнг ва чап) томонда бажара олишини бир маромда такомиллаштириб боришдан иборатдир. Бу эса, кўп жиҳатдан, спортчининг координацион имкониятларини мутаносиб равишда ривожлантириб боришга боғлиқдир.

Шуни унутмаслик керакки, бир хил кечувчи машғулотлар қизиқишни сусайтиради, спорт маҳоратини оширишга тўсқинлик қилади, спортчиларда техник ҳаракатларни чеклаб қўяди ва тактик ночорликни шакллантиради. Шу сабабли спорт ўйинларини киритиш ўкитишнинг муҳим шартларидан хисобланади. Асосийси шундаки, ўйинлар ўқув-машғулот жараёни олдига қўйилган вазифаларни бажаришга ёрдам беради.

Ўйинда ўсмирнинг шахс сифатидаги хислатлари намоён бўлади, унинг жисмоний ва руҳий сифатларини, ақл-идрок, иродасини ривожлантиради. Уйин характерни тоблайди ва шакллантиради, кийинчиликларни енгиб ўтишга ўргатади, рақибга ҳурмат билан муносабатда бўлишни шакллантиради.

[23] Халмухамедов Р.Д., Технология построения после соревновательного этапа борцов-курешистов. 2009.-№ 7.- С. 38-43. Ф.А. Керимов. Инновационная направленность в использовании методов математической статистики с целью дифференцированного оценивания физической подготовленности спортсменов. Наука новые технологии и инновации № 9, 2015 - С. 45-49). Олимпийская литература.

Ҳаракатли ўйинларни турли вариантларидан фойдаланиб, машғулотларда мунтазам қўллаш керак, чунки улар шуғулланувчиларда мустаҳкам малакаларни шакллантиришга ёрдам беради. Оддий қоидалар, юксак эмоционаллик, катта маблағ талаб килмаслик - буларнинг барчаси ҳаракатли ўйинларнинг оммалашишига ёрдам беради.

Спорт ўйинлари спорт техникасининг алоҳида элементларини ўрганиш, мустахкамлаш ва такомиллаштиришга, шунингдек, хар қандай спорт тури учун зарур бўлган жисмоний сифатларни тарбиялашга ёрдам беради.

Умумий жисмоний ривожлантириш учун намунавий ҳаракатли ўйинлар

1.Рўмолчани тортиб ол

Ўйиннинг тавсифи. Қатнашчилар жуфтларга бўлинади. Ҳар бир ўйинчининг вазифаси -ракибдан рўмолчани тортиб олиш ва унга шундай қилишга йўл қўймаслик. Рўмолчани биринчи бўлиб тортиб олган галаба қозонади.

Коидалар: ракибнинг кўлидан ушлаб бўлмайди, ўйинчини туртиш таъқиқланади.

Вариантлар: рўмолчалар ўйинчиларнинг олд томонида, белида бўлади: рўмолча ўйинчаларнинг ўнг ёки чап томонида мустаҳкамланади; рўмолча ўйинчиларнинг орқа томонида белида бўлади; тиззада туриб ўйнаш мумкин; рўмолчани ўйинчиларнинг болдирига боғлаш мумкин: жуфт-жуфт бўлиб ўйнаш мумкин; жамоаларга бўлиниб ўйнаш мумкин.

2.Оёқлар билан оёқ кафтияи босиш

Уйиннинг тавсифи Қатнашчилар жуфтликларга бўлинади. Уйинчилар қўлларини бир-бирларининг елкаларига кўядилар.

Уйинчаларнинг вазифаси - ракибнинг оёқ кафтига имкони борича кўпроқ марта ўз оёғининг учини текизиш.

Қоидалар: майдонча бўйлаб ҳаракат қилиб, ракибга ўз оёғини босишга йўл қўймаслик ва қўлларни елкадан туширмаслик.

Вариантлар: номдош оёққа фақатгина чап ёки фақат ўнг оёқни тегизиш;

- танлаган хохлаган оёкни текизиш мумкин.

3. Ладушки (қарсак чалиш)

Ўйиннинг тавсифи. Полда диаметри 3м. бўлган доира чизилади. Икки ўйинчи танлаб олинади ва улар.доира ичига кириб, тик туриш холатида турадилар. Ҳар бир ўйинчининг вазифаси, ракибга чап бериб, унинг тиззаси остида қарсак чалиш ва рақибига шу усулни амалга оширишга йўл қўймаслик. Уйин давомида кўпроқ қарсак чалган ўйинчи ғолиб ҳисобланади.

Коидалар: Уйинчиларга ушлаб олишлар ва доирадан чиқиш таъқикланади.

Вариантлар: Фақатгина олдиндан келишиб олинган оёққа карсак чалиш мумкин; қарсакни хохлаган оёк ортида бажариш мумкин.

4.Доирадан туртиб чикариш



Ўйиннинг тавсифи. Диаметри 3-4м. доира ичига икки ўйинчи туради. Сигналдан кейин бир-бирининг елкасига кўлларини қўйиб доирадан туртиб чиқара бошлайдилар. Ҳар бир ўйинчининг вазифаси рақибни доирадан туртиб чиқариш.

Қоидалар: ўйинчи бир оёғи бўлса хам доира ташқарисига чикса мағлуб булган хисобланали.

Вариантлар: Туртиб чиқаришни кўкрак билан амалга ошириш мумкин, бунда кўллар орқада бўлиши керак; туртиб чикаришни елка билан амажа ошириш мумкин, бунда қўллар иштирок этмайди; ўйинчилардан бири оркаси билан турганда, рақибни қўллар билан туртиб чикариш мумкин.

5. Тўпни эгаллаб ол

Ўйиннинг тавсифи. Иштирокчи тик ёки тиззада турган қолатда. Улар икки қўллаб тўпни ушлайдилар. Ҳар бир ўйинчи сигнал бўйича тўпни тортиб олиб, бошлари узра кўтаради.

Қоидалар: ушлаб олинганда қўлларнинг ҳолати бир хил бўлиши керак. Агар ўйин тик ҳолатда ўтказилаётган бўлса, гилам(пол)га йиқилиш таъқикланади.

Вариантлар: Уйинни ўтирган ҳолатда ўтказиш мумкин; тиззалаб ўтириб ўйнаш мумкин: коринга ётиб ўтказиш мумкин; ўйинни тик туриб ўтказиш мумкин.

6. Хўрозлар жанги

Ўйиннинг тавсифи. Диаметри 3-4м. доирага икки ўйинчи туради. Сигналдан кейин ўйновчилар, бир оёкда сакраб, қўлларини орқага килиб. елкалари билан туртиб ракибни икки оёқда туришга (мувозанатни йўкотиб) ёки айланадан чикаришга харакат қиладилар. Ракибни мувозанатдан биринчи бўлиб чиқарган ғолиб ҳисобланади. Коидалар: онгли равишда кўпол ҳаракат қилиш таъқиқланади. Уйинни факат сигналдан кейин бошлаш мумкин.

Вариантлар: таянчи йўк оёқни қўл билан ушлаб туриш керак; сакраётган оёқни алиштириш мумкин, бирок икки мартагача; ракибни кўкрак билан туртиш мумкин.

Лекин, бугунги кунда МЖТни баҳолашда қўлланиладиган тестларнинг мавжудлигига қарамай бу муаммо тўла тўкис хал этилмаган. Кўплаб олим ва педагогилар спортчиларнинг беллашувни олиб боришда ўзига хос фарклар мавжудлигини таъкидлаб ўтиб, бу фарқларни ўқув машғулотларида қўллаш ва ҳисобини олиб боришни таклиф қилганлар. Бирок бугунги кундаги мавжуд тестлар спортчиларнинг беллашувдаги индивидуал ҳаракатини ўзига хос томонларини ҳисобга олмаган ҳолда тузилган, лекин шу нарса малъумки, тестлар ёрдамида маълумот олишнинг юқорилиги аниқ бир курашчи фаолиятининг махсус шарт-шароитларга яқин бўлишлиги билан боғлиқ. Баъзи муалифларнинг амалиётда қўллаш мумкин бўлган таклиф қилган тестлари уларнинг фикрича спортчи ҳаракатларини ўзига хос томонларини очиб беришга ёрдам бериши айтиб ўтилган, лекин етарли фактр маълумотларга эга эмас. Шунинг учун бундай

тестларни қўллаш орқали спортчиларнинг махсус ва жисмоний тайёргарлиги ҳақида тўлиқ тўғри маълумот олиш кийин бўлади.

Курашчиларнинг беллашув фаолияти характери малъум даражада ўрганилган ва у беллашув фаолиятининг муҳим томонларидан ҳисобланади, бунда курашчининг фаол ҳаракат динамикаси ўрганилади (беллашув вақтида техник ҳаракатлар микдори). Юнон-рим курашчиларининг беллашув фаолиятини ҳар томонлама тадқик қилиш орқали, улардаги фаол ҳаракат динамикаси (ФҲД) да индивидуал фарклар борлигини очиб берди. Маълум бир спортчиларнинг мусобака жараёнида ҳаракат фаоллиги бир хил кечмаслиги билан характерланади, яъни беллашувнинг турли боскичларида бошқа беллашувга солиштирганда техник ҳаракатлар миқдор жиҳатдан бир хил бўлмайди. Бошка спортчиларда ҳаракат фаоллиги беллашувнинг охиригача бир хил кечади. Учинчи типдаги курашчилар ўрта ҳолатни танлайдилар. Ҳар бир курашчининг ФҲДтини стабил (ўзгармас) характерга эга эканлиги аникланган, уларнинг ҳаракат фаоллиги у беллашувдан беллашувга малъум даражада ўзгариб туриши мумкин (ракибнинг тайёргарлик даражасидаги фарқларга қараб ёки спортчининг ҳозирги ҳолатига караб ўзгариши мумкин), лекин доимо принципиал тузилишини сақлаб қолади. Юқоридагиларга истисно сифатида курашчининг беллашувда ютқазиб қўйишини ҳисобга олиш керак. бундай ҳолатда спортчининг одатий ФҲДти ракибнинг кучли ҳаракатлари туфайли издан чиқади.

ФҲДдаги фарқлардан келиб чикиб, биз 3 гуруҳдаги спортчиларни ажратиб олдик:

- «текис» (ўзгармас, бир хил, бир меъёрда), беллашув давомида ҳаракат фаоллигини бир хил таксимлаш билан характерланади;
- «икки авжлик» (двухпиковая), ҳаракат фаоллигининг беллашувда икки маротаба кўзга ташланиши билан характерланади, яъни ҳар икки даврда бир мартадан ҳаракат фаоллигининг авжга чикиши кузатилади;

- «уч авжли» беллашув давомида ҳаракат фаоллиги уч марта кўтарилади, биринчи даврда бир маротаба, иккинчи даврда икки маротаба ҳаракат фаоллигининг ошиши билан характерланади.

Курашчини уч ҳаракат гуруҳларидан бирига таалуқлигини аниқлаш учун унинг Юта мусобақа беллашуви ҳақида малъумотга эга бўлиш керак, яъни спортчи томонидан ғалаба қозонилган ва 6 дақиқа давом этган беллашув ҳисобга олинади (вақтдан илгари тугалланган беллашув, тўлик малъумот бермайди).

ХУЛОСА

Ватанимиз спортчиларининг барча кураш спорт турларида айниқса эркин ва юнон-рим, дзюдо ва самбо, миллий кураш ва белбоғли курашда эришган юқори ютуқ кўрсаткичлари ҳаммага маълум ва машҳур бўлиб, бу мазкур спорт турларида ўзбек мактабининг илғор позицияларни эгаллаб келаётганидан ёрқин далолат беради. Бироқ, турли малакадаги, ёшдаги ва жинсдаги курашчиларни тайёрлаш тизимининг замонавий ҳолати ва истиқболдаги такомиллашувини фақатгина амалиётдаги тажриба ва эришилган ютуқлар позициясидан келиб чиқиб баҳолаб бўлмайди ва амалга ошириб бўлмайди. Айни вақтда шундай вазият юзага келдики, илгаридан мавжуд бўлган амалий тажриба юртимизнинг ижтимоий ҳаёт тарзи ўзгаришлари ҳамда замонавий спорт фанининг ютуқларини ҳисобга олган ҳолда педагогик нуқтаи назардан қайта кўриб чиқишга ўткир эҳтиёж туғилди.

Халқаро кураш гиламлари ва татамидаги муттасил ўсиб бораётган рақобат, кураш турлари бўйича мусобақа қоидаларининг тез-тез ва кўпинча ўзини оқламайдиган ўзгаришлари, ана шу ўзгаришлар таъсирида юзага келадиган курашчилар техник-тактик усталигининг кучли динамикаси ёш курашчиларни тайёрлаш услубини такомиллаштиришнинг янада самарадор йўлларини фаол қидириб топишда мутахассислар зиммасига масъулият юклайди.

Бу ўринда ватанимиз курашчиларининг ютуқларини келгусида янада кўпайтиришга хизмат қиладиган спорт захираларини изчил тайёрлаб бориш муаммоси муҳим ўринларда туради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги ПҚ-3031-сон “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида https://lex.uz

2. Халмухамедов Р.Д., Технология построения после соревновательного этапа борцов-курешистов. 2009.-№ 7.- С. 38-43. Керимов Ф.А. Инновационная направленность в использовании методов математической статистики с целью дифференцированного оценивания физической подготовленности спортсменов. Наука новые технологии и инновации № 9, 2015 - С. 45-49). Олимпийская литература.

3. Азизов Н.К. Белбоғли Туркистон кураши. Т.,“Ўқитувчи”,

4. Арацилов М.С. Методы интенсификации учебно-тренировочного процесса на основе экспресс-контроля за состоянием борцов: Автореф. дисс. канд. пед.наук -М., 1991, 42 с.

5. Керимов Н.А. Скоростно-силовая подготовка дзюдоистов и борцов вольного стиля/ Методические рекомендации. -Т, 1990, 20 с.

КУРАШ СПОРТИНИНГ АНЬАНАЛАРИ, УРФ ОДАТЛАРИ- ТАРБИЯ ВОСИТАСИДИР

Шукуров Акмал Худойкулович

Гулистон Давлат университети ўқитувчиси

Анотаця: ушбу маколада юртимизда, балки бутун дунёда оммалашиб бораётган кураш спорт турининг аьнаналари, урф одатлари хакида батафсил маьлумотлар берилган. Курашнинг миллий ва умуминсоний қадрият эканлиги илмий асосланиб, маьлумотлар етказилди.

Калит сўзлар: Кураш, кураш анъаналари, жисмоний тарбия**,** спорт, полвон, ўзбек спортчилари, буюк аждодларимиз, урф-одатлари, мусобақа.

Юртимизда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш, оммалаштириш ҳамда уни умуммиллий ҳаракатга айлантириш, фуқаролар саломатлигини мустаҳкамлаш, ёш авлоднинг

баркамол этиб вояга етишида муҳим омил ҳисобланади. Шу боис юртимизда жисмоний тарбия ҳамда спортга давлат сиёсатининг муҳим йўналишларидан бири сифатида алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбек спортчиларининг халқаро майдонларда юксак натижаларга эришиб келаётганларининг муҳим омилларидан бири бу ўқувчи-ёшлар ўртасида оммавий спортга алоҳида эътибор қаратилаётганидадир. Мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш ижтимоий сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири этиб белгиланган. Чунки спорт аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш, ёш авлодни соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш орқали жамиятда соғлом турмуш тарзини қарор топтиради. Турли касалликлар, ёшлар ўртасида зарарли одатларнинг олдини олади. Спорт юксак маданият, ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришда ҳам муҳим ўрин тутади. Бу соҳада эришилган ютуқлар мамлакатни дунёга танитади, барча юртдошларга ғурур-ифтихор бағишлайди.

Мамлакатимизда спортни оммалаштириш бўйича беш йиллик миллий концепция ишлаб чиқиш зарур. Аҳолини жисмоний тарбия билан мунтазам шуғулланиб, соғлом турмуш кечиришга жалб этиш, шу орқали касалликларнинг олдини олиб, одамларнинг умрини узайтириш концепциянинг асосий йўналиши ва натижаси бўлиши керак, – дейди Президентимиз Ш.М.Мирзиёев.

Қадимий қадриятларимиз, хусусан мардлик, жасурлик, Ватанпараварлик, гуманизм ғояларини ўзида мужассам этган миллий спортимиз бўлган курашни оммалаштириш, кенг кўламда тарғиб қилиш ва ривожлантириш, дунёга танитиш ва ушбу қадриятимизни умумжаҳон дурдонасига айлантириш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, курашнинг тобора оммалашиб бораётганлиги нуфузли халқаро мусобақаларни ташкил қилишга, мавжуд инфратузилма ва моддий-техник базани модернизация қилишга, спорт инвентарлари ва кийимлари таъминотини яхшилашга, бу борада ишлаб чиқаришни кенгайтиришга, шунингдек соҳада малакали кадрлар, мураббийлар ва ҳакамлар тайёрлашга бўлган эътиборни янада кучайтиришни талаб этмоқда.

Буюк аждодларимиздан мерос қолган кураш спортининг бой анъаналари ва қадриятларини келажак авлодларга етказиш, ўзбек спорти бренди номи билан курашнинг жаҳон аренасидаги ролини ошириш, ёшларни миллий спортга бўлган қизиқишларини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш орқали уларда ватанпарварлик туйғусини янада мустаҳкамлаш, аҳолининг барча қатламлари, айниқса, ёшларни, шунингдек жаҳон халқларини мазкур спорт тури билан шуғулланиши учун зарур шароитлар яратилиб келинмоқда...

Кураш анъаналари- халқнинг тарихий шаклланиши ва ривожланиши жараёнида яратилган ва авлодларга муқаддас мерос сифатида ўтиб келаётган бебахо бойликдир. Миллатнинг асосий белгиларидан бирига айланган урф одатларни асраш ва камол топтириш хар бир авлоднинг муқаддас бурчи хисобланади. Аждодларимиз аньаналари бархаёт бўлиши учун, аввало уни келажагимиз буниёдкорлари бўлган ёшлар онгида барқарорлаштириш лозим, акс холда ёшлар томонидан аждодлар ананалрининг кадирланмай қўйилиши авлодлар ўртасида маънавий узулишни вужудга келтиради. Авлоддан авлодга ўтиб келаётган халқ ананалари шўролар даврида жиддий тўсиқларга учраган бўлсада, ўзбек халқи мустақилликка эришгандан сўнг, қайта тиклана бошлади. Чунки ананалар халқ манавиятининг таркибий қисми, мухум ахлоқий қадрият, тарбия воситасидир. Халқ анъаналари, маросимлар жараёнида намоён бўлаётган одоб-ахлоқ, мехр-оқибат, иззат-икром каби хислатлар ёшлар манавиятининг шаклланишида мухим ахамият касб этмоқда. Бундай улкан ва ўта маъсулиятли ижтимоий-педагогик жараёнларни амалга ошириш долзарб вазифалардан биридир. .[2, 110.].

Ҳар қандай халқнинг миллий анъанаси, шу миллатнинг ҳаёт эҳтиёжи, турмуш тақозоси натижасида дунёга келади. Миллатимизнинг фахри бўлган кураш анъанаси бир неча минг йиллик тарихга эга бўлиб, ўзида ўзбек халқимизнинг кўплаб урф–одатлари, удумларини мужассамлаштирган ўзига хос санъатдир.

Кураш анъанасини ўзбек халқи кўз қорачиғидек асраб-авайлаб, авлоддан-авлодга мерос қилиб шу кунгача етказиб келди.

Халқимиз ҳаётида муҳим аҳамият касб этиб келаётган, аждодларимиз мероси ҳисобланган кураш анъанаси, урф-одатлари, удумлари ҳалоллик, поклик қонунияти асосида

тарихан ривожланиб халқимизнинг маънавий бойлиги сифатида авлодларимизга етиб келган. Демак, бу буюк мерос аждодлар билан авлодларимизни боғловчи асосий халқалардан бири ҳисобланади. Ўзида ҳалоллик ва покликни мужассамлаштирган, ёшларимиз тарбиясида ҳар томонлама беқиёс аҳамиятга эга бўлган тўй кураши асосида дунёда янги спорт тури сифатида тан олинган ўзбек миллий спорт тури сифатида “Кураш” вужудга келган. Мерос асосида вужудга келган янгилик ҳеч вақт енгилмайди деган фалсафани ҳам унутмаслигимиз керак. Минг йиллар бурун юртимизда ҳозирги вақтдаги футбол, теннис, волейбол каби спорт турлари бўлмаган...

Қадимги юнон ёзувчиси Элиан Клавдийнинг маълумотларига қараганда, ҳозирги Ўзбекистон сарҳадида сак қабилалари истиқомат қилган бўлиб, улар ўртасида кураш ниҳоятда кенг тарқалган экан. Ўзбеклар шу қабилаларнинг авлодларидир. Лашкарбошилар ўз аскарининг жисмоний тайёргарлиги, кучи, чаққонлиги ва сезгирлигини кураш орқали ривожлантирганлар. Қадим замонларда Ўзбек элида ривожланган бир анъана бўлган экан. Унга биноан, деҳқонлар экинларини, чорва учун ем-хашакларини ғамлаб олгандан кейин қиш фаслидан то баҳор бошлангунига қадар чўлларга, тоғ-адирларга чиқиб, чодирлар тикиб кураш тушганлар. Чавандозлар улоқ чопган. Бундай тўйларда асосан тўй кураши бўлиб, уларда ёш болалардан тортиб, отахон полвонлар эртадан кечгача курашганлар. Ҳалойиқ мириқиб, завқ-шавқ билан дам олганлар, ҳордиқ чиқарганлар. Оталар ўзининг 4-5 ёшли болаларини қўшнисининг ёки қариндош уруғларининг уйларига етаклаб келган ва давра қуришиб, гилам ёки кийгизнинг устида кураштирганлар, кимнинг боласи зўрлигини аниқлаганлар. Бундай воқеалар ўзбек халқининг ҳаётида кенг тарқалган урф-одатлардан ҳисобланган. Давра суҳбатларининг асосий мавзуси кўпчилик ҳолатларда полвонлар тўғрисида бўлган. Айниқса, курашли тўйлар ва тўйлар мавзусидан кейин полвонларнинг кураши, энг кучли полвонлар тўғрисидаги қизғин суҳбатлар, ҳар хил баҳслар авжига чиққан. Даврага чиққан ҳар полвоннинг курашини халқ йиғинларида, чойхоналарда, давра суҳбатларида астойдил муҳокама қилганлар. Бу муҳокамалар тўйлардан кейин ҳам бир неча ойлаб, йиллаб давом этган. .[3, 128.].

Кураш спортида полвонликда асосан: инсон учун зарур бўлган куч, чаққонлик, эпчиллик, эгилувчанлик, чидамлилик каби жисмоний сифатлар билан бирга иродавий, руҳий, ўз кучи ва имкониятларига ишонч, жанговорлик фазилатлари мавжуд бўлади. Ана шу фазилатлар полвонни ғолибликка чорлайди. Халқимизда “Полвонлик-баркамоллик” мақоли бекорга тўқилмаган. Полвонларнинг ўзаро беллашувларидаги ҳаракат фаолиятларини кузатувларимиз, таҳлил ва хулосаларимиз юқорида қайд этилган фикрларимиз исботидир.

Олиб борган тадқиқотларимиз, кузатиб ўрганиш орқали олган маълумотларимиз ва таҳлил натижалари шуни кўрсатмокдаки, кураш киши организмига ижобий таъсир этибгина қолмай, балки, у билан шуғулланувчиларнинг ҳар томонлама ривожланишига ёрдам берадиган ва ёшларни маънавий тарбиялашнинг самарали воситаларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кураш Миллий спорт турини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриси”да Қарори. 2017 йил 2 октябрь.

2. Ахмедов Ф. Қ. Жисмоний таълимда миллий ананаларнинг ўрни. Тошкен 2010 йил “ Фан нашрёти” 110-бет.

3. К. Юсупов Кураш Халқаро қоидалари, техникаси ва тактикаси. Тошкент 2005 йил 129-бет.

4. Ф.Қ.Ахмедов,А.Р.Абдулахатов Ўзбек кураши миллий ва умуминсоний қадриятлар дурдонаси.Тошкент 2017 йил 128- б

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ СИФАТЛАРНИ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВОСИТАСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТИЗИМИ

Джураев Ғулом Ибрагимович, Иброхимов Жахонгир Ғулом ўғли
Гулистон Давлат университети ўқитувчиси
Гулистон Давлат университети Спорт фаолияти факультети талабаси

Annotation. This article reveals the content of the spiritual and moral qualities that are developed in students on the basis of the development of information technology in Uzbekistan, the views of oriental scholars on education and scientific and practical approaches.

Keywords: information technology, spirituality, spiritual and moral qualities, information, information culture, information literacy, professional culture.

Дунё миқёсида таълим жараёнини ахборотлаштиришнинг кучайиб бориши демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш, ҳар бир фуқаронинг ижтимоий фаоллигини ошириш билан бирга таълим тизимининг ривожига ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Юнесконинг ‹‹Ахборот ҳамма учун›› дастури, Россия федерациясининг 2017-2030 йилларга мўлжалланган “Жамиятни ахборотлаштиришни ривожлантириш стратегияси” ҳам таълим тизимида ахборотлашган муҳитни такомиллаштиришга қаратилган. Жумладан, инновацион ва ахборот технологиялари иқтисодиёт, фан, ишлаб чиқариш ва таълимнинг долзарб педагогик муаммоларини муваффақиятли ҳал этишга қодир бўлган кадрларнинг ижтимоий, ҳуқуқий, техник билимларини шакллантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштиришда муҳим ҳисобланади.

Жаҳон миқёсида юксак маънавиятли, ижтимоий фаол мутахассисларни тайёрлашнинг креатив-модулли технологиялари амалиётга жорий этилмоқда. Таълим муаммолари бўйича Бутунжаҳон Форуми қабул қилган 2030 йилгача мўлжалланган концепциясидаги “...барча учун бутун ҳаёти давомида сифатли таълим олишга имконият яратиш...”[24] вазифаси доирасида ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда янги таълим технологиялари, инновациялар ва замонавий ташкилий тузилмаларнинг бирлигини таъминлаш бўйича лойиҳаларни татбиқ этишга йўналтирилган тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Республикада ахборот технологиялари соҳасини ривожлантириш учун шарт-шароитларни тубдан яхшилаш чора тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида ахборот – коммуникация технологияларини давлат бошқаруви ва давлат хизматлари кўрсатишнинг борча соҳаларига жорий этишдек вазифа қўйилган бўлса, 2017 йил 27 декабрда Олий мажлисга қилган мурожаат номасида “Бугун биз давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан янгиланишига қаратилган инновацион ривожланиш йўлига ўтмоқдамиз. Бу бежиз эмас, албатта, чунки замон шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги даврда ким ютади? Янги фикр, янги ғояга ва инновацияга таянган давлат ютади. Инновация, бу- келажак дегани. Биз буюк келажагимизни барпо этишни бугундан бошлайдиган бўлсак, уни айнан инновацион ғоялар, инновацион ёндашув асосида бошлашимиз керак” [1.]-деб таъкидлаган эдилар.

Жумладан, Призидентимиз Ш.М.Мирзиёев “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 26 март, ПҚ-5040-сонли карорида эзгулик ва инсонпарварлик тамойилига асосланган “Миллий тикланишдан—миллий юксалиш сари” ғоясини кенг тарғиб этиш орқали жамиятда соғлом дунёқараш ва бунёдкорликни умуммиллий ҳаракатга айлантириш, тарғибот-ташвиқот ва тарбия йўналишидаги ишларни илмий асосда ташкил этиш, соҳа бўйича илмий ва услубий тадқиқотлар самарадорлигини ошириш, ижтимоий-маънавий муҳит барқарорлигини мустаҳкамлашга қаратилган доимий мониторинг тизимини жорий қилиш, қадриятларга беписандлик ва ёшлар тарбиясига масъулиятсизлик каби иллатларга барҳам беришга қаратилган комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш аҳолининг Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиш маданиятини ошириш, ғоявий ва ахборот хуружларига қарши мафкуравий иммунитетини кучайтириш, оммавий ахборот воситаларида маънавий-ахлоқий мезонлар, миллий ва умуминсоний қадриятларнинг устуворлигига эришиш муҳим эканлигини таъкидлаганлар [2,17].

“Маънавият” (арабча “маънолар мажмуи”) тушунчаси “инсоннинг руҳий ва ақлий оламини ифодалайди”**,** у “ахлоқий ҳолат ва ахлоқий хусусиятлар”**,** “ижтимоий ҳодиса” ва “инсоннинг ички оламига тааллуқли бўлган яшашдан мақсади, фикр юритиши, орзу-истаклари, интилишлари ҳамда ҳис-туйғуларидир”. Бу ёндашувларнинг барчаси маънавиятнинг педагогик

[1.]Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitablequality education and lifelong learning for all [Word Education Forum, 19-22 may, 2015, Incheon, Republic of Korea].

хусусиятларини белгилаб олиш имконини беради. Унга кўра, маънавият шахс учун ахлоқ ва тарбия омили, унинг руҳий ва ақлий оламини шакллантиради, ижтимоий ҳодиса сифатида ахлоқини таркиб топтиради ҳамда ҳаётга йўналтиради. Чунки, давлатимизнинг ривожланиши ва ислоҳотларнинг муваффақияти кўп жиҳатдан замонавий кадрларнинг маданияти даражасига боғликдир. Шундай экан олий таълим муассасаларининг бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни такомиллаштириш, таълим мазмунини янада чуқурлаштиришда қудратли куч сифатида катта таъсир кўрсатади.

Маънавий-ахлоқий сифатлар бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари касбий фаолиятида муҳим жараёнларни ифодалайди. Бу борада Шарқ алломаларнинг қарашлари ҳозирги кунгача ўз мавқеини йўқотмаган. Жумладан, Буюк мутафаккир Алишер Навоий инсон фақат маънавияти туфайли бошқа жонзотлардан ажралиб туриши ва маънавият фақат инсонгага хослигини асослаб кўрсатган.[3; 83-85б]

Мутафаккир олим Юсуф Хос Ҳожиб (1019-1088) “Қутадғу билиг” асарида маънавият тушунчасини ўзбекча “билиг” тушунчаси билан ифодалайди. Бу билим ва одоб мажмуасидир деган фикр билдирган.

Маърифатпарвар педагог Абдулла Авлоний (1876-1930) “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарида дейди: “Бани одамда ахлоқ туғма бўлмайди, лекин унинг асоси бўлган туйғу инсон фитратида (табиатида) туғма мавжуд бўлади. Тарбия воситаси ана шу туйғулар ривожлантирилади шу тариқа ахлоқ юзага келади”- деган фикр юритган. Педагог боланинг туғма ва соф туйғулари яхшиликка йўналтирилса яхши фазилатларни ўзлаштиради; аксинча, тарбия суст бўлса боланинг туйғулари ёмонлик хусусиятларини юқтиради ва унинг хулқ-атвори бузилади деган ғояларни илгари суради. [4; 94б].

Мутафаккир Аҳмад Яссавий (1103-1166) эса “Девони ҳикмат” асарида дейди: “Бизга тарбия йўлини олиб келган Муҳаммад (САВ) араблардан эди, унинг тарбия йўли ахлоқлар мажмуасидан иборат”. Шу маънода маънавият ахлоқлар мажмуи сифатида намоён бўлади.

Абу Али ибн Сино (980 - 1038) “Донишнома” асарида фарзанд тарбияси учун зарур булган асосий тарбия йўналишларини асослаб берган. Ибн Синонинг бу ёндошуви Осиё таълими тизимида қабул қилинганлигини таъкидлаш жойиз. А.Ирисов, С. Раҳимов кабиларнинг тадқиқотларида Ибн Синонинг таълим –тарбия асосларига доир қарашлари тадқиқ этилган. Бугунги таълим –тарбия жараёнимизда Ибн Сино тавсиялари тўлиқ қабул қилинган.

Шунингдек, “Таълим тўғрисида”ги Қонуннинг 3-моддасига биноан шахсни маънавиятли қилиб тарбиялашда қуйидагиларни асосий мақсад сифатида белгилаш мумкин:

1) маънавиятнинг инсонпарвар ва демократик харектерда бўлиши;

2) маънавият таълим ва тарбия беришга асосланиши;

3) маънавият ишининг узлуксиз ва изчил амалга оширилиши;

4) маънавий-ахлоқийда билимли бўлиш ва истеъдодлиликни рағбатлантирилиши ва ҳ.к.

Маънавий-ахлоқий ва тарғибот-ташвиқот ишларининг мезони, аввало, уларнинг эл-юрт турмушига ўтказадиган ҳаётбахш таъсири билан белгиланади. Ёшларнинг ҳаёт сўқмоқларида адашмасликларини таъминлаш, уларни шиддаткор замоннинг бўрону тўфонларидан ҳимоя қилиш лозим. Айниқса, диний ақидапарастлик, мафкуравий курашдаги лоқайдлик тузатиб бўлмас оқибатларга олиб келиши мумкин.

“Ахборот” атамаси “ахбор” маълумотлар, кўп хабарлар деган маънони англатади. Бунда турли маълумотлар қайта ишланиб, айрим жиҳатларига тузатишлар киритилади. Ахборотларнинг ижтимоий борликда кечаётган воқеа ҳодисалар, алоҳида шахс томонидан бажарилаётган иш, хатти-ҳаракат, фаолият тўғрисидаги маълумотларни етказиш, хабар беришдан иборатдир. Ахборотдан муҳим манба сифатида фойдаланилади ва унда кўникма ва малакалар эгалланади.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни ахборот технологиялари воситасида такомиллаштириш қуйидаги хусусиятларга эга:

ахборот умуминсоният бойлиги сифатида ривожланиб боради;

ахборотлар мазмунида у бераётган маълумотнинг кенглиги билан белгиланади;

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни ахборот технологиялари воситасида такомиллаштириш негизида инсоннинг моддий ва маънавий узвийлигини ривожлантиришда муҳим бўлган инновацион технологиялар, компьютер

дастурлари, одамлар орасидаги ўзаро муносабатлар асосий омил сифатида хизмат қилади. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатлар турли касб эгаларининг ижтимоий –иқтисодий ҳаётини, унинг моддий турларини аниқлашга ёрдам бериши билан бирга шахснинг ички дунёсининг фаоллигини оширади. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни ахборот технологиялари воситасида такомиллаштиришда ахборотларни қабул қилиш, узатиш, сақлаш, фойдаланиш, уларни ўзлаштириш кабилар ҳар бир мутахассиснинг касбий фаолиятида амалга ошади.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни ахборот технологиялари воситасида такомиллаштириш билан касб фаолиятини такомиллаштириш, уни эгаллаш, тўлдириш ва қайта ишлашда янги билимлар банкини вужудга келтириш, уни узатиш ва улардан амалий жиҳатдан фойдаланиш кабиларни ўзида мужассам этади. Булар бевосита мутахассиснинг касбий фаолияти билан боғлиқ бўлиб унда, амалга ошириладиган ишлар ахборот орқали бажарилиши ва унга муносабат билдириш, тўпланган материаллардан фойдаланиш, билим ва кўникмаларга эга бўлиш, уларни қайта ишлаш ва сақлаш муҳим ҳисобланади.

Бугунги кунда ахборот оқимларининг ривожланиши ҳар бир мутахассиснинг ўраб турган дунёни билишда, ижодий фаолияти,касби ҳақидаги билимларни эгаллашда ижобий ва салбий фикрларга эга бўлишда, интеллектуал салоҳиятни оширишда, бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси ҳаётининг қизиқарли ва мазмунли, жўшқин бўлишда, глобал муаммоларни ҳал этишда, унинг ижтимоий фаоллигини иқтисодий, сиёсий ва маънавий йўналишларнинг узвийлигини ва натижаларини сифатли бўлишида, ишлаб чиқариш сифатини яхшилашда, касб моҳиятини тушунишда, улардан самарали фойдаланишда қобилиятига эга бўлиш кўникмаларини ривожлантиради. Чунки, ахборотларни излаш, таҳлил этиш, тўплаш ва технологияларни қўллаш кабилар фақатгина ўтмишни, тарихни, бугунни қамрабгина қолмай, балки келажак билан ҳам шуғулланувчи бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари фаолиятида муҳим жараён ҳисобланади. Яъни ушбу жараёнда бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг билим натижалари, ахлоқ-одоб ва ҳуқуқ қоидалари, қобилиятлари, малакалари, интеллектуал, эстетик ва ахлоқий даражалари, ўзаро мулоқоти, дунёқараши, ҳамкорлик алоқалари кучаяди. Ахборот маданияти ҳақида турли адабиётларда турли маьлумотлар берилган. Кўпгина муаллифларнинг таъкидлашича, ахборотнинг афзаллиги ўзаро алоқалар билан боғлиқдир. Илмий адабиётларда ахборот маданияти ҳақида турли таьрифлар берилган. Н.Б.Зиноеванинг фикрича “Ахборот маданияти – ижтимоий аҳамиятга эга бўлган материалларни ўзлаштириш асосида шахс ички дунёсининг баркамоллигидир”. И.Г.Хангельдиевнинг таъкидлашича “Ахборот маданияти – бу инсон ҳаёти ва фаолиятида ўзининг эгаллаган, узатган, сақлаган ва ахборотлардан фойдаланган умуминсоний, маънавий қадриятларни ўзида мужассам этган сифатли характеристка”. Ахборот маданиятини шакллантириш шуни кўрсатадики унда билимлар асосида инсонпарварлик ғоялари, шахс муносабатлари ривожланади. Жумладан, О.В.Киеванинг “Техника олий ўқув юртларида гуманитар фанларни ўқитиш жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида ахборот маданиятини шакллантириш” [5.] мавзусидаги илмий тадқиқот ишида ушбу муаммонинг назарий асослари, тарихи, ахборотларни қайта ишлаш ва узатиш, ўқитиш жараёнида компъютер воситаларидан фойдаланиш, электрон методик қўлланмалар яратиш масалалари методик жиҳатдан ишлаб чиқилган. С.Н.Конюшенконинг “Узлуксиз касбий таълим тизимида ўқитувчиларда ахборот маданиятини шакллантириш” мавзусидаги докторлик диссертациясида ўқитувчининг ахборот маданияти педагогик муаммо сифатида, унинг шарт шароитлари, лойиҳалаш технологияси кабилар ишлаб чиқилган. С.Н.Конюшенконинг [6.] фикрича ахборот маданиятини шакллантиришда қуйидаги икки блок асосий ўринни эгаллайди:

1. Назарий дунёқараш блоки. Бунда ахборот муҳити, ташқи дунёдаги обьектив омилларни тушуниш, ишонтириш тамойиллари, шахсни шакллантириш каби назарий билимлар мажмуига эга бўлиш.

2. Амалий кўникма ва малакалар блоки. Бунда ахборот ҳодисалари ва жараёнларига таъсирчанлик билан муносабатда бўлиш, ахборотларни аниқлаш ва қайта ишлаш операцияларини бажариш кабиларга этибор берилган.Унда ахборот мезони, мазмуни,шакли ва шакллантириш методикаси ишлаб чиқилган. Ж. Хасанбоев, Х. Турақулов, М. Хайдаров, О.

Хасанбоева, Н.Усмоновларнинг “Педагогика фанидан изоҳли луғат” китобида такидланишича “Ахборот – тайёрланган маълумотлардан бирор нарса (жараён, ҳодиса) тўғрисидаги аниқликни ошириш мақсадида фойдаланилса, у ҳолда фойдаланган маълумотларга ахборот деб аталади.”-деб таъкидланади.[7; 672]. Шунингдек Ҳ.А.Саидакбаров, Н.И.Тайлоқов, Д.Э.Тоштемиров, С.К.Турсунов, О.Х.Тўрақулов, Р.Р.Боқиев, Ж.Ғ.Йўлдошев [8.] каби олимлар педагогик технология, компютерлаштирилган ўқув жараёни, замонавий педагогик таълимда ахборот технологияларини жорий этиш йўналишларида тадқиқот ишларини амалга оширганлар.

Адабиётларни ўрганиш ва тажрибаларини кузатишдан шу нарса маълум бўлдики, олий таълим муассасалари ўқув жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий тарбияланишида ахборот технологияларининг муҳим восита сифатида аҳамият касб этиши муаммоси бўйича илмий фикрлар билдирилган бўлсада махсус тадқиқот муаммоси сифатида ўрганилмаган. Лекин, шуни айтиш керакки олий таълим муассасалари бўлажак бошланғич синф ўқитувчилариида маънавий-ахлоқий тарбияни такомиллаштириш, илмий-методик жиҳатларини мукаммаллаштириш, ОТМда фанларни ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланиш кабилар бевосита таълим сифатини амалга оширишда мухим ўрин тутади. Олимларнинг мазкур муаммони ёритишга бўлган турлича ёндашувларини таҳлил этиш натижасида шундай хулосага келдикки талабларни маънавий –ахлоқий тарбиялаш мазмунини такомиллаштириш муаммолари етарлича ишлаб чиқилмаган. Олий таълим тизимида уларни амалга ошириш йўллари такомил талаб. Талабларни маънавий-ахлоқий тарбиялаш фақат махсус билимларнигина эмас, балки янгича фикрлашни, педагогик фаолиятда зарур бўладиган ўзига хос малака ва кўникмаларни ривожлантиради. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий – ахлоқий сифатларни шакллантириш олий таълимнинг глобал муаммоларини ҳам, шунингдек, ўқитиш жараёнини янгиликлар билан таъминлашда ва бошқаришда асосий манба ҳисобланади.Чунки ушбу жараёнда бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида касбий компетенция такомиллаштирилади ва бунинг учун бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари касбий сифатларни шакллантириш тизимини такомиллаштиришга тўғри келади.

ОТМларнинг ўқув жараёнида таълимни амалга оширишда янгилик ва ўзгаришлардан ўз вақтида хабардор қилиш, айниқса эртанги кунимиз бунёдкорлари бўлган бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг касб маданиятининг таркибий қисми ҳисобланган маънавий-ахлоқий ва ижтимоий фаоллигини, ахборот саводхонлигини ошириш учун дастурлар, қўлланмалар яратиш, ахборот хизматларини медиа технологияларга оид, мажмуавий чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва уларни амалга оширишда проффесор -ўқитувчиларнинг фаолиятини такомиллаштириш, жамият ҳаётидаги долзарб муаммолар, қонунларнинг мазмун – моҳиятини уларга тушунтиришда муҳим аҳамиятга эга. Чунки, ушбу жараёнда бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида изланиш, фанларга оид топшириқларни бажариш, фикр юритиш, мулоқотга киришиш, муаммоларни моҳирлик билан ҳал қилиш, маълумотлар тўплаш, ахборот ресурсларидан фойдаланиш, назарий билимларни ошириш, замонавий билимларни эгаллаш каби хусусиятлар ривожланади. Чунки ахборотлар илм-фанни эгаллашда, бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси ўзлигини англашга, тафаккур, ҳиссиёт ва дунё воқеаларини ўрганишга ёрдам беради. Ахборотлар бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий сифатларини тарбиялашда ғоят муҳим аҳамият касб этади. Турли йўналишдаги ахборотлар сўзсиз, фойдали ва тарбиявий аҳамиятга эгадир. Олий таълим муассасаларининг ўқув жараёнида ахборотларни излаб топиш ва ундан унумли фойдаланиш яхши натижалар бериши табиийдир.

Ахборот ҳар бир бўлажак бошланғич синф ўқитувчисида ижтимоий онглиликнинг шаклланишида, нутқ маданияти ва луғат бойлигини ўстиришда, ҳаётда ўзига муносиб ўрин топишда, касбларни тўғри танлашда, дунёқарашнинг кенгайишида ва такомиллашувида яқиндан ёрдам беради. Демак, кўпроқ мустақил ахборотлар устида ишлаш йўли билан ютуқларни қўлга киритиш мумкин. Лекин ҳамма бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари ҳам мустақил равишда дарс тайёрлайдилар, ахборотлар устида унумли ишлайдилар, деб бўлмайди. Бунинг учун ҳар бир бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг ўқув йили давомида мунтазам мустақил ишлаши, ахборотларни ўрганиш асосида билим ва ҳунарни пухта эгаллаши маълум даражада билим тажрибасига эга бўлишида ўз самарасини беради.Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида ахборот олиш, катта ҳажмдаги ва кенг қамровли маълумотларни қайта ишлаш маданиятини ривожлантириш, уларни турли вазиятларда мақбул ҳатти ҳаракат қилиш

малакасини ошириш билан бирга дастурлаштирилган таълим методларини амалга ошириши, мунозара, тренинглар, ролли ва ишбилармон ўйинларни ташкил этиш имкониятини яратади. Ахборотлар оқими амалий жиҳатдан бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг деярли барча фаолият доираларида, ишларни амалга оширишда қўлланилади. Аммо кўпинча бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг амалий ишларида, фаолиятида турли ахборотлар намоён бўлади. Касб маданияти ҳар бир фаннинг турли жабҳаларида қўлланилади. Унинг методик усулларига ахборот маълумотларидаги хусусиятларни ўрганиш, олинган натижаларни қайта ишлаш ва таҳлил қилишнинг аниқ йўл-йўриқлари киради. Касб маданиятини шакллантириш йўналишлари аввалambор ўқув жараёни талаблари асосида белгиланади. Ушбу талабларга мувофиқ усулларнинг махсус комплекси шаклланади.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий – ахлоқий сифатларни шакллантириш жараёни таълим тарбия фаолиятида амалга оширилади ва унинг самарадорлиги турли баҳоланади. Бошқача қилиб айтганда, ахборотлар орқали таълим объекти, таълимий тушунчалар қай даражада ўзлаштирилганлиги таҳлил этилади, бутун ўқув курсини, ўқув дастурларини ўзлаштириш даражаси баҳоланади. Ахборотлар ўқув-тарбия жараёнини яхшилашга хизмат қилади, таълимий фаолият натижасида унинг самарадорлигини белгилаб беради, йўл қўйилган камчилик ва нуқсонларни бартараф этишга йўл очади. Пировард натижада ахборотлар таълимнинг такомиллашиб боришига ижобий таъсир қилади. Олий таълим муассасаларининг ўқув-тарбия жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг қобиляти ва лаёқатларини ҳар тамонлама ривожлантиришга, улар шахсини шакллантиришга ҳизмат қилади. Ахборотлар педагогик жараённинг маҳсулдорлиги, ўқитувчига бўлажак бошланғич синф ўқитувчисини яхши билишига, таълим ва тарбиянинг хилма хил методларини қўллашга ёрдам беради. Ахборотлар бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг мулоқот жараёнида, улар хулқ атвори, ҳиссий-шахсий хусусиятларини таҳлил қилишда манба вазифасини бажаради.

Ахборотлар асосида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг қарашлари, ижтимоий йўналишлари, дунёқараши, идрок этиш, ахборотни аниқлаш, мутолаа қилиш, ўзини тарбиялаш ва китоб ўқиш, бунёдкорлик, яратувчанлик, билимдонлик, фаолик, тиришқоқлик, талабчанлик, онглилик, фидойилик, ирода, ахлоқ, меҳнатга муносабат, фаолят жараёнида ўзаро муносабат кабилар ривожланади. Ушбу жараёнда компьютерда меҳнат қилиш, изланиш, ўз нуқтаи-назари, қарашлари, манбаларни таҳлил этиш, реферат, матн тайёрлаш, карточкаларга ёзма жавоб бериш, турли жадваллар, тузиш кабилар амалга оширилади. Ўқув жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари фанларни тўлиқ ўзлаштиришлари билан бирга ахборотларни ўрганиш асосида ўз касбига қизиқишлари, қобилиятлари камол топади. Бунда бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси шахсининг хусусиятлари, қизиқиши, ижодий фикрлаши, тасввури, диққати, хотираси ва тафаккури, техник билимларни аниқ ва мақсадга мувофиқ ҳолда ифода этиш, танланган касб ҳамда ўрганилаётган фанга нисбатан ахборотни тўплаш кабилар талаб этилади. Бунинг учун ўқув жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини янада фаол ва чуқурроқ равишда ўрганилаётган мавзуни тушунишда янги ахборотларни тайёрлаш, ва улардан фойдаланиш уларни муҳандислик фаолиятини эгаллашда муҳим аҳамият касб этади.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шаллантиришда компьютер технологиялари ва оммавий ахборот воситаларидан самарали фойдаланиш ўқув жараёнида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида ижодкорлик, маъсулиятлилик, фаоллик, мақсадни аниқ кўра билиш, амалга ошириладиган ишларни тўғри белгилаш, тўпланган маълумотлар мазмунини таҳлил этиш, касбга бўлган қизиқишга оид билим, кўникма ва малакалар, меҳнат қилиш, муҳандисликка оид маълумотларни ўрганиш, ўз касбининг етук мутахассиси бўлиш аломатлари намоён бўлади. Бунда ўқитувчининг бош мақсади ҳар бир бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг ахборот маданиятига бўлган эҳтиёжларини такомиллаштиришдан иборатдир.

Ўқитувчиларнинг касб маданиятига эга бўлиши бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси шахсида илмий-техникавий дунёқараш, махсус билимларни чуқур ва пухта эгаллаш ва уларни амалиётга жорий этиш, ижодий вазифаларни бажариш, техник тафаккурга эга бўлиш кабиларни ривожланишига таъсир этади. Албатта бу ўринда ахборот-коммуникация технологияларини ўқув жараёнига кенг татбиқ этиш, бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари билим даражасини

ошириш, уларнинг касбий маҳорати, илмий салоҳиятини мунтазам юксалтириш, ўқув-тарбия жараёнини ташкил этиш ва бошқариш кабилар бевосита ўқитувчи ва бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида касб маданиятини шакллантириш билан боғлиқдир. Шу жиҳатдан ҳам:

- педагогик технологиялари асосида ўқув жараёнини юксак илмий-методик даражада таъминлаш учун зарур бўладиган касбий билим, кўникма ва малакаларини мунтазам равишда янгилаш, ўқув ва дастурлари ва дарсликлар орқали бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий компетентлиги ва маҳоратининг ривожлантиришни таъминлаш;

- “Таълимда ахборот технологиялари” фани йўналишида фан ва ишлаб чиқариш билан самарали интеграциясини таъминлашга қаратилган фаолиятини ташкил этиш;

- ўқув машғулотлари жараёнида ахборот маданиятини шакллантиришнинг тушунчаларини, ғояларини, назарияларини, қонунятлари ва тамойилларини, тарихи ва тараққиёт босқичларини ўрганишда инновацион билимларга эга бўлиш ва илмий изланишлар олиб бориш;

- мустақил таълим жараёнида ўқув машғулотларини лойиҳалаш, режалаштириш ва уларни бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси шахсига йўналтириш жараёнини ташкил этиш, амалга ошириш, бошқариш ва уларни педагогик фаолиятда қўллай олиш;

- ўқув машғулотларда педагогик технологиялари, ўқув жараёнини фаоллаштирувчи интерфаол таълим шакллари, методлари ва воситалари кабиларни қўллаш ва улардан амалиётда самарали фойдаланиш;

- ривожланган давлатлардаги самарали тажрибаларни таълим-тарбия жараёнига қўллаш компетенцияларига эга бўлиш кабиларни амалга ошириш долзарб муаммолардан ҳисобланади.

Ахборот- бу билим, тавсилот, ҳаёт. Ахборот -бу тараққиёт. Ахборот йўқ жойда билим йўқ. Ахборотлар бўлмаса яратувчанлик бўлмайди. Ахборотларни ўрганиш асосида ОТМларнинг бўлажак бошланғич синф ўқитувчилариида билим олишга иштиёқ туғилади.Ўқув жараёнида янгиланишлар рўй беради.Таълим тарбия жараёнидаги муаммолар камаяди. Буларнинг барчаси ахборот оқимига боғлиқ бўлиб бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларига таълим ва турмуш тарзига эътибор бериш, ўрганиш, муаммоларни ҳал этиш, машғулотларнинг мазмунли ва қизиқарли бўлишига ёрдам беради. Албатта, бунда ҳар бир бўлажак бошланғич синф ўқитувчисидан кучли билим, катта тажриба, ташаббускорлик, изланиш ва маҳорат талаб этилади. Чунки, бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари олий таълим даргоҳида кечаётган воқеа ҳодисалар, уларнинг моҳияти, сабаб ва оқибатларини идрок этиш орқали ўзига, ўз ҳаёти, дунёқарашига, мақсад-муддаоларига оид хулосалар чиқаради.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки ёшларни ҳар томонлама маънавий-ахлоқий тарбиялаш масаласи бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир. Бу вазифалар миллий тарбиянинг асосий тамойиллари, миллий маданий ва маънавий қадриятлар, халқ ва мамлакатимиз педагогикаси ютуқлари, миллий ватанпарварлик, миллий қадр-қиммат ва миллий ифтихор туйғуларини тарбиялаш биринчи галдаги вазифа бўлиши асосида амалга оширилмоғи лозим.

Олий таьлим муассасалари бўлажак бошланғич синф ўқитувчилариида ахборот маданиятини шакллантиришнинг назарий ва услубий асослари ишлаб чиқилган. Унда жамият ҳаёти, шахснинг ижодий имкониятлари, аҳлоқий, ақлий, ижодий куч ва қобилиятлари, унинг турмуш тарзида, ижтимоий – иқтисодий соҳаларини ривожлантиришдаги долзарблиги назарий жиҳатдан асосланган. Ушбу мақолада бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг назарий дунёқараши, ахборот муҳити, ташқи дунёдаги объектив омилларни тушуниш, ишонтириш тамойиллари, шахсни шакллантириш каби назарий билимлар, амалий кўникма ва малакалар жараёнида ахборотларни аниқлаш ва қайта ишлаш операцияларини бажариш кабиларга эътибор берилган. Адабиётларни ўрганиш, таҳлил этиш ва тажрибаларга асосланган ҳолда унинг таърифи ишлаб чиқилган. Бевосита жамият тараққиётида инсоннинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги ўрни ва аҳамияти илмий назарий жиҳатдан асосланган.

Фойдаланилган адабиётлар.

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси ”Халқ сўзи” 2017 йил 27 декабрь.

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори. 2021 йил 26 март, ПҚ-5040-сон

3.Халиков А.А. Навоий асарларидаги идеал образларда одоб ва ахлоқ масалалари. //Халқ таълими. –Тошкент. –2008. –№ 3. –Б. 83-85.

4.Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. – 94 б.

5.Киева О.В Формирование информационной культуры у студентов высших технических учебных заведений в процессе преподавания гуманитарных дисциплин. Брянск 2001,180.с.

6.С.М.Конюшенко Фармировоние информационной культури педагога по системи непрерывного профессионального образования. Ярославьск 2005., 267 стр.

7.Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Хайдаров М., Ҳасанбоева О., Усмонов Н., Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т: Фан ва технология, 2009. – 672 б.

8.Саидакбаров Ҳ.А. Ахборот технологиялари воситасида касб-ҳунар коллежлари ўқувчиларининг иқтисодий билимларини ривожлантириш. Пед.фан.ном.дисс.автореф.-Т.:2012.-24б.

Тайлақов Н.И. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари. –Т.: «Ўзбекистон», 2002. - 152 б.

Тоштемиров Д.Э. Касб-ҳунар коллежларида информатика ўқитиш учун таълим порталини яратиш ва ундан фойдаланиш методикаси. Пед.фан. ном.дисс.автор.-Т.:2012.-24б.

Турсунов С.К.Таълимда ахборот техналогияларини яратиш йўллари ва муаммолари // Пятая Международная конференсия Образование через всю жизнь: непрерывное образование устойчивого развития. –Том ИИ.-Санк-Петербург –Ташкент, 2007.- 90-92.с

Тўрақулов О.Х. Бўлажак кичик мутахассислар ахборот маданиятининг шаклланганлик даражасини аниқлаш мезонлари //«Замонавий педагогика фани ва таълимнинг инновацион технологиялари» Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Т: 2008. – 306-309.б

Боқиев Р.Р. Компьютерлаштирилган ўқув жараёнининг «Инсон машина» системаси сифатида айрим муаммолари // Педагогик таълим.–2000.-№ 1.Б.91-92

Ж .F Йўлдошев., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари: Қўлланма. —Т.: “Ўқитувчи”, 2004.- 7-9 б.

YANGI O‘ZBEKISTON MA’NAVIY YUKSALISHIDA BERUNIY VA IBN SINO YOZISHMALARINING O‘RNI

Ibragimov B.T
Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi
tel: +998958844408
e-mail: ibekzod2214@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning boy ilmiy-ma’rifiy merosining juda muhim va nodir manbasi Ibn sino va Beruniy yozishmalarining falsafiy fikrlar taraqqiyotida muhim o‘rin tutganganligi, Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy-falsafiy merosi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot, shuningdek 11 asrning eng muhim ilmiy falsafiy meroslaridan biri sifatida qaraladigan yozishmalarning ahamiyati, qadimgi yunon faylasuflari tomonidan eratilgan ta’limotlarga buyuk allomalarimizning fikrlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviy yuksalish, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy va Ibn Sino yozishmalari, Xind arifmetikasi, Yevklid va Ptolemey, Isfaxan observatoriyasi, atom, “Osmon haqida” , “Fizika”, atomistik ta’limot, “Sam’ al-Kiyon”

Hozirgi davrda ilm-fanning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, tamadduniy o‘zgarishlar jarayonlarni o‘rganish ilmiy merosmizining yanada chuqurroq anglash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

“Ma’lumki, qadimiy madaniyat sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olimu, ulamolar, buyuk mutafakkirlar va shoirlar, aziz avliyolar yetishib chiqqan -

deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida koldirgan bebaho merosi butun insoniyatning ma’naviy mulki xisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo‘lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to‘liq o‘rganilmagan. Ular olimlar va o‘z o‘quvchilarini kutib turibti. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o‘rtaga qo‘yayotgan juda ko‘p dolzarb muammolarga javob topish mumkin”. Ana shunday manbalardan biri Beruniy va Ibn Sino o‘rtasidagi yozishmalardir.

Jahon ilmu-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirlar Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy yozishmalari va boshqa buyuk mutafakkirlarimizning xizmatlari, ularning ilmiy ishlari va asarlari doirasi bilan chegaralanib qolmaydi, balki insoniyatning tarixida chuqur iz qoldirgai ilmiy maktablarga asos solganligi ham muhim ahamiyatga egadir. Shundan kelib chiqib, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino o‘rtasidagi muloqotlari va yozishmalariga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish jarayonida jahon ilmu-fani rivojiga beqiyos xissa qo‘shgan mutafakkirlar Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy yozishmalarini ob’ektiv xolisona o‘rganish, tarixiy davr ruhida tadqiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng buyuk ajdodlarimizning boy merosi Beruniy va Ibn Sino ilmiy-falsafiy yozishmalari manbalarda qayd etilishicha ko‘p bo‘lgan, ammo bizgacha Aristotelning “Osmon haqida” va “Fizika” asarlariga oid Beruniyning 18 ta savoli va ularga Ibn Sinoning javoblari birinchi bor o‘zbek va rus tillarida 1972 yilda Toshkentda nashr etilgan bo‘lib[25][1], ular haqida O‘zbekistonlik taniqli faylasuf olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Sharkshunos olim savol-javoblarning tarjimonlaridan biri prof. Yu.N.Zavadovskiy “Ilmiy tadqiqotlarda keng tarkalgan Ibn Sino asosan faylasuf bo‘lganligi haqidagi fikr faqat eskirgan fikr bo‘lmay, balki bo‘ noto‘g‘ri fikrdir”[26][2], - deydi.

Qadimgi yunon sivilizatsiyasi va uning yirik vakillaridan biri bo‘lgan Aristotelning borliq, haqidagi qarashlari Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan Uygonish davrining bo‘yuk allomalari Ibn Sino va Beruniylarning ilmiy-falsafiy ta’limotlari Sharq va G‘arb tamaddunining bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy izlanishlarining hilma-hilligi, ularning universalligi betakror fenomendir.

Ayonki Beruniy va Ibn Sino yozishmalarida muhokama qilingan ba’zi ilmiy falsafiy masalalar ularning yirik fundamental asarlarida ham tahlil etilgan.

Boshqacha qilib aytganda,ular aniq fanlar soxasida yunonlarda mavjud tushunchalarga ilm sohalariga anchagina yangiliklar kiritdi va bu yo‘nalishlarni boyitdi. Masalan Ibn Sino hind arfimetikasini, yunon olimlari Yevklid va Ptolemey asarlaridagi matematik tushunchalarni o‘zlashtirdi, Isfaxanda yashaganida muntazam astonomik amaliyot bilan shug‘ulandi va Isfaxanda observatoriya barpo etib, uni 1024-1032 yillarda boshkardi,kuzatuvlvr olib bordi va bo‘ soxada bir nechta risola ham yozdi. Beruniy ham fanning fundametal masalalariga xususan, borliq haqida nazariyalarini ko‘tarib chiqqan edi.[27][3]

Endilikda bevosita yozishmalarda mutafakkirlarning atomlar haqida turlicha yondoshuvlar asosida o‘zlarining qarashlarini asoslaganliklari masalasiga to‘htalib o‘tsak.

Olamda barcha zarrachalarning kordinantlari va ularning bizga ta’siri, bizga ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning kuchi olimlar o‘rtasida ushbo‘ qarashlarning turlicha talqin etilishi masalasi muhim hisoblanadi.

---

[25] To‘ychiev B.T. Beruniy va Ibn Sino yozishmalari Aristotelning “Osmon haqida” asari asosida. O‘zMU habarlari,2017 yil 1/6 son

[26] Yu.N.Zavadovskiy Ibn Sina i yego filosofiskaya perepiski s Beruni. Materialы nauchnoy sessii Akademiya nauk Uzbeksitanaposvyaщyonnaya 1000-letnemu yubiley ibn Sinы.- T.,1953, s,47

[27] To‘ychiev B. Beruniy va Ibn Sino. –T., 2020, “Ijod print” 7-bet

Beruniy va Ibn Sino ilmiy falsafiy yozishmalarining bir qismi ham aynan ushbo‘ masalaga qaratilgan. Beruniy o‘zining to‘rtinchi savolida aynan atomlar to‘g‘risidagi qarashlarida Ibn Sino fikrini bilmoqchi ekanligini alohida ta’kidlagan

Jismlarning turli shaklda bo‘lishi va ularining bir-birlari bilan aloqasi, ta’siri va doimiy harakatda bo‘lishi faqat makro-mega darajada emas, balki makro olamda qanday kechishi ham Beruniy va Ibn Sino baxslarining asosiy mavzularidandir. Arestotel ontologik ta’limotida Demokritning atomlar xakidagi karashlariga ham munosabat bildiradi. Uning fikricha bo‘linmas zarralar tushunchasini nisbiy harakterga ega bo‘lgan tushuncha deb hisoblaydi. Shuning uchun ham Beruniy o‘zining to‘rtinchi savolini nima uchun Aristotel bo‘linmas bo‘lakchalar (ya’ni atom) bor deydiganlarning so‘ziga qo‘shilmaydi”? shaklida beradi.

Takidlash kerak, Beruniy Aristotelning fikrini asosan qo‘llab quvvatlaydi va Ibn Sinoga bergan savolida o‘z pozitsiyasini aniq qisqa qilib, bo‘linmas bo‘lak bor deyuvchi odamlarga bundan boshqa ko‘p e’tirozlar lozim bo‘ladi degan fikrni bayon qildi”. Falsafiy nuqtai-nazardan Ibn Sinoni mazkur masalani Beruniy tomonidan yechilishiga munosobati qiziqarli va e’tiborga molikdir.

Ibn Sino Aristotel asarlarini chuqur bo‘lgan holda bu masalani uning “Sam’ al-Kiyon” risolasining 6-maqolasida kuchli dalillar asosida bayon qilingani va Ibn Sino bo‘linmaydigan bo‘lak qanday jism ekanligiga ta’rif beradi. Har qanday bo‘linmaydigan bo‘lak (ya’ni zarra ma’nosida), bu ikki tarafi bo‘lmagan bir narsadir deydi. Aretotelning qarashlarini Ibn Sino himoya qiladi va rivojlantiradi. Arestotel har qanday bo‘lak cheksiz narsaga bo‘linadi degan so‘zining manosi haqiqatda abadiy bo‘linadi degani emas eanligiga Ibn Sino aniqlik kiritadi. Modomiki, har bir jismning o‘rtasida, ya’ni yadrosi va uning ikki tarafi bo‘ladi. Ibn Sino o‘z javoblarida “ Bas, shunday ekan ba’zi bo‘laklar shu taraflar o‘rtasidan bo‘linishi mumkin” va ba’zi jismlar g‘oyat kichkinaligidan amalda bo‘linmaydi”.[28][4]

Ibn Sino Beruniyning savolini va uning fikrini tushungan holda hozirgi atomistik ta’limotda o‘zining tasdig‘ini topgan fikrini bayon kiladi. Mayda zarralar ya’ni eng kichik bo‘laklarga bo‘linadi va doimo harakatda voqe bo‘ladi. Ma’lumki, atomning tarkibi bo‘lgan barcha elementlar (unsurlar doimiy harakat bo‘lishi va “agar ortiqcha cho‘ziq so‘z so‘zlashdan chekelanmas edi. Buni zikr kilar edim”- deydi Ibn Sino o‘zining javoblarining yakunida[29][5].

Keyingi yillarda Respublikamizda ilmiy falsafiy meros o‘tmish allomalarining ta’limotlarini **o‘rganish,** milliy qadriyatlarimizni tiklashga ularni mohiyatini anglashga qulay imkoniyatlar yaratildi. Ilk o‘rta asrlar uyg‘onish davrida yashab ijod etgan allomalar o‘z davrning turli ilm-fan sohalarida ulkan hissa qo‘shganlar. Ana shunday allomalardan Beruniy va Ibn Sinolar, ularning savol-javoblari tarixda o‘chmas iz qoldirgan tarixiy manbalardan biri xisoblanadi. Ular Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fanini O‘rta asr sharoitida jahon fanining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardir. Markaziy Osiyo madaiiy merosini keng xalq ommasiga yetkazib berish ilmiy izlanishlarning strategik vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. To‘ychiev B.T. Beruniy va Ibn Sino yozishmalari Aristotelning “Osmon haqida” asari asosida. O‘zMU habarlari,2017 yil 1/6 son
2. Yu.N.Zavadovskiy Ibn Sina i yego filosofiskaya perepiski s Beruni. Materiali nauchnoy sessii Akademiya nauk Uzbeksitana posvyashyonnaya 1000-letnemu yubiley ibn Sini.- T.,1953.
3. [1] Qarang: Snow C.P. Variety of man: Statesmen Scientists, Writers-London, Penguin 1969;
4. [1] To‘ychiev B. Beruniy va Ibn Sino. –T., 2020, “Ijod print” .

КУРАШ УСУЛАРИ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИ ПЕДАГОГИК ЖИХАТДАН ТАРБИЯЛАШ

Назаркулов Собир Неьматович, Мардиев Комилхон Зойирхон угли
Гулистон Давлат Университети укитувчиси
Гулистон Давлат Университети спорт фаолияти факультети талабаси

[28] **Qarang: Snow C.P. Variety of man: Statesmen Scientists, Writers-London, Penguin 1969;**
[29] **To‘ychiev B. Beruniy va Ibn Sino. –T., 2020, “Ijod print” 101-bet**

Аннотатция: *Спорт тури билан шуғулланган ҳар қандай талаба йигитлар ва қизлар чиройли қадди-қоматга эга бўлишади ва ўз касбий фаолиятида ҳам шахсий ҳаётида ҳам катта ютуқларга эришади. Соғлом турмуш тарзига амал қилган курсантлар бошқа спорт тури билан фаолиятини олиб боришда ҳам тез киришиб кетадилар.*

Калит сўзлар: *кураш, енгил атлетика, спорт, саломатлик, эпчиллик, куч машқлари, жароҳат турлари.*

Қадимий қадриятларимиз, хусусан мардлик, жасурлик, ватанпарварлик, гуманизм ғояларини ўзида мужассам этган миллий спортимиз бўлган курашни оммалаштириш, ривожлантириш ва дунёга танитиш ҳамда ушбу қадриятимизни умумжаҳон дурдонасига айлантириш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, курашнинг тобора оммалашиб бораётганлиги нуфузли халқаро мусобақаларни ташкил қилишга, мавжуд инфратузилма ва моддий-техник базани модернизация қилишга, спорт инвентарлари ва кийимлари таъминотини яхшилашга, бу борада ишлаб чиқаришни кенгайтиришга, шунингдек, соҳа учун малакали кадрлар, тренерлар ва ҳакамлар тайёрлашга бўлган эътиборни янада кучайтиришни талаб этмоқда.

Буюк аждодларимиздан мерос қолган кураш спортининг бой анъаналари ва қадриятларини келажак авлодларга етказиш, ўзбек спорти бренди номи билан курашнинг жаҳон аренасидаги ролини ошириш, ёшларнинг миллий спортга бўлган қизиқишларини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш орқали уларда ватанпарварлик туйғусини янада мустаҳкамлаш, аҳолининг барча қатламлари, айниқса, ёшларнинг, шунингдек, жаҳон халқларининг мазкур спорт тури билан шуғулланиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш мақсадида:

1. Кураш миллий спорт турини (кейинги ўринларда кураш) ривожлантиришнинг асосий йўналишлари этиб қуйидагилар белгилансин: Талабални кураш билан шуғулланишга кенг жалб қилиш ҳамда Ўзбекистонда курашни умумхалқ спорт турига айлантириш; курашни оммалаштириш, унинг жаҳон спорти дурдонасига айланишига ва Халқаро олимпия ўйинлари дастурига киритилишига эришиш; кураш билан шуғулланиш учун зарур моддий-техник база ва инфратузилмани шакллантириш; Талаба ёшларнинг жисмоний тайёргарлик машғулотларида босқичма-босқич курашни устувор спорт турлари сифатида киритиш; кураш бўйича профессионал тренерлар, ҳакамлар тайёрлаш, ўқув-услубий қўлланмалар ишлаб чиқиш, курашнинг илмий-методологик базасини кучайтириш; ўзбек кураши брендини яратиш, инвестицияларни жалб этган ҳолда яктак спорт кийимлари ва кураш гиламларини ишлаб чиқариш, курашни тижоратлаштириш чораларини кўриш; курашни аҳоли ўртасида, ва курсантлар щртасида шу жумладан оммавий ахборот

воситалари орқали кенг тарғиб қилиш.

Ўзбекистон кураш федерацияси, Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси, Туризм ва спорт вазирлиги (кейинги ўринларда Вазирлик), Молия вазирлиги ҳамда олий таьлим,фан ва инновациялар вазирлигининг олий талимларда кенг тарғиб етиш: 2023 йилдан бошлаб ҳар икки йилда бир марта: олий таълим муассасалар талабалари ўртасида кураш бўйича мусобақани юқори кайфиятда ўтказиш лозим.

Кураш - спорт тури, белгиланган қоидага мувофиқ икки спортчининг яккама-якка олишуви. Курашиш санъати кўп халқларда қадим замонлардан буён маълум. Кураш айниқса Юнонистонда кенг тарқалиб, қадимги олимпиада мусобақаларидан доимий ўрин олиб келган. Миллий Курашнинг хилма-хил кўринишлари Греция, Италия, Япония,Туркия, Эрон, Афғонистон, Россия, Ўзбекистон, Грузия, Арманистон, Озарбайжон, Қозоғистон ва бошқа мамлакатларда мавжуд.

Замонавий спорт Курашининг асосий қоидалари 18-аср охири 19-аср бошларида Европанинг бир неча мамлакатларида ишлаб чиқилди. 1912 йил Халқаро ҳаваскорлар кураш федерацияси (FILA) тузилди (ҳозир унга 144 мамлакат, Ўзбекистон 1993 йилдан аъзо). Халқаро майдонда спорт Курашининг юнонрум кураши, эркин кураш, дзюдо, самбо

ва бошқа турлари кенг тарқалган. Кейинги йилларда ўзбек Кураши ҳам алоҳида Кураш тури сифатида дунё миқёсида тан олина бошланди. Кураш инсонни кучли, эпчил, чидамли

ва иродали қилиб тарбиялаш воситаларидан бири ҳисобланади. Шифокорлар назорати остида 12 ёшдан кураш билан шуғулланишга рухсат этилади. Кураш азалдан ўзбек турмуш тарзининг узвий қисми бўлганлигини археологик топилмалар, тарихий қўлёзмалар тасдиқлайди. Қадимги Бақтрия (Ўзбекистон жанубий) ҳудудидан топилган цилиндрсимон сопол идишда икки полвон ва улардан бири иккинчисини чалаётгани тасвирланган. Шу даврга мансуб бошқа археологик топилмада эса полвонларнинг Кураш усулларини намойиш қилаётгани акс эттирилган. Бу ноёб топилмалар милоддан 1,5 минг йил илгари ҳам Кураш аждодларимиз турмуш тарзининг бир қисми бўлганидан далолат беради. Юнон ёзувчиси Клавдий Элиан (2-3-аср) ва бошқа тарихий шахсларнинг ёзишича, шу ҳудудда умр кечирган сак қабиласи қизлари ўзларига куёвни йигитлар билан курашиб танлаганлар. Кейинчалик қизлар куёвни шарт кўйиш йўли билан аниқлашган ва бу шартда Кураш мусобақаси бўлган. Бунга ўзбек халқ қаҳрамонлик достони - «Алпомиш»даги Барчин шартларини мисол қилиб кўрсатиш мумкин. Ибн Сино «Тиб қонунлари» асарида ёзган: « Курашнинг турлари ҳам бор Улардан бири икки курашувчининг бири ўз рақибининг белбоғидан ушлаб ўзига тортади, шу билан бирга ўз рақибидан қутулишнинг чорасини қилади...». Бу таъриф замонавий Кураш қоидаларига яқиндир. Миллий кураш хам белбоғли курашхам аслини олганда оғир спорт турлари саналади шу боисхам спорт психологияси фанихам манашу спорт билан шуғулланувчи ёш ўсувчан курсант болаларни ва қизларни балоғат ёшга киргандан сўнг яни 12 ёшдан юқори боллалар ва қизларга тавсия етади.

Кейинги йилларда асрлар давомида мардлик, бағрикенглик, олижаноблик ва ҳалолликнинг тимсоли сифатида эъзозланиб келинган, ўзбек халқининг тарихий мероси “Кураш” миллий спорт турини (кейинги ўринларда кураш деб юритилади) қайта тиклашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Давлатимизнинг бевосита қўллаб-қувватлаши натижасида кураш халқаро спорт тури сифатида кенг эътироф этилди, “кураш”, “ҳалол”, “таъзим”, “тўхта” ва “ёнбош” каби атамалар эса халқаро спорт луғати таркибидан мустаҳкам ўрин эгаллади.

1998 йил 6 сентябрда таъсис этилган Кураш халқаро ассоциацияси бугунги кунда сайёрамизнинг бешта қитъасидаги 129 та миллий федерацияни бирлаштирган.

2010 йилда Кураш халқаро ассоциацияси Олимпия ўйинлари дастурига киритиш учун буюртма беришда муҳим талаб ҳисобланган Жаҳон допингга қарши агентлигининг эътирофига сазовор бўлди. 2017 йил 20 сентябрда Ашхобод шаҳрида бўлиб ўтган Осиё Олимпия кенгашининг 36-Бош ассамблеясида “Кураш” миллий спорт тури тарихда илк бор XVIII ёзги Осиё ўйинлари дастурига расман киритилди.

Кураш халқаро ассоциацияси ва Ўзбекистон Республикаси курашни халқаро спорт мусобақалари ва турнирлари дастурларига, келгусида эса Олимпия ўйинлари дастурига ҳам киритиш бўйича фаол тадбирларни амалга оширмоқда.

Шу билан бирга, мавжуд айрим камчиликлар курашни янада ривожлантиришга тўсқинлик қилмоқда, хусусан: биринчидан, “Кураш” миллий спорт турини, айниқса, вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида, ўсиб келаётган авлоднинг миллий ифтихор ва ватанпарварлик туйғусини мустаҳкамлаш мақсадида оммалаштириш бўйича амалга оширилаётган ишлар замон талабларига жавоб бермаяпти; иккинчидан, мазкур спорт тури бўйича қобилиятли курашчиларни аниқлаш ва саралаш ҳамда уларнинг машқ қилиши, шунингдек, мураббий ва ҳакамларни тайёрлашнинг самарали механизмларини жорий этиш имконини берадиган клуб ва секцияларнинг яхлит тизими шакллантирилмаган; учинчидан, ёшларни ушбу спорт тури билан шуғулланишга кенгроқ жалб этишга қаратилган халқаро мусобақалар ғолиблари ва совриндорларини рағбатлантиришнинг самарали тизими жорий этилмаган; тўртинчидан, зарур моддий-техник база ва спорт инфратузилмасининг етарли эмаслиги, спорт анжомларини ишлаб чиқиш йўлга қўйилмаганлиги спортчилар машғулотларини талаб даражасида ташкил этишга ҳамда кураш бўйича халқаро мусобақаларни ўтказишга тўсқинлик қилмоқда.

“Кураш” миллий спорт турини аҳоли, айниқса, вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида янада ривожлантириш ҳамда оммалаштириш, ўсиб келаётган авлодда миллий ифтихор ва ватанпарварлик туйғусини мустаҳкамлаш, шунингдек, жамиятда соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш ва жаҳон спорт майдонида юқори натижаларга эришишни таъминлаш мақсадида:

1. 6 сентябрь – “Кураш” миллий спорт тури куни сифатида белгилансин.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси икки ҳафта муддатда, жумладан, уйидагиларни назарда тутувчи “Кураш” миллий спорт турини янада ривожлантириш ва оммалаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқсин ва тасдиқласин:“Кураш” миллий спорт тури марказлари, ҳар бир туман (шаҳар)да замонавий спорт клублари ва секцияларини ташкил этиш; кураш бўйича республика, халқаро мусобақа ва турнирларни доимий асосда ташкил этиш ва ўтказиш; кураш бўйича республика, халқаро мусобақа ва турнирлар иштирокчиларининг автоматлаштирилган маълумотлар базасини жорий этиш; “Кураш” йўналиши бўйича олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларига қабул квоталарини ошириш; мазкур спорт тури билан шуғулланиш учун жаҳон стандартларига жавоб берадиган “яктак” спорт кийимлари ва “кураш гилам”ларини ишлаб чиқаришни ташкил этиш Долзарблиги. Сунгги йилларда мамлака-тимизда жисмоний тарбия ва спортни ривож-лантириш борасида олиб борилаётган ишлар диккатга сазовордир. Миллий спорт тури булган курашни оммалаштириш, ёшларнинг миллий кураш билан шугулланишлари учун керакли шароитларни яратиб бериш, уларнинг ушбу спорт турига булган кизикишини янада кучайтириш, Олимпиада уйинлари дастурига киритишга эришиш асосий вазифалардан биридир. Зеро, Узбекистон Республикаси Президента Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, "жамиятда соғлом турмуш тарзини карор топтириш, жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш яна бир долзарб вазифадир". Ушбу маълумотларга таянган холда кураш спорт турини минг йиллар давомида уз багрида асраб, халқ маросимлари, миллий байрамлар негизида авлоддан-авлодга утказиб келаётган мамлакатимизнинг барча худудларидаги махалла институтида янада оммалаштириш уз ечимини кутаётган долзарб масалалардан бири хисобланади. Тадкикотнинг максади махаллаларда утказиладиган маънавий таргибот-ташвикот тадбирлари оркали миллий кураш спорт турини мамлакатимизнинг барча вилоят ва туманларида оммалаштириш, ушбу спорт турининг инсон саломатлигида тутган ўрнини, ёшларнинг буш вактини самарали ўтказиш, уларни соғлом, мард, ватанпарвар килиб тарбиялашдаги ахамиятини очиб беришдан иборатдир. Тадкикот натижалари ва унинг мухока-маси. Мамлакатимизда конун устуворлигини таъминлаш, ёш авлодни маънан ва жисмонан соғлом, баркамол қилиб тарбиялаш, оила, Массовая физическая культура и спорт оналик ва болаликни ижтимоий мухофаза этиш, хар бир фуқарода соғлом турмуш маданиятини шакллантириш борасида мухим ишлар килинмокда. Узбекистон бозор иктисодиётига асосланган фуқаролик жамияти қуриш йулидан борар экан, кадриятлар ва анъаналарнинг махсули булган махалла мазкур йуналишда давлатнинг асосий таянчи булиб қолади. Ўзбек халки учун Ўрта Осиёда яшовчи бошқа халқларда бўлганидек, махалла бир неча асрлардан бери давлат ва бошқарувнинг негизи бўлиб келган, яъни бундай жамоаларда одамлар факат худудий, кушничилик билангина эмас, ички маънавий-ахлокий кадриятлар билан хам узвий боғланганлар. Аждодларимиз ёш авлодни тарбиялашда қул келадиган халқ анъаналари, урф-одатларини айнан махаллаларда кенг татбик этишган. Жумладан, кураш спорт турига

кадимдан махалланинг кичик бугини булган оилада катта ахамият берилган. Қадимги юнон ёзувчиси Элиан Клавдийнинг маълумотларига караганда, Ўзбекистон худудида истиқомат қилган сак қабилалари ҳаётида жисмоний тарбия воситасининг негизи сифатида кураш спорт тури кенг тарқалган булиб, оила қурмоқчи булган ёш йигитлар ўзлари уйланадиган булгуси калликларини курашда енгиши керак бўлган. Демак, бундан куриниб турибдики, кураш билан оилада нафакат ўгил болалар, балки қизлар хам шуғулланишган.

Таҳлил ва натижалар (Analysis and results) ўз тахлил қилиб айтканда натижалар

ўсиши ва сезиларли натижа беришда кураш белбоғли кураш спорт турларини ўрни катта хисобланади__

Хулоса ва таклифлар

(Conclusion/Recommendations) Хулоса қилиб айтганда бу спорт турлари билан хусусан кураш ва белбоғли кураш спорт турлари ёш талабаларни рухий ва маънавий тарзида тарбиялайди ва уларни бошқа жисмоний ҳати-харакатларида ва норматив имтихонларида хам катта ехтимоллар билан муккаммал қилиш аниқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Нуриев Р.И. Миллий кураш буйича дастур, 2000 йил

2. Абдурахимов Ф.А. «Миллий курашни тайорлаш» Тошкент, 2000 йил.
3. Нуритдинов Е.Н. «Жисмоний маданият ва спортни ривожлвнтиришнинг долзарб масалалари»
Самарканд,2000 йил.
4. К.Юсупов. Кураш ҳалқаро қоидалари техникаси ва тактикаси. Тошкент 2005.
5. Н.Х.Азизов. Белбоғли туркистон кураши. Тошкент: Ўқитувчи 1998.
6. А.Атоев. Ёш ўсмирлар ўзбек курашини ўргатиш услубияти. Тошкент «Ўқитувчи» 2005.
7. Ф.А.Керимов. Спорт кураши назарияси ва усулиёти. Тошкент 2005.
8. Р.С. Саломов. “Спорт машғулотларининг назарий асослари” Ўзбекистон Давлат жисмоний маданият институти Тошкент 2005 йил.238-бет

TALABA QIZLARDA XARAKAT ETIShMOVChILIGINI SPORT O‘YINLARI (gandbol) MAShG‘ULOTLARI ORQALI TO‘LDIRISH

D.S.Qambarov
Guliston davlat universiteti
qambarov17121982@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sport o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi talaba qizlarning jismoniy tayyorgarliklarini va salomatlik holatlarini innovatsion metodlar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, anketa so‘rovnomasi, professiogramma, salomatlik darajasi.*

Muammoning dolzarbligi. Xozirgi yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega hamda rivojlangan davlatlar miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishlari, baxtli bo‘lishlari uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz[1].

O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosati mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishga aylandi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning PF–5924-sonli 2020 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va 2021 yil 16 iyundagi PQ–5148-sonli “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatlarini yanada yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, jamiyatimizning ijtimoiy-ishlab chiqarish sohasini uzoq vaqt isloh qilish har doim ham aholining turli qatlamlari, xususan, o‘quvchi yoshlar turmush tarzi, mehnati va maishiy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatavermaydi. Oliy ta’lim muassasida o‘qish davomida, kasbiy ta’lim dasturining murakkabligi va uni o‘zlashtirish davomida talaba qizlarning harakat faolligi cheklanadi. Buning oqibatida ularda surunkali ruhiy va aqliy zo‘riqish vujudga keladi.

Bugungi kunda fan texnikaning rivojlanishi oqibatida harakat faolligining kamligi tufayli, qizlarning ta’lim-tizimiga moslashish jarayoni sekin va og‘riqli o‘tadi bu esa, asabiylashish va yurak-qon tomir tizimi turli kasalliklarini kelib chiqishi bilan izohlanadi [2,4,6].

Harakat faolligining kamligi ayollar, xususan oliy ta’lim muassasalari talaba qizlarining[3,5,7]salomatligiga xam salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlarning gipokineziya muammosini Respublikamiz olimlaridan S.R.Salamov, F.A.Kerimov, F.A.Koshbaxtiev, R.D. Xolmuxammedov, R.M. Masharipovlar hamda MDH olimlaridan M.S. Abramov, M.S. Jukov, L.N.Akulova, P.K.Anoxin kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rish mumkin.

Ishning maqsadi. Oliy ta’lim muassasalari talaba qizlarining jismoniy rivojlanishlari, xarakat tayyorgarliklari va salomatlik darajalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot usullari. Adabiyot manbalari va o‘quv-me’yoriy hujjatlar tahlili, o‘rganilayotgan kontingent bilan anketa so‘rovnoma o‘tkazish, talaba qizlarning jismoniy rivojlanishlari va harakat tayyorgarliklarini aniqlash, talaba qizlarning salomatlik darajalarini (G.L.Apanasenko) metodi bo‘yicha aniqlash, pedagogik tajriba, matematik statistik tahlil.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Universitetning I-bosqichga qabul qilingan kontingentning so‘rovda qatnashgan barcha talaba qizlari umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’lim tizimi muassasalarida tahsil olishgan.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot natijalariga muvofiq, haftasiga ikki soatlik jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha, kuniga o‘rtacha 5-6 soatlik auditoriya soatlarini e’tiborga olsak, harakat faolligini tegishli darajada ushlab tura olmasligi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotda ishtirok etgan I-bosqich talaba qizlarning tanasida harakat faolligining surunkali etishmovchilik holatlari mavjud deb taxmin qilish mumkin.

Shuning uchun talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi, harakat tayyorgarligi va salomatlik darajalarining dastlabki darajalarini tahlil qilishda maktab hayotining oldingi rejimi va oliy ta’limda o‘qish bilan bog‘liq yangi ish faoliyati turini hisobga oldik.

Shu maqsadda I-bosqich talaba qizlari o‘rtasida anketa so‘rovi o‘tkazildi. Olingan ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, qizlar universitetga o‘qishga kirishdan oldin “kam harakat” turmush tarzini olib borishgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

So‘rovnoma materiallari asosida talaba qizlarning harakat faolligining tavsifi (nq102)

№	Xarakat faoliyatining tuzilishi	Holatlar soni	
		abs	%
1	Sport toifalarining mavjudligi.	3	2,7
2	Sport to‘garaklarida ishtirok etish.	3	2,7
3	Yurish safarlarida ishtirok etish.	30	32,3
4	Kross tayyorgarligida ishtirok etish.	37	39,8
5	Ertalabki badantarbiya mashqlari:		
	- uzluksiz	-	-
	- vaqti-vaqti bilan	58	62,4
6	Sport o‘yinlarida ishtirok etish:		
	- uzluksiz	3	2,7
	- vaqti-vaqti bilan	69	74,2
7	Jismoniy tarbiya darslariga munosabat: - mashg‘ulotga bo‘lgan talab potrebnostyu	14	15
	- faqat baho uchun	79	85
8	Jismoniy faoliyatning qaysi intensivligi sizga yoqadi: - yuqori	19	20
	- o‘rta	52	56
	- sust	22	24

Shuni ko‘rish mumkinki, tekshirilayotgan kontingentning ertalabki badantarbiya mashqlarida hamda ommaviy sport tadbirlarida, hamda kross tayyorgarligi, turistik sayr va sport musobaqalarida kamdan-kam ishtirok etishlari tahlil qilingan.

Ishtirokchilarning 3% dan ko‘p bo‘lmagan qismigina sport to‘garaklarida shug‘ullanishlari va aynan ushbu talabalargina sport darajalariga ega ekanliklari hamda muntazam sport tadbirlarida ishtirok etishlarini bildirganlar. Faqatgina baho olish uchun 85% talabalar jismoniy tarbiya darslariga qatnashishlarini ta’kidlaganlar. Bularning barchasi esa jismoniy madaniyat savodxonligining pastligi va muntazam jismoniy mashqlarga ehtiyoj yo‘qligidan dalolat beradi.

Talaba qizlarning oliy ta’limda o‘qishlari davomida turli faoliyat shakllarining aniq tavsifi biz uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Buning uchun ularning kundalik rejimi professiografik tahlil amalga oshirildi.

Talaba qizlar kundalik vaqtining yarmiga yaqini statik holatda bo‘lib, tungi uyquni ham hisobga olganda, ular harakatsiz holatda o‘tkazgan vaqt sutka davomiyligining o‘rtacha 80% ga etgan. Vaqtning atigi 2 % darsdan tashqari vaqtlardagi jismoniy tarbiya darslariga ajratilgan.

Professiogrammaning umumiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, universitet sharoitida talaba qizlarning hayotiy faoliyati, salbiy oqibatlarga olib kelmaydigan va yuqori darajadagi kasallanishning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan gipokineziyaning aniq fonida davom etyapti. Universitet poliklinikasi ma’lumotlariga ko‘ra, tekshirilgan kontingentning 30% (75 kishi) asosiy tibbiy guruhga, ya’ni amalda sog‘lom qizlarga ta’luqli bo‘lib, I-semestr davomida 170 soat mehnat yo‘qotishi (ishni yo‘qotish) borligi aniqlangan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Talaba qizlar faoliyatining professiografik tavsifi (nq102)

№	Faoliyat tarkibi	Kun davomida davomiyligi	
		abs	%
1	Ma’ruzalarda qatnashish	2,5	10,4
2	Laboratoriya mashg‘ulotlari	2,6	10,6
3	Mustaqil mashg‘ulotlar	3	12,5
4	Ijodiy faoliyat	0,4	1,6
5	Adabiyotlar o‘qish	2,5	10,4
6	Madaniy tadbirlar	0,6	6
7	Sinfdan tashqari ishlar	0,2	2
8	Bo‘sh vaqt	4,9	19,3
9	Uyquning davomiyligi	7,3	32

Jismoniy rivojlanish darajasi - bo‘y, og‘irlik, ko‘krak qafasi ekskursiyasi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi, qo‘l dinamometriyasi o‘lchashni o‘z ichiga olgan, umumiy qabul qilingan usul bo‘yicha baholandi.

Talaba qizlarning jismoniy rivojlanishlarining dastlabki holatini sifatli tavsifi uchun uchta ko‘rsatkich: ko‘krak qafasi ekskursiyasi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi (O‘TS) va o‘ng qo‘l (kist) kuchi ko‘proq qiziqish uyg‘otdi.

Ko‘krak qafasi ekskursiyasi o‘rtacha 8 sm.ni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘pkaning tiriklik sig‘imi 2620-2680 sim.us.da atrofida bo‘ldi va o‘ng qo‘l kuchi o‘rtacha 25 kg.dan oshmadi. Ushbu ma’lumotlar tekshirilayotgan kontingentning jismoniy rivojlanishning me’yor darajada emasligini ko‘rsatdi.

Biz tomonimizdan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimizda I-bosqich talaba qizlarning harakat tayyorgarligi bo‘yicha olingan dastlabki ma’lumotlar an’anaviy harakat rejimining nomutanosibligini tasdiqladi.

Natijada, Kuper testi ko‘rsatkichi o‘rtacha 1800 m, joydan uzunlikka sakrash-170 sm.ni tashkil etdi. Olingan dastlabki ma’lumotlarga muvofiq I-bosqich talaba qizlarining asosiy harakat sifatlari rivojlanishining past darajasini ya’ni oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirgungacha bo‘lgan davrda harakat faolligining sezilarli darajada bo‘lmaganligini tasdiqladi.

Talaba qizlar salomatligining boshlang‘ich darajasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha maktab dasturiga qo‘yilgan talablarning etarli emasligini tasdiqladi.

Hulosa. Dastlabki tadqiqotlarning boshlang‘ich davrida umumta’lim maktablarning jismoniy tarbiya bo‘yicha an’anaviy ta’lim dasturining o‘quvchilar harakat faolligini etarli darajada saqlab qolishga yordam bera olmasligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar olindi.

Shuningdek, I-bosqich talaba qizlari harakat rejimining nomutanosibligi bir kunlik vaqtning taxminan yarmi ular gipokineziya holatida bo‘lib, tungi uyquni hisobga olganda, ularning bu holatda o‘tkazgan vaqti o‘rtacha 80% ga etgani ham aniqlandi. Bularning barchasiga harakat faolligini pasiligi sabab bo‘lib, nafaqat kasallanish darajasi yuqori (30% gacha), balki buning oqibati ta’lim olayotgan talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi, harakat tayyorgarligi va salomatligining darajasi sustligi ham asosiy sabab bo‘ldi.

Dastlabki ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki talaba qizlarning harakat tayyorgarlik ko‘rsatkichlari oliy ta’lim talabalari uchun jismoniy tarbiya bo‘yicha me’yorlarda nazarda tutilgan darajadan ancha pastda bo‘lib chiqdi. Talaba qizlar sog‘ligi darajasi bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar, maktab yillarida kelib chiqqan harakat faolligi etishmovchiligining salbiy oqibatlari ekanligini aniq tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent, 2017.

2. Achilov A.M., Akramov J.A., Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. Toshkent, 2009.

3. Yunusova Yu.M. Sport faoliyatining nazariy asoslari.Toshkent, 1994.

4. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. 2004. 34 st.

5. Lyax V.I. Koordinatsionno‘e sposobnosti: diagnostika i razvitie. 2006. 17 st.

6. Bakiev Z.A. Individualizatsiya texniko-takticheskoy podgotovki bortsov na osnove avtomatizirovannogo analiza sorevnovatelnoy deyatelnosti. Dis. kand. ped. nauk. 2009. 45 st.

7. Shaxmuradov Yu.A. Nauchno-metodicheskie osnovo‘ mnogoletney texniko-takticheskoy podgotovki bortsov (na primere volnoy borbo‘). Avtoref. dis. d. ped. nauk. – M., 1999. 78 st.

ТАЪЛИМГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДОШУВ ВА УНИНГ БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИСИНИ ТАЙЁРЛАШДАГИ ЎРНИ

Танибердиев Акмал Абдуғаниевич, Жўрақулов Шоҳжаҳон
Гулистон давлат университети
Ўзбекистон, Гулистон
a.taniberdiev@mail.ru

Калит сўзлар: олий ўқув юрти, ўртачадан юқори, билим, қобилият, объект, психологик, педагогик, педагогик маҳорат, ўқув ахбороти

Кириш. Жисмоний тарбия-педагогика тарбияси муаммоларини тадқиқ этиш муаммоси билан шуғулланувчи омиллар ҳам шундай хулосага келишган. Уларнинг фикрича жисмоний тарбия-педагогика олий ўқув юртлари битирувчиларининг касбий тайёргарлигининг паст даражада бўлишига сабаблардан бири бу — амалий вазифаларни ҳал этиш учн олинган билимларни қўллаш маҳоратини ривожлантиришга етарлича эътибор қаратмаган ҳолда назарий билимларни ўзлаштиришга бўлган ўқув жараёнига кўпроқ эътибор қаратишдир. Натижада бўлажак мутахассис айрим фанларни яхши ўзлаштиради, аммо ўз билимларини амалда қўллашга қийналади (А. А. Вербицкий ва бошқалар).

Педагогик таълим бир томондан узлуксиз таълим тизимининг таркибий қисми саналади ва унинг ишлаши ҳамда ривожланишининг қонунияти билан шартланган. Иккинчи томондан, у бутун педагогик объект сифатида мустақилликка ва таркибий қисмлардан иборат мураккаб тузилмага эга. Ҳозирда педагогик маҳоратни шакллантириш муаммосига бағишланган қуйидаги олимлар тадқиқотлар олиб беришган: О. А. Абдулина, В. П. Беспалько, А. Н. Двоеглазов, Н. В. Кузьмина, И. Я. Ларнер, К. М. Маҳкамжинов, У. Нишоналиев, Т. С. Усмонхўжаев, А. И. Щербаков, Т. Т. Юнусов, Ю. М. Юнусова ва бошқалар.

Е. В. Кузьминанинг олий ўқув юртида ўқиш жараёнида билимларнинг тўпланиши ва уни амалда фойдаланиш даражаси ўртасидаги боғлиқлик тўғрисидаги тадқиқоти шуни кўрсатадики, спортчиларнинг жисмоний хусусиятлари, техникаси ва тайёргарлик масалалари бўйича тайёргарлиги "ўртачадан юқори" деб баҳоланган. Билимларни амалий қўллаш; ўқув-машқ жараёнини ташкил этиш ва олиб бориш "ўртачадан юқори" деб баҳоланади. Талабаларнинг ўрганган билимлари ва қобилиятлари ўртасидаги фарқ ўқитувчининг амалий фаолиятини моддаллаштирувчи вазиятларга ушбу билимларни қўллай билиш 24—31% ни ташкил этади. П. К. Губа шундай таъкидлайдики, таълимнинг мавжуд тизими шунга олиб келадики, битирувчилар аниқ касбий фаолият шароитида ўзлаштирган билимларини қўллай билмайди. Битирувчиларнинг назарий ва амалий тайёргарлиги ўртасидаги фарқ жисмоний тарбия бўйича мутахассисларнинг касбий таълимини амалга ошириш амалиётидагина эмас, умуман олий таълим тизимида ҳам кузатилади.

Олий мактабдаги анъанавий таълим тизимини тавсифлаган ҳолда унга мансуб камчиликларни ажратиб кўрсатади.

1. Таълим мақсади ташқаридан кўрсатилади. Талаба ўқитувчи томонидан

бериладиган таъсирни ўрганувчи устувор объект саналади, улар томонидан билдирилган фаоллик эса ўқув маълумотларини эслаб қолишга йўналтирилган.

2. Психологик-педагогик шарт-шароитлар қуйидагилар учун етарлича яратилмаган: а) талабаларда ўқув фаолиятини мустақил ташкил этиш қобилиятини шакллантириш учун; б) ўз-ўзини тарбиялаш, ўзини-ўзи ривожлантириш учун; в) бўлажак мутахассиснинг ижодий индивидуаллишини ривожлаништириш, уни тўлиқ амалга ошириш учун (А. А. Вербицкий).

Талабалар томонидан ўзлаштирилган билим ва маҳоратнинг бўлажак касбга нисбатан талабларига ҳам даража, ҳам мазмуний тўлиқлик жиҳатидан мос келмаслигида таълим натижалари намоён бўлади (А. А. Вербицкий).

Мутахассислар бу жараённи қонуний деб ҳисоблайди. Чунки, анъанавий дидактик назария ўқувчиларни инсониятнинг тўлдирилган ва тизимлаштирилган тажрибаси билан таништиришни ўзининг асосий вазифаси деб билади. Айнан шундан назарий билимларнинг таълим мазмунидаги, фанларни ўзлаштиришга йўналтиришдаги етакчи роли ўз тасдиғини топади. Бундай ёндошувда англаш, яъни билиш ўрганилаётган субъектга нисбатан предмет орқали таъсир кўрсатиш натижаси деб қаралади. Шу боис ўқув материалини эслаб қолишга, фикрлашни эмас, хотирани ривожлантиришга урғу берилади. Ушбу анъананинг барқарорлиги шунча кўмаклашадики, таълим олувчиларнинг фан олами билан ўзаро ахборот таъсирлашуви асосан семиотик воситалардан фойдаланиш орқали амалга оширилади. Бу шу нарсага олиб келадики, таълим жараёнида ўз-ўзидан маданият, унинг бир қисми сифатида касбий фаолият эмас, балки уни ўзлаштириш воситаси — ўқув ахборотлари ўзлаштирилади. Билимларнинг ўта расмийлиги, уларни амалда қўллашнинг қийинлиги ана шундан. Анъанавий таълимда педагогнинг асосий вазифаси таълим олувчини берилган билимларни қабул қилиш, англаш, эслаб қолиш ва амалда қўллашга ўргатувчи тайёр билимларни маълум қилишдан иборат. Бу ўз навбатида таълим олувчида касбий фикрлашни ривожлантиришга тўлиқсиз ёрдам берган ҳолда билиш фаолиятини ривожлантиради (А. А. Вербицкий).

В. С. Кузнецов, Е. В. Кузьмичева, В. Е. Дьяченко каби қатор олимлар фикрига кўра, жисмоний тарбия бўйича мутахассисларни тайёрлашдаги анъанавий тизимда қуйидаги ҳолатлар мавжуд:

— ўқув жараёнидаги асосий ўринни талабаларга керакли маълумотларни етказиш ва улар хотирасида мустаҳкамлаш эгаллайди. Агар талаба ушбу билимларни имтиҳонда айтиб бера олса, бу билим ўзлаштирилган деб ҳисобланади;

— билимни ўқитувчидан ўқувчига узатиш, сўнг назорат тартибида талабадан ўқитувчига қайтариш тизими мавжуд;

— барча машғулот шаклларида (маъруза, семинар, методик, амалий ўқишлар) муаммолар ва улардан келиб чиқадиган вазифалар ўқитувчи томонидан тайёр шаклда берилади, натижада талабаларнинг фикрлаш ва ижодий қобилияти тораяди;

— талабаларнинг тайёргарлиги мезони — бу, умрни амалий қўллашни ҳисобга олмаган ҳолда билимларни айтиб бера олиш сифати саналади.

Жисмоний тарбия-педагогика олий ўқув юртлари битирувчилари касбий тайёргарлигининг паст даражада бўлишинига яна бир сабаб — спорт-педагогика фанларини ўқитишнинг спорт маҳорати ва қобилиятини шакллантиришга нисбатан йўналтирилганлигидир. Жисмоний тарбия бўйича мутахассисларни тайёрлашда асосий вазифа спортчиларни эмас, балки юқори малакали педагогларни тайёрлашдан иборат(Косьмина И. Л.). Педагогик таълим тизимининг ҳозирги ҳолатига оид хусусиятлардан бири — бу мавжуд анъаналар ва янгиликни киритиш ўртасида мақбул мосликни қидириш саналади. Мазкур муаммони ечиш биринчи навбатда бўлажак педагогга касбий тайёргарликни амалда қўллаш ҳамда педагогик фаолиятнинг шахсий ижодий имкониятини таъминлаш билан боғлиқ. Бундай шароитда тегишли технологик педагогика таълимини ишлаб чиқиш ва фойдаланиш ҳал этувчи аҳамиятга эга бўлади.

Ҳозирда ўқув ишларининг янги шакл ва методларини қўллаш орқали ўқув ҳамда касбий фаолиятни яқинлаштириш йўлларини фаол қидириш олиб борилмоқда. Бунда бир томондан, аудитория шароитида дидактик шаклда ишлаб чиқариш ва ишлаб чиқариш муносабатларига оид (махсус курс, махсус семинар, муаммоли вазият, вазиятли топшириқларни ечиш, имитацияли моделлаштириш, тренажерлар, вазифаларни ролларга бўлиб ижро этиш, ишга оид жиддий ўйинлар ва ҳоказо) маълум бир ҳолатлар

яратилади, иккинчи томондан эса ишлаб чиқариш шароитида ТИТИ ва ТЎМИ амалиёти, ишлаб чиқариш амалиёти, аниқ бир мавзу бўйича диплом ишлари, кафедра филиалларини ташкил этиш амалиёти кенгаяди.

Хусусан, К. К. Платонов фикрига кўра, талабалар билан ишлаш шундай ҳолатда самарали бўладики, бунинг учун фақат яхши дарсларни намоён этиш ёки илғор педагогик тажриба элементларини намойиш этиш билангина чегараланиб қолмасдан, бу жараёнга уларнинг бўлажак касбий фаолияти билан боғлиқ фаол ва турли хил фаолиятни киритиш лозим (К. К. Платонов). Бу шунингдек, О. А. Абдулина , В. П. Беспалько, Н. М. Черкесзода ва бошқа мутахассисларнинг илмий ишларида учрайди.

Мазкур тенденция педагогик тадқиқотларида, шунингдек, олий жисмоний тарбия-педагогика таълим соҳасида ҳам ўз аксини топди. Л. М. Куликова талабанинг бутун мустақил ижодий касбий фаолиятини босқичма-босқич шакллантириш ва ривожлантиришнинг ягона стратегиясини амалга ошириш орқали тайёргарликнинг илмий-методик ҳамда эмпирик йўлларини бирлаштиришни таклиф этди. Жисмоний тарбия бўйича педагогларнинг касбий малакасини шакллантириш тўғрисида сўз юрита туриб, П. К. Губа шундай таъкидлайдики, унга кўра асосий масала алоҳида фанлар бўйича билимлар йиғиндисига эга бўлишда эмас, балки касбни эгаллашда. Е. В. Никулина талабаларга енгил атлетикани ўргатиш методикасини тавсия этади (ҳаракат амалларини ўзлаштириш таълим технологиясини ўзлаштириш билан мос келади). Яъни талаба нафақат ўқиб-ўрганади, шунингдек, билганларини бошқа талабаларни ҳам ўргатади. Т. А. Маркина педагогнинг касбий вазифасини самарали шакллантириш сифатида назарий ва амалий тайёргарлик бирлигини ва фанлараро интеграцияни амалга оширишни илгари суради. Шундай қилиб, биз куриб турибмизки, назарий ва амалий тайёргарликни уйғунлаштириш зарурияти кўплаб муаллифлар томонидан таъкидланади. Юқорида қайд этилганлар яна бир бор юқори малакали педагогларни, жумладан, жисмоний тарбия бўйича ўқитувчиларни тайёрлаш бўйича анъанавий ўқитиш услуби қониқарсиз эканлигини тасдиқлайди. Бу педагогика олий ўқув юртларида талабаларни ўқитиш жараёнида уларнинг касбий қобилиятларини шакллантириш бўйича янада самарали технологияларни қидириш учун жиддий сабаб саналади. Ҳар қандай педагогик технология педагогика фанлари ва амалиётининг янги ютуқларига асосланади ҳамда анъанавий таълим тажрибасининг жамиятдаги ижтимоий тараққиёт туфайли юзага келган ўзгаришлар билан уйғунлашувини акс эттиради.

Педагогик технология бу — таълим олувчилар ва ўқитувчилар учун қулай шароитларни сўзсиз таъминлаш билан бирга ўқув жараёнини лойиҳалаштириш, ташкил этиш ва олиб бориш бўйича ҳамкорликдаги педагогик фаолиятнинг барча деталларигача ўйлаб чиқилган моделидир. И. В. Беспалько таъкидлашича, педагогик технология — бу ўқув жараёнини амалга оширишнинг мазмуний техникасидир.

Б. Г. Лихачев шундай таъкидлайдики, педагогик технология таълим, тарбия воситаларининг "шакл, методлари, услубларининг шакл, метод, усулларининг махсус

тўпламини белгиловчи психологик-педагогик мажмуини ифодалайди. У педагогик жараёнларнинг ташкилий-методик воситалари саналади. Бўлажак касб моҳиятида билим ва малакаларни ўзлаштириш олий ўқув юртларида касбий тайёргарликни такомиллаштиришнинг истиқболли йўналишларидан бири саналади. Бундай таълим технологияси "контекстли таълим" номини олган (А. А. Вербицкий).

Ҳар қандай касбда бўлажак мутахассисни, жумладан педагогни тайёрлашга нисбатан контекст ёндошув моҳияти шундан иборатки, бу бир турдаги фаолият (билиш) турини бошқа бирига (касбий) ўтказишни таъминлайди ва тегишли эҳтиёжлар, сабаб ва мақсад ҳатти-ҳаракатлар, воситалар, фан ва натижалар алмашинувига олиб келади (А. А. Вербицкий).

Кўпгина тадқиқотчилар томонидан қайд этилган ўқув ва касбий фаолият ўртасидаги номувофиқликлар қуйидаги зиддиятларда ўз ифодасини топади.

1. Ўқув-билиш фаолияти фанлари ўртасидаги мавҳум фанлар (матн, белги тизимлари, ҳаракат дастури) ва билимлар ишлаб чиқариш жараёнлари ва вазиятларининг умумий мазмунида берилган бўлажак касб фаолиятига оид аниқ фанлар ўртасидаги зиддиятлар.

2. Касбий фаолиятни бошқаришда билимлардан тизимли фойдаланиш ва уларни ўзлаштиришнинг турли кафедра ҳамда фанлар бўйича тарқалганлиги ўртасидаги зиддият.

3. Таълимда билим ва тажрибани ўзлаштиришнинг индивидуал усуллари, ўқув ишларининг индивидуал хусусияти ҳамда касбий меҳнатнинг жамоа хусусияти ўртасидаги қарама-қаршилик.

4. Касбий меҳнат жараёнига мутахассисни ижодий фикрлаш даражасида жалб этиш билан анъанавий таълимдаги ижтимоий фаолликка биринчи галда эътибор, қабул қилиш, хотира, ҳатти-ҳаракатга таяниш услуби ўртасидаги зиддият. Анъанавий таълимда фикрлашга деярли эътибор қаратилмай, асосий куч талабанинг хотирасига берилади. Лекин фақат фикрлашгина талабани ҳеч қачон стандарт бўлмайдиган вазиятлар ва ҳатти-ҳаракатларга мурожаат қилдира олади. Шунинг учун фикрлашнинг бошланғич бўғини муаммоли вазият саналади. Бўлажак мутахассиснинг ҳаракат модели ёки схемаси контекст туридаги фаол таълим олишда талабанинг ўрганиш, билиш фаолиятига оид бойитилган модель бўлиб хизмат қилиши мумкин. Анъанавий таълимда бу модель олиб ташланган, чунки бутун назарий ишларни ўқитувчи, олим, дарслик муаллифи ўз зиммасига олган. Вазифанинг тўғри ечилганлиги мавжуд жавоб билан қиёсланади, холос. Шунингдек, "ахборот" ва "билим" тушунчалари ҳам фарқланади. Ахборот — бу, маълум бир белги тизимида инсондан ташқарида ва унгача бўлган нарсалардир. Билим — бу, ҳаракатланиш учун қўлланма бўлган фаолиятни англашнинг текширилган амалий натижасидир. Ахборот билимга айланиши учун энг бошидан мазкур ахборотни касбий фаолиятда қўллаш, уни контекстда ўзлаштириш талаб этилади.

5. Талабанинг "жавоб" позицияси (таълим анъаналари) билан ишда мутахассиснинг фан ва ижтимоий маънодаги ташаббускорлик позицияси ўртасидаги қарама-қаршилик.

6. Ўқув фаолиятининг моҳияти белгилар тизимида "муҳрланган ўтмиш"даги ижтимоий тажрибага мурожаат қилиниши билан ўқиш субъектининг бўлажак касб фаолияти мазмунига йўналтирилганлиги ўртасидаги қарама-қаршилик (А. А. Вербицкий). Таълим давомида ўзлаштирилган билан, маҳорат ва малакага контекст ёндошув касбий фаолиятда энди фан сифатида эмас, касбий масалаларни ҳал этиш воситаси сифатида намоён бўлади. Ўқиш субъектининг касбий фаолият субъектига айланиши шу билан боғлиқ. Муаллиф иккита муҳим фаолият турига бўлган ўқиш ва меҳнатга эмас, битта ва ўша фаолият ривожланишининг икки хил босқичини кўриб чиқишни таклиф этади.

Биринчи босқичда ўқиш субъекти мақсадга мувофиқ иш учун зарур бўлган билим ва амалий ҳатти-ҳаракатлар, қобилиятлар, ижтимоий қадриятлар заҳирасини эгаллаш бўйича фаоллик турларини амалга оширади.

Иккинчи босқич бу арсенал аниқ профессионал фаолиятни бажариш воситаси сифатида иштирок этади. Шундай тегишли шарт-шароит яратиш жоизки, бунда ўзлаштирилаётган восита у ёки бу касбий фаолият фани мантиғида амалий жиҳатдан қўлланилиши ривожланади. Бундай таълимда ўз-ўзидан ахборот эмас, билим педагогик вазифаларни муваффақиятли қўллаш маҳорати билан уйғунликда педагогнинг касбий компетентлигига оид асосий кўрсаткич бўлиб қолади. Контекст таълимда ўқув фани белгилар тизими ва талабанинг уни ўзлаштириш бўйича фаолияти сифатида эмас, балки талабанинг фаолият фани сифатида лойиҳалаштирилиши лозим.

Шунда билимларни ўзлаштириш энг бошиданоқ мазкур фаолиятнинг контекстида амалга оширилади. Бунда билим фаолиятнинг йўналиш асоси, уни бошқариш воситаси бўлиб хизмат қилади, талабаларнинг ўқув ишларини ташкил этиш эса — ўзлаштириладиган мазмунни яратиш вазифасини бажаради. Таълимга контекст ёндошувда дидактик шакл, метод ва воситаларнинг бутун тизими ёрдамида контекст ёндошувда мутахассис бўлажак касбий фаолиятининг мазмуни моделлаштирилади. Абстракт билимларни ўзлаштириш белгилар тизими сифатида ушбу фаолият моҳиятига суяниши лозим (А. А. Вербицкий). Бу фаолиятнинг ўқишдан меҳнатга харакатланиши учун имконият яратади.

Тадқиқотимизга мувофиқ энг аввало, амалий модулнинг ишлашида дидактик қобилиятнинг роли ва ўрни борасида савол юзага келади. Касбий тайёргарликнинг бир кўриниши сифатида таълим вазифасини ҳал этишга нисбатан потенциал тайёргарлик субъектдаги мавжуд қизиқишлар, қобилиятлар ва билимлар билан боғлиқ. Аниқ тайёргарлик даражаси эса бажариладиган дидактик ҳаракатлар самарасида, яъни дидактик маҳоратнинг ривожланганлик даражасида намоён бўлади. Шунингдек, дидактик маҳорат қизиқишларнинг биргаликдаги натижаси, фаолиятни ўрганувчи субъект қобилияти ва билимларини англатади. Уларнинг юзага келиши ва кейинчалик шаклланиши бевосита бундай ўзаро ҳаракатлар учун шарт-шароитларни таъминлаш билан боғлиқ. Мазкур шарт-шароит ўқув фаолияти жараёнида юзага келади. У шакл ва мазмун жиҳатидан касбий фаолиятга имкон қадар яқинлашган. Контекстли таълим концепцияси ўқувчиларнинг фаол фаолияти воситасида ижтимоий тажрибани ўзлаштиришнинг фаолият назарияси асосида ётади. Шу нуқтаи назардан олганда олий таълимнинг асосий мақсади — талабанинг ўқиши даврида унинг бўлажак касб фаолиятига оид яхлит тузилмани шакллантиришдан иборат. Ўзлаштиришнинг фаолият назарияси таълим жараёнига ўқувчиларнинг билиш фаолиятини шакллантириш сифатида қарайди (Олий касбий таълимнинг давлат таълим стандарди.)

Олий ўқув юрти жараёнида талаба фаолияти ўхшаш бўлиши керак, яъни мазкур фанда йиғилган кишилар фаолиятининг қирраларини ўзида ишлаб чиқиши лозим. Таъкидланадики, инсон маданияти маҳсулотларини фаолиятли ўзлаштириш назариясининг умумий қоидаларини олий ўқув юрти таълимида қўллашда иккита қийинчиликка дуч келинади:

1) ўқув ва касбий фаолият тузилмалари элементларини мазмунан тўлдиришдаги фарқ: бу турлар ўзаро мақсад, сабаб, эҳтиёж, ҳаракат ва операция, моддий ва ғоявий воситалар, фан ва натижалар бўйича фарқланади.

2) ўқув фаолиятини ташкиллаштириш шакллари, сўнгра ўқув фаолиятининг ўзи бўлажак касб фаолияти билан бир хил эмас. Шу сабабли контекстни таълим талабларини ҳисобга олган ҳолда бўлажак ўқитувчини тайёрлаш жараёнини қайта қуриш қуйидаги иккита ўзаро боғлиқ вазифаларни ҳал этиш заруриятини келтириб чиқаради: модул тавсифини таълим мазмунига мослаш ва унга ўхшаш таълим шакли, методи ҳамда воситасини танлаш.

Модуль тавсиф мутахассис модулининг алоҳида тузилмавий бирикмаларини ифодалайди. Мутахассис модели Давлат таълим стандарти талабларидан келиб чиқиб белгиланади. Шунинг учун биз биринчи вазифани ҳал этишда Давлат таълим стандартининг "Жисмоний тарбия ва спорт" бакалавриати йўналиши бўйича битирувчини тайёрлаш мазмуни ва даражасига нисбатан талаблардан ҳамда умумтаълим мактабларининг жисмоний тарбия ўқитувчисининг касбий фаолият хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда ёндошдик.

Талабаларни ўқитишга контекст ёндошув касбий тайёргарлик мазмунини ўзгартиришни талаб қилмайди, у фақат ҳар бир ўқув фанини шундай ўқитишни назарда тутадики, бунда мазкур ўқув курси мутахассисни касбий фаолият билан эгаллайдиган контекстга йўналтириши лозим. Ушбу технологиянинг дарахт илдизларига ўхшаш элементлари ўқув фанига кириб боради ва уларни тегишли ўқув, касб ва ўқув-касб масалалари ҳамда муаммоларини ҳал этишга қаратади (А. А. Вербицкий).

Хулоса. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисини тайёрлаш мазмунини белгиловчи барча тўртта блокнинг ўқув дастури таҳлили, уларнинг тўлиқ касбий йўналтирилганлиги ҳозирда хулоса чиқариш имконини беради. Талабалар таълимининг у ёки бу касбий дастурига кирувчи ўқув фанларининг ҳар бири бўлажак мутахассиснинг шаклланиши жараёнида муҳим аҳамият касб этади. Таъкидланадики, назарий билимлар ўзига хос пойдевор яратади ва унинг негизида касбий малака ва маҳорат, аниқ, истиқболдаги касбий-педагогик топшириқларни ҳал этиш

бўйича изланиш фаолияти яратилади. Барча ўқув фанлари ва умуман, мутахассиснинг умум маданий тайёргарлиги фанлари блокига кирадиган ўқув курслари бўйича назарий билимлар аҳамияти ана шунинг учун ҳам жуда муҳим.

СПОРТ ФАОЛИЯТИДА МОТИВАЦИОН ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Носиров Э.Ш.
Гулистон давлат университети

Abstract: This article provides an overview of motivation, which is based on the evidence that it is motivated by a particular type of activity and in a particular way. In addition, an analysis of motivation factors in physical education and sports is widely presented.

Keywords: physical education; self-education; self-improvement; motivation; sports; healthy way of life; personality

Долзарблиги: Ҳар бир инсон ҳаёти давомида ўзини шахс сифатида ривожлантиради, бу унинг ҳаётида муҳим ўрин эгаллайди. Жисмоний тарбия ва таълимнинг ўзи узоқ муддатли ижобий натижаларни бера олмаслиги, шахснинг ўз-ўзини тарбиялаш ва ўзини такомиллаштиришга бўлган хоҳишини фаоллаштириш муҳимлигини юзага келтиради. Шахсни шакллантириш жараёнида субъект фаолияти ва бу фаолиятни белгиловчи мотивациянинг ўзаро таъсири содир бўлади. Мотивацияни ривожлантириш туфайли обьект фаолиятини янада яхшироқ ўрганиш амалга оширилади.

Шахснинг шаклланиши маълум бир фаолият билан белгиланади, бу ерда ҳал қилувчи омил мотивация ҳисобланади. Яъни, мотивация ўз устида ишлашда шахсни шакллантириш ҳаракатининг динамик даври сифатида тақдим етилади.

Тадқиқот мақсади: шахснинг спорт-мотивацион соҳасини ҳар томонлама ўрганиш.

Ёш авлодни жисмоний тарбия билан таништириш, соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг муҳим таркибий қисмидир. Жисмоний тарбиянинг уюшган шаклларини ҳар томонлама ривожлантириш ва янада такомиллаштириш билан бир қаторда, мустақил жисмоний машқлар ҳал қилувчи аҳамиятга ега [3].

Ўз-ўзини жисмоний томондан тарбиялаш - бу шахснинг жисмоний маданиятини шакллантириш мақсадида ўзига қаратилган мақсадли, онгли ва тизимли ишлаш жараёни [7]. Ўз-ўзини тарбиялаш жисмоний тарбия интенсивлигини бузади ва ушбу жараён давомида олинган амалий кўникмаларни кенгайтириш ва такомиллаштиришга ёрдам беради.

- zamonaviy tez o‘zgaruvchan dunyo tendentsiyalariga va zamonaviy arxitekturaning ko‘p funktsional fazolarni shakllantirishga hamroh bo‘lgan yo‘nalishiga mos keladigan me’moriy echimlarning paydo bo‘lishiga ijtimoiy ehtiyoj;

- ommaviy sport musobaqalari va Olimpiya o‘yinlarini bir marotaba o‘tkazish uchun yuqori texnologiyali muhitni yaratish zaruriyati va sport inshootlarining keyinchalik samarali ishlashi zaruriyati; binoning tashqi konturini tubdan o‘zgartirmasdan sport inshootlarini keng miqyosda qayta qurish imkoniyati;

- sport maydonlaridan yil bo‘yi foydalanish imkoniyati va qayta tiklanadigan ekologik manbalardan maqbul foydalanishga yo‘naltirish.

Transformatsiya qilinadigan sport inshootlarini loyihalash va qurish sohasidagi mavjud o‘zgarishlarni umumlashtirish va tizimlashtirish uchun mualliflar sport inshootining moslashuvchanligi kontseptsiyasini ishlab chiqdilar, u keng qamrovli bo‘lib, quyidagi qoidalarni o‘z ichiga oladi: moslashuvchanlik - me’moriy ob’ektning tez o‘zgaruvchan muhitda va foydalanuvchi ehtiyojlarida uning iste’molchi xususiyatlarining barqarorligini belgilovchi, arxitektura ob’ekti tarkibining o‘zgarishi ehtimoli va darajasini ta’minlaydigan xususiyatlar to‘plamini shakllantirishga yo‘naltirilgan me’moriy ob’ektni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyati;

Katta masofaga mo‘ljallangan sport inshooti tarkibidagi o‘zgarish darajasi uning xususiyatlari bilan belgilanadi: a) rejalashtirish strukturasining o‘zgaruvchanligi; barqarorligi; b) plastik konstruktsiyani ierarxik/ko‘p qavatli qurilishi; v) qurilish konvertlarining o‘tkazuvchanligi va optik xususiyatlarining o‘zgarishi, shuningdek ularga tabiiy qismlarni (obodonlashtirish, suv va boshqalar) kiritish imkoniyati;

Quyidagi texnikalar mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarga ochiqlik nuqtai nazaridan eng yaxshi xususiyatlarga ega: "sport yadrosini o‘zgartirish", "stendni o‘zgartirish", "tomni o‘zgartirish"; ular "butun kompleksning makonini o‘zgartirish" uslubida umumlashtirilgan;

- sport inshootini plastik tashkil etish nuqtai nazaridan, "to‘siq" ning tabiati ahamiyatlidir - devor va to‘siqlar tizimi; u o‘zgarishi mumkin: a) ko‘p qatlamli to‘siqdan ichki o‘rnatilgan fazoviy hajmgacha; b) o‘tkazuvchanlik / optik xususiyatlarini o‘zgartirish; v) tabiiy tarkibiy qismlarni

(ko‘kalamzorlashtirish, suv va boshqalar) o‘rash tizimlarida qo‘llang. Sport inshootining moslashuvchanligi kontseptsiyasi yangi sport inshootlarini qurish uchun potentsial imkoniyatlarni aniqlashga qaratilgan. Yangi turlarning shakllanishida eng katta potentsial butun kompleksni o‘zgartirish usulini ishlab chiqishda va o‘rnatilgan tizimlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Sport inshootining o‘zgaruvchanligi uning zamonaviy inson va jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dunmall G. Perspective London: Zaha Hadid Architects // MARK. London, after the games. 2012. № 39. P. 84-94.
2. Foster N. New Works + Detail: Wembley Stadium // Archiworld. 21 c New Architecture, Spolight 9 Projects. 2007. № 145. P. 156-164.
3. Philip J. Santiago Calatrava: Complete Works, 1979-2009. Koln, 2009.

Schittich K. Dokumentation: Main Stadium in Kaohsiung // Detail. Dacher. 2011. № 10. P. 1215-1220.

4. Zoppini A. Per Londra 2012 30 th Olympic Games // ARCA. Sport, guest editor manuelle gautrand. 2011. № 269. P. 42-47.
5. Бударин К. Крыша-сугроб [Электронный ресурс]. URL: http:// archi.ru / world / news_current.html (дата обращения: 05.04.2013).
6. Гребенникова Н. Жемчужина Олимпийского парка // Архитектура, строительство, дизайн. 2010. № 3 (60). С. 18-19.
7. Маливанова Л. В. Ледовый дворец на Ходынском поле // Качественная архитектура. 2007. № 4. С. 124-129.
8. Меренков А. В., Янковская Ю. С. Структура общественного здания. Екатеринбург, 2012.
9. Полянин Д. П. Центральный стадион [Электронный ресурс] // Областная газета. URL: http://stadiums. at.ua/news/2013-01-12-10834 (дата обращения: 21.04.2013).
10. Янковская Ю. С. Архитектурный объект: образ и морфология : дис. ... д-ра архитектуры. М., 2006.
11. Ясный Г. В. Спортивные сооружения XXII Олимпиады. М., 1984

MAKTABLARDA JISMONIY TARBIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O‘RGATISH XUSUSIDA

A.T.Zaxritdinov
Guliston davlat universiteti “Sport faoliyati”
fakulteti o‘qituvchisi

Annotasiya: Maqola muallifi kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnalogiyalarning talim tizimidagi o‘rni, qiymati, o‘quvchilarning fanga qiziqishlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga to‘xtaladi. Bu qiziqishni rivojlantirish yuzasidan muayyan tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, interfaol, dars, keys-stadiyu, assesiment, svot-taqlil, pedagogik texnologiya, o‘qituvchi va talaba.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqishga e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talaba (yoki o‘quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan edi.

Pedagog – olimlarning yillar davomida ta’lim tizimida – nega o‘qitamiz nimani o‘qitamiz qanday o‘qitamiz savollariga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin - degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya’ni o‘qitishni ishlab-chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko‘rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug‘ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta’lim to‘grisida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To‘rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta’minlaydi.

O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (yoki o‘quvchi)dan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o‘quvchi)ni kim o‘qitayotganligi va o‘qituvchi kimni o‘qitayotganiga bog‘liq.

Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o‘quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba (yoki o‘quvchi) faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («1pteg» - bu o‘zaro, «ast» - harakat qilmoq) - o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman talaba (yoki o‘quvchi)larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi.

Bu uslublarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talaba

(yoki o‘quvchi)larning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga:

- talaba (yoki o‘quvchi)ning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;

- talaba (yoki o‘quvchi)larning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ta’minlanishi;

- talaba (yoki o‘quvchi)larning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagog va talaba (yoki o‘quvchi)larning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etilishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o‘rganayotgan ba’zi o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan o‘qitishning texnik vositatlari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi -o‘qituvchi va talaba (yoki o‘quvchi)ning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog‘liq. O‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va talaba (yoki o‘quvchi) o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida talaba (yoki o‘quvchi)lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu - o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu, o‘quv faniining o‘ziga xos texnologiyasi bor o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u talaba (yoki o‘quvchi)ning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishi o‘qituvchi va talaba (yoki o‘quvchi)ning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq.

O‘qituvchi va talaba (yoki o‘quvchi) ning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda talaba (yoki o‘quvchi)larning bilim saviyasi, guruh xarakteri sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo‘lar.

Bugungi kunda zamonaviy ta’limda eng ko‘p qo‘llaniladigan interfaol metodlardan “Assesment”, “SWOT-tahlil”, “Keys-stady”, kabi metodlardan foydalanish yaxshi samara bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan video selektoryi yig‘lishi. 2020 yil 23 avgust.

2. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi. -T., O‘zbekiston, 2017.

3. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashrièti, 2007

4. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o‘qitishning pedagogic texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll. “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida innovatsion texnologiyalar” seriyasidan.–T.:TDIU, 2013

5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar /Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008.

GANDBOLCHI QIZLARNI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY TEXNIK VA INNOVATSION SIYOSAT:TAKLIF,YECHIM VA XALQARO TAJRIBALAR

R.K.Dexqonov, Mamatova Ro‘zigul Maxmudjon qizi
Guliston davlat universiteti “Sport o‘yinlari va Kurash nazariyasi va uslubiyoti” o‘qituvchisi
dexqonovravranbek343@gmail.com
Sport faoliyati fakulteti “Jismoniy madaniyat” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
mamatovaroza38@gmail.com

ABSTRACT: In this article, the study of physiological changes in the body during the development of physical fitness of female volleyball players and the rational planning of the training process, the correct use of the materials and methods of sports training of young female volleyball players throughout the training, aimed at developing physical fitness, taking into account anatomical and physiological changes in the developing body.

Keywords: physical, technical, tactical, psychological, theoretical, game, volleyball, training, sports improvement, training, planning, material, methods, organism, anatomical, physiological, training, biological development, functional, morphological.

KIRISH

Ma’lumki, gandbolchilarni sport bilan shug‘ullanishning yagona jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan olti turdagi mashg‘ulotlardan iborat: jismoniy, texnik, taktik, psixologik, nazariy va o‘yin. Hozirgi vaqtda gandbol bo‘yicha sport zaxiralarini tayyorlash sifatini oshirish bilan bog‘liq muammolar alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bundan tashqari, ushbu kontseptsiyaning keng ma’nosida, ya’ni yosh gandbolchilarning tayyorgarlikning bunday asosiy poydevorini egallashi, buning

asosida ular sportni takomillashtirish bosqichida mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli davom ettirishlari mumkin.

Mashg‘ulot jarayonini oqilona rejalashtirish, yosh gandbolchilarni butun mashg‘ulot davomida sport mashg‘ulotlari vositalari va usullaridan to‘g‘ri foydalanish faqat rivojlanayotgan organizmdagi anatomik va fiziologik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda mumkin.

Gandbol zaxiralarini uzoq muddatli tayyorlash tizimi biologik rivojlanish sodir bo‘ladigan, shuningdek, shaxsning shaxsini shakllantirishning katta yosh davrini qamrab oladi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘sish va rivojlanish jarayoni balog‘at yoshining boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yosh gandbolchilar tanasining endokrin qayta tuzilishi fonida sodir bo‘ladi va butun organizmning intensiv qayta tuzilishi ham balog‘atga yetish bilan bog‘liq.

Tananing turli organlari va tizimlarining o‘sishining kuchayishi davrida, odatda, ularning strukturaviy farqlash jarayonlarida sekinlashuv kuzatiladi va aksincha, ikkinchisi o‘sishning sekinlashishi va to‘xtashi davrida eng aniq ifodalanadi. Tana tuzilmalarining shakllanishining heterokronizmi turli yosh davrlarida organlarning funksiyalari xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Morfologik o‘sish va funksional rivojlanish o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud. Shuning uchun morfologik o‘sishning kuchaygan davrlari odatda jismoniy sifatlarning sust rivojlanish davrlari hisoblanadi.

Yosh gandbolchilarning jismoniy rivojlanishini belgilovchi morfologik ko‘rsatkichlar:

-tananing bo‘ylama o‘lchamlari (tana uzunligi, yuqori va pastki oyoq-qo‘llarning uzunligi);

-tana vazni (mushaklar, suyaklar va yog‘ qismlarining miqdori);

-aylana o‘lchovlari (ko‘krak atrofi, bilak, elka, son va pastki oyoq atrofi);

- kenglik o‘lchamlari (yelkalar kengligi, tos suyagi)

4 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan davrda tana uzunligi notekis ravishda oshadi. Tana uzunligining minimal o‘sishi qizlarda 7 yoshdan 8 yoshgacha va o‘g‘il bolalarda 8 yoshdan 9 yoshgacha kuzatiladi. Deyarli 10 yoshgacha qizlar tana uzunligi bo‘yicha o‘g‘il bolalardan bir oz pastroq. Keyin qizlar 3 yildan ortiq tana uzunligi bo‘yicha o‘g‘il bolalardan oldinda. O‘g‘il bolalarda tananing tez o‘sishi davri 13 yoshga to‘g‘ri keladi va ular yana tana uzunligi bo‘yicha qizlarni ortda qoldiradilar.

Qizlarda tana uzunligining maksimal o‘sishi (7 sm dan ortiq) yiliga 11-12 yoshga to‘g‘ri keladi.12 yoshdan keyin mutlaq tana o‘sishi sezilarli darajada kamayadi va 16 yoshdan keyin u amalda to‘xtaydi. O‘g‘il bolalarda yil davomida tana uzunligining maksimal o‘sishi (8 sm dan ortiq) 13-14 yoshga to‘g‘ri keladi. 14,5 yoshdan keyin tana uzunligi deyarli o‘smaydi, 17-18 yoshdan keyin esa tana o‘sishi amalda to‘xtaydi (I.I.Bahrax, R.N.Doroxov, 1974).

Qiz va o‘g‘il bolalarda yuqori oyoq-qo‘llarning uzunligining o‘sish intensivligi tana uzunligining o‘sish intensivligi bilan bir xil naqshga bo‘ysunadi.Postki oyoq-qo‘llarning uzunligining oshishi tabiatan tana uzunligining oshishiga mos keladi, ammo, ularning o‘sish tezligining pasayishi o‘sish tana uzunligi va yuqori oyoq uzunligining pasayishiga qaraganda bir tekisda sodir bo‘ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bolalar va o‘smirlardagi mushaklarning funksionalligi kattalarnikiga qaraganda past. Agar 20-30 yoshli odamlar uchun mumkin bo‘lgan maksimal ish qobiliyatini 100% deb oladigan bo‘lsak, u holda 9 yoshli bolalar uchun bu atigi 40%, 12 yoshlilar uchun - 65%, 15 yoshlilar uchun - atigi 40%. keksalar - 92%. 14-15 yoshli bolalarda vaqt birligidagi mehnat unumdorligi kattalarnikining 65-70% ni tashkil qiladi.

O‘smirlik davridan boshlab, o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida mushak kuchida sezilarli farqlar mavjud. Qizlarda ham mutlaq, ham nisbiy ko‘rsatkichlar sezilarli darajada past. Shuning uchun, kuchning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha mashqlarni qizlarda qat’iyroq dozalash kerak.Jinsiy farqlar ham mushaklarning rivojlanishiga ta’sir qiladi katta maktab yoshi . Qizlarda mushaklarning tana vazniga nisbatan og‘irligi o‘g‘il bolalarnikiga qaraganda taxminan 13% kamroq, qizlarda esa butun tananing og‘irligiga nisbatan yog‘ to‘qimalarining og‘irligi taxminan 10% ga ko‘p.

Mushaklar kuchi bo‘yicha qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi farq o‘sishda davom etmoqda, chunki qizlarning mushaklari yupqaroq bo‘lganligi sababli, ularda yog‘ to‘qimalarining ko‘p qatlamlari mavjud. Qizlarda tana vaznining ortishi mushaklar kuchini oshirishdan ko‘ra ko‘proq bo‘ladi. Ammo kuch jihatidan o‘g‘il bolalarga taslim bo‘lgan qizlar harakatlarni aniqlik va muvofiqlashtirishda ulardan ustun turadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin katta maktab o‘quvchilarining mushaklari elastik, yaxshi asabiy regulyatsiyaga ega va bo‘shashishning yuqori qobiliyati bilan ajralib turadi. Kimyoviy tarkibi, tuzilishi va qisqarish xususiyatlariga ko‘ra, ularning mushaklari kattalar mushaklariga yaqin. Tayanch-harakat tizimi allaqachon sezilarli statik stresslarga bardosh bera oladi va juda uzoq vaqt ishlashga qodir.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, xuddi shu taqvim yoshidagi voleybolchilarning taxminan 30% oldinda, 15-20% ga yaqini rivojlanishda orqada. Biologik yoshning mos kelmasligi bir xil yoshidagi yosh gandbolchilarning jismoniy faoliyatga turlicha chidashini ko‘rsatadi. Gap shundaki, bir xil yoshdagi voleybolchilar tananing o‘sish va rivojlanish tezligida sezilarli individual xususiyatlarda farqlanadi, ya’ni biologik etilishning turli darajalari yoki turli biologik yosh bilan tavsiflanadi. Bunday individual farqlarning diapazoni ayniqsa, tezlashuv tufayli ortdgani kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan video selektoryi yig‘lishi. 2020 yil 23 avgust.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi. -T., O‘zbekiston, 2017.

3. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007

4. Ganiyeva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stady o‘qitishning pedagogik texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll. “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida innovatsion texnologiyalar” seriyasidan.–T.:TDIU, 2013

5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar /Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008.

6. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=17583174404234383743&btnI=1&hl=ru

СИРДАРЁНИНГ УРФ-ОД АТЛАРИ, АНЪАНАЛАРИ, ҚАДРИЯТЛАРИ

Равшанбек Маҳмудов
ГулДУ профессори, ф.ф.н.
ravshanbek.jalilovich@mail.ru
915017636

Annotation: *the article provides information about customs and values in the Syrdarya region*

Key words: *Cradle wedding, Hand tip, Home wedding, Melon pick, Tushov kesdi, Khaichi-maichi custom, Girls' gathering, Mulberry letter, Mulberry pick.*

Сирдарё вилояти Тошкент ва Самарқанд вилоятлари таркибидан ажралиб чиққан. Сирдарё вилояти Қарор билан расмий ташкил этилганига олмиш йил тўлмоқда. Аслида қадимги Мирзачўл уч минг йиллик тарихга эга эканлигини Ховостепадан топилган кўплаб буюмлар, асбоб-анжомлар тасдиқлайди. Археолог олим Алексей Александрович Грецинанинг фикрича, Мирзачўл тарихи уч минг йилдан ортиқ даврга бориб тақалади. Жаҳонга машҳур археолог олим Грецина бу тадқиқотини Францияниг "PROMINENT ARCHAEOLOGICAL SITES OF CENTRAL ASIA ON THE GREAT SILK ROAD" журналида босилган мақоласида алоҳида кўрсатиб ўтган.

Қадимги Мирзачўлда кўп тарихий воқеа-ходисалар рўй берган. Бу табаррук она-заминга минглаб улуғ алломаларнинг қадамлари теккан.

Китобларда Мирзачўл ҳақида гап кетганида "Қуш учса қаноти, одам юрса оёғи куядиган бийдай чўл" деб таърифланган. Лекин мана шундай бийдай чўлга ҳам бизнинг меҳнаткаш, фидоий ота-боболаримиз сув олиб келишган, совхоз-колхозлар ташкил этишган, қишлоқлар, шаҳарлар бунёд этишган.

"Сирдарё деганда, сирдарёлик деганда, азим Сайхун дарёси соҳилларидаги сўлим бир воҳа, қадимий Мирзачўл бағрида боғу бўстонлар, шаҳар ва қишлоқлар бунёд этиб келаётган мард ва матонатли инсонлар кўз ўнгимизда намоён бўлади", - деган эди Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев.

Қадимги манбаларнинг гувоҳлик беришича Нуртепа ёдгорлигидан топилган топилмалар бўйича халқ-кулолчилик, чорвачилик, деҳқончилик билан шуғулланишган.

Бугун Сирдарё вилоятида яшаётган халқнинг урф-одатлари, анъаналари, қадриятлари нималардан иборат?

Урф – арабча сўздан олинган бўлиб, анъана сифатида умумхалқ томонидан қабул қилинган тартиб-қоида; одат, расм, таомил маъноларини билдиради.

Урф-одат – арабча сўздан олинган бўлиб, урф-одат тусига кирган анъаналар таомил, расм-русм маъносида ҳам келади.

Одат – арабча сўздан олинган бўлиб, ўрганиш бўлиб қолган ҳаракат, қилиқ маъноларини билдиради.

Одат – ота-боболардан қолиб келаётган ва кишиларга сингиб кетган ёки янгидан сингиб бораётган расм-русм, удум, тартиб ҳисобланади.

Одатий – одат бўлиб қолган, одат ҳукмига кирган, одатда бўладиган; одатдаги маъноларини ҳам билдиради.

Одатланмоқ – одат пайдо этмоқ, бирор ишга, нарсага ўрганиб қолмоқ[30] маъноларини англатади.

Анъана – арабча сўздан олинган бўлиб, узоқ замонлардан бери авлоддан авлодга, оталардан болаларга ўтиб, давом этиб келган урф-одатлар, ахлоқ нормалари, қарашлар ва шу каби традиция маъноларини билдиради.

Анъана – қоида ҳукмига кириб қолган, традицияга айланган тартиб, иш, одат деб тушунилади.[31]

"…ёшларда Ватанга садоқат, тадбиркорлик, мустаҳкам ирода, мафкуравий иммунитет, меҳр-оқибат, масъулият, бағрикенглик, ҳуқуқий маданият, инновацион

[30] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва. 1981 йил. I жилд, 281-бет. 2-жилд, 521-бет.
[31] Ўзбек тилининг изоҳли лцғати. Москва. 1981 йил. I жилд, 49-бет.

фикрлаш, меҳнатсеварлик каби муҳим фазилатларни босқичма-босқич шакллантириш", - керак деб ёзган эди мамлакатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев "Янги Ўзбекистон стратегияси" китобида (291-бет). Ҳақиқатдан ҳам Янги Ўзбекистонни янги авлодини тарбиялашда ҳар бир воҳанинг ўзига хос хусусиятлари бўлгани каби Сирдарё вилояти халқининг ўзига хос урф-одат, анъаналари, қадриятларининг ҳам аҳамияти бор.

Сирдарё вилоятида айни кунларда ўттиздан ортиқ миллат ва элатлар бир оила аъзоларидек тинч-тотув истиқомат қилишади. Айни кунларда Сирдарё вилоятида зоминликлар, бахмалликлар, нарпайликлар, қўшработликлар, ғаллаоролликлар, форишликлар, андижонликлар, наманганликлар, фарғоналиклар, чақандликлар, хўжамушкентликлар каби Марказий Осиёнинг турли қишлоқларидан турли сабаблар билан Мирзачўлни ўзлаштиришга сафарбар қилинган инсонлар ва уларнинг авлодлари истиқомад қилишади.

"**Қўл учи".** Бу одат мамлакатимизнинг бирорта вилоятида учрамайди. Сирдаё вилоятлари шаҳар ва қишлоқларида тўй қилаётган уй эгасига ким нима атаган бўлса, қанча бўлса, кўп-кам демасдан маблағ-тўёна узатади. Бу яъни, ош бераётган, тўй қилаётган, тўй эгасига тўёна бериш Сирдарёда анъанага айланган. Бу урф-одатнинг яхши жиҳати шундаки, тўй эгасига анчагина моддий жиҳатдан ёрдам бўлади, иқтисодий қўллаб-қувватланади. Қайси мазмундадир, бу одат инсонларни бир-бирига яқинлаштиради, меҳрибонлаштиради.

"Бешик тўйи". Бу одат кўп вилоятларда мавжуд. Лекин сирдарёликларга хос жиҳати шундаки, чақалоққа диван-кресло, велосепед, камида йигирма хил қимматбаҳо кийим-кечакларни, куёв томонга фақат келин томонидан тўёна қилинади. Бу кийимлар тугундан-тугунга ўтавериб айримлари эскириб кетган бўлади. Бу яхши одат эмас. Афсуски, айни кунларда ҳам бу одат Сирдарё қишлоқ ва шаҳарларида амал қилинмоқда. Бу бешик тўйига камида ўн беш, йигирма миллион сўм маблағлар сарфланмоқда.

"**Уй тўйи**". Сирдарё вилоятида айни кунларда **уй тўйи** расмана тўйга айланган. Ўттиз – қирқ кило гуруч дамлаб ош берилмоқда. Бу тўқликка шўхликдан бошқа нарса эмас.

"Қовун сайли". Бу Сирдарёнинг бренди ҳисобланади. Чунки қадимдан айни кунларгача ҳам Сирдарё қовун-тарвузларининг ширинлигини эшитмаган ёки татиб кўрмаган инсонлар мамлакатимизда кам топилади. "Оқ уруғ"нинг бир метр, "Оби новвотни" ни ўн беш килолиги халқимиз оғзидан тушмайди. 80-йилларда ҳам "Қовун сайли" Гулистон шаҳридаги Коментерн кўчасида марказий почта олдидан бошланиб каналгача чўзиларди. Айни кунларда "Қовун сайли" вилоят драмма театри орқасидаги махсус майдонда кўргазмали тарзда ташкил этилмоқда. "Қовун сайли"ни кузатган иштирокчиларнинг гапига қараганда Сирдарё қовунларининг йигирмага яқин турларидан ўн минг дона тил ёрар қовунлар "қовун сайли"да намойиш қилинади. Бу анъана мамлакатимизнинг бирорта жойида Сирдарёдагичалик кўтаринкиликда ўтказилмайди. "Қовун сайли" Сирдарёликларни бағрикенглигини, сахийлигини, қўли очиқлигини, танти деҳқончилигини кўрсатувчи анъанадир.

"Тушов кесди". Бу одат узоқ йиллардан буён Сирдарё вилоятида амалга оширилиб келинади. Бола йўлга юриши, тик туришини ўрганганда икки оёғига докадан боғич боғлаб қўйилади. Оёғи боғланган бола юришни ўрганган бўлса-да юра олмайди. Маҳалланинг ёки қишлоқнинг кайвони онахони, ҳожи она, бир қанча набираси бор. Ёши улуғ онахонлар бола оёғидаги боғични қайчи билан қирқиб, болани юришига шароит яратадилар. Бола чопқиллаб юриб кетади, онахонлар эса дуо қиладилар.

"**Хайчи-майчи одати**". Маҳаллага келин тушган бўлса биринчи Рўза ҳайити куни ва Қурбон ҳайити кунлари маҳалла болалари келин тушган уйга "қуллуқ бўлсин"га, меҳмондорчиликка боришади. Келин тушган уй эгалари "қуллуқ бўлсин"га келган болаларга, қизларга турли хил рўмолчалар, ширинликлар бериб уларни хурсанд қиладилар. Бу одат ҳам сирдарёликларни ўзига хос одати ҳисобланади. Бу одат турли қишлоқларда турлича бўлиши мумкин. "Хайчи-майчи"га фақат болалар, қизлар қатнашадилар холос.

"Қизлар мажлиси". Сирдарёда "Қизлар мажлиси" бошқа вилоятдагилардан кескин фарқли жиҳати шундаки, Фарғона, Андижон, Наманган вилоятларида бу одатда фақат қизлар, аёллар иштирок этадилар. Бирорта ҳам эркак киши иштирок этиши мумкин эмас. Сирдарёдаги "Қизлар мажлиси"да асосан эркак кишилар қатнашади. Аёллар келинни ўртоқлари асосан саноқли бўлади, холос.

“Тут хати”. Сирдарёда тут пишиғида шоир, ижодкорларга, ёзувчи, журналистларга “тут хати” ёзиш одати бор. Бу одат мамлакатимизнинг биронта ҳудудида йўқ. “Тут пишдими Тўхтамиш”, “Тут ейишга тўхтамиш қачон таклиф қиласиз” каби шеърий мактуб йўлланади. “Тут хати” етиб боргандан кейин оилавий шароитини ҳисобга олиб тутзори бор ижодкор ҳовлисига журналистларни, шоирларни таклиф қилади.

“Тут сайли”. Бу одат қадимда, иккинчи жаҳон уруши даврида катта балх тутлари, одамларни очарчиликдан сақлаб қолган. Лекин кейинги йилларда Сирдарёда “Тут сайли” одати пайдо бўлди. Масалан: 2022 йили авжи тут пишиғи пайтида икки тилли шоир Пайғомга – Тўхтамиш Боқийга “Тут хати” ёзилди. “Тут хати”ни олган шоир оиласи билан келишиб Сирдарё вилояти журналистларини, ижодкорилар, шоирларни Сайхунобод туманидаги, Шўрўзак қишлоғи, Хисор маҳалласидаги тутзор ҳовлисига “Тут сайлига” таклиф қилди. Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси Сирдарё вилояти бўлими раиси раҳбарлигида йигирма чоғли журналист-ижодкорлар шоир Тўхтамиш Боқий хонадонига “тут сайли”га бордилар. Тўхтамиш Боқий ҳовлисида йигирмадан ортиқ оқ, қизил, қора, балх тутлари ғарқ пишган екан. “Тут сайли”-тутларга бағишланган шеърлар, тут пайровларидаги аскиялар, тут мавзусидаги маърузалар, суҳбатлар, тутнинг келиб чиқиши ва аҳамияти ҳақидаги маълумотлар билан якунланди. “Тут сайли” тўрт соатлар давом этди. 2023-йилдаги “Тут сайли” Сайхунобод туманида давом еттириладиган бўлди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.:2021
2. Ш.Мирзиёев. Келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.: “Ўзбекистон”. 2016.
3. Маънавият юлдузлари. Т.: Ўқитувчи. 1999.
4. Р.Маҳмудов. Дегонимни улусқа марғуб эт... Т.: “Ўзбекистон”. 1992.
5. Р.Маҳмудов. Ҳусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий-ахлоқий қарашлари. Т.: “Мумтоз сўз”. 2015.
6. “Туризм тўғрисидаги Қонун”. Т.:2019
7. Р.Маҳмудов. Нотиқлик саньати ва нутқ маданияти.
8. Р.Маҳмудов. Касбий маънавият. Ўқув қўлланма. Т.:2023

ЯНГИ СИРДАРЁДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ

Равшанбек Маҳмудов
ГулДУ профессори, ф.ф.н.
ravshanbek.jalilovich@mail.ru
915017636

Annotation: The article discusses the place and role of tourism in the development of New Uzbekistan, as well as the spiritual and educational significance of trips to historical cities.

Key words: New Uzbekistan, New Sirdarya, tourism, pilgrimage tourism, ecological tourism, historical cities, Khiva, Bukhara, Kokand, Samarkand, Khavas.

Ўзбекистон тараққиётида туризмнинг роли беқиёсдир. Сирдарё вилоятида туризм қайси маънодадир у даражада ривожланмаган эди. Сўнгги етти йилда туризмни ривожлантириш бўйича қатор меъорий ҳужжатлар қабул қилинди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси сайёҳлик индустриясини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (2.12.2016), “Ўзбекистон Республикаси Давлат қўмитасининг туризмни ривожлантириш бўйича фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги (2.12.2016), “Бухоро ва Бухоро вилоятида 2017-2019 йиллар учун сайёҳлик салоҳиятини ривожлантиришни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (19.05.2017), 2017 йил 16 августдаги “2018-2019 йилларда сайёҳликни ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида”ги, “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги (6.02.2018), “Ички туризмни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги (7.02.2018)

каби ўнлаб қарор ва фармонлар, меъёрий ҳужжатлар қабул қилинганлигининг ўзи Муҳтарам Президентимиз томонидан туризмга алоҳида эътибор қаратилаётганининг исботидир.

2019 йил 16 апрелда Ўзбекистонда биринчи марта “Туризм тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни қабул қилинди.

Зиё - Шарқдан таралади, - деган ҳикматли гап бор. Ҳақиқатдан ҳам мамлакатимиз кенг имкониятлар юрти ҳисобланади.

Бухоро – ислом нури таралиб турган маскан ҳисобланади. Самарқанд – жаҳонда саккизинчи мўъжиза саналади. Шаҳрисабз – буюк инсон, ғуруримиз, ифтихоримиз Амир Темур юрти. Тошкент – нон шаҳри, Қўқон – маданият ва маърифат ўчоғи, жаҳон ҳунармандлари маркази, Наманган – гуллар шаҳри, Андижон – Бобур Мирзо юрти, Жиззах – уструшоналиклар пойтахти бўлгани каби ҳар бир шаҳар ва қишлоқларимизнинг ўзига хос тарихи, улуғ аждодларимиздан қолган маданий ёдгорликлари бор. Биргина Зомин, Шоҳимардон, Бойсун, Бўстонлиқ, Ангрен туманларидаги хушманзара жойлар Шарқ Швецарияси деб юритилади. Бугунги кунда Муҳтарам Президентимизнинг ташаббуслари билан Ўзбекистонга келаётган сайёҳларга 30 кунгача визасиз юриш имкониятлари яратилди. Қабул қилинган бир қатор меъёрий ҳужжатларда туризмга иқтисодиётнинг стратегик мақоми берилгани қувонарли иш бўлди. Негаки ёшларни иш билан таъминлашда туризмининг ҳам алоҳида роли бор. Ҳар куни Бухоро, Самарқанд, Хива, Қўқон шаҳарларига минглаб чет элликлар ташриф буюрадилар. Уларга бугунги кун талаби даражасида сервис хизмати кўрсатиш учун мутахассислар зарур.

Бизнинг назаримизда Бухоро давлат университетидаги Туризм факультети, Самарқанд сервис ва туризм институти тайёрлаётган мутахассислар етарли эмас. Шунинг учун ҳам Бухоро шаҳрида тўрт ойлик курслар ташкил этилиб, гидлар тайёрланиб, сертификатлар берилиб шу орқали фаолият олиб борилмоқда. Бу ҳол қониқарли эмас. Негаки, юртимизга келган сайёҳларга улар истаган тилда, ниҳоятда мукаммал, янги маълумотлар бериш керакки бу туризмни ривожланишига янада катта ҳисса қўшади.

Мамлакатимизда зиёрат туризмини ривожлантириш учун бизнингча қуйидаги ишларни амалга ошириш лозим:

Биринчидан, “Ўзбекистон – Марказий Осиёнинг дурдонаси”, сериясида туркум тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бориш керак. Ўзбекистон телерадиокомпаниясида янги “Реклама” телеканали очилиши зарур. Реклама телеканали дастурлари уч (халқаро) тилда олиб борилса яхши бўлади.

Иккинчидан, Бухоро, Самарқанд, Хива, Шаҳрисабз, Тошкент, Қўқон каби шаҳарларни ободлиги, кўркамлиги тўғрисида кичик китобчалар уч тилди, кўп нусхада, арзон нархда чоп этилиши керак.

Учинчидан, Ўзбекистоннинг энг хушманзара жойларини кичик ҳужжатли фильмларини яратиш ва камида уч тилда кенг тарқатиш лозим.

Тўртинчидан, Бухородаги “Минораи Калон”, “Баҳоуддин Нақшбанд” каби ўнлаб мажмуалар, Самарқанд шаҳридаги энг машҳур обидалар, Гўри Амир мақбараси, Шоҳизинда ансамбли, Бибихоним ва Ҳазрати Ҳизр масжидлари, Ислом Каримов мақбараси, Дониёр алайҳиссалом зиёратгоҳи, Имом Бухорий, Имом Мотуридий мажмуаларини китобча ҳолида ва рангли плакатлар ҳолатида нашр этиш ва тарқатиш зарур.

Бешинчидан, “Марказий Осиё алломалар юрти” рукнида “Маънавият юлдузлари” китобига кирган мутафаккирлар ҳақида уч тилда алоҳида-алоҳида кичик ҳажмдаги китоблар чоп қилиниши лозим.

Олтинчидан, Бухоро, Самарқанд, Хива, Термиз, Шаҳрисабз, Тошкент, Зоминдаги меҳмонхоналарни кўриниши, шароити, имкони бўлса кўрсатадиган сервис хизмати нархи кўрсатилган буклетлар тайёрланиб уч тилда кўпайтириш ва тарқатиш зарур.

Еттинчидан, саёҳатчилар учун зиёрат жойларидаги савдо дўконларини бугунги кун талабларига жавоб берадиган замонавий ахборот технологиялари билан бойитиб, фойдаланиш мумкин бўлган ҳолатга келтириш зарур.

Саккизинчидан, Самарқанд, Бухоро, Хива, Шаҳрисабз, Тошкент, Қўқон, Термиз шаҳарларидаги зиёратгоҳлар ҳақида учта тилда дискетлар тайёрлаб тарқатиш зарур. Масалан: Япониядан келган сайёҳ бу дисклардан бир нечасини сотиб олса сайёҳларни Ўзбекистонга келиши тубдан кўпаяди деб ўйлайман.

Тўққизинчидан, Тарихий шаҳарларимиздаги зиёратгоҳлар ҳақидаги рекламаларни бутун дунё кўриши мумкин бўлган телеканаллар орқали ҳам тарғиб-ташвиқ қилишни ўйлаб кўриш керак. Бугунги кунда рекламада гап кўп.

Зиёрат туризмини янада ривожлантириш учун қуйидаги таклифларни билдирмоқчиман:

Биринчи таклиф: Ривожланган мамлакатлар ва Ўзбекистондаги энг катта шаҳарлар ўртасида биродарлашган шаҳарларни кўпайтириш керак. Ҳусусан, Франциянинг бир неча шаҳарлари билан Бухоро ва Самарқанд ўртасида "Биродарлашган шаҳарлар" битими тузилган.

Иккинчи таклиф: Зиёратгоҳлар ҳақида кичик ҳажмли ҳужжатли фильмлар тайёрлаб уч тилда кўп нусхаларда чиқариб тарқатиш, намойиш этиш.

Учинчи таклиф: Экозиёратни ташкил қилиш. Яъни табиат манзаралари откриткаларини чиқариш зарур.

Тўртинчи таклиф: Миллий ўйинларимиз, миллий урф-одатларимиз акс этган роликлар тайёрлаб камида учта тилда тарқатиш ва кўрсатиш лозим.

Бешинчи таклиф: Бутун дунё мусулмонлари Имом Бухорий қабрини зиёрат қилишни орзу қиладилар. Имом Бухорий зиёратгоҳи мажмуасини бутун дунёга алоҳида тарғиб ва ташвиқ қилиш керак.

Олтинчи таклиф: Бурхониддин Марғинонийни бутун ислом олами фиқҳ илмининг отаси деб билади. Бурхониддин Марғинонийнинг ҳаёти, ижоди, фаолияти акс этган янги мажмуа Марғилон шаҳрида ташкил этилса яхши бўларди.

Еттинчи таклиф: "Медицина" сўзи – Авиценадан олинган. Авицена эса Абу Али ибн Сино исмининг лотинча шакли. Демак, Европа давлатлари учун Абу Али ибн Сино юрти, Афшона қишлоғи тўғрисида учта тилда кичик чўнтак китоб тайёрлаш мумкин. Шунингдек, улуғ мутафаккирларимиз Аҳмад Фарғоний, Мусо Хоразмий, Нажмиддин Кубро, Амир Темур, Мирзо Улуғбек каби ўнлаб аждодларимиз ҳақида керакли маълумотлар асосида оддий, содда тилда китоблар тайёрланса яхши бўларди.

Саккизинчи таклиф: Зиёрат туризми, экотуризм фақат чет эл мамлакатлари учун эмас балки барча юртдошларимиз учун ташкил қилиниши керак. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги барча олий ўқув юртларида қанча талаба-ёшлар, қанча профессор-ўқитувчилар қайси тарихий шаҳарларга саёҳатга борганлиги тўғрисида маълумот олар эдилар. Бу ишни яна давом эттириш керак.

Ўзбекистонда туғилиб Бухоро, Самарқанд, Хива хатто Тошкент шаҳрини кўрмаганлар афсуски, йўқ эмас. Ички туризмни ниҳоятда соддалаштириб, йўл ҳаражатларини, меҳмонхоналарни арзонлаштириш ҳам зиёрат туризмини янада ривожланишига асос бўлади.

Тўққизинчи таклиф: Зомин туманида ҳамда Сирдарё вилоятининг Ховостепа ёдгорликларида, шунингдек, Сирдарё бўйларида туристларни кўпроқ келишлари учун шарт-шароит яратиш. Сирдарё вилоятининг Сайхунобод, Гулистон, Сардоба, Оқ-олтин туманларида ҳам туризмни янада ривожлантириш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда яшаб Самарқандни, Бухорони, Хивани, Термизни, Шаҳрисабзни, Қўқонни, Андижонни, Наманганни, Тошкентни томоша қилмаслик гуноҳи азимдир. Негаки, бизнинг юртимиз алломалар юрти, бутун дунёга ақл-заковат улашган, маданият, маънавият, илм нималигини тушунтирган халқ. Демак, Ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантириш жуда ҳам долзарбдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.:2021
2. Ш.Мирзиёев. Келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.: "Ўзбекистон". 2016.
3. Маънавият юлдузлари. Т.: Ўқитувчи. 1999.
4. Р.Маҳмудов. Дегонимни улусқа марғуб эт... Т.: "Ўзбекистон". 1992.
5. Р.Маҳмудов. Ҳусайн Воиз Кошифийнинг фалсафий-ахлоқий қарашлари. Т.: "Мумтоз сўз". 2015.
6. "Туризм тўғрисидаги Қонун". Т.:2019
7. Р.Маҳмудов. Нотиқлик саньати ва нутқ маданияти.
8. Р.Маҳмудов. Касбий маънавият. Ўқув қўлланма. Т.:2023

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ АХЛОҚИЙ ВА КАСБИЙ ТАРБИЯЛАШ

Кенжаев Шавкатжон Хусанович
Гулистанский государственный университет, 120100. Узбекистан, Сырдарьинская область,
г. Гулистан, IV микрорайон
E-mail: sh-kenjayev@umail.uz

Abstract In condition of the reinforcement rate globalization of the problem, costing before domestic formation, require the improvements him on base updated philosophy and methodologies of the formation, shaping young high formed and professional prepared generations, possessing high morality and social responsiblity, creatives by thinking, ready not only to live in dinamic changing social and economic condition, but actively and positive to influence upon surrounding world.

During the years of independence, a new system of teacher training was developed, and the quality and effectiveness of continuous training were determined by the professional, moral and ethical training of future teachers. Educational and methodological support of the educational process in pedagogical universities was developed. As a result, effective educational and pedagogical mechanisms for the training of future teachers, based on rich national cultural and historical traditions, universal values, and the priority of humanization of education have been created.

The development strategy of the Republic of Uzbekistan plays an important role in improving the mechanisms of development of spiritual and moral culture of future teachers, education in the spirit of physically healthy, spiritually and mentally developed, independent thinking, education of young people with a strong commitment to the Motherland, deepening democratic reforms and strengthening civil society.

Key words: etika, education, philosophy, methodology, ethics, creative thinking, culture, induidalion,value, design, social phenomenon.

Мамлакатимизда бугунги кунда ёшларнинг маънавий-ахлоқий, иқтисодий маданияти даражасини ошириш, уларни ислоҳотлар тизимига мослаштириш, муайян касбга, тадбиркорлик ва бизнесга бўлган муносабатларини ўзгартириш учун таълим жараёнига замонавий педагогик технологияларни татбиқ этиш ҳамда инновацион жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш механизмларини такомиллаштиришни тақозо этмоқда. “Ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш, миллий ўзликни англаш, уларда ахлоқий тарбияни қарор топтириш ва ривожлантириш”2 устувор вазифалар сифатида белгилаб берилган. Бу эса, бўлажак ўқитувчи шахсини ахлоқий тарбиялашнинг педагогик шарт-шароитларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннингтараққиёт стратегияси тўғрисида”, 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”, 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сон “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” Фармонлари, 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон” Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”, 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сон “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сон «Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, шунингдек, мазкур соҳага оид бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган долзарб вазифаларини амалга ошириш механизмларини такомиллаштиришга ушбу диссертация муайян даражада хизмат қилади.Таълим ўзини маданиятлар дунёсида тасаввур этиш орқали инсонда олам манзарасини яратиш, инсоннинг табиат, бошқа одамларга, жамият, ўз-ўзига бўлган муносабатлар тизимини шакллантириш сифатида қаралади. Инсон ўзининг онги, иродаси, ҳис-туйғуси, билиш имкониятлари орқали маданий қадриятларни ўзлаштиради, бунинг натижасида индивидуал ижодийлик шаклланади. Бундай индивидуаллик намоён

бўлишининг ўзиёқ нафақат маданиятнинг меросийлигини, истеъмол қилинишини, балки ривожланишини ҳам англатади. Бундай тушуниш педагогикадаги янги парадигма-шахсга йўналтирилган таълим асосини ташкил этувчи жамиятдаги янги қадриятлар-шахснинг ўзини-ўзини ривожлантириши, ўзига-ўзига таълим бериши ва ўзини-ўзи лойиҳалашнинг намоён бўлишини акс эттирувчи маънавий-ахлоқий сифатлар билан уйғунлик тамойилининг шаклланишига олиб келди.

Ахлоқий сифатларнинг шаклланиш жараёни мураккаб ижтимоий ҳодиса сифатида миллий, диний, тарихий, ахлоқий ва ҳуқуқий омиллар билан узвий боғлиқ. Шу маънода, миллий ва диний қадриятлар нафақат халқимизнинг тарихий-маънавий мероси, балки, баркамол шахсни тарбиялаш ва шаклантиришнинг муҳим омиллари ҳисобланади.

Таянч сўзлар: Ахлоқий сифатлар, таълим, фалсафа, методология, ахлоқ, креатив тафаккур, маданият, қадрият,индивидуаллик, лойиҳалаш, ижтимоий ҳодиса.

В настоящее время в нашей республике необходимо внедрение в учебный процесс современных педагогических технология для повышения уровня духовно-нравственной, экономической культуры молодёжи, её адаптации к системе реформ, изменения существующего отношения к определённой профессии, предпринимательству и бизнесу, а также требуется совершенствование механизмов организации и управления инновационными процессами. В качестве приоритетных задач намечены

«воспитание молодёжи в духе уважения национальных и общечеловеческих ценностей, осознания национального своеобразия, формирование и развитие у ней нравственного воспитания”4. А это требует совершенствования педагогических условий для нравственного воспитания личности будущими учителями.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит для реализации задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 г. УП №60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 8 октября 2019 года № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, от 29 октября 2020 года № УП-6097 “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года”, постановлениях Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, от 5 июня 2018 года № ПП-3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах”, постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 31 декабря 2019 года № 1059 “О мерах по утверждению и реализации концепции непрерывного духовного воспитания”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.Личность-главный компонент этой модели. Поэтому формированию личности обучаемого придаётся первостепенное значение. С точки зрения новой парадигмы образования, данных педагогических и психологических наук именно личностные качества специалиста в совокупности с профессионализмом предопределяют его конкурентоспособность. Объекты и методика исследований.

Система среднего специального образования призвана обеспечить подготовку высококвалифицированных, конкурентоспособных специалистов на уровне экономически развитых демократических государств, отвечающих требованиям высокой духовной культуры и нравственности.

Главная цель сферы образования - в процессе образовательно-воспитательной работы проводить в жизнь исторические традиции и обряды, духовно-нравственные ценности нашего народа, опираясь на принципы демократии и гуманизма, а также опираясь на общечеловеческие ценности обогащать содержание образовательно-воспитательного процесса, в этих целях открыть широкие возможности инициативности педагогического коллектива в учебном заведении.

Полученные результаты и их обсуждение.

Изучение научного наследия наших великих предков, внедрение их в образовательный и воспитательный процесс является священной обязанностью каждой творческой личности. Сегодня считается злободневным изучением и исследование культурно-духовного наследия прошлого не только с позиций истории, но и спозиций народной педагогики. Поэтому очень

важно обобщение и изучение историко-педагогических материалов, которыепринято называть народной педагогикой.

Изучение узбекской народной педагогики, традиций наставничества имеет важное значение в нравственном воспитании молодёжи, использовании традиций народной педагогики а также её современных методов в педагогической деятельности.

Процесс формирования личности педагога-это не только накопление простых знаний, опыта, навыков и умений, но и усовершенствование личности педагога, его духовно-нравственных и педагогических качеств.

Обучаясь в учебном заведении, будущие педагоги осваивают социальный опыт, структуру духовно-нравственных понятий, формируют свои понятия, чувства, отношение к деятельности и причины деятельности. Это имеет важное значение при формировании у них интересов, желаний, стремлений и действий, пробуждающих процесс социализации. Поэтому система учебно-воспитательной работы в вузу должна оказывать практическую помощь при формировании у будущих педагогов этих качеств и особенностей. Следует подчеркнуть, что воспитание подрастающего поколения как всесторонне развитой личности, являясь одной из первейших задач сегодняшнего дня, требует глубоко овладения будущими специалистами психолого-педагогических знаний, закономерностей образования и воспитания. Для того, чтобы претворить в жизнь эти требования, необходимо дать будущим кадрам не только необходимые профессиональные знания и умения, но и воспитать их высоконравственными, интеллигентными специалистами. Не случайно одним из главных приоритетов реализации идеи национальной независимости является формирование духовно богатой и нравственно цельной, гармонично развитой личности, обладающей независимым мировоззрением и самостоятельным мышлением. На современном этапе мир меняется динамично и плюралистическим путём, ставит массу острых проблем, в числе которых качество воспитания молодёжи. Первый Президент Республики Узбекистан И.А.Каримов, раскрывая сущность общенациональной социальной программы действий по повышению качества воспитания и обучения учащейся молодёжи нашей республики, сказал: «Говоря о здоровом поколении, прежде всего, подразумеваю поколение здоровое не только физически, но и вместе с тем со здоровым духом, мыслью, твёрдой верой, образованное, культурное, любящее свою Родину» [1].

Современное молодое поколение как будущее нашей страны должно иметь высокую духовно-нравственную культуру на основе национальных и общечеловеческих ценностей. Духовно-нравственная культура молодёжи – это сложная система её личностных качеств, которая характеризует степень развития и саморазвития его нрастенных ценностей, убеждений, мотивов, знаний, умений, чувств и способностей, которые он проявляет в различных ситуациях нравственного выбора и нравственной деятельности в сравнении с теми высокогуманными ценностями, принципами, правилами, которые в современной социокультурной среде и деятельности принято считать нормативными или идеальными [2].

Подготовка студентов по педагогическим направлениям сегодня требует особого подхода. Прежде всего необходимо формировать у будущих педагогов положительное отношение к самой педагогической профессии, что предполагает повышение престижности и авторитета педагога, качества подготовки работников образования, создание условий для развития личности учителя и позволяет раскрыть новые стороны действительности человеческих отношений, связанные с выбором людьми их жизненных интересов, ориентиров, процессом социализации личности.

В условиях постиндустриального общества и усиления темпов глобализации обеспечение конкурентоспособности Узбекистана требует формирование молодого высокообразованного и профессионально подготовленного поколения, обладающего высокой нравственностью и социальной ответственностью, креативным мышлением, готового не только жить в динамично меняющихся социальных и экономических условиях, но активно и позитивно влиять на окружающий мир. Такие задачи, стоящие перед отечественным образованием, предполагают его совершенствование на основе обновленной философии и методологии образования, поиска более эффективных способов управления образованием, модернизацией и развитием образования, обучения и воспитания.

В современных социокультурных условиях учитель – главный стержень развития образования, его основная социальная роль заключается в том, чтобы сформировать личность, дать ученику основы человеческой культуры, ввести его в жизнь, социально его адаптировать.

В настоящее время к числу приоритетных направлений стратегии образования можно отнести инновационную деятельность учтеля. Если в сфере учебной деятельности критериями иновационной деятельности учителя является направленность этой деятельности на обновление содержания (разработка новых учебных программ, интегративных курсов,

факультатов и т.п.), на разработку новых технологий обучения (новых типов урока, способов обучения, то в сфере восптания основным критерием является разработка новых методик воспитания исходя и требований сегодняшнего дня. Всё это требует от учителей проявления их мастерства как педагога, профессиональных способностей, исследовательских умений.

Воспитание будущего специалиста в высшем учебном заведение должно быть ориентировано на развитие их патриотизма, профессионализма, интеллигентности, конкурентоспособности. При этом воспитание будущего специалиста как интеллигентной личности ориентировано на развитие у него высокой культуры общения и поведения, высокого уровня эрудиции, эстетической и художественной культуры, прогрессивных взглядов и убеждений, толерантности и уважительного отношения к людям другой национальности,взглядов и убеждений. Воспитание студента как высоконравственной личности ориентировано на развитие высокого уровня нрастенных качеств (честности, ответственности, обязательности, доброжелательности); нравственной культуры, включая понимание высоконравственных национальных и общечеловеческих ценностей; гуманитических взгядов, убеждений и мировоззрения. Воспитание будущих кадров как профессионалов должно быть направлено прежде всего на развитие у них губокого интереса и любви к будущей профессии, профессиональной эрудиции и компетенции, сознание профессионального интереса и ответственности, способности ставить и творчески решатьпрофессиональные задачи в избранной сфере деятельности. Воспитание у них конкурентоспособности требует от них трудолюбия, непрерывного профессионального саморазвития, развитие коммуникативности и лидерских качеств, ответственоти, способности доводить начатое дело до конца и выполнять работу на высоком уровне качества.

Таким образом, осуществление всестороннего развития молодых специалистов, в том числе и будущих педагогов требует глубокого переплетения и взаимного проникновения основных направлений воспитания, чтобы все они представляли собой единый, целостный процесс. Каждое из них нацелено на формирование определнной подсистемы качеств развивающейся личности студентов. В педагогике известны разные варианты основных направлений воспитания, таких, как физическое, нравственное, умственное, трудовое, эстетическое, патриотическое и другие. Поэтому, хотя оно реализуется и должно реализоваться посредством разнообразных педагогических воздействий, для него можно указать наиболее адекватную его целям ведущую единицу таких воздействий. Для умственного воспитания – это задача овладения, на основе проникновения в закономерности изучаемой области действительности, достаточно общим и эффективным способом действий в ситуациях некоторого типа или применительно к менее определенным ситуациям, задача усвоения или выработки адекватной стратегии их разрешения. В области физического воспитания – это задача достижения запланированного результата в сфере физических возможностей студента, например, овладения двигательным действием на уровне, достаточно близком к эталонному и так далее. Так или иначе, в четырех направлениях -умственном, физическом, трудовом, эстетическом воспитании основной путь их реализации лежит через заранее спланированный и систематически осуществляемый процесс. Эти направления можно назвать образовательными. Процесс нравственного воспитания в отличие от них требует более специального подхода, с учётом политической, общественной жизни в стране и даже во всём мире.

Сегодня особое значение приобретает профессиональное воспитание, профессиональная ориентация будущих специалистов, так как в условиях глобализации с внедрением во все сферы новых инновационных, информационно-коммуникативных технологий принципиальным образом обновляется и содержание деятельности. При этом важно умение ориентироваться во

всем потоке информации, который обрушивается сегодня на нас, умение выделить из этого потока то необходимое, которое бы отвечало требованиям воспитания духовно-нравственной, гармонично- развитой личности.

Исходя из вышеизложенного, нужно сказать, что воспитание всесторонне развитого молодого поколения, глубокое усвоение будущими специалистами педагого-психологических знаний, овладение навыками воспитательной работы являются важнейшими требованиями сегодняшнего дня. Для того, чтобы осуществить в жизнь в эти задачи,необходимо не только дать будущим кадрам знания по всем обучаемым предметам по специальности, но и формировать у них профессиональные умения и навыки. При воспитании будущих квалифицированных педагогов, любящих свою профессию, необходимо учитывать следующие рекомендации:

- усиление внимания к будущей профессии, понимания каждым студентом значимости проводимой им образовательно-воспитательной деятельности и её глубокой взаимосвязи с деятельностью в семье, дошкольных учреждениях и в школе;
- обеспечение единства теории и практики при формировании личности учащихся в процессе педагогической деятельности;
- усиление взаимосвязи студента посредством педагогической практики с будущим объектом деятельности;
- обеспечение успешности и эффективности формирования у студентов необходимых профессиональных качеств – верности профессии, любви к профессии и интересов;
- обеспечение овладения студентами навыками будущей профессии, навыков и умений саморазвития, научного исследования, внедрения новых технологий в учебный процесс и др.

При подготовке будущих учителей к нравственному воспитанию учащихся особое место было отведено предметам педагогического цикла, в процессе их изучения использованы такие традиционные методы, как наблюдение, собеседование, вопросы-ответы. Предполагалось вооружить детей практическими навыками и квалификацией в области эффективной организации обучения и воспитания на основе установленных знаний по теоретическим основам педагогической дисциплины. Раздел "Теория воспитания" сформирован из нескольких тем, непосредственно связанных

с нравственным воспитанием. Особое внимание акцентировано нравственной ориентации педагогической деятельности при раскрытии принципа и закономерностей теории воспитания. Например, при изучении темы "Формирование личности в коллективе" отмечается, что воспитание будущих учителей в коллективе и через коллектив - это такой воспитательный принцип, что ее реализация вытекает из воспитания чувства моральной уверенности и обеспечения ее прочного фундамента.

При изучении теории воспитания, для будущих учителей создана возможность узнать способы и средства укрепления воли ребенка посредством работы с детьми, организации общественной жизни, создания эмоциональной атмосферы. Следует отметить, что если при решении изучаемой нами проблемы по педагогическому курсу учебный процесс будет целенаправленно ориентирован, то содержание необходимых для будущего специалиста знаний и умений при нравственном воспитании детей будет обогащаться. В отношении исследовательской работы выявлены отсутствие целенаправленные работы по анализу учебных планов, подготовке будущих учителей к нравственному воспитанию учащихся, а также недостаточная сформированность у будущих учителей специальных знаний и навыков по выполнению этих работ. Моральные качества - это концентрированное, более гармоничное и стабильное проявление личностных качеств. Моральные нормы в повседневной жизни учителя являются важным звеном между социальными ценностями общества и их практическим применением.

По мере развития моральных качеств, также повышается и социализация человека. Это педагогическая закономерность, которую можно выразить в виде следующей схемы (рис. 1).



АВ - морльные качества
АД - социальные качества
АС - форменная динамика

Рисунок 1. Гармония моральных и социальных качеств.

В ходе исследовательских наблюдений выявлено влияние гармонии моральных и социальных качеств на поддержание профессиональной регулярности и стабильности. В соответствии с этим, мы обратили

внимание на этапы формирования профессионального мастерства в личности будущего учителя. Нам удалось определить, влияние организаторского мастерства студента на устойчивое развитие у него коммуникативных и конструктивных умений. Исходя из этого, мы попытались сформировать профессиограмму будущих учителей, направленную на нравственное воспитание учащихся. С помощью разработанного нами специального курса под названием "Нравственное воспитание молодежи" мы попытались донести его суть до сознания учащихся контрольной группы. В результате в контрольной группе наблюдался определенный динамичный рост.

Вышеизложенное свидетельствует о том, насколько сложно и многообразна педагогическая деятельность педагогов среднего специального образовательного учреждения и какие требования предъявляют к ней общество и государство. Исходя из этого,каждый педагог должен осознавать, что педагогическая деятельность является зеркальным отражением его способностей, состоящих из конструктивно-проектируемого, организационного, коммуникативного и других компонентов, а их совершенствование и развитие отражается на качестве подготовке специалистов разного профиля.

Кроме вышеизложенного, при формировании профессиональной подготовки будущих специалистов следует обратить внимание на вооружение их культурой общения и овладение ими механизмами использования этих навыков в повседневной жизни и деятельности.

Литература:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. -80 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ 60-сон // www.lex.uz.docs//PF-60 28.01.2022.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.“Ўзбекистон”, НМИУ, 2017.– 47-б.

4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, НМИУ, 2017. – 29-б.

5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент, “Ўзбекистон” 2017 йил. - 103-б.

6. Мирзиёев. Ш.М. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” “Ўзбекистон” НМИУ,2017. 485-б.6. Қуронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий педагогик асослари: Пед. фан. док. дисс. Т. 1998. - 316 б.

7. Қуронов М. Ёшларни миллий мафкуравий тарбиялаш-технологик масала Таълимда Янги педагогик технологиялар: муаммолар ва ечимлар. - Т.1999. Б. 32-37
8. Кенжаев Ш.Х. “Ёшларни ахлқий тарбиялаш тизими самарадорлиги”- Т. 2020.“Мумтоз сўз”.-Монография.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Холназарова Д.М.
Гулистон давлат университети ўқитувчиси, PhD

Жамият ривожи учун муҳим бўлган ислоҳот ва йўналишлар давлат томонидан ишлаб чиқилаётган қонун, қарор, фармон-фамойиш ва бошқа норматив ҳуқуқий ҳужжатлар орқали ижтимоий ҳаётга сингдирилади. Шунингдек норматив ҳужжатлар амалда тўлиқ бажарилсагина ислоҳотлар ўз ахамиятга молик жихатини беради. Давлатимиз раҳбари таъкидлаганидек, биз жамиятимизда шундай ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришимиз керакки, унга кўра, ҳар бир шахс Конституция ҳамда қонунларга амал қилиши, ўзгаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини, қадр-қимматини ва шаънини ҳурмат қилишни мажбурият сифатида бажариши эмас, балки кундалик қоида ва одатига айлантириши лозим.

Демак, жамият тараққиёти давлатдаги ҳуқуқий онг ва маданиятнинг юқори даражада бўлиши билан бевосита боғлиқ бўлиб, умумий маданиятнинг ажралмас таркибий бўлаги бўлган ҳуқуқий маданиятнинг негизини ҳуқуқий онг, ҳуқуқий тафаккур ташкил этиши билан белгиланади. Шунингдек, ҳуқуқий онг фуқаронинг жамиятдаги ўрнини белгилаб, жамият аъзоларининг ҳуқуқий онги қанчалик юқори бўлса, ҳуқуқий нормаларда белгиланган талабларнинг бажарилиши ҳам шунчалик тўлиқ ва аниқ бўлишини назарда тутади. Шундай экан, жамият ҳаётини демократлаштириш жараёнларининг муваффақияти кўп жиҳатдан талабалар ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятининг такомиллашувига боғлиқ. Чунки юқори даражадаги ҳуқуқий саводхонликка, ҳуқуқий маданиятга эга бўлган фуқарогина иқтисодий эркин, демократик ҳамда маънавий ўзгаришларнинг ишончли таянчи бўла олиши мумкин. Шунинг учун ҳам, бугунги кунда ҳар бир талабада ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий онг, билимни давр заруриятидан келиб чиқиб, такомиллаштириш масаласи катта аҳамият касб этмоқда.

Ёшлар ва талабаларнинг “ҳуқуқий маданиятини ўрганиш, жамиятимизнинг келажакдаги ҳуқуқий холатининг истиқболларини баҳолашга имкон беради. Чунки шахс қарор топиб бораётган даврда унинг қадриятларга муносабати шаклланади, ҳуқуққа ижобий ва салбий муносабат вужудга келади, фаол ёки пассив ижтимоий-ҳуқуқий ҳулқ-атворга қаратилган йўл-йўриқлар вужудга келади. Талабаларнинг турли ҳуқуқ соҳаси меъёрларини, ҳуқуқий принципларни, давлат органларини, шу жумладан ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларини ташкил этиш тартибини ва уларнинг фаолиятини билиши уларда ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришнинг зарур шартидир.

Ҳуқуқий маданият шахс, жамият ва давлат ривожланишининг ўзига хос хусусияти. Адабиётларда ҳуқуқий маданият умумий маданиятнинг муҳим қисми сифатида талқин этилади ва бир неча таркибий қисмларни ўз ичига олади: давлат томонидан халқ ва жамоат бирлашмалари нуқтаи назарини ифодаловчи ҳуқуқий сиёсатнинг ишлаб чиқилиши ва амалга оширилиши; юксак даражада ривожланган юридик фанларнинг мавжудлиги ҳуқуқий маданиятнинг муҳим қисмидир; кенг ва фаол ҳуқуқий онг ҳуқуқий маданиятнинг бир қисми бўлиб, у давлат ва ҳуқуқий воқеликлар ҳақидаги ғоялар, қарашлар, хис-туйғулар, фикрлар, кайфиятлар тизимидир; ҳуқуқий маданият – бу инсонларнинг давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги муҳим билимларни эгаллаб олиш даражасидир; илгари эришилган ва тўпланган барча ҳуқуқий тажриба, ҳуқуқий ёдгорликлар ва уларнинг оммага тарқатилиши; амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, Конституция, қонунлар, кодекслар, фармонлар, қарорлар ва бошқа ҳуқуқий манбалар ҳуқуқий маданиятнинг асосини ташкил этади.

“Жамиятга нисбатан ҳуқуқий маданият юридик қадриятлар ва меъёрлар, ҳуқуқий институтлар, ҳуқуқий онг ва хулқ-атвор бирлигининг сифат хусусиятини ифодалайди. Шахсга нисбатан эса у атроф дунёни идрок этадиган ўзига хос “ҳуқуқий қонун” бўлиб, у ҳуқуқий воқеликни ўзлаштиришининг мезони сифатида гавдаланади”.

Талабаларда ҳуқуқий маданиятни ривожлантириш дастлаб уларда индивидуал сифатларни ривожлантириш педагог ва талабаларнинг таълимни индивидуаллаштириш жараёнидаги фаолиятлари тизими сифатида ифодаланади. Функционал даражада талабанинг индивидуал сифатларини ривожлантириш талаба-ёшлар психикаси соҳасидаги янги ҳосилаларни таъминловчи психологик-педагогик шарт-шароитларнинг ўзаро алоқадорлиги ва боғлиқлиги сифатида қаралади.

Талабаларни жамият ҳаётида ижтимоий фаол шахс сифатида шакллантириш, талабанинг индивидуал хусусиятларини ривожлантиришдан узилган ҳолда амалга оширилмайди. Тадқиқотчиларнинг илмий-тадқиқот ишига кўра таълимга индивидуал ёндашиш жараёни орқали ўрганиш, педагогик-психологик, хусусият ва сифатлари у ёки бу соҳаларининг ривожланиши, кетма-кетлиги тартибида ҳам бир-биридан ажралган ҳолда содир бўлмаслигини, балки ўзаро алоқадорликда, талаба сифатларининг умумийлигида содир бўлишини ҳисобга олиши керак.

Талаба шахсига таълим беришда унга таъсир этувчи омил ва иштиёқни кучайтириш, мустақил ишлаш кўникмасини шакллантириш, ижтимоий фаол шахс сифатида юксак ҳуқуқий маданиятни ривожлантириш муҳим омил ҳисобланади.

Талабаларнинг ҳуқуқий маданиятининг ривожланиш даражаси турли омилларга боғлиқ. Жумладан, уларнинг жамият ҳаётида иштироки жараёнида оладиган тажрибаси ҳуқуқий меъёрларни билишига ўз таъсирини кўрсатади.

Талабаларда ҳаётий тажрибанинг тўпланиб бориши моддий жавобгарлик борасидаги меъёрни билиш даражасини ошириб боради.

Ҳуқуқни билиш даражасига таълим омили ва талабаларнинг ҳуқуқий фанларга бўлган қизиқиши кўпроқ таъсир кўрсатади. Бу эса талабани ўз навбатида ҳуқуқий ахборот манбаларига мурожаат қилишга ундайди. Ҳуқуққа махсус қизиқиш билан қараш даражасига талабаларнинг ижтимоий тажрибаси ва ижтимоий-сиёсий фаоллиги ҳамда ёш хусусиятлари ҳам ўз таъсирини кўрсатади.

Ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришда таълим тизимининг ҳам ўзига хос ўрни мавжуд. Талабаларга конституцияни, қонунларимизни чуқурроқ ўргатиш, уларга ҳурмат руҳини шакллантириш ва бевосита амалда қўллай олиш кўникмасини ривожлантиришдан иборатдир. Ҳуқуқий таълим асосида ўз ҳуқуқларини яхши билган талаба-ёшларгина ижтимоий ҳаётнинг ҳамма соҳаларида онгли равишда меҳнат қила оладилар. Уларнинг яратувчанлик фаолияти ҳам анча юқори бўлади. Талаба-ёшларимизнинг ҳуқуқий маданияти юксалишидан фақатгина уларнинг ўзлари манфаатдор бўлмай, балки давлат ҳам манфаатдордир.

Демак, ҳуқуқий маданиятини ривожлантиришда талабаларнинг ўзлари манфаатдор эканликларини тушуниб етишларига эришмоқ лозим. Шунингдек, талабаларда ҳуқуқ соҳаларига бўлган қизиқишнинг ортиши, унинг турли ҳуқуқ соҳаси меъёрларини, ҳуқуқий принципларни, давлат органларини, шу жумладан, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларини ташкил этиш тартибини ва уларнинг фаолиятини билиши талабаларда ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришнинг зарур шартидир.

Талабаларнинг ҳуқуқий билимлари даражаси турли омилларга боғлиқ. Ёши катталашиб борган сари бундай билимларнинг ошиши табиийдир, чунки инсон ёши катталашган сари у ўқиш ва жадал суратда кенгайиб бораётган ижтимоий тажриба туфайли ривожланиб боради. Ҳуқуқнинг бир қанча меъёрларини билишга талабаларнинг жамият ҳаётида амалда қатнашиши жараёнида оладиган ижтимоий тажрибаси анча таъсир кўрсатади. Ҳаётий тажриба тўпланиб борган сари моддий жавобгарлик тўғрисидаги меъёрни билиш даражаси ошиб боради.

Талабанинг ҳуқуқни билиш даражасига, бошқача қилиб айтганда, унинг ҳуқуқий хабардорлик даражасига, бошқа субъектив омиллар билан бир қаторда, бу шахснинг ҳуқуққа бўлган қизиқиши ҳам таъсир кўрсатади. Бу қизиқиш талабани ҳуқуқий ахборот манбаларига мурожаат қилишга ундайди.

Ҳуқуққа махсус қизиқиш билан қараш даражасига талабанинг ёш хусусиятлари, унинг ижтимоий тажрибаси, ижтимоий-сиёсий фаоллиги (мисол учун сайловларда иштироки) таъсир кўрсатади. Қизиқиш даражаси жиҳатидан жиноят, меҳнат ва оила ҳуқуқи муҳим ўрин тутади. Бу тасодифий эмас. Жиноят ҳуқуқи жиноятчиликка қарши кураш муаммоси билан ва унинг

нафақат талабалар, балки барча ёшлар энг кўп ёқтирадиган жанрлардан бири бўлган детектив адабиёт ва фильмларда ёритилиши билан чамбарчас боғлангандир.

Одатда баъзи талаба йигит-қизлар юқори курсларда ўз меҳнат фаолиятларини бошлайдилар, шунингдек оила қурадилар. Ана шу ҳол уларнинг меҳнат ва оила ҳуқуқига бўлган қизиқишида акс этади. Маънавий ва интеллектуал етуклик даражаси ошиб борган сари уларда криминал адабиётга, шу туфайли жиноят ҳуқуқига ҳам бўлган қизиқиш камаяди, бунинг ўрнига меҳнат, фуқаролик ва уй-жой ҳуқуқига бўлган қизиқиш ошиб боради.

Талабаларнинг ҳуқуққа бўлган қизиқишнинг даражасини уларнинг оммавий ахборот воситалари (радио, телевидение, газета ва журналлар) томонидан ёритилаётган турли юридик масалаларга қизиқишини ўрганиш асосида аниқлаш мумкин. Бу ҳуқуқ ҳақидаги билимларни олиш мақсади ва сабаблари тўғрисида тасаввурга эга бўлиш имконини беради. Талаба-ёшларнинг ҳуқуқий ахборотни фойдаланишдан кўзлаган асосий мақсади ўзларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари тўғрисидаги билимларини кенгайтиришдан иборатдир.

Жамиятимизда талабаларнинг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш, энг аввало, ҳуқуқий тарбия тизими орқали амалга оширилмоқда. Уларнинг қонунларга, турмуш қоидаларига ҳурмат билан қараш, инсонлар шахсини ҳурмат қилиш, инсоннинг ҳуқуқига, қадр-қимматига заррача бўлсада тажовуз қилишга йўл қўйиб бўлмаслигига қатъий ишонч ҳосил қилиш, фуқаролик фаоллигини ошириш, аҳлоқ қоидаларига риоя қилиш кўникмаларини ривожлантириш ушбу тизимнинг асосий вазифаси ҳисобланади.

Ҳуқуқий тарбия тизими олий ўқув юртларида “Ҳуқуқий маданият ва ҳуқуқий тарбия асослари” ўқув фанини ўқитиш билан бир қаторда оммавий ахборот воситалари орқали ҳуқуқни тарғиб қилиш, давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳуқуқни тушунтириш ва тарғиб қилиш соҳасидаги фаолияти ва ҳуқуқий тарбиянинг бир қатор бошқа ташкилий шакл ва воситалари киради.

Талаба-ёшлар ҳуқуқий маданияти ва уларни ҳуқуқий тарбиялашнинг моҳиятини фақат амалдаги қонун хужжатларининг меъёрлари ва принциплари тўғрисида бир қадар билимларни қўлга киритишдангина иборат деб қараш ҳам мумкин эмас. Талаба-ёшларни ҳуқуқий тарбиялаш ва улар ҳуқуқий маданиятини ривожлантиришдан мақсади қонунга итоаткорликни ва шахснинг қонунни ҳурмат қилишини шакллантиришдан иборатдир. Қонунни ҳурмат қилиш ҳуқуқ меъёрларига шунчаки риоя қилишни эмас, балки уларни шахс билан жамиятнинг бир-бирига мос тушган қадриятлари сифатида узвий идрок этишни англатади. Талабаларда қонунга итоаткорликни ва ҳуқуқни ҳурмат қилишни шакллантириш, уларнинг ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш, хусусан, қатъий ҳуқуқий нуқтаи назарга эга бўлган шахслар улушининг ошишини ва асосан жазоланишдан қўрқиш туфайли тўғри хулқ-атворли бўлган шахслар улушининг камайиб боришини тақозо этади.

Таълим муассасаларида янги қабул қилинаётган қонун хужжатлари юзасидан кенг маънодаги тушунтиришларни олиб бориш, маъруза машғулотлари, танловларни ўтказиш ҳам талабаларда ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришга таъсир этувчи омиллардан бири ҳисобланади. Тадбирларни ташкил этишда зерикарли бўлиб қолмаслиги учун ҳуқуқшунос олимлар, ҳуқуқни муҳофаза қилиш ходимлари, хусусан, суд, прокуратура, солиқ, адвокатурада фаолият олиб борувчи ходимларни таклиф этиб туриш муҳим аҳамиятга эга.

Ёшларни ҳуқуқий хабардор қилиш масаласининг энг мақбул ечимларини излаш, фикримизча, унинг ижтимоий субъект эканлигини тўла-тўкис ҳисобга олиши керак. Бундан, шу нарса келиб чиқадики, ҳуқуқий хабардор қилиш стратегияси ёшларга исталган ҳажмда юридик билимларни ўзлаштиришдан иборат эмас, балки уларга ҳаётнинг ўзи талаб қиладиган ҳуқуқий билимлардан баҳраманд бўлиш имконини беришдан иборат. Бундай стратегиянинг самарадорлиги ва ижтимоий долзарблиги ёшлар маънавий, шу жумладан, ҳуқуқий қадриятлардан узилиб қолганлигидан келиб чиқади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Таджихонов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. Т. 1. - Т., 1998. - 2 том. - 198 б.

2. Холназарова, М. Х. (2015). Формирование творческих способностей личности в процессе социализации. *Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, 1*(3-4), 109-111.

3. ХОЛНАЗАРОВА, Д. THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. *http://science. nuu. uz/uzmu. php*.

4. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *1*(12), 225-232.

5. Tangirberdiyev, S. T. (2023). AN IMPORTANT SOURCE FOR THE STUDY OF SUFISM AND ITS TRADITIONS. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, *3*(07), 37-40.

6. Xolnazarova, M., & G‘ofurova, S. (2022). O ‘SPIRINLIK DAVRIDA RIVOJLANISHNING O ‘ZIGA XOS AYRIM PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 300-302.

7. Xolnazarova, M. X. (2019). GENDER EQUALITY AS A SOCIO-HISTORICAL CATEGORY. *Bulletin of Gulistan State University*, *2020*(1), 91-95.

8. Каримова, С. (2021). Mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning tarkibiy funksional tahlili. Общество и инновации, 2(11/S), 273-279.

АКТИВНАЯ ГРАЖДАНСКАЯ ПОЗИЦИЯ У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Гафуров Бахромжон Адхамович
Гулистанский государственный университет, старший преподаватель кафедры «Общественных наук»
Телефон: +998972775968; e-mail: bachrom.gafurov.68@mail.ru

Понятие активность с философской точки зрения рассматривается как гармоничное сочетание трудовой и общественно-политической деятельности человека во всех отраслях своей жизни деятельности. Исходя из этого социальную активность можно определить как сознательное, творческое отношение к трудовой и общественно - политической деятельности, в результате которой обеспечивается глубокая и полная самореализация личности.

Активная гражданская позиция - осознанное участие человека в жизни общества, отражающее его сознательные реальные действия (поступки) в отношении к окружающему в личном и общественном плане, которые направлены на реализацию общественных ценностей при разумном соотношении личностных и общественных интересов. Компонентами активной гражданской позиции являются социальная активность, гражданское самосознание и гражданские качества.

Гражданское самосознание личности развивается с опорой на жизненную позицию личности: осознание, оценка человеком своего знания, нравственного облика и интересов, идеалов и мотивов поведения, целостная оценка самого себя как деятеля, как чувствующего и мыслящего существа по мере осознания им себя в качестве члена общества, носителя общественно значимой позиции.

Гражданские качества формируются под влиянием социальной среды и собственных усилий личности в специально созданных условиях. Это - чувство любви к Родине, чувство ответственности за свои поступки и действия, инициативность, самостоятельность и т.д.

Активная гражданская позиция предполагает наличие интереса к общественной работе, инициативу, исполнительность, осознание личной значимости, наличие организаторских умений.

Проведение в вузах специальных мероприятий даст возможность большинству студентов осознать свое место и значимость в системе принятия решений по важным вопросам совместно с органами власти, научиться диалогу для выявления совместных решений, проявлять свои лидерские качества в работе с населением, формировать активную гражданскую позицию в молодежной среде. Кроме того, гражданская позиция молодежи в дальнейшем будет способна осознавать необходимость самостоятельных действий, правильно определять вектор государственной политики в различных сферах деятельности и позиционировать себя в первую очередь, как активных помощников исполнительной власти.

С изменением политической ситуации в мире, и в частности, в Узбекистане особую актуальность приобретает проблема становления гражданской позиции. Обучаясь в высшем учебном заведении, студент уже имеет право голоса и имеет возможность выразить свою гражданскую позицию. Но зачастую студенты, недавние выпускники школ, не чувствуют себя частью общества, не знают, что такое гражданский долг, идея и т.д. В результате во многих случаях студенты первых курсов оказываются социально пассивными, либо недостаточно активными членами общества.

В связи с этим ведется интенсивный поиск новых подходов к формированию гражданской позиции студентов. Понятие гражданской позиции в современной науке исследуется философами, социологами, психологами, педагогами [2].

Во Всеобщей декларации прав человека дается следующее определение: «Гражданская позиция - ответственное выполнение гражданского долга». В свою очередь, «гражданский долг - это требования, предъявляемые к личности в виде обязанностей перед коллективом, классами и обществом в целом» [6, с. 28].

В Узбекистане молодежь занимает особое место в процессе формирования правового демократического государства и гражданского общества [1]. Хорошо известно, что большинство населения Узбекистанского общества - это молодые люди в возрасте до 30 лет. Признавая, что молодежь является решающей силой в модернизации общества, государство уделяет особое внимание воспитанию и поддержке молодого поколения. Это отражено в законе Республики Узбекистан «О государственной молодежной политике», принятом в новой редакции в сентябре 2016 г. и нескольких нормативно-правовых актах в стране.

Вопросы активной гражданской позиции связаны как с общей культурой человека, так и с его политическими ориентациями, политической культурой. Молодежь активно реагирует на социально-политические процессы, происходящие в обществе, и потому эта социальная группа является благодатно средой для активного воздействия на сознание, порой негативного. Именно поэтому ряд исследователей уделяют особое внимание роли школьного обучения и воспитания в формировании духовно зрелой личности, воспринимающей духовно-нравственные ценности народа, социальные нормы поведения.

Формирование активной гражданской позиции у студенческой молодежи включает в себя: ряд воспитательных задач, связанных с воспитанием у них гражданского сознания и мышления, гражданского мировоззрения и патриотических чувств, гражданского долга и ответственности; активной гражданской позиции; нравственно-психологических качеств гражданина и патриота, необходимых при выполнении конституционных обязанностей и защите национальных интересов страны.

Гражданская позиция проявляется во всех сферах человеческой деятельности: трудовой, общественной, духовно-нравственной. Для приобретения студентами активной гражданской позиции необходимо внести определенные нововведения в содержание образования и воспитания. С этой целью исследователями рекомендуется в тематическое содержание отдельных предметов активно включать темы, привязанные к таким понятиям, как патриотизм, привязанность к родине, национальная гордость, готовность к защите родины, и другим подобным проблемам; поднять уровень внеаудиторных мероприятий, силу их влияния; студенческое самоуправление должно стать важным средством формирования активной гражданской позиции.

Литература:

1. Мирзиеев Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. - Т.: «Узбекистан», 2016. 53 с.

2. Архангельский Л.М. Ценностные ориентации и нравственное развитие личности. - М., 1978; Лисовский В.Т. Социология молодежи. СПб., 1996; Михалина О.А. Гражданское образование как проблема социальной философии : дис…канд. филос. наук. Новосибирск, 2004 и др.

3. Филонов Г.Н. Феномен гражданственности в структуре личностного развития // Педагогика. 2002. С. 24-29.

MA’NAVIY MAKON VA INSON TAFAKKURINING O‘ZARO MUTANOSIBLIGI

Amanov G‘afur Adilovich
Guliston davlat universiteti, O‘qituvchi
973408393

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda inson qadri ustuvor bo‘lgan ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyat, yoshlarning intellektual salohiyatini va ongu tafakkurini yuksaltirishga oid katta islohotlar olib borilmoqda. Bugun jamiyatimiz taraqqiyotning yangi bir bosqichiga qadam qo‘ydi.Mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotining ma’nan yangi bosqichida xalq farovonligi, inson huquqlari va qadri oliy maqsad qilib belgilangan. Bu esa tamomila yangi ma’naviy makonni, ma’rifatga asoslangan jamiyatni shakllantirishni taqozo qiladi. **“Yangi ma’naviy makon nima? Mening nazarimda, u - biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir**[32]. Bu borada Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy hayotdagi yangilanish va tub sifatiy o‘zgarishlar, mafkuraviy islohotlar transformatsiyasini, ularga xos qonuniyatlar va ijtimoiy taraqqiyot strategiyalarida ma’naviy-mafkuraviy omillarning jamiyat taraqqiyotidagi falsafiy jihatlarini tadqiq etish, ularni ilmiy asoslash muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Turli madaniyatlarning muloqoti va ilmiy bilimlarning tarqalishi zamonaviy axborot jamiyatining paydo bo‘lishi uchun asos bo‘ldi. O‘tgan asrda ko‘plab avlodlarning orzusi ushaldi – xalqlar, madaniyatlar, tsivilizatsiyalar o‘rtasidagi chegaralar yo‘qoldi, biz bir bo‘ldik. Endi dunyoning narigi tomonidagi ma’lumotlar bizga onlayn etib keladi. Ammo hozirgi vaziyatni chuqurroq tahlil qilsak, “tanganing teskari tomoni” borligi ma’lum bo‘ladi. Odamlar o‘rtasida yaqin munosabatlar o‘rnatishga intilish, ular insonning individualligi va o‘ziga xosligini inkor qila boshlaganiga olib keldi. Bundan buyon nafaqat boshqa odamlarga tashqi o‘xshashlik talab qilinadi (bu ayniqsa yoshlar muhitida muhimdir), balki hatto fikrlar ham birlashtirilishi kerak. Albatta, hozircha bunday da’volar uchun rasmiy qonuniy asos yo‘q. Ammo yozilmagan qonunlar bor, ko‘p jihatdan va birinchi navbatda o‘zining majburiyligi bilan ko‘p jihatdan rasmiy qonunlardan ustun turadi. Bizningcha, ta’sir, to‘g‘rirog‘i, inson ongini manipulyatsiya qilish, odamlarda yangi yo‘nalishlar va semantik yuklarni shakllantirishga qaratilgan. Ko‘rinib turibdiki, axborot jamiyati an’anaviy jamiyatdan farqli hayotiy yo‘nalishlarga ega bo‘lgan tsivilizatsiya asosidir.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi; Inson hayotining ma’naviy sohasi ko‘p jihatdan uning xatti-harakati, tafakkuri va dunyoqarashini belgilaydi. Inson bilim bilan emas, balki axborot bilan boshqariladigan zamonaviy jamiyatda shaxsni shakllantirishning asosiy instituti ong sanoatidir. Agar an’anaviy madaniyatlar davrida sub’ekt-sub’ekt munosabatlari alohida o‘rin egallagan bo‘lsa, keyin axborot jamiyatida tajribani uzatish jarayoni tobora ko‘proq sub’ekt-ob’ekt munosabatlarining namunasiga aylanib bormoqda. Mafkuraviy mashina shaxsni shaxs sifatida emas, balki olomonning birligi sifatida ko‘rib chiqadi, asosiy e’tiborni inson "men"iga emas, balki umumlashtiruvchi "Biz"ga qaratadi. Inson ijodining rivojlanishiga mos kelmaydigan ommaviy xarakter zamonaviylikning asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi. Umuman olganda, qaram, zombi ongini har qanday muammolarni va birinchi navbatda halokatli muammolarni hal qilishga yo‘naltirish mumkin, chunki ular ijodiy yondashuv yoki intellektual kuch talab qilmaydi. Ammo bu har qanday vaqtda nazoratdan chiqib ketishi va bunday ijtimoiy loyihalar mualliflari rejalashtirilganidan butunlay boshqacha vazifalarni hal qilishi mumkin bo‘lgan xavfli quroldir. So‘nggi yillarda dunyoda sodir bo‘layotgan ko‘plab voqealarda ko‘rinmas qo‘l seziladi, asossiz va g‘azablangan olomonni mohirona manipulyatsiya qilish. G‘arb qadriyatlarining dushmanlarini izlash to‘xtamaydi, chunki ular dunyoni larzaga keltirayotgan iqtisodiy va siyosiy inqirozlarning sababi deb e’lon qilinadi.

Zamonaviy odam tobora ko‘proq tashqi sharoitlarga bog‘liq bo‘lib bormoqda, bu uning individualligini rivojlantirishga va to‘liq huquqli shaxsni shakllantirishga yordam bermaydi. Erkin bo‘lmagan shaxs faqat o‘zini erkin deb tasavvur qiladi, u o‘zining qullik mavqeini, birinchi navbatda, quyi instinktlar va ehtiroslarga bog‘liqligini taxmin qilmaydi. Bugungi kunda kam odam Sokratik intellektual idealizmga ishonadi, unga ko‘ra haqiqiy bilim va insonning ezgu faoliyati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri proportsional bog‘liqlik mavjud. Ko‘p narsa ijtimoiy ongni o‘rganish uchun ahamiyatsiz bo‘lmagan ilmiy usullarni izlash zarurligini ko‘rsatadi. Sharoitlarni yaratish har birining ijodiy kuchlarini ochib berishga hissa qo‘shish har bir jamiyat intilayotgan ezgu maqsaddir. "Ruhni

[32] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –Toshkent, O‘zbekiston, 2021. –B. 276

tarbiyalash, - deb yozadi V. P. Zinchenko, - abadiy muammodir. Har bir yangi avlod odamlari uni hal qilishning o‘z yo‘llarini qidirmoqda. Va insoniyatning hali ham mavjudligi bunday yo‘llarning oxir-oqibat topilishining eng yaxshi dalilidir"[33].

Hozirda yoshlarning “ongi va qalbi” uchun faol kurash olib borilmoqda, shaxs ongi bo‘lib etish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy ong shakllanmoqda. K.Marks haqiqiy olim kabi kapitalistlarning boyitish mexanizmi sirini ochib berdi va o‘z kashfiyotini ommaga oshkor qildi. Keyinchalik nima bo‘ldi, biz bilamiz - butun dunyo bir asr davomida ijtimoiy kataklizmlar bilan larzaga keldi. Turli mamlakatlardan kelgan odamlar mojaro nazariyasi bilan qurollangan, iqtisodiy va siyosiy huquqlari uchun kurashdilar. “Ijtimoiy psixoanalitik” K.Marks kapitalistik munosabatlar sharoitida inson ongining yashirin shakllanish sirini ochib berdi. Va bu kashfiyot odamni manipulyatsiya sanoatidan va keng ma’noda, odamni inson tomonidan qul qilishdan ozod qilishga qaratilgan birinchi urinishlardan biridir. Shu munosabat bilan nima uchun o‘tgan asrning oxirida marksizm ta’limoti keskin tanqid qilina boshlaganligi oydinlashadi. Yangi munosabatlarning mafkurachilari bu ta’limot kam ta’minlangan odamlar uchun kapitalizmning telba qonunlari buyrug‘iga qarshi o‘ziga xos qurol ekanligini bilishardi.

Mavzu doirasidagi tahlillar; Bilim haqiqatan ham u yoki bu ijtimoiy ziddiyatning mexanizmlarini tushuntirmoqchi bo‘lsak, uni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan kuchdir. V. A. Lektorskiyning ta’kidlashicha, matnlar va bilimlar har qanday tsivilizatsiyaning zarur elementidir va agar birinchilari yo‘qolsa, unday insoniyat bo‘lmaydi. Bu so‘zlarga qo‘shilmaslik qiyin. Ammo bilim bilimdan farq qiladi. Shuning uchun ular Rossiyada burjua mentalitetini qaror toptirish maqsadida g‘arbning tegishli mazmundagi ilmiy va badiiy adabiyotini targ‘ib qila boshladilar. Lekin alohida xizmat, albatta, kino sanoatiga tegishli. Inson tabiati tuzilishida pulparastlik va filistizm unsuri mana shunday ochilib, tarbiyalangan. Kapitalning ibtidoiy to‘planishi davri - bu Homo Homini Lupus Est iborasini tom ma’noda qabul qilish mumkin bo‘lgan dahshatli vaqt. Ammo moliyaviy oligarxiya hamma narsani yo‘qotishdan qo‘rqib, o‘z mavqeini biroz yo‘qotdi va insonni shafqatsiz ekspluatatsiya qilish o‘rnini yanada liberal iqtisodiy siyosat egalladi. Axborot jamiyatida kapital hokimiyat bilan bir butunga birlashadi. ommaviy axborot vositalari yordamida iste’molchi psixologiyasiga ega shaxsni shakllantiradi. Rasmiy targ‘ibot jamiyatning munosabati va qadriyat yo‘nalishlarini har bir shaxsning ichki tamoyillari va me’yorlariga aylantirish maqsadini ko‘zlaydi. Shuning uchun ham davlat mafkurasiga hamisha alohida e’tibor berilgan, uning asosiy qoidalari ta’lim jarayoni mazmuniga kiritilgan. Yoshlarning qadriyatlar tizimi jamiyatda shakllangan umumiy ma’naviy vaziyatni aks ettiradi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar; Bugungi kunda o‘sib kelayotgan avlodlar ongiga filistizm va burjua utilitarizmining kirib kelishining oqibatlari aniq ko‘rsatilgan. Va agar qadriyatlar shaxsning birlamchi sotsializatsiyasi deb ataladigan davrda shakllanganligini hisobga olsak, butun avlod iste’molchi individualizmining "maktab" ni allaqachon bosib o‘tgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. J. Huizinga rivojlanmaganlarni tavsiflash uchun, Insonning infantil ongi puerilizm tushunchasini kiritadi, u orqali u o‘smirlik yoki yoshlik me’yorlariga muvofiq odam o‘zini tutadigan faoliyat sohasini tushunadi. “Bu erga keladi, - deb yozadi J. Huizinga, - masalan, oddiy o‘yin-kulgiga bo‘lgan osonlik bilan qondiriladigan, lekin hech qachon qondirilmaydigan ehtiyoj, qo‘pol his-tuyg‘ularga chanqoqlik, ommaviy tomoshalarga bo‘lgan ishtiyoq ... Etuk bo‘lmagan yoshlik ruhiy holati, ta’lim, shakl va an’ana bilan bog‘liq bo‘lmagan holda, har bir mintaqada ustunlikka erishishga harakat qiladi va bu borada juda yaxshi muvaffaqiyatga erishadi"[34].

Shubhasiz, inson tafakkurining o‘ziga xos turi shakllanmoqda, uning asosiy manfaatlari oddiy narsalar, hissiyotlar, mish-mishlar, fitna nazariyalaridir. Bunday fikrlash murakkab aqliy mehnatga, dunyoning asosiy qonunlarini tushunishga qodir emas, u yuzaki va asoslidir, aksincha, bilim emas, balki ma’lumot. Deyarli har bir odamda fikrlash qobiliyati namoyon bo‘ladi, deb bahslasha olmaydi, ammo savol bu jarayonning vaqt va mazmunli mazmuni jihatidan qancha davom etishida. Qoida tariqasida, zamonaviy bilimli shaxsning ilmiy xabardorlik darajasi iqtisodiyot, siyosat, amaldorlar va boshqalar haqida hissiy jihatdan boy bayonotlarda ifodalanadi. Aqlli odam ijtimoiy jarayonlar haqida, ularning barcha asosiy tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda, ularning borishining o‘ziga xosligini

Zinchenko V.P. Ruh va uning tarbiyasi haqida mulohazalar // Falsafa savollari. 2002. № 2. S. 120.

belgilaydigan omillarni ko‘rsatgan holda o‘ylashi kamdan-kam uchraydi. Bunday bemalol, sinchkovlik bilan fikrlash o‘rnini "og‘zaki otashinlar" modasi egalladi, unda his-tuyg‘ular ongda hukmronlik qiladi.

Ma’naviy hayotimizni yangilashda, mafkuraviy tamoyillarni belgilashda “inson — jamiyat — davlat” omili bugungi hayot haqiqatini, hozirgi davr zaru ratini aks ettiradi. Mamlakatda islohotlar va yangilanishlarning keng ko‘lamda amalga oshirilayotgani, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlash paradigmalarga asoslanadigan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi xalqimizning jipslashtirmoqda. Shu ma’noda, keyingi yillarda amalga oshirilgan tub islohotlar, mamlakatimizning barqaror taraqqiyot strategiyasini yaqqol aks ettirgan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini yosh avlod qalbi va ongiga singdirish bugungi ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizning asosiy yo‘nalishiga, binobarin, eng muhim vazifamizga aylandi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –Toshkent, O‘zbekiston, 2021. –B. 276.
2. Zinchenko V.P. Ruh va uning tarbiyasi haqida mulohazalar G‘G‘ Falsafa savollari. 2002. № 2. S. 120.
3. Huizinga J. O‘yinchi odam. M.: Eksmo-Press, 2001.-B.322-323.

BEGONALASHUVNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI

Temirova Nilufar Erkinovna
f.f.n., dotsent
Guliston davlat universiteti
e-mail: temirovanilufar545@gmail.com

Annotation. *In today’s era of globalization, it is becoming increasingly clear that alienation is a phenomenon that occurs after the breakdown of social relations. At the same time, the egocentric ideas that prevail in some societies can also be the source of the phenomenon. Therefore, one of the most urgent problems of modern social reality is the problem of alienation. Today, alienation has a global character, and in the process of transformation of human personality in the information society, the deviant determinant factor affects all spheres of human activity. From this point of view, in this article, the definition of the content and scope of this concept, the comparative analysis of different theoretical schools and the classification of the phenomenon of alienation are studied.*

Key words: *alienation, loneliness, culture, phenomenon, existential, transformation, trend, personality, evolution.*

Sirdaryo viloyati respublikadagi eng kam mehnat resurslariga ega bo‘lgan hudud sifatida olinadigan bo‘lsa, undagi har bir shaxs uchun alohida olingan ilmiy, mehnat va yashash sharoitlarini yaratish maqsadga muvofiqdek ko‘rinadi. Lekin bu o‘z navbatida katta iqtisodiy va ilmiy zaxiralarni talab etadi. Real olib qaralsa hududda iqtisodiy va mehnat imkoniyatlari bilan birga, ta’lim muhitida ham yaxshi imkoniyatlar mavjud ekanligini ko‘rish mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib hududdagi mavjud inson kopitalini rag‘batlantirish, undan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, hudud imkoniyatlarini hisobga olib, talim tizimi va Uning mehnat bozori uchun yetishtirilayotgan kadrlardagi begonalashuv tushunchasiga oid hususiyatlarni ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Begonalashuv bu tanazzul sifatida baholanishi bilan birga, bir-birlariga bog‘liq hodisalardir. Insoniyat tarixidagi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridagi qonli urushlar, shiddatli ijtimoiy nizolar, ichki ma’naviy inqiroz, jamoatchilik ongining ijtimoiy voqelikka nisbatan beqarorligi va muloqot jarayonlari murakkabligining ta’siri begonalashuv ko‘lamini oshirganligi hech kimga sir emas. Shunday qilib ushbu ilmiy maqola uchinchi ming yillikning boshlarida inson begonalashuv hodisasini bartaraf eta olmasligini, aksincha, uning salbiy ta’siri ortishini, jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar begonalashuvning yangi shakllari va turlarini vujudga keltirishi hamda begonalashuv yangi mazmun-mohiyat kasb etayotganligi uchun uning tub mohiyatini anglashda nazariy qarashlarni tahlil qilinganligi haqidagi fikrlar muallif tomonidan tadqiq etilganligi bilan ajralib turadi.

Begonalashtirish atamasi XVIII asrdan beri keng qo‘llanilib kelinmoqda hozirgi kunga qadar tadqiqotlarda yetarli darajada ilmiy isbotlab berilmaganligi bilan ahamiyatlidir. Begonalashish asosan ijtimoiy munosabatning uzulishi ortidan yuzaga keluvchi hodisa ekanligi oydinlashib bormoqda. Insoniyat tarixi davomida begonalashuv o‘rganish ob’ekti bo‘lib kelgan, bu hodisa bilan bog‘liq juda ko‘p nazariy, uslubiy va kontseptual materiallar mavjud. To‘plangan g‘oyalar, nazariyalar, tushunchalar sonining mavjudligini hisobga olgan holda maqola mavzusi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan an’anaviy nazariyalarga e’tibor qaratildi va maqolani tayyorlashda qiyosiy tahlil, analogiya, tanqidiylik, tizimli tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Shuningdek, begonalashuv masalalarini o‘rganish antik davr falsafasida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Keyingi davrga kelib ijtimoiy shartnoma nazariyasida begonalashuv muammosi falsafiy nuqtai nazardan yoritila boshlangan bo‘lib, u jamiyat hayotini tahlil qildi hamda jamoatchilik institutlarining teskari ta’siri to‘g‘risidagi chuqur fikrlarini shakllantira boshladi. Shuningdek, davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarda T.Gobbs, J.Lokk va J.J.Russolar ham o‘z qarashlarida davlat ijtimoiy institut sifatida inson o‘zining huquq va erkinliklarini davlat foydasiga begonalashtiruvchi akt tizimi sifatida namoyon bo‘lishini, u o‘zining shaxsiy manfaatlari va istaklarini amalga oshirish yo‘lida inson erkinligini cheklashi mumkinligini ta’kidlagan edilar. XVIII-XIX asrlardagi nemis falsafasi vakili bo‘lgan K.Marks tomonidan begonalashuvning konsepsiyasi ishlab chiqilgan. E.Fromm begonalashtirishning ekzistentsial jihatiga e’tibor qaratdi, Z.Freyd esa begonalashuv tomirlari madaniy bosim oqibatidagi individning patologik holati ekanligini ta’kidlagan. Bundan keyingi davrlarda ham turli olimlar tomonidan begonalashuvning axloqiy, estetik va diniy jihatlari hamda uning oldini olish yo‘llariga oid ko‘rib chiqilgan ilmiy asarlari va tadqiqotlari ham mavjud.

XX asrda ijtimoiy-madaniy hayotda qadriyat va tartiblar transformatsiyasi, inson va uning tabiati haqida o‘rnatilgan g‘oyalar qayta ko‘rib chiqilishi bilan xarakterlanadi. Jamiyat hayotiga ilmiy-texnika taraqqiyoti kirib kelishi bilan bu davrda shaxsning mohiyati, uning mavjudligi mazmuni va maqsadini qayta anglashda falsafiy, ijtimoiy qarashlarga ehtiyoj tug‘ildi. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyoti tarixida muammolar qatorida begonalashuv hodisasi inson mavjudligining ajralmas omili sifatida bugungi kunga qadar o‘rganilib, muayyan falsafiy tendensiyalar asosida maktablarning konsepsiyalari, yondashuvlari va xulosalari ishlab chiqildi. Aflotunning fikriga ko‘ra, moddiyot dunyosi g‘oyalar dunyosining begonalashtirilgan, o‘zgartirilgan ijrosi bo‘lib, abadiy inson ruhi tanada qamoqxonada bo‘lganidek, u jalb qilingan g‘oyalar dunyosidan chetda qoladi. Biroq, Aflotunning fikriga ko‘ra, faqat boshqa dunyoga o‘tish orqali ruhni begonalashishdan butunlay qutqarishi mumkin [Platon. 2002. – S. 161-248.]. Siyosiy begonalashuvning mavjudligi haqidagi g‘oyaga Arastuning yondashuviga ko‘ra, davlatdagi ijtimoiy hayot alohida fuqarolar hayotidan begonalashishini ta’kidlagan. U buni davlat - shaxsdan ham, oiladan ham ustun ekanligini, unga butunlay qaram bo‘lib, ularning manfaatlari to‘qnashganda davlat zimmasida qolishini bildirib o‘tadi. Qonun-qoidani davlat belgilab beradi, aks holda odamlar hayvonlardan ham battaroq bo‘lib ketishi mumkin deb hisoblaydi [Аристотель. 1983. – Т. 4. – 270 с.].

J.Lokk va B.Spinozaning intilishlari begonalashishni engish yo‘llarini izlashga qaratilgan. Demak, Lokk siyosatda begonalashishni yo‘q qilishga qonun ustuvorligini kafolatlash, uni xalq ustidan davlat hokimiyatidan ustun qo‘yish hamda hokimiyatni majburiy taqsimlash orqali erishish mumkin deb hisoblagan. Spinoza odamlarni oqilona boshqarishni, davlat amalda xalq bilan birlashganda, demokratik tashkilot tomonidan ta’minlanishi mumkinligini ta’kidlagan. Shunda u jamoa irodasini ado etib, jamiyatdan begonalashmaydi deb hisoblagan. XVIII asrda frantsuz faylasufi J.J.Russo ijtimoiy shartnoma natijasida vujudga kelgan davlat, tsivilizatsiyaning boshqa yutuqlari singari, shaxsni qulga aylantirish vositasiga aylanadi degan g‘oyani yanada rivojlantirdi [Русco Ж.Ж. 1998. — 416 с.]. Shu zaylda, ijtimoiy taraqqiyot va begonalashuv o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish asta-sekin shakllanib bordi. Bu odamlar o‘z huquqlari va erkinliklari bilan aloqani yo‘qotishda, ijtimoiy va siyosiy faoliyatda sub’ektivlikni yo‘qotishda namoyon bo‘ladi.

Begonalashtirish masalalari E.Fromm nazariyasida ham muhim o‘rin tutadi, u tarixiy jarayonning keyingi yo‘nalishini ikki qarama-qarshi, ammo bir-biriga bog‘liq jihatlar - begonalashtirish va erkinlikni belgilaydi, deb hisoblaydi. Bu uning “Ozodlikdan qochish: inson o‘zi uchun” asarida tahlil qilinadi. Taraqqiyot bilan erkinlik doimiy ravishda oshib borishiga qaramay, shaxsning ham odamdan ning ham olamdan uzoqlashish darajasi oshib boradi [Фромм, Э. 2006. – 571 [5] с.]. E.Fromm begonalashtirishning ekzistentsial jihatiga e’tibor qaratib, “Begonalashuv barcha

qadriyatlarni qayta baholash jarayoniga olib keladi” deydi. E.Frommning qarashlarida aksariyat insonlar begonalashuv hodisasini shaxsning subyektiv holati yoki jamiyatdagi obyektiv pozitsiyasi ekanligini tushunishmaydi. Bu so‘z aytilganda, odamlar unga hayrat va qo‘rquv bilan qarashadi. Kimlardir uchun bu shunchaki haddan ziyod bir tomonlama fanatik qarashlar bilan bog‘liq assosatsiyalar natijasida kelib chiqadigan stereotiplardir. E.Fromning fikriga ko‘ra, ―begonalashuv so‘zi dastlab ruhiy kasal (insane – aqldan ozgan) inson ma’nosini anglatgan. Frantsiyada “aliene” va Ispaniyada esa “alienado” – bu mutloq begonalashgan, psixotik insonni belgilash uchun ishlatilgan eski atamalardir [Akbarjonovich, M. A. (2023). 628-631.].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, begonalashuv zamonaviy dunyoda harakatchanlik va dinamizm xususiyatiga ega bo‘lib, klassik doirasidan tashqariga chiqadi, bu esa uni o‘rganishda fanlararo yondashuvning amaliyligini asoslaydi. Shunday qilib, begonalashuv muammosining tarixiy jihatini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, falsafiy tafakkur tarixida begonalashuv muammosini tushunishda turli jihatlar va xilma-xil yondashuvlar ochib berilgan. Begonalashuv hodisasi turli davrlarning ijtimoiy hayotida ko‘proq yoki kamroq mavjud bo‘lgan, lekin uning tabiati ijtimoiy-tarixiy sharoitga qarab o‘zgargan. Begonalashtirishga yordam beruvchi tashqi omillar-sivilizatsiyaning sanoat va texnogen tabiati bilan bog‘liq holda axloqning, insonning diniy, ijtimoiy ob’ektivlashuvning, uning texnotsentrizmining tanazzulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Платон. Тимей / Платон. Избранные диалоги; вступит. статья, составл., примеч. В.Е. Витковский. – М.: «РИПОЛ КЛАССИК», 2002. – С. 161-248.

2. Аристотель. Политика / Аристотель. Сочинения в 4-х т.т. – М.: Мысль, 1983. – Т. 4. – 270 с.

3. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. — М.: "КАНОН-пресс", "Кучково поле", 1998. — 416 с.

4. Фромм, Э. Бегство от свободы: человек для себя: Пер. с англ. / Э. Фромм. – М.: АСТ, 2006. – 571 [5] с

5. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. *IQRO JURNALI*, *2*(1), 628-631.

AIDS PREVENTION AND HEALTH AMONG YOUTHS LIFESTYLE PROMOTION FACTORS

Shukurova Sevara

Guliston davlat universiteti o‘qivchisi

Abstract: This article provides information about AIDS and HIV infection, ways of transmission, disease prevention, and recommendations for promoting a healthy lifestyle among young people.

Key words: AIDS, HIV, "95-95-95", discrimination, stigma, migrant.

Acquired immune deficiency syndrome (AIDS) is a disease caused by a virus belonging to the retrovirus group; divided into two periods: HIV infection and immediate AIDS (SPID) period. The period of HIV infection is the period when the human body has the virus, but the symptoms of the disease have not yet appeared. The virus was discovered almost at the same time by scientists led by Professor Luc Montagne in Paris and Professor Gallo in the United States (1983). This virus selectively affects the human immune system, specifically killing SD4+ immune cells. After the virus enters the human body, after 2-3 days, in 25-30% of cases, symptoms characteristic of the period of primary infection can be observed. This is called "acute seroconversion syndrome" and may include fever, night sweats, joint and headache pain, nausea, vomiting, diarrhea, and a rash, especially on the upper body. These symptoms are related to the response of the immune system to a certain extent to the effect of the virus on the human body. But detection of antibodies during this period does not give results, because the response of the immune system is not yet fully formed. This period of the disease can last up to 8-10 years, sometimes even longer. Currently, the diagnosis of HIV infection in practice is based on the detection of antibodies against the disease virus in the blood - enzyme immunoassay

(IFT) reaction. Although the initial antibodies begin to form after 3 weeks after the virus enters the body, the used diagnostics cannot detect them. Therefore, it is possible to conclude that a person is infected with this infection based on the result of the examination conducted 90 days after the virus enters the body.

AIDS is the final stage of HIV infection. The fight between the virus and the organism continues for a long time and ends with the virus's victory. From this time the era of AIDS begins. During this period, the human body loses its ability to withstand any microbes. For example, germs that are always present in the respiratory, stomach, and urinary tracts and cannot cause disease can become active and cause various diseases. Since their manifestation is related to the AIDS situation in the body, diseases belonging to this group are collectively called AIDS-related (associated) infections. These are bacterial infections, fungal diseases, viral diseases, Kaposi's sarcoma, etc.

In the early stages of infection, a person may feel healthy. This condition can last up to 8-10 years without any symptoms. During this period, even if a person looks healthy, there is a high risk of spreading the disease virus to others without knowing it.[35]

In what ways is the disease transmitted?

The virus is found in the blood of an infected person, in the semen of men, in the genital secretions of women, and in breast milk. Therefore, the virus is mainly transmitted in 3 different ways:

1. Through the blood (parenteral route)

2. Through sex

3. The disease can be transmitted vertically from the infected mother to the fetus during pregnancy (through the injured placenta), during childbirth (through the mother's blood in the birth canal) and through breast milk to the baby.

In what cases is HIV not transmitted?

• When shaking hands, hugging;
• When coughing, sputtering;
• When using a public telephone;
• When bitten by insects;
• When using the pool, bathroom, toilet in common;
• From common dishes;
• Clothes and blankets - through the bed.

But despite the fact that the above information is recorded in many hospitals, the level of literacy of our people about AIDS/HIV and ways of transmission is low.

Uzbekistan against AIDS/HIV. The "95-95-95" strategy to end the HIV epidemic by 2030 was put forward by the General Assembly of the United Nations. As part of it, 95[36] percent of HIV-infected persons should know their status, be covered by special treatment courses, and the viral load in the blood of 95 percent should be undetectable. Currently, more than 48,000 HIV infections have been detected in the republic. In the last 5 years, the number of HIV tests has increased 5 times to 3.5 million. State financing of medicines is 80 percent.

In order to eliminate the transmission of HIV infection from mother to child in the republic, continuous supply of milk powder mixtures is being carried out every year to children born to sick mothers. Thanks to these measures, 99.7 percent of children are fortunate to live healthy lives. HIV infection testing has been expanded and measures have been set to cover 3 million people. Such patients were also provided with 22 types of antiviral drugs free of charge.

In spite of these measures, cases of human immunodeficiency virus infection are unfortunately increasing. This is becoming an urgent problem, especially in the city of Tashkent, Andijan and Samarkand regions.

The main strategy to end the HIV epidemic by 2030 is to achieve the "95-95-95" targets by 2025. These targets mean that by 2025, 95% of people living with HIV will know their status, 95% of patients will receive specialized therapy, and 95% of patients will have a low-level virus that is not contagious

[35] Плотникова Ю.К. Медико-социологическое мониторирование HCV+HIV-коинфекции в Иркутской области / Ю.К. Плотникова // Медицинская наука и образование Урала. - 2007. - № 2. - С. 12 - 17.
[36] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, No. PQ-14 dated 20.01.2023

Representatives of all sectors should fight together to achieve the above-mentioned goals, to take measures aimed at completely stopping HIV/AIDS transmission among the population by 2030, and to achieve the result. In particular, the Ministry of Health, the Ministry of Economy and Finance, the Ministry of Internal Affairs, the Ministry of Poverty Alleviation and Employment, the Ministry of Youth Policy and Sports, the Information and Mass Communications Agency, the National Information Agency of Uzbekistan, the National Broadcasting Company of Uzbekistan, the Committee on Religious Affairs, interested ministries and agencies. and HIV infection together with public organizations Social, legal, spiritual and medical-psychological support of HIV-infected persons, especially among young people, extensive explanatory and educational work on the spread of HIV infection, strengthening of family and spiritual and moral values in the society are being created and implemented.

According to the decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-14 of 20.01.2023, the organizations and ministries responsible for the measures aimed at preventing the spread of AIDS/HIV have been assigned specific tasks.

Including

Conducting express tests among at least 177,000 people annually to cover the population with HIV testing;

Providing medical advice on HIV infection among the population, preparing and delivering informational and promotional materials to the population, carrying out promotional activities. Carrying out special activities (trainings, campaigns, etc.) to prevent stigmatization and discrimination related to HIV infection;

Development of proposals for the introduction of mechanisms aimed at increasing the effectiveness of the fight against HIV and strengthening control over the spread of the disease among migrants who have been abroad for a long time and have returned to Uzbekistan;

Organization of campaigns to raise awareness among migrants and their families about the risk of HIV infection, protective measures and treatment options;

Carrying out large-scale propaganda work on issues related to the prevention, diagnosis and treatment of HIV infection among the population through mass media, Internet and social networks, preparation of articles, TV shows, radio broadcasts, audiovisual propaganda materials;

Presentation of videos and radio tips aimed at increasing public awareness of HIV infection in airplanes, trains, buses, subways, supermarkets, markets, etc.

An electronic information system is being created that allows monitoring of cases of HIV infection, monitoring the movement of drugs, test systems and other tools in real time, as well as interdepartmental cooperation. This system enables electronic cooperation between the electronic databases of the Ministry of Internal Affairs, the Ministry of Health, the Ministry of Justice, the Pension Fund under the Ministry of Economy and Finance and other interested organizations through the interdepartmental integration platform of the "Electronic Government" system.

In short, our country has developed many measures against AIDS/HIV. HIV and AIDS are rarely talked about in Uzbekistan. Most of the people still have a stigma that only prostitutes and drug addicts get it. But millions of children in the world live with HIV, including thousands of children born with this disease or infected during medical treatment in Uzbekistan.

Based on my current scientific and research work, I also want to raise awareness of HIV infection among all Uzbeks and create a tolerant attitude towards HIV-infected people, eliminate discrimination among people with AIDS/HIV. I took it as a goal.

In order to protect people from this disaster, it is necessary to pay attention to issues such as promotion of a healthy way of life, which has been a habit of our society since ancient times, and elimination of vices condemned by our people (drug addiction, prostitution, drunkenness). Because if everyone follows a healthy lifestyle and follows the instructions given below, this disaster will not pose a threat to our future generations.

To prevent HIV:

- compliance with personal hygiene rules;
- use only sterilized and disposable syringes during treatment;
- avoid promiscuous sexual relations.

REFERENCES:

1. [1] Аитов К.А. Этиологические, патогенетические и клинические особенности вирусных гепатитов В, С и О на современном этапе / К.А. Аитов, И. В. Малов, В.А. Брисов, В.А. Хабудаев, Н.К. Боброва М.В. Лемешевская, М.Ю. Кушеверская, В.В. Леоненко, Ю.К. Плотникова // Журнал инфекционной патологии.- 2002. - Т. 9, № 2. - С. 4 - 12.

2. Аитов К.А. Течение парентеральных вирусных гепатитов у наркоманов / К.А. Аитов, И.В. Малов, В.А. Брисов, В.А. Хабудаев, Н.К. Боброва, М.В.Лемешевская, М.Ю. Кушеверская, В.В. Леоненко, Ю.К. Плотникова // Журнал инфекционной патологии.- 2003. - Т. 10, № 4. - С. 11 -12

3. Плотникова Ю.К. Медико-социологическое мониторирование HCV+HIV-коинфекции в Иркутской области / Ю.К. Плотникова // Медицинская наука и образование Урала. - 2007. - № 2. - С. 12 - 17.

ALI SAFIY – MA'NAVIY KOMILLIK TIMSOLI

Tangirberdiyev Sh.G
Guliston davlat universiteti, o'qituvchi
e-mail: sherzodgapparovich654@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Ali Safiy O'rta Osiyo falsafiy qarashlariga xissa qo'shgan faylasuf, falsafa shakllanishining asosiy omillari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ali Safiy, Shayx Umar Bog'istoniy, Xoja Ahror, hikmat, falsafa, diniy-mafkuraviy nizo.

O'zbekiston azal-azaldan o'zining dunyoga tanilgan ko'plab buyuk allomalari va mutafakkirlari bilan faxrlanib kelgan. Mamlakatimizning kelajagi, ertangi kuni, yangi avlodni qanday insonlar bo'lib tarbiyalanishiga voyaga yetishiga bog'liq. Yosh avlod uchun buyuk ajdodlarimizning hayoti, faoliyati, ilmiy ma'naviy merosi ibrat maktabidir. Yurtimiz hududdidan yetishib chiqqan, xalqimizning yetuk vakillari tasavvuf ilmini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirib, o'zlarinig bebaho asarlari bilan nafaqat islom olami, balki butun dunyo madaniyatini mislsiz yuksaklikka ko'tarishga hissa qo'shib kelgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, …..yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"[1]. Ana shunday xolis talqin etilishi lozim bo'lgan buyuk ajdodlarimizdan biri Ali Safiy hayoti va faoliyatidir.

Mumtoz arab-musulmon jamoasi an'ana, qadriyatlari ruhida shakllangan Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy voqea, o'zgarishlarni, bu Xudoning taqdiri, men hech narsani o'zgartira olmayman, deb kuzatuvchi, loqayd bo'lib o'tira olmas edi. "Darhaqiqat, fayzi Ilohiyda qusur yo'q turur, qusur tolib tarafida turur. Vaqtikim, tolib raf'i mavoni'i (to'siqlarni yo'q) etsa, albatta... ... Ixtiyorning hikmati odamlarda ko'broq turur. Vaqtikim, mavoni'i tabiat (tabiiy to'siqlar)nikim, asl bo'lub turur, ixtiyorning quvvati ko'b va jahd bila ul mavoni'ilarini raf' etmak kerak"[1].

Inson o'z shaxsiyati, oilasi va jamiyatda eng yuksak oliyjanob maqsadlar, adolat, oqillik talabida bo'lishi, jamiyatni o'zi, maqsadlari, intilishlari borasida tashvishga qo'ymasligi, xushyor, ongi va irodasiga o'zi sohib bo'lishi, o'tkinchi, past kayfiyat, intilishlardan qochishi, buning uchun esa, Ali Safiyga ko'ra uning aqli-idroki nafaqat xushyor, balki faol, anglangan faoliyat holatida bo'lishi lozim. Shu bilan birga inson iroda-ixtiyori, faolligini Ali Safiy mavhum, yoki irfoniy jiddi-jahd, riyozat shaklidagina tushunmagan, balki mamlakat, yurt, Vatan, xalq tinchligini va xavfsizligini ta'minlash, buning uchun kerak bo'lsa faol harbiy-siyosiy jiddi-jahdda bo'lish – vatanparvar va ayni paytda sulhparvar bo'lish maqsadga muvofiqligini tushungan. Alloma shu munosabat bilan Xoja Ahrorning quyidagi qarash, hikmatini keltiradi: "agarchandkim, har fe'l, agar xoh haddi shar'iy mutavajjih bo'lsun, xoh bo'lmasun, bu qavldin tururkim, Haq subhonahu va taoloning aqdori va tamkini va xalqi bila mavjud bo'lub turur, lekin murod ul tururkim, ... qazovu qadarning haqiqatig'a nazar etmak kerak, to urush va fitna (sodir) bo'lmasun..."[1].

Bu o'rinda, Ali Safiy Sharqda davlat idora va boshqaruvida "Davlat va din – sut egizak"[12], davlat, din, qonun bir-birlaridan ajralmas, biri zaiflashsa yoki daxl qilinsa, qolganlari ham zavol topadi, degan an'anadan kelib chiqqan edi. Urush bo'lsa-yu, shariat va davlat asoslariga darz ketsa,

bunga qarshi butun aql-idrok, iroda, jiddu-jahd bilan kurashish lozim, degan faol siyosiy–mafkuraviy pozitsiya zarurligini ilgari suradi mutafakkir. Va aksincha, davlat, din, qonun asoslari, poydevoriga darz ketganda, bundan “ranjimak va iztirobga tushmak va urush etmak Haq subhonahu taolo rizosining mujibi va Rasul-s.a.v.ning xushnudliklari turur. Va bu jang va oshibning zimnida ming foyida suvrat va ma’no yuzidin mundarij turur. Ihmol va imhol onda (ya’ni taraddud yoki o‘zini bundan chetga olish) ilhad (ateizm, kufr) va zindiqa (bid’at, xudosizlik)din boshqa nimarsa emastur”[1]. Demak, Ali Safiyning diniy-e’tiqodiy, siyosiy-mafkuraviy qarashlariga ko‘ra, din, davlat, qonun asoslariga daxl qilish eng yomon, buyuk gunoh ilhad, ya’ni kufr, ateizm va jaholatparast bid’atchilik sifatida qaralishi, baholanishi va ular mahv etilishi lozim.

“Hazrati Eshon (Xoja Ahror)ning muborak xatlari bila kitobining zoxirig‘a yozilg‘on quyidagi kalimoti qudsiyyani ko‘rgan edim, deb Ali Safiy iqtibos keltiradi, - ... kamoli saltanat va sultonlig‘ (ya’ni davlat va boshqaruv kamoli) ulkim, o‘z tasarrufi bila tamomi raoyog‘a va xoslarg‘a o‘z kisvatini (ya’ni adl va insofini) kiygizur”[1].

Ali Safiy “Rashahot...”da bugun xalqimiz ma’naviy-irfoniy madaniyati, qadriyatlarining bilimdonlari – mutaxassislarga, hamda chin muxlislarga ma’lum va mashhur bo‘lgan Xoja Ahror keltirib o‘tgan – ona tomondan bobo ajdodi bo‘lgan Shayx Umar Bog‘istoniyning o‘z farzandlariga, shu jumladan, shayx Xovand Taxurga ham ijtimoiy-siyosiy, ham diniy-e’tiqodiy nuqtai nazardan o‘ta mas’uliyatli vazifa-o‘gitini bizga etkazgan: “Yo Taxur, mullo bo‘lma, shayx bo‘lma, so‘fi bo‘lma, ul bo‘lma, bul bo‘lma, musulmon bo‘lg‘il!”[1]. Bu o‘ta shiddatli, lekin shunga qaramay ilohiy go‘zal, muqaddas, muxtasar va lo‘nda aytilgan o‘gitning ma’no-mohiyati, mazmuni butun xojagoniya-naqshbandiyaning bosh g‘oyasi, aqidasi bo‘lgan ijtimoiy adolat, insoniylik va sof diniy-irfoniy e’tiqodni faol, izchil himoya qilish – musulmonlarni turli sun’iy o‘ylab topilgan ma’raka-marosimlar yoki tasavvufiy riyozatlar bilan avrash, laqillatish emas, balki musulmonlik hayot, turmush tarzini, qonunni faol himoya qilish, musulmonlarni zolimlar, “zarri zo‘rlar” zulmidan himoya qilishdan iboratdir[2]. Biz bu haqda ilgargi bob, paragraflarda ham to‘xtalganligimiz uchun ularni takrorlab o‘tirmaymiz. Faqat mazkur hikmatdan chiqadigan saboq – mullalik, shayxlik, so‘fiylikning tirikchilik vositasi qilib olib, musulmonlarni zo‘ravonning, insofsiz amaldor, omilning bedodligidan himoya qilish, kerak bo‘lganda Alloh taolo oldidagi o‘zining sidqiy-chin musulmonlik burchini o‘tash, ya’ni mazkurlarni adl-insofga chaqirish, bo‘ysunmaganlarida esa ularni tizginlash, kerak bo‘lsa, jazosini berish lozim. Bunday harakatning o‘rniga o‘zini chetga olish, loqaydlik qilish, ya’ni sidqiy imon o‘rniga o‘zini riyokor, munofiqlarcha tutish, ochiq ko‘rinib turgan zulm, zo‘ravonlikni kesish o‘rniga, ularni indamay o‘tirib, bunga yo‘l qo‘yish, hatto ma’qullash, oqlash aslida Alloh taolo shariati qonuniga osiylik qilish, islomdan, musulmonlikdan chiqish bilan barobar bo‘lgan bo‘lur edi. Shuning uchun ham, Ali Safiy tomonidan asl islom qonuni bu joyda inson, jamiyat ustidan zulm, adolatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun xo‘jako‘rsin toat-ibodat, orifiy riyozat bilan emas, musulmonlarni, oddiy xalqni zulm, adolatsizlikdan himoya qilish chora-tadbirlariga kirishish taqozo ekanligi – ya’ni haqiqiy, ijtimoiy-siyosiy masala, muammolarni hal qilishda chin musulmon sifatida faol bo‘lish, hatto kurashish zarurligi g‘oyasi asoslab berilgan. Va bu bosh g‘oyani XV-XVI va keyingi asrlardagi eng mashhur xojagoniya-naqshbandiya va boshqa tasavvuf tariqatlari piri-murshidlari butun bir “himoyat tizimi”[3] shaklini olgan ko‘rinishda faol, ya’ni amaliy hayotda ro‘yobga chiqarganlar, keng xalq ommasi, barcha tabaqa, toifalar vakillarini zulm, haqsizlikdan himoya qilganlar, ijtimoiy adolatni qaror topdirganlar. Buni mana shu davrdan bizga etib kelgan tarixiy manbalar, manoqiblar, tazkiralar, shu jamladan, Ali Safiy “Rashahot...”ida keltirilgan ko‘plab ma’lumotlar bilan tasdiqlash mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Ali Safiy “Rashahot...”da Xoja Ahrorning ota tomonidan bobosi Xoja Shahobiddin Shoshiy(ra)ning u haqidagi quyidagi bashoratida ham bu tariqat piri-murshidlari, xususan, Xoja Ahrorning kelajakda jamiyat, davlat ijtimoiy-siyosiy, diniy-mafkuraviy hayotida ijtimoiy adolat, adlu-insof, qonunchilikni qaror toptirishida o‘ynaydigan faol siyosiy o‘rni, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashida ko‘rsatadigan faolliklari, hatto dunyo hukmdorlari amalu-mansab egalari zulm-sitamni qo‘yib, ular buyurgan adl-insof yo‘liga bo‘ysunishlarini bashorat qilganligini keltirib o‘tgan: “Ul farzandlarikim, man talab etub erdim, bu turur. Darig‘kim, oning zuhuri ayyomlarida man bo‘lmasman. Tez bo‘larkim, bu o‘g‘ul (ya’ni Xoja Ahror) olamgir bo‘lur, shariatga rivoj berib, tariqatga ravnaq berur. Va ro‘zgorning sultonlari oning xati farmonig‘a bosh qo‘yub, amri nahyig‘a tan berurlar”[1].

Ayni paytda, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda Ali Safiy fikricha, shoshma-shosharlik, tarafkashlik, taassub yoki ta'ma, tuhmat bilan emas, balki insoniylik, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, adl-insof qoidalariga qat'iy rioya qilish lozim. Bu pozitsiyani asoslashda alloma yana Xoja Ahrorning ijtimoiy adolatning buzilishi, haqsizlikning ro'y berishini ko'rgan Hirot voizi Mavlono Shamsiddin Muhammad Sunugariyning o'z iztirob, yig'lashlariga bergan izohini keltirib o'tadi[1].

Xoja Ahror ham bu g'oya, aqidani quyidagicha ijtimoiy-siyosiy ma'no, mazmunda yaqqol ifodalaganligini Ali Safiy alohida ta'kidlab o'tgan: "Va oytdilarkim: "Ko'b tururkim, biz xalqning g'amidamiz va xalq bizning vositamiz bila shodlikda tururlar. Agarchandkim, bu shirk turur kishi o'zini shundog' ulug' tutsakim, agar ul xarob bo'lsa Olam xarob bo'lur. Lekin biz na ish etarmiz... bizning ixtiyorimiz bo'lmay, bizni shundog' ulug' etibdur"[1].

Shu bilan birga, Ali Safiyning tahlil, kuzatish va xulosalariga ko'ra Xoja Ahrorning ijtimoiy-siyosiy masalalarga yondashishi, hal qilish usul, yo'l-yo'riq, vositalarini qo'llashda muayyan diniy-e'qodiy, siyosiy-mafkuraviy ichki kontseptual mantiq bor. Zero, Xoja Ahrorning chuqur e'tiqodi, aql-zakovati va irodasiga ko'ra hatto eng nufuzli odamlar, sulton, shayxulislomlar yoki boshqa davlat xizmatchilari qanchalik siyosiy aqliy-iqtidoriy mahorat, salohiyat, qat'iy iroda ko'rsatmasinlar, hatto buyuk piri-murshidlar o'z ilohiy qudrat, salohiyatini namoyon etib pand-nasihat qilmasinlar, amri-ma'ruf bilan yo'lga solishga urinmasinlar, ijtimoiy-siyosiy muammolar, diniy-mafkuraviy nizo, fitnalar o'z-o'zidan hal bo'lib qolmaydi, balki avj oladi. Ijtimoiy-siyosiy, diniy-mafkuraviy muammolar, nizo, fitnalarni, hatto davlatlar o'rtasidagi to'xtovsiz davom etayotgan urushlarni o'z vaqtida, samarali bartaraf etish, hal qilish uchun Xudoning irodasi bilan bu dunyo egalari, sultonlar, xoqonlar o'rtasida birlikka, yakdillikka erishish, ular orasiga kirish lozim[2]. Bunga erishish mus'uliyati esa Ali Safiyning fikricha, Xoja Ahrorga o'xshagan buyuk piri-murshidlar zimmasida turadi. Bu xulosasi tasdig'i uchun Ali Safiy Xoja Ahrorni o'zining quyidagi hikmatli so'zlarini keltiradi. Xoja Ahror aytgan ekanki: "Agar bu ro'zg'orda biz shayxlik etsak, hech shayx murid topmas erdi, lekin bizga boshqa ish buyurib tururlarkim, musulmonlarni zalamaning qo'lidan saqlarmiz, bu vosita bila podshohlarg'a ixtilot etmak kerakdur va olarning nafslarini musaxxar etmak va bu amalning tavassuti bila musulmonlarni maqsadig'a etkurmak...[1].

Xoja Ahrorning bunday ijtimoiy-siyosiy faolligi ayniqsa Toshkent, O'ratepa, Shohruxiya mintaqasini olish uchun Sulton Ahmad Mirzoga urush ochgan Mahmudxon va Umarshayx Mirzolarni sulhga keltirish voqeasida yaqqol namoyon bo'lib, samarali natija keltirgan. Bu uch hukmdorni yarashtirishda Xoja Ahror o'zining butun diniy-irfoniy pirlik nufuzini ham, diplomatik sulhparvarlik mahoratini ham ishga solishiga to'g'ri kelgan. Xoja Ahror Sulton Ahmad Mirzoga ta'na qilib: "Mani nechun kelturdingiz, man urush odami ermasman, agar urushur bo'lsangiz, mani nechun kelturdingiz, agar sulh etmakchi bo'lsangiz, ta'hir etmakning sababi na turur?"[1], deyishgacha borgan. Boshqa bir o'rinda esa sulh borasida muzokaralar, samarasiz bordi-keldilardan bezgan Xoja Ahror quyidagi so'zlarni aytgan. Ikki, uch qo'shin yuzma-yuz saf tortgan, o'rtada Xoja Ahrorning joynamozi yozilgan, munozara esa o'sha ikki qo'shin safi o'rtasida Eshonning joynamozi (tomiyonasi) kimga yaqin degan borada yuzaga chiqqan. "... Har toifa oytur erdikim, ul tarafg'a yaqin turur. ...Ondin so'ng faqirg'a (ya'ni Ali Safiyga) oytdilarkim: "Sulton Ahmad Mirzoning yonimig'a borib aytg'il, man bir kishi tururman va qarilik za'fi ham manga etishibtur, sizlarning majmu'i oloti harblaringizni orqamga ko'taribman, sizlar bir-birlaringiz bila urushmag'aysiz, deb. Quvvatning nihoyati shul bo'lur, emdi toqat qolmadi, agar bizga e'tiqodingiz bo'lsa, qo'yung, to tomiyonani har erda xohlasalar qo'ysunlar!?"[1].

Boz ustiga Xoja Ahror Sulton Mahmudxonni olib kelib, ular bilan ko'rishtirganlar, so'ng Umarshayx Mirzoni keltirganda, u katta akasi bo'lmish Sulton Ahmad Mirzoning "qo'lini yuziga surtib yig'lagan", u esa Umarshayx Mirzoning bo'ynini o'pib, har ikkisi ham yig'lar erdilar. "Bu holning mushohadasidin hammaga yig'lamoq tusstavliy bo'ldi. Ul majmua'ning orasida ajab sho'ru-sha'b paydo bo'ldi, ondin so'ng tomiyonada o'lturdilar. Shundog' haybatlig' majlis erdikim, faqir g'oyat dahshatdin dasturxonni ters tashladim"[1].

Ali Safiyning o'z so'zilaridan ma'lum bo'lmoqdaki, u Hazrati Eshon odami hisoblansada, uch podshoh davlatlari o'rtasida, eng qaltis urush sharoitida ba'zi diplomatik, sulh tuzish, ya'ni diplomatik protokol ishlarida qatnashgan.

Men, deb ta'kidlab o'tgan edi Ali Safiy "Rashahot..."da, Xoja Ahrorning ba'zi xodimlari aytgan ekanki, o'sha lashkarlar o'rtasidagi eshonning vaziyati go'yo uch mast, quturgan tuyalar o'rtasida

qolgandek bo‘lgan, go‘yo bu uch tuya “og‘izlarini ochib, bir-birlariga qasd etmakchi, bir-birlariga og‘iz urub, go‘shtlarini uzub tashlasalar. Va Hazrati Eshon ul maydonda turubdurlar va ul uch mast tevaning no‘xtasini qo‘llarig‘a o‘rab va mahkam tutub, qo‘ymaslarkim, bir-birlariga daxl etsalar”[1].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xoja Ahror ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari, faoliyati timsolida Ali Safiy davlat va dinning ulug‘ odamlari ijtimoiy-siyosiy muammolarni qanday samarali, o‘z vaqtida, keng xalq ommasining tinch-osuda, nisbatan farog‘atli hayotini ta’minlash maqsadida to‘g‘ri echim topish mumkinligini ko‘rsatgan.

Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari, e’tiqodi va faoliyatining g‘oya, maqsadlari, kontseptsiyasi “Rashahot...”ning uchinchi faslida Mavlono Sayyid Hasan (a.r.) hayot yo‘li, karomatlari bayoni asnosida uning o‘z so‘zlari – naqliy hikmatlari bian to‘la va mukammal bayon etilgan. Bu o‘rinda etuk piru-murshidlar faqat o‘z kamolotlari yo‘lida, zikru-ibodatdagina bo‘lishlari to‘g‘ri bo‘lmay, balki ular o‘z faoliyatlari bilan ommaning muammolarini hal etish payida bo‘lmoqliklari maqsadga muvofiqdir[4].

Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari, e’tiqodi va faoliyatining bunday diniy-irfoniy, islomiy va shar’iy asoslarini u Mavlono Qosim (a.r.) hayoti, karomatlari bayonida va boshqa shunga o‘xshash juda ko‘p o‘rinlarda xarakterli, ibratli misol, naql, hikmatlar tarzida asoslab bergan, keyingi avlodlarga o‘zining bir xulosasi, sabog‘i tarzida etkazgan. Shuning uchun ham bizning bu erda Ali Safiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarini Xoja Ahror naql va misollari asosida tahlil etishimiz ilmiy va tarixiy haqiqatga zid emas, balki aynan uyg‘un (adekvat)dir deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳот.... –Т.: Абу Али ибн Сино, 2004. –Б. -118.
2. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. –Т.: Ёзувчи, 1994. –Б. -67-74.
3. Paul Jrgen. die politische und soziale Bedeuting der Naqsbandiyyain 15 jahrhudert. – Berlin: Walter de Cruter, 1991. -P. -164-207.
4. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI’S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, *2021*(2), 61-67.
5. Холназарова, М. Х. (2015). Формирование творческих способностей личности в процессе социализации. Austrian Journal of Humanities and Social Sciences, 1(3-4), 109-111.
6. ХОЛНАЗАРОВА, Д. THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE EDUCATION SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF LEGAL CULTURE IN STUDENTS. http://science. nuu. uz/uzmu. php.
7. Холназарова, Д. М. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(12), 225-232.
8. Tangirberdiyev, S. T. (2023). AN IMPORTANT SOURCE FOR THE STUDY OF SUFISM AND ITS TRADITIONS. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 3(07), 37-40.
9. Xolnazarova, M., & G‘ofurova, S. (2022). O ‘SPIRINLIK DAVRIDA RIVOJLANISHNING O ‘ZIGA XOS AYRIM PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 300-302.
10. Xolnazarova, M. X. (2019). GENDER EQUALITY AS A SOCIO-HISTORICAL CATEGORY. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 91-95.
11. Каримова, С. (2021). Mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning tarkibiy funksional tahlili. Общество и инновации, 2(11/S), 273-279.
12. Мавлянов, У. Н. (2021). Ali Safiy Axloq qoidalariga amal qilishning ahamiyati haqida. *Философия и жизнь международный журнал,(1)*.

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARGA QARATILGAN TA’LIM JARAYONINI INTEGRATSIYALASH MODELLARI VA SHAKLLARINI RIVOJLANTIRISH

Abdujalilov Bekzod

Guliston davlat universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslarga qaratilgan ta’lim jarayonini integratsiyalash hamda shu soha muammolari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, Barkamol shaxs, Integratsiya, Ko‘rsatkichlar, Tamoyillar, Epizodik integratsiya, Kombinatsiyalangan integratsiya.

*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*ning 50-moddasida “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, shu jumladan nogiron bolalarga istisnosiz maktabgacha, asosiy umumiy va o‘rta kasbiy ta’lim olish imkoniyatini kafolatlaydi. Agar ilgari maxsus bolalar maxsus maktablarga o‘qishga yuborilgan bo‘lsa va o‘zlarini sog‘lom tengdoshlaridan ajratib qo‘ygan bo‘lsa, bugungi kunda ularni o‘quv jarayoniga - oddiy bog‘cha va maktablarga kiritishga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bu integratsiyalashgan ta’limning paydo bo‘lishi bilan mumkin bo‘ldi. Ushbu yondashuvning mohiyati nimada, u qanday tamoyillarga asoslanadi va qanday muammolarni hal qiladi? Keling, buni aniqlaylik.

Integratsiyalashgan ta’lim nima va uning maqsadi nima?

"Integratsiya" so‘zi bizga lotin tilidan kelgan va bir nechta ma’noga ega: ulanish, birlashtirish, alohida elementlar va qismlarning yagona butunligiga birlashish; qayta tiklash, to‘ldirish. Integratsiyalashgan ta’lim - bu nogiron bolalar vaqti-vaqti bilan yoki doimiy ravishda, qisman yoki to‘liq ta’lim jarayoniga jalb qilinadigan, rivojlanishida nuqsoni bo‘lmagan bolalar bilan o‘qiydigan, muloqot qiladigan va o‘zaro munosabatda bo‘lgan ta’lim jarayonini tashkil etish. Hamma uchun ochiq bo‘lgan bunday maktablarni yaratish yo‘lidagi muhim qadam Salamanka deklaratsiyasi bo‘ldi. U 1994 yil iyun oyida Ispaniyada bo‘lib o‘tgan Butunjahon konferentsiyasida alohida ehtiyojli odamlar uchun sifatli ta’lim olish masalalari bo‘yicha qabul qilingan. Integratsiyalashgan ta’lim kontseptsiyasini ishlab chiqishda deklaratsiyaning asosiy tezislari asos qilib olingan edi va ular quydagilardan iboratdir : 1. Har bir bola ta’lim olish huquqiga ega; 2.Har bir bola optimal bilim darajasini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak; 3. har bir bolaning imkoniyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlari o‘ziga xosdir; 4.ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ushbu o‘ziga xoslik hisobga olinishi kerak; Barcha odamlar uchun, ularning sog‘lig‘i va rivojlanishidan qat’i nazar, oddiy maktablar mavjud bo‘lishi kerak, bu erda barcha o‘quvchilarni qamrab olish uchun qulay sharoitlar yaratilishi kerak. Shunday qilib, integratsiyalashgan ta’limning asosiy maqsadi - ta’limni hamma uchun ochiq qilish, alohida ehtiyojli bolaga bolalar bog‘chasida, oddiy maktabda moslashishga yordam berish, jamiyatning to‘liq a’zosi bo‘lish imkoniyatini berish: ular bilan munosabatlarni o‘rnatishni o‘rganish. tengdoshlari va kattalar, o‘z maqsadini topish va hayotda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashidir.

Integratsiya qanday muammolarni hal qilishga yordam beradi?

Integratsiyalashgan o‘qitish usullarini ishlab chiqish qanchalik muhimligi haqida birinchi bo‘lib bola rivojlanishining xususiyatlarini o‘rganuvchi sovet psixologi, ijtimoiy psixologiya, korreksiya pedagogika va psixolingvistika asoschisi Lev Vygotskiy gapirdi. Uning fikricha, axloq tuzatish maktablari va nogiron bolalar uchun maxsus muassasalar faqat ularning muammolari va boshqa bolalardan farqiga e’tibor qaratadi, bu bilan ularning ahvolini og‘irlashtiradi, mustaqil hayot uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni bermaydi.

Biz integratsiyalashgan ta’lim sizga hal qilishga imkon beradigan vazifalarni sanab o‘tamiz: 1-Nogiron bolalar o‘zlarini erkin va ishonchli his qilishlari uchun qulay sharoitlar yaratish, 2-maxsus bolalarga dasturni hamma bilan teng ravishda - ta’lim standartlaridan sezilarli og‘ishlarsiz o‘zlashtirishga yordam berish, 3- bolalarda mavjud bo‘lgan funktsional buzilishlarni tuzatish ,

4- ta’lim muassasasida, sinfda o‘zaro hurmat va o‘zaro yordamning do‘stona muhitini yaratish, maxsus bolalarni o‘zlarini ishonchli his qilishlari uchun qo‘llab-quvvatlash, 5- bolalarni muloqot qilishni o‘rgatish, bir-biri bilan munosabatlarni o‘rnatish, farqlarga e’tibor bermaslik, 6- agar kerak bo‘lsa, psixologik yordam va yordam ko‘rsatish, 7- ijtimoiylashuvni rivojlantirish va deviant xatti-harakatlarning oldini olish. Maxsus bolalarga o‘zlariga va hayotiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga yordam berish - ijobiy munosabatni shakllantirish, faol pozitsiyani rivojlantirish.

Integratsiyalashgan ta’lim uchun qanday "ko‘rsatkichlar" mavjud?

Ta’limda integratsiyani qo‘llash g‘oyasining asosiy manbai - bu maxsus bolalarni o‘qitishga tuzatish yondashuvi. Biroq, bu oddiy maktab muhitiga bunday qo‘shilish barcha nogiron bolalar uchun

tavsiya etiladi degani emas. Qaror mutaxassis tomonidan qabul qilinishi kerak. Quyidagi shartlar bajarilsa ijobiy bo‘ladi: **Ichki:** - bolaning maktabdagi o‘quv jarayoniga integratsiyalashuviga psixologik jihatdan tayyor; - uning psixofiziologik va nutq rivojlanish darajasi, aqliy qobiliyatlari maktab o‘quv dasturini to‘liq va nogiron bolalar uchun standartlarda nazarda tutilgan muddatlarda o‘zlashtirishga xalaqit bermaydi.

Tashqi: erta bolalik davrida funktsional buzilishlar aniqlangan va tezda tuzatish ishlari boshlangan; ota-onalar yoki vasiylar bolaning sog‘lom bolalar bilan o‘qishini xohlashadi va unga har tomonlama yordam berishga va qo‘llab-quvvatlashga tayyor; oddiy sinfga "o‘rnatilgan" maxsus o‘quvchiga tuzatish sohasidagi malakali mutaxassis yordam beradi; Integratsiyalashgan ta’lim uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bolaning jismoniy, hissiy yoki ruhiy holatida jiddiy og‘ishlar mavjud bo‘lgan hollarda, tuzatish sinfida ta’lim olish afzalroqdir.

"O‘rnatilgan" ta’lim asoslangan tamoyillar

O‘qituvchilar va sinfdoshlarning alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatiy etarli emas. Integratsiyalashgan ta’limga muvaffaqiyatli o‘tish uchun butun maktab ta’lim tizimini takomillashtirish kerak. Quyidagi qadamlar talab qilinadi: dasturni barcha talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish; innovatsion pedagogik g‘oyalar, zamonaviy yechimlardan foydalanish;ota-onalarning faol ishtiroki; "an’anaviy" o‘qituvchilarga "o‘rnatilgan" ta’lim to‘lqiniga moslashishga va yangi sharoitlarga moslashishga yordam beradigan ilg‘or mutaxassislarni jalb qilish; ta’lim jarayonida bolalarning kognitiv, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor berish.

Integratsiyalashgan ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Har bir bola, uning jismoniy xususiyatlari va psixo-emotsional holatidan qat’i nazar, o‘zini kerakli, muhim, qadrli va har qanday muammoni hal qilishga qodirligini anglay oladigan qulay muhitni yaratish, qulay muhitni yaratish.

Ota-onalar, ularning alohida bolalari, o‘qituvchilari va maxsus o‘qituvchilari o‘rtasida samarali hamkorlik va muloqot qilish uchun sharoitlarni ta’minlash.

Istisnosiz hammaga nisbatan bag‘rikenglikni rivojlantiring, odamlar o‘rtasidagi tafovutlarni normal qabul qilishni o‘rgating, hurmat qiling va hech kimni haqorat qilishga yo‘l qo‘ymang. Har bir bolaning individualligi va o‘ziga xosligini ta’kidlang, uning qobiliyatlarini rivojlantiring.

Integratsiyalashgan ta’lim: uning shakllari va modellari.

Maxsus bolaning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin: Nogiron bola umumiy ta’lim maktabining oddiy sinfida o‘quvchiga aylanadi. Maxsus talaba oddiy maktabda maxsus sinfga boradi. Tuzatish maktabida o‘qigandan so‘ng, bola umumiy ta’lim maktabiga o‘tkaziladi. Nogironligi bo‘lgan talaba kasbiy ta’limga "integratsiyalangan". Alohida ehtiyojli bolaning ta’lim jarayoniga qanchalik uzoq va qanchalik chuqur kirib borishiga qarab, integratsiyalashgan o‘qitish oltita modeldan biriga muvofiq tashkil etilishi mumkin:

Doimiy to‘liq integratsiya. Agar bolaning aqliy, jismoniy yoki hissiy holatida alohida og‘ishlar bo‘lmasa, uning rivojlanish darajasi me’yorga yaqin bo‘lsa va maktabda maxsus ta’lim o‘qituvchisi bo‘lsa, ushbu parametr qo‘llaniladi. Maxsus bolalar oddiy maktabga boradi, sog‘lom bolalar bilan birga o‘qiydi va kerak bo‘lganda mutaxassisdan malakali yordam oladi.

Doimiy to‘liq bo‘lmagan integratsiya. Bolalar yoshiga bog‘liq me’yorlardan sezilarli og‘ishlarni namoyon qilganda qo‘llaniladi. Bunday bolalar uchun sog‘lom tengdoshlari bilan teng ravishda barcha darslarga qatnashish qiyin, ular maxsus yordamga muhtoj. Ushbu model bolaning ba’zi fanlarni hamma bilan birgalikda - sinfda o‘rganishini, ba’zilari esa maxsus ta’lim o‘qituvchisi nazorati ostida o‘qishini nazarda tutadi. Aynan nima va qanday qilib ota-onalar o‘qituvchilar bilan birgalikda hal qilishadi.

Qisman integratsiya. Bola maktabdagi darslarning faqat bir qismida qatnashadi yoki maktabdan keyin sinfdoshlari orasida bo‘ladi. Qolgan vaqtda u yakka tartibda o‘qiydi.

Vaqtinchalik integratsiya. Ushbu model maxsus ishlab chiqilgan dasturga muvofiq o‘tkaziladigan individual treningni o‘z ichiga oladi. Nogiron bola bolalar jamoasiga oyiga atigi ikki marta qo‘shiladi - u umumiy maktab mashg‘ulotlarida va maktabdan tashqari ta’lim tadbirlarida qatnashadi.

Epizodik integratsiya. Ushbu parametr to‘liq formatda integratsiyalashgan ta’limni qurish mumkin bo‘lmagan ta’lim muassasalari uchun javob beradi defektologning yo‘qligi sababli).

Integratsiya davriy ravishda maxsus bolalarni ijtimoiylashtirishga yordam beradigan tadbirlarni o‘tkazishdan iborat bo‘ladi.

Kombinatsiyalangan integratsiya. Uning mohiyati individual komponentlardan, inklyuziv o‘qitish usullaridan va defektologning doimiy yordamidan foydalanishda yotadi . Ushbu model, qoida tariqasida, kichik aholi punktlarida qo‘llaniladi - bu erda ob’ektiv sabablarga ko‘ra integratsiyalashgan ta’limni qurish mumkin emas. Ushbu parametr normadan og‘ishlari minimal bo‘lgan bolalar uchun mos keladi, aks holda ular tengdoshlari bilan teng ravishda o‘quv dasturini o‘zlashtira olmaydi.

"O‘rnatilgan" ta’limning afzalliklari va muammolari

Ta’lim jarayonini qurishga kompleks yondashuv nogiron bolalar va rivojlanishida nuqsoni bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi masofani qisqartirish imkonini beradi. Birinchisi o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilish, ularning ahamiyatini, ahamiyatini his qilish va o‘z qadr-qimmatini anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ikkinchisi bag‘rikeng bo‘lishni, boshqa odamlarga g‘amxo‘rlik qilishni, hamdardlik ko‘rsatishni va har bir insonga, ularning xususiyatlaridan qat’i nazar, hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadi.

Shunga qaramay, bu usul ham afzalliklarga, ham kamchiliklarga ega. Qaysi? Integratsiyalashgan ta’limning kuchli tomonlariga quyidagilar kiradi: 1-har qanday bolaning o‘ziga xosligi va individualligiga e’tibor berish, 2-jamoaga qo‘shilish, o‘zini jamiyatning muhim qismi sifatida his qilish, muammolaringizga berilmaslik, o‘zingizga chekinmaslik imkoniyati, 3-har qanday o‘quvchining qobiliyatlarini rivojlantirish, 4-moslashish, sotsializatsiya, integratsiyaga yordam berish, 5-bag‘rikenglik madaniyatini tarbiyalash.

Ushbu yondashuvning kamchiliklari quyidagilardan iborat: 1-maxsus bola o‘qituvchining e’tiborini o‘ziga qaratadi, ya’ni o‘qituvchi oddiy bolalarga kamroq vaqt ajrata oladi, 2-o‘qituvchining e’tiborining etishmasligi oddiy bolalarning ish faoliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin, 3-oddiy sinfdoshlarning maxsus bolaga nisbatan salbiy munosabati, zo‘ravonlik ehtimoli yuqori,4-bitta alohida maktabni o‘zgartirish etarli emas - butun ta’lim tizimini qayta formatlash kerak, 5-Malakali defektologlar yetarli emas.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ibragimov X.I, Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: ―Fan va Texnologiyalar nashriyoti, 2008.

2. Azizxo‘jayeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003.

3.Xasanova, G. (2021). Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining Kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782

4.M.Usmonova . O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar Ta’lim texnologiyalari. 2016 yil. 4-son.

GLOBAL TARMOQDA MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH USULLARI

Karimova Saida Maxamadkodirovna
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Bugungi kunda kechayotgan jarayonlar o‘zining shiddati, tezkorligi va murakkabligi bilan xarakterlanadi. Bunga sabab, avvalo, axborot sohasida kechayotgan globallashuv jarayonlari deyish mumkin. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o‘zining fundamental ahamiyatga ega “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-telvidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali rang-barang axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz” [1;114] – deb ta’kidlagan edi. Shu ma’noda global tarmoqda axborot xavfsizligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda arzimas, beozorday bo‘lib ko‘ringan xabar, axborot ortida biz ko‘lami va oqibatini ham tasavvur eta olmaydigan tahdidlar yashiringan bo‘lishi mumkin. Zamonaviy dunyoda geosiyosiy maqsadlar qurol-yarog‘ yoki harbiy kuchlar bilan amalga oshirilmayotgani, ko‘p narsani

axborot maydoni, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta’biri bilan aytganda mafkura poligonlarida hal bo‘layotganini anglasak u bizni yanada hushyorroq bo‘lishimizni taqozo etadi.

Sovet mustamlakachiligi davrida yakka mafkura hukmronligi, chegaralarning tikanli sim va devorlar bilan o‘rab olinganligi, axborotlarning bir yoqlamaligi, cheklanganligi mustabidlik, zo‘ravonlik, huquqsizlik ko‘rinishida namoyon bo‘lgan edi. Biz kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechganimizdan so‘ng jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliq hamda axborot makonidagi ochiqlik va oshkoralik ta’sirida turli g‘oya va mafkuralarning erkin kirib kelishi uchun imkoniyat yaratildi.

Bunday sharoitda jamiyat taraqqiyotini ta’minlash uzoqni ko‘zlab ish tutishni, xalqni katta g‘oyalar atrofiga birlashtirib, o‘ta hushyorlik hamda aql-idrok bilan yondashishni talab etadi. “Hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda” [1;119].

Global tarmoq shiddat bilan rivojlanib, uning imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Masalan, 1998 yilda dunyo bo‘yicha internetga 100 million odam ulangan bo‘lsa, 2008 yilda internetdan foydalanuvchilar soni 580 milliondan ortiq abonentni tashkil qildi, hozirgi kunga kelib ularning soni 2 milliarddan oshib ketdi.[2] O‘zbekiston Respublikasi xalqaro global internet tarmog‘iga 1996 yilda ulandi va mamlakatda 2008 yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 1 million 904 ming kishidan ortiqni tashkil yetgan bo‘lsa,[3] 2011 yilga kelib internetdan foydalanuvchilar soni 5 milliondan ortiq abonentni tashkil qildi. 2013 yilga kelib esa respublikada internetdan foydalanuvchilar soni 10 millionga yetdi. Har oyda global tarmoq miqdori 7-10 foizga ortib bormoqda.

Mamlakatimiz aholisining katta qismini Internetdan foydalanayotganini e’tiborga olsak uning axborot makonidagi o‘rnini va ta’sir doirasini tasavvur qilishimiz mumkin. Global tarmoq ma’rifatli dunyoning, shaxs madaniy hayotining muhim qismi va vositasiga aylanib ulgurdi. Ma’lumotlarga ko‘ra Internetdagi mavjud axborotlarning 85% zararli bo‘lib faqat 15 % gina foydali saytlar tashkil etar ekan. Bu degani Internetdan foydalanganda yoshlardan o‘ta ma’rifatlilik va madaniyatlilikni talab qiladi. Internetdan foydalanuvchilarning asosiy qismi yoshlar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi esa hali yetarli bilimga, tajribaga ega bo‘lmagan, biron bir kasbning boshini tutmagan, uyushmagan, g‘o‘r, oq-qoraning farqiga bormaydigan yoshlar tashkil qiladi. Bu esa ularni yovuz kuchlarning to‘ri va ta’siriga tushib qolishi ehtimolini kuchaytiradi.

Global tarmoq orqali diniy ekstremizm, ommaviy madaniyat, ayrim siyosiy kuchlarning geosiyosiy maqsadlarini ifodalovchi g‘oyalarning tarqalayotgani bizni har qachongidan hushyor bo‘lishimizni talab qiladi. 2011 yildagi “arab bahori”ning sodir bo‘lishi va ko‘plab arab davlatlarini qamrab olgan tartibsizlik va hozirda Suriyada davom etayotgan birodarkushlik urushlarining kelib chiqishida global tarmoqda tarqatilgan axborotlar katta rol o‘ynagani bugun ko‘pchilikka sir emas.

Shuningdek,diniy ekstremistik oqimlar ham bugungi kunda o‘z saflarini kengaytirishda global tarmoqdan unumli foydalanmoqda. Natijada ko‘plab yoshlar ularning to‘riga tushib qolib, hayotlari barbod bo‘layotganining guvohi bo‘lib turibmiz. Masalan, Iroq Shom islom davlati tashkiloti jangarilari safida 30 mingdan ortiq boshqa mamlakatlardan borgan yoshlar mavjudligi, ularni jalb qilishda Internet saytlari qanday rol o‘ynaganini tasavvur qilish mumkin. Masalan, diniy aqidaparastlar sodda xalqimizni aldash uchun ishlatayotgan quyidagi uslublardan biri: Ular avvalo o‘zini o‘rta yoshli va o‘rta ma’lumotli oddiy kishi bilan gaplashayotgandek tutadi. Hozir barcha MDH mamlakatlarida mavjud iqtisodiy muammolarni “Hamma duch kelgan muammolar-da!” deb emas, balki aksincha, «Faqat O‘zbekistonda bor” deb talqin qiladi. O‘zbekiston taraqqiyotda jahonning ko‘plab davlatlaridan ustun ekanligini zinhor bazinhor aytmaydi. Bu orqali mafkurasi bo‘sh ayrim o‘zbeklarda noto‘g‘ri munosabatni paydo qilishi mumkinligiga umid bog‘lashadi.

Shunday ekan global tarmoqda axborot xavfsizligini ta’minlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- yoshlarda Internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, virtual olamga ko‘p murojaat qilish unga bog‘lanib qolish yoki tob’elikni keltirib chiqarishi mumkinligini tushuntirish;
- Internet imkoniyatlaridan bilim olish, ma’rifatli bo‘lish yo‘lida foydalanish, uning mushkulini oson, og‘irini yengil qiladigan vosita ekanligini anglatish;

- mamlakatimiz taraqqiyoti o‘z qo‘limizda, bizning sa’y-harakatimizga bog‘liqligini, hech kim chetdan kelib bizning muammolarimizni beg‘araz hal qilib bermasligini, har kim o‘z kelajagini o‘zi yaratishini targ‘ib qilish;
- OAVlarida, Internetda yot g‘oyalarning, tahdidlarning haqiqiy mohiyatini, ularning g‘arazli maqsadlarini fosh qiladigan ko‘rsatuvlar, saytlar va h.k.lar orqali targ‘ibot-tashviqotni keng yo‘lga qo‘yish;
- oiladan boshlab milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan tarbiyani yo‘lga qo‘yish;
- mamlakatimizda milliy veb saytlarni rang-barangligi, ma’lumotlarning to‘liqligi, jozibaliligi va raqobatbardoshligiga asosiy e’tiborni qaratish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lashga o‘rgatish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, ijobiy o‘zgarishlarning mohiyatini bildirishdan iborat.

Xullas, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida ta’kidlaganidek: “Milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda. Dunyodagi ayrim siyosiy markazlar tomonidan ba’zi hududlarda sun’iy ravishda beqaror vaziyat yuzaga keltirilmoqda, norozilik kayfiyatlari avj oldirilmoqda. Ayniqsa, bugun tobora chuqurlashib borayotgan global iqtisodiy inqiroz turli fitnalar uchun yanada qulay sharoit yaratishni unutmasligimiz lozim.

Mana shunday o‘ta tahlikali sharoitda hammamiz sezgir va ogoh bo‘lishimiz, avvalo, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarimizni o‘ylab asl insoniy qadriyatlarimiz o‘rnini buzg‘unchi g‘oyalar egallab olishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur” [4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., Ma’naviyat. 2008.-114 b.
2. Ma’rufboyev B. Globallashuv xususiyatlari va yoshlar tarbiyasi. G‘G‘ O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishning dolzarb masalalari. – Toshkent, 2013. 45-b.
3. Xalq so‘zi, 2008 yil 3 yanvar.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.
5. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TA’LIM-TARBIYANING ROLI. *Academic research in educational sciences*, *2*(3), 1313-1317.
6. Saida, K. (2022). MAFKURAVIY TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ZARURATI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(1), 119-122.
7. Bayeshanov, A. (2022). YOSHLARNI MILLIY G‘OYA RUHIDA TARBIYALASHDA BADIIY ADABIYOTNING O‘RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(1), 932-935.
8. Bayeshanov, M. M. (2022). Only the heart can see the truth. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *15*, 22-28.

BADIIY ADABIYOT-MA’NAVIY YUKSALISH ASOSI

Bayeshanov Abdulla Mustafayevich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosida inson kamoloti yotadi. Inson kamolotining asosiy omili va vositasi ta’lim-tarbiyadir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Yurtiga, vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shunday noyob insoniy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va obod O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etmog‘i kerak” [1].

Mustaqilligimiz tufayli xalqimizning milliy ongi, milliy g‘ururi, milliy iftixori, ma’naviy dunyosi kundan – kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma’naviy asosini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ma’naviy barkamol inson tushunchasi keng qamrovli serqirra tushuncha. Ma’naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma’naviy barkamol inson tushunchasi sog‘lom avlod tushunchasi bilan ham bog‘lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlaridan tortib, toki oilagacha, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi. Mustaqillikka erishib, ma’naviyat va ma’rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berishimiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, tarbiya sohasida sog‘lom avlod, ma’naviy barkamol inson, komil inson kabi tushunchalarga izoh berishni, ularning mohiyatini ochib berishni taqozo etmoqda. Yuqorida aytganimizdek, ular mohiyati birday tushunchalar. Insonni to‘g‘rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo‘yingki, yuksak axloqlilikka yo‘llash bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi – iymoni, e’tiqodi va axloqiy fazilatlari – qo‘yingchi, ma’naviyati kuchli, milliy mas’uliyat tuyg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma’naviy barkamol fuqarolarga ega bo‘lgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak ma’naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko‘taradi. Boshqacha aytganda, ma’naviy barkamol, komil insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala.

O‘zbekiston yoshlar mamlakatidir. Shu jihatdan olib qaraganda davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyotti bugungi yoshlarning bilimiga, onglilik darajasiga, saviyasiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg‘usining qanchalik darajada shakllanishiga, komillik darajasiga bog‘liq.

O‘zbek xalqi jahondagi boshqa xalqlar kabi boyliklarnigina emas, ma’naviy boyliklarning ham asoschisidir. U o‘zining peshona teri, tafakkur quvvati, qobiliyati va iste’dodi bilan asrlar osha fan va madaniyatni, adabiyotni va san’atni, axloq va falsafani vujudga keltirdi, tarixning xaqiqiy ijodkori sifatida jamiyatning madaniy-ma’naviy taraqqiyotiga keng imkoniyatlar ochib berdi va bermoqda. Uning badiiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodiyoti sohasidagi hizmatlari ham bebahodir. Doston va ertaklarning, maqol va matallarning, uzoqni yaqin, mushkulni oson qiluvchi bahodirlar, qahramonlar haqidagi rivoyat va afsonalarning ham yaratuvchisi, avaylab-asrovchisi, avlodan-avlodga o‘tkazuvchisi ham aynan uning o‘zidir.

Ertaklar, rivoyatlar va dostonlarni o‘qir ekanmiz, xalqimizda voqealarni oldindan ko‘ra biluvchi ajoyib tafakkur, qobiliyat va iste’dod bor ekanligini, u hech qachon umidsiz, orzu-niyatsiz yashamaganligini, har doim kelajakka tomon intilganligini anglab olamiz. Har qanday ertak va afsonaning, qadimiy fantaziyaning zamirida uning muayyan maqsad va niyatlari; jismoniy mehnatni engilashtirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo‘lgan intilishlari yashirinib yotgan bo‘ladi. Ular xalq ommasining talab ehtiyojlari asosida vujudga kelish bilan bir qatorda, o‘z navbatida uning o‘zi kishilarning ma’naviy, aqliy taraqqiyotiga turtki vazifasini ham o‘tagan, mehnatni sevishga o‘rgatgan, ish unumini oshirishga, tarbiyaning xatarli ta’sir etuvchi omillarlariga ta’sir etishda kishilarga yordam bergan.

Xalqimizning tarbiya borasidagi yetuk milliy ma’naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri sifatida yoshlarning bilim va manaviyatini yanada oshirish, ularning ham ma’nan ham jismonan sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lishlari uchun yetarli tarzda sharoitlarni ta’minlashdir. Ayniqsa keyingi yillarda yoshlar dunyoqarashini shakllantish uchun badiiy adabiyotning ta’sirchan kuchidan ijobiy foydalanish ancha samarali bo‘lmoqda.

Badiiy adabiyot-millat, xalq, jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadigan so‘z san’ati bo‘lib, u og’zaki va yozma shakllarda ifodalanadi.Bu san’at turi o‘zining qadimiy tarixida dastlab og’zaki, keyinchalik yozma ijod ko‘rinishlarida yuzaga kelgan. U dastavval, turli harakatlarni o‘zida ifodalab musiqa san’ati bilan jo‘rovozlikda ham rivojlangan.Umuman olganda badiiy adabiyot insonlar mifologiyasini, tarixini va mehnat faoliyatini ifodalagan. Ertaklar, rivoyatlar va dostonlarni o‘qir ekanmiz, xalqimizda voqealarni oldindan ko‘ra biluvchi ajoyib tafakkur, qobiliyat va iste’dod bor ekanligini, u hech qachon umidsiz, orzu-niyatsiz yashamaganligini, har doim kelajakka tomon intilganligini anglab olamiz. Har qanday ertak va afsonaning, qadimiy fantaziyaning zamirida uning muayyan maqsad va niyatlari; jismoniy mehnatni engilashtirish va turmush sharoitlarini

yaxshilashga bo‘lgan intilishlari yashirinib yotgan bo‘ladi. Ular xalq ommasining talab ehtiyojlari asosida vujudga kelish bilan bir qatorda, o‘z navbatida uning o‘zi kishilarning ma’naviy, aqliy taraqqiyotiga turtki vazifasini ham o‘tagan, mehnatni sevishga o‘rgatgan, ish unumini oshirishga, tarbiyaning xatarli ta’sir etuvchi omillarlariga ta’sir etishda kishilarga yordam bergan.

O‘zbekiston qahramoni Ozod Sharofiddinov aytganlaridek: “Men bir narsaga hayron bo‘laveraman, qachon qaramang, to‘rtta odam yig‘ilsa farzand tarbiyasining og‘irligi, ularni odam qilishning azobligi to‘g‘risidagi hasratga duch kelamiz. O‘-o‘-v birodarlar, buni eng oson, eng arzon, eng samarali yo‘li-usuli shundoq yoningizda turibdi-ku: bolangizni kitob o‘qishga o‘rgating, uning ko‘nglida badiiy adabiyotga mehr va muhabbat uyg‘oting, farzandlaringizga uch-to‘rt so‘mni qizg‘anmay munazam kitob olib bering! Axir dunyoda kitobdan ham aqlliroq, undan ham donoroq biron ustozni topib bo‘ladimi? Axir kitoblarda yo‘q narsaning o‘zi yo‘q-ku! Odamni odam qiladigan jamiki kuch qudrat, hikmat, go‘zallik, aql va odob kitoblarida “Mana-man” deb turibdi-ku! Nahotki, bu buyuk nematdan, bebaho boylikdan bebahra bo‘lib ham odam bo‘lish mumkin deb o‘ylasangiz?!”

Badiiy adabiyot azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo‘ylik va halollik, mehnatevarlik, xushmuomalalik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik esa barkamol shaxs qiyofasida aks etuvchi sifatlarni yanada boyitadi. Zero, ijtimoiy taraqqiyotning muayayn bosqichida tashkil etiladigan faoliyatning ijobiy natijaga ega bo‘lishida ushbu ikki xislat asosiy mezonlar sifatida e’tirof etilmoqda.

Insoniyat tomonidan asrlar davomida qadrlanib kelinayotgan, ijobiy mazmun kasb etgan, g‘oya, qarash va nazariyalarning amaliy faoliyatini tashkil etishda yetakchi tamoyillar sifatida e’tirof eta oluvchi, o‘y-fikrlari, maqsadi va xatti-harakatlarining salbiy xususiyatlardan holi bo‘lishiga erisha oladigan shaxsgina komillik darajasiga ko‘tarila oladi.

Mustaqillik bizga o‘tmishdagi boy ma’naviy merosimiz durdonalarini haqiqiy, ilmiy ma’noda o‘rganish baxtiga musharraf etdi.

Badiiy adabiyot insondagi xush xulq-atvor pokiza, adolatli sa’i-xarakatlarni xalqdan ajralmasdan, avval o‘zida paydo qilish orqali komillik darajasiga yetishishni, so‘ngra esa boshqalarni ham halollik, mehr-muruvvat, ezgulik, adolatlilikka chaqirishga da’vat etadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ma’naviyat sohasidagi fundamental asarlari bo‘lmish “Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch” asarida badiiiy adabiyot mavzusiga to‘xtalib: “Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta’riflanishi bejiz emas, albatta” [2].

Badiiy adabiyot inson ma’naviyati va e’tiqodini shakllantiruvchi vositadir. Chunki badiiy asarlarning qahramonlari timsolida muayyan millatga mansub eng ezgu va go‘zal fazilatlar aks ettiriladi. Buning ustiga, millatning ijobiy sifatlari shunchaki aytib qo‘yilmaydi, balki kishining tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadigan, uni loqayd holdan chiqarib yuboradigan tarzda aks ettiriladi. Badiiy adabiyot insonning tafakkuriga qalbi orqali ta’sir ko‘rsatadi va aqli bilan anglaganlarini uning tabiyatiga singdirib yuborishga xizmat qiladi. Ya’ni adabiyot kishining xarakter xususiyatlarini shakllantirishda, uning tuyg‘ular tizimini qaror topdirishda qator avzalliklarga ega bo‘lgani uchun ham shaxs estetik tarbiyasini shakllantirishida katta samara berishi tabiiydir. Turli davrlarda, turli ijodkorlar tamonidan yaratilgan matnlarni o‘qish jarayonida insonda, yoshlarimizda iftixor, g‘urur tuyg‘usi paydo bo‘ladi, u yoki bu hayotiy hodisaga o‘z nuqtaiy nazari bilan qaray boshlaydi, nimanidir yoqlab, nimanidir inkor etadi, qaysi bir adabiy qahramonga o‘xshagisi kelsa, o‘zgasidan nafratlanadi. Shu bois badiiy adabiyot shaxs estetik tarbiyasida eng avvalo so‘z va ruhiyat sanati bo‘lib xisoblanadi. U inson ruhiyatiga nihoyatda nozik tovlanish va ohanglarni ilg‘ashga, ularni aks ettirishga intiladi. Eng yuksak pag‘onalarga chiqa oladigan badiiy adabiyot na’munalari insoniyatini to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan, o‘y fikrlar, kechinmalar, orzu umidlarni ifodalaydi.

Inson ma’naviy olamni his-tuyg‘ulari, aql idroki va iroda ixtiyori yordamida o‘zlashtirib boradi. Shaxs his-tuyg‘ularini shakllantirish va tarbiyalash, go‘zallikka nisbatan mehr uyg‘otish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylangan.[3]

Tarixiy tajribamiz shuni ko‘rsatmoqdaki, aniq maqsadni ko‘zlagan, ishonchli g‘oya bilan qurollangan xalqgina jahon siyosiy maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘la oladi.Milliy g’oyamizni yoshlar ongiga singdirishda badiiy adabiyot bizning asosiy qurollarimizdan biri bo‘lishi lozim.Chunki:

Birinchidan, badiiy adabiyot milliy g‘oyamizning badiiy, ma’naviy ildizidir. Badiiy adabiyot mustaqil O‘zbekistonda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, o‘zaro hamkorlik va yosh avlodni tarbiyalashda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qila oladi;

Ikkinchidan, badiiy adabiyotdagi go‘zallikni bilish, idrok etish inson badiiy estetik tafakkurini o‘stiradi. Badiiy adabiyot namoyondalarining estetik qirralarini o‘rganish, baholash, ibratli tomonlarini ko‘rsatish hozirgi davr shaxsini komil inson qilib shakllantirishda alohida o‘rin egallaydi;

Uchinchidan, badiiy adabiyot bizni xalqdan ajralmasdan, insonning nafaqat jismoniy va ichki ruhiy, ma’naviy dunyosini mukammal tarbiyasini qamraganligi bilan ham yuqori kamolot darajasiga – ya’ni komil inson bo‘lishiga erishish uchun xizmat qiladi;

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘zining mohiyati bilan bunyodkorlikka undagan, mehr-shafqat, odamiylik, vatanparvarlik, ezgulik ruhi bilan sug‘orilgan badiiy adabiyot, hozirgi zamon kishisida ham shunday go‘zal xulqlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. -T.: O‘zbekiston, 1994. 160 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. **T.:Ma’naviyat, 2009.**
3. Husanov B.E. Shaxs va jamiyat munosabatlarida go‘zallikning namoyon bo‘lish xususiyatlari. Falsafa fanlari nomzodi, diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2002. 4 bet.
4. Karimova, S. (2022). MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA MILLIY MEROSIMIZNING ORNI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(1), 485-488.
5. Bayeshanov, A. (2021). BADIIY ADABIYOT VA YOSHLAR KAMOLOTI. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
6. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TA’LIM-TARBIYANING ROLI. *Academic research in educational sciences*, *2*(3), 1313-1317.
7. Saida, K. (2022). MAFKURAVIY TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ZARURATI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(1), 119-122.
8. Bayeshanov, M. M. (2022). Only the heart can see the truth. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *15*, 22-28.

ИНГЛИЗ ТИЛИДА ЁЗУВНИ ЎРГАТИШДА ГЕНЕРАТИВ СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Кузиев Шавкат Абдумуратович, Кузиева Мухлиса Абдумалик қизи
Гулистон давлат университети, Филология факултети
Инглиз тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси
Гулистон давлат университети, Филология факултети талабаси

Аннотация: *Ушбу мақолада бугунги кунда Суньий Интеллект (СИ) номи билан тарғиб қилинаётган замонавий технологиянинг таьлим жараёни билан интеграцияси ҳақида маьлумот берилган. Шунингдек мазкур восита ёрдамида хорижий тилни хусусан инглиз тилини ўрганиш ҳамда инглиз тида ёзиш кўникмасини такомиллаштириш борасида маьлум ёндашувлар берилган.*

Калит сўзлар: *суньий интеллект, генератив, технология, ChatGPT, маьлумот, таьлим, хорижий, инглиз, тил, рақамлаштириш.*

Жаҳонда технологик тараққиёт тез суръатда ўсиб бориши билан, унинг имконият даражаси ҳам шундай кескин ўзгариб бормоқда. Бу эса ушбу имкониятларнинг турли жабҳаларда кенг қўлланилишига, ҳамда ундан фойдаланиш бўйича билим, кўникма ва малакаларни янада оширишга олиб келмоқда. Бугун дунё ҳамжамияти улкан технологик кашфиёт саналган Сунъий интеллект(СИ)ни амалиётда қўллаш имконига эга бўлди. Эндиликда технологик тараққиёт инсониятга турли соҳаларда мавжуд муаммоларга тўғри ёндашув асосида маълум ечим топиш имкониятини тақдим қилади. Буни эса СИ ўз зиммасига олиши назарда тутилган. Бугунгача СИ қишлоқ хўжалиги, молия, солиқ, банк, ҳавфсизлик, соғлиқни сақлаш, транспорт, энергетика, электрон ҳукумат соҳаларида кенг миқёсда амалиётга тадбиқ қилинди,

энди уни таълим тизимида ҳам қўллаш йўлга қўйилмоқда. Бироқ аксарият олимларнинг фикрига кўра Сунъий интеллект таълим тизимида қўлланилса жиддий муаммолар юзага келиши мумкин. Яъни талабаларнинг танқидий фикрлаш ва ижодий ёндашув кўникмалари маълум даражада пасайиши мумкинлиги ҳақида таъкидлаб ўтилган [1].

Шунингдек, энг муҳим жиҳати ва энг катта ҳавфлардан бири Сунъий интеллектнинг ҳар қандай вазифани асл нусхада яратиб бериши бўлиб, бундай хизматдан таълим соҳаси вакиллари турли мақсадларда фойдаланиши ва сунъий маълумотларни хусусийлаштиришидир. Бундай ҳолатда ҳеч қайси дастур сунъий интеллект ёрдамида тайёрланган ҳар қандай маълумотни аслидан фарқлай олмайди, бу эса таълим соҳасида мавжуд муаммоларни янада чигаллаштириши, соҳтакорликга, таълим сифатини пасайишига олиб келади. Биз эса сунъий интеллектни таълим сифатини ошириш учун амалиётга тадбиқ қилмоқчи эдик. Демак таълим жараёнида сунъий интеллектни қўллаш учун аввалambор таълим соҳаси вакиллари (ўқитувчи, талаба, тадқиқотчи ва бошқалар) ундан фойдаланиш юзасидан ўз билим, кўникма ва малакаларини оширишлари талаб этилади. Бугун таълим жараёни тобора рақамли тизимга кўчиб ўтмоқда, таълим соҳаси вакилларининг Сунъий интеллектдан оқилона фойдаланишлари ушбу восита бажарадиган, яратадиган ишларда инсон омилининг ўрнини ҳам кўрсатиб бериши назарда тутилган. Бунга мисол тариқасида тил ўрганиш ва ўргатиш жараёнида интернет тармоғининг кенглиги ва маълумотларнинг кўплиги, тил ўрганувчи ёки ўргатувчини бироз чўчитади, бироқ Сунъий интеллект орқали ушбу сўровнома юборилса у ҳар бир талаб қилинган кўникма учун муҳим манбааларни қисқа вақт ичида топиши ва тақдим этиши мумкин. Бундан ташқари нутқ кўникмаларини ривожлантириш учун баъзан сухбатдошга эҳтиёж сезилади, буни интернетда турли дастурлар ёрдамида уддалаш мумкин, бироқ сунъий интеллект воситасининг ўзи ҳам бизга яҳши сухбатдош бўлиши мумкинлигини турли олимлар таъкидлаб ўтишган. Сухбат жараёни эса ёзма ёки оғзаки кўринишда бўлиши, яна бир нутқ шаклининг ривожланишига таъсир ўтказади. Сунъий интеллект билан кечадиган бундай мулоқот жараёни савол жавоб услубида амалга ошади ва тил ўрганувчи ўрганилаётган тилга оид ҳар қандай саволларига мақбул жавоб олиш имкониятига эга бўлади. Бунда, агар тил ўрганувчида тилга оид бўлган вазифалардан қийинчиликлари бўлса сунъий интеллектга мурожаат қилиши ва ҳар қайси кўникма юзасидан йўл қўйилган хато камчиликларни бартараф қилиш юзасидан кўрсатмалар олиши, турли вариантлар билан солиштирган ҳолатда ўзининг ишини таҳлил қилиши ва камчиликлар устида ишлаши назарда тутилади [2].

Бунинг учун таълим соҳаси вакилларини асосан талабаларни ушбу воситадан фойдаланиш саводхонлигини ошириш кўзда тутилади. Чунки бугунги таълим хизматларининг асосий манфаатдор томони, ва истеъмолчиси бу талабалардир. Улар академик фаолиятлари давомида хорижий тил ва уни ўрганишга оид кўплаб жараёнларга жалб қилинишади. Бунда бевосита улардан хорижий тилда ёзма ва оғзаки нутқни амалиётга қўллаш талаб қилинади. Аксарият талабалар ушбу кўникмалар борасида хато камчиликларга эга, бу эса уларнинг мазкур жараёнда сусткашликга йўл қўйишларига олиб келади. СИ шу жараёнга тадбиқ қилинса талабалар унинг ёрдамида оғзаки ва ёзма нутқни – СИнинг тил модели ChatGPT дан фойдаланиб шакллантиришлари таъкидланади. Яъни ChatGPTга ҳар қандай мавзуда савол юборилиши ва барча саволларга мос жавоб олишлари, овозли хабар орқали оғзаки нутқ борасидаги камчиликларни тўғирлашлари, ҳамда ёзма нутқ шаклини юқори даражада такомиллаштиришлари мумкин. Бунда талаба (фойдаланувчи) СИ тил модели ChatGPTдан ўрганилаётган тилга оид саволлар бериши, маълум жабҳада бўлиши кутиладиган суҳбат учун мақбул фикрлар олиши, хорижий тилда асосий аспект ҳисобланган ёзма кўникмаларга оид вазифаларни ечишда кўмак олиши, улар ёрдамида айнан аспект доирасида йўл қўйилган хатоларни тўғирлаши, мустақил равишда ишланган ёзма ишларни (хат, иншо) юқори тезликда текширилиб, таҳлил қилиниб улар бўйича маълум кўрсатмалар ва изоҳларга (фидбек) эга бўлишини таъкидлаш мумкин. Инсон омили ёрдамида бу жараён кўп вақт ва маълум миқдорда молиявий йўқотишга олиб келиши табиий. Шу сабабли СИни тил ўрганишда асосан ёзма кўникмаларни шакллантиришга сафарбар қилиш зарур [2].

Бугун кўплаб давлатлар сунъий интеллектни амалиётга тадбиқ қилишмоқда. Буюк Британия, Канада, Эстония, Хитой, Сингапур, Франсия ва бошқа 30дан ортиқ дунё мамлакатлари СИни ривожлантириш бўйича миллий стратегияларни ишлаб чиқишган. Кейинги

йилларда мамлакатимизда СИни амалиётга тадбиқ қилиш юзасидан маълум ишлар амалга оширилди. Жумладан, “Рақамли Ўзбекистон - 2030” Стратегиясига мувофиқ ҳамда сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш, ушбу соҳада малакали кадрлар тайёрлаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида - 17.02.2021 йилдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида ПҚ-4996-сон қарори қабул қилинди.

35 та ОТМга академик ва молиявий мустақиллик берилди, олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини босқичма-босқич кредит-модуль тизимига ўтказиш, халқаро тажрибалардан келиб чиқиб ўқув дастурларида назарий билим олишга йўналтирилган таълимдан амалий кўникмаларни шакллантиришга йўналтирилган таълим тизимига босқичма-босқич ўтиш; талабаларнинг танқидий фикрлаш, мустақил таълим олиш ва ўз таълим олиш траекторияларини мустақил белгилаш кўникмаларини ривожлантириш каби аниқ вазифалар белгиланди.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони, 2020 йил 31 декабрдаги “Малакаларни баҳолаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва меҳнат бозорини малакали кадрлар билан таъминлаш чортадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4939-сон, 2021 йил 19 майдаги “Ўзбекистон Республикасида хорижий тилларни ўрганишни оммалаштириш фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5117-сон, 2021 йил 30 июлдаги “Олий, ўрта махсус ва профессионал таълим ташкилотларида таълим олиш имкониятларини янада кенгайтириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5203-сон, 2021 йил 31 августдаги “Олий, ўрта махсус ва профессионал таълим муассасалари ўртасида таълим жараёни ҳамда тармоқ ташкилотлари билан ишлаб чиқариш амалиёти узвийлигини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5241-сон қарорлари ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда ушбу диссертация тадқиқоти муайян даражада хизмат қилади [3].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Кузиев, Шавкат Абдумуратович. "Актуальное членение как особая характеристика синтаксического уровня." *Молодой ученый* 1 (2017): 528-530.
2. Кузиев Ш. А. и др. ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 1641-1643.
3. Kuziev, S. H., & Rahmonova, S. (2018). Distance learning and technology-the future of national education. *Foreign languages in Uzbekistan*, (1), 20.
4. Sh, Kuziev. "The ways of developing discourse competence in non-linguistic faculties." *The academy of Ma’mun in Kharezm* 5 (2020).
5. Kuziev, Shavkat, and Mukhlisa Kuzieva. "SOCIAL NETWORKS IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH." *Talqin va tadqiqotlar* 1.9 (2023).
6. Abdumuratovich, Kuziev Shavkat. "MODERN METHODS AND TIPS OF LEARNING ENGLISH." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 6.3 (2023): 58-60.
7. Otabek, Tilavoldiev, and Kuziev Shavkat. "The methodology of grammar teaching." *Academy* 5 (44) (2019): 79-80.
8. Kuziev, Shavkat Abdumuratovich. "THE ROLE OF AUDIENCE AND CONTEXT IN THE SPEECH." *Наука и образование: сохраняя прошлое, создаём будущее*. 2017.
9. Abdumuratovich, Kuziev Shavkat. "Progress in language teaching via picture stories." *Вопросы науки и образования* 2 (14) (2018): 60-62.
10. Abdumuratovich, Kuziev Shavkat. "The role of multimedia technology in teaching the English language." *Достижения науки и образования* 2.7 (29) (2018): 57-60.

11. Душаева, Соҳиба, Қўзиев Шавкат, and Қўзиева Мухлиса. "КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ЧЕТ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ." *Innovations in Technology and Science Education* 2.10 (2023): 1077-1086.

12. Кузиев Ш.А. Социолингвистическая компетенция: из филологии в педагогику гулистон давлат университети ахборотномаси 2021. 3 том.

4 STAGES METHOD OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Narbutayeva Zarnigor Makhammadkulovna
Gulistan State University junior teacher

Annotation: The purpose of this article is that when teaching foreign languages, educators must first of all focus on the vocabulary of the student. But it is only necessary to carry out a comprehensive work, without being limited to increasing the vocabulary. To learn any foreign language, Gold rules are required, which have previously been reliably tested and give a good result. Repeating the materials mentioned is one of the golden rules of language learning. It is not about how long the repetition process lasts, but about how often the repetition takes place. So what to effectively use the accumulated vocabulary wealth

Keywords: foreign language teaching, language aspects, vocabulary, lexical , syntactic, language fields

Nowadays, interest and demand for foreign languages, especially for the study of English, is growing in benihoya, which has its own reasons. First of all, the upbringing of the younger generation, love and loyalty to the motherland, national pride in high morality and a rich spiritual heritage in the spirit of national and universal human value is one of the urgent tasks of our time. To do this, a large-scale effective profit from the advanced pedagogical experience and techniques of developed countries in their comprehensively mature and competent cultivation, taking into account the desire of young people, is a requirement of nish time, after all, young people are an important factor determining the prospect of any state. Giving deep knowledge to young people is an honorable and at the same time painstaking task of cultivating their mental potential in every possible way, raising young people with an educated talent for the future of our independent Uzbekistan and its prosperity.

At present, talented young people who have mastered foreign languages are needed for the future of our motherland, who are firmly taking their place in the world community, both in the economic and political sphere. The demand for foreign language is also increasing as contacts with foreign countries in various fields expand. Interest in foreign countries and their history, politics, economic customs through language acquisition among the student-youth is growing, especially interest in the language of foreign countries. These interests require further improvement of educational policy in the system of self-education, revision of educational materials and their compliance with the demand of the period. This is the reason for the fundamental reforms that are taking place in the educational system of our republic. As a foreign language teacher, I was interested in statistics in this area. Looking at Statistics today.

English can be a necessary weapon for young people to boast if it is necessary to introduce a worthy showing of a great heritage to the world. Statistics have prompted us to think about how to teach English more effectively as an English teacher, and at the same time easier. It is known to all that the teaching and learning of foreign languages is divided into 5 important aspects: listening and understanding, reading and understanding, grammar, writing and talking. There are a lot of resources, electronic manuals for teaching and studying these aspects separately. The effective use of them in the educational process will greatly help to improve the quality of Education. Based on the activities of educators, I would like to say that the most important thing for learners of any foreign language is to accumulate enough vocabulary and be able to use it effectively.

If your readers have enough vocabulary (vocabulary) they will easily master the rest of the language aspects. Because a student with sufficient vocabulary (vocabulary) has relatively little difficulty in understanding what the lecture and dialogue he listens to is about. The text you read is also easy to understand. A reader with sufficient vocabulary will also have unique advantages in

writing and oral statements of his opinion. On the contrary, that is, if your student does not have enough bases, then your student will have a lot of difficulties in mastering foreign language aspects.

First of all, he needs to know his native language, a student who does not know his native language cannot perfectly master a foreign language. We all know that learning a native language and a foreign language by analogy gives a better result. Secondly, you need to figure out in which way your student will better master, and accordingly organize classes. Students ‘ perception varies - while some have a good ability to remember what they hear (audiotory learner) and some have a good ability to remember what they see at a pace (visual learner), the teacher must also take these into account during the course of the lesson. Another important rule is to work in groups during the course of the lesson boorish that ensures healthy competition and a critical approach. Another important rule is that you should not be afraid to make this mistake, but rather draw the right conclusions from the mistakes. Because it is interesting, useful and at the same time memorable to learn by making mistakes reader recommended a 4-step system of teaching English to my colleagues .

This program is that through 1-4 assignments, you will be able to identify and evaluate to what extent you know your students, both lexical, syntactic, oral and written speech aspects, at the same time. The system consists of 4 stages, which provides the opportunity to learn language lines in interrelationship. Based on a 4-step system, the reader is directed to find a word, make a word compound, compose a sentence, and create text. As a result of the process, lexical, morphological and syntactic bmks also develop from step-by-step readers. This system has its own advantages and can be used efficiently in the study and teaching of any language. Another advantage is the ease of use of the system in any area and topic in the course process.

REFERENCE

1 . Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” T-“Innovatsiya-Ziyo”.2019. 15-b.

2. Хомский Н. Язык и мышление / Н.Хомский. М.: Изд-во Моск. ун-та,1972.–122 с.

3. Вербицкий А. А. Личностный и компетентностный подходы в образовании: проблемы интеграции / А. А. Вербицкий, О. Г. Ларионова. — М.: Логос, 2009. — С. 113.

4. Pazilov A.A. (2021). An Innovative Approach To The Formation Of Linguistic Competence In Students Using Virtual Technologies. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 3, 89–96.

5. Tojiboeva G.R. Pedagogikkompetentlik: nazariyavaamaliyot/ academic research in educational sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385, 210-b

6. Jalilova S. X., Xaydarov F. I., Xalilova N. I. KASB PSIXOLOGIYASI O‘quvqo‘llanmaBakalavriatyo‘nalishi: 5140800-pedagogika vapsixologiyatalabalariuchuno‘quvqo‘llanma Toshkent - 20102.

7. Аюбова Саида Мусаджановна. (2023). РЕАЛИЗАЦИЯ ПОДХОДА CLIL В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИИ. Scientific Impulse, 1(8), 280–282. Retrieved from http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/6390

8. Khakimova Sh.R. Reflecting language

PERSPECTIVES OF THE USE OF CLUSTER APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES FOR NON-PHILOLOGICAL DIRECTION LEARNERS

Dushaeva Sokhiba Janikulovna
Senior teacher,
Philology Faculty, The Department of English Language and Literature,
Gulistan State University
sohibadushaeva7755@gmail.com

Abstract: *At present a great attention towards foreign language teaching is getting increased day by day. People around the world are making a huge attempt to acquire foreign languages as quick as possible. However, this process is not so easy. Due to the rising interest the tendency of using methods to learn and teach foreign languages becoming very hot issue in our days. Among them cluster method is under a big focus. So the following article discusses the approaches of foreign*

language teaching and shares specific details about the core topic of the article as clustering method of teaching foreign languages.

Key words: *method, approaches, cluster, teaching, learning, foreign, languages, text, scientific, style.*

The scientist [1] noted that in order to effectively teach foreign languages to specialists, they must be provided with optimal teaching material: 1) for passive language skills - commented, meaningful and scientific-informative texts; 2) for active language proficiency - modeled texts.

Modeled texts are texts of an educational or pragma-linguistic style, from which, on a strictly scientific basis, everything that cannot be copied, memorized and used by foreign students. In them, every word, every phrase, every grammatical form is a role model. The language is presented in them in the purest and most correct form from the point of view of modern norms. Modeled texts are especially important and useful in the initial stages of learning. In the continuing stages, you can use authentic texts in the specialty for active purposes, but they must be provided with educational commentary. When modeling an educational style, the standard of normalization is the functional style of scientific presentation. But in each specific science, all individual areas have a narrow specialization, which makes it difficult for students to understand the subject matter of those texts that are focused on specialists. Such texts are especially difficult for junior students. Therefore, following A.L. Nazareiko [2], we believe that when teaching junior students, the most appropriate is the use of popular science texts. Popular science texts must be included in. terms that define their belonging to a particular field of knowledge. They accurately and unambiguously express special concepts. In popular science texts, the author usually explains all the concepts which he introduces for the first time, and which are designated by terms. The object of description in popular science texts, there is a scientific fact, objective truth. In both, the message function is primarily implemented.

Thus, if the course "English language of the specialty" is intended for junior students, then at the initial stages to develop the ability of students to build speech works of a monologue type, it is advisable to use simulated teaching materials. At the continuing stages, you can use authentic texts with comments, meaningful and scientifically informative. The most suitable ones are popular science texts intended for readers who do not have sufficient knowledge of the descriptive and denotative system of science. For them, the actual scientific information is translated and presented in a special way in accordance with the level of their special training [2].

The cluster approach to building the education system has become the central postulate of the Concept for the Development of the National System of Continuous Pedagogical Education (One of the central ideas of the Concept is the cluster approach). Similar trends (clustering) can be traced in almost all sectors of the real sector of the economy, including education. According to the definition, k (English cluster - an accumulation) is a union of several homogeneous elements, which can be considered as an independent unit with certain properties. Cluster (in urban planning) - a territorial entity within a megalopolis, which is a relatively autonomous unit and provides its residents with a full range of urban functions (residential, administrative and business, shopping and entertainment, recreational); cluster (in chemistry) - a complex combination of several atoms or molecules; cluster (in nuclear physics) - a correlated group of elementary particles; cluster (in the economy) - a group of interconnected companies concentrated on a certain territory [2].

The term "cluster" is borrowed from the English language. Its active use in Russian-language economic literature began in the 90s of the last century and is associated with the translation into Russian of the works of Michael Porter (Harvard Business School), who became the founder and popularizer of the theory of clusters and cluster development [2]. The formation of a cluster allows the national industry to maintain and develop its competitive advantage, rather than giving it to those countries that are more inclined to renewal. The enterprises of the cluster play not only the role of points of growth of the domestic market, but also the basis for entering the markets of other countries.

An educational cluster can be defined as a flexible network structure that includes groups of interconnected objects (educational institutions, public and political organizations, scientific schools, universities, research organizations, business structures, etc.), united around the core of innovative educational activities to solve certain problems and achieve a specific result (product). An educational cluster (like any other) has elements, has a certain infrastructure, routes of interaction. The main

elements of the educational cluster are organizations as a whole (educational institutions - universities, schools, gymnasiums, colleges, lyceums; business structure) or its individual parts (structures, divisions), a combination of structures that take part in solving the task. The composition of the participants in the educational cluster (its elements) may change, supplemented depending on the circumstances. Infrastructure sets the size and other topological properties of the educational space, which is characterized by the volume of educational services, the capacity and intensity of educational information. The route of interaction within the educational cluster is the route of building mutually beneficial relations between individual elements of the cluster within the framework of a specific project and in a given period of time. In the countries of the post-Soviet space, the cluster approach was developed a decade later than in the countries of the West. First of all, the cluster approach is typical for industry and other sectors of the manufacturing sector. To create and operate a cluster, the following types of resources are required: 1. Personnel or labor (highly qualified heads of educational institutions, creative teachers, qualified support personnel); 2. Information resources (databank of educational cluster participants; support for active interaction with external information channels; inclusion of information flows of all subjects and organizations included in the educational cluster in the general information environment; 3. Infrastructure (organizational conditions) (creation of a network structure, from representatives of authorities, business communities, organizations, etc., rallied around the core of innovation; development of regulations governing the activities and interaction of all elements within the educational cluster; conducting a marketing research on possible directions for the development of an educational cluster; 4. Material and technical conditions (possibility use the existing material and technical base for the implementation of a specific project, directions of activities within the educational cluster, the use of material and technical resources of all partners) [4].

As a rule, the educational cluster includes elements of different nature. Elements - an organization as a whole (university, business structure, educational institution, etc.) or its individual structures, a combination of structures that take part in solving the task. The composition of the participants in the educational cluster (its elements) may change, supplemented depending on the circumstances. The core of the cluster is an organization that represents the main management resource and establishes a system of relationships between its elements. Cluster elements, joining together, form an organizational-territorial structure (cluster plane, geographic proximity); resource structure (pooling of resources - human, financial, material, informational, educational, etc.); functional structure (formed at the intersection of previous structures and performs an innovative solution to the goals and objectives) [5, p. 12]. Educational, scientific and innovative cluster of lifelong pedagogical education (according to the draft Concept) - a set of institutions of higher education, complexes "specialized pedagogical class (pedagogical gymnasium), pedagogical college" as a sphere of transfer of innovations, research base and base of continuous pedagogical practice, institutions of additional adult education and scientific and methodological institutions, the joint distributed activity of which allows integrating the potentials of education, psychological and pedagogical science and effective teaching practice for the transfer of professional training of teaching staff to a qualitatively new level of functioning [6].

The main goal of creating a cluster is to unite the educational, scientific and innovative potential of educational and scientific and methodological institutions to meet the needs of the educational system of the Republic of Belarus in teaching staff, distinguished not only by a high level of citizenship, culture and professional competence, but also by competitiveness, willingness to accept innovations, the ability to design and implement new educational programs and technologies [7].

We see that the role of the center of the cluster now and in the future should belong to the Ministry of Education of the Republic of Belarus, as a state governing body that regulates and implements state policy in the field of education. It is logical to create regional clusters of lifelong pedagogical education, where the center of the cluster will be a regional classical university.

The idea of clustering the development of the economy is essentially inexhaustible from the point of view of implementation. At the same time, the design of clusters in the education system must be subject primarily to the requirement of expediency and efficiency. The formation of a cluster should be based on the market mechanism of “profitability”. Diversification and innovativeness should become important factors when designing a cluster. The ability of partners of various industries within

the cluster to effectively use internal and external resources should be important. The cluster should play a positive role in attracting investment in the educational system.

To conclude we can highly emphasize that cluster is a significant approach to provide learner advancement in language acquisition as well as empowering content language learning in educational process to be able to step forward purposefully and productively in learning context.

References:

1. The concept of development of the national system of continuous pedagogical education in the Republic of Belarus: project / A.I. Beetle [and others]. - Minsk: BSPU, 2014 - 24 p.
2. A Dictionary of Modern English Usage. - Oxford: Oxford University Press, 2007. - P. 618.
3. The concept of formation and development of innovative industrial clusters in the Republic
4. Belarus [Electronic resource] // ETALON / National Center for Legal Information. Rep. Belarus. - Minsk, 2014.
5. Korchagina, E.A. Social partnership as a mechanism for managing an educational cluster / E.A. Korchagin // Innovations in education. - 2007. - No. 6. - P. 43–51.
6. Smirnov, A.V. Educational clusters and innovative teaching at the university: monograph / A.V. Smirnov. - Kazan: RIC "School", 2010. - 102 p.
7. Lukashenko, M.A. Vertical integration in the education system / M.A. Lukashenko // Higher education in Russia. - 2002. - No. 3. - P. 10-24.
8. The concept of development of the system of pedagogical education in the Republic of Belarus: project / P.D. Kuharchik [and others]; under total. ed. I.I. Tsyrkun. - Minsk: BSPU, 2008 .-- 28 p.
9. Yuriev, V.M. University as a center of an innovative educational cluster / V.M. Yuriev, M.S. Chvanova // Bulletin of TSU. - 2007. - Issue No. 5 (49). - S. 7–12.
10. Janikulovna, D. S., & Khidiralievna, A. G. (2017). The time spent with teacher. *Достижения науки и образования*, (6 (19)), 57-58.
11. Душаева, С. Ж., Унгарова, И. Г. К., & Жураева, Д. (2020). Основные проблемы обучения лексике. *Academy*, (6 (57)), 67-68.
12. Janikulovna D. S. CLUSTERING METHOD TO DEVELOP LEARNERS WRITING SKILLS //Проблемы педагогики. – 2021. – №. 5 (56). – С. 35-36.

UTILIZING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Ziyadullayeva Dildora G‘ulomjanovna

Junior-teacher of the Foreign Language and Literature Department of Gulistan State University

www.dkomilova023@gmail.com

Annotation: In this article the methods of teaching the concept, essence, features and methodology of methods and techniques used in teaching foreign languages in this article will be analyzed.

Key words: foreign language, methodology, reading, listening, speaking, grammar, theory,language materials.

The methodology of teaching foreign languages has been defined as a collection of instructional strategies starting in the second part of the previous century. Techniques for learning about language resources, instructional methods, and similar topics arose. There was a dualistic way of understanding this phrase in this sense. Some are related to the phrase "method clarifications must be included" before taking into account methodological instructions. In domestic methodological literature, the term has two meanings: method as a methodological direction and method as a method - a set of teaching methods. The duality of the meaning of this term is associated with the following cases. Initially, the first meaning of this term came from methodological literature: natural method, direct method, etc. The term meant a set of special teaching principles, that is, a special training system characterized by basic guidelines. It should be noted that in this sense, the method is distinguished by a complex of

Virtual texnologiyalar sog‘liqni saqlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tizim surunkali og‘riqni kamaytirishga yordam berish uchun diqqatni o‘zgartirish, dovolash uchun turli usullarni sinab ko‘rish



mumkin. VR hatto kuyish jarohatlari uchun og‘riq qoldiruvchi vosita sifatida ham ishlatilgan. Sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari VR-dan o‘zlarini operatsiya xonasida bo‘lishga yaxshiroq tayyorlash uchun foydalanishlari mumkin - tashxis va davolash rejalarini tushuntiruvchi kichik shifokor yoki jarrohlik amaliyotini o‘tkazayotgan jarroh sifatida o‘zi davolashi mumkin. Ko‘p kompaniyalar jarrohlarga VR-dagi tibbiy asboblar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish va virtual jismlarda jarrohlik amaliyotini o‘tkazish imkonini beradi, bu esa yangi qurilmalar bilan tanishish va ularni implantatsiya qilish mahoratini oshirishga yordam beradi.

1-rasm:**Virtual jarrohlik amaliyoti muhiti**

Virtual texnologiya arxitektorlarning o‘z ishlarini loyihalash va tajriba qilish usullarini asta-sekin o‘zgartirmoqda. Virtuallashtirish nafaqat bino yoki makon qanday ko‘rinishini, balki u qanday his qilishini ham ko‘rish imkonini beradi. Misol uchun, agar kimdir o‘z mulkiga kengaytma qo‘shmoqchi bo‘lsa, u jismonan qurilishdan oldin makon va uning qanday ko‘rinishini ko‘rishi va keyin real vaqt rejimida o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Bu mijoz va arxitektorning vaqtini va pulini tejaydi, shuningdek, loyihani yakunlashdan qoniqishni oshiradi.

Kompyuter yoki telefon yordamida istalgan joydan kirish mumkin bo‘lgan ta’lim dasturlari va manbalari mavjud. Ushbu usullarni qo‘llaganligi sababli, ular o‘quvchilar tizimga kirishlari va davom etayotgan o‘qishlariga kirishlari mumkin bo‘lgan virtual kutubxonalar yaratmoqda. Bunday ilovalar o‘quvchilarni bir-biriga bog‘lab turadi va ularga o‘zaro munosabatda bo‘lish imkonini beradi va buning uchun ta’lim o‘quv dasturining bir qismi bo‘lish uchun ular muassasada jismonan bo‘lishlari shart emas.

Xulosa

Virtual laboratoriya o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun ta’lim sohasida bir qancha yo‘llarni ochdi desak xato bo‘lmaydi. Texnologik mavjudligi juda keng va ko‘p qirrali bo‘lganligi sababli, imtiyozlar shubhasizdir, virtual haqiqat an’anaviy usullardan ko‘ra ta’lim ta’sirini va o‘rganish ildizini chuqurroq qiladi, bu ham arzon va ta’limni interaktiv va amaliy qilish salohiyati bilan boyitilgan.Trening va jonli namoyishlar ba’zi hollarda to‘g‘ridan - to‘g‘ri mashg‘ulotlardan ko‘ra o‘quvchilar uchun xavfsizroq bo‘ladi, bu uni jarohatlarsiz va isrofgarchiliksiz saqlashga yordam beradi, virtual mashg‘ulotlarda va takroriy amaliyotda hech qanday qurilma yoki resurslar isrof bo‘lmaydi. Bu shunchaki smartfon va internetga ulanish orqali ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Скворцов А.А. Развитие дистанционных образовательных технологий в подготовке студента-информатика в вузе // Гаудеамус. 2014. №2 (24)
2. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования. М.: ИИО РАО, 2010. – С. 140.
3. Храмова М.В. Основные этапы и тенденции формирования системы открытого образования подготовки специалистов // Вестник Тамбовского университета. Сер.: Гуманитарные науки. Тамбов, 2012. Вып.
4. (108). – С. 118–130. 4. Теоретические разделы курса «Информатика» / Р.Р. Батаршина [и др.]; под ред. И.А. Кодоловой. Казань, 2010.
5. Каймин В.А. Дистанционное обучение и сертификация преподавателей информатики // Информационные технологии в образовании. Секция D: мат-лы III Междунар. конф.-выставки. М., 1994.
6. VAR. “5 ways VR Improves Real-world Skills Training.” Internet: https://www.viar360.com/5-ways-vrimproves-real-world-skills-training/, Mar. 3, 2019. [Feb. 21, 2020].
7. L. Jensen. & F. Konradsen. “A Review of the use of Virtual Reality Head-Mounted Displays in Education and Training. Education and Information Technologies, vol. 23, no.4, pp.1515-1529, 2018

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Qudratov Alijon Normamatovich, Berdiyorov Ruslan Abduxoliq o‘g‘li
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Telefon:+998(97)5671163. a.n.kudratov@mail.ru
9-21 guruh talabasi
Telefon:+998(94)3541121. berdiyorovruslan036@jmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli texnologiyalar, ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimi vositalari, raqamli texnologiyassini ustunliklari, elektron davlat, Big Data texnologiyalari, kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (VR) haqida tushuncha berilgan.

Kalit so‘slar: raqamli texnologiyalar, ta’limda raqamli texnologiya, elektron davlat, Big Data texnologiyalari, kengaytirilgan haqiqat (AR), virtual haqiqat (VR) haqida tushuncha berilgan.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo‘lgani singari kabi paqamli texnologiyalarni soliq ma’murchiligida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o‘zgartirmoqda.

Bu nafaqat soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to soliqlarni to‘lash va ma’lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangilikliklar kirityapti. Xususan, tizimda yagona elektron platformani yaratish orqali ma’lumotlarni kiritish, to‘plash, shakllantirish, tahlil qilishning zamonaviy uslubi yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida soliq hisobotlarini topshirish jarayoni 5-7 barobarga qisqardi. Ayni kezda 112 guruh va 1348 tovar va xizmatlar sinfidan iborat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi tovarlar va xizmatlarning yagona elektron tasniflagichi uchun veb-portal joriy qilingan. Mahsulotlar va xizmatlar identifikatsiya kodlari yordamida 900 mingdan ortiq elektron hisob-fakturalar yaratilgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Masalan, sun’iy intellekt texnologiyacini joriy etish soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash, firibgarliklarni oldini olish, ma’lumotlarni tahlil qilish va takporlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish hamda shaffoflikni oshirishda qo‘l kelsa, katta hajmli ma’lumotlar — Big data esa soliq organlariga kelib tushadigan katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tushumlarni yanada yaxshiroq bashorat qilish hamda to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi hujjat almashinuvini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Sun’iy intellect va big data ko‘makka kelmoqda. Ma’lumot uchun artificial intelligense, ya’ni, sun’iy aql-informatikaning alohida sohasi bo‘lib, kompyuter yoki mashinaning inson ongidagi imkoniyatlarga taqlid qilishi, codda qilib aytganda, sun’iy aql kompyuterlarni odam kabi o‘ylash va yechim topishga yo‘naltirilgan texnologiya hisoblanadi. Big Data-salmoqli ma’lumot atamasi kuniga 100 gigabaytdan ko‘p ma’lumot tushadigan oqimlarga nisbatan qo‘llanib kelingan. Keyinchalik ma’lumotlarning keskin ko‘payishi oqibatida bu tushuncha yanada keng qamrov kasb eta boshladi. Ushbu atama odatda terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasidagi katta hajmdagi ma’lumotlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Bugungi kunda soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, sohadagi firibgarliklari va ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash, tahlil qilishning hozirgi holatida milliy hamda xalqaro darajada bir muncha muammolar mavjud. Misol uchun, Soliq, Adliya Tarmoqlari (Tax Justice Network) tashkilotining 2020-yilgi hisobotida soliq firibgarligi va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash natijasida butun dunyo davlatlari yiliga 427 milliard AQSH dollari miqdorida ziyon ko‘rishmoqda.

Mamlakatimizda soliq tizimida elektron davlat xizmatlari va axborot tizimlari orqali ma’lumotlar bazasiga tushayotgan murojaatlar soni yildan-yilga keskin oshib borayotganligi sababli ma’lumotlarni tezkorlik bilan tahlil qilishni takomillashtirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Davlat soliq qo‘mitasining mavjud server qurilmalarining xotira hajmi bugungi kunda 90 foiz band. Ma’lumotlarni qayta ishlash markazi qurilmalari eskirganligi hamda elektron hisobvaraq-fakturalar va onlayn nazorat kassa mashinalari hamda tashqi manbalar orqali shakllangan katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tezkor tahlil qilish uchun mavjud serverlar quvvati etishmasligi holatlari yuzaga kelib turibdi. Bu borada cun’iy aql va katta hajimli ma’lumotlar texnologiyalarini joriy etish qo‘l keladi.

Shu bois Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qarorida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, soliq sohasida ham yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to‘lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashga alohida ahamiyat qaratilgan.

Yangi texnologiyalar afzalliklari.

Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar sog‘liqni saqlash, transport, mudofaa va milliy xavfsizlik kabi ko‘plab sohalarda sun’iy intellekt afzalliklaridan foydalanib kelmoqda. PricewaterhouseCoopers (PwC) konsalting kompaniyasi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, global sun’iy aql 2030-yilga kelib jahon iqtisodiyotiga 15,7 milliard trillion AQSH dollarimiqdorida hissa qo‘shishi kutilmoqda. Bu jahon yalpi ichki mahsulotini 26 foizga o‘sishiga olib keladi. Xorijda sun’iy intellekt texnologiyasini o‘z soliq tizimida qo‘llayotgan mamlakatlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, Daniya 2018-yilda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash natijasida qariyb 325 million AQSH dollari zarar ko‘rgan.

Mamlakat hukumati sun’iy aql vositalarini o‘z soliq tizimiga tatbiq etishi natijasida soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning har 100 holatidan 85 tasini muvaffaqiyatli aniqladi. SHuningdek Hindiston hukumati soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan kurashish va soxta firmalarni aniqlash uchun sun’iy aql vositasidan foydalanishga kirishgan etakchi mamlakatlar qatorida turadi. Soliq ma’murchiligiga sun’iy aqlni joriy etilishi qo‘yidagi afzalliklarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Jumladan, ayni kunda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash. soliq idoralari soliq auditi jarayonida firibgarlikni aniqlashga harakat qilishadi. Hujjatlar to‘plamidan aniq ma’lumotlarni topish bu pichan ichidan igna qidirish kabi zahmatni talab qiladi. Aslida algoritmlaridan foydalanib, katta miqdordagi ma’lumotlarda noodatiy yozuvlarni aniqlay oladigan, sun’iy aqlni qo‘llab-quvvatlaydigan tizimlarni yaratish mumkin.

Sun’iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan kompyuterlar soliq ma’lumotlarini prognoz va tahlil qilish uchun sarf-xarajatlarni kamaytirishda ham katta imkoniyatga ega. Bunday ma’lumotlardan foydalanib yillik o‘zgarishlarni kuzatib borish va mablag‘larni tejash mumkin. Raqamli texnologiyalar taraqqiy etgan asrda eng muhum omil bu ma’lumotlar hisoblanadi. Ularni to‘plab, o‘rganishlar asosida xulosalar chiqarishda Big Data texnologiyasining ahamiyati katta. Undan qo‘pincha salmoqli ma’lumotlarning prognozli tahlillariga yoki ma’lumotlardan qiymat chiqarib olishning boshqa usullariga murojaat qilishda ham foydalaniladi. Big Data texnologiyalaridan olinadigan daromadlar yildan yilga o‘sib bormoqda. U 2019-yilda 189,1 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 274,3 milliard dollarga etishi kutilmoqda. AQSH, Avstraliya kabi mamlakatlarda katta hajmli ma’lumotlar texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish bo‘yicha maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

Davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-iyundagi “Soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlariga asosan, 2022-yilning may oyiga borib, soliq sohasida yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to‘lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va tajriba-sinov loyihasini joriy etish belgilangan, 2023-yil iyuniga kelib esa, katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish imkonini beruvchi “Big Data” texnologiyalarini yo‘lga qo‘yish mo‘ljallanmoqda Ma’lumotlarga ko‘ra 2015-2016-yillarda Moliya vazirligining g‘aznachilik departamenti va Davlat soliq qo‘mitasi bilan hamkorlikda byudjetdan tashqari mablag‘larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri Moliya vazirligi g‘aznachiligiga tushirishni yo‘lga qo‘yish maqsadida ma’lumotlar markazi serverlarining bir qismi yangilagan, biroq mazkur elektron qurilmalar bugungi kunga kelib ancha eskirgan. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda coliq tizimiga Big Data texnologiyasini joriy etish muddatlarini yanada jadallashtirish zarur. Agar u blokcheyn texnologiyasi birgalikda qo‘llansa, tizim serverlarida zo‘riqishlar yuzaga kelishi kamayadi hamda ma’lumotlarni uzatish tezlashadi. Chunki, blokcheyn ma’lumotlarni serverlarda emas, tarmoq bo‘ylab saqlaydi. 2021-yilning 28-aprel kuni Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish, tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni elektron ro‘yxatdan o‘tkazish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi bu yo‘ldagi yana bir muhim qadam bo‘ldi. Shu yilning 1-

iyunidan tatbiq etiladigan bu xizmatlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida elektron ma’lumotlarning tizimli va izchil almashinuvini ta’minlash, birlamchi buxgalteriya hujjatlarini avtomatlashtirish hamda soliq to‘lovchilarga soliq yukini keskin kamaytirish imkoniyatini yaratishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimizning “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qaroriga ko‘ra, joriy yilning 1-martidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining tashkil qilinishi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini har tomonlama amalga oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish; mazkur yo‘nalishda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni olib borishdagi ahamiyati katta bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi va sohaning malakali mutaxasislarga ehtiyojini oshishi oliy ta’lim muassasalarida “Soliq va raqamli texnologiyalar” bo‘yicha alohida o‘quv yo‘nalishini tashkil etilishni taqozo etmoqda. Bu eng avvalo, tizimning salohiyatli kadrlar bilan ta’minlanishiga yanada keng yo‘l ochadi. Jahon tajribasi ko‘rsatib turibdiki, sun’iy aql va Big Data texnologiyalari nainki soliq idoralari ishini jadalashtirishga, shu bilan birga, “elektron hukumat” faoliyati samaradorligining oshishini hamda mamlakatda “raqamli iqtisodiyot”ning rivojlanishiga va eng muhimi, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi qarorida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079-son Farmoni.

3.http://tsue.uz/uz/raqamli-iqtisodiyot-yangi-O‘zbekiston-taraqqiyotining yangi-davri/

4. Advantages Of The Transition To A Digital Economy In The Innovative Development Of Uzbekistan. F Mulaydinov, A Kadirova, G Melibaeva, O Akhmadjonov.Jour of Advanced Research in Dynamical & Control Systems.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH, BAHOLASH VOSITALARINI YARATISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Saidov **Jasur Doniyor o‘g‘li**
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
jasur.saidov.92@bk.ru

Ta’lim oluvchilarng bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari xammavaqt bahstalab mavzu bo‘lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, guruhdagi ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Kasbiy kompetentlikni shakllanganligini baholash quyidagi ko‘rsatgichlar asosida amalga oshiriladi:

- Fan yuzasidan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish;
- Ma’lumotlar omborini yaratish bo‘yicha muammolarni hal qilish yo‘llarini mustaqil tanlay olishi, yechimga olib keluvchi masalalarni to‘g‘ri qo‘ya olishi, muammolarni hal qilishning samarali vositalarini tanlashi va qo‘llay olishi;
- Ma’lumotning turiga, ahamiyatiga, doldzarbligiga qarab yaratiladigan ma’lumotlar omborining turini, tuzilmasini to‘g‘ri tanlay olishi, uni tayyorlash bosqichlarini to‘g‘ri algoritmini tuza olishi;
- Ma’lumotlarni to‘g‘ri saralab ularni turli qismlarga ajrata olishi;
- Ma’lumotlar bazasi modelini mustaqil tuza olishi;

- O‘qituvchi bergan savollarning mazmundorligi hamda kasbiy etika va etiket qoidalariga amal qilishi;

- Mashg‘ulot jarayonida o‘z ishi va o‘rtoqlari bajargan ishlariga baho bera olishi.

Ma’lumotlar omborini o‘qitishda bilimlarni sinashning elektron vositalaridan foydalanish talabalarning ijodiy fikrlashi va bilimlarni egallash darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunday elektron vositalarni yaratuvchi zamonaviy dasturlar mavjud bo‘lib, ularga Ispring, MyTest dasturlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Aralash topshiriqlarning bir turdagi topshiriqlardan afzalligi shundaki, bir turdagi topshiriqlar ko‘p sonli bajarilsa zerikish yoki charchash hollari yuzaga kelishi mumkin. Aralash turdagi topshiriqlar har safar turli topshiriqlarga tayyor turish, ijodiy fikrlash va turli vaziyatlarga tayyor bo‘lish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi.[4]

Yuqorida tahlil qilingan fikrlar asosida kompetentlikni baholashda tabaqalashtirilgan va nostandart topshiriqlar to‘plamidan foydalanish yuqori samara ko‘rsatadi. Ma’lumotlar omborini yaratish mavzusida bilimlarni baholash uchun topshiriqlar to‘plamidan namunalar keltiramiz:.

Test savollari		
	Ma’lumotlarni relatsion modelli qanday model?	A) Ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalash. B) Ma’lumotlarni to‘rli ifodalash. S) Ma’lumotlarni tartiblash.
	Ma’lumotlar omborini boshqarish tizimi keltirilgan javobni ko‘rsating?	A) MS Access, MySQL B) PhotoShop, Paint C) Google Chrom
Mantiqiy savollar		
	Agar ma’lumot to‘plangan, saralangan va tizimli tartiblangan va jadvalga joylashtirilgan bo‘lsa ma’lumotlar omborining qanday modelini qo‘llash maqsadga muvofiq.	
Muammoli savol		
	Ma’lumotlar omboriga uzluksiz malumotlarni kiritib borishda katta hajmdagi axborot to‘planadi. Bunda hotira va tezlik muammosi vujudga keladi. Ma’lumotlar bilan ishlashni qanday tashkil qilish bu muammolarni oldini olish imkonini beradi.	

Turli aralash shakldagi topshiriqlardan foydalanish nafaqat bilimni sinash mastaxkamlash, balki muammoliy vaziyatlar va muammoliy savollar bilan ishlash, ularga yechim topish shu orqaliy kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki har bir fan va mavzu yoritilish jarayoni avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobat bardosh kadrlar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Bu avvalo, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, avvolo, kelgusida salohiyatliy yoshlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdukarimov H., Suvanov O. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -Toshkent, 2010.
2. F.A.Astanova, F.A.Abduqodirova “Case-Study” uslubi: nazariya, amaliyo va tajriba, Toshkent-2012).
3. Toshtemirov D., Muminov B., Saidov J. Fundamentals of compilation of electronic tasks for students to test and strengthen their knowledge of database //International Journal of Scientific and Technology Research. 2020. T. 9. № 4. C. 3226-3228.
4. Toshtemirov D. E., Saidov J. D., Mamatqulov S. X. Technology of creating modern electronic educational resources//bulletin of Gulistan State University. 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 67-71.
5. Saidov J. D., O‘zbekistonda ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning ma’lumotlar bazasi bo‘yicha bilimlarini shakillantrish //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. 3. – №. 3. – с. 72-77.

FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI ASOSIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA WEB-TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich
Gulistan Davlat Universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: baxtiyor_0997@mail.ru
Tel: 97 278 05 39

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyat rivojlanishining tez sur’atlari, web dizayn va uzluksiz innovatsiya jarayonlari ta’limning mavzusini bilishi va o‘qitish metodiga ega bo‘lish kelgusi pedagoglarni kasbiy tayyorgarlikning hozirgi darajasini to‘liq xarakterlay olmasligiga olib keladi. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni doimo o‘zgarib turadi, o‘quv mashg‘ulotlarining yangi vositalari va texnologiyalari paydo bo‘lmoqda, o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatlarida hisobga olishi lozim bo‘lgan axborot oqimi o‘sib bormoqda. Ta’lim sohasidagi muhim o‘zgarishlar, birinchi navbatda, Web-texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchilar malakasini oshirish; kasbiy kompetensiya; innovatsion texnologiyalar; Web-texnologiyalar; Web-xizmatlar.

Kirish. Kasbiy kompetensiyani shakllantirishning motivatsion-qiymatga asoslangan, kognitiv va dizayn texnologik tarkibiy qismlarini tadqiq etish shuni tasdiqladiki, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning ishlab chiqilgan usullari Web texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim, kognitiv va kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyaga katta ta’sir ko‘rsatdi, professional, kommunikativ motivlar, obro‘ning motivlari, Web-texnologiyalardan foydalanish bilan hamkorlik qilish zarurligini anglash va rivojlantirish. Metodlarni qo‘llash natijasi o‘qituvchi va o‘quvchilarning Web texnologiyalarning pedagogik jihatdan mos vositalarini aniqlash, mavjudlarini tahlil qilish va baholash, kelgusi pedagogik faoliyatda rivojlantirish va qo‘llash qobiliyatining shakllanishidir.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi davri axborotlashtirish jarayoni – axborotdan ijtimoiy mahsulot sifatida foydalanish bilan xarakterlanadi, bu esa ilmiy-texnika taraqqiyotining tezlashishini, inson faoliyatining asosiy turlarini intellektuallashtirishni, jamiyatni demokratlashtirishni ta’minlaydi. Jamiyatni axborotlashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta’limni axborotlashtirish jarayoni bo‘lib, u rivojlantiruvchi ta’lim g‘oyalarini amaliyotga tadbiq etish, ta’lim jarayonining barcha darajalarini jadallashtirish, uning samaradorligi va sifatini oshirish, kasbiy rivojlanishning internet texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarning kompetentligi (kasbiy faoliyati mohiyatida namoyon bo‘ladigan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik faoliyatga tayyorlik va qobiliyat, pedagogik haqiqatni yaratishga intilish va qobiliyatni ta’minlaydi). Jamiyatni kompyuterlashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’limni maqsadlar, mazmun va texnologiyalar bo‘yicha kompyuterlashtirish, shuningdek, jamiyatni axborotlashtirish sharoitida innovatsion pedagogik faoliyatga (ta’lim faoliyatini rivojlantirish, targ‘ib qilish yoki tadbiq etish) tayyorlashni ta’minlaydigan yaxlit ta’lim jarayonini tushunish va ko‘rishdir.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).**

Jahonda nufuzli xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar ta’lim tizimiga alohida e’tibor berib, hamkorlikda 2030 yilgacha ta’lim kontseptsiyasini qabul qildilar. Kontseptsiyada “Ta’lim jarayoni har qanday mamlakat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, manbai va strategiyasini belgilovchi faoliyat” deb ta’kidlangan[37]. Ta’limni jahon andozalari darajasida sifatli tashkil etish uchun ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarni zamonaviy talablar asosida veb texnologiyalarga asoslangan ta’limni ta’minlash, globallashgan ta’lim muhiti sharoitida bemalol faoliyat ko‘rsata olishga yo‘naltirishdan iboratdir [1].

Respublikamizda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, barcha fanlar qatorida informatika va axborot texnologiyalarni o‘qitishni ham takomillashtirishga olib keldi. Uzluksiz ta’lim tizimida Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish masalasi qayta ko‘rilib, bugungi kun talablari

[37]Incheon Declaration Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000233813?posInSet=3&queryId=N-EXPLORE-a1c7c8fd-2218-4199-96d7-4c7d325025f2

darajasida uning mazmuni takomillashtirilmoqda, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish metodlarini ta’lim jarayoniga joriy etish yo‘lga qo‘yilgan [2]. Jumladan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun T.Azlarov, B.Boltaev, M.Ziyaxodjaev, N.Tayloqov, A.Hayitov va boshqa olimlar, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida A.Abduqodirov, M.Aripov, F.Zakirova, U.Yuldashev, R.Boqiev, M.Mamarajabov, L.Nabiulina, S.Tursunov, M.Fayzieva, N.Xaytullaeva, A.Eminov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan [3].

Hamdo‘stlik mamlakatlarida A.A.Andreev, K.E.Arxipov, V.E.Alekseev, T.F.Bardina, A.N.Goritov, L.Zayniddinova, E.Kuznetsov, S.Krapivka, V.Konovalenko, D.S.Kiselev, Yu.R.Koftan, O.Lavrov, M.Lapchik, M.Nimatulaev, E.S.Polat, V.Tedeev kabi olimlarning tadqiqot ishlarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Xorijiy olimlardan D.A.Boyarinov, R.England, J.H.Lee, M.Kimko, N.Hammond, A.Jones, J.Campo-Avila, M.Sigala va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Ta’limda pedagogning o‘rni, kasbiy kompetentligini oshirish, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish tizimi, pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar Sh.A.Abdullaeva, N.N.Azizxodjaeva, Yu.M.Asadov, I.O.Gileva, N.A.Muslimov, N.N. Karimova, O.A.Qo‘ysinov, J.R.Turmatov, K.T.Umatalieva, R.X.Fayzullaev, A.R.Xodjabaevlar tomonidan o‘tkazilgan [4].

Olib borilayotgan islohotlarning umumiy jarayoni bilan o‘zaro aloqadorligini belgilaydigan omillarni aniqlash MDH olimlari V.V.Kazantseva, Yu.A.Lobeyko, T.A.Marfutenko, T.V.Meheryakova, V.G.Ro‘ndak, A.V.Tutolmin, A.G.Shumovskayalar tomonidan tadqiq etilgan.

Shaxs kompetentligining turli jihatlari kognitiv va affektiv faoliyati, kasbiy kompetentlikning ko‘rsatkichlari, o‘qituvchida ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini xorij olimlaridan E.S.Short, J.Raven, O.F.Volubaeva va S.P.Yalanskalar tadqiqot ishlari olib borgan.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).**

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning web texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari jarayonida bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini web texnologiyalar asosida tashkil etish usullari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

1) kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv fanlari va web texnologiyalar mazmunini umumlashtirish;

2) oliy ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya jarayonlarida pedagogik shart-sharoitlarni amaliyotga joriy etish, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari-o‘qituvchilarning Web-texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha kasbiy kompetentligini samarali shakllantirishga ko‘maklashadi (Web texnologiyalarning rivojlanish salohiyatini oshirish; Web-xizmatlardan foydalangan holda bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari-o‘qituvchilarning resurs qo‘llab-quvvatlashini faollashtirish; pedagogik oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida Web texnologiyalaridan foydalanish usullarini o‘zlashtirish);

3) kompleks diagnostika va o‘quv-uslubiy qo‘llab-quvvatlash (ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyalar, laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘qitishning texnik vositalari va boshqalar) qo‘llash [5].

Web-texnologiyalarni qo‘llagan holda (malakali va kompetentlik darajasida) axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasini tushunishga asoslanib, kelajakda innovatsion pedagogik faoliyat bilan bevosita bog‘liq holda integratsiyani o‘quvchilarning Web-ga asoslangan texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha professional vazifalarni bajarishdagi dinamik qobiliyati deb hisobladik, ta’lim faoliyati algoritmini tavsiflash imkonini beruvchi zarur tizim komponentlarini ajratish orqali amalga oshirish. Ta’lim maqsadiga erishish usuli (bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligi) talabalarning boshlang‘ich tayyorgarligi darajasini diagnostika qilish, ta’lim va kelajakdagi kasbiy faoliyat turlarida Web texnologiyalardan foydalanish motivatsiyasini shakllantirish, o‘qitish mazmunini aniqlash, o‘quv jarayonini tashkil etish (formalar, metodlari, texnologiyalari va o‘quv qo‘lanmalari), o‘quv mashg‘ulotlari yakunida tayyorgarlik darajasini o‘qitish va baholash davomida o‘quv yutuqlarini nazorat qilish. Shunga ko‘ra, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarning kasbiy

kompetentligini shakllantirish metodikasining tizimni shakllantiruvchi tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat [6]:

− motivatsion-qiymatga asoslangan (kelajakdagi professional faoliyatga motivatsiyani shakllantirish, Web-texnologiyalarni qo‘llash, kelajakdagi kasbning shaxsiy va ijtimoiy qiymati haqida xabardor bo‘lish, kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini ifoda etish ehtiyojlari, shu jumladan, Web-texnologiyalar orqali, o‘z-o‘zini tekshirish, o‘z-o‘zini o‘qitish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini egallash, o‘z-o‘zini bilish va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini o‘zlashtirish; kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini boshqarish; Innovatsion ta’lim faoliyatida bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari-o‘qituvchilarning Web texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha;

− kognitiv faoliyat (kasbiy ahamiyatga ega bilimlarni o‘zlashtirish; amaliyotda ijtimoiy-pedagogik, metodik bilimlarni qo‘llash; ko‘p shaklli axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish, axborot mahsulotlarini yaratish bo‘yicha Web texnologiyalardan samarali foydalanish; Web texnologiyalarning pedagogik jihatdan mos vositalarini aniqlash, hozirgi vaqtda mavjud bo‘lganlarni tahlil qilish va baholash, ularni kelgusida innovatsion pedagogik faoliyatda joriy etish va qo‘llash);

− loyihalash-texnologik (maqsadlarning shakllanishi, ijtimoiy sharoit, qadriyatlar yo‘nalishi.

Pedagogik faoliyatni kuchaytiradigan va shaxsning professional yo‘nalishini belgilaydigan qiziqishlar, ehtiyojlar, moyilliklar; o‘z-o‘zini nazorat qilish va aks ettirishni amalga oshirish qobiliyati (tahlil qilish, o‘z-o‘zini o‘qitishni baholash, yangi vazifalarni to‘g‘rilash va ishlab chiqish, kasbiy rivojlanishga harakat qilish), shu jumladan Web texnologiyalardan foydalanish [7].

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning motivatsion-qiymat, kognitiv-aktiv va dizayn-texnologik qismlarini jamlab, shuni ta’kidlashimiz mumkinki, axborot texnologiya o‘qituvchilarning Web texnologiyalar bo‘yicha kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasi quyidagilar uchun indikativ asos bo‘ladi [8]:

o pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish;

o o‘qituvchilarning a’anaviy axborotni Internet texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy o‘quv-uslubiy, kognitiv va kasbiy faoliyatini tashkil etish va boshqarishga o‘tkazishdan qayta yo‘naltirish;

o axborot faoliyatining ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish; o‘quvchilarning fanlarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, bir tomondan, ta’lim va kelajakdagi innovatsion pedagogik faoliyatda Web texnologiyalardan foydalanish;

o web texnologiyalardan foydalanishning pedagogik maqsadga muvofiqligi tasnifi va ularni qo‘llashning motivatsion-qiymat psixologik-pedagogik jihatlarini aniqlash.

Pedagogik oliy o‘quv yurtlarida Web texnologiyalardan foydalangan holda bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari-izlanish o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasining tadbiq etilishi quyidagilarga sabab bo‘lishi tajriba-sinovdan o‘tkazilganligi tasdiqlangan [9]:



kasbiy kompetentligini shakllantirish metodikasining tadbiq etilishi

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarda kelajakda innovatsion pedagogik faoliyatni tahlil qilish va qo‘llash qobiliyatini shakllantirish maqsadida, ularning shaxsiy pedagogik xususiyatlari va kasbiy qobiliyati darajasiga mos keladigan fanlarni tanlash maqsadga muvofiqdir [10].

Tajribaning shakllanish bosqichi natijalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning eksperimental guruhidagi kasbiy kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlari ijobiy o‘zgarishlarga uchragan. Biz bajarilgan ishlarning samaradorligini talabalar va o‘qituvchilarning so‘rovnomasi natijalari bilan tasdiqlaymiz. Bu metodbirlashmaning amalga oshirilishi o‘quvchilarni faol holatga o‘tkazish imkonini berganligini tasdiqladi, ularning ko‘pchiligi o‘qituvchilar bilan birgalikda Web texnologiyalar ishlab chiquvchilari sifatida ishlay boshladi. Bu esa pedagogika oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining rolini o‘zgartirishga imkon berdi: ularning faolligi talabalarning faolligiga yo‘l qo‘ydi. Asosiy vazifa hamkorlik va o‘zaro ta’sir orqali o‘quv va rivojlanish jarayonini tashqi boshqarish, kasbiy yo‘naltirilgan vazifalar va vaziyatlarning samarali yechimlarini izlash, o‘zaro bog‘lanishni tashkil etish uchun sharoitlar yaratishdan iborat edi.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation).** Keyingi ilmiy tadqiqotlarning istiqbollarini aniqlab, shuni ta’kidlash kerakki, ushbu tadqiqot o‘zini tekshirilgan muammoning barcha jihatlarini to‘liq hal qilgandek ko‘rsatmaydi. Keyinchalik nazariy tushunish va eksperimental tasdiqlash uchun axborot ta’lim muhitining elektron resurslarini yaratish va joriy etish talab etiladi; stajyor-o‘qituvchilar uchun Web texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kompleks integratsiyalashgan o‘qitish usullarini ishlab chiqish; Web texnologiyalar samaradorligi mezonlarini ishlab chiqish. Shuningdek, Web-texnologiyalarni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini hisobga olgan holda, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashni ilmiy-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

-

ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. // Monografiya. Guliston: Universitet, 2019. – 232 b.
2. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020, pp. 399-400
3. Eminov A.G‘. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kompyuter grafikasi bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi // Ped.fan.nomz.diss...avtoref. – Toshkent, 2012. – 22 b.

4. Xaytullaeva N.S. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida web-texnologiyalardan foydalanish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 46 b.
5. Shamsiddinov F.A., About improving the professional competence of preparation of the future teacher of informatics. European Scholar Journal (ESJ) Available Online at: https://www.scholarzest.com Vol. 2 No. 7, July 2021, ISSN: 2660-5562
6. Begimkulov U.Sh. Organization of pedagogical education in the environment of modern information technologies//”Pedagogical education” journal, No.1, 2004
7. Muslimov N.A., Sayfurov D.M., Usmonboeva M.H., To‘raev A.B., Web texnologiya asosida elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish, Toshkent: 2015. – 128 bet.
8. Niyozov M.B. Effectiveness of web technology teaching computer science and information technologies // Middle European Scientific Bulletin Volume 12, May 2021, Pages 435-439
9. Yuldashev, U.A., Xudoyberdiev, M.Z., & Axmedov, T.B. (2021). O‘quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //Academic research in educational sciences, 2(3), 1262-1268.
10. Власова наталья сергеевна, научно-методическое обеспечение подготовки студентов вузов в области web-дизайна// диссертации на соискание ученой степеникандидата педагогических наук автореферат, Екатеринбург 2010- 30 ст.

ZAMONAVIY JAMIYATDA INTERNETDAN FOYDALANIShNING IJOBIY VA SALBIY OQIBATLARI

Abduraximov Doniyor Baxodirovich
Guliston davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi

Abstract: The article describes the positive and negative consequences of using the Internet in the modern information society, why it is needed and what are its advantages, the advantages that the Internet offers to people, its benefits. It also provides advice on how to safely use social media and troubleshooting.

Key words: Internet, telephone, company, email, cyber, bank, credit card.

Bugungi rivojlanayotgan davrga kelib internetning kashf etilishi insoniyat hayotida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Dunyo aholisining soni hozir sakkiz milliarddan oshgan bo‘lsa, shundan uch milliarddan ziyodi internet tarmog‘iga ulangan. So‘nggi yillardagi statistikaga ko‘ra, O‘zbekistonda ham aholining internetdan foydalanish foiz ko‘satgichi ham yildan yilga o‘sib bormoqda. Shunday ekan, Internetning foyda va salbiy tomonlari haqida batafsilroq ma’lumot olishga ehtiyoj bor.

Internet nima uchun kerak va uning qanday foydalari bor? Ko‘pchilik Internetdan yangiliklar o‘qish, musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kabi, asosan, ko‘ngilochar maqsadlarda foydalanadi. Ammo Internet insonlarga taqdim etadigan qulaylik va foydalar faqat bulardan iborat emas.

Oddiy elektron pochta (E-email) xizmatini olib ko‘raylik. Bir necha soniya ichida maktub yozib, uni kompyuter yoki telefoningizdagi bitta tugmani bosish orqali dunyoning istalgan joyiga bir soniyada jo‘natishingiz mumkin. Internetdan oldin bu mumkinmidi? Albatta, yo‘q. Buning uchun ilgari an’anaviy pochta yoki telegraf xizmatlaridan foydalanish lozim bo‘lgan. Hozir esa bunga hojat yo‘q, yoki hozir uyingizda o‘tirib, Internet orqali istagan narsangizni sotib olishingiz va uyingizgacha olib kelib berishlarini buyurtma qilishingiz mumkin. Internet tarmog‘idan Sizni qiziqtirgan ixtiyoriy maxfiy bo‘lmagan ma’lumotlarni olish, tarmoq bo‘yicha istalgan mamlakatdagi hamkasblariga pochta xatlarini yuborishi, ma’ruza matnlarini olish, dunyo yangiliklaridan tezda habardor bo‘lish, tarmoq orqali savdo qilish, chiroyli shahar yoki yodgorliklarning piktografik rasmlarini ko‘rib chiqish yoki musiqa va jahon kinosidan bahramand bo‘lish yoki bunday tarmoqlarga o‘zining reklamasini joylashtirish mumkin. Uni butun dunyodagi millionlab odam ko‘radi va deyarli hamma narsani, hatto o‘zining bo‘sh vaqtini mazmunli va qiziqarli o‘tkazishni hamda amalga oshirish mumkin.

Internet bu axborotlarning cheksiz dunyosidir. Bu haqiqatda o‘zgacha virtual mamlakatdir unga kirib olish va u erda uzoq vaqt yashash mumkin. Internet orqali har bir kasb egasi o‘ziga kerakli ma’lumotlarni olsa bo‘ladi. Ya’ni, jurnalist Internetda eng yangi yangiliklarni topadi, ilmiy xodim - uni qiziqtirgan muammo buyicha oxirgi tadqiqotlar materiallarini, tijoratchi esa dunyoning istalgan birjasida valyuta kotirovkasini (bahosini) bilib oladi. O‘qituvchilar esa dars jarayonini tushuntirishda masofaviy tarmoq yoki tarmoqdagi o‘quv uslubiga moslashtirilgan kurslar orqali bilim berishi mumkin.

Internetning hayotimizdagi o‘rnini quyidagicha ko‘rishimiz mumkin:

- Internetning tadbirkorlar uchun muhim bo‘lgan birinchi muhim vazifasi axborot vazifasidir. Tarmoqdan o‘zini qiziqtirgan, istalgan mahfiy bo‘lmagan birjaga oid va tijorat axborotlarini ilmiy va siyosiy axborotlarni olish mumkin.

- Kommunikatsiya imkoniyati. Tarmoq texnologiyalari foydalanuvchiga telefon bo‘yicha istalgan shahar va mamlakatdagi o‘zinig sheriklari bilan gaplashish imkonini beradi, shu bilan bir qatorda bu oddiy telefon aloqasidan ham arzonroqdir; oddiy pochtani ishlatishga qaraganda kam harajat qilib va shuning bilan birga sezilarli darajada tezroq unga xat yuborish mumkin.

-Tijorat imkoniyati. Butun dunyoda tarmoq bo‘yicha savdo faol rivojlanmoqda. Imkoniyatli xaridor o‘z shaxsiy kompyuterining ekranida tovarlarni ko‘rib chiqadi, buyurtma beradi va kredit kartochkasi bo‘yicha ularga haq to‘laydi.

- Reklama imkoniyati. Internet bo‘yicha reklama berish birinchi navbatda uning ommaviyligi va tezkorligi tufayli juda samaralidir.

-Ko‘ngil ochish imkoniyati. Juda xilma-xil turdagi minglab ko‘ngilochar adabiyotlarni o‘qish, qiziqarli filmlarni ko‘rish mumkin; eng maroqli kompyuter o‘yinlarini o‘ynash turli xil muzeylardan zavqlanish mumkin va boshqa ko‘pgina shunga o‘xshash narsalar. Bundan tashqari ta’lim tizimida bunday tarmoqlardan foydalanish albatta yaxshi natijalarni beradi. Ya’ni, masofaviy ta’lim tizimidan foydalanish, ma’lumotlar omboriga murojat etish, undan kerakli ma’lumotlarni qidirish, saqlash va h.k. hozirgi paytda dars jarayonida tarmoq tizimini qo‘llash dars beruvchi uchun ham, bilim oluvchi uchun ham birday qulay. Negaki, to‘g‘ridan – to‘g‘ri Internet orqali talabalar bilim oladilar, ayniqsa bu uslubni qo‘llashda chet tillarni o‘qitishni ko‘rish mumkin. Ya’ni, On-line kurslari orqali o‘zlarining bilimlarini oshiradilar va ularga qo‘yilgan talablar ham osonlashadi, dars mavzusi, grammatika qonun-qoidalari sxematik asosida tushuntiriladi, tarmoq kurslari orqali testlar echiladi, chet tili talaffuzlari og‘zaki bayon asosida kuzatiladi. Bir so‘z bilan aytganda hozirgi texnika va texnologiyalar asrida bu tarmoqga talab kuchayib bormoqda. Biz bunday tarmoqlar ma’lum ma’noda kerak emas yoki unga talab katta emas deb ayta olmaymiz, negaki, internetning ahamiyati, uning ishonchliligi va tezkorligi ortib borar ekan, yaqin kelajakda bunday g‘oyalar o‘z isbotini topadi.

Internet nafaqat siz bilan biz kabi oddiy foydalanuvchilar tomonidan, balki xususiy va davlat kompaniyalari tomonidan ham keng qo‘llanilmoqda. Hozir deyarli barcha yirik kompaniyalar o‘z xodimlari va mijozlari bilan aloqalarni to‘liq internet orqali olib boradi. Yangi mahsulotlarini internet orqali ommaga taqdim etadi, sotadi va boshqa turli xizmatlar ko‘rsatadi. Internet hukumatlar ishlarini ham osonlashtirgan. Fuqarolarning deyarli barcha murojaatlari ko‘p davlatlarda hozir elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Bu qog‘ozbozlik, fuqarolarning idoraga borib rasmiylar bilan yuzma-yuz ko‘rishishi, navbat kutib uzoq o‘tirishi kabi noqulayliklarni kamaytiradi. O‘zbekistonda ham xuddi shu maqsadda my.gov.uz loyihasining boshlanganini ijobiy va quvonarli hol, deb aytishimiz mumkin.

Internetning salbiy jihatlari haqida ham so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu ommaviy kommunikatsiya turi dastlab paydo bo‘lganda, aksariyat ishlarning elektron shaklga o‘tishi oqibatida ko‘plab ish o‘rinlari boy beriladi, degan xavotirlar bo‘lgan. Chunki internetdan oldin bu ishlar qog‘ozlar orqali yoki ofis-idoralarda ishchi-xodimlar qo‘li bilan amalga oshirilardi. Ammo internetning iqtisodiyot uchun, kompaniyalar uchun keltirgan ulkan foydasi bu xavotirlarni yo‘qqa chiqardi. Endigi asosiy xavotir va tahdid internetda shaxsiy va biznes ma’lumotlarini almashishning qanchalik xavfsiz ekani haqida bo‘lmoqda. Xavotirlar shu darajada oshdiki, hatto hukumatlar internet tahdidlarining oldini olish uchun ko‘proq e’tibor va resurslar ajratmoqda. Kiber xuruj va kiber urush degan atamalar paydo bo‘ldi. Bugungi kunda biz shu keng mavzuning oddiy internet foydalanuvchilariga tegishli bo‘lgan qismiga, ya’ni internetda shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligini ta’minlash yo‘llariga e’tibor qaratamiz.

Shaxsiy daxlsizlik (Privacy) va internet xavfsizligi nima va nimaga kerak degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin. Internetda foydalanuvchilar uchun eng katta tahdid ularning shaxsiy ma'lumotlari boshqalarning qo'liga tushishi yoki oshkor qilinishi xavfi hisoblanadi.

Biz onlayn xizmatlardan foydalanganimizda, ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochta orqali muloqot qilganimizda ko'plab shaxsiy ma'lumotlarimizni internetga kiritamiz. Bular shaxsiy suratlar, bank yoki moliya ma'lumotlari, sog'liqqa oid ma'lumotlar, do'stlarimiz bilan o'zaro maxfiy yozishmalarimiz yoki email va ayrim saytlarga kirish uchun ishlatiladigan login va parollar bo'lishi mumkin. Odatda, bu ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishini OnLine (onlayn) xizmatni taqdim etuvchi saytlar ta'minlaydi, ammo shunday holatlar ham bo'ladiki, bu ma'lumotlaringiz istalmagan uchinchi bir tomon qo'liga o'tib qolishi va ular bu ma'lumotlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlardan, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish madaniyatiga e'tibor berib, keltirilgan veb sahifalar tahlil qilinsa quyidagi salbiy holatlar va kamchiliklar uchrab turadi:

- foydalanuvchilarning ayrimlari o'z nomlari bilan ro'yxatdan o'tishmaydi;
- nomaqbul foto sur'atlar qo'yishadi;
- o'zaro muloqatlarda hurmatsizlik qilishadi;
- bema'ni gaplar yozadilar, ba'zan noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanadi;
- sahifalar ijtimoiy bo'lishiga qaramasdan siyosiy muloqatlar o'rnatadilar va hokoza.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlardan, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish madaniyati deganda, yuqorida keltirilgan salbiy holatlar va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik tushuniladi. Unutmaslik kerakki, ma'lum bir shaxs tomonidan internet tizimiga qo'yiladigan ma'lumotlar boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan turli maqsadlarda ham foydalaniilishi mumkin. Shu jumladan ma'naviyat va ma'rifatga zid ham bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanilganda u erdagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga, Sizni aldashmayotganligiga iqror bo'lib, so'ngra ma'lum bir qarorga kelish kerak.

Demak, faqat o'zimizgagina tegishli bo'lgan, boshqalarga bizning roziligimizsiz berilmaydigan barcha ma'lumotlar bizning shaxsiy mulkimiz hisoblanadi va ular ustidan shaxsiy daxlsizlik huquqiga egamiz.

Shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi o'z aybingiz bilan yoki xakerlar kabi maxsus hujum uyushtiruvchi shaxs yoki shaxslar xatti-harakati natijasida sodir bo'lishi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi sizga moddiy va ma'naviy zarar keltirishi mumkin. Masalan, siz ijtimoiy tarmoqdan foydalanish tartibini yaxshi tushunmasdan, faqat do'stimga yuboryapman, degan ishonch bilan ayrim shaxsiy surat yoki ma'lumotlarni hamma ko'radigan joyga joyladingiz.

Yoki hech kimga ko'rinmaydi, deb o'ylab, ijtimoiy tarmoqlarda ayrim saytlarga qo'yilgan shubhali havolalar ustiga bosdingiz; bilmasdan uni o'z sahifangizda ham ko'rdingiz yoki ehtiyotsizlik bilan shubhali saytni ochganingiz uchun sizning roziligingsiz bu sayt haqidagi ma'lumotlar hammaga ko'rinadigan sahifangizda paydo bo'lib qoldi. Shaxsiy hayotingizga taalluqli bo'lgan bunday ma'lumotlarning boshqalarga oshkor bo'lishi sizning obro'ingizga putur etkazishi yoki siz haqingizda boshqalarda salbiy tasavvur hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu ma'naviy zarar hisoblanadi. Bundan tashqari, bu kabi ehtiyotsizlik natijasida sizning nomingiz bilan turli taqiqlangan saytlarga tashrif buyurishlari mumkin.

Agar elektron pochtangizga kelgan shubhali maktubdagi havolani bosib, uni ochsangiz va natijada shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashni maqsad qilgan zararli dastur kompyuteringizga o'rnashib olsa, u kompyuteringiz va elektron pochtangizdagi barcha shaxsiy ma'lumotlarni ko'chirib, ushbu dastur ortida turgan shaxslarga jo'natishi mumkin. O'g'irlangan ma'lumotlar orasida bank va kredit karta ma'lumotlari bo'lishi mumkin va ulardan foydalangan holda kiber jinoyatchilar pulingizni o'marishi turgan gap.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, internetning insoniyat uchun foydasi va imkoniyatlari kundan kunga oshib bormoqda. Shu bilan birga xavfsizlik borasida ham muammolar kamaygani yo'q. Barcha kerakli axborot xavfsizligini ta'minlovchi dasturlarga ega bo'lsangiz ham, sizning internetdagi faoliyatingiz hech qachon 100 foiz xavfsiz bo'lmaydi. Parolni kuchli tanlash yoki zararli saytlarga kirmaslik orqali sizga bo'ladigan xavf darajasini minimumga tushirishingiz mumkin, ammo agar xakerlar shaxsan sizni hujumga olishni qasd qilsa, ular tahdididan omon chiqishingiz ehtimoli juda kam. Albatta, oddiy odamlarning qasddan qilingan xakerlar hujumiga duch kelishi deyarli uchramaydi.

Shuning uchun xulosa sifatida sizga internetdan xavfsiz foydalanish bo‘yicha so‘nggi tavsiyalarimizni taqdim etamiz.

1. Imkoni boricha shaxsiy ma’lumotlaringizni internet saytlariga va tarmoqlariga kamroq kiriting.
2. Notanish odamlar bilan muloqot qilmang va ulardan kelgan elektron pochta maktublaridagi sayt manzillarini va ilova qilingan fayllarni aslo ochmang.
3. Shaxsiy maktublaringiz va chatdagi muloqotlaringizni siz va siz aloqa qilayotgan odamdan boshqa hech kim bilmaydi, deb o‘ylamang.
4. Internetni mas’uliyat bilan ishlating. ya’ni internetda yozgan so‘zingiz yoki amalga oshirgan hatti-harakatingiz uchun omma oldida ham uyalmasdan, qo‘rqmasdan javob bera olishga ko‘zingiz etsagina, internetda shunday faoliyat bilan mashg‘ul bo‘ling.
5. Internetda noqonuniy faoliyat turlari bilan shug‘ullanmang. Demak, internetda ham qonunga itoatkor fuqaro bo‘ling.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

Для получения микрофотографий поверхности шерстяных волокон нами использовался электронный микроскоп МИМ-10, который дает возможность наблюдать изображение поверхности исследуемого волокнистого материала. Электронно-микроскопические исследования исходных и модифицированных белковых волокон показаны на рис. 2.



исходное волокно *после обработки с полимерной композицией*

Рис. 2. Электронно-микроскопические снимки шерстяых волокон

Рис. 2. свидетельствует о том, что после электроразрядной обработки шерстяное волокно имеет более гладкую поверхность по сравнению с необработанным образцом. Сглаживание и уплотнение поверхности шерсти происходит под действием химических взаимодействий, обусловленных возникающим высоким сродством в результате функциональных групп волокон и компонентов композиции. На основании микроскопических исследований следует отметить, что наличие полимерной композиции на поверхности белковых волокон, позволяет улучшению перерабатываемости волокна из-за сглаживания поверхности и сохранения повышенной влажности волокон за счёт использования гидрофильных добавок.

Список использованной литературы

1. Биоразлагаемые полимерные смеси и композиты из возобновляемых источников. Под ред. Лонг Ю. СПб.: Научные основы и технологии. 2013

2. Клотыков Н.И., Буянова Н.М., Колтыкова Т.К. Отходы птицеводства – важный источник белка. -Сб. научн. тр./Одесский с.-х. институт.-1980.-С.21-26.

3. Лысенко В. Безотходность, как критерий оценки качества технологического процесса птицефабрик//Экспресс – информация ВНИТИП. - М.: Загорск, 1985.-№2.-С.13-18.

4. Митрофанов Н.С. Сбор и обработка перо-пухового сырья на предприятиях птицеперерабатывающей промышленности и птицефабриках. - М.: Мясомолпром, 1989.-196с.
5. Шевелева И.А. Оценка модифицирующего действия липосом на шерстяное волокно // Известия высших учебных заведений. Технология легкой промышленности. - 2005. - № 1. - С. 58-60.
6. Сапожникова А.И., Месропова Н.В., Топорова И.В. Коллаген - основа шлихтовального раствора. //Вопросы улучшения качества и рационального использования сырья животного происхождения и продуктов животноводства. / Сб. научн. трудов. / МВА.-1990.-с.96 -98.

ISHLAB CHIQARISH XUDUDLARIDAGI OCHIQ SUV XAVZALARIDAN OLINGAN NAMUNALARNI GOSSIPOL XOSILASI ASOSIDA ANALIZ QILISH

Boboqulova M., M.P.Askarova, Yuldasheva M.I., U.K.Abduraxmanova
Guliston Davlat Universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti.
E-mail: ugi_lay.912@mail.ru

Аннотация. *В настоящей работе были исследованы влияния реологических свойств композиции на основе полиэтиленгликолья (ПЭГ) и кератина различной дисперсности на некоторых основных технологических параметров шерсти. Структура разработанной полимерной композиции на основе полиэтиленгликолья и кератина определялась с помощью инфракрасной спектроскопии. Исследован влияния природы и концентрации кератина на физико-механические свойства шерстяного волокна. А также, наглядное подтверждение модификации поверхностного (чешуйчатого) слоя волокна шерсти было получено на основе микроскопических исследований.*

Ключевые слова*. реологические свойства, полиэтиленгликоль, кератин, физико-механические свойства, шерстяное волокно, полимерная композиция*

Sanoat rivojlanib borayotgan xududlarda xozirda eng keng tarqalgan antropogen ifloslanish turlaridan biri bu, og‘ir va zaharli metallarning atrof-muhitga chiqarilishi natijasida hosil bo‘layotgan ifloslanishdir. Shuning uchun ularning atrof-muhit ob’ektlaridagi miqdorini nazorat qilish muhim ekologik-tahliliy vazifalardandir.

Ma’lumki, tabiiy suvlardagi og‘ir va zaharli metallarning kontsentratsiyasini aniqlashda qo‘llaniladigan ko‘plab usullar mavjud, lekin, aniqlanayotgan elementlarning past kontsentratsiyasi tufayli keng qo‘llaniladigan fizik-kimyoviy usullar har doim ham bu muammoning to‘g‘ridan-to‘g‘ri echimi bo‘la olmaydi. Fikrimizcha, murakkab tarkibli eritmalardan qo‘rg‘oshin, simob va kadmiy ionlarining tabiiy birikmalar asosidagi komplekslari holida fizik-kimyoviy usullarda aniqlash usullari ushbu talablarga javob beradi [1-4].

Pespublikamizda bugungi kunda mahalliy pesupslapdan oqilona foydalanib, tupli sopbtsion-ion almashuvchi matepiallapni qo‘llash bilan atpof-muhitni tozalash, sanoatga jalb qiluvchi patsional texnologiyalapini ishlab chiqish bopasida amalga oshipilgan dastupiy chopa-tadbiplap asosida muayyan natijalapga epishilmoqda. Jumladan, ichimlik va oqava suvlapini ekotoksikantlapdan, atpof-muhitni ifloslantipuvchi og‘ip va zaxarli metallap, padionuklidlap, fenol tutgan moddalapdan tozalash hamda ulapning monitopingini olib bopishda tabiiy fiziologik faol birikmalardan analitik reagentlar va sopbtsion matepiallap sifatida foydalanish asosida ijobiy natijalap olinmoqda [3-7]. Tarkibida funktsional analitik guruhlar tutgan tabiiy fiziologik faol birikmalardan reagentlar sifatida foydalanish elementlarning mavjud holatini o‘zgartirmagan holda ajratish imkonini beradi.

Suv xavzalaridagi va ichimlik suvlari tarkibidagi qo‘rg‘oshin, temir, simob kabi og‘ir va zaxarli metall ionlarini aniqlashda tabiiy birikmalar asosidagi zamonaviy uslublar yaratish hozirgi kunda analitik kimyoning dolzarb vazifalaridandi.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi qo‘rg‘oshin ionlarini ochiq suv xavzalari va ichimlik suvlari tarkibidan tabiiy birikmalar ya’ni gossipol hosilalari asosida aniqlashga qaratilgan.

Gossipol molekulasidagi elektronlar bulutining taqsimlanishi ya’ni atomlardagi elektronlar zichligi –CHO и >C(OH) guruhlarga to‘g‘ri keladi. Gossipol molekulasidagi aldegid guruhining elektrofilligi boshqa aldegidlarnikiga qaraganda ancha yuqori, Gossipol molekulasidagi ikkita aldegid

guruhi ham molekulaning kimyoviy xususiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi va gossipolning toutomer shakllarining hosil bo‘lishida muhim o‘rinni egallaydi.

Gossipol azohosilalari molekulasi ham polifunktsional tuzilishiga ega, bu esa uning kimyoviy xossalarining keng imkoniyatlarini ta’minlaydi, jumladan, og‘ir va zaxarli metall ionlari bilan ma’lum sharoitlarda rangli kompleks birikmalar hosil qiladi [4]. Gossipol azo hosilasi to‘q qizil rangli mikrokristallik kukun holidagi modda bo‘lib, atsetonda yaxshi eriydi, uning molekulyar massasi 822,0 ga teng (brutto formulasi: $C_{34}H_{38}N_4O_{16}S_2$). Struktura tuzilishi:



Moddaning sistematik nomi [(1Z,1’E)-(8,8’-diformil-1,1’,6,6’,7,7’-geksagidroksi-5,5’-diizopropil-3,3’-dimetil-[2,2’-binaftalin]-4,4’-diil) bis(diazen-2,1-diil)]bis(etan-2,1-diil) bis (gidrosulfat).

Qo‘rg‘oshin (II) ionining gossipol azohosilasi bilan ertimada kompleks hosil qilishi tasdiqlangandan so‘ng, analizning optimal sharoiti aniqlandi va tanlangan optimal sharoitda *Pb-R* kompleksining nur yutilish spektrlari olindi. Kompleks eritmasi $\lambda_{max(reag.)}$ = 429 nm va $\lambda_{max(komp)}$= 385 nm $(l = 1см)$ da maksimal nur yutishi qayd etildi.

Spektrofotometrik reaktsiyaning optimal sharoitini tanlashda dastlab bufer eritmalarga ta’siri o‘rganildi, aniqlanishicha, eng yuqori optik zichlik universal bufer aralashmada kuzatildi, shundan so‘ng pH ko‘rsatkichi yani eritma muxiti har xil bo‘lgan universal bufer eritmalardan foydalanildi va eritmaning optimal pH sohasi aniqlab olindi.



1-rasm. *Pb-R* **kompleksining optik zichligining eritma pH iga bog‘liqlik grafigi.**

Analizni olib borishda rN ning optimal variantini topish uchun har xil pH dagi va turli tarkibli bufer eritmalardan foydalanildi. Dastlab eritma pH i ortishi bilan optik zichlik qiymati ham ortib bordi, maksimal nur yutilishi pH q10,3 ga teng bo‘lgan eritmasida kuzatildi va keyingi tadqiqot ishlarida rN ko‘rsatkichi 10,3 ga teng bo‘lgan bufer eritma ishtirokida o‘lchov olib borildi (1-jadval).

1-jadval

Kompleks birikma *Pb-R* optik zichligining eritma muhiti (pH) ga bog‘liqligi (T_{Pb2+} =50 mkg/ml, nq3)

N	,02	3 ,00	6 ,0	7 ,01	8 ,0	9 ,08	1 0,3	1 1,01	1 2,00	1 3,02
		0 ,0	0 ,013	0 ,0	0 ,0823	0 .04	0 .177	0 .101	0 .063	0 .085

O‘lchash natijalaridan optik zichlik qiymati eritmalarning quyilish tartibiga, reagent va metall ioni kontsentratsiyasi, eritma muhiti va eritmaning bufer tabiatiga bog‘liq ekanligi aniqlanib, tadqiqotlarimiz davomida optimal variantlari aniqlanildi. Aniqlangan qulay sharoit ochiq suv xavzalaridan olingan namunalar tarkibidagi qo‘rg‘oshin ionlarini aniqlashga qo‘llanilishi mumkin ekanligi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. У.К.Абдурахманова, М.Р.Аскарова Аналитические свойства госсипол уксусной кислоты Россия. Универсум: Химия и биология. Выпуск: 12(78) 2020.30-35с.

2. Ugilay K.Abdurahmanova, Khairulla.K.Egamberdiev Adsorption of iron to biologically active substances// Finland International Scientific Journal of Education, Social Science 1(1); 2022; -RR.213-219. https://doi.org/10.5281/zenodo.7254334.

3. Аскарова М.Р., Абдурахманова У.К., Якубова Н.Х., Гафуров М.Б.Спектрофотометрическое определение железа (III) с азопроизводными госсипола Россия, Universum (Химия и биология). -2022. 3(93). –С. 52-58.

4. Абдурахманова, Режепов К.Ж. Темир (III) ионларини госсиполнинг азобирикмалари ёрдамида аниқлаш Композицион материаллар.-2023. -№2. –Б.215-217.

5. Yuldasheva M.I., Askarova M.R., Abduraxmanova U.K., Gossipol polifunksionalligining o‘ziga xosligi «Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik» Xalqaro ilmiy amaliy konferentsiya. Guliston. 2023. –B.1977-1979.

6. А.А.Эрматова, З.А.Сманова, У.К.Абдурахманова, Ф.А.Лапасова, Х.А.Эгамкулова // Разработка сорбционно-спектроскопических методов в результате иммобилизации ионов цинка из сточных вод в объектах окружающей среды . Россия, Universum (Химия и биология). -2022. 12(102). –С. 5-12.

7. U.K.Abduraxmanova, X.X.Kushiev, Xudoynazarov M.Sh., Majidov S.A.//The use of physiologically active substances in the biosorption of iron (III) ions. // Bulletin of Gulistan State University, Series of Natural and Agricultural Sciences. -2021. -№1. P.30-36

GLITSIRRIZIN TUTGAN MODDALARNING KISLOTALI GIDROLIZI SHAROITLARINI OPTIMALLASH

Djurayev Alisher Janikulovich

Guliston Davlat Universiteti

E-mail:alex26111972@gmail.com

Glitsirret kislotasi ajratib olish asosan glitsirrizin kislotasini va glitsirrizin tutuvchi birikmalarni kimyoviy va fermentativ gidroliz qilishga asoslangan.

Adabiyotlar tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, glitsirret kislotasi olishning juda ko‘p usullari mavjud bo‘lib ularning deyarli barchasida gidroliz reaksiyasining suyultirilgan kislota eritmalari yoki kislotalar aralashmasida olib borilganligini kuzatish mumkin. Gidroliz reaksiyasi barcha glyukuronidlar kabi glitsirrizin kislotasi uchun ham qiyin ketadi[1] va mineral kislotalar ta’sirida hosil bo‘layotgan glitsirret kislotasining ma’lum miqdorda izomerlanishi kuzatiladi.

Muravyev va Ponomarevlar glitsirrizin moddasi tutgan birikmalarni, jumladan "Glycyrrhiza glabra L." ildizi quyuq ekstrakti va texnik glitsirrizin kislotasini gidroliz qilib glitsirret kislotasi olishda 7% li NS1 dan foydalanishgan.[2-3] Lekin adabiyotlardan ma’lumki, glitsirret kislotasini izomerlash usullarining deyarli barchasida NS1 ishtirok etadi[4], masalan glitsirret kislotasini izomerlash uchun tozalanmagan glitsirrizin kislotasini NSl va SN_3ON aralashmasida gidroliz qilishgan[5]

Shu sababli o‘z ishimiz davomida biz glitsirrizin tutgan moddalarni, gidroliz qilishda H_2SO_4 kislotasining eritmalaridan foydalanib, gidroliz reaksiyasi unumining mineral kislota konsentratsiyasiga bog‘liqligini o‘rganishga harakat qildik. Gidroliz reaksiyalarida sulfat kislotasining

2,4,6,8,10%li eritmlaridan foydalanildi, gidrolizat bug‘latilib, tushgan cho‘kma filtrlab olinadi va neytral muhitgacha suv bilan dekontatsiya qilinadi, xloformda ekstraksiyalanib, xloroform haydaladi, cho‘kmaga tushgan glitsirret kislotasi 40%li qaynoq etil spirti eritmasidan qayta kristallanadi.

Biriichi o‘rgangan reaksiyamiz glsirrizin kislotasining monoammoniyli tuzi- glitsiramni gidroliz qilish reaksiyasi bo‘ldi. Glitsiramning ma’lum miqdori kerakli hajmdagi issiq suvda eritilib, eritmaga o‘lchangan hajmdagi konsentrlangan H_2SO_4 eritmasi qo‘shiladi va qizdiriladi. Hosil bo‘lgan cho‘kma ajratib olinadi va neytral muhitgacha suv bilan dekontatsiya qilinadi. Filtrlab olingan cho‘kma quritilib, maydalanadi va xloroform bilan ekstraksiya qilinadi. Xloroformli ekstraktni tiniqlashtirish uchun AR-3 markali aktivlangan ko‘mir to‘ldirilgan kolonkadan o‘tkaziladi va erituvchi haydaladi. Glitsirret kislotasi 40%li etanolning qaynoq eritmasidan qayta kristallanadi.

Ikkinchi o‘rgangan reaksiyamiz glitsirrizin kislotasining uchammoniyli tuzining gidroliz reaksiyasi buldi. Glitsirrizin kislotasi uch ammoniyli tuzining ma’lum miqdori kerakli hajmdagi issiq suvda eritilib, eritmaga o‘lchangan hajmdagi konsentrlangan H_2SO_4 eritmasi qo‘shiladi va qizdiriladi. Cho‘kma quritilib, maydalanadi va xloroform bilan ekstraksiya qilinadi. Xloroformli ekstraktni tiniqlashtirish uchun AR-3 markali aktivlangan ko‘mir to‘ldirilgan kolonkadan o‘tkaziladi va erituvchi haydaladi. Glitsirret kislotasi 40%li etanolning qaynoq eritmasidan qayta kristallanadi.

Keyingi navbatda o‘rgangan reaksiyamiz texnik glitsirrizin kislotasining gidroliz reaksiyasi bo‘ldi. Buning uchun texnik glitsirrizin kislotasining ma’lum miqdori kerakli hajmdagi issiq suvda eritilib, eritmaga o‘lchangan hajmdagi konsentrlangan H_2SO_4 eritmasi qo‘shiladi va qizdiriladi. Hosil bo‘lgan cho‘kma ajratib olinadi va neytral muhitgacha suv bilan dekontatsiya qilinadi va quritilib, maydalanadi va xloroform bilan ekstraksiya qilinadi. Xloroformli ekstraktni tozalash uchun AI_2O_3 to‘ldirilgan kolonkadan o‘tkaziladi. Glitsirret kislotasi 40%li etanolning qaynoq eritmasidan qayta kristallanadi.

So‘nggi navbatda o‘rgangan gidroliz reaksiyamiz "Glycyrrhiza glabra L.“ ildizi quyuq ekstraktidan glitsirret kislotasini olish reaksiyasidir. Buning uchun "Glycyrrhiza glabra L.“ ildizi quyuq ekstraktining ma’lum miqdorini kerakli hajmdagi issiq suvda eritilib, eritmaga o‘lchangan hajmdagi konsentrlantan H_2SO_4 eritmasi qo‘shiladi. Reaksion aralashma 3 soat davomida qum hammomida qizdiriladi. So‘ngra cho‘kma ajratib olinadi va neytral muhitgacha suv bilan dekontatsiya qilinadi. Filtrlab olingan cho‘kma quritilib, maydalanadi va xloroform bilan ekstraksiya qilinadi. Xloroformli ekstraktni tozalash uchun AI_2O_3 to‘ldirilgan kolonkadan o‘tkazilib, erituvchi haydaladi. Glitsirret kislotasi 40%li etanolning qaynoq eritmasidan qayta kristallanadi.

Xloroformli ekstrakt olish va uni tozalash, tiniqlashtirish bosqichida AR-3 markali aktivlangan ko‘mir va alyuminiy oksiddan foydalanildi. Boshlangich modda sifatida glitsirret kislotasining mono va uch ammoniyli tuzlari olinganida xloroformli ekstrakt tozalash va tiniqlashtirish uchun aktivlangan ko‘mirdan foydalandik. So‘nggi ikkita gidroliz reaksiyalarida xloroformli ekstraktni tiniqlashtirishda aktivlangan ko‘mirdan foydalanish yaxshi natija bermadi, bizningcha buning sababi xloroformli ekstraktning tarkibidagi glitsirret kislotasi bilan birga ekstraksiyalaigan ballast moddalar mikdorining ko‘pligidir. Shu sababli biz ushbu tajribalarda AI_2O_3 dan foydalandik.

O‘rgangan gidroliz reaksiyalarimizda glitsirret kislotasi unumining mineral kislota H_2SO_4 konsentratsiyasiga boglikligi natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki glitsirret kislotasini glitsirram va glitsirrizin kislotasining uch ammoniyli tuzini gidroliz qilib olishda, H_2SO_4 ning 4 %li eritmasidan, texnik glitsirrizin kislotasini gidroliz qilib olishda H_2SO_4 ning 8 %li eritmasidan, "Glycyrrhiza glabra L." ildnzi quyuq ekstraktini gidroliz qilib olishda H_2SO_4 ning 6%li eritmasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Oxirgi ikki metod bo‘yicha glitsirret kislotasini olish oson va qulay bo‘lishi bilan bir qatorda, shuni ham e’tiborga olishimiz kerakki bu usullarda olingan glitsirret kislotalarini tozalash bilan bog‘liq bo‘lgan protsesslar qiyinlashadi.

1-jadval

Glitsirrizin tutgan moddalarni sulfat kislotasi bilan gidroliz qilishda glitsirret kislotasi unumining H_2SO_4 konsentratsiyasiga bog‘liqligi

	Boshlang‘ich modda	Kons. H_2SO_4	V H_2SO_4	V H_2O	Boshl. g‘ich	Kislota mikd.		GlK unumi	
						GzK	GlK	gb.da	%.da

		%.da	ml.da	ml.da	modda	g.da	g.da	g.da	%.da
1.	Glitsiram	2	1,15	98,85	10	9,82	6,81	3,6	52,9
		4	2,30	97,7	10	9,82	6,81	3,82	56,1
		6	3,50	96,5	10	9,82	6,81	3,75	55,1
		8	4,72	95,28	10	9,82	6,81	3,69	54,2
		10	5,94	94,06	10	9,82	6,81	3,52	51,8
2.	Glitsirret kislotasining uch ammoniyli tuzi	2	1,15	98,85	10	9,41	6,55	3,37	51,5
		4	2,30	97,7	10	9,41	6,55	3,56	54,4
		6	3,50	96,5	10	9,41	6,55	3,48	53,2
		8	4,72	95,28	10	9,41	6,55	3,33	50,8
		10	5,94	94,06	10	9,41	6,55	3,20	48,9
3.	Tozalanmagan glitsirrizin kislotasi	2	2,30	197,7	30	13,51	9,38	3,88	41,4
		4	4,60	195,4	30	13,51	9,38	4,05	43,2
		6	7,00	193,0	30	13,51	9,38	4,41	47,1
		8	9,40	190,6	30	13,51	9,38	4,63	49.4
		10	11,80	188,2	30	13,51	9,38	4,15	44.3
4.	“Glycyrriza glabra L.” ildizi quyuq ekstrakti	2	2,30	197,7	50	8,91	6,19	2,72	44,1
		4	4,60	195,4	50	8,91	6,19	2,78	45,0
		6	7,00	193,0	50	8,91	6,19	2,82	45,6
		8	9,40	190,6	50	8,91	6,19	2,87	46,4
		10	11,80	188,2	50	8,91	6,19	2,58	41,8

Agarda reaksiyaning umumiy unumi, reaksiyalar ketma-ketligi va ishlatiladigan reaktivlar nisbatini oladigan bo‘lsak, to‘g‘ridan to‘g‘ri ildiz ekstraktini gidroliz qilib glitsirret kislotasini ajratib olish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pex K , Tresi M.V , Kn: Bioximicheskiye metodi analiza rasteniy. M 1960 god
2. Muravyev I.A , Savchenko L.N. Polucheniye glitsirretinovoy kisloti iz ekstraktov solodkogo kornY.// Xim.farm.jurn.1979, №5, S. 97-102.
3. Muravyev I.A , Panamarev V.D. Sovremennoye sostoyaniye issledovaniye glitsirrizinovoy i glitsirretinovoy kislot i ix proizvodnix.//Kn. Voprosi izucheniye i ispolzovaniye solodki v SSSR M. ,L. ,1966, S.113-122.
4. Tolstikov G.A., Baltina L.A., Grankina V.P., Kondratenko R.M., Tolstikova T.G. Solodka: bioraznoobraziye, ximiya, primeneniye v meditsine. Novosibirsk: Akad. Izd-vo “Geo”, 2007. 311 s.
5. Tolstikov G.A, Goryayev M.I " Glitserinovaya kislota" Alma-Ata 1966, S.55.

GLITSIRRIZIN KISLOTASINING AYRIM FITOGORMONLAR BILAN SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLARINING «KRASNODAR-99» BUG‘DOY NAVINING HOSILDORLIK KO‘RSATKICHIGA TA’SIRI

Djuraev Tulkin Arzikulovich., Ismoiljonova Ozoda Bekmirza qizi
b.f.f.d (PhD)
talaba
Guliston davlat universiteti
e-mail:t_jurayev@mail.ru

Modda almashinuvi jarayoni mikroelementlar hujayra va to‘qimalarda mavjudlik holati bilan ham bog‘liq. Tadqiqotlarda Zn mikroelementining modda almashinish va o‘simlik hosildorligiga ta’sir ko‘rsatkichi alohida qayd etiladi. Shunga ko‘ra tadqiqotlar davomida GK-Zn kompleksini bug‘doyning o‘sishi va rivojlanishidagi faollik darajasi ko‘rsatkichlarini optimallashtirishi orqali qishloq xo‘jaligida ekinlarning hosildorigini oshirishda foydalanish istiqbolli sanaladi.

O‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantirish va abiotik faktorlarga qarshilikni keltirib chiqarish uchun turli xil ekzogen birikmalar qo‘llaniladi [1,2,3]. Misol uchun, askorbin kislotasi va kinetin ma’lum kontsentratsiyadagi eritmalarini o‘simlik barglari orqali qo‘llanilishi o‘simliklarining o‘sishiga yordam berdi [4]. Glitsirrizin kislotasining monoammoniy tuzi g‘o‘za urug‘ining unib chiqishiga yordam berishi mumkin [5]. Ma’lum qilinishicha, glitsirrizin kislotasi birikmalari ko‘p funktsiyali xususiyatlarga ega. Glitsirrizin kislotasining ba’zi tuzlari bug‘doyning o‘sishi va rivojlanishini tartibga solishi qayd etilgan [6].

GK:FG (ISK, NSK, IMK va kinetin) supramolekulyar komplekslarining dala sharoitida «Krasnodar-99» bug‘doy navi hosildorlik ko‘rsatkichi tarkibiy elementlariga ta’siri (*M*±*m*)

1- jadval

Tajriba variantlari	**O‘simlik bo‘yi** (mm)	**Mahsuldor o‘simlik soni** (donaG‘m^2)	**O‘simlikda tuplar soni** (dona)	**Boshoq uzunligi** (mm)	**Boshoqdagi donlar soni** (dona)	**1 000 dona don og‘irligi** (g)
Nazorat	924,6±5,4	463,8±6,8	3,4±1,2	85,7±3,4	32,5±3,8	38,8±7,4
GK:ISK (4:1) 100 mkM	960,3±3,4**	476,3±4,6**	3,6±2,4**	106,5±4,4**	43,6±6,3**	42,8±6,7**
GK:NSK (4:1) 100 mkM	954,4±5,9**	471,3±4,9**	4,1±2,4**	103,4±4,7**	41,5±6,3**	40,5±6,7**
GK:IMK (5:1) 100 mkM	946,5±6,2**	468,4±5,3**	3,8±2,7**	94,2±4,5**	34,2±4,4*	39,4±5,8**
GK:Kinetin (4:1) 100 mkM	932,2±6,6**	478,4±4,5**	3,7±1,8**	102,4±6,8**	42,7±5,2**	41,2±3,7**

Izoh: Tajribalarda GK:ISK (B), GK:NSK, nisbatda va GK:IMK 5:1 nisbatda (100 mkM) ekishdan oldin donga ishlov berish va shuningdek, vegetatsiya davrida naychalash fazasida o‘simlikka sepish uslubida foydalanildi. * - tajriba guruhi qiymatlarining nazoratga nisbatan farqlanishi statistik ishonchlilik darajasi$p$<0,05, ** - p<0,01.

Bunda bug‘doyning hosildorlik ko‘rsatkichi ~50% gacha berilgan maydon birligidagi boshoq hosil qiluvchi o‘simlik zichligi qiymatiga bog‘liq hisoblanishi ta’kidlangan.

Tajribalarda vegetatsiya davrining yakunida nazorat uchastkasida «Krasnodar-99» bug‘doy navining mahsuldor tuplari soni- 463,8±6,8 donani tashkil qilishi, 100 mkM kontsentratsiyada ekishdan oldin donga ishlov berish, shuningdek vegetatsiya davrida naychalash fazasida o‘simlik ustki organlariga sepish uslubida GK:ISK (4:1), GK:NSK (4:1), GK:IMK (5:1) va GK:Kinetin bilan ishlov berish sharoitida mos ravishda ushbu tahlil qilinayotgan ko‘rsatkich qiymati- 476,3±4,6; 471,3±4,9; 468,4±5,3 va 478,4±4,5 donani tashkil qilishi aniqlandi (1-rasm).

Shuningdek, maydon birligidagi boshoq hosil qiluvchi mahsuldor o‘simlik tuplari soni emas, balki asosan boshoqdagi donlar soni hosildorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd qilindi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar mualliflari tomonidan qayd qilingan har ikkala ko‘rsatkich ham tajribalarda GK:FG supramolekulyar kompekslari ta’sirida nazoratga nisbatan ortishi aniqlandi.

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlari bo‘yicha hisoblash asosida nazorat uchastkasida bug‘doy hosildorlik ko‘rsatkichi58,5±2,6 s/ga (100%) ni tashkil qiladi, 100 mkM kontsentratsiyada ekishdan oldin donga ishlov berish, shuningdek vegetatsiya davrida naychalash fazasida o‘simlikka sepish uslubida GK:ISK (4:1), GK:NSK (4:1), GK:IMK (5:1) va GK:Kinetin bilan ishlov berish sharoitida hosildorlik ko‘rsatkichini nazoratga nisbatan mos ravishda - 51,9% (88,9±3,7 s/ga); 35,4% (79,2±3,4

s/ga); 7,9% (63,1±4,5 s/ga) va 43,9% (84,2±5,8 s/ga) ga ortishi aniqlandi **(1-rasm).**



1-rasm. GK:FG (ISK, NSK, IMK va kinetin) supramolekulyar komplekslarining dala sharoitida «Krasnodar-99» bug‘doy navining maydon birligiga nisbatan o‘simlik soni (dona/m^2) (A) va hosildorligiga (B) ta’siri. A. Ordinata o‘qida - o‘simlik soni (dona/m^2); B. ordinata o‘qida - hosildorlik (s/ga) ifodalangan (* - p<0,05; ** - p<0,01).

Amalga oshirilgan model tipidagi tadqiqotlarda kuzgi bug‘doyning hosildorlik ko‘rsatkichi ~90-95 tsG‘ga ni tashkil qilishi uchun o‘simlikda 1 dona boshoqda o‘rtacha ~43-47 dona don bo‘lishi hisoblandi. Olingan natijalar umumiy holatda ushbu standart-me’yorga mos keladi.

Zamonaviy qishloq ho‘jaligi sharoitida bug‘doy hosildorligini oshirishda bioregulyatorlar istiqbolli agentlar hisoblanishi ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan qayd qilingan.

Donli ekinlarning vegetatsiya davrida stress-omillar ta’siriga chidamlilik darajasini oshirish, o‘sish-rivojlanishini optimallashtirish maqsadlarida ekishdan oldin urug‘ni ishlov berishda fitoregulyatorlardan foydalanish samaradorligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akula Ramakrishna and Gokare Aswathanarayana Ravishankar, 2011. Influence of abiotic stress signals on secondary metabolites in plants Plant Signal Behav. Nov 1; 6(11): 1720–1731.

2. Rehman, H., Q. Nawaz, S.M.A. Basra, I. Afzal, A. Yasmeen and F.U. Hassan, 2014. Seed priming influence on early crop growth, phenological development and yield performance of linola (Linumusitatissimum L.). J. Integ. Agric., in press

3. Yasmeen, A., S.M.A. Basra, M. Farooq, H. Rehman, N. Hussain, H. R. Athar, 2013. Exogenous application of moringa leaf extract modulates the antioxidant enzyme system to improve wheat performance under saline conditions. Plant Growth Regul., 69: 225– 233

4. Azza A.M. Mazher, Sahar M. Zaghloul, Safaa A. Mahmoud and Hanan S. Siam (2011) Stimulatory Effect of Kinetin, Ascorbic acid and Glutamic Acid on Growth and Chemical Constituents of Codiaeumvariegatum L. Plants. American-Eurasian J. Agric. & Environ. Sci., 10 (3): 318-323

5. Akhunov.A.A.,Golibenko Z., Dalimov D.N., Abdurashidova N.A., Mustakimova E.Ch., Ibragimov F.A., Akbarova G.O.(2004) Diglicyrrinats as regulators of grows cotton. Chemical Natural Compounds. N1. Pp.58-61.

6. Kushiev Kh.H., Karomat Ismailova A., Dalimov N. (2013) Regulation of development of a rust of wheat using physiologically active compounds. European sciences and technology. Germany, 2013. Pp.71-76.

MENTOLNING TUZILISHI VA XOSSALARI

Ergashev A.Sh., Abdurahmanova O‘,K, Mirsiddiqov Umidjon Baxodir o’g’li
I-kurs doktaranti

b.f.d., prof.
Guliston davlat universiteti
e-mail: ergashevabduaziz@gmail.com

Mentol ($C_{10}H_{20}O$) – kristall modda, shaffof yoki oq rangli, xona haroratida qattiq va biroz yuqori haroratda eriydi. Mentolning bir necha izomerlari mavjud, ba'zilari mentol xidli, ba'zilari hidsiz. Tabiatda kuchli aromatik hidga ega bo'lgan (-) mentol bo'lib, uning formal nomi (1R,2S,5R)-2-izopropil-5-metiltsiklogeksanoldir. Boshqa izomerlari izomentol, neomentol, neoizomentol deb nomlanadi

Mentol va uning hosilalari hozirgi kunda tibbiyotda ko'plab dori vositalari, parfyumeriya va oziq-ovqat sanoatida ham samarali qo'llanilmoqda. Mentol teriga surkalganda terini sovutadi, shu tufayli bosh og'riganida tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi, u antiseptik xossaga xam ega, burun va tomoqning shilliq pardalari shamollaganda qo'llaniladi, og'riq qoldiruvchi dori va surtma dori vositalarning tarkibiga kiritilgan.

Mentol – yalpiz efir moylari tarkibidan ajratib olinuvchi organik modda bo'lib, bir xalqali monoterpenlar sinfiga kiradi. U shaffof kristalliik modda bo'lib, xona haroratida suyuqlanadi, xossalari jixatidan bir-biriga yaqin 8 xil izomerlari mavjud. Tabiatda bitta enantiomeri uchraydi qolgan 7 ta izomeri quyidagi ko'rinishga ega:



(+)-Mentol (+)-Izomentol (+)-Neomentol (+)-Neoizomentol



(-)-Mentol (-)-Izomentol (-)-Neomentol (-)-Neoizomentol

Tabiiy mentol tarkibidagi izopropil guruhgidroksil va metil guruhlariga nisbatan trans yo'naltirilgan.



(-)-Mentol

Ushbu 3 ta holatdagi guruhlar «kreslo» konformatsiyasida ekvotirial holatda bir-biridan uzoqroqda joylashgan, (-) mentol va enantiomer ikkalasi 8 ta izomer ichida o'ta barqarordir. 280S - 380S haroratlar oralig'ida ratsematik mentol 2 ta kristallik formaga ega. Molekulasida uchta xirallik markazi bo'lgani uchun optik faollikka ega, metil efirlari xosil bo'lishida karbon kislotalarning xirallik markazlarini aniqlashda foydalaniladi.

Mentol birinchi marta Frantsuz ximigi Alьben Galler tamonidan 1905 yili sintezlagan. Mentol – qalampir yalpiz moyining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi (50%gacha). «Mentol» so'zi lotincha,

mentha– «yalpiz» va oleum– «moy» so’zlari birikmasidan kelib chiqqan. Mentol yapon yalpizi tarkibida 80% dan ko’proq miqdorda uchraydi.



Ushbu 3 ta xolatdagi guruxlar “kreslo” konformatsiyasida ekvotirial xolatda bir-biridan uzokrokda joylashgan, (-) mentol va enantiomer ikkalasi 8 ta izomer ichida uta barkarordir. 28 C va 38 C oralig‘ida ratsemitik mentol 2 ta kristallik formaga ega. Molekulasida uchta xirallik markazi bulgani uchun optik faollikka ega, metil efirlari xosil bulishida karbon kislotalarning xirallik markazlarini aniqlashda foydalaniladi.



Mentolning IQ spektri

	Moddalar	Brutto formulasi va tashqi ko‘rinishi, Mr	Suyuqlanish xarorati, ^{0}C	Eruvchanligi	IQ spektri
	Mentol	C10H20O Oq kristal modda Mr-156	42±2	Etanol, Atseton, Dioksan, Piridin	2869-2954(CH2) 2927(CH3) 3245(OH)

IQ-Fure spektrlari 4000-400 sm^{-1} yutilish diapazonida IQ-Fure spektrofotometri qurilmasi («Perkin-Elmer Spectrum IR»-10.6.1; AQSh) yordamida qayd qilindi. Spektrlar >4 sm^{-1} ruxsat etilish qiymati sharoitida aniqlandi. Sinov-namunalari tarkibidagi namlikni adsorbtsiyalash uchun vakuum sharoitida (0,1-0,05 mm s.u.) spektral toza holatdagi KBr («Merck», Германия) tabletkasi shaklida presslandi.

Mentol teriga surkalganda terini sovutadi, shu tufayli bosh ogriganida tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi, u antiseptik xossaga xam ega, burun va tomokning shillik pardlari yaliglangaganda kullaniladi.[1]

Yalpiz efir moylaridan mentolni ajratib olish uchun, uning tarkibidagi murakkab efirlari ishkoriy gidrolizga uchratiladi, keyin borniy kislota efiridan utkaziladi. Yogning tarkibidagi uchuvchan moddalar vakuum ostida xaydaladi, kolgan borniy efir natriy karbonat bilan gidrolizlanadi va suvli xammomda mentol xaydab olinadi.efir yogi tarkibida 50-70 % mentol buladi. Bundan tashkari timolni xam gidrogenlab olinadi.[2]

Mentol uchun bir kancha rengli reaktsiyalar mavjud: suvli eritmasiga 1 % vanilin eritmasi va kontsentrlangan sulьfat kislota ta'sir ettirilsa barkaror binafsha rang xosil buladi. Mentol uchun xos bulgan reaktsiyalardan biri uning tuzilishiga xos bulgan ikkilamchi spirtga xos reaktsiyalarni beradi. Xrom oksidi ishtirokida mentol mentongacha oksidlanadi. Mentol oson degidratlanadi, 2 % li sulfat kislota ishtirokida 3 mentengacha aylanadi, PCl_5 ta'sirida mentol mentilxloridga aylanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.A.Ettiboeva U.KAbduraxmonova "Mentha piperita" ning tarkibidan ajratib olingan terpenlarning xossalari. Biorganik kimyoni rivojlantirishning dolzarb muammolari. Xalkaro ilmiy anjumanning tezislar to'plami. 2013 y.

2. L.A.Ettiboeva "Mentha piperita" dan mentol ajratib olishning samarali usuli. JDPI " XXI asr intelektual avlod asri". Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. 2014 y.

3. L.A.Yettibaeva, U.K.Abdurakhmanova, A.D.Matchanov et al.Influence of glycyrrhizic acid, menthol and their supramolecular compounds on the functional activity of rat mitochondria in in-vitro experiments. Journal of the Korean Chemisal Society. Vol. 65, No.5. 2021. -RR 313-320. https://doi.org/10.5012/jkcs.2021.65.5.309.

4. Al-Rawi A., Chakravarty H.L., Medicinal plants of Iraq. ministry of agriculture and irrigation, state board for agricultural and water resources research, National Herbarium of Iraq, Baghdad. – 1988 – P. 65.

4. . Simonsen J.L. The Terpenes –V.I (2 nd edition), Cambridge University Press. —1947. —R.230—249.

5. . Adversoriorum varii argumentii**.**-Liber unus: Leiden, 1771, P.99.

SIRDARYO HUDUDIDAGI SUV XAVZALARI VA U BILAN SUG'ORILGAN TUPROQ TARKIBIDAGI QO'RG'OSHIN IONLARINI TABIIY OBEKTLAR TARKIBIDAN QO'SHIMCHALAR QO'SHISH USULI BILAN ANIQLASH

A.A.Ermatova, M.Э.Суннатов, Д.Ж.Йўлдошев
Katta o'qituvchi
E-mail: ermatova1212@mail.ru
Гулду талабаси
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Do'stlik va Janubiy Mirzacho'l kanallarining suvi va ushbu suv xavzalari bilan sug'orilgan ekin maydonlaridan olingan tuproq na'munalarining tarkibidagi qo'rg'oshin ionlarini tabiiy ob'ektlar tarkibidan qo'shimchalar qo'shish usuli bilan aniqlashga qaratilgan tajribalar bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar; og'ir metallar, kimyoviy elementlar, suv xavzasi, rux, qo'rg'oshin, tuproq tarkibi.

Ishlab chiqarish korxonalarining jadal rivojlanayotgan xozirgi davrda atrof-muxitda, texnogen faoliyatning aktivlashishi atmosfera, tuproq va suvga og'ir metallarning global emissiyasi sodir bo'lib tabiiy ekosistemaga negativ ta'sir etmoqda. Texnogen ifloslanish ekologiyaga, ayniqsa ko'p miqdori tuproqda, to'planishi kuzatilmoqda. Bu o'z navbatida, tuproq tabiiy unumorligi va o'simliklar

olamining rivojlanishiga salbiy ta’siri tufayli biologik hosildorlikning kamayishi tuproqni va atmosfera havosini ruxsat etilgan me’yordan qo‘p ifloslanganligi uchun ekosistemaga jiddiy zarar yetkazmoqda [1-4].

Mazkur maqolada Sirdaryo viloyati xududidan oqib o‘tadigan Do‘stlik va Janubiy Mirzacho‘l kanallari hamdauning suvlari bilan sug‘orilayotgan tuproqlar tarkibidagi og‘ir metallar miqdori bo‘yicha ma’lumotlar o‘rin olgan. Mazkur kanallar Sirdaryo, Jizzax viloyatlarining ekin maydonlarini suv bilan ta’minlaydi [4-5]. Ushbu kanal suvlari va u bilan sug‘orilgan ekin maydonlari tuprog‘i tarkibidagi og‘ir metallar miqdori hozirgacha kam o‘rganilgan [6-7].

Mazkur tadqiqotning maqsadi Sirdaryo hududidan oqib o‘tuvchi Janubiy Mirzacho‘l va Sirdaryo kanallarining suvlari va u bilan sug‘oriladigan ekin maydon tuproqlari tarkibidagi metallar miqdorini aniqlab, uni ruxsat etilgan me’yor zararli moddalarni taxminiy bezarar miqdorlari bilan taqqoslab, tahlil qilindi.

Pb^{2+} ionini tabiiy ob’ekt tuproq tarkibidan aniqlash uchun Guliston tumani tuprog‘idan foydalanildi.

Ish metodikasi: 1,0 g tuproq suvda eritiladi, suvda erimaydigan tuzlarni eritish uchun tiaga ostida nitrat kislota(1:1) quyilib, 100 ml kolbaga quyildi va belgisigacha distillangan suv quyildi. Analiz qilinayotgan aralashmada 50 ml li stakanlarda alikvot miqdorlar olinib, so‘ng 5 mkg qo‘rg‘oshin eritmasida 5 ml qoplovchi agent solindi. 10 ml natriy-4-((4-(3-(2-arsano-4-nitrofenil-tria-3-2-enil)-fenil)-diazenil)-benzosulfo natriy reagenti, sorbent va 5 ml ammiakli bufer eritmasidan solib, 8-10 min sorbtsiyalandi. Aniqlash “qo‘shildi-topildi” usulida tekshirildi.. Natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tuproq tarkibidan qo‘rg‘oshinni aniqlash

Tuproq tarkibi	Qoplovchi agent	Qo‘shildi	Topildi	S	S_r
Cl (0,413) Pb(0,105) Cu (0,297) Cd (1,386) As (7,100) Sulfatlar (740,7) Hg (0,13)	Tiomochevina	10,0	10,15	0,012	0,004

Demak, tuproq tarkibida qo‘rg‘oshin RECHM dan ko‘p emas ekan. Qo‘rg‘oshin, rux ionlarini ANDB yordamida aniqlashning ishlab chiqilgan usullari standart namunalarning komponentlari bilan bir xil bo‘lgan sun’iy aralashmalarda qo‘llanilgan.

Ionlarning xalaqit beradigan ta’sirini niqoblash uchun natriy ftorid eritmasidan foydalanildi. Analizni bajarish usuli: 250,0 ml sig‘imli kolbaga sun’iy aralashmaning alikvot qismi solinadi, ustiga 2,0 ml 2%li natriy ftorid eritmasi, 10,0 ml bufer aralashmasi solinadi va umumiy hajmi distillangan suv yordamida belgigacha yetkazildi.

Hosil bo‘lgan eritma immobillangan eritmadan o‘tkaziladi va aks etish yutilish spektri olinadi, qattiq tashuvchidagi spektrlar eritmani o‘tkazishdan avval va undan so‘ng olindi. Ishlab chiqilgan sorbtsion-fotometrik usullarni qo‘rg‘oshin, rux ionlarini real ob’ektlarda aniqlashda qo‘llash imkoniyatlarini topish uchun sun’iy ikkilamchi, uchlamchi va murakkab model aralashmalar tayyorlandi. Qo‘rg‘oshin, rux ionlarini individual va sun’iy aralashmalar va real ob’ektlarda aniqlash natijalari keltirilgan.

2-jadval

Sulfarsazen bilan rux ionlarini uning individual eritmalarida sorbsion-spektrofotometrik aniqlash natijalari (r=0,95)

Киритилган rux, мкг	**Топилган rux, мкг (P=0,95; $\bar{X} \pm \Delta X$)**		**S**	**Sr**
0,76	0,79 ±0,12		0,08	0,101

1,52	1,48 ± 0,14		0,09	0,061
3,04	3,07 ± 0,13		0,11	0,036
6,08	6,19 ± 0,15		0,12	0,019
12,16	12,05 ± 0,21		0,13	0,011
24,32	24,29 ± 0,18		0,15	0,006

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, rux, qo‘rg‘oshinlarning barcha aniqlanadigan miqdorlari uchun yetarli darajada qayta tiklanadigan, to‘g‘ri natijalar olinadi, ular kiritilgan konsentratsiyalarga yaqin, aniqlashda yo‘l qo‘yilgan xatoliklar ishonch intervali chegarasidan chiqmaydi, bu sistematik xatoliklarning yo‘qligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Сманова З.А..Инатова М.С. Новые органические реагенты для концентрирования и твердофазно-спектрометрического определения металлов при анализе вод. //Химич. промышлен.-Санкт-Петербург. - 2011.-№1.-303-308 б.

2.Smanova Z.A., Inatova M.S., J.Nurmukhammadov, H.Tojimukhamedov Synthesis and properties of a new analytical reagent. 2-hydroxy-3-nitrosonaphthalene-1-carbaldehyde//.Russian Journal of Organic Chemistry 2014. Volume 50. Issue 6 . PP. 895-897

3. Дабахов М.В.. Дабахова Е.В.. Титова В.И. Экотоксикология и проблемы нормирования. Н. Новгород: Изд-во ВВАГАС. 2005. 165с.

4. А.А.Эрматова, З.А.Сманова, У.К.Абдурахманова, Ф.А.Лапасова, Х.А.Эгамкулова // Разработка сорбционно-спектроскопических методов в результате иммобилизации ионов цинка из сточных вод в объектах окружающей среды . Россия, Universum (Химия и биология). -2022. 12(102). –С. 5-12.

SIRDARYO VILOYATIDA O‘SUVCHI “RUBIA TICTORIUM L” O‘SIMLIGI ILDIZI EKSTRAKTI TARKIBINI XROMOTOGRAFIK TAHLIL QILISH”

Yusupov B.A., U.K.Abduraxmanova
Guliston davlat universiteti, Guliston sh.

Keyingi vaqtlarda o‘simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar, ularning xossalari va hosilalarini olishga doir tadqiqotlarga qiziqish ortib bormoqda. Shuni hisobga olganda, o‘simlik moddalarining kimyoviy tarkibini o‘rganish va ularning xossalarini tadqiq qilishga qaratilgan ushbu tadqiqot ishida ham “Rubia tictorium L” o‘simligi ildizi ekstrakti tarkibini xromotografik tahlil qilish maqsad qilib olingan.

“Rubia tictorium L” o‘simligining quruq ekstrakti ekstraktiv moddalar yig‘indisidan iborat. Tarkibida 8 % ga yaqin antratsen unumlari bor. Ekstrakt - rangli kukun, nordon ta’mli va gigroskopik ko‘rinishga ega. O‘simlikning yer ostki kismlaridan tayyorlangan quruq ekstrakt boy kasal (podagra), buyrakda tuzlar yig‘ilishiga qarshi, fosfat, oksalat – tuzlaridan iborat toshlarini parchalovchi preparatlar sifatida ko‘llaniladi. Preparat tabletka ko‘rinishida chiqariladi.

Tajribalarimizda o‘simlikning yer ostki qismidan olingan ekstraktdan foydalaniladi. Ildizida 5-6% oksimetilantraxinonlar va ularning unumlari mavjud. Bundan tashqari ildizi o‘z tarkibida limon, olma va vino kislotalari, shakar, oqsil, pektinli va dubil moddalarni saqlaydi.

“Rubia tictorium L” o‘simligining yer ostki qismi ya’ni ildizini 2-3 mm gacha maydalanadi va xomashyo tarkibidan antratsen unumlarini ekstraktsiyalandi. Ekstraksiyalangandan keyin vakuum yordamida rektifikatsion kolonkaga yuborildi va spirtda rektifikatsiya kilinadi. Kolonkada qolgan chikindini qoldiqga chiqarib tashlanadi.

Ro‘yan o‘simligi ildizini ekstraksiyalash.

Ro‘yan o‘simligi ildizi kovlab olinib, 105^0 C haroratda quritildi va maydalandi (1-rasm)

1-rasm. Maydalangan ro‘yan ildizi

Maydalangan ro‘yan ildizidan 100 g miqdorda tortib olinib, tubi yumaloq termostatik 1000 ml li ekstraksiya kolbasiga solindi va uning ustiga 500 ml geksan quyilib chayqatildi.

Kolba suv hammomiga joylashtirilib, unga suvli sovutgich o‘rnatildi. Suv hammomida qizdirish 60 C haroratda 1 soat vaq davom ettirildi. Haroratni doimiyligini taminlash maqsadida suv hammomiga termometr o‘rnatildi.

2-rasm. Estraksiya jarayoni

1 soatdan so‘ng kolba suv hammomidan olindi va Byunxer voronkasida vaakumli so‘rgich yordamida filtrlab olindi.

Ekstraksiyalash jarayoni xuddi shu tartibda yana bir marotaba olib borildi va oligan ekstrakt eritmalari aralashtirildi

Quyuk ekstraktni olish. Birlashtirilgan spirtli ekstraktlarni vakuum - tsirkulyasion bug‘latish apparatida 50^0C da katta bosimda 1/15 kism qolguncha bug‘latildi. Spirtli ekstrakt massasi kristallizatorda 5^0C xaroratda 24 soatga qoldiriladi, 24 soatdan keyin nutch-filtrda filtrlandi va so‘ngra etanol bilan yuvilib, xromatogrammasi olindi. Taxlil natijalariga ko‘ra quyuq ekstrakt 59-60% namlik va 30-31% antratsen unumlaridan antronni saklaydi.

Antron



Peak	RT	Area	Height	Type	Width	FWHM	SNR
1	1.99	470084029.9	32853666.1		0.683	0.197	
2	13.532	74655478.26	9671447.66		0.295	0.114	
3	16.622	83529999.93	8752078		0.352	0.135	
4	17.341	5837963147	462848425		0.819	0.181	
5	18.139	375654225.7	33328091.8		0.482	0.141	
6	19.576	59360460.96	6181538.56		0.359	0.156	
7	20.108	590921461.4	53258014.7		0.561	0.167	
8	21.15	195325196.6	11978556.8		0.781	0.237	

- Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan” Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. - 56 b.
- О.С.Садиков, К.С.Султанов Органик химия Тошкент, Навоий, 30, «Уқитувчи» нашриёти. 1966
- Farmakognoziya (H.Xolmatov, O‘.Ahmedov) Abu Ali ibn Sino Toshkent 1997.
- Химический анализ лекарственных растений Под редакцией проф Н. И. Гринкевич, доц. Л. Н Сафронич МОСКВА «ВЫСШАЯ ШКОЛА» 1983

MENTOLNING BENZOY KISLOTA BILAN YANGI HOSILASINI TUZILISHINI TADQIQ QILISHNING TUZILISHINI TADQIQ QILISHNING IQ SPEKTROSKOPIK USULI

Xoliqov M, L.A.Yettibayeva
Gulistan Davlat Universiteti
E-mail: lola1981a@mail.ru

Mentol - siklik monoterpen spirti bo‘lib, u yaxshi sovutish xususiyatlariga va olingan yog ‘qoldiqlarining qoldiq yalpiz hidiga ega. Ushbu xususiyatlar tufayli u vanil va sitrusdan tashqari eng muhim xushbo‘y qo‘shimchalardan biridir. Shu sababli, u shokolad va saqich kabi qandolatlardan tortib tish pastasi kabi og‘izni parvarish qilish mahsulotlarigacha, shuningdek sovutish va biologik ta’sir ko‘rsatishi uchun retseptsiz sotiladigan dorivor mahsulotlarda qo‘llaniladi. Uning sovutish ta’siri faqat tibbiy maqsadlarda qo‘llanilmaydi. Bozordagi sigaretlarning to‘rtdan bir qismi mentolni o‘z ichiga oladi va oz miqdorda mentol hatto mentolsiz sigaretlarga ham kiradi [1]. Tabiiy mentol faqat Mentha canadensisdan ajratilgan, ammo turli jarayonlar orqali sanoat miqyosida ham sintezlanishi mumkin. Mentol sakkizta stereoizomerik shaklda mavjud bo‘lsa-da, tabiiy manbadan olingan (-)-

mentol va bir xil tuzilishga ega sintezlangan mentol eng ko‘p afzal qilingan izomerdir. Mentholga talab yuqori va ilgari mentoldan butun dunyo bo‘ylab yiliga 30-32 000 metrik tonna foydalanish taxmin qilingan edi [2]. Mentol efir moylarining asosiy birikmasi emas, chunki uni faqat cheklangan miqdordagi aromatik o‘simliklarning tarkibiy qismi sifatida topish mumkin. Bu o‘simliklar antibakterial, antifungal, antipruritic, antikanser va og‘riq qoldiruvchi ta’sirlar kabi in vitro va in vivo biologik faollikni namoyon etishi ma’lum va shuningdek, samarali fumigatordir. Bundan tashqari, mentol farmatsevtika vositalarining teriga kirib borishini kuchaytirish uchun ishlatiladigan eng samarali terpenlardan biridir. mulasi $C_{10}H_{20}O$ (mol. og‘irligi 156.27) uchta assimetrik uglerod atomiga ega bo‘lgan tabiiy birikma bo‘lib, to‘rt juft optik izomer shaklida uchraydi, ya’ni (+)- va (−)-izomentol, (+)- va (−)-mentol, (+)- va (−)-neomentol, (+)- va (−)-neoizomentol

Mentolning bir asosli karbon kislotalari gomologik qatori bilan yangi hosilalarini sintez qilish usuli

Karbon kislotalar bir asosli karbon kislotalar kabi xossalarga ega, spirtlar bilan reaksiyaga kirishib murakkab efirlarni tashkil etadi. Bu etirifikasiya reaksiyasi deb ataladi. Mentol birlamchi spirt xossasini ko‘rsatgandan keyin, tadqiqotning keyingi bosqichida adabiyotlarga tayangan holda mentolning dikarbon kislotalar bilan yangi hosilalari sintez qilib olindi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda mentolning malein kislotasi bilan yangi hosilasi sintezi amalga oshirildi. Mentol (3 metil-6-izopropilsiklogeksanol) 1:1 nisbatda benzoy kislotasi bilan, katalizator (H_2SO_4) ishtirokida yangi hosilasi sintez qilib olindi.

Buning uchun 500 ml kolbaga teng moli miqdorda olingan mentol va karbon kislotalarning kristallarini solib, 80 ml o-ksilol eritmasidan solindi. Kolba og‘ziga Din-Star lovushkasi va qaytar xolodilinik o‘rnatildi. 12 soat davomida qizdirildi. Ajralgan aralashmadan rotor bug‘latgichida erutuvchi haydab olindi, qolgan qoldiq quritilib, qayta kristallash orqali toza xoldagi modda olindi. Olingan moddannig unumi 80-85% ni tashkil etadi.



Mentol va benzoy kislota hosilasining mentolbenzoatning IQ spektri

Yangi sintez qilingan mentolning benzoy kislota hosilalarining IQ speltrida karbonil gurugning C=O guruhining valant tebranishlari 1730-1710 $см^{-1}$ sohada kuzatilsa, mentolning –OH guruhlarning valent tebranishlari 3500-3250 $см^{-1}$ sohada kuzatiladi va gidroksil guruhlarining asetil guruhlariga almashinib borishi natijasida ularga tegishli bo‘lgan tebranishlar chastotasi so‘nib borishi bilan izohlanadi. Olingan murakkab efirning fizik kimyoviy kattaliklari aniqlandi, ularning tuzilishi IQ spektrlarini dastlabki moddalar spektri bilan taqqoslash yo‘li bilan tasdiqlandi.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Guy P.P. Kamatou Ilze Vermaak, Alvaro M. Viljoen, Brian M .Lawrence Menthol: A simple monoterpene with remarkable biological properties// Phytochemistry.-2013.- Volume 96.-P.

2. Sell CS: A fragrant introduction to terpenoid chemistry. Royal Society of Chemistry 2003.

KIMYO FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Mengliyev Mirpo‘lat Urozmahammad o‘g‘li, Abduraxmanova Ugilay Koxxorovna, Muzaffarova Feruza Orifjon qizi
o‘qituvchi
b.f.d., prof.
talaba
Guliston davlat universiteti
e-mail: ugi_lay.912@mail.ru

Biz ilm-fan va texnologiya bilimlariga asoslangan dunyoda yashayapmiz, bu yerda hech bir shaxs ilmiy usullarning asosiy bilimlari va ma’lum texnologik ko‘nikmalarsiz jamiyatda yashay olmaydi. Jamiyat iqtisodiy va moddiy taraqqiyot uchun ko‘p jihatdan ilmiy bilim va tushunchaga bog‘liq. Fanning tabiati nazariyalar va jarayonlarni tajriba qilish orqali dunyoni o‘rganish va talqin qilish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘qitish orqali ilmiy tajribalarni qanday amalga oshirishga o‘rgatish kerak. Biologiya, fizika va kimyo kabi fanlarni samarali o‘rgatish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirishga, qiziquvchan, ochiq fikrli va oxir-oqibatda muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Fan ta’limi bolada ijodkorlik, ob’ektivlik va estetik hissiyotlar kabi ba’zi qobiliyat va qadriyatlarni rivojlantirishga yordam berish uchun kuchaytirilishi kerak. Fan bo‘yicha ta’lim dasturlari o‘quvchilarga muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallashlari va ularning kundalik faoliyatida fanning ta’sirini aniqlashlari uchun mo‘ljallangan bo‘lishi kerak [1-2].

Demak, fanni o‘qitish yondashuvi deganda fan o‘qituvchisi tomonidan o‘quvchilarga ilmiy usullarning tushunchalari va jarayonlarini tushunishga yordam berish va ularning o‘quv samaradorligini, munosabatini yaxshilashga yordam berish maqsadida sinfda o‘qitish uchun qo‘llaniladigan harakat va tamoyillarning umumiy rejasi, pedagogika va boshqaruv strategiyasi tushuniladi.

Bu qanday yondashuvlar?

O‘qitishning eng qadimgi usuli bo‘lgan ma’ruza usuli - o‘qituvchiga yo‘naltirilgan o‘qitish usuli. Bu usulni qo‘llashda o‘qituvchi tushuntirish orqali va tana imo-ishoralari, oddiy asboblar, ovozni o‘zgartirish, pozitsiyani o‘zgartirish va yuz ifodalarini qo‘llash orqali o‘rganish mazmuniga e’tibor qaratadi. Bunday yondashuvda o‘qituvchilar faolroq, o‘quvchilar esa passiv bo‘lishsa-da, o‘qituvchi sinfni interaktiv qilish, shuningdek, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun savollar beradi.

An’anaviy ma’ruza usuli bilan bog‘liq kamchiliklarni hisobga olgan holda, fan tushunchalarini silliq o‘qitishni yaxshilash uchun tadqiqotlar orqali o‘quvchilarga yo‘naltirilgan o‘qitishning bir nechta yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Ushbu o‘qitish yondashuvlari fan tushunchalarini mazmunli tushunishga yordam berish, shuningdek, talabalarning yutuqlari, munosabati, motivatsiyasi, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qila olish, ijodiy bo‘lish nuqtai nazaridan o‘quv faoliyatini yaxshilash zarurligiga javob sifatida ishlab chiqilgan. O‘qitishning ma’ruza uslubidan farqli o‘laroq, ushbu innovatsion o‘qitish yondashuvlari aniq yo‘naltirilgan va ularning ba’zilari o‘rganishni yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Kimyo va boshqa fanlarni samarali o‘qitish va o‘rganish bir yoki bir nechta mos innovatsion o‘qitish strategiyalaridan foydalanishni talab qiladi.

Kimyo fani faoliyatga yo‘naltirilgan fan bo‘lganligi sababli, talabalardan laboratoriya tajribalariga faol kirishishlari va mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchi yordamida individual yoki guruhlarda bajarishlari kerak. Shuningdek, ilm-fan va texnologiya sohasidagi bilimlar ko‘lami yillar davomida keskin oshdi va an’anaviy yondashuvdan foydalanish eskirgan, ko‘lami cheklangan va raqamli asr o‘quvchilariga kengayib borayotgan bilimlarni o‘tkazishda samarasiz bo‘lib chiqdi.

Demak, ta’lim oluvchilar nafaqat nazariy o‘rganishga ixtisoslashgan, balki ularga amaliy bilim berish, ko‘nikmalarini charxlash, jamiyatdagi har qanday qiyinchilikka dosh bera oladigan bilimli bo‘lishini ta’minlaydigan bilim olish uchun yangi texnika va usullarni talab qiladi. Fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash ushbu maqsadlarga erishishning mumkin bo‘lgan yo‘lidir.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol, innovatsion usullardan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. Shu sababi an’anaviy ta’limda o‘quvchiga tayyor bilim beriladi, zamonaviy texnologiyalar ularni mustaqil izlashga, o‘rganishga va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ko‘lamini oshirish va takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega, jumladan:

- Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning fanga qiziqishini doimo oshiradi;
- Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonida o‘quvchi madaniyatini yuksaltirish rivojlanadi;
- Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarga o‘z bilim va iqtidorini namoyon etish imkonini beradi;
- O‘quvchida ijobiy sifatlarni shakllantiradi.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Dars jarayonlarini tashkil etishda kompyuter texnologiyasining o‘quv jarayoniga qo‘llanilishida, asosan zamonaviy axborot texnologiyalari o‘quv-texnik vositalari: kompyuter sinflarining, multimedia proektorlari, elektron doska, Smart mobil qurilmalarning mavjudligi talab etiladi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi insoniyatning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. Ta’lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan xarakterga ega bo‘lishi, ya’ni shaxsning har xil xususiyati va sifatiga e’tibor qilgan holda differentsiyalangan bo‘lishi kerak.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, yangi sharoitda asosiy vazifa ta’lim tizimining asosiy maqsadi ishlab chiqarish uchun malakali kadrlar tayyorlash bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. У.К.Абдурахманова, Т.Жураев, Ф.Исмаилова Использование интерактивных методов при преподавании химии. «Перспективы развития науки и образования» Сборник научных трудов по материалам международной научно-практической конференции Россия, Тамбов. 2015. стр. 8-9
2. У.К.Абдурахманова, Н.О.Умирова, М.Р.Аскарова, М.Б.Сирожиддинов //Роль современных инновационных технологий в повышении качества учебного процесса. Ж. Евразийский Союз Ученых. № 6(63), 2019. -С 8-10. doi: 10.31618/ESU.2413-9335.2019.6.63.183.
3. Mengliyev M.U., Abduraxmanova U.K. O‘quv jarayonini tashkil etishda axborot texnologiyalarining axamiyati //«Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik» Xalqaro ilmiy amaliy konferentsiya. Guliston. 2023. –B. 110

INDIGONI OLINISHI VA UNI TOZALASH USULLARI HAMDA SPEKTROSKOPIK TAXLILI

Majidov S.A, Abduraxmanova U.K
tayanch doktorant, DSc, professor
Guliston davlat universiteti
E –mail: ugi_lay.912@mail.ru

Hozirda malakatimizda kimyo sanoati sohasining jadal rivojlanishi natijasida tabiiy bo‘yoqlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda, odatda ip va gazlamalarni bo‘yash uchun rang-bo‘yoqlar chet mamlakatlardan keltiriladi. Olib kelinayotgan turli bo‘yoq moddalarining ranglar hosil qilish barqarorligi kam bo‘lib, ular asosan sintetik yo‘llar bilan tayyorlangan bo‘yoqlardir. Tabiiy bo‘yoqlar ekologik toza mahsulot sanaladi va ular bilan bo‘yalgan ip va gazlamalar ko‘p vaqtlar mobaynida o‘z sifatini o‘zgartirmaydi[1-2].

Bo‘yoq moddalari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish maqsadida tarkibida indigo bo‘yog‘ini saqlagan o‘simliklar tarkibidan tabiiy bo‘yoq moddasini ajratib olish asosida mahalliy homashyo resurslarini aniqlashning ilmiy asoslarini yaratish bilan birga, chetdan introduksiya qilingan «Indigofera tinctoria L” o‘simligini maxalliylashtirib, undan tabiiy bo‘yoq moddalarini ajratib olishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy tadqiqotimizning asosiy obekti hisoblangan indigo moddasi tabiiy bo‘yoqlar ichida o‘z o‘rniga ega[3].

Tarkibida bo‘yoq moddalari saqlagan o‘simliklar juda ko‘p bo‘lib, shulardan eng samarali va barqaror bo‘yoq moddalari olish imkonini beruvchi o‘simliklardan biri chetdan introduksiya qilingan «Indigofera tinctoria L” o‘simligidir. Bu o‘simlikning asosiy tarkibiy qismi Shularni hisobga olganda ushbu maqolada taxlil qilinayotgan muammoning echimi hozirgi kunda dolzarbdir[4].

Indigo bo‘yoq moddasining tuzilishi:



Indigo bo‘yoq moddasi tarkibi 2-(1,3-digidro-3-okso-2H-indol-2-iliden)-2,2-digidro-3-H-indol-3-bir,($\delta^{2,2}$-biindolin)-3,3-diondan iborat bo‘lib, moviy rangli kristall modda [3-5]. Organic erituvchilarda (nitrobenzol, xloroform) nisbatan kam eriydi. Tarkibidagi elektronodonor xususiyatga ega bo‘lgan atomlar va guruhlar borligi sababli reaksion qobiliyati yaxshi va uni sulьfolash reaksiyasi natijasida suvda yaxshi eriydigan kislota-asosli indikatorlik xususiyatlariga ega bo‘lgan indigokarmin olinadi. Indigokarmin rN =11,6-14,0 intervalida ko‘k rangdan sariq ranggacha o‘zgaradi [3-5].

Adabiyotlardan ma’lumki, indigo molekulasida qo‘shbog‘lar ikkita indoksil guruhini o‘zaro bog‘lab turgani uchun molekula nazariy jixatdan ikki xil geometrik izomer (sis- va trans-shakl) holida mavjud bo‘lishi kerak, ammo indigo qaysi usulda olinishidan qat’i-nazar, hamma vaqt trans- shaklda hosil bo‘ladi [3-5], bundan trans- shaklning barqarorroq ekanligini bilish mumkin:



Ko‘k indigo(trans shakl)

Birinchi marta indigo juda past unum bilan o-nitroatsetofenondan katalizatorlar rux, natriy gidroksid va kalsiy oksidlar ishtirokida sintez qilingan.



Glitserin va o-aminobenzilspirti aralashtirilib, suvli eritmasiga kaliy gidroksid qo‘shib, qizdirilishidan oz miqdorda indigo xosil bo‘ladi [1,3]. Bu jarayonning borishi antrantil kislotasining xosil bo‘lishi bilan bog‘liq. Lekin ushbu sintez usullarining barchasida reaksiya unumi juda past bo‘lganligidan butun dunyoda xozirda indigo tabiiy manbalardan olinishiga katta e’tibor qaratilmoqda [1,3].



Xozirgi kunda tabiiy bo‘yoq moddalarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shuning uchun biz indigoning kimyoviy xossalarini o‘rganishimiz, tabiiy bo‘yoq moddalarni ishlab chiqarishda amaliy axamiyatga ega. Tadqiqotlarimiz davomida indigoning tabiiy manbalardan ajratib olish usulari asosan “Indigofera tinctoria L” o‘simligi tarkibidan ajratib olish yo‘lga qo‘yildi.

Yupqa qatlamdagi xromatografik tahlil ham bir xil erituvchilar aralashmasi yordamida olib borildi. Ajratib olingan mahsulotlarning tuzilishi va xossalari fizik-kimyoviy jihatdan qiyosiy taxlil qilindi.



1-rasm. Tajribada “Indigofera tinctoria L”dan ajratib olingan indigoning IQ-spektri.

O‘simlik tarkibidan ajratib olingan indigoning IQ- spektri taqqoslanganda taxlil natijalari ko‘rsatishicha, molekula tarkibi spektr signallarida 3200-3600 nm masofa oralig‘idagi (3428,25 nm da chuqur yutilish mavjud) yutilish modda tarkibida –imino(-NH) guruh borligidan darak beradi. Modda tarkibidagi C=O guruhi 1628,3 nm da yutilish namoyon qilgan. 2800-3000 nm masofa oralig‘idagi (2926 va 2851.54 nm da) 2ta kichik yutilish modda tarkibida aromatik birikma va C=C guruh mavjudligini ko‘rsatadi.

IQ-spektroskopik taxlil natijalari ko‘rsatishicha har ikkala o‘simlikdan ajratib olingan moddalarning tarkibida indigo moddasi tuzilishi va fizik xossalari bilan bir-birini takrorlaydi.



5-rasm. “Indigofera tinctoria L”dan olingan moddaning UF-spektri

UF spektroskopiyasi natijalari ko‘rsatishicha Indigo moddasi ko‘k rangda bo‘lganligi uchun 600 nmda yutilish sodir etganini ko‘rish mumkin.

Indigo moddasini yupqa qavatli xromotografiyadan o‘tkazilganda, uning tarkibi 3 xil komponentdan tashkil topganligi aniqlandi. Buning uchun sorbent sifatida silikagel 120, diametri-15 mm li shisha kolonka nay va erituvchi sistema sifatida xloroform:geksan: metanol (7:4:1) aralashmasidan foydalanildi. Bunda Rf qiymatlari va ranglari turlicha bo‘lgan 3 ta modda yani indigoning izomerlari aralashma holatda ekanligi o‘rganildi.

Xromotografik tahlil natijalari

№	Rf	rangi	Namunadagi miqdori ~ %
1	0.77	Siyohrang	~30
2	0.69	havorang(ko‘k)	~50
3	0.49	qizil	~20

Olingan namunalarning tozalik darajasi yuqori samarali suyuqlik xromotografida tekshirilganda ko‘k rangli indigo nisbatazan toza holda ajratib olinganligi aniqlandi.



2-rasm. Indigoning YuSSX tahlili spektri

Tabiiy manbalardan ajratib olingan Indigoning tuzilishi va fizik-kimyoviy xususiyatlarini adabiyotlardagi ma’lumotlar bilan qiyosiy taxlil qilindi. Natijada indigofera o‘simligidan ekstraksiya qilingan bo‘yoqning tarkibi indigoga mos kelishi aniqlandi. “Indigofera tinctoria L” o‘simligidan laboratoriya sharoitida indigo bo‘yog‘ini ajratib olish usuli ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Majidov S.A., Egamqulova H.A., Gapparov S.O‘, Abduraxmanova U.K “Indigoni olinish usullari va spektroskopik taxlili” QDPI ilmiy xabarnomasi. 2021.№4. 28.

2. **С.А.Мажидов Х.К.Эгамбердиев,** “Информационные технологии являются основой обеспечения качества образования по химии” «Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik» Xalqaro ilmiy amaliy konferentsiyasi. İstanbul Ticaret Üniversitesi Yayınları. 2023 yil -B.53.

3. S.A.Majidov, U.K.Abduraxmanova “Temir (III) ionini miqdoriy aniqlashning optimal sharoitlarini o‘rganish texnologiyasi” «sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik» Xalqaro ilmiy amaliy konferentsiyasi . İstanbul Ticaret Üniversitesi Yayınları 25-24 may 2023 yil 85-bet.

4. Majidov S.A., Abdurxmanova Ó.Q., Z.T Xalmuratova’Indigoning reagentlik xossalari va gossipolsirka kislotasi bilan tásiri” ҚDU axborotnomasi. Nukus. 2023 yil. №1. 39-bet.

“SIRDARYO” ERKIN IQTISODIY ZONASIDA ZAMONAVIY NOORGANIK QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARISH ISTIQBOLLARI

Tashbayeva Shoira Kasimovna
Guliston davlat universiteti Kimyo kafedrasi, katta o‘qituvchi

Aksariyat davlatlarning tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, uy-joy qurilishi va infratuzilma sohasini taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash milliy iqtisodiyotni qayta tiklashning hal qiluvchi vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada qisqartirish, qurilish materiallari sanoatini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil etishni rag‘batlantirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini kengaytirish, tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilish mazkur soha oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardandir. Ilgari chetdan olib kelingan komponentlarni foydalanishi oson bo‘lgan va arzon mahalliy xomashyo bilan almashtirish yiliga 45 milliard so‘mga yaqin mablag‘larni tejash imkonini berdi.

So‘nggi paytlarda bo‘lib o‘tayotgan voqealar, yuzaga kelgan vaziyatlar esa zamonaviy qurilish materiallariga bo‘lgan ehtiyoj va talablarni keskin oshirib yubordi. Masalan, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi 6 ta tuman ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlash maqsadida barpo etilgan suv inshooti - Sardoba suv ombori to‘g‘onining bir qismi 2020 yilning 1 may kuni o‘pirilib, suv toshib texnogen falokat yuz bergandi.

Favqulodda vaziyat oqibatida Sardoba, Mirzaobod va Oqoltin tumanlarida 2 570 ta uy-hovli, 76 ta ko‘p qavatli uy yaroqsiz holga kelgan edi. Shuningdek, 1 ming 781 hovli, 52 ta ko‘p qavatli turar joy qisman zararlangan. 70 ta ijtimoiy ob’ekt, 20 ming gektarga yaqin ekin maydoni, 828 kilometr yo‘l, elektr, gaz, ichimlik suv, aloqa tarmoqlariga talafot yetgan. Qozog‘iston Respublikasi Turkiston viloyati Maqtaral tumanining ayrim aholi punktlarini ham suv bosib zarar yetkazgan.

Uy-joylari butunlay yaroqsiz holga kelib qolgan aholi uchun 3 ta massivda jami 2640 kvartirali 66 ta 5 qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan. Xususan, Sardoba tumani “Do‘stlik” mahallasida 1480 xonadondan iborat 37 ta uy barpo etildi.

Shunga o‘xshash holatlar, zarar yetgan uy-joylarni tiklash va ta‘mirlash, odamlarni o‘zining tiklangan uyiga qaytarish va ro‘zg‘origa yordam berish, infratuzilmani tiklash, aholi salomatligini himoya qilishda **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2019 yil 20 fevraldagi PQ**-4198-sonli “Qurilishi materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan belgilab berilgan “...mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, zamonaviy yuqori sifatli qurilish materiallarini ishlab chiqarishning ikkilamchi xomashyoni qo‘llash hamda energiya va resurs tejovchi ilg‘or texnologiyalarini sohaga keng joriy etish ...” kabi muhim vazifalarga to‘liq amal qilindi [2].

Zamonaviy dunyoda texnik xususiyatlari, alohida qo‘llanish va ishlatish xossalari bilan farq quluvchi juda xilma- xil qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqdaki, ularni bitta aniq xulosa bilan tasniflash imkoni yo‘q. Tarkibi jihatidan qurilish materiallari har qanday moddalar kabi mineral, organik va kombinatsiyalangan (organomineral) larga bo‘linadi [3].

Hozirgi vaqtda bino va inshootlar qurilishi shiddat bilan „ho‘l“ usuldagi qurilishdan „quruq” usulga o‘tib bormoqda. Zamonaviy binolar qurilishini qoplama materiallar, ya‘ni yog‘och qipiqli plitalar, sement qipiqli plitalar, gipsokarton listlari yoki shular kabi materiallarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. An’anaviy yog‘och taxtalar ekologik toza, chidamli va mustahkam bo‘lishiga qaramasdan, bir kamchiligi uning o‘lchamlari kichkina. Markaziy Osiyoda yog‘och ozligi sababli undan foydalanish ma‘lum sabablarga ko‘ra chegaralangan. O‘zbekistondagi qurilish materiallari bozorida qoplama listlar paydo bo‘lishi bilan tez ommalashib ketdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5412-sonli Farmoni asosida viloyatning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda mahalliy mineral-xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega raqobatbardosh, import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarilishini kengaytirish va boshqa vazifalar belgilab berilgan edi [4].

Mazkur Farmonga ko‘ra, 2009-yil 28-martda Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida tashkil etilgan “Peng Sheng” O‘zbekiston-Xitoy qo‘shma korxonasi ham “Sirdaryo” EIZ tarkibiga kiritilgan. Ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish uchun 128,5 million AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilgan. Ayni paytda korxonada 2,5 ga yaqin ishchi-xodim faoliyat yuritmoqda. Qo‘shma korxonada poyabzal

va qurilish materiallari ishlab chiqarish, teri oshlash, elektr jihozlar, uyali aloqa vositalari, keramik kafellar va vanna aksessuarlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Yaltiroq sopol qoplamalar (kafel plitalar), jo‘mrak, tos kabi santexnika jihozlari, ishlov berilgan teri mahsulotlari, uy jonivorlari uchun ozuqalar tayyorlashga ixtisoslashgan mazkur sanoat majmuasi yuksak texnologiyalar, so‘nggi rusumdagi asbob-uskunalar bilan ta‘minlangan.

Korxonada keramik plitalar ishlab chiqarish 2010-yil noyabrda boshlangan. Hozirda kunda yiliga esa 11 million kvadrat metr kafel ishlab chiqarilmoqda. Bu Markaziy Osiyodagi eng yirik ko‘rsatkichdir. Korxona vakillariga ko‘ra, hozirda yuqori sifat sertifikatiga ega keramik plitalar Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Rossiya va Ukrainaga ham mahsulot eksporti yo‘lga qo‘yilgan.

Shuningdek, 2 mln. 500 ming AQSh dollari qiymatiga barobar uy jonivorlari uchun ozuqalar eksport qilinmoqda. Aytish mumkinki, bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi tashqi bozor uchun mo‘ljallangan.

Yurtimiz olimlari qurilish materiallari tarkibini ishlab chiqish, strukturasi va xossalarini yaxshilash masalalarini o‘rganishda bir qator tadqiqotlar olib borganlar va muhim natijalarga erishganlar. Djandullaeva M.S., Ataqo‘ziev T.A., Qobulova L.B. lar soda zavodi qattiq chiqindilari (SZQCH) qo‘shilgan ohak-qumli aralashmalardan tayyorlangan avtoklavlangan namunalarda mayindispers zarrachali SZQChning mavjudligi ularning sovuqqa bardoshlik xususiyati jiddiy oshishiga sabab bo‘ladi. Buning natijasida mayindispers SZQCH qo‘shimchali avtoklavlangan namunalarda ko‘plab mikrokapillyarlar bo‘lib, ularning ichidagi suv muzlamaydi, shu sababli silikat g‘ishtining sovuqqa bardoshligi ancha ortishini asoslab berishgan [5].

Samarali devorbop keramik materiallarning tarkibini ishlab chiqish, strukturasi va xossalarini yaxshilash muammolari bilan jahondagi yirik tadqiqotchilar shug‘ullanib, ushbu masalalarni hal qilishga katta hissa qo‘shganlar.

Kelajakda “Sirdaryo” EIZ mahsulotlari assortimenti kengayib, yuqorida keltirilgan silikat kafel kabi buyumlar bilan birga shishapaketlar, shishabloklar ishlab chiqarish texnologiyalari yo‘lga qo‘yiladi. Ulardan vannaxonalarning devorlari, xonalar orasidagi pardevorlarni, devorlarda dekorativ elementlar va boshqalarni qurishda foydalaniladi.

Shuning uchun zamonaviy noorganik qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish va ishlatishda energiya va resurs tejamkorlikni ustivor holat deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 yil, 70 – modda.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining** “Qurilishi materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ**-4198-sonli Qarori. 20.02.2019.
3. Samigov N.A. “Energiya va resurs tejamkor qurilish materiallari va texnologiyalar”. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2016, 424 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi “Sirdaryo” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5412-sonli Farmoni.
5. Djandullaeva M.S., Atakuziev T.A., Kabulova L.B. Silicate brick on resource - saving technologies // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, 2015. - №9-10. - R.107-111. (02.00.00; №2).

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИДА КЕНГ ТАРҚАЛГАН “MENTHA PIPERITA” ЎСИМЛИГИДАН МЕНТОЛ ТУТГАН ЭФИРНИ АЖРАТИБ ОЛИШ ВА МАСС СПЕКТРОСКОПИК ТАХЛИЛИ

Г.Т. Мамиркулова, Л. А. Еттибаева
Гулистон давлат университети

Ялпиз ўсимлигидан олинган биологик фаол бирикмалар юқумли касалликлар устида ишлайдиган олимлар учун доимо катта қизиқиш уйғотиб келган[1]. Ялпиз мойи ва экстрактлари антимикроб хусусиятга эга, ҳар хил микроблар фаолиятига қарши кўрсатади.

Ичак таёқчаси, Salmonella pullorum, Stafilacoc aureusi, Staphylococ uspyogenes, Mikobakterium avium, Salmonella tifi [2] кабиларга қарши қўлланилади. Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, ялпиз барглари экстракти антибактериал фаоллиги унинг илдизи экстрактига қараганда юқори. Бир қатор тадқиқотлар шуни кўрсатдики, ялпиз баргларидан олинган эфир мойи энг юқори антибактериал (11.58 дан 17.24 гача) таъсирга эгадир.

Ялпиз ўсимлигининг турли қисмларидаги эфир мойининг кимёвий таркибида фарқ бўлиб [3], юқорида айтиб ўтилганидек, бу фарқлар ялпиз турларининг антибактериал фаоллигига таъсир қилиши мумкин . Одатда ялпиз мойи ва ментол биргаликда ўртача даражада антибактериал хусусиятга эга. *Mentha spicata*- нинг мойи *Aspergillus fumigatus* (16 mm ± 0,5 СД, инхибатция зонаси билан) ва *A. niger* (14 mm ± 0,5 СД билан) [4] га нисбатан ўртача фаолликни намойиш этади.

Ўсимликлар таркибидаги эфир мойи ажритиб олиш ва аниқлаш учун 1000 мл ҳажмдаги туби думалоқ колбага 10 – 20 г майдаланган ўсимлик органидан солиб, устига 300 мл сув қуйилади ва колба устига шарикли совутгич тик ҳолда ўрнатилади. Совутгичнинг пастки учига Гинзберг асбобчасини осиб қўйиб, колба қиздирилади. Гинзберг асбоби U шаклидаги шиша найча бўлиб, бир учи эса узунроқ, кенг ва миллиметрларга бўлинган. Колбадаги суюқлик қайнагандан сўнг, сув буғлари эфир мойи буғлари билан совутгичга кўтарилади ва у ерда конденсатланиб, Гинзберг асбобчасига томчилаб қайтиб тушади.

Олинган эфир мойининг МАСС спектроскопик услуби

ГХ-МС / МС текшируви. ГХ-МС хроматографияси шартлари уйидагича ўрнатилди: капилляр устун (0,2 мкм = 0,25 мм × 30 м) 5% бифенил-диметилсилоксан билан сингдирилган; 1 мл / мин доимий оқим билан ташувчи газ гелий. Колон термостатининг дастлабки ҳарорати 40 ° С, кечикиш 1 мин. Кейин термостатни 20 ° С / мин тезликда 280 ° С даражагача иситиб, 280 ° С да 3 минут кечиктирилди, сўнгра 40 ° С тезликда 6 минут давомида дастлабки ҳолатига қадар ҳарорат пасайди. Енжектор ва масса спектрометрик детекторининг ҳарорати 250 ° С га тенг. Ионизатсия усули 20 eυ да електрон таъсирида амалга оширилди. Хроматографик профил еритувчи сигналини олиб ташлаш учун бошланганидан 3 минут ўтгач қайд етилди. Хроматография жараёни ХСалибур дастури ёрдамида m/z 50-1500 чегаралари оралиғида бошқарилди .

СТСТри ПлусРС роботли автосампласи ёрдамида уч ядроли газли хроматограф-массали спектрометр (ХС-МС/МС) ТРАСЕ 1310 ТСҚ 8000 (ThermoFisherScientific, АШ). Масс-спектр кутубхонаси: NIST’17



1. расм – ялпиз эфир мойи МАСС спектри

Тахлил натижаларига кўра эфир мойлари таркибидаги ментол 50 % мавжуд эканлиги тадқиқ қилинди. Хулоса қилиб айтганда, олинган натижалардан эфир мойининг кимёвий таркиби ўсимлик ёшига, экиладиган жойининг иқлимига ва ўсиш даврига қараб ўзгаради.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Mucciarelli M, Camusso W, Maffei M, Panicco P, Bicchi C. Volatile terpenoids of endophyte-free and infected peppermint (mentha piperital)//Chemical partitioning of a symbiosis. Microb Ecol 54.-2007.- P.685-696.
2. Bohnert T, Patel A, Templeton I, Chen Y, LuC. Evaluation of a new molecular entity as a victim of metabolic drug-drug interactions-an industry perspective//Drug Metab Dispos dmd 115.-2016.- P.690-696.
3. Shaikh S, Yaacob H.B, Rahim Z.H.A Prospective role in treatment of major illnesses and potential benefits as a safe insecticide and natural food preservative of mint (mentha spp.)// A review. Asian J Biomed Pharm.-2014.-P. 41.
4. Bansod S, Rai M.Antifungal activity of essential oils from indian medicinal plants against human pathogenic aspergillus fumigatus and a. Niger//.-2008.- World J Med Res 3: 81-88.

SIRDARYO REGIYONIDA YETISHTIRILGAN BUG‘DOY NIHOLLARIDA FUZARIUM ZAMBURUG‘I VA ULARNING RIVOJLANISHIGA GK ASOSLI SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLAR TA’SIRI NATIJALARINI MOLEKULYAR GENETIK DIAGNOSTIKASI

Shapulatov Utkirjon.Muxammadiyevich., Xudoynazarov Muxriddin Shuhrat o‘g‘li
b.f.f.d.(PhD)
doktorant.
Guliston davlat universiteti
e-mail:utkirjon.shapulatov@gmail.com

1. Fuzarium vilt rasalarini aniqlashda mikrobiologik metodlar keng qo‘llanilib kelinadi. Ammo, fuzarium rasalarining morfologik jihatdan o‘xshashligi, shuningdek, ushbu metodlar bir necha kun talab qilishi sababli, hozirgi zamonaviy fanda yangi diagnostik metodlarni qo‘llash samaraliroq hisoblanadi. Bunday diagnostik metodlardan biri Polimeraza Zanjir Reaktsiyasi (PZR) va uning modifikatsiyalangan usullari [1,2] bo‘lib, o‘simliklarni zararlagan fuzarium rasalarini molekulyar analiz qilish orqali aniqlash uchun keng ishlatib kelinmoqda. Bunda, Fuzarium vilt rasalari uchun maxsus bo‘lgan praymerlar (20 nikleotid atrofidagi bir zanjirli oligonukleotidlar) dan foydalaniladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, har bir rasa uchun spetsifik bo‘lgan praymerlar juftligi ishlatiladi. PZR yordamida nafaqat o‘simlikdagi fuzarium vilt rasalarini molekulyar analiz qilish, balki tuproqdagi zamburug‘larni diagnostika qilish va ularning tarqalishini monitoring qilish ham mumkin [3].

Ko‘p o‘rganilgan Fusarium oxysporum rasalari bir nechta praymerlar juftligi bilan PZR orqali aniqlanadi. Masalan, rediska o‘simligida fuzarium vilt kasalligini molekulyar aniqlashda For praymer juftligi ishlatilgan [4]. Afrika va Janubiy Amerika bananchiligiga katta ziyon etkazuvchi Fuzarium vilt Foc rasalarini molekulyar diagnostika qilishda translation elongation factor-1 alpha (TEF-1α) [5] va DNA-directed RNA polymerase III subunit (RPC2) genlariga tuzilgan maxsus praymenlar keng foydalaniladi. Bu genlarni o‘ziga xos tarafi shundaki, undagi bir nukleotid farqi yoki polimorfizmi (SNP) ham fuzariumda rasalarini farqlashda muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun fuzariumdan genom DNKsi ajratib olinadi va TEF-1α yoki RPC2 genlariga tuzilgan praymerlar yordamida PZR maxsuloti amplifikatsiya qilinadi. So‘ngra PZR maxsuloti sekvens qilinib, nukleotid ketma-ketliigi aniqlanadi va fuzarium rasalari farqlanadi [6]. Shuningdek, secreted in xylem (SIX) oilasiga kiruvchi genlarda uchraydigan polimopfizm Fusarium oxysporum ning Foc rasalarini aniqlashda ishlatiladi. Masalan, SIX6 geni Foc rasa 1 ni, SIX1 geni TR4 rasasini, SIX8 geni subtropik rasa 4 ni, SIX9/SIX10 geni Foc VCG 0121 rasasini, va SIX13 geni zsa Foc VCG 0122 rasasini test diagnostikasida qo‘llanib kelinadi. Shulardan R1,STR4,TR4 shuningdek ikkita VCGs (0121 and 0122) rasalari bananlarda jiddiy fuzarioz kasalligi keltirib chiaradi [7]. Fusarium graminearum va Fusarium culmorum vilti 280 n.j va 472 n.j dagi fragmentlarni Fg16N hamda OPT18 markerlari yordamida Real Time PZR da tekshiriladi.

Bug‘doyning zamburug‘larga chidamliligini oshirish xususiyatiga ega bo‘lgan GK:BT hamda GK:AT kompleksi haqida aniq xulosalar chiqarish uchun molekulyar-genetik tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, zamburug‘ bilan o‘simlikning zararlanish darajasini aniqlashda morfologik metodlar o‘z samarasini to‘liq namoyon eta olmaydi. Shuning uchun zamonaviy molukulyar usullardan bo‘lgan Polimeraza Zanjir Reaktsiyasi (PZR) va real taym PZR dan foydalanib,

zamburug‘larni diagnostika qilish va zararlanish darajasini ko‘rsatish imkoni tug‘ildi. Ayni paytda bu usullardan genetik modifikatsiyalangan organizmlarni aniqlash va o‘simlik mahsulotlarining zararli ratogenlar bilan infektsiyalanganini skrining qilish va boshqa zamonaviy agronomiya yo‘nalishlarida keng foydalanib kelinadi. Shunga ko‘ra, tadqiqotlarimizning so‘ngi bobida GK:BT va GK:AT ta’sirida bug‘doyning zamburug‘ bilan zararlanish darajasini molekulyar-genetik tahlil qildik. Rasm-1 da tadqiqotning to‘liq bosqichlari berilgan. Dastlab, bug‘doyning 3 ta navlari: Bobur, Andijon-2 va G‘ozg‘on urug‘lari GK:BT va GK:AT preparatlari hamda fuzarium mitseliysi (F.Poae) bilan ishlov berildi va tajriba maydonchasiga ekildi. Zamburug‘lar bilan zararlangan bug‘doy o‘simligidan genom DNKsi STAV usuli yordamida ajratib olindi va DNK kontsentratsiyasi NanoDrop 3300 (Thermo Fisher, USA) spektrofotometrida bir xil kontsentratsiyaga keltirib olindi. Polimeraza Zanjir Reaktsiyasi esa OOO «AgroDiagnostika» (Rossiya) kompaniyasi tavsiya etgan maxsus reagentlar to‘plami yordamida olib borildi. Ushbu to‘plam Taq polimeraza, buffer, nukleotidlar va praymer juftligi.dan iborat. Natijalar esa gel-elektroforez va real taym PZR usullarini qo‘llagan holda taxlil qilindi.



1-rasm. Bug‘doyning Fuzarium bilan zararlanish darajasini molekulyar diagnostika qilish sxemasi.

Bug‘doy nihollaridan ajratib olingan genom DNK namunalarining PZR dastlab 2.5% agaroza gelida tahlil qilindi. PZR mahsulotini solishtirishda 50 n.j dagi DNK markeridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bunda kontrol ya’ni fuzarium bilan zararlanmagan bug‘doy navlarining birortasida fuzarium DNKsi aniqlanmadi. Shuningdek, kontrol + GK:BT yoki GK:AT bilan ishlov berilgan, ammo fuzarium bilan zararlantirilmagan namunalarda ham fuzarium DNKsi PZR reaktsiyasida negativ natija berdi. Buni, agaroza gelida ko‘rsatilgan rasmdagi 1 va 2-namunalardan ham yaqqol ko‘rish mumkin (2-rasm)



2-rasm. PZR mahsulotlarining 2.5% agaroza gelida ko‘rsatilgan natijalari. Bu erda, M-marker; 1- Nazorat; 2- GK:BT bilan ishlangan; 3- Faqat F.poae bilan zararlangan; 4- GK:BT+F.poae birgalikda ishlov berilgan; 5- GK:BT+F.poae birgalikda ishlov berilgan.

Olib borgan tadqiqotlarimiz davomida yana shu narsa aniq bo‘ldiki, bug‘doy urug‘lari GK:BT yoki GK:AT eritmalari hamda fuzarium mitseliysi (F.Poae) bilan ishlov berilib ekilganda, bug‘doy nixollarining dastlabki bosqichlarida fuzarium bilan kasallanish darajasi kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday xulosa rasm-2 dagi 3 va 4-namunalarni solishtirish orqali ko‘rsatib berilgan. Ushbu tadqiqotdagi 1,2,3 va 4-namunalar kush bug‘doy aprel oyida ya’ni unib chiqqan nixollardan ajratib olingan DNK namunalarida kuzatildi. May oyida esa ekilgan bug‘doy namunalari rivojlanishning so‘ngi bosqichi, shu bilan birga hosildorlikka katta ta’sir etuvchi bosqichga o‘tadi. Aynan mana shu bosqichda ajratib olingan o‘simlik namunalarida fuzarium DNKsiga qo‘yilgan PZR reaktsiyasi salbiy natijani ko‘rsatdi. Buni rasm-2 dagi 5 namunadan ham ko‘rishimiz mumkin.

Xuddi shunday ko‘rinishdagi namunalar qRT-PCR usulida o‘simliklardagi eksspressiyaning takrorlanish soni tahlil qilingan (Jadval-1 va 2). Bunda ajratib olingan DNK namunalari dastlab bir xil kontsentratsiyaga keltirildi va OOO «AgroDiagnostika» (Rossiya) kompaniyasi tavsiya etgan metod yordamida real taym reaktsiyasi qo‘yildi. Ushbu reaktsiya DT-96 amplifikator (OOO «NPO DNK-texnologiya») uskunasida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, fuzarium genomidagi maxsus lokusning PZR mahsuloti GK:BT yoki GK:AT eritmalari bilan ishlov berilgan namunalarda kamroq ekanligi kuzatildi. Aksincha faqat fuzarium bilan zararlangan bug‘doy namunalarida PZR mahsuloti yuqoriroq ekanligi ko‘rsatib berildi.

2-jadval.

Bug‘doy namunalarining fuzarium bilan zararlanishini real taym PZR dagi tahlili. Bunda bug‘doy namunalari GK:BT bilan ishlov berigan.

Bug‘doy navi	Ekilish tartibi		Real taym PZR da aniqlanishi	
			Miqdori %	Natija
Bobur		Nazorat	--	--
		Bobur+GK:BT	--	--
		Bobur+F.poae	30,7	++
		Bobur+GK:BTQF.poae	24,7	+-
		Bobur+GK:BT(may oyi)	--	--
Andijon-2		Nazorat	--	--
		Andijon-2+GK:BT	--	--
		Andijon-2+F.poae	31,0	++

		Andijon-2+GK:BT+F.poae	28,3	+-
		Andijon-2+GK:BT(may oyi)	--	--
G‘ozg‘on		Nazorat	--	--
		G‘ozgon+GK:BT	--	--
		G‘ozgon+F.poae	31,7	++
		G‘ozgon+GK:BT+F.poae	26,6	+-
		G‘ozgon+GK:BT(may oyi)	--	--

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fuzarium genomidagi maxsus lokusning PZR mahsuloti GK:BT yoki GK:AT eritmalari bilan ishlov berilgan namunalarda kamroq ekanligi kuzatildi. Aksincha faqat fuzarium bilan zararlangan bug‘doy namunalarida PZR mahsuloti yuqoriroq ekanligi ko‘rsatib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H. Kim, S.- M. Hwang, J.H. Lee,M.Oh, J.W. Hanand G.J. Choi. Specific PCR detection of Fusarium oxysporum f. sp.raphani: a causal agent of Fusarium wilt on radish plants. Letters in Applied Microbiology 65, 133--140 © 2017

2. Lin, Y.H., Chen, K.S., Chang, J.Y., Wan, Y.L., Hsu, C.C.,Huang, J.W. and Chang, P.F.L. (2010) Development of themolecular methods for rapid detection and differentiationof Fusarium oxysporumand F. oxysporum f. sp. niveum inTaiwan. New Biotechnol 27, 409–418.

3. Yuan Li, Liangang Mao, Dongdong Yan, Taotao Ma, Jin Shen, Meixia Guo,Qiuxia Wang, Canbin Ouyang and Aocheng Cao. Quantification of Fusarium oxysporum infumigated soils by a newly developed real-timePCR assay to assess the efficacy of fumigantsfor Fusarium wilt disease in strawberry plants. Pest Manag Sci 2014; 70: 1669–1675

4. Suga, H., Hirayama, Y., Morishima, M., Suzuki, T., Kageyama, K., and Hyakumachi, M. Development of PCR primers to identify Fusarium oxysporum f. sp. fragariae. Plant Dis Youn-Sig Kwak. Development qRT-PCR Protocol to Predict Strawberry Fusarium Wilt Occurrence. 2013. 97:619-625.

5. P. Ndayihanzamaso, P Karangwa, D. Mostert, G.Mahuku, G. Blomme, F. Beed, R. Swennen, A.Viljoen. The development of a multiplex PCR assay for the detection of Fusarium oxysporum f. sp. cubense lineage VI strainsin East and Central Africa.Eur J Plant Pathol (2020) 158:495–509

6. Lilia C. Carvalhais, Juliane Henderson, Vivian A. Rincon-Florez, Cecilia O‘Dwyer, Elizabeth Czislowski, Elizabeth A. B. Aitken and André Drenth.Molecular Diagnostics of Banana Fusarium Wilt Targeting Secreted-in-Xylem Genes. Front. Plant Sci., 31 May 2019

7. Christoph Brandfass and Petr Karlovsky. Simultaneous detection of Fusarium culmorum and F. graminearum in plant material by duplex PCR with melting curve analysis.BMC Microbiology 2006, 6:4 doi:10.1186/1471-2180-6-4

ГОССИПОЛ СИРКА КИСЛОТАСИ (ГСК) ТАДҚИҚОТИ

Алимов.А.Э., Исломов А.Х.

1. ЎзРФА академик О.С.Содиқов номидаги Биоорганик кимё институти, 100125, Тошкент шаҳри, Мирзо Улуғбек кўчаси 83.Тел.262-35-40, факс (99871) 262-70-63 e-mail: islomov-72 @ mail.ru

2. Гулистон давлат университети, Гулистон шаҳри, 4-мавзе, +99891. 503-30-97.

Аннотация:*Ушбу мақолада техник госсипол (ТГ) дан госсипол сирка кислотасини (ГСК) ажратиб олиш ҳақида маълумотлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *техник госсипол (ТГ), госсипол сирка кислотаси (ГСК), гулхайридошлар, бактерицид, антисептик, антиоксидант.*

Техник госсипол ажратиб олиш учун кўп госсиполли мойнинг кислота сонига мувофиқ ҳисоб қилинган натрий гидроксиди (NaOH) нинг суюқ эрит-маси билан мойни юмшоқ рафинация-форрафинация жараёни ўтказилади. Бу жараён натижасида ўз таркибида госсиполнинг натрийли тузи, совун фосфа-тидлари ва бошқа йўлдош моддалар тутган суюқ соапсток ҳосил бўлади.

Суюқ соапстокни мойдан ажратиб, сулъфат кислотаси эритмаси ёрдамида парчаланади, натижада госсиполнинг натрийли тузи парчаланиб госсипол эркин ҳолатга ўтади ва ёғ кислоталари, фосфатидлар ва бошқа йўлдош моддалар билан аралашган ҳолда сув юзига қалқиб чиқади.

Ҳўл, ёғли, ўзида госсипол тутган бу масса фильтрланади, экстракт бен-зинида ёғсизлантирилади ва қуритилади ҳамда майдаланади. Бу усул икки бос-қичда олиб борилади. Биринчи босқичда госсиполни натрий гидроксиди иш-тирокида сувда эрувчан натрийли тузи ҳосил қилинади. Бу кимёвий жараён 1-схемада келтирилган.



Пахта мойи таркибидаги эркин госсипол *Госсиполнинг натрийли тузи*

1-схема. Натрий гидроксид иштирокида госсиполнинг сувда эрувчан натрийли тузини ҳосил бўлиши.

Иккинчи босқичда госсиполнинг натрийли тузини сульфат кислота ишти-рокида парчалаш натижасида эркин госсипол ҳосил бўлади. Бу жараённинг кимёвий реакцияси қуйидаги 2-схема бўйича олиб борилади.



Госсиполнинг натрийли тузи *Эркин госсипол*

2-схема. Госсиполнинг натрийли тўзини сульфат кислота иштирокида парчалаганда эркин госсипол ҳосил бўлиши.

Техник госсиполдан госсипол сирка кислотаси (ГСК) ни олиш. Техник госсипол таркибидаги эркин госсиполни экстракция усили билан эритувчига-ацетонга ўтказилади, йиғилган ацетонли эритма ваккум бўғлатиш аппаратида қўйилтирилади ва концентрланган мўз сирка кислотаси ёрдамида госсипол сир-ка кислотаси чўктирилади, чўкма аввал сирка кислотаси: ацетон 1:1 нисбатдаги аралашмасида кейин гександа ювилади ва қуритилади сўнг эса майдаланади.

Биринчи чўктиришда олинган 1-ГСК таркибидаги асосий модда миқдори 50-80% атрофида бўлади. 1-ГСКни тозалаш жараёни; уни яна ацетонда эритиш ва мўз сирка кислотаси ёрдамида қайта чўктириб, чўкмани фильтрлаш жара-ёнида сирка кислотаси ва ацетон аралашмасида сўнг гександа ювилиб қури-тилади ва майдаланади. 2-ГСКсининг тозалик даражаси 92%дан кам бўлмас-лиги керак.

Олинган моддалар юпқа қатламли хроматография (ЮҚХ) йўли билан бен-зол: ацетон (5:1) ва гексан:ацетон (3:1) системаларда текширилганда бу модда-ларнинг R_f қийматлари бензол:ацетон (5:1) системасида 0,7-0,8 ва гексан: ацетон (3:1) системасида 0,26-0,33 интервали оралиғида намоён бўлади. Госси-пол сирка кислотасини структура формуласи 2-расмда келтирилган.



2-расм. Госсипол сирка кислотасини структура формуласи.

Фармакопик госсипол сирка кислотаси (ГСК) ни олиш учун 2-ГСК ни яна қайта кристаллаш жараёни ўтказилди ва ҳамма босқичлардан сўнг ҳосил бўлган 3-ГСК нинг тозалиги 98-99%ни ташкил этади. Ёғсизлантирилган техник госси-пол ва ундан ҳосил бўлган 1-ГСК, 2-ГСК ларнинг кўриниши қўйидаги 3-расмда келтирилган.

3-расм. Ёғсизлантирилган техник госсипол кристаллизация босқичлардан сўнг ҳосил бўлган 1-ГСК, 2-ГСКлар.

Госсиполни сирка кислотаси билан чўктиришни кимёвий реакциялари 3-схемада келтирилган.



Госсипол Госсипол сирка кислотаси

2-схема. Госсиполни сирка кислотаси билан чўктириш.

Госсипол сифатини янада яхшилаш мақсадида уни эритиб яна чўктириш иши олиб борилди, яъни 2-ГСК ни 3-ГСК га ўтказилди. Бунинг учун озроқ 2-ГСК ацетонда эритилди ва унга аралаштирилиб турган ҳолатда эритмани аралаштирилган ҳолатда ацетон: муз сирка кислотаси 1:1 нисбатда қўшдик ва эритмани икки соат тиндириб сўнг фильтрлаб олдик. Чўкма хона хароратида қуритилди ва 2-ГСК дан фармакопик 3-ГСКни чиқиш унуми 75-85%, тозалик даражаси 98-99% бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маркман А.Л. Ржехин В.П. Госсипол и его производные. М.: Пищ. Пром-ть. 1965. 250.с
2. Исмаилов А. Полифенолы хлопчатника и близких ему растений: химия функции применение. Афтореф. дис. докт. хим. наук Т.1987
3. Назарова И.Х. Гулушенкова А.И. Количественная оценка содер-жание госсипурпурина при выделении госсипола. // Химия природ. соедин 1983г. № 6. С. 716.
4. Гусакова С.Д., Назарова И.П., Ульченко Н.Т., Превращения госси-пола в низкомолекулярных спиртах//Химия природ. соедин.1989№ 5.С. 712.

ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ХЛОПЧАТОБУМАЖНЫХ ТКАНЕЙ, ОКРАЩЕННЫЕ КРАСЯЩИМИ КОМПОЗИЦИЯМИ

Лапасова Феруза Абдуллаевна, Касимова Хуснора
Преподователь, студентка 2-курса
Гулистанский государственный университет
e-mail: feruza_usmanova@list.ru

В бурно развивающемся мире при окрашивании текстильных материалов на основе натуральных волокон, особенно хлопчатобумажных и вискозных тканей, применяют дорогие и маломощные синтетические красители на основе различных соединений. В последние годы синтезированы композиционные красители на основе солей поливалентных металлов и других ингредиентов, которые используются для окрашивания текстильных материалов из натуральных и синтетических волокон. Однако из-за отсутствия на сегодняшний день эффективного процесса крашения эти красящие композиции недостаточно используются в производстве текстильных материалов для крашения хлопка, вискозных материалов и их

смесей, а также в производстве одежды. Поэтому проблема разработки более эффективных композиций на основе солей поливалентных металлов и других ингредиентов и изучения свойств этих композиций очень актуальна.

Проведенные исследования показали что обработка аминированной хлопчатобумажной ткани раствором красящей композиции способствуют образованию в структуре волокна металлокомплексов. Металлокомплексы взаимодействуют со структурными элементами целлюлозы с образованием прочных связей не исключена возможность образования дополнительных межструкктурных связей, что способствует приданию текстильтным материалам на основе хлопка ряда ценных свойств [1].

При крашении аминированной хлопчатобумажной ткани при обработке водным раствором, содержащим соль поливалентного металла, ароматическое гидроксисоединение, нитрит натрия и кислоту, резорцин превращается в динитрозорезорцин, который легко образует окрашенные комплексные внутренние хелаты с поливалентным металлом [2].

Получены красящие композиции ингредиентов, способствующие образованию максимального количества металлокомплексов, образующихся на хлопчатобумажной ткани. Для определения цвета полученных композитов на хлопчатобумажной ткани были получены изображения композитов с помощью электронного микроскопа марки EVROMEX S/N-EC2209746. В таблице ниже приведены изображения хлопчатобумажной ткани, окрашенной композитными красителями, полученные под электронным микроскопом при различных соотношениях.

Таблица

Состав композиции	Пропорции	Вид под электронным микроскопом
Образец хлопчатобумажной ткани	-	
$CuSO_4$:$NaNO_2$: резорцин	1:5:7,5	
$CuSO_4$:$NaNO_2$: резорцин	1:5:4	
$CoCl_2$: $NaNO_2$: резорцин	1:1:1.5	

$CoCl_2$: $NaNO_2$: резорцин	1:1:2	

Крашение хлопчатобумажной ткани, путем образования в структуре волокон металлокомплексов, также способствует повышению разрывной нагрузки хлопчатобумажной ткани. Прочность хлопчатобумажной ткани, содержащей металлокомплексы железа, по сравнению с исходной, возрастает по основе на 8,8,%, а по утку на 51,7%, что можно объяснить образованием водородных поперечных связей между макромолекулами и фибриллами хлопкового волокна и металлокомплексами, а также образованием на поверхности волокна дополнительных водородных связей, силоксановой пленки которая способствует увеличению адгезионных сил между поврежденными [3] областями надмолекулярных структур элементов хлопкового волокна, результаты исследований приведены в таблице 1.

Из полученных данных видно, что в процессе аминирования хлопчатобумажной ткани разрывное удлинение изменяется незначительно. Разрывное удлинение хлопчатобумажной ткани, содержащей металлокомплексы железа и кобальта, по сравнению с исходной возрастает в основном только по утку, чем по основе.

Таблица 1

Разрывные характеристики хлопчатобумажной ткани

Наименование показателей	Исходная ткань	Аминированная ткань	Ткань содержащая металлокомплексы	
			Железа	Кобальта
Разрывная нагрузка, Н:				
основа	197,2	207,0	214,6	221,0
уток	82,6	90,1	125,3	131,1
Разрывное удлинение, %:				
основа	17,0	17,4	17,8	17,5
уток	13,6	13,2	16,8	16,0

Это объясняется большим увеличением разрывного удлинения ткани по утке, чем по основе. Так, в процессе аминирования хлопчатобумажной ткани разрывное удлинение возрастает по основе на 4,7%, по утке на 23,5%. Разрывное удлинение окрашенной ткани по сравнению крашения красящими композициями будет способствовать улучшению деформационных свойств ткани в процессе эксплуатации [4].

Как видно, что увеличение разрывного удлинения хлопчатобумажной ткани способствует улучшению ее деформационных свойств в процессе эксплуатации. Наблюдаемое различие в изменениях показателей прочности и удлинения основных и уточных нитей объясняется разностью размеров их пор. Известно, основная нить подтвергается шлихтованию. Расшлихтовка готовой ткани в процесее ее подготовки к крашению, по видимому, не способствует полному удалению шлихты. Это затормаживает сорбцию олигомеров фиброина при модификации хлопчатобумажной ткани и компонентов комплексообразующего раствора в процессе крашения внутрь основной нити и следовательно, увменьшается количество металлокомплексов в структуре хлопкового волокна и число образовавшихся межструктурных связей [5].

Одним из основных требований предъявляемым к одежным текстильным материалам, является требование сохранения в течение длительного времени своего первоначального вида. Какой высокой износостойкостью не была бы та или иная ткань или трикотажное полотно, срок

эксплуатации пошитых из нее изделий может оказаться довольно ограниченным, если этот текстильный материал будет характеризоваться высокой сминаемостью и усадочностью, то есть формоустойчивость его будет неудовлетворительна.

Наиболее распространенным способом предания хлопчатобумажным тканям несминаемости является обработка их бифункциональными соединениями, обладающими сшивающими свойствами, например, карбомол ЦЭМ. Однако, при этом наблюдаются потери прочности на разрыв. У хлопчатобумажной ткани оно составляет выше 40%. Показатели несминаемости хлопчатобумажной ткани, окрашенной красящими композициями, приведено в таблице 2.

Как показали проведенные исследования (таблица 2), в процессе аминирования несминаемость хлопчатобумажной ткани не изменяется. Введение в структуру хлопкового волокна металлокомплексов увеличивает СУР (суммарный угол раскрытия) и несминаемость ткани возрастает на 15%, что подтверждает образование между макромолекулами целлюлозы новых поперечных связей, которые улучшают несминаемость хлопка, не вызывая чрезмерной жесткости и, следовательно, потери прочности [6].

Увеличение плотности ткани за счет образования в структуре волокна металлокомплексов приводит к уменьшению количества и размера сквозных пор, от наличия и размера которых зависит аэродинамическое сопротивление ткани, а, следовательно, к уменьшению его воздухопроницаемости (таблица 2).

Таблица 2

Несминаемость и воздухопроницаемость хлопчатобумажной ткани, содержащей металлокомплексы железа

Вид хлопчатобумажной ткани	Показатели						Воздухопроницаемость, $см^3/см$
	Угол раскрытия, град			Несминаемость, %			
	основа	уток	СУР	основа	ток	УР	
Исходная	76,0	91,0	167,0	42,2	0,3	6,2	108,5
Аминированная	80,3	87,3	167,6	44,6	8,5	6,5	98,0
Содержащая металлокомплексы железа	83,3	108,0	183,3	46,2	0,0	3,1	100,0

Таким образом, разработанный способ крашения позволяет улучшить физико-механические и потребительские свойства хлопчатобумажных тканей и улучшения, то есть снизить их несминаемости без процессов аппретирования.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Расулова Ш.Н. Крашение текстильных материалов путем синтеза красителя на волокне // Всерос. науч.-прак. конф. Современные достижения химической технологии в производстве текстиля, синтеза и применения химических продуктов и красителей - Санкт-Петербург, - 2019 г.
2. Абдурахманова Ш.Г., Негматов С.С., Маджидова Ш.Г., Сагдиева Ф.Г., Бабажанова М.А. “Способ крашения текстильных материалов”, Предвар. патент РУз IDP 04924 Приор. от 09.11.2000.
3. Абдурахманова Ш.Г., Бабаджанова М.А., Негматов С.С., Маджидова Ш.Г., Рахимова З.М. Красящие композиции - перспективные заменители синтетических красителей // Композиционные материалы, 2003, - №2, - С. 26-27.

4. Третьякова А.Е. Разработка научно обоснованной технологии крашения текстильных материалов из природных волокон с использованием металлосодержащих систем: дис. канд.техн. наук: 05.19.02 / Третьякова Анна Евгеньевна – М., 2002. – 200 с.

5. Сафонов В.В. Химическая технология отделочного производства / В.В. Сафонов. – М.: РИО МГТУ, 2002. – 280 с.

6. Владимирцева Е.Л., Шарнина Л.В., Лещева О.А. Использование комплексонов в технологии совмещенного беления и крашения хлопчатобумажных тканей // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности, 2004, №1 – С. 48-51.

TOK KO‘CHATLARINING O‘SISH VA RIVOJLANISHIGA NOVDALARNI QALAMCHALASH MUDDATLARINING TA’SIRI

F.M. Xo‘jaqulov
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. *Tok qalamchalarini eng yaxshi ekish muddatlarini tanlashda novdalarining pishganlik darajasi va qalamchalarning ekish muddatlarini ta’siri katta ekanligi aniqlandi. Uzumning Rizamat navida eng yaxshi muddat ikkichi variant bo‘lib qalamchalarining tutuvchangligi 95,% ni, uzumning Kishmish Botir navida qalamchalarning tutuvchangligi ikkinchi variantda 94,5% hamda Xusayne bel’y navida qalamchalarning tutuvchangligi ikkinchi variantda 93,1 % bo‘lishi aniqlandi. Qalamchalarning ekish uchun eng maqbul muddatlari aprelning birinchi o‘n kunligi ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *tok, qalamcha, novda, kallus, ildiz, to‘qima, ko‘chat, tutuvchanlik, rivojlanish, etilganlik.*

Kirish. O‘zbekistonda tok ko‘chatlarini turli usullarda ko‘paytirish, tokzorlarning mahsuldorligini oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar A.A. R’bakov, M.M.Mirzayev, S.A.Ostrouxova, K.I.Baymetov, K.S.Sultonov va A.Sh.Arzumanov kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ta’kidlash joizki, respublikada tok ko‘chatlarini *in vitro* usulida mikro ko‘paytirish, uning uchun maqbul ozuqa muhitlari tarkibini tuzish, qimmatli va noyob tok navlari ko‘chatlarini tezkor ko‘paytirish usullarini va tokzorlarning fitologik holatini yaxshilash choralarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarning hajmi juda kichik, bu yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqot ishlari olib borish dolzarb hisoblanadi [1;3;4;5].

Tok ko‘chatlarining yaxshi ildiz olishi novdalarining rivojlanishi tok tuplarining yaxshi pishgan va rivojlangan navdalarini tanlash va qalamchalash muddatiga bog‘liqdir. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, har xil tok tuplari va navlaridan sifatli qalamcha tayyorlashning o‘z muddatlariga ega bo‘lib, kuchsiz ildiz oluvchi navlarda u juda ham qisqa bo‘lib, tok novdalarning ma’lum o‘sish davriga to‘g‘ri keladi. Tok qalamchalarini deyarli butun vegetatsiya davri mobaynida amalga oshirish mumkin.

Tadqiqot usullari. Asosiy dala tajribalari X.Ch.Buriyev va boshqalar tomonidan tavsiya etilgan «Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi» va V.F.Moiseychenkoning «Методика учетов и наблюдений в опўтах с плодовўми и ягоднўми культурами» nomli uslubi ko‘rsatmasida tavsiflangan tavsiyalar asosida bajarildi [1;4;].

Tajriba ma’lumotlarining statistik ishlovi B.A. Dospexov tavsiya etgan uslubda amalga oshirildi [2;].

Tok tuplaridan qalamchalar tayyorlash muddatiga ildiz oluvchanligi, ildiz hosil bo‘lish muddati, qalamcha kurtaklarning uyg‘onuvchanligi, shuningdek o‘simlik ildiz tizimi va yer ustki qismining rivojlanish darajasi ham bog‘liq bo‘ladi.

1-jadval

Tok qalamchalarini ekish muddatini ko‘chatlarning rivojlanishiga bog‘liqligi

Qalamchalarni ekish sanasi	Qalamchalar ekilgan keyingi kunlar				Qalamcha-larning
	kallus hosil	ildiz hosil	yalpi ildiz hosil	novdalar o‘sa	

	bo‘lishi	bo‘lishi		boshlashi	tutuvchan gligi, %
Rizamat navi					
25.03 (nazorat)	12	15	25	22	93,4
10.04	10	14	22	21	95,0
25.05	9	14	28	24	87,5
10.06	11	13	28	24	80,0
Kishmish Botir navi					
25.03 (nazorat)	12	16	21	21	92,5
10.04	10	14	18	24	94,5
25.05	10	13	20	26	86,4
10.06	9	12	24	28	80,2
Xusayne bel’y navi					
25.03 (nazorat)	12	11	17	21	92,8
10.04	12	10	15	28	93,1
25.05	11	12	20	23	87,0
10.06	11	14	24	24	83,1

Uzumning xo‘raki Rizamat navining qalamchalarini ekish muddatlarini qalamchalarning rivojlanishiga bog‘liqligi o‘rganilganda quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lindi. Uzumni xo‘raki Rizamat navida 25.03 (nazorat) variantda kallus hosil bo‘lishi 12 kun, ildiz hosil bo‘lishi 15 kun, yalpi ildiz hosil bo‘lishi 25 kun, novdalarni o‘sa boshlashi 22 kun va qalamchalarning tutuvchangligi 93,4 % ni tashkil qilishi aniqlandi. Rizamat navida 10.04 muddatda ekilgan qalamchada kallus hosil bo‘lishi nazorat variantdan 2 kun kam, ildiz hosil bo‘lishi 1 kun kam, yalpi ildiz hosil bo‘lishi 3 kun kam, novdalarning o‘sa boshlashi bir kun kam va qalamchalarning tutuvchangligi 0,6 yuqori bo‘lishi qayt etildi. 25.05 muddatda ekilgan variantda kaluslarning hosil bo‘lishi 3 kun oldin, ildiz hosil bo‘lishi bir kun keyin, yalpi ildiz hosil bo‘lishi 3 kun keyin, novdalarning o‘sa boshlashi ikki kun keyin va qalamchalarning tutuvchangligi 5,9% kam bo‘lishi qayt etildi. To‘rtinchi variantda rizamat navining kullus hosil bo‘lishi nazorat variantga nisbatan 1 kun oldin, ildiz hosil bo‘lishi ikki kun oldin, yalpi ildiz xosil bo‘lishi uch kun keyin, novdalar o‘sishi nazorat variantdan ikki kun keyin va qalamchalarning tutuvchangligi nazorat variantga nisbatan 13,4 % kam bo‘lishi qayt etildi.

Uzumning Kishmish Botir navi 25.03 (nazorat) variantda kallus hosil bo‘lishi 12 kun, ildiz hosil bo‘lishi 16 kun, yalpi ildiz hosili 21 kun, novdalarning o‘sishi 21 kun va qalamchalarning tutuvchangligi 92,5% tashkil qilishi aniqlandi. Ikkinchi variantda 10.04 ekilgan qalamchalar nazorat variantga nisbatan ikki kun oldin, ildiz hosil bo‘lishi, ikki kun, yalpi ildiz hosil bo‘lishi uch kun oldin, novdalarning o‘sa boshlashi uch kun keyin va qalamchalarning tutuvchangligi 2,0% yuqori bo‘lishi qayt etildi. Uchunchi variant 25.05 muddatda ekilgan qalamchalarda kallus hosil bo‘lishi nazorat variantdan ikki kun oldin, ildiz hosil bo‘lishi uch kun oldin, yalpi ildiz hosil bo‘lishi bir kun oldin, novdalarning o‘sa boshlashi besh kun keyin hamda qalamchalarning tutuvchangligi 6,1% kam bo‘lishi kuzatildi. To‘rtinchi variantda 10.06 muddatda ekilgan qalamchalarning kallusi hosil bo‘lishi nazorat variantga nisbatan uch kun oldin, ildiz hosil bo‘lishi to‘rt kun ildin, yalpi ildiz hosil bo‘lishi uch kun oldin novdalar o‘sa boshlashi 7 kun keyin va qalamchalarning tutuvchanglik darajasi nazorat variantdan 12,3 % kam bo‘lishi aniqlandi.

Uzumning Xusayne bel’y navi 25.03 (nazorat) variantda kallus hosil bo‘lishi 12 kun, ildiz hosil bo‘lishi 11 kun, yalpi ildiz hosili 17 kun, novdalarning o‘sishi 21 kun va qalamchalarning tutuvchangligi 92,8% tashkil qilishi aniqlandi. Ikkinchi variantda 10.04 ekilgan qalamchalar nazorat variantga bilan teng, ildiz hosil bo‘lishi bir kun, yalpi ildiz hosil bo‘lishi ikki kun oldin, novdalarning o‘sa boshlashi etti kun keyin va qalamchalarning tutuvchangligi 0,3 % yuqori bo‘lishi qayt etildi. Uchunchi variant 25.05 muddatda ekilgan qalamchalarda kallus hosil bo‘lishi nazorat variantdan bir kun oldin, ildiz hosil bo‘lishi bir kun keyin, yalpi ildiz hosil bo‘lishi uch kun keyin, novdalarning o‘sa boshlashi ikki kun keyin hamda qalamchalarning tutuvchangligi 5,8 % kam bo‘lishi kuzatildi.

To‘rtinchi variantda 10.06 muddatda ekilgan qalamchalarning kallusi hosil bo‘lishi nazorat variantga nisbatan bir kun oldin, ildiz hosil bo‘lishi uch kun keyin, yalpi ildiz hosil bo‘lishi etti kun keyin, novdalar o‘sa boshlashi 3 kun keyin va qalamchalarning tutuvchanglik darajasi nazorat variantdan 9,7% kam bo‘lishi aniqlandi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, tok qalamchalarin eng yaxshi ekish muddatlarini tanlashda novdalarining pishganlik darajasi va qalamchalarning ekish muddatlarini ta’siri katta ekanligi aniqlandi. Uzumning Rizamat navida eng yaxshi muddat ikkichi variant bo‘lib qalamchalarining tutuvchangligi 95,% ni, uzumning Kishmish Botir navida qalamchalarning tutuvchangligi ikkinchi variantda 94,5% hamda Xusayne bel’y navida qalamchalarning tutuvchangligi ikkinchi variantda 93,1 % bo‘lishi aniqlandi. Qalamchalarning ekish uchun eng maqbul muddatlari aprelning birinchi o‘n kunligi ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buriev X.Ch. Olmaning sog‘lomlashtirilgan nihollarini “in vitro” usulida olish texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma – T., 2013. – 13-15 b.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опўта. Москва, Колос, 1973, с. 249-252.
3. Рыбаков А.А., Остроухова С.А. Размножение винограда зеленўми черенками. Трудў ТашСХИ, вўп. 55, Ташкент, 1976, с. 48-56.
4. Мирзаев М.М. Виноградарство предгорно-горной зонў Узбекистана. - Ташкент, Фан, 1980. – С. 3-5.
5. K.S.Sultonov “Uzumning yuqori sifatli sertifikatlangan ko‘chatlarini ishlab chiqarish tizimining ilmiy asoslari” dissartatsiya Tashkent 2018. – S. 5-90.

QIShLOQ XO‘JALIGIDA MEHNAT RESURSLARINING SAMARADORLIGINI OShIRIShNING USTIVOR YO‘NALISHLARI

Raxmatov. O
GulDU, professor, t.f.d., dotsent

Bizga ma’lumki, Respublikamiz o‘zining davlat mustaqilligiga erishgan kunidan boshlab o‘zining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning o‘ziga xos yo‘lini tanladi. Bugunki kunda iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlardan xususan mamlakatimizni agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati yuksak darajada rivojlangan davlatga aylanib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘zida keng ko‘lamli o‘zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtiriladigan ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o‘ylangan oqilona siyosat olib borilayotganligi tufayli, paxta etishtirishning barqaror hajmi saqlangan holda, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni bir necha barobar ko‘paytirish imkonini berdi. Bu borada yurtimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan dehqon va fermer xo‘jaliklarining o‘rni nihoyatda yuksakdir.

Hozirgi kunda dehqon va fermer xo‘jaliklarida zamonaviy texnika vositalarining sirlarini va mahsulot etishtirishning ilg‘or texnologiyalarini puxta egallagan mutaxassislarni rahbarlik qilayotganliklari va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davrda iqtisodiyotimizni rivojlanishi uchun muhimdir. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini etishtirish bilan birga, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan qayta ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni chet elga eksport qilmoqda.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining intensiv asosda rivojlantirish bilan birga, u erda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning optimal chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Xususan, qishloq xo‘jaligida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ning asosiy muammolaridan biri mehnatga yaroqli qishloq aholisi boshqaruvini takomillashtirish asosida ularni ish joylari bilan ta’minlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi. Aholini bandligini ta’minlash mamlakatimizni

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bo‘lib, nafaqat sanoat iqtisodiyotini balki, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyaev mamlakatimizni 2022 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2023 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilishida “Respublikamizning barcha xududlarida zamonaviy infrastruktura asosida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, bandlikni ta’minlash va aholi daromadlarini bozor iqtisodiyoti sharoitida bosqichma - bosqich oshirish masalalari doimo e’tiborimiz markazida bo‘lib qolmoqda va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi” - deb ta’kidlanganligi albatta bejiz emas.

Hozirgi davrda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mehnatni va mehnat munosabatlarini tashkil etish nafaqat respublikamiz darajasida, balki iqtisodiy mintaqalar darajasida ham o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga egadir. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida band bo‘lgan mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy mehnat munosabatlarini bozor iqtisodiyoti talablari asosida shakllantirishni dolzarb muammo qilib qo‘ymoqda. Buning echimi yurtimizning xar bir iqtisodiy mintaqasida mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish va uni ta’minlash xususiyatlariga bevosita bog‘liqlikda deb o‘ylaymiz.

Davlat statistika ma’lumotlardan bilamizki, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning ishlab chiqarayotgan mahsuloti yalpi milliy mahsulotning qariyb salkam 18 foizini tashkil etadi. Bu muammoning dolzarbligini ifodalovchi yana bir asosiy omillardan biri, qishloq joylarida mehnat resurslarini yuqori darajada o‘sib borishibilan birga mehnatni tashkil etish va ularning bandligini ta’minlash tizimining to‘laqonli ishlab chiqilmaganligida deb bilamiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda bozor qonuniyatlari talablari asosida qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish uni boshqarish asosida ishlab chiqarish jarayonini takror tashkil etish va uni samaradorligini oshira borish bilan bevosita bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish mehnat resurslari kategoriyasini evolyutsion rivojlanishini, qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarini shakllanish xususiyatlarini, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish va uni bandlikkata’siri, qishloq xo‘jaligida mehnatni motivatsiyalash, mehnat resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish, unga ta’sir etuvchi omillar, bozor iqtisodiyoti mexanizmi,umumlashgan majmua tariqasida ilmiy nazariy va amaliy jihatdan tadqiqot ob’ekti bo‘lmaganligi uni dolzarbligini ifodalaydi.

Ko‘tarilgan muammo bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari boshqaruv samaradorligini oshirishdan kelib chiqqan holda uning nazariy ivojlanishi, mehnat resurslarini shakllanish xususiyatlari, ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash uslubiyati, mehnat resurslarini takror ishlab chiqish, uning taqsimoti, bandligi, motivatsiyalash, ulardan samarali foydalanish salohiyatini oshirishbilan bog‘liq bo‘lgan zaxiralarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari Respublikada iqtisodiyotni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarning ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

Shunga asosan asosiy muammo bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari boshqaruvini talab va taklif qonuni asosida tashkil etish, uning qishloq xo‘jaligida shakllanish xususiyatlari, samaradorligini aniqlash uslubiyati, qishloq aholisi takror ishlab chiqarishni bandlikka ta’siri, mehnat resurslaridan foydalanishga ta’sir etuvchi omillar, ulardan foydalanishning hozirgi holati, mehnat resurslari samaradorligini oshirishda bozor iqtisodiyoti mehanizmining o‘rni, mehnat resurslari boshqaruvini takomillashtirish, bandligini ta’minlash va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha nazariy hamda tahliliy xulosalar, uslubiy ishlanmalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi va u quyidagilardan tashkil topadi:

- mehnat resurslarining rivojlanishini nazariy jihatdan asoslash va bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarini shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda asosiy iqtisodiy qonun bo‘lgan talab va taklif asosida ko‘rib chiqish va iqtisodiy tarmoqning rivojlanish sharoitida qishloq xo‘jaligi aholisining takror ishlab chiqarish bilan bandlikka ta’sirini o‘rganish;
- bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jaligining mehnat resurslarini boshqarish zarurligini asoslash va qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarining o‘ziga xos taqsimoti va bandligini aniqlash;

- qishloq xo‘jaligida mehnatga bo‘lgan ehtiyojning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini asoslab berish;
- qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish omillarini aniqlash va ishchi kuchlari bilan ta’minlashning mavjud holatini o‘rganish va ulardan samarali foydalanishning tegishli chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanishda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining o‘rnini aniqlash va bozor munosabatlari sharoitida mehnat resurslarining samaradorligini oshirish va takomillashtirish hamda ijtimoiy mehnat munosabatlarini tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;
- iqtisodiy sektor rivojlanish sharoitida qishloq xo‘jaligi mehnat resurslarining boshqaruvini takomillashtirish asosida ularni bandligini ta’minlash yo‘llarini ishlab chiqish va qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;
- qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ularni takomillashtirish bo‘yicha tegishli ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqish.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Aliakberova A.E. Globallashuv sharoitida Rossiya iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish // Globallashuv sharoitida Rossiyaning salohiyati va istiqbollari, 2011. P. 102.
2. Rivojlangan mamlakatlar: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya oliy kasbiy ta’lim tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar va innovatsion jarayonlar tahlili. M.: NIIVO, 2001. 6-son. 51 b.
3. Bazarova S.J., Baychaev F.X., Manglieva J.X. Ta’lim jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuv asosida tashkil etish // Fan va ta’lim masalalari. – Moskva, 2018. No 11 (23). – B.38-39.

SIRDARYO VILOYATIDA QULAY TADBIRKORLIK MUHITINI YANADA YAXSHILASH UCHUN QOVUN ETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASIDA ZARUR IQTISODIY CHORA-TADBIRLAR

Yusufaliyev Abduraxmon Tilavovich.
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola Sirdaryo viloyatida qulay tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash uchun qovun etishtirish va qayta ishlash texnologiyasida zarur iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadida dala sharoitida qo‘llaniladigan energiya tejamkor mobil qovun qoqi quritadigan yig‘ma qurilma yaratildi. Ushbu mobil qurilmani qo‘llashdan maqsad qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni va qayta ishlashni ya’nada takomillashtirib qulay tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish. Dehqon va tadbirkorlarga engillik yaratib, mahalliy markazlashgan boshqaruv tarmoqlarini shakillantirib, ya’nada iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun “Klaster” hamda xususiy korxonalar tashkil etish nazarda tutilgan.

Tayanch iboralar: mobil qurilma, qishloq ho‘jalik mahsulotlari, qovun qoqi, energiya tejamkor, chiqitiz mahsulot, tamorqa, pudratchi, logistika, eksport, baraban.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmoqlarining raqobatbardoshligi istiqbolda barqaror rivojlanishi sohada davlat iqtisodini yangicha yondashuvlar asosida yuritishni talab etmoqda.

O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Buning uchun yil davomida turli oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash borasida ilmiy asoslangan innovatsion texnologiyalar yaratish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda poliz mahsulotlariga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Poliz mahsuloti bo‘lgan qovunning inson salomatligi uchun ko‘p miqdorda foydali xususiyatlari mavjud.

Biz qovunni, ajoyib shirin mazasi va tengi yo‘q parhezkor xususiyatlari uchun xush ko‘ramiz. Uning atrofga taralib turgan xushbo‘y hidli mag‘izida hazmi engil qand, kroxmal, oqsil, har xil vitaminlar, biriktiruvchi moddalar, pektin, organik kislotalar, turli mineral tuzlar mavjud. Ayniqsa uning tarkibida temir va kaliy tuzlari bor, shuning uchun ham qovun kamqonlikda, yurak qon tomir kasalliklarini davolashda, jigar va buyrak kasallaiklarini, shuningdek, podagra va revmatizmni davolashda foydalaniladi.

SHuning uchun aholining qovunga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qovunning ma’lum qismini qayta ishlash yaxshi samara beradi. Qayta ishlash va quritishda zamonaviy usullardan foydalanish, mahsulot sifatini oshirishda mahsulotni katta miqdorda ishlab chiqarishga erishiladi.

Ba’zi hollarda qadimdan qo‘llanib kelingan maxsus dorlar yasab qovunni po‘chog‘i va urug‘idan ajratib, tiliklarni osish usuli bilan quritiladi. Bu usuldan foydalanish mahsulot sifatini sanitar talablarga mutlaqo javob bermasligi, pashsha, chang, yomg‘ir ta’siri natijasidir.

Qovun qoqi tayyorlashda zamonaviy usullar va energiya tejamkor usullarni qo‘llash maqsadida chiqisiz mahsulot tayyorlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Innovatsion g‘oyalarni keng ko‘lamda tatbiq qilib, davlat grantlari asosida tajribalar o‘tkazilmoqda.

Sirdaryo viloyatining o‘ziga xos dehqonchilik madaniyati mavjud bo‘lib, aholining kundalik turmush tarzida qadimdan mirzacho‘l qovunlarini etishtirish milliy ana’nalarga aylangan. Qishloq xo‘jaligi va poliz mahsulotlarini etishtirishda viloyatda umumiy hajmga nisbatan 58,9% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarga 30,8% fermer xo‘jaliklarga 9,4% qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

Sirdaryo viloyatining geografik joylashuvi, iqlimi, er rel’efi aynan qovun etishtirishga mos keladi. Ayniqsa Mirzaobod, Oqoltin, Sardoba, Xavas tumanlarida “Oq qovun 557”, “Shakarpalak 554”, “Obinovvot”, “Ko‘kcha 588”, “Qirqma”, “Ichi qizil” va shu qovunlar boshqa hududlarga nisbatan serhosil, unumli va sifatli bo‘ladi.

Sirdaryo viloyatida asosan qovunpoyalar fermer xo‘jaliklarida qator oralariga, dehqon xo‘jaligi va tomoorqalarda etishtiriladi. Etishtirilgan mahsulotlarning 50% shartnomalar asosida eksport qilinadi, 35% mahalliy bozorlarda sotiladi, 5% quritib olinadi. 10-15% texnik shikastlangan holatda dalada qoladi yoki em qilinadi.

Qovun qoqini oftobda ochiq quritish qator kamchiliklarga ega bo‘lib, eng muhimi mahsulot sifati pastligi va ekologik toza emasligi bilan xarakterlanadi. Sun’iy kamerada quritish esa isitish uchun ko‘p mablag‘, maxsus qurilma talab etadi va mahsulot tannarxini oshiradi. Shuning uchun mahsulot ekologik tozaligini saqlab, eksportbop qovunqoqi tayyorlashga imkon beradigan mini-moslama ishlab chiqdik, uning chizmalari bayon etilmoqda. Mevalarni quritish va qoqini tayyorlashning biz tavsiya etgan minimoslama uzunligi 2 metr, eni 1 metr, balandligi 2,5 metrni tashkil etadi. U uchun asosan mahalliy materiallar ishlatiladi va hamma tomondan germetik yopilib, plyonkaning pastki qismi erga 15-20 sm chuqurlikda ko‘miladi. Old va orqa tomonlaridagi havo kirish va chiqish quvurlari moskit setka bilan hasharotlar, chang, qurt-qumursqalar kirmasligi uchun berkitiladi. Eshik akfadan berk yopiladigan bo‘lgani lozim. Qovun eti bo‘laklari 2 sm qalinlikda, 20-30 sm uzunlikda kesilib, birdaniga eni 40 sm, uzunligi 80 sm bo‘lgan osma konteynerlarga sixga tiqib sakkiz qator qilib teriladi, bitta sixga bitta kesilgan qovun joylashtirsa bo‘ladi.

Ushbu mobil qurilmani qo‘llashdan maqsad qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni va qayta ishlashni ya’nada takomillashtirib qulay tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish. Dehqon va tadbirkorlarga engillik yaratib, mahalliy markazlashgan boshqaruv tarmoqlarini shakillantirib, ya’nada iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun “Klaster” hamda xususiy korxonalar tashkil etish rejalashtirilgan.

Dala sharoitida mobil qovun quritish kichik korxonasi tashkil etish CHORA-TADBIRLARI

	Chora-tadbirlar	**Amalga oshirish mexanizmi**
.	Ma’suliyati cheklangan jamiyat tashkil etish	Biznes reja asosida kerakli hujjatlarni yagona darchaga taqdim etiladi va Ma’suliyati cheklangan jamiyat tashkil etiladi
	Loyiha asosida 100 dona dala sharoitida mobil qurilma yasaladi (talabga qarab soni	Kichik sex tashkil etiladi. Uch kishidan iborat mavsumiy payvandchi, chilangar shartnoma asosida ishga olinadi. Loyiha bo‘yicha o‘lchamlarga mos

	ko‘paytiriladi)	metall prokatlar xarid qilinadi. SHartnoma asosida mobil uskunalar soni aniqlanib, yasladi. Mablag‘ biznes reja va smeta xarajatlari asosida kredit yoki davlat loyiha mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.
	Mavsum davomida pudratchi bilan aloqada bo‘ladi	Qovun ekish bilan shkg‘ullanadigan dehqonlar o‘rtasida tushuntirish ishlari olib boriladi. Ishning tartibi, dehqonning manfaati va o‘zaro kelishuvlar amalga oshiriladi. Butun texnologik jarayon tushuntiriladi.
	Mahsulotlar tekshirilib turiladi	Ekinlar va mahsulotlardan na’munalar standart talablari bo‘yicha laboratoriyalardan o‘tkaziladi.
	Dala sharoitida qovun quritish mobil qurilmalari tarqatiladi	Hududlar bo‘yicha ekilayotgan qovun navi, maydoni, mahsulotning tayyor bo‘lish grafigi asosida ish yuritiladi. A) Talab etilgan mobil uskunaga qo‘shib germetik konteynerlar tarqatilgan bo‘lishi zarur. B) Tarozidan o‘tkazilgan har bir kilogramm mahsulot uchun Ma’suliyati cheklangan jamiyat tomonidan naqd yoki bank plastik kartasiga o‘tkazish yo‘li bilan hisob-kitob amalga oshiriladi. V) Barcha ishlatiladigan jihozlardan dehqon tekin foydlanadi. G) Har o‘n kunda mahsulot yig‘ib turiladi.
	Mahsulot maxsus ajratilgan maydonga olib kelinadi va muzlatgichga joylashtiriladi	A) Ma’suliyati cheklangan jamiyat tomonidan loyiha asosida muzlatgich qurish. B) Markazlashgan hududda joylashgan muzlatgichlar bilan mavsumiy shartnomalar tuzish. V) Keltirilgan mahsulotlarni grafik asosida qisqa muddatlarga saqlashni tashkil etish.
	Shtamplab qadoqlanadi	A) Bozor talabi o‘rganiladi va qadoqlash formalari tanlanadi. B) Shunga mos shtamplash dastgohi olinadi. V) Qadoqlangan qovun qoqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomachilarga yuboriladi yoki muzlatgichga vaqtinchalik joylashtiriladi.
	Shartnoma bo‘yicha eksport qilish	Mahsulotni eksport qilish uchun yil boshidan muzokaralar o‘tkazilgan bo‘lib, shartnomalar tuzilgan bo‘ladi.
	Logistika xizmatdan foydalanish	Ma’suliyati cheklangan jamiyat bilan shartnoma tuzilgan korxona va eksportyorlarga yuklarni yuborish uchun shartnomalar tuziladi. To‘lov bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Taklif etilayotgan dala sharoitida qovun quritish mobil uskunasining texnik xarakeristikasi

1.Qurilmaning asosi 80x50 mm. kesimda metall prokatdan yasalgan, balandligi 110 sm, eni 185 sm. yonma-yon 2 ta karkas o‘rnatiladi.

2. Baraban diametri 120 sm eni 90 sm, bog‘lovchi 8 ta osma o‘q diametri 20 sm. dan va 1 ta asosiy o‘q diametri 6 sm.

3.Osma konteynerlar 80 sm x 40 sm. barabandagi bog‘lovchi osma o‘qqa osiladi. Konteynerda 6 ta qovun iladigan 80 sm. uzunlikda six bo‘lib, po‘choq va urug‘idan ajratilgan tiliklagan qovunlar osib qo‘yiladi. Har bir konteynerga o‘rtacha 6 ta qovun tilinib osiladi jami mobil qurilmaga 48 ta qovun joylashtiriladi.

4. Asosiy o‘q 60 mm, uzunligi 100 sm sirpanish podshipnigiga o‘rnatilgan. Asosiy tayanch nuqtalari ramada joylashgan.

5.Karkaslar yog‘och 5x5 reykalardan yasalgan bo‘lib, rama profilidagi tutkichlarga kiritiladi.

6.Polietilen plyonka qoplamasi 10 m^2 stepler bilan yog‘och reykalarga mahkamlanadi.

7.Qurilmaga havo kirish-chiqish quvurlari o‘rnatiladi.

8. Qurilmaning yon tomonida mahsulotni (konteyr) almashtirish uchun maxsus germetik eshikcha o‘rnatiladi.



Mobil qovun quritish qurilmasining Qovun qoqini osish



qurilmasi (konteyner) osma barabani



Mobil qurilmaning yig‘ma **Dala sharoitida qovun quritish mobil qurilmasining yon *asosi (ramasi)* ko‘rinishi.**

1-Baraban, 2-konteyner, 3-asosiy o‘q, 4-tayanch,
5-ustki rama, 6-yig‘ma asos, 7-yog‘och reyka,
8-tutqich, 9-sirpanish padshipnik.

Iqtisodiy samaradorligi

1.O‘rtacha 1 ta qovun 5 kg. Ichki bozorda sof 1 kg vazni 2000 ming so‘m. Narxi 10000 so‘mni tashkil etadi.

2.Besh kg.lik qovunni po‘chog‘i va urug‘idan ajratsak 800-1000 gr. chiqitga chiqadi. Qolgan qovunning sof og‘irligi 4000 gr. ni tashkil etadi. Qurutish jarayoni 3 ta vaqt oralig‘ida 4000 gr. sof qovunga nisbatan solishtirsak

-1 haftalik 50% =2000 gr.

- 2 haftalik 30%= 1200 gr.

- 3 haftalik 25%=1000 gr. quruq qovun qoqi olinadi.

1 kg. quritilgan qovundan 10 dona 100 gr. lik shtamplab qadoqlangan qovun qoqi olinadi. Bu ichki bozorda sifatiga qarab 10000-12000 so‘mdan sotiladi. (Eksport narxi albatta bundan bir necha barobar qimmat.) Demak bir dona 5 kg. lik qovunning narxi quritilganda 80-100 ming so‘mni tashkil etadi.

Mobil qurilmada 48 ta qovun 20 kunda quritilsa 48 kg. qovun qoqi olinadi. 48 kg. qovun qoqi 4800000 so‘mni tashkil etadi. Bitta mobil qurilma bir mavsumda 2 martta qo‘llanilsa 96 kg. qovun qoqi quritilidi. Bu esa 9600000 so‘mni tashkil etadi.

Xususiy korxona tomonidan 100 dona qurilma tarqatilgan bo‘lsa 9600 kg. o‘rtacha 10 t qovun qoqi tayyorlanadi. Germetik konteynerlar 30 kg. lik bo‘lsa 320 dona kerak bo‘ladi. 96 ta qovun 5 kg.dan umumiy vazni 480 kg. bo‘lsa, 1 kg. qovun 2 ming so‘mdan 960000 so‘mni tashkil etadi. 9600 kg. qovun qoqining 1 kilogrammi qadoqlansa 100 ming so‘mga baholanadi. Bu esa 960 million so‘mni tashkil etadi. Farqi 960000000-960000=86400000 so‘m. 1 dona qurilmaning tannarxi 1 800 000 so‘mni tashkil etadi.

Bu narxlardan kelib chiqib, O‘zbekistondagi mehnatkashlar ham o‘z mahsulotini qimmatroq sota olishi mumkin. Milliy brendga aylangan qovunqoqi xalqaro ko‘rgazmalarga olib chiqilsa, jahon bozorida yaxshiroq targ‘ib qilinsa, sifatli qadoqlash yo‘lga qo‘yilsa, bu ish bilan shug‘ullanadiganlar ko‘proq foyda olishga zamin bo‘ladi.

Xulosa

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘sish sur’ati yiliga o‘rtacha 9-10 foizni tashkil etmoqda. SHuningdek, mahsulotning eksport hajmi ham yildan-yilga ortmoqda. So‘nggi 5 yilda mamlakatda oziq-ovqat sohasini jadal rivojlantirish va diversifikatsiyalash uning xom ashyo bazasini kengaytirish va mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini berdi. Yurtimiz aholisini sifatli va etarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishga hissa qo‘shish, qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish uchun er egasi sifatida har bir tomorqa er egasi, fermer va dehqon xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligining barcha soha va yo‘nalishlarini zamon talablari asosida rivojlantirishga fidoiylik bilan yondoshishi hamda bugungi faoliyatini tubdan o‘zgartirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2501-2020 yildagi PQ-4575 “O‘zbekiston Respublikasi 2020-2030 yillarda Qishloq ho‘jaligi belgilangan strategiyasini rivojlantirishning 2020 yildagi tadbirlarni ishlab chiqish masalalari” to‘g‘risidagi qarori.

2. X.Tilavov, T.Ostonaqulov, I.Amanturdiev Qovun navlarini turli quritish usullarida baholash // AGRO ILM.- № 6(56), 2018. –B.39-40.

3. O.Raxmatov O.Raxmatov, F.Raxmatov Sovershenstvovanie texnologii pererabotki dьın v usloviyax Respubliki Uzbekistan // –Tashkent: Fan, 2018. -160 s.

4. Mavlyanova R, Rustamov A, Xakimov R. i dr. O‘zbekiston qovunlari. - Tashkent, 2005. -206 b

SIRDARYO VILOYATIDA CHIGIT EKISH OLDIDAN TUPROQQA ISHLOV BERUVCHI OSMA IKKI IZLI BORONA TISHINING SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

U. Bababekov
Guliston davlat universiteti, tayanch doktoront

Bahorda yerlarni chigit va boshqa ekinlar urug‘ini ekishga tayyorlashdagi asosiy va birinchi navbatdagi vazifa dalalarni boronalash hisoblanadi. Bu tadbir o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilsa dala yuzasida mayin qatlani hosil bo‘lib, tuproqda kuz–qish davrlarida to‘plangan nam uzoq muddat saqlanadi hamda undagi sho‘rni yuqoriga ko‘tarilishining oldi olinadi, unib chiqayotgan begona o‘tlar yo‘qotiladi. Bahorgi boronalash o‘z vaqtida o‘tkazilmasa tuproqdagi nam va sho‘r ko‘tariladi, dalalarni begona o‘tlar bosadi, tuproq qotib qoladi. Shu boisdan bahorda barcha dalalar tuproqning yuqori 8-10 cm qatlami yetilishi bilan boronalanishi lozim. Shunda tuproq qiyg‘os maysa beradigan mayda fraktsiyali, sernam bo‘ladi.

Respublikamiz sharoitida talab darajasidagi va yuqori ish sifatini ta’minlash uchun barcha maydonlarda boronalash ikki izli, ya’ni ketma-ket ikki qator o‘rnatilgan tishli boronalar bilan amalga oshiriladi [1]. Ammo ikki izli boronalar quyidagi jiddiy kamchiliklarga ega:

- boronalarni ularga tiqilib qolgan begona o‘tlar va o‘simlik qoldiqlaridan tozalash uchun agregat to‘xtatiladi va qo‘l kuchi bilan tozalanadi. Buning uchun har bir agregatga ikkitadan to‘rttagacha qo‘shimcha ishchilar ajratiladi. Qishloq xo‘jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi (QXTTSSM) dan olingan ma’lumotlar bo‘yicha boronalarni o‘simlik qoldiqlaridan va begona o‘tlardan tozalash uchun sarflanadigan vaqt smena vaqtining 30 foizini tashkil etadi [2, 3];
- bir daladan ikkinchi dalaga o‘tish uchun agregat qismlarga ajratiladi va qo‘shimcha transport vositasida olib o‘tilib, qaytadan yig‘iladi. QXTTSSM dan olingan ma’lumotlar bo‘yicha bu ishlarni bajarish uchun 5,4 kishi – soat sarflanadi [2, 3];
- manyovrchanligi past, foydalanishga noqulay.

Bu ko‘rsatilganlar boronalash agregatlarining ish unumi va sifatini pasayishi, yonilg‘i, mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni ortishiga olib keladi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda QXMITIda 2,0-3,0 klassdagi traktorlarga qo‘shib ishlatiladigan osma ikki izli borona ishlab chiqildi. Quyidagi keltirilgan rasmda osma ikki izli boronaning sxemasi hamda ish jarayonidagi umumiy ko‘rinishi tasvirlangan.

Ushbu maqolada ishlab chiqilgan ikki izli borona tishining uzunligi va unga to‘g‘ri keladigan massani uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqodlarning natijalari keltirilgan. Bunda baholash mezoni sifatida ishlov berish chuqurligi, tuproqning uvalanish sifati, dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi hamda ikki izli boronaning tortishga qarshiligi olindi.

Tajribalarda ikki izli osma borona tishlarining uzunligi 20 mm interval bilan 100 mm dan 160 mm gacha uning har bir tishiga to‘g‘ri keladigan massasi esa 2,32 kg dan 2,71 kg gacha o‘zgartirildi, harakat tezligi 6 va 9 km/h etib qabul qilindi.

Tajribalardan olingan natijalar 1va 2 – jadvallarda keltirilgan. 1–jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- har ikkala harakat tezligida ham tish uzunligini ortishi ishlov berish chuqurligini va uning o‘rtacha kvadratik chetlanishini ortishiga olib kelgan. Buning asosiy sababi tish uzunligi ortishi bilan uning tuproqqa botish chuqurligi ortadi. Bunda tish uzunligi ortishi bilan ishlov berish chuqurligi qavariq, uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi esa botiq parabola qonuniyati bo‘yicha o‘zgargan;
- tishning uzunligi ortishi bilan tuproqning uvalanish sifati yomonlashgan. Bunga sabab shuki, boronalar kalta tishlar bilan jihozlanganda ularning ramasi dala yuzasiga tegib yuradi va tuproqning uvalanishi yaxshilanadi. Shu sababdan boronalarning tishlari kalta bo‘lganda dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi uzun tishlar bilan ishlov berilgandagiga nisbatan kichik bo‘ladi;
- tishning uzunligi ortishi bilan boronaning tortishga qarshiligi to‘g‘ri chiziq qonuniyati bo‘yicha ortgan;
- tezlikni 6 km/h dan 9 km/h gacha ortishi ishlov berish chuqurligini kamayishiga tuproqning uvalanish sifatini yaxshilanishiga, dala yuzasidagi notekisliklar balandliklari o‘rtacha kvadratik chetlanishini kamayishiga hamda tortishga qarshilikni ortishiga olib kelgan;

- talab darajasidagi ishlov berish chuqurligini (5-6 sm) ta’minlash uchun tishlarning uzunligi kamida 140 mm bo‘lishi lozim.



a

b

1-rama; 2- osish qurilmasi; 3- iz-yumshatkich; 4- parallelogramm mexanizm;

5- tishli borona; 6- tayanch chang‘i

Osma ikki izli boronaning sxemasi (a) va ish jarayonidagi umumiy ko‘rinishi (b)

1- jadval

Ikki izli osma borona tishlarining uzunligini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Tishning uzunligi	Ishlov berish chuqurligi,sm		Tuproqning quyidagi o‘lchamli (mm) fraktsiyalari miqdori, %			Dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi, ± sm	Tortishga qarshilik, kN
	$M_{o‘r}$	$\pm\sigma$	>50	50-25	25		
Harakat tezligi 6 km/h							
100	4, 5	1,32	7,2	8,3	4,5	1,45	1,64
120	5,4	1,35	7,1	9,1	3,8	1,50	1,76
140	6,0	1,61	7,4	9,2	3,4	1,66	1,93
160	6,2	1,66	7,6	10,1	2,3	1,74	2,12
Harakat tezligi 9 km/h							
100	4,2	1,34	7,1	7,9	85	1,33	1,73
120	4,9	1,39	7,3	8,4	4,3	1,39	1,87
140	5,5	1,47	8,2	8,3	3,5	1,62	2,04
160	5,7	1,69	8,3	8,7	3	1,69	2,16

2–jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ikki izli boronaning har bir tishiga to‘g‘ri keladigan massani ortishi ishlov berish chuqurligini ortishi va uning o‘rtacha kvadratik chetlanishini kamayishiga olib kelgan. Chunki har bir tishga to‘g‘ri keladigan massa ortishi bilan unga beriladigan tik yuklanish ortishi tufayli ishlov berish chuqurligi ortadi va uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi kamayadi, ya’ni ishlov berish chuqurligi bo‘yicha bir tekis yurishi yaxshilanadi. Agregatning 6 km/h harakat tezligida har bir tishga to‘g‘ri keladigan massa 2,32 kg dan 2,71 kg ga ortganda ishlov berish chuqurligi 1,5 cm ga ortgan va uning o‘rtacha kvadratik chetlanishi esa ± 0,23 cm ga kamaygan, 9 km/h harakat tezligida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 1,38 cm ga ortgan ± 0,22 cm ga kamaygan.Har bir tishga to‘gri keladigan massani ortishi tuproqning uvalanish sifatini yaxshilanishiga, dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishini kamayishiga va tortishga qarshilikni ortishiga olib kelgan. Bu asosan ishlov berish chuqurligini ortishi hisobiga yuz bergan. Har bir tishga to‘g‘ri keladigan massa 2,32 kg dan 2,71 kg gacha ortganda 6 va 9 km/h harakat tezliklarida tuproqning uvalanish darajasi mos ravishda 3,7 va 4,6 foizga ortgan, dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi mos ravishda ± 0,15 va ± 0,09 cm ga kamaygan, tortishga qarshilik esa mos ravishda 0,24 va 0,32 kN ga ortgan.

2 – jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan bo‘yicha ikki izli borona tomonidan ishlov berish chuqurligini talablar darajasida bo‘lishi uchun uning har bir tishiga to‘g‘ri keladigan massa 2,45–2,58 kg oralig‘ida bo‘lishi lozim.

2 - jadval

Ikki izli osma boronaning har bir tishga to‘g‘ri keladigan massani uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Har bir tishga to‘g‘ri keladigan massa, kg	Ishlov berish chuqurligi,sm		Tuproqning quyidagi o‘lchamli (mm) fraktsiyalari miqdori, %			Dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi, ± sm	Tortishga qarshilik, kN
	$M_{o‘r}$	$\pm\sigma$	>50	50-25	<25		
Harakat tezligi 6 km/h							
2,32	4,8	1,34	8,6	9,8	81,6	1,75	1,84
2,45	5,3	1,27	8,4	8,9	82,7	1,71	1,91
2,58	6,1	1,20	7,6	9,3	83,1	1,69	1,98
2,71	6,3	1,11	7,4	7,3	85,3	1,60	2,08
Harakat tezligi 9 km/h							
2,32	4,9	1,30	8,5	9,4	82,1	1,57	1,92
2,45	5,1	1,22	8,2	8,6	83,2	1,55	2,02
2,58	6,1	1,15	7,3	8,2	84,5	1,53	2,13
2,71	6,3	1,08	6,2	7,1	86,7	1,48	2,24

Xulosa

O‘tkazilgan tajribaviy tadqiqodlarni ko‘rsatishicha ikki izli borona tuproqqa talab darajasidagi ishlov berishi uchun uning tishining uzunligi kamida 140 mm bo‘lishi va har bir tishga to‘g‘ri keladigan massa 2,45– 2,58 kg oralig‘ida bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қишлоқ хўжалик экинларини парваришлаш ва маҳсулот етиштириш бўйича намунавий технологик карталар. 2016-2020 йиллар учун (I қисм).–Тошкент, 2016 –138 б.

2. Протокол №26-21-88 (8075200) Государственных приемочных испытаний опытного образца сцепки борон СН-8. – СредазМИС, 1988. - 44 с.

3. Протокол №26-17-89 (8075200) Государственных приемочных испытаний опытного образца агрегата бороновального АБН-8,5. – СредазМИС, 1989. - 48 с.

PAXTANING IFLOSLIGI VA NAMLIGINI ANIQLASH, SAQLASH OMBORLARIDA SAQLANAYOTGAN PAXTANING SIFATINI NAZORAT QILISH

Yuldosheva Dilorom Xusniddin qizi
Guliston davlat universiteti

Abstract: In this article, to provide more information about the process of raw cotton processing, the effect of using innovative methods, to determine the degree of contamination and moisture of this received cotton, so that they have complete information about this science. The procedure used in the inspection is the law and regulations. Helping them to acquire theoretical knowledge, practical skills and high qualifications from the module "The role and importance of preparation points in the storage of raw cotton and the process of quality control during storage".

Key words: Cotton dirt and moisture interactive method, innovative technology, Preparation point, LKM device, P-2 light polarizing device, desiccator, "Uzdavstandart".

Paxtani iflosligi va namligi bo‘yicha taxlil qilishdan oldin har bir katta bankadan kichigiga 400—500 g. dan namuna olinib, uni bir sutka davomida namlikni nazorat tekshiruvi uchun saqlanadi.

Namunani sutka davomida saqlash vaqti namunaning nazorat qilinadigan qismi kichik banka (namlikni aniqlash uchun) va ko‘p yoki bankaga (ifloslikni aniqlash uchun) joylangan paytdan hisoblanadi. Namlik va ifloslikning kunlik tahlillaridan keyingi namuna qoldig‘ini sifat hamda iflosligini nazorat tekshiruvi uchun qoldiriladi va qogoz qoplarda saqlanadi.

Namunali kichik bankani imzolab, sana, xo‘jalik, brigada,seleksion va sanoat navlari, jamlanadigan to‘dalar ko‘rsatilgan yorliq yopishtirib ko‘yiladi. Bir sutkadan keyin nazorat namunalari tegishli to‘dalarga qo‘shiladi.

Qabul qilingan paxtaning innovatsion texnologiyalardan foydalaniladi hamda navi, namligi va ifloslanganligini aniqlash uchun namunalar tanlash va taxlillar 643-95, 592-92, 593-92, 644-95 (1, 2, 3, 4) raqamli respublika standartlari bo‘yicha standart namunalarda tekshirilgan yoki «O‘zdavstandart»ning metrologik xizmati attestasiyasidan o‘tkazilgan asboblarda olib boriladi. Namunalar tanlash, laborantlar ishi, laboratoriya asbob-uskunalarini paxta zavodining TNB boshlig‘i nazorat qiladi.

Tayyorlov punktining laboratoriyasi quyidagi asboblarga ega bo‘lishi kerak: O‘z-7m shkafi, USX-1 va VXS yoki VXS-M1 namlikni aniqlash asbobi, paxta ifloslanganligini aniqlash uchun LKM qurilmasi, LPS-4 tola navini aniqlash asbobi, PPV jin tola tozalagich, paxta uchun SXL-3 laboratoriya quritgichi, mayda qadoq toshli texnik tarozilar, mikroskop, mikroskopga P-2 nurli kutblantiruvchi moslama eksikator, namunalar olish uchun bankalar (katta va kichik), LPS-4 asbobida nazorat tekshiruvlarining ruhsat etiladigan farqlari paxta tolasi buyicha 2,5 foizdan oshmasligi kerak. Agar bu ajrimlar orasidagi farqlar ruhsat etiladigan miqdordan oshib ketsa, unda ikkita qo‘shimcha namuna LPS-4 da o‘lchanadi va o‘lchov natijalari bo‘yicha o‘rtacha qiymat hisoblanadi.

Ikki namuna tahlilining natijalari o‘tasidagi farq, ifloslikni nazorat tahlilida ifloslanganlik 10% gacha bo‘lganda — 0,6%(mut.) dan oshmasligi, 10 foizdan yuqori bo‘lganda esa 1,0% (mut.)dan oshmasligi kerak. Ikki namunani sinash natijalari orasidagi farqlar nazorat tahlillarida paxta namligi 10,0% gacha bo‘lganda 0,5% dan oshmasligi va namligi 10% dan ko‘proq bo‘lganda 5,0%(nisb.)dan oshmasligi lozim. Agar dastlabki va nazorat tahlillarining natijalari orasidagi farqlar yuqorida ko‘rsatilgan chegaralardan chiqmasa, unda dastlabki tahlil to‘g‘ri hisoblanadi.

Namunalar tanlash to‘g‘riligini tekshirish, klassifikatorlar va laboratoriya tomonidan qabul qilinadigan paxtaning navi, ifloslanishi xamda namligini aniqlash uchun har kunlik laboratoriya tahlillari belgilanadi. Shu maqsadda qabul qilishdan keyingi kun tayyorlov punktida jamlanayotgan har bir to‘dadan klassifikato‘r ishtirokida bir kunda qabul qilingan paxtadan birlashgan paxta namunalari tanlanadi. Unga paxtaning seleksion va sanoat

navlari, terim turi, namuna olingan to‘da yoki g‘aram no‘meri ko‘rsatilgan yorliq tirkaladi. Shundan so‘ng mazkur namunalar bo‘yicha laboratoriyada paxtaning namligi, iflosligi va navi asboblar yordamida aniqlanadi. Tahlil natijalari klassifikator uchun majburiydir. Ular bo‘yicha klassifikator paxtani to‘g‘ri qabul qilish va jamlashni ta’minlash yuzasidan choralar ko‘rishi shart. To‘dani jamlash ma’lumotlari bo‘yicha iflosligi va namligi ko‘rsatkichlari, qabul qilishdagi ma’lumotlarga muvofiq kelishi kerak yoki yuqorida ko‘rsatilgan ruxsat etiladigan chegaralarda og‘ishlarga ega bo‘lishi mumkin.

Tayyorlov punktida qabul qilingan paxtaning sifatini baxolash maqsadida har bir jamlangan paxta to‘dasiga respublika standarti «Paxta. Namuna tanlash usullari» (1) bo‘yicha o‘rta namuna tuziladi.

Tayyorlov punktida paxta qabul qilishda qabul qilinadigan maxsulotning sifatini nazorat qilish muxim urin tutadi. Uning aniqligiga nafaqat paxta zavodining daromadi, balki g‘aramning to‘g‘ri jamlanishiga ham bog‘liq bo‘lib, paxtaning ishonchli saqlanishini ta’minlaydi. Namunalar tanlash paxta sifatini nazorat etishning dastlabki va eng mas’ul jarayoni hisoblanadi. Paxta tayyorlov punktida respublika standarti 643-95 «Paxta. Namuna tanlash usullari» (1) bo‘yicha olib boriladi. Shuningdek, namuna tanlashga paxtani tushirish joylarida ham ruhsat etiladi. Namuna tanlash uchun odatda, doimiy usti yopiq ayvon jihozlanib, unda paxta namligi va iflosligini aniqlash uchun paxta namunalari solingan bankalarni quyosh nuri, chang va yog‘ingarchilikdan saqlaydigan joy tanlanadi. Paxtaning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun keltirilgan paxta to‘dasining turli joylaridagi istalgan nuqtalardan olingan namuna turkumi tuziladi. interfaol medotlardan qo‘llaniladi.

To‘da deganda bitta seleksion sanoat navidan olingan sifati bo‘yicha bir xil bo‘lgan bitta transport nakladnoyi bilan rasmiylashtirilgan paxta miqdori tushuniladi. Har bir keltirilgan to‘da

nuqtalaridan namunalarni tayyorlov punktining klassifikatori paxta topshiruvchi ishtirokida paxta tortilguncha qo‘lda tanlab oladi. Nuqtalardan namunalar tanlashga paxta tushirilgan joylarda ham ruxsat etiladi.

Keltirilgan paxta to‘dasining har ikki tonnasidan turli chuqurlikdagi kamida uch joydan har biri 100—150 g miqdorida namuna tanlab olinadi. Paxtaning iflosligi va namligi tayyorlov punkti laboratoriyasida har bir xo‘jalik (bo‘linma yoki brigada) bo‘yicha o‘rtacha kunlikda namunalarga qarab jamlangan to‘dalar doirasida aniqlanadi. O‘rtacha kunlik namuna bir kunda keltirilgan paxtadan yig‘ilgan namunalar to‘plamidan iborat. U quyidagicha tuziladi. Nuqtalardan olingan paxta namunalari namligi va iflosligini asboblar yordamida tekshirish uchun bitta kichik (bir kilogrammli) qopqog‘i zich yopiladigan bankaga solinadi. Uning yorlig‘ida topshiruvchi xo‘jalikning nakladnoy no‘meri, to‘da nomeri, terim turlari, paxta navi ko‘rsatiladi. Keyin kichik bankalarga yig‘ilgan nuqtalardan olingan paxta namunalari 6—8 kg sig‘adigan katta bankalarga joylanadi (katta bankaning tahminiy hajmi balandligi 0,7 m, diametri 0,4 m). Katta bankaga xo‘jalik, bo‘linma, brigadalar, paxtaning seleksion va sanoat navi, terim turi va jamlanadigan to‘da no‘meri ko‘rsatilgan yorliq yopishtiriladi.

Katta bankalar laboratoriyya yoki bo‘linmada isitish asboblaridan uzoq, maxsus joyda saqlanishi kerak. Sig‘imi kamida 3—4 kg bo‘lgan o‘rtacha kunlik namuna butun qabul qilish kuni mobaynida to‘planadi va undan kuniga bir bor namligi xamda iflosligi bo‘yicha 3–136 ga laboratoriya taxlil o‘tkaziladi.Taxlillar har bir xo‘jalik, bo‘linma, brigada bo‘yicha jamlanadigan to‘dalar, ya’ni terim turlari, seleksion va boshka belgilar buyicha olib boriladi.

XULOSA

foydalanib qabul qilingan paxtaning namligini va iflosligini aniqlashdagi zamonaviy yondashuv uslullari fan bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishga qiziqish uyg‘otish, joylarda sohaning ahvoli, sharoitlarini tahlil etish, yangi tizimlarni joriy qilishni o‘rganish hamda nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

O‘qitish jarayonida bevosita «yangi zamonaviy pedagogik texnologiya» larni qo‘llash yaxshi samara beradi. Asosiy muammo adabiyotlar, qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar, tarqatma materiallari, yangi axborot-texnik vositalari bilan ta’minlanganlik va ularni talabalarga etkaza bilishda namoyon bo‘ladi. Bunda avvalo o‘qituvchining o‘zi ushbu materiallar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Bu muammoni qaysidir ma’noda ushbu fan bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan modullar hal etadi.

“Paxta xom ashyosini quritish” fanining nazariy va amaliy mavzularini o‘rganishdan oldin, talabalar avvalo paxta xom ashyosini quritish sohasini ahamiyati haqida bilim olishadi. Ayniqsa paxta ekinlarini etishtirish texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib. . Ushbu imkoniyatdan qanday foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Bu jarayonda o‘qituvchi ijodkor bo‘lishi va chuqur, xar tomonlama bilimga ega bo‘lishi lozim. Darslarida interfaol o‘qitish usullaridan keng foydalanishi, talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xarakat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston – bozor munosabatdariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”, Toshkent-1994.

2. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik.Toshkent, “Voris nashriyot”, 2008, 416 b.

3. SH.M.Mirziyoyev “Buyuk kelagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.- Toshkent: - “ O‘zbekiston”, 2017 y.

FAN VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSİYASI IQTISODIY O‘SIShNING YURITMASIDIR

Nuriyev K.K.

Guliston DU, t.f.d., professor

Hozirgi kunda jamiyat taraqqiyoti fanning bevosita ta’siri ostida ro‘y berayotgan faol o‘zgarishlar davriga kirdi.

Ma’lumki, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining bir qancha asosiy shakllari mavjud. Ulardan biri o‘z hududlarida ilmiy parklar yaratuvchi va ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonini qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga olgan ***tadqiqot universiteti*** hisoblanadi.

Tadqiqot universiteti ta’lim va fan integratsiyasini **rivojlanishning eng samarali shakli** deb hisoblanganini aniqladi. Tadqiqot universitetining nalabalar shaharchasida ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tkazish va nazariy bilimlarni olish uchun o‘quv xonalari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladigan va amaliy ko‘nikmalar beradigan laboratoriyalar bo‘lishi kerak.

Tadqiqot universiteti kontseptsiyasi kontekstli bilimlarni o‘zlashtirishga asoslangan bo‘lib, u universitetning o‘zida rasmiy bilimlarni olish bilan bir vaqtda ularni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Ta’lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashuvining yana bir shakli tadqiqot parklari yoki texnoparklardir.

Texnopark - bu o‘rta va kichik tavakkal innovatsion korxonalarni ishlab chiqarish uchun o‘ziga xos fabrika bo‘lib, uning vazifalari ilmiy markazlarda yaratilgan eng yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga o‘tkazishni o‘z ichiga oladi [1].

Yosh olim-tadbirkorlar uchun turli mutaxassisliklar bo‘yicha ekspertlar bilan muloqot qilish imkoniyati muhim ahamiyatga ega. Ilmiy parklarning ta’sischilari universitetlar, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy va loyihalash muassasalari hisoblanadi.

Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining yana bir shakli *texnopolis* bo‘lib, u universitetlar, ilmiy markazlar va sanoat kompaniyalaridan iborat shahardir. Texnopolis, odatda, viloyatda, yirik markazlardan uzoqda joylashadi [2].

"Texnopolis" atamasi XX asrning saksoninchi yillarining boshlarida Yaponiyada keng ko‘lamli hukumat islohoti davrida paydo bo‘lgan bo‘lib, uning maqsadi ilm-fan rivojini jadallashtirish, shuningdek, yangi texnologiyalarni rivojlantirish orqali mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlash edi. Yapon g‘oyasi va Amerika "Selikon vodiysi" o‘rtasidagi farq - Yaponiya texnopolislari kontseptsiyasi yuqori ilmiyxajmdor texnologiyalarni rivojlantirishga ancha muvozanatli yondashadi, texnologik va tadqiqot markazlari, yangi universitetlar, yashash-massivlari, parklar va madaniyat muassasalari bilan to‘ldirilgan yangi fan shaharlarini yaratishni taklif qildi. [2].

Bugungi kunda “Quyosh mamlakati”da 19 ta milliy texnopolisdan iborat keng ko‘lamli tizim mavjud bo‘lib, ular turli ob’yektlarni o‘z ichiga olgan va iqtisodiyotda salmoqli o‘rin tutadi.

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasining Amerika shakli hozirgi vaqtda eng mahsuldorlilaridan biri hisoblanadi. Amerika integratsiyaning modeli eng samaralilaridan biri bo‘lishining sababi, tadqiqot universitetlari bitiruvchilari ko‘pincha Nobel mukofoti sovrindorlari bo‘lishadi.

Aynan ularning tajriba-tadqiqotlari keyinchalik bir vaqtning o‘zida ilmiy va texnologik rivojlanish va ko‘p millionli daromadlarni ta’minlaydigan yirik texnologiya kompaniyalarini hosil qiluvchi konveer oqimiga aylanib bormoqda. Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Belgiya, Germaniya va boshqa Yevropa davlatlari kabi ko‘plab davlatlar bu muvaffaqiyatli tajribani o‘z amaliyotiga joriy etishga harakat qilishmoqda.

Tarixan tadqiqot universiteti o‘zini ta’lim va fan integratsiyasining samarali modeli ekanligini isbotladi, bu kampuslarda talabalar shaharchalarida ma’ruza zallarida talabalar nazariy materiallarni olishlari bilan birga haqiqatda ilmiy-tadqiqot faoliyatlarnii amalga oshiradigan laboratoriyalar ham mavjud.

Integratsiyalashgan axborot almashinuvi nafaqat talabalar, balki talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida ham amalga oshiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu integratsiya shaklidan foydalanadigan universitetlar ilmiy va o‘quv ishlarini olib borish uchun federal hukumat byudjetidan eng katta yordam oladilar.

AQSHning 100 ta yetakchi tadqiqot universitetlari tadqiqot va ta’lim maqsadlari uchun federal byudjetning 95 foizini oladi [3]. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tadqiqot universitetlarida ham jamlangan: AQShdagi barcha doktorantlarning 60% 50 ta tadqiqot universitetlarida o‘qishgan.

Aniqlanganidek, sanoatning innovatsion salohiyatini rivojlantirish O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir. Davlatning innovatsion yo‘lga o‘tishi sharoitida texnik g‘oyalarni ishlab chiqarish, shuningdek, ularni ichki va tashqi bozorda tijoratlashtirishga olib borishga qodir bo‘lgan innovatsion markazlarni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi platformalarini xorijiy tajriba, shuningdek, bu boradagi mahalliy tajribalar asosida o‘rganar ekanmiz, ularning bir-biridan hech qanday jihatdan farq qilmasligi,

mazmuni va maqsadi bir xil ekanini alohida ta’kidlash zarur. Bizning bozorimizdagi integratsiya jarayoni ta’limning barcha darajalarini, fan va ishlab chiqarish tizimi va infratuzilmasini qamrab oladi va o‘zgartiradi. ***Hozirgi vaqtda ilmiy siyosat quyidagilarga qaratilgan:***

- ilmiy-texnikaviy loyihalarning moliyaviy tavakkalchiligini kamaytirish;
- akademik va amaliy fanlarning o‘zaro hamkorligini tashkil etishda vositachilikni amalga oshirish.
- fundamental ilmiy g‘oyalar zaxirasini shakllantirish va yangi texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida tegishli mutaxassislarni tayyorlashga ko‘maklashish;

Zamonaviy O‘zbekistonni rivojlantirishning ustuvor maqsadlaridan biri innovatsiyalarni iqtisodiyotga keng joriy etish, sanoat korxonalari va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, unga ko‘ra kadrlar tayyorlashda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish va qo‘shma ilmiy va texnologik ishlanmalar amalga oshiriladi,

Ishlab chiqarishda kadrlarni tayyorlash qo‘llab-quvvatlanmoqda, ilg‘or texnologiyalar bazasida professor-o‘qituvchilarning malakasini tizimli ravishda oshirish bevosita ishlab chiqarishda amalga oshirilmoqda[4].

Shu bilan birga, to‘plangan tajriba tahlil va umumlashtirilib, mehnat bozorining rivojlanishi va aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar inobatga olinib, mamlakatimizning ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ilm-fanning rivojlanishidagi rolini kuchaytirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, ta’lim tizimini, ta’lim, fan va ishlab chiqarishni samarali integratsiyalashuvida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish muhimdir [4,5].

Innovatsion salohiyat milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimidagi o‘rnini belgilovchi strategik resursdir. Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishi inson salohiyatiga katta hajmdagi sarmoya kiritish bilan bog‘liq. Jamiyatning ilg‘or rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim sohasidagi mehnatning nufuzini oshirish zarur va bu, eng avvalo, ta’lim va fan sohasidir.

Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining xorijiy modellarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, xorijiy oliy o‘quv yurtlarida bu jarayon uzoq yillar davomida rivojlangan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarning innovatsion rivojlanishining eng muhim omili hisoblanadi.

Guliston davlat universiteti faoliyati misolida ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash shakli bilimlarni ko‘p talab qiladigan tarmoqlarda yaxshi istiqbolga ega. Integratsiya universitet faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi. Bu yerda o‘quv jarayonini tashkil etishning eng muhim tamoyili – uzluksiz ilmiy-ishlab chiqarish amaliyoti doirasida tayanch korxonalarda o‘quvchilarni malakasini oshirish bilan o‘qitish va tarbiyalashni uzviy bog‘lashdan iborat.

Ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash maqsadida universitet Sirdaryo viloytining barcha bo‘linmalari bilan hamkorlik qiladi. Universitetning yirik korxonalardagi tayanch kafedralari viloyatimizda oliy ta’limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Universitetning amaldagi dual ta’lim tizimi texnologiyasi fanni universitet professor-o‘qituvchilari va ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassislari tomonidan bevosita bo‘limlarida birgalikda o‘qitilishi, ya’ni talabalarning auditoriyalarda nazariy bilimlarni olgan holda, ularni mustahkamlab borishini nazarda tutadi.

Ta’lim jarayonida dual ta’lim tizimining qo‘llanilishi o‘quvchilarning tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha bilimini chuqurlashtiradi, kelajakdagi mutaxassisligiga qiziqishini oshiradi.

Dual ta’lim tizimidan foydalanish tajribasi ushbu tizimning an’anaviy tizimga nisbatan quyidagi afzalliklarini ko‘rsatdi:

- mutaxassislar tayyorlashning dual tizimi kadrlar tayyorlashning an’anaviy shakl va usullarining asosiy kamchiligi – nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etadi;
- dual ta’lim tizimining mexanizmi mutaxassisning shaxsiyatiga ta’sir qilishni, bo‘lajak xodimning yangi psixologiyasini yaratishni o‘z ichiga oladi;
- dual ta’lim tizimi ishda bilim olish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun yuqori motivatsiya yaratadi, chunki ularning bilim sifati bevosita ish joyidagi xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq;
- tegishli muassasalar rahbarlarining o‘z xodimlarining amaliy mashg‘ulotlaridan manfaatdorligi;
- buyurtmachi bilan yaqin aloqada ishlaydigan ta’lim muassasasi o‘qitish jarayonida bo‘lajak mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni hisobga oladi;

Dual ta’lim tizimi kasb-hunar ta’limida keng qo‘llanilishi mumkin.

Jahon hamjamiyatining turli mamlakatlarida qo‘llanilayotgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalashning shakl va usullarini moslashtirish jarayoni hozirgi kunda kam o‘rganilgan. ***Biz muhandislik-texnik ta’limda innovatsion jarayonlarni takomillashtirish sohasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni taklif etamiz:***

- muhandislik ta’limini modernizatsiya qilish bo‘yicha xalqaro tajribani har tomonlama o‘rganish;
- yuqori maxsuldorlik va samaradorlikka erishish uchun ko‘p kanalli moliyalashtirish tizimini qayta tashkil etish;
- byudjetdan tashqari faoliyatni kengaytirish va universitet hayotini sezilarli darajada o‘zini-o‘zi moliyalashtirishni ta’minlash, universitet va sanoat korxonalari o‘rtasida strategik hamkorlik to‘g‘risida kompleks shartnomalar tuzish, universitetni ishlab chiqarish, fan bilan integratsiyalash (innovatsion ilmiy-ta’lim komplekslarini shakllantirish), universitetning turli darajadagi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim muassasalari bilan integratsiyalashuvi (universitet komplekslarini shakllantirish);
- kadrlar siyosatini kontseptual asoslash va takomillashtirish;
- ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish, kasbiy qarorlar qabul qilish oqibatlari uchun javobgar bo‘lgan yuksak madaniyatli shaxsni shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy tayyorgarlikni kuchaytirish, bozor ijtimoiy-psixologik munosabatiga ega, halol tadbirkorlik, ishbilarmonlik faolligi, jamoada ishlashga qodir mutaxassis shaxsini shakllantirish;
- har xil turdagi mashg‘ulotlar o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta’minlash;
- o‘qitishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, o‘qitish tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarning shaxsiy ta’lim traektoriyalarini shakllantirish;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, malaka oshirish, qo‘shimcha, parallel, masofaviy ta’lim tizimini rivojlantirish;
- ta’lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini joriy etish;
- universitetlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish, texnik oliy o‘quv yurtlari bilan akademik aloqalarni mustahkamlash;
- zamonaviy sharoitlarda muhandislik oliy o‘quv yurtlarida o‘quv va ilmiy jarayonni moddiy-texnik ta’minlashning eng yuqori darajasiga erishish.
- fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi O‘zbekiston iqtisodiyotini zamonaviy rivojlantirish, ishlab chiqarishga innovatsiyalar va innovatsiyalarga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, shuningdek, mamlakatning innovatsion salohiyati sifatida fan va ta’limni rivojlantirishning asosiy mexanizmi bo‘lishi kerak.
- ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning o‘ziga xos modeli bo‘lib, teng huquqli hamkorlikka yo‘naltirilganligi sababli, uning barcha ishtirokchilarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari muvozanatini ta’minlaydi.
- ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga samarali erishish uning barcha ishtirokchilarining umumiy maqsadlariga erishish - oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini tayyorlash sifat darajasi fan, ta’lim va ishlab chiqarish muassasalarining zamonaviy xalqaro va ilg‘or talablariga javob berishini ta’minlash uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining turli jihatlarini ko‘rib chiqib, biz to‘liq ishonch bilan aytishimiz mumkinki, fan, texnika va ishlab chiqarishni uzluksiz inqilob qilmoqda va ular o‘z navbatida ilm-fan taraqqiyotini rag‘batlantiradi, uni yanada mukammal, aniq va murakkab uskunalar va dastgohlar bilan ta’minlab uning oldiga yangi talab va vazifalarni qo‘yadi

Adabiyotlar ro‘yxati

4. Aliakberova A.E. Globallashuv sharoitida Rossiya iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish // Globallashuv sharoitida Rossiyaning salohiyati va istiqbollari, 2011. P. 102.

5. Rivojlangan mamlakatlar: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya oliy kasbiy ta’lim tizimidagi ijobiy o‘zgarishlar va innovatsion jarayonlar tahlili. M.: NIIVO, 2001. 6-son. 51 b.

6. Bazarova S.J., Baychaev F.X., Manglieva J.X. Ta’lim jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuv asosida tashkil etish // Fan va ta’lim masalalari. – Moskva, 2018. No 11 (23). – B.38-39.

7. Sanaqulov K. S., Bazarova S. D. Navoiy davlat kon-texnika universiteti tajribasi bo‘yicha fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi // Joriy tadqiqotlar. 2023 yil 7-son (137). II qism. 45-50 -b. URL: https://apni.ru/article/5683-integratsiya-nauki-obrazovaniya-i-proizvodstv

SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA INFRA QIZIL NURLARI YORDAMIDA POLIZ MAHSULOTLARINI QURITISH TADQIQOTLARNI O‘TKAZISH

Ungarov Azizbek Abdumo‘min o‘g‘li
Guliston Davlat Unversiteti

ANNOTATSIYA: Bugungi kunda dunyo miqyosida meva-sabzavotlarning quritish davomida kimyoviy tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari, strukturasi, biologik faol moddalarini va ta’mini saqlaydigan resurstejamkor texnika, texnologiya va boshqaruv sistemalarini innovasion modellarining ilmiy asoslarini takomillashtirish, ularni joriy etilishida quritish jarayonni hisoblashning yangi usullari va matematik modellarini ishlab chiqish, nam jismdagi issiqlik va massa almashinuv jarayonlarini o‘rganish hamda apparatning konstruktiv o‘lchamlarini hisoblash borasidagi ilmiy tadqiqotlarni bajarish dolzarb muammodir.

KALIT SO‘ZLAR: Quritish jarayoni, meva-sabzavotlar, iqtisodiyot, energiya va resurslar, omillar, gaz fazasi.

KIRISH: Respublikamiz xususan Sirdaryo viloyatida oxirgi yillarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida yuqori sifatli mahsulot olish usullarini, xususan, energiyatejamkor texnologiyalarining yangi turlarini ishlab chiqishga e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «...iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish ... » vazifalari belgilab berilgan. Bu borada jumladan, o‘simlik mahsulotlarini quritish jarayonida mahsulot tarkibidagi kerakli komponentlarni saqlash, vaqt va energiyani tejash, samarali quritish usullari va texnologiyalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagi PF-5388-son «O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivoj- lantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2018 yil 26 apreldagi PQ-3680-son «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018 yil 12 yanvardagi 24-son «Ilmiy-innovasion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017 yil 6 yanvardagi PQ-2716-son «2017-2018 yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va chuqur qayta ishlash quvvatlarini tashkil etishni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlan- tirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi, farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

ASOSIY QISM, NATIJALAR: Quritish jarayoniga tasir qiluvchi omillarga xarorat, materialning namligi, xavoning konsentrasiyasi va bosim kiradi. Quritish tezligini oshiruvchi omillar эsa quyidagilar:a) jarayon xaroratni ko‘tarish; b) quritila -yotgan material ustidagi bo‘shliqda bosimni pasaytirish; v) issiqlik эltkichning nam saqlashini kamaytirish; g) material ustidagi issiqlik эltkich tezligini oshirish; d) jarayon davomida materialni aralashtirish.



1-rasm. Materialni quritish uchun bajariladigan ishni (kDj) ko‘rsatuvchi pog‘onali egri chizig‘i

Tajribalarni o‘tkazishda kapillyar-g‘ovakli o‘simlik materiallarini quritish uchun asosiy kirish parametrlarining qiymatlari aniqlanib, tanlangan jixoz ko‘rsatkichlari, standart qurilma ko‘rsatkichlariga mos qilib tanlandi. O‘ЮСН эnergiyasi quvvati 0,9 kVt ni tashkil эtdi, apparat xajmi

– 0.0204 m^3, kameraning aylanuvchan tarelkasiga o‘lchamlari 5h10h50 mm bo‘lgan quritilayotgan material joylashtirildi.

Quritilayotgan materialning quritish ko‘rsatkichlari quyidagilar: og‘irligi -0,2 kg, boshlang‘ich namligi - 86%, boshlang‘ich xarorati–30 ^oS.

U Toshkent shaxrining yozgi o‘rtacha xavo xaroratiga mos keladi.

Quritilayotgan material parallelipiped ko‘rinishidagi 5-10-50 mm li bo‘lakchalarga bo‘linib, quritish kamerasiga joylashtirildi va tarkibida 2% namlik bo‘lgan xavo 1,3 l/sek berildi. Materialni quritish jarayonini xisoblash uchun xaraktlantiruvchi kuch sifatida gaz fazasidagi namlik miqdori shartlaridan kelib chiqib, quritilayotgan material xarorati va muvozanat xaroratlari orasidagi farq tanlandi. Massa berish koэffisientiavvalgi boblarda ko‘rib chiqilgan boshqa tadqiqotchilarning tadqiqotlari natijalari asosida formallashtirildi.



Ko‘pgina tadqiqotchilar sorbentlarning (shu jumladan, polimerlar) ko‘pchiligi uchun sorbsiya jarayoni, faqatgina adsorbsiya mehanizmi orqali tushuntirilishi mumkin эmas, degan hulosaga kelganlariga qaramay, absorbsiya jarayoni xali etarli nazariy asoslarga эga эmas. Ko‘p xollarda past xaroratli moddalar, bug‘ ko‘rinishidagi moddalar bilan o‘zaro tasirlashadi. Bu vaqtda adsorbsiya jarayonlari bilan bir qatorda sorbentning qisman эrish jarayoni xam sodir bo‘lishi mumkin.

Quritish jarayoning yurituvchi kuchini belgilashda tasir qiluvchi 4 ta omildan xar bittasi uchun matematik va kompюterli ifodalari ishlab chiqildi.O‘simlik maxsulotlarini quritishda materiallarning sorbsion-desorbsion va bug‘latish hususiyatlari asosida muvozanat ko‘rsatgichlari belgilandi.

Quritilayotgan material satxida, gaz fazasi va isitgich ierarhiyasi satxida quritish jarayonini matematik va kompюter modellari ishlab chiqildi.Materiallarni quritish vaqtida ikki fazali tizimda fazalararo massa almashinishi kooэffisientini hisoblashning matematik va kompюter modellari taklif qilindi.

XULOSA: Infra qizil nurlar yordamida quritish apparati va jarayonini taxlil qilish uslubi shakllantirilgan. Quritish apparatini ierarhik pog‘onalarga va kvazi elementlarga bo‘lib o‘rganish orqali quritish jarayonini kompyuter modelini tuzish va butun jarayon xamda obektni optimal xisoblash tavsiya etilgan.

Poliz o‘simlik maxsulotlarini quritish jarayonini matematik-kompyuter modelining adekvatligi turli hil va turli o‘lchamdagi namunalarni xar hil rejimlarda tajriba o‘tkazish orqali aniqlangan. Shu asosda matematikadagi teskari echish usulidan foydalanib, materialning sorbsion-desorbsion hususiyatlarini inobatga olgan xolda, gaz va qattiq faza orasidagi massa berish koэffisientini topish usuli yaratilgan.

Quritish jarayoni ierarhik pog‘onalardagi material xamda gaz faza kvaziэlementlari jarayonlarini va ular orasidagi muvozanatni ifodalaydigan matematik - kompюter modellari yaratilgan. Quritish jarayonini xisoblashda maxsulot xaroratini юrituvchi kuchi deb qabul qilinishi matematik ifodalarning va modellashtirish ishlarini osonlashtirishi aniqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAYI

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF – 4947 – sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 apreldagi PQ-3680-son «Mamlakatning oziq-ovqat havfsizligini yanada taminlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 yanvardagi PQ-2716–son «2017-2018 yillarda meva–sabzavot maxsulotlarini saqlash va chuqur qayta ishlash quvvatlarini tashkil ətishni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.
4. Adhamov A., Ungarov A., Jo‘lbekov I. PROSPECTS OF USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN AGRICULTURAL SECTOR DEVELOPMENT //Journal of Agriculture & Horticulture. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 13-15.
5. ТУХТАКУЗИЕВ А., ТУКУБАЕВ А. Б., КУРБАНОВ Э. С. Культиватор. – 1993.
6. Қурбонов, Эрмамат. "ОБОСНОВАНИЕ ШИРИНЫ МЕЖДУСЛЕДИЯ ЗУБЬЕВ РЫХЛИТЕЛЯНАВЕСНОГО БОРОНОВАЛЬНОГО АГРЕГАТА." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.12 (2022): 997-1002.

SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA ANOR YETISHTIRISHNI KENGAYTIRISH VA ANOR SHARBATI ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHNING AXAMIYATI

Bababekov Umidbek Djurabekovich, Kushiyeva Muhayyo Anvar qizi
tayanch doktoront
QXMQIT kafedrasi talabasi
Guliston davlat universiteti.

Annotasiya: Ushbu maqola Sirdaryo viloyati hududida anorchilikni rivojlantirish anordan sharbat olish va anor sharbati shifobaxshligi, boshqa sharbatlardan avzalliklari haqida.

Kalit so‘zlar: mexanik, gidravlik .organik moddalar, kislotalar, vitaminlar, mineral tuzlar, pektin, klechatka.

Mamlakatimizda aholini oziq-ovqat mahsulotlari, xususan yangi va sifatli mevalar bilan ta’minlashga katta ahamiyat berilmoqda.

Mirzacho‘l tuproq –iqlim sharoiti uchun mos bog‘ turlaridan biri bo‘lgan anorchilikni iqtisodiy jihatdan tahlil qilib ko‘rgan fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlar anorchilik bilan shug‘ullanishga kirishib boraètganliklaridan yangi anorzor bog‘lar ko‘lami sezilarli darajada ortib bormoqda . O‘simliklar inson hayotida katta ahamiyat kasb etib, ular odam uchun: oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurilish materiallari, shuningdek, dorivor va parhezbop mahsulotlar sifatida ahamiyatga egadir. Dorivor xususiyatlarga ega o‘simliklarga anor o‘simligi kiradi. Uning mevasining shifobaxshligi qadim zamonlardan beri ma’lum. Shu sababli ham, mamlakatimiz hukumati qarorlari bilan hozirgi vaqtda mamlakatimizda bog‘dorchilik, mevachilik sohalarini jadal rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Anor mevasining shifobaxsh xususiyatlarini bilgan holda anor yetishtirishni kengaytirish undan sharbat olish , sharbatning foydali xususiyatlarini o‘rganishga respublikamiz xususan Sirdaryo viloyatida katta etibor qaratikmoqda. Tuproqlari kuchli sho‘rlangan Sirdaryo viloyati xududida anor yetishtirish ancha samarali xisoblanadi. Anordan sanoatda va medisinada keng foydalaniladi. Gulbargi va meva po‘stidan bo‘yoq, donidan sharbat tayyorlanadiBa’zi turlari xushmanzara o‘simlik sifatida eqiladi. Anor asosan, qalamchadan ko‘paytiriladi. Unumdor, suvni yaxshi o‘tkazadigan, nami yetarli tuproqlarda yaxshi o‘sadi.. Anor har xil tuproqli erlarda o‘sa oladi, biroq sizot suvlari chuqur joylashgan, unumdor, suv bilan yaxshi ta’minlangan tuproqli erlarda yaxshi o‘sib, yuqori hosil beradi.

Aslida hozirgi kungacha ham anor yetishtirish uchun mavjud bo‘lgan bunday qulay imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilaètgani yo‘q. Mavjud sharoit va imkoniyatlar har taraflama o‘rganilib, sug‘orish suvi bilan yetarli ta’minlangan yerlarda saralangan navlardan ekilgan katta maydonlarda kompleks mexanizatsiyalashgan anorchilik bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlik faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek aholi tomorqalarida anor yetishtirish uchun keng ko‘lamda ko‘mak berishga qaror qilinib ishlar qizg‘in boshlab yuborildi.

Anor subtropik ekinlar turkumiga mansub bo‘lib, tabiatda O‘rta yer dengizi bo‘yi mamlakatlarida, Qora dengiz atrofi yerlarida, Kavkaz ortida, Primorye o‘lkasida, Xindistonda, Xitoy va O‘rta Osièda tarqalgan. Yer yuzining anor qishda ko‘milmay parvarish qilinadigan xududlarida balandligi 5-7 m gacha o‘suvchi daraxt-buta qishda ko‘miladigan hududlarda buta holda o‘sadi. Anor èvvoyi xolda tabiatda bir ildizdan unib chiqqan bir necha shoxlardan iborat bo‘lgan buta shaklida uchraydi.Bir asrdan zièd vaqt davomida O‘zbekiston iqlim sharoitiga mahalliylashtirilgan issiq sevar, sug‘orish suvi va tuproq unumdorligiga talabchan, sho‘rga chidamli ekin. Anor XIX – asrning

oxirlaridan farg‘ona viloyatining Quva tumani hududida ekilib kelinmoqda. Bugungi kunda Respublikamizning Surxondarè, Qashqadarè va Sirdarè viloyatlarida anorchilik jadal rivojlanib bormoqda. Anorchilik Mirzacho‘l sharoitida o‘zining istiqbolli dehqonchilik sohasi ekanini amalda isbotladi. Chunki sho‘rga chidamli bu ekin turi har bir xonadonning tomorqasida mavjud. Anor uch yilda hosilga kiradi. Yaxshi parvarish qilingan bir tup anor daraxti 40 kilodan 80 kg.gacha hosil beradi. Bunga erishish uchun ko‘chatlar orasi 3 metr, qatorlar orasi esa 4 metrdan kam bo‘lmasligi lozim.

Anordan sharbat tayyorlash.

Anor donachalaridan etsiz sharbat tayyorlanadi bunday sharbat press yordamida ajratib olinadi, bunıng uchun mevani shunday tayyorlash kerakki, sharbat deyarli har bir hujayradan chiqib, umumiy miqdori ko‘paysin. Sharbat turli tuzilishdagi presslarda olinadi. Eng ko‘p tarqalgan mexanik yoki gidravlik harakatni yuzaga keltiruvchi vintli yoki shnekli presslardir. Ularni ishlash asosi tomat sharbati uchun ishlatiladigan ekstraktlarga o‘xshaydi. Presslardagi quyuq aralashma yog‘och taxtalardan iborat savatlarga joylanadi. Savatchalar zanglamaydigan temirdan tayyorlangan metall chambaraklar bilam mahkamlanadi. Odatda, presslar ikki savatli yoki platforma shakli bo‘lib, biri quyuq aralashmadan bo‘shatilib to‘ldiriladi. Ikkinchisi presslanadi. Savatli presslarda birinchi g‘ijimlangandan keyin quyuq aralashma yumshatilib, ikkinchi marotaba presslanadi. Buning uchun birinchi presslashdan keyin 1:1 nisbatda sovuq suv qo‘shilib, aralashtiriladi va ikkinchi marta presslash amalga oshiriladi. Keyingi ish sharbatni tindirish bo‘lib, sharbat rangini oydinlashtirishda, uni tindirishdan tashqari fil’trdan o‘tkaziladi. Oydinlashtirish uchun ko‘pincha turli meva sharbatlarini aralashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu usulni qo‘llashda har bir sharbat tarkibidagi moddalar, masalan, birida oqsil kolloidlari yuqori bo‘lsa, ikkinchisida oshlovchi moddalari ko‘p bo‘lishi hisobga olinadi. Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti mutaxassislari tomonidan anor sharbati va kontsentratini olish usuli taklif etildi. Ushbu usul anorni ekologik toza qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish, sharbat va uning kontsentratini olishga mo‘ljallangan.

Takliflar.

Anor sharbatida meva tarkibida qand, organik moddalar, kislotalar, vitaminlar, mineral tuzlar, pektin, klechatka va xushbo‘y moddalar ta’mi saqlangani, sababli anor sharbati chanqovbosdi spirtsiz ichimliklar, sharob va boshqalar tayyorlash uchun ishlatiladi. Sharbat turli tuzilishdagi presslardan, yoki eng ko‘p tarqalgan mexanik yoki gidravlik harakatni yuzaga keltiruvchi vintli yoki shnekli presslardan foydalanib, keng ko‘lamda ishlab chiqarishni tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1-Karimov I.A. ning Vazirlar mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilishda qilingan ma’ruzasi.

2- Oripov R. va boshq. «Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi». T. «Mexnat», 1991 y.

3- ziyonet.uz

SIRDARYO VILOYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA MAVJUD HUDUDIY IMKONIYATLARNING O‘RNI

Turakulov.M.A
Guliston davlat universiteti

ABSTRACT: The article shows the possibilities for the implementation of innovative projects in the socio-economic development of the Syrdarya region, as well as the successful direction of investment and funds. Geographical location of the region, population, logistic conditions, land and water resources, existing opportunities for further development of agricultural and industrial production are explained in it. The achievements of production enterprises operating in partnership with foreign investors are shown with facts.

Kirish. Har bir geografik hududning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi eng avvalo uning joylashgan o‘rnidagi imkoniyatlarining qay darajadaligi bilan xarakterlanadi. Loyihalarning to‘gri

tanlanishi, investitsiya va mablag‘larning kiritilishi imkoniyatlarning mavjudligini organib amalga oshirishga kirishgandagina barqaror rentabelli rivojlanishiga erishiladi.

Ayni shu orinda Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarish, xizmatlar korsatish sohalarini yanada rivojlantirishga erishish uchun mavjud imkoniyatlari salohiyatiga nazar tashlaymiz.

Tadqiqot o‘bekti va o‘rganiladigan masalalar: Joylashgan geografik o‘rni respublikamiz hududining markaziy qismida joylashgan bo‘lib Mirzacho‘l hududi tarkibiga kiradi. Viloyat aholi soni nisbatan kam umumiy yer maydoni kichik bo‘lishiga qaramay mamlakat iqtisodini rivojlantirishga joylashgan geografik o‘rni nuqtai-nazaridan alohida ahamiyatga ega. Chunki sirdaryo viloyati shimoldan Qozog‘iston Chimkent viloyatining Paxtaorol, Sarag‘ach tumanlari, janubdan Tojikiston respublikasi Sug‘d viloyatining Istoravshan va Zafarobod tumanlari, sharq tomondan Toshkent viloyati, g‘arb tomondan Jizzax bilan hududiy tutashligi uning rivojlanishida muhim ro‘l o‘ynashi ko‘rinib turibdi.

Viloyatning umumiy yer maydoni-428 ming gektar, shundan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi maydonilari 249,6 ming gektar, sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligi maydoni – 178ming gektarni tashkil etadi. [1].

Viloyat aholisi ko‘p millatli axoli tarkibiga ega bo‘lib, mamlakatimiz aholisining 2.5% istiqomat qiladi. Bugungi kunda umumiy aholi soni 904 ming kishidan ortiq. Shundan 60,6% mehnatga layoqotli yoshda, 30.9% mehnatga layoqatli yoshdan kichiklarni tashkil etadi. Aholining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi mehnatga layoqatli qismi respublikadagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqoriroq, mehnatga layoqatli yoshdan katta qismi esa mamlakat bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlilar qatorida. Bu boshqa hududlar bilan taqqoslaganda viloyat aholisining nisbatan katta qismi ‘‘navqiron’’ yoshdagilarni tashkil etadi. Bu esa bir jihatdan mehnat resurslari ko‘rsatkichlarining yuqoriligini ko‘rsatadi.[2].

Sirdaryo viloyati boshqa viloyatlar va Qoraqalpog‘iston respublikasi imkoniyatlariga solishtirilganda beqiyos logistik imkoniyatlarga ega viloyatdir. Jumladan O‘zbekiston katta trakti, O‘zbekiston betonlashtirilgan katta magistrali, viloyatlarni farg‘ona vodiysi bilan bog‘lovchi magistral avtomobil yo‘llarining viloyat hududidan o‘tganligi, avtomobil transportida yuk tashishda juda katta qulaylikalr yaratadi. Qo‘shni mamlakatlar Qozog‘iston Respublikasi hamda Tojikiston respublikalariga avtotransport va temiryo‘lda yuk chiqarish va kiritish nazorat punkitlarining viloyatda mavjudligi yanada yuksak baholanadi. Ayniqsa 2019 yilning iyul oyida O‘zbekiston-Qozog‘iston respublikalari o‘rtasida Sirdaryo davlatlararo tutashuv punkti ochildi. Bu bilan mamlakatimizda tayyorlangan mahsulotlarni Qozog‘iston respublikasi va Qozog‘iston orqali Rossiya hamda boshqa davlatlarga eksport qilinishida qulay sharoitlar yaratadi. Davlatlararo tutashuv punkitining ochilishi mahalliy tadbirkorlar va xorijiy investorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini qo‘shni davlatga eksport qilishda juda katta qulaylik tug‘diradi. Yani mahsulotlarning manziliga yetib borishiga kam vaqt va yo‘l xarajatlari sarflanadi, ish faoliyatini rivojlantirishiga imkon beradi. Sirdaryo viloyatlararo punkti ochilishi bilan yo‘l masofasini 110 km ga vaqt sarfini ikki soatdan ortiqqa qisqarishiga erishiladi. Sirdaro mamlakatimizni Qozog‘izston, Tojikiston, Xitoy va Afg‘oniston bilan bog‘laydigan yirik logistika xabiga aylantiriladi. Buning uchun, Xitoylik investorlar bilan hamkorlikda respublikaning sharqiy va markaziy qisimlarini hamda chet ell yo‘nalishlariga bog‘laydigan yangi transport marshrutlari va multi-modal logistika markazi quriladi. [1]

Viloyatda beshta shahar bo‘lib ularning har biriga temiryo‘l kirib borgan. Bundan tashqari bitta Avtonom Respublika va ikkita tumanlar ham o‘ziga xos investitsion xususiyatlarga ega.

Dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun foydalanilayotgan yerlar. Sirdaryo suv resurslaridan ikki yirik kanal janubiy Mirzacho‘l, Do‘slik kanallari tarmoqlaridan, hamda Sardoba suv omborida yig‘ilgan suv zahirasi bilan sug‘oriladi. Sug‘oriladigan yerlarni sug‘orish suvi bilan yetarli ta’minlangan deyish mumkin. Qolgan 178,0 gektar yer maydoni sug‘orilmaydigan yerlar bo‘lib, asosan chorva mollari yaylovi sifatida foydalaniladi.

Sirdaryoning qirg‘oq hududlaridagi to‘qaylarda o‘sayotgan o‘simlik va yashayotgan hayvonot dunyosini saqlab qolish uchun 300 gektar maydonda Sayxun tabiatni qo‘riqlash xo‘jaligi tashkil etilgan.

Viloyat ishlab chiqarishida qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rin egallaydi. Sug‘oriladigan yerlarda barcha melioratsiya va irrigasiya tizimlari ishlashi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Shu o‘rinda dehqonchilikda yuqori samaradorlikka erishilayotgan tarmoqlarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Sirdaryo zamini paxta yetishtirish uchun juda qulay agro muhitga ega. Chunki sug‘orish suvi yetarli, havo harorati yuqori, yerlari tekis oson mexanizasiyalashtirish mumkin. Ikkinchi eng harakterli ekin bu poliz ekinlari hisoblanib respublikada bu borada viloyat eng yuqori o‘rinni egallaydi. Ayniqsa qovun yetishtirish eng yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib yetishtirilgan mahsulot dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlariga eksport qilinadi. Bugungi kunda qovun va oshqovoq mahsulotlarini qayta ishlab realizasiya qilishni tashkil etishni hal etish o‘z yechimini kutib turgan dolzarb masalalardan biridir. Tadbirkorlar va investorlar jahon bozorlarida quritilgan qovun va qovoq mahsulotlariga bo‘lgan yuqori talabga alohida e’tibor qaratshlari kerak bo‘ladi.

Shu bilan birga oqova suvlarning ko‘pligidan foydalanib sholichilik tarmog‘ini rivojlantirib ichki bozor talabini ta’minlash va qo‘shni davlatlarga eksport qilishga sharoitlar yetarli.

Sirdaryoda donli ekinlarning deyarli barchasidan ekib yuqori hosil olish tajribasi to‘plangan. Ayniqsa harorartli kunlarning nisbatan uzunligi sug‘orish suvining yetarligi uchun boshoqli don ekinlari yig‘ishtirib olingandan so‘ng keng turdagi ikkinchi ekin turlarini ekib yuqori va sifatli hosil yig‘ishtirib olish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Bu zaminda yuqorida aytib o‘lganlardan tashqari anorchilikni yo‘lga qo‘yish uchun qulay tabiiy iqlim sharoiti mavjud bo‘lib, faqat anor tuplarini sovuqdan asrash uchun kuzda ko‘mish ishlarini mexanizasiyalashtirish muammosini uzul-kesil hal etish kerak bo‘ladi. Shundagina anorchilik viloyatning eng asosiy rentabelli mahsuloti to‘liq eksport qilinadigan mevachilik tarmog‘iga aylangan bo‘lar edi.

Viloyatda katta kichik suv havzalarining yetarligi tufayli hozirgi kunda keng ko‘lamda rivojlanib borayotgan eng serdaromad sohalardan biri baliqchilik bo‘lib bormoqda. Sirdaryo baliqchilik xo‘jaliklarida tadbirkorlar tomonidan yetishtirilayotgan baliq mahsulotlari ichki bozor ta’minotidan tashqari qo‘shni respubliklarga ham eksport qilinmoqda. Baliqchilikda yanada yuqori ko‘rsatkichlarga erishish uchun bugungi kun talabi bilan intensiv rivojlantirishga ehtiyoji katta bo‘lib turibdi. Tadbirkorlar e’tiboriga Sirdaryo viloyatida barcha turdagi chorvachilikni rivojlantirish uchun eng arzon qulay imkoniyalar yetarli darajada mavjudligini alohida aytib o‘tish lozim.

So‘ngi yillarda Sirdaryo viloyatida Sanoat ishlab chiqarishi ham alohida sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Jumladan bir qator imtiyozlarga ega bo‘lgan, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zo‘nalarining shakilantirilishi sohaning rivojlanishiga alohida imkoniyat yaratmoqda. [3]

Sanoat ishlab chiqarishining o‘sib borayotganligini quyidagi ko‘rsatgichlardan ham ko‘rish mumkin. Viloyatda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan charim mahsulotlarining 16%, farmaseftika tovarlarining 9%, kiyim-kechaklarning 5,5% ishlab chiqarilmoqda. Sanoat rivojlanishi ichki imkoniyalar va chet ellik tadbirkorlari bilan davlat va xususiy sherikligida tabiiy tollalarni qayta ishlash va yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmaseftika, elektir energiyasi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlab tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yib borilmoqda. Shu o‘rinda Sirdaryoda joylashgan “Peng Sheng” Xitoy-O‘zbekiston qo‘shma korxonasi Xitoy kapitali ishtirokida amalga oshirilgan eng muvaffaqiyatli loyihalardan biridir.

Viloyat shahar va tumanlari aholi punkitlarining elektr energiyasi bilan ta’minlanishi Respublikada yuqori o‘rinlarni egallaydi. Chunonchi viloyatda ikkita yirik elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalari joylashgan bo‘lib, ularda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan umumiy elektr energiyasining uchdan bir qismi ishlab chiqariladi. [2]

Shu bilan birga Sirdaryo viloyati iqtisodining rivojlanishida kichik tadbirkorlikning o‘rni alohida. Viloyatda kichik tadbirkorlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi respublikadagi o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan 30%, jami eksport hajmidagi ulushi esa 40 % dan yuqori.

Davlatimiz raxbari bu imkoniyatlarni ishga solib, Sirdaryoni sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va tibbiyot bo‘yicha, “ilg‘or innovatsiyalar” hududiga aylantirish zarurligini takidladi. [1]

Yuqorida keltirilganlardan Sirdaryo viloyatini investitsion rivojlantirish markaziga aylantirishning jozibadorligi va keng imkoniyatlari ko‘rinib turibdi.

Xulosa. Sirdaryo viloyati yer, suv, tabiiy resurslari yetarli, unga ilm-fan yutuqlari va innovatsion rivojlanish tadbiq etilsa mahsulot yetishtirish va eksport qilishni keskin oshirish mumkin.

Viloyat mamlakatdagi eng katta iste’mol bozori Toshkent shahriga yaqin joylashgan. Respublika hududlarini bog‘lab turuvchi yirik magistrallar shu viloyatda kesishadi. Shuningdek, ikki qo‘shni davlat Qozog‘iston va Tojikiston bilan qulay transport karidoriga ega.

Qishloq xo‘jaligida paxtachilik va polizchilikni keskin intensivlashtirish kerak bo‘ladi. Paxta va qovun mahsulotlarini to‘liq qayta ishlab realizasiya qilishga erishish.

Baliqchilik va chorvachilikni intensiv rivojlantirishga o‘tkazish. Unda arzon yem-hashak imkoniyatlarini shu yerning o‘zida yaratish.

O‘sib kelayotgan asosiy mehnat resursi hisoblangan yoshlarni o‘quvchilik va talabalik davrlaridanoq tadbirkorlik va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash bilan rivojlanishning barqarorligi va davomiyligiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. Sirdaryo viloyati inavatsion hududga aylantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 7 aprel 2023 yil Sirdaryo viloyatiga tashrifidagi nutqidan. President.uz. 2023 y aprel.

2. Sirdayo viloyatining bugungi va istiqbolli ko‘rsatkichlari. Uz.Team, 2019 . 12 dekabr.

3.Sirdaryo viloyati: katta iqtisodiy salohiyat va keng imkoniyatlar hududi. Axmadali Shernazarov. Xalq so‘zi 2019.22 avgust. Uz Team. 2019.12 dekabr.

4.Berdimuratov.L. Sirdaryo Viloyati: natija va ko‘rsatkichlar. Maqola. Ictnews.uz 23.04.2018. sirdaryo viloyati.

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRIShDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH USLUBIYOTI

To‘xtamishev Sayitqul Saydullayevich
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Jahon iqtisodiyotida turizm eng serdaromad sohalardan biriga aylandi. Turizm yo‘nalishlari asosan tarixiy-rekreatsion, tarixiy-madaniy meros ob’ektlari, sog‘lomlashtirish turizmi elementlarini o‘z ichiga olgan ekologik yo‘nalishlardir. Turizmning boshqa yo‘nalishlarini ham rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Turizm sohasidagi firma va kompaniyalar faoliyatida O‘zbekistonga xorijdan turistlarni kirib kelishini kengroq yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning asosiy sabablari, O‘zbekistonning xorijiy davlatlarda mavqeini yanada oshib borishiga, qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratilishiga, xorijiy valyutalarni kirib kelishiga, yalpi ichki mahsulotda, davlat byudjetining daromadlar qismida turizmning ulushini oshib borishiga va bir qator qulayliklarni yaratilishiga olib keladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, respublikamizda faoliyat olib borayotgan turizm xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashgan kompaniya va firmalarni strategik boshqarishning umumiy tizimida innovatsion va moliyaviy-investitsion majmualar, marketing tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir. Bunda marketing-ning vazifasi kerakli mahsulot (yoki xizmat)ni xaridorlarga, bozorga taklif etishdan iborat. Shu ma’noda marketing san’at va fan hisoblanadi. Zamonaviy marketing biznes yuritishning “quroli” hisoblanib, unda quyidagi tamoyillar keng qo‘llaniladi: birinchidan, mahsulot yoki xizmatlarni iste’molchilar xohishi va talabiga binoan ishlab chiqish; ikkinchidan, butun bozordagi xaridorlarning emas, balki shu mahsulotlarni sotib olish ehtimoli bo‘lgan xaridorlarning talabini inobatga olish. uchinchidan, marketing faoliyatini biznes maqsadlariga monand ravishda amalga oshirish. Marketing tamoyillarini turizm industriyasini boshqarishda qo‘llash orqali iste’molchilarga sifatli mahsulotlarni yetkazib, zarur bo‘lmagan va xaridorbop bo‘lmagan mahsulotlarni ishlab chiqishdan xalos bo‘ladi. Turizmda mahsulot “g‘oya”, “xizmatlar” va “tovarlar” bo‘lishi mumkin [3]. Turizm tarmog‘i asosan xizmatlarni ishlab chiqadi. Ular “ko‘rib va ushlab bo‘lmaydigan mahsulotlar bo‘lgani uchun” ham marketing faoliyati murakkab-lashib boraveradi. Ayniqsa, “ko‘z ilg‘amas” muammosi sifat nazoratini murakkablashtiradi. Shuningdek, potentsial xaridorlar ham turizm xizmatlari sifatini baholashda qiynalishadi. Agar boshqa sohalarda mahsulot iste’molchilarga yetkazib berilsa bu tarmoqda xaridorlar mahsulotxizmat (mintaqa yoki hudud)ga o‘zlari boradilar. Turizm xizmatlar marketingida iste’molchi (turist)larning safarga otlanishdagi vaqt va mablag‘ sarfi ulushi yuqori bo‘lganligi insonlarning turizm haqida qaror qabul qilishiga katta ta’sir etadi. Bugungi kunda turizm sohasida xizmat ko‘rsatayotgan firmalarning ko‘pchiligi O‘zbekistondan turistlarni xorijiy davlatlarga yuborish, ya’ni chiqish turizmi bilan shug‘ullanmoqda. Ayniqsa sog‘lomlashtirish turizm xizmatlaridan foydalanadiganlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatimizda ham

sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bu sohasini rivojlantirishda tabiiy resurslarning mavjudligi va undan oqilona foydalanish. Bu sohada sifatli xizmat ko‘rsatuvchi malakali kadrlarni tayyorlash va albatta investorlarni hamda iste’molchilarni jalb qilishda innovatsion marketing tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir Bunda marketingning vazifasi kerakli mahsulot (yoki xizmat)ni xaridorlarga, bozorga taklif etishdan iborat. Shu ma’noda marketing san’at va fan hisoblanadi. Marketing tamoyillarini turizm industriyasini boshqarishda qo‘llash orqali iste’molchilarga sifatli mahsulotlarni yetkazib, zarur bo‘lmagan va xaridorbop bo‘lmagan mahsulotlarni ishlab chiqishdan xalos bo‘linadi. Turizm tarmog‘i asosan xizmatlarni ishlab chiqadi. Turizm xizmatlar marketingida iste’molchi (turist)larning safarga otlanishdagi vaqt va mablag‘ sarfi ulushi yuqori bo‘lganligi insonlarning turizm haqida qarorlar qabul qilishiga katta ta’sir etadi. Turizm biznesida barcha faoliyat va maqsadlarni mushtarak-ligini ta’minlash uchun marketing rejasini ishlab chiqish zarurdir. Bu reja marketing qarorlarini qabul qilishda mavjud barcha resurslar, vaqt va mablag‘larni samarali taqsimlashga xizmat qiladi Turizmda marketing texnologiyalarni qo‘llashning eng muhim sohasi mamlakat yoki hududning sayyohlik sohasidagi imkoniyatlarini oshirish, uning doirasida kirish va ichki turizmni rivojlantirish maqsadida tadqiqotlar o‘tkazish hisoblanadi. Sayyohlik bozorida marketing tadqiqotlarini o‘tkazish vaqtida hal qilinadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: turizm sohasining YaIMdagi ulushini tahlil qilish, turizm sektorida daromadni oshirish uchun kerakli chora-tadbirlar, strategik mahsulot bozori va aholi qatlamini aniqlash, ichki va xorijiy bozorlarda raqobatbardosh sayyohlik mahsulotini yaratish va obro‘sini oshirish. Davlat va bozor sub’yekti darajasida tashkil qilinadigan sayyohlik bozorining namunaviy marketing tadqiqotlari quyidagi vazifalarni bajarish maqsadida ma’lumot (birlamchi va ikkilamchi) yig‘ishdan iboratdir: - sayyohlik bozoridagi taklif tarkibini o‘rganish; - mamlakat (hudud)ning iqtisodiy tizimi uchun sayyohlik sohasining ustuvorlik darajasini aniqlash; - ichki, kiruvchi va chiquvchi sayyohlar oqimining tahlilini o‘tkazish; - mamlakat (hudud)ning sayyohlik sektoridagi hayotiy muhim va asosiy muammolar doirasini aniqlash; - sayyohlik bozoridagi raqiblar doirasini aniqlash; - sayyohlik mahsulotining raqobatdagi ustuvorligi va zaif tomonlarini aniqlash; - mamlakat (hudud)ning sayyohlik sohasidagi imkoniyatlarini aniqlash va strategik bozorlar va aholi qatlamini aniqlash; - firmaning sayyohlik bozoridagi maksimal samarali o‘rnini belgilash. Sayyohlik bozorida marketing tadqiqotlarini o‘tkazishdan oldin sayyohlik korxonasi hal qilishi lozim bo‘lgan asosiy masala - sohadagi ishlarning asl holatini maksimal darajada aks ettiruvchi ma’lumotlarni yig‘ish usulini aniqlash, shuningdek ma’lumot yig‘ish va qayta ishlashda foydalaniladigan ko‘rsatkichlarni bir tizimga keltirish. Sayyohlik sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar, statistik ma’lumotlarning yetishmasligi – sayyohlik bozoridagi talab va taklifning holati haqidagi aniq ma’lumotlarni olishda yuzaga keladigan muammolarning asosiy sababidir.

Turizmni rivojlantirishning strategik maqsadi turistik xizmatlarning zamonaviy tarmog‘ini yaratish, turizm sanoatini rivojlantirish va investitsiyalarni, shu jumladan chet el investitsiyalarini jalb qilish orqali mintaqalarning madaniy salohiyatidan foydalanishdir [2].

O‘zbekiston Respublikasida 2025 yilgacha bo‘lgan davrda turizmni rivojlantirish kontseptsiyasi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- Turizm sohasida tadbirkorlik sub’yektlarining faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan turistik faoliyat sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- Turistlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, respublikamizning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va unga yondosh bo‘lgan infratuzilmani rivojlantirish;
- Ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini oshirish, ichki va tashqi transport marshrutlarini kengaytirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida yo‘lovchi tashish tizimini rivojlantirish;
- Turistik bozorning turli segmentlariga mo‘ljallangan turistik mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish;
- Mamlakat ichida turistik xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni fondirishga yo‘naltirilgan turistik faoliyat sub’yektlar faolligini rag‘batlantirishni ta’min etuvchi ichki turizmni rivojlantirish;
- Ichki va tashqi bozorlarda O‘zbekiston Respublikasining turistik mahsulotlarini ilgari surish;
- Turistik faoliyat sub’yektlari xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash, soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Xorijiy investitsiyalar turizm sanoatini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi, chunki uning hajmi va tuzilishi bog‘liq:

uzoq muddat davomida sanoatning rivojlanishi tendentsiyasi;

kelajakda sanoatning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini sug‘urta qilish; turistik ob’ektlar va korxonalarning sifat tavsiflarini sug‘urta qilish kelajakda;

turistik ob’ektlarning sig‘imlari, ishlab chiqarish quvvati va sig‘imini;

struktur sanoatni rivojlantirishning tarkibiy mutanosibligi (mehmonxonalar, transport, oziq-ovqat tarmoqlari, aloqa va boshqalar.);

Turistik talab va taklifning hududiy kontekstdagi (raqobat muhiti) umumiqtisodiy holati.

O‘zbek turizmida xorijiy investitsiyalarga alohida hurmat bilan qaralar ekan, soha oldida turgan muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalarga “qo‘shimcha” bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlash zarur. Faqat shu holdagina ular turizmni rivojlantirishga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi deyarli hech qachon milliy iqtisodiyotdagi jami investitsiyalarning 10-12 % dan oshmaydi [1].

Turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar quyidagi afzalliklarga ega:

yaxlit holda turizm iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning ijobiy ta’sir ko‘rsatishi;

mamlakat iqtisodiyotining noishlab chiqarish sektoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital oqimlarining ko‘payishi;

turizm sohasida mahalliy tadbirkorlikning o‘sishi;

hududiy turizm infratuzilmasidagi korxonalarni umumdavlat;

xalqaro raqobatbardoshlikning oshishi;

aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratilishini rag‘batlantirish;

aholining turmush va madaniy darajasini yaxshilash;

mehnat resurslari (ta’lim tizimi va turistik kadrlarni tayyorlash);

boshqaruv va texnologik sohalarda nou-xaularga ega bo‘lish.

Xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay rejim yaratish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, himoya qilish va ulardan foydalanish, xorijiy investorlarga mamlakatda barqarorlik, kafolatlar va kamsitmaslik shart-sharoitlarini ta’minlash sohasida davlat siyosatida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni oshirishning muhim qadami bu jarayonga sayyohlik tadbirkorlarini keng jalb etish uchun chinakam qulay investitsiya muhitini yaratish bo‘lishi kerak. Avvalo, u kredit qaytarish, moliya-kredit muassasalari kafolat tizimini rivojlantirish, mulk huquqlari daxlsizligi, chet ellik investorlarga dividendlarni chet elga o‘tkazish qoidalarini soddalashtirish, foydaga nisbatan imtiyozli soliq siyosati, shu jumladan, (uch yildan yetti yilgacha) uzoq muddatli asosda imtiyozli kredit siyosatini amalga oshirish taalluqlidir turizm moddiy bazasini yanada rivojlantirish, va boshqalar.

Xorijiy investitsiyalarning mezbon mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirining asosiy ijobiy tomoni uning mamlakatdagi investitsion faollik darajasiga va natijada iqtisodiy o‘sishni oshirishga ta’siridir. Agar mamlakatda investitsiya resurslari etarli bo‘lmasa yoki ular iqtisodiyotda bir butun yoki ma’lum tarmoqlarda cheklangan bo‘lsa, chet el investitsiyalari investitsiya bo‘shlig‘ini qisman to‘ldiradi. Investitsion faollikning oshishi YaMMning o‘sishiga olib keladi.

O‘zbekiston hududida mahalliy va xorijiy fuqarolar uchun sifatli hordiq chiqarish uchun sharoit yaratish turizm sohasida davlat siyosatini yanada faolroq amalga oshirishni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish muammolari va istiqbollari/ A.A.Abduvoxidov, B.B.Sobirov, B.Tagayev,– T.: Mumtoz-so‘z, 2020. – 238 s.

2. Пути и механизми дальнейшего развития и либерализации экономики в свете реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. Материалы IX / Форум экономистов / под общей редакции к.э.н. Ахмаджанова Ш.Х. Т.: IFMR.2017.-С.489.

3. Richard Sharpley and David J. Telfer, Tourism and Development: Concepts and Issues, Printed and bound in Great Britain by Cambrain Printers Ltd. 2018.

MIRZACHO‘L IQLIM SHAROITIDA IQTISODIY SAMARADOR MEVALI BOG‘LAR YARATISHNING AYRIM JIHATLARI

To‘raqulov M.A, Aynaqulov K, Ergashov A.I.
Guliston davlat universiteti

ANNOTATSIYA: Maqolada Mirzacho‘l vohasi bog‘dorchiligining bugungi ahvoli, undagi yutuq va muammolar, tabiiy tuproq-iqlim sharoiti, mevali daraxt navlarining hosildorligi ustida olib borilgan tadqiqot ishlari va kuzatishlar natijalariga asoslangan yechimlar va tavsiyalar. Hozirgi kunda hamkorlikda Sirdaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitida samarali mevali bog‘larni tashkil etish va yetishtirilgan meva mahsulotlariga asoslangan qayta ishlash korxonalarini bunyod etish, imkoniyatlari xususida fikirlar yuritilgan.

Tadqiqotlardan olingan natijalarni keltirish bilan birga mazkur yo‘nalishdagi olib borilayotgan davomli ilmiy izlanishlarning maqsad va yo‘nalishidagi olib borilayotgan davomli ilmiy izlanishlarning maqsad va yo‘nalishi aytib o‘tilgan.

Kirish Qadim davirlardan buyon Markaziy osiyo xalqlari hayot kechirishlari uchun mevachilik bilan keng miqyosda shug‘ilanib kelganlar. Meva mahsulotlari yangi uzilgan saqlangan va quritilgan holatlarda iste’mol qilinishi mumkinligi bilan eng qulay oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Shu bilan birga Markaziy osiyoning iqlim sharoiti mevachilik va uzumchilikni rivojlantirish uchun qulay muhit sifatida asirlar davomida sinab tan olingan.

Bunday imkoniyatlarni nazarda tutgan holda Respublikamiz hukumati tomonidan so‘ngi yillarda mevachilik va uzumchilikni yanada jadal rivojlantirishga doir qator Farmon va Qarorlar ishlab chiqilib sohaning yanada rivojlanishi asoslar bilan yo‘lga qo‘yib kelinmoqda. [1] Geografik jihatdan ikki daryo oralig‘ida joylashgan.

O‘zbekiston Respublikasi mevachilik va uzumchilikni tarkib topdirishda o‘ziga xos bir qancha hududiy mintaqalarga bo‘linadi. Jumladan Sirdaryo viloyatida asosiy ekin maydonlari sho‘rlangan, yer osti sizot suvi yer sathiga nisbatan yuqori joylashganligi, yozgi havo haroratining yuqoriligi, bu yerda mevali bog‘lar yaratishda o‘ziga xos muammolarni paydo qiladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yuqori samaradorlikka erishish uchun xududning tabiiy va ijtimoiy muhitini e’tiborga olish bilan tashkil etish sohadagi muammolarni hal etish muhim o‘rin tutadi. Mirzacho‘lning tuproq iqlim sharoitini o‘rganish ustida olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, kuzatishlar natijasidan tuproq sharoitining turli darajada sho‘rlanganligi, o‘rtacha unumdorligi, sizot suvining sathi nisbatan yuzadaligi (1,5-6,0 m), qator tumanlarda janubi-sharq tomondan mavsumiy kuchli (17-24 m/s) shamolning esib turishi, yozgi xavo xaroratining yuqoriligi (37-44 C) ma’lum. [2] Bundan kelib chiqib, mevali bog‘lar yaratishda sharoitga mos baravj o‘sib, uzoq yashovchi yuqori va sifatli hosil beruvchi mevali daraxt tur va navlarini tanlash ustida Guliston davlat universiteti professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilari akademik M.Mirzayev nomli bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institute va uning Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi hamda Toshkent davlat agrar universiteti, O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent irrigasiya va meliorasiya instituti va Sirdaryo viloyatidagi katta tajribali qishloq xo‘jalik hodimlari bilan hamkorlikda tadqiqot hamda kuzatish ishlari olib borilib ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab natijalar olinmoqda. [3,4]

Tadqiqot va kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, Sirdaryo viloyatidagi fermer xo‘jsliklari va aholi tomorqalarida yaratilgan mevali bog‘larning aksariyat ko‘p qismi asoslangan tavsiyalarga amal qilinmay barpo etilganligi tufayli bog‘larning sifat va samaradorligi juda past.

Tadqiqot o‘bekti va metodlari. Bog‘dorchilikni oqilona, maqsadli tashkil etish yuzasidan olib borilgan izlanishlar viloyatning Xovos, Miraobod va Boyovut tumanlari fermer xo‘jaliklarida o‘tkazildi.

Bunda tadqqiqot ishlari mevali daraxtlarning morfologik holati, kasallik va zararkunandalar bilan shikastlanish darajasi, xosildorligi, mevasining sifati kabi mezonlarni o‘rganishga yo‘naltirildi. Tadqqiqotlarning asosiy maqsadi Mirzacho‘lning tabiiy iqlim sharoitida yaxshi rivojlanuvchi mevali daraxt va tok navlarini tanlashdan iborat. Tadqiqotlar Sirdaryo viloyatining Xovos tumani paxtakor suv iste’molchilar uyishmasiga qarashli “Sayxun” fermer xo‘jaligida umumiy maydoni 2 ga bo‘lgan 2000 yilda yaratilgan mevali bog‘da o‘tkazildi.

Bog‘ joylashgan xududning tuproq-iqlim tavsifi: tuprog‘i och tusli bo‘z tuproq, sho‘rlanish darajasi va unumdorligi o‘rtacha, sizot suvining sathi yer sathidan 2,8-4-0 m chuqurlikda, janubiy-sharq tomondan mavsumiy esuvchi kuchli shamol oqimi yo‘lida joylashgan, irrigasiya tizimlari talab darajasida, sug‘orish suvi bilan yaxshi ta’minlangan. Yozning jazirama issiq kunlari 37-43 kun atrofida davom etib, maksimal xavo harorati 38-44 C ni tashkil etadi, kishi o‘rtacha daraxtlar o‘suv davrining davomiyligi 225-240 kun. Shuningdek, mevali bog‘lar holatini o‘rganish va kuzatishlar viloyatning Boyovut tumanidagi “Tarqqiyot”, Mirzaobod tumanidagi “Baxoriston” suv iste’molchilari uyishmasiga qarashli fermer xo‘jaliklari bog‘larida danakli va urug‘ mevali daraxtlar vakillari ustida olib borildi. Tajriba olib boriladigan maydonda o‘rganilayotgan tur va navga talluqli 10 ta dan modul daraxtlar tanlandi. Tanlangan modul daraxtlar umumiy qabul qilingan sinovlar o‘tkazish uslubi bo‘yicha o‘rganildi. O‘rganilayotgan modul daraxtlar raqamlangan yorliqlar bilan belgilab qo‘yildi. Mevali daraxtlarning ekin maydonidagi asosiy joylashuv o‘rni: qator orasining kengligi, qatordagi daraxtlar orasidagi masofa shkalalari ruletkada 10 sm dan oshmagan aniqlikda o‘lchandi. Buning uchun sinov o‘tkazilayotgan umumiy bog‘ maydonidan oralig‘i bir xil masofada uchta joy tanlandi. Mevali daraxtlarning yer ustki orgonlarining joylashuv holati tanlangan modul daraxtlarda o‘lchandi. Skelet ona shoxlarning joylashgan o‘rni oralig‘idagi masofalar va shoxlarning uzunligi eng pastki ona shoxdan boshlab 10 mm aniqlikda o‘lchanib o‘rganildi. Skelet shoxlarning daraxt tansi o‘qiga nisbatan og‘ish burchagi 5^0 aniqlikda burchak o‘lchagik yordamida aniqlandi. Daraxt shoxlarida hosilning fazoviy joylashuvi foiz nisbatida gorizantal yaruslar va sferik kengliklar bo‘yicha aniqlanadi. Gorizantal yaruslar soni daraxtning fazoviy hajmidan kelib chiqib: birinchi yarus 1,0-1,7 m; ikkinchi yarus 1,7-3,0 m; uchinchi yarus 3-4 m bo‘lib, agarda daraxtning balandligi yuqori bo‘lsa, keyingi yaruslar oralig‘i 1 m dan qilib belgilandi. [3]

Xosilni yig‘ishtirishda yaruslar chegarasi balandlik bo‘yicha yarus o‘lchamlari belgilangan reyka yordamida aniqlandi. Mevalarni terib olish xar bir yarus bo‘yicha ketma-ketlikda birinchi yarusdan boshlab oxirgi yarusgacha alohida-alohida terib olindi. Har bir yarusdan terib olingan meva hosili yaruslar bo‘yicha vazni alohida o‘lchandi. [5]

Natijalar va ularning tahlili. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilish bilan Mirzacho‘l vohasining o‘ziga xos tabiy-iqlim sharoitida parvarishlanayotgan bog‘lardagi mevali daraxtlarning hosil berish darajasi xususida bog’dorchilikni to‘g‘ri tashkil etish yuzasidan ahamiyatli ilmiy- amaliy natijalarga ega bo‘ladi.[8]

Yaruslar bo‘yicha mevaning taqsimlanishi

Sinovga o‘tkazilgan sana	Mevali daraxt turi	Navi	Yoshi	Yaruslar bo‘yicha hosil miqdorining taqsimlanishi						Daraxtdagi umumiy hosil, kg
				1		2		3		
				kg	%	kg	%	kg	%	
16.09.2015	Olma	Renet Simirenko	16	25	35	39	55	7	10	71
09.07.2015	Olma	Oq navliv	16	43	28	79	49	37	23	159
26.08.2015	Olma	Starkrimson	16	0	0	0,7	100	0	0	0,7
06.09.2015	Olma	Oq graymo	16	21	20	53	49	33	31	107
10.09.2015	Olma	Rozmarin	16	0	0	0,4	100	0	0	0,4
03.10.2015	Nok	Kulala	16	9	19,5	16	34,4	21	46	46
03.10.2015	Nok	Dilafruz	16	0	0	0,6	75	0,2	25	0,8
03.10.2015	Nok	Qishki nashvati	16	17	19,5	33	38	37	42	87
08.07.2015	Olcha	Tog‘ olcha	16	9	15,5	29	49	21	35,5	59
08.07.2015	Olxo‘ri	Yoz	16	26	36	37	51,5	9	12,5	72
02.10.2015	Olxo‘ri	Qora olxo‘ri	16	3	10	21	70	6	20	30
29.10.2015	Xurmo	Denov	16	12	26,7	29	64,3	4	9	45
29.10.2015	Xurmo	Zenji maru	16	14	22	43	67	7	11	64

29.10.2015	Xurmo	Tamopan	16	15	15	38	38	18	18	71
06.10.2015	Behi	Non behi	16	16	42	22	58	0	0	38
06.10.2015	Behi	Yangiyo‘l	16	29	45	33	52	2	3	64

Xulosa. O‘rganilgan olma navlaridan :Renet Simirenko (71 kg), Oq navli (159 kg), Oltin graymo (107 kg); nok navlaridan: Qishki noshvati, (87kg) Kulala (46 kg); olxo‘ri navlaridan:Yoz (72 kg), Qora olxo‘ri (30 kg), xurmoning: Denov (45 kg); Tamopan (71 kg), Zenji-maru (64 kg) navlaridan olingan hosil miqdoridan ularni ekib ko‘paytirishga tavsiya etish mumkin. Uch yil davomida olib borilgan tadqiqotlardan olmaning Starkrimson, Razmarin; nokning: Dilafruz navlaridan olingan hosil miqdori yo‘q darajada ekanligi kuzatildi. Buni shu bilan izohlash mumkinki keltirilgan navlar tuproq, iqlim sharoitga yuqori talabchan bo‘lib, keltirilgan navlar tuproq iqlim, iqlim sharoitga yuqori samara berishi Jizzax viloyatining Yangiobod, Zomin, Baxmal tumanlarida o‘rganildi. Hozirda Mirzacho‘lda mevali bog‘lar yaratishni ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish yo‘lida Guliston davlat universiteti professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilari akademik M.Mirzayev nomli bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot intituti bilan hamkorlikda o‘rik, shaftoli, jiyda olcha, anjir va anor navlari ustida izlanishlar olib borilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, Sirdaryo viloyatida sharoitga mos tanlangan mevali daraxtlar tur va navlaridan yaratilgan, ayniqsa, olxo‘ri olma, anor, anjir bog‘laridan yetishtirilgan hosil bilan ishlovchi qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘aniyev A. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan to‘liq va samarali foydalanish istiqbollari. // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. – Toshkent, 2013. - № 7.
2. Bo‘riyev H.CH. Havaskor bog‘bonlarga qo‘llanma. – Toshkent, 1987.
3. Dala tajribalarini o‘tkazish metodikasi. – Toshkent, 2004.
4. Mirzayev M.M., Sobirov M.Q. Bog‘dorchilik. – Toshkent, 2004.
5. To‘raqulov M., Ergashev A.U., Karimov X.N., Sultonov N.SH., Yusupjonova X.O‘. Mevali bog‘lardagi mavsumiy agrotexnik tadbirlarni o‘rnida amalga oshirishning ahamiyati. Guliston davlat universiteti axborotnomasi. 2022. - № 1.
6. Mirzayev M.M., Sobirov M.Q. O‘zbekistonda bog‘dorchilik. – Toshkent, 1980.
7. Ostanaqulov T.Y., Narziyeva S.X., G‘ulomov B.X. Mevachilik asoslari. Toshkent, 2011.
8. To‘raqulov M., Xudayarova M.E., Mansurov K.M., Norqo‘ziyeva L.A., Yo‘ldasheva M.I. Bog‘lar ekologik barqaror va samarador bo‘lishida tuproq iqlim sharoiti to‘g‘ri tanlanishining ahamiyati. – Geografiya va ekologik fanlar tizimining dolzarb muammolari va ularning yechimlari Respublika ilmiy-amaliy konferinsiya materiallari. Guliston davlat universiteti.
9. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. O‘zbekiston mevachiligi. – Toshkent, 1981.
10. O‘zbekiston pomologiyasi (M.M.Mirzayev rahbarligida rus tilida tayyorlangan). – Toshkent, 1983.
11. O‘zbekistonda meva ekinlari yetishtirishga oid tavsiyalar. – Toshkent, 1996.

SIRDARYO VILOYATINING MAVJUD SAQLASH OMBORLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI SIFATLI SAQLANISHNI YO‘LGA QO‘YISH USULLARI

Qurbanov Ermamat Sayfiddinovich
Guliston davlat universiteti
ermamat56@mail.ru

Abstract In this article, opinions are expressed about the need to pay attention to the ripening and storage periods of the type of product that is mainly stored in the quality storage of agricultural products. Warehouses play an important role in keeping agricultural products at the level of demand and satisfying consumer needs. Therefore, it is desirable to keep the products in good quality.

Key words: modern warehouses, freezers, storage periods, methods of storing apples, pears, quinces and other products.

Hozirgi qishloq xo‘jaligida o‘tkazilayotgan izchil iqtisodiy isloxatlar axolini sifatli oziq-ovqat maxsulotlariga bo‘lgan talabini to‘laroq qondirishi va shu bilan bir paytda bugungi kunning eng katta muommolaridan biri bo‘lgan oziq ovqat xavsizligining oldini olish dolzarb masalalardan biri xisoblanadi. So‘ngi yillarda meva va sabzavotlarni etishtirish ularni saqlash va o‘z vaqtida qayta ishlash maqsadida bir qator qonunlar va farmoyishlar qabul qilingan. Hozirgi zamon qishloq xo‘jalik mutaxasislari qishloq xujaligi maxsulotlarini saqlash texnologiyasi bilish katta amaliy axamiyatga ega. Qishloq xo‘jalik maxsulotlarining sifatini bilish, standartlash sistemasi bilan tanishish, qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasining o‘zlashtirilishi maxsulot sifatini oshiradi va nobudgarchilikni imkoni boricha kamaytiradi. Respublikamiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasining hozirgi etapdagi asosiy vazifalari: xom ashyo etishtirish joylarida zamonaviy qayta ishlash tsex va zavodlarini joylashtirish, dunyo bozorida konserva mahsuloti assortimenti va miqdori mavqeini mustahkamlash, kelajak uchun real istiqbol rejaga ega bo‘lishdir. Mevalarning sifatini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri ularning tashqi ko‘rinishi bilan belgilanadi. Mevalarni tashqi ko‘rinishi ularni mexanik shikastlanmaganligi, ezilmaganligi, turli xil dog‘larsiz bo‘lishi bilan baxolanadi. Mevalarning po‘sti shikastlanganda ular tez buziladi, shuning uchun ular saqlamasdan sotuvga chiqarilishi kerak.

Mevalar terim vaqtida qattiq urilib, siqilganda, eti qorayadi.. Mevalarni tabiy ofatlar ta’sirida shkastlangan qismi bitmaydi va ular nuqsonli mevalar xisoblanadi. Mevalar oftobda salgina kuyganda uning rangi oqaradi, o‘rtacha kuyganda och rangli qo‘ng‘ir dog‘lar paydo bo‘ladi, dog‘larning tagidagi et sariq rangga kiradi. Agar meva qattiq kuysa, po‘sti po‘kaklashadi. Umuman olganda kuygan mevalar yaxshi saqlanmaydi. Mevalarni sovuq urganda xam ularni shakli o‘zgarib qo‘ng‘ir rangga kiradi. Mevalarni salgina sovuq urganda ularning po‘sti qo‘ng‘irroq tus olib, shakli o‘zgarib salgina yumshaydi. Muzlagan mevalarning muzi sekinlik bilan eriy boshlasa, ular sifatini yo‘qotmasligi mumkin. Aksincha muzi tez erisa, ularning rangi o‘zgarib chiriy boshlaydi. Uzumni sovuq urganda g‘ujumlar to‘kilib ketadi va qorayib qoladi. Mevalarni saralashda ularning bir qator belgilariga e’tibor beriladi. Ularning rangi, shakli, bandining butunligi va shikastlanganligiga axamiyat beriladi. Shu bilan birga asosiy e’tiborni mevalarning saqlashga chidamliligini pasaytiradigan nuqson va kamchiliklarga qaratish lozim. [1,2]

Mevalarning saqlashga chidamliligini asosan ularning shikastlanganligi, ezilganligi, po‘stining yupqalashuvi, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishi pasaytiradi. Saqlashga qo‘yishdan oldin ularni yaxshilab ko‘zdan kechirib saralab joylashtirilsa mahsulotlarni sifatli saqlanishiga erishiladi.

Meva va sabzavot omborlari, sovuqxonalar yangi hosil joylashidan oldin formalin yoki oltingugurt gazi bilan yuqumsizlantiriladi, yangi so‘ndirilgan ohak bilan oklanadi, quritiladi, mahsulotlar saqlanadigan haroratga qadar sovutiladi. Olma, nok, asosan, ostiga qog‘oz yozib (noklarni qog‘ozga o‘rab) joylangan yashchiklarda —0,5, —0° da va nisbiy namligi 90— 95%da saqlanadi. Kartoshka xonalarda yerga qazilgan o‘ralarda, faol shamollatiladigan omborlarda devorli xirmonlarda 3,5–5 m balandlikda, karam uyumlarda, xandaklarda va turli doimiy omborlarda, yashchiklarda saqlanadi. Harorat —3°, —G; havo namligi 70—75% dan oshmasligi kerak. Qo-vun—tarvuzlarni xashakka joylab yoki osib +3°da 4 oyga yaqin saklash mumkin.

Meva va sabzavotlarni gaz muhitini boshqarib saqlash usuli

Hozirda meva va sabzavotlarni gaz muhitini boshqarib saqlash usuli ham keng foydalanilmoqda. Gaz muhitini boshqarib saqlash usulini gazning tarkibiga ko‘ra ikki asosiy guruhta bo‘linadi: oddiy gaz muhitida saqlash (OGM) – havo muhitida: modifikatsiyalangan gaz muhitida saqlash (MGM)– tarkibi havo tarkibidan farq qilgan muhitda.

Mahsulotlarni oddiy gaz muhitida saqlashda germetik yopilmaydigan omborxonalardan foydalanish mumkin. Bunda havo oddiy (tabiiy) va sun’iy (ventilyatorlar yordamida) almashilib turiladi. Bu usulda saqlash jarayonida havoning jadal o‘zgarishi mahsulotlarning fiziologik aktivligini oshiradi va turli xil mikroorganzmlarni o‘ziga tez jalb kiladi. Shu sababli bu usulda mahsulotni uzoq vaqt saqlab bo‘lmaydi.

Modifikatsiyalangan gaz muhitida saqlashning mohiyati shundaki, bunda havo atmosferasi o‘zgartiriladi va nazorat qilib turiladi.

Umuman olganda, meva va sabzavotlarning hujayrasi ichidagi gaz tarkibida atrofdagi havoga qaraganda SO_2 ning miqdori O_2 ga qaraganda ancha ko‘p.

Meva va sabzavotlar to‘qimalaridagi gaz tarkibi

Mahsulot turlari va havo	To‘qimalar dagi gaz miqdori, %	To‘qimalardagi umumiy gaz miqdoriga nisbatan, %		
		O	N	TO
Apelsin	31	9	51	40
Kartoshka	6	15	53	32
Limon	30	11	61	28
Bodring	7	11	82	7
Rediska	6	14	81	5
Olma	30	10	74	16
Havo	-	20,93	79,00	0,03

Modifikatsiyalangan gaz muhitida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash fikri bundan 150 yil muqaddam paydo bo‘lgan. 1821 yili frantsuz Berar kislorodsiz atmosferada mevalarning pishishi oddiy sharoitdagiga qaraganda susayganligini ko‘rsatib bergan.

Meva va sabzavotlarni modifikatsiyalangan gaz muhitida saqlash usuli Angliya, Frantsiya, Gollandiya, Avstraliya, Italiya, AQSh , GFR va boshqa mamlakatlarda keng qo‘llanilmoqda. Bizning mamlakatimizda ushbu usulda mahsulotlarni saqlash keng joriy etilmagan.

Modifikatsiyalangan gaz muhitida meva va sabzavotlarni saqlash muhitni ishlatish tipiga, boshqarish usuliga va muhitni yaratish usullariga ko‘ra klassifikatsiya qilinadi.

Xulosa

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni saqlash yuqorida bayon etilgan tavsiyalarga ko‘ra qishloq xo‘jaligi mahsulotlar saqlansa is’temolchiga sifatli oziq – ovqat mahsulotlarini etkazib berishga erishiladi. Meva va sabzavotlar turli xil usullarda saqlanadi. Yangi meva-sabzavotlar, shuningdek urug‘liklar va kartoshka saqlaydigan inshoot yoki binolar meva-sabzavot ombori deb yuritiladi. Ular *muvaqqat va doimiy* bo‘ladi. Muvaqqat omborlarga uyum, handaq, o‘ra va boshqalar kiradi. Doimiy omborlar bir qavatli to‘g‘ri burchak shaklida er ustiga yoki erdan chuqurroq (1,5–2 m) qilib, betondan yoki g‘ishtdan quriladi.

Adabiyotlar:

1. Azizov A.Sh., Islamov S.Ya.,Suvanova F.U., Abdikayumov Z.A. Saqlash omborlari va qayta ishlash korxonalarini loyihalashtirish asoslari va jihozlari, Navro‘z nashriyoti, 2014

2. R.A. Xaitov, R.I. Zuparov. Don va don mahsulotlarining sifatini baholash hamda nazorat qilish, Universitet nashriyoti, 2000

3. Dragilov A.I., Drozdov V.S Texnologicheskie oborudovanie predpriyatiy pereraboto‘vayuhix otrosley APK. – M.: Kolos, 2001.

4. Q.O. Dodaev, I.M. Mamatov Oziq-ovqat mahsulotlarini konserviyalash korxonalarining loyihalash asoslari texnologik hisovlari, Toshkent ,,IQTISOD-MOLIYA’’ 2006.

UZUMNING TOYFI ROZOVIY NAVI HOSILDORLIGI VA MEXANIK TARKIBIGA KURTAK YUKLAMASINI TA’SIRI

Egamberdiev Pulatjon Ergashovich, Jo‘lbekov Ibrohim Salimqul o‘g‘li

Guliston davlat universiteti

e-mail. pulatjonegamberdiyev@mail.com

ibrohimjulbekov8@gmail.com

Key words: *vine, productivity, branch, bud, load, bush, grape head, juice, flesh, seed, peel, coefficient.*

Abstract. *In the article, changes in yield and mechanical composition were observed when bud loads were used in the Rozovy variety of grapes. It has been scientifically studied to leave acceptable bud loads and increase yield and mechanical composition. According to the results of the research, when 160-200 buds were left on vine bushes planted by the method of sowing, the productivity was 11.1% higher than the control option, and it was found that the mechanical composition was the highest in the 80-120 (control) and 160-200 options.*

Kirish. Tok navlarinig asosiy belgilaridan biri bu uning hosildorligi, embrional, potensial va haqiqiy hosildorligi kabi hillari hisoblandi. Tok turining hosildorlik ko‘rsatkichlari shu yilni o‘zida pishib yetilgan novdadagi qishlovchi kurtaklarida shakllangan novdada hosil bo‘lgan to‘pgul miqdoriga va ularning o‘suv davridagi xolatini aniqlash yo‘li bilan belgilanuvchi (biologik hosildorlik) kurtaklar. Tokzorlarning hosildorligi tuplarning kurtaklar bilan yuklanishiga proporsional bog‘liqligini ko‘rsatishdi va qirqish paytida xo‘raki va kishmishbop navlari uchun gektariga 300-400 ming kurtaklar qoldirishni, homtok qilishda esa 100 dan 200 minggacha hosil beruvchi novdalar qoldirishni taklif qilishdi [3], [4].

Hozirgi davrda respublikamizda tokzor maydonini ko‘paytirish, hosildorlikni oshirish, uzumni qayta ishlash quvvatini ko‘paytirish, jahon bozori talablariga javob beradigan mahsulotlarni yetishtirish kabi masalalarga jiddiy e’tibor berilmoqda. Bu esa uzumchilik bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklarining tuproq-iqlim va iqtisodiy sharaoitlariga, navlarni to‘g‘ri tanlash va joylashtirishga, tokni o‘stirish va parvarish qilish, tok tuplariga to‘g‘ri shakl berish va hosildorligini oshirish omillaridan biri hisoblanadi. Yuqori hosil olishni, uni sifatini yaxshilash hosildan qanday maqsadda foydalanishni belgilashda navning ahamiyati juda katta[1],[5].

Bundan tashqari tok tupi mahsuldorligini aniqlashda uning hosildorlik koeffisienti, novdalar hosildorligi va uzumning mexanik tarkibi eng muhim nav belgilaridan hisoblanadi. Shuning uchun ekilgan tok tuplariga kurtak yuklamasini maqbul miqdorini tanlash hosildorlikni va mexanik tarkibi yuqori bo‘lish imkonini beradi.

Tadqiqot olib borish sharoiti va uslubi. Tajribalar Toshkent Davlat agrar universitetining “Mevachilik va uzumchilik” kafedrasi va Toshkent viloyati Toshkent tumanida joylashgan “Karima muruvvat Agro” fermer xo‘jaligida olib borildi. Tajribadagi toyfi rozoviy navining 9 yoshli tok tuplarida olib borildi. Tajriba xar bir variantda 3 takrorlanishda olib borilgan. Ularda xar hil tok tupi kurtak yuklamalari berilgan. O‘tkazilgan tajribalarni tanlash, variantlarni joylashtirish usuli umum qabul qilingan usullarda olib borilib, olingan ma’lumotlarning statistik tahlili N.I.Ryabova va V.L.Viktovskiylarning [2] uslubi bo‘yicha dispersion tahlildan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Uzumning toyfi rozoviy navi tok tup kurtak yuklamasi 80-120 ta (nazorat) , 120-160 ta, 160-200 ta, 200-240 ta va 240-280 ta kurtak ta’sirida hosildorlik koeffisienti, ya’ni tok tupida o‘rtacha rivojlangan kurtaklar soni, bitta hosilni novdadagi uzumboshlar soni, ikkita hosilli novdada uzumboshlar soni va hosil berish koeffisienti yoki tok tupidagi uzum boshlarning barcha rivojlangan novdalarga nisbati aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Uzumning toyfi rozoviy navi hosildorligini kurtak yuklamasiga bog‘liqligi

/p	Variantlar	Hosilli novdalar, %				Bitta hosilli novdadagi uzum boshlar soni, %	Hosilli novdalar soni, %
		Bitta hosilli,%	Ikta hosilli,%	Uchta hosilli,%	Jami		
	80-120 (nazorat) kurtak	37,0	10,5	3,1	50,6	1,36	50,6
	120-160 ta kurtak	41,0	11,8	2,7	55,5	1,35	55,5
	160-200 ta kurtak	44,5	14,0	3,2	61,7	1,38	61,7
	200-240 ta	41,5	14,5	2,9	58,9	1,48	58,9

	kurtak						
	240-280 ta kurtak	43,3	11,5	3,4	58,1	1,34	58,1

1-jadval ma’lumotidan ko‘rinib turibdiki, tokni voish usulida yetishtirganda kurtak yuklamasini “toyfi rozoviy” navini hosilli novdalar ko‘rsatkichlari nazorat variantda jami 50,6 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 37,0 % bitta hosilli novda, 10,5% ikkita hosilli novda va 3,1 % uchta hosilli novdani tashkil qilgan bo‘lsa, 120-160 ta tok tupiga kurtak yuklama qoldirilganda jami hosildorlik 4,9 % yuqori bo‘lishi qayt etildi. 160-200 ta tok tupiga kurtak bilan ishlov berilganda jami hosildorlik nazorat variantdan 11,1% yuqori bo‘lishi aniqlandi, 200-240 ta tok tupiga kurtak yuklamasi berilganda jami hosildorlik nazorat variantdan 8,3% ga ko‘p bo‘lishi aniqlandi. 240-280 ta tok tupiga kurtak yuklamasi berilganda 7,5 % yuqori bo‘lishi bilan ajralib turdi.

Bundan tashqari tajribada uzumni mexanik tarkibi aniqdandi. Uzum g‘ujumini po‘st, et va urug‘dan iborat (bundan urug‘siz navlar mustasno). Uzum g‘ujumini shakli, yirik maydaligi, rangi va po‘stining qalin-yupqaligi hamda pishiqligi uning naviga, o‘sayotgan sharoitiga bog‘liq. Uzum boshi g‘ujumini eti sershira, karsillaydigan, nozik tez yoyiluvchan va shilimshiqli turlarga bo‘linadi. Uzumning xo‘raki toyfi rozoviy navini mexanik tarkibi tahlil qilindi. Bunda har bir uzum boshlarini o‘rtacha og‘irligi gramda, shingili, po‘sti, eti, sharbati, sharbat va eti qattiq qismi (mezga) hamda urug‘larini foiz (%) hisobida o‘rganildi (2-jadval).

2-jadval

Uzumning toyfi rozoviy navi mexanik tarkibini kurtak yuklamasiga bog‘liqligi

Variantlar	Uzum boshi og‘irligi, g	Uzum boshi og‘irligining tarkibi, %			
		Bandi	Po‘sti	Eti va sharbati	Urug‘i
80-120 (nazorat) ta kurtak	370	5,4	0,4	87,5	6,7
120-160 ta kurtak	390	5,3	0,5	87,3	6,9
160-200 ta kurtak	405	4,9	0,5	87,6	7,0
200-240 ta kurtak	425	5,1	0,4	87,1	7,4
240-280 ta kurtak	402	5,4	0,6	87,2	6,8

2-jadval ma’lumotidan ko‘rinib turibdiki uzumning xo‘raki toyfi rozoviy navi 80-120 nazorat variantdagi uzum boshining og‘irligi 370 g ni tashkil qildi. bandi 5,4% ni, po‘sti 0,4 %, eti va sharbati 87,5% va urug‘i 6,7% ni tashkil qildi. 120-160 variantda nazorat variantga nisbatan uzum boshining og‘irligi 20 g, bandi 0,1% kam, po‘sti 0,1 % ko‘p, eti va sharbati 0,2% kam va urug‘i esa nazorat variantdan 0,2% ko‘p chiqidi. 160-200 variantda nazorat variantga nisbatan uzum boshining og‘irligi 35 g, bandi 0,5% kam, po‘sti 0,1 % kam, eti va sharbati 0,1% kam va urug‘i esa nazorat variantdan 0,3% ko‘p chiqidi. 200-240 variantda nazorat variantga nisbatan uzum boshining og‘irligi 55 g ko‘p, bandi 0,3% kam, po‘sti teng kam, eti va sharbati 0,4% kam va urug‘i esa nazorat variantdan 0,7% ko‘p chiqidi. 240-280 variantda nazorat variantga nisbatan uzum boshining og‘irligi 30,2 g ko‘p, shingili teng, po‘sti 0,2%, eti va sharbati 0,3% kam va urug‘i esa nazorat variantdan 0,1% ko‘p chiqishi aniqlandi.

Xulosalar.

1. Tok tupi yuklamasida kurtaklar soni oshishi bilan hosilli novdalar oshadi, lekin rivojlangan novdalar barcha novdalardagi uzum boshlari kamayadi.

2.Uzumning toyfi rozoviy navining hosilli novdalari taxlil qilinganda, ularning asosiy qismi 1 ta va 2 ta uzum boshli novdalarda tashkil qilinganiligi aniqlanadi. Hosilning asosiy qismi ya’ni 50% dan ko‘prog‘i bir uzum boshi novdalarda bo‘lishi kuzatildi.

3. Uzumning toyfi rozoviy navida tok tup kurtak yuklamasini 80-120 (nazorat) va 160-200 ta qoldirilganda kurtak yuklamasida boshqa variantga nisbatan mexanik tarkibi, eti va sharbati yuqori bo‘lishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temurov Sh. Uzumchilik – “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, davlat ilmiy nashryoti, Toshkent-2002. 174-175-b.

2.Ryabova N.I, Viktovskiy V.L. Izuchenie sortov vinograda (Metodicheskie ukazaniya), Leningrad, 1998 g. s -22-28.

3. Arutinyan A.S.Udobrenie vinogradnikov. Moskva “Kolos”1983-S-43-45.

4. Djavakyans.Yu.M., Gorbach. V.I., Vinograd Uzbekistana. «Shark»-2001-s-42-44.

5. Abdullaev R.M., Mirzaev M.M., Nabiev U.Ya., Abrorov Sh.M., Bekchanov., Mahmudov G‘.G‘. Uzum yetishtirish va mayiz quritishning zamonaviy texnologiyasi. “Sharq” nashiryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxriryati. Toshkent-2013-22-41-b.

PAXTANI YIG‘IB TERIB OLISHGA TAYYORLASHDA SIRDARYO TAJRIBASI VA TERIMNI TASHKIL ETISH TARTIB QOIDALARI

Otaboyev Muhammad Faxriddin o‘g‘li
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Sirdaryo viloyatida keyingi paytlarda paxta hosilini yig‘ishtirib olishda mexanizatsiyalashni joriy etish anchayin jadallashgani mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu yil klaster yer maydonlarida yetishtirilgan paxta hosilini to‘laligicha terim mashinalari yordamida yig‘ib olish maqsad qilingan. Paxtachilik xo‘jaliklarida yig‘im-terim ishlarini boshlashdan oldin barcha dalalar g‘o‘zaning ochilishiga qarab qaysi dala mashinada yoki qo‘lda terilishi bo‘yicha grafik tuzib chiqiladi. Dalani mashinada yoki qo‘lda terishga tayyorlashda g‘o‘zani defoliasiya va desikasiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday usulda g‘o‘za barglarini terim oldidan sun’iy to‘ktirish terim mashinalari ish unumini oshirish bilan birga terilgan paxtaning ifloslik darajasini ham birmuncha kamaytirisha olib keladi. O‘z muddatida va yuqori sifatli o‘tkazilgan defoliasiya ko‘saklarning yetilishi va ochilishini tezlashtirib, birinchi terim paxtasini sovuq tushguncha yig‘ishtirib olishga imkoniyat yaratadi. Maqolada paxtani yig‘ib terib olishga tayyorlash va sifatli terim jarayonini tashkil etish bo‘yicha malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘lda terilgan, mashinada terilgan, defoliasiya va desikasiya, iflosligi, namligi, ko‘saklar, organik aralashmalar, paxta quritiladigan xirmonlar.

Paxta dalasini g‘o‘zaning pishib yetilishiga qarab qo‘lda yoki mashinada terishga tayyorlash. G‘o‘za tupidagi ko‘saklar baravariga pishmaganligi sababli uning hosili bir necha marta terib olinadi. Odatda g‘o‘za ko‘saklari avgustda ochila boshlab, sentyabr va oktyabr oyining boshlarida yoppasiga ochiladi. G‘o‘zaning pastki va yuqorigi shoxlaridagi ko‘saklarning pishishi oralig‘ida 1,5-2 oy vaqt o‘tadi.

Defoliasiya sifasiz o‘tkazilganda mashinada terilgan paxtaga ho‘l barg va boshqa turli organik aralashmalar qo‘shilib ketadi. Natijada paxta ifloslanishdan tashqari unga barg shirasi yuqib, yashil-sariq rang bilan bo‘yaladi. Ma’lum bo‘lishicha bu rang paxtani qayta ishlashda ham ketmasdan mahsulot sifatining pasayishiga olib kelar ekan.

O‘simlikka defoliantlar sifatli ta’sir etishi uchun uni o‘tkazish muddatini to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyatga ega. defoliasiya ni har bir tup o‘simlikda ikkitadan to‘rttagacha ko‘saklar ochilganda va havoning harorati 17 S dan past bo‘lmaganda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda sanoatda kimyoviy defoliantlarning turli hillari ishlab chiqilmoqda. Ularni ishlatish me’yori va muddatini mutaxassis raxbarligida belgilash ishning samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Shuningdek, paxtani yig‘im-terim mavsumi boshlanishidan avval quyidagi chora-tadbirlar ham amalga oshirilishi zarur bo‘ladi:

1) Paxta qabul qilish zavodlari (punktlari)da yangi hosilni qabul qilish uchun maydonlar, sxemalar, tarozilar va zarur blanka qog‘ozlari oldindan tayyorlab qo‘yilishi kerak: (Tahlil qilish laboratoriyalari ham).

2) Paxta yetishtirgan xo‘jaliklarda paxta quritiladigan xirmonlar (asfalt) tozalanib, dala shiyponlari, tashish vositalari, fartuklar, paxtani topshirish uchun (yuk xati) blankalar, taxt qilinadi. Dalalar begona o‘tlardan tozalanadi, paxta mashinada teriladigan bo‘lsa o‘qariqlar ko‘milib, dala chetlari terim mashinasi qayrilishi uchun

10-12 m kenglikda tekislanadi. Xo‘jalikda qancha terimchi bor, qancha tashish texnikasi bor, paxtaning qancha miqdori qo‘lda, qancha miqdori mashinada teriladi, bular oldindan rejalashtirib olinadi. Agar urug‘lik paxta yetishtiriladigan bo‘lsa, dalalar aprobasiya ko‘rigidan o‘tgan bo‘lishi, bunda komissiya urug‘lik paxta terib olish uchun mahsus ruhsatnoma beradi.Urug‘lik paxtalar aloxida topshiriladi.

Terim boshlanishi oldidan g‘o‘za tuplarida kamida 2-3 tadan to‘liq pishgan (sog‘lom) ko‘sak bo‘lishi kerak. Paxtani toza pishgan, ko‘saklardan terish, shuningdek sog‘lom, turli xas-cho‘p aralashmalarisiz terib olish, shu xo‘jalikka qo‘shimcha iqtisodiy foyda bo‘ladi.

I-terim-20-25% (2-3) ko‘sak ochilganda;

II- terim qolgan xosilning 35-40% ochilganda teriladi.

III- terim II terimdan 10-15 kun o‘tgach teriladi (yoki sovuq tushgandan so‘ng)

I va **II** terim paxtalari I sanoat naviga topshiriladi.

III- terim yaxshi (sifatli) bo‘lsa **I** sanoat naviga, pishmagan xom paxtalar bo‘lsa **II** sanoat naviga olinadi. Odatda paxta dalasidan hosil 4 martagacha terib olinadi.

To‘rtinchi terimda ko‘sak va ko‘rak paxtaning chiqishiga qarab **III** yoki **IV** sortga qabul qilinadi. Terim uyushqoqlik bilan o‘tkazilsa paxtaning 85-90% ni I- sortga topshirish mumkin.

Paxta terish mashinalari (PTM) ikki yoki to‘rt qatorli qilib tayyorlanadi. PTM 0,9 yoki 1,4 klass traktorlariga yoki o‘ziyurar shassiga o‘rnatiladi. Mashina qator oralari 60 yoki 90 sm qilib ekilgan g‘o‘za tuplaridagi ochilgan ko‘saklarning chigitli paxtasini terishga mo‘ljallangan. Mashina terimi g‘o‘za tuplaridagi barcha ko‘saklarning kamida 60 foizi ochilganda boshlanadi. Bu davrga kelib o‘rtacha nav g‘o‘zalar bo‘yi 60... 100 sm, uzun tolali nav g‘o‘zalar bo‘yi esa 150 sm bo‘ladi. Mashina terimi oldidan g‘o‘zalar defoliatsiya qilinib, barglar sun’iy to‘ktiriladi. Shunda barglarning kamida 70 foizi to‘kilishi lozim. Mashina terimi ikki marta bajariladi. Birinchi terim ko‘saklarning yarmidan ko‘pi ochilganda, ikkinchi terim esa ikki xaftadan keyin o‘tkaziladi. Birinchi terimdan so‘ng desikatsiya o‘tkaziladi, ya’ni defoliatsiya natijasida biror sabab bilan barglari to‘kilmay qolgan maydonlardagi g‘o‘zalarga kimyoviy dorilar sepib, sun’iy quritiladi. MX-1,8 rusumli traktorga yarim osma paxta terish mashinasi o‘rta tola paxta navlarining g‘o‘za qator oralari 90 sm bo‘lgan maydonlardagi ochilgan paxtani terishga mo‘ljallangan.

Mashinaning texnologik ish sxemasi:

Mashinaning terim to‘liqligi, %, eng kamida	-90,0
Erga to‘kilgan paxta miqdori, %, ko‘pi bilan	-4,0
Yerga to‘kilgan ko‘k ko‘saklar soni, dona/pog.metr, ko‘pi bilan	-0,3
Mashina paxtaning tabiiy sifatini pasaytirmasligi kerak	
Bunkerdagi paxtaning iflosligi, %, ko‘pi bilan	-0,8
Paxtani o‘simlik shirasi va moy bilan ifloslanishi, paxtada g‘o‘za shoxchalari va ko‘k ko‘saklar bo‘lishi mumkin emas	
Chigitning mexanik jarohatlanishi, %, ko‘pi bilan	-0,1
Terim paytida chigitdan tolaning ajralishi, %, ko‘pi bilan	-0,3

Mashina terimiga ajratilgan paxta maydonlariga qo‘yiladigan talablar

Mashina uchun ajratilgan maydonlar qo‘yidagi talablarga javob berishi lozim:

- to‘rtburchak shakliga ega bo‘lishi;
- uzunligi kamida 500 metr va maydoni 4-6 gektardan katta;
- g‘o‘zalar bir tekis o‘sgan, hosildorligi esa gektariga eng kamida 25-30 sentner;
- ko‘chat soni gektariga o‘rtacha 100-120 ming tup;
- o‘simlik bo‘yi o‘rta tolali g‘o‘zalar uchun 80-100 sm, ingichka tolali g‘o‘zalar uchun 110-120 sm;

- bir tup g‘o‘zadagi ko‘k va quruq barglar soni ko‘pi bilan 3 va 4 ta, mashina terimi boshlangan paytda ko‘saklarning ochilishi 80 foizdan ortiq;

- dalalar begona o‘tlardan toza;

- dalaning boshi va oxirida mashinalar uchun 10-12 metr kenglikda tekislangan qayrilish maydonchasi tayyorlanishi shart.

PTM dala bo‘ylab harakatlanganda (2-rasm) ochilgan paxtasini ikki tomonlama va ikki qayta teradi. Tup ko‘targichlar 4 va old g‘ildirakning suyrisimon ixotasi ikki qatorning g‘o‘za tuplarini juft barabanlar o‘rtasidagi ish tirqishiga yo‘naltiradi. Barabanlar 1 ish zonasida mashinaning harakat yo‘nalishiga teskari tomonga aylanadi. Barabanlarning aylana tezligi **vb** mashina tezligi **vm** dan 1,3... 1,6 marta katta bo‘lganidan barabanlar g‘o‘za tuplarini ortiqcha og‘dirmasdan tirqish tomonga tortadi. Shpindellar ish zonasida mashina harakati tomonga aylanadi. Shunga ko‘ra o‘ng baraban shpindellari soat mili yo‘nalishida, chap baraban shpindellari esa qarshi tomonga aylanadi va bu shpindellar o‘naqay va chapaqay tishli deb ataladi. Barabanlarning aylanasi bo‘ylab joylashgan shpindellar o‘zining tishli sirti vositasida ko‘saklardagi ochilgan paxtani ilib olib, o‘ziga o‘raydi.

Baraban aylanishda davom etib shpindellarni paxta terish (ish) zonasidan olib chiqqach, ularni ajratgichlar 7 zonasiga keltiradi. Bu zonada shpindellar teskari aylantirish kolodkasining ponasimon tasmalariga duch kelib teskari tomonga aylana boshlaydi. Cho‘tkali ajratgichning aylana tezligi shpindellarnikidan olti hissa katta. Cho‘tkaning qillari shpindellarning tishlariga 0,5... 1,0 mm gacha botib turadi va shpindelga o‘ralgan paxtani yechib oladi. Paxta terish apparatining old va ketingi juft barabanlarining shpindellaridan ajratib olingan paxta har qaysi tomonda uchta ajratgich yordamida qabul kamerasiga uzatiladi. Qabul kamera tubi ochiq vertikal tirqishli trubadan iborat. Barcha og‘ir qo‘shilmalar (kesak, mayda tosh, ko‘k-yashil ko‘saklar va b.) yerga to‘kiladi, paxta esa ventilyator hosil qilgan havo oqimi ta’sirida pnevmatik transport trubalari bo‘ylab bunkerga boradi. Bunker sig‘imi 13,8 m. Vertikal shpindel (3-rasm) uch xil harakatda qatnashadi: mashina bilan ilgarilanma, baraban 2 bilan uning markaziga nisbatan aylanma va o‘z o‘qi atrofida aylanma harakat qiladi.



[3] 3-rasm. **Vertikal shpindelli paxta terish apparatining sxemasi:**
1-shpindel; 2-shpindelli baraban vali; 3-pastki disk; 4-ro'para shchit; 5-gofrali baraban; 6-yuqori disk; 7-yuqori panel; 8-tishli g'ildirak; 9-ichki kalodka; 10-rolik;

Urug‘chilik xo‘jaliklarida urug‘lik paxta dalasi aprobasiya komissiyasining xulosasiga ko‘ra yoki urug‘likka, yaroqsiz deb topilgan bo‘lsak umumiy paxta hisobida terib topshiriladi. Urug‘lik uchastkalarida g‘o‘za tupida o‘rtacha 3-5 tagacha ko‘sak ochilganda I terim bajariladi. Urug‘lik uchun paxta I-II marta ya’ni 10-15 oktyabrgacha terib olinadi. qolgani texnik paxtaga topshiriladi

Barcha terilgan paxtalar xox u texnik yoki urug‘lik bo‘lsin, qabul qilingan paxtalar sifat jihatidan Davlat Standarti talabiga javob berishi shart.

Qo‘lda terilgan paxta ham mashinada terilgan paxtaga o‘xshash to‘rtta sortdan iborat bo‘lib, uning belgilari quyidagicha:

I-sort- paxtani qo‘lda siqib ko‘rilganda tola elastik bo‘lib, qo‘yib yuborgach yana o‘z shakliga qaytadi, tolalari yaxshi yetilgan, baquvvat dolka (chanoq) paxtasi ko‘pchib turadi. Rangi g‘o‘za naviga va parvarishi sharoitiga qarab oq yoki och novvot rangli bo‘ladi. Shudring va yomg‘ir ta’sirida tola sifatida mayda sariq dog‘lar uchrashi mumkin.

II-sort- yakka chanoq paxtasi I-sortnikidan kichikroq, kamroq ukparlanib turadi. Bunda suv yetishmasligi natijasida tezroq ochilgan yoki yetilmagan bo‘lsa ham past xaroratda-sovuq tushgandan keyin ochilgan ko‘saklardan terib olinadi. Rangi naviga va parvarish sharoitiga qarab oq yoki och

yovvoyi rangli bo‘ladi. Shudring yoki yomg‘ir natijasida tola sirtida uncha katta bo‘lmagan sariq dog‘lar hosil bo‘ladi.

III sort- yakka chanoq paxtasi II sortnikidan kichkinaroq va kam ukparlanib turadi, asosan ochilgan va chala ochilgan ko‘saklardan terib olinadi. III sort paxtaning tolasi to‘lishib yetilmagan, ba’zan xom, rangi och xira rangdan och novvot ranggacha tovlanadi. Tola sirtida sariq dog‘lar bo‘ladi.

IV sort- Davlat standartiga muvofiq, sovuq urib rivojlanishdan to‘xtagan, yetilmagan ko‘sak va ko‘raklardan chuvib olinadi. IV sort paxta tarkibida ko‘plab o‘lik tolalar bo‘ladi. Bu hildagi paxtaning rangi och novvot rangdan to novot ranggacha tovlanadi, qo‘ng‘ir dog‘lari bo‘ladi.

Qo‘lda terilgan paxtaning iflosligini va namligi

Iflosligini aniqlash %			Namligini aniqlash %	
Paxtaning so‘rti	**Aslida bo‘lishi kerak**	**Yo‘l qo‘yilishi mumkin**	**Aslida bo‘shi kerak**	**Yo‘l qo‘yilishi mumkin**
I	0.5	3.0	8.0	9.0
II	1.0	5.0	10.0	10.0
III	1.9	8.0	11.0	11.0
IV	3.6	16.0	13.0	13.0

Paxta mashina yoki qo‘lda terilib, uning namligi va ifloslanishi tosh, shag‘al ip gazlama parchalari, ko‘m-ko‘k ko‘sak yirik barg (satxi 4 sm2 ortiq bo‘lgan) ko‘m-ko‘k begona o‘tlar aralashgan bo‘lsa qabul qilinmaydi. Agarda topshiruvchi bilan qabul qiluvchi (punkt, zavodning klassifikatori) o‘rtasida ba’zi nav bo‘yicha kelishmovchilik bo‘lsa, bunday xollarda maxsus asbob LPS-4 orqali tolaning havo o‘tkazuvchanligi va uzulish kuchiga qarab laboratoriya sharoitida analiz o‘tkaziladi va shu asosida sort qabul qilinadi.

Xar bir xo‘jalik tayyarlov punktiga topshirilayotgan paxta sorti, mashina terimi va qo‘l terimi bo‘yicha aloxida-aloxida g‘aramlarda saqlanadi.

Shpindelli mashinada terilgan paxta va podborning iflosligi hamda namligi

	Iflosligi,%			Namligi, %		
Paxta Sorti	Aslida bo‘lishi kerak	Yo‘l qo‘yilishi mumkin qabul chegarasining normasi		Aslida bo‘lishi kerak	Yo‘l qo‘yilishi mumkin, qabul qilish chega-rasining normasi	
		mashina terimi	podbor		Mashina terimi	podbor
I	0.5	10.0	16.0	8.0	10.0	14.0
II	1.0	10.0	16.0	10.0	12.0	16.0
III	1.9	12.0	18.0	11.0	15.0	18.0
IV	3.6	20.0	22.0	13.0	20.0	22.0

Standart bo‘yicha mashinada paxta terilganda quyidagi qoidalarga rioya qilinishi shart ingichka tolali paxtadan urug‘li chigit tayyorlana-yotganda va o‘rta tolali paxtaning elita va 1 reproduksiya xosilini terayotganda mashinadan foydalanishga ruxsat etilmaydi.

Urug‘lik chigit tayyorlanadigan maydonlardagi g‘o‘zani defoliasiya qilish uchun faqat o‘simlikka yumshoq ta’sir etuvchi preparat ishlatiladi. Urug‘lik paxta ikki yarusli paxta terish mashinasi bilan faqat bir marotaba teriladi. Bunda g‘o‘za bargi 80% ortiq to‘kilgan va g‘o‘za tupidagi xosilning o‘rta xisobda 70-75% ochilgan bo‘lishi kerak. Chigitning mexanik shikastlanishi 1% dan oshmasligi kerak.

Paxtani tayyorlov punktiga topshirishda xamma xujjatlarga qo‘lda terilgan paxta sifatiga qarab, masalan: birinchi sortga-I, ikkinchi sortga-II, va xokazo yoziladi.

Agar topshirilayotgan paxta mashinada terilgan bo‘lsa yuk xatga «M» xarfi yoziladi. To‘kilgan paxta qo‘lda va mashinada terilgan bo‘lsa «P» (podbor) harfi yoziladi. To‘kilgan paxta qo‘lda terilsa, to‘kilgan paxta mashinada terilsa III- sort -«SHP» yoziladi. To‘kilgan paxta va ko‘rak-ko‘sak qo‘lda terilib, dala sharoitida ko‘sak chiviydigan mashinada tozalansa tegishli standart sort bo‘yicha qo‘lda terilgan deb qabul qilinadi. Mashina terimi paxta sortlari bo‘yicha qabul qilish shartlari quyidagicha: (o‘rta tolali g‘o‘za navlari uchun).

I-sort- paxtasi qo‘lda siqib qo‘yib yuborilganda ukparlanib asl shakliga qaytadi. G‘o‘zaning naviga, parvarishlash sharoitiga qarab I-sort paxta oq novvot rangda bo‘ladi. Tola uzulish kuchi 4,4 g/k va undan yuqori. Shudring va yomg‘irdan so‘ng tola ustida sariq dog‘lar paydo bo‘lishi mumkin.

Paxtasi yakka chigit paxta bo‘lib, bo‘lakchasi (chanoqdagi paxta) bir oz cho‘zilgan bo‘lib, tolalari salgina buralgan.

II-sort- paxtasi I-sortga nisbatan kamroq ukparlanadi, asosan to‘liq yetilgan. Kam suvlikda past xaroratda va boshqa noqulay sharoitda ochilgan ko‘saklardan terib olinadi. Bu sortli paxtaning rangi naviga va parvarishlash sharoitiga qarab oq yoki och novvot rangli (ingichka tolali navlarda xiraroq) bo‘ladi. Shudring yoki yomg‘irdan keyin tolasida sariq dog‘lar bo‘lishi mumkin. Tolaning uzilish kuchi 3,9-4,3 g/k. Paxtasi aloxida 1 dona chigitli paxta va bo‘lakchasida cho‘zilgan tolalar uchrashi mumkin. Bu hildagi tolaning sirti yiltirab, jilolanib turadi.

III-sort- ochilgan va chala ochilgan ko‘saklardan terib olinadi, paxtasi asosan yetilmagan, ichida xomlari ham aralashgan bo‘ladi. Bu sortga mansub paxta II- sortga nisbatan xam kamroq ukparlanadi. qo‘lda siqilganda asl shakliga kam qaytadi. Rangi oqish xiradan och novvot ranggacha bo‘lib, tola sirtida to‘q sariq dog‘lar uchraydi. Bo‘lakchasi cho‘zilgan, tolalari buralgan. Unda aloxida-aloxida yetilmagan va cho‘zilmagan bo‘lakchalar aralashgan bo‘ladi. Paxtasi yaltiroq, silliq chanoqlardagi xar hil kattalikdagi xom paxtani eslatadi. Tolaning uzilish kuchi 3,2-3,8 g/k.

IV-sort- xom to‘liq yetilmagan, chala ochilgan va ochilmagan ko‘raklardan terib olinadi. Paxtasi qo‘lda siqilganda ko‘pchimaydi, ukparlanmaydi, asl xoliga qaytmaydi, rangi oq xira yoki och novvot rangdan, to‘q novvot ranggacha tovlanadi, tola sirtida qoramtir (ingichka tolali g‘o‘za navlarida paxtaning rangi och novvot rangdan sariq novvot ranggacha bo‘lib, tolasida to‘q sariq) dog‘lar bo‘ladi. Unda o‘lik tolalar III- sortdagiga nisbatan ko‘p bo‘lib, yaltirab tovlanib bo‘lakchasini deyarli qoplab turadi. Bu hildagi paxta asosan, ko‘sak va ko‘raklar terib olingandan keyin ko‘sak chuviydigan mashinalardan o‘tkaziladi va tozalanib chiqariladi. Bu sortda tolaning uzulish kuchi 3,1 g/k dan va undan past bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-son farmoni-www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyulda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4406-son qarori -www.lex.uz

3. Курбонов, Эрмамат. "ОБОСНОВАНИЕ ШИРИНЫ МЕЖДУСЛЕДИЯ ЗУБЬЕВ РЫХЛИТЕЛЯНАВЕСНОГО БОРОНОВАЛЬНОГО АГРЕГАТА." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.12 (2022): 997-1002.

4. Adhamov A., Ungarov A., Jo‘lbekov I. PROSPECTS OF USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN AGRICULTURAL SECTOR DEVELOPMENT //Journal of Agriculture & Horticulture. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 13-15.

5. Ungarov A. INNOVATIVE METHODS OF FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING //International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 107-109.

6. Ergashov A., Jo‘lbekov I. OLMANI UZOQ MUDDATGA SAQLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 20-23.

7. Mamatova Y., Jo‘lbekov I., Adhamov A. QURITISH UCHUN MO‘LJALLANGAN UZUM NAVLARINI TOVAR VA TEXNOLOGIK SIFATI TAHLILI //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 97-99.

8. Ungarov A., Sirojiddinov A. AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISHDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ISTIQBOLLARI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – T. 3. – №. 1 Part 3. – C. 16-18.

9. Otaboyev M., Qabulov I. “Bek cluster” korxonasida paxta tolasini saqlashda foydalanilayotgan zamonaviy qurulmalar tasnifi. Paxta xom ashyosini saqlashda namlikning tolasifatiga ta’sirini ilmiy asoslash //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 174-177.

10. Tukhtamishev, S., R. Xudayberdiyev, and G. Tukhtamishova. "MECHANIZED APPARATUS FOR CUTTING MELON FRUIT INTO ANNULAR SLICES." *Science and innovation* 2.A1 (2023): 252-255.

11. Ermatov V. QO ‘LLANILADIGAN ROTATSION ISH ORGANNING TUPROQNI SURUVCHI VA TUPROQQA ILASHUVCHI PICHOQLAR SONINI ANIQLASH //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 3 Part 2. – С. 37-41.

SIRDARYO VILOYATIDA AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISHDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Maxmudov Islom Rustam o‘g‘li
Guliston davlat universiteti

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy maqolada xorijiy va respublikamiz olimlarining innovatsiya, iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda innovatsion faoliyatni joriy etishga oid ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganilgan.

KALIT SO‘ZLAR: innovatsiya, iqtisodiyot, faoliyat, tadqiqot, ilm-fan, ishlab-chiqarish, qayta ishlash.

KIRISH: Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan, ta’lim va ishlab-chiqarishning yanada keng integratsiyasini ta’minlash, yangi bilimlarni yaratish va qo‘llash, innovatsion texnologiyalarni, ilg‘or tajribalarni joriy etish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda agrar sohani rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari sohaning eng quyi bo‘g‘inlarigacha etib bormasdan, yillar davomida o‘z echimini topa olmayotgan muammolar qishloq xo‘jaligi sohasini yanada jadal rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, istiqbolda “qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilimlarni tarqatishning samarali mexanizmlarini yaratish, ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish” ustuvor vazifa qilib belgilangan. Mazkur holat qishloq xo‘jaligi sub’ektlarida iqtisodiy salohiyatni oshirishda innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, mazkur jarayonlarning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlari bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. . “ 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi**”** ning 30-maqsadida Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish, 141-vazifada agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta’minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirish, jumladan, 2022 yilga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqish, sanoatbop meva-sabzavot hajmi 3,4 mln tonnaga, qayta ishlash quvvatlarini 3,1 mln tonnaga va qayta ishlash darajasini 16 foizga yetkazish, meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlarini 3,1 mln tonnaga (107 foiz), sutni –2,9 mln tonnaga (111,5 foiz), go‘shtni –410 ming tonnaga (119 foiz) yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini (qayta ishlangan go‘sht-sut, meva-sabzavot, yog‘-moy va boshqalar) 898 tadan 1100 taga yetkazish, 3,2 mingta yangi ish o‘rinlari yaratish vaziflari belgilangan. Yuqorilardan kelib chiqib qishloq xo‘jaligi korxonlarida meva-sabzavotlarni yetishtirish,qayta ishlash jarayonidagi nobudgarchikini kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatlarni e’tiborga olgan holda bugungi kunda qishloqxo‘jaligi korxonalarida meva-

sabzavotlarni qayta ishlash jarayonida qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish dolzarb ilmiy tadqiqot muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi hamda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega. . [1]

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va turli xil meva va sabzavotlarni qayta ishlash sanoatida quritishning hozirgi ishlatilayotgan usullari oxirgi mahsulot sifatini oshiradigan, qayta ishlash vaqtini qisqartiradigan va suvsizlangan material sifatiniyaxshilaydigan yangi qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Ho‘l mahsulotlarni qurituvchi texnik agent yordamida suvsizlantirish jarayoni quritish deb ataladi. Bu jarayonda namlik bug‘lanish yo‘li bilan qattiq faza tarkibidan gaz (yoki bug‘) fazasiga o‘tadi. Mahsulotlarni quritish uchun termal maydon, suyuq fazali issiqlik tashuvchisi bo‘lgan vakumli quritish moslamasi va quritish jarayonlarida issiqlikni saqlavchi akkumulytor bilan jixozlangan yangi texnologiyalarni qo‘llash shubhasiz, mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida samarador hisoblanadi. [2]

ASOSIY QISM. Yuqoridagi keltirilgan nazariy qarash va tahlillarga asoslanib, fikrimizcha, innovatsiya fan yutuqlari va ilg‘or tajribadan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishni takomillashtirish va rivojlantirish jarayonlari, yangi iste’mol xususiyatlarga ega mahsulotlarni (tovar, mahsulot, texnika, texnologiya, boshqa tashkiliy shakl va vositalar) shakllantirish, amaliyotga joriy etishga asoslangan investitsion va ijodiy faoliyatning moddiylashgan yakuniy natijasi bo‘lib, bozor va ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga ko‘maklashadi, xarajatlarni tejaydi va insonlarning turli xil hayot va faoliyat sohalarida turlicha samara berishini ta’minlaydi

Xorijiy va mahalliy olimlar quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazganlar Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, meva va sabzavotlarini quritish davrida energiya samaradorligi va resurslar intensivligini pasaytirish, quritgichlarning ish unumdorligini oshirish Meva va sabzavotlarni quritganda energiya tejashni ta’minlash uchun ajratish vositalarini olish Meva, sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritishda biologik faol moddalar saqlanishini ta’minlaydigan texnologiyalarni yaratish. [2]

Qishloq xo‘jaligida yuqori xosil olish uchun agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazish lozim ko‘plab tadqiqotlar va tajribalar shuni ko‘rsatadiki agrotexnik tadbirlar vaqtida erta bahorda o‘tkazilmasa tuproq ko‘tarilayotganda tuproq qanchalik sifatli kesilmasin u quriydi, to‘plangan namlikni yo‘qotadi, dalalar begona o‘tlar bilan to‘lib toshgan bo‘ladi. [3]

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishisamaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri yuqori darajada texnik jihozlanganlik, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llashga xizmat qiladi, ya’ni innovatsion faoliyat-rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy strategiyasi asosidir. Hisob-kitoblarga ko‘ra, iqtisodiy o‘sishning 30% mehnat xarajatlarini oshishi, 40% mehnat unumdorligini oshishihisobiga ta’minlanadi va 30% esa innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hisobiga ta’minlanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda innovatsion jarayonlarni chuqurlashtirishga va innovatsiya bazasini mustahkamlash uchun barcha zarur ijtimoiy-iqtisodiy asoslar mavjud. Biroq agrar sohani innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish, yoki boshqacha aytganda, innovatsion loyihalarni bir, hatto bir necha fermer xo‘jaliklari miqyosida ham amalga oshirishda muammolar mavjud, chunki fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi subektlar hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot ishlariga buyurtma berish hamda tadqiqotlarni moliyalashtirishda ishtirokining sustligi, ilg‘or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda tadqiqot olib borish va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishni ham xo‘jalik subekti o‘zi amalga oshira olmasligi, yangi texnologiya, yangi navlardan foydalanish uchun qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilarning yetarli darajada bilimlarga ega emasligi, ular olimlar va mutaxassislar xizmatidan foydalanishlari zarur, shuningdek, mahsulotni qayta ishlash va sotishda ham fermerlar ma’lum darajadagi qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot muassasalari olimlari tomonidan tayyorlangan innovatsion ishlanmalarga ishlab chiqaruvchilarning talabi yetarli darajada emasligi, ular o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud emas, ayrim qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning mas’uliyatsizligi kabi muommolar qishloq xo‘jaligida innovatsion jarayonlarga to‘sqinlik qilayotgan omillar sirasiga kiritish mumkin. Texnik-texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ishlab chiqarishning joriy va investitsion (kapital) xarajatlarini kamaytirishga, qo‘llanilayotgan texnika va texnologiyalarni tabiiy-iqlim, tuproq va har bir hududning o‘ziga xos hususiyatlariga maksimal darajada moslashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

XULOSA. Innovatsion rivojlanish muammolari O‘zbekiston uchun alohida dolzarblik kasb etadi, chunki faqatgina yangi resurstejamkor, ilg‘or texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda innovatsion rivojlanish atrof-muhitni saqlab qolishni hisobga olib iqtisodiyot barqarorligini tezkor sur’atlarda o‘sishini ta’minlaydi.Hozirgi sharoitda dehqonchilik tarmog‘ini innovatsion rivojlantirishda boshqa yo‘nalishlarining muhimligini inkor etmagan holda, qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash sharoitida texnik-texnologik innovatsiyalarni eng muhim yo‘nalish deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
2. Ungarov A., Ergashov A. QISHLOQ XO ‘JALIGI MAHSULOTLARINI QURITISH DAVRIDA ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA QURITGICHLARNING ISH UNUMDORLIGINI OSHIRISH //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 24-27.
3. Курбонов, Эрмамат. "ОБОСНОВАНИЕ ШИРИНЫ МЕЖДУСЛЕДИЯ ЗУБЬЕВ РЫХЛИТЕЛЯНАВЕСНОГО БОРОНОВАЛЬНОГО АГРЕГАТА." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.12 (2022): 997-1002.

SIRDARYO VILOYATIDA TOLANING PISHIB YETILGANINI ANIQLASH USULLARI VA FAN INTEGRATSIYASINI YANADA RIVOJLANTIRISH

Qabulov Ibrohim Mamatqul o‘g‘li
Guliston davlat universiteti

Abstract: In this article, methods of determining the maturity of fiber in the Syrdarya region and the process of processing raw cotton at the Bek cluster enterprise, providing more information and innovative methods for the further development of the integration of this science. the effectiveness of the application, the procedure used to determine the level of contamination and moisture of this received cotton, the law and regulations. Helping them to acquire theoretical knowledge, practical skills and high qualifications from the module "The role and importance of preparation points in the storage of raw cotton and the process of quality control during storage".

Key words: integration, at the Bek cluster enterprise, production of cotton raw materials, further development of science integration, measurement methods, auxiliary devices, measurement methods, measurement conditions, preparation for measurement.

Pishib etilganlik koeffisienti bo‘yicha parallel namunalarning natijalari orasidagi ruxsat etilgan tafovut (usulning yaqinligi) quyidagilardan oshmasligi kerak:-qutblangan yorug‘likda ikkita namuna orasida ko‘pi bilan –0,1;-to‘rtta namuna, maksimum va minimum qiymatlari o‘rtasida havo o‘tkazuvchanlik bo‘yicha, ko‘pi bilan – 0,03 yoki LPS-4 shkalasiga nisbatan Pa (mm suv ustuni) da 2,5 %. Pishib etilganlik koeffisientining sinash natijalari orasidagi ikki turli laboratoriya yoki bir laboratoriyada har xil sharoitda (usulning tiklanishi) olingan ikkita sinash orasidagi ruxsat etilgan tafovut –0,1 dan oshmasligi kerak.

O‘LCHASH USULLARI, YORDAMCHI QURILMALAR.

yoki shunga o‘xshash boshqa markadagi tarozi; Tolalarni taxlash uchun qisqich № 1; Tolalarni predmet oynachalarga taxlashda kerakli duxoba qoplangan taxtacha; Tola joylashgan juft oynachalarni qistirish uchun qisqich; Namunaning havo o‘tkazuvchanligi bo‘yicha pishib etilganlikni aniqlash 33 LPS-4 qurilmasi; Shkalaning oraliq darajasi 10 mg dan ko‘p bo‘lmagan, eng katta tortish chegarasi 1 kg gacha, GOST 24104 bo‘yicha aniqligi 4-sinfga mansub bo‘lgan laboratoriya tarozilari; AX yoki FM-30 tipidagi, yoki boshqa o‘xshash markadagi paxta analizatorlari.

Pishib etilganlikni aniqlash usullarini tekshirish uchun maxsus tartibda tasdiqlangan paxta tolasining standart (etalon) namunalari.

O‘LCHASH USULLARI.

Paxta tolasining pishib etilganligi devor to‘qimalari qalinligining o‘zgarishida ro‘yobga chiqadigan selyuloza to‘planishi va g‘o‘zaning o‘sish davrida tola ichki strukturasining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi.

Pishib etilganlikni qutblangan yorug‘likda aniqlash usuli, qutblangan yorug‘likda kesishgan qutblantirgichlarda interferension bo‘yalishini tolaning ichki tuzilishi va qalinligiga bog‘liqligiga asoslanadi.

Pishib etilganlikni havo o‘tkazuvchanlik bo‘yicha aniqlash usuli tola qalinligining uni havo o‘tkazuvchanligiga bog‘liqligiga asoslangan. Bu nisbat seleksion navlar bo‘yicha LPS –4 uchun maxsus jadvalda berilgan.

O‘LCHASH SHAROITI.

LPS-4 qurilmasida sinashdan aval namunalar GOST 10681 bo‘yicha klimatik sharoitda 2 soat saqlanadi. Agar paxta tolasining namligi 6 dan 10 % gacha bo‘lsa, shuningdek namlik 6 % dan kam 10 % dan ko‘p bo‘lgan hollarda LPS-4 qurilmasida o‘lchash uchun tasdiqlangan qo‘llanmaga muvofiq tuzatma kiritilsa, klimatik sharoitda saqlamasdan tajriba o‘tkazishga ruxsat etiladi. Tolaning pishib etilganlik koeffisientini qutblangan yorug‘likda tayyorlash O‘zRST 604 va O‘zRST 614 ga muvofiq bajariladi.

O‘LCHASHNI BAJARISHGA TAYYORGARLIK.

Paxta tolasidan namuna tanlab olish, namuna piltasini sinashga tayyorlash O‘zRST 604 va O‘zRST 614 ga muvofiq bajariladi.

O‘LCHASHLARNI BAJARISH.

Pishib etilganlikni qutblangan yorug‘likda aniqlash usuli. Qutblangan uskunani ikkita vint bilan mikroskopning predmet stoliga shunday mahkamlanadiki, bu holda mikroskop ob’ektivi yuqori qutblantirgich uskunasini markazidan ustida joylashgan bo‘lsin. Namuna piligidan 25-30 mg massada taram (shtapel) tayyorlanadi. Taram qora duxobali taxtacha ustiga qo‘yilgan to‘rtta predmet oynalariga qisqich yordamida tola tarqalishiga yo‘l qo‘yilmagan holda to‘liq taxlanadi. 34 Tolalar bir tekis qatlamda bir-biriga parallel holda shunday taxlanadiki, bunda mikroskop ostida qaralganda ko‘rilgan qismda paxta tolasi 40-50 ta atrofida bo‘lishi kerak. Ko‘rilgan paxta tolalarining umumiy soni 300-400 dan kam bo‘lmasligi kerak.

Har bir tola joylangan predmet oynachasini ketma-ket qutblantirgich uskuna stoliga mahkamlanadi. Paxta tolalari kesishgan qutblantirgichlarda ko‘riladi. Bunda ko‘rinish qismdagi qutblangan yorug‘likda kristall plastinkalari qizil rang asosini ta’minlaydi va pishib etilganligiga qarab har xil interferension bo‘yalgan paxta tolalari ko‘riladi.

Paxta tolasining pishib etilganlik darajasi uning keng qismidagi eng past interferension bo‘yalishi asosida aniqlanadi.

O‘LCHASH NATIJALARINI HISOBLASH.

Qutblangan yorug‘likda pishib etilganlikni aniqlash usuli. Har bir ko‘rinish qismda 1, 2, 3 va 4 pishib etilganlik guruhlariga tegishli paxta tolalari soni sanaladi. So‘ngra umumiy yig‘indi 100 % deb hisoblanib, har bir guruhning pishib etilganligi (A) necha foyizligi hisoblanadi. Har bir guruh pishib etilganlik koeffisienti K1, K2, K3 va K4 2-jadval bo‘yicha tolaning 1-guruh pishib etilganligi foyiz miqdoriga ko‘ra aniqlanadi. Pishib etilganlik koeffisienti o‘rtacha ulushlik qiymati (K) quyidagi formulada hisoblanadi.

$$K = \frac{A1 \times K1 + A2 \times K2 + A3 \times K3 + A4 \times K4}{100}$$

Bu erda A1,A2,A3,A4 -to‘rtta pishib etilganlik guruhining % miqdori; K1,K2,K3,K4 –1-pishib etilganlik guruhining % miqdoriga muvofiq, 4 ta guruh tolalarining pishib etilganlik koeffisienti.

Hisoblash to dastlabki ikkinchi o‘nlik belgisiga aniqlik bilan amalga oshiriladi va birinchi o‘nlikka yaxlitlanadi. 7.2.1. Tajribadan o‘tkazilgan to‘rtta namunaning qiymatlari mazkur standartning 1.1. bandi talablarini qoniqtirsa, LPS-4 qurilmasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymatda Pa (suv ustuni mm) da hisoblanadi.

Tajribadan o‘tkazilgan to‘rtta namuna natijalari 1.1 bandi belgilangan qiymatdan oshib ketsa, yana to‘rtta yangi namunada tajriba takrorlanadi va 1.1 bandga to‘g‘ri kelishi tekshiriladi. Band bo‘yicha ruxsat etilgan qiymatga muvofiq kelmaslik takrorlansa, barcha sakkizta namuna natijalari bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymat hisoblanadi.

Hisoblangan qiymatlarga ko‘ra, tasdiqlangan jadval bo‘yicha, g‘o‘zaning seleksion naviga qarab, paxta tolasining pishib etilganlik koeffisienti tuzatma hisobga olingan holda (agar namuna klimatik sharoitda saqlanmagan bo‘lsa) aniqlanadi. Tuzatma LPS-4 qurilmasini ishlatish bo‘yicha qo‘llanmaga muvofiq aniqlanadi.7.2.1. Tajribadan o‘tkazilgan to‘rtta namunaning qiymatlari mazkur standartning 1.1. bandi talablarini qoniqtirsa, LPS-4 qurilmasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymatda Pa (suv ustuni mm) da hisoblanadi.

Tajribadan o‘tkazilgan to‘rtta namuna natijalari 1.1 bandi belgilangan qiymatdan oshib ketsa, yana to‘rtta yangi namunada tajriba takrorlanadi va 1.1 bandga to‘g‘ri kelishi tekshiriladi. Band bo‘yicha ruxsat etilgan qiymatga muvofiq kelmaslik takrorlansa, barcha sakkizta namuna natijalari bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymat hisoblanadi.

Hisoblangan qiymatlarga ko‘ra, tasdiqlangan jadval bo‘yicha, g‘o‘zaning seleksion naviga qarab, paxta tolasining pishib etilganlik koeffisienti tuzatma hisobga olingan holda (agar namuna klimatik sharoitda saqlanmagan bo‘lsa) aniqlanadi. Tuzatma LPS-4 qurilmasini ishlatish bo‘yicha qo‘llanmaga muvofiq aniqlanadi.Tolalar bir tekis qatlamda bir-biriga parallel holda shunday taxlanadiki, bunda mikroskop ostida qaralganda ko‘rilgan qismda paxta tolasi 40-50 ta atrofida bo‘lishi kerak. Ko‘rilgan paxta tolalarining umumiy soni 300-400 dan kam bo‘lmasligi kerak.

XULOSA

“Paxta xom ashyosini quritish” fanining nazariy va amaliy mavzularini o‘rganishdan oldin, talabalar avvalo paxta xom ashyosini quritish sohasini ahamiyati haqida bilim olishadi. Ayniqsa paxta ekinlarini etishtirish texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib. . Ushbu imkoniyatdan qanday foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Bu jarayonda o‘qituvchi ijodkor bo‘lishi va chuqur, xar tomonlama bilimga ega bo‘lishi lozim. Darslarida interfaol o‘qitish usullaridan keng foydalanishi, talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xarakat qilishi lozim.

O‘qitish jarayonida bevosita «yangi zamonaviy pedagogik texnologiya» larni qo‘llash yaxshi samara beradi. Asosiy muammo adabiyotlar, qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar, tarqatma materiallari, yangi axborot-texnik vositalari bilan ta’minlanganlik va ularni talabalarga etkaza bilishda namoyon bo‘ladi.

Bu muammoni qaysidir ma’noda ushbu fan bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan modullar hal etadi. O‘lcham natijalarini hisoblashni juda keng manoda tushinchaga ega bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. SH.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qatiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 17 yanvar.- Toshkent: - “ O‘zbekiston”, 2017. -104 b.
2. SH.M.Mirziyoyev “Buyuk kelagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.- Toshkent: - “ O‘zbekiston”, 2017 y.
3. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik.Toshkent, “Voris nashriyot”, 2008, 416 b.
4. Paxtachilik spravochnigi, Toshkent, Mexnat-2005.

GULISTON KICHIK SANOAT ZONASI VA GULISTON DAVLAT UNIVERSITETINING O‘ZARO INTEGRATSIYASIDA TEXNIK MEXANIKA FANINING TUTGAN O‘RNI

Davlatov Po‘lat, Ermatov Valijon Abdivaitovich, Aynaqulov Komiljon Baxtiyor o‘g‘li
Guliston davlat universiteti Katta o‘qituvchi
Guliston davlat universiteti O‘qituvchi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Аннотация. *Maqolada Guliston kichik sanoat zonasida Texnik mexanika fanining tutgan o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari hamda Guliston davlat universitetining ishlab chiqarish soxasi ta’lim yo‘nalishlari bilan Guliston kichik sanoat zonasi o‘zaro integratsiyasining samaradorligi haqida fikr yuritilgan.*

Таянч тушунчалар:*. oliy ta’lim, integratsiya, ilm-fan, fan-texnika, Texnik mexanika, ishlab chiqish tashkilotlari.*

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizning mahalliy iqtisodiy sharoitlarida oliy ta’lim va fan integratsiyasining ishlab chiqarishda o‘ziga xosligi bor. Biroq O‘zbekiston Respublikasi xalqaro tajribaning asosiy omillaridan va, ayniqsa, ilm-fan, ishlab chiqarish va oliy ta’lim sharoiti o‘xshash bo‘lgan mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan foydalanishi mumkin. Umuman olganda, innovatsion faoliyatning huquqiy asoslarini ta’lim tizimi predmetlari orasiga kiritish, oliy ta’lim muassasalarida kichik innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish faqatgina talabalarning qo‘shimcha amaliyotga ega bo‘lishigina emas, balki oliy ta’lim muassasalari uchun yangi daromad imkoniyatlarini ochishi mumkin. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari va moliyaviy oqimlarni tartibga soluvchi kompaniyalar o‘rtasida huquqiy munosabatlar va intellektual mulk huquqlarini realizatsiya qilish kichik innovatsion tadbirkorlikni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa oliy ta’lim tizimi sharoitida fan va ta’lim integratsiyani qo‘llab-quvvatlashi va rivojlanishini ta’minlashi, shuningdek, respublika oliy ta’lim muassasalaridagi ilmiy kuchlar e’tiborini jalb etish, ularning faoliyatini ishlab chiqish tashkilotlari bilan muvofiqlashtirish, shu jumladan, tashkilotlar innovatsion salohiyatini monitoringini yaratish uchun zarur bo‘lgan innovatsiyalarni joriy etishga olib keladi[1].

Kadrlar tayyorlashda sifatga, hududiy jihatlarga e’tibor oshdi, bunda iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, ta’lim muassasalari bilan iqtisodiyot tarmoqlarining o‘zaro hamkorligi asosida kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish, “Kadrlarni maqsadli tayyorlash”, ishlab chiqarishning mavjud muammolarini ilmiy-tadqiqotlar natijasida hal etish tizimiga alohida e’tibor berilishi kun tartibiga qo‘yildi [2-5].

Binobarin, taraqqiyot va yuksalishlarni innovatsiya va innovatsion jarayonlarsiz tasavvur etish qiyin. Innovatsiya, innovatsion markazlar, innovatsion muhit, uning shakllanishi, rivoji bilan bog‘liq texnologiya hamda qonuniyatlar borasida fikr yuritar ekanmiz, avvalambor bevosita rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlash joizdir. Jahondagi yirik innovatsion markazlarning har biri o‘ziga xos betakror tarixga egadir. Ularning shakllanish va rivojlanish tarixi o‘ziga xos bo‘lib, ish yuritishga yondashuv, xalqning bilim darajasi va mentaliteti, ishlab chiqarish holati, davlat siyosati, akademik va ta’lim muassasalari salohiyati, inson kapitali kabi qator omillar bilan chambarchas bog‘liqdir[6]

Butun dunyoda fan-texnikaning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirilayotgan bugungi kunda mexanika nomi bilan bevosita bog‘liq va uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan texnik mexanika fanini puxta o‘zlashtirish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Texnik mexanika predmeti eng muhim umumtexnika bilimlar majmuasini o‘zida olib, Nazariy mexanika (Statika, Kinematika va Dinamika), Materiallar qarshiligi hamda Mashina detallari kabi bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan uchta mustaqil bo‘limlardan tashkil topgan.

Texnik mexanikaning tarkibiy qismlari hisoblangan:

-Statikada jismlarning muvozanati, ularga qo‘yilgan kuchlarni sodda holga keltirish yo‘llari;

-Kinematikada jismlarning massasi va ularga ta’sir etuvchi kuchlar e’tiborga olinmagan holda, ularning harakatini faqat geometrik nuqtayi nazardan tekshirish;

-Dinamikada jismlarning harakatini uni vujudga keltiruvchi kuchga bog‘liq holda tekshirish;

-Materiallar qarshiligida mashina yoki inshoot qismlarida paydo bo‘ladigan zo‘riqish, deformatsiya va ko‘chishlarni aniqlash usullari hamda turli materiallarning mexanik xossalarini tajriba yordamida tekshirish;

-Mashina detallarida muhandislik amaliyotida ko‘p qo‘llaniladigan detal va uzellarning tuzilishi, ishlash prinsipi, ularni iqtisodiy jihatdan tejamli qilib hisoblash, loyihalash usullari o‘rganiladi.

Texnik mexanika fanining umumiy xususmyatlaridan kelib chiqib Guliston davlat universitetining ishlab chiqarish sohasiga oid ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning kelgusida mutaxasislik bo‘yicha kasbiy faoliyatga tayyorlanish jihatlariga kengroq e’tiborni qaratamiz. Talabalar uchun ularning ishlab chiqarish-texnologik faoliyati ko‘proq muhim hisoblanadi. Shu bois Guliston davlat universitetida ishlab chiqarish sohasiga oid ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarni Guliston shahar xududida joylashgan “Guliston kichik sanoat zonasi” dagi mavjud “Temirchilik va rangi metallarni payvandlash”, “Metallarini egish va bukish”, “Metallarini rejalashtirish va kesish”, “Metallarini payvandlash”, “Tokrlik, frezalash va parmalash” va “Elektrodvigatellarni ta’mirlash” sexlarda amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etib, ularning malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda Guliston kichik sanoat zonasi bilan Guliston davlat universitetining o‘zaro integratsiyasini tashkil etish katta samara beradi.

Viloyatimiz ishlab chiqarish salohiyatini xar tomonlama rivojlantirishda ishlab chiqarish sohasida taxsil olayotgan bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatdagi yutuqlari uchun kerak bo‘ladigan omilllardan biri-ularda ishlab chiqarish-texnologik ko‘nikmalarni shakllantirish muhum omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosala va takliflar.

1. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini jadallashtirish, sanoat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xalqaro hamda mamlakatimiz ilm-fani yutuqlarini o‘rganib tahlil qilish.
2. Hududning o‘ziga xos xususiyat va ehtiyojlarini inobatga olgan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasidan oqilona foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.
3. Guliston davlat universitetida ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yo‘nalish bo‘yicha taxsil olayotgan talabalarning bilim va malakalarini, ishlab chiqarish - texnologik ko‘nikmalarini shakllantirish.
4. Sirdaryo viloyati xududidagi ishlab chiqarish korxonalarining texnik, texnologik muammolarini hal etish choralarini ilmiy tadqiqotlar asosida tizimli ravishda izlanishlar olib borish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. B.SH. Usmonov, F.X. Raximov, M.X.Dusmuxamedova Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlik. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. Toshkent “CHo‘lpon” nashriyoti, 2017 y.
2. Kadыrov A.A. Natsionalnыe innovatsionnыe sistemы i ix regionalnыe aspektы. – T.: “YAngi asr avlodi”, 2011g. – 192 s.
3. Raximov F.X., Dusmuxamedova M.X. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish hamkorligidagi innovatsiyalar vorisiylik sifatida. Zamonaviy ta’lim. 2015y. №10, 12-19 b.
4. Usmonov B.SH., Raximov F.X., Dusmuxamedova M.X. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlik. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2017 y. 75 b. 14.
5. Usmonov B.SH., Qodirov M.Q., Eltazarov J.D. Inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli. – T.: “Fan va texnologiya”, 2015 y.
6. Raximov F.X., Usmonov B.X. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘zaro innovatsiyn hamkorligi rivojlanishning garovidir. Ta’lim, fan va innovatsiya. 2015 yil 2-son.

SIRDARYO VILOYATIDAGI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI VA ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYALARI INSTITUTINING KAFEDRALARINING INTEGRATSIYASINI TA’MINLASH OMILLARI

Raxmatullayev Ravshan Qo‘shmurodovich, Ermatov Valijon Abdivaitovich, Batirov Baxtiyar K.J.Nishovich

Guliston davlat universiteti

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Guliston davlat universiteti O‘qituvchi
Guliston davlat universiteti O‘qituvchi

Abstract. *This article discusses the mutual integration of the production enterprises of the Syrdarya region and the departments of the Institute of Production Technologies, the essence of the concept of integration of specialized disciplines, the factors affecting the basis of ensuring the integration of production and disciplines, different levels of integration.*

Basic concepts: *production enterprises. higher education, integration, ensuring integration, levels of integration, specialization, teaching process, factors.*

Mavzuning dolzarbligi. Viloyatmizda ishlab chiqarish korxonalari va Ishlab chiqarish texnologiyalari institutining uzviyligi hamda uzluksizligini, ya’ni institutning ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan kafedralarini viloyatdagi ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyasini ta’minlashda o‘z echimini kutayotgan bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, bugungi uzluksiz ta’lim talablaridan kelib chiqib, mazkur muammolar bartaraf etish uchun ilmiy-amaliy va amaliy tajribaga asoslangan aniqliklar kiritish hamda xususda ishlab chiqarish bilan ta’lim integratsiyasini ta’minlashni amalga oshirish fursati etib keldi.

Shu nuqtai nazardan o‘quv fanlari orasida o‘zaro integratsiyani ta’minlash bilan Ishlab chiqarish texnologiyalari institutining kafedralarida kasbiy amaliy faoliyatni sifatli tashkil etish, ishlab chiqarish sohasiga oid fanlarda chuqur amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish muammosi ham hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini rivojlantirish muammosi asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog olimlar va tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, ishlab chiqarish sohasiga kadrlar etkazib beruvchi kafedralar va ishlab chiqarishni integratsiyalash yuqori samaradorlikka erishish, yuqori malakaga hamda chuqur bilimga ega bo‘lish imkonini beradi va o‘zida ishbilarmonlik qobiliyatini ham namoyon etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib o‘qitish jarayonini tashkil etilsa, o‘qitishning samaradorligi ham oshadi. Integratsiyalash asoslariga ta’sir etuvchi bir qancha omillar mavjud bo‘lib, ularni quyida keltiramiz.

1. Ilm-fan taraqqiyotini hisobga olgan holda ta’lim mazmunini belgilash.
2. Davlat ta’lim standartlari va malaka talablari.
3. Fanlar rivojlanishining ob’ektiv qonuniyatlari.
4. Ta’lim vazifalari.
5. Ta’lim jarayoni va mazmuni birligi.
6. O‘quv reja va dasturlarining bir-birini o‘zaro belgilashi.
7. Moddiy texnik baza.
8. Pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari.

Mamlakatimizning ta’limga oid qator hujjatlarida ta’limning uzluksizligi va izchilligi ta’lim sohasidagi davlatimizning siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Bevosita shu tamoyilga bog‘lab olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlarda “integratsiya”, “integrativ hamkorlik” kabi tushunchalar ishlatilib, ular turlicha talqin qilinmoqda.

“Integratsiya” so‘zi birlashtirish degan ma’noni bildiradi. Olimlar tomonidan ishlab chiqarish sohasiga kadrlar etishtirishga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida integratsiyani ta’minlashning mohiyati xususida bir qator fikrlar keltirilgan. Jumladan, talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda fanlararo aloqaning ahamiyati masalasida to‘xtalib, quyidagi fikrlar bildirilgan: “Oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim omillaridan biri fanlararo aloqadorlikdir. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, texnik oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarning o‘qitilish jarayonida mavzulararo, bo‘limlararo bog‘lanish natijasida talabalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, bilimlarni puxta va ongli o‘zlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi, talaba ma’naviy-axloqiy hodisalarni kuzatadi, xotirada saqlaydi, isbot qiladi, qiyoslaydi. Natijada, ularda bog‘lanishli nutq, ijodiy tafakkur rivojlanadi. Talaba-yoshlarni o‘qitishda fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini amalga oshirish jamiyat va o‘quv muassasalari talablarini bajarishga yordam berib, ta’lim-tarbiya birligi (yaxlitligi) ni ta’minlaydi” [1].

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasining pedagoglar tomonidan to‘g‘ri tashkil qilinmasligi talaba-yoshlarda bilim ko‘nikmalarni shakllantirish, egallangan bilim va ko‘nikmalar asosida bilimlarni oshirish jarayonini murakkablashtiradi.

Sirdaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalarida ixtisoslik kafedrasida taxsil olayotgan talabalar o‘quv faoliyati va injener-pedagoglar ta’limi uchun professor-o‘qituvchilarni tayyorlashda integrativ aloqadorlikni joriy qilish fan dasturlarining didaktik mosligini o‘rnatish uchun asos bo‘ladigan qoidalarni shakllantirish, amaliy-tajribaviy o‘qitishni tashkil etishda integratsiyani ta’minlash masalalari dolzarb muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayonida turdosh fanlar orasidagi aloqalarni amalga oshirishning shakllari, metodlari va vositalarini ishlab chiqish talab etiladi.

Asosiy muammolardan biri – ishlab chiqarish sohaga oid oliy ta’limda faoliyat turlari va fanlar orasidagi integratsiyaning to‘liq ta’minlanishi orqali, talabalarda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni Davlat ta’lim standartlari va malaka talablari darajasida to‘liq o‘zlashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratishdan iborat.

Ishlab chiqarish sohaga oid fanlarning xususiy maqsadlari ta’lim standartining umumiy maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi va nazariy, amaliy mashg‘ulotlar hamda ishlab chiqarish amaliyoti orasidagi integratsiya ta’minlanishi, ta’lim oluvchilarning kasbiy faoliyat turlarini mukammal o‘zlashtirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqotchilar fan va ta’limdagi yangiliklarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarish sohaga oid fanlar integratsiyasini ta’minlash jarayonida quyidagi

talablarga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydilar:

- jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi tizimlilik, ya’ni professional va oliy ta’lim tizimlarida ta’lim bosqichlari aloqadorligi;

- fanlar bloklararo integratsiya umumkasbiy va ixtisoslik, ixtisoslik va amaliyot fanlarining o‘zaro uzviylik va integratsiya jarayonlari;

- fanlar bloklari ichidagi aloqadorlik va integratsiya, ya’ni (gumanitar va tabiiy-ilmiy, umumta’lim, ixtisoslik fanlari bloklari) ta’lim jarayonida fanlar mazmuni, o‘qitish metodlari va shakllari, texnologiyasi va o‘qitish vositalarining o‘zaro bog‘liqligi [2].

Demak, oliy ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi deyilganda, nafaqat bilimlarni predmetlararo bog‘lanishi, balki o‘qitish texnologiyalari, usul va shakllari integratsiyasi, amaliy bilimlarni rivojlantirish, ko‘nikmalarni shakllantirish va malakalarni oshirish ham tushuniladi. O‘quv jarayonida samaradorlikka erishish uchun integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish mumkin [3].

Ushbu tahlillar shundan dalolat beradiki, Sirdaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalari bilan ishlab chiqarish sohaga oid kafedralarning integratsiyasini ta’minlash Sirdaryo viloyatida ta’lim jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi o‘quv-bilish jarayoni mazmuni, metodlari va shaklini o‘zgartirib, ta’lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalardan o‘zaro bog‘liq holda shakllanishiga xizmat qiladi.

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi muammosining uslubiy mohiyatida o‘quv jarayoni shunday tashkil etiladiki, unda boshqa fanlarni o‘rganish uchun bir fanni o‘rganishda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning foydalanilishi o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Demak, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosiy masala bo‘lib, mumkin bo‘lgan aloqalarining asosiy oqimlarini aniqlovchi tasnifi hisoblanadi, ya’ni o‘qitiladigan materiallar, ba’zi ko‘nikmalar, ilmiy usullar mazmunining umumiylashtirilganligi tushuniladi.

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi imkoniyatlarini, shuningdek, ularni joriy qilish shakllarini to‘liq, har tomonlama aniqlash uchun bir vaqtning o‘zida ularning turli xil jihatlarini qamrab olish lozim. Bir darajali - gorizontal va ko‘p darajali - vertikal tuzilmalar tushunchasini kiritib, vertikal tuzilma deganda, ko‘rgazmalilikning turli darajalarida bo‘lgan ob’ektning tavsiflarini birlashtiruvchi funktsional aloqalar tizimi tushuniladi. Demak, vertikal uzviylik va vertikal tuzilmalarning paydo bo‘lishi o‘rtasida, gorizontal uzviylik va bir darajali tuzilmalar o‘rtasida o‘xshashlik borligi kuzatiladi [4]

Rivojlanishning qonuniyati sifatida uzviylik oldingi bosqichlarning ba’zi vaziyatlarini oliy pog‘onada takrorlashni, yuqori darajada bo‘lmasada, eskiga o‘ziga xos qaytishni tavsiflaydi. G.A.Klekovkinning fikricha, birinchidan, tizimning kelajakdagi rivojlanishini etarli darajadagi ishonch bilan oldindan aytishi va bashorat qilishi mumkin. Ikkinchidan, tizimning hozirgi holatini tahlil

qilishda izlanishni uning paydo bo‘lish tarixi va oldingisini o‘rganishga yo‘naltiradi. Va nihoyat, uchinchidan, aksincha, tizimning o‘tmishdagi holatini tahlil qilishda, unga rivojlanishning hozirgi darajasini bilgan holda yondashish zarurligini ko‘rsatadi. Mazmunni loyihalash, o‘qitishning maqbul modellarini tanlash va talabalarning o‘qib-o‘rganish faoliyatini samarali boshqarishda aytib o‘tilganlarni o‘qitishning

Uzviyligi tamoyilida yaxlitlashtirish mumkin deb hisoblaydi [5].

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi muammosini hal etish o‘quv jarayoni mazmuni, metodlari va tashkil etishni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Fan va ishlab chiqarish integratsiyasi bilishga dialektik yondashuv asosida tatbiq qilishdir. Quyida fanlararo aloqalar bevosita o‘quv jarayonida avvalo yangi bilimlarni bayon qilishda qanday amalga oshirilishi haqida so‘z boradi, bu esa o‘qituvchilar o‘quv jarayonida amalga oshiradigan fanlararo aloqalarning sub’ektiv jihatidir. Talabalar o‘rganadigan fanlar soni ko‘p bo‘lib, asosan, turlicha malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bularning barchasini ular yaxlit o‘zaro bog‘liq kompleks sifatida idrok etishi kerak [6].

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasini rejalashtirishda birinchi navbatda yondosh fanlar bo‘yicha dasturlarda aks ettirilgan masalalar ko‘zda tutiladi. Bunda fanlararo aloqalar sinxron, istiqbolli va retrospektiv bo‘lishi mumkin. Biroq fanlararo aloqalar dasturlarda hamma vaqt aks ettirilmagan bo‘lishi mumkin va bilimlar tizimini o‘zlashtirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish maqsadlarida ularni qayta ishlash va o‘qitishda maxsus kiritish lozim.

Fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirishning uslubiy usullari tasnifi, uslublarni taqsimlashning quyidagilarni tashkil qiluvchi umumiy tamoyiliga bo‘ysunadi: fanlararo izlanib o‘rganish faoliyatini; boshqa fanlarning bilimlarni qayta ishlash va fanlararo muammolarni echishga ko‘maklashishni; yordamchi jarayonlarni. Ta’limda integratsiya muammosini to‘la hal etish uchun nafaqat fanlararo, aloqador ta’lim bosqichlari va kurslararo uzviylik va uzluksizlikka e’tibor berish, fan va ishlab chiqarish orasidagi integratsiyani o‘rnatish, o‘qitishning shakl va metodlarida ham uzviylikni ta’minlash muhimdir [5].

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, integratsiya ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, ta’lim va tarbiya jarayonini tadqiqot qilish va boshqarishni ta’minlaydi hamda fanning maqsadini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Ta’limning “integratsiya” tamoyilini ham fanlar integratsiyasi kabi bir necha xil ko‘rinishda ko‘rib chiqish mumkin: ta’lim turlariaro, bosqichlararo, fanlararo va mavzulararo uzviylik sifatida. Bunda integratsiyaning oxirgi ko‘rinishlarida fanlarni o‘qitish uslubi, ya’ni ularning mazmunini bayon etilish metodiga tayangan holda yondosh fanlar mazmunidan foydalana bilish, mustaqil ishlashga harakat qilish, shuningdek, uslubiyat va mazmunan kuzatiladigan o‘xshashlikni qo‘llashda kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. To‘xtayeva Z.Sh. Олий таълимда фанлар интеграциясини таъминлашнинг ўқув-методик ва дидактик воситалари. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. – № 5. Buxoro, 2019. – 66 – 72 б.
2. Тўхтаева З.Ш., Тўрақулова М.К., Тўрақулова Б.Б., Мўминова М.С. “Edagogical innovation and the use of debate method in teaching technical sciences. International Engineering Journal For Research & Development. Vol.5 Issue 3. – Page. 1 – 5.
3. Tukhtayeva Z.Sh. Organizational – methodological inter-objective integrations in teaching special disciplines. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences/ Vol.7 No.12, 2019. – Page 136 – 139.
4. Б.Тўрақулова. Олий таълим кафедралари ҳамда ишлаб чиқариш корхоналари интеграциясини таъминлаш омиллари Ta’lim, fan va innovatsiya 2021/5-сон 40-45 б
5. Клековкин Г.А. Преемственность в обучении. В поисках теоретических оснований. – Самара, 2000.– С. 328.
6. Тўрақулова Б.Б. “Technical innovative-educational environment contents of integration cooperation between management and production enterprises” International journal of innovations in engineering researchand technology [IJIERT]. volume 7, issue 4, apr. – 2020. – Page 246 – 249.

UZUMNING KISHMISHBOP NAVLARINI HOSILDORLIGI VA KIMYOVIY TARKIBIGA TOK TUPINING O‘STIRISHNING TA’SIRI

Jo‘lbekov Ibrohim Salimqul o‘g‘li, Egamberdiev Pulatjon Ergashovich
Guliston davlat universiteti
e-mail. ibrohimjulbekov8@gmail.com
pulatjonegamberdiyev@mail.com

Key words*: vine, dry matter, acid, glucose, sucrose, fructose, flavoring substances, ground vine.*

Abstract. *In the article, the chemical composition of grapes of different raisin varieties of grapes was studied and, from the chemical point of view, the highest dry matter output of F1 pink raisin and F1 black raisin variety was 1.3 and 1.5 higher than the control option, and the control with total sugar content It was found that the highest Kishmish waist variety was 1.0%.*

Kirish. Hosilni miqdori va sifati tupning baqquvatligi, uning o‘sish kuchiga bevosita bog‘liqdir. O‘sish kuchi oshganda mos holda hosil ko‘payadi, sifati yaxshilanadi, uzum boshi va g‘ujumining o‘lchami kattalashadi, tupdagi navdalar soni va o‘sish kuchi ortadi [1], [3] [4].

Tok tupining o‘sish kuchi va har hil yuklama meyyorining hosildorlikka ta’sirini Guseynov Sh.I va boshqo olimlar tomonidan batafsil o‘rganib aniqladiki tuplarni novdalar bilan yuklanishini oshirish, ya’ni 63% ga, tuplarda uzum boshi miqdorining 86% ga oshishiga sabab bo‘ldi. Lekin hosil kam miqdorga ortdi, uzum boshning o‘rtacha vazni 17% ga kamayadi. Tuplarda 50 tadan ortiq novda yuklamasi uzum boshi sonini ortishiga olib keldi. Ammo uzum boshining vazni 45-50% ga cha kamayaishiga olib keldi. Bu esa meyyordan ortiq yuklamaning salbiy ta’sir ko‘rsatishdan dalolat beradi [5], [6].

Tadqiqot olib borish sharoiti va uslubi. Tadqiqotlar Guliston Davlvt universiteti “Qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini qayta ishlash texnologiyalari” kafedrasi va Samarqan viloyati Payariq tumanida joylashgan “Xolboev Fayzullo uzumlari” fermer xo‘jaligida olib borildi. Tajribada o‘rganilgan uzumning kishmishbop navi 9 yoshli navlar tok tuplarida olib borildi. O‘tkazilgan tajribalarni tanlash, ularni joylashtirish umumiy qabul qilingan usullarda olib borilgan ma’lumotlarning statistik tahlili N.I.Ryabova va I.L.Vitkoviskiylarning [2] uslubi yordamida amalga oshirildi.

Uzumning kishmishbop navlari uzum boshi g‘ujumi sharbatining kimyoviy tarkibini yetishtirish usuliga bog‘liqligi o‘rganilganda quyidagicha farqlandi. Uzumning kishmishbop navlarining g‘ujumlarning kimyoviy tarkibi ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega. Olib borilgan tajribalar natijalaridan quyidagilar ma’lum bo‘ldiki, eng ko‘p quruq moddalari bo‘lgan g‘ujumlar (29,1-28,9%) uzumning F1 Oq Kishmish va F1 Qora Kishmish navlarida aniqlandi.

Uzumning kishmishbop navlarini yer tok usulida yetishtirilganda kimyoviy tarkibini navlar kesimida o‘rganilganda quyidagi natijalar qayt etildi. Uzumning Kishmish cherniy (nazorat) varantida quruq moddalar miqdori 27,6 %, qandliligi umumiy 24,3% glyukoza 11,9%, fruktoza 11,2 %, oshlovchi modda 0,870% va kislotaliligi 4,2 gl bo‘lishi qayt etildi. Uzumning Kishmish beliy navida nazorat variantga nisbatan quruq moddalar miqdori 1,0 % qandliligi umumiy 0,1% ko‘p, glyukoza 0,4% kam, fruktoza 0,4 % yuqori oshlovchi moddalar miqdori 0,0080 % kam va kislota miqdori 0,3 gl kam chiqishi aniqlandi. Kishmish Sagdiana navining kimyoviy tarkibi nazorat variantga nisbatan quruq moddalar miqdori 0,7 % kam, qandliligi umumiy 2,5 %, glyukoza 1,2 % kam, 0,9% kam oshlovchi moddalar miqdori 0,033 % ko‘p va kislota miqdori 0,1 % ko‘p chiqishi qayt etildi.

1-jadval

Uzumning kishmishbop navlari uzum boshi sharbatining kimyoviy tarkibi, 2011-2013 yillar

T/r	Navlar	Quruq modda, %	Qandliligi, %			Oshlovchi modda,%	Kislotaliligi, g/l
			Umumiy	Шундан			
				Guli-koza	Furuk-toza		
Ток туплари ерток усулида етиштилганда							
	Kishmish cherniy – nazorat	27,6	24,3	11,9	11,2	0,0870	4,2

	Kishmish beliy	28,6	24,4	11,5	11,6	0,0790	3,9
	Kishmish Sogdiana	26,9	21,8	10,7	10,3	0,0903	4,3
	F1 oq kishmish	28,2	23,3	11,1	11,6	0,0565	5,4
	F1 pushti kishmish	29,1	23,8	12,0	11,8	0,0525	4,6
	F1 qora kishmish	28,9	23,3	11,7	12,6	0,0545	4,2

Uzumning F 1 Oq kishmish navi tarkibidagi kimyoviy tarkibi nazorat variantda quyidagi ko‘rsatkichlari bilan farq qildi, quruq moddalar miqdori 0,6 % yuqori, qandliligi umumiy 1,0 % kam, glyukoza 0,8 % kam, furuktoza miqdori 0,4% ko‘p oshlovchi moddalar miqdori 0,0305 % kam va kislota miqdori 2,2 % ko‘p chiqishi kuzatildi.Uzumning F 1 Pushti kishmish navi tarkibidagi kimyoviy tarkibi nazorat variantda quyidagi ko‘rsatkichlari bilan farq qildi, quruq moddalar miqdori 1,5 % yuqori, qandliligi umumiy 1,0 % kam, glyukoza 0,1 % ko‘p, furuktoza miqdori 0,6% ko‘p oshlovchi moddalar miqdori 0,0335 % kam va kislota miqdori 0,4 % ko‘p chiqishi qayt etildi. Uzumning F 1 qora kishmish navi tarkibidagi kimyoviy tarkibi nazorat variantda quyidagi ko‘rsatkichlari bilan farq qildi, quruq moddalar miqdori 1,3 % yuqori, qandliligi umumiy 1,0 % kam, glyukoza 0,2 % kam, furuktoza miqdori 1,4 % ko‘p oshlovchi moddalar miqdori 0,0325 % kam va kislota miqdori teng bo‘lishi qayt etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kimyoviy tarkibi jixatdan eng yuqori quruq moddalar chiqishi F1 pushti kishmish va F1 qora kishmish navida nazorat variantdan 1,3 va 1,5 yuqori bo‘lishi bilan farq qilgan bo‘lsa, umumiy qandliligi bilan nazorat variantga nisbatan eng yuqori Kishmish beliy navida 1,0% bo‘lishi qayt etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temurov Sh. Uzumchilik – Toshkent, “ O‘zbukiston milliy ensiklopediyasi”, davlat ilmiy nashryoti, 2002. 174-175-b.

2.Ryabova N.I, Viktoviskiy V.L. Izucheniu sortov vinograda (Metodichiskie ukazaniya), Leningrad, 1998 g. s -22-28.

3. Arutinyan A.S.Udobrenie vinogradnikov. Moskva “Kolos”1983-S-43-45.

4. Djavakyans.Yu.M., V.I. Gorbach. Vinograd Uzbekistana. «Shark»-2001-s-42-44.

5. Farg‘ona viloyatida uzumdan yuqori hosil olish omillari, Farg‘ona-2009-12-b.

6. Guseynov Sh. N. Perepektivnie sposobi vozdelivaniya vinograda a

Rossiyskoy federasii industriol’nogo i superintensivnogo tipa. Material nauchno-prakticheskoy konferensii «Sadavodstvo i vinogradstvo XXI veka» Krasnadar 1999-s-18-21.

GULISTON KICHIK SANOAT ZONASI VA QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASINING O‘ZARO INTEGRATSIYASINI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Ermatov Valijon Abdivaitovich, Raxmatullayev Ravshan Qo‘shmurodovich, Batirov Baxtiyar Ko‘nishovich
Guliston davlat universiteti O‘qituvchi
Guliston davlat universiteti
Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Guliston davlat universiteti O‘qituvchi

Annotatsiya. *Maqolada Guliston davlat universitetining ishlab chiqarish mutaxasisligi bo‘yicha bo‘lajak kadrlarning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyati uchun zarur shartlar-ishlab chiqarish-texnologik kompetensiyalarni shakllantirishda viloyatdagi ishlab chiqarish koroxalari bilan o‘zaro integratsiyasi haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *ishlab chiqarish korxonalari, faoliyat, oliy ta’lim, integratsiya, ixtisoslik, mutaxasisligi, omillar.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07. 07. 2023 yildagi PQ-216-sonli **“Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari”** to‘g‘risida qarorida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, inson resurslarini rivojlantirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish, kafolatli mehnat bozorini shakllantirish choralar tadbirlari belgilangan.

Mavzusining dolzarbligi Bo‘lajak muhandis-texnikning kelgusida kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun kasbiy mahorati hamda nazariy-amaliy tayyorgarligi yuqori bo‘lishi kerak, ya’ni umumkasbiy, ixtisoslik, xususan, texnika fanlari bo‘yicha bilim olish jarayonida talabalar tasavvurga ega bo‘lishi, ishlab chiqarish-texnologik kurslari va mutaxassislik fanlari bo‘yicha mavzular yuzasidan kerakli ma’lumotlarni bilishi, kasbiy malakaga ega bo‘lishi va ulardan amalda foydalana olishi lozim [1].

Guliston davlat universitetining 60810100-Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning kelgusida mutaxasislik bo‘yicha amalga oshirishi mumkin bo‘lgan tashkiliy - boshqaruv, ilmiy-tadqiqot faoliyati jihatlariga e’tiborni qaratmasdan asosan kasbiy faoliyatga tayyorlanish jihatlariga kengroq e’tiborni qaratamiz. Talabalar uchun ularning ishlab chiqarish-texnologik faoliyati ko‘proq muhim hisoblanadi. Shu bois Guliston davlat universitetida 60810100-Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarni Guliston shahar xududida joylashgan “Guliston kichik sanoat zonasi” dagi mavjud “Temirchilik va rangi metallarni payvandlash”, “Metallarini egish va bukish”, “Metallarini rejalashtirish va kesish”, “Metallarini payvandlash”, “Tokrlik, frezalash va parmalash” va “Elektrodvigatellarni ta’mirlash” sexlarda amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etib, ularning malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda Guliston kichik sanoat zonasi bilan Guliston davlat universitetining o‘zaro integratsiyasini tashkil etish katta samara beradi.

Har qanday muhandis o‘zining kasbiy faoliyatini yuqori texnologiyali sanoat korxonalarida amalga oshiradi, u yerda texnika ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislar faoliyat ko‘rsatadigan sexlarda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etadi, boshqariladi, ishlab chiqarish bilan bog‘liq texnologik jarayon va mahsulotning yuqori sifati ta’minlanadi [2].

Mashinasozlik ixtisosligi talabalarini ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlash uchun ularning texnik qobiliyatlarini rivojlantirishda eng birinchi navbatda ishlab chiqarish-texnologik faoliyat uchun zarur bo‘ladigan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga katta e’tibor berish kerak [3].

Viloyatimiz ishlab chiqarish salohiyatini xar tomonlama rivojlantirishda ishlab chiqarish sohasida taxsil olayotgan bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatdagi yutuqlari uchun kerak bo‘ladigan omilllardan biri-ularda ishlab chiqarish-texnologik ko‘nikmalarni shakllantirish muhum omil bo‘lib xizmat qiladi. Xozirgi kunda malakali kadrlarni yetishtirish, shu jumladan, mutaxasislik

bo‘yicha amaliy kasbiy dasturlarni o‘zlashtirishni, mahsulot ishlab chiqarish uchun texnologik jixozlarni loyihalashni, texnologik jixozlarning texnologik jarayonini individual operatsiyalarini ishlab chiqishni, dasturlarni tuzishni, operatsiyalarni bajarish uchun jixozlarni sozlash va moslashtirishni, texnologik jarayon uchun mo‘ljallangan variantlarni tahlil qilish va sintez qilish va boshqalarni o‘zlashtirganlikni anglatadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki Viloyatimiz xududida joylashgan “Guliston kichik sanoat zonasi” bilan Guliston davlat universitetining ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan kafedralarining o‘zaro integratsiyasini tashkil etib shu yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxasislarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yo‘nalish bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning bilim va ko‘nikmalari, ishlab chiqarish-texnologik kompetentligini tashkil etuvchilari (komponentlari) ning mazmunini quyidagicha tasniflash mumkin:

Ishlab chiqarish - texnologik kompetentlik:

Motivatsion baholash - (Detallarni tayyorlashning ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarini loyihalashga ijobiy munosabatni namoyish etadi; Ishlab chiqarish va texnologik faoliyatga doimiy qiziqadi).

Kognitiv baholash - (Ishlab chiqarish - texnologik faoliyat bilimlari asosida qo‘yilgan ishlab chiqarish vazifasini tahlil qilish; Detallarni tayyorlashning texnologik jarayonlarini loyihalashning maqbul yechimi uchun vazifani belgilash; Detallarni tayyorlashning maqbul usullarini aniqlash;

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan ishlab chiqarish muammolariga optimal echimlarni qabul qilish).

Faoliyatli baholash - (Detallarni tayyorlashda AKTdan foydalanish qobiliyati; Texnologik hujjatlarni yaratish qobiliyati; Kerakli buyumlarni minimal narxlarda sifatli chiqarish uchun texnologik jarayonlarni loyihalash qobiliyati; Jihozlash va avtomatlashtirish vositalardan birini tanlash qobiliyati; Detallarni tayyorlashning yuqori texnologik usullarini qo‘llash qobiliyati; Texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilishda ishtirok etish qobiliyati).

Refleksli baholash - (Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatni tahlil qilish; Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatni baholash)[4].

Guliston davlat universitetida ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yo‘nalish bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning bilim va ko‘nikmalari, ishlab chiqarish-texnologik kompetentligini oshirishda Sirdaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalari bilan o‘zaro integratsiyani tashkil etish bilan erishish mumkin.

Xulosalar.

1. Guliston davlat universitetida ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yo‘nalish bo‘yicha taxsil olayotgan talabalarning bilim va malakalarini, ishlab chiqarish - texnologik ko‘nikmalarini shakllantirish.
2. Sirdaryo viloyati xududidagi ishlab chiqarish korxonalarining texnik, texnologik muammolarini hal etish choralarini ilmiy tadqiqotlar asosida tizimli ravishda izlanishlar olib borish mumkin.

Adabiyotlar

1. Axmedjanov M.M., O‘rinov U.A., Saidova X.X., Adizova S.YU. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Oliy ta’lim muassasalari magistratura talabalari uchun darslik -T.: “Fan va texnologiya”, 2022. - 444 bet.
2. O‘rinov U.A. Ishlab chiqarish ta’limida amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish usullari //“Kasb – hunar ta’limi” jurnali. -Toshkent, 2020.
3. Adizova S.YU. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini yuqori texnologiyali korxonalardagi kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi holati tahlili // Kasb – hunar ta’limi. Ilmiy – uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal.-Toshkent, 2021.
4. Adizova S.YU. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ishlab chiqarish – texnologik kompetentligini oshirish. “Fan, ta’lim va texnikani innovatsion rivojlantirish masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman Andijon, 2022

SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA MEVALARNI QURITISHDA ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGI TAHLILI

Ergashov Azizbek Ilashboy o‘g‘li
Guliston Davlat Universiteti

ANNOTATSIYA: Maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, meva va sabzavotlarini quritish qurilmasida issiqlik akkumulyatoridan foydalangan holda quritish texnologiyasi va konstruksiyasi. Quritishda foydalaniladigan energiya tejamkor texnologiya va qurilmalar samaradorligini oshirish bo‘yicha

takliflar berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: . Quritish usullari, texnologiya, konstruksiya, issiqlik akkumulyator, energiya tejamkor, parameter, transformator, kapiplyar–g‘ovak.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Quritish usullari insoniyat tomonidan qo‘llaniladigan eng qadimgi oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash usulidir. Sabzavot va mevalardan namlikni chiqarib, chirishga olib keladigan mikroorganizmlarning rivojlanishi va ko‘payishining oldi olinadi. Quritish jarayoni bilan korxonalar qadoqlash, saqlash va tashish xarajatlaridan sezilarli darajada tejashadi. [3]

Quritish jarayoni barcha sohalarda katta ahamiyatga ega va energiya talab qiladigan jarayondir. Sanoatda quritish turlarining ikki yuzdan ortiq variantlari mavjud, bunda parametrlarning quritish materialiga va quritish sharoitlariga bog‘liqligi kuzatilishi mumkin. Bu esa, bu borada ko‘plab tajribalar o‘tkazilganligini anglatadi. [4]

KIRISH. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va turli xil meva va sabzavotlarni qayta ishlash sanoatida quritishning hozirgi ishlatilayotgan usullari oxirgi mahsulot sifatini oshiradigan, qayta ishlash vaqtini qisqartiradigan va suvsizlangan material sifatiniyaxshilaydigan yangi qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Ho‘l mahsulotlarni qurituvchi texnik agent yordamida suvsizlantirish jarayoni quritish deb ataladi. Bu jarayonda namlik bug‘lanish yo‘li bilan qattiq faza tarkibidan gaz (yoki bug‘) fazasiga o‘tadi. Mahsulotlarni quritish uchun termal maydon, suyuq fazali issiqlik tashuvchisi bo‘lgan vakumli quritish moslamasi va quritish jarayonlarida issiqlikni saqlavchi akkumulytor bilan jixozlangan yangi texnologiyalarni qo‘llash shubhasiz, mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida samarador hisoblanadi.

ASOSIY QISM. “2022-2026” yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 30-maqsadida Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish, 141-vazifada agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta’minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirish, jumladan, 2022 yilga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqish, sanoatbop meva-sabzavot hajmi 3,4 mln tonnaga, qayta ishlash quvvatlarini 3,1 mln tonnaga va qayta ishlash darajasini 16 foizga yetkazish, meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlarini 3,1 mln tonnaga (107 foiz), sutni –2,9 mln tonnaga (111,5 foiz), go‘shtni –410 ming tonnaga (119 foiz) yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini (qayta ishlangan go‘sht-sut, meva-sabzavot, yog‘-moy va boshqalar) 898 tadan 1100 taga yetkazish, 3,2 mingta yangi ish o‘rinlari yaratish vaziflari belgilangan. Yuqorilardan kelib chiqib qishloq xo‘jaligi korxonlarida meva-sabzavotlarni yetishtirish,qayta ishlash jarayonidagi nobudgarchikini kamaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatlarni e’tiborga olgan holda bugungi kunda qishloqxo‘jaligi korxonalarida meva-sabzavotlarni qayta ishlash jarayonida qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish dolzarb ilmiy tadqiqot muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi hamda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega. [1]

Xorijiy va mahalliy olimlar quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazganlar:

- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, meva va sabzavotlarini quritish davrida energiya samaradorligi va resurslar intensivligini pasaytirish, quritgichlarning ish unumdorligini oshirish;
- Meva va sabzavotlarni quritganda energiya tejashni ta’minlash uchun ajratish vositalarini olish;
- Meva, sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritishda biologik faol moddalar saqlanishini ta’minlaydigan texnologiyalarni yaratish;

- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, meva - sabzavotlarini quritish parametrlarini tanlashni ta’minlaydigan quritish rejimini ishlab chiqish;
- Quritish uchun urug‘larni sun’iy ko‘paytirishni ta’minlaydigan quritish moslamalari uchun dizaynlar yaratish;
- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, meva va sabzavotlarini bir vaqtning o‘zida quritish va qayta ishlashning yangi samarali texnologiyalari va texnik vositalarini yaratish va boshqa shu kabi ilmiy tadqiqotlarlar.

Issiqlik akkumulyatorli quritish qurilmasiga issiqlik berilib, parafin qizigandan so‘ng, tashqi energiya manbaini o‘chirib qo‘yish mumkin. Energiya tashuvchini quyi temperaturasini akkumulyatsiya qilgan holda energiya tashuvchini temperaturasini 95 C dan yuqori bo‘lmagan holatlarda intensiv issiqlik nurlari bilan nurlantirishga yo‘l qo‘ymaydi. Parafinni past elektr o‘tkazuvchanligi regeniratsiya jarayonini pasaytiradi. Sistemaning moyli isitgichlari moyning 180 litr xajmiga ega, va unda transformator moyi ishlatiladi , qaynash temperaturasi 350 C. Parafin qo‘shimchalari qaynash temperaturasini yumshoq holda 450-550 C ga ko‘tarishga yordam beradi. Yuqorida ko‘rsatilganlar nurlanishni optimal temperaturasini optimal darajaga ko‘tarishga yordam beradi. Bunday chastotatadagi issiqlik nurlanishlari meva va sabzavotlarning qattiq turlariga xam ichiga yaxshi singiydi. Meva va sabzavotlarni yuqori qatlami quriganda ichki qismida namlik mavjud bo‘ladi, shunda qizishni to‘xtatish kerak.



Issiqlik akkumulyatori:

1-Parafin quyish tiqini; 2-Tiqinli trubka; 3-Parafin yuruvchi trubkalar; 3-Parafin; 5-Ushlagich; 6-Kran; 7-Quvur.

Quritish qurilmasi issiqlik akkumlyatorli va suyuq issiqlik tashigichli bo‘lib, isitish tizimi ishga tushirilgandan keyin 1 soat ichida 150-200 C haroratga ko‘tariladi. Keyin isitish tizimi o‘chirilib issiqlik tashigich quritish kamerasida sirkulyatsiyasi uchun kranlar ochiladi. Bu esa quritish kamerasida meva va sabzavotlarni quritadi va issiqlik tashigich suyuq holatdan qattiq holatga o‘tadi. Bu jarayonda 40-600C haroratda qurilma FIK eng yuqori darajaga yetadi. Issiqlik 4 soat ichida berilib, isitish tizimi yana ishga tushib, 1 soat ishlaydi va jarayon siklik davom etadi.

Quritish tezligiga mahsulotning tarkibidagi quruq modda miqdori ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, mahsulotda quruq modda miqdori qancha kam bo‘lsa, mahsulotni quritish shuncha tez kechadi. Va aksincha mahsulotning tarkibida quruq modda miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, ayniqsa osmatik faollikka ega (masalan qand, gidrofill kolloidlar) moddalar, shunchalik darajada quritish uzoq davom etadi. Quritishning birinchi bosqichi suv bug‘lanish tezligining doimiyligi bilan tavsiflanadi, ikkinchi bosqichida esa suvning bug‘lanishi birmuncha sekinlashadi. Quritish tezligi ma’lum bir vaqt davomida bug‘lanayotgan suv bug‘larining miqdori bilan xarakterlanadi. O‘simlik mahsulotlarida suv bug‘larining o‘zgarishi bilan mahsulotning harorati ham o‘zgaradi. Issiqlik akkumulyatorli vakumli quritish qurilmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, meva-sabzavotlarini quritish issiqlik nurlarining tekis taqsimlanishi quritish jarayoni vaqtini kamaytirib jarayonning sifatini oshiradi. Quritish jarayonida ko‘pchilik mahsulotlar o‘lchamlari, ya’ni hajmi bo‘yicha ancha kichrayadi. Quritishda bu jarayon tabiiy jarayon hisoblanadi. Sabzavotlar va mevalar kapiplyar–g‘ovak materiyallar bo‘lganligi uchun quritish jarayonida ularning hajmi 3–4 martaga kichrayadi. Kichrayishi quritish jarayonining

butun davrida bir tekis boradi. Mahsulot bir tekis quriganda uning shakli o‘zgarmaydi, lekin quritish notekis borganda, shaklida ma’lum bir o‘zgarishlar ham ro‘y berishi mumkin.

XULOSA. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, meva va sabzavotlarini quritish qurilmasida issiqlik akkumulyatoridan foydalangan holda quritish texnologiyasi va konstruksiyasi ishlab chiqildi. Issiqlik akkumulyatori nafaqat quritish qurilmasida balki, issiqxonalarda, sanoatda, uylarni isitish sistemasida va boshqa ishlab chiqarishlarda ishlatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
2. 2019 yil 11 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4549-son qarori.
3. Azizbek Abdumo‘min o‘g U. et al. POLIZ MAHSULOTLARINI QURITISHDA ISTIQBOLLI LOYIHALAR, QOVOQNI INFRA QIZIL NURLAR YORDAMIDA QURITISH TEXNOLOGIYASI TAHLILI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 83-85.
4. Kushimov B. A., Mamadaliyev X. J. O. G. L. QISHLOQ XO ‘JALIGI HAMDA MEVA–SABZAVOT MAHSULOTLARI QURITISH UCHUN ENERGIYA TEJAMKOR QURILMA VA TEXNOLOGIYA //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 9. – C. 869-879.

SIRDARYODA UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISH VA KLASTERLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

D.U.Abduraimov
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sirdaryo viloyatining uzumchilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha prezidentimiz qo‘ygan vazifalar haqida ma’lumotlar berilgan.Shuningdek,bir yilda qancha uzum hosili olinmoqda,yurtimizning uzumchilik rivojlangan mintaqalari,ulardan gektar hisobida yillar kesimida qancha hosil olinayotganligi haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mirishkor dehqonlar, uzumchilik sohasidagi kamchiliklar,husayni uzumi, meva sabzavotlar eksporti,Samarqand uzumi,uzumning yangi navlari.*

Kirish

O‘zbekistonda uzumchilikni rivojlantirish uchun 44 ta tuman tanlab olingan —Prezident uzumchilik bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.“Bugun uzumchilik sohasidagi mavjud muammolar va tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha, muhim vazifalarni gaplashib olishimiz zarur. Avvalo, barchamiz bir masalani yaxshi tushunib olishimiz kerak. Uzumchilik—xalqimizning asrlar davomidagi milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyati, g‘ururi va daromad manbai hisoblanadi, qolaversa, xalqimizning turmush tarzi va urf-odatlarimiz bilan bevosita bog‘lanib ketgan”, deydi Shavkat Mirziyoyev. Ta’kidlanishicha, o‘zbekistonlik mirishkor dehqonlar yetishtirgan husayni, toyfi, rizamat ota, kelinbarmoq va kishmish kabi uzumlarning dovrug‘i dunyo davlatlariga ma’lum.

Xabarga ko‘ra, keyingi yillarda uzum mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib, uzumchilik sanoati rivojlanmoqda. Shu bois, tarmoq mo‘may daromad manbaiga aylandi. Shundan kelib chiqib, so‘nggi to‘rt yilda 52 ming gektarda yangi tokzorlar tashkil etilib, sohaga 210 milliard so‘m subsidiya ajratildi. Natijada, meva-sabzavotlar eksportida uzumning ulushi 2 barobarga ko‘paydi.

Bugungi kunda 90 ming gektar maydonda uzum yetishtirilib, bu plantatsiyalarda 900 ming aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta’minlangan. Davlat rahbari asosiy mahalla odamlarning ish haqini ko‘paytirish ekanini aytib, shu maqsadda 44 ta tumanni uzumchilikni rivojlantirish bo‘yicha eksperiment sifatida tanlab olinganini ma’lum qildi.

Yig‘ilishda jahon bozorida xo‘raki uzumga talab ortib borayotgani, mayiz va tabiiy vino mahsulotlari ham xaridorgir ekani, shu bois, bugun mamlakatda uzumchilikni ilg‘or tendensiyalar

asosida rivojlantirish zarurligi, bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan muhim chora-tadbirlar atroflicha muhokama qilinmoqda.Birgina Samarqand viloyatining o‘zida O‘zbekistondagi daraxtlarning 30 foizi, tokzorlarning 15 foizi to‘g‘ri keladi.Oltiariq va Andijonning uzumlari,Samarqand mayizi nafaqat yurtimizda balki dunyoga mashhurligi bilan ajralib turadi.Oltiariq uzumlarining sifati va mo‘l hosilligi yurtimizga juda katta iqtisodiy manfaat kelirmoqda.O‘zbekiston olimlari tomonidan uzumning ertapishar va uzoq muddat sifati buzilmay turadigan navlari yaratildi.Hozirgi vaqtda bu navlar eski navlar o‘rniga almashtirilib ekilmoqda.O‘zbekiston bir yilda o‘rtacha 350-400 ming tonna uzum hosili olinmoqda.Yetishtirilgan uzumni bir qismi qayta ishlanmoqda,mahalliy bozorlarni yil bo‘yi ta’minlab kelinmoqda va ortgan qismi jahon bozoriga chiqarilmoqda.Mevachilik va sabzavotchilik ham aholi soni ortib ehtiyoj ko‘paygani sari bu sohada ham yuqori samaradorlikka erishilmoqda.O‘zbekiston iqlimi yilning kattagina qismida issiq va yorug‘ bo‘lishi vegetatsiyaning uzoq davom etishi uzumlarning vitaminlarga boy shirindan-shakar bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi “Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5200-sonli qarorining qabul qilinishi uzumchilik sohasini rivojlantirishda juda katta turtki bo‘ldi.

Aytish mumkinki, mazkur qaror orqali yangidan uzumchilik va vinochilik klaster tizimlarini tashkil etish istagida bo‘lgan tashabbuskorlarga, qolaversa, hamkorlik qilish istagi bo‘lgan xorijiy investorlarga imtiyozlar yaratilganligi, ayniqsa, uzumchilikni rivojlantirish uchun ishlab chiqaruvchilarga nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy, moliyaviy va konsalting xizmatlar orqali davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari yaratib berilganligi sohaga oid yana bir katta imkoniyatdir.

Xo‘jalik yuritishning klaster shakli qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etilishi hisobidan ichki va tashqi bozorlarda uzumchilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta’minlash, ko‘rsatilayotgan servis tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnikaviy turlarini olib kirish va ular hisobiga tarkibiy tuzilmani tubdan o‘zgartirish imkoniyatlari yuzaga keladi. O‘rganish va tahlillar natijasida bugungi kunda 48 ta uzumchilikka ixtisoslashtirilgan tumanlarda uzumchilikda xo‘jalik yuritishning klaster shaklini amaliyotga tadbiq etish ishlari boshlab yuborildi.

So‘nggi ikki yil davomida 63 ta uzumchilik va vinochilik klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan 15 ming gektar maydonda uzumzorlar barpo etildi.Shundan:

- 2,5 ming gektar xo‘raki;
- 7,5 ming gektar kishmishbop;
- 5,0 ming gektar sanoatbop uzumzorlardir.

Bundan tashqari, jami 500 mlrd so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi. Buning natijasida esa, 3 759 nafar yangi ish o‘rinlari yaratilishiga imkoniyat yaratildi.Tashkil etilgan klasterlar tomonidan qisqa vaqt ichida 57,1 ming tonna uzum mahsulotini saqlash va qayta ishlash quvvatlari, jumladan, 50 ming

tonna sig‘imli muzlatkich omborxonalari, 20 ming tonna quritish va 200 ming tonna uzum mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlari tashkil etildi hamda 250 mln dollarlik mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

Respublikada miqyosida 2021—2022-yillarda suv ta’minoti og‘ir va lalmi maydonlarda 25 ming gektarda tomchilatib sug‘orish joriy qilinib, davlat budjetidan jami 100 mlrd so‘m subsidiya va tashabbuskorlarga 25 mlrd so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Sanoat korxonalarining xom ashyo bazasini mustahkamlash maqsadida, 2021—2022-yillarda jami 12 ming gektar maydonda yangi sanoatbop navli plantatsiyalar barpo etildi.

Qisqa vaqt ichida albatta bu katta ko‘rsatkichdir. Ushba tashabbusning yanada natijadorligini oshirish maqsadida har bir klaster qoshida yangi uzum navlarini sinash maydonchalari va mikro laboratoriyalarni tashkil etish ham muhimdir. Sababi, xalqaro uzum navlarini yurtimizga olib kirish hamda ekib uni hosildorligi natijasiga erishish har doim ham muvoffaqiyatli yakunlanmaydi. Shu sababli ham, onalik bog‘larining tashkil etilishi sifatli va eksportbop uzum yetishtirishda muhim omil hisoblanadi.

Agentlik tomonidan uzumchilik va vinochilik sohasida yetakchi bo‘lgan AQSHning Kaliforniya — Devis universiteti mutaxassislari, Avstriyaning Tadqiqot universiteti va Oliy federal kolleji mutaxassislari bilan tuproq-iqlim sharoitlariga mos ko‘chatlarni tanlash, yerni tayyorlash, ko‘chatni ekish, agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish, kasalliklarga qarshi kurashish, hosilni daladan iste’molchigacha yetkazib berish bo‘yicha tajribalar almashish yo‘lga qo‘yildi. O‘z navbatida aytish kerakki, ushbu jarayon soha uchun o‘ta muhimdir.

Ekib o‘stirilishi va yaxshi hosildorlikka erishishda tuproq, ekish ishlari olib borilishi nazarda tutilan yer maydoni va hattoki, shamol to‘g‘ri yo‘nalishini inobatga olish ham inkor etib bo‘lmas dalildir. Shu sababli ham, yurtimizning o‘ziga xos iqlimi quyoshi, toza havosi, to‘yingan yerlaridan olinayotgan uzumlar hamda qayta ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘zining toti bilan jahon bozorida nom taratgan va o‘z xaridoriga egadir.

Uzum hosilining sifatini yaxshilash, tok kasalliklarini oldini olish maqsadida respublika hududlarida keyingi besh yilda 50 ming gektar maydonni egallagan tokzorlar shpaleralarga ko‘tarilishi kutilmoqda. Natijada uzumzorlardan olinayotgan hosildorlik 10-13,0 tonnadan 25-40 tonnagacha oshadi. Bundan tashqari, bugungi kunda uzumzorlarni “voish” usuliga o‘tkazish bo‘yicha barcha hududlarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Oltiariq tajribalari bugungi kunda butun respublika bo‘ylab keng joriy etilmoqda. Albatta o‘z navbatida, Agentlik tashabbusi bilan klasterlar uchun hududlarda jami 12 ta ko‘rgazmali seminar va 3 ta “master klass” trening o‘tkazildi.

Eng muhimi shuki, Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligining Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan yangidan tashkil etilgan uzumchilik plantatsiyalari uchun 7 ta yo‘nalish bo‘yicha subsidiya mablag‘lari moliyalashtirilishi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, Agentlik tashabbusi bilan 20 ta yangi uzumchilik va vinochilik klaster rahbarlari o‘zaro tajriba almashish maqsadida Vengriya, Italiya, Ispaniya, Turkiya respublikalariga

xizmat safarlariga yuborildi. Natijada esa, sovuqqa chidamli, hosildor “in-vitro” uzum ko‘chatlari hamda uzumzorlarni parvarishlash uchun mo‘ljallangan maxsus texnikalar sotib olish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Shuningdek, “in-vitro” sharoitida tayyorlangan uzum materiallaridan yiliga 1 mln dona sig‘imga ega bo‘lgan zamonaviy ko‘chatxona loyihasi uchun Agentlikning jamg‘armasi hisobidan “De Nova Agro” MCHJ ga 10 mlrd sum , “Sag Agro” MCHJ ga 3,5 mlrd so‘m, bundan tashqari “Business garden park” ma’suliyati cheklangan jamiyati uchun 1,5 mlrd. so‘m mablag‘ ajratildi. Natija esa, 2023-yilda 2 mln dona in-vitro sharoitida o‘stirilgan viruslardan xoli, sovuqqa chidamli, urug‘siz, payvandlangan uzum ko‘chatlari tashabbuskorlarimiz uchun yetkazib beriladi.

Joriy yil yakuniga qadar esa, lalmi va foydalanishdan chiqqan yerlarda uzumchilikni rivojlantirish uchun, jami 186 mlrd so‘m investitsiyalarning o‘zlashtirilishi hisobiga klasterlar sonini 100 taga yetkazib, 4 ta “in-vitro” sharoitida payvandlangan tok ko‘chatlarni yetishtirishga ixtisoslashgan yangi zamonaviy ko‘chatxonalar tashkil etiladi. Buning natijasida o‘z navbatida, minglab yangi ish o‘rinlari yaratilishi bilan birga, soha miqyosida katta eksport natijasiga ham erishiladi.

So‘ngi yillarda respublika miqyosida uzumzorlar ko‘lamini kengaytirishda nafaqat yangi tokzorlar barpo etish, balki iqtisodiy samarasiz tokzorlar o‘rniga istiqbolli uzumzorlarlar barpo etish ham maqsadli va tizimli yo‘lga qo‘yilgan.Yangi tokzorlar barpo etishda esa tadbirkor va tashabbuskorlarimiz to‘la qo‘llab quvvatlash uchun subsidiya hamda uzoq muddatli kridit mablag‘lari ajratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buriev X.Ch. Olmaning sog‘lomlashtirilgan nihollarini “in vitro” usulida olish texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma – T., 2013. – 13-15 b.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опўта. Москва, Колос, 1973, с. 249-252.
3. Рыбаков А.А., Остроухова С.А. Размножение винограда зеленўми черенками. Трудў ТашСХИ, вўп. 55, Ташкент, 1976, с. 48-56.
4. Мирзаев М.М. Виноградарство предгорно-горной зонў Узбекистана. - Ташкент, Фан, 1980. – С. 3-5.
5. K.S.Sultonov “Uzumning yuqori sifatli sertifikatlangan ko‘chatlarini ishlab chiqarish tizimining ilmiy asoslari” dissartatsiya Tashkent 2018. – S. 5-90.

TA’LIMDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Allayorov Abdumalik Isoqovich
GulDU Sitqi bo‘lim, Masofaviy ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
E- mail allayarov.abdumalik 22@gmail.com

Annotation. Pedagogical competence is considered as a factor in ensuring the quality of teaching. Today it is important to study the criteria for determining the competence of a teacher. Opinions on the components of professional pedagogical competencies are expressed.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta’lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to‘liq mosligini ta’minlash yoshlarimizni bugungi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaqirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Buning uchun, avvalo, barcha ta’lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg‘or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot bilan ta’minlash lozim. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmunini yangilash tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni yetishtirish uchun albatta malakali, o‘z mutaxassisligini chuqur egallagan o‘qituvchilar zarur. Shuning uchun hozirgi kunda o‘qituvchilar oldiga juda ko‘p vazifalar qo‘yilmoqda.

Ta’limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish darkor. Jahon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak ma’naviyatga, ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, milliy qadriyatlarimiznning mohiyatini chuqur anglab yetadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash yo‘lida faoliyat olib boruvchi o‘qituvchi ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylik naminalarini ko‘rsatishi lozim. Shuningdek o‘qituvchida ham mahorat va san’at bo‘lishi kerakki, u o‘quvchilarni o‘ziga jalb eta olishi, darsini qiziqarli qilib o‘tishi va o‘quvchiga bilim va tarbiya bera olishi kerak.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o‘quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish, mustaqil o‘rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko‘zda tutilmagan noaniq, ya’ni, muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallagan bilimlarni kundalik turmushi jarayonida qo‘llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir.

"O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi" atamasi 1980-yillarning oxiri va 90-yillari boshidagi o‘qituvchilar va psixologlar to‘plamiga kiritilgan. O‘qituvchining malakasi masalalariga bag‘ishlangan adabiyotlarda biz ma’no jihatidan o‘xshash turli xil atamalari mavjud. E. Kostilyeva o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining quyidagi tarkibiy qismlarini taqdim etadi:

- shaxsiy yo‘nalish;
- pedagogik idrok;
- pedagogik mahorat;
- pedagogik ijod.

Pedagogik kompetensiya - bu ilmiy ishlarda tez-tez uchraydigan yana bir atama. E.I.Rogov pedagogik kompetensiyani "o‘qituvchining kasbiy mahorati" deb biladi. Ushbu kontseptsiyada u o‘qituvchining faoliyatida sodir bo‘ladigan psixofiziologik, aqliy va shaxsiy o‘zgarishlarni aks ettiradigan bunday yig‘indisi xususiyatlarni o‘zlashtirish va uzoq muddatli faoliyatni amalga oshirish jarayonida qo‘yadi, bu esa kompleksni hal qilishning sifat jihatidan yangi, yanada samarali usulini beradi.

Ular bir-biriga bog‘langan va ajralmas tizimni tashkil etadi, shu asosda muallif o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini tajriba, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va muhim shaxsiy fazilatlarni birlashtirishga asoslangan o‘qituvchining o‘qituvchiga tayyorligini shart qiladigan murakkab individual psixologik ta’lim sifatida belgilaydi. pedagogik faoliyatni amalda amalga oshirish.

Pedagogik kompetensiya tarkibida L.M.Mitina uchta asosni ajratib ko‘rsatdi:

- faoliyat (bilim, ko‘nikma va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);
- kommunikativ (bilim, ko‘nikma, va pedagogik muloqotni ijodiy amalga oshirish usullari);

- shaxsiy (o‘z-o‘zini rivojlantirish zarurati, shuningdek, bilim, ko‘nikma, o‘zini takomillashtirish qobiliyatlari).

O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini ko‘rib chiqishda o‘qituvchining shaxsiyati birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Demak, avvalo, o‘qituvchining shaxsiyati - uning qadriyat yo‘nalishlari, ma’nolari, ideallari - pedagogik faoliyatning mohiyatini belgilaydi. Kasbiy kompetentsiya, odatda, qaror qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lum bir faoliyat turini amalga oshirish uchun yetarli bo‘lgan bilim, qobiliyat va ko‘nikmalar, tajriba darajasini aks ettiradigan mutaxassislarning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining ajralmas xarakteristikasi sifatida tushuniladi.

O‘qituvchi ushbu kompetentsiyalarga ega bo‘lishi uchun u o‘zining umumiy insoniy va maxsus madaniyatini yuksaltirish zarurligini bilishi va keyingi rivojlanish va o‘qitish uchun ilmiy va uslubiy aloqalarni sinchkovlik bilan tashkil qilishi kerak.

O‘qituvchining kasbiy, shaxsiy fazilatlari tizimni shakllantiruvchi kompetentsiya elementidir. Binobarin, ularning rivojlanishi o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetentsiyasini shakllantirish va takomillashtirishning muhim nuqtasi, muhim shartidir.

Xulosa shuki, kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. U oliy ta’lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. Jarilgasova P.E., Koksheeva Z.T. O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasi // Zamonaviy ilmiy intensiv texnologiyalar. - 2013. - № 7-2. - S. 142-143

3. Lukyanova M.I. O‘qituvchining psixologik va pedagogik kompetensiyasi. // Pedagogika. - 2001. - № 10. - S. 56-61.

DARSLARDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH

Nuraliyeva Nargiza Bozorboyevna

Guliston davlat universiteti 13.00.01. Sirdaryo viloyati,Guliston shahri, 4-mavze.

Email: nargiza.nuralieva.1983@mail.ru

Abstract: This article discusses the processes of using interactive methods in the course of biological sciences and the ways of using the "Assessment" technique.

Key words: technologies, assessment, tool, process, result

Pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlshtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Darslarni noan’anaviy usulda o‘tadigan zamonaviy o‘qituvchining eng birinchi yutug‘i esa butun sinf o‘quvchilarining darsga tayyorlanib kelishi hisoblanadi.

Men o‘z darslarimni o‘tish jarayonida bir qancha interfaol metodlardan foydalanishga harakat qilaman. "Tushunchalar tahlili", "Assesment", "Baliq skleti", "T chizma" kabi metodlar o‘quvchilarimni yanada qiziqishlarini oshishiga olib kelmoqda.

Endi Assesment metodidan foydalanish jarayonlarimga to‘xtalib o‘tsak. “Assesment” - inglizcha assessment so‘zidan olingan bo‘lib, “baho”, “baholash” ma’nosini bildiradi. Maqsadi – o‘quvchilarning bilimini bir necha xil yondashuvlar orqali baholash, tahlil qilish, sinab ko‘rishdan va o‘z-o‘zini baholashga imkoniyat berishdan iboratdir.

Har bir darsim so‘ngida o‘tilgan mavzular yuzasidan assesment texnologiyasi bo‘yicha tarqatmalar beraman. Misol tariqasida ko‘satib o‘tishimiz mumkin:

1. Hujayraga rang beruvchi qismi bu nima? A) vakuola B) plastida C) mag‘iz D) sitoplazma **1ball**	***Yahsash mudatiga ko‘ra o‘tlar qanday guruhlarga ajratiladi?*** J:_____ _____ _____ **2-ball**

Turli hayotiy shakldagi o‘simliklarni quyidagi jadvalga yozing va ularning ro‘parasiga «+» yoki «–» ishorasini qo‘ying.

O‘simliklarning nomi	Daraxt	Buta	Yarim buta	Bir yillik o‘tlar	Ikki yillik o‘tlar	Ko‘p yillik o‘tlar
Terak	+	-	-	-	-	-

2 ball

O‘quvchilarga ushbu tarzda tarqatmalar beriladi va ular tomonidan yechiladi. Hamma yechib bo‘lganidan keyin o‘qituvchi tomonidan javoblar aytiladi va har bir bola javoblarga qarab o‘zlarini baholashadi. Shu tarzdagi javoblarni berishi mumkin. Bu esa o‘quvchining bilim darajasini kengligiga bog’liq.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki ushbu texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Pratov, A.S. To‘xtayev, F.O‘. Azimova. Botanika 5: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun darslik/O‘.– «O‘zbekis ton». T.: 2018

2. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G‘. Salohitdinova “Pedagogik texnologiya” T. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008.

3. J. G‘. Yo‘ldosheva, F. Yo‘ldosheva, G‘. Yo‘ldoshev “Interfaol ta’lim sifat kafolati” T. 2008.

IQTIDORLI YOSHLAR BILAN ISHLASHDA XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Xudoyberdiyev Rustamjon Xasanovich
GulDU Sitqi bo‘lim, masofaviy ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
E- mail Xudayberdiyevrustam88@gmail.com

Annotation. *The article discusses the effectiveness of the use of foreign innovations in the work with gifted children in school teachers with intellectual potential, as well as approaches to the positive impact of foreign innovations on the development of the industry.*

Keywords: *modernization, continuing education, competence, professional competence, innovation, development.*

Davlatimizda iqtidorli yoshlarga e’tibor ta’lim sohasidagi davlat siyosati darajasida ekanligi bejiz emas. Chunki, mazkur pedagogik muammo dunyoning turli mamlakatlarida mazkur masalani tatxix etishga, iqtidorli yoshlarni tanlash, ularni tarbiyalash va rivojlantirishga doir o‘ziga xos tajriba to‘planganligini alohida qayd etib o‘tish o‘rinlidir [1].

XX asr boshlarida Amerikada pedagogik-psixologik adabiyotlarda odatdagi tarbiyalanuvchilardan ba’zi bir xususiyatlari bilan farq qiladigan bolalar turli nomlar bilan atalgan. Psixologiya fanlari doktori G. Uilli yuksak qobiliyatlarga ega bolalar uchun “iqtidorli bolalar” atamasini qo‘llashni taklif etgan. Adabiyotlar taxlili Amerikada iqtidorli bolalarni yuqori intellekt va a’lo darajada uzlashtiruvchilar deb xisoblashganligini ko‘rsatadi.

Evropa davlatlaridan biri - Germaniyada xam iqtidorli yoshlar bilan ishlashda o‘ziga xos tajriba to‘plangan. Germaniyada iqtidorli yoshlarni aniqlash maxsus metodikalar yordamida 10 - 12 yoshda amalga oshiriladi. Mazkur davlatda iqtidorli yoshlar uchun alohida ixtisoslashtirilgan gimnaziyalarni tashkil etishga katta e’tibor qaratiladi. Masalan, Berlindagi “Anna-LindhSchule”da 80 nafar “Evropa iqtisodining kelajagi” taxsil oladi. [4].

1988 yilda Germaniyada iqtidorli yoshlar uchun “Nemis maktab akademiyasi” (Deutsche Schuler Akademie) yozgi dasturi ishlab chiqilgan. Xar yili mazkur dasturda Germaniyaning turli xududlaridan 90 nafar yuqori iqtidorga ega yoshlar jalb etiladi. 16 kun davomida yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida ular bittadan oltitagacha akademik fanlar bilan shug‘ullanishadi. Masalan, 2009 yilda mazkur dastur doirasida yoshlarga “Giperbolik geometriya”, “Molekulyar genetika”, “Biologiya va yuxumli kasalliklar sotsiologiyasi”, “Nevrologiya”, “Jamiyatda avlodlar uzaro munosabatlari muammosi”, “Kinofilmlarda musixa” kabi o‘quv kurslari tashkil etilgan. Akademiyaning bosh maqsadi bolalarning qobiliyatini yanada rivojlantirish uchun intellektual atmeosferani yaratish hamda yuqori intellekt va motivatsiyaga ega tengdoshlari bilan o‘zaro muloqotni tashkil etishdan iborat [4].

2000 yilda Frankfurtda aloxida iste’dod va qobiliyatli bolalar, ota-onalari, o‘qituvchilar va yoshlarga yordam berish maqsadida iqtidorli bolalar uchun Markaz (Hochbegabtenzentrum der Stadt Frankfurt am Main) ochildi. Markazning maqsadiga iqtidorlilikni tashxis etish usullari va natijalari, bolalarni rivojlantirish imkoniyatlari, boshqa muassasalar bilan aloqalar to‘g‘risida ota-onalarni xabardor qilish; ota-onalar uchun bolalar iqtidorliligi bo‘yicha ochiq ma’ruzalar va seminarlar tashkil etish; o‘quv va o‘quv jarayonidan tashqarida iqtidorli bolalar va o‘smirlar uchun tadbirlar, kurslar tashkil etish; maktab o‘qituvchilariga maslaxatlar berish; pedagog va ota-onalar uchun maxsus adabiyotlar taqdim etish kabilar kiradi.

Buyuk Britaniyada ham iqtidorli yoshlar bilan ishlashga doir katta amaliy tajriba to‘plangan. Mazkur jarayonga Buyuk Britaniya ta’lim vazirligi, ko‘plab universitetlar, kollejlar va jamoatchilik tashkilotlari faol ishtirok etishadi. Mamlakatda iqtidorli yoshlarga yordam ko‘rsatish Milliy Assosiatsiyasi faoliyat yuritadi, 1982 yildan “Xalxaro iqtidorlilar ta’limi” (Gifted Educational International) maxsus jurnali nashr ettirib kelinadi [2].

Angliya pedagogikasida ijodiy iqtidorlilikka alohida e’tibor qaratiladi. Britaniyalik mutaxassislarning fikricha, “ijod (kreativlik) - iqtidorlilikning eng muhim unsuri xisoblanadi va iqtidorlilikning barcha turlari ijodiy komponentdan alohida qaralishi mumkin emas” [5; 212-b].

Angliya maktablarida ta’limni tabaqalashtirishning ikkita - ichki va tashqi turi mavjud. Ular o‘zaro uyg‘unlikda o‘quv jarayonining yuqori samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi [3; 6b]. Tashqi tabaxalashtirish o‘quv jarayonini tashkil etishning xilma-xil maxsus shakllarida o‘z aksini topadi: test va suhbat asosida qobiliyatlarini darajasi bo‘yicha yoshlarni yo‘nalishga taxsimlash; ta’limning ma’lum bir bosqichida yoshlarni qobiliyati va qiziqishlariga ko‘ra guruhlarga taqsimlash; “aralash” qobiliyatli guruxlarda o‘qitish va x.k.

Rossiyada ham iqtidorli yoshlarga ta’lim-tarbiya berishga alohida e’tibor qaratiladi. 2000 yilda mazkur davlat hukumati tomonidan “Iqtidorli bolalar” dasturi qabul qilingan. Mazkur dasturning asosiy maqsadi iqtidorli, iste’dodli yoshlarni aniqlash, ularni xar tomonlama qo‘llab quvvatlash tizimini yaratishdan iborat. SHu bilan bir qatorda, mamlakatning intellektual, ijodiy quvvatlarini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni tanlov asosida aniqlash mexanizmlarini vujudga keltirish nazarda tutilgan.

Xitoyda iqtidorli yoshlar qoidaga muvofiq ta’limning keyingi bosqichlarini davom ettirishda turli imtiyozlar - davlat stipendiyalari, ishlab chiqarish korxonlari va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan yordam pullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Xitoyda iqtidorli yoshlar uchun maxsus maktablar mavjud emas, biroq universitetlar qoshida ochilgan o‘rta maktablarning imkoniyalaridan samarali foydalaniladi. Xar bir universitet qoshida kadrlar va yuqori darajada ta’lim berishni ta’minlaydigan maktablar mavjud [4].

Koreya Respublikasida ham iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Iqtidorli yoshlar bilan ishlashning asosiy yo‘nalishi sifatida maxsus maktablarni yaratish va qo‘shimcha ta’limni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtidorli bolalar uchun Busan shahrida “super maktab” tashkil etilgan. Maktab “Busan Fan akademiyasi” (“Bussan Science Academy”), 2006 yildan “Koreya Fan Akademiyasi” (“Korean Science Academy”) nomini olgan. Mazkur maktab Xitoydagi “super maktablar”dan tubdan farq qiladi. Eng avvalo, u universitetdagi qat’iy tartib-qoidalarni o‘zida aks ettirmaydi, biroq o‘z-o‘zidan “bolalar universiteti” funksiyasini bajaradi. Maktabda iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va rivojlantirishga doir metodlar ishlab chiqilgan. Maktabda butun jahonda iqtidorli yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etish bilan shug‘ullanadigan “Iqtidor ta’limi va taraqqiyot” (Insitute For Gifted Education &Promotion) Insituti faoliyat yuritadi. Insitut o‘qituvchilarni tayyorlashga doir AKSH, Isroil, Rossiya va Singapurda xalqaro hamkorlik dasturlarini amalga oshiradi. Insitut xodimlari Busan shahridagi iqtidorli yoshlar bilan ishlaydigan barcha o‘qituvchilarning malakasini oshirish bilan ham shug‘ullanadi. Barcha kurslarning natijalari muntazam tahlil etib boriladi va qo‘llanma sifatida nashr ettiriladi. Barcha o‘qituvchilar refleksiv tanlovda ishtirok etishadi. Kurslarning samaradorligi asosida o‘qituvchilarning refleksiv imkoniyatlari baholanadi. [5].

Yuqoridagi tahlillardan shularni e’tirof etish mumkinki, mamlakatimizdagi iqtidorli yoshlarning intellektual imkoniyatlarini rivojlangan davlatlar tajribalariga tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta’minlashga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi “Yoshlar - kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.

2. Габдулхаков В. Ф. Одаренность и ее развитие в условиях взаимо-действия общеобразовательной школы и университета. Учебно-метод. пособие. - Казань: РИЦ «Школа», 2012. - С. 64 -65, 87-88.

3. Образовательные модели и технологии работы с одаренными детьми. / Сост. Башева Е. И. и др. - Красноярск: ККИПКППРО, 2011. - С. 6,

TA’LIM JARAYONIDA AXBOROT KOMUNIKATSIYON TEXNOLOGIYALARNING AFZALLIKLARI

Islikov Sayid Xalilovich

Sirtqi bo‘lim, masofaviy ta’lim kafedrasi mudiri

E- mail sayidislikov@gmail.com

ANNOTATION

In the article is considered some aspects of distance learning technology introduction into higher educational institutions.

***Keywords**: distance learning, electronic training, learning management systems, control systems ofeducational content*

Ma’lumki, har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog‘liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta’minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, bilimli, yuksak insoniy fazilatlarga ega kadrlarning majmuidir.

Ta’lim mazmunining yangi g‘oyalar bilan boyib borishi, ta’lim metodlari, axborot texnologiyalarining doimiy takomillashuvi, o‘qituvchilarning bilim saviyalarga qo‘yilayotgan talablar – bularning barchasi o‘qituvchidan bilimlarni muntazam to‘ldirib borish va mustahkamlash, malakasini oshirish va metodik mahoratni talab etadi. O‘quvchining o‘zlari ham doimiy ravishda o‘qituvchilarga yangidan-yangi talablarni qo‘yaverishadi. O‘qituvchi sinfda yuzlab va minglab «nimaga?», «nima uchun?» kabi savollarga duch keladi.

Bundan tashqari o‘qituvchining ta’lim olganlik darajasi ham o‘sib borishi kerak. Bu faqatgina bilimlar ko‘lamiga bog‘liq bo‘lib qolmaydi. Ta’lim olganlikning rezervi o‘qituvchidan takomillashgan bilim metodlarini egallashni, axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishni, fikrlash shakllarin rivojlantirishni, hayotiy tajribani boyitishni talab etadi. Ana shuning uchun axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish yo‘llarini o‘rganish muhim vazifalardan biridir.

Axborotlar jadallik bilan integratsiyalashib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri axborotni tez va sifatli uzatish, qabul qilish, tahlil etish va xulosalar chiqarish uchun axborot texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat. Axborot texnologiyalarining takomillashuvi ta’lim jarayonini axborotlashtirishning muhim omilidir. Axborot texnologiyalari esa informatika qonun-qoidalari asosida, zamonaviy elektronika yordamida takomillashtiriladi. Ana shu asosdan kelib chiqib, axborot texnologiyalari deganda, axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmui tushuniladi.

Ta’lim jarayonini ana shu tarzda tashkil etishni XX asrning 60-yillaridan boshlab, dasturlashgan ta’limning kirib kelishi jadallashtirdi. U o‘quvchining bilim egallashi yo‘lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, qiyinchiliklarni oldini olish, qiziqishini yo‘qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini olishga imkon beruvchi o‘quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo‘naltiradi. Bundan tashqari ta’lim jarayonida o‘qitishning o‘ziga xos vositalarining keng qo‘llanilishi (dasturlashtirilgan o‘quv qo‘llanmalari, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o‘qitish mashinalari) ham dasturlashgan ta’limning eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

O‘qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi - shaxsiy elektron-hisoblash mashinalari (SHEHM) rivojlanishi kompyuterli ta’limning shakllanishiga imkon berdi. Maxsus ta’lim dasturlari bilan ta’minlangan kompyuterlarni deyarli barcha didaktik masalalar: axborotni berish, o‘qitish jarayonini boshqarish, natijalarini nazorat qilish va tuzatib borish, mashqlarni bajarish, o‘quv jarayoni rivojlanishi haqida ma’lumotlarni to‘plash va boshqalarni hal etishga moslashtirish mumkin.

Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi–bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitishdir. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televidenie, video va boshqalar) ishlatilishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikatsion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ilmiy-texnik axborotning ko‘chkisimon o‘sishi bilan belgilanadi. O‘quvchining individual tabiiy qobiliyatlarini hisobga olib, imkoni boricha maksimal darajadagi axborotni o‘zlashtirish faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ya’ni o‘qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o‘quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin.

Yuqorida ko‘rib guvohi bo‘lganimizdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablariga to‘la javob beradi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da axborot texnologiyalari zamonaviy ta’limning muhim qadriyati sifatida e’tirof etilgan.

O‘quvchining mustaqil ishi uning darsda to‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv faoliyati natijasi bo‘lib, mazkur faoliyatning o‘quvchi bo‘sh vaqtida kengaytirilishi, chuqurlashtirilishi va davom ettirilishini ta’kidlaydi.O‘qituvchi uchun bu nafaqat o‘z o‘quv harakatlari rejasini aniqlashnigina emas, balki o‘quvchilarda yangi o‘quv masalalarini hal etishda o‘quv fani o‘zlashtirilishining ma’lum bir sxemasini ongli shakllantirishni ham anglatadi. Mustaqil ish o‘quvchidan etarlicha yuqori darajada o‘zini anglashi, refleksiyaga ega bo‘lishi, intizomi, o‘z-o‘zini anglashi, kamol topishi va anglashi jarayoni sifatida o‘quvchiga qoniqish bag‘ishlaydigan, undan ma’suliyatni talab etadigan o‘quv faoliyatining oliy turi ko‘rinishidir. SHuning uchun ham u ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi harakterga ega.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida darslarni olib borilishi, yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Talipova J. Noan’anaviy ta’limning didaktik asoslari. / diss. ped. fan. dok. – T.: 2006
2. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2006.
3. G‘ulomov S.S va boshq. Axborot tizimlari va texnologiyalari. T.: SHarq, 2000.
4. Qodirov A.A va boshq. Axborot texnologiyalari. T., 2002.

BUGUNGI KUNDA TARIX DARSLARINI KEYS STADI ASOSIDA REJALASHTIRISH

Mamatov Sharofiddin Musurmonqulovish
Sirtqi bo‘lim, masofaviy ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
E- mail sh.mamatov1973@gmail.com

Abstract*. use of the case study method in the teaching of specialized subjects, to train students to think, problem-solving skills, to strive for discoveries, to form the qualities of cooperation and partnership, to draw up a plan to solve the tasks given by the teacher, and most importantly, to solve the problem set before the students education and training to make him able to do independent discussion is covered.*

Key words: *method, cooperation, exchange of ideas, goal, ability.*

Ta’lim tizimini isloh qilish davr talabi ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Mukammallik sari intilishning mevasi sifatida yangi o‘quv dasturlari, yangi avlod darsliklari, ta’lim standartlari yaratilib, ta’lim muassasalariga etkazib berildi. Bu yangi, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undash bevosita o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liqdir. Yangi ta’lim standartlarini o‘zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy texnologiya asosida ish yuritishni talab etadi.

Keys-stadi (inglizcha sase - to‘plam aniq vaziyat stadi -ta’lim) keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi echimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan *ta’lim uslubidir.* Keys-stadi - ta’lim axborotlar kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida bashorat qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir. Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o‘rganishni voqelikka bog‘lab qo‘yadi: sizga muammoni hal etish bo‘yicha vaziyatni tahlil qilish tahminlarni shakllantirish muammolarni aniqlash qo‘shimcha ma’lumotni yig‘ish taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

O‘quv uslubi sifatida quyidagilarni ta’minlaydi**:**

-o‘rganilgan o‘quv mavzu kursi bo‘yicha (nazariy ta’limdan so‘ng) bilimlarni mustahkamlashni;-muammolarni tahlil qilish va qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko‘nikmalarini

egallashni;-ijodiy va o‘rganish qobiliyatlar mantiqiy fikrlash nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishni;

-yangilikka qarorlarni mustaqil qabul qilishga tayyorgarlikni;-mas’uldorlik mustaqillik kommunikativlik va empatiya refleksiyaning shakllanishini; o‘quv ma’lumotlarini o‘zlashtirish sifatini o‘z tekshirishini (o‘quv dasturi yakunida).

Muammoni ifodalanishi:

1. Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun etilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar etishmasligi o‘rtasidagi ziddiyatni belgilaydi.

2. Muammoni asosiy tarkibiy qismlari (muammo, osti muammolar)ni ajratadi.

Keysning dasturiy kartasi keys uchun axborot yig‘ish va vaziyatni bayon qilish uchun asos bo‘ladigan asosiy masalalar(tezislar)ning tuzilmalangan ro‘yxatidan iborat bo‘ladi.

Pedagogik annotatsiya quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Keysda mo‘ljallangan predmet bo‘lim mavzu ta’lim darajasi kurs ko‘rsatiladi.

2.Keysdan ko‘zlangan maqsad (ta’limiy maqsad rejalashtiriladigan o‘quv natijalari;

1. O‘quvchilar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo‘lgan dastlabki bilim va malakalar.
2. Keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun’iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma’lumot.
3. Axborot olish manbalari ro‘yxat.
4. Keysning o‘ziga xos belgilariga ko‘ra tavsifnomasi (syujet, keys ob’ekti mavjudligi materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o‘ziga xos xususiyatlari o‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli chizmalashtirish usuli);
5. Keysdan ko‘zlangan maqsad va tegishlicha tashkiliy-uslubiy ta’minoti o‘zgarganida u qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan o‘quv predmetlari ro‘yxati.

Keys-ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan aniq muammoli vaziyatning tafsilotidir. Keys usuli ishlab chiqarish masalalarini mashg‘ulotlarda tahlil qilish va hal qilish usuli unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat bo‘yicha fikr yuritish taklif qilinib bu vaziyat bayonida nafaqat amaliy masala ifodalanib qolmasdan undagi muammoni echish jarayonida o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan o‘quv materiali ham ifodalanadi.

Keyslarni hal qilishda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni yo‘naltirib turishi va ulardagi faollikni qo‘llashi hal qilinayotgan muammoga nisbatan qiziqish uyg‘otib turishi darkor.

Keyslardan ta’lim jarayonida foydalanish ta’lim oluvchilar shaxsida quyidagi professional-pedagogik zaruriy sifatlarni shakllantiradi:

-mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

-mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

-nazariya va amaliyot o‘rtasida uzviy bog‘liklikni shakllantiradi;

-muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi;

-vaziyatlarni hal etishda unga ta’sir etuvchi omillarning mavjudligi va ularning ta’sirini e’tiborga olishga imkon beradi;

-boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi;

-savol berish madaniyatini tharkib toptiradi;

-qabul qilingan qaror uchun mas’ullik hissini tarbiyalaydi.

Keyslarni hal qilishda quyidagilarga e’tibor berish zarur: asosiy muammoni va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash asosiy va ikkinchi darajali omillarni ajratish muammoni hal qilishning muqobil echimini ham ko‘rib chiqish eng maqbul qaror qabul qilish. Keyslarni hal qilishda yozma usulda tahlil qilish unda bayon etilgan muammoni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi yoxud yozma nutq ham Xalqaro RWCT dasturida mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar pedagogika o‘qitish metodikasi va pedagogik mahorat asoslari fanlari mashg‘ulotlarida bu kabi keyslarni yechish ta’lim oluvchilarning faolligini oshiribgina qolmasdan balki mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularni bo‘lajak mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

o‘quvchilarning keys-stadi sharoitida o‘quv ishiga qobiliyatlar ko‘rsatkichlari:

- har bir o‘quvchining ilmiy tadqiqot va tahlil usullari va vositalarini egallashi;

- kichik guruhlarda ishlash aqliy hujum va munozaralarda qatnashish malakalarini hosil qilish
- o‘quvchilarning muammoli vaziyatni tahlil etish chizmasi (yo‘riqnomasi algoritmi);
- muammo echimining ustuvor g‘oyasini baholash va tanlash texnikalari bilan tanishtirish Keys-stadi amaliyotini o‘tkazuvchi o‘qituvchi mashg‘ulotga oddiy tayyorlanishdan tashqari quyidagilarni ham bajaradi:

-vaziyatni puxta tahlil qiladi muammoli vaziyatni tahlil etish va uni hal qilish uchun O‘quvchilarga taklif qilinishi mumkin bo‘lgan bir necha modellarni tayyorlaydi;

-vaziyat yechimi bo‘yicha o‘quvchilar taklif etadigan variantlarni baholash ko‘rsatkichlari va mezonlarini ishlab chiqadi;

- muammoni echish bo‘yicha o‘zining variantini tayyorlaydi;

Masalan, $1,\frac{1}{2},\frac{1}{4},\frac{1}{8},...,$
$3,\frac{3}{4},\frac{3}{16},\frac{3}{64},...$
cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaga misol bo‘la oladi. Bunda birinchi misolda birinchi hadi $b_1=1$ va maxraji $q=\frac{1}{2}$, ikkinchi misolda $b_1=3$ va maxraji $q=\frac{1}{4}$ ga teng.

Teorema. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig‘indisi $S = \frac{b_1}{1-q}$ ga teng.

Maktab matematika kursida bu teorema shu holicha aytilib ketiladi. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig‘indisi geometrik progressiyaning dastlabki n ta hadining yig‘indisi formulasidan $S_n = \frac{b_1\left(1-q^n\right)}{1-q}$ limit yordamida quyidagicha keltirib chiqariladi:

$$\lim_{n\to+\infty} S_n = \lim_{n\to+\infty} \frac{b_1\left(1-q^n\right)}{1-q} = \frac{b_1\left(1-\lim\limits_{n\to+\infty} q^n\right)}{1-q}$$

Bu erda $|q| < 1$ bo‘lgani uchun, n cheksiz ortganda q^n cheksiz kichik miqdordir shu sababli $\lim\limits_{n\to+\infty} q^n = 0$. Shunga ko‘ra

$$\frac{b_1\left(1-\lim\limits_{n\to+\infty} q^n\right)}{1-q} = \frac{b_1(1-0)}{1-q} = \frac{b_1}{1-q}.$$

Demak $\lim\limits_{n\to+\infty} S_n = \frac{b_1}{1-q}$. Teorema isbot bo‘ldi.

Biroq geometrik progressiya mavzusi o‘rta maktabning 9–snfida, ya’ni limit tushunchasi hali kiritilmasdan turib o‘tilishini hisobga olsak, yuqoridagi isbot o‘quvchilarga to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun cheksiz kamayuvchi geometrik progressi yig‘indisi formulasini keltirib chiqarish uchun quyidagicha isbotdan foydalansa bo‘ladi. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig‘inidsini: $S = b_1 + b_1q + b_1q^2 + \ldots + b_1q^n + \ldots$ kabi yozib olamiz. Tenglikning har ikki tomonini maxraj q ga ko‘paytiramiz. $qS = b_1q + b_1q^2 + \ldots + b_1q^n + b_1q^{n+1} + \ldots$ Tenglikning o‘ng tomoniga b_1 ni qo‘shsak, biz oldin belgilab olganimiz cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyaning yig‘indisiga teng bo‘ladi $(b_1q + b_1q^2 + \ldots + b_1q^n + b_1q^{n+1} + \ldots = S - b_1)$. U holda oxirgi tenglik $qS = S - b_1$ ko‘rinishga keladi. Hosil bo‘lgan bu tenglamani S ga nisbatan echsak: $S = \frac{b_1}{1-q}$ formula kelib chiqadi. Teorema isbot bo‘ldi. Ushub isbot maktab o‘quvchilari uchun juda ham sodda, tushunarli qilib bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. A. Alimov, O.R. Xolmuxamedov, M. A. Mirzaahmedov. Algebra. 9-sinf uchun darslik. T.: O‘qituvchi, 2019, 240b.

2. M. S. Saxayev. Elementar matematika masalalari to‘plami.T.:O‘qituvchi, 1972, 186b.

IQTISODIY JARAYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Turdiboyev Dilshod Xamidovich, Xudiyarova Nilufar Jumanazarovna
Matematika kafedrasi dotsenti
GulDU Matematika kafedrasi magistranti

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida “2020 - 2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirishning maqsadli dasturi” ishlab chiqildi. Ushbu dastur mazmuniga ko‘ra, mamlakatimizda matematika ta’lim sohasini rivojlantirish 2020 yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida mamlakatimizda matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, iqtisodiy va boshqaruv jarayonlariga matematik usullar va modellarni joriy qilish masalalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yildi.

Mavzu doirasida tahlillar. Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida olib borilayotgan tub iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda, matematik apparatdan har tomonlama keng foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Bozor iqtisodiyoti murakkab, o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi jarayonlardan iborat bo‘lib, unga noaniqlik va tavakkalchilik elementlari xosdir. Bunday sharoitda iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda iqtisodiy-matematik usullar va modellardan foydalanish kutilishi mumkin bo‘lgan salbiy hodisalarning oldini olish imkonini beradi.

Iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish ilmiy asoslangan qonuniyatlar asosida u yoki bu iqtisodiy jarayonlarning hozirgi holati asosida uning istiqboldagi o‘zgarishlarini oldindan ko‘rsatib berishga imkoniyat yaratadi. Chunki, bozor kon’yunkturasini oldindan bashoratlamasdan turib, korxonalar mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish strategiyasini belgilay olmaydilar. Bozordagi raqobat kurashi korxonalarga kelajakda o‘z mahsulotlarini raqobatbardosh, sifatli va arzon narxlarda ishlab chiqarishni taqozo etadi.

Ilmiy assoslangan takliv va tavsiyalar. Iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirishning asosiy maqsadi murakkab iqtisodiy tizimlarni matematik modellashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rgatishdan, aniq iqtisodiy ob’ektlar misolida modellarni yaratilishi, ularning iqtisodiy mazmuni, qo‘yilgan masalalarni kompyuter dasturlarida yechish va olingan natijalarni iqtisodiy talqin qilish kabi bosqichlarni o‘rgatishdan iboratdir.

Matematik modellashtirish tushunchasi va ularning turlari

Ob’ektning xossa va xususiyatlarini matematik munosabatlar orqali ifodalash shu ob’ektning matematik modeli deb ataladi.

Matematik model qurish va uni yechish jarayoni matematik modellashtirish deb ataladi.

Matematik modellashtirish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1-bosqich. Ob’ektni o‘rganish.

2-bosqich. Matematik model qurish.

3-bosqich. Modelni yechish usulini tanlash yoki ishlab chiqish.

4-bosqich. Tanlangan yoki ishlab chiqilgan yechish usuli algoritmi asosida dastur tuzish.

5-bosqich. Natijalar olish hamda ularni tahlil qilib, xulosalar qilish.



1-rasm. Matematik modellashtirish jarayonini sxematik ko‘rinishi

Masala. Maymun palma daraxtidagi bananni olmoqchi. Maymun yong‘oqni qanday otganda u bananga tegadi va banan erga tushadi ?

Masalaning tahlili :

• Berilgan boshlang‘ich ma’lumotlar etarlimi?

• Masala yechimga egami?

• Masalaning yechimi yagonami?

I. Masalaning qo‘yilishi

Faraz qilamiz:

• yong‘oq va bananlarni material nuqta deb xisoblaymiz;

• maymun turgan joydan palma daraxtigacha bo‘lgan masofa aniq;

• maymun bo‘yining uzunligi aniq;

• erdan banangacha bo‘lgan masofa aniq;

• yong‘oq xarakatining boshlang‘ich tezligi aniq;

• havo qarshiligi hisobga olinmaydi.

Berilgan ushbu shartlar asosida masalani yechish uchun yong‘oqni qanday burchak ostida otish kerakligini aniqlang.

II. Model qurish



2-rasm. Grafik model

Matematik model

$$x = V\cos\alpha \cdot t\,, y = h + V\sin\alpha \cdot t - \frac{gt^2}{2}$$

Masalan: agar

$$V\cos\alpha \cdot t = L, h + V\sin\alpha \cdot t - \frac{gt^2}{2} = H$$

bo‘lsa, α ni aniqlang

III. Model analizi

$$x = V\cos\alpha \cdot t$$

$$y = h + V\sin\alpha \cdot t - \frac{gt^2}{2}$$

boshlang‘ich tezlik 0 ga teng bo‘lsa yong‘oq o‘z joyida qoladi, t=0 da yong‘oq koordinatasi (0,h) yuqoriga tik otilsa ($\alpha = 90°$) x koordinata kamaya boshlaydi.

IV. Tajriba

1-usul.

α burchakni o‘zgartiramiz. Tanlangan α burchak uchun yong‘oq harakat grafigini quramiz. Agar yong‘oq banandan baland o‘tib ketsa burchakni kamaytiramiz, aks holda burchakni oshiramiz.

2-usul.

Birinchi tenglikdan yong‘oq harakati vaqtini aniqlaymiz

$$V\cos\alpha \cdot t = L \to t = \frac{L}{V\cos\alpha}$$

α burchakni o‘zgartiramiz. α qiymatiga mos t ni va unga mos y aniqlaymiz. Agar uning qiymati H dan kata bo‘lsa burchakni kamaytiramiz, kichik bo‘lsa oshiramiz.

Matematik modellar o‘z o‘rida funksional va strukturali bo‘lishi mumkin.

Funksional modellar kirish va chiqish parametrlarini bog‘lanish funksiyalarini aks ettiradilar.

Modellar statik va dinamik, chiziqli va chiziqsiz, determinatsion va stoxastik bo‘lishi mumkin. Statik modellarda iqtisodiy jarayonlar va ko‘rsatkichlarning ma’lum bir vaqtdagi holati o‘rganiladi.

Dinamik modellarda esa iqtisodiy ko‘rsatkichlarning vaqt davomida o‘zgarishi kuzatiladi va ularga qaysi omillar ta’sir etishi o‘rganiladi.

Chiziqli modellarda maqsad mezoni chiziqli funksiya ko‘rinishda bo‘ladi, uning ekstremal qiymatlari orasidagi munosabat chiziqli tenglamalar va tengsizliklar orqali ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori.

2. T. X. Xolmatov, X.S. Umarov «Qurilishni boshqarishda iqtisodiy-matematik usullar». O‘quv qo‘llanma, Samarqand 2004-yil. 196 bet.

3. M.Atxamov, G.Otaboyev «Planlashtirishda matematik metodlarni qo‘llanilish» Toshkent. O‘qituvchi 1982 y.

4. K.Safayev, F.Shomansurov. «Matematik programmalashtirishdan masalalar » to‘plami. T., Moliya instituti, 2003-y.

5. Jumayev X.N.,Otaniyozov B. va boshqalar. «Matematik programmalashtirish»Darslik, Toshkent. 2005 y.-230 b.

6. Juraev X.I. Otaniyozov B. va boshqalar. «Matematik programmalashtirish». Toshkent OO‘MTV, 2005.

7. Математическое программирование в экономике. Под ред. Кремера, М., Финансы и статистика, 1996 г.

TRANSPORT MASALASINING MATEMATIK MODELI VA UNI YECHISH USULLARI

Usmonov Navruz Muzaffarovich, Saitmuratov O‘lmas Nurillo o‘g‘li

Guliston davlat universiteti “Matematika” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

E-mail: navruzusmonov417@gmail.com

Тел: *+998 994779455*

E-mail: saitmuratovolmas@gmail.com

Тел: *+998 994730420*

Annotatsiya

Ushbu maqola amaliy mazmundagi transport masalalarni matematik tahlil qilish va yechishning nostandart usullarini o‘rganish va tahlil qilib, mavjud muammolarini optimal matematik modelini tuzish va iqtisodiy samarador usularini hayotga tatbiq qilish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan va nazriy asoslangan. Maqolada transport masalasining yechimi regression tahliliga asoslangan bo‘lib, modellashtirish usuli korrelyatsion bog‘lanish va regressiya tenglamalari tushunchalariga asoslanadi. Bunda determinatsiya koeffitsiyenti, ya’ni yukni o‘z vaqtida yetib borish kafolati necha foiz ekanligining matematik ifodasi aks etgan.

Eng kichik kvadratlar usuliga ko‘ra regressiya tenglamasi koeffitsientilari shunday aniqlanadiki, bunda berilgan (x_i, y_i) boshlang‘ich ma’lumotlar bo‘yicha qurilgan nuqtalar regressiya chizig‘i nuqtalariga mumkin qadar yaqin yotishi kerak.

X omillar belgisining $x_i, i = \overline{1,n}$ qiymatlari va ularga mos ravishda Y natijaviy parametrning $y_i, i = \overline{1,n}$ qiymatlari berilgan bo‘lsin.

$f_1(x) = a_0 + a_1 x$ chiziqli regressiya koeffitsentlarini hisoblash uchun eng kichik kvadratlar usuliga asoslangan holda quyidagi

$$\sum_{i=1}^{n}(y_i - a_0 - a_1 x_i) = 0, \sum_{i=1}^{n}(y_i - a_0 - a_1 x_i)\, x_i = 0$$

Bu tenglamalarni ixchamlashtirib, quyidagi sistemaga ega ega bo‘lamiz:

$$na_0 + a_1 \sum_{i=1}^{n} x_i = \sum_{i=1}^{n} y_i \,, a_0 \sum_{i=1}^{n} x_i + a_1 \sum_{i=1}^{n} x_i^2 = \sum_{i=1}^{n} x_i\, y_i \quad (1)$$

(1) sistemani noma'lum a_0, a_1 koeffitsientlarga nisbatan yechamiz va quyidagiga ega bo'lamiz:

$$a_0 = \frac{\sum_{i=1}^{n} y_i \sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \sum_{i=1}^{n} x_i \sum_{i=1}^{n} x_i y_i}{n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - (\sum_{i=1}^{n} x_i)^2} = \frac{1}{n}\left[\sum_{i=1}^{n} y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i y_i\right] \quad (2)$$

$$a_1 = \frac{n\sum_{i=1}^{n} x_i y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i \sum_{i=1}^{n} y_i}{n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - (\sum_{i=1}^{n} x_i)^2} \quad (3)$$

Shunday qilib, $f_1(x) = a_0 + a_1 x$ chiziqli regressiyaning koeffitsientlari (1), (3) formulalar yordamida aniqlanadi.

Determinatsiya koeffitsienti deb quyidagi

$$r^2 = \frac{\sum_{i=1}^{n}(y_i^p - \bar{y})^2}{\sum_{i=1}^{n}(y_i - \bar{y})^2}, (4)$$

miqdorga aytiladi, bu yerda $\bar{y} - y_i, i = \overline{1,n}$ miqdorlarning o'rta arifmetik qiymati, ya'ni $\bar{y} = \frac{\sum_{i=1}^{n} y_i}{n}$

Determinatsiya koeffitsienti r^2 topilgan regressiya funksiyasi X va Y

parametrlar qiymatlari orasidagi bog'lanishni necha foizga ($r^2 \cdot 100\%$) ifodalay olishini ko'rsatadi.

1-misol. Guliston shahridagi BEK firmasi shahar ichidagi qisqa masofalarga turli xil yuklarni tashish bilan shug'ullanadi. Firma menedjeri oldida yukni yetkazib berish vaqtidan bog'liq bo'lgan bunday xizmatni baholash masalasi turadi. Yukni etkazib berish vaqtiga ta'sir qiladigan muhim omil sifatida menedjer o'tilgan masofani tanladi. 10 ta yuk etkazib berish bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi (1-jadval).

1-jadval

Masofa, km	3,5	2,4	4,9	4,2	3,0	1,3	1,0	3,0	1,5	4,1
Vaqt, min	16	13	19	18	12	11	8	14	9	16

Berilgan ma'lumotlar grafigini qurish, u asosida masofa va sarflangan vaqt orasidagi bog'liklik xarakterini aniqlash, eng kichik kvadratlar usulini qo'llash imkoniyatini tahlil qilish, regressiya tenglamasini qurish, regression bog'lanish kuchini tekshirish va nihoyat, 2 km ga yukni yetkazib berish vaqti bo'yicha ma'lumot (prognoz) berish talab etiladi.

1-rasmda 10 ta yuk yetkazib berish bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar grafigi qurilgan.

Yukni yetkazib berish vaqtiga, masofadan tashqari, yo'llardagi transport tirbandligi, yuk yetkazilayotgan sutka vaqti, yo'ldagi ta'mirlash ishlari, ob- havo, haydovchining malakasi, transport turi kabi boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababga ko'ra, hosil qilingan nuqtalar aniq $y = a_0 + a_1 x$ chiziqda joylashmagan. Lekin 1-jadvaldan hosil qilingan $(x_i, y_i), i = \overline{1,10}$ nuqtalar To'g'ri chiziq atrofida yig'ilgan. Shuning uchun parametrlar orasida chiziqli munosabat mavjud deb taxmin qilish mumkin. Barcha hosil qilingan boshlang'ich nuqtalar taxmin qilinayotgan to'g'ri chiziq bo'ylab bir tekisda joylashgan. Bu esa eng kichik kichik kvadratlar usulini qo'llash imkonini beradi.



1-rasm. Regressiya chizig‘i uchun ε xatolik

Qaralayotgan misol uchun 1-jadvalni to‘ldiramiz. Natijada 2 -jadvalgaega bo‘lamiz.

2-jadval

x_i	y_i	x_i^2	$x_i y_i$	y_i^p	$(y_i^p - \bar{y})^2$	$(y_i - \bar{y})^2$
3,5	16	12,25	56,00	15,233	2,634	5,76
2,4	13	5,76	31,2	12,297	1,698	0,36
4,9	19	24,01	93,1	18,947	28,590	29,16
4,2	18	17,64	75,60	17,085	12,145	19,36
3,0	12	9,00	36,00	13,893	0,086	2,56
1,3	11	1,69	14,30	9,371	17,884	6,76
1,0	8	1,00	8,00	8,573	25,271	31,36
3,0	14	9,00	42,00	13,893	0,086	0,16
1,5	9	2,25	13,50	9,903	13,668	21,16
4,1	16	16,81	65,60	16,819	10,362	5,76
$\sum =$ 28,9	$\sum = 136$	$\sum =$ 99,41	$\sum =$ 435,30	_____	$\sum =$ 112,424	$\sum = 122,4$

2-jadvalni (1), (2), (3) formulalar bo‘yicha to‘ldirishda quyidagi chiziqli regressiya koeffitsientlarini hisoblaymiz:

$$a_1 = \frac{10 \cdot 435{,}30 - 28{,}9 \cdot 136}{10 \cdot 99{,}41 - 835{,}21} = 2{,}660;\ a_0 = 0{,}1(136 - 2{,}660 \cdot 28{,}9) = 5{,}913$$

So‘ngra izlanayotgan $y^p = 5{,}913 + 2{,}660\,x$ regression bog‘liqlikni aniqlab, y_i^p, $(y_i^p - \bar{y})^2$ larni hisoblaymiz. (4) formula bo‘yicha determinatsiya koeffitsientini hisoblaymiz:

$$r^2 = \frac{112{,}424}{122{,}400} = 0{,}918 \text{ yoki } 91{,}8\%$$

Shunday qilib, chiziqli model yukni yetkazib berish vaqti o‘zgarishidagi 91,8% vaziyatni tushuntirib bera oladi. Yukni yetkazib berish vaqti o‘zgarishidagi

100% - 91,8% = 8,2% vaziyat esa, unga ta’sir qiladigan, lekin regressiyaning chiziqli modeliga kiritilmagan, qolgan omillar bilan bog‘liq.

Determinatsiya koeffitsienti yetarlicha katta qiymatga ega bo‘lganligi va prognoz qilish talab etilayotgan 2 km masofa boshlang‘ich ma’lumotlar diapazonida joylashganligi sababli, hosil qilingan $y^p = 5{,}913 + 2{,}660\ x$ regressiya tenglamasidan prognoz uchun foydalanish mumkin, ya’ni

$y(2km) = 5{,}913 + 2{,}660 \cdot 2 = 11{,}2\ minut$

Agar regression model real bog‘lanishga yaqin bo‘lsa, unda $\varepsilon = (y_i^p - y_i)$ xatolik(chetlanish) tasodifiy xarakterli bo‘ladi va ularning yig‘indisi 0 ga yaqin bo‘ladi. Qaralgan misol uchun $\sum(y_i^p - y_i) = 0{,}004$

2-misol. Guliston shahridagi “TAXI-PLUS” firmasi shahar ichidagi qisqa masofalarga turli xil yuklarni tashish bilan shug‘ullanadi. Firma menedjeri oldida yukni yetkazib berish vaqtidan bog‘liq bo‘lgan bunday xizmatni baholash masalasi turadi. Yukni etkazib berish vaqtiga ta’sir qiladigan muhim omil sifatida menedjer o‘tilgan masofani tanladi. 10 ta yuk etkazib berish bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ildi (3-jadval).

3-jadval

Masofa, km	10	9,0	6,0	14,0	15,0	8,5	12,0	3,0	4,2	20,0
Vaqt, min	15	11	8	12	20	9	10	4	5	15

Berilgan ma’lumotlar grafigini qurish, u asosida masofa va sarflangan vaqt orasidagi bog‘liklik xarakterini aniqlash, eng kichik kvadratlar usulini qo‘llash imkoniyatini tahlil qilish, regressiya tenglamasini qurish, regression bog‘lanish kuchini tekshirish va nihoyat, 2 km ga yukni yetkazib berish vaqti bo‘yicha ma’lumot (prognoz) berish talab etiladi.

Yukni yetkazib berish vaqtiga, masofadan tashqari, yo‘llardagi transport tirbandligi, yuk yetkazilayotgan sutka vaqti, yo‘ldagi ta’mirlash ishlari, ob- havo, haydovchining malakasi, transport turi kabi boshqa omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababga ko‘ra, hosil qilingan nuqtalar aniq $y = a_0 + a_1 x$ chiziqda joylashmagan. Lekin 3-jadvaldan hosil qilingan $(x_i, y_i), i = \overline{1{,}10}$ nuqtalar to‘g‘ri chiziq atrofida yig‘ilgan. Shuning uchun parametrlar orasida chiziqli munosabat mavjud deb taxmin qilish mumkin. Barcha hosil qilingan boshlang‘ich nuqtalar taxmin qilinayotgan to‘g‘ri chiziq bo‘ylab bir tekisda joylashgan. Bu esa eng kichik kichik kvadratlar usulini qo‘llash imkonini beradi.

Qaralayotgan misol uchun 3 - jadvalni to‘ldiramiz. Natijada 4 -jadvalgaega bo‘lamiz.

4-jadval

x_i	y_i	x_i^2	$x_i y_i$	y_i^p	$(y_i^p - \bar{y})^2$	$(y_i - \bar{y})^2$
10	15	100	150	10,73	0,0289	16,81
9,0	11	81	99	10,028	0,76	0,01
6,0	8	36	48	7,793	9,653	8,41
14,0	12	196	168	13,753	8,139	1,21
15,0	20	225	300	14,498	12,946	82,81
8,5	9	72,25	76,5	9,655	1,55	3,61
12,0	10	144	120	12,263	1,858	0,81
3,0	4	9	12	5,558	28,537	47,61
4,2	5	17,64	21	6,452	19,785	34,81

20,0	15	400	300	18,223	53,626	16,81
$\Sigma = 101,7$	$\Sigma = 109$	$\Sigma = 1280,89$	$\Sigma = 1294,5$	—	$\Sigma = 136,8829$	$\sum = 212,9$

4-jadvalni (1), (2), (3) formulalar bo‘yicha to‘ldirishda quyidagi chiziqli regressiya koeffitsientlarini hisoblaymiz:

$$a_1 = \frac{n\sum_{i=1}^{n} x_i\, y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i \sum_{i=1}^{n} y_i}{n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - (\sum_{i=1}^{n} x_i)^2} = \frac{10 \cdot 1294,5 - 101,7 \cdot 109}{10 \cdot 1280,89 - 10312,38} = \frac{1859,7}{2496,52} = 0,745;$$

$$a_0 == \frac{1}{n}\left[\sum_{i=1}^{n} y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i\, a_1\right] = \frac{1}{10}[109 - 101,7 \cdot 0,745] = 3,323$$

So‘ngra izlanayotgan $y^p = 3,323 + 0,745\,x$ regression bog‘liqlikni aniqlab, y_i^p, $(y_i^p - \bar{y})^2$ larni hisoblaymiz. (4) formula bo‘yicha determinatsiya koeffitsientini hisoblaymiz:

$$y_i^p = a_0 + a_1 x_i, \bar{y} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} y_i \;\; r^2 = \frac{136,8829}{212,9} = 0,65\; yoki\; 65\%$$

Shunday qilib, chiziqli model yukni yetkazib berish vaqti o‘zgarishidagi 30% vaziyatni tushuntirib bera oladi. Yukni yetkazib berish vaqti o‘zgarishidagi

100% - 64% = 36% vaziyat esa, unga ta’sir qiladigan, lekin regressiyaning chiziqli modeliga kiritilmagan, qolgan omillar bilan bog‘liq.

Determinatsiya koeffitsienti yetarlicha katta qiymatga ega bo‘lganligi va prognoz qilish talab etilayotgan 2 km masofa boshlang‘ich ma’lumotlar diapazonida joylashganligi sababli, hosil qilingan $y^p = 3,323 + 0,745\,x$ regressiya tenglamasidan prognoz uchun foydalanish mumkin, ya’ni

$y(2km) = 3,323 + 0,745 \cdot 2 = 4,813\, minut$

Agar regression model real bog‘lanishga yaqin bo‘lsa, unda

$\varepsilon = (y_i^p - y_i)$ xatolik(chetlanish) tasodifiy xarakterli bo‘ladi va ularning yig‘indisi 0 ga yaqin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Raisov – Matematik programmalash, “VORIS” nashriyot, Toshkent- 2009-y
2. T.T.Xodjayev, A.Abdukarimov – “Iqtisodiyot”-o‘quv-uslubiy majmua, Samarqand – 2013-y
3. N.M.Usmonov – “Iqtisodiy jarayonda transport masalasining matematik modeli va ularni yechishni optimallashtirish usullari” – dissertatsiya-2023-y
4. D.X.Turdiboyev, N.M.Usmonov – “Iqtisodiy jarayonda transport masalasini matematik modeli va ularni yechishni optimallashtirish usullari”. Guliston davlat universiteti“ Uzluksiz ta’lim muassasalarida matematika ta’limi sifatini oshirish, matematikaning amaliy va nazariy masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari, 2022-y

GRAPHS SEARCH PROBLEM IN THE PRESENCE OF LIMITED INFORMATION ABOUT THE SEARCH POINT

Khusanbay Narzhigitov, Khabibulla Umarov
Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan
e-mail: umarovhr@mail.ru

Annotation. The work studies the problem of searching on finite graphs with limited information about the desired point Q. To take into account the amount of information available to the searching point P, the concept of information set is introduced. Theorems on the solvability of the search problem, which form the basis of the general theory, are presented.

Keywords: graph, edge, vertex, invariance, awareness, similarity, existence of upper and lower bounds.

In essence, the search task is as follows: point P (searching, pursuing) and point Q (hiding, escaping) move along the graph Γ with maximum absolute speeds ρ and σ, respectively,

$\rho > 0,\ \sigma > 0$. The trajectory of point P (respectively Q) is defined as an absolutely continuous function $x(\cdot):[0,\infty)\to\Gamma$ (respectively $y(\cdot):[0,\infty)\to\Gamma$, such that $|u(t)|\le\rho$ ($|v(t)|\le\sigma$) a.e., where $u(t)=dx(t)/dt$ is the control function of point P, ($v(t)=dy(t)/dt$ is the control function of point Q).

The goal of point P is to reach (detect to catch) point Q, which is achieved if $x(t)=y(t)$ at some $t\in J$, where J is a segment of the form $[0,T]$, or ray $[0,\infty)$.

Let us clarify the concept of type of awareness, which is important in the search problem, i.e. the amount of information that point P has at each current moment of time t, $t\ge 0$. Naturally, it must include the entire prehistory of the movement of the point P itself - function $x(\tau)$, $0\le\tau\le t$. As for the information received about the location of point Q, it is natural that it should have the form of a subset W of the graph Γ, which can be called an information set. The information set changes as point Q moves and at each current moment t point P receives information that Q is within the set Δ.

In this work, only the concept of stellar neighborhood is considered.

Definition 1. Let $y\in\Gamma$. A star neighborhood of a point y is a subgraph W of a graph Γ such that the point is internal to W in the topology of Γ.

Definition 2. A mapping W that assigns to each point $y\in\Gamma$ some of its stellar neighborhood $W(y)$ is called an information mapping.

In what follows, we propose that the information mapping is constant on edges in the following sense: if y_1 and y_2 are interior points of the same edge, then $W(y_1)=W(y_2)$.

By search problem we mean a quadruple $(\Gamma,\ \rho,\ \sigma,\ W)$, consisting of a graph Γ, positive numbers r and an information map W.

If $W(y)=\Gamma$ is identical, then we get a search problem without current information - a minimax search problem in the formulation of N.N. Petrov. [1-3].

Let X (respectively, Y) be the set of all trajectories $x(\cdot):[0,\infty)\to\Gamma$ of point P (trajectories $y(\cdot):[0,\infty)\to\Gamma$ of point Q), and U (respectively, V) be the set of corresponding controls $u(\cdot)$, $u(t)=dx(t)/dt$, a.e. (respectively $v(\cdot)$ $v(t)=dy(t)/dt$ a.e.)

As point Q moves along a specific trajectory $y(t)$, the information set $W(y(t))$ also changes. Since the point $y(t)$ is internal to the set $W(y(t))$, then for some period of time $[0,\theta)$ the set $W(y(t))$ remains unchanged, equal to $W(y(0))$.

Let t_1 be the first moment in time when $y(t)$ leaves the set $W(y(0))$, i.e. will be on its border. At this point in time, the information set may change and thereby point P receives a new piece of current information, namely, information that point Q is within the set $W(y(t_1))$. Therefore, we will call each such moment of time the moment of highlighting.

Obviously, at the moment of highlighting, point Q will be located on one of the vertices of the graph Γ. By our definition, the next moment of highlighting occurs only when point $y(t)$ reaches some other vertex. This circumstance ensures that $W(y(t))$ changes in jumps, without accumulating moments of illumination.

Let us denote by Γ* the set of values of the information map W. In principle, as Γ* we can take the set of all subsets of G that can serve as a stellar neighborhood.

Definition 3. The mapping S that associates each pair $x_t(\cdot):[0,t]\to\Gamma, W\in\Gamma*$ with a control function $u(\cdot)$ is called a search strategy.

The triple $(x_0,\ S,\ y(\cdot))$, consisting of the initial point $x_0\in\Gamma$, of the search strategy S and the trajectory $y(\cdot)\in Y$ of the point Q, will be called a situation.

Point P, in accordance with its chosen strategy, searches as follows. At the initial moment of time $t_0=0$, he has at his disposal information about his position $x_0\in X$ and that point Q is within $W(y(0))$, in addition to knowledge of Γ and numbers $\rho,\ \sigma$. (It would be interesting to study the search problem in the case when the point does not have complete information about the graph Γ,

about the value σ). The search strategy for this information dictates to search along the trajectory $x(\cdot)$ generated by the control $u(\cdot)=S(x_0,\ W(y(0)))$. Let t_1 be the first moment of highlighting, $x_1=x(t_1),\ \ y_1=y(t_1)$. At this point in time, point P manages information $x_{t_1}(\cdot)$ and $W(y_1)$, according to which strategy S generates control $u(\cdot)=S(x_{t_1}(\cdot),W(y_1))$. Trajectory $x(\cdot)$ continues according to the formula

$$x(t)=x_1+\int_{t_1}^{t}u(\tau-t_1)d\tau\,.$$

Point P will continue to move along this trajectory until the next moment of display, etc.

Due to the fact that the graph Γ is finite and the velocities of the points are limited, each situation $\sum=(x_0,S,y(\cdot))$S generates a unique trajectory $x_\Sigma(\cdot):[0,\infty)\to\Gamma$. (If there is no need, we will omit the index Σ in the notation.)

Invariance theorem. The solvability of the search problem (Γ,ρ,σ,W) does not depend on the point x_0.

Similarity theorem. If the search problem (Γ,ρ,σ,W) is solvable on the interval $[0,T]$ and k>0, then the search problem $(\Gamma,k\rho,k\sigma,W)$ is solvable on the interval $[0,T/k]$.

Theorem on the existence of an upper bound. There is such a thing that for $\rho>\sigma$ the search problem is solvable.

Theorem on the existence of a lower bound. If a graph Γ has at least one vertex of degree at least 3, then there exists $k,\ k>0$ such that for $\rho<k\ \sigma$ the search problem is not solvable.

From these statements it follows that for each pair of graph Γ and information mapping W there exists a positive number k_0 such that for $\rho>k_0\sigma$ the search problem is solvable, but for $\rho<k_0\sigma$ it is not solvable. Unfortunately, it is not yet possible to calculate even for the simplest graphs. The main results relate to the construction of a search strategy that guarantees solvability for certain values of ρ/σ.

Bibliography

1. Ga1 S. Control and Optimization. 1979, vol. 17, № 1.
2. Petrov N. N. Differentsialno‘e uravneniya. 1987, tom 23, №3.
3. Azamov A., Norjigitov X. Uzbekskiy matematicheskiy jurnal. 1991, №4.

UZOQLASHUVCHI QATORLARNI JAMLASHNING TURLI XIL USULLARI

Narjigitov Husanboy, Norboev Farrux Sharofboyevich
Guliston davlat universiteti f.m.-f.n., dotsent
Guliston davlat universiteti doktoranti
e-mail: husanbay_narjigitov@gmail.com

Kalit so‘zlar: qatorlar, uzoqlashuvchi qatorlarni jamlash, chekli yig‘indi, Chezaro, Puasson – Abel ma’nosida jamlash.

Anatatsiya: Maqolada uzoqlashuvchi qatorlarni jamlashning turli xil usullari o‘rganilgan va Xardi – Landau teoremasining shartlari yengillashtirilgan holda teorema isbotlangan.

Agar $a_1+a_2+a_3+\cdots+a_n+\cdots$ (A) qator o‘rta arifmetik (Chezaro) metodiga ko‘ra, chekli A yig‘indiga ega bo‘lsa, u holda $a_n=o(n)$ bo‘lishi zarur.

Haqiqatan, $\alpha_{n-1}\to A\ va\ \frac{n+1}{n}\ \alpha_n\to A$ ekanligidan

$$\frac{(n+1)\alpha_n-n\alpha_{n-1}}{n}=\frac{A_n}{n}\ \to\ 0$$

bo‘ladi. U holda

$$\frac{a_n}{n}=\frac{A_n}{n}-\frac{n-1}{n}\cdot\frac{A_{n-1}}{n-1}\to 0$$

hosil bo‘ladi, bundan $a_n=o(n)$ ekanligi ko‘rinadi.

Puasson – Abel va Chezaro metodlarining o‘zaro bog‘liqligini quyidagi teoremada ko‘rish mumkin.

Teorema (Frobenius teoremasi).

Agar (A) qator o‘rta arifmetik metod bo‘yicha chekli A yig‘indiga ega bo‘lsa, u holda qator Puasson – Abel metodlari bo‘yicha ham yig‘indiga ega bo‘ladi va xuddi shu yig‘indiga teng bo‘ladi.

Isbot. $\alpha_n = \frac{a_1+a_2+\cdots+a_n}{n} \to A$ bo‘lsin.

U holda yuqoridagi eslatmaga ko‘ra, $a_n = o(n)$ bo‘lar edi. Bundan

$f(x) = \sum_{n=0}^{\infty} a_n x^n$ (1)

Darajali qator $0 < x < 1$ bo‘lganda yaqinlashuvchi bo‘ladi. U holda Abel almashtirishini [2 tom ,383b.] ikki marta qo‘llaymiz,

$$\sum_{n=0}^{\infty}(n+1)\alpha_n x^n = \sum_{n=0}^{\infty}[(n+1)\alpha_n - 2n\alpha_{n-1} + (n-1)\alpha_{n-2}]\,x^n =$$

$$\sum_{n=0}^{\infty}\{[(n+1)\alpha_n - n\alpha_{n-1}] - [n\alpha_{n-1} - (n-1)\alpha_{n-2}]\}x^n = (1-2x+x^2)$$

$$\sum_{n=0}^{\infty}[A_n - A_{n-1}]\,x^n = \sum_{n=o}^{\infty} a_n x^n = f(x)\ (1)\ (bu\ yerda\ \alpha_{-1} = \alpha_{-2} = A_{-1} = 0$$

$$va\ A_0 + A_1 + \cdots + A_n = (n+1)\alpha_n) = \alpha_{-2} = A_{-1}$$

Ma’lumki, $0 < x < 1$ larni qanoatlantiruvchi x lar uchun,

$$(1-x)^{-2} = \sum_{n=0}^{\infty}(n+1)x^n$$

tenglik o‘rinli. Bundan

$$1 = (1-x)^2 \sum_{n=0}^{\infty}(n+1)x^n$$

hosil bo‘ladi. Bu tenglikning har ikkala tarafiga A ni ko‘paytirib (1) ni ayiramiz: $A - f(x) = (1-x)^2(n+1)[A-\alpha_n]x^n$ hosil bo‘ladi. Bu yig‘indini ikkitaga ajratamiz:

$$(1-x)^2 \sum_{n=0}^{N-1} \ldots + \ (1-x)^2 \sum_{n=N}^{\infty} \ldots \ = A - f(x)\ (2)$$

va N ni n>N shunday qilib tanlaymizki,

$$|A - \alpha_n| < \varepsilon$$

bo‘ladi, bu yerda $\varepsilon > 0$ oldindan olingan musbat son.

U holda (2) yig‘indinig ikkinchi yig‘indisi ε dan kichik bo‘ladi, birinchi yig‘indi esa *x* 1 ga yaqinlashganda uni hali $\varepsilon\ dan$ kichik qilish mumkin.

Shunday qilib,

$$|f(x) - A| < 2\varepsilon$$

bu esa teoremani isbotlaydi.

Shunday qilib, Chezaro ma’nosida yig‘indiga ega bo‘lsa, Puassson -Abel ma’nosida ham yig‘indiga ega bo‘ladi, ammo teskarisi to‘g‘ri emas. Ya’ni Puasson - Abel ma’nosida jamlash mumkin bo‘lsa, Chezaro ma’nosida umumlashgan yig‘indiga ega bo‘lmasligi mumkin. Masalan,

$$1 - 2 + 3 - 4 + \cdots$$

qatorni qaraylik. Ushbu qator Chezaro ma’nosida jamlash uchun zarur shart bajarilmaydi. Ammo bu qator Puasson - Abel ma’nosida jamlash mumkin. Haqiqatan,

$$1 - 2x + 3x^2 - 4x^3 + \cdots$$

qator 0<x<1 da $\frac{1}{(1+x)^2}$ yig‘indiga ega. Agar $x \to 1 - 0$ limitga o‘tsak ¼ teng. Bu esa “umumlashgan yig‘indi” Puasson - Abel ma’nosida jamlanishini ko‘rsatadi.

Xardi – Landau teoremasi. Puasson Abel ma’nosidagi kabi Chezaro metodi bilan ham uzoqlashuvchi qatorlarni jamlash, “Tauber” tipida teoremalarni isbotlashda ham qator hadlariga nisbatan ham qo‘shimcha shartlar o‘rnatiladi va uzoqlashuvchi qatorlarni jamlashdan oddiy ma’nodagi yaqinlashish kelib chiqishi o‘rganiladi. Frobenius teoremasidan ko‘rinadiki, Puasson - Abel metodi

uchun Tauber tipidagi teoremalari Chezaro metodiga keltiriladi. Masalan, Tauber teoremasini quyidagicha bayon qilish mumkin:

Agar $\alpha_n \to A$ va

$$\lim_{n\to\infty} \frac{a_1 + 2a_2 + \cdots + na_n}{n} = 0 \ (3)$$

shart bajarilsa, u holda $A_n \to A$ bo‘ladi.

Avvalo, (3) shart, oson isbotlanadigan quyidai tenglikdan kelib chiqishi isbotlanadi:

$$A_n - \alpha_n = \frac{a_1 + 2a_2 + \cdots + na_n}{n}$$

Haqiqatan,

$(n+1)[A_n - \alpha_n] = (n+1)A_n - (A_0 + A_1 + \cdots + A_n) = (A_n - A_0) + (A_n -$

$-A_1) + \ldots + (A_n - A_{n-1}) = (a_1 + a_2 + \cdots + a_n) + (a_2 + \ldots + a_n) + \ldots + a_n = a_1 + 2a_2 +$
$\ldots + na_n$

ingliz matematigi G.Xardi $\alpha_n \to A \ dan \ A_n \to A$ ning kelib ciqish shartlari nafaqat oldingi teoremalarda isbotlangan $a_n = o(n)$ kelib chiqishini xattoki undan kengroq ma’noda bo‘lgan

$$|ma_m| < c \ (c = const, m = 1,2,3, \ldots) \ (4)$$

dan kelib chiqishini ko‘rsatgan.

Biz (4) tengsizlikning bir tomonlama bajarilishi ham yetarli ekanligini ko‘rsatamiz. Agar (A) qator Chezaro ma’nosinida jamlanuvchi bo‘lib uning umumlashgan yig‘indisi A ga teng bo‘lishi uchun

$$|ma_m| > -c \ (c = const, m = 1,2,3, \ldots) \ (5)$$

bo‘lishi va bir vaqtda

$$\sum_{n=0}^{\infty} a_n = A$$

bo‘lishi zarur.

Teorema. Qator hadlarining ishoralarini o‘zgartirib, (5) shart o‘rniga

$$ma_m < c \ (6)$$

shartni keltirish mumkin.

Isbot. Quyidagi yig‘indini qaraymiz:

$$S = \sum_{m=n+1}^{n+k} A_m$$

Bu yerda n va k lar ixtiyoriy natural sonlar. Bu yig‘indini ayniy almashtirishlar bajarib, quyidagi holga keltiramiz:

$$S = \sum_{m=n+1}^{n+k} A_m = \sum_{m=0}^{n+k} A_m - \sum_{m=0}^{n} A_m = (n+k+1)\alpha_{n+k} - (n+1)\alpha_n =$$

$$= k\alpha_{n+k} + (n+1)(\alpha_{n+k} - \alpha_n) \ (7)$$

Har qanday n<m≤n+k lar va (6) shartga ko‘ra $(a_m > -\frac{c}{m})$ A_m ni

quyidan baholash mumkin.

$$A_m = A_n + (a_{n+1} + \cdots a_m) > A_n - \frac{k}{n}c$$

Bu tengszlikni har ikkal tarafini m bo‘yicha yig‘ib chiqsak,

$$S > kA_n - \frac{k^2}{n}c$$

hosil bo‘ladi. Bu tengszlikni (7) tenglik bilan solishtirib

$A_n < \alpha_{n+k} + \frac{n+1}{k}(\alpha_{n+k} - \alpha_n) + \frac{k}{n}c \ (8)$

ni hosil qilamiz. Endi n ni ∞ gacha ortirib va k ni shunday tanlaymizki, $\frac{k}{n} < \varepsilon, \forall \varepsilon > 0$ bo‘lsin. Shunday qilib yetarlicha katta n lardan

$$A_n < A + 2\varepsilon c \ (9)$$

Xuddi shuningdek, $S' = \sum_{m=n-k+1}^{n} A_m$

yig‘indidan foydalanib, $A_m, (n-k < m < n)$ ni yuqoridan baholash mumkin.

Haqiqatan,

$$S' = \sum_{m=n+1}^{n} A_m = k \cdot a_{n-k} + (n+1)(\alpha_n - \alpha_{n-k})$$

yig‘indi va teorema sharti (6) ga ko‘ra

$$A_m = A_n - (a_{m+1} + \cdots + a_n) < A_n + \frac{k}{n-k} c$$

va

$$S' < kA_n - \frac{k^2}{n-k} c$$

tengszliklardan

$$A_n > \alpha_{n-k} + \frac{n+1}{k}(\alpha_{n+k} - \alpha_n) + \frac{k}{n-k} c$$

kelib chiqadi. Agar n ni ∞ gacha ortirib va $\frac{k}{n} < \varepsilon$ deb olsak tenglikning o‘ng tarafi $A - \frac{\varepsilon}{1-\varepsilon} c$ ga intiladi, bu quyidan $A - 2\varepsilon c$ bilan chegaralangan. Shunday qilib,

$$A_n > A - 2\varepsilon c \ (10)$$

kelib chiqadi. (9) va (10) teoremani isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г. М. Фихтенгольц Курс дифференциального и интегрального исчисления. 2- том., Москва, “Наука”, 1966г.

2. Sh. Alimov, R. Ashirov. Matematik analiz, 1,2,3-tom, Toshkent, “Mumtoz so‘z”, 2018y.

3. Норжигитов Ҳ., Аҳадкулова Ж. Узоқлашувчи қаторларни жамлаш. Polish seience journal, Issue 2(35), Part 3, pp.266-270, 2021y.

GALILEY TEKISLIGIDA AYLANAGA TASHQI CHIZILGAN UCHBURCHAK

Nurbayev A.R., Sayfullayev B.Sh.

[1,2]Guliston Davlat Universiteti, o‘qituvchi

Evklid tekisligida bir to‘ri chiziqda yotmagan $A(a_1,a_2)$, $B(b_1,b_2)$ va $C(c_1,c_2)$ nuqtlarda berilgan bo‘lsin. Shu nuqtalardan o‘tuvchi $y=ax^2+bx+c$ parabolaning mavjud bo‘lishi

$$\begin{cases} a_1^2 a + a_1 b + c = a_2 \\ b_1^2 a + b_1 b + c = b_2 \\ c_1^2 + c_1 b + c = c_2 \end{cases} \quad (1)$$

tenglamalar sistemasining yechimga ega bo‘lish shartiga bog‘liqdir (1) ni a,b va c larga nisbatan bir jinsli bo‘lmgan tenglamalar sistemasi deb hisoblash mumkin. Bir jinsli bo‘lmagan sistema ma’no yechimga ega bo‘lishligi uchun uning asosiy determinant noldan farqli bo‘lishligi kerak ya’ni

$$\begin{vmatrix} a_1^2 & a_1 & 1 \\ b_1^2 & b_1 & 1 \\ c_1^2 & c_1 & 1 \end{vmatrix} \neq 0 \quad (2)$$

(2) detirminant Vironiskiy detirminanti deb ataladi va doimo noldan farqli. Demak $A(a_1,a_2)$, $B(b_1,b_2)$ $C(c_1,c_2)$ nuqtalardan o‘tuvchi yagona parabola mavjud.

Galiley tekisligidagi(G_2) aylana bu evklid tekisligidagi parabola bo‘ladi [1]. Evklid fazosidagi aylana xossalari galiley fazosida parabola bilan ustma ust tushadi. Shuning uchun biz galiley

tekisligida parabolani shartli ravishda aylana deb ataymiz. Demak galiley tekisligida bir to‘ri chiziqda yotmagan har qanday uchta nuqtadan o‘tuvchi parabola mavjud va yagonadir. G_2 dagi parabolaga tegishli A,B,C nuqtalarni berilgan nuqtalar deb faraz qilsak ular orqali o‘tuvchi parabola (aylana) ABC uchburchakka tashqi chizilgan aylana deb ataladi.

Buning uchun $|AC|$ kesmani berilgan kesma deb faraz qilsak bu kesma bir xil α burchak ostida ko‘rinuvchi nuqtalar to‘plami ABC uchburchakka tashqi chizilga aylanani hosil qiladi. [2]

Evklid tekisligida uchburchakka ichki chizilgan aylana uchburchak tomonlariga urinadi. [3] Galiley tekisligida ham uchburchakka ichki chizilgan aylana uchburchak tomonlariga o‘rinadi. Urinma quyidagi shaklda bo‘ladi. Chizmadagi AB tomonning biror F nuqtasida va AB hamda BC tomonlar orqali o‘gan to‘g‘ri chiziqlarga E va D nuqtalarda o‘rinsin.

Galiley tekisligidagi aylanaga unga tegishli bo‘lmagan C nuqtadan o‘tkazilgan CE va CD urinma to‘g‘ri chiziqlarning $|CE|$ va $|CD|$ kesmalarning uzunliklari teng bo‘ladi. Buni tezroq tushunish uchun evklid tekisligida berilgan aylana unga tegishli bo‘lmagan M nuqtadan o‘tkazilgan urinmalarning uzunliklari teng bo‘lishini eslash yetarli.

ABC uchburchakning CM balandligi OY o‘qqa parallel bo‘lib DE kesmani M nuqtada teng ikkiga bo‘ladi. Ya’ni CM ham balandlik ham mediana bo‘ladi ABC uchburchakka AC+CB=AB ekanligidan AB-eng katta tomondir.

CD+CE=(CB+BD)+(CA+AE)=CB+BF+CA+AF=CB+CA+(BF+AF)=CB+CA+AB U holda CD=CE=$\frac{a+b+c}{2}=\frac{c+c}{2}=\frac{2c}{2}=c=a+b$

AE=CE-CA=a, BD=CD-CB=b, AF=AE va BF=BD u holda AF=a, BF=b bu munosabatlar D,E va F nuqtalarni joylagan o‘rnini to‘liq aniqlaydi. Endi har qanday vaziyatda ham DEF uchburchakka tashqi chizilgan uchburchak mavjud ekanligini ko‘rsataylik bu yerda $\angle DEF=\angle DEC-\angle FEA$ teng yonli DEC va FEA uchburchaklardan $\angle DEC=\frac{c}{2},\angle FEA=\frac{A}{2}$

Ikkinchi tomondan DFB uchburchakdan $\angle$FDB=$\frac{\angle B}{2}$ shuning uchun DB=a tomon DF vatar bilan $\angle$FDB=$\frac{\angle B}{2}$ burchak hosil qiladi.

Demak aylana nuqtalarni α=$\frac{\angle B}{2}$ burchak ostida ko‘rinuvchi nuqtalar to‘plami deb qarash mumkin. Ma’lumki [2] yevklid tekisligida uchburchakka ichki va tashqi chizilgan aylana radiusini shu uchburchak tomonlari va yo‘zasi orqali ifodalash mumkin ya’ni $\frac{a}{\sin A}=\frac{b}{\sin B}=\frac{c}{\sin C}=2R\Rightarrow R=\rightarrow\frac{abc}{4s}$ shu munosabatlarni galiley tekisligida ko‘rinishlarini topaylik. Bu tekislikdagi sinuslar teoremasidan

$$\frac{a}{A}=\frac{b}{B}=\frac{c}{C}=2R$$

Bu yerda R tashqi aylana radiusi

R=$\frac{a}{2A}=\frac{abc}{2A(bc)}=\frac{abc}{2\cdot 2S}=\frac{abc}{4S}$ (3)

(3) dan, a=2AR,b=2BR,c=2CR larni topib

R=$\frac{abc}{4S}=\frac{2AR\cdot 2BR\cdot 2CR}{4S}=\frac{2ABC}{S}\cdot R^3$

$R^2=\frac{S}{2ABC}$ oxirgi tenglama ABC uchburchakning tashqi chizilgan aylana radiusini shu uchburchak yuzasi ham ichki burchaklari orqali ifodasidir.

G_2 fazosida uchburchakka ichki chizilgan aylananing radiusini topish masalasiga to‘xtalamiz. Bunda aylanani $y=Rx^2$ parabola sifatida tanlaymiz. Bizga ma’lumki yevklid tekisligida uchburchakka ichki chizilgan aylana masalasini ko‘rganimizda uchburchak tomonlari aylananing urinmalari ichida yotardi. Boshqacha aytganda aylanaga tashqi chizilgan uchburchak deb shu

aylananing 3ta urinmasi kesishishidan hosil bo‘lgan geometrik shaklni qaraymiz. Endi keltilgan xulosani galiley tekisligida qo‘llasak aylanaga tashqi chizilgan uchburchak $y = Rx^2$ parabolaning uchta urinmasi kesishishidan hosil bo‘ladi.(1-rasm)

1-rasm.



Chizmadan ko‘rinib turibdiki hosil bo‘lgan uchburchagimizning A’,B’,C’ uchlari parabolamizning M_1, M_2, M_3 nuqtalariga o‘tkazilgan urinmalar keshishish nuqtasi. Endi shu uchburchakka ichki chizilgan aylananing radiusini topish masalamizga qaytamiz.

Dastlab aylanaimizning urinmalarini topib olamiz:

$$l_1: y = y_1 + 2Rx(x - x_1) = Rx_1(2x - x_1)$$
$$l_2: y = y_2 + 2Rx(x - x_2) = Rx_2(2x - x_2)$$
$$l_3: y = y_3 + 2Rx(x - x_3) = Rx_3(2x - x_3)$$

$A' \to l_1 = l_2$

$$\begin{cases} y = Rx_1(2x - x_1) \\ y = Rx_2(2x - x_2) \end{cases}$$

Bu sistemani ishlab A’ nuqtaning koordinalarini topib olamiz.

$$A'\left(\frac{x_1+x_2}{2}; Rx_1x_2\right), B'\left(\frac{x_1+x_3}{2}; Rx_1x_3\right), C'\left(\frac{x_2+x_3}{2}; Rx_2x_3\right)$$

$$S=\frac{1}{2}\begin{vmatrix} \frac{x_1+x_2}{2} - \frac{x_2+x_3}{2} & \frac{x_1+x_3}{2} - \frac{x_2+x_3}{2} \\ Rx_1x_2 - Rx_2x_3 & Rx_1x_3 - Rx_2x_3 \end{vmatrix} = \frac{R}{4}(x_1 - x_3)(x_1 - x_2)(x_3 - x_2)$$

$$a'=|x'_3 - x'_2| = \left|\frac{x_2+x_3}{2} - \frac{x_1+x_3}{2}\right| = \left|\frac{x_2-x_1}{2}\right|$$

$$|x_2 - x_1| = 2a'$$
$$|x_3 - x_1| = 2b'$$
$$|x_3 - x_2| = 2c'$$
$$S=\frac{R}{4} * 2a' * 2b' * 2c' = 2a'b'c'R$$

$$R = \frac{1}{2R'} = \frac{S}{2a'b'c'}$$

Foydalinilgan adabiyotlar

1. A.V.Khachaturyan “Geometriya Galileya” Moskva 2005

2. Artikbayev A.,Sokolov D.D “Geometriya v tselom v ploskom prostranstve -vremeni” Tashkent, Fan,1991.180

3. A.R.Nurbayev. Properties of Special Elippsoids Family.uropean Academic Research. Vol VII, Issue 8/November

2018.pp-4833-4834.

4. A.R.Nurbayev, B.Ibragimov ,,Galiley harakatidagi parabolaning xossalari” “Akademik litsey va o‘rta ta’lim muassasalarida aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan yo‘nalishlarda ta’lim sifativa samaradorligini oshirish muammolari va yechimlari” mavzusidagi ilmiy amaliy seminar. 2021y 10-may

KECHIKUVCHI ARGUMENTLI XUSUSIY HOSILALI KVAZICHIZIQLI TENGLAMA UCHUN ARALASH MASALA

Qalandarov A., Anorbayev M

GulDU, Normatov M. 4-kurs talabasi.

Maqolada kechikuvchi argumentli giperbolik turdagi kvazichiziqli quyidagi tenglamaning $Q=\{\tau\le t\le T, 0\le x\le l_1, 0\le y\le l_2\}$ sohada

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}=a^2\left(\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u}{\partial y^2}\right)+b^2\left(\frac{\partial^2 u(t-\tau,x,y)}{\partial x^2}+\frac{\partial^2 u(t-\tau,x,y)}{\partial y^2}\right)+$$
$$+f(t,x,y,u(t,x,y),u(t-\tau,x,y)) \quad (1)$$

$(t,x,y)\epsilon E=\{0\le t\le \tau, 0\le x\le l_1, 0\le y\le l_2\}$ bo‘lganda boshlang’ich

$$\left.\begin{matrix} u(t,x,y)=\varphi(t,x,y) \\ u_t(t,x,y)=\varphi_t'(t,x,y)\end{matrix}\right\} \quad (2)$$

berilgan boshlang’ich shartlarni va $\tau\le t\le T$ bo‘lganda

$$\left.\begin{matrix} u(t,0,y)=0 \\ u(t,l,y)=0\end{matrix}\right\} 0\le y\le l_2 \quad \left.\begin{matrix} u(t,x,0)=0 \\ u(t,x,m)=0\end{matrix}\right\} 0\le x\le l_1 \quad (3)$$

bir jinsli chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini chekli-ayirmali usulda topish masalasi o‘rganilgan. Bu masalani klassik, deyarli va umumlashgan yechimlarini mavjudligi va yagonaligi masalasi [2] da muallif tomonidan tatqiq etilgan. Q sohani to‘rlaymiz: $t_k=k\tau, x_i=i\Delta$, $y_j=jh$ deb, to‘rlangan funksiya uchun $u(t_k,x_i,y_j)=u_{ij}^k$ belgilashlarni kiritamiz, k=0,1,2,…, M, i=0,1,2,…,N, j=0,1,2,…,P, $M\tau=T, N\Delta=l_1$, $Ph=l_2$

(2) boshlang‘ich shartlardan $(t,x,y)\epsilon E$ bo‘lganda(k=0 va k=1 da)

$$u_{ij}^0=\varphi(0,x_i,y_j)\ \frac{u_{ij}^1-u_{ij}^0}{\tau}\approx\varphi_t'(\tau,x_i,y_j) \quad (4)$$
$$u_{ij}^1\approx u_{ij}^0+\tau\varphi_t'(\tau,i\Delta,jh)=\varphi(0,i\Delta,jh)+\tau\varphi_t'(\tau,i\Delta,jh) \quad (5)$$

(3) chegaraviy shartlardan

$$u_{0j}^k=0\ ,\ u_{Nj}^k=0\ ,\ u_{i0}^k=0\ ,\ u_{ip}^k=0 \quad (6)$$

qiymatlarga ega bo‘lamiz. Q sohaning yon tomonlari va asosida $u(t,x,y)$ ning qiymatlari berilgan. Yuqoridagilardan foydalanib Q sohaning ichki tugun nuqtalarida $u(t,x,y)$ ning sonli qiymatlarini topamiz.

Umumiylikka halal bermasdan quyidagi oshkormas sxemalardan foydalanishimiz mumkin:

$$\frac{u_{ij}^{k+1}-2u_{ij}^k+u_{ij}^{k-1}}{\tau^2}=a^2\left(\frac{u_{i+1,j}^{k+1}-2u_{ij}^{k+1}+u_{i-1,j}^{k+1}}{\Delta^2}+\frac{u_{i,j+1}^k-2u_{ij}^k+u_{i,j-1}^k}{h^2}\right)+$$
$$+b^2\left(\frac{u_{i+1,j}^k-2u_{ij}^k+u_{i-1,j}^k}{\Delta^2}+\frac{u_{i,j+1}^k-2u_{ij}^k+u_{i,j-1}^k}{h^2}\right)+f_{ij}^k \quad (7)$$

yoki

$$\frac{u_{ij}^{k+1}-2u_{ij}^k+u_{ij}^{k-1}}{\tau^2}=a^2\left(\frac{u_{i+1,j}^k-2u_{ij}^k+u_{i-1,j}^k}{\Delta^2}+\frac{u_{i,j+1}^{k+1}-2u_{ij}^{k+1}+u_{i,j-1}^{k+1}}{h^2}\right)+$$
$$+b^2\left(\frac{u_{i+1,j}^k-2u_{ij}^k+u_{i-1,j}^k}{\Delta^2}+\frac{u_{i,j+1}^k-2u_{ij}^k+u_{i,j-1}^k}{h^2}\right)+f_{ij}^k \quad (7_1)$$

kelib chiqadi. Bu yerda $f_{ij}^k=f(k\tau,i\Delta,jh,u(k\tau,i\Delta,jh),u\big((k-1)\tau,i\Delta,jh\big))$

$\tau\le t\le 2\tau$ bo‘lganda, yuqoridagi oshkormas sxemaga haydash usulini qo‘llaymiz.

(7) sxemada *k*=1 da

$$u_{ij}^2 - 2u_{ij}^1 + u_{ij}^0 = \frac{a^2\tau^2}{\Delta^2}\left(u_{i+1,j}^2 - 2u_{ij}^2 + u_{i-1,j}^2\right) +$$
$$+\frac{a^2\tau^2}{h^2}\left(u_{i,j+1}^1 - 2u_{ij}^1 + u_{i,j-1}^1\right) + \frac{b^2\tau^2}{\Delta^2}\left(u_{i+1,j}^1 - 2u_{i,j}^1 + u_{i-1,j}^1\right) +$$
$$+\frac{b^2\tau^2}{h^2}\left(u_{i,j+1}^1 - 2u_{i,j}^1 + u_{i,j-1}^1\right) + \tau^2 f_{ij}^1 \ (8)$$

U holda, ayirmali tenglamaning ko‘rinishini quyidagicha bo‘ladi:

$$a_{ij}^1 u_{i-1,j}^2 + b_{ij}^1 u_{i,j}^2 + c_{ij}^1 u_{i+1,j}^2 = F_{ij}^1 \ (9)$$

Bu yerda, $a_{ij}^1, b_{ij}^1, c_{ij}^1, F_{ij}^1$-koeffitsientlar (8) ifodadan kelib chiqadigan o‘zgarmas sonlar bo‘ladi. (9) dan *j*= 1 deb

$$a_{i1}^1 u_{i-1,1}^2 + b_{i1}^1 u_{i,1}^2 + c_{i1}^1 u_{i+1,1}^2 = F_{i,1}^1 \ (10)$$

bu ayirmali tenglamani yechishga haydash usulini qo‘llaymiz:

i=1 da, $a_{11}^1 u_{01}^2 + b_{11}^1 u_{11}^2 + c_{11}^1 u_{21}^2 = F_{11}^1 \ (11_1)$

bundan u_{11}^2 ni u_{21}^2 orqali chiziqli ifodalaymiz

$$u_{11}^2 = L_{11}^1 u_{21}^2 + K_{11}^1 \ (12_1)$$

ifodaga ega bo‘lamiz, bunda

$$L_{11}^1 = -\frac{c_{11}^1}{b_{11}^1}, K_{11}^1 = \frac{F_{11}^1}{b_{11}^1} \ (13_1)$$

i=2 da, (10) dan

$$a_{21}^1 u_{11}^2 + b_{21}^1 u_{21}^2 + c_{21}^1 u_{31}^2 = F_{21}^1 \ (11_2)$$

(12_1) dan foydalansak

$$a_{21}^1(L_{11}^1 u_{21}^2 + K_{11}^1) + b_{21}^1 u_{21}^2 + c_{21}^1 U_{31}^2 = F_{21}^1$$

Endi u_{21}^2 ni u_{31}^2 orqali chiziqli ifodalaymiz

$$u_{21}^2 = L_{21}^1 u_{31}^2 + K_{21}^1 \ (12_2)$$

hosil bo‘ladi, bunda,

$$L_{21}^1 = -\frac{c_{21}^1}{a_{21}^1 L_{11}^1 + b_{21}^1}, K_{21}^1 = \frac{F_{21}^1 - a_{21}^1 K_{11}^1}{a_{21}^1 L_{11}^1 + b_{21}^1} \ (13_2)$$

va h.k. i=N-1 bo‘lganda

$$a_{N-1,1}^1 u_{N-2,1}^2 + b_{N-1,1}^1 u_{N-1,1}^2 + c_{N-1,1}^1 u_{N1}^2 = F_{N-1,1}^1 \ (11_{N-1})$$
$$a_{N-1,1}^1(L_{N-2,1}^1 u_{N-1,1}^2 + K_{N-2,1}^1) + b_{N-1,1}^1 u_{N-1,1}^2 + c_{N-1,1}^1 u_{N1}^2 = F_{N-1,1}^1$$

bundan

$$u_{N-1,1}^2 = L_{N-1,1}^1 u_{N1}^2 + K_{N-1,1}^1 \ (12_{N-1})$$

$$L_{N-1,1}^1 = -\frac{c_{N-1,1}^1}{a_{N-1,1}^1 L_{N-2,1}^1 + b_{N-1,1}^1}, K_{N-1,1}^1 = \frac{F_{N-1,1}^1 - a_{N-1,1}^1 K_{N-2,1}^1}{a_{N-1,1}^1 L_{N-2,1}^1 + b_{N-1,1}^1} \ (13_{N-1})$$

Haydash koeffitsientlar - L_{i1}^1, K_{i1}^1 to‘g‘ri usulda (13_i) formuladan o‘sish tartibida topib boriladi. Shu zaylda davom etib, i=N-1 bo‘lganda $u_{N-1,1}^2$ ni (12_{N-1}) ifodadan u_{N1}^2 qiymati ma’lum bo‘lganligi uchun topiladi, u_{i1} qiymatlari teskari usulda topib boriladi. Shunday qilib j=1 bo‘lgandagi jarayon tugatiladi. So‘ngra *j*=2 bo‘lganda yuqoridagi jarayon davom ettirilib u_{i2}^2 lar topiladi, va h.k. u_{iP}^2 lar birinchi qatlamda topib boriladi.

$2\tau \leq t \leq 3\tau$ bo‘lganda, yuqoridagi (7) oshkormas sxemaga haydash usulini qo‘llaymiz. k=2 bo‘lganda barcha yuqoridagi jarayonlar takrorlanib ikkinchi qatlamda u_{ij}^3 topiladi va h.k. u_{ij}^k hisoblab chiqiladi.

Yuqoridagi (7_1) ayirmali sxemadan foydalanib u_{ij}^k hisoblab chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Isroilov, Hisoblash metodlari. 2-tom. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2008
2. A.Kalandarov, Smeshannaya zadacha dlya giperbolicheskix uravneniy s zapazdivayushimsya argumentami. Baku. Uchyoniye zapiski AGU, 1975 y.

CHIZIQLI REGRESSIYA MODELLARIDA NOMA’LUM PARAMETRLARNI KICHIK KVADRATLAR USULIDA BAHOLASH

S. B. Bozorov

Gulistan Davlat Universiteti tayanch doktoranti,

$Y = g(x)$ ko‘rinishidagi bog‘liqlikni X va Y o‘zgaruvchilar orasidagi juftlik bog‘liqlik deb qarash mumkin. Bunday bog‘liqliklar tabiiy, texnik fanlarda, ishlab chiqarish va fan integratsiyasini yanada rivojlantirishda ko‘p uchratish mumkin.

Biz keltirib o‘tgan bunday bog‘liqliklar funksional deterministik, ya’ni tasodifiyatga bog‘liq bo‘lmagan bog‘liqliklarga misol bo‘la oladi. Bu turdagi bog‘liqliklar shu bilan xarakterlidirki, ularda o‘zgaruvchilardan birining har bir qiymatiga ikkinchisining aniq bir qiymati mos keladi. Ammo tabiatda, jamiyatda va boshqa amaliyot bilan bog‘liq sohalarda o‘zgaruvchilar orasidagi shunday bog‘liqliklar mavjudki, ulardan birining qiymatiga boshqasining aniq bir qiymati mos kelmasligi mumkin. Masalan, yerga solinayotgan o‘g‘it miqdori bilan hosildorlik orasida aniq funksional bog‘liqlik mavjud emas. Boshqacha qilib aytganda, ma’lum miqdordagi o‘g‘itni bir necha bir xil o‘lchamdagi yer uchastkasiga solinsa ham, hosildorlik turlicha bo‘lishi mumkin. Xuddi shunday, inson bo‘yi va uning og‘irligi orasidagi bog‘liqlikni biror aniq formula bilan ifodalab bo‘lmaydi. Bunday noaniqliklar mavjudligidagi bog‘liqlikni stoxastik yoki statistik bog‘liqlik deb ataladi. Demak, bunday bog‘liklar shunisi bilan xarakterli ekanki, ulardan birining o‘zgarishi boshqasining taqsimoti o‘zgarishiga olib kelar ekan. Odatda bunday bog‘liqliklar tajribalar o‘tkazilishi natijasida aniqlanadi. Bunday jadvallar korrelyatsiya jadvallari deb ataladi. O‘rganilayotgan kattaliklar X va Y bo‘lsin. Ular odatda belgilar yoki faktorlar deb ataladi.

материалов. Работа студента с пособием организована следующим образом: после запуска программы появляется экран с двумя вертикальными и одним горизонтальным фреймами. Горизонтальный фрейм содержит кнопки навигации, информацию о дате; левый вертикальный фрейм содержит ссылки на курсы лекций по необходимым дисциплинам, на информацию о программе и ее авторах; а правый вертикальный фрейм служит для непосредственного отражения необходимой информации. В левом фрейме студент выбирает курс лекций по необходимой ему дисциплине, вслед за этим в том же фрейме загружается список лекций и прилагаемых к ним контрольных заданий, после выбора которых в правом фрейме выводится содержание этих лекций или контрольных заданий, необходимых для усвоения учебного материала. Создание этих программ позволило повысить интерес студентов к изучению предмета. Следующим этапом разработки электронной версии являются программы, объединяющие лекции и различные тесты. Важным направлением внедрения ЭВМ в обучение русскому языку являются тесты, созданные на основе редактора таблиц MS Excel, содержащие варианты ответов на поставленные вопросы. На экране в реальном времени отображаются результаты тестирования. Компьютерный вариант учебного пособия содержит достаточно большое количество тестов: от самых простых до достаточно сложных. Выполнение теста занимает максимум одну минуту. Разработана экспериментальная модель электронного учебного пособия по Практическому курсу русского языка для студентов 1-го курса отделения Биология факультета Естествознания. Пособие состоит из списка тем, каждый из которых содержит в себе список лекций по каждой теме, учебных материалов, рекомендаций по организации самостоятельной работы, контрольных заданий по каждой теме. Тематика текстов разнообразна - это отрывки из художественной литературы, статьи из журналов по биологии, экологии, газет. Например, для работы с первокурсниками используются тексты о достижениях науки и техники в области биологии Узбекистана, о совместных проектах и предприятиях, из истории биологии, о новейших методах лечения в медицине, такие, как "Лечива - Фармсаноат", "Достижения в области биологии в независимом Узбекистане", "Лазер на службе медицине", "Из истории развития биологии как науки", " Абу Али Ибн Сина", "Академик В.В. Вахидов", "Биология - наука особая", "Аральское море", "Женщина, здоровье, экология" и т.д. Объем текстов различен. Они могут быть как краткими, так и длинными - от одной до полутора страниц. Преимущество длинных текстов - они позволяют рассредоточить пройденный словарный материал, увеличить повторяемость лексики, способствуют появлению у студентов правильной догадки значения новых слов по контексту. Например, при работе с текстом "Природа и мы" студенты получают такие задания, как: 1. Объясните правописание слов круговорот, естествознание, природоведение, солнцестояние и т.д. К какой части речи они относятся? От каких слов они образованы? Какие это слова по составу? 2. Переведите эти слова на родной язык, пользуясь словарем лингвистических терминов. 3. Игра: Кто больше напишет биологических терминов? (Перед игрой предлагается работа с таблицей биологических терминов – природные катаклизмы, небесные тела, клетка, цитоплазма, микроскоп, цветочное опыление и т.д. Задания, предлагаемые к тексту, должны акцентировать внимание студентов на правильном чтении материала, усвоении специальной лексики, умении беседовать по пройденной теме с включением слов из текста в устную речь. Содержание текстов должно способствовать углублению знаний терминологии по специальности, вырабатывать умения самостоятельно осознанно читать доступную их возрасту научную литературу. Тесты для чтения должны быть адаптированы. Для работы на занятиях могут быть использованы материалы газет "Домашний доктор", "Аргументы и факты", "Медицинского журнала Узбекистана", журнала "Вокруг света» и др. В ходе работы мы выявили некоторые трудности, возникающие при подготовке компьютерных учебных пособий, и сделали следующие выводы: • разработка должна вестись группой создателей (составитель текста, разработчик методики, художник, психолог, программист); • лучше использовать не язык программирования, а более или менее приспособленную интегрированную среду; • занятия по объяснению нового материала должны представлять не просто текст на экране компьютера, а набор операций, в результате выполнения которых студент усваивает новое понятие. Вывод. Таким образом, в связи с применением современных компьютерных и телекоммуникационных технологий в сфере образования происходят существенные изменения в преподавательской деятельности, то

есть усложняется деятельность по разработке учебных курсов, усиливаются требования к качеству учебных материалов, усиливается функция поддержки студента. В Гулистанском государственном университете разработана и внедряется программа внедрения современных педагогических технологий в учебный процесс. Подготовленные согласно этой программе методические разработки практических занятий по практическому курсу русского языка для студентов 1-го курса нефилологических факультетов являются начальным этапом разработки учебных курсов на базе современных технологий; на следующем этапе реализации программы внедрения современных педагогических технологий в учебный процесс предусматривается разработка электронных учебно- методических комплексов.

Список литературы:
1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Т.,2000.
2. Беспалько В.П., Педагогика и прогрессивные технологии обучения, М.,1995.

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА ИЛМ-ФАН ИНТЕГРАЦИЯСИ ЮТУҚЛАРИ – ТАРАҚҚИЁТНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Жонзоқова Сайёра Анваровна
Гулистон давлат университети, Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси.

Ҳозирги глобаллашув, кескин рақобат шароитларида миллий иқтисодиётнинг юқори суръатларда барқарор ривожланишини таъминлашда фан-техника ютуқларидан самарали фойдаланиш, уларни ишлаб чиқаришга кенг жорий қилиш биринчи даражали аҳамият касб этади.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раҳнамолигида фан ва ишлаб чиқариш ҳамкорлигини мустаҳкамлаш, таълим тизимини ривожлантириш, инновацион иқтисодиёт тараққиётига алоҳида эътибор қаратилганини эътироф этиш мумкин [1].

Бугунги замон барча соҳалар қаторида илм-фанни ҳам янги босқичга кўтаришни талаб қилмоқда. Зотан, жамият олдида турган долзарб масалаларни илм-фансиз ечиш қийин. Мазкур соҳани ва олимларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш давлатимизнинг устувор вазифаларидандир. Бу борадаги ишлар бугун изчил ва тизимли равишда давом эттирилмоқда.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг яқинда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси академиклари фаолиятини такомиллаштириш ва рағбатлантириш тўғрисидаги фармонида мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий тараққиётида илм-фаннинг ўрнини янада мустаҳкамлаш, академиклар фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, юқори малакали илмий кадрлар тайёрлаш сифатини оширишни рағбатлантириш мақсадида бир қатор муҳим чора-тадбирлар белгиланган.

Илм-фан билан шуғулланиш, янги кашфиёт ва ихтиролар қилиш игна билан қудуқ қазишдек гап, деди Президентимиз. Шундай экан, бу машаққатли соҳада фидокорона меҳнат қилаётган олимларимиз меҳнати таҳсин ва рағбатга муносиб [1].

Мамлакатимиз ва жамиятимизнинг замон талаблари даражасида ривожланишини илм-фансиз тасаввур қилиш қийин. Илм-фан тараққиётида фундаментал тадқиқотлар муҳим аҳамият касб этади. Айнан улар орқали янги билимлар ўзлаштирилади ва назариялар шакллантирилади, келгуси амалий тадқиқотлар ва инновацион ишланмалар учун мустаҳкам асос яратилади.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган тадқиқотларнинг ҳаммасини ҳам илм-фаннинг бугунги юқори ривожланиш даражасига тўла жавоб беради, деб бўлмайди. Юқори технологик илмий маҳсулотларни амалиётга жорий этиш учун янги замонавий тажриба-ишлаб чиқариш, конструкторлик-технологик ташкилотлар ҳамда инновация марказларини ташкил этиш зарур. Маркетинг ва лицензиялаш хизматлари талаб даражасида эмас. Бу мамлакатимиз илмий-инновацион маҳсулотларини амалиётга кенг татбиқ этишда яққол сезилмоқда.

Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини янада такомиллаштириш муҳимлиги алоҳида қайд этилди. Янги технологияларни жорий қилувчи корхоналарга имтиёзлар ва преференциялар бериш илм-фанга инвестиция киритадиган корхоналар сони сезиларли даражада ошишида муҳим аҳамият касб этади. Мавжуд илмий салоҳият ва маблағларни

иқтисодиёт тармоқларининг буюртмалари ва муайян муаммоларни ечишга қаратилган энг муҳим устувор тадқиқотларга йўналтириш зарур [2].

Жаҳоннинг етакчи институтлари, университетлари, илмий марказлари ва Фанлар академиялари билан илмий ҳамкорликни янада ривожлантиришни замоннинг ўзи талаб қилмоқда, деди Президентимиз. Хорижнинг етакчи ўқув ва илмий муассасаларида таълим ва илмий даража олган юртдошларимиз учун мамлакатимизда қулай шарт-шароитлар яратиб бериш, уларни рағбатлантириш чораларини кўриш керак.

Мамлакатимизда юқори салоҳиятга эга, жаҳон миқёсида эътироф этилган олимлар кўп. Улар ўз мактабларини яратиши, шогирдлар тарбиялаши лозим. Ёш авлодни салоҳиятли кадрлар этиб тарбиялашдаги биринчи босқич – мактаб таълимини тубдан такомиллаштириш, илмий кадрлар ва юксак малакали мутахассислар тайёрлаш жараёнининг узлуксизлигини таъминлаш зарур. Бу йўлда ҳеч нарсани аямаймиз, деди давлатимиз раҳбари.

Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёевнинг сайловолди учрашувларида илгари сурилган таклифлар, жумладан, замонавий технопарклар, Академиклар шаҳарчасида эркин иқтисодий ҳудуд мақомига эга бўлган Инновацион марказ ташкил этиш бўйича ташаббуси илмий-тадқиқот институтлари, таълим муассасалари ва саноат корхоналарининг рақобатбардошлигини ошириш, соҳага маҳаллий ва хорижий инвесторларни кенг жалб этиш имконини бериши илм-фан аҳли томонидан алоҳида таъкидланди.

Мамлакатимиз иқтисодиётимизнинг барча соҳалари тараққиётида илм-фаннинг ўрни, аҳамияти ғоят катта экани, бу борада давлатимиз биринчи галда Фанлар академияси ва олимларга суянишини, фан ва ишлаб чиқариш ҳамкорлиги бугун ниҳоятда долзарб эканини алоҳида таъкидлади.

Фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг интеграциялашган тузилмасида давлат даражасида бевосита таълим ушбу шерикликнинг ҳал қилувчи бўғинидир. Шунинг учун ҳам тараққий этган давлатларда инновациявий иқтисодиётни ривожлантиришда илмий тадқиқот марказларига айланган университетлар асосий роль ўйнайди. Шу билан бирга олий таълим муассасаларида юқори технологияларга асосланган ишлаб чиқаришлар учун мутахассислар тайёрлашда билим бериш (таълим– фан) ва кўникма ҳосил қилиш (таълим–амалиёт) анъанавий тизими амал этишининг ўзи кифоя қилмай қолди [3].

Бугунги кунда инновациявий таълим бериш, яъни фан, таълим ва амалиётнинг интеграциялаштирилиши ҳам талаб қилинмоқда. Республикада илмий салоҳиятни янада ошириш билан бир қаторда олий ўқув юртлари таркибида янги лабораториялар ташкил этилмоқда, уларнинг тараққий этган давлатлар илмий марказлари билан самарали ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш ва кенгайтириш чора-тадбирлари кўрилмоқда. Мамлакат олимлари, шу жумладан олий ўқув юртларининг илмий марказлари ва лабораториялари жамоалари илм-фаннинг ғоят истиқболли йўналишлари– нано- ва биотехнологиялар, табиий муқобил энергиялардан фойдаланиш, замонавий ахборот технологиялари, дастурий таъминот каби соҳаларда жиддий изланишлар олиб бормоқдалар ва илмий ишланмаларини ишлаб чиқаришга жорий этишмоқда.

Адабиётлар:

1. Ш.М. Мирзиёев *Янги Ўзбекистон стратегияси*. Тошкент: "*O‘zbekiston*" нашриёти, 2021. – 464 б.

2. О.К.Абдурахманов, Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси. – Т.: «Fan va texnologiya». 2014, 228 бет.

3. Б.Ш.Усмонов. Олий таълимнинг инновацион фаолияти ва уни иқтисодиёт ривожланишидаги ўрни. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил.

SHARQ ALLOMALARINING XULQ-ATVOR HAQIDAGI QARASHLARI

S.Ch.Xaydarova

Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘tmishda ajdodlarimiz insoniyatning psixologik qonuniyatlarini muayyan ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganmagan bo‘lsalar-da, biroq allomalarning asarlari, qo‘lyozmalarida mazkur holatlarning yoritilishi, tahlili kuzatiladi. Hozirda biz sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o‘rganishga bo‘lgan intilishi kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida ularning qanday nazariy va amaliy ehtiyojlar bilan taqozo qilganligini, ba’zi qonuniyatlar qanday kashf etilganligini bilib olamiz. Ta’kidlash lozimki, allomalarning shaxs ma’naviy-ruhiy kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi kungacha o‘z o‘rni va ahamiyatiga egadir. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi mutafakkirlarning pedagogik-psixologik qarashlari bugungi kunda fan taraqqiyotining metodologik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Qur’oni Karim”, “Hadisi-sharif”larda ham inson xulq-atvorining salbiy jihatlari xususida qimmatli fikr-mulohazalar bildirilgan. “Qur’oni Karim”da insonni axloqiy kamolga etkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, aroqxo‘rlik va qimorbozlik, yolg‘onchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, chaqimchilik, g‘iybatchilik, ochko‘zlik kabilar xususida ham ibratli fikrlar bildirilgan. “Qur’on”da insonning ruhiy va ma’naviy kamolga yetishiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan biri g‘azab deb ko‘rsatiladi. U ruhiy razolat sifatida talqin etiladi. Chunki g‘azab kelganda aql qochadi, inson o‘z irodasini idora qila olmay qoladi, o‘z manfaati, obro‘sini himoya qilaman deb, johillikka yo‘l qo‘yadi. Hatto, g‘azab inson salomatligiga ham zarar etkazadi. Shuning uchun ham Islom insonni aql va insofga, bosiqlik bilan ish tutishga, o‘z hissiyotlarini boshqara olishga chaqiradi. Chunki g‘azab kelganda chiqarilgan hukm, amalga oshirilgan hatti-harakat johillik belgisi bo‘lib hisoblanadi. Hatto g‘azabni bosish bilan birga, g‘azabni qo‘zg‘agan shaxsni kechira olish darajasida o‘zini boshqara olish irodasiga ega bo‘lish kerakligi ham uqtiriladi.

“Ol-i Imron” surasining 134-oyatida “Yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, g‘azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarini) avf etadigan kishilardir. Alloh bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi” deyiladi. Demak, Islomda inson g‘azabi kelganda faqat o‘zini boshqara olish quvvatiga ega bo‘lishgina emas, kechiruvchilik xislatiga ega bo‘lishga ham chaqiriladi. Ana shunday insongina axloqan barkamol shaxs bo‘la oladi.

Abu Nasr Farobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmasligini, boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deb hisoblaydi. Bunga Farobiy ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Farobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo‘lishi kerakligini “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”gi risolasida shunday ta’riflaydi: “Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto‘g‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq-axloqni faqat so‘zdagina emas, balki haqiqatda tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so‘ng xato va adashishdan saqlovchi, haqiqat yo‘lini tushunib olishga boshlovchi (notiq-so‘zlovchi, fikrlash ma’nosida) nafsini, jonini, ruhini tozalash zarur”.

Abu Rayhon Beruniy ilmli, ma’lumotli kishi bo‘lishning o‘zini odob-axloq va nafosat bilan bog‘laydi. Uning dunyoqarashida axloq masalasi insonning eng asosiy sifatlari sifatida mujassamlashgan. Beruniyning fikricha, aqliy qobiliyatlar odamlarning kundalik ehtiyojlari asosida vujudga kelsa, axloqiy masalalar tarixiy taraqqiyot, odamlarning o‘zaro munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘ladi va rivojlanib boradi.

Abu Ali Ibn Sino axloqlikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta’riflaydi. Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta’rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo‘ladi, yomon illatlardan o‘zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga sahiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo‘’tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat’iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va

boshqalarni kiritadi. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga etadi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo‘lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o‘rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o‘ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Yusuf Xos Hojib olimlarni hurmat etish kerakligini ta’kidlab, ilm ahlini qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. Dunyoda inson bilim va zakovati tufayli orzu-tilaklarga, ulug‘likka erishish mumkinligini aytadi. Lekin shunday bilim va zakovatning qadriga faqat xuddi o‘zlariga o‘xshagan donolar va zakovatlilar etadi, johil va nodonlar bunday xislatlarga ega emas, deydi. Chunki jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik, jaholat tufayli sodir bo‘lishidan u qayg‘uga tushadi, hayotda nodon va johillar ko‘payib ketganligidan afsuslanadi.

Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” asari boshqa ta’limiy-axloqiy asarlar kabi insonni barkamol etishning ikkinchi belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqlilikning tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol-dunyoga hirs qo‘yishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik va kibru havo va ochko‘zlik haqida, zulm va jinoyat yo‘lidan saqlanish haqida, harom va halolni farqlay olish, e’tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar yuzasidan fikr yuritadi. U yaxshi xulq-odobni shakllantirish va yomon illatlardan saqlanish yo‘llarini tavsiya etadi.

Abdulla Avloniy shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rnini alohida e’tirof etib, u shaxsdagi ijobiy va salbiy xususiyatlarni tarkib topishiga o‘z ta’sirini o‘tkazishini ta’kidlaydi. U “Turkiy guliston yohud axloq” asarida insonlarni xulq-atvor, xatti-harakat nuqtai nazaridan ikki guruhga bo‘ladi:

- yaxshixulqli insonlar
- yomonxulqli insonlar

A.Avloniy g‘azabning ikki xil xususiyatini bayon qiladi. Biri dushmandan o‘zini mudofaa qilishda insonning g‘azabi muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, ikkinchisi birovni jabr-zulm yo‘li bilan ishlatish, odamlarga uning sovuq muomalasi bilan dahshat solishdan iborat bo‘lgan salbiy xususiyatdir.

G‘azabning eng salbiy tomoni shundaki, g‘azab qiluvchi o‘zining xulq-atvoridan pushaymon bo‘ladi, zarar ko‘radi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davrlar silsilasidan o‘tib, bizning istiqlol davrimizgacha etib kelgan sharq allomalarining durdona asarlari bugungi kunda nodir qo‘lyozmalar qatoridan munosib o‘rin egallagandir. Ma’naviy merosimizdagi tarbiyaviy g‘oyalar rivojiga bir nazar soladigan bo‘lsak, qanchalik ma’naviy javohirlarga ega ekanligimizga ishonch hosil qilamiz. Darhaqiqat, yuqorida biz cheksiz bir ummondan bir tomchisinigina tahlil qilib chiqdik xolos. Shuning o‘zida olam-olam mazmun bordir. Sharq mutafakkir olimlari o‘z asarlarida inson ruhiy olamini tasvirlar ekanlar, hayotiy misollar keltirish orqali xulq-atvorning ijobiy hamda salbiy tomonlarini batafsil tahlil qilishga harakat qiladilar. Asarlarda inson xulq-atvoriga xos bo‘lgan ma’naviy, ruhiy xususiyatlar, holatlar hikoyat, badiiy obraz, rivoyatu-hadislarni keltirish orqali tasvirlanadi. Ta’kidlab o‘tish joizki, qomusiy olimlarning asarlaridagi ruhiy holatlar, xususiyatlar amaliy hayot bilan bog‘lab tahlil etilganligi, ularning asarlarini qiymatini yanada ortishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq.-T.:1996.B.7-12

2. Ibn Sino. Tib qonunlari. –T.: O‘qituvchi. 1962.B.3-23

3.Navoiy A. Maxbub ul-Qulub.-T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966. 13-tom B.9-10

4.Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov-T.: Fan. 1971. B.108-109

5.Farobiy A.N. Baxt-saodatga erishuv xaqida. Risolalar. Mas’ul muxarrir. M.M. Xayrullaev.-T.:Fan. 1975. B.23-24

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CRITERIA FOR DETERMINING PROFESSIONAL INTEREST

Suleymanova Ra’no Dustbekovna

Gulistan State University, teacher of the Department of Pedagogy and Psychology.

One of the important tasks in the process of reforms carried out in the field of education after the state independence of the Republic of Uzbekistan is the preparation of young people who are considered the main link to life and orientation to the choice of profession.

The solution to the problem of orientation to the profession is an important strategic task not only of this or that person, the family, but also of the whole state. Therefore, it is possible to contribute to a certain extent to the development of the development of the individual and society by carefully studying this process in all respects, analyzing and developing appropriate recommendations and applying them to practice. It remains to be noted that failures in the choice of a profession can adversely affect the functioning and activity of a person, and at the same time, a decrease in labor productivity in those or those areas can also lead to such a deplorable social psychological complications as the occurrence of personality and activity imbalance. Important tasks have been set by the state to address these problems.

This task is carried out through socio-political education in schools, which allows young people to be directed to different professions, as well as through the provision of professional education and professional promotion through the Press, Film, radio, Television, consultations on the profession that allows young people to determine their abilities and give recommendations to them. It is also introduced by the ability to choose the profession according to its abilities and to be able to adapt to the profession (to get used to biological, physical, environmental conditions, to enter the profession through socio-professional education and to join the production communities). In general, one can see the tendency to approach the problem of professional orientation of a person on the basis of specific social psychological principles. In particular, scientists recommend "professional orientation triangle". The first aspect of this triangle is a good knowledge of the requirements of different professions for a person. The second side - probably to know the expected labor market, the need of society (in a narrow sense-the city, the district) for one or another specialist. This in essence is an economic and social problem, but without it or this is impossible to transfer to the choice of a profession. The third side of the orientation to the profession and the basis of all this work includes knowing the characteristics of the person, first of all, the ability and desire of the person who is being directed to the profession.

And the most important thing in this regard is that it is necessary not only to give knowledge to students of small school age, but also to be able to conduct active personal activities and constantly formulate the skills of self-awareness. The" national program of Personnel Training " is aimed at us, this approach should be a clear vocational orientation program of each secondary institution.

The main theoretical and at the same time effective result of vocational guidance is to create a sense of the profession in the growing generation, that is, from school, to reveal the inclinations and interests in it, to what extent its capabilities and the work it does or chooses. In this regard, the Republican Center for Vocational Orientation and Psychological Pedagogy of Students under the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan. organizes the process of vocational guidance, as mentioned above, on the basis of all the administrative, pedagogical and psychological means to which it belongs. Career guidance refers to a person’s interest in choosing a profession, as well as the need for the profession in society, as well as the level of opportunities in the person based on these needs, based on the provision of professional counseling, vocational adaptation and psychological education. it is understood to provide guidance and support to the profession.

Among the various theoretical explanations for career guidance, there are currently two most important concepts: Maternal (diagnostic); Modern (developing);

The main task of the theory of traditional (diagnostic) vocational orientation is to determine the professional predisposition in a person by comparing the psychological characteristics and personal extiologies contained in it. In this, the main responsibility is assigned to the professional consultant. He determines whether a person is inclined to this or that profession by conducting tests and on the basis of the result obtained from them. In this case, the person plays the passive role, that is, the educator.

The modern (developing) vocational orientation concept implies the active participation of a person in determining his future. In this, the main emphasis will be on determining the development of the individual in the process of mastering various spheres. Vocational orientation is seen as part of educational work. Preparation for professional selection is based on an educational system that affects the individual by society.

The main purpose of vocational orientation is to prepare students and graduates of secondary schools for conscious and independent vocational selection, an expression from determining the direction of the future education and methods of professional acquisition. Orientation of students to the profession is a complex process, which is formed and developed on the basis of several factors. Orientation of students to the profession is a complex process, which is formed and developed on the basis of several factors.

From the psychological and pedagogical point of view, 4 groups of factors that affect the professional self-determination are distinguished. First, socio-economic factors. The society, which comes to life at different stages of its development, offers young people a variety of industries to invest their strength in. This is primarily due to the spectrum of professions, the prospects for their change and development, the need of society for those or those specialists.

The second group includes socio-psychological factors.This is an expression from the social environment in which a person grows and is brought up, first of all, before and after school education. Under the influence of the social environment, an individual's perception of values is formed by certain attitudes of professions to different groups, specific goals, stereotypes and attitudes.

The third group consists of the original psychological factors. These include personal interests and tendencies, general and specific abilities, level of mental and personal development, memory, attention, motor skills, and similar characteristics.

The fourth group also consists of individual-psycho physiological characteristics of the student. They define dynamic - descriptions of the course of psychic processes and are manifested in the form of various temperaments that are either adaptive to perform certain manifestations of activity, or make it difficult.

The growing age, the vocational orientation of the future generation, the organization of the educational system taking into account the unique opportunities in each individual is one of the main urgent tasks of each state. After all, today it is possible to emphasize the scientific literature, research and hands-on, which can indicate the necessity of the problem of vocational education and vocational orientation and substantiate its specific methodological "roots". In these literature, various directions of the problem of choosing a profession are to some extent revealed. This proves that the process of choosing a profession is incredibly multifaceted and large-scale.

In general, the analysis of various literature suggests that the interpretation of the process of choosing a profession is of particular importance due to the prospects of each science, its actual tasks.

It can be noted that the prospects of certain directions of a number of disciplines, mainly pedagogy, psychology, philosophy, literary studies, are directed to substantiate the scientific and methodological aspects of the professional selection process. In particular, the literature published in the field of professional orientation of students, the scientists who conducted research in this direction R.Zhurayev, H.Rashidov, V.Say, Y.As a result of the analysis of the work of Asadov, et al., the main stages of effective vocational orientation of Secondary Schools students were as follows:

1. To provide vocational information and professional information to secondary school students throughout the entire school period. Bunda to explain the areas of labor activity in the existing professions and employment due to the age characteristics of the student, to give information about the professions and their application, the importance of the application of each profession in human activities.

2. To examine students their abilities, opportunities and interests with the help of psychological and pedagogical diagnostics starting from the first grade.

3. On the basis of the analysis of the results of psychological and pedagogical diagnosis, it is necessary to give the students the necessary advice, to correct their psychological problems, and ultimately to achieve the right choice of profession within the framework of their capabilities and inclinations.

The main thing in the work at the above stages belongs to the system of psychological and pedagogical diagnosis. With the help of various psychological and pedagogical methods, during the diagnosis, each student's specific innate characteristics, psychophysiological abilities, abilities, opportunities, interests are determined. Psychological and pedagogical diagnosis is constantly carried out in stages, and its results are analyzed in accordance with each age period of the student.

E.Gaziyev and R.Asomova noted in her research, the system of motivation and motivation is the chief factor of fulfilling the function of the internal regression of an individual's activity, behavior, behavior, fulfilling his need, desire, noble intention, desire, inclination, feeling, ustanovka, ideal, faith-e'tiqod, conscience, goal sheep-breeding and others in practice. Motivation and motivation serve to explain not only the acquisition of knowledge, the acquisition of educational skills, the use of the rhythm of treatment, but also the behavior of the individual, the manifestation of new qualities.

Motivation is a determinant that is generated by the psyche, motivation means a subjective reflection of the cognitive process of a person's behavior, directly connected with the external world.

Professor E. Goziev to the according structure of motivation includes the direction of a person, character traits, feelings, internal experiences, the need expressed in the directions of activity, interest, inclinations, ustanovka.

After all, it is important to psychologically understand the structure of the motivations of this or that individual, their main functional elements, as well as the development of a strategic plan of orientation in the process of formation.

R. Asomova Studies, professional (professional) motivations are studied as primary motivation into the following groups: a) social motivations, B) group-specific motivations, C) procedural motivations, d) motivating motivations. Each aspect of these motivational groups is scientifically substantiated by the researcher.

In general, the formation of personality motivation professor E.Goziev to the modification of according, these directions are based on the following directions, which, in our opinion, serve to determine the theoretical bases of motivation of professional activity for choosing a profession.

The first way to form motivation is often referred to as" from top to bottom " and the examples of educational motivation in students find their expression in finding content at the ideal level. Familiar motivations for the student are mastered by comparing their behavior with them, while personal motivations are embodied in what is offered by society.

The second way of formation of motivation is called "from the bottom up", the student takes a direct part in the types of activities in social life, acquires moral behavior, skills of activity from a practical point of view, in which real, real, adequate motivations begin to occur.

Well-known psychologist A.N. Leontev (1979) introduced into science the theory of a new approach to the interpretation of motivation through his monograph called" Activity, consciousness, personality " (this approach serves to theoretically substantiate the manifestation of the harmony of motivation and attitude in the activity of a person. The presence of psychological proportionality between personality, activity, consciousness and social activity in the interpretation of A.N. Leontev (1979) plays an important methodological role in the creation of psychosocial phenomena of the system of personality relations. V.D. Shadrikov the process of professional activity motivation by linkingto the functional psychological model of the system of activity, the fact that the motivation of an active approach reveals specific social psychological perspectives of professional training to a certain extent plays an important role in determining the directions of the general development of personality and profession.

A well-known psychologist In the research carried out by L.I.Bojovich (1995) and his apprentices, it is attempted to reveal some psychological principles of the process of attitudes that lie in the context of motivation of the reader's personality. This scientific idea of them is valuable mainly because it is able to justify the inevitability of the direction of the individual, his connection with motivations, and relations with the environment in connection with the structure of motivation. After all, it is natural that individual relationships change or improve socially in each age period of development depending on a particular environment and motivation. In this era of naturalness, of course, lies the orientation of the individual, the broad manifestation of social activity and social opportunities.

As noted in A.B.Darinsky's research, along with the fact that there are good sides to the desire of young people to receive higher education, there are also negative consequences for this. In particular, the students of the upper classes intend to study in-depth 3-4 subjects that pass the exams for admission to the higher educational institution of their choice. It is not considered a rational and effective work to spend time studying other sciences. "Satisfactory" is the case when the price is subtracted. Secondly, behind the study of selected subjects, the attitude to this or that profession is

formed. As a result, in most cases, this unilateral psychological shift has a negative impact on graduates who have not been able to realize their intentions.

Today, in the practice of directing the school to the profession, The methodology of Y.A.Klimov (2009) DDQ (differential diagnosis questionnaire) is widely used, without a doubt, its value is the possibility of obtaining information about the formation of interests and inclinations of students of the upper classes within the framework of the classification of professions.

This method is based on dividing the entire variety of professions into five main areas related to the subject of interaction of man. These are: "man-technique", "Man-Man", "Man-nature", "Man-character system", "Man-artistic image".

The merit of this method is that the most difficult, uninteresting types of activities in the relevant professions are recommended. For example, in the field of Medicine: the work of the laboratory assistant associated with obtaining medical analysis, assistance in case of burns, etc. It is assumed that if the "everyday" part of the profession is interesting to the reader, then his diltionary, external side will certainly be interesting. Another of its merits is to direct not only to educational activity in more interesting subjects, but also to the elements of labor of professional activity.

Another problem is that many students do not have a clear idea about the professions, so they can not choose them correctly. The Chosen One or this profession does not even know how to demand the qualities of a person. Secondly, students can not all the time determine that they deserve a profession. By the way, psychologically, the characteristics of the speed and accuracy of the reaction, the Coordination of movements, the features of perception, the mobility of the nervous system, etc., are usually unfamiliar to them, since most often these require special research.

Naturally, at the time of the conscious choice of this or that profession of students, first of all, take into account the need of the national economy for this or that type of Labor, and secondly, its predisposition and abilities, its individual qualities, how much it corresponds to the requirements laid down by this or that profession, in this respect, the characteristics of, they must understand that it is necessary to take into account whether there are any (emotional-will spheres, etc.). To do this, of course, it is necessary to give pedagogical and psychological insight into the important features of choosing a profession to students at a small school age.

Secondly, it is precisely the new democratic relations that direct young people to the profession, to choose a profession within its sphere, to be in the right attitude to it, in other words, to choose a profession that is specific to the needs and requirements of market relations and is suitable for the dignity and profession of each person. This process provides an important basis for both the professionalism and professionalism that is then necessary for the specialist. (V.Karimova, 1999).

In general, from the above points of view, it can be seen that the problem of choosing a profession is its extensive and multifaceted process. It should be noted separately that a lot of research has been carried out to study this process. Consequently, the existence of pedagogical and psychological as well as Social Psychological Research in this regard can serve as the theoretical and scientific basis of our research. Consequently, the successful organization of the system of orientation of students to choose a profession in this or that aspect, not forgetting that it is organized differently in the educational system of different states, We investigated certain social psychological perspectives related to the system of attitude to the choice of a profession in Uzbekistan, which is on the path of perspective At present, relying on the theoretical methodological foundations of the science of Social Psychology, all scientific considerations and recommendations of a certain level, which reveal the process of early detection of professional motivation, were described.

List of references:

1. G‘oziyev E. Oliy maktab psixologiyasi. - T.: «O‘qituvchi», 1997. -104 p.
2. G‘oziyev E., Mamedov K.K. Kasb psixologiyasi. – T., 2003. – 144 p.
3. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiya. – T. 2010. 120 p.
4. Leontev A.N. Category of activity in modern psychology // Questions of Psychology, 1979, No. 3.
5. Bojovich L. I. Problems of personality formation: selected psychological works. - Moscow; Voronezh: Institute of Practical Psychology, 1995.

6. Klimov Y. A., “Specializer CILPE: residual program generation”, *Keldysh Institute preprints*, 2009, 008, 26 pp.
7. Karimova V. Umumiy psixologiya. - T.1999. – 220 p.

FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI ASOSIDA RAQAMLASHTIRILGAN RESURSLARDAN FOYDALANISH

Таниев Шукур Садибекович
Гулистон давлат университети, Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son Farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyada ta’lim tizimi oldiga quyilgan vazifalarni bajarish yo‘lida katta ishlar amalga oshirilib, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayoni axborot bilan ta’minlanishi kundan kunga rivojlanib bormoqda. Shuningdek, respublikamizda ta’lim jarayoni axborotlashtirildi, uzluksiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olindi [1].

Hozirgi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunakatsiya tizimlari vositalari keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta’lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo‘ymoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan elektron ta’lim resurslari grafik, matnli, nutqli, musiqiy, video, audio, foto va boshqa axborotlarning to‘pamidan tashkil topadi. Elektron ta’lim resurslari ixtiyoriy elektron tashuvchilarda aks etadi, kompyuter ekrani va tarmog‘ida nashr etilishi mumkin [2].

Elektron ta’lim resurslari ta’lim jarayonida elektron vositalar hisoblanib, bilimlarning mos ilmiy-amaliy sohasi bo‘yicha tizimlashtirilgan, o‘quvchilar tomonidan shu sohadagi bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy va faol egallashni ta’minlaydigan elektron nashrdan iborat bo‘ladi [3].

Elektron ta’lim resurslari yuqori darajada bajarilishi va badiiy bezalishi, axborotning to‘liqligi, uslubiy qurollarning sifati, sifatli texnik bajarilishi, ko‘rgazmaliligi, mantiqiyligi va bayon qilish ketma-ketligi bilan ajralib turishi lozim. Elektron ta’lim resurslari vizual va audio axborotlarni keskin sifatini oshiradi, u yoriqroq, rangli va dinamik bo‘ladi. Bunda multimedianing yangi texnologiyalarining imkoniyatlari katta o‘rin egallaydi. An’anaviy ko‘rgazmalilik o‘rganilayotgan ob’ektning aniqligini hisobga ogan bo‘lsa, kompyuter texnologiyasini foydalanish na faqat haqiqiy ob’ektlarning dinamik imkoniyatlarini ifodalash, balki ilmiy qonuniyatlarni, nazariyalarni, tushunchalarni ifodalash imkoniyatlari yaratiladi [4], [5].

Elektron ta’lim resurslarning asosiy komponentlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan ta’limga mo‘ljallangan kompyuter vositalarining asosiy ko‘rinishlari quyidagilardan iborat: umumiy mo‘ljallangan xizmat dasturiy vositalar; o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va o‘lchash uchun dasturiy vositalar; elektron trenajerlar; matematik va imitatsion modellashtirish uchun dasturiy vositalar; virtual laboratoriyalarning dasturiy vositalari; axborot-izlash ma’lumotnomali tizimlar; avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlari; elektron darsliklar; ekspertli va intellektual o‘qitish tizimlari; kasbiy faoliyatni avtomatlashtirish tizimlari va boshqalar [6], [7].

Bunda umumiy mo‘ljallangan xizmat dasturiy vositalar - ko‘plab hisoblashlarni avtomatlashtirish uchun, o‘quv hujjatlarni tayyorlash, eksperimental tadqiqot ma’lumotlarini qayta ishlash uchun qo‘llaniladi. Ulardan laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, mustaqil ishlarni tashkil etishda va loyiha ishlarini amalga oshirishda ham foydalanilishi mumkin.

Ta’lim oluvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va o‘lchash uchun dasturiy vositalar - nisbatan yaratilishi oson bo‘lganligidan keng foydalanib kelinayotgan vositalar hisoblanadi. Bunda o‘quvchining asosiy vazifasi taqdim etilgan javoblarning birini (to‘g‘risini) tanlash talab etiladi. Bunday dasturlar o‘qituvchini individual nazorat vazifalarini berish, ularni tekshirish va baholash ishlaridan ozod etadi. Bu bilan o‘qituvchida o‘quvchilarni ko‘p marotaba bilimlarini sinash, o‘zini-o‘zi sinash, o‘quv materiallarini takrorlash, mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Elektron trenajyorlar - o‘quvchilarning amaliy ko‘nikma va malakalarini ishlab chiqish uchun foydalaniladi. Bunday vositalar murakkab sharoitlarda amallar bajarish va hatto tasodifiy vaziyatlarda avariyaga qarshi harakatlarni ishlab chiqishda foydalanish samaralidir. Bir qancha sabablarga ko‘ra real qurilmalarni, masalan, energiya ta’minotining o‘chishi, katta hafli shuningdek, avariya vaziyatlarini yaratish imkoniyati bo‘lgan joylarda foydalanish maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari trenajerlar masalalar yechish ko‘nikma va malakalarini ishlab chiqaishda foydalaniladi. Bunday hollarda, ular nazariyadan qisqacha ma’lumot olishni, turli darajadagi mustaqil ta’limni, mashq qilishni, nazorat va o‘zini-o‘zi nazoratini ta’minlaydi.

Matematik va imitatsion modellashtirish uchun dasturiy vositalar - eksperimental va nazariy tadqiqotlarning chegarasini kengaytirish, fizik eksperimentni hisoblash eksperimenti bilan to‘ldirish imkoniyatini beradi. Bir hollatlarda tadqiqot ob’ektlari, boshqa holatlarda – o‘lchash qurilmalari modellashtiriladi. Bunday vositalar qimmat baho laboratoriya jihozlarini xarid qilib olishning mablag‘ini qisqartirishga imkoniyat beradi va o‘quv laboratoriya xonalarida turli xavfsizlikni oz bo‘lsada ta’minlaydi.

Avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlari - odatda o‘quvchilarni nazariy materiallar bilan tanishtirish, mashq qilish va bilim darajasini nazorat qilishni ta’minlaydigan nisbatan kichik hajmdagi o‘qitish dasturlaridan iborat [8], [9], [10].

Elektron darsliklar - o‘quv predmetini yoki uning katta qismini bevosita kompyuter yordamida mustaqil yoki o‘qituvchi ishtirokida o‘zlashtirish imkoniyatini ta’minlaydigan dastur – uslubiy majmuadir. Boshqacha aytganda, elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta’lim uslublaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi bo‘lib, undan mustaqil ta’lim olishda (bu muhim) va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari o‘quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi. Elektron darslik tushuncha, ta’kid va misollarni tushunish va xotiraga olishni, talabaning miyasini ishlashini, eshitishini, emotsional xotirasini va hatto, kompyuterli tushuntirishdan foydalanishini ko‘zda tutgan holda, maksimal osonlashtirilishi kerak [11].

Elektron darsliklar kompyuter texnologiyalari samaralaridan foydalanib eng muhim tushuncha va qonuniyatlarni tushunish va yodda saqlashni maksimal darajada engillashtiradi. Elektron darslikni ishlab chiqishda uchta asosiy komponent: o‘quv materialni bayon etish, amaliyot va teskari aloqa e’tiborga olinishi kerak.

Ekspertli va intellektual o‘qitish tizimlari - bunday tizimlar ekspertlarning yetarlicha murakkab masalalrni yechishdagi faoliyatini modellashtiradi. Bu tizmlar yangi bilimlar egallash, o‘quvchining savollariga javob va aniq bir predmet sohasidagi masalalarni yechishni ta’minlaydi.

Kasbiy faoliyatni avtomatlashtirish tizimlari - amaliy dasturlar paketi shaklida o‘qitishning elektron vositalari nafaqat o‘rganish ob’ekti sifatida, balki kasbga yo‘naltirilgan masalalarni yechishda ham foydalaniladi. Bu tushunchalar va ularning tavsiflaridan, ko‘rsatilgan vositalar o‘qitishning elektron vositalari yoki ularning elementlariga misol bo‘la olishi ko‘rinib turibdi.

Ta’limda qo‘llaniladigan har qanday elektron vositalarini yaratishga va ulardan ta’lim tizimida foydalanishga o‘ziga xos pedagogik, psixologik va ergonomik talablar qo‘yiladi. Elektron ta’lim resurslariga qo‘yiladigan ilmiy talab ta’lim resursidan foydalanishda o‘quv materialini bayon qilishning ishonchliligi, shunindek eng oxirgi ilmiy yutuqlarni hisobga olinganligini ifodalaydi. O‘quv materialini egallash jarayoni zamonaviy ilmiy bilish uslubi, tajriba, taqqoslash, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, aniqlashtirish, induktsiya va deduktsiya, tahlil va sintez, modellashtirish uslubi, tizimli tahlil usubi asosida qurilishini ko‘zda tutadi.

Elektron ta’lim resurslariga asoslangan electron o‘quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurlarini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘proq chuqurlashtirib o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha yaratilishi lozim. Uzluksiz ta’lim tizimidan fan va texnologiyalarning rivojlanishi sari mazmuni tez o‘zgaruvchan, chuqurlashtirib o‘qitiladigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo‘yicha asosan kam adadli elektron o‘quv adabiyotlari tayyorlanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son Farmoni, “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi.

2. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amalièti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.

3. Abduqodirov A.A., Tursunov S.Q. Ta’limda axborot texnologiyalari, Toshkent, 2019. – 340 b.

4. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.

5. Abduraximov D.B., Toshtemirov D.E. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Guliston, 2020. - 332 b.

6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.

7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.

8. Toshtemirov D.E. Ta’lim portali: yaratish tamoyillari, mazmuni va foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston sh. 2015. - 156 b.

9. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment// Journal of Critical Reviews Vol 7, Issue 5, 2020 p. 399-400, http://www.jcreview.com/fulltext/197-1586441254.pdf?1603174386

10. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B. Ta’lim jarayonida veb texnologiyalarning o‘rni // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar. 2(46).2020. B.114-120

11. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kontseptsiyasi. Toshkent: Sharq, 2002. - 20 b.

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА ФАН ИНТЕГРАЦИЯСИ АСОСИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ЯНГИ СИФАТ БОСҚИЧИГА КЎТАРИШ БОРАСИДАГИ МУҲИМ ВАЗИФАЛАР ХУСУСИДА

Тоштемиров Дониёр Эшбаевич

Гулистон давлат университети, Педагогика ва психология кафедраси мудири, педагогика фанлари номзоди, доцент.

Мамлакатимиз президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон стратегияси” китобида таълим-тарбия масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Жумладан, ушбу мукаммал асарнинг “Адолатли ижтимоий сиёсат” деб номланган бобидан ўрин олган “Таълим ва тарбия: янги имкониятлар” сарлавҳали мақолада кейинги йилларда юртимизни ҳар томонлама тараққий эттириш, янги Ўзбекистонни яратиш мақсадида жамики соҳалар қатори таълим тизимида ҳам туб ислоҳотлар олиб борилаётгани, бу борада ўнлаб муҳим фармон, қарор, консепциялар ва дастурлар қабул қилингани тилга олинади. “Яқинда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги қонун ушбу соҳа тараққиётида, ҳеч шубҳасиз, янги уфқларни очиб беради”,—дейди Президентимиз [1].

Дарҳақиқат, Юртбошимиз асарида таъкидланганидек, таълим ва тарбия аввало, бешикдан бошланади, деган ҳикмат бежиз айтилмаган. Халқимиз эса ҳамиша устозларни эъзозлаб, уларнинг ҳурмат-иззатини жойига қўйиб келган.

Аммо Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “кўп йиллар давомида ўқитувчига эътибор борасида сўзимиз бошқа, ишимиз бошқа бўлиб келди. Оқибатда соҳа ходимлари гўёки кераксиз ва ҳимоясиз қатламга айланиб қолди. Бундай ножўя ишлар нафақат таълим сифатига, балки соҳа ходимларининг ўз касбига бўлган муносабатига ҳам салбий таъсир кўрсатди. Қанчадан-қанча тажрибали ўқитувчилар дили оғриб, севган касбини ноилож ташлаб кетганини ҳам биламиз.” Бу аччиқ ҳақиқатлар нафақат ўрта-махсус таълим, балки олий таълимга, илм-фан билан машғул бўлган барча тизимларга ҳам тааллуқли эди [1].

Бугунги кунда муҳтарам Президентимизнинг ташаббуси ва саъй-ҳаракати билан таълим соҳаси, жумладан, олий таълим соҳасида мисли кўрилмаган янги босқичга қадам қўйилди. Мамлакатимизда янги олий таълим муассасалари, жумладан, хорижий университет ва институтларнинг филиаллари ташкил этилиб, уларнинг сони 200 тадан оширилди.

Мамлакатимизда олий таълимнинг аҳамияти ортиб бораётгани ва унга қўйилаётган янги талаблар эса олий таълим муассасаларининг ўз фаолияти стратегиясини қайта кўриб чиқиш заруратини туғдирмоқда. Олий таълим муассасасини ривожлантиришнинг янги доктринасида

асосий роллардан бирини уларнинг инсон капитали эгаллайди, бу эса ходимлар, докторантлар ва талабаларнинг билим, кўникма ва ижодий қобилиятларини ўз ичига олади. Таклиф этилаётган ёндашув инсон капиталини бошқаришни олий таълим муассасасининг инновацион ривожланишининг умумий стратегиясига киритиш имконини беради.

Ҳозирги вақтда дунёнинг энг ривожланган мамлакатлари ижтимоий-иқтисодий тузилманинг янги турига — постиндустриал ёки ахборот жамиятига ўтиш билан тавсифланади, бунда юқори маълумотли ва ижодкор инсон шахсининг роли катта, яъни янги билимларни яратиш, уларга бўлган талаб беқиёс ортади. Таълим даражаси, ижодкорлик ва мотивация ҳар бир шахс, ташкилот ва умуман жамиятнинг капиталига айланди. Таълим ва илмий хизматларнинг жаҳон бозори жадал ривожланмоқда, бунда олий таълим муассасалари етакчи иштирокчилар бўлиб қолмоқда, шу билан бирга уларнинг роли ва иш шароитлари доимий равишда мураккаблашиб бормоқда. Расмий равишда нотижорат ташкилотлари мақомини сақлаб қолган таълим муассасалари молиявий ресурслар учун рақобатлашишга, ўз фаолиятини диверсификация қилишга ва тижорат компаниялари сифатида амалда ишлайдиган ўқув, илмий ва инновацион мажмуаларга айланишга мажбур. Дунёда ва мамлакатимизда олий таълимнинг аҳамияти ортиб бораётгани ва унга қўйилаётган янги талаблар олий таълим муассасаларнинг ўз фаолияти стратегиясини янада ривожлантириш заруратини туғдирмоқда. Айнан шу масалаларни ўзи ичига олган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2021 йил 24 декабрида иккита муҳим қарорлар қабул қилинди. Бу қарорлар олий таълим тизимини ва ҳар бир ректорни янги тадбиркорлик типидаги олий таълим муассасаларнинг концептуал моделлари (“жавобгар”, “лойиҳага йўналтирилган”, “инновацион”, “тармоқ”, “виртуал” олий таълим муассаса ва бошқалар) қўллаган ҳолда олий таълим муассаса ўқитувчилари ва ходимларини тижорат муваффақиятига йўналтиради, янги ресурсларни излашга, янги бозорларга кириш вазифасини қўймоқда.

Олий таълим муассасаларнинг инновацион фаолиятига таъсир этувчи асосий омилларга қуйидаги омиллар киради [2]:

– турли давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари томонидан уларнинг фаолиятини норматив жиҳатдан тартибга солиш ва назорат қилиш;

– турли манбалардан молиялаштириш ҳажмлари, таркиби ва муддатлари;

– ҳар бир олий таълим муассасасида тўпланган инновацион салоҳият;

– тадқиқот маҳсулотлари истеъмолчилари (жамоат, бизнес) билан ўзаро ҳамкорлик стратегияси;

– бошқарувнинг қабул қилинган моделлари ва механизмлари, менежерларнинг малакаси.

Ўзбекистон олий ўқув юртларидаги, хорижий ва етакчи олий таълим муассасалари тажрибаларидан, инновацион стратегиялар билимлар иқтисодиёти талабларидан келиб чиқиб, олий ўқув юртларининг ўрганувчи ташкилот сифатида ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиши, ходимларни янада ўз-ўзини ривожлантириши ва уларни янги билимлар яратишига ундашга қаратилган бўлиши шарт. Олий таълим муассасасини ривожлантиришнинг янги доктринасида уларнинг инсон капитали асосий роллардан бирини эгаллайди, у профессор-ўқитувчилар таркиби, тадқиқотчилар, олий таълим муассасаси раҳбарияти, маъмурий ва таълим-тарбиявий ёрдам ходимлари, докторантлар ва талабалар, докторантларнинг билим, кўникма, ижодий қобилиятларини ўз ичига олади.

Таълим масаласи жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида муҳим вазифалар қаторидан ўрин олган. Кўпчилик давлатларда глобал рақобат шароитидаги янги талабларига жавоб берувчи, мослашувчан таълим тизимини яратишга қаратилган туб ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Булардан асосий мақсад олий ўқув юртларининг ва ўқув дастурларининг мослашиш имкониятларини кенгайтириш бўлиб, улар академик ва ташкилий тузилмаларни ислоҳ қилиш, инфраструктурани, таълим методлари ва технологияларини янгилаш, педагогик жараённи такомиллаштириш, ўқитувчилар таркиби ва фаолият сифатини яхшилаш орқали амалга оширилмоқда.

Билимлар жамиятида умр бўйи таълим олишнинг асосий мақсадига эришиш (шахснинг ижодий салоҳиятини умр бўйи бойитиш) фақат кластерли ёндашув шароитида мумкин. Таълимни ривожлантиришнинг ҳозирги тенденциялари таълим хизматлари бозорини тартибга солишнинг илғор услубларини ишлаб чиқишни талаб қилади. Таълим сифати муаммосини

долзарблигининг ички сабаблари — бу инновацион юксалиш, менежментни ҳудудийлаштириш, таълимни тижоратлаштириш, уни минтақалаштириш ва демократлаштириш орқали қўшимча равишда таълимга ижобий таъсир кўрсатади. Таълимни табақалаштириш ва индивидуаллаштириш интеграцион жараёнларнинг зарурий шарти бўлиб, улардан бири таълим кластерларининг шаклланиши ва ривожланиши ҳисобланади.

Соҳа манбалари асосида шуни қайд этиш мумкинки, мамлакатни ривожлантириш билан боғлиқ ҳолда фан, таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги алоқани ташкил этиш ва бошқаришни таҳлил қилиш механизми, назорат ва баҳолаш имкониятлари бўлган. Олий таълим тизимида эса ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётини боғлиқлигини ўрганиш, замонавий илмий билимларни қўллаш, ҳамда илмий ва амалий методлар асосида иш жараёнини ташкил қилиш учун ҳар бир мутахассислик бўйича маълум фанлар комплекси танланган.

XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб фан ва техниканинг гуркираб ривожланиши билан ахборот оқимининг шиддатли ўсиши кузатила бошланди. Олий таълим тизимида эса билим олиш ҳажми ва ўқитиладиган фанларнинг сони таълим мазмуни ҳамда ўқитиш методларининг такомиллашиб боришига нисбатан кескин ортиб борди. Таълимни экстенсив ривожлантириш ресурслари йўқолиб, олий таълимда интенсив тарзда ўқитиш технологияларини яратиш муаммолари юзага кела бошлади.

Фан ва таълим интеграцияси тизимидаги ўзгаришларни ҳамда юқори малакали, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш тизими билан боғлиқ ҳолда хорижий тилни ўқитишда тизимли ёндашув механизмларини яратиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Мамлакатимиз ва жамиятимизнинг замон талаблари даражасида ривожланишини илм-фансиз тасаввур қилиш қийин. Илм-фан тараққиётида фундаментал тадқиқотлар муҳим аҳамият касб этади. Айнан улар орқали янги билимлар ўзлаштирилади ва назариялар шакллантирилади, келгуси амалий тадқиқотлар ва инновацион ишланмалар учун мустаҳкам асос яратилади.

Юқори технологик илмий маҳсулотларни амалиётга жорий этиш учун янги замонавий тажриба-ишлаб чиқариш, конструкторлик-технологик ташкилотлар ҳамда инновация марказларини ташкил этиш зарур. Маркетинг ва лицензиялаш хизматлари талаб даражасида эмас. Бу мамлакатимиз илмий-инновацион маҳсулотларини амалиётга кенг татбиқ этишда яққол сезилмоқда.

Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини янада такомиллаштириш муҳимлиги алоҳида қайд этилди. Янги технологияларни жорий қилувчи корхоналарга имтиёзлар ва преференциялар бериш илм-фанга инвестиция киритадиган корхоналар сони сезиларли даражада ошишида муҳим аҳамият касб этади.

Мавжуд илмий салоҳият ва маблағларни иқтисодиёт тармоқларининг буюртмалари ва муайян муаммоларни ечишга қаратилган энг муҳим устувор тадқиқотларга йўналтириш зарур.

Юқоридаги мулоҳазалардан фикр юритадиган бўлсак, ҳар бир олий таълим даргоҳининг олдида ниҳоятда улкан вазифалар, мажбуриятлар турибди. Нафақат таълим-тарбия сифатини ошириш, балки бугун дунёнинг энг ривожланган таълим муассасалари тажрибасини ўз миллий таълим тизимимизнинг қадриятларига хос жиҳатларини олиб такомиллаштириш замон талаби бўлиб қолмоқда.

Жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари тажрибаларига суяниб айтиш жоизки, кичик инновацион корхоналарни ҳам, йирик компанияларни ҳам қўллаб-қувватланиши баробарида кўплаб ижобий натижаларга эришмоқ мумкин. Дунёда фан–таълим — ишлаб чиқариш интеграциясининг узвийлигини таъминлаш ҳамда барпо этишнинг ягона модели мавжуд эмаслиги маълум. Ҳар битта мамлакат ўз шароитларидан келиб чиққан ҳолда иқтисодий тараққиёт моделини танлаб олган. Жаҳоннинг ривожланган мамлакатларида ҳам инновацион иқтисодиётга ўтиш масаласи қисқа вақт мобайнида амалга оширилган эмас. Бу жараён вақт ҳамда кўплаб тажрибаларни тақозо қилади.

Адабиётлар:

1. Ш.М. Мирзиёев *Янги Ўзбекистон стратегияси*. Тошкент: "*O‘zbekiston*" нашриёти, 2021. – 464 б.

2. Б. Ш.Усмонов. Олий таълим, фан ва ишлаб чиқариш интеграциясини кластерли ёндашувлар асосида инновацион ривожлантириш. Монография. – Т.: “Tafakkur” нашриёти, 2020. - 208 бет

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ФАН, ТАЪЛИМ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИНТЕГРАЦИЯСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Усмонова Гулнора Баходировна
Гулистон давлат университети, Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси.

Илм-фан, сифатли таълим, замонавий технологиялар бўлмаса, ривожланиш бўлмайди. Кейинги йилларда мамлакатимизда барча ислоҳотлар мана шу қатъий тамойил асосида кечди. Давлатимиз раҳбари илм-фан ва инновациялар ривожини энг устувор масала сифатида кун тартибига қўйди. Жумладан, 2017 йил 23 декабрда Олий Мажлисга Мурожаатномасида: “Келгуси йилда илмий-тадқиқот ва инновацион фаолиятни ривожлантириш, бунинг учун зарур молиявий ресурсларни сафарбар этиш, ушбу жараёнда иқтидорли ёшлар иштирокини, ижодий ғоя ва ишланмаларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш вазифаси эътиборимиз марказида бўлади”, деган эди. Шунингдек, 2021 йил 6 ноябрда Президент лавозимига киришиш маросимидаги нутқида: “Юртимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш учун бизга замонавий илм ва яна бир бор илм, тарбия ва яна бир бор тарбия керак”, деб таъкидлади. Ана шу фикрлар бугун ҳаётда ўзининг амалий исботини топмоқда. Ўтган йиллар давомида бу борада салмоқли натижаларга эришилди. Бугун юртимиздаги бизнес инкубаторлар, акселератор ва коворкинг ўқув курслари, технопарклар IT марказлар мана шу мақсадга қаратилгани билан диққатга сазовордир.

Илм-фан ва инновациялар Янги Ўзбекистон тараққиётида стратегик аҳамиятга эга устувор соҳага айланди. Соҳага муносабат буткул ўзгарди. Битта илмий лойиҳани молиялаштириш ҳажми 3,5 баробар кўпайди. Президентимиз таъкидлаганидек, мамлакатимизнинг етакчи олий ўқув юртлари йирик илмий-тадқиқот марказлари ҳам бўлиши керак.

Бугунги кунда олий таълим тизимининг вазифаси фақат талабаларни ўқитишдан иборат эмас, изчил илмий фаолият олиб бориши, ёшларни илмий тадқиқотларга жалб қилиши ва йирик лойиҳаларни амалга ошириши лозим [1].

Барча олий таълим муассасалари сингари Гулистон давлат университети кафедраларида фаолият кўрсатаётган илмий-тадқиқот марказларида профессор-ўқитувчилар, тадқиқотчилар, ёш олимлар ва иқтидорли талабалар ижтимоий ва иқтисодиётнинг турли тармоқ ва соҳаларини илмий-техник ривожлантиришга хизмат қиладиган устувор йўналишларда инновацион тадқиқотлар олиб бормоқда.

Таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро манфаатли ҳамкорлик механизмини йўлга қўйиш, юқори малакали кадрлар тайёрлаш ва уларни иш ўринлари билан таъминлаш жараёнида ишлаб чиқариш корхоналари билан алоқаларни кучайтириш мақсадида тадқиқотлар олиб борилмоқда. Илмий-тадқиқот марказлари томонидан Сирдарё вилоятидаги турли тармоқлар ва ишлаб чиқариш корхоналари билан инновацион корпоратив ҳамкорлик шартномалари тузилган.

Университетимиз ва шарнома тузилган корхоналарнинг илмий-технологик муаммолари базаси ташкил қилиниб, улар асосида магистрлик ва докторлик диссертацияси устида илмий изланишлар олиб борилмоқда. Ҳукуматимиз томонидан давлат гранти ҳисобидан стартап лойиҳаларни қўллаб қувватлаш ва молиялаштириш тизими шакллантирилди. Илмий ташкилотларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш учун салмоқли маблағ ажратилмоқда. Бу борада барча олий таълим муассасаларида 2030 йилгача илм-фанни ривожлантириш концепцияси тасдиқланди.

Кузатиш натижаларига кўра бугунги кунда дунёда энг қимматбаҳо маҳсулот-тараққиётни ҳаракатлантирувчи куч ёки иқтисодиётни ривожлантирувчи драйвер ҳам сўзсиз илм-фандир. Шу боис, мамлакатимиз танлаган улуғвор йўл - Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш борасидаги саъй-ҳаракатлар янада жадаллашмоқда.

Олий таълим муассасалари ҳудудида технопарклар, робототехника, мехатроника, IT технологиялар, муқобил энергетика, биотехнология марказлари ташкил этишга алоҳида эътибор берилмоқда. Технопаркларда бир неча йўналишлар негизида қатор лабораториялар фаолият юритиши мумкин. Уларга механик ишлов бериш цехида энг илғор, замонавий дастгоҳ ва қурилмалар ўрнатилган бўлиб, улар металл, ёғоч ва полимер материалларга ишлов бериш

ҳамда улардан мураккаб деталлар ишлаб чиқаришга мўлжалланган, механик ишлов бериш цехида яратилган деталларни метрологик синовдан ўтказиб, стандартларга жавоб бериш даражасини аниқлаш учун стандартлаштириш лабораторияси ташкил этилиб, замонавий қурилмалар билан жиҳозланган, робототехника лабораториясида ёшлар учун роботларни йиғиш жараёнида зарур бўлган барча қулайликка эга ускуналар ўрнатилган., биотехнология лабораториясида мураккаб микробиологик жараёнлар таҳлилини ўтказиш, тупроқшунослик муаммоларини ўрганиш ҳамда ўсимликлар устида тадқиқотлар олиб бориш учун жиҳозлар, қурилмалар ўрнатилган [2].

Замонавий олий таълим муассасаларида “Рақамли Ўзбекистон — 2030” дастурида белгиланган вазифаларни бажариш мақсадида “Рақамли университет” тизимига асосланган рақамли кутубхона тизими яратилган. Шунингдек, робототехника ва мехатроника, IT технологиялар, муқобил энергетика ва биотехнология йўналишлари бўйича бажарилаётган инновацион лойиҳалар асосида тегишли инновацион технопаркда ташкил этиладиган ўқув, амалиёт, ишлаб чиқариш хоналари ва уларда ўрнатиладиган ускуналар ва жиҳозлар тўғрисида маълумотлар базаси шакллантирилган.

Тадқиқот маълумотларига кўра, интеллектуал мулк улуши Европада ялпи ички маҳсулотнинг 45 фоизини, Хитойда 12 фоизини ва Россияда 7 фоизини ташкил этади. 2020 йил 12 октябрь куни бўлиб ўтган йиғилиш мавзусини давлатимиз раҳбари “Интеллектуал мулкни ҳимоя қилиш Учинчи Уйғониш даври учун ишончли пойдевор бўлиб хизмат қилади”, дея номлаган ҳамда патент эгалари ва тадбиркорлар ўртасидаги ҳамкорликни таъминлаш зарурлигига алоҳида эътибор қаратган эди. Шундай аниқ мақсадлар сари университетимиз профессор-ўқитувчилари ва иқтидорли ёшларининг фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини уйғун ҳолда олиб бораётган илмий ишлари ва кенг қамровли фаолияти алоҳида аҳамиятга эгадир [2].

Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси асосида фаолиятни ташкил этиш барча олий таълим муассасаларининг асосий вазифаларидан биридир. Бу давлатимиз раҳбари томонидан Янги Ўзбекистонни бунёд этиш ва Учинчи Ренессансга мустаҳкам замин яратиш борасида олий таълим тизимидаги шиддатли ислоҳотлар ривожланишнинг янги босқичига кўтарилаётганидан далолат беради.

Адабиётлар:

1. О.К.Абдурахманов, Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси. – Т.: «Fan va texnologiya». 2014, 228 бет.

2. Б.Ш.Усмонов. Олий таълимнинг инновацион фаолияти ва уни иқтисодиёт ривожланишидаги ўрни. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018 йил.

ФАН - ТАЪЛИМ ИНТЕГРАЦИЯСИНИ ТАЪМИНЛАШДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ЎРНИ

Файзиева Шоира
ГулДУ Педагогика ва психология, кафедраси катта ўқитувчиси

Хотин-қизларнинг жамият ҳаётидаги ўрни ва нуфузини ошириш, қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш мақсадида, шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгилаб берилган вазифаларни инобатга олган ҳолда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 февралдаги ―Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги фармони қабул қилинди. Унда аёлларнинг ижтимоий-сиѐсий фаоллигини кучайтириш, қонуний манфаатларини таъминлаш, қобилият ва салоҳиятини рўѐбга чиқариш, оила институтини мустаҳкамлаш, оналик ва болаликни ҳимоя қилишга қаратилган қатор чора-тадбирлар белгиланди.

Бугунги кунда келажагимиз эгалари бўлган ѐш қизларимизнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, уларнинг орзу-интилишлари, қобилият ва илмий салоҳиятини

рўѐбга чиқаришга қаратилган қатор ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, талаба қизлар билан доимий мулоқотлар олиб бориш, уларни касбга тайѐрлаш ва малакасини ошириш, уларни соғломлаштириш ва бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, бандлигини таъминлаш, жамиятнинг муносиб аъзоларига айланиши юзасидан амалий кўмаклар бериш юзасидан тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Республикамиз олий таълим муассасалари талаба ва тадқиқотчи қизларининг давлат стипендияларига танловлари, илмий-амалий лойиҳалар ва грантлар, халқаро ва республика фан олимпиадалари, халқаро ва миллий илмий танловлар, Зулфия номидаги давлат мукофотига танлови, Инновацион ғоялар ва ишланмалар танловларида иштироки ҳар томонлама қўллаб-қувватланмоқда. Айни вақтда бугунги шиддатли замон, ҳаѐтнинг ўзи ѐш авлод, қизлар тарбияси борасида олдимизга янги-янги, ўта муҳим ва долзарб вазифаларни қўймоқда.

Айнан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиѐевнинг 2018 йил 2 февралда қабул қилинган “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва

оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5325-сонли фармони хотин-қизларнинг оила ва жамиятдаги ўрни ва мавқеини мустаҳкамлаш, салоҳиятини тўла намоѐн этиши, оилалардаги ижтимоий-маънавий муҳитни янада соғломлаштиришга хизмат қилади. Ана шуларнинг барчасини ҳисобга олган ҳолда, фармон ҳар томонлама соғлом авлодни вояга етказиш борасидаги ишларимизни изчил давом эттириш ва юксак босқичга кўтариш вазифасини юклайди.

Бугунги тезкор ахборот алмашинуви даврида хотин-қизларнинг маънавий қиѐфасини юкалтириш муҳим аҳамиятга эга экан, юртимизда амалга ошириладиган барча ижобий ўзгаришлар ўз-ўзидан маънавий баркамол авлод тарбиясини ўзида мужассамлаштиради. Аѐл маънавияти – бу ҳаѐт зийнатидир. Замонавий ўзбек аѐли у ўз бегининг бегойими, фарзандининг меҳрибон онаси, ота-онасининг меҳрли фарзанди, дугонаси, ѐру биродарларининг оқибатли дўсти, шунингдек, жамоасида ўз ўрнини топа олган касб эгаси бўлиши лозим. Бугуннинг замонавий олима аѐли, унинг фан ва жамиятда тутган ўрни ҳақида гап борар экан, аввало унинг жинсий парадигмасида муҳим омил бўлиб хизмат қилаѐтган қобилият ва имкониятлари, мислсиз ихтироларига эътибор қаратиш лозим. Муваффақиятли илмий фаолият, таълим сохасидаги ўсиш, изланишлари самараси иқтисодиѐт ва таълим сохасига тадбиқ қилиниши, илм аҳли томонидан тан олиниши замонавий аѐл ҳаѐтининг мазмуни. Аммо у бу борада ва шундай аҳамиятга молик бўлган бошқа сохаларда ҳам муваффақиятга эришишда анча қийинчиликларга дуч келишини-ҳам инкор этиб бўлмайди.

Бугун юртбошимиз ва ҳукуматимиз аѐлларнинг жамиятдаги фаоллиги, айниқса, илм-фан ривожига хисса қўшишга қодир бўлган юксак салоҳиятли аѐлларни ҳар томонлама қўллаб-қувватловчи одилона сиѐсат юритмоқда. Бундай имкониятлар даврида ҳар бир илмли, кашфиѐтчи ва ихтироларга қодир аѐллар жамият кўзгуси сифатида фаол одимлашга ҳақлидирлар. Шундай экан, аѐлларнинг илғор, фаол вакиллари саналган замонавий, олима аѐллар фаолиятига тўғри баҳо бериш, ўрни келганда уларни қўллаб-қувватлаш, кундалик ҳаѐтда истасак-истамасак дуч келадиган ижтимоий стереотиплар таъсиридан чиқишларига кўмаклашиш фақат жамият ривожига ижобий таъсир этишдир.

Фан ва таълим интеграциясининг бугунги кундаги яққол ифодасини “Зулфияхоним қизлари” тимсолида кўришимиз мумкин. Юқорида таъкидлаганимиздек, “Устоз-шогирд” тизимидаги ворисийлик анъаналари бу қизларимизнинг, ҳаѐт тарзларида, илмий изланишларида, кийинишлари-ю, тафаккур тарзларида, ўзига хос идеалларни шакллантириб улгурди. Шу сабабдан ҳам, ижтимоий тараққиѐтнинг турли даврларида яшаган Нодирахоним, Увайсий, Анбар Отин ѐки замондошларимиз бўлган, Ҳадича Сулаймонова, Мукаррама Турғунбоева, Тамарахоним, Лутфихоним Саримсоқова, Суюма Ғаниева, Муножат Йўлчиева каби юзлаб устозларимиз ўзларидан кейин барчага ўрнак бўладиган илмий мактабларни яратдилар.

Тиббиѐт, техника, ижтимоий-гуманитар ѐки санъат каби фанларнинг ҳар бирида фаолият олиб бораѐтган бундай устозлар бор экан, республикамизда дунѐ андозаларига мос илмий-ўқув лабораториялар, кафедралар, олий таълим ва илмий тадқиқот муассасалари, нуфузли илмий марказлар, мактабларда салоҳиятли мутахассис кадрлар томонидан илмий-тадқиқот ишлари

амалга оширилади. Айниқса, ихтисослаштирилган мактабларнинг очилиши иқтидорли ѐшларимиз учун улкан имкониятларни очиб бермоқда.

Фан-таълим интеграциясини таъминлашда хотин-қизларнинг ўрнини ошириш учун қуйидаги муҳим вазифаларни амалга ошириш муҳим ҳисобланади:

1. Олий таълим муассасалари аѐл профессор-ўқитувчилар, иқтидорли талаба ва тадқиқотчи қизларнинг, хусусан, улар томонидан чоп этилган илмий мақолалар сонини кўпайтириш, уларда иқтибос келтириш индексини юқорилаш, халқаро конференциялар ва семинарларда иштирокини янада жадаллаштириш.

2. Илм соҳасидаги фаоллиги, эришган ютуқлари, иқтидори, илмий салоҳияти билан алоҳида ажралиб турган, илмий тадқиқот олиб боришга иштиѐқи баланд талаба ва тадқиқотчи қизлар билан олиб борилаѐтган ишларни янада такомиллаштириш.

3. Олий таълим муассасаларининг Хотин-қизлар қўмиталари, “Олима аѐллар” уюшмаси билан ҳамкорликда талаба қизлар, илмий тадқиқотчи ва мустақил изланувчи қизларнинг интеллектуал салоҳияти, онги ва тафаккурини юксалтириш ҳамда ушбу иқтидорли қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашю

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Хотин-қизларга нисбатан камситишнинг барча шаклларини тугатиш тўғрисидаги конвенция 1979. http://taraqqiyot.uz/hotin-izlaruularikamsitil.

2. Ўзбекистон Республикаси «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида» 2019-йил 2 сентабрдаги Қонуни;

3. Зўравонликдан жабрланган лар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва зўравонликнинг олдини олиш услубий қўлланма Тошкент-2020 йил

4. ИИВ Жамоат хавфсизлиги департаменти бошлиғи ўринбосари – полковник Б.Бердиалиев Kun.uz сайтидаги 04.01.2022’ баѐнотидан.

5. “Зўравонликка қарши биргаликда курашамиз” шиори остида “Гендер зўравонликка қарши 16 кунлик фаол ҳаракатлар” кампанияси Сенат раиси Т.Нарбоеванинг "Газета.uz" сайтидаги 22.11.2021 йилдаги баѐнотидан.

YOSHLARNI KASB TANLASHGA YO‘NALTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOFIZIOLOGIK PRINSIPLARI VA VAZIFALARI

Ibragimova Shoira Kosimovna
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annatasia: this article presents ideas about strengthening the motivation of educational and scientific activities in young people, the connection with the choice of a profession in order for young people to achieve a conscious choice of their profession in the future, the creation of external and internal conditions of activity of social significance. Teaching young people to look at the profession as a scientific and practical system of free and independent choice. At the same time, it was noted that the need to focus on the scientific implementation of psychophysiological factors and methods of psychological impact affecting activity is of urgent importance.

Keywords: relaxing atmosphere motivation, Psychophysiology, activity motivation, orientation of scientific and innovative activities, professional psychophysiological, professional Psychophysiology.

«Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag‘ishlaydi, baxt keltiradi» Andre Maruo

Yoshlar kelajakda o‘z kasbini ongli ravishda tanlashiga erishish uchun ularda kasb tanlash bilan bog’lik ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ichki (psixik) xulq-atvor va faoliyat yo‘nalishlarini shakllantirish, kasbni tanlashda ijtimoiy ahamiyatli faoliyatning tashqi va ichki shart-sharoitlarini yaratish lozim.

Kasbga yo‘naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiy va amaliy tizimi sifatida qarash lozim. Bunda xar bir shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari hamda xalq manfaatlari nuqtai -nazaridan mexnat resurslarini to‘laqonli ta’minlashning zarurligini xisobga olish kerak. Insoniyat

taraqqiyotining dastlabki davrlaridan yoshlarni kasb tanlashga yo‘llash masalasi jamiyatning diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan

Kasbni mustaqil tanlash - shaxsning rivojlanish jarayonidir. Uning ichki mohiyati barcha mehnat turlari to‘g’risida bilimlar tizimini shakllantirish, mehnatga yo‘naltirish, amaliy layoqat va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni uddalay bilishni tarbiyalash va mazkur faoliyatga ko‘nikma xosil qilishni qamrab oladi.

Shaxs sifatlarini o‘rganish asosida uni ishlab chiqarish, aqliy mehnat sohasiga to‘gri yo‘naltirish, yosh avlodda zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamisha davlat va jamiyat mavjudligi hamda taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblangan.

Kasb tanlash shunday ma’suliyatli jarayonki, u insonni bir umrga baxtsiz yoki baxtli qilishi, barcha rejalarining barbod bo‘lishi yoki amalga oshishiga asosiy sababchi bo‘lishi mumkin. Baxtsizlik va omadsizlikni xoxlamagan inson o‘z tanloviga shubha qilmagan xoldagina har tomonlama mulohaza yuritib, qaror qabul qilishi lozim.

X asrda yashab ijod etgan ulug’ bobo kalonomiz Abunasr Al Forobiy (870-950) ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb –hunar egalashga chaqiradi. Forobiyning fikricha inson –ojiz banda hech narsaga qodir bo‘lmagan mavjudot emas, balki u eng oliy kamolot bo‘lib “Aql –idrok ziyosiga ega, o‘zi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir” . Forobiy mehnat va kasb –hunar ko‘nikmalarini axloqiy fazilatlarni hosil qilish lozimligini ta’kidlab: “Agar kasb-hunar fazilati tug’ma bo‘lganda, podsholar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podsholik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiyat bo‘lib qolar edi.” Kasb-hunar fazilati tug’ma bo‘lmas ekan. Demaki odob –axloq, rasm—rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilish uchun insondagi zo‘r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo‘l bilan ya’ni ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. “Ta’lim degan so‘z xalqlar shaharlar o‘rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlari birlashtirish degan so‘zdir” ded aytgandi.

❖ Yoshlarni kasb tanlashga yo‘naltirishning psixofiziologik prinsiplari va vazifalari dastlab psixologik va biologik asoslar asosida tuzilgan. Bu prinsiplar o‘zaro bog‘liq bo‘lib turar, bir-biri bilan qo‘llaniladigan va yoshlarni kasb tanlash jarayonini mustahkamlash uchun kerakli imkoniyatlarni yaratishga yordam beradilar.

❖ Bepul rivojlantirish imkoniyati: Yoshlarning o‘quv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularga bepul imkoniyatlar taqdim etish zarur. Bepul ta’lim modullari, tajribalar va o‘quv vositalari orqali yoshlarga motivatsiya berish, ularga kasb tanlashda qiziqishni oshirish qulay.

❖ Sotsial o‘rinlarni ta’minlash: Yoshlar o‘z o‘rnlarini bilib, jamiyatdagi o‘z o‘rnidan ehtiyojlariga qarab kasb tanlashni istaydilar. Shunday qilib, yosh kasb tanlash jarayonida tarbiya o‘rtasida o‘zaro aloqani ta’minlash hamda ularni jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun to‘g‘ri o‘rnatilgan muhitni yaratish zarur.

❖ Rahatlantiradigan atmosfera yaratish: Yoshlarni kasb tanlashda rahatlantiradigan atmosfera yaratish, ularning o‘z fikrlarini ifoda qilishni ko‘paytiradi. Bunga qaramay, ular o‘z fikr va yondashuvlarini ishontirish va takliflarini qabul qilishda erkinlikka ega bo‘ladi. Bu, ularning kasb tanlash jarayonida o‘z mehnat va qobiliyatlarini namoyish etish imkonini beradi.

❖ Samarali ta’lim usullari: Yoshlarni kasb tanlashning asosiy vazifalari yagona usulda amali chora-tadbirlar bilan ta’minlanmaydi. Bu yuzdan, mavjud ta’lim usullaridan foydalanish zarur. Yoshlarga turli ta’lim modellari, qulayliklari va talabalarga mos keladigan o‘quv usullari bilan ta’limlarni turli qismlarga bo‘lishi va bu tarafda nutq, erkinlik, tajribaviy ta’lim, ijodiylik, ijtimoiy ishlarni o‘rganishlarini o‘rgatish jarayonida ishlatish zarur.

❖ O‘z-o‘zini tahlil qilish va tushunish: Yoshlarni kasb tanlash jarayonida ularning o‘z-o‘ziga tahlil qilish va tushunishlari juda muhimdir. Bu, ularning o‘z o‘zini his qilish va o‘z talablari va qobiliyatlari haqida tushunishiga yordam beradi. Ularga o‘z fikrlarini ifoda qilish va maqsadlari yo‘lida erkin bo‘lish imkonini beradi.

❖ Ijtimoiy aloqani o‘rgatish: Yoshlarni kasb tanlashda ijtimoiy aloqalarni o‘rgatish juda muhimdir. Ularga o‘zaro aloqalarni o‘rgatish va ularni qo‘llab-quvvatlash orqali ular o‘z-o‘zining jamiyatda ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini yaratish zarur. Bu ularga ta’lim, ishlash, jamoatda faollik yaratish va o‘z fikrlarini ifodalashni o‘rganishda yordam beradi.

❖ Yuqori maqsadlar va rivojlanish uchun motivatsiya berish: Yoshlarni kasb tanlashga yo‘naltirishning muhim prinsipi ularga yuqori maqsadlar uchun motivatsiya berishdir. O‘rganish

jarayonida ularga o‘zlarining muvaffaqiyati uchun maqsad va vazifalar berish, mukammal qilishga odatlanish va muvaffaqiyatlarini tan olishlari uchun murojaat qilish yordam beradi.

Kasbiy psixofiziologik tanlashning asosiy vazifalari

1) ishning ishonchliligi va samaradorligini oshirish uchun yaroqliligini bashorat qilish, ayniqsa ekstremal sharoitlarda;

2) o‘qitish sifati va tezligini oshirish uchun o‘rganishga yaroqliligini bashorat qilish;

3) kadrlar almashinuvini va ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarni kamaytirish;

4) mehnat unumdorligi va kasbiy uzoq umr ko‘rish va salomatlikni oshirish.

Har bir inson ma’lum psixofiziologik fazilatlarga ega. Shuning uchun ham aytish mumkinki, inson o‘z tabiatiga ko‘ra ma’lum bir kasb yoki kasblar guruhini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga ozmi-ko‘pmi tayyor bo‘ladi**.** Psixofiziologik tanlovni oqilona o‘tkazish ishonchli ilmiy asosga asoslanadi, chunki kasbni to‘g‘ri tanlash va muayyan ish lavozimida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish masalasi nafaqat jamoat, balki shaxsiy ahamiyatga ega, chunki. xodimlarning sog‘lig‘ini saqlash va kasbiy kasalliklarning oldini olishni ta’minlaydi. Bu faoliyati yuqori neyro-emotsional stress, analizator tizimlariga talablarning ortishi, xotira, diqqat, neyro-psixik barqarorlik, vaqt bosimi ostida va ekstremal sharoitlarda murakkab va mas’uliyatli vazifalarni to‘g‘ri bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan mutaxassislar toifalariga taalluqlidir.

Professional psixofiziologiyaning asosiy vazifalari:

Kasbga kasbiy psixofiziologik tanlovni o‘tkazish, mehnat faoliyatining har bir turi uchun kasbiy muhim fazilatlarni aniqlash;

- ishlaydigan shaxsning samaradorligi va ishonchliligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- faoliyatning muayyan turi uchun maqbul mehnat va dam olish rejimini ishlab chiqish orqali kasbiy kasalliklar xavfini kamaytirish;

- kasbiy qayta tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- jamoadagi psixologik iqlimni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, har bir xodimning umumiy mehnat jarayonidagi rolini aniqlash.

O‘quvchi yoshlarga mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirib borish maqsadida Rossiyada “Texnologiya” fani o‘quv dasturi mazmuniga “Konstruktsion buyumlardan materiallar yasash” (22 soat), “Chizmachilik va grafika” (10 soat) kabi mavzularni o‘qitish orqali kasbiy ko‘nikmalari shakllantirilsa, Belarus maktablarida esa ”Veb-saytlarni yaratish va konstruktsiyalash” (6 soat), “Tadbirkorlik asoslari” (10 soat) kabi mavzular, Qozog‘istonda “Yog‘ochga qo‘lda ishlov berish” (7 soat), “Metallarga qo‘lda ishlov berish” (8 soat) kabi mavzularni o‘qitish orqali kasbga yo‘naltirish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Kasbiy o‘zini o‘zi belgilashda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mazmuni quyidagi vazifalarni hal qilish bilan bog‘liq:

1) axborot ishlarini olib borish;

2) individual ta’lim yo‘nalishini tanlash bo‘yicha qaror qabul qilishni o‘rganish;

3) tanlashning asosiy cheklovlarini (qiyinchiliklari, muammolari) aniqlash;

4) o‘quv profilini mustaqil tanlashga tayyorlikni aniqlash;

5) shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning haqiqiy muammosini aniqlash;

6) shaxsning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganish;

7) kasblar dunyosini o‘rganish;

8) shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashga psixologik tayyorlikni aniqlash;

9) shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashga psixologik tayyorgarlikni tuzatish;

Hozirgi vaqtda pedagogik mutaxassisliklar bo‘yicha kasbga yo‘naltirish tizimi quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni o‘z ichiga oladi:

- kasbiy ta’lim, shu jumladan kasbiy ma’lumot, kasbiy targ‘ibot va "o‘qituvchi" kasbining targ‘iboti kasbiy ta’lim yoshlarda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va psixofiziologik imkoniyatlaridan xabardor bo‘lishga asoslangan asosli kasbiy niyatlarni shakllantiradi;

- o‘qituvchilik kasbiga qiziqish va pedagogik qobiliyatlarni, qadriyat yo‘nalishlarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini, moyilliklarini, qobiliyatlarini, kasbiy yo‘nalishini, kasbiy niyatlarini, kasb tanlash motivlarini aniqlashga qaratilgan dastlabki kasbiy diagnostika. Kasbiy diagnostika suhbatlar, suhbatlar, anketalar, kuzatishlar orqali amalga oshiriladi;

- ma’lum bir kasbni muvaffaqiyatli egallashi va tegishli mehnat vazifalarini bajarishi mumkin bo‘lgan shaxslarni tanlash uchun kasbiy tanlov. Kasbiy tanlash jarayonida insonning kasbiy yaroqliligi odamlarda mavjud bo‘lgan fiziologik va intellektual farqlar asosida aniqlanadi. “Kasbiy yaroqlilik” - bu shaxsning jismoniy sifatlari va psixofizik xususiyatlarining kasbiy talablarga muvofiqlik darajasi.Agar bu sifat va xususiyatlar zaruriy talablarga yetib bormasa, biz kasbiy kamchilikka duch kelamiz,

-yoshlarda burch, mas’uliyat, kasbiy sha’ni va qadr-qimmatini shakllantirishga qaratilgan kasbiy ta’lim.

Kasbiy ta’lim usullarini uch guruhga bo‘lish mumkin:

-shaxs ongini shakllantirish usullari;

-ijtimoiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish usullari;

-faoliyatni rag‘batlantirish usullari;

-kasbiy moslashuv, uning davomida ish sohasida yangi munosabatlar, ehtiyojlar, qiziqishlar shakllantiriladi va nihoyat, hayot rejalari qanchalik real bo‘lganligi aniqlanadi;

Foydalangan adabiyotlar

1. SH. M.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz”. T.Oqzbekiston 2016
2. Karandashev V.N Psixologiya vvedenie v proffessiyu Moskva-2003 god 19 st
3. D.Nabijonov O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish psixologiyasi Toshkent-2002 yil 38-bet
4. A.D. Sazonov, N.I.Kalugin, A.P.Menshikova “ Professionalnaya orentasiya molodej” Moskva vishaya shkola, 2009 272 st.
5. A. V. Batarshchev Talaba yoshlarning kasb tanlashini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash: amaliyotga yo‘naltirilgan monografiya ". - M.: Akademiya, 2011.
6. D.N. Arziqulov Kasbiy kamolotning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari.: Ps. fan. nom. ... diss. avtoref.–T.: 2002.-22 b.
7. R.Z. Asomova Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi. Psixol. fan. nom. dis... avtoreferati. - Toshkent: 2002.-28b.
8. M.Muxliboyev. “Glaballashuv davrida yoshlarni integrativ ekologik madaniyatini shakillantirish yo‘llari” “Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muommolar,yechimlar va hamkorlik” 2023-yil 25-26 may

AR VAVR KITOBLAR HAQIDA BA’ZI MA’LUMOTLAR

Nurmuxamedova Feruzaxonim Axmadjon qizi
Guliston davlat universiteti doktoranti

Elektron kitoblar adabiyotlarni oson qidirib topish vaqt va mablag’ bilan bog’liq muammolarga ham yechim bo‘la oladi. Elektron kitoblar paydo bo‘lgandan beri o‘z auditoriyasini boyitib bormoqda. Bunda VR, ya’ni virtual reality tushunchasi bilan integratsiyasi haqida aytib o‘tmoqchimiz. Zamonaviy texnologiyalarni kutubxona xizmatlar soxasiga tadbiq etish ehtiyoji paydo bo‘lmoqda.

Savol tug’iladi. VR texnologiyani kutubxonaga qanday tadbiq etamiz? VR-kitob nima? Bu kelajak kutubxona va kitoblaridir. Bu haqda [5] da batafsi ma’lumot berilgan. VR-kutubxonalar imkoniyati qurilmalar, yangi texnologiyalar rivojiga qarab yanada rivojlanishi va o‘zining foydalanuvchilarini oshirishi mumkin. Vr-kutubxonada kutubxonachilar sizga xizmat ko‘rsatmaydi. Bir joyda o‘tirgan xolatda har xil kutubxona xizmatlaridan foydalanish mumkin. Hozirgi davrda VR ning imkoniyatlari cheksiz. Ko‘plab turizm, kino, ta’lim va tibbiyot soxalarida keng ko‘lamda naf keltrimoqda. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishidan xabardor bo‘lishning eng yaxshi usullaridan biri bu AR/VR kitoblarini o‘qishdir. Ushbu kitoblar hozirgi kitobxonlarning tasavurlarini rivojlantirish uchun ajoyib manbadir. Bundan tashqari, AR va VR yanada rivojlanishi, iqtisodiyotning ko‘proq sektorlariga kirib borishi sababli, bu kitoblarni bazasini kengaytirish dolzarbdir. Hozirda mavjud quyida eng yaxshi 5 ta vr kitoblar haqida qisqacha aytib o‘tamiz.

1. Augmented Reality: Principles and Practice (Usability) by Dieter Schmalstieg and Tobias Hollerer

Haqiqiy dunyoda kompyuter tomonidan yaratilgan ma’lumotlarni birlashtiradigan Augmented Reality (AR) insonning idroki va idrokini sezilarli darajada oshiradi. Tez kengayib borayotgan ushbu mavzuda ishlash uchun kompyuterni ko‘rish, kompyuter grafikasi, inson va kompyuterning o‘zaro ta’siri kabi bir qancha sohalarni bilish zarur. Bu ma’lumotlarning barchasi bugungi kunda eng muhim ishni sinchkovlik bilan taqdim etuvchi yagona manbali ma’lumotnoma bo‘lgan "Augmented Reality: Principles and Practice" da to‘plangan. Bu kitob Diter Shmalstieg va Tobias Xollerer tomonidan yozilgan bo‘lib, texnologik, uslubiy va foydalanuvchi nuqtai nazaridan ARni yoritib berganligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.[1] O‘quvchilarning fikriga ko‘ra, ushbu kitob AR tizimini yaratishning ko‘plab qismlarini to‘liq qamrab oladi. U AR gadjetini yaratish bo‘yicha ko‘plab tegishli ma’lumotlarni taqdim etadi, kompyuterni ko‘rishdan tortib sensorli sintezgacha. Agar qurilma tizim darajasida qanday birlashtirilganligini o‘rganmoqchi bo‘lsangiz, juda foydali. Kitobda displeylar, kuzatish-sezgi, kalibrlash-ro‘yxatga olish, real va virtual ob’yektlarni uzluksiz aralashtirish, intuitiv tushunishni yaxshilash uchun vizualizatsiya, kengaytirilgan reallik taqdimotlari va ma’lumotlar bazalarini yaratish, taqsimlangan real vaqtda, multimedia va multimediali AR tizimlarini loyihalash muhokama qilinadi.



2. Virtual & Augmented Reality For Dummies (For Dummies (Computer/Tech)) by Paul Mealy

Kelajakda texnologik inqilob AR va VR tomonidan boshqariladi. Ushbu kitob sizga ushbu texnologiyalarni, ularning tarixini, qanday qo‘llanilishini va agar siz harakatga kirishmoqchi bo‘lsangiz, qisqa vaqt ichida iste’molchilarga shaxsiy va professional ta’sir ko‘rsatishini tushunishga yordam beradi.[2] VR va AR kelgusi bir necha yil ichida keng qo‘llanilishi kutilmoqda: o‘quvchilarni mavzu bo‘yicha o‘rgatish uchun qulay kitob. Dummies uchun virtual va kengaytirilgan haqiqat bitta apparat yoki dasturiy ta’minotga e’tibor qaratish o‘rniga VR va ARning keng ko‘rinishini oladi. Ushbu kitob sog‘liqni saqlash, ta’lim va ko‘ngilochar kabi sohalarda AR va VR qanday qo‘llanilishini o‘rganadi va hozirda VR va AR sohalarida ishlayotgan dizaynerlar, ishlab chiquvchilar va texnologlar bilan intervyularni o‘z ichiga oladi. Ushbu kitob sizning ushbu rivojlanayotgan texnologiyalarga qanday yondashishingiz va ishtirok etishingizni o‘zgartiradi, chunki u potentsial kontent provayderlari va iste’molchilar uchun idealdir.



3. Practical Augmented Reality: A Guide to the Technologies, Applications, and Human Factors for AR and VR (Usability) by Steve Aukstakalnis

Bu taqiladigan kompyuterlar, AR va VR tizimlari, jumladan, ularning texnologiyalari, ilovalari va insoniy jihatlari muammolarining eng to‘liq va dolzarb sharhidir. U nazariya va amaliyotning keng qamrovli yoritilishini birlashtirib, zamonaviy displeylar, datchiklar va hozirda yoki tez orada sotuvga chiqariladigan boshqa qulay texnologiyalar va vositalarni ta’kidlaydi. Bu ham amaliyotchilar, ham talabalar uchun eng kerakli mahsulotdir.[3] Bu adabiyotda amaliy AR qanday ishlashini tushuntiradi. Kitobda o‘yin, o‘yin-kulgi, katta ma’lumotlar vizualizatsiyasi, muhandislik, aerokosmik, mudofaa, tibbiyot, telerobotexnika, arxitektura, huquqni muhofaza qilish va geofizikadan amaliy qo‘llanmalar bo‘yicha chuqur misollar keltirilgan. Ko‘pgina gadjetlar aniq, tushunarli tushuntirishlar, tasvirlar va chizmalar bilan batafsil yoritilgan. Tegishli nazariy va amaliy ma’lumotlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan funktsional diagrammalar va rasmlar ushbu qurilmalar qanday ishlashini ko‘rsatadi. Ushbu tizimlarning insoniy xususiyatlari diqqat bilan ko‘rib chiqiladi, jumladan, sensorli va motorli fiziologik cheklovlar, monokulyar va binokulyar chuqurlik belgilari, ko‘rish bilan qo‘zg‘atilgan harakat kasalligi va ko‘ngil aynishini keltirib chiqaradigan o‘zgaruvchilar va vergensiya-akkomodatsiya ziddiyatlari haqida ham ma’lumotlar bor.



4. Virtual Reality (The MIT Press Essential Knowledge series) by Samuel Greengard

Semyuel Gringard MIT Press Essential Knowledge turkumidagi ushbu kitobda AR va VR so‘nggi yutuqlarini yoritib bergan. U kitobda yozuvchi texnologiyani tushuntiradi, uning ijtimoiy va psixologik ta’sirini ko‘rib chiqadi va kelajakdagi potentsial yo‘llarni muhokama qiladi. Greengard VR, AR va MRning ko‘p turlarini o‘rganadi va kengaytirilgan tarixi va texnologik taraqqiyotini muhokama qiladi. U ba’zi kasblar va sektorlarga ushbu texnologiyalar qanday ta’sir qilishini psixologiya, axloq, qonun va ijtimoiy tuzilmalarga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Uning ta’kidlashicha, asosiy savollar keng qamrovli voqelik odatiy amaliyotga aylanishi emas, balki bu texnologiyalar qanday, qachon va qayerda qo‘llanilishidadir. Kitob, o‘quvchilarning fikriga ko‘ra, virtual haqiqatni tasvirlash va tushuntirishda ajoyib ish qiladi.



5. Storytelling for Virtual Reality: Methods and Principles for Crafting Immersive Narratives by John Bucher

Kitob faqat texnologik jihatlarni ko‘rib chiqishdan ko‘ra, texnologiya va texnologiyalarni qanday qilib eng yaxshi tarzda qurish, yaratish va virtual joylarda qurish mumkinligiga qaratilgan. Muallif Jon Bucher texnologiyaning asoslarini va VR ulardan qanday foydalanishi, o‘zgartirilishi va oshib ketishini o‘rganadi. LucasFilm, 20th Century Fox, Oculus, Insomniac Games va Google kompaniyalari yetakchilari, shuningdek, VR bo‘yicha olimlar va innovatorlar bilan amaliy tadqiqotlar, suhbatlar va intervyular mavjud. O‘quvchilarning fikriga ko‘ra, bu kitob dunyo yaratilishining mutlaqo yangi

maydoniga o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan aqliy ochish va qayta ko‘rib chiqish sizni VR hikoyalarida nima bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylashga undaydigan kitobdir. Kitob oson o‘qilishi mumkin bo‘lgan akademik nazariyaning amaliy g‘oyalar bilan ajoyib uyg‘unligini taqdim etadi. Ushbu yangi san’at turining hozirgi va ajoyib kelajagi haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishni istagan har bir kishi buni ajoyib va ilhomlantiruvchi adabiyot deb biladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dieter Schmalstieg, Tobias H Höllerer “Augmented Reality - Principles and Practice” June 2016 .Publisher: Addison-WesleyISBN: 978-0321883575
2. Tomasz Mazuryk Michael, Gervautz Michael Gervautz[article] - “Virtual Reality - History, Applications, Technology and Future”.- 1999 30-dec.- journal
3. Paul Mealy “Virtual & Augmented Reality for Dummies” Published by: John Wiley & Sons, Inc., 111 River Street, Hoboken, NJ 07030-5774, www.wiley.com
4. Steve Aukstakalnis “Practical Augmented Reality: A Guide to the Technologies, Applications, and Human Factors for AR and VR” Released September 2016 Publisher(s): Addison-Wesley Professional ISBN: 9780134094328
5. Nurmuxamedova F.A. “VR muhitda kutubxona” “Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muammolar, yechimlar va hamkorlik’’ mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2023 y 25-26 may

FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALAR IJODIY QOBILIYATI XUSUSIYATLARI VA UNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK TALQINI

Axnazarova Diyora Erkin qizi
Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarda ijodkorlik qobiliyat xususiyatlarini namoyon bo‘lishining o‘ziga xos psixologik jihatlarining asosiy masalalari va farazlari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati hamda, ijodiy qobiliyat har qanday faoliyat turida namoyon bo‘lishi, u shaxsni yaxlitligicha yoki uning alohida qobiliyatlarini tavsiflanishi haqida ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy sharoitida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini , jumladan, oliy ta’limni isloh qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning asosiy maqsadi, ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan tashabbuskor shaxsni shakillantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish insonparvarlashtirish g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, oliy ta’limning maqsadli tamoyillaridan biri sifatida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muammosini dolzarblashtirishni o‘z ichiga oladi.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi,shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-tehnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohabo‘lib hisoblanadi. Ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali yetuk kadrlarni tez sur’atlarda tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Ta’limning ilmiy tadqiqot ishlari bilan integratsiyasi mazmun-mohiyatini to‘laroq

anglash uchun avvalambor “integratsiya” tushunchasining o‘zini ko‘rib chiqamiz. “Integratsiya” tushunchasiga integratsiylanadigan obyektlarning mohiyatiga ko‘ra turlicha ta’rif berish mumkin. Masalan:

- “Mamlakatlar integratsiyasi” tushunchasi osida dunyodagi bir qancha mamlakatlarning iqtisodiy, ilmiy-texnik hamkorligi;
- “Ishlab chiqarish integratsiyasi” tushunchasi orqali sanoat, agrosanoat yoki ilmiy ishlab chiqarish majmualari o‘rtasidagi hamkorligi;
- “Fanlar integratsiyasi” deyilganda esa bilimlar sintezining turli shakllari tushuniladi.

“Ijodkor shaxs”, Ijodiy yondashuv”, “Ijodiy yutuqlar”, “Ijodkorlikning namoyon bo‘lishi”… Ushbu tushunchalar jamiyatda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, zamonaviy kasbiy mahorat ko‘rsatkichlarini aniqlashning asosiy me’zonlaridan biri bo‘lib, eng yaxshilar orasida eng yaxshisi hisoblanadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida , uning kelajagini belgilovchi yoshlarni har tomonlama yetuk, komil, yuksak madaniyatli va ma’naviyatli bo‘lib yetishishini ta’minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining asosiy bo‘g‘ini sifatidapsixologik ta’limi pedagog xodimlarning yuqori ilmiy metodik bilimlarga, yuksak maxoratga ega bo‘lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ijodkor shax so‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat tomonidan tan olinadi va ma’lum ijtimoiy mavqega ega bo‘ladi. Oxirgi yillarda o‘tkazilgan psixologik tadqiqotlarda talabalardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal etish muvaffaqiyatini belgilovchi xususiyatlari alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda shaxslararo munosabatlarning tobora jadallashuvi, talaba va o‘qituvchilar almashinuvi, dunyo oliy ta’lim muassasalar hamkorligi, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, turizm sohasining rivojlanishi bo‘lajak mutaxassisdan kreativlik xususiyatlarini talab qilmoqda.

“Ijodkor shaxs”, Ijodiy yondashuv”, “Ijodiy yutuqlar”, “Ijodkorlikning namoyon bo‘lishi”… Ushbu tushunchalar jamiyatda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, zamonaviy kasbiy mahorat ko‘rsatkichlarini aniqlashning asosiy me’zonlaridan biri bo‘lib, eng yaxshilar orasida eng yaxshisi hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi qiziquvchanlik qobiliyati va odatini takomillashtirish va ijodiy faoliyatda tajriba orttirishga qaratilgan. Muhim jihati shundaki, bu tizimlarda har bir muammoni alohida hal qilish o‘qitish amalga oshirmaydi, balki muayyan muammolar guruhlarini hal qilishning umumiy yo‘lini, ularni hal qilish uchun umumlashtirilgan ishlarni bajarish usuli topiladi, ya’ni mavjud bilimlar ijodiy jarayonga xos bo‘lgan yangi sharoitga o‘tkaziladi.

So‘nggi yillarda ijodiylik yosh davrlari, ontogenez, zamonaviy ta’lim psixologiyasi, shaxs psixologiyasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Ushbu qobiliyatni erta aniqlash, shakllantirish, o‘quvchining umumiy shakllanishi va kamolotidagi ahamiyati, kelajakda shaxs muvaffaqiyatining ijodiylik darajasiga bog‘liqligini ilmiy asoslaydi. Bu kabi tadqiqotlarni bir butun mantiqiy tizimlashtirish va o‘quvchilarda ijodiylik xususiyatlarini shakllantirish maqsadida biz ijodiylik kategoriyasini har tomonlama o‘rganishni maqsad qildik.

Bola shaxsini rivojlantirish, dunyoqarashini o‘stirishda sharq mutafakkirlarining o‘rni katta. Ularning hayoti, ijodi, axloqiy ta’lim va o‘gitlari yosh avlodni tarbiyalashda meros hisoblanadi. Ular ijodiga xos xususiyat – ilm ma’rifatni ulug‘lash, axloq masalalari, Vatanni sevish, insonparvar bo‘lishga undashdan iborat bo‘lgan. Qolaversa, mazkur mutafakkirlarimiz tomonidan ham o‘z davrida ta’lim jarayonida mustaqil va kreativ fikrlovchi, ijodkor shaxslarni tarbiyalashda o‘qitishning qanday usul va vositalaridan foydalanish lozimligi borasida ahamiyatli fikr va mulohazalar o‘rtaga tashlangan.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” – (baxt saodatga eltuvchi bilim) asarida ham barkamollik asosida insonning mantiqiy, ijodiy va ijobiy fikrlashi turishini asoslab o‘tadi. Misol tariqasida, asarda komil insonning eng asosiy jihatlari sifatida u ilm, ijodiy va ezgu (ijobiy) fikrlashni ko‘rsatib o‘tadi. Komil inson aynan shu kabi fazilarlar orqali voqelikni to‘laqonli anglashi va mazkur zakovat orqali go‘zal va kreativ fikrlashi mumkinligini ilgari suradi. Bilimi buyuk – uquvi ulug‘, deb ta’kidlaydi. Chunki zakovatli inson ulug‘ bo‘ladi, bilimli kishi buyuk bo‘ladi, deb ilmli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo‘shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi.

Inson go‘zal va ijodiy fikrlashi orqali sog‘lom xulq-atvorga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lish g‘oyasi Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ham keng yoritilgan. Kaykovusning

fikricha, ilm uning asosida ijodiy va mantiqiy fikrlash insonni kamolotga yetaklovchi asosiy omillardandir. U ilmni uchga bo‘ladi:

1. Biror kasb-hunarga bog‘liq bo‘lgan ilm.
2. Ilm bilan bog‘liq bo‘lgan kasb-hunar.
3. Xayr va dalolatga taalluqli odat.

Kaykovusning mazkur qarashlari o‘sha davrda ilg‘or qarashlardan sanalgan. Chunki bu fikrlar uni zukko, donishmand, har tomonlama yetuk bilimga ega bo‘lganligidan dalolat bergan. Uning pand-nasihatlarida har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush “Qobusnoma” asarining barkamol avlodni tarbiyalashda amaliy ahamiyati juda kattadir.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy o‘z asarlarida o‘quvchi shaxsini kreativ va mustaqil tafakkurini rivojlantirish uchun ta’lim berishda ko‘proq qaysi tomonlarga e’tibor berish kerakligini bayon qiladi. Xususan, olimning ta’kidlashicha, o‘qitishda yodlatish emas, balki tushunish, mantiqiy va kreativ fikrlash, xulosalar chiqarish yo‘liga amal qilish muhimdir degan fikrni ilgari surganini ko‘rishimiz mumkin.

Abu Rayxon Beruniy fikricha, inson bilish, tushunish, fikrlash, muhokama qilish, o‘ylab topish singari iste’dodga egadir. Inson kreativ va mantiqiy fikrlashining qudrati shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg‘ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshilikni yomondan, haqiqatni esa nohaqiqiylikdan ajratish mumkinligi haqida ta’lim beradi.

Abu Rayxon Beruniy “Minerologiya” asarida “Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z joni va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir”,- deb ta’kidlaydi. Keltirilgan fikrlardan ko‘rinadiki, alloma inson kamoloti va sog‘lom xulq-atvorning asosida insoning ijobiy va ijodiy fikrlash omili turadi.

Abu Rayxon Beruniy bu narsa har qanday fanning rivojlanishiga ijodiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi. U bilishi lozim bo‘lgan hodisa va voqeani maydalab bo‘lib-bo‘lib o‘rganish, tahlil qilish metodikasini ilgari suradi.

Abu Rayxon Beruniy fikricha insondagi kreativ va mantiqiy tafakkur, aql tufayli narsa va hodisalarni bir-biri bilan solishtirib, qiyoslab ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi, ya’ni bilimlarni ob’ektiv voqelikka mosligini solishtirib ko‘radi. Mutafakkirimizning fikricha bilim va ta’limda taqqoslash metodi borliqning u yoki bu hodisasini tushuntirish uchun inson bilimlarini amaliy foydaliligi va ishonchliligini izlashdan iborat.

Shuningdek bolani yoshlik davridan boshlab ularni mustaqil fikrlashga, har tomonlama ijodiylik sifatlarini shakllantirish bo‘yicha amaliy va ilmiy yondashuvlarni ulug‘ mutafakkirlarimiz Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, she’riyat mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy bilan bir qatorda diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassamlashtirgan Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda talaba-yoshlar ijodiy qobiliyat omillarini tadqiq qilish muqarrarligini ko‘rsatdi. Buning uchun esa eng avvalo, ijodiy qobiliyatning komponentlari va mexanizmlarini o‘rganish hamda ular orasidagi uyg‘unlikni tadqiq qilish talab qilinadi. Shuningdek, ushbu muammo bo‘yichaolingan ilmiy natijalar va xulosalar ijtimoiy-psixologiya fanini yangi ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va samarali o‘quv dasturlarini yaratishga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar bugungi kunda katta muammo hisoblanadi. Shuning uchun ijodiy qobiliyat mexanizmlarini shakllantirish va unga ijobiy ta’sir yetadigan omillarni takomillashtirish zamonaviy psixologiya uchun dolzarb va zarur ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016 yil 14 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 37-Son, 426-modda.

2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent., “O‘zbekiston” 2019.- 488 b.

3. Юнг К. Психология бессознательного/ Пер. с нем. – М.: ООО Изд- во АСТ-ЛТД, КАНОН+, 1998. – 400 с.
4. Юсов Б. П. Взаимодействие и интеграция искусств в полихудожественном развитии школьников. – Луганск, 1990. 175 с.
5. Maslow A. Motivation and personality (3rd. ed.). N.Y.: Harper and Row, 1987.
6. Torrance E.P. The nature of creativity as manifest in the testing// R. Sternberg, T. Tardif (eds.). The nature of creativity. Cambridge: Cambr. Press, 1988. P. 43-75.
7. Torrence E.P., Growing up creativity gifted: a 22-years longitudinal study//Creative child and adult quaterly, 1980. 5 P.
8. Torrence, E.P. / Education and the Creative Potential. Minneapolis, 1963.

FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARDA BOSHQARUV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Begimkulov Umidjon Boirovich
Guliston davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi stajor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlarimizning tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik asoslari bilan bog‘liq paydo bo‘layotgan muammo, taklif va yechimlarni yoritib beradi.

Farzand tug‘ilibdiki ota-ona uning yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayishi va jamiyat uchun kerakli kadr bo‘lib shakllanishi uchun tarbiya bilan muqim shug‘ullanadilar. Tarbiya qanday ko‘rinishda bo‘lishidan qatiiy nazar muntazam va doimiy davom ettiriladi. O‘z – o‘zidan tarbiyaviy hamkorlikda farzanddagi o‘zgarish, undagi xatti-harakatni to‘g‘ri yo‘naltirishda pedagoglar, psixologlar xuddi ota-onalar kabi ma’suldirlar.Ularni boshqarishda pedagoglar tajribali bo‘lishi kerak.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, ota-onaning farzandiga berayotgan tarbiyasi va kelajagi uchun qilayotgan sayi-harakatlari hamda yurtimizda yaratilayotgan shuncha imkoniyat va sharoitlar zamirida bugungi kunda oliy o‘quv yurtini tamomlab, o‘zi tanlagan soha mutaxassisi bo‘lib chiqayotgan kadrlar qanchalik amaliy faoliyatga tayyor, erta bir kun ularga mas’uliyatli lavozim ishonib topshirilsa bu vazifani bajarishda ularda ko‘nikma mavjudmi...??

Ayrim davralarda yoshlar suhbatiga nazar solinsa ularda rahbarlik yoki mas’uliyatli ishga biroz salbiylik ko‘zga tashlanadi, negaki oldindan bizni ongimizga o‘rnashib qolgan ba’zi bir qarash bor, “Rahbarlik og‘ir kasb, hamma gapni sen eshitasan”, “Oilangga vaqt ajrata olmaysan” va xokazo. Bu qarashlar endi eskirgan. Biz xozir yangi davrda yashamoqdamiz va bu zamonni yana ham chiroyli qilish o‘z qo‘limizda.

Bugungi kunda, yoshlarimiz zamonaviy kasblarni egallash ko‘nikmalarini shakllantirib, malakali kadrlar bo‘lib yetishishlari dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Buning uchun eng avvalo yoshlarimiz bilimli, zukko va intiluvchan bo‘lmoqlari lozim. Bu boradagi yechimlarimizdan eng **birinchisi,** ta’lim tizimimizni yanada isloh qilib rivojlantirib borishimiz kerak. Tizimning eskirgan va foyda bermaydigan bo‘g‘inlarini yangilash, zamonaviy pedagogik, dasturiy va texnik texnologiyalarning ta’lim tizimining barcha bosqichlariga integratsiyalash lozimdir. **Ikkinchidan,** yoshlarning ma’naviy savodxonligini oshirish, milliy urf-odat va qadriyatlarni, vatanga bo‘lgan muhabbatni ongi va qalbiga singdirib borishimiz kerak. Bugungi yoshlarimiz intiluvchan va o‘zi uchun ideal g‘oyalarni maqsad qilovchi avloddir. Shu bois ularning hatto bo‘sh vaqtlarida ham milliy qadriyat, ma’rifat, madaniyatga targ‘ib qiluvchi loyihalar ustida izlanishimiz zarur. Yangi davr boshqaruv tizimiga yoshlarimizni ham zamonaviy, ham milliy qadriyatlar uyg‘unligidagi yangi davr mafkurasini ularning ongida shakllantirmog‘imiz lozim.

Zero prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev takidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonning nafasi, sur’ati va shiddatini avvalo aziz o‘g‘il-qizlarimizning azmu shijoati, dadil fikr va takliflarida, erishayotgan dastlabki yutuqlarida ko‘raman. Ishonchim komilki, farzandlari doimo izlanish va intilishda bo‘lgan, yuksak marralarni ko‘zlab, oldinga qarab intiladigan xalq va davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga albatta etadi. Chunki bunday harakatlar ertaga qudratli to‘lqinga aylanib, hayotimizni bugun kechagidan, ertaga bugungidan yaxshi va obod qilish, ongu tafakkurimizni yuksaltirishga olib keladi” [1].

Davlat rahbari bildirayotgan bunday ishonchni oqlash yoshlarga ulkan mas'uliyat va yuqori salohiyatga erishish vazifasini yuklaydi. Bu vazifalarni to'la-to'kis ado etishda yoshlarimiz dadil qaror chiqarishi, zamon bilan hamnafas harakat qilishi, doimo izlanishda bo'lib, ikkilanuvchanlikni yo'qotishi, yurt ravnaqi uchun har qanday javobgarlik va mas'uliyatli ishlarda duch keladigan qo'rquvni engib, oqilona yondashishi zarur, chunki bunday xatti-harakatlar zamirida yoshlarda katta hayotiy tajriba va malaka shakllanib borishi aniq.

Pedagogik ta'limotining paydo bo'lish tarixi tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadbiq etuvchi pedagogik bilimlar tarmog'idir. U ijobiy pedagogik g'oyalarning salbiy g'oyalarga qarshi kurash tarixini o'zida aks ettiradi. Ijobiy pedagogik g'oyalar hurfikrlar ta'lim qonuniyatining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoyillarini taxlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o'rtaga tashlaydi.

Tarbiya deganda, umuman jamiyatdagi insonlarning o'zaro munosabatlari jarayonida, ular birgalikda faoliyat ko'rsatadigan jamoada yoki alohida olingan bir o'quv-tarbiya muassasasida amalga oshiriladigan, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan maxsus tarbiyaviy tadbirlar, ma'lum bir faoliyat yo'nalishida dunyoqarashni shakllantirish bilan bog'liq jarayon tushuniladi va bu jarayon **boshqaruv jarayonini** ham o'z ichiga oladi [2]. Demak, pedagogika insonni tug'ilganidan boshlab to umrining oxirigacha hayot va turmush odobiga o'rgatuvchi hamda bu jarayonlarni tahlil hamda tadqiq etuvchi fandir. Tarbiya va tarbiyashunoslik haqidagi bu ta'rifning ma'no va mazmuniga odamlarning butun umri davomidagi xulq-atvori, odob-axloqi, bu boradagi milliy an'analarga sadoqat va bularga tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchining to'la amal qilishi, milliy qadriyat, ma'naviyat va ma'rifatga hurmat, iymon va vijdon singari go'zal fazilatlar singgan. Pedagogikada tarbiyalanuvchilarni yoshiga ko'ra maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi va katta yoshdagilar deb qabul qilinadi. Hozirgi davr pedagoglardan yuqori tajribani, yoshlarni o'ziga jalb qiluvchi, uning psixologiyasini o'rganuvchi bo'lishlarini talab qiladi. Shuni aytish joizki, boshqaruv jarayoniga uning rivojlanishiga shubhasiz pedagogik bilimlar kerak bo'ladi. Boshqaruv ilmining yirik namoyondalari ham avvalo murabbiylar tomonidan tarbiyalangan. Hozirgacha ularning bilim va qo'llanmalari hozirgi davrgacha yetib kelib, ulardan foydalanilmoqda. Buning natijasida tashkilotlar, korxonalar, xususan maktab zamonaviy ko'rinishdagi boshqaruv jarayonlarini rivojlantirmoqda. Albatta, bu yurtimiz manfaatlari yosh avlodning yuksalishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda maktab boshqaruvi ham tajribali kadrlar tomonidan boshqarilishi zamon talabi bo'lmoqda. Mamlakatimizda ham bir necha yillardan buyon oliy o'quv yurtlarida "Boshqaruv psixologiyasi" fani o'quv rejaga muvofiq o'qitilib kelinmoqda. Bundan maqsad yoshlarda boshqaruv jarayoniga bo'lgan qarash va ko'nikmani yanada takomillashtirish, boshqaruv jarayonini to'g'ri boshqarish g'oyalariniularga o'rgatish. Pedagogik boshqaruv har xil turlarga bo'linadi. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi - umumiy o'rta talim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari yoshida bo'lgan bolalar litseylar va kasb-hunar kolleji shart sharoitlardagi o'quv tarbiyaviy jarayonining o'ziga xosligini tadbiq etadi. Shuningdek, maktab pedagogikasi esa umumiy o'rta ta'lim maktablariga ta'lim berish va tarbiyalashning qonuniyatlarni taqdim etadi. Fikrimizcha, muassasa rahbari birinchi o'rinda xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshlash va ularni fikrini inobatga oladigan hammani teng ko'radigan, rejalashtirilgan ishlarni o'z vaqtida bajradigan yetuk mutaxassis bo'lishi kerak. O'zini ko'rsata olgan xodimlarga o'z vaqtida rag'batlantirishlar berishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Rag'bat kechiktirilsa ham jazo kechiktirilmasligi kerakligini ham bilish lozim. Xodimlarni ishlash jarayonida muntazam nazorat qilish, ularga yetarlicha imkoniyat berish, malaka va ko'nikma berish lozim.

Yangi istiqbollar va yangi yuksalishlar sari yo'lga otlangan va o'zining aniq rejalarini ishga tushirgan Yangi O'zbekiston uchun – boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish, boshqaruv jarayonlariga rahbar (yosh) kadrlarni tanlash, o'qitish, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ularning bilim darajalarini yanada yuqori bo'lishiga hizmat qiladigan shart-sharoitlarni yaratish mezonlari hozirgi kunning muhim omiliga aylanib ulgurgan. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning har yilgi Oliy Majlisga yo'llayotgan Murojaatnomalarida, nashrdan chiqayotgan asarlari mazmunida, qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlarining asosiy bo'g'ini va unda ko'rsatilayotgan aniq vazifalar, topshiriqlar ham bu masalaning qanchalik bugungi kun uchun muhim masalardan ekanini ko'rsatib turibdi.

Axborot texnologiyalari va intellektual salohiyatning keskin oshish asri bo'lgan XXI asrdagi yaratilayotgan imkoniyatlar bugungi kun boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar vaqti kelganligini, rahbar kadrlardan yangidan yangi bilimlar talab qilinishini ko'rsatib turibdi. Bu holat insoniy munosabatlar

yo‘nalishida ham islohotlar yuz berishi, intellektual salohiyati yuqori insonlar bilan muomala qilishning va ularga samarali ta’sir ko‘rsatishning yangi va o‘ziga xos usullarini tanlab olib, ish yuritishni talab qiladi.

Hulosa shuki, buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar bo‘lish uchun ularning amalga oshirgan ishlarini bugungi kun nazari va jarayonida islohotlarda davom ettirib, hozirgi davr yoshlari Vatanimiz ravnaqini yuksaltirishda o‘z iste’dod va qobiliyatlarini siyosiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy va harbiy sohalarda bor shijoatlari bilan namoyon qilishlari shart va zarurdir.

Negaki, yoshlar – xalqning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlar mamlakatni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi.

Ma’lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar. “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” kitobi. Toshkent 2021 y. “Tasvir” nashriyot uyi.

2. O.E. Hayitov. Boshqaruv psixologiyasi. Darslik. - Toshkent: «Istiqlol» nashriyoti, 2021.

FANLARARO INTEGRATSIYANI TA’MINLASHDA PSIXOLOGIYA ILMIY MAKTABLARNING O‘RNI

Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li
GulDU tayanch doktaranti

Annotatsiya: ushbu maqola fanlararo integratsiyani ta’minlashda psixologiya ilmiy maktablarning o‘rni va uning ahamiyati hamda insonlar psixologiyasi haqidagi ma’lumotlarga keltirilgan.

Mamlakatimiz hayotini har tomonlama yuksaltirish, taraqqiy etishi maqsadida barcha sohalarda chunonchi, ta’lim-tarbiya, iqtisodiyot, tibbiyot, sport, san’at, madaniyat kabilarda tubdan islohotlar olib borilmoqda. Barcha tizimlarni yurituvchisi, faoliyat olib boruvchilari bu insonlardir shunday ekan, avvalo ularning faoliyati samarali kechishida ularning ham ruhan ham jismonan holati kata ijtimoiy ahamiyatga ega. Insonlarning jismoniy va fiziologik holati bilan tibbiyot shug‘ullansa, uning ruhiyati bilan psixologiya shug‘ullandi. Insonlar psixologiyasini o‘rganish va iqtisodiyot, sport, san’at nainki barcha tarmoqlarda psixologik holatlarga e’tibor qaratgan holda yondashilsa, albatta samarali natijaga erishiladi. Chunki insonning jismini uning ruhi, ongi boshqaradi. Aynan shuning uchun ham hozirda yurtimizda psixologiya ilmi yanada rivojlanib bormoqda. Yurtboshimiz ham bu borada bir qancha farmonlar berganlar. Masalan, “Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilingan edi va unda quyidagilar keltirilib o‘tilgan:

- Respublikada psixologik xizmat ko‘rsatish va psixologiya sohasida malakal va yuksalish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanishi;
- mamlakatda amalga oshirilayotgan yangilanish, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda psixologik xizmatlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- yoshlar tarbiyasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, bola shaxsning ma’naviy kamol topishida psixologik qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning mustaqil ongli kasb tanlashi va o‘zining shaxsiy kasbiy rejalarini shakllantirishga sharoitlarni yaratishga psixologik jihatdan ko‘maklashish;
- iqtidorli yoshlar salohiyatlarini namoyon etishlariga ko‘maklashish, ularning bilish faoliyati jumladan qiziqishlarini boyitish, dunyoni idrok etishning universal usullarini shakllantirish uchun psixologik yordam tizimini yaratish asosida ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash;
- aholiga psixologik xizmatning talab qilinadigan darajasi va sifatini ta’minlovchi me’yoriy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish, jumladan, onlayn psixologik xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;
- aholi baxtlilik darajasi, sog‘liqni saqlash, xususan, mental salomatlik, stressdan himoyalanish yo‘nalishidagi tadqiqotlarni amalga oshirish;
- favqulodda holatlar sharoitida psixologik xizmat ko‘rsatish, hayot faoliyatida og‘ir psixologik holatlarga tushib qolgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan trening-reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- bolalarning maktabgacha bo‘lgan davri rivojlanishi, idrok, ong va xulq-atvor, kognitiv va ijtimoiy psixologiya sohasidagi ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va ommalashtirish;
- psixologik ma’rifat va maslahat berish faoliyatini tizimli tashkil etish, uning uzluksiz metodik ta’minotini yaratish;
- tibbiy va klinik psixologiya, psixolingvistika, psixogenetika, boshqaruv psixologiyasi, savdo psixologiyasi, gerontopsixologiya, kross-madaniy psixologiya, mehnat psixologiyasi, tashkiliy psixologiya kabi dolzarb yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlashni rivojlantirish;
- psixologiya sohasida zamonaviy o‘quv, ilmiy va ommabop adabiyotlarni tayyorlash, nashr etish va ommalashtirish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish;
- yosh psixologiyasi, psixofiziologiya, tibbiy psixologiya, psixoterapiya, patopsixologiya, differensial psixologiya, pedagogik psixologiya, psixodiagnostika, genetik psixologiya kabi sohalarda fundamental, amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish;

- sohada ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini ta’minlash, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ilmiy maktablarni shakllantirish va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- psixologiya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda nufuzli xorijiy oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot tashkilotlari bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

, 2021-yildan boshlab quyidagilarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilandi:

- respublikaning 14 ta hududida oliy ta’lim muassasalari huzurida xo‘jalik hisobida ish yuritadigan aholiga psixologik xizmat ko‘rsatuvchi markazlar tashkil etiladi;
- psixologiya sohasida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash bo‘yicha qabul parametrlari yiliga 30 foizdan oshirib boriladi;
- psixologiya sohasi professor-o‘qituvchilari va ilmiy xodimlarining xorijiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida tizimli malaka oshirishi hamda stajirovka o‘tashlari tashkil etiladi;
- tuman (shahar) mahallalari tuzilmasida oila psixologi lavozimi joriy etiladi;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, oliy ta’lim muassasalari, mahalla va oila tizimida faoliyat olib borayotgan barcha psixolog mutaxassislar belgilangan tartibda 3 yilda bir marotaba tegishli malaka oshirish kurslarida o‘qishlari tashkil etiladi;
- o‘rnatilgan tartibda faoliyat yuritadigan nodavlat psixologik maslahat muassasalari tarmog‘i hamda onlayn psixologik xizmatlar ko‘rsatish ko‘lami kengaytiriladi;
- ta’lim muassasalarida joriy etiladigan o‘qitish dasturlari o‘quvchilarning yosh, psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mosligi bo‘yicha psixologik ekspertizadan o‘tkaziladi;
- Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligining O‘zbekiston milliy universitetining “Psixologiya” va “Sotsiologiya” kafedralari negizida O‘zbekiston davlat psixologiya universitetini tashkil etish;

Psixologiyaga oid muammolarni hal qilish mamlakat taraqqiyoti uchun naqadar muhimligini shundan ham bilsa bo‘ladiki, ularni yechish nafaqat ta’lim rivojiga, balki iqtisodiyotdan tortib sportgacha, tibbiyotdan tortib tadbirkorlikkacha bo‘lgan sohalar taraqqiyoti tezlashishiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Sobiq ittifoqda XX asrning 60-yillarigacha psixologiya faniga yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Psixologiya fanining ba’zi eng yangi yo‘nalishlariga esa mensimay qaralar edi. Masalan, psixologiya fanining AQSH va Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida o‘tgan asrning 30−40 yillarida shakllanib tez rivojlana boshlagan sohasi — «ijtimoiy psixologiya» yo‘nalishi 60-yillargacha burjua fani sifatida inkor etib kelindi. 60-yillarda chop etilgan «Bolshaya sovetskaya ensiklopediya»da bu fanga quyidagicha ta’rif berilgan edi: «burjuacha soxta fan» (burjuaznaya ljenauka).

Psixologiya faniga bunday yondashuv kadrlar tayyorlashda ham o‘z aksini topmay qolmadi. 80-yillarning o‘rtalarigacha O‘zbekistonda faqat Toshkent Davlat Universitetida (hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti) psixologiya yo‘nalishiga har yili 25 nafar talaba qabul qilinar edi. Bunday yondashuv oqibatida 1990 yil boshlarida sobiq ittifoqda hammasi bo‘lib oliy ma’lumotli psixologlar soni 5000 kishidan kamroqni tashkil qilar edi. Qiyoslash uchun: o‘sha yil boshlarida oliy ma’lumotli psixologlar soni AQSHda 300 000dan ortiqroqni tashkil qilgan edi. Har ming kishiga hisoblaganda AQSHda psixologlar soni sobiq ittifoqqa qaraganda 60 baravar ko‘p bo‘lgan. Bundan 50 yil avval amerikaliklarning ko‘pchiligi o‘zlarining oilaviy psixologiga ega bo‘lgan. Bizning mamlakatimizdagi poliklinikalarning ko‘pchiligida hozirgi kunda ham tibbiy psixolog mavjud emas.O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab sobiq ittifoqda psixologiyaga e’tibor biroz kuchaydi. Lekin ko‘p vaqt yutqizilgan edi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin O‘zbekistonda psixologiya faniga ko‘proq e’tibor berila boshlandi. Mamlakat oliy o‘quv yurtlaridagi psixologiya fakulteti va yo‘nalishlariga har yili 800ga yaqin talaba qabul qilinmoqda. Bu sobiq ittifoq davriga qaraganda 30 baravardan ortiqroqni tashkil qiladi. Lekin miqdoriy jihatga yetarli e’tibor berilgan bo‘lsada, ta’lim sifatiga yetarli e’tibor berilmadi. Ittifoq parchalangandan keyin Rossiya Federatsiyasi, Belarus singari mamlakatlarda psixologiya fanining mundarijasi jiddiy o‘zgartirildi va rivojlangan mamlakatlar darajasiga deyarli yetkazildi. O‘zbekistonda psixologiya fakultetlari soni va ularga qabul qilinayotgan talabalar soni ortgan bo‘lsa ham, **fan mundarijasi sobiq ittifoq darajasida qolib ketdi.**

Psixologiya fanlari mundarijasini belgilashda bizningcha, bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Mamlakatimiz psixologiya fanida inson psixikasi ikki qatlamdan, ong va ongostidan iborat ekanligi hisobga olinmayapti. Dunyoda ko‘zga ko‘ringan olimlarning fikriga ko‘ra, ong psixikaning 10 foizini, ongosti esa 90 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimizdagi deyarli barcha psixolog olimlar psixikaning 10 foizini tashkil qiladigan ong bo‘yicha dissertatsiyalar himoya qilganlar. Psixologiya fakultetlarining o‘quv rejalariga ham faqat ong bilan bog‘liq mavzular kiritilgan. Chunki sobiq ittifoqning psixologiya fakultetlarida ham faqat ong bilan bog‘liq mavzular o‘qitilar edi. Psixologiya fanlarining bir qator muhim yo‘nalishlarida juda kam ishlangan yoki umuman ishlanmagan. Jumladan, mamlakatimizda tibbiy psixologiya bo‘yicha ilmiy ish qilgan mutaxassislar barmoq bilan sanarli. Toshkent tibbiyot akademiyasida mazkur yo‘nalish bo‘yicha magistratura ochilgan. Lekin yaqin vaqtlargacha tibbiyot muassasalarida tibbiy psixolog shtati ko‘zda tutilmagani uchun magistraturani tugatganlar qayerga ishga kirishni bilmay sarson bo‘lishdi.

Barcha sohalarda xususan, sport, balki, ta’lim-tarbiya, tibbiyot va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham psixologiya fanida vujudga kelayotgan yangiliklarni o‘rganish va imkon boricha amaliyotga tadbiq qilish Yangi O‘zbekistonning tezroq shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyevning “Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 21.12.2022.

2. N.S.Jo‘rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. Psixologiya tarixi. T. Noshir nashriyoti. 2019.

IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF FUTURE TEACHERS BASED ON INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION

Hakimova Nasiba Barakaevna
a teacher of the Department of Pedagogy and psychology. Gulistan State University

Abstract. In educational institutions of the world, when training teachers in the educational process, mechanisms have been introduced to ensure the relationship and organic relationship of education and upbringing, to expand the pedagogical and psychological capabilities of spiritual-moral competence.

The introduction of pedagogical technologies in the Republic is coordinated with the content of national education. The material and technical base for improving the system of spiritual-moral training of future teachers has been created, as well as normative and legal acts related to theoretical and methodological issues. The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No.4947 from February 7, 2017 “On the Strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan” on the priority direction “Development of the social sphere” provides"...improving the quality of General secondary, secondary special and higher education and implementing measures for their development”, which defines one of the important tasks of the development of spiritual-moral qualities of future teachers. The solution of these problems is directly related to the correct solution of the problem of spiritual-moral development of the younger generation in society. As a result, opportunities for improving the system of spiritual-moral training of future teachers for educational activities have been expanded.

This thesis serves to a certain extent to implement the tasks defined in the Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan No. 2909 from April 20, 2017 “On measures for further development of the higher education system”, No. 4307 from May 3, 2019 “On additional measures to improve the effectiveness of spiritual and educational work”, five important initiatives to establish a new system of social, spiritual and educational work at a video conference chaired by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on March 19, 2019, dedicated to “issues of increasing attention to young people, their broad involvement in spiritual development, art and sports, the formation of skills for the correct use of information technologies, promotion of reading books among

the younger generation and ensuring the employment of women" and other legal acts related to this activity.

Tasks of the research are:

- to study the current state of the problem on the basis of a systematic approach, to determine the forms, methods and tasks aimed at solving it;

- to expand the pedagogical possibilities of the content, conditions, factors, and means of integrating the system of spiritual-moral training of future teachers for educational activities, and innovative axiological approaches to the educational process;

- to improve the content of spiritual-moral qualities (requirements) for educational activities based on the priority of the content of the national cry;

- improve the model of spiritual-moral training of future teachers based on optimization of personal and professional qualities.

The scientific novelty of the study is as follows:

-the spiritual-moral qualities of future teachers were improved using an axiological approach based on the transformation of the interiorization of universal values with the dialectical unity of the cognitive, sensory, social and individual in the individual;

- improved by factor analysis and determining the statistical value of the dynamics of features and qualities, such components as humanism, education, patriotism, tolerance, love for children, characteristic of the educational activities of future teachers;

- improved on the basis of integration of the algorithm and the professionogram of the structure of educational work of future teachers, the activity of the school "Mentor-pupil";

- improved model of the system of spiritual-moral training of future teachers on the basis of mutual optimization of personal and professional qualities.

The reliability of research results is determined by their scientific and practical validity, based on the results of educational activities of educators of groups and micro-groups, on the basis of philosophical, methodological, methodological, axiological, psychological and pedagogical approaches to the problem, as well as national and foreign experience of spiritual and professional development; the use of appropriate research tasks and complementary research methods; analysis and number of studies conducted; quantitative and qualitative security of the analysis and research characteristics; representativeness of experimental works and processing of the results obtained using methods of mathematical and statistical analysis.

The scientific significance of the research results is determined by the enrichment of the system of spiritual-moral training of future teachers with theoretical approaches; the development of criteria and indicators for determining the level of development of students ' spiritual-moral qualities and providing a positive solution to the problem of this study of scientific and methodological recommendations.

The practical significance of research results is determined by the possibility of their use in the development of a model of training future teachers to educational activity and improved modules (the small module, the primary module, micro-module) improved qualification requirements, work programs on General and special disciplines in designing educational hours, information hours and events in the system of continuous education, development of moral rules, and their use outside of class time, training and professional development of higher education teachers.

The introduction substantiates the relevance and necessity of the thesis topic; shows its connection with the priority areas of development of science and technology in the Republic, highlights the degree of study of the problem, defines the goals and objectives, the object and subject of the study, sets out methods, scientific novelty and practical results of the study, the reliability of the results, their scientific and practical significance, provides information about their implementation in practice, publication, structure and scope of the thesis.

The article describes the relationship between the development of national independence thinking and the development of students ' spiritual-moral qualities, pedagogical-psychological, axiological factors for improving the training of future teachers for educational activities, as well as the state of development of spiritual-moral qualities in students.

The qualities of humanism, patriotism and hard work in the history and development of pedagogical thought of the Uzbek people in all historical periods formed the basis of education. The

Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated January 10, 2015 No. 3 “on amendments and additions to the resolution of the Cabinet of Ministers of August 16, 2001 No. 343” on approval of state educational standards of higher education states that the main types of professional activities of graduates of the bachelor’s direction in the field of pedagogical education of higher educational institutions should include pedagogical, research, spiritual and educational, organizational and managerial activities, and so on.

The phenomenon of improving the educational process and the system of spiritual-moral training of future teachers for the educational process is a very broad conception the basis of a scientific approach, the specific features of national and universal education are theoretically analyzed. In particular, as stated in the theory of Freud, “...the child, being a creature with needs, cannot control his energy due to helplessness.” It follows That Freud’s views do not refer to the age, gender, and individual psychological characteristics and physical capabilities of the child. According to the views of J.G. Mid “... as social beings, children develop primarily by imitating the actions of others. One form of imitation is play. In most cases, children imitate adults in their games.” However, even in this theory, there is a one-sidedness in the expression of the features of the child’s upbringing in the content of its formation as a person. According to such scientists who carried out a comparative analysis of the culture of education of the East and the West, as H. Abdukarimov, M. Ashurov, M. Kuronov, O. Musurmonova, N. Egamberdieva, B. Rakhimov, D. Ruzieva, Z. Solieva, Sh. Olimov, A. Kholikov, Eastern moral values are based on tradition, while Western behavior has an individualistic character. In particular, in the research of H.I. Ibragimov and Sh. Abdullayeva justifiably shows that the educational process has such aspects that distinguish it from education as versatility, duration, its implementation on a holistic and concentrated basis, two-way properties and many contradictions. Joining the opinion of these scientists, we paid attention to the pronounced differences indicated above in the technological process.

According to preliminary data obtained during the ascertaining experiment, it was found that 15-18 percent of children do not want to go to school, 26-27 percent of children and their parents are not satisfied with the level of knowledge and education provided by the school, 7-8 percent of children have a desire to get deep knowledge, but they also want to hire Tutors for further education. This shows the need to carry out propaganda work among parents in cooperation with teachers-educators.

References

1. Strategy of action for further development of the Republic of Uzbekistan. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, Article 70, № 6, 2017.
2. Abdukarimov H. Professional pedagogical activity. - T.: Teacher, 2010.- 60 p.
3. Nurumbekova Ya. Innovation technologies in the educational profession. Educational methodical manual. Gulistan. Ziya. 2012.- p. 62.

FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABA QIZLARNING FAOLLIGINI OSHIRISH VA RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA TAYYORLASH XUSUSIYATLARI

Jumanova O‘g‘iloy Sodikjonovna
Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqola yurtimizda xotin-qizlarning faolligini oshirish, talaba-qizlarning rahbarlik lavozimlariga tayyorlashning xususiyatlari, maqsad va vazifalarini ochib beradi.

XX asrda jahon miqyosida xotin-qizlar masalasiga e’tiborning kuchayishi ular manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan huquqiy-me’yoriy qonunlarning ishlab chiqilishiga va ayollar masalalari bo‘yicha xalqaro institutlar tashkil etilishiga zamin yaratdi. Natijada ayollar muammosining izchillik bilan bartaraf qilinishiga hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi faol ishtirokini ta’minlash, jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish imkoniyatlari yuzaga chiqardi. Bu borada olib borilayotgan qator islohatlarni muvofiqlashtirish, zamonaviy jamiyatda ayollarning rolini kuchaytirish har bir davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugun biz ayollarning o‘rni, uning ijtimoiy mavqeyi to‘g‘risida jamiyatning qarashlari, fikrlari o‘zgarayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Tadbirkorlik, siyosiy rahbarlar, jamoat arboblari, yirik

korxonalar rahbarlari lavozimida xotin-qizlar samarali ravishda mehnat faoliyatini yuritmoqdalar. Shubhasiz, XX1 asrda ayollar huquqlari sezilarli darajada mustahkamlandi va uning jamiyatdagi o‘rni yanda oshdi. Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lgan O‘zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiy etishida ayollarning o‘rni sezilarni darajada oshib bormoqda.

Dunyoning bir qator ilmiy-tadqiqot markazlarida xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtiroki masalalarini har tomonlama o‘rganish ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biri sanaladi. Bugungi zamonaviy davrida xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ayollarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish, davlat siyosatini yuritishda gender tenglik tamoyillariga asoslanish, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda keng aholi qatlami manfaatlarini ilgari surish, iqtisodiyotning turli sohalarida ayollar ishtirokini kengaytirish uchun sharoitlar yaratish kabi masalalar o‘rganilmoqda.

So‘nggi yillarda respublikada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilishdagi o‘rnini kuchaytirish, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida qator islohotlar amalga oshirildi. Bu esa ayollarga g‘amxo‘rlik siyosati, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishida o‘z ifodasini topmoqda148. Shuningdek, xotin-qizlar bandligini oshirish, jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni oldini olish, globallashuv sharoitida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini yanada mustahkamlash kabi muhim vazifalarni kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ayollarning siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayollarimizning har sohada siyosiy faolligin jadal oshirish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son “Xotin-qizlarni qo‘llab- quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 7 martdagi PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2019 yil 2 sentabrdagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021 yil 9 dekabrdagi O‘RQ-736-son “Og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2022 yil 1 martdagi PQ-146-son “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, 2022 yil 2 martdagi PF-81-son “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida hamda sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilindi ushbu islohotlar natijasida hozirgi kunda mamlakatimizda davlat boshqaruvida xotin-qizlarning soni ortib bormoqda. Aytish joizki ayol xokimlarimiz ham shu vaqtga qadar yo‘q edi. Xozirgi kunda ayol hokimlarimiz soni ortib bormoqda. Albatta bu e’tiborning yuksaltirish va yanada tajribali qizlarimizning shakllantirish uchun biz avvalo quyi pog‘onadan ularning faolligini shakllantirsak yanada yuksak natijaga erishamiz.

Mutaxassislar tomonidan qayd etilishicha, bugungi kunda mamlakatimizda o‘zining shaxsiy fikri, prinsiplari va sohaga yangicha yondashuvi bo‘lgan yosh rahbar kadrlarni mas’uliyatli lavozimlarga tayinlashga alohida e’tibor qaratilyapti. yurtimizning katta qismi, ya’ni 17 million aholisini aynan yoshlar tashkil etishi ham, zamonaviy yetakchilardan har tomonlama bilimli va tashabbuskor, eng avvalo, o‘z ishiga nisbatan kreativ yondashuvni talab etadi. Yoshlar ularga bildirilgan yuksak ishonchni oqlay olyaptimi? Ularning rahbarlik va yetakchilik qobiliyatini ishga solish, tarbiyalash va shakllantirish uchun qanday ishlar olib borilyapti va buning samaradorligi qay darajada? — Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim yosh rahbarlarimiz davlat xizmatchisi degan mas’uliyatni to‘liq bo‘yniga olmayapti. Jamoani boshqarishda ma’muriy, ya’ni, qattiqqo‘llik bilan boshqarish, xodimlarni qo‘rqitish orqali ishga solish hollari kuzatilyapti. Aksariyat hollarda bu ularda boshqaruvchilik bilim va ko‘nikmalarining yetarli emasligi bilan ham bog‘liq. Hozirgi kunda boshqaruvda bu kabi ma’muriy usullar emas, liderlik, yetakchilik, jamoa bilan ishlash, xodimlarni maqsadli ishlashga o‘rgatish, o‘zining ilg‘or g‘oyalari ortidan ergashtira olish kabi ilg‘or usullar ustuvor. Bugungi kun yosh rahbarlar oldiga o‘z ishiga ana shunday innovatsion va g‘oyaviy ustunlik orqali yondashuvni talab qilmoqda.

Hulosa qilib shuni aytish munkinki, hech bir odam jamiyatdan ayri holda yashay olmaydi. Jamiyat a'zolari turli shart-sharoitlar taqazosi bilan turfa munosabatlarga kirishadilar. Mazkur munosabatlarning salmoqli qismi esa ish, mehnat jarayoniga to‘g‘ri keladi. Oliy o‘quv yurtini bitirgan mutaxassis mehnat bozoriga kirib borar ekan, uning munosib ishga ega bo‘lishi, ko‘zlagan karyerasiga erishishi uchun ta'lim muassasasida olgan bilimlari kifoya qiladimi? Albattaki, yo‘q! Buning boisi shundaki, ta'lim muassasasida o‘tilayotgan fanlardagi bilimlar muayyan faktlar, ma'lumotlar bazasini o‘zlashtirish va ularni tahlil etish natijasida olinadi. Biroq ularda shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish masalalari to‘liq qamrab olinmaydi. Holbuki, bugungi globallashgan va bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda ish beruvchilar ishga olayotgan insonlarning ular qay darajada shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ya olishlariga e'tibor qaratmoqdalar. Ular aynan shu xususiyat orqali kompaniyasi rivojlanishi, mijozlar ishonchini oqlash va ular sonining ko‘payishiga erishish mumkinligini yaxshi biladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shavkat Mirziyoyevning “Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.- 21.12.2022 yildagi P/f.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil, 2-sentabr.
3. Gender i kultura. – Dushanbe: Aziya-plyus, 1999. – 96 s. 3. Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulturi. – Moskva, 1985. – S. 142-159.
4. Jamoldinova O.R. Ta'lim tizimida gender yondashuvni tatbiq etishning samarali mexanizmlari. Belarus-O‘zbek ILMIY-METODIK JURNALI. 2022-yil, 1-son. B. 17-b
5. Жамолдинова О., Эгамбердиева Т., Солихўжаева Д. Олий таълим тизимида гендер ёндашув: бугун ва келажак тамойиллари. Услубий қўлланма – Тошкент, 2022. – 79 б.

STRESNI INSON SALOMATLIGIGA VA MEHNAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Karimova Mashhura To‘lqinovna
Guliston davlat universiteti psixologi,
“Pedogogika va psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi:

Annotatsiya*: Maqolada JSST (jaxon sog'liqni saqlash tashkiloti) ning ruhiy salomatlik bo‘yicha bo‘shliqlarni to‘ldirish, bugunda dolzarb mavzu ekanligi va Markaziy Osiyoda jumladan O‘zbekiston sharoitida oila, jamoa va tizimli omillarning kombinatsiyasi inson ruhiy salomatligini himoya qilish yoki buzishga sababchi omillarni aniqlashga e'tibor qaratilgan. Aksariyat odamlar aqliy jihatdan chidamli bo‘lishiga qaramasdan, qashshoqlik, zo‘ravonlik, nogironlik va tengsizlik kabi noqulayliklarga duchor bo‘lgan odamlarning ruhiy salomatlik muammolari xavfi yuqori bo‘lishi mumkin. Maqolada ushbu holatlarda himoya va xavf omillariga nisbatan, hissiy qobiliyatlar va genetik xususiyatlar kabi individual psixologik va biologik hususiyatlarni rivojlantiruvchi tavsiyalar berilgan.*

[80] JSSTning 2013-2030 yillarga mo‘ljallangan ruhiy salomatlik bo‘yicha kompleks harakatlar rejasida. Barcha insonlar salomatligiga erishishda ruhiy salomatlikning muhim rolini tan olindi. Rejada to‘rtta asosiy maqsad bor:

- ruhiy salomatlik sohasida samarali yetakchilik va boshqaruvni kuchaytirish;
- jamiyat darajasida ruhiy salomatlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini ko‘rsatishning kompleks, yaxlit va sezgir tizimini ta'minlash;
- ruhiy salomatlikni mustahkamlash va ruhiy toliqishning oldini olish bo‘yicha strategiyalarni amalga oshirish;
- ruhiy salomatlik bo‘yicha axborot tizimlari, dalillar to‘plash va tadqiqotlarni kuchaytirish.

[80] *Ruhiy salomatlik atlasi 2020. Jeneva: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti; 2021 yil*

JSST Ruhiy salomatlik bo‘yicha bo‘shliqlar bo‘yicha harakatlar dasturi ayniqsa resurslari kam bo‘lgan sharoitlarda mamlakatlarda xizmatlarni kengaytirish uchun dalillarga asoslangan texnik ko‘rsatmalar, asboblar to‘plami va o‘quv paketlarini ishlab chiqish ustida ishlamoqda. Dastur ruhiy salomatlik sharoitlarining ustuvor ro‘yxatini maqsad qilib qo‘yadi va tibbiy yordamning barcha darajalarida ruhiy salomatlikni saqlashga kompleks yondashuvning bir qismi sifatida mutaxassis bo‘lmagan tibbiyot xodimlarining salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan. JSST ushbu dasturning bir qismi bo‘lib, shifokorlar, hamshiralar va boshqa sog‘liqni saqlash xodimlari uchun ruhiy salomatliknini baholash va davolash bo‘yicha amaliy qo‘llanmani taqdim etadi.

bronza buyumlari, quruq mevalar, paxta, otlar va boshqa mahsulotlarni boshqa mamlakatlarga etkazib berishgan. Janubiy Sug‘d hududida, To‘rtkultepa atroflarida qo‘lda tayyorlangan va bo‘yalgan ilk temir davriga oid buyumlar topildi. Farg‘onadagi Sufon va Ko‘ngay qo‘rg‘onlaridan topilgan o‘xshash buyumlari To‘rtkultepadagi topilmalar bilan solishtirildi. Ular orasidagi farqlar katta bo‘lmaganligi aniqlandi. Farg‘onadan topilgan buyumlarning aksariyati kulolchilik charxida tayyorlangan va Sug‘dning tsilindrik-konusli shakldagi ko‘zalaridan farqli o‘laroq, dumaloq shaklda bo‘lgan. Shu tariqa, sug‘dliklar va farg‘onaliklarning moddiy madaniyati bu erdagi xalqlarning qadimgi davrdagi an’analari va urf-odatlari yaqin bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Ustrushona qadimda va antik davrda Sug‘d tarkibidagi hudud bo‘lgan[3]. Ma’lum davrlarda uning ayrim qismlari Kirushonlar imperiyasi, Choch, Turk hoqonligi va boshqa davlatlar tarkibida bo‘lgan. Sug‘d va Farg‘ona – Markaziy Osiyo mintaqasidagi tarixiy-madaniy viloyatlar bo‘lib, jahon tsivilizatsiyasi tarixida muhim o‘rin tutadi. Sug‘dliklar va farg‘onaliklarning boshqa xalqlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan. Buyuk Ipak yo‘li deyarli butun Evroosiyo qit’asini qamrab olib, xalqlarni zarur mahsulltlar bilan ta’minlabgina qolmay, shu bilan birga dunyo dinlarini, yozuvlarni, madaniyatni tarqatgan va bir yarim ming yil davomida Evropa va Osiyo xalqlarining o‘zaro madaniy boyishlarida muhim rol o‘ynadi.

Sug‘diylarning shimoliy-sharqiy va qo‘shni madaniy o‘lkalar bilan aloqalari turk-sug‘d munosabatlarining muhim omili bo‘ldi. Jumladan, Sug‘dning mintaqaviy va tashqi aloqalarida Ustrushona muhim o‘rin tutgan. Bu hudud o‘troq va ko‘chmanchi mintaqalar o‘rtasida “aloqa makon” edi. Azaldan Sug‘d va Choch ta’siridagi bu o‘lkadan o‘tgan savdo yo‘llari cho‘l mintaqasi va Sirdaryo bo‘ylarini Zarafshon vohasi – Sug‘d va janub – Toxariston bilan bog‘lardi. Ustrushona Sug‘dning Maymurg‘ mulkiga chegaradosh bo‘lib, Zarafshonning yuqori oqimidagi Sug‘d qishloqlariga Ustrushona orqali o‘tilgan. Xitoy manbasi “Tan shu”ga ko‘ra, Su-duy-sha-na (Suo-tuai-sa-na) dan Shi (Choch) va Kan (Samarqand)gacha bo‘lgan masofa bir xil, Tuxolo (Toxariston)gacha uzoqroq hisoblangan. 618-626 yillarda Su-duysha-naning yosh hukmdori Kan (Samarqand) bilan birgalikda Xitoyga elchilar yuborgan bo‘lsa, 627-yilda Ustrushona Buxoro, Samarqand va Ishtixon bilan birlashgan karvonini Xitoy yuborgan[4].

Xitoy sayyohi va rohibi Syuan Tszanning VII asrga oid ma’lumotiga ko‘ra, sutulisen (ustrushona)liklarning urf-odatlari chochliklarnikiga o‘xshash bo‘lib, podshosi Turk xoqoni vassali hisoblangan. Bu Ustrushonaning Sug‘d, Choch kabi Turk xoqonligi ta’sirida ekanligini hamda turk–sug‘d munosabatlaridagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ustrushona Sug‘d kabi VI–VIII asrlarda bunyod etilgan “Kanpirak devori” mudofaa tizimi orqali ko‘chmanchilardan himoyalangan. Bundan tashqari VIII asrboshlariga oid sug‘diy tilli Mug‘ arxivining A-14 hujjati – Panch viloyati hokimi Devashtichning Chochga yuborgan elchisi “Fatufarn maktubi”da: – “Estrushana viloyati hammasi (dushmanga – arablarga) topshirilgan” jumlasi va A–9 hujjatidagi: – “Estrushana odamlari” satrlari Sug‘d va Ustrushona tarixi va taqdiri bir bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ustrushonana hukmdorlari – “afshin” (‘pšyn)lar qarorgohi Qal’ai Qahqaha saroyidagi tasvirlarda bo‘ri emayotgan ikki bola aks etgan. Buni N.N. Negmatov xristianlik mifologiyasi bilan bog‘laydi. Bizningcha, bu manzara turkiy qavmlar kelib chiqishi bilan bog‘liq va u Ustrushonaning ko‘pchilik aholisi VI–VIII asrlarda turkiylardan bo‘lganligini isbotlaydi. Xususan, Ustrushona hokimi Afshin xalifalik xizmatiga o‘tganda, o‘z o‘rniga xolavachchasi Mangujur (Mangucho‘r)ni qoldirgan edi. Bu ma’lumot Afshinning ajdodlari, ona tomonidan turkiylardan ekanligini isbotlaydi. Hukmron tabaqa orasida turk–sug‘d nikohlari odatiy hol bo‘lgan. Qolaversa, Sug‘d kabi Ustrushona aholisi orasida zardushtiylik e’tiqodi kuzatiladi. Ular marhumlarni Sug‘d va Chochdagi kabi ostodonlarda dafn etishgan[5]. Bu Ustrushonada ham Sug‘d va Choch kabi an’analar amal qilganligini isbotlaydi.

Ustrushonada turkiylardan tashkari suzlashuvchi axolilar xam bulgan V.A. Livshits Chilxujradan topilgan yog‘och taxtachaga qora bo‘yoq bilan yozilgan hujjatlarni o‘qib, uni Mug‘ arxivi hujjatlari bilan qiyoslagach, Ustrushonada mahkamachilik ishlari sug‘diy tilda yuritilganini isbotladi.

Antik davr va o‘rta asrlarda Samarqanddan chiqqan karvonlar Ustrushona va Chochdan o‘tib, Ettisuv tomon yo‘l olgan. Sug‘diy savdogar, tadbirkor, hunarmand va dehqonlar turli davrlar va vaziyatlarda Chochning tog‘li va tog‘ oldi hududlariga ham o‘rnashib, atrofdagi yarim ko‘chmanchi va o‘troq mahalliy (prototurk) aholi bilan birga yashay boshladi. Ular orasida Ustrushonaliklar ham bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Asrlar davomida shakllangan Sug‘d urbanistik madaniyati Ustrushonaga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Sug‘dliklar Ustrushona taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shganlar[6].

Sug‘diyona geografik tushunchasiga antik davr asarlarida Ustrushona ham kiritiladi. Ustrushona – bu Samarqand va Xujand oralig‘idagi viloyat bo‘lib, Farg‘ona, Sug‘d, Choch va Baqtriya o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib xizmat qilgan. Ustrushona Turkiston tizma tog‘laridan shimolroqdagi, Jizzaxdan to Xujandgacha bo‘lgan katta hududni, Turkiston tizma tog‘laridan janubdagi Turkiston tizma tog‘lari va Hisor tizma tog‘lari o‘rtasidagi tog‘li o‘lkalarni, egallagan.

X.Muhamedovning fikricha, qadimgi Sug‘d va Ustrushonadagi Kanpir-devorlar qoldiqlari 1957-1959 yillardayoq o‘rganilgan bo‘lib, shuni tasdiqlashga imkon berdiki, qadimgi Sug‘d va Ustrushonadagi Kanpir-devorlar bir-biri bilan birlashadi va nafaqat alohida dehqonchilik vohalarini, balki butun mamlakatni ham himoya qiladigan yagona mudofaa tizimini tashkil qiladi. X.Muhamedov o‘z maqolasida Sug‘d va Ustrushona kabi qadimgi vohalar atrofidagi Kanpir-devorlarning joylashish sxemasii tuzib keltirdi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Qadimgi Buxoro vohasidagi “Kanpirak” devori Sug‘d-Jizzax vohasidagi “Kanpir-devor” bilan birlashgani, va qadimgi Sug‘ddagi yagona mudofaa devorini tashkil etgani haqidagi taxminlar to‘g‘ri ekanligi degan xulosa chiqarilgan edi. Sug‘dda zargarlik san’ati xalq badiiy ijodiyotining yorqin jihati bo‘lib, tsivilizatsiya, madaniyat, tarix bilan chambarchas bog‘langan[7]. Chunki unda xalq etnik tarixida kurtaklari jamlangan ijtimoiy munosabatlar va an’analar, estetik me’yorlar, e’tiqodlar o‘z aksini topadi. Zargarlik san’ati tarixini o‘rganish bizga ma’lum davrdagi madaniyat rivoji haqida ma’lumot beradi, kostyumdagi zargarlik zeb-ziynatlarining semantikasi va ramzlarini tarixiy jihatdan o‘rganish esa ma’lum zamonadagi xalqlar dunyoqarashi va mafkurasini tadqiq qilish imkonini beradi. Tojikistonlik olima Z.Umarova V-VIII asrlarga oid zargarlik san’atini zeb-ziynatlar misolida o‘rganib, O‘rta Osiyodagi alohida tarixiy-madaniy viloyatlar – sug‘d, tohariston, ustrushona, farg‘ona zeb-ziynatlarini tadqiq, tahlil qiladi. Shu jumladan, Sug‘d va Ustrushonadagi ilk o‘rta asrlar zargarlik buyumlarini yasashdagi o‘xshashliklar va farqlarni ko‘rsatib o‘tadi.

Xullas, Sug‘d va Ustrushonadagi rangtasvirlarda syujet asosini xalq afsonalari, qahramonlik dostonlari, mifologiya va atrofdagi hayot tashkil etgan. Ranglardan har xil tusdagi qizil va ko‘k rang ko‘p ishlatilgan, shuningdek, yashil, sariq va boshqa ranglar ham uchraydi. Personajlarning qiyofalarida xitoy, hind, turkiy xalqlarga xos qiyofalar uchraydi[8].

Ilk o‘rta asrlarda gullab-yashnagan rangtasvirdek badiiy madaniyatning butun bir shaxobchasi O‘rta Osiyoni islomlashtirish davridan boshlab badiiy ijodiyotning sahnasidan chiqib ketadi. Boshqa dinlarning ko‘pchiligiga xudolarni tasvirlash, bu tasvirlarni qadrlash xos bo‘lgan. Shuning uchun musulmon ruhoniylari san’atning tasviriy shakllarini ta’qib qilgan. Keyinchalik asta-sekin tasviriy san’at miniatyuralar shaklida tiklana boshlagan.

Fayodalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Турк хоқонлиги вужудга келгач, айримлари “турк” атамаси билан умумлашган. Қаранг: Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Монография. –Т.: ART-FLEX, 2010. Б.8.
2. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Автореф. дисс.... кан. фил. наук. – СПб., 2004.– С. 10–13; Рысбергенова К.К. Древние топонимы по маршруту «Великого шелкового пути». – С. 141–142;Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: Шарқ, 2006. – С. 77–122
3. Кляшторный С.Г. Древнетюркская письменность и культура Центральной Азии / Тюркологический сборник 1972. М.: Наука, 1973. – С. 258;
4. Радкевич, В.А. Великий шелковый путь /В.А. Радкевич. - М.: Агропромиздат 1990. –239 с. – С.48
5. НЕЪМАТОВ, Р. (2023). ХОРАЗМ АФРИҒИЙЛАР СУЛОЛАСИ–ТУРК ХОҚОНЛИГИ СИЁСИЙ АЛОҚАЛАРИ. *Journal of Fundamental Studies*, *1*(7), 16-23.
6. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, *1*(1), 122-125.
7. Nematov, R. A., & Almanov’s, Q. O. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKISH EMPIRE. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *2*(10), 25-31.
8. угли Неъматов, Р. А. (2023). ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1).

9. Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *3*(6), 14-23.

SIRDARYO VILOYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA NAZAR

Shodmonqulova Muborak Maxamatkulovna
Guliston davlat universiteti “Tarix” kafedrasi v.b. dotsenti

O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi eng kichik viloyatlardan biridir. 1963-yil 16-fevralda tashkil etilgan viloyat Shimoldan Qozog‘iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubidan Tojikiston Respublikasi va g‘arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 4.28 ming km. Aholisi 900 mingga yaqin kishi (2022). Tarkibida 8 tuman (Boyovut, Guliston, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos, Sardoba) 5 shahar (Guliston, Baxt, Sirdaryo, Shirin, Yangiyer), 6 shaharcha (Boyovut, Dehqonobod, Do‘stlik, Paxtaobod, Sayxun, Xovos) va 75 qishloq fuqarolari yig‘ini bor (2004). Markazi — Guliston shahridan iborat.

Sirdaryo viloyati iqtisodiy samaradorligini ko‘tarishda investitsion faoliyatni tashkil etish va samarali yuritish, nafaqat hududning iqtisodiy salohiyatiga, balki aholining ijtimoiy rivojlanishiga, ish bilan ta’minlanishiga, yashash sharoitlarining yaxshilanishiga, shu bilan birga savodxonlik darajasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Investitsion faoliyat natijasida ishlab chiqarish sohasiga yangi texnologiyalar joriy etiladi, ish sharoitlari yaxshilanadi, natijada esa fuqarolarning umr ko‘rish darajasi oshadi, yangi yaratiladigan ish o‘rinlari hisobiga esa ishsizlar soni kamayadi. Ishlab chiqarish samaradorligi oshishi bilan birga, bozorga yangi tovarlar kirib kelishi, bir-birini o‘rnini bosuvchi tovarlar ko‘payishi, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat hisobiga narx navoning pasayishi, sifatning yaxshilanishi kuzatiladi. Quyida investitsion faoliyat tahlili o‘tkaziladi. Investitsiyalarni kirib kelishini rag‘batlantiruvchi va bunga to‘sqinlik qiluvchi omillar ko‘rib chiqiladi. Adabiyotlar tahlili. Investitsion faoliyat iqtisodiyotda muhim bo‘lganligi sababli, doimo bu mavzu iqtisodchi olimlar e’tiborida bo‘lib keladi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o‘zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatadi. Shuni ta’kidlash joizki, hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash respublikamizda yuriltilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lmoqda. To‘g’ridan to‘g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar eng dolzarb masala hisoblanadi[1].

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni jadal rivojlantirish omillaridan biri bo‘lib qolmasdan, u bir vaqtning o‘zida mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ham ta’sir qiladi. Xorijiy investitsiyalar hajmi oshishi bilan mamlakatda raqamli iqtisodiyot ham rivojlanib boradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev (2018) ta’biri bilan aytganda «Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi» [2].

O‘zbek iqtisodchi olimlaridan A.Vaxabov, Sh.Xadjibakiyev, N.Muminov, D.G‘ozibekov, D.Tojiboyevalar tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. A.Vaxabov, Sh.Xadjibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmunmohiyati bo‘yicha bayon etilgan ta’rifda: “investitsiyalar - foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo‘yiladigan pul mablag‘lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar” deb ta’riflangan. Yana bir iqtisodchi olim Sh.Shodmonov Investitsiyalarga “asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko‘rinishidir” deya ta’rif beradi. Bundan tashqari, investitsiya atamasi bilan yonma-yon foydalaniladigan atamalar “nominal investitsiya – pul mablag‘lari ko‘rinishidagi investitsiyalar”6, investitsiya sifatida kiritilgan pul “mablag‘lariga sotib

olish mumkin bo‘lgan investitsion resurslar real investitsiyalar”, investitsiyalarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha amaliy harakatlar – investitsion faoliyat”, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxsga esa investor deya izox berib o‘tadi[3].

2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-598-sonli “Investitsiyalar va investitsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunida esa “investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: mablag‘larni, shu jumladan pul mablag‘larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni; ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni); intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan, texnik hujjatlar, ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni”-deya huquqiy jihatdan belgilab qo‘yilgan[4]. Tahlil va natijalar. Investitsion faoliyatni tashkil etish va yuritish bir qancha sharoitlarga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, ishhaqi, potensial investorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, berilayotgan soliq imtiyozlari investorlarda ma’lum hududga bo‘lgan qiziqishning ortishiga sabab bo‘ladi. Respublikada investitsiya muhitining qulayligi, ish haqining pastligi, siyosiy barqarorlik mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalar oqimining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu tendensiya Sirdaryo viloyati hududini ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 7-aprelda viloyatga qilgan tashrifi davomida 2017-2023 yillar davomida viloyatga 30 trln. so‘m investitsiya jalb qilinganligini, buning natijasida 6640 ta yangi korxona ishga tushirilganligini, bu orqali esa 55 mingta doimiy ish o‘rni yaratilganligini hamda 17 mingta oila kambag‘allikdan chiqarilganligini ta’kidlab o‘tildi[5].

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mamlakatda investitsion muhitni yaratish orqali qoloq sohalarni rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilash ko‘zda tutiladi. Lekin investitsion muhitni tashkil etishda mezonlarga, hududlarning ijtimoiy –iqtisodiy holatlariga, iqlimiga e’tibor berib to‘g’ri tashkil etilmasa o‘z samarasini bermaydi. Aholi zich joyga ko‘p ishchi kuchi talab qiladigan ishlab chiqarishni tashkil qilsa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2019-yil 25-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ – 598-sonli “Investitsiyalar va investitsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni.

2. Мелкумов Я.С. Экономическая оценка эффективности инвестиций и финансирование инвестиционных проектов. – М.:ДИС, 2016. – 344с.

3. Майфат А.В. Гражданско-правовые конструкции инвестирования: Моногр. М., 2006. С. 105.

4. Ратникова Д.С. Правовое регулирование инвестиционной деятельности в Российской Федерации: дис.канд. юрид. наук. М., 2011. 214 с.

5. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X,Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.: Page 186 CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION Volume 2, Issue 6, Part 5 June 2023 www.in-academy.uz “Moliya”, 2010

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ ЙЎЛИДА

Исроилов Муталиф Якубджанович
Гулистон давлат университети “Тарих” кафедраси катта ўқитувчиси.

Мазкур мақолада ахборот асри ва фан –техника ютуқлари таъсирида Сирдарё вилояти мисолида инновацион иқтисодиётга ўтиш заруратининг пайдо бўлиши, нновацион иқтисодиётга хос хусусиятлар ва унинг аҳамияти таҳлил қилинган.

Таянч иборалар: инновация, интелектуал мулк, илмий-техника инқилоби ютуқлари, ишлаб чиқаришни янгича ташкил этиш, ноу-хау, патент, инсон омили, инновацион иқтисодиётга ўтиш зарурати, илмий- ишланмалар бозори.

XX аср ва XXI аср жаҳон тарихида турлича номлар билан аталади. Глобаллашув даври, ахборот ҳукмронлигига асосланган информацион цивилизация асри, технократия ҳукмронлиги, Илмий-техника инқилоби даври, Индустриал цивилизация асри , Постиндустриал цивилизация асри каби тарихий терминлар шулар жумласидан.

Мазкур терминлар аслида тарихий тараққиётдаги туб ўзгаришлар , яъни XX асрдаги илмий-техника инқилоби ютуқларининг ишлаб чиқаришга фаол жалб қилиниши билан боғлиқдир. Бу даврга келиб энди давлатнинг иқтисодий тараққиётини белгиловчи янги мезонлар пайдо бўлдики, энди улар билан ҳисоблашиш заруратга айланиб қолди. Шундай мезонлардан бири инновация ва инновацион иқтисодиёт тушунчаларидир.

Дастлаб мазкур тушунчаларга алоҳида тўхталиб ўтиш жоиз. Инновация (инг. innovationas — киритилган янгилик, ихтиро) — 1) техника ва технология авлодларини алмаштиришни таъминлаш учун иқтисодиётга сарфланган маблағлар; 2) илмий-техника ютуқлари ва илғор тажрибаларга асосланган техника, технология, бошқариш ва меҳнатни ташкил этиш каби соҳалардаги янгиликлар, шунингдек, уларнинг турли соҳалар ва фаолият доираларида қўлланилиши[1].

Инновацион иқтисодиёт- иқтисодиёт тармоқлари, яъни саноат, қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш, ташқи савдо ва ташқи иқтисодий алоқалар, иқтисодиётни бошқаришга фан -техника соҳасидаги қўлга киритилган янгиликлар, кашфиётлар, ноу-хау, патентларни жорий этиш ҳисобига интенсив ривожланишни йўлга қўйган замонавий иқтисодиётни ифодаловчи тушунчадир. Инновацион иқтисодиёт биринчи навбатда инсон омили, яъни инсоннинг интелектуал салоҳиятидан самарали фойдаланишни кўзда тутади. Мазкур типдаги иқтисодиёт аломатлари аввалги даврларда ҳам кўзга ташланган бўлса-да, бироқ бугунгидек долзарблик касб этмаган. Негаки кейинги даврларда жаҳон афкор оммасини жиддий ташвишга солаётган глобалл муаммолар: аҳоли сонинг кескин ўсиши ҳисобига хом-ашё ресурсларининг камайиб бориши, саноатлашув жараёнидаги экологик инқирозларни бартараф этиш зарурати ўз навбатида ишлаб чиқаришни оптималлаштиришнинг муҳим шарти ҳисобланган инновацион иқтисодиётга ўтишни заруратга айлантирмоқда.

Қолаверса, узоқ вақт ўзини оқламаган иқтисодий тараққиётга хос хусусиятлар: маъмурий-буйруқбозлик, иқтисодий тараққиётга ривожланган давлатлар ютуқларининг жалб қилинмаслиги, табиий ресурслардан аёвсиз фойдаланиш, исрофгарчилик, экстенсив омилларнинг устунлиги ҳисобига турғунлик ва кейинчалик қолоқликнинг вужудга келишидан тегишли сабоқ чиқарган МДҲ мамлакатларининг инновацион иқтисодиётга мурожат қилиши тарихий зарарурат бўлиб қолди.

Демак, инновацион иқтисодиёт, ишлаб чиқаришда хом-ашё ресурсларини тежайдиган, экологик тоза маҳсулот ишлаб чиқариш ҳисобига атроф-муҳит муҳофазасини таъминлашни мақсад қилиб қўювчи, вақтни ва сарф-харажатларни тежовчи, кадрларга юксак маънавий-интелектуал талаблар қўйган, шунингдек, ахборот асрнинг ютуқларидан фойдаланган ҳолда, бошқарув ва меҳнатни оқилона ташкиллаштиру вчи, товар- пул муносабатлари, хизмат кўрсатиш жабҳалари, ахборот ва молия айрибошлашини оптималлаштирувчи келажак авлодга улкан табий ресурслар ва бой интелектуал мерос қолдирувчи, шунингдек глобалл иқтисодий тараққиёт талабларига тез мослашувчи иқтисодиёт ҳисобланади.Бундай иқтисоётга бирдан ўтиб бўлмайдиб балкиб тадрижий ўтилади Иқтисодиёт тармоқларини инновациялар орқали янада ривожлантириш самарадорлигини биз Сирдарё вилояти мисолида ҳам кўришимиз мумкин.

Сирдарё вилоятида Ўзбекистон аҳолисининг 2,5 фоизи истиқомат қилади ва унинг ер майдони бутун республика ҳудудининг қарийб 1 фоизини ташкил қилади. Аммо, аҳоли сони камлиги ва ҳудудининг кичиклигига қарамай, ушбу вилоят ўзининг географик жойлашуви ва бир қатор хусусиятлари билан мамлакат иқтисодиётида муҳим рол ўйнайди. Шимолда бу

[1] Н. Тўхлиев. Осиё тараққиёт модели. Т. Ўзбекистон. 2015. 169-бет.

вилоят Қозоғистон билан, жанубда эса – Тожикистон билан чегарадош. Сирдарё республиканинг иккита томонидан икки давлат билан чегарадош бўлган учта вилоятидан биридир. Вилоят инновацион иқтисодиётга ўтиш учун қуйдаги имкониятларга эга:

Биринчидан: Вилоят аҳолиси кўп компонентли ва турли миллатлар ўртасида илғор ғоялар ва маданий айрибошлаш кучли;

Иккинчидан: Вилоятда сув ресурсларининг улкан заҳиралари, шамолли ҳудудлар муқобил энергия манбалари учун манба ҳисобланади;

Учинчидан: Сирдарё вилоятида атиги 2 ОТМ мавжуд – Гулистон давлат университети ва яқинда ташкил қилинган Тошкент кимё-технология институтининг Янгиер филиали. Вилоят аҳоли сонини камлигини ҳисобга олганда (республика аҳолисининг 2,5 фоизи), бу тушунарли ҳол. ОТМлар сонининг камлигига қарамай, улардаги ўқишга қабул қилиш умумий квоталар сони вилоят аҳолиси учун етарлидир. Масалан, бакалавр тайёрлаш бўйича (кундузги, сиртқи ва кечки таълим шаклларида) мазкур ҳудуд ОТМларида 2730 та квота белгиланган. Бу вилоятнинг ҳар 1000 нафар аҳолисига нисбатан ҳисоблаганда – 3,26 та квота дегани. Республика бўйича ўртача кўрсаткич 3,06 га тенг. Бундан ташқари, мазкур ҳудуднинг ўнлаб етакчи ОТМлар жамланган Тошкент шаҳрига яқинлиги ҳам вилоят аҳолиси учун олий таълим олиш борасида бошқа вилоятлар билан таққослаганда қўшимча “географик” имконият яратади.

Айнан Гулистон давлат университети таянч университет ҳисобланиши билан бирга вилоятни ютуқ ва муаммоларини ўрганувчи фундаментал тадқиқот маркази ҳисобланади.

Тўртинчидан: Сирдарё вилоятининг пойтахтга яқинлиги ғоялар, ихтиролар ва кадрлар алмашинувини фаоллигини таъминлайди. Негаки инновацион иқтисодиётни инсон омили, яъни- малакали кадрлар ва улар яратган илғор ғоялар ва ихтироларсиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Бешинчидан: ушбу вилоят аҳолисининг асосий ёш гуруҳлари бўйича тақсимланишига келсак, аҳолининг меҳнатга лаёқатли қисми республикадаги ўртача кўрсаткичдан юқорироқ, аҳолининг меҳнатга лаёқатли ёшдан катталар қисми эса мамлакат бўйича энг паст кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Бу бошқа ҳудудлар билан таққослаганда вилоят аҳолининг нисбатан катта қисми “навқирон” ёшда дегани.

Сирдарё вилоятида Ўзбекистон электр энергиясининг учдан бир қисми, чарм ва чарм маҳсулотларининг 16 фоизи, шунингдек фармацевтика маҳсулотларининг қарийб 9 фоизи ишлаб чиқарилади. Ушбу вилоят полиз маҳсулотлари етиштириш бўйича республикада биринчи ўринда туради. Бундан ташқари, ушбу вилоятда йирик ва муваффақиятли Хитой-Ўзбекистон қўшма лойиҳаларидан бири амалга оширилган. Сирдарё керамик плиткалари мамлакатнинг деярли барча бурчакларида сотилади, улар ҳатто қўшни Қозоғистон ва Тожикистон истеъмолчиларига ҳам яхши таниш. Бу Сирдарё вилоятидаги Peng-Sheng Ўзбекистон-Хитой қўшма саноат комплексида амалга оширилаётган 30 лойиҳадан биттаси[1].

Улкан имкониятлар хорижлик инвесторларни ҳам ўзига жалб қилмоқда. Жумладан хитойлик инвесторларнинг ҳам вилоятга қизиқиши катта. Охирги олти йилда улар билан бирга, Ширин шаҳри, Мирзаобод ва Сирдарё туманларида 60 дан ортиқ йирик саноат корхоналари очилган. Вилоятга 2022 йилнинг ўзида 250 миллион доллардан зиёд Хитой инвестициялари жалб қилинган.Вилоятнинг 11 та туман ва шаҳри Хитой модели асосида саноатга ихтисослашади, ҳар бирида инновацион технопарклар ташкил қилинади. Уларда электротехника, био-фармацевтика, кимё, қурилиш материаллари, ипак ва озиқ-овқат саноатида инновацион лойиҳалар амалга оширилади. Технопаркларга эркин иқтисодий зона мақоми берилади ва “божхона ҳудудида қайта ишлаш” режимининг соддалашган тизими жорий қилинади. 2023 йилда технопарк инфратузилмасига 200 миллиард сўм ажратилади.

Инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш учун Сирдарёда “Ўзбекистон – Хитой инвестиция жамғармаси” ташкил этилади. Бу жамғарма Хитойнинг нуфузли Ипак йўли фонди ва бошқа молия ташкилотлари билан бирга ташкил қилинади. Жамғармага 1 миллиард доллар сармоя олиб келинади.

[1] uzanalytics.com/iqtisodiet/6235/ Сирдарё вилоятининг бугуни ва истиқболли кўрсаткичлари рақамларда

Бугун Сирдарё фармацевтика саноати ривожланаётган ҳудудлар рейтингида етакчилардан бири ҳисобланади. 2022 йилда вилоятдаги 21 та фармацевтика корхонаси томонидан 393,8 миллиард сўмлик 317 турдан ортиқ маҳсулотлар ишлаб чиқарилиб, 3,3 миллион долларлик экспорт амалга оширилган.

2022-2023 йилларда бир қатор йирик лойҳалар амалга оширилди. Булар – Сирдарё туманидаги “Ривер Мед фарма”, “Евроазия газ бетон”, “Модерн Марбел”, “Пенг Шенг Чарм”, Сайхунобод туманидаги “Тошкент сити голд блок” ҳамда Янгиер шаҳридаги “Интер Трейдинг-груп” масъулияти чекланган жамиятларидир[1].

Давлатимиз томонидан яратиб берилган кенг имкониятлар туфайли Сирдарё вилояти иқтисодиёти глобаллашув даврининг инновацион иқтисодиёти талабларига мослашиб тадрижий мослашиб бормоқда. Янгиер шаҳрининг кичик саноат зонаси, яъни, маҳаллий сармоядорлар сармояси ҳисобига ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишни ривожланиши тизимининг йўлга қўйилиши, мазкур шаҳарни дотацияга боғлиқ ҳудудлар рўйҳатидан чиқариб, келажакда хорижий сармояларни ўзига жалб этувчи эркин иқтисодий зоналарга айланишини таъминлайди. Гулистон давлат университети олимлари томонидан глобалл иссиқликка чидамли ўсимлик навлари устидаги тадқиқотлар келажакда Марказий Осиёда сув танқислиги шароитида ҳам озиқ-овқат хавфсизлиги масаласини ижобий ҳал этилиши учун муҳим кафолаб бўла олади. Бунда истиқболли лойҳалар бошқа жабҳаларда ҳам кўзга ташланмоқдаки, бу ўз навбатида “Сирдарё бренди” тушунчасининг илмий-амалий исботи бўлиб қолиши шубҳасиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н. Тўхлиев. Осиё тараққиёт модели. Т. Ўзбекистон. 2015.
2. Qishlo hayoti. 2023-yil 17-avgust, e-mail: infoqishloqhayoti@yandex.ru
3. uzanalytics.com/iqtisodiet/6235/ Сирдарё вилоятининг бугуни ва истиқболли кўрсаткичлари рақамларда

[1]Qishlo hayoti. 2022-yil 17-avgust, e-mail: infoqishloqhayoti@yandex.ru

SIRDARYO VILOYOYATIDA JOYLASHGAN ARXEOLOGIK YODGORLIKLARGA OID YANGICHA YONDOSHISHLAR

Ma’rufov Sherzod Komil o‘g‘li
Guliston davlat universiteti
Tarix kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: sherzodmarufov1@gmail.com

Annotation. One of the greatest blessings of our independence to our people is that we have the opportunity to express honest and impartial opinion about our ancient and glorious history. It is for this reason that in recent years extensive research has been conducted on the study of the history of Uzbekistan. In particular, we are getting new information about the history of Samarkand, Bukhara, Khorezm, Surkhandarya and Ferghana Valley. However, not all of us can say that we know the history of Syrdarya region, which is rapidly gaining its place in modern Uzbekistan. To a certain extent, this is caused by misconceptions that Syrdarya was a deserted desert in ancient and medieval times, and these lands were appropriated only during the rule of the "Shuras". However, "Syr Darya region, although it is a relatively young administrative region within Uzbekistan, this land has thousands of years of history and culture." In this article, we will present a brief analysis of the information provided in written sources about our ancient ancestors who lived in the territories of Syrdarya region.

Key words: Greek historian Arrian, Tanais, Alexandria-Exhata (Alexandria Outskirts), 7 cities, Kurkat village, archaeological research, savages, pastoralists, Kuru tribe, Saganaktepa.

Sirdaryo zaminida insonlar qadimgi tosh davridan beri yashab kelishgan bo‘lsada, uning qadim tarixi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi yozma manbalar bir muncha keyingi davrlarga oiddir. Qadimgi Sirdaryo tarixi haqida ma’lumot beruvchi muhim yozma manba qadimgi grek tarixchisi Arrianning «Iskandarning harbiy yurishlari» asaridir. Milodiy II asrda yashagan Arrian ushbu asarida makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga yurishlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Shubhasiz, muallif voqealarni yoritishda makedoniyalik Aleksandr davrida yashagan davr manbalaridan foydalangan. Unda yozilishicha, miloddan avvalgi 329 yili So‘g‘d poytaxti Marakanda(Samarqand)ni olgan Aleksandr shimoli-sharqqa Tanais (Yaksart-Sirdaryo) tomon yurish qiladi. Marakandaning yon atrofidagi qishloq aholisining qattiq jazolanganligidan xabardor bo‘lgan mahalliy qabilalar bu yurishga qattiq qarshilik ko‘rsatadilar. Jumladan, Arrianning yozishicha, Ustrushonaning tog‘li aholisi yunon-makedon qo‘shinining oziq-ovqat yig‘uvchi otryadlarini tor-mor etadilar. Bundan g‘azablangan Aleksandrning katta qo‘shin bilan kelayotganini eshitgan mahalliy aholi barcha tomonlari tik qoyali bo‘lgan toqqa chiqib yashirinishadi. Ma’lumotlarda ularning soni o‘ttiz ming kishi atrofida bo‘lganligi yozilgan. Aleksandr ularni katta qiyinchiliklar bilangina yenga olgan. Shundan so‘ng Aleksandr Tanais (Sirdaryo) tomon yo‘l olgan. U Sirdaryo bo‘yida, uning chap qirg‘og‘ida 17-20 kun ichida Aleksandriya-Esxata (Chekka Aleksandriya)shahrini barpo etadi.

Aleksandriya-Esxatadan tashqari Arrianda Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan yana 7 ta shaharning nomi tilga olinadi. Antik davr manbalarida yozilishicha, ular Ahomoniylar shohi Kir II (milodgacha 558-530-yillar) tomonidan barpo etilgan.

Ulardan biri, unga asos solgan shoh sharafiga Kiropol (Chekka Kir) deb nomlangan, agar haqiqatan ham shunday bo‘lsa, u holda qadimgi Sirdaryo hududlari bir vaqtlar Ahomoniylar davlati tarkibida bo‘lgan. Ammo bu fikrga akademik olim Litvinskiy qarshi chiqadi, uningcha shahar nomining o‘zagini tashkil etuvchi “Kuru” yoki “Kurush” so‘zlari hozirgi Kurkat qishlog‘i (Shirin shahri yaqinida) yoki Sirdaryo irmog‘i Kurshob nomlaridan olingan bo‘lib, yunonlar ushbu nomni o‘z an’analariga moslashtirib Kir Esxata deb atashgan. D.Dovudiy esa shahar nomi so‘g‘dlarning Kuru qabilasi nomidan olingan deb xisoblaydi. Bu vaziyatda bizning o‘lkalar Ahomoniylar davlati tarkibiga kirmagan bo‘lib chiqadi va Arrian tilga olgan 7 ta shahar qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qurilgan bo‘ladi.

Makedoniyalik Aleksandr unga qarshi So‘g‘dda Spitamen boshchiligidagi qarshilikni bostirish uchun Marakandaga qaytganidan foydalanib, yuqoridagi 7 ta shahar aholisi qo‘zg‘olon ko‘taradi va Aleksandr tomonidan qoldirilgan yunon-makedon qo‘shinlarini qirib tashlaydi. Arrianning yozishicha, «daryo buyi varvarlari» makedoniyalik jangchilarni qirib tashlab, o‘z shaharlarini mustahkamlaganlar. Qo‘zg‘olonda «daryo bo‘yi varvarlari» bilan bir qatorda ko‘plab so‘g‘dlar ham ishtirok etganlar. Shu

yerda bir muhim xulosa qilish mumkin, ya’ni qadim sirdaryoliklar so‘g‘dlardan farq qilgan. Chunki Arrian mahalliy xalqni so‘g‘dlardan farqli ravishda “varvarlar” deb yozadi. Arrian «varvar»lar tomonidan mustahkamlangan 7 ta shahardan 2 tasining nomini tilga oladi, bular Kiropol va Gaza. Voqeadan xabar topgan Aleksandr shoshilinch orqaga qaytib, qo‘zg‘olonni shafqatsizlarcha bostiradi. Barcha 7 ta shahar ham vayron qilingan va yoqib yuborilgan. Shaharlarning erkak aholisi o‘ldirilib, ayollar va bolalar o‘lja sifatida jangchilarga bo‘lib berilgan. Eng shiddatli jang Kiropol uchun bo‘ladi. Atrofi baland devorlar bilan o‘rab olingan va ko‘p sonli jangovar «varvarlar» to‘plangan shaharni qo‘lga kiritish yunon-makedonlarga oson bo‘lmagan. Kiropolni Aleksandr harbiy xiyla bilangina oladi. U oz sonli qo‘shin bilan daryoning qurib qolgan qismi orqali shahar ichkarisiga kirib oladi va shahar darvozasini ichkaridan buzib, o‘z qo‘shinining shaharga kirib olishiga imkon yaratadi.

Orada qattiq jang bo‘lib, Aleksandr boshi va bo‘ynidan tosh bilan qattiq jarohat olgan. Aleksandrning lashkarboshisi Krater va boshqa lashkarboshilari ham shahar mudofaachilari tomonidan otilgan o‘q-yoylardan yaralanganlar. Shiddatli qarshilikdan so‘ng himoyachilarning ko‘pchiligi qirib tashlangan, qolganlari shahar ichkarisidagi arkka yashirinishgan. Keyinchalik ular ham tor-mor etilgan. Kurtsiyning yozishicha, “Tarixda hech bir shahar bunday qamalga uchramagan” (Kvint Kurtsiy Ruf,VII, 23).

Fanda erksevar, mag‘rur ajdodlarimiz tomonidan qahramonlarcha himoya qilingan shaharlarning qayerda joylashganligi keskin bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda. Ayrim olimlar fikricha, ustrushonaliklarning asosiy shahri Kiropol O‘ratepa shahridagi Mug‘qal’a o‘rnida bo‘lgan deb hisoblasalar, boshqa bir guruh olimlar Kiropolni Xovatog‘ yaqinidagi Nurtepa yodgorligi o‘rnida bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha ham Kiropol Nurtepa yodgorligi o‘rnida bo‘lgan. Sababi, aynan shu yodgorlikda miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid madaniy qatlamlar o‘rganilgan.

Arrian tomonidan qayd etilgan ikkinchi shahar Gaza esa ayrim olimlar tomonidan Gazandarak qishlog‘i o‘rnida, boshqalar esa Tojikiston Respublikasining Nau tumanida, uchinchi guruh olimlar esa uni Xo‘jand o‘rnida bo‘lgan deb hisoblaydilar. Etarli darajada arxeologik tadqiqotlar olib borilmaganligi sababli, bu muammo hozircha ochiq qolmoqda.

Antik davr yozma manbalarda yozilishicha, makedoniyalik Aleksandr va uning sarkardalari Sirdaryo bo‘ylarida amalda an’anaviy ko‘rsatilgan yetti shahardan ancha ko‘p shaharlarni bosib olishgan. Balkim bu yetti shahar yoki qal’alar mavjud bo‘lgan nisbatan ko‘proq bo‘lgan manzilgohlar ichida eng mustahkamlari bo‘lib, dushman xavfi paydo bo‘lganda yon-atrofdagi manzilgohlar aholisi aynan shu joylarga yashirinib, jon saqlashgan bo‘lishi mumkin. Bu hol Arrian ma’lumotlarida tasdiqlanadi: “Aytishlaricha “yovvoyilar” atrofdan bu etti shaharga qochib kelar edilar”. Bu uncha katta bo‘lmagan qishloqlar jumlasiga etti shahardan tashqari, viloyatimiz xududidagi miloddan avvalgi VI asrga oid Saganaktepa va Saganaktepa I xarobalarini ham kiritish mumkin.

Miloddan avvalgi 323 yilda makedoniyalik Aleksandrning vafotidan so‘ng viloyat hududi uning lashkarboshisi Salavk tuzgan davlat tarkibiga kirgan. Aleksandrning o‘limi nafaqat uning lashkarboshilarining, shuningdek, uning imperiyasi tarkibiga kirgan ko‘plab xalqlarning qo‘zg‘oloniga ham olib keladi. Jumladan, Sirdaryo bo‘ylari aholisi ham o‘z ozodliklari uchun qo‘zg‘olon ko‘targanlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ш. Мирзиёев. Саҳро бағрида мўжизалар яратаётган эл(Сирдарё вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ). “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз”. “Ўзбекистон” Тошкент. 2017,375-376 бб.

2. Арриан Флавий. Анабасис Александра или история паходов Александра Великого. Пер. с древнегреч. М.Е. Сергеенко.-М., -Л., изд.АН СССР,1962,384 бб

3. Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древнейших времен по X в.н.э.//МИА.№37.М.,-Л.,1953,180-247 бб..

4. Литвинский Б.А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы//История и культура народов Средней Азии. М., 1976,51б. Пьянков И.В. Александрия Крайная в известиях античных авторов/Исследования по истории и культуре Ленинабада. Душанбе,1986.

5. Довуди Д. Кир Великий и проблема основания города Кирополя/ТД международного симозиума «Роль Истарафшана (Уратюбе) в истории цивилизации народов Центральной Азии. Душанбе, 2002,113-114бб.

6. Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Проблемы начального этапа урбанизации Уструшаны//По материалам Нуртепа//Древние цивилизации Восттока. Ташкент, Фан,1986,76б.
7. Қудратов С. Сардобалар ўлкаси.Тошкент,Фан, 2001.
8. Ходжиев М.Т., Қудратов С., Самадов Б. Сирдарё тарихи. Гулистон.2020

MEHNAT BOZORIDA QULAY IQTISODIY SHAROITNI TA'MINLASH – INSON SALOHIYATINI OSHIRISHNING MEZONI

Kurbanov Eldar Ermamatovich
GulDU Katta o 'qituvchi
+998916248054
eldor_gdu@mail.ru

Ma'lumki, har qanday rivojlangan, zamonaviy demokratik taraqqiyotga asoslangan davlatda jamiyat hayoti, undagi o'zgarishlar, yangilanishlar, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi jarayonlarni strategik yo'naltirish va rivojlanishning natijasi sifatida davlat siyosatining oqilona, adolatli olib borilganligi bilan namoyon bo'ladi. Shu bois ham davlat siyosatida yangilanishning ro'y berishi mamlakat va uning jamiyati hayotining barcha jabhalarida siyosiy yangilanishlarni amalga oshirish, xalq manfaatlarini inobatga olib, ro'yobga chiqarish mamlakat taraqqiyotining belgisi sifatida govdalanadi.

O'zbekiston so'nggi besh yil davomida amalga oshirilgan tub o'zgarishlar ko'plab mutaxassislar tomonidan mamlakat tarixida yangi davrning boshlanishi, yuksalish va rivojlanish bosqichi sifatida baholandi. Mamlakatimizning yangi demokratik qiyofasi shakllanishiga davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilgan bir qator tizimiy o'zgarishlar xizmat qildi [1].

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda keyingi besh yil davomida amalga oshiriladigan islohotlarga asos soldi [2]. Strategiya davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosatni amalga oshirish kabi muhim yo'nalishlarni qamrab olgan edi.

Islohotlar jamiyat hayotiga chuqur kirib bordi. Agar dalillarga murojaat etadigan bo'lsak, jamiyatimizda keng aholi qatlamlarini qamrab olgan, odamlarni tashvishga solib kelgan majburiy mehnatga, ayniqsa, bolalar mehnatiga barham berilgani [3] yaqqol misol bo'ladi. Shuningdek, uzoq yillar davomida fuqarolikdan mahrum bo'lib kelgan yurtdoshlarimizga O'zbekiston fuqaroligini berishning adolatli tizimi shakllandi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida barqaror o'sish sur'atlari va aholi daromadlari ortishi ta'minlanmoqda. Milliy valyutamizning erkin konvertatsiyasi yo'lga qo'yildi. Soliq siyosati sohasida keng miqyosdagi islohotlar boshlandi. Yurtimizda aholi o'rtasida kambag'allik mavjudligi ilk bor ochiq tan olinib, uni qisqartirish bo'yicha milliy dasturlar ishlab chiqildi va hayotga izchil tatbiq etilmoqda [4]. Aniq ma'lumotlarga qaraganda, 2016 yilning dekabr oyidan 2022 yil oxiriga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 97 ta farmoniga asosan, jami 23 ming 310 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilingan [5].

Davlatimizda 2017 yildan boshlangan yangilanishlar jarayoni Yangi O'zbekiston g'oyasi uchun muhim bo'lgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy zaminlar yuzaga kelishiga imkoniyat yaratdi. Albatta, yurtimizda taraqqiyotning yangi bosqichi jahonda kechayotgan nobarqaror va murakkab, inqirozli hodisalar hamda milliy taraqqiyot tajribasi va uning natijalarining tizimli tahlili asosida amalga oshirilmoqda. Keng ko'lamli islohotlar natijasida odamlarning ertangi istiqbolga ishonchi ortdi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlat hokimiyati faoliyatining pirovard maqsadiga aylandi.

Keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor [6] yo'nalishlari *"Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari"* tamoyiliga asoslandi. Harakatlar strategiyasida beshta ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasiga bunyodkor g'oyalarga asoslangan islohotlarni yangi tarixiy bosqichda davom ettirishni nazarda tutuvchi yana ikkita yangi ustuvor yo'nalish qo'shildi [7], ularning har biri muayyan sohalarni rivojlantirishga qaratildi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sohasida 2017-2021-yillarda erishilgan natijalar haqida gapirganda, bugungi kunda O‘zbekistonda 23 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan umumiy qiymati 2,6 mlrd. AQSh dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilib, 36 mingga yaqin ish o‘rni yaratildi. Pul-kredit siyosati sohasida keng ko‘lamli islohotlar chet el valyutasini erkin konvertatsiya qilish tizimini joriy etish, naqd pul bilan bog‘liq muammolarni hal etish, to‘lov tizimlarini rivojlantirish kabi masalalar hal etilgani bilan izohlanadi. Jumladan, 2019-2021 yillarda aholiga xizmat ko‘rsatuvchi valyuta ayirboshlash punktlarining umumiy soni 1724 tadan 2664 taga ko‘paytirilib, milliy valyutani xorijiy valyutaga qulay almashtirish uchun sharoit yaratildi [8].

2017-2021 yillarda tashqi savdoni erkinlashtirish va eksport salohiyatidan samarali foydalanish natijasida O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan umumiy tovar ayirboshlash hajmi besh yil ichida ikki barobarga oshib, 2021 yil oxiriga kelib 20,1 mlrd.AQSh dollaridan 41,1 mlrd. AQSh dollariga yetdi [9].

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida uchinchi ustuvor yo‘nalish doirasida iqtisodiyotda davlat ishtirokini chegaralash va yanada iqtisodiy liberallashuvni, raqobatni yaxshilashni, monopoliyaga barham berishni, xorijiy sarmoyalarni ko‘proq jalb qilishni, narxlarni barqarorlashtirishni va ayrim masalalarda nomarkazlashuvni, ya’ni hududlarga ko‘proq vakolatlar berishni o‘z ichiga olganligini alohida ta’kidlash mumkin.

Bugungi kunda jahon taraqqiyotini belgilovchi tendentsiyalarni hisobga olganda, inson salohiyatining oshishi eng asosiy omillardan biridir. Shunday ekan, inson kapitali iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan insonning bilimlari, ko‘nikmalari, qobiliyat va rag‘batlari zaxirasidir. U ham insonga, ham jamiyatga istiqboldagi daromad va yuksalish manbai bo‘lib xizmat qiladi [10].

Davlatimiz rahbari ilgari surgan yangi O‘zbekistonni bunyod etish g‘oyasi xalqimizning orzu-intilishlarini birlashtiribgina qolmay, balki taraqqiyot strategiyasi va inson qadrini oshirish yo‘lida qilinayotgan barcha rejalarning kontseptual zaminini tashkil etmoqda.

Shu o‘rinda qayd etish кeraкki, inson qadri–fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va qambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanishida, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlashida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishi demakdir.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o‘rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Kambag‘allikni kamaytirish – aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish demakdir” [11], deya mamlakat aholisining muayyan qismini tashkil etuvchi kambag‘allik ijtimoiy hodisa sifatida ilk bor rasman tan olindi

Professor M.Bekmurodov fikricha, jamiyatda moddiy farovonlik va ma’naviy-axloqiy tamoyillar ustuvorligi ta’minlangan holdagina odamlarning o‘zaro totuvligi hamda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Qashshoqlik, axloqsizlik hukmron bo‘lgan jamoa va jamiyatlarda totuvlikka o‘rin bo‘lmaydi [12]. Bundan kelib chiqadiki, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi, bir tomondan, ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlamning hajmini qisqartirish, ikkinchi tomondan, ma’naviy-axloqiy va intellektual salohiyatga, avvalo umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Shu jihatdan, ushbu g‘oya o‘zida mamlakatimizda odamlarni rozi qilish, milliy totuvlikni mustahkamlash, inson qadr-qimmatini yuksaltirish orqali barqaror taraqqiyotni kafolatli ta’minlanishiga doir amaliy harakatlar strategiyasini mujassam etadi.

Mahalliy mehnat bozorini shakllantirish markazlashtirish siyosatidan yon berish orqali mahalliy hududlarni ishlab chiqish kushini oshirish davlar siyosatining asosiy e’tiboriga aylandi. Mehnat bozoridagi mehnat taklifi ish haqiga nisbatan to‘g‘ri mutanosiblikda bo‘lish, mahalliy ichlab chiqaruvchilarga nisbatan soliq imtiyozlarni qo‘llash orqali ishchi kuchi huquqlarini himoya qilish xam nazarda tutilgan. Davlat statistika qo‘mitasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, Sirdaryo viloyati 2022 yil 6 oyi (yanvar-iyun) mobaynida mehnat resurslar soni salkam 500 mingni talab qilgan. Rasmiy sektorda band aholi 168477 (45,1%), norasmiy sektorda esa 133082 (35,6%) nafarni tashkil qilmoqda [13]. Tabiiyki, bu raqamlar aholini ish bilan ta’minlash vazifasi mahalliy boshqaruv aparati hokimlik, ish bilan ta’minlash agentliklari oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi. Bu o‘rinda mehnat bozorini

moliyaviy ta’minlash, ya’ni ish haqi, uni iqtisodiy jihatdan to‘yintirish kabi dolzarb savollar ham ish beruvchi va hukumat oldidagi kun tartibiga aylanadi.

Bundan tashqari, Sirdaryo viloyatining geografik joylashuvini inobatga oladigan bo‘lsak, mehnat bozori ish kuchini doimiy ish bilan band qilish bo‘yicha bir qator strategic vazifalar ishlab chiqsa bo‘ladi:

Birinchidan, yerning tarkibi sho‘rlashish jarayoni yuqoriligi sababli sho‘rga chidamli ekinlarni ekish, ularga fermerlik dajada sharoit yaratish;

Ikkinchidan, yetishtirilgan mahsulotlarni sanoat darajasiga chiqarish;

Uchinchidan, shimolda Qozog‘iston, janubi-g‘arbda Tojikistonda joylashganligini inobatga olsak, hududda logistika zonasini yaratish orqali, savdo infratuzilmasini yaratish imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kurbanov E.E. Xalq manfaatlari ustuvorligini ta;minlash – davlat boshqaruvi samaradorligining strategik maqsadi // siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. Jild 2, №6.2023. BB.79-80.
2. Ш.Рахманова. Некоторые особенности развития парламентаризма в Узбекистане // «Гуманитарный трактат». №21. 2018. – С.46.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида мажбурий меҳнатга барҳам беришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 349-сон қарори. 10.05.2018. // https://lex.uz/docs/3730223
4. Saidolimov S. O‘zbekiston tashqi siyosati: Milliy manfaatlarga asoslangan faol va pragmatik yo‘l // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T.1. – №.11. – B. 344-351.
5. https://daryo.uz/k/2022/07/25/songgi-6-yilda-qancha-odamga-ozbekiston-fuqaroligi-berilgani-malum-boldi/
6. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, №ПФ-60 //https://fergana.uz/uploads/01/-60_28.01.2022.pdf
7. Саидов А. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси — инсон қадрини улуғлаган Халқчил бош дастур. 28.01.2022. https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh-dastur
8. Стратегия развития Нового Узбекистана на период 2022-2026 гг. — интервью исполнительного директора узбекистанского Центра «Стратегия развития». 09.03.2022. https://cabar.asia/ru/strategiya-razvitiyanovogo-uzbekistana-na-period-2022-2026-gg-intervyu-s-eldorom-tulyakovym
9. O‘sha manba.
10. М.Назиров, М.Ергашбоев. Инсон капитали – Учинчи Ренесанснинг мустаҳкам пойдевори // Islom tafakkuri. – 2021. – Т. 1. – Б. 95.
11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020. https://president.uz/uz/lists/view/3324
12. Бекмуродов М. Инсон қадрини англатиш фани ёхуд жадал тараққиёт барометри ҳақида // “Янги Ўзбекистон” газетасининг 2022 йил, 10 март сони
13. https://review.uz/uz/post/2022-yil-yanvar-iyun-oylaridagi-sirdaryo-viloyatining-mehnat-bozori-korsatkichlari

ILK O‘RTA ASRLAR DAVRIDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O‘ZIGA XOS JIXATLARI

Ne’matov Rustam Abduvaid o‘g‘li
Guliston davlat universiteti “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi

Ilk o‘rta asrlar, xususan, VI – VIII asrlarda Xorazm vohasida kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar tarixi o‘zbek davlatchiligi tarixining nisbatan kam yoritilgan masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu davrda Markaziy Osiyo va unga qo‘shni hududlarda yirik saltanat sifatida

bilingan Turk xoqonligi (552-744) va uning tarkibiy bir qismi bo‘lmish Xorazm tarixi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar nihoyatda kamchilikni tashkil qiladi.

Ilk o‘rta asrlarda Xorazm Choch, O‘tror, Farg‘ona, Sug‘d, Ustrushona, Toxoriston, Marv kabi O‘rta Osiyodagi o‘nlab voha hukmdorliklaridan biri bo‘lib, o‘z geografik joylashuviga ko‘ra Amudaryoning quyi havzasida hududlarni o‘z ichiga olib, bu yerda mintaqaning boshqa hukmdorliklaridan farqli bir siyosiy vaziyat hukm surgan. Ya’ni, Xorazm o‘zaro bir-biriga qo‘shni va hududlari bir-biriga tutashib ketgan Choch, Farg‘ona, Ustrushona va Sug‘ddan farqli o‘laroq atroflari asosan bepoyon cho‘llarlardan iborat bo‘lib, o‘z ichki boshqaruvida ham birmuncha erkinlikka ega siyosiy tuzimlma sifatida o‘zini namoyon qiladi[1]. Bu holat Xorazm vohasida Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida ham saqlanib qoladi. Ayniqsa, Xorazmning Eftaliylar davlati tarkibida bo‘lgan yoki aksincha ekanligi masalasi bugungacha to‘laqonli aniqlanmagan. Turk xoqonligi davrida esa Xorazm xoqonlik tarkibida bo‘lganligini tasdiqlaydigan anchagina yozma materiallar mavjud[2]. G‘arbiy Turk xoqonligi davrida Xorazmda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy holat bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Faqat ayrim tadqiqotchilar ilk o‘rta asrlar yoki islomdan avvalgi mintaqa tarixini yoritish mobaynida masalaga qisqacha to‘xtalib o‘tishgan.

Ilk o‘rta asrlarda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy hayoti bo‘yicha ilk ilmiy izlanishlar XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshlariga tegishlidir.Jumladan, V.V. Bartol’d “Islom ensiklopediyasi”ga yozgan maqolalaridan birini “Xorazmshohlar” deb nomlangan maqolasida (Bartol’d V. V.,1964, S.12-14) va E.Shavann 1903 yilda nashr qilingan «G‘arbiy Turklarga doir hujjatlar» nomli monografiyasida Xorazm tarixiga ham birmuncha to‘xtalib o‘tgan (Chavannes E.,1998,p.34-47)[3]. Keyinchalik esa Y.Markvart Xorazmdagi mahalliy sulola – Xorazmshoxlarlarga anchagina e’tibor qaratadi(Markwart J. 1938 p 36; Marquart J.,1901,pp.3-8). Xorazmda turkiylar tarixi bo‘yicha bir qator fikrlar Z.V. To‘g‘on asarlarida o‘z aksini topgan (Togan A. Z., 1981, p.18).

Xorazm tarixining qadim va ilk o‘rta asrlar davri tarixini sinchiklab o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelib, sovet taqdqiqotchilari S.Tolstov, Ya.G‘ulomov, O.I. Smirnova, V.A. Livshis, A.V. Gudkova, V.I. Vaynberg va boshqalar qadimgi Xorazm shahar qoldiqlaridan topilgan arxeologik topilmalar bo‘yicha izlanishlar olib borishdi(Tolstov S. P., 1948; Gulyamov Ya., 1957, C.14-18). Istiqlol yillarida qadimiy Xorazm hukmdorligining o‘tmish tarixi moddiy madaniyat asosida o‘rganib ommalashtirishda o‘zbekistonlik bir qator olimlarning u yoki bu darajada hissasi bor[4]. Jumladan, A. Asqarov(Smirnova O.I.,1970.C.9-10),V.N.Yagodin(Livshis V.A., 1984. S. 251-252), E.V. Rtveladze(Gudkova A.V.,1964;Vaynberg V.I., 1977. C.36), A. Sagdullaev(Asqarov A., 2004. C.76-84), M.Qdirniyazov(Yagodin V.N., Xodjayev T.K., 1977.C.30), M. Mambetullaev(Rtveldze E.V. 2013. S. 30-44) S. Baratov(Sagdullaev A., Aminov B., Mavlonov O‘., Norqulov N., 2000. B.56) va boshqalarning izlanishlarida Xorazm tarixining ilk o‘rta asrlar davriga ham birmuncha to‘xtalib o‘tilgan.Shuningdek,G‘arbiy Turk xoqonligi davlatchiligi tarixini o‘rgangan G‘. Boboyorov xoqonlik va Xorazm ham bir qator voha hukmdorliklari kabi bir necha usul va vositalar orqali boshqarilganini urg‘u bergan (Boboyorov F., 2000. B. 71–79; O‘sha muall. 2010. B. 18-40; O‘sha mual., 2012. B. 41-43)[5].

Xorazm tarixi bo‘yicha keyingi yillarda Xorazm va Qorqalpog‘iston viloyatlarida oliy o‘quv yurtlari tarixchi mutaxassislari ham bir qator ilmiy izlanishlarni amalga oshirmoqda(Boboyorov G‘., 2019. B. 47-54).

Bugungi kunda Xorazm vohasi tarixi bo‘yicha germaniyalik tarixchi Z. Shtark, rossiyalik sug‘dshunos va arxeolog P.B. Lur’e tomonidan chop etilgan ilmiy monografiya va maqolalar diqqatni jalb qiladi.Shu bilan birga ushbu xududga mil.av. VII asrdan boshlab g‘arbdan chorvador qabilalarning kirib kelib o‘rnashganligini ham e’tirof etish lozim. Ushbu xududlardan farqli ravishda Sharqiy Farg‘onada mil.av. II ming yillik oxiri - I ming yillik boshlari paydo bo‘lgan va aholisi dehqonchilik va xunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan chust madaniyati mil.av. III-II asrda to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Sho‘rabashat” madaniyati bilan almashadi. Demakki, bu xududda chustliklarning avlodlari umrguzorlik qilishgan. Buning isboti sifatida Sharqiy Farg‘onada chust madaniyatiga xos bo‘lgan qo‘lda yasalgan bo‘yoqli naqshli sopol idishlarning turmushda qo‘llanilishining davom etganligi[6]. Bizning nazarimizda, mil.av. IV asrda makedoniyalik Aleksandar boshchiligidagi yunon-makedonlar bosqini natijasida Markaziy Osiyoning o‘ziga xosligi bo‘lgan dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi bilan chorvador aholi o‘rtasidagi zaruriy ehtiyoj bo‘lgan aloqalarni sun’iy ravishda buzadi. Tabiiyki, bundan ikki tomon ham birdek jabr ko‘radi. Natijada, ko‘chmanchi saklarning (mil.av. III asrda)

salavkiylar davlatiga qarshi yurishlari bo‘lib o‘tgan. Aynan shu yurishlarni amalga oshirgan ko‘chmanchilarni jazolash uchun ham Salavk mil.av. 293-289 yillari Salavka o‘z lashkarboshisi Demodamni Yaksart ortiga yuboradi. Bosim ostida qolgan saklarning bir qismi Farg‘ona tomon siljishga majbur bo‘ladi. Shu bilan birga yuechjlar ham Sharqiy Turkistonda mil.av. 176 yilda xunlar tomonidan tor-mor etilgach, janubga aynan Farg‘ona orqali o‘tishgan[7]. Chamasi, ularning bir qismi Farg‘onada qolishgan. Shu tariqa, Farg‘onaning janubiy-g‘arbiy xududlarida mil.av. III-II asrda o‘troqlashgan saklarning yangi qishloq va shaharlari paydo bo‘ladi[8]. Dovon davlati mil.av. III asrda sharqiy Farg‘onada mahalliy aholi-dehqonchilik bilan shug‘ullangan chust madaniti avlodari tomonidan barpo etilgan shubha uyg‘otmasada, keyinchalik mil.av. II asrga kelib davlat boshqaruvi saklar qo‘liga o‘tganligi ehtimoli yuqori[9]. Eylatan shahrining me’moriy tuzilishi, uning tashqi qismida chorva uchun qo‘ra bo‘lganligi, kuchli mudofaa tizimining mavjudligi, ushbu yodgorlik ham o‘troqlashgan saklar[10] tomonidan barpo qilingan bo‘lishi mumkinligi borasida mulohaza bildirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бартольд В. В. Статьи из “Энциклопедии Ислама” / Сочинения. Т. II. Ч. 2. – М.: Наука, 1964. – С. 497
2. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux – P. 140
3. Markwart J. Wehrot und Arang. Untersuchungen zur mythischen und geschichtlichen Landeskunde von Ostiran. – Leiden, 1938; Marquart J. Eranshahr nach der Geographic des Ps. Moses Xorenaci. – Berlin, 1901.
4. Togan A. Z. V. Umumi Türk Tarihine Giriş. 3. Baski. – Istanbul, 1981
5. Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Издание МГУ, 1948; Гулямов Я. История Оорошения Хорезма. – Т., 1957;
6. НЕЪМАТОВ, Р. (2023). ХОРАЗМ АФРИҒИЙЛАР СУЛОЛАСИ–ТУРК ХОҚОНЛИГИ СИЁСИЙ АЛОҚАЛАРИ. *Journal of Fundamental Studies*, *1*(7), 16-23.
7. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, *1*(1), 122-125.
8. Nematov, R. A., & Almanov’s, Q. O. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKISH EMPIRE. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *2*(10), 25-31.
9. угли Неъматов, Р. А. (2023). ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1).
10. Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, *3*(6), 14-23.

SAVOT JIZZAX VOXASIDAGI QADIMIY JOY NOMI

Almanov Qaxramon Obloqulovich
GulDU Tarix kafedrasi dotsenti

Jizzax vohasi hududlaridagi joy nomlariga nazar tashlaganimizda voha toponimlari asosan turkiy va sug’diy nomdagi toponimlardan tashkil topgnaligiga guvoh bo‘lamiz Jizzax vohasi toponimlari tahliliga etibor qaratib ularni shartli ravishda ikki hududga bo‘lib o‘rganishni lozim deb topdik. Vohaning asosan tog’li tumanlari hisoblangan Baxmal, Zomin, Forish, Yangiobod, G’allaorol tumanlaridagi joy nomlarida ham shu narsalar yaqqol ko‘zgan tashlanadi voha toponomiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar S.Qoraev, T.Nafasov, H. Hasanov, N.Begaliev va Jizzax toponimlarini keng qamrovli qilib yoritib bergan Q.Hakimovning tadqiqotlari o‘lka tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib hizmat qilishini takidlab o‘tmoqchimiz. Voha toponomissti Q.Hakimovning takidlashicha, joy nomlarining xozirgacha aniqlangan eng quyi qatlami milodning boshlariga tug’ri keladi. Xovatog,Chakand, Varg’in, Savot (Yangiobod tumani), Mik (Zomin umani), Nushiravon, Novka, (Baxmal tumani), Andagin, Uxm, Fujak. Porasht (Forish tumani), Muton, Naxrach (Gallaorol tumani) va ma’no - mazmunini aniqlash qiyin bo‘lgan boshqa substrat joy nomlarini aytib o‘tish

mumkin. Bu toponimlar xozirgi kunda o‘lik til hisoblangan qadimiy sug’d tiliga mansub bo‘lib, bugungi kungacha ma’lum bir o‘zgarishlar bilan yetib kelgan. Jizzax vohasida mavjud bo‘lgan qadimiy Ustrushona davlati tarkibida bo‘lgan Zomin, Baxmal, Yangiobod, kisman Forish va G’allaorol tumanlaridagi joy nomlarida saqlanib qolgan. Masalan. Yangiobod tumanida Savot degan tarixiy oykonim bor. Akademik A.G.Muxammadjonovning yozishicha, Ustrushonaning Sebat rustokida Buyuk Ipak yo‘li uch tarmokka (Shosh, Fargona, Ustrushona garmoklariga) bulinib ketgan. Ushbu yunalishlarning xar birida bitgadan rabot - karvonsaroy mavjud bulgan va Sebat (se-uch, bat - rabotning qisqargan shakli) «uch rabot» manosini beradi. Sebat maxalliy xalq talaffuzida Sabot, Savot bulib o‘zgargan. Demak, Savot - aslida Sebat bulib «uch rabot», «uch karvonsaroy» degan ma’noni ifodalaydi.

Arab geograflari Savotni Ustrushona shaharlari qatorida sanab o‘tadilar. Istahriyga muvofiq muhim shaharlar Usturshona Savoti haqida alohida to‘xtaladi. Unga ko‘ra shaharda oqar suv bo‘lib, uni bog’lar o‘rab turgan, Savotda bozor bo‘lib, o‘tiradigan joylar tomlarlari yopilgan. Xurdodbehning qayd etishicha, Savotdan Ustrushonagacha yetti farsax bo‘lgan, ikki farsaxi tekislikdan o‘tgan, ulardan qolgan bir farsaxi soyning oqishiga qarshi, ya’ni, shahar tomonidan oqadigan joydan o‘tgan. Huddi shu vaqtda, ehtimol boshqa tog’ni aylanib o‘tadigan, juda qadimiy yo‘l ko‘rsatib o‘tiladi. Savotdan u avval sharqqa olib borgan, keyin janubga burilgan va Tag’obsoy va Mug’olsoy buloqlair suvi bo‘ylab davom etgan. Shuningdek Sabotdan Xovosga va Shoshga olib boruvchi yo‘l ham bo‘lgan. Yo‘l bo‘yidagi qishloqlar va qo‘rg’onlar Sho‘rbuloqsoy bo‘ylab ketgan va Xovosga olib chiqqan.1974 yilda N.B.Nemtsovaning qidirish ishlari natijasida o‘rta asrga oid bo‘lgan Sabot shahrini qadimgi shahar Kultepa atrofidan qidirish kerak, degan fikrni ilgari surdi. Ho‘jamushkentsoy havzasidagi tekshirishlar va shahar o‘rnidagi qazish ishlari unda o‘rta asrlar Sabotini joylashtirish fikri uchun asos bo‘ldi.

A.R.Muhamadjanov “Sabot” so‘zi etimologiyasini ko‘rsatib berishga xarakat qildi. U shunday izoxlaydi “Se–bat”–“uch karvon -soy” deb izoxlaydi. Ilk feodal davri Sabot hududi qadimgi shaharning janubiy qismida joylashgan. Aniqlangan dalillarga ko‘ra shahriston hududidan g’arbda o‘n gektardan kam bo‘lmagan joy bo‘lib, hududdan janubiy g’arbida, chamasi hunarmandchilik mahallasi vujudga kelgan, chunki bu hududdan ko‘plab kulolchilik chiqindilar va kulolchilik o‘chog’i topilgan. Sosoniylar shohi Peroz (459–484) davriga tegishli kumush tangalar va zargarlikk bezaklari hazinasining topilishi o‘sha vaqtdagi keng aloqalardan dalolat beradi.

Samoniylar davri Sabati ilk o‘rta asr Sabatdan shimolda va g’arbda joylashgan, qisman uning hududini egallagan yangi hudud shaxristonning shimoliy g’arbida shakllangan. Maydoni 0,25 ga yaqin, balandligi 7 metr bo‘lgan yodgorlikdagi qazishmalarda davomida X-XI asr boshlariga oid tangalar va hashamatli bino ochildi. Tadqiqotlar Sabotning XI-asr o‘rtalarigach gullab yashnaganligidan dalolat beradi. Shundan keyin shahar qarovsiz holga keladi. XII-XIII asr boshlarida bu yerda Qorahoniylar qabristoni joylashgan edi. Qabriston qadimgi shaharni g’arbdan sharqqa kesib o‘tgan, keng ko‘tarma ko‘rinishda va “eski” shahar (ilk feodaldavriga oid) hududini “yangisi”dan ajratgan. Bu yer Qorahoniylar boshliqlarining saroy majmuasi bo‘lganligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi. Olingan materiallar XII-XIII asr boshlariga to‘g’ri keladi. Shaharning eng taraqqiy qilgan davrida uning maydoni 45-50 gektardan kam bo‘lmagan.

Iqtisodiy ahvolning yuksalishi, Sabotnini halqaro karvon yo‘liga joylashtirish imkonini berdi. Turli-tuman topilmalar shaharning keng aloqalaridan dalolat beradi. Ustrushona uchun birinchi marta yuqori sifatli qizil pardoz berilgan idishlar to‘plami ham shu yerda ishlab chiqarilgan. XII-asr boshlarida shahar hayoti so‘nadi va temuriylar davri Sabati Xo‘jamushkentsoyning (Maytepa) o‘ng qirg’og’iga o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda o‘rta asrlar Sabotining qazib o‘rganilgan hududlari tadqiqotlar natijasida xalqimizning boy tarix ochib berilmoqda. Yozma manbalarda Ustrushona shaharlarining biri sifatida tilga olingan Savot hududida hali ham shu halqlarning avlodlari yashab kelmoqda. Savot,Sebad, Sovot atamalarining turli lahjalarda yangrashi natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa,mahalliy aholi o‘zlarining shevalarida umumiy Savot deb nomlashadi. Bu atama keyingi davrlarda ilmiy maqola va tadqiqotlarda ham keng qo‘llanila boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алманов Қ.Жиззах воҳаси тарихий топономияси ҳақида бази мулоҳазалар.turkiyat@karatekin.edu.tr . Алманов Қ. Жиззах воҳасидаги айрим тарихий жой

номларига оид тадқиқотлар (Янгиобод тумани мисолида) Марказий Осиё халқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий тарихи, моддий ва маънавий ма-данияти (қадимги даврдан ҳозирги кунгача) мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд. 2023. – 155-158 б.

2. Грицина А.А Археологические памятники Сырдаринской области. Ташкент, 1992. - С.

3. Мухаммеджанов А.Р. К этимология топонимов “Сабат” и “Рабат”. Городов и караван сараи на трассах Великого шелъкового пути. Тезисы доклодов. Ургенч 1991. - С. 63.

4. Қудратов С.С.Марказий Осиё ҳудудида илк давлатларнинг пайдо бўлиши. Гулистон, 1998.

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМ ОБЪЕКТЛАРИНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Сангирова Д.Х.
Гулистон давлат университети, тарих фанлари номзоди, доцент

Тадқиқот мавзунинг долзарблиги. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонида мамлакатимизни келгуси беш йилда ривожлантиришга қаратилган 100 та мақсаднинг 35-мақсади “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг” дастури [1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони) доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини 12 миллион нафардан ошириш ҳамда республикага ташриф буюрадиган хорижий туристлар сонини 9 миллион нафарга етказишни назарда тутади.

Тараққиёт стратегиясини “Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили”да амалга оширишга оид давлат дастурида ушбу мақсаднинг бажарилишини таъминлаш юзасидан туризм ва маданий мерос объектлари инфратузилмасини ривожлантириш ҳамда 8 мингдан ортиқ маданий мерос объектларидан самарали фойдаланиш бўйича давлат дастурини қабул қилиш белгиланган.

2022 йилнинг 26 апрель куни Президент Шавкат Мирзиёев раислигида туризм хизматлари кўламини кенгайтириш ва инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари бўйича [2] видеоселектор йиғилишида энг аввало, ҳар бир вилоятда туристларни ўзига оҳанрабодай жалб қиладиган йирик лойиҳаларни амалга ошириш зарурлиги таъкидлаб ўтилди. Йиғилишда ички туризмни ривожлантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилиб, бунинг имкониятлари ҳам белгилаб берилди.

Мавзу дорасидаги таҳлиллар**.** Юртимизда 4 минг 500 дан ортиқ археология ёдгорлиги бўлиб, уларни очиқ осмон остидаги музейларга айлантириш имконияти мавжуд. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида” ги қарорида [3] Сирдарё вилоятида жами 78 та моддий маданият мерос объекти қайд этилган. Ушбу рўйхатдан 22 та археология ёдгорлиги, 14 та архитектура ёдгорлиги ҳамда 4 та зиёратгоҳ номлари ўрин олган. Бироқ, ушбу ёдгорликлар кўпчилигининг тарихий даври аниқланмаганлиги кўрсатилган. Ваҳоланки, ушбу ёдгорликларнинг айримлари Фарҳод ГЭСи нинг қурилиши ва Мирзачўлни ўзлаштириш даврида ўрганилган. Жумладан, 1989 йилда Ўзбекистон Республикаси ФА Археология институти Чоч-Уструшона экспедициясининг А.А. Грицина раҳбарлигидаги Сирдарё отряди тадқиқотлари натижасида Сирдарё вилояти археологик ёдгорликларининг тавсифи ишлаб чиқилган [4]. Шунингдек, бир қатор тарихчилар томонидан мавзуга доир илмий тадқиқот ишлари олиб борилган [5] ва ёдгорликларни ўрганишнинг аҳамияти таъкидлаб ўтилган [6].

Сирдарё вилоятида кўплаб ёдгорликлар мавжуд. Жумладан Ховосда “Мозори сайид”, “Мозори дил”, “Санги кабуд”, “Мозори пари”, “Мозори қавс” каби ёдгорликлар маҳаллий аҳоли ҳовлиларида жойлашган. Ушбу ёдгорликлар маҳаллий аҳоли томонидан зиёрат қилинади. Юртимизда 1 июлдан бошлаб, туризм қишлоқларида меҳмон уйлари, овқатланиш ва савдо шаҳобчалари, кўнгилочар жойлар ташкил этган тадбиркорлар уч йил давомида айланмадан олинадиган солиқ ва ижтимоий солиқни 1 фоиз ставкада, мол-мулк, ер, сув солиқларини ҳисобланган суммадан бор-йўғи 1 фоизини тўлаши белгиланган. Оилавий тадбиркорлик дастурлари доирасида, бундай қишлоқларда меҳмон уйлари ташкил этишга 50 миллион

сўмгача, ўтов ва эко-уйлар мажмуасига 300 миллион сўмгача, чодирли лагерлар қуришга 300 миллион сўмгача кредитлар берилади. Шундан келиб чиқиб, Сирдарё вилоятида мавжуд бу каби ёдгорликларни кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш орқали, ички туризмни ривожлантириш ва шу билан биргаликда аҳолига даромад манбаини яратиш имконияти мавжуд.

Давлат статистика қўмитасининг 2021 йил март ойидаги маълумотларига кўра, 2020 йил ҳолатида юртимиздаги музейлар сони 105 тани ташкил этган. Сирдарё вилоятида бор-йўғи битта музей кўрсатилган бўлиб, “Қатағон қурбонлари музейи” ушбу рўйхатдан ўрин олмаган. Янгиер шаҳрида ташкил этилан “Голодностепстрой” музейи ҳам эътиборсизлик туфайли ўз фаолиятини тўхтатган. Сайёҳларни жалб қилишда ҳудудимиздаги музей салоҳиятидан фойдаланиш натижалари кам. Сирдарё вилоятининг туризм объектларини кенг ўрганиш вилоят ўлкашунослик музейининг эспонатларини янада бойитиш имкониятини ҳам беради.

Туризмни ривожлантиришда хорижий ва маҳаллий туристларга саёҳатнинг барча босқичларини ташкиллаштиришга кўмаклашувчи сайтлар, мобил иловалар яратиш катта аҳмиятга эга. Google Travelernинг ҳисоботларига қараганда, саёҳат жойини танлаш жараёнида 70% га яқин ҳордиқ чиқармоқчи бўлган инсонлар ишонарли маълумот манбаи сифатида Интернетга мурожаат қиладилар. Худди шу тадқиқот натижаларига қараганда 64% саёҳатчилар қидирув сайтлари орқали туристик ҳудудларни танлайдилар. Дунё миқёсида миллионлаб потенциал туристлар ўз саёҳат ҳудудларини қидирув сайтлари онлайн имижига таянган ҳолда танлайдилар. Шу ўринда, Сирдарё вилоятининг археологик, меъморий ёдгорликлари ва зиёратгоҳлари ҳақида маълумот берувчи сайт ва мобил илова яратиш ҳудудда туризм имкониятларининг янада ошишига хизмат қилади.

Туристларни жалб этиш ва саёҳатларни мазмунли ўтказишда маданий тадбирлар ҳам муҳим ўрин тутади. Сирдарё вилояти кўп миллатли ва элатли вилоят сифатида бой маънавий ва этнографик анъаналарга эга. Ҳудуд этнографиясини ўрганиш, унинг бу борадаги салоҳиятини очиб беришга ва турли маданий тадбирлар ўтказишга имконият яратади.

2019 йил 6 январдан кучга кирган Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-5611 сонли фармони доирасида “2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси” қабул қилинган бўлиб, унга кўра “2019-2020 йилларда – туризмни ривожлантириш учун мустаҳкам қонунчилик базани яратишга қаратилган институционал ислоҳотлар, инфратузилмани модернизациялаш ва мамлакат брендини тарғиб қилиш” ҳамда “ягона миллий туризм брендини яратиш ҳамда унга асосан ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусиятидан келиб чиқиб, ҳудудларнинг туризм брендини яратиш” вазифаси белгиланган. Сирдарё вилоятининг туристик салоҳиятини ўрганиш туризм брендини яратишда ҳам муҳим аҳамият касб этади. Чунки миллий ва маҳаллий туризм ҳудудларининг брендини яратиб, узоқ ва яқин сайёҳни вужудга келтирувчи маконларда уларни кенг тарғиб қилиш глобал бозорларда муваффақият қозониш гарови саналади.

Илмий асосланган таклиф ва тавсиялар:

- вилоятдаги туристик объектлар ҳақида батафсил маълумотлар тўплаш ва ушбу ёдгорликлар ҳақида йўлкўрсаткич тайёрлаш лозим;

- вилоятдаги туристик объектларнинг геолокацияси аниқланиб ва улар ҳақида маълумот берувчи мобиль илова яратиш муҳим;

- вилоят археология, меъморий ёдгорликлари, зиёратгоҳлари, маънавий ҳамда этнографик маданияти хусусида марказий ва вилоят телеканаллари учун туркум кўрсатувлар тайёрлаш мақсадга мувофиқ;

- Республикамизнинг нуфузли илмий тадқиқот институтлари ва олий таълим муассасалари етакчи мутахассислари билан биргаликда Сирдарё вилоятида туризмни ривожлантириш бўйича амалий-илмий семинар, тренинглар ташкил этиш керак;

- Сирдарё вилоятида гастрономик, экологик ва спорт туризмини ривожлантириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш ва нашр эттириш лозим;

- Тадқиқот натижаларини нуфузли илмий журналларда илмий мақолалар чоп этишдан иборат.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. https://lex.uz/docs/5841063
2. Маъмурий ислоҳотлар доирасида маданият ва туризм соҳасида давлат бошқарувини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони https://lex.uz/docs/6547477?ONDATE=27.07.2023%2000
3. Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори https://lex.uz/ru/docs/4543266
4. Грицина А.А. К формированию древних и средневековых путей Северной Усрушаны.//Формирование и развитие тарсс ВШП в Центральной Азии в древности и средневековые. ТД международного семинара ЮНЕСКО. Самарканд, 1-6 октября. – Т.: Фан. 1990. с.94-95.;О средневековых городах Северной Уструшаны. – М.,1992.152-153 с.; Археологическая памятники Сырдарьинской области. – Т.: Фан, 1992, 68 с.) .
5. Пардаев М.Ҳ. Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва ўрта асрларда. – Т.: Fan va texnologiya, 2017, 312 б. Тўйчибоев Б.Б. Қадимий Уструшона ҳудуди тарихий топографияси ва савдо йўллари./Ўзбекистон тарихида қадимги ва ўрта асрлар тарихини ўрганиш муаммоси мавзусидаги 2-минтақавий илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Гулистон, 2007, 16-17б.; Қадимги ва илк ўрта асрларда Уструшона аҳосининг иқтисодий муносабатлари ҳақида айрим мулоҳазалар./Ўзбекистон археологияси № 2 (7). – Самарқанд, 2013. 7-13 б.
6. Мамиров О.У. Культы, культовые захоронения и очаги уструшаны в древности и раннем средневековье. // Наука и мир.Международный научный журнал, № 2 (54), 2018, Том 2. – С.20-23

О ВЕДУЩЕЙСЯ РАБОТЕ ПО ПРЕВРАЩЕНИЮ СЫРДАРЬИ В ЗОНУ ПЕРЕДОВЫХ ИННОВАЦИЙ

Назаров О. Р., Галиев С. В
доц. ГулГУ
магистрант

В своем выступлении на заседании Президент Республики Узбекистана подчеркнул необходимость превращения Сырдарьи в "территорию опережающих инноваций" в сферах промышленности, предпринимательства, сельского хозяйства, образования и медицины.[1] Руководители области, района в инновационной сфере должны каждый день стремиться к инновациям, создавать условия для жителей и предпринимателей, менять их мировоззрение и подходы. Мы много думали о том, опыт какой страны привнести в регион, чтобы он стал инновационным регионом. Следует признать, что за последние годы Китай добился беспрецедентного прогресса в промышленности, сельском хозяйстве, образовании и медицине. Китай имеет большой опыт в области науки, инноваций, инженерии, электротехники, робототехники и информационных технологий. Самое главное, что Китай – один из крупнейших и наиболее близких к нам рынков с точки зрения транспорта и логистики. Китайские инвесторы также очень заинтересованы в регионе. За последние шесть лет совместно с китайскими инвесторами в городе Ширин, Мирзаабадском и Сырдарьинском районах заработало более 60 крупных промышленных предприятий. Только в 2022 году в регион было привлечено более 250 миллионов долларов китайских инвестиций. Это почти 90 процентов инвестиций региона. Поэтому нам следует опираться на опыт Китая в развитии всех территорий Сырдарьи. IFC предоставляет пакет финансирования в размере 150 млн долларов США и оказала помощь в привлечении более 1 млрд долларов США в виде частного финансирования для строительства современной тепловой электростанции в Сырдарьинской области Узбекистана. Электростанция поможет удовлетворить растущий спрос страны на электроэнергию и поддержит ее усилия по декарбонизации и энергетическому переходу. качестве ведущего транзакционного советника Правительства Узбекистана IFC помогла структурировать государственно-частное партнерство (ГЧП) для данного проекта путем проведения прозрачного конкурентного международного тендера — первого в стране на тепловую электростанцию. IFC также со-финансировала для проекта 655 млн долл. США от Японского банка международного сотрудничества и Японского агентства страхования экспорта и инвестиций. Станция мощностью 1580 мегаватт будет обеспечивать более 3 миллионов человек более эффективной и конкурентоспособной по стоимости электроэнергией; по оценкам, после завершения строительства, она удовлетворит 17% спроса и будет представлять 9,5% общей установленной мощности. Имея рейтинг эффективности более 60%, новая станция также будет в два раза эффективнее в сравнении с устаревшими установками и позволит избежать до 2,8 миллионов тонн выбросов парниковых газов в год. Электроэнергия, полностью выработанная с использованием местного природного газа, будет подаваться в Национальную электрическую сеть Узбекистана. «Чтобы ускорить переход к чистой энергии, нам нужны современные, эффективные и гибкие электростанции, которые могут помочь оптимизировать нашу энергетическую систему за счет балансирования и увеличения мощностей возобновляемой энергии. Станция «Сырдарья-2» будет содействовать этому переходу, будучи надежным и экономически-эффективным источником электроэнергии и содействуя снижению уровня выбросов CO2», — сказал Джурабек Мирзамахмудов, министр энергетики Узбекистана. Для выработки электроэнергии в Узбекистане в настоящее время преобладает использование природного газа, а неэффективная стареющая инфраструктура тепловых электростанций приближается к завершению срока эксплуатации. Новая высокоэффективная станция поможет снизить потребление газа, ускорить интеграцию возобновляемых источников энергии и повысить устойчивость производства электроэнергии. Она соответствует стратегии страны по декарбонизации к 2050 году и полностью соответствует определяемому на национальном уровне вкладу Узбекистана и Парижскому соглашению. «Эффективное, надежное и доступное электроснабжение является необходимым условием для развития любой страны», — сказала Вибке Шлёмер, директор IFC по Турции и Центральной

Азии. «Этот проект сочетает капитал и опыт частного сектора для повышения устойчивости и конкурентоспособности энергетического сектора Узбекистана, экономичного и действенного удовлетворения растущего спроса на электроэнергию, а также содействует сокращению углеродного следа страны в долгосрочной перспективе».Станция будет разработана консорциумом, в который входят компании Electricité De France, Nebras Power, Sojitz Corporation и Kyuden International.[2] Поддержка проектов в области возобновляемых источников энергии и открытие энергетического сектора для частных инвестиций являются основой деятельности IFC в Узбекистане и Центральной Азии. С 2018 г. IFC содействует Правительству Узбекистана в привлечении инвестиций в энергетический сектор, развитии сектора возобновляемых источников энергии посредством проведения прозрачных, конкурентных международных тендеров, которые соответствуют самым высоким экологическим, социальным и управленческим стандартам. IFC также инвестировала около 67,5 млн долларов США в энергетический сектор страны, в частности, в проекты по использованию солнечной и ветровой энергии. IFC — член Группы Всемирного банка — является крупнейшим глобальным институтом развития, ориентированным на частный сектор развивающихся рынков. Мы работаем более чем в 100 странах, используя наш капитал, опыт и влияние для создания рынков и возможностей в развивающихся странах. В 2022 финансовом году IFC выделила частным компаниям и финансовым учреждениям в развивающихся странах рекордные 32,8 млрд долларов США, используя возможности частного сектора для искоренения крайней нищеты и повышения всеобщего благосостояния, поскольку экономика борется с последствиями глобального усугубляющегося кризиса. Консорциум компаний EDF — Nebras Power — Sojizt Corporation (Франция, Катар, Япония) стал победителем тендера на строительство парогазовой электростанции мощностью 1200−1600 МВт в Сырдарьинской области. IFC, которая оказала содействие правительству в структурировании и реализации проекта ГЧП и проведении тендера. Консорциум предложил самую низкую нормированную стоимость электроэнергии в размере $33,67564 за МВт/ч. Она, помимо предложенных тарифов, учитывает эффективность тепловой электростанции. Министерство энергетики подписало с компанией ACWA Power (Саудовская Аравия) 25-летнее соглашение о покупке электроэнергии (PPA) общей стоимостью **$1,2 млрд** — для разработки, строительства и эксплуатации газотурбинной электростанции с комбинированным циклом мощностью **1500 МВт.[3]** Электростанция будет расположена в городе Ширин Сырдарьинской области. Ожидается, что она увеличит общую энергетическую мощность Узбекистана на 12%. Азиатский банк инфраструктурных инвестиций (АБИИ) одобрил кредит в **$100 млн** на строительство данной ТЭС. Это первый для АБИИ проект финансирования без суверенного обеспечения в Узбекистане, направленный на развитие газовых электростанций в стране. Наряду с АБИИ, кредиторами проекта являются ЕБРР, Фонд ОПЕК по международному развитию и компания DEG (Deutsche Investitions-Und Entwicklungsgesellschaft Mbh). При этом некоторые коммерческие кредиторы получили гарантии Многостороннего агентства по гарантированию инвестиций (MIGA). «Данный проект является выдающимся примером инвестиций частного сектора в экономику развивающейся страны-члена нашего банка, содействующих их переходу к конкурентоспособному энергетическому сектору», — сказал вице-президент АБИИ по инвестиционной деятельности Константин Лимитовский". — «Он полностью соответствует стратегии банка в энергетическом секторе и поможет Узбекистану снизить интенсивность выбросов углекислого газа в системе энергоснабжения». Строительство ТЭС — первый крупномасштабный проект независимого производителя электроэнергии в Узбекистане. Он реализуется компанией ACWA Power — разработчиком, инвестором и оператором в сфере электроэнергетики, опресненной воды и производства водорода, которая работает на Ближнем Востоке, в Африке, в Центральной Азии и в Юго-Восточной Азии. В Узбекистане ACWA Power также строит ветряные электростанции в Каракалпакстане, Бухаре и Навои.[4] Итак, если делать вывод о перспективах развития Сырдарьинской области, то необходимо и целесообразно, чтобы наш регион в ближайшем будущем стал инновационным регионом во всех аспектах, включая промышленность, сельское хозяйство и другие отрасли, при взаимодействии всестороннего мирового опыта и инновации. . Причина в том, что это, несомненно, послужит важным

фактором повышения занятости населения нашего региона, социально-экономического и культурного образа жизни населения.

Использованная литература:

1. https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-sirdaryo-viloyatiga-tashrifi-fotoreportazh
2. https://www.spot.uz/ru/2021/11/20/sirdarya/
3. https://www.spot.uz/ru/2021/11/09/acwa/
4. https://www.acwapower.com/en/projects/sirdarya-ccgt/
5. https://acwasirdarya.uz/\

БАДИИЙ АСВАРЛАРНИ ЯРАТИШДА КОМПОЗИЦИЯНИНГ УМУМИЙ ВА ХУСУСИЙ КОМПОНЕНТЛАРИ

Берикбаев Алишер Аликулович

ГулДУ Амалий санъат ва дизайн кафедраси мудири

Композициянинг амалдаги қонуниятлари, унинг эркин юзага чиқариш учун хизмат қилади. Маълумки, хар бир қонуниятнинг қай даражада амал қилиши асар яратилаётган давр талабларига чамбарчас боғликдир. Чунки, уларни қўллаш хар бир даврдаги эстетик қарашлар асосида удум қилиб олинади. Композицияни хал этишда албатта рангтасвир ва қаламтасвирнинг қандай восита сифатида ишлатилиши ҳам роль ўйнайди. Масалан, композицияни таъсирчан чиқишида баъзи холларда рангларнинг қай даражада таъсирчан топилганлиги мухим ахамият касб этади.

Шунингдек, хар бир замон ва даврнинг ўзига хос талаб эхтиёжлари композициянинг қайси мавзуларда яратилишини ҳам белгилаб берганлиги маълум. Масалан, уйғониш даврида кўпроқ рангтасвир энг етакчи тасвирий йўналиш эди унда кўпрок ижод қилингани маълум. Тасвирий санъатнинг жанрлари хусусида ҳам юқоридагича фикрлар мавжуд. Яъни хар бир даврнинг ўз қизиқишларига қараб улар ривожланган. Маълумки, бир нечта жанрларга оид кўринишлар бир асарда мавжуд бўлиши мумкин. Масалан, натюрморт фонида манзара кўриниши тасвирланади. Маиший жанрда эса рассом яшаб турган давр воқеаларини тасвирлаш билан бирга манзарани хам акс эттириши мумкин.

Маълумки композициянинг ўзига яраша қонун-қоидалари мавжуд ва унга албатта амал қилиниши талаб этилади. Шуни таъкидлаш керакки академик тасвирлаш усулида бу мажбурий шартлардан бири деб хисобласак тўғри бўлади. Академик тасвирлашда хаққоний тасвирлар ишлаш йўлидан борилиши маълум. Бунинг учун композицияни ҳам шунга мувофиқ тарзда реалистик нуқтаи назардан келиб чиққан холда хал этилади. Шу сабабли композиция тузиш ва уни ўрганиш тамойиллари пухта ўрганилиши зарур шартлардан хисобланади. Хакконий тасвирлар ишлашга жазм этган реалистик-рассомлар доимо табиат ходисаларини ўзига ўхшатиб тасвирлаш йўлидан борадилар, уни образли тарзда акс эттирадилар. Бу тасвирлар кўр-кўрона кўчириб олинар экан деган тушунчани бермаслиги керак. Чунки, хар бир ходиса ёки предмет тасвирланар экан у рассом салохияти натижасида ўз образли умумлашма яхлит кўринишини топади. Бу албатта композициянинг умумий ва хусусий компонентлари асосида юзага чиқарилади. Рассом маълум танлаб олинган мавзуни Воқеаликни тасвир этар экан, унга бўлган ўз шахсий муносабатини билдиради ва шуни тасвирларда намоён этишга интилади. Натижада асарда образлилик яққол кўзга ташланади. Яхлит мазмун мохият касб этади.

Маълумки, композициянинг қонуниятлари орасида яхлитлик қонуни мухим ўрин тутади, яхлитлик ёрдамида мавзу мохияти очиб берилади. Бунга мисол қилиб: В.Суриковнинг “Боярыня Морозова”(1887йй) асарида асарнинг мухим бўлган мазмунига томашабин эътибори жалб этилади. Композициядаги яхлитликни таъминлашнинг турли йўллари ва воситалари мавжуд. Улар тасвир лундалиги, ортиқча нарсаларнинг чекланганлиги, рангларнинг ва тусларнинг ўзаро мувофиқлиги , уйғунлиги орқали юзага чиқади. Мавзу мохиятидан келиб чиққан холда фақат зарур нарсаларгина танлаб олиб тасвир этилади. Иккинчи даражали нарсалар асосий тасвир унсурларига бўйсундирилади. Шу сабабдан ҳам яхлитликка алохида эътибор берилиши керак. Композициядаги барча унсурлар фақат тасвир жихатлари билан эмас, балки ғоявий жихатдан ҳам мазмун мохиятига мосланиб акс эттирилади. Асосий нарса композиция марказининг қай даражада мос ва мувофиқ топилганига қараб алохида ажралиб

туриши маълум. Шу сабабдан композиция марказини ҳам тасвир орқали, ҳам ранг-туслар орқали юзага чиқариш мухимдир. Бу тамойилнинг қўлланиши барча тасвирий санъат тур ва жанрларидаги яратиладиган асарларга таалуқлидир.

Констрастлилик, яъни тасвир бўлакларининг ўзаро ва фонга нисбатан қарама-қарши мохият касб этиб, кўриниши орқали юзага чиқадиган «визуаль» бўртиқлик, таъсирчанлик хам композицияда асқотадиган энг зарур қонуниятлар сафида туради. У хажмдорлик ва яссилик, тарх ва силуэт, ёруғ ва қоронғу, илиқ ва совуқ, рангдор ва туссиз ўлчамлар контрасти орқали намоён бўлади. Композиция мазмун мохиятини очиб беришда хизмат қилади.

Бадиий ижоднинг мохиятига назар солар эканмиз, унинг муваффақиятига кўп нарса кераклигини билиб оламиз. Булар: бадиий ижод кучлари, яъни–меҳнат, ирода, илхомланиш. Ижоднинг самара берувчи кучлари, яъни–фикрлаш, сезги ва тасаввур ва бошқалардир. Бадиий ижод компонентларига эса–билим, дунёқараш, бадиий услуб, бадиий нафосат диди ва махорат кабилар мансуб эканлигини алохида таъкидлаб ўтмок керак. қискача хулосалаб айтадиган бўлсак, тасвирий санъат. Хусусан композиция масаласида мухим-номухим нарсалар бўлмайди, уларнинг барчаси зарур хал этиладиган вазифалардир. Қунт ва чидам билан иш олиб борилса барча нарсага, юксак натижаларга эришиш мумкин.

Ранг тасвирни архитектура, театр ҳайкалтарошлик, мусиқа, адабиёт ва шерият билан бевосита боғлаш композиция мазмунини бойитади композиция ҳар тарафлама чуқур ўрганиш иши маълум вақт шахсий иш тажрибасини, маҳорат ва чуқур идрокни талаб қилади. Турли даврлардаги санъат жамияни янги шакл, янги илғор тушунча билан бойитиб алоҳида ўзига хос мазмун киритади. Жамиятнинг қуриш имкониятлари, идроки ўшиши билан санъат оламида ҳар доим ескириб қолган турмуш ғоялари, турғунлик билан янги оқимлар ўртасида кураш боради.

Композиция хақида тушунчалар жуда кенг қамровли ва маъноларга эга бўлган тушунчадир. У барча ижодий жараёнларга талуқли бўлиб, деярли хамма санъат турларининг асосини ташкил этади. Композиция унсурлари мусиқада ҳам, театрда ҳам фотографияда ҳам, адабиётда ҳам, хайкалтарошлик ва албатта бошқа тасвирий санъат билан алоқадор сохаларда мавжуддир.

Композиция хусусиятлари бўлган–мутаносиблик, мувозонат, яхлитлик сингари сифатларни олиб қарасак, улар хар бир табиат воқеаларида мавжуд эканлигини сезиб олишимиз қийин эмас. Масалан, биз оддий дарахтни кўриб ундаги гўзалликдан хайратланишимиз табиий. Чунки хар бир нарса маълум тамойил ва қонуниятлар ичида мавжуддир. Уларнинг шакли ва мавжуд ўлчамлари, тузилиши ўзаро мутаносиб кўринишлар касб этиши унда компазицион мутаносиблик, шакл тузилишидаги мувозанатнинг мавжудлигидан дарак беради. Бундай мисолни табиатдаги барча жисмларга тадбиқан келтириб ўтсак, кўп нарсани англаб олишимиз енгил кечади. Бунинг маъноси шундан иборатки, демак композиция қандай шакл ва мазмунда бўлмасин, авваломбор у тафаккур маҳсулидир. Буни бадиий ижоднинг ҳусусиятларидан келиб чиққан холда тушунишимиз маъқул. Чунки табиатдаги тайёр шакллар билан бадиий ижод махсули бўлган шаклларни ўзаро фарқлашимиз даркор.

Маълумки композиция тушунчасининг барча санъат турларига алоқадор умумий жихатлари ва шунингдек, хар бир сохага оид ўзига хос жиҳатлари бор. Уларни атрофлича ўрганиш, таҳлил қилиш ижодий фаолиятининг ўсишида мухим аҳамият касб этади. Композицияни унинг қонуниятларини ўрганиш назария ва амалиётга бўлиниш табиий билиб, уни яхши ўзлаштириш учун нафақат йиллар, балки асрлар давомида бу сохада яратилган назариялар ва тажрибаларнинг туб моҳиятини англаб, ўқиб ўрганиш керак. Амалиётда қўллай билиш хам муҳимдир. Шуни ҳам унутмаслик керакки, мактаб ва ўқув юртларида дарс берувчи мутахассис, рассом-педагог композицияга оид билимлар билан тўла қуролланган бўлиши керак. Чунки болаларга расм чизиш сирларини ўргатиш жараёнининг кўп қисми мавзули расмлар чизиш амалиёти билан узвий холда олиб борилади.

Маълумки «композиция» сўзи орқали рассомлар бадиий тасвирий санъат асарининг барча қисмларининг ўзаро муносабатларининг қонуниятларини тушунадилар. Айрим шундай боғлиқликлар албатта кўз орқали кўриб англашилади (сон жихатлари), бошқалари эса (сифат жиҳатлари) идроклаш, фикрлаш орқали қабул қилинади.

Қаламтасвир ёки ранг тасвир асарининг композицияси «структураси»сига алоқадор тушунчани мохиятини қисқача тарзда кўриб чиқайлик. Бунинг учун композициянинг сон боғлиқлиги муносабатларини бирма-бир келтириб ўтайлик: бу чизилаётган нарсанинг абсалют ўлчаминнинг унинг аслига нисбати, чизилаётган ўлчам томонларининг ўзаро нисбатлари, предметларнинг масштаби, улар орасидаги масофалар, нарсаларнинг қандай бурилиб турганлиги (тўғридан кўрингани–«фас», ёндан–«профил», ярим бурилган холати, «комбинациялашган»-мураккаб ва х.к.), уфк сатхи даражаси, ёруғлик манбаининг холати? Соя-ёруғнинг тақсимланиши, туси, соя ва ёруғнинг нисбий мувозанати, шунингдек асосий ранг доғлари мувозанати, тасвирланаётган объектларнинг бўлакларининг ўзаро жойлашиши, қиёфалар ва фонга нисбатан «контраст»лар фарқи (ранг, соя-ёруғ, ўлчам), композиция унсурларини фазодаги кўринишини ташкил қилиш (метр, ритм) ва бошқалар.

Юқорида келтириб ўтилганларнинг барчаси предметларнинг сондаги белгиларидан. Уларни ўлчаш ва санаб кўрсатиш мумкин. Композицияда қанча нарса иштирок этаётганини аниқлаш имконияти аник. Шундай қилиб, кўриш орқали қабул қилиш мумкин бўлган белгиларни композициянинг воситалари деб аташимиз мумкин. Бу асосда эса расом уларнинг бевосита ёрдамида ўз фикрини ифодалаш имкониятига эга бўлади. Худди мусиқа яратаётган композитор ноталардан фойдалангани сингари рассом ҳам юқорида санаб ўтилган воситалардан фойдаланиб, ўз асари ғоясини юзага чиқаради, тасвирларда кўрсатиб беради. Сондаги композиция сифатини таъминловчи, фикрни тўлик ифода этишга хизмат қилувчи белгиларни жамловчи холат мазмуни композиция тамойиллари дейилади. Улар яхлит, мутаносиблик, ўлчамлар мувофиқлиги, мувозанат, бирлик ва узвийликдир. Булар орқали рассом ишнинг сифат даражасини таъминлайди. Натижада асар композицияси юзаки эмас, балки чуқур маъно касб этади, тафаккурлаш натижасида тушунилади. Рассом композиция тамойилларини усталик билан қўллаб, хар томонлама ютуққа эришади, композиция бекаму-кўст бўлади.[2]

Маълумки, композиция тамойилари уч хил кўринишда намоён бўлади. Уар куйидагича: фронтал, хажм-фазовий ва чуқурлик-фазовий кабилардан иборат.

Фронтал композицияда асар мустақиллигига эришишга ҳаракат қилинади. Уни яратишда ижодий изланиш маълум чегара ичидаги юзада олиб борилади. Композиция иккита координата орқали (вертикал ва гаризонтал) ривожланишини билдиради. Унда учинчи координат чуқурлик қолган иккисига бўйсунган холатда иштирок этади. Бундай композиция амалий безак композицияларида кўп қўлланилади.

Ҳажмий композицияда уч ўлчам (узунлиги, эни ва баландлиги) ичида ижодий изланиш олиб борилади. Унда композициянинг барча воситаларидан унумли фойдаланилади. Хажм фазовий композицияларида эса шакллар уч ўлчамли холатларда яратилади. Улар хар томондан туриб, айланиб кўришга мўлжалланган бўлиб, хайкалтарошликда қўлланилади. Чуқурлик фазовий композиция предметларини картина текислигида тасвир этишда қўлланади ва дастгохли рангтасвирда фойдаланилади.

Чуқурлашган-фазовий композиция яратишда уйғунлик қонунлари: *мувозанат қонуни, бирлик қонуни ва бир-бирига бўйсуниш қонуни* ҳамда контраст, ритм, нюанс, ўхшашлик, пропорция ва масштаб каби уйғунлик воситаларидан фойдаланилади. Чуқурлашган-фазовий компо-зиция рассомчиликда, ҳайкалтарошликда ҳам кенг қўлланилади. Меъморчиликда юқоридаги қонун ва воситаларнинг бирлигасига амал қилинмаса, бундай композиция, биринчидан, мукаммал бадиий асар даражасига етмайди. Фазовий композиция яратишда фактуранинг аҳамияти катта. Фактура шаклларнинг умумий кўриниши, рангларнинг сўниқ-равшанлиги даражасига таъсир кўрсатади.[5]

Тарихдан маълумки ўтмишнинг улуғ рассомлари композиция масалаларига жуда жиддий ёндошганлар ва ўз асарларини яратишда умум қоида бўлиб қолган тамойилларга амал қилганлар. Композициянинг «вертикал», «горизантал», «доиравий», «квадрат», «бурчак» ва бошка кўринишларини қўллаб юксак натижаларига, гўзал ифодавийликка эришганлар. «олтин кесим» композиция усулидан унумли фойдаланиш хар сохада қўл келгани хам маълум.

Композиция тузишга мохир бўлган ва уни ўз асарларида мукаммал даражага олиб келган мўйқалам усталари кўп, уларга мисол қилиб қуйидагиларни қисман атаб ўтсак ўринли бўлади. Бундай ўтмиш тасвирий санъат усталари: Леонардо да Винчи, Микеланджело,

А.Дюрер, Ж.Д.Энгр, П.Рубинс, Рафаэль, А.Иванов, К. Брюллов, И.Е.Репин, Я.Матейко ва бошқалардир.

Хулоса қилиб айтсак Ўзбек рассомларидан тасвирий санъатнинг турли тур ва жанрларида ижод қилган ва хозирги пайтда ажойиб асарлар яратиб келаётган мусаввирлардан айримларини санаб ўтишимиз мумкин. Ў.Тансиқбоев, И.Икромов, З.Иноғомов, Ч.Ахмаров, Х.Хусниддинхўжаев, А.Абдуллаев, Р.Ахмедов, Р.Чориев, И.Жаббаров, А.Бойматов, Ж.Умарбеков, Ш.Абдурашидов, А.Мирзаев, С.Абдуллаев, А.Икромжонов, Б.Жалолов, А.Нуритдинов, О.Гозоков ва бошқа кўплаб ижодкорларни бемалол композиция усталари деб аташимиз уларнинг асарларини ижобий жихатларини тахлил қилиб, ибрат олишимиз мумкин, бу албатта ўқув машқларини бажаришда назарий асос вазифасини ўтайди.

Умуман олганда рассом ижодкорлар томонидан яратилган хар қандай асарда тасвирланган барча деталлар, шу асарнинг мазмунини бойитади,хамда таъсирчанлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Н.Абдуллаев Санъат тарихи (*икки жилдлик биринчи китоб*) «San’at» нашриёти, Тошкент – 2001
2. Ғ.Абдурахмонов “Композиция” Тошкент 2009 й
3. Хасанов Р. «Мактабда тасвирий санъатни ўқитиш методикаси». Т: «ФАН», 2004.
4. Ғ.Абдурахмонов, Б.Тожиев «Композиция» фанидан маърузалар матни. Тошкент 2000.
5. A.Berikbayev Tasviriy san’atning nazariy va uslubiy asoslari O‘quv qo‘llanma Ilm-Ziyo zakovat T.; 2023

TASVIRIY SAN’AT ORQALI O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI

Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Tabiat o‘ziga xos murakkab tizim bo‘lib, inson va jamiyat uning hosilasidir. Inson o‘z ehtiyojlarini tabiat hisobidan qondiradi. Tabiat insonga juda ko‘plab ne’matlarni taqdim etgan, buning evaziga inson ham o‘z mehnati, salohiyati bilan tabiatni yanada boyitib, yashnatib borgan. Ammo vaqt o‘tishi bilan insonlar tabiatdan oqilona foydalanmay qo‘ydi va buning aksi sifatida tabiat ham insonga aks ta’sir eta boshladi. Buning natijasida fanda yangi ta’limot – “ekologiya” vujudga keldi. Juda ko‘plab mutafakkir olimlar tabiatni qutqarishga, insonlarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otishga har tomonlama harakat qilishdi. Uni goh badiiy ijod, goh ilmiy tahlil, goh san’at ko‘rinishida insonlar qalbiga olib kirishga urinishdi. Sababi, insonning kelajagi tabiat bilan bog‘liq, tabiat esa inson bilan bir tandirki, ular bir-biridan uzoqlashsa, hayot ham izidan chiqa boshlaydi. Mamlakatimizda ham ekologiyaning global muammolariga jiddiy e’tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada juda ko‘plab chora-tadbirlar, islohotlar, qonunchilikda amaliy ishlar qilinmoqda. Prezidentimiz aytganidek: “Eng muhim masalalardan biri – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona-tabiatga mehr-muhabbat, daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”. Mazkur muammoni hal etish yo‘llaridan biri ta’lim jarayonida Sharq mutafakkirlari ilmiy merosidan keng foydalanishdir. O‘zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega. Ekologik tarbiya va unga oid fikrlar oilada hadislar, hikmatli so‘zlar asosida berib borilgan. Tabiat xodisalarining takomillashib, tadrijiy rivojlanib borishidagi tushuncha va ta’limotlar, insonning tabiat bilan bog‘liqligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ilk marotaba “Avesto”da hamda Sharq Renessansi davrida ijod etgan allomalarimizning, jumladan, Muhammad Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino asarlarida o‘z ifodasini topgan. Qolaversa, Amir Temur, Alisher Navoiy singari buyuk davlat arboblari ham o‘z navbatida obodonchilik, sug‘orish, bog‘-rog‘lar barpo etish ishlarini har doim qo‘llab-quvvatlaganlar. Tabiatga bo‘lgan ehtirom va uning sirlarini anglab etishga intilish buyuk ajdodlarimizning bebaho ilmiy durdonalarida namoyon bo‘lib, jahon ilmiga beqiyos hissa bo‘lib qo‘shilgani biz uchun faxrlidir.

Ayni paytda mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida 20 dan ortiq muhim qonunlar, yuzlab qonunosti huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilingan. Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz ekologik tanglik tahdidini barham toptirish, uning oldini olish chora-tadbirlariga qaratilgan bo‘lib, mazmun-mohiyatida insonning ekologik tarbiyasi ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob 50-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”, deb qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan.

Insoniyat tarixida yaratilgan va yaratilayotgan kashfiyotlar, zavod-fabrikalar, inson manfaati uchun xizmat qiladigan barcha turdagi texnika-mashinalar, axborotlashtirilgan radiotexnikalar va boshqalar barchasi tabiiy boyliklar va yer resurslaridandir. Biz tabiatdan o‘z manfaatlarimiz, qulayliklarimiz yo‘lida juda ko‘p foydalanamiz. Buning evaziga esa “do‘stimiz”ga qanday yordam berayapmiz, qanaqa munosabatda bo‘layapmiz? Yaxshilikka shunday javob beriladimi? Bizga hayot baxsh etayotgan suvga chiqindilarni otish yoki xazonlarni yoqib, musaffo havomizni zaharlash, shumi javob? Daraxtlarni kesib, o‘rmonlarni yoqib, bugunimizni o‘ylab, yashashimizni osonlashtirayapmiz-u, kelajagimiz yodimizdan ko‘tarib ketyapti. Zero, tabiiy boyliklarni asrab-avaylashimiz, ularni qadr-qimmatini baholay bilishimiz faqatgina bugun uchun emas, kelajak avlod, farzandlarimiz uchun ham muhimdir. Kelajak avlod kimga qarab bo‘y cho‘zadi, albatta, bizlarga qarab. Shu sababdan bugun ta’lim-tarbiya berishda yoshlar ongiga avvalo, ta’lim bilan birga insoniylikning muhim shartlaridan bo‘lgan ma’naviyatni, tarbiyani singdirib borish “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunimizning ham asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Tasviriy san’at ta’limini ekologiya bilan bog‘lash yoshlarda mehr-muhabbat, yaxshilik qilish, bir so‘z bilan aytganda ijobiy hislatlarni tarkib toptirishda asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Tabiat qo‘ynida yoki tez-tez u bilan birga bo‘lish insonlarning yoshidan qat’i nazar ularda ijobiy fazilatlarning kamol topishiga yordam beradi. Sababi, o‘quvchi bevosita o‘zi ranglar jilosidan jonli olam yaratar ekan, unga muhabbat qo‘yadi, o‘zi yaratgan narsasini hayotdan qidira boshlaydi. Shu sabab, ushbu fan yordamida bolalarda tabiatga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish, uni asrab-avaylash mas’uliyatini shakllantirish imkoniyati katta. Ustoz ana shular haqida ma’lumot berib, daraxtlarni sindirmaslik, aksincha ularni parvarish qilish, asrab-avaylash, yangi ko‘chatlarni ekish, ularni ko‘paytirishga e’tiborli bo‘lishni tushuntirishi katta samara beradi. Shunda bolada o‘zi chizgan suratga munosabat, yashil olamni asrash g‘oyasi paydo bo‘ladi. Tasviriy san’at o‘qituvchisi bolalarga bu suratlarni ko‘rsatib, “juda go‘zal-a” desa, “juda ham” deya ko‘zi chaqnab javob bermagan o‘quvchini topib bo‘lmaydi. Shunda ustoz sayyoramizda toza ichimlik suvining tanqisligi global muammoga aylanib borayotganini, dunyo aholisining 1,2 mlrd nafari ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat cheksa, 2,3 mlrd kishi esa sanitariya-gigiena talablariga javob bermaydigan suvni iste’mol qilishga majbur ekanligini aytsa bormi, albatta, bolalarning qiyofasida tushkunlik seziladi. Pedagog bu jarayonda mahorat bilan bolalarni tabiatni asrashga, ekologiya qonun-qoidalariga rioya qilishga undasa, agar suvdan oqilona foydalansak, uni asrash mumkinligini aytsa, bolada ekologik tarbiyani rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan bo‘ladi. Tasviriy san’at darslarida faqat bolalarga rasm chizdirmay, balki, ularga mashhur rassomlarning ijod mahsullarini ko‘rsatish, ular bilan tanishtirish ham mumkin. Bolalarda tasviriy san’at orqali tabiatga nisbatan mehr-muxabbat uyg‘otish borasida olib boriladigan ishlar maxsus metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar, mavzuli plakatlar: “Atrofimizdagi olam”, “Atrofimizdagi tabiat”, “Men ekkan daraxt”, “Men sevgan qushlar va hayvonlar”, “Men sevgan fasl” kabi o‘quv-o‘yin materiallari asosida oddiy, sodda va tushunarli formalarda olib borilishi kerak. Tasviriy san’at o‘qituvchisi faqatgina o‘z sohasi bilan chegaralanib qolmasdan, keng dunyoqarashga ham ega bo‘lishi lozim. Chunki, tasviriy san’at darslarining asosiy maqsadi, bolaga qalam ushlab, rasm chizdirishgina emas, shu suratlar olami orqali uni tarbiyalash hamdir. Haqiqiy pedagog buni his qilmog‘i, har bir o‘rganilgan surat, ko‘rsatilgan tasvirlardan bolalarni estetik zavq olishga, undan ma’lum bir xulosa chiqarishga o‘rgatmog‘i kerak. Tabiatni asrash-avaylash faqatgina shu soha mutaxassislarining emas, har birimizning burchimizdir. Buni his qilgan holda, har bir qilayotgan ishimiz, bajarayotgan amallarimiz tabiatga ziyon keltirmayaptimi, menga, tabiatga naf keltirdimi, kimlarni uni asrashga unday oldim, deya yashash lozim. Shunda muammolar kattalashish o‘rniga, insondek oliyjanob hislat egasi oldida yo‘q bo‘lib ketishi muqarrar.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifa va maqsadlari o‘quvchilarni tabiat bilan va unda sodir bo‘layotgan voqeliklar bilan qiziqtirish, inson, tabiat o‘rtasidagi muammolarning kelib chiqish

sabablarini aniqlash, echish yo‘llari, chora-tadbirlarini topish, yetarli ekologik bilimlarga ega bo‘lgan holda atrof muhit muhofazasini amalga oshirishdir.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2018 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. – Xalq so‘zi, 2017 yil 13 iyul.
3. P.Sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofazaqilish asoslari.: Toshkent: 2007 y.
4. G.Ismoilova. NamDU axborotnomasi 3-son. N.: 2019 y.

MADANIYAT VA SAN’ATNING MILLIY QADRIYATLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Nusharov Bobir Bolbekovich
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasining istiqlolga erishishida xalqimizning tarixiy qadriyatlari, ma’naviy merosi xalq pedagogikasi an’analarini qayta tiklashga va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlanishga olib keldi. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilindi. Amalga oshirilayotgan ishlar zamirida kelajak avlodga qaratilgan e’tibor va xalq roziligi bosh maqsad qilib olingan.

Shu maqsadda Respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishiga katta ahamiyat berilmoqda [1:4]. Ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma’naviyatimizning o‘zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, “Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o‘tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi” [2:47]. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda bolalar ijodkorligini rivojlantirishda, ularda estetik tarbiyani shakllantirishda san’at to‘g‘risidagi: jumladan, rassomlik, haykaltaroshlik, arxitektura, musiqa, teatr, kinoga oid, rassomlar, bastakorlar, teatr va kino arboblariga doir, jahon muzeylari – Ermitaj, Tretyakov, Drezden galereyalari, Luvr va boshqalarga doir kitoblar ham muhim o‘rin egallaydi. Zero, o‘quvchilarda ijobiy hislatlarni shakllantirish, ona-tabiatga, hayvonot olamiga mehr-muhabbat uyg‘otishda tasviriy san’atning hissasi katta.

Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari negizini bolani tushuna olish, unga insbatan insonparvar munosabatda bo‘lish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning haqligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g‘oyalarning hayot mavjudligini ta’minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi. Maktab yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir [3:60]. Buning uchun pedagog xushaxloq, madaniyatli, tarbiyali, tartib-intizomli bo‘lishi shart. Shundagina bola uchun ustoz eng birinchi, eng sevimli va eng faxrlanadigan inson bo‘lib qoladi. To‘g‘ri, har bir millat, elat o‘z qadriyatlari, tarixiy an’analari asosida farzandini ulg‘aytiradi. Milliy dunyoqarash, odatlar, an’analar, qadriyatlar esa bu qoidalarni to‘ldiradi va ularni mukammallashtiradi [3:5]. Tarbiyaning ijtimoiy vazifasi kishilarning bilim, malaka, ko‘nikmalarida aks etgan mehnat, bilim tajribalarini avloddan-avlodga yetkazishdir. Бу вазифани амалга оширишда санъат турларининг ўрни беқиёс ҳисобланади. Сабаби санъат инсонни ҳар томонлама камол топишида беқиёс ўринга эга. Тасвирий санъат тури ўзининг тил ва чегара билмас томонлари билан ажралиб туради.

Tasviriy san’atning muhum xususiyatlaridan biri insonlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma’naviy boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli omil bo‘lib xizmat

qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, V.G.Belinskiy ta’rificha, “San’at – obrazli tafakkurdir” [4:67]. Har qanday o‘quv predmeti ta’lim mazmunida, albatta, o‘zbek xalqi yaratgan beqiyos boy, madaniy va ma’naviy me’rosni o‘ziga asos qilib olishi lozim. Shunday ekan, o‘zbek xalqining dunyoga mashhur bo‘lgan me’morchilik, amaliy va tasviriy san’at asarlarini maktablarda boshqa materiallarga qaraganda kengroq va chuqurroq o‘rgatilishi talab etiladi.

Inson tabiatdan rassomdir. U o‘z hayotida ko‘rgan, bilgan narsalarini, voqealarni boshqalar bilan baham ko‘rishga, o‘zi ko‘rgan go‘zal tabiatni, inson go‘zalligini ta’riflashga, tavsiflashga intiladi. Inson ijod etayotgandagina, bevosita san’at asarlari yaratayotgandagina san’atkor bo‘lib qolmay, u san’at asarlarini idrok etayotganida ham ijodkor ekanligini tushunish zaruriyati tug‘iladi. Buning uchun esa fikr, g‘oyani qandaydir tartibda ifodalash, tasvirlash tartib qoidalariga kompozitsiya fani katta yordam beradi [5:4]. Shuning uchun kompozitsiya asosi, uning vositalari, kompozitsiya elementlarida simmetriya, assimmetriya, format kompozitsiya o‘lchovlari, kontrastlar va boshqalar haqida bayon qilishga harakat qilinadi. Go‘zallikni his qila olishni rivojlantirish, yuqori estetik didni shakllantirish, san’at asarlarini, tarixiy va me’morlik yodgorliklarini, ona tabiat go‘zalliklarini, boyligini tushunish va kadrlarni shakllantirish maqsadida har bir o‘quv fani, ayniqsa shaxsning bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladigan va katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, estetika kabi fanlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish kerak [6:3]. **Bular insonning his-tuyg‘ulari, xilma-xil kechinmalarini qo‘zg‘ab, uning diliga, ruhiga ta’sir o‘tkazib, san’at va inson uyg‘unligi va hamkorligini ta’minlaydi.**

Ma’naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g‘oya yoki mafkura aslo o‘z ta’siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Bulatov, J.Nasriddinov, B.Abduxonov. Ustoz va shogird an’analari. T.: 2008.
2. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. T.: 2008 y.
3. Quloqli “quloqsiz” bola. Ilmiy-ommabop nashr. To‘plovchi va tarjimon M.Rixsibekova. T.: “Yangi asr avlodi”, 2017 y.
4. V.Belinskiy. Tanlangan asarlar. 3-tom. M.: 1948 y.
5. R.Xudoyberganov. Kompozitsiya. T.: 2004.
6. P.Qodirxo‘jayev. Badiiy bezak san’ati. T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.
7.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARI TAYYORLASHDA FANLAR INTEGRATSIYASI

Usmanov Botir Allaberdiyevich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Fan va texnika yuqori sur’atlarda rivojlanib borayotgan bugungi davrda, ko‘plab ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar, bilim va tasavvurlar hajmi kengayib bormoqda. Fan-texnikaning yangi yutuqlari, turli soha va kasblarning taraqqiy etib borishi tufayli, tegishli sohaga oid fanlar o‘rtasida integratsiya jarayonini bevosita vujudga keltirmoqda. Bunday rivojlanish sharoitda, yuksak malakaga ega, pedagogika va psixologiya bilimlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bo‘lgan pedagoglarga talab ortib boraveradi. Salohiyati yuksak darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalariga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Tasviriy san’at o‘qituvchilari tayyorlash tizimida fanlar integratsiyasi, shu bilan birga, nazariy bilim va amaliyotning mutanosibligi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Fanlar integratsiyasi yangi bilim va ko‘niklmalar bilan o‘zaro uyg‘unlashuv asosida tegishli sohaning tarkibiy qismlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, fan va ta’lim integratsiyasi, shu bilan birga uning amaliy jarayonlarini hisobga olgan holda amalga oshirish shart-sharoitlarini to‘g‘ri anglash orqali ijobiy natijaga ega bo‘lish mumkin [2, 51]. Aksar holatda, fanlar integratsiyaning kelgusida kutilayotgan muvaffaqiyatli natijasi uchun zarur shart-sharoitlarni to‘liq bilmaslik, fan va ta’lim o‘rtasidagi maxsus dalillarni talab qilmaydigan

tomonlarini baholay olmaslik, sohaning yetakchi olimlari ta’lim tizimiga muntazam ravishda ilmiy mahsulotlarni joriy etish darajasining yetarli emasligi haqida ta’kidlaydilar.

Yuqorida aytib o‘tilgan holatlarda, tasviriy san’at va pedagogika fanlari bilan ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik va ushbu fanlarning samarali yutuqlarini amaliyotga joriy etish mexanizmlariga bir oz mukammallik yetishmayotgandek ko‘rinadi.

Ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalarni, aynan ta’lim jarayonining tarkibiy qismlariga joriy etish va ilmiy natijalarni o‘quv amaliyoti obyektlariga aylantirish zarurati mavjud bo‘lgan sharoitlarda esa ilmiy-metodik vositalarning yetarli emasligini ko‘rishimiz mumkin.

Biroq, ushbu qarama-qarshi bo‘lgan jihatlar, ijtimoiy va iqtisodiy tizimning zaruriy bo‘g‘ini hisoblangan ta’limning innovatsion faoliyatida ham hal qilishimiz mumkin. Ta’limda integratsiyalashuv jarayonining muvaffaqiyatli innovatsion o‘zgarishlar natijasiga erishishda, ya’ni tasviriy san’at va pedagogika fanlari bilan ta’lim amaliyotini integratsiyalash mexanizmini ishlab chiqish orqali mumkin bo‘ladi.

Pedagogika fanlari bilan ta’lim amaliyotining uslubiy jihatdan mukammal ishlab chiqilgan integratsiyalashuv jarayoni birinchi bo‘lib Buyuk Britaniyada XX asr boshlarida qo‘llanilgan. Keyin bu borada maxsus kooperativ kurslar tashkil etilib, uning vazifasi professional bilim va amaliy faoliyatni integratsiyalashga qaratilgan. Rossiyada birinchi tajriba o‘tgan asrning 20-yillarida qo‘llanilgan. Bunda rus pedagog olimlari – N.V.Bunakov, V.Ya.Stoyanin, B.G.Ananyevlarning hissasi kattadir. Ular butun e’tiborini Pedagogika fani bilan maktab ta’limi o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlashga qaratishgan. Shuningdek, mazkur tizim bilan o‘zaro aloqalarni kuchaytirish, o‘quv materialida takrorlanishlarni bartaraf etish, fan va ta’lim o‘rtasida yaxlit tizimni shakllantirish bilan shug‘ullanganlar. Ular tomonidan taklif etilayotgan g‘oyalarda o‘quv dastur va rejalarni pedagoglarning progressiv qarashlari bilan yangicha yondashuvda ishlab chiqish, ularning mazmunida ijtimoiy hayot va ta’lim munosabatlarini o‘rnatish edi. Keng qamrovli bu harakatlarga integratsiyalashgan yondashuv nomi berildi.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, so‘nggi asrning 30 va 50-yillari pedagogika fani va ta’lim amaliyoti uchun muhim o‘zgarishlar davri bo‘ldi.

Ma’lumki, pedagogika fanlari bilan ta’lim amaliyotining uslubiy jihatdan mukammal ishlab chiqilgan integratsiyalashuv jarayoni ko‘p jihatdan shaxsning ta’lim maydoni – uzluksiz ta’lim tizimi, turli xil etakchi faoliyat turlari va ta’lim subyektlarini birlashtiradigan maxsus ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligini belgilaydi [4]. Integratsiya jarayonlari quyidagi shartli koordinata o‘qlari bilan aniqlangan uch o‘lchovli ta’lim maydonida ifodalanishi mumkin:

- maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar, umumiy o‘rta ta’lim talabalari, oliy ta’lim muassasalari talabalari, yosh mutaxassislar va katta tajribaga ega mutaxassislarni o‘z ichiga olgan rivojlanish subyektlari;
- uzluksiz ta’limning tizimli shakllari (maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim va boshqalar);
- shaxsni rivojlantirish funktsiyasini bajaradigan ko‘p qirrali yetakchi faoliyat turlari (o‘yin, kognitiv, o‘quv, kasbiy, ishlab chiqarish va ijodiy yo‘naltirilgan).

Ushbu uchta obyektiv takror ishlab chiqaruvchi va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi omilni bir makonga birlashtirish bizga ta’lim maydonini rivojlanayotgan deb hisoblash imkonini beradi.

Rivojlanayotgan ta’lim makonini uzluksiz ta’limning psixologik-pedagogik tizimli shakl va darajalari, rivojlanayotgan shaxs va kasbiy rivojlanish faoliyati va subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning doimiy ravishda kengayib borayotgan va o‘zini o‘zi tashkil qilish tizimi deb hisoblaymiz. Ushbu tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’sir qilish tartibida ishlashi ochiq, kengaytiriladigan va o‘z-o‘zini rivojlantiradigan ta’lim maydonini tashkil qiladi [7, 8].

Pedagogik tadqiqotlar samaradorligi:

birinchi navbatda, ta’lim va fan integratsiyasi uchun shart-sharoitlarni ta’minlash, ilmiy ishlanma va natijalarni o‘quv-kasbiy jarayonga joriy etish orqali mutaxassislar tayyorlashda ishtirok etish;

yangi bilimlami yaratish, zamonaviy texnologiyalami o‘zlashtirish, ilmiy maktablarni tashkil etish va rivojlantirish uchun asos sifatida fundamental tadqiqotlarni ustuvor rivojlantirishga ko‘maklashish;

mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini ko‘tarish, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirishga ko‘maklashish;

ta’limning dolzarb masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va olib borishda ilmiy jamoatchilikni faol ishtirok etishga jalb etish asosida ortishi mumkin.

Umuman olganda, ta’lim maydoni nafaqat tadqiqot muammolarini, balki fan va ta’lim amaliyotini integratsiyalashuvining asosiy mexanizmiga aylangan innovatsiyalar sohalarini ham belgilaydi.

Ta’limdagi innovatsion faoliyat deganda tugallangan ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalarini, boshqa fan va texnika yutuqlarini, shuningdek intellektual mulk obyektlarini yangi yoki takomillashtirilgan pedagogik mahsulotlarni ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan pedagogik faoliyat tushuniladi.

Demak, amaliy pedagogik faoliyat tegishli qo‘shimcha tadqiqot va ishlanmalar bilan birga amalga oshirish jarayoni bo‘lib, bunda ta’lim jamiyatning iqtisodiy-huquqiy tuzilishi, iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek, mehnat bozorining hozirgi sharoitlari hamda ta’lim mahsulotlari va xizmatlariga mos kelishi darkor.

Bundan kelib chiqadiki, pedagogik innovatsiya innovatsion pedagogik faoliyat natijasi bo‘lib, uning ijtimoiy, iqtisodiy, boshqaruv, ekologik, sog‘liqni saqlash va boshqa jihatlarini o‘z ichiga olgan yangi ta’lim samaradorligini ta’minlaydi. Biroq har doim ham pedagogik tadqiqotlar natijalarini bevosita ta’lim amaliyotiga joriy etish mumkin emas. Aynan innovatsiyalargina ularni o‘zgartirishi va amaliyotga joriy etish mexanizmi hisoblanishi mumkin.

Ilm-fan va innovatsiyalar o‘rtasidagi mazmunli bog‘liqlik - innovatsion loyihalar asosida mavjud ta’lim amaliyotini takomillashtirish, modernizatsiya qilish yoki isloh qilish maqsadida maqsadli o‘zgartirishdir.

Innovatsion loyihalarni uch bosqichga amalga oshirish mumkin:

Birinchi bosqich – Innovatsiyani loyihalash, ya’ni uning natijasi sifatida model va dasturlar ishlab chiqiladi;

Ikkinchi bosqich - texnologik bosqich hisoblanib, bunda dasturni amalga oshiriladi va amaliyotga tatbiq etiladi;

Uchinchi bosqich – refleksiv bosqich hisoblanib, bunda innovatsion faoliyat baholanadi. Innovatsiyalar ta’limning turli jihatlarini o‘zgartirish va yangilashga qaratiladi. Jumladan:

1. ijtimoiy-pedagogik o‘zgarishlar;
2. umumiy ta’lim va kasbiy tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish;
3. ta’limning yangi mazmunini shakllantirish;
4. talabalarga ta’lim berish, tarbiyalash va rivojlantirishning yangi psixologik-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish;
5. yangi kommunikatsion-axborot texnologiyalari, ta’lim va fazoviy muhitni loyihalash va boshqalar.

Innovatsion ta’lim faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- tashkiliy shakllarning maksimal moslashuvchanligi va chiziqli bo‘lmasligini ta’minlash;
- bilimlarni yangilash jarayonlarini ta’lim tizimining barcha tarkibiy qismlariga kiritish;
- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim zahirasi sifatida inson iste’dodi, ijodkorligi va tashabbuskorligini rivojlantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy va ta’lim muhitidagi o‘zgarishlarni kuzatish asosida ta’lim texnologiyalarini doimiy ravishda yangilab borish;
- ikkita innovatsion sxema(birinchisi - innovatsiyalarni yaratish va rag‘batlantirish, ikkinchisi - ularni tanlash va ishlab chiqish)ning o‘zaro ta’sirini ta’minlash.

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, tugallangan psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalari innovatsion pedagogik faoliyat asosida yotadi va bu pedagogik innovatsiyalarning nazariy asosi hisoblanadi. Shu sababli ham pedagogika fani, ta’lim amaliyoti va pedagogik innovatsiyalarning integratsiyasi zarurdir.

Demak, ta’limdagi innovatsiyalar fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlovchi omil hisoblanib, bu fan yutuqlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bilan birga ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatning ushbu uchta o‘zaro bog‘liq turini farqlash uchun jadvalda ularning aniqlash xususiyatlari ko‘rsatilgan.

Ta’lim innovatsiyalari salohiyati mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish, pedagogik innovatsiyalar sifatini baholash, buning uchun zarur bo‘lgan mezonlarni ishlab

chiqish va ta’lim muassasalarini ekspertizadan o‘tkazishni tashkil etish muammosining dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda pedagogik innovatsiyalar muammosini tizimli hal qilish – pedagogik innovatsiyalar sifatini baholash tizimini ishlab chiqishni talab qiladi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan talabalarga faqatgina bilim berish emas, balki ularni xar tomonlama rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va ularni mustaqil, tanqidiy, innovatsion fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilish talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shakli innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’limdir.

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim - talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda, uni yangicha ijodiy, kreativ, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim turidir.

Talabalar innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondashishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [3, 83]. Texnologiya ta’limi o‘qituvchisi tomonidan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida innovatsion xarakterga ega turli interfaol metodlarning qo‘llanilishi talabalarni rivojlantirish, ijoiy qobiliyatlarini yanada o‘stirishga sabab bo‘ladi. Xususan: kreativ, izlanish, muammoli izlanish; innovatsion tadqiqotlarni olib borish; bahs-munozara, evristik suhbat; intervyu, kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg‘ulotlarini tashkil etishda texnologiya ta’limi o‘qituvchilari o‘quv axborotlarining talabalarning ehtiyojlari, qizikishlari, bilim, ko‘nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda, ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, innovatsion yondashishga, innovatsion faoliyatga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Texnologiya darslari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘qituvchilar tomonidan:

1. turli shakl, metod, vosita va innovatsion texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
2. o‘quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil, ixtiyoriy, innovatsion tanlash imkonini berish;
3. talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta’minlab berish;
4. mashg‘ulotlarning to‘g‘ri loyihalashtirilishiga e’tiborning qaratilishi nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi.

Eng muhimi texnologiya ta’limi o‘qituvchilari o‘quv mashg‘ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish, kompetesiyaviy yondashuv xarakteriga ega bo‘lishlariga e’tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala yoki muammo, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning innovatsion fikr bildirishlari (noto‘g‘ri bo‘lsa-da, fikr bilirishlari)ga imkon berish, nima bo‘lganda ham ularni mantikiy fikrlashga undash innovatsion yondashuv asosida yo‘natirilgan ta’limga xos muhim belgilardan xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Oripov. Tasviriy faoliyat metodikasi. T.: Ilm-ziyo. 2017 y.
2. N.Rostovsev. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. M.: 1980 y.
3. T.Soibov. N.Gilmanova. A.Slugin, N.Borodina. Chizmatasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik darsligi. T.: 2010 y.
4. S.Abdirasilov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T.: 2012 y.
5. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. T.: 2004 y.
6. V.Belinskiy. Tanlangan asarlar. 3-tom. M.: 1948 y.
7. I.Karimov. Hushyorlikka da’vat. T.: O‘zbekiston. 1999 y.
8. S.Abdirasilov, N.Tolipov. Rangtasvir. T.: Innovatsiya-ziyo. 2019 y.

“Universitet ovozi” gazetasi. G.: 9-son. 2019 y.

TASVIRIY SAN’AT – TASAVVUR VA IDROKNI SHAKLLANTIRISHDA BIRLAMCHI OMIL

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Hozirgi kunda milliy ma’naviyatimiz rivojini tasviriy san’at namunalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangidan-yangi yutuqlarni qo‘lga kiritayotgani, bu sohada ko‘plab yosh iste’dod egalari kirib kelayotganini, uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi [1:3]. Bu borada O‘zbekston Respublakasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Biz ta’lim va tarbya tizimining barcha bo‘g‘nlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomallashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” deb aytgan gaplarining negizida uzluksiz ta’limning yagona tizimini vujudga keltirish, ta’lim berish samaradorligini va yoshlarni mustaqil hayotga tayorlashni tubdan yaxshilashga yanada chuqurroq ahamiyat berish g‘oyalari yotadi.

Darhaqiqat bugungi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish uchun ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanish va pedagog kadrlarning imkoniyatlarini oshirishga katta talablar qo‘yilmoqda, bigungi kunda poydevor mustaxkam bo‘lgan yosh kadrlarni har tomonlama yetuk intellektual salohiyatli, ma’naviyatli, kuchli, zamon bilan hamnafas bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashda ta’lim tizimidagi muhim jarayon bo‘lib hisoblanadi. Bunda zamonaviy adabyotlarning o‘rni beqiyosdir [2:4]. Bosqichli ta’lim tizimida har bir fan bo‘yicha o‘qish jarayonini uzviylik va uzluksizlikka amal qilgan holda tashkil etish pedogoglar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi san’atdir. San’atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri – tasviriiy san’at hisoblanadi. Odatda real borliqni badiiy obrazlarda, mavjud predmetlarni tabiiy shaklini o‘ziga o‘xshatib umumlashtirib ifodalaydi hamda predmetlarning hajmi, o‘zaro fazoviy joylashishi va hokazolarda aks ettiradi [3:9]. Tasviriy san’atning nazariy asoslarini yaxshi bilishlik, tasvriy ishlarni savodxonligini oshirshga xizmat qiladi.

Tasviriy san’atning asoslarini yaratishda narsalar tuzilishini hisobga olish nihoyatda muhim bo‘lib, savodli oshlangan tasvir bo‘lishi mumkin emas. Ma’lumki, tasvirlangan barcha, jonli va jonsiz mavjudotlarni tizmlari (konstruksiya) bo‘ladi [4:48]. Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash o‘quvchilarda, nafaqat amaliy bilim va ko‘nikmalarni beribgina qolmay balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Realistik tasvirlash san’at, bo‘lajak pedogoglarda yosh rassomlarni borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratlarini rivojlantirishda ham beqiyosdir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, rasm chizishni o‘rganish o‘quvchilarda atrofdagi jismlarni realistik tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Rasm chizish asoslarini o‘rgansh, narsaning o‘ziga qarab, metodik o‘zchillikda tasvirlash prinsipiga asoslanadi.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining yetuk malakaga ega bo‘lishida, nafaqat amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi, balki tasvirlash san’ati sohasida nazariy tayyorgarligining puxtalgiga ham bog‘liq [5:10]. Rassom ish jarayonida barcha bo‘yoqlar farqini bir vaqtda ko‘rib, sezib turishi, ylarning och-to‘qlik munosabatlarini, ranglar farqi va ranglarning tiniqligini aniqlab olishi va u munosabatlarni matoda haqqqoniy nasvrlashni bilishi zarur [6:55]. Maktab tasviriy san’at bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan bilim, malakalarini ijodiy, faol, mustaqil va tashabbuskorlik asosida bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi.

O‘quvchilarga beriladigan tasviriy san’at bo‘yicha bilim malakalarini oson, qisqa, tushunnarli, ilmiy asosda bo‘lishini ta’minlashda didaktikani ko‘rgazmali o‘qitish - ta’lim berish texnologiyasida eng asosiy didaktik printsip sanaladi. Maktab tasviriy san’atining Davlat dasturi bo‘yicha o‘quv materiallarining hammasi ko‘rgazmali o‘qitishni talab qiladi. Chunki, – “Maktabda ko‘rgazmasiz o‘qitib bo‘lmaydigan yagona o‘quv fani bu tasviriy san’atdir” – deb doimo ta’kidlanishi ham bejiz emas. Shuning uchun maktab tasviriy san’atini o‘qitish – texnologiyasida ko‘rgazmalilik – oldin belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan didaktik printsipning eng asosiysi va eng samaralisi sanaladi.

Maktab tasviriy san’atni o‘qitish texnologiyasi va didaktikasi talabiga ko‘ra har bir dars – o‘quvchilarga berilayotgan bilim va malakalarini shu darsni o‘zida amaliyotida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lib, darsni asosiy qismida berilgan yangi bilim va ma’lumotlar asosida rasm chizish amaliyoti bajariladi. Bu fanni mazkur imkoniyati va shart – sharoitiga ko‘ra uning dars texnologiyasida ijodiy o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi. Yana tasviriy san’atini o‘qitishda g‘oyat ahamiyatga molik bo‘lgan didaktik printsip – o‘quvchilarning tasvirlash qobiliyati, bilimi, malakasiga mos holda o‘qitishga shart – sharoit va imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir.

Ilm-fan va san’atning umumiy qonunlaridan biri uzluksizlikda mujassam. Ilmfan va san’at uchun bu umumiy xususiyat, bir tomondan, ijtimoiy-tarixiy amaliyotning o‘ziga xos namoyon bo‘lishi, boshqa tomondan, ma’naviy ishlab chiqarishning har bir sohasiga xos bo‘lgan ichki sabablarning natijasidir. Masalan, ko‘plab rassomlarning badiiy asarlarida, avvalambor, axloqiy va axloqiy masalalar faol ravishda aniqlanadi, buzilmas ma’naviy qadriyatlarni izlaydi. San’at turlari o‘zgarib bormoqda - mazmunli izlanish xuddi shu yo‘nalishda davom etmoqda. Avlodlarning davomiyligi hozirgi bosqich, ularning haqiqiy chuqur aloqasi. Ilm-fan va san’atning rivojlanishidagi uzluksizlik ba’zi ilmiy kashfiyotlar bilan nafaqat ichki taraqqiyotda, balki tasviriy san’atning ma’lum bir turining paydo bo‘lishi yoki gullashi bilan ilmiy izlanish jarayonlari o‘rtasida izchil bog‘liqlik mavjudligida ham namoyon bo‘ladi.

"San’at bilimni talab qiladi", deb ta’kidlagan nemis yozuvchisi Bertold Brext [6]. Ilmiy kashfiyotlar va yutuqlar rasm janrlari, badiiy ommaviy axborot vositalari uchun zarur materiallar sifatini oshirish grafikada texnik metodlarni takomillashtirishga olib keldi. Hozirgi bosqichda bu raqamli texnologiyalar jamiyatda katta mashhurlikka ega bo‘lib, tasviriy san’atga ham ta’sir ko‘rsatdi. Artpovera, art brut, yer osti, anaxronizm, aksionizm, giperrealizm, kontseptualizm va boshqalar kabi yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Eramizning madaniyati o‘zining tasviriy tilini shakllantiradi va o‘zi yaralgan madaniyat haqida tahlil qilish, hukm chiqarishga imkon beradi

Shunday qilib, biz tasviriy san’at konstruktiv faoliyat turi deb xulosa qilishimiz mumkin. Vizual san’atda, masalan, rasmda konstruktiv faoliyat hayotning o‘zi yoki ushbu obrazning hayotdan, odamlar haqidagi turli xil fikrlardan kelib chiqqan elementlari bilan birlashadi. Tasviriy san’at obyektiv faktlar va qonunlar bilan belgilanmaydi. Biroq, tasviriy san’atning barcha janrlari "ilmiy bilimlar" ta’rifiga to‘g‘ri kelmaydi, chunki katta, ijtimoiy ahamiyatga ega mavzular shunchaki aniq voqealarni tasvirlash orqali emas, balki hayot atmosferasini o‘zida mujassam etish va bizning kunlarimiz odamining shaxsiyatini chuqur ochib berish orqali ochiladi. Zamonaviy san’at rivojlanishning yangi usullarini izlaydi, barqaror hayotiy qadriyatlarni o‘rnatishga intiladi. San’at axloqning ifodasi bo‘lgan taqdirdagina qadrlidir. Ushbu aloqa bugungi kunda sezilarli bo‘lib qolmoqda. San’at u yoki bu yetakchi g‘oyalar, tendentsiyalar, mavhum dunyoqarash ta’sirida emas, balki o‘z davrining madaniyati ta’siri ostida rivojlanadi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Saydaliyev. Chizma giometriya va muhandislik grafikasi. T.: 2017 y.
2. S.Abdurasulov. Tasviriy san’at o‘qitish metodlari. T.: 2012 y.
3. X.Turayev, N.G‘ulomova, A.To‘raqulov. Chizmachilik. “Surxon-Nashr” nashriyoti 2019 y.
4. R.Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. T.: 2008 y.
5. B.Boymetov. Qalamtasvir. T.: “Ilm Ziyo”, 2007 y.
6. N.Isaxo‘jayeva. Rangtasvir, kompozitsiya (notyurmort). T.:2014 y.
7. Brecht Berthold [Brekht Bertol’d]. URL: http://www.foxdesign.ru/aphorism/author/a_brecht.html

TASVIRIY SAN’ATNING BARCHA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Kayumov Erkin Kazakbayevich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Yurtimizda fan, texnika, madaniyat va ma’naviyat shiddatli rivojlanish davriga kirib bormoqda, bu yosh avlodni tarbiyalaydigan tarbiya va ta’lim muassasalari va xalq maorifi xodimlari oldiga ulkan vazifalar qo‘ymoqda. Bu vazifalar, maktab va oliygohlar faoliyatini takomillashtirish, mamlakatimiz yosh avlodlariga zamon talabi darajasida bilim va malakalar berish jarayonida amalga oshiriladi. Maktab va oliygohlar faoliyatini takomillashtirish va unda beriladigan bilim va malakalar samaradorligini oshirishning asosiy vositasi va shartli o‘quv fanlarini o‘rganishda Tasviriy san’atni fanlar bilan bog‘lab o‘rganishimiz mumkin [1:147]. Fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yillar avval, - “Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o‘qish-yozish kabi bilsalar, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi” deb takidlagan [2:12]. Jahon

realistik tasviriy san’ati – jahon xalqlarining o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda etuvchi, shuningdek, tabiat va jamiyatni tasvirlovchi haqiqiy ko‘zgudir. Biz unda o‘tmishni, bugunni va kelajakni ko‘ramiz. Shu boisdan ham realistik tasviriy san’at ustalari o‘tmish tarixni ham, materiya va taraqqiyotni ham matematika, tabiat, geografiya va biologiyani ham yaxshi bilishlari lozim [1:7]. Mashxur rassom Mikelandjelo Buonarottining quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin. “Rasm, boshqacha aytganda chiziqlar san’ati – bu o‘sha rassomning ham haykaltaroshning ham arxitektorning ham oliy nuqtasidir: rasm barcha turdagi rassomchilikning manbayi, yuragi va barcha fanlarning ildizi hisoblanadi. Kimki shuncha narsaga erishgan ekan rasm bilan ishlay olar ekan, men aytamanki, u qimmatli hazinaga egadir” [3:5]. Tarix shohidkim, jahonga mashxur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Shunga ko‘ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleyev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug‘ullanib kelganlar [4:12]. Tasviriy san’at va uning fanlar bilan bog‘liqligini tarix fanidan boshlaymiz va tasviriy san’atning qisqacha tarixini o‘rganish davomida uzviy bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Tasviriy san’at san’atning eng qadimiy va keng tarqalgan turi hisoblanadi. O‘zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san’atning rangtasvir, haykaltaroshlik turlari va me’morchilik nihoyatda rivojlangan bo‘lib, ularning namunalari Varaxsha,Tuproq qal’a, Bolalik tepa, Ayirtom, Dalvarzin tepa, Fayz tepa, Qo‘yqirilgan qal’a, Ajina tepa, Teshik qal’a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1-asrlarda yaratilgan bo‘lib ularning Yoshi 5-6 ming yilga to‘g‘ri keladi [5:22]. Bu ma’lumotdan tasviriy san’at juda qadimda paydo bo‘lganligi va O‘zbekistonda ham keng tarqalgani, ularning qaysi davrga tegishliligi san’at asarlarining yaratilganligiga necha yil bo‘lganligini bilish mumkin. Tarixiy asarlari yordamida o‘sha davrdagi muhit insonlarning yashash tarzi binolari, kiyinish madaniyati, ma’naviyati an’analari o‘rganiladi. Tasviriy san’atning muhum xususiyatlaridan biri insonlarga yangi bilim, tasavvur va tushunchalar berib, ma’naviy boyituvchi, ijodiy yuksalishga boshlovchi qudratli omil bo‘lib xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, V.G.Belinskiy ta’rificha, “San’at – obrazli tafakkurdir” [6:67]. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Hozirgi vaqtda eng muhum, eng dolzarb vazifamiz – jamiyat a’zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, uning qalbida milliy g‘oya, milliy mafkura o‘z vataniga mehr-sadoqat tuyg‘usini uyg‘otish, o‘zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat” deb takidlagan [7:16]. Bundan ko‘rinadiki Milliy istiqlol g‘oyasi faniga ham uzviy bog‘liq buni kompozitsiya darsida Navro‘z bayramining rasmini chizishda ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilar rasm chizish davomida milliy istiqlol fanidan olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi va yanada boyitadi. Kimda kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to‘la ishonch hosil qila olmaydi [8:3]. Tasviriy san’atning asosiy qismi amaliy mashg‘ulot tarzida bo‘ladi. Natyurmort janrida mevali natyurmort mavzusini oladigan bo‘lsa o‘uvchilar mavzuni qo‘yilmaga qarab chizadi, qo‘yilmada kuzgi mevalardan foydalanish mumkin, bunda olma, anor, uzum, behi, nok savat ichida va yonida turli tusdagi burglar hamda milliy so‘zanadan foydalaniladi. Olma, anor, uzum, behi, nok va barglarni chizish orqali ularning tuzilishi materialligini o‘rganishadi va botanika fanidan olgan biliomlarini yanada mustahkamlaydi. Botanika darsida bu mevalarning rangiga, tusiga dars davomida berilayotgan ma’lumotlarga qiziqishi ortadi. Qo‘yilmadagi bejirim va nafis bo‘lgan so‘zana va savat orqali mehnat darsiga bog‘lanadi. Agar qo‘yilmada o‘quvchilarning o‘z qo‘l mehnati orqali tikilgan so‘zana va yasalgan savatdan foydalanilsa milliy an’analar davomiyligi o‘quvchining o‘rgangan hunari doimo kerak bo‘lishini anglaydi va ruhiy quvvat oladi. Mehnat darsida barcha mavzudagi qilinadigan qo‘l mehnatidagi ishlarga go‘zallik bag‘ishlaydi, har bir qilayotgan ishiga ishiga ziyraklik va sinchkovlik bilan amalga oshiradi. Ba’zi vaqtlarda geometrik shakllar kub, prizma, ko‘p yoqli prizma, slindir, shar, ko‘nus shu kabi predmet shakllardan foydalangan holda natyurmort chiziladi. Bu geometrik shakllar buyumlarning asosi hisoblanadi. Geometrik shakllar orqali chizmachilik va matematika fanlariga bog‘lanadi. Matematika, chizmachilik fani orqali geometrik shakllarni o‘lchami, shakllining aniqligi o‘rganilsa, tasviriy san’atda esa ularning bir-biriga bog‘liqligi ularning birikishi natijasini va turli yangi shakllar hosil bo‘lishini va ko‘rish qobiliyatini oshirishini kuzatishimiz mumkin. Bu holatga 2-jahon urushi qahramonlaridan birini misol qilishimiz mumkin. 62 nafar fashist samolyotini urub tushurgan o‘zi biror martta ham yaralanmagan uchuvchi Ivanov Nikitovich Kojedub havo jangi texnikasida unga rasm chizish malakalari ko‘maklashganini takidlagan.

Rasm chizish tufayli unda snaypercha ko‘z o‘tkirligi, idrok tezligi va reaksiya tezligi rivojlangan. Axir rassom harakatlanayotgan predmetni nafaqat tez ilg‘aydi, balki uni tez chizadi ham. Kojedup dushmanlaridan reaksiya tezligi va aniqligida ustun va shu sababli g‘alaba qilar edi [4:14]. Shvetsariya topshiriladigan nobel medalining teskari tarafida Inventas vitam iuvat excoluisse per artes yozuvi o‘yilgan bu lotincha jumlaning ma’nosi “Ixtirolar hayotni yaxshiroq, san’at esa go‘zalroq qiladi” degan jumlalar mavjud [9:8]. Tasviriy san’atda turli fizik jisimlar rasmi chiziladi. Fizika fanidan habari bo‘lgan o‘quvchi bunday holatda qiynalmaydi va tasviriy san’atdan olgan bilimlar orqali o‘zlari ixtiro qilgan jisimlarni amalga oshiradigan ishiga qarab uning mohiyatini ochib beruvchi tasvirlar bilan bezatishi mumkin. Bu fanga yaqin bo‘lgan kimyo faniga to‘xtaladigan bo‘lsak tasviriy san’at asarlarining chidamli uzoq vaqt saqlanib qolishiga kimyoviy birikmalar kerak bo‘ladi. Tasviriy san’atda foydalaniladigan ko‘plab o‘quv-qurollar ham aynan kimyoviy birikmalar asosida tayyorlanadi. Bunga ko‘mir qalamining yasalishini misol qilishimiz mumkin. Tokning qurigan shoxchasini olamiz temir idishga qum to‘ldiriladi va ichiga shoxchalarni solib chiqib ustini loy bilan yopib ustidan teshikcha ochiladi. Idish tagiga olov yoqiladi, qum qizdirilib tayoqchalar ko‘mirga aylanadi so‘ng tayyor bo‘lgan ko‘mir tayoqchaning ustiga qog‘oz o‘rab ishlatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Oripov. Tasviriy faoliyat metodikasi. T.: Ilm-ziyo. 2017 y.
2. N.Rostovsev. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. M.: 1980 y.
3. T.Soibov. N.Gilmanova. A.Slugin, N.Borodina. Chizmatasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik darsligi. T.: 2010 y.
4. S.Abdirasilov. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T.: 2012 y.
5. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. T.: 2004 y.
6. V.Belinskiy. Tanlangan asarlar. 3-tom. M.: 1948 y.
7. I.Karimov. Hushyorlikka da’vat. T.: O‘zbekiston. 1999 y.
8. S.Abdirasilov, N.Tolipov. Rangtasvir. T.: Innovatsiya-ziyo. 2019 y.
9. “Universitet ovozi” gazetasi. G.: 9-son. 2019 y.

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QUVCHILAR KASBIY IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Mirzakulov Islomjon Xoljigitovich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Integratsiyalashuv jarayonlari fan va texnikani yuqori sur’atlarda rivojlanishi uchun keng yo‘l ochib berdi. Bu jarayonlarga hamohang tarzda jamiyatning turli sohalarida, ayniqsa, ta’lim tizimida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, kommunikatsion vositalaridan keng foydalanish, hamda yoshlarning intellektual salohiyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ma’lum bir maqsad belgilab olinadi va bular hozirgi talab darajasida amalga oshiriladi. Demak, ta’lim-tarbiya oldida loyihalash, ma’lum pedagogik tizimning amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi pedagogik texnologiyadir. Shu nuqtai nazardan qaralganda “shaxsni shakllantirish” ham ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ma’lumki, bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur, mantiqiy xotira va ijodiy tasavvurni muntazam rivojlantirib borishda kasbiy ijodiy faoliyatini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi lozim.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o‘qituvchi juda muhim o‘rin egallaydi. Chunki u ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sub’ekt sifatida o‘quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kasbiy ijodiy faoliyatini boshqarish va rivojlantirish juda ko‘p omillarga bog‘liq. Shunday muhim omillardan biri bu o‘z predmetini qiziqarli qilib etkaza olishdir. Zero, qiziqish barcha psixik jarayonlar (idrok, diqqat, xotira, tafakkur, iroda)ning kechishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, innovatsion faoliyatini takomillashtirish jarayonida qiziqishlar shaxsning boshqa ichki tuzilmalari bilan murakkab o‘zaro aloqaga kirishadi. Shunday ichki tuzilmalar sirasiga o‘quvchining nazariy pozitsiyasi hamda kasbiy ijodiy faoliyatining o‘quvchi uchun shaxsiy ahamiyati

kabilarni kiritish mumkin. Mahoratli o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida ijobiy qiziqishlarini shakllantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak bo‘ladi:

- ✓ O‘quv predmetiga ijobiy munosabat o‘quvchi faol bo‘lganda, yangi bilimlarni mustaqil izlash va kashf qilish, muammoli topshiriqlarni hal etish jarayoniga jalb etilganda rivojlantirilishi mumkin;
- ✓ o‘quv fani ham, xuddi boshqa fan turlari singari, xilma-xil bo‘lsagina qiziqarli bo‘ladi;
- ✓ o‘qitilayotgan o‘quv predmetiga qiziqish paydo bo‘lishi uchun yaxlit holda va alohida olingan bo‘limlarining kerakligi, muhimligi va maqsadliligini tushunish alohida ahamiyatga ega;
- ✓ yangi o‘quv materiali o‘tilgan materiallar bilan qancha ko‘proq aloqador bo‘lsa, o‘quvchi uchun u shunchalik qiziqarli bo‘ladi;
- ✓ o‘ta engil yoki o‘ta murakkab o‘quv materiali o‘quvchida hech qanday qiziqish paydo qilmaydi. Ta’lim etarli darajada murakkab, ammo o‘quvchining kuchi etadigan bo‘lishi kerak;
- ✓ o‘quvchining ishi qanchalik tez-tez tekshirilib, baholanib borilsa, uning uchun ishlash shunchalik qiziqarli bo‘ladi;
- ✓ o‘quv materialining yorqinligi, hissiyligi, o‘qituvchining jonli va hissiy yorqin muloqoti o‘quvchiga, uning o‘quv predmetiga nisbatan munosabatiga juda katta kuch bilan ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi faoliyati obyektining ichki tarkibi va o‘ziga xosligi har bir alohida olingan holatlarda o‘qituvchi ijodkorligining xususiyatini belgilaydi. Ijodkor shaxs sifatlari haqida fikr yuritgan E.G.Romitso‘na ularning ijodiy faoliyat jarayonida yuzaga kelishini ta’kidlaydi, shuningdek, har bir ijodiy bosqich insondan muhim shaxsiy sifatlarni namoyon etishni taqozo etadi. Agar o‘quvchilar jamoasi, guruhi, alohida o‘quvchi bilan ishlashda bir xil ta’sir metodlaridan foydalanilsa, ta’lim jarayonida nafaqat ijodkorlik, balki ijodga o‘xshash narsa ham yo‘qotiladi. O‘qituvchi har doim o‘quvchisining rivojlanish darajasi, uning xotirasi, diqqati, irodasi, maqsadga yo‘nalganligi ustidan nazorat qilib boradi. Bunda nimaga asoslanadi? O‘qituvchi o‘z o‘quvchisi – Inson haqida shoshib yomon fikrga borishi yoki uni ayblashi mumkin emas. Uning bosh vazifasi – o‘quvchini barcha ko‘rinishlarida o‘rganish va tushunishga harakat qilishdir. O‘qituvchilik kasbi o‘ylamasdan ish ko‘rishni kechirmaydi. O‘quvchi qalbiga chuqur kirib borish, uning ruhiyati va xarakterini anglab olish mahoratli o‘qituvchiga xos bo‘lgan xususiyatdir. Darsda o‘quvchi o‘quv predmeti va tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni faol anglab boradi, shuningdek, o‘quvchida o‘qituvchiga nisbatan muayyan munosabat ham shakllanadi. Ba’zi voqealar uni tashvishlantirsa, ba’zilariga nisbatan u loqayd bo‘ladi, nimadir unga yoqsa, nimadirga nisbatan befarq bo‘ladi, ba’zi o‘qituvchilarni yaxshi ko‘rsa, ba’zilariga chidashga majbur. Psixologlar ijobiy his-tuyg‘ularni faoliyatga yo‘llovchi va ruhlantiruvchi buyuk kuch deb hisoblaydilar.

Ta’limning innovatsion metodlari o‘quvchilarning ulkan ta’limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o‘quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi. Ta’limning interfaol metodlari ta’limda yangiliklar sirasiga kiradi. K.Angelevskiy fikricha, “… barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko‘p yangilik kiritishga intilmoqda… Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy… yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir… Novatorlikka qiziqish uyg‘otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim”. Darsda zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr-mulohazalar yuritish, munosabat bildirish, ko‘nikmasini shakllantirish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘zlari faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, kichik guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so‘zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali quyilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda shaxsiy qobiliyatlar va sifatlarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va faol usullarni yaratish hamda ta’lim jarayoniga tadbiq etish, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ilgari surilgan asosiy g‘oya bo‘lib, uning asosini ta’lim sohasini o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos bo‘lish, ilm-fan, texnika va texnologiyalar jadal rivojlanishi yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan milliy texnologiyasini yaratish tashkil etadi. Aytish joizki, ta’lim texnologiya, agar u hududga moslashtirilgan bo‘lsa, boshqa barcha ta’lim (an’anaviy, interfaol va noan’anaviy) usullardan yuqori samaradorligi bilan ajralib, o‘quv

jarayonini sifatini pedagogning mahoratidan ozod qiladi va ta’lim-tarbiya jarayonini faqat yaxshi va a’lo darajada bo‘lishini kafolatlashi bilan birga, uni qayta tiklash imkonini beradi.

FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

5. N.Saydaxmedov, A.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. T.: 1999 y.
6. G.Hasanova, D.Haydarova. Xalq ta’limi jurnali 3-son. T.: 2014 y.
7. А.К.Маркова, Т.А.Матис, А.Б.Орлов. Формирование мотивации учения. М.: 1990 г.
8. Педагогические технологии: понятия, принципў и методы внедрения: Сб. материалов из Интернета. Сост. С.Махкамова. Т.: 2003 г.
9. N.Jumaboyev., Ch.G‘aniyeva. Kelajak avlod tarbiyasida tasviriy san’atning roli. “O‘zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari” mavzusidagi ilmiy masofaviy onlayn konferentsiyasi 27-son 14-qism (tasviriy san’at) 30.04.2021 y.

MEHNAT RESURSLARI VA MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

Xamidov Dilshod Olimjon o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, San’atshunoslik fakulteti, Amaliy san’at va dizayn kafedrasi o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA: Viloyatda tegishli tartibda mehnat resurslarini ishlab chiqish jalb qilish bozor iqtisodiyotini yanada jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlari qulay birjalar aksiyalar tovar hajmini kengaytirish bilan amalga oshirishimiz zarur.

KALIT SO‘ZLAR: deregulyatsiya,passiv xizmatlar, mehnat birja, aksiya, dizayn mehnati, empirik dalillar, fiskal iqtisodiyot, davlat xarajatlari, foiz stavka, yillik iqtisodiyot,konseptual birlashma.

ASOSIY QISM: Mehnat bozorini yanada rivojlantirish ko‘plab chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijalar ko‘plab mamlakatlarda "faol" dasturlarga ehtiyotkorlik bilan harakat qilishdan dalolat beradi. Shu bilan birga vaqt, faol mehnat bozori dasturlari bilan tajriba yanada ehtiyotkor dizayn muhimligini va ko‘p ko‘rsatdi qat’iy qisqa va uzoq muddatli baholashga ko‘proq e’tibor. Ba’zi nisbatan arzon siyosatlar (ayniqsa, yordam bilan va ish qidirishni faol rag‘batlantirish) sezilarli daromad olish uchun eng tejamkor usullardan biri ekanligi aniqlandi. Ishsizlar soni va diqqat bilan yo‘naltirilganligi ham ta’kidlandi. Yana bir keng tarqalgan ustuvorlik – bu faol va passiv mehnat bozori dasturlarini birlashtirishni davom ettirish va "passiv" xizmatlarni taqdim etishni yaxshilash.Mehnat bozorida faol ishtirok etishni rag‘batlantirish uchun ishsizlik va ijtimoiy nafaqalar. Shunday qilib, kichik siljish ma’lumotlarda qayd etilgan "faol" dasturlarga nisbatan, ma’lumotlarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni to‘liq qamrab olmagan bo‘lishi mumkin.

Hukumatlar mehnat bozorida bir necha yo‘llar bilan muhim rol o‘ynaydi: (a) mehnat bozori institutlari orqali (masalan, eng kam ish haqi va bandlikni himoya qilish qonunchiligi); b) jami fiskal siyosat (davlat xarajatlari va soliqlarning o‘zgarishi); (c) muayyan mehnat bozori siyosati va ijtimoiy himoya dasturlari orqali.

Mehnat bozori institutlari: An’anaviy donolik shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozorini tartibga solish mamlakatning barqarorligini oshiradi - mehnatni sozlash xarajatlarini kamaytirish va firmalarga talab o‘zgarishlari va kutilmagan zarbalarga moslashish uchun o‘z mehnat sarflarini osongina moslashtirish imkonini beradi, bu esa yuqori qayta taqsimlanish va mahsuldorlikning o‘sishiga olib keladi.2 Shunday qilib, eng kam ish haqi, jamoaviy muzokaralar/ish haqi shartnomalarini ma’muriy uzaytirish va bandlikni himoya qilish bo‘yicha qat’iy qonunchilik mehnat bozorining optimal ishlashiga to‘sqinlik qiladigan ishqalanish nuqtalari sifatida qaraladi va natijada ishsizlik manbai hisoblanadi.

Iqtisodiy siyosatning an’anaviy ko‘rinishi hozirgi kunga qadar firmalarning raqobatbardoshligini oshirish va ishsizlik darajasini pasaytirish ikki tomonlama maqsad bilan mehnat bozorini tartibga solishni rag‘batlantiradi. Biroq, Brancaccio va boshqalar tomonidan o‘rganilgan empirik dalillar tadqiqotning faqat uchdan bir qismi deregulyatsiya bandlikning o‘sishiga yordam beradi va ishsizlikni

kamaytiradi, deb xabar beradi. Buning o‘rniga, empirik dalillarning yarmidan ko‘pi bandlikni qat’iy himoya qilish bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirish bilan bog‘liqligini aniqlaydi.

Bundan tashqari, mehnat bozorini tartibga solish iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashga va ko‘proq ish o‘rinlari yaratishga olib keladigan adabiyotlarning aksariyati Jahon bankining "Biznes yuritish" ko‘rsatkichlarining bir qismi sifatida ishlab chiqilgan Ish bilan ta’minlangan ishchilar indeksiga asoslanadi. XMTda olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlar Ishchilarni ish bilan ta’minlash indeksiga oid jiddiy kontseptual va uslubiy muammolar mavjudligini aniqladi, bu esa noto‘g‘ri siyosiy xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin. Nihoyat, bandlikka miqdoriy ta’sirdan tashqari, asosiy institutsional o‘zgarishlar mehnat bozorining parchalanishiga olib keldi, bu nafaqat mavjud tengsizliklarga, balki innovatsion salohiyatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadigan sifatsiz ish o‘rinlarining kengayishiga olib keldi.

Fiskal siyosat ixtiyoriy kanallar va/yoki avtomatik fiskal stabilizatorlar orqali yalpi talab, ishlab chiqarish va (pirovard natijada) bandlikka umumiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin: Ikkinchisining asosiy afzalligi shundaki, ular hukumatning ixtiyoriy aralashuvini talab qilmaydi va shuning uchun ularga bo‘ysunmaydi. amalga oshirishdagi kechikishlar. Masalan, ishlab chiqarish kontraktlari va ishsizlik ortganda, ishsizlik nafaqalari fiskal organlarning aralashuvisiz iste’molni (ya’ni daromadlar o‘zgarishini) yumshatish orqali yalpi talabning avtomatik stabilizatori sifatida ishlaydi.

Boshqa tomondan, hukumatlar o‘rta va uzoq muddatli iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun ixtiyoriy fiskal siyosatdan (masalan, soliqlar yoki davlat xarajatlaridagi o‘zgarishlar) foydalanadilar. Iqtisodiy fiskal siyosatning iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish darajasi fiskal multiplikator hajmiga bog‘liq. Tovarlar va xizmatlarga davlat xarajatlarining oshishi ortib borayotgan talabni qondirish uchun firmalarning kapital va mehnat resurslariga bo‘lgan talabini rag‘batlantiradi, shu bilan ishlab chiqarish va bandlikni kengaytiradi. Bu, o‘z navbatida, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshiradi, ichki va tashqi iste’molni oshiradi. Ikkala holatda ham yuqori pul talabi foiz stavkalariga bosim o‘tkazib, investitsiyalarni (hech bo‘lmaganda qisman) siqib chiqaradi. Bundan tashqari, uy xo‘jaliklari qo‘shimcha xarajatlarning o‘rnini qoplash uchun kelajakdagi soliqlarning oshishini kutsalar, shaxsiy iste’mol kamayadi (ya’ni ehtiyotkor jamg‘armalar ko‘payadi), bu esa fiskal multiplikator hajmini yanada qisqartiradi.

Fiskal siyosatning samaradorligi odatda fiskal multiplikatorlarni baholash orqali baholanadi va quyidagi savollarni qo‘yadi: Davlat xarajatlarining 1 foizga oshishiga (yoki soliqlarning 1 foizga kamayishi) javoban mahsulot ishlab chiqarish qanchaga oshadi? Fiskal multiplikatorlar hajmini qanday omillar shakllantiradi? Biroq, bu doirada, bandlik faqat chiqish javobidan kelib chiqadigan "yon ta’sir" dir. Yana bir tadqiqot oqimi turli xil mehnat bozori institutlari va bandlikni himoya qilish qonunchiligi, UBlar, eng kam ish haqi va mahsulot bozorini tartibga solish sohasidagi tarkibiy islohotlarning ta’sirini, shuningdek, ularning iqtisodiy zarbalar bilan to‘ldirilishini o‘rganadi. Ushbu tadqiqotlarning markaziy gipotezasi mehnat institutlari bandlik va samaradorlikning o‘sishiga to‘sqinlik qiluvchi samarasizlikka olib keladi. Eng so‘nggi dalillar impulslarga javob berish funktsiyalariga (ya’ni, mahalliy prognozlarga) asoslangan bo‘lib, ular quyidagi savollarga javob beradi: UBlarning qisqarishi (shok) yoki ALMPga davlat xarajatlarining 1 foizga oshishi - ishsizlikka ta’sir qiladimi va agar shunday bo‘lsa? , effektlar qanchalik tez amalga oshadi? Ta’sirning hajmi biznes tsikli shartlariga va pul-kredit siyosati rejimiga bog‘liqmi? Biroq, ular muayyan siyosatlarning ta’siri haqida sukut saqlaydilar, bu esa, o‘z navbatida, muayyan siyosatlardagi o‘zgarishlarga mos keladigan mehnat bozorining asosiy natijalari - ishsizlik, bandlik, ish haqi yoki ishsizlik oqimidagi o‘zgarishlarni tushuntirishga harakat qiladigan keyingi tadqiqot oqimi tomonidan ko‘rib chiqiladi. (masalan, ta’lim, bandlik subsidiyalari, nogironlik bo‘yicha nafaqalar, oila siyosati, UB) va ularni to‘ldiruvchi narsalar. Biz asosan munosabatlarning belgilari va ahamiyatini sharhlaymiz, chunki koeffitsientlar kattaligi metodologiya va foydalanilgan ko‘rsatkichlardagi farqlar tufayli tadqiqotlar bo‘yicha solishtirish shart emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabova, M. (2021). MAMLAKATIMIZDA MEHNAT RESURSLARI VA MEHNAT SALOHIYATI KO ‘RSATKICHLARINI BAHOLASH SAMARADORLIGI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

2. Abdug‘aniyevich, A. X. (2023). FARG ‘ONA VILOYATI NORASMIY MEHNAT BOZORLARI SHAKLLANISHINING GEOGRAFIK OMILLARI. World of Science, 6(4), 574-580.
3. Dushaboevich, X. B., & Jumakulovna, B. D. (2022). BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA MEHNAT RESURSLARI BANDLIGINING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI TAHLILI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 146-152.
4. Jo‘rayev, M. (2022). Professional ta’lim jarayonida fanlararo uzvilik va uzliksizlikni ta’minlash o ‘quvchilari kasbiy tayyorgarligining muhim omili sifatida. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 1(29), 43-46.
5. Nazarov, R. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MEHNAT MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Solution of social problems in management and economy, 1(4), 118-121.
6. Шодиевич, Ш. Ҳ., Эрматов, Н. Ж., Расулова, М. Р., Шодиев, Ж. Х., & Хожаназарова, С. Ж. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY, 1(4), 67-75.
7. Нозимов, Э. А., & Шодиев, Ж. (2023). ОПТИМИЗАЦИЯ СТРАХОВАНИЯ ЗДОРОВЬЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(2), 1-4.
8. Shodievich, S. H., Roziqovna, R. M., & Hamzaevich, S. J. (2023). BUGUNGI KUN KITOBLARI QANDAY BO ‘LISHI KERAK. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY, 1(1), 19-24.
9. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O ‘QUV YURTLARIDA MASHG ‘ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O ‘RNI. PEDAGOGS jurnali, 25(1), 52-55.
10. Шодиев, Ж. Х., & Алиева, С. С. (2023). Источники финансирования инвестиционной деятельности со стороны государства. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(2), 294-297.

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI AXBOROT-KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O‘QITISH

Bo‘riboyeva Dilraboxon Norboy qizi
Guliston davlat universiteti, Tayanch doktarant

Annotatsiya: Maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Jumladan, ta’lim jarayonida ta’lim samaradorligini oshirish vositasi sifatida AKT imkoniyatlari tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), kompyuter texnologiyalari, o‘quv jarayoni, bilimlarni tizimlashtirish**.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” deb nomlangan №PQ-4699 qarori qabul qilindi. Bu xujjatda davlatimiz korxonalarida va davlat xizmatlarida raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish, IT-soxasida mutaxasislar tayyorlash xamda IT-tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning dolzarb masalalari ko‘lami belgilab berildi.

Muhandislik grafikasi fanlarida axborot-ta’lim muhitining tuzilishiga hissa qo‘shgan olimlar S.S.Saydaliyev, A.K.Xamraqulov, E.I.Ro‘ziyev, Sh.D.Dilshodbekov, A.B.Tajibayev, B.M.Surobov va boshqalarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. Hozirgi kunda hayotimizning har qaysi jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalarni ko‘rishimiz mumkin. Aynan shu axborot texnologiyalari zamonaviy talim rivojiga juda katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarining odamlar hayotidagi o‘rni sezilarli darajada oshdi. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari zamonaviy jamiyat hayotiga juda tez suratlarda kirib borishi bilan zamonaviy jamiyat axborotlashtirish deb ataladigan umumiy tarixiy jarayonga qo‘yildi. Ushbu

jarayon har qanday fuqoroning axborot manbalaridan foydalanishini, axborot texnologiyalarining ilmiy, ishlab chiqarish, jamoat sohalariga kirib borishini va yuqori darajadagi axborot xizmatini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu axborotni to‘plash, ishlov berish, saqlash ,tarqatishva istemolchilar manfaatlariga muvofiq foydalanish maqsadlari bilan birlashtirilgan usullar, jarayonlar va dasturiy-texnik vositalar tizimidir. Axborot texnologiyalarining asosiy talimiy axamiyati shundaki, ular o‘qituvchidan ham, talabadan ham cheksiz potensial imkoniyatlarga ega bo‘lgan juda yorqin interfaol o‘quv muhitini yaratishga imkon beradi. Ananaviy texnik o‘quv vositalaridan farqli o‘laroq, axborot texnologiyalari nafaqat talabani juda ko‘p malumotga ega bo‘lishiga imkon beradi, balki talabalarning intellektual, ijodiy qobilyatlarini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish qobiliyatlarini va turli xil malumot manbalari bilan ishllashni rivojlantirish imkonini beradi. Ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashda uni yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanish muhum rol o‘ynaydi. Axborot texnologiyalariga, agar ular o‘qitishning boshqa usullari bilan taqqoslanganda, o‘quv jarayonining yuqori darajasini taminlasagina murojaat qilish kerak. Kompyuter ko‘rgazmali qurollarning katta qismini almashtirishga qodir.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish yani bugungi kunda kompyuterlar shunday dasturlar asosida ishlaydiki, foydalanuvchilar uchun bu juda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Microsoft kompaniyasining dasturiy mahsulotlari bo‘lmish Windows va u asosida ishlovchi Word, Exsel, Power Point, Visual Basic, Front Page, Flash, Delfi, Pascal, Asses, AutoCAD, Corldraf, 3D MAX va Revit dasturlar talabalar uchun “Muhandislik grafikasi” fanlarini o‘qitish jarayonida vosita sifatida xizmat qiladi va mustaqil o‘rganish jarayonida ijodkorlik qobilyatlarini shakillanishida didaktik materiallar tayyorlash amaliy mashg‘ulot ishlari, virtual stendlar, prezentasiyalar, ta’lim beruvchi dasturlar, testlar, elektron o‘quv qo‘llanmalarning barchasini raqamliy texnologik vositalar yordamida o‘rganish kengaytirish saqlash uzatish talabalarda juda katta imkonyatlar yaratadi. Zamonaviy AutoCAD (Auto Computer-Aided Design-kompyuter yordamida avtomatik loyihalash) tizimi interfeysi kompyuterning eng zamonaviy vositalari va texnologiyalarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaratilganligi bois, AutoCAD dasturi chizma va sxemalarni, loyihalash masalalarini yuqori sifatda bajarilishini kafolatlaydi.

Shuningdek, AutoCAD dasturi quyidagi asosiy afzalliklarga ega:

1. Aniqlik. Agar dasturdan oqilona foydalanilsa, qog‘oz va qalamda bajarilgan chizmaga nisbatan yuqori darajadagi aniqlikka erishiladi.

2. Chizmalarni tahrir qilishning qulayligi. Qog‘ozda o‘zgartirish kiritishdan ko‘ra kompyuterda o‘zgartirish oson, chunki kompyuterda qalamning yoki o‘chirg‘ichning hech qanday izi qolmasligi tufayli chizmaning sifati buzulmaydi.

Bunday loyihalash ishlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari AutoCAD dasturida mavjud bo‘lganligi uchun barcha ishlab chiqarish korxonalarida, loyihalash institutlarida va oliy ta’lim muassasalarida muhandislik va mutaxassislik fanlarini o‘qitishda bu dasturlardan keng foydalaniladi. Umuman, AutoCAD dasturi muhandislik grafikasidan foydalaniladigan har qanday joyda qo‘llash mumkin bo‘lgan moslashuvchan tizimdir.

Chizmachilik fanini o‘qitish yangi axborot texnologiyalari va dasturiy ta’minot multimedia vositalaridan foydalanish orqali o‘qitish usullarini o‘zgartirishi ro‘y bermoqda. Shunday qilib, og‘zaki o‘qitish usulida kompyuter vositalaridan foydalanish sizga matnli ma’lumotlarni ekranda yetkazib berishi bilan birga (matn, ma’ruzachining nutqi) va turli xil rejimlarda bir xil tarkibni qayta-qayta takrorlash imkoniyatini yaratdi. Vizual rejimda siz nafaqat statik ma’lumotlar (tabiiy ob’ektlar, modellar, maketlar, to‘plamlar, jadvallar, plakatlar, diagrammalar, rasmlar va boshqalar)ni namoyish qilishingiz mumkin. Metodlar nuqtai nazaridan faqatgina o‘quv materiallarini taklif etish balki talabalarning amaliy vazifalani bajarishlari ya’ni, bosqichma-bosqich tushuntirish va avtomatlashtirilgan namoyish, individual operatsiyalarni taklif qilish mumkin. axborot texnologiyalarining ta’lim funktsiyalari va didaktik imkoniyatlari to‘g‘risida; yangi o‘quv faoliyati tuzilmasi haqida; mobil qurilmalar yordamida darslarni tashkil qilish va o‘tkazish mumkin .

Darslarda kompyuterdan foydalanish materialni o‘rganishni osonlashtiradi, fanga qiziquvchanlikni va o‘qish istagini oshirishga yordam beradi, shuningdek o‘qitishda individual yondashuvni amalga oshirish hamda talabalarning bilimlarini obektiv baholash imkonini beradi.

Kompyuter grafikasi bilan ishlovchi dastur sinflari. Xozirgi ko‘nga kelib kompyuter grafikasi va animasiyasi vositalari kirib bormagan soxani topish qiyin.

Bilimlarni o‘zlashtirishni boshqarish uchun kompyuter texnologiyalaridan muvaffaqiyatli foydalanish to‘g‘risida ko‘p narsa yozilgan Yangi kompyuter texnologiyalari tatbiq qilishda ta’lim oluvchilar faoliyatining shakllantirishga yordam beradi. Faoliyatning yangi shakllari inson psixologiyasi va ongiaa ta’sir qiladi. Va ular nafaqat ta sir qiladi, balki ularni o‘zgartiradi, bundan tashqari, ularni shakllantiradi. Faoliyatning yangi shakllari orqali faoliyatning didaktik prinsipi va o‘rganish ongi amalga oshiriladi O‘qitishda kompyuterlardan foydalanish o‘quvchilaming bilimlarimfaollashtiradi.ularninq rivojlanishiga, intellektual va ijodiy faolligiga hissa qo‘shadi.

Kompyuter asosida chizmachilikni o‘rganish asosan ta’lim jarayonini modellashtiradi. Kompyuter bu grafik loyixalash, geometnk sezgi, fazoviy tasavvurlami ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning samarali vositasidir. Bu omil chizmachilikka o‘rgatishda kompyuterdan foydalanishning ahamiyatini korsatadi Bundan tashqari, AKT ma’lumotlandan foydalanish, maqsadlarni shakllantirish jarayonlarida sifat jihatidan o‘rganishga olib keladi. Bunda AKT ma’lumotlarini ishlatmasdan amalga oshirib bolmaydigan obyektiv vaziyatning tubdan yangi xususiyatlariniochishda, maqsadlarni halqilish jarayonida shakllantirilgan maqsadlarning mazmunini o‘zgartirishda, uning tuzilishini o‘zgartirishda, mustaqil tanlab qidirish zonasini kengaytinshda va uni o‘zgartirishda ko‘rish mumkin. Deyarli barcha tadqiqotchilar kompyuter texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish isbotlangan

Muhandislik grafikasi fanlarida amaliy dasturiy vositalardan foydalanib, pedagogik dasturiy vositalar yaratish, ular yordamida elektron ta’lim muhiti hosil qilinadi.

Buning natijasida muhandislik grafikasi fanlari o‘qituvchilarining ish faolliyatiga bir muncha yengillik yaratadi va dars jarayoni ya’nada sifatli ko‘rsatkichga oshadi.

Xulosa

1.Ta’lim jarayonida kompyuterlardan foydalanish usullan va texnologiyalari, ta’limni axborotlashtirishning psixologik-pedagogik jihatlari masalalari ishlab chiqish lozim

2. Tegishli dasturiy-metodik ta’minoti (mavzuga yo‘naltirilgan o‘quv muhitlari, kompyuter o‘qitishtizimlari, pedagogik dasturiy ta’minot) faol Ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir

3. ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida kompyuterli modellashtirish texnologiyaiarini rivojlantirish yo‘nalishi alohida o‘ringa eqadir.

4 O‘qrtuvchilar va uslubchilarning tadqiqotlar o‘quv jarayonida kompyuterning ijobiy rolini isbotlab bergan Lekin chizmachilik fanini o‘rganishda kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanib dars samaradorligini oshirish va o‘qitish jarayonini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida qolmoqda Shuni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2017 y., 6-son, 70-modda.1. Murodov Sh.K va boshkalar, (2020). Chizma geometriya. Oliy pedagogika o‘quv yurtlari uchun darslik, Toshkent, ”Iqtisod-moliya”.

2.Saydaliyev S.S. “Chizmachilik” o‘quv metodik qo‘llanman, Toshkent Sano-standarst bosmaxonasi 2013 y

3.Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.,2003.

4.Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

5.Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

6.Bo‘riboyeva D.N Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishning innovatsion usuli “Pedagogik mahorat” ilmiy nazariy va metodik jurnal 2023 N:2

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

O‘zbek xalqi o‘zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, iymon-e’tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o‘ziga xos tajribasini to‘plagan. Bizga ma’lumki, ma’naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo‘lib, o‘stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir necha xil ta’rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta’riflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir”. Rog‘ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir”. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo‘ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi [1:339-340]. Odob masalasini insoniyat tarixida to‘laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o‘z odobi bor. Dunyodagi odobga bag‘ishlangan asarlarning asosini va ko‘piligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag‘a yo‘q [1:342]. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ta’lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma’naviy ozuqa berib kelmoqda. Har bir xalqning ta’lim-tarbiyaga oid an’analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo‘lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o‘z farzandlarini barkamol inson bo‘lishini istaydi, o‘zlari eta olmagan orzu-umidlariga bolalarining etishligini o‘ylaydi. Bolalarning har bir yutug‘idan quvonishadi, mag‘lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko‘rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi. O‘tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma’naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o‘z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo‘lamiz.

Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o‘zining ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo‘sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo‘lmoqda. “Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko‘ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o‘quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o‘zini olib qochishga undaydi” [3:10]. Shuning uchun ham ta’lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg‘inoniydir. Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g‘oyalari shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta’limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e’tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o‘rinni egallaydi [4:9]. Alloma Marg‘inoniy o‘zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma’naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Farzandga adab, hunar o‘rgatmakni meros deb bilg‘il. Agar sen xoh unga adab o‘rgatg‘il, xoh o‘rgatmag‘il turmush mashaqqatlarining o‘zi unga o‘rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur [5:24]. Kaykovus 44 bobdan iborat bo‘lgan

“Qobusnoma” asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onaga munosabati, ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomila odobi, ularning o‘zaro axloqiy munosabatlari, haqorat, qo‘pollik kabi yomon odatlardan saqlanish zaruriyati bilan bir qatorda bola tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish, uning kelajagi uchun ota-onaning mas’uliyati katta ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg‘u beriladi.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish – ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda odob-axloq mavzuiga bo‘lgan qiziqish anchagina ortdi. Chunki milliy mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, tarixiy va madaniy merosimizni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi, milliy va diniy hamda ma’naviy qadriyatlarimizning mazmunidagi axloqiy g‘oyalarni bilishga bo‘lgan xalqimiz qiziqishlarining ortib borayotganligidir.

Ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo‘nalishini tubdan o‘zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishning birinchi sharti – unga bir butun tizim sifatida yondoshish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir [6:87]. Yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi [7:7]. Taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deb yozgan edi [8:14]. Mashoyixlarning aytishlaricha, “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur” [5:13]. A.Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asari yangi usul maktablarining yuqori sinflarida ta’lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o‘qitilgan. A.Avloniyning asarini chuqur o‘rganar ekanmiz, biz o‘sha davrda maktablarda o‘quvchilarga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodi, Qur’on oyatlari, hadislar shuningdek, buyuk allomalarimizning hikmatli so‘zlaridan imkon qadar keng foydalanganliklarini ko‘ramiz. Masalan, “Yaxshi xulqlar” qatoriga kiruvchi “Sabr” mavzusida: “Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq sobrlarni madh qilishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazoga sabr qilmoq farzi ayndur”. Shul xususda so‘ylanmish bir hadisi sharifning ma’nosi “ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur,” – deyilishi. Arablar “assabru miftohulfalah”- sabr shodlig‘ning kalilidur deyurlar [9:7]. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning milliy pedagogik va uslubiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqishga bugungi kundagi ehtiyoj va uni samarali hal etishning optimal yo‘llarini topish asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shunday ekan, oilada bola tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik muammodir. Shu boisdan har qanday jamiyatni oilaga, oilada bola tarbiyasiga bo‘lgan talabi ortib boradi. Ayni vaqtda – davlatning, ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi, farzandlarning ota-ona oldidagi mas’uliyatini oshirishdagi roli kuchayadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov aytganlaridek, “Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi” [5:7]. “Milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish” [10:78]. Milliy taraqqiyotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega ushbu fikr, ko‘rsatma san’atga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib: “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”. Biz ta’lim va tarbiya

tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog‘liq” [11] deya ta’kidlab o‘tdi. Tarbiya o‘z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o‘z farzandlarimizni baxti-saodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo‘lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviy qo‘rg‘oni bo‘lmish o‘z oilamizning mustahkamligini ko‘rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e’tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma’naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o‘rni va roli o‘ziga xos xususiyatga va ko‘rinishlarga ega. “Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o‘rganishda ta’lim tizimi imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o‘rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega” [12:43]. Ular o‘z asarlarida shaxs ma’naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o‘z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlarni ulug‘laydilar va shunday fazilatlarga ega bo‘lishga barchani chorlaydilar. Ma’naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g‘oya yoki mafkura aslo o‘z ta’siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: “Hilol-nashr”. 2013 y.
2. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
3. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
4. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
5. M.Hamdamova. Ma’naviyat asoslari. T.: “Fan va texnologiya”. 2008 y.
6. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: “Istiqlol” 1994 y.
7. San’at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
8. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi. 1992 y.
9. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o‘rgatish. T.: 1960 y.
10. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008 y.
11. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. T.: 2016 y.
12. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o‘rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil, 5-son.

VILOYATDA QULAY TADBIRKORLIK MUHITINI YANADA YAXSHILASH UCHUN ZARUR IQTISODIY CHORA-TADBIRLAR

Xudoyberdiyev Dostonbek Rustambek o‘g‘li
GulDU Amaliy san’at va dizayn kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Sirdaryo viloyatida tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash uchun zarur iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunda eng kerakli vazifalardan biriga aylanmoqda.Jahon andozalariga xos O‘zbekistonni yangilash,yarataverish barcha viloyatlar kesimida

amalga oshirilsagina biz xalqaro darajalarda yanada mustahkam o‘rinlar egallashimiz, tubi yo‘q cheksiz iqtisodiyotning ildizini mustahkamlagan bo‘lamiz.

KALIT SO‘ZLAR: milliy boylik, ressurs, strategic aloqalar, rentabellik, innovatsiya, moliyaviy tahlil, raqamli iqtisodiyot,moliya

ASOSIY QISM: "Bugun kimdir soyada o‘tiradi, chunki kimdir uzoq vaqt oldin daraxt ekgan." - Uorren Baffet. Tadbirkorlar har qanday iqtisodiyotning ajralmas qismidir va ular yangi ish o‘rinlarini yaratish yoki mamlakatning o‘sishi va rivojlanishiga qo‘shadigan ulkan hissasi tufayli ko‘proq milliy boylik hisoblanadi. Ular bizning hayot tarzimizni o‘zgartirish va o‘zlarining innovatsion tashabbuslari orqali ishlash imkoniyatiga ega. Tadbirkorlikni rivojlantirish nima? Oddiy qilib aytganda, biznesni rivojlantirish - bu kompaniyani rivojlantirish va uni yanada muvaffaqiyatli qilishga qaratilgan jarayon. Bu yangi biznes imkoniyatlarini izlash, mavjud mijozlar bilan aloqalarni o‘rnatish va davom ettirish, strategik hamkorlikka kirish va foyda va bozor ulushini oshirish uchun boshqa rejalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga olishi mumkin. Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi kompaniyani,hududni,mintaqani yanada muvaffaqiyatli qilishdir.U savdo hajmini oshirish, biznesni kengaytirish, strategik hamkorlikni shakllantirish va rentabellikni oshirish kabi ko‘plab maqsadlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoni kompaniyaning har bir bo‘limiga, jumladan savdo, marketing, ishlab chiqarish, inson resurslari, buxgalteriya hisobi, moliya, mahsulotni ishlab chiqish va sotuvchilarni boshqarishga ta’sir qilishi mumkin.Tadbirkorlikni rivojlantirish rahbarlari va jamoa a’zolari yumshoq va qattiq ko‘nikmalarga muhtoj.

Moliyaviy xizmatlar giganti American Express ta’kidlaganidek: "Tashkiliy o‘sish haqida gap ketganda, biznesni rivojlantirish kompaniyaning barcha funktsiyalari yoki bo‘limlarini bir-biriga bog‘laydigan, biznesni kengaytirish va sotish, daromadlar, mahsulot takliflari, iste’dodlarni yaxshilashga yordam beradigan ip vazifasini bajaradi. , mijozlarga xizmat ko‘rsatish va brend xabardorligidir."

Biznesni rivojlantirish ko‘pincha o‘tmishdagi ko‘plab savdo bo‘limlariga qaraganda maqsadlarni belgilashda uzoqroq istiqbolni talab qiladi. Marketing Professional Services Jamiyati ta’kidlaganidek, "Sotishning an’anaviy qarashi ovchilikka o‘xshaydi, lekin biznesni rivojlantirish ko‘proq dehqonchilikka o‘xshaydi: bu vaqt va kuchning uzoq muddatli sarmoyasi va har doim ham tez foyda keltirmaydi". Shunday ekan, davomli sarmoya tadbirkorlikni mustahkamlaydi.

Yangi bozorga kirish uchun biznesni rivojlantirish guruhi barcha zarur huquqiy rasmiyatchiliklarni bartaraf etish orqali yakka tartibda borishga arziydimi yoki shu bozorda faoliyat yuritayotgan firmalar bilan strategik ittifoq yoki sheriklik tuzish oqilonaroq bo‘ladimi, qaror qilishi kerak. Huquqiy va moliya guruhlari yordami bilan biznesni rivojlantirish guruhi mavjud variantlarning ijobiy va salbiy tomonlarini o‘lchaydi va biznesga eng mos keladiganini tanlaydi.Shu orqali tadbirkorlik yana bir pog‘ona ko‘tariladi.

Xalqaro biznesni kengaytirish yangi bozorda yangi ob’ektni talab qiladimi yoki barcha mahsulotlar asosiy mamlakatda ishlab chiqariladi va keyin maqsadli bozorga import qilinadimi? Oxirgi variant asosiy mamlakatda qo‘shimcha ob’ektni talab qiladimi? Bunday qarorlar biznesni rivojlantirish guruhi tomonidan xarajatlar va vaqt bilan bog‘liq baholashlar asosida yakunlanadi. Keyin loyiha boshqaruvi tadbiq etuvchi guruh kerakli maqsadga erishish uchun harakatga kirishishi mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tadbirkorlikni rivojlantirish butun tashkilot xodimlaridan axborotni osonlashtirish, kelajakdagi harakatlarni strategik rejalashtirish va oqilona qarorlar qabul qilish uchun tandemda ishlashini talab qilishi mumkin. Tashkilotga qarab, tadbirkorlikni rivojlantirishda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan potentsial sohalarning qisqacha ro‘yxatini havola qilaman:

1. **Bozorni o‘rganish va tahlil qilish:**
2. **Sotish va yetakchi ishlab chiqarish:**
3. **Strategik hamkorlik va ittifoqlar:**
4. **Mahsulotni ishlab chiqish va innovatsiyalar:**
5. **Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish:**
6. **Strategik rejalashtirish va biznesni modellashtirish:**
7. **Birlashish va sotib olish:**
8. **Brendni boshqarish va marketing:**

9. Moliyaviy tahlil va moliyalashtirish:

10. Innovatsiyalar va rivojlanayotgan texnologiyalar:

Iqtisodiy rivojlanish rejasini ko‘pincha iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha mutaxassis boshqaradi, ammo bu jamiyat tanlagan iqtisodiy rivojlanish modeliga qarab farq qilishi mumkin. Reja dolzarb bo‘lib qolishiga ishonch hosil qilish uchun tez-tez ko‘rib chiqilishi kerak. Odatda, rejalar jamiyatning yangi ehtiyojlari va ustuvorliklariga moslashish uchun har 3-5 yilda bir marta yangilanishi kerak. Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish quyidagi savollarga javob berish uchun jamoangizga qarashdan boshlanadi:Biz hozir qayerdamiz?Biz qayerda bo‘lishni xohlaymiz?Nega endi u yerda emasmiz?Bizni u yerga olib borish uchun nima qilish kerak?Bizni u yerga kim olib boradi?Qachon amalga oshiriladi?

Ushbu savollarga javob berish sizning iqtisodiy rivojlanish rejangizning yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Bu javoblar, shuningdek, bizning jamiyatimizda qaysi iqtisodiy rivojlanish modeli eng yaxshi ishlashini aniqlash imkonini beradi.

Biznesni yuritish katta fidoyilikni, puxta rejalashtirishni va tafsilotlarga e’tibor berishni talab qiladi. Sizning g‘oyalaringiz kompaniya muvaffaqiyatini ta’minlash uchun to‘g‘ri muvofiqlashtirilishi mumkin. Turli xil biznes turlari mavjud. Ba’zilari startap sifatida tanilgan, boshqalari esa tadbirkor sifatida tanilgan. Barcha tadbirkorlik boshlang‘ich bilan bog‘liq emasligini tushunish juda muhim va ikkalasi o‘rtasida bir nechta asosiy farqlar mavjud. Biznes muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun bu farqni yaxshi tushunish kerak.

Tadbirkorlik bozor imkoniyatlarini aniqlashga va resurslarni eng samarali tarzda taqsimlashga yordam beradi. Shuningdek, tadbirkorlar mavjud resurslardan foydalanishni optimallashtirish bilan birga mijozlar ehtiyojlariga javob beradigan innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шодиевич, Ш. Ҳ., Эрматов, Н. Ж., Расулова, М. Р., Шодиев, Ж. Х., & Хожаназарова, С. Ж. (2023). MICROSOFT EXCEL ЭЛЕКТРОН ЖАДВАЛИДАН ФОЙДАЛАНИБ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИНИ СТАТИСТИК ҲИСОБЛАШ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY, 1(4), 67-75.
2. Болтаев, К. С., & Хамза, Ш. Ш. (2022). ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРДА ЎҚИТИШНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ЎРНИ. PEDAGOGS jurnali, 4(1), 328-333.
3. Sh, S. H., Mamarasulova, N. I., & Yusupov, M. I. (2022). HOZIRGI ZAMON TALABALARINING BILIM OLISHIDA ETIK–ESTETIK CHALG‘ITUVCHI OMILLAR. PEDAGOGS jurnali, 9(2), 90-95.
4. Shodievich, S. H., & Roziqovna, R. M. (2023). OLIY O ‘QUV YURTLARIDA MASHG ‘ULOTLAR SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILMIY MAQOLALARNING O ‘RNI. PEDAGOGS jurnali, 25(1), 52-55.
5. To‘ychiyeva, N. (2022, October). Agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ta’sir etuvchi omillar. In International conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 53-56).
6. Xudoyarov, R., & Komilov, H. (2023). O‘ZBEKISTONDA QULAY TADBIRKORLIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ZARUR IQTISODIY CHORA-TADBIRLAR. Ilm-fan va ta’lim, 1(5).
7. Toxirjon o‘g‘li, M. S. (2023, June). IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI O‘RNI. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 6, pp. 140-143).
8. Junaydullayevich, A. A., & Rasulovna, Q. N. (2023). MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O ‘RNI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 34-37.

КАК РАЗВИВАТЬ РЕЧЬ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Тайлакова Гулноз Маматкаримовна

старший преподаватель ГулГУ

Annotation: This abstract discusses the central importance of the development of speech as a key component of mental activity. Speech is viewed as not only a means of communication, but also a way of expressing thoughts and feelings. The importance of developing cognitive skills through speech is emphasized, as well as the connection between motivation and statements.

Развитие речи ребенка — не стихийный процесс. Оно требует постоянного педагогического руководства. Для этого необходимы условия: создание оптимальных условий, способствующих более успешному развитию речи учащихся.

Речь как основа умственной деятельности: Развитие речи считается основой для развития умственных навыков. Речь является средством коммуникации и способом выражения мыслей, поэтому ее развитие имеет центральное значение. Развитие когнитивных навыков через речь: Умение сравнивать, классифицировать, систематизировать и обобщать формируется в процессе овладения речью. Речь отражает уровень развития когнитивных способностей ученика. Роль связной речи в учебной деятельности: Успехи в связной речи оказывают сильное влияние на успех в учебе по всем предметам. Она способствует формированию навыка чтения и орфографической грамотности. Связь между устной и письменной речью: Ученики, обладающие развитой устной речью, могут легче переносить этот навык на письменную речь. Построение фраз в письменной форме требует специальных навыков.

Межпредметные связи и русский язык: Развитие речи связывает все части учебного курса русского языка и помогает создавать систему занятий, объединяющую грамматику и правописание.

Требования к письменной речи: Обучение письменной речи связано с высокими требованиями к структуре высказывания, обоснованности мысли и точности языковых средств.

Учёт мотивации речи: Важно учитывать мотивацию речи у учащихся, что может сказаться на успешности занятий по развитию устной речи.

Этот текст подчеркивает роль развития речи как важного компонента образования и выделяет несколько аспектов, которые следует учитывать при работе с учениками для эффективного развития их языковых навыков.

3. *Связь мотивации и высказываний*: Речь возникает из потребности выразить свои мысли и чувства. Мотивация речи означает, что у ученика есть внутреннее побуждение поделиться своими идеями и эмоциями.

Разнообразие методов и средств: Для развития речи необходимо использовать разнообразные методы и средства, которые будут соответствовать изменяющейся учебной ситуации и мотивам речи учеников.

Свободное высказывание и дисциплинирование мысли: Ученики должны иметь возможность высказываться свободно, но также выполнять задания, которые помогут им структурировать свои мысли и направлять речевую деятельность в более формальное русло. Развитие творческого воображения: Развитие речи также включает в себя развитие творческого воображения учеников. Это позволяет им более ярко и живо выражать свои идеи и создавать интересные рассказы. Целевая установка для высказываний: Важно ставить перед учениками цели для каждого высказывания. Они должны стремиться так выразить свои мысли, чтобы слушатели могли понять их точку зрения и визуализировать описываемое.

Эти аспекты помогут создать более эффективные методы обучения и развития речи учеников, улучшая их коммуникативные навыки и способности к выразительному общению.

Требования к содержанию: Устные ответы учеников должны быть логичными, связными и полными. Это подразумевает умение структурировать информацию и выражать свои мысли последовательно и ясно.

Синтаксическая правильность и лексическое богатство: Учеников следует обучать правильным синтаксическим конструкциям и разнообразному использованию лексики. Это поможет им более точно и разнообразно выражать свои мысли. Поощрение к разговору: Важно поощрять детей к активным разговорам и высказываниям. Учитель должен создавать атмосферу, где ученики чувствуют себя комфортно и мотивированно для общения.

Монологическая речь: Понимание разницы между внутренней и внешней речью важно для понимания того, что дети могут "понимать больше, чем могут передать словами". Ученикам

следует научиться более эффективно выражать свои мысли на словах. Самооценка и самопонимание: Ученики могут не осознавать своих ошибок и считать, что их речь полноценна. Важно помочь им развивать критическое мышление и способность к самооценке, чтобы они могли улучшать свою речь.

Эти аспекты помогут ученикам развивать устную речь, что является ключевым навыком для успешной коммуникации и обучения в различных областях знаний.

Понятие о тексте: Дети должны развивать понимание того, что такое текст и какие у него признаки. Это позволяет им лучше структурировать свои высказывания и понимать тексты, с которыми они встречаются. Обучение правилам построения текста: Учитель должен знакомить учеников с правилами построения текста, его структурой и способами связывания частей и предложений. Это помогает им создавать более связные и логически структурированные тексты.

Соотнесение содержания и заглавия: Важно формировать умение соотносить содержание текста с его заглавием. Это помогает ученикам лучше понимать структуру и основную идею текста. Сбор материала для высказывания: Учитель должен научить детей собирать материал для своих высказываний, что связано с активной мыслительной и речевой деятельностью. Анализ текстов и наблюдение за окружающей средой обогащают их знания и представления.

5.*Элементы описания и рассуждения*: Постепенное введение элементов описания и рассуждения в рассказы и тексты позволяет детям развивать более глубокое понимание и выразительность в своих высказываниях. Работа с вопросами: Учитель должен ставить вопросы, которые помогут детям обдумывать и связывать предложения в тексте. Это способствует развитию логического мышления и структурированию текстов.

Все эти аспекты помогают формировать у детей навыки коммуникации и понимания текстов, которые являются важными для успешного обучения и развития в различных областях знаний.

6. *Индивидуальный подход*: Важно понимать, что у разных учащихся могут быть разные ошибки и затруднения в письменной речи. Учителю следует учитывать индивидуальные особенности каждого ученика при работе над исправлением ошибок.

Обратная связь: Очень полезно предоставлять ученикам обратную связь по их письменным работам. Это помогает им лучше понимать свои ошибки и учиться из них. Сопоставление с образцами: Сопоставление ученических текстов с образцами помогает учащимся лучше понимать структуру и стиль текста. Это также может служить источником вдохновения и моделирования. Постепенное улучшение: Не следует ожидать сразу идеальных текстов от учеников. Развитие навыков письма - это постепенный процесс, и учитель должен понимать, что ошибки - это часть этого процесса.

Обучение правилам: Важно обучать учеников правилам пунктуации, синтаксиса и орфографии. Эти навыки помогут им избегать распространенных ошибок в текстах. Работа с мотивацией: Поддержка и мотивация играют важную роль в улучшении письменной речи. Ученики должны видеть ценность улучшения своих навыков и чувствовать, что их усилия оцениваются.

С учетом этих аспектов учителю будет легче работать над устранением ошибок в письменной речи учащихся и помогать им развивать навыки связной речи.

7. *Формирование культуры обратной связи*: Учителю следует обучать учеников конструктивной критике и способствовать развитию у них умения предлагать варианты улучшения. Это создаст дружественную атмосферу, где исправление ошибок не воспринимается как негативный опыт, а как возможность улучшения.

Развитие аналитических навыков: Учащиеся могут учиться анализировать тексты, выделять главные идеи, определять структуру и последовательность, идентифицировать языковые ошибки. Это поможет им лучше понимать тексты и развивать свои навыки письма.

Использование партнерской работы: Поддержите сотрудничество между учениками, чтобы они могли обмениваться своими текстами и давать обратную связь друг другу. Это позволяет им видеть разные точки зрения и подходы к редактированию.

Работа с примерами и образцами: Предоставьте ученикам хорошие образцы текстов, которые демонстрируют правильные структуру, стиль и языковые навыки. Эти образцы могут служить источником вдохновения и моделирования.

Индивидуальная помощь: Учитель может предоставлять индивидуальную помощь ученикам, учитывая их уровень навыков и потребности. Это особенно важно для детей, испытывающих трудности с определенными аспектами письма.

Эти дополнительные методы помогут более эффективно развивать навыки совершенствования написанного у учеников и способствовать их личному и профессиональному росту.

8. *Звуковая культура речи*: Правильная артикуляция и выразительное произношение звуков - это основа четкой и понятной речи. Для развития этой навыков могут быть использованы игры и упражнения, направленные на работу с произношением и дикцией. Техника речи: Техника речи включает в себя не только дыхательные упражнения, но и работу над интонацией, ритмом и акцентами в речи. Эти аспекты также важны для выразительности и понимаемости высказывания.

Развитие голоса: Работа над голосом помогает ученикам придавать разные оттенки и настроения своей речи. Это особенно полезно при чтении вслух и ораторской деятельности.

Функциональные стили языка: Понимание различных стилей языка помогает ученикам адаптировать свою речь к разным коммуникативным ситуациям. Они должны понимать, когда следует использовать разговорный стиль, а когда - научный или официальный.

Работа с текстами и структурой: Разбор текстов и изучение их структуры способствует лучшему пониманию текстовой организации и развитию навыков анализа и написания связных высказываний. Загадки и логическое мышление: Загадки - это отличный способ развивать логическое мышление у детей. Они требуют анализа и логического рассуждения, что способствует умственному развитию.

Использование разнообразных методов и подходов в обучении языку и развитии речи учащихся помогает создать более полноценный и эффективный образовательный процесс.

Литература:

1. И.И. Политова “Развитие речи учашихся начальных классов”. Москва, “Просвещение” 2000 г.

2. Журнал “Начальная школа”.2017 №3.

3. Обобщение собственного опыта работы.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLARNI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Mamirova Zamira Urakboyevna

Guliston Davlat Universiteti Texnologik va maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Tabiatdagi narsalar ikki qismdan : jonli va jonsiz tabiatdan iboratdir.Jonsiz tabiatga yer, quyosh, oy, yulduzlar,suv, havo, toshlar tuproq, jonli tabiatga ega o‘simliklar , hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o‘smaydi , ko‘paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiat vakilllari o‘simlik, havo, suv, yorug‘lik issiqlik va ozuqa bo‘lmasa yashay olmaydi, jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qud ratlisi insondir.

Inson fikrlaydi, Tabiat insonning ma’naviy boyitishning bitmas - tuganmas manbaidir. Tabiat bilan inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashda ekologik ta’lim tarbiyaning ro‘li nihoyatda katta .ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiyaning insonning tabiatiga qolaversa o‘ziga nisbatan muhabbat uyg‘otish ona vatanga uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an’analariga hurmat ruhida tarbiyalashga yuksak manaviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi . biosfera yerda hayot paydo bo‘lgandan boshlab uzoq tarixiy davrlar davomida rivojlaninb kelmoqda . Yerning tirik organizmlar va biogen cho‖kindi tog‘ jinslari tarqalgan qismini rus olimi akademik V.I.Vernadskiy biosfera (yunoncha – bios – hayot ,

―sfera ― – shar) deb nomlangan. Biosfera sayyoramizning ―hayot qobig‘I‖ hisoblanib, tirik organizmlarning o‘zaro chambarchas aloqa , munosabatlaridan iborat murakkab ekosistemalar majmuini tashkil etadi V.I. Vernadskiy tushunchasiga ko‘ra hozirgi vaqtda biosferaning tarkibiga faqatgina yerning qobig‘ida tarqalgan tirik organizmlar kirib qolmay,i balki, qadimgi davrlarda organizmlar ishtirokida hosil bo‘lgan litosfera qismi ham kiradi. Shuning uchun ham biosfera neobiosfera va polebiosfera kabi tarkibiy qismlarga ajratiladi. Biosfera funksional nuqtai nazardan bir necha qatlamlardan tashkil topgan. Biosfera yer sharidagi eng yirik ekotizm bo‘lib, u quyi darajalardagi kichik tizimlarga bo‘linib ketadi. Bular-quruqlik va suv havzalari okeanlar, metosferaning yuqori qatlami, atmosferaning quyi qatlamlari bundan tashqari quruqlikda evolyutsion – tarixiy tizimlar sifatida biogegrafik tabiiy mintaqalar biomlar landshaft zonalar, ayrim landshaftlar zonalar ayrim landshaftlar va hokazolarga ajratiladi.

Pedagogikada metod – pedagog va ta’lim oluvchining (bolaning) ma’lum ta’lim tarbiyaviy natijasi : bilimlarni egallash, malaka va ko‘niklarni hosil qilish qobilyatlarini o‘stirish axloqiy sifatlar , xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo‘llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Bolalar bog‘chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Tabiat bilan tanishtirish metodlari uchta asosiy guruhga bo‘linadi : Ko‘rgazmali uslub –kuzatish rasmlarni ko‘rish diafilm kinofilm ekskursiyalar ; Amaliy uslub – o‘yin metodi , mehnat oddiy tajribalar og‘zaki uslub – tarbiyachining hikoyasi badiiy asarlarni o‘qish suhbat , metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari psixologiyasi bilimlari dastur talablari o‘z o‘lkasi iqlimining tabiati pedagogik tamoyillarga moslashadi yuqoridagi metodlar bir biri bilan uzviy bog‘liq va bir birini to‘ldiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda : mashg‘ulotlarda ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda , suhbatlarda hamda mehnatda amalga oshiriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarni nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o‘tadigan mashg‘ulotlarida bolalarda dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlarni va bolalarning qobilyatlari ma’lum bir tartibda rivojlantiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o‘yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig‘ilib boradi. Mashg‘ulolar ularga aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi.

Bolarni mashg‘ulotlarda o‘qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg‘ulot turi, uning asosiy maqsadiga ko‘ra tanladi. Mashg‘ulotlarning bir xillarida boshlang‘ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish rasmlarni ko‘rish badiiy asarlarni o‘qish hikoya diafilm va kinofilmlarni ko‘rsatishdan foydalanadi.

Ekskursiyalar mashg‘ulotlaring afzalligi yana shundaki, unda bolalar o‘simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitda ko‘rish , hamda tabiatda mavjud bo‘lgan o‘zaro aloqalar haqida dastlabki dunyoqarash, tasvvurlarni olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tarbiyachi go‘zalligi bolalarda estetik hissiyotlarning o‘sishiga yordam beradi.Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish shakllanadi. Ekskursiyalar shartli ravishda 2 turga bo‘linadi: tabiatga uyushtiriladigan ekskursiya –bog‘, o‘rmon, daryo, o‘tloq, shuningdek, hayvonot bog‘i , botanika bog‘iga (bular turli mavsumda o‘tkaziladi) ekskursiylar hamda qishloq xo‘jalik ekskursiyasi – dala , parandachilik fabrikasi, bog‘, ekinzor va shu kabilarga kattalarning mehnati bilan tanishish maqsadida uyushtiriladigan ekskursiyalar.ekskursiya mashg‘ulot turi sifatida o‘rta , katta hamda tayyorlov guruhlarida o‘tkaziladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egllashlari shart bo‘gan dastur mazmuni belgilanadi.Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin tarbiyachi uni o‘tkazish usullarini atroflicha o‘ylab ko‘radi va ekskursiya qiziqarli o‘t ishi uchun oldindan she’r , topishmoq, maqollarni tanab ulardan foydalanadi.bolalarni ekskursiyaga tayyorlash ekskursiyadan bir necha kun oldin bolalarda mashg‘ulotga qiziqish uyg‘otish, mashg‘ulotga qiziqish uyg‘otish, tasvvurlarni jonlashtirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o‘tzadi, ya’ni ekskursiya vazifalarini taqsimlaydi, ekskursiyadagi xulq- atvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek, anjomlar va jihozlarni tayyorlaydi. Ekskursiyalarning o‘ziga xosligi shundaki, bola inson fao liyatini ham, u ta’sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin.

Bolalarni Tabiat bilan tanishtirishda buyuk alloma bobolarimizning asarlarini ham aytib o‘tsak bo‘ladi. Bobur tomonidan yozilgan ―boburnomada Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston kabi mamlakatlarning tarixi, geografiyasi, xalqlar turmush tarzi, madaniyati bilan birga o‘simlik va hayvonot olami to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar berilgan .bobur adabiyotlarda keltirilgan yoki

birovlardan eshitganlari emas, balki o‘zi ko‘rgan, kuzatgan hayvonlar, o‘simliklar tuzilishi, hayot tarzi,ularning o‘zaro o‘xshashligi yoki farqlari haqidagi ma’lumotlarni bayon etadi. O‘rta asrl allomalari Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta xissa qo‘shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat , o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e’zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar— bilingki, daryoning ko‘zlari yoshlansa, uning boshiga g‘am, kulfat tushgan bo‘ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig‘ tutmanglar! daryoning —yoshli ko‘zlari deganda Muhammad Muso al- Xorazmiy nimalarni kop’zda tutgan ekan?

Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo‘lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning —bir birlarini tushuninshlari —, o‘zaro mehr- muhabbat qo‘yishlarini nazarda tutgan.

Abu Nasr Forobiy o‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy falsafiy fanlarining eng yirik va mashxur vakillaridan biri. Forobiyning ilmiy falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to‘liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro‘yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltirilgan.Forobiy tabiatshunoslikni turli tarmoqlari shug‘ullangan bo‘lib, uning —Kitob alhajm va almiqdor, —Kitob almabodi alinsonia (Insoniyatning boshlanishi haqida kitob). —Kitob ala’zo alhayvon (—Hayvon a’zolari to‘g‘risida kitob) nomli asarlari bunga dalil bo‘la oladi.

Tabiatning tarbiyaviy axamiyatga xar qancha baho berilsa xam ortiqcha bo‘lmas. Tabiat bilan yaqin munosabatda bo‘lish insonga ijobiy ta’sir qiladi, uni sofdilroq muloyimroq qilib, ko‘nglida eng yaxshi xis tuyg‘ularni uyg‘otadi.Bolalar tarbiyasida tabiatning ro‘li ayniqsa kattadir.Maktabgacha tarbiya ta shkilotida bolalarni tabiat bilan , yilning turli fasllarida unda ro‘y berib turadigan o‘zgarishlar bilan tanishtirib boriladi.

Xosil qilingan bilimlar asosida tabiat xodisalarini aniq tushuna bilish ,qiziquvchan bo‘lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita bilish, jamiki tirik narsaga shavq-zavq bilan qarash singari fazilatlar shakllanib boradi. Tabiatga mehr qo‘yish, uni extiyot qilib e’zozlash, tirik jonivorlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish tabiatga qiziqish uyg‘otibgina qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab, ko‘paytirb borayotgan kattalarning mehnatiga xurmat bilan qarash singari xarakterning eng yaxshi xususiyatlarini shakllantirib borishga xam yo‘l ochadi. Bolalar bog‘chasining xona o‘simliklari va ba’zi hayvonlar parvarishlab boqiladigan tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishga, unga mehr muhabbat uyg‘otishga yordam beradi.Tabiat burchagida yashayotgan jonzotlarni bolalar xar kuni ko‘rib turishadi, bu –tarbiyachining ishini yengillashtiradi; uning rahbarligi ostida bolalar tirik mavjudotlarni muntazam kuzatib boradilar, ularni parvarish qiladilar, Ularni parvarish qiladilar. Ularni parvarish qilibborish jarayonida bolalar yerdagi o‘simliklar va hayvonlar dunyosining nihoyatda turli-tumanli to‘g‘risida o‘simliklar va hayvonlar qay tariqa o‘sib, rivojlanib borishi, ularga qanday sharoitlar yaratib berish zarurligi to‘g‘risida tasavvur xosil qiladilar. Tarbiyachi bolalarni qiyosiy analiz, ya’ni taxlil qilishga hayvonlarni bir biriga solishtirib ko‘rib, ular orasidagi o‘xshashliklar va farqlarni, o‘simliklardagi umumiylik va tafovutlarni topishga o‘rgatib boradi, hayvonlarning tashqi ko‘rinishidagi hatti- xarakatidagi qiziq xususiyatlarni payqab, bilib olishiga yordam beradi.Xona o‘simliklarini ko‘zdan kechirish vaqtida gullari bilan barglarining chiroyligiga , gruppadagi o‘simliklar va yaxshi qarab , parvarish qilib borilayotgan akvarium xonaga qanchalik ko‘rku chiroy berayotganiga bolalar diqqatini jalb etadi. Mana shularning hammasi bolalarda go‘zallikni sezish xissini shakllantirib borishga yordam beradi. O‘simliklar va hayvonlarni muntazam ravishda parvarish qilib, ularga qarab borish jarayonida tarbiyachi bolalarda ma’lum mehnat ko‘nikmalarini shakllantirib , ularni tirik burchakdagi hayvonlarga e’tibor bilan qarashga, tirik mavjudodlar to‘g‘risida g‘amxorlik qilish ga o‘rgatib boradi va shu tariqa bolalarda tabiatga qiziqishni, natijaga erishish yo‘lida sabot- matonatnli bo‘lish odatini mustahkamlaydi. Ishni rejalashtirar ekan , tarbiyachi aniq shart- sharoitlarni: o‘z gruppasidagi bolalar, bilimlari va malakalarining darajasini, tevarak -atrofdagi tabiat xususiyatlarini xisobga olishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O. Hasanova, X. Jabborova .— Tabiat bilan tanishish metodikasi

2. Q.Haydarov, S.Nishonova —Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish

3. M.Umarova —Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga ma’sulyatli tarbiyalash –t. 2005y

4. Z.U.Mamirova, N.G.Niyozova Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyasi. o‘quv qo‘llanma/.Toshkent: “BOOKMANY PRINT”, 2023

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TANQIDIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Abdurashidova E’zoza Rauf qizi
Texnologik va maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Abstract. This article discusses the theoretical basis of teaching preschool children to think critically using innovative pedagogical technologies

Key words:Innovative pedagogy, critical thinking, modern education, method, thinking.

Respublikamizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Ularda sohada echimini kutayotgan bir qator vazifalar o‘z ifodasini topgan. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiya”sida [2] “ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash, maktabgacha ta’limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang‘ich ta’lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish, bolani shaxs sifatida jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash” [1] kabi bir qator vazifalar o‘z aksini topgan. Ushbu qarorda ko‘rsatib o‘tilgan qator ustuvor vazifalar tadqiqot ishining dolzarb ekanligini asoslaydi. Tadqiqotimizning asosiy kontseptsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning kritik fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

“Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarorida o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama shakllantirish va ularni maktabga tayyorlashda xorijiy tajribaga tayangan holda sifatli ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan [2]. Shuningdek, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son farmonida esa zamonaviy texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama tarbiyalash belgilangan [1].

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlardagi muhim va ustuvor pedagogik vazifalarni hal etish tadiqot ishining kontseptual asosini tashkil etadi.

Shunga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini ustuvor talablar va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, MTTda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini yangi mazmun va innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlanishga erishish, maktabgacha yoshdagi bolalarni kritik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, intelektual qobiliyatini o‘stirish, ijodiy faoliyatga yo‘naltirish mazkur yoshdagi bolalarni aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Psixologik adabiyotlarda aqliy faoliyatning tuzilishini, uning genezisini, yoshi va individual farqlarini tasvirlashga imkon beradigan ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

Fikrlash – bu har qanday shaxs uchun mavjud bo‘lgan ichki, immanent (lot. Immanens, ichida qolish) - jarayon bo‘lib, u ilmiy tadqiqotlarda asosan quyidagicha ta’riflanadi: "fikrlash-bu unga kiritilgan izlanuvchan, o‘zgaruvchan va kognitiv xarakterdagi harakatlar va operatsiyalar tizimini o‘z ichiga olgan nazariy va amaliy faoliyatning alohida turi". Tanqidiy fikrlash esa bu xatolar, qarama-qarshiliklar, mulohazalardagi nomuvofiqliklar, harakatlar va hokazolarni aniqlash, tahlil qilish sifatida ta’riflanadi. Inson tafakkuri tanqidiylik xususiyatlariga ega bo‘lishi uchun u "jamoat mezonlari va standartlariga duch kelishi", o‘zaro aloqa maydoniga kirishi kerak (p. jins [2] va boshqalar.)

Ob’ektlarning inson ongida umumiy va muhim xususiyatlarida umumlashtirilgan aks etishi fikrlashning o‘ziga xos natijasi bo‘lishi mumkin. Tanqidiy fikrlashning natijasi esa harakat, munosabat, yo‘nalish ko‘rinishidagi ma’lum bir mahsulot bo‘lib, tanqidiy analitik shubhani, shuningdek, umuman fikrlash jarayonini rasmiylashtirib bo‘lmaydi.

Tanqidiy fikrlash bo‘yicha turli xil tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo kritik fikrlash tushunchasi hali ham aniq belgilanmagan. Mazkur tushunchani mualliflar o‘xshash va hatto bir xil psixologik haqiqat sifatida tasvirlab, terminologiyada turlicha ifodalaydilar.

Ushbu tushunchalarning uchta jihati mavjud:

- xatolar va nomuvofiqliklarni, o‘rganilayotgan ob’ektning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek ularni tuzatish;
- "nazorat" va uning mohiyati boshqariladigan (vazifa yoki xatti-harakatlar) standart bilan ongli ravishda bog‘liqligi;
- ilgari surilgan taxminlarning haqiqatini asoslash.

Ko‘pgina tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash insonni tanlov qilishga, o‘z xatti-harakatlarini axloqiy me’yorlar, qadriyatlar va boshqalarning baholari bilan bog‘lashga majbur bo‘lganda "nazorat mexanizmi" vazifasini bajarishi asoslangan. Bundan tashqari kritik fikrlash xatolarni aniqlash, shuningdek, ilgari surilgan taxminlarning haqiqatini asoslash bilan ham bog‘liq.

Ilmiy manbalarda kritik fikrlash xatolarni aniqlashga qaratilgan faoliyat sifatida talqin etiladi [1], bu xatolarni topishga qaratilgan fikrlashning bir turi [3].

Tanqidiy fikrlash g‘oyasi (E. A. Xodos va A. V. Butenko [3] tadqiqotlarida metakognitiv ko‘nikmalar majmuasi sifatida kengroq ko‘rib chiqiladi:

- mantiqiy xatolarni aniqlash;
- bilim asoslarini o‘rganish va uni qo‘llash - yashirin taxminlar va tarafkashlikni aniqlash, stereotiplarni aniqlash va shakllantirish, ularni tahlil qilish;
- muammolarni hal qilishning muqobil usullarini shakllantirish; hukmlarning to‘g‘riligini, ishonchliligini, puxtaligini baholash.

Mantiqiy xatolarni izlash mahorati, o‘zi va boshqalarning hukmlaridagi nomuvofiqliklar N. N. Nepevoyda tadqiqotida [2] tanqidiy fikrlashni yuzaga keltiradi deb hisoblanadi.

Shu sababli tanqidiy fikrlashning bir qismi bo‘lgan boshqa ko‘nikmalar, ya’ni bilimning kelib chiqishi, asosida xulosa chiqariladi. Amerikalik olimlar Marzano va Arredondo [3] yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini (yuqori tartibli fikrlash) deb atashadi. Mantiqning asosiy qonunlariga rioya qiladigan fikrlash odatda "to‘g‘ri"deb hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash kontseptsiyasi dastlabki xulosalarini aniqlash asosida boshqa elementlarni kiritishgacha kengayib boradi, bu ilgari kritik fikrlashning asoslaridan biri hisoblangan rasmiy mantiqdan tashqari, norasmiy mantiq ham kiritilganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek bunday tahlillar asosiy gipotezalardan tashqari bo‘lgan tushunchalarni tahlil qilishga imkon beradi.

Tanqidiy fikrlash bo‘yicha olib borilgan eksperimental tadqiqotlarini hisobga olgan holda , uchta yo‘nalishni ajratish mumkin:

Birinchi yo‘nalishda fikrlashning tanqidiyligi bolaning aqliy faoliyati tabiatiga ta’sir qiluvchi alohida shaxs mulki sifatida qaraladi (G. P. Antonova, I. P. Antonova [6], A. S. Bayramov [13], L. S. Vigotskiy [42], A. I. Lipkina [105], L.A. Malts [116], Yu.A. Samarin [160], B. M. Teplov [177], I. E. Shvarts [200], A. A. Smirnov [169], G. Lindsay, K. Hull, R. Tompson [147] va hokazo.).

Mualliflar (L. S. Vigotskiy [3], Yu.A. Samarin [1], B. M. Teplov [1]) fikrlashning tanqidiyligi, inson tajribasini umumlashtirish, aqliy jarayonlarning rivojlanishiga ta’sir qiladi deb hisoblaydilar

Aqlning fazilatlarini aqliy faoliyatning shaxsiy parametrlari sifatida ko‘rib chiqish A. I. Lipkina [3] tadqiqotlarida amalga oshirilgan. Muallifning yondashuviga ko‘ra, shaxsning aqliy faoliyati uning ob’ektiv mazmuni bilan bir qatorda, sub’ektga xos bo‘lgan aqliy jarayonni tartibga solishning barqaror omillarini tavsiflovchi ma’lum parametrlar bilan belgilanadi. Bunday omil sifatida A. I. Lipkina [3] aqlning bunday sifatini kritik fikrlash deb hisoblaydi, bu sub’ektning amalga oshirilgan faoliyat mazmuniga, uning natijalariga va hokazolarga nisbatan muayyan xatti-harakatlarini tavsiflaydi. Insonning kritik fikrlashi natijasi o‘zini hurmat qilish sifatida birinchi o‘ringa chiqadi. Mazkur eksperimental tadqiqotda kritik fikrlash va o‘zini hurmat qilish muammoni hal qilishning tabiati va xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi, uni hal qilishning ajralmas, regulyatorga o‘xshash komponentiga aylanishi ko‘rsatilgan.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichining o‘ziga xos xususiyati tobora kengayib borayotgan axborot makonidir. Yashirin axborot hujumlari umuman insonlar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda odamlarning qarashlari va ularning ichki dunyosini manipulyatsiya qilishning ko‘plab shakllariga, masalan, reklama fokuslari yoki PR kompaniyalari deb

ataladigan narsalarga qarshi turishga yordam beradigan haqiqat bilan bog‘liq usulni ishlab chiqish zarurligi ayon bo‘ladi. Shu munosabat bilan, shaxsning o‘z-o‘zini tartibga solish bir sifat belgilangan yo‘li sifatida mavzu bir xususiyati sifatida tanqidiy fikrlash o‘rganish, shuningdek, uning rivojlanishiga yordam beradigan omillarni aniqlash hozirgi paytda ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bojovich L.I. Lichnost i eyo formirovanie v detskom vozraste. - M.,1968. - 464s.
2. Bustrom R. Razvitie kriticheskogo i tvorcheskogo mo‘shleniya. - M.: Izd - vo «IOO», 2000.
3. Veksler S.I. Razvitie kritichnosti mo‘shleniya starsheklassnikov v protsesse obucheniya: Avtoref. diss. kand. ped. nauk. - Kiev, 1974. - 23 s.

ELEMENTAR MATEMATIKANI O‘QITISHDA O‘QUV-INTIZOM MODELI XUSUSIYATLARI TAVSIFI

Eshonqulova Ma’suda Xabibovna, Yulchurayeva Dilrabo Jumayevna
P. f. f. doktori (PhD)
Texnologik va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Elementar matematika tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi maktabgacha ta’limning sifati kattalar va bola o‘rtasidagi aloqaning tabiati bilan belgilanadi. Oila va ijtimoiy ta’lim amaliyotida bunday aloqaning ikkita asosiy turini (yoki modellarini) ajratish mumkin, garchi aslida ular ko‘p bo‘lsa.

Ularning orasidagi farqlar nafaqat jarayon bilan, balki uning yakuniy natijasi bilan ham belgilanadi - bola oxirida nima bo‘ladi, uning shaxsiyati qanday bo‘ladi.

O‘quv-intizom modeli quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Maqsad bolalarni bilim, ko‘nikmalar bilan ta’minlash; itoatkorlikni singdirish; Voyaga etganning bolalar bilan o‘zaro munosabatidagi shiori - "Men ham shunday qil!". Muloqot usullari - ko‘rsatmalar, jazolar, eslatmalar, baqirish. Taktikalar diktatura va vasiylikdir. O‘qituvchining vazifasi dasturni amalga oshirish, rahbarlik va tartibga solish organlarining talablarini qondirishdir. Ko‘rsatmalar ushbu shartlar asosida har qanday istisnolarga yo‘l qo‘ymaydigan qonunga aylantiriladi. Bolaga faqat ta’lim tizimining kuchlarini qo‘llash ob’ekti sifatida qaraladi.

Pedagogik jarayonning markazi bolalar bilan ishlashning frontal shakllari va, eng avvalo, maktab darsining turiga asoslangan darslardir. Bolalarning o‘zlari tashqi tartib va rasmiy intizom foydasiga bostiriladi. O‘yin, bolalar faoliyatining asosiy turi sifatida, o‘z vaqtida buziladi va kattalar tomonidan qat’iy tartibga solinadi.

Ushbu modelga binoan, san’at asarlari kattalar tomonidan utilitarian maqsadlarda foydalaniladi: kichik bilimlarni olish, bolaning e’tiborini istalmagan xatti-harakatlardan chalg‘itish, bu san’atning gumanistik, umumiy rivojlanayotgan mohiyatini bostiradi.

Natijalarga quyidagilar kiradi: kattalar va bolalarni o‘zaro ajratish. Bolalar tashabbusni yo‘qotadilar va keyinchalik ular rad etiladi. Kattalar tomonidan ta’lim ta’sirining samaradorligiga xayoliy ishonch mavjud. O‘qituvchilar bilan aloqa qilishdan tashqarida, bolalarning xatti-harakatlari keskin o‘zgaradi va kutilgan va tegishli bo‘lgan narsalarga hech qanday aloqasi bo‘lmasligi mumkin. Bolalarga bo‘ysunish ko‘pincha ularning "ikki tomonlama" - "o‘zlari uchun" va "xolalar uchun" yashashga qodir ekanliklarini isbotlaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan model birinchi modelga alternativ hisoblanadi. Bolalar bilan muloqotda o‘qituvchi: "yaqin emas va yuqorida emas, balki birgalikda!" Tamoyiliga amal qiladi. Uning maqsadi - bolaning shaxs sifatida shakllanishiga yordam berish. Bu quyidagi vazifalarni hal qilishni o‘z ichiga oladi: bolaning dunyoga bo‘lgan ishonchini, mavjud bo‘lish quvonchini (psixologik salomatlik) rivojlantirish; shaxsiyat tamoyillarini shakllantirish (shaxsiyat madaniyatining asosi); bolaning shaxsiyatini rivojlantirish. Tarbiyachi har bir bolaning rivojlanishini muayyan qonunlarga moslashtirmaydi, lekin ularning o‘sish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun vazifalarga asoslanib, bolalarning shaxsiy rivojlanishida mumkin bo‘lgan to‘siqlarning paydo bo‘lishining oldini oladi. Bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar maqsad sifatida emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Muloqot usullari bolaning pozitsiyasini egallash, uning nuqtai

nazarini hisobga olish va uning his-tuyg‘ulari va his- tuyg‘ulariga e’tibor bermaslik qobiliyatini talab qiladi. Muloqot taktikasi - hamkorlik. O‘qituvchining pozitsiyasi bolaning manfaatlariga va uning jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida yanada rivojlanish istiqbollariga bog‘liq. Bolani san’at bilan (badiiy adabiyot, musiqa va boshqalar) tanishtiradigan kattalar, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, uni insonlashtirish, san’atdan birgalikda zavq olish, bolaning ijodiy, badiiy qobiliyatini namoyon etish va rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Bolaga hamkorlik muhitida to‘liq sherik sifatida qarash (bolalarga manipulyativ yondashuvni rad etish).

O‘qitishga pedagogik jarayonda g‘oyat muhim ahamiyat beriladi, bu esa bolaga o‘z faolligini namoyish etish, o‘zini to‘liq anglash imkoniyatini beradi. O‘yin bolalar hayotini tashkil etishning asosiy shakliga aylangan kattalar bilan bolalar va bolalarning o‘zlari bir-biri bilan erkin hamkorligiga asoslangan.

Kutilayotgan natijalar - rivojlanayotgan bolaning "erkinlik darajasi" ning kengayishi (uning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda): uning qobiliyatlari, huquqlari, istiqbollari. Hamkorlik sharoitida bolalarning o‘zini o‘ylashi va individualligi engib o‘tiladi va jamoa tuziladi. Muvaffaqiyatsizlik yoki masxara qilish qo‘rquvidan kelib chiqmagan ularning tasavvurlari va tafakkurlari ozod qilinadi. Kognitiv va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan aloqa modeli hech qanday tarzda bolalarni tarbiyalash va tarbiyalashni bekor qilishni, ular bilan tizimli pedagogik ishlarni olib borishni anglatmaydi. Maktabgacha maktabgacha ta’lim xalq ta’limi umumiy tizimidagi birinchi bo‘g‘in bo‘lib, rivojlangan shaxs shaxsining rivojlanishidagi birinchi bosqichni ta’minlaydi.

Elementar matematika tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi pedagogik fanlar tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematika tushunchasini qabul qilish va tushunishga yordam berish - maktabda eng muhim fanlardan biri bo‘lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga ko‘maklashadi. Bu fan maktabgacha yoshdagi pedagogikadam ajralgamidan so‘ng elementar matematik tushunchalarni shakllantirish metodikasi mustaqil ilmiy va ta’limiy yo‘nalishga aylandi. Uning predmeti sifatida elementar matematik tushunchalarini maktabgacha yoshdagilarda umumiy tarbiyalash sharoitlarida shakllantirish jarayonining asosiy qonunlarini o‘rganishdir. Metodologiya bilan hal qilingan vazifalar doirasi juda keng:

- har bir yoshdagi guruh bolalarda miqdoriy, fazoviy, vaqt haqidagi va boshqa matematik tasavvurlarini rivojlantirish haqidagi dasturi talablar ilmiy asosda;
- maktabda matematikani o‘zlashtirish uchun bola bog‘chasiga tayyorlash uchun haqiqiy materialning mazmunini aniqlash;
- bolalar bog‘chasi dasturida matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun materiallar takomillashtirish;
- samarali didaktik vositalari, usullari va elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish jarayonining turli shakllarini rivojlantirish va amalga oshirish;
- maktab yoshdagi bolalara asosiy matematik tushuncha va tegishli tushunchalar shakllantirishda davom etterish;
- pedagogik va uslubiy ishlarni olib borishga qodir yuqori malakali kadrlar tayyorlash tarkibini rivojlantirish;
- bir oila muhitida bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish bo‘yicha ota-onalar uchun ilmiy asoslangan ko‘rsatmalar rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim tizimining barcha darajadagi bolalarda shakllantirish va matematik tushunchalarni rivojlantirish.

Metodologiyaning umumiy maqsadi - tadqiqot va maktabgacha yoshdagi bolalarda boshlang‘ich matematik tushunchalarni shakllantirish amaliy asoslarini ishlab chiqish. Pedagogik bilimlar tizimi sifatida uning o‘z nazariyasi va uning manbalari mavjud.

Metodika shakllantirish g‘oyalarini boshlang‘ich matematik tushunchalarni shakllantirish uchun ilg‘or jamoa va individual ta’lim tajribasi doimo rivojlanayotgan - o‘yinlar va mashqlar, ko‘rsatmalar va ma’lumotlar ro‘yxati, ilmiy tadqiqot natijalari va ilg‘or pedagogik tajriba bilan boyitilib, hozirgi vaqtda olimlar va amaliyotchilarning sa’y-harakatlari tufayli maktabgacha yoshdagi bolalarning boshlang‘ich matematik tasavvurlarini shakllantirishning ilmiy jihatdan asoslangan metodologik tizimi takomillashtirilmoqda. Uning asosiy elementlari - ishni tashkil etish maqsadi, mazmuni, usuli,

vositalari bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq va o‘zaro bir-biriga murojaat qiladi. Ularning rahbarligi va ularni belgilash maqsadi ijtimoiy maqsadlarga qaratilgan va ob’ektiv xarakterga ega bo‘lgan maqsaddir. Bolalar bog‘chasi maktabda (matematika, shu jumladan) ilm-fan asoslarini o‘rganishga bolalarni tayyorlash, jamiyatning ijtimoiy tartibini xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.

2.Bikbayeva N.U., Ibroximova Z., Kosimova X.I. Maktabgacha yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. - T.: O‘qituvchi, 1995. - 184 b.

3.Jumayev M.E. Bolalarda boshlangich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. Ilm-Ziyo. 2012.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH MASHG‘ULOTLARIGA ILG‘OR INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH

Mamirova Zamira, Mamatqulova Matluba Abdusaidovna
GulDU Texnologik va maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
GulDU Texnologik va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birinchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini rivojlantirish ishlari tegishli dastur asosida amalga oshiriladi, mazkur dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi, tegishli lug‘at hajmi hamda bolalarning har bir yosh bosqichida o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan nutqiy mahorat va ko‘nikmalari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, u muayyan shaxs sifatlarini tarbiyalashni ko‘zda tutadi (masalan, dialogik nutqni rivojlantirishda dastur kirishimlilik, xushmuomalalik, bosiqlik kabi sifatlarni tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi). Nutqni rivojlantirish dasturi ham, umuman olganda, ilmiy asoslarga qurilgan. U butun mazmuni bilan maktabgacha ta’lim nazariyasini amalga oshirishga, ya’ni bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Dastur asosini psixologiya va turdosh fanlarning bolaning og‘zaki nutqni egallab olganligi va uning bilish faoliyatining o‘ziga xosligi haqidagi ma’lumotlar tashkil etadi, bu esa turli yosh bosqichlarida bolalarga nisbatan talabning hajmi va izchilligini belgilaydi. Shuningdek, dastur bolaning rivojlanishida faoliyatning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi haqidagi muhim pedagogik qoidani hisobga olgan holda tuzilgan, shuning uchun nutqni rivojlantirish dasturi turli faoliyat turlari (o‘yinlar, mashg‘ulotlar, mehnat va boshq.) bilan taqqoslangan.

Dasturni o‘rganishni nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalarini eslatib o‘tish bilan boshlash mumkin. So‘ngra bitta guruh misolida ushbu asosiy vazifalarning mazmuni qandayligini va u dasturning qaysi bo‘limlarida uchrashini ko‘rsatish zarur. Yuqorida qayd etilgan jamoaviy muhokama singari tarbiyachiga boshqa yosh guruhlari dasturlarining matnlarini o‘rganib chiqish taklif etiladi. Navbatdagi mashg‘ulotda dasturiy materialni alohida vazifalar bo‘yicha qiyosiy tahlil qilish o‘tkaziladi, materialni yosh guruhlarida izchil ravishda murakkablashtirib borish qayd etiladi. Maktabgacha tarbiya sohasi xodimiga dasturni yakka tartibda va ayni paytda jamoa bo‘lib o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori yoki katta tarbiyachi har yili sentyabr oyida tarbiyachilarning o‘z yosh guruhlari uchun dasturning tegishli talablarini ajratib olishlari, ularni o‘zlarining yosh guruhlariga mo‘ljallangan dasturiy talablar bilan ko‘rgazmali taqqoslash, ularni aralash guruhlar dasturi bilan ko‘rgazmali taqqoslash uchun nutqni rivojlantirish dasturini tarbiyachilar ishtirokida jamoaviy muhokama qilishni o‘tkazishlari lozim.

Og‘zaki nutqini o‘stirish bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda asosan, bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish bilan birga nutqni grammatik tomondan to‘g‘ri shakllantirishga:

- nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish;
- sodda va qo‘shma gaplar tuzish, bunda barcha so‘z turkumlaridan foydalanishga o‘rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe’lga to‘g‘ri ishlatish malakalarini takomillashtirish;
- tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishga, ravon gapirishga;

- mustaqil hikoya qilishga e’tibor beriladi. Og‘zaki nutqini o‘stirishda mustaqil hikoya qilishga o‘rgatish katta o‘rin egallaydi: bolalalarni o‘z hayotlarida uchragan voqealar, suratlarga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mavzusi asosida hikoyalar tuzishga o‘rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog‘langan, ma’lum izchillikda, grammatik tomondan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o‘z xalqining badiiy tilini o‘zlashtirib olishlari natijasida ularning to‘g‘ri og‘zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug‘atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to‘g‘riligini takomillashtirish, og‘zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so‘zga qiziqishni tarbiyalash, savod o‘rgatishga tayyorlash.

Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug‘at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo‘lgan nutqiy mahorat va ko‘nikmalar belgilangan bo‘lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, bosiqlik) tarbiyalashni ko‘zda tutishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Kamoldinov M, Vaxobjonov B, “Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari”, Toshkent.: Talqin, 2010-yil.

2. Farberman B. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar”, Toshkent. “Fan” 2000-yil.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLAR GURUHLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Eshonqulova Ma’suda Xabibovna
Guliston davlat universiteti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abstract. The politicized education in the loading of integration in the organization of the educational process, the didactic productions of integrated education in creating the quality of education have their own characteristics. Forms and methods of organizing integrated classes of pre-school preparatory group are reflected in effective methods.

Key words: Integration, principle, integrative training, modern education, methods, practical exercises, development.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Dunyoda integrativ ta’limning rivojlanishi ijtimoy hamda axborot kommunikatsiya sohalarining o’zaro tizimli aloqadorligi, ilm-fanning istalgan yo’nalishida kuzatilayotgan integrativ jarayonlarning barchasi jamiyatning zamonaviy ta’limi oldiga qo’ygan talablarini qondirishga qaratilgan o’quv-tarbiya jarayoning samarasini ta’minlashning ustuvor strategiyasini belgilaydi. Maktabgacha ta’limdagi zamonaviy talablar tarbiyalanuvchining shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishi to‘g‘risidagi yangi tushunchani belgilaydi. Yangi model pedagoglar bolaning rivojlanishini hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har bir yosh guruhlari uchun ta’lim dasturlarini tuzishga imkon beradi. Shunindek so‘nggi yillarda YUNISEF bilan hamkorlikda yaratilgan “Bolalik akademiyasi” platformasi bilimlarni integratsiyalash nazariyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Bu esa ta’lim tizimi oldida bo‘lg‘usi tarbiyachilar tafakkurini rivojlantirish, ularni nazariy metodik faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning ilmiy amaliy imkoniyatini belgilab beradi.

Didaktik jarayonning integratsiyalashuvi nafaqat nazariy va metodik o‘quv jarayonni bir butun sifatida amalga oshirishni, balki jarayonning samarali olib borilishini ham ta’minlaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim jarayonining serqirra va o‘ziga xosligini inobatga olgan holda, bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda ta’limiy faoliyatlarni integratsiyalash nazariy-metodik tayyorgarlik jarayonining samarali kechishini ta’minlaydi. Turli faoliyatlar elementlarini yaxlit holda birlashtiruvchi hamda o‘ziga xos o‘rganish predmetini o‘z ichiga olgan holda faoliyatlarni

xususiyatlariga ko‘ra bog‘lovchi mashg‘ulotlarlar integratsiyalashgan kurslarning mazmunini anglatadi. **Tadqiqot jarayonida biz** maktabgacha ta’limning ta’lim makonida integratsiya tamoyilidan foydalanishning pedagogik qonuniyatlarini aniqladik.Integratsiya tamoyilini amalga oshirish yaxlit jarayonni tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Yaxlitlik ta’lim jarayonining turli elementlarini birlashtirgan holda sintez orqali yaratiladi. Bolalar bog‘chasi yaxlit bir butunga, masalan: bolalar faoliyatining har xil turlari (birgalikda va mustaqil; to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim faoliyati va bolalarning rejali faoliyati), turli xil o‘zaro ta’sir turlari (bola-tarbiyachi, bola-bola, tarbiyachi-bola-ota-ona), turli ta’lim yo‘nalishlari va har bir maktabgacha yoshdagi bola uchun yagona rivojlanish yo‘nalishini ta’minlash (jismoniy rivojlanish, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish, badiiy va estetik rivojlanish, kognitiv va nutqni rivojlantirish) kabilar. Ta’lim sohalarining integratsiyalashuvi jarayonida kognitiv-nutq, badiiy-estetik, jismoniy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish amalga oshiriladi.

Kognitiv nutqni rivojlantirish deganda biz bolaning atrofidagi dunyoni bilish qadriyatlariga turli yo‘llar bilan harakat qilishning maqsadli jarayonini va uning dunyosining boshqa dunyo bilan uyg‘un o‘zaro ta’sirida uning individualligini o‘z-o‘zini tasdiqlashini tushunamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolaning badiiy-estetik rivojlanishi bolaning o‘ziga xos his-tuyg‘ulari va hissiyotlari dunyosini yaratish va yangilashga qaratilgan, "men" qiyofasini ochish, o‘zini o‘zi ifoda etish, o‘zini o‘zi targ‘ib qilishga qaratilgan maqsadli ta’lim jarayoni sifatida talqin etiladi. Faoliyatning o‘ziga xos ijodiy mahsuli bolaning ijodiy rivojlanishi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy rivojlanishi - bu epchillik, iroda, jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanishi, muvozanat saqlay olishi, yugura olishi, sakrashi, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga ko‘tarila olishi kabi harakatlar majmuidir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi - bu bolaning jamiyatga uzluksiz va tizimli ravishda ijtimoiy nazorat ostida kirishining maqsadli jarayoni, katta yoshdagi shaxsning bevosita ishtirokida ijtimoiy normalar va madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Buning asosida insonning o‘zini o‘zi bilishi va o‘zini o‘zgartirishi ontogenezning dastlabki bosqichida sodir bo‘ladi. Ushbu rivojlanish yo‘nalishlari o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ular maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar tomonidan doimiy nazorat ostida ular bilan hamrohligi natijasida paydo bòladi . Rivojlanishning ushbu yo‘nalishlarining sintezi rivojlanishning quyi bosqichidan yuqori bosqichga o‘tishni ta’minlaydi, bolaning atrofdagi dunyoni bilishida, shaxsiy va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishda yangi sifat jihatdan rivojlanishini belgilaydi.

Faoliyarlararo integratsiya – bunda ikki yoki undan ortiq asosiy faoliyatlarning g‘oyalari, nazariya va tushunchalari birlashtiriladi, integratsiyali rejalashtirish orqali amalga oshiriladi;

-yondosh faoliyatlarning integratsiyasi – o‘zaro yaqin aloqada bo‘lgan faoliyatlarni integratsiyalash asosida yangi faoliyat turlarini vujudga keltirish. Buning asosida yangicha mashg‘ulotlar jamlanmasi vujudga keladi;

-fundamental faoliyatlarning integratsiyasi – zamonaviy bilimlarning barcha tarmoqlari uchun asos bo‘luvchi faoliyatlar va ushbu faoliyatlarga tegishli bo‘lgan umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalarni integratsiyalash;

-yaxlit bir butun tizim bo‘lgan kompleks ob’ektlarni o‘rganish. Bunda “koinot, “jamiyat”, “inson”, “muhit”, “tabiat” kabilarga oid bilimlar integratsiyalashtirib o‘rganiladi;

Maktabgacha ta’lim tayyorlov guruhilarida integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasining dolzarb muammolari so’nggi yillarda xalqaro, mintaqaviy va respublika miqiyosida o’tkazilgan qator ilmiy-amaliy anjumanlarda ham muhokama qilib kelinmoqda. O’zbek auditoriyasida integratsiyalashgan ta’limga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezdentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-2707-son qarori. - «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.

2. Mirziyoyev.Sh Tanqidiy tahlil, qat’iy tahlil va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. «O‘zbekiston », 2017. 3.

3. Maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari. - T. 2017. 4.

4. Mavlonova.R, Raxmonqulova.N. Boshlang’ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – Toshkent. “O‘qituvchi” 2006.-87 b.

5 Soatov.A.J. Bo‘lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2021.-84-93.b.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING TASVIRIY-IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna, Amirova Gulandon Ilhom qizi
GulDU Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti, Texnologik va maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
GulDU Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti, Texnologik va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi sirtqi III bosqich talabasi

Abstract. In this article, the content and essence of the development of visual and creative competences in future educators, its components and role in improving the quality and efficiency of preschool education are theoretically and pedagogically justified and effective methods are reflected

Key words: Competence, information-communication, visual-creative, modern education, competence, vocational training, development.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mamlaktimizda ta’lim sohasidagi rivojlanish tendentsiyalariga mos ravishda ta’lim standartlarini kompetentsiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro pedagogik tajribalar ta’lim sifatini bitiruvchilarning kompetentsiya darajasi asosida baholash va bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni ta’limning innovatsion texnologiyalari vositasida rivojlantirish, ta’limning yangi paradigmalarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturlari orqali o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy usullaridan kompleks foydalanish hamda didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan. [1]

Rivojlangan xorijiy davlatlar va respublikamizning oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonini kompetentsiyaviy yondashuv va zamonaviy o‘qitish texnologiyalari asosida loyihalash, uni amalga oshirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish dolzarb muammo hisoblanadi.

Xususan, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayorlashni takomillashtirishga oid tadqiqotlar olib borilayotgan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy tadqiqot ta’lim markazlarida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. Bunday izlanishlar olib borayotgan tadqiqot markazlariga Princeton University (AQSh), Manchesters University (Angliya), National Advice on Pedagogical Technology (Angliya), Belfield Pedagogical University (Germaniya), Ta’lim texnologiyalari navigatori axborot-metodik markazi (Rossiya) va Seoul Cyber University (Janubiy Koreya) kabi mamlaktlarning ilg‘or tajribasini kiritish mumkin.[9]

Maktabgacha ta’lim va tarbiya sifatini yanada takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati, bo‘lajak tarbiyachida kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, unga qo‘yiladigan talablarni nazariy va amaliy jihatan asoslash, uni ro‘yobga chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati tadqiqot mavzuning dolzarbligini belgilaydi.[10]

Amaliyot shundan dalolat beradiki, MTT tarbiyachilarining tasviriy-ijodiy kompetentsiyalari davlat oliy ta’lim standartlari darajasida deb bo‘lmaydi. Bunday holatning asosiy sabablari quyidagilarda kuzatiladi:

- tarbiyachilarning tasviriy mashg‘ulot mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishga kompetentsiyaviy talablar darajada tayyorgarlikka ega emasligi;
- oliy ta’lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini o‘qitish texnologiyasining bugungi kun talablariga javob bermasligi, ushbu fanlarni talabalar o‘zlashtirishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilmaganligi;
- bo‘lajak tarbiyachilarning bolalarni badiiy-ijodiy rivojlantirish soha kompetentsiyalarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘zlashtirmasliklari;
- bolalarni badiiy-ijodiy rivojlantirish maqsad va vazifalarini amalga oshirish jarayoniga bo‘lajak tarbiyachilarning kompetentsiyaviy tayyorgarlik darajasiining xalqaro standart talablariga javob bermasligi va h.k.

Atrof muhitga estetik munosabatni tarbiyalash bolada ko‘plab shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bu murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, bunda yosh davrlarini ilg‘ash anchagina qiyin kechadi.

Biroq, badiiy tarbiya dasturi mazmunidan mashg‘ulot jarayonida olib boriladigan ishlarni aniq belgilab olish mumkin. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida badiiy faoliyatning har bir turi bo‘yicha bolalar o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilim va malakalar xajmi, shuningdek turli yoshdagi guruhlarda bolalar qobiliyatlarining rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasiga aniqliklar kiritilgan.

MTTning asosiy vazifalaridan biri bolalarni maktabga tayyorlash. Shuning uchun ham maktabga tayyorlov (6-7 yoshdagi bolalar) guruhlarida olib boriladigan ishlarni bugun va ertangi kunda maktab oldida turgan talablarni hisobga olib tashkil etish lozim.

Bolalarni tasviriy-ijodiy rivojlantirish ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun uning mazmuni, har xil yoshdagi bolalarni tarbiyalash vazifalaridan kelib chiquvchi aniq talablarni belgilab olish maqsadga muvofiq. Bu esa o‘z novbatida har xil tasodifiy holatlar, tartibsizlik, estetik tarbiya vosita va usullarini tanlashda bir yoqlama yondashuvlarni oldini olish, amaliyotchi-pedagog o‘z ishini to‘g‘ri rejalashtirishi, materiallarni muayyan ketma-ketlikda joylashtirishi, uning natijasini oldindan ko‘ra bilishiga yordam beradi.

Bolalarni ijodiy rivojlantirish dasturida bolaning hayotga faol munosabatda bo‘lish, baddiy idrok etish, ijodiy mushohada qilish qobiliyati, xotirasini shakllantirish, san’atga bo‘lgan qiziqish, uni his etish, badiiy iqtidorini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Bolada bunday sifatlar nomoyon bo‘lishi va rivojlanishini kuzatish, aniq bilim va malakalarni shakllantirish ancha murakkab jarayon bo‘lib, bolani rivojlantirish jarayonida ketma-ketlikni aniq belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu doirasidagi tahlillar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Bolalar huquqlarini himoya qilish Konvensiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning maktabgacha ta’lim sohasini tubdan takomillashtirishga oid farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, rivojlangan xorijiy davlatlar va mahaliy olimlarning maktabgacha ta’lim sohasida yaratgan ilmiy-pedagogik adabiyotlari, Sharq mutafakirlarining bola tarbiyasi, ularni badiiy hamda estetik tarbiyalash haqidagi g‘oya va qarashlari, pedagogik ta’limotlari, xorijiy va respublika olimlarining muammoga doir ilmiy ishlari, maqolalari, dissertatsiyalari, monografiyalari, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tadqiqot ishimizning nazariy-metodologik asoslarini tashkil qiladi.[2]

Ko‘plab xorijlik pedpagog olimlar (Baydenko V.I., Boyasis R., Bundina Yu.M., Gabdraxmanova E.V., Grishina N.A., Kameron K., Kuinn R., Kuzmina N.V., Kuleshova A.I., Koveshnikov P.A., Markova A.K., Murtazina S.A., Marr R., Raven Dj., Skachkova N.V.,Torshina I.B., Uiddet S., Verbitskiy A.A., Xutorskiy A.V., Xolliford S., Zeer E.F., Zimnyaya I.A. va boshqalar)ning tadqiqot ishlarida “kompetentsiya”, “kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” kabi tushunchalarining mazmun-mohiyati, uni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari tahlil etilgan.[6]

Respublikamizning bir qancha pedagog olimlari (Abdullaeva Q.M., Djuraev R.X., Hamidov J.A., Ismailova Z.K., Magzumov P.T., Muslimov N.A.,Nishonaliev U.N., Olimov Q.T., Quysinov O.A., Rashidov X.F., Tolipov O‘.Q., To‘raqulov O.X., Urazova M.B., Xodjabaev A.R., Sharipov Sh.S. va boshqalar) o‘z tadqiqot ishlarida pedagogik ta’limini rivojlanish jarayoni va tendentsiyalari, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari atroflicha yoritilgan.

Abduqudusov O.A., Ashurova S.Yu., Abdullaeva Q.M., Mirsaidov K.D. va boshqalar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, kasbiy ta’limda maxsus fanlarni o‘qitish va ishlab chiqarish, ta’limini takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. [8]

Mahaliy va xorijiy pedagog olimlarning ushbu tadqiqot ishlari bizning magistrlik dissertatsiya ishimizda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Ta’limda kompetentlik bilan yondashuv tarbiyalanuvchilarni turli ko‘nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo‘naltiradi. Tarbiyachining vazifasi – mustaqil qaror qabul qilish, masala echimining yangicha usullarini topish, olingan natijaga mustaqil baho berish kabi vaziyatlarda samaraga erishish qobiliyatini rivojlantirish.[7]

MTT tarbiyachilari barcha mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan asosiy kompetentsiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning tipik (keng tarqalgan) metodlari:

- bolalarning avvalgi tajribalariga murojaat qilish;
- muammoli topshiriqlar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish va vaziyatlarni muhokama qilish hamda qaror qabul qilish;
- tadbirkorlik va rolli o‘yinlar, mashg‘ulotlar;
- loyihaviy faoliyat : hayotiy vaziyatlarga bog‘liq tadqiqotchilik, ijodiy, rolli faoliyatlar, amaliyotga yo‘naltirilgan (kichik) mini-loyiha va loyihalar.

MTT tarbiyachisi pedagogik mahoratni egallagani quyidagilarda aks etadi:

- real mavjud ijtimoiy psixologik hodisalar holatini, ularning paydo bo‘lish va rivojlanish sababalarini, shart-sharoitlari va xarakterini tahlil qila bilishi va baholay olishi;
- shaxs va jamoa rivojlanishini rejalashtira bilishi;
- ta’lim va tarbiyaning natijalarini bolalarlarning duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarni oldindan ko‘ra bilishi;
- konkret pedagogik vazifani ajratib ola bilishi va aniq ifodalay olishi, uni hal etish shartlarini belgilay olishi;
- ta’lim va tarbiya ishi metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarini asosli tarzda tanlay bilishi;
- rejalashtirilgan ta’sir tizimiga nisbatan bolalar tomonidan javob tariqasidagi munosabatning xarakterini oldindan ko‘ra bilishi;
- ta’lim va tarbiya materialini ta’lim va tarbiya maqsadlariga muvofiq tarzda, bolalarining maktab ta’limiga tayyorgarligini va tarbiyalanuvchi darajasini hisobga olgan holda tanlab, tahlil va sintez qila bilishi;
- mashg‘ulotlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishi va ijodiy yondasha olishi va didaktik jihatdan aylantira olish;
- mashg‘ulotni tashkiliy va pedagogik mantiqiy-psixologik jihatdan ijodiy va asosli tarzda qo‘llana bilish;
- bolalarni faoliyati har xil turlarini mavjud pedagogik imkoniyatlarini aniqlab,harakatga keltira olishi;
- alohida bola va jamoa uchun topshiriqlarni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda belgilay olishi va ular mantiqini ilgari surilayotgan tarbiyaviy maqsadlarga moslangan holda o‘zgartira bilishi;
- bolalarning harakati strukturasini va ular faoliyatiga pedagoglar rahbarligini rejalashtira olish;
- ta’lim va tarbiya metodlarini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda qo‘llana bilishi;
- bolalarni xulq-atvori, intizomi va faolligini idora qila bilishi;
- tashqi ko‘rinishi va qilmishlariga qarab bolalarning psixik holatidagi o‘zgarishlarni aniqlay bilishi, ular xulq-atvorini konkret hayotiy vaziyatlardagi xususiyatlarini tushunib etishi va izohlab bera olishi;
- o‘zini hayolan bolalar o‘rniga qo‘yib ko‘ra bilishi;
- bolalarni ergashtira olishi, ularni ijtimoiy jihatdan qimmatga ega bo‘lgan yangi istiqbollarga qiziqtira bilishi;
- bolalarning umumiy vazifani bajarishi uchun guruhlarga ajratish chog‘ida ularni o‘zaro munosabatlarini, shaxsiy maylligi va xushlamasligini inobatga olishi;
- o‘quv-tarbiya ishida qo‘llanilayotgan metodlar, vositalar va tashkiliy shakllarning bir-biriga solishtirilgan holda samaradorligini aniqlay bilishi;
- professional pedagogik faoliyatdagi yutuqlar va kamchiliklarning tabiatini tahlil qila bilishi;
- o‘z tajribasini tahlil qilib, umumlashtira bilishi;
- o‘z tajribasini pedagogika nazariyasi bilan taqqoslab ko‘rishi, o‘z oldiga tadqiqiy vazifalarni qo‘ygan holda tegishli metodikani qo‘llay bilishi;
- erishilgan natijalarni tahlil qilish negizida navbatdagi pedagogik vazifalarni ilgari surishi va asoslab berishi kerak.

Ta’lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning shiddatli axborot oqimida to‘g‘ri yo‘l topa oladigan, axborotlardan unumli, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, kasb-hunar o‘rganishida foydalana oladigan, izlanuvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Bu ishning muhimligi shundaki, pedagogik tajriba ta’lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritilmasin, qanchalik

mukammal dasturlar, darsliklar va ta’lim standartlari yaratilmasin, ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy qilish o‘qituvchi shaxsi va pedagogik mahoratiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.[5]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida” gi PF-60-son Farmoni. –T., 2022 yil 28 yanvar. lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoni. – T., 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.

3. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. Monografiya. – T.: Fan, 2004

4. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. -T.: “Fan”. 2000. 146-b.

5. Yoldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 132 b.

6. Шербаков А.И. Психологические основы формирования личности учителя в системе висщего педагогического образования. – М.: Просвещение, 1976. – 191с.

7. Qur’onov M., Muranov B. Milliy dastur o‘qituvchi professiogrammasi. «Xalq ta’limi», 1998, 1– son, 42-45 betlar17.

8. Choriev R. Yangi pedagogik texnologiya – ta’lim-tarbiya sifat va samaradoriligini oshirish omili. Xalq ta’limii. 2004, 4 son, 12 bet.

9. Xodjaboyev A.R., Husanov I.A. Kasbiy ta’lim metodologiyasi. - T., “Fan va texnologiya”, 2007, 192 bet.

10.Muslimov N. O‘qituvchi shaxsini shakllantirishning nazariy-metodologik omillari. Xalq ta’limi, 2004, 3- son 73- bet

TEHNOLOGIYA FANINI INTEGRALLAB O‘QITISHDA YOSHLARNING BILIM KO‘NIKMA VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Xoliqova Sayyora
GulDu o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Barkamol shaxs tarbiyasida, albatta, mehnat ta’limining alohida o‘rni bor. Ushbu maqolada o‘quv fani o‘quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish kabi ta’limiy maqsadlarga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: intellektual, ekologik, integrativ, uzluksiz ta’lim, modernizatsiya, zamonaviy texnologiya, integratsiya, aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigienik, huquqiy, analiz.

Insoniyat XXI asr—yuksak rivojlangan texnika, axborot texnologiyalar asriga qadam qo‘ydi. Bu texnologiyalarni intellektual, xar tomonlama bilimga ega bo‘lgan barkamol avlodgina samarali boshqara oladi. SHuningdek bu avlod zimmasiga,

Koinotda nuqtadek bo‘lgan va xayot baxsh etilgan noyob sayyora—Yer, ona zaminimizni ko‘z qorachig‘idek avaylab asrash, ekologik muvozanatlash, saqlash, uning moddiy—tabiiy resurslaridan oqilona, tejamkorlik bilan foydalanish, insonni ma’naviy yuksaltirish kabi global ahamiyatga molik muammolarni hal etishga hissa qo_shish ma’suliyatini anglash va amalga oshirishdek sharafli vazifa xam yuklatilgan. Bu vazifalarni xis etadigan xar tomonlama yuksak bilimga ega bo‘lgan intellektual yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan xisoblanadi. Xozirgi davr jahon pedagogikasi yoshlarni tarbiyalashda, ularning kasb bo‘yicha tor professional bilimlarni egallashlariga chek qo‘yishni, uzluksiz ta’lim tizimida, jumladan, umumta’lim fanlaridan keng integrativ bilimlarga ega bo‘lishlari zarurligini taqoza qiladi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayoygan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari jumladan, oliy ta’limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishni, o‘z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni

taqozo etmoqda. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda “ Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi “ fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o‘rinni egallaydi. Mazkur fan orqali bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilar fanining asosiy ilmiy – nazariy va amaliy natijalariga asoslangan holda o‘quvchilarga mehnatsevarlik, intizom, masuliyat, burch hissi, ijodkorlik qobilyatlarini rivojlantirish malakasiga ega bo‘ladilar.Darslikda texnologiya va uni uqtirish metodikasining umumiy asoslari, darslarda integratsion yondashuv, mashg‘ulotlar jarayonida xorijiy ta’lim tizimida foydalanish, shuningdek qo‘l mehnati, qog‘oz va karton bilan ishlash, applikatsiya, tabiiy materiallar plastilin, gazlama bilan ishlash texnologiyalari tog‘risida amaliy- metodik bilimlar o‘z ifodasini topgan. Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida axbarot texnologiyalari hamda ta’lim jarayonida innovatsiyalar va interfaol usullardan foydalanishning yo‘l va usullari ko‘rsatib berilgan. Texnologiya darslarini tashkil etishda o‘qituvchining eng muhim vazifalarida biri o‘qituvchilarni mustaqil bilim olishga tizimli o‘rgatib borishdan iborat bo‘lib, ularni ongli, maqsadli natijaga erishishga yo‘naltirishdan iborat.

Barkamol shaxs tarbiyasida, albatta, mehnat ta’limining alohida o‘rni bor. Ushbu o‘quv fani o‘quvchilarda aqliy va jismoniy mehnat turlari, mehnat jarayonlari haqida keng tushuncha hosil qilish, mehnatga oid ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish kabi ta’limiy maqsadlarga xizmat qiladi. Maktabdagi texnologiya ta’limi va tarbiyasining maqsadi: o‘quvchilarga mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘usini singdirishdan; o‘quvchilarni hozirgi zamon sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko‘rsatish sohalari asoslari va texnologik jarayonlar bilan tanishtirishdan; o‘qish va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda mehnat ko‘nikmalari va mahoratini hosil qilishdan; ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang‘ich hunar ta’limini olishga undashdan iborat.

"Integratsiya" atamasi nomi jihatdan yangi bo‘lib, mazmun va moxiyati jixatdan o‘zaro tarixga ega. Koinotda, jamiyatda, xayotda, turmushda va ishlab chiqarishda, ta’limda, ya’ni mikro olamdan tortib makro olamgacha integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiya—juda keng ma’nodagi tushuncha. Bugungi kunga kelib, insoniyat integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglash, uning rivojlantiruvchi funksiyalarini amalda qo‘llay olish natijasidagina sayyoramizdagi muhim ekologik muammolarini hal qila olish, hayotni saqlab qolishi mumkinligini anglagan xolda, unga ehtiyoj zarurligini sezmoqda. Bu muammolarni hal qilishda, ayniqsa, pedagogikaning, ta’limdagi integratsiya jarayonining muhimligini ko‘pchilik mamlakat olimlari tomonidan tahlil qilinmoqda.

Psixologlarning uqtirishicha idrok qilishning asosiy turi bu kuzatishdir, I.P.Pavlov ta’biri bilan aytganda, kuzatuvchanlik — ilmiy bilishning asosiy sharti hisoblanadi. Shuning uchun ham, o‘quvchilarni tabiatga olib chiqish, kuzatishlar olib borish, uning go‘zalligini his qilish, undan bahramand bo‘lish, uni sevish va e’zozlashga o‘rgatishi lozim. U miyaning ish faoliyati tizimli integratsiyalashgan axborotlarga bog‘liq degan edi. Psixolog B.G.Ananeva "Axborotlarni integrallashning psixofiziologik konsepsiyasi"da integratsiya tufayli individning o‘z- o‘zini boshqarish qobiliyatining ortishi, umumlashtirish modelida fikrlashi, ijodiylikning shakllanishini isbotlagan. S.L.Rubinshteyn integratsiya masalasini echishda fikrlash xodisani bog‗liqlik yo‘llarini analiz qilishdan va keyingi bosqichida sintezlashdan iborat deb ko‗rsatadi. YA.A.Komenskiy insonni tabiatning—bir qismi hisoblab, ta’lim tabiatda asoslanishi va bolaning yosh xususiyatiga muvofiq kelishi kerak degan g‘oyani ilgari suradi.

Biz integratsiyaning moxiyatini aniqlash jarayonida uning falsafiy, pedagogik — psixologik va metodik asoslarini aniqlab oldik. Ma’lumki, o‘qitish va tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki, tarbiya ta’lim jarayonining barcha majmuini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy intelektual insonni tarbiyalashda integrativ ta’limning barcha jihatlari (aqliy, ahloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigienik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

Masalan:TEXNOLOGIYA VA EKOLOGIYA. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida ish asboblari va xom ashyolardan tejamkorlik bilan foydalanish kun tartibidagi asosiy talablardan bo‘lib qoldi. Amaliy mashg‗ulotlarda xom-ashyolardan va asbob-uskunalardan tejamsiz, palapartish foydalanish pirovard oqibatda ekologiya muammosiga kelib taqaladi. Shuning uchun o‘quvchilarga yog‘och, metall, plastmassa kabi materiallarni berayotganda nima uchun bu xom ashyolarni tejamkorlik bilan ishlatish zarurligini aytib o‘tish lozim. Ularga bu narsalarning uzoq davrlar mobaynida va qanday yo‘llar bilan vujudga kelishini hamda tabiatga qanchalik ta’sir ko‘rsatkichi yoki

bog_liqligini gapirib o‘tish mumkin. Yuqorida aytilgan fikrlar mehnat talimidagi fanlararo uzviy bog‘lanishlar ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Bilamizki, bitta darsni birdaniga hamma fanlar bilan bog‘lab o‘tib bo‘lmaydi, balki o‘rganiladigan mavzuga mos keluvchi tushuncha va ma’lumotlarni tanlab olib, zarur paytda ulardan foydalaniladi. Shuningdek, mehnat darslarida boshqa fanlar, jumladan chet tili, iqtisod kabi fanlardagi tushunchalardan ham keng foydalanish mumkin. Hozirgi kundalik turmushning barcha javoblarida, fizika, texnika va boshqa tabiiy fanlarning integratsiyasi jarayonlari keng qo‘llanilib kelinmoqda. SHuning uchun xam bo‘lajak mutaxassis o‘quvchilar, maktabda umumta’lim predmetlari bo‘yicha keng integrativ bilimlar bilan qurollangan bo‘lishlari lozim. Bunda o‘qituvchi maqsadga yo‘naltirilgan, uslubiy va ilmiy asoslangan va o‘quv materiallarining mazmuni, mohiyati bo‘yicha maqsadga muvofiq integragiv materiallarni tanlashning prinsiplarini bilishi zarur. Binobarin, o‘qituvchi nafaqat dasturdagi mavzularga oid integrativ materiallarni yig‘ishi, balki uni tizimlashtirishi, ular bilan o‘quvchilarni darsda va darsdan tashqari mashg_ulotlarda tanishtirish maqsadida zaruriy metodlarni izlab topishi lozim.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchlarga integratib bilim berish orqali bilim ko‘nikma malakalarini mustaxkamlash va rivojlantirish etiborga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoyev.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.2020y.24-yanvar. T.-“Tasvir” nashriyoti 2020y 72-bet.

2.Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini metodik shakllantirishning nazariy - metodik asoslari. DissertatsiY. ped.fan.dok. - Toshkent.: 2007y.

3.M.Z. Murtozayev.Texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini amaliy saviyasini oshirishning uslubiypedagogik asoslari. Monografiya.-T.: «Fan va texnologiya», 2017, 120 bet

4.N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Quysiyov. Texnologiya ta’limi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini 5- sinflari uchun. Toshkent. 2013y.

5.M.Muxliboyev. “Glaballashuv davrida yoshlarni integrativ ekologik madaniyatini shakillantirish yo‘llari” “Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muommolar,yechimlar va hamkorlik” 2023-yil 25-26 may.

6.M.Muhliboev, G.Qurbonova. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. Guliston.:2013 y.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЛАШТИРИЛГАН ЎҚИТИШ ВОСИТАЛАРИ НЕГИЗИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ТУЗИЛМАВИЙ МОДЕЛИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ

Тўйчиев Адҳам Амруллаевич

Гулистон давлат университети, 120100. Сирдарё вилояти, Гулистон шаҳри, 4-мавзе.

Email:tuychiyevadham@mail.ru

Аннотация: *Бу маколада укувчи ёшлар билан касбга йўналтириш ишларини кўриб чиқиш, ўрта мактабдан кейинги таълим йўналиши ва даражасини танлаш асосли касбни ўзини ўзи белгилаш, ўрта мактаб ўқувчиси билан касбга йўналтириш ишларида олий таълимга ўқитиш имкониятларини тушунишга имкон беради.*

Калит сузлар: *Юқори синф, касб, узлуксиз, олий таълим, интеграция, жамият, меҳнат, Ўрта мактаб, фанлараро, Тадқиқот масалалари, профессионаллаштириш, профессионал, мувофиқ, трансформацион имкониятлар, касбий таълим, ўқитиш, ижтимоий-маданий*

Таълим тизимида ўқувчиларни касбга тайёрлашнинг инновацион, айниқса, ахборотли усул ва технологияларини ишлаб чиқиш замонавий касб таълимининг долзарб ва истиқболли

масалаларидан биридир. Бунга сабаб жамият тараққиётининг даражаларига мос равишда касбни эгаллаш ҳам замонавийлашиб бормоқда ва айниқса замонавий янги касб-ҳунарлар ҳам ҳаётимизнинг турли жабҳаларига кириб келмоқда.

Тадқиқотимизнинг ушбу қисмида ўқувчиларни касбга тайёрлашнинг интеллектуаллаштириш тизимларига асосланган ҳолдаги инновацион вариантини, яъни моделли кўринишини тадқиқ қилиш билан шуғулланамиз.

Ушбу соҳада олиб борилган изланишлар ва кузатишлар натижа-ларининг кўрсатишича, ўқувчиларни касбга тайёрлашнинг моҳияти қуйидаги ҳолатларнинг мукаммаллигида яққолроқ намоён булади:

- касбга тайёргарлик жараёнида ўқувчининг ўзини-ўзи намоён этишга тўлиқ шароит яратади ва ушбу жараёнда ўқувчиларнинг жисмоний, ақлий, руҳий ва шу каби фаолиятлари уйғун ҳолда амалда бўлади;

- ўқувчининг касбга тайёргарлиги бўйича эришилган натижаси эгалла-моқчи бўлган касбга ва унга оид моддиётнинг асл мазмун-моҳиятини ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш жараёнига чуқур кириб боришга имконият яратади ва бу касб учун аҳамиятли булган моддий ҳамда маънавий қадрият-ларни яратишга илҳомлантирувчи куч ҳам бўлади;

- ўқувчиларни касбга тайёрлаш жараёни улардаги таҳлилий ва мус-тақил фикрлаш қобилиятларини янада юксалтиради ҳамда бу мазкур жара-ёндаги фикрлашнинг ўзига хослигини, яъни қўйилган янги муаммога нисбатан юқори даражадаги қобилиятлилик, мустақиллик, ўз-ўзини ташкил этишлик, ва ўз-ўзини баҳолай олишлик каби ҳолатларда муҳим асос бўлиб ҳисоб-ланади;

- ўқувчиларни касбга тайёрлаш жараёни динамик характерга эга бўлиб, у ўзига хос алгоритмик кетма-кетликда олиб борилади ва шунинг учун ҳам у ижодий мотивацион фаоллик ва йўналганликни ҳамда ўқувчиларнинг касбга бўлган қизиқишини юксалтириш нафақат амалий жараён, балки у назария билан амалиётнинг интеграцияси эканлигини кўрсатади. Шуларни эътиборга олиб касбга тайёрлаш жараёнини қуйидагича таърифлаш мумкин, яъни **касбга тайёрлаш** - бу ўкувчиларнинг эгаллаган билим ва кўникмаларини қўллаган ва муайян касбнинг мазмунини аниқ англаган ҳолда технологик жараён ва нарса(предмет)ларни мақсадли ясашга ёки ўзгартиришга қаратилган ақлий ҳаракатли фаолият бўлиб, унинг натижасида ўқувчи ўзи учун янги бўлган техник, технологик ҳамда ишлаб чиқариш масалаларини ҳал этиш борасидаги янги, фойдали бўлган предметни ишлаб чиқиш жараёнидир.Демак, касбга тайёрлаш жараёнининг шакилланиши, ривожланиши ва унинг амалий фаолиятда ўз ўрнини топиши бошқа фаолиятлар (билим эгал-лаш, тегишли услубларга эга бўлиш, умум педагогик тамойиллар ва методлар ҳамда уларнинг ташкилий жиҳатлари) билан ўзаро узвий боғлиқ экан.

Мақсад: ўқувчиларни касбга тайёрлашга оид мотивлар ва тамойил-ларига асосланган ҳолда касбга тайёрлаш фаолиятининг асосий компо-нентлари (касбий онг, касб эътикаси, касб масъуляти, касбий муносабат, касбий тарбияланганлик ва шу кабилар) ҳақидаги билим ва кўникмаларни шакллантириш орқали уларни касбий фаолиятга тайёрлаш.

Вазифалари:

- ўқувчиларнинг касблар ҳақидаги билимларини мустаҳкамлаш ва кенгайтириш ҳамда тизимлаштириш борасидаги қобилиятларини ривож-лантириш;

- ўқувчиларда касблар ва уларнинг ижтимоий ҳамда индивидуал аҳамияти тўғрисидаги динё қарашини кенгайтириш;

- ўқувчиларда касблар бўйича олиб бориладиган меҳнат кўникмаларини шакллантириш, уларга мос меҳнат қуроллари билан ишлаш, муайян касбга боғлиқ бўлган ўз ижодий фикрини расм, чизма, макет кабилар орқали иодалаш кўникмаларини шакиллантириш;

- ўқувчиларнинг фикрлаш қобилятини, фантазиясини, топқирлигини шакллантириш негизида касблар бўйича изланиш фаолиятига қизиқишини ривожлантириш;

- ўрта умум таълимдаги фанлардан (хусусан, технология таълими ва чизмачилик фанларини ўқитишга ҳамда касбга оид тўгарак машғулотларида) ўқувчиларга таълим-тарбия беришда уларни касбий фаолиятга самарали тайёрлашга имкон берувчи дидактик воситаларини аниқлаш ва қўллаш;

- интеллектуаллаштирилган ўқитиш тизимлари негизида ўқувчиларни касбга тайёрлаш моделини ишлаб чиқиш;

- ўқувчиларни касбга тайёрлашга оид машғулотларни ташкил этиш ва ўтказиш методикасини ишлаб чиқиш;

Ушбу тадқиқот ишимизнинг навбатдаги қисмида юқорида қайд этилган ўқувчиларни касбга тайёрлашнинг мазмун-моҳияти, таърифи, мақсади ва вазифаларига асосланган ҳолда интеллектуаллаштирилган ўқитиш восита-лари негизида ўқувчиларни касбга тайёрлашнинг ташкилий-тузилмавий моделини ишлаб чиқишга киришдик.

Ушбу соҳада олиб борган изланиш-ларимиз ва кузатишларимиз натижалари ўқувчиларни касбга тайёрлашнинг ташкилий-тузилмавий моделини ифодалангандик қилиб ишлаб чиқишга имконият яратди.Ташкилий-тузилмавий моделдаги ҳар бир таркибий қисмнинг ўз функционал вазифаси бор ва улар ўқувчиларни касбга тайёрлашда ўз муҳим аҳамиятига эга. Қуйида улар тўғрисидаги қисқача маълумотларни келти-рамиз:

Касбларга оид тарихий-маънавий мерос. Бунда кишилик жамияти тараққиёти ва айниқса одамлар турмуш тарзини яхшилашга оид касблар ва ҳунарлар тўғрисидаги тарихий маълумотлар (ривоятлар, ҳикоятлар, ҳалқ оғзаки ижоди наъмуналардан касбга ва унинг аҳамиятига оид матнлар, халқ мақоллари, пандномалар, насиҳатномалар ва ҳ.к).

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Абдураҳмонов Б. Г. Академик лицей ўқувчиларида касбга қизиқишни шакллантириш педагогик муаммо сифатида // Таълим тизими бошқарув кадрларини тайёрлаш: муаммолар ва истиқболлар: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: 2014. – Б. 11-13.

2. Абдурахманова Ш.А., Эшматов С. Инновацион педагогик ва ахборот технологияларини ёшларнинг интеллектуал кўникмаларини ривожлан-тиришда қўлланилиши // Таълим тизими бошқарув кадрларини тайёрлаш: муаммолар ва истиқболлар: Республика илмий-амалий анжуман материал-лари. – Т.: 2014. – Б. 9-11.

3.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

4.Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent,O‘zbekiston, 2016.-56b

5.Н.А.Муслимов, Ш.С.Шарипов, МДодиров. “Техник ижодкорликва дизайн”. - Т.: “ТДПУ”, 2010.

6.Ш.Шарипов, Н.Муслимов. “Техник ижодкорликва дизайн”. - Т.: 2011 йил

Қўшимча адабиётлар:

1.Муллахметов Р.Г., Мамажанова К., Каримов О. Меҳнат таълими фани бўйича техник тўгаракларда ўқувчиларнинг ижодий кўникмаларини шакллантириш жараёнидаги айрим муаммолар // Таълим тизими бошқарув кадрларини тайёрлаш: муаммолар ва истиқболлар: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: 2014. – Б. 224-226.

2. Муслимов Н.А., Муллахметов Р.Г. Касб танлашга тайёрлаш. – Т.: “IQTISOD – MOLIYA”, 2007. – 205 б.

YUQORI SINF O‘QUVCHISI BILAN OLIY TA’LIMGA TAYYORGARLIKDA KASBGA YO‘NALTIRISH JARAYONI MODELINING XUSUSIYATLARI

Tuychiyev Adham Amrullayevich, Ostanova Gulsanam Abbos qizi
GulDU katta o‘qtuvchisi
GulDU talabasi

Annatatsia:*Bu maqolada o‘quvchi-yoshlar maktabdan keyingi yo‘nalishi, kelajakdagi kasbini tanlashi ,maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishi, yoshlarni kasbiy ongini va kasbiy yo‘nalishini shakllantirishdan iborat*

Kalit so‘zlar*: ta’lim, maqsad, shaxsiy, zamonaviy, bilim, universitet ,jamiyat, kasb-hunar,bosqich,uzluksiz,maktab,imkoniyat,o‘quvchi,ish,yo‘nalish,kelajak,ong, seminar,uslubiy,o‘rta maktab,tashkilot,amaliyot,tajriba,to‘plam,konstruktiv ta’lim*

Yuqori sinf o‘quvchisi bilan kasbga yo‘naltirish ishlarining mazmun xususiyatlarini nazariy va uslubiy tahlil qilish asoslarini o‘rganish, mavzuni aniqlash oliy ta’limga o‘qitishning rivojlanayotgan, semantik va o‘zgaruvchan imkoniyatlari, talabalar bilan kasbga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirishni aks ettirish, amaliy mashg‘ulotlarning ilg‘or yo‘nalishlarini o‘rganish, tajriba va o‘z tadqiqot ishlanmalarni umumlashtirish oldindan oliygohga tayyorlash, o‘rta shogirdi bilan mansab hidoyat ish jarayoni modelini ishlab chiqish uchun asosiy edi.

Muallif modelini ishlab chiqish asl nusxaning mantiqiy tasvirining mazmun xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan (yuqori sinf o‘quvchisi bilan oliy ta’limga tayyorgarlikda kasbga yo‘naltirish ishi) nazariya va nazariya birligida o‘rganilayotgan hodisaning ajralmas va tuzilgan analogini aks ettiruvchi majoziy standart sifatida, amaliyot, uning o‘zaro bog‘liq elementlari, ichki va tashqi tashkil yetish tamoyillari, kognitiv maqsadlar uchun analog modelning ishlashi va o‘zgarishi shartlari.

Dissertatsiya ishida o‘rganilayotgan hodisaning jarayon modelini qurish bilimlar doirasini kengaytirish va universitetgacha tayyorgarlikda yuqori sinf maktab o‘quvchisi bilan kasbga yo‘naltirish ishlarining bosqichlari mazmuni va tarkibiy yaxlitligini tizimlashtirish, ta’lim munosabatlari ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatini qurish yo‘llari, boshqarish qobiliyati uchun zarurdir va tashxis qo‘yilgan, maqsadli rejalashtirilgan, izchil erishilgan, nisbatan yakunlangan natijani bashorat qilishda oliy ta’limga o‘qitish imkoniyatlaridan foydalanishni tashkil etish. Tuzilishi o‘zaro bog‘liq hissiy, kognitiv va xulq-atvor komponentlari bilan ifodalangan yuqori sinf o‘quvchisining kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi.

YUqori sinf o‘quvchisi bilan oliy ta’limga tayyorgarlikda kasbga yo‘naltirish ishining mualliflik modeli boshqaruv shakllantiruvchi pedagogik ta’sirlarning oqilona ta’siri ostida o‘rganilayotgan hodisaning kursi va mantig‘ini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan yagona tizim formatida o‘z vaqtida joylashtirilgan o‘quv amaliyoti shartlari: "oliy maktab o‘quvchisi-umumiy ta’lim tashkiloti — oliy ta’lim ta’lim tashkiloti — kasb-hunar tanlash oliygohda tanlagan yo‘nalishi-zamonaviy mehnat bozorida amalga oshirish istiqbollari" (A. A. Kornilova , O. V. Kurchiy , L. G. Nagayeva, T. YU. Rubsova , V. A. SHtereb).

Yuqori sinf o‘quvchisi bilan oliy ta’limga tayyorgarlikda kasbga yo‘naltirish ishining jarayon turini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari protsessual dinamik xususiyatlarda aks etadi: maqsadlar, mazmun yo‘nalishlari va ta’lim munosabatlari ishtirokchilari faoliyatining o‘ziga xosligi, texnologiyalar, usullar va shakllar, faoliyatni tashkil etish usullari o‘rganish, ishlash ko‘rsatkichlari natijasi muammo ostida (E. V. Yakovlev, N. O. Yakovleva). Modelning bu xususiyatlari bosqichma-bosqich boshqariladigan maqsadli, uyushgan va o‘z-o‘zini tashkil etgan o‘zaro bog‘liqlik mantig‘ida keltirilgan talabani aniqlash.

Oliy ta’limga tayyorgarlikda yuqori sinf o‘quvchisi bilan kasbga yo‘naltirish ishlarining jarayon modeli:

- faol xarakterga ega (mehnat va ta’lim sohasini ongli ravishda tanlash uchun qisqa va uzoq muddatda talabalar tomonidan talab qilinadigan kasblarning yangilangan tarkibini rivojlantirishni belgilaydigan nazariya, amaliyot va faoliyatning birligi; yuqori sinf o‘quvchisini kasbiy o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini o‘zgartirish, dunyoning semantik tasviri, qadriyatlar, xulq-atvor usullari, doimiy rivojlanayotgan shaxsiy ehtiyoj va intilishlarni tushunishda sub’yektiv pozitsiyani faollashtirish, yuqori texnologiyali xizmat ko‘rsatish sohalari, mintaqaviy iqtisodiyot, texnologik yutuq yo‘nalishlari);
- ochiq qurish sifatida harakat (oliy ta’lim ta’lim tashkilotlari bilan umumiy ta’lim muassasasi faol hamkorlik, jamoatchilik, turli guruhlar va ijtimoiy muassasalar, korxonalar bilan, davlat idoralari oldindan oliy ta’lim yuqori sinf o‘quvchisi bilan mansab hidoyat ish optimal natijaga erishish uchun; postindustrial jamiyatning doimiy o‘zgaruvchan talablariga va mehnat bozorini innovatsion o‘zgartirish tendensiyalariga muvofiq maktab bitiruvchisini oliygohga qabul qilishga samarali tayyorlash va kerakli kasbni tanlash nuqtai nazaridan model mazmunini qoniqarli javob berish va o‘zgartirish; sub’yektlar o‘rtasidagi konstruktiv o‘zaro ta’sir yuqori sifatli ta’minlash va oldindan oliy ta’limda xizmatlar ko‘rsatish uchun ehtiyojlarini o‘zaro qondirish uchun ta’lim hamjamiyati va ta’lim xizmatlari iste’molchilar (S. S. Bykov; V. A. Burlyaeva , A. A. Vaysburg , N. S. Goncharova , V. M. Zhurakovskaya, B. A. Kugan);
- umumiy ta’lim tashkiloti bitiruvchisini tayyorlash va oliy ta’limda o‘qitish o‘rtasidagi "gorizontal" va "vertikal" aloqalarning uzluksizligini teng hamkorlik va ularning har biri doirasidagi munosabatlarni optimallashtirish nuqtai nazaridan belgilaydi (izchil rivojlanish va o‘rta maktab o‘quvchisi tomonidan qiymatni belgilash). davlat ta’lim standarti va Davlat ta’lim standarti talablarini hisobga olish mantig‘ida oliy ta’limga o‘qitishning mazmuni; amalga oshirilgan dasturiy ta’minot va texnologik ta’minotning qiymat-maqsadli sozlamalari birligida intrasubekt va ob’yektlararo aloqalarni mustahkamlash, ta’limning turli darajalarida o‘rganilayotgan hodisaning tashkiliy uzluksizligi).

Muzokaraning jarayoni bo‘yicha ko‘rsatma modeli oliy ta’limga bo‘lgan tayyorgarligi bilan ish olib borish, maqsad-sanoat, tartibga soluvchi semantik, samarali va samarali faollashtirish bosqichini tavsiflovchi maqsadga muvofiqligini aks ettiradi (1-rasm).

Biz ishlab chiqilgan jarayonning mo‘’tadilmasining xususiyatlarini belgilaymiz.

Modernіng maqsadli bloki tadqiqotning yetakchi qismini aks ettiradi (martaba maktabiga tayyorgarlikdan oldingi talaba bilan ish olib borishni ta’minlash). Jamiyat va davlatning o‘quv siyosati, boshlang‘ich ijtimoiy institutning ijtimoiy ahamiyatga ega natijasi sifatida iqtisodiy jihatdan normal hujjatlarda ko‘rsatilgan iqtisodiy faol yosh avlodni shakllantirish.

Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan ma’qullangan "2019-2026 yilgacha o‘qishga kirish va o‘qitish jarayonida talabalarni o‘z-o‘zini anglash uchun shart-sharoitlar yaratish" kompleksi "Eng yaxshi amaliyotni aniqlash zarurligini belgilaydi, yoshlarni o‘z-o‘zini o‘zi belgilashga yordam beradigan loyihalar ("Trayektoriy mukofoti"), talabalar bilan ishlash, ular bilan shug‘ullanadigan va tashkiliy boshqaruv mexanizmlarini boshqaruvchi talabalar uchun ishning eng yaxshi modellari. Talabalar yo‘nalishi, barcha manfaatdor tomonlarning "Muvofiqlashtirishi va hamkorligi" .

Foydalanilgan adabiyot

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo eamiz.Toshkent,O‘zbekiston, 2016.-56b

3. Шарипов Ш.С. Мактаб ўқувчилари ижодкорлик фаолиятини ташкил қилиш. «Халқ таълими» ж. 2003.№ 4. -34-36 б.

4.Нечаев, М.П. Современное осмысление проблем профориентации обучающихся / М.П. Нечаев, С.Л. Фролова // Гаудеамус. - 2017. - № 2. - С. 916.

5.Мордовская, А.В. Концептуальные подходы к организации профориентационной работы в федеральном вузе / А.В. Мордовская, С.В. Панина // Преподаватель XXI век. - 2012. - № 1. - С. 67-64.

6. Капелевич, М.С. Концептуальные основы довузовской подготовки: автореф. дис канд. пед. наук / М.С. Капелевич. - Калининград, 2001. - 21 с.

7.Вербицкий, А.А. Контекстное обучение в компетентностном подходе / А.А. Вербицкий // Высшее образование в России. - 2006. - № 11. - С. 3946.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA KASBIY KOMPITENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Abdumuminova Ozoda Anvarovna
Guliston davlat univeristeti
„Maktabgacha ta’lim’’ kafedrasi
Katta o‘qituvchisi
+998915022996

Annotation: In this article, the effectiveness of developing professional competences of primary school teachers based on creative approaches, the content of education, the requirements for future primary school teachers and the teacher’s creative approach to the lesson during the course of the lesson, special aspects of joint cooperation with students are highlighted.

Key words: creativity, primary school teacher, lesson, pedagogy, education, content of the lesson, creativity, intelligence

Kirish. Xalqaro ta’lim taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi avvalambor ta’lim jarayoniga kreativ yondashish lozimligini taqozo etmoqda. Chunki dunyoda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo‘nalishini begilab beruvchi innovatsion-kreativ ijodkorlik ta’siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida kreativ yondashishga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o‘qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta’limi, oliy ta’lim xodimlari bilan bo‘lgan muloqotda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilishi kerak bo‘lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, “… bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning obro‘sini ko‘tarish, shu bilan bir qatorda bugun o‘qituvchilarning o‘zlari ham ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi

lozim”[1], - degan bir qator fikrlarni bildirib o‘tdi. Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta’lim-tarbiyaning uzviy bog‘liqligini yanada kuchaytirish maqsadida “Sharqona qarashlarimizda ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Bu esa bugungi kun o‘qituvchisidan katta mas’uliyatni talab qiladi”[2], - deb ta’kidladilar.

Demak, bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekanlar, ular o‘z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi. Shuningdek, umumta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari umumiy va maxsus kasbiy kompetentsiyalarga ega bo‘lishi hamda o‘z faoliyatida kreativ qobiliyatlarini namoyon eta olishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kreativlikni rivojlantirish uchun eng qulay yosh davrlardan biri, V.N. Drujinin fikriga ko‘ra, bu kichik maktab yoshidir. Ushbu yosh davrda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar aqliy qobiliyati, xayoli, fikrlashi, diqqati rivojlanishi faollashadi, ijodiy faoliyatga qobiliyat rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Krutetskiy, E. G‘oziyev, G‘.Shoumarov, O.Roziqov, B. Adizov ta’kidlashlaricha, - bu davrda o‘quv faoliyati ta’sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his tuyg‘usi kabi jarayonlar rivojlanadi.

Kichik maktab yosh davri psixologiyasi, uning psixologik xususiyatlari haqidagi O‘zbekiston psixolog olimlar, jumladan E.G‘oziyev (yosh davri, dunyoqarash, e’tiqod, nuqtai-nazar, pozitsiya, o‘zligini anglash), M.Davletshin (ijodiy tafakkurni psixodiagnostikasi), Z.Nishonova (o‘quvchilar aqliy sifatlari va ularga ta’sir etadigan omillar), F.Akramovalarning dars davomida o‘quvchilar orasida intizomning buzilishining ijtimoiy sabablari, shaxs sifatlarini shakllantirish uchun senzitiv davrligi haqidagi ilmiy izlanishlari, nazariy qarashlari xizmat qilgan. Chet el olimlardan L.S. Vigotskiyning psixikani o‘rganishga madaniy-tarixiy tamoyil haqidagi; D.A.Leontevning faoliyatli yondoshuv haqidagi; A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Krutetskiy, E. G‘oziyev, G‘.Shoumarov, O. Roziqov, B. Adizovlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari haqidagi; A. M. Matyushkin, I. S. Averina, G. D. Chistyakovalar o‘quvchi shaxsining ijodiy faoliyatini tashkil qilish masalalari haqidagi; N. X. Yunusova ijodiy faoliyat yordamida boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni tarbiyalash muammosi haqidagi; Gilford, Torrens, Gettsels va Djekson, Bogoyavlenskaya, Drujinin, Xolodnayalarning kreativlik haqidagi ilmiy qarashlari. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash muammosi bo‘yicha xorijiy mamlakatlar va respublikamiz olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha: Respublikamizda, B.Abdullaeva, K.Qosimova, R.A. Mavlonova, N.U.Bikbayeva, M.Ahmedov, N.Abduraxmonova, R.Ibragimov, xorij mamlakatlarida: L.SH. Levenberg, M.I. Mopo, A.M. Pishkalo, L.SH.Levenberg, Y.M. Kolyagin, P.M. Erdniyev kabi olimlarning tadqiqot ishlari mazkur tadqiqot ishni tayyorlashda dasturil amal qilib olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kreativlikni o‘rganishga ham juda ko‘p tadqiqotlar bag‘ishlangan bo‘lib, ular nazariy va amaliy samarali natijalarni bergan. Lekin hozirgacha kreativlikning yaxlit, mukammal ishlab chiqilgan nazariyasi mavjud emas. Shu tufayli kreativlikni tushunish bo‘yicha yagona tushuncha va mazkur qobiliyatni o‘rganishga qaratilgan va barcha olimlar tomonidan qabul qilingan diagnostik metod ishlab chiqilmagan.

Kreativlik so‘zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo‘llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta’riflagan.

Kreativlik (lot. *creatio* – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g‘oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an’anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo‘lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi.

Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo‘yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. U kreativlikni divergent tafakkurga tenglashtirgan.

Divergent tafakkur deganda muammoni ko‘p miqdorda asosli, odatdan tashqari, original yechimlarini keltirishni tushunamiz.

Rossiyalik olima D.B. Bogoyavlenskaya divergent tafakkur sifatida faqat ―kenglikda fikrlash, ya’ni obyektni boshqa belgilarini ko‘ra olish qobiliyatini tushunadi.

S. Mednik fikriga ko‘ra, ijodiy jarayonda ham divergent ham konvergent tafakkur turlari o‘zaro bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadilar.

Sternberg va Lyubartlarning kreativlik nazariyalarida asosiy tushuncha - ―muammoni yechish tushunchasidir. Ular intellektual qobiliyat va kreativlikni tenglashtirmaydilar. Lekin, shu bilan birgalikda, ularning fikriga ko‘ra, intellektual

qobiliyatlar, bilim,motiv va shaxs xususiyatlari ijodiy faoliyat uchun turtki hisoblanadi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, “kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi”[4, 20-bet].

Kompetensiya - lotincha «Competentia» so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo‘lgan» kabi ma’nolarni bildiradi. Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati. [6, 338-bet]

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o‘qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko‘nikma va malakasi, shuningdek o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘zo‘zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg‘un birlashishini tushungan. U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo‘lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz: - faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko‘nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari); - shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zo‘zini amalga oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar); - kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malaka) Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. [5, 55-bet]

Shuni ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lavermaydi, sabab, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir: - maxsus pedagogik kompetensiya; - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lish. Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog‘liq; - ijtimoiy pedagogik kompetensiya; - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik; - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan; - shaxsiy pedagogik kompetensiya; - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir [7, 180-bet].

Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kasbiy kompetentlikning tarkibiga kasbiy faoliyatdagi kompetentlik, kasbiy muloqotdagi kompetentlik, mutaxassisning o‘z kasbini nomoyon eta olishdagi kompetentligini kiritish mumkin.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, ya’ni perseptiv, kognitiv, refleksiv, empativ, motivatsion va prognostik jihatlarining taraqqiy etishiga e’tibor qaratish kerak. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetentlikka ega bo‘lib borish uchun mutaxassis o‘zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko‘nikmalar, ijobiy kasbiy “Men”- siymosi, ba’zi

shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag‘rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg‘ulotlar bilan shug‘ullnishi maqsadga muvofiqdir.

Kompetentlikni namoyish qilishga tayyorgarlik darajasini quyidagi mezonlar bo‘yicha aniqlash mumkin: o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini namoyon etish g‘oyasi, kasbiy yo‘l tanlash, turmush qurish, farzandli bo‘lishga nisbatan qaror qabul qila olishga tayyorgarlik, o‘z hayotiga javob berishga tayyorlik, hayot yo‘lini mustaqil tanlash, kasb sohasida ko‘nikishlar hosil qilishga tayyorlik va boshqalar.

Asosiy ta’lim kompetentsiyalari quyidagilardir:

1. Qadriyat-semantik kompetensiyalar. Bular dunyoqarash sohasidagi kompetensiyalar bo‘lib, talabaning qadriyat yo‘nalishlari, uning ko‘rish va tushunish qobiliyati bilan bog‘liq. dunyo, unda navigatsiya qilish, ularning roli va maqsadini bilish, o‘z harakatlari va xatti-harakatlari uchun maqsad va semantik sozlashlarni tanlay olish, qaror qabul qilish. Ushbu kompetensiyalar o‘quvchilarning o‘quv va boshqa faoliyat holatlarida o‘zini o‘zi belgilash mexanizmini ta’minlaydi. Talabaning individual ta’lim traektori va umuman uning hayotining dasturi ularga bog‘liq.

2. Umumiy madaniy kompetensiyalar. Talabaning bilimga ega bo‘lishi, bilim va faoliyat tajribasiga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan masalalar doirasi - bu milliy va umuminsoniy madaniyatning xususiyatlari, inson va insoniyat, alohida xalqlar hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari. oilaning madaniy asoslari, ijtimoiy, ijtimoiy hodisa va an’analar, fan va dinning inson hayotidagi o‘rni, ularning dunyoga ta’siri, kundalik, madaniy va bo‘sh vaqt sohasidagi kompetensiyalar, masalan, bo‘sh vaqtni tashkil etishning samarali usullariga ega bo‘lish. Bu, shuningdek, o‘quvchining dunyoning ilmiy manzarasini o‘zlashtirish tajribasini o‘z ichiga oladi, dunyoni madaniy va umumbashariy tushunishni kengaytirish.

3. Ta’limiy va kognitiv kompetensiyalar. Bu talabalarning mustaqil bilim faoliyati sohasidagi vakolatlari to‘plami, shu jumladan mantiqiy, uslubiy, umumiy ta’lim faoliyati elementlari, haqiqiy bilish ob’ektlari bilan bog‘liq. Bu o‘quv va kognitiv faoliyatni maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tahlil qilish, fikrlash, o‘z-o‘zini baholashni tashkil etish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. O‘rganilayotgan ob’ektlarga nisbatan talaba ishlab chiqarish faoliyatining ijodiy ko‘nikmalarini egallaydi: bilimlarni bevosita voqelikdan olish, nostandart vaziyatlarda harakat qilish usullarini, muammolarni hal qilishning evristik usullarini o‘zlashtirish. Ushbu kompetensiyalar doirasida tegishli funktsional savodxonlikka qo‘yiladigan talablar aniqlanadi: faktlarni taxminlardan ajrata olish, o‘lchash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, bilishning ehtimollik, statistik va boshqa usullaridan foydalanish.

4. Axborot kompetensiyasi. Haqiqiy ob’ektlar (televizor, magnitafon, telefon, faks, kompyuter, printer, modem, nusxa ko‘chirish) va axborot texnologiyalari (audio-video yozuvlar, elektron pochta, ommaviy axborot vositalari, Internet) yordamida mustaqil ravishda qidirish, tahlil qilish qobiliyati. va kerakli ma’lumotlarni tanlang, uni tartibga soling, o‘zgartiring, saqlang va o‘tkazing. Ushbu kompetensiyalar o‘quvchining fanlar va ta’lim sohalarida, shuningdek, atrofdagi dunyoda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarga nisbatan faollik ko‘nikmalarini ta’minlaydi.

5. Kommunikativ kompetensiyalar. Ularga kerakli tillarni bilish, atrofdagi va uzoq odamlar va hodisalar bilan munosabatda bo‘lish usullari, guruhda ishlash ko‘nikmalari va jamoada turli ijtimoiy rollarga ega bo‘lish kiradi. Talaba o‘zini tanishtirish, xat, anketa, ariza yozish, savol berish, munozara olib borish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak.Bu kompetensiyalarni o‘zlashtirish uchun o‘quv jarayonida kerakli va kerakli ma’lumotlar mustahkamlanadi. yetarli Har bir fan yoki o‘rganilayotgan ta’lim yo‘nalishi doirasida har bir ta’lim darajasi talabasi uchun real aloqa ob’yektlari va ular bilan ishlash usullari.

6. Ijtimoiy-mehnat kompetentsiyalari deganda fuqarolik va ijtimoiy faoliyat sohasida (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil sifatida ishtirok etish), ijtimoiy-mehnat sohasida (iste’molchi, xaridor, mijozning huquqlari, huquq va erkinliklari) bilim va tajribaga ega bo‘lish tushuniladi. ishlab chiqaruvchi), sohasida oilaviy munosabatlar va vazifalari, iqtisodiyot va huquq masalalarida, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash sohasida. Bu, masalan, mehnat bozoridagi vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarga muvofiq harakat qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlari etikasiga ega bo‘lish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Talaba zamonaviy jamiyatda hayot uchun minimal zarur bo‘lgan ijtimoiy faollik va funktsional savodxonlik ko‘nikmalarini egallaydi.

7. Shaxsiy o‘z-o‘zini takomillashtirish kompetensiyalari jismoniy, ma’naviy va intellektual o‘z-o‘zini rivojlantirish, hissiy o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi qo‘llab-quvvatlash yo‘llarini

o‘zlashtirishga qaratilgan. Bu kompetensiyalar sohasidagi haqiqiy ob’ekt talabaning o‘zi hisoblanadi. U o‘zining uzluksiz o‘zini-o‘zi bilishida, zamonaviy shaxs uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishda, psixologik savodxonlikni, tafakkur va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda namoyon bo‘ladigan faoliyat usullarini o‘z manfaatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘zlashtiradi. Bu kompetentsiyalarga shaxsiy gigiena qoidalari, shaxsiy salomatlikni saqlash, jinsiy savodxonlik, ichki ekologik madaniyat kiradi. Bu shuningdek, shaxsning xavfsiz hayotining asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan fazilatlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. [3, 10 bet]

Tahlil va natijalar. Jahon ta’lim amaliyotida kompetentsiya tushunchasi markaziy, o‘ziga xos "tugun" tushunchasi sifatida ishlaydi, chunki shaxsiy kompetentsiya: birinchidan, u ta’limning intellektual va amaliy tarkibiy qismlarini birlashtiradi; ikkinchidan, kompetensiya tushunchasi “natijadan” (“natijadan” (“mahsulot standarti”) shakllangan ta’lim mazmunini izohlash mafkurasini o‘z ichiga oladi; uchinchidan, shaxsning kompetensiyasi integrativ xususiyatga ega, chunki u madaniyat va faoliyatning keng sohalari (axborot, huquqiy va boshqalar) bilan bog‘liq bir qator bir hil yoki chambarchas bog‘liq bilim va tajribani o‘z ichiga oladi. Shaxsning kompetensiyasi ma’lum bir tuzilishga ega bo‘lib, uning tarkibiy qismlari insonning kundalik, kasbiy yoki ijtimoiy hayotdagi turli muammolarni hal qilish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Shaxs kompetensiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi: mustaqil bilim faoliyati sohasidagi kompetentsiya; fuqarolik-jamoat faoliyati sohasida; ijtimoiy va mehnat faoliyati sohasida; maishiy sohada malaka; madaniy va dam olish faoliyati sohasida. Bilimlar orasida va amaliy tajriba, shaxs tomonidan ma’lum darajadagi kompetentsiyaga erishish jarayonida shakllangan - o‘z-o‘zini tarbiyalash, tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘zini o‘zi nazorat qilish, jamoada ishlash, turli xil echimlarning natijalari va mumkin bo‘lgan oqibatlarini bashorat qilish qobiliyati, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish, muammolarni topish, shakllantirish va hal qilish.

Xulosa va takliflar.

Pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantirishda har bir oliy ta’lim o‘qituvchisi o‘zi uchun talabalarni o‘qitishning har qanday evristik shakllari va usullarini tanlashi mumkin. Shu bilan birga, ularni qo‘llash natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ yondashuvlar asosida kasbiy kometentsiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’minlashi kerak.

Kasbiy, pedagogik kompetentlikka ega bo’lishda o’z ustida ishlash va o’zo’zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O’z-o’zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o’zi tahlil qilish va o’zini o’zi baholash orqali aniqlanadi. O‘qituvchining o‘z ustida ishlashini, kasbiy BKMni takomillashtirib borishi, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashishi, kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishishi, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirishi, salbiy odatlarni bartaraf etib borishi va ijobiy sifatlarni o‘zlashtirishi orqali ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi. 2019.08.23.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. http://uza.uz
3. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok.disser. T.,2003 yil.(10-bet, 276 bet)
4. B.A.Nazarova. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari. (Monografiya). –T.: „Fan va texnologiya”, 2007, (20-bet, 164 b.)
5. Davletshin M., To‘ychieva S. Umumiy psixologiya T.:TDPU, 2002.–(55 bet,202 b)
6. Rasulova Zilola., Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10 (338-348 bet)
7. G‘oziyev E. Psixologiya. O‘qituvchi nashriyot matbaa-ijodiy uyi., T.: 2008.(180-bet, 352 bet)
8. http://www.ziyonet.uz/
9. http://www.pedagog.uz/

10. http://www.edu.uz/

O‘QUV VA AMALIY JARAYONDA YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI YUKSALTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSISIYATALARI

Q.Musurmonqulov, O,Ma’rufjonov
GulDU o‘qituvchisi
GulDu talabasi

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada ta’lim tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari shu kungacha deyarli hal qilingan emas edi.Mutaxasis fanlarini o‘qitishda uchraydigan muammo va kamchiliklar , ularni yechimlarini ijobiy hal qilishdagi me’yoriy hujjatlarning to‘liqligicha amalga oshirilish ro‘lini kuchaytirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: komillik, atrof-muhit, milliylik va umuminsoniy qadriyatlar, moddiyatchilik, ijodkor, inson qobiliyatlari, adolat, vatanparvarlik,individ.

O‘qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish. Milliy dastur, ta’lim to‘g‘risidagi Qonundan kelib chiqadigan vazifalarni maktab talabalari, o‘quv yurtlarining pedagog xodimlari, professor o‘qituvchilari amalga oshiradilar. Shu bois pedagog xodimlar o‘zlarining kasbkor sha’ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari: odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, talaba, talaba va talaba, o‘qituvchi talaba shaxsining qadr-qimmatini asrashlari; talabalarni mehnatga, qonunlarga, ota-onalarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga extiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashlari, ibratli faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga, haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan e’tiborni qaror toptirishlari lozim.Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo‘lgan yo‘li bu – namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota - ona bolaga axloqiy namuna bo‘lishi kerak. Maktabda va oliy o‘quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to «mayda - chuyda» xatti - harakatlarigacha o‘z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz - shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo‘ylik yoshlar axloqiy tarbiyasining shakllanishini ta’minlovchi omillardandir.

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Zero axloqiy tarbiya insonning shaxs bo‘lib yetishuvini ta’minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o‘zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me’yorlar asosida yashashga o‘rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilmog‘ - u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko‘rinishidir.Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma’nosi, avvalo, ota - onaning o‘zi axloqiy tarbiya ko‘rgan bo‘lishi kerak degani. Zero qush inida ko‘rganini qiladi: ota - ona oilada yuksak axloq namunasini ko‘rsatishi lozim.Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko‘p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To‘g‘ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne’mat. Shu ma’naviy ne’mat – asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo‘lur edi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka etkazish yo‘llaridan biri. Uning vositalari ko‘p. Ularning bir qismi an’anaviy tarbiya vositalari bo‘lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo‘lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an’anaviy tarbiya bilan o‘yinchoqlar va o‘yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo‘llaniladi; bunda bolaning qizg‘anchiqlik, g‘irromlik qilmaslikka, halol bo‘lishga o‘yinlar yordamida da’vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, qo‘g‘irchoq teatri, kino san’ati katta rol o‘ynaydi.Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi san’at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san’atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib, romangacha bo‘lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko‘rsatadilar. Ular orqali kitobhon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning

ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo‘ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, yuqorida ko‘rganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an’anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan - qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo‘lib qolajak.

Umuman olganda, o‘qituvchining pedagogik faoliyati uchun, birinchidan, innovatsion yo‘naltirilganlik, ikkinchidan, o‘z ishiga ijodkorona yondoshuv, individuallik kabi xususiyatlari juda muximdir. Ijodkor ukituvchi uz-uzini takomil- lashtirmay turib, individuallikni rivojlantirmay, kasbiy kompetentligini shakllantirmasdan kasbiy faoliyatda yuqori mavqiega erishish mumkin emasligini to‘gri anglab yetadi. Su sababli xam kasbiy zarurat bulgan sifatlarni xayotiy maqsad sifatida rivojlantirmay turib, yangi texnologiyalarni egallashi mumkin emas. Aynan ushbu ikki yo‘nalishni pedagogning ijodiy individualligining ko‘rsatgichi sifatida qabul qilish mumkin. O‘qituvchining pedagogik uslubi - bu shaxsiy tomonidan o‘z individualligini kasbiy faoliyat shart-sharoitlarini uygunlashtirish tizimi, shaxsiy ijodkorligining manbai va ijodiy faoliyat natijasi ko‘rinishida o‘zligini namoyon qilish vositasidir. O‘qituvchining individualligida psixologik hamda shaxsiy jixatni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning pedagogik faoliyati umumiy va kasbiy qobiliyatlarning, shuningdek, kasbiy motivasiyaning namoyon bo‘lish darajasi bilan belgilanadi. yetarli darajada rivojlangan qobiliyatlar, maqsadlar, extiyojlar doirasi qanchalik keng bo‘lsa, o‘qituvchining kasbiy maxorat darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida rivojlanishni ta’minlovchi asosiy ziddiyat inson kobiliyatlari xamda pedagogik faoliyat talablari o‘rtasidagi tafovut bilan belgilanadi. Pedagogik jarayonda yuzaga keluvchi ziddiyatlarni xar bir kuzatuvchi imkoniyatlari va kobiliyatlari darajasida xal qiladi. Bu faoliyat o‘qituvchining individual uslubini belgilab beradi. O‘qituvchida o‘z-o‘zini boshqarish, qat’iylik, jur’atlilik, jasurlik, atrofdagi insonlarga xurmat va e’tibor, kamchiliklarini xis kilgan holda uz imkoniyatlariga ishonch, faoliyatini baxolashda haqqoniylik, kuchli iroda, o‘zz kuch-quvvatini maksadli yo‘naltira olish, faoliyat va belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo‘lida imkoniyatlarini jamlay olish, belgilangan maksadni amalga oshirishda faoliyatini to‘g‘ri boshqarib boorish, aqliy faollik va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, shaxsni xarakatga keltiruvchi kuch xamda ijtimoiy olam bilan o‘z imkoniyatlarini qiyoslay olish sifatlariga ega bo‘lsagina yuksak kasbiy maxorat darajasiga erisha olishi mumkinligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoyev.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.2020y.24-yanvar. T.-“Tasvir” nashriyoti 2020y 72-bet.

2.Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini metodik shakllantirishning nazariy - metodik asoslari. Dissertatsiy. ped.fan.dok. - Toshkent.: 2007y.

3.M.Z. Murtozayev.Texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini amaliy saviyasini oshirishning uslubiypedagogik asoslari. Monografiya.–T.: «Fan va texnologiya», 2017, 120 bet.

4.N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Quysiyov. Texnologiya ta’limi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini 5- sinflari uchun. Toshkent. 2013y.

5.M.Muxliboyev. “Glaballashuv davrida yoshlarni integrativ ekologik madaniyatini shakillantirish yo‘llari” “Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muommolar,yechimlar va hamkorlik” 2023-yil 25-26 may

TEXNOLOGIYA YO‘NALISHIDA MUTAXASISLIK FANLARINI O‘QITISHNING O‘QUV — ILMIY — ISHLAB CHIQARISH MAJMUI SIFATIDA RIVOJLANTIRISH

M.Muxliboyev, A.Ziyodullayeva
GulDu dotsenti, GulDu talabasi

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada bizni amaliyot ko‘rsatgichlarimiz shuni ko‘rsatadiki mutaxasis fanlarini o‘qitishda uchraydigan muammo va kamchiliklar , ularni yechimlarini ijobiy hal

qilishdagi me’yoriy hujjatlarning to‘liqligicha amalga oshirilish ro‘lini kuchaytirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: demokratik, o‘qituvchilar, pedagoglar , tarbiyachilar mutaxassis, kasb-hunar, qobiliyat, integratsiyalashuv, nodavlat tuzilmalari, korxonalar , tashkilotlar, deklaratsiya, demokratik, investitsiya.

Ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari shu kungacha deyarli hal qilingan emas. Amaldagi ta’lim tizimi zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmas edi.Mutaxassislar tayyorlash, ta’lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo‘layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan bog‘lanmagan. Maktabgacha ta’lim va tarbiya ahvoli qoniqarsiz. Maktabgacha tarbiya ham jiddiy islohotlar talab qilardi. Maktablarda va boshqa o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonining o‘zidagi va o‘qitish uslubiyatidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, talabalarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qoldi. Oqilona hayotiy yechimlar qabul qilish uchun yetarli tayyorgarlik bo‘lmadi. Natijada, maktabni tamomlagan yoshlar mustaqil hayotda o‘z o‘rinlarini aniqlay olmadi. Chunki ularda o‘zlariga ishonch shakllanmagan edi.Ta’lim tizimida, mavjud umumta’lim va kasb-hunar dasturlari o‘rtasida uzviylik va vorisiylikning yo‘qligi ham o‘rta maktab bitiruvchilarida kasbga ishtiyoq va texnologiya faoliyatiga tayyorgarlik darajasiga salbiy tasir etdi. Natijada, yigit va qizlar o‘z qobiliyatlari, istaklari, ijodiy imkoniyatlari va moyilliklariga monand hayot yo‘lini tanlashda qator qiyinchiliklarga duch keldilar.

O‘quv jarayoni, odatda, bilim darajasi o‘rtacha bo‘lgan talabalarga mo‘ljallanadi. Shu bois ta’limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha ishlashi kabi mexanizmlaridan yaxshi foydalanilmaydi. Hunar-texnika bilim yurtlaridan yangi tipdagi ta’lim muassasalariga o‘tish ko‘proq og‘izda bo‘lib, amalda esa ularda ta’lim eskirib qolgan moddiy-texnik va o‘quv-uslubiy baza, tegishli qayta tayyorgarlikdan o‘tmagan o‘qituvchi kadrlar bilan amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta’limining obro‘si hamda o‘qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarning ijtimoiy maqomi pasayib ketdi. O‘qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismining yaxshi tayyorgarlik ko‘rmasligi, bilimi sayozligi va kasb saviyasi pastligi tufayli tayyorlanayotgan kadrlarning malakasi past darajada bo‘lib qoldi. Ko‘ngildagidek bilimdon, mutaxassis kadrlar tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish har jihatdan ustozlarga ularni o‘qitish jarayonini tashkil etishlariga bog‘liq. Ta’lim tizimi kadrlarning miqdori va malakasi, mutaxassisligi jihatidan bozor talablariga tezda moslasha oladigan bo‘lishi zarur. Tizimdagi qator kamchiliklar, zamon talablarini hisobga olgan holda respublikamizda kadrlar tayyorlashning mutlaq yangicha tizimini barpo qilishga kirishildi.

Ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni eski mafkuraviy qarashlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadida quyidagi qator vazifalarni amalga oshirishni talab qilishi belgilab qo‘yildi:

—«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq tizimni isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida tizimni yagona o‘quv — ilmiy — ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;

— ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilish jarayoniga moslash;

—kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini amalda yuqoriga ko‘tarish;

—kadrlar tayyorlash tuzilma mazmunini mamlakatning ijtimoiyi istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan, ish beruvchi tashkilot va muassasalarning buyurtmasining extiyojlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

—Ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatidan tarbiyalash va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini yaratish hamda ishlab chiqishga joriy qilish;

—Ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

—Yangi ijtimoiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini ustuvorligini

ta’minlovchi normativ, moddiy-texnik va axborot bazasini yaratish;

—ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

—uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan, chet el investitsiyalarini jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

—kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish asosida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o‘ziga xos uzluksiz ta’limning o‘zbek modeli sifatida vujudga keldi.

Ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar daraja sida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalardan biri yangi ijtimoiy rivojlanish intensivligi sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishning kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnik va axborot bazasini yaratishdir. Shunday ekan, ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini ta’minlamay turib, rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash mumkin emas.

Milliy dasturni amalga oshirishda ta’lim tizimi maxsus manbalar bilan yanada to‘ldirildi, rivojlantirildi. Shu yillar davomida ko‘zda tutilgan ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Har bir yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda bo‘lajak kadrni quvvatini to‘liq mustahkamlash, uning kasbiy faoliyat ta’minotini ta’minlash uchun mutaxasislik fanlari o‘qitiladi.“Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim tizimi uchun majburiyat va yo‘llanma hisoblanadi. Aynan, unda ta’kidlanganidek,bo‘lajak mutaxasislarini kelajakda olib boradigan kasbiy faoliyati zamon talabiga javob berishi lozim. Buning uchun tayyorlanayotgan bo‘lajak kadrlarning har bir yo‘nalishda mutaxasislik fanlarini o‘qitish jarayonini amaliy saviyasini oshirish bugungi kunda dolzarb xarakter kasb etadi. Jumladan, bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda yo‘nalish bo‘yicha barcha mutaxassislik fanlarini o‘qitishni yangi ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari asosida amaliy saviyasini oshirish talab qilinadi.

1998-yili YUNESKO tashkilotchiligida «XXI asrda oliy ta’lim: yondashuvlar va amaliy tadbirlar» degan mavzuda o‘tkazilgan jahon anjumani deklaratsiyasi yangi asrda oliy ta’limga bo‘lgan talab misli ko‘rilmagan darajada o‘sib borishi, ya’ni yosh avlod yangi bilim, g‘oya va ko‘nikmalarni egallashi, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotda uning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini kengroq anglashga intilishining kuchayishini ta’kidlagan edi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, XXI asr ta’lim olishning o‘ziga xos davri bo‘lishi kutilmoqda, chunki endilikda ta’lim axborotlar oqimi kuchaygan sharoitda amalga oshiriladi. Bu jarayondan albatta texnologiya fani ham chetda qolmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim tizimida shunday vaziyat ko‘zga tashlanadi: bir tarafdan, o‘qituvchilar pedagoglar va ularni o‘qish samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyani o‘zlashtirishlari, ikkinchi tomondan esa pedagogik fanlarning yangiliklarini o‘zlashtirish axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, ijodiy tafakkurning rivojlanishi va boshqalar zamon bilan hamnafas harakat qilish kerakligidir.

Xalq ta’limi tizimiga qarashli umumta’lim maktablari o‘qituvchilarini yetkazib berayotgan pedagogika institutlari xalq ta’limi tizimini yaxshi yo‘lga qo‘yish – zamon talabi asosidagi milliy mafkura g‘oyalarini va mutaxassislik sohalarini puxta egallagan, ta’lim va tarbiya jarayonlari rivojining xarakteridan kelib chiqib muvofiqlashtira oladigan yetuk mahoratli ko‘p minglik o‘qituvchilar armiyasining amaliy-kasbiy sifatiga e’tibor qilishlari kerak. O‘z navbatida oliy ta’lim tizimi intelektual mahsulot sifatida yetishtirib berayotgan yuqori malakali o‘qituvchilarni, kasbiy va mahoratli qilib tayyorlashda umumta’lim maktablarini iste’mol ob’ekti sifatida ular faoliyatining amaliy-kasbiy saviyasini oshirishning nozik uslub va yo‘nalishlarini to‘liq bilishlari kerak. Ana shundagina oliy ta’lim tizimi yetishtirib berayotgan o‘qituvchilar armiyasi talab darajasida bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoyev.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.2020y.24-yanvar. T.-“Tasvir” nashriyoti 2020y 72-bet.

2.Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini metodik shakllantirishning nazariy - metodik asoslari. DissertatsiY. ped.fan.dok. - Toshkent.: 2007y.

3.M.Z. Murtozayev.Texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini amaliy saviyasini oshirishning uslubiypedagogik asoslari. Monografiya.–T.: «Fan va texnologiya», 2017, 120 bet.

4.N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Quysiyov. Texnologiya ta’limi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini 5- sinflari uchun. Toshkent. 2013y.

5.M.Muxliboyev. “Glaballashuv davrida yoshlarni integrativ ekologik madaniyatini shakillantirish yo‘llari” “Sifatli ta’lim va interdisiplinar yondashuv: muommolar,yechimlar va hamkorlik” 2023-yil 25-26 may

6.M.Muhliboev, G.Qurbonova. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. Guliston.:2013 y.

OLIY O‘QUV YURTLARI FAKULTETLARIDA TA’LIM SIFATI NAZORATINI TASHKIL ETISH

Kurbanov Bahrom
p.f.n.dotsent
Guliston davlat universiteti
e-mail: kurbanov.bakhrom@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy o‘quv yurtlari fakultetlarida ta’lim sifatini nazorat qilish qanday tashkil etilishi, ta’lim sifatini olib boruvchilar va ularning bajaradigan vazifalari (ishlari) belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: sifatli ta’lim, tyuterlar, nazorat, dars, komissiya, pedagog, me’yoriy xujjatlar, monitoring, baholash.

O‘zbekiston oliy talim muassasalarida o‘quv jarayonining tashkil etilishi va olib borilishi birinchi navbatda boshqaruv mexanizimining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liqdir. Boshqarishning bosh vazifalaridan biri o‘quv jarayonlarining tashkil etish va uning sifatini nazoratini olib borishdan iborat.

Shunga asosan talim mussasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va uning maqsad va vazifalarini amalga oshrishning asosiy elementlarining pedagogik moxiyatlarini tushuntirish qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘qitishning maqsadi, o‘quv mazmunini, o‘quv vositalari, o‘qitish usullari va baholashning monitoringini olib borish asosida talimning sifati nazorati tashkil etiladi. Talim muassasalarida talimning sifatini nazoratini olib borishdan oldin, o‘quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda xar bir raxbar (fakultet dekani) quydagi vazifalarin mazmun va moxiyatini mukammal bilishi va ularning bajarilishini sifat ko‘rsatkichlarini tahlilini olib borish zarur:

- Talimning maqsadlari
- Talimning mazmuni
- Talimning o‘quv vositasi
- Talimning usullari
- Talimda baxolash.

O‘quv jarayonining tashkil etilishidagi ushbu elementlarni xar birini bajarilishini taminlashda aniq maqsadlarga yonaltirilgan rejalar tizimidagi va belgilangan muddatlarda me’yoriy ishlar olib boriladi:

O‘quv jarayonining tashkiliy mavjud va vazifalaridan kelib chiqqan xolda talim muassasalarida talim mazmuni va sifatini nazoratini olib borish uchun birinchi navbatda, har bir raxbar (fakultet dekani) va pedagoglar quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- Talimda boshqaruv mexanizmini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etish;
- Talimda sifat nazoratini tashkil etish;
- Talim sifatini beruvchi omillar;
- Sifat nazoratini olib boruvchilar (dekan o‘rinbosarlari va komissiya).

- Sifatni baxolash mezonlari;
- Nazorat monitoringi va uni yuritilishi;
- Natijalarni baxolash va qo‘shimcha tadbirlar belgilash;

Sifat - qo‘yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan ishlarnining nazorat va baxolash bo‘yicha olingan natijalarni monitoringi.

Talim muassasalarini moddiy texnik bazasi, o‘quv metodik taminot, zamonaviy o‘quv va labarotoriya jixozlari, pedogoglarni malakalari bilan taminlanishidan asosiy maqsad, zamonaviy talim berish va talimning sifati darajasini oshirilishiga qaratilgan.

Zamonaviy o‘quv jixozlari va o‘quv metodik materiallar, didaktik materiallardan dars jarayonida samarali foydalanish va talabalarning nazariy bilimlarini oshirishda, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllanishida talimning sifat nazoratini tashkil etish mexanizmlarini fakultet rahbariyati, kafedra mudiri tomonidan ishlab chiqilishi lozim va doimiy ravishda uning monitoringini olib borishdir.

Buning uchun birinchi navbatda fakultet rahbari, movunlari va pedagogik jamoasi tomonidan talim sifatini belgilovchi omillar aniqlab olinishi lozim.

Belgilab olingan omillarni bajarilishi yoki mavjud kamchilik va muammolar fakultet rahbariyati va kafedra mudiri tomonidan bartaraf etilib, talim sifati nazariyasi tuzilishi lozim va ularning xar birining vazifalari belgilab beriladi va bajarish monitoringi olib boriladi.

Talim sifatini belgilovchi omillar

- Pedagogika o‘quv amaliyoti chizmasi
- DTS o‘quv reja o‘quv dasturlari
- Darslik o‘quv qo‘llanmalar
- Pedagoglar
- Talim sifatini belgilovchi omillar
- O‘qitishni texnik vositalari
- Fanlar bo‘yicha pedagogik materiallar
- Lobaratoriya va ustaxona jihozlari
- Fanlar bo‘yicha nazariy darslar.

Xar bir talim muassasasida boshqaruv mexanizmi ilmiy asosda tashkil etilgan bo‘lsa, muassasa raxbarining (fakultet dekanining) asosiy vazifalaridan biri talim mazmuni va sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga rejalari aniq maqsadlarga yonaltirilgan bo‘lsa, shu talim muassasalarida talimning sifat nazoratini tashkil etish va uning monitoringini olib borish mexanizmlari xa ishlab chiqilgan bo‘lsishi kerak.

Buni rahbar o‘zining movunlari, pedagoglar jamoasining talim sifatini oshirishga qaratilgan asosiy vazifalarini ishlab chiqishi va bu vazifalarni bajarilishi monitoringini olib borish uchun raxbar nazorati ostida sifat komissiyasi tuziladi va talim sifatini belgilovchi omillardan kelib chiqqan xolda talim sifatini baxolash mezonlarini ishlab chiqadi va shu mezonlar asosida talim sifatini baxolab boradi va duch kelingan muammolar bo‘yicha qo‘shimcha chora tadyuirlar kiritiladi. Sifat komissiyasi talimda sifat nazoratini olib borish uchun tegishli bo‘lgan asosiy vazifalarni bajarishga kirishadilar va belgilangan muddatda raxbarga axborot beradi.

Talim muassasasida sifat nazoratini olib boruvchilar ishchi gurux azolarini bajaradigan vazifalarini mazmuni quyidagilardan iborat:

Talim muassasasida sifat nazoratini olib boruvchilar

Rahbar (dekan)

- O‘.I.B.D. movuni
- M.M.Ch.P.D movuni
- Pedagoglar
- Sifat nazorati monitoringi

I. Talim muassasasida sifat nazoratini olib boruvchilarning vazifalari:

1. Talim sifatini nazoratini tashkil etishda fakultet dekanining vazifalari.
2. Talimda sifat nazoratini olib borish mexanizmini ishlab chiqadi.
3. Talimda sifat nazoratini olib boruvchilarning vazifalarini ishlab chiqadi.
4. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarnimazmunli tashkil etish va o‘rgatish bo‘yicha shart – sharoitlar yaratish.

5. Amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

6. Ish beruvchi korxonalar bilan ijtimoiy xamkorlik olib borish.

7. Ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan xolda pedagoglarni moddiy va manaviy rag‘batlantirish.

8. O‘qituvchilarni ijodkorlik, izlanuvchanlik, pedagogik axoratlarini oshirish bo‘yicha extiyojli malaka oshirish kurslariga jalb qilish.

9. Amalga oshirilgan ishlarni monitoringini olib borish.

II. **O‘quv ishlari bo‘yicha fakultet dekani movuni vazifalari.**

1. O‘quv jarayonini tashkil etish mexanizmini tshlab chiqish.

2. Pedagoglarning dars o‘tish usullarini tahlil qilish tavsiyalar berish.

3. Sifat komissiyasi bilan xamkorlikda pedagoglarning ijodkorligini va pedagogik maxoratlarini baxolash mezonini ishlab chiqish.

4. Talimda sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan pedagoglarni moddiy va manaviy rag‘batlantirish bo‘yicha raxbarga takliflar kiritish.

5. Kasbiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha fan to‘garaklarini tashkil etishga raxbarlik qilish va o‘tkazilishini nazoratga olish.

6. Fanlarning o‘qitilishidagi yutuq va kamchiliklar bo‘yicha sifat komissiyai bilan xamkorlikda monitoring ishlarni olib borish va raxbariyatga axborot berib borish.

7. Talim jarayonini olib borilishida sifat jixatida ijobiy o‘zgarishlar. Talimni metodik taminoti va ulardan foydalanish monitoringini olib borish.

8. Xar oyda talimda sifat nazoratini olib borish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni va muammolar xaqida sifat komissiyasiga qisqacha axborot berish.

9. Sifat komissiyasi ushbu takliflar va muammolarni xal etish bo‘yicha umumlashgan takliflarni raxbariyatga kiritish.

10. O‘quv va pedagogik, ishlab chiqarish amaliyotlari mexanizmlari kafedra mudiri bilan birgalikda ishlab chiqish.

11. Amaliyotchi talabalarni zaruriy xujjatlar, rejalar, amaliyot o‘taydigan muassasalar, korxonalarga borish to‘g‘risida buyruqlar tayyorlash.

12. Ish beruvchi muassasa va korxonalar bilan istiqbol rejalarni ishlab chiqish.

13.Amaliyotlar bo‘yicha xisobotga qo‘shimcha ravishda topshiriladigan, xujjatlar majmuasini ishlab chiqish. (kafedra mudiri bilan birgalikda).

III.Manaviy marifiy ishlar bo‘yicha fakultet dekani o‘rinbosari

1. Talim mazmuni va sifatiga manaviy marifiy ishlar bo‘yicha ijobiy tasir ko‘rsatuvchi omillarni mexanizmini ishlab chiqish.

2. Kasb va ixtisosliklar bo‘yicha talabalarni kasbga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirib borish maqsadida turli tadbirlar o‘tkazish. (yo‘nalishlar bo‘yicha)

3. Oliy talim muassasasi, fakulteti ichki tartib intizomini, moddiy texnik bazani saqlash va ulardan foydalanish, talabalarning odob – axloq, kiyinish madaniyati, o‘zaro xurmat va boshqa mavzular bo‘yicha davra suhbatlarini tashkil etish va o‘tkazish.

4. Soha kasb egalari, faxriylari bilan uchrashuvlar tashkil etish va o‘tkazish.

5. Fanlar bo‘yicha talabalarni darsga qatnashishi tartib - intizomi o‘zlashtirish darajalarini va dars tahlillari bo‘yicha monitoringni olib borish.

IV. Pedagoglarning vazifalari.

1. Dars jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq o‘quv xujjatlarni mazmunli ishlab chiqish.

2. Darsning texnologik xaritalarini (loyihasini) tayyorlash.

3. Dars jarayonlarini talabalar egallagan bo‘lsa kasb va ixtisosliklarga mos bo‘lgan misollar bilan tushintirish.

4. Talabalarning o‘zlashtirish davomatlarini hisobga olgan holda o‘qitish metodlarini tanlash.

5. Talabalarni psixologik xususiyatlarini to‘liq bilish va ishlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi.

6. Talabalarning o‘z faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida fan mavzulariga mos ravishda kichik guruhlar tashkil etilishi va amaliy torshiriqlar berib, ularni mustaqil ishlashga yo‘naltirish .

7. O‘z fani bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirishi va sifat ko‘rsatkichlarining monitoringini olib borish.

8. O‘z fani bo‘yicha o‘quv – metodik taminoti, didaktik materiallar to‘plash va dars jarayonida samarali foydalanish.

V.Kafedra mudirining vazifalari.

1. Talim sifatini baxolash ishlarini ishlab chiqish.
2. Talim mazmuni va amaliy ko‘rsatkichlarni oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan va amalga oshrilishi zarur bo‘lgan ijobiy va ijodiy ishlar xaqida maxsus seminarlar tashkil etish.
3. O‘qituvchilarni dars o‘tish metodlari, pedagogik maxoratlarini oshirish. Ijodkorlik va izlanuvchanliklarini oshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar ishlab chiqish.
4. Fanlarni o‘qitilishini, talabalarni o‘zlashtirishlari va sifat ko‘rsat kichlari bo‘yicha monitoring ishlarini olib boradi.
5. Malaka oshirish kurslarida qatnashib kelgan o‘qituvchilar ishtirokida seminar tashkil etish va talim jarayonini tashkil etishdagi o‘rganilgan yangiliklarni kafudra jamoasiga etkazish.
6. Doimiy ravishda mutaxasisslik va ixtisoslik fanlarini o‘qitish jarayonlari taminlanishi va o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish darsni tahlilini olib borish va tavfsiyalar ishlab chiqish.
7. Talim mazmuni va sifat ko‘rsatkichini oshirish bo‘yicha umumiy natijalarga erishayotgan o‘qituvchilarni moddiy va manaviy rag‘batlantirish bo‘yicha raxbariyatga takliflar kiritish.

Foydalanilgan adabaiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi ПФ-5650- sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.11.2020 yildagi ПФ-6108- son

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA NAZORATNI OLIB BORISHNING AHAMIYATI VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna

Guliston Davlat universiteti, Texnologik va maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Tel:99 916 03 71
E-mail: fayziyevamabuda@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv faoliyatini olib borishda nazoratning ahamiyati, ta’lim jarayoni nazoratini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar va nazoratni olib borish algaritmi haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, nazorat, talab, monitoring, algaritm, yondashuv, tamoyillar, senergetika.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-dekabrdagi 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda maktabgacha ta’limga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish vazifalari belgilangan.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirish muammosining yechimini kontseptual, metod va uslubiy yondashuvlarni hisobga olgan holda, pedagogika va sinergetikada ma’lum bo‘lgan integrativ ko‘rsatkichlardan foydalanish, yangi mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni integratsiyalash orqali amalga oshirish mumkin. Kelgusida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning dalillarga asoslangan yondashuv va tamoyillari, maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishning tashkiliy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish zamonaviy maktabgacha pedagogika nazariyasi va amaliyotida alohida ahamiyatga ega.

Nazorat - bu maktabgacha ta’lim taskiloti butun jamoasining ish faoliyatini miqdoriy va sifat jihatidan baholash va hisobga olishni amalga oshiradigan boshqaruv faoliyati hisoblanadi.[4] Ushbu

funktsiyani bajarishning asosiy vositalari bu monitoringdir. Tizimdagi faoliyatning barcha sohalarini kuzatish, tekshirish, hisobga olish va tahlil etishdan iborat. Boshqaruv jarayonida nazorat teskari aloqa komponentidir, chunki uning ko‘rsatkichlari bo‘yicha davlatimiz va hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qonunlar, farmoishlar, qarorlar, ko‘rsatmalar hamda rejalar va dasturlarning bajarilish darajasi aniqlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nazorat – ta’lim jarayonining ta’lim dasturining maqsad va vazifalari va maktabgacha ta’lim tashkilotining Ustavi, davlat dasturlarida belgilangan sohaga oid vazifalar, belgilangan rejalar, boshqaruv organlarining buyruqlarini bajarilishi hamda amalga oshirilgan ishlar bilan muvofiqligini nazorat qilish va tekshirish tizimi hisoblanadi. [5]

Qayta aloqa usuli sifatida nazorat, butun boshqariladigan ta’lim tizimining holati to‘g‘risida ishonchli va o‘z vaqtida ma’lumotlar olingan va oqilona foydalanilgan taqdirdagina samarali bo‘ladi. Undagi barcha ishlar rejalashtirilgan maqsad va tamoyillarga muvofiq bajarilganmi, yuqori tashkilotlardan olingan buyruqlar va amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar nazorat boshqaruv funktsiyasi sifatida boshqa funktsiyalar bilan bog‘lanmagan holda mustaqil faoliyat bo‘lolmaydi. Sohadagi mavjud amalga oshirilayotgan ishlarni solishtirish uchun ham ma’lum bir standart mezonni o‘rnatmasdan nazorat qilish mumkin emas.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida nazoratni amalga oshirishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- nazoratning maqsad va vazifalari ta’lim jarayonining maqsad va vazifalaridan kelib chiqishi kerak;

- nafaqat ishlarning holatini tekshirish, balki maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya ishlarining barcha yo‘nalishlarini monitoring qilishning yagona tizimini yaratish kerak;

- nazoratni rejalashtirish kerak;

-nazorat jarayonida faqat faktni ko‘rsatish emas, balki kamchiliklarga sabab bo‘layotgan jihatlarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega;

- nazorat o‘z vaqtida amalga oshirilgandagina va uni amalga oshirish natijasida belgilangan tadbirlar amalga oshirilgan taqdirdagina samarali bo‘ladi;

- nazorat qilinadigan masalalarning mohiyati bo‘yicha tekshirilayotgan shaxslarga ko‘rsatmalar berish, ularga ko‘zda tutilgan qarorlarni amalga oshirishda yordam berishi kabilar.

Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvi ustida izlanish olib borgan Rossiya tadqiqotchisi K. Yu. Belaya nazoratni tashkil qilishda nazoratni amalga oshirish uchun ma’lum ketma-ketlik yoki algoritmga rioya qilish kerakligini ta’kidlaydi:

1) Nazorat maqsadi, vazifalari va ob’ektini aniqlash.

2) Monitoring dasturini rejasini yoki kelgusida monitoring qilish sxemasini ishlab chiqish.

3) Samaradorlikni aniqlash uchun mezon va ko‘rsatkichlarni tanlash.

4) O‘rganish usullarini tanlash.

5) Diagnostika vositalarini tayyorlash.

6) Axborot to‘plash, faoliyat jarayoni va natijalarini o‘rganish (nazorat tartibini amalga oshirish).

7) Nazorat natijalarini qayta ishlash va talqin qilish.

8) Tadqiqot natijalarini tahlil qilish, baholash va muhokama qilish.

9) Nazorat qarorlarini qabul qilish, ushbu qarorlarni ijrochilarga yetkazish.

10) Tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish yo‘llarini belgilash.

11) Tuzatish harakatlarini tashkil etish.

12) Tavsiyalarning bajarilishini tekshirish. [6]

Uslubiy tadqiqotning eng muhim va murakkab tomonlaridan biri maktabgacha ta’lim tashkilotida nazoratni tashkil etishdir. Ko‘pgina zamonaviy ilmiy va uslubiy adabiyotlarda nazorat turlarini tasniflashda yagona yondashuv mavjud emas, ko‘plab mualliflar ularni tavsiflab, o‘z qarashlari va mulohazalari bilan bir-biriga zid keladi. Har bir nazorat turining asosiy xususiyatlari uning maqsadi va metodologiyasidir.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonlarini nazoratini olib borish muntazam, tizimli, samarali va shaffof bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-dekabrdagi 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni Toshkent 2019 yil
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son qarorining 1-ilovasi Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti Toshkent 2020 yil
3.O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi Toshkent 2019 yil
4.F.R.Qodirova va boshqalar “Maktabgacha pedagogika” Darslik T.,”Tafakkur” 2019 y
5. O.U.Xasanboeva “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” Oquv qo‘llanmaT., ”Ilm ziyo” 2012 yil
6.V.S.Basyuka, E.A.Muxarskoy “Организация контроля в дошкольных образовательных учреждениях”Moskva 2013y

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI VA USULLARI

Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna, Xakimova Anora Tulibayevna
Guliston Davlat universiteti Texnologik va maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, Tel:99 916 03 71
Guliston Davlat universiteti SB 3-bosqich talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar mehnat faoliyatini tashkil etishda foydalaniladigan usullar va ularni qo‘llash haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: *mehnat faoliyati, nazorat, talab,o‘yin, vosita, yondashuv, tamoyillar, yo‘nalish.*

Inson hayotida mehnat muhim ahamiyatga ega. Qadimdan ota-bobolarimiz mehnatni ulug‘lab kelishgan. Mehnat shaxsni har tomonlama kamol topishi uchun asosiy omil sanaladi. Psixologiyada uchta asosiy faoliyatlar tasniflanadi: o‘yin faoliyati, ta’lim faoliyati, mehnat faoliyati. Inson yashashi uchun unga moddiy va ma’naviy boyliklar kerak bo‘ladi. Ularning asosiy manbai mehnatdir. Inson hayot kechirishi jarayonida bir qator ehtiyojlari paydo bo‘lishi tabiiy. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun, shunga mos ravishda maqsad qo‘yadi va unga erishish uchun, ma’lum tartibda harakat qiladi. Bu jarayonda aqliy va jismoniy kuch sarflaydi. Bu sarflangan kuch-mehnat deyiladi.

Har qanday mehnat bilan shug‘ullanish og‘ir bo‘lgani tufayli kishi mehnatsevarlik sifatiga osonlikcha erishmaydi. Buning uchun inson yoshligidan har qanday mehnat turidan qat’iy nazar, o‘zini mehnatga o‘rgatib borishi va unga mehr qo‘yishi zarur. Shu bilan birga, mehnat jarayonida insonning hislatlari namoyon bo‘ladi va yaxshi xulq va ma’naviy sifatlar vujudga keladi. Mehnatsevarlik inson ma’naviy fazilatining eng muhimidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk yoshligidanoq mehnat tarbiyasi orqali tarbiyalab borish zarur. Bolalar uyda, maktabgacha ta’lim tashilotlarida, murakkab bo‘lmagan mehnat jarayonida ishtirok etib borishi orqali kundalik vazifalarni bajarish ko‘nikmasini egallab boradilar. Mehnatning inson hayoti uchun ahamiyati va uning mohiyati bilan mehnat jarayonini kuzatish va unda bevosita ishtirok etish orqali tanishib boradilar. Bolalar mehnati kattalarning rivojlangan mehnatidan bir qator xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi.Uning eng muhim xususiyati unda moddiy boylikdan iborat ahamiyatli natija bo‘lmaydi. Mehnatning mahsuli faqat bolaning o‘zigagina qimmatli bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatining ijtimoiy ahamiyati – uning bola shaxsiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishidadir. Mehnatni amalga oshirish jarayonida bolalarda mehnat qilish, unga kuch sarflash odati, ishni oxirigacha yetkazish malakasi shakllanadi.Shuningdek, qat’iylik, mustaqillik, mas’uliyat, tengdoshiga yordam ko‘rsatish, tashabbuskorlik va boshqa shaxsiy sifatlar tarkib topib boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni rivojlantirishda ham mehnat katta ahamiyatga ega. Ularda maqsadga erishishga bo‘lgan intilish, maqsadga erishish ijobiy hissini hosil qilish bilan birga, mehnat jarayonidagi materiallar, asboblarning xossalari va sifatlarini hamda bir qator ishlar izchilligini bilib olishga undaydi.

Mehnat bolani har tomonlama rivojlantirish vositasi bo‘lib, pedagogik jarayonda uning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Mehnatning shaxsni rivojlantirishdagi roli mehnat faoliyatining rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq.

Bolalarning mehnat faoliyati uch yo‘nalish bo‘yicha olib boriladi. [2]Bular:

1) bolalar mehnatini o‘yindan ajratib qo‘yish;

2) bolalar mehnat jarayonini bilib olish;

3) xila-xil mehnat turlarini tashkil etish.

Mehnat va o‘yin genetik jihatdan predmetlar bilan amalga oshirilgan faoliyatda paydo bo‘ladi. Bolalar o‘yinlari bilan mehnat o‘rtasida mustahkam aloqa mavjud bo‘ladi. Shu bilan birga ular bir-biridan farqlanadi. Mehnatning o‘yindan ajralib turuvchi farqi shundan iboratki, mehnatning aniq ifodalangan natijaga ega ekanligidir. Natijaga erishilmagan mehnatning ma’nosi ham bo‘lmaydi. Mehnat jarayoni doimo real kechadi va unda yolg‘on vaziyatlar bo‘lmaydi. Mehnat jarayonida bola haqiqiy predmetlar bilan ish ko‘radi. Mehnat jarayonida o‘yin mayillari sekin-asta mehnat mayillari bilan o‘rin almashadi. Shuday qilib, maktabgacha yoshdan boshlab, mehnat faoliyati o‘yindan ajraladi. Bu jarayonni bolaning mehnat jarayonini egallab olishi deb qarash mumkin.

Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, axloqli qilib tarbiyalash, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorash, mehnat qilish istagini tarbiyalashdan iborat. Mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xildir. Bu borada tadqiqot olib borgan V.I.Lovinova ularni guruhlar bo‘yicha quyidagi turlarga ajratadi:

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta’sir ko‘rsatish bilan belgilanadi:

1.Bolalarni maqsad qo‘yishga, mehnat malakalari, ko‘nikmalari, mehnat madaniyati bo‘yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o‘rgatish.

2.Bolalarda bo‘lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jarayonlarini mehnat qatnashchilari o‘rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.

3.Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish,buyumlar va harakatlarga qiziqish o‘yg‘otish orqali mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunib yetish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:

1.Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganligini tushuntirish.

2.Bolalarda mehnat ahliga hurmatni, ularga qo‘lidan kelgancha yordam berish xohishini tarbiyalash.

3.Kattalarning mehnat natijalarini asrab-avaylashga o‘rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllatirishga qaratilgan:

1.Bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatga qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamaslik, o‘z shaxsiy mehnatiga nisbatan to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash.

2.Javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlilik, qat’iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabr-matoatlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

3. Madaniy xulq va o‘z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o‘zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o‘z mehnati bilan qatnashish, o‘zi va o‘rtoqlarining mehnatini xolisona baholash, yordam berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mehnat tarbiyasi ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: kattalar mehnati bilan tanishtirish va o‘zlarini mehnatga o‘rgatish.[2]

Maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyotida bolalarni mehnat ta’limida kattalar mehnati bilan tanishtirish katta o‘rin tutadi, chunki bu mehnatning odamlar hayotidagi o‘rni haqidagi g‘oyalarni shakllantirishga, ishtiyoqini tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatda ishtirok etish bu tarbiyachilar bolalarni odamlar mehnat harakatlarining natijalariga erishish yo‘nalishini ko‘rishga, mehnat natijasini ajratib ko‘rsatishga o‘rgatsagina mumkin bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni kattalar mehhnati bilan tanishtirish har-xil tashkiliy yo‘llar orqali amalga oshiriladi:

Birinchi yo‘l-ekskursiya, mashg‘ulot, maqsadli sayrlar orqali bolalarni kattalar mehnatiga yaqinlashtirish. Bunda kuzatish, texnik vositalar orqali namoyish etilgan videolavhalarni ko‘rish, badiiy adabiyot orqali tanishtirish, eshitgan va ko‘rgan materiallar asosida suhbatlar va didaktik o‘yinlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo‘li –mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarda kattalar mehnatini bolalarga yaqinlashtirish. Gigienik va pedagogik jihatdan mumkin bo‘lgan ishlarni bolalar oldida kuzatish mumkun bo‘lgan holda bajarish. Kuzatishdan so‘ng, bolalar bilan shunga o‘xshash mehnat turlarini tashkil etish mumkin.

Uchinchi yo‘li-bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnat faoliyatidir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ularga kattalarning mehnati ijtimoiy-foydali mehnat bo‘lib, narsa va buyumlarni yaratishga qaratilganligi, ular har bir kishi va butun xalq uchun zarur ekanligi to‘g‘risida tushuncha berib boriladi. Masalan, kattalar tomonidan o‘simliklarni, hayvonlarni, parvarish qilish orqali ulardan olinadigan mahsulot kimlar uchun va nima maqsadda ishlatilishi to‘g‘risida bilim va tushunchalar berib boriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat o‘quv dasturiga asosan, har bir yosh guruhdagi bolalarni o‘zlarini quyidagi mehnat turlariga o‘rgatiladi: o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, kundalik maishiy mehnat, tabiatdagi va tabiat burchagidagi mehnat, qo‘l mehnati.[3]

Для оценки СХУ среди студентов медиков Гулистанского Государственного Университета (ГулГу) была выбрана в виде опросника шкала FAS (Fatigue Assessment Scale) (Таблица №1), которая дала возможность определить наличие данного синдрома и его степени тяжести [3].

Таблица №1

	Вопросы/Ответы	Никогда	Иногда (раз в месяц или реже)	Регулярно (несколько раз в месяц)	Часто (еженедельно)	Всегда (каждый день)
.	Меня беспокоить усталость	1	2	3	4	5
.	Я устаю очень быстро	1	2	3	4	5
.	Я не могу сделать многое в течение дня	1	2	3	4	5
.	У меня достаточной энергии для повседневной жизни	1	2	3	4	5
.	Физически я чувствую себя узнуренным	1	2	3	4	5
.	У меня есть проблемы с тем, чтобы что-то начать делать	1	2	3	4	5
.	У меня проблемы с ясностью мышления	1	2	3	4	5
	У меня нет	1	2	3	4	5

.	никакого желания делать что-нибудь					
.	Я чувствую себя умственно истощенным	1	2	3	4	5
0.	Когда я что-то делаю, я могу достаточно хорошо сконцентрироваться	1	2	3	4	5

Шкала состоит из десяти вопросов, пять из них касательно физической деятельности человека и остальные пять об умственной деятельности. На каждый вопрос участники выбирают один из ответов, таких как никогда (1), иногда (2), регулярно (3), часто (4) и всегда (5). Каждый ответ каждого вопроса представляет собой определенного балла, которые в суммации устанавливает наличие и степени тяжести СХУ (Таблица №2).

Таблица №2

отсутствие усталости (нормальный)	Показатели FAS 10 - 21	
существенная усталость	22 - 34	Показатели FAS 22 - 50
чрезмерная утомляемость	>= 35	

В исследование по определению наличие и степени тяжести СХУ участвовали 120 студентов I и II курсов медицинского факультета ГулГу, обучаемые по направлениям лечебное дело и педиатрическое дело. Данные студентов участвовавших в исследования были обработаны по курсовому, половому соотношению и соотношению по направлениям (Таблица №3, №4).

Таблица №3

Курсовое соотношение	I курс	53 студенты	47%
	II курс	67 студенты	53%
Соотношение по направлению обучения	Лечебное дело	61 студенты	55%
	Педиатрическое дело	59 студенты	45%
Гендерное соотношения	Мужчины	50 студенты	39%
	Женщины	70 студентки	61%

Таблица №4

Степень тяжести СХУ	**Отсутствие усталости**	**Существенная усталость**	**Чрезмерная усталость**
Общее количество	50 случаи	70 случаи	0
	42%	58%	
Мужчины (студенты)	20 случаи	30 случаи	0
	17%	25%	
Жещины (студентки)	30 случаи	40 случаи	0
	25%	33%	
I-курс	24 случаи	29 случаи	0
	20%	24%	
II-курс	26 случаи	41 случаи	0
	22%	34%	
Лечебное дело	26 случаи	35 случаи	0
	22%	29%	
Педиатрическое дело	23 случаи	36 случаи	0
	19%	30%	

По результатам проведенного исследования по определению наличие и степени тяжести СХУ показали, что среди студентов медиков I и II курсов ГулГУ встречаемость данного

синдрома составляет 58% (70 случаи). Полученный результат указывает на высокую распространенность изучаемого синдрома среди обучаемых студентов в медицинском факультете. Анализируя результаты распространенности СХУ по гендерному различию, усталость среди женского пола больше встречается (33%) нежели чем мужского пола (25%). В сравнении результатов I и II курсов, наблюдается превалирование наличие СХУ среди старшекурсников (34%) по отношению младшекурсникам (24%). А по отношению обучаемым направлениям, эти показатели среди студентов «лечебное дело» равно на 29% и среди студентов «педиатрическое дело» составляет 30%, что указывает на одинаковую распространенность изучаемого синдрома усталости.

Выводы:

Анализируя полученных данных проведенного исследования, встречаемость СХУ среди студентов-медиков достаточно высокая и каждый второй студент медицинского направления страдает от усталости. Женский пол больше подвержен данному синдрому, который требует дальнейшего изучения причин гендерного различия. Частота встречаемости СХУ в период обучения увеличивается, эту динамику распространенности можно косвенно связывать с увеличением сложных медицинских предметов и большой учебной нагрузкой, которые влияют на продуктивность обучения и кадровую поготовку. А обучаемое направление студентов в медицине, в частности таких как «лечебное дело» и «педиатрическое дело» не оказывает влияние на распространенность СХУ.

Литературы:

1. Воробьева Ю.Д., Данилов А.Б. Синдром хронической усталости: современные аспекты диагностики и лечения. Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. 2021. – 121. – с.113–120. https://doi.org/10.17116/jnevro2021121402113;

2. Алексеенко С.Н., Гайворонская Т.В., Дробот Н.Н. ВЛИЯНИЕ СИНДРОМА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ И ЛИЧНОСТНЫХ ЧЕРТ ХАРАКТЕРА НА ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС СТУДЕНТОВ–МЕДИКОВ // Современные проблемы науки и образования. – 2020. – № 4.; URL: https://science-education.ru/ru/article/view?id=30013 (дата обращения: 15.09.2023).

3. De Vries J, Michielsen H, Van Heck GL, Drent M. Measuring fatigue in sarcoidosis: the Fatigue Assessment Scale (FAS). Br J Health Psychol. 2004;9(Pt 3):279-91.

PMID: 15296678 DOI: 10.1348/1359107041557048

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI TIBBIYOT FAKULTETI TALABALARI MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Nazarkulova Sh.U.

Guliston davlat universiteti, Tibbiyot fakulteti, Umumiy tibbiy fanlar kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent

“Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”

Sh.M.Mirziyoev

Dolzarbligi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning to‘rtinchi bandi ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida, ayniqsa, ta’lim sohasiga alohida urg‘u berdilar.

Shu bois ta’limda ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan ham ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy – eksprimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishga ta’lim va fan sohasini rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratilgan,deb ta’kidlaganedi.

Darhaqiqat bugungi kunda ta’limdagi strategik yo‘nalishlardan biri sifatida ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil etib belgilab berilayapti.

Biz istiqbolda ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom fikrlaydigan avlodni tarbiyalashga erishamiz.

Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

Zero, ma’naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar.

Ta’lim muassasalarda yaratilgan o‘quv qo‘llanmalardan tortib, sinflar va auditoriyalargacha ma’naviy, mafkuraviy ta’lim beruvchi ijtimoiy reklamalar bilan qurollantirishga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Eng muhimi –mamlakatimizda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” har tomonlama barkamol, bilimli, malakali yoshlarni voyaga etkazishning jamiyatimiz tomonidan qabul qilingan tarixiy hujjat ekanini tushuntirish va uni amalga oshirishga butun kuchni safarbar etish zarur. Ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, ya’ni innovatsion texnologiyalarning asosi bo‘lgan interfaol metodlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba va o‘quvchitalabalarni bilimli va etuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o‘zgartirish demakdir . Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviyatni yuksaltirishda innovatsiya shu soha sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan holda amalga oshiriladi.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ma’naviyat tizimida shakllangan yangicha yondashuvlardan iborat bo‘ladi.

Mazkur yondashuvlar tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, milliy ma’naviyatning kontseptual mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviyatni yuksaltirishdagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi.

Shu sababli “novatsiya”va “innovatsiya”tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur.

Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya xususida fikr yuritayotgan bo‘lamiz.

Agar faoliyat ma’lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning printsipial o‘zgarishiga olib kelsa, innovatsiya degan tushuncha shakllanadi.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: innovatsiya mavjud nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaq bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi.

Innovatsiya esa tizimli, yaxshi va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub’ektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yo‘nalishlari ochiladi, zamonaviy texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat samaralariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi. Ma’naviyatni yuksaltirishdagi innovatsion o‘zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita shu soha vakili faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o‘rganilgan. Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kel-masligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining yuzaga kelgan me’yor bilan to‘qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni echishga qaratiladi.

Innovatsiyalar doimiy ravishda ijtimoiy-siyosiy hayotga yangiliklar olib kirish orqali mafkuraviy qarashlar ivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik innovatsiyalar – mutaxassislarni yangicha sharoitda ishlashga tayyorlovchi jarayon sanaladi. Unda ilgarigi egallangan bilim, ko‘nikmalar asosida ijodiy samara beruvchi yangicha yondashuv texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion ta’limning maqsadlari quydagilarni nazarda tutadi: ta’lim oluvchilarning yuqori darajadagi ma’naviy hamda intellektual-shaxsiy rivojlanishini ta’minlash; zamonga yangicha yondashuv asosida yangi texnologiyalar, loyihalar yaratish va ular yordamida o‘quv reja dasturlarining yangi, mos turlarini yaratish; ta’lim oluvchilarning ilmiy tafakkur ko‘nikmalarni egallashga shart-sharoit yaratish; ijtimoiy-iqtisodiy hamda kasbiy sohalarga yangiliklarni kiritish metodologiyasini

o‘rgatish; nazariyani amaliyot bilan bog‘lash; o‘quv-uslubiy materiallar bazasini mustahkamlash; ta’lim sharoitlarining sotsial va iqtisodiy asoslarini kuchaytirish.

Ta’lim maskanlaridagi dolzarb vazifalardan bo‘lgan barkamol avlodning tayyorgarlik sifatini yanada yuksaltirish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shu sababli fakultetimizda o‘qitish tizimini jahon tajribalardan foydalangan holda to‘liq ko‘rib chiqib eng maqbul jihatlarini amaliyotga tadbiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Bu hozirgi globallashuv davrida bo‘layotgan zamonaviy innovatsion talablarga xos bo‘lgan jarayonlardir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy sohani rivojlantirishda yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirib borish bevosita ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar asosida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash printsiplarini yanada yuksaltirish maqsadga muvofiqdir.

Zero bu milliy o‘zligimizni anglab etishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Umuminsoniy qadriyatlar har doim milliy qadriyatlar bilan oziqlanadi, hamda milliy ma’naviyatni shakllantirish va yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu esa bugungi kunning davr talabidir.

ADABIYOTLAR

I. Abdullaeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. – Farg‘ona: FarDU, 2008.

3. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.

4. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.

5.Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2009.

6.Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A. B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari .- T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

7. Muxina S.A., Solovyova A.A. Sovremenno‘e innovatsionno‘e texnologii obucheniya. – M.:” GEOTAR-Mediya”, 2008.

8. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat G‘ – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009.

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETIDA MALAKALI TIBBIY MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA SIMULYATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Fayziev O.A.

Guliston davlat universiteti “Umumiy tibbiyot fanlari” kafedrasi assistenti

Dolzarblik. Zamonaviy sharoitda malakali mutaxassislar tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida diplom oldi o‘qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish asosida shakllantirilib, keyingi ta’lim bosqichida takomillashtiriladigan samarali usullari asosida amalga oshirilmoqda. Bu vazifalarni hal etish ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

Simulyatsiya mashg‘ulotlari har tomonlama barkamol rivojlangan, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z bilimini oshirish ustidan ishlashga qodir, professional va ijodiy fikrlay oladigan, hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirishga yordam beradi.

Tibbiy ta’limga talabaning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishini, bilimlarni turli shakllarda taqdim etishni, real sharoitlarda amaliy bilimlarini qo‘llay olish imkoniyatini ta’minlaydigan yangi o‘qitish usullari tobora ko‘proq joriy etilmoqda.

Maqsad. Talabalarning olgan nazariy bilim va ko‘nikmalarini yanada oshirish uchun fakultetimiz talabalarining kasbiy mahorati va ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi simulyatsiya o‘qitish texnologiyasini yaratish zaruriyati.

Bunda, mashg‘ulotlarning simulyatsiya shakli kasbiy faoliyatdan olingan vaziyat va usullar yordamida yaratiladi, ular o‘quvchilarni ta’lim faoliyatiga faol jalb qilish va rag‘batlantirish vositasi sifatida ishlaydi.

Amaliy mashg‘ulotlarda muammoni bemor va shifokor nuqtai nazaridan o‘rganish imkonini beruvchi rolli o‘yinlar faol qo‘llaniladi.

Simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quv bosqichida talabalarning kasbiy mahoratini va amaliy ko‘nikmalari bo‘yicha malakasini oshirish, ularning tibbiy amaliy faoliyatiga yumshoq va xavfsiz o‘tishini ta’minlash imkonini beradi.

Buning uchun:

- tibbiyot fakultetida bir nechta klinikagacha bo‘lgan (klinik oldi) amaliyot xonalarini yaratish lozim:

- ular simulyatsiya uskunalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak;

- simulyatsiya mashg‘ulotlarining innovatsion shakliga e’tibor qaratish, simulyatorlar va manekenlarda amaliy ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash orqali mustahkamlash, amaliy mashg‘ulotlar imkoniyatlaridan faol foydalanish lozim.

Tibbiyot talabasining tashkillashtirilgan va rejalashtirilgan mustaqil ishi bilim olish va uning darajasini oshirishning ajralmas qismi bo‘lib, kelajakda doimiy ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z ustida ishlash va malakasini oshirib borishning asosiy, hayotiy ehtiyojiga aylanishi kerak.

Mustaqil ish shakllaridan biri simulyatsiya uskunalari bilan ishlashdir.

Umumiy amaliyot shifokorining kasbiy yaroqliligi uning maxsus amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini anglatadi.

Shuning uchun simulyatsiya mashg‘ulotlari ushbu soha mutaxassislarini tayyorlashning muhim qismidir.

Bunday yondashuv shifoxonada qo‘llaniladigan diagnostika va terapevtik tadbirlarning yuqori invazivligi (qo‘llanilishi) bilan bog‘liq.

Simulyatsiyaning afzalliklari:

- bemor va talaba uchun xavfsizligi;

- amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalarning harakatlarini muvofiqlashtirish imkoni mavjudligi (o‘quv xonasi - bu odamlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, jamoaviy ish tamoyillarini aniqlash, etakchilik fazilatlarini aniqlash va singdirish mumkin bo‘lgan joy);

- cheksiz miqdordagi mashg‘ulotlar va ularni takrorlash imkoni mavjudligi;

- simulyatsiya jarayonida har kuni klinikada yuzaga keladigan turli xil klinik vaziyatlarda olib boriladigan harakatlarning samarali amaliyoti;

- bemorlarga birinchi tibbiy muolajalarni o‘tkazishda stress omillarining ta’sirini kamaytirish;

- talabalarning akkreditatsiyaga amaliy tayyorgarligi darajasini ob’ektivlashtirish.

Simulyatsiya mashg‘ulotlaridan foydalangan holda xodimlarni tayyorlashda o‘quv jarayonining mukamallashuvi va simulyatsiya texnologiyalaridan bilimlarni baholashning etalon (me’yoriy) vositasi sifatida foydalanish imkoniyati mavjud.

Simulyatsiya texnologiyasi yordamida bemorlarning xavfsizligi darajasi va mavjud tibbiy yordam tizimlarining samaradorligi doimiy ravishda yaxshilanadi.

Hozirgi vaqtda zarur amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida fantomlar, mulyajlar, modellar, trenajyorlar, virtual simulyatorlar va boshqa texnik o‘quv vositalari paydo bo‘lib, ular tibbiyot xodimlari faoliyatidagi jarayonlar va turli vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi.

Qon tomirlariga kirib borish, yuqori nafas yo‘llarining o‘tkazuvchanligini tiklash, yurak-o‘pka reanimatsiyasi, bemorni immobilizatsiya qilish va tashish, qovuqni kateterizatsiya qilish, oshqozonni yuvish, stomalar va kateterlarni parvarish qilish, ginekologik va akusherlik manipulyatsiyasi kabi individual manipulyatsiyalarni o‘quv jarayonini tegishli simulyatsiya vositalari – mulyaj va manekenlar bilan jihozlamasdan amalga oshirish mumkin emas.

Xulosa. Simulyatsiya texnologiyalaridan foydalanish tibbiyotni o‘rganishga qiziqishni sezilarli darajada oshiradi va kasbni egallashga mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Abduraxmanov K.X.Tibbiy ta’limda innovatsion texnologiyalarning tutgan o‘rni G‘G‘Sifatli ta’lim va interditsiplinar yondoshuvlar:muammolar echimlar va hamkorlik.Guliston.2023.25-26 may.1011-1012 b.

2. Tibbiyotda virtual texnologiyalar. Butunrossiya jamoat tashkiloti "Tibbiyotda simulyatsiya treningi Rossiya jamiyati", № 2 (22), 2019 yil.

3.Gorshkov M.D., "Umumiy tibbiyot" mutaxassisligi bo‘yicha simulyatsiya mashg‘ulotlari G‘ komp. M.D. Gorshkov; ed. A.A. Svistunov. - M.: GEOTAR-Media, 2014-288 b.

4. Usova N.F. Ta’limning ko‘rinishini yaxshilash uchun zamonaviy texnologik o‘qitish vositalaridan foydalanish. G‘G‘Sibir tibbiyot jurnali, 2012 yil № 5. Shabunin A.V., Logvinov Yu.I. Simulyatsiya mashg‘ulotlari. Qo‘llanma - M.: GEOTAR-Media, 2018.-792 b.

6. Fayziev O.A G‘G‘Sifatli ta’lim va interditsiplinar yondoshuvlar:muammolar echimlar va hamkorlik.Guliston.2023.25-26 may. 1325-1327 b.

SIRDARYO VILOYATI GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI TIBBIYOT FAKULTETI YOSHLARI O‘RTASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xaknazarov Sh.F

Guliston davlat universiteti, Tibbiyot fakulteti Umumiy tibbiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Dolzarbligi. Yoshlar orasida O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini keng targ‘ib qilish orqali ularda yurtsevarlik tuyg‘usini oshiradi va o‘tmish tarixiy durdonalari bilan tanishtiradi.

Yoshlar turizmi – bu sayohatning har-xilligi, bunda yoshlar bir maqsadda va dunyoni bilish istagi bilan o‘zlarining o‘rtoqlari bilan dam olishadi.

Sayohat buyuk istiqbolni, turli mamlakatlar madaniyati, tarixi va ko‘p yangi narsalarni o‘rganish imkonini beradi.

Yoshlar uchun tez-tez ma’lum chegirma va bonuslar qilishadi va ular bundan katta mamnuniyat bilan foydalanishadi.

Har bir kishi uchun o‘zining qiziqarli dam olishi bor.

Kurort, dengiz, kuni bo‘yi o‘yin-kulgi va qiziqarli yangi tanishuvlar deyarli har bir yosh insonning tabiiy hayot ritmidir.

Yoshlar turizmi turizmning maxsus turlaridan biri sifatida o‘sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasi, ta’limi, ma’naviyati, madaniyati va jismoniy rivojlanishidagi muammolarini hal qilishda muhim omil sifatida baholanib, yoshlarning iqtidor va qobiliyatlari ochilishiga, vatanparvarlik tuyg‘ulariga tayanuvchi umummilliy qadriyatlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Yoshlar turizmini taraqqiy ettirishning asosiy ijtimoiy vazifasi shundaki, u yoshlarga xos tipik qiziqishlarni qondiribgina qolmay yoshlarning kasbga yo‘nalishini va kelajakda o‘z kasbining ustasi bo‘lishi uchun hayotiy ne’mat sifatida xizmat qiladi.

Yoshlar turizmi buning uchun shaxsning ijtimoiylashuvi, unda vatanparvarlik umuminsoniy qadriyatlarning hosil qilinishi kabi hayotiy muammolarni hal qilish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Yoshlar turizmining holati va taraqqiyot daraja- si turizm sohasi nazariyasini bilish uslubiyati va joriy amaliyot holati bilan bog‘liqdir.

Turizm sohasida tadqiqotlarning olib borilishida mazkur jarayonga tajribasi katta bo‘lgan mutaxassislarni jalb qilinishi va simpoziumlar, seminarlar, ishbilarmonlik davra suhbatlarining tashkil etilishi yoshlar turizmini yanada taraqqiy ettirish imkoniyatlarini oshiradi.

Xalqaro turizmning taraqqiy etishi o‘z navbatida ichki turistik mahsulot uchun talabni ham oshiradi.

Mazkur faoliyatda yoshlarning ulushi yuqori bo‘lib bunga asosiy sabab yoshlarning moslashuvchanligi yangiliklarni o‘zlashtirish imkoniyatlari yuqoriligi hisoblanadi.

Yoshlar faol shaklda dam olishni xush ko‘rishadi va ko‘plab sayyohlik kompaniyalari endi baquvvat yoshlar uchun mo‘ljallangan maxsus yoshlar turlarini tashkil etishyapti va ularni faoliyati quyidagi dam olish ko‘rinishlarini taklif etadi:

Toqqa sayohatlar – bu tog‘larda dam olish.

Sayohat tog‘ oqimlari orqali, tog‘ etaklari va tizmalarida bo‘ladi.

Suv turizmi - dengizlarga, ko‘llarga, daryolarga va suv omborlariga qayiq, kema va boshqa suv transportlari orqali sayohat qilish.

Velosiped ekskursiyalari -turli yo‘llarga, jarliklarga, qumga, tog‘ yo‘nalishlariga velosipedlarda sayohat qilish. Bundan tashqari, yoshlar orasida chang‘I turizmi va alpinizm, kvadrosiklda safar va otda sayohat juda mashhurdir.

Betakror yurtimiz o‘zining tarixiy, madaniy meros ob’ektlari, go‘zal tabiati va iqlimi bilan hamisha sayyohlarni jalb etib keladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish, uni iqtisodiyotning strategik sektoriga aylantirish, hali to‘la foydalanilmagan sayyohlik salohiyati imkoniyatlaridan keng foydalanish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarni jadallashtirish borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan qator yig‘ilishlar o‘tkazilayotgani, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar qabul qilinib, dolzarb vazifalar belgilab berilayotgani alohida ahamiyatga ega.

Jumladan, shu yil 30 aprelda qabul qilingan “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarorida ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko‘paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishga qaratilgan qator vazifalar o‘z aksini topgan.

Xususan, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida ko‘plab maqsad-vazifalar belgilab berildi.

Mazkur qarorga ko‘ra, 2023 yildan boshlab esa yanvar oyining birinchi dekadasi va mart oyining uchinchi dekadasida “Yoshlar turizmi haftaligi” o‘tkaziladi. Ta’kidlash joizki, ushbu sa’y-harakatlar ichki turizmni rivojlantirish hamda yoshlarning mazmunli sayohatlarini tashkil etish, ularni yurtimizning turistik manzillari va imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada belgilangan vazifalarga ko‘ra, “Yoshlar turizmi haftaligi” doirasida talaba va yoshlar ziyoratgoh va qadamjolar, tarixiy va diqqatga sazovor joylarga sayohati tashkil etilmoqda.

Mazkur turizmga iqtidorli yoshlar, respublika, viloyat, tuman va shahar fan olimpiadalarida yuqori natijalarga erishgan o‘quvchilar, ijtimoiy himoyaga muhtoj, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan hamda “Yoshlar daftari”, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning o‘quvchi, talaba-yoshlari jalb qilinmoqda.

Yoshlarning madaniy meros ob’ektlari va muzeylarga tashrifi davomida ko‘ngilochar musiqiy chiqishlar tashkil qilinib, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirilishiga erishilmoqda.

Yoshlar turizmi bu doimiy harakat hisoblanadi. Har kuni ayrim to‘siqlarni bartaraf etish kerak, o‘zlarini va qiyinchiliklarni engib o‘tishlari kerak, sayyoramizning sehrli tovushlarini eshitishlari uchun va koinot atrofidagi buyuklikni tushunishlari uchun, muhtasham go‘zallikni ko‘rishlari uchun to‘siqlarni engib o‘tishlari kerakdir.

Albatta, yoshlar turizmini rivojlantirish zarur va sog‘lom turmush tarzini olib borishga ishtiyoqmand yoshlar uchun buni yanada jozibador sayyohlikni boshqa shakllari bilan birlashtirish kerak bo‘ladi.

Turizm dunyodagi eng tez rivojlanayotgan biznes turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa. Shunday qilib, uning hozirgi bosqichida yoshlar turizmi faollik-dadir.

Bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlar uchun turpaketlarni yaratishda quyidagi omillarni hisobga olish lozim:

1.Turistning shaxsiy afzaligi (dam olishdan nimani ko‘zlamoqchi, nimani tomosha qilmoqchi, qanaqa kategoriyadagi mehmonxonada tunamoqchi);

2.Guruhning tarkibi (yoshlar tengdoshlari bilan muloqot qilishni xush ko‘rishadi, shuning uchun, bu yosh guruh kategoriyasi taxminan bir xil darajada bo‘lishini ta’minlash zarur);

3.Qiziqarli dastur va hissiy sayyohlar jamg‘armasi (bu erda dastur shunday mo‘ljallangan bo‘lishi kerakki, bunda yoshlarni umuman bir daqiqa bo‘lsada bo‘sh qo‘ymaslik kerak, shu bilan birgalikda shuning uchun ham yosh sayyohlar guruhi osonlik bilan ko‘payayotganligini ta’kidlash lozim, bundan tashqari, guruh ichida munosabatlar muhim hisoblanadi, qulay m uhitni yaratish hamma uchun zarur); Bugungi yoshlar uchun turizmning muhim qadriyati, bu ularning turizm sohasiga dunyoning ilm vositasi sifatida qarashidadir.

Ayniqsa, turizm dunyoqarashni kengaytirish yo‘llaridan biri sifatida tan olinadi.

Yoshlar qadriyatlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: ma’naviy, hayotiy estetik, ijtimoiy.

Hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlar zamirida xalq manfaati va vatanimiz iqtisodiyotini rivojlantirish yotibdi.

Xususan, O‘zbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zamirida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, barcha sohalarni, xususan, xizmat ko‘rsatish sohasida etakchi tarmoqlardan biri bo‘lgan turizm sohasini ham barqaror rivojlantirish va bu sohada tashabbuskor yoshlar rolini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1.Abdullaeva T.,Tuxliev N.Osnovo‘ bezopasnosti v turizme. Toshkent, 2008.-503 s 30.

2.Matyaqubov U.,Hayitboev R., Ekologik turizm. Samarqand, 2010.-60 b.

3.Tuxliev I.S.,Qudratov G‘.H.,Pardaev M.Q.,Turizmni rejalashtirish. Darslik, Toshkent, 2010,208 b.

4.O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi. Ekologiya xabarnomasi, № 2.Toshkent, 2007. 5-14 b.

5.Xrabovchenko V.V. Ekologicheskiy turizm. Finanso‘ i statistika. Moskva, 2004.-172

6. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi. Ekologiya xabarnomasi,№ 2,Toshkent,2007.5-14 b.

7.Hayitboev R.,Sattarov A.,Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi, Samarqand,2008.-87 b.

SIRDARYO VILOYATIDA OMMAVIY JISMONIY TARBIYA VA SOG‘LOMLASHTIRISH ISHLARINI TIZIMLI TASHKIL ETISH

Xasanova G.S

Guliston davlat universiteti, Tibbiyot fakulteti, Umumiy tibbiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Dolzarbligi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlardan bir etib belgilangan.

Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi.

Yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, sport turlari bo‘yicha iste’dodli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirish, kadrlar tayyorlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro aloqalarni kengaytirish, moddiy-texnik bazalarni mustahkamlash hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga etkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, millat genofondini asrash, oilada, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, sport turida yuqori natija ko‘rsata oladigan qobiliyatli, iste’dodli sportchilarni qidirib topish, sport turlarini rivojlantirish hamda ularning ommaviyligini oshirish, iqtidorli sportchilarni saralash va yuqori malakali murabbiylarni tayyorlash, sport inshootlari quvvatidan to‘liq va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir [1].

Shuningdek, ta’lim muassasalarida barpo etilgan barcha sport inshootlari quvvatidan to‘liq va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish, ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarni sog‘lomlashtirish va muntazam sport bilan shug‘ullanishlari uchun sport sektsiyalarini tashkil etish,yoshlarning darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun ta’lim muassasalari sport zallarida ular bilan o‘tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar ko‘lamini kengaytirish qolaversa, ommaviy sportni umumxalq harakatiga aylantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Shu bois yurtimizda jismoniy tarbiya hamda sportga davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 iyuldagi “Davlat ta’lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 542-sonli qarori kelib

chiqqan holda, Oliy ta’lim muassasalari sport faoliyati, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo‘nalishlari bo‘yicha professor-o‘qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish hamda amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Maqsadni amalga oshirish uchun mazkur maqola mazmuni har xil metod va tamoyillardan foydalanishi, ularni tadbiq etish qoidalarni va uslublarni, harakat ko‘nikma va malakalarga mustaqil tayyorlanish;

-sog‘lomlashtirish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etishda sport mashg‘ulotlarining atamalaridan to‘g‘ri foydalana olishga o‘rgatish;

-oliy ta’lim muassasalari sport faoliyati, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat yo‘nalishlarida professor-o‘qituvchilarning zamonaviy kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- professor-o‘qituvchilarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

- o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirishdan iborat[2].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkama-sining 2019 yil 13 fevraldagi "2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiklash tugrisida"gi 118-son qarorida "aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan keng qamrab olishni ta’minlaydigan innovatsion shakllar va mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil etish" vazifasi qo‘yilgan [3].

Xulosa qilib aytganda, ommaviy jismoniy tarbiya va sog‘lomlatirish ishlarini tizimli tashkil qilish jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish davrida inson sog‘lig‘ini tiklash, mustahkamlash hamda jismoniy sifatlarni rivojlantirishga zo‘r berib organizmga jismoniy mashqlanishdan tushadigan yuklamalarning salbiy oqibatlarini oqilona chetlab o‘tishdek muhim vazifa o‘z echimini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2019 — 2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 118-son Qarori. 2019 yil 13 fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-5924-son Farmoni. 2020 yil 24 yanvar.

4. Norqobilov M.N., Mirxodjaeva Z.S., Maxmudov V.V. Jismoniy madaniyat va sport mashg‘ulotlarida sog‘lom turmush tarzini talabalar ongiga singdirishda pedagogik yondashuvlar. Monografiya. Toshkent.: TIKXMMI, 2019 yil. 4 b.

5. Abdumalikov R. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarishni tashkil etish yo‘llari. –T.: O‘zDJTI, 2002y.28 b.

6.Xudaykulov Sh.X. Jismoniy tarbiya va sportning ta’lim - tarbiya tizimidagi ahamiyati.G‘G‘Sifatli ta’lim va interditsiplinar yondashuvlar:muammolar echimlar va hamkorlik. Guliston.2023.25-26 may. 1173-1175 b.

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI TIBBIYOT FAKULTETI TALABALARI KOMPETENTSIYALARINI O‘ZLASHTIRISHDA ALGORITMLASHTIRILGAN YONDOSHUVNING O‘RNI

Хатамов К.Х

Guliston davlat universiteti “Umumiy tibbiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.n

Annotatsiya: “Vrach” kasbiy standartiga javob beradigan mutaxassis tayyorlashda ustuvor vazifa ichki kasalliklar klinikalarida tez-tez uchraydigan sindromlarni differentsial diagnostika qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan talabalarning kasbiy fazilatlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. tez-tez birlamchi tibbiy yordam shifokorlari tomonidan uchraydi.

Ushbu yondashuv klinikada ishlaydigan mutaxassisni tayyorlashni yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiyalar, differentsial diagnostika algoritmi, tibbiyot talabalari, ambulator terapiya.

Oliy tibbiyot maktabining asosiy vazifasi bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash, uning kasbiy fazilatlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat [1, 2, 3].

Algoritm - bu "ma’lum bir sinf muammolarini hal qilishni ta’minlaydigan operatsiyalarning mazmuni va ketma-ketligini belgilaydigan qoidalar tizimi".

Diagnostika algoritmi diagnostika muammolarini hal qilish uchun mo‘ljallangan [1, 4].

Talaba tashxisning yakuniy maqsadi kasallik ekanligini tushunishi kerak, ya’ni. maxsus nozologik birlik.

Biroq, "kasallik" atamasidan tashqari, zamonaviy klinik tibbiyot inson salomatligidagi og‘ishlarni, birinchi navbatda, "sindrom" ni bildirish uchun bir qator boshqa atamalardan foydalanadi.

Tajribali shifokor etarlicha tez tashxis qo‘yadi va buni tibbiy sezgi bilan tushuntiradi.

Mantiq va sezgi kombinatsiyasi diagnostika muammolarini hal qilishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi.

Diagnostika muammosi nazariy muammodan tashqari metodologik jihatga ham ega [1, 4].

Nomukammal diagnostika texnologiyasi yoki uning yo‘qligi diagnostika jarayonini xaotik qiladi.

Tajriba bilan har bir shifokor o‘zining diagnostika texnikasini ishlab chiqadi, ammo bu yo‘l uzoq va qiyin.

Shu munosabat bilan shifokorlar kasalliklarni tashxislashda tizimli, ya’ni algoritmik yondashuvni yaxshi bilishlari kerak.

Har qanday algoritmning, shu jumladan diagnostikaning samaradorligi diagnostik qidiruv jarayonida qayta aloqa shaklida olingan dastlabki va ikkilamchi ma’lumotlarning sifatiga bog‘liq.

Ishning maqsadi: “Ambulator terapiya” fanini o‘qitishda o‘quv jarayoniga ichki kasalliklar klinikasida ko‘p uchraydigan sindromlarni differentsial diagnostika qilish algoritmlarini tuzish bo‘yicha mustaqil ish shaklini joriy etish.

Algoritmga qo‘yiladigan birinchi talab - strukturaning ravshanligi. Diagnostika algoritmining birinchi tarkibiy birligi - bemorning shikoyatlari. Shikoyatlar har doim sub’ektivdir.

Ular diagnostika algoritmining ikkinchi axborot birligi - anamnez yordamida ob’ektivlashtirilishi mumkin.

Tashxisning birinchi versiyasining birinchi tekshiruvi tekshiruv hisoblanadi.

Ushbu bosqichda ma’lumotni buzish yoki yo‘qotish talabaning kasallik belgilarini bilmasligi yoki bilmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ya’ni. nimani izlash kerak, yoki alomatlar topa olmaydi, ya’ni. qidirib bo‘lmaydi.

Tashxisni tekshirish paraklinik tekshiruv yordamida amalga oshiriladi.

Muvaffaqiyat ko‘p jihatdan aniq imtihon rejasiga bog‘liq (nima izlash kerakligini bilish, shuningdek, nimani izlash kerak).

Faqat maxsus paraklinik usullar yordamida aniqlanishi mumkin bo‘lgan ko‘plab kasalliklar va sindromlar mavjud.

Tegishli tekshiruvlar o‘tkazish uchun moddiy-texnika bazasi mavjud bo‘lmaganda bu kasalliklarga tashxis qo‘yishning iloji yo‘q.

Haddan tashqari, asossiz miqdordagi testlar yoki tadqiqotlar "axborot shovqini" ni keltirib chiqarishi mumkin, bu ham tashxisga xalaqit beradi va talabani etakchi patologik jarayondan uzoqlashtiradi.

Tadqiqot natijalarini baholashda ikki turdagi diagnostika xatolari ham mumkin.

Birinchidan, bu tahlil (tadqiqot) texnologiyasining nomukammalligi, ijrochining malakasi etarli emasligi, asbob-uskunalar va reagentlarning past sifati va boshqalar bilan bog‘liq uslubiy xatolar.

Ikkinchidan, xatolar o‘rganilayotgan parametrning fiziologik tebranishlarini bilmaslik yoki etarli darajada baholamaslik yoki turli tadqiqot usullarini baholashning ma’lum bir tizimiga (maktabga) rioya qilish tufayli mumkin.

Ushbu qiyinchiliklarni usullar va baholashlarni standartlashtirish orqali bartaraf etish mumkin. Belgilangan tashxisdagi xatolar juda keng tarqalgan.

Buning sababi, o‘quvchining qandaydir kasallikning mavjudligi haqida yoki bilmasligi yoki yangi tasnifni bilmasligi.

Shunday qilib, diagnostika juda murakkab jarayondir, chunki u ba’zan unchalik aniq bo‘lmagan ma’lumotlar, etarli darajada aniq usullar va olingan ma’lumotlarni sub’ektiv baholash bilan bog‘liq.

Diagnostika jarayonining samaradorligi ko‘pincha kasalliklarning batafsil klinik ko‘rinishini bilish bilan emas, balki ularning har birini aniq belgilar yoki sindromlar to‘plamiga ajratish qobiliyati bilan belgilanadi, ularni tan olish asosiy diagnostika mahoratiga aylanishi kerak. kelajak mutaxassisi.

Diagnostika algoritmi va uning elementlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

Diagnostika elementlari:

1) asosiy simptom (sindrom) HS;

2) raqobatlashuvchi simptom (sindrom) - CS;

3) hal qiluvchi klinik alomat RCS hisoblanadi;

4) qo‘shimcha simptomlar - DS.

Tasdiqlash tartiblari:

• hal qiluvchi diagnostik tadqiqot - RDI;

• hal qiluvchi diagnostika texnikasi RDP hisoblanadi.

Diagnostika darajasi:

1) sindromli tashxis (SD);

2) nozologik tashxis (ND :)

3) klinik tashxis (KD).

O‘qituvchi algoritmni qurish ustidan nazoratni amalga oshirishi kerak, shunda ortiqcha, asossiz miqdordagi tahlillar yoki tadqiqotlar talabani diagnostik qidiruvning noto‘g‘ri yo‘liga olib kelmasligi kerak, bu tashxisga xalaqit beradi va etakchi patologik jarayondan uzoqlashadi.

Xulosa. Sindromik tashxis talaba uchun juda qiyin jarayon, chunki Diagnostik qidiruvning samaradorligi ko‘pincha kasalliklarning batafsil klinik ko‘rinishini bilish bilan emas, balki aniq belgilar va sindromlarni aniqlash qobiliyati bilan belgilanadi, ularni tan olish talabaning asosiy diagnostik mahoratiga aylanishi kerak.

Amaliy mashg‘ulotlarda nazariy materialni tahlil qilishga ana shunday yondashuv talabalarni yakuniy attestatsiya va akkreditatsiyaga tayyorlashni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Sinfdan tashqari o‘qitishning turli texnologiyalaridan, xususan, algoritmik yondashuvdan foydalanish, talabalarning bemorlarga munosabati, ularning amaliy ko‘nikmalarini egallashi, bu ishni kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan doimiy nazorat qilib borishi bilan uyg‘unlashgan holda, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish imkonini beradi. tibbiyot universitetining tibbiyot fakulteti bitiruvchilari.

ADABIYOTLAR:

1. Averin, V. A. Tibbiy ta’lim psixologiyasi: darslik. universitetlar uchun / V. A. Averin, T. L. Buxarina. – Sankt-Peterburg, 2005. – 125 b.

2. Buxarina, T. L. Pedagogik innovatsion texnologiyalar - tibbiyot universitetida muvaffaqiyatli kadrlar tayyorlash asosi / T. L. Buxarina // Boloniya konventsiyasi tamoyillarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishning dolzarb masalalari: referat. hisobot natija. tarbiya usuli. konf. – Orenburg, 2015. – 20–26-betlar.

3. Zaxarova I.G. Ta’limda axborot texnologiyalari. - M., 2016. - 192 b.

4. Ta’lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari / ed. E.S. Po‘lat. - M., 2016. - 272 b.

5. Stadnikov, A. A. Talabaning mustaqil darsdan tashqari ishini tashkil etish metodikasi to‘g‘risida / A. A. Stadnikov, E. G. Dvornikova // Boloniya konventsiyasi tamoyillarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishning dolzarb masalalari: referat. hisobot natija. tarbiya usuli. konf. – Orenburg, 2010. – 6–13-betlar.

6. Trainev V.A., Trainev I.V. O‘qituvchilar ta’limi sifatini oshirish strategiyasining tizimlari va usullari. - M: Dashkov va K. - 2020. - B. 295.

SIRDARYO YOSHLARINING MA’NAVIY-AXLOQIY BARKAMOLLIKKA ERISHISHIDA JISMONIY TARBIYANING TIBBIY AHAMIYATI

Xudaykulov Sh.X

Guliston davlat universiteti, Tibbiyot fakulteti, Umumiy tibbiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Dolzarbligi. Yosh avlodni ma’naviy- axloqiy tarbiyalash, shubhasiz, jismoniy-ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlashni, sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda nafaqat ma’naviy, balki jismonan yoshlarni tarbiyalash hukumatimiz siyosatining eng muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” ni to‘rtinchi yo‘nalishi va ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus ilgari surgani ham juda muhim voqea bo‘ldi.

Maqsad.Prezidentimiz ilgari surgan beshta muhim tashabbuslardan ikkinchisi yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgandir.

Shuning uchun ham ushbu maqolada viloyatimiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida, ya’ni ma’naviy-axloqiy barkamol bo‘lib ulg‘ayishida jismoniy tarbiya va sportning tutgan muhim tibbiy ahamiyatini ko‘rsatishni maqsad qildik. Umuman olganda, “Sport” so‘zi arabchada “riyozat” deb atalib, lug‘atda “mashq qilish”, “chiniqish”, “badan tarbiya”, “sayr etish”, “matematika” va “jismoniy harakat” manolarini anglatadi.

Matematika aqlni chiniqtirgani sababli, u ham shu so‘zning lug‘aviy

manolaridan biriga aylangan. Azaldan o‘zbek xalqi sportni sevib kelgan va sportsevarlik qoniga singib ketgan.

Fikrimizning isboti sifatida xalqimizning qadimiy va navqiron milliy kurashi bunga misol bo‘la oladi.

Bugun buyuk ajdodlarimiz ruhini shod etib, azal-azaldan xalqimizning milliy g‘ururiga aylanib qolgan o‘zbek kurashining jahon maydoniga chiqishi, uning tan olinishi barchamizni bag‘oyat quvontiradi. Sport nafaqat jismoniy, balki ma’naviy-mafkuraviy barkamollikka erishishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bugungi kundagi medallar yoshlarni yanada qiziqtirish, ruhlantirish va motivatsiya uchun beriladi, desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jismoniy tarbiya va sport jismoniy, axloqiy barkamollikka erishishning muhim omilidir.

Sport irodani, odamning maqsadga erishishga intilishini mustahkam-laydi, qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan chidashga o‘rgatadi, odamda g‘alabaga ishonch, Vatanimiz, xalqimiz shonshuhratini jahon hamjamiyati oldida ulug‘laydigan yutuqlardan faxrlanish hissini tarbiyalaydi.

Yoshlarda faol hayotiy pozitsiyani, ma’naviyatni, ezgulik va gumanizm ideallarini tarbiyalash jismoniy tarbiya va sport vositalari, shakllari va usullaridan foydalanishning ustuvor yunalishlaridan biriga aylanmog‘i kerak. Shuning uchun ham yoshlarni jismoniy va ma’naviy tarbiyalashda ayrim majburiy mashqlar o‘rniga milliy xalq uyinlari, raqslari, jismoniy mashqlari va milliy sport turlarini saralab olish, ularning xajmi, yo‘nalishi va ta’sirchanligini belgilashda Alisher Navoiyning «Maxbub ul-qulub», «Farhod va Shirin», Ibn Sinoning «Al-Qonun», Kaykovusning «Qobusnoma», Amir Temurning «Temur tuzuklari» kabi asarlari ajoyib manba bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, hozirgi paytda biz «Sport musobaqalari» deb ishlatib yurgan ibora Maxmud Qoshg‘ariy asarlarida «bahs» deb berilgan.

Alisher Navoiy asarlarida milliy jismoniy mashq turlarini targ‘ib etish bilan birga, shug‘ullanuvchilarning axloqiy tarbiyasiga ham katta e’tibor qaratilgan. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoev: ***“Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yoshlarimizning yutuqlari barchamizni quvontiradi.***

Jahon va qit’a miqyosida yangi-yangi chempionlar, shaxmat bo‘yicha xalqaro grossmeysterlar etishib chiqmoqda.

O‘zbek milliy kurashimiz ham jahon sport maydonlarida nufuzi bilan katta yutuqlarga ega bo‘lmoqda. Endi jahon sport maydonlarida “halol”, “g‘irrom”, “chala”, “yonbosh” degan so‘zlar jaranglab, o‘zbek nomini dunyoga tarannum etmoqda”, deya ta’kidlaydi.

Albatta, faqat jismoniy jihatdan baquvvat bo‘lgan insonni tarbiyalash

unchalik qiyin emas, ammo uni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan kamol toptirish juda murakkab va serqirra vazifadir.

Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning hayotda to‘g‘ri yo‘ldan borishida, o‘zlarining salohiyatiga qarab

kasb-xunar tanlashida, turli xil mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinxona tus olgan tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Fidoyi xalqimiz necha yuz yillar davomida har bir sport uyinlarini qalb qo‘ri bilan yaratdi, sayqalladi va mukammalashtirdi.

Saralangan uyin turlarini kelgusi avlodlar uchun ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylab keldi.

Ma’lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish kishining har tomonlama jismoniy rivojlanish imkonini beradi, fiziologik funktsiyalarining takomillashtirishga yordam beradi va inson organizmi har tomonlama mustahkamlashishga olib keladi.

Shug‘ullanuvchilarning yoshi, jinsi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari to‘g‘ri uyushtirilganda umumiy sog‘lomlashtiruvchi samara berib, xos bo‘lmagan immunitet ishlanib chiqishiga yordam beradi.

Bunda kishilar kasalliklarga kamroq chalinadigan bo‘ladi, tashqi muhitning noqulay sharoitlarda chidamliligi oshadi.

Umumiy va sport ish qobiliyatining oshishiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday jismoniy mashg‘ulotlar musobaqalarda qatnashish salomatlikni mustaxkamlashga qaratilgan bo‘lishi lozim, aks holda ular o‘zbek jismoniy tarbiya tizimining sog‘lomlashtirish vazifasini hal qilish borasida ahamiyatini yo‘qotadi.

Keyingi vaqtlarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarning sog‘ligida kuzatiladigan potologik (kasallik) o‘zgarishlar sabablarini, ularning oldini olish va davolash masalalarini o‘z zimmasiga olgan sport tibbiyotini yana yangi bir sohasi rivoj topmoqda.

Ma’lumki, patologik o‘zgarishlar jismoniy zo‘riqish kuchayganda va oqilona tashqil qilinmaganda yoki kasalliklarga moyil bo‘lgan sportchilar turli mashg‘ulotlarda ishtirok etganda yuz berishi mumkin.

Sportchilar kasallanishining oldini olishda sport mashg‘ulotida faqat sog‘lom kishilarni jalb etish va ularni sog‘lomligini muntazam kuzatib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda maqolamni qo‘yidagi **takliflar** bilan yakunlamoqchiman.

Birinchidan, bugungi globallashuv sharoitida har qanday zararli g‘oya, oqim va xarakatlarga qarshi immunitet shakllatirish maqsadida yoshlarga tarixiy manbalar asosida tayyorlangan kitoblarni o‘qishga qiziqtirish kerak.

Ikkinchidan, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil qilish maqsadida har bir otaona farzandini yoshligidan ma’lum bir sport turiga qiziqtirib borishi kerak. Yaratilgan sharoitlarga farzanlarni qiziqtira olish muhimdir.

Uchinchidan,ota-onalar oilaviy sport mashg‘ulotlariga imkon qadar ko‘proq vaqt ajratishlari, farzandini sportga qiziqtirishda shaxsiy namuna

bo‘lishlari ham muhim omildir.

Adabiyotlar

1.Abduraxmanov K.X., Mukimov O.I.O‘quvchi-yoshlarda jismoniy madaniyatni shakllantirish jihatlari.Toshkent, 2012,”Istiqlol nashriyoti”. 30 b.

2.Abdumalikov R.A., Kenjayev J.R. Xalq milliy o‘yinlari mazmunida sihat-salomatlik alomatlari. Xalqaro ilmiy anjuman: «Jismoniy tarbiya va sport. Davlat, jamiyat, shaxs». 17-20.11.2015. 3-5 b.

3.Axmatov M.S. Uzluksiz ta’lim tizmida ommaviy sport sogiomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. G‘G‘Respublika ilmiyamaliy anjumani materiallari. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning dolzarb muammolari. Samarqand, 2014, 5-8-b.

4.Ahmedov F.K. Jismoniy ta’lim jarayonini milliy an’analar vositasida takomillashtirish. Xalqaro ilmiy anjuman. «Jismoniy tarbiya va sport. Davlat, jamiyat, shaxs». 17-20 noyabr 2015-y., Toshkent, 5-6-b.

5.Atabayeva M.X., M.X. Sarikulov, S.V. Nazarova. Endokrin kasalliklarning oldini olishda sportning ahamiyati. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. «Jismoniy tarbiya va sport. Davlat, jamiyat, shaxs». 17-20.11.2015. -Toshkent, 109-110 b. 16.

6.Baronenko B.A., Rapoport JI.A. Zdorove i fizicheskaya kultura studenta. Dong.M. -Moskva: «Alfa-MINFRAM, 2016, 352s

7.T.D.Boyto‘rayev. Ibn Sino ma’naviy qadriyatlarida jismoniy tarbiya masalalari. Xalqaro ilmiy anjuman. «Jismoniy tarbiya va sport. Davlat, jamiyat, shaxs».

17-20.11.2005. -Toshkent, 7-8 b.

TA’LIM SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH

Shernazarov F.X
Guliston davlat universiteti tibbiyot fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Dolzarbligi. Zamonaviy ta’lim muassasasida innovatsion faoliyatni tashkil etish va mohiyati muammosining dolzarbligi shubhasizdir.

Innovatsion jarayonlar - bu oliy ta’lim tizimi rivojlanishidagi qonuniyat bo‘lib, o‘z tabiatiga ko‘ra muhim bo‘lgan muassasa ishidagi shunday o‘zgarishlarni anglatadiki, bunda xodimlarining faoliyati va fikrlash uslubining o‘zgarishi bilan birga, muhitga tizimning bir holatdan ikkinchisiga o‘tishiga olib keladigan yangi barqaror elementlarni (innovatsiyalarni) joriy etadi.

Ta’limdagi innovatsion jarayon didaktik g‘oyani ta’lim innovatsiyasiga aylantiradigan tartib va vositalar yig‘indisidir.

Innovatsion faoliyat - ta’limning ma’lum bir darajasida innovatsion jarayonni, shuningdek, ushbu jarayonning o‘zini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar va texnologiyalar majmuasidir.

Innovatsion faoliyatning asosiy funktsiyalari pedagogik jarayonning tarkibiy qismlarini o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi: ta’lim maqsadlari va mazmuni, o‘qitish vositalari, usullari va shakllari, boshqaruv tizimlari va boshqalar.

Innovatsion faoliyatga quyidagilar kiradi: ilmiy tadqiqot, innovatsiya yaratish, innovatsiyani amalga oshirish, innovatsiyani aks ettirish.

Qidiruv bosqichining asosiy natijasi – shakllangan innovatsion muammo, innovatsiyaning maqsad va vazifalari hisoblanadi.

So‘ngra, rejalashtirilgan o‘zgarishlarning innovatsion loyihasi keltiriladi.

Amalga oshirish bosqichida innovatsion faoliyat quyidagi harakatlarni o‘z ichiga oladi: dastur – stsenariy, tashkiliy – boshqaruv, eksperimental – baholash va dizayn – namoyish.

Fikrlash jarayonida olingan natijalar belgilangan maqsadlarga nisbatan baholanadi; olingan natija – mahsulot rejalashtirilgan natija (model) bilan taqqoslanadi.

Innovatsion faoliyatning aks ettiruvchi bosqichi teskari aloqa funktsiyasini bajaradi.

Shunday qilib, g‘oyaning innovatsiyaga aylanishini ta’minlovchi, shuningdek, ushbu jarayonni boshqarish tizimini tashkil etuvchi faoliyat innovatsion faoliyatdir.

Innovatsion jarayonda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta faoliyat turi ajratiladi: uslubiy, tadqiqot, pedagogik va ta’lim.

Uslubiy faoliyat innovatsion jarayonning uslubiyatini ishlab chiqishga qaratilgan; u metodist tomonidan amalga oshiriladi.

Olimlar tomonidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyati o‘qituvchi va talabalar faoliyatini o‘rganishga qaratilgan.

Uning faoliyati mahsuli – bu pedagogik innovatsiyadir (innovatsiya doirasidagi o‘qituvchining pedagogik faoliyatining tavsifi).

O‘qituvchi – innovatorning pedagogik faoliyati o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan.

Uning faoliyati mahsuli – bu innovatsiyalar kiritilgan o‘quv jarayonidir (innovatsion o‘quv jarayoni).

Talabalarning innovatsiya sharoitida bilim, ko‘nikma va shaxsiy rivojlanishga qaratilgan ta’lim faoliyati.

Kasbiy ko‘nikmalarga tayyorgarlik darajasini oshirish, maxsus bilimlarni o‘zlashtirish, o‘quvchilarni madaniyatning turli xil ko‘rinishlari va jihatlari bilan tanishtirish uchun fan va innovatsiyalar ta’lim mazmuni va tuzilishining keng kontekstiga organik ravishda kiritilishi kerak.

Ta’lim juda murakkab va ko‘p qirrali faoliyat bo‘lib, bir qator dialektik jihatdan o‘zaro bog‘langan elementlardan iborat.

Shuning uchun ta’limda kompleks innovatsiyalarni loyihalashda texnologik innovatsiyalar (yangi ta’lim texnologiyalari), iqtisodiy innovatsiyalar (yangi iqtisodiy mexanizmlar), pedagogik innovatsiyalar (ta’lim va ta’limning yangi uslub va usullari), tashkiliy innovatsiyalar (yangi tashkiliy tuzilmalar va institutsional shakllar) birligini ta’minlash zarur.

Innovatsion siklni dinamik jarayon sifatida hisobga olsak, bu siklning mustaqil va hal qiluvchi bo‘g‘ini sifatida ta’lim sifati va fan va kadrlar tayyorlashga ajratilayotgan mablag‘lar miqdorini hisobga olish qonuniy ko‘rinadi.

Ilm-fan va innovatsiyalarning ta’limdagi rolini yetarlicha baholamaslik allaqachon salbiy natijalarni keltirib chiqardi, bu esa intellektual salohiyatning pasayishida namoyon bo‘lmoqda.

Iqtisodiyotdagi keng ko‘lamli texnologik va tarkibiy o‘zgarishlar bilan belgilanadigan kasbiy va malakaviy potentsialga qo‘yiladigan yangi talablar, ishlab chiqarish kuchlarining sifat jihatidan yangi darajasiga bo‘lgan ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy soha ehtiyojlari va ushbu kadrlarni tayyorlash tizimi hamda shakllari o‘rtasidagi tafovutni aniq aks ettirdi.

Ta’lim mazmunidagi o‘zgarishlar va uning sifatiga qo‘yiladigan talablar ilmiy-texnika taraqqiyoti sur’atlari bilan bog‘liq holda olib borilishi kerak.

Bu holat ta’lim sohasini rivojlanishning innovatsion yo‘liga qayta yo‘naltirishni taqozo etadi.

Bu, birinchi navbatda, o‘quvchilar va talabalarning ijodiy faolligini, ularning ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshirishda real ishtirok etishi, fan, ta’lim va iqtisodiyot o‘rtasidagi eski aloqalarni intensiv ravishda sindirish va yangi shakllariga o‘tishini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish hamda yangilashda namoyon bo‘lishi kerak.

Xulosa. Kadrlar tayyorlash sohasida axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda samarali harakat qilish va axborotni qo‘llab – quvvatlashni sezilarli darajada markazsizlashtirish, qarorlarni asoslash va faoliyatni rejalashtirish uchun ma’lumotlardan foydalanish qobiliyati kabi malaka va mehnat ko‘nikmalariga e’tiborni kuchaytirish kerak.

Zamonaviy fan – texnika taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyati - ta’lim sohasida mahsulot (ishlar, xizmatlar) hayotiy siklining davomiyligini qisqartirish, ta’lim va ta’lim texnologiyalari, usullari va vositalarini o‘zgartirish tezligini oshirish tendentsiyasidir.

Raqobat mexanizmi ta’lim muassasalarini doimiy ravishda o‘quv rejalari va dasturlarini yangilashga, fan – texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va bozorning o‘zgaruvchan talablariga muvofiq tezda qayta qurish va moslashtirishga majbur qiladi.

Ta’lim muassasalarining ilmiy – texnikaviy va bozor o‘zgarishlariga mos kela olishi ko‘p jihatdan ularning innovatsiyalarni qabul qilish qobiliyatiga, ta’lim jarayonlarini ma’lum sur’atda yangilash va takomillashtirishga bog‘liq.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ta’lim sohasidagi ilmiy – tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyat, ta’lim va ta’lim faoliyati bilan bir qatorda nizom asosida olib boriladigan faoliyatning asosiy turlariga aylanadi.

Talabalarning ilmiy – tadqiqot faoliyatini faollashtirish, ularning nazariy va amaliy saviyasini oshirishda kadrlar tayyorlashning ko‘p bosqichli tizimiga o‘tish muhim omil bo‘lmoqda.

Zamonaviy ta’lim jarayonida u yoki bu kompetentsiyani shakllantirish, bo‘lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirish va tarbiyalashga qaratilgan ta’limning maqsad va mazmunidan kelib chiqqan holda, ta’lim texnologiyasining asosini o‘quvchilarning tegishli muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy harakatlari tashkil etishi kerak.

Zamonaviy ta’lim texnologiyasida eng samarali usullar quyidagilardir: muammoli ta’lim usullari (muammoli taqdimot, evristik va tadqiqot usullari), guruh usullari (aqliy hujum usuli, vaziyatli usul, guruh muhokamasi, o‘yin usullari), loyiha usuli, modellashtirish usuli, laboratoriya tajribasi, amaliyot davomida talabalarni unumli mehnatga jalb qilish va hokazo.

Shu bilan birga, talaba tayyor bilimlarni olmaydi, balki uni ajratib oladi; Bundan tashqari, bilim ta’limning maqsadi emas, balki belgilangan muammolarni hal qilish vositasiga aylanadi.

Bunday o‘qitishning natijasi o‘laroq nafaqat yangi bilimlar, balki muammolarni hal qilish uchun ularni qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishdir.

Talabaning faol o‘quv, kognitiv va tadqiqot faoliyati uning shaxsiy fazilatlarini - qobiliyatlarini, mas’uliyatini, mustaqilligini va boshqalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Guruhda birgalikdagi ўдши иўкшдпфт faoliyat jarayonida uning muloqot qobiliyatlari, tinglash, savol berish, o‘z fikrini bildirish, muhokama qilish, boshqalarni ishontirish, boshqalarning fikrini hurmat qilish, odamlar bilan hamkorlik qilish qobiliyati rivojlanadi.

Individual (ba’zi) o‘quvchilarda yetakchilik fazilatlari ham shakllanadi. Shuningdek, integral ta’lim texnologiyasida elektron (kompyuter) vositalaridan foydalanishni ham nazarda tutish kerak.

Elektron ta’limda an’anaviy o‘quv qo‘llanmalaridan tashqari, kompyuterlar bilan birgalikda bir qancha yangi vositalar qo‘llaniladi, xususan: darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining elektron nashrlari, axborot va ma’lumotnoma elektron nashrlari, umummadaniy nashrlar, internet vositalari, virtual laboratoriyalar va boshqalar.

Ushbu vositalarning barchasini "kompyuterli o‘qitish tizimlari" nomi ostida birlashtirish mumkin.

Elektron nashrlar, birinchi navbatda, kitob bajara olmaydigan funktsiyalarni bajaradi (masalan, o‘quvchilarning o‘quv va kognitiv faoliyatini boshqarish, ularning bilimlarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish va boshqalar).

ADABIOTLAR

1. Agaev N.F. Oliy ta’lim tizimidagi innovatsiyalar: II Butunrossiya materiallari. ilmiy usul. konf. /NOU VPO "Chelyab. nomidagi Iqtisodiyot va huquq instituti. M.V. Ladoshina." – Chelyabinsk, 2011. – 15 b.

2. Sharipov F.V. Ta’limdagi innovatsion faoliyat // Xalqaro eksperimental ta’lim jurnali. – 2017. – No 1. – B. 103-107;

3. Sultonova E. N. Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Yosh olim. – 2018 yil. – 2-son. – 146-148-betlar.

4. Khaknazarov Sh.F.Tibbiyyot fakulteti talabalari uchun innovatsion texnologiya o‘qitish usullarini yaratish // Sifatli talim va disiplinlararo yondoshuvlar: muammolar yechimlar va hamkorlik.Guliston. 2023.25-26 May. 1176-1177 b.

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI TIBBIYOT FAKULTETI TALABALARI UCHUN BIOKIMYO MODULINING O‘RNI

Yusufov N.I
Guliston davlat universiteti Tibbiyot fakulteti
Umumiy tibbiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada biokimyo fanini o‘qitish jarayonida kimyoning o‘rni, talabalarning metodik bilimlari va ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy va uslubiy omillarning birligini aniqlash, bo‘lajak tibbiyot xodimlari uchun biokimyoni o‘rganishda kimyoning o‘rnini ko‘rsatib berish usul va vositalari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: kimyo, biokimyo, ko‘nikma, malaka, yondashuv, fermentlar.

Dolzarbligi. Biokimyo fani tibbiyotning tayanch fani hisoblanadi. Shuning uchun ham bu fanni talabalarga etkazib berishda kimyo fani asos bo‘lib xizmat qiladi. Biokimyoni o‘qitish jarayonida talabalarning metodik bilimlari va ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish biokimyoviy materialning o‘ziga xos singdirilishiga bog‘liq.

Shu munosabat bilan biokimyoviy va uslubiy omillarni yaxlit uslubiy tizimga integratsiya qilish uchun ba’zi mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Ilmiy va uslubiy omillarning birligini aniqlash uchun biokimyoni yaxlit tizim sifatida o‘rganish kerak. Bu esa kimyo va biologiya fanlarini integratsiyasiga bog‘liq.

Har bir biokimyoviy metodik muammoni echish uchun kimyoning ma’lum ko‘nikmalarini qo‘llash talab etiladi.

Modelli muammoli topshiriqlarni yaratish uchun asos bo‘lib, o‘qituvchi o‘z mehnat faoliyatida duch keladigan haqiqiy vaziyatlar ifodalangan biokimyo, pedagogika va kimyoni o‘qitish metodikasi bo‘yicha metodik nashrlar va praktikumlar materiali xizmat qiladi.

Kimyo o‘qituvchining metodik ko‘nikmalari tizimi: O‘qituvchi faoliyati va kimyoviy mazmun o‘rtasidagi ziddiyatlar talaba-o‘quvchi uchun odatiy bo‘lgan kimyoviy mazmunni idrok etishi va mazkur mazmunni kimyo o‘qituvchisining idrok etishi o‘rtasida tafovutlarga asoslangan.

Birinchidan, talabalar OTMda o‘zlashtiradigan kimyo fani hajmi, maktabda o‘qigan fan hajmidan ancha darajada yuqori.

Shu sababli bo‘lajak tibbiyot xodimlari uchun kimyoviy mazmunni o‘zlashtirish bilan bir vaqtda, uni tanlash va strukturalashtirish bo‘yicha ko‘nikmalarni egallash muhim hisoblanadi.

Mazkur ko‘nikmalar, o‘z navbatida, mazmundagi asosiy g‘oyalarni aniqlashga asoslangan.

Shuning uchun xam tibbiyot oliygoxlarida talabalarga 1-kursda tibbiy kimyo fani o‘qitiladi.

Dastlab ular kimyoni tibbiyot bilan bog‘lab o‘rganganda qiyinchiliklarni anglaydilar.

Masalan, tibbiy kimyo fanida “fermentlar” mavzusi talabalar uchun xam qiziq, ham murakkab hisoblanadi.

Chunki, ular maktab dasturida anorganik katalizatorlar mavzusini o‘tganligi uchun fermenlar xam organik katalizator ekanligini tez anglay olishadi.

Lekin, organizmda boradigan asosiy biokimyoviy jarayonlarni boshqaruvchi fermentlarni xossalari, holati, vazifalari, qaysi ferment qaysi reaktsiyani katalizlashini o‘rganish ularga bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi.

Tibbiy kimyo fanida fermentlarni o‘rganishda nafaqat uning kimyoviy tuzilishiga asosiy etibor qaratish kerak, balki biokimyo uchun muhim taraf bo‘lgan fermentlar faoliyati ham aynan talabalarga 1-kursidanoq tushuntirib boriladi, va talabalardan fermentlarni barcha xossalarini o‘rganish talab etiladi. Umuman olganda kimyo biokimyo fani uchun asos hisoblanadi. Kimyoni o‘rganmasdan turib biokimyo faniga kirib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da o‘quv jarayonining moddiy texnik va axborot bazasi etarli emasligiga, yuqori malakali pedagog kadrlarning etishmasligi, sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida puxta o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali aloqadorlikning yo‘qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi, deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Xulosa. Shuning bilan bir qatorda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o‘zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyixalarini shakllantirish hamda amalga oshirish orqali ilmfanning ta’lim amaliyoti bilan aloqasini ta’minlash chora tadbirini ishlab chiqish, ilg‘or axborot va pedagogik texnologiyalarini amalga oshirish uchun tajriba maydonchalari barpo etish orqali esa ilmiy tadqiqotlar natijalarini ta’lim tarbiya jarayoniga o‘z vaqtida joriy etish mexanizmini ro‘yobga chiqarish, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini axborot bilan ta’minlash rivojlanib borishi belgilab qo‘yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бегматов Ш.Ш. Методические основы взаимосвязи уроков и в неурочних занятий по химии.: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Ташкент: Научно-исслед. институт пед. наук РУз им. Т.Н. Карў-Ниязова. 2003

2. Nishonov M., Mamajanov Sh.A. Oliy o‘quv yurtlari «Kimyo o‘qitish metodikasi» kursining tuzilishi va mazmunini takomillashtirish G‘G‘ Pedagogik ta’lim. – Toshkent, 2004.

3. N.T. Alimxodjayeva, X.S. Tadjiyeva. Tibbiy kimyo 2- qism Bioorganik kimyo Tibbiyot instituti 1-kurs talabalari uchun darslik Ijod-print.- Toshkent 2019.

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI TIBBIYOT FAKULTETIDA TALABLAR ILMIY JAMIYATINI SHAKLLANITIRISH

Yariyev A.A.

Guliston davlat universiteti “Umumiy tibbiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.d.

Dolzarbligi: Zamonaviy tibbiyot bugungi kunda noyob, minimal invaziv tibbiy texnologiyalar va eng samarali dori vositalaridan foydalangan holda yuqori texnologiyali yordamdir.

Hozirda tibbiyot fanining rivojlanishi nostandart, mutlaqo yangicha yondashuv, yangicha fikr va ijodiy g‘oyalar bilangina mumkin.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarining ilmiy bilim ko‘nikmalarini egallashi o‘quv jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, talabalar ilmiy jamiyatini (TIJ) shakllantirish va rivojlantirish ta’lim tashkiloti uchun dolzarbdir.

Fakultetimizdagi TIJ o‘qituvchilar rahbarligida ilmiy tadqiqot usullarini o‘zlashtirish, kasbiy fan va amaliyot sohasidagi bilimlarni takomillashtirish, chuqurlashtirish va kengaytirish, aql-zakovatini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘nikmalarni egallashga intilayotgan talabalarning ixtiyoriy ijodiy tashkilotidir.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ko‘proq darajada u o‘qitishning barcha bosqichlarida va deyarli barcha talabalar tomonidan amalga oshiriladi.

TIJ kelajakdagi amaliy tibbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishning eng samarali va istiqbolli vositalaridan biri bo‘lib chiqadi.

Shu sababli, hozirgi kunda talabalar tomonidan ilmiy loyihalarni (ishlarni) amalga oshirish ta’lim tizimining majburiy elementi bo‘lishi kerakligi tobora ko‘proq aytilmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoda ta’limning roli qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Ilgari “ta’lim” ta’lim jarayoni va natijasi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, endi ta’lim o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, hozir biz o‘qitishdan o‘rganishga o‘tishning bir turini ko‘ryapmiz.

TIJini shakllantirish tibbiyot fakultetimizda ta’lim faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu muammoni hal qilishda tizimli yondashuvni talab qiladi.

O‘quv jarayoniga kiritilgan talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari bugungi kunda fanlar va kasbiy modullarni o‘rganishda nafaqat auditoriya ishi, balki darsdan tashqari mashg‘ulot hamdir.

Kichik kurs talabalari uchun u, qoida tariqasida, konspekt, mustaqil sinfdan tashqari ishlar va fan olimpiadalarida qatnashish shaklida amalga oshiriladi.

Yuqori kurslarda kasbiy modullarni o‘rganishda talabalar tajribali o‘qituvchi-ustozlar rahbarligida mustaqil ilmiy izlanishlar olib borishga jalb etiladi.

Talabalar ishining natijasi yillik ilmiy talabalar konferentsiyalarida ma’ruzalar va nutqlar shaklida o‘z tadqiqotlari natijalarini an’anaviy taqdim etishdir.

Ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etilgan talabalar soni yil sayin ortib bormoqda

Shunday qilib, bizning tadqiqotchilarimiz doimiy tibbiy ta’limda ishtirok etishga tayyor bo‘lishadi.

Albatta, talabalarning tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda asosiy rol uning rahbariga yuklanadi.

Bu shunchaki o‘qituvchi emas - bu tadqiqot faoliyati uchun poydevor qo‘ya oladigan shaxs.

O‘qituvchi nafaqat talabalarga kompetensiyalarni o‘zlashtirishga yordam berishi, balki ba’zi bir qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak: ijodiy shaxs bo‘lishi, doimiy ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘ullanishi, tadqiqot faoliyatiga o‘z xohish-istaklariga ega bo‘lishi, talabalarning tadqiqot faoliyati istiqbollarini bashorat qila olishi, ular bilan muloqotning ishbilarmonlik shakllarini yo‘lga qo‘ya olishi, o‘quvchilarning ilmiy bilimlarning muayyan sohasida ijodiy qobiliyatlarini diagnostika qila olishi.

Fakultetda ilmiy-tadqiqot ishlari nafaqat o‘quv materialini, balki talabalar tomonidan dastlabki tadqiqot ko‘nikmalarini ham ongliroq va chuqurroq o‘zlashtirishni ta’minlash maqsadida tashkil etilgan.

TIJ a’zolarining faoliyati natijasi talabalarning seminarlar, davra suhbatlari, konferentsiyalar va olimpiadalarda chiqishlaridir.

SSSni rivojlantirishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyati bo‘lajak tibbiyot xodimlarini kasbiy tayyorlashda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tibbiyot fakulteti talabalarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish birinchi kursdan boshlab o‘quv jarayonida yuzaga keladi.

Dastlabki yillarda talabalarda asosiy va qisman maxsus ko‘nikmalar (kompetensiyalar) shakllanadi va talabalar tadqiqot va ilmiy faoliyatga jiddiy qiziqish bildira boshlaydilar.

O‘qishning 2-3 yilida talabalarning turli xil ilmiy va ijodiy loyihalardagi faolligi oshadi.

4-kursda talabalarning kasbiy kompetensiyalari shakllanadi, bu esa ularga mustaqil izlanishlar olib borish va yutuqlarini ilmiy nashrlarda aks ettirish imkonini beradi.

Tibbiyot fakultetida TIJini rivojlantirishga turli kurs talabalarini asta-sekin tadqiqot faoliyatiga jalb qilish orqali tabaqalashtirilgan tarzda yondashish mumkin.

Masalan, talabalar loyiha tanlovlarini turli kurslar uchun alohida o‘tkazish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirish orqali ishtirokchilar o‘zlarining yutuqlarini ob’ektivroq baholashlari va rivojlanishning ushbu darajasida zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari mumkin.

Xulosa. Shu tarzda turli kurs talabalari o‘rtasida konstruktiv muloqot shakllanadi.

Shu bilan birga, kichik kurs talabalari o‘zlarining ilmiy ijodiyotini rivojlantirish istiqbollarini ko‘rishlari, yuqori sinf o‘quvchilari esa tadqiqotni tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin.

Talabalarning o‘quv jarayonidagi tadqiqot faoliyati tibbiyotda yangi cho‘qqilarni zabt etishga, ko‘plab qiziqarli narsalarni o‘rganishga va hatto kichik ilmiy kashfiyot qilishga yordam beradi.

Tibbiyot fani - bu tizimli fikrlashni rivojlantirish va kasbiy yo‘lda muvaffaqiyatga erishish imkonini beruvchi ijodiy ustaxona.

Ilm-fan taraqqiyotining yangi ishtirokchilari bizning talabalarimizdir.

Shuning uchun ham talabalar ilmiy jamiyati kabi yo‘nalishni rivojlantirish juda muhim, chunki bu jamiyat mamlakatimizga tibbiyot va umuman fanga befarq bo‘lmagan yangi iqtidorli bolalarni topishga yordam beradi.

Tibbiyot tashkilotlari bugungi kunda chuqur fikrlaydigan, tezkor harakat qila oladigan, murakkab va nostandart muammolarni hal qila oladigan mutaxassislarga muhtoj.

Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy mahorati va malakasi, mustaqilligi va umri davomida uzluksiz bilim olish qobiliyati kabi fazilatlarini rivojlantirishda tibbiyot fakulteti talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarining o‘rni juda katta.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Galonskiy V.G., Tarasova N.V., Surdo E.S., Bril E.A., Zhuravleva T.B. Krasnoyarsk davlat tibbiyot universiteti bolalar stomatologiyasi va ortodonti kafedrasi talabalar ilmiy jamiyatining o‘n besh yillik ish tajribasini tahlil qilish // Fan va ta’limning zamonaviy muammolari. – 2020 yil – 4-son;
2. Ilyenko L.I., Fedulaev Yu.N., Orlova N.V., Pinchuk T.V., Spiryakina Ya.G. Talabalar ilmiy to‘garagi oliy tibbiy ta’lim tizimidagi muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Yurak-qon tomir kasalliklarini davolash va oldini olish. 2023;22(1S):3412.
3. Sitnikova O.Yu., Mutigulina D.R., Askerova A.D. Sog‘liqni saqlash va sog‘liqni saqlashni o‘qitishni optimallashtirishda talabalar ilmiy to‘garagining o‘rni. Xalqaro ishtirokdagi III Butunrossiya konferentsiyasi tezislari to‘plami. Tibbiy ta’lim. 2012 yil 4-6 aprel, M.2012;260-262.
4. Vaxrushev S.G., Xorolskaya M.A., Svistushkin V.M., Subbotina M.V., Kuzovkov V.E. Otorinolaringologiya bo‘yicha Butunrossiya talabalar olimpiadasi: besh yillik tajriba. Rossiya Otorinolaringologlarining XIX Kongressi materiallari. 2016 yil 12-15 aprel. Sankt-Peterburg. 2016;24-25.

SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN TUPROQLARNI FITOMELIORATSIYA QILISH ORQALI QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARI ISHLAB CHIQARISHINI JADALLASHTIRISH

O‘.Toshbekov, U.G‘oziyev, B.Xudoyberdiyeva
GulDU dotsenti
GulDU o‘qituvchilari

Annotatsiya. Maqolada shirinmiya yetishtirish tajribasi natijalari va uning bo‘z-o‘tloqli sho‘rlangan tuproqlarning agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlariga fitomeliorativ ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tajriba o‘tkazilgan yillarida umumiy g‘ovaklilik qiymati 48,0-49,0% darajaga yetdi (0-28 qatlam,...57-154 sm), bu o‘rganilayotgan tuproqning namlik sig‘imi, suv o‘tkazuvchanligi va suvni ko‘tarish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va natijada o‘simliklarning vegetatsiya davrini faollashtirdi.

Kalit so‘zlar: agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlar, sho‘rlanish, minerallashuv, biodrenaj, shirinmiya, unumdorlikni oshirish, fitomelioratsiya.

O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydoni qariyb 4,3 million gektarni tashkil etadi, shundan qariyb 60 foizi turli darajada sho‘rlangan va agrofizikaviy xossalari yomon. Shu sababli, ushbu yerlarning ekologik va meliorativ holatini yaxshilash uchun ekologik toza va resurslarni tejaydigan usul va texnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etish zarur. Respublikada tuproq sho‘rlanishiga qarshi kurashish, bunday yerlarning unumdorligi va mahsuldorligini tiklashning samarali yo‘llari va eng oqilona usullari doimiy ravishda izlanmoqda [2].

Gidrotexnika, kimyoviy va agrobiologik tadbirlardan foydalanish yuqori hosil olish va tuproq unumdorligini saqlashga imkon beradi. Ammo ikkilamchi sho‘rlangan yerlarni tiklashning dastlabki

ikki usulining yuqori narxi an’anaviy va noan’anaviy ekinlardan foydalangan holda biologik melioratsiyani va xususan, fitomelioratsiyani kengroq qo‘llash zarurligini keltirib chiqaradi .

Dedov E.B. ning so‘zlariga ko‘ra, sho‘rlangan tuproqlarning fitomelioratsiyasi o‘simliklarning turli xil hayotiy shakllarini (daraxtlar, butalar, butalar va o‘tlar) ekish va ekologik ixtisoslashuv kserofitlar, galofitlar, galokserofitlar, mezofitlar, gigrofitlar, freatofitlar kabi ekinlarni tanlashda ularning yashash muhitiga bo‘lgan munosabatini, tuproqqa meliorativ ta’sirini, qishloq xo‘jaligida mumkin bo‘lgan foydalanishni hisobga olish kerak [1]. Bunday o‘simliklar orasida shirinmiya - *Glycyrhiza glabra L*. mavjud bo‘lib, u eng qimmatbaho xom ashyo o‘simliklariga tegishli. Avvalo, shirinmiya eng muhim dorivor o‘simliklardan biri bo‘lib, ba’zida jensheng bilan bir xil darajaga qo‘yiladi. Qizilmiya eng qimmatli farmakologik xom ashyo bo‘lib, undan tayyorlangan ildizpoyali dorilar bir qator kasalliklarni davolashda keng qo‘llaniladi va qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun stimulyatorlar va fungitsidlar olinadi [2].

Arid agroekotizimlar hududida shirinmiyaning agromeliorativ ta’sirini ekologik baholashda shirinmiyaning meliorativ holati yomonlashgan tuproqlarga ta’siri va kam unumdor haydaladigan yerlarning biologik mahsuldorligini oshiradigan fitomeliorant sifatida ko‘rib chiqish kerak.

Tadqiqotlar 2018 yildan 2020 yilgacha g‘alaba va Navbahor tajriba xo‘jaligida (Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani) o‘tkazildi. Ushbu hududda tarqalgan bo‘z-otloqi tuproqlarning haydalma va haydalma ostki qatlamlarida suvda oson eriydigan tuzlar 0,6-0,8% bo‘lishi bilan ajralib turadi. Yer osti sizot suvlari chuqurligi 1,5-2,2 m. Tuproqning zichligi 1,40 - 1,46 g/sm$^{3.}$.

Degradatsiyaga uchragan tuproqning biologik mahsuldorligini oshirishni ta’minlovchi muhim parametrlardan biri bu ildiz tizimining jadal o‘sishi va natijada tuproqda organik qoldiqlarning to‘planishi hisoblanadi. Shirinmiya o‘simligi tuproq qatlamining tuzilishini tiklash qobiliyatiga ega. Shirinmiya yetishtirish natijasida tuproq qatlamining strukturasini tiklash qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, shirinmiya uchun tajriba maydonida olib borilgan tadqiqotlar davomida tuproq zichligi 0-28 sm qatlamda 0,14, g/sm^3 va metrda 0,06 g/sm^3 ga kamaydi (1–jadval).

Shirinmiyani yetishtirish o‘rta va kuchli sho‘rlangan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarning umumiy g‘ovakliligi va zichligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, uning fitomeliorativ ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tuproqning agrofizik ko‘rsatgichlari dinamikasi

1 – jadval

Qatlam chuqurligi, sm.	Tuproq qattiq qismi zichligi, g/sm^3		Zichlik, g/sm^3		G‘ovaklik,%	
	2018	2020	2018	2020	2018	2020
0-28	2,68	2,64	1,40	1,26	48,0	53,0
28-57	2,71	2,68	1,46	1,40	46,0	48,0
57-89	2,69	2,69	1,38	1,38	49,0	49,0
89-124	2,71	2,70	1,38	1,40	49,0	48,0
124-178	2,73	2,72	1,44	1,42	47,0	48,0
178-205	2,74	2,72	1,44	1,42	47,4	48,0

Shirinmiya o‘simligi hayotining 2-chi yilida, ildiz tizimining tez o‘sishi sodir bo‘ldi, shu bilan birga tajriba maydonining samarali qoplamasi 60% dan 90% gacha oshdi. Shirinmiya ildiz tizimining kirib borish chuqurligi (45-145 sm hayot yiliga va tajriba variantiga qarab) oshib bordi.

Shunday qilib, shirinmiya o‘simligi ta’sirida tuprog‘ini zovurlashtirishning tabiiy, uzluksiz jarayoni sodir bo‘ladi. Ildiz tizimining sezilarli darajada o‘sishi natijasida tuproqdagi agronomik jihatdan qimmatli agregatlari soni (0,25-10 mm) ko‘payadi, bu esa tuproq zichligining pasayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.E.B.Dedov Qalmog‘istonning sho‘rlangan yerlarida uning agrofitotsenozini moslashtirishda sho‘rlangan bug‘doy o‘tining fitomeliorativ mexanizmlarining ta’siri//. Quyi Volga agrouniversitet majmuasi yangiliklari: fan va oliy kasb-hunar ta’limi.– Volgograd, 2012. 124-132-sahifalar.

2.O‘.Toshbekov, I.Raxmonov. “Sho‘rlangan tuproqlarda zaharli tuzlar miqdorining o‘zgarishiga shirinmiya o‘simligining ta’siri”, O‘zbekiston Agrar fani xabarnomasi, № 6/2 (84), 2020, 221-224b.

EKINLARNI SUG‘ORISH ASOSLARI VA SUG‘ORISH TIZIMLARIDAN FOYDALANISH FANINING QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHI VA FAN INTEGRATSIYASINI YANADA RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

B.Xudoyberdiyeva
GulDU o‘qituvchilari

Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida mulkchilikning yangicha shakllarini teng huquqli asosda ravnaq topishini ta’minlash, bozor iqtisodiyotiga o‘tish borasida islohotlarni chuqurlashtirish kabi dolzarb masalalarga alohida e’tibor berilmoqda. Respublika iqtisodiyotini kelgusida rivojlantirish mamlakat tabiiy boyliklaridan tejamli foydalanishga bog‘liq bo‘lib, bu yerda aholini maishiy va xalq xo‘jaligini ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan suv resurslari alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti sur’atlarining o‘sishi, shuningdek, aholi sonining ortishi qo‘shimcha suv miqdorini talab qilmoqda. Tabiiy holatdagi rejimi, hajmi va sifati kabi ko‘rsatkichlari bo‘yicha suv manbalarining talabga yetarlicha javob bera olmasligi ushbu muammo yechimini murakkablashuviga olib kelmoqda.

Mintaqada mavjud suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish sharoitida ham yaqin kelajakda xalq xo‘jaligini suv bilan ta’minlash masalasining yanada jiddiylashuvi kutilmoqda. So‘nggi yillarda suv ta’minotining keskin (35–40 % gacha) kamayishi tufayli qishloq xo‘jaligida sezilayotgan suv tanqisligini yumshatish maqsadida mavjud suv resurslaridan yanada samarali foydalanish talab etiladi. Tabiiy landshaftlarga insoniyat ta’sirining faollashuvi, suv resurslari va atrof muhitning tanazzuli kuchaygan hozirgi sharoitda insoniyat hayoti uchun qulay bo‘lgan turg‘un agroekotizimni ishlab chiqish va shakllantirish eng asosiy muammolardan biri bo‘lib qoldi.

Sohada yuzaga kelgan muammoni ijobiy hal etish uchun qishloq xo‘jaligida suvni mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan holda taqsimlashga imkon beruvchi texnik jihatdan mukammal gidromeliorativ tizimlarni barpo etish, melioratsiya qilinayotgan yerlarning samaradorligini oshirish maqsadida mavjud tizimlarni qayta qurish va jihozlash, tizimlardan foydalanish va ularga texnik xizmat ko‘rsatishda yangi tashkiliy uslublarni tatbiq qilish, suvni behuda isrofgarchiligini kamaytirish, sug‘orish texnikasini takomillashtirish, ekinlarni sug‘orish rejimini tabaqalashtirish, sho‘rlanishga va botqoqlanishga moyil bo‘lgan yerlarning barchasida kollektor-zovur tarmoqlari barpo etish, sug‘orish tarmoqlarini filtratsiyaga qarshi to‘shamalar bilan ta’minlash, ekinlarni parvarishi bo‘yicha jadal texnologiyalarni qo‘llash, sug‘orish tizimlaridan foydalanishni yaxshilash talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligi mutaxassisi zamonaviy xo‘jalik gidromeliorativ tizimlardan samarali foydalanishni tashkil etish va ularni boshqarish, tuproq va o‘simliklarning suv rejimlarini boshqarish, sug‘orishni tashkil etish va amalga oshirish, suvdan tejamli foydalanish, sug‘orishni tejamli usul va texnikalarini qo‘llash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sho‘rlanish va botqoqlanishga qarshi kurash va uni oldini olish masalalari bo‘yicha zaruriy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lishi lozim.

Respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo’jaligi mahsulotlarining asosiy qismi – 97 foizi sug’oriladigan yerlardan olinmoqda. Bunday yerlarda ekinlar hosildorligi lalmi yerlardagiga qaraganda bir necha (hatto 10 va undan ortiq) marta yuqoridir: to’g’ri foydalanilganda yetishtiriladigan mahsulot miqdori bo’yicha 1 ga sug’oriladigan yer 6–7 ga lalmikor yerga, 50 ga baland tog’ va 100 ga cho’l yaylovlariga teng.

Qishloq xo’jaligining o’sib boryotgan suvga bo’lgan ehtiyojini to’liq ta’minlash maqsadida respublikamizda qudratli suv xo’jalik majmuasi barpo etilgan: umumiy suv sarfi 2500 m^3/sek. bo’lgan 75 ta yirik kanal, umumiy hajmi 17,8 km^3 (foydali hajmi 14,6 km^3) bo’lgan 52 ta suv omborlari, 32,4 ming km xo’jaliklararo kanallar (shundan 9,4 ming km. ga beton to’shama yotqizilgan), 176,4 ming km xo’jalik (shu jumladan 133,6 ming km tuproq o’zanli, 37 ming km beton to’shamali, 25 ming km beton novli, 3,7 ming km yopiq quvurli) sug’orish tarmoqlari, 31 ming km xo’jaliklararo va 106,3 ming km (67,1 ming km ochiq va 39,2 ming km yopiq) xo’jalik kollektor-zovur tarmoqlari ishlatilib kelinmoqda. 3 mingta sug’orish quduqlari, 4800 dan ortiq vertikal zovur quduqlari, 24,6 mingdan ortiq

kuzatuv quduqlari faoliyat ko’rsatmoqda. Ekin maydonlarining 2,3 mln. gektari (53 foizi) nasos stantsiyalari yordamida sug’oriladi.

O’zbekiston suv xo’jaligi kompleks tavsifga ega. Hozirgi kunda respublikamizning suvga bo’lgan umumiy ehtiyoji yiliga 56-60 mlrd. m^3 ni tashkil etadi. Uning 92 foizi qishloq xo’jaligi, 5,5 foizi maishiy-xo’jalik va 1,5 foizi sanoat ehtiyojlariga, 0,8 foizi baliqchilikka va 0,2 foizi energetika maqsadlariga sarflanmoqda.

Respublikadagi mavjud sug’orish tizimlarining yanada to’liq takomillashtirilmaganligi, sug’orish dalalarida suv o’lchash ishlarini talab darajasida tartibga solinmaganligi, sug’orishning tejamli usul va texnikalarini keng joriy etilmaganligi tufayli suv manbalaridan olinayotgan suvning 36–40 foizi behuda isrof bo’lib ketmoqda. Sug’orish tizimlarining foydali ish koeffitsienti 1960 yil 0,40 ni tashkil etgan bo’lsa, respublika suv xo’jaligida amalga oshirilgan qator tadbirlar evaziga bu ko’rsatkich hozirga kelib 0,60–0,64 ga yetkazildi. Respublika bo’yicha har gektar ekin maydonining ehtiyoji 8–10 ming m3 bo’lsada, amalda 13–14 ming m^3 suv sarflanmoqda (1960 yil bu ko’rsatkich 20 ming m^3 ni tashkil etgan).

Shuning uchun fanning o‘zlashtirish birmuncha qiyinligi va qiziqarligi sababli, dars jarayonida talabalar faolligini oshirish zarurdir. Talabalarning dars jarayonida yangi mavzuni ahamiyatini ongli tushunib olishlari, faqat o‘qituvchining og‘zaki tushuntirishlari asosidagina vujudga kelmay, balki buning uchun o‘qituvchi tomonidan maxsus tashkil etiladigan talabalarning bevosita faoliyatida ham vujudga keladi. Shuning uchun o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini yechimi har xil usul va pedagogik yondashishlarni izlash va ratsional qo‘llash bilan bog‘liq. Buning uchun dars jarayonida quyidagi holatlarga e’tibor qaratishimiz lozim.

Muammoli vaziyat. Muammoli vaziyatda o‘qituvchi talabalarni muammoni hal qilishga undaydi va talabalarni izlanishga, mantiqan to‘g‘ri xulosalar chiqarish jarayoniga chaqiradi. Vujudga kelgan muammoni hal qilish jarayonida talabalarning fikrlash qobiliyati kengayib boradi. Masalan, o‘qituvchi “Sug‘orish usullari va texnikasi” mavzusini tushuntirishda talabalarga qanday sug‘orish usullari borligi haqida ma’lumotlar berishi, ularni sug‘orish tarmoqlarining ko‘z oldiga keltirishini taklif etadi. Shundan keyin talabalardan sug‘orish usullari va ularning ekinlarni sug‘orishda, qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni haqida turli xil kuzatishlar talab etiladi.

Kuzatilayotgan jarayonlar talabalarda bugungi kunda sug‘orishning qanday usullari bor ekanligi, ularning texnikasini va sug‘orish bilan bog‘liq muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. Bunda o‘qituvchi ular uchun yangi bo‘lgan hodisani ya’ni, sug‘orish usllarining bir-biridan farqlarini tahlil qilib beradi.

Darslarda masalalarni mustaqil yechish. Masalalar yechish boshqa uslublar bilan birga talabalarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Talabalar ongiga mustaqil fikrlash, mustaqil izlanishni olib borish uchun ularning mantiqiy fikrlashini va masalalarni yechish hamda yangi usullarni izlab topishga o‘rgatish zarur.

Dars yakunida talabalar o‘tilgan materialni qay darajada o‘zlashtirganligini tekshirish uchun savol-javoblar, test sinovlari va mustaqil ta’limdan foydalanish kerak bo‘ladi. Bunday usullar bilan talabalarni bilimlarini kengaytirish, masalalar yechimini topishga, mustaqil ishlashlari va xulosalar qilishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv- uslubiy majmua. Toshkent 2017.

2. Z.A.Artukmetov, H.Sh. Sheraliyev. Ekinlarni sug‘orish asoslari. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent. 2007

3.C.R.Adams, K.M. Bamford and M.P. Early. Principles of Horticulture Fifth edition. Printed and bound in Slovenia 2008.

DONLI EKINLARNING UMUMIY MORFOLOGIYASI VA BIOLOGIYASINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH VA FAN INTEGRATSIYASINI YANADA RIVOJLANTIRISH

U.G‘oziyev, N.Esonboyeva
GulDU doktoranti

Barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda belgilangan asosiy vazifalardan biri etib mamlakatimizda jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan, kelajakda Vatanimizning taqdiri va mas’uliyatlarini o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Shu asosda har bir soha va yo‘nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish har bir mas’ul xodimlarning asosiy burchi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash milliy dasturi kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishni har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va yoshlarga oid “Davlat dasturi” ni ijrosini ta’minlash, shu asosda ta’lim sifatini va samaradorligini yaxshilash, ya’ni iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanadi. To‘g‘ri tanlangan zamonaviy o‘qitish usullari – uslublar talabalarning yangi bilimlarini ongli va chuqur o‘zlashtirishlariga, ularda faollik va ijodkorlikka katta ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligini rivojlanishida “O‘simlikshunoslik” fanining ahamiyati katta ekanligi hammaga ma’lum. O‘simlikshunoslik - xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, chorvachilik uchun yem-xashak va yengil sanoat ko‘pgina tarmoqlari uchun talab xom ashyo yetishtirish maqsadida ekib o‘stirish va tabiatda yovvoi holda o‘sadigan o‘simliklardan foydalanish masalalari bilan shug‘ulanuvchi fandir. Bu tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Eng avvola qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning mavsumiyligi, muayyan agrotexnika tadbirlarini ma’lum muddatlarda o‘tkazish sharoitni xar doim o‘zgarib turishidir. Qishloq xo‘jaligida doimo yangi navlar, yangi texnologiyalarning kirib kelishi u sohadagi mutaxassislardan chuqur va har tamonlama puxta bilimga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Shuning uchun fanning o‘zlashtirish birmuncha qiyinligi va qiziqarligi sababli, dars jarayonida talabalar faolligini oshirish zarurdir. Talabalarning dars jarayonida yangi mavzuni ahamiyatini ongli tushunib olishlari, faqat o‘qituvchining og‘zaki tushuntirishlari asosidagina vujudga kelmay, balki buning uchun o‘qituvchi tomonidan maxsus tashkil etiladigan talabalarning bevosita faoliyatida ham vujudga keladi. Shuning uchun o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini yechimi har xil usul va pedagogik yondashishlarni izlash va ratsional qo‘llash bilan bog‘liq. Buning uchun dars jarayonida quyidagi holatlarga e’tibor qaratishimiz lozim.

Muammoli vaziyat. Muammoli vaziyatda o‘qituvchi talabalarni muammoni hal qilishga undaydi va talabalarni izlanishga, mantiqan to‘g‘ri xulosalar chiqarish jarayoniga chaqiradi. Vujudga kelgan muammoni hal qilish jarayonida talabalarning fikrlash qobiliyati kengayib boradi. Masalan, o‘qituvchi “Donli ekinlar” ni qishloq xo‘jaligidagi ahamiyatini tushuntirishda talabalarga donli ekinlar guruhiga qaysi ekinlar kirishi xaqida nimalar bilishlarini hamda nimalarni eslashlarini taklif etadi. Shundan keyin talabalardan donli ekinlarning turlari va ularning oziq–ovqatda, qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni xaqida turli xil kuzatishlar talab etiladi.

Kuzatilayotgan jarayonlar talabalarda donli ekinlar guruhlari va ularning asosiy morfologik, biologik belgilari to‘g‘risida muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. Bunda o‘qituvchi ular uchun yangi bo‘lgan hodisani ya’ni, donli ekinlarning bir–biridan morfologik, biologik belgilari bilan farqlanishlarini tahlil qilib beradi.

Evrestik suhbat. Talabalar fikrlashining o‘sishi – suhbatni tashkil etadigan o‘qituvchi savollarining xarakteriga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Suhbat davomida, talabalardan ilgari suriladigan ilmiy holatlarni asoslash, isbot qilish, xulosalarni mustaqil ifodalab berish talab qilinadi. Taqdimot, darslik va internetdan to‘g‘ri foydalanish olingan ma’lumotlarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tahlil qilishga undaydi.

Talabalarning darslik bilan ishlashlarini samaradorligini oshirish uchun har bir mavzuni oxirida keltirilgan o‘z-o‘zini tekshirish uchun nazariy savollari, masalalar va testlar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Talabalarni uy ishlarini bajarishga o‘rgatish bilan birga, savollarga og‘zaki javob berishga o‘rgatish, talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga olib keladi. Savollar shunday tuzilganki, ular donli ekinlar, ularning biri–biridan farqlarini o‘rgatishga, darslik matnidan ma’lum savollarga javob topishni o‘rganishga va olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Darslikda mavzuga bog‘liq bo‘lgan masala va mashqlar, rasmlar hamda laboratoriya ishlari keltiriladi. Bu materiallardan imkoni boricha to‘laroq foydalanish tavsiya etiladi. Olgan bilimlarni mustahkamlash uchun qo‘shimcha o‘quv, ilmiy-ommabop va internetdan foydalanish kabi mustaqil shug‘ullanish ham talabalarni o‘simlikshunoslik faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

O‘simlikshunoslikda tajriba ko‘rsatish usuli, ya’ni amaliy mashg‘ulotlar talabalarni bilimini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega, chunki, tajribalar hamma talabalarga o‘qituvchi ishtirokida ko‘rsatiladi. Amaliy mashg‘ulotlar darsning nazariy qismi orasida o‘tkaziladi va asosan ma’ruza darsida olgan nazariy bilimlarini aniq bilib olishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda talabalarning yangi mavzuni tezroq tushunib olishlari oson bo‘ladi.

Darslarda masalalarni mustaqil yechish. Masalalar yechish boshqa uslublar bilan birga talabalarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Talabalar ongiga mustaqil fikrlash, mustaqil izlanishni olib borish uchun ularning mantiqiy fikrlashini va masalalarni yechish hamda yangi usullarni izlab topishga o‘rgatish zarur.

Dars yakunida talabalar o‘tilgan materialni qay darajada o‘zlashtirganligini tekshirish uchun savol-javoblar, test sinovlari va mustaqil ta’limdan foydalanish kerak bo‘ladi. Bunday usullar bilan talabalarni bilimlarini kengaytirish, masalalar yechimini topishga, mustaqil ishlashlari va xulosalar qilishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar ” moduli bo‘yicha O‘quv- uslubiy majmua. Toshkent 2017.

2.O.Yakubjonov, S.Tursunov, Z.Muqimov. Donchilik. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2009.

3.C.R.Adams, K.M. Bamford and M.P. Early. Principles of Horticulture Fifth edition. Printed and bound in Slovenia 2008.

GLOBAL MUAMMO IQLIM O‘ZGARISHIDA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA O‘ZGARISHLARNI O‘RGANISHDA INNOVATSION ILMIY YONDASHUVLAR

Raxmonov Ikrom abdukarimovich
Guliston davlat universiteti
dotsent v.b. Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Dunyo miqyosida anomal issiqlik bugungi kunning asosiy muammoli mavzusiga aylandi. Shunday vaziyatda aholini ekologik toza mahsulot bilan ta’minlash ham zaruriy masalardan hisoblanadi. Ekologik toza mahsulotning ilmiy sinonimi organik mahsulot, deb ataladi. Olimlar ekologik toza mahsulot inson sog‘lig‘iga zarar yetkazmasligi, kelajak avlod salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi va yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ega bo‘lishini asoslab berishgan.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi; Tadqiqotlar shuni ko‘rsatganki, ekologik toza mahsulotlar iste’mol qilinganda odamlarning o‘rtacha umr ko‘rish yoshining ortishi, aholi orasida har xil kasalliklar tarqalish darajasi hamda bolalar o‘limining kamayishi va boshqa muhim ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilgan. Organik mahsulotlar deyilganda organik so‘zi «cheklangan» ma’nosini anglatib, qo‘shimcha mineral o‘g‘itlarsiz, zaharli ximikatlarsiz va boshqa texnogen ta’sirlarsiz mahsulot yetishtirish yoki tabiiy toza xomashyolardan olingan, zamonaviy texnologiyalar asosida yetishtirilgan mahsulotlardir. Ekologik oziq-ovqat haqida ming yillar davomida yovvoyi tabiatning tabiiy jarayonlariga aralashadigan odam, tuproqlarning tuzilishini o‘zgartirdi, o‘simlik va hayvonlarning hosildorligi, o‘simlik va hayvonlarning samarali fazilatlarini, genetik modernizatsiya qildi. Hayvonlarning tabiiy dietasi, amaliy farmakologik preparatlar va boshqalar. Metabolik buzish, gipovitaminoz, allergik reaktsiyalar, asab, uyqu etishmovchiligi, reproduktiv va endokrinlik, reproduktiv va endokrinlik, ulardagi turli xil kasalliklarning tendentsiyasi, saraton kasalligiga

tendentsiya va boshqa ko‘p narsalar va boshqa ko‘p narsalar kuchayadi. Ekologik toza oziq-ovqatning dolzarbligi. Shu sabablarga ko‘ra, mahsulotlar ekologik jihatdan toza ekanligiga g‘amxo‘rlik qilish juda muhimdir. Ekologik toza mahsulotlardan foydalanish inson tanasini past sifatli mahsulotlarning salbiy ta’siridan keyin asta-sekin tiklashga yordam beradi. Ekologik toza mahsulotni kimyoviy omillar, mum va boshqalar ta’sir qilmasligi kerak. Ekologik toza mahsulotning tabiiy ta’mi, xushbo‘y, vitaminlar va minerallarning yuqori miqdori bolalari va homilador ayollar uchun xavfsizdir. Endi anomal issiqlikka keladigan bo‘lsak bu muammo ham dolzarb global muammoga aylanib bormoqda. Kelgusi yuz yillikning boshiga borib, Yer shari aholisining to‘rtdan uch qismi doimiy issiqlik to‘lqinlari hukmron bo‘lgan hududlarda yashaydi.

Mavzu doirasidagi tahlillar; Nature Climate Change jurnalida chop etilgan maqolada olimlar shunday ma’lumot bilan o‘lishishdi."Hodisalar rivojining ehtimoliy variantlari ro‘yxati kelgusida muntazam qisqarib boradi. Issiqlik to‘lqini haqida gapiradigan bo‘lsak, dahshatli va juda dahshatli ssenariylar o‘rtasida tanlashimiz mumkin. Ko‘plab odamlar hozirgi davrning o‘zidayoq anomal issiqlik ta’siri natijasida hayotdan ko‘z yummoqda va hatto iqlimning o‘zgarishi bilan kurashish ham kelgusida bunday vaziyatlar qurbonlari sonining o‘sishidan qutqara olmaydi", - deydi Manoadagi Havayi universiteti olimi Kamilo Mora. Global isish asoratlaridan biri "ekstremal ob-havo", ya’ni qishda anomal issiq va yozda anomal sovuq harorat, issiqlik to‘lqinlari, haftalik sel yomg‘irlari, qurg‘oqchilik va boshqa fenomenlar davri hisoblanadi. Akademik Igor Moxovning ta’kidlashicha, bunday hodisalar chastotasi kelgusida faqat o‘sib boradi va ular borgan sari kattaroq hududlarni qamrab oladi. G‘arbiy iqlimshunoslarning hisob kitoblariga ko‘ra, bu o‘lim holatlarining keskin ko‘payishiga olib keladi - yozda issiqlikning har bir "ortiqcha" harorati halok bo‘layotganlar sonini 5 foizga oshiradi. Mora va uning hamkasblari insoniyat global isishdan saqlanish choralarini ko‘rmagan taqdirda 2100 yilga borib issiqlik to‘lqini bilan bog‘liq vaziyat qanday o‘zgarishi va ular to‘liq amalga oshirilgan taqdirda qanday o‘zgarishlar kutilishini aniqlashga qaror qilishdi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari 2100 yilga borib, sayyora aholisining 74 foizi har ikkinchi yoz mavsumida nafaqat yuqori harorat, balki yuqori namlik darajasi qayd etiladigan hududlarda yashashini ko‘rsatdi. Bu esa inson tanasining ter chiqarish orqali sovushiga halaqit beradi. Nyu-York va Moskva kabi ba’zi shaharlarda anomal issiqlik davri 50 kuncha davom etadi. Tropik va ekvatorial mintaqalar yanada ko‘proq jabrlanadi. Hindiston, Braziliya va Janubi-Sharqiy Osiyoning deyarli butun hududi yuz yillik oxiriga borib insonlar yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keladi. Agar dunyoning yetakchi davlatlari iqlim bo‘yicha Parij kelishuvi va global isish bilan kurashishga yo‘naltirilgan boshqa choralar ijrosidan to‘liq voz kechsa, kelgusida issiqlik urishi, yurak xuruji va tananing qizishi natijasida yuzaga keluvchi boshqa kasalliklar natijasidagi o‘lim holatlari darajasi keskin oshadi. Boshqa bir tomondan, Mora va uning hamkasblarining tan olishicha, bu choralarning amalga oshirilishi "anomal issiqlik" zonasining kengayishini to‘xtata olmaydi, shunchaki bu jarayonni biroz sekinlashtiradi xolos.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida organik-ekologik toza mahsulot yetishtirish va unga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Yevropa mamlakatlarida ekologik toza mahsulotlarga yillik talabning o‘sishi Germaniyada 5–15 foiz, Daniya, Shvetsiya va Shveysariya davlatlarida 30–40 foizga ortgan. Nature Climate Change junalida quyidagi malumotlar ham aytib o‘tilgan “ Iqlim o‘zgarishi sharoitida diapazonni o‘zgartirish orqali o‘z joylarini kuzata olmaydigan turlar moslashish va davom etish uchun asosan genetik o‘zgaruvchanlikka bog‘liq.

Genomik zaiflik bashorati zarur o‘zgarishlarga ega bo‘lmagan populyatsiyalarni, ayniqsa iqlimga mos keladigan genlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Biroq, yangi adaptiv o‘zgaruvchanlik manbai sifatida gibridizatsiya odatda genomik zaiflik tadqiqotlarida e’tiborga olinmaydi. Biz Avstraliyaning nam tropik mintaqasidagi balandlik gradienti bo‘ylab kamalak baliqlarining (Melanotaenia spp.) yaqindan bog‘liq turlari uchun atrof-muhit modellari va genomik zaiflikni taxmin qildik. Keng tarqalgan generalist va bir nechta tor diapazondagi endemik turlar o‘rtasidagi gibrid populyatsiyalar sof tor endemiklarga nisbatan prognoz qilinadigan iqlimga nisbatan zaiflikni ko‘rsatdi. Introgressiyalangan va adaptiv genomik hududlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar adaptiv introgressiya signaliga mos keldi. Bizning topilmalarimiz gibrid populyatsiyalarning ko‘pincha kam baholanadigan saqlanish qiymatini ta’kidlaydi va adaptiv introgressiya tor atrof-muhit diapazoni bo‘lgan turlarni evolyutsion qutqarishga yordam berishi mumkinligini ko‘rsatadi”.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar; Keskin darajada issiq sharoitda bugungi kunda qishlaq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda quyidagilarni inobatga olish zarur.

1. Zamonaviy tomchilatib sug‘orish tzimlaridan foydalanish.
2. Dala atroflariga daraxtlar to‘g‘ri ilmiy yondoshgan holda turlarini tanlab ekish.
3. Yer ustini to‘liq ko‘chat bilan ta’minlanishi.
4. Yer osti suvlaridan rejali foydalanish.
5. Tuproqninig organik tarkibini boyitishga etibor qaratish.
6. Suvga chidamli ekin nav va turlarini ekish.
7. Gidrogelning yuqori darajali samaralilarini ishlab chiqish.

Iqlim o‘zgarishi tabiatga ta’sirining ijobiy va salbiy tomonlarini ilmiy o‘rganib chiqish va shunga mos ravishda kerakli tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunning talabi bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nature climate change January 30, 2023 and other issues.
2. O‘zME birirnchi jild Toshkent 2000-yil
3. A.Abdullayev,H.Arg‘inboyev,H.Abdullayev “Fizika agrometrologiya” Toshkent 2015-yil
4. Agro.uz

SIRDARYO VILOYATIDA SUG‘ORILGAN DEGRADASIYAGA UCHRAGAN TURUQLARNING GRANULOMETRIK TARKIBI

Kurvantaev R., Botirov Sh.A.
Qishloq xo‘jalik fanlari doktri, professor, katta o‘qituvchi
kurvontoev@mail.ru erasmusmunduz@mail.ru
Guliston davlat universiteti Guliston sh. O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada Sirdaryo viloyati tuproqlarining granulometrik tarkibiga oid ma’lumotlar keltirilgan. O‘rganilgan sug‘oriladigan o‘tloqli va bo‘z-o‘tloqli tuproqlarda granulometrik tarkibi turlicha bo‘lib, engil qumoqli tuproqlardan tortib to loyli tuproqlarga qadar o‘zgaradi. Granulometrik tarkibiga ko‘ra, hudud tuproqlarini 4 ta asosiy guruhga bo‘lish mumkin: 1) engil qumoqli; 2) o‘rta qumoqli; 3) og‘ir qumoqli; 4) loyli.

Аннотация: В статьи излагается данные гранулометричесого состава Сирдарьинской области. В исследуемых орошаемых луговых и сероземно-луговых почвах гранулометрический состав изменяется в широких пределах начиная легкосуглинистых до глинистых. По гранулометрическому составу и характеру строения почво-грунты области можно разделить на 4 основные группы: 1) легкосуглинистые; 2) среднесуглинистые; 3) тяжелосуглинистые; 4) глинистые.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Sirdaryo viloyatining tuproq-meliorativ sharoiti turlicha bo‘lganligi sababli agrotexnik va meliorativ tadbirlarni o‘tkazishda tabaqalashtirilgan yondashuv zarur. Murakkab gidrogeologik sharoitlar bilan ajralib turadigan degradatsiya hududida shu paytgacha tuproqlarning suv-tuz va fizikaviy tartibi er osti suvlari darajasining ko‘tarilishi va sho‘rlanishi munosabati bilan, tuproqlarning xususiyatlarini va drenajlash intensivligini hisobga olgan holda, agrofizikaviy, sho‘rlanish jarayonlari va tuproqlarning suv tartibiini maqbullashtirish usullarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ladi [1-7].

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning[114] 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «…yerlarni eroziyadan va melioratsiya ob’yektlarini qum ko‘chishidan saqlash uchun ihota daraxtzorlarini barpo etish hamda o‘rmon fondini kengaytirish, muhofaza qilish» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham tog‘ oldi hududlarda tarqalgan tuproqlarning yillar davomida eroziya jarayonlari, tuproqning kimyoviy va fizikaviy xossalarini o‘rganish, ulardan foydalanishning samarali yo‘llarini aniqlash bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu ishlanmalar kelajak avlodlar uchun nihoyatda muhim va dolzarbdir, shuning uchun tabiiy resurslarni, jumladan, tuproqni muhofaza qilish sof davlat doirasidan chiqib, davlatlararo muammoga aylandi.

[114] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»si PF-60-sonli Farmoni.

Mavzu doirasidagi tahlillar. Tuproqning granulometrik tarkibi ko‘plab xususiyatlariga sezilarli darajada ta’sir qiladi: fizik, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik, kimyoviy va biologik. Jumladan, tuproqning suv saqlovchi va suv ko‘taruvchanligi va uning harorat tartibi, fizik-mexanik xossalari, tuproqqa ishlov berish paytidagi qarshilik kuchi, etilish vaqti, yopishqoqligi, bo‘kishi va boshqalar bevosita granulometrik tarkibga bog‘liq. Granulometrik tarkibi. tuproq namligi va o‘simliklar uchun ozuqa moddalarining etarli darajasini aniqlaydi.

Sug‘oriladigan o‘tloqli tuproqlarda yirik chang zarralari ustun bo‘lgan bo‘z- o‘tloqli tuproqlardan farqli o‘laroq, o‘rta va mayda chang zarrachalarining ko‘pligi kuzatiladi. Bu sug‘oriladigan o‘tloqli tuproqlar uchun tavsiflidir, bu erda ularning miqdori 32-49 %, yirik chang zarracha esa 27-37 %. Sug‘oriladigan o‘tloqli tuproqda ikkinchisining miqdori boshqa zarrachalarga qaraganda ko‘p bo‘lsa-da, bu erda ham o‘rta va mayda chang zarralarining foizi ancha yuqori. Ko‘rib chiqilayotgan tuproqlarda qum zarrachalar miqdorii kam (0,2-12 %), shundan mayda qum 3-11 % ni tashki qiladil. Loy miqdorii 10 dan 26 % gacha bolishi mumkin[4; 282-c].

Bizdagi ma’lumotlarga ko‘ra (jadval) Sirdaryo viloyatining degradasiya uchragan tuproqlari granulometrik tarkibi jihatidan juda xilma-xildir. Bu tuproq hosil qiluvchi jinslarning genezisi va insonning sug‘orish va madaniy faoliyati bilan bog‘liq. Asosiy tuproq hosil qiluvchi jinslar allyuvial, prolyuvial-allyuvial, ko‘l-allyuvial, lyoss, lyussimon, allyuvial-prolyuvial, delyuvial-prolyuvial cho‘kindi jinslardir. Shuning uchun ular ustida hosil bo‘lgan tuproqlar og‘irdan qumligacha bo‘lgan turli granulometrik tarkibi bilan ifodalanadi. Har bir tuproq kesmasida granulometrik tarkibning o‘zgaruvchanligi ham kuzatiladi. Sug‘oriladigan o‘tloqi va bo‘z-o‘tloqi tuproqlar, asosan yengil, o‘rta va og‘ir tuproqlar, turli qatlamli yotqiziqlarda joylashgan. Granulometrik tarkibiga ko‘ra, tumanlar tuproqlarini 4 ta asosiy guruhga ajratish mumkin: 1) engil qumoq; 2) o‘rta qumoq; 3) og‘ir qumoq; 4) loyli.

Yangidan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqli tuproqlarning granulometrik tarkibi haqidagi ma’lumotlar yuqori metrli qatlamlarda yirik chang zarachalarning miqdori 20 dan 50 % gacha ekanligini ko‘rsatadi. Va pastki qatlamlarda 30 dan 60% gacha. Bir metr qalinlikdagi (0,01-0,001) yuqori qatlamlarda o‘rta va mayda chang zarrachlarining miqdori 2 dan 16% gacha, pastki qismida esa 6 dan 25 % gacha bolishi kuzatildi.

Jadval. Sirdaryo viloyati tuproqlarining granulometrik tarkibi

Kesma №	Qatlam chuqurligi, sm	Zarrachlar tarkibi, %										
		>0,25	0,25-0,1	0,1-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	<0,001	Fizik loy	Qatlam chuqurligi, sm	<0,001	<0,01
YAngidan sugoriladigan bo‘z-o‘tloqi M.Uzoqov massivi, Sardoba tumani												
163	0-30	0,7	9,0	30,7	32,5	7,2	14,6	5,3	27,1	0-30	5,3	27,1
	30-53	0,9	4,7	37,7	29,6	6,6	14,8	5,7	27,1	30-50	5,6	27,1
	53-83	1,1	5,6	16,1	15,0	14,9	41,3	1,4	57,6	50-100	4,4	49,2
	83-119	1,0	8,2	21,3	31,2	8,3	20,4	9,6	38,3	100-200	11,2	66,2
	119-159	1,3	6,4	9,1	5,9	31,2	41,0	5,1	77,3	0-50	5,4	27,1
	159-193	1,0	3,6	6,3	13,5	16,2	40,4	19,4	75,6	0-100	4,9	38,2
	193-220	1,0	5,2	10,3	50,4	12,7	10,1	10,3	33,1	0-200	8,1	52,2
Eskidan sugoriladigan bo‘z-o‘tloqi «Malik» massivi, Sirdoya tumani												
62	0-38	0,2	0,7	16,7	46,2	3,9	18,0	14,3	36,2	0-30	14,3	36,2
	38-50	0,1	0,2	32,9	28,0	8,7	14,3	15,0	38,0	30-50	14,7	37,2
	50-88	0,1	0,1	15,7	50,7	6,9	12,3	14,2	33,4	50-100	12,7	31,7
	130-165	0,1	0,2	16,9	56,2	7,7	10,9	8,0	26,6	100-200	8,5	26,2
	165-	0,1	0,2	18,2	56,0	9,7	6,5	9,3	25,5	0-50	14,4	36,6

	207											
										0-100	13,6	34,2
										0-200	11,0	30,2
YAngidan sugoriladigan o‘tloqi-bo‘z Sidiqov nomli massivi, Oqoltin tumani												
38	0-30	0,3	1,0	36,5	35,4	5,2	10,5	11,1	26,8	0-30	11,1	30,8
	30-49	0,3	1,1	27,2	39,6	5,8	14,2	11,8	31,8	30-50	11,8	31,5
	49-70	0,7	1,7	31,3	39,9	1,4	12,6	12,4	26,4	50-100	9,8	28,2
	70-100	0,5	1,2	26,6	42,2	4,5	16,9	8,1	29,5	100-200	13,2	27,6
	100-125	0,7	1,9	35,4	29,9	5,9	12,5	13,7	32,1	0-50	11,3	31,0
	125-150	0,7	4,0	22,7	34,6	8,0	17,0	13,0	38,0	0-100	10,6	29,6
	150-250	0,6	2,4	20,4	42,9	7,1	13,5	13,1	33,7	0-200	11,9	23,6
	165-210	2,0	9,1	37,6	25,2	6,2	13,0	7,1	26,3			
YAngidan sugoriladigan bo‘z-o‘tloqi «Dustlik» massivi, Gulistan tumani												
138	0-30	0,7	1,4	12,0	42,8	9,9	16,0	17,2	43,1	0-30	17,2	43,1
	30-58	3,0	15,0	22,3	36,1	6,3	15,0	2,3	23,6	30-50	2,3	23,6
	58-85	2,7	14,1	17,5	16,4	7,4	41,6	4,1	53,1	50-100	4,8	42,9
	85-120	1,0	9,0	5,2	49,9	8,9	18,6	7,4	34,9	100-200	-	-
	120-157	1,0	9,1	19,7	45,8	7,7	10,2	6,5	24,4	0-50	11,2	35,3
	157-163	2,0	2,0	36,0	40,7	7,5	7,0	4,8	19,3	0-100	8,0	39,1
YAngidan sugoriladigan o‘tloqi-bo‘z «Paxtakor» Sayxuobod tumani												
13	0-33	0,2	0,2	15,4	38,6	12,4	7,9	25,3	45,6	0-30	25,3	45,6
	33-55	0,1	1,0	22,0	30,9	11,9	18,2	15,7	45,8	30-50	17,1	59,4
	55-93	0,4	5,0	14,6	30,9	18,2	24,2	6,7	49,1	50-100	8,2	47,5
	93-130	0,5	4,9	16,1	38,1	7,6	21,5	11,3	40,4	100-200	-	-
	130-150	0,1	0,3	6,7	61,0	9,3	16,5	6,1	31,9	0-50	22,0	51,1
										0-100	15,1	49,3
YAngidan sugoriladigan o‘tloqi SH.Raximov nomli massivi Sayxunobod tumani												
87	0-28	0,6	1,1	4,6	43,0	8,7	25,9	16,1	45,7	0-30	15,7	46,0
	28-45	1,0	2,0	1,9	44,7	20,0	19,8	10,6	50,4	30-50	13,4	47,5
	45-77	0,7	1,1	9,0	50,1	7,5	9,6	22,0	39,1	50-100	17,2	35,7
	77-114	1,0	5,0	44,7	17,4	11,4	8,9	11,6	31,9	100-200	16,9	53,4
	114-132	0,1	0,7	11,5	15,7	7,3	39,0	26,0	72,3	0-50	14,8	46,6
	132-165	0,1	0,1	3,0	15,7	15,2	41,3	24,6	81,1	0-100	16,0	41,2
	165-210	2,0	9,1	37,6	25,2	6,2	13,0	7,1	26,3	0-200	16,4	47,3

Yangidan sug‘oriladigan o‘tloq-bo‘z tuproqlarning granulometrik tarkibi haqidagi ma’lumotlar (jadval) ko‘rsatadiki, yirik chang (0,05-0,001) zarrachasi bir metr qalinlikdagi yuqori qotlomlarda 35,4 dan 42,2% gacha va pastki qotlomlarda 29,9 dan 42,9 % gacha bo‘lishi kuzatildi. Yuqori qatlamlarda mayda qum (0,1-0,05 mm) zarrachalari miqdori bir metr qalinligida 36,5 dan 26,6

% gacha, pastki qismida esa 35,4 dan 22,7 % gacha bolishi qayd qilindi. Asosiy maydonning yuqori qatlamining fizik loy tarkibiga ko‘ra, u o‘rta, engil granulometrik tarkibli tuproqqa yaqinroq (30,8-31,5%) tasniflanadi. Yangidan sug‘oriladigan o‘tloq-bo‘z tuproq 163-kesma boshqa hududlarga nisbatan kesmasi keskin farq qiladi, chunki yarim metrli qatlamda fizik loy miqdori 27,1% ni tashkil qiladi va 50-100 sm dan chuqurroq uning miqdori keskin 49,2-66,2% gacha ortadi, og‘ir qumoqli va loyli granulometrik tarkiblarini hosil qilgan. Sayxunobod tumanidagi “Paxtakor” va Sh.Rahimov mahalliy fuqoralar yigini (MFY) er maydonlari yangidan sug‘oriladigan o‘tloq-bo‘z tuproqlar va o‘tloq tuproqlardan iborat 13; 87 kesmalarning 0-200 sm qatlamdagi tarkibi bir bo‘lib og‘ir qumloqlarning engil tebranishlari bilan ajralib turadi. Bu qatlam uchun fizik loy miqdori 49,3-47,3% ni tashkil qiladi.

Sirdaryo viloyatidagi Malik MFY 62-kesmada joylashgan eskidan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqli tuproqlar tarkib doirasida bir oz tebranishlar bilan qatlamlari o‘rta qumoq granulometrik tarkibni ifodalaydi.

Bizning natijalarimiz va boshqa tadqiqotchilarning ma’lumotlari [1, 3-6] shuni ko‘rsatadiki, bo‘z tuproqlar lyossda, xususan, o‘tloq va bo‘z-o‘tloqilar asosan 0,25 dan 0,01 mm gacha yoki undan kamroq o‘lchamdagi zarrachalarga ega, ya’ni tuproqqa yaxshi kapillyar g‘ovaklik, yuqori suv va namlik sig‘imi hamda ozuqa moddalarining harakatchanligini ta’minlaydigan mikro tuzilmaga ega bo‘lib, bu tuproqlarning yuqori unumdorligini belgilaydi. Yangidan sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlar tarkibi yirik chang (0,05-0,001) zarracha miqdori bir metr qalinlikdagi yuqori qatlamlarda 35,4 dan 42,2 % gacha, quyi qatlamlarda 29,9 dan 42,9 % gacha bo‘lishi qaud qilindi. Yuqori qatlamlarda mayda qum (0,1-0,05 mm) zarrachalar miqdori bir metr qalinligida 36,5 dan 26,6 % gacha, pastki qismida esa 35,4 dan 22,7% gacha bo‘lishi aniqlandi. Asosiy maydonning yuqori qatlamining fizik loy tarkibiga ko‘ra, u o‘rta qumoqli, engil qumoqqa yaqinroq (30,8-31,5%) tasniflanadi. Granulometrik tahlilga ko‘ra, 88-kesma oldingi kecmaga o‘xshaydi, ammo pastki qatlamlar og‘irroqdir. Yangidan sug‘oriladigan o‘tloq-bo‘z tuproq (163-kesma) boshqa hududlarga nisbatan kesma tuzilishi jihatidan keskin farq qiladi, chunki yarim metrli qatlamda fizik loy miqdori 27,1% ni tashkil qiladi va 50-100 sm dan chuqurroq uning miqdori keskin 49,2-66,2% gacha ortadi. va og‘ir qumoqli va loyli tuproq tarkiblarini hosil qilgan.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Sirdary viloyatining degradadsiyaga uchragan bo‘z-o‘tloq va o‘tloq tuproqlari granulometrik tarkibiga ko‘ra juda xilma-xil bo‘lib, bu tuproq hosil qiluvchi jinslar genezisi va inson omili va madaniy faoliyati bilan bog‘liq. Tuproqlar turli xil granulometrik tarkibli turlari bilan ifodalanadi, ular og‘ir qumoqli va loydan tortib to qumli yengil qumoqli tuproqligacha. Har bir tuproq kesmasida ham qatlamlik kuzatiladi. Tupoqlarga ishlov berishda, mineral va organik o‘g‘it qollashda, sugorishda, shor yuvishda va boshqa agrotexnik, meliorativ tadbirlarni qollashda tuproqlarni granulometrik tarkibini hisobga olish zarur.

FOYDALANGAN ADABIYATLAR RO‘YXATI

1. Курвантаев Р.К. Оптимизация и регулирование агрофизического состояния орошаемых почв пустынной зоны Узбекистана: Автореф. докт. дисс. с.х.н. - Ташкент, 2000. - 45 с.

2. Норкулов У. Изменения водно-солевого режим почвы под влиянием орошения и дренажа в условиях Голодной степи // “Международный центр научного сотрудничества “Наука и просвещение” ADVANCED SCIENCE сборник статей V-международной научно-практической конференции.- Пенза, 2018. - С. 77-79.

3.Умаров М.У. Физические свойства почв районов нового и перспективного орошения Узбекской ССР. - Ташкент: изд-во «Фан», 1974. - 282 с.

4.Умаров М.У., Курвантаев Р. Повышение плодородия орошаемых почв путём регулирования их физических свойств. - Ташкент: изд-во «Фан», 1987. - 106 с.

5.Уразбаев И., Курвантаев Р., Мусурманов А., Ботиров Ш. Агрофизическая характеристика орошаемых почв Мирзачулского оазиса. // Почвоведение - продовольственной и экологической безопасности страны VII съезд общества почвоведов им. В.В.Докучаева. Материалы докладов. Часть 1. - Москва-Белгород, 2016.- С.384-385.

6. Kurvantaev R., Musurmanov A.A., Turgunov M.M. Current state of water-physical properties in soils of Mirzachul oasis. // The proceedings of the international Congress on «Soil Science in International Year of Soils» Article book. 19-23. October, 2015, - Sochi. - P. 235-239.

7. Rakhmon Kurvantaev, Nodira Khakimova and Bobirjo*n* Vafoev. Chemical properties of Zarafshon lower and middle flow soils. E3S Web of Conferences 389, 04015 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338904015 *UESF-2023*. P.1-6.

SUG‘ORILADIGAN TUPROQLAR AGREGATLIK HOLATINING KAM ISHLOV BERISH TA’SIRIDA O‘ZGARISHI

A.A.Musurmanov, S.D.Qurbonova
Guliston davlat universiteti, Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasi dotsenti, q/x.f.f.d (PhD)
E-mail: musurmanov1975@mail.ru
Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Mirzacho‘l vohasida tarqalgan tuproqlar turli darajada sho‘rlangan, shu sababli ushbu hududda tarqalgan tuproqlarni sho‘rsizlantirish va qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olishda muhim ahamiyatga ega. Sho‘rsizlantirish usullarini ishlab chiqish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Sho‘rsizlantirish usullaridan biri bu tuproq yuzasini mulchalash va kam ishlov berishdir. Ushbu usullarda sizot suvi yaqin joylashgan tuproqlar, shu jumladan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining mulchalash va kam ishlov berish orqali tuproq yuzasidan kapillyar naylar orqali bug‘lanadigan namlikni kamayishi hisobiga sho‘rlanish jarayoni sustlashadi.

Tuproqlarning fizik xossalari - tuproq unumdorligini belgilovchi omillardan biridir. Yetakchi o‘rinda tuproq zichligi va haydov qatlamining struktura holati hisoblanadi. Tuproq qatlami zichligi-struktura tashkil bo‘lishida agregat ko‘rsatgichini, suv-havo nisbatini va tuproqda issiqlik almashinishini, qattiq qismi va bo‘shliqlar nisbatini, zarrachalar miqdorini va bir-biri bilan aloqadorligini belgilaydi. Tuproq qatlami zichligi uning miqdoriy tarkibiga, turli kattalikdagi agregatlar nisbatiga va granulometrik tarkibiga bog‘liq. Tuproq qatlami zichlik kattaligi tuproqga inson ta’siri tezligini aniq ifodalaydi [3;4].

Yaqin yillardan boshlab tuproq unumdorligini qayta tiklovchi, sarf harajatlarni kamaytiruvchi, antropogen omillar ta’siri birmuncha kam bo‘lgan, tuproqlarga kam ishlov beruvchi texnologiyalar qo‘llanilmoqda.

Kam ishlov berish (Mini-till) -resurstejamkor texnologiyalardan biri bo‘lib, tuproqning agrofizikaviy xossalarini maqbullashtirilishiga va struktura tiklanishiga, suvga chidamli agregatlar holatining yaxshilanishiga, tuproq tabiiy unumdorligining tiklanishiga, ekologik barqarorlashuviga, tuproq sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarining ortishiga olib keladi [1;2;3;4;5;6;7;8;9;10].

Shimoliy Amerika davlatlarida hozirgi kunda kam ishlov berishning quyidagi turlari mavjud: mulchalab ishlov berish (mulch-till), oralatib ishlov berish (strip-till), to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish (no-till), qisqartirilgan ishlov berish (reduked-till) [1;2;7;8].

Bo‘z tuproqlar mintaqasi o‘zining suvga chidamli agregatlarining kamligi bilan xarakterlanadi. Tuproqda suvga chidamli agregatlar miqdorini oshishi organik o‘g‘itlarni ko‘p yillar qo‘llanilishi va sug‘orish, ayniqsa ko‘p yillik o‘tlar o‘stirish natijasida sezilarli bo‘ladi [3;4;5;6;7].

Sug’oriladigan bo’z-o’tloqi tuproqlarda eng qimmatli agregatlar miqdori (10-0,25mm) ekishdan oldin 45-70% ni tashkil qiladi. Shudgorlash sifati tuproq namligi 14-17% bo’lganda eng yaxshi bo’ladi. Ekishdan oldin va vegetatsiya davrida qimmatli agronomik agregatlar miqdori sezilarli o’zgaradi, agrotexnik tadbirlarning ta’sirida, ayniqsa kam ishlov berilganda.

Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda kattaligi 3-2 va 5-3 mm bo‘lgan suvga chidamli agregatlar miqdori kam ishlov berish ta’sirida o‘zgarishi aniqlandi. Ekishdan keyin 3-2 va 5-3 mm kattalikdagi agregatlarni miqdori xaydov qatlamda g‘o‘za ekilgan nazorat variantda uning miqdori 5,58-5,75% ni tashkil etdi, kam ishlov berilgan variantda 5,84-6,10 % ni tashkil etib, ustinlik qilganligini ko‘rish mumkin. Buning sababi o‘simliklarni navbatlab ekishda kam ishlov berilgan variantlarda o‘simlik qoldig‘i tushadi, tuproq g‘ovakligi oshadi va yelimlovchi moddalar ta’sirida suvga chidamli agregatlar hosil bo‘ladi (1-jadval).

Suvga chidamli 5-3 mm kattalikdagi agregatlarning miqdori 3-2 mm dagiga nisbatan hamma variantlarda ko‘p. Buning sababi agregatlar kattaligi jihatidan suvga chidamliligi yuqori. Bu kattalikdagi agregatlarga ham tuproqga ishlov berishning ta’siri yuqorida izohlangan qonuniyat 3-2 mm kattalikdagi takrorlanadi (1-jadval).

1-jadval.

Bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning kam ishlov berish tavsirida suvga chidamli agregatlar miqdorining o‘zgarishi

Variant	Qatlam chuqurligi, sm	3-2 mm li agregatlar			5-3 mm li agregatlar		
		> 1	1 -0,25	Jami agregatlar	> 1	- 0,25	Jami agregatlar
G‘o‘za maydoni							
Nazorat	0-15	0,74	4,84	5,58	1,39	4,93	6,32
	15-30	0,82	4,93	5,75	1,40	5,05	6,45
	30-50	0,84	4,99	5,83	1,25	5,12	6,37
Kam ishlov berilgan	0-15	0,91	4,93	5,84	1,44	5,21	6,65
	15-30	0,98	5,12	6,10	1,55	5,27	6,82
	30-50	0,90	5,05	5,95	1,48	5,35	6,82
Bug‘doy maydoni							
Nazorat	0-15	0,83	5,25	6,08	1,34	5,41	6,75
	15-30	0,95	5,36	6,31	1,45	5,44	6,89
	30-50	1,08	5,24	6,32	1,27	5,53	6,8
Kam ishlov berilgan	0-15	1,12	5,32	6,44	1,49	5,60	7,09
	15-30	1,10	5,24	6,34	1,52	5,52	7,04
	30-50	1,21	5,45	6,66	1,63	5,64	7,27

Xulosa qilib, kam ishlov berish texnologiyasi qo‘llanilganda, oldindan olingan pushtalar ustida organik moddalar to‘planishi va ularning chirishi natijasida, tuproqning agregatlari nafaqat haydov qatlamda, balki haydov ostki qatlamlarida ham ma’lum darajada tiklanadi. Bu esa tuproq unumdorligining tiklanishiga va oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kiryushin V.I. Minimalizasiya obrabotki pochvi: itogi diskussii // J.: Zemledelie. -M. 2007. -№ 4. -S. 28-30.

2. Krovetto K. Pryamoy posev (No-till). -Samara, 2010. 206 s.

3. Kurvantaev R. Ispolzovanie zemelnix resursov Sirdar’inskogo viloyata s uchetom agrofizicheskogo sostoyaniya oroshaemix pochv // Yer resurlaridan foydalanishni tashkil etish va yer kadastri muammolari, respublika ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami, 2005 yil 18-19 may, -Toshkent, 2005. –B. 89-94.

4. Kurvontoev R., Solieva N., Kuziboev O., Normatov A.E. Vliyanie minimal’nogo sposoba obrabotki pochvi na yeyo plotnost’, slojenie i obshuyu poroznost’ // Sostoyanie i perspektivi razvitiya pochvovedeniya. Materiali mejdunarodnoy nauchnoy konferensii, posvyashennoy 60-letiyu obrazovaniya Instituta pochvovedeniya im. U.U.Uspanova. -Alma-ati, 2005. -S. 77-78.

5. Musurmanov A.A., Qurvontoev R. Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan tuproqlarining umumiy fizikaviy xossalariga mulchalash va kam ishlov berishning ta’siri. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi”, Toshkent, 2018, №1 (71), 2018.

6. Musurmanov A.A. Tuproq strukturasining mulchalash va kam ishlov berish ta’sirida o‘zgarishi. “O‘zMU xabarlari”, Toshkent, 2018, № 3/1, 2018.

7. Musurmanov A.A. Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan tuproqlarining unumdorligini mulchalash va kam iglov berig orqali oshirish. Diss.Avtoref. q.x.f.f.d., (PhD) -Tashkent. 2019. 44 b.

8. No-Till–Shag k ideal’nomu zemledeliyu: uchebn.-metod. posobie.-L.: Narodnoe obrazovanie. 2006. 122 s.

9. Bhatt R., Khera K.K. Effect of soil tillage and mode of straw application on soil erosion in the submontaneous tract of Panjab, India. Agricultural Water Management. 2006. 88(1). P. 107-115.

10. Goddard T., Zoebisch M., Gan Y., Ellis W., Watson A., Sombatpanit S. No-Till Farming Systems. Special Publication No.3, World Association of Soil and Water Conservation.-Bangkok, 2008. 544 p.

SIRDARYO VILOYATI TUPROQ SHAROITIDA ORGANIK O‘G‘ITLAR QO‘LLASHNING TUPROQ XOSSALARIGA TA’SIRI

Botirov Shavkat Alijon o‘g‘li
Guliston davlat universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti “Agrotuproqshunoslik melioratsiya” kafedrasi o‘qituvchisi. Shbotirov441 @gmail.com

Dehqonchilikning eng asosiy vazifalaridan biri mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va tuproq unumdorligini oshirishdir. Bu vazifalarni amalga oshirish bevosita tuproqda organik va mineral o‘g‘itlarni to‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liqdir. Organik o‘g‘itlardan go‘ng va maliy jihatdan eng muhim hisoblanadi. Chunki uning tarkibida o‘simliklarning o‘sish va rivojlanishi uchun zarur bo‘ladigan barcha oziq elementlari: N, P, K, Ca, S, Mg, va boshqa elementlar bo‘lib, bundan tashqari go‘ngning organik moddalari ta’sirida tuproqning suv-fizik hossalari (suv o‘tkazuvchanligi, nam sig‘imi, hajm massasi) va biologik aktivligi yaxshilanadi. Uning tarkibida N,P,K dan tashqari uglerod bo‘lgani uchun ham qimmatli organik o‘g‘it hisoblanadi.

Tuproqqa organik o‘g‘itlar qo‘llanilganda organik o‘g‘itlar ta’sirida tuproqni agrokimyoviy, biologik fizik — suv, mikrobiologik va boshqa hususiyatlari yaxshilanadi. Organik o‘g‘itlar bilan birga tuproqda asosan organik moddalar, ko‘p miqdorda makro va mikrounsurlar, shuningdek juda ko‘p miqdorda mikroorganizmlar (mikroflora) qo‘shiladi. Organik moddalar tuproqda kechadigan gumifikasiya jarayonida oziqdanish tartibini saqlaydi. mikrobiologik va biokimyoviy jarayonlar sonini, yunalishini, jadalligini oshiradi. Buning natijasida tuproqda fosforni kimyoviy birikishi pasayadi, azotni biologik singdirilishi ortadi. Organik o‘g‘itlar ta’sirida tuproqda ular tarkibidagi chirindi moddalari ortadi, g‘o‘zani ularga bo‘lgan talabi ta’minlanadi, shuningdek o‘simlik to‘qimalarini singdirishi va modda almashuvi ortadi. Sirdaryo viloyati sharoitida tuproq agrokimyoviy xossalarini o‘rganish va uni yaxshilash yuzasidan ma’lum tadqiqotlar o‘tkazilgan [1-7].

Organik moddalarni parchalanishidan tuproqqa og‘ir singadigan birikmalarni erivchan holatga keltiradigan karbonat angidrid gazi ajralib chiqadi. Bunda tuproq usti havosi karbonat angidrid bilan boyib, bu o‘simlikda kechadigan fotosintez jarayonini aktivlashtiradi. Tuproqda go‘ng bilan birga juda ko‘p miqdorda mikroorganizmlar tushib, ular tuproqdagi oziq elementlarni o‘simlik tomonidan o‘zlashtirilishini tezlashtiradi, ya’ni o‘simlikning mineral oziqlanishini kuchaytiradi. Shunga ko‘ra birgalikda ishlatish tavsiya etiladi.

Fiziolog va agrokimyogar olimlar tomonidan olib borilayotgan kuzatishlarida aniqlanishicha tuproqdagi oziq. elementlarning bir qismi, ya’ni 5 % chasi organik birikmalar holatida o‘zlashtiriladi. Ular hujayralarning, ionlar uchun kirishni oshiradi va o‘simlikning oziqlanishini kuchaytiradi. Shunga ko‘ra go‘ng va boshqa organik o‘g‘itlarga faqat oziq manba sifatida emas, balki o‘simlikning oziqlanishini rag‘batlantiruvchi vosita deb ham qarash kerak.

Tuproq unumdorligi bevosita uning biologik aktivligiga bog‘liqdir. Organik va mineral o‘g‘itlar tuproq unumdorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, ular qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olish samarasini beradi. Tuproqka organik o‘g‘itlar qo‘llanilganda uning mineralizasiya jarayoni va karbonat angidrid gazining ajralishi, harakatchan shakldagi azot va kul elementlarining o‘simlik tomonidan o‘zlashtirilishi kuchayadi.

Organik o‘g‘itlarni gumus xolida (chirigan xolda) tuproqqa qo‘llash, tuproq unumdorligining pasayishini oldini olib, uning fizik-kimyoviy xossalarini, strukturasini hamda suv-havo rejimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishida organik o‘g‘itlar, nafaqat oziqa elementlari manbai balki tuproqning biologik aktiv moddalar (vitaminlar, auksinlar, aminokislotalar) bilan ham ta’minlaydi. Biologik aktiv moddalar, organik qoldiklar holida bo‘lib, nafaqat o‘simlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi, balki tuproqdagi foydali mikrofloraning faolligini oshiradi. Organik o‘g‘it (go‘ng) qo‘llanilgan o‘simliklarda vitaminlar miqdorini, o‘g‘it qo‘llanilmagan tuproqdarga nisbatan ko‘proq saqlaydi.

Organik o‘g‘itlarning hosildorlikka ta’siri nafaqat birinchi yilgi o‘simliklarga, balki keyingi ekiladigan o‘simliklar hosildorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Maishiy chiqindilardan tayyorlangan kompostlar tuproqning fizik hossalariga ham kimyoviy tarkibiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tuproqda CO_2 miqdorining oshishi tuproqqa organik o‘g‘itlar qo‘llanilganda kuzatiladi. U (issiqxona va teplitsalarda CO_3 gazining chiqishi 0,3-0,6 kg/m^2, ochiq joylarda esa 200-300kg/ga kun hisobida bo‘lib) donli ekinlarning, qand lavlagi, kartoshka ayniqsa sabzavot ekinlari hosildorligini 20,0-50 % ga oshirishi mumkin. Har qanday ekin ham tupoqdan oziqlanishi natijasida kul va azotli elementlarini hosil bilan olib ketadi.

Butun ittifoq va agrotuproqshunoslik ilmiy tekshirish instituta olimlarining ko‘p yillik tajribalarida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tuproqda qo‘llanilgan har bir tonna go‘ng, zonaning tuproq-iqlim sharoitiga ko‘ra bizning mintaqamizda barcha ekinlarning almashlab ekish dalasida hosildorlik (1s dan hisobida) ga oshishi, yuqori tuproq zonasida bundan ham yuqoriroq oshishi aniqlangan.

Yerga chiritilgan go‘ng yoki komposti solinganda ulardan karbonat angidrid gazining chiqishi yaxshilangan. Agar tuproqda CO_2 gazining miqdori 0,001% oshsa ekinlar hosidorligi ikki barobar ko‘payadi. Go‘ng va organic qoldiqlar yetishmasa uning o‘rni boshoqli ekinlar somonini ishlatsa bo‘ladi. Go‘ng 1 tonna somon chiriganda, 3 tonna go‘ng chiqaradigan miqdorda CO_2 gazi ajraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Turdimetov S.M., Musurmanova M.M. Properties of Soils located in different Geomorphological Conditions. American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. Volume 02 Issue 11-2022. pp 01-06.

2. Turdimetov Sh.M., Rakhimov Z. Evolution of Properties of Irrigated Grassland Soils. International scientific and currentresearch conferences“. Priority directions for the development of science and education”. – Austin, USA.– 2021. pp 65-68.

3. Turdimetov Sh.M., Esonboeva N. Mirzaobod tumani tuproqlarining meliorativ holati. Mejdunarodniy nauchno-obrazovatel’niy elektronniy jurnal «OBRAZOVANIYE I NAUKA V XXI VEKE». Vipusk №37 (tom 3) (aprel’, 2023). C. 67-73.

4. Turdimetov, SH., & Esonboyeva, N. (2023). MIRZAOBOD TUMANI GIDROMORF TUPROQLARINIG XOSSALARI. yevraziyskiy jurnal texnologiy i innovatsiy, 1(5), 81–85.

5. Turdimetov Sh., D.Sunnatova. How plant peas affect soil’s agrochemical properties. "Modern ecology state environment and scientific practical aspects rational of natural resources problems of agroecology” International Scientific and Practical Conference.s. Solenoye Zaymishe – 2017. pp. 779-781.

6. TURDIMETOV, Dr. Shakhobiddin M.; RAKHIMOV, Zarkum. Influence of Leguminous and Fodder Crops on Soil Agrophysical Properties and Crop Yields. Annals of Plant Sciences, [S.l.], v. 11, n. 01, p. 4705-4711, jan. 2022. ISSN 2287-688X. Available at: <https://annalsofplantsciences.com/index.php/aps/article/view/876>.

7. Shakhobiddin M. Turdimetov, Zarina A. Khudoyberdiyeva, & Asqar T. Tadjibayev. (2023). Quality Assessment of Gypsum Soils of Mirzachol Oasis. Journal of Population Therapeutics and Clinical Pharmacology, 30(12), 295–301. https://doi.org/10.47750/jptcp.2023.30.12.035.

SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI TUPROQLARDA G‘O‘ZANING HOSILDORLIGIGA SUG‘ORISh ME’YoRINING TA’SIRI

Fayziyev Kamoliddin Inobidinovich, Alibekov Muslimbek Alibek o‘g‘li

Guliston davlat universiteti Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasi dotsenti, q.x.f.f.d (PhD).

Guliston davlat universiteti Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon boshqa sohalar qatori qishloq xo‘jaligida xam ijobiy siljishga erishildi. Ayniqsa paxtachilikda yangi texnika va texnologiyalarni keng qo‘llash birmuncha yutuqlarni amalga oshirishga sabab bo‘ldi. O‘tgan qisqa davr mobaynida Respublika Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qancha qonun xamda qarorlar qabul qilindiki, bularning barchasi mamlakatimizda paxtachilikni yanada rivojlantirishga katta e’tibor berish bilan birga, agrar sohaning taraqqiyoti uchun etarli imkoniyatlar yaratib berilmoqda. [5]

Tadqiqotning asosiy maqsadi- tajriba maydoni hududi tabiiy-iqlim sharoitlarini, tuproq tiplari, tipchalarining morfologiyasi, ularning shakllanishidagi hududiy xususiyatlar, kimyoviy, agrofizikaviy

xossa xususiyatlarini va g‘o‘zani sug‘orish me’yorlari va hosildorligiga ta’sirini o‘rganish hamda hozirgi tuproq —ekologik holatlarini mukammal dalillar asosida yoritish hisoblanadi. [3]

Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarning morfologiyasi, tuproqlarining shakllanishidagi hududiy xususiyatlari, umumiy fizik va unumdorlik holatini ko‘rsatish, dehqonchilik ta’sirida tuproqda ro‘y beradigan o‘zgarishlar to‘g‘risida mukammal ma’lumotlar beriladi va o‘z navbatida g‘o‘zani sug‘orish me’yorlarining hosildorligiga ta’sirini o‘rganish to‘g‘risidagi bilimlarni yanada oshirishda katta nazariy ahamiyatga ega bo‘ladi. [4]

Tajriba asosida olingan ma’lumotlar hozirgi kunda o‘z dolzarbligi bilan alohida o‘rin tutadi, ya’ni sug‘orish muammolarini hal qilishda, tuproqlarning xossa-xususiyatlarini yaxshilashda, hamda tuproqlarning hozirgi ekologik holatini aniqlashda tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar tuproq paydo bo‘lish jarayonida faol ta’sir etuvchi er osti suvlari sathi 1-2,5 m da turgan sharoitga shakllanadi. O‘tloqi tuproqlar Sirdaryoning II-I terrasalarida, sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqli cho‘kmalarda, Markaziy Mirzacho‘lni delyuvial-prolyuvial, lyossimon va ko‘l-allyuvial yotqiziqlarida keng tarqalgan. Jizzax viloyatida tipik va och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasida, ko‘proq och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasida tarqalgan. Ular asosan bo‘z-o‘tloqi va o‘tloqi-bo‘z tuproqlar tarqalgan joylarda ko‘proq uchraydi. Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarni shakllanishi uchun yer osti suvlari sathi 1-2,5 m bo‘lib, davriy yoki mavsumiy bo‘lishi kerak. Tog‘ osti tekisliklarida er osti suvlari oqimi sekin harakatlanishida va ularni jadal ravishda sug‘oriladigan dalalardan va sug‘orish tizimlaridan tushib to‘planishida, tuproqni quyi qatlamlarini doimiy namlanib turishidan vujudga keladi. Natijada yer osti suvlari ko‘tarilib avtomorf (qurg‘oqchil) bo‘z tuproqlar, oraliq bo‘z-o‘tloqi tuproqlarga o‘tib gidromorf (namchil) o‘tloqi tuproqlarga aylanadi. Vaqtlar o‘tishi bilan o‘tloqi tuproqlarni tashqi belgilarini oladi va bu tuproqlarga xos o‘simliklar olami ham yuqorida paydo bo‘ladi. [5]

Bundan tashqari er osti suvlari sathi yuzaga yaqin turishi va tuproqni quyi qavatlarini ortiqcha namlanishidan, havosiz (anaerob) sharoit paydo bo‘ladi va temir, alyuminiy, marganetslarni oksidlari hamda birikmalari shakllanadi. Tuproqni quyi qismlari jigarrang qo‘ng‘ir va hira tus oladi. Yer osti suvlarini baland turishi, ikkilamchi sho‘rlanishni ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun o‘tloqi tuproqlarni o‘zlashtirishda kollektor-zahkashlar to‘rini o‘tkazib, yaxshi ishlashini ta’minlash zarur. [2]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fayziev K.I. Quyi Amudaryo tuproqlarining agrofizikaviy holati va ularni yaxshilashning ilmiy asoslari (Xorazm vohasi misolida). Qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent. - 34 b.
2. R.Kurvontoev, K.Fayziev WATER PROPERTIES OF SOILS OF KHORAZM REGION. American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. December 09, 2022 **Crossref doi:** https://doi.org/10.37547/ajahi/Volume02Issue12-01
3. Файзиев К.И., Солижонов Ж.К. Гулистон тумани тупроқлари қоплами ва уларнинг унумдорлиги// TURKEY International scientific-online conference: TÜRKIYE Uluslararası Bilimsel-Çevrimiçi Konferans THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH: a Uluslararası bilimsel çevrimiçi konferansın bilimsel çalışmalarının toplanması (9 Nisan 2023) – Türkiye, İstanbul : "CESS", 2023. Bölüm 14, –21-25s.
4. Turdimetov Sh., Musurmanova M. Properties of Soils located in different Geomorphological Conditions. American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. Volume 02 Issue 11-2022. pp 01-06.
5. Mirzacho‘l // O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. – Toshkent: “Davlat” ilmiy nashriyoti, 2003. 5-jild., - 696-697 b.

TALABALARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOG MAHORATI

Komilov Nozimjon Abduraximovich
Guliston davlat universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti o‘qituvchisi

Abstract: three articles reveal the essence of modern pedagogical technologies and describe traditional and non-traditional teaching methods. Application of pedagogical technology, controversial production, pair products, different exercises, distribution materials, forms and products, products,

visions, production products, different productions, styles, pictures, limited minutes, mixed production, lesson production production.

Key words: strategic thinking, pedagogical thinking, teacher, development of pedagogical thinking, pedagogical technology, discussion group.

Ta’limdagi o‘zgarishlar bugungi davrda yurtimiz kelajagining mustahkam poydevori hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 va “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 4884-sonli buyrug‘i ta’minlash maqsadida zamonaviy talablar asosida pedagog kadrlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta’lim sharoitida ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini tahminlash va tinglovchilar tomonidan o‘qitishning ko‘zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – ommaviy ta’lim sharoitida istalgan pedagogga o‘qitishning yetarli samarasiga erishishni tahminlovchi, o‘quv jarayonini yaratish hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning predmeti – o‘quv jarayonining o‘zi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning obhekti-bu o‘quv mashg‘ulotlaridir. Bilimga asoslangan jamiyat malakali kadrlarga extiyoj: Demak, pedagog quyidagi salohiyatga ega bo‘lishi talab etiladi, yahni pedagog axborot savodxon, Media savodxonligiga ega bo‘lishi, tadqiqotchilik va analitik fikrlashi, axborotlarni tezkor topishi va qayta ishlashi, o‘z ishiga ijodiy yondashishi talab qilinadi. Bundan tashqari pedagog loyixalarda ishlay olish, muammolarni hal qila olish, jamoada hamkorlik, taqdimot qilish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi kerak. Hozirgi kunda ta’limning yangi maqsadlari shakllangan bo‘lib, bu insonning subekt sifatida uzluksiz rivojlanish g‘oyalari, butun hayoti davomida ta’lim olishi zarurligi tahkidlanadi. Ta’lim oluvchilar ta’lim faoliyatini nafaqat olamni anglash, inson qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, balki olamni yaxshi tomonga o‘zgartirish uchun olib borishlari kerak. Ta’lim yondashuvlariga an’anaviy etish, tushuntirish, namoyish qilish misol bo‘la oladi. Ta’lim texnologiyalaridan asosiysi bu an’anaviy texnologiyadir. Bu muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘qitishning an’anaviy shakli, metodi va ta’lim vositalarining majmuidan foydalanib ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishdir. Noan’anaviy o‘qitishning qiyosiy tahliliga kelsak, bu bilim berish, ko‘nikma shakllantirish, hamkorlikdagi faoliyat orqali bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, o‘rganuvchi ko‘rsatmalarga bo‘ysunadi, axborotni passiv qabul qiladi; axborotni o‘zlashtiradi; o‘z g‘oyalarini taklif qiladi; faol ishtirok etadi; ta’lim jarayoniga to‘liq mashul bo‘ladi. Pedagog talabaga motivatsiya beradi, qiziqtiradi, nazorat qiladi. O‘qituvchi usullar (metodlar) bilan dars tashkillashtiradi, talaba dalillar asosida bilim oladi, axborot oladi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta’lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta’limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta’limning barcha turlariga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ta’lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta’lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Yangilanayotgan barcha sohalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog‘liqligi, oxirgi to‘rt yilda ta’lim sifatini yaxshilash, o‘qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari, o‘qituvchilarga metodik yordam berish uchun texnologiyalashtirilgan dars ishlanmasi, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ilmiy bilimlarni, amaliy faoliyatlarni tashkil etish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish bugungi kunda dolzarb axamiyatga ega. Pedagogik texnologiya jumlasi o‘qituvchi uchun yangilik emas, lekin pedagogik texnologiya o‘qituvchining ta’lim berish jarayonida erkin faoliyatni namoyon kilish, yuritilgan fikrlarni ishonish-ishontirish asosiga qurish, ishlatish va ulardan foydalanish yo‘llarini anglashdan iborat. O‘qituvchi–trener–fasilitator terminlari bolalarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishdagi registrlardir. Ular muzyorarlar, munozarali guruxlar, juftliklar, turlicha mashqlar, tarqatma materiallar, shakl va ranglar, raqamlar, ijodiy qarashlar, rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, geometrik figuralar, turli yozishmalar, uslublar, rasmlar, chegaralangan daqiqalar, aralash vaziyatlar kabilardan foydalanib, pedagogik jarayonni zeriktirmay hamda zo‘riqtirmay o‘tkazish tarafdorlaridir. Talabalarning

barchasini faollashtirish uchun asosiy fikr yoki guruh tomonidan kelishilgan javoblarni yozib olish uchun–yozib oluvchi, boshqa guruhlarga hisobot berish uchun–sharxlovchi, hammaning kayfiyatiga ijobiy ta’sir etuvchi–ruhlantiruvchi, berilgan vaqtni doimo eslatib turuvchi–vaqt belgilovchi yoki nazorat qiluvchi, ovoz chiqarib o‘qish uchun–talaba, har bir ishtirokchi navbatini, galma-galdan ta’kidlab turuvchi navbat nazoratchisini, guruhdagi har bir ishtirokchini tushunish va fikrlarga qo‘shilishini qo‘llab, ta’minlab boruvchi– tekshiruvchini saylab oladilar. Bu bilan har tomonlama erkinligini tarkib toptirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bu o‘qituvchilarning strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Muammoli ta’lim texnologiyalari ya’ni Case study talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim talabalarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Keys stadining bosh maqsadi – talabalarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o‘quv fanlari boyicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o‘qituvchi talabalarga dars mavzusi bilan bog‘liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo‘lini topishni taklif qiladi;

- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;

- hal etish uchun yetarli bo‘lmagan yoki ortiqcha ma’lumotlar bo‘lgan yoki savolning qoyilishi noto‘g‘ri bo‘lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar. Muammoli vaziyatni hal etish darajalari: -o‘qituvchi muammoni qoyadi va o‘zi yechadi;

-o‘qituvchi muammoni qoyadi va uning yechimini talabalar bilan birgalikda topadi;

-talabalarning o‘zlari muammoni qoyadilar va uning yechimini topadilar. Muammoli vaziyatni yechishda qo‘llaniladigan usullar:

- muammoni turli nuqtai-nazardan o‘rganish, tahlil qilish; - solishtirish, umumlashtirish;

- faktlarni aniqlash va qiyoslash;

- vaziyatga bog‘liq xulosalar chiqarish;

- talabalarning o‘zlari aniq savollar qoyishi va boshqalar.

Muammoli ta’limning asosiy g‘oyasi bilimlarni talabalarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar boyicha o‘quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.

Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda talabalarga hal etish taklif etiladigan muammoga qoyiladigan eng asosiy talab – talabalarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa, talabalarda qiziqish hosil qiladigan bo‘lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko‘zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo‘lmaydi.

Muammo talabalarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo‘lishi shart.

Hosil bo‘lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Talabalarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog‘liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo‘ladi. Bunday tushuna olish esa talabalarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda talaba o‘zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi.

Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo‘lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, tejamliligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, qiyosiyligi, umumlashtirilganligi, xususiylashtirilganligi, kengligi, chuqurligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra talabalarda muammoni sezish, uni aniqlash,

yechimiga doir taxminni to‘g‘ri belgilash va yechimning to‘g‘riligini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to‘g‘ri deb tan olingan sabablar bilan bog‘liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.

2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo‘lishi to‘g‘riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.

3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to‘g‘riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, darslarda talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularda aql sifatlarini, umumiy aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. N. S. Leytesning ko‘rsatishicha, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida aktivlik va o‘z-o‘zini tartibga solishning ayrim shart-sharoitlari yashiringan bo‘lib, bular umumiy aqliy qobiliyatlarni tarkib toptirishning muhim ichki shartlaridan biridir. O‘qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va texnologiyalashtirilgan darslarni olib borish pedagogik mahoratni talab qiladi. Yuqoridagi dars andozasini har bir fan o‘qituvchisi amaliyotga joriy qilsagina mashg‘ulot mazmuni serqirra, talabalardagi zerikish va zo‘riqishlar chekinadi. Bu bilan o‘ziga, maktabiga, hayotiga, kelajagiga bo‘lgan ishonch ortib boradi. O‘z o‘rnini mustaqil topadigan, kasbini sevadigan, kunikma va malakalarini orttirib boradigan kadrlarning milliy tizimi yaratiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuldashev N. A. “Zamonaviy ta’limda interfaol dars”. Toshkent 2008.

2. Baratov M. U “Fanlararo aloqalarini amalga oshirish jarayonini modellashtirish”. Pedagogik ta’lim Toshkent, 2007. №3. –B. 52-54 b.

3. SH. Sharipov – «Talabalarni ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyasi muammolari». «Uzluksiz ta’lim» ilmiy-uslubiy jurnal №5. Toshkent – 2002 yil. 102.

4. O‘. Q. Tolipov, M. Usmonboyeva “Vnedrenie osnovi pedagogicheskix texnologiy” T. : Nauka. 2006. – C. 261 b

5. www.pedagog.uz

6. www.uzedu.uz

TUPROQNING IKKILAMCHI SHO‘RLANISHIGA QARSHI KURASHDA O‘SIMLIK RESURSLARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

O‘.Toshbekov, I.A.Abduraxmanov
q.x.f.n., dotsent, doktorant
Guliston davlat universiteti
toshbekov1953@Gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tuproqning ikkilamchi sho‘rlanishiga qarshi kurashda o‘simlik resurslaridan foydalanish texnologiyasi bo‘yicha Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi “Galaba”CIU da olib borilgan kuzatuv natijalarinii tahlil qilish orqali olingan ma’lumotlar asosida, hudud tuproqlarining meliorativ holatini yaxshilashning nazariy va amaliy jixatlariga bog‘ishlangan. Sug‘oriladigan va ikkilamchi sho‘rlanishga moyil bo‘lgan yerlarning meliorativ xolatini o‘simlik resurslaridan samarali foydalanilgan holda yaxshilash mumkinligi takidlab o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda shirinmiya o‘simligidan formosevtikada foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi va rentabelligini oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘oriladigan maydonlar, meliorativ tadbir, zovur, sizot suvlari, mineralizptsiya, o‘simlik resurslari, shirinmiya o‘simligi

Respublikamiz iqtisodiyotini kelgusida rivojlantirish mamlakat tabiiy boyliklaridan tejamli va oqilona foydalanishga bog‘liq bo‘lib, bu borada suvdan tejamli foydalanish, tuproqning ikkilamchi sho‘rlanishining oldini olish, tuproq unumdorligini oshirish, organik va mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanish kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi taraqqiyot

suratlarining o‘sishi, shuningdek, aholi sonining ortishi, har xil darajada sho‘rlangan va ikkilamchi sho‘rlanishga moil bo‘lgan yerlardan unumli foydalanib yuqori hosil olishni talab etadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ilmiy asoslangan dehqonchilik tizimidan foydalanish juda katta ahamiyatga ega. Chunki mustaqillikga erishganimizdan keyingi yillarda mulkchilikning yangi shakllari vujudga kelishi, dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda shaxsiy tamorqalarning kengaytirilishi, ularda turli qishloq xo‘jalik ekinlarining ekilishi, yangi ekin navlarining kirib kelishi va boshqalar dehqonchilikning shu kunning talabiga javob bera oladigan ilmiy asoslarini ishlab chiqishni talab etadi.

Ko‘pchilik olimlar tomanidan ko‘rsatib o‘tilishicha, sizot suvlari sathining pasayishi va aeratsiya katlamining ko‘payishi hisobiga yerlarning meliorativ xolati yaxshilanadi, tuproq ustki qatlamlarida suvda eruvchan zaxarli tuzlar miqdori kamayadi [1,2,3].

Manbalardan malumki, Markaziy Osiyoda ekin maydonlarining sho‘rlanish darajasi ortishi sababli yiliga 2% gacha yer maydoni qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib ketadi. Buning sababi ortiqcha sug‘oriladigan suv hisobiga sizot suvlarining tuproq yuza qatlamlarida to‘planishi va sathining ko‘tarilishi hamda uning tuproq yuzasidan bug‘lanishi natijasida tuproqning ustki qatlamlarida tuz miqdorining ortishidir. Tuproqning sho‘rlanish darajasi ortishi va olinadigan hosil xarajatni qoplamasligi sababli kuchli sho‘rlangan va sho‘rxok yerlar qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib ketmoqda. Ushbu sho‘rlangan yerlarni qayta tiklash katta texnik kuch va yirik moliyaviy mablag‘ni talab etadi. Hozirda yirik mablag‘ va katta texnik vositalarni talab qilmagan holda, sho‘rlangan yerlarni o‘simlik resurslari yordamida ekologik qayta tiklash hamda ushbu maydonlarda bioxilma-xillikni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

O‘zbekiston sharoitida 4,3 million gektar sug‘oriladigan yer maydoni bo‘lib, shundan 50% yer maydonlari har xil darajada sho‘rlangandir. Shu sababli, ushbu yerlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash uchun ekologik havfsiz resurstejamkor usullar va texnologiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etish zarur. Ko‘pgina davlatlar singari respublikamizda ham tuproqning sho‘rlanishini oldini olish va yer osti sizot suvlari satxini pasaytirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligining yanada rivojlanishiga to‘sqinliq qiladigan omillardan biri tuproqning sho‘rlanganligidir. Katta xajmdagi suv xo‘jalik tadbirlarining amalga oshirilishiga qaramasdan tuproq sho‘rlanishi faollashib kengayib bormoqda. Jumladan Mirzacho‘lning aksariyat maydonlarida qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish noto‘g‘ri amalga oshirilishi va kollektor-zovur tizimlarining yaxshi ishlamaganligi sababli ikkilamchi sho‘rlanish yuzaga kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida paxta, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligining keskin kamayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Respublika paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti mutahasislari tamonidan belgilanishicha, paxta hosildorligi sho‘rlanmagan maydonlarga nisbatan, kam sho‘rlangan tuproqlarda 15-20, o‘rtacha sho‘rlanganda 35-40 va kuchli sho‘rlanganda 70-80 foizgacha kamayadi. Bundan tashqari zaharli tuzlarning ko‘p to‘planishi hosil sifatiga ham salbiy tasir ko‘rsatadi.

Shuning uchun Sirdaryo viloyati sharoitida sug‘oriladigan har xil darajada sho ‘rlangan yerlarning meliorativ holati yaxshilanishini taminlay oladigan to‘g‘ri meliorativ tadbirlarni ishlab chiqish juda zarur bo‘lib qoldi.

Sug‘oriladigan tuproqlar unumdorligi va ekologik-meliorativ xolatini belgilavchi sho‘rlanish xodisasi tuproqda kechadigan jarayonlardan biri hisoblanib, uning tabiiy(birlamchi) va antropogen (ikkilamchi) turlari mavjud. Tabiiy sho‘rlanishni sodir etuvchi asosiy sharoit yer osti(sizot)suvlarining yer yuzasiga yaqin ko‘tarilishi va xududning kuchsiz zovurlashganligi bilan bog‘liq.

Tuproq sho‘rlanishiga qarshi kurash asosan kallektor - zovur tarmoqlaridan foydalanish orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Bu usul qulay bo‘lishi bilan bir qatorda, sharoitga qarab o‘zan tubini loyqalardan tozalash, tamirlash kabi tadbirlarni amalga oshirib turishni talab etadi. Bu o‘z navbatida katta miqdorda mablag‘ talab etadi. Shularni hisobga olgan holda, sizot suvlari sathini pasaytirish va tuproqni ikkilamchi sho‘rlanishining oldini olishda biologik zovurlardan, yani biologik zovur sifatida daraxtlar va ko‘p yillik o‘t o‘simliklaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tuproq sho‘rlanishiga qarshi qo‘llaniladigan yuqori samarali va rentabelli usullardan biri fitomelioratsiya, yani fitomeliorant o‘simliklardan foydalanish bilan bog‘liqdir. Ana shunday o‘simliklardan biri shirinmiya (Glycyrrhiza glabra L.) dir. Shirinmiya Glycyrrhiza glabra L. o‘simligidan faqat yerning unumdorligini oshirish va meliorativ holatini yaxshilashda foydalanish

mumkin bo‘libgina qolmay, u qimmatli dorivor va yuqori sifatli ozuqabop o‘simlik hamdir. Shirinmiyaning ildizpoyasi farmakologiyada qimmatbaho xom ashyo sifatida ahamiyatli bo‘lib, undan tayyorlangan dori moddalar turli xil kasalliklarni davolashda keng qo‘llanilib kelmoqda. Shuningdek, ildizidan ajratib olingan fiziologik faol moddalar asosida yaratilgan stimulyator va fungitsidlar esa qishloq xo‘jaligida foydalanishda ijobiy natijalar olinmoqda.

Shirinmiya o‘simligi, sizot suvlari sathini pasaytirib, tuproqning ikkilamchi sho‘rlanishini kamaytirish va unumdorligini oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan qimmatbaho o‘simlikdir. Bu o‘simlik freotofit bo‘lib, namlikda juda yaxshi o‘sadi. O‘simlik kuchli minerallashgan sizot suvlari va tuproq sharoitida ham yaxshi o‘sadi hamda sizot suvlarini ildizi orqali tortib olib, yer ustki yashil massasi orqali bug‘latib yuborishi hisobiga tuproqning yuza qismiga tuzning ko‘tarilishini kamaytiradi va ikkilamchi sho‘rlanishning oldi olinadi.

Bundan tashqari tashqi bozorda shirinmiyaga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yiliga 30000 tonna shirinmiya ildizining quruq massasi tayyorlanib, shundan 80 foyizi chetga eksport qilinmoqda. shirinmiyaning tabiiy resurslarini qayta tiklash qiyinlashmoqda.

Shu bilan bir qatorda shirinmiyadan sifatli va mutassil yuqori hosil yetishtirish hamda uni parvarish qilish va hosilni yig‘ib-terib olishda yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan, suvdan tejamli foydalanishga imkon beruvchi texnologiyalarni qo‘llash evaziga ijobiy xal etiladi.

Shuning uchun sho‘rlangan tuproqlarda shirinmiyaning optimal parvarishlash texnologiyasini ishlab chiqsh,va uni amaliyotga joriy etish ikki dolzarb masalani: birinchidan, jahon bozori ehtiyoji va talabalaridan kelib chiqqan holda shirinmiya ildizidan mo‘l va sifatli hosil olib respublikamizning eksport qudratini oshirish va ikkinchidan, sho‘rlangan tuproqlarning meliorativ-ekologik holatini yaxshilash, unumdorlikni tiklash va chorva uchun to‘yimli oziqa manbaini yaratish orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi va rentabelligini oshirishni hal etishda muhim hissa bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘.Toshbekov, I. Raxmonov. “Sho‘rlangan tuproqlarda zaharli tuzlar miqdorining o‘zgarishiga shirinmiya o‘simligining ta’siri”, O‘zbekiston Agrar fani xabarnomasi, №6/2(84),.2020, 221-224b.

2.U.Toshbekov, I. Raxmonov, D.Kim, Sh. Botirov “The Influence oftheLicorice Plant ontheChange in the Amount of Toxic Salts in Saline Soils”, 4473-Article Text-8227-1-10-20210502, 12217-1222p.

3.У.Тошбеков, А. Атабеков “Динамика водного и солевого режима серозёмно-луговых почв зоны южного Голодностепского канала”, “Pedagogis” iz awarded by zhe editariat ”, board of she international elektronik jurnal, WWW. Pedagog.UZ. 17.04.2023.

SAYXUNOBOD TUMANI PAXTAKOR SIU TUPROQLAR QOPLAMI VA TAVSIFI

Masharipov Norbek Kenjabayevich, Sangirov Ulug‘bek Abdushukur o‘g‘li
Guliston davlat universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti “Agrotuproqshunoslik va melioratsiya” kafedrasi o‘qituvchisi.
e-mail: norbek2624@mail.ru
Guliston davlat universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti “Agrotuproqshunoslik va melioratsiya” kafedrasi talabasi.

Abstract: In this article, Pakhtakor SIU of the Saikhunabad District spoke about soil cover, soil rebound, salinity level and type, mechanical composition, soil fertility.

Keywords: salt layer, salinity level, mechanical composition, productivity, salinity type

Butun yer fondi 13 400 million gektar (100%) deb qabul qilinadigan bo‘lsa, unda eng katta ulush (25%) osiyoda, eng kichik qismi (6%) avstraliya va okeaniyada bo‘ladi. yaylovlarning eng katta ulushi afrikaga to‘g‘ri keladi (24%).Ekin maydonlari, yer fondining 11%tashkil qiladi lekin, oziq-ovqat mahsulotlarining 88% beradi. Yer fondining 26 foizini egallagan yaylovlar va o‘tloqlar mahsulotning yana 10 foizini beradi.

Bugungi kunda mamlakatlar va mintaqalar yer resurslari, ayniqsa qishloq xo‘jaligi yerlari bilan tengsiz ta’minlangan. Evrosiyo dunyodagi ekin maydonlarining 59%, Shimoliy va Markaziy Amerika

15%, Afrika 15%, Janubiy Amerika 8%, Avstraliya 3% ni tashkil qiladi. dunyo bo‘ylab ekin maydonlarining katta qismi (80%) qurg‘oqchil zonada joylashgan.

Aholining o‘sishi bilan sug‘orish uchun jihozlangan er maydoni ikki baravar ko‘paydi, ya’ni 139 million gektardan 301 million gektargacha va sug‘orish uchun olingan suv miqdori qariyb ikki baravarga ko‘payib, taxminan 1540 dan 2710 km^3 gacha. Shu davrda sug‘oriladigan maydonlarning umumiy ekin maydonlaridagi ulushi 10 foizdan 20 foizgacha o‘sdi. Barcha sug‘oriladigan erlarning 70 foizga yaqini Osiyoda joylashgan bo‘lib, bu erga umumiy ekin maydonlarining 39 foizi to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi.Respublika bo‘yicha karxona, tashkilot, muassasa, fermer xo‘jaligi va fuqoralar foydalanishidagi jami erlar 44892,4 ming gektarni, shundan sug‘oriladigan yerlar esa 4306,6 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,6 foizini tashkil qiladi.

Tadqiqot ishari olib borilgan maydonlarda shu narsa aniqlaqlandki, tuproq qatlamlarida tuzlarning to‘planish jarayoni ularning sho‘rlanganlik darajasi bo‘yicha o‘rin almashmoqda.

Ushbu tuproqlar nafaqat tuzlarni to‘planish qatlami bilan, balki u butun tuproq kesmasi bo‘ylab ham boshqa tuproqlardan farqlanadi. Tekshirish ishlari olib borilgan Sayxunobod tumani sug‘oriladigan bo‘z – o‘tloqi tuproqlarda uch qatlamli tuz to‘planish qonuniyatini ko‘rish mumkin.[1]

Birinchidan, tuzlarni yuqori ko‘rsatkichi tuproq yuqori qatlamidan boshlanishi (1,675 %), ikkinchidan tuzlar miqdorini 70 sm li chuqurlikdan boshlanishi (1,780 %) va uchinchidan tuzli qatlam 100 sm li chuqurlikdan boshlanishi (1,786 %). Bu ko‘rsatkichni shunday izohlash mumkinki, har qaysi qatlamda ham tuzlarni miqdori bir xilda pastga qarab kamayib borib, ma’lum qatlamdan so‘ng uning miqdori ortishi va pastga qarab kamayishi ma’lum bir qonuniyat asosida tuproqning mexanik tarkibiga bog‘liq ravishda sodir bo‘lmoqda. Mexanik tarkib og‘irlashib borishi bilan tuzlarni to‘planishi ko‘payib u engillashgan sari tuzlar to‘planishi kamayib bormoqda[4]. Sho‘rlanish tipi ham sulfatlidan, xloridli-sulfatli, ayrim hollarda sulfatli-xloridli sho‘rlanish tipiga o‘tib turadi. Shuni alohida takidlash lozimki, tuman bo‘yicha sho‘rlangan tuproq maydoni faqat bir darajadan ikkinchi darajaga, ya’ni o‘rtacha va kuchli sho‘rlangan hududlar maydoni kamayib, uning o‘rniga kuchsiz sho‘rlangan hududlar miqdori ortib bormoqda. Ularni sho‘rlangan tuproqlarga aylantirish esa bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. [2]

Kuzatirish ishlari olib borilgan tuproqlarda yerning yuza qismidan boshlab sho‘rlanishga uchragan maydonlarda suvda eruvchi tuzlarning miqdori tuproqning yuqori qatlamida 1,56 – 1,67% ni tashkil qilib, pastki 30-60 sm li qatlamga tushganda bu ko‘rsatkich 1,0 – 1,1% ga qadar kamayadi. Keyingi quyi qatlamlarda esa uning miqdorini yanada oshganligini ko‘rish mumkin. Tuproq qatlamlarida suvda eruvchi tuzlarning bunday ko‘rsatkichga ega bo‘lishiga sabab, birinchidan joylardagi tuproqlarni turli xil geomorfologik sharoitda hosil bo‘lganligi bo‘lsa, ikkinchidan sizot suvlarining yer yuzasiga yaqinlashib kelishi va nihoyat sug‘orish me’yorlari va zovurlar tizimiga bog‘liqligidadir.

Ushbu olingan va to‘plangan ma’lumotlarini tahlil qilib quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1.Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani tuproq –iqlim sharoitiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi ekinlarining barcha turlarini ekib etishtirish mumkin. Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan g‘o‘za, bug‘doy, arpa, kungaboqar va poliz ekinlari yetishtirish uchun juda qulay. Turoqning kelib chiqishi va havo haroratining optimal darajasiga ko‘ra g‘o‘zani aprel oyining 10-20 sanalari orolig‘ida, ertagi poliz ekinlarini 15-25 sanalarda ekish ma’qbul hisoblanadi.

2. Sayxunobod tumani 65-70 yillarda o‘zlashtirilgan hududlaridan bir hisoblanadi, sug‘orma dehqonchilikning davomiyligi natijasida sizot suvlarining ko‘tarilishi tufayli qo‘riq och tusli bo‘z tuproqlardan o‘tuvchi yarim gidromorf sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlar paydo bo‘lgan. Hududda keng tarqalgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda chiririndili qatlam qalinligi 31-45 sm oralig‘ida tebranib turadi.CHirindining miqdori haydov qatlamda 0,8-1,2% atrofida, haydov osti qatlamlarida uning miqdori 0,5-0,8% dan oshmaydi. Agroirigatsion qatlam qalinligi 40-50sm qalinlikda, ular bir xil rang va bir xil mexanik tarkibga ega, quyi qatlamlar turli mexanik tarkibli qatlamlardan tashkil

topganligi bilan xarakterlanadi. O‘rganilgan hududda asosan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlar keng tarqalgan.

3. Yer osti sizot suvlarining sathi kritik chuqurlikka yaqinlashsa yoki undan ortsa, tuproq qatlamlarida tuz to‘planish jarayoni tezlashib, tuproqlar sho‘rlangan erlarga aylanadi va unumdorligi pasayadi.

4. O‘rganilgan hudud tuproqlari sug‘orish ta’sirida turli darajadagi unumdorlik va sho‘rlanish hususiyatiga ega bo‘lib, buning asosiy sabablari tuproq hosil bo‘lish jarayoni va sug‘orish tizimlariga to‘liq rioya qilmaslik, er osti sizot suvlarining sathi va minerallashganlik darajasini hisobga olinmasligi tufayli sodir bo‘lmoqda deb qarash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev S.A., Parpiyev G‘.T., Axmedov A.U. Mirzacho‘lning eskidan sug‘oriladigan tuproqlarining sho‘rlanganlik holati va uni baholash // O‘zMU Xabarlari.. - Toshkent, 2011. - №2. - B. 139-142.

2. Axmedov J., Mirzajonov Q., Azimboyev S., Isayev S. Tuproq melioratsiyasi – mo‘l va sifatli hosil garovi // «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi» jurnali. - Toshkent, 2009. - №2.-Б. 6-7.

3. Sagdullayev O., Parpiyev G‘., Qilicheva N., Umarov M., “Masharipov N. Markaziy osiyo xududlarida sug‘orma dehqonchilikning rivojlanish tarixiga oid qisqacha ma’lumot” //Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda degradatsiyaga uchragan tuproqlarining integrallashgan boshqaruvi va melioratsiyasi: yangi yondashuvlar va innovatsion yechimlar// xalqaro konferensiya materiallar to‘plami.Toshkent 2023.

4. I.U.Urazbayev., N.K.Masharipov “Fundamental Scale of Evaluation of Productivity of Irrigated Gray-Meadow Soils which are Appointed for Growing Melon Crops.” Alinteri J.of Agr. Sci. (2021) 36 (1): 257-259

QISHLOQ XO‘JALIGIDA LIZING VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH

Mirsharipova G.K.
Guliston davlat universiteti
q.f.n., dotsent

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda lizingning o‘rni bugungi kunda juda katta ahamiyatga ega.

Lizing - bu qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va qishloq korxonalarini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynashi mumkin bo‘lgan moliyaviy vositadir.

Qishloq xo‘jaligidagi asosiy muammolardan biri bu zamonaviy texnologiya va uskunalardan foydalanishdir. Ko‘pgina qishloq xo‘jaligi korxonalari budjet cheklovlari tufayli qimmat uskunalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olishga qodir emaslar. Bu yerda lizing yordam berishi mumkin.

Lizing asbob-uskunalarni ma’lum muddatga ijaraga olish imkoniyatini, lizing muddati tugagandan so‘ng uni qaytarib sotib olish imkoniyatini beradi. Bu qishloq korxonalariga bir vaqtning o‘zida to‘liq xarid qilmasdan, zamonaviy texnologiya va uskunalardan foydalanish imkonini beradi.

Lizing haqidagi ilk tushunchalar uzoq o‘tmishga, ya’ni Arastu (Aristotel) (eramizdan avvalgi 384/383 - 322 yy.) davriga borib taqaladi. Arastu (Aristotel) "Boylik egalik huquqida emas, balki foydalanish huquqidadur "[115] deydi [1].

Boshqa so‘z bilan aytganda, daromad olish uchun biron bir uskunaga egalik qilish shart emas, shunchaki shu uskunadan foydalanish huquqiga ega bo‘lib va shu orqali daromad olish mumkin.

Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi uchun lizingning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Tejamkorlik: Qishloq xo‘jaligi biznesida uskunani to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olish o‘rniga, uni arzonroq narxda ijaraga olishi mumkin. Bu sizga kapitalni tejash va boshqa rivojlanish maqsadlarida foydalanish imkonini beradi.

2. Texnik yangilash: lizing tufayli qishloq korxonalari eng zamonaviy texnologiya va uskunalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

[115] https://uz.wikipedia.org/wiki/Arastu.

3. Moslashuvchanlik: lizing turli to‘lov imkoniyatlari va ijara shartlarini o‘z ichiga olgan moslashuvchan ijara shartlarini taqdim etadi. Bu qishloq xo‘jaligi korxonalariga o‘ziga xos ehtiyojlarini inobatga olgan holda eng qulay sharoitlarni tanlash imkonini beradi.

4. Yetkazib beruvchidan yordam: ko‘pgina lizing kompaniyalari texnik xizmat ko‘rsatish va jihozlarni ta’mirlash kabi qo‘shimcha xizmatlarni taqdim etadi. Bu qishloq xo‘jaligiga operatsion xarajatlarni kamaytirish va uskunalar ishonchliligini ta’minlashga yordam beradi.

Binobarin, lizing qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bu qishloq xo‘jaligi korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, sifatini yaxshilash, aholining sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda havo haroratining 2000-2009 yillarga nisbatan 30 yillik taqqoslashga asosan qurg‘oqchilik va qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish uchun suv yetishmasligini prognoz qilinishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligi 25-63% ga kamayishini bildiradi.

Yuqoridagidan kelib chiqgan holda, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda eng muhim omillardan biri hisoblangan suvdan oqilona foydalanish va uning har bir tomchisidan unumli foydalanishda lizing hisobiga olingan texnikalar va mahsulotlar ancha samarali foyda beradi.

Sh.M. Mirziyoyev 2023 yil 29-mart kuni “Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi[116] [2].

Davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistonda 2023-2024- yillarda qishloq xo‘jaligi texnikasi xaridini moliyalashtirish uchun jami 2.6 trln so‘m yo‘naltiriladi, shundan:

• 800 milliard so‘m (70 million AQSH dollari) — xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligi texnikalarini xarid qilish uchun lizing tashkilotlariga joylashtirish hisobiga to‘g‘ri keladi.

Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотига (infografika) кўра (1-rasm) qishloq xo‘jaligidagi o‘sish darajasiga davlatimiz tominidan qaratilayotgan e’tibor orqali joriy yilning 6 oylik davrida o‘sish suratlarini ko‘rishimiz mumkin[117] [3].

Qishloq xo‘jaligi texnik holatini zamonaviy yangi texnikalar bilan taminlab borish orqali keying davrlarda ham juda yuqori kam xarajatli va yuqori hosildorlikga erishish mumkinligini ko‘rishimiz mumkin.

1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги ўсиш даражаси (2023 йил январь-июль)

[116] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 martdagi “Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103–sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6418741.

[117] Добровольный национальный обзор о реализации национальных целей и задач устойчивоги развития узбекистана до 2030 года mchj (второй). https://api.mf.uz/media/document_files/02_05_2023ru.pdf

Bunda:

- xizmat ko‘rsatadigan tijorat banklari tomonidan lizing tashkilotlariga kredit ajratilishida garov ta’minoti sifatida lizingga beriladigan texnikalar va sug‘urta polisi qabul qilinishi mumkin;
- xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan haridorlarga qishloq xo‘jaligi texnikalari lizing marjasi yillik 3 foizdan oshmagan stavkada 10 yilgacha bo‘lgan muddatga Qishloq xo‘jaligi vazirligi buyurtmasi asosida lizingga beriladi.

Tijorat banklariga lizing kompaniyalariga qishloq xo‘jaligi texnikalarini yetkazib berish uchun qarz mablag‘larini garov ta’minoti sifatida sotib olinadigan qishloq xo‘jaligi texnikasini, kreditning butun davri uchun qarz mablag‘larini qaytarmaslik xatarlaridan 100 foiz garov sifatida sug‘urta polisini yoki uchinchi shaxslarning kafilligini qabul qilish orqali ajratish tavsiya etiladi.

Shuningdek, lizing hisobiga sotib olingan qishloq xo‘jalik texnikalarini arzon narxlarda sug‘urtalash yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytganda lizing shartnomasini O‘zbekiston qonunchiligi va budjet kodeksi bilan mustahkamlab qo‘yilgani, bizning fermer va tadbirkorlarimizga hech qanday xavotirsiz yangi innovatsion texnologiyalarni jalb qilishlariga yo‘l ochib bermoqda.

Adabiyotlar:

1.https://uz.wikipedia.org/wiki/Arastu

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 29 martdagi “Agrar sektorni zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103–sonli qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6418741.

3. Добровольный национальный обзор о реализации национальных целей и задач устойчивоги развития Узбекистана до 2030 года mchj (второй). https://api.mf.uz/media/document_files/02_05_2023ru.pdf

TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA SIDERAT EKINLARNING AHAMIYATI

Musurmanova Mohinur Murot qizi
Guliston davlat universiteti
Tuproqshunoslik kafedrasi tayanch doktaranti

***Abstract**: This article discusses methods for growing green manure crops to increase soil fertility and enrich the arable layer with these crops with necessary elements and even improve the composition and structure of the soil, as well as ideas about the catalysis of microbiological processes in the soil.*

***Keywords**.Siderate oat, lupine, rye, white mustard, bersim, phacelia, plum, rapeseed, beans, vetch, green fertilizer.*

Sideratlar tuproq unumdorligini oshirish maqsadida ko‘kligida tuproqqa qo‘shib haydab yuboriladigan o‘simliklar massasi. Ko‘kat o‘g‘it maqsadlarida dukkaklilardan mosh, ko‘k no‘xat, lyupin, soya, loviya, vika, shabdor, bersim, karamgullilardan xantal, raps va boshqalardan foydalaniladi. Bu ekinlar mustaqil (shudgor qilinadigan dalaga) yoki oraliq ekin sifatida (alohida dalani band qilmay) kuzda ekiladi, ko‘klamda asosiy ekin ekilishi oldidan (mart-may oylarida) tuproqqa ko‘shib haydab yuboriladi.Ko‘kat o‘g‘it tuproqning fizik xossalarini yaxshilaydi, uni organik modda va azotga boyitadi. Almashlab ekishda go‘ng va mineral o‘g‘itlar bilan qo‘shib qo‘llanilganda samaradorligi yanada ortadi.

Sideratlarning qiymatini va afzalliklarini to‘liq baholash uchun avval ushbu hodisaning nima ekanligini ko‘rib chiqaylik. Yashil go‘ng, asosiy hosilni ekishdan oldin ekilgan yashil ekinlardir. Bu tuproqni turli zarur elementlar bilan boyitish uchun amalga oshiriladi.Ekin ekilgan ekin miqdori tuproqni qashshoqlashtiradi, undagi oziqa moddalarini kamaytiradi va kelajakda hosilni pasaytiradi. Shunday qilib, tuproq o‘z xususiyatlarini yo‘qotmaydi va boy foydali elementlarga ega bo‘lib, sideratlar qo‘llaniladi ular chirindilarning yuqori qatlamini boyitadi va hatto yerning tarkibi va tuzilishini yaxshilaydi.

Bunday o‘simliklarning qiymati:

- kam parvarish qilish va sovuq qarshilik - ular erta bahorda va kech kuzda ekilgan bo‘lishi mumkin;

- tuproqni yuqori sifatli boyitish - sideratlarning qiymati ba’zan go‘ng yoki gumusdan oshadi;
- tuproq kislotasining pasayishi;
- begona o‘tlarni himoya qilish;
- tuproqdagi mikrobiologik jarayonlarning katalizatsiyasi;
- kelajakdagi ekinlarni zararkunandalar va ayrim hashoratlardan himoya qilish;
- eroziyadan keyin erni tiklash va qayta tiklash.

Sideratlardan yulaf, lupin, javdar, oq xantal, phacelia va boshqa o‘simliklar mavjud. Bu ekinlarning oddiyligi tufayli ularning ekish vaqti ma’lum bir oyga bog‘liq emas - bu o‘simliklar past haroratlarga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, bu sideratlarning barchasi tabiatda keng tarqalgan emas: ba’zilari ma’lum bir hosilning ma’lum bir hosili oldidan ekish uchun mo‘ljallangan. Bu sideratlar orasida phacelia hali ham zamonaviy agronomiyada eng mashhur va eng ko‘p ishlatiladigan sideratlardan biri bo‘lib qolmoqda.Bu o‘simlikning ajoyib sifati barcha ekinlar uchun siderat sifatida foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi. Dukkaklilar uchun bu parvarishlashda yaxshilanish sifatida ishlatiladi - dukkakli gullar kechiktiriladi va phacelia gullarning yorqin hididan juda ko‘p hasharotlar jalb qiladi. Odatda, phacelia ekiladi Yiliga 2 marotaba - erta bahorda va kuzda, hosildan so‘ng. Tuproqning kuchli zichligi bilan hodisa miqdori 4 barobarga ko‘payadi. Bahor ekish joriy hosilni olishdan oldin darhol tuproqni boyitish uchun ishlatiladi, lekin kuzda ekish kuzda tuproqni quritish yoki ortiqcha muzlatishning oldini oladi.Bahor oylarida, bu siderat harorat 0 ° C dan past bo‘lsa ham, birinchi qor tushganidan keyin ekilgan. Bu ekin o‘sadi va juda tez pishib etiladi - shuning uchun asosiy o‘simliklar ekilganidan taxminan 2 hafta oldin hosil bo‘ladi.Asal changlatgichlarini jalb qilish uchun siderat kechki bahorda yoki yozning boshida ekiladi. Bu holda, u asosiy o‘simliklarning yotoqlari orasida ekilgan.

Fitosanitariya xususiyatlari - tuproqni yaxshilash. Boshqa madaniyatlarga xosligi va xilma-xilligi sababli, phacelia barcha zararkunandalarni chiqarib tashlashi mumkin - barcha parazitlarni yo‘q qiladigan entomofaglarni jalb qilish orqali. O‘simlik chigirtkalar, maysalar, tvetoedalar va nematodlardan qutulish mumkin. Bundan tashqari, sanitarizatsiya samarasiga chirish, kuchli meva va quritilgan o‘simliklarning qurishi oldini olish yo‘li bilan erishiladi (shuning uchun, phacelia ko‘pincha kartoshka uchun o‘g‘it sifatida ishlatiladi).Asalarni jalb qilish - phacelia ajoyib asal o‘simlikdir. Zavodning katta gullari har 5 kunda ekilganidan keyin gullaydi va har 2 kunda gullaydi. Gullarning hidi va aromati ko‘plab asalarilarni, yulka daraxtlarini o‘ziga tortadi - shuning uchun bu o‘simlik asalarichilar uchun ham ajralmas hisoblanadi. Tuproqni boyitish. Phacelia shunchalik oddiy emaski, u hatto toshloq tuproqlarda ham, gilda ham, botqoqlangan va haddan tashqari ko‘payishi mumkin. Shuning uchun, bunday yashil gurzini ekib, eng kambag‘al va eng yaroqsiz tuproqlarda hosilni olishingiz mumkin. Biroq, er juda kambag‘al bo‘lsa - yashil go‘ngning bitta qo‘nishi etarli bo‘lmasligi mumkin. Bu holda mavsum davomida phakeliya ekish kerak bo‘ladi. O‘g‘it sifatida oq xantal ko‘pchilik bog‘bonlar va bog‘bonlarga yoqadi, chunki u noqulay ob-havo sharoitlariga qaramay, juda tez o‘sadi va yashil massa hajmini oshiradi. Bu o‘simlikning urug‘lari +1 ... +2 ° C haroratda unib chiqishga qodir va haroratning -4 ... - 5 ° C gacha pasayishiga juda xotirjamlik bilan toqat qiladi. Bularning barchasi sizga xantalni ekishga imkon beradi. Bog‘ mavsumi: apreldan sentyabr oyining oxirigacha.Yuqorida aytib o‘tilganidek, oq xantal tezda yashil massa hosil qiladi, bu juda boy minerallar va mikroelementlar. U azot, kaliy va fosforni o‘z ichiga oladi. Ammo shuni esda tutish kerakki, faqat kurtak qo‘ygan yoki gullashni boshlagan o‘simliklar tuproqni azot bilan boyitishi mumkin.Xantal har yuz kvadrat metrga 400 kg yashil massa o‘sishi mumkin, bu taxminan 300 kg go‘ngni kiritishga to‘g‘ri keladi.Yaxshi rivojlangan va chuqur ildiz tizimi xantal tuproqning havo o‘tkazuvchanligini, porozligini va tuzilishini tiklaydi, shu bilan suv o‘tkazuvchanligi va namlik qobiliyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, oq xantalning ildizlari turli xil patogenlar va nematodlarning hayotiy faoliyatini bostiradigan maxsus moddalar - fitohormonlarni chiqaradi, buning natijasida tuproq dezinfektsiyalanadi.Qazib olingan yashil massa va ildiz qoldiqlari tuproqda yashovchi, vermikompost ishlab chiqaradigan va chiqaradigan turli organizmlar uchun oziq-ovqat hisoblanadi. karbonat angidrid o‘simliklarning oziqlanishi uchun zarur.

Javdar - g‘alladoshlar oilasiga mansub bir yillik va ko‘p yillik o‘simliklari. Ushbu mahsulotni o‘g‘it sifatida ishlatishingizga imkon beruvchi bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan, o‘g‘it sifatida javdar tuproqni kaliy bilan oziqlantiradi va ildiz tizimi bir yarim metrgacha cho‘zilib, tuproq tarkibini, namlik va havo almashinuvini yaxshilaydi va eroziyaning shakllanishiga qarshi himoya qiladi.Javdar

tez yashil massasini oshiradi, u yaxshi rivojlanadi, oddiy, sovuqqa chidamli o‘simlikdir (qishki ekinlar -25 ° C ga qadar). Qor toshi ostida qishlaydi va bahorda qor erishi bilan darhol o‘stirilishi uchun kuzda javdari ekishga qulay.O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarda kuzda 4-6 sm chuqurlikda ekiladi.Ba’zi joylarda javdarni oraliq ekin tariqasida ko‘katini mollarga berish uchun ham ekiladi.

Lyupin – dukkakdoshlar oilasiga mansub manzarali o‘simlik. Eng yaxshi yashil o‘g‘itlardan biri hisoblanadi.Kishilar qadimdan lyupindan foydalanib keladilar.Dastlabki davrda lyupin ovqatga ishlatiladigan va mollarga beriladigan doni uchun ekilgan.Keyinchalik undan kokat ogit tarzida foydalanilgan.Bir yillik lyupin kokat uchun oddiy qatorlab,urug olish uchun keng qatorlab ekiladi.Hosildorligi kokpoya boyicha 100-120 t/ga ,doni boyicha 34-35 s/ga.

Xulosa

Ko‘kat o‘g‘it, siderat tuproq unumdorligini oshirish maqsadida ko‘kligida tuproqqa qo‘shib haydab yuboriladigan o‘simliklar massasi. Ko‘kat o‘g‘it maqsadlarida dukkaklilardan mosh, ko‘k no‘xat, lyupin, soya, loviya, vika, shabdor, bersim, karamgullilardan xantal, raps va boshqalardan foydalaniladi. Bu ekinlar mustaqil (shudgor qilinadigan dalaga) yoki oraliq ekin sifatida (alohida dalani band qilmay) ko‘zda ekiladi, ko‘klamda asosiy ekin ekilishi oldidan (mart-may oylarida) tuproqqa qo‘shib haydab yuboriladi.Ko‘kat o‘g‘it tuproqning fizik xossalarini yaxshilaydi, uni organik modda va azotga boyitadi. Almashlab ekishda go‘ng va mineral o‘g‘itlar bilan qo‘shib qo‘llanilganda samaradorligi yanada ortadi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Atabayeva X.N. “Donli ekinlar biologiyasi “ 2003-y
2 D.T Jumanov “Organik dexqonchilik” T-2022
3 Z.A. Artukmetov H.SH . Sheraliyev “Ekinlarn sug‘orish asoslari” o‘quv qo‘llanma T-2007 y

SIRDARYO TUMANI BO‘Z-O‘TLOQI TUPROQLARINING AGROFIZIKAVIY XOSSALARI

A.A.Musurmanov, D.J.Mamaraimov, S.D.Qurbonova
Guliston davlat universiteti, Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasi dotsenti, q/x.f.f.d (PhD)
Guliston davlat universiteti, 2-bosqich tayanch doktoranti
Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Markaziy Osiyo yerlarini o’zlashtirish tarixiga nazar tashlasak, sug’orma dehqonchilik qadimdan boshlanganligiga guvoh bo’lamiz. Mirzacho’l yerlarini sug’orishga bo’lgan dastlabki harakatlar XX asrning boshlariga, ya’ni cho’l yerlariga suv keltirgan eng qadimiy kanal “Eskituyatortar” orqali amalga oshirilgan. Olimlarning ta’kidlashicha, bu kanal Zarafshon daryosi suvini Ilono’tdi daryosi orqali Sangzorga quygan va Mirzacho’lning janubiy-g’arbiy chekkasidagi Jizzax vohasi yerlarini sug’organ.

M.U.Umarov Mirzacho’lning sug’oriladigan va o’zlashtirishga mo’ljallangan tuproqlari asosiy fizik xossalarini batafsil tavsif qilgan, sug’orish ta’sirida tuproqni fizik xossalarining o’zgarishlari aniqlagan. Mirzacho’l yerlarini o’zlashtirish va undan foydalanish maqsadida kerakli agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqishda hudud tuproqlari uchun aniqlangan suv-fizik xossalarining asosiy konstantalari (ko’rsatkichlari) ni o’z ishlarida bayon qilgan [1; 2; 3; 4; 5].

R.Qurvontoev va boshqalar o’zlarining ko’p yillik ilmiy tadqiqotlarida Mirzacho’l vohasining tuproqlari asosan turli darajada sho’rlanganligi natijasida, uning ekologik, agrofizikaviy xossalariga salbiy ta’sir qilishini tadqiqotlar natijasida aniqlagan. Ayniqsa, sug’orishning rivojlanishi sababli bu yerlarning sho’rlanish darajasi ortib borishi natijada tuproq donodorligi (strukturasi) yo’qolishi, bu esa o’z navbatida tuproq agrofizikaviy xossalarini ayniqsa uning zichligini yomonlashishiga olib kelishini ta’kidlaydilar [2; 3; 4].

Sirdaryo viloyatiga Sirdaryo tumanida tajriba maydonining sug’oriladigan bo’z-o’tloqi tuproqlarining mexanik tarkibi o’rta qumoqli, fizik loyning miqdori yuqori qatlamda 44,5%, pastga qarab 36,1 dan 31,7 % gacha kamayadi (1-jadval).

1-jadval

Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning mexanik tarkibi, %

Qatlam chuqurligi, sm	Zarrachalar, mm							
	>0,25	0,25-0,1	0,1-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	<0,001	<0,01
0-32	0,6	0,9	7,1	46,9	11,7	17,2	15,6	44,5
32-62	0,4	0,6	9,5	53,5	11,9	15,3	8,9	36,1
62-94	1,8	2,8	6,9	50,5	12,1	15,4	10,5	38,0
94-135	1,3	2,8	3,8	60,6	13,8	4,9	13,0	31,7

Yirik chang zarrachalari haydov qatlamida -44,0%, quyi qatlamlarda uning miqdori 50,5-60,6%. Hamma zarrachalarga nisbatan yirik chang miqdori eng ko’p miqdorni tashkil etdi (1-jadval).

Agronomik baholash uchun mikroagregatlar bo’lishi va tavsifi katta ahamiyatga ega. Mikroagregatlar qattiqligi, ularning suvni yuvish ta’siriga qarshiligini ayniqsa pastki qatlamlarda oshadi.

Bo’z-o’tloqi tuproqlarning yirik chang fraktsiyalar miqdori eng ko’p qismini haydalma qatlamda 55,2-65,4% ni tashkil etadi, eng kam miqdor esa haydalma ostki qatlamida, ishlov texnikalarini ta’sirida birmuncha parchalanganligi ko’rsatadi. Yirik chang fraktsiyalarida agregatlar hosil bo’lish jarayoni kuchli ketishini ko’rsatadi. (2-jadval).

2-jadval.

Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning mikroagregat tarkibi,%

Qatlam chuqurligi, sm	Zarrachalar, мм							
	>0,25	0,25-0,1	0,1-0,05	0,05-0,01	0,01-0,005	0,005-0,001	<0,001	0,01
0-32	0,6	0,8	11,0	65,4	15,9	14,3	2,0	22,2
32-62	1,0	2,0	22,4	55,2	7,9	9,5	2,2	19,5
62-94	0,4	0,6	9,0	62,0	8,8	14,5	4,5	28,0
94-135	1,7	2,9	11,3	58,4	10,3	13,6	3,0	26,9

Sug’oriladigan bo’z-o’tloqi tuproqlarning solishtirma og’irligi (SO) yuqori qatlamda birmuncha past 2,62 g sm3, pastga qarab oshib boradi 2,64-2,66 g sm3 (3-jadval).

Sug’oriladigan bo’z-o’tloqi tuproqlarning hajm og’irligi 1,29-1,36 g sm3 ni tashkil etdi. Bu albatta gidromorfizmning ta’siridir. Umumiy g’ovakligi (UG’) miqdori 51-49% ni tashkil etadi. Maksimal gigroskopiklik namligi birmuncha yuqori, chunki uning tarkibida suvda eruvchi tuzlar miqdori nisbatan ko’pligi sababli.

Sug’oriladigan bo’z-o’tloqi tuproqlarning dala nam sig’imi 1 m dan chuqur ya’ni sizot suviga yaqin chuqurligida uning ko’rsatkichi kapillyar nam sig’imiga yaqin. Kapillyar nam sig’imi va to’liq nam sig’imi miqdorlari kesma bo’yicha bir tekisda qariyb bir xil ko’rsatkichga ega (3-jadval).

3-jadval.

Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning umumiy fizikaviy va suv-fizikaviy xossalari

Qatlam chuqurligi, sm	SO, g / sm^3	HO, g / sm^3	UG‘, %	MG, %	DNS, %	KNS, %	TNS, %	Suvga chidamli agregatlar		
								>1	1-0,25	>0,25
0-32	2,62	1,29	51	5,8	20,9	36,0	40,1	0,65	2,46	3,11
32-62	2,64	1,31	51	5,2	19,8	34,1	39,3	0,68	2,58	3,26
62-94	2,65	1,35	50	4,93	20,1	30,6	35,8	0,62	2,50	3,12
94-135	2,66	1,36	49	4,55	30,9	34,0	38,6	0,80	2,55	3,35

Suvga chidamli makroagregatlar miqdori sug’oriladigan bo’z-o’tloqi tuproqlarda 3,11 dan 3,35% gacha o’zgarib boradi.

Umuman olganda hozirgi kunga kelib dunyo bo’yicha iqlim o’zgarishi, suv resurslarining taqchilligi, haroratning yozgi kunlarda haddan tashqari yuqori bo’lishi, yangi texnologiyalarni qo’llashni taqozo etadi. Bu texnologiyalarga tomchilatib sug’orish, organik o’g’itlardan samarali foydalanish, qishloq xo’jalik ekinlari maydonlarida resurstejamkor texnologiyalar, kam ishlov berish va mulchalashni qo’llash kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Kovda V.A. Proisxojdeniye i rejim zasolennых pochv. -M.,-L.: Izd-vo An SSSR, 1946-1947. -T. 1-2.
2. Kurvantayev R. Optimizatsiya i regulirovaniye agrofizicheskogo sostoyaniya oroshayemых pochv pustыnnoy zonы Uzbekistana: Avtoref.diss.dok.s.x.nauk. -Tashkent. 2000. 45 s.
3. Musurmanov A.A., Qurvontoyev R. Mirzacho‘l vohasi sug‘oriladigan tuproqlarining umumiy fizikaviy xossalariga mulchalash va kam ishlov berishning ta’siri. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi”, Toshkent, 2018, №1 (71), 2018.
4. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining sug‘oriladigan tuproqlari / -Toshkent: O‘zRFA “Fan”, 2005. 266 b.
5. Umarov M.U., Ikramov J. Izucheniye i sozdaniye optimalьnых fizicheskix svoystv pochvы v selyax intensifikatsii xlopkovodstva. «Fan»,-Tashkent, 1979, -C. 15-81.

SARDOBA TUMANI SUG‘ORILADIGAN BO‘Z-O‘TLOQI TUPROQLARI SHAROITIDA BUG‘DOY YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA OSHIRISH

Obloqulov Muzaffar Rahmonqul o‘g‘li
Guliston davlat universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti “Agrotuproqshunoslik melioratsiya” kafedrasi o‘qituvchisi
muzaffarobloqulov21@gmail.com

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda sug‘oriladigan tuproqlaridan samarali foydalanishda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali ilmiy asoslangan dehqonchilikni rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada tuproqning fizikaviy, kimyoviy xossalarini maqbullashtirish, unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jalik ekinlaridan olinadigan hosildorlikni oshishiga erishilmoqda. Lekin, sug‘oriladigan tuproqlarda resurstejamkor texnologiyalar, ya’ni mulchalash bilan kam ishlov berish texnologiyasini birgalikda qo‘llash orqali bug‘doy yetishtirishning samaradorligi bo‘yicha o‘tkaziladigan tadqiqotlarga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida «...qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarini, eng avvalo, suv va resurs tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarini joriy etish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu sababli sug‘oriladigan tuproqlarda resurstejamkor texnologiyalar-mulchalash va kam ishlov berishni qo‘llash orqali sarf qilinadigan harajatlarni tejash, tuproq haydov qatlami zichligini kamaytirish, tuproq agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalarini maqbullashtirish, unumdorligini saqlash va oshirish, suvni tejash, o‘g‘itlar samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlari o‘sishini, rivojlanish va hosildorligini oshirish, ekologik sof mahsulot olish muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Tajriba ob’ekti qilib, eskidan sug‘orib kelinayotgan tipik bo‘z tuproqlar, qattiq bug‘doyning Istiqlol va Makuz-3 navlari va har xil 01 oktabr, 20 oktyabr, 01 noyabr, 20 noyabr ekish muddatlari olindi.

Dala tajribalari har bir navda 5 ta variantda va 4ta takrorlanishda olib borildi. Har bir tajriba variantining hisobga olinadigan kattaligi 50 m^2 ga teng bo‘lib, ikki yarusda joylashtirildi.

Tajribada o‘tkazilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik o‘lchovlar har bir variant va takrorlanishda belgilab qo‘yilgan (0.5m^2) model o‘simliklarda qishloq xo‘jalik ekinlari nav sinash davlat inspeksiyasining uslubi bo‘yicha o‘tkazildi (Toshkent, 1971).

Bug‘doyning o‘tmishdosh ekini sifatida makkajo‘xori don silos uchun o‘stirilgan maydonlar tanlab olindi.

1-jadval

Tajriba tizimi

Navlar	Ekish muddatlari

Istiqlol	01.10 20.10 01.11 20.11
Makuz-3	01.10 20.10 01.11 20.11

Tajribalarda o‘simlik parvarishi mazkur mintaqa uchun qabul qilingan texnologik jarayonlar asosida bajarildi.

Kuzda ekilgan bug‘doy o‘suv davrida, tuproq namligi dala nam sig‘imining 70 % dan kam bo‘lmagan holda ushlandi. Buning uchun ekishdan oldin gektariga 1200 m^3 me’yorda nam to‘playdigan va o‘suv davrida gektariga 700 m^3 me’yorlarda atmosfera yog‘ingarchiliklarini hisobga olgan holda 3-4 marta sug‘orishlar o‘tkazildi.

Tajribalarda $N_{180}P_{90}K_{60}$ kg/ga hisobida mineral o‘g‘itlar solindi. Fosforli va kaliyli o‘g‘itlar erni haydashdan oldin to‘liq me’yorda, azotli o‘g‘itlar esa yillik me’yorining 30 kg ekishdan oldidan, 75 kg erta bahorda va qolgan qismi naychalash fazasida berildi.

Laboratoriya izlanishlari natijalariga ko‘ra bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning suv-fizikaviy xossalari ularning kimyoviy tarkibi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ayniqsa gumus miqdoriga ta’sir etadi. Gumus miqdori tajriba maydoni tuproqlarida haydov qatlami va haydov osti qatlamlarida baland emas 0,96-0,66%, umumiy azot miqdori birmuncha ko‘p 0,087-0,062%. Umumiy fosfor haydov qatlamida 0,290% ga teng. Harakatchan fosforning miqdori 10,5-15,6 mg/kg ni tashkil etadi (2-jadval).

2-jadval

Tajriba maydoni sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarining agrokimyoviy tarkibi

Qatlam chuqurligi, sm	Gumus, %	Yalpi azot, %	Fosfor		Kaliy		Gips, ($CaSO_4$ x $2H_2O$), %	CO_2 Karbonatlar, %
			yalpi, %	Harakatchan, mg/ekv	yalpi, %	almashinuvchi, mg/kg		
0-30	0,96	0,087	0,290	10,47	1,00	310	0,262	9,24
30-74	0,66	0,062	0,267	15,60	1,37	290	0,388	9,72
74-98	0,48	0,050	0,267	10,80	1,25	200	1,548	9,33
98-175	0,41	0,042	0,042	12,13	1,12	94	2,915	9,42

Umumiy kaliy miqdori haydov qatlami va haydov osti qatlamida umuman kesmasi bo‘yicha kam 1,0 dan 1,37% gacha. Harakatchan kaliy bilan o‘rtacha ta’minlangan (290-310 mg/kg).

Tuproq kesmasi bo‘yicha CO_2 karbonatlar miqdori 9% atrofida tebranadi. Gips miqdori bo‘z-o‘tloqi tuproqning haydov qatlamida 0,262% tashkil qilgan bo‘lsa, pastki qatlamlarda ayniqsa haydov ostki qatlamidan pastga qarab oshib boradi 1,548-2,915% (2-jadval).

Kuzda ekilgan bug‘doy navlaridan yuqori hosil yetishtirishda eng optimal qalinlikdagi, sog‘lom maysalarni o‘stirib olish asosiy agrotexnik tadbirlardan biri hisoblanadi. Urug‘larni dala unuvchanligi, laboratoriya sharoitidagi unuvchanlikdan ancha kam bo‘lishi ma’lum. Urug‘larning dala unuvchanligi urug‘larning sifatiga, agrotexnikaga, tuproq – iqlim sharoitlariga, urug‘larning, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishiga, hamda boshqa har xil omillarga bog‘liq bo‘ladi.[2]

Urug‘larning dala unuvchanligining pasayishini turli omillarga bog‘liq bo‘lishi bir qancha olimlar tomonidan ko‘rsatilgan. Bu sabablar o‘tmishdosh yekinlarni noto‘g‘ri tanlash, urug‘larni Ekish chuqurligini noto‘g‘ri belgilash, urug‘lik sifatini pastligi, tuproqdagi namlik va haroratni yetishmasligi va har xil kasalliklardan iborat bo‘lishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda Ekish muddatlarining kuzgi bug‘doy urug‘larini dala unuvchanligiga sezilarli ta’sir qilishi ko‘rsatib o‘tilgan. [3]

Tajribalarda erta (1.10) muddatda ekilgan Istiqlol va Makuz-3 navlarida urug‘larni dala unuvchanligi 82,9 va 80,0 % ni tashkil qildi. Urug‘larning dala unuvchanligini eng yuqori ko‘rsatkichi oktyabrning ikkinchi o‘n kunligida (20.10) aniqlandi, ya’ni urug‘larning unuvchanligi erta muddatda (1.10) ekilgandagiga nisbatan Istiqlol va Makuz-3 navlarida 1,0; 2,6 % gacha yuqori bo‘ldi. Ekish muddatlarining kechikishi bilan ikkala bug‘doy navlarida ham urug‘larni dala unuvchanligining pasayishi kuzatildi. Bu ko‘rsatkich noyabrning ikkinchi o‘n kunligida (20.11) Istiqlol navi bo‘yicha optimal muddatga (20.10) nisbatan 8,0 – 11,8 %, Makuz-3 navi uchun esa 6,4 – 8,5 % gacha pasaydi.

3- jadval. Bug‘doy o‘simligining dala unuvchanligini ekish muddati va me’yorlariga bog‘liqligi.

Ekish muddatlari	Ekish me’yori gektariga mln. dona unuvchan urug‘	1 m2 da unib chiqqan o‘simlik soni, dona	Dala unuvchanlik %
1.10	3,0	249	82,9
	4,0	339	85,0
	5,0	429	85,8
	6,0	506	84,3
20.10	3,0	248	82,6
	4,0	344	86,0
	5,0	444	84,8
	6,0	514	85,6
1.11	3,0	235	78,3
	4,0	317	79,2
	5,0	408	81,6
	6,0	492	82,0
20.11	3,0	216	72,0
	4,0	305	76,2
	5,0	389	77,8
	6,0	496	82,6

Erta muddatda ekilganda urug‘larni unuvchanligi ikkala navda ham optimal muddatda yekilgan urug‘larni unuvchanligidan ko‘p farq qilmadi.

Buning sababi, haroratning va tuproq namligining yetarli ekanligidandir. Kech ekilganda yesa tuproq va havo haroratining pasayishi natijasida unib chiqish muddatlari uzayadi. Urug‘lar tuproqda uzoq qolib, zamburug‘ va boshqa kasalliklar bilan zararlanadi. Noyabr oyining birinchi o‘n kunligida (1.11) Istiqlol navining dala unuvchanligi optimal ekish muddatiga (20.10) nisbatan 3,5 -5,0 % kam bo‘lgan bo‘lsa noyabrning ikkinchi o‘n kunligida (20.11) yesa bu ko‘rsatkich 7,6-11,3 % ga to‘g‘ri keldi. Makuz-3 navida ham qariyib shunday ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Ekish me’yorining oshib borishi bilan ikkala navning ham dala unuvchanligi yuqori bo‘ldi. Ekish me’yori gektariga 6,0 mln.dona unuvchan urug‘ bo‘lganda, 3 mln.dona unuvchan urug‘ ekilganiga nisbatan Istiqlol navida (1.10 va 20.10) 84,3 va 85,6 % ni va (1.11 va 20.11) 82,0 va 82,6 % bo‘ldi. Makuz-3 navida ham (1.10 va 20.10) 83,1 va 83,5 % ni, (1.10 va 20.11) 80,6 va 80,0 % ga teng bo‘ldi. Shunday qilib ekish me’yorini oshib borishi bilan qattiq bug‘doyni Istiqlol va Makuz-3 navlarining urug‘larini dala unuvchanligini oshib borishi kuzatildi. [3]

Bug‘doy o‘simligining o‘sish va rivojlanishi juda ko‘p omillarga, xususan navning biologik hususiyatlariga, tuproq va havo harorati va namligiga, oziqlanish darajasiga, o‘simliklarning kasallik hamda zararkunandalar bilan zararlanishiga ekish muddati va me’yorlariga bog‘liq bo‘ladi.

O‘tkazgan ilmiy tadqiqotlarda ekish muddatlari va me’yorlari qattiq bug‘doyni Istiqlol va Makuz-3 navlarini o‘sish davriga, rivojlanish fazalarini o‘tash davomiyligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ekish muddatlari va me’yorlari bo‘yicha o‘tkazgan ilmiy tajribalarda, qattiq bug‘doy navlarining

o‘sish davriga, ekishdan unib chiqishgacha bo‘lgan davr ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadiki, bu davrning davomiyligi bevosita havo va tuproq haroratiga, tuproq namligiga, ekish me’yoriga va chuqurligiga bog‘liq bo‘ladi.[4]

Tajribalarda erta muddatlarda ekilgan urug‘larni to‘liq unib chiqish davri 6 kunni tashkil qildi. Ikkala navlar o‘rtasida ekish - unib chiqish davrining davomiyligi bo‘yicha farqlar kuzatilmadi.

Ekish me’yorlari bo‘yicha ham olingan natijalarni ko‘rsatishicha Ekish-unib chiqish

Makuz-3 navida erta va kech ekilgan variantlarda ekish me’yori past (3 mln.dona/ga) va yuqori (6 mln dona/ga) bo‘lganda ular o‘rtasidagi farq 10 kunni tashkil qildi.

Unib chiqish naychalash davri erta ya’ni, 1 oktyabrda ekilganda, nisbatan uzoqroq muddatga cho‘zildi. Unib chiqish – boshoqlash davri erta ekilgan qattiq bug‘doyni Istiqlol navida 202 kun, Makuz-3 navida esa 206 kun bo‘lib bunda Istiqlol navida rivojlanish ancha jadalroq o‘tdi. [5]

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Sirdaryo viloyatining Sardoba tumani sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarida qattiq bug‘doy intensiv navlari urug‘larining dala sharoitida yuqori unuvchanlikka ega bo‘lishiligi maqbul ekish muddatlari bilan bevosita bog‘liq. Ekishni erta yoki maqbul muddatdan kech o‘tkazish, urug‘larning dala unuvchanligi muvofiq holda kamayadi. Maqbul ekish muddatlaridagina qattiq bug‘doy intensiv navlarining qishga chidamliligi yuqori bo‘ladi.

-ekish muddatlarini 01 oktyabrdan 20 noyabrgacha kechikishi qattiq bug‘doy intensiv navlarining o‘suv davrini 39-41 kunga qisqartiradi. Ekish muddatini kechikishi bilan hosilning pishib etilishi tezlashdi

- qattiq bug‘doyning intensiv Istiqlol navi maqbul muddatda (20.10) ekilganda yuqori don hosilini shakllantiradi. Qattiq bug‘doyning Istiqlol va Makuz-3 navlari uchun maqbul ekish muddati 20 oktyabr ekanligi aniqlandi. Ekishni maqbul muddatdan kechikishi bilan don hosilini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev SH.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.Toshkent, 2017. 3.1 bob.

2. Piroxunov T., Ochilov Y. O‘g‘it va kuzgi bug‘doy hosildorligi. «O‘zbekiston qishloq xo‘jalik». 2007, №1, 35 b.

3. Siddiqov R. Teshboyev S. Kuzgi qattiq bug‘doy respublikamiz sharoitiga mos yuqori hosilli, «Qaxrabo» va «Sadaf» navlari haqida. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali. 2002, №6. 41-42 b.

4. Sektimenko V.E. va Ismanov A.J.lar Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining sug‘oriladigan tuproqlari / -Toshkent: O‘zRFA “Fan”, 2005. 266 b.

5. Xalilov N., Bobomirzayev P., Daminov S. Kuzgi bug‘doy yetishtirish texnologiyasini shakllantirish shartlari. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. 1998, №5, 35 - 37 b.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Xo‘jabekova Dildora Ergash qizi
Guliston davlar universiteti
Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasi

Annotation: In this article, thoughts were put forward on the application and further development of innovative technologies and technologies in agriculture.

Key words: agriculture, innovation, competition, special events, modern technology, innovation.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ahamiyati ulkan. Respublikamiz aholisining yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. Bundan tashqari mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti va valyuta tushumi tarkibida ham qishloq xo‘jaligi tarmog‘i sezilarli salmoqqa ega. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan hamda sanoatning ayrim sohalarini xomashyo bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Endilikda aholi soni va ehtiyojlarining o‘sishi hamda qayta ishlash sanoati quvvatlarining yuksalishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini yanada ko‘paytirishni

obyektiv ravishda taqozo etmoqda. Shuning uchun ham mazkur tarmoqni rivojlantirish va samaradorligini oshirish zarur. Innovatsiyalarni joriy etish korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligi va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda yurtimizda ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatni saqlash hamda rivojlantirish yuzasidan bir qator ko‘pdan ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, innovatsion faoliyat ishlab chiqarish va boshqa sohalari ehtiyojlarini qondirishning muhim uslublaridan biri sifatida foydalaniladigan mahsulotlarning sifat o‘zgarishlari, faoliyat vositalari va uslublarini yangilash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Mamlakat raqobatdoshligini baholash ko‘rsatkichlariga ko‘ra, tabiiy va iqlim resurslaridan oqilona foydalanish, jamg‘arilgan boyliklardan o‘z o‘rnida foydalanish, investitsiyalarni faol jalb qilish, innovatsiyalarni qo‘llabquvvatlash tamoyillariga asoslangan boshqaruv siyosatini amalga oshirish kabi omillar korxonalar rivojlanishining asosiy maqsadi hisoblanadi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayoni xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini sezilarli darajada o‘zgartirishni, ular faoliyatini bozor talablariga moslashtirishni talab qilmoqda.

Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmunini o‘rganishdan oldin “innovatsiya” iborasi to‘g‘risida tasavvur hosil qilish zarur. Ushbu tushuncha ingliz tilidan olingan bo‘lib, “innovation”, ya’ni yangilik, yangilik kiritish degan ma’noni anglatadi. Innovatsiya - bu yangi texnologiyalarda mujassamlashgan yangi bilimlar, nou-xau, ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalarini qo‘llash bilan bog‘liq, shuningdek yuqori bozor salohiyatiga ega bo‘lgan yangi vazifalarni bajara oladigan yangi mahsulotlar yaratish yoki destruktiv jarayonlarning salbiy oqibatlarini yo‘kotish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan faoliyat yoki faoliyat natijasidir. Ya’ni,innovatsiyalarni g‘oyalar, izlanishlar, ishlanmalar, yangi yoki mukammal ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar transformatsiyasining natijasi sifatida qarash mumkin. Demak, “innovatsiya” so‘zi “yangilik” (“novatsiya”) va “yangilik kiritish” (innovatsiya) ma’nolarini anglatadi.

Xozirgi vaqatda qishloq xo‘jaligi mineral o‘g‘itlarining va o‘simliklarni himoya qilish vositalarining yetishmovchiligi yoki me’yordan ko‘p ishlatilishi, biologik xilma-xillikning yomonlashuvi, quroqchilik, cho‘llanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bilan bog‘liq ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Mutaxassislarning hisob kitoblariga ko‘ra ekish, yetishtirish, saqlash va tashishda hosilning deyarli 30 foizdan oshig‘i yo‘qotilmoqda.

So‘ngi vaqtlarda iqtisodiyotni raqamlashtirish borasida tizimli choralar ko‘rilib, davlat organlari va tashkilotlarda elektron hujjatlar aylanish tizimi bosqichma- bosqich joriy etilmoqda, elektron to‘lovlar va elektron tijorat sohalari rivojlanib, ularning normativ-huquqiy bazalari kundan kunga takomillashib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi korxonalarini modernizatsiyalash va tarmoqni yanada rivojlantirish yo‘nalishlariga yangicha qarashlarning shakllanishi namoyon bo‘lmoqda, bu albatta tarmoqni yanada barqarorlashuvini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni ko‘payishiga, resurslardan unumli foydalanishga, yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga olib keladi va pirovardida qishloq xo‘jaligini rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtimizda Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i – paxtachilikda yangi agrotexnologiyalarni joriy etish, seleksiya va urug‘chilikni takomillashtirib, qishloq xo‘jaligi ekinlari kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurash ishlarini rivojlantirish Dasturiga quyidagi tadbirlar kiritilgan: ekin maydonlarini ikki yarusli aylanma pluglar bilan 35-40 sm chuqurlikda ag‘darib shudgorlash; chigitni resurs tejamkor, zamonaviy, yuqori unumli 8 qatorli seyelkalarda ekish; yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 60 sm kenglikda chigit ekishni kengaytirish; unumdorligi past yerlarda hamda suv tanqisligi yuqori bo‘lgan yillarda paxtadan mo‘l va sifatli hosil olishda chigitni qo‘shqator usulda ekish; yer tekislashni zamonaviy lazerli yer tekislagichlar yordamida amalga oshirish vazifalari belgilanib olindi.

Shuningdek, go‘za seleksiyasi jarayonida yovvoyi namunalardan samarali foydalanish maqsadida qisqa yorug‘ kunni yaratib berish uchun “Fitotron” issiqxona majmuasida keng ko‘lamda foydalanish yo‘lga qo‘yiladi. “Fitotron dala” tizimida

seleksiya ishlari 4-5 yilga qisqaradi. Ushbu issiqxona majmuasidan g‘o‘zaning qurg‘oqchilikka, sho‘rga, garmselga kasallik va zararkunandalarga bardoshli navlarini yaratish uchun zarur bo‘ladigan suniy muhitlardan foydalanish imkoniyati ortadi.

Respublikamiz zaxira yerlari sug‘orma dehqonchilikka asoslangan 1180as ug‘oriladigan yerlarning deyarli yarmi turli darajada sho‘rlangan. Shu sababli Respublikamiz hududida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Suv iste’molini ilmiy asoslangan holda rejalashtirib, tuproq iqlim sharoitini hisobga olgan holda suv resurslaridan oqilona foydalanish, malioratsiya obyektlarining texnik holatini yaxshilash va kollektr oqova suvlarining oqib chiqib ketishini ta’minlab, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarirlashtirish bu yerlarda tuproq ball-bonitetini 2-3-ballga oshirish, meliorativ texnikalar parkini yangilash va suv xo‘jaligi ekspluatatsiya tashkilotlari moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash borasidagi vazifalarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ilg‘or texnika va texnologiyalarisiz tasavvur qilish mushkul bo‘lganligi sababli davlatimiz miqyosida texnik-texnologik jixatdan modernizatsiya qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa:

Qishloq xo‘jaligi sohasida resurs tejovchi innovatsion texnologiyalar hamda raqamli texnologiyalar joriy etish, xorijiy mamlakatlarning innovatsion va ilg‘or tajribalarini yanada ko‘proq o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahrorov F. “Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar” o‘quv qo‘llanma (Fan ziyo) 2020 y.
2. Agro. Uz > Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini rivojlantirish
3. w.w.w. ziyonet.uz

SAYHUNOBOD TUMANI SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARINING FERMENTATIV FAOLLIGI

S.U.Nurillayev, S.D.Qurbonova
uliston davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi
E-mail: sardornurillayev401@gmail.com
Guliston davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Dunyoda tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish, tuproq profilida mikroorganizmlar faoliyati va fermenlar faolligi tufayli qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligiga salbiy ta’sir qiluvchi kimyoviy va biologik jarayonlarni o‘rganish, biologik jarayonlarda ishtirok etuvchi mikroorganizmlar va fermentlarni aniqlash, tuproqda kechadigan biologik jarayonlarni tartibga solish va muqobillashtirish, degradatsiyaga uchragan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda tuproq qoplamini muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

M.A.Galstyanning qayd etishicha, fermentlar faolligi tuproqning biologik holatini aniqlashda ta’sirchan indikator hisoblanadi va fermentlar miqdori bevosita tuproq tarkibi, mavsum, iqlim sharoitlariga qarab o’zgaradi [2; 3].

F.X.Xaziev fermentlar tirik organizmlarda kimyoviy reaktsiyalarni yuzlab va minglab baravar tezlashtiruvchi biologik katalizatorlar ekanligini aniqladi [8;9].

L.A.Gafurova va shogirdlari janubiy Orolbo’yi tuproqlarining biodinamikasida eng muhim bo’lgan oksidoreduktaza (katalaza, peroksidaza, polifenoloksidaza) va gidrolitik (fosfataza, ureaza, invertaza) fermentlarining faolligini o’rganib chiqqan va fermentativ faolligi mavsumiy dinamikasi turlanganlik darajasi bilan bog’liqligi va uning faolligi bahorda eng yuqori ko’rsatkichga ega ekanligi, yozda asta-sekin pasayishi va kuzda biroz ko’tarilishini aniqlagan [1].

Katalaza fermenti o‘simliklar va mikroorganizmlar oziqlanishi va nafas olishi, shuningdek CO_2 assimilyasiyasi va tuproqlarning gumus moddasi sintezi oksidlanish-qaytarilish jarayonoari bilan chambarchas bog‘liq.

Tuproq hosil bo’lishning hozirgi zamondagi jarayonlariga sabab bo’luvchi agroekologik omillar– agrotexnik va meliorativ tadbirlar tizimi fermentativ faollikka katta ta’sir ko’rsatadi.

Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar 1-kesmasida katalaza faolligi bahorda 1,2-3,2 sm^3 O_2 ni, kuzda esa 0,7-2,0 sm^3 O_2 1 g tuproqda 1 daqiqani tashkil etdi, 2-kesmasida katalaza faolligi bahorda 1,5-3,4 sm^3 O_2 ni, kuzda esa 0,8-2,4 sm^3 O_2 1 g tuproqda 1 daqiqani tashkil etdi, 3-kesmasida katalaza faolligi bahorda 1,5-3,5 sm^3 O_2 ni, kuzda esa 1,0-2,5 sm^3 O_2 1 g tuproqda 1 daqiqani tashkil etdi, 4-kesmasida katalaza faolligi bahorda 1,3-2,8 sm^3 O_2 ni, kuzda esa 0,6-2,4 sm^3 O_2 1 g tuproqda 1 daqiqani tashkil etdi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bahorda katalaza faolligi yuqori, kuzga borib pasaygan (1-jadval).

1-jadval

Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlardagi oksidazalar sinfiga mansub fermentlar faolligi

Kesma №	Qatlam chuqurligi, sm	Katalaza, O_2 /1g tuproqda 1 daqiqa		Peroksidaza, mg purpurgallin / 100 g 30 daqiqa		Polifenoloksidaza, mg purpurgallin / 100 g 30 daqiqa	
		Bahor	Kuz	Bahor	Kuz	Bahor	Kuz
1	0-30	3,2	2,0	3,20	2,80	3,50	3,20
	30-50	2,2	1,4	2,20	1,90	2,40	2,10
	50-70	1,2	0,7	1,40	1,20	1,30	1,20
2	0-30	3,4	2,4	3,30	3,00	3,52	3,19
	30-50	2,4	1,5	2,25	2,10	2,35	2,20
	50-70	1,5	0,8	1,42	1,22	1,35	1,25
3	0-30	3,5	2,5	3,32	2,90	3,55	3,25
	30-50	2,4	2,0	2,25	2,00	2,30	2,10
	50-70	1,5	1,0	1,35	1,20	1,25	1,20
4	0-30	2,8	2,4	3,20	2,95	3,40	3,20
	30-50	1,8	1,3	2,25	1,95	2,30	2,15
	50-70	1,3	0,6	1,30	1,20	1,25	1,15

Organik moddalarning gumusga aylanishi fenoloksidazalar guruhiga mansub fermentlar ishtirokida boradi.

Sho‘rlanish tuproqdagi biokimyoviy jarayonlarga bevosita ta’sir etadi. Natijalarimizda sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda peroksidaza va polifenoloksidaza faolligi asosan gumus miqdoriga mutanosib o‘zgargan (1-jadval). Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda 1- kesmada peroksidaza faolligi bahorgi davrda 1,40-3,20 mg, kuzgi davrda esa 1,20-2,80 mg purpurgallin/100g tuproqda 30 daqiqani tashkil etdi, polifenoloksidaza faolligi bahorgi davrda 1,30-3,50 mg, kuzgi davrda esa 1,20-3,20 mg purpurgallin/100g tuproqda 30 daqiqani tashkil etdi, 2- kesmada peroksidaza faolligi bahorgi davrda 1,42-3,30 mg, kuzgi davrda esa 1,22-3,00 mg purpurgallin/100g tuproqda 30 daqiqani tashkil etdi, polifenoloksidaza faolligi bahorgi davrda 1,35-3,52 mg, kuzgi davrda esa 1,25-3,19 mg purpurgallin/100g tuproqda 30 daqiqani tashkil etdi, 3- kesmada peroksidaza faolligi bahorgi davrda 1,35-3,32 mg, kuzgi davrda esa 1,20-2,90 mg purpurgallin/100g tuproqda 30 daqiqani tashkil etdi, polifenoloksidaza faolligi bahorgi davrda 1,25-3,55 mg, kuzgi davrda esa 1,20-3,25 mg purpurgallin/100g tuproqda 30 daqiqani tashkil etdi, 4- kesmada peroksidaza faolligi bahorgi davrda 1,30-3,20 mg, kuzgi davrda esa 1,20-2,95 mg purpurgallin/100g tuproqda 30 daqiqani tashkil etdi, polifenoloksidaza faolligi bahorgi davrda 1,25-3,40 mg, kuzgi davrda esa 1,15-3,20 mg purpurgallin/100g tuproqda 30 daqiqani tashkil etdi (1-jadval).

Tajriba maydoni tuproqlari kuchsiz sho‘rlanganlishi sababli, peroksidaza va polifenoloksidaza faolligi yuqori bo‘ldi, bunga sabab tarkibidagi gumus moddalarining tuproq tarkibiga faol qo‘shilishidir. Gumus hosil bo‘lishi murakkab biokimyoviy jarayon, ushbu jarayonning faolligining yuqori bo‘lishi aynan fenoloksidaza fermentlari faolligi bilan va qo‘llanilayotgan turli o‘g‘itlar miqdoriga bog‘liqdir (1-jadval).

Tadqiqotimizda kuzatishlarimiz bo‘yicha gidrolazalar faolligi xuddi oksidazalar faolligi kabi bo‘ldi. Demak fermentlar faolligi tuproqdagi gumusga, oziqa elementlar miqdoriga, mexanik tarkibiga, qo‘llanilayotgan turli o‘g‘itlar miqdoriga va hududning gidrotermik rejimiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gafurova L.A., Nabiyeva G.M., Ergasheva O.X., Maxkamova D.Yu. Monitoring degradirovannix zemel s ispolzovaniyem bioindikatorov // Mejdunarodnaya nauchno-texnicheskaya konferentsiya «Sistemi kontrolya okrujayushey sredi- 2016». - Sevastopol, 2016. - S.86.
2. Galstyan A.Sh. Fermentativnaya aktivnost pochv Armenii. Tr. Vып. VIII. - Yerevan: Ayastan, 1974. - 275 s.
3. Galstyan A.Sh. Unifikatsiya metodov opredeleniya aktivnosti fermentov pochv. Pochvovedeniye. – 1978. – № 2. – S. 107-114.
4. Zvyagintsev D.G. Biologicheskaya aktivnost pochv i shkali dlya otsenki nekotorix yeyo pokazateley // Pochvovedeniye. 1978. - №6. - S. 48-54.
5. Kadirova D.A., Nabiyeva G.M., Saidova M.E., Maxkamova D.Yu. Biologicheskaya aktivnost kak diagnosticheskiy pokazatel plodorodiya pochv// Mejdunarodnaya nauchnaya konferentsiya XV Dokuchayevskoye molodejnoye chteniye. «Pochva kak prirodnaya biogeomembrana» - Sankt-Peterburg, 2012. S. 87-89.
6. Kazeyev K.Sh., Kolesnikov S.I., Akimenko Yu. V., Dadenko Ye.V. Metodi biodiagnostiki nazemnix ekosistem. Rostov-na-Donu. Izdatelstvo Yujnogo federalnogo universiteta, 2016. 356 s.
7. Maxkamova D.Yu. Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi sho‘rlangan gipsli tuproqlarining mikroflorasi // Yer resurslaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish yo‘llari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami. Toshkent, 2012.-B.164-166.
8. Xaziyev F.X. Funktsionalnaya rol fermentov v pochvennix protsessax /J.: Vestnik Akademii Nauk RB - 2015, tom 20, № 2 (78).- S. 14-24.
9. Xaziyev F.X. Ekologicheskiye svyazi fermentativnoy aktivnosti pochv // J.: Ekobiotex, 2018, tom 1, № 2. - S. 80-92.
10. Yuldasheva X.E. Mikrobiologicheskiye protsessi i svoystva pochv Karshinskiy stepi, ix izmeneniye pri dlitelnom oroshenii i puti biovosstanovleniya plodorodiya. Avtoreferat dokt. diss. na soiskaniye uchenoy stepeni d.b.n. Tashkent, 2008. - 42 s.

SIRDARYO VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGIDA FAN VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI

Turdimetov Shaxobiddin Muxitdinovich
Guliston davlat universiteti, kafedra mudiri, biologiya fanlari doktori (DSc)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga kelib dunyo qishloq xo‘jaligi hozirgidan qariyb 70% ko‘proq oziq-ovqat ishlab chiqarishi zarur bo‘ladi. Qishloh xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi va sifatini oshirish uchun raqamli intellektual texnologiyalardan foydalanish, fan va ishlab chiqarish integratsiyani amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-216-son qarorida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik, ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, inson resurslarini rivojlantirish masalalari yangi tashkil etiladigan agroklasterlar, kooperativlar va sohadagi boshqa yirik korxonalar faoliyatini tashkil etishda litsenziya va ruxsat etish tartib-taomillari shartlaridan biri etib belgilanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Mamlakatimizda oliy ta’lim sifatining tegishli darajasini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda, chunki zamonaviy dunyoda yangi formatdagi mutaxassislarni tayyorlashga talab kuchaymoqda. Ilgari noma’lum bo‘lgan kasblar talabga ega bo‘lib, mavjudlariga yangi talablar qo‘yilmoqda. Mehnat bozoridagi dinamik o‘zgarishlar hozirgi zamonning ko‘plab global tendensiyalaridan biri bo‘lib, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy dunyo agrosanoat majmui mutaxassisidan nafaqat chuqur kasbiy bilimlarni, balki qishloq xo‘jaligining jamiyat uchun ahamiyatini tushunishga, o‘z harakatlari, qilmishlari va oqibatlari uchun javobgar bo‘lishga imkon beradigan shaxsiy fazilatlarni ham talab qiladi. Tadqiqotchi

E.A.Myshak qishloq xo‘jaligida bo‘lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash tajribasini qayta ko‘rib chiqishga e’tibor qaratadi va uni o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, ustuvorliklarni sifat jihatidan o‘zgartirishni ta’minlash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni taklif etgan [1].

Mavzu doirasidagi tahlillar. Ko‘pgina mamlakatlarning agrosanoat kompleksida innovatsion faoliyati ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradigan yangi g‘oyalarni doimiy ravishda faol izlashni nazarda tutadi. Iste’dodli olimlar, konstruktorlar, texnik mutaxassislar, ixtirochilardan iborat ijodiy jamoalar bilan ishchi aloqalarni o‘rnatish zarurati fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikning yangi shakllarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Ko‘pgina olimlar, dizaynerlar va ixtirochilar doimiy ravishda kompaniyalarga o‘zlarining loyihalarini taklif qilishadi, ularning eng istiqbollilari turli xil qo‘shma shartnomalar tuzish va ularni amalga oshirish asosida amaliyotga tatbiq etiladi.

Mamlakat qishloq xo‘jaligidan ko‘proq daromad olishi nisbatan barqaror rivojlanish respublikaning butun iqtisodiyotining ishlashi, qaysiki qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yalpi hajmini oshirishni ta’minlash imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘sish sur’ati YaIM fizik hajmining o‘sish suratlaridan yuqori bo‘ladi. Yirik agrosanoat korxonalari faoliyati rivojlanadi.

Sirdaryo viloyatida ham qishloq xo‘jaligi sohasida ilm-fan va ishlab chiqarish sohasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash zaruriyati mavjud. Qishloq xo‘jaligi sohasi asosan tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish bilan bog‘liq. Sirdaryo viloyatida qishloq xo‘jaligiga oid ilm-fan orqali ishlab chiqarishga beriladigan tavsiyalar yetarlicha bo‘lib, ushbu ikki sohani integratsiyalash lozimligini ko‘rinmoqda. Ushbu hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarga tuproq sho‘rlanish darajasining ortib borishi, gipsli tuproqlar maydonining kengayib borayotganligi, yildan yilga gumus miqdorining kamayib borishi, oziqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasining pasayganligi, gleyli tuproqlarni ortib borayotganligi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Viloyatda sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yer maydonlarining 23,4 % turli darajada gipslashgan bo‘lib, kuchsiz gipslashgan yerlar maydoni 21,2 %, o‘rtacha gipslashgan tuproqlar-2,2 foizga teng bo‘lib, kuchsiz gipslashgan yerlar viloyatning Mirzaobod tumanida katta maydonlarni 34,6 ming ga, qolgan tumanlarda 2,7-5,5 ming gektarni tashkil etadi. O‘rtacha gipslashgan tuproqlar viloyatning Sardoba, Xovos, Sayxunobod va Mirzaobod tumanlari hududida uchraydi. Gipslashgan yerlar yuqori darajada sho‘rlanganligi, o‘ta zichlashganligi, suv o‘tkazuvchanligining yomonligi bilan xarakterlanib, bunday yerlar o‘simliklarning ildiz tizimlarini normal rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Viloyat sug‘oriladigan tuproqlarining 78,5 foizida gumusning miqdori 1% gacha, 21,5 foiz yer maydonlarida 1,1-2,0 % atrofida ekanligi tadqiqotlarda aniqlangan. Viloyat Qishloq xo‘jaligi, yer resuslari va davlat kadastri, meliorativ ekspeditsiya va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalaridan olingan ma’ulmotlar tahliliga ko‘ra, viloyat sug‘oriladigan yerlarida jami sho‘rlangan yerlar maydoni 282722 gektarni yoki sug‘oriladigan umumiy yerlarga (286988 ga) nisbatan 98,51% ni, shundan kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar 82,0% ni, o‘rtacha – 15,29% ni va kuchli sho‘rlangan maydonlar 1,22% ni tashkil etadi, sho‘rlanmagan tuproqlar maydoni 1,49% ko‘rsatkichlarida qayd qilingan.

Sirdaryo viloyati tuproqlarining xossalari, turli gemorfologik sharoitda rivojlanganligi sababli, ularning xususiyatlarining ham har xil bo‘lishi, tadrijiy rivojlanishi haqida ma’lumotlar olingan [2-6]. Tuproq gumusi, oziqa moddalari bilan ta’minlanganlik darajasini yaxshilash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan va ishlab chiqarishga tavsiyalar berilgan [7-11].

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Sirdaryo viloyati qishloq xo‘jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari tuproq unumdorligini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishga qaratilgan bo‘lib, turli agromajmuaviy tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bularga qisqa navbatlab ekish, turli takroriy ekinlarni ekish orqali tuproq unumdorligini oshirish, sho‘rlanish darajasini kamaytirish, gipsli tuproqlarning salbiy ta’sirini kamaytirish kabi tabdirlarni misol keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Myshak E.A. Aktualnye problemy sotsialno-gumanitarnoy podgotovki studentov v sisteme agrarnogo obrazovaniya [Actual problems of socio-humanitarian training of students in the system of agricultural education]. Obrazovatelnyy protsess. (7(18)). (2019). 12–20.

2. Turdimetov S.M., Musurmanova M.M. Properties of Soils located in different Geomorphological Conditions. American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations. Volume 02 Issue 11-2022. pp 01-06.
3. Turdimetov Sh.M., Rakhimov Z. Evolution of Properties of Irrigated Grassland Soils. International scientific and currentresearch conferences“. Priority directions for the development of science and education”. – Austin, USA.– 2021. pp 65-68.
4. Turdimetov Sh.M., Esonboeva N. Mirzaobod tumani tuproqlarining meliorativ holati. Mejdunarodniy nauchno-obrazovatel’niy elektronniy jurnal «OBRAZOVANIYE I NAUKA V XXI VEKE». Vipusk №37 (tom 3) (aprel’, 2023). C. 67-73.
5. Turdimetov, SH., & Esonboyeva, N. (2023). MIRZAOBOD TUMANI GIDROMORF TUPROQLARINIG XOSSALARI. yevraziyskiy jurnal texnologiy i innovatsiy, 1(5), 81–85.
6. Shakhobiddin Muhitdinovich Turdimetov, Ilkhomjon Abdulmanzurovich Abdurakhmonov, Laziza Akhmatovna Botirova, Ihtiyor Yakubovich Zikirov, Sevara Mavlonovna Ashiralieva. (2021). Soil Quality Assessment Principles for Vegetable Crops. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 9944–9952. https://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/7328.
7. Batirov Kh.F., Sh.M. Turdimetov, & R.B. Nurillaeva. (2023). ECOLOGICAL ROLE OF DIFFERENT SIDERATE CROPS IN IMPROVING SOIL PROPERTIES. American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations, 3(01), 01–06. https://doi.org/10.37547/ajahi/Volume03Issue01-01.
8. Batirov X.F., Turdimetov Sh.M., Komilov N.A. NEW CABBAGE CROPS IN UZBEKISTAN // Internauka: elektron. nauchn. jurn. 2023. № 7(277). URL: https://internauka.org/journal/science/internauka/277 (data obrasheniya: 16.05.2023).
9. Turdimetov Sh., D.Sunnatova. How plant peas affect soil’s agrochemical properties. "Modern ecology state environment and scientific practical aspects rational of natural resources problems of agroecology” International Scientific and Practical Conference.s. Solenoye Zaymishe – 2017. pp. 779-781.
10. TURDIMETOV, Dr. Shakhobiddin M.; RAKHIMOV, Zarkum. Influence of Leguminous and Fodder Crops on Soil Agrophysical Properties and Crop Yields. Annals of Plant Sciences, [S.l.], v. 11, n. 01, p. 4705-4711, jan. 2022. ISSN 2287-688X. Available at: <https://annalsofplantsciences.com/index.php/aps/article/view/876>.
11. Shakhobiddin M. Turdimetov, Zarina A. Khudoyberdiyeva, & Asqar T. Tadjibayev. (2023). Quality Assessment of Gypsum Soils of Mirzachol Oasis. Journal of Population Therapeutics and Clinical Pharmacology, 30(12), 295–301. https://doi.org/10.47750/jptcp.2023.30.12.035.

BEGONA O‘TLARNING TARQALISHINI OLDINI OLISH VA ULARGA QARSHI AGROTEXNIK KURASHISH CHORALARI

Xudayberdiyeva Zarina Asqar qizi
Guliston davlat universiteti
Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqoladan begona o‘tlarga qarshi samarali kurashish uchun ularning tarqalishini oldini olish hamda ularga qarshi agrotexnik tadbirlar qo‘llanilishi haqidagi fikrlar ilgari surulgan.

Kalit so‘zlar. karantin, ichki va tashqi karantin, agrotexnik tadbirlar, qator oralariga ishlov berish, shudgorlash, diskli borona, kultivatsiya, begona o‘tlarni tarqalishini oldini olish, maxsus tadbirlar.

Aksariyat begona o‘tlar avtotrof (noparazit) bo‘lib, ular ildizi orqali tuproqdan suv va oziq moddalarni o‘zlashtirib, mustaqil hayot kechiradi. O‘sish davrining qisqa yoki uzunligiga qarab, begona o‘tlar kam yillik va ko‘p yilliklarga bo‘linadi. Kam yillik begona o‘tlar bir yillik va ikki yillik bo‘ladi. Eng ko‘p va keng tarqalgan biologik guruhga mansub bir yillik begona o‘tlar faqat urug‘idan ko‘payadi. Urug‘larining unib chiqish muddatlariga ko‘ra ular efemerlar. erfa bahorgi. kech bahorgi. qishlovchi va kuzgi begona o‘tlar bioguruhlariga bo‘linadi. Efemerlarning o‘sish davri qisqa bo‘lib,

ularning hayoti unib chiqishidan urug‘ yetilguncha 1,5-2 oy davom etadi. Bunga lolaqizg‘aldoq, yulduzo‘t misol bo‘ladi. Kuzda unib chiqqanlari qishlaydi. Ular kuzgi g‘alla birinchi yilgi beda, kuzgi piyoz va boshqa ekinlar orasida ko‘p uchraydi. Erta bahorgi begona o‘tlar urug‘i ilk ko‘klamda, hali tuproq yaxshi qizimasidanoq unib chiqadi va ekinlar hosilini yig‘ishtirib olguncha yoki ular bilan bir vaqtda pishib yetiladi. Bahorgi ekinlar orasida ko‘p uchraydi. yovvoyi suli, olabuta, jag‘ -jag‘ , qizil tasma shular jumlasiga kiradi. Kech bahorgi begona o‘tlar urug‘i bahorda tuproq yaxshi qiziganda unib chiqadi, sekin rivojlanib, urug‘i ekinlar hosili yig‘ib-terib olingandan keyin yetiladi. Kechki ekinlar orasidagi o‘tlar urug‘i bir vaqtda yetiladi. Bularga gultojixo‘roz, semizo‘t, shamak, itqo‘noq, burgan, tuyaqorin kabi o‘tlar kiradi.

Begona o‘tlarning tarqalishini oldini olish va ularga qarshi agrotexnik kurashish choralari.

Begona o‘tlarga qarshi kurashish tadbirlari ularning tarqalishini oldini olish va maxsus tadbirlarga bo‘lish mumkin.

Dalalarni begona o‘tlardan toza bo‘lishini ta’minlashda ularni tarqalishini oldini olish tadbirlari muhim ahamiyatga ega. Ko‘pchillik begona o‘tlarning urug‘lari ekin bilan birga etiladi. Hosil yig‘ishtirib olinganda ular donga aralashib ketadi. Shuning uchun ekinlarni, ayniqsa, g‘alla, beda va boshqa mayda urug‘lilarni ekishdan oldin begona o‘tlar urug‘idan tozalash zarur. Odatda, bug‘doyda olabuta, ismaloq, beda urug‘iga zarpechak, sholida kurmak aralashgan bo‘ladi. Urug‘likni tozalash ekinning sof bo‘lishini ta’minlaydi. Begona o‘tlar urug‘i etilmasdan ekinlar hosilini yig‘ib olish kerak. Ayniqsa, bedani 15-25 % gullagandayoq o‘rish zarur. Dalalarga ko‘pgina begona o‘tlarning urug‘i sug‘orish suvi orqali tarqaladi. Shuning uchun sug‘orish shoxobchalari, ariq, zovur va kanallar bo‘yidagi begona o‘tlarni urug‘latmasdan o‘z vaqtida o‘rib tashlash kerak. Begona o‘tlar tarqalishini oldini olishda dalalarga faqat yaxshi chirigan go‘ng chiqarish kerak. Chirimagan go‘ngda begona o‘tlarning urug‘i juda ko‘p bo‘ladi, chunki ular em-xashakka aralashib, hayvonlarning oshqozon-ichagidan o‘tganda ham unuvchanligini yo‘qotmaydi.

Karantin tadbirlar. Begona o‘tlarni tarqalishini oldini olish uchun ichki va tashqi karantin tadbirlar qo‘llaniladi. Ichki karantin mamlakat ichidagi xavfli begona o‘tlarni bir viloyatdan ikkinchi viloyatga o‘tishini oldini oladi. Tashqi karantin esa chet ellardan ashaddiy begona o‘tlarni O‘zbekistonga kirib kelishini oldini oladi. Ichki karantin begona o‘tlarga yovvoyi gultojixo‘roz, devkurmak, govkurmak, kakra, g‘umay, ajriq, salomalaykum, oqmiya, achchiqmiya, zarpechak, chirmovuq va boshqalar kiradi. Karantin begona o‘tlar tarkibi doimiy bo‘lmay, qishloq va suv xo‘jalik vazirligining tegishli tashkilotlari tomonidan ko‘rilib unga o‘zgartishlar kiritiladi.

Agrotexnik kurash choralari. Begona o‘tlarni yo‘qotishda kuzgi shudgorning ahamiyati.

Begona o‘tlarga qarshi qiruvchi agrotexnik choralarga erga ekin ekishdan oldin, ekin ekilgandan keyin, qator oralariga ishlov berish va kuzgi shudgorlash tadbirlari kiradi.

Erga ekin ekishdan oldin begona o‘tlarni yo‘qotish sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida kuzgi shudgorlangan maydonlarda erta bahorda erning ustki ya’ni ishlov beriladigan qatlami etilishi bilan qatqaloqni yumshatish va bir yillik begona o‘tlarni yo‘qotish maqsadida erlar boronalanadi. Bunda endi urug‘dan unayotgan o‘tlar qiriladi va ishlov chuqurligidagi ko‘p yillik begona o‘tlarning vegetativ organlari tirmalab tozalanadi.

Ko‘p yillik ildizpoyali begona o‘tlar o‘sgan erlarda ekin ekishdan oldin diskli boronalarni ishlatmaslik kerak, aks holda ularning ildizpoyasi kesilib ketib, nihoyatda ko‘payib ketadi. Diskli boronalar sozlanishiga qarab, bir yillik begona o‘tlarni yo‘qotishda yaxshi natija beradi.

Ekin qator oralaridan begona o‘tlarni yo‘qotish. Ekin qator oralaridagi bir yillik va ikki yillik begona o‘tlarni kultivatsiyalash yo‘li bilan yo‘qotish mumkin. O‘simliklar tupi yonidagi begona o‘tlar o‘toq yoki chopiq qilish yo‘li bilan yo‘qotiladi. Begona o‘tlarni yo‘qotish uchun birinchi ishlovni barvaqt, sifatli qilib o‘tkazish samarali natija beradi. Kultivatsiya mavsumda har galgi sug‘orishdan keyin o‘tkazilganda, begona o‘tlarning o‘sishiga barham beriladi. Sug‘orishdan-sug‘orishgacha bo‘lgan davr uzoq bo‘lsa, bu davr ichida yana ishlov beriladi. Ko‘p yillik begona o‘tlarni esa har galgi sug‘orishdan keyin erning namligi obi-tobiga kelganda, ildizi bilan sug‘urib tashlash zarur. Kuzgi shudgorlashni sifatli qilib ikki yarusli pluglar bilan o‘tkazish begona o‘tlar sonini keskin kamaytiradi. Chimqirqarli plug bilan tuproq yuzasiga to‘kilgan begona o‘t urug‘lari 30-35 sm chuqurlikka ko‘milsa ma’lum miqdorda unuvchanligini yo‘qotadi.

Ildizpoyali begona o‘tlar ko‘p tarqalgan dalalarni shudgorlashdan oldin ag‘dargichi olingan plugda 18-22 sm chuqurlikda yumshatib, so‘ngra chizel yordamida ildiz poyalarini tirmalab olish

kerak. Har yili o‘zgargan chuqurlikda haydash ham begona o‘tlarni kamaytiradi. Agar birinchi yili 40 sm chuqurlikda, keyingi yillarda 25, 30, 35 va 40 sm chuqurlikda shudgorlansa, begona o‘tlar urug‘lari tushgan-qatlam uch yilgacha er betiga chiqmaydi va unuvchan urug‘lar miqdori kamayadi.

2. Begona o‘tlarga qarshi maxsus kurashish choralari.

Begona o‘tlarga qarshi maxsus kurash choralariga biologik, olovli kurash, mulchalash va boshqa usullar kiradi. Almashlab ekish, ekinlarni ekish muddatlari, me’yorlari, begona o‘tlarning zararkunandalari va kasalliklaridan foydalanish biologik kurash usuliga kiradi.

Almashlab ekish-begona o‘tlarga qarshi kurashda eng samarali usul hisoblanadi. Agrotexnikasi turlicha bo‘lgan ekinlarni navbatlab ekish begona o‘tlarni keskin kamaytiradi. Masalan, bedadan keyin paxta dalasidagi begona o‘tlar miqdori 40-50 % kamayadi.

Ekinlarni optimal muddatlarda ekish, o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish, qator orasidagi begona o‘tlarni yo‘qotishda chuqur ishlov berish, oziqlantirish, sug‘orish va boshqa tadbirlar o‘simliklarning tez o‘sishiga, begona o‘tlarni esa siqilib qolishiga sabab bo‘ladi. Ekinlar ko‘chatining qalinligi normal bo‘lishi kerak. Chunki, maydonlarda ko‘chatlar siyrak bo‘lishi begona o‘tlarning ko‘payishiga imkoniyat tug‘diradi. Shuning uchun ko‘chat qalinligi normal bo‘lishiga erishish lozim. Shumg‘iya va zarpechak urug‘i topilgan uchastkalarda tekinxo‘r begona o‘tlar zararlamaydigan ekinlar ekish kerak.

Tekinxo‘r begona o‘t shumg‘iyaga qarshi fitomiza pashshasidan foydalanilmoqda. Ular shumg‘iyaning guliga tuxum qo‘yadi, natijada uning urug‘i 71 % gacha kamayadi. Qirg‘iziston fanlar Akademiyasi Botanika Institutida qand lavlagi, kanop, beda va boshqa ekinlarda tekinxo‘rlik qiluvchi zarpechakka qarshi kurash usuli ishlab chiqildi. Buning uchun ekin dalalari alternariya zamburug‘i sporalari bilan ishlov beriladi. Oradan 4-5 kun o‘tgandan keyin zarpechak nobud bo‘ladi. Olovli kultivatorlar yordamida begona o‘tlarni kuydirish murakkabligi uchun deyarli qo‘llanilmayapti.

Mulchalash usuli. Bu usulda begona o‘tlar urug‘ining unib chiqishiga, unganlarining esa usishiga yo‘l qo‘ymaslik va boshqa maqsadlarda er mulchalanadi. Mulchalash uchun maxsus qog‘oz, polietilen plyonka, neft chiqindisi va boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Yorug‘lik va havo etarli bo‘lmagani uchun begona o‘tlarning ko‘p qismi nobud bo‘ladi. Fan va amaliyot shuni ko‘rstayaptiki, begona o‘tlarga qarshi kurashda biologik usul istiqbollidir.

xulosa:

Dehqonchilik qilinadigan erlarni begona o‘tlardan toza bo‘lishini ta’minlashda, ularga qarshi kurashishda begona o‘tlarning tarqalishini oldini olish, qiruvchi va maxsus tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Begona o‘tlarni tarqalishini oldini olishda ichki va tashqi karantinni, erga ekin ekish oldidan, ekin qator oralaridagi begona o‘tlarni yo‘qotish tadbirlarini, maxsus kurashish choralari (biologik, olovli, mulchalash) bilan qo‘shib olib borilganda eng yuqori samaradorlikka, ya’ni ekinzorlardagi asosiy begona o‘tlarni 85-95 foizini yo‘qotishga erishiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. D.T Jumanov “Organik dexqonchilik” fandan amaliy mashg‘ulotlar o‘quv qollanmasi (Fan ziyo)nashriyoti 2022y
2. Boboxo‘jayev I. Uzoqov B. “Tuproqshunoslik” darslik T. 1995y
3. w.w.w.ziyonet.uz

SUG‘ORISH UCHUN YER OST SUVLARIDAN FOYDALANISHDA SIRT OQIMINI QISQARTIRISH

Japakov Norboy Bo‘ribayevich
t.f.n., dotsent
Guliston davlat univyersiteti
e-mail: norboy1957@gmail.com

Anotatsiya. O‘zbekiston sharoitida xulosa qilish mumkinki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, ekinlardan yuqori hosil olish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini keskin yaxshilashining muhim zahiralaridan biri, bu yer usti suvlari bilan bir qatorda yer usti va yer osti suvlaridan kompleks tizimli foydalanishdir.

Kalit so‘zlar: yer osti suvlari, yer usti suvlari, tuproq meliorativ holatining o‘zgarishi, ekin turlari.

O‘zbekistonning sug‘orish zonasida sug‘orish uchun zarur bo‘lishi mumkin bo‘lgan yer osti suvlarining katta dinamik zahiralari asosan to‘rtlamchi davr tog‘ oralig‘idagi daryo vodiylari va chuqurliklarida hosil bo‘ladi. Shu bilan birga, yer usti va yer osti suvlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq: ko‘rib chiqilayotgan yer osti suvlari oqimlarining asosiy zahiralari yer usti oqimidan filtrlatsion yo‘qotishlari tufayli hosil bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida yer osti suvlarining sekin-asta nurashi va drenajlanishi paytida to‘ldiriladi (ma’lum sharoitlarda). Bundan kelib chiqadiki, yer osti suvlarini intensiv ishlatish nafaqat yer osti oqimini, balki yer usti oqimini ham qayta taqsimlash bilan birga yuz byeradi. Xususan, yer osti oqimlaridan katta hajmdagi suv olish ko‘p hollarda yer osti ta’minotining pasayishi va, ehtimol, ulardan qo‘shimcha yo‘qotishlar tufayli yer usti suv oqimlari iste’molining kamayishiga olib keladi. Ba’zi hollarda, yer osti suvlarini ishlatish paytida o‘simliklar ildiz tizimining oziqlanish shartlari sayoz yangi va ozgina minerallashgan yer osti suvlari (subirrigatsiya shartlari) tufayli o‘zgarishi (yomonlashishi) mumkin.

Ushbu qoidalar respublikaning sug‘orish zonasida yer osti suvlari hisobiga sug‘orishni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shunga qaramay, biz ushbu sharoitda sug‘orish uchun yer osti suvlaridan foydalanishni katta iqtisodiy ahamiyatga ega voqea sifatida tavsiya etish mumkin, deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, biz quyidagi qoidalarga asoslanamiz:

a) yer usti oqimining kamayishi har doim olinadigan yer osti suvlari miqdoridan kam bo‘ladi, chunki ko‘p joylarda sezilarli miqdordagi bug‘lanish orqali yo‘qotishlari yer osti suvlari balansining xarajatlar qismidan chiqarib tashlanadi;

b) yer osti suvlarini intensiv olish bilan sug‘orish tizimlarining YeFK samaradorligi keskin oshadi;

c) yer osti suvlaridan foydalanish katta mablag‘ talab etadigan yer usti suv havzalarini qurmagan holda, sug‘orish tizimlarining suv bilan ta’minlanishini mavsumiy va uzoq muddatli tartibga solish uchun keng imkoniyatlar ochadi, chunki yer osti suvlarining katta hajmdagi to‘planish joylari yer osti suv omborlari hisoblanadi;

d) tuproq melioratsiyasiga muhtoj hududlarda yer osti suvlarini intensiv ishlatishda vertikal drenaj rolini o‘ynaydi. Natijada kollektor va drenaj tarmog‘ini qurish va ishlatish, shuningdek sho‘rlangan tuproqlarni yuvish uchun ko‘p yillik xarajatlar kamayadi;

e) sug‘orishda yer osti suvlaridan foydalanish kollektor-drenaj tarmog‘i orqali samarasiz va drenaj chiqindilarining kirib kelishi tufayli yer usti suvlari sifatining yomonlashuvidan himoya qilishga yordam byeradi.

Bu suvlarning daryolarga oqizilishi (ayniqsa,Farg‘ona vodiysi, Toshkent hududi atrofi, Golonaya Step va boshq.) pestitsidlar bilan kuchli ifloslanishi tufayli organik va mineral o‘g‘itlar deyarli barchasi ifloslanishga va sirt oqimining minerallashuviga olib keladi. Sug‘orishda yer osti suvlaridan maksimal darajada foydalanish ortiqcha ifloslangan suvning oqishini minimallashtiradi va yer usti suv oqimlarining sanitariya holatini saqlashni sezilarli darajada osonlashtiradi.

Yuqoridagi qoidalar foydasiga quyidagilarni keltirish mumkin. Respublikaning ayrim vohalari (masalan, Farg‘ona) sharoitida yangi yerlarni sug‘orish uchun (Markaziy Farg‘ona) suvni sug‘orishning asosiy manbai – Sirdaryo daryosidan (aniqrog‘i, Norin daryosidan) olish kerak bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida daryo oqimini bir maromda kamaytirib boradi. Bundan tashqari, yer usti suvlarini rejalashtirilgan maydonga olib kelish, shubhasiz, yer osti suvlari sathining oshishiga yordam byeradi va meliorativ holatning yanada yomonlashishiga olib keladi. Ushbu hodisaning oldini olish uchun kollektor-drenaj tarmog‘ini qurish va ishlatish uchun katta sarmoyalar talab qilinadi, bu orqali esa Sirdaryo daryosiga katta miqdordagi ifloslangan suv quyiladi.

Ta’riflangan hududni mahalliy yer osti suvlari zahiralari asosida sug‘oriladigan dehqonchilik xo‘jaliklarni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin. Ularni sug‘orish suvining asosiy manbai sifatida olish bir vaqtning o‘zida meliorativ vazifani hal qiladi, so‘ngra kollektor-drenaj tarmog‘ini qurish va texnik xizmat ko‘rsatishga hamda natijada u orqali suv oqizishga hojat qolmaydi, bu esa daryo oqimining ifloslanishiga olib keladi. Yer osti suvlaridan foydalanganda yer usti suvlarining iste’moli ham kamayadi, ammo faqat shu suvlar bilan sug‘orishga qaraganda ancha kichik miqdorga kamayadi,

chunki bu holda bug‘lanishda foydasiz iste’mol qilinadigan katta miqdordagi suv aylanishda ishtirok etadi.

Respublikada irrigatsiyani rivojlantirish faqatgina katta mablag‘li investitsiyalarni talab qiladigan yer usti suv havzalarini qurish orqali daryolarning yer usti oqimini tartibga solish, uzoq qurilish davri, bug‘lanish va katta yer massalarini suv bosishi uchun samarasiz suv yo‘qotishlarini ko‘paytirish orqali sodir bo‘ladi. Shu bilan birga, nisbatan kam mablag‘li investitsiyalar bilan olinadigan va qisqa vaqt ichida o‘zini qoplaydigan yer osti suvlari ham e’tibordan chetda qolmoqda. To‘plangan gidrogeologik matyerial suvni yetkazib berishni tartibga solish bo‘yicha oz miqdordagi ishlarni bajarishda irrigatsiyaga mo‘ljallangan yer usti suv omborlarining bir qismini yer osti suv omborlariga almashtirish kabi imkoniyatlarni tasdiqlaydi:

Yuqoridagilarga asoslanib, O‘zbekiston sharoitida xulosa qilish mumkinki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, ekinlardan yuqori hosil olish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini keskin yaxshilashning muhim zahiralaridan biri bu yer usti suvlari bilan bir qatorda yer usti va yer osti suvlaridan kompleks tizimli foydalanishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаев С.Ш. Запасы подземных вод Узбекистана. – Тошкент, 1974.
2. Кац Д.М. Контролъ режима грунтовых вод на оршемых землях. – М.: Селъхозгиз,1967.
3. Ковда В.А. Дренаж в боръбе с засолением орошаемых почв. – М., 1958.
4. Мирзаев С.Ш. Подземни воды Узбекистан и их исполъзованине. – Ташкент, Изд-да «Узбекистана». 1967.

GLOBAL MUAMMO IQLIM O‘ZGARISHIDA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA O‘ZGARISHLARNI O‘RGANISHDA INNOVATSION ILMIY YONDASHUVLAR

Raxmonov Ikrom Abdukarimovich, Xudayberdiyeva Beg‘am Nabibullayevna
Guliston davlat universiteti
dotsent v.b. Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Agrotuproqshunoslik va melioratsiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Dunyo miqyosida anomal issiqlik bugungi kunning asosiy muammoli mavzusiga aylandi. Shunday vaziyatda aholini ekologik toza mahsulot bilan ta’minlash ham zaruriy masalardan hisoblanadi. Ekologik toza mahsulotning ilmiy sinonimi organik mahsulot, deb ataladi. Olimlar ekologik toza mahsulot inson sog‘lig‘iga zarar yetkazmasligi, kelajak avlod salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi va yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ega bo‘lishini asoslab berishgan.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi; Tadqiqotlar shuni ko‘rsatganki, ekologik toza mahsulotlar iste’mol qilinganda odamlarning o‘rtacha umr ko‘rish yoshining ortishi, aholi orasida har xil kasalliklar tarqalish darajasi hamda bolalar o‘limining kamayishi va boshqa muhim ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilgan. Organik mahsulotlar deyilganda organik so‘zi «cheklangan» ma’nosini anglatib, qo‘shimcha mineral o‘g‘itlarsiz, zaharli ximikatlarsiz va boshqa texnogen ta’sirlarsiz mahsulot yetishtirish yoki tabiiy toza xomashyolardan olingan, zamonaviy texnologiyalar asosida yetishtirilgan mahsulotlardir. Ekologik oziq-ovqat haqida ming yillar davomida yovvoyi tabiatning tabiiy jarayonlariga aralashadigan odam, tuproqlarning tuzilishini o‘zgartirdi, o‘simlik va hayvonlarning hosildorligi, o‘simlik va hayvonlarning samarali fazilatlarini, genetik modernizatsiya qildi. Hayvonlarning tabiiy dietasi, amaliy farmakologik preparatlar va boshqalar. Metabolik buzish, gipovitaminoz, allergik reaktsiyalar, asab, uyqu etishmovchiligi, reproduktiv va endokrinlik, reproduktiv va endokrinlik, ulardagi turli xil kasalliklarning tendentsiyasi, saraton kasalligiga tendentsiya va boshqa ko‘p narsalar va boshqa ko‘p narsalar kuchayadi. Ekologik toza oziq-ovqatning dolzarbligi. Shu sabablarga ko‘ra, mahsulotlar ekologik jihatdan toza ekanligiga g‘amxo‘rlik qilish juda muhimdir. Ekologik toza mahsulotlardan foydalanish inson tanasini past sifatli mahsulotlarning salbiy ta’siridan keyin asta-sekin tiklashga yordam beradi. Ekologik toza mahsulotni kimyoviy omillar, mum va boshqalar ta’sir qilmasligi kerak. Ekologik toza mahsulotning tabiiy ta’mi, xushbo‘y, vitaminlar va minerallarning yuqori miqdori bolalari va homilador ayollar uchun xavfsizdir. Endi anomal issiqlikka keladigan bo‘lsak bu muammo ham dolzarb global muammoga aylanib bormoqda.

Kelgusi yuz yillikning boshiga borib, Yer shari aholisining to‘rtdan uch qismi doimiy issiqlik to‘lqinlari hukmron bo‘lgan hududlarda yashaydi.

Mavzu doirasidagi tahlillar; Nature Climate Change jurnalida chop etilgan maqolada olimlar shunday ma’lumot bilan o‘lishishdi."Hodisalar rivojining ehtimoliy variantlari ro‘yxati kelgusida muntazam qisqarib boradi. Issiqlik to‘lqini haqida gapiradigan bo‘lsak, dahshatli va juda dahshatli ssenariylar o‘rtasida tanlashimiz mumkin. Ko‘plab odamlar hozirgi davrning o‘zidayoq anomal issiqlik ta’siri natijasida hayotdan ko‘z yummoqda va hatto iqlimning o‘zgarishi bilan kurashish ham kelgusida bunday vaziyatlar qurbonlari sonining o‘sishidan qutqara olmaydi", - deydi Manoadagi Havayi universiteti olimi Kamilo Mora. Global isish asoratlaridan biri "ekstremal ob-havo", ya’ni qishda anomal issiq va yozda anomal sovuq harorat, issiqlik to‘lqinlari, haftalik sel yomg‘irlari, qurg‘oqchilik va boshqa fenomenlar davri hisoblanadi. Akademik Igor Moxovning ta’kidlashicha, bunday hodisalar chastotasi kelgusida faqat o‘sib boradi va ular borgan sari kattaroq hududlarni qamrab oladi. G‘arbiy iqlimshunoslarning hisob kitoblariga ko‘ra, bu o‘lim holatlarining keskin ko‘payishiga olib keladi - yozda issiqlikning har bir "ortiqcha" harorati halok bo‘layotganlar sonini 5 foizga oshiradi. Mora va uning hamkasblari insoniyat global isishdan saqlanish choralarini ko‘rmagan taqdirda 2100 yilga borib issiqlik to‘lqini bilan bog‘liq vaziyat qanday o‘zgarishi va ular to‘liq amalga oshirilgan taqdirda qanday o‘zgarishlar kutilishini aniqlashga qaror qilishdi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari 2100 yilga borib, sayyora aholisining 74 foizi har ikkinchi yoz mavsumida nafaqat yuqori harorat, balki yuqori namlik darajasi qayd etiladigan hududlarda yashashini ko‘rsatdi. Bu esa inson tanasining ter chiqarish orqali sovushiga halaqit beradi. Nyu-York va Moskva kabi ba’zi shaharlarda anomal issiqlik davri 50 kuncha davom etadi. Tropik va ekvatorial mintaqalar yanada ko‘proq jabrlanadi. Hindiston, Braziliya va Janubi-Sharqiy Osiyoning deyarli butun hududi yuz yillik oxiriga borib insonlar yashashi uchun yaroqsiz ahvolga keladi. Agar dunyoning yetakchi davlatlari iqlim bo‘yicha Parij kelishuvi va global isish bilan kurashishga yo‘naltirilgan boshqa choralar ijrosidan to‘liq voz kechsa, kelgusida issiqlik urishi, yurak xuruji va tananing qizishi natijasida yuzaga keluvchi boshqa kasalliklar natijasidagi o‘lim holatlari darajasi keskin oshadi. Boshqa bir tomondan, Mora va uning hamkasblarining tan olishicha, bu choralarning amalga oshirilishi "anomal issiqlik" zonasining kengayishini to‘xtata olmaydi, shunchaki bu jarayonni biroz sekinlashtiradi xolos.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida organik-ekologik toza mahsulot yetishtirish va unga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Yevropa mamlakatlarida ekologik toza mahsulotlarga yillik talabning o‘sishi Germaniyada 5–15 foiz, Daniya, Shvetsiya va Shveysariya davlatlarida 30–40 foizga ortgan. Nature Climate Change junalida quyidagi malumotlar ham aytib o‘tilgan “ Iqlim o‘zgarishi sharoitida diapazonni o‘zgartirish orqali o‘z joylarini kuzata olmaydigan turlar moslashish va davom etish uchun asosan genetik o‘zgaruvchanlikka bog‘liq.

Genomik zaiflik bashorati zarur o‘zgarishlarga ega bo‘lmagan populyatsiyalarni, ayniqsa iqlimga mos keladigan genlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Biroq, yangi adaptiv o‘zgaruvchanlik manbai sifatida gibridizatsiya odatda genomik zaiflik tadqiqotlarida e’tiborga olinmaydi. Biz Avstraliyaning nam tropik mintaqasidagi balandlik gradienti bo‘ylab kamalak baliqlarining (Melanotaenia spp.) yaqindan bog‘liq turlari uchun atrof-muhit modellari va genomik zaiflikni taxmin qildik. Keng tarqalgan generalist va bir nechta tor diapazondagi endemik turlar o‘rtasidagi gibrid populyatsiyalar sof tor endemiklarga nisbatan prognoz qilinadigan iqlimga nisbatan zaiflikni ko‘rsatdi. Introgressiyalangan va adaptiv genomik hududlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar adaptiv introgressiya signaliga mos keldi. Bizning topilmalarimiz gibrid populyatsiyalarning ko‘pincha kam baholanadigan saqlanish qiymatini ta’kidlaydi va adaptiv introgressiya tor atrof-muhit diapazoni bo‘lgan turlarni evolyutsion qutqarishga yordam berishi mumkinligini ko‘rsatadi”.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar; Keskin darajada issiq sharoitda bugungi kunda qishlaq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda quyidagilarni inobatga olish zarur.

8. Zamonaviy tomchilatib sug‘orish tzimlaridan foydalanish.
9. Dala atroflariga daraxtlar to‘g‘ri ilmiy yondoshgan holda turlarini tanlab ekish.
10. Yer ustini to‘liq ko‘chat bilan ta’minlanishi.
11. Yer osti suvlaridan rejali foydalanish.
12. Tuproqninig organik tarkibini boyitishga etibor qaratish.
13. Suvga chidamli ekin nav va turlarini ekish.
14. Gidrogelning yuqori darajali samaralilarini ishlab chiqish.

Iqlim o‘zgarishi tabiatga ta’sirining ijobiy va salbiy tomonlarini ilmiy o‘rganib chiqish va shunga mos ravishda kerakli tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunning talabi bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

5. Nature climate change January 30, 2023 and other issues.
6. O‘zME birirnchi jild Toshkent 2000-yil
7. A.Abdullayev,H.Arg‘inboyev,H.Abdullayev “Fizika agrometrologiya” Toshkent 2015-yil
8. Agro.uz

POETIK TURKUMLAR TADRIJI VA TAKOMILI

Obidaxon Fayzullayeva
GulDU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek she’riyatida turkumlilik masalasi uning tadrijiy taraqqiyot tendensiyalari va takomili jihatidan o‘rganildi. Bunda sikllilikning davrlar muammolari bilan bog‘liq jihatlari, ijodkorlar konsepsiyalari bilan bog‘liq turfa ko‘rinishlari tahlilga tortildi. Turkum she’rlarning o‘ziga xos jihatlari, ularni shakllantirish xossalari, lirik turkumga kiritilgan she’rlarning mustaqilligi, ularning bir markazga yagona mavzu va maqsad orqali birlashtirilgani, tasvirdagi makon va zamon birligi va boshqa jihatlarga ham e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: poetik jarayon, poetik shakllar, sikl she’rlar, taraqqiyot tendensiyalari va takomili, turkumlilik, yaxlitlik, muallif konsepsiyasi, umumiylik, yangicha shakllanish, mavzu va mazmun birligi, original she’riyat, badiiy ifodada uyg‘unlik va boshqalar.

Poetik jarayon namunalari she’riyatimiz va badiiyat tarixini tashkil etishi jihati bilan ham e’tiborlidir. Turfa poetik shakllar, she’riy turkumlarda olib borilgan ijodiy izlanishlar, badiiy tafakkur ko‘rinishlari adabiy-tarixiy jarayonda muhim o‘rin tutishiga, yetakchi taraqqiyot tendensiyalarini belgilab berishiga ko‘ra ham nufuzlidir.

O‘zbek she’riyatida she’riy turkumlilik ilk davrlardan boshlab shakllanib, taraqqiy etib kelayotganligi ma’lum. She’riy turkumlar strukturadagi sifat o‘zgarishlari ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy mavzularni, muammolarni badiiy idrok va ifoda etishdagi xilma-xil uslubiy izlanishlar hamda obrazli vositalar poetik tafakkur imkoniyatlarining o‘ziga yarasha kengayib ketganligi dalolatidir. Lirika janrlarining olam bilan odamni hamdam o‘rganish jarayonida kasb etgan yetakchi xususiyatlariga ko‘ra, o‘ziga xos poetik shakllari, mavzulari, muammolari ham mavjud bo‘lib, ular ham o‘z navbatida zohir bo‘ladi. Poetik shakllar – falsafiy miniatyuralar, she’riy turkumlar tadriji bu poetik obrazlar tizimining takomil jarayoni ham demakdir. Bunda poetik shakllar va she’riy turkumlarning mavzu-muammolar ko‘lami ham ustuvor yo‘nalish kasb etganligini kuzatish mumkin. Xususan, shoirlarimiz tabiat – jamiyat – inson mavzui orqali ezgulik va zulm-zalolat, yaxshilik va yomonlik, fano va baqo, tiriklik va o‘lim, nur va zulmat, inson umrining tunlari va tonglari, go‘zallik va razolat, imon butunligi va beburdlik, sadoqat va xiyonat singari boqiy muammolarning turfa qirralarini badiiy idrok va ifoda etishmoqda.

“Badiiy asarlar orasidagi chegaralarni buzishning eng muhim shakli ularning sikllanishi hisoblanadi. Shoir o‘z she’rlarini sikllarga birlashtirishi (bu XIX-XX asrlarda keng tarqalgan edi) ko‘pincha ilgari yaratilganlarni birlashtirgan yangi asarning paydo bo‘lishi bo‘lib chiqadi. Boshqacha aytganda, she’riyat sikllari xuddi mustaqil asarlarga aylanadi” [Xalizev, 93-94]. Bunday asarlar sirasiga rus she’riyatidagi A.Blokning “Go‘zal xonim haqidagi she’rlar”, A. Beliyning “Kullari”, “Don bilan”, V.Xodasevich, B.Pasternakning “Ikkinchi tug‘ilish”, A.Axmatovaning “Shimoliy elementlari” kabi ko‘plab asarlarni kiritish mumkin. Ko‘rinadiki, she’riy turkumlar yaxlit ma’no doirasidagi bir butun maqomida ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan she’riy asarlar bo‘lishi ham mumkin ekan.

“Adabiy asar (bir butun bo‘lishiga qaramay) bir hil monolit emas. Bu turli qirralarga (tomonlar, burchaklar, darajalar, jihatlar) ega bo‘lgan ko‘p qirrali mavzu. Uning tarkibi va tuzilishi, ko‘pincha juda murakkab bo‘lib, adabiyotshunos olimlar tomonidan biz ularga murojaat qiladigan bir qator tushunchalar va atamalar orqali tavsiflanadi. Adabiy asarlarning chegaralarini buzishning eng muhim shakli bu ularning siklizatsiyasidir” [Xalizev, 94-95]. Shoirning she’rlarini sikllarga birlashtirishi (XIX

– XX asrlarda keng tarqalgan) ko‘pincha ilgari yaratilgan narsalarni birlashtirgan yangi asarni yaratish bo‘lib chiqadi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib, mumtoz adabiyotning mazmun doirasi yangi-yangi – o‘tmish she’riyatimizda qalamga olinmagan mavzulari bilan yanada kengaydi, rivojlandi va boyidi. Davr adabiy hayotining xos belgilaridan biri shundaki, bir necha xalqchil ijodkorlarning ijodiy tashabbusi bilan zamona hayotida ro‘y bergan qator ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalar bilan bog‘liq dolzarb mavzularda bir necha she’riy turkumlar paydo bo‘ldi. Asosan, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi bu she’riy turkumlardan ko‘rish mumkinki, bir mavzu, bir g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishda turli janr va shakllarda yaratilgan bu asarlar davr ijodkorlarining o‘zaro yakdilligi va yagona pozitsiyada turganliklarini anglatadi.

Zoriy, Muqimiy, Muhyi, Furqat, Ibrat, Zavqiy, Nodim va boshqa qator ijodkorlar tomonidan yozilgan she’riy turkumlarida yuqorida aytib o‘tilgan jihatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular ushbu turkumlarda ijtimoiy hayot muammolarini hozirjavoblik bilan ko‘rsata bilishgan. Bu turkumlarning ettitasi ijtimoiy-siyosiy mavzuda, “Loy”, “Burga”, “Ot”, “Sigirim”, “Pashshalar” radifli hajviy-tanqidiy ruhdagi asarlarni shoirlarning o‘zaro ijodiy munosabatlari samarasi sifatida baholash mumkin.

Zoriy va Nodimning bir janr, bir uslub, bir qofiya va radif, bir yo‘nalish, bir vaznda yozgan musaddaslari ijodiy hamkorlikdan darak beradi. Shu davrda ijod qilgan boshqa shoirlarda ham shu tarzdagi she’rlarning yana uchrashi ehtimoldan holi emas. Turkum she’rlarning yozilishi davr adabiy muhitidagi o‘nlab ijodkorlarning ijodiy hamkor va hamfikr bo‘lganidan dalolatdir.

Sikllilik jadid adabiyotida ham o‘z o‘rni va vazifasiga ega bo‘ldi. U ham she’riyatning boshqa shakllari kabi davr muammolarini insonlar qalbiga tezroq va chuqurroq kirib borishida ko‘maklashuvchi asosiy vositalardan biriga aylandi. Jadid she’riyatidagi turkumlilik jamiyat muammolariga urg‘u berib, diqqatni jalb qilish uchun ham kerak edi.

1917-yilda Abdurauf Fitrat o‘zi muharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasida “Yurt qayg‘usi” nomi bilan bir turkum she’rlar e’lon qildi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ularning aksariyati sochma she’rlar, Fitratning o‘zi aytmoqchi, mansuralar edi. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan qilinganligi ma’lum. “Yurt qayg‘usi”ga kirgan she’rlarning birinchisi “Hurriyat”ning 1917-yil 28-iyul, oxirgisi 29-dekabr sonida e’lon qilingan. Shulardan oxirgisi aruz vaznida. Qolganlarida, tabiiyki, vazn yo‘q. She’rlar ruknning sarlavhasidan ko‘rinib turganidek, yurt – Vatan qayg‘usiga bag‘ishlangan. Zamon inqiloblar zamoni edi. Chor hukumati qulagan. Epchil millatlar darhol istiqlol rejalarini ko‘ra boshladilar. Turkistonning taqdiri nima bo‘lishi, ayniqsa, so‘nggi asrlarda zalolatga botgan, dunyodan uzilib, fisqu fujurga ko‘milgan, o‘z qiyofasini yo‘qota boshlab, o‘zga millat yetoviga tushgan Turkistonning kelajagi nima bo‘lishi – Fitratni qiynayotgan dard aynan mana shu bolgan. *Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? Holing qandaydir? Nechuk kunlarga qolding?* – deb boshlanardi ularning biri. Shoir uning “yuksak o‘rinlar”dan “qullik chuqurlari”ga tushish sabablarini so‘raydi. “Dunyoni “urho”lari bilan titratkan yo‘lbars yurakli bolalari”ni, “er tuprog‘ini ko‘klarga uchuraturg‘on tog‘ gavdali o‘g‘lonlari”ni qo‘msaydi. Uning bu holi bilan kelisha olmaydi. Tomirlarida Temur qoni oqayotgan millatdoshlarini nomus va sha’n himoyasiga chorlaydi.

Abdurauf Fitrat. “Yurt qayg‘usi” t*urkumisochma she’r shaklida bo‘lib, u «Hurriyat» gazetasining 1917-yil 28-iyul 26-sonida e’lon qilingan. Sochma she’r “*Temur oldinda”, “Bir o‘zbek tilidan” va “Yurt qayg‘usi” qismlaridan tashkil topgan. Ularning har birida Ona Vatan – Turon (Turkiston)ni uyg‘otish, uni yuksaltirishga da’vat g‘oyasi ilgari surilgan. Fitrat ushbu she’ri orqali xalqning ko‘zi ochilishiga umid qilgan.

XX asr boshlarida ham turkum she’rlar ko‘plab yaratildi. 1936-yili O‘zbekistonda Pushkin yubileyiga tayyorgarlik boshlandi. Shu munosabat bilan Oybek, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Uyg‘un, Usmon Nosir, Temur Fattoh kabi adiblar Chimyonda bir necha oy mobaynida Pushkin asarlarini tarjima qilish bilan shug‘ullandilar. Oybekka “Evgeniy Onegin” she’riy romanining tarjimasi topshirilgandi. Xuddi shu kunlari Oybek Chimyonning ko‘rkam tabiatidan ilhomlanib “Chimyon daftari” deb nom olgan bir turkum she’rlar yaratdi. “Na’matak” ana shu turkumdagi asarlardan biridir. She’r birinchi marta “Guliston” jurnalida 1936-yili bosiladi. Sho‘ro davri adabiyotshunosligi ham bu falsafiy she’rni Oybek ijodining yutuqlaridan biri sifatida baholagan. Uni hayotsevar shoirning his-tuyg‘ularini yorqin aks ettiruvchi asar, deb talqin etdilar. Shu bilan birga, “Na’matak” she’rining badiiy dunyosiga chuqurroq nazar tashlagan, uning mohiyatini, zamiridagi haqiqat va jozibani ancha teran

Oybekning „Chimyon daftari“ turkumiga kirgan, o‘zbek tabiatining fusunkor tarovati va betakror ranglarini o‘ziga simirgan she’rlari nafaqat shoir she’riy ijodining, balki umuman o‘zbek lirikasining shoh namunalaridan biri bo‘ldi. Shoir bu she’rlari bilan o‘zbek she’riyatiga oybekona nafis lirizmni olib kirdi, nozik tuyg‘u va kechinmalarni tasvirlash madaniyatini yanada mukammallashtirdi, lirik she’riyat tilini nafosat yog‘dulari bilan jilolantirib yubordi.

Sho‘ro davlatining adabiy-madaniy siyosati natijasida 1937-38-yillarda yozuvchilar va ularning asarlariga vulgar sotsiologizm nuqtai nazaridan yondashish tamoyili kuchaydi. Oybekning „Chimyon daftari“ turkumiga kirgan lirik she’rlari burjua she’riyati namunalari, deb baholandi.

Ikkinchi jahon urushi mavzui Shuhratning ijodida o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Uning “Jangchi bloknotidan” turkum she’rlarida tasvirlangan jangchi obrazi vatan uchun jon fido qiladigan, Vatanni g‘oyatda sevgan, uning tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo aylagan inson obrazidir. Bu turkumga kirgan “Sening albomingga”, “Okopda”, “Gul ko‘chat”, “Ukrain qiziga”, “Quvonch”, “Ne gunohi bor!”, “Qilichini ol”, “Jangchi qabri”, “Poyak qiziga”, “Men tirik”, “Do‘stimning xotirasi”, “Nishona”, “Yo‘ldan maktub”, “Iltimos”, “Prussiyadan maktub”, “To‘rt lavha”, “G‘alaba daqiqasi”, “G‘alaba”, “Endi bilsam” kabi 20 ta she’rida, insoniy fazilatlar, yorga muhabbat, hijron, visol onlari, shuning bilan birga fashistlar qilgan xunrezliklar badiiy tarzda tasvirlab berilgan. Jangchi bloknotidan turkumidan o‘rin olgan ba’zi she’rlarida, xususan, “Sening albomingga” she’rida jangga ketayotgan qahramonning o‘z yoriga jo‘shqin muhabbati hamda uni hijron onlariga bardosh berishga da’vat etishlari lirik bayon etilsa, boshqa she’rlarida fashistlarni qilgan vahshiyliklarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan jangchining alam va iztirobda kechirgan lahzalari jonli va ishonarli tarzda bayon etiladi. Jangchi okopda yotar ekan, dastlab uning xayolidan urushgacha bo‘lgan davrdagi jonli lavhalari, lazzatli hayotning orombaxshliklari gavdalanadi. So‘ngra uning xayoli fashistlar tomonidan otib tashlangan go‘dakning ayanchli holda yotgan murdasi tomon etaklaydi. Bosqinchilar tomonidan haydab ketilayotgan ming-minglab kelinchaklar, yurakni ezadigan holatga tushirilgan bog‘ va bo‘stonlar, shahar va qishloqlar lirik qahramon ko‘zi o‘ngida namoyon bo‘ladi. Shoirning “Gul ko‘chat” she’rlarida jangchi va uning sevimli yorining visol ishtiyoqidagi holatlari lirik yo‘sinda tasvirlansa, “Ukrain qiziga” kabi she’rlari o‘zining kompozitsion tuzilishi jihatidan, ifodalangan mazmuni nuqtai-nazaridan boshqa she’rlardan ajralib turadi. Albatta, bunga hayotiy faktlar, jonli lavhalar, real kishilar taqdiri asos bo‘lgan. “Jangchi bloknotidan” turkumida tasvirlangan lirik qahramonning ishi faqat safar taassurotlarini bayon etishdangina iborat bo‘lib qolmasdan, aksincha, turli voqea-hodisalarga munosabatni bildirish hamdir. Albatta, bunda turkum she’rlar yaratishning o‘ziga xos janr xususiyatlari, ichki qonuniyatlari, ya’ni mazmun va ma’no jihatidan alohida-alohida bo‘lgan she’rlarning barchasini umum kompozitsion butunlikka bo‘ysundirish, ijodkorni qiziqtirgan, ilhomlantirgan voqea-taassurotlarni lirik yo‘sinda badiiy tasvirlash-shoirning diqqat markazida bo‘lgan. Shoir qahramonlari urushda faol ishtirok etsa-da, urushga nafrat bilan qaraydi. Shuhratning “Jangchi bloknotidan” turkum she’rlari Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liq tasvirlar urushning ilk kunlaridan, to oxirgacha bo‘lgan davrda yuz bergan voqelik va ana shu voqelikda ishtirok etgan shaxslarning ichki kechinmalari, xohish-istaklari real tarzda tasvirlanganligi bilan o‘ziga xosdir.

O‘zbek she’riyatida deyarli hamma shoirlar turkum asarlar yaratganlar. Mirtemirning "Qoraqalpoq daftari", Zulfiyaning “Vodiy tuhfasi”, H.G‘ulomning “Qit’alar uyg‘oq”, Shuhratning “Kavkaz daftari” kabi turkum asarlari mavjud. Uni tashkil etuvchi har bir asar mustaqil badiiy qimmatga ega bo‘ladi, biroq ular birlashib, hayotning biror tomoni haqida mukammal tasavvur beruvchi tugallangan yaxlit asarni vujudga keltiradi.

Shoir Shuhratning turli yillarda yozilgan she’rlari jamlanmasi orasida “Jangchi bloknoti”, “Kavkaz daftari”, “Dunay sohillarida” “Odamlar va obidalar” turkumlari shoir ijodida alohida ijodiy bosqich bo‘ldi. Bu majmuadan uning bolalarga atalgan she’rlari, hajvlari, to‘rtliklari va tarjimalari o‘rin olgan.

Turkum she’rlar shoir Mirtemir ijodida ham mavjud. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardagi adabiy siyosat natijasida Mirtemirga ijod etish va yozgan asarlarini e’lon qilish imkoni berilmagan. Natijada u tarjima va tahrir ishlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lgan. Qoraqalpoq she’riyatidan qilgan tarjimalari va “Qoraqalpoq daftari” (1959) she’riy turkumi katta muvaffaqiyat qozongan. “Qoraqalpoq daftari”da namoyon bo‘lgan xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik g‘oyalari shoirning qozoq, qirg‘iz va turkman diyorlariga qilgan safarlari ta’sirida yozilgan she’rlarida katta mahorat bilan davom ettirilgan

Shoira Zulfiya 50-yillarning ikkinchi yarmida Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o‘tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko‘pgina mamlakatlarida bo‘ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo‘shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. “Mushoira”, “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”, “Qozog‘iston o‘lanlari”, “Men chizolmagan surat” singari she’rlari unga shuhrat keltirdi [Zulfiya, 65]. Zulfiya she’rlarida tasvir etilayotgan hayot ko‘lami kengayib, uning ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yillardan boshlab Zulfiya ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo‘ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. “O‘ylar” (1965) she’riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili “Visol” (1972), “Yillar, yillar…” (1975) she’riy kitoblarida davom etib, Zulfiya ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. Ayni paytda shoira, ya’ni 1975 yilda “Lolaqizg‘aldoq” nomli bolalarga bagishlangan turkum she’rlar ham yozdi.

1932-yilda “Hayot varaqlari” nomli birinchi she’riy to‘plami bosilgan. So‘ngra uning “Yuragimga yaqin kishilar”, “Yurak hamisha yo‘lda”, “Kamalak” singari ko‘plab she’riy to‘plamlari va turkumlari nashr etiladi.

Shunigdek, Erkin Vohidovning “Donishqishloq latifalari”, “Qumursqalar jangi”, “Kanada turkumi”, Abdulla Oripovning “Haj daftari”, “Hikmat sadolari”, “Dunyo” turkumlari tabiatni belgilab bergan voqeaband she’rlar, o‘nliklar, sakkizliklar, to‘rtliklar borasidagi izlanishlarni kuzatadigan bo‘lsak, shoirlarning badiiy tafakkur salohiyati poetik shakllar kanoralarini kengaytirib yuborganini, lirik monologning turfa ko‘rinishlari vujudga kelganligini, she’riyatimiz tarixini belgilovchi badiiy barkamol namunalari dunyoga kelganligini ko‘ramiz. Iijtimoiy voqelikni, shaxs va jamiyat psixologiyasini poetik idrok va ifoda etishda lirika janrlari va poetik shakllar nechog‘lik keng va imkoniyatlarga ega ekanligini amalda tasdiqlashdi.

Istiqlol davri adabiyotining muhim fazilatlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi yana bir qator tamoyillar ko‘zga tashlandi. Chunonchi, millatning o‘z-o‘zini anglashida, o‘zlikni qadrlashi, va ulug‘lashida, milliy iftixor tuyg‘ularining shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o‘zgarishlari namoyon bo‘ldi.

“Yana bir yetakchi tamoyil shuki, adiblarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh bugungi kunga murojaat etmasin, ularning asarlari mohiyatan xalqning yakdilligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi bilan ajralib turadi” [Rahimjonov, 78]. Birgina liro-epik janr namunalarini oladigan bo‘lsak, dostonchilikda ham turkum asarlar tajribasini kuzatish mumkin. Chunonchi, O‘zbekiston xalq shoiri To‘lan Nizom istiqlol shukuhini, xalqimizning asriy orzusi – erkin-hur turmushini, boqiy qadriyatlarimizni ilhom bilan kuylagan “Vatan haqida qo‘shiq” – mustaqillik dostonlari turkumini yaratdi.

Turkum – mushtarak g‘oyaviy niyat, umumiy mavzu, qahramon va muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo‘lgan badiiy asarlar majmuidir. Turkum asarlar adabiyotning barcha janrlarida mavjud. Masalan, Balzakning “Inson komediyasi” yoki Zolyaning “Rugon – Makkarlar”ini tashkil etuvchi asarlarini romanlar turkumi deyish mumkin. Shuningdek, hikoyalar, ocherklar va hatto maqolalar turkumlari ham bo‘ladi. Turkum, ayniqsa, she’riyatda keng tarqalgan

She’riyatimizdagi turkum dostonlar, dramatik poema, she’riy drama, she’riy qissa, she’riy ertak, reportaj doston kabi asarlarning janr ko‘rinishlari tabiatini o‘rganish, poetik shakllar borasidagi ijodiy izlanishlarni nazariy jihatdan umumlashtirish ilmimiz oldidagi muhim masalalardan biridir.

Xullas, o‘zbek she’riyatida sikl she’rlar qadimdan to bugungi davrgacha o‘z taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan va takomillashgan. Sikllilik o‘zi yaratilayotgan davr muammolari bilan bog‘liq tarzda mazmunan boyib borgan. Turkum deyarli har bir shoir ijodida mavjud ekanligi, uning lirikaning xos shakllaridan biri ekanligini dalolatlaydi. Turkum she’rlarning o‘ziga xos jihatlari, ularni shakllantirish xossalari, lirik turkumga kiritilgan she’rlarning mustaqilligi, ularning bir markazga yagona mavzu va maqsad orqali birlashtirilgani, tasvirdagi makon va zamon birligi va boshqa ko‘plab xususiyatlari bu shaklning poema janri shakllanishiga asos bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Herman Hesse. Jahon adabiyoti kutubxonasi (Jahon adiblari haqida. O.Sharafiddinov tarjimasi). – T.: Ma’naviyat. 2010. 4-bet.
2. Qosimov U., Jo‘rayev M. Ijodni anglash yo‘lida. – Toshkent: Iqtisod-moliya. 2015. 163-bet.

3. Rahimjonov N. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar. – T.: Tamaddun, 2008.
4. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak. 2016. 267-bet.
5. Primov, A. A. (2023). ARISTOTLE’S “POETICS” AND ITS INTERPRETATION. Open Access Repository, 9(3), 257-261.
Primov, A. A. (2021). " Poetics"-as A General Theoretical Education. European Scholar Journal, 2(6), 202-204.
6. Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа. 1999. – 240 б.
7. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi’s poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, *12*(5), 332-340.
8. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, *1*(6 Part 3), 118-125.
9. Kholbekovna, F. O., & Oglu, E. B. J. (2021). Development and Improvement of Cyclicity. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 12049-12054.
10. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. *Science and innovation*, *1*(B5), 231-236.
11. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
12. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER’S SKILL. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 70.
13. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(3), 49-53.

TARIXIY TETRALOGIYADA OBRAZLAR YARATISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI

Israilova Madina Yursun qizi, Qo‘ylieva Gulchehra Nazorqulovna
f.f.b.f.doktori (PhD), dotsent
Guliston davlat universiteti
E-mail: kuylieva.g@mail.ru
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

Abstract: *The article contains an analysis of the influence of oral folk art in the third book of the tetralogy of the national writer of Uzbekistan Muhammad Ali "Ulug Saltanat" entitled "Umarshaykh Mirza".*

Keywords: *social conflict, character dynamics, classicity, historical reality, artistic interpretation, categorization, poetic skill, historicity, historical-typological, analytical, biographical epopeia, image, character.*

Muhammad Ali romanning uchinchi kitobini yozishda “Qur’oni Karim”, hadisi sharif, Amir Temurning “Tuzukoti Temur” risolasi, Muarrixlar G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, tasavvuf namoyondalari Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, hamda Firdavsiy asarlariga murojaat qilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-tetrologiyasi “Mironshoh Mirzo” uchinchi kitob bo‘lib, 1392-1399 yillarda sodir bo‘lgan yetti yillik voqealarni o‘z ichiga oladi. Roman-tetralogiyaning “Shohruh Mirzo” nomli to‘rtinchi kitobida 1399 – 1410 yillarda sodir bo‘lgan voqealar qalamga olingan. Xususan, Hindistonning Turon saltanati tomonidan zabt etilishi; Misr va Shom yurishlari; Amir Temurning O‘trorda vafot etishi va temuriyzodalar o‘rtasida toju taxt kurashi boshlanishi; Xuroson hukmdori Shohruhning Mavarounnahrni o‘z tasarrufiga kiritib, tinchlik o‘rnatishi va o‘n besh yoshlik Ulug‘bekni hukmdor sifatida e’lon qilishigacha bo‘lgan o‘n - o‘n bir yillik davr qamrab olingan.

Xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizning hikoyat, rivoyat, maktub, maqol va hikmat singari janrlari, sa’jlantirish, mubolag‘a (grotesk), tush ko‘rish, iltijo singari badiiy tasvir vositalaridan barakali foydalangan. Romanning umumiy ifoda tarzida esa xalq ertak, qissa va dostonlari bilan bir qatorda, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining ta’siri ham kuzatiladi.

O‘spirin shahzoda Mironshoh mirzoni o‘tmishning sirli-sehrli ertagu naqllari, ajoyib qissalar shirin orzular sari yetaklaganligining guvohi bo‘lamiz. Darhaqiqat, Mironshoh Mirzo Odam Ato risolasi, payg‘ambarlarga xos yodgorliklar: Muso alayhissalom asosi, Yusuf oltin jomi, Ibrohim Xalilulloh libosi, Idris kashkuli, Nuh olmos tamg‘asi va ayniqsa, sirli sandiq - “Gulshani xazoin” haqidagi naqllarni jon qulog‘i bilan tinglaydi. Jahongir podsholar: Jamshid, Kaykovus, Kayxisrav, Afrosiyob, Iskandar Zulqarnayn, Jaloliddin va boshqalarning siyrati bitilgan xotiralar bilan tanishadi. Bashariyat taqdiri bilan bog‘liq sir-jumboqlarga to‘la, mohiyat e’tibori bilan o‘tkinchi dunyoni fayziyob qilmoq - insonni sharaflovchi a’mol ekanligini ta’kidlovchi bu tipdagi kitoblar shahzodani ezgulikka chorlaydi. Ammo aynan o‘sha o‘spirinlik yillaridayoq uning tabiatida bir oz g‘ururga berilish barg yozadi. Bu hol sohibqironning yosh shahzodaga bo‘lgan ishonchiga andak soya solmay qo‘ymaydi. E’tirof etmoq joizki, Mironshoh Mirzo anchagina quv, jasur yigit. Biroq uning tabiati qiziqqonlik, shafqatsizlik va makkorlik illatlaridan ham xoli emas. Boz ustiga shahzoda taxtni boshqarish borasida ham bir qadar no‘noqroq. Insoniy tabiatiga xos shuhratparastlik va toju-taxt da’vosidagi intilishlarning bosim kelishi oqibatida u asta-sekin maishatu mayxo‘rlikka ruju qo‘yib, zinodan hazar qilmaydigan kimsaga aylana boradi.

Yozuvchi Mironshoh Mirzo va Xonzoda begim munosabatlarini tasvirlashda Eron shohi Bahrom Go‘r va Dilorom qissasidan foydalanadi. Ayniqsa shikor va ohu ovlash voqeasida bu hol yorqinroq kuzatiladi. Mironshoh Mirzo shikor paytida ma’sum ko‘zlari hayratu hadikka to‘la, nozik-nihol, go‘zal va ko‘rkam ohuni tutolmay otdan ag‘anaydi. Yozuvchi bu vaziyat-holatni uning Xonzodabegim qalbiga yo‘l topolmaganligiga ishora tarzida keltirsa, shahzodaning andishasiz tarzda ishratga berilgan hollarini chizishda Bahrom Go‘r va Dilorom ishqiy mojarolaridan turtki oladi [1.21]. Amirzoda aynan o‘sha qattiq yiqilishdan keyin dag‘al va bir qadar savdoyiroq, vasvasroq bo‘la boradi. Agar romanga zohiran nigoh tashlansa, bu holni tabibning muolajada xatolikka yo‘l qo‘yishi qabilida tushunish ham mumkin. Biroq muallif ko‘zlagan ma’no asar botiniy qatlamlariga jo qilingan bo‘lib, Mironshoh Mirzoning ulkan xatolaridan biri - taxt da’vosidagi evrilishlari bo‘lsa, ikkinchisi - ayoli Xonzoda begim bilan o‘z munosabatlarini to‘g‘ri izga sola bilmagani ekani oydinlashadi. Aynan o‘sha xatoliklarning asorati kek saqlash, gumonparastlik kabi xurmacha qiliqlarda ko‘zga tashlana boradi. Xulqi buzilgan shahzoda saltanat ishlarini o‘lda-jo‘lda qoldirib, beqaror kimsaga aylana boshlaydi.

Shubhasiz, hukmdor oilaviy turmushidan fayz ketishi uning boshqaruvidagi mamlakat taqdiriga ta’sir etmasligi mumkin emasdi. Shunday bo‘ladi ham. Mamlakat xazinasini barbod qilish, vayronkor siyosati bilan raiyatning nafratiga uchrash, fahshu-zino va mayxo‘rlikka mukkasidan ketish shahzoda tutumlari o‘z kulьminatsion nuqtasiga yaqinlashayotganligini ko‘rsatuvchi nishonalar edi.

Demak, Mironshoh Mirzoning esini yo‘qotishi otdan yiqilish bilangina bog‘liq emas. Bu hol mohiyatan g‘ururga berilgan shahzodaning valiahdlik da’vosiga borib taqaladi. Haqiqatan ham, o‘z padariga hurmat ko‘rsatishni bilmagani holda, “qadr talashgan” orsiz va shakkok amirzoda Mironshoh Mirzoning noshukurlik bilan bitgan murojaat maktubi noxush iboralar va andishasiz malomatlarga to‘la ediki, xat detali orqali yozuvchi uning qalbida maddalab yotgan tub maqsadlarni yuzaga chiqaradi [1.21]. Sohibqiron sha’ni, saltanat martabasi, ulug‘ xonadon obro‘sini pok saqlagani, vafodor va oqilaligi bois hamisha Amir Temur ardog‘i, e’zoz-e’tiboridagi suyukli kelin, hatto “o‘g‘il” maqomida turuvchi Xorazm malikasi Xonzodabegimni “o‘tirib qolgan”ligi uchun aldab-suldab o‘ziga uzatilgan “puf sassiq”qa chiqarib, yuzsizlarcha haqoratlashiyu xo‘rlashida ham Mironshoh Mirzoning aql-hushdan butkul begonalashib, tanazzulga yuz tutayotganligi yorqin namoyon bo‘ladi.

Ushbu asarda biz roman-tetrologiyaning ikkinchi kitobida atroflicha yoritilgan - Umarshayx Mirzo obrazining yangi qirralari bilan ham tanishishga muyassar bo‘lamiz. U kitobxon ko‘z o‘ngida mard, bir oz tez va qo‘rsroq, shartaki va jirraki shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Olam go‘zalligidan zavq tuyib, mamnun kayfiyatda kelayotgan Umarshayx Mirzo tasodifan otilgan daydi o‘qqa uchib, olamdan o‘tadi. Yozuvchi to‘satdan yopirilgan balo-qazo oldida jamiiki jonzotning ojizligi, inson umri lahzalik ekanligini g‘oyatda ta’sirchan ifodalashga erishadi. Buning uchun odam bolasi jonli maxluqotni ovlayotgan shikor kartinasidan teran falsafiy umumlashmalar chiqaradi. Darhaqiqat ramziy-majoziy mazmunda olib qaraganimizda, Umarshayx Mirzo sohibqironning hali ovga solishga ulgurmagan qarchig‘ayi edi. Qurol-yarog‘lari bilan shikorga chiqqan lashkar oldida parrandayu-darandalar qanchalik ojiz va himoyasiz bo‘lishsa, Tangrining ulug‘ qudrati qarshisida odam bolasi-da shu qadar betadbirdir. Muhammad Ali shikor kartinasi va Umarshayx Mirzoning tasodifiy o‘limini o‘zaro qiyoslash, tasvirda parallellikni ta’minlashga erishadi. U haddidan oshishlarning har qanday

ko‘rinishi muqarrar jazoga mustahiqdir,-degan Qur’oniy haqiqatlar bilan bog‘liq diniy-ilohiy va e’tiqodiy mazmunni qahramonlar taqdiri, roman mohiyatiga singdirishga muvaffaq bo‘ladi.

Romanda Umarshayx Mirzoning o‘g‘li Muhammad Mirzo aqlli, uddaburron, botir, ammo ko‘ngli yumshoq, ishonuvchan va sermuruvvat yigit tarzida tasvirlanadi. Bu o‘rinda Sulton Jaloliddin Manguberdi shahzoda Muhammad Mirzoga o‘rnak sifatida ta’riflanadi. Otaning o‘z o‘g‘liga qilgan pand-o‘gitlari g‘oyatda sharqona mazmuni bilan kitobxon diqqatini torta oladi.

Muhammad Ali romanda nabira Muhammad Sulton obrazini keng va atroflicha tasvirlaydi. U dovyurak, bilimdon, nozikta’b, xusnixatga mehr qo‘ygan iste’dodli yigit. Muhammad Sulton Ko‘ksaroy kutubxonasidagi nodir kitoblarni sevib mutolaa qiladi. U “Mujmali Fasixiy”, Nizomi Aruziy Samarqandiyning “Chahor maqola” asarlarini ko‘chiradi. Hatto “Qur’oni Karim”ni-da ko‘chirishga rag‘bati boru fursat tanqisligidan afsuslanadi. Shaxzodaning ilm-fan sirlarini o‘rganishga bo‘lgan rag‘bati, qunt va muhabbatini ko‘rsatish maqsadida romanda nasx, tavqe’, ruk’a, suls, kufiy, rayhoniy singari eski yozuv turlari va ularning turfa imkoniyatlari, o‘zaro nozik farqlari haqida mukammal ma’lumotlar keltiriladi.(26-bet) Muhammad Sulton ilm-ma’rifatga oshino bo‘lgani bois ham doimo yorug‘ niyatlar bilan yashaydi. O‘z ko‘rgan-kechirganlarini kundalik daftariga qayd qilib boradi. Ittifoqo uning qalbida Lalchechak (Sog‘inch bika)ga bo‘lgan ilk muhabbat g‘uncha ochadi. Qalbida bokira muhabbat kurtak yozayotgan Lalchechakning “o‘z shahzodasi” haqidagi tasavvurlar olamini chizishda yozuvchi quyuq liro-romantik bo‘yoqlardan barakali foydalanadi: “Qizlarning aytishicha, shahzoda Muhammad Sulton Yusuf alayhissalomday go‘zal sumbatli, tengi yo‘q, chaqmoqday yigit emish. Gulzorga qadam qo‘ysa, gullar o‘sha tomonga qarab angrayisharmish. Ariq yonidan o‘tsa, oqib borayotgan suv ham to‘xtab orqaga qayrilib, “Kim ekan? Bir ko‘ray-chi!”deya, unga maftun boqarmish. Yellar izini o‘pib parvona emish. Oftob suyukli shahzoda umididagina har kuni falak sahniga yo‘l olar emish. Oy kechalari unga bir nazar tashlash orzusida bulutlar aro sargashta kezar ekan...” [2.22].

Aslida, suyukli nabiraga ism tanlanishidayoq sohibqiron qalbida dunyoga suron solgan Jaloliddin havasi bo‘lgan. Shu bois ham sohibqiron Amir Temur nevarasi Muhammad Sulton Muhammad Alouddin Xorazmshohning dushmanga bosh egmagan shavkatli o‘g‘li Sulton Jaloliddin singari mard va jasur yigit bo‘lishini orzu qiladi. Bu hol bizga yozuvchi Muhammad Sulton obrazini yaratishda Jaloliddin qahramonligiga xos shtrixlardan ham foydalangan deyishga asos beradi. Shahzoda siyratu suratidagi aqlu-idrok, ko‘rku-husn, nozik ko‘ngillik, inja tabiatlilik, poklik, shijoat, tantilik, mardlik xislatlarini esa yozuvchi Amir Temur va Sulton O‘zbekxon bobolariga qiyosan chizadi.

Tetrologiyaning ilgarigi kitoblarida ishqqa mubtalo Jahongir Mirzoga “Turo‘g‘lon va Onabo‘ri” qissasiyu o‘zining Jahon bikaga pinhon muhabbatidan so‘zlagan Axiy Jabbor uning bedavo ishq ko‘chalarida sarson o‘g‘liga ham husnu-ko‘rk bobida dunyoda yagona go‘zal – sohibjamol Sog‘inch bika haqida so‘zlab beradi. Bu diltortar suhbat shahzoda qalbiga umidbaxsh ruh, jismiga darmon olib kiradi. Bahodirning: “Sog‘inch bikaga cho‘g‘day muhabbatingizni ko‘rib Majnuni Vomiqlar yoqasini tutib qoladilar!”,- singari ta’riflarida romandagi oshiq-ma’shuqlar muhabbati g‘oyatda boy folьklor va mumtoz epik nasrimizga qiyosan ifoda etilayotganligi yaqqolroq ko‘zga tashlanadi [2.22]. Jumladan, huzur-halovatidan butkul ayrilgan shahzoda kechinma-holatini jonlantirish maqsadida adib ertagu doston qahramonlari tasviridagi singari: “...butun a’zoi badaniga zaharli ignalar sanchilganday joyida o‘tirolmas, o‘rnidan turib ketardi”,-singari tavsiflar qo‘llaydi. [22] Darhaqiqat, Muhammad Ali shahzoda Muhammad Sultonning g‘oyibona sevgi qissasini ota-onalari Jahongir Mirzo va Xonzodaxonimlarning muhabbatlari tarixiga hamohang tarzda chizadi.

Muhammad Sulton valiahd sifatida g‘oyatda qudratli. Ammo, hamon sevgan yoriga yetisha olmaydi. Hatto, uning boshiga kulfat tushgan onlarda madad berishga otlana olmagani yetmaganidek, loaqal makonu-maskani belgisiz dildorning daragini-da topolmay o‘rtanadi. Ayni paytda, dil sirlariini o‘zgaga oshkor ham eta olmaydi. Uning yolg‘iz yupanchi qog‘ozu-qalam, fikru-yodi esa ma’shuqa xayoli. Binobarin, u qudratli va ojiz bir banda xolos. Shu ma’noda, bemalol aytish mumkinki, Mozandaron o‘rmonlarida shijoat ko‘rsatgan shahzoda xotira daftariga chizilgan birining boshi xam, ikkinchisining esa yaproqlari to‘zg‘igan ikkita gul surati savdoyi oshiq holini ramziy-majoziy va ishoraviy tarzda yorqin ifodalay olgan [1.21]. Darhaqiqat, mazkur kundalik sahifalarida shahzoda ko‘nglidagi quvonch-iztiroblar, afsus-nadomatlardan iborat kechinmalar suratlangan. Shuning uchun ham kitobxon vujudini goh yayratish, goh sog‘inch tuyg‘ularidan titratish, uning sezimlarini muvozanatdan chiqarish qudratiga ega. Zotan shahzodaning oshiq ko‘ngli nozik tebranishlarni nafis

ilg‘aydi. Jumladan, u Dajla daryosining ko‘pirib, kamarlar yasab, o‘z bag‘rini o‘zi o‘ygan yanglig‘ buralib-buralib, to‘lqinlari ichiga urib, alamdan to‘lg‘onayotgandek namoyishda chayqalishini dardli oshiqning alamli to‘lg‘onishiga mengzaydi. Kitobxon ko‘nglida daryo - Muhammad Sulton, kamar – uning yuragidagi o‘yiqlar, to‘lqinlar esa qalbiga sig‘mayotgan tug‘yonlar kabi kayfiyat-holat paydo bo‘ladi. Adib kitobxonni romandagi muhabbat liniyasi iztirobli va saodatli lahzalarini ko‘ngil ko‘zi bilan ko‘rishga undaydi. Romanda tasvirlangan zavq-shavqdan o‘zlarini to‘xtatolmay chopib yurgan otlar ham kitobxon nazarida oshiqlarning timsollari bo‘lib tuyuladi. Bulutli osmon zalvori uning ko‘nglini eza boshlaydi.

Muhammad Sulton dardini ichiga yutgan sari tobora darmonsizlana boradi. Oxir-oqibat, ishq iztirobidagi ruhsizlik holati uni yiqitib qo‘yadi. Sog‘inch iztiroblaridan majnunvash shahzodaning borlig‘i qaqshaydi. Na ko‘ngli taom tilaydi, na turishga darmon topa oladi. Dunyo ko‘ziga qorong‘u ko‘rinar holatga yetgan majolsiz oshiq goh xud, goh behud holda alahsirab lablaridan: “Sog‘inch! Sog‘inch!” so‘zlari uchadi [3.20]. Bu holni sohibqirondan sir tutgan amirlaru malikalar shahzodaning ko‘ngli Sog‘inch bikada ekanligini bilishsa-da, hijron azoblarini unutar degan niyatda uni Xon Sulton oqaga uylantirib qo‘yishadi. Ko‘rinadiki, adib shahzoda obrazini chizishda jisman sog‘, ammo ko‘ngli bemor Majnun timsolidan ham unumli foydalangan. Umuman olganda, Muhammad Ali tasvirda ancha tiyiqlikka intilganligi ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, Muhammad Sultonning ko‘ngil tilagiga zid tarzda uylantirilishi tafsilotlari batafsil bayonini berishdan saqlangan adib:“Beg‘araz ta’rifiga kirishilsa, xiyla sahifalar orolanib, bezanib, xolis ko‘zlarni yashnatgan bo‘lardi”,-deyish bilan kifoyalanadi[20.3].

Lalchechak (Sog‘inch bika) obrazini tasvirlashda adib To‘maris haqidagi ertak va afsonalar, xalq qissalari, Muhammad payg‘ambar xotini Bibi Oysha haqidagi rivoyatlar, “Yusuf va Zulayho” dostonidagi Zulayho, panjoblik qiz Zassi haqidagi rivoyat, Firdavsiy “Shohnoma”sida Suhrob bilan jang qilgan botir qiz Guldafarid shuningdek, sohibqiron Amir Temurning xotini O‘ljoy Turkon oqa va qizi Sulton Baxt begim tabiatiga xos mardlik xislatlaridan ulgi olgan. Chunki O‘ljoy Turkon oqa yakkama-yakka nayzabozlik hamda qilichbozlik janglari va kurash tushishda mohir, erkakcha kiyinib chavandozlik musobaqalarida qatnashgan ayol bo‘lgan. Jahonshoh ibn Joku o‘z qizini nafaqat xalq dostonu qissalari qahramonlari bo‘lmish jasur ayollar, balki ot minib chovgon o‘ynovchi, ayrim janglarda ham qatnashuvchi malikalarga ham havas qilib tarbiyalaydi. Natijada, go‘zal, shaddod, andak quv, aqlli, qat’iyatli, shijoatli Sog‘inch bika botir qiz bo‘lib yetishadi. Ayni paytda u uyatchanlik va tortinchoqlik xislatlaridan ham begona emas. Tabiatidagi ana shunday xususiyatlar sabab ota o‘z qizini ba’zan “Avboshbika – bevoshbika”,-deb erkalatadi. Onasi Oppog‘oyim qazo qilgan lahzalardagi Sog‘inch bika ruhiyatida kechgan po‘rtanalarni tasvirlar ekan, yozuvchi bu holatni: “zamin to‘nkarilib naq osmon qulab tushdi” qabilida jonlantiradi. Natijada, qahramon tuyg‘u-kechinmalarini kitobxon qalbiga ko‘chira oladi. Darhaqiqat, ayriliq hasrati muhabbat va sog‘inch hislari bilan qo‘shilib ketgani bois, og‘ir judolik alamini tortayotgan Sog‘inch bikaning munisu mushfiq qiyofasi biz romanning ilgarigi sahifalarida tanishgan jasur qizdan keskin farq qiladi. Chunki Muhammad Ali mazkur obraz orqali shirin so‘z, ardoq bo‘lsa sevib ketaveradigan jaydari ayolni tasvirlashni ko‘zda tutmaydi. Balki erlardan zarracha qolishmaydigan, tansiq muhabbatini ardoqlovchi, kurashchan romantik qiyofani chizishga intiladi. Shuning uchun ham uning g‘aroyib ertakona sevgi qissasi kitobxonda hayrat uyg‘ota oladi. Darhaqiqat, Muhammad Sulton uni sevishini aniqlash maqsadida o‘ziga “Arg‘unshoh” deb ism qo‘yib, sipohiy kiyimida shahzoda lashkariga qo‘shilib, savashlarda qatnashgan, o‘zini tanitmay Samarqandga qaytgan qizning mard va quvligini muallifning o‘zi ham bir o‘rinda Saroymulk xonim maktubi vositasida: “Achchiq aralash shirin ertakning naq o‘zi... hayratdan yoqa tutmog‘ingiz ayon”,-deya e’tirof etadi [4.19].

To‘yda chalingan childirmaning har bir sadosi Sog‘inch bikaning bezovta qalb tepishiga jo‘rlikda jaranglaydi. Baxt sharobidan sarmast kelinchak nimani o‘ylayotgani va nimalar bo‘layotganini idrok etmas, na yerda, na osmonda, balki vaznsiz parvozda, qandaydir epkinlar qanotida uchib yurganday holatni tuyardi. Bemisl baxt quvonchidan yuragi potrab chiqqqulik holatda Sog‘inch bikaning so‘z aytgulik holi yo‘q. Shu boisdan u nikohga bo‘lgan o‘z rizolik alomatini tovushsiz yig‘i ila izhor etadi [5.18]. Bu holat tasvirining o‘ziga xosligi shundaki, unda idrokka sig‘mas darajadagi bemisl baxtdan sarmast, quvonchdan so‘zlashga majolsiz kelinchak kechinmalari g‘oyatda nafis ifodalangan. Otasi Jahonshoh Jokudan nonu tuziga rizolik so‘rayotgan qiz andisha va ibosi romanning milliy koloritini kuchaytiradi. Bunday fikrni o‘z ayolidan ayrilib ko‘ngli vayronaga

aylangan, qizini uzatish arafasida uning peshonasidan o‘parkan, nimadir aziz narsasini yo‘qotgan yanglig‘ bag‘ri uvalgan va birdaniga ham o‘g‘illik, ham qizlik bo‘lganidan o‘zini ruhan osmonu falakda sezgan otaning qorishiq tuyg‘ulari borasida ham aytish mumkin. Romanni o‘qish jarayonida kitobxonni o‘ziga mahliyo eta oladigan bunday milliy o‘ziga xoslik zinhor uni befarq qoldirmaydi. Kelin-kuyov fayzi ilohiydan ziynatlangan go‘shangaga kirishar ekan, nigohlar ila bir-birini ardoqlovchi ikki dilning masrur termulishlari shunday ifodasini topadi: “Ko‘zlar so‘zlar edilar, quvonchlarini, qayg‘ularini, armonlarini, azoblarini, o‘pka-ginalarini, insonning baxtini, tole himmatini, iqbol sharafini, visol lazzatini...” [6.23]. Darhaqiqat, tillardan so‘z qochgan va bunga ehtiyoj ham bo‘lmagan, ikki pokiza ruh bir-birlarini so‘zsiz-da anglayotgan oniy lahzalar. Unda kuyov-kelin nigohlarida balqigan ishq nashidasi, uzrxohlik, shukronalik, shiringina o‘pka-gina, norozilik aralash rizolik, o‘kinchga yo‘g‘rilgan quvonchning tilsiz tuyg‘ulari, tolening buyuk tantanasi bari, bari namoyon edi.

“Mironshoh Mirzo” romanida Saroymulkxonim, Sulton Baxt begim, Xonzoda begim kabi qator temuriyzoda malikalarning jonli timsollari ham yaratilgan. Saltanat taomiliga ko‘ra ota-ona mehridan yiroq bo‘lgan farzandlar tabiatida ayrim hollarda bo‘y ko‘rsatuvchi bemehrlikni yozuvchi shahzodalarning tug‘ilishi bilanoq enagalarga topshirilishi, markaziy hukumat qaramog‘ida o‘sishi, jangu-jadalllar sabab bir necha yillab uzoq yurtlarga ketib qolishi kabi faktorlardan izlashga intiladi.

Qolaversa, barcha malikalar ham taomil talablari bo‘yicha o‘z farzandlari diydoriga zor yashashga majbur. Ayniqsa, uch yillik, besh yillik kabi uzoq davom etadigan yurishlar davrida ular yurak hovuchlab yashashadi. Ayriliqlar davrida mamlakatlar osha diydorga intiqlik bilan intilish, qisqa fursatdagi uchrashuvlar va yana bir-birlarining mehriga qoniqmay, xuddi mehmonga kelgan kabi shoshilinch orqaga qaytishlaru yo‘l azoblari. Bularning bari tinch va osoyishta hayot orzusida o‘rtanishlar bilan kechadi. Binobarin, ikki o‘rtada kelib chiquvchi anglashilmovchilik ildizlari aslida ham mehrsizlikda emasmikin,-degan ishtibohlar tug‘iladi. Demak, roman bizni o‘ylashga, fikrlashga undaydi.

Adib romanda tasvirlangan davr koloritini berish uchun o‘rta asrlarda faol qo‘llanilgan va hozirda nisbatan kam ishlatiluvchi talay so‘z va iboralar, harbiy anjomlar, jang usullari va geografik nomlarning arabcha, forscha, mo‘g‘ulcha, grekcha va eski o‘zbek tilidagi ekvivalentlarini qo‘llaydi. Mazkur hol zamondosh kitobxon uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘dirishini sezgan yozuvchi ular qo‘lanilgan har bir sahifada atamalarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi izohini berib boradi. Natijada, romanning o‘qilishini bir qadar osonlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Xuddi shunday holni hijriy yil hisoblarining melodiy izohlari keltirilgan, ayrim tarixiy asarlarga havolalar berish orqali ilmiy aniqlik ta’minlangan o‘rinlarda ham kuzatish mumkin. Nazarimizda, bunday yo‘l tutish orqali muallif kitobxonni ortiqcha zo‘riqishdan asrash barobarida, badiiy zamon va makonni konkretlashtirishga, demakki romanda sodir bo‘layotgan u yoxud bu tarixiy voqelikka bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlashga ham erishadi.

Uchinchi kitob ham ulkan intellektual salohiyat, tarixiy roman uchun nihoyatda zarur bo‘lgan ilmiy-adabiy kuzatishlar, poetik izlanishlar samarasi o‘laroq yuzaga kelgan. Ammo, nazarimizda aynan o‘sha qat’iy hisob-kitoblar romanning ayrim o‘rinlarida, qahramonlarni erkin harakatlanishdan muayyan darajada tiyib turganday, tuyg‘ular qorishiqligi poetik ifodasiga bir qadar soya solayotganday ham taassurot uyg‘onadi. Umuman, “Mironshoh Mirzo” romanida tetrologiyaning oldingi asarlaridagi yetakchi uslub va poetik tamoyillar saqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur Guragon. Zafar yo‘li (Tarjimai hol) nashrga tayyorlovchi, tarjimon, so‘zboshi va izohlar muallifi Ashraf Ahmad. T.; “Fan”, 1992.
2. Amir Temur. Temur tuzuklari. –Toshkent: O‘zbekiston, 2019. -183 b.
3. Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, T., 1996;
4. Ibn Arabshoh, Ajoib al-makdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida takdir ajoyibotlari). T., 1992;
5. Temur tuzuklari. Forschadan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi. T., 1991.

6. Gulchekhra, K. (2016). On the Specification of Trilogy “Good riddance” by Omon Mukhtor. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(7), 16-20.

7. Quilieva, G., & Tursunkulovna, S. I. (2021). Evolutionary development of tetralogy. European Scholar Journal, 2(6), 115-117.

8. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.

9. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.

10. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi’s poetry. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 332-340.

11. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER’S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, *70*.

12. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(3), 49-53.

XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “BOZOR” ROMANIDA BADIIY NUTQ VA USLUB

Saymuratova Ijobat Tursunqulovna
GulDU filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:saymuratovai@gmail.com

Abstract: *In this article, the issue of artistic speech and style in Khurshid Dostmuhammad’s novel “Bazar” is perceived, and monologic and dialogic forms of artistic speech are analyzed.*

Key words: *artistic discourse, style, dialogue, monologue, author’s explanation, novel, plot, image, state of mind, artistic text.*

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor” romani asosan muallif va personajlar nutqidan tashkil topgan bo‘lib, yozuvchi qahramonlar nutqini individuallashtirishda badiiy nutqning monologik va dialogik shakllariga tayangan. Darhaqiqat, “Monologik nutq deganda bir kishining (kimdir birov yoki o‘ziga murojaat shaklidagi) nutqi tushunilsa, dialogik nutq ikki yoki undan ortiq personaj orasidagi muloqotda voqe bo‘ladi” [2:250]. Badiiy nutqning bu kabi ko‘rinishlari qahramonning ruhiy kechinmalarini (monolog), fikr-mulohazalarini (dialog) ifodalaydi, obraz mohiyatini to‘laqonli ochishga xizmat qiladi.

Badiiy nutqning dialog shakli asosan personajlar dunyoqarashi, o‘y-fikrlari, orzu-umidlari va maqsadlarini kitobxonga aniqroq yetkazib berishga xizmat qilsa, ular orasidagi muallif izohi, ya’ni remarkalari aynan dialog jarayonidagi qahramonlarning ochilmagan eng muhim qirralarini kengroq tavsiflashga yaqindan yordam beradi. Darvoqe, D.Quronov ta’kidlaganidek: “Dialogda muallif remarkasi tarzida beriluvchi personajning yuz-ko‘z ifodasi, mimikasi, undagi fiziologik o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Ular personaj nutqini “eshitish” va uning xatti-harakatini “ko‘rib turish” imkonini – sahnaviylik effektini yaratadi, inson obrazining to‘laqonli, jonli chiqishini ta’minlaydi” [2:108].

Mavzu doirasidagi tahlillar. Romanda syujetning ikki liniyasi mavjud bo‘lib, bu – ijtimoiy va sevgi liniyalaridir. Romanning ijtimoiy liniyasida bozor yetakchilik qilsa, sevgi liniyasini Fozilbek va Qadriyaning munosabatlari tashkil etadi. Yozuvchi syujetning ikki liniyasi rivoji davomida inson va bozor, inson va muhabbat, inson va ma’rifat, inson va mehr-oqibat kabi davrning eng dolzarb muammolarini tahlilga tortadi. Fozilbekni yoshi o‘ttizga yaqinlashib qolgan bo‘lsa-da, uylanmagan. U uylanishdan biroz cho‘chib turadi, to‘g‘risi uylanishni uncha ham xohlamaydi, sababi unga mos keladigan “Munosibxon” topilmaydi. Romanning asosiy syujeti ham shu mavzu bilan bog‘liq dialog bilan boshlanadi:

– Tanimagan-netmaganimni, sinamagan-bilmaganimni tanlashdan uyalaman.

Habiba ukasining bemavrid hazilidan battar xunobi ortdi.

– Tanish-bilish uchun, nima, birovvi qizini ichiga kirib chiqishing kerakmi?! Ovval nari-beridan ko‘rgin, yuzlashtiraylik... husni, bo‘y-basti ma’qul kelsa, bo‘ldi-de! [1:11].

Mazkur suhbatdan Fozilbekning oilaga bo‘lgan munosabati anglashiladi. Bu bilan uning ma’naviyatli, pok vijdonli va oriyatli inson ekanligiga ishora qilinadi. Voqelar davomida qahramonning ma’naviy qiyofasi asar personajlari bilan bo‘lgan suhbatlar jarayonida oydinlashadi. Shu bilan birga voqealar oqimi davomida dialoglar ham rivojlanib boradi. Yozuvchi asosan Fozilbek va bozorning asl qiyofalarini ochishda psixologik xarakterga ega bo‘lgan dialoglardan samarali foydalangan. Fozilbek va bozor qiyofalarini ochish orqali odam va olam munosabatlari idrok etiladi.

– Nimadan kulyapsiz, otasi? – choliga avaylabgina savol qotdi Umri ona. U cholining fe’lidagi g‘alati o‘zgarishni sezib o‘tirgan edi.

– Bozordan... bozorning ustidan kulyapman, – dedi Qosimbek oqsoqol o‘sha zahoti lab-lunjini yig‘ishtirib. – Bozorni epaqaga keltiraman, degan niyatda umrimni sovurganimdan kulyapman... [1:31].

Jaholatga yuz burgan bozorni yo‘lga solmoqchi bo‘lgan Qosimbek bozorboshining butun umri bekorga ketganligini hayoti o‘z poyoniga yetayotgan bir mahalda anglagani o‘z tilidan ishonarli va ta’sirchan ifodalangan. Qosimbek ham hamma qatori oddiy odam, boshi yostiqqa tekkandagina inson qadri-qimmatini, o‘zligini anglashi uning ruhiyatida sodir etilgan o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

Romandagi qaysi bir dialogni olib qaramaylik, suhbat jarayonlarida qahramonlarning qalb kechinmalari, ko‘ngil tug‘yonlari, istak va xohishlari dialog va monologlarning dialektik birikuvi vositasida, muallif nutqining monologlarga singib yangi bir badiiy kashfiyot hosil qilganligining guvohi bo‘lamiz. Romandagi har bir lavha va har bir timsolning muayyan ibtido hamda mantiqiy intihoga egaligi asarning muallif ko‘ngli tubidan chiqqanligini, u badiiy matnning har bir unsuri ustida astoydil puxta ishlaganligini anglatadi.

Fozilbek bozor aylanib yurib o‘zining “Munosibxon”ini topganday bo‘ladi. Uni bir ko‘rishdayoq yaxshi ko‘rib qoladi.

–Uzumning qanaqasi yaxshi... – “Yaxshi ko‘rasiz” demoqchi edi, so‘nggi lahzada savolini o‘zgartirdi: – ...bo‘ladi?

Fozilbek qizdan ko‘z uzmadi, savolining beo‘xshov chiqqanini ham o‘ylab ko‘rmadi, qizning oppoq manglayiga, bo‘yniga o‘g‘rincha ko‘z qirini tashladi. Qiz bosh ko‘tarib unga qaramadi, lekin savolni javobsiz ham qoldirmadi:

–Husaynisi...

So‘ng... Fozilbek ortiq so‘z topolmadi, og‘iz juftladiyu, tili tanglayiga yopishdi-qoldi. O‘yini o‘ylaguncha notanish qiz ikki bosh husaynini qog‘oz xaltaga solib, rastadan uzoqlashdi. Fozilbek serrayib, uning izidan kuzatganicha qoldi.

–Kitobxonada ishlaydi...

Fozilbek qulog‘iga chalingan bu xushxabarni durust anglamadi, izdihom orasidan ko‘zdan yiroqlashib borayotgan qiz uning yuragini yulib olib ketayotgan edi. Mo‘ysafid uzumfurushning keyingi so‘zlari xayoli parokanda yigitning qulog‘iga elas-elas chalindi.

–Anavindagi rastaboshining qizi. Boyaqish, oyday, baxti ochildiyu...

“Sutga chayilganday!” deb yubordi Fozilbek beixtiyor.

Ushbu dialogdan ko‘rinadiki, yozuvchi sevgining qudratini Fozilbekning ruhiy kechinmasi, uning qalbida kechayotgan hayajon, his-tuyg‘usi orqali tasvirlab beradi. Dialog tarkibida kelgan muallif izohlari har ikki qahramon xatti-harakati va holatini ochiq ifodalashga xizmat qilgan. Muallif ruhiy holatni shunday ishonarli tasvirlaganki, Fozilbek hatto muysafid cholning so‘zlariga e’tibor ham bermaydi. E’tibor berishni ham istamaydi, chunki uning xayolini Qadriya band etgan edi. Romandagi mana shu epizoddan keyin bosh qahramon bilan bog‘liq voqealar rivoji keskin tus oladi. Voqealar rivoji davomida Fozilbek har xil yoshdagi kishilar bilan suhbatda bo‘ladi, bu dialoglar sistemasi o‘sishi jarayonida bozorning asl qiyofasi, roman voqeligidan ko‘zlangan mohiyat ochilib boraveradi. Yozuvchi obrazlar xarakterini yoritar ekan, obrazlar haqidagi munozaralarida muallif nutqi ularning ruhiy holatlarini oydinlashtiruvchi vazifani bajargan. Nafaqat ruhiy holatlarini balki qahramonlarning ma’naviy inson sifatidagi mohiyatini ham ochishda bir vosita vazifasini o‘tagan.

Romandagi badiiy matnning katta qismini muallif nutqi tashkil etadi. Muallif nutqi birgina roman voqeligi va uning tafsilotini, qahramon xatti-harakatlarini izohlabgina qolmay, balki ularning ham ichki ham tashqi qiyofalarini ochishga xizmat qiladi. Qahramon holati tasvirlangan mazkur parcha kitobxon diqqatini jalb etadi: “Sezgilari *sirqiraydi, sirqirasa-da, sezdirmaydi. Sezdirmasa-da*, ularning har boqishida o‘zicha, “Onamizning joni evaziga tug‘ilgansan!” degan ta’na-dashnomni

o‘qiydi” [1:100]. Matndagi takrorlar birinchidan ma’noning kuchayishini yuzaga keltirgan bo‘lsa, ikkinchidan ham holat, ham munosabatni ifodalanishini ta’minlagan. Shu bilan birga yozuvchining asar tilini ta’sirchan ruhda kitobxonga yetkazib berish iqtidorini namoyon qilgan.

Asar voqeligini birgina muallif nutqi orqali izohlanishi yozuvchi uslubidagi biryoqlamalikni yoki quruq bayonchilikni yuza kelishiga sabab bo‘ladi. Shu bois dialoglar orqali qahramonlar nutqini harakatlantirish roman matniga o‘zgacha ruh va joziba bag‘ishlaydi. Dialog vositasi orqali qahramonlarning fikrlash doirasi, dunyoqarashi, xatti-harakatlari va o‘ziga xos jihatlari kitobxonga aynan ularning nutqi orqali ifodalanishi asardagi ishonchlilikni ta’minlagan omillardan biri sanaladi.

Dialog orqali muallif qahramonlarga tegishli ayrim ma’lumotlarni berish bilan birga, ularning nutqini individuallashtirishga ham erishadi. Professor Y.Solijonov o‘rinli ta’kidlaganidek: “Romanning eng muhim qismlaridan biri hisoblangan dialog o‘zining mustaqil qurilishi sistemasiga va qatiy tartib-qoidalarga egadir. Dialog badiiy asardagi avtor bayoni bilan chambarchas element hisoblanadi. Binobarin, dialog ham bayon tarkibiga kiradi, bayondan xoli tarzda mavjud bo‘lolmaydi, aksincha, uning shartlarini ado etishga bo‘ysundiriladi” [3:112]. Asar qahramonlari o‘rtasida kechgan dialogda roman voqeligini va undan anglashilgan mohiyatni o‘zida to‘la yaxlitlagan lirik prozaning namunalarini ko‘rish mumkin:

Dunyo boshi gulzo**r**, odoshi mozo**r**.

Gulzo**r**u mozo**r**ning orasi bozo**r**... [1:146].

Personaj nutqidan olingan mazkur she’riy parchada so‘z va tovushlar takrori qo‘llanilgan. “She’riy sintaksisda eng keng qo‘llaniluvchi vositalardan biri takrordir. Avvalo shuni aytish kerakki, takror tilning barcha sathlariga xos hodisa bo‘lib, she’riyatda uning bir qator xususiy (tovush takrori, so‘z takrori, anafora, epifora, ma’no takrori, ma’noning kuchaytirilgan va susaytirilgan takrori, misra takrori, band takrori) ko‘rinishlari faol qo‘llaniladi. She’riy misralarda bir xil tovushlar takrori alliteratsiya deb yuritiladi. Alliteratsiyaning vokal (unlilar takrori) va konsonans alliteratsiya (undoshlar takrori) mavjud” [2:325]. She’riy parchada kuzatilgan so‘z va tovushlar takrori asar qahramoni G‘ulomjonning hayot va o‘lim haqidagi fikrlarini juda aniq, shuningdek, hayotiy haqiqatga mos keladigan kechinmalarini haqqoniy ifodalagan. Lirik matndagi gulzor va mozor tasvirlari tug‘ilish va qaytishni o‘zida to‘la aks ettirgani bilan g‘oyatda ta’sirli. Hammaning tug‘ilishi jarayoni bir xil bo‘lsa-da, biroq, yashash tarzi va o‘limga olib keladigan holati turlicha bo‘lishi mumkinligi ishonarli ifodalangan deyish mumkin. Muallifning quyidagi izohi ikki qahramonning suhbat jarayonidagi holatini ruyobga chiqargan:

G‘ulomjon juda tiniq ovozda aytdi bu baytni, Fozilbekning nazarida bemorning tovushi jaranglab eshitildi.

–Yana ayting, takrorlang! – deb uni qistadi.

G‘ulomjon mehmonning iltimosini bajo keltirdi, so‘ng, “Sa’dulla Ahmadning she’ridan. Yo‘g‘on, jingalak sochli yigit bor-ku, shoir” deb izoh qo‘shdi. Va qaytadan mador yig‘ish maqsadida ko‘zlarini yumganicha jim qoldi. Fozilbek bemorni o‘z holiga qo‘ydi, hozirgina eshitgan baytni o‘zicha takrorladi, G‘ulomjon ilgaridan hisobsiz she’r va termalarni yoddan bilishini esladi [1:147].

Muallif nutqidagi “Sa’dulla Ahmadning she’ridan. Yo‘g‘on, jingalak sochli yigit bor-ku, shoir” izohi yuqorida keltirilgan lirik parchaning kimga tegishligini va uning tashqi portretini, “G‘ulomjon ilgaridan hisobsiz she’r va termalarni yoddan bilishini esladi” izohi esa qahramonning individual tabiatini ifodalashga xizmat qilgan. Shu bilan birga bugun bilan yashay olmaydigan, ertangi kun uchun qayg‘uradigan, dunyo tashvishlaridan nadomat chekadigan, adolatsizliklarga toqat qilolmaydigan G‘ulomjon obrazi retrospektiv yo‘sinda tasvirlangan.

Yozuvchi romanga bozorning asl qiyofasini va uning muhitini ochib berish uchun Baxtish, kampir, G‘ulomjon, Egam bobo, Zar bobo kabi bir qator yordamchi obrazlarni olib kiradi. Fozilbek deyarli har kuni bozor aylanadi, qiladigan asosiy ishi shundan iborat, shu sababli bozorni o‘zicha taftish etadi. Muallif o‘zining g‘oyaviy niyatini amalga oshirish uchun Fozilbekni obrazlarning har biri bilan suhbatlashtiradi. Romanning syujet yo‘nalishini an’anaviy uslubda yozilgan asarlardagidek voqealar tizimi emas, balki obrazlarning fikr-mulohazalari, o‘ylari, dunyoqarashi va ongi tashkil etadi. Romanda chuqur ma’noli, teran fikrli dialoglar Fozilbekning xarakterini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, asarda ichki monologlarga keng fikrlilik xos bo‘lib, ular qahramonning xarakterini badiiy psixologik yo‘nalishda ochishda katta ahamiyat kasb etgan. Roman syujetining ayrim qismlarida shunday kengaytirilgan o‘ylar, ya’ni qahramonning xotira-monologlari, avval bo‘lib o‘tgan voqea-

hodisalarni ko‘z oldiga keltirishi orqali tasvirlangan. Asar g‘oyasi va yozuvchining maqsadini kitobxonga yetkazib berishda dialoglar bilan birgalikda monologlar ham birlamchi xususiyat kasb etgan.

“Fozilbek o‘zining tug‘ilish onlarida kechirgan uqubatlarini, sho‘rlik onaizori chekkan azoblarini tasavvur qilib, og‘ir xo‘rsindi. Buni akasiga sezdirmaslik uchun atayin kulimsiradi. “Mana, haqiqiy cho‘pchak, aka!.. Necha-necha o‘limlarni dog‘da qoldirib, eson-omon tug‘ilishning o‘zi cho‘pchak! Cho‘pchakdan bu yog‘i esa...Tug‘ilgunga qadar... ona qornidagina minnat, ta’ma yo‘q. Keyin esa, keyin... bosh qora tuproqqa yetgunga qadar bu dunyoning jamiki cho‘pchagi har qadam-har nafasda ilinj, ta’ma, minnatga hamroh, atrofingda girdikapalak, ulardan qochib qutulolmaysan, ularning qurshovida yashab o‘tishga mahkumsan, odam!...” Fozilbek xayolidan kechgan o‘ylarini akasiga ovoz chiqarib aytmadi... [1:54]. Fozilbekning ushbu kechinmalari ichki monolog bo‘lib, monolog-xotiraga misol bo‘ladi. U onasini juda ko‘p xotirlaydi, uning o‘limiga o‘zini sababchi deb hisoblaydi, u tug‘ilmaganida onasi bu yorug‘ dunyoni tark etmagan bo‘lardi. Uning xotiralari chuqur mulohazaga undab, xayol ummoniga yetaklaydi. Qahramonning ichki monologi muallif nutqi bilan uyg‘unlashib, retrospektiv syujetni yuzaga keltirgan va asardan ko‘zlangan bosh maqsadni kitobxonga yetkazgan.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. “Bozor” romanida badiiy nutqning monologik va dialogik turlarini qo‘llash usuli yozuvchi tomonidan mahorat bilan qo‘llanilgan. Roman g‘oyasini ochib berishda qahramon, muallif va o‘quvchi ishtiroki yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan nutq vositalarining ta’sirini yanada oshiradi va vazifasiga aniqlik kiritadi, hatto nutq unsurlari qahramonlarning psixologik holatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Demak, badiiy asardagi har bir unsur yozuvchi uslubini ochib berishga xizmat qilar ekan, aynan “Bozor” romanida qo‘llanilgan nutqni tavsiflash vositalari – xarakter qirralarini tahlil qilish ham, qalb dialektikasi ham ijtimoiy munosabatlar to‘qnashuvlarning xarakterlarga ta’sirini tahlil qilishi ham sintezlashgan holda namoyon bo‘lgan Xurshid Do‘stmuhammad uslubini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do‘stmuhammad X. Bozor. Roman. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2016.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018.
3. Yerjanova, S., & Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 832-841.
4. Saymuratova, I., To‘rayeva, D., & Saidova, S. (2023). BADIIY ASARDA TAVSIFLASH VOSITALARI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 19-24.
5. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER’S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. Open Access Repository, 9(12), 163-174.
6. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.

Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.

Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.

7. Primov, A. A. (2021). “Poetics”-as A General Theoretical Education. European Scholar Journal, 2(6), 202-204.
8. Sariboeva, M. (2018). THE ROLE OF NAVOIS WORKS IN THE FORMATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED YOUNG GENERATION. Bulletin of Gulistan State University, 2018(1), 74-79.
9. Gulchekhra, K. (2016). On the Specification of Trilogy “Good riddance” by Omon Mukhtor. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(7), 16-20.

Quilieva, G., & Tursunkulovna, S. I. (2021). Evolutionary development of tetralogy. European Scholar Journal, 2(6), 115-117.

LUQMONI HAKIM SIYRATINING SHARQ-MUSULMON MANBALARIDAGI TALQINI

Rahmatjon To‘raqulov Zokir o‘g‘li
o‘qituvchi
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV mavze
E-mail: rahmatulloh_muhammad@mail.ru Tel: 915692274

Annotation: Luqmoni hakim, short story, poetry, Uzbek literature, analysis, research, prophet, prophet, hakim, thinker, commentator, text, research, matal, guide, description.

Key words: Luqmoni hakim, short story, syrat, Uzbek literature, analysis, research, prophet, prophet, judge, thinker, commentator, text, research, matal, guide, description.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Luqmoni hakim — o‘zbek adabiyoti tarixida ulug‘ donishmand sifatida tanilgan siymolardan biridir. U Qur’oni Karimda nomi zikr etilgan muhaqqiq olim inson. Uning o‘z o‘g‘liga qilgan nasihati islomiy va’zning betakror namunasi hisoblanadi. Sharq musulmon xalqlari uning nomini asri saodatdan buyon ezgu sifatlar ila zikr etishib, ilm-u donishning ulug‘ sohibi o‘laroq e’zoz etib kelishadi. Shundan aksar musulmon xalqlari adabiyotida bu zot xususida turli ibratli hikoyat, matal va qissalar vujudga kelganki, ularning barchasida Luqmoni hakim hidoyatga, haqqa chorlovchi, yetaklovchi rahnamo sifatida tavsiflanadi. Qur’oni Karimning Luqmon surasining tafsirida shunday ma’lumotlarni uchratamiz: “Luqmon - tarixda Luqmoni hakim deb shuhrat topgan habashiy bir dono shaxsning nomi. Ulamolar uning payg‘ambar yoki valiy bo‘lgani haqida bir fikrga kelisha olmaganlar. Chunki na Qur’onda va na hadislarda uning kim bo‘lgani to‘g‘risida aniq ma’lumot berilmagan. Faqat Qur’oni Karimda uning o‘z o‘g‘liga qilgan foydali, ibratomuz nasihatlaridan asosiy qismi berilgan. Qolgan qismlarini esa rivoyatlar orqali naql qilinib, to bizning asrimizgacha ham yetib kelgan. Suraning boshqa oyatlarida tavhid va imonga da’vat, kufr va shirkdan qaytarish kabi o‘gitlar talqin etiladi.”[1:411]

Mavzu doirasidagi tahlillar. Ushbu zot haqidagi ma’lumotlarning jamlanma shakli “Qur’oni Karim mavzuiy tafsiri ensiklopediyasida” quyidagicha bayon etiladi: Mufassirlar Luqmoni hakimning ismi va nasabi borasida ikki xil ma’lumotni aytishadi:

Birinchisi, uning ismi Luqmon ibn Bauro ibn Nohur Ibn Torx (Ozar). Luqmoni hakim Ayyub alayhissalom singlisining og‘li bo‘lgan. [5:312] Imom Bayzoviy va Hozin aytishadiki: “U Dovud alayhisalom tug‘ilmasdan burun yashagan. Dovud alayhissalom undan ilm o‘rgangan. Dovud alayhissalom payg‘ambar bo‘lgunicha, u odamlarga fatvo bergan. [3:213]

Ikkinchisi, Imom Ibn Kasir “Al-bidoya van-nihoya” asarida shunday deydi: “Uning ismi Luqmon bin Anqo bin Sadun. As-Suhayliy Ibn Jarir va Al-Qanibiydan hikoya qilishicha u nubiyalik va Ayla shahridan. Aytamanki, u solih, ibodat va fasih iborat sohibi bo‘lgan ulug‘ hakim insondir. Uni Dovud alayhissalom zamonida qozi bo‘lgan deyishadi. Fallohu a’lam. [4:123]

Yashagan zamoni va o‘rni: Luqmoni hakimning yashagan zamoni va o‘rni xususida aniq ishonchli ma’lumotlar uchramaydi. Mufassirlar bu xususda ikki xil ma’lumotlarni bayon etishadi:

Birinchisi, jumhur mufassirlar Luqmoni hakim Dovud alayhissalom zamonida yashagan degan mulohazani quvvatlaydilar. Zamaxshariy : “ Uning ismi Luqmon ibn Bauro bo‘lib, u Ayyub alayhissalomnng singlisi yoki xolasining farzandi bo‘lgan. Aytishlaricha u Ozarning avlodidan bo‘lib, Dovud alayhissalom uning hakim zot ekanligini bilib, undan ilm olgan” [5:492] deydi. Ibn Kasir Mujohiddan shunday rivoyatni keltiradi: “Luqmon Dovud alayhissalom zamonida bani isroil ichida qozi edi. Ammo uning nomi isroiliy manbalardan topilmaydi [6:298]. Tarixchilar Luqmoni hakimni Dovud alayhissalom zamonida yashaganini ta’kidlaganlar.

Ikkinchisi, U Iyso va Muhammad alayhumassalomlar o‘rtasida yashagan.

Birinchi manba kelgan ma’lumotlarga ko‘ra kuchli bo‘lib, Dovud alayhissalomning miloddan avvalgi 10-asrda yashaganinini inobatga olsak, demak u 960-1000 yillarda yashaganini gumon qilish mumkin.

Yashagan o‘rni: Mufassirlar Luqmoni hakimning vatani borasida 3 xil ma’lumotlarni keltirganlar:

Birinchisi, Jobir bin Abdulloh roziallohu anhu va Sa’id ibn al-Musayb aytadi: Luqmon Misr Sudanining Asvadidan edi. Ya’ni u Misr Sudanidagi Nuba ahlidan edi. (Bu shahar Misrga qarashli Asvonda joylashgan)” [7:331].

Ikkinchisi, Ibn Abbosning gapiga ko‘ra u habashiy qul bo‘lgan. Imom Ibn Jarir va Ibn Abu Hotim Mujohiddan rivoyat qiladi: “Luqmoni hakim katta lablik, keng qadamlik Bani Isroilda qozilik qilgan habashiy qul edi [O‘sha asar].

Uchinchisi, Luqmon hakim Ayla shahridan edi [8:59]. Ayla Shomning quyi qismida, Qizil dengiz sohilida joylashgan shahar bo‘lib, aytishlaricha u Hijozning oxiri va Shomning boshlangan yerda bo‘lgan, bugungi Iordaniya hoshimiylar podshosligiga qarashli Al-Aqba shahri o‘rnida bo‘lgan [9:292].

Bularning ichida eng ishonarlisi, aksar mufassirlar ma’lumotiga ko‘ra, u Misr Sudanining Nuba shahridan bo‘lganligi haqidagi ma’lumotdir [10:135].

Qur’oni Karimda kelgan ma’lumotlarga ko‘ra Luqmoni Hakimning Allohga iymon keltirgan mo‘min, obid va shokir zot bo‘lganligini, Alloh taolo unga hikmat, ilm va fahm in’om etganligini, shuningdek, u solih, hakim va nasihat qilguvchi nosih inson bo‘lganligini bilishimiz mumkin. U zot haqida xilma-xil voqealarning bayoni borki, bularning bunday ko‘payishiga sabab uning aniq ismi va nasabiga aloqador Qur’onda va hadisda Luqmon surasidagi ma’lumotlardan boshqa ma’lumot keltirilmaganligidir. Bu o‘rinda biz shu bilan cheklanishimiz va ortiqcha asossiz bayonlarga berilmaganimiz ma’qul Ulusiy yozadi. “Menda bunday xabarlarning biror tasiga ishonch yo‘q. Naql qilinganlardan o‘zim haq deb biladiganim, u hakim va solih inson bo‘lgan, nabiy bo‘lmagan”[11:32].

O‘zbek siyrat adabiyoti tarixida payg‘ambarlar, hakim zotlar haqida ushbu kunga qadar turkiy tilda anchayin mufassal kitob yozgan olim Xorazmdagi Raboti O‘g‘uz muzofoti qozisi Nosiruddin ibn Burhonuddin Rabg‘uziy bo‘lib, uning “Qisas ul-anbiyo” yoki “Qisas ur-Rabg‘uziy” nomli asari dunyo durkiy xalqlari, ayniqsa, O‘rta Osiyo, Janubiy va Sharqiy Turkiston, shuningdek, Volgabo‘yi turkiylari orasida keng tarqalgan va birlamchi islom tarixi haqida ma’lumot beruvchi mo‘tabar manba sifatida qaralgan. Asarning ta’lif etilganidan to shu kunga qadar ko‘plab qo‘lyozma va toshbosma nusxalari tarqalgan bo‘lib, bu nusxalarning bu darajada ko‘p tarqalganining asosiy sababi, turkiylarning islom tarixiga bo‘lgan qiziqishi, va xalqning o‘z ona tilida bunday manbalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojidir.



Asar Qur’onda zikri kelgan payg‘ambarlar, turli qavmlar haqidagi qissalardan tashkil topgan bo‘lib, har zamon va davr o‘quvchilari uchun bu qissalar favqulodda ahamiyatga molik va diqqattalab mavzu hisoblangan. Asarda yuqorida biz tarjimayi holi bilan tanishib chiqqan Luqmoni hakim qissasi ham Iyso alayhissalom qissasining so‘ngida keltirilgan bo‘lib, qissa Hazrati Luqmon haqida qiziqarlik ma’lumotlar bilan tarkib topgan. Asardagi Luqmoni hakim qissasi mavzuiy jihatdan ikki qismga bo‘lingan. Birinchi qismda, Luqmon hakim ma’lum va mashhur ma’lumotlar, jumladan, yuqoridagi salaflar ma’lumotlarining ma’lum qismi bayon etiladi: “Luqmon Dovud yalavoch vaqtinda erdi. Uzun tishlik bir habashiy qul erdi. **Ul** ming besh yuz yashadi. Aymishlar, bir yo‘nuchining quli erdi. Xojasi ozod qildi. Aymishlar, o‘zi yo‘nuchi erdi Aymishlar, Mavlo taolo anga ikki farishta izdi, **kun o‘rta vaqtida**. Aydilar: “Ey Luqmon, tilasang senga **yalavochliq** beraling, tilasang hikmat beraling”. Luqmon aydi: “Manga hikmat kerak. Hikmat ma’nisi **ko‘ni,** pishig‘ **ishlik** bo‘lur”. Yana so‘rdilar: “Yalavochlikg‘a naluk unamading?”. Aydi: “Og‘ir yuk turur”. Mavlo taolo **hikma**t birla ul choqlig‘ hikmat **bayon qildikim,** qamug‘ **yalavochlar** anga muhtoj bo‘ldilar [14:74]. “Luqmon Dovud payg‘ambar vaqtida tirik erdi.(Aymishlar uzun tishlik habashiy qul erdi. Uch ming besh yuz yil umr surdi. Aymishlar bir duradgorning quli erdi. Mavlo taolo anga ilm va hikmat berdi. Mavlo taolo ikki farishta yubordi. Aydilar: “Ey Luqmon, tilasang, payg‘ambarliq berali, yo‘q desang ilm va hikmat berali. Luqmon aydi: “Payg‘ambarliq kerakmas, manga ilm va hikmat kerak”, tedi. So‘rdilar: “Payg‘ambarliqg‘a nechuk unamassen?”. Aydi: “Payg‘ambarliq ulug‘ ish turur”. Manga ul ot birla bo‘lg‘uncha ilm birla orig‘ ish kerak” tedi. Hikmat ma’nisi ko‘ni so‘z, pishig‘ **ish** bo‘lur. Mavlo taolo onga oncha ilm va hikmat berdi, qamug‘ payg‘ambarlar anga muhtoj bo‘ldilar [13:25]. Luqmon hakimning hayotiga oid ma’lumotlarni ixtilofli jihatlari asarda umumiylik o‘lartoq talqin etilgan. Qissa hikoyatlar tarzida Luqmoni hakim hayotiga aloqador turli voqeiy holatlar orqali bayon etilgan. Hikoyatlarning birida Luqmoni hakim davlatmand olijanob inson sifatida tavsiflansa, bir o‘rinda xojasini o‘z zakovati bilan lol qoldirgan sodiq xodim o‘laroq talqin etiladi. Qur’onda uning farzandiga nasihati bayoni uchraganidan u haqidagi hikoyalarning voqeiy qismida uning o‘g‘li ham asosiy qahramon sifatida qatnashishining guvohi bo‘lamiz. Hikoyatlar “Aymishlar”, “andog‘ rioyat qilurlar” deya bayon tarzida boshlanadi. Hikoyatlarning matniy holati birmuncha mutafofutli holatda. Buni yuqoridagi parchalar matniy holati ham ko‘rsatib turibdi. “Yalavoch” so‘zi keyingi davrlardagi asar nusxalarida “payg‘ambar” tarzidagi forsiy muqobiliga almashtirilgan. Ba’zi o‘rinlarda qo‘lyozmalar matni arab xatining xat turi darajasidan kelib chiqib, ayri mazmunning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan Chunonchi, Qozonda nashr qilingan nusaxasida Luqmon hakimning yashagan yili “**Ul** ming besh yuz yashadi” degan jumla orqali uning 1500 yil yashaganiga daolat qilsa, London nusxasida “Uch ming besh yuz yil umr surdi” jumlasi orqali uning 3500 yil yashagani haqida ma’lumotni havola etayotir.

Ushbu ikki jumlaning eski o‘zbek yozuvidagi shakli bir-biriga juda o‘xshash bo‘lganidan bunday ikki xil talqin yuzaga chiqqanligini taxmin qilish mumkin. ”اول مینگ بیش یوز ییل “, “اوچ مینگ بیش یوز ییل”

Mazkur qissada muallif Luqmoni hakimning sifatlarini birma-bir bayon etishdan chetlanib, uning xislatlariga, ayniqsa, hikmat sohasiga oid xislatlariga aloqador 6 ta hikoyat keltiradi. Hikoyatlarning mazmuni ayni sohada Rabg‘uziydan avval yozilgan siyrat kitoblarida uchramaydi. Shu boisdan ularning bir qismi rivoyatlar asosiga asoslangan folklor hikoyatlar bo‘lsa, bir qismini isroiliyyot asosida yozilgan deyish mumkindir. Chunki Rabg‘uziyning bu asarni yozishda murojaat etgan Abu Is’hoq Nishopuriyning “Qisas ul-anbiyo” asarida yetarlicha isroiliyyot mavjudligini ko‘rish mumkin. Luqmon qissasining dastlabki 5 ta hikoyatida hakimning donoligi, hozirjavobligi, teran aql sohibi va purtajriba donishmand bo‘lganligi haqida gap boradi. Chunonchi, bu hikoyatlarning birinchisi Luqmoni hakimning hakim-donishmand darajasiga yetganligining sababini ko‘rsatuvchi hikoyat bilan boshlanadi: “**Aymishlar, bir kun o‘lturub xaloyiqg‘a o‘gut berur erdi. Bani Isroildin biragu telim xaloyiq ko‘rdi. Ularg‘a bordilar. Luqmonni ko‘rdi, o‘gut berur. Ortindin kelib, bo‘ynin tutub qisti. “Luqmon senmusen!” tedi. Aydi: “Bale”. Aydi: “Bu maqomga neding tegding?”. Luqmon aydi: “Ko‘ni so‘zlar birla amonatni o‘tadim, haqg‘a yaramasni qo‘ydum — bu maqomg‘a tegdim”. [12:75]**

Keyingi hikoyatlarda odamlarning u zot siyratidan ibrat olishligi uchun Luqmoni hakimning taqvodorligi, zakiyligi aks etgan voqealar bayon etiladi: “Hikoyatda kelmish, bir kun xojasi Luqmonni bug‘doy ekkali izdi. Luqmon borib arpa ekti. Xojasi aydi: “Bug‘doy ek tedim, ne uchun arpa ekting?”. Luqmon aydi: “Arpa eksa bug‘doy unmasmu?” Xojasi aydi: “Unmas”. Luqmon aydi: “Andog‘ bo‘lsa sen ham yomonliq ekib yaxshiliq umid etmagil”. Yana bir hikoyatda aymishlar, Luqmon qarz berur erdi, tanuqsiz, bitiksiz. Biragu kelib ming oltun oldi, bermas niyati uza. Borurda yarog‘ing‘a o‘lturdi. Oltunni qizil o‘proq birla chulg‘ab qo‘ydi. Qush havodin ko‘rub, et xayol qilib uchti. Luqmon evi to‘shung‘a keldi ersa oltunni tumshuqidin tushurdi. Luqmon oltunni tanib evinda qo‘ydi. Ul kishi kelib yana ming oltun oldi. Hamul niyat uza. Suvdin kecharda oltunni suvg‘a tushurdi. Ul suv Luqmon evinga borur erdi. Luqmon suvda ko‘rub, oltunni tanub oldi. Ul kishi uchunchi kelib yana ming oltun oldi, hamul niyat birla, Ani ham yiturdi. Sabab birla Luqmon qo‘lig‘a kirdi. To‘rtunchi kelib ming oltun oldi. Bu niyatbirlakim, sotig‘ qilayin. Mavlo taolo foyda bersa, to‘rt ming qilib, oltunni Luqmong‘a berayin teb. Telim foydalar ko‘rdi. To‘rt ming oltunni kelturub Luqmon o‘rninda qo‘ydi. Luqmon ming oltunni oldi, o‘zgalarin olmadi, haqiqat manga tegdi teb. Luqmong‘a xojasi aydi: “Borg‘il, bir qo‘y bo‘g‘uzlab etindin qayu yaxshiroq ersa manga kelturgil”. Qo‘yni bo‘guzladi, tili birla yurakin olib keldi. Xojasi so‘rdi: “Bularni naluk kelturdung?” Aydi: “Qo‘yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo‘q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdan yovuzroq yo‘q”. [12:75]

Ammo asardagi oltinchi hikoyat Luqmon hakim shaxsiyatiga muvofiq kelmaydigan uydurma va to‘qimadan iborat bo‘lib, qissaning bu qismi avvalgi qismlaridan ham mazmunan ham usluban ayrichadir. Unda Luqmoni hakimning donishmandligini sinash uchun bir podshohning uni zindonband etganligi, bir necha zamonlardan keyin uning yer ostiga ko‘mib yuborilganligi xabarini eshitgan podshohning o‘g‘li uni axtarib topganligi, o‘g‘li vafot etib o‘zi o‘lar holga kelib qolganligi, yerdan yuqoriga chiqqach kuchga kirish uchun turli nomunosib narsalardan foydalanganligi hikoya qilinadi.

Qur’onda nomi hikmat va xayriyat ila eslanuvchi hakim zot ayni hikoyatda axloqan buzuq shaxs sfatida mifologik tasavurlar bilan ta’riflanadiki, ayni hikoyat o‘quvchida bevosita avvalgi hikoyatlar mazmunidan hosil bo‘ladigan Luqmoni hakim haqidagi ajoyib xislatlar jamlanmasini bekorga chiqarib qo‘yadi. Qur’onda nomlari zikr etilgan azizlarga nisbatan bunday munosabatda bo‘lishning ildizlari sababi haqida siyrat olimi Abdulattoh Tabbora shunday yozadi: “Qur’oni karimning payg‘ambarlarga bo‘lgan munosabati Eski ahddan ayni o‘rinda jiddiy farq qiladi. Eski ahdda ba’zi payg‘ambarlar kizb, aldov va gunohi kabiralarni

kasb qilganlikda ayblangan. Xususan, Ya'qub alayhissalomga aldoqchilik, Lut alayhissalomga qizi bilan zinokorlik nisbat berilsa. Horun alayhissalom isroilliklarni buzoqqa ibodat qilishga undaganlikda ayblanadi. Dovud alayhissalom xojasining xotini bilan Zinoda, Sulaymon alayhissalom suygani rizoligiga erishish uchun sanamlarga ibodat qilganlikda tasvirlanadi. Vaholanki, ushbu muborak zotlar bunday illat va ayblardan pok bo'lib, Qur'onning tutimi ushbu o'rindan Eski ahddan keskin farq qiladi. Agar ularda Eski ahd bayon qilganidek bu taqlid noloyiq sifatlar bo'lganida ularning yaxshilikka chorlash vazifalariga futur yetgan bo'lardi. Odamlarning nopok ishlarni tark etishga buyurishgani holda o'zlarining siyratida bunday amallardan o'zlarini tiymaslik, murojaat etilgan, da'vat etilayotgan odamlarda "Alloh payg'ambarlarining holi shu ahvolda bo'lsa, nafsimiz xohlaydigan bunday amallarni ba'zan qilib tursak bizga ham qanday zarar bo'lardi degan xulosaga kelishi va o'z nafslarini gunoh va ma'siyatga taslim qilishlari aniq, javob talab qilmas haqiqatir. Bunday holat hech qanday haqiqatga to'gri kelmaydi"[14:20]**.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, "Qisasi Rabg'uziy" ning asl matniy holati haqida birgina nusxaga tayanib xulosa chiqarib bo'lmaydi. Bil'aks manbaning ko'p nusxalarda katta hududlarda tarqalganligi uning mazmuniga ham turli kotiblar yoki noshirlar tomonidan talabga ko'ra daxllar bo'lganligini, ba'zi o'rinlarda haddan ziyod xalq og'zaki ijodi namunalari qo'shib yuborilganligining guvohi bolishimiz mumkin. Asar nusxalaridagi bunday kamchililar xususida Niderlandiyadagi Iogan Gutenberg nomidagi Mayns universiteti professori Hendrik Boyoshen shunday yozadi: "Britaniya muzeyidagi qo'lyozma nusxasiga tayanib, boshqa qo'lyozma nusxalar xususida aniq bir fikr aytish mushkul. Zotan Londondagi ushbu qo'lyozma nusxaning o'zi xattot tomonidan, zamonaviy qilib aytganda, kitob do'konida sotish uchun ko'chirilgan" [15:15].

Shu bois asarni hozirgi tilimizga tabdil qilish jarayoni anchayin murakkab jarayon bo'lib, bunda birgina nusxaga tayanib qolish asarning to'laqonli mazmun-mohiyatini ochib beraolmaydi. Asarning bir nechta nusxalari solishtirilib asl matnni tiklash va u asosida tabdil jarayonini amalga oshirish matnshunoslik ilmining ushbu kundagi dolzarb masalalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Abdulaziz Mansur.Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. Toshkent.2007.
2. Al-Kashf ul-bayon. As-Saolibiy. Bayrut. 2015.
3. Anvor ut-tanzil. Bayzoviy. Bayrut. 2015.
4. Al-bidoya van-nihooya. Ibn Kasir. Bayrut. 2009
5. Al-Kashshof. Az-Zamaxshariy. Lubnon.2012
6. Imoduddin Abulfido Ismoil ibn Umar ibn Kasir.Tafsir al-Qur'anil Azim .Dor ul-hadis al-Qohira. Misr, 2012.
7. WORKS, T. A. I. T. C. (2022). Makhsuda Urinbayevna, Saribayeva Gulistan State University, Candidate of pedagogy Sciences, Associate Professor E-mail: moviy69@ mail. ru. Journal of Northeastern University, 25(04).
8. Urinbaevna, S. M., & Urihbaevna, S. M. (2021). An exemplary way of life. Linguistics and Culture Review, 5(S3), 1714-1720.

SAYQALIYNING G'AZALNAVISLIK MAHORATI

Muzaffar Mamatqulov Rahmonqulovich, Rahmonqulova Kamola Muzaffar qizi
Guliston davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri
E-mail: mamatqulov1973@mail.ru, +998933201276 talaba

Abstract. In this article, the ghazals of Saiqali's epic 'Bahrom and Dilorom' are studied, to what extent they are integrated into the composition of the work, and how the images of this work help to illuminate the psychological state. The ghazals in the plot of Saiqali's epic 'Bahrom and Dilorom' have become an integral part of the epic. The fact that the poet followed the existing literary traditions in the description of these ghazals, and in some cases was able to create a unique imagery with this tool, has been thoroughly studied on the basis of interesting evidence.
Keywords. Epic, ghazal, system of genres, imagery, poet's skill, possibility of ghazal.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O‘zbek mumtoz adabiyotini boshqa Sharq xalqlari adabiyoti kabi g‘azal janrisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki bu janr XX asrgacha bo‘lgan adabiyotimizda yetakchi mavqelardan birini egallab keldi. Qaysi bir davr yoki zamonda yashaganligidan qat'iy nazar, o‘tmish shoirlarining ijod namunalari, devonlari ko‘zdan kechirilsa, albatta, ularning asosini g‘azallar tashkil etishi tabiiy bir hol.

Shu paytga qadar o‘zbek adabiyotshunosligida g‘azal janri alohida ijod turi sifatida maxsus o‘rganildi, xolos. Bunda asosan shoirlarning devonlari ob'ekt bo‘lib xizmat qildi. Biroq boshqa asarlar, xususan, yozma adabiyotga mansub dostonlar tarkibidagi qo‘llanilgan g‘azallar e'tibordan chetda qolib keldi. Bunday asarlar qatoriga Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonini ham kiritish mumkin.

Mavzu doirasidagi tahlillar.

Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonida 30 dan ortiq g‘azallar mavjud. Garchi "Bahrom va Gulandom" masnaviyda yozilgan bo‘lsa-da, shoir unda g‘azallardan ham keng foydalanishni yo‘lga qo‘yadi. "Bahrom va Gulandom" dostonidagi dastlabki g‘azal Bahromning kiyik ovlash vaqtida adashib qolganidan keyin tog‘dagi qasrda Gulandomning suratini ko‘rganidan so‘ng keltiriladi. Dastlab surat Bahromda jonli odamday taassurot uyg‘otadi. Yaqinroq kelgach, uning qo‘lda chizilgan surat ekanligini anglaydi va ko‘ngliga ishq o‘ti tushib, Gulandomga oshiq bo‘lib qoladi:

Ey nechuk jonsen mani aqlimni hayron aylagan,
So‘zlamay jonim olib, ich-bag‘rimi qon aylagan? [5; 30]

Qasrda yashovchi voqealarning guvohi bo‘lgan ko‘pni ko‘rgan pir Bahromni bu yo‘ldan qaytarishga harakat qiladi. Gulandomning ishqidan devona bo‘lganlarning son-sanoqsiz ekanligi, ularning sarson-sargardon holda o‘z yurtiga ko‘ngil uzub ketolmay yurganligi, malikaning visoliga erishish oson ish emasligi kabilar nasihat qilinadi. Bahrom o‘z fikridan qaytmasligini bilgach, pir unga ishq yo‘lida sabr-toqat tilaydi:

Chunki bul maydona kirding, ey shaho, mardona bo‘l!
Shoyad ul Xizri Xudo etkay saning tarbiyating [5; 37].

Shahzoda Bahrom bu voqealardan so‘ng Chin yurti tomon otlanadi, bepoyon cho‘llardan o‘tadi, tunu kun tinmay yo‘l yuradi, barcha qiyinchiliklarni yenga boradi. Yaratganga nola qilib, Gulandom vasliga erishish nasib qilishini so‘raydi. So‘ng saboga murojaat bilan boshlanadigan g‘azal keltiriladi:

Nogahon mundin o‘tub, tushsa guzoring Rum aro,
Ayta o‘t Rum shohina bu arzi holimdan maning.
Ey sabo, arz et otamg‘a holi zorim, marhabo,
O‘ldi mahrum ne'mati nozuk jamolimdin maning [5; 39].

Ko‘rinadiki, g‘azal Bahromning o‘z ahvolidan Rum ahlini xabardor qilish maqsadida aytilgan ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan. Uning ishq dardiga mubtalo bo‘lganligi, shahzodalikdan voz kechib, bu maqsad yo‘lida ekanligi to‘g‘risidagi xabarlar sabo orqali o‘z yurtiga yo‘llanmoqda.

Dostondagi g‘azallarning asosiy qismi Bahromga tegishli. Chunki Bahrom asarning bosh obrazlaridan biri bo‘lishi bilan birgalikda syujet voqealarining asosiy qismida ham ishtirok etadi. Asardagi har bir voqea Bahrom bilan bog‘liq tarzda yuzaga keladi va qahramonning qaysidir jihatlarini ochish uchun xizmat qiladi. Katta asarlarda qo‘llanadigan g‘azallarning aynan bosh qahramonlarning ruhiy holatlarini chuqurroq tasvirlashga xizmat qilishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu hodisani tabiiy bir hol sifatida qabul qilish lozim. Bahrom Sayfur va uning ukalarini yengib, ular bilan do‘stlashgandan so‘ng boshidan kechirganlarini aka-ukalarga so‘zlab beradi. Bahromning ichki kechinmalari, dardu iztiroblari yana g‘azalga ko‘chadi:

Ko‘z yoshimdin su sepib, boshimni go‘y etsam edi,
Ul sanam har qaysi maydon ichra javlon aylag‘ay [5; 62].

Shahzoda bir necha kun Sayfurning qasrida dam olgach, ishq dardi va uning iztirobi yanada kuchayadi. Visol umidi bilan yana yo‘lida davom etib, Chin yurti tomon oshiqadi:

Qilay deb maqsadin hosil, bo‘lay deb vaslig‘a vosil,
Agar o‘ldirsa ul qotil, bukun mardonadur ko‘ngil [5; 68].

Chin yurtida shahzoda Bahrom Behzod boshchiligidagi zangilar ustidan g‘alaba qozongandan so‘ng Sayfur va uning qo‘shiniga ortga qaytish uchun ruxsat beradi, shaharda shahzodaning yolg‘iz o‘zi qoladi. Chin hukmdori ertalab tunda bo‘lgan voqealardan xabar topadi. Biroq bu ishning ortida kim turganini aniqlay olmaydi. Bahrom esa shaharga kelib, Gulandom yashaydigan ko‘shkni axtaradi va uni topadi. Malika Gulandom har yili bir marta elga o‘z diydorini ko‘rsatardi. Shahzodaning kelishi ana shu odat amalga oshadigan kunga to‘g‘ri kelgan edi. Ko‘shkning oldida katta bir maydon bor edi. Shu vaqtda u yerga odamlar to‘planib, go‘yoki bir bayramga aylanardi. Gulandom darichadan tashqariga qaraganda barcha aqlu hushidan begona bo‘lardi. Bu go‘zallikning guvohi bo‘lgan Bahrom ham xuddi suratday qotadi:

Mahv bo‘ldim, ey pari paykar, jamolingni ko‘rub,
Bul ajab bir oy qoshinda qo‘sh hilolingni ko‘rub [5; 81].

Shu kundan boshlab, Bahrom Gulandom ishqida fig‘onu nolalar bilan vaqt o‘tkaza boshlaydi. Gulandomning har navro‘z kelganda amalga oshiradigan yana bir odati bor edi. Kanizaklaridan biri bitta tovoqni ko‘tarib, ba’zi joylarni aylanardi, unga uchragan kishi tovoqqa biron narsa solardi. Davlat ismli kanizak Bahrom o‘tirgan joyga ham keladi. Bahrom undan bu odatning zamirida nima borligini so‘raydi. Sababini bilgach, Chin xirojiga teng bo‘lgan uzugini tovoqqa tashlaydi. Gulandom uzukning kimga tegishli ekanligi bilan qiziqadi. Malika darichadan maydonga qaraydi, ko‘zi Bahromga tushadi. Bu qarash Bahromning yuragidagi otashni yanada kuchaytiradi:

Otashi ishqingni to siynamg‘a mehmon ayladim,
Rishtai jon o‘rgulur tan ichra ulkan mordek [5; 88].

Gulandomda ham Bahromga nisbatan qandaydir mayl paydo bo‘ladi. Shahzodaning husnu jamoli malikani o‘ziga mahliyo qiladi:

Ko‘zlarim chiqsunki, sandin o‘zga sulton izlasam,
Ko‘r bo‘lay, bo‘lg‘onda yalg‘on ahdu paymonim mening [5; 90].

Bu voqealardan keyin Gulandom Bahrom bilan qiziqa boshlaydi. Kanizagi Davlatni yoniga chaqirib, undan shahzoda haqida bilganlarini so‘raydi. Hech narsa aniqlay olmagach, qog‘ozga g‘azal yozib, Bahromga noma yuboradi:

Yurtung qayu manzildur, san munda biza bildur,
Bu hola necha yildur, qaydin kelasan ayg‘il [5; 92].

Maktubni olib, Bahrom uni zavq bilan o‘qiydi. Bahromning Gulandomga javob tarzida yozilgan maktubidan ham g‘azal o‘rin oladi. G‘azal kanizak Davlatga murojaat bilan boshlanadi. Unda Gulandom madh etilib, malikaga salom yo‘llanadi:

Shahdu shakkardin lazizdur so‘zlari jonkomima,
Tishlari durri yaman, abru kamonimg‘a salom [5; 94].

Maktub Bahrom va Gulandom o‘rtasidagi asosiy vositaga aylanadi. Har bir bitilgan noma o‘z javob namunasiga ham ega bo‘ladi. Ularda albatta g‘azallar yetakchi o‘rin tutadi. Savol-javob tarzidagi g‘azallarning yozilishi ham aynan uzuk voqeasidan keyin boshlanadi. Ko‘proq so‘roq alomatiga ega bo‘lgan g‘azallar Gulandom nomi bilan keltiriladi. Chunki Bahromning kim ekanligini aniqlash malika uchun asosiy vazifaga aylanadi. Shu sababli ham u shahzodaga bir necha marta savol shaklidagi g‘azallar yo‘llaydi. Bahromning javob g‘azallarida esa oshiq ko‘ngilning dardu iztiroblari, visol umididagi dil izhorlari o‘z aksini topadi.

Gulandom Bahromning o‘ziga oshiq ekanligini bilgach, juda g‘azablanadi. Jahl aralash unga zardali maktub ham bitadi:

Ey, tamannosi abas oshufta dil, urg‘on falak,
Sud ko‘rmangdur bu savdodin jo‘na, bo‘lma halak.
Befarosat harna dersan o‘zung oshiq turub,
Yo‘qmudur dunyoda Haqdin tilosang o‘zga tilak [5; 101].

Bahrom barcha azobu qiyinchiliklarga chidaydi. O‘z ishqida sobit turib, hech qachon o‘z yo‘lidan qaytmaydi, muhabbati uchun kurashadi. Oshiq uchun xos bo‘lgan barcha fazilatlar Bahromda

bor edi. Shu sababli ham u Gulandomning barcha sinovlariga bardosh beradi, malikaning chig‘irig‘idan yaxshi o‘tadi. Buni Gulandomning o‘zi ham keyinchalik tan olishga majbur bo‘ladi:

Imtihon etmak uchun bemarhabo so‘zlar dedim,
O‘lmadi sharhi vafodin sandin o‘zga hech javob [5; 119].

Ko‘rinadiki, dostonda ishqiy g‘azallar yetakchi o‘rin tutadi. G‘azal janriga xos bo‘lgan xususiyatlar dostonlar tarkibida qo‘llanilgan g‘azallarda ham kuzatiladi. Bu g‘azallar g‘azal janri talablariga to‘liq javob bera oladi. Ularda hattoki taxallus ham qo‘llaniladi.

G‘azal adabiyotimiz tarixidagi eng mashhur va keng tarqalgan janrlardan biri hisoblanadi. Ularda asosan oshiqning ichki kechinmalari tasviriga e’tibor qaratiladi. Uning qahramoni oshiq va ma’shuqa hisoblanadi. G‘azallarda ma’shuqa obraziga asosiy e’tibor qaratilib, unga xos bo‘lgan xususiyatlar bayoni oshiqning o‘y-fikrlari, mushohadalari va dil izhorlari tarzida aks ettiriladi. Oshiq uchun ma’shuqa visoliga yetish – oson ish emas. Bu yo‘lda u qanchadan qancha sinov jarayonidan o‘tishi kerak. Sinov davrida haqiqiy oshiq ruhan toblanib, ma’nan yetuklasha boradi. Oshiqlik lirik qahramonni o‘ziga xos ruhiy iztiroblar girdobiga tashlaydi va bu holat natijasida paydo bo‘lgan qiyinchiliklar azobida ma’shuqa unga faqat salbiy jihatlar bilangina namoyon bo‘ladi. Go‘yoki, oshiqning tasavvuricha, ma’shuqaning ishi faqat jabr ko‘rsatish va jafo qilishdan iborat. Bu xususiyatlar “Bahrom va Gulandom” dostoni tarkidagi g‘azallarda ham uchraydi. Biroq dostonda voqealar rivojidan kelib chiqqan holda g‘azallardagi mavzu va tasvir ruhi ham o‘zgara boradi. Har bir voqea obrazlarga qanday ta’sir ko‘rsatsa, g‘azallar ham qahramonlarning ruhiga moslasha boradi. Shu sababli ham ular qahramonlarning ichki dunyosi bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettirishda yuzaga keladi. Ruhiy holat tasvirini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish g‘azallarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Xullas, yozma adabiyotga mansub dostonlar tarkibida qo‘llanilgan g‘azallar g‘azal janri taraqqiyotida alohida bir bosqich hisoblanadi. Ular obrazlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi va qahramonlarning ruhiy dunyosini, ichki kechinmalarini berishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jihati bilan ular devonlar tarkibidagi g‘azallardan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valixo‘jayev B. O‘zbek epik poeziyasi tarixidan. Toshkent, Fan, 1974.
2. Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. Toshkent, Adabiyot va san’at, 1972.
3. Orzibekov R. O‘zbek lirik poeziyasida g‘azal va musammat. Toshkent, Adabiyot va san’at, 1976.
4. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano-standart, 2017.
5. Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. Toshkent, Fan, 1960
6. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
7. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
8. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
9. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
10. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN‟ ATI. Filologik ta‟ limni takomillashtirish muammolari, 176.
11. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi “Tohir and Zuhra”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
12. Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI–GHAZAL WRITER. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA HAJVCHILIKNING SHAKLLANISHI

Oqbo‘tayev Elbek Abdurazzoq o‘g‘li
Tayanch-doktorant, Guliston davlat universiteti, 120100
E-mail: masterrprikol@gmail.com Tel: 97 568 02 93

Abstract: This article talks about the emergence, development and development of comic works in Uzbek literature. There are opinions about the appearance of comic works in oral literature and their entry into written literature, about the appearance of works of this direction by great poets and poets in written literature. Information is given about the spiritual and moral side of a comic work, about how its origin influences the work of art.
Key words: Comedy, satire, humor, folklore, anecdote, joke, comic story, mockery.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Adabiyot – barcha zamonlar va makonlar uchun san'atning muhim turi sifatida namoyon bo‘lgan. So‘zning ustiga qurilgan bu san'at turida har bir ijodkor o‘zining g‘oyasi, fikrini o‘quvchiga ta'sirli qilib yetkazishga harakat qiladi. Bunda ijodkor turli usul va uslublardan foydalanadi. Kimdir didaktik ruhdagi asarlar bilan o‘quvchilar qalbida ezgulikni undirishga intilsa, kimdir realistik yo‘sinda asar bitib hayotning past-u balandliklarini ijodkor nigohi bilan tasvirlaydi. Dunyo va o‘zbek adabiyoti uchun ham birday taaluqli bo‘lgan hajviy adabiyot o‘zining haqiqatni oshkor ayta olish, illatlarni fosh etish, va eng muhimi insonlarga kulgu tabassum bahsh eta olish xususiyati bilan e'tiborni tortadi.

Xalq ma'naviyati, tafakkur va badiiy saviyasining yuksakligi, shubhasiz, davlat va jamiyatning taraqqiy etishida muhim omil sanaladi. Shu sababdan hamma zamonlarda ham inson ma'naviyatni yuksaltirish, buning uchun eng qimmatbaho xazina sanalmish adabiyot durdonalari bilan yaqindan tanishish va ularni chuqur anglagan holda tahlil etish, xalqqa asarlarni saralab taqdim etish bugungi zamonaviy adabiyot vakillarining, ijodkorlar, adabiyotshunos olimlar, shuningdek, har bir kitobxonning bosh vazifasidir.

Mavzu doirasidagi tahlillar. O‘zbek adabiyotida hajviyotning vujudga kelishi haqida fikr yuritilganda bu ijtimoiy hodisa, avvalo, vaqtli matbuot hamda hajvchilik shakllanmagan davrlarda og‘zaki tarzda paydo bo‘lganligini yana bir bor ta'kidlamoqchimiz. O‘zbek hajviy adabiyotining shakllanishi uzoq tarixga ega. “Hajv, satira – voqelikni aks ettirishning alohida g‘oyaviy-badiiy mezoni sifatida, – deb yozadi bu haqda adabiyotshunos olim D.Quronov, – barcha rivojlangan xalqlar adabiyoti, shu jumladan, o‘zbek xalqining ham og‘zaki va yozma adabiyotida qadimdan katta o‘rin egallab kelgan. Ijtimoiy illatlarning kulgili tanqidi bo‘lgan satira dastavval o‘zbek xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan edi” [1.210].

Hajviya xalq og‘zaki ijodidan boshlanib ulug‘ bobokalonlarimiz Alisher Navoiy, Turdi Farog‘iy, Maxmur, Muhammad Sharif Gulxaniy, Junaydullo ibn Islomshayx Hoziq, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy va Ubaydulla Solih o‘g‘li Zavqiy kabi shoirlar ijodida gullab yashnadi. Buning ham o‘z sabablari, tarixiy-siyosiy ildizlari bor. Kulgu inson uchun eng muhim hissiyotlardan biri bo‘lib kelgan. Xalq og‘zaki ijodida keng o‘rin beriladigan hajviy uslubdagi asarlar, yozma adabiyotimizda ko‘zga tashlanavermasdi. Xalq og‘zaki ijodida: latifa, askiya, masxara kabi janrlarni ko‘plab uchratganimiz holda, yozma adabiyotda Alisher Navoiyning ba'zi asarlarida, Boburning “Boburnoma” asarida hajv elementlari ko‘zga tashlansa ham, lekin salmoqli ahamiyat kasb etmaydi. XIX asr, xususan, XIX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotda hajviy uslubdagi asarlar taraqqiy etishi va rivojlanish davri bo‘ldi. Buning sabablari bir nechta: hajviy asarlar kimningdir aybini fosh qilishga harakat ma'nosida bo‘lsa ham, bu orqali ezgu maqsadni nazarda tutgan bo‘lsa ham, islom olamida kimnidir masxara qilish to‘g‘ri qabul qilinmasligi yoki tarixiy o‘zgarishlar davrida millat tanazzuli, milliy erkning qo‘ldan boy berilganligi kabi sabablar tufayli hajv tig‘i ostidagi muammolar ochib berilishiga moyillik kuchayib borgan.

Buyuk shoir Alisher Navoiy ijodida satira va yumorni tadqiq etish bo‘yicha bir necha izlanishlar olib borilgan. A.A'zamovning “Navoiy g‘azallarida hazil-mutoyiba” deb nomlangan kitobida mutafakkir shoir ijodida satira va yumorning qo‘llanilishi masalasini tadqiq etgan olimlar sanab o‘tilgan: “Albatta, Navoiy lirikasidagi yumor ham navoiyshunoslar e'tiboridan chetda qolgan emas. Masalan, mashhur sharqshunos E.Bertels "Lison-ut tayr” dostonining tahliliga bag‘ishlangan maqolasida "Navoiy dostonini qancha ko‘p o‘qisam, u meni shuncha ko‘p maftun etardi – u o‘zining insoniyligi, muloyim, iliq tili, turkiycha yumori bilan maftun etardi", - deb yozgan. Navoiy g‘azaliyotidagi yumor mavzusi, shuningdek, Sadriddin Ayniy, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton, Natan Mallaev, Vohid Zohidov, Abduqodir Hayitmetov, Suyima G‘anieva, Odiljon Nosirov, Yoqubjon Is'hoqov, Ibrohim Haqqulov, Nusratulla Jumaxo‘jaev va boshqa tadqiqotchilar asarlarida u yoki bu darajada tadqiq etilgan. A.Abdug‘afurovning Navoiy satirasiga bag‘ishlangan ikki jildli tadqiqotida esa

maxsus bir bob yumorga bag‘ishlangan. Unda asosiy e’tibor Navoiyning dostonlari hamda nasriy asarlaridagi yumorga qaratilgan” [2.5].

Turdi o‘z ijodida ijtimoiy muammolarni hajv orqali tasvirlash orqali o‘zbek hajvchilik maktabi poydevorini yana bir qarich balandlatdi. Zavqiy “Hajvi ahli rasta” asarida qirq olti boyni nomma-nom sanab hajv qilgan she’rini Mo‘ymanak bozoriga osib qo‘yganida o‘zbek adabiyotida ilk bor manzilli tanqid, ya’ni muayan insonlarga yo‘naltirilgan tanqid paydo bo‘ldi. Hajviya bu uslub, o‘ylangan g‘oyani o‘qirmanga yetkazish vositasi hajviy asarda muallif tomonidan “nishon”ga olingan qahramon qaysi qatlam vakili bo‘lmasin, uning qusurlari, uning illatlari kulgu vositasida fosh etiladi, albatta. Kulgu o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi, u qahramonlarning xatti-harakatlari, gap- so‘zlari tasviridan kuladi.

Inson ruhiyatida shunday holat yashiringanki, u o‘zi kulgan, o‘zi masxaralagan kishiga o‘xshab qolishni, uning ham ustidan kimdir masxara qilishini istamaydi. Insonning bu xususiyatini yaxshi anglagan hajvchilar o‘z asarlarida xalqning, millatning dushmanlarni, uning “qonini so‘rib yotgan zuluklar” ustidan ayovsiz kuladi.

Yana bir zabardast hajvchi Muqimiy ijodida ham “Tanobchilar”, “Viktorboy” “Maskovchi boy ta’rifida”, “Voqei Viktorboy” “To‘yi Iqonbachcha” singari talay hajviy asarlarni uchratish mumkin. Muqimiy “Tanobchilar” she’rida o‘z davrining eng muhim muammolaridan biri soliq muammosini ko‘taribgina qolmay, ikki soliq yig‘uvchining hajviy karikaturasini ham obrazli qilib chizadi. Bu qahramonlarni tasvirlar ekan, ulardagi olchoqlik, maqtanchoqlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni hajviy unsurlar bilan boyitib ko‘rsatadi. Bu orqali o‘qirmanda bu obrazlarga nisbatan xayrixohlik yo‘qoladi.

Sodda xalqni avrab-aldab o‘zlarini juda obro‘li qilib ko‘rsatib xalqning peshona teri evaziga yig‘ishtirgan hosilini soliq sifatida olib ketmoqchi bo‘lgan ayyor bu kishilarni shoir fosh qilishga intiladi. Shoirning fikri teran, o‘n ikki oyda keluvchi bu tilyog‘lama maqtanchoqlar boshqalarga rohat keltiruvchi so‘zlar bilan yoqsa ham shoir uchun bu azob, buni she’rning boshida qayd etib o‘tadi;

O‘n ikki oyda keladir bir tanob
O‘zgalarga rohat-u manga azob [3.60]

Shoir haqiqatni anglab turadi, chunki Muqimiyning o‘zi ham bir muddat yer o‘lchovchi bo‘lib ishlaydi, bu yerdagi ko‘zbo‘yamachilik va yulg‘ichlikni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, yuragi, vijdoni uyg‘oq shoir shu sababdan bu ishni tark etadi.

Jadidchilik g‘oyasi kirib kelib, ilg‘or fikrlovchi shoirlar o‘z asarlarida millatning tanazzuliga sabab bo‘lgan omillarni tasvirlash yanada kuchaydi. Bu harakat vakillari muammolarni ko‘rsatish, uyquda yotgan millatni ko‘zini ochishni o‘ziga maqsad qilib oldi. Bu davr hajviy asarlarning soni va sifati sezilarli darajada oshishi bilan xarakterlidir. Tavallo, So‘fizoda, Fitrat, Avloniy, Qodiriylar o‘z hajviyalari orqali ko‘plab muammolarni ko‘rsatib beradi.

Jadid adabiyoti necha asrlardan beri yozma adabiyotimizda keng ko‘lamda ulushga ega bo‘lmagan nasriy asarlarning soni oshishiga ham sabab bo‘ldi. Hajviy yo‘nalishdagi asarlar uchun nasriy tur ayni muddao bo‘ldi. Chunki she’riyat nisbatan siqiq va shakliy qoliplarga bo‘ysundirishga moyillik kuchli ekani tufayli, muallifda obrazni atroficha tasvirlash imkoniyati cheklangan bo‘lardi.

Nasriy yo‘lda ham bir necha o‘nlab hajviy asarlar yaratildi. Fitratning “Qiyomat” hikoyasi, Qodiriyning “Toshpo‘lat tajang nima deydi”, “Kalvak mahzum xotira daftaridan” kabi o‘nlab asarlarni misol keltirishmiz mumkin.

Badiiy adabiyotning o‘ziga xos eng o‘tkir, hozirjavob va ta’sirchan turi bo‘lgan satirik asarlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida har doim muhim o‘rin egallab kelgan. Hozirgi kunda satira yanada rivojlanib va kengayib masal, epigramma, burleska, pamflet, feleton, komediya, kino va ko‘rsatuvlarlarda, karikatura shaklida namoyon bo‘lmoqda. Shu o‘rinda, Abdulla Qahhorning satirani inkor etuvchi shaxslar haqidagi quyidagi fikrini ta’kidlashni joiz deb bildik: “Satira o‘tiga uchragan kishi, – vijdoni bo‘lsa, odamlarning yuziga qarolmaydi, vijdoni bo‘lmasa, og‘zidan ko‘pik sochib, yozuvchining ketidan bolta ko‘tarib yuguradi” [4.1].

O‘zbek mumtoz badiiyatida hajviy asarlar muayyan ahamiyat kasb etadi. Chunki, adabiyot inson hayotining in’ikosi sifatida odamzod turmushining kulgili jihatlarini aks ettirmasligi, insondagi illatlarni tanqidiy yo‘sinda tasvirlamasligi mumkin emas. Ana shu holatning ifodasi sifatida paydo bo‘lgan asarlar hajviyotni tashkil etadi. Odamzod paydo bo‘libdiki, u kamchilik, nuqson, illat bilan yonma-yon yashaydi. Eng olijanob odamda ham boshqalarga unchalar ma’qul kelmaydigan qandaydir

nuqsonning bo‘lishi tabiiydir. Inson komillikka intiladi, lekin unga to‘liq erishishi deyarli mumkin emas. Shuning uchun ham odamga yig‘i, dard qanchalik doimiy yo‘ldosh bo‘lsa, kulgi ham shunchalik ajralmas sherikdir.

Afandi latifalari, askiyalar, chandishlar, laparlar o‘zbek xalqining asrlar mobaynida kulgidan bahramand bo‘lib kelganligini, inson va hayotdagi kulgili jihatlarni nozik ilg‘ay olganligini ko‘rsatadi. Qolaversa, o‘zbek tili shunday nodir xususiyatga egaki, so‘zlashuvning o‘zidayoq, tabiiy ravishda, kulgi paydo bo‘laveradi. Chunki, o‘zbek so‘zlarining ko‘pchiligi kamida ikki ma’noga ega bo‘ladi. Ko‘rinadiki, hajviy asarlarning birinchi belgisi uning tanqidiy yo‘nalishga egaligi bo‘lsa, ikkinchi xususiyati tasvirning kulgili tarzda berilishidan iboratdir.

Shuni aytish joizki, hajviy asarlar dunyodagi barcha xalqlarda bo‘lishiga qaramay, unga munosabat turli millatlarda o‘z ma’naviy-axloqiy o‘lchamlaridan kelib chiqqan holda turlichadir. Chunonchi, G‘arb ahli bundan necha minglab yillar oldin ham hajviyotga katta e’tibor bilan qaragan. Shu bois, bu o‘lkalarda antik zamonlardayoq hajviy adabiyot rivojlangan. Bizning ma’naviyatimizda jiddiyat, andisha ustun bo‘lgani uchun ham yozma adabiyotdagi hajviy yo‘nalish rivojiga alohida e’tibor qilinmagan. Chunki islomiy axloq o‘rinli-o‘rinsiz kulishni, birovlarni hajv qilishni unchalik ma’qullamagan. Bu hol badiiy adabiyotimizda hajvchilikning juda ham taraqqiy etishiga imkon bermagan. Lekin diniy, axloqiy aqidalarning qandayligidan qat’iy nazar, hayot insonni kulgili vaziyatlar, kulgi va masxaraga loyiq odamlar orasida bo‘lishga majbur qilar ekan, tabiiy ravishda, badiiy hajviyot ham yuzaga kelgan va ma’lum darajada rivojlangan.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. O‘zbek adabiyotida hajviy asarlarning paydo bo‘lishi uzoq yillik tarixga ega bo‘lsa-da, uning taraqqiy topib rivojlanganiga ko‘p asrlar bo‘lgani yo‘q. O‘rganish zarur bo‘lgan masalardan biri: o‘zbek adabiyotida hajviy yo‘nalishdagi asarlar paydo bo‘lishi jadid adabiyoti davrigacha nega sust kechgani va jadid adabiyotiga kelib jadal rivojlangani haqida ilmiy tekshirish. Buning sababi siyosiy yoki axloqiy ekanligini tadqiq etish zaruriyati bor.Ikkinchi taklifim hajviy adabiyotizning rivojlangan davrlari jadid hajviy adabiyoti va sovet hajviy adabiyotini o‘zaro taqqoslab, farqli va mushtarak jihatlarini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004-yil.- 222 bet.
2. A.A’zamov .Alisher Navoiy g‘azallarida hazil-mutoyiba.-Toshkent: G‘afur G‘ulom pomidagi nashriyotiiyot-matbaa ijodiy uyi, 2015-y. 120 bet.
3. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/abdulla-qahhor-adabiyot-va-hayot-haqida.
4. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
5. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
6. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
7. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
8. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN‟ ATI. Filologik ta‟ limni takomillashtirish muammolari, 176.
9. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi “Tohir and Zuhra”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
10. Saymuratova, I., To‘rayeva, D., & Saidova, S. (2023). BADIIY ASARDA TAVSIFLASH VOSITALARI. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 19-24.

Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER’S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. Open Access Repository, 9(12), 163-174.

12. Kholbekovna, F. O. (2021). The Issue of Artistic Idea in Poetry. European Scholar Journal, 2(4), 233-236.

Gulchekhra, K. (2016). On the Specification of Trilogy “Good riddance” by Omon Mukhtor. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(7), 16-20.

YOSHLAR ONGIGA MA’NAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA INNOVATSION VA KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV

Sariboyeva Maxsuda O‘rinboyevna
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati
E-mail: **moviy69@mail.ru.** Tel: 97 903 00 98

Abstract: In the article, the competent approach of the literature teacher in instilling positive qualities, spiritual values in the minds of students and young people, as well as creating an innovative educational environment in teaching works of art, ensuring its full compliance with international standards, is analyzed as one of the problems of today’s world.

Key words: Spirituality, value, fiction, education and upbringing, competence approach, innovation, state education standard, modern technology, media tools.

O‘zbekiston Respublikasida dunyoning rivojlangan mamlakatlari kabi kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga yanada e’tibor berilib, o‘quv dasturlari va o‘quv fanlari bo‘yicha DTS kompetentsiyali yondashuv asosida qayta ishlandi.

Mazkur kompetentsiyali yondashuv asosida shakllantirilgan DTS amaliyotga joriy etish ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish metodlari, vositalari va shakllariga innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, “Ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta’minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi” [1].

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanish holati, birinchi navbatda, jamiyatning intellektual salohiyatiga, ya’ni ta’lim sohasi taraqqiyotiga bog‘liq.

Demak, ta’lim usullari va ularning pedagogik samaradorlikni oshirishdagi o‘rnini aniqlash mamlakatimiz taraqqiyotidagi belgilovchi, hatto hal qiluvchi odim sanaladi.

Adabiyot inson ruhiyatiga ko‘rsata oluvchi ta’sir kuchi jihatidan hamisha boshqa ma’naviy sohalardan ustun bo‘lib kelgan. Shu bois uning zimmasiga og‘irroq mas’uliyat yuklangan.

Adabiyot o‘qituvchisining boshqaruvchi sifatida kichik tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonida qo‘llanilishi rejalashtirilayotgan interfaol metodlar mohiyatidan to‘la xabardorligi kifoya qilmay, shu bilan birga, darsni tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirishi, o‘quvchilar faoliyatini nazorat ostiga olishi, kutilmagan tasodif yuz bergan yoki xatoga yo‘l qo‘yilgan holatlarni tezda seza olishi, muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri tashkil etishi, shuningdek, dars davomida ma’lum tuzatishlarni kiritib borishi hamda pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Chuqur kuzatishlar natijasida aytilgan quyidagi fikrlarga e’tibor beraylik. Ta’limdagi innovatsiyalar chetniki bo‘lgani uchun emas, balki samarali bo‘lgani uchun o‘qitish amaliyotida qo‘llanishi kerak. Hozirda innovatsion yondashuvlarning samara berishidan ko‘ra qo‘llanish faktining o‘zi muhimday bo‘lib turibdi [2].

Demak, o‘quvchilarni shunchaki o‘qishga emas, o‘qib o‘rganishga, o‘rgatib o‘rganishga, o‘rganib o‘rganishga hamda shu ma’lumotlarni amalda hayotga tatbiq etishga undaydigan zamonaviy usullarga asoslangan pedagogik jarayon maqsadga yo‘naltirilgan tizimli, innovatsion, kompitenttsiyaviy yondashuvlar amaliyotidir.

Taniqli metodist olim Q.Yo‘ldosh “Kompitentlilik ko‘proq o‘qish kechimida shakllantiriladi, lekin faqat maktab yoki boshqa o‘quv yurtidagina emas, balki oilada, ishda, siyosatda, diniy aqidalarga amal qilishda, madaniyatga munosabatda ham qaror topadi. Shu sababli kompetentlilikni shakllantirish barcha ta’limiy-madaniy vaziyatning birgalikdagi faoliyati natijasida shakllantiriladi”, deb fikr bildiradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, kompetentlilik tushunchasi nafaqat kognitiv va ijtimoiy-mehnatga doir, balki motivatsion, ma’naviy-axloqiy, maishiy turmushga doir xususiyatlarga ham ega hodisadir. U o‘z ichiga bilim, ko‘nikma va malakani egallash shaklida o‘qitishga doir jihatlarni olgani singari qadriyatlarga munosabatlar tizimi, odat va qiliqlarni ham qamrab oladi. Kompitentlilik ko‘proq o‘qish kechimida shakllantiriladi, lekin faqat maktab yoki boshqa o‘quv yurtidagina emas, balki oilada, ishda, siyosatda, diniy aqidalarga amal qilishda, madaniyatga munosabatda ham qaror topadi. Shu sababli kompetentlilikni shakllantirish barcha ta’limiy-madaniy vaziyatning birgalikdagi faoliyati natijasida shakllantiriladi.

Zamonaviy pedagogika bilim, ko‘nikma va malakalar o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan mustaqil o‘zlashtirilgandagina ta’lim jarayoni samarali kechadi, deb hisoblaydi.

Istiqol davriga kelib ta’lim tizimida badiiy adabiyot namunalarini o‘qitish muammolariga sog‘lom va xolis yondashila boshlandi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari ta’lim sub’ektlarida adabiyotga doir nazariy bilimlar hosil qilishda ham, ularda ezgu ma’naviy sifatlar, insoniy fazilatlar shakllantirishda ham alohida o‘rin tutadi.

Tadqiqotchi metodist olim V.Qodirov o‘zining “Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va yechimlar” [3] monografiyasida mumtoz adabiyotni o‘rganish borasidagi badiiy-estetik muammolarni yangicha hal qilishga erishgan. Xususan, “Xamsa”ga kirgan dostonlarni o‘rganish yuzasidan yangi qarash va tavsiyalar beradi. Olim epik asarlarni sun’iy ravishda qismlarga taqsimlamay, yaxlit bir butunlik, mantiqiy uyg‘unlikda o‘rganish yo‘llarini ko‘rsatadi hamda asarlarni badiiy-ramziy zaminda tahlil qilish, ularda ko‘tarilgan muammolarni zamonaga bog‘lash, o‘quvchini epik asarlarning qahramonlariga ergashishga odatlantirish usullariga to‘xtaladi.

Interfaol usullarni ta’lim amaliyotiga qo‘llab ijobiy natijalarga erishgan o‘qituvchi metodik yangiliklarni, kompetentsiyali yondashuvni izlay boshlaydi.

Kompetentsiyali yondashuvda – o‘qitish maqsadlari o‘quvchilar tomonidan o‘z-o‘zini anglash, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quv maqsadlariga erishish yo‘llarini tushunish, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo‘nalishlarni mo‘ljallash nazarda tutish zarur [5,17].

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi.

Barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirgach, adabiyot o‘qituvchisi darsning samarali tashkil etilganligini aniqlash hamda natijalarni tahlil etishi, shuningdek, qisqa savol-javoblar orqali o‘quvchilarning taassurotlarini o‘rganishi maqsadga muvofiq bo‘lib, bu harakat keyingi pedagogik faoliyat yo‘nalishini belgilashga ham yordam beradi.

O‘quvchilar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetentsiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablari zimmasiga ta’lim-tarbiya jarayoni orqali o‘quvchilarda tayanch kompetentsiyalar, jumladan, ***kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi, umummadaniy kompetentsiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyalarini*** tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

Maktab o‘qituvchisi **kommunikativ kompetentsiya**ni tarkib toptirishni nazarda tutgan holda adabiyot darslarida o‘quvchilarning kelgusida jamiyatda muloqotga kirishishi uchun zarur bo‘ladigan og‘zaki va yozma nutqni mukammal o‘zlashtirishi, o‘z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo‘shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og‘zaki javob yozish, o‘z o‘rtoqlari va ustozlar bilan muloqotda muomala madaniyati me’yorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a’zolarining fikrini hurmat qilgan holda o‘z fikrini bayon eta olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalariga asoslangan holda o‘z fikrini himoya qilish va ishontira olish, darslarda tashkil etiladigan o‘quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va

kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish, o‘z ona tili bilan bir qatorda horijiy tillarni o‘zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

Shuni qayd etish kerakki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf darslarida didaktik o‘yin texnologiyasining musobaqa darslari, o‘yin mashqlar, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash, komandada o‘qitish, “Yelpig‘ich” yoki “Zigzag”, “Birgalikda o‘qiymiz” metodlari, muammoli ta’lim texnologiyasining “Aqliy hujum”, “Keys-stadi” metodlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish barobarida kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

O‘quvchilarda kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirishda adabiyot darslarida o‘tkaziladigan kechalar va tanlovlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o‘quv va videofilmlardan foydalanishi, qo‘shimcha adabiyotlar va internet saytlaridagi ma’lumotlarni saralashi, shu asosda o‘quvchilarga referat va taqdimot materiallarini tayyorlash yuzasidan topshiriqlarni berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi uchun dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardan samarali va o‘z o‘rnida foydalanishi zarur.

O‘qituvchi media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajartirish uchun o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetentsiyasini tarkib toptirishi lozim. Shuningdek, media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Adabiyot o‘qituvchisidan o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasini tarkib toptirish maqsadida o‘quvchilarning mustaqil ishlari va ta’limiga e’tibor qaratishi, doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda talab etiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish **esa** o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetentsiyasini tarkib toptirish imkonini beradi.

O‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishda darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayonda o‘quvchilarni tabiat va jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlar, mavzuga doir O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari bilan tanishtirish, aqliy, ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, jismoniy, mehnat tarbiyasiga e’tibor qaratish, muayyan kasbni mukammal egallash orqali Vatan ravnaqiga hissa qo‘shish, jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, insonlarga mehr-muruvvat ko‘rsatish, saxovatli bo‘lishga undash zarur.

O‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishda o‘qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib boriladigan ishlar muhim o‘rin tutadi.

Tabiat muhofazasiga oid kechalar, ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish o‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

O‘quvchilarda milliy va umummadaniy kompetentsiyalarni tarkib toptirish uchun ona tili va adabiyot o‘qituvchisi fanlarni o‘qitishda o‘quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishga e’tibor qaratishi lozim.

O‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mavzuli kechalar, tadbirlar, uchrashuvlar, o‘quvchilarda umummadaniy kompetentsiyalarni tarkib toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasini tarkib toptirishda adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma

va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Mazkur kompetensiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar adabiyot fanlarini o‘qitishda o‘quvchilarda tayanch kompetentsiyalarni tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

Bugungi yoshlarning hayotda rioya qilinishi lozim bo‘lgan ma’naviy me’yorlarga muvofiq tarbiya topishi lozim.

Xususan, o‘quvchi-yoshlar ongiga ma’naviy qadriyatlarni singdirishda adabiyot o‘qituvchisining innovatsion va kompetentsiyaviy yondashuvi jiddiy qayta ko‘rib chiqilishga muhtoj. Zotan, ta’lim jarayonida o‘quvchi-yoshlar ongiga ijobiy fazilatlarni singdirishda ularning ahamiyati tengsiz. Shuning uchun ham ushbu jarayonni yuqoridagidek yondashuvlar asosida samarali tashkil etish ulkan qimmatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q. Ta’limda egamanlik aksiomasi (Biz ko‘zlagan maqsadga eltuvchi yo‘ldir). “Ishonch” gazetasi. 2019 -y.
2. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O‘qitish muammolari va yechimlar. –T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. -244 b.
3. Makhsuda Urinbayevna, S. (2022). TEACHING METHODOLOGY OF BABUR’S WORK “BOBURNOMA” IN HIGHER EDUCATION BASED ON MODERN APPROACHES (In the example of the work" Boburnoma"). Open Access Repository, 9(11), 344-355.
4. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN‟ ATI. Filologik ta‟ limni takomillashtirish muammolari, 176.
5. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi “Tohir and Zuhra”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
6. Fayzullayeva, O. X. (2020). DIVERSITY IN WRITING UZBEK SONNETS. Theoretical & Applied Science, (4), 627-633.
7. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6), 394-402. 6.Yerjanova, S., & Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *3*(6), 832-841.
8. To‘rayeva, D., Saymuratova, I., & Abulqosimov, A. (2023). BADIIY ASARDA OBRAZLILIK MASALASI. *Уевразийский журнал технологий и инноваций*, *1*(6 Part 3), 14-18.
9. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER’S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. *Open Access Repository*, *9*(12), 163-174.

BADIIY OBRAZ TALQINIDA BIOGRAFIK METODNING O‘RNI

To‘rayeva Dilnoza Nematullaevna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati
E-mail: dilnozatorayeva1983@yandex.ru Tel: 94 166 07 54

Abstract: In this article, in the research of the issue of artistic idea, creative imagination and aesthetic interpretation, the works on historical topics are considered in the context of the literary-historical process, the creative “I” of the writer, the structure of his views, the couple of writer and artistic work, the creative poetic world and meaning. The importance of holistic study of issues such as the spiritual and spiritual world has been researched.

Key words: the world of artistic creativity, creative psychology, creative laboratory, artistic-aesthetic interpretation, literary creativity, conceptual generalization, creative plan, poetic perception, artistic idea, creative imagination, aesthetic interpretation, literary creative “I”, sociological, biographical research methods.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Jahon adabiyotshunosligida adabiy-estetik qarashlar taraqqiyotining izchil takomillashuvi badiiy tafakkur tadrijiy rivoji bilan bog‘liq ilmiy konsepsiyalarning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Shu bois badiiy olamni o‘ziga xosligini tadqiq etish, unga tanqidiy yondoshish har bir xalq adabiyoti taraqqiyotiga naf keltirishi tayin. Binobarin, adabiy ijod jarayonini ilmiy jihatdan tekshirish, ijodiy niyatning tug‘ilishi va moddiylashuvi bilan bog‘liq omillarni o‘rganish, badiiy-estetik talqin xususiyatlaridagi o‘ziga xosliklarni ko‘rsatib berish, ijodkor shaxsining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq muammolarni nazariy asoslash muhim ahamiyatga ega. Dunyo adabiyotshunosligida badiiy ijod jarayoni, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga muallifning g‘oyaviy-hissiy munosabati, obrazlar tizimining tanlanishi va qo‘yilgan muammoni ular vositasida poetik idrok etishi-yu, chiqargan badiiy hukmi, estetik ideali, dunyoqarashi, madaniy-ma’rifiy darajasi, hayotiy tajribasi, malakasi, iste’dod va salohiyatining quvvati, estetik talqin muammolari, umuman olganda, yozuvchi ijodiy laboratoriyasining o‘ziga xos jihatlari izchil o‘rganilgan. Har bir davr adabiyotshunosligida badiiy asarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq ijodiy jarayonni o‘rganilishi lozim bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblangan. Jumladan, asarning g‘oyaviy niyatdan ibtidolanishi hamda badiiy talqin xususiyatlari, ayni adabiy hodisalarni chuqur bilish, uning estetik vazifalarini aniqlash va bu orqali adabiyotshunoslik erishgan yutuqlar mohiyatini ochib berish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzu doirasidagi tahlillar. Yozuvchining ijod jarayonida qahramon tanlashi eng muhim va murakkab vazifadir. Tanlangan obrazning qay darajada maqsadga muvofiq ekanligi badiiy g‘oyani yuzaga chiqarishda qo‘l keladi. “Badiiy asar mazmunida asosiy o‘rin tutuvchi personajlar (epizodik personajlardan farqli o‘laroq) qahramon deb ataladi”[4, 124]. Qahramon asarda muallif estetik idealini tashir ekan, uning maqsadga mos qilib tanlanishi yozuvchi mahoratiga bog‘liq. “Ijodkor uzluksiz yangilanish jarayonida toblanib, iste’dodini muttasil tarbiyalagan, dunyoqarashini boyitgan va qalamini charxlab borgan taqdirda o‘zligi sari tobora yaqinlashadi, dunyo va jamiyat, ezgulik va jaholat, mohiyatini puxta anglaydi. Natijada bunyodkorlikni vazifa qilib qo‘ygan, turli mashaqqatlarni dadil yengib, turfa muammolar yechimini topayotgan, quvonch va tashvishlar, og‘riq va iztiroblarga chulg‘angan matonatli hazrati insonning havas qilsa arzigulik badiiy obrazini yaratishi mumkin”[7, 78]. Yozuvchi qahramon tanlashi bilan birgalikda me’yorida badiiylashtira olishi ham undan mashaqqatli ijod jarayonini talab etadi. “Badiiy obraz boshqa har qanday ijod namunalaridan o‘zining muayyan emotsional-estetik g‘oyaviy ta’sir kuchiga ega hissiy mazmuni bilan ham yaqqol ajralib turadi”[5, 63]. Badiiy g‘oya obrazlar orqali yuzaga chiqar ekan, asar ruhiga mos qahramon tanlash va uni badiiy gavdalantira olish yozuvchi tomonidan uddalansagina, o‘sha qahramon badiiy mukammallikka erishadi.

“Tarixiy asarlar ma’lum bir davr hayoti haqida, milliy hayotda burilish nuqtalari bo‘lib qolgan yirik voqealar va ularda ishtirok etgan shaxslar haqida konkret, tarixan haqqoniy tasavvur beradi, Zotan, bu xususiyat tarixiy asar oldiga qo‘yilgan asosiy talablardan biridir”[8, 74]. Ko‘rinadiki, tarixiy mavzuda asar yozish unga qahramon tanlash jiddiy vazifa bo‘lib, unda yozuvchi o‘zi tanlagan mavzuga aloqador muayyan davrni, tarixiy shaxslar haqidagi manbalarni mukammal o‘rganishi lozim. Bunday vaziyatda yozuvchidan tarixiylik prinsipiga qat’iy amal qilish talab qilinadi. Tarixiy qahramonlarning tanlanishi bilan bog‘liq masalani Mirkarim Osim va Asad Dilmurod ijodiy laboratoriyasiga bog‘lab o‘rganish maqsadga muvofiq.

Mirkarim Osimning tarixiy mavzudagi asarlarida qahramon tanlash real shaxslar faoliyati bilan bog‘liqligini ko‘ramiz. Bu masala adibning Ibn Sino va Temur Malik obrazlari misolida o‘rganilishi masalani oydinlashtiradi. “Mirkarim Osim asarlarida shekspirona yoki balzakona ehtiroslar yo‘q. Gargantyua-Pantagryuel yoki knyaz Mishkin singari favqulodda obrazlar, qahramonlar ham yo‘q. Ko‘p narsalar yo‘qdir ehtimol, sodda, o‘zbekona mayllar bilan to‘la Mirkarim Osim asarlari. Holbuki, ularda tarix bor! Yasalmagan, bejalmagan, buzilmagan, zamonlashtirilmagan, fantaziyalar bilan bo‘yab tashlanmagan badiiy tarix bor!” [9,43], – Ibrohim G‘afurov o‘tmishdan kelayotgan ziyoni o‘z zamondoshlari tasavvuriga qarata yo‘naltirgan adib ijodi haqida holis fikrlar aytgan.

Mirkarim Osim “Temur Malik” hikoyasiga vatanparvar xalq fidoyisini qahramon qilib tanlaydi. Adib asardan ko‘zlagan ijodiy niyatini shu obraz orqali namoyon etadi. Mazkur tarixiy asar bosh qahramoni mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashda mardonavor jasorat ko‘rsatgan Temur Malikdir. Asarda yozuvchi bu obraz xarakterini tarixiy haqiqatga asoslangan holda, o‘z uslubiga ko‘ra gavdalantiradi. Xo‘jand viloyatinig hokimi Temur Malik yigirma minglik mo‘g‘ul qo‘shiniga qarshi

kurashga otlangan xalqqa boshchilik qiladi. Asarda u qat'iyatli, qattiqqo‘l bo‘lishi bilan birga, samimiy va mehribon inson sifatida ham badiiy talqin qilinadi. Temur Malik jangga kirar ekan, oilasi, vatani oldidagi mas'uliyat hissi uni doim kurashga chorlab, jasorat bag‘ishlaydi. Xorazmshohdan madad kutgan sarkarda kutilgan natijaga erisha olmagach, chekinishga majbur bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, u dushman oldida aslo bosh egib, taslim bo‘lmaydi. Temur Malikning mo‘g‘ul beklaridan So‘ktu no‘yonni mardlarcha yakama-yakka kurashga chorlashi, undan sado chiqmagach, garchi chekinishga majbur bo‘lsa-da, mo‘g‘ul askarlari bilan qilichbozlik qilib o‘z mahoratini ko‘rsatishi asarda obraz xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Temur Malikning safdoshlariga kun kelib, albatta, ona vatanini g‘anim qo‘lidan ozod qilishini aytib ruhiy dalda berishi bilan bog‘liq murojaati asar mohiyatiga mutanosibdir. Asar so‘ngida besh yildan keyin Damashqdan Movarounnahrga yo‘l olgan Ibn Muslim boshliq karvonga qo‘shilib kelgan Temur Malik oilasi bilan diydor ko‘rishadi-yu, baribir, umri mo‘g‘ullarning qo‘lida yakun topadi. Yozuvchi Temur Malik qiyofasida vatanparvar o‘zbek o‘g‘loni qiyofasini gavdalantiradi. "Biz "O‘tror"ni o‘qib tarix nima ekanligini bilganmiz. Qanday bobolarimiz borligidan erta xabar topganmiz. Jaloliddin bilan, Temur Malik bilan birga shiddatli Sayhunda va uning bo‘ylarida Chingiz bosqinchilari bilan janglarga kirganmiz. Mirkarim Osim asarlari qonimizga vatanparvarlik ruhini singdirib yuborgan"[11, 43]. Mirkarim Osim yaratgan qahramonlari butun vujudiga yurtiga, millatiga sadoqat tuyg‘usi singgan sodiq insonlardir.

Asad Dilmurod asarlariga qahramon tanlash masalasini esa badiiy g‘oyaning yuzaga chiqishi bilan bog‘laydi: "Asarlarimga qahramon tanlashdek mas'uliyatli ishni ijodiy rejamga muvofiq amalga oshiraman. U tarixiy obraz bo‘ladimi, badiiy to‘qima mahsulimi, har qanday holatda badiiy g‘oyani yuzaga chiqaruvchi bir vosita bo‘lishi lozimligiga ahamiyat qarataman"[2, 34]. Yozuvchining ijodiy jarayonda badiiy asarga qahramon tanlash xususidagi quyidagi fikrlari ham e'tiborlidir: "Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosirdek ulug‘ ajdodlarimiz bor. Ularning murakkab hayot yo‘llari haqida nima uchun qissa yoki roman yozmaymiz. Bu biz ijodkorlar oldida turgan katta vazifa. Mana asar uchun qahramonlar. Asarga qahramon tanlash oson, lekin uni maromiga yetkazishda ham murakkablik, ham katta mas'uliyat bor..."[2,54]. Ko‘rinadiki, Asad Dilmurod ijodiy laboratoriyasida qahramon tanlash masalasi asosiy o‘rinda turadi. Negaki, adib asarlariga tanlangan obrazlar mazmun mohiyati bilan o‘sha asarning g‘oyasini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Asad Dilmurodga: – Pahlavon Muhammad obrazini tanlashingizga, bu qahramonni yaratishingizga nima sabab bo‘ldi?, – degan savol berilganda, uni muallif quyidagicha izohlaydi: "Pahlavon Muhammad haqida ko‘p o‘qiganman. Lekin u paytlar bu tarixiy shaxs haqida asar yozish fikridan yiroq edim. "Sog‘lom avlod uchun» jurnalida ishlardim. Filologiya fanlari doktori Hasan Qudratillaev unda Pahlavon Muhammad haqida maqola chop ettirdi. Afsuski, maqolada u bilan o‘sha davrda Xurosonda mislsiz iqtidori tufayli shuhrat qozongan Muhammad Moloniy shaxslari chalkashtirib yuborilgan edi. Hindiston rojasidan Sulton Husayn Boyqaroga sovg‘a tarzida yuborilgan manglus zotli bahaybat filni tomosha maydonida, Pahlavon Muhammad emas, kuch-qudratda undan qolishmas Muhammad Moloniy mag‘lub qiladi. Dastlab bu xatoni tuzatish istagida maqola yozishni mo‘ljalladim, lekin qandaydir kuch bu niyatdan qaytardi. Nihoyat, roman bitishga ahdlandim. Oromim buzilgandan keyin sira ikkilanmay tegishli tarixiy-badiiy asarlarni sinchiklab o‘qish, ilmiy-nazariy manbalarni titkilash va qiyoslashga kirishdim. Bunda Alisher Navoiyning "Holati Pahlavon Muhammad" risolasi yo‘ldoshimga aylandi. Kuzatuvlarim natijasida ko‘p o‘tmay Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro va Pahlavon Muhammad o‘rtasida hayotda juda kam uchraydigan samimiy do‘stlik muqarrar bo‘lganligini hamda ular bir-birlarini ko‘ngil mahrami sifatida hurmat qilishganligini aniqladim. So‘ng roman ustida ishlab, hayotiy maslaklari, fe'lu atvorlari va kechinmalarini estetik sintezlash orqali chinakam e'tiqod va iymonga asoslangan do‘stlik – mangu tiriklik poydevori, degan badiiy konsepsiyani ilgari surishga intildim. Mening qahramonim, to‘g‘rirog‘i, qahramonlarim shu tariqa yo‘ldoshimga aylangan"[2, 24]. "Pahlavon Muhammad" romanida qahramon tanlashda o‘ziga xoslik mavjud. Adib asarda har bir obraz ruhiyati tasvirini, ongi va shuurida kechgan hislarni berish orqali ularning xarakterini yaratishga harakat qilgan. Ijodiy suhbat jarayonida yozuvchi asarda Pahlavon Muhammad obrazini, ruhan va jismonan beqiyos kuch sohibi ekanligi, shu bilan birga, chumoliga ham ozor bermaydigan jo‘mard inson sifatida badiiy talqin qilganligiga urg‘u beradi. Yozuvchi obraz talqinida uning bosh shiori – iymonni pok saqlash ekanligini tasvirlar mohiyatiga singdirib yuboradi. Romandagi kurash bilan bog‘liq tasvirlarni berishda lavhalar tabiiy chiqqanligini

boisi yozuvchining o‘zi ham kuragi yer ko‘rmagan Omonqo‘ton polvonlaridan Samad polvon, Murtazo polvon, Karim polvon, Sulaymon polvonlar avlodidan ekanligi bilan izohlash mumkin.

“Pahlavon Muhammad” romani badiiy ko‘lami keng tarixiy voqealar asosiga qurilgan. Asar qahramonlar ruhiyatidagi evrilishlar orqali mohiyatning ochib berilishi bilan ahamiyatlidir. Asarda Navoiyning qirq yildan ortiq hammaslagi va qadrdoni bo‘lgan, kuragi yer ko‘rmagan Pahlavon Muhammad Abusaid hayot yo‘li aks ettirilgan. Yozuvchi asosiy qahramonni tavsiflash barobarida keskin kurashlarga boy voqealar asnosida o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini ko‘rsatgan. Pahlavon Muhammad obrazi asarda jismonan baquvvat bo‘lishi bilan birga, ruhiy quvvati ham o‘ziga yetarli darajada yuksak bo‘lgan inson sifatida yoritilgan. “Romanda Pahlavon Muhammad shaxsiga xos insoniy sifatlar: buyuk iste’dod, bosiqlik, halimlik, kechirimlilik, siniqlik, ko‘zi to‘qlik, qo‘li ochiqlik, sadoqat, ayni vaqtda jismoniy qudrat, tavakkalchilik, adoqsiz insoniy g‘urur juda ishonarli, ta’sirli va shirali tasvirlangan”[13, 43]. Yetakchi qahramonda bunday mukammallikni jamlash – adibning xarakter yaratishdagi o‘ziga xos uslubi. Qayd qilingan fikrlarga asoslanib, voqelik zamirida tarixiy shaxs konsepsiyasining asosli olib chiqqanligini ko‘rish mumkin. Butun umrini insonlarga yaxshilik qilish va ezgu ishlarga baxshida qilgan Pahlavon Muhammadning jismoniy va ruhiy quvvatni uyg‘unlashtira olgani uchun yengilmas, irodasi mustahkam, mardonavor shaxs darajasiga ko‘tarilishi yozuvchining asardagi asosiy konsepsiyasi sifatida ilgari suriladi. Bu obraz ma’naviy va ruhiy kamolot peshvosi bo‘lishi bilan birga, har qanday inson kabi hayot zahmatlarini ham boshidan kechirganligi uning hayotiyligini ta’minlagan. Asarda Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad va Sulton Husayn Boyqarolar o‘rtasidagi do‘stlikni badiiy tasvirlash orqali yozuvchi ko‘zlagan badiiy g‘oyani yuzaga chiqargan.

Yozuvchi asarning yozilishidagi ijodiy jarayon va qahramon tanlashda e’tiborga olgan asosiy jihatlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro va Pahlavon Muhammad o‘rtasidagi do‘stlik rishtalari g‘oyat mustahkamligi meni hayratlantirgan. Romanni yozishimga ham, avvalo, buyuk do‘stlik qudrati turtki bergan”[2, 23]. Tarixiy asar yozish, tarixiy obraz yaratish yozuvchidan katta mas’uliyat va bilim talab qiladi. Pahlavon Muhammad haqida Alisher Navoiyning “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Majolis un-nafois”, “Vaqfiya” va “Soqiynoma”, Zayniddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe’” asarlarida ma’lumotlar keltirilgan. Bu manbalar yozuvchi uchun tarixiy asos vazifasini bajarib, obrazning ham suvratini, ham siyratini to‘laqonli badiiy aks ettira olishida ko‘maklashgan. Asarda yetakchi qahramon ruhiyati, ichki kechinmalari atroflicha tasvirlanganligi obrazning to‘laqonli shakllanishini ta’minlagan, asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Darhaqiqat, prof. Q.Yo‘ldoshev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Pahlavon Muhammad” romani tarix va tarixiy shaxslarga o‘zgacha yondashish mahsuli ekanligi, unda odam tarixga qilingan ilova emas, balki o‘z qismatini o‘z sha’niga yarasha o‘tashi mumkin bo‘lgan yaratiq sifatida ko‘rsatilgani bilan e’tiborni tortadi. Ya’ni bu asarda tarix vositasida inson emas, balki odam orqali tarix aks ettiriladi”[13,34]. Yozuvchi asarda Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Pahlavon Muhammad singari buyuk shaxslar siymosini yaratar ekan, obrazlarni bugungi kun nigohi orqali aks ettiradi. Adib romanda nafaqat Pahlavon Muhammadni, balki Navoiy obrazini ham yetakchi qahramonlar qatorida harakatlantiradi. Bu obraz, avvalo, chin inson, so‘ngra ijodkor, davlat arbobi, shu bilan birga, keng qamrovli bilimlardan ogoh ulug‘ zot sifatida talqin etiladi. Ushbu obrazni yaratishda yozuvchi unda mujassam ezgu xislatlarni chuqur falsafiy mushohadalar orqali ochib berishga harakat qiladi. Asarda Navoiy bilan Pahlavon Muhammad o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini beg‘araz samimiyat bog‘lab turadi. Pahlavon Muhammad Navoiyni o‘zining eng yaqin kishisi sifatida biladi, har qanday vaziyatda ham undan ma’naviy ko‘mak olishiga ishonadi. U o‘z davomchisi, izdoshi deb bilgan jiyani Darvesh Muhammadning Navoiy bilan tanishishini, uning e’tiboriga sazovor bo‘lishini istaydi. Og‘ir kunlarida esa Navoiyning beg‘araz ko‘magiga muhtojlik sezadi. Navoiy shaxsiyatiga xos yetuklik, butunlik, prof. Q.Yo‘ldoshevning ta’biricha, “ta’kid yo‘sinida emas, balki jonli manzaralarda tabiiy yo‘sinda”[2,65] aks ettirilganligi, ushbu asarning muvaffaqiyatini ta’minlagan omillardan biridir. Navoiyning uzoqni ko‘ra bilishi hamda turli qaltis vaziyatlarda u qo‘llagan tadbirning ish berishi ham asarda mahorat bilan aks ettirilgan. Masalan, Sulton Husayn va o‘g‘li Badiuzzamon Mirzo o‘rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish uchun valiahd shahzodaga maktub bitib, bu vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirishi yoki iroqlik kuragi yer o‘pmagan pahlavon Ali Rustoiy bilan Pahlavon Muhammad kurashi jarayonida tutgan to‘g‘ri tadbiri uning shaxsiyatiga xos bo‘lgan benazir zakovatni dalillaydi. Mudarris Amir Burxoniddin xarakteriga xos ba’zi bir qusurlar haqida Navoiy Pahlavon

Muhammaddan eshitganda, unga shunday jo‘yali mulohaza bildiradiki, bundan Pahlavon Muhammad ko‘ngliga ham, Amir Burhoniddin shaxsiyatiga xam zarracha putur yetmaydi. Romanda Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xususan, yurt boshqaruvidagi ulkan ko‘magi ham atroflicha ifoda etilgan. Navoiy umri davomida birga ulg‘aygan do‘sti Sulton Husayn yonida yelkama-yelka turib, unga yurt boshqaruvida ko‘maklashadi. Lekin har mahal u o‘zining dono siyosatchigina emas, ijod kishisi ekanligini ham unutmaydi. O‘z ijodi, ezgu insoniy xislatlari bilan hammaning ko‘ngliga yo‘l topadi. Navoiyning bu xislatlari kitobxon ko‘ngliga nur bag‘ishlaydi. Asar boshida Navoiyning bu dunyo o‘tkinchi ekanligi haqida xayolga cho‘mishi, so‘ngra do‘sti Pahlavon Muhammad o‘limidan chuqur qayg‘uga botish holati yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. “Endi faqir yetim, sarvari olam yetim! Qaydin izlarmiz sizni, fano dashtidanmu yoki baqo gulshanidan? Zaminu zamonni ishqu vafo nuri bilan charag‘on qilgan muborak ko‘zlaringiz tufroqqa to‘lmasdin avval mujda yetkazgaysiz, hey bahodir og‘am!”[3, 14]. Badiiy tasvir vositalari orqali inson kechinmalarini ifodalashda to‘g‘ri so‘zlarni tanlay bilishning naqadar muhim ekanligi yuqoridagi tavsifda yaqqol ko‘ringan. Umuman olganda, yozuvchi ijod jarayonida qahramon tanlashi va uni maromida badiiylashtirish masalasi Asad Dilmurodning “Pahlavon Muhammad» romanida ham o‘ziga xos tarzda badiiy talqin etilgan bo‘lib, bunda adib o‘z estetik idealini namoyon etgan, deyish o‘rinli. Shu bilan birga asarning ayrim o‘rinlarida o‘ta hissiyotga beriluvchanlik, balandparvoz so‘zlarni me’yoridan ortiq qo‘llash holatlari ham uchrab turadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Mirkarim Osim aksariyat hollarda, tarixiy shaxslar hayotini tarixiy-biografik yo‘sinda yoritsa, Asad Dilmurod inson faoliyatiga sabab bo‘lgan faktorlarning ruhiy-psixologik simptomlarini izlashga, goh sababdan oqibatga, gohida esa, oqibatdan sababga qarab borishga mayl bildiradi. Shu bois, bu asarlar sotsiologik, biografik, psixoanalitik, struktural va germenevtik ilmiy tadqiqot usullari asosida yondashuvni talab etadi. Asad Dilmurod ijodiy laboratoriyasida adibning qahramon tanlashi qay darajada maqsadga muvofiq ekanligi uning hayotiy asosga ega qahramonlar bilan bir qatorda badiiy to‘qima obrazlar ko‘lamiga ham alohida ahamiyat berishida namoyon bo‘ladi. Adib tanlagan qahramonlarining ruhiyati tasviriga alohida ahamiyat qaratishi, psixologik kechinmalari ifodasida badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanishi obrazlarning turfa vaziyatlardagi ruhiy holatlari ifodasida yozuvchining badiiy-estetik konsepsiyasi masala mohiyatini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

11. Jamoa. Adabiyot nazariyasi // Badiiy obrazda badiiy g‘oya va badiiy-hissiy mazmun mutanosibligi. II jildlik. II jild. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 107.

12. Kattabekov A. Tarixiy xaqiqat va badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1982. – B. 6.

3. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER’S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, *70*.

5. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(3), 49-53.

6. Yerjanova, S., & Turayeva, D. (2023). CREATIVE LABORATORY AND ARTISTIC INTERPRETATION ISSUE. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, *3*(6), 832-841.

7. Saymuratova, I., To‘rayeva, D., & Saidova, S. (2023). BADIIY ASARDA TAVSIFLASH VOSITALARI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, *1*(6 Part 3), 19-24.

8. Nematullaevna, T. D. (2022). THE WRITER’S WORLD VIEW AND ARTISTIC IDEA. *Open Access Repository*, *9*(12), 163-174.

9. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.

10. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.

10. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.

11. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.

12. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN‟ ATI. Filologik ta‟ limni takomillashtirish muammolari, 176.
13. Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI–GHAZAL WRITER. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.
13. Kholbekovna, F. O., & Oglu, E. B. J. (2021). Development and Improvement of Cyclicity. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 12049-12054.
14. Kholbekovna, F. O. (2021). The Issue of Artistic Idea in Poetry. European Scholar Journal, 2(4), 233-236.
15. Gulchekhra, K. (2016). On the Specification of Trilogy “Good riddance” by Omon Mukhtor. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(7), 16-20.

BADIIY ADABIYOT VA FOLKLORIZM (Abdulla Qodiriy nasri misolida)

Primov Abdulatif Abduraximovich
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Gmail: primovabdulatif64@gmail.com

Annotation: This article is devoted to the study of the role of folklorism in the poetics of A. Kadyri’s prose, as well as the influence of folklore genres in the writer’s artistic skills

Key words: folklore, folklorism, national flavor, poetic function, genres of folklore, narrative style, proverb, aphorisms, popular expressions, etc.

KIRISH

Folklor unsurlarining yozma adabiyotga ijodkor tomonidan singdirib yuborilishi adabiyothsunoslikda folklorizm atamasini yuzaga keltirgan. O‘zbek adabiyotshunosligida “folklorizm” atamasi kamroq qo‘llanib,bu istiloh o‘rniga “folklordan foydalanish” birikmasi ko‘proq ishlatiladi. Jahon adabiyotida folklorga oid vositaiarning poetik funksiyasi muammosiga o‘ziga xos adabiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochish, yozuvchi asarlarining adabiy mazmunini teran anglash kabi dolzarb ilmiy masala kun tartibiga chiqmoqda. Adabiy jarayonda yangi davr adabiyotshunosligida muhim muammo hisoblangan nasr tarkibida keladigan folklorga oid vositalarning poetik funksiyasini maxsus o‘rganish asosiy vazifa etib qo‘yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

O‘zbek adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot munosabati masalalari adabiyotshunos N.Mallayev (Маллаев Н. Навоий ижодиётининг халқчил негизи. – Тошент: Фан, 1973.,Ўша муаллиф: Алишер Навоий ва халқ ижодиёти.Ғафр Ғулом НМИУ, - Тошкент: 2015), B. Sarimsoqov (Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. № 4. – Б. 37-45), shuningdek I.Yormatov (Типология фольклоризма в современной узбекской литературе (60-е – начало 80-х годов): Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.) adabiyotshunos G‘. Mo‘minov (Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фан. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 1994.) hamda N.Tosheva (Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида): Автореф. фалсафа доктори (PhD) – Тошкент, 2020.) ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan. Abdulla Qodiriy prozasi poetikasida folklorizmning tutgan o‘rni masalasining ilmiy tadqiqi o‘z yechimini kutmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Abdulla Qodiriy asarlaridagi xalqona ibora,maqol va iboralarning o‘rnini o‘rganib, adibning romanlarida uchragan xalq og‘zaki ijodi janrlarining mohiyatini yoritib, adib romanlaridagi badiiy tasvir vositalarining folklor bilan uyg‘unligini badiiy mahorat nuqtai nazardan ko‘rsatish, germenivtik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, folklor yozuvchi ijodiga xalq ommasining rang-barang olamini olib kiradi. Ayni chog‘da yozuvchiga kitobxonni o‘z xalqi urf-odatlari, obrazli so‘z boyligi, umuman barcha milliy belgilari bilan kengroq tanishtirish imkonini yaratadi. Folklor unsurlarining yozma adabiyotga ijodkor tomonidan singdirib yuborilishi adabiyotshunoslikda folklorizm atamasini yuzaga keltirgan. “Folklorizm” atamasi ilk bor XIX asrda frantsuz folklorshunosi Sebiya tomonidan qo‘llangan. Bu atama “folklor bilan qiziqish va shug‘ullanish” ma’nosini ifodalaydi. XX asrning 30 yillariga kelib rus

folklorshunos va etnograf olimi Mark Konstantinovich Azadovskiy badiiy adabiyotda va publitsistikada folklordan foydalanishni “folklorizm” deb atadi. Shu asrning 60 yillarida “folklorizm” atamasi xalqaro e’tirof etildi va keng miqyosda qo‘llana boshlandi.[2, 469]. O‘zbek adabiyotshunosligida “folklorizm” atamasi kamroq qo‘llanib, o‘rniga “folklordan foydalanish” birikmasi ko‘proq ishlatiladi. Zamonaviy nasrda folklorizmga oid motivlarning ko‘pi nasriy asar badiiyati bilan uyg‘unlashgan.

Bu hodisa o‘zbek nasrining shakllanish davridan to shu kunga qadar rivojida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib kelmoqda. O‘zbek romanchiligining birinchi yiik vakili A.Qodiriy, bu janrni keyinchalik yuksak darajaga ko‘targan Cho‘lpon, Oybek, hajviy hikoyalar va qissalar muallifi G‘.G‘ulom, shuningdek S.Ayniy, A.Qahhor ijodi misolida buni aniq ko‘rish mumkin.

Abdulla Qodiriyning dastlabki ijodidayoq, xususan, kichik yumoristik asarlarida folklor ta’siri ayniqsa kuchli bo‘ldi.

“Abdulla Qodiriyning prozasi va publitsistikasi bugun ham o‘zbek yozuvchilari uchun foydali saboqlarga to‘la, - deb yozadi Izzat Sulton. – Masalan, o‘z ijodi, ayniqsa satirasida Abdulla Qodiriyning o‘zbek folklorida eng ko‘p tarqalgan qudratli priyomlardan (vositalardan) juda keng va muvoffaqiyatli fodalanganini olaylik. Abdulla Qodiriy ko‘p foydalangan bunday priyomlarning biri – pichingdir. “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” va “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” kabi hikoyalar turkumidan iborat asarlarda bu priyom, ayniqsa o‘z badiiy kuchini va xususiyatini ko‘rsatadi”[3, 4-6].

“Badiiy asar poetik tadqiqotga munosib bo‘lgan taqdirdagina unga adabiytchi-olimlar takror va takror murojaat etishi mumkin”[1, 115]. Abdulla Qodiriy asarlari ham ana shunday tahlilga munosib asarlar sarasiga kiradi.

Xalq ijodiga yuksak baho bergan va undan o‘zi ham katta ilhom olgan Abdulla Qodiriy ijodiga bu boy badiiy xazina umr bo‘yi hamroh bo‘ldi va ijodiga yuksak mahorat maktabi bo‘lib xizmat qildi. Shu sababdan asarlarini o‘qiganimizda , betakror badiiy mahoratini kashf kilganimizda adibning ijodiy yuksalishida folklorning tutgan urnini alohida his qilamiz. Xalq ijodidan maqsadi ezgu, vijdoni pok insonlarni hayratda qoldiradigan ajoyib qahramonlar – xalqning haqiqat va adolat haqidagi g‘oyalarini ifodalovchi jasur kishilar Abdulla Qodiriyning diqqat – e’tiborini tortib keldi. Zero, adib “Madomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydiq, bas, biz har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchiliq ro‘monchiliq va hikoyachiliklarda ham yangarishg‘a, xalqimizni shu zamonning “Tohir-Zuhra”lari, “Chor darvesh”lari, “Farhod-Shirin” va “Bahromgo‘r”lari bilan tanishdirishka o‘zimizda majburiyat his etamiz...” ,- deb yozadi “O‘tkan kunlar” romanining boshida[4,30]. Anglashiladiki, yozuvchiga milliy xarakterlarni yorqin tasvirlashda, voqea va hodisalarni rang – barang milliy tamoyillar fonida tasvirlashda xalq og‘zaki ijodi namunalari, ularning badiiy-estetik olami boy badiiy manba bo‘ldi.

Folklor Abdulla Qodiriyning ijodiy kamolotida alohida o‘rin tutadi. Xalqning yuz yillar mobaynida yaratgan, xalq milliy tamoyillarining barcha qirralarini o‘zida ifoda etgan maqol va aforizmlar, kulgi qo‘zg‘ovchi so‘z va obrazli ifodalar, uning murakkab hodisalar mohiyatini va xalq dunyoqarashini ifodalay olish qudrati adib ijodida mohirona qo‘llanilgan. Qodiriy asarlaridagi obrazli ifodalar, maqol va aforizmlarning ayrimlari xalq og‘zaki ijodida aynan uchraydi, ayrimlari esa yozuvchi ijodiy laboratoriyasida sayqal berilib, yana ham ta’sirli, aniq va konkret ifoda shaklini olgan. “ Abdulla Qodiriy ijodi adibimizning o‘zi da’vo qilmagani holda XX asr boshlarida yashagan tug‘ma folklorshunos olim ekanini to‘liq tasdiqlaydi, - deb yozadi Omonulla Madaev. – “Sadoyi Turkiston”dan “Ishtirokiyun”gacha, “Tong” jurnalidan tortib “Mushtum”dagi maqolalarigacha, “Kalvak maxzumning xotira daftari”dan “Toshpo‘lat tajang nima deydi”gacha, “O‘tkan kunlar”dan “Mehrobdan chayon” , “Obid ketmon” gcha avvalo o‘zbek mentaliteti, xalq tili, qolaversa, xalq og‘zaki ijodi bilan sug‘orilgan. Sarlavha qo‘yish usulida adib “Dumbasi tushib qolgan emish”, “Kula-kula o‘lasan”, “Tarbuz qo‘ltiqdan tushdi”, “Og‘zinga qarab gapir”, “Chuvi chiqdi”, “Po‘skallasi”, “Dardi yo‘q kessak, ishqi yo‘q eshshak”, “Shallaqi”, “Bo‘lsun-bo‘lmasun”, “Anov-manov” kabi o‘nlab kashfiyotlar yaratar ekan, xalq og‘zaki ijodi ta’siridagi milliy til imkoniyatlariga murojaat qilgan” [5, 18-19].

Darhaqiqat, Qodiriy nafaqat badiiy asarlari, balki ommaviy maqolalarimi, matbuotda raqiblariga berilgan javoblarimi, yo‘l-yo‘lakay bildirilgan ishoralarmi – barchasida milliy til boyligi, xalq og‘zaki ijodidan foydalangan. Adib xalq qo‘shiqlari, maqollar, matal va iboralardan foydalanib, badiiy asar

matniga ularning g‘oya, mazmun-mohiyatini singdirar ekan, muayyan maqsadni nazarda tutadi. Agar bir tomondan yozuvchi bu amalni bajarishda o‘zini tarbiya qilgan millat vakili ekanini kitobxonga ta’kidlamoqchi bo‘lsa, ikkinchidan, mazkur uslub yozuvchining fikrni ifodalashda qisqalikka intilishini, obraz haqida tasavvur hosil qilishga urinishini tasdiqlaydi. Abdulla Qodiriy xalq iboralari, maqol, matallardan shu qadar unumli foydalnganki,ular asar matniga to‘liq singib, uyg‘unlashib ketadi. Misollarga murojaat kilaylik: “O‘tkan kunlar” romanining “Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li” bobida Marg‘ilondagi saroyda Ziyo shohichining o‘g‘li Rahmat, uning tog‘asi “xotunboz” Homid va Otabek davrasida suhbat bo‘ladi va mavzu aylanib “uylanish”, “xotun” masalasiga taqaladi. Ko‘p xotinlikni ma’qul ko‘rmagan Rahmatning fikriga Homid: - “ **Qamchiningdan qon tomsa,** yuzta xotun orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan”, – deb “mag‘rur bir tusda Otabekka “ qaraydi[4, 36]. Yozuvchi Homidni yovuz niyatli, xudbin odamligini ifodalashda shu bitta ibora badiiy yuklama vazifasini bajarganligini ko‘ramiz.

Adib asarlarida qahramonlarining yoshi, jamiyatdagi mavqei, mansabi, ma’naviy-ahloqiy dunyosi, nasl-nasabiga monand xarakterini ochib beruvchi ibora, maqollar qo‘llaydi. “Utkan kunlar” romanining “Xon qiziga loyiq bir yigit” bobida Ziyo shohichining uyida Otabek mehmondorchilikda bo‘lgan voqea tasvirlanadi. Suhbatda Mirzakarim qutidor ancha ilgari Toshkandda Otabeklar xovlisida bo‘lganligini eslab: -“Ammo haqiqatda oradan o‘n besh-yigirma yil o‘tib, siz ham katta yigit bo‘lg‘ansiz, **umr – otilg‘an o‘q emish**”,- deydi [4, 38]. Birgina “umr – otilg‘an o‘q” iborasi orqali yozuvchi hayotda ko‘pni ko‘rgan, past-balandini bilgan, achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan,keng va chuqur mushohadali fozil inson siyratini ifodalaydi.

Mirzakarim qutidor xarakterini ochib berishda yozuvchi mahoratiga yana e’tiborimizni qaratsak. Qutidor qalbaki taloq xati ta’sirida Otabekni uyidan xaydaydi. Mirzakarim qutidor o‘zining aybini tan olib Kumushga: “**Jaholat kelsa, aql qochadir,** qizim”, - deb qo‘yadi [4, 277]. Shu bir maqolda ham o‘kinch, ham uzr, ham o‘zining oddiy banda ekanini tan olish, ham bir insonda bo‘lgani kabi o‘zini oqlash mazmuni qisqa, aniq ifodasini topadi.

Ma’lum bo‘ladiki, Abdulla Qodiriy barcha asarlarida folklorizmning o‘rni katta badiiy qimmatga ega bo‘lib, asar mohiyatini o‘quvchiga singdirishga xizmat qiluvchi omildan mahorat bilan foydalana olgan. Yozuvchining “Mehrobdan chayon” romanidagi “Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘”, “Xotin kishining boshi, uy ichining og‘ir toshi”, “Oltin olmasang, duo ol”, “Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar”, “O‘tkan kunlar” romanidagi “Bilgan topib so‘zlar, bilmagan - qopib”, “Pichoqni o‘zingga ur, og‘rimasa – birovga”, “Bir ko‘rgan bilish, ikki ko‘rgan tanish”, “Qars ikki qo‘ldan chiqadi” kabi o‘nlab maqollarning har biri asar matnida muhim badiiy-estetik vazifani bajarishi bilan ahamiyatli.

XULOSALAR

Yuqorida qayd qilingan mulohaza va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qodiriy prozasi poetikasida folklorizmning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, A. Qodiriy prozasida folklorga oid vositalarning poetik funktsiyasini ko‘rsatish, folklor namunalarining mohiyatini yoritib, adib asarlaridagi badiiy tasvir vositalarining folklor bilan uyg‘unligini tadqiq qilish qodiriyshunoslik yo‘nalishida dolzarb ahamiyatga ega masalalardan.

ADABIYOTLAR:

1. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. Тошкент: Akademnashr. 2014. 256 б.

2. Литературный энциклопедический словарь. - М.: Советская энциклопедия, 1987. – С.469.

Қодирий А. Кичик асарлар.-Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969.- 212 б.

3. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.

4. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.

5. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.

6. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. Science and innovation, 1(B5), 231-236.

10. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER'S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 70*.

Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(3), 49-53.

11. Primov, A. A. (2023). ARISTOTLE'S "POETICS" AND ITS INTERPRETATION. Open Access Repository, 9(3), 257-261.

12. Primov, A. A. (2021). " Poetics"-as A General Theoretical Education. European Scholar Journal, 2(6), 202-204.

13. Sariboeva, M. (2018). THE ROLE OF NAVOIS WORKS IN THE FORMATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED YOUNG GENERATION. Bulletin of Gulistan State University, 2018(1), 74-79.

ЁЗУВЧИНИНГ УСЛУБИЙ ИНДИВИДУАЛЛИГИ

Тўйчиев Абдунаби Худойбердиевич
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati
E-мail: abdunabi2240@gmail.com, Тел: 94 407 22 40

Annotation: *The story "Bottomless Sky" is of special importance in the work of the famous Uzbek writer Nurali Qabul. The scope of themes and the nature of the images of the writer's works are the result of his unique creativity. The image of a lonely person in literature, the conflict between the individual and the society is covered in this article on the example of the work "Bottomless Sky".*

Key words: *child, sky, conflict, character, person, dialogue, period, fact, character, event, inner monologue, pathos, background, balance, symbol, tragedy.*

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Nurali Qobulning katta ijodida qissalari ham muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi ijodiy faoliyati davomida "Oyqor" (1978), "Salom, tog‘lar!" (1979), "Tubsiz osmon" ("Sening bolalik osmoning") (1976-1980), "Sangzor" (1978-1981), "Oq qayin qo‘shig‘i yoxud biz o‘zligimizcha qolamiz" (1980-1983), "Yashash uchun kechikma" (1983), "Men hammani sevaman" ("Rassom haqida qo‘shiq") qissa-esse, "Yangi qor yoqqan kun" (Johillik va qotillik"), "Tog‘begi" ("Bo‘ri ovi"), "Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar", "Tantanadan keyingi kun" (2016), "Qulon quduqqa qulasa" (2016) nomli o‘ndan oshiq qissalar yozdi.

Yosh yozuvchi "Tubsiz osmon" [1.182-238] qissasi bilan keng kitobxonlar ommasiga tanildi, umidli qalamkash sifatida ijodiga qiziqish uyg‘otdi. Yozuvchiga katta shuhrat keltirgan, dovrug‘ini qo‘shni respublika kitobxonlariga ham tanitgan bu qissasi 1976-1980 yillarda yozildi. U "Tubsiz osmon" qissasini yozganida o‘ttiz yoshda edi. Asar adabiy jarayonda jiddiy voqea sifatida e'tirof etildi.

Mavzu doirasidagi tahlillar. "Tubsiz osmon" qissasi "Nebo tvoego detstva" nomi bilan sobiq Ittifoq kitobxonlariga taqdim etildi. Toshkent va Leningraddagi rus yosh tomoshabinlar teatrida qissa asosida spektakl sahnalashtirildi. Butunittifoq "Yunost" jurnalining 1981 yil 1-sonida chop etilgan "Nebo tvoego detstva" qissasi uchun "Zelenogo listka - 81" mukofoti berildi. Shuningdek, sobiq itifoq yozuvchilar uyushmasining 1981-1982 yilgi yosh ijodkorning eng yaxshi birinchi kitobi uchun beriladigan Butunittifoq konkursi mukofotiga sazovor bo‘ldi.

*"O‘zbekistonda ajoyib nosirlar yetishib chiqdi. Ulardan biri, shubhasiz Nurali Qobuldir. Men uning "Yunost" jurnalida bosilib chiqqan "Sening bolalik osmoning" hamda "Salom tog‘lar!" asarini katta mehr bilan o‘qib chiqdim. U qissasi uchun jurnalning birinchi mukofotini olganini eshitib xursand bo‘ldim. Eng muhimi, ayni kunlarda Moskvadagi "Sovetskiy pisatel" nashriyotida uning to‘plami nashr etilish arafasida.U hayotni yaxshi biladigan ijodkorlardan. O‘z qahramonlarining ichki kechinmalarini yaxshi ochib bera oladi. O‘tgan yili Parijdagi chiqishimda mendan ittifoqdosh respublikalardagi adiblar haqida so‘rashdi. Men Fransiyaliklarni Nurali Qobul ijodi bilan batafsil tanishtirdim", - degan edi ulug‘ rus shoiri Andrey Voznesenskiy [2. 226].*Asar rus, qirg‘iz, qoraqalpoq tillariga o‘girildi. "Tubsiz osmon" qissasining jurnal va kitob holidagi tiraji o‘n million nusxadan

oshdi. Bu hatto hozirgacha adabiyotimizda bir asarning qisqa muddatda keng tarqalishi jihatidan kam uchraydigan hodisadir. Qissaga mashhur munaqqidlar, taniqli adabiyotshunos olimlar tomonidan ijobiy taqrizlar berildi. Qissa voqealari 6-7 yoshlardagi Norbo‘ta tomonidan hikoya qilinadi. Voqealar bayoni yosh bola tomonidan hikoya qilingani uchun uning bolalarcha gapidan kitobxon zavqlanadi. Bolaning nutqi harakterining u yoki bu qirralarini ochishga xizmat qiladi. Bola ichki monolog yordamida o‘ziga o‘zi gapiradi, murojaat qiladi. Yozuvchi shu usul bilan Norbo‘taning ma’naviy dunyosini va dunyoqarashini ifodalaydi. Norbo‘ta bilan yashagan muhiti o‘rtasidagi yuzaga kelgan ziddiyat hamda tushunmovchiliklarga nisbatan ichki monologda o‘z-o‘ziga gapirishi – qahramonning voqelikka yoki kishilarga nisbatan munosabatining yashirin shaklidir.O‘rni kelganda shuni ta’kidlash lozimki, yozuvchi ijodiga xos xususiyatlardan biri - dunyoga bola nigohi bilan nazar tashlashdir. Adibning o‘ttizdan oshiq hikoyalaridan o‘ntasi bola tilidan hikoya qilinadi. Shuningdek, yozuvchining o‘n ikki qissasidan uch qissasi (“Tubsiz osmon”, “Sangzor”, “Yangi qor yoqqan kun”) bola tilidan hikoya qilinadi. “Yashash uchun kechikma” va “Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar” qissalarida hikoyachi asar personajlaridan biri, asar voqealarining ishtirokchisidir. Bu asarlarda voqealar bayoni birinchi shaxs, ya’ni “men” tilidan olib boriladi. Asarlardagi hikoyachi - bo‘layotgan voqealarning ishtirokchisi, ularning shohidi yoki ulardan xabardor bolakay. Voqea-hodisalar, qahramonlar ruhiyati yozuvchi tomonidan emas, balki boshqa shaxs – hikoyachi tilidan olib borilgan. Bu esa yozuvchiga qahramonlarni ham, voqea - hodisalarni ham turli nuqtai nazardan ochishga imkon bergan. Yozuvchi o‘zini tasvirlayotgan shaxs o‘rniga qo‘ya olsagina, o‘sha shaxs qiyofasiga kira bilsagina, xarakter jonlanadi.

Muallif voqea bayonini o‘quvchiga yetkazish uchun shu usulni qo‘llagan. Bu usul yozuvchiga hikoyanavisning ichki kechinmalarini ifodalashga ko‘proq imkon bersa, bolaning idroki yetmaydigan ba’zi joylarini yozishda qiyinchilik tug‘diradi. Yozuvchi bola tilidan hikoya qilar ekan, uning ruhiyatiga va tiliga moslashishi kerak. Bunday holatda muallif tilida bolaning yosh xususiyati, tajribasizligi, o‘yinqaroqligi, xullas, uning butun tabiati ko‘zga tashlanadi. Asar voqealarining birinchi shaxs tilidan bayon qilinishi hikoyachi qahramonning ruhiy holatini, qalb kechinmalarini ochishda qo‘l kelgan. Bunga misol uchun “Tubsiz osmon” qissasini ham keltirish mumkin. Norbo‘ta atrofida bolalar yo‘qligi uchun ham Bo‘ynoq degan iti bilan birga o‘ynardi. Ular yaqin do‘st, sirdosh, hamroh edi. Bir-birini so‘zsiz tushunardi. Bola iti bilan Qodirqul nosfurushlarga o‘xshaganlarga qarshi qanday kurashni o‘ylar ekan, hali ko‘p narsalar oldida ojiz ekanligini, ularning tashvishi katta odamlar uchun nega ahamiyatsiz ekanligini o‘ylab o‘yiga yetolmasdi. Bola kungay tomondagi yalanglikda chalqancha yotib, doimo uni o‘ylantiradigan tubsiz osmonni kuzata boshlaydi. Darhaqiqat, u osmon haqida ko‘p o‘ylardi. Qachon xafa bo‘lsa, osmonga tikilgisi kelardi. U tubsiz osmonda Qodirqullar yo‘qligiga ishonadi. Shuning uchun osmonni sevadi.

“Bu asarning fazilati shundaki, - deb yozadi akademik Matyoqub Qo‘shjonov, - u orqali biz bola ko‘zi bilan ona yerimizning bir qismini ko‘ramiz, uning har bir giyohi, o‘t-o‘lani, dov-daraxti, tog‘ va toshi, qum va tuprog‘i, sokin chashma va notinch soylarini yangidan anglagandek bo‘lamiz... Bola beg‘araz, uning tiniq nazari esa yana ham tozaroqdir. Bolaning beg‘araz nigohi tufayli, ko‘proq o‘z manfaatini o‘ylab, ba’zan hiylayu nayranglar ishlatib, o‘z mansabidan foydalanib jamoat mulkiga ko‘z tikkan, bu yo‘lda odamlarni tahqirlashdan ham toymaydigan rahbarlarni; tabiat olamiga vahshiylarcha munosabatda bo‘lib, borliq muvozanatini buzayotgan kimsalar, ularning qing‘ir-qilmishlarini ko‘ramiz” [3. 62]. Uni odamlar tushunmas, lekin iti tushunardi. Shuning uchun itidan hech narsa yashirmas, unga butun dardini aytardi.*“Ana shunday chog‘larda Norbo‘ta barcha dardlarini tilsiz hamrohiga to‘kib solardi. Bag‘ri yuluq, insoniy xislatlardan mahrum odamlarday tili bo‘lmagan, ammo “Hamma narsani tushunadigan” Bo‘ynoqni afzal ko‘radi. Bu yozuvchi tomonidan o‘ta ayovsizlik bilan chiqarilgan hukm sifatida asar voqealari davomida aks sado berib turadi. “Bo‘ynoq ham bola bo‘lib tug‘ilsa bo‘lmasmidi”, deya orzu qiladi” [4. 3].*

Ertasi kuni yalanglikka chiqib, osmonga tikilgancha ag‘anab yotadi. U osmon haqida hech narsa bilmasa-da, uning qudratli ekanligiga ishonar va undan o‘zini o‘ylantirib yuradigan barcha jumboqlarga javob izlardi. Osmon esa ko‘m-ko‘k, beg‘ubor va musaffo edi...

Bolaning fojeasi shunda ediki, u muhitga sig‘masdi. Uning bola qalbi razilliklardan katta, osmon qadar yuksak edi. Kechagina ma’rab yurgan qo‘zilar (shu jumladan, do‘sti yetim qo‘zining ham bolasi) bir tutam teriga aylanganda u isyon ko‘taradi, o‘zini boshqara olmay qoladi, portlaydi:

“Ichimdan to‘lib-toshib kelgan yig‘ini to‘xtata olmadim. Yig‘laganimcha kimlarnidir so‘kib, terilarni quchoqlaganimni bilaman. Tarsakidan otilib ketdim. Bu dadam edi...

- Hammangga la’nat! Albatta, qo‘zichoqlarning uvoli tutadi senlarni! – dedim qichqirib. – Ko‘rasanlar hali, baringni qirib tashlayman!..

Bu barcha qatori dadamga ham qarshi aytilgan so‘z edi. Shu daqiqada bu so‘zlarni aytmasligim mumkin emasdi. Ular qo‘zilarga qo‘shib, meni ham toptagan edilar”.

Agar aytish mumkin bo‘lsa, bu gaplar bolaning shafqatsiz muhitga nisbatan aytgan ayovsiz aytgan gapi – bayonoti edi. Asardan olingan ushbu parcha, fragmentda Norbo‘taning ayni damdagi holati aniq yoritilgan.

Bola do‘stlari – it, qo‘zi, terakni himoya qiladi. Ularning tili yo‘q, lekin bola ular bilan gaplashar, ularni “tushunar” edi. Aksincha, til – zabonli atrofidagilar uni tushunmasdi. Bola bilan iti Qodirqul nosfurushning adabini berishadi. Bola qo‘zilarni ayovsiz so‘yayotgan dadasi va uning atrofidagilarni la’natlaydi. Bu bolaning isyoni edi.

Asar qahramoni bola ekanligi uchun uning tushunmaydigan narsasi, beradigan savollari ko‘p edi. Bola hayotdagi barcha voqea-hodisalarga katta qiziqish, ba’zan hayrat bilan qaraydi. Odamlarning gaplariga, qilayotgan ishlariga “tushunolmay qiynaladi”. U o‘ziga xos bo‘lmagan olamda edi: *“Biz atrofimizni o‘rab turgan ko‘p narsalardan ojiz edik. Turqi sovuq Qodirqul ham, musobaqalashib qo‘zi so‘yadiganlar ham, cho‘ponlar bilan savdolashib teri oladigan og‘zi to‘la tilla tishli shaharliklar ham, tog‘begiga pul berib, archa kesib ketadiganlar ham, ko‘m-ko‘k o‘tloqni buzib chim o‘yib ketadigan kishilar ham – xullas, yuragimizga sig‘maydigan gunoh qiladigan barcha kishilar bizni yengardi”.*

Bolaning yuragi nohaqliklar, o‘ziga nisbatan e’tiborsizlik, har xil koyishlar va o‘rinsiz tergashlardan bezillab qoladi. Hatto, bir gal onasi unga yaxshi gapirib, nonga yog‘ surtib berganida beixtiyor ko‘ngli to‘lib yig‘lab yuboradi. Shunday damlarda “Oxiri bir kun katta odam bo‘laman-ku! Shunda ko‘rasizlar Norbo‘taning qo‘lidan nima ishlar keladi!” deb qo‘yadi o‘ziga o‘zi bolalarcha. Uning uzoq-uzoqlarga ketgisi, o‘zining tubsiz osmoniga to‘yib-to‘yib tikilgisi kelardi. Bola qachon xafa bo‘lsa osmonga tikilib yotar, g‘irromliklar yo‘q bo‘lgan tubsiz osmonni xohlar edi. Umringni seni tushungan odamlar davrasida, ular bilan o‘tkazish ham baxt. Sirtdan qaraganda, yosh bolaning hayotdagi murakkabliklar haqida go‘yo kattalardek fikr yuritishi, o‘ylanishi, masalaga yechim izlashi biroz g‘alati tuyuladi. Lekin asar mavzusi, g‘oyasiga ko‘ra bu jarayon juda tabiiy aks ettirilgan. Shuning uchun ham asardagi dramatik voqealarni bola qalbi orqali ko‘rayotgan o‘quvchi bolaga xayrixoh bo‘ladi.

Asar davomida bola bir necha marta qiyin vaziyatlarda, qaltis situatsiyalarda osmondan najot istaydi. O‘zi yashab turgan borliqdagi nohaqliklarni bolalik tasavvuri bilan “tushunolmaydi”. Boladagi bu taxlit paradoks, atrofidagilar fikridan keskin farq qiladigan o‘ziga xos, kutilmagan fikr, shu asosidagi xatti-harakat keskin qarshilikka uchraydi.

Yozuvchi asar konfliktini rivojlantirib, kulminatsiyaga olib borar ekan, qanday yechimga borishi kerak ekanini ko‘p hollarda voqealar rivojiga qarab tasvirlaydi. Asarda Norbo‘taning Bo‘ynoq va bolalarini qutqarishga borgandagi voqealar tasvirida yechim kulminatsion nuqtaga chiqadi. Qissa oxirlagan sari voqealar ham dramatik tus ola boshlaydi. Asar boshida bola aytganidek, ular to‘rtta do‘st edilar: bola, Bo‘ynoq, yetim qo‘zi va oq terak. Terakning po‘sti Qodirqul nosfurush tomonidan shilinib, o‘zi kesiladi; Bo‘ynoq bolalari bilan to‘qayga quvg‘indi bo‘ladi; yetimqo‘zining bolalari so‘yiladi, o‘zini esa ochlikdan Bo‘ynoq bolalari bilan yeydi; Bolani, bolani esa ...otasi otadi...

Masalaning bunday dahshatli yechimini esa ...kitobxon kutmaydi. “Tubsiz osmon”ning yakuni Chingiz Aytmatovning“Oq kema” asaridan ham hayotiy edi. Qissada bolakayning otasi tomonidan nogoh o‘ldirilishi asoslangan. Asoslangan voqea asar yechimida muhim ahamiyatga ega. Qissaning bunchalik dahshatli yakunidan ta’sirlangan mashhur rus yozuvchisi Boris Polevoy “Xudo haqqi, bu topilma va kashfiyot bilan tabriklayman” deb yozgan edi [2.158].

Ular (bola va do‘stlari) aslida bitta dunyo edilar. Hech qaysi bu muhitga sig‘madi. Bola katta bo‘lsa mashina olib, ayasini rosa mindirmoqchi; tushaman desa ham tushirmay, olis-olis shaharlarga olib bormoqchi; ko‘ylaklar, ro‘mollar olib bermoqchi edi...

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Asarda bolaning oddiy va birmuncha zerikarli hayotiga keng o‘rin berilgan. Shunday qarasangiz, bu tasvirlarning biror muhim ahamiyati yo‘qdek ko‘rinadi. Biroq bu tasvir kitobxonni bo‘ladigan fojeaga tayyorlaganini ko‘ramiz. Agar yozuvchining diqqat markazida qahramon fojiasi turmasa, bu tasvirlarning xizmati bo‘lmas edi. Ular asarda keraksiz

epizodlar bo‘lar edi. *“Bir qarashda oddiy cho‘pon bolasining atrof muhitni anglashi* – deb yozadi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Q.Yo‘lchiev, – *tabiatga mehr qo‘yishi va chorvadorlar hayotiga oid ko‘plab hodisalarning keltirilishi u qadar qiziq emasdek tuyulishi mumkin. Ayniqsa, qissa yaratilganidan salkam qirq yil o‘tgach tezkor axborot asrida yashovchi o‘quvchi uchun bolaning it bilan suhbati, teraklarni, qo‘ylarni, itlarni asrab qolishi uchun kurashishi, ota-onasi haqidagi mulohazalari o‘zgacha tasavvur uyg‘otishi mumkin. Lekin bugungi global muammolar, insonlarning ma’naviy yakkalanib qolishi, jamiyatdagi turli illatlar ildizi ana shu asardagi tabiat tasviri, inson va inson, tabiat va inson munosabatidagi tenglik va muvozanatning buzilishi bilan bog‘liq ekanligi mazkur qissaning badiiy-g‘oyaviy, ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini yanada oshiradi” [5. 361].*

Har bir davrning o‘ziga xos ziddiyati bo‘ladi. Mavjud hayotdagi ziddiyatlar esa adabiyotda o‘z aksini topadi. Asarda bolaning yashagan muhiti bilan ziddiyat konfliktni vujudga keltirgan. Asarning yaxshi bo‘lishi konfliktni asarda to‘g‘ri tanlay olishga bog‘liqdir. Demak, asarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz chiqishida konflikt hal qiluvchi omillardan biri ekan. Asarlarda kattalar nazdida, go‘yoki arzimas tuyulgan, ularning ko‘zi o‘rganib qolgan narsalar ziddiyat keltirib chiqardi. Guvohi bo‘lganimizdek, hayotdagi konfliktni chuqur anglab, uni keng aks ettirgan yozuvchining asarlari ham kitobxonga ma’qul bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурали Қобул. Жоҳиллик ва қотиллик -Т.: “IJOD-PRESS”, 2017.
2. Хушбоқ Ж. Юрагимнинг сурати. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2018.
3. Қўшжонов М. Эътиқод // Ёшлик, 1982 йил, 2-сон.
4. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
5. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
6. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
7. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
8. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN‟ ATI. Filologik ta‟ limni takomillashtirish muammolari, 176.
9. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi “Tohir and Zuhra”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, (10), 548-556.
10.Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI–GHAZAL WRITER. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.
11. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER’S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 70*.

Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(3), 49-53.

12. Primov, A. A. (2021). " Poetics"-as A General Theoretical Education. European Scholar Journal, 2(6), 202-204
13. Urinbaevna, S. M., & Urihbaevna, S. M. (2021). An exemplary way of life. Linguistics and Culture Review, 5(S3), 1714-1720.

Saribayeva, M. U., & Mamadjanova, K. S. (2019). IBRAT’S EXEMPLARY WAY OF LIFE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(8), 321-329.

RUBOIY VAZNINI ANIQLASHDA MUKAMMAL BADIIY MATNNING O‘RNI

Oybek Normurodov Berdimurod o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati
E-mail: oybeknormurodov1996@gmail.com, Tel: (99)4727036

Abstract. *In the science of aruz there is a power to bring about some production. For example, they can include textual items in an artistic text. If certain damage is observed in the text, this process automatically creates errors in determining the poetic weights of the verses. In this research work, we want to think about the rubai written by Zahiriddin Muhammad Babur, which begins with 'Ko'ngli tilagan...' ('The heart wants') to find an answer to the problem of solving these problems.*

Keywords. *Aruz science, rubai, text, textologist, poetic weight, divan, scientific-critical text, manuscript.*

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O'zbek mumtoz adabiyotida badiiylik bevosita so'zning ma'nosi va uning qaysi o'rinda joylashuviga ham bog'liq. Ba'zan misralar tarkibida ortiqcha jumlalar badiiyat mezonlarinining buzilishi hamda muallif aytmoqchi bo'lgan fikrga teskari holatni keltirib chiqarishi mumkin. Sharq mumtoz adabiyotida misraning asosiy talablaridan biri bu – aruz she'riy tizimining ma'lum bir vaznida yozilishidadir. Ko'p hollarda so'zlarning eski o'zbek yozuvidan boshqa, jumladan, kirill, lotin yozuvlarga ko'chirishda ortiqcha so'zlarning qo'shilishi, mazmunga qarab kon'ektura usuli bilan jumlalarni tiklashga urinish she'rning eng asosiy talablaridan biri – vaznda xatolikni yuzaga keltiradi. Bu hodisa ruboiy vaznlarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki ruboiylar qat'iy vaznga ega bo'lib, u hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yoziladi. Matnlarning nashrga tayyorlanish jarayoni o'ta murakkab va mashaqqatli ish hisoblanib, bu jarayon matnshunos olimdan ko'p bilim, ulkan tajriba, zakovat talab qiladi. Aks holda matndagi nuqsonlar she'rning vazniga ta'sir qilmay qolmaydi. Bu holatni umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklaridan tortib to oliy ta'lim darsliklarigacha kuzatish mumkin. Mazkur maqolada yuqoridagi holat Boburning birgina **"Ko'ngli tilagan…"** deb boshlanuvchi ruboiysi misolida tahlil qilingan**.**

Mavzu doirasidagi tahlillar. Jumladan, kitob mualliflari S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayevlar tomonidan 2020-yil chop etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsligining 4-nashrida Boburning "Ko'ngli tilagan…" deya boshlanuvchi mazkur ruboiysidan boshlab tahlil qisak:

Ko'ngli tilagan **murodig'a** yetsa kishi
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki **ish** muyassar **bo'lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig'a** ketsa kishi.

Adabiyot: 5- sinfi uchun darslik. 2020. 166-bet.

Ushbu ruboiyning birinchi, ikkinchi misrasi hazaji axrabi maqbuzi makfufi ajabb (maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal – – V / V – V – /V – – V / V –), to'rtinchi misrasi hazaji axrabi makfufi ajabb (maf'uvlu mafoiylu mafoiylu faal – – V / V – – V / V – – V / V –) vaznida ekanligi ma'lum bo'ladi, biroq uchinchi misra ruboiy vaznlarining 24 ta shajarasidan birortasiga ham mos kelmaydi. Bu misraning taqte'sini shartli ravishda quyidagicha keltirish mumkin:

Bu ik-ki ish mu-yas-sar bo'l-ma-sa o-lam-da,
– – V – V – – – V V – – –

Endi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, ushbu ruboiyda matn bilan bog'liq muammo mavjud. Ana shu nuqson vaznni to'g'ri aniqlashga imkon bermaydi. Shu bois ushbu ruboiyning boshqa matnlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Boburning yuqoridagi ruboiyini boshqa matnlarga qiyoslashda ularning chop etilgan yiliga qarab keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Ko'ngli tilagan **murodig'a** yetsa kishi,
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki muyassar o'lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig'a** ketsa kishi.

Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. Ilmiy asarlar. T., 2000. Ma'naviyat. 171-bet.

Ko'ngli tilagan **murodg'a** yetsa kishi,
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki muyassar o'lmasa** olamda,
Boshni olib bir **sorig'a** ketsa kishi.

N.Mallayev.O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. O'rta va oliy maktab. T., 1963.652-bet.

کو نگلی تیلاگان مرادغه یتسه کیشی
ایتسه گیشی یا بارچه مرادلارنی ترک
بو ایکی ش میسر اولما سه عالم دا
باشینی آلیب بیر ساریغه کیتسه کیشی

Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. (Nashrga tayyorlovchi Shafiqa Yorqin), Kobul., Hijriy 1362-yil. (Milodiy 1983-yil).165 (312)-bet.

Ko‘ngli tilagan **murodg‘a** yetsa kishi,
Yo **borcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki **ish** muyassar **o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. (Nashrga tayyorlovchi Abdurashid Abdug‘afurov), – T., Fan. 1994. 96-bet. 167-ruboiy.

Ko‘ngli tilagan **murodg‘a** yetsa kishi,
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki **ish** muyassar **o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari. (Nashrga tayyorlovchi Hasanxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li), – T., Sharq. 1996. 108-bet. 166-ruboiy.

Ko‘ngli tilagan **murodig‘a** yetsa kishi,
Yo **borcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki** muyassar **o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur. G‘aribing andijoniydur. Saylanma she’rlar. (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va lug‘at muallifi Vahob Rahmonov), – T., Sharq. 2008. 210-bet.

Ko‘ngli tilagan **murodig‘a** yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki ish** muyassar **bo‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sorig‘a** ketsa kishi.

Adabiyot. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun majmua. Ikkinchi nashri. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2010. Tuzuvchilar: B. To‘xliyev, R. Mirsamiqova, O. Ahmetova. 171-bet.

Ko‘ngli tilagan **murodig‘a** yetsa kishi,
Yo **barcha** murodlarni tark etsa kishi.
Bu **ikki ish** muyassar **o‘lmasa** olamda,
Boshini olib bir **sarig‘a** ketsa kishi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi., – T., Sharq. 2017. 251-bet. K harfi uchun keltirilgan ruboiy.

Yuqoridagi deyarli barcha matnlarda so‘zlarda har xillik mavjud, masalan, professor Fitrat keltirgan matnda so‘zlar “murodig‘a”, “barcha”, “ikki muyassar o‘lmasa”, “boshini”, “sorig‘a” shaklida, shu bilan birga ushbu ruboiyning oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida tasdiqlangan uzoq yillar o‘zbek filologiyasi talabalari uchun foydalanib kelingan “O‘zbek adabiyoti tarixi” 1-kitobining Bobur hayoti va ijodi qismi uchun ajratilgan sahifalarida “murodg‘a”, “barcha”, “ikki muyassar o‘lmasa”, “boshni” shaklida yozilganligi kuzatilsa, Shafiqa Yorqin tayyorlagan matnda 3-izoh bilan qo‘lyozmada “ish” so‘zi mavjud emasligi qayd etib o‘tilgan. 1994-yil Abdurashid Abdug‘afurov tayyorlagan Zahiririddin Muhammad Bobur “Devon”ida “murodg‘a”, “borcha”, “…ikki ish muyassar o‘lmasa”, “boshini”, “sorig‘a” shaklida keltirilgan bo‘lib, faqat “ish” va “boshini” so‘zlarida o‘zgarish kuzatiladi. Keyingi 1996-yil Hasanxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li tayyorlagan Zahiririddin Muhammad Boburning “Nazm durdonalari” (Shoh va shoir) kitobida so‘zlar “murodg‘a”, “barcha”, “ish muyassar o‘lmasa”, “boshini”, “sorig‘a” shakliga keltirilgan. Hammualliflar B. To‘xliyev, R. Mirsamiqova, O. Ahmetova tomonidan 2010-yil chop etilgan akademik litseylarning 2-bosqich o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “Adabiyot” majmuasida keltirilgan ruboiyning matni 2020-yil nashr qilingan 5-sinf uchun Adabiyot darsligidagi matn bilan bir xil. Vahob Rahmonov tomonidan tayyorlangan “G‘aribing andijoniydur” saylanma she’rlar to‘plamida esa so‘zlar “murodig‘a”, “borcha”, “ikki muyassar o‘lmasa”, boshini”, “sorig‘a” shaklida bo‘lsa, 2017-yil “Sharq” nashriyotida bosilgan “Zahiririddin

Muhammad Bobur ensiklopediyasi”da ruboiyning o‘zgarishga uchragan so‘zlari quyidagicha “murodig‘a”, “barcha”, “ikki ish muyassar o‘lmasa”, “boshini”, “sarig‘a” holatga kelgan.

Demak, barcha matnlardagi keltirilgan namunalarning asosida ushbu ruboiyning mana shu shaklda ekanligi ma’lum bo‘ladi:

Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi,
Yo borcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki muyassar o‘lmasa olamda,
Boshini olib bir sarig‘a ketsa kishi.

Aruzshunos olim Sobirjon Tohirov “Aruz mustahkam o‘lchovlarga ega bo‘lganligi uchun uning yordamida she’riy matnlardagi odatiy va tasodifiy xatolarni aniqlash imkoniyati mavjud” ekanligini qayd etadi. Endi, mana shu ilmiy fikrlarga tayangan holda Bobrning yuqoridagi ruboiysining vaznini aniqlaymiz:

1-misra. Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi. Hazaji axrabi maqbuzi makfufi ajabb (maf’uvlu mafoilun mafoiylu faal – – V / V – V – /V – – V / V –).

2-misra. Yo barcha murodlarni tark etsa kishi. Hazaji axrabi maqbuzi makfufi ajabb (maf’uvlu mafoilun mafoiylu faal – – V / V – V – /V – – V / V –).

3-misra. Bu ikki muyassar o‘lmasa olamda. Hazaji axrabi maqbuzi solimi abtar (maf’uvlu mafoilun mafoiylun fa’ – – V / V – V – / V – – – / –).

4-misra. Boshini olib bir sarig‘a ketsa kishi. Hazaji axrabi makfufi ajabb (maf’uvlu mafoiylu mafoiylu faal – – V / V – – V / V – – V / V –).

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Vaznni aniqlashda matnning mukammal ekanligi shart. Ko‘p o‘rinlarda vaznning aniq chiqmasligi so‘zlarning o‘zgarshga uchrashi yoki qo‘lyozma manbalarda mavjud bo‘lmagan jumlalarning yuzaga kelishi bilan ham bog‘liqliqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. – Samarqand: Universitet. 2020.
2. D. Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta’lim-Media. 2019.
3. A.Hojiahmedov. O‘zbek aruzi lug‘ati. – T.: Sharq. 1998.
4. Adabiyot: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5- sinfi o‘quvchilari uchun darslik. (Ahmedov Sunnat, Qosimov Begali, Qo‘chqorov Rahmon, Rizayev Shuhratilla). – T.: Sharq. 2019.
5. Adabiyot: Akademik litseylarning 2-bosqich o‘quvchilari uchun majmua (Tuzuvchilar: Boqijon To‘xliyev, Ra’no Mirsamiqova, Oydin Ahmetova.). Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T: Sharq. 2010.
6. Zahiririddin Muhammad Bobur. Devon.(Nashrga tayyorlovchi Abdurashid Abdug‘afurov), – T.” Fan. 1994.
7. Zahiririddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari. (Nashrga tayyorlovchi Hasanxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li), – T.: Sharq. 1996.
8. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
9. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
10. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
11. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
12. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN‟ ATI. Filologik ta‟ limni takomillashtirish muammolari, 176.
13. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi “Tohir and Zuhra”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
14. Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI–GHAZAL WRITER. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.

BADIIY ASAR KONTEKSTIDA IJODKOR DUNYOQARASHI

Babayeva Sevara Baxtiyor qizi
GulDU Filologiya fakulteti 10.00.02 - O‘zbek adabiyoti
yo‘nalishi tayanch doktoranti,
electron pochta: abrorbabaev01@gmail.com, tel: +99899 470 41 58

Annotation*. This article analyzes the process of creative personality and creativity, the factors and origin of the emergence of artistic creativity, the individual characteristics of the creative person, the harmonization of rational and irrational knowledge, the psychological and philosophical aspects of the creative worldview, the mutual similarities and differences of logical thinking and artistic thinking, the stages of the process of artistic thinking. The article also provides an idea of the reflection of artistic thinking in the novels of one of the leading representatives of modern Uzbek prose Isajon Sultan, the literary style, the artistic language, the peculiarities of the works.*

Keywords: *creative personality, creative worldview, rational and irrational cognition, contemplation, artistic thinking, artistic conception, themes, consciousness flow, social consciousness****.***

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Ijodkor shaxs doimo o‘zligini anglashga va shu bilan birgalikda, o‘zi yashab turgan olam, u mansub bo‘lgan jamiyat va hayotdan ma’ni izlashga, inson umrining mohiyatini tushunishga urinadi. Bu esa muttasil davom etuvchi jarayon, negaki ijodkor bu progressning intixosiga yetar ekan, uning ijodiy yaratuvchanligi ham o‘z nihoyasiga yetadi. U butun dunyoni o‘zining ratsional va irratsional tasavvurlariga bo‘ysundirib, yangi bir olamni, o‘z botinidagi individual borliqni obrazlar va majozlar vositasida asarlarida akslantiradi.

Mavzu doirasidagi tahlillar:

Dunyoga mashhur faylasuf Artur Shopengauerning fikriga ko‘ra, ijodkor insonning botinida ilohiy mag‘iz bo‘ladi va aynan mana shu narsa insonni butun olam va undagi yaratiqlar bilan bog‘lab turadi. Shuningdek, Shopengauer o‘zidan boshqa hech narsa mavjud emasligi, borliq va undagi narsalar faqat uning tasavvuri va irodasi tufayli mavjudligini o‘z nazariyalarida ta’kidlab o‘tadi. Ya’ni, olamni anglash, avvalo, insonni, uning botinini anglashdan boshlanadi, agar inson ruhiyatidagi murakkabliklar chuqur o‘rganilmas ekan, olamni anglash jarayoni hech qachon mukammallikka erishmaydi.

Psixoanalitika fanining asoschilari Zigmund Freyd va Karl Yung nazariyalariga ko‘ra, inson botinining asosini aql inobatga olmagan, chetga surgan, ong ostida saqlanib qolgan turli fikrlar, kechinmalar, iztiroblar, tasavvurlar, axborotlar, mayllar tashkil etadi. Voqelikni obrazlar shaklida qabul qilish – Yung nazarida psixik-ruhiy qabul qilishdir. Shuning uchun ham ijod – bu ong osti kechinmalarining o‘zini namoyon qilishidir.[1] Ya’ni, ijodkor yangi asarini yaratish jarayonida har qanday obrazni tasvirlamasin, uning tag zamirida muallifning o‘z qiyofasi, iztiroblari, kechinmalari aks etadi. Zigmund Freydning fikriga ko‘ra, o‘zini baxtli hisoblagan emas, balki o‘z hayotidan qoniqmagan inson badiiy ijod bilan shug‘ullanadi, go‘yoki yaratayotgan asarlari orqali ruhiyatidagi bo‘shliqlarni to‘ldiradi, o‘zi erishmagan ma’naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradi. Yana bir mashhur psixolog Vigotskiy esa insonning olamni qabul qilish tarzini ikki turga bo‘lib o‘rganadi: “Birinchisi, hayotni boricha qabul qiluvchi va an’analarni davom ettiruvchi ijrochilar. Ikkinchisi, hayotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilmay, o‘zgacha fikrlovchi, yangilanish tarafdorlaridir”[2] ushbu tasnifdan anglashiladiki, ijodkorlar ikkinchi turdagi toifaga, ya’ni atrofidagi sobit va o‘zgarmas olamni boricha qabul qila olmasdan, uni o‘z tasavvuridagi mukammallikda ko‘rishni xohlaydigan, har bir mayda detallargacha e’tibor berib, ularda turli majoz va obrazlarni ko‘ra oladigan, yarata oladigan, hayotning mohiyatini, inson umrining mazmunini belgilab, aniqlashtirib, buni atrofidagilarga ham o‘ziga xos yo‘sinda tushuntirib bera oladigan insonlardir. “Ijodkor uchun yozish – tiriklik sharti, u tafakkurida shakllangan voqelik – modelini tasvirlash orqali o‘z “men”ini ifoda qilishga intiladi. Yozuvchi inson qalbi va tafakkuri, estetik didini shakllantirish, his-tuyg‘usiga ta’sir qilish faoliyatiga o‘zini ma’sul deb biladi. Ijodkorning hayotiy formulasi: yozish, anglash, anglatish, ishontirish, strukturani shakllantirish, voqealar tizimini tashkillashtirish, fikrga chorlash, hisga ta’sir etish, turtki berishdan tarkib topadi”[3]

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, ijodiy dunyoqarash barcha ijodkorlarda ham birdek shakllanavermaydi. Yuqorida aytilganidek, botinida ilohiy mag‘iz bo‘lgan odam doimo shu iste’dodni sayqallab, unga ishlov berib tursagina uning dunyoga kelajak asarlari umrboqiy asarlar sirasiga kirishi

mumkin. Insondagi dunyoni badiiy tafakkur qila olish qobiliyati zamirida uning hayoti davomida orttirgan barcha bilimlari, tasavvurlari, hissiyotlari, iztiroblari va mayllari ham yotadi. Bu borada antik davr olimlaridan biri Arastu ham quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Arastu go‘zallik va ajiblik haqidagi fikrlarida aqliy idrok va hissiy idrok uyg‘unligiga e’tibor beradi. Arastu fikricha, har qanday sezgi, istak-mayl yoki o‘y-xayol biror narsa, hodisaga(xilqatga) intilar ekan, o‘sha narsadan qandaydir rohat-farog‘at oladi, shu ma’noda o‘sha hodisa ajib yoki go‘zal (yoki barkamol) bo‘ladi. O‘sha hilqatni tilash, mayl yoki hamdardlik bildirish muvofiq, uyg‘un kelishi kerak. Boshqacha aytganda, xayoldagi xilqat bilan o‘sha narsa haqidagi xayol(asar) mutlaqo uyg‘unlashgandagina barkamollik yuzaga keladi”[4]

Bundan ko‘rinadiki, ijodkordagi ratsional va irratsional idrok teng bo‘lgandagina uning ijodida yuksalish paydo bo‘ladi. Mana shu yerda uning badiiy tafakkuri qay darajada serqatlam va serqirra ekanligi anglashilib boradi. Shu o‘rinda tafakkur haqida biroz to‘xtalib o‘tsak. Tafakkur – [ar. Fikr yuritish, o‘ylash, fikrlash] obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in’ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash.[5] Tafakkur inson ongi bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, bunda uning borliq va jamiyat haqidagi bilimlari, o‘y-fikrlari, kechinmalari o‘zaro birikib, sintezlanadi va muayyan xulosalar chiqarishga yordam beradi. Har bir inson o‘ziga xos tafakkur sohibidir. Biroq faqat ijodkor insongina badiiy tafakkurga ega. Negaki, badiiy tafakkur atrof-muhitni, borliqni o‘z holicha shunchaki ko‘rib, unga muayyan baho berish, tashxis qo‘yish bilan chegaralanmaydi. Balki u olamni bir mo‘jiza sifatida, yaratiq sifatida idrok qiladi, his etadi, ta’sirlanadi. Bu ta’sir shunchalar kuchli bir quvvatga egaki, u hattoki yangi asar yaratish qudratini ham o‘zida jamlay oladi. Birgina badiiy tafakkurdan dunyoga kelgan asar esa qanchadan qancha tafakkurlarni oziqlantirishga, ularning ma’naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Jahon adabiyotshunosligida badiiy tafakkur haqida turli qarashlar mavjud bo‘lib, A.A.Belyayevning fikriga ko‘ra, badiiy tafakkur maqsadli intellektual faoliyatning bir turi bo‘lib, san’at asarlarini yaratish va idrok etish, inson tafakkuri oqimining asosiy va o‘ziga xos tabiati, yakuniy maqsadlari, ijtimoiy funksiyalari va amaliyotiga kiritish usullari sanaladi[6]. Ya’ni badiiy tafakkur ham insonning ong qatlamida paydo bo‘lib, shakllanuvchi, shaxsning xarakteri, tabiati, hayotga bo‘lgan qarashlari, maqsadi va bularning barchasini hayotga tatbiq etish mahorati bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Umuman olganda, badiiy tafakkur tushunchasi, nafaqat adabiyotshunoslik, balki san’atshunoslik, madaniyatshunoslik, falsafa, estetika, mantiq, psixologiya va yana boshqa ko‘plab sohalarning markazida turuvchi va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tushuncha sanaladi. M.S.Kaganning fikricha, badiiy tafakkur badiiy ijodni ham, badiiy idrokni ham faoliyat sifatida belgilovchi maxsus psixologik tuzilmadir[7]. Bu yerda badiiy tafakkurga psixologik atama sifatida yondashilgan bo‘lsa ham, mohiyatan insonning yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlari, idrok va mayllarning kesishgan nuqtasi haqida so‘z boradi.

“Ijodkor ongida voqelikni jamlash, saralash, tartibga keltirish, tizimga solish – badiiy tafakkurning bosqichlari hisoblanadi”[3]

Yuqoridagi qiyoslardan ijod jarayoni bosqichlarining tabiiy tarzda ketma-ket sodir bo‘lishi tushuniladi. Darhaqiqat, ushbu vaziyatda ijodkorning ham biologik, ham ruhiy, ham ijtimoiy “men”i birlashadi, to‘lg‘oq dardi kabi og‘ir bir azob uning butun vujudini egallab oladi, to yangi asarning so‘nggi nuqtasi qo‘yilmagunga qadar bu shirin qiynoq uni tark etmaydi. Yaratiq “tug‘ilgan”idan keyingina jism ham, ruh ham yengillik va rohatga erishadi.

San’at asarlari, xususan, badiiy adabiyot namunalarida ijodkor dunyoqarashi va badiiy tafakkur diapazonini boshqa san’at turlari namunalaridan emotsionalligi va konkretliligi bilan ajralib turadi. Negaki so‘z vositasida shoir yoki yozuvchi badiiy tafakkurida zuhr bo‘lgan barcha fikr va kechinmalarni qog‘ozga tushirishi, ularni o‘zi xohlagan shaklda yaratishi mumkin bo‘ladi. Ayniqsa, romanlardagi badiiy tafakkur boshqa barcha janrlardan o‘zining ko‘lamdorligi, serqirraligi, obrazlar tizimi va syujet liniyasi, kompozitsion qurilishining murakkabligi bilan o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bundan tashqari romanda qahramonlarning portreti, psixologik tasvir o‘rinlari ham boshqa adabiy janrlardan ko‘ra mukammal darajada yaratiladi.

Jumladan, zamonaviy o‘zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sulton romanlarini mutolaa qilar ekanmiz, bu asarlardagi yuqoriga ko‘tarilgan muammolar, syujet unsurlari, personajlar rang-barangligiga qaramasdan ularni ham bir narsa, ya’ni muallifning badiiy tafakkuri birlashtirib turganligi yaqqol seziladi. Yozuvchi “Boqiy darbadar” romanida turfa zamon va makonlarda ro‘y

bergan va berayotgan voqea-hodisalar, tutumlar, kechinmalar orqali inson umrining asl mohiyati-yu, ma’nisiz hayotning nechog‘lik ayanch tusga kirishi haqida so‘z yuritsa, “Ozod” romanida bosh qahramon Ozodning muhabbat yo‘lida boshidan kechirgan kechmishlari zamirida Vatan, oila, sadoqat, ruh va so‘z erkinligi va yana ko‘plab dolzarb masalalarni ifodalashga harakat qiladi. “Genetik” romanida ham muallif chin insoniy tuyg‘ular sanalmish o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va matonat kabi masalalarga murojaat etadi. E’tibor berib qarasak, Isajon Sulton barcha romanlarida inson ruhiyatining tub ildiziga kirib borishga, uni tahlil etishga urinadi va qaysidir ma’noda o‘z maqsadiga erishadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ijodkor dunyoqarashi va badiiy tafakkur tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradigan tushunchalar bo‘lib, hissiy va aqliy idrok orqali dunyoni bilish, ko‘rish, ifodalash kabi jarayonlarni obrazlar vositasida amalga oshiradi. Zamonaviy o‘zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sulton ham o‘zining romanlarida ijodkor dunyoqarashi va badiiy tafakkurning individual uyg‘unligini, shakl va mazmun, uslub, badiiylik jihatidan o‘ziga xoslik yarata olgan ijodkorlardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi(Mendan mengacha-2). Akademnashr. T.: 2018 yil.
2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – С. 23,93.
3. Sanobar To‘laganova. Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon muammosi(Abdulla Qodiriy ijodi misolida). Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – T.: 2019 yil. 19-bet.
4. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
5. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
6. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
7. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER’S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 70*.
8. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(3), 49-53. Obida Opa, [11.09.2023 10:00]
9. Fayzullayeva, O. X. (2020). DIVERSITY IN WRITING UZBEK SONNETS. Theoretical & Applied Science, (4), 627-633.
10Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6), 394-402.
11. Primov, A. A. (2021). " Poetics"-as A General Theoretical Education. European Scholar Journal, 2(6), 202-204.
12. Sariboeva, M. (2018). THE ROLE OF NAVOIS WORKS IN THE FORMATION OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED YOUNG GENERATION. Bulletin of Gulistan State University, 2018(1), 74-79.

QADIMGI TURKIY BUDDAVIYLIK SHE’RIYATIGA DOIR QARASHLAR TADQIQI

Qarshiyeva Shohsanam Abdurashidovna
Tayanch doktorant
Guliston davlat universiteti, 120110, Sirdaryo viloyati Guliston shahri
E-mail:qarshiyeva1989@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada qadimgi turkiy buddaviylik she’riyatining genezisi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida so‘z boradi. Buddaviylik she’riyatiga doir qarashlar va shu yo‘nalishdagi ilmiy ishlar qiyosiy aspektda tadqiq qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Qadimgi turkiy adabiyot, turk-budda adabiyoti, buddaviylik she’riyati, obraz, qofiya, O‘rxun-Enasoy yodnomalari.*

Abstract: *The article talks about the genesis, ideological and artistic features of ancient Turkish Buddhist poetry. Views on Buddhist poetry and scientific works in this direction are studied in a comparative aspect.*

Key words: *Ancient Turkish literature, Turkish-Buddhist literature, Buddhist poetry, imagery, rhyme, Orhun-Enasoy memoirs.*

Аннотация: *В статье говорится о генезисе, идейных и художественных особенностях древнетурецкой буддийской поэзии. В сравнительном аспекте изучаются взгляды на буддийскую поэзию и научные работы в этом направлении.*

Ключевые слова: *Древняя турецкая литература, турецко-буддийская литература, буддийская поэзия, образность, рифма, мемуары Орхуна-Энасоя.*

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyotning nafaqat umumturkologiyada, balki o‘zbek adabiyotshunosligida ham izchil va batafsil tadqiq etilishi, munosib bahosini olishi yuzasidan bir-qancha ishlar qilingan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda aniq va puxta, tarmoqlangan tadqiqot ishlari yetarli emas. O‘z yechimini – ilmiy-adabiy tadqiqini kutayotgan masalalar talaygina. Shunday ekan, qadimgi turkiy buddaviylik adabiyoti, xususan, buddaviylik she’rlari yuzasidan qimmatli fikrlar, adabiy-nazariy qarashlar taqdim eta olgan olimlar, tadqiqotchilarning faoliyatiga razm solish, ularning soha rivoji oldidagi xizmatlarini yetarlicha baholash bugunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mavzu doirasidagi tahlillar: Budda asarlari uzoq davr taraqqiy etib takomilga erishgan klassik yozma adabiy tilda, uning kitobiy uslubida yaratilgan. Buddizm tufayli turk olamiga qadimgi hind falsafasi va madaniyati ta’sir eta boshladi. Turkiy xalqlar madaniyati o‘zining eski an’analari va yangicha farazlari ta’sirida takomil bosqichiga ko‘tarila boshladi.

“Turk-budda adabiyoti manbalari juda keng. Ular ichida turli adabiy janrlar, maqollar, fol kitoblari, qo‘shiqlar, yig‘i qo‘shiqlari, hikoya va hikoyatlar, sutralar, she’rlar, tavba duolari, magik-afsungarlik matnlari kabilarni ko‘rishimiz mumkin”.[1; 3]

To‘g‘ri, qadimgi turkiylar davridagi adabiyotshunoslik fan sifatida rivoj topmagan bo‘lsa-da, lekin uning elementlari mavjud edi. Aks holda, she’r yuzaga kelmagan bo‘lardi. Bu jarayon boshqa xalqlarning ilk davrdagi adabiyotida kuzatiladi. [2; 63] Qolaversa, bu tajriba umumturkologik tadqiqotlarda bor. [3;193-207] Shuningdek, I.V.Stebleva ham qadimgi turkiy yodgorliklarning badiiy tasvir vositalari poetikasiga alohida to‘xtalganda keyingi davr adabiyotshunosligi qonuniyatlarini tatbiq qilib, shu asosda baholaydi.[4; 162]

Budda oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot tavfsifi Nasimxon Rahmonovning asarlari, maqolalari va ilmiy tadqiqot ishlarida mufassal berilgan. “Ruhiyatdagi nur murodi” monografiyasida buddaviylikning jahon va Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida tutgan o‘rni, Budda shaxsining sifatlari, g‘ayritabiiy tug‘ilishi va bu jarayon bilan bog‘liq turli xil afsonalarning paydo bo‘lishi kabi adabiy-tarixiy ma’lumotlarga duch kelamiz.

V-VII asrlarda yaratilgan “Xuastuanift” asarining ma’lumot berishicha, qadimgi budda she’rlarining paydo bo‘lishi Turk xoqonligi tashkil etilishidan ham avvalroqqa borib taqaladi. Buddaviylikning Turk xoqonligidagi tutgan o‘rni yaxshi emasligi To‘nyuquqning “…budda g‘oyalari Turk xoqonligining harbiy harakatlariga to‘sqinlik qiladi” deya xoqonga bergan maslahatidan ma’lum bo‘ladi. Shu boisdan O‘rxun-Enasoy yodnomalarida budda g‘oyalarini uchratmaymiz.

Olim Nasimxon Rahmonov yuqoridagi monografiyasida Budda oqimining ta’siri kuchayishi bilan mazkur oqim she’rlarining targ‘ib qilinishi jadallashganligini aytadi. Tadqiqot ishida buddaviylik she’rlarining mazmuni, janriy xususiyati, g‘o‘yaviy-badiiy strukturasi, hajm va shakliy tomonlariga e’tibor qaratadi. Bunday she’rlarning mualliflari she’r hoshiyalarida qayd etilgani, shoirlarning ismlariga diqqat qilinsa, ular nafaqat tarjima asarlari, balki, asl turkiyda yozilganligiga ham guvoh bo‘lish mumkinligi haqida ilmiy ma’lumotlar beradi. Shuningdek, olim “O‘n turli ezgulikning madhi” she’rini badiiy tahlilga tortadi. Ijtimoiy-diniy mavzuda yozilgan ushbu she’rning g‘oyaviy yo‘nalishi, pafosi va kompozitsion unsurlari izohlanadi. Shuningdek, mutaxassis so‘g‘d alifbosidagi har bir harfga bag‘ishlangan she’rga ham diqqat qiladi. She’rning hajmi haqida “84 misradan iborat bo‘lib, 21 ta sakkizlikdan iborat. She’r muallifi noma’lum”. [5; 88] B harfiga bag‘ishlangan sakkizlik va uning mohiyati, uslubi, ifoda imkoniyati, yozilish maqsadi, S harfiga bag‘ishlangan sakkizlikning mavzusi va

o‘zidan oldingi she’r bilan qiyosiy-adabiy tafovutlari va umumiylik jihatlari haqida mulohazalar bildiradi.

Nasimxon Rahmonovning yuqoridagi kabi tahlillaridan har bir sakkizlik mustaqil she’r ekanligi haqida aniqroq tasavvur hosil qilish mumkin. Olim qadimgi turk budda she’riyatining mavzu ko‘lamiga ham e’tibor qaratib, nirvan va bo‘distavni madh qilishga bag‘ishlangan “Inonch” she’rining obrazlariga tavfsif beradi: “Nirvan – tafakkuri yuqori darajaga erishgan va Buddaga aylangan odamdir. Sansara kishanlaridan insonlar ozod bo‘lishlari uchun nirvanlar yordam beradilar. Sansara jonli mavjudotlarning azob chekishi va qayta tug‘ilishidir. Nirvan sansaraga qarama-qarshi qo‘yiladi. Nirvan oliy mavjudotdir”. [5; 90]

Yana bir buddaviylik ta’sirida yozilgan she’riy obraz – Mayto‘ra haqidagi olimning fikrlari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Mayto‘ra kul’tiga bag‘ishlangan she’rning mohiyatini chuqurroq anglashga ko‘maklashadi. Nasimxon Rahmonov qadimgi turk budda she’riyatidagi asosiy yo‘nalishni, oqim ta’sirida yaratilgan she’rlarning butun ruhini tashkil etgan ichki ma’naviy quvvatni tekshiradi. She’rlarning mavzu mundarijasi, undagi sakkizlik yoki to‘rtliklarning mazmunan rang-barangligi singari jihatlar tadqiqotchi e’tiboridan chetda qolmaydi.

Nasimxon Rahmonovning “O‘zbek adabiyoti tarixi” (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) o‘quv-qo‘llanmasida mazkur oqimning mazmun-mohiyati, buddaviylikda “to‘rt oliy haqiqat”, Buddaning va’dalari va ularning hayotiy ahamiyati va “Oltun yorug‘” asari haqida atroflicha mulohazalar to‘plangan bo‘lsa-da, buddaviylik she’rlariga urg‘u berilmagan.

Kitobxonlarga buddaviylik ta’sirida yaratilgan turkiy she’riyatning shakllanishi to‘g‘risida ma’lumot berib, ular idrokida bu she’riyatning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilishda qadimgi turkiy adabiyot mutaxasisi M.Mamatqulov “Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi” o‘quv-qo‘llanmasi orqali qadimgi turkiy buddaviylik oqimining O‘rta Osiyo hududiga tarqalishi, uning natijasida shakllangan badiiy ijodning mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy ma’lumotlar orqali tahlil qilinadi. Budda muhitida yaratilgan turkiycha she’rlarning hajmi va ifoda uslubiga to‘xtalib, ular dinning qonun-qoidalari, buddaviylik g‘oyalarining targ‘ib qilinishiga xizmat qilganligini ta’kidlaydi. Buddizmning ta’sirida yashagan va ijod qilgan hamda nomlari bizgacha yetib kelgan shoirlar haqida ham ma’lumot to‘playdi. “Ki-ki, Pratyaya-Shiri, Asig Tutung, Kul Tarqon, Chisuya Tutung, Qalim Keysi, Singku Seli Tutung kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin”. [7; 60]

“Sergaplik rangi” she’rining 60 misradan tarkib topganligini, to‘rtliklar tizimidagi 15 banddan iboratligini qayd etib to‘rtlikni tahlil qiladi.

Olim buddaviylik muhitida yaratilgan she’rlarni o‘ta talabchanlik va sinchkovlik bilan tekshiradi va ularga xos xususiyatlarni aniqlaydi: Ko‘pincha birinchi misraning oxiridagi so‘z uchinchi misrada yana qaytarilib, qofiya vazifasini o‘tashi mumkin. Radifning qofiya o‘rnida qo‘llanishi – qofiyasiz misralar oxiridagi takror so‘nggi guruhga kiruvchi to‘rtlikning asosiy belgisi hisoblanishi mumkin. Chunki uning har bir misrasida ohangdosh so‘zlar o‘rniga bir so‘z takrorlanib qo‘llanadi:

Yay-ki suvni kis-ki odte buz tiyur-ler,
Yana yay-in kis-ki buzni suv tip tiyur-ler .
Yangilduk-ta cin burkan-ni kongul tiyur-ler,
Yangilmaduk-ta kongul-ni ok burkan tiyur-ler.

Bunday holat, ya’ni takror so‘zning qofiya vazifasini o‘tashi Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonida ham uchrashini misollar orqali ko‘rsatib beradi:

Bu ochun rabot ul tushub ko‘chguluk,
Rabotqa tushukli tushar ko‘chguluk.
O‘ng arqish uzadi qo‘pup yo‘l tutub,
O‘ngi qo‘pmish arqish necha ko‘chguluk. [8; 53]

Zakiy tadqiqotchi radifning qofiya o‘rnida qo‘llanilishi adabiyotshunoslikda epifora deb atalishini nazariy jihatdan asoslaydi. Bu usulni Adib Ahmad ijodida ham uchratish mumkinligini aytadi. Qadimgi turkiy she’rlarning badiiyati haqidagi qarashlari tahlil va talqinlari o‘ziga xos izchil bir tizimni tashkil etadi. Olim bu she’riyat o‘zbek she’riyatining chuqur ildizlari haqida tasavvur hosil qilish uchun asos bo‘lishini anglaydi va buddaviylik she’riyatiga xos g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarning o‘zbek adabiyotiga ta’sirini qiyosiy yo‘sinda o‘rgangan. Mazkur diniy oqim ta’sirida yaratilgan

she’rlar o‘zbek adabiyotining keyingi davrlarida tug‘ilgan lirik asarlar uchun bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatganligi, zamona ruhini xalqchil she’riy shaklda ifodalashda va barmoq vaznining yetakchi she’riy vazngа aylanishida muhim o‘rin tutganiga e’tibor qaratadi. Buddaviylik she’riyatining eng muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatib, “a) misra, bayt va bandlarda alliteratsiyaning yetakchiligi; b) takror so‘zning qofiya vazifasini bajarishi; v) bandlararo qofiyalanishning mavjudligi” [6; 61] shakliy yo‘nalishi esa adabiy an’analarga muvofiqlikda deb belgilaydi.

Ayni vaqtda M.Mamatqulov buddaviylik she’rlarining poetikasi, shakl va mazmun masalasini tadqiq etar ekan, olim Nasimxon Rahmonovning shu yo‘nalishdagi asarlariga, adabiy-ilmiy qarashlariga tayanganligini sezamiz. Shuningdek, she’riy namunalar tahlilida, avvalo, uning nazariy asoslari, badiiy takomili haqida batafsil va atroflicha mulohaza yuritadi. Qadimgi turkiy adabiyotda unchalik ham ko‘zga tashlanavermaydigan o‘ziga xos jihatlarni ko‘rsatadi:

Alqu qamag‘ uch o‘dki burqanlarqa,
Arish arig‘ nirvan to‘zlug iduq nomqa.
Ayag‘ulug‘ arya sangga quvrag‘larqa,
Ayap kulep alqu o‘dte inanurmen.

Ko‘rinadiki, birinchi to‘rtlikning uch misrasi o‘zaro ketma-ket qofiya asosiga qurilib, to‘rtinchi misra ochiq qolyapti. Ikkinchi to‘rtlik misralari orasida esa qofiyalanish holati mavjud emas. Faqat to‘rtinchi misradagi “tapinurmen” so‘zi avvalgi bandning oxirgi misrasidagi “inanurmen” so‘zi bilan ohangdoshlik hosil qilib, bandlararo qofiyalanishni yuzaga keltiryapti. Bu – bandlararo qofiyadoshlik butun she’r oxirigacha davom etadi va uni amalga oshirishda keyingi bandlarda “o‘kunurnen”, “o‘girurmen”, “ildinurmen” so‘zlari xizmat qiladi. [8; 63]M.Mamatqulov shu kabi jihatlari bilan buddaviylik she’rlari xalq og‘zaki ijodi she’rlariga hamohang ekanligini isbotlaydi.

“O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi qofiya tizimini maxsus o‘rgangan Farmon Rayhonov bunday tadrijli qofiyalanish usulini folklor xususiyatlaridan kelib chiqqan holda voqeaband qofiya deb atash lozimligini qayd etadi”. [8; 64]Demak, buddaviylik she’rlarining yaratilishida mualliflar qadimgi turkiy og‘zaki ijod namunalari yutuqlariga tayanganlar hamda folklor an’analarini she’riyatga singdirishga harakat qilganlar. Shu tariqa qadimgi turk budda she’riyati qadimiy turkiy ildizlarga ega ekanligini olim yana bir bor isbotlaydi.

Aytish mumkinki, qadimgi turkiy moniylik she’rlarining qofiyalanishida ma’lum bir qoida kuzatilmaydi. Bu holatni “alliteratsiya moniylik she’rlarining asosiy xususiyati” [9; 49] ekanligi bilan izohlash mumkin. Ma’lumki, qadimgi turkiyzaminda ma’lum bir diniy oqimning boshqa bir diniy oqim bilan sinkretik tarzda amalda bo‘lganligi tarixiy-adabiy manbфlarda anglashinib turadi. Shu jihatdan moniylik va buddaviylik oqimlarining bir-biriga ta’siri tabiiy holat. Zero, bu she’riy parchalarda o‘z izlarini qoldirgan. buddaviylik she’rlaridagi bo‘g‘inlar miqdorining har xilligi, misralarning bir xil tovushlar bilan boshlanishi, tovushlarning takrori she’r ohangini ta’minlashdagi yetakchiligi kabilar moniylik she’rlariga ham xos xususiyat edi.

Shuningdek, adbiyotshunos olim N.Jo‘raqo‘ziyev qadimgi turkiy miflarni turk-budda adabiy manbalaridan izlaydi. “Qadimgi turk-budda poetik matnlarining ko‘pchilik qismini duolar, budda ta’limoti qoidalari yoritilgan she’rlar tashkil qiladi”. [1; 4] Qadimgi turkiy buddaviylik she’rlarining ichida turkiy xalqlar adabiy poetikasiga xos bo‘lganlari borligini va ular o‘ziga xos she’riy mukammallik kasb etishini ta’kidlaydi. Bular sirasida “O‘n turli ezgulikning madhi” alqovi, “Donolik haqida”, “Shirinsuxanlik haqida” , “35 buddaga alqov”, olqishlovchi she’rlar, budda Amitabxe, budda Maytreyaga bag‘ishlovlar, “Bodxisat Samantabyuxandrega duolar to‘plamlari ahamiyatlidir. Tadqiqotchi turk-budda she’riyati tarixiy-madaniy jarayonlardan hamda badiiy tafakkur sintezi mahsuli o‘laroq yuzaga kelganligi, ular yozma yodgorliklarning genezesida alohida o‘rin tutganligi hamda ma’naviy-madaniy hayotga kuchli ta’sir etganligi bialn diqqatga savovor ekanligi ilmiy-adabiy jihatdan isbot qilinadi. Buddaviy dini hukmron bo‘lgan turkiyzaminda yaratilgan turk-budda she’rlarining mualliflarining ko‘pchiligi noma’lum bo‘lsa-da, ularning ba’zilari haqidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi N.Jo‘raqo‘ziyev. Xususan, “Shoir Prataning aytishicha, u ustoz Nagaradjunaning “Nirvikalpa” nomli she’rini tarjima qilgan”. [10; 123] Turkiycha ma’nosi “Donishmandlik haqida” deb nomlanadi. Buddaviylik she’riyati an’anasiga ko‘ra she’r Budda aqidalari, donishmandlik, Nirvanga yetishganlar haqida. She’rning tuzilishini kuzatgan tadqiqotchi uning qadimgi turkiy she’riyatga mansubligini, xalq qo‘shiqlariga xos bandlardan iborat ekanligini

aniqlaydi. “Eng muhimi, bu davrdagi she’rlarda samoviy kult’lar alohida o‘rin egallaydi” degan ilmiy xulosalarga keladi tadqiqotchi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar: Xulosa qilib aytish mumkinki, qadimgi turkiy buddaviylik she’rlarining kelib chiqishi, g‘oyaviy-tematik xususiyatlari mashhur turkolog olim Nasimxon Rahmonov tomonidan tadqiq va talqin qilingan bo‘lsa, bu davr she’riyatining adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan adabiy-badiiy qiymati nazariyaning janr, qofiya, radif, she’riy san’atlar va boshqa she’riy qonun-qoidalarini ilmiy talab bo‘yicha izohlashlar M.Mamatqulov tomonidan amalga oshirilgan. N.Jo‘raqo‘ziyev esa qadimgi turk-budda she’rlaridagi kosmogonik obrazlarni tahlil qilishga erishgan. Shunday bo‘lsa-da qadimgi turkiy buddaviylik she’riyatining hal qilinmagan masalalari yuzasida teranroq mulohaza yuritish, mazkur oqim she’riyatini qiyosiy-tarixiy aspektda yanada chuqurroq (monografik ko‘rinishda) tadqiq qilish, tabiiy ravishda, ushbu bebaho xazinaning qadimgi turkiy adabiyotda egallagan mavqeyini oshirish, salmog‘ini aniqlashni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raqo‘ziyev N. Qadimgi turkiy mifologiyaning turk-budda adabiy manbalari maqolasi. 3-b.
2. Лихачев Д.С. Исследования по древнерусской литературе. -Л.: Наука, 1986. -С. 63.
3. Rahmonov N. Kultegin yodnomasi poetikasi.//O‘lmas obidalar. –T.: Fan, 1989. –B. 193-207
4. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
5. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
6. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
7. Mamatqulov, M. (2020). SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN‟ ATI. Filologik ta‟ limni takomillashtirish muammolari, 176.
8. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi “Tohir and Zuhra”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 548-556.
9. Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI–GHAZAL WRITER. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.
10. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER’S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 70*.
11. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(3), 49-53. Obida Opa, [11.09.2023 10:00]
12. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6), 394-402.

MUQIMIY ASARLARI MATNIY MUAMMOLARI

Rahmonov Vahob
GulDU filologiya fanlari nomzodi, dotsent
E-mail:rahmonov@gmail.com

Abstract: *In this article, the textual status of the works belonging to Muhammad Aminkhoja Muqimi is studied and investigated from the scientific point of view of textology. In the end, the original state of the artist’s works was restored.*

Key words: *attribution, verse, title, edition, publisher, authentic, dictionary, content, verse, artistic text.*

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mavlono Muqimiy asarlari nashrlarining yetmish yillik matn saviyasini matnshunoslik nuqtai nazaridan mulohaza qiladigan bo‘lsak, bir qator muammolar ko‘z o‘ngimizda tiziladi: - atributsiya masalasi Muqimiyga nisbat berilgan bir necha she’r muallifi Sobir Abdulla ekanligi;

- begona so‘z va baytlarining nashrga tayyorlovchining g‘oyaviy badhiyati tufayli shoir she’rlari tarkibiga kiritilishi, ya’ni so‘zlarning nashr tomonidan zo‘rlanish;

- she’r sarlavhalari orqali g‘oyaviy yomon niyatlarni amalga oshirishga urinishlar;

- diniy so‘z va atamalarni matn buzish evaziga bo‘lsada dunyoviy so‘zlar bilan almashtirish (haq-xalq; kalima (i shahodat) – kalla, kelma);

- eng ko‘p va eng muhim nuqsonlar nashrga tayyorlovchining matnni noto‘g‘ri o‘qishi, mazmunni uqmasligi, so‘zni tushunmasligi tufayli sodir etilgan;

- ilmda muallif –ega , nashrga tayyorlovchi –quldir. Muqimiy asarlari nashrida shu mantiq goho teskari amal qiladi- noshir shoirni mensimay, unga “ko‘maklashadi” va matnni buzadi.

Mumtoz shoirlarimizdan birortasining ijodi Muqimiy asarlarichalik ko‘p tomonlama buzilishlarga uchramagan. To‘g‘ri, Mashrab asarlari qismatida bundan ko‘p nuqsonlar kotiblar tomonidan bilmasdan sodir etilgan. Ammo Muqimiy she’rlarining chorak qismi atayin, bilib turib tuzatilgan, ya’ni buzilgan.

Ushbu ishlarning asosiy ijrochisi taniqli muqimiyshunos, professor G‘ulom Karimov bo‘lgan. Qizig‘i shundaki, Toshkent davlat universitetining kafedra mudiri ekanligida G‘. Karimov shunday ishlarni qilgan. Undan ham qizig‘i shundaki, shu kafedraning hozirgi mudiri professor Hamidulla Boltaboyev G‘.Karimovning bu sohadagi matn buzg‘unchiligini “ Yollanma adabiyot “ nomli ko‘plab maqolalarida fosh qildi. Bizni ko‘proq matn buzilishdagi G‘ulom Karimovning o‘zlari bilmay, o‘qiy olmay, tushuna olmay sodir etgan nuqsonlari qiziqtiradi. Chunki bu achchiq tajribalar bugungi matnshunoslarga umuman, yoshlarga matnshunoslik saboqlari bo‘lib xizmat qiladi, degan sobit fikrdamiz.

Mavzu doirasidagi tahlillar. Muqimiy asarlarini eng ko‘p nashrga tayyorlagan mavlono Muqimiy haqida yaxshi monografik ocherk yaratgan hamda “ O‘zbek adabiyoti tarixi” (Oliy o‘quv yurtlari uchun) uchinchi qism darsligini yozgan olim professor G‘ulom Karimovdir. Bu taniqli olimning ko‘zga ko‘ringan ishlari Muqimiy hayoti va ijodi haqida doktorlik dissertatsiyasini yozish va yoqlashdan boshlangan. G‘.Karimov 40-yillardanoq Alisher Navoiy asarlarini nashr ettirgan. Xususan, she’riyati va “ Layli va Majnun “ dostonini ilmiy matnini yaratgan olim. Toshkent davlat universiteti filolog olimlarining faxri edi desak, lof bo‘lmaydi. O‘ta sermahsul, o‘ta g‘oyaviy zamon adabiy mafkurachisi edi u kishi.

Biz mavzumizga qaytamiz. O‘sha katta matn tayyorlash maktabini o‘tagan professor G’ulom Karimovning Muqimiy asarlari nashrlaridagi ko‘plab nuqsonlarni kuzatar ekanmiz, Navoiy asarlari nashri va dostoni ilmiy nashrini amalga oshirgan matnshunos mutaxasiss bilan solishtirib, fikr mantig‘ini topolmaymiz. Qiyin ishni tuzuk bajargan-u oson ishda har qadamda oqsagan. Mantiq yo‘q.

Mantiqsiz ish bo‘lmaydi. Har narsada mantiq bor. Qanaqasiga mantiq bor: o‘z zamondoshi asarini to‘g‘ri o‘qishda oqsasa?

Mantiq shundaki, bu olimning lug‘at zaxirasi oz. Jamoat bo‘lib ishlaganda bu holat sezilmagan. Hamkori tuzatavergan. Muqimiyga kelganda maydonda yakka o‘zi qolgan.

Bu kishining lug‘at bo‘lmasligi, misradan mazmun chiqarolmaslik uquvsizligi bilan qo‘shilgach quyidagidek baytlar nashr etilavergan:

Ey bek, banda arzlarin ul sharhi yora de,
Majruh ko‘ngli, bormu anga hech chora de,
Berahmlig‘da ko‘ngli oni sangxora de. (Muqimiy “ Asarlar “ 1974, 264-bet)

Ushbu matn bungacha Muqimiy kitoblarining barchasida shu holatda (versiyada) bosilgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida “ bek “ so‘zining quyidagicha ma’nodoshlari bor: “Hokim, vazir,amir, mir”

Birinchi misra mazmuni : Ey bek, men qul arzini yorimning izohiga aytgin.

Bunda Muqimiy mumtoz shoir emas, idroksiz, betamiz sifatida vaysamoqda.

Nega, chunki salomni bek (amir) olib bormaydi. Payk (qosid, ku’yer, xatxabar yetkazuvchi) olib boradi. Noshir “ payk “ degan so‘z lug‘atda borligini bilmagan. Noshirni oqlashga urinib ko‘raylik: “ payk” va “ bek “ shaklan bir xil ma’nolari har xil so‘zdir. Ular ostki nuqtalarni oz-u ko‘pligi bilan

farqlanadi xolos. Ma’nolar har xil bo‘lgani uchun olimni oqlayolmaymiz. Ayniqsa, bir so‘z “ Shahriyora” (podshohga) so‘zini ikkiga bo‘lib, misra mazmunini umuman tushuna olmagani uchun ham oqlash imkoni yo‘q.

Muqimiy asliyatida misra quyidagicha edi:

Ey payk, banda arzlarin ul shahriyora de

Ey xat-xabar eltuvchi, Men quyl arzlarini podshohimga borib ayt

Uchinchi misra mazmuni quyidagichadir:

Shafqatsizlikda uning ko‘nglini toshchaynar de (hisobla)

Nashrga tayyorlovchi sangi xora (o‘ta qattiq tosh) so‘z birikmasini ikki so‘zni izofa qo‘yolmasdan “ sangxora” (tosh yeyuvchi) deb ko‘chirgan. Muqimiy qo‘lyozmasida misra tubandagicha edi:

Berahmlig‘da ko‘ngli oni sangi xora de

(Shafqatsizlikda uning yuragini metin tosh degin yoki uni bag‘ritosh degin)

Ushbu muxammasdagi mazkur misra mantiqsizdir:

Ul mahliqo sipehr kibi sabzapo‘shdir (264-bet)

(U oy yuzli osmon kabi sabzaga ko‘milgandir)

Osmon sabzaga ko‘rilmaydi, yer sabzaga ko‘riladi. Nega mantiqsizlik sodir bo‘ldi? Chunki noshir “ Sabzpo‘sh” (ko‘k kiygan, yashil kiyingan) so‘zini “Sabzapo‘sh” deb o‘qib misra mazmuni tizginini qo‘ldan chiqarib yuborgan.

Navbatdagi banddan yana bir misra ko‘chiramiz:

Ey girdibod, ko‘rsang ushal g‘amgusora de (264-bet)

Bunda ham lug‘at bilmaslik noshirga pand bergan . “ Girdibod” degan so‘z yo‘q va bo‘lishi mumkin emas. Bu so‘z “ Girdbod “ edi. “ Navoiy asarlari lug‘ati “ (1972) da bu so‘z berilgan: Girdbod- uyurma, quyun. (160-bet)

“ G‘azali bek “ sarlavhali g‘azalning maq’tasini keltiramiz va birinchi misra mazmunini mulohazalashamiz:

Iltimos ettim Muqimiy baytu qildi menga ham,

Garchikim panj jonman-u bedavo devonaman. (401-bet).

Birinchi misradan mazmun chiqmagani boisi shundaki, nashrga tayyorlovchi so‘zlar chegaralarini to‘g‘ri belgilay olmagan.

Asliyatda bu misra mana bunday edi:

Iltimos ettim Muqimiy bayt qildi menga ham,

Garchikim panjjonman-u bedavo devonaman.

Muqimiyning Furqatga javob maktubidan :

Ruq’ai Abdulazizxonda yurarsan necha yil,

Debtilar tegmaydilar borgan bilan bekor man (443-bet)

Baytning birinchi misrasining mazmuni :

Abdulazizxon maktubida bir necha yil yurarsan.. Holbuki, bu mantiqsiz gap. Muqimiyda birinchi so‘z “buq’a“ edi, ruq’a (maktub) emas:

Buq’a – makon, joy, hovli, bino demakdir. Shunga ko‘ra muallif versiyasida bu misra quyidagicha edi:

Buq’ai Abdulazizxonda yurarsan necha yil….

Bu holatda ham nashrga tayyorlovchining lug‘at bilmasligi misra mazmunini yo‘qqa chiqargan.

Shoirona zakoning yetishmasligi, arab yozuvi sirlarini yaxshi bilmaslik har qadamda misralar mazmuniga shikast yetkazaveradi:

Bu bahor bir dam, darig‘o, toleim yor o‘lmadi,

Ushlashib qo‘l sayri bog‘-u bo‘ston aylay desam.

Furqat asarlari nashrida – fan doktori Xolid Rasul ham xuddi shu so‘zda nuqson sodir etgan: Bu bahor ayyomi bo‘ldi, keling, ey ahboblar

Bog‘ aro no‘sh aylayik biz ham sharobi noblar.

(Furqat she’riyatidan, 1980, 62-bet)

Mashhur “ Navbahor “ g‘azalining matlasida ham nuqson borligini ko‘pchilik bilmagani rost. Nega? Chunki barcha keyingi noshirlar G‘. Karimovning nuqsonli versiyasini olaverganlar:

Navbahor, ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar,

Suhbat aylaylik, kelinglar jo‘ralar, o‘rtoqlar (1974)

Holbuki, qo‘lyozmada jo‘rayu “ O‘rtog‘lar “ deb yozilgandir.

Demak, bunda ikki nuqson sodir etilgan ekan…

Furqatning “ Kashmirga” g‘azaliga Muqimiy bog‘lagan muxammasidan bir misrani mulohaza qilaylik:

Husn taxtida tajammul peshayu oliyjanob (1974, 240-bet)

Bu misrada ham ikki nuqson bor. Sabr-toqat va go‘zallarning oliy fazilatlari emas. Asl nusxada “ Tahammul” (Sabr-toqat) emas, balki “ Tajammul” (dabdaba, shukuh, hashamat) edi. Oliyjanob so‘zi esa bir emas, ikki so‘z edi : Oliy janob – dargohi oliy muallif fikri sahih yuzaga chiqadi :

Husn taxtida tajammul pesha-yu oliy janob.

So‘zni tushunmaslik, so‘zlar aro munosabatni payqamaslik, ko‘plab so‘z va birikma farqiga bormaslik, geografik tushunchalarni bilolmaslik holatlarining nashrda tez-tez uchrab turishi yomondir.

Chunonchi ostonalarga bosh “ urish” dan bosh “ uzish” ni farqlay olmaslikchi?

Ochilur botin ko‘zi gumroh men boshim uzub,

Qaysi xoki poyi yorab to‘tiyog‘a yig‘lasam.

(1952, 14-bet; 1974, 126-bet)

“ Urub” ni “ Uzub” tarzida o‘qish, “ Yo Rab “ undalmasini “ Yorab” holatida ko‘chirishlar Muqimiy ijodini soxtalashtirmaydimi ?

Tubandagi baytdan kitobxon “Olo Mahram qayerda ekan?“- deya lol qoladi. Tojikistonning Konibodom shahriga yaqin qishloqlaridan biri edi bu:

Mahram “Olo” esa “baralo” (baralla) so‘zining ikkinchi qismi bo‘lgan. Muqimiy asliyati:

Jag‘larim Shaydonni dashtidek giyoh yo‘q, yap-yalang,

Engakimdin baralo Mahram namoyon ko‘samen.

(1952, 66-bet; 1974, 397-bet)

Nashrga tayyorlovchining izohini o‘qiymiz: “ Shaydon, Ola Mahram Farg‘ona vodiysidagi qishloqlarning nomi”

(1974, 466-bet)

“Asarning bir nechta nusxalari solishtirilib asl matnni tiklash va u asosida tabdil jarayonini amalga oshirish matnshunoslik ilmining ushbu kundagi dolzarb masalalaridandir”[4;6].

Noshirimiz baqar (sariq chaqa) ni “ Paqir” (chelak) deb o‘ylaganini bilsa, Muqimiy yana bir yumor yozarmidi…

Bir faqirdin bir paqirni, do‘stlar, tutmang , darig‘,

Bir duogo‘yi Muqimiy men qadrdon ko‘samen.

Nashrlardan esa ikkinchi misra quyidagicha ketgan:

Enda kimdin bir Olo Mahram namoyon ko‘samen.

(1952, 67-bet; 1974, 397-bet)

Muqimiy qo‘lyozmasida baytning birinchi misrasi tubandagicha edi:

Bir faqirdin bir baqarni, do‘stlar, tutmang darig‘.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar.Bu misralarni matnshuoslik tahlillari, sabab va oqibatlarini yozsak butun bir kitob yuzaga chiqadi.

Endi professor G‘.Karimovga ham rahm qilaylik. Matnga matnshunoslikning ochiq jiddiy ko‘z bilan boqsak, Hamid Sulaymonning “ Xazoyin ul-maoniy” nashrini to‘rt kitobida ham, Porso Shamsiyevning 1959- 1960- yilgi “ Xamsa” sida ham ayni shunday holat-ku deya o‘zimizga ham tasalli bera qolaylik. Va ustozlarning qo‘shiqlariga jo‘r ovoz bo‘laylik:

Xotin jafosiz bo‘lmas,

Kitob xatosiz bo‘lmas…

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G’ulom Karimov. Muqimiy “ Asarlar “ . – T.: O‘zbekiston NMIU, 1974.
2. Xolid R. Furqat she’riyatidan, 1980, 62-bet. – T.: Navoiy universiteti, 2018.
3. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: Академнашр, 2015.
4. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.

5. Mamatqulov, M. R. UDK: 809 SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA TASHBIH SAN’ATI. ILMIY AXBOROTNOMA, 71.
6. Mamatkulov, M. R. (2020). THE ART OF HYPERBOLE IN THE EPIC NISHATI" HUSN AND DIL". Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(9), 246-252.
7. Turaeva, D. PROCESS OF FICTION CREATIVITY AND WRITER’S SKILL. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, *70*.
8. Nematullaevna, T. D. (2019). THE PROCESS OF LITERARY CREATIVITY AND AESTHETIC INTERPRETATION. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *8*(3), 49-53. Obida Opa, [11.09.2023 10:00]
9. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6), 394-402.
10. Primov, A. A. (2021). "Poetics"-as A General Theoretical Education. European Scholar Journal, 2(6), 202-204.
11. Quilieva, G., & Tursunkulovna, S. I. (2021). Evolutionary development of tetralogy. European Scholar Journal, 2(6), 115-117.

XALQ MAQOLLARI LINGVOMADANIYATNING IFODACHISI SIFATIDA

Axrorov Alisher Akbarovich
Guliston davlat universiteti, o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari, nutq madaniyati, muloqot odobi, muomala madaniyati masalasi o‘z ifodasini topganligi, shuningdek, maqollar o‘zi yaratgan xalqning kundalik turmush tarsi, urf-odatlari, an’analari, umuman olganda, shu xalqning asrlar davomida sayqallangan, avloddon avlotga o‘tib kelayotgan qimmatli firlarini ifodachisi sifatida madaniyatini namoyon etuvchi vosita sifatida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, muloqot akti, maqollar, lingvokulturalogiya, madaniyatshunoslik

Til va madaniyatning bir butun, mushtaraklikda o‘rganilishi lingvokulturalogiyani vujudga keltiradi. Shunday ekan, lingvokulturalogiya xalq madaniyatining tilda aks etishini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Xalq maqollari ham shu xalqning madaniyati, urf-odati, kundalik tarzi, hayot kechinmalari – bir so‘z bilan aytganda xalq madaniyatining tildagi aksi hisoblanadi.

Xalq maqollari axloq-odob, ta’lim-tarbiya, qomusidir, asosiy xazina, bosh manbadir. Ular xalq tomonidan og‘zaki tarzda yaratilgan, bitmas-tuganmas qadriyatlardir. Shu sababli lingvokulturalogiyaning o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Ularning asrlar davomida ziyolilar, donishmandlar, olimlar, turli kasb egalari tomonidan yig‘ilib, nashr etilgan. XX asrning o‘zida turli xil nomlarda, turli hajmda, turli maqsadlarda, turli xil saviyada kitob holida chop etilganligi ma’lum, ularda inson faoliyatining hamma jabhalari qamrab olingan. Inson harakterini belgilovchi barcha xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Ularning mazmun-mavzusi turli-tuman. Ma’lumki, inson yaratilgan ekan, ilk davrdan boshlab yaxshi insonlar va yomon insonlar tarzida shakllanib boradilar. Afsuski, shunday. Bir guruhi *to‘g‘ri so‘z, halol, kamtar, sahovatli, kamgap, mehnatsevar, sadoqatli, vatanparvar, vafodor, qanoatli, sabr-toqatli, iymon-e’tiqodli, ilmparvar yoki bilimdon, oriyatli, diyonatli, jasur, madaniyatli, muloyim, aqlli, mulohazakor, mehribon, tanti, shavqatli, birovning haqqidan qo‘rqadigan, katta kichikni hurmat qiladigan, xushmuomala, shirinsuxan, odamoxun, vijdonli* kabi yana bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lgan insonlarni o‘zida birlashtirsa, ikkinchi guruhi *yolg‘onchi, ta’magir, takabbur, ziqna, baxil, ig‘vogar, ezma, dangasa, xoin, sotqin, bevafo, qanoatsiz, qo‘pol, johil, chidamsiz, iymon-e’tiqodsiz, diyonatsiz, or-nomussiz, uyatsiz, bilimsiz, oriyatsiz, qo‘rqoq, firibgar, tovlamachi, ochko‘z, madaniyatsiz, jahldor, shavqatsiz, aqlsiz, shoshqaloq, mehr-oqibatsiz, merov, tanbal, xaromxo‘r, vijdonsiz* va yana bir qancha salbiy xususiyatlarga ega bo‘lganlarni o‘zida birlashtiradi. Birinchi guruhga kiruvchilarning ba’zilarida bir necha yoki 2-3 ta asosiy ijobiy hislatlar o‘zida ifodasini topgan bo‘lsa, ba’zilarida ana shu va yana boshqa barcha ijobiy fazilatlar o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Ularda ana shu xususiyatlar mujassam bo‘ladi – bular “Komil inson”lar hisoblanadilar. Komillik sari intilganlar bu xususiyatlarni

mujassamlashtirish yo‘lini tanlaydilar faoliyatlarini shu yo‘lda olib boradilar, adashmaslik uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga harakat qiladilar. Ikkinchi guruhga kiruvchilarning ba’zilarida ikki-uchta asosiy salbiy jihatlar shakllanib qolgan bo‘lib, ba’zilarida deyarli barcha salbiy jihatlar mujassamlashib qolib (bitta salbiy jihatning o‘zi ularni boshqa shunday jihatlarga ega bo‘lishlari uchun yetaklaydi) “tubanlik” deb ataluvchi holatga, odamiylikdan mahrumlik darajasidagi maxluq maqomiga ega bo‘ladilar. Bola to‘g‘ilar ekan, rivoyatlarga ko‘ra, qisman, ijobiy xislatli, qisman salbiy xislatlilik belgilariga ega bo‘lishi mumkin (*Bola boshidan ma’lum* – bu maqolning boshqa variantlari ham bor). Shunga qaramay bolaning “Komil inson” bo‘lishi ham, “tuban” bo‘lishi ham, hammaga ma’lumki, ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Bu aksioma, o‘zgarmas qonun. Buni yaxshi bilgan butun dunyo xalqlari ikkinchi guruhga kiruvchilarni qoralaydilar, ulardan nafratlanadilar. Birinchi guruhga kiruvchilarga xayrixohlar, ularni maqtaydilar (*Boy boyga boqar, suv soyga oqar*); yaxshilar-yaxshilar tarafini olsa, yomonlar-yomonlar tarafini olishi ham mumkin.

O‘zbek xalq maqollarining hammasi, istesnosiz, Komil insonni shakllantirishni nazarda tutib, xalq tomonidan yaratilgan. Shunday ekan, xalq maqollarning mavzu-mazmun jihatiga e’tibor qaratilsa, ular inson faoliyatining barcha qirralarini qamrab olib, hatto, ma’lum bir kasb-kor doirasida yetuklikka yetaklovchi maqollar ham yaratilganligii kuzatiladi: *Olim bo‘lsang, olam seniki, Yer haydasang, kuz hayda, Kuz haydamasang, yuz hayda, Obro‘ topay desang, kam de, Sihat topay desang, oz ye…*

Ma’lumki, xalq maqollari tadqiqotchilar tomonidan mavzuiy guruhlarga ajratilgan-tasniflangan, kamtarlik haqidagi maqollar; ta’magirlik haqidagi maqollar; tildan foydalanish haqidagi maqollar va boshqalar (Ular jiddiy guruhlansa, mavzuiy guruhlar miqdori 30-40 tadan oshib ketishi mumkin). Axir, ulkan lug‘atchi V.Dall rus xalq maqollarini 179 mavzuga ajratgan-ku! O‘zbek xalq maqollari tasniflanar ekan, barcha asosiy jihatlarga e’tibor qaratilgani holda, ma’no va mazmun jihatdan 73 mavzuiy guruhga ajratilgan (“Vatan-vatanparvarlik”, “Jamoatchilik-xudbinlik”, “Do‘stlik-dushmanlik”, “Visol-hijron”, “Go‘zallik -xuniklik”, “Kamtarlik-manmanlik”, “Xasislik-hotamtoylik”, “Halollik- xaromxo‘rlik”, “Mehnatsevarlik-dangasalik”, “Ezmalik-kamgaplik”, “Rostgo‘ylik-yolg‘onchilik” kabilar). Xalq maqollarining aksariyat qismi yaxshi xususiyatlarga ega bo‘lishni targ‘ib etadi, ulug‘laydi; yomon xususiyatlardan qutilishni ta’kidlab, bunday jihatlarni qoralaydi. Ana shu jihat ularning ta’lim-tarbiya, axloq-odob borasidagi eng asosiy xizmatini belgilab beradi. To‘g‘ri, xalq maqollarining nutq ta’sirchanligini ta’minlash, nutq badiiyligini oshirish borasidagi xizmati ham beqiyos, albatta: *Anglamay so‘zlagan, Og‘rimay o‘lar, Aravasiga tushdingmi –ashulasini ham aytasan, Ariqni suv buzar, odamni so‘z (gap), Yig‘inga kirganda tilingni tiy, u yog‘ini o‘zing bilasan* (O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. 1984) kabilar. O‘zbek xalq maqollari, ma’lumki, semantik, grammatik va fonetik tuzilishiga ko‘ra yaxlitlashib, uyg‘unlashib, tilning boyligini oshiruvchi alohida bir tizimni tashkil etadi, maxsus birliklar qatoridan o‘rin oladi. Xuddi iboralar (frazemalar) kabi lug‘aviy birlikmaqomini oladi, lug‘atlarda qayd etiladi. Til boyligini ta’minlovchi birlikka aylanadi va shu jihati bilan el boylgiga aylanadi. Shu bilan birga, tilning tasviriy vositalari qatoridan o‘rin oladi. Modomiki, tasviriy vosita bo‘lar ekan, nutqqa e’tibor beruvchilarning diqqat markazida bo‘ladi. Har bir nutq egasi ularni tanlashga intiladi. Shuday qilib, namunali, ta’sirchan nutq yaratishga xizmat qiladi, samarali nutq muloqotini ta’minlaydi. Masalan, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asarida qayd etilishicha (u yerda so‘z tanlash, keraksiz so‘zni ishlatmaslik haqida alohida fikr aytilgan), “*Bilimli kishi kerakli so‘zni so‘zlaydi, keraksiz so‘zni kumib yashiradi”; “Ilmsiz kishi nima gapirsa, nodonligi sababli so‘zlaydi, shuning uchun uning tili (nutqi) o‘z boshini yeydi”* kabilar.

Tilning tasviriy vositalari tarkibida, ta’kidlaganimizdek, xalq maqollarining o‘rni alohida bo‘lib, nutq jarayonida (hamma uslublarda, har bir nutq ko‘rinishida) undan o‘rinli foydalanishga e’tibor hamma vaqt juda muhimdir. Shuning uchun ham donolar, notiqlar maqollarga, umuman, til birliklaridan foydalanishga alohida e’tiborli bo‘lgan. Til birliklaridan, ayniqsa, tasviriy vositalardan biri bo‘lgan xalq maqollaridan mohirlik bilan foydalanish – foydalanilganlik so‘zlovchi, notiq, adib mahoratini belgilab beradi. “Yozuvchining (falon adibning) xalq maqollaridan foydalanish mahorati”; “Falon adibning sinonimlardan foydalanish mahorati” kabi mavzular alohida tadqiqotlar obyekti bo‘lgan. Masalan, “Abdulla Qahhorning farzeologizmlardan foydalanish mahorati” mavzusi bo‘yicha uchta nomzodlik dessertatsiyasi himoya qilinganligi ma’lum (I.Qo‘chqartoyev, R.Qo‘chqartoyeva, H.Qahhorovalar) uning xalq maqollaridan mohirlik bilan foydalangani ham alohida jiddiy mavzu bo‘lishi mumkin.

Nutqning madaniyatli bo‘lishi uchun nutq tuzuvchi har bir shaxs (u kasbidan qat’iy nazar), eng avvalo, so‘zning qadrini, ibora, maqollar kabi boshqa ko‘p til birliklarining qadr-qimmatini yaxshi his etishi lozim. Bu haqda Abdurahmon Jomiy shunday deydi:

Kimki so‘zni qadrlasa har qachon,
O‘zini o‘zi qadrlagay begumon.

Xalq maqollari nutq jarayonida nihoyatda e’tibor bilan tanlanishi va qo‘llanilishi zarur bo‘lgan birliklardan ekanligini aytdik. Zero, nutq madaniyati – umumiy madaniyatning, ijtimoiy madaniyatning, kishi madaniyatining aks ettiruvchisidir. Har qanday yuksak madaniyatli jamiyatdagi kishilarning nutq nadaniyati, muomila odobi, muloqot madaniyati ham unga mos ravishda yuqori bo‘lishi shartdir. Shuning uchun ham, insonga xos bu xususiyatlar, to‘g‘rirog‘i, insonda shakllantiriladigan nutqiy madaniyat har bir ijtimoiy tuzimning umummadaniyati, taraqqiyoti, ravnaqini belgilovchi asosiy jihatdir. Nutqiy madaniyat har bir kishining og‘zaki va yozma nutqida namoyon bo‘ladi. Og‘zaki nutq tuzuvchi, o‘z nutqining ravon, aniq, tushunarli, mantiqli, latofatli kabi jihatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi, nutqi shu bilan ajralib turadi, yozma nutq tuzuvchi imlo qoidalariga to‘la amal qilgan holda, avvalo, to‘g‘ri nutq tuzish, uni namunali nutq ko‘rinishida bo‘lishini ta’minlash, unga qo‘shimcha tarzda nutq ta’sirchanligini ham ta’minlashga harakat qiladi. Uning yozma nutqi, avvalo, to‘g‘riligi (qoidalarga mos holda tuzilgan) bilan ajralib turadi.

Aytilganlardan ma’lum bo‘ladiki, nutq madaniyatining eng muhim belgisi, til birliklaridan asosiysi bo‘lgan lug‘aviy birliklarga, shu maqomga kiruvchi maqollar, frazemalar – paremalarga bo‘lgan munosabatga, ulardan foydalanishga mahorat bilan yondoshishida bilinadi, namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, har bir ilg‘or, ongli, o‘zini bilgan inson yuqori darajadagi nutq madaniyatini egallashi zarurdir.

Modomiki, xalq maqollarining hammasi, asl mohiyatiga ko‘ra, komil insonni shakllantirishga xizmat qilar ekan, ulardagi bir guruhi kishilarda nutq madaniyatini tarbiyalash masalalariga bejiz qaratilmagan. Bu maqollarda kishilarda nutqiy madaniyatni shakllantirishning barcha qirralari, unga aloqador hamma masalalarga oid fikrlar, yo‘l-yo‘riqlar, maslahatlar, nasihat-o‘gitlar, tavsiyalar o‘z ifodasini topgan. Nutq madaniy nutq maqomiga ega bo‘lishi uchun, avvalo, o‘ziga xos quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur: 1) og‘zaki adabiy nutq talablariga javob berishi kerak; 2) yozma adabiy nutq talablariga javob berishi lozim (adabiy til me’yorlariga amal qilingan holda tuzilishi zarur); 3) muloqot vaziyatlarini hisobga olgan holda (keng ma’noda) xususiy me’yorlar (shevalar bo‘yicha me’yorlar kabi), shakllangan, qadriyatga aylangan urf-odatlar kabi talablarga mos holda tuzilgan bo‘lishi zarur; 4) nutqda nutq tuzuvchining o‘z ona tiliga hurmati, muhabbati, samimiy munosabati, shaxsidagi o‘ziga xos boshqa ijobiy xususiyatlari (bilimlilik darajasi, umumiy saviyasi, halolligi, vijdonliligi, odobi, axloqi kabilar) o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak, o‘z ona tiliga muhabbati bo‘lmagan kishidan madaniy nutq tuzushni talab qilish to‘g‘ri emas. Xuddi shu o‘rinda aytish kerakki, o‘zbek urf-odatiga ko‘ra, ikki kishi suhbatlashib turgan bo‘lsa, uzrsiz, ular suhbatini buzish odobdan emas; bir kishi gapirib turgan bo‘lsa, u gapni tugatmaguncha, gapni bo‘lib yuborish ham odobdan emas; katta yoshdagilardan oldin, uzrsiz gap gapirish kabilar ham odob doirasiga kirmaydi. Bularning hammasi xalq maqollarida ham o‘z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarovich, Axrorov Alisher. "MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA’NONING NAMOYON BO‘LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI." TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 3.4 (2023): 163-166.
2. Akhrorov A. The role and importance of folk proverbs in the upbringing of a perfect person // ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 812. – Philadelphia, 2020. –P.42-44.https://hemis.guldu.uz/static/uploads/33/TREANW-kp3YKpIBvwRxLSR-w1R92MLP_.pdf
3. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG‘ON SO‘ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 57.
4. Begmatov E., Qo‘ng‘urov R., Tojiyev Y. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent, 1992. – 150 b.
5. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 286 b.

6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент, 2008. – 318 б.
7. Tojiyev Y., Boboxodjayev R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ToshTYMI, 2016. – 178 b.
8. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 1990, – 528 б.

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z MA’NOSI TADQIQI (TILSHUNOS OLIM MIRAZIZ MIRTOJIYEV TALQINI MISOLIDA)

O‘razov Alisher Doniyorovich, Yo‘ldosheva Zeboxon Zuhridin qizi
Guliston davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi,
Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Abstract: In this article, linguist scientist prof. You will get acquainted with Miraziz Mirtojiyev’s scientific views on the meanings of words.

Key words: Polesemantic word, polysemy, lexical meaning, word meaning, polysemy

So‘zni va u anglatayotgan ma’noni tadqiq etish hamma zamonlarda ham eng qiyin va dolzarb masala bo‘lganligi barchamizga ma’lum. O‘zbek tilshunosligida so‘zning ma’no tuzilishini jiddiy va astoydil tadqiq etish yaqin o‘tmishdan boshlangan desak birmuncha to‘g‘ri bo‘ladi. Bilamizki, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ham, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatul adab”, Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” kabi asarlarida ham bu hodisaga o‘sha davr nuqtayi nazaridan yondashilgan. Biroq bu hodisani jiddiy tadqiq etish XX asrning 50-60 yillariga to‘g‘ri keldi.

Ma’no anglatuvchi so‘z leksik sathda ham, grammatik sathda ham turli shaklda o‘zini namoyon qiladi. So‘z gapda so‘zlar qurshovida o‘zi anglatayotgan ma’nodan tashqari qo‘shimcha ma’no ham anglatishi mumkin. O‘zbek tilining tarixiga yuzlanganimizda, XI asrdan XIX gacha bo‘lgan davrda sintaksisga bag‘ishlangan birorta asar ma’lum emas. Bu esa so‘zni gapda anglatayotgan ma’nosi, shuningdek, qo‘shimcha ma’nosi tatqiq etilmagan yoki tatqiq etilgan ilmiy asar bizgacha yetib kelmagan.

O‘zbek tilshunosligining buguni va ertasiga befarq bo‘lmagan atoqli tilshunos prof. Miraziz Mirtojiev o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga, ayniqsa, uning fonetika, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya sohalariga oid ilmiy tadqiqotlari bilan ulkan hissa qo‘shdi. Uning o‘zbek tilshunosligiga bag‘shlangan “O‘zbek tilida polisemiya” (1975), “O‘zbek tili fonetikasi”, “Til va madaniyat” (hamkorlikda), “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (Kirish, fonetika, fonologiya, yozuv, imlo, orfoepiya, leksikologiya, leksikografiya) kabi ko‘plab monografiyalar, teran maqolalari bilan o‘zbek tilshunoslari orasida tanildi. A.G‘ulomov va S.Usmonovlar kabi tilshunos olimlardan keyin so‘z ma’nosini jiddiy tadqiq etishga diqqat-e’tiborini qaratgan desak adashmagan bo‘lamiz. Tilshunos olim prof. Miraziz Mirtojiev polisemiyaning tilda tutgan o‘rni, o‘ziga xosligi va til boyligini belgilashdagi salmog‘ini ko‘rsatib berish bilan birga, bu hodisaning o‘rganilish tarixiga alohida e’tibor qaratadi. Leksik ma’noni o‘zbek tilshunosligida birinchilar qatorida asoslab bergan olim hisoblanadi, deyish o‘rinlidir: “Leksik ma’nolarning milliy xarakterga ega bo‘lishi polisemantik so‘zlarda o‘z aksini topmasdan iloji ham yo‘q. Chunki polisemantik so‘zlar leksik ma’nolar hisobigagina tarkib topadi”— deya o‘z fikrini bildirib, eng to‘g‘ri fikrni aytadi. Olim polisemiyadagi milliylikni turli tizimdagi tillarni qiyoslash, solishtirish orqali ham ochib berish mumkinligini asoslab berdi.

O‘zbek tili faktlari asosida evfemizm va disfemizm natijasida ham polisemiya yuzaga kelishi mumkinligi, affiksatsiya natijasida polisemantik so‘zning vujudga kelishi, bularning milliy xarakterga ega ekanligi, ya’ni tilning o‘ziga xos xususiyati bilan, tabiati bilan bog‘liq bo‘lishni isbotlab berdi.

Polisemiya silivizatsiya belgisidir. Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, san’at taraqqiy etgan bo‘lsa, o‘sha xalq obyektiv borliqning o‘zaro aloqasini shuncha ko‘proq ko‘radi, ularni bir-biriga ko‘proq qiyos etadi va bular tilida ko‘proq o‘z aksini topadi”— deyar ekan, ko‘pma’nolilik taraqqiyotini shu xalqning milliy taraqqiyoti, rivoji, umummadaniyati bilan bog‘laydi. Boshqacha

aytganda, o‘zbek tilida so‘zlarda ko‘pma’nolilikni ancha rivoj topganligini, uning o‘zbek tili boyligining tarkibiy qismi sifatidagi o‘rnini ko‘rsatib berish bilan o‘zbek xalqning qadimdan o‘ziga xos yetuk madaniyatga, yuksak tafakkurga ega ekanligini ko‘rsatib bera oldi

Xalqning, millatning madaniylik darajasini, ayniqsa, uning yuksak madaniyatga ega ekanligini til hodisasini jiddiy o‘rganish asosida, til faktlaridan kelib chiqib isbotlab berish, oson ish emasligi barchamizga ma’lum. Bunga o‘z davrida Alisher Navoiy ham o‘z ona tilinig rivoji uchun ulkan ishlarni amalga oshirgan edi. Bu tahsinga sazovor harakatlari bobomizning millat oldidagi eng ulug‘ xizmatlaridan biri ham shudir.

prof. M.Mirtojiyev so‘zlarning ko‘pma’noliligi (polisemiya) bilan ko‘p vazifaliligi (polifunktsionallik) hodisasini, o‘zbek tilshunosligida, jiddiy tarzda farqlab berdi. Shu bilan birga, har ikki hodisaning o‘zbek tili taraqqiyotidagi o‘rnini to‘g‘ri belgiladi. Tilshunosligimizda bu hodisani atroflicha va chuqur o‘rganishni olim o‘z ilmiy faoliyatining asosi qilib tanlaydi. Bunga uning ko‘p yillar lug‘atchilik bilan mashg‘ulligi sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Polisemiya tushunchasi, bu hodisaning unga yondosh bo‘lgan hodisalar bilan munosabati (ayniqsa, omonimiya bilan munosabati), polisemiyaning yuzaga kelishi, uning tasnifi, polisemiyada so‘z strukturasi kabi eng murakkab holatlar doimo olimning tadqiqot obyekti bo‘ldi.

O‘zbek tilshunosligida polisemiya bilan chalkashlikni yuzaga keltiruvchi yondosh hodisalar ilk bor prof. M.Mirtojiyev tomonidan, o‘ziga xos tarzda belgilab chiqildi.

Ma’lumki, ko‘p ma’nolilik bilan omonimiya o‘rtasidagi chalkashlik borasida ungacha ham ayrim olimlar yo‘l-yo‘lakay o‘z fikrlarini aytishga harakat qilishgani bizga ma’lum. Lekin bu ikki hodisa haqidagi mavjud fikrlarni chuqur tahlil qilish asosida, faktlar (o‘zbek tili faktlari)dan kelib chiqib ular o‘rtasidagi umumiy va xususiy jihatlarni (farqlarni), ularning munosabatlarini shu vaqtgacha biror tilshunos olim prof. M.Mirtojiyev kabi jiddiy tadqiq etgan emas edi. Polisemiya va konversiya munosabati ham shu tarzda chuqur tadqiq etilgan. Har ikki hodisaning munosabatini tadqiq qilar ekan, olim, avvalo, mavjud qarashlarning hammasiga munosabat bildiradi, ularni umumlashtiradi, guruhlaydi, so‘ng material tahlilidan kelib chiqib, ularga tayangan holda o‘z fikrlarini, xulosalarini bildirib o‘tadi

Olimning bir jihatini alohida ta’kidlash lozim. U har bir fikrini aniq misollar bilan to‘la asoslashdan charchamaydi, erinmasdan misollar axtaradi, ularni qiyoslaydi, chuqur tahlil qiladi, xullas, hodisani to‘la farqlaydi, bunga boshqalarni ishontirib, isbotlab bera oldi.

Prof.M.Mirtojiyev o‘zbek tilshunosligida polisemiyaning yuzaga kelishini alohida tadqiq qildi. Bunga ma’no kengayishi va polisemiya munosabati, bu boradagi chalkashliklarni to‘g‘ri belgilab, ularni chuqur tahlillar asosida bartaraf etgan.

O‘zbek tilida polisemantik so‘zlarning asosan tilning uch hodisasi natijasida vujudga kelishini jiddiy asoslab bergan va ularni quydagicha belgilagan:

a)ko‘chma ma’no hosil bo‘lishi natijasida;

b)evfemizm va disfemizm natijasida;

d) affiksatsiya natijasida;.

So‘z ma’nosi borasida prof. M.Mirtojiyev tomonidan qilingan ishlar, haqiqatdan ham, o‘zbek tilshunosligining semasiologiya sohasini tom ma’noda boyitdi. Uning bu sohadagi ishlarining o‘ziyoq o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga hissa bo‘lib qo‘shildi. Zero, mana shuncha vaqt o‘tibdiki, polisemiya haqida bu olimdan, uning qarashlaridan tubdan farq qiladigan fikrlar aynan aytilgani yo‘q. Olimning tadqiqotlari jiddiy asoslanganligi bilan hali ko‘p ilmiy tatqiqot ishlariga dasturulamal, namuna bo‘la oladi. Shuning bilan birga, olim tomonidan bajarilgan ishlar (tatqiqotlar) bundan keyin ham tilshunoslar tomonidan davom ettirilib, ona tilimiz bo‘lgan o‘zbek tili rivojiga ulkan hissa qo‘shishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbek tili grammatikasi, T., Fan, 1975, 1-kitob.

2. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili,T., 2009-y.

3.M.Mirtojiyev.“O‘zbek tilida polisemiya”, Fan, T., 1975-y

4. Mengliyev B.R. Hozirgi o‟zbek adabiy tili. Fonetika-fonologiya. Grafika. Imlo. Leksikologiya-semasiologiya. Leksikografiya. I qism Qarshi. 2004.

5. E. Qilichev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Buxoro. 1999.

AZIM HOJIYEVNING O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHI MA’NOSIGA DOIR QARASHLARI

Mamatqulov Azizbek
Guliston universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada akademik Azim Hojiyevning ilmiy meroslarining dolzarbligi, shuningdek, olimning ilmiy qarashlarining hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda olib borilayotgan tadqiqotlardagi o‘rni, xususan, maqolada o‘zbek tilida murakkab bo‘lgan soha so‘z yasalishi sathi bilan bog‘liq masalalar va ularning yasovchilik xususiyati haqida hamda qo‘shma so‘zlarning yasama so‘z deb qaralishiga doir mulohazalar, yasama so‘zning tarkibi, yasovchi qo‘shimchalarning eskirishi, asos va qo‘shimcha o‘rtasidagi aloqalarning yaxlitlanishi, borasidagi olimning ba’zi ilmiy qarashlari berilgan.

Kalit so‘zlar: diaxron, sinxron, kompozitsiya, sema, leksikalizatsiya,struktura, direvatsiya, kategorya

Abstact: In this article, the relevance of the academician Azim Hajiyev’s scientific heritage, as well as the role of the scientist’s scientific views in the researches conducted in our current Uzbek literary language, in particular, the article deals with the level of word formation in a complex field in the Uzbek language. the method of word formation, the status of word-forming adverbs borrowed from other languages, particularly Arabic, Persian, in the current Uzbek literary language and their formative nature, and comments on whether compound words are considered artificial words , some scientific views of the scientist on the structure of the artificial word, the wear of constituent suffixes, the rounding of the relations between the base and the suffix are given.

Key words: diachronic, synchronic, composition, sema, exicalization, structure,derivative, category.

Akademik Azim Hojiyevning o‘zbek tilida so‘z yasalishi alohida soha ekanligini ta’kidlab, ushbu sohada olib borilayotgan izlanishlar, avvalo, o‘zbek tilining tabiatiga mos bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidlaydi. “So‘z yasalishi”, tilshunoslikning alohida sohasi (bo‘limi) sifatida, so‘z yasash va u bilan bog‘liq birliklar, hodisalar haqidagi, umuman aytganda, so‘z yasalishi tizimi haqidagi ta’limotdir.[118] Yuqoridagi fikrlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, akademik Azim Hojiyev o‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi o‘zbek tilida alohida diqqat talab etadigan va uning o‘rganish obyekti ham o‘zbek tilida alohida bo‘lim sifatida ko‘rish lozimligini aytgan. Shuningdek, professor so‘z yasalishi ma’nosiga ham to‘xtalib, o‘z fikrlarini bayon etgan. Hozirgi o‘zbek tilida bu tushuncha so‘z yasalishi tizimini to‘g‘ri tahlil etishda muhim ahamiyatga ega. So‘z yasalish ma’nosi lingvistik adabiyotlarda turlicha talqin etib kelindi. Va’zi ishlarda u so‘z yasovchi formant ma’nosiga tenglashtirilsa, ayrim ishlarda bu ma’no so‘z yasalish asosidan kelib chiquvchi ma’no deb ta’riflanadi.[119] Sh.Mirzaqulovning nomzodlik dissertatsiyasida bu qarashlar tahlil etilgan. Tadqiqotchi bu haqdagi o‘z qarashini quyidagicha ifodalaydi: „So‘z yasalish ma’no tipi boshqa sathlarga xos ma’no tiplari bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ma’lum belgilari bilan ulardan farqlanib turadi. Bu ma’no kategoriyalararo ma’nolarning sintezlashuvi tarzida chiquvchi integrativ ma’no xarakterida bo‘lib, turli so‘z turkumlari va so‘z guruhlari orasidagi ma’nolarning chatishuvidan paydo bo‘ladi: tashqi va ichki yasalish bilan bog‘liq ma’nolarda ayrim farqlar ham ko‘zga tashlanadi. Tashqi yasalishda, masalan, fe’ldan ot yasalganda, yasama so‘z ma’nosida, albatta, predmetlik ma’nosi ustun turadi va aksincha. Ichki yasalishda esa hosila (yangi) so‘zning leksik-semantik ma’nosida o‘zgarish bo‘ladi: bir leksik-semantik maydonga oid so‘z boshqa leksik-semantik maydon ixtiyoriga o‘tadi, muhimi yasama so‘zning semantik strukturasida keyingi maydonga xos belgilar asosiy semantik birlik tusini oladi, imtiyozga ega bo‘ladi.[120] Akademik Azim Hojiyevning so‘z yasalishi ma’nosi haqidagi fikrlari yuqoridagi fikrlardan biroz farqlanadi. Ya’ni olim aytadiki, har qanday so‘z yasovchi (so‘z yasovchi birlik sifatida) birdan ortiq so‘z yasaydi. Aks holda, ya’ni birgina so‘z tarkibida mavjud bo‘lgan va tashqi ko‘rinishdan yasovchi qo‘shimchadek ko‘ringan narsa so‘z yasovchi birlik bo‘la olmaydi. Chunki yakka hodisalar

[118] Ўзбек тилида сўзнинг морфологик таркиби масаласи. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1988. № 1. –Б. 29-33
[119]Мирзақулов Т.Ў. Ўзбек тилида сўз ясалиши маъноси ва парадигмаси. Фил. фан. номзод. автореф.... – Самарқанд , 1995. Б.15-17
[120] Ўзбек тилида сўзнинг морфологик таркиби масаласи. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1988. № 1. –Б. 29-33

tizimdan o‘rin olmaydi. Shunga ko‘ra, muayyan bir so‘zning o‘ziga xos ma’nosi so‘z yasalishi tizimiga xos ma’no bo‘la olmaydi.[121] Olimning yuqoridagi fikrlaridan shuni anglash mumkinki, ayni bir so‘z yasovchi yordamida hosil qilingan so‘zlar ma’nosida har bir yasama so‘zga xos muayyanlik bilan birga, ular uchun umumiy bo‘lgan qism ham bo‘ladi. Masalan, har qanday ish quroli ma’lum bir ishni bajarish uchun xizmat qiladi. Har bir qurolni bildiruvchi so‘zning sememasi (ma’nosi) tarkibida qurol va qurol bajaradigan ishni qayd etuvchi sema mavjud bo‘ladi. Qurol (asbob) semasi shu tipdagi so‘zlar uchun umumiy bo‘ladi. Qurol yordamida bajariladigan ish semasi esa muayyan qurolni bildiruvchi so‘zning sememasi uchun xos, ya’ni farqlovchi sema bo‘ladi. “Bajarmoq” (qilmoq) ma’noli *-la* so‘z yasovchisi qurol (asbob) bildiruvchi so‘zlardan, umuman, shu so‘zlar bildiradigan qurol (asbob)ga xos ishni bajarmoq (qilmoq) ma’noli fe’llar hosil qiladi.[122]

Demak, har bir yasama so‘zning ma’nosida farqlovchi va umumiy sema bo‘ladi. Muayyan so‘z yasovchi yordamida muayyan umumiy sema asosida hosil qilingan so‘zlar ma’nosi so‘z yasalishi ma’nosi deyiladi. Yasama so‘zlar tarkibidagi umumiy qism, umumiy sema boshqa-boshqa bo‘lsa, ularning so‘z yasalish ma’nosi ham shunday bo‘ladi. Masalan: *-la* so‘z yasovchisi bilan hosil qilingan *moylamoq, tuzlamoq, laklamoq* so‘zlari bir xil so‘z yasalish ma’nosiga ega va shu ma’nosi bilan yuqorida ko‘rilgan (*arralamoq* tipidagi) fe’llardan farqlanadi. Akademik Azim Hojiyevning so‘z yasalishi ma’ nosi haqida fikrlaridan umumiy ma’no shuki, bir so‘z yasovchi yordamida bir yoki boshqa- boshqa so‘z yasalish ma’nosiga oid so‘zlar yasalishi mumkin. Bu holat so‘z yasovchining bir yoki birdan ortiq leksik-semantik guruhga oid so‘zlardan so‘z yasay olishi bilan bog‘liq. Azim Hojiyevning so‘z yasalishi borasidagi yuqoridagi fikrlari o‘zbek tilshunosligidagi izlanishlarda muhim ilmiy topilmadir.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z yasalishi jiddiy til sohasi ekanligi va unga tegishli tushunchalarda adashmaslik zarur. So‘z yasash deganda qanday usul bilan bo‘lsa-da, yangi so‘z hosil qilish tushunilavermaydi. Masalan, so‘z yangi ma’no kasb etishi natijasida yangi so‘z paydo bo‘lishi mumkin. Deylik, *ishbilarmon* so‘zi yangi ma’no kasb etdi. Biroq bu yerda yangi so‘z yasalishi yo‘q. Demak, so‘z yasalishi, yasama va yangi ma’no kasb etgan so‘zlarning leksemalashuvi hodisasini farqlash lozim. Derivatsiya ham til taraqqiyoti natijasida tarixiylik va zamonaviylikka dahldor bo‘ladi. Shu boisdan tarixiy va sinxron derivatsiyani farqlash lozim.[123] Bundan shuni anglashimiz mumkinki, o‘zbek tilining so‘z yasalishi masalalarida yasovchi qism va asos o‘rtasidagi uzviy aloqaning davrlar mobaynida o‘zgarishiga diqqat etishimiz lozim.

Xulosa o‘rnida Akademik Azim Hojiyevning so‘z yasalishi borasidagi ilmiy izlanishlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida morfemika, morfologiya kabi bo‘limlarda muhim ilmiy asoslardan biri hisoblanadi. Albatta, til rivojlanishda ekan davr o‘tishi natijasida yoki boshqa tillarning qisman ta’siri bilan yoki xalqlarning madaniy sharoitlarining almashishi ham ilmiy tilshunoslikda grammatik sathlarnig qonuniyatlarini muntazam ravishda kuzatib borishni taqazo qiladi. Xususan, til taraqqiyoti natijasida so‘z tarkibining o‘zgarishga uchrashi, asos va yasovchi orasidagi chegaraning buzilishi yoki umuman yo‘qolishi, so‘z birikmasi holidagi birliklarning grammatik bog‘lanish munosabatlarining o‘z kuchini yo‘qotganligi so‘z yasalishi va so‘z tarkibi borasidagi ilmiy izlanishlarni izchil ravishda tadqiq qilishni vazifa sifatida qo‘yadi. Bu borada olimning ilmiy tadqiqotlari yuqoridagi sanab o‘tilgan til hodisalarini nazardan qochirilmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009. Б. 7
2. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими.–Тошкент: Ўқитувчи, 2007. Б. 7-38
3. Азим Ҳожиев. Ўзбек тили сўз ясалиши. –Тошкент, 1989.Б. 97

[121] Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими.–Тошкент: Ўқитувчи, 2007. Б. 7-38

[122] Ҳожиев А.O‘sha manba. B 25

[123] Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2009. Б. 7

4. Ўзбек тилида сўзнинг морфологик таркиби масаласи. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. № 1. –Б. 29-33.

5. Мирзақулов Т.Ў. Ўзбек тилида сўз ясалиши маъноси ва парадигмаси. Фил. фан. номзод. автореф.... – Самарқанд , 1995. Б.15-17

TURKIY TILLARDA GRAMMATIK KATEGORIYA MASALASI

Eliboev Islom Asqar o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, Mustaqil izlanuvchi
Email: *islomsj@mail.ru*

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy o‘z davrida turkiy tilni ulug‘lar ekan, undagi ifoda vositalarining rang-barangligidan, bu tilda eng nozik tushunchalarni ham ifodalash uchun etarli imkoniyatlar mavjudligidan g‘ururlanadi: «...Va turkning asli xilqatda sortdin tab’i muloyimroq erkanga mundin bul’ajabroq tonug‘ yo‘qdurki, hech qaysi munung muqobalasida dam ura olmaslar va sort biajmaihim agar turk iborati adosida ojizdur, muhiq ham bor. Nevchunki, turk alfozi vozii asru ko‘p vaqtda mubolag‘a izhori qilib, juzviy mafhumot uchun alfoz vaz’ qilibdurki, sohib vuquf kishi to zohir qilmas, inonsa ham bo‘lmas.»[124] Alisher Navoiyning o‘z fikr-mulohazalarining isboti uchun ko‘plab inkor qilib bo‘lmas dalillar keltiradi. Bu dalillarning ichida fe’l shakllari alohida o‘rin tutadi.

Navoiyning o‘z asarida, ayniqsa, fe’lga e’tibor qaratishi, shu jumladan, turli nozik xatti-harakatlarni, harakat tarzini ifodalovchi fe’llarga atayin to‘xtalganligi bejiz emas. Alisher Navoiy tomonidan keltirilgan 99 ta fe’lning har biri o‘ziga xos ma’no nozikliklariga ega bo‘lib, ma’noviy xususiyatlariga ko‘ra ularni bir nechtalarga bo‘lish mumkin[125].

Alisher Navoiyning quyidagi fikrlaridan harakat tarzini ifodalash uchun ishlatgan bir qator fe’llarning ma’no farqlarini anglab olish mumkin.

«Shuaro akobiridinki, ba’zi «may» ta’rifida mubolag‘a qilibdurlar va bu mo‘’taddun bih amredurki, may ichmoq qavoidida so‘z ko‘p surup, zarofat nihoyatsiz zohir qilurlar. Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolag‘a mundin o‘tmas. Turkcha nazmda bu matla’ bordurkim.

Bayt: Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o‘zumdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.

Oyo! Bu sipqaray lafzi mazmunig‘a etganda, forsiy she’rda ne iloj qilg‘aylar. Va tomshimoqki (tamshanmoqqa to‘g‘ri kelib, o‘ta, oxirigacha idishni yalab qo‘yishga nisbatan ishlatiladi), g‘oyat zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar...»[126]. Xuddi shu tarzda bo‘xsamoq fe’li ham izohlab berilgan.

Yana A.Navoiyning yig‘lamoq fe’lining o‘zbek tilidagi ifodalanishlariga alohida e’tibor qaratganligi kuzatiladi:

«Va she’rning bino va madori ishqqa evrulur va oshiqliqda yig‘lamoqdin kulliyroq va doimiyroq amr yo‘qtur va anda tanavvu’ bor: yig‘lamsinmoq mazmunidaki, turk mundoq debdurki,

bayt: Zohid ishqin desaki, qilg‘ay fosh,
Yig‘lamsinuru ko‘ziga kelmas yosh.

Va ingramak va singramakkim, dard bila yashurun ohista yig‘lamoqdur va oralarida tafovut oz topilur, turkchada bu matla’ borkim, bayt:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,
Kechalar gah ingramakdur odatim, gah singramak.»

Asarda siqtamoq fe’lining yig‘lamoq fe’liga nisbatan harakatni kuchli tarzda ifodalashi asoslab beriladi. Xuddi shu kabi o‘kurmoq, inchkirmoq, hoy-hoy yig‘lamoq fe’llarining yig‘lamoq harakatining turlicha namoyon bo‘lish holatlari ifodalanishi ta’kidlanadi. Bunday sharhlar boshqa so‘zlar tahlilida ham kuzatiladi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida harakat tarzi qadimdan turli shakllarda ifodalangan va bu olimlar e’tiborini tortgan. Bu hodisa hozirgi o‘zbek adabiy tilida yanada takomillashgan.

---

[124] А.Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. 15 жилдлик. 14 ж. –Тошкент: 1967, -Б.108.
[125] А.Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. 15 жилдлик. 14 ж. –Тошкент: 1967, -Б.108.
[126] А.Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. 15 жилдлик. 14 ж. –Toshkent:1967, -Б.109.

Darhaqiqat, shu sababli harakat tarzi ma’nosi masalasiga e’tibor yildan yilga kuchayib, ko‘pchilik tadqiqotlarning muhim manbaiga aylangan. Bu holat o‘rganib ilmiy-nazariy, o‘quv adabiyotlarida ham o‘rin ola boshlagan. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darsliklarida fe’l turkumiga maxsus to‘xtalinib, fe’lning morfologik(affiksatsiya) usulda yasalishi, fe’l yasovchi unumli va unumsiz qo‘shimchalar qayd etilgan. Biroq shunga qaramay mavjud ishlarda quvala, savala, tuzat, tomchila, tepkila, bitkaz kabi ichki yasalish modelidagi leksemalar, ulardagi asos va qo‘shimchalarning xususiyatlari, yasalmaning ma’no jihatlari atroflicha yoritilmagan. Maktablar uchun chiqarilgan darsliklarda esa analitik shakllargina harakat tarzi shakllari sifatida berilib, sintetik shakllar tilga olinmagan.[127]

Bu holat tilshunoslarimiz tomonidan o‘z vaqtida qayd etilib, masalaga oydinlik kiritish zarurligi uqtirilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, turkologiyada A.Hojiev ta’kidlaganidek, «vid» kategoriyasi masalasi mukammal hal etilmagan, munozarali va eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi.[128] To‘g‘ri, keyingi yillarda bu masala bo‘yicha e’lon qilingan monografiya va maqolalardan tashqari, bir qancha nomzodlik dissertatsiyalari ham yoqlangan. Biroq bu ishlarda fe’llardagi harakat tarzini ifodalovchi qo‘shimchalar, shakllar alohida grammatik tizimni tashkil etishi-grammatik kategoriya sifatida baholanishi jiddiy asoslab berilmagan. Vaholanki, o‘zbek tilida harakat tarzini ifodalovchi sintetik shakllar ham me’yoriy holatlik va unga zid bo‘lgan ortiqlik–o‘zgalik, kamlik zidlanishini (oppozitsiyasini) hosil qiladi. Boshqacha aytganda, betaraflik va sub’ektivlik tarzida binar oppozitsiyani shakllantiradi. Shuning o‘zi ham fe’llardagi harakat tarzi shakllari va ular anglatgan grammatik ma’nolar tizimini ma’lum bir grammatik kategoriyaga birlashtirish imkoniyatini beradi, deb o‘ylaymiz.

Zero, shu o‘rinda grammatik kategoriya asosida bir-biriga zid grammatik ma’nolar va shakllar tizimi yotadi. 1956 yilda Olmaota shahrida «Turkiy tillarda vid kategoriyasi va ergashgan qo‘shma gaplar» masalasiga bag‘ishlab maxsus kengash o‘tkazilganligi ham masalaning jiddiy ta’kidlab ko‘rsatishni eslatib o‘tish joiz deb bildi. Biroq shuncha ishlar va ko‘rilgan amaliy tadbirlarga qaramay, vid kategoriyasi masalasida mutaxassislar bir fikrga kela olmadilar.

ADABIYOTLAR RO”YXATI

1. А.Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. 15 жилдлик. 14 ж. –Тошкент: 1967, -Б.108.
2. Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Абдураимова М., Қосимова Н. Она тили. //Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун синов дарслик. –Т., 1998
3. Ҳожиев А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1973.-Б. 83.

[127] Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Абдураимова М., Қосимова Н. Она тили. //Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун синов дарслик. –Т., 1998

[128] Ҳожиев А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1973.-Б. 83.

GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDA PAREMIK JANRLARNI O‘RGANISH

Eshboyeva Fazilat
GulDU o‘qituvchisi fazilattursuntoshiva@gmail.com

Annotatsiya: Gulxaniy ijodi umumta’lim tizimida nafaqat adabiyot darsliklarida, balki tarix darsliklarida ham berib boriladi. Yapaloqqush va Boyo‘g‘li, Ko‘rqush va Hudhud, Kulonkir sulton va Malik shohinlarning obrazlari, „Kalila va Dimna” tajribasidan, Muslihiddin Sa’diy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ va mo‘tabar adiblarning asarlaridan ham o‘rnida foydalandi. Asardagi Yapaloqqush va Boyo‘g‘li, Ko‘rqush va Hudhud, Kulonkir sulton va Malik shohinlarning obrazlari orqali o‘sha davr jamiyatidagi illatlarni, hukmron tabaqalarning xalqqa o‘tkazgan jabr-zulmlarini, xalqning og‘ir turmush sharoitini haqqoniy tarzda katta badiiy mahorat bilan ochib bergan

Kalit so‘zlar: **O‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimi**, Zarbulmasal, folklor, Yapaloqqush, Boyqus, Tuya bilan bo‘taloq, Toshbaqa bilan chayon, uzviylik

XIX asrning birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhitida **masal–tamsil** janrida xalqchil asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan shoir MuhammadSharif Gulxaniydir. Gulxaniy tabiatan yumor va hajvga usta, xalq urf-odatlari va til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarnining mohir san’atkoridir. Gulxaniyning eng muhim ijodiy fazilati shundaki, u XIX asr folkloristi sifatida o‘zbek xalqining donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollar, naql va hikmatlarini to‘plab, o‘zining mashhur **“Zarbulmasal”** asarini yaratgan. Shoir uni yaratishda xalq og‘zaki ijodi bilan birga, buyuk hind masali “Kalila va Dimna”dan, Firdavsiy, Jomiy, Hofiz Sheroziy, Shayx Sa’diy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlari an’analaridan keng foydalangan. Chindan ham jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonasi sanalmish “Kalila va Dimna” qadimgi hind folklori zamirida vujudga kelgan. Gulxaniy ham Yapaloqqush va Ko‘rqush suhbatida ayrim hikoyatlar bayonini “Kalila va Dimna”nadan topmoq joizligini ta’kidlaydi. “Zarbulmasal” Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi, u xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini yig‘ib, kitob holiga keltirish lozimligini aytgani hamda Gulxaniy shu nozik xizmatga loyiq, deb topilgani nazarda tutilsa, mazkur asarlarning maqsad-mohiyati juda yaqinligi oydinlashadi.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari ham lirik va epik turga tegishli bo‘lgan ramziy hikoyalardan tashqari ularning mazmun - mohiyatiga mos maqol va matallar ham o‘rin olgan. Asar didaktik ruhda yozilgan. Ta’limiy hikoyalar ko‘pincha pand-nasihat ma’nosida bo‘lib, syujetiga mos ma’lum g‘oyani yoritish, matnning badiiy tasvirini oshirish maqsadida paremik turga murojaat qilingan. Bob avvalida paremik tur – **paremiologiya** haqida ma’lumot berib o‘tish o‘rinlidir. Ushbu o‘rinda “O‘zbek tilining paremiologik lug‘atida keltirilgan ta’rifga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

“Paremiologiya” yunoncha “hikmatli so‘z” degan ma’noni anglatadi.

1) ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni — paremalarni o‘rganadigan fan sohasi;

2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar — paremalar tizimi. Paremalar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslikning o‘rganish ob’yekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko‘pincha she’riy shaklga o‘xshaydi va ularda o‘xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo‘llanadi. Shu bilan birga paremalar so‘zlardan tuzilib, ma’lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lgani uchun tilshunoslikning ham o‘rganish ob’yektidir. Paremiologiya ana shu ikki jihatni o‘zida birlashtiradi. Paremalarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma’no xususiyatlarini o‘rganuvchi Paremiologiya frazeologiya bilan chambarchas bog‘liq.

Paremiologiya tilda mavjud bo‘lgan turli xil barcha iboralarni o‘rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni o‘rganadi. Shu jihatdan ular o‘zaro farqlanadi. O‘rganish ob’yektining birligi, ya’ni bir necha so‘zdan tashkil topgan turg‘un, barqaror birikmalarni tekshirish paremalarni to‘plash, o‘rganish Mahmud Koshg‘ariy ("Devonu lug‘otit turk") va Gulxaniy ("Zarbulmasal") zamonlaridan to hozirgi kunlargacha davom etib kelmoqda.[129]

[129]Berdiyorov H, Rasulov R, O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati -Toshkent: O‘qituvchi, 1984,-3-b.

ParemaIarning eng ko‘p tarqaIgan turi maqoIIar bo‘Iib, uIardan adabiyotning barcha janrIarida samaraIi foydaIaniIadi.

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmun va muayyan aniq shaklga ega bo‘lgan, xalq nutqi va badiiy asarlarda faol qo‘llanadigan paremik janrdir. Maqollarda ota - bobolarimizning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Adabiyotshunos oIim Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida maqolga shunday ta’rif beradi: “Elning kun ko‘rgan, ish o‘tkargan sinalishli qarilari tomonidan aytilgan hikmath, qisqa, ma’noli gaplardirkim, el orasida «yashash qonunlari» kabi hukm surub, tildan tilga yuruydir”[130]

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida keltirilgan.

Maqollar ba’zan matal, zarbulmasal, naqI, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, “Otalar so‘zi” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, xattoki, g‘oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning harakteristikasi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. majoziy ma’no, kinoya, razm yetakchi badiiy vosita sifatida qo‘llaniladi. “Kalila va Dimna”, “Marzbonnoma”, “Sindbodnoma”, “Qobusnoma”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”asari, Muhammad Ali Habaliyning “Jome ut-tamsil” asari zarbulmasalga misol bo‘ladi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari ushbu janrning mukammal namunalaridan biri hisoblanadi. Avvalo, adabiyotimiztarixida “Zarbulmasal” nomibilantarqalganasarlarjudako‘pbo‘lgan. U, dastlab bir tildagi masallarning oddiy to‘plamini anglatgan. Shuningdek, bir tildagi masallarning boshqa tilga qilingan tarjimalari ham „zarbulmasal” deb nomlangan. Biror masalga tayanib pandnoma yo‘nalishida bitilgan risola ham „zarbulmasal” atalgan. “Zarbulmasal” so‘zi arabcha “zarb” va “masal” so‘zlarining birikmasidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z bo‘lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so‘zlashni anglatadi. Fors adabiyotida Ubayd Zokoniy, XIX asr o‘zbek adabiyotida Nozil Xo‘jandiy, Sulaymonqul Rojiy kabilar maqollar keltirib, “Zarbulmasal” nomlari bilan asarlar yaratganlar. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari esa tamomila haqiqiy badiiy asar bo‘lib, dunyo adabiyotida o‘xshashi yo‘q hodisadir.

Tadqiqotning ushbu faslida “Zarbulmasal”dagi maqol va hikmatlarning ham shaklan, ham mazmunan tahliliga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, maqol va hikmatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga ham murojaat etiladi.

“Zarbulmasal” — hayvonlar haqidagi qiziqarli voqealarga boy asar. Lekin hayvonlar kechirgan voqealarga chalg‘ib qolmaslik kerak. U, aslida, odamlar haqidagi majoziy asardir. Bu janrdagi asarlarda imo-ishora, kinoya asosiy tasvir usuli hisoblanadi. Ijodkor badiiy maqsadini odamlar taqdiri tasviri orqali emas, balki qushlar, jonivorlar vositasida ifodalaydiki, bu asarning ta’sir kuchini oshiradi.

Asarning kompozitsiyasi ham, sujeti ham, tili ham anchagina murakkab bo‘lishigaqaramay, tushunilishi jihatidan sodda va maroqlidir. Bunga masal, maqol, hikmat va matallardan o‘rinli foydalanish evaziga erishilgan. “Zarbulmasal”dagi maqol va hikmatlar tasnifi masalasihali to‘la yakuniga yetmagan ishlardandur. Ishimizning bu qismida asardagi maqol va hikmatlarni umumlashtirib tasniflashga harakat qildik.

Gulxaniyning mahorati shundan iboratki, asarda aytmoqchi bo‘lgan fikrini maqollarorqali qushlar tilidan bayon qiladi. Bu bilan maqollarning badiiy qiymatini oshirgan.“Zarbulmasal” dagi har bir masalga xos maqollar keltirilgan. Mehnatkash xalq hayotini yaxshi bilgan hajviy asarlar muallifi Gulxaniy xalqning orzu-umidlarini, uning og‘zaki ijodini juda yaxshi bilgan. Maqollarda kishilarning mehnatsevarlik, har bir masalga aql-idrok bilan yondashish to‘g‘rilik, sofdillik, sermazmun, sabotlilik kabi ajoyib fazilatlar ulug‘lanadi. Maqollar “Zarbulmasal"ning tilini boyitib, uning g‘oyaviy-badiiy qimmatini, shiradorligini oshirishga xizmat qiladi.Keltirilgan barcha maqollar asarning g‘oyaviy mazmunini ochishga yordam beradi.

[130] Fitrat Abdurauf, Adalbiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. T: Ma’naviyat -2009 B-7

Gulxaniy xalq og‘zaki ijodi materiallarini qayta ishlash bilan birga, uning g‘oyaviy yo‘nalishini, shakli, uslubi va badiiy xususiyatlarini to‘la saqlab qolishga intildi. Shuningdek, ayrim maqollarni ko‘chma ma’noda qo‘llaydi. Bu esa istiora yoki metaforik iboralardir. Masalan, “Tikonsiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas” iborasi bir ishni bitkazish uchun mashaqqat chekishga to‘g‘ri keladi, degan ma’noda ishlatilgan.

Satirik yozuvchi Gulxaniy “Zarbulmasal”da xalq og‘zaki ijodi imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanish bilan o‘z asarining g‘oyaviy - badiiy jihatdan pishiq va xalqqa manzur bo‘lishiga erisha oldi.Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari yosh kitobxonlar uchun ham g‘oyat muhim,tarbiyaviy va didaktik ahamiyatga ega. Undagi masallar garchi turli parranadalar, qushlar va yirtqich hayvonlar o‘rtasidagi munozaralar, munosabatlar orqali hikoya qilinsa-da, yuksak andisha, falsafiy va purhikmat o‘gitlar ustuvorlik qiladi.Qushlar obrazlari asarning asosiy mazmunini belgilaydi, hayvon-hasharot va kishi obrazlari qushlarning o‘zaro suhbatlarida, ular tomonidan keltirilgan naql-u rivoyatlarda namoyon bo‘ladi.

Muallif o‘z masallaridan majoziy obrazlar orqali hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o‘zaro feodal urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi. Shuning uchun Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining bir-biriga quda bo‘lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to‘y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi **Ko‘rqush, Hudhud, Kulonkirsulton, Sho‘ranul, Malik Shohim va Kordon**larning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g‘oyaviy mazmunini ravshanlashtiradi.

“Zarbulmasal”ning kompozitsiyasi hikoya ichida hikoyalar san’atkorona ulanib kelgan ertaklarning kompozitsion qurilishiga o‘xshab ketadi. Bir qator masallar asosan voqea bilan bog‘lanadi, syujet qismlari (voqea tuguni, rivoji, kulminatsion nuqtasi vayechimi) ixcham va bir butunlikni tashkil etadi.

“Zarbulmasal” asari XIX asming 80- yillaridayoq rus sharqshunoslarining e’tiborini o‘ziga tortgan edi. 1890- yili Qozon universiteti bosmaxonasida nashr etildi va rus tiliga tarjima qilindi. U 1951 yili M.Sale tomonidan yana bir bor rus tiliga tarjima etildi. Bunda tarjimon asarning sho‘rolar davridagi nashrlariga tayanib ish ko‘rgan edi. 1948 - yili Samarqandlik adabiyotshunos R.Muqimov Gulxaniy va uning adabiy merosi haqidagi ishlarini umumlashtirib, "Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi. Gulxaniy ijodini ilmiy jihatdan baholashda H.Yoqubovning Gulxaniy asarlari nashriga yozgan kirish so‘zi, akademik V.Abdullayevning "O‘zbek adabiyoti tarixi" darsligidagi adabiy portreti, akademik A.Qayumovning "Qo‘qon adabiy muhiti" monografiyasida Gulxaniy hayoti va ijodiga ajratilgan o‘rinlaming, O‘zFA haqiqiy a’zosi M.Qo‘shjonov va tilshunos olima X.Nazarovaning "Zarbulmasal" ning badiiy xususiyatlari, tili va uslubini o‘rganishga doir ishlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq, gulxaniyshunoslikda matnshunos, manbashunos, tilshunos olim Fathiddin Ishoqovning amalga oshirgan tadqiqotlari katta qadam boldi. Bu olim Gulxaniy va uning davri adabiyoti bilan bog‘liq juda ko‘p manbalarni, "Zarbulmasal"ning ko‘psonli qolyozma va bosmanusxalarini qiyosan o‘rganib, uning tanqidiy matnini tayyorladi hamda 1976 -yili Toshkentda nashr ettirdi. Olim Gulxaniy va uning adabiy merosi haqida bir qancha salmoqli risolalar, maqolalar e’lon qildi. U o‘zining 20-25 yillik ilmiy izlanishlarini yakunlab, 1997-yil 16-dekabrda "Gulxaniy "Zarbulmasal”ining ilmiy-tanqidiy matni" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. F.Ishoqov o‘z tadqiqotlarida Gulxaniy hayoti va adabiy merosini o‘rganish jarayonida boshqalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarini bartaraf etadi, adibning taxallusi, qismati, qushlar obrazlarini noto‘g‘ri nomlash, asarning janriy xususiyatlarini belgilash borasidagi chalkashliklarga aniqlik kiritadi. F.Ishoqovning ilmiy asarlarida "Zarbulmasal" xalqchil nasming o‘ziga xos namunasi ekanligi, asarning g‘oyaviy- badiiy dunyosi chuqur tahlil qilinadi. Uning ishlarida ayniqsa, "Zarbulmasal"ning til xususiyatlari keng ko‘lamda o‘rganildi. [131]

Kitobning boshlanish qismida quyidagi fikr ifoda qilingan: “Gulxaniyning mashhur va ajoyib asari “Zarbulmasal”daxalq maqollari (Gulxaniyning aytishicha, 400 ommaviy maqol),qisman Gulxaniyning o‘zi yaratgan maqolsimon hikmatli so‘zlar, qisman sajlar (qofiyali nasr), qisman matal va rivoyatlar to‘plangan. Bular tematik va epik jihatdan bir-birigabog‘lanib, yaxlit syujetni tashkil etadi. Asarning qahramonlari asosan qushlardan iboratdir. Muallif maqollar orqali bir- birlari bilan

[131]Sabitova Tadjixon. Muhammadsharif Gulxaniy asarlarining o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni maqolasi.Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar nomli konferensiya materiallari to‘plami 1657- bet.

so‘zlashgan qushlar obrazida turli ijtimoiy qatlamlarning salbiy urf-odatlari, xulq-atvori, muomala va munosabatlarini kulgi qiladi”[132]

Mohir adabiyotshunos Fitrat ham “Zarbulmasal”dagi maqollarni mavzuviy, g‘oyaviy jihatdan tasnif qilib, uning o‘quvchilar ma’naviy kamolotida, tar’lim- tarbiyasida muhim manba ekanligini e’tirof etdi.Atoqli adabiyotshunos Abdurauf Fitrat “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash”[133]nomli maqolasida Farg‘ona adabiyotiga ham e’tibor qaratadi. Uning yutuqlari va noqisliklari borasida so‘zlaydi. Ta’kidlash kerakki, undagi Fitrat diqqatini tortgan barcha ijobiy jihatlarning hamda yuqorida sanab o‘tilgan adiblar ijodi ravnaqining homiysi va rahnamosi Amir Umarxondir.

Jumladan, uning taklifi va tashabbusi bilan yaratilgan Gulxaniyning “ZarbulmasaI” asarini nazarda tutib Fitrat, “bu davrda Farg‘ona saroy adabiyotlarining xalq adabiyotig‘a ayricha diqqat qilg‘anlari ham ko‘riladir”[134]deya ta’kidlaydi.

Tadqiqot davomida bizgacha bo‘lgan tadqiqotlardan farqli ravishda o‘z tasnifimizni ishlab chiqishga harakat qildik.Quyidagi jadval asosida ularni xronologik tasniflash va maqollarni izohlashga, har bir maqolning hozirgi kundagi muqobili yoki ma’nodoshi borligiga hamda qaysi obrazlar suhbatida qo‘llanganiga e’tibor qaratildi. Asarda xalq tomonidan qo‘llangan folklore namunalaridan 178 ta maqol va matallarni ajratib, xronologik tartibda joylashtirildi.Tahlilda juz’iy kamchiliklar uchrasa-da, ish bo‘yicha kichik bir tadqiqot sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Qo‘shjonov. “Zarbulmasal” asarining badiiy xususiyatlari. Kitobda: Mohiyat va badiiyat. – Toshkent Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977. – 147 b.

2, F.Is’hoqov. Gulxaniy va uning adabiy m’rosi. – Toshkent, 1974.

3. Maktabda Gulxaniy adabiy merosining o‘rganilishi. Oliy va o‘rta maktablar uchun qo‘llanma. – Toshkent, 1983.

4. “Zarbulmasal” – xalqchil nasrning yuksak namunasi. O‘zbek nasri tarixidan. – Toshkent, 1982.

TERMINOLOGIYADA DUBLETLIK VA SINONIMLIK MUNOSABATI

Ermatov Ixtiyor
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent,
Guliston davlat universiteti,
ermatov.ixtiyor@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada leksikaning umumxalq tiliga mansub odatdagi so‘zlar bilan xalq xo‘jaligi, fan va texnika, ularning muayyan sohalariga mansub terminlar munosabatidagi farqli va o‘xshash jihatlar haqida fikr yuritiladi. Terminologiya tizimida zid ma’noli bo‘lmagan leksik birliklar va ularning lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalari, shuningdek, leksikaning denotativ asosi umumiy bo‘lgan lug‘aviy birliklari tizimiga mansub dublet terminlar munosabati haqida so‘z boradi. Tilshunoslik terminlari maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

Tayanch so‘z va iboralar. Til, so‘z, termin, sinonim, dublet, denotat, ma’nodosh, absolyut ma’nodosh va b.

Leksik birliklar lug‘aviy ma’no darajasi, uslubiy bo‘yog‘i, nutqning barcha vazifaviy uslublariga ko‘ra, mushtarak lisoniy qiymat kasb etsa, ular mutlaq ma’nodoshlik guruhi sifatida ajratiladi [1: 17]. Masalan, *tilshunoslik* va *lingvistika, lug‘atshunoslik* va *leksikografiya, shakl* va *forma, atama* va *termin, mavzu* va *tema, avtor* va *muallif, terminologiya* va *atamashunoslik, mimema* va *taqlid so‘z, pauza* va *to‘xtam, affiks* va *qo‘shimcha, fe’l nisbatlari* va *fe’l darajalari, morfemika* va *so‘z tarkibi, ibora* va *frazeologizm* va boshqalar. Ma’nodoshlikning bu turini *dubletlar* sifatida baholash kerak.

[132] Gulxaniy . Zarbulmasal, T: Ma’naviyat – 2006. Kirish qismi.
[133] Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. - Toshkent: Ma’naviyat, 2000. -5-b.
[134] Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild Toshkent:Ma’naviyat 2000, - 59-b.

Mutlaq ma’nodosh muqobil birliklarni birlashtiruvchi bunday paradigmatik qator odatda ikki a’zodan tashkil topadi.

Terminlar va ularning tizimi maxsus “ixtisoslashgan” ma’noli birliklardan iborat alohida qatlam sifatida leksikaning boshqa qatlamlaridan farq qiladi. Termin maqomida amal qiluvchi so‘zning o‘ziga xos lisoniy vazifasi bu xalq xo‘jaligi, fan va texnika sohalariga oid tushunchalarni atashdir [2: 6].

Atash vazifasi tilning barcha tur terminologik tizimi birliklari uchun xos bo‘lgan vazifadir. Chunonchi, morfema, leksema, frazema va hatto sintaksemalar uchun ham xos bo‘lgan izomorf lisoniy hodisadir. Biroq terminologik tizim birliklariga xos atash atashning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, ular ifodalagan ma’nolar ekspressivlik, emotsionallik singari ustama uslubiy-pragmatik “hissa”lardan xoli bo‘ladi.

Muhimi shundaki, terminlar va ularning tizimi ham umumxalq leksikasining o‘ziga xos lug‘aviy qatlami sifatida leksikaning boshqa lug‘aviy qatlamlari bilan bir xil lisoniy huquqqa ega bo‘ladi. Shu sabab terminlar va ularning tizimi ham lisoniy jihatdan leksikaning boshqa lug‘aviy qatlamlari kabi, tilning vazifaviy imkoniyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bir etnik jamoaga mansub xalq xo‘jaligi, fan va texnikaning “ahvoli” shu etnik jamoaga xizmat qiluvchi tilning terminologik apparati va uning davr talab etgan saviyasi bilan belgilanadiki, bu jihatlar terminologik tizimning ekstralingvistik jabhasiga xos sotsiolingvistik xususiyatdir.

Shunisi xarakterliki, xalq xo‘jaligi, fan va texnika sohasiga oid tushunchalar termini bo‘lganligi uchun, bunday tizimda sinonimlik, variantlilik yoki dubletlikning bo‘lishi lingvistik jihatdan maqbul hisoblanmaydi. Shunga qaramay, bu tizimni sinonimlik, dubletlikdan xoli deb bo‘lmaydi. Bu holat tilshunoslikning o‘ziga xos muammosi bo‘lib, buning yechimi osonlikcha topilmasa kerak. Chunki davr talabi bilan “eski narsa”lar yangilanib turadi. Shu yangilanish dastlab tilda o‘z in’ikosini topadi: eski “narsa” darhol yo‘qolmaydi, u “yangi narsa” bilan ma’lum muddat muqobil holatda birgalikda “yashab turadi”. Bu jarayon fanda ***sinergetika*** deb ataladi. Mazkur jarayonning tilga xos ko‘rinishlari lingvistikada yangi tarmoq sifatida vazifaga kirishgan ***lingvosinergetika*** tarmog‘ida o‘rganiladi. Terminologik tizimga mansub sinonimiya, dubletlik va variantlilikka o‘xshash ma’nodoshlik hodisalari, shubhasiz, sinergetika ta’sirida o‘z faoliyatiga chek qo‘ymaydi. Bu lisoniy jarayonlar barcha tillarning terminologik tizimida mushtarak amal qiladi. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, sinergetikaning printsiplarini tilni o‘rganishga tatbiq qilayotganda, ehtiyotkorlikni unutmagan ma’qul [9: 71].

Mutlaq ma’nodoshlik xarakteridagi dubletlikda bir paradigma doirasiga kiruvchi lug‘aviy birliklar funktsional-semantik jihatdan o‘zaro farq qilmaydi: bir xil lisoniy qiymatga ega bo‘ladi. Shunisi ham borki, mutlaq ma’nodoshlik paradigmasida birlashuvchi muqobil a’zolardan biri til taraqqiyotining muayyan bir davrida nutqda faol ishlatilib, boshqasining iste’moliga ma’lum darajada mone’lik qiladi, cheklaydi. Iste’moli cheklangan lug‘aviy birlik leksikaning nofaol qatlamidan joy oladi. Natijada, vaqt o‘tishi bilan, bunday lug‘aviy birliklardan tarkib topgan paradigmatik qator unutilib, barham topadi.

O‘zbek tilshunosligi terminlarini davriy ketma-ketlikda o‘rganishdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, terminlar tizimiga xos dubletlik ikki davrga mansub hodisadir. Masalan, hozirgi vaqtda lisoniy rasmiylashgan *qo‘shimcha* terminining ma’nosi va vazifasida tilning diaxron davrida *harf, olmosh izlari, yopishiq olmoshlar, ishlovchi, turlov belgilari, supot belgilari, supotlama, o‘xshatqich, tugallik, fe’llama, durkum turlamalari, odot* tarzida ishlatilgan bo‘lsa, keyinroq shu ma’no va vazifada *prefiks, affiks, suffiks* terminlari ishlatilgan. Hozirgi kunga kelib esa, ayni shu ma’no va vazifani ifodalovchi lug‘aviy birlik *qo‘shimcha* va *affiks* [10: 144] shakllarida lisoniy me’yorlashgan, mazkur termin mansub paradigmaning boshqa muqobillari esa, o‘zbek tili leksikasining faol lug‘at qatlamidan chetlashgan. Shuningdek, bu lug‘aviy birliklar ishtirokida hosil bo‘lgan *suffiks – qo‘shimcha, fonema – tovush, logik urg‘u – so‘z urg‘usi, o‘zak – asos, negiz – asosdosh, turlovchi suffikslar – so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar, egalik kelishigi – qaratqich kelishigi, infinitiv – fe’lning noaniq formasi, tochka – nuqta, alfavit – alifbe, apostrof – tutuq belgisi, ulush son – taqsim son* singari vazifaviy-mazmuniy mikroguruhlar (paradigmalar) ham lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar tizimidan uzoqlashgan.

Mutlaq ma’nodoshlik qatoridagi qaysi muqobil a’zoning qo‘llanishi ommalashsa, rasmiylashsa va qay birining passivlashib, unutilishi til egasi bo‘lmish etnik jamoaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi va mafkurasi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, o‘tgan asrning 40-yillarida o‘zbek tilida *skobka,*

kavichka, ko‘p tochka, tochka vergul [13: 196], *tochka, suffiks, fonema, alfavit* [7: 256] va shu kabi lug‘aviy birliklar faol ishlatilgan, ularning *qavs, qo‘shtirnoq, ko‘p nuqta, nuqtali vergul, nuqta, qo‘shimcha, tovush, alifbe* singari muqobillarining iste’moli cheklangan edi. Keyinchalik esa, aksincha, *qavs, qo‘shtirnoq, ko‘p nuqta, nuqtali vergul, nuqta, qo‘shimcha, tovush, alifbe* [4: 42] kabi terminlar iste’moli qaytadan faollashib va ommalashib, ularning o‘tgan asrning 40-yillarida faol bo‘lgan muqobillarining iste’moli cheklangan. Demak, ma’lum bo‘ladiki, terminlar “hayoti”da ham, leksik birliklar “hayoti”da kuzatilgani kabi, mutlaq ma’nodoshlik va uning paradigmasi tilning o‘zgaruvchan nomutlaq hodisalari qatorida bo‘ladi.

Yuqorida aytilgan fikrlarga asoslangan holda, aytish mumkinki, sinonim va dublet xarakteridagi terminlar lug‘aviy tizimning lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalari tavsifidagi ko‘rinishlaridan biri sanaladi. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan terminlarning ifoda va mazmun jihatida o‘zaro muvofiqlik, mutanosiblik bo‘lmaydi.

Sinonim va dublet xarakteridagi hodisalar shakl va mazmun nomutanosibligining (asimmetriyasining) paradigmatik deb ataluvchi turiga mansub bo‘ladi. Bu hodisalarda shakl va mazmun nomutanosibligi shakliy birliklar miqdorining ma’noviy birliklar miqdoriga nisbatan ko‘pligiga asoslanadi.

Terminologiya tizimda dubletlik hodisalarini yana quyidagilarda ko‘rish mumkin. Tilda uzual ma’no okkazional ma’nodan farqli holda, faqat bir so‘zning semantik tarkibiga kiradi. Masalan, *“suyukli bola”* okkazional ma’nosini ijobiy emotsional komponenti bilan *qo‘zichoq, bo‘taloq, toychoq, shunqor, do‘mboq* kabi so‘zlarda ifodalash mumkin. Uzual ma’noni bir so‘z ifodalaydi, ya’ni uni yana ikkinchi bir so‘zda ifodalab bo‘lmaydi.

*Sinonim*lar ma’nosi bir biriga yaqin bo‘lgan birdan ortiq so‘zlardir. Lekin bir sinonimik qatordagi so‘zlar yo ekspressiv bo‘yog‘iga ko‘ra, yo ma’no nozikligiga ko‘ra o‘zaro farq qiladi [8: 29]. Faqat *dublet*lar tarkibidagi so‘zlar ma’nosi ayni bir xil bo‘ladi [3: 29]. Lekin dubletlar tilda uzoq yashamaydi: yo biri qo‘llanmay ketadi, yo biri bir jihati bilan o‘zgarib ketadi [14: 239]. Ya’ni birorta ham uzual ma’no to‘laligi bilan ikkinchi bir so‘zda takrorlanmaydi.

So‘zlarning ya’ni birdan ortiq so‘zning ma’no munosabati aynan bir xillikka asoslangan sinonimlar tilshunoslikda *absolyut sinonimlar* deb ataladi [11: 45]. Ularni ayrim tilshunoslar *dublet* deb ataydilar [6: 130]. Ba’zi ishlarda esa ma’nolari ayni bir xil sinonimlar mavjudligini aytish bilan cheklanilgan: uni *absolyut sinonim* deb ham, *dublet* deb ham atalmagan [12: 183]. Aslini olganda, *absolyut sinonim* va *dublet* terminlari bir xil ma’noga ega. Bu terminlar ostida ifodalangan sinonimlar birdan ortiq so‘zning semantik tarkibi ayni bir xil bo‘lishini bildiradi. Masalan, o‘zbek adabiy tilida *chega* va *qadoq* so‘zlari bo‘lib, ular o‘zaro absolyut sinonimlar hisoblanadi. Chunki bu so‘zlarning har ikkisida ham ikkitadan leksik ma’no bor: 1) siniq chinnining temir plastinkacha yordami bilan birlashtirilgan o‘rni; 2) siniq idishni yamashtiradigan temir plastinkacha. Bu ikki leksik ma’no *chega* so‘zining ham, *qadoq* so‘zining ham semantik tarkibini tashkil qiladi. Bu ikki so‘zning semantik tarkibida bundan boshqa semantika yo‘q. Ya’ni ularning semantik tarkibi bir xil. Ular absolyut sinonimlar hisoblanadi. Misollarga e’tibor bering: *chegasidan sinmoq / qadog‘idan sinmoq* va *chegasi tushib ketmoq / qadog‘i tushib ketmoq.* Bu so‘zlar grammatik kategoriyasi, ya’ni turkumi jihatidan ham bir xil.

O‘zbek tilida *lingvist / tilshunos, qarsak / chapak, shoti / narvon, sinchalak / chittak, o‘qituvchi / muallim, askar / soldat, sivizg‘a / nay* kabi so‘z juftliklari borki, ular ma’no jihatidan bir-biridan mutlaqo farq qilmaydi. Ular bir xil leksik ma’noga ega sinoimlardir [11: 191]. Bunday *absolyut sinonim*lardan ayrimlari termin ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan, *lingvist* ilmiy uslubga xos termindir.

Absolyut sinonimlar ayni bir xil leksik ma’noga ega bo‘lgan birdan ortiq so‘zdir. O‘zbek tilida absolyut sinonimlar tarkibidagi so‘zlar deyarli bir juft bo‘lib, leksik ma’nolari tushunchaga teng keladi va ular asosan terminologik leksikaga mansubdir. Komponentlari bir tilga xos bo‘lishi shart. So‘zniig fonetik variantlari va bir ma’noli morfologik shakllari absolyut sinonimni tarkib toptirmaydi. Sinonimlar bir o‘zakka mansub bo‘lmaydi [11: 196].

Xullas, ma’nodoshlikning umumtil lug‘aviy birliklariga xos turi (*sinonim)* bilan uning terminologik tizimiga xos turi (ya’ni dubletlar) diaxron va sinxron jihatlardan farq qiladi. Shakldoshlik xususiyatiga ko‘ra o‘zaro o‘xshash bo‘lgan bu ikki hodisa quyidagi jihatlariga ko‘ra farq qiladi:

a) sinonimlarda ularning paradigmatik qatorida lug‘aviy birliklar miqdori (soni) ko‘p bo‘ladi; dubletlar paradigmasi odatda ikki so‘zdan iborat bo‘ladi;

b) sinonim so‘zlarning leksik ma’nosida nutqning farqlanuvchi uslubiga xoslanish, emotsional-ekspressiv bo‘yoq bo‘ladi, dubletlarda bu kuzatilmaydi;

v) sinonimlarning ma’nosi signifikatga nisbatan farqlovchi, dubletlarda esa farqlanmas bo‘ladi;

g) so‘zlar sinonimlarda markerli, dublet so‘zlarda markersiz bo‘ladi;

d) sinonimlar so‘zlar ma’nodoshligini ifodalaydi, dubletlar esa faqat bir tushunchani ifodalaydi;

j) dublet so‘zlarning biri, albatta, “o‘tkinchi” bo‘ladi, sinonimlar qatorida “o‘tkinchi” so‘zlar bo‘lmaydi, bo‘lsa ham passiv bo‘ladi;

z) dublet so‘zlarda so‘z ma’nosi farqlanmaydi, chunki ular bir tushunchani anglatadi, sinonimlarda ma’no nozikligi mavjud, ma’no farqlanadi;

i) dubletlarda ma’nodoshlik “ortiqcha yuk”, sinonimlarda esa ularga xos xususiyat sanaladi;

l) sinonimiyada uning qatori (paradigmasi) dominant a’zoga asoslangan holda, tuziladi: dubletlikda dominant a’zo bo‘lmaydi.

Dublet so‘zlar va sinonimlar qatoridagi farqlar bu bilan yakun topmaydi. Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin: terminlar o‘rtasida sinonimiya emas, dubletlik hodisasi mavjud. Shuning uchun terminlarga nisbatan *sinonim* va *dublet* terminlarini farqlab qo‘llash lozim.

Aslini olganda, tildagi boshqa birliklar singari so‘z yoki birikma shaklida bo‘lgan terminlar ham til lug‘at tarkibining ajralmas birliklari sanaladi. Ammo tushunchalarni aniq, qat’iy chegaralash jihatiga ko‘ra unda sinonimlik, variantlilik yoki dubletlikning bo‘lishi maqbul holat hisoblanmaydi. Lekin terminologik tizimda hali-hanuz sinonimlik, dubletlik muammolari mavjud. Mazkur muammolar davriy izchillikda yangi terminlarning qabul qilinishi yoki o‘zlashma terminni tilning ichki imkoniyatlari asosida milliylashtirish natijasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – B. 13.

2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С. 6.

3. Чофәров С. Муасир азәрбајчан дили. – Бакы: Элм, 1970. – Б. 29.

4. Fitrət. Өzbek tili qaьdalarъ togrusьda bir təçribə, Birinci kitab. Sərf. Samarqand – Taşkent: Өzdəvnəşr, 1930. – 42 b.

5. Fitrət. Өzbek tili qaьdalarъ togrusьda bir təçribə, Ikkinci kitab. Nəhv. – Samarqand – Taşkent: Өzdəvnəşr, 1930. – 38 b.

6. Камолов Ф.К. Семасиология // Ҳозирги ўзбек адабий тили. I т. / Ғ.Абдураҳмонов таҳр. ост. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 130.

7. Усмон О., Авизов Б. Ўзбек тили грамматикаси дарслиги. I қисм. – Т.: Ўқувпеддавнашр, 1941. – 256 б.

8. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.– Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 29.

9. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б.71.

10. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: Fan, 2013. – 144 b.

11. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – Б. 45.

12. Məmmədов Н. Ахундов А. Дилчилијэ кириш. – Бакы: Мааріф. 1966. – Б. 183.

13. Ғозиев Ҳ. Ўзбек тили грамматикаси. II бўлим. Синтаксис. – Т.: Ўқувпеддавнашр, 1941. – 196 б.

14. Ҳожиев А. Семасиология // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 239.

BADIIY ASAR TILI VA SHEVA MUNOSABATI

Xudoyqulova Shoxistaxon Valiyevna
Guliston davlat universiteti

katta o‘qituvchi
shoxista@mail.ru

Annotatsiya. Bizga ma’lumki, shevalar o‘zbek adabiy tilini boyituvchi asosiy manba hisoblanadi. Chunki adabiy til xalq tilidan ozuqa oladi. Mazkur maqolada badiiy asar tilida shevaga xos so‘zlarning qo‘llanilishi va badiiy asar tilidagi o‘rni haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘z: sheva, adabiy til, milliy til, tarixiy shakl, ohandoshlik, dialekt, qipchoq, turkiy tillar, fonetik, leksik.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan bebaho madaniy va ma’naviy merosni tiklash va keng ravishda tadqiq qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifa bo‘lib qoldi. Bu muammoni hal etishning yo‘llaridan biri, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, kishilar ongida ma’naviy va axloqiy tarbiyani rivojlantirishdir.

Shevalar adabiy tilning rivojlanishida asosiy ozuqa manbaidir. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash va kelajak avlodga to‘la-to‘kis holida yetkazish zarur.

Abdulla Qodiriy asar tilining mukammalligini ta’minlashda so‘zdagi tovushlarning tabiiy ohangdorligiga alohida e’tibor qaratadi. Ularning ifoda imkoniyatlariga jiddiylik bilan qaraydi. Shu nuqtayi nazardan “Mehrobdan chayon” romanida so‘z vositasi bilan ish ko‘ruvchi san’atkor sifatida emas, balki milliy tilning barkamolligiga g‘ov bo‘layotgan ayrim sun’iy to‘siqlardan yozg‘irib, o‘z kasbini yaxshi bilgan sinchkov tilshunos sifatida haqli ravishda shunday yozadi: ”Xudoyor qipchoqlar ichida o‘skani uchun uning tili o‘zbekchadir. Enalarining so‘zidagi “ng” harfini “ng‘” ravishda qalin so‘zlaydir. Bu kungi Farg‘ona o‘zbeklarida ham(ayniqsa qishloqlarda) yumshoq “ng” o‘rnida qalin “ng‘” ishlatish ko‘b eshitiladir. Hozirgi isloh qilingan harfimizda bu qalin “ng‘”ning maxsus shakli yo‘qdir. Yozganda (n-g) harflaridan bir tovush yasalsa ham, biroq o‘qiganda har kim buni o‘z mahrajidan chiqarolmas, yanglish o‘yqur. Bu qalin “ng‘” o‘zbekcha bir necha so‘zdagina ishlatilmay ko‘b so‘zda iste’mol qilingani uchun manimcha alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladir. Masalan, mashhurlari zang‘, pang‘, lang‘, darang‘, qalang‘i-qasang‘i, dang‘, to‘ng‘iz, shang‘i, to‘ng‘illamoq, to‘ng‘, to‘ng‘iz va ang‘iz ting‘ boshqalar[1:56].

Adib asarlarida ana shu qonuniyatning ham ajoyib namunasini uchratamiz. Masalan:

-*Sen bizga* ***xiyanat qilding‘****, it uvli!*

-*Tuzumni* ***unutding‘!***[1:278].

• -*Xiyanatkaring‘ kim?* [1:277].

• -*Siz ozod* ***bo‘lding‘iz****-dedi xon, devong‘a chiqib o‘z* ***ishing‘izg‘a*** *qarang!* [1:279].

• *Jallod xanjarini enggiga* ***yanib*** *Anvar ustiga engashti(*[1:279].

• -***Tegimiz*** *ariq,* ***loyg‘a*** *botasan(282).Qo‘rg‘on kungirasidan Sultonalining* ***ko‘lagasi*** *(ko‘lanka-soyasi)* ***quyig‘a*** *enggashti(282-bet).Yigirma qadam chamasi borg‘ach, Ra’noning* ***kafshi*** *loyg‘a tishlashib oyog‘ uzolmay to‘xtadi* [1:283].

-***Akun, suvor*** *bo‘ling (otga mining demoqchi)* [1:283].

Domla Niyoz yorlig‘ni tugatib, qog‘ozni ***manglay****iga ko‘tardi va ikki qo‘llab Xudoyorga uzatd* [1:86].

Yaqingacha sheva vakillari nutqida ”manglay” so‘zi faol ishlatilgan bo‘lsa, keyingi paytda ularning tojik tilidan kirgan “peshona” shakli ko‘proq qo‘llanadigan bo‘ldi, “manglay” so‘zi ko‘proq stilistik vazifa bajaradigan holga kelib qoldi deyish mumkin.

Men bu ***jigitni*** *mirzabashi qilmaqchi bo‘ldim,-dedi xon va tizasi tegidan bir qog‘oz olib, domla Niyoziyga* ***uzatti****, o‘qing, domla (Abdulla Qodiriy.”Mehrobdan chayon”* [1:286].

Bu o‘rinda xususan hozirgi imloda “ng” birikmasi bilan ifodalangan burun tovushining matnda ayrim so‘zda til oldi, ba’zi so‘zda til orqa qilib talaffuz qilinishiga e’tibor bersak, bu holning Qo‘qon shevasiga fonetik jihatdan mos ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Abdulla Qodiriy asarlarida qo‘llangan Qo‘qon sheva xususiyatlarini dars jarayonida o‘quvchilarga to‘g‘ri tushuntirish faqat til nuqtayi nazaridangina emas, balki xalq tarixini to‘g‘ri talqin qilishi jihatidan ham muhimdir.

O‘zbek tili turkiy tillar ichida ko‘p shevali til bo‘lib, bu shevalar adabiy tilni boyitishga xizmat qilgan. Abdulla Qodiriy buyuk so‘z san’atkori va ustasi, xalq jonli tilini mukammal darajada bilgan va

undan mohirona foydalana olgan ijodkordir. Uning qaysi asarini o‘qimaylik har qadamda shevaga xos so‘zlarga duch kelamiz. Abdulla Qodiriy o‘zining “Mehrobdan chayon” asarini yozishda tarixiy shakllar bilan bir qatorda xalq tili, xususan Qo‘qon guruh shevalaridan ham ma’lum maqsad uchun o‘rinli foydalangan. “Mehrobdan chayon“ asarini o‘qish jarayonida Qo‘qon xonligi haqidaligiga e’tiborni qaratsak, bu holni tabiiyligiga ishonch hosil qilamiz. Jumladan, quyidagi matnda bu hol juda ochiq ko‘zga tashlanadi:

-Hissiyotga qattiq berilibsan, Ra’no... Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa, ***ayamga*** *ham ishonib bo‘lmas.* ***Manim*** *xolisligimni shundan ham payqasangiz bo‘lar edi,uka*[1:99];*Xon* ***sufa****ning zinasiga yetib, yuqori* ***mindi****.*[1:283]. *Duodan so‘ng barcha yuz* ***suypadi*** [1:283]. *-Qo‘y,aka, qo‘y! – deb yig‘ladi Baxtiyor,- bekorga o‘lib ketmay,* ***bala-chaqam*** *bor* [1:283];. *Davlat olpong-tolpong* ***bordong‘a*** *kirib ketdilar...*[1:283]. *Buni* ***payqag‘an*** *xalq sekin-sekin, bir-birisi bilan imlashib, kulimsiradilar va barchaning ko‘zi* ***bordon*** *uyda bo‘ldi(*[1:171].*-Tushunmagan bo‘lsangiz, - dedi Og‘acha,- mundan so‘ng haramga xotin va kaniz keltirilmasin, deyman*[1:283]. Abdulla Qodiriy romanlarining tili xalq tilidir. Mashhur adib xalq hayotining badiiy tasvirini berish uchun o‘tmish hayotni o‘sha davr ko‘zi bilan ko‘rdi. Xalq jonli so‘zlashuv tiliga e’tiborini qaratdi va undan unumli foydalanadi.

Abdulla Qodiriy shevaga xos so‘zlardan badiiy asarda uslubiy maqsadlarda: asarda ishtirok etgan personajlar nutqini tavsiflash, mahalliy koloritni berish uchun foydalangan. Abdulla Qodiriy katta so‘z san’atkori va ustasi, xalq jonli tilining yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o‘z asariga singdirgan buyuk adibdir. Yozuvchining yana bir mahorati shahar shevalariga xos iboralarni personajlar nutqiga nihoyatda ustalik bilan qo‘llaganki, bu bilan ham salbiy, ham ijobiy xislatlarni mahoratli namoyish etiladi:

-Iymanma, Kumush Otin, bugun-erta bizga yangi kelinsan, uchinchi kundan boshlab sen mug‘ombirning boshingda tegirmon yurgizishni o‘zim yaxshi bilaman!-dedi O‘zbek Oyim[1:281].

Ushbu ibora haligacha shevalarimizda saqlanib qolgan bo‘lib, ma’nosi O‘zbek Oyim shunday(ya’ni Kumushday) kelinini Marg‘ilonda yurib, Toshkentga mehmon bo‘lib emas, farzand, qiz bo‘lib kelganiga ishora qilinmoqda. Abdulla Qodiriy mavjud so‘zlarni tanlaydi, saralaydi, so‘zlarni tanlab, topib ishlatadi.

-Nega bu yerda tegirmonchining ishsiz qolgan eshshagiday junjayib o‘lturubsan, Sodiq-dedi bir yigit. Boshqalar buning so‘ziga kuldilar. Bizga ma’lumki, shevadagi so‘zlar juda oddiy va sodda. Yigitning gapidagi jo‘njayib, junjikib, g‘ujanak kabi ma’nolarda qo‘llanilayapti.

Abdulla Qodiriy so‘z san’atining ustasi va xalq jonli tilini yaxshi bilgan va uni o‘z asarlarida qo‘llay olgan, o‘z asarlariga singdira olgan buyuk allomadir. U xalq tilining imkoniyati cheksizligini o‘z asarlari orqali namoyon etadi va bu qo‘llashlar orqali badiiylikni oshirishga alohida e’tibor qaratadi. Ularda voqelikning xarakterli nuqtalarini mujassamlashtirib, ifoda mantiqini kuchaytiradi, tasvirga aniqlik va ixchamlik baxsh etadi. Shu sababli ham A.Qodiriy asarlari kitobxonlar qo‘lidan hanuzgacha tushmaydi va ularning sevimli asariga aylanib qolgan.

O‘zbek xalqi mustaqillikka erishgach, barcha sohalarda bo‘lgani kabi til sohasida ham juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Davlat tiliga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Bu o‘zgarishlar adabiy tilimizning yanada rivojlanishida va shevalarimizda ham o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbek shevalarini o‘rganishning bugungi kundagi ahvoli va kelajagi tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir [2:10].

Bizga ma’lumki, Abdulla Qodiriy buyuk romannavis adibdir**.** Uning har bir romanida xalqchillik, o‘zbek tilining nozik jilvalari, hech kim anglamaydigan jihatlari o‘z aksini topadi. Shu jumladan, “Mehrobdan chayon” romanida ham xalqona so‘zlarning, barqaror birikmalarning go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Bunday birikmalarning ham badiiy asar tilida o‘ziga xos o‘rni bor. Barqaror birikmalar deganda maqollar, matallar va iboralar tushuniladi. Maqollar grammatik jihatdan fikrni bildiruvchi kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli ko‘chma ma’noda ham o‘z ma’nosida ham qo‘llanuvchi xalq iboralaridir.

Maqollar nutq ta’sirchanligini amalga oshirishda fikrni lo‘nda va aniq ifodalashda juda qo‘l keladi. Abdulla Qodiriy ham maqol va matallardan asarda juda o‘rinli foydalangan. Bu orqali asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta’minlashga xizmat qilgan. Masalan: Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi. Maxdumning xasislikka o‘xshash holatlari albatta bor edi.

Bu maqolni keltirish orqali adib Solih Mahdumning o‘ta darajada xasis inson ekanligini juda ustalik bilan tasvirlagan. Bu vazifani albatta xalq maqoli bajargan. Asarda adib ba’zi maqollarni qahramonlar tilidan keltirgan va qahramon xarakteriga moslab maqolni sodda tarzda yoki aksincha murakkablashgan shaklda qo‘llagan. Masalan:

-Kina degan ro‘ymolni yuvib quritguncha-dedi Safar bo‘zchi...

Bu jumladan arazning umri qisqa, ro‘molni yuvib quritguncha degan ma’no anglashiladi. Asar qahramoni Safar bo‘zchining tilidan aytilgan bu maqol asarning xalqchilligini ta’minlagan, qahramonlarning har biriga moslab qo‘llanilgan o‘ziga xos nutqqa ega ekanligini ochib bergan.

Adib ba’zi maqollardan asar qahramonlarining xarakterini ochib berish uchun ustalik bilan foydalangan. O‘sha davr muhitiga moslab maqolning ba’zi so‘zlarini o‘zgartirgan. Va albatta asar qahramoni tiliga, shevasiga moslab qo‘llagan. Masalan:

Hatto ba’zi vaqt ikki og‘iz so‘z bilan qaytib chiqqan kishidan ham bir narsa undirishka tirishar, “mishiq oftobga tekin chiqmaydi, sizdan aqcha so‘rashqa iymanganda, menga bir narma tashlab ketsangiz o‘zim unga berib qo‘yarman” [1:151].Solih Mahdum nutqidan olingan bu jumladagi mishiq oftobga tekinga chiqmaydir maqoli hozirgi tilimizda qo‘llanilayotgan “Mushuk tekinga oftobga chiqmaydi” maqoli bilan mos keladi.

Bu maqol orqali adib Solih Mahdumning xasisligi bilan birga ta’magirligini, Anvarning nomidan ish qilib ham daromad topishidan toymaydigan inson ekanligini tasvirlagan. Maqollardan tashqari asar badiiyligini oshirish uchun matallar va hikmatli so‘zlardan ham foydalangan.

1.Shunga o‘xshash Maxdumning onasi Mohlaroyimning kasali go‘yo “dard ustiga chipqon” edi.

2.Chunonchi, ushbuning misoli turkiyda ham bor: “Chumchuqdan qo‘rqib tariq ekmagay” deb qo‘rqoq kishilarni masxara qiladirlar. Bu jumladagi “chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmaydi” matali Maxdum tilidan Anvarga aytilgan, Anvarning adolatsizliklarga tobi yo‘qligini Maxdum o‘zicha tushungan, mansabdan bosh tortayotganligini qo‘rqoqlikka yoygan. Adib matal orqali fikrini mohirona bayon qila olgan.

Bundan tashqari asarda Abdulla Qodiriy chiroyli tarzda hikmatli so‘zlarni ham keltirgan. Masalan: Shayxi Sa’diy aytkancha, dunyoda hayotidan qo‘l yuvg‘uchidek tili uzun kishi bo‘lmas. Shayx Sa’diy tilidan keltirilgan bu hikmatli so‘z orqali o‘lim bilan yuzma-yuz Anvarning holati yoritib berilgan. Adib ba’zi o‘rinlarda maqol bilan bir o‘rinda hikmatli so‘zni ham keltiradi. Bu usul qahramon nutqining yanada ta’sirchanligini oshiradi:

-Yaxshilik qil, daryog‘a tashla, baliq bilmasa xoliq bilur deganlar. Fuzuliy: “Dahr bir bozordir, har kim matoin arz etar” deb juda to‘g‘ri so‘zlaydir. Shunga o‘xshash biz ham o‘zimizda bo‘lgan matoni bozorg‘a solamiz...” [1:176].

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida juda ko‘plab maqol va iboralarga duch kelamiz. Masalan:

1.”Ko‘rpangga qarab oyoq uzat, mullabachcha!” [1:186].

2.”Bir qo‘chqorning boshi ketkuncha, minglab qo‘yning boshi kesilar emish” [1:186].

3.”Har kim tilagan oshini ichadir” [1:184].

4.”Yaxshiliq qil daryog‘a tashla; baliq bilmasa, xoliq biladur”[1:159].

5.”Oshni sust egan kishi, ishda ham sust bo‘ladir”[1:159].

6.”Bir o‘q bilan bir necha ishni qilmoq”[1:158].

7.”Qo‘li sust kosibdan, oyog‘i chaqqon gadoy yaxshi” [1:157].

8.”Mishiq oftobga tekin chiqmaydir” [1:151].

9.”Past hamisha pastligini qiladir” [1:101].

10.”Sut bilan kirgan-jon bilan chiqar” [1:101].

12.”Ko‘bchilikning duosi ko‘l” [1:281].

13.Yolg‘onni ham yamlamay yutadigan” [1:281].

14.Qush tilini qush biladir” [1:58].

15. “Laylaklar ichida bemahal g‘urrak” [1:47].

16.”Hay etti,huy etti, ikki koski to‘y etti” [1:13].

17.”Dumingga qumg‘on bog‘lash” [1:196].

18. “Egri to‘nkaga-egri to‘qmoq” [1:196].

19.”Xotin kishining charxi bilan o‘chog‘iga tagma”[1:197].

20.”Iynani tuyadek, xosni xaridek ko‘rasiz” [1:216].

21.”Sallalik eshaklarning diringlashi og‘ilxonagacha”. [1:216].

22.”Kesak otib arslonni yengmoqchi bo‘lgan”[1:216].

Abdulla Qodiriy katta so‘z san’atkori va ustasi, oddiy xalq ichida yurgan, xalq jonli tilini yaxshi bilgan va undan mohirona foydalana olgan, o‘z asarlariga singdirgan buyuk allomadir. Uning har bir asarida xalqchillik, o‘zbek tilining nozik jilvalari o‘z aksini topgan. Shu jumladan “Mehrobdan chayon” romanida ham xalqona so‘zlarning go‘zal namunalarini ko‘rishimiz va undan bahramand bo‘lishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda sheva so‘zlarini va asar tilida uchragan maqol va matallarni ham qahramon tilida so‘zlatib, xalq jonli so‘zlashuv tilidan, ya’ni shevaga xos so‘zlardan foydalanib yuqori natijalarga erishganligini ko‘ramiz. Mana shu o‘zgacha qo‘llash o‘zbek adabiy tilining o‘ziga xos tarzda sayqal topishini, umumxalq o‘zbek tilining eng oliy shakli bo‘lgan o‘zbek adabiy tilining to‘la, hozirgi kundagi holatida shakllanishini ta’minlagan, bu tilni boy, ta’sirchan, tushunarli ekanligini ko‘rsatgan. Shu sababli ham A.Qodiriy asarlari kitobxonlar qo‘lidan hanuzgacha tushmaydi va ularning sevimli asariga aylanib qolgan. Abdulla Qodiriy ijodi katta bir dengiz. Biz “Mehrobdan chayon” asaridan olingan ozgina shevaga xos so‘zlarni keltirdik xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”-T.,-1992-yil.
2. Enazarov T va boshqalar.”O‘zbek shevashunosligi”.Toshkent.Universitet 2012- yil.
3. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. – T:.”Navro‘z”, 2016-yil.

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI (YOKI HOZIRGI ADABIY O‘ZBEK TILI) TUSHUNCHASI HAQIDA MULOHAZALAR

Abdullayev J.

O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Bu maqolada aynan hozirgi o‘zbek adabiy tili terminining kelib chiqishi va hozirgi kundagi qandan nom berish, bu terminning hozirgi kundagi ahamiyati qandayligi haqida ayrim mulohaza va fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. *“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”, “Ona tili”, “O‘zbek tili”, “Mustaqillik davri adabiy tili”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining mustaqillik davri taraqqiyot bosqichi”.*

Kirish. Bu yerda, avvalo, *hozirgi o‘zbek adabiy tili* termin-tushunchasiga aniqlik kiritib olaylik. Chunki u bugun bir necha xil ma’noda qo‘llanadi:

1. Bugungi, hozirda qo‘llanib turgan, amaldagi adabiy til ma’nosida.

2. O‘tgan asrning 20-30-yillarida shakllanib, adabiy yozma nutq-manbalardan ko‘ra jonli xalq tiliga tobora yaqinlashish yo‘nalishida rivojlanib, taraqqiyotga yuz tutgan va 70-yillarda yuqori darajada ifoda qudratiga ega tugal grammatik sistemaga aylangan, hozirgi kunda ham faol qo‘llanayotgan adabiy til ma’nosida.

3. Har ikki xil ma’nodagi adabiy til o‘qitiladigan va “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (yoki “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”), “Ona tili”, “O‘zbek tili” nomlaridagi fan, predmet, dars ma’nosida.

Ko‘rinib turganidek, **hozirgi o‘zbek adabiy tili** birinchi xil ma’noda qo‘llanganda uning mohiyati bevosita nutq so‘zlanib turgan payt bilan belgilanadi: ayni shu zamon, shu vaqtda mavjudligi, qo‘llanib turgani, amaldaligi, faoliyati ayni hozirgi davrga taalluqliligi birdan-bir me’zon hisoblanadi. Uning qachon shakllangani, qaysi davrdan boshlab qo‘llanib kelayotgani, taraqqiyot bosqichlariga e’tibor qaratilmaydi. Vaholanki, har qanday adabiy til muayyan davrda shakllanadi, zamon bilan bog‘liq taraqqiy etish bosqichlariga ega bo‘ladi. **Hozirgi o‘zbek adabiy tili**ni ikkinchi xil ma’noda qo‘llashda ayni shu narsaga ham e’tibor beriladi. Boshqacha aytganda, ikkinchi xil qo‘llanishda hozirgi o‘zbek adabiy tili ayni nutq so‘zlanib turgan paytga taalluqli hodisa sifatidagina emas, muayyan tarixiy davrda shakllanib, turli taraqqiyot bosqichlariga ega bo‘lgan va rivojlanib borayotgan tarixiy kategoriya sifatida tushuniladi. Albatta, bunda uning hozirgi – nutq so‘zlanib turgan paytdagi adabiy til ekanligi, ayni bugungi kunda ham faoliyat yuritayotgani, faol qo‘llanish va taraqqiy etishda davom etayotgani hal qiluvchi belgi, asos hisoblanadi. Zotan, uning **“hozirgi”** sifatlashi bilan **hozirgi o‘zbek adabiy tili** deb atalishi shu bilan belgilanadi. Buni shundan bilsa bo‘ladiki, shunday bo‘lmaganda, ya’ni u hozirda ham amalda bo‘lmaganda, o‘tmishga aylangan bo‘lar, binobarin,

“hozirgi o‘zbek adabiy tili” deb atalmagan, qanday bo‘lmasin, boshqacha nom bilan yuritilgan bo‘lar edi (Misol uchun, **XX asr o‘zbek adabiy tili deyilishi mumkin edi).** O‘z hayot-faoliyatini bundan yuz yilning nari-berisidagi vaqtda boshlab, hozirgi kunda ham to‘laqonli amalga oshirayotgani, bu tilning o‘sha davrdagi va bugungi holatida fonetik-grammatik asos e’tibori bilan printsipial farq yo‘qligi, bir xilliklar va o‘xshashliklarning ko‘pligi adabiy tilimizning ushbu taraqqiyot bosqichini bir umumiy nom bilan **“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”** deb tavsiflash uchun asos bo‘lgan. Biz hozirgi adabiy o‘zbek tilini shu ma’noda tushunamiz va qo‘llaymiz. E’tiboringizga havola etilayotgan fikr-mulohazalarimiz shunday tavsifdagi adabiy til asosida, shu tilni va shu til haqidagi ishlarni hamda uni o‘qitish jarayonini, unda qo‘llanayotgan o‘quv adabiyotlarini kuzatish natijasida yuzaga kelgan.

Qayd etilgan ma’noda tushunilgan hozirgi o‘zbek adabiy tilining musta-qillikka erishilgan davrdan keyingi taraqqiyot bosqichi birinchi galda va asosan uning lug‘aviy-leksik sathi va uslubiy aspektining jadal rivoji bilan belgilanadi. Shunday bo‘lishi ham tabiiy, chunki adabiy tilimiz qayd etilgan aspektlardan boshqa sath-soha, ya’ni fonetik, grammatik, morfemik, so‘z yasalishi bilan bog‘liq zarur o‘zgartishlarni: o‘ziga kerak artikulyatsion-akustik, ma’noviy-shakliy, yasovchi vositalar, grammatik hodisalar va qoida-me’yorlarni XX asrda, aniqrog‘i, XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridan 80-yillargacha talab darajasida shakllantirib, takomillashtirib bo‘lgan va ular hozirgi o‘zbek adabiy tilining 90-yillardan keyin boshlangan mustaqil taraqqiyot bosqichi uchun ham birdek xizmat qilmoqda.

Manbalarda amaldagi bu bosqichni mustaqillik davri adabiy tili deyish ancha taomilga kirib qolgani kuzatiladi. Biroq bu hodisaga yuzaki, tashqi tomondan baho berishga o‘xshaydi. Nazarimizda, uni **mustaqillik davri adabiy tili** yoki to‘liqroq va aniqroq bo‘lgan **hozirgi o‘zbek adabiy tilining mustaqillik davri taraqqiyot bosqichi** deyishni ham unchalik to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Bu ta’birlarda ***mustaqillik*** qandaydir muddatli, davriy, muayyan yillar oralig‘ida amalda bo‘ladigan jarayondek tasavvur uyg‘otuvchi holatda qo‘llangan. Vaholanki, mustaqillik asli bilan, mohiyatan davr ham, davriy ham emas. To‘g‘ri, tarix haqiqatiga ko‘ra, mustaqillik muayyan davrdan boshlanadi, ammo u ma’lum vaqt oralig‘ida mavjud bo‘lib, so‘ng albatta tugaydigan, shak-shubhasiz, boshi va oxiri bor bo‘lgan davriy narsa emas. Mustaqillik bunday hodisalar sirasiga kirmaydi. Mustaqillik xalqning o‘z tanlagan yo‘li, xohish-irodasiga ko‘ra yashash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyati, ma’noviy-siyosiy huquqi, mavqei, maqomi. Bu xalqning millat sifatida shakllanganligi, balog‘atga etganligi, bir g‘oya, maqsad atrofida bir tan-u bir jon bo‘lib birlashgani, birligi belgisi, shularning alomati, shularga bog‘liq kuch-qudrat timsoli. Hech bir millat, agar u haqiqatan, millat sifatida shakllangan bo‘lsa, ming mashaqqat, kurash va qurbonlar evaziga erishgan milliy mustaqilligini yo‘qotmaydi, aksincha, uni tobora mustahkamlab, chuqurlashtirib, kuchaytirib boradi. Zotan, kim, qaysi millat o‘z-o‘zidan asoratga tushishni, boshqa millatga mute bo‘lib, bo‘ysunib yashashni xohlaydi? Mustaqillikka erishishdan maqsad muddatli erkinlik, vaq-tinchalik ozodlik, muvaqqat hurlik emas, balki bir umr, abadiy, mangu mustaqil yashashdir. Birinchi Prezidentimizning mamlakatimizning eng yuksak minbaridan turib: **“Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!”** deyishlarining va chiqishlarida ushbu shaklan milliy, maxmunan umumxalq shiorini takror va takror ta’kidlashlarining tagida juda katta ma’no-mazmun, ruhiy hikmat bor. Mustaqil bo‘ldikmi, endi uni abadiy saqlab qolish, abadiy mustaqil bo‘lish haqida o‘ylashimiz, qayg‘urishimiz, g‘amxo‘rlik qilishimiz, kurashishimiz shart. Buning uchun nimaiki zarur bo‘lsa, shuni qilaylik, mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, kuchaytirish, abadiylpshtirish yo‘lidan boraylik, toki, u hech qachon biron bir tomondan qo‘ldan boy beril-masin, cheklanmasin, kemtik bo‘lmasin, bunga har birimiz, ushbu mamlakatda yashayotgan har bir fuqaro, har bir O‘zbekistonlik, butun O‘zbekiston xalqi mas’uldir. Chunki O‘zbekistonning mustaqilligi barchamizning mustaqilligimizdir. Davlat mustaqilligi barchaga birdek tegishlidir. Zero, O‘zbe-kiston hammamizning, har birimizning umumiy uyimiz, yagona vatanimiz. Biz bir oila farzandlarimiz, vatanimiz, davlatimiz bitta, sarhadlarimiz yagona. Nazarimizda, Mustaqillikning mohiyati O‘zbekistonda yashayotgan har bir inson uchun, har bir o‘zbekistonlik uchun shu singari chindan yuksak, muqaddas ruhoniy g‘oyalar bilan belgilanadi.

Ayon bo‘ladiki, mohiyatiga ko‘ra emas, tarix, zamon taqozosiga ko‘ra musta-qillikning boshlanishigina davr bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, xolos. Aslida, u xalqning milliy shakllanganlik belgisi. Millat sifatida shakl-langan xalq mustaqil yashaydi va doimo uni mustahkamlab, shunga intilib, shu maqsadda kurashib yashaydi.

Shu sababli millatimizning bugungi adabiy tilini mustaqillik davri adabiy tili yoki mustaqillik davri hozirgi o‘zbek adabiy tili deb emas, balki hozirgi o‘zbek adabiy tilining mustaqillikka erishilgandan keyingi taraqqiyoti (taraqqiyot bosqichi) deyish yoki hech ikkilanmay mustaqil o‘zbek adabiy tili deb atash maqsadga muvofiq bo‘lib, yuqoridagi asosga ko‘ra u, asosan, leksik-semantik va uslubiy soha taraqqiyoti, takomili bilan xarakterlanadi. Barchamiz bunga jonli guvohmiz: o‘tgan davr mobaynida adabiy tilimiz leksik sistemasi minglab yangi so‘zlar, ilm-fan, texnika, texnologiya terminlari bilan boyidi, takomillashdi va bu jarayon shiddat bilan davom etmoqda. Shu bilan bab-barobar mustabid sovet tuzumiga oid ko‘plab so‘z va atamalar o‘z umrini yashab bo‘ldi, iste’moldan chiqdi. Iste’moldan chiqmaganlari yangi ma’no-mazmun bilan ishlatila boshladi. Buning oqibati va ayniqsa, so‘z va fikr erkinligiga erishilishi, amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida uslubiyat sohasi jadal rivojlanishga yuz tutdi. Ommaviy-publitsistik, rasmiy, ilmiy uslublarimiz yildan-yilga takomil-lashib, yuksak taraqqiy etgan tillar darajasiga ko‘tarilib bormoqda. XV asrdayoq dunyoni hayratga solgan badiiy uslubimiz esa mustaqillikka erishilgandan keyin jonli xalq tiliga yanada yaqinlashib, u bilan yanada kengroq va chuqurroq uyg‘unlashib, har qanday so‘z san’atkori havas qiladigan takomilga erishdi. Birgina Muhammad Yusuf ijodi yoki dublyaj-tarjima san’atimiz buning yaqqol dalili. Hali bu fenomenlarning sir-asrori to‘la ochib berilgani yo‘q. Harakatlar, urinishlar bor, ammo ular juda ulkan ilmiy salohiyat ham badiiy idrok talab qiladigan yuksak adabiy-badiiy ijod, so‘z va sahna san’ati durdonalaridir. Biroq, hech shubha yo‘qki, ular ham olimlarimiz tomonidan albatta zabt etilajak.

Adabiyotlar:

1.Abdurahmonov G‘., G‘ulomov A. Va o‘zbek tilshunosligi ba’zi masalalari // A.G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi masalalari (ilmiy maqolalar to‘rlami) .T., 2007, 6-b.

2.Hamroyev M. va b. Ona tili. Darslik. T., 2007, 191-192-b.

3. Nurmonov A. Gap va uning bo’laklari haqida mulohazalar.// O’TA.2009 y. 2-son, 35-36-b.

4.Rahmatullayev SH. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T., 2006. 285-286-б.

5. Rasulov I. Hozirgi o’zbek tilida bir sostavli gaplar.-Toshkent: Fan. 1974. -234-b.

6. Tojiyev Yo. O’zbek tilida gap va gap bo’laklari maqomi masalasiga doir// O‘TA.2005, 5-son,52-53-b.

7., T.1987,3-b.

G’ulomov A., Asqarova M.,Hozirgi o’zbek adabiy tili.Sintaksis. T.1987,3-b.

BADIIY ASARLAR TILIDA MAQOL VA IBORALARNING QO‘LLANISHI

Dexkanova L.A
GulDU Katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oybek asarlarida maqol va iboralarning aynan qo‘llanishi haqida mulohaza yuritiladi. Maqol, ibora badiiy tasvirlarni ixchamlashtiruvchi, unga mantiqiylik, sayqal va jilo baxsh etuvchi vosita ekanligi misollar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: maqol, matal ibora, turg‘un vosita, kontekst, badiiy jarayon, component, element, funksiya, hikmatli so‘z

Maqol, ibora badiiy tasvirlarni ixchamlashtiruvchi, unga mantiqiylik, sayqal va jilo baxsh etuvchi vositalaridan biridir. Maqol va iboralar inson hayotining turli tomonlarini, tabiat va jamiyatdagi har xil voqea, hodisalarni ifodalaydi. Ulardagi o‘tkir ma’no, kuchli mantiq, nihoyatda keng va quyma mazmun fikrni aniq, ixcham anglatishga katta qulaylik beradi. Mana shu jihatdan ular yozuvchi uchun ham zarur imkoniyatni vujudga keltiradi. Albatta, bunda ikki omilni hech qachon unutmaslik kerak: bir tomondan, yozuvchining bu turg‘un vositalarning ma’nosini va qo‘llanish usullarini atroflicha anglab yetishi. Biroq maqolni tushunish hali uni qo‘llash – badiiy asarning a’zosiga aylantirish degan so‘z emas. Turg‘un vositalarni badiiy mahsulni barkamollashtiruvchi elementga aylantirish uchun yozuvchi tadqiq etayotgan davrni, vaziyatni, mavzuni, ayni vaqtda kontekstni badiiy jarayonnning tutash xalqalari sifatida diqqat markazida tutishi kerak. Chunki kontekstga singdirilayotgan maqol yoki ibora ularning hammasi bilan uyg‘unlashuvi kerak. Aks holda,

badiiy tasvir komponentlari orasida nomuvofiqlik yuz beradi. Chinakam san'atkor bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir vositaning o‘rin va funksiyasini aniq belgilaydi.

Tabiiyki, har bir narsa kabi maqol va iboralarning turg‘unligi va barqarorligi nisbiydir. Chunki ular ham davr, vaziyat talabi bilan ma'lum ma'no va shakl o‘zgarishiga uchrab turadi. Yozuvchi mana shu imkoniyatni puxta uqib yetishi tufayli voqea, hodisalarni ifodalashda ularni qurilishi va ma'no jihatdan o‘zgartiradi, yangi mazmun yuklaydi. Shu tufayli ularning obyektning yangi-yangi qirralarini ifodalashiga imkoniyat hozirlab, kontekstga singib ketishini ta'minlaydi.

Oybek qalamining qudrati maqol va iboralarni qo‘llashda ham namoyon bo‘ladi. Adib maqol va iboralarni aynan qo‘llash, o‘zgartirib ishlatish ba'zan hikmatli so‘zlar, obrazli iboralar yaratishda ham ularning tasvirdagi butun vositalar bilan uyg‘unlashib ketishiga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun adibning o‘zi ijod etgan hikmatli so‘z va iboralar mavjud turg‘un vositalar bilan teng darajada qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

Albatta, biron asarning ma'lum fazilati maqollarning soniga qarab belgilanmaydi. O‘rinli qo‘llangan maqol yoki ibora asarga fazilat baxsh etishi shubhasizdir.

Shularga ko‘ra, biz Oybek asarlarida dastlab maqol va iboralarning aynan qo‘llanishi haqida mulohaza yuritmoqchimiz.

Sarlavhachadagi "maqol va iboralarni aynan qo‘llash" dedik. Bu yerdagi "aynan"lik turg‘un vositalarning qurilish va mazmun jihatidan doimiy holatini asosan saqlashiga ko‘radir. Negaki, yozuvchi maqol yoki iborani aynan qo‘llaganda ham, o‘z munosabatini ham bildiradi. Shuning uchun ham u badiiy matnga singib ketadi. Aks holda, maqol yoki ibora matnga yopishmasdan, tanadagi birorta o‘simta kabi ortiqcha bo‘lib qolishi aniq. Shu tufayli yozuvchi qalami obyektni qanchalik chuqur tadqiq etsa, uni ifodalovchi vositalarni ham shunchalik saralaydi, tanlaydi, tekstning mukammalligi uchun xizmat qildiradi.

Bir misol:

"Safar cho‘tir yig‘lamsiragan tovush bilan: "ertaga kim bor, kim yo‘q!" dedi. Bektemirning o‘zi ham shu fikrga ishonsa-da, lekin nechundir beparvo, yigitona ovoz bilan:

-Tavakkal! Qirq yil qirg‘in bo‘lsa ham ajali yetgan o‘ladi, birodar. Oldindan aza ochishning hojati yo‘q!-deb qo‘ydi [1:10].

Bu yerda maqol doimiy ma'nosida. Ayni holatda uning qo‘llanishidagi ma'lum o‘zgaruvchanlik nutqni tashkil etuvchi butun vositalar munosabatidan anglashiladi-"ertaga kim bor, kim yo‘q!" deb yig‘lamsiragan Safarga xalq orasida keng tarqalgan bu maqol dalda beryapti. Bu ma'noni "tavakkal" sozi kuchaytiryapti. "Oldindan aza ochishning hojati yo‘q" jumlasi esa Safarni tanbehlab, "boshingni o‘lim qayg‘usi bilan band qilma" degan ma'noni oydinlashtirgan. Demak maqol berayotgan daldani boshqa vositalar kuchaytirgan. Ayni paytda maqol boshqa vositalarni o‘z atrofiga uyushtirgan. Bu esa maqolning shu kontekstga singib ketishi, kontekst komponentlari bilan uyg‘unlashtirib yuborishini ta'minlagan.

Tabiiy, maqollar xalq hayotining turli tomonlarini qamraganligidan badiiy tasvirda ham har xil hodisa, voqealarni, holatlarni aniq va ixcham tarzda xarakterlashga xizmat qiladi. Maqollarning ma'nosi saqlansa-da, mavzu taqozosi va kontekst ruhiga ko‘ra, funksiyasi o‘zgaradi. Bunda yozuvchining materialni qay darajada pishitishi uning funksiyasini belgilashida bilinadi. Oybek tasvirlanayotgan vaziyatni mukammal bilganligidan har bir maqol funksiyasini juda aniq belgilaydi, o‘sha holatni yorqin gavdalantirishga xizmat qildiradi.

"-Rostini aytsam, polvon, taqdir ham chippakka chiqqan!-dedi Ali tajang jahl bilan. – To‘qayga o‘t ketsa, ho‘l-u quruq baravar… Mina bilan sinaryad degan balo taqdirning temir qo‘rg‘onini ham yorib o‘tadi…" Bu maqol odatda biror falokatga, bo‘xtonga yo‘liqqan kishilarning orasida bo‘lgan boshqa shaxslar bundan quruq qolmaydi, o‘sha kasofatdan ulushini oladi degan ma'noda qo‘llanadi. Bu o‘rinda esa, urush sharoitida ajal o‘qi hammaga birday, birovni ayab qo‘ymaydi, degan ma'noda qo‘llanadi.

Turg‘un vositalar umumiy, keng mazmunni anglatadi. Uzoq vaqtlar davomida qo‘llanib kelayotganligi tufayli ularda turli holatlarni ifodalash imkoniyati mujassamlashgan. Shuning uchun san'atkor qalamkash undagi imkoniyatni kontekstda reallashtirib, unga qo‘shimcha funksiyalar yuklaydi. Fikrimiz isboti uchun ikki ustoz qalamkashdan ikkita misol keltiraylik:

A.Navoiy yozadi:

O‘qlaring ko‘nglimga tushgach, kuydi ham ko‘z, ham badan,

Kim kuyar ho‘l-u quruq, chun neyistonga tushdi o‘t.

A.Qodiriy yozadi:

“Xalq nihoyatda qizishdi, go‘yo birisi qurilgan to‘qayga o‘t tutdi, ho‘l-u quruq deganlaridek katta – kichik barovar yonmoqqa oldi”.

Garchi bu ikki parchada qurilish jihatidan ba’zi o‘zgarishlar, yangi elementlar bo‘lsa-da, bularning asosini “to‘qayga o‘t ketsa, ho‘l-u quruq baravar yonadi” tashkil etadi. Demak, umumiy mazmun Oybek romanidagi ma’nosi bilan uyg‘un. Lekin o‘tayotgan funksiyasi, qamrayotgan holati, “to‘qayga o‘t ketishi, ho‘l-u quruq yonishi” sabablari uch misolda uch xildir. Yuqorida aytganimizdek, Oybek asarida bu maqol urush sharoitida o‘q hech kimni ayab qo‘ymaydi, barchaga baravar degan ma’noni anglatadi. “Ho‘l-u quruq” barcha soldatlardir. A.Navoiy bu maqol zamirida lirik kayfiyatni-dilbarning o‘qi tufayli “ham ko‘z, ham badan”i kuyganligini mujassamlashtirgan, dilbarning o‘qi ma’lum a’zogagina emas, balki butun organizmni o‘rtamoqda. Demak “ho‘l-u quruq” bu o‘rinda butun gavdani- jismni anglatadi. A.Qodiriyda esa xalqning zulmga qarshi ko‘tarilishi qarashga taraddudini ifodalaydi. Bular anglatayotgan ma’noni yuzaga keltirayotgan sabablar har xil. Agar Oybek asarida ajal o‘qining barchaga baravarligiga nemis – fashistlari sababchi ekanligi mujassamlashgan bo‘lsa, Navoiy baytida “ham ko‘z, ham badan”ning kuyishi dilbarning o‘qi tufaylidir. A.Qodiriy romanida xalqning qizishuviga sabab fuqaroga qo‘shimcha sur’atda nohaq soliq solishidir. Demak, nutqning turg‘un vositalari g‘oyatda ko‘p qirralarini mujassamlashtiradi. San’atkor qalamkash ularga xos xususiyatlarni uqib yetishi natijasida kontekstga ana shu imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Bu o‘z navbatida tasvirning aniq, ixcham bolishiga yordam beradi.

Yoki: “…Asqar hansirab va boshidan kaskasini olib yerga to‘ntardi-manglayini ezib yubordi!

- Kerakli toshning og‘iri yo‘q-dedi Ali tajang o‘tga yonboshlab-toshbaqaning kosasiday ish beradigan narsa ekan bu…”

Ali “kerakli toshning og‘iri yo‘q” hikmatini aytishi bilan do‘stiga dalda berayapti, nolishini cheklayapti. “Cho‘yan qalpoq”ning urushdagi ahamiyatini uqtiryapti. Aslida bu maqol kerakli narsani ehtiyot qilish kerak, biron kun hojatga yaraydi degan ma’noni anglatadi. Xalq nutqida “buyumni kerak emasda yig‘” ham shu ma’noda qo‘llaniladi.

Ammo turg‘un vositalar ma’nosi g‘oyatda ko‘p qatlamlardan tarkib topadi. Shuning uchun ularning umumiy mazmuni zamirida ko‘pgina nozikliklar mavjuddir. San’atkor adib ana shu nozikliklarni uqib yetishi natijasida ularni turli holatlarni gavdalantirishga xizmat qildira oladi. Shuning uchun ularni qanday holatni qamragani kontekstda aniq bilinadi. Aniqrog‘i, kontekst maqol yoki iboraning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Misol uchun “kerakli toshning og‘iri yo‘q”ning xuddi shu “Quyosh qoraymas” romanida qo‘llanilishiga nazar tashlaylik.

“Kechgacha batalyon aravalardan, mashinalardan, to‘plardan ayrildi. Yolg‘iz ikki plumyot va bir necha yashik o‘qlarni tishda saqlab, “Kerakli yukning og‘iri yo‘q” qabilida botqoqlar, jarliklar, suvliklar, tepaliklardan jonday aziz qilib olib o‘tishdi.”

“Kerakli toshning o‘g‘iri yo‘q” degan maqol kishi o‘z gavdasi og‘irlik qilgan bir paytda butunlay mantiqni yo‘qotgan edi. Bektemir miltiqni tashlashga necha marta qaror etdi, lekin har gal voz kechdi: “Busiz bizni nemis emas, bu o‘rinda tishsiz bo‘ri ham g‘ajib tashlaydi!”

Misollarda ta’kidlaganimiz turg‘un vosita oldingi sahifada kaskaga nisbatan qo‘llangan. Keyingi ikki misolda qurol-yarog‘, o‘q-dori xarakterlangan. Ammo maqolning bu ikki misolda qamragan holatida ma’lum farq bor: keyingisi qahramonning ruhiy holati o‘sha paytdagi holati bilan yanada zichroq bog‘langan.

Oybek qahramonlarining o‘z fikrini dalillash, boshqalarga o‘tkazish borasidagi intilishlarini anglatish uchun maqollardan ustalik bilan qo‘llaydi. Frontda ikki o‘zbek yigiti Asqar va Bektemirning diltang hangomasi shunday beriladi:

“-Qibla nomasi bilan karta martasini komandir yig‘ishtirib qo‘ysin. Eng yaxshi yo‘l boshlovchi tavakkal!-dedi sekin.

- Bekordan – bekor o‘zini o‘tga, cho‘qqa urishdan nima foyda. Hozirgi paytda yetti o‘lchab bir kesish kerak,- javob berdi Bektemir horg‘in va noxush.”

Yana shu maqolni ikki kishi beka bilan uning chol qo‘shnisi o‘rtasidagi suhbatni ko‘raylik:

“- Sen juda balanddan kelyapsan, so‘zda botirlik oson!-dedi beka qo‘lini silkib.

- Nega so‘zda? Men quruq so‘zning dushmaniman. Ammo yetti o‘lchab bir kesish kerak.”

Maqolni qo‘llovchilar suhbatdoshlari fikrini rad etish, o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlash uchun bu maqoldan foydalangan. Ma’nosi jihatidan ham ehtiyotkorlikni ham anglatadi. Farq maqolga vazifaga yuklagan vaziyatning har xilligida: biri frontda o‘zini nemislar o‘qiga urib o‘lmaslikni, ikkinchisi nemislar qo‘liga tushib qolmaslik uchun ularga qarshi ishni g‘oyatda ehtiyotkorlik bilan uyushtirish, olib borishni ta’kidlaydi.

Oybek qahramonlar nutqida maqollarni ishlatar ekan, bir tomonidan, u shaxslarning har birida o‘ziga xos fikr ko‘lami, saviyasi borligini anglatadi, ikkinchidan maqollardagi mantiq kuchi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayni vaqtda har maqol ma’lum vaziyat, sharoit bilan chambarchas bog‘liqligi anglashiladi. Misol uchun Bektemirning yuqoridagi gapiga Asqarning javobini olaylik.

“-Yetti o‘lchash uchun qorin to‘q bo‘lishi kerak,-dedi Asqar polvon.

- Bo‘sh qop tik turmas.”

Bektemir nutqidagi “Yetti o‘lchab, bir kesish kerak” va Asqar nutqidagi “Bo‘sh qop tik turmas” maqollarida ikkita fikr, ularga tayanch bo‘lgan ikki mantiq mujassam. Bunday qaraganda, bu ikki maqol kurashayotganday tuyuladi. Haqiqatan ham ulardagi fikr kurashmoqda. Har bir mantiq bir-birini rad etayapti va to‘ldiryapti. Chunki ular har xil holat, har xil vaziyat bilan bog‘liqdir. Bu ikki xil hodisani bir payti tutashtirishga intilganda ularning bir-biri bilan kelishmasligi, bir paytda yuz berishi imkonsizligi anglashilyapti. Haqiqatan qorin och qolganda, o‘ylab o‘tirishga sabr-bardosh yetmaydi. Ammo front sharoitini hisobga olsak, sabr, tadbirkorlik, puxta o‘ylab qadam tashlash g‘oyat zarur. Haqiqatan ham ochlikdan qutulaman deb shoshib, fashistlar o‘qiga o‘zini urib olish behuda, jonni saqlash, bekorga qurbon bo‘lmaslik uchun yetti o‘lchab bir kesish kerak. Shu jihatdan hayotga muhabbat, sabr-bardosh baxsh etib, ochlikni yengishi mumkin. Oybek mana shu tarzda ikki mantiq orasidagi kurash, dialektik bog‘liqlikni yuzaga chiqaradi. Ularda qahramonlarning fikr saviyasini mujassamlashtiradi, ularning xususiyatlarini uqib yetishi tufayli tasvirda katta mazmunni ixcham tarzda ifodalaydi.

Oybek maqol va iboralarda qahramonlarning tadbirkorligini, ayyorligini, soddaligini, tushunchasi torligini, ongli yuksalishini ham zo‘r mahorat bilan mujassamlashtiradi. Natijada ular personajlarning ichki qiyofasini anglatuvchi ko‘zgu rolini o‘tay oladigan tarzda tabiiylik, aniqlik kasb etadi. Masalan, Mirzakarimboyni shunday xarakterlaydi: “Mirzakarimboy ilonni yog‘ini yalagan odam…” Shu bitta ibora boyning ayyor, mug‘ombir ekanligini yaqqol anglatib turibdi. Oybek qahramon faoliyatini tasvirlar ekan, uning xatti-harakati, ichki dunyosini yorqin anglatuvchi iboralarni topib ishlatadi. Masalan, boy Yo‘lchiga shunday dedi: “…Odamning hayvoni kishi haqidan qo‘rqmaydi, kishi moliga ko‘z olaytiradi…”[2:26].

Bu boyning ayyorligini, so‘zi boshqa-yu ishi boshqa ekanligini anglatadi. Chunki boy o‘zini g‘oyatda sof, halol qilib ko‘rsatmoqda. Vaholanki, boy aytayotgan odam aslida uning o‘zidir. Adib bu bilan uning ayyorligini anglatib, “ilonning yog‘ini yalagan”-ligini ibora bilan dalillagan.

Boy Yo‘lchidagi kuchni ko‘rib, uni qo‘ldan chiqarmaslik rejalarini chizadi. Shu tufayli o‘zini sof ko‘rsatib muomala qiladi. Ayni vaqtda tadbirkorlik bilan ish tutadi. Adib bu holatni shunday tasvirlaydi:

“…uning ehtiyotkorligi “sinamagan otning sirtidan o‘tma” degan xalq maqolini eslatadi…”[2:43]

Bu Mirzakarimboyning “ilonning yog‘ini yalagan odam” ekanligiga yana bir dalildir.

Oybek tasvirga kiritilgan maqol va iboralarni mana shu tarzda quvvatlab, to‘ldirib, ularning mantiqiy davomini berib boradi; ularni ichki tomondan tutashtirib, dialektik bog‘liqligini ta’minlaydi. Bu esa qahramonni yorqin anglatishga, bu haqdagi tasavvurni mukammallashtirishga olib keladi; tasvirni ixchamlashtirish uchun qulaylik beradi.

Oybek qahramonning sadoqatini, har qanday mushkul sharoitda ham o‘z oldidagi olijanob maqsadi uchun kurashajagini, bu yo‘ldan qaytmasligini anglatishda ham iboralarni o‘rinli qo‘llaydi.

Oybek tasvirida milliylik va internatsionallik hamisha bir-biri bilan tutashib, uyg‘unlashib ketgan holatda mujassamlashadi. Adibning qahramonlari olijanob internatsionalistik, umumbasharish g‘oyalar uchun intilishda har doim xarakteri, xulqi, odatlari bilan o‘z xalqining vakillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, yozuvchi iboralarni personajlar nutqida o‘ta mohirona qo‘llagan va iboralar qahramonlar nutqini individuallashtiruvchi, xarakterini ochuvchi muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Oybek asarlarida maqol va iboralar g‘oyat murakkab hodisalarni ham juda aniq ifodagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Oybek “Quyosh qoraymas”., -T:, “Fan”, 1977
2. Oybek “Qutlug‘ qon”.,-T:, “Fan”, 1976
3. Alisher Navoiy. Mukammal tanlangan asarlar to‘plami., -T. 1992

XX ASR 30-YILLAR NASRIY ASARLARIDA O‘LCHOV BIRLIKLARINI BILDIRGAN ARXAIK VA TARIXIY SO‘ZLAR

Qambarov Ma’rifjon Abduhakimovich
GulDU o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 30-yillarida yozilgan badiiy asarlarda o‘lchov birliklarini bildiruvchi arxaik va tarixiy so‘zlarning leksik va semantik xususiyatlari tahlil va tadqiq qilindi.

Kalit so‘zlar: *arxaizm, istorizm, tarixiy so‘zlar, o‘lchov birliklari, xalqaro birlik, og‘irlik, hajm, masofa, maydon birliklari.*

XX asr 30-yillarida yaratilgan nasriy asarlar tilida o‘lchov birliklarini ifodalovchi nomlar arxaizm va istorizmlar sifatida yozuvchilar tomonidan qo‘llanilgan.

Bu kabi lug‘aviy birliklar haqida so‘z yuritishdan oldin ular, ya’ni o‘lchov birliklari nomlari arxaizmga yoki istorizmga oid ekanligini aniqlab olish lozim bo‘ladi.

Tilshunos olim E.Qilichevnipg ishidan ma’lum bo‘lishicha, o‘zbek tilida qadimdan qo‘llab kelingan o‘lchov birliklari nomlari tarixiy so‘zlar hisoblanadi. Muallif bu fikrini quyidagicha asoslashga urinadi: “O‘lchov birliklarini bildirgan istorizmlarga revolyutsiyaga qadar (*XX asrning 1917-yilgacha davri nazarda tutilmoqda, ta’kid bizniki M.Q*) ishlatilgan o‘lchov birliklari, jumladan, og‘irlik, hajm, masofa, maydon birliklari kiradi (masalan, *chorak, tanob, chaqirim* va b.). Bu so‘zlarning istorizmlarga kiritilish sabablaridan biri, hozirgi vaqtda ularning sinonimlari yo‘q (*ta’kid bizniki -M.Q*). Ikkinchidan, hozirgi davrdagi o‘lchov birliklariday og‘irlik va hajmi ham bir xil emas”*[**Qilichev Э. Ko‘rsatilgan avtoreferat, 18-19-betlar.]*.

Bu haqda, avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, inson o‘z insonligini tanigan kundan boshlab o‘lchov bilan ish ko‘rishni lozim deb topgan. Chunki o‘lchovsiz qo‘ni-qo‘shnidan yoki uzoq-yaqindan oldi-berdi (ya’ni savdo-sotiq)ga amal qilishning iloji yo‘q edi. Shu asnoda, boshqa xalqlarda bo‘lganidek, o‘zbeklarda ham xilma-xil o‘lchov birliklaridan foydalanib kelinganki, ular maxsus leksemalar orqali “muhrlanib” qo‘yilgan. *Chaqirim, qadoq, odim, botmon, pud, quloch, olchin* kabilar shular jumlasidandir.

Zamona zayli bilan 1925-yilning 24-iyulidan boshlab, O‘zbekiston hududida ham o‘lchovlar xalqaro birlik tizimiga o‘tildi. Pirovardida, *gaz* o‘rnida metr, chaqirim o‘rnida kilometr, *soniya* o‘rnida sekund, daqiqa o‘rnida minut kabi atamalar qo‘llana boshladi. Hozirgi kunda *daqiqa, soniya* leksemalari iste’molda faol qo‘llanmoqda. Shunday ekan, bu kabi leksemalarni bir-biri bilan sinonim deb atashdan boshqa iloj yo‘q. Chunki o‘lchovida qandaydir farq bo‘lishiga qaramay, ona tilimizda qadim-qadimdan ishlatib kelingan o‘lchov birliklari yangicha nomlangan o‘lchov birliklari nomlari bilan almashtirildi. Sinonimi bor so‘zlarning o‘tmishda qo‘llangan nomlari mavjud ekan, bu ularning arxaizmlar (*bizning fikrimizcha, albatta*)ga oid ekanligidan dalolat beradi.

To‘g‘ri, o‘lchov birliklari nomlarining ma’lum bir qismigina arxaiklashgan hisoblanadi. Yaqin-yaqingacha o‘zbek tilida faol ishlatib kelingan ayrim leksemalar o‘rnida eskirgan deb hisoblangan lug‘aviy birliklarning hozirda yana tiklanganligi fikrimizni tasdiqlay oladi. Aslida arab tilidan kirib o‘zlashib ketgan soniya, foiz**, daqiqa kabi o‘lchov birliklari nomlari shular jumlasidandir. O‘RL va O‘TIL (1981)da mazkur leksemalarning eskirgan lug‘aviy birlik ekanligi ust, va esk. pometalari bilan «muhrlanib» qo‘yilgan. Vaholanki, ular hozirgi matbuot sahifalarida, radioeshittirishlar va teleko‘rsatuvlarda faol ishlatilayotgan leksemalar qatoridan joy oldi.**

Endi 30-yillar nasriy asarlarida faol qo‘llangan, hozirgi kun mezoniga ko‘ra arxaizmga aylangan leksemalarning ishlatilganligini tasdiqlovchi misollarga murojaat etamiz: Kuzak bo‘lib, paxtalarni topshirdik.

Bizning brigada planni bir yuz o‘ttiz ikki *protsent* bajargan ekan (F.F. Tirilgan murda, 66); U [Muhammadrajab], o‘n ming so‘mni sakkiz protsent foyda berish sharti bilan olib, talay vaqtdan keyin

tanining o‘zini qaytarib berdi. (A. Qahhor, TA, II, 192); Oradan birmuncha minut o‘tgach, Qumri so‘z so‘radi (X.Sh. TA, 180); Lekin, Lochinboyev masxaraomuz iljayish bilan kifoyalandi. Oradan bir-ikki minut o‘tdi (Shu manba, 37); Ot munkib ketib o‘mgagi bilan shag‘alga qadaldi-da, ag‘nab bir necha minutning ichida o‘la qoldi (A.Qah., TA, I, 77); Butun zal domlaga qaradi. Domla har biri bir asrday tuyulgan bir necha sekunddan keyin o‘rnidan turdi (Shu manba,70).

Shuni ham ta’kidlash lozimki, matnlarda keltirilgan o‘lchov birliklarining sinonimlari, ya’ni hozirda ular o‘rnida qo‘llanayotganlari o‘sha davr nasriy asarlarida ham ishlatilib kelingan. Quyidagi misollar shundan dalolat beradi: Oradan bir necha soniya fursat o‘tmaydi... (Obid ketmon, 44); [Isomiddinov]: Shuni o‘ylaydi-yu, «majburiy» degan so‘z bilan «hech kim qolmasin» ning farqi oddiy ko‘rindi, “yuz foiz [***H.Shamsning «Xarakteristika» nomli hikoyasida mazkur leksemaning poyiz varianti ham ishlatilgan bo‘lib, u so‘zlashuv nutqkiga xosdir: (Qorovul]: E, ajab odam ekansiz. Agar Lochinboyev kelib kam-ko‘stimizni to‘g‘rilab turgan da edi, biz, albatta, planni yuz poyiz bajarardik (TA, 40). Mazkur variant ham O‘TILda o‘z ifodasini topganida ayni muddao bo‘lar edi.]*** kolxozlashsa, katta muvaffaqiyat bo‘lardi» dedi ichida (X.LLL, TA, 159); A.Qodiriyning «Obid ketmon» asarida protsent va foiz leksemalari bab-baravar qo‘llanganligini ham alohida ta’kidlab o‘tamiz.

Qiyoslaymiz:

... yigirma oltinchi sentyabrdan boshlab shartlariga ikki yuz foiz javob biladi. Jamoaga rahbarlik jo‘niga kelganda uning aqlli o‘ychan ko‘zlari «u yoqni ham yuz foiz berib bitiramiz (14).	Mulla Obid qishloqilarning keyingi har kun paxta topshira boramiz. O‘ninchi oktyabrda yillik paxta shartnomamiznipg sakson protsentini eplayman» deb turadi (30).

Ko‘rsatib o‘tish o‘rinli bo‘lardiki, 30-yillar nasriy asarlarida o‘lchov birliklari nomlariniig arxaik turi bilan birga istorizmlarga aylanib qolgan ayni shunday lug‘aviy birliklar ham o‘z ifodasini topgan. Bunday leksemalarning qo‘llanish doirasini aniqlash maqsadida o‘sha davr yozuvchilaridan biri, o‘sha zamondagi bir guruhining asarlarida ishlatilgan istorizmga aloqador o‘lchov birliklari nomlarini ajratib ko‘rsatish lozim, deb topildi.

E.Qilichevning guvohlik berishicha, S.Ayniyning 30-yillarda nashr etilgan «Qullar» romanida botmon, daxser, panjser, pud, chorak, qadoq, misqtsol, qirot, man, qari, olchin, chaqirim, tosh, jo‘ra, tanob, tuman, lak kabi o‘lchov birliklari nomlari ishlatilgan[135]. Biroq bunday nomlarning ayrimlarigina tadqiqot obyekti bo‘lgan yozuvchilarning asarlarida uchradi. Shunga ko‘ra, bir guruh yozuvchi asarlaridagi istorizmlar jumlasiga o‘zbek tilida qadimdan ishlatib kelingan, biroq 1925 yilda yangi o‘lchov tizimi (SI)ga o‘tilishi munosabati bilan bekor qilingan o‘lchov birliklari va ularning nomlari kiradi. Garchi, bunday o‘zgarish maxsus farmon orqali ro‘y bergan bo‘lsa-da, eski nomlar birmuncha vaqt tilimizda yashab keldi (xususan, 30-yillarda), ba’zilari esa hozirda ham ayrim shevalarda ishlatib kelinmoqda. Bunday nomlar jumlasiga quyidagilarni kiritamiz:

Qadoq: Ketmonchilarning eng katta deb bilgan o‘n qadoqli ketmonlari ham Mulla Obidga yoqmaydi. (A.Qah., Obid ketmon, 17); [Polvon] ...yana bir toshni ham shunday qildi, uchinchi daf’a keltirilgan toshlar ichidan lappak, yetti-sakkiz qadoq keladigan bir toshni tanlab oldi-da, yaxshilab artishga va bir tomonini yo‘yishga buyurdi (A. Qah., TA, 50-51); Qish, uyidagi butun ro‘zg‘orni sotganda ham bir qadoq nonga yetmaydi (*Shu manba, 81*). .

Tanob: Ammo, besh tanob yerning g‘umayini ketmon bilan bir yilda chopib quritish mumkin bo‘lsa ham, biroq bu ish bir kishining uxdasidan kelmas (A.Qah., 17); [O‘rta dehqon]: O‘ttiz ikki tanob yerim bor. Gazetaga qirq tanobdan ortig‘ini olamiz,- deb bitilgan (A.Qah., TA, I ,61); Normat kolxozga kirgan mahalda yashirib qolgan - to‘rt tanob yerini va bitta olatoyini bekitiqcha ishlatib yurdi (H.Sh., TA, 7).

Pud: Ammo [Obid ketmon] buning badaliga... yarim tanobdan ikki yuz pud kartishka olib yerga ko‘madi (A. Qodiriy. Obid ketmon, 25); Shart bo‘yicha bu yil u Janishga o‘n pud sholi, sakkiz pud bug‘doy, bir qator ust- bosh qilib berishi kerak edi (H.Sh., TA, 115).

1Киличев Э. Архаизмы и историзмы в прозе С.Айни. —С. 19.

Gaz: Ko‘ngulga bunday savolning kelishiga bir tomondan haqli ham ko‘rinamiz: g‘o‘zalarning eng “ungan”»lari yarim gazdan oshmaydi ...(A.Q.,9); Men-ku yilda besh gaz chit ko‘rmayman, kelishingizda shu bechoraga bir narsa olib kelsangiz-chi, siz ham odam bo‘lib! (A.Qah., I, 137)

Ayrim yozuvchilarning asarlaridagina qayd etilgan o‘lchov birliklari nomlari ham mavjud bo‘lib, bunday istorizmlar qatoriga quyidagilarni qo‘shish mumkin: *botmon* (...bular ozlik qilgandek ikki botmon yerni kishidan ijaraga olib sholi ham ekdim... A.Qah, 89); *chorak* (... qor tushkunchalik ovora qilganlikdan yoz bo‘yi o‘ylab kelgan tepadan chorak tanob ochib, yerning soy va yonog‘roq joylariga solish fikri ishga osholmay qoladi [*Shu manba, 251*]; -Hovuzingiz daxi dardah ***[Muallifning izohi: dahi dardah*** — **o‘nga o‘n *yoki har tomoni o‘n gazlik]*** emas. Xolmirza, - deydi kashfiyot yasab Xatib domla... Shu manba, 77); odim (Yer, suv, havo, iqlim qirning ikki tomonida ham bir, farq qiladirgan oradagi masofa faqat ikki yuz odim...Shu manba, 10); misqol (Polvon bitta tuxum, ikkita xurmo, yarim misqol sedana ...bir piyola suv bilan mis idishda qaynatishga buyurdi. A.Qah., TA, I, 50); *miri* (Bitta mushak uch miri,- dedi Turobjon,- bir miridan kam-yetmish_besh tanga bo‘ladi. Shu manba, 30); *paysa* (Yana hukumat mashina, omoch bersa...ellik paysa urug‘likdan o‘nta tuyaga yuk unmasa jirtak chaling, afandixon! (*Shu manba, 59*) va boshqalar.

Shunday bir dalilni ham ta’kidlab o‘tishni lozim, deb hisoblaymiz. Ma’lumki, XIX asriiig ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o‘zbek tiliga ruscha-baynalmilal lug‘aviy birliklar oqib kela boshladi. Bular tarkibida ayrim o‘lchov birliklarining nomlari ham bor edi. ularning ba’zilari faqat rus xalqiga xos qadimiy o‘lchov birliklarini anglatib kelgan leksemalar bo‘lib, yangi o‘lchov birligi tizimiga o‘tilganligiga qaramay, 30-yillar nasriy asarlarida shu davrning o‘zidayoq istorizmga aylanib qolgan lug‘aviy birliklar edi. Hozirda esa ularning bir qismi istorizm qatlamidan joy olganligiga shubha tug‘ilishi mumkin emas. To‘g‘ri, bunday leksemalarning miqdori ancha kam. Shunday bo‘lsa-da, ularni lisoniy dalil sifatida qayd etish lozim, deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, XIX asrning oxirlarida o‘lkamizda nashr etib turilgan ayrim manbalarda qator ruscha-baynalmilal leksemalar bilan bir qatorda o‘lchov birliklari nomlari ham ishlatila boshlagan edi. Shulardan biri, ruscha sajen lug‘aviy birligining o‘zbekchalashtirilgan shakli *sarjin* edi: Uylarning orasi birdak besh sarjindin qo‘yulub ... sim tortilgan *(“Turkiston viloyatining gazeti” 1892,1-son*).

Mazkur leksema ayni shu shaklida A.Qodiriyning «Obid ketmon» qissasida ham ishlatilganligi qayd etildi: Bir kunlik ish natijasida yerning anchagina sathini olgan uch yuztacha kichkina qabrchalar hosil bo‘ladi. Tepadan ham murabba o‘n besh *sarjin* chamasi yangi yer ochiladi (21).

Shunisi xam borki, dastlab sajen leksemasi yukoridagi shaklidan tashqari sajin shaklida xam qo‘llangan edi; 5734 sajin o‘tun va yo tortib olinsa 258 ming 30 pud o‘tun lozimdur (*Ko‘rsatilgan gazeta, 1873, 24-son*).

Ayni shu shakl, ya’ni *sajin* A.Qahhorning «Sarob» romanida ishlatilgan: Saidiy kitobni qo‘yib yonboshladi va uzoq o‘qishdan tolgan ko‘zlarini yetti-sakkiz sajin pastga... tog‘ oralig‘iga tashladi (TA,I,27).

Istorizm qatoriga o‘tib qolgan shu kabi leksemalardan yana bittasi *vershik* bo‘lib, u ruscha vershok leksemasining o‘zbekchalashtirilgan shaklidir. Garchi “Turkiston viloyatining gazeti” (1892,44-son)da u vershuk shaklida o‘zlashtirilgan bo‘lsa-da (Kechasi besh vershukka yakin... qor yog‘ibdur), «Obid ketmon» qissasida istorizm sifatida vershik shakli qo‘llangan: Chunki, omoch bilan juda ham chuqur olinganda o‘n ikki vershikdan nariga yetkazib bo‘lmaydi (17).

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, asarlarda istorizmlarning o‘lchov birliklari hamda boshqa xil tushunchalarni ifodalovchi mavzuiy guruhlari ham qo‘llangan bo‘lib, ular avvalgisidan miqdorining kamligi bilan farqlanib turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Strategiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2022**.**

2. Дадабаев Х. Астрономическая наименования в старотюркских письменных памятниках ХИ-ХИВ вв. Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. - Ташкент: Фан, 1994.

3.Е.А.Давидович. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. М.: Наука, 1983. -359 с.

4.Qahhor Abdulla. Tanlangan asarlar. Uch tomlik.P tom. —T.: Adabiyot va san’at, 1957. -420 b.

5.Qilichev E. S.Ayniy asarlarida grammatik arxaizmlar // O‘zbek tili va adabiyoti. -1969, №1.70-74
6.Qilichev E. Ayniy prozasida tarixiy so‘zlar // Sovet maktabi. —1969. - №5. -B.19-22.
7.G‘ulom G‘afur. Shum bola. —T.: O‘zbekistan, 1992. -141 b.
8.G‘ulom G‘afur. Tanlangan asarlar. 5-jild. -T., 1966. -180 b.
9.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 366 b. IV. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar
Интернет сайтлари :
www/pedagog/uz
w.w.w.ziyo.net
www. literature. Uz
www. genhis philol.ru
www. library.ziyonet.uz.

LINGVOPOETIKANING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Muxudullayev Farrux
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakili Halima Xudoyberdiyeva she’riy asarlari tilini lingvopoetik tahlil etish orqali uning individual ijodiy manerasiga xos xususiyatlarni belgilash va shoir poetik asarlari matnida konnotativ vazifa bajarayotgan til elementlarining uslubiy imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar. poetika, gap, leksik takror, artikl, olmoshlar, ellipsis, fe’l zamonlari, takror bog‘lovchilar, so‘roq so‘zlar.

Bog‘li nutq yaxlit nutqiy asar, matnni o‘rganish , ya’ni matnga gap -period -yanada yirikroq parcha - yaxlit butunlik tarzidagi darajalanishda yondashish antik davrdan - Aristotel va uning izdoshlaridan boshlangan. Rus tilshunosligida matn (“tekst”) tushunchasining rivoji o‘tgan asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi. 1947-yilda A.I.Belich o‘zining tilshunoslik fanlarining tasnifiga bag‘ishlangan maqolasida til faktlarining grammatik tavsifida ma’no umumiyligi asosida bog‘langan va muayyan sintaktik-semantik yaxlitlik tarzida namoyon bo‘ladigan gaplarning bugun zanjiriga alohida o‘rin berilishi lozimligiga va bu “matn” tushunchasining yuzaga kelishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligiga e’tiborni qaratgan, ana shunday gaplar zanjiridagi o‘zaro munosabat va aloqalarni tilshunoslikning sintaksis bo‘limida o‘rganishning maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan[136].

Gapdan katta birliklar, ya’ni “gaplarning hamkorligi ” masalasi nemis tilshunosligida ham deyarli shu yillarda, xususan, 1949-yilda ko‘tarilgan. Gaplar o‘rtasidagi aloqalarni struktural shakllantiruvchi leksik takror, artikl, olmoshlar, ellipsis, fe’l zamonlari, takror bog‘lovchilar, so‘roq so‘zlar kabi eng muhim vositalarni tadqiq etgan ishida K.Boost shunday yozadi: “Bir gapdan boshqasiga tortilgan iplar shu qadar ko‘p va shunday pishiq turni hosil qiladiki, gaplarning chatishishi, ularning yagona tur sifatida o‘rib to‘qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas bog‘langan”.[137]

O‘tgan asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab “matn lingvistikasi” degan yo‘nalish sur’at bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Yaxlit nutqiy butunlik sifatidagi matn va uning tashkil etuvchi unsurlari, omillari, xususiyatlari turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etila boshladi. Bu soha atrofida o‘ziga xos, aytish mumkin bo‘lsa, juda katta “shov-shuv” paydo bo‘ldi. Hatto ayrim mutaxassislar matn lingvistikasini tilshunoslikning alohida sohasi emas, balki umuman, tilshunoslikning poydevori, bazasi deb hisobladilar.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida matn lingvistikasi bo‘yicha davriy nashrlar va ilmiy to‘plamlar nashr etildi, maxsus ilmiy jamoalar tuzildi, monografiyalar bosildi, darsliklar, hatto maktablar uchun darsliklar chiqarildi. Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojida chex

[136]Belich A.I. K voprosu o raspredelenii grammaticheskogo materiala po glavnim grammaticheskim dissiplinam / / Vestnik MGU, 1947, N 7. S. 22.
[137]Moskalskaya O.I. Grammatika teksta. — M.: Visshaya shkola, 1981. S. 5-6; Lingvistika teksta. — M.: Progress, 1978. S. 5-39. 33

(Praga lingvistik to‘garagi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, amerika, golland, polyak va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari dunyo tilshunosligida e’tirof etilgan va doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi.

Rus tilshunosligida ham matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V.Odinsov, I.R.Galperin, O.I.Moskalskaya, L.M.Loseva, Yu.M.Lotman, Z.Ya.Turayeva, N.D.Zarubina, Ye.V.Sidorov, O.L.Kamenskaya, A.I.Gorshkov, N.S.Valgina kabi ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganib kelinadi.[138]

Tilshunoslikdagi bu yo‘nalishdagi tadqiqototlarni atroflicha tahlil qilgan O.I.Moskalskaya o‘tgan asrning 60-70-yillariga kelib matnni lingvistik o‘rganishga bo‘lgan qiziqish benihoya ortganligini, dunyo tilshunosligida matn lingvistikasi bo‘yicha misli ko‘rilmagan miqdorda tadqiqotlar yuzaga kelganligini va matn lingvistikasi mustaqil tilshunoslik fani sifatida to‘la e’tirof etilganligini ta’kidlar ekan, tadqiqotlardagi bu e’tirofga tamal bo‘lgan asosiy qoidalarni quyidagicha guruhlarga bo‘lib umumlashtiradi:

1.Nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi gap emas, balki matndir; gap-fikr esa faqat xususiy holat, matnning alohida turidir. Matn sintaktik sathning oliy birligi hisoblanadi.

2.Konkret nutqiy asarlar - matnlarning asosida matn tuzishning umumiy tamoyillari yotadi; bu tamoyillar nutq sohasiga emas, balki til sistemasiga yoki til vakolatiga daxldordir. Bu jihatlar hisobga olinsa, shulardan kelib chiqilsa, matnni faqat nutq birligigina emas, balki ayni paytda til birligi deb ham hisoblash kerak.

3. Boshqa til birliklari kabi matn lisoniy belgilar sistemasining qismidir.

4. Matnni alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida har tomonlama o‘rganish tilshunoslik doirasidagi maxsus fan - matn lingvistikasini yaratishni taqozo etadi.

O.M.Moskalskaya mazkur qoidalar, ayniqsa, birinchi banddagi qoidalar turli shakllarda o‘sha davrdagi tadqiqotlarda takrorlanib, “yangi lingvistik yo‘nalishning jangovar shiori sifatida jaranglagani”ga e’tiborni qaratadi va G‘arb olimlarining ana shunday fikrlaridan namunalar keltiradi: “Biz odatda alohida so‘zlar bilan emas, gaplar va matnlar bilan gapiramiz” (X. Vaynrix). “Agar biz gapirsak, faqat matnlar bilan gapiramiz” (P. Xartman). “Til faqat matnlar shaklida va matn tuzish vazifasida kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasidir” (P.Xartman). “Biz tildan foydalanganimizda asosiy birlik so‘z yoki gap emas, balki matndir” (A.K.Xellidey). “Bizning kunlarimizda tilning oliy va eng mustaqil birligi gap emas, balki matn ekanligi umume’tirofiga sazovor bo‘lib bormoqda” (V.Dressler).[139]

Matn lingvistikasi shu tarzda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Ammo rus tilshunosligida matn lingvistikasi o‘zining o‘rganish doirasiga keragidan ortiq, ko‘p masalalarni qamraganligi, boshqa fan sohalarining muammolariga aralashayotganligi, gap tushunchasini go‘yoki inkor etayotganligi kabi da’volar bilan aytilgan tanqidiy fikrlar ham yo‘q emas. Masalan, taniqli rus filologi R.A.Budagov dunyoning bir qator mutaxassislari tomonidan matn lingvistikasi bo‘yicha yaratilgan tadkiqotlar jamlangan to‘plamning nashr etilishi munosabati bilan yozgan “Matn lingvistikasi” qay darajada lingvistikadir?” deb nomlangan maqolasida[140] matn lingvistikasi insonning matnni yaratish, tuzish, tushunish, tarkiblash, kompozision yaxlitligini idrok etish kabi qobiliyatlarni o‘rganmoqchi bo‘ladi, holbuki, bu boshqa fanlarning vazifalarini o‘z zimmasiga olish bo‘ladi qabilida e’tiroz bildiradi.

Matnning hajmini chegaralash masalasida ham bu yo‘nalishning yo‘li to‘g‘ri emasligini aytadi. U shunday yozadi: “Matn lingvistikasi” yaratuvchilarining ilk niyatlari juda ham ezgu edi. Ilmiy - texnik taraqqiyotga, axborot asri talablariga javob berish. Tilda faqat kichik birliklargina emas, yirik birliklar ham mavjud ekanligini ko‘rsatish. Matn oqimida gaplarning qo‘shilish shakllari va vositalarini tadqiq etish. Bularning bari diqqatga sazovor va ularni qo‘llab-quvvatlash kerak. Boshqa narsa - har jihatdan an’anaviy (deyiladigan) tilshunoslikka o‘xshamaslikka intilish - prinsipial e’tiroz

[138] Odinsov V.V. Stilistika teksta. — M.: Nauka, 1980; Moskalskaya O.I. Ko‘rsatilgan asar; Galperin I.R. Kursatilgan asar; Zarubina N.D. Tekst: lingvisticheskiy i metodicheskiy aspekti. — M.: Russkiy yazik, 1981; Turaeva Z.Ya. Lingvistika teksta. — M.: Prosveщenie, 1986; Sidorov Ye.V. Problemi rechevoy sistemnosti. —M.: Nauka, 1987; Kamenskaya O.L. Tekst i kommunikatsiya. —M.: Visshaya shkola, 1990; Gorshkov A.I. Russkaya stilistika. —M.: Astrel —ACT, 2001. S. 53 258; Valgina N.S. Teoriya teksta. —M.: Logos, 2004 va boshk,.

[139] Moskalskaya O.I. Ko‘rsatilgan asar. 9-bet.

[140] Budagov R A Filologiya i kultura. — M. MGU, 1980. S. 78-80.

tug‘diradi... Yanada qaltis, zaif joyi tilning yirik va kichik birliklarini bir -biriga qarama-qarshi qo‘yishdir. Ayni paytda gapning, so‘z yoki so‘z birikmasining strukturasini nafaqat tadqiq etmasdan, balki hatto u bilan qiziqib ko‘rmasdan turib, gaplarning qo‘shilish tamoyillarini o‘rganish mumkin emas”.[141]

Bunday e’tirozlarga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki matn lingvistikasi matnni asosiy birlik deb hisoblar ekan, gaplar yoki so‘z birikmalarining mavjudligini, ularning o‘ziga xosliklarini, matn tarkibidagi o‘rnini, umuman, an’anaviy tilshunoslik yutuqlari sifatida tan olingan qoidalarni aslo inkor etmaydi. Bu e’tiroz va tanqidiy fikrlarni mavjud muammolarga yanada sinchkovlik va hushyorlik bilan yondashish zaruriyatini unutmaslikka da’vat tarzida tushunish maqsadga muvofiq.

Tilshunoslikda keyingi yillarda lingvopoetika sohasi rivojlanib, bir qator yirik tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu borada so‘nggi yillarda olib borilgan ishlar sifatida V.Ya.Zadornova hamda A.A.Lipgartning keng ko‘lamli faoliyatlarini e’tirof etish mumkin.

Lingvopoetika masalari yuzasidan muhim fikrlarni o‘rtaga tashlab, ushbu yangi sohaning keng ildiz otishiga o‘zining ko‘plab asarlari bilan hissa qo‘shgan V.Ya.Zadornovaning ilmiy izlanishlarida lingvopoetika sohasining aniq predmeti, maqsadi va muammolari ochib beriladi. Tilshunos "Matnning lingvopoetik jihatdan o‘rganilishi tilning u yoki bu birligini shunchaki aniqlashga qaratilgan emas, balki badiiy asar ko‘rsatadigan estetik ta’sirni so‘z yordamida izohlashga yo‘naltirilgandir" deb ta’kidlaydi.[142]

"Lingvopoetika asoslari" nomli kitobi orqali ushbu sohaning muammolarini bir qadar ochib bergan A.A.Lipgart faoliyatida ham lingvopoetika masalalari chuqur tadqiq etilganini kuzatish mumkin. Uning fikricha, "lingvopoetika - bu filologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, lingvopoetika masalalari doirasida badiiy matnda uslubiy markerlangan birliklar qo‘llanilishi, matnda ular estetik effekt berishga yÿnaltirilgan bo‘lishi hamda shu maqsadda badiiy matn mazmuniy strukturasida qo‘llanilishi" mumkin.[143]

Turkiyshunoslikda matn masalasi birinchi o‘laroq o‘tgan asr 70-yillarining boshida taniqli tatar tilshunosi M.Zakiyev tomonidan qo‘yilgan. Dastlab u bog‘li nutqni mustaqil gaplar o‘rtasidagi aloqani o‘rganmasdan tadqiq etib bo‘lmasligini, chunki bog‘li nutq hamisha turli usullar bilan o‘zaro bog‘langan gaplar zanjiridan iborat bo‘lishini, shunga ko‘ra, bog‘li nutqda gapdan yirik va murakkab bo‘lgan “murakkab sintaktik butunlik” deb ataladigan birliklar ajratilishini (ular abzasning qismi, abzas, yaxlit bob, ba’zan hatto yaxlit asar va sh .k.ga teng bo‘lishini) ta’kidlaydi va yozadi: “Bog‘li nutqda murakkab sintaktik butunlikni ajratish sof metodik maqsadni nazarda tutadi, u nutqning asosiy birligi bo‘la olmaydi va boz ustiga gapga qarama -qarshi qo‘yilishi mumkin emas”.[144]

1974-yilda nashr etilgan darsligida esa murakkab sintaktik butunliklarni “sintaktik butunliklar” deb nomlaydi va quyidagilarni yozadi: “Sintaktik butunliklar, ya’ni mustaqil jumlalarning bog‘lanishini o‘rganish turkiy tillarda hali to‘la yo‘lga qo‘yilgani yo‘q. Holbuki, bu masala til ilmi uchungina emas, balki adabiyot ilmi uchun ham juda ahamiyatlidir. Chunki mustaqil jumlalarning bog‘lanishini bilmasdan turib, matnni, asarni, uning ayrim bo‘laklarini, abzaslarini tugal uyushgan bir butun qilib tuzish juda qiyin ”.[145]

1984-yilda bosilgan o‘quv qo‘llanmasida olim endi matn lingvistikasi muammolarini atroflicha yoritgan va matnning yaxlit birlik ekanligini e’tirof etgan. Kitobga “Matn sintaksisi” nomi bilan maxsus bo‘lim kiritgan va unda matn turlari, matnning mazmuniy, kommunikativ, struktur, grammatik butunligi, matn kompozitsiyasi, matn sintaksisi va lingvistik kategoriyalar kabi masalalar bo‘yicha fikrlar bayon qilingan. Ozarbayjon tilshunosligida matn sintaksisi va uning o‘ziga xosliklari masalasi K.M.Abdullaev tomonidan anchayin atroflicha monografik planda tadqiq etilgan.[146] Ozarbayjon

[141] Budagov R A. Ko‘rsatilgan kitob. 85-bet.
[142] Zadornova V.Ya. Slovesno-xudojestvennoe proizvedenie na raznix yazikax kak predmet lingvopoeticheskogo issledovaniya: Diss... d-ra filol. nauk. –Moskva, 1992. –S.59-60.
[143] Lipgart A.A. Osnovi lingvopoetiki. – M.: URSS, 2016. –168 b.
[144] Zakiev M. Zakiev M.Z. Xazerge tatar adabi tele (Sintaksis). — Kazan, 1974. 257-bit.
[145] Zakiyev M.Z. Xazerge tatar adabi tele sintaksisi xam punktuatsiyase. - Kazan: Tatarstan kitap nashriyati, 1984, 199. - 226- bitlar.
[146] Abdullayev K.M. Teoreticheskie problemi sintaksisa azerbaydjanskogo yazika: Avtoref. dis. ...d-ra filol. nauk. — Baku, 1984. S. 33-43.

tilidagi matn, uning kommunikativ, struktur-semantik xususiyatlari, matn birliklari mavjud qarashlar va original kuzatishlar asosida tahlil etilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev K.M. Teoreticheskie problemi sintaksisa azerbaydjanskogo yazika: Avtoref. dis. ...d-ra filol. nauk. - Baku, 1984. S. 33-43.
2. Belich A.I. K voprosu o raspredelenii grammaticheskogo materiala po glavnim grammaticheskim dissiplinam / / Vestnik MGU, 1947, N 7. S. 22.
3. Budagov R A Filologiya i kultura. - M. MGU, 1980. S. 78-80.
4. Gorshkov A.I. Russkaya stilistika. -M.: Astrel -ACT, 2001. S. 53 258.
5. Kamenskaya O.L. Tekst i kommunikatsiya. -M.: Visshaya shkola, 1990.
6. Lipgart A.A. Osnovi lingvopoetiki. – M.: URSS, 2016. –168 b.
7. Moskalskaya O.I. Grammatika teksta. - M.: Visshaya shkola, 1981. S. 5-6; Lingvistika teksta. - M.: Progress, 1978. S. 5-39. 33
8. Odinsov V.V. Stilistika teksta. - M.: Nauka, 1980.
9. Sidorov Ye.V. Problemi rechevoy sistemnosti. -M.: Nauka, 1987.
10. Turaeva Z.Ya. Lingvistika teksta. - M.: Prosveщenie, 1986.
11. Valgina N.S. Teoriya teksta. -M.: Logos, 2004 va boshk,.
12. Zadornova V.Ya. Slovesno-xudojestvennoe proizvedenie na raznix yazikax kak predmet lingvopoeticheskogo issledovaniya: Diss... d-ra filol. nauk. –Moskva, 1992. –S.59-60.
13. Zakiev M. Zakiev M.Z. Xazerge tatar adabi tele (Sintaksis). - Kazan, 1974. 257-bit.
14. Zakiev M.Z. Xazerge tatar adabi tele sintaksisi ham punktuatsiyase. - Kazan: Tatarstan kitap nashriyati, 1984, 199. -226- bitlar.
15. Zarubina N.D. Tekst: lingvisticheskiy i metodicheskiy aspekti. - M.: Russkiy yazik, 1981.

O‘ZBEK TILIDA ARABCHA KO‘PLIK SHAKLLARINING QO‘LLANILISHI

Muratkulov Amanulla Tursunkulovich
Guliston davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek tilshunosligi terminlarida arabcha ko‘plik shaklidagi so‘zlarning qo‘llanilishi, termin o‘rtasidagi aloqadorlik masalalari, tilshunoslik terminlarining o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalarga bag‘ishlanadi.

Tayanch so‘z va iboralar: ulamo, a’mol, a’fol, maloika, Mashoyix, fuqaro, avliyo, sahoba, rusum, inshoot, aqvom, arbob, hudud, asbob, arvoh.

Ma’lumki, o‘zbek tili leksik boyligini shu tilning o‘ziga xos leksik qatlami bilan birga o‘zlashgan qatlam ham tashkil qiladi. Xalqlar o‘rtasida turli sohalardagi o‘zaro aloqalar u yoki bu xalqning tillariga ta’sir ko‘rsatgan. Bir tilga xos bo‘lgan fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi tilga o‘tib, o‘zlashib ketgan. O‘zbek xalqi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo‘lganligi, boshqa tillardan o‘zbek tiliga ham ko‘plab so‘zlarning o‘zlashuviga olib keldi.Bu, o‘z navbatida, o‘zbek tili lug‘at sostavida o‘zlashgan leksik qatlamni vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Buni arab tili misolida ko‘rib chiqamiz.

Eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilida arab tiliga xos bo‘lgan ko‘plik qolipdagi so‘zlari keng iste’moldadir. Masalan: Olim- ulamo, rab-arbob, sabab- asbob, asl-usl, asar- asor, faqir-fuqaro, amal-a’mol, xulq-axloq, had-hudud va h.k

Misol: Ulamoning fasodi ta’m bila va fuqaroning fasodi riyo birla.(Nasoyim ul- muhabbat 85 bet).

Yana : Bu toifaning a’mol va a’fol va muomilot va riyozotdin va ba’zini zikr qilmoq. (Nasoyim ul- muhbbat 85 bet)

Eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘plik qolipidagi arabiy so‘zlar ko‘plik ma’nosini anglatgani holda keng qo‘llanadi.

Malak- maloika, she’r – ash’or, hayvon- hayvonot, sohib –sahoba, ruh-arvoh va h.k. Nabotot va hayvonot kalomining samoi va maoniysiga vuquf topmoq. (Nasoyim ul- muhbbat 85 bet)

Yana: ... Mashoyix diydorlaridin bahramand va suhbatlaridan anjumand ermish. (Nasoyim ul-muhabbat 85 bet)

Yana: Ajdodlari arab bo‘lgan shayx Muborak ham ham Bianadagi xalq harakatida ishtirok etgan. (Humoyun va Akbar 275 bet).

Yana: Chinorning dastlabki ellik – oltmish yildagi o‘sish bir avlod umriga qiyos etgulikdir.(Humoyun va Akbar 286 bet).

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘zlashgan arabiy so‘zlarning birlik va ko‘plik shakli yonma- yon kelib, juft so‘zlarni hosil qiladi va ular ma’no kuchaytirish uchun hizmat qiladi. Masalan: Davr- davron, sir-asror, haq-huquq, shart- sharoit, hol- ahvol, rasm- rusum va h.k.

O‘zbek adabiy tiliga o‘zlashgan arabiy so‘zlarning ko‘plik shakli birlikdagi shakliga nisbatan kengroq iste’molda. Masalan: siloh-aslaha,valad- avlod, vali-avliyo, nabi-anbiyo, uzv- a’zo va h.k. Bu so‘zlarning ko‘plik shakli o‘zbek tilida mustaqil ma’no beruvchi birlikdagi so‘z sifatida keng qo‘llanadi.

”Avliyolikning boshlanishi payg‘ambarlikning oxiridir”. (Nasoyim ul- muhabbat 309 bet)

Yana: Chun anbiyoning ashrafi erdi, qavm- aqvomning ashaddiy... (Nasoyim ul- muhabbat 183 bet ”.

2. Arab tilida bir so‘z ikki yoki undan ortiq ko‘plik shakliga ega. O‘zbek adabiy tiliga ulardan bir shakligina o‘zlashgan bo‘lib, u birlikdagi ma’nosiga ma’nodosh bo‘lgan so‘zni ifodalaydi.

Arab tilida ayn so‘zi o‘zbek tiliga ” ko‘z” deb tarjima qilinadi. Uning ko‘plik shakllari (uyun), (a’yun), (ayon). Bulardan (uyun), (a’yun) ”ko‘zlar” deb tarjima qilinadi, (a’yon) ko‘plik shakli esa o‘zbek tiliga o‘zlashgan bo‘lib, u ”ko‘zga ko‘ringan shaxslar” degan ma’nono anglatadi. M: A’yonlar Akbarga ta’zim qildilar.(Humoyun va Akbar 298 bet)

3. Arab tilida ko‘plikdan ko‘plik yasash usuli ham mavjud bo‘lib bunday ” o‘ta” ko‘plik qolipidagi so‘zlar ham o‘zbek tilida qo‘llanadi.

(dor) – “uy”, “turar joy” so‘zining ko‘pligi (dur) bo‘lib, undan (diyor)- ko‘plik shakli yasaladi. O‘zbek adabiy tilida “diyor” so‘zi keng qo‘llanilib, u endi faqat, “uy”, “turar joy” degan ma’nolarni anglatib qolmay, balki, keng ma’nodagi “yashash joyi”, “yurt”, “mamlakat” degan ma’nolarni ham bildiradi.

Arab tilida ko‘plikdagi otlarga (ot) qo‘shimchasi qo‘shilib ham “o‘ta” ko‘plik yasaladi. Masalan: (ajibatun)- so‘zidan (ajoibu)- ko‘plik- (ajoibot)- (o‘ta ko‘plik yasalgan). “Ajoib” va “ajoibot” so‘zlari o‘zbek tilida keng qo‘llanadi.

4. Arabiy so‘zlarning o‘zlashgan ko‘plik shakllari hozirgi o‘zbek adabiy tilida “g‘alati mashhur” iborasi bilan ham qo‘llanadi. Bu holbuki ichki ma’no jihatidan bog‘liqlik bo‘lsa-da, so‘zlar o‘zining asosiy bosh ma’nosidan uzoqroq ma’noni anglatib keladi.

Masalan, “insho” so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi:

a) Muassasa, qurilish

b) Ijodiy asar, sochma asar, yozuv xat.

O‘zbek adabiy tilida insho so‘zi faqat “sochma asar”, “asar”, “yozuv xat” ma’nosini ifodalab keladi. Bu so‘zning arab tilidagi ko‘plik shakli “inshoot” bo‘lib, bu so‘z o‘zbek adabiy tilida faqat “qurilish”, “bino”, “imorat” kabi ma’nolardagina qo‘llanadi.

Yoki, arabiy xotira so‘zi, g‘oya, tushuncha, esda saqlash kabi ma’nolarni anglatsa, uning ko‘plik shakli xavotir o‘zbek adabiy tilida o‘zining bosh ma’nosidan uzoqroq bo‘lgan “tahlika”, “qo‘rquv” ma’nolarida ishlatiladi.

Shuningdek, munshaat “qurilish”, “muassasa” ma’nolarini bildiruvchi arabiy so‘zning ko‘pligi munshaot hozirgi o‘zbek tilida “mayda nasriy asarlar”, “xatlari to‘plami” ma’nosida qo‘llanadi.

5. Arab tilidagi ko‘plik qo‘shimchasi (ot) fe’lning funktsional formalarni hisoblangan harakat nomi (masdar), va sifatdoshlarga qo‘shilib ko‘plik shaklini hosil qiladi. Bunday so‘zlarning ham birlik, ham ko‘plik shakllari o‘zbek tilida o‘zlashgan bo‘lib, keng iste’moldadir. Lekin bu so‘zlarning har ikkala shakli ham mustaqil ma’no anglatuvchi so‘z bo‘lib, boshqa-boshqa grammatik vazifalarni bajaradi.

a) Masalan: “ harakat nomi”-masdarga (ot) qo‘shilgan.

Isloh-islohot (4-bob masdari)

Hisob-hisobot (3-bob masdari)

b) sifatdoshlarga ot qo‘shimchasi qo‘shilib ko‘plik shakllari yasaladi.

Masalan: Mavjud-mavjudot, mahsul-mahsulot.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arabiy so‘zlarning ko‘plik shakllari ham eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llangan va ular o‘rniga qarab alohida-alohida grammatik funktsiyalarni bajarib keladi.

Adabiyotlar:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent: O‘qituvchi, 1980.-B 120, 251.2.
2. N. Ibrohimov, M. Yusupov. Arab tili grammatikasi, 1-jild. – Toshkent: 1997.
3. Alisher Navoiy “Nasoim-ul muhabbat” asari. –Toshkent, 2002.
4. Pirimqul Qodirov. Humoyun va Akbar. – Toshkent: Sharq, 2006.

O‘ZBEK TILIDA SO‘ZLARNING BIRIKUVCHANLIK XUSUSIYATLARI

Mamaraximov Sirojiddin Murtazayevich
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
mamaraximov90@umail.uz

Abstract. *In this article, the compounding properties of words and their place of use and features are highlighted, the general meaning of word combinations is revealed, the requirement to turn our national language into an internet language is to research its compounding among all the properties of the word. required is highlighted.*

Key words: *Dictionaries of word combinations, cohesion, valence, computer linguistics, corpus linguistics, subordination, cohesion.*

Dunyo tilshunosligida so‘zlarning birikuvchanlik va biriktira oluvchanlik xususiyatlari va ularning imkoniyatlari tilshunoslarni qiziqtirib kelgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tilda bu xususiyatlar so‘zlardan nutq jarayonida gap yoki so‘z birikmalaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. So‘zlarning birikuvchanligi til tizimi va me’yorlari bilan tartibga solinadi va turli til sathlarining o‘zaro munosabati natijasida yuzaga chiqadi. Birikmalardagi so‘zlarning lug‘aviy va grammatik jihatdan o‘zaro mosligida leksik va sintaktik sathlar munosabatini ko‘rishimiz mumkin.

So‘zlar birikuvchanligining mazmuni nafaqat uning leksema voqelanishidagi o‘rnini, balki so‘z ma’nosining turli tillardagi o‘ziga xosliklari kabi xususiyatlarni ham qamrab oladi. Integratsiyalashuv holatida internet rolining oshishi, mashina va sinxron tarjimaning ahamiyatining ortib borishi tillardagi birikmalar tahlilini amalga oshirish, so‘zlarning xususiy birikuvchilarini aniqlashni taqozo etmoqda. Kompyuter tilshunosligi, avtomatik matn tahlili, elektron lug‘atlar bazasini yaratish va dasturlashtirish, qidiruv tizimlarini mukammallashtirish, mashina tarjimasi kabi muhim yo‘nalishlar taraqqiyoti natijasida so‘zlar orasidagi paradigmatik va sintagmatik munosabatlar, so‘zlarning birikuvchanlik xususiyatlari bilan bog‘liq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Jahon lingvistikasida amaliy tilshunoslikning yangi ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi tildan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan masalalarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasi kabi yo‘nalishlar mukammal til korpusini talab etishi, tilshunoslik fani tahsilini soddalashtirish talabi uning sintaksis sathida ham amaliy samaradorlik bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borish zaruratini paydo qilmoqda.

O‘zbekistonda oxirgi vaqtlarda kompyuter lingvistikasi, milliy korpus, uni yaratish prinsiplariga qiziqish oshib bormoqda. Bu esa tilning barcha sohalariga oid mukammal ma’lumotlar bazasi yaratilishini taqozo qilyapti. So‘zga oid ma’lumotlar uning birikmadagi xususiyatlari aniqlangandagina to‘liq bo‘lishi birikuvchanlik, valentlik kabi tushunchalar, ularni o‘rganishdagi muammolarga oid tadqiqotlar olib borish talabini yuzaga chiqarmoqda. Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

Axborotning elektronlashuvi, milliy tilimizni internet tiliga aylantirish zarurati so‘zning barcha xususiyatlari qatorida uning birikuvchanligini ham tadqiq qilishni taqozo qiladi. Bu milliy korpus

uchun ta’minot vazifasini bajaruvchi birikuvchanlik lug‘atlarini yaratish, so‘zlar birikuvini modellashtirish zaruratini va tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kompyuter lingvistikasi, milliy korpus, uni yaratish tamoyillariga qiziqish oshib bormoqda. Bu o‘z navbatida tilning barcha sohalariga oid mukammal ma’lumotlar bazasi yaratilishini taqozo qilyapti. Leksemaga oid ma’lumotlar uning birikmadagi xususiyatlari aniqlangandagina to‘liq bo‘lishi birikuvchanlik, valentlik kabi tushunchalar, ularni o‘rganishdagi muammolarga oid tadqiqotlar olib borish talabini yuzaga chiqarmoqda.

Hozirgi integratsiyalashuvda har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

Ma’lumotlarning elektronlashuvi, milliy tilimizni internet tiliga aylantirish talabi so‘zning barcha xususiyatlari qatorida uning birikuvchanligini ham tadqiq qilishni talab etmoqda. Bu milliy korpus uchun ta’minot vazifasini bajaruvchi birikuvchanlik lug‘atlarini yaratish, so‘zlar birikuvini modellashtirish zaruratini va tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kompyuter lingvistikasi, milliy korpus, uni yaratish tamoyillariga qiziqish oshib bormoqda. Bu esa tilning barcha sohalariga oid mukammal ma’lumotlar bazasi yaratilishini taqozo qilyapti. So‘zga oid ma’lumotlar uning birikmadagi xususiyatlari aniqlangandagina to‘liq bo‘lishi birikuvchanlik, valentlik kabi tushunchalar, ularni o‘rganishdagi muammolarga oid tadqiqotlar olib borish talabini yuzaga chiqarmoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

Axborotning elektronlashuvi, milliy tilimizni internet tiliga aylantirish zarurati so‘zning barcha xususiyatlari qatorida uning birikuvchanligini ham tadqiq qilishni taqozo qiladi. Bu milliy korpus uchun ta’minot vazifasini bajaruvchi birikuvchanlik lug‘atlarini yaratish, so‘zlar birikuvini modellashtirish zaruratini belgilaydi.

Tilshunosligimizda sintaksisning muhim obyekti sifatida so‘z birikmasi nazariy jihatdan an’anaviy tilshunoslikda ham, struktural tilshunoslikda ham atroflicha tadqiq etilgan. Uzoq vaqt tilshunos olimlar so‘z birikmasining til yoki nutq birligi ekanligi haqida munozara qilib keldilar. Til va nutq ziddiyati asosida yondashuv natijasida so‘z birikmasi lisoniy sintaktik qoliplari lisoniy, bu qoliplardan hosil bo‘lgan so‘z birikmalari nutqiy hodisa sifatda baholandi. Chunki valentlik bilan so‘z birikmasi (sintaktik aloqa) o‘zaro mohiyat va hodisa munosabatida, deyishimiz mumkin.

Xususiy birikuvchili murakkab birikmalar, asosan, hokim qismning kengayishidan hosil bo‘ladi. Bunda hokim so‘zga birikib kelayotgan so‘zlarning har biri xususiy birikuvchi bo‘lishi yoki ulardan ba’zilari umumiy birikuvchi bo‘lishi mumkin. Masalan, qurilayotgan besh qavatli bino murakkab birikmasida besh qavatli va qurilayotgan birikuvchilarining har biri xususiydir. Mahallamizdagi besh qavatli bino birikmasida esa mahallamizdagi – umumiy (chunki mahallada binodan boshqa narsalar: muammo, stadion, bog‘ va hokazo; ham bo‘lishi mumkin), besh qavatli – xususiy birikuvchi sanaladi. Murakkab birikmalarda xususiy birikuvchi vazifasida kelayotgan so‘zning o‘zi ham xususiy birikuvchi bilan kengayishi holati kuzatiladi[147]. Qopag‘on itning hurishi, aqlli odamning fikrlari, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan odamning hislari kabi birikmalar shu tipdagi murakkab birikmalardir. Ko‘rinadiki, o‘zbekcha matnlarda xususiy birikuvchili murakkab va sodda birikmalar mavjud bo‘lib ular shaklan umumiy birikuvchili birikmalarga o‘xshaydi. Lekin xususiy birikuvchili birikmalarda uni hosil qilayotgan a’zolarning yonma-yon qo‘llanish ehtimoli juda yuqori.

Xulosa qilib aytganda, so‘zlar birikuvchanligi xorij lug‘atlarida, avvalo, izohli lug‘atlarda bosh so‘zning ma’nosini izohlovchi matnlar, illyustrativ materiallarda keltirilgan bo‘lsa, keyinchalik aynan bir so‘zning birikish va biriktira olish imkoniyatlarini ko‘rsatish maqsadida qo‘llandi. So‘zlarning birikuvchanlik xususiyatlarini modellashtirish sintaktik analizator uchun zarur bosqich hisoblanadi. Aniqlangan morfoleksikondagi mustaqil so‘zlarning birikish imkoniyatlarini tahlil qilib, birikuvchanlik lug‘atini yaratish, birikuvchilarni modellashtirish tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim

[147] Ibragimov J., O‘zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari. Fil. fan. dok-ri diss.avtoref. Qarshi -2023. B.137.

sanaladi. Modellashtirilgan ma’lumotlar tilda bo‘layotgan o‘zgarishlar asosida boyitib borish imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B.R., O‘zbek tilining struktural sintaksisi – Qarshi: Nasaf. 2003. – 128 b.
2. Mengliyev B.R., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N., O‘zbek tilidan universal qo‘llanma, -Toshkent: Akademnashr, 2018, 6-nashr. – 222 b.
3. Mirtojiyev M., Muhamedova S., O‘zbek tilida so‘z valentliklari, -Toshkent: 2014. – 163 b.
4. Muhammedova S. Harakat fe’llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta’min yaratish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2006.
5. Ne’matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O‘zbek tili struktural sintaksisi asoslari. – Toshkent: Universitet, 1999.
6. Brinkmann H. Die deutscher Sprache. Gestalt und Leistung. Dusseldorf, 1962. P.223.
7. Erben J. Abris der deutschen Grammatik. Berlin, 1962. - P. 175
8. Sirojiddin M. O‘ZBEK TILIDA MAQSAD MA’NOSI SO‘ZLAR ORQALI IFODALANISHI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 20-25.IFODALANISHI." Journal of Universal Science Research 1.5 (2023): 20-25.
9. Boxodirovich, E. N., & Murtazayevich, M. S. (2022). EXPRESSION OF PURPOSE IN UZBEK LANGUAGE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 247-250.

O‘ZBEK TILIDAGI FE’LLARDA TARZ GRAMMATIK KATEGORIYASI

Sharipov Fazliddin Galiyevich, Sharipov E’zoza Fazliddin qizi
Filologiya fanlari doktori, dotsent
Guliston davlat universiteti
E-mail: sharipovdpr@mail.ru
Guliston davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti talabasi
E-mail: esharipova@mail.ru

O‘zbek tilining bir necha ilmiy-nazariy grammatikalari yaratildi. Natijada o‘zbek tilshunosligi turkiyshunoslikning etakchi tarmog‘iga aylandi. Bugungi kunga kelib tilning ko‘pchilik grammatik kategoriyalari maxsus o‘rganildi. Keyingi paytda o‘rta maktab, o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy ishlanmalarda ham grammatik kategoriyalar talqiniga alohida e’tibor berila boshladi.

Ba’zi grammatik kategoriyalar esa bir emas, bir necha ishda maxsus tekshirish (tadqiqot) ob’ekti qilib olindi. Jumladan, fe’l va fe’lning mayl, zamon, nisbat kategoriyalari bo‘yicha o‘ndan ortiq qo‘llanma, monografiya yaratildi. Hozir formal-funktsional tilshunoslik fe’lning ana shu shakllarini yaxlit holda bitta grammatik kategoriyaga birlashtirib, «kesimlik kategoriyasi» sifatida o‘rganish lozimligini ham alohida ta’kidlay boshladi,bu borada bir qator ishlar yuzaga keldi. Shunga qaramay, fe’l turkumida hali hal etilmagan, munozarali masalalar, mohiyati etarli ochilmagan hodisalar, umumlashtirishni, bir tizim holda talqin etishni talab qiluvchi muammolar anchagina bor.

Bu holat, ayniqsa, fe’lning ayrim shakllarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, turli-tuman harakat tarzining morfologik ifodalanishi bilan bog‘liq masalalar deyarli o‘rganilmagan, aniqrog‘i, alohida bir tadqiqotning ob’ekti qilib olinmagan. Vaholanki, Alisher Navoiy bundan 550 yillar avval o‘zining mashhur «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarida fe’llarning bunday shakllariga e’tiborni jalb qilgan edi.[148]

[148] А.Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. –Тошкент: 2000. 16-том. Б. 14.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilida ham qadimdan fe’llarda harakat tarzini ifodalovchi maxsus qo‘shimchalar bo‘lgan va hozir ham mavjud. Bu qo‘shimchalarga olimlar turlicha munosabatda bo‘lib, turlicha talqin qilganlar. Albatta, o‘zbek tilidagi harakat tarzining turli-tuman ifodalanishi, ya’ni tarz holati ko‘pchilik tilshunoslarning diqqatini o‘ziga tortgan. Shuni ham aytish lozimki, fe’l so‘z turkumi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning deyarli hammasi harakat tarzi shakllari masalasiga ham to‘xtalib o‘tganlar: ma’lum fikrlar aytib ayrim misollarni tahlil ham qilganlar. Bundan bir qarashda, go‘yo harakat tarzining ifodalanishi o‘zbek tilshunosligida deyarli o‘rganilib bo‘lgan va bu borada qiladigan ish qolmagandek taassurot uyg‘onadi. Biroq masalaga chuqurroq nazar tashlansa, buning yuzaki tasavvur ekanligiga to‘la ishonch hosil qilish mumkin. Aslida o‘zbek tilidagi fe’llarda tarzning sintetik ifodalanishi jiddiy o‘rganilmagan. Harakat tarzining analitik usulda ifodalanishi, ko‘makchi fe’llarning bu boradagi o‘rni masalalari ma’lum darajada tadqiq etilgan.[149] To‘g‘ri keyingi yillarda bu masalada jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Fe’llardagi tarz kategoriyasiga munosabat hamda uning analitik ifodalanishi maxsus tadqiqot ob’ekti qilib olindi.[150] Bu ishda fe’llarda tarz grammatik kategoriyasining alohida kategoriya sifatida mavjudligi masalasini ko‘makchi fe’llar misolida asoslashga harakat qilinganligi kuzatiladi.

O‘zbek tilidagi fe’llarda maxsus tarz grammatik kategoriyasi mavjud ekanligi haqidagi fikrni qo‘llab-quvvatlaymiz va buni sintetik shakllar misolida asoslashga ham harakat qilamiz. Harakat tarz ma’nosining sintetik shakllarda ifodalanishiga ham, yuqorida aytganimizdek, yo‘l-yo‘lakay bo‘lsa-da e’tibor qaratishgan. Biroq bu shakllarni maxsus tadqiq etishmagan. Shuning uchun uni tarz yoki tus kategoriyasi deb atash kerakmi yoki yo‘qmi ekanligi ham haliga qadar uzil-kesil hal etilmagan. Shu bois mazkur mavzuni maxsus o‘rganish har jihatdan muhim va dolzarbdir. Shunday qilib, tarz ma’nosini ifodalovchi qo‘shimchalarning fe’l turkumiga xos muhim belgilardan biri ekanligiga qaramay o‘zbek tilshunosligida etarli o‘rganilmaganligidir.

Ma’lumki, tilshunoslikda turkiy tillarga xos so‘z yasovchi va shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar ancha chuqur o‘rganilgan. Bu borada G.I.Ramstedt, B.B.Kulmagambetov, E.V.Sevortyan, L.N.Xaritonov, A.N.Baskakov kabi ko‘plab olimlarning olib borgan tadqiqotlarini alohida ta’kidlash joiz. Bu ishlarda fe’llarga, shu jumladan, fe’l shakllaridagi tarz ma’nosiga ham e’tibor qaratilgan. O‘zbek tilshunosligida harakat tarzini hosil qiluvchi qo‘shimchalarga A.N.Kononov, A.G‘ulomovlar va A.Hojievlar ham alohida e’tibor berishgan. Keyingi yillarda mazkur olimlarning izlanishlari boshqa ko‘pgina tilshunoslar tomonidan (jumladan, Yo.Tojiyevning ishlarida ham) davom ettirilayapti.

Bu ishlarda fe’lga xos mazkur hodisa ayrim olimlar tomonidan rus tilidagi kabi qaralib vid kategoriyasi deb nomlangan bo‘lsa, ba’zi olimlar o‘zbek tilidagi bu holatga nisbatan harakat tarzi shakli deb qaraganlar. Keyingi qarash tarafdorlari o‘z fikrlarining isboti uchun rus tili qolip va andozalariga asoslangan holda ikki yoki uch qo‘shimcha bilan o‘zbek tilida ham vid kategoriyasi bor, deb hisoblab bo‘lmasligini ta’kidlashgan. O‘zbek tilida harakat tarzini ifodalovchi qo‘shimchalar anchagina ekanligi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligi, shuningdek, boshqa holatlar bu paradigmani tarz kategoriyasi sifatida baholash mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Chunki grammatik kategoriya uchun zarur bu shakllar va ular anglatgan ma’nolar binar oppozitsiyani hosil qiladi: kul-me’yoriy holat; kulimsira-me’yorga etmaganlik; ishqa-me’yoriy holat; ishqala-kuchli harakat holati. Biz shu oppozitsiyaga asoslangan holda, fe’llarda shunday grammatik kategoriya bor, deya olamiz. O‘zbek tilshunoslari bunday qo‘shimchalarni harakat tarzini ifodalovchi

[149] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Тошкент: Фан, 1973.
[150] Shukurov O.U. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol.fan.nom.diss….Samarqand, 2005.

shakllar sifatida talqin qilgan bo‘lsalar-da, bu masala shu vaqtgacha alohida tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan va balki, shu sabab uning kategorial belgilari ochilmagan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shukurov O.U. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Filol.fan.nom.diss….Samarqand, 2005.
2. A.Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. –Тошкент: 2000. 16-том. Б. 14.
3. Ғуломов А. Феъл. –Тошкент: Фан,1954. –Б. 68.
4. Тожиев. Ё. Ўзбек тилида аффикслар синонимияси. –Тошкент: Университет, 1991.-Б. 5.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Тошкент: Фан, 1973.
6. Ҳожиев. А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1973.-Б. 6;
7. Ҳожиев. А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида форма ясалиши.–Тошкент: Ўқитувчи 1979.-Б. 8.

TARZ KATEGORIYASIGA MUNOSABAT

Sharipov E’zoza Fazliddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti talabasi
E-mail: esharipova@mail.ru

O‘zbek tilidagi harakat tarzi tushunchasi, fe’llardagi harakat tarziga nisbatan yondashuvlar, tarzning sintetik-morfologik usulda ifodalanishini tadqiq etishdir. Ishda fe’llardagi harakat tarzi kategoriyasining davomlilik, takroriylik, harakatning biror jihatdan kuchayishi, kuchsizlanishi, o‘zgarishi, maydalashishi, noto‘liqlik ma’nolari va ularning ifodalanishi kabi holatlari o‘rganildi. O‘zbek tilida harakat tarzini ifodalashning sintetik-morfologik shakllarini tadqiq etish quyidagi aniq vazifalarni bajarishni taqozo etadi.

-fe’llardagi harakat tarzini ifodalovchi sintetik shakllarni belgilash, barcha qo‘shimchalarni yig‘ish, umuman, o‘zbek tilida harakat tarzi ifodalanishini baholash;

-fe’llardagi harakat tarzini o‘rganish bo‘yicha qilingan ishlarga munosabat bildirish, ularni qiyosiy baholash shu tarzda tarz grammatik kategoriyasi mavjudligi haqidagi fikrlarni qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish va mustahkamlash;

-o‘zbek tilidagi harakat tarzini ifodalovchi qo‘shimchalarni ma’no jihatdan tasniflash;

-o‘zbek tilidagi harakat tarzining ifodalanishini rus tilidagi vid kategoriyasi bilan qisman qiyoslash, shu asosda ulardagi o‘ziga xoslikni belgilash;

-o‘zbek tilidagi harakat tarzini grammatik kategoriya sifatida baholash mumkinmi yoki yo‘qligiga sintetik shakllardan kelib chiqib munosabat bildirish, uning grammatik kategoriya ekanligini ilmiy asoslash;

-fe’llardagi ichki yasalish va tarz munosabatiga baho berish;

-o‘zbek tilidagi harakat tarzini ifodalovchi qo‘shimchalarni o‘rganib chiqish, imkoni boricha ularning ma’nolari va qo‘llanishlaridagi har bir holatni belgilash, harakat tarzi shakllanishidagi o‘rnini belgilashga harakat qilish.

O‘zbek tilidagi fe’llarda harakat tarzi fe’l asoslardan fe’l yasalgan holatda ham ifodalanishi mumkinligi A.G‘ulomov tomonidan qayd etilgan. Olim bunday hollarda harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi, kuchayishi yoki kuchsizlanishi kabilarni nazarda tutadi.[151] A.Hojievning fikricha, daraja formalarini ham, harakatning miqdoriy belgisini bildiruvchi kulimsira, tortqila, so‘linqira kabi fe’l

[151] Ғуломов А. Феъл. –Тошкент: Фан,1954. –Б. 68.

shakllarini ham fe'ldan fe'l yasalishi deb hisoblab bo'lmaydi.[152] Chunki bu qo'shimchalar orqali yangi fe'l, yangi so'z hosil bo'lmaydi[153], shuning uchun bunday vositalarni harakat tarzini ifodalovchi shakllar sifatida talqin etadi.[154]

O'zbek tilidagi fe'llarda tarz ma'nosi sintetik va analitik usullarda ifodalanadi. Sintetik usulda harakat tarzini ifodalovchi qo'shimchalarga -la, -a, -gila(-kila, -qila), -i, -(i)msira, -(i)nqira, -ka, -ka, -ga, -g'a, –ra, -iq kabilar kiritilsa, analitik usulda ifodalanishiga etakchi va ko'makchi fe'l birikishidan hosil bo'lgan (o'qiy boshladi, yoza boshladi) ko'makchi fe'lli qo'shilmalarni kiritish mumkin.

Demak, tarz ma'nosini ifodalovchi vositalar sifatida yuqoridagi qo'shimchalarini, boshlamoq, solmoq, turmoq, yurmoq, qo'ymoq, tashlamoq, ko'rmoq, kelmoq kabi (30ga yaqin) ko'makchi fe'llarni hamda fe'llarning takrorlanishidan hosil bo'luvchi (chopa-chopa ketdi, gapira-gapira qoldi) shakllarni nazarda tutish mumkin. Shu shakllardan biri – sintetik shakl.

O'zbek tilida harakat tarzini ifodalovchi asosiy qo'shimchalar, sintetik shakllar aniq belgilanishi lozim:

-bu qo'shimchalarning ma'no jihatdan tasnifi amalga oshirildi;

-o'zbek tilshunosligida harakat tarzi masalasi rus tilidagi vid kategoriyasi bilan qiyoslangan holda, yaxlit tarzda, alohida tadqiq etildi;

-o'zbek tilidagi harakat tarzi ifodalanishi jiddiy o'rganilib, uni ifodalovchi qo'shimchalar alohida paradigmani hosil qilishi va bunday shakllar tizimi maxsus grammatik ma'no ifodalashini nazarda tutib, uni grammatik kategoriya (fe'llarda tarz kategoriyasi) sifatida ajratish masalasiga aniqlik kiritildi;

-o'zbek tilida tarz ifodalovchi qo'shimchalarning ma'no xususiyatlari va qo'llanish ko'lami belgilab berildi;

-fe'llardagi ichki yasalish va tashqi yasalish muammosiga nisbatan mavjud bo'lgan bahsli fikrlarga munosabat bildirildi. Ichki yasalish (fe'llardan fe'l yasash) fe'llarda yo'q ekanligi ishonchli tarzda asoslandi;

-o'zbek tilidagi tarz kategoriyasi (shakl va ma'no munosabati) rus tilidagi vid kategoriyasidan farq qilishi, o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ko'rsatib berildi.

-o'zbek tilidagi tarz ifodalovchi barcha qo'shimchalarning o'ziga xos tarz ifodalash xususiyatlari, qo'llanish imkoniyatlari hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlari talabidan kelib chiqib belgilab berildi.

-bu shakllarning nutq uslubiga (jonli so'zlashuvga) xoslanganligi ko'rsatildi. Nozik ma'noviy farqlanishlar ochib berildi.

Adabiyotlar ro 'yxati:

1. Ғуломов А. Феъл. –Тошкент: Фан,1954. –Б. 68.
2. Тожиев. Ё. Ўзбек тилида аффикслар синонимияси. –Тошкент: Университет, 1991.-Б. 5.
3. Ҳожиев. А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1973.-Б. 6; Ё.Тожиев. Ўзбек тилида аффикслар синонимияси. –Тошкент: Университет, 1991.-Б. 5.
4. Ҳожиев. А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида форма ясалиши.–Тошкент: Ўқитувчи 1979.-Б. 8.

KITOBAT SAN'ATI (HARFIY SAN'AT)

Yarqinboyeva Sayyora, Soibova Sevinch Salohiddin qizi
O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
Guliston davlat universiteti 2-bosqich talabasi
sevinchsoibova9@gmail.com

152 Ҳожиев. А. Феъл. –Тошкент: Фан, 1973.-Б. 6; Ё.Тожиев. Ўзбек тилида аффикслар синонимияси. –Тошкент: Университет, 1991.-Б. 5.
153 Тожиев. Ё. Ўзбек тилида аффикслар синонимияси. –Тошкент: Университет, 1991.-Б. 5.
154 Ҳожиев. А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида форма ясалиши.–Тошкент: Ўқитувчи 1979.-Б. 8.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz she’riyatimizda keng qo‘llanilgan kitobat san’atining ma’no ta’sirchanligi hamda ichki imkoniyatlari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: poetika, alif, dol, qamar, zulf, nun, Jim, andarmon, nas, sahv

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she’r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan.U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda uning nimalarni tasvirlangani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e’tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she’riy san’atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san’atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Ma’lumki, she’riy san’atlar badiiy asarda ifodalangan jumlalarning hayotiyroq, ta’sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan. U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan iz aksini topganlar ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy, ma’rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan she’riy san’atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilgan. She’riy san’atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she’riy san’atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog‘liqligi sanaladi.

Mumtoz poetikaning tarkibiy qismlaridan, nutqqa bezak beruvchi san’atlardan biri kitobat san’atidir. Arab alifbosining imkoniyatlari, so‘zlarning yozilishi bilan bog‘liq holda badiiy san’at yaratish mumtoz poetikamizda kitobat san’atini yuzaga keltiradi.

She’riyatimizda keng qo‘llanilib kelingan ushbu san’at arab alifbosi harflari shaklidan lirik va epik timsollar chizishda foydalanishni nazarda tutadi. Ma’lumki arab alifbosi to‘g‘ri va egri, yoysimon va doirasimon shakllardagi harflardan tashkil topgan. Sharq shoirlari ana shu shakllarga qiyos usuli bilan yondashib muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy-tarbiyaviy g‘oyalarni ifodalashga mahorat bilan foydalanganlar. **Zokirjon Furqat** g‘azalidagi:

Ul **alif**dek qomatingning xasrati
Dol yanglig‘ ayladi qaddim duto

baytidagi “alifdek” va “dol yanglig‘” qiyoslariga diqqat qilaylik. Shoir o‘z mahbubasining qomatini arab alifbosidagi “alif” harfiga o‘xshatsa, o‘zining bukilgan qaddini “dol” harfiga tenglashtiradi. Chindan ham, tik to‘g‘ri chiziq ko‘rinishidagi alif harfi shakl jihatidan inson qomatiga, bukik “dol” harfi esa egilgan qomatga o‘xshaydi. Shoir bu xil qiyos tufayli mashuqa oshiq ko‘rinishini harflar shakli vositasida aniqroq va ta’sirchanroq tasvirlashga erishgan. Mazkur san’atning she’riyatimizdagi ilk namunalari XIV asr oxiri XV asr boshlaridagi adabiy obidalarda uchratamiz.Chunonchi, **Lutfiy** yozgan g‘azallarning:

Chun o‘larmen ul **alif**dek qaddu tor o‘zing uchun,
Sen o‘tarda turbatimdan qo‘pg‘usidir oh-oh.
Oydek yuzungda og‘iz muvajjah tushub turur,
Har qaydakim “**qamar**” o‘la tushgan aroma “**mim**”.

“Jim” sochi, “alif” qaddi bila ul qoshi “nuni” kabi baytlarda arab yozuvidagi “alif”, “jim”, "nun", “mim” harflari shaklidan mahbuba qiyofasini chizishda mohirona foydalanganini kuzatamiz. Ushbu ta’sirchan san’atni Alisher Navoiy ham keng qo‘llab, ajoyib, bezavol lavhalar yaratgan. Uning:

Jonimgmdagi **jim** ikki **dol**ingg‘a fido
Andin so‘ng **alif** toza niholingg‘a fido
Nuni dag‘i anbarin hilolingg‘a fido.
Qolgan ikki nuqta ikki xolingg‘a fido

kabi betakror baytlari fikrimizga dalildir.

Zahirddin Muhammad Bobur she’riyatida ham mazkur san’atning bir qator nodir namunalari yaratilgan. Chunonchi, uning:

Qadding **alif**-u qoshing erur **yo,**
Desam ne ajab agar seni oy
Yo qoshing yanglig‘ egilgan jismi zorimmu dey,
Yo sochingdek tiyra bulg‘on ro‘zg‘orimmu dey.

Kabi baytlarida ushbu san’atdan unumli foydalangan edi. O‘z ijodida mazkur san’atdan bahramand bo‘lmagan shoir adabiyotimizda topilmasa kerak. Ijodkorlarimiz uning xilma-xil imkoniyatlarini kashf etib ko‘plab hayratomuz baytlar yaratganlar, masalan: **Ogahiyning**

Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustida,
Qatlam uchun **nas** keltirur **nun** eltibon **sod** ustina.

Bunda qoshning “nun” harfiga qiyoslanishi, ko‘zning esa “sod” harfiga taqqoslanishi ham adabiy an’ana. Ogahiy qosh va ko‘zning ittifoqini ifodalash uchun ularni ostin-ustin joylashtiradi. Aslida ham qosh bilan ko‘z shunday joylashgan, hamjihat birikuvidan “nas” so‘zi vujudga kelgan. Arabcha bu so‘z “hukm” degan ma’noni anglatadi.

Demak, qoshlar hay’ati jallod ko‘zga oshiqni qatl etish to‘g‘risida shafqatsiz hukm chiqarib beradi.

Furqatning:
“**Nuqta** lab ustida bejodur”, – dedim aydi kulib,
“Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda”,
Huvaydoning:
Nigora, bori g‘am birla faqiri notavon aylab,
Alifdek qomatimni **lom-alif** yanglig‘ duto qilding.
Komil Xorazmiyning:
Ayn-u, **shin**-u **qof**inga to bo‘ldi ko‘nglum mubtalo,
Dol-u, **Ro**-u, **dol**-u hajringdin dame ermon judo.
Furqatning:
Sarv qadlar suratin chekkanda naqqoshi azal
Bir **alif** shaklida yozmish qaddi zebo surating.
kabi ajoyib misralar shular jumlasidandir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, kitobat san’atidan o‘rinli foydalanish she’rning ta’sir kuchini oshirish, ma’no ko‘lamini kengaytirish, she’rning hayotiylik va musiqiyligini ta’minlashga xizmat qiladigan mumtoz she’r san’atidir.

Foydalanilgan adabiyolar:

1. A.Asallayev,V.Rahmonov, F.Musurmonqulov . Badiiy san’atlar – Toshkent: Tafakkur nashriyoti ., – 2015.
2. Sharafjon Sariyev. Adabiyot. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Head Books nashriyoti, – 2018.
3. Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat mahorati. Toshkent: Sharq nashriyoti – 1999.
4. Anvar Hojiahmedov. She’r san’atlarini bilasizmi? – Toshkent: Sharq nashriyoti – 2001.

BADIIY MATNDA FRAZEMALARNING POETIK IMKONIYATLARI

Hamid Yodgorov
GulDU dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada poetik matnda frazeologik birliklarning tutgan o‘rni, ularning poetik aktuallashuvga o‘ta moyilligi, voqea, hodisa hamda turli xarakterlarni tasvirlashda o‘zining ixchamligi, siqiqligi, ma’no ifodasining ta’sirchanligi kabi masalalar yoritilgan. Shu bilan birga, ijodkorning frazemalarni badiiy matnga olib kirishdagi mahorati va undan foydalanish individualligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, poetika, frazema, ko‘chma ma’no, poetik aktuallashuv, mahorat, so‘z qo‘llashdagi individuallik, sillabik tenglik, ekspressivlik, turg‘un birikmalar.

Hayotdagi xilma-xil voqea-hodisalarning tagiga etish, turli-tuman harakat-holatlarga baho berish, katta-kichik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalari bo‘lmish frazeologik birliklar badiiy matnda deyarli hamisha poetik aktual bo‘ladi.

Shu o‘rinda tilshunos A.Mamatovning quyidagi fikrlarini eslash o‘rinlidir:” U yoki bu xalqning yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani, urf-odati, dini kabilar bilan bog‘lanadi”(1).

Odatda ijodkor o‘z poetik asarlari tilining ravon va mazmundor bo‘lishi uchun, qofiyalarning to‘q va misralarning teng bo‘lishi uchun kurashar ekan, ko‘p hollarda **turg‘un birikmalar** - frazemalarni ham asosiy mazmunini buzmagan holda shaklan yo kengaytirib, yo qisqartirib beradi:

Qaydasan, sen qo‘yding yo‘qlamay,
Menda ham bu **ko‘ngil to‘q** endi.

Oldingi uzun tun uxlamay,

Jon chekib yozishlar yo‘q endi... (H. Xudoyberdieva)

Ushbu she’riy parchada **"ko‘ngil to‘q", "jon chekmoq"** iboralari qo‘llanilgan. Keyingi frazemaning shaklini qisman o‘zgartirib berish bilan o‘z asari tilining ravonligi va ifodaliligiga erishgan hamda chuqur mazmunni obrazli qilib berishga muyassar bo‘lgan.

Shoira quyidagi misralarda esa xalq orasida mashhur bo‘lgan **"ko‘ngli to‘lmoq"** iborasini bo‘lishsiz formada - **"ko‘ngil to‘lmaydi"** shaklida yangicha uslubda qo‘llab, asar tilining bo‘yoqdorligini ta’minlagan, natijada mazkur ibora poetik aktuallashgan:

Shunchaki yozmoqqa **ko‘ngil to‘lmaydi,**

Shunchaki yozmoqqa **bormaydiqo‘lim.**

Shunchaki yozmoqqa chidab **bo‘lmaydi,**

Shunchaki yozmoq, bu-shoirga **o‘lim.** (H. Xudoyberdieva)

Xalq tilida ***“tosh otmoq”, “bosh ko‘tarmoq”*** iboralari mavjud.

Shoira **“Ko‘pni ko‘rdim”** nomli she’rida har ikki iboradan juda mohirona .....foydalangan. Bilamizki, “Tosh otmoq “ iborasi *yomonlik qilmoq, dushmanlik qilmoq, ko‘rolmaslik* kabi ma’nolarni tashishga xizmat qiladi. Vaholanki, bu qusurlar odam tabiatida bo‘lsa, u illat hisoblanadi. Shunday ekan, o‘qimishli, rahbar “arboblar” bir-biriga tosh otsalar, xalqni kim boshqaradi? Odatda muchal yillari har to‘rt yilda bir keladi, shoira “avomining yili hamon qo‘ydir, yuvvosh” deyish bilan “bularining barchasi qo‘y yilida tug‘ilganlar, shuning uchun qo‘yday yuvvosh, ularga baribir, jamiyatda, hayotda bo‘layotgan voqealar bilan ishi yo‘q, na fikr bildiradi, na illatlarga qarshi kurashadi” degan ma’noni ilgari suradi. Mazkur misradagi ***hamon*** so‘ziga ulkan ma’no yuki ortilgan, go‘yo avom xalq faqat qo‘y yilida tug‘ilganday...Uchinchi misradagi “Ziyolisi boshqorong‘i, ko‘tarmas bosh” jumlasida ziyolilar o‘zi bilan o‘zi band, “yo‘qotgan” narsasini topolmaganday, boshini ko‘tarolmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Shoira “bosh ko‘tarmoq “ iborasini bo‘lishsiz formada qo‘llab, poetik ifodalilikni ta’minlagan. Nihoyat, yakunlovchi misra yuqorida bildirilgan fikrlarga xotima vazifasini bajarmoqda, negaki *uxlamoq* so‘zi ko‘chma ma’noda kelganda, *vaqtni boy bermoq, imkoniyatdan ajralmoq, g‘aflatda qolmoq* kabi salbiy ma’no tashishga xizmat qiladi.

Arboblari bir-biriga **oturlar tosh,**

Avomining yili hamon qo‘ydir, yuvvosh.

Ziyolisi boshqorong‘i, **ko‘tarmas bosh,**

Bu dunyoga uxlatgani yubordingmu? (H. Xudoyberdieva)

Misollardan ko‘rinadiki, Halima Xudoyberdieva o‘z asarlari tilini shirali va ravon qilish uchun xalq tilidan foydalanar ekan, tilga ehtiyotkorlik va hurmat bilan yondashadi. Ayrim hollarda esa, u vazn va o‘lchovni saqlash, to‘liq qofiyalar yaratish uchun xalq tilining turli formalaridan hamda eski o‘zbek adabiy tilining ayrim formalaridan ham unumli foydalanadi.

Muhammad Yusuf she’riyatining o‘ziga xosligini shoirning jonli xalq tilidan maksimum foydalanishi belgilasa, ajabmas.

Shoir xalq mulki bo‘lmish turg‘un birikmalar – frazemalardan o‘z ijodida unumli foydalangan:

Qon yig‘latdi qaysi bag‘ritosh,

Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?

Oyog‘ingga qo‘yib yotay bosh,

Jayron, nega ko‘zing to‘la yosh?

Ushbu she’riy parchada **"qon yig‘lamoq", "oyog‘iga bosh qo‘ymoq"** iboralari qo‘llanilgan. Badiiy matnga ustalik bilan olib kirilgan mazkur frazemalar asar mazmunini nihoyatda boyitgan, shu bilan birga, kitobxon ko‘z oldida voqelikni jonli tasvirlash imkonini bergan. Imoratdagi har bir g‘ishtning o‘z o‘rni bo‘lgani kabi mazkur she’riy asarda ham har bir so‘z o‘zining muqim o‘rniga ega.

Shoir quyidagi misralarda esa xalq orasida mashhur bo‘lgan **"qo‘liga qaramoq"** iborasini bo‘lishsiz formada - **"qo‘liga qaramagan"** shaklida yangicha uslubda qo‘llab, asar tilining bo‘yoqdorligini ta’minlagan:

Ey, o‘tmishdan o‘tgan kunin so‘ramagan,

O‘zbek borsa, kim qo‘liga qaramagan?

Botirlari qul bo‘lishga yaramagan, -

Suluvlari bo‘yniga osilgan dunyo!

Misollardan ko‘rinadiki, Muhammad Yusuf jonli xalq tilini chuqur o‘zlashtirgan ijodkor sifatida til birliklaridan badiiy mazmunning to‘kisligini ta’minlashda individual layoqatini to‘la namoyon qila olgan. Shu bois, o‘z asarlari tilining shirali va ravon bo‘lishiga erishgan. Ayrim hollarda esa, u vazn va o‘lchovni saqlash, to‘liq qofiyalar yaratish uchun xalq tilining barcha ko‘rinishlaridan hamda eski o‘zbek adabiy tilining ayrim formalaridan ham unumli foydalanadi.

Muhammad Yusufning umumxalq tili imkoniyatlaridan foydalanishdagi, xususan, xalq iboralaridan foydalanish sohasidagi novatorligi, birinchi navbatda, shoirning frazemalarni o‘z asarlari mazmuniga yarasha qayta ishlab, silliqlashtirishda va ixchamlashtirishida ko‘rinadi:

Aslida-ku, baringiz bir o‘zbeksiz,
Bir yurt o‘g‘li,bir uzukka ko‘zdeksiz.
Bo‘g‘zimda tosh qotib qolgan so‘zdeksiz,
Mardu maydon bo‘lib ketgan o‘g‘lonlar.

Tilda **"uzukka ko‘z qo‘yganday", "tosh qotmoq"** iboralari mavjud. Shoir mazkur iboralarni bir oz o‘zgartirib, yangicha qo‘llab, ularni yangi ma’no bilan boyitadi. Yoki:

Bu dunyoda balki, bir onaning siz-
Tilab olgan yolg‘iz o‘g‘li edingiz.
Qaytmas bo‘lib qaro erga ketdingiz,
Mulki afg‘on bo‘lib ketgan, o‘g‘lonlar.

Jonli xalq tilida **"tilab olgan o‘g‘il"** iborasi tez-tez ishlatiladi. Shoir shu iborani mohirlik bilan misralar ichiga joylab, yaxlit bir umumlashma ma’noni bera olgan.

Xulosa o‘rnida aytish kerak, xalq iboralari voqelikni obrazli tasvirlashda, ya’ni uni kitobxon ko‘z oldida jonli namoyon qilishda tasvir vositasi sifatida beqiyos ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1.Mamatov A. ”O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi.-T.:1997.-B.37.
2.Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar. –T., 2020.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. –T., 2005.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ВА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ – ДАВР ТАЛАБИ (Тил ўқитишга янгича ёндашиш мисолида)

Тўйчиева Зулайҳо Ҳамроқуловна
Гулистон давлат университети, Ўқитувчи

XXI аср глобаллашув даврида ахборот коммуникация технологиялари ва интернет асри, жаҳон майдонида ва дунё бозорида тобора кучайиб бораётган рақобат асрига айланиб бориб, халқимиз ҳаётида буюк ўзгаришлар содир бўлмоқда. Барча жабҳада, жумладан, иқтисодий, маданий, илмий, соғлиқни сақлаш, айниқса, таълим жараёнидаги ҳеч кимнинг хаёлига ҳам келмаган мислсиз ўзгаришлар, ривожланишлар юз бермоқда. Таълим соҳасида олиб борилаётган туб ислоҳотлар ўз самарасини бермоқда.

Юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек, “Таълим ва тарбия, илм – фан, соғлиқни сақлаш, маданият ва санъат, спортни ривожлантириш масалалари, ёшларимизнинг чуқур билимга эга бўлиши, чет тилларини ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларини пухта эгаллашини таъминлаш доимий устувор вазифамиз бўлиб қолади”. [1]

Бугунги кунда янги педагогик ва инновациялар технологиялар тушунчаси тобора турмушимизга сингиб бормоқда. Ҳозирга пайтда таълим бериш жараёнида янги инновацион технологиялар яхши самара бермоқда. Катта ҳаётга қадам қўяётган ёш мутахассисни жамият талабларига жавоб берадиган, ўз касбини моҳир устаси сифатида ҳаётга тайёрлаш ва илмий салоҳияти билан етук инсон сифатида шаклланиши билан бир қаторда, уларга замонавий педагогик ва инновацион технологиялардан фойдаланиш усулларини шакллантиришдир. Демак, ёшларимизни таълим жараёнида янги педагогик ва инновацион технологиясиз тасавур қилиш мумкин эмас, шундай экан ҳар бир таълим жараёни бевосита янги педагогик ва инновацион технологиялар орқали амалга оширилиши айни муддаодир. Айниқса, нутқ фаолият турларини шакллантиришда унинг аҳамияти каттадир. У талабаларни мустақил фикрлаш, мушоҳада этиш, ижодий фикрлай олиш, шунингдек дунёқарашини кенгайтиришга ўргатишда доимий самара беради.

Таълимнинг бугунги **вазифаси** ўқувчиларни кун сайин ошиб бораётган ахборот – таълим муҳити шароитида **мустақил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот оқимидан оқилона фойдаланишга ўргатишдан** иборатдир. Бунинг учун уларга узлуксиз равишда мус тақил ишлаш имконияти ва шароитини яратиб бериш зарур[2].

Узлуксиз таълим тизимининг бош бўғини сифатида олий таълим тизимида ўқув фаолиятини модернизация қилиш масаласи бугунги кунда ўз ечимини кутаётган асосий масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Бу ҳақда профессор Ж.Йўлдошев шундай дейди: “Умуман, ҳар қандай педагогик жараён ҳам педагогик тизим асосида кечади. Таълимдаги сифат ва самарадорликни ошириш фақат таълим тизимини модернизация қилиш, такомиллаштириш, узвийлик, узлуксизликни таъминлаш, ўқитувчи-педагогларни инновацион фаолиятда ишлашда ўқувчиларнинг фаоллигини ва масъулиятини ошириш билан боғланиб қолаверади”[3]. Демак, инновацион фаолият юритиш – давр талаби ва у ҳар бир педагогдан ўз фаолиятини инноватика фани ютуқлари асосида қайта кўриб чиқишини зарурат қилиб қўяди.

Ўқитиш методларининг бир қатор афзалликлари бор: ўқитиш мазмунини яхши ўзлаштиришга олиб келиш, ўз вақтида алоқаларни таъминлаш, тушунчаларни амалиётда қўллаш учун шароитлар яратилиши, ўқитиш усулларининг турли хил кўринишларини таклиф этиш, ўтилган материални яхши эслаб қолиш, мулоқотга киришиш кўникмасини такомиллашиши, ўз-ўзини баҳолашнинг ўсиши, талабанинг предмет мазмунига ва ўқитиш жараёнига бўлган ижобий муносабати, мустақил фикрлай оладиган талабанишаклланишига ёрдам бериш, нафақат мазмунни ўзлаштиришга, балки танқидий ва мантиқий фикрлашни ҳам ривожлантириш ҳамда муаммоларни ечиш кўникмаларини шакллантириш.

Ўқув-тарбия жараёнида педагогик ва ахборот технологияларнинг тўғри жорий қилиниши ўқитувчининг бу жараёнда асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади. Бу эса ўқувчидан кўпроқ мустақилликни, ижодни ва иродали бўлиш каби сифатларни талаб этади.

Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотни ўзлаштириш ва ўзлаштирган билимларни ўзлари томонидан баҳолашга қодир, зарур қарорлар қабул қилувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган шахслар керак.

Шунинг учун ҳам, таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнида замонавий ўқитиш услублари–интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгартишлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол услублардан фойдаланилади.

Интерфаол (“Интер” – бу ўзаро, “аст” - ҳаракат қилмоқ) –ўзаро ҳаракат қилмоқ ёки ким биландир суҳбат, мулоқот тартибида бўлишни англатади.

6. Darn, S. Content and Language Integrated Learning [Electronic resource] / S.Darn. - 2006. –URL: http://www.teachimgenglish.org.uk/articles/ content-language-integrated-learning.
7. Coyle, D. CLIL – a pedagogical approach [Electronic resource] / D.Coyle // Encyclopedia of Language and Education. 2nd edition. – Springer, 2008. –P. 97-111 – URL: http://blocs.xtec.cat/clilpractiquesl/files/2008/11/slrcoyle.pdf.
8. Coyle, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning / D.Coyle, Ph.Hood, D.Marsh. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. -170 p.
9. Naves, T. Successful CLIL programmes in Naves, T.Munoz, C.and Pavesi, M.Module 2: Second language acquisition for CLIL. – Milan, Italy, -2002. –P. 93-102.

SIRDARYO VILOYATINI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Djurayev Mansur Egamberdiyevich, Husenov Jahongir Qo‘shmurod o‘g‘li, Achilov Jamshid Hasan o‘g‘li

Guliston davlat universiteti, g.f.f.d., dotsent
GulDU qoshidagi akademik litsey geografiya fani o‘qituvchisi
GulDPI magistranti

Hammaga ma’lumki bugunki kunda Sirdaryo viloyati hududi yangi iqtisoslashgan va sanoati jadal suratlarda rivojlanayotgan hududdir. Mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahri va Respublikamizning voha hududlarini bog’lovchi ko’prik vazifasini bajaradi. Shu sababli viloyat strategik ahamiyatga ega hududlardan biridir. Bu jihatlarni hisobga olgan holda Vazirlar Mahkamasining “2022-2026 yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”i qarori qabul qilindi. Qaror yuzasidan ,,yo’l xaritasi’’ tuzilib, o’z ichiga aholini qiynab kelayotgan masalalar va shaharlashuv darajasini oshirish to’g’risidagi loyihalar kiritilgan.

Dastur doirasida 5 yil davomida hududda yalpi hududdiy va sanoat mahsuloatlari 1,6 barobarga oshirilishi ko’zda tutilgan. Xizmatlar hajmi 3,2 barobarga oshiriladi.

Davlat rahbarimizning 2023-yil aprel oyidagi tashrifi ham aynan Sirdaryo iqtisodiy zonasini rivojlantirishga qartilgan edi. Davlat rahbarimiz Xitoy tajribasiga alohida to'xtalib “Sirdaryoda barcha sohalarni rivojlantirishda Xitoy tajribasiga tayanishimiz lozim” deya takidlaganlar. Davlat rahbari aholini yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan 5 ta tashabbusni ilgari surganlar.

Birinchi tashabbus — Turli sohalarning 20 ta yo‘nalishidagi loyihalariga imtiyozlar joriy etilib, sohalarni rivojlantirish maqsadida qator universitet va ilmiy tadqiqot institutlari tashkil etiladi va zamonaviy qurilmalar, pereparatlar, dori vositalari ishlab chiqariladi.

Ikkinchi tashabbus — viloyatning 11 ta tuman va shahri Xitoy modeli asosida sanoatga ixtisoslashadi va ularda quyidagicha yangiliklar joriy etiladi:

- Hozirgi kundagi zamonaviy sohalarga oid yangi innovatsion loyihalar, start UP lar amalga oshiriladi va amalda tadbiq etiladi;
- Tuman va shaharlarga erkin iqtisodiy zona maqomi berilib, tadbirkorlarning tadbirkorlik jarayoniga yengilliklar va qulayliklar berilib, bojxona tizimi ko’rib chiqiladi;
- Zamonaviy, yangi turdagi turar-joy uylari qurilib, aholiga qulay holda kridit asosida beriladi, texnopark tizimiga 200 mlrd so’m miqdorida pul ajratiladi. Xitoy davlati bilan investitsiya jamg’armasi tuziladi va jamg’armaga 1 mlrd dollar sarmoya kiritiladi;

Uchinchi tashabbus — Sirdaryoda ilg‘or agrotexnologiyalar joriy qilinadi.

Xitoy bilan hamkorlikda chorva mollari, paranda va baliq xo’jaligi tashkil etish to’g’risida kelishuvlar tashkil qilinadi. Xitoydan tajribali mutaxasizlar hududga jalb qilinadi. Suvsizlikka va sho’r yerga moslashgan ekinlar, qishloq xo’jaligi mahsulolari yetishtirish chora tadbirlari ko’rib chiqiladi.

To‘rtinchi tashabbus — Sirdaryo O‘zbekistonni Markaziy Osiyo, Xitoy va Afg’oniston davlatlari bilan bog’lovchi yo’l vazifasini bajaradigan markaz bo’ladi.

Xitoy invistorlari bilan hamkorlikda yangi zamonaviy transport va aloqa yo’llari, logistika makrazlari barpo etiladi va jarayon nazorat qilinib boriladi.

Beshinchi tashabbus — Guliston shahri mamlakatning “Innovatsion meditsina xabi"ga aylantiriladi.

2022 — 2026 yillarda Sirdaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jadvali

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Jami	Yillar kesimida				
				2022	2023	2024	2025	2026
Sirdaryo viloyati								
1.	**Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**1,6 baravar**	16,9	19,7	23,0	26,5	30,6

		o‘sish (%)		108,4	109,1	109,8	109,2	109,9
2.	**Sanoat mahsulotlari**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**1,6 baravar**	10,9	12,7	15,2	17,9	21,4
		o‘sish (%)		108,4	109,1	112,3	110,0	112,3
3.	**Qishloq xo‘jaligi**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**1,3 baravar**	11,4	12,0	12,7	13,7	14,8
		o‘sish (%)		104,3	104,7	105,0	105,4	106,0
4.	**Qurilish ishlari**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**1,5 baravar**	3,1	4,6	5,5	6,5	7,6
		o‘sish (%)		109,3	110,1	109,7	108,4	107,4
5.	**Xizmat ko‘rsatish**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**3,2 baravar**	6,5	8,9	10,8	12,6	14,7
		o‘sish (%)		150,8	134,9	120,1	115,1	115,2
6.	**Byudjet tushumlari**	**mlrd so‘m**	**7 055,5**	1100,0	1237,4	1380,3	1559,7	1778,1
Guliston shahri								
1.	**Sanoat mahsulotlari**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**1,5 baravar**	1,1	1,3	1,5	1,8	2,1
		o‘sish (%)		102,3	109,2	109,6	110,3	111,2
2.	**Qishloq xo‘jaligi**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**1,1 baravar**	0,264	0,273	0,285	0,300	0,319
		o‘sish (%)		100,7	101,8	102,0	102,2	102,4
3.	**Qurilish ishlari**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**1,3 baravar**	0,9	1,4	1,6	1,9	2,2
		o‘sish (%)		108,8	107,0	106,2	104,5	102,5
4.	**Xizmat ko‘rsatish**	**hajmi** *(trln so‘m)*	**3,6 baravar**	3,2	4,4	5,5	6,5	7,7
		o‘sish (%)		156,1	138,4	121,9	117,4	117,2

Yuqoridagi jadvalda Sirdaryo viloyati va ma’muriy markazi – Guliston shahrini 5 yil davomida turli tarmoqlarni o‘zgarish dinamikasini ko‘rish mumkin. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, turli tarmoqlar yildan-yilga o’zgarib, o‘sib bormoqda. Bu esa, yosh va navqiron Sirdaryo viloyatini kelajakda muhim iqtisodiy markaz sifatida rivojlantirishiadn dalolat bermqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.spot.uz/oz/2023/04/07/syrdarya-five-initiatives/
2. https://lex.uz/uz/docs/5998434

ПАРАГЕНЕТИК ЛАНДШАФТЛАР ДИНАМИКАСИ ВА МОРФОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Джураев Мансур Эгамбердиевич
Гулистон давлат университети в.б., доценти

Аннотация: Ушбу мақола парагенетик ландшафтлар динамикаси ва морфологик ўзгаришларини тадқиқ этишнинг илмий асосларига бағишланади. Мақолада парагенетик ландшафтлар динамик ва морфологик ўзгаришлари атофлича тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: парагенетик ланшафтлар, морфологик бирликлар, геокомплекслар, геофизик муҳит, горизонтал, вертикал ва бошқалар.

Парагенетик ландшафтларга таъсир этувчи омиллар, ўзаро алоқадорлик ва генетик боғлиқлиги ҳамда алоқадорликнинг морфологик бирликларидаги ўзгаришларга таъсири масалалари динамик жараёнлар сифатида ўтган асрнинг 60-йилларидан ўрганила бошланди.

Парагенетик ландшафтлар ўртасидаги алоқадорлик, динамик жараёнлар таъсирида морфологик бирликларнинг ўзгаришига оид илмий тадқиқотлар Ф.Н.Мильков (1966,1970,1977,1981,1990), В.Б.Михно(1969), В.В.Козин (1974,1977,1979), А.Ю.Ретеюм (1972,1977), К.А.Дроздов (1978), Ю.М.Цимбалей (1997) каби олимлар томонидан амалга оширилган.

Парагенетик ландшафтлар динамикаси ва улардаги морфологик ўзгаришларни тадқиқ этишда илмий методологик асос бўлиб геокомплексларнинг динамикаси, улар ўртасидаги алоқадорлик, боғлиқлик ландшафтларнинг морфологик тузилиши ва ландшафтларнинг элементар бирликларининг ривожланиши, динамикаси, ландшафтларнинг вертикал ва горизонтал тузилиши ҳақидаги тушунчалар ҳисобланади.

Парагенетик ландшафтларнинг динамикаси, морфологик ўзгаришларида геокимёвий жараёнларнинг аҳамияти катта бўлиб, бир ландшафтдан иккинчи ландшафтга, бир компонентдан иккинчи компонентга геокимёвий элементларнинг миграцияси юзага келади. Бу жараён муайян геофизик муҳитда ҳосил бўлади ҳамда инсит жараёнлар ҳисобланиб миграцион оқим бир ландшафт компонентлари ичида кечади. Ландшафтлар геофизикаси ва геокимёси йўналишида А.И.Перельман (1955, 1975), М.А.Глазовская (1964), К.Н.Дьяконов (1971, 1975, 1988), Н.А.Солнцев (1962, 1981), В.Б.Сочава (1978), С.М.Зубов (1985), Н.Л.Беручашвили (1986, 1989, 1990)лар томонидан олиб борилган тадқиқотлар натижасида турли геофизик шариотига эга бўлган ландшафтлардаги геокимёвий миграцион жараёнлар, ландшафтлардаги модда ва энергия алмашиниши, унинг энергетик асослари, механизми ҳақидаги ғоялар ва тушунчалар ривожлантирилган.

Маълумки ландшафтларнинг динамикаси ва ривожланиши географик қобиқдаги географик қонуниятлар негизида амалга ошади. Бундай қонуниятлар парагенетик ландшафтлардаги динамик жараёнларни ташкил этади, унинг энергетик асосини таъминлайди. Парагенетик ландшафтлар ҳақидаги таълимотнинг яратилишида Ф.Н.Мильковнинг хизматлари катта бўлди. Парагенетик ландшафтлар (лот. “para” – ёнида, ёнма-ён, ёндош, “genesis” - туғилиш) келиб чиқишига кўра умумийликка эга бўлган ёндош ўзаро таъсири фаол бўлган турли мажмуалар тизимидир. (Ф.Милков, 1990, 172 б.). Парагенетик ландшафтларнинг вужудга келши маълум турдаги жараён ва омиллар таъсирида бир вақтнинг ўзида ёки кема-кетликда рўй бериши мумкин. Парагенетик ландшафтларнинг динамикасида контрастлиликни яъни турли ландшафтлар ўртасидаги гипсометрик ҳолатга боғлиқ бўлган геокимёвий жараёнларни асослаган. Динамик жараёнларнинг интенсивлиги айниқса гравитацион жараёнларга боғлиқ бўлиб, тадқиқот объектимиз бўлган Фарғона водийсининг адир-текислик парагенетик ландшафтларида турли интенсивликда рўй берадиган миграцион жараёнларни аниқладик.

Парагенетик ландшафтлар, парагенетик ва парадинамик тизимлар ҳисобланади, улар ўртасидаги алоқалар ландшафт доирасида амалга ошади. Вертикал (тик) алоқалар ландшафт компонентлари ўртасида юзага келиб, парагенетик ландшафтларни морфологик тузилмаларини ҳосил бўлишига ва табақаланишига олиб келади. Горизонтал (ётиқ) алоқалар туфайли

парагенетик ландшафтларда модда ва энергия алмашинуви рўй беради. Бу жараёнлар адир-текислик парагенетик ландшафтларида бир ёқлама йўналишдаги гравитацион оқимни ташкил этади. Парагенетик ландшафтларда гравитацион оқим геологик, геоморфологик, иқлимий ва гидрологик омиллар туфайли юзага келиб, парагенетик ландшафтларда морфологик табақаланишни келтириб чиқаради. Адир-текислик парагенетик ландшафтларида табақаланишни юзага келишида генетик-морфологик, позицион (жойлашув ҳолати) ва динамик тамойиллар асосий ўринни эгаллайди. Айниқса гипсометрик жиҳатдан фарқ қилувчи баланд (Шўрсув, Чимён, Қопчиғай) ва паст (Арсиф, Полвонтош, Қува) адирларида адирлараро ва адир орти қия текисликларида позицион жойлашув морфологик табақалинишни юзага келтиради.

Фарғона водийсидаги парагенетик ландшафтларни позицион жойлашуви Жанубий Фарғона адир-текислик парагенетик тизимларида яққол ифодаланади. Айниқса вертикал контрастлилик ландшафт компонентларининг жойлашувига таъсир кўрсатади. Бу ўз навбатида ландшафт яруслarини ҳосил қилади.

Жанубий Фарғона адир-текислик парагенетик ландшафтларида олиб борган тадқиқотларимиз асосида, адир-текислик парагенетик тизимларидаги ҳар бир ландшафт яруслари ёнбағир фацияларидаги динамик жараёнларнинг интенсивлигига қараб ажратилди. Ландшафт яруслари эса Ф.Н.Мильков (1974) томонидан киритилган ёнбағир микрозоналарига мос келади.

А.А.Абулқосимов (1974) томонидан ҳам тоғ оралиғи ботиқларидаги ёнбағир микрозоналлиги ва унинг келиб чиқишини, ландшафтни ташкил қилган компонентлари хусусиятларига боғлиқ эканлиги эътироф этилган.

Парагенетик ландшафтларни тадқиқ этишда уларнинг маконий чегараларини аниқлаш ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Парагенетик ланфдшафтларнинг мавжудлиги ва функционал динамик хусусиятлари вертикал ва горизонтал алоқаларга бевосита боғлиқдир. Вертикал ва горизонтал алоқларни ўрганиш орқали парагенетик ландшафтларни табақалаштириш имконияти юзага келди.

Ландшафтларнинг вертикал ва горизонтал чегаралари ҳамда уни аниқлашда кўплаб тадқиқотчиларнинг илмий хулосалари мавжуд. М.А.Лихоман (1982) томонидан ёзилган “География чегаралар” монографиясида, В.А.Боков (1983), А.М.Трофимов (1977, 1983)ларнинг илмий тадқиқотларида ландшафтларнинг вертикал ва горизонтал чегаралари ҳақида етарлича маълумотлар берилган.

А.С.Горбунов (2002, 2007) томонидан Ўрта рус ўрмон дашт зоналари ландшафтларини вертикал табақаланишини ўрганишга қаратилган илмий тушунчалар шакиллантирилди.

Б.Б.Родоман (1982, 2002) томонидан эса ландшафтларнинг функционал белгиларига кўра дивергент, конвергент, градиент ва жараёнли чегараларни ажратган. Ландшафтлардаги дивергент чегараларига сув, ҳаво ва минераллар оқимини ҳамда уларни ҳар томонга тарқалишини юзага келтирувчи чегараларни киритилади. Бундай чегараларга сувайирғичлари, баланд қоялар, ҳаво оқимлари йўналишини ажратувчи чегаралар киради.

Конвергент чегаралар эса оқимларнинг муайян йўналишида мутаносиб келувчи чегаралар ҳисобланади. Градент чегаралар эса кескин чегаралар ҳосил қилувчи майдон ёки чизиқлардан иборат бўлади. Масалан, қирғоқ чизиғи чегараси, ўт ўсимликлар билан дарахт ўсимликлари ўртасидаги чегаралар ва ҳ.к. Жараёнли чегаралар ландшафтларда содир бўладиган жараёнларни минтақавий чегарасини билдиради. Масалан гравитацион жараёнлар чегаралари.

Ландшафтларнинг вертикал ва горизонтал структурасида ўзининг характерига кўра:

- аниқ чегаралар кўлами бир ландшафтдан иккинчи ландшафтга ўтишда яққол ифодаланади;

- доимий чегаралар – бунда ўтувчи чегаралар бутун ландшафт бўйлаб бир хил ҳолатда жойлашади;

- экотон чегаралар-ўтувчи чегаралар бўлиб ландшафтлар ўртасидаги оралиқ ўтувчи полосани ҳосил қилади.

Парагенетик ландшафтларни тадқиқ қилишда уларнинг маконий жойланиши, чегаралари ва хилма-хиллигини аниқлаш орқали турли даражадаги таксономик табақалаштириш амалга оширилади.

Парагенетик ландшафт бир хил структурага эга бўлган маконий тизимлар геомерлар ҳисобланади. Шунинг билан бирга парагенетик ландшафтлар бир хил геологик жараёнларда шакилланган бўлсада морфологик жиҳатдан бир хил кўринишга эга бўлмаган (гетероген) яхлит маконий тизимларни ҳосил қилади. Бундай тизимлар энг кичик морфологик бирлик (геомер)лар орқали геохораларга бирлашади. Геохоралар ландшафтларнинг бир хил кўринишга эга бўлмаган яхлит маконий тизимлари бўлиб,бизнинг фикримизча парагенетик ландшафтлар мақомига мос келади.

Парагенетик ландшафтлар ўртасидаги алоқалар экотон чегаралари орқали амалга ошади. Экотон чегараларни ландшафт экотони деб аталади. Ландшафт экотони ўтувчи полоса ҳисобланиб, парагенетик ландшафтларда модда ва энергия оқимини ўзидан қуйида жойлашган парагенетик тизимларга ўтказувчи транзит майдон вазифасини бажаради.

Экотон атамаси фанга Ф.Клеменс (1928) томонидан киритилган бўлиб, унинг эътироф этишича экотонлар ўтувчи полосалар иккита бир-биридан фарқ қилувчи геотизимларни ажратиб туради. Экотонларни Д.Л.Арманд (1955) ўтувчи ландшафт бирлиги деб ҳисоблайди. Н.А.Солнцев (1977) эса ландшафт экотонларини буфер геотизимлар деб атайди.

Парагенетик ландшафтларнинг ўзаро алоқалари айнан шу ўтувчи полосалар орқали амалга ошади. Ландшафт экотонлари позицион жойланишига кўра А.И.Перельман (1975) буфер зоналарни 4 та типини ажратади:

- механик;
- физик-кимёвий;
- биокимёвий;
- техноген.

Фарғона водийсининг адир-текислик парагенетик ландшафтларини ажратиб турувчи ландшафт экотонлари модда ва энергия оқимини ўзидан қуйида жойлашган геотизимларга кириб келишга имкон берувчи транзит зоналарни ҳосил қилади. Фарғона водийсида олиб борган тадқиқотларимиз натижасида адир-текислик парагенетик тизимлари доирасида экотон типидаги 3 та геокомплексларни ажратдик:

1. Адирларнинг этаги денудацион элювиал типи.
2. Конуссимон ёйилмаларнинг периферик қисмлари аллювиал экотон типи.
3. Тоғ олди делювиал – элювиал экотон типи.

Юқорида келтирилган ландшафт экотонлари парагенетик тизимга бирлашиб, позицион жойланишига кўра 2-тартибли кўринишга ёки оралиқ мақомга эга бўлади.

Биз тадқиқот олиб борган Жанубий Фарғонадаги адир-текислик парагенетик ландшафтларида адирлар этакларида, адирлараро чўкмаларида, конус ёйилмаларининг периферик қисмларида турли катталикдаги экотон ҳудудлар ажратилди. Ландшафт экотони бир ландшафтдан иккинчи ландшафтга кириб келувчи энергия ва моддалар оқимини тутиб қолади, тўплайди ёки ўтказиб юборади. Уларнинг морфологик ўзгаришлари миграцион жараёнларнинг интенсивлигига боғлиқ бўлади. Ландшафт экотонлари парагенетик ландшафтларнинг чегаравий табақаланишига таъсир кўрсатади, айниқса вертикал ва горизонтал чегараларни табақаланишида оралиқ функцияни бажаради. Ландшафтларнинга вертикал ва горизонтал чегаралари ҳақидаги маълумотлар А.Г.Исаченко (1965) ва И.И.Мамай (1982)ларнинг тадқиқотлардан ҳам ўрин олган.

А.Ю.Ретеюм (1972) фикрига кўра ландшафтларнинг вертикал чегараси фавқулотда доимий эмас ва у биологик айланма ҳаракатларнинг кўлами билан белгиланади.

Жанубий Фарғонанинг адир-текислик парагенетик ландшафтларида олиб борган тадқиқотларимиз давомида улар ўртасидаги вертикал ва горизонтал чегараларни аниқлашга доир бир қанча тадқиқот ишлари амалга оширилди. Тадқиқотларимиз натижасига кўра вертикал чегаралар адирлар ҳудудида яққол ифодаланганлигини кўрдик. Горизонтал чегаралар кўлами адир ландшафтларида бир неча ўнлаб ва юзлаб метрлардан иборат. Адирлар тепасида горизонтал чегаралар гипсометрик фарқлар билан ифодаланади.

Адирлар тепасидаги дўнг ёки ясси юзалар юқори геогоризонталларни ҳосил қилади. Ёнбағир бўйлаб геогоризонталлар чегарали кескин қисқариб вертикал кўринишни олади. Адирлараро пастқамликларда, адирлар этагидаги қия текисликларда горизонтал чегаралар катталашиб боради, вертикал чегаралар эса компонентлар чегарасидан иборат бўлади.

Ландшафт компонентлари геогоризонталларни ҳосил қилади. Адир парагенетик тизимларида геогоризонталлар яхши табақалашмаган. Тупроқ горизонтлари ҳам тўлиқ табақалашмаган, ўсимлик қоплами сийрак ва ёнбағир жараёнлари интенсивлиги шароитида доимий чегараларни ажратиш қийин. Текислик парагенетик тизимларида вертикал ва горизонтал чегаралар яққол ифодаланади. Жанубий Фарғона адирорти, адирлараро пастқамликларда ландшафтларнинг горизонтал чегаралари лентасимон ва занжирсимон тузилган ландшафт катеналарини ҳосил қилади. Уларнинг генезисида аллювиал, аллювиал-пролювиал ётқизиқлар асосий ўринни эгаллайди. Геогоризонталлар яхши шакилланган ва уларни ҳосил бўлишида эрозион, денудацион, аккумулятив жараёнлар асосий ўринни эгаллайди.

Текислик парагенетик ландшафтларини чегараларини ажратишда геологик-геоморфологик омиллардан ташқари тупроқ-мелиоратив ҳолати гидрогеологик шароити, ўзлаштирилганлик даражаси ҳам эътиборга олинади.

Жанубий Фарғона ҳудудидаги адир-текислик парагенетик тизимларидан позицион жойлашишига кўра уч ярусли ландшафт катеналарини ажратдик. Ландшафт катеналарини ажратишда асосий омил сифатида релъефнинг позицион ҳолати ва миграцион жараёнлар интенсивлиги ҳисобга олинди. Шунга кўра эрозион-денудацион (адирлар ёнбағир қисмлари) транзит (экотон зоналар) ва аккумулятив ландшафт катеналарида миграцион жараёнлар механизми мобиллашув, транслокация ва аккумуляция босқичларида амалга ошади ва бунинг натижасида адир-текислик парагенетик ландшафтларининг динамикаси морфологик ўзгаришлари содир бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мильков Ф.Н. Парагенетические ландшафтные комплексы Воронеж, 1966.

2. Мильков Ф.Н. Словарь-справочник по физической географии. - М.: Мысль,1970.

3. Михно В.Б. К вопросу о взаимосвязи урочиш в парагенетическом ландшафтном комплексе на примере балки “Владимирский лог” -Воронеж: ВГУ, 1969.

4. Михьно В.Б., Кучин А.В. К вопросу создания ландшафтно-экологического каркаса Западнаго района Липецкой области. // Вестн. Воронеж. гос. ун-та. Сер. География-Геоэкология. 2005

“SIRDARYO VILOYATIDA MEHNAT RESURSLARI VA MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI”

Qurbonova Charos Toshmurod qizi

Guliston Davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada aholi bandligi tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qilingan. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda bandlik va mehnat bozorini tartibga solishning modellari o‘rganib chiqilgan. Mazkur tajribalaridan Sirdaryo viloyatida ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko‘paytirish bo‘yicha foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat bozori,ish beruvchi, ishchi kuchi,talab,bandlik, funksional tuzilmalar

Mustaqil O’zbekiston endilikda ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarda taraqqiyotning yangi bosqichiga shaxdam qadamlar bilan ko’tarilib bormoqda. Respublikaning bozor munosabatlariga o’tishi iqtisodiyotni tubdan yangilanishiga zamin hozirlaydi. Ushbu o’zgarishlar dastlab mehnat munosabatlari orqali namoyon bo’lib, mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqardi. O’zbekiston Respublikasi Prezdenti SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaydiki “Yurtimizda yiliga 1,5 millionodamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo‟lsada,o’tgan yili Bandlikka ko’maklashish markazlari atigi 248 ming kishini yoki 16,5 foizni ishga joylashtirgan, Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog’liq”[1]

Mehnat bozori mexanizmi orqali aholining bandlilik darajasi va ish haqi belgilanadi, ya’ni ishchi kuchi bozori millat farovonligini, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlarning samarasini belgilovchi asosiy ko’rsatkichlardan biri bo’lib hisoblanadi.Mehnat bozoriga ta’sir ko’rsatuvchi quyidagi tashqi va ichki omillarni alohida ko’rsatib o’tish zarur. Yangi tashkil etilgan barqaror ish

o’rinlari sonining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi mehnat bozorida muvozanatlilikning buzilishiga, respublikamizning ayrim mintaqalarida ishsizlik darajasining oshib ketishiga, noqonuniy mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlikning o’sishiga olib kelmoqda..

Bizning fikrimizcha, O’zbekiston Respublikasi mehnat bozoridagi tanglik darajasini kamaytirish, ishchi kuchiga talab va taklif o’rtasidagi muvozanatga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-milliy xususiyatdan kelib chiqib kasanachilik mehnatini joriy etish, milliy hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish, xizmat ko’rsatish va servis sohasini rivojlantirish, shaxsiy yordamchi va dehqon xo’jaliklarida qoramol boqish kabi ish bilan bandlikning samarali shakllarini rivojlantirish. Aytish joizki, bu shakldagi ish o’rinlarini tashkil etishga kam xarajat qilgan holda yuqori natijaga erishiladi;[2]

-ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish. Buning uchun hududlardagi mavjud korxonalarda mutaxassislarga bo’lgan ehtiyojini aniqlash;

-kasbga tayyorlanadigan fuqarolarning korxonalarda ishga joylashishini kafolatlash;

-ishsiz fuqarolarni tayanch kasb-hunar kollejlarida kasbga tayyorlashga e’tibor qaratish lozim;

-ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni kvota ish o’rinlariga ishga joylashtirish. Bu toifadagilarni kvota ish o’rinlariga ishga joylashtirishdagi muammolarni yechish uchun:

-ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan aholi qatlamini aniqlash monitoringini takomillashtirish;

- kvota ish o’rinlari yaratish bo’yicha mavjud bo’lgan imkoniyatlardan samarali foydalanish;

- korxonalar ichki imkoniyatlarini to’liq o’rganib chiqish; hududdagi har bir korxona bo’yicha belgilangan kvota ish o’rinlari yaratilganligi va ushbu ish o’rinlariga aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini ishga joylashishi bo„yicha monitoring sifatini oshirish; [3]

-kvota ish o’rinlari yaratayotgan korxonalarga qonunchilik doirasida beriladigan imtiyozlarni samarali tarzda targ’ibot qilish tavsiya qilinadi;

-boshqa mamlakatlarga borib daromad topayotgan fuqarolarni rasmiy ish bilan bandlikka o’tkazish uchun mustaqil xorijga ishga borayotganlarga pensiya jamg’armasiga to’lovni amalga oshirishni ixtiyoriy qilgan holda, ish bilan bandligini mahalliy boshqaruv muassasalarida qayd qilish va mehnat daftarchasi yurgizishni yo’lga qo’yish lozim;[2]

Sirdaryoda mehnat bozorida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatlar hamda ularning o’zgarishi ish bilan bandlikka ko’maklashish sohasidagi tashkiliy tuzilmalar faoliyatiga sezilarli ta’sir etmoqda.Mehnat salohiyatini tez sur’atlar bilan o’sishi ish bilan bandlikni ta’minlash muammosini ko’ndalang qilib qo’ymoqda. Davlat ish bilan bandlik xizmati organlarida bo’sh ish joylari mavjud. Ayrim davrlarda ishchi kuchiga bo’lgan talabning qoniqtirilmaganlik darajasi rasmiy ishsizlar sonidan 1,3-1,5 marta ortadi. Bu asosan, ishchi kuchiga talab va taklifning sifat ko’rsatkichlari bilan mos tushmaganligi sabablidir. [4]

Keyngi yillarda bo’sh joylar soni nisbatan kamaydi, biroq talab va taklifni sifat nuqtai-nazaridan muvofiqlashtirish muammosi saqlanib qolmoqda, bandlikka ko’maklashish markazlariga malakali ishchilar oqimining ortishini hisobga oladigan bo’lsa, bu muammo kuchayishi mumkin. O’zbekiston Respublikasi

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirligi hisob-kitoblariga ko’ra, O’zbekistonda ishsizlikning real darajasi iqtisodiy faol aholi sonining 3,8-5 %ni tashkil etadi. Jahon amaliyotida ishsizlikning chegaraviy yuqori darajasi etib, 10% hisoblanadi.[5]

Hozirgi vaqtda davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining samaradorligi chegaralangan doiradagi ko’rsatkichlar bilan baholanmoqda. Bunda gap qoida sifatida ish bilan band bo’lganlar haqida emas, balki ish bilan band bo’lmagan aholi haqida borayapti. Ish bilan bandlikni ta’minlash holatini baholashning mezoni ishsizlik darajasining o’zgarishi hisoblanib, agarda u kamaysa – ish bilan bandlik xizmatining faoliyati samarali, agarda u oshsa – samarasiz hisoblanadi.

Davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining samaradorligini baholashda asosiy ko’rsatkichlar ishsizlik darajasining o’zgarishi va ishsizlikning davomiyligi bo’lib hisoblangan.

Ish bilan bandlik xizmati organlari faoliyatlarining turli darajalarini o’z ichiga oluvchi va belgilangan, bir-biriga yaqin masalalarni bajarilishini ta’minlovchi funksional tuzilmalar tuzish zarur. Bu funksional tuzilmalarning yaratilishi mehnat bozorida samarali davlat siyosatini yuritishning

tashkiliy asosi bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, funksional tuzilmalar faoliyatining belgilangan masalalar bo'yicha maqsadidan kelib chiqqan holda o'zaro birikishi ular o'rtasida aloqadorlikni mustahkamlaydi va funksiyalar takrorlanishini minimumgacha tushirishni ta'minlaydi.[4]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Sirdaryodagi iqtisodiy o'sish barqaror ish o'rinlari va bandlik sonining ko'payishi bilan yonma- yon yurmagan. Shu jumladan yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar ayollar, erkaklar, rasmiy va norasmiy sektordagi bandlik, ishsizlik va iqtisodiy faollik darajasini o'rgandik. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar o'rtasida bandlik darajasi pastligi ayollarning iqtisodiy faolligining pastligi bilan bog'liq. Norasmiy sektorda bandlar rasmiy sektorda bandlarga qaraganda ancha yuqorini ko'rsatmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasining yuqori darajasi O'zbekistondagi mehnat bozoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. AbdurahmonovQ.X., Mehnatiqtisodiyoti. -T.: "Mehnat" – 2009. -511 b.

2. AbdurahmonovQ.X., V.Imomov. O'zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish –T.: "Akademiya", 2008.

3.AbduraxmonovQ.X., MurtazoyevB.Ch. Mehnatbozori Toshkent: 1999.

4.ShodmonovSh.Sh., G„ofurovU.V. Iqtisodiyotnazariyasi. Darslik. – T: "Iqtisodiyot moliya", 2009, 529-b.

5. Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma"lumotlari.

SIRDARYO VILOYATIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARINING O'RNI

Altibayeva Muxayyo Begimqulovna
Guliston davlat universiteti "Ekologiya va geografiya" kafedrasi
o'qituvchi

O'zbekiston Respublikasining har bir mintaqasi bir biridan o'ziga xos tabiiy sharoiti va tabiiy resurs xususiyatlariga ko'ra farq qilishi barchamizga ma'lum. Ular ko'plab xizmat ko'rsatish tamoqlarining hududiy joylashuvida katta ahamiyatga ega. Sirdaryo viloyati Mirzacho'l iqtisodiy rayonining shimoli-sharqiy hududini egallagan holda o'ziga xos mavqega ega. Bu holat Toshkent viloyati, Zarafshon va Farg'ona vodiylariga qo'shniligi, magistral transport yo'llarining o'tganligi bilan baholanadi. Shuningdek, uning shimoldan janubiy Qozog'iston, janubdan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradoshligi geosiyosiy joylashuv jihatdan qulayliklarni yuzaga keltiradi.

Viloyat hududining asosiy qismi tekisliklardan iboratligi, yer osti boyliklardan faqatgina qurulish materiallarigina uchraydi. Hudud suv resurslari bilan birmuncha yaxshi ta'minlangan, mintaqada tog' kon sanoatini rivojlantrish imkoniyati cheklangan, qishloq xo'jaligida esa tuproqning sho'rlanish darajasining ortib borishi tarmoq rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqada aholining bandligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ulushini oshirish viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ayni paytda Sirdaryo viloyatining sanoat, xizmat ko'rsatish, ayniqsa turizm salohiyatini oshirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmog'ida (qishloq xo'jaligida) yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish maqsadida tashkil etilgan Guliston davlat universiteti ustuvor vazifalar va ularning ijrosi masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Sirdaryo viloyati ishlab chiqarish salohiyati keyingi vaqtlarda tubdan o'zgarib bormoqda. Agrar ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan viloyat ananaviy ixtisoslashuv yo'nalishini fan yutuqlari asosida haqiqatdan ham o'zgartirdi. So'nggi olti yilda viloyatga 30 trillion so'm investitsiya jalb qilinib, 6 ming 640 ta yangi korxona ishga tushirilgan. Bu orqali 55 mingta doimiy ish o'rni yaratilgan, 17 mingta oila kambag'allikdan chiqarilgan.

Bu yutuqlarni asosi zamonaviy fan yangiliklari, yo'nalishlari va tadbirkorlikdir. Chunki bugungi kunda fan bevosita va bilvosita ishlab chiqarish kuchi bo'lib maydonga chiqmoqda. Ilgari bo'lmagan qurilish materiallari, farmatsevtika, charm va oziq-ovqat sanoati kabi yangi tarmoqlar paydo bo'ldi. Xususan, qurilish materiallarida 274 ta loyiha amalga oshirilib, bu tarmoq yangi drayverga aylandi. Viloyat sanoatida bu sohaning ulushi 7 foizdan oshdi. Jumladan, viloyat poliz mahsulotlari etishtirish va eksporti bo'yicha ham respublikada birinchi o'rinda turadi. Sirdaryo viloyatida mamlakatimiz elektr

energiyasining uchdan bir qismi, charm mahsulotlarining 16 foizi va farmatsevtika mahsulotlarining 10 foizi ishlab chiqariladi.

Xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlanishi va hududiy tarkibini foydalanish hamda aholi bandlik darajalariga ahamiyat beriladi. Ushbu jarayonni tadqiq etish orqali xizmat ko‘rsatish sohalarida, mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari vujudga kelishi mumkin.



Xizmat ko‘rsatish sohasini mamlakatimiz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, mazkur tarmoqni rivojlantirishdagi jiddiy kamchiliklarni aytish lozim, xususan, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda mahalliy byudjetlarni to‘ldirishning istiqbolli manbai sifatida xizmat ko‘rsatish imkoniyatlaridan kam foydalanilmoqda.

Xizmat ko‘rsatish sohasi, ayniqsa, qishloq joylarida sust rivojlanmoqda, bu yerda katta kapital mablag‘ talab qilmaydigan va xususiy tadbirkorlik uchun jozibador bo‘lgan ko‘pgina an’anaviy xizmat turlari yetarli darajada rivojlanmayapti va qishloq aholisining ulardan foydalanish imkoniyatlari pastligicha qolmoqda. Xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarida band bo‘lganlar sonini ko‘paytirish va shu asosda aholi daromadlarini oshirish hamda ichki iste’mol bozorini zamonaviy, sifatli turli-tuman xizmat turlari bilan to‘ldirish bilan bog‘liq muammolarni mavjudligi va mazkur holatlar tanlangan mavzuni hozirgi sharoitda dolzarbligi va muhimligini ko‘rsatib bermoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasi kelajakda asosiy sektorlardan biriga aylanishini hamda bozor munosabatlarini takomillashtirishda, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, uning natijasida mamlakat budjeti barqarorligini ta’minlash, yalpi ichki mahsulotni (YaIM) ishlab chiqarish, aholi bandligini ta’minlash kabi dolzarb muammolarn O‘zbekistonda aholining bandligini to‘liq ta’minlash va buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Mazkur sohaga qaratilayotgan alohida e’tibor samarasini respublikamizda joriy yilning birinchi choragida 141 mingdan ortiq ish o‘rni yaratilgani misolida ham ko‘rish mumkin. E’tiborlisi, bandligi ta’minlangan fuqarolarning salmoqli qismi qishloq joylarda yashovchi aholi hissasiga tog‘ri keladi. Binobarin, bir insonning layoqati va qiziqishiga ko‘ra doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishi nafaqat o‘zi hamda oilasi, balki jamiyat uchun ham ahamiyatlidir.

Viloyatda mehnatga layoqatli aholi soni 2021-yilda 484,5 ming kishini tashkil etib, unda Qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligida 277,4 ming, Tog‘ kon sanoatida 0,3 ming, Ishlab chiqarish sanoatida 37,8 ming, Elektro energiya va gaz taminotida 4,3 ming, Suv bilan ta’minlash hamda kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 0,8 ming, qurulishda 48,2 ming, ulgirji va chakana savdo, transport vositalarni ta’mirlashda 34,1 ming, Tashish va saqlash xizmatida 13 ming, Yashash va ovqatlanish 6,4 ming, Axborot va aloqa 1 ming, moliya va sug‘urta xizmatida 2 ming, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarda 0,8 ming, proffisional, ilmiy texnik faoliyatda 2,0 ming, Boshqarish bo‘yicha

faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish 2,5 ming, davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta’minot 18,4 ming, Talimda 29,7 ming, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 21,4, San’at va dam olish 3 ming, boshqa turdagi xizmatlarda esa 23,6 mingta aholi band. Ushbu raqamlardan ko‘rish mumkinki viloyatda bandlik darajasini taxlil qilganda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining o‘rnini yuqoriligini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, aholining joylashish xususiyatlari kelgusida hududlar bo‘yicha ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni qay tarzda olib borish muhimligini ko‘rsatib beradi. Demak viloyat xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantrishda, aholi zichligi, yosh, jinsiy va milliy tarkibini taxlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur taxlillar natijasida demografik jarayonlarni xisobga olgan holda, xizmat ko‘rsatish infatuzilmasini hududiy tashkil etishning kelajak istiqbollarini bashorat qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

1. Sirdaryo viloyati innovatsion hududga aylantiriladi. president.uz›uz/lists/view/6132
2. P. Baratov. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi, Toshkent o‘qituvchi, 1996
3. A Soliyev. O‘zbekiston geogrfiyasi. Toshkrnt 2014-yil.

QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISH DAVR TALABI. (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Axunboboyev Mamur Maxmudovich, *Umirzaqov Oybek Alimqul o‘g‘li*
Guliston davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi v.b dotsent.
Guliston davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya.Global oziq-ovqat muammosi insoniyatning eng qadimgi muammolaridan biri hisoblanadi.Oziq-ovqat yetishmasligi va uning natijasida kelib chiqadigan ocharchilik muammosi qadimgi davrlarda ham, o‘rta asrlarda ham, hozirgi vaqtda ham insoniyat uchun eng katta xavflardan biri hisoblanib kelgan. Dunyo hamjamiyatining bugungi kundagi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiy etib borayotgan bir davrda, har bir davlat uchun oziq-ovqat muammosini hal qilish uning iqtisodiyoti oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda .

Kalit so‘zlar. *Klaster,intensiv bog‘lar ,FAO, Integreatsiya, qishloq xo‘jaligi, agrar islohotlar.*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan qabul qilingan tushuncha quyidagicha: "barcha odamlar oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy xohishlariga binoan hamda faol va sog‘lom hayotni ta’minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlarini ega bo‘lish uchun jismonan, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga egaligi oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanishi demakdir". Oziq-ovqat iste’moli odamlar va xalqlar salomatligiga bevosita ta’sir qilad.

2019 yilda yuz bergan pandemiya bu muammoni yanada kuchaytirdi. Dunyo davlatlari turli yollar orqali bu muommoni hal etishga harakat qilib kelmoqdalar. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin vatandoshlarini oziq-ovqatga tejamliroq bo‘lishga chaqirdi. Shu bilan birga, hukumatga oziq-ovqat xavfsizligi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatma beridi. “Sinxua” axborot agentligi XXR milliy statistika burosiga tayanib xabar berishicha, so‘nggi 70-yil ichida mamlakat g‘alla hosili besh baravar ko‘paytirdi, o‘z parrandachilik va chorvachiligini faol rivojlantirmoqda. Shuningdek, Xitoy yiliga 64,5 million tonna daryo va dengiz mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda, bu ko‘rsatkich 143 baravar ko‘paytirilib, dunyo reytingida birinchi o‘ringa erishildi. Fermerlik ham qo‘llab-quvvatlanmoqda: 2004-yildan beri xususiy fermer xo‘jaliklari soni 3 baravarga oshdi va 2,2 millionga yetdi.

O‘zbekistonda ham o‘ziga xs ishlar amalga oshrilib kelinmoqda. Bizga ma’lumki,O‘zbekiston aholisining salmoqli qismi qishloqlarda istiqomat qiladi va mamlakat aholisining yarmidan ko‘prog‘ining bandligi va daromadlari o‘sishi sanoat tarmoqlarining samarali rivojlanishiga bog‘liq. Shu bois amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yil boshida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning ustuvor yo‘nalishlaridan biri qishloq xo‘jaligini modernizatsiya va jadal rivojlantirishdir. 2019-yil 23-oktabrda Prezident qarori bilan “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlangan bo‘lib, u

to‘qqizta strategik ustuvor yo‘nalishni qamrab olgan bo‘lib, ulardan birinchisi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdan iborat edi.

Oxirgi uch yilni qishloq xo‘jaligida misli ko‘rilmagan keng qamrovli islohotlar, jumladan, bozor mexanizmlari, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo‘jaligida klaster ishlab chiqarish tizimiga o‘tish davri deb atash mumkin. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligini mamlakatimiz xalq xo‘jaligidagi o‘rni yuqoriligini inobatga oladigan bo‘lsak, yurtimizda uni rivojlanishini ahamiyati naqadar ahamiyatli ekanligi yaqol ko‘rinadi. Shu sababli ham yurt boshimiz Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida “...soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish- asosiy vazifamizdir...”[1] takidlab o‘tdilar (2017 yil dekabr) . SHu bilan birga shu anjumunda rezidentimiz “2017 yilning o‘zida qishloq xo‘jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi, 2 ta yangi ko‘mita va 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirildi...” deb takidlagan bo‘lsalar, natinjada qishlaoq xo‘jaligida bugunga kelib qator o‘zgarishlar amalga oshrildi. Jumladan, 2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 5 million dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari va 27,6 ming yakka tartibda qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, fermer xo‘jaliklari soni 2017-yildagi 75 ming birlikdan, 2019-yilda 92,6 ming birlikka ko‘paydi, shundan 40 ming fermer xo‘jaligi paxta va g‘alla xomashyosi yetishtirishga ixtisoslashgan, 31 ming fermer xo‘jaligi bog‘dorchilik va uzumchilikka, 14,8 ming fermer xo‘jaligi chorvachilikka, 5 ming fermer xo‘jaligi sabzavot va polizchilik va 1,8 ming fermer xo‘jaligi boshqa sohalarda.

Agrar sohani isloh qilish, qishloq xo‘jaligida bozor mexanizmlarini, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida jami **83** ta hujjatlar, shundan **6** ta O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **9** ta Farmoni, **26** ta qarori, Vazirlar Mahkamasining **42** ta qarori qabul qilinib, islohotlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi.

Qishloq xo‘jaligi rivojlantirish ishlarida Sirdaryo viloyatida ham qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, **2022** yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **12 342**,**0** mlrd.so‘mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar –**11 658**,**7** mlrd. so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – **568**,**2** mlrd. so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – **115**,**1** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘sish sur’atlari **103**,**4**% ni *(**9**-o‘rin),* respublikadagi ulushi **3**,**4**% ni *(**13**-o‘rin)* tashkil etdi.

*Eng yuqori o‘sish sur’atlari Boyovut (**104**,**8**%), Oqoltin (**104**,**3**%) va Sayxunobod (**104**,**2**%) tumanlarida qayd etildi.*

*Jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining **56**,**3** foizi Xovos (**16**,**1**%), Sayxunobod (**14**,**1**%), Boyovut (**13**,**5**%) va Sirdaryo (**12**,**6**%)tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.*

YaHM tarkibidagi qishloq xo‘jaligi ulushi **39**,**4**%ni tashkil etib, **2021** yil mos davriga nisbatan **0.9** punktga kamaygan.

1-rasm. Intensiv bog‘lar.

Qishloq xo‘jaligida erishilyotgan yutuqlar zamrida yangi innavatsio texnalogiyalarni qo‘lanilayotganligi ham o‘z samarasini berayotganligidir.

2023 yil 7-aprelda Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev viloyatga qilgan tashriflarida, xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashi oldida qilgan nutqlarida ham vilovatda keng ko‘lamda olib borilayotgan islahotlar to‘g‘risida gapirar ekanlar … Viloyat poliz mahsulotlari yetishtirish va eksporti bo‘yicha ham respublikada birinchi o‘rinda turadi… Sirdaryoda eng ilg‘or agrotexnologiyalar joriy etildi. Xitoydan viloyat hokimiga qishloq xo‘jaligi bo‘yicha maslahatchilar, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari modernizatsiyasiga investorlar jalb qilindi. (2023 yil 7-april Sh.M.Mirziyayev nutqidan).

Hozirgi vaqtga kelib, Xitoy tajribasi yordamida Sayxunobodda qoramol va parrandachilik eko-komplekslari, Mirzaobodda intensiv anor, qovun, pekan yong‘og‘i va baliqchilik plantatsiyalari tashkil qilinmoqda Xovosda o‘simliklardan tabiiy bo‘yoqlar ishlab chiqarish quvvati, meva-sabzavotni saqlash, qayta ishlash va qadoqlash texnoparki tashkil etilmoqdi. Sho‘r va suvsizlikka chidamli ekin turlari, chorvachilik nasllarini yaratish bo‘yicha Xitoyning yetakchi oliygohlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqdi. Viloyatda tashkil etilgan Klusterlarning ahamiyat oshib bormoqda.

2-rasm. “Bek cluster” MCHJ

Mirzacho‘l tumanida “Bek cluster” MCHJ shaklidagi qo‘shma korxonasi faoliyatini boshladi. E’tiborlisi, ushbu klasterga meliorativ holati og‘ir, ball boniteti past bo‘lgan 18000 gektar yer maydoni ajratildi. Ammo bugun unda yetishtirilgan mo‘l hosil va ko‘plab ishchilarning ish bilan ta’minlanganligi klasterga bildirilgan ishonch bejizga emasligini ko‘rsatdi.

Zamonaviylik va qulaylik. Bugungi klasterlarni zamonaviy texnika-texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. “Bek cluster” MCHJda ham 2017-2022-yillarda jami 5000 ga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi. Jumladan, 2018-yilda umumiy qiymati 198 mlrd so‘m bo‘lgan gidroponika issiqxonasi ishga tushirildi. Yillik quvvati 4960 tonna sabzavot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan issiqxonada 500 nafar ishchining bandligi ta’minlandi.

Shuningdek, korxonaning 70 gektar maydonida intensiv uzum bog‘lari tashkil etilgan bo‘lib, 74 nafar ishchi tokzorlar parvarishi va hosilni yig‘ishtirish bilan shug‘ullanmoqda.

Darvoqe, klaster tizimida 2019-yilda paxtani dastlabki qayta ishlash korxonasi ochildi. Umumiy qiymati 32 mlrd so‘mni tashkil etgan korxonada 250 nafar ishchi faoliyat olib bormoqda.

Zamonaviy texnologiyalar. Klasterlar muvaqqaqiyatli faoliyat olib borishi, avvalo undagi texnika-texnologiyalarning zamonaviyligiga e’tibor qaratish lozim. “Bek cluster” MCHJ tashkil etilgach, AQSH, Germaniya, Angliya, Rossiya, Turkiya va Xitoy davlatlaridan umumiy qiymati 282 mlrd 648 mln so‘mlik 1317 ta har xil rusumdagi texnika va agregatlar sotib olindi. Jumladan, haydov traktorlari (126 ta), chopiq traktorlari (110 ta), kultivatorlar (110 ta), chigit ekish seyalkalari (68 ta), lazerli yer tekislagichlar (42 ta), traktor tirkamalari (263 ta), transport traktorlari (60 ta), purkagichlar

(74 ta), paxta terish mashinalari (52 ta), g‘alla o‘rish kombaynlari (12 ta), boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi texnikalari (224 ta) klaster ixtiyoriga topshirildi. Rossiya Federatsiyasidan 21 ta K-744 chuqur yumshatgich traktorlari va Turkiya davlatidan lazerli yer tekislash uskunalari keltirilib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda foydalanilmoqda. Jumladan, bugungacha 10508 gektar maydonda chuqur yumshatish, 555 gektar maydonda lazer yordamida yerlarni tekislash ishlari amalga oshirildi. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida Janubiy Koreya davlatidan 4 dona zanjirli, 2 dona g‘ildirakli, 5 dona kichik ekskavatorlar olib kelinib, ishga qo‘yildi. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarida ta’mirlash-tiklash, qurilish ishlarida foydalanish uchun 3 dona avtokran, 2 dona avtotreyler, 1 dona buldozer, lotok tashuvchi avtomobillar harid qilindi.

Ochiq zovurlar qurilishi. Klasterda yetishtirilayotgan mahsulotlarni o‘z vaqtida unib chiqishidan tortib, hosilga kirgunigacha bo‘lgan davrda ularni suv bilan ta’minlash muhim omil sanaladi. Shu bois ham uning balansidagi sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash maqsadida 897 km ochiq va yopiq-yotiq zovur tarmoqlarida ta’mirlash-tiklash, 792 km yangi ochiq zovurlar qurish ishlari amalga oshirildi. Suv ta’minotini yaxshilash maqsadida 1740 dona yig‘ma temir-beton ariq (lotok)lar almashtirildi. 32 km yer o‘zanli ariqlar beton kanalga aylantirildi. Undan tashqari, 7290 gektar maydonda suv ta’minotini yaxshilash maqsadida 250 dona turli rusumdagi suv nasoslari o‘rnatildi.

Tuproq tahlillari. Ekinni o‘ziga mos tuproqda, yer maydoniga ekish uning to‘kis va beshikast unib chiqishi uchun zamin yaratadi. Klaster qoshida qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish maqsadida “O‘simlik maxsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash texnologiyalari ilmiy-amaliy markazi” tashkil etildi. Bunda har bir konturdan tuproq tahlillari o‘tkazildi. Tahlil natijalariga asosan, mahalliy sharoitga mos, yuqori hosilli va sifati kafolatlangan qishloq xo‘jaligi ekinlari navlari tanlab olindi. Bundan tashqari, yangi innovatsion texnologiyalar (2300 gektar g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish, zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari, bargidan oziqlantirish) keng joriy qilindi va navlarning boshlang‘ich urug‘chiligi yo‘lga qo‘yildi. Natijada 2017-yilda paxtadan gektariga 11,2 sentnerdan hosil olingan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 40,1 sentnerga yetdi.

Kuzgi g‘alladan esa 2017-yilda har gektaridan olingan hosil 16,6 sentnerni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilda hosil gektariga 65,0 sentnerni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



o‘sish surъati (2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan %da)

Qishloq xo‘jaligi rivojlantirish ishlarida Sirdaryo viloyatida ham qator ishlar amalga oshirilib qilinmoqda. Qishloq xo‘jaligidagi o‘sishni quydagi maъlumotlarda ham ko‘rishimiz mumkindir. 2017 yilning yanvar-dkabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 2902,3 mlrd. So‘m yoki 2016 yilning mos davriga nisbatan 102,3 foizni , shu jumladan dehqonchilik va chorvochilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar -2865,9 mlrd. so‘mni (101,6 foiz), o‘rmon xo‘jaligida -3,0 mlrd. so‘mni (96,7foiz), baliq xo‘jaligida- 33,4 mlrd. so‘mni(169,6 foiz) tashkil qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki viloyatda qishloq xo‘jaligining nisbatan yosh bo‘lgan yangi tarmog‘i yaъni baliqchilikka katta eътibor berilmoqda.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari(xizmatlar) ning hajmini yuqori suratlar bilan o‘sishini Mirzaobod (106,5%), Oqoltin (103,0%) tumanlarida , YAngier(107,0%) va SHirin (105,7%) shaharlarida kuzatamiz. Lekin, Boyovut, Sayxunobod, Sirdaryo tumanlarida esa past suratlarni kuzatishimiz mumkin.

Viloyatda qishloq xo‘jalik mahsulotlarining oshib borayotganligi ayniqsa chorvochilikda sezilmoqda. Masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 101,6 % ga oshgan bo‘lsa, shundan dehqonchilik 100,8% ga chorvachilik 103,7% ga oshganligini ko‘rishmiz mumkin.

Bu shundan dalolat bermoqdaki, viloyatda keyingi yillarda chorvachilikka ayniqsa parandachilikka, baliqchilikka katta eътibor berilmoqda. Fikrimizni isbot uchun viloyatning quydagi maъlumotlarini keltirishimiz mumkin.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho‘jalik toifalarining ulushi



Viloyatda yirik shoxli qara mollar va parrandalar bosh soni 2018 yilning 1 yanvar holatiga yirik qaramollarning umumiy soni 417,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar- 161,3ming boshga, qo‘y va echkilar – 319,2 ming boshga, parrandalar – 2295,1 ming boshga etkazilgan. YOki 2017 yilning shu davrdagiga nisbatan yirik shoxli qaramollarbosh soni – 4,5 ming boshga (1,1%), shu jumladan sigirlar soni 31,3 ming boshga (24,1%), qo‘y-echkilar-25,7 ming boshga (8,8 %ga), parandalar-358,9 ming boshga (18,5% ga) ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. CHorvachilikning viloyatda rivojlanishida dexqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarning hissasi katta bo‘lib kelmoqda. Jumladan, tirik vaznda go‘shtning umumiy hajimda 96,8% ni, sutning 93,1 % ni tuximning 69,5 % ni junning 81,7 % ni dehqon xo‘jaliklari etkazib berayotganligin ko‘rishimiz mumkin.

Qishloq xo‘jaligida chorvachilikka bo‘lgan eътiborning oshib borayotgaligi bilan birga dehqonchilikning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri kishilarning oziq-ovqatga bo‘lgan talablarining qondirish dehqonchilik zimasidaligidir. Viloyat qishloq xo‘jaligida ham dehqonchilikning ulishi yuqoriligicha yaъni 55% ni tashkil etib turibdi. SHuni ham taъkidlash lozimki viloyatdaki dehqonchilik sug‘oriladigan erlarda amalga oshirilayotgaligidadir. Bundan tashqari viloyatdagi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish bilan bandlarning asosiy ulushi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida (48%) ekanligi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo – Xitoy” sammitidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view/6354

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev., “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi”, 2019-yil 23-oktabrda Prezident qarori

3.Sirdaryo viloyati innovatsion hududga aylantiriladi. **president.uz**›uz/lists/view/6132

2.A.Shernazarov. Innovatsion texnologiyalar, ilmiy yondashuv va sifatli mahsulot Sirdaryo viloyatidagi “Bek klaster” korxonasi faoliyatining asosiy mezoniga aylangan. **xs.uz**›…innovatsion-tekhnologiyalar…yondashuv-va…

4.2022-2026 yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida vazirlar mahkamasining 2022 yil 7 maydagi 242-son qarori. **lex.uz**›uz/docs/5998434

ATMOSFERA IFLOSLANISHINING INSON SOG‘LIG‘IGA TA’SIRI

Karshibayeva Lola Klichevna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Po’latova Ganjina Rashid qizi
“Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
“Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta;lim yo’nalishi talabasi

Insonning sog‘-salomatligi ijtimoiy omillardan tashqari ko‘p jihatdan atrof-muhitning ekologik holatiga ham bog‘liq. Inson faoliyati davomida salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli xil tabiiy va texnogen omillar bo’lib, sog'likka to'g'ri ta'sir qilmaydigan har bir narsa zararli hisoblanadi. Tabiiy muhit qanchalik toza, havo, yer usti va yer osti suvlari, tuproq, o‘simlik, hayvonot olamining tozalik darajasi tabiiy me’yorda bo‘lsa, inson sog‘ligi ham shuncha mustahkam va barqaror bo‘ladi. Shundagina kishi organizmi tashqaridan to‘satdan bo‘ladigan ba’zi xurujlarga bardosh bera oladigan va qarshi kurasha oladigan darajada rivojlanadi.

Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti yuksak darajada rivojlangan sharoitda biosfera borgan sari kuchliroq ifloslanib bormoqda. Inson uchun esa sayyoraviy, hududiy va mahalliy miqyoslardagi turli geoekologik muommolar ta’sirida tarkib topgan va topayotgan noqulay ekologik sharoitlarda yashashga to‘g‘ri kelmoqda. Havo, suv, tuproq, iste’mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining turli darajada ifloslanishi va qashshoqlanishi natijasida aholi orasida har xil kasalliklar tarqalmoqda, kishilarning o‘rtacha yashash yoshlari kamayib bormoqda, o‘lim, ayniqsa, yosh go‘daklarning o‘limi ko‘proq kuzatilmoqda. Boshqacha aytganda, inson o‘zi uchun kasalliklarni orttirish yo‘nalishida tinimsiz mehnat qilayotganligini tasavvur qilmagan holda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish bilan ovora bo‘lar ekan, uning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini idrok eta olmaydi.

O‘zbekistonda qaysi kasalliklardan eng ko‘p o‘lim holati qayd etilishi

2022 yilning 1 oktyabr holatiga O‘zbekistonda qayd etilgan o‘lim holatining 56,8 foizi qon aylanish tizimi kasalliklariga to‘g‘ri kelgan.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022 yilning 9 oyida qayd etilgan o‘lim holatlarining kasalliklar bo‘yicha sonida qon aylanish tizimi kasalliklari birinchi o‘rinda– 74 109 ta holat.

Ushbu ko‘rsatkich qolgan kasalliklar kesimida quyidagicha ko‘rinish oldi:

- nafas olish a’zolari kasalliklari – 12 805 ta;
- o‘simtalardan – 10 535 ta;
- baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan – 7 260 ta;
- ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari – 5 264 ta;
- yuqumli va parazit kasalliklari – 1 976 ta;
- boshqa kasalliklardan – 18 417 ta.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda ham insonning me’yorida yashashi uchun qulay ekologik imkoniyatlar mavjud emas, har bir tabiiy hududda o‘ziga yarasha ekologik muammolar borki, ular kishi organizmiga ta’sir etmay qo‘ymaydi. Noqulay ekologik vaziyatlar turli kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Albatta, inson bularga qo‘lidan kelganicha qarshi ta’sir etib, kasalliklar oldi olinmoqda.

Hozirgi kunda bir qator o‘ziga xos ekologik muammolar inson salomatligi va farovonligiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu muammolar kimyoviy ifloslanish, havo ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroblar va yomon suv sifatini o‘z ichiga oladi.

Respublikadagi sanoat korxonalarining havo, suv, tuproq, umuman atrof-muhitning ifloslash darajasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, 1990 yilning oxirlarida O‘zbekiston xalq xo‘jaligining 87,2% korxonalari ekologiya-gigiena talablariga javob bermagan va tabiiy muhitni bulg‘ash manbalari bo‘lgan. Hozirgi kunga kelib, sanoat korxonalarning 35% i ekologik jahatdan toza, ishlab chiqarish korxonalarini 296 tasi (29%) ekologik jihatdan juda xavfli hisoblanadi. Ulardan tarqaladigan chiqindilar aholi yashaydigan joylarda havoda ruxsat etilgan me’yordan 5% va undan ham ko‘p bulg‘alovchi moddalar to‘planishiga olib kelmoqda. 2019 yilda sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan atmosfera havosini bulg‘aydigan korxonalar ro‘yxatga olinganda 287 ta korxonada me’yordagi sanitariya-muhofazalash zonasi mavjud emasligi va ularda texnologiya takomillashmaganligi chang-gaz tozalagichlar yo‘qligi yoki samarasiz ishlayotganligi ma’lum bo‘ldi. Buning oqibatida Respublikaning 18 shahrida atmosfera havosining ifloslanishi yuqoriligicha qolmoqda.

Kimyoviy ifloslanishda turli xil kimyoviy moddalar inson salomatligiga turli yo‘llar bilan ta'sir qilishi mumkin va ko‘pincha xavfli yoki begona moddalarga ta'sir qilish sog‘liq uchun zaifliklarni keltirib chiqaradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko‘ra, 2019 yilda 1,7 milliondan ortiq o‘lim tanlangan kimyoviy moddalar ta'siridan kelib chiqqan. Atrof-muhitdagi xavfli kimyoviy moddalarning ba'zi misollari suv ta'minotiga yo‘l topadigan og‘ir metallar va toksinlar va oziq-ovqat ta'minoti zanjiriga kiruvchi zararli pestitsidlardir.

Havoning ifloslanishi inson sog‘liqg‘iga katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, havo ifloslanishining odamlarga ta'siri nafaqat iqlim o‘zgarishidagi roli tufayli, balki havo ifloslanishiga ta'sir qilish kasallanish va o‘limni oshirishi mumkinligi sababli ham aholi salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega.

JSST ma'lumotlariga ko‘ra, havo ifloslanishining odamlarga ta'siri sezilarli. Masalan, havoning ifloslanishi quyidagilarga olib keladi:

- O‘pka kasalliklaridan global o‘limlarning 31 foizi
- Dunyo bo‘ylab insultdan o‘lim holatlarining 28 foizi
- O‘tkir pastki nafas yo‘llarining infektsiyalari tufayli global o‘lim va kasalliklarning 19 foizini tashkil etmoqda.

Atmosfera havosi tarkibida qo‘rg‘oshin, margimush, mis va beshqa og‘ir metallarning qattiq birikmalar, oltingugurt gazi, uglerod oksidi, ftor birikmasi, azot oksidi, ammiak uglevodorodlar, boshqa gazsimon va suyuq moddalar miqdori REM darajasidan oshib ketsa bunday havo ifloslangan havo bo‘ladi. Zaharlovchi moddalar, REM oshib ketgan taqdirda kishi organizmiga ta’sir etilishi quyidagicha sodir bo‘ladi: olgingugurt ikki oksidi va uning boshqa birikmalari har m^2 havoda 0,085 mg.dan ziyod bo‘lganda ko‘zning shilliq pardasini va nafas olish yo‘lini yallig‘lantiradi; oltingugurg gazi REM dan 0,05 mg.ga oshganda organizmning og‘ir bronxit, gastrit, laringit bilan og‘rishiga olib keladi, nafas olish yo‘lida ilgaridan mavjud bo‘lgan kasalliklarni qo‘zg‘aydi, bosh miyaning ba’zi funktsiyalarini o‘zgartiradi, gipoglikemiya va gipovitaminozlar paydo bo‘la boshlaydi, bolalarning o‘sishida orqada qolish yuz beradi, o‘pkada yangi elementlariing vujudga kelishi kuzatiladi.

Uglerod oksidining REM dan 0,5 mg.ga ortishi gemoglobin harakatini kuchaytiradi, to‘qimalarda kislorodning etishmasligiga olib keladi, asab va yurak-qon tomirlari tizimlarining betartib harakatini keltirib chiqaradi, ateroskleroznng kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Bosh aylanish, bosh og‘riq, kuchli yallig‘lansh, yurakning kuchli urishi, uyquning buzilishi kuzatiladi. Uglevodorodlar REMdan *25* mg.dan ortsa, nafas olish yo‘llari yallig‘lanadi, ko‘ngil ayiishi paydo bo‘ladi, bosh aylanadi, uyquchanlik kuchayadi, nafas olish va qon aylanishi ishdan chiqadi. Kantserogen moddalar tanada shishlarning vujudga kelishiga imkon yaratadi, organizmda kasalliklarga qarshi chidamlilikni pasaytiradi, bolalarda avitaminoz vujudga keladi.

Ftor, ftorli vodorod birikmalari miqdori REM dan 0,005 mg dan ziyod bo‘lsa, teri va ko‘zning shilliq pardasi keskin yallig‘lanadi, burundan qon keladi, tumov, yo‘talish, ateroskleroz kuchayadi. Azot II oksidi miqdori REM 0,06 mg.dan ortsa organizmda o‘pka va nafas yo‘llarini kuchli yallig‘laydi, ularda shamollashning vujudga kelishiga ko‘maklashadi, qon bosimi kamayadi. Bosh aylanish, hushini yo‘qotish, qayt qilish, tumov, nafas tiqilish, yo‘tal vujudga keladi. Sanoat va transport changi miqdori bir m^3 da REMdan 0,15 mg dan ortsa kishi organizmiga changning ta’siri uning tarqoqligi sababli sezilarli darajada yuz beradi. Nafas olish yo‘llariga chuqur kirib borishi tufayli gazsimon moddalarning harakatini kuchaytiradi, chang terini yallig‘laydi, ayniqsa, shilimshiqli qobiqni yaralaydi, organizmga patogen mikroblarni kirib borishiga imkon beradi.

Qo‘rg‘oshin va uning birikmalari miqdori REM dan 0,0017 mg.ga ortganda to‘planish xususiyatiga ega (organizmda zaharli moddalarnnng yig‘ilishi), qonning tarkibini o‘zgartiradi va miya suyagiga ta’sir ko‘rsatadi, muskullarning kuchsizlanishini oshiradi, asab tizimini buzadi, bosh miyaning shamollashi, buyrak va jigarning zararlanishi kuzatiladi. Bolalar uchun xavfli, jismoniy o‘sini sekinlashadi. Tabiiy qo‘rg‘oshin ta’sirida organizmda modda almashuvi buziladi, bolalarning aqliy jihatdan orqada qolishi va miyaning xronik kasallanishi sodir bo‘ladi. Organik qo‘rg‘oshin tabiiysidan zaharliroqdir.

Inson salomatligi uchun jiddiy oqibatlarga olib keladigan yana bir ekologik muammo - bu iqlim o‘zgarishi, shuningdek, Yer iqlimining o‘zgarishi bilan birga kelgan tabiiy ofatlarning ko‘payishi hisoblanadi. Milliy Atrof-muhit salomatligi assotsiatsiyasi iqlim o‘zgarishini 21-asrning inson salomatligiga tahdid soladigan yagona eng katta tahdidi deb hisoblaydi.

Iqlim o‘zgarishi tabiiy dunyoni turli yo‘llar bilan buzadi, bu sog‘likka to‘sqinlik qiladi va kasalliklarga nisbatan zaiflikni oshiradi, bularga sayyora haroratining ko‘tarilishi va tez-tez yog‘adigan

kuchli yomg‘ir va suv oqimi kiradi. Turli xil ta'sirlar asab va nafas olish kasalliklari, diareya va boshqalarga nisbatan ko‘proq zaiflikka olib kelishi mumkin.

Ob-havo va iqlimning odamlarga ta'siri uzoq vaqtdan beri ma'lum, ammo bu muammoga qiziqish faqat 20-asrning so‘nggi o‘n yilliklarida ortdi. Iqlim va ob-havo omillarining inson organizmiga ta'sirini, ulardan terapevtik va profilaktik maqsadlarda foydalanish usullarini o‘rganadigan butun bir fan - tibbiy klimatologiya mavjud. iqlim sharoitida inson organizmidagi patologik o‘zgarishlarni o‘rganish kerak. Iqlimning tirik organizmga ta'siri (iqlimning biotropik ta'siri deb ataladi).

Suningdek, tashqi muhit omillariga (meteorologik elementlardan) iborat: harorat, havo aylanishi va namligi, atmosfera bosimi, bulut qoplami va quyosh nurlanishining intensivligi.

-Ushbu omillarning har biri alohida-alohida inson tanasining turli funktsiyalariga ta'sir qilishi mumkin (masalan, shamol, issiqlik uzatishni kuchaytiradi, nafas olishni qiyinlashtiradi, nafas olish harakatlarining normal ritmini buzadi). Bular insondagi termoregulyatsiya jarayoniga ta’sir qiladi. Ob-havoning o‘zgarishi nafas olishning chuqurligi va chastotasiga, qon aylanish tezligiga, hujayra va to‘qimalarga kislorod etkazib berilishiga, tuz, lipid suv almashinuviga, mushak tonusiga ta'sir qiladi. Suvning ifloslanishi ichak kasalliklariga, oziq ovqatning zaxarlanishi, salmanelloz dizinteriya kasaliga olib keladi. Havo ifloslanishi nafas, yurak tizimiga ta’sir qiladi. Nam issiq xavoda insonda havo yetishmasligi kuzatiladi.

Mutaxassislarning fikricha, dam olishda normal nafas olish vaqtida o‘pkadan kuniga 10-15 m^3 havo o‘tadi. Nafas olish paytida o‘pkaning konditsionerligi insonning turli ob-havo sharoitlariga moslashishida juda muhim rol o‘ynaydi, (suv bug‘ining bosimi) 18,8 hPa ga yetsa yoki undan oshsa, inson o‘zini noqulay sezadi. Harorat 25 ° oshib ketganda, noqulay sharoitlar vujudga keladi. Haddan tashqari issiqlik sharoitida odam qon aylanishining buzilishini va markaziy asab tizimining ortiqcha yukini boshdan kechiradi. Shuning uchun ish xonalarida, sport zallarida va hokazolarda sun'iy iqlim yaratish lozim. Bunda havo harorati +20 ... +23° C oralig‘ida va nisbiy namlik 50-60% dan ko‘p bo‘lmagan holda, mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshishiga, farovonlikning yaxshilanishiga va hokazolarga olib keladi.

Bundan tashqari dehqonchilikda, azot nitrati bilan haddan tashqari to‘yingan poliz mahsulotlari ozuqalik va biologik qimmatini ancha kamaytiradi, ularning saqlanish muddatini qisqartiradi. Ayrim dehqonlar o‘zlari ter to‘kib yetishtirgan qovun-tarvuzlarni shirinligi va sifatini yaxshilash uchun kurashmay, toshbosar va yirik qilib *y*etishtirishga jazm qiladilar. Bu borada ayniqsa, Mirzacho‘l qovunlari nihoyatda kattaligi va ko‘rinishining ko‘rkamligi bilan ajralib turishi kishini o‘ziga rom etadi. Biroq, bu qovunlar bozorlarda uzog‘i bilan 3—4 kun orasida ayniy boshlaydi, chunki qovun tarkibidagi nitrat yozning issiq kunlarida uning sifati buzilishini kuchaytiradi, natijada qanchadan-qancha qovunlarning suv bo‘lib oqib ketishi tufayli axlat idishlariga ag‘dariladi. Qovunda yo‘l qo‘yilgan nitratning mikdori har kg.ga 60 mg.dan ortmasligi lozim.

Verywell Health ma'lumotlariga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab 780 milliondan ortiq odam toza ichimlik suviga ega emas; Ajablanarlisi shundaki, dunyo aholisining taxminan uchdan bir qismi tegishli sanitariya xizmatlaridan (masalan, toza hammom) foydalanish imkoniyatiga ega emas. Sog‘likka ta'sir ko‘rsatishi dahshatli: har kuni 2200 dan ortiq bolalar suv sifati yomonligi tufayli kelib chiqadigan kasalliklar tufayli vafot etadi. Bir qator omillar suv sifatining yomonlashishiga, jumladan, sanoat chiqindilari va ifloslanishi, suvni to‘g‘ri tozalash va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining yo‘qligi hamda eskirgan sanitariya infratuzilmasiga olib kelishi mumkin.

Daryo suvlarining zovur va oqava suvlari bilan ifloslanishi, shuningdek ularning minerallashuv darajasining ortishi, destitsidlar, azot, mineral o‘g‘it, neft mahsulotlari, og‘ir metallar, fenol bilan ifloslanishi bu suvlardan istemol maqsadida foydalanilganda turli xil kasalliklarning tarqalishiga olib keladi. Bunday suvlar mikroorganizmlar, viruslar va bakteriyalarning yashash muhiti bo‘lib, qo‘pgina tabiiy va infektsion kasalliklarning manbai hisoblanadi. Masalan, nitritlarning REM dan 40 marta ortishi kishi organizmining nafas olish yo‘llarining yallig‘lanishiga olib keladi, yosh bolalarda metgemoglobinemiya hodisasini keltirib chiqaradi. Kantserogen, ya’ni saraton kasalligini qo‘zg‘atish xususiyatiga ega bo‘lganligi tufayli ko‘pgina organlarda shishlar vujudga kelishi kuzatiladi. Mishyak (margimush) miqdorining REM dan 0,05 mg.ga ortishi kashida ishtahaning yo‘qolishiga olib keladi, oshqozon-ichakni gastroenterit turkumidagi kasalliklarni qo‘zg‘atadi, odamning ozib ketishiga sabab

bo‘ladi, Mis metalining REM dan 0,001 mg.ga ortishi Vilson kasalligini keltirib chiqaradi, misning ko‘pligi uning miya to‘qimalarida, jigarda, oshqozon osti bezida, terida to‘planishga olib keladi.

Atrof-muhitning turli chiqindilar bilan ifloslanishi O‘zbekistonda ekologik vaziyatlarning joylarda jiddiylashib borishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ba’zi hududlarda “havo va suv” qolgan joylarda “suv va tuproq”, ba’zan butun tabiiy muhit shu darajagacha chiqindilar bilan. ifloslanganki, bu hol insonning yashash sharoitlarining tubdan buzilishiga olib kelish bilan birga aholi orasida bir necha xil kasalliklarning keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda.

Asosiy adabiyotlar

1. Виталий Лысцов « Угрожающее потепление» журнал « Наука и жизнь». 2005год. С. 14-20. Бейдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительнқх сообществ. Методические указания. Новосибирск. Изд-во “Наука” 1974: 121 стр.
2. Давыдова Н.С. Серикова В.И., Репникова Л.А. Перспективные екзотические виды красивоцветущих деревев для озеления садово-парковых комплексов г.Воронежа // Сборник статей II межд.научно-практ. Конф. «Зеленая инфраструктура городской среды. Современное состояняие и перспективы развития» - Москва. Изд-во.ООО «Конверт» 2012

SIRDARYO VILOYATI TABIIY ShAROITIDA ShIFOBAXSH ARAB ANORI O‘SIMLIGINI YETIShTIRISh TEXNOLOGIYASI

Karshibayeva Lola Klichevna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Nurmaxamadov Abdusalom Shaxobiddin o‘g‘li
Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.
Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
“Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

Iqlim o‘zgarishi — XXI asrning asosiy muammolaridan biri. Global tahdidlarga kompleks javob qaytarish uchun ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish muhim qadamlardan biri sanaladi. Ko‘p yillik daraxtlarning ekilishi hududdagi mikroiqlimni yumshatishga sabab bo‘ladi. Bunday o‘simliklardan foydalanishdagi agrotexnik talablar va parvarish qilish ishlari O‘zbekistonning turli tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda bajarishni taqozo etadi. Ayniqsa, daraxt va buta turlarini to‘g‘ri tanlash, ularning inson salomatligiga ta’sirini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakat hududida keskin kontinental iqlim, jazirama yoz va qishning sovuq bo‘lishi, havoning quruqligi, sutkalik haroratning keskin tebranishlari, issiq haroratlarning yillik yig‘indisi yuqori bo‘lishi (4000-6000), o‘suv davrida yog‘ingarchiliklar miqdori kamligi (20-130 mm) hamda namning katta hajmda bug‘lanishga xosdir. O‘zbekistonning ko‘p xududlarida yoz mavsumida jazirama “afg‘on”, “garmsel” shamollari esib turadi, qishda esa – sovuq shamollar hukmronlik qiladi. Yuqorida qayd etilgan barcha omillar yashil qurilish uchun nihoyatda noqulay bo‘lib, daraxtlar, butalar va manzarali o‘simliklarning o‘sib-rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sirdaryo viloyati hududining yozi issiq va quruq, qishi mo‘tadil, shuningdek, kunlik va yillik harorat o‘rtasida katta farq bor. Viloyatda o‘rtacha yillik harorat +12,9 +14,9°C atrofida. Eng sovuq ko‘rsatkichi dekabr, yanvar oylarida bo‘lib, 3,8-0,1°C atrofidadir. Qishda haroratning pasayib ketishi Farg‘ona vodiysidan sovuq havo oqimlarining kirib kelishi bilan bog‘liqdir. Tuproq harorati (haydov qatlamida) qishda, yanvar oyida o‘rtacha –2–0,2^0S, tuproq yuzasi muzlaydi, bu esa tuproqni shudgorlashda va sho‘r yuvishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Birinchi sovuq noyabr oylariga, oxirgi sovuq tushishi esa fevral oyiga to‘g‘ri keladi. Sovuqsiz kunlarning davomiyligi 200-336 kundir.

Kech ko‘klamda va erta kuzda ham qora sovuq tushib o‘simlikning o‘sish davrini qisqartiradi. Yozi quruq va issiq. Iyulning o‘rtacha harorati 27–29°C. Yozda harorat 32–45°C gacha ko‘tariladi.

Sirdaryo viloyati kuchli shamol harakatlari kesishgan zonada joylashgan bo‘lib, hududga shimoliy va sharqiy (Bekobod shamoli) shamollar ta’siri kuchli. Noyabrdan martgacha tez-tez esib turadigan "Bekobod shamoli" tezligi 20–25 m/sek. yetadi. Bahorda esadigan bu xildagi shamol unib

chiqayotgan nihollarni ba’zan nobud qiladi. Shamolning asosiy qismi sharqdan ko‘proq esadi va eng ko‘p may-iyun oylariga to‘g‘ri keladi. Ko‘pincha issiq shamol (garmsel) tuproqni quritadi va o‘simliklar rivojlanishiga yomon ta’sir qiladi. Yozda kuchli bug‘lanish sababli yer osti suvlari yuza maydonlarning (Sardoba, Oqoltin, Guliston tumanlari) tuprog‘ini sho‘r bosadi.

Shuningdek, Mirzacho‘l sharoitida namlikning va tuproqdagi tuzlarning taqsimlanishida havo namligi katta ahamiyatga ega.

Sirdaryo viloyatida kuzda ob-havo keskin o‘zgarmaydi. Noyabrda tuproq yuzi muzlaydi, dekabrda qor tushadi. Qishda havoning nisbiy namligi eng yuqori bo‘lib, yillik o‘rtacha havo namligi esa 31-48% atrofida. Yog‘in-sochin asosan qish-bahor oylarida bo‘ladi. Sirdaryo viloyatida yiliga 180–240 *mm* atrofida yog‘in tushadi. Ko‘p yillik ma’lumotlarga ko‘ra, bahorgi qora sovuq aprel va may oylarida tushishi kuzatilgan.

Tajriba o‘tkazilgan (2021-2022 yy.) hududning iqlim sharoiti 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Tajriba o‘tkazilgan yillardagi ob-havo ma’lumotlari (2021-2022 yy.)
(Sirdaryo gidrometeorologiya boshqarmasi ma’lumoti)

Yillar	**Oylar**										**O‘rtacha yillik**
	I	II	**III**	**IV**	**V**	**VI**	**VII**	**VIII**	**IX**	**X**	
O‘rtacha oylik havo harorati, *°C*											
2021	5,6	6,5	13	16,8	23	26,3	29,8	26	20,3	15,6	18,3
2022	2,3	7,3	12	17,3	23,4	26,9	29	26,4	19,9		
O‘rtacha ko‘p yillik	1,2	0,7	8,3	15,7	21	25,8	26,7	24	19,1	12,8	15,5
Yog‘ingarchilik miqdori, *mm*											Jami yillik
2021	32,4	10,5	44,3	105,7	5,1	3,3	0	0	17,8	5,5	224,6
2022	25,9	70,2	64	40,4	53,3			0			263,8
Havoning nisbiy namligi, *%*											
2021	64	66	65	76	48	41	37	44	51	59	55
2022	76	77	70	76	50	40	38	41	46	60	59
O‘rtacha ko‘p yillik	70	72	67	71	50	42	37	41	47	59	56

Ma’lumki, qishloq xo‘jalik ekinlari nihollarni bir tekis undirib olish bahorgi yog‘ingarchilik miqdori va havo haroratiga bevosita bog‘liqdir. 2021 yil yanvar-oktyabr oylarida o‘rtacha havo harorati 17,06 ^{0}C ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-2022 yillarning shu oylarida esa 18,3 ^{0}C ni tashkil etdi. Yog‘ingarchilik miqdori ham yanvar-aprel oylari hisoblanganda 2021 yilda 192,9 mm, 2022 yilda esa 170,5 mm bo‘lganligi kuzatildi.

Ayniqsa, 2021 yil ob-havo sharoiti boshqa yillarga qaraganda qish oyi oxirlaridan va bahor oylari salqin, yog‘ingarchilikning ko‘p bo‘lgani sizot suvlari chuqur joylashgan tuproqlarda bevosita ko‘chat o‘simliklarni mart-aprel oylarida unib chiqishi va dastlabki davrda o‘sish va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatsada, ammo, sizot suvlari yaqin bo‘lgan hududlarda suvning uzoq vaqt turib qolishi yosh ko‘chatlarni nobud bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Erta bahorda yog‘ingarchilikni ko‘p bo‘lishi, ayniqsa suv tanqis bo‘lgan hududlarda va yillarda ko‘chatlarni unib chiqishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Bahorda havo harorati yuqori bo‘lsada tuproq harorati past bo‘ladi. Ushbu yillarda o‘rtacha havo harorati aprel oyida 16,2-17,3 ^{0}C ni, may oyida 21,4-23,4 ^{0} C ga teng bo‘ldi.

Mart oyida o‘rtacha havo harorati 13,0 ^{0}C gacha ko‘tarilgan bo‘lsada, 1-o‘n kunlikda 9,9^{0}C ni tashkil etib, tuproqning 10 smlik qatlamidagi harorati o‘rtacha 8,5 ^{0}C ni tashkil etdi. Yog‘ingarchilik asosan 3-o‘n kunlikda 36,9 mm bo‘lib, bu esa bevosita tuproqning 10 sm.lik qatlamidagi haroratiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, o‘rtacha 13,3 ^{0}C ni tashkil etdi.

2021 yil mart oyida havo harorati 14,4 ^{0}C va oyning uchinchi dekadasida yog‘ingarchilik miqdori 44,3 mm ni tashkil etdi. Aprel oyida havo harorati o‘rtacha 16,8 ^{0}C gacha ko‘tarilgan

bo‘lsada, har uchala – o‘n kunlikda ham surunkali yog‘in yog‘ib, jami oylik yog‘ingarchilik miqdori 105,7 mm.ni tashkil etdi. Tuproqning 10 smlik qatlamidagi harorati o‘rtacha 16,8 ^{0}C ni tashkil etdi.

Ammo may (23^{0}C) va iyun (26,3^{0}C), oylarida havo haroratining keskin ko‘tarilishi va yog‘ingarchilikning kamayishi, aksiga olib sug‘orish uchun suv tanqisligi me’yorida ungan va o‘sib kelayotgan nihollarning o‘sish va rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Yozgi davrda havoning nisbiy namligi Mirzacho‘lning sug‘orilmaydigan yerlarida 26% gacha bo‘lib, eskidan sug‘oriladigan sizot suvlari yaqin joylashgan yerlarda esa uning miqdori katta. Tajriba yillarida havoning nisbiy namligi 37-42 % ga teng bo‘ldi. Havo haroratining ko‘tarilishi namlikning ko‘proq bug‘lanishiga olib keladi, bu o‘z navbatida, atmosfera yog‘inining yillik o‘rtacha me’yoridan ancha ko‘pdir. Tabiatning bu ko‘rinishi tuproqning sho‘rlanishiga va yosh ko‘chatlarining suvga bo‘lgan talabining ortishiga olib keladi.

Sirdaryo viloyati iqlim sharoitiga ya’ni suvsizlikka va sho‘rli erlarga yaxshi moslasha oladigan o‘simliklardan biri Arab anori – **Momordika** bo‘lib**,** - qovoqdoshlar oilasiga mansub o‘tli tok novdasi. U o‘yilgan barglari, xushbo‘y gullari va g‘ayrioddiy mevalari bor, pishgan - ekzotik yorqin apelsin gullariga o‘xshaydi. Uning ko‘plab ismlari bor: hind yoki sariq bodring, timsoh bodring, yovvoyi qovun, hind anori, balzam nok va boshqalar. Momordikani issiqxonada, balkonda va ochiq maydonda qanday yetishtirish mumkin. O‘ziga xos parvarish kerak va uning xususiyatlari eng qimmatli hisoblanadi.

Momordika (Momordica) - bir yillik va ko‘p yillik uzumlarning 20 ga yaqin turi mavjud bo‘lib Cucurbitaceae (qovoqdoshlar) oilasiga mansub o‘simlik turi. Madaniy o‘simliklar sifatida odatda Momordika Xarantia (Momordica Charantia) o‘stiriladi.

Momordikaning vatani Hindiston va Janubi-Sharqiy Osiyoning tropik mintaqalari. Momordica boshqa qovoq ekinlaridan balandligi 2 metr yoki undan ko‘p bo‘lishi mumkin bo‘lgan ingichka uzun (liana)poyalari, shuningdek, kattaroq och yashil, chiroyli kesilgan barglari bilan ajralib turadi.

Momordikada gullari ikki qavatli, yorqin sariq rangli, nozik xushbo‘y hidli bo‘lib, o‘simlikda erkak gullar, keyin esa urg‘ochi gullar paydo bo‘ladi. Urg‘ochi gullari biroz kichikroq. Uning mevalari tashqi tomondan timsoh terisi kabi papiller o‘simtalar bilan qoplangan. Ular 10-20 sm uzunlikdagi va diametri 7 sm gacha bo‘lgan o‘tkir uchli cho‘zilgan oval shaklga ega. Asta-sekin ular sariq yoki to‘q sariq- sariq rangga ega bo‘ladi.

Momordika urug‘lari qizil-jigarrang, shakli g‘alati, tarvuz urug‘ining kattaligidek, nozik, ammo kuchli qobiqqa ega. Pishganida meva pastki qismidan yorilib, uchta go‘shtli gulbargga aylanadi. Undan 15-20 dona urug‘lari yerga tushadi. Meva ichida suvli quyuq yoqut perikarp mavjud. Uning ta’mi juda yoqimli, pishgan xurmoni eslatadi, mevaning o‘zi esa qovoqning ta’miga o‘xshaydi. Meva yuzasi biroz achchiqdir, shuning uchun momordika ko‘pincha "achchiq qovoq" deb ataladi. Ko‘pchilik, bu achchiq, ta’mni buzmaydi va momordika mevalaridan ajoyib taomlarni tayyorlashga imkon beradi deb hisoblashadi.

O‘sayotgan momordikaning xususiyatlari. Momordika issiqxonada, balkonda va derazada ham o‘stirilishi mumkin. Asosan, o‘simlik urug‘lar yordamida ko‘paytiriladi, ammo vegetativ yo‘l bilan ko‘paytirish usuli ham qo‘llaniladi. Momordikaning ba’zi navlari bezakli uy o‘simliklari sifatida o‘stiriladi, boshqalari esa sabzavot bog‘i ekinlari yoki to‘siqlar va devorlar bo‘ylab manzarali o‘simliklar sifatida o‘stiriladi.

Urug‘larni ekish – Arab anori urug‘i asosan 2023 yil may oylarining o‘rtasi va iyun oyining o‘rtalarigacha Sayxunobod tumani hamda Guliston shahri hududlarida ekildi**.** Tadqiqot o‘tkazilgan hududlarda iyul oyining o‘rtacha havo harorati +29: +29,8°*C* ga teng bo‘ldi. Iyun-iyul oylarida yog‘ingarchilik kuzatilmadi, shuning uchun ko‘chatlarni tez-tez sug‘orish taqozo etildi. Tajribada sug‘orish tadbirlarini amalga oshirishda yog‘ingarchilik miqdori hisobga olingan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, momordika urug‘lari juda zich qobiqga ega. Biroq, ular juda yuqori urug‘lanish foiziga ega. Ekishdan bir kun oldin zaif marganets eritmasida namlashdan tashqari, boshqa maxsus dastlabki tayyorgarlikka muhtoj emas. Bodring urug‘iga o‘xshab, urug‘larning suvda unib chiqishini kutmaslik lozim, aks holda ular chiriydi.

Urug‘larni unumdor tuproq aralashmasi bilan to‘ldirilgan diametri 10 sm gacha bo‘lgan torf qozonlarida 1,5 sm chuqurlikda chekka bo‘ylab ekish tavsiya etiladi. Tushgandan so‘ng darhol ularni iliq suv bilan sug‘orish kerak, shundan so‘ng ularni 2-3 kun davomida sug‘ormaslik kerak.

Urug‘larni ekish uchun eng yaxshi davr mart oyining oxiri yoki aprel oyining boshidir. Ko‘chatlar kamida +20 °C atrof-muhit haroratida 10-15 kun ichida paydo bo‘ladi. Ko‘chatlar bilan tuproq o‘rtacha nam va iliq holatda saqlanishi kerak va o‘simliklar haroratning keskin o‘zgarishidan himoyalangan bo‘lishi kerak. Oyiga ikki marta tuproqni o‘g‘itlash tavsiya etiladi, shu bilan birga organik va mineral qo‘shimchalar bilan almashtiriladi.

Ochiq erga transplantatsiya - O‘simlik 25 sm balandlikda bo‘lganda, u kattaroq idishga ko‘chiriladi. May oyining oxirida uni tuproqli ildizi bilan ochiq yerga ekiladi. Ildizlarni ochish o‘simlikning rivojlanishiga yomon ta’sir qiladi, chunki uning ildiz tizimi yomon rivojlangan.

Agar tuproq juda issiq bo‘lmasa, unda dastlabki o‘tqazish issiqxonada yoki vaqtinchalik boshpana ostida amalga oshirilishi kerak. Momordika undan oldin kartoshka, dukkaklilar va pomidor kabi ekinlar o‘sadigan joylarda o‘zini yaxshi his qiladi.

Momordika mevalarini paydo bo‘lganidan keyin 8-10-kunlarda yig‘ish tavsiya etiladi, ular bunday paytda achchiq ta’mga ega emas bo‘ladi. Ma’lumki, mevalarni tez-tez yig‘ish faolroq meva berishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, agar o‘simlikda bir vaqtning o‘zida juda ko‘p meva pishib qolsa, u zaiflashadi. Bunday paytda mevalarni sifatli olish uchun ularni siyraklashtirish lozim.

Qovoqgullilar oilasining a’zosi sifatida momordika nafaqat tashqi ko‘rinishida qarindoshlariga o‘xshaydi. Ular ham bir xil kasalliklar va zararkunandalarga ega. Bular: quruq chirish, bakterioz, oq chirish, shira kasalliklari. Havo namligining yetarli emasligi sharoitida ham kasallik paydo bo‘ladi. Momordika o‘simliklarini davolash, masalan, bodringni davolash bilan bir xil tarzda amalga oshiriladi.

O‘simlikni parvarishlash. Momordicadan yaxshi hosil olish uchun uning tojini qalinlashtirmaslik tavsiya etiladi. 50 sm balandlikda, barcha yon kurtaklarni olib tashlash kerak; odatda o‘simlikda uchtagacha asosiy poya qoladi. Birinchi meva bog‘langandan keyin 50-70 sm dan yuqori kurtaklar olib tashlanadi. Momordika normal o‘sish va meva berish uchun parvarishga muhtoj. Odatda, o‘stirish vertikal panjara shaklida amalga oshiriladi, bu o‘simlikning quyosh nuri bilan yetarli darajada ta’minlaydi.

Meva berishdan oldin, momordika barglari va poyalari teginish paytida qichitqi o‘tiga o‘xshab, terining kuyishiga olib keladi.

O‘simlik meva berishi uchun gullarning changlanishini ta’minlash kerak. Ochiq havoda o‘stirilganda, bu hasharotlar yordamida sodir bo‘ladi. Uyda gulchanglar erkak gullardan chiqariladi va cho‘tka yoki paxta sumkasi bilan qo‘lda urg‘ochi gullarga o‘tkaziladi.

Momordikaning foydali xususiyatlari. Ma’lumki, qadimgi Xitoyda faqat imperator va uning oila a’zolari momordikani iste’mol qilishga ruxsat berilgan. Hindistonda u xudolarning o‘simliki, Yaponiyada esa asrliklarning taomi hisoblangan. Mamlakatimizda sinov uchun bu ekzotik bodringni Koreya do‘konlarida sotib olish mumkin. Garchi bizning bog‘bonlarimiz momordikani o‘zingiz yetishtirishni ancha qiziqarli va foydali deb hisoblashadi.

O‘simlikning barcha qismlari to‘yimli va shifobaxsh, bu uning ildizlari, barglari, urug‘lari, gullari va mevalari. Momordikaning yangi yosh kurtaklari va barglari salatlar va vinegretlar tayyorlashda, ulardan mazali borsh va dorivor sho‘rvalar tayyorlashda ishlatiladi. Momordika qalampir va baqlajonlarga qaraganda ancha to‘yimli.

O‘simlik tarkibidagi E vitamini inson tanasini erta qarishdan himoya qiladi, F vitamini kuch va quvvat beradi, foliy kislotasi suyak iligini oziqlantiradi, o‘smalardan himoya qiladi. Momordika bakteriyalar va viruslarni yo‘q qiladi, gipertoniya, gemoroy, oshqozon yarasi, qandli diabet va hatto leykemiyani davolaydi. Immunitetni oshiradi, organizmning bakteriya va viruslarga chidamliligini oshiradi. Ortiqcha yog‘ni tezda olib tashlaydi, metabolizmni tezlashtiradi. Qonda xolesterin darajasini pasaytiradi, qon tomirlarini tozalaydi.

Ko‘rinib turibdiki, barcha zaifliklar, jumladan, romatoid artrit, bosh og‘rig‘i va qo‘shma og‘riqlar, kuyishlar, toshbaqa kasalligi, depressiya, furunkuloz, gepatit, prostatit, urolitiyoz, skleroz kabi kasalliklar uchun davo hisobdanadi. Momordica ko‘z kasalliklarini ham davolaydi, ko‘rish keskinligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бейдеман И.Н. Методика изучения фенологии растений и растительнқх сообществ. Методические указания. Новосибирск. Изд-во “Наука” 1974: 121 стр.

2. Давыдова Н.С. Серикова В.И., Репникова Л.А. Перспективные екзотические виды красивоцветущих деревев для озеления садово-парковых комплексов г.Воронежа // Сборник статей II межд.научно-практ. Конф. «Зеленая инфраструктура городской среды. Современное состояняие и перспективы развития» - Москва. Изд-во.ООО «Конверт» 2012: 234-247 стр.

3. Елагин И.Н., Методика проведения и обработки фенологических наблюдений за деревями и кустарниками леса.// Фенологические методў изучения леснўх биогеоценозов. Красноярск: 1980: 67-68стр8. Doang Xoang Jang. Dinamika rosta i razvitiya Momordica charantia L. i

4. Елагин И.Н., Методика проведения и обработки фенологических наблюдений за деревями и кустарниками леса.// Фенологические методы изучения лесных биогеоценозов. Красноярск: 1980: 67-68стр.

5. Доанг Хоанг Жанг. Динамика роста и развития Momordica charantia L. и Momordica balsamina L. (Cucurbitaceae) в условиях культуры в Белгородской области / Доанг Хоанг Жанг, В.К. Тохтарь, В.И. Дейнека //

SIRDARYO VILOYATI SHAHARLARINI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Qilichev Zoyir Toxir o‘g‘li, Umirzaqov Oybek Alimqul o‘g‘li, Nurmaxamadov Abdusalom Shaxobiddin o‘g‘li
Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi
“Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Bugungi kunda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan barcha ishlar inson va uning manfatlariga xizmat qilmoqda. Respublikamizni rivojlatirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar qabul qilingan. Jumladan Vazirlar Mahkamasining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi qabul qilingan bo‘lib, bu dasturda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilmoqda..

Dasturda Sirdaryo viloyatida 2022-2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot va sanoat mahsulotlari hajmini 1,6 baravar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,3 baravar, xizmatlar hajmini 3,2 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,5 baravarga oshirish nazarda tutilgan.

2022-yilda Sirdaryo viloyatida muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda ijtimoiy soha obektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha kompleks tadbirlar;

Sirdaryo viloyatining shahar va tumanlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha shakllantirilgan istiqbolli loyihalarning manzilli ro‘yxati.

Infografika: 2022 yilda Sirdaryo viloyatini ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora tadbirlari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi infografikasida 2022 yilda Sirdaryo viloyatini ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora tadbirlari keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98 qarori bilan 2022 yilda Sirdaryo viloyatida qiymati 466 535,4 mln.so‘m bo‘lgan 78 loyihalar amalga oshirilishi belgilangan. Belgilangan mablag‘larning ***19,7% (91,8** mlrd. so‘m)* ijtimoiy sohadagi ***15*** ta, ***2,5% (11,6** mlrd.so‘m)* muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlaridagi ***5*** ta, ***35,8% (167,2** mlrd.so‘m)* irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari doirasidagi ***40*** ta, ***15,3% (71,5** mlrd.so‘m)* mahallalarni rivojlantirish dasturlari uchun, ***16,1% (75,0** mlrd.so‘m)* yo‘l transport infratuzilmasini rivojlantirish doirasidagi ***4*** ta va ***10,6% (49,5** mlrd.so‘m)* boshqa tadbirlar doirasidagi ***14*** ta loyihalarga ajratilgan.

Dastur doirasida **2** ta maktabgacha ta’lim muassalari, **1** ta sport obyekti, **64,9** km ichimlik suvi tarmoqlari va **8** ta suv inshoatlari, **19,5** km irrigatsiya kanallari qurilishi rejalashtirilgan.

Sirdaryo viloyatida respublikamiz 3% aholisi yashaydi biroq, bu yerda aholi zichligi yuqori, o‘rtacha zichlik 205 kishiga teng. Viloyat markazi Guliston shaxri aholi soniga ko‘ra Respublikamizda eng so‘ngi o‘rinda bormoqda.

Ijtimoiy infratuzilma bevosita aholi ehtiyoj va talablariga qaratilgan. Xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi aholiga xizmat qilar ekan, ijtimoiy geografik tadqiqotlarda aholining o‘sishi, joylanishi milliy etnik va yosh tarkibini taxlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi hamda ishlab chiqarishning joylashuvi bir biri bilan aloqador bo‘lib, hududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.[2]

Viloyatda tarmoqlar bo‘yicha jami band aholi soni 2020-yilda 498,9 ming kishini tashkil etib, unda qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligida 249,4 ming, tog‘ kon sanoatida 0,3 ming, ishlab chiqarish sanoatida 37,8 ming, elektro energiya va gaz taminotida 4,3 ming, suv bilan ta’minlash hamda kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 0,8 ming, qurulishda 48,2 ming, ulgirji va chakana savdo, transport vositalarni ta’mirlashda 34,1 ming, tashish va saqlash xizmatida 13 ming, yashash va ovqatlanish 6,4 ming, axborot va aloqa ming kishi, moliya va sug‘urta xizmatida 2 ming, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarda 0,8 ming, professional, ilmiy texnik faoliyatda 2,0 ming, boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish 2,5 ming, davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta’minot 18,4 ming, ta’limda 29,7 ming, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 21,4, san’at va dam olish 3 ming, boshqa turdagi xizmatlarda esa 23,6 mingta aholi band.

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni*)

(birlik)

	*2010- y.**	*2011- y.**	*2012- y.**	*2013- y.**	*2014- y.**	*2015- y.**	*2016- y.**	*2017- y.**	*2018- y.**	*2019- y.**	*2020- y.**	*2021- y.**
Sirdaryo viloyati	38	38	33	37	36	34	39	33	38	45	**42**	**42**
Guliston sh	13	14	13	16	19	17	17	15	19	18	19	20
shirin sh	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2
Yangiyer sh	3	4	3	4	3	3	5	4	4	7	7	5
tumanlar												
Oqoltin t	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
Boyovut t	4	3	2	1	2	1	1	1	1	1	1	1
Guliston t	4	4	3	3	2	1	1	1	1	2	1	1
Mirzaobod t	2	2	2	2	1	2	2	2	2	3	3	3
Sayxunobod t	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1
Sardoba t	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2
Sirdaryo t	6	5	4	5	3	4	7	4	4	6	3	4
Xovos t	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2

**) Sirdaryo viloyati bo‘yicha taqsimlanmagan ma’lumotlar qo‘shilgan*

Viloyat shaharlari orasida shifoxona muassasalari soni bo‘yicha yetakchilik Guliston shahrida bo‘lib, 2021-yilda 20tani tashkil etmoqda.Shirin shahrida bu ko‘rsatkich 2tani va Yangiyer shahrida esa 5 tani tashkil etmoqda.

Viloyatda bugungi kunda 5 ta shahar (ularning 3 tasi viloyatga bo‘sunuvchi shaxarlar) va 25 ta shaxarcha mavjud. Ularda jami aholining 42,6 % isteqomat qiladi. Vaholanki, respublikamiz o‘rtacha urbanizatsiya darajasi 50,6 % ni tashkil qilganligini hisobga olganda ancha past. Respublikada urbanizatsiya darajasi bo‘yicha, Samarqand, Buhoro, Surxondaryo hamda Xorazm viloyatlaridan oldinda ya’ni 8 - o‘rinda bormoqda.[1]

Mintaqada shaharchalar soni 2009-yilda mamlakatimizda yuz bergan “ma’muriy urbanizatsiya” tufayli ortib borgan. Viloyatda mavjud shaharchalar soni bo‘yicha, Guliston tumani peshqadamlik qilmoqda (5ta), Boyovut Sirdaryo va Sayhunobod tumanlarida (4 tadan), Oqoltin tumanida 3ta, Xovos hamda Mirzaobod tumanlarida 2 tadan shaharchalar mavjud. Ayni paytda Sardoba tumanida bironta qishloq aholi punkti shaharcha moqomiga sazovor bo‘lmagan. Aytish lozimki, yangicha agroshaharlar soni Sirdaryo viloyatida unchalik ko‘p emas: bu borada respublikamizda oxirgi o‘rinda.

Viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi birmuncha pastligi uning urbanizatsiya jarayonida ham o‘z aksini topgan. Mintaqada bironta “yuz minglik” ya’ni katta shaxar yo‘q va bu borada respublikamiz geosiyosiy tizimida yagona xisoblanadi. Markaz Guliston shahri ham bu darajaga yetisha olmagan. Xozirgi kunda Guliston shahrida 93,4 ming, Yangiyerda 45,3 Shirin shahrida esa 19 ming aholi yashaydi. Takidlash lozimki so‘ngi o‘n yilda Guliston shaxri aholisi deyarli o‘n ming kishiga ko‘paygan, boisi shaxar ijtimoiy infratuzilmasinining yaxshilanib borishi, bir qancha oliy o‘quv yurtlarining shaxarda tashkil etilganligi xisobga olinsa, katta ehtimol bilan yaqin 5 yilda respublikamiz katta shaxarlari qatoridan joy olishi mumkin. Viloyat shaxarlari va shaxarchalarida ishlab chiqarishni hududi tashkil etish, xududiy mujassamlashuvni rivojlantrish hamda aholiga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini qator omillarni xisobga olgan holda tashkil etishni talab qiladi. Shuningdek viloyat aholisi o‘z mohiyatiga ko‘ra boshqa hudud aholisiga qaraganda o‘zining yuqori darajada

tadbirkorligi bilan ajralib turadi. Boisi aholi migratsiya natijasida shakllangan., ma'lumki migratsiya "tanlovchanlik" ya'ni "terib olish" xususiyatiga ega.

Xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlanishi va hududiy tarkibini foydalanish hamda aholi bandlik darajalariga ahamiyat beriladi. Ushbu jarayonni tadqiq etish orqali xizmat ko‘rsatish sohalarida, mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari vujudga kelishi mumkin.

Viloyat tabiiy sharoitida ijtimoiy infratuzilma tizimini mukammal yaratish, ta'lim, sog‘liqni saqlash, kabi aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi ayniqsa muhimdir. Viloyat hududida yashovchi aholi qachondir boshqa tuman va viloyatlardan ko‘chib kelgan, binobarin, ularning muqim yashashi va rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish katta axamiyatga ega bo‘lib aholi turmush darajasini yaxshilash va kichik biznesni rivojlantrishrish samaralidir. Chakana savdo aylanmasining salmog‘i bo‘yicha Guliston shaxri hamda Sirdaryo tumanlari yetakchilik qilmoqda, Yangiyer shahri hamda Sardoba va Boyovut tumanlarining ulushi ham nisbatan yuqoriroq. Pullik xizmatlarning ham qishloq tumanlari va shaharlari bo‘yicha taqsimlanishi turlicha, bunda Guliston shahrining mavqei yanada yuqori - 58,6 %. Ushbu soha mintaqada o‘ta markazlashganligi ko‘rishimiz mumkin. Viloyat markazidan tashqari pullik xizmatlar hajmi Sirdaryo tumanida ham bir muncha kattaroq ulushga ega (10,6 %). Ammo aholining jon boshiga xisoblaganda mutlaqo boshqacha xulosalarga kelish mumkin. Bunda, Sardoba tumanida bu ko‘rsatkich eng past ekanligi aksincha Guliston shahrida u eng yuqorigi ko‘rishimiz mumkin.[2]

Ijtimoiy infratuzilma aholining shaxsiy kundalik ijtimoiy maishiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi sharoitlar va tarmoqlar yig‘indisidan iborat tizimdir.

Ko‘pgina mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasidan olinadigan foyda yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga olib keladi, bu esa har qanday mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Respublikamiz boshqa viloyatlari kabi Sirdaryo viloyati ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi davriga kirdi. Ijtimoiy rivojlanishning asosiy sababi ehtiyojlarning o‘sishidir. Ijtimoiy ehtiyojlarni to‘loqonli qondirish xizmat ko‘rsatish sohalari sifati va ko‘lamini oshirishni taqazo qiladi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda ehtiyojlar ortib borishi bilan birga, ularning tarkibi, tuzilishi, ustuvor yo‘nalishlari, sifat mazmuni o‘zgaradi, yangi ehtiyojlar paydo bo‘ladi, eskilari esa yo‘qoladi. Aholining hayot darajasi ortib borar ekan tobora sifatli xizmat turlariga ham ehtiyojning oshishi kuzatiladi.

Viloyatda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga katta e'tibor beriladi. Viloyat bo‘yicha bu ko‘rsatkich o‘rtacha 80,6 foizga teng. Guliston shahrida u 92 %, Yangiyer va Sirdaryoda ham vaziyat ancha yaxshi. Biroq, boshqa hududlarda, xususan Shirin shaxri, Baxt shaharlarida u qoniqarli darajada emas. Tabiiy gaz bilan ta'minlanish - 78,8 %. Guliston, Yangiyer va Shirin shaharlari hamda Sirdaryo tumani xonadonlari gaz bilan 90-100 foiz ta'minlangan.[5]

Umuman olganda viloyatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish darajasi yetarli emas. Shu jihatdan bu yerda qator o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Eng avvalo, mintaqa iqtisodiyotini mukammal xududiy ishlab tashkil etish hamda ijtimoiy infaratuzlmani kuchli sanoat markazlari va tugunlari, o‘sish qutblarini rivojlantirish talab etiladi. Ijtimoiy soxalar masalan, sog‘liqni saqlash, ta'lim, transport kabi aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanishida xam hozircha xal etilmagan muammolar bor.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy saloxiyatini yuksaltirishda, avvalambor, Boyovut, Guliston, Mirzaobod tumanlariga ustuvor ahamiyat berish talab etiladi, chunki bu hududlar viloyat markaziga yaqin. Shuningdek, viloyat markazi xam o‘zining huquqiy mavqeiga teng bo‘lgan shaxarlardan ancha orqada. Binobarin, Guliston shahrining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga, uning demografik saloxiyatini ko‘tarishga xam e'tibor berish maqsadga muvofiq. Hozirgi vaqtda bu shaxarda viloyat jami aholisining 10 foizdan ortiqrog‘i yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sirdaryo viloyati innovatsion hududga aylantiriladi. **president.uz**›uz/lists/view/6132

2. 2022 — 2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98 qarori. https://lex.uz/ru/docs/-5834443

3.2022-2026 yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 maydagi 242-son qarori.**lex.uz**›uz/docs/5998434

4. Ата - Мирзаев О.Б., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко - демографические очерки урбанизации Узбекистана. - Т.: Университет, 2002, 125 с.
5. www.sirstat.uz

SIRDARYO VILOYATI GEOGRAFIK O‘RNI, CHEGARALANISHI VA UNING GIS TAHLILI

G‘o‘dalov Mirkomil Ravshanovich, Zikirov Ixtiyor Yakubovich, Tovbayev G‘ofur Zulkaynar o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: gofurxperia@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-3326-4292

Annotation: Using the cartographic method and GIS analysis, the geographical position, territory and boundaries of the Syrdarya region were clarified from a general geographical, natural-political and economic point of view.

Key words: Syrdarya, geographical position, accumulative, proluvial, geographical coordinate, “Syrdarya axis”.

Kirish. Sirdaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat bo‘lib, Respublikaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Viloyat bevosita Qozog‘iston va Tojikiston Respublikalari hamda Toshkent va Jizzax viloyatlari bilan chegaralanadi. Geografik joylashuviga ko‘ra viloyat juda qulay joyda joylashgan. Viloyat hududi O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy jihatdan rivojlangan sharqiy va shimoli-sharqiy Toshkent, Farg‘ona vodiysi kabi asosiy mintaqalari bilan g‘arbiy, janubiy va markaziy mintaqalari sanalgan Qoraqalpog‘iston-Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro-Navoiy, Samarqand, Jizzaxlarni tutashtirib turuvchi asosiy yo‘l ustida joylashgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sirdaryo viloyati geografik o‘rni, hududi chegaralanishi bo‘yicha ko‘pgina o‘zbekistonlik olimlar o‘zlarining o‘quv qo‘llanmalarida, darsliklarida mavzularning umumiy kichik qismi sifatida yozib qoldirilgan. Jumladan, L.Babushkin, N.Kogay (1964), P.Baratov (1996, 2002), M.Mamatqulov (2002), A.Rafiqov (2002), A.Soliyev (2014) kabi O‘zbekiston va MDHning buyuk geograf-olimlarining xizmatlari beqiyosdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Sirdaryo viloyati geografik o‘rni, hududi, chegaralarini umumgeografik, tabiiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan to‘liqroq yoritishda yuqorida zikr qilingan olimlarning adabiyotlari va ular ishlab chiqqan geografik kartalar orqali solishtirildi, GIS **(QGIS dasturi - EPSG:3857 - WGS 84 / Pseudo-Mercator – Projected – proyeksiyasi)** hamda **Google Earth Pro** dasturlari yordamida aniqlandi va tahlil qilindi.

Asosiy qism va tahlil natijalari. Sirdaryo viloyati Toshkent-Mirzacho‘l okrugining markaziy va janubiy qismida, Mirzacho‘l tabiiy geografik rayonining sharqiy va janubi-sharqiy qismida allyuvila va prolyuvial tekislik landshaftlariga ega bo‘lgan hududda bir necha botiq va balandlik hududidagi to‘lqinsimon tekisliklarda joylashgan [1]. Viloyatning sharq va shimoli-sharqida, asosan Sirdaryoning o‘rta qismida chap sohilidagi akkumulyativ terrasalarda joylashgan. Viloyatning umumiy maydoni 4280 km² va maydoni bo‘yicha ma’muriy-hududiy birliklar ichida faqat Toshkent shahridan katta, viloyatlar ichida eng oxirgi o‘rinda turadi [2]. Viloyat asosan Mirzacho‘lning o‘zlashtirilgan hududlarini o‘z ichiga oladi. Viloyat asosan 40-41° shimoliy kengliklar hamda 68-69° sharqiy uzunliklar orasida joylashgan. Viloyatning geografik markazi 40°22′58.80′′ sh.k., 68°47′54.00′′shq.uz.da bo‘lib, Mirzaobod botig‘iga tog‘ri keladi. Uning hududi janub va janubi-sharqdan shimol, shimoli-g‘arb va shimoli-sharqqa tomon pasayib borgan to‘lqinsimon keng tekislikdan iborat. Ushbu tekislikning shimoliy va sarqiy qismi Sirdaryo daryosi hosil qilgan allyuvial tekisliklarning hosilasi bo‘lsa, janubiy qismi Turkiston-Nurota tog‘ tizmasining yonbag‘irlariga ulanib ketgan tekisliklardir. Sirdaryo viloyatining sharqiy chegarasi Sirdaryo daryosi bo‘ylab shimoli-sharqdan ya’ni 41°1′53′′ sh.k., 68°36′16′′ shq.uz.dan 40°33′49′′ sh.k., 69°6′21′′ shq.uz.gacha janubi-sharqiy yo‘nalishda so‘ngra janubga qarab 40°25′58′′ sh.k., 69°7′8′′ shq.uz.gacha yo‘naladi. Ushbu geografik koordinatadagi nuqta Sirdaryo viloyatining markaziy qismiga nisbatan eng sharqiy qismidir. So‘ngra janubi-g‘arbiy yo‘nalishda 40°12′43′′ sh.k., 68°10′11′′ shq.uz.gacha bo‘lgan tabiiy hududda

Sirdaryo daryosi o‘zani orqali Chirchiq-Ohangaron okrugi bilan chegaralanadi. Viloyatning ekstremal eng chekka sharqiy nuqtasi uning janubi-sharqiy qismiga ya’ni Shirin shahrining janubi-sharqiy qismida Sirdaryo daryosining Do‘stlik va Janubiy Mirzacho‘l kanallariga suv tarqatuvchi to‘g‘on qismida 40°12′43′′ sh. k., 68°10′11′′ shq. uz. dagi geografik koordinataga to‘g‘ri keladi. Viloyat janub va janubi-g‘arbdan 310-330 m li izogipslar orqali Turkiston-Nurota okrugi bilan tabiiy chegaraga ega. Janubiy Mirzacho‘l kanali mintaqasida 320-330 m [3]. Viloyatning eng janubiy qismi 40°9′58′′ sh. k., 68°37′24′′ shq. uz. da Yangiyer shahrining janubi-g‘arbiy qismida 12,42 km uzoqlikka to‘g‘ri kelib, dengiz sathidan 367 m balandda joylashgan. Viloyatning orografik jihatdan eng baland hududi ham uning janubiy qismida 40°9′58′′ sh. k., 68°37′24′′ shq. uz.dagi geografik koordinataga to‘g‘ri kelib, dengiz sathidan 394 m balandda joylashgan. Biroq g‘arbiy chegarada aniq tabiiy chegara belgilanmagan. Asosan M-39 avtomagistrali hamda unga parallel zovur suv yo‘llari asos qilib olinadi. Chunki g‘arbiy chegarani relyefga ko‘ra olinsa relyef gipsometrik ravishda sharqdan g‘arbga emas balki, janubdan shimolga kenglik bo‘ylab pasayib boradi. Viloyatning eng ekstremal g‘arbiy nuqtasi Paxtaobod shaharchasidan taxminan 9 km janubi-g‘arbda 40°19′1′′ sh. k., 68°5′36′′ shq. uz.dagi geografik koordinataga to‘g‘ri keladi. Viloyatning shimoliy qismi biroz nishab bo‘lib Yettisoy botig‘ida Qozog‘iston Respublikasi bilan 250-265 m li izogipslar orqali chegaralanadi. Lekin ushbu chegara ham g‘arbiy chegara kabi tabiiy chegarani ajratish qiyin. Viloyatning eng ekstremal shimoliy chekka nuqtasi Sirdaryo shahridan taqriban 20 km shimolda 41°1′53′′ sh.k., 68°36′16′′ shq.uz. dagi geografik koordinatada yotadi.

Viloyat shimoliy yarimsharning 40°10′14.16′′- 41°01′48.36″ shimoliy kengliklar oralig‘i va sharqiy yarimsharning 66°39′8″ - 69°10′3.78″ sharqiy uzunliklari orasida joylashgan. Viloyatning ma’muriy markazida Guliston shahrining 40°28′55′′ sh. k., 68°10′21′′ shq. uz. dan Xovos shaharchasidan 5,1 km janubi-g‘arbda 40°10′21′′ sh. k., 68°47′54′′ shq. uz.gacha 18′34′′ masofaga cho‘zilgan.

Viloyatning **tabiiy chegaralanishi**da sharqiy qismida asosan suv havzalari, ya’ni Sirdaryo daryosi muhim omil sanaladi. Sirdaryo daryosi viloyatni Toshkent viloyatidan ajratib turuvchi tabiiy chegara hisoblanadi. Toshkent viloyati bilan chegaraning umumiy uzunligi 144,86 km. Sirdaryo daryosining viloyat hududidagi umumiy uzunligi 177 km, o‘rtacha eni 130-250 m, eng keng joyi 40°20′17′′ sh. k., 69°07′25′′ shq. uz. kesishgan nuqtada 460 m, eng tor joyi 40°10′24′′ sh. k., 69°05′40′′ shq. uz. kesishgan qismida 40-110 m, o‘rtacha chuqurligi 1,5-3 m atrofida.

Viloyatning janubiy qismi Mirzacho‘l dashtining janubi-sharqiy qismi bo‘lgan tog‘oldi tekislikka tog‘ri keladi. Asosan Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati bilan 52,94 km masofada 310-330 m balandlikda tekislik orqali chegara o‘tgan. Janubiy tabiiy chegarada asos qilib tekislik relyefi olingan. Eng baland qismi ham janubiy qismiga Xovos shaharchasining janubi-g‘arbiy qismiga tog‘ri keladi. Bu yerda eng baland joy 394 m tashkil etadi.

Viloyatning g‘arbiy qismi asosan Mirzacho‘l dashtining markaziy hududiga to‘g‘ri kelib, Jizzax viloyatining Paxtakor, Do‘stlik, Dashtobod tumanlari orqali o‘tadi. G‘arbiy chegaraning uzunligi 118,9 km ni tashkil etadi. Bu yerda Sirdaryo viloyatining dengiz sathidan o‘rtacha balandligi 300-360 metrli izogipslar orqali o‘tadi. G‘arbiy chegara janubdan shimolga qarab pasayib boradi.

Viloyatning shimoliy chegarasi Mirzacho‘l dashtining bir qismi bo‘lgan Yettisoy va Chordara botig‘iga to‘g‘ri kelib, to‘liq ravishda Qozog‘istonning Turkiston viloyati bilan chegaralanadi. Shimoliy chegaraning umumiy uzunligi 132,759 km ni tashkil etadi. Shimoliy chegara Chordara botig‘i tomon pasayib boradi. Bu yerda ham tabiiy chegara omili sifatida relyefdan o‘tkazilgan. Viloyatning dengiz sathidan eng past joyi ham shu hududga to‘g‘ri kelib,Sirdaryo shahri hamda Sholikor va Malik qishloqlari atrofida 240-250 m ni tashkil etadi, eng past nuqtasi 222 m. Shimoliy chegara umumiy ravishda keng tekisliklardan iborat bo‘lib, o‘rtacaha 250-260 m li izogipslar katta maydonni egallaydi.

Sirdaryo viloyati nisbatan qulay **iqtisodiy** geografik mavqega ega. Viloyat mamlakatimiz doirasida g‘arb va janubi-g‘arbda Jizzax, sharq va shimoli-sharqda Toshkent viloyati bilan chegaradosh. Geosiyosiy o‘rni ham o‘ziga xos: Sirdaryo viloyati shimolda Qozog‘iston Respublikasining Turkiston viloyati bilan, janubda Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati bilan chegaralangan. Viloyatning deyarli qoq o‘rtasidan kesib o‘tgan magistral yo‘llar (“Sirdaryo o‘qi”) ham uning geografik o‘rnining qulayligi, tranzit xususiyatga egaligini ko‘rsatadi [4].

1-jadval

QGIS dasturi - EPSG:3857 - WGS 84 / Pseudo-Mercator – Projected – proyeksiyasi asosida aniqlangan Sirdaryo viloyati chegaralari

T/r	Sirdaryo viloyati chegaradoshlari	Chegara uzunligi (km.da)	Chegara uzunligi (umumiy chegara uzunligiga nisbatan foizda)
1.	Jizzax viloyati	118,91	26,5
2.	Toshkent viloyati	144,86	32,2
3.	Turkiston viloyati, Qozog‘iston	132,76	29,5
4.	So‘g‘d viloyati, Tojikiston	52,94	11,8
Sirdaryo viloyati chegaralari umumiy uzunligi		**449,47**	**100,0**

Xulosa. Jadvaldan ma’lum bo‘ldiki viloyatning har bir chegaradosh hududlari bilan chegaralanish masofasi turli xil o‘lchamga ega. Bu chegaralanishni avvalo ichki (O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi hududlar bilan) va tashqi (qo‘shni Respublikalar bilan) chegaralanishga ajraish mumkin. Bunday tasnifga ko‘ra viloyatning ichki chegaralari, tashqi chegaralariga nisbatan uzunroq masofani tashkil etadi.

Jadvalni alohida tahlil etganimizda Sirdaryo viloyatini tashqi chegaralarining umumiy uzunligi 158,70 km yoki umumiy chegara uzunligining 41,3 % ini tashkil etsa, ichki chegaralarining umumiy uzunligi 263,77 km yoki umumiy chegara uzunligining 58,7 % ini tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tashqi chegaralari viloyatning Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati bilan (*chegara uzunligi 52,94 kmli va bu masofa viloyatning ummuiy chegara uzunligini 11,8 foizini tashkil etadi*) hamda Qozoqiston Respublikasining Turkiston viloyati bilan (*chegara uzunligi 132,76 km va bu umumiy chegra uzunligini 29,5 % ini tashkil etgan*) chegaralariga to‘g‘ri keladi (1-jadval; 1-rasm).

Ichki chegaralari viloyatning Toshkent hamda (*chegaralanish masofasi 144,86 km va bu masofa viloyatning ummuiy chegara uzunligini 32,2 %ini tashkil etadi*), Jizzax viloyatlari bilan (*118,91 kmli masofada chegaralanishi va bu masofa viloyatning ummuiy chegara uzunligini 26,5 foizini tashkil etishi*) chegaralanishi ma’lum bo‘ladi (1-jadval; 2-rasm).



1-rasm. Sirdaryo viloyati chegaradosh hududlarning chegaralar uzunligining qiyosiy diagramma ko‘rinishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. Baratov. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent. “O‘qituvchi” 1996. 186-187-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2023-yil yanvar holatidagi O‘zbekiston Respublikasi yer maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumoti www.stat.uz
3. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent. “O‘qituvchi” 2002. 329-bet.
4. A.Soliyev. O‘zbekiston geografiyasi. Toshkent. “Universitet”. 2014. 153-bet

SIRDARYO VILOYATINI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA TURIZMNING O‘RNI

Xidiraliyev Komil Esanovich, Toymbayeva Dilnoza Abdijabbor qizi, Jo‘rayev Adxam Mengziya o‘g‘li
Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Guliston davlat unistituti “Ijtimoiy fanlar va sana’tshunoslik” kafedrasi 1-bosqich magistranti

XX-asrning boshlarida turizmning ommaviy hodisa sifatida rivojlanishi kuzatilgan. Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko‘plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shu maqsadda respublikamizning ichki hududiy birliklari doirasida o‘ziga xos turistik ob’ektlarni ishga tushirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuning uchun bu borada sezilarli o‘sish haqida fikr yuritish lozim. O‘zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga-7300 dan ortiq qadimiy-me’moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko‘pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo‘qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNESKO ning madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Mamlakatimizning betakror tabiati, go‘zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishimiz zarur [1].

Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo‘llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim. Bu yerda asosiy omil investittsiya katta rol o‘ynaydi. Ushbuni hisobga olgan holda, bugun va kelajakda turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

-mazkur sohani mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida rivojlantirish;

-sayohatlarni amalga oshirish chog‘ida fuqarolarning dam olish, erkin harakatlanishga bo‘lgan huquqlarini va boshqa huquqlarini ta’minlash;

-turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash;

-normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

-ichki turizmni rivojlantirish, shu jumladan ijtimoiy turizmni rivojlantirish doirasida bolalar, yoshlar, keksalar, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining kam ta’minlangan qatlamlari uchun turizm hamda ekskursiyalarni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

-turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va investitsiyalar kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

-mazkur sohada davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

-tadbirkorlik sub’ektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish;

-turizm sohasining sub’ektlariga soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash orqali rag‘batlantirish;

-turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari va mol-mulki himoya qilinishini ta’minlash;

-ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va rivojlantirish;

-kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

-xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

-O‘zbekiston Respublikasining turizm uchun jozibador mamlakat sifatidagi nufuzini oshirish;

-turizm sohasi sub’ektlarini ular turistik bozorlarda milliy turistik mahsulotni targ‘ib qilishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

-ilg‘or innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini rag‘batlantirish;

-turistik zonalar va turistik klasterlarning rivojlantirilishini rag‘batlantirish [2].

Bugungi kunda, turizimning hayotimizda naqadar muhim o‘rin tutib, davlat miqyosida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanayotganini, sohada olib borilayotgan o‘zgarishlar, qabul qilinayotgan qonunlar, turizimni rivojlantirish davlat qo‘mitasining tashkil etilishi kabi islohotlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Mazkur holatda Sirdaryo viloyatining turistik imkoniyatlari o‘zgacha. Hozirgi kunda, Sirdaryo viloyati hududida 78 ta turistik obyekt ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 18 tasi arxeologik, 15 tasi arxitektura va 41 tasi monumental san’at yodgorliklari hamda 4 tasi diqqatga sazovor joylardir (**1-jadal.**).

1-jadal. Sirdaryo viloyatining ma’muriy-hududiy birliklari bo‘yicha obyektlarning turizm turlari bo‘yicha taqsimlanishi

	Ma’muriy hududiy birliklar	**Turizm turlari**				**Jami**
		Arxeologik	**Arxitektura**	**Topimental**	**Diqqatga sazovor joylar**	
	Sirdaryo	4	1	4	-	9
	Sayxunobod	6	-	-	-	6
	Guliston	1	3	1	-	5
	Oq oltin	1	-	4	-	5
	Sardoba	1	1	1	-	3
	Xovos	3	2	-	4	9
	Boyovut	1	8	18	-	27
	Mirzaobod	1	-	3	-	4
	Guliston sh.	-	-	3	-	3
0	Shirin sh	-	-	2	-	2
1	Ingier sh	-	-	5	-	5
	Jami:	18	15	41	4	78

Viloyat turizm obyeklarining salmog‘i bo‘yicha Guliston shahri alohida o‘rin tutadi. Shaharning viloyat turizm obyektlaridagi ulushi 34,6 foizni tashkil etadi. Undan keyingi o‘rinda 11,5 foiz bilan Sirdaryo va Xovos tumanlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Lekin, qolgan tuman va shaharlarni hech birining salmog‘i 10 foizga yetmaydi yoki bo‘lmasa eng ko‘pi bilan 6 ta turistik obyekt joylashganini ko‘rish mumkin.

Viloyatda mehmonxona va shunga o‘xshash turistlarni joylashtirish vositalarining umumiy soni 18 ta bo‘lib, ulardagi joylar soni esa 1042 tani tashkil etadi. Bundan tashqari, viloyatda 1 ta muzey, 1 ta teatr, 4 ta madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud. Muzeyda turli eksponatlar fondi 1296 ta bo‘lib, shulardan: rassomlik 174 ta, numizmatika 199 ta, maishiy va etnografiya buyumlari 127 ta, amaliy san’at buyumlari 291 ta, suratlar 96 ta, arxeologiya buyumlari 358 ta, qadimgi rasmiy hujjatlar 7 tava boshqalar 44 tani tashkil etadi. Madaniyat va istirohat bog‘larining umumiy maydoni 14,6 gadan iborat. Ularda 30 tadan ortiq attraksionlar foydalanishga topshirilgan. O‘zbekistan Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasining 2018-yil 13-sentabr kuni Sirdaryo viloyatida majlisi bo‘lib o‘tdi [3].

Unda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan Sirdaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2019-yilning birinchi yarim yilida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobot

berildi. Sirdaryo viloyati mamlakatimizning markaziy qismida, mintaqamizdagi eng katta daryolardan birining bo‘yida joylashgan bo‘lib, hududda sayyohlikning ayrim turlari, ayniqsa agro-ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Shuni hisobga olgan holda, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan viloyatning mazkur yo‘nalishdagi salohiyatini oshirish yo‘lida izchil ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2019-yil birinchi yarim yilida 3 ta oilaviy mehmonxona, 5 ta restoran va kafe hamda bir necha turoperatorlik subyektlari tashkil etilib, turistik toifadagi mikroavtobus hamda elektromobillar qatnovi yo‘ga qo‘yilgan. Guliston temir yo‘l vokzali hamda «Shohruh» mehmonxonasi hududida turizm axborot markazlarining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, shaharda mehmonlar uchun Wi-Fi zonalarni tashkil etilgani katta qulayliklar yaratmoqda.

Viloyatning turistik salohiyatini ro‘yobga chiqarishda mehmon va sayyohlarni jalb qiluvchi jihatlar, xususan «Sharq ekzotikasi»ga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, viloyat hududidan o‘tuvchi avtomagistral yo‘l bo‘ylarida tuyachilikni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor va fermerlar tomonidan o‘tovlar qurilib, tuya suti va esdalik sovg‘alari sotuvi yo‘lga qo‘yilgan. Guliston shahrining turistik kartalari, turistik buklet, flayer va 500 dan ortiq risola ishlab chiqilib, tarqatildi. Turistik salohiyatni targ‘ib qiluvchi 22 ta targ‘ibot-reklama bannerlari o‘rnatildi.

Bu kabi sa’y-harakatlar natijasida 2019-yil birinchi yarim yilida viloyatga 19650 dan ziyod sayyohlar tashrif buyurgan. Ulardan, 1720 nafari xorijiy mamlakat vakillaridir. 2018-yilning birinchi yarim yilligiga nisbatan bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgan. Sirdaryo viloyatiga 2018-yilda 14786 nafardan ortiq, 2019-yilda 21341 nafar xorijiy va mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Shundan, 2018-yilda 2019 nafari, ya’ni 13 foiz, 2019-yilda 2297 nafari ya’ni 10 foiz xorijiy sayyohlar bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan 3 foizga kamaygan.

2019-yil viloyatda turistik foliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar soni 1 ta, xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni 6601nafar yurtimiz fuqarolarini tashkil etdi. 2019-yilda sotilgan jami sayyohlik yo‘llanmalarining soni 60 tani, qiymati 397,2 mln. so‘mni tashkil etdi. Viloyat hududida mehmonxona va shunga o‘xshash sayyohlarni joylashtirish maskanlari umumiy soni 18 ta bo‘lib, ulardagi o‘rinlar soni 1042 tani tashkil etib, 2019-yilda ularda 21300 kishi joylashtirildi. 2019-yilda Sirdaryo viloyatiga tashrif buyurgan shaxslar 21341 nafar bo‘lib, shundan ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlarda 39,9 foiz, qarindoshlarini yo‘qlash uchun 2,8 foiz, boshqa shaxsiy maqsadlarda 2,7 foiz, davolanish va sog‘lig‘ini tiklash maqsadida 0,2 foiz, tranzit 5,9 foiz hamda ta’lim va kasbiy tayyorgarlik uchun 0,2 foizni tashkil etgan. Viloyatga tashrif buyurganlarning 1365 nafari O‘zbekiston fuqarolari bo‘lsa, 19044 nafari MDH mamlakatlari, qolgan 932 nafari esa uzoq xorij mamlakat fuqarolaridir. Sirdaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishga bir qator omillar ta’sir qiladi, ularning asosiylari **quyidagilar:**

-Turistik (Tabiiygeografik, Tarixiy-madaniy, Zamonaviy turistik);

-Ijtimoiy-iqtisodiy (Turistik ehtiyojlarning qondirilishi, Mahalliy ishchi kuchi bilan ta’minlanganlik, Turizmning rivojlangan turlari haqida ma’lumotlarning mavjudligi);

-Tashkiliy-boshqaruv (Mintaqada turistik faoliyatning tashkil etilishi va uning moliyalashtirilishi, Turistik infratuzilmalarning rivojlanganligi, Mintaqaning transport-logistik imkoniyatlari, Turizmni rivojlantirishni mintaqaviy rejalashtirilishi va boshqarilishi, Turistlar xavfsizligini ta’minlashi).

O‘rganilgan nazariy bilimlar xorijiy tajribalar hamda bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish natijasida viloyatda ishlab chiqilgan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o‘tamiz [3]:

-Guliston shahri markazida joylashgan A.Navoiy nomidagi «Bilimdonlar maskani» atrofida rassomlar, dizaynerlar, yosh havaskor san’atkor va hunarmandlar uchun mahsus joy ajratish;

-Guliston shahri I.Karimov ko‘chasidan O‘zbekiston shoh ko‘chasi bo‘ylab Xondamir ko‘chasigacha bo‘lgan masofada velosipedlar uchun maxsus yo‘laklar barpo etish;

-Oqoltin tuman«Yangi Toshkent» mahalla hududida «Sardoba muzeyi»ni tashkil etish;

-viloyatda gastroturizmni rivojlantirish maqsadida viloyat Oshpazlar uyushmasi bilan hamkorlikda mahallalar o‘rtasida «Taomlar» festivalini tashkil etish;

-Sayxunobod tumani «Robot» SIU hududi Sayxun qo‘riqxonasini Turuzmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tasarrufiga o‘tkazish;

-oilaviy mehmon uylarini tashkil etish va faoliyatini yahshilash maqsadida tadbirkorlar uchun imtiyozli bank kreditlarini ajratish hamda «Har bir oila-tadbirkor» davlat dasturiga kiritish;

-barcha tuman va shahar hokimliklarida turizm yo‘nalishida bir nafar xodim uchun shtat birligini ajratish;

-barpo etiladigan ekoturizm obyektlarini davlat xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirish;

-«Ko‘hna Xovos» ziyoratgohini YUNESKOning Butun jahon madaniy meroslar ro‘yhatiga kiritish va h.k.

Bularni amalga oshirishda quyidagi muammolar to‘siq bo‘lib turibdi:

-turistik obyektlarga olib beruvchi ichki yo‘llarni ta’mirlash va asfalt qoplamasini yotqizilmaganligi;

-viloyatda mavjud turistik obyektlarni mahalliy teleradiokompaniyasi orqali keng yoritilmayapganligi;

-targ‘ibot ishlari uchun moliyaviy mablag‘larni ajratilmaganligi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda, juladan Sirdaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarga juda katta imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berilganligi soha rivojining asosiy omili bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda ba’zi bir kamchilik va foydalanilmayotgan imkoniyatlar borki, ularni bartaraf etish va bu yo‘lda rivojlangan xorijiy davlatlarning ijobiy tajribalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https:\\www.uzreport.news\society\sirdaryo.

2.PK-238. 27 iyul 2023 yil. Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

3. A.Nigmatov va boshq. Turizm va uni Sirdaryo viloyatida rivojlantirishning geografik jihatlari. Monografiya. − Guliston: «Navro‘z», 2021.– 90 b.

SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA KATALPA O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Umirzaqov Oybek Alimqul o‘g‘li, Musurmanov Nurbek Ummatqul o‘g‘li.
Guliston davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi.
Guliston davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bugungi kunda butun kurrasida globallashuv va integratsiya jarayonlari oshib bormoqdaki, O‘zbekistonda ham bunda mustasno emas. Xalqaro munosabatlarda ham qolayotgani yo‘q, balki ichki muhitda ham barqaror va farovon jamiyat qurishda aholi yashash joylari, dam olish hiyobon, bog‘ maskanlari, tuman va shaha hududlarini ko‘kalamzorlashtirish manzarali daraxt, butalarni, atrof - muhitga ijobiy ta’sir qiluvchi, manzarali beruvchi daraxtlarni ko‘paytirishga katta e’tibor berilmoqda.

Kalit so‘zlar: “Yashil makon”, Catalpa Bignoniaceae, Catalpa ovata, kataliz, vegetative, substrat

O‘zbekistonda yil sayin bunyodkorlik ishlari ko‘lami oshmoqda, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o‘zgarmoqda, keng miqyosda rekonstruksiya ishlari o‘tkazilmoqda. Landshaftli qurilishda qo‘llaniladigan yashil o‘simliklar assortimentining asosiy qismi manzarali daraxtlarga ajratilmoqda, chunki manzarali daraxtlar, manzarali ko‘rinishga ega bo‘lib, davomiy gullashi bilan ajralib turadi. Daraxtlarni parvarishlash ham oson. Manzarali Daraxtlar orasida doim yashil va uzoq davomiy gullaydigan turlarga ko‘proq e’tibor ajratilmoqda.

2021-yilda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy loyihasini e’lon qilgan edi. Loyiha doirasida respublikamiz hududida 200 mln tup manzarali daraxt va butalar ekish rejalashtirilgan. Bu manzarali daraxtlar havoni tozalab karbanat angidridni yutib, o‘rniga insoniyat nafas olishi mumkin bo‘lgan O2 ishlab chiqaradi. Daraxtlar atrof-muhitni shovqinlardan ham himoya qiladi.

Inson paydo bo‘libdiki tabiat go‘zalligi hamda ne’matlaridan bahramand bo‘lib kelgan. Inson va tabiat bilan chambarchas bog‘liq. Ibtidoiy odamlar o‘z yashash muhiti atrofida o‘suvchi o‘simliklar foydalangan va kasalliklarga da’vo bo‘ladigan o‘simliklarni qidirib topishga harakat qilishgan. Tabiatning xilma-xil libosga o‘ralishi unda ochilib turgan rang-barang barg shoxlari o‘simlik gullar ularning tana tuzilishidagi o‘zgarishlar bilan hamohang. Gulzorlar, yaylovlar rang-barangligi hamda

xushbo‘y hidlari bilan insoniyatni o‘ziga jalb qilib, sehrlab o‘ziga tortadi. Gullarga bo‘lgan qiziqish insonga xos bo‘lib, avlodlardan o‘tib kelayotgan tabiatga bo‘lgan tug‘ma muhabbat belgisidir. Go‘zal manzaralar, gulzorlar inson kayfiyatini ko‘taradi, ruhan tetik qiladi va estetik did bag‘ishlaydi. Qolaversa bu go‘zalliklardan zavqlana bilish uni chuqurroq tuyish va unga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish insonning madaniyati hamda estetik mezoni belgisidir. Tabiatning bitmas-tuganmas boyliklaridan biri o‘simliklardir. O‘simliklar haqida so‘z yuritar ekanmiz, ko‘z oldimizda tabiatning rang-barang, so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan ajoyib manzaralari namoyon bo‘ladi. Tevarak atrofga sinchiklab razm solsangiz, o‘simliklar hayotimizda juda katta rol o‘ynashi, boy energiya manbai ekanligini sezasiz. Dunyoni qaysi qismida, xoh shimolda, xoh janubda, xoh sharq, xoh g‘arbda bo‘lmasin, xullas, hamma minglab katta va kichik daraxtlarni, o‘n minglab yer yuzasidagi suv ostida o‘sadigan turli-tuman mayda zamburug‘larni, suv o‘tlarini va boshqa bir qancha o‘simliklarni, maysa va giyohlarni ko‘rish mumkin. Hozirgi vaqtda bu o‘simliklarning hammasidan ham foydalanilmasada, lekin ularning ko‘pchiligi xalq xo‘jaligida muvaffaqiyatli suratda qo‘llanilmoqda. Yerda hayotni o‘simliklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ularning inson, atrof-muhitning sanitar-gigiyenik holatini yaxshilashdagi ahamiyati xilma-xil va judayam kattadir. O‘simliklar shamolning kuchini, shovqinini pasaytiradi, issiqlik rejimini boshqarib turadi, havoni turli xil chiqindilar va changdan tozalaydi. Bularning hammasi sog‘lomlashtirish ahamiyatiga egadir. Yashil ko‘kalamzorlar shahar aholisi va aholi yashaydigan punktlarda dam olish uchun eng yaxshi muhit hisoblanadi. Shahar arxitekturasida ham manzarali o‘simliklarning roli katta bo‘lib, aholi yashaydigan punktlarda mikroiqlimning shakllanishida manzarali o‘simliklarning ahamiyati sezilarli darajadadir. Yilning har qaysi faslida havo harorati, yog‘in miqdori, havo va tuproqning namligi, shamol rejimi, atmosfera bosimi, havoning ochiqligi – bularning hammasi shu joyning iqlimini tavsiflaydi.

Manzarali o‘simliklar faqat estetik ahamiyatga ega bo‘lib qolmasdan, balki asab jihatidan ham ahamiyatga egadir. Rang-baranglik, gullarning hidi, barglarning shitirlagan ovozi-bularning hammasi inson kayfiyatiga va asab tizimiga ijobiy ta’sir qiladi.

O‘zbekiston iqlimi issiq o‘lka ekanligi bois, manzarali o‘simliklarsiz aholi uchun qulay sharoit yaratib bo‘lmaydi. O‘simliklar atrof-muhitning sanitariya-gigena holatini yaxshilaydi, shamol kuchini pasaytiradi, shovqinni kamaytiradi, havoni tozalaydi, haroratni mo‘tadillashtiradi. O‘rtacha kattalikdagi bitta daraxt bir kecha-kunduzda uch kishi uchun zarur bo‘lgan kislorod ishlab chiqaradi.[3]

Aholi yashaydigan joylarni ko‘kalamzorlashtirish ishlari orasida asosiy o‘rinni manzarali daraxtlar ekish ishlari egallaydi. Skver, bolalar sport maydonchalari, maktab atrofidagi maydonchalar, bolalar bog‘chalari, binolarga kirish joylaridagi manzarali o‘simliklar ekish judayam rivojlangan. Agar oldingi vaqtda qisqa vaqt ichida tez o‘suvchi, sharoitimizga mos keladigan turlarni ekib yashil maydonchalarni ko‘paytirish masalalari turgan bo‘lsa, hozirga kelib esa zamon talabiga qarab yuqori manzarali bargli va ignabargli daraxtlar chiroyli gullaydigan butalar etishtirilmoqda, ekilmoqda. Shu boisdan manzarali o‘simliklar qatoriga kiruvchi spartium o‘simligi o‘rganildi. Spartium yorug‘sevar, namlikka, qurg‘oqchilikka, shamolga, sovuqqa, shahar sharoitiga ham chidamli o‘simlikdir. Spartium yorug‘lik kuchli tushib turadigan issiq joylarni xush ko‘radi. U asosan dekorativ o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Spartium doimiy yashil dekorativ illyuziya bag‘ishlaydi.

Ana Shunday o‘simliklardan biri Catalpa Bignoniaceae oilasida joylashgan bezak daraxtlari va butalarining bir turi. Ko‘pchilik uchun, bu o‘simlik o‘n yil avvalgi ekzotik mo‘jizalar edi, lekin bugungi kunda u janubiy Rossiyaning ko‘plab hududlarida, Ukrainada Belorussiyada faol ravishda o‘stirilmoqda. Catalpa - Ikki jinslari vakillari uchun tabiiy muhit. Katalpa barglari, gullari va urug‘ po‘stlog‘ining rasmlari va tavsiflari turli xil daraxt turlarini tanib olishga yordam beradi. Katalpa daraxtining eng taniqli xususiyati ularning uzun, ingichka urug ‘ po‘stlog‘i kuzda paydo bo‘lib, qishgacha yoki hatto bahorgacha saqlanib qoladi. Katalpa – bu dunyoning iliq mintaqalarida o‘sadigan gullaydigan daraxtlarning jinsi. Ikki tur Shimoliy katalpa va Janubiy katalpa vatani Shimoliy Amerikada. Katalpa daraxtining boshqa keng tarqalgan turi bu Xitoy katalpasi (Catalpa ovata), vatani Xitoy. O‘simliklar eng katta taqsimoti Xitoy, Yaponiya va Hindistonda joylashgan. U yovvoyi tabiatda o‘sadi va barcha Osiyo mamlakatlarida yetishtiriladi. Aslida, katalapa dekorativ maqsadlarda o‘stiriladi, ammo an’anaviy tibbiyotda ishlatiladi, qimmatbaho yog‘ochni olish uchun ishlatiladi, u hashamatli mebel ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. [4]

Katalpalarni yetishtirish bilan shug‘ullanadigan ko‘plab bog‘bonlar ko‘pincha shu kabi daraxtlar juftligini olish uchun vaqt keldi deb o‘ylashadi. Axir ular yil davomida uy va bog‘uchastkalarini bezashadi va hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Bunday hollarda siz faqat gul do‘konlari va yarmarkalaridagi so‘qmoqlar sotib olishingiz mumkin yoki sizning yeringizda o‘sayotgan bir nechta qo‘shimcha o‘simliklarni olishga harakat qilishingiz mumkin.

Siz katalpani ikki usulda yetishtirishingiz mumkin: vegetativ tarzda, ya’ni, payvandlash orqali yoki urug‘lardan foydalanish. Quyidagi ro‘yxatga ko‘ra, ekish substratini tayyorlang va o‘simliklarni ko‘paytirishni boshlang.

Katalada urug‘i va qalamchalari uchun tuproqga ekish:

- bir qism daryo qum;
- besh yuz gramm bargli tuproq;
- ikki yuz ellik gramm torf;
- yetti yuz ellik gramm gumus.

Katalpa juda ko‘p namlikka muhtoj. Bir haftasiga taxminan 20 litr suv kerak bo‘ladi. Quruq mavsumda siz ikki marta tez-tez namlashingiz kerak. Yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lsa, sug‘orish sonini oyiga 2 marta kamaytiring. Kundalik yomg‘ir bo‘lsa ham, kamida oyiga bir marta daraxtlarni qo‘shimcha sug‘orishingiz kerak. Bu turg‘un namlikning oldini oladi. Daraxtlar chirigan organik moddalar, mineral aralashmalar bilan oziqlanadi. Bahor va yozda oyiga taxminan 2 marta, ildizlar ostida sigir go‘ngining suyuq eritmasidan bir chelak quyishingiz mumkin. Aprel oyida azotli o‘g‘itlarni qo‘llash tavsiya etiladi, kurtaklarni qo‘yishdan oldin fosfor va kaliy tuzlari aralashmasini qo‘shing. Dastlabki yillarda faqat muzlagan va kasal shoxlari kesiladi.. Buni mart oyining oxirida qiling. To‘liq skelet kurtaklari paydo bo‘lishi bilan toj shakllanishi boshlanishi mumkin. Odatda katalpalar tanasini 120-180 sm gacha balandlikda ochib, shoxlarini kerakli shaklga mos ravishda kesib, dekorativ ko‘rinishga ega bo‘ladi. Siz haddan tashqari g‘ayratli bo‘lolmaysiz, chunki o‘simliklar juda sekin tiklanadi. Har bir sug‘orishdan so‘ng, begona o‘tlardan yalang‘ochlash bilan birlashtirib, tuynuk atrofidagi tuproqni bo‘shatish tavsiya etiladi.

Katalpa o‘zini manzarali ko‘rinishi, chiroyli ko‘rinishi bilan insonlarga yaxshi kayfiyat, tuman va shahar ko‘chalariga ko‘rkamlik bag‘ishlaydi. Shu sababli bu manzarali o‘simlik ob’ekti hisoblanadi. So‘ngi yillarda O‘zbekiston hududiga navlarini moslashtirish va yetishtirish bunga sabab bo‘lmoqda.

Sirdaryo viloyatining 90 % yerlari sho‘rlangan va iqlimi keskin kontinentalligi bilan boshqa viloyatlardan ajralib turadi. Hususan, viloyatimizda har xil turdagi manzarali daraxtlar shahar va tumanlarda obodonlashtirish maqsadida har yili ekilmoqda. Olib borlayotgan ko‘kalamzorlashtirish ishlariga qaramasdan, er osti sizot suvlarinning yaqinligi, tuproq sho‘rlanganligi, ekilayotgan manzarali daraxt ko‘chatlarnning rivojlanishiga salbiy ta’sir etmoqda. Natijada, tuproq –iqlim sharoiti juda yaxshi bo‘lgan viloyatlardan (maxsus pitomniklardan) keltirilgan ko‘chatlarni ekib barpo qilingan bog‘ va xiyobonlardahar yili ekilgan daraxtlarning ko‘karmasligi, ortiqcha xarajat va vaqtni sarflanishiga sabab bo‘lmoqda.

Bunday holatda viloyatimiz tabiiy iklim sharoitiga mos daraxtlarni ekish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘rinda Katalpa manzarali daraxt sifatida e’tiborni jalb etdi. Katalpa manzarali daraxt stress sharoitga yaxshi moslasha oladigan, tuproq sho‘rlanish darajasiga chidamli, ko‘kalamlashtirish ishlarini olib borayotgan O‘rmon ho‘jaliklari, xususiy firmalar va mahalliy aholi uchun yuqori sifatli yog‘och olishda ham ahamiyat kasb etadi. Katalpa daraxti juda tez muhitga moslashishi bilan xam boshqa manzarali daraxtlardan farq qiladi. Insonlarga estetik zavq beradigan va o‘ziga xos infratuzilma hosil qiluvchi har qanday sharoitga chidamli o‘simliklardan hisoblanadi.

Vaholanki viloyatimizda ko‘kalamlashtirish va o‘rmonchilik ishlarini rivojlantirish uchun,aynan muayyan tuproq - iqlim sharoitida Katalpa daraxti navlarini tanlash va ko‘chatzorlarini barpo etish maqsadga muvofiq.

Mazkur loyihada Sirdaryo viloyati sharoitida Katalpa daraxti urug‘lardan ko‘chatzorlarini tashkil etish, sifatli ko‘chat yetishtirish, ulardan ko‘kalamlashtirishda foydalanishga doir ma’lumotlar o‘rin olgan.

Yuqorida keltirilgan masalarning echimini topish maqsadida mazkur loyiha o‘z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni belgilab oldi.

Loyiha maqsadi:

Sirdaryo viloyatining sharoitiga mos Katalpa daraxti navlarini tanlash va ko‘chatzorini tashkil etish.

Loyiha vazifalari

- Katalpa daraxti ko‘chatzorini tashkil etish va etishtirish;
- Katalpa o‘simligini jadal ko‘paytirish usulini ishlab chiqish;
- Katalpa daraxti ko‘chatlaridan ko‘kalamzorlashtirishda foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- Katalpa daraxti ko‘chatlari etishtirish va ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish buyicha tavsiyalar tayyorlash va chop etish.
- Katalpa daraxti ko‘chatini etishtirish bo‘yicha servis xizmatini tashkil etish.

Mazkur loyihada yechilayotgan muammolar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha bo‘lgan muddatda o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish kontseptsiyasi” to‘g‘risidagi qarorning ijrosi bilan uzviy bog‘liq.

Ishning ilmiy yangiligi:

- ✓ Ilk bor Sirdaryo viloyatining sho‘rlangan tuproq sharoitida Katalpa daraxti ko‘chatzori tashkil etiladi;
- ✓ Ilk bor Sirdaryo viloyati sharoitida Katalpa daraxtini ko‘paytirish usullari aniqlanadi;
- ✓ Sirdaryo viloyati sharotida Katalpa daraxtidan ko‘kalamzorlashtirish va agroo‘rmonchilikda foydalanish yo‘lga kuyiladi;
- ✓ Sirdaryo viloyati sharoitida ko‘kalamlashtirish ishlarini olib borayotgan o‘rmon xo‘jaliklari, xususiy firmalar va mahalliy aholi uchun Katalpa ko‘chati etishtiriladi.
- ✓ Katalpa urug‘,ko‘chat va nihollarini ekish va tarbiyalash bo‘yicha servis xizmati tashkil etiladi.

Loyiha amalga oshiriladigan bo‘lsa,Sirdaryo viloyati tabiiy sharoitiga mos yashil maskan hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining qarori, 25.11.2021 yildagi 1563-IV-son
3. Рахимова Т. У., Рахимова Т. Манзарали ўсимликлар. – Тошкент: Ўз. МУ, 1998.
4. E.Berdiyev, Sh.Gulomxodjayeva . Manzarali daraxtlarni kopaytirish. Toshkent– 2020.
5. http://members.yandex.ru
6. www.ru.wikipedia.org.kiev.ua
7. Zulkaynar o‘g T. G. et al. SIRDARYO VILOYATI GEOGRAFIK O ‘RNI, CHEGARALANISHI VA UNING GIS TAHLILI //World scientific research journal. – 2023. – T. 16. – №. 1. – C. 12-16.
8. Tovbayev G. Z. GLOBAL EKOLOGIK MUAMMONI HAL QILISH YO ‘LLARI //Экономика и социум. – 2022. – №. 5-2 (92). – C. 279-283.

EKOLOGIK MADANIYAT TUShUNChASI VA UNING ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Ishankulova Komila Kurbanovna, Karshibayeva Lola Klichevna, Nurmaxamadov Abdusalom Shaxobiddin o‘g‘li

“Ekologiya va geografiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

.”Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi

3-bosqich Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta’lim yo‘nalishi talabasi.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida insoniyatning texnogen tsivilizatsiyasidan noosfera davriga o‘tishi tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu bo‘lsa o‘z navbatida V.I. Vernadskiy ta’biri bilan aytganda, biosfera rivojlanishida inson aqliy salohiyati ahamiyatining kuchayishi bilan tavsiflanishi kerak . Bu jarayon insonning yerdagi hayotini saqlab qolishga intilishi bilan o‘zaro qarama-qarshi birligida aks etadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, ko‘pchilik xorijiy olimlarning fikriga ko‘ra, bundan buyon yadroviy falokat insoniyatni halokatga yetaklovchi yagona havf sifatida qaralmayapti, aksincha

insoniyatning yer yuzidan yo‘q bo‘lib ketishiga yetaklovchi asosiy omil sifatida insonning tabiatni o‘ziga bo‘ysundirishi yo‘lidagi odamzod manfaatiga zid bo‘lgan hatti-harakatlari, tabiat qonunlaridagi muvozanatning buzilishiga olib kelgan ilmiy-texnik taraqqiyotning vayronkor oqibatlari natijasida yuzaga kelgan global ekologik muammolar oldinga chiqmoqda. Bu bo‘lsa nafaqat insoniyat uchun havf tug‘idrmoqda, balki butun tirik olamning yer yuzidan yo‘qolib ketishi havfini yaratmoqda. Misol uchun, N.N. Moiseev ekologik muammolarni hal qilishga bo‘lgan an’anaviy yondashuvlarni keskin tanqid ostiga oladi. Uningcha, dunyo hamjamiyati yaqinlashib kelayotgan xatarni ob’ektiv baholay olmayapti. Ushbu anglashmovchilikning qanchalik ahamiyatli ekanligini 1992 yilda Rio-de-Janeyroda bo‘lib o‘tgan konferentsiya natijalari ko‘rsatib berdi. Ushbu konferentsiyada asosiy masala sifatida insoniyat nafaqat ayrim biologik turlarni saqlab qolish bilan shug‘ullanmasdan, balki ekotizimlarni asrashga ham diqqatini qaratmog‘i darkor va buning uchun demografik siyosatni yuritishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish lozim degan fikr ilgari surilgan.

Bu esa o‘z navbatida inson tomonidan olib boriladigan barcha ilmiy tadqiqotlarning asosiga jamiyat va tabiatning o‘zaro hamjihatlikda rivojlanishini olish lozim va yagona planetar jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning yangi strukturasini ishlab chiqish va ijtimoiy qadriyatlar tuzilmasini qayta ko‘rib chiqmoq darkor. Bunday yondashuv o‘z navbatida insoniyat ekologik madaniyatini tashkil qiluvchi asoslarni yangicha yondashuv asosida tahlil qilish va uni shaxs qadriyatlariga singdirishninng yangi shart-sharoitlarda ostida takomillashtirishni talab etadi.

Ekologiya va madaniyat o‘rtasida bevosita aloqa mavjuddir: ekologiyaning holati jamiyat madaniyatining rivojlanganlik darajasini aks ettiradi. Shu sababli ham insonlarning tabiatdan foydalanish madaniyatini o‘zgartirmay turib, atrof-muhit, ekologiyadagi ijobiy o‘zgarishlarga erishib bo‘lmaydi. Aynan madaniyat inson faoliyatini hayotning biosferaviy va ijtimoiy qonuniyatlariga moslashtirishi mumkin.

Madaniyat bu inson borlig‘ining shunday jabhasiki uning asosida umuinsoniy – hayot mazmunini belgilovchi qadriyatlar yotadi va bu qadriyatlar o‘z navbatida absolyut hisoblangan, umrboqiy qadriyatlar, boshqacha qilib aytganda umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Ushbu qadriyatlarni shaxsga singdirish bo‘lsa ta’lim va tarbiyaning ustuvor vazifasidir. Tarbiya madaniyatni avloddan avlodga o‘tkazishda hamda har bir shaxsning madaniy tajribasini shakllantirishda ishtirok etadi.

Ekologik holatning yomonlashuvi, yoshu-qarining, ularning faoliyati qanchalik tabiatga zarar yetkazishi haqida fikr qilmagan holda, imkon qadar tez fursatlarda foyda olishga intilishi, huquqiy me’yorlarni bilmaslik va ularga amal qilmaslik, yoshlar o‘rtasida zo‘ravonlikning ortib borishi va boshqalar umumiy madaniyatning va, shu jumladan, ezgulikka intilish, boshqalar dardiga befarq bo‘lmaslik, o‘z-o‘zini chegaralash va mushohada yuritish kabi qadriyatlarga asoslangan ekologik madaniyatning qanchalik past darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Hozirgi paytda insoniyat tobora soni ortib borayotgan ekologik muammolar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi davrda jamiyat barqaror rivojlanishini falsafasining asosini ekologik madaniyatni shakllantirish tashkil qiladi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan ta’lim va tarbiyani yo‘lga qo‘yish ekologik madaniyatni insoniyatning barqaror rivojlanishini harakatga keltiruvchi va uning kelajagini belgilovchi yetakchi kuchga aylantiruvchi yechimlardan biridir.

Ekologik madaniyatli insonni boshqalardan farqi shundaki, u o‘z ichki olami va tashqi olam bilan uyg‘unlikka erisha oladi. Bolalik davrlarida bu hislatlar maxsus bilimlar orqali, ya’ni hissiy-emotsional tarbiya va ekologik faoliyatga oid amaliy mashg‘ulotlar yordamida shakllantiriladi. Insonning oilada ko‘rgan tarbiyasi undagi ekologik madaniyatning shakllanishiga beqiyos ta’sir o‘tkazadi. Zero, qadimdan halqimizda “qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql mavjud bo‘lib, bu bevosita farzandning ekologik madaniyati shakllanishida ham ahamiyatga ega. Ota-ona va oiladagi navqiron insonlarning tabiiy resurslar, suv, havo, tuproq, oziq-ovqat va h.k.larning inson hayotida tutgan o‘rni, ularni qadrlash va toza-ozoda tutish kerakligi haqidagi tarbiyaviy pand-nasihatlari bolalarda ongsiz ravishda ushbu resurslarga bo‘lgan ezgu munosabatini, ularning umri davomida asosiy postulat vazifasini o‘tovchi ekologik madaniyatning amaliy in’ikosi sifatida qoladi.

Ekologik madaniyat bu umumiy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, insonning tabiiy muhit bilan aloqaga kirishiuvchi tafakkuri va faoliyatida aks etadi.

Falsafada madaniyatga insonning ijtimoiy me’yorlar, ma’naviy qadriyatlar tizimida hayotiy faoliyatini tashkillashtirish va rivojlanishining hamda moddiy va ma’naviy mehnat mahsullarida aks ettiriluvchi o‘ziga xos usuli sifatida qaraladi . Bu faoliyat insonning insonlarning tabiatga, bir-biriga va o‘z-o‘ziga munosabatida namoyon bo‘ladi.

Madaniyat va faoliyat birgalikda dialektik birlikni tashkil qiladi. Faoliyat madaniyatni yaratadi va unga hayot baxsh etadi . Madaniyat bo‘lsa, ushbu faoliyatni tashkillashtiradi va nazorat qiladi, uni amalga oshirish usullariga, samaradorligiga va uni takomillashtirishning taxminiy yo‘lllari va yondashuvlarga aniqlik kiritadi.

Madaniyat bu faoliyatning, uning sifati va samaradorligini belgilovchi o‘ziga xos mezonidir . Faoliyatning sifat ko‘rsatkichi tariqasida madaniyat tafakkur va hatti-harakat usuli bo‘lgan holda o‘z ichiga faoliyat va uning natijalariga bo‘lgan munosabatni, ya’ni foliyatga nisbatan qadriyatlarga asoslangan me’yoriy munosabatni mujassamlashtiradi. Madaniyatning tabiat, jamiyat va shaxs bilan aloqasi o‘z ichida faoliyatga asoslangan va qadriyatlarga asoslangan aspektlari mavjud.

Shunday qilib, madaniyat ma’lum bir aspekt doirasida insonning ijtimoiy faoliyatini tavsiflaydi, ushbu faoliyatning insonning shaxs sifatida shakllanishi, kamol topishi va uning asosini tashkil qiluvchi kuchlarning, ya’ni jamiyat tomonidan tashkil toptirilgan sub’ektiv imkoniyat va ehtiyojlar ko‘rinishidagi ijtimoiy sifatlarining taraqqiy etishi va yuzaga chiqishi qanchalik qo‘l kelishiga aniqlik kiritadi. Keltirilgan madaniyat ta’riflarida va uning o‘ziga xos jihatlari muhokamasida madaniyatni tabiat bilan qarama-qarshilikda ta’riflash kuzatiladi. Zero, inson madaniyatining namoyon bo‘lishi inson tafakkuri mahsullarining tabiat va atrof-muhitda qoldirgan izida aks etadi. Biroq inson madaniy ko‘nikmalarni faqatgina tabiiy muhitga ta’sir o‘tkazish va sun’iy muhit yaratish bilangina rivojlantirmagan. Aksincha, inson o‘z mavjudligining butun tarixi davomida u yoki bu tabiiy muhitda istiqomat qilgan holda undan ko‘p narsalarni o‘rgangan.

Bugungi kunda yuksak madaniyat va ekologik madaniyatning yaqqol namoyon bo‘lishi ularning ijtimoiylik va tabiiylikdan farqlanish darajasida emas balki ularning hamohangligida deb qaralmoqda. Bu hamohanglik orqali tabiat kishining insoniy borlig‘iga aylanuvchi, tabiatni asrash bo‘lsa jamiyat va odamni tur sifatida saqlanib qolishiga imkon yaratuvchi tabiiy ijtimoiy tizimni tashkil qiluvchi, tabiatdagi va jamiyatdagi muvozoanatga erishish imkonini beradi.

Ekologik madaniyatning mazkur tahlil doirasida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, umumiy madaniyatdan ekologik madaniyatni ajratib ko‘rsatish ilmiy xarakterga ega. Aslida madaniyat bo‘linmas va bir butun hodisadir.

Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ekologik madaniyat ma’lum bir jamiyat madaniyatining komponenti sanalib, o‘z ichiga insonning tabiatga ta’siri, tabiatni ma’naviy-moddiy o‘zlashtirish vositalari (bilim, dunyoqarash, madaniy an’analar, qadriyatlar va h.k.) majmuidir.

Shuni narsani qayd etish kerakki, ekologik madaniyat tushunchasi ilmiy doiralarga nisbatan yaqin o‘tmishda kirib kelgan va shu sababli hali hanuz ekologik madaniyat tushunchasining umumiy qabul qilingan ta’rifi va tavsifi mavjud emas. Quyida ekologik madaniyatning asl mohiyatini, bizningcha, imkon qadar to‘g‘ri aks ettiruvchi ta’riflarini keltiramiz.

B.T.Lixachevga ko‘ra ekologik madaniyatning mazmun-mohiyatini ekologik taraqqiy etgan ong, emotsional-psixik holat va utilitar amaliy faoliyatning yakdilligi va birligida aks etadi .

V.K. Nazarov fikricha ekologik madaniyat orqali insoniyat tabiat va atrof-muhitga shunday ta’sir o‘tkazadiki, ushbu ta’sir orqali insonning yuqori sifatli hayot tarziga bo‘lgan ehtiyoji qondiriladi va mos ekologik ong, tafakkur, xulq-atvor orqali avloddan avlodga tabiatga oqilona munosabatda bo‘lish g‘oyalarini o‘tkazib boradi.

Rus olimi Yu.I.Zelesskaya ekologik madaniyat shakllanishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyatiga urg‘u berar ekan unga ma’lum bir maqsadni ko‘zda tutuvchi ekologik ta’lim va tarbiya mahsuli sifatida ta’rif beradi va shaxsda ekologik madaniyatning mavjudligini uning ekologik tarbiyalanganlik darajasi bilan bog‘laydi.

V.A. Sitarov va V.V. Pustovoytov ekologik madaniyatni inson faoliyatining axloqiy-madaniy jabhasi sifatida ta’riflab, ushbu jabha insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatini belgilaydi hamda o‘z ichiga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan unsurlarni: ekologik ong, ekologik munosabat va ekologik faoliyatni oladi. Bunda asosiy unsur sifatida ekologik madaniyatni ijtimoiy ong va, xususan, shaxs darajasida rivojlantirishga mas’ul bo‘lgan ekologk institutlar chiqadi .

Ushbu ta’rifga faqatgina bir shart bilan qo‘shilish mumkin, ya’ni ekologik madaniyat inson hayotining faqatgina axloqiy-ma’naviy jabhasini qamrab olibgina qolmay balki uning amaliy jihatlarini ham o‘z ichiga olishi lozim.

Shunday qilib, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ekologik madaniyatning ikki aspekti: moddiy (insoniyatning tabiat bilan o‘zaro munosabatga kirishishining barcha shakllari) va ma’naviy (ekologik bilim, ko‘nikma, malaka va qarashlar) ajratiladi.

Ayrim mualliflar ekologiya, ekologik madaniyat va madaniyatga bag‘ishlangan ishlari orqali ekotizimning insoniyat rivojida tutgan o‘rni, insonning ekotizim taraqqiyotida tutgan o‘rnini izohlab o‘tishgan va insonning tabiat bilan o‘zaro munosabati amalda qanday namoyon bo‘lishini tushunirib berishgan .

Ekologik antropologiya nuqtai nazaridan yondashuvchi olimlar fikriga ko‘ra, inson ekotizimning ajralmas qismi hisoblanadi va insonning ekotizimga nisbatan munosabati, uning atrofmuhit va ekotizimni tushunishi uning o‘zining rivojlanishiga ta’sir o‘tkazadi. Shuningdek, mualliflar ekologik madaniyat, atrof-muhit bo‘yicha voqiflik va atrof-muhit ekologik degradatsiyasi keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan havf-xatarlarni muhokama qilishadi.

Biologik-antropologiya nuqtai nazaridan frantsiyalik antropolog olim Jorj Olive inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatni muhokma qilar ekan madaniy atrof-muhitni odamlar va tabiat, odamlar va jamiyat hamda odamlar va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oluvchi madaniy kenglik ekanligini isbotlashga urinadi . Olivega ko‘ra ekologik madaniyatga insonning tabiatdagi roli yoki tabiatning inson hayotidagi o‘rni sifatida qaralishi mumkin. A.Bleyk o‘z ishida insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatiga ekologik antropologiya nuqtai nazaridan baho beradi .

Ko‘plab tadqiqotchilar ekologik madaniyat haqidagi bazaviy qarashlarini keltiradi. Ularga ko‘ra insoniyatning barqaror rivojlanishi uchun insonlarda ekologik madaniyatni rivojlantirish global ekologik muammolarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mualliflar o‘z ishida insonning tabiat bilan o‘zaro munosabati tarixini tizimli ravishda o‘rganish orqali ushbu munosabatning barqaror rivojlanishga qanchalik ta’sir o‘tkazishini isbotlashga urinadi. Shu bilan birga ushbu tadqiqotchilar inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat yo‘nalishi, munosabatdan ko‘zlangan maqsadlar nimadan iborat bo‘lishi kerakligini ko‘rsatib o‘tishadi.

Turli davrlarda olimlar tomonidan ekologik madaniyat nazariyalari haqida qarashlar shakllantirilgan va ekologik madaniyatning jamiyat barqaror taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqidagi qarashlar keltirilgan. Ba’zi mualliflar ekologik madaniyat muammosini nazariy jihatlarini iqtisodiy rivojlanish muammolarida inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning tutgan o‘rni nuqtai nazaridan tadqiq qilishgan.

Madaniyat kontsepti turli nuqtai nazarlardan o‘rganilishi mumkin. Hozirgi paytda “madaniyat” tushunchasining 400 ga yaqin definitsiyasi mavjud bo‘lib, har bir madaniyatni ta’riflashga bo‘lgan intilish ortida ma’lum bir ratsional nuqtai nazar yotadi. Shu jihatdan, madaniyat tushunchasiga turli aspektlarni inobatga oluvchi to‘liq, yakdil ta’rif ishlab chiqilmagan. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda “madaniyat bu insoniyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi mobaynida inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmui bo‘lib, ijtimoiy rivojlanish maxsulidir”.

Tilimizdagi “madaniyat” so‘zining etimologiyasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, “madaniyat” (arabcha – madinalik, shaharlik, ta’lim-tarbiya ko‘rgan) asl ma’nosi tabiat bilan va insonlarning o‘zaro munosabatida namoyon bo‘luvchi inson faoliyatining o‘ziga xos usulini anglatishini ko‘rishimiz mumkin. Madaniyat so‘zi dastlabki ma’nolarida odamzodning tabiatga ta’sirini, masalan, yerga ishlov berishini, unga o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘zgartirish kiritishi ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik madaniyat so‘zi tarbiyalash, o‘qitish ma’nolarini kasb eta boshlagan. Keyingi davrlarda madaniyat deganda insoniyat tamadduniga oid faoliyat turlari va ularning natijalari tushunila boshlagan .

Rus va boshqa ko‘plab g‘arbiy tillarga qaraydigan bo‘lsak madaniyat so‘zi “kultura” (rus.), “culture” (ingl.), “culturae” (fra.) so‘zlari bilan ifodalanadi. “Culture” so‘zining (lotincha – o‘stirish, kultvatsiyalash) ma’nosi ham birinchi navbatda yerga ishlov berish, unga insonning o‘z manfaati yo‘lida foydalanish uchun o‘zgartirish kiritishi ma’nolarini anglatganini ko‘rishimiz mumkin. Ikkala holatda ham anglashinadiki, “madaniyat” va “kultura” so‘zlari etimologik jihatdan bir-biriga juda yaqin ma’noga ega. Ya’ni insonning bevosita tabiatga ta’sir o‘tkazishi va unga o‘z manfaatini

ko‘zlagan holda o‘zgartirish kiritishini anglatadi. G‘arbda “kultura” so‘zining insoniyat tsivilizatsiyasining intellektual hususiyati ma’nosida qo‘llana boshlashi 19-asrga borib taqaladi .

Ekologiya so‘zining etimologiyasiga qaralsa, Grekcha "oikos" so‘zidan olingan bo‘lib, uy, qo‘rg‘on, barcha mavjudotlar istiqomat qiladigan joy va shuningdek insonni o‘rab turgan atrofmuhit ma’onsini beradi. Ekologik muhit deganda tabiiy atrof-muhit ham anglashinib, barcha tirik mavjudotlar yashovchi muhit va barcha tirik organizmlarning hayot faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi sharoitlar tushuniladi. Ekologik muhit noorganik elementlar (havo, tuproq, suv, resurslar va b.), organik elementlar (mikroorganizmlar, hayvonlar, o‘simliklar va b.) va odamzodni o‘z ichiga oladi. Ekologik muhitda elementlar bir-biri bilan doimiy o‘zaro munosabatda bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabat dialektik xarakterga ega va ekologiyaning asosiy qoidalarini tashkil qiluvchi qonuniyatlar asosida kechadi. Ushbu ekotizimda insonlar tug‘iladi, yashab qoladi va rivojlanadi va faqat insongina, boshqa tirik jonzotlardan farqli ravishda, ushbu ekotizimga uning elementlarini bir joydan boshqasiga ko‘chirish, bir shakldan boshqasiga o‘tkazish va ularning umuman izsiz yo‘qolib ketishi darajasigacha ta’sir o‘tkaza olishi mumkin.

Madaniyat tabiatdan farq qilmaydi aksincha tabiatdan ajralmagan holda mavjuddir. Agar madaniyat insonning ijtimoiy rivojlanishi darajasi mahsuli bo‘lsa, inson tabiat mahsuli va ijtimoiy aloqalarning dinamik sub’ektidir. Tabiat insoniyat rivojining boshlang‘ich nuqtasi va rivojlanishini harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Tabiat nafaqat yashash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan mahsulot bo‘libgina qolmay, balki inson madaniy faoliyatining asosiy vositasi va sharti hamdir. Inson va tabiat o‘rtasidagi birlik mahalliy o‘ziga xoslikni, tarix va hattoki ma’lum ijtimoiy tashqi ko‘rinishni aks ettiruvchi madaniy yoshni yaratadi.

Shunday qilib, madaniyat bu birinchi o‘rinda inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatdir. Tabiat insoniyat yaralishining nafaqat boshlang‘ich nuqtasi, balki u yashab qolishi uchun zarur bo‘lgan muhit, shart-sharoit hamdir. Tabiatsiz inson o‘zining jismoniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondira olmaydi. Shu sababdan odamlar iste’mol uchun mahsulot yaratish maqsadida birlashganda ular ushbu mahsulotga madaniy ma’no ham baxsh etadilar.

Bundan anglash mumkinki, ekologik madaniyat inson faoliyati davomida uning tabiat bilan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. O‘zining ko‘p asrlik hayoti davomida insoniyat taraqqiy etmagan ekologik madaniyat bilan yashashga, ekologik axloq va ekologiyani asrab-avaylashga yo‘naltirilgan faoliyatsiz yashashga o‘rganib qoldi .

Yana shu narsa alohida e’tibor berish kerakki, ekologik madaniyat ekologik ong va hulq-atvorning barchasini qamrab olmaydi, aksincha yillar davomida ildiz otgan olomonga xos bo‘lgan ekologik ong va hatti-harakatlarni o‘z ichiga olib kelgan .

Ekologik madaniyatning ma’naviy asl mohiyatida, boshlanishida ekologik ong yotadi . Ekologik madaniyat jamiyat, ijtimoiy guruh, shaxs ekologik ongi taraqqiy etishining ma’lum bir darajasida 2 xil shaklda ro‘yobga chiqadi: 1) g‘oyalar, iedallar, qarashlar, tasavvur, maqsad, qadriyat, me’yyor, an’ana, namuna va stereotiplarni o‘z ichiga oluvchi nazariy bilimlar; 2) o‘z ichiga his-tuyg‘u, emotsiyalar, qarash, ko‘rsatmalarni oluvchi va nazariy hamda kundalik ongni oluvchi ongning ijtimoiy-psixologik unsurlari.

Ekologik ong atamasi odatda «inson – tabiat», tizimidagi, tabiatning o‘zida kechuvchi hamda insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatga kirishishga mos strategiya va texnologiyalari majmuini anglatadi . Ekologik ong va uning shakllanishi ekologik madaniyatning ijtimoiy-psixologik aspektini tashkil qiladi.

Shunday qilib, antropologik faoliyatga ekologik imperativ tomonidan ilgari suriluvchi qat’iy cheklovlarga amal qilishni orqali ekologik xalokatning oldini olishga, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi hamjihat taraqqiy etish sari va noosfera davriga o‘tish mumkin. Buni yangi ekotsentrik ekologik madaniyatsiz – yangi dunyoni anglashning yangi ekotsentrik yondashuvisiz hamda inson faoliyatining yangi tabiat uchun zararsiz usul va vositalarisiz – yangi axloq, ma’naviyatsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Mavjud ideallar va qadriyatlar, ya’ni gumanizm, demokratiya, erkinlik va tenglik singarilar yangicha mazmun, tabiatga va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish tamoyillari bilan mazmunan boytilmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Духонина Е. А., УСОВА Н. В. Формирование экологической культуры младших школьников в процессе освоения основ конструкторской деятельности //Интеграция науки и образования в XXI веке: Психология, Педагогика, Дефектология.
2. Залесская Ю.И. Управление процессом формирования экологической культуры личности // Кіраванне ы адукацыі. – 2008. – №4. –С.
3. Арзиматова И. М. Ахлоқий ва эстетик маданиятнинг структуравий элементлари ва уларнинг ўзига хослиги //Integration of Science, Education and Practice. Scientific-Methodical Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4

SIRDARYO VILOYATIDA ISHLAB CHIQARISH VA FAN ALOQADORLIGINI O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Xidiraliyev Komil Esanovich, Xidiraliyev Eldor Komilovich
Guliston davlat universiteti “Ekologiya va geografiya” kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich bakalabr

Bizga ma’lumki, fan-dunyo haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog‘liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli-olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o‘z ichiga oladi. Inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o‘zining o‘rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta’riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir. Hozirgi davrda fan jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch va vosita bo‘lib qolayotganligini kuzatish mumkin. Xalq va millat dunyoqarashini shakllantirish, ta’limtarbiya, axloq normalarini vujudga keltirish, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda fan alohida o‘rin tutmoqda.

Jumladan, ishlab chiqarish-jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar) ni yaratish jarayoni. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi. Bu ikkilik tizimni-“fan-ishlab chiqarish” o‘zaro aloqadorlikda olib borgan jamiyat hech qachon ijtimoiy-iqtisodiy hayotida oqsamaydi

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotni va uning hududiy birliklarini rivojlantirish, jumladan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va xizmat sohalarini rivojlantirishdagi salmoqli ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda yangi texnologiyalarni tadbiq etish, mavjudlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlarning talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta’lim, ilm-fanga juda katta e’tibor berilayotganligi ilmiy jamoatchilikni cheksiz quvontirmoqda. Ayniqsa ishlab chiqarishni oliy ta’lim tizimi bilan aloqadorligini ta’minlash dolzarb hisoblanadi. Bu yerda oliy ta’lim tizimidagi, jumladan Guliston davlat universitetidagi ustuvor vazifalar sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish lozim:

-universitet boshqaruv kengashining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish;

-o‘quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta’minlash va talabaning o‘z ustida ishlashi uchun muhit yaratish;

-oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish;

–professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun qog‘ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish.

Bu vazifalarni samarali bajarish uchun universitetning ilmiy salohiyati masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Jumladan, bu masalani taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab beradigan “fan-ta’lim-ishlab” chiqarish aloqalarini rivojlantirishning zamonaviy dasturi sifatida ham e’tirof etish mumkin. Ushbu dasturning hayotga tadbiq etilishi esa istiqbolda universitetda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning aniq mexanizmlari yaratilishiga, ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarishga qo‘llash samaradorligi ortishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda Sirdaryo viloyatining sanoat, xizmat ko‘rsatish, ayniqsa turizm salohiyatini oshirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmog‘ida (qishloq xo‘jaligida) yuqori malakali kadrlar tayyorlashni

kengaytirish maqsadida tashkil etilgan Guliston davlat universiteti ustuvor vazifalar va ularning ijrosi masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Sirdaryo viloyati ishlab chiqarish salohiyati keyingi vaqtlarda tubdan o'zgarib bormoqda. Agrar ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan viloyat ananaviy ixtisoslashuv yo'nalishini fan yutuqlari asosida haqiqatdan ham o'zgartirdi. So'nggi olti yilda viloyatga 30 trillion so'm investitsiya jalb qilinib, 6 ming 640 ta yangi korxona ishga tushirilgan. Bu orqali 55 mingta doimiy ish o'rni yaratilgan, 17 mingta oila kambag'allikdan chiqarilgan.

Bu yutuqlarni asosi zamonaviy fan yangiliklari, yo'nalishlari va tadbirkorlikdir. Chunki bugungi kunda fan bevosita va bilvosita ishlab chiqarish kuchi bo'lib maydonga chiqmoqda. Ilgari bo'lmagan qurilish materiallari, farmatsevtika, charm va oziq-ovqat sanoati kabi yangi tarmoqlar paydo bo'ldi. Xususan, qurilish materiallarida 274 ta loyiha amalga oshirilib, bu tarmoq yangi drayverga aylandi. Viloyat sanoatida bu sohaning ulushi 7 foizdan oshdi. Jumladan, viloyat poliz mahsulotlari etishtirish va eksporti bo'yicha ham respublikada birinchi o'rinda turadi. Sirdaryo viloyatida mamlakatimiz elektr energiyasining uchdan bir qismi, charm mahsulotlarining 16 foizi va farmatsevtika mahsulotlarining 10 foizi ishlab chiqariladi.

Jumladan, Sirdaryo viloyatining tabiati, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati o'ziga xos. Aholi jon boshiga ekin maydonlari boshqa hududlarga nisbatan 2-3 baravar ko'p. Viloyatda qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlanganlik darajasi ham yuqori. Bu sohaga ilm va innovatsiya olib kirilsa, mahsulot etishtirish hajmi va eksportini oshirish mumkin. Bu jarayon zamirida Guliston davlat universiteti kafedralarida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini ishlab chiqarish bilan bog'lash lozim. Bugungi kunda "Ekologiya va geografiya" kafedrasida "Sirdaryo viloyatida Arab anorini etishtirish va etishtirilgan anor mahsulotlarini farmatsevtika, tibbiyot sohalarida xom-ashyo sifatida foydalanish, ishlab chiqarishga keng tadbiq etish farmatsevtika sohasini Sirdaryo viloyatida keng miqyosda rivojlantirish" mavzusida ilmiy-amaliy loyiha bajarilmoqda.

Ushbu kafedrada bajarilgan "Sirdaryo viloyatining tabiiy sharoitiga moslashtirilgan tarzda pavloniya o'simligini etishtirish texnologiyasi" nomli ilmiy-amaliy loyiha natijalari asosida viloyat hududida pavloniya plantatsiyalari shakllantirildi. Zero, bu jarayonning asosini quyidagi farmonda ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (8.10.2019 yil, PF-5847) da ilmiy-texnik buyurtma va grantlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishda mavjud muammolarga yangicha yechim topish, tajribali amaliyotchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish, ta'limda ishlab chiqarish infratuzilmasi va amaliy misollardan keng foydalanish kabi yo'nalishlarda oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Sirdaryo viloyati respublikamizdagi eng katta iste'mol bozori-Toshkent shahriga yaqin joylashgan. Shuningdek, u ikki qo'shni davlat-Qozog'iston va Tojikiston bilan qulay transport koridoriga ega. Bu esa aynan viloyat doirasida "Fan va ishlab chiqarish" tizimida natijali ishlarni amalga oshirishga ko'mak beradi. Toshkent shahri va qo'shni viloyatlar bilan ilmiy-amliy tajribalar almashish uchun viloyat geografik o'rni nihoyatda qulay ekanligi e'tiborgi molik.

Davlatimiz rahbari bu imkoniyatlarni ishga solib, Sirdaryoni sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, ta'lim va tibbiyot bo'yicha "ilg'or innovatsiyalar hududi"ga aylantirish zarurligini ta'kidlagan.

Bu borada Xitoy tajribasiga tayanish qo'l keladi. Chunki bu davlat mazkur sohalarda katta yutuqlarga erishgan. Qolaversa, xitoylik investorlarning ham viloyatga qiziqishi katta. Oxirgi olti yilda ular bilan birga, Shirin shahri, Mirzaobod va Sirdaryo tumanlarida 60 dan ortiq yirik sanoat korxonalari ochilgan. Viloyatga 2022 yilning o'zida 250 million dollardan ziyod Xitoy investitsiyalari jalb qilingan [1].

Har qanday ishlab chiqarish va ularning tarmoqlari taraqqiyotida fan va innovatsiya muhim ahamiyatga ega. Ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, iqtisodiy taraqqiyotga erishish har bir yirik sanoat korxonasining asosiy strategik yo'nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi texnika asrida ilm-fan yutuqlarini, innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish davr talabidir. Bu borada **"Bek klaster"** korxonasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu ilmiy-amaliy ishlar Prezidentimizning 2017 yil 15 sentyabrdagi "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Qarorga ko'ra, mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "Bek klaster" qo'shma korxonasi innovatsion texnologiyalar hamda ilg'or boshqaruv usullarini faoliyatining

bosh mezoni etib belgilab oldi. Bunday yangicha yondashuv, avvalo, yer unumdorligini oshirish chora-tadbirlari bilan boshlanganligi esa e’tiborga molik.

Tuproqshunoslik instituti bilan hamkorlikda klaster ixtiyoriga ajratilgan har bir dalaning ikki metrgacha bo‘lgan chuqurlikdagi tuproq tarkibi o‘rganib chiqilgan. Germaniya texnologiyasiga muvofiq bajarilgan ilmiy tahlillar natijasiga asosan, ekin maydonlariga tegishli meliorativ-agrotexnika tadbirlari belgilandi. Xususan, Mirzacho‘l yer sharoitiga xos bo‘lgan gips qatlamini yorishga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘ngra sho‘r yuvish va tuproq tarkibini yaxshilash, irrigatsiya-melioratsiya tizimi holatini tartibga keltirish chora-tadbirlari keyingi vaqtlarda amalga oshirilmoqda. Yer tekislash esa lazerli vositalar orqali bajarilmoqda.

Klasterda yuqorida aytilgan o‘rganishlar natijalari asosida 2018-2022 yillarda ishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish dasturi qabul qilingan bo‘lib, unga muvofiq, yer unumdorligini oshirish maqsadida 3/2 sxema asosida almashlab ekish tartibi qat’iy yo‘lga qo‘yilgan. Tajriba sifatida yarim almashlab ekish ko‘rinishidagi g‘o‘za hamda soya o‘simligini aralash holda ekish amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradigan past bo‘yli va ertapishar soya navi urug‘ini ko‘paytirish bo‘yicha amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Ayni paytda bu usul yer hamda boshqa resurslardan yanada unumli foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Albatda yuqorida aytib o‘tilganidek, fan-ishlab chiqarish bu jarayonning markazidadir.

2023 yilning oxirida tuproq tarkibini gumus bilan to‘yintirish maqsadida 3 ming gektarda “yashil o‘g‘it” texnologiyasi qo‘llanilishi rejalashtirilgan. Buning uchun hozirgi kunda 40,6 gektar maydonda urug‘lik olish maqsadida Serbiyadan keltirilgan arpa, bug‘doy, suli, javdar, tritikale, raps singari ekinlar o‘stirilmoqda. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda Guliston davlat universiteti olimlari tomonidan mahalliy boqla ziroati asosida yaratilgan vika o‘simligidan foydalanish ham ko‘zda tutilgan. Qolaversa, g‘alladan bo‘shagan maydonlarda takroriy ekin sifatida sholi o‘stirilib, uning suvida baliq parvarishlash ham yo‘lga qo‘yilmoqda.

“Bek klaster” dastlabki yili chigit ekish mavsumidayoq yurtimiz dehqonchiligida hali kuzatilmagan yangi usulni joriy etdi. Ya’ni g‘o‘za qator oralarining 76/5 shakli tanlandi. Mutaxassislarning fikricha, jahon tajribasida sinalgan ushbu usul “Bek klaster” ning hozircha unumdorligi past bo‘lgan ekin maydonlari uchun juda mos hisoblanadi. Yana bir jihat esa, chigit olti qatorli seyalkalarda yerga qadalmoqda. Turkiyadan keltirilgan mazkur ekish texnologiyalari nafaqat ish unumdorligini oshirishi, balki dehqonchilik tadbirini o‘ta aniqlik hamda urug‘larning belgilangan miqdorda o‘z joyiga tushishini ham kafolatlaydi. Bunday usulda undirilgan g‘o‘za ko‘chatlari yagona qilinmaydi, o‘simlik uchun zarur bo‘lgan kerakli fosforli o‘g‘itni ham bir yo‘la solib ketadi. Yana bir e’tiborli tomoni, 76/5 sxemasida odatdagi ekish shaklidagi 10 gektar maydondagi g‘o‘za soniga nisbatan 1 gektar ko‘p bo‘lgan miqdordagi ko‘chatni joylashtirish mumkin ekan.

Viloyat ishlab chiqarish jarayonida, yangi texnika hamda ilg‘or texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish yuzasidan aniq choralar belgilab olingan. Masalan, bunga qishloq xo‘jaligi sohasiga aloqador oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining malakali olimlarini, qolaversa, xorijdan ham mutaxassislarni jalb qilgan holda, “Bek klaster” MCHJ qo‘shma korxonasining “O‘simlik mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash texnologiyalari ilmiy markazi” tashkil qilinayotgani fikrimiz dalilidir.

Hozircha bu borada Guliston davlat universitetida tashkil etilgan laboratoriyani ilk qadam, deyish mumkin[2].

Vazirlar Mahkamasining “2022-2026 yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”i qarori qabul qilingan. Bu qarorni bandlari to‘laqonli bajarilishida fanlar doirasida olib borilayotgan innovatsion tadqiqotlar asosiy vosita hioblanadi. Innovatsion tadqiqotlar markazi sifatida har bir hududiy birlikdagi oliy ta’li muassasalari asosiy markaz sifatida qaralishi va chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda faol ishtirokchi bo‘lishlari lozim[3].

Masalan, Sirdaryo viloyatida 2022-2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot va sanoat mahsulotlari hajmini 1,6 baravar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,3 baravar, xizmatlar hajmini 3,2 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,5 baravarga oshirish nazarda tutilgan.

Bu yerda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

-aholini qiynab kelayotgan mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tadbirlarni o‘z ichiga olgan “Yo‘l xaritasi”;

-Sirdaryo viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi, “o‘sish nuqtalari” va “drayver sohalari”;

-sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarining yig‘ma parametrlari;

-Sirdaryo viloyatida muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda ijtimoiy soha ob’ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha kompleks tadbirlar;

-Sirdaryo viloyatining shahar va tumanlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha shakllantirilgan istiqbolli loyihalarning manzilli ro‘yxati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sirdaryo viloyati innovatsion hududga aylantiriladi. president.uz›uz/lists/view/6132

2.A.Shernazarov. Innovatsion texnologiyalar, ilmiy yondashuv va sifatli mahsulot Sirdaryo viloyatidagi “Bek klaster” korxonasi faoliyatining asosiy mezoniga aylangan. xs.uz›…innovatsion-tekhnologiyalar…yondashuv-va…

3.2022-2026 yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida vazirlar mahkamasining 2022 yil 7 maydagi 242-son qarori. lex.uz›uz/docs/5998434

UMUMTA’LIM MUASSASALARIDA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA PEDAGOG-SINERGETIK YONDASHUV USULI VA O‘RNI

Fayzullayev Abduazim Kuchkarali o‘g‘li
Guliston davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti, Guliston shahri
+998949149699, e-mail: fayzullayev.abduazim@gmail.com

Annotation: in this article, recommendations are given on the use of pedagogical principles in the teaching of physics in general educational institutions in the pedagogical-synergistic approach and the development of the content of physics education based on the synergistic approach.

Key words: pedagogical-synergistic, principle, pedagogical content, scientific knowledge, educational knowledge, method, methodology, logic.

Bizga ma’lumki, umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarga fizika fanini o‘qitish, ularning hayotdagi fizik masalalarni yechish hamda chuqur va sof mantiqiy mushohada yuritish eksperiment tajribalar o‘tkazish qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasini o‘z oldiga qo‘yadi. Hozirgi kunda, respublikamizda fizika o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar tomonidan umumta’lim muassasalarida fizika o‘quv fanini o‘qitishda fizik uslubiga asoslanib kelinganligini ilmiy va pedagogik jihatdan asoslab berilganligiga guvoh bo‘ldik.

Pedagogik-sinergetika va uni ta’lim jarayoniga qo‘llash bo‘yicha ko‘pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishi olib borganligi tadqiqotimiz jarayonida o‘z isbotini topdi. Jumladan, V.I.Andreyev pedagogik sinergetikaning o‘quvchilarni mustaqil ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha, A.A.Vorojbitova oliy ta’lim tizimida lingvistik yondashuv asosida ta’limning sinergetik tizimini yoritib bergan, V.A. Ignatova sinergetikaning pedagogik aspektlari, Ye.N.Knyazeva ta’lim jarayoniga sinergetik yondashish usullarini o‘zining ilmiy ishlarida yoritib bergan.

Fizika ta’limga sinergetik yondashish - fizika ta’lim samaradorligini oshirishda uzluksiz ravishda qo‘yilgan didaktik maqsadga erishish yo‘lida tizimli-ta’limiy yondashish tushuniladi. Fizika ta’lim mazmuniga sinergetik yondashishda pedagogik sinergetikaning mustaqil va hamkorlikda ta’lim olish, o‘zaro ta’sir o‘tkazish tamoyillariga alohida e’tibor qaratish muhim bo‘lib, fizika fani o‘quv mazmunini shakllantirishda ushbu tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik sinergetika tamoyillarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirishda amaliyotga joriy qilish masalasi dolzarbligi, ko‘plab ilmiy tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan.

Shundan kelib chiqib, umumta’lim maktablarining fizika ta’lim tizimiga sinergetik yondashishda**,** fizika ta’lim samaradorligini oshirishda uzluksiz ravishda belgilangan didaktik maqsadlarga erishish uchun tizimli va o‘zaro funksional bog‘lanish asosida yondashish tushuniladi.

Pedagogik-sinergetika tamoyillarini fizika o‘quv fani mazmuniga singdirishning quyidagi omillar muhim sanaladi: pedagogik sinergetika tamoyillarini umumta’lim maktablarining fizika fani o‘quv mazmuniga singdirish uchun pedagogik va didaktik talablarini aniqlash; pedagogik sinergetika tamoyillarini umumta’lim maktablarining fizika o‘quv fani ta’lim tizimini loyihalashtirishga joriy qilish; pedagogik sinergetika tamoyillarini umumta’lim maktablarining fizika ta’lim va tarbiya jarayoni va o‘quvchilarni bilimini nazorat qilish va boshqarishdagi rolini oshirish.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fizika ta’limiga sinergetik yondashishda va uni fizika fani o‘quv mazmuniga singdirishda uning umumiy pedagogik tamoyilllaridan foydalanish va fizikani o‘qitishning xususiy metodikasi mazmuniga mos keluvchi asosiy tamoyillarni ajratib olish va tizimlashtirish kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘rtasida qo‘yilgan masalani yechishni o‘rgatish zarurligini asoslash uchun quyidagi usullarni taklif etish mumkin: hayotiy dalillar va hodisalarni umumlashtirish va ularni fizika tiliga o‘tkazish; amaliy masalalarni yechishda gipotezalar va ularni amaliy tatbiqlarini bilish zarurligini ko‘rsatish; masalalar yechishda gipotezalarni bilish zarurligini ko‘psatish; fizika tarixida bu muammo qanday hal qilinganligini ko‘rsatish.

Sinergetik yondashuvga ko‘ra pedagogik tizimni tashkil qiluvchi omillarning o‘zaro aloqadorligi va hamkorligi muhim bo‘ladi. Bunda o‘quv materialidagi tayanch tushunchalarning o‘zaro ta’sirda bo‘lishi, o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida ularning tartib va tartibsizlik holati, nochiziqlilik va muvozanatsizliklarni o‘zaro ta’sirini yaqqol misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Tojiyev M., Ziyamuhammadov B. Ta’lim jarayonida milliy pedagogik texnologiyadan foydalanish va uning yoshlar salohiyatini oshirishdagi o‘rni. Monografiya / T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2010. 17-31-betlar.

2. Andreev V.I. Ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish pedagogikasi / V.I. Andreyev. Qozon universiteti, 1996 .-568 b.

3. Vorozhbitova A.A. Lingvistik yondashuv nuqtai nazaridan oliy ta’limning sinergetik jihati / A. A. Vorozhbitova // Oliy ta’lim byulleteni. 1999. №2. 22-26 b.

4. Ignatova V. A. Sinergetikaning pedagogik jihatlari / V. A. Ignatova // Pedagogika. 2001. № 8. 26-31 b.

5. Knyazev, E. N. Kurdyumov S. P. Sinergetika va o‘quv jarayoniga yangi yondashuvlar / E.N. Knyazev, S.P. Kurdyumov / http: // www. uni-dubna. ru

6. Tlanchuk N.M. Tizim-sinergetik falsafa zamonaviy pedagogika metodologiyasi sifatida / N. M.Talanchuk // Ustoz. - 1997. - №. 32-41 b.

7. Haken G. Sinergetika: Per. ingliz tilidan G. Haken. M., 1980 . 406 b.

GULISTON SHAXAR KO‘CHA CHIROQLARINI YORITISHDA QUYOSH FOTOELEKTIRIK STANSIYASINING SAMARADORLIGI

Davlatov O‘tkir Togayevich, Maripov Ilxom Isakovich, Abduraxmonov Nurillo Komil o‘g’li, Berdikulova Shahnoza Erkinjon qizi

[1]Guliston davlat universiteti dotsenti

[2]Fizika texnika instituti tayanch doktaranti

[1]Guliston davlat universiteti talabasi

[3]Guliston shahar 9-maktab fizika fani o‘qituvchisi.

Kirish. Respublikada iqtisodiyot barqaror o‘sishini ta’minlashga va aholining farovonlik darajasini oshirishga, yoqilg‘i-energetika resurslariga bo‘lgan talab-ehtiyojni uzluksiz qanoatlantirishga qaratilgan neft -gaz, elektr energetika, ko‘mir, kimyo, qurilish industriyasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilmoqda. SHu bilan birga, yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining mavjud quvvatlari energiya resurslariga ortib borayotgan talab-ehtiyojni to‘liq darajada ta’minlamayapti, mamlakatimiz iqtisodiyotining energiya sarfi hajmi rivojlangan mamlakatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha yuqoridir.

SHu munosabat bilan, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish

davlat siyosatining hozirgi bosqichdagi dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi lozim. Ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olib, mavjud resurslarni va ishga solinmagan salohiyatni jalb etish orqali energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya sarfi hajmini keskin kamaytirish borasidagi ishlarni kompleks tashkil etish, shuningdek, yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash maqsad qilib olingan. [1]

Tadqiqot metodologiyasi. Xozirgi kunda ananaviy energiya manbalarini ishlab chiqarishda 1 kVt elektr energiyaga ketadigan xarajatlar maqolada o‘rganib chiqilgan.Sirdaryo IES da elektr energiya ishlab chiqarish uchun asosan organik yoqilg‘ilar ya’ni gaz va mazut ishlatiladi. Sirdaryo IES da ishlab chiqariladigan 1 kWt elektr energiya uchun 0,243 m^3 gaz agarda mazut ishlatilsa 0,048 kg mazut sarflanadi. 15 kWt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun hisoblansa ushbu ko‘rsatgich 3,645 m^3 gaz va 0,72 kg mazut sarflanadi. Hozirgi vaqtda gaz va yoqilg‘iga bo‘lgan extiyojdan kelib chiqadigan bo‘lsak bir xo‘jalikga ketadigan gaz miqdorini xisoblab chiqishimiz mumkin. Gazga ko‘proq qish faslida talab ortishini xisobga oladigan bo‘lsak viloyat gaz ta’minot korxoxasidan olingan ma’lumotlarga asosan bu vaqtda bir xo‘jalik uchun o‘rtacha qish kunlari (uch oy) xar oyda 1500 m^3 gaz sarflanadi. Umumiy ketadigan gaz miqdorini quyidagi jadval orqali ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

“Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi” AJ da ishlab chiqarilgan elektr energiyaga sarflanayotgan yoqilg‘i to‘g‘risida ma’lumot.

1 kVt h elektr energiya uchun sarflanadigan yoqilg‘i miqori

1-jadval

Yoqilg‘i turi	Sarflanadigan miqdor	Narxi (m^3,kg)	Ketadigan xarajat (so‘mda)	Kunlik ketadigan miqdor	Oylik ketadigan yoqilg‘i miqdori	Kunlik ketadigan umumiy xarajat (so‘mda)
Gaz	0,243 m^3	660	160,38	5,832 m^3	174,96 m^3	3849,12
Mazut	0,048 kg	3000	144	1,152 kg	34,56 kg	165,888

Bir xo‘jalik uchun ketadigan gaz miqdorini quyidagi jadval orqali keltirishimiz mumkin.

2- jadavl

Yoqilg‘i turi	**Gaz**			
	Oylik ketadigan miqdor	Kunlik ketadigan miqdor	Oylik ketadigan pul miqdori	Kunlik ketadigan pul miqdori
Qishning kunlarida (uch oy) xar oylik	1500 m^3	50 m^3	570000 so‘m	19000 so‘m
Yoz va faslning qolgan vaqtlarida	150 m^3	5 m^3	57000	1900 so‘m

Bu jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki 15 kWt h elektr energiya ishlab chiqarish uchun Sirdaryo IES AJ da kuniga 87,48 m^3 gaz va 17,28 kg mazut sarflanadi. Axoliga ketadigan bir xo‘jalik uchun qishning kunlarida (uch oy) o‘rtacha 2 ta xo‘jalikga Yoz va fasllarning qolgan kunlarida 18 ta xo‘jalik uchun ketadigan kunlik gaz saqlab qolinadi. Bu xozirgi vaqtda gaz va boshqa yoqilg‘i turlarini axoli uchun yetkazishda yengillik yaratadi.

Tahlillar va natijalar.“Guliston shaxar toza xudud” DUK - joylashgan Guliston shaxri hududda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish imkoniyati katta. Ayniqsa, elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun ***quyosh panellaridan*** foydalanish mumkin.

Ushbu maqolada taklif etilayotgan quyosh fotoelektirik stansiyasi Guliston shaxrining I.Karimov ko‘chasida joylashgan ko‘cha chiroqlari uchun qo‘llaniladi. I.Karimov ko‘chasining umumiy uzunligi 2 km bo‘lib o‘rnatilgan tayanchlar soni 60 tani tashkil etadi. Xar bir tayanchga o‘rnatilgan chiroqlar soni 2 tadan umumiy 120 ta chiroq o‘rnatilgan. Xar bir chiroq sarf qiladigan quvvat 100 Vt dan bo‘lib jami 12 kVt ni tashkil etadi. Qolgan elektr energiya sarf xarajatlar uchun ishlatiladi. Quyosh FES uchun ketadigan sarf xarajatlarning umumiy smetasi va qurulmaning qismlari xaqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.[2]

Quyosh panellarini “Guliston shaxar toza xudud” DUK ga qarashli ko‘cha chiroqlari uchun elektr energiyasini ishlab chiqarish tadbiq qilinganda, undan kelib chiqadigan iqtisodiy samara va unga ketgan xarajatlarini qoplash muddatlarini xisoblaymiz.

Hozirgi kunda Respublikaga olib kelinayotgan quyosh panellari Xitoy, Koreya va yevropa mamlakatlarida ishlab chiqarilgan. Misol tariqasida Koreya Respublikasi fotoelektrik sanoat uyushmasiga kiruvchi “HANWHA”, kompaniyasida ishlab chiqarilgan quyosh panellarini tanlaymiz. Quyosh panellarining texnik xarakteristikasi 1 –jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Texnik xarakteristikasi

	HANHWA
Image	
Model	**HSL 250**
Rated Power	250 Wp
Voltage at P_{max}	30.4V
Current at P_{max}	8.23A
Short-circuit current	8.79A
Open-circuit voltage	37.7V
Module efficiency	15.5%
Size (W*H*D)	988*1.636*40

Quyosh panellari polikristal (poly-Si) elementlardan bo‘lganini tanlaymiz. 1-jadvaldan ko‘rinadiki Quyosh panellarining nominal quvvati (Rated Power,V) 250 Vt, maksimal kuchlanish qiymati (Voltage at P_{max},V) hamda maksimal tok qiymati (Current at P_{max}, A) keltirilgan. Xuddi shunday, qisqa tutashuv toki (Short-circuit current, A) va yuklama yo‘q paytdagi kuchlanish (Open-circuit voltage, V), foydali ish koeffitsiyenti (FIK) (Module efficiency, %) va o‘lchamlari Size (W*H*D) keltirilgan. [3]

“Guliston shaxar toza xudud” DUK ga umumiy quvvati 15 kVt ga teng quyosh elektr stansiyasini o‘rnatish uchun 60 dona quyosh panellari zarur bo‘ladi. Hozirgi kunda quyosh panellarining o‘rtacha narxi 350 $ (dollar) turadi.

Quyosh panellari ishlab chiqargan o‘zgarmas elektr energiyasini invertor yordamida o‘zgaruvchan elektr energiyasiga aylantirib transformator orqali elektr tarmog‘iga uzatiladi. Invertorlarni texnik xarakteristikalari 2-jadvalda keltirilgan.

2- jadval

	DASS TECH
Image	

Model	DSP-3320KT
Max. Open Circuit Voltage	700 V dc
Range of MPPT Voltage	220V-700 V dc
Rated output capacity	20 kW
Size (W*H*D)	650*1.400*500
Full Weight	210 kg

Germaniyaning “DASS TECH” firmasining DSP-3320KT modulidagi quvvati 20 kVt bo‘lgan invertorlar o‘rnatiladi.

Quyosh panellarining 1, 2 va 3 qator qilib har bir qatorda 20 dona bo‘ladi va ular yerga nisbatan 30^0 qilib o‘zgarmaydigan qilib o‘rnatiladi.

Quyosh panellari taxminan 120 m^2 joyni egallaydi. Ishlab chiqilgan elektr energiyasi to‘g‘ridan to‘g‘ri transfarmator orqali “Guliston shaxar toza xudud” DUK ning rahbariyat ishlaydigan binoga uzatiladi.

Harajatlarni hisoblaydigan bo‘lsak, demak:

1. Quyosh panellaring narxi;
2. Invertorni narxi;
3. Quyosh panellarini o‘rnatish uchun temir kurilmalar;
4. Ulanish simlari;
5. Ulanish va mahkamlash ishlari uchun ketadigan xarajjatlar;

Taxminan, Quyosh panellarning umumiy quvvatidan kelib chiqadigan narxi 1kVt ga 2500 AQSH dollar ketadi.

Bizda:

15 kVt x 2500 $ = 37500$ bunda (1 AQSH dollari 12190 so‘m ga teng (05.09.2023y))

“Guliston shaxar toza xudud” DUK ga o‘rnatiladigan 15 kVt li quyosh elektr stansiyasining hisob kitoblarga qaraganda umumiy narxi taxminan 457125000 so‘mni tashkil qiladi.

Quyosh panellari elektr energiyasini ishlab chiqarishni ertalabki quyosh chiqishidan, ya’ni yil fasllariga qarab taxminan 06:00 vaqtdan to kun qoraygungacha, ya’ni 19:00 gacha davom ettiradi.

Quyosh elektr stansiyasining ishlab chiqarilgan umumiy elektr energiyasining ma’lum bir qismini stansiyani asbob uskunalarini ishlab turishi uchun sarf qiladi, ya’ni o‘z ehtiyojlari uchun, qolgan qismi elektr tarmog‘iga uzatiladi.

Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, quyosh panellar kuniga 11 soat ishlar ekan. Demak kuniga 15 kVt x 11 soatga = 165 kVt ·soat, quyosh panellari 5-6 soat 100% ga ishlaydi, qolgan paytlari 65-70% ga ishlaydi. SHularni e’tiborga olib, 165 kVt ·soat ni 85% ni olsak kuniga 140,25 kVt ·soat elektr energiyasi ishlab chiqar ekan (tajribada aniqlangan). Bu qiymatni bir yillikni hisoblasak, o‘rtacha 365 kundan 320 kuni quyoshli bo‘lsa, unda bir yillik ishlab chikarilgan elektr energiyasi 320 x140,25 kVt ·soat = 44 880 kVt ·soat.

Demak, “Guliston shaxar toza xudud” DUK umumiy elektr tarmog‘idan olingan elektr energiyadan 44 880 kVt ·soat ni o‘zi quyosh elektr stansiyasi orqali ishlab chiqargan elekr energiya xisobiga tejashi mumkin ekan.

Endi quyosh elektr stansiyasiga ketgan xarajjatlarini qoplash muddatlarini xisoblaymiz.

Hozirgi kunda elektr energiya tarifi 1 kVt·soat 450 so‘m bo‘lsa, u holda ketgan xarajjatlarini qoplash muddati N ni hisoblaymiz.

N = (Quyosh elektr stansiyasi uchun ketgan xarajjatlar) / (1 *kVt soatga tarif*)· (*ishlab chiqarilgan elektr energiyasi*) = 457125000/ 450·44880 =457125000 /20196000=22 yil.

Demak, taxminan hisob-kitoblarga qaraganda 15 yildan boshlab 20 yillarda ketgan xarajjatlarini qoplaydi, chunki elektr energiya narxi oshishi hisobiga. Quyosh elektr stansiyasini qolgan 10 yilda ishlab chiqargan elektr energiyasi 448800 kVt·soatga teng. Bu esa “Guliston shaxar toza xudud” DUK

ning 448800 kVt·soat elektr energiyasi toza foydasi hisoblanadi. Quyosh elektr stansiyasi 25 yildan keyin ham ishlaydi. [4]

Xulasa.Ushbu maqoladan ko‘zlangan yana bir maqsad xozirda Guliston davlat universitetining Fizika kafedrasida 5A140204 –“Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barkaror atrof muxit fizikasi” magistratura mutaxasisligi yo‘nalishi bo‘yicha taxsil olayotgan talabalar uchun ilmiy laboratoriya sifatida xam foydalanish mumkin. Ushbu soxada ta’lim oluvchi magistrlarga nazariyot bilan amaliyotni uzviyligi taminlanadi. Nazariy olgan bilimlar amaliyotda sinaladi va ishlab chiqarishga tadbiq etiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad ta’lim oluvchi magistrlarni xar tamonlama yetuk mutaxasis bo‘lib chiqishlarini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Джалалов Т.А., Имамов Э.З., Муминов Р.А. Состояние и перспективы проблемы прямого преобразования солнечного излучения в электриче-скую энергию на основе кремниевых преобразователей. // Энергия ва ресурс тежаш муаммолари» журнали. – Тошкент, 2013. № 3-4. –50-55 б.б.

2. Джалалов Т.А., Имамов Э.З., Муминов Р.А. Механизм повышения эффективности солнечных фотоэлементов. Журнал Гелиотехника. – Ташкент, 2010. № 4, –С.3-9. [01.00.00, № 1].

3. Odamov U.O., Komilov M.M. Evaluation of solar panels quality and research of degradation processes in the climate conditions of Uzbekistan // Sciences of Europe. 2019. Vol. 1. № 43(43). -p. 62-66.

4. Одамов У.О., Комилов М.М., Хамраев С.И. Оценка деградации фотоэлектрических модулей на основе кристаллического кремния после нескольких лет эксплуатации в реальных условиях. / Халқаро «Энергия- ва ресурстежамкорлиги: Янги тадқиқотлар, технологиялар ва инновацион ёндошувлар» халқаро конференция мақолалари тўплами, Карши, 2021 й. 24-25 сентябрь. 319-324 б.

5.Давлатов Ў. Т., Иманкулов Н., Бердикулова Ш. Э.. “Қуёш гелиоқурилмаларининг турлари” Муқобил энергия манбаларидан самарали

фойдаланиш муаммолари ва ечимлари” Республика илмий-техникавий анжуман материаллари тўплами 2022йил, 27 июнь 75-77б.

6.Давлатов Ў. Т., Вардашвили А., Бердикулова Ш. Э.. “Қуёш нурларини энергияга айлантиришда Қуёш элементларининг қулланиши” Муқобил энергия манбаларидан самарали фойдаланиш муаммолари ва ечимлари Республика илмий-техникавий анжуман материаллари тўплами 2022йил, 27 июнь 73-74б.

FIZIKADA FASILITATSIYA VOSITASIDA TALABALARNI NAMOYISH TAJRIBALARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Risboyev Tojiqul Saparova Gulmira Baxtiyorovna

gulmirakarimqulova89@gmail.com

f.m.f.n. dotsent, Guliston davlat universiteti Axborot texnologiyalari fakulteti

Fizika kafedra o‘qituvchisi, Guliston shahri.

Annotation: *In this article, the author talks about the technology of organizing students' demonstration experiences in education, physics, facilitation, in which the quality of the educational process of students is determined by educational standards, educational programs, professors involved in the educational process. factors such as the scientific potential of teachers, the potential of learners, technical means of the educational process, educational technologies, and the quality level of the management of the educational process are indicated and detailed recommendations are given.*

Key words: *Facilitation and facilitator, empathetic, fundamental, neutral position, innovative start-up, competence, inductive, deductive, new models.*

Kirish: Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqdaki, buning zaruriy sharti o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi rolini o‘zgartirishdir. O‘qitishning o‘zini axborotni uzatish sifatida emas, balki mazmunli o‘quv jarayonlarini osonlashtirish

sifatida tashkil etish zarurati mavjud. Shu boiz, ta’lim jarayonida fasilitatsiya va fasilitator tushunchalari keng qo‘llanilmoqda. Fasilitatsiya nima, uning zaminida qanday ma’no yashiringan?

Fasilitatsiya - bu shunday boshqaruv tizimini yaratish va pedagogik jarayonni tashkil etishni o‘z ichiga olgan maxsus boshqaruv uslubi bo‘lib, unda boshqaruv direktiv xususiyatga ega, o‘zini o‘ziboshqarish tizimining o‘zini o‘zi tashkil etish doirasidan tashqariga chiqmaydi. Sodda qilib aytganda, fasilitatsiya ham jarayon, ham harakat usuli, shuningdek, yuqori sifatli va samarali guruhlarning o‘zaro ta’sirini amalga oshirish, guruh hamkorligi va qo‘shma faoliyatni tashkil etish vositasidir. Boshlang‘ich maktabda fasilitatsiyani talabaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishni ta’minlaydigan, sinfda qulay muhit yaratish maqsadida, talabalarning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshirish, mustaqil ishlash faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash yo‘lidagi rivojlantiruvchi ta’lim usuli sifatida tushunish kerak. O‘qituvchi-fasilitator - faoliyati ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida amalga oshiriladigan va ochiqlik, talabalarning his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga, faoliyati va harakatlariga empatik qarovchi, ularning muvaffaqiyatlari va xizmatlarini rag‘batlantiruvchi, ishonchli munosabati bilan ajralib turadigan o‘qituvchi. Fasilitatsiya jarayonida jamoaning uyg‘un va samarali ishlashi, yangi narsalarni yaratish yoki nazariy ilmiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish, keyinchalik amaliy qo‘llanilishini topish uchun izlanishlar olib boriladi. Jamoaviy ish va jamoaviy o‘zaro ta’sir o‘qituvchining maxsus harakatlari orqali tashkil etiladi. Fasilitatsiya aynan shu harakatlarni osonlashtirish jarayonini aks ettiradi. Unda ustuvorlik pozitsiyasini yetakchi egallaydi. Ta’lim sohasida bu joy o‘qituvchiga tegishli. Uning vazifasi o‘zini hokim sifatida ko‘rsatish emas, balki neytral pozitsiyani egallash va talabalarni to‘g‘ri va rivojlanish yo‘nalishiga yo‘llashdir. Fasilitator o‘quv jarayonidagi maxsus vosita hisoblanadi. Ta’lim muassasasi va umuman ta’lim tizimining rivojlanishi samaradorligi fasilitatorning malakasi va kasbiy mahoratiga bog‘liq.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ko‘p narsalarga kirishni sezilarli darajada osonlashtirdi ko‘p bosqichli ta’lim resurslari. Shunday ekan, bugungi kunda fizika fanini o‘qitish jarayonida talabalarga ma’lum hajmdagi bilimlarni berishning o‘zi yetarli emas. Fizika kursi har doim juda murakkab, tushunish oson bo‘lmagan juda ko‘p tushunchalarni o‘z ichiga olgan. Fizika umumiy kursining ajralmas qismi namoyish tajriba va laboratoriya ko‘rgazmalari bo‘lib, ular nafaqat materialni o‘zlashtirishga yordam beradi, olamni tshunish, texnik jarayonlarni idrok etish kabi xislatlar orqali fizika faniga qiziqish ortdi.

Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘qituvchilar talabalarga ko‘rgazmali tajribalarni, muammoli xarakterdagi laboratoriya ishlarini mustaqil tashkil etish va o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirishlariga yordam berishi kerak. Bunda talabalarda o‘ziga ishonch, mustaqil yondasha oldigan, o‘z fikriga ega shahs bo‘lib yetishiga hizmat qiladi.

Fizika - fan va fizika - o‘quv predmeti o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik mavjud bo‘lganligi sababli, fizikani o‘qitish jarayoni namoyish tajribaga asoslangan bir nechta fundamental qoidalar asosida talabalar uchun yangi fizik tushunchalar va nazariyalarni izchil shakllantirish, ularni innavatsion startap loyhalarga jalb qilish orqali, namoyish tajriba asosida, asosiy fizik qonunlarni o‘rnatishning induktiv tabiatini va talabalar uchun qulay bo‘lgan fizik fasilitatsiya uslub, shu yo‘l bilan o‘rnatilgan qonunlardan yangi g‘oya va fikirlar paydo bo‘lishning deduktiv xarakteri o‘z aksini topishiga ko‘maklashadi.

Fizika o‘qitishda namoyish tajribasi yoki eksperimental ishlar fasilitatsiya uslub (metodi) bilan dars o‘tish talabalarda o‘rganilayotgan fikaviy hodisalar, tushunchalar, qonuniyatlarni tez anglash uni idrok etishga yordam beradi.

Namoyishli tajribada tajriba qurilmalarni tanlash va tajribani o‘tkazish bu o‘qituvchining ishi, talabalarga esa ko‘pincha tajriba natijalarini qayd qiluvchi va qayta ishlovchi kuzatishlardir. Fizik qurilmalar bilan ishlash, qurilmalarni yig‘ish, fizik qurilma ko‘rsatishlarini qayt qilish ko‘nikmalarini sindirish usuli bo‘lib namoyish tajribalari xizmat qiladi. Namoyish tajribalarining turlaridan biri bo‘lgan frontal namoyish tajribalarini ikki kishi yoki yakka shaxs bajaradi.Bunda hamma talabalar dars mavzusiga bo‘g liq bo‘lgan bir xil tajriba bajaradi. Olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning bugungi kundagi talab va ehtiyojlarini qondirish, jahon andozalariga mos mutaxassislar tayyorlashda faqatgina amaliy tajribalar o‘tkazish bilan chegaralanib qolmaydi. Talabalarga individual yondashish kompleks yondashuvga nisbatan samarali natija berishi hech kimga sir emas. Demak, fizika fani ta’limini modernizatsiyalashda rivojlanish dinamikasini e’tiborga olib yondashish muhim ahamiyatga ega. Amalda yoki virtual laboratoriyalar o‘tkazish bilan yetarli

miqdorda kerakli kasbiy mahoratni yoki kompetentsiyani shakllantirib bo‘lmaydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, umumta’lim maktablarida labarotoriya mashgulotlarini tashkil etish va o‘tkazish, hisobot shakli va baholash bo‘yicha yosh o‘qituvchilarga uslubiy qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar, metodik tavsiyanomalar respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilmaganligi sababli ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlar, namunaviy o‘quv rejadagi laboratoriya mashg‘ulotlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko‘tarish, bo‘lajak o‘qituvchilar kompetentligini shakilantirishda tashkil etuvchi komponentalarini hosil qilish muammosi, fizika fanini o‘qitishda o‘ta muhim masalalardan biri yuqori kasbiy kompetentlikka ega kadrlar tayyorlash hisoblanadi. Shu sababli kelajakda raqobatbardosh fizika o‘qituvchilari tayyorlashda yangi modellarga o‘tish, talim sifatini yuqori darajaga ko‘tarishda ilg‘or texnika va texnologiyalardan foydalanib, mukkamal bilim va ilmiy salohiyatga ega, muaamoli vaziyatlardan mohirona chiqa oladigan mutaxassislarga ehtiyoj yaqqol sezila boshladi. Taklif etilayotgan model esa, yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmanov V.T Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda fizika fanining namoyish tajribalarni zamonaviy qurilmalar yordamida o‘qitish - Scientific Bullettin of NamSU-Научный вестник NamGU-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_4-son 725 p.
2. Rahmanov V.T Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizik namoyish tajribalari, uning vazifalari va tizimi - Scientife Bullettin of NamSU - Научний вестник - NamDU Ilmiy Axborotnomasi - 2022_1-son 699 p.
3. Valijon, [12.06.2023 16:49]
4. 4. Rahmanov V.T Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda fizika fanining namoyish tajribalarni zamonaviy qurilmalar yordamida o‘qitish - Scientific Bullettin of NamSU-Nauchnыy vestnik NamGU-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_4-son 725 p.
5. 5. Rahmanov V.T Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizik namoyish tajribalari, uning vazifalari va tizimi - Scientife Bullettin of NamSU - Nauchniy vestnik - NamDU Ilmiy Axborotnomasi - 2022_1-son 699 p.
6. Turdaliyevich, R. V. (2023). WAYS TO SHAPE THE PRINCIPLES OF HEURISTICS AND CREATIVITY IN READERS IN THE STUDY OF THE TOPIC OF TRANSITION FROM A GASEOUS STATE TO A LIQUID STATE AND METHODS OF LIQUEFACTION OF GASES.
7. Rahmanov, V., & Alijonov, J. (2022). QUYOSH HAVO ISITISH KOLLEKTORINI O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA KENG FOYDALANISH. Science and innovation, 1(A7), 835-838.
8. V. Rahmanov, & J. Alijonov (2022). INOVATSION SHAMOL TURBINASI. Science and innovation, 1 (A8), 136-140. doi: 10.5281/zenodo.7342845
9. Rahmanov, V. (2023). OLIY O ‘QUV YURTLARIDA FIZIKA YO ‘NALISH TALABALARIGA MOLEKULYAR FIZIKA BO ‘LIMINING “TERMODINAMIKANING II-QONUNI (ENTROPIYANING) IZOJARAYONLARGA TADBIQI MAVZUSINI O ‘QITISHDA KREATIV KO ‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 10-16.
10. Rahmanov, V., Ulashov, F., & Daminov, S. (2023). OLIY TA’LIMDA FIZIKA FANIDAN MOS HOLAT TENGLAMASINI MAVZUSINI O ‘TISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK-TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 147-150.
11. Обидова, З., Рахмонов, В., Ганиева, Д., Кодиров, О., & Холмуродов, А. (2023). УМУТАЬЛИМ МАКТАБ ФИЗИКА КУРСИНИНГ ФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИНИ РОЛИ ВА АХАМИЯТИ. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 53-60.
12. Rahmanov, V. (2023). WAYS TO SHAPE THE PRINCIPLES OF HEURISTICS AND CREATIVITY IN READERS IN THE STUDY OF THE TOPIC OF TRANSITION FROM A GASEOUS STATE TO A LIQUID STATE AND METHODS OF LIQUEFACTION OF GASES. Modern Science and Research, 2(5), 745–751. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-

research/article/view/20353
13. Islikov, S. ., Rahmanov , V. ., Abdumo‘minova , S., & Kuchimov, S. . (2023). MA’RUZA MASHG‘ULOTLARINI O‘ZLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 175–178. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/15060
14. Rahmanov, V., Ermatova, S., Boyzaqova, S., Firmatov, M., & Yusupov, N. (2023). ELEKTROMAGNIT TEBRANISHLAR VA TO ‘LQINLAR” MAVZUSINI O ‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 5-14.
15. Rahmanov, V., Yalg‘ashova, G., Yusupova, S., & To‘laganov, A. (2023). OLIY TA’LIMDA TALABALARGA STATSIONAR VA NOSTATSIONAR DIFFUZIYALAR MAVZUSINI O ‘TISHDA ULARNI EVRISTIK O ‘QITISH TEXNOLOGIYASINI SHAKILLANTIRISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 156-159.

TEXNIKUM VA AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA KURSINING AMALIY AHAMIYAT KASB ETUVCHI YO‘NALISHLARINI KUCHAYTIRUVCHI INTEGRATIV DARSLAR

Ashirov Shamshidin Annazarovich, Imankulov Nurbek Tursunkul o‘g‘li, To‘xtamishov Nodirbek To‘laboy o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Guliston davlat universiteti 1-kurs tayanch doktaranti
Guliston davlat universiteti 4-kurs talabasi

Mazkur maqola fizika ta’lim mazmuni fizika fani yutuqlari va uning amaliy qo‘llanish jihatlariga mutanosib bo‘lishi kerak degan g‘oyaga to‘xtaldik. Fizika ta’limi uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida asosan ikkita tashkil etuvchisini mavjudligi bilan tavsiflanadi. Ulardan biri fizika o‘quv ma’lumotlari (materiallari)ni integrativ darslar asosida berilishi hisoblanadi. Ikkinchisi esa, fizika ta’lim mazmunida amaliy fizikaning o‘quv ma’lumotlari va ularni ilmiy–texnik taraqqiyotning ustivor yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlanishi bilan harakterlanadi. Bugungi kunda fizikaning amaliy ahamiyat kasb etuvchi jihatlari uning mazmuni va ko‘lamining keskin ortib borayotganligi bilan harakterlidir. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotining negizini ilmiy–texnika taraqqiyoti deb hisoblaymiz.

Integrativ darslar fizika kursining fundamental masalalari deb nomi bilan adabiyotlarga aks etib u asosan, nazariy harakterda bo‘ladi hamda u o‘z mazmun–mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarda ilmiy hamda kerak bo‘lsa, amaliy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Fizikaning amaliy harakterdagi o‘quv ma’lumotlar bilan aloqador bo‘lgan masalalarini, ma’lum didaktik maqsad asosidan kelib chiqib tahlil etamiz. Shunga ko‘ra, fizikaning amaliy ahamiyat kasb etuvchi mazmuni texnikum va akademik litseylarning ixtisoslik yo‘nalishi hamda mahalliy sharoitga bog‘liq bo‘ladi deb tushundik va shu asosda tadqiqot olib bordik.

Demak, ko‘p xil ko‘rinishga ega, turli variantli amaliy fizika o‘quv ma’lumotlarining umumiyligini ta’minlovchi jihatlari ham muhim didaktik muammo hisoblanar ekan. Masalan, 9-11 yillik tayanch ta’lim bo‘g‘iniga muvofiq, keluvchi fizika kursi o‘quvchilarni umumiy politexnik tayyorgarligini ta’minlaydi.

Tadqiqot jarayonida uslubiy jihatdan muhim hisoblangan bir muammoni guvohi ham bo‘ldik. Go‘yoki, fizika texnikum va akademik litseylar sharoitida u yoki bu texnik obyekt yoki texnologik jarayonni o‘rganishi uchun o‘qitilar ekanda degan noto‘g‘ri tasavvur o‘quvchilar ongida shakllanib qolishi mumkin. O‘qituvchi texnik misollar, kasbiy hunarlar mazmuni muhokamasida fizikani fundamental fan ekanini inkor etishi va amaliy mazmundagi misollar ichida fizikani “cho‘ktirib” yuborishi ham mumkin ekan.

Ikkinchi bir jihat, aksincha agar, o‘qituvchini ba’zi bir sharoitda shunchaki yuzaki ko‘rinishda misol keltirish bilan chegaralanib qolish hollari ham mavjud bo‘lishi mumkin ekan. Unda fizika o‘qitishning hayotiyligi uni ilmiy texnik taraqqiyotning nazariy asosi ekanligi, o‘qitishni hayot bilan uzviy holda bog‘liqligi buzilgan desak to‘g‘ri bo‘ladi. Afsuski, izlanish jarayonida har ikki chetlanishning mavjud bo‘lish hollari ham qayd etildi.

Fizikadan integrativ darsning yana bir muhim ko‘rsatkichi, u ham bo‘lsa darsning gumanitarlashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Chunki mazkur darsda o‘rganiladigan amaliy fizika ekologik muammolarni hal etish, lodini olish olim va muxandislar, ishlab–chiqarish g‘oliblari va ijrochilar va xokazolarning faoliyatlarida fizik bilimlarni naqadar zarur ekanligini yoritadi. Fizika ta’lim mazmunini gumanizatsiyalash (insonparvarlashtirish) jihati ham shu kabi usullar orqali hal etilishiga ishonch hosil qildik.

Texnikum va akademik litseylarda o‘quvchilarning fizikadan amaliy bilimlari, ularni ixtisoslik bilimlari bilan aloqadorligi fizika ta’lim mazmunini muhim qismini tashkil etadi. Ushbu hol texnikum va akademik litseylarda amaliy fizikani kuchaytirish g‘oyasi bilan bog‘liq degan nazariy konsepsiyani qo‘llab quvvatlaydi. Fizikani amalda qo‘llanilishi bilan bog‘liqligi ushbu bilimlarni umumlashtirish darajasini oshirish imkoniyatini yanada kengaytirar ekan.

Texnikumlar sharoitida fizika umumta’lim o‘quv fanlarining komponentini (tashkil etuvchisi) hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu fan o‘quvchilarga kasbiy tayyorgarlikka oid bilim bermaydi va berishga majbur emas.

Kasbiy bilim ixtisoslik hamda maxsus fanlar tomonidan beriladi. Fizika umumtexnik hamda maxsus fanlarni o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, fizik bilimlar texnikum o‘quvchilarini kasbiy tayyorgarligini mustaxkamlashda o‘ziga xos “bog‘lovchi bo‘g‘in” vazifasini o‘tashi mumkin. Ya’ni ushbu ketma-ketlik o‘rinli bo‘ladi.

Mavzu doirasidagi tahlillar



Mazkur amaliy ahamiyat kasb etuvchi fizik bilimlar texni ing soxa yo‘nalishlariga muvofiq bo‘lishi uchun variativ xarakterda, ya’ni o‘zgaruvchan ko‘rinishiga ega ekanligi yuqorida o‘rganildi.

Aynan bitta fizika qonuniyatining turli sohalarida ko‘p qirrali qo‘llash imkoniyati mavjud ekan, ular ichida integratsiya jihatini aniqlash uslubiy jihatdan murakkab vazifa hisoblanadi. Ushbu uslubiy muammoni muvaffaqiyatli samarali yechimi integrativ dars mashg‘ulotida unumli hal etiladi.

Demak, gap amaliy harakterdagi fizik masalalarni integratsiyalash kerak bo‘lsa, unifikatsiyalash haqida boradi. Taxlillar shuni ko‘rsatadiki, fizikaning amaliy ahamiyat kasb etuvchi jihatlari texnikum va akademik litseylarda fizika kursi tuzilmasi (strukturasi)ga mantiqan muvaffaqiyatli joylanishi mumkin. Mexanika, molekulyar fizika va issiqlik, elektrodinamika asoslari, yorug‘lik, kvant fizika, atom tuzilishi va yadro fizikasi o‘ziga xos tuzilma tugunini hosil qiladi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki fizikadan umumlashtiruvchi darsning tarbiyaviy politexnik, kasbiy yo‘naltirish imkoniyatlari oddiy darslarga qaraganda kattaroq ekan. Chunki integrativ darslarda urg‘u amaliy misollarning miqdoriga emas, balki amaliy bilimlar sintezi, ularni integratsiyalanganlik darajasi bilan bog‘liqligiga beriladi. Masalan, mexanika bo‘yicha o‘quv materiallarni bayon etishda umumlashuvni yo‘qolishi istalgan ko‘rinishdagi mexanik harakatga oid masalani yagona metod asosida echishga o‘rgatish uchun to‘sqinlik qilar ekan. Masalan, tekis tezlanuvchan harakatning turli xil ko‘rinishlari tom ma’noda turli masala deb qoraladi, vaholanki ular ayni bir masalani ifodalab, faqatgina boshlang‘ich shartlarini berilishi bilan farq qiladi holos. Integrativ darslarda ushbu jihatlarning bir qimmatli yechimini topish kerak bo‘ladi. Shu munosabat bilan mazkur dars mazmunida quyidagi amaliy bilimlar mazmunini aks etishini maqsadga muvofiq deb bilamiz.

MEXANIKA. Tezliklarni qo‘shish. Kuchlarni qo‘shish. Og‘irlik markazini hisobga olish, jismlarning muvozanati, muvozanat turlari. Bernulli qonuni va uni qo‘llanilishi.

MOLEKULYAR FIZIKA. Modda, molekula va atomlarning o‘zaro ta’siri. Gaz va bug‘larning texnikada qo‘llanilishi. Xavoning namligi, shudring nuqtasi, gigrometr, kapillyar hodisalar, ho‘llash, qattiq va suyuqliklarni issiqlikdan kengayishi.

ELEKTRODINAMIKA ASOSLARI. Ketma–ket va parallel ulangan elektr zanjir. Elektroliz. Gaz razryadlarining texnikada qo‘llanilishi, plazma va uni qo‘llanilishi, yarimo‘tkazgichlar, ferromagnitlar. Elektromagnetizmning asosiy qoidalari va ulardan texnikada foydalanish. Mamlakatda energetika taraqqiyoti.

YORUG‘LIK. Oddiy optik asboblar, spektral taxlil va undan amalda foydalanish issiqlik va lyuminestsent nurlanishlar va ulardan amalda foydalanish. Lazer va uning qo‘llanilishi. Radioaktiv izotoplar–nishonli atom sifatida va nurlanish manba sifatida, yadro energiyasidan foydalanish istiqbollari va hokazo.

Demak, texnikum va akademik litseylar sharoitida fizikadan integrativ dars mashg‘ulotlarida fizik bilimlarning amaliy mazmunini ustivor bo‘lishiga alohida e’tibor beriladi. Har bir bo‘lim, yuqorida ta’kidlanganidek, fizikadan tayanch amaliy bilimlarni ta’minlab berishi kerak. Mazkur tayanch amaliy bilimlar birinchi galda texnikum va akademik litsey o‘quvchilarning politexnik dunyoqarashlarini kengaytirish shu asosda kasbiy bilimlarni mustahkamlash imkoniyatini beradi. Ikkinchi bosqichda esa, kasbiy yo‘nalish va kasbiy tayyorgarlikka ko‘maklashuv imkoniyatlarini beradi. Nihoyat, uchinchi bosqichda kasbiy bilimlarini o‘ziga xos holda chuqurlashtirish imkoniyatini beradi deb ayta olamiz va shunga tadqiqot jarayonida ishonch xosil qildik. Tahlil etgan o‘quv reja va dasturlar asosida fizika o‘quv fani bilimlari umumkasbiy hamda mutaxassis (kasbiy) fanlarni o‘rganishda o‘ziga xos nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi deb ayta olamiz.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar:

1. Texnikum va akademik litseylarda yuqorida ta’kidlangan integratsiyani amalga oshirish uchun ta’lim muassasasining respublikamizdagi etakchi OTM lari , Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari bilan ilmiy hamkorligini kuchaytirish;

2.Oliy ta’lim muassasalari bilan chet davlatlarning etakchi OTM lari bilan ilmiy – tadqiqotlar bo‘yicha hamkorlikni tashkil etish;

3. Chet davlatlardagi etakchi OTM larning professor- o‘qituvchilarini universitetga asosiy mutaxassislik fanlari bo‘yicha maxsus kurslardan ma’ruza o‘qishga jalb etish;

INFLUENCE OF THE THREE BODY COULOMB EFFECTS TO THE VALUE OF THE ASYMPTOTIC NORMALIZATION COEFFICIENT FOR ^{6}Li+n→^{7}Li

Kh.B. Khaydarov K.I. Tursunmakhatov
[1]Gulistan state university, Gulistan, Uzbekistan
tursunmahatovqi@mail.ru

Abstract: The main purpose of this work is to estimate the influence of the three body Coulomb effects to the values of the asymptotic normalization coefficients for ^{6}Li+n→^{7}Li. The contribution of the three body Coulomb dynamics of the transfer mechanism to the partial wave amplitudes at $l \gg 1$ for the peripheral neutron-transfer reaction ^{7}Li(d,t)^{6}Li has been estimated within the three-body approach combining the dispersion method and DWBA approach. For this reaction, the Coulomb renormalization factor (CRF), arising owing to correctly taking into account the three-body Coulomb dynamics of the neutron-transfer mechanism in the DWBA cross section, has been calculated. A new estimate has been obtained for the values of the asymptotic normalization coefficient for ^{6}Li+n→^{7}Li.

Ushbu ishning asosiy maqsadi astrofizik qiziqishning ^{6}Li+n→^{7}Li uchun mavjud ANK qiymatlarining o‘zgartirilgan Buzilgan to‘lqin yondashuvi bashoratlarining ishonchliligini tekshirishdan iborat. Yuqorida aytib o‘tilgan periferik neytron uzatish reaktsiyasi ^{7}Li(d,t)^{6}Li uchun $l \gg 1$ da parsial to‘lqin amplitudalariga uzatish mexanizmining uch zarrali Kulon dinamikasining hissasi Buzilgan to‘lqin usuli va dispersiya usulini birlashtirgan uch zarrali yondashuv doirasida baholangan. Ushbu reaksiya uchun DWBA kesmada neytron o‘tkazish mexanizmining uch tanali Kulon dinamikasini to‘g‘ri hisobga olish natijasida yuzaga keladigan Kulon renormalizatsiya koeffitsienti (KRK) hisoblab chiqilgan. ^{6}Li+n→^{7}Li uchun asimptotik normallash koeffitsienti qiymatlari uchun yangi baho olindi.

Introduction

The angular distributions of the ^{7}Li(d,t)^{6}Li one neutron transfer reaction leading to the ground state of ^{7}Li were measured at energies of 25 MeV [1] and they determined values of the asymptotic normalization coefficients (ANC) for ^{6}Li+n→^{7}Li within the modified Distorted-Wave Born Approximation (DWBA) [2] using the code DWUCK5 [3].

The modified DWBA approach on the basis of the idea proposed in [2] is restricted only to the zeroth- and first-order perturbation approach in the optical Coulomb polarization potential ΔV_i^C (or ΔV_i^C) in the transition operator sandwitched by the entrance- and exit- channel wave functions, respectively. However, the power expansion in $\Delta V_{i,f}^C$ series for the Coulomb part of the total three-body transition operator for the considered peripheral transfer reactions contains higher order terms in $\Delta V_{i,f}^C$ [5]. So the account of these expansion terms in the modified DWBA calculations is necessary to verify an accuracy of the traditional "post" or "prior" form of DWBA used in [1] for obtaining the ANC value.

Results ana Discussions

The peripheral partial wave amplitudes $M_l^{TB}(E_i)$ and $M_l^{DWBA}(E_i)$ for $l \gg 1$ are determined by the nearest singularity ξ in [5] and their explicit forms for $l \gg 1$ have the following forms:

$$M_l^{\mathrm{DWBA}}(E_i) \simeq D\widetilde{N^{\mathrm{DWBA}}} \frac{e^{-l\ln r}}{l^{\frac{1}{2}} + \eta_x + \eta_B - i(\eta_i + \eta_f)}, l \gg 1, (1)$$

$$M_l^{\mathrm{TB}}(E_i) \simeq D\widetilde{N} \frac{e^{-l\ln r}}{l^{\frac{1}{2}} + \eta_x + \eta_B - i(\eta_i + \eta_f)}, l \gg 1, (2)$$

$$D = \pi^{3/2} \frac{m_a \exp[i\pi(l_x + l_B + \eta_x + \eta_B)/2]}{\mu_{Aa}\mu_{Ay}k_i k_f \sqrt{\tau^2 - 2}} (\xi^2 - 1)^{[1+\eta_x+\eta_B - i(\eta_i+\eta_B)/2]} C_{ay;l_x l_x} C_{Aa;l_{Bjb}}, (3)$$

$$\widetilde{N}^{\mathrm{DWBA}} = \frac{N^{\mathrm{DW}}}{\Gamma\left(1 + \eta_x + \eta_B - i(\eta_i + \eta_f)\right)}, (4)$$

$$\widetilde{N} = \frac{N}{\Gamma\left(1 + \eta_x + \eta_B - i(\eta_i + \eta_f)\right)}, \tau = \xi + \sqrt{\xi^2 - 1}, (5)$$

and $\eta_i(\eta_f)$ is the Coulomb parameter in the entrance (exit) channel. It should be also noted that the explicit expression of the peripheral partial wave amplitudes $M_{\mathrm{post};l}^{DWBA}(E_i)$ for $l \gg 1$ corresponding to the "post" approximation of the DWBA amplitude [5] has the same form as Eq. (1), but the factor of $\widetilde{N}^{\mathrm{DWBA}}$ in it can be replaced by that of $\widetilde{N}_{post}^{DWBA} = N_{post}^{DW}/\Gamma\left(1 + \eta_x + \eta_B - i(\eta_i + \eta_f)\right)$. The explicit expressions of the Coulomb renormalization factors N_{post}^{DW}, N^{DW} and N are given by Eqs.(14), (26), and (27) of [5], respectively. As seen from (1) and (2), the peripheral partial amplitudes $M_l^{\mathrm{DWBA}}(E_i)$ and $M_l^{\mathrm{TB}}(E_i)$ at $l \gg 1$ have the same dependence on *l*. The ratio has the form

$$R = \left|\frac{M_l^{\mathrm{MT}}(E_i)}{M_i^{\mathrm{DWBA}}(E_i)}\right| = \left|\frac{\widetilde{N}}{\widetilde{N}^{\mathrm{DWBA}}}\right| = \left|\frac{N}{N^{\mathrm{DW}}}\right| (6)$$

for $l \gg 1$. Analogously, the ratio of the peripheral partial amplitudes $M_l^{\mathrm{DWBA}}(E_i)$ and $M_{\mathrm{post};l}^{\mathrm{DWBA}}(E_i)$ has the form

$$\tilde{R} = \left|\frac{M_l^{\mathrm{DWBA}}(E_i)}{M_{\mathrm{post};l}^{DWBA}(E_i)}\right| = \left|\frac{\widetilde{N}^{\mathrm{DWBA}}}{\widetilde{N}_{\mathrm{post}}^{\mathrm{DWBA}}}\right| = \left|\frac{N^{\mathrm{DW}}}{N_{\mathrm{post}}^{\mathrm{DW}}}\right| (7)$$

for $l \gg 1$. As is seen from here, the influence of the three-body Coulomb effects on the peripheral partial amplitudes of the exact, "post" form and "post" approximation amplitudes is different. The calculated values of the ratios R and $\tilde{R}$ determine the magnitude of this influence on the corresponding peripheral partial amplitudes.

The cross section in the modified DWBA takes the following form:

$$\frac{d\sigma^{\mathrm{DWBA}}}{d\Omega}(E_i\theta) = \sum_{j_x j_B} C_{ay;l_x j_x}^2 C_{aA;l_B j_B}^2 \frac{\sigma_{l_x j_x l_B j_B}^{DWBA}(E_i\theta)}{b_{ay;l_x j_x}^2 b_{aA;l_B j_B}^2}. (8)$$

The cross section for the peripheral transfer reaction A(x,y)B with correct account of the three-body Coulomb effects in the transfer mechanism has the form

$$\frac{d\sigma^{\mathrm{TBDW}}}{d\Omega}(E_i\theta) = \sum_{j_x j_B} C_{ay;l_x j_x}^2 C_{aA;l_B j_B}^2 \frac{\sigma_{l_x j_x l_B j_B}^{TBDW}(E_i\theta)}{b_{ay;l_x j_x}^2 b_{aA;l_B j_B}^2}. (9)$$

For the peripheral; transfer reaction, owing to the fact that the main contribution comes from the peripheral partial amplitudes, the cross section near the peak can be given, as is proposed in [6], by

$$\frac{d\sigma^{\mathrm{TBDW}}}{d\Omega}(E_i\theta) = R^2\frac{d\sigma^{\mathrm{DWBA}}}{d\sigma}(E_i\theta) \quad (10)$$

Here, $\frac{d\sigma^{\mathrm{DWBA}}}{d\sigma}$ is given by Eq. (8) and the value of R allows us to estimate the contribution of the term $\Delta M^{\mathrm{DW}}(E_i.\cos\theta)$ to the DWBA cross section in the peak and, consequently, to the values of ANC, $C^2_{ay;l_xj_x}C^2_{Aa;l_Bj_B}$, obtained within the modified DWBA approach in [1]. Therefore, as is seen from Eqs. (8) and (10), the values of the product $C^2_{ay;l_xj_x}C^2_{Aa;l_Bj_B}$ obtained from Eq. (8) should be renormalized by the factor R^2, that is, $(C^r_{ay;l_xj_x}C^r_{Aa;l_Bj_B})^2 = R^{-2}C^2_{ay;l_xj_x}C^2_{Aa;l_Bj_B}$.

The Coulomb renormalization factor, which is given by the ratio of the peripheral partial wave amplitudes of the exact amplitude to the that of the DWBA amplitude and determines exactly the contribution of the three-body Coulomb dynamics of the neutron transfer mechanism to the DWBA cross section in the main peak, is calculated for the peripheral reaction at incident deuteron energy of 25 MeV.

The DWBA analysis and calculations of the differential cross section of the ^{7}Li(d,t)^{6}Li reaction performed in [1] at energy 25 MeV showed that this reaction is strongly peripheral. Futhermore, this reaction is related to the "nondramatic" case. Therefore, Eq. (10) can be used to test the accuracy of the ANC value for obtained from the analysis of this reaction by N. Burtebayev et al. in [1].

The results of the calculation are given in the table. The value of the Coulomb renormalization factor R^2 for the peripheral ^{7}Li(d,t)^{6}Li reaction is presented in the third column of the table. In the fourth and fifth columns of the table, the ANCs values recommended by the authors of [1] and by us, respectively, are also presented.

Table 1. The values of ANC ($C^2_{n^6Li;\, l_{^7Li}\, j_{^7Li}}$) for ^{6}Li+n→^{7}Li

$J^\pi;\ E^*$	$l_{^7Li}\, j_{^7Li}$	R^2	$C^2_{n^6Li;\, l_{^7Li}\, j_{^7Li}}$	$\left(C^r_{n^6Li;\, l_{^7Li}\, j_{^7Li}}\right)^2$
			Without CRF	With CRF
$\left(\frac{3}{2}\right)^+$; 0.0	1, 1/2	1.065	1.22±0.17 [1]	1.30±0.18
	1, 3/2		1.66±0.23 [1]	1.77±0.25
	1, 1/2+3/2		2.88±0.40 [1]	3.07±0.43

The new values of the asymptotic normalization coefficients can be used for calculation of the astrophysical S factor of the ^{6}Li(n,γ)^{7}Li reaction at low energies, including E=0.

Conclusion

The calculations showed that the ^{7}Li(d,t)^{6}Li reaction is related to the "nondramatic" case. The contribution of the three body Coulomb dynamics of the transfer mechanism to the partial wave amplitudes at $l \geq 1$ for the above mentioned peripheral neutron-transfer reaction ^{7}Li(d,t)^{6}Li has been estimated within the three-body approach combining the dispersion method and DWBA approach [4]. For this reaction, the Coulomb renormalization factor (CRF), arising owing to correctly taking into account the three-body Coulomb dynamics of the neutron-transfer mechanism in the DWBA cross section, has been calculated. A new estimates have been obtained for the values of the asymptotic normalization coefficients $\left(C^r_{n^6Li;\, l_{^7Li}\, j_{^7Li}}\right)^2$ for ^{6}Li+n→^{7}Li.

References

1. N.Burtebayev, J.T.Burtebayeva et al., Mechanism of the reaction at 25 MeV energy of Deuterons, Values of spectroscopic factors and asymptotic normalization coefficients for the vertex, Acta Phys. Polo. B 46, 5, 1037 (2015), https://doi.org/10.5506/APhysPolB. 46.1037
2. A.M. Mukhamedzhanov et al. Asymptotic normalization coefficients for ^{9}Be+p→^{10}B, Phys. Rev. C 56, 3, (1997), https://doi.org/10.1103/PhysRevC.56.1302
3. P.D. Kunz, "Computer code DWUCK5" http://spot.colorado.edu/kunz/DWBA.html
4. S.B.Igamov, M.S.Nadirbekov and R.Yarmukhamedov, Phys. Atom. Nucl. 70, 1694 (2007), https://doi.org/10.1134/S1063778807100031

5. Sh.S.Kayumov, A.M. Mukhamedzhanov, R.Yarmukhamedov and I. Borbely, Z.Phys. A 336, 297 (1990) https://doi.org/10.1007/BF01292860
6. Sh.S.Kayumov, A.M. Mukhamedzhanov, R.Yarmukhamedov, Z.Phys. A 331, 335 (1988) https://doi.org/10.1007/BF01355603

УМУМТАЬЛИМ МАКТАБ ФИЗИКА КУРСИНИ ЎҚИТИШДА МЕТОДОЛОГИК МАСАЛАЛАРИНИ РОЛИ

Obidova Zuhra Nasriddinovna
p.f.f.,doc(PhD) Guliston davlat universiteti, O‘qituvchi
+998915060653

Анотация:уш бу мақолада ўқув предмети мантиқини замонавий илмий тасаввурлар, тушунчалар, назария ва билиш методларига ҳамда замонавий фикрлаш услубига мослиги тўғрисида сўз юритилган.

Калит сўзлар:илмий билим, ўқув билимлар, метод ,методология, мантиқ.

Физиканинг ҳозирги мантиқини илмий билимларни юзага келиш намунаси сифатида қараб, уни асослаш ва исботлаш жараёнида бошқа муаммога дуч келамиз. Ушбу мантиқ қаерда қайд қилинган? Осон жавоб шундаки у фаннинг ўзида лекин қониқарсиз даражада: “фаннинг ўзи” ўта аморф тушунча бўлиб, унинг чегарасини кўрсатиш мумкин эмас. Албатта, қизиқувчиларни монография, мақолалар, илмий ҳисоботлар ва бошқа илмий асарлар тўпламига йўналтириш мумкин, аммо булар ҳам ўта ноаниқ ҳисобланади.

Ҳар қандай жамиятнинг ривожланиш даражаси ундаги таълим тизими ва илм-фан тараққиёти билан белгиланади. Ўз навбатида фан ва техниканинг ривожланиши физика ва уни ўқитишда қўлланиладиган қўлланиладиган методларга бевосита боғлиқдир. Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикасида таълим тизими ўзининг янги босқичига кўтарилмоқда, чунки, нанотехнология ва квант компьютерларнинг яратилиши, атом ва молекулаларнинг ҳаракат қонуниятларини ва хосса ҳамда хусусиятларини тавсифлайдиган статистик қонуниятлар ва уларнинг методологик асосларини очиб бериш таълим сифатини оширишига шубҳа йўқ. Жумладан, умумтаълим мактабларда ўқитилаётган физика курсининг методологиясини очиб бериш, уни ўзлаштиришда алоҳида ўрин тутади. Республика раҳбарияти умумтаълим мактабларида ўқитишнинг мазмуни ва методикасини такомиллаштиришга алоҳида эътибор бермоқда.Ўрта мактаб ўқувчилари ўзлаштириши лозим бўлган физиканинг методологик ва дунёқарашга оид муаммолари унда қўлланиладиган идрокнинг умумилмий усуллари тоифалари билан чекланмайди. Баъзи мисолларни келтирамиз.

Саккизинчи синф физикасининг кириш дарсида, ўрганилган материалдан энди ўрганиладиган материалга ўтишдаги кўприкдек, табиат абадий ва онгдан ташқари ва ундан мустақил тарзда мавжуд эканлигини таъкидлаш лозим. Бу эса “материя” тушунчасини киритишга имкон беради. Оламни материя деганда, биз шу билан бирга унинг объектив, яъни ҳеч кимнинг онгидан мустақил тарзда мавжудлигини таъкидламоқчимиз. Одамлар табиатга мослашиш, ундан ўз манфаати йўлида фойдаланиш учун уни идрок этишга мажбур. Оламда идрок этиб бўлмайдиган ҳодиса йўқ, лекин конкрет ҳодисаларни идрок этиш фан ва амалиёт тараққиёти даражасига боғлиқ. Оламнинг ўзи чексиз ва тараққиётда экан, уни идрок этишни бекор қилувчи жараён хам чексиз жараёндир. Ҳар қандай ҳодиса, жумладан, физик ходиса, ҳар доим оқилона чегара мавжуд бўлса-да, идрок этилиши мумкин. У илм-фан, амалиёт ва қўйилган идрокий вазифаларнинг ривожланиш даражаси билан белгиланади. Оламни идрок этиш илм-фан ютуқлари ва одамларнинг амалий фаолияти билан тасдиқланади.

6 ва 7 синфларда ўрганилаётган физик материал асосида ўқитувчи шундай хулосага келиш мумкинки, бундай ҳодиса фанда ўрнатилган бўлиб, турли лабораторияларда турли тадқиқотчилар томонидан қайта-қайта такрорланиши мумкин. Буни қуйидаги мисол билан изохлаш мумкин: агар биз шу номдаги электр зарядлари қочиши, бошқа номдагилари эса тортилишини таъкидласак, ҳар қандай тадқиқотчи бунга тажриба орқали ишонч хосил қилиши мумкин.

Кириш дарсида ҳаракат ҳақида умумий маълумот берилади. Бу саволни ўрганишда, қуйидаги умумий таърифни бериш мумкин: кенг маънода ҳаракат ҳар қандай ўзгариш, моддий объектларнинг ҳар қандай ўзаро таъсиридир. Ҳаракатнинг турли шакллари мавжуд: механик, физик, кимёвий, биологик, ижтимоий ва б. Жисмларнинг механик ҳаракати – бу жисмнинг вақт ўтиши билан макондаги ҳолатининг ўзгаришидир.

7-синф физика курсида ўқувчилар бир қатор сақлаш қонунлари билан танишадилар. Уларни ўрганиш 10-синфда давом этади. 10-синфда сақлаш қонунларини баён этишда шуни алоҳида таъкидлаш мақсадга мувофиққи, агар кимдир бундай ҳодиса содир бўлмайди, деб даъво қилса, у доимо табиат қонунини кўрсатадики, у унинг мавжуд бўлиш имкониятини тақиқлаб қўйиши керак. Бошқача айтганда, табиатнинг маълум қонунларига зид бўлган бу ҳодисанинг имкони йўқ, деб ҳисобланади. Масалан, умрбод двигателнинг бўлиши мумкин эмас, зеро унинг мавжудлиги энергияни сақлаш қонунига зид келади.

Биз бирон нарсани сўзсиз инкор қилишда жуда эҳтиёт бўлиш керак бўлган замонда яшаяпмиз. Имкониятларимиз шу қадар кенгайди, илмга ишончсизлик кун сайин бархам топмоқда.

Ўқувчилар ҳақиқий олим, агар унга эътироз билдиришса, диққат билан тинглашини билишлари керак. Олим баҳслашиши, ўз аргументларини илгари суриши мумкин, лекин у ҳеч қачон далилсиз эътирозларни эътиборсиз қолдирмайди.

Якуний таҳлилда ўқувчиларга материя физик хоссаларини сақлаш қонунлари материянинг йўқ бўлмаслиги, яратиб бўлмаслиги, мавжудлигининг моҳиятини ҳам очиб беришини айтмасликнинг иложи йўқ. Зеро, материянинг айнан хоссалари ёрдамида характеристикаси усули йўқ. Шунга кўра, материянинг абадийлиги унинг хоссаларини сақлашда ифодаланиши керак. Сўнггилари фақат физик бўлиши мумкин, зеро оламда физик деб қаралмайдиган бирорта объект йўқ.

7-синф физика дарслигида табиатни ўрганишга доир ҳар қандай саволни кўриб чиқишда сақлаш қонунлари йўналтирувчи юлдуз бўлиб хизмат қилиши таъкидланади. Бу ҳар қандай тасдиқнинг тўғрилиги учун бирламчи назорат туридир. Сақлаш қонунлари физика курсининг барча бўлимларида қўлланилади.

Физика курсининг элементар зарралар номли бобида элементар зарралари ўзаро айланиши, парчаланиши таъкидланади. Бу ерда шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш мақсадга мувофиққи, бу жараёнлар парчаланиш ва ўзаро айланишнинг маълум жараёнининг имконли ёки имконсизлигини белгиловчи сақлаш қонунлари билан ҳам тартибга солинади. Фақат бир вақтнинг ўзида маълум бўлган барча сақлаш қонунларига бўйсунувчи элементар зарраларнинг парчаланиши ва ўзаро айланиши амалга оширилади. Элементар зарралар назариясида сақлаш қонунлари сони ортиб бораверади. Уларнинг барчаси ҳаракатланаётган материя характеристикалари сони худди материя хоссалари ва унинг мавжудлик шакллари беҳад бўлгани каби чексиз эканлигини кўрсатади.

Шуни ҳам ёдда тутиш керакки, сақлаш қонунларининг қўлланиши чекланган доирага эга, улар тарихий ва ақида бўла олмайди.

“Атом ядроси физикаси” (11-синф) бўлимида ўқувчилар эътиборини кузатилмайдиган ҳодисаларни идрок этиш усулларига қаратиш мақсадга мувофиқдир. Кузатилмас деб, на сезги органлари ва ускуналар ёрдамида қабул қилиб бўлмайдиган ҳодисаларга айтилади. Идеалистлар бундай ҳодисалар билиб бўлмаслигини таъкидлайдилар. Лекин бу хато хулоса. Унга иккита қарши аргументни келтириш мумкин: кузатилмас ходисалар асбобсозлик ривожланиши натижасида охир-оқибат кузатиладиган бўлиб қолади (масалан, электрон микроскоп аллақачон йирик молекулаларни кўришга имкон беради); кузатилмас ҳодисаларни билвосита идрок этиш мумкин. Билвосита идрок усулининг моҳияти қуйидагича: агар маълум бир ҳодиса объектив жихатдан мавжуд бўлса, у ҳолда доимо бошқа ҳодисалар билан ўзаро таъсирини амалга ошириш мумкинки, ушбу ўзаро таъсир натижаси бевосита идрок қилиниши мумкин (Вильсон камерасидаги микрозарра излари).

Материянинг тугалланмаслиги ҳақидаги ғояни “Элементар зарралар” (11-синф) мавзусини ўрганиш орқали яхши тасвирлаш мумкин.

Ўқувчиларга қуйидагиларни тушунтириш керак: а) оламда чексиз турдаги сифат жиҳатидан бир-бирига яқин бўлмаган моддий ҳосилалар бор; б) оламда структурага эга

бўлмаган моддий ҳосилалар йўқ; в) оламни тугал идроки чексиз жараён деганидир; г) ҳар қандай объект, ҳар қандай ҳодисани абадий идрок этиш мумкин, лекин идрокнинг оқилона чегараси ўрнатилган идрокий вазифа, шунингдек, илм-фан ва амалиёт тараққиёти даражаси билан белгиланади.

Шу мавзунинг ўзида конкрет физик материал саволни қўйиш ва элементар хамда мураккаб муаммо хақида дастлабки маълумот бериш имконини беради. Элементар ва мураккаб атамаларини элементар зарраларда қўллаш ўзида нисбий тушунчаларни акс эттиради.

Адабиётлар рўхати.

1. С.А.Шапоринский. Мышление как творчество: Введение в логику мысленного диалога. – М.: Политиздат, 1975. – 399 б

2. Бердиев Ч. Физикани ўқитишда илмий дунёқарашни шакллантириш.-Тошкент: Ўқитувчи.1995. -128 б.

3. В.А.Кондаков Философские основания физики. – М.: Прогресс, 1971. – 390

4.Обидова З.Н “Умумтаълим мактаб ўқувчиларида физикавий тасаввур ва тушунчаларнинг методологиясини шакллантириш”дис//Т-2023г

5. Обидова З.Н, Рахмонов, В., Ганиева, Д., Кодиров, О., & Холмуродов, А. (2023). УМУТАЬЛИМ МАКТАБ ФИЗИКА КУРСИНИНГ ФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИНИ РОЛИ ВА АХАМИЯТИ. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5 Part 2), 53-60.

6.Obidova Z METHODOLOGICAL KNOWLEDGE OF THE HIGH SCHOOL PHYSICS COURSE IS A MEANS OF FORMING STUDENTS’ PHYSICAL THINKING STYLE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 3, 2020 Part II ISSN 2056-585

7. Обидова Зухра.Турғунбоев Ислом.Аликулов Абдузохид УМУМИЙ ЎРТА ТАЬЛИМ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МЕТОДОЛОГИК БИЛИМ ВА МАЛАКАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ФИЗИКА ЎҚУВ ПРЕДМЕТИНИНГ МАНТИҚИНИНГ АХАМИЯТИ. EURASIAN JOURNAL OF TECHNOLOGY AND INNOVATION Innovative Academy Research Support Center

QUYOSH HAVO ISITISH KOLLEKTORINI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA KENG FOYDALANISH

Ashirov Shamsiddin Annazarovich, Toshboyev Nurbek O‘tkir o‘g‘li, Sodiqov Abdukarimxon Baxodir o‘g‘li

Guliston davlat universiteti p.f.n dotsent

Elektron manzil: SH.Ashirov62@mail.ru

Telefon raqam: +998943531962

Guliston davlat universitet “Axborot texnologiyalar” instituti “Fizika” yo‘nalishi bakalavr talabasi

Elektron manzil: nurbekjontoshboyev001@gmail.com

Telefon raqam: +998 904001630

Guliston davlat universitet “Axborot texnologiyalar” instituti “Fizika” yo‘nalishi bakalavr talabasi

Elektron manzil: abdukarimxonsodiqov2003@gmail.com

Telefon raqam: +998 904871007

Annotatsiya: Quyosh havo isitgich kollektori quyosh energiyasidan foydalanib sovuq havo oqimini iliq havo oqimiga aylantrib beradigan qurilma hisoblanadi. Isitilgan iliq havo oqimi esa binolardagi xonalarni isitishga yo‘naltriladi.Quyosh havo isitgich kollektorini odatiy isistish tizmi bilan birga ishlatish istemolchiga iqtisodiy foyda va ekologik toza energiya bera oladi. Quyosh havo isitish kollektori hozirga vaqtda rivojlangan davlatlarda keng foydalanadi. Bizning yurtimizda ham quyosh energiyasining patensiali kattaligi foydlanishimizga qo‘l keladi.

Kalit so‘zlar: Manifold; kollektor; issiqlik; konverton; reflekto;

[161]Kirish:

Quyosh Yerdagi energiyaning eng kuchli manbasidir. Har bir soniyada bizni 80 ming kilovatt-dan ortiq kilovat yuboradi. Bu dunyo ishlab chiqaradigan barcha elektr stansiyalaridan bir necha ming marta ko‘p. Odamlar har doim ehtiyojlari uchun quyosh energiyasidan foydalanish yo‘lini topishga harakat qilishgan. O‘rta asrlarning boshlarida ular linzalardan yordam olishni bilishardi va bugungi kunda tomdagi tank, qora rangga bo‘yalgan, suvni isitadi va qishloqlarda va kottejlarda yozgi dush sifatida xizmat qiladi. Aytgancha, bu eng oddiy quyosh kollektori - suvni yoki issiqlikni isitish uchun quyosh energiyasidan foydalanish imkonini beruvchi murakkab va o‘ziga xos qurilma. Dizayni biroz yaxshilashni istasangiz, issiq suv barcha uy-ro‘zg‘or ehtiyojlari uchun va uyni isitish uchun etarli. Buning uchun siz quyosh kollektorining printsipini tushunishingiz kerak.[1]

Jahon olimlari quyoshdan olingan energetikaning ulushi ortib borayotganiga rozi bo‘lishdi va quyidagi dalillarni keltiradilar:quyosh - bu muttasil va erkin energiya manbai;

1) quyosh energiyasidan foydalanish atrof-muhitni ifloslantirmaydi va ortiqcha ta’sirini oshirishga yordam bermaydi;

2) quyosh energiyasidan hamma joyda foydalanish mumkin, uni tashishning hojati yo‘q;

3) zamonaviy ilmiy tadqiqotlar olingan energiyani samarali to‘plash imkonini beradi;

4) quyosh kollektorlari minimal texnikani talab qiladilar;

5) Kollektor qurilmasi nisbatan oddiy va arzon.

Biroq, quyosh energiyasidan foydalanishda olimlar e’tiborga olinadi va qiyinchiliklarga duch keladi:

1) kollektorning samaradorligi insolyatsiya darajasiga bog‘liq;

2) uskunani o‘rnatish uchun dastlabki sarf-xarajatlar talab etiladi;

3) qishda, issiqlik yo‘qotilishi sezilarli darajada oshadi.

Narxlar umumiy o‘sishida odamlar iqtisodiy jihatdan ko‘proq yashashga harakat qilishadi. Bu borada va kommunal xizmatlar uchun juda yuqori tariflar bilan ta’minlangan, yildan-yilga o‘sib bormoqda. Eng yoqimli, eng avvalo , uyni isitish va havodagi quyosh kollektorini o‘rnatish, bu sizning elektr energiyadan foydalanish va qisman uyni va kommunal xonalarni isitish uchun imkon beradi.

Havo quyosh kollektori murakkab dizayn bu reflektor joylashgan quti va to‘g‘ridan-to‘g‘ri havo isitish ta’siri tufayli sodir bo‘lgan quvur liniyasi. Ko‘chadan yoki xonadan sovuq havo kollektorga kiradi va quyosh nurlari tufayli qizib ketadi. Shundan keyin u konvertorni troyniklar orasiga kiradi, keyin energiya akkumulyatorda to‘planadi, bundan keyin u uy egasining xohishiga ko‘ra iste’mol qilinadi.[2]

Quyosh — sayyoramizning hayot manbai. Quyosh nurlarisiz Yerda hayot bolmaydi. Quyosh asosan ikki gaz — vodorod va geliydan iborat ulkan qizigan shar.

Quyosh yoruglik sochar ekan, uning massasi uzluksiz kamayib, go‘yoki «erib» boradi. Lekin Quyosh shu qadar ulkanki, uning moddasi va energiyasi shu tarzda sarflanib borishiga qaramay, yana milliard yillab nurlarini sochib turadi. Quyosh radiatsiyasini taxminan 70 — 80°C temperaturali issiqlikka aylantiradigan turli qurilma va tizimlarning asosini yassi Quyosh kollektori tashkil etadi. Bu kollektor ichidan issiqlik eltgich (suv, havo va boshqalar) yuradigan naychali romdan iborat. Kollektorning barcha tomonim issi[162]qlikni saqlaydigan korpus berkitib turadi; faqat bir tomoni ochiq qoldirilib unga Quyosh nurlari tushadi. [3]

Havo manifoldining dizayni oddiy va ishonchli. Havo tipidagi manifoldlar turar-joy binolarini, shuningdek sanoat binolarini, sabzavot do‘konlarini, omborlarni, garajlarni, bodringlarni isitish uchun ishlatilishi mumkin. Qurilmaning va havo kollektorining ishlash printsipi yassi analoglardan juda oz farq qiladi: ularning ichida aylanadigan sovutadigan sovutgichli mis quvurlar tizimi issiqlik qabul qiluvchi panelini suyagi bilan almashtiradi. Qurilma paneli uyali polikarbonatga o‘xshaydi. Havo panelning chetidan o‘tadi va jarayonda isitiladi. Issiq havo xonaga kirib boradi, issiqlikni uzatadi va kollektorga qaytadi. Panellar yuqori issiqlik o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgan materiallardan tayyorlangan - mis, alyuminiy, po‘lat.

Havo quyosh kollektorini o‘rnatish:

---

[161]https://uz.grupoquepasa.com/184-building-a-solar-collector-with-your-own-hands-23ph.html

[162] https://uz.unistica.com/havo-quyosh-kollektori/

3 https://haqida.su/quyosh/

Panellar ma’lum darajada burchakka to‘g‘ri yo‘naltirilishi kerak, bu esa maksimal izolatsiyani ta’minlaydi. Panelning burilish burchagi o‘zgarishi mumkin bo‘lsa, ushbu davrda quyoshning balandligiga e’tibor qaratsa, qurilma samaradorligi yanada yuqori bo‘ladi. Shunday qilib, qishda, nishon burchagi maksimal bo‘lishi kerak va yozda panellar pastki burchak ostida bo‘lishi kerak.

Kolektor panellari issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish uchun iloji boricha yaqinroq joyga o‘rnatilishi kerak. Uyning tomidagi janubiy yonbag‘rida yoki tomga yopiladigan kolektorni samarali o‘rnatish. Bu issiqlik yo‘qotilishini minimallashtiradi, lekin tomga qo‘shimcha teshiklarni o‘rnatish kerak bo‘ladi.

Kollektorni o‘rnatish uchun tanlangan joyga to‘siqlar, daraxtlar yoki boshqa tuzilmalardan tushadigan soya tushmasligi kerak.1-rasmdagi kabi.

1- rasm

2-rasm

Havo quyosh kollektorini yurtimizda mahalliylashtrish undan o‘z geografik joylashishimizga nisbatan keng foydalanish uchun biz ham bir qanch tadqiqot ishlari o‘tkazdik. Guliston davlat universiteti fizika kafedrasidagi jamoamiz bilan quyosh havo isitish kollektorini o‘zimizning iqlimga moslashtrilgan kollektorni loyihasini chizib uning hisoblash ishlarini amlga oshirdik. Yurdimizda quyosh energiyasi salohiyati kattaligi bois kollektordan foydalanish samarali natija beradi. Quyosh kollektorda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun 0.8 metr kvadrat yuzali havo isitish kollektori yasadik. Sovuq kunlarda ilmiy tadqiqot o‘tkazib kollektor saradorligi ekspremental tarzda tekshirildi. Olingan natijalar bizning hudadda quyosh havo isitish kollektoridan foydalanish yaxshi natija berishini ko‘rsatdi. Mahalliylashtrilgan holda yasalgan havo kollektorimiz ham ishlash samaradorligi yuqoriligini ko‘rsatdi. Tadqiqotni Sirdaryo viloyati Guliston shahar hududida o‘tkazildi.

24.02.2022 kundagi tadqiqot natijasi ko‘ra soat tushlik vaqtidan keyingi 14:00 holatiga ko‘ra 34.8^{0}C haydab berish temperaturasi tashkil qilingan.Kollektor ichki temperaturasi 45^{0}C tashkil qilingan.Aynan shu kuni ob-havo bulutli bo‘lgan. Keyingi olingan natija quyoshli kunda olingan bo‘lib issiq havo haydab berish temperaturasi 46^{0}C va kollektor ichki temperaturasi 60^{0}C tashkil qilgan. Kollektor ikkitasi birlashtrilgan bo‘lib, ularning yuzasi 1,6 metr kvadratni tashkil qiladi. 3-rasmda ko‘rsatib o‘tilgan kollektorda natija olingan.

3-rasm 4-rasm

Quyosh havo isitgich kollektori haqida xulosa qilganda ishlatish imkoniyati kengligi bo‘yicha, uning ishlatishda isitish vositasi havoni barcha joyda borligi va foydalanadigan energiyasi quyoshning ham hamma joyda mavjudligi uning ustunliklarini ko‘rsatib beradi. Kollektorning ikkinchi modeli 4-rasmda ko‘rsatib o‘tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://uz.grupoquepasa.com/184-building-a-solar-collector-with-your-own-hands-23-ph.html
2. https://uz.unistica.com/havo-quyosh-kollektori/
3. https://haqida.su/quyosh/
4. Allaev K.R. Energetika mira i Uzbekistana. Uchebnoe posobie, izdatelstva “Moliya”, Tashkent, 2007. -388 s.
5. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish istiqbollari.
6. Noana’naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Majidov t. Sh. Toshkent, 2014.

MAHALLIY XOM ASHYODAN YASALGAN SAMARADORLIGI YUQORI BO‘LGAN MAVSUMIY QUYOSH SUV ISITGICHI

Niyazov SH, Qosimov F, Elmurodov R, Biykuziyev S
Guliston davlat universiteti, Tadqiqot mavzusining dolzarbligi

Rivojlangan mamlakatlarda va shu jumladan O‘zbekistonda ham uzoq muddatga mo‘ljallangan energetik dasturlarda muqobil energiya manbalaridan keng miqyosda foydalanish, shu bilan birgalikda organik yoqilg‘i-energetika resurslarining zahiralaridan foydalanishni kamaytirish, ularning tannarxi ortib borishi va “toza” ekologik innovatsion texnologiyani yaratish asosiy muammo bo‘lib hisoblanadi. Energetik resurslarning cheklanganligi va organik yoqilg‘ilarning tannarxi oshib borishi, hamda ekologik ta’sirini o‘zgarishi xalq xo‘jaliklarida muqobil bo‘lgan energiya manbalaridan foydalanish zaruratini tug‘diradi.Muqobil energiya turlaridan biri quyosh energiyasi bo‘lib hisoblanadi. Quyosh energiyasidan foydalanish ishlarini O‘zbekistondagi holatini tahlili shuni ko‘rsatadiki, uni chet ellardagi ilg‘or shunday qurilmalar bilan solishtirilganda, raqobat bardosh, ekologik toza bo‘lgan, quyosh suv isitgichlarini zamonaviy texnologik vositalar yordamida qurish zarur ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston hududi nisbatan ekologik toza va bitmas-tuganmas quyosh energiyasidan foydalanish uchun qulay sharoitda joylashgan. O‘zbekistonda yerning 1 kvadrat metr gorizontal yuzasiga tushayotgan quyosh nuri energiyasining yillik qiymati o‘rta hisobda 6.0 GJ ni tashkil etadi, ya’ni 0,2 t miqdordagi shartli yoqilg‘ini yoqishdan olinadigan issiqlik energiyasiga ekvivalentdir. Shu nuqtayi-nazardan, arzon va yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan quyosh suv isitgich qurilmasini ishlab chiqish va tayyorlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shu sababli respublikamizda mahalliy xom ashyodan yasalgan samaradorligi yuqori bo‘lgan mavsumiy quyosh suv isitgichlarini qurilmalarini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi va o‘zining yechimini talab qiladi.Bu esa o‘z navbatida ilmiy tadqiqot ishlarni mos ravishda, quyosh energiyasidan foydalanishni amalga oshirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar, quyosh suv isitgichlarining yangi turlarini yaratish, shu jumladan ularda yuqori samarali texnik ko‘rsatkichli texnologiyalarini joriy etish, hamda ilmiy asoslangan ishlatilish chegaralarini aniqlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi joylashgan xududning iqlim sharoitida, quyosh energyasidan turli turdagi issiq suv jamlash obyektlarida, issiqlik manbai sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Quyosh issiq suv isitgichlari qurilmalarini chetdan olib kelish esa ularning narxi qimmat bo‘lganligi sababli katta miqdorda valyuta talab etadi. Shu sababli ularni o‘zimizda ishlab chiqarishni talab etiladi. Taklif qilinayotgan qurilmada, O‘zbekiston sharoitida issiq suv taminoti tizimlarida ishlashga mo‘ljallangan, mahalliy xom ashyo, qurilish materiallaridan tayyorlangan arzon va oddiy mavsumiy quyosh suv isitgichlari tanlash va ularning asosiy Ko‘rsatkichlarini optimallashtirish hisobiga issiqlik samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Mavzu doirasidagi tahlillar

Hozirgi vaqtda, dunyodagi ko‘pgina mamlakatlarda sanoat, qishloq xo‘jaligi va aholini, issiq suv bilan ta’minlash muammosi eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bu muammo bizning respublikamizga ham tegishlidir. Muammoni yechimini murakkabligi shundaki aholining ko‘pchiligi tarqoq holda juda kichik hududlarda va aholi yashaydigan qishloq joylardan ancha uzoqda bo‘lib, ularning ko‘pchiligida markaziy elektr ta’minoti yo‘q. Shu sababli yilning issiq oylarida suvni 45-60°C qizdirish uchun ishlatiladigan metall suv isitkichlari o‘rniga oddiy, arzon, metall o‘rnini egallovchi mahalliy hom ashyodan yasalgan quyosh suv isitkichlaridan foydalanish qishloq xo‘jaligida katta ahamiyat kasb etadi. Metalldan yasalgan suv isitgichga nisbatan tavsiya etilayotgan suv isitgich (2-5 marta) arzon bo‘lib, oddiy mahalliy qurilish hom ashyosi asosida yasaladi.

Ushbu maqolada xo‘jaliklarda hamda tadbirkorlik subyektlari uchun ularning talablariga javob beradigan, kam energiya va resurs sarfiga ega quyosh suv isitgichlari qurilmasini tayyorlash, ularni ishlab chiqarishga joriy etish taklif etiladi. Taklif qilinayotgan quyosh suv isitgichlarini har bir fermer xo‘jaligining dala maydonlaridagi shiyponlarda qurib ishga tushirish mumkin va fermer xo‘jaligidagi ishchilarni issiq suv bilan ta’minlanadi. Ushbu qurilmani joriy etish fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlik subyektlarida sarf – harajatlarni 2-5 martaga kamaytirish imkonini beradi.

Bu qurilmagan qishloq xo‘jaligida qo‘llash yuqori samara berishi, hamda yoqilg‘i energetika zahiralarini tejash va atrof – muhitning ekologik tozaligini saqlashda muhim ko‘rsatgichlarni bera oladi.

Hozirgi vaqtda xorijdan keltirilayotgan 1m² quyosh kollektorlarning tannarhi 160-210 AQSH dollor bilan baholanadi. Biz taklif qilayotgan 1m² quyosh suv isitgichlarining tannarhi 500 000 so‘m bilan baholandi, uni qurushda mahalliy xom ashyo qurilish materiallaridan foydalaniladi va uning o‘rniga hozir ishlatilayotgan 0.15-0.20 tonna shartli organik yoqilg‘ini yonishida chiqadigan, CO_2 kabi suv isitgichlarga ishlatiladigan 32.1-45 kg metall miqdorini iqtisod qilish mumkin bo‘ladi.

Bu yaratilgan quyosh suv isitgich qurilmasi amaldagi boshqa suv isitgichlaridan yuqori samaradorligi, mahalliy xom ashyodan yasalganligi, arzonligi bilan farq qiladi.

Amaliyotda juda ko‘p turdagi quyosh suv isitgich qurilmalari mavjud bo‘lsada, ammo ular metall va material hajmdorligining kattaligi, katta xo‘jalik va korxonalar uchun mo‘ljallanganligi tufayli bugungi kundagi xo‘jaliklar va tadbirkorlarning talabiga mos kelmaydi. Quyosh suv isitgich qurilmalari asosan horijda AQSH, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Ukraina, Xitoy va boshqa davlatlarda ishlab chiqarilib, Respublikamizga shu joylardan olib kelinadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar

Bu esa ularning narxi juda qimmat bo‘lishi bilan birga, ularni katta valyuta hisobiga olib kelish lozimligini ko‘rsatadi. Biz taklif qilayotgan quyosh suv isitgichining korpusi umumiy ruhsat etilgan qurilish matarialidan, to‘g‘ri to‘rt burchak quti shaklida tayyorlanib asosiga hajm joylashadi. Hajm ikki patrubkali shaffof frontal yassi sirtli polimer material qop ko‘rinishida tayyorlangan. Quyosh suv ishitgichining korpusi(yon devor va asosi), to‘g‘ri to‘rt burchak shaklida mahalliy xom ashyolardan, betondan lotok shaklida tayyorlangan bo‘lib, yerdagi tuproq sirtiga gorizontal holda joylashtirilgan bo‘ladi. Korpusning ichki qismining sirti suv o‘tkazmaydigan qurilishda ishlatiladigan qora bitum qatlam bilan qoplangan. Suvni isitadigan hajm, korpusi asosida 0,1 mm qalinlikda shaffof polietilen plyonka qop ko‘ndalang holda joylashtirilgan bo‘ladi. Korpusning o‘lchami hajm o‘lchamiga mos keladigan qilib tanlangan. Qopdagi suvning qalinligi 7-10 sm. Korpus asosi yer bilan, ruberoid qatlami va qamish plitasi bilan issiqlik izolyatsiyalangan.

Polietilen plyonka (0,1 mm)qalinlikda va toza suvning (10 sm) optik xususiyatiga ko‘ra ko‘zga ko‘rinuvchi nurlar spektrdagi intervalni yaxshi o‘tkazadi. Tushuvchi nur oqimi amalda suv qatlami va plyonkadan to‘liq o‘tadi, korpusning qoraytirilgan asosi va yon devorlarida to‘liq yutiladi. Quyoshning yutilishdagi energiyasi korpusni isitishga sarflanadi va undan issiqlik uzatish orqali suvga issiqlik beriladi. Korpusning issiqlik isrofini kamaytirishda, ichki yon devorlar va korpusi asosiga issiqlikni izolyatsiyalovchi qatlam joylashtirilgan. Korpus shaffof frontal qoplam bilan to‘siladi, yonlari issiqlik izolyatsiyalanganligidan korpusni issiqlik isrofini qo‘shimcha kamaytiradi.

Hajmdagi isitish samaradorligini oshirish uchun, xajmning yon va pastki qismi qora rangli polimer materialdan tayyorlangan. Bunday holda hajmning shaffof yuqori qismi va suv qatlamidan quyosh nurlari yaxshi o‘tadi, hajmning qoraytirilgan yon va pastki qismida to‘liq yutiladi. Shunga ko‘ra, yutilgan energiyaning ko‘p qismi birinchi navbatda hajmdagi suvni isitishga sarflanadi, qolgan kam qismi korpusni issiqlik o‘tkazuvchanligiga beriladi. Bu holda, suvning isitish effekti korpusni isitishga nisbatan yuqori bo‘lib, tabiiy termogravitatsion konveksiya kuchayadi, natijada hajmning yon devori va pastki qismi uzluksiz ravishda sovuq suv oqimi bilan almashib turadi.

Issiqlik izolyatsiyalovchi materialning issiqlik o‘tkazuvchanligi qanchalik kichik bo‘lsa, mos ravishda, devor sirtidan issiqlik olib ketish ham shunchalik kichik bo‘ladi. Masalan, me’yoriy betonning issiqlik o‘tkazuvchanligi 1,5 – 2,1 Bt/(m²K), qamish plitasining issiqlik o‘tkazuvchanligi 0,06 – 0,09 Bt/(m²K) bo‘lib, u qisilish darajasiga bo‘g‘liq bo‘ladi.

Bu taklif qilinayotgan qurilma yangi texnologik usul bo‘lib, an’anbiy usuldan farq qilib uning foydali ish koeffistienti 58,5% va unday yil dovomida 7 oy (210 kun) foydalanish mumkin. Bunda taklif qilinayotgan 20 m² quyosh suv isitgichlaridan kun davomida o‘rtacha 67,7 kBt soat elektr energiyasini tejashga imkoniyat yaratiladi, yoki 1 kBt soat,elektr energiyasining narxi 295 so‘m baxolansa, u holda isitish mavsum davomida 3 326 778 so‘mlik elektr energiyasi iqtisod qilinadi. Taklif qilingan mahalliy hom -ashiyo qurulish materiallaridan tayyorlangan va sinovdan o‘tgan ushbu samaradorligi yuqori bo‘lgan yassi quyosh suv isitish kollektorining asosiy parametrlari quyidagicha: quyosh suv isitish kollektor uzunligi -5,2 m, eni -1,2 m, devor qalinligi -0,1 m va sirtining yuzasi -6,24 m². Taklif qilinayotgan kollektorning yondan ko‘rinishi 1-rasmda tasvirlangan. Quyosh suv isitgich kollektori quyidagi qismlardan tashkil topgan: korpus, shaffof qoplam va yon devorning issiqlik izolyatsiyasi. Korpus,ichki yon devor va 5 asosga issiqlik izolyatsion materiallar qoplangan. Asosda

suv isitgich hajm bo‘lib, unda mos ravishda, sovuq suvni quyish va issiq suvni chiqarib olish uchun patrubkalar joylashtirilgan.



1-rasm.Lotok shaklidagi isitgichining tuzilishi. 1-Plyonka qop; 2-suv; 3-mazut qatlam; 4-beton qatlam; 5-yer (tuproq); 6-quyosh nurlari.

Suv isituvchi hajm polimer materiallardan yassi qop ko‘rinishida tayyorlanib, uning yuqori qismi shaffof, yon va asos qismlari qora rangli. Korpus statsionlar joylashgan bo‘lib, tuproqning gorizontal sirtiga taxminan mos qilib o‘rnatiladi. Korpus to‘g‘ri burchakli quti shakli bo‘lib, yassi asos bilan birga betonni quyish yordamida amalga oshirilgan. Bunda devorda teshik va issiqlik izolyatsiyasi hisobga olinib, patrubkalar o‘rnatiladi. Korpus tuproqdan izolyatsiya qilinadi, bunda qamishli issiqlik izolyatsiyalanuvchi plita va uning ustidan ruberoid listi berkitiladi. Korpusning ichki va tashqi yon sirtlari suv o‘tkazmaydigan qurilishda ishlatiladigan bitum qatlami bilan qoplanadi (rasmda ko‘rsatilmagan). Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsientining qiymati kichik bo‘lgan, turli xil materiallardan (qamish,mineral paxta,vermikulit va h.k) yordamida, issiqlik izolyatsion qatlam hosil qilinadi. Korpus qutisining ichki shakli va o‘lchamlari hajm shakli va o‘lchamlariga mos qilib olinadi, patrubkalar sifatida oddiy polimer materialdan tayyorlangan quvurdan foydalanilgan. Suvni quyish va olish uchun patrubkalarga ventil(rasmda ko‘rsatilmagan) o‘rnatilgan. Hajmiy qabul qilgichli quyosh suv isitgichi quyidagicha ishlaydi: hajm sovuq suv bilan to‘ldiriladi, bundan yuqoriga patrubka ochiq va pastki patrubka yopiq bo‘ladi. Hajm suvga to‘lgandan keyin suv isitish jarayoni boshlanadi. Bu holda patrubka qisman ochiq holda qoladi. Bunda patrubka kengaytiruvchi bak funksiyasini bajaradi. Quyosh energiyasi oqimi 6 shaffof qoplam 1 dan o‘tib, hajmning yuqori qismidagi 2 suvda yutulib, shundan so‘ng hajmning qoraytirilgan 3 pastki va 4 yon qismlarida to‘liq yutuladi. Quyosh energiyasi pastki va yon qismlarni isitadi va issiqlikni suvga beradi. Tabiiy termogravitatsion konvektsiya jarayoni rivojlanadi, isigan suv qatlami yuqoriga ko‘tariladi, sovuq suv pastga tushadi. Bu jarayon hajmning issiqlik berish qismida kuchayadi va akkumulyatsiyalagan suvning potentsial temperaturasi ortadi. Suvning isitish darajasi davriy temperatura bo‘yicha baholanadi, kichik portsiyali suv kirish patrubkasiga quyiladi.

Hajmdagi isigan suv chiqish patrubkasi yordamida chiqarib yuboriladi. Isigan suvning qiymatining kattaligi quyosh radiatsiyasi intensivligiga bog‘lanishi yordamida aniqlanib, hajmga qo‘shimcha sovuq suv miqdori to‘latib boriladi. Tongda yuqoridagi issiqlik izolyatsiyasi olib qo‘yiladi va hajmda suv isitish jarayoni amalga oshiriladi. Kollektorning to‘g‘ri ekspluatatsiya qilishdagi asosiy shartlardan biri hajmdagi issiq suv to‘liq olingandan so‘ng, uning o‘rnini sovuq bilan to‘latishdir. Polietilen hajmning ichki sirti namligicha qoladi, bu hajm sig‘imini suv bilan to‘latish imkoniyatini beradi. Bu shartni bajarishda suv isituvchi polietilen plyonkali qop hajm ishchi mavsumdagi davrda (mart-oktabr) kollektor ekspulatatsiya qilish davrida hajmdagi polietilen plyonka o‘zining ishchi holatini saqlaydi. Taklif qilinayotgan qurilmani ma’lum bo‘lgan eng yaqin analogdan, bir xil quyosh radiatsiyasi va atrof-muhit temperaturasida solishtirilganda suvni isitish tezroq va yuqori temperatura

hosil qiladi. Ishlatishda foydalanish miqdorini oshirish uchun ikki juft quyosh suv isitgich umumiy bir yon devor orasiga joylashtiriladi. Bunday holda isitilgan suv biron kollektorda kunduzi foydalaniladi va tungi vaqtlarda u imtiyozga ega bo‘ladi. Ikkinchi kollektordagi isigan suv rezervda bo‘lib, tongi vaqtlarda undan foydalaniladi. Tungi davrdagi ba’zi sovishlardan keyin ikkinchi kollektor hajmidagi suv temperaturasi yuqori bo‘lib qoladi va komfort ishlar uchun ishlatish mumkin bo‘ladi. Taklif qilinayotgan qurilmadan hajmiy quyosh suv isitgichni, qishloq xo‘jaliklarda yakka tartibda qurish qulay, umumiy ruxsat etilgan mahalliy qurilish hom-ashyo va yordamchi materiallardan foydalanib arzon suv isitgich tayyorlash mumkin. Bu qurilmaning har bir elementini osonlik bilan almashtirish mumkin, hizmat ko‘rsatish soda va kvalifikatsiyali ishchilarni talab qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авезов Р.Р. Касимов Ф. Ниязов Ш.К. Дневные ходы температуры воды и накопления полезного тепла в плоский солнечных водонагревательных коллекторах с ёмкостными поглотителями солнечного излучения с данным лучепоглощением Ж:”Гелиотехника” 2020, №1, стр. 28-36.

2. Касимов Ф. Ниязов Ш. Эксперементальное исследование теплотехнических параметров солнечных абсорбционных ёмких водонагтельных коллекторов из местных материалов. Материалы международных конференций, 80- летию академика М.С. Саидова, Ташкент, 24-25 ноябрь, 2010.

3. Авезов Р.Р. Касимов Ф. Ниязов Ш. патент на полезную модель “Ёмкостный солнечный водонагревательный коллектор” № FAP 01185. г. Ташкент 22.02.2017. Узб. Рес. Президентининг 2017й. 7 февралдаги ПФ – 4947- сон фармони.

OLIY TA’LIM, FAN, UMUMIY O‘RTA TA’LIM INTEGRATSIYASINI TAKOMILLAShTIRISh TO‘G‘RISIDA

Samatov G‘ulom Bazarbaevich
Guliston davlat universiteti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi

Mamlakatimizda Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalari uchun ixtiyoriy ravishda o‘zlashtiriladigan pedagogik tayyorgarlik modullarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish, barcha oliy ta’lim muassasalarida axborot resurs markazlari bazasida mavjud darslik, o‘quv – uslubiy va boshqa qo‘llanmalarni raqamli formatga o‘tkazib, ularning elektron platformasini shakllantirilishini ta’minlash hamda ular bo‘yicha raqamli , yagona axborot – qidiruv tizimini joriy qilish,har bir fan kesimida ma’ruza, amaliy (seminar) va laboratoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ishlar bo‘yicha elektron modullarini ishlab chiqish yuklatilgan [1]. Universitetning ilmiy–pedagogik bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalari uchun, amaldagi mavjud o‘quv rejalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritgan holda, ikkinchi, uchunchi, to‘rtinchi kurs talabalarning amaliy pedagogik faoliyatni chuqurroq o‘zlashtirishini ta’minlash maqsadida, kengaytirilgan pedagogik amaliyotni joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ilmiy – pedagogik bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun ikkinchi – to‘rtinchi kurslarda pedagogik amaliyotni ikki qismga ajratish taklif etiladi.

1. Passiv pedagogik amaliyot – ikkinchi va uchinchi kurslarda o‘tkaziladi. Passiv pedagogik amaliyot o‘tish uchun ikkinchi kurs talabalariga haftada bir ish kuni ajratiladi. Passiv pedagogik amaliyot davrida ikkinchi kurs talabalari maktab faoliyati bilan tanishadilar, maktablardagi ish tartibi, o‘qituvchilar faoliyatiga oid xujjatlar bilan tanishib,mutaxassisliklari bo‘yicha kitoblar, metodik ko‘rsatmalar hamda o‘quv adabiyotlarini o‘rganib ularni oliy ta’lim tizimida o‘qiyotgan fanlari bilan solishtirgan holda qisqa materiallar tayyorlaydilar.

Talabalar maktab o‘quvchilari bilan tarbiyaviy ishlar bo‘yicha, sinf rahbarlari boshchiligida o‘quvchilar tartib – qoidalari, pedagogika – psixologik tahlillarni o‘rganadi.

Uchinchi kursda o‘tkaziladigan pedagogik amaliyot rejasi kengaytiriladi.Talabalar fan o‘qituvchisining nazorati ostida, berilgan mavzular bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rgan holda, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan shug‘ullanadilar. Maktab fan o‘qituvchisi nazorati ostida a’lo o‘zlashtiruvchi talabalarga, o‘zlari tanlagan mavzular bo‘yicha dars o‘tishga ruxsat berilishi mumkin.

Ilmiy – pedagogik bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun to‘rtinchi kursda pedagogik amaliyotni har haftada uch kun o‘tkazishga ruxsat berish maqsadga muvofiq. Fakultet dekanati tomonidan ilmiy faoliyatga layoqati kuchli va universitetda o‘qish davomida ilmiy laboratoriyalarda shug‘ullangan, a’lo o‘zlashtiruvchi talabalarni universitetning kafedralarida bitiruv malakaviy ishi yozish uchun qoldirish tavsiya etiladi. Ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida ilmiy ish tayyorlashga qoldirilgan talabalarga fanning dolzarb masalalari bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etib o‘qitiladi. Maxsus kurs o‘tish uchun kafedralarning ilmiy ish bilan faol shug‘ullanayotgan hamda talabalarning bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qiluvchi, yuqori malakali, mos ilmiy daraja va unvonga ega professor-o‘qituvchilar jalb etiladi.

To‘rtinchi kursda maktablarga pedagogik amaliyotga yuborilgan talabalar, ikkinchi va uchinchi kursda pedagogik amaliyotda egallagan tajribalarini chuqurlashtiradilar. Talaba uchun eng ahamiyatli jihati shundan iborat-ki, u pedagogik faoliyat olib borish uchun etarli tajribaga ega. Maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar jamoasi talabani hech ikkilanmasdan ishga qabul qilishga rozi bo‘ladi. Tavsiya etilayotgan usulning ijobiy tomoni talabalar universitetni tugatib qaerda va qanday jamoa bilan ishlashini yaxshi biladi.

Mavzu doirasidagi tahlillar

Yuqoridagilarni e’tiborga olib, oliy ta’lim, fan, umumiy o‘rta ta’lim integratsiyasini talab darajasida amalga oshirish va takomillashtirish maqsadida quyidagi omillarni e’tiborga olish tavsiya etiladi.

- Oliy ta’lim muassasasining o‘ziga hosligi, mintaqa imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda integratsiyani istiqbolini aniqlash;
- Oliy ta’lim muassasasining ilmiy –tadqiqot faoliyatiga yoshlarni keng jalb etish bo‘yicha chora – tadbirlar rejasini tuzish;
- Ilmiy tadqiqot yo‘nalishida xalqaro aloqalarni rivojlantirish taklif etiladi.

Taklif etilayotgan oliy ta’lim, fan, umumiy o‘rta ta’lim integratsiyasini amalga oshirish va uni kelgusida takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar

1.Oliy ta’lim muassasalarida yuqorida ta’kidlangan integratsiyani amalga oshirish uchun ta’lim muassasasining respublikamizdagi etakchi OTM lari , Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari bilan ilmiy hamkorligini kuchaytirish;

2.Oliy ta’lim muassasalari bilan chet davlatlarning etakchi OTM lari bilan ilmiy – tadqiqotlar bo‘yicha hamkorlikni tashkil etish;

3. Chet davlatlardagi etakchi OTM larning professor- o‘qituvchilarini universitetga asosiy mutaxassislik fanlari bo‘yicha maxsus kurslardan ma’ruza o‘qishga jalb etish;

4.MDX davlatlari va rivojlangan chet davlatlar universitetlariga bakalavr yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha bitiruvchi kurs talabalarini kamida 6 oy muddatga o‘qishga va malaka oshirishga yuborish, magistratura dissertatsiyalari va bitiruv malakaviy ishlarini chet davlatlar universitetlarida himoya qilishga yuborish.

Taklif etilayotgan oliy ta’lim , fan va umumiy o‘rta ta’lim integratsiyasini mexanizmlarini chuqur muhokama qilib ko‘rish kerak.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish uchun oliy ta’lim muassasalari har tomonlama mustaqillikga ega bo‘lishi zarur, undan tashqari umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshqa Vazirlikga bo‘ysinganligidan ayrim tashkiliy va boshqa yo‘nalishlarda muammo chiqishi mumkinligini e’tiborga olish kerak.

Xulosa qilib, aytish mumkin-ki, oliy ta’lim, fan, umumiy o‘rta ta’lim integratsiyasini amalga oshirish uchun oliy ta’lim muasasasi zamonaviy ilmiy – tadqiqot laboratoriyalari bilan ta’minlangan, ilmiy – pedagogik salohiyati yuqori bo‘lishi, umumiy o‘rta ta’lim maktablari ham yuqori malakali pedagoglar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6- noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim –tarbiya va ilm – fan sohalarini rivojlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 –noyabrdagi “Oliy ta’lim, fan va ishlab chiqarish innovatsion hamkorligini amalga oshirishni tashkil etish masalalari to‘g‘risida” gi 47- sonli majlis bayoni.

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHILARIDA IJODIY INTELLEKTUAL KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH: YONDASHUVLAR, USULLAR VA VOSITALAR

Shoyzakova Hilola Yusuf qizi
Guliston Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida ijodiy intellektual kompetentsiyalarni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Bunda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va o‘qitishning innovatsion yondashuvlari kabi ushbu vakolatlarning turli shakllari o‘rganiladi. Maqolada, shuningdek, ushbu kompetentsiyalarni rivojlantirish usullari va vositalari, jumladan, so‘rovga asoslangan ta’lim, hamkorlikda o‘rganish va murabbiylik masalalari muhokama qilinadi va talabalarning bilim olishiga va ilmiy ta’limning kelajagiga ta’siri ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *ijodiy intellektual kompetentsiyalar, bo‘lajak fizika o‘qituvchilari, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, innovatsion o‘qitish, so‘rovga asoslangan ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, murabbiylik, baholash, talabalarni o‘rganish.*

Fizika o‘qituvchisining roli bilim berishdan tashqari; u o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va ijodkorlikni tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘p qirrali rolni samarali bajarish uchun bo‘lajak fizika o‘qituvchilari o‘zlari ijodiy intellektual qobiliyatlarga ega bo‘lishlari kerak. Fizika o‘qituvchilarining ijodiy intellektual kompetentsiyalarini rivojlantirish, shakllari, usullari va vositalarini o‘rganib chiqadi, ularning keyingi avlod mutafakkirlari va innovatorlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Ijodiy intellektual kompetentsiyalar kognitiv qobiliyatlar, ijodiy fikrlash va intellektual qobiliyatlarning kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalar murakkab muammolarni tahlil qilish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish, tanqidiy fikrlash va g‘oyalarni samarali yetkazish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Fizika ta’limi kontekstida ular o‘qituvchilarga talabalarni dinamik o‘quv tajribalariga jalb qilish, qiziqishni uyg‘otish va izlanishni rag‘batlantirish imkonini beradi.

Fizika o‘qituvchilaridagi ijodiy intellektual kompetentsiyalar turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Tanqidiy fikrlash: Fizika o‘qituvchilari ilmiy tushunchalar, nazariyalar va tajribalarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bunga dalillarni baholash va mantiqiy xulosalar chiqarish kiradi.

Muammoni hal qilish qobiliyatlari: Fizika ko‘pincha ijodiy yechimlarni talab qiladigan murakkab muammolarni taqdim etadi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilari muammolarni hal qilishda ustun bo‘lishlari, qiyinchiliklarga qarshi moslashuvchanlik va chidamlilikni namoyish etishlari kerak.

O‘qitishning innovatsion yondashuvlari: ijodiy fizika o‘qituvchilari o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadigan va faol ishtirokini rag‘batlantiradigan innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanadilar. Ushbu usullar interaktiv namoyishlar, amaliy tajribalar va multimedia manbalarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Samarali aloqa: samarali aloqa murakkab fizika tushunchalarini yetkazish uchun juda muhimdir. Kuchli ijodiy intellektual qobiliyatlarga ega bo‘lgan fizika o‘qituvchilari g‘oyalarni aniq yetkazishlari, talabalar o‘rtasida tushuncha va aloqalarni rivojlantirishlari mumkin.

So‘rovga asoslangan ta’lim: bo‘lajak fizika o‘qituvchilarini so‘rovga asoslangan ta’lim bilan shug‘ullanishga undash ularni muammolarni hal qilish qobiliyatlari va qiziqish bilan ta’minlaydi. So‘rov orqali fizika tushunchalarini o‘rganish orqali ular mavzuni chuqurroq tushunishni rivojlantiradilar.

Hamkorlikda o‘rganish: hamkorlikda o‘qitish muhiti ijodiy fikrlash va muloqotni rivojlantiradi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilari hamkorlikdagi ko‘nikmalarini oshirish uchun guruh loyihalari va muhokamalarida ishtirok etishlari mumkin.

Mentorlik: tajribali fizika o‘qituvchilari bilan murabbiylik munosabatlari ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qimmatli yo‘l-yo‘riq va imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Murabbiylar bo‘lajak o‘qituvchilarga ijodiy intellektual qobiliyatlarini takomillashtirishga yordam berib, o‘z tushunchalari va tajribalari bilan o‘rtoqlashishlari mumkin.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida ijodiy intellektual kompetentsiyalarni rivojlantirish muhim bo‘lsa-da, bu qiyinchiliklardan xoli emas. Ko‘pgina ta’lim muassasalarida keng tarqalgan an’anaviy pedagogik yondashuv asosiy muammolardan biridir. O‘rganish va standartlashtirilgan testlarga e’tibor ko‘pincha ijodiy va tanqidiy fikrlash uchun kam joy qoldiradi. Ushbu muammoni hal qilish o‘qitish usullari va o‘quv dasturlarini loyihalashda paradigma o‘zgarishini talab qiladi. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilari amaliy loyihalar bilan shug‘ullanish yoki fizikaning turli sohalarda sezilarli ta’siriga guvoh bo‘lish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi mumkin. Haqiqiy dasturlarni o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga kiritish bu bo‘shliqni bartaraf etishga va ijodiy fikrlashni ilhomlantirishga yordam beradi. Mentorlik ijodiy intellektual kompetentsiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tajribali o‘qituvchilar bilan murabbiylik dasturlari va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish fizika o‘qituvchilariga kerakli rahbarlik va yordamni taqdim etishi mumkin.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida ijodiy intellektual kompetentsiyalarni baholash va baholash murakkab vazifadir. Standartlashtirilgan testlar va an’anaviy imtihonlar ushbu ko‘nikmalarni samarali o‘lchay olmaydi. Buning o‘rniga, baholash usullari tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni o‘lchash uchun ishlab chiqilishi kerak.

Yondashuvlardan biri loyihaga asoslangan baholarni kiritishdir. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilariga innovatsion fizika darslari, tajribalari yoki ta’lim manbalarini loyihalash va amalga oshirish vazifasi yuklatilishi mumkin. Ularning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini loyihalarining samaradorligi va o‘ziga xosligi orqali baholash mumkin.

Tengdoshlar va o‘z-o‘zini baholash ham qimmatli vosita bo‘lishi mumkin. Fizika o‘qituvchilarini ijodiy intellektual qobiliyatlarning o‘sishi haqida fikr yuritishga undash va tengdoshlarning fikr-mulohazalari uchun imkoniyatlar yaratish o‘z-o‘zini anglash va doimiy takomillashtirishga yordam beradi.

Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida ijodiy intellektual kompetentsiyalarni rivojlantirish talabalarning bilim olishiga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu vakolatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilar dinamik va qiziqarli o‘quv muhitini yaratishi mumkin. Ular talabalarni tanqidiy fikrlashga, savollar berishga va yechimlarni mustaqil ravishda o‘rganishga chorlaydigan darslarni loyihalashtirishi mumkin. Bundan tashqari, talabalar o‘zlarining mavzulariga ijodkorlik va ishtiyoqni namoyish etadigan o‘qituvchilardan Ilhom olishadi va rag‘batlantiradilar. Ijodiy fizika o‘qituvchilari talabalarning qiziqishini uyg‘otishi va ularni ilm-fan va texnika sohasida keyingi o‘qish va martaba olishga undashi mumkin.

Oxir oqibat, kelajakdagi fizika o‘qituvchilarida ijodiy intellektual kompetentsiyalarni rivojlantirish fizika va tegishli sohalarning rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ilmiy savodli va innovatsion shaxslar avlodini tarbiyalash yo‘lidagi qadamdir. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida ijodiy intellektual kompetentsiyalarni rivojlantirish nafaqat o‘qituvchilarning o‘ziga, balki fan ta’limining kelajagiga ham ta’sir ko‘rsatadigan muhim ishdir. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish shakllari, usullari va vositalarini tushunib, ta’lim muassasalari fizika o‘qituvchilarini o‘rganishni osonlashtiruvchi, tanqidiy fikrlovchi va novator sifatida o‘z rollarida ustun bo‘lishga tayyorlashlari mumkin.

Xulosa. Ijodiy intellektual kompetentsiyalarni rivojlantirish kelajakdagi fizika o‘qituvchilari uchun juda muhimdir. Ushbu ko‘nikmalar ularga an’anaviy o‘qitish usullaridan tashqariga chiqishga va fiziklar, muhandislar va innovatorlarning keyingi avlodini ilhomlantirishga imkon beradi. Turli usul va vositalar yordamida fizika o‘qituvchilariga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va ijodkorlikni tarbiyalash orqali ta’lim muassasalari fizika ta’limining yanada dinamik va samarali manzarasiga hissa qo‘shishi mumkin. Bunda ular o‘qituvchilarni tez rivojlanayotgan ilmiy va texnologik dunyoning qiyinchiliklari va imkoniyatlarini qamrab olishga tayyorlaydilar, bu esa fizika barcha yoshdagi talabalar uchun qiziqarli va hayotiy mavzu bo‘lib qolishini ta’minlaydi. An’anaviy o‘qitish paradigmasi va murabbiylik imkoniyatlarining yetishmasligi kabi muammolarni hal qilish ta’lim muassasalari va manfaatdor tomonlardan birgalikda harakat qilishni talab qiladi. Ijodiy intellektual kompetentsiyalarni baholash ushbu ko‘nikmalarning murakkab tabiatini aks ettiruvchi innovatsion usullarni o‘z ichiga olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dorph, R., Shield, L., Tiffany, M. F., & Hurney, C. A. (2016). Preparing 21st century educators: A case study of teacher education reform in Connecticut. Journal of Teacher Education, 67(5), 396-410.
2. Morrison, J. A., & Martinson, D. L. (2016). Nurturing creativity in the classroom. Phi Delta Kappan, 97(3), 42-46.
3. National Research Council. (2012). A framework for K-12 science education: Practices, crosscutting concepts, and core ideas. National Academies Press.
4. Smith, L. (2015). Fostering creativity: Lessons learned from a longitudinal case study. Thinking Skills and Creativity, 16, 50-61.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

QUYOSH PANELLARIDA SODIR BO’LADIGAN DEGRADATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI O’ZBEKISTONDA QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Komilov Mirziyo, Isroilova Dilafruz
Guliston davlat universiteti o’qituvchisi
Guliston davlat universiteti magistranti

Quyosh panellarning degradatsiyasini tadqiq qilish bo’yicha keyingi yillarda dunyo olimlari ko’plab izlanishlar olib borishmoqda, tadqiqotlarda [1] quyosh panellar qisqa ishlashi davrida ularda sodir bo’ladigan degradatsiyani aniqlashga harakat qilinmoqda [2].

Bunday muammolar ba’zan quyosh panellar boshqa komponentlarida paydo bo’lishi mumkin. Bunda quyosh panel nuqsonlarining turlarini va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va tasniflash lozim bo’ladi.

Ma’lumki, Quyosh panellarning turlari va ularning ko’rinishi yil sayin o’zgarib va mukammallashib bormoqda. Chunki fotovolьtaika sanoati quyosh panellarni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ishonchlilikni oshirish maqsadida yangidan-yangi texnologiyalarni qo’llashda davom etmoqda. Keyingi paytda iqtisodiy tejamkorlik strategiyalaridan biri bu yupqaroq va gofret ishlab chiqarish bo’lib, bunda butun texnologik jarayon quyosh elementlarning sinish xavfini kamaytirishga qaratilgan bo’ladi [4]. Yupqa qatlamli quyosh elementlarni yaratish esa ularning integratsiyasi va materiallarning xususiyatlarini yaxshi tomonga o’zgartirish uchun maxsus loyihalar ishlab chiqishni talab qilmoqda. Adabiyotlarda quyosh elementlarining maksimal ishlash davri 165 yilni tashkil qilishi hisoblab topilgan [6].

Jahonda quyoshlarni standartlash bo’yicha IEC 61215 (xalqaro Elektrotexnika komissiyasi, 1987) «Kristall kremniyli FV modullarining sifati va turini tasdiqlash» xalqaro majburiy standart qabul qilingan [7]. Bu standart quyosh panellarning chiqish quvvatini kafolatlash uchun xizmat qiladi. Shunga qaramay, IEC 61215 standart bo’yicha bajarilgan sinovlarni quyosh panellarning haqiqiy ekspluatatsiya sharoitlaridagi parametrlari bilan tenglashtirib bo’lmaydi. Chunki, malaka sinovlari yillik ishlab chiqarishdagi o’zgarishlarni inobatga olmasdan, kichik miqdordagi namunalar ustida amalga oshirilishi mumkin. Bunda quyosh panellarning erta degradatsiyasi quyosh panel loyihasining muvaffaqiyatsizligi sababli ba’zi quyosh panellarda sodir bo’lgan (bu QPlar IEC 61215 standart bo’yicha sinovdan o’tkazilmagan) bo’lishi mumkin va ular amalda tez degradatsiyalanishi mumkin. Bunday hollarda, degradatsiyaning kelib chiqish sabablari, ishlab chiqarishdagi sifat nazoratidan o’tmagan bo’lishi mumkin. Yana shuni ta’kidlash lozimki, bu yerda quyosh panel yuzasida ko’rinadigan nuqsonlar ham paydo bo’lishi mumkin [8]. Bunday hollarda ushbu turdagi “kosmetik” nuqsonlarning potentsial xavfini baholash mijozlar va ishlab chiqaruvchilar uchun juda muhim, chunki ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqargan quyosh panellarini kafolatlash shartlariga mos kelishi va almashtirish shart emasligiga ishonch hosil qilishni istashadi.

Ko’rinadigan “kosmetik” nuqsonlar [9] orasida eng ko’p uchraydiganlari quyidagilar:

- sarg’ayish;
- qatlamlarga ajralish;
- pufaklar paydo bo’lishi;

- quyosh elementlarda yoriqlar paydo bo’lishi;
- anti-qaytargich qoplamadagi nuqsonlar;
- kuygan quyosh elementlar va boshqalar.

Shunday qilib, quyosh panellarning degradatsiyasini o’rganish va ularning sodir bo’lish sabablarni aniqlash va ularni oldini olish hamda bartaraf qilish yo’llarini topish hozirgi zamon fanining dolzarb masalalaridan birdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ning – O’zbekistonda qayta tiklanadigan Energetikani rivojlantirish istiqbollari ma’ruzasi (Toshkent, 2007 y.). – Muqobil energiya manbalari: O’zbekistonda foydalanish imkoniyatlari (Toshkent, 2011 y).

2.U.O.Odamov. M.M Komilov, A. Kutlimratov Mathematical modeling of parameters of solar panels for solar photoelectric International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 10, 20436. Issue 3, March 2023

3. U.O.Odamov. M.M Komilov Sh. Niyazov. A. Kutlimratov. Investigation of the effect of changes in the temperature of the solar panel on the output parameters International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 10, 20448 Issue 3, March 2023

4. U.O.Odamov. M.M Komilov Regressionnыy i korrelyatsionnыy analiz vneshnix faktorov, vliyayuщix na proizvoditelьnostь solnechnoy fotoelektricheskoy elektrostantsii. Nauka, innovatsii, obrazovanie: aktualьnыe voprosы XXI veka Nauchnoy elektronnoy bibliotekoy Elibrary.ru №1096-0430 avgusta 2023 g.63-69-s

5. Koltun M.M. Solnechnыe elementы. – M.: Nauka, 1987. – 192 s.

6. Raushenbax G. Spravochnik po proektirovaniyu solnechnыx batarey: Per s angl. – M.: Energoatomizdat, 1983. – 360 s.

7. Koltun M.M. Optika i metrologiya solnechnыx elementov. – M.: Nauka, 1985. – 280 s.

8. Zi.S.Fizika poluprovodnikovыx priborov.-M.Mir,1984..2.413 s.

9. Aut I., Gentsov D., German K. Fotoelektricheskie yavleniya. / Per s nemetskogo Pod red. V.L. Bonch-Bruevicha. – M.:, Mir. 1980. -210 s.

QUYOSH FOTOELEKTR STANTSIYALARI, ULARNING TUZILISHI VA TURLARI

Komilov Mirziyo, Quchqorova Dilrobo
Guliston davlat universiteti o’qituvchisi
Guliston davlat universiteti magistranti.

Bugungi kunda QTEMlardan elektr energiya olish jadal suratlarda rivojlanib bormoqda. Bunga sabab, fotovoltaik texnologiyalar keyingi o’n yil ichida dunyoning aksariyat mintaqalarida QFES yetakchilik qilmoqda. QTEM bo’yicha Xalqaro agentlik (IRENA) ekspertlarining fikricha, quyosh energetikasining rivojlanishiga xarajatlarni kamaytirish, texnologik yutuqlarni qo’llash sabab bo’lmoqda. Ularning taxlillariga ko’ra, keyingi 10 yil ichida yangi QFESlar soni 5 baravar ko’payib, 2030 yilga kelib umumiy quvvat 2840 GVtga va 2050 yilga kelib esa 8500 GVtga yetishi mumkin. Bu 2050 yilda o’rnatilgan quvvat 2018 yilga nisbatan 18 baravar ko’p bo’lishini anglatadi [1]. Jahon ekspertlarning hisob-kitoblariga ko’ra, 2050-yilda quvvatning 60 foizi yirik QFESlarga, qolgan 40 foizi esa avtonom QFESlarga to’g’ri keladi.

Jahon quyosh energiyasi bozorida Osiyo mamlakatlari yetakchilik qilmoqda. Ayniqsa, Xitoy Xalq Respublikasida o’rnatilayotgan QFESlar quvvati 30 GVtdan ortib ketgan. Dunyo bo’yicha QFESlar o’rnatilgan quvvatlarining o’sish dinamikasi 1.4-rasmda keltirilgan.

Yevropa ittifoqi davlatlari va AQShda ham keyingi besh yillikda QFESlarning o’rgantilgan quvvati 15-30 GVt dan ortib ketgan va qolgan davlatlarda ham o’sish kuzatilmoqda [2]. Xalqaro energetika agentligi (XEA) ning ma’lumotlariga ko’ra, QFESlarning o’rnatilgan jami quvvati 600 GVt dan ortib ketgan.

Ma’lumki, quyosh fotoelektr elektr stantsiyasi – bu quyosh energiyasidan foydalanib elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan keng ko’lamli fotovolьtaik tizim. Ular bir nechta QPlaridan, QPlar esa bir necha ming quyosh FElaridan tashkil topgan bo’ladi. QPlar zarur quvvatga qarab ketma-ket, parallel yoki ketma-ket parallel konfiguratsiyalarda ulanishi mumkin. Chunki QPlari odatda har xil quvvatlarda tayyorlanadi. Ular asosan ochiq maydonlarda quyosh nurining tushishiga

qarab, gorizontga nisbatan ma’lum burchaklarda o’rnatiladi. Shuningdek ular uy tomlariga va maxsus ajratilgan joylarga o’rnatilishi mumkin.



1-rasm – Dunyo mamlakatlari QFESlarida o’rnatilgan quvvatlar dinamikasi.

So’ngi vaqtlarda quyosh intensivligi kam tushadigan davlatlarda quyosh traektoriyasi bo’ylab harakatlanuvchi QFESlar 1.5-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko’rinib turib turibdiki, quyosh nuri kam tushadigan davlatlarda harakatlanuvchi QFESlar texnologiyasi samaralidir.



2-rasm – Avtomatik tarzda Quyoshga qarab aylanuvchi QFESlar.

QFESlarning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu invertorlardir. Ular QP tomonidan ishlab chiqarilgan o’zgarmas elektr tokni o’zgaruvchan tokka aylantirib, to’g’ridan-to’g’ri elektr tarmog’iga uzatuvchi qurilmalardir.

QFESlardagi kuchlanish va toklarini tartibga soluvchi qurilmalar kontroller bo’lib, akkumulyator batareyalarni xaddan tashqari zaryadlanish va ortiqcha zaryadsizlanishining oldini oladi. Ular QFESlarining maksimal quvvat nuqtasiga mos keladigan kuchlanish va tok kuchini sozlaydi hamda quvvatni optimallashtiradi [3].

QEFSlarda ishlab chiqarilgan o’zgarmas elektr energiyani saqlashda akkumulyator batareyalari qo’llaniladi. Ular ortiqcha elektr energiyani ma’lum bir vaqt davomida saqladi, quyosh nuri bo’lmaganda yoki tarmoq ishlamay qolganda elektr energiya bilan ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Umuman olganda, QFESning ulanish sxemasi uning tizim xajmi, dizayn maqsadlari va tarmoq talablariga bog’liq bo’ladi. Ular asosan uch qismdan: elektr eneriya ishlab chiqarish, invertorlar orqali o’zgaruvchan tokka aylantirish, tarmoqqa yoki iste’molchiga uzatishdan iborat bo’ladi. 1.6-rasmda QFES tarkibiy qismlarning sxemasi keltirilgan.



3-rasm – QFES tarkibiy qismlarning ulanish sxemasi.

QFESning ishlashi samaradorligi asosan ob-havo sharoiti, yuklama talablari va tarmoq xolatiga bog'liq bo'lib, samaradorlikni oshirish uchun tashqi va ichki omillarni hisobga olish zarur bo'ladi.

QFESlarning indivdul, tarmoqqa ulangan va gibrid turlari bo'ladi.

Induvidal QFESlar ishlab chiqargan elektr energiyani iste'molchiga uzatadi yoki akkumulyator batarelarida saqlaydi.

Tarmoqqa ulangan QFESlarda ishlab chiqarilgan elektr energiya inventorlarda o'zgaruvchan tokka aylantirilib, to'g'ridan-to'g'ri tarmoqqa o'zatiladi.

Gibrid QFESlarda va boshqa alьternativ usullarda olingan elektr energiya inventorlarda birgalikda o'zgaruvchan tokka aylantirilib, tarmoqqa o'zatiladi. 4 rasmda QFES turlarining ulanish sxemasi keltirilgan.

4-rasmdan ko'rinadiki, induvidal QFES tashqi energiya tarmog'iga ulanmagan va avtonom energiya saqlash tizimiga (akkumulyator batareyalariga) ulangan bo'lib, saqlangan energiya kerak bo'lganda foydalanuvchiga uzatadi [4].

Mustaqil tizimning elementlari quyidagilardir: QPlar, invertorlar, akkumulyatorlar, zaryad regulyatorlari.



1.7.-rasm – QFES turlari va ularning ulanish sxemalari.

Tarmoqqa ulangan QFES ishlab chiqargan elektr energiya inventorlar orqali o'zgaruvchan elektr tokiga aylantirib to'g'ridan-to'g'ri tarmoqqa beriladi. Tarmoqqa ulangan QFES tizimlari quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi: QPlar, invertorlar, elektr energiyani hisoblagichlar.

QFESlarning afzallik va kamchiliklari quyidagilardan iborat:

Afzalliklari:

- QFES atmosferaga issiqxona gazlari yoki ifloslantiruvchi moddalar chiqarmaydi, qazib olinadigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytiradi va energiya xavfsizligi va xilma-xilligini oshiradi;

- QFESlar umumiy tarmoqqa ulanish imkoni bo'lmagan ob'ektlar yoki chekka hududlarni elektr energiyasi bilan ta'minlaydi va mahalliy ish o'rinlari yaratish, jamoalar va mintaqalar uchun iqtisodiy foyda keltirish imkoniyatiga ega;

- Kamchiliklari:

- QFESlari juda katta yer maydonlarini egallashi, an'anaviy elektr stantsiyalarga nisbatan yuqori boshlang'ich kapital xarajatlarini talab qiladi va uzoq muddatlarda o'zini oqlaydi.

- QFESlarning ishlashi ob-havo sharoiti va kun davomiligiga bog'liq bo'ladi hamda quyosh nuri kam bo'lgan davrlarda ishlab chiqargan elektr energiyaning bir qismini o'z ehtiyojlari uchun iste'mol qiladi. Tarmoqqa integratsiyalash, o'zaro bog'lanish, uzatish va tarqatish kabi texnik muammolarga duch kelishi mumkin.

- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Solar Power Europe, 2021, www.renen.ru

2. Energetika vazirligi sayti, www.minenergy.uz

3. O'zbekiston Respublikasining 2020-2030 yillarga mo'ljallangan elektr energiyasi bilan ta'minlash kontseptsiyasi. 2019 y.

4. www.iea.org

ИССЛЕДОВАНИЕ НЕКОТОРЫХ ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ТВЕРДОГО РАСТВОРА $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$,

Гаймназаров К.Г. Анваржонова Ш.Б.
Гулистанкий Государственный Унивеситет, Гулистан.

Проблема синтеза непрерывных полупроводниковых твердых растворов на основе ($A^{III}BI^{V}$) и ($A^{II}B^{VI}$) представляется актуальной задачей современной микроэлектроники. Среди материалов данной группы твердые растворы на основе бинарного соединения GaAs-ZnSe являются перспективными. В работе [1] была определена взаиморастворимость этих соединений в твердом и жидком состоянии. В работе [2] бала показана возможности выращивания твердых растворов $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ из галлиевого раствора-расплава (Ga-As-Zn-Se) на подложках ZnSe при скорости охлаждения 5-7 град/мин в температурном интервале 950-850^0 С. При этом толщина выращенных эпитаксиальных слоев составляла 20-25 мкм, авторы утверждают, что между подложкой и эпитаксиальным слоем имеет переходной слой от ZnSe к GaAs, но еще не свидетельствует о существовании твердого раствора $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$. В работе [3] нами получен твердый раствор $(GaAs)_{0,93}(ZnSe)_{0,07}$ на подложках GaAs выращенного из свинцового раствора расплава (Pb-GaAs-ZnSe) методом жидкофазной эпитаксии принудительным охлаждением раствора-расплава в температурном интервале 870-730 ^{0}C. При этом толщина эпитаксиального слоя составляла 4-5 мкм.

В настоящей работе показана возможность низкотемпературного выращивания твердого раствора $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ на подложках GaAs из ограниченного объема оловянного раствора-расплава (Sn-GaAs-ZnSe) методом принудительного охлаждения при 700-640^0C. Толщина выращенных эпитаксиальных слоев составляла 3-3,5 мкм. Подложки имели кристаллографическую ориентацию (100). Основным условием кристаллизации твердого раствора является высокое насыщение по отношению к четырем компонентам твердого раствора на фронте кристаллизации. Такому условию соответствует температурный интервал роста 700-640^0C, выбранный из диаграммы состояния четырехкомпонентной системы (Sn, GaAs, ZnSe). Соответствующий этому температурному интервалу выбранный состав раствора-расплава обеспечивает необходимое насыщение по четырем компонентам.

На рентгеновском микроанализаторе "jeol JSM5910LV-Japan" были проведены исследование химического состава по поверхности и по сколу выращенного эпитаксиального слоя $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$. Результаты исследований по сколу (растровые картины) приведены на рис.1. Анализ растровых картин слоев показал, что полученные эпитаксиальные слои твердых растворов не содержать макроскопические дефекты и металлические включения, а состав твердого раствора изменяется в пределах $0 \le x \le 0.80$. Из рис.1 видно, что Ga, As, Zn, Se присутствуют по всей толщине эпитаксиального слоя. Сплошная эпитаксиальная пленка имела зеркальную поверхность с хорошей адгезий.

Нами получен варизонный эпитаксиальный слой твердого раствора $(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ который до настоящего времени не выращивалось при низкой температуре из оловянного раствора расплава. Изучены некоторые электрофизические свойства выращенного слоя твердого раствора. Определены удельное сопротивление, тип проводимости, холловская подвижность и концентрация носителей заряда при температуре 77 К $n=3{,}36\cdot10^{16}$ см^3, $R_x=1{,}86\cdot10^2$ см^3/К, $\rho=9.61$ Ом·см, $\mu_x=20$ см^2/В·с; при



Рис. 1. Растровые картины скола эпитаксиального слоя $(GaAs)_{0,34}(ZnSe)_{0,65}$.

температуре 300 К: $n=1{,}1\cdot10^{18}$ см^3, $R_x=5{,}45\cdot10^2$ см^3/К, $\rho=0.18$ Ом·см, $\mu_x=60$ см^2/В·с, соответственно; тип проводимости дырочный.

Полученные структуры nGaAs-p$(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ ($0\le x\le0.80$) были облучены γ-лучами изотопа ^{60}Co с энергией ~ 1,25 МэВ и мощностью 0,9 рад/с до дозы 10^4 рад.

На рис. 2. представлена темновая вольтамперная характеристика nGaAs-p$(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ ($0\le x\le0.80$) структур в прямом и обратном направлениях, снятая при комнатной температуре. Из рис.2 видно, что зависимость темнового тока проявляет выпрямляющие свойства. При малых напряжениях (до 0,5 В) ток через структуры в прямом и обратном направлениях имеет близкие значения, это, по-видимому, обусловлено током утечки в p-n переходе. При больших напряжениях (от 0,5 до 3 В) улучшаются выпрямляющие свойства. В обратном направление (начиная с 1,7 В) происходит мягкий пробой структуры, при этом увеличение значения тока с ростом напряжения в обратной ветви ВАХ, возможно обусловлено наличием дефектов разного типа играющие роль центров рекомбинации, локализованные в переходной области подложка-эпитаксиальная пленка, или в самом эпитаксиальном слое.



Рис.2.Вольтамперная характеристика nGaAs-p$(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ ($0\leq x \leq 0.80$) структур до облучение.



Рис.3.Вольтамперная характеристика nGaAs-p$(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ ($0\leq x \leq 0.80$)структур после гамма-облучение до дозы 10^4рад.

После гамма-облучения до дозы 10^4 рад (рис.3) в структуре сохраняется выпрямляющие свойства, а значение тока в обратном направление до 4 В почти не изменяется и имеет низкую величину. Такое изменение ВАХ исследованных структур, по-видимому, свидетельствует, что при облучении структуры дозой 10^4 рад происходит уменьшение концентрации активно работающих рекомбинационных центров (N_{eff}). Дефекты, возникающие при радиационном облучении (N_{rad}) взаимодействуя с активными примесными центрами (N_{imp}) образуют дефект-примесные комплексы, которые уменьшают N_{eff}, так как: $N_{eff}= N_{imp}-a\cdot N_{rad}$, где а – коэффициент пропорциональности, зависящий от типа радиационного излучения и от радиационных свойств материала. А при больших дозах концентрация радиационных дефектов будет настолько большим, что рекомбинация через них становится существенным, и опять будет расти N_{eff}.

Таким образом, предварительно мы можем сделать вывод, что гамма-облучения дозой до 10^4 рад улучшает рекомбинационные характеристики nGaAs-p$(GaAs)_{1-x}(ZnSe)_x$ ($0\leq x\leq 0.80$) структур.

Литература.

1.Горюнова Н.А.,Федорова Н.Н. ФТТ №1. стр.344.1959.

2.Шевченко Е.Г. и др.Неорганические материалы №9 стр.35,1973

3.Саидов А.С. Гаимназаров К.Г. РазаковА.Ш. Письма в ЖТФ Т.27 вып.22.2001

4. Мак В.Т. Письма в ЖТФ, 1989, том 15, вып. 12, ст. 17-19.

5. Мак .В.Т. ФТП, 1996,том 30, вып.2, ст. 292-295.

6. Saidov A.S., Razzakov A.Sh., Risaeva V.A., Koschanov E.A. Materials chemistry and physics. 2001, Vol. 68, p.1-6.

7. Андреев В.М., Долгинов Л.М., Третьяков Д.Н. Жидкостная эпитаксия в технологии полупроводниковых приборов. М.: Сов. Радио. 1975. С. 328.

8. Хансен М., Андерко К. Структуры двойных сплавов. Т. II. М.: Металлургиздат. 1962.

9. Саидов А.С., Саидов М.С., Кошчанов Э.А. Жидкостная эпитаксия компенсированных слоев арсенида галлия и твердых растворов на его основе. Ташкент, изд. «Фан». 1986, с.127.

TALIM SIFATINI OSHIRISHDA XALQARO PEDAGOGIK INTEGRATSION HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Urazbakov Alijon Djurabayevich
Guliston davlat pedaogika institute, O‘qituvchi
+998770502772
alijanurazbakov@mail.ru

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan so‘ng jahonda o‘z obro‘yini oshirish uchun jahon andozalari talabiga javob beradigan mahsulotlar va milliy kadrlar tayyorlash masalasiga katta e’tibor berishmoqda. Shuning uchun xalq xo‘jaligining barcha sohalarida, jumladan ta’lim sohasida ham islohotlar o‘tkazildi va o‘tkazilmoqda. Respublikamiz Prezidenti tashabbusi bilan va rahbarligida ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan ko‘plab qonunlar, qarorlar, farmoyishlar va buyruqlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda.

Mavzu doirasidagi tahlillar

Bugungi kunda dunyodagi barcha mamalakatlarning ta’lim tizimi o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda va anashu maqsadda har xil davlat va nodavlat ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ana shunday ta’lim tizimlaridan biri Yevropada 48 ta mamlakat ishtirok etadigan “Boloniya kelishuvi” yoki “Boloniya jarayoni” ta’lim tizimidir.

Ushbu maqolada biz ta’lim sifatini oshirishda halqaro pedagogik tadqiqotlarning ahamiyatini oliy ta’limda xalqaro integratsiyalashuv misolida ko‘rib o‘tamiz.

Ma’lumki, Bolonya kelishuvi yagona oliy ta’lim maqomini yaratishga qaratilgan bo‘lib, Yevropa mamlakatlari o‘quv yurtlarini bir-biriga uyg‘unlashtirish, umumyevropa mehnat bozori uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash, talabaga esa xalqaro ta’limga to‘siqlarsiz kirish imkonini yaratadi.

Qayd etish o‘rinliki, Bolonya jarayoniga qo‘shilish umumiy ta’lim tizimini rivojlantirish va uning xalqaro miqyosda tan olinishi yo‘lidagi muhim qadamdir. Chunki oliy o‘quv yurtlarida kadrlar tayyorlanishini ilg‘or xalqaro standartlar asosida yo‘lga qo‘yishi maqsadida o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich kredit – modul tizimini joriy etish davr talabi bo‘lib kelmoqda.

Bolonya jarayoniga kirish milliy oliy ta’lim tizimlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki bunda oliy ta’lim to‘g‘risidagi umumyevropa diplom ilovasi joriy qilinadi. Kreditlarni o‘tkazish va jamg‘arishning Yevropa tizimi (ECTS – European Credit Transfer and Accumlation System), ya’ni talabalar o‘zlashtirgan bilim va malakalarni hisobga olishning umumyevropa tizimiga o‘tiladi. Talabalar bilimini nazorat qilish uchun yagona umumyevropa baholash mezonlari qo‘llaniladi va o‘qitish sifati yaxshilanadi, ekvivalent ta’lim dasturlari, akademik darajalar joriy qilinadi. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchayadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar

Modulli o‘qitish texnologiyasini qo‘llashning yana bir xususiyati shundan iboratki, talaba bir modulni o‘zlashtirmasdan ikkinchisiga o‘ta olmaydi. Bu esa ta’lim dasturining kafolatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. O‘quv modullarini tuzishda ko‘p hollarda ish beruvchilar ham jalb qilinadilar. Ular modulli ta’lim dasturlariga tanlov fanlarini kiritish bo‘yicha o‘z takliflarini beradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kredit-modul tizimi modul ko‘rinishida shakllantirgan fan bloklarini to‘liq o‘zlashtirish orqali kreditlar yig‘ib borishga asoslangan tizim. Kredit-modul tizimida o‘qituvchining yagona bilim manbasi sifatidagi roli kamayadi, talaba o‘quv jarayoni markaziga ko‘chadi. Ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarda yangi ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi. Ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, talabalarning mustaqil ravishda bilim olish madaniyatini shakllantirish masalalari dolzarb bo‘ladi. Darslar sifatini oshirish talabi zamonaviy uslublardan foydalanishga ehtiyojni oshiradi.

Xulosa qilib atanda, ta’lim sifatini oshirishda xalqaro pedagogik hamkorlikning ahamiyati juda katta, chunki bu hamkorlikning hammasini natijalari integratsiyalanib ta’lim sohasiga qo‘llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdullayeva B.S. “Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari”. Ped. fan. dok. dis. – Toshkent., Uz PFITI. 2006.

2. Усова А. В. Межпредметные связи в предподавании основ наук в школе: методические рекомендации. Челябинск. Изд. ЧПТУ «Факел», 2006.

3. A.Xasanov, Sh.O‘roqova. “Ta’lim tizimida fanlararo integratsiya” Kasb hunar ta’limi. 2019.№2;

4. D. Baxritdinova. Texnologiya fanlari samaradorligini oshirishda integratsiyaning ahamiyati. Kasb hunar ta’limi. 2019. №2.

FAN-TA’LIM-ISHLAB CHIQARISHDA INTEGRATSIYON YONDASHUV

Sattarkulov Komil Raxmatovich

Guliston davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi

Hozirgi kunda integratsiya atamasi jahonda turli sohalarni, masalan, ijtimoiy, mintaqaviy, iqtisodiy, diniy, irqiy, tashkiliy integratsiya kabi sohalarni qamrab oladigan ijtimoiy tushuncha sifatida ishlatilinmoqa.

So‘ngi vaqtlarda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar provard natijasi ong-tafakkuri ozod inson shaxsini tarbiyalash ekan bu o‘z-o‘zidan integratsion ta’lim klasterlari tuzishni taqazo etadi. Shu o‘rinda yuqoridagi barcha jarayonlarni tahlil qilgan holatda maqolada fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va istiqbollari haqida fikir yuritamiz. Quyida:

- Integratsiya o‘zi nima?
- Ta’lim tizimidagi ahamiyati nimada?
- Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishda integratsiya qanday amalga oshiriladi? Kabi savollarga javob olishingiz mumkin.

Mavzu doirasidagi tahlillar

Integratsiya lotincha integratio - tiklash, to‘ldirish hamda integer - butun so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, qismlarni bir butunga aylantirish uchun ularni birlashtirish, qo‘shish yoki bir-biriga almashtirish harakatidir [1]. Ta’limda integratsion yondashuvning zarurati: O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish to‘g‘risidagi Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 4-qismini 4.1 bandida yaqin besh yilda aholini ish bilan bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, buning uchun esa, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash” kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan [2].

Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi o‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida sifatli ta’lim - inson kapitalini rivojlantirishning hal qiluvchi omili to‘g‘risida gapirib, bunda uzluksiz ta’lim tizimi uchun milliy o‘quv dasturini joriy etish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor berib o‘tgan [3]. Bu masalalarni bugungi mehnat bozori tamoyillari asosida hal etishda “Fan-ta’lim-ishlab chiqarish” innovasion hamkorligini amalga oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev Oliy ta’lim tizimidagi 4 ta ustuvor vazifani belgilab bergan edilar. Shulardan:

Birinchisi - oliy ta’lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish.

Ikkinchisi - o‘quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta’minlash va talabaning o‘z ustida ishlashi uchun muhit yaratish.

Uchinchisi - oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish.

To‘rtinchisi - professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun qog‘ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish. Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta’lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta’kidlandi va amalyotga tadbiq etilmoqda. Shuningdek, integratsiyalashgan ta’lim-tarbiya, fanlararo aloqalaming ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, O. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning (Zverev, MA Oanilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. Kabanova, Meller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.1. Vergeles), medist olimlaming (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan [4].

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar

XX-asrda avtonom ilmiy-tadqiqot institutlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimi tahlilini yuritgan holatda unga mos ravishdagi nazaryalarni amalyotga joriy etish bilan shug‘ulangan. Mutaxassislar tayyorlash bilan shug‘ullanadigan universitet va institutlar keng ko‘lamli tadqiqotlar bilan shug‘ullanmagan. Shuningdek, XXI-asr boshlarida ta’lim va tadqiqot bir-biridan ajralib turgan mamlakatlar oliy ta’lim muasasalaridan yetishib chiqgan kadrlarining raqobatbardoshligi va innovatsion texnologik ishlanmalarning rivojlanishi bilan bog‘liq jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechira boshladilar. Shu vaqtdan ayrim malakatlarda ilm-fan va boshqa ta’lim muassasalar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish boshlandi. Innovatsion tipdagi iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ushbu sohadagi vaziyat sezilarli darajada o‘zgardi. Tadqiqot mehnat bozorida talabga ega

bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun asos bo‘lishi kerak. Shunday qilib, ilmiy tadqiqot markazlari nafaqat ilmiy bilimlarni yaratish va tarqatish, balki ishlab chiqarishda kadrlar, texnologik va korporativ pozitsiyalarni shakllantiradi hamda amalyotda uzviy qo‘llab boradi.

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirishda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini asosiy omil sifatida foydalanishga e’tibor kuchaydi. Shuning uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va unda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining roli, uning xalqaro tajribasini o‘rganish hamda ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda o‘zaro hamkorligi masalasini tadqiq etish xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Lekin ular tadqiqotlari bilan tanishish mazkur masalaga turli yondoshuv va qarashlar mavjudligini ko‘rsatadi. Moddiy mahsulotdan farqli ravishda oliy ta’limda kadrlar tayyorlash jarayoni va uning sifatini aniqlash juda ko‘p o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kadrlar tayyorlash va uning sifatini oshirish masalalarini tadqiq etgan mahalliy hamda xorijiy olimlar asosan mavzuga sotsiologik va pedagogik nuqtai-nazardan yondoshganlar. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi va uning ta’lim sifati hamda mehnat bozori talabiga moslashuvchan kadr tayyorlashdagi roli va uning samaradorligini oshirishda iqtisodiy-huquqiy mexanizmlardan foydalanish masalalari o‘rganilmagan. Oliy ta’limda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining ta’lim sifatiga ta’sirini baholash va usbu mexanizmdan samarali foydalanish yo‘llarini belgilashga oid tavsiyalar berish maqsadida avvalo ta’lim sifati tushunchasi mazmuni to‘g‘risidagi qarashlarni o‘rganish zarur. Ta’lim sifati, uning mazmuni va fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi to‘g‘risidagi qarashlarni o‘rganish asosida ta’lim sifatini yaxshilashdagi ro’lini oshirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlar bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar maqsadga muvofiqdir. Akademik A.Novikov fikricha, “Ta’lim sifati deganda - me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxs ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim natijasi darajasini ifodalovchi kursatkichlar tizimi tushiniladi”[5]. Olimning fikricha ta’lim sifati komponentlari me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojdan iborat. Uni baholash uchun esa ushbu komponentlar darajasini ifodalovchi kursatkichlar tizimini aniqlash zarur. A.M.Katsning fikricha “Ta’lim sifati shaxs, jamiyat va davlatning belgilangan talablarini qondirish darajasini ifodalovchi ta’lim elementlari yig‘indisi” hisoblanadi [6].

V.A.Malkova “Ta’lim sifati - o‘quvchining mavjud ijtimoiy sharoitlarga moslashishini ifodalovchi munosabatlar tizimi”, degan qarashni ilgari surgan [7]. Fikrlar va qarashlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ta’lim sifatida shaxs, jamiyat hamda davlat manfatlari uyg‘unligini ta‟minlanishi muhim jihat hisoblnmoqda. Demak, bu borada yetarlicha tariflar va nazaryalar mavjud. Bu muammolarni yo‘qotish va ta‘lim orqali fanni, fan orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun integratsiyani amalga oshirish zarur. V.A.Slastyoninning fikricha, “Innovatsiya” maqsadga qaratilgan o‘zgarish bo‘lib, qo‘llanish sohasidagi tizimni bir holatdan sifat jihatdan yangi holatga o‘tkazish, uni tubdan takomillashtirishni, innovatsion jarayon-yangilikni yaratish, o‘zgartirish, qo‘llash va tarqatishdagi kompleks faoliyatni anglatadi [8]. Innovatsiyalar nafaqat ta’limni balki, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida ham ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o‘n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi bir yoki bir necha mashg‘ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub’ektiv yangi bilimga olib kelishi kerak bo‘ladi. Ya’ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lib, u fanlararo aloqalarni o‘rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog‘lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog‘lanish, ya’ni uzviylikni ta’minlash bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi. Ilmiy tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muasasalari va ishlab chiqarish korxonalarida faoliyat yuritayotgan har bir shaxs, rahbar va ilmiy xodim integratsiya va innavatsion-korporativ hamkorlik yordamida sifatini ta’minlash uchun zamonaviy yondashuvlar asoslarini bilishlari maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvlar asosida o‘quvchilarga ta’lim

dargohlarida olgan bilimlarini limiy tadqiqot muasaslarida mustahkamklash, ishlab chiqarish soha va tarmoqlarida amaliy jihatdan ko‘rib chiqish imkonyati yaratilgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Nazarova G. Xalqaro iqtisodiyot integratsiya –Toshkent: Tafakkur-2010.-B.36. 2. O‘‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi PF-4947-son farmoni // Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.

3. Sh.M.Mirziyoyev “YANGI O„ZBEKISTON STRATEGIYASI”. -Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 bet.

4. Yo‘ldoshev, A. (2022). Uyg‘onish davri va uchunchi renessans poydevori: vorisiylik va o‘ziga xoslik. Markaziy osiyo uyg‘onish davri ilm-fan va madaniyatini tadqiq etishning dolzarb muammolari xalqaro ilmiy anjumani.

5. Новиков А.М., Д.А. Новиков, «Как оценивать качество образования?», www.anovikov.ru, (Муаллиф таржимаси).

6. Кац А.М. www.mathnet.ru/at13796автор: АМ Кац. Теория и применение регуляторов скорости с упруго-присоединенным катаракто м. А. М. Кац. Центральный научно-исследовательский дизельный.

7. Малькова В.А. studopedia.ru/11_140699_vnmalkova.html13 июн. 2015 г. - Новое понимание качества образования формируется в ответ на вызовы со стороны мирового сообщества, страны, области, города.

8. В.А. Сластенин и др. Педагогика: учеб.пособие для студ. высш.пед. учеб. Заведений. М: 2015 г. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1 / March 2022 ISSN 2181-063X

9. G‘afforova, G., & Yoldoshev, A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati. International scientific and practical conference ‘Modern psychology and pedagogy: problems and solutions’.

(Si (Au); Si (Li) АСОСИДАГИ ФОТОДЕТЕКТОРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ВА МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Марипов Илхом Исакович, Давлатов Ўткир Тогаевич, Холбоева Орзигул Иномиддин қизи
[1]Физика техника институти доктаранти
[2]Гулистон давлат университети доценти
[2]Гулистон давлат университети 4-курс талабаси
[1]Email: imaripov@list.ru

КИРИШ

Биз ўрганаётган сцинтилляцион детекторларнинг бошқа детекторларга нисбатан устунлиги унинг зарраларни қайд қилиш эффективлигининг катталиги, вақт бўйича ажрата олиш қобилияти кичиклиги ҳамда тажрибада ишлатиш қулайлигидадир. Сцинтилляцион детекторлар ионлаштирувчи зарралар люминесенция чақнашини келтириб чиқарадиган сцинтиллятор ва қайд қилувчи электрон тизимдан иборат. Сцинтилляцион детекторлар нафақат ионлаштирувчи нурланишни қайд қилиш, балки γ -кванта ва нейтронларни аниқлаш учун ҳам қўлланилади. Бундай ҳолларда сцинтилляцион детекторлар фотонлар ва нейтронларнинг ўзини эмас, балки уларнинг сцинтиллятор атомлари билан тўқнашуви пайтида пайдо бўладиган ионлаштирувчи зарраларни, электронларни, орқага қайтувчи ядроларни ва бўлинган ядроларнинг парчаларини қайд қилади. Шундай қилиб, сцинтилляцион детекторлар радиоактив нурланишнинг барча турларини қайт қилиш имконини беради. Газ разрядли ҳисоблагичлардан фарқли ўлароқ, юқори энергияли γ -кванталарни қайт қилиш самарадорлиги сцинтилляцион детекторларида жуда юқори (50% ва ҳатто 100%) бўлиши мумкин.[1]

Тадқиқот объекти ва қўлланилган методлар

Яримўтказгичли Si(Li) Si(Au) асосидаги детекторларни тайёрлаш ва ишлаб чиқишда кўпгина етакчи илмий марказларда ва олий таълим муассасаларида, жумладан, Колумбия университети (АҚШ), Космик ва космонавтика фанлари институти, Физико-техника институти (Ўзбекистон) да олиб борилмоқда. Академик Ю.К. Акимовнинг ишларида барча турдаги яримўтказгичли детекторлар технологияси кўриб чиқилган. Ҳозирги вақтга келиб, ядровий нурларни қайд қилувчи бинар асосли яримўтказгич (Ge(Li), Ge, CdTe, CdZnTe, HgIn, GaAs) детекторлар ясалиб кенг қўлланилмоқда. Бундай турдаги детекторлар хона температурасида ишлаши, тезкорлиги ва экспресс ўлчашларда қўлланилиши билан самарали ҳисобланади. .[2]



Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили

3-(а-б-с) расмларда технологик жараёнлардан сўнг сканерловчи электрон микроскоп - СЭМ томонидан олинган кремний пластиналарнинг тасвири кўрсатилган.





3(а)-расмдан кўриниб турибдики, кремний пластинаси кесилгандан сўнг юзасида 250 нм қалинликда нотекисликлар ҳосил бўлади; механик ишловдан сўнг 200 нм қалинликга туширилади 3 (б) расмда кимёвий тозалашдан кейин носимметрик қатлам 150 нм гача туширилади 3-(с) расм) Бутун технологик жараёндан сўнг кремний юзасида носимметрик қатлам камайиб бориши кўрсатилган. Тайёр кремний пластинкаларига контакт хосил қилиш вакуумнй универсал пост қурулмасида ВУП-4 амалга оширилди. Махсус дизайндаги тагликлар молибден ва волфрамдан тайёрланади, улар спиртда ювилади ва кейин 10-15 дақиқа давомида вакуумда қиздирилади Молибден узунлиги 40 мм буғлатгич ва кремний пластинкаси орасидаги масофа 80 мм қилиб олинган.[Тайёр кремний пластинкалари буғлатгичга жойлаштирилди ва $5 \cdot 10^{-5}$ мм сим уст босим остида вакуумли қурулма орқали контактлар олинади. Контакт сифатида кремний пластинкалар учун алюминий (300 Å) ва олтин (~ 200 Å) қалинликда ҳосил қилинди Яримўтказгичли детекторларда кремний кристаллининг хажми бўйлаб маълум бир чуқурликка керакли литий ионларини бир ҳил тақсимлаш концентрациясини таъминлаш муҳим аҳамиятга эгадир. Танлаб олинган киришма атомларини кристаллнинг асосий қисмига киритишнинг кенг қўлланилган диффузия ва дрейф усули жараёнларига асосланган ҳолда, ушбу технологик жараёнларни такомиллаштириш ва киришма атомларини кристалл хажмида бир ҳил тақсимлаш талаб этилади. [4]. Яримўтказгичли қурилмалардан фойдаланишдаги ишончлилиги, Автоматик ўлчаш қурилмасида детекторларнинг вольт-ампер, вольт-сиғим, юқори частотали вольт-сиғим ва спектрометрик ва радиометрик катталикларини аниқлаш, эксперимантал ва назарий маълумотларни таҳлил қилиш ва уларни таққослаш каби тадқиқот усуллари қўлланилади.

ХУЛОСАЛАР

Яримўтказгичли детекторлар ядро спектрометриясининг бир қатор вазифаларда етакчи ўринни эгаллайди, шунингдек, ушбу детекторлар томография тизими, божхона хизмати, тиббиёт тамография тизими, дозиметрия, юқори энергия физикаси, экология ва артоф-муҳит мухофазаси, ядровий заррачаларнинг энергияси, нурланиш тушиш координатасини ва бир вақтнинг ўзида заррачаларнинг бурилиш бурчагини аниқлашда кенг қўлланилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

1. Бойко В.И., Жерин И.И., Каратаев В.Д., Недбайло Ю.В., Силаев М.Е Методы и приборы для измерения ядерных и других радиоактивных материалов»..//Учебное пособие, 2011, Ц 44-56
2. В.К. Еремин, Е.М. Вербицкая, И.Н. Ильяшенко, И.В. Еремин, Н.Н. Сафонова и т.д. Межсегментное сопротивление в кремниевых позиционно-чувствительных приемниках излучений на основе п-н- переходов // Физика и техника полупроводников, 2009. Том 43, вып. 6, С. 825-829.
3. Азимов С.А., Муминов Р.А., Шамирзаев С.Х., Яфасов А.Я. Кремний литиевые детекторы ядерного излучения. Ташкент: Фан, 1981. С.3-87.14. Ю.А. Акимов Использование полупроводниковых детекторов в физике высоких энергии // Физика элементарных частиц и атомного ядра-1977, том 8, вып. 1. С.193-219.
4. С. В. Заицева, С. Ю. Купреэнкоа, Э. И. Раya, анд А. А. ТатаринцевСемицондуцтор Дэтецторс оф Бацксцаттеред Элецтронс ин а Сцаннинг Элецтрон Мицросцопе: Чарацтеристицс анд Апплицатионс Инструменц анд Эхпериментал Течникуэс, 2015, Вол. 58, Но. 6, пп. 757–764.
5. Давлатов Ў. Т., Вардашвили А., Бердикулова Ш. Э.. “Қуёш нурларини энергияга айлантиришда Қуёш элементларининг қулланиши” Муқобил энергия манбаларидан самарали фойдаланиш муаммолари ва ечимлари Республика илмий-техникавий анжуман материаллари тўплами 2022йил, 27 июнь 73-74б.

IONLI BOMBARLIROVKA QILIB O‘STIRILGAN METALL PLYONKA VA QOPLAMALARNING MIKROQATTIQLIGINI VA ADGEZIYASINI O‘ZGARISHI

Elmuratov R.U, Niyazov Sh.K
dots., dots.
A.Sodiqov -4-kurs talabasi. Guliston Davlat Universiteti,
Guliston shahri, 4-mavze
elmuratov55@gmail.com tel. 998933273683

Annotatsiya: Turli xil usullr bilan, qattiq jismlar, xususan metallarning kristall panjaralariga gaz molekulalarining yoki boshqa moddalarning atomlari va molekulalarini aralashma sifatida kiritish mumkin. Bu jarayonni, vakuum sharoitida, gaz ionlari bilan bombardirovka qilish usulida amalga oshirish mumkin. Bunday hollarda, qattiq jismlar yoki metallar sirti va sirtiga yaqin sohalariga kirib boruvchi aralashmalarining miqdori (dozasi), tabiiy xoldagi diffuziya hodisasi natijasida kirib boruvchi aralashma molekulalari miqdoridan ancha katta bo‘ladi.

Metall materiallaridan tayyorlangan tagliklarga, gaz ionlari bilan bir paytda bombardirovka qilib, boshqa bir metall materialini termik bug‘latib, plenka yoki qoplamalar o‘stirish orqali, xosil qilingan plyonka-taglik sistemasida, atomlar va molekulalarni aralashishini yuzaga keltirish mumkin. Bu esa, metall plyonka va taglik xossalarini o‘zgarishiga olib keladi. Bunda, plyonka-taglik sistemasini o‘zgargan xossalarini tushuntirish uchun, ionli bombardirovka qilib kiritilgan gaz ionlarini va boshqa aralashmalarni kirib borishi, plyonka-taglik sistemasining kristall panjaralarida aralashmalarni taqsimlanishi, aralashmalarni plyonka-taglik sistemasi ichida ushlanib qolishi va boshqa juda ko‘p o‘zgarishlarni e’tiborga olish kerak bo‘ladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili:

Vakuum sharoitida, metall tagliklar sirtiga, past energiyali gaz ionlari bilan bombardirovka qilib o‘stirilgan metall plyonka va qoplamalarning fizikaviy va ximiyaviy xususiyatlarini o‘zgarishini ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda [1].

Shunga qaramasdan, ionli bilan bombardirovka qilib o‘stirilgan metall plyonka va qoplamalarning xususiyatlarini o‘zgarishi bo‘yicha juda ko‘p metallar uchun, tajirbalar yetarlicha amalga oshirilmagan. Bundan tashqari, bu yo‘nalishning nazariy asoslari to‘liq tushintirib berilgan emas. Bu esa, o‘z navbatida, bu soxada ko‘plab qo‘shimcha tajribalar o‘tkazilishini talab qiladi. Shu sababli, bu ishda, shu sohada amalga oshirilgan tajirbalardan namunalar keltirilgan.

Ionli bombardirovka qilib o‘stirilgan metall plyonka va qoplama-larning boshqa metall materiallaridan tayorlangan tagliklarga adgeziyasi (yopishqoqligi), yani maxkam o‘rnashib qolishi, ularning asosiy parametrlaridan biri xisoblanadi [2].

Metall plyonka va qoplamalarning adgeziyasi (yopishqoqligi), juda murakkab fizikaviy-ximiyaviy jarayon bo‘lib, plyonka va qoplamalarni o‘stirish texnologiyasining ko‘pgina parametrlariga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, adgeziya, plyonka va qoplamalarning xamda taglik materiallarining individual xususiyatlariga xam bo‘g‘liq bo‘ladi.

Bundan tashqari, taglik sifatida ishlatiladigan metall materialining sirti juda xam toza bo‘lishi kerak. Taglik sirti ximiyaviy usulda tozalangandan so‘ng, vakuum sharoitida, past energiyali zarralar yoki lazer nurlari bilan, yoki taglikni ma’lum bir temperaturagacha qizdirish yo‘li bilan tozalash muxim ro‘l o‘ynaydi [3]. Shu bilan birga, taglik sirtida g‘adir-budurliklar va mikroshikastlanishlar bo‘lmasligi lozim.

Bu ishda, mis (Cu) va molibden (Mo) materiallaridan tayorlangan tagliklarga, bir paytda, argon (Ar^+) gazi ionlari bilan bombardirovka qilib o‘stirilgan kumush (Ag) plyonka va qoplamalarining adgezion xususiyatlarini o‘zgarishi bayon etilgan.

Plyonka yoki qoplamalar o‘stirilishidan avval, ishchi kameraga o‘rnatilgan xar bir tagliklar, vakuum sharoitida, $T = 50 \div 100\ ^0C$ temperaturagacha qizdirildi. Bunda, taglklar sirtidagi xar xil zarralar bug‘lanib, vakuumga chiqib ketadi, tagliklar sirti tozalanadi. Bundan tashqari, taglklar sirti energiyasi $E = 50 \div 600$ eB bo‘lgan oraliqda, argon gazi ionlari bilan $t = 10$ minut davomida bombardirovka qilinadi. Bu holda, ionlar tagliklar sirtiga o‘rnashib qolgan mikrozarralarni urib chiqarib yuboradi, tagliklar sirtini juda yaxshi tozalaydi.

Adgezion sinovlarni o‘tkazish uchun o‘stirilgan kumush plyonka va qoplamalari termik bug‘latish yo‘li bilan $v = 1{,}0 \div 5{,}0$ Å sek^{-1} tezlikda argon gazi ionlari bilan bir paytda bombardirovka qilib o‘stirildi. Bunda ishchi kameradagi bosim $P = 10^{-7}$torr. bo‘lib, termik bug‘latish $t = 30$ minut davom etgan.

Adgezion sinovlar kumush plyonka va qoplamalarni taglik materiallaridan normal uzib olish usuli orqali amalga oshirildi.

Adgezion sinovlarning natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko‘rinadiki, ionlar bilan bombardirovka qilib o‘stirilgan kumush materialining (Ag) plyonka va qoplamalarini, mis (Cu) va molibden (Mo) materiallaridan tayorlangan tagliklarga adgeziyasi, xamma xollarda ortishi yuz bergan.

Bombardirovka qilayotgan ionlar energiyasi $E = 600$ eV bo‘lgan xollarda, mis (Cu) va molibden (Mo) materiallaridan tayorlangan tagliklar sirti sifatli tozalangan bo‘lganida, ularda o‘stirilgan kumush materialining plyonka va qoplamalarinimg adgezion kuchlanishi $F \sim 10$ kG$\cdot mm^{-2}$ qiymatlarga erishadi, yani plyonka yoki qoplamalarni tagliklardan uzub olish uchun, eng katta kuch sarflanadi.

Piyonka va qoplamalar o‘stirish parametrlari va taglik materialiga adgeziyasining o‘zgarishi.

1-jadval

	Taglik materiali	Taglik temperatura si $T,^0C$	Ionlar energiyasi, eV	Plyonkaning taglikka adgeziyasi, $kG \cdot mm^{-2}$	
				bombardirovka qilingan xolda	bombardirovka qilinmagan xolda
	Mo	20-25	600	>10 kleydan uzilish	--
	Cu	50-55	600	5	0,5
	Cu	45	100	3,5-4,5	0,5
	Cu	50-55	100	2-3	0,5
	Cu	50-55	50	2,7-2,3	-

Jadvaldan ko‘rinadiki, molibden (Mo) materiallaridan tayorlangan tagliklarga o‘stirilgan kumush materialining plyonka va qoplamalarini adgeziyasi eng katta qiymatga erishadi. Xuddi shuningdek, bir paytda argon (Ar^+) gazi ionlari bilan bombardirovka qilib mis (Cu) taglikka o‘stirilgan kumush materialini plyonka va qoplamalarinimg adgeziyasi, bombardirovka qilmasdan

o‘stirilgan kumush materiali plyonka va qoplamalarinimg adgeziyasiga qaraganda, 10 marta ortar ekan.

Ionli aralashtirish jarayonida, taglik-plyonka sistemasida juda ko‘plab fizikaviy-kimyoviy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu jarayonlarga kaskadli to‘qnashishlar, gaz ionlari va aralashma atomlarining diffuziyasi, katod yemirilishlar, defektlar hosil bo‘lishi, strukturaviy-fazaviy o‘zgarishlarning yuzaga kelishi, gaz ionlar va aralashma atomlarning taglik-plyonka sistemasida qalinlik bo‘yicha taqsimoti, radiatsion-stimullashgan diffuziyalar kabilarni misol qilib keltirish mumkin [4].

Ionli bombardirovka qilib, bir metall materialidan tayyorlangan tagliklarda o‘stirilgan boshqa bir metall materialining plyonka va qoplamalarida aralashishi natijasida, metallarning qattiq qotishmalarini hosil bo‘lishi, bombardirovka qilayotgan ionlarning plyonka-taglik sistemasining atomlari bilan ketma-ket to‘qnashishlari va buning oqibatida yuzaga keladigan radiatsiyon-stumullashgan diffuziya jarayonlari tufayli ro‘y beradi. Aralashish jarayonlari esa, o‘z navbatida, plyonka-taglik sistemasining kristall panjaralarida vakantsiyalarni, dislokatsiyalarni, nuqtaviy defektlarni, defektlar ko‘chishini (migratsiya-larni) keltirib chiqaradi.

Radiatsion defektlar natijasida, yuzaga kelgan vakansiyalarga, o‘lchamlari har-xil bo‘lgan bombardirovka qilayotgan gaz ionlar, hamda plyonka yoki qoplamalar materiallarining atomlar kirib boradi. Bu ionlar va atomlar, o‘zlarining issiqlik harakat kinetik energiyalariga qarab, taglik materiallarining kristall panjaralarida turli chuqurliklargacha yetib boradi va joylashib qoladi. Taglik materiallarining kristall panjaralarida begona atomlar va molekulalar aralashishi yuz beradi. O‘lchamlar har-xil bo‘lgan bu aralashmalar, taglik materiallarining kristall panjaralaridagi dastlabki, sof holdagi atomlarning bog‘lanishi kuchlarini va atomlar hosil qilgan potensial maydonni o‘zgartiradi. Shu sababli, defektlar va vakansiallar soni ortadi. Bu esa, taglik materiallarining kristall panjaralari bo‘yicha ichkariga (chuqurlikga) qarab yo‘nalgan tezlashgan deffuziyani, yani radiatsion-stimulashgan diffuziyani yuzaga keltirib chiqaradi. Natijada, taglik materiallariga begona atomlarni va gaz ionlarini kirib borishini kuchaytiradi. Taglik materiallarining kristall panjaralaridagi begona aralashmalar kontenstratsiyasi ma’lum qiymatgacha ortib boradi [5].

Hosil qilinayotgan plyonka-taglik sistemasida, ionli bombar-dirovka ta’sirida, aralashish yuz berganligi sababli, bu sistemaning xususiyatlari o‘zgaradi. Bunday xususiyatlardan biri, mikro-qattiqligi va adgezion mustaxkamligi xisoblanadi [6].

Tajribalarda olingan natijalarga asoslanib, aytish mumkinki, ionli bombardirovka ta’sirida, kumush (Ag) materialining plyonka yoki qoplamalari, molibden (Mo) va mis (Cu) taglik materiallarining kristall panjaralari tipiga o‘xshash yoki unga yaqin tipdagi kristall panjaralari shaklida o‘sadi. Shu sababli, bu plyonka yoki qoplamalarning mikroqattiqligi va adgezion mustaxkamligi, ionli bombardirovka qilmasdan olingan plyonka yoki qoplama-lardan juda katta bo‘ladi [7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.U.Elmurodov, Sh.K.Niyozov. “Introsuction of impurities in thclose srheres to the surface of metall films and coatings under the influence of ion bombardment”. Neuroquantology. Oktober 2022, vol. 20(12); 3131-3137

2. Zimon A.D. Adgeziya plyonok i pokritiy. M. Ximiya.1977. 352 str.

3. R.U.Elmurodov ,Sh.K.Niyozov, I.Sayfuddinov. “Isolation of ion bobardments grown by introducing compounds using mixtures during thermal heating of films and coatings”. International Journal of Advansed Research in Management and Social

Sciences.Vol.11, No.12, December 2022, Ijarmss 1-8.

4. Leyman K. Vzaimodeystvie izlucheniya s tverdm telom I obrazovanie elementarnix defektov. M., Atomizdat , 2006 g., 296 str.

5. R.U.Elmurodov ,Sh.K.Niyozov, Sh.T.Boymirov. “Ionli bobardirovka qilib aralashmalar kiritib o‘stirilgan plyonka va qoplamalarni temik qizdirganda aralashmalarni ajralib chiqishi”. Namangan Davlat Universiteti ilmiy axboratnomasi 2022-yil 9-son, 26-32 b.

6. Y.G. Bogdanova. Adgeziya i ey rol v obespechenii prochnosti kompozitov. M. 2010, 168 str.

7. E. Kinlok. Adgeziya I adgezivi. M. Mir. 2021.

O’ZBEKISTONDA QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Komilov Mirziyo, Xujayorov Jahongir
Guliston davlat universiteti o’qituvchisi
Guliston davlat universiteti magistranti

Quyosh nurlarining energiya manbai – bu Quyosh qarida sodir bo’ladigan termoyadro reaktsiyalarining natijasidir. Yer yuzasiga tushadigan quvvati 0,12•109 GVt ni tashkil qiladi [1;http://www.renen.ru/]. Quyosh energiyasi planetamizdagi biz biladigan energiya resurslariga nisbatan eng katta energiya manbai hisoblanadi va u bitmas-tuganmasdir.

Jahonda ishlab chiqarilayotgan barcha (elektr va issiqlik) energiyaning 10,2 foizi qayta tiklanuvchan energiya manba (QTEM) lar hisobiga to’g’ri keladi, 2050 yilga borib esa uning ayrim turlarining ulushi 70% dan oshib ketishi kutilmoqda. Bu esa faqat korxonalar tomonidan ekologiyaga chiqarilayotgan zararli chiqindilarni 500 milliard tonnaga kamaytirish imkonini beradi. [2].

Bugungi kunda QTEMlar bo’yicha an’anaviy energetikaga nisbatan taxminan 100 barobar kam energiya ishlab chiqarilmoqda. Biroq, keyingi yillar ichida jahonda QFESlar yordamida elektr energiya ishlab chiqarish ortib bormoqda .

1-rasmda 2013-2022 yillar oralig’ida jahonda QTEM turlari (quyosh va shamol energiyasi, suvning potentsial energiyasi va boshqa turdagi energiya resurslari) bo’yicha energiya ishlab chiqarishning o’sish dinamikasi keltirilgan.



1-rasm 2013-2022 yillarda jahonda qayta tiklanadigan energiya turlari bo’yicha energiya ishlab chiqarishning o’sish dinamikasi.

1-rasmdan ko’rinadiki, QFESlar bo’yicha o’sish umuman olganda 2013-2019 va 2020-2022 yillar oralig’ida 50 % ga o’sgan. Bu esa ko’plab QFESlarni qurishni va ularning asosiy qismi bo’lgan quyosh panellarni ko’plab ishlab chiqarishni, ularning samaradorligi va ishlash resursini oshirishni, ularning samarali ishlashiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi tashqi va ichki omillar ta’sirida kechadigan degradatsiya jarayonlarini kamaytirishni taqozo etadi [3].

Respublikamizda 2025 yilga borib elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida QTEMlarning hissasini 12,7 foizdan 19,7 foizga yetkazish mo’ljallangan. Jumladan: GESlarning ulushini 12,7 foizdan 15,8 foizga, QFESlarning ulushini 2,3 foizga, shamol elektr stantsiyalarining ulushini esa 1,6 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida quyosh radiatsiyasi taqsimoti xaritasi 2–rasmda keltirilgan. Jumladan iqlimiy sharoitga ko’ra, Respublikamiz quyosh energiyasidan foydalanish uchun qulay sharoitga ega bo’lib, mamlakatimiz viloyatlarida yil davomida 280-300 kun bulutsiz ob-havo kuzatiladi. Kunning o’rtacha uzunligi 16-17 soatni tashkil kilib, yil davomida quyoshning charaqlab nur sochishi 2850-3050 soatni tashkil qiladi. Har bir kvadrat metr yerga tushadigan yig’indi quyosh energiyasining miqdori Toshkent viloyatida 6076 MDj, Samarqand va Xorazm viloyatlarida esa mos ravishda 6398 va 6755 MDj ni tashkil qiladi. Bu energiya miqdorlari o’z navbatida 173-193 m3 tabiiy gaz yonganda ajralib chiqadigan issiqlik energiyasiga tengdir.

Hisob-kitoblariga ko’ra, O’zbekiston xududida quyosh energiyasining taxminiy texnik potentsiali 176,8 million tonna neft ekvivalentini tashkil qiladi. Demak, mavjud imkoniyatlardan foydalanish energetika tarmog’ini diversifikatsiya qilishni ta’minlab, barqaror energiya ta’minotini rivojlantirishga katta hissa qo’shadi.

Mamlakatimizda quyosh energiyasidan foydalanish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo’lib, ulardan samarali foydalanish yo’llarini izlab topish va ularni hayotga tadbiq etish juda muhim. 3-rasmda respublikamiz hududiy fotoelektrik quvvat patentsiali kunlik 3,6 dan 4,6 kVt.soatga, yillik esa 1314 dan 1680 kVt.soatga teng. Demak, respublikamizda quyosh energiyasidan foydalanib, elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyati 90% dan yuqori ekan.



2-rasm – Markaziy Osiyo mamlakatlarida quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi xaritasi.



3-rasm – O’zbekiston Respublikasining hududiy fotoelektrik potentsiali xaritasi

Xukumatimiz tomonidan “Yashil energetika”ni rivojlantirish qabul qilingan hujjatlarga muvofiq 2025 yilgacha umumiy energiya ishlab chiqarishda gidroenergetika ulushini 15,8% gacha, quyosh energetikasi ulushini 2,3% gacha, shamol energetikasini esa 1,6% gacha ko’tarish qayd qilingan [4]. Shuningdek, 2021 yilning may oyida qabul qilingan “Qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish to’g’risida”gi (21.05.2019, O’RQ-539-son) O’zbekiston Respublikasining Qonuni, hamda Vazirlar mahkamasining 2019 yil 22 iyuldagi № 610-sonli Qarorida QTEM lar hisobiga elektr energiya ishlab chiqaruvchilarning umumiy energiya tarmog’iga ulanish shartlari belgilab berilgan .

Ushbu qarorlarning amalga oshirilayotganligini 2015 yil Namangan viloyatining Pop tumanida Koreya Respublikasi ko’magi va respublikamiz mutaxassislari bilan birgalikda quvvati 130 kVt bo’lgan (tajriba-sinov tarzida ishlaydigan), 2021 yil Navoiy viloyatida quvvati 100 MVt bo’lgan va 2022 yil Samarqand viloyatida quvvati 100 MVt bo’lgan QFESlarning qurib ishga tushirilishi misolida ko’rishimiz mumkin. Ushbu QFESlar nafaqat O’zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda yagona bo’lib, har biri yiliga 252 million kVt.soat ekologik toza elektr energiya ishlab chiqara oladi. Bu esa

160 million kub metr tabiiy gazni tejab qolishga va atrof-muhitga zarar keltiruvchi 320 000 tonna parnik gazlari chiqishining oldini olishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Handbook of Photovoltaic Science and Engineering. Edited by Antonio Luque. N.Y.: John Wiley & Sons Ltd, The Atrium, Southern Gate, Chichester, West Sussex PO19 8SQ, England. 2003. p. 205 – 700.

2. Gremenyuk V.F., Tivanov M.S., Zalesskiy V.B. Solnechnыe elementы na osnove poluprovodnikovыx materialov // Alьternativnaya energetika i ekologiya. 2009, № 1(69). –S. 59-123.

3. Bazarov O.Sh. Vnedrenie “Zelenoy” energetiki – osnova razvitiya ekonomiki novogo uzbekistana. Sbornik trudov mejdunarodnoy konferentsii «Energo- i resursosberejenie: Novыe issledovaniya, texnologii i innovatsionnыe podxodы», 2021 y. 24 – 25 sentyabrъ. Karshi sh. -4-7 b.b.

4. Zezin D.A. Degradatsionnыe protsessы v tonkoplyonochnыx solnechnыx elementax. / Diss. ... kand.texn.nauk. -Moskva, 2014 y. –109 b.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЭФФИЦИЕНТА ЕСТЕСТВЕННОЙ АККУМУЛЯЦИИ ТЕПЛА СОЛНЕЧНОГО ИЗЛУЧЕНИЯ В ПОЧВЕ ГЕЛИОТЕПЛИЦ И ЕГО ДНЕВНОГО ХОДА

Абдурахман Абдуллаев

Гулистанский государственный университет к.т.н., доцент кафедры физики

В теплицах, отопление которых в основном базируется на непосредственном солнечной энергии, т.е. на инсоляционном обогреве, при ясной погоде в дневные часы суток в почве, как самой теплоемкой среде сооружения, естественным путем аккумулируется значительной количество тепла которое расходуется ночью на компенсацию тепловых потерь. В случае притока тепла от солнечной радиации в количестве, большем суммы аккумулируемого естественным путем в почве тепла и тепловых потерь в окружающую среду, в теплицах и парниках происходит перегрев.

Во избежание перегрева гелиотеплиц обычно применяют различные типы дополнительных краткосрочных аккумуляторов тепла [1], которые позволяют рационально использовать в ночное время и в течение последующих суток излишек тепла суммарной солнечной радиации, прошедшей днем через светопрозрачную изоляцию и поглощенной листьями растений, почвой и интерьером сооружения и тем самым сглаживать суточной ход температуры воздушной среды внутри гелиотеплицы.

Из изложенного следует, что оптимальная емкость краткосрочных дополнительных аккумуляторов тепла в гелиотеплицах при прочих равных условиях (имеются в виду теплотехнические качества ограждающих) елементов зависит от дневного хода естественной аккумуляции тепла солнечной энергии в почве сооружений.

Отметим, что, несмотря на многочисленные исследования в области разработки и создания гелиотеплиц и тепловых аккумуляторов к ним, вопросы естественной аккумуляции солнечного тепла в почве и ее влияния на параметры краткосрочного дополнительного аккумулятора изучены недостаточно.

Аналитический метод теплотехнического расчета гелиотеплиц в котором учитывается суточная нестационарность прихода суммарной солнечной радиации и температуры окружающей среды, при определении потока аккумулированного в почве сооружений солнечного тепла дает значительные погрешности. Причина тому, как уже отмечено выше – некорректность представления суточного прихода солнечной радиации в виде гармонического ряда вследствие наличия разрывов (прерывистость функции) от момента захода до восхода солнца и ограничение при этом первой гармоникой. Кроме того, из-за преобладания полуясной и пасмурной погоды в зимнее время представить суточный приход суммарной солнечной радиации в виде гармонического ряда практически невозможно.

Для детального анализа процессов естественной аккумуляции тепла солнечного излучения в почве и оптимизации емкости краткосрочного дополнительного аккумуляторов вводим понятие коэффициента естественной аккумуляции тепла солнечного излучения в почве гелиотеплиц. Это – отношение потока тепла, аккумулированного естественным путем в почве, к

потоку солнечного излучения, поглощенного поверхностями листьев растений (при наличии растительного покрова) или почвы (при отсутствии такового) внутри гелиотеплицы.

Если обозначим через $q_F(x=0,z)$поток тепла, аккумулированного в почве естественным путем, $q_{погл_p}(z)$, $q_{погл_n}(z)$- потоки тепла солнечного излучения, поглощенного поверхностью листьев растений и почвой, то, согласно определению, коэффициент естественной аккумуляции тепла солнечного излучения в почве гелиотеплиц $k_{ак}^{срп} = q_F(x=0,z)/q_{погл_p}$, (1)

$$k_{ак}^{брп} = q_F(x=0,z)/q_{погл_n}, \quad (2)$$

(*срп, брп*-соответственно, с растительным покровом и без него).

В условиях нестационарных тепловых процессов, обусловленных суточной неравномерностью прихода солнечной радиации и изменения температуры окружающей среды, закона Фурье $q_F(x=0,z) = -\lambda \frac{\partial t_n(x,z)}{\partial x}\Big|_{x=0}$. (3)

Представляя дифференциал в правой части (3) в разностной форме для расчета потока тепла солнечного излучения, аккумулированного в почве гелиотеплицы, имеем

$$q_{F,z} = \frac{\lambda_n}{\Delta x}\left(t_{n_{1,z}} - t_{n_{0,z}}\right). \quad (4)$$

В соответствии с [1], значения $t_{n_{0,z}}$ при отсутствии и наличии растительного покрова внутри гелиотеплиц определяется из формул

$$t_{n_{0,z}} = \frac{q_{погл_{n,z}}\left(1+K_{пр}^{огр}/\alpha_{пр_n}\right)+K_{пр}^{огр}t_{0_z}+\lambda_n/\Delta x\left(1+K_{пр}^{огр}/\alpha_{пр_n}\right)t_{n_{1,,z}}}{\lambda_n/\Delta x\left(1+K_{пр}^{огр}/\alpha_{пр_n}+K_{пр}^{огр}\right)}; \quad (5)$$

$$\text{и } t_{n_{0},z} = \frac{q_{погл_{p,z}}+K_{пр}^{огр}t_{0,z}+\lambda_n/\Delta x\left(1+K_{пр}^{огр}/\alpha_{пр}\right)t_{n_{1,z}}}{\lambda/\Delta x\left(1+K_{пр}^{огр}/\alpha_{пр_n}\right)+K_{пр}^{огр}}, \quad (6)$$

соответственно. Подставляя (5) и (6) в (4), после некоторых упрощений получаем выражения для расчета потоков солнечного тепла, аккумулированного в почве гелиотеплиц при наличии и отсутствии в них растительного покрова,

$$q_{F,z}^{срп} = [q_{погл_{p,z}} - k_{пр}\left(t_{n_{1,z}} - t_{n_{0,z}}\right)]/[1+k_{пр}\left(1/\alpha_{пр_n}+\Delta x/\lambda\right); \quad (7)$$

$$q_{F,z}^{брп} = [q_{погл_{n,z}} - (\alpha_{пр_n}k_{пр}/\alpha_{пр_n}+k_{пр})\left(t_{n_{1,z}} - t_{n_{0,z}}\right)]/[1+(\alpha_{пр_n}k_{пр}/\alpha_{пр_n}+k_{пр})](\lambda/\Delta x). \quad (8)$$

Подставляя (7) и (8), соответственно, в (1) и (2), находим

$$k_{ак}^{срп} = [1-k_{пр}\left(t_{n_{1,z}} - t_{0,z}\right)/q_{погл_{p,z}}]/[1+k_{пр}\left(1/\alpha_{пр_n}+\Delta x/\lambda\right); \quad (9)$$

$$k_{ак}^{брп} = [1-k_{пр}\alpha_{пр_n}\left(t_{n_{1,z}} - t_{0,z}\right)/(\alpha_{пр}+k_{пр})/q_{погл_{g,z}}]/[1+k_{пр}\alpha_{пр_n}\Delta x/(\alpha_{пр_n}+k_{пр})\lambda] \quad (10)$$

Отметим, что коэффициенты естественной аккумуляции тепла наличии и отсутствии в них растительного покрова $k_{ак}^{срп}$ и $k_{ак}^{брп}$ определяемые из отношений (7) и (8), имеют физический смысл при

$q_{погл_{p,z+1}} > 0$ и $q_{погл_{n,z+1}} > 0$. Как видно из (7) и (8), $k_{ак}^{срп}$ и $k_{ак}^{брп}$ при прочих равных прямо пропорциональны, соответственно, потокам солнечной радиации ($q_{погл_p}$ и $q_{погл_n}$) поглощенным поверхностями листьев растений и почвы внутри гелиотеплицы, и температуре окружающей среды t_0, обратно пропорциональны приведенному коэффициенту тепловых потерь через светопрозрачную изоляцию-$k_{пр}^{огр}$. На рис. 1и 2 приведены дневные ходы коэффициентов естественной аккумуляции тепла солнечного излучения в почве гелиотеплиц с одно- и двухслойным светопрозрачными пленочными ограждениями полуцилиндрической формы, имеющими экваториальную и меридиональную ориентации по сторонам света гелиотеплиц для

середины декабря и марта месяцев, при ясной погоде и при наличии или отсутствии внутри рассматриваемых гелиотеплиц растительного покрова.



Рис.1. Дневные ходы коэффициентов естественной аккумуляции тепла солнечного излучения в почве гелиотеплицы для экваториального(*а*) и меридионального (*б*) расположения с одно- (пунктирная) и двухслойными (сплошная) светопрозрачными пленочными ограждениями полуцилиндрической формы для середины декабря:1 и 1'-при наличии в теплице растительного покрова; 2 и 2'- при отсутствии растительного покрова.



Рис.2. Дневные ходы коэффициентов естественной аккумуляции тепла солнечной излучения в почве гелиотеплицы для экваториального(*а*) и меридионального (*б*) расположения с одно-

(пунктирная) и двухслойными (сплошная) светопрозрачными пленочными ограждениями полуцилиндрической формы для середины марта:1 и 1'-при наличии в теплице растительного покрова; 2 и 2'- при отсутствии растительного покрова.

На рис.1 и 2 приведены дневные ходы коэффициентов естественной аккумуляции тепла солнечного излучения в почве гелиотеплиц с одно- и двухслойным светопрозрачными пленочными ограждениями полуцилиндрической формы, имеющими экваториальную и меридиональную ориентации сторонам света для середины декабря и марта месяцев, при ясной погоде и при наличии или отсутствии внутри рассматриваемых гелиотеплиц растительного покрова пленочными ограждениями начинается с 8.30 утра и заканчивается в 15.00 дня. Значения $k_{ак}$, в основном зависит от наличия или отсутствия растительного покрова в гелиотеплицах и незначительно зависит от их орентации по сторонам света. Так, максимальные значения k_a в гелиотеплицах, имеющих двухслойные светопразрачные ограждения и экваториальную орентацию, при наличии и отсутствии в них растительного покрова составляют, соответственно, 0,4549 и 0,6645 (в 11ч), а в гелиотеплицах, имеющих меридиональную ориентацию -0,4405 (в 11ч) и 0,6459 (в 10 ч 30 мин), что в среднем больше на 3,2%. При отсутствии растительного покрова внутри гелиотеплиц значения $k_{ак}$ выше, чем при наличии и в максимуме их разница составляет в среднем 46%.

Из анализа графиков рис.2 *а* и *б* следует, что в марте месяце:

-максимальные значения $k_{ак}$ в гелиотеплицах, имеющих меридиональную ориентацию, при наличии и отсутствии в них растительного покрова составляют 0,4363 (11ч 30 мин) и (11ч), в гелиотеплицах, имеющих экваториальную орентацию – 0.4643 и 0.6692, что в среднем на 6,5% больше; -как и предполагалось, $k_{ак}$ при отсутствии в них растительного покрова внутри гелиотеплиц выше, чем при его наличии, и в максимуме (11 ч) эта разница составляет в среднем 44%.

Предложена методика определения коэффициента естественной аккумуляции тепла солнечного излучения в почве гелиотеплицы и выявлена степень зависимости от числа слоев орентации светопрозрачного пленочного ограждения гелиотеплиц.

Литература

1.Абдуллаев А. Нестационарные тепловые режимы и оптимизация основных параметров пленочных гелиотеплиц полу- цилиндрической формы. Дисс. канд. техн. наук. Ташкент. 2007.184 с.

CRITERIA FOR DETERMINING THE SET OF INTERNATIONAL SECURITY TERMS IN MODERN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

G.A.Norimova

Language is a mobile system, changing and developing along with the course of history and the transformation of the thinking of the people who speak the language. In recent decades, the German language, as one of the main languages of Europe, has seen rapid changes in vocabulary. What is the reason for the rapid replenishment of vocabulary? There are several points of view on this matter, but in our opinion, the English language played a significant role in enriching the German language with new words. It was this language that enriched the German language with numerous synonyms and new concepts. Since English is increasingly popular in the world and is one of the international languages in which negotiations and training are conducted in many countries of the world, scientific conferences are held, reports are published, etc., most new words come from this language. Borrowing is one of the most dynamic processes in modern languages and is of interest from the point of view of interaction between English and German. A borrowed word is defined by E. Haugen as a transferred lexeme, while the scientist emphasizes that its form in the borrowing language must be in more or less complete diaphonic correspondence with the foreign model. Otherwise, we are dealing with borrowing-shift (a shift occurs in the meaning of the lexeme of the native language), induced formations, borrowed formations, borrowed extensions (of meanings) [Haugen, 1972, p. 358]. So, borrowing is defined as the transition of elements of one language into the system of another language

as a result of more or less long-term contacts between these languages under the influence of intra- and extralinguistic factors [Krysin, 1996, p. 18] At different stages of language development, the following could be borrowed: - phonemes (the phoneme “f” was borrowed from the Greek language); - morphemes (“-ism”, “anti-” and others); —formation of syntactic structures based on foreign language models (for example, the combination “Summing up” is the result of the influence of English syntax); -words. The last type - lexical borrowing - is the most frequent and typical type of linguistic borrowing. The reasons for lexical borrowing can be external and internal. Let's briefly look at each of these reasons. According to E.V. Rosen, external borrowings should be considered those borrowings that arise as a result of close political, trade and economic ties between native peoples. As a rule, the result of this influence is the borrowing of a word along with the introduction into everyday life of a thing or concept from another region (These are words like computer). With regard to internal borrowings, it is believed that they arise in connection with the differentiation of names, since the language has an inherent tendency to stratify linguistic means according to meaning. As a result of this process, the meaning expressed by one word can be clarified with the help of another sound-graphic shell, and these two meanings receive a native and foreign language nomination, for example, there is fear and panic, story and reportage [Rosen, 1991]. Before establishing for what reasons anglicisms enter the Uzbek language, it is necessary to define this concept and find out in what area Uzbeks use them especially actively. Anglicisms are English words or expressions that have penetrated into another language and been adapted by it. In Germany, this process has been going on for several decades, and now it is very fashionable to use English words instead of German ones. As a rule, this is typical, first of all, of representatives of the younger generation. Those who speak English use them often and easily. In shopping centers or large train stations, English expressions are found at every step: Sale (sale), Moon light (moonlight), Check in (registration), Image–Centre (prestigious center), City–Shopping (visiting a store in the city). What is the proportion of borrowed words in the German language? How often are English loanwords used in modern German? Denisova Yu.N. writes that if the German lexical composition has approximately 300,000–500,000 words, then the number of borrowed words varies within 100,000 words. Most borrowings are among nouns, followed by adjectives, then verbs, and only then other parts of speech. However, even in advertising texts, which are considered the most saturated with foreign words, the number of English borrowings is 4% of all words used [Denisova, 2000]. Scientists have identified several reasons for the penetration of English words and expressions into the German language and their successful adaptation: All countries of the world are in close connection with each other. Political and economic events, social upheavals that some countries experience affect political life in other countries and bring with them new vocabulary, concepts and expressions into other languages. The German language was enriched by Greek and Latin words in the 15th and 16th centuries. As a result of this process, many internationalisms emerged. In the 17th–18th centuries, the German language came under the influence of the French language. In the period after World War II, Germany was under the political and economic influence of the United States and England, which caused a flow of new words from the Anglo-American linguistic space. Anglicisms from various professional fields and, above all, sports, music, economics and technology penetrate into everyday life, for example, Fan (fan), Match (match), Job (work), Team (team), Computer (computer). These areas are most susceptible to foreign language influence, as new terms arise in connection with the use of new technologies, mainly from the USA. Professionalisms provide rich material for the development of the language system. Many terms today are actively moving into everyday speech. Scientists believe that the introduction of foreign words into the German language is caused by the lack of special names in it for some objects, things, and concepts coming from abroad, which can only be denoted by description, using phrases or even entire sentences. For example, Public Relations (public relations) means in German: Öffentlichkeitsarbeit (work with the public), öffentliche Beziehungen (public relations), Kontakt- und Meinungspflege (maintaining contacts and processing opinions) [Denisova]. As for the prevalence of the use of Anglicisms, there is their total penetration into all spheres of life in Germany. These areas include, first of all, advertising, which willingly uses English and American concepts to promote someone else’s way of life and present to its clients the spirit of another “desirable and beautiful” world. Advertising agents believe that Germans are more comfortable buying Lotion (lotion), Snacks (cookies), Conditioner (conditioner). Advertising vocabulary is widespread: Slogans (slogan), Marketing (marketing),

Corporate Identity (corporate style), Promotion (advertising campaign), Image (image), Message (message); technology, especially the world of computers and the Internet, which leaves its own special imprint on the language: Mouse (computer mouse), E-Mail (e-mail). The German language has previously had in its arsenal such technical anglicisms from other areas of technology as: Airbag (air cushion), Display (screen), Playstation (game console), Joystick (joystick), etc.; a sport that is expanding to include typical American sports, in connection with which corresponding concepts penetrate that make it easier for athletes and fans to communicate and understand: Surfing (gliding on the crest of the surf on a special board), a word that has formed its own thematic circle, including Surfboard (surfboard), windsurfer (surfing athlete), surfen (to surf). In the field of sports, there is a transnomination - the replacement of German names with English ones: instead of Trainer - der Coach. Sports commentators have added the following words to the thesaurus of sports fans: der Crack (outstanding athlete), der Libero (free player), der Hobby-Sportler (amateur athlete). art and music, which have been replenished with new directions: Action-Painting (abstract American painting), Pop-Art (pop art); the art of decorative posters introduced the word der Poster (poster-poster), the Rock movement was revived in music, hence Rock-Revival, der Flop, which is an antonym to the word der Hit. Consideration of one of the ways to replenish the German language with new words, namely borrowings from the English language, showed its obvious productivity. But is such a development good for the national language when its speakers prefer to speak differently from what was customary before? What is beautiful about the fact that a language loses its originality, following the lead of fashion? It is unlikely that ordinary Germans pose such questions; they are not confused by the large number of English words in the German language.

Literature:

1. Denisova, Yu.N. English borrowings in German advertising texts [Electronic resource] / Yu.N. Denisova, E.V. Korneva.—Voronezh: VSTU, 2000.—Access mode: http://tpl1999.narod.ru/
2. Krysin, L.P. Foreign words in modern life / L.P. Krysin // Russian language of the end of the twentieth century. - M.: Education, 1996. - 261 p.
3. Krysin, L.P. Foreign language word in the context of modern public life / L.P. Krysin // Russian language at school. M., 1994, N. 6 - p. 56–63.
4. Rosen, E.V. New words and stable phrases in the German language / E.V. Rosen.— M.: Education, 1991–192 p.
5. Haugen, E. The process of borrowing / E. Haugen // New in linguistics: Language contacts. Vol. 6 M.: Progress, 1972.— p. 344–382.
6. Carstensen, Broder, Hengstenberg, Peter: Zur Rezeption von Anglizismen im Deutschen / Broder Carstensen, Peter Hengstenberg //Germanische Linguistik, 1982.— S. 1–4, S. 67–118

METHODS OF WORKING WITH INDEPENDENT EDUCATION IN PHILOLOGICAL TEXT ANALYSIS CLASSES

D. Shavkiyeva

With the advent of the Internet, communication between like-minded people has become much more accessible. Internet users often form communities where they come into contact with people who share their views. Members of the reference group sooner or later encounter an opposing community, whose supporters, with their views, form the first contrast. With the emergence of such a community, discussion of issues important to opposition groups takes the form of a discussion, often turning into an open dispute and showdown, and mutual exchange of insults. With this style of communication, it is natural and inevitable that a negative attitude towards opponents will arise. Related to the hostile attitude is the often portrayal of polarizing supporters in such communities in a very unsightly light. And one of the ways of such “denigration” is the creation of a generalized speech portrait of members of the contrasting group using “connotative quotation” - a method of transmitting someone else’s speech that reflects the attitude of the quoter to the quoted person. In our study, the contrasting communities are virtual groups of childfree (“childfree” (English childfree - free from children; English childless by choice, voluntary childless - voluntarily childless) - a subculture and ideology characterized by a conscious reluctance to have children. The main idea of childfree is refusal from children in the name of personal freedom and propaganda of a childless lifestyle [1]) and mothers

In Uzbekistan, 16.3 percent of the able-bodied population will be employed in industrial production in 2021. It should be noted here that the provision of the republic's industry, employment of the able-bodied population with socially useful work, one of the measures to combat poverty, is improving at an accelerated pace. The more intensive development of the industry, combined with a significant increase in the level of employment, leads to a further increase in the number of production personnel and their position in society.

LITERATURE REVIEW

There are different approaches to the prevention and study of poverty, which has become a pressing problem. First of all, it is assumed to develop a marketing strategy for the development of the agricultural economy, because the agricultural economy aims to deliver food to the population

Z. M. Ilyina suggests using the following approaches to analyze the role of industry and the sustainability of food production in agriculture [2]: static (determining the limits of market development); dynamic (studying the vibration of a number of speakers); adaptive (factorial assessment of the degree of adaptation of the food system to changes in external conditions).

Uzbekistan is a country with rich natural, mineral, raw materials and labor resources, a huge investment potential. The decisive factor ensuring the success of investment activity in Uzbekistan is the regular and continuous improvement of effective legislation regulating the set of necessary issues, one way or another related to investment.[3,4]

RESULTS AND DISCUSSION

In our research panel, the dynamics of production volumes in the industrial sector of our economy from 2020 to 2022 and the place and role of industry in the national economy are analyzed. For our analysis, data are used from 13 Industrial production sectors within the industrial sector. Therefore, our data has four years of indicators. According to the indicators of our data, the volume of production in the industry is increasing year by year. This is also observed in some of his compositions.

The following statistical indicators were used to quantitatively assess the dynamics of the studied events and processes;

-Absolute change;

-A picture of change;

The role and place of industry in the national economy can be clearly seen from the following table (**Figure 1**). The table below shows the dynamics of production volumes in the structure of the industrial sector of our economy.



Figure 1 Production volume dynamics by industrial production sectors

The main factor of such growth is that the state itself is pursuing a reform strategy on a par with the policy of industrialization. Among those that make up the leading positions in industrial production, one can name mechanical engineering and metalworking, light industry, food industry, non-ferrous metallurgy. The basis for achieving positive indicators was, first of all, the preservation of existing industries in the required volume and the creation of new industry strategies. Indeed, since the first years of independence, the development of the real sector has become one of the priorities for the Government of Uzbekistan. With fuel and energy products in our republic.[5,6,7]

During the short period of the formation of state independence, a legislative framework for investment activity was created in the republic. It is in the legislation that a fairly broad system of legal guarantees and preferences for attracting domestic and external investments has been reflected. These legislative acts consist of laws of the Republic of Uzbekistan, **decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan and resolutions of the Cabinet of Ministers**.

In particular, a number of opportunities have been created in our Syrdarya region for the consistent development of industry, at the same time there are a number of systemic problems that hinder the consistent development of industry in the region. In particular;[8,9]

firstly, the lack of a well-coordinated technological chain for the production of finished products with high added value, despite the sufficient potential of the network;

secondly, the light industry management system does not meet the current trends in the development of the industry, which leads to the accumulation of unresolved problems;

thirdly, unsatisfactory work on the harmonization of national standards and light industry testing laboratories with international standards and requirements, as well as the low level of implementation of modern quality management systems hinder the promotion of domestic products to large foreign markets, increase export potential and increase confidence in the quality and safety of products;

I believe that in solving this number of problems, we will be able to achieve further improvement of industrial development in our area and solve problems through the following areas.

firstly, by increasing the share of light industry in the regional economy, increasing the volume and quality of light industry products produced in the country, primarily competitive textile products with high added value, by reorienting to high-tech production Including.

secondly, a radical revision of the light industry management system in our region with the introduction of advanced management technologies, effective forms of comprehensive assistance and support to industry enterprises, including in solving problems that hinder their development;

thirdly, further improvement of the system of standardization and certification in the field of light industry through harmonization with international requirements and standards, as well as modernization and accreditation of product testing laboratories;

CONCLUSION

Taking into account the current trends in the development of industries, it is necessary to determine the real need for personnel in industry and promising areas of their training, take part in improving training programs for training, retraining and advanced training of specialists, deepening research in this area, identifying and eliminating systemic problems that hinder the accelerated development of the industry and the sustainable functioning of light industry enterprises, developing proposals for further improvement of legislation in this area.

The organization of production in the republic of a wide range of high-quality textile and sewing and knitting products, deepening the localization of its production, as well as increasing the export potential of domestic producers are of great importance for the role of foreign investment in the Republic of Uzbekistan, which gives Uzbekistan all the conditions for joining the group of countries where huge foreign investments are directed, a number of advantages for attracting foreign investment. Since our country gained independence, the creation of a favorable investment climate has been one of the central issues of our state's economic policy. In a market economy, specific sources of financing for investments in fixed and current production assets of enterprises are formed, such sources are based on the principles of self-financing of enterprises.

REFERENCES:

1. Sh. Mirziyoyev.M. Message of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis.December 28, 2020. Source: http: press-servis.uz

2. Ilyina Z.M. Sustainable development of the food system: methodological aspects / Z.M. Ilyin // Vests of the National Academy of Sciences of Belarus. Series of agricultural sciences. - 2013. - No. 2. - S. 9-19**.**

3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 1, 2021 No. UP - 6198 “on improving the system of public administration for the development of scientific and innovative activities".

4. Innovation management. Surin A.V. Molchanova And O.P., M.: Infra-M, 2008. - 368 p .

5.Khamidov S. Modern trends in the development of industry in Uzbekistan: reforms and results, market, money and credit. - Tashkent, 2015. No. 7,22-28 b;

6. Journal**.** To‘rayeva, G. (2023). Iste'mol savatida g‘alla yetishtirish barqarorligining ahamiyati. E3S Web *of Conferences da* (420-jild, 01019-bet). EDP fanlari.

7. Committee for Combating Monopoly of the Republic of Uzbekistan https://lex.uz/docs/-4342729

8. Agricultural economy agro.uz. Ministry of Agriculture https://www.agro.uz/

9. Information on the Commodity Exchange of the Republic of Uzbekistan https://uzex.uz/

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

Aliqulov Ravshan Shodiyor o‘g‘li, Aliqulova Hamidabonu Abdurasul qizi

Guliston Davlat Universiteti “Raqamliy iqtisodiyot va innovatsiyalar insitituti” Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi o‘qituvchisi

rovaaliqulov06@gmail.com telefon raqam +99894 919 90 00

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 2-bosqich talabasi
Aliqulovahamidabonu@gmail.com telefon raqam +99894 912 59 59

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mamlakatimiz aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari, asosiy yo'nalishlari izohlangan.*

Kalit so'zlar: *Oziq-ovqat xavfsizligi,qishloq xo'jaligi mahsuloti, ekologik toza mahsulotlar, barqarorlik,dunyo,aholi,ochlik, ishlab chiqarish*

Kirish:

Ma'lumki, inson organizmi uchun yashashi va rivojlanishi uchun oziq-ovqat mahsulotlarining o'rni juda ham zarurdir. Keyingi yillarda O'rta osiyoda iqlimning keskin darajada o'zgarish, ekologik vaziyatni yomonlashishi, dunyo miqyosida demografik ko'rsatkichlarni ortb borishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari va uning xavfsizligiga bo'lgan talablarni tobora ortishiga sabab bo'lmoqda.

Dunyo miqyosida aholining ortib borish nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga, ijtimoiy-iqtisodiy holatlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.Oziq-ovqat xavfsizligi juda keng ma'nodagi tushuncha bo'lib,birinchi navbatda mustaqil davlatning boshqa davlatlarga aynan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan bog'liq,ya'ni tobe emasligini bildiradi. Shuningdek,aholi ehtiyojini fizologik me'yorlariga mos ravishda iste'mol tovarlari bilan yetarli darajada ta'minlashni nazarda tutadi. Shunday holatlardan kelib chiqib O' zbekistonda xozirda oziq ovqat havfsizligi dasturi va dehqon va fermer ho' jaliklarini yanada isloh qilish yuzasidan istiqbolliy rejalar ishlab chiqilmoqda.

Asosiy qism:

So'nggi yillarda iqlimning tobora o'zgarishi oqibatida yerlarni sho'rlanishi ortib bormoqda.Tuproqlarning strukturasining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish borasida olib borayotgan samarali faoliyatga qaramasdan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi aholi soni o'sishidan orqada qolmoqda, bu esa qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun yetarli sharoit mavjud bo'lmagan mamlakatlarda muammo tobora chuqurlashib borayotganini ko'rsatmoqda. BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda Butunjahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi,ya'ni deyarli har 8 odamning biri to'yib ovqatlanmayapti. Eng so'ngi tadqiqotlar esa sayyora aholisining 30 % dan ziyodi to'yib ovqatlanmaslik oqibatida eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosidan aziyat chekayotganini, 52 mamlakatda ochlikning " jiddiy ", " havotirli " darajalari qayd etilganini ko'rsatmoqda. Ochlikdan aziyat chekayotgan aholining aksariyati,ya'ni, 520 milliondan ortig'i Osiyoliklar ekanligini takidlash joizdir. Aholi soni tez ko'payib borayotgani, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklanayotgani sababli ko'plab mamlakatlarda aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash masalasi asosiy muammoga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikyillarida Qishloq xo'jalik sohasida juda katta yutuqlar qo'lga kiritildi, jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 barobar ortdi. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash,fuqarolarning sog'ligi va hayotini yaxshilash, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqaror rivojlantirish, milliy xavfsizligi va mamlakat mustaqilligini barqaror saqlashning asosiy yo'nalishilaridan biriga aylandi. Bu borada Respublikada aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni qo'llab – quvvatlash bo'yicha strategik jihatdan maqsadli hamda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonvich Mirziyoyev tomonidan 2022-yil PF 60 sonli farmonida "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmonining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida ham oziq-ovqat xavfsizligiga alohida e'tibor qaratilib, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrarsektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Prezidentimizning 2022-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlis Murojaatnomasida “Qishloq xo‘jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko‘rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va xalq farovonligini oshirishdan iborat ekanligi qayd etilgan.Shunga muvofiq Vazirlar Mahkamasining “2019 - 2024 yillarda mamlakatimizda oziq – ovqat xavfsizligini ta‘minlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida ”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur qarorning ijrosi bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda dastruru amal bo‘lib xizmat qiladi.

Mutaxassislarni ta‘kidlashiga ko‘ra, 2023-yil yanvar-sentyabr oylarida qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmi 248.6 trln so‘mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 3.6 % ga oshgan. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yil 9 oyida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmida sabzavotlar yetakchilik qilyapti – 8 mln tonna. Ushbu ko‘rsatkich qolgan mahsulotlar kesimida quyidagicha: don mahsulotlari – 6.7 mln tonna; kartoshka – 2,6 mln tonna; poliz ekinlari – 1.6 mln tonna; meva va rezavorlar – 2.2 mln tonna; uzum – 1.4 mln tonna.

XULOSA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning hozirgi bosqichida mevasabzavotchilikni uzoq muddatga barqaror rivojlantirishini ta‘minlab, tarmoq samaradorligini oshirish orqali oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish,uning xavfsizligini ta‘minlash,eksportini kengaytirish hamda xalqimizning turmush sharoitini imkonini beradi. Aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta‘minlash mamlakat oziqovqat xavfsizligining bir qismi hisoblanadi. Aholini asosiy oziq-ovqat turlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, oziq-ovqat narxi va sifati uyg‘unligini ta‘minlash va oziq-ovqat xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir

AQShning The Economist Intelligence Unit izlanishlar markazi o‘tkazgan tadqiqotga ko‘ra, O‘zbekistonda oziq-ovqat “xavfsizligi” reytingida dunyoda 64 o‘rinni egalladi. Bir yil oldin O‘zbekiston 75 o‘rinda edi

Reytingi	Mamlakat	Yakuniy	Maqbullilik	Mavjudlik	Sifat va havfsizlik
1	Singapur	87.4	95.4	83.0	79.4
2	Irlandiya	84.0	90.5	76.8	87.7
3	AQSH	83.7	87.7	78.3	89.1
4	Shvetsariya	83.1	83.8	84.3	78.2
5	Finlandiya	82.9	84.1	78.3	91.8
6	Norvegiya	82.9	81.9	81.0	90.5
7	Shvetsiya	82.7	85.0	78.1	89.4
8	Kanada	82.4	83.3	80.0	86.7
9	Niderlandiya	82.0	85.0	76.2	88.9
10	Avstrya	81.7	85.4	78.6	81.1

Reyting hisoblashda mutaxassislar mamlakatdagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi, hajmi va sifatini hisobga olishdi. Umumiy dunyo reytingida 109 mamlakat qatnashdi. Ushbu reytingda O‘zbekiston 64 o‘rinni egalladi. O‘rinlar mamlakatda yetishtirilayotgan oziq-ovqat narxi, hajmi va sifatiga qarab belgilanadi. Keling ular bilan batafsil tanishib chiqaylik.Oziq-ovqat narxi bo‘yicha O‘zbekiston 57 o‘rinda. Demak 109 dunyo mamlaktalari bilan solishtirganda, O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari narxi - o‘rtacha, arzon ham emas, qimmat ham emas. Oziq-ovqat hajmi bo‘yicha O‘zbekiston 65 o‘rinda. Izlanuvchilar fikriga ko‘ra O‘zbekistonda, aholi soniga kuniga 39 000 kaloriya oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilar ekan. Vaholanki, olimlar fikriga ko‘ra 18-40 yoshli erakak kishi uchun kuniga 3000 kaloriya iste’mol qilish yetarli. Demak, O‘zbekiston o‘z aholisidan 13 baravar ko‘p aholini boqishi yoki katta miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilishi mumkin. Uchinchidan, oziqovqat mahsulotlari sifati. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston - 83 o‘rinda. Shu o‘rinda, bizda nega bunday, axir O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari juda yuqori sifatli ekanini biz yaxshi bilamiz-ku, degan savol tug‘ildi. Afsuski, amerikaliklar ushbu ko‘rsatkichni mahsulotlarning haqiqiy

sifatiga qarab emas, balkim kraxmalsiz mahsulotlar soni, parhez taomlar xilma-xilligi, o‘g‘itlar ishlatilishi ustidan nazorat va milliy oziq-ovqat strategiyasi kabi, ikkilamchi ko‘rsatkichlar yordamida hisoblagan.Ushbu reytingda MDning boshqa davlatlari ham kiritilgan, Qozog‘iston (56 o‘rin), Tojikiston (88 o‘rin) va Rossiya (43 o‘rin).Birinchi o‘rinda esa AQSH, Singapur, Irlandiya, Avstriya va hokazolar.

O‘zbekiston shaharlarning oziq-ovqat oqimlarini o‘zlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining import tariflari ko‘rsatkichlarini yaxshiladi. Ammo, shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘zgaruvchanligi, qishloq xo‘jaligi sohasida tadqiqot qilish uchun davlat xarajatlari va oziq-ovqat mahsulotlarining o‘rtacha narxidagi o‘zgarishlar kabi ko‘rsatkichlari salbiy dinamikani ko‘rsatdi

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli “ O‘zbekiston Respublikasini Yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. Toshkent sh. 2017-yil 7-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlis Murojaatnomasi 2018.28.12.

3. 2019-2024 –yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida ID-2722 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mhkamasining qarori.

4. Ahmedova, D. M., Nizomov, N., Ahmedov, R., &Turdiyeva, N. (2022). ATROF-MUHIT MUHOFAZASIDA CHIQINDILAR MUAMMOSI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 696-702.

5. Akhmedova, D. M., &Turdieva, N. (2021). Bio ecological characteristics of climatic landscape plants of fergana city. ACADEMICIA: AnInternational Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1390-1394

SANOAT ULUSHINI OSHIRISHDAGI(XUSUSAN ENGIL SANOAT) MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Tursunqulova Muxlisaxon Xayotjon

Annotatsiya. Sanoat tarmoq tuzilmasi o‘zgarishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri fan-texnika taraqqiyotidir. Fan-texnika taraqqiyoti eng avvalo, yangi mehnat vositalari va mahsulotning yangi turlarini yaratish, mavjud asbobuskunalar va texnologiya jarayonlarini takomillashtirish, yangilarini joriy etish bilan bog‘liq. Bu esa, mavjud sanoat tarmoqlaridan yangidan-yangi sohalarning ajralib chiqishiga va shakllanishiga turtki beradi. Natijada progressiv hisoblangan avtomobilsozlik, asbobsozlik, radiotexnika va elektronika, lazer texnologiyasi tez sur’atlar bilan rivojlanadi.

Kalit so‘zlar: Agrosanoat, Sanoat tuzilmasi, YaIM deflyatori indeksi, investitsiya loyihalari, import xajmi, dasturiy kompleks

Kirish. Sanoatning tarmoq tarkibini 2030 yilga qadar takomillashtirish YaIMda sanoat ulushini rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibidagi xarakterlarga xos bo‘lgani kabi 2018 yildagi 35,6%dan 2030 yilda 40% oshirish bilan asoslanadi. Bu maqsadga erishi uchun, “shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar yuqori salohiyatga ega bo‘lgan har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo‘yicha chuqur qayta ishlashning 2020, 2025, 2030 yillarga mo‘ljallangan aniq dasturiga ega bo‘lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi.Ayni shu ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, ya’ni, jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilgan, o‘zimizning resurs va imkoniyatlarimizni real baholagan
`

Tahlil va natijalar. Viloyatimizda sanoatni izchil rivojlantirish uchun bir qancha imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, shu bilan birgalikda viloyatimiz sanoatining izchil rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan bir qancha tizimli muammolar mavjud.

Xususan; birinchidan, tarmoqning etarli salohiyatiga qaramasdan, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda uyg‘unlashgan texnologik zanjirning mavjud emasligi;

ikkinchidan, engil sanoatning boshqaruv tizimi tarmoqning zamonaviy rivojlanish tendentsiyalariga javob bermaydi, bu esa hal etilmagan muammolarning to‘planib qolishiga olib kelmoqda;

uchinchidan, milliy standartlar va engil sanoatning sinovlari bo‘yicha laboratoriyalarning xalqaro standartlar va talablar bilan uyg‘unlashtirish ishlarining qoniqarsizligi, shuningdek sifat menejmenti zamonaviy tizimlarini joriy etishning past darajada ekanligi, mahalliy mahsulotlarini yirik xorijiy savdo bozorlariga chiqarishiga, eksport salohiyatini yuksaltirishga hamda mahsulotlar sifati va xavfsizligiga bo‘lgan ishonchni oshirishga to‘siq bo‘lmoqda;

to‘rtinchidan, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasi mavjud muammolarini tizimli tahlil qilish va to‘qimachilik sanoatini rivojlanishining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash uchun shart-sharoit qoniqarsiz;

- beshinchidan, xom ashyo va ishlab chiqarish resurslarining nooqilona taqsimlanishi, logistika va muhandislik infratuzilmasini tashkil etishdagi kamchiliklar ishlab chiqarish quvvatini ancha qismini to‘xtab qolishiga, iqtisodiy yo‘qotishlarga va oqibatda mahsulotlar tannarxining oshishiga, shuningdek, ishlab chiqarish rentabelligini oshishiga olib kelmoqda;

oltinchidan, sanoat korxonalarimizda, xususan, to‘qimachilik yarim tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishning barqaror ustunlik qilishi, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon bozorlarida munosib raqobatlashishga qodir bo‘lgan milliy brendlarni shakllantirishning etarli darajada emasligi to‘qimachilik sanoati korxonalari daromadlarini oshirish imkonini bermayapti;

ettinchidan, kadrlar tayyorlash tizimi sanoatining real ehtiyojlariga javob bermaydi, tarmoqlarni rivojlantirishning dolzarb masalalari bo‘yicha `Bu bir qator muammolarni hal qilishda viloyatimizdagi sanoat rivojini yanada takomillashtirish va muammolar echimini quyidagi yo‘nalishlar orqali hal etishimiz mumkin deb o‘ylayman. Jumladan:

-birinchidan, viloyatimizda engil sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan engil sanoat mahsulotlarining, eng avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh to‘qimachilik mahsulotlarini yuqori texnologik ishlab chiqarishga qayta yo‘naltirish orqali hajmi va sifatini oshirish;

-ikkinchidan, viloyatimizda engil sanoatning boshqaruv tizimi ilg‘or menejment texnologiyalari, tarmoq korxonalariga har tomonlama ko‘maklashish va qo‘llab quvvatlashning, shu jumladan ularning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi muammolarning hal etishda samarali shakllarini joriy etgan holda tubdan qayta ko‘rib chiqish;

-uchinchidan, engil sanoat sohasidagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini xalqaro talab va standartlarga uyg‘unlashtirish, shuningdek mahsulotlar sinov laboratoriyalarini modernizatsiya qilish va akkreditatsiyadan o‘tkazish orqali yanada takomillashtirish;

-to‘rtinchidan, tarmoqqa engil sanoat mahsulotlarini mahalliy va xorijiy bozorlarining holati hamda rivojlanish tendentsiyalari haqida ishonchli va o‘z vaqtida axborotlar olishni ta’minlash imkonini beruvchi ilg‘or axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tarmoq rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida uni tizimli va kompleks tahlil qilish;

-beshinchidan, paxta xom ashyosini etishtirishdan boshlab unga dastlabki ishlov berish, mahsulotni paxta tozalash korxonalarida keyingi qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor engil sanoat mahsuloti chiqarish bosqichigacha bo‘lgan ishlab chiqarishni integratsiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klaster modelini amalga oshirish;

-oltinchidan, xom ashyo resurslari taqsimotining mutanosibligi va tashkil etilayotgan tarmoq korxonalarining logistika va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish bilan o‘zaro uzviy bog‘liklikda, shu jumladan, ko‘p funktsiyali transport-logistika xablarini qurish, yuklarini etkazishning optimal yo‘nalishlari hamda yo‘laklarini tanlash, shuningdek, tranportda yuk tashish ta’riflarini optimallashtirish orqali joylashuvini ta’minlash;

-ettinchidan, yuqori sifatli tayyor engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportini kengaytirish, milliy brendlarni jahon bozorlariga ilgari surish maqsadida ishlab chiqarish jarayonida ilg‘or va innovatsion texnologiyalar, nou-

`-sakkizinchidan, talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha yo‘nalishlarni kengaytirgan holda engil sanoat uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, talim muassasalarining o‘quv dasturlarini tarmoqning zamonaviy rivojlanish

tendentsiyalarini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish, ilmiy tadqiqot faoliyatini, shuningdek, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni faollashtirish.

Tarmoqlarning zamonaviy rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olgan holda sanoat sohasida kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojning va ularni tayyorlashning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakzsini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirishda ishtirok etish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish, tarmoqning jadal rivojlanishi va engil sanoat korxonalarining barqaror faoliyat ko‘rsatishiga to‘sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish, mazkur sohada qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish zarur.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda sanoatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishjarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilgan bo‘lib, ular sanoat tarmoqlaridagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va tarkibiy siljishlar bilan birgalikda bashorat qilinadi. Sanoatning tarmoq tarkibini 2030 yilga qadar takomillashtirish YaIMda sanoat ulushini rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibidagi xarakterlarga xos bo‘lgani kabi 2018 yildagi 35,6%dan 2030 yilda 40% oshirish bilan asoslanadi. Bu maqsadga erishi uchun, “shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar yuqori salohiyatga ega bo‘lgan har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo‘yicha chuqur qayta ishlashning 2020, 2025, 2030 yillarga mo‘ljallangan aniq dasturiga ega bo‘lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi.

Respublikamizda keng turdagi sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliylashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar roli ahamiyati shundaki, O‘zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yo‘naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalli klarga ega. Mamlakatimiz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 iyulda “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4406-sonli Qarori

2. Prezidentimizning 2018 yil 4 martdagi «2018-2020 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 14 yanvardagi 18-sonli qarori;

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 22 iyundagi PQ-386-sonli qarori;

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2007 yil 8 maydagi 93-sonli qarori;

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 maydagi PQ-879-sonli qarori;

7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 3 iyuldagi 149-sonli qarori

RESPUBLIKADA YER VA SUV RESURSLARIDAN OQILONA VA SAMARALI FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Safiyeva Nigora Nurmuhammadovna

Guliston Davlat Universiteti “Raqamliy iqtisodiyot va innovatsiyalar insitituti” “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasi o‘qituvchisi

Nigorasafiyeva87@mail.com telefon raqam +99891 506 29 09

Annotatsiya. *Ushbu maqolada respublikada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi sohasiga aqlli texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va markazlashtirish, sohaga davlat tomonidan subsidiyalar ajaratish, qishloq xo‘jaligi yer maydonlarini har tomonlama muhofaza qilsh masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *yerdan foydalanish, aqlli texnologiyalar, sug‘oriladigan yerlar, raqamli texnologiyalar,irrigatsiya va melioratsiya,boshqarish samaradorligi, mulkchilik, subsidiya.*

Kirish:

Aholi sonining o‘sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillardir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston dunyoda egallagan o‘rnini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o‘z mavqeini yaxshilab oldi. O‘zbekiston Respublikasi 2018 yilda Global ochlik indeksi bo‘yicha 119 mamlakat orasida 52- o‘rinni egallab, 12,1 ko‘rsatkich bilan «mo‘tadil» darajaga erishdi. Biroq, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o‘zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar unumdor yerlarga taalluqli bo‘lib, umummilliy boylik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami yerlar 44 892,4 ming gektarni tashkil etib, yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko‘ra 8 ta toifaga bo‘linadi, jumladan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, aholi punktlarining yerlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, o‘rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari; zaxira yerlar.

Asosiy qism:

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligimahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln gektar sug‘oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xom ashyo yetishtirilmoqda. Sug‘oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta’minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko‘lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda. Natijada 2008-2017 yillar mobaynida 1,7 mln gektardan ortiq sug‘oriladigan maydonlarning suv ta’minoti hamda 2,5 mln gektar maydonlarning meliorativ holatining yaxshilanishiga erishildi. Biroq, global iqlim o‘zgarishi natijasida so‘nggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga kelganligi sug‘oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelgan. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar unumdor yerlarga taalluqli bo‘lib, umummilliy boylik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektarni, shundan haydaladigan yerlar 3 988,5 ming gektarni, ko‘p yillik daraxtzorlar 383,1 ming gektarni, bo‘z yerlar 76 ming gektarni, pichanzor va yaylovlar 11 028,3 ming gektarni, boshqa yerlar 4 760,4 ming gektarni tashkil qiladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash, yer-suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g‘alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda

TADQIQOT NATIJALARI

Shu bilan birga, respublika aholisi sonining yuqori sur’atlar bilan o‘sib borishi, qishloq xo‘jaligi yerlarining boshqa toifaga o‘tkazilishi va global iqlim o‘zgarishi ta’sirining keskinlashuvi oqibatida

oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan yer maydonlari o‘lchami 24 foizga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), o‘rtacha yillik suv ta’minoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqardi. Uzoq yillar davomida qishloq xo‘jaligi yerlaridan nooqilona foydalanish natijasida tuproqning tabiiy unumdorligi va ekinlar hosildorligi pasayib, yetishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, atrof muhit ifloslanishi ortib bormoqda. Jumladan, sug‘oriladigan ekin yerlaridagi tuproqlarning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida almashuvchan kaliy miqdori, 79,3 foizida gumus (chirindi) miqdori o‘rtachadan past darajaga tushib qolgan. Milliy daromadi O‘zbekiston bilan deyarli bir xil bo‘lgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun davlat budjetining 4-5 foizi yo‘naltiriladi yoki YaIMga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda 1 foizdan ortiqroqni, daromadi yuqori bo‘lgan davlatlarda esa 1 foizdan kamroqni tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligida o‘rtacha yillik suv sarfi 45 696 mln metr kub yoki iqtisodiyot tarmoqlarida iste’mol qilingan suv resurslarining 90 foizini tashkil etib, yuqoriligicha qolmoqda. Yer va suv resurslari tobora tanqis bo‘lib borayotgan sharoitda qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishda ekinlarni iqtisodiy samaradorligi va bozor kon’yunkturasi inobatga olinmasdan hamda intensiv qishloq xo‘jaligi joriy etilmaganligi sababli qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmi pastligicha qolmoqda. Jumladan, rivojlangan davlatlarda 1 metr kub suv bilan 4-6 AQSh dollarlik mahsulot yetishtirilayotgan bo‘lsa, respublikamizda bu ko‘rsatkich 0,15 AQSh dollarini tashkil etmoqda. Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish yirik kapital qo‘yilmalar talab etishi, ushbu maqsadlar uchun yo‘naltiriladigan budjet mablag‘lari hajmining cheklanganligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jalb qilish masalasiga e’tibor qaratilmayotganligi oqibatida qishloq xo‘jaligi yerlarining foydalanishdan chiqib ketishi, hududlarning resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan nooqilona foydalanish kabi holatlar yuzaga kelmoqda, bu esa o‘z navbatida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va tarmoq eksport salohiyatini oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

XULOSA

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan lalmi, yaylov va boshqa yerlarni foydalanishga kiritish maqsadida investitsiyaviy shartnoma yoki davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida foydalanishga kiritgan, yaroqsiz suv quduqlari, sug‘orish nasoslari, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini ta’mirlagan yoki ularni yangidan barpo etgan tadbirkorlik sub’ektlariga davlat tomonidan kafolatlar beriladi. Qishloq xo‘jaligi yer uchastkalarini ajratishning shaffof va tezkor tizimini yaratgan holda yanada takomillashtiriladi. Qishloq xo‘jaligi yerlarining tuproq unumdorligi, konturi, ularga ekinlarni joylashtirish, hosildorlikni belgilash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni viloyat, tuman hokimliklari va manfaatdor tashkilotlarning rasmiy veb-saytlarida joylashtirish amaliyotini joriy etiladi. Aqlli va raqamli qishloq xo‘jaligi» texnologiyasini joriy etishda xalqaro moliya institutlarining mablag‘lari va grantlarini jalb etish; “Aqlli va raqamli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini joriy etish vazifalaridan kelib chiqqan holda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida mutaxassis kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yiladi. Ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ilmiy laboratoriyalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash va ta’mirlash. Sug‘orish zonalarini, mintaqaning suv bilan ta’minlanganligini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish texnika va texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Jahon amaliyotini o‘rgangan holda noan’anaviy sug‘orish texnologiyalarini ishlab chiqiladi va tatbiq etiladi. Foydalanishdan chiqib ketgan sug‘oriladigan va foydalanishga kiritiladigan hamda o‘rmon fondi yerlarining meliorativ holati, unumdorligi va suv ta’minotini yaxshilash texnologiyasini joriy qilganlik uchun qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga imtiyozlar berish tizimini yaratiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5853 son farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF5742 son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi “Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 4486-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni. 2020-yil 7-sentyabr PF-6061.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori. 2020-yil 7-sentyabr PQ-4819.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar tog‘risida”

ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ БОСҚИЧИДА ЎЗБЕКИСТОНДА САНОАТЛАШТИРИШ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШ

Тошбоев Бекзод Бахтиярович, Сувонқулов Султонбек Зокир ўғли
(Phd), кафедра мудири Талаба

Аннотатсия. *Иқтисодий ислоҳотларнинг ҳозирги босқичида миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда. Миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишнинг асосий шартларидан бири – бу чуқур ва пухта ўйланган узоқ муддатли саноат сиёсатини амалга оширишдан иборатдир. Шу боис мазкур мақолада мамлакатимизда саноатлаштириш сиёсатини амалга ошириш масалаларини ёритишга ҳаракат қилинган.*

Калит сўзлар: *саноат сиёсати, иқтисодиётни модернизациялаш ва диверсификациялаш, маҳаллийлаштириш, инновацион ривожланиш, юқори технологик маҳсулотлар экспорти,илмий-технологик тараққиёт.*

Бугунги кунда иқтисодиёт соҳа ва тармоқларини технологик модернизациялашни амалга оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизми асосларини шакллантиришнинг услубий асосларини аниқлаштириш тобора долзарб аҳамият касб этиши ва Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодий ҳамжамиятига интеграциялашуви жараёнларининг чуқурлашиши ҳудудий ва тармоқ саноат мажмуаларини бошқариш тизимини тубдан қайта кўриб чиқишни талаб этади. Мамлакатимиз саноати олдида жаҳон бозорининг ўзгарувчан шарт-шароитларига мослашиш, инновацион ривожланиш стратегияларини ишлаб чиқиш каби муҳим вазифалар турибди, бундай вазифаларнинг ҳал этилиши турли даражадаги давлат ва маҳаллий бошқарув органлари ва ишлаб чиқариш корхоналарининг ўзаро ҳамкорлигини йўлга қўйишни ва бу борада тизимли тадбирлар ишлаб чиқишни тақозо этмоқда. Саноат сиёсати миллий иқтисодий тизимнинг саноатни қўллаб-қувватлашга ва барқарор ўсишига йўналтирилган иқтисодий, сиёсий ва ташкилий тадбирларнинг мажмуи ҳисобланганлиги боис, унинг асосий мақсади мамлакат иқтисодиётининг жадал ривожланиши, миллий ишлаб чиқарувчиларнинг фаровонлигини ва уларнинг рақобатбардошлигини оширишдир. Шу нуқтаи назардан саноат сиёсати эскирган ишлаб чиқариш тузилмаларини бартараф этади ҳамда замонавий тузилмаларни шакллантиради, илмий-техник тараққиётни жадаллаштиради ва бошқарувни такомиллаштиради, шунингдек жаҳон иқтисодиётини глобаллашувининг объектив талабларига мослашувчан-лигини янада ошириб боради. Мамлакатимиз саноат корхоналарини рағбатлантириш мақсадида фан ва техника соҳасини ривожлантириш соҳасида илмий-техник тараққиётнинг илғор ютуқларига таянган ҳолда ишлаб чиқилган инновацион ривожлантириш стратегияларини ишлаб чиқиш ва бу борада изчил чора-тадбирларни амалга ошириш талаб этилади **[3].**

Иқтисодиётда импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришларни ташкил этишга йўналтирилган сиёсатни амалга ошириш – бу фақатгина, моддий ва молиявий активлар мажмуини бошқаришни таъмин этувчи ташкилий тузилма бўлиб қолмасдан, шу билан бир қаторда ишлаб чиқариш-инфратузилма ва илмий-технологик фаолият механизмларини тартибга солиш борасидаги ижтимоий-иқтисодий воқеликнинг ажралмас бўлаги ҳамдир. Хомашё ресурслари экспортидан юқори технологик маҳсулотлар экспортига ўтиш бу мураккаб тадрижий жараён бўлиб, бу жараённи амалга ошириш алоҳида тизимли ёндашувни талаб этади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан 2018 йил учун эълон қилинган “Ўзбекистон республикасининг тўлов баланси, халқаро инвестицион позицияси ва ташқи қарзи”да келтирилган таҳлилий маълумотларга эътибор қаратсак, 2018 йил натижаларига кўра

товарлар савдоси бўйича ташқи савдо айланмаси олтин савдоси ва тузатишларни ҳисобга олган ҳолда 29,6 млрд. долларни, экспорт ва импорт мос равишда 11,4 млрд. долл. ва 18,3 млрд. долларни ташкил қилиши натижасида тўлов балансининг салбий сальдоси 6,9 млрд. долларга тенг бўлганлигини кўришимиз мумкин. Товарлар экспортининг умумий ҳажмида асосий улуш олтин (жами экспорт ҳажмининг 25,5%) ва нефт-газ маҳсулотлари (жами экспорт ҳажмининг 23,3%)га тўғри келиши экспорт таркибини юқори қўшилган қийматли маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ташкил этиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини саноат усулида чуқур қайта ишлашни йўлга қўйиш асосида диверсификация қилиш долзарб масала эканлигини кўрсатади. Товарлар импорти таркибини саноат ишлаб чиқаришини жадал ривожлантириш нуқтаи назаридан таҳлил қилар эканмиз, товарлар импорти 2017 йилга нисбатан 47,5% га ўсгани ҳолда, импорт таркибида "машиналар, ускуналар, механизмлар" – 6,2 млрд. долларни *(2017 йилда 3,7 млрд долларни)*, "қимматбаҳо бўлмаган металлар ва улардан тайёрланган маҳсулотлар" – 2,4 млрд. долларни *(2017 йилда 1,7 млрд. долларни)*, "қуруқликдаги, сувдаги ва ҳаводаги транспорт воситалари" – 2,6 млрд. долларни *(2017 йилда 1,3 млрд. долларни)* ташкил қилгани ҳолда, ушбу товар гуруҳлари жами импорт ҳажмининг 59% ни ташкил қилди *(2017 йилда 52%)***[5]** . Импорт таркибидаги бундай вазият яқин истиқболда миллий саноат ишлаб чиқарувчиларининг техник-технологик ва иқтисодий салоҳиятига салбий таъсир кўрсатиши эҳтимолдан ҳоли эмас.

Янги индустриаллаштириш – бу бир пайтнинг ўзида мос бизнес-моделлар ва жараёнларни тегишли тартибда ўзгартиришни кўзда тутувчи ахборот тизимлари ва интеллектуал технологияларга таянган ҳолда, индустриал (анъанавий технологиялар, бизнес ва бозорлар) ва постиндустриал (янги технологиялар, бизнес ва бозорлар) ишлаб чиқаришларнинг ўзаро уйғунлигини таъминлаш асносида миллий иқтисодиётда саноат ишлаб чиқаришнинг улушини барқарор равишда ошириб боришдир. Ўз-ўзидан кўриниб турибдики, импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришларни қўллаб-қувватловчи саноат сиёсатини амалга ошириш давлат иқтисодий сиёсати тамойилларини қайта кўриб чиқишни тақозо этади. Бу борада мамлакатимизда амалга оширилаётган Маъмурий ислоҳотлар концепцияси муҳим ўрин тутади. Мазкур масалага Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида ҳам алоҳида эътибор берилган. Бозор ислоҳотлари кўламининг кенгайиши ва миллий иқтисодиётда импорт ўрнини босувчи ишлаб чиқаришни ташкил этувчи саноат сиёсатини амалга оширишга эҳтиёжнинг кун сайин ортиши асносида мамлакатимиз саноат корхоналарини модернизациялаш ва ишлаб чиқаришни диверсицикациялаш муҳим аҳамият касб этади. Таъкидлаш лозимки, саноат ишлаб чиқаришини модернизациялаш ва диверсикациялаш самарадорлигига фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро интеграциялашувини таъминлаш ҳисобига эришишимиз мумкин. Айнан миллий иқтисодиётнинг илмий-технологик ташкил этувчилари ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг ривожланиш шаклини ва маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг жаҳон бозорларидаги илмий-технологик рақобатбар-дошлигини таъминлашнинг асосини кўп жиҳатдан белгилаб беради **[4,60]**.

Способность бетона поглощать парниковые газы. Международная группа исследователей под руководством профессора Дабо Гуана (Университет Восточной Англии, есть специализированная Школа экологических наук) установила, что в ходе естественного процесса карбонизации цемента и материалов на его основе углекислый газ поглощается из воздуха в объемах, необходимо учитывать при анализе воздействия на окружающую среду. Ученые проанализировали долгосрочные данные, собранные в Китае, а также уже доступные результаты исследований цемента и бетона на протяжении всего жизненного цикла, включая переработку, и смоделировали региональное и глобальное поглощение атмосферного углекислого газа всеми этими материалами в период с 1930 по 1930 годы. 2013. За указанный период времени объекты, при строительстве которых использовались материалы и изделия из цемента, по расчетам, поглотили около 4,5 гигатонн углерода или, в пересчете на углекислый

газ, 16 гигатонн , что компенсирует около 43% выбросы углекислого газа при их производстве [11].

Ученые факультета гражданского строительства Университета Пердью (США) установили, что добавление в бетонную смесь наноразмерного диоксида титана, используемого в кремах, красках, пластмассах и пищевых консервантах, почти вдвое увеличивает естественную способность бетона связывать углекислый газ. [12]. Учитывая явный положительный экологический эффект, результаты этих исследований показывают целесообразность продолжения использования цемента и материалов на его основе в долгосрочной перспективе, в том числе в жилищном и дорожном строительстве (вместо асфальтобетонных покрытий).

Основные компоненты цементобетонных дорог – цемент и твердые нерудные строительные материалы (гравий, щебень, песок и камни) производятся практически во всех регионах Узбекистана, что будет способствовать снижению выбросов парниковых газов, связанных с транспортировкой материалов из производителя на строительную площадку. Поэтому в числе приоритетных направлений развития отрасли в стране предусматривается поэтапная реализация перевода вновь строящихся и реконструируемых дорог на цементобетонное покрытие, а также реализация программы ремонта и восстановления дорог. автомобильные мосты и эстакады.

В жилищном и дорожном строительстве, являющихся важнейшими отраслями экономики, заметно проявляется мультипликативный эффект развития «экостроительства» с потреблением продукции многих смежных отраслей, а также созданием большое количество дополнительных рабочих мест, в том числе в отдаленных районах. В то же время средства, вложенные в организацию одного рабочего места в строительстве, создают предпосылки для создания до шести новых в смежных отраслях.

Это связано с появлением не только первичной, но и вторичной и третичной занятости. Таким образом, первоначальные инвестиционные затраты бюджетных или иных средств приводят к многократному увеличению занятости и покупательной способности населения [13].

При этом территориальным властям необходимо системно принимать меры по дальнейшему развитию внутриквартальных и придорожных сервисов всех видов:

- объекты торговли продовольственными и промышленными товарами, эксплуатационные службы, учреждения образования и здравоохранения, охраняемые автостоянки, рынки, объекты общественного питания (чайные, кафе, рестораны) и т.п.;

- остановки общественного транспорта, пешеходные переходы, пассажирские автовокзалы и автовокзалы;

- мотели , кемпинги и гостиницы различного типа, площадки для кратковременного отдыха,

- АЗС , СТО,

- шиномонтажные и другие мастерские, магазины автозапчастей, механизированные моечные станции и стихийные мойки.

Развитие этих интеграционных систем направлено на дальнейшее повышение благосостояния населения, объединяя взаимосвязанные цепочки структур различного типа и назначения, разветвленные сети информационного обеспечения и обслуживания жилых территорий, объектов социальной инфраструктуры, дорог,

автомобильный транспорт, другие поддерживающие и координирующие структуры, в том числе малый бизнес, предоставляющие пользователям качественные комплексные услуги в больших масштабах.

При создании и вводе в эксплуатацию подобных систем важным компонентом будет использование «человеческого фактора». Вовлечение в системы этого вида малого бизнеса, семейного бизнеса, самозанятости и надомного труда при сравнительно невысоких затратах средств позволит повысить эффективность и ответственность за результат, повысить благосостояние населения и сократить бедность.

Переход к «экостандартам» и «зеленому» строительству должен сопровождаться реализацией комплекса различных мер:

- повышение экономической привлекательности «зеленого» строительства для инвесторов и подрядчиков. При этом целесообразно использовать эффективные механизмы и инструменты, используемые развитыми странами: обеспечение реализации «зеленых» проектов и экологически чистых энергетических систем с льготным финансированием и субсидированием через различные государственные программы и фонды, предоставление различных преференций;

- проведение активной и долгосрочной пропагандистской кампании в поддержку развития «экостроительства» в Узбекистане, повышение осведомленности населения и юридических лиц о важности и пользе этого направления, чтобы экологические стандарты стали понятными и благоприятно воспринимались ;

- создание и широкое применение соответствующей нормативно-правовой базы прямого действия для строительства и эксплуатации «зеленых» зданий и сооружений;

- широкое распространение на первом этапе сертификации зданий по минимальным экологическим стандартам, что даст толчок развитию и внедрению «зеленых» технологий в республике;

- стимулирование и поддержка создания новых рабочих мест, в том числе «зеленых» во всех регионах Узбекистана;

- проведение совместных исследований с соответствующими структурами стран Центральной Азии в области дальнейшего снижения выбросов углекислого газа, решения климатических проблем в регионе, обмена и внедрения передового опыта в развитии производства и использования возобновляемых источников энергии, а также «экостроительство»;

- привлечение аналитических центров разных стран к участию в совместных научных мероприятиях – конференциях, форумах, исследованиях, в том числе грантовых.

Внедрение принципов «зеленого» строительства привлекает внимание мирового сообщества, влияет на развитие положительного имиджа страны, способствует повышению ее уровня в различных международных индексах, в том числе кредитных рейтингах.

Рекомендации:

1. Зиновьева В.А. «Зеленые» стандарты в планировании, строительстве и эксплуатации зданий и сооружений. 05.05.2019г. https :// революция . все самое лучшее . ru / строительство / 01164139_0.html

2. Азымханов Д. «Зеленое» строительство экономично и выгодно для девелоперов и покупателей. Интерфакс-Казахстан, октябрь, 2013г. https :// www . Интерфакс . кз /? int_id = 13 & lang = rus & news_id = 202 _

3. https://www.mirkvartir.ru/journal/news/2020/11/23/ecology/

4. Приложение № 1 к Постановлению Президента Республики Узбекистан от 04.10.2019 года №ПП-4477.

5. Эксперты оценили выгоды от строительства «зеленого», 2 февраля 2012г., https :// www . газета . uz / ru /2012/02/02/ зеленый /

6. Указ Президента Республики Узбекистан от 14.11.2018г. №УП-5577.

7. Зеленое будущее строительного и жилищного сектора Узбекистана, 07.01.2022г. https :// подробно . уз / кот / общество / зеленое - будущестроительного -и -жилищного - секторов - узбекистана / _ _

8. Байгожа А. Зеленые здания в Центральной Азии и на Южном Кавказе, 2 сентября 2011г., https://www.caravan.kz/articles/zelenye-zdaniya-vcentralnojj-azii-i-na-yuzhnom-kavkaze-372786/

9. Особенности инверторного кондиционера. https://morozko.ru/ osobennosti-invertornogokonditionera / 4 августа 2022г.

10. Баламут Т. «Зеленое» строительство – инвестиции в будущее. Журнал «Экология на предприятии», №10, октябрь 2016г.

11. Использование только бетона в строительстве – парниковый эффект. 09 октября 2022г. https://stroitelstvo-gid.ru/materialy/ispolzovanie-tolko-betona-v-stroitelstve-parnikovyj-effekt.html _ _

12. Новая смесь может удвоить доверие к бетону. 1 апреля 2021г. https://nestor.minsk.by/sn/news/2021/04/0101.html
13. Мультипликационный эффект в строествии 22 ноября, 2020г. https://dom-srub-banya.ru/multiplikatsionnyy-effekt-v-stroitelstve/
14. Абдувохидов А., Эшпулатов Д., Кодырова Д. (2022). Оценка качества экономического роста в сельском хозяйстве. наука и инновационное развитие, 61-70.
15. Эшпулатов, Д. (2022). Анализ организационно-экономического механизма повышения устойчивости экономического роста в сельском хозяйстве. наука и инновационное развитие, 5(6), 104–122. Получено с https://indep-ilm.uz/index.php/journal/article/view/340 .
16. Эшпулатов, Достонбек, Развитие научно-теоретических взглядов на влияние инвестиций на качество экономического роста (1 октября 2020 г.). Журнал управленческой ценности и этики, доступен на SSRN: https://ssrn.com/abstract=3935110 или http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3935110.

HUDUDLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Anarkulov Dilshod Abdumalikovich, Berdiqulov Samandar Anvar o‘g‘li
o‘qituvchi
talaba
Guliston Davlat Universiteti

O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni yaratish uchun katta salohiyatga ega, uning asosini insonning asosiy ehtiyojlarini ta’minlaydigan an’anaviy sanoat (sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika, qurilish, transport) tashkil etadi. Yaqin kelajakda raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun ular eng so‘nggi texnik yechimlarni, yuqori texnologiyalarni va belgilangan xususiyatlarga ega nano, bio, kompozit va boshqalarni ishlab chiqish va joriy etish orqali har tomonlama ishlab chiqilishi kerak) ishlab chiqarish jarayonlarining sanoat asosini yangi sifatini shakllantiradi.

Ta’kidlash lozimki, Prezidentimizning “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 19 fevraldagi Farmoni Hukumatimiz tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga va hayotga tatbiq etilishiga asos bo‘ldi.

Globalizatsiya - bu tovar va xizmatlarning transchegaraviy savdosi, texnologiyalar va investitsiyalar, odamlar va axborot oqimlari natijasida vujudga kelgan dunyo iqtisodiyoti, madaniyati va aholisining o‘sib borayotgan o‘zaro bog‘liqligini tavsiflash uchun ishlatiladigan tushunchadir.

Globallashuv har bir mamlakatni qiyosiy ustunlik, ya’ni eng kam miqdordagi resurslardan foydalangan holda eng yaxshi ishlab chiqaradigan narsalarga ixtisoslashishga undaydi. Ushbu konsepsiya ishlab chiqarishni samaraliroq qiladi, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi va tovarlar va xizmatlar narxlarini pasaytiradi, ayniqsa ularni kam daromadli uy xo‘jaliklari uchun qulayroq qiladi.

Globallashuv ko‘p jihatdan iqtisodiyotga borib taqaladi. Yangi texnologiyalar joriy qilinishi va takomillashtirilishi natijasida ishlab chiqarish hajmi va sifati ortdi. Masalan, bir necha yil ilgari umuman mavjud bo‘lmagan texnologiyalar endilikda davlatlarning umumiy YaIM o‘sishiga va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Globallashuvning kuchayishi natijasida mehnat bozoridagi taqsimotda ham o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Jahon iqtisodiy forumining oxirgi yig‘ilishida ma’lum qilinishicha, 2025 yilga kelib, 85 million ishchi o‘rni yo‘q bo‘lishi, ammo o‘rniga 97 million ish joylari yaratilishi ma’lum qilingan.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi asosiy vazifa texnologik rivojlanish uchun muhim bo‘lgan uch tomon: davlat-sanoat-akademiya (ilmiy tadqiqot markazlari) hamkorligini mustahkamlovchi institutsional muhit yaratishdan iboratdir.

Uchburchakning asosiy qismi bo‘lmish universitetlar va ulardagi tadqiqot markazlari nafaqat turli sanoatdagi bizneslarni qo‘llab- quvvatlovchi ixtiro manbalari, balki turli innovatsion g‘oyalarga asoslangan startaplar uchun inkubator vazifasini ham o‘taydi. AQSh, Yevropa va Osiyodagi rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida startaplar universitet hududida shakllanishi bejiz emas. Buning uchun universitetlarda, albatta, erkin ilmiy muhit mavjud bo‘lishi, professor va talabalarning

ilmiy g‘oyalari, mehnatlari qog‘ozda qolib ketmay, amaliyotda qo‘llanishi uchun mustahkam patent tizimi shakllanishi shart.

O‘zbekistonning giperglobal iqtisodga muvaffaqiyatli integratsiyasi quyidagi masalalarga borib taqaladi.

Birinchidan, davlatning global iqtisodga integratsiyasi va unda ustunlikka erishishi, avvalo, mamlakat ichida shakllanayotgan iqtisod, uning shakli, aniq yo‘nalishi va ichki mustahkamligidan boshlanadi. Ya’ni global iqtisodga integratsiyalashuv parametrlari rivojlanishga tayyor iqtisodlar uchungina o‘sish tramplini bo‘lishi mumkin, fundamenti noto‘g‘ri prinsiplarga qurilgan iqtisod uchun integratsiyalashuv iqtisodiy o‘sishga turtki bo‘la olmaydi. O‘zbekistonning global iqtisoddagi muvaffaqiyati u qurayotgan iqtisodiy model bilan bog‘liq. O‘zbekiston iqtisodiyotining kelajagi doimo o‘zgarishlarga tobe xomashyo mahsulotlari eksportchisi bo‘lib qolish yoki yuqori qiymatli mahsulot ishlab chiqarib, xalqaro savdoning qon tomiri bo‘lgan global ta’minot zanjiriga qo‘shilishiga bog‘liq.

Albatta, rivojlanishning dastlabki bosqichida mamlakatdagi arzon ishchi kuchi ishlab chiqarish uchun qulay imkoniyat qidirayotgan Yaponiya yoki Xitoy kabi davlatning investorlari uchun jozibali bo‘lishi mumkin. Ammo, bugungi giperglobal davrdagi texnologik o‘zgarishlar natijasida ishlab chiqarish tobora avtomatlashib, arzon ishchi kuchiga nisbatan talab pasayib borayotganini ham unutmaslik kerak. Bugungi kunda mahsulotlar umumiy savdosining atigi 18 foizi ish haqi past davlatlardan ish haqi yuqori davlatlarga eksportni o‘z ichiga oladi. Bu degani, O‘zbekiston o‘z kelajagini faqat «arzon ish haqi orqali investitsiya chaqirish» strategiyasiga bog‘lamasdan, ixtisoslashgan ishlab chiqarish, ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga mablag‘ ajratish orqali xizmatlar eksport qilishga e’tibor berishi zarur. Bu, o‘z navbatida, davlat monopollashtirgan sohalarni tadrijiy ravishda erkin bozor munosabatlariga o‘tkazish va xususiy sektorni qo‘llab- quvvatlash orqali vujudga keladi.

Ikkinchidan, davlatning global iqtisoddagi muvaffaqiyati, uning tez-tez uchrab turadigan global inqiroz va shoklarni singdirib, ichki iqtisodga ta’sirini kamaytiradigan institutsional tayyorgarlik bilan bog‘liq. Buning sababi gipergloballashuvning asosiy qismlari bo‘lmish xalqaro savdo va kapitalning erkin harakati, afsuski, mamlakat ichida g‘oliblar bilan birga mag‘lub qatlamni ham yuzaga keltiradi. Bu erkin savdodagi raqobat tufayli ish o‘rinlari yo‘qolishi sababli qashshoqlashishda ko‘rinadi. Globalizm qarshisidagi rivojlanayotgan davlat sifatida O‘zbekiston ham savdo erkinlashishi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etib, erkin savdo orqali yutqazuvchi qatlamni ijtimoiy himoyalashga tayyor bo‘lishi lozim. Shuningdek, moliya bozorlarini tayyorgarliksiz holda, tajribasizlik qilib erkinlashtirish ko‘pchilik davlatlarga qimmatga tushganidan hukumat o‘rnak olishi va tartibga solinmagan kapital oqimlari harakatidan o‘ta ehtiyot bo‘lishi kerak. Hukumat bugungi kunda ichki makroiqtisodiy siyosat, soliq tizimi va moliyaviy qoidalar yaxlitligini qisqa muddatli foydaga asoslangan erkin kapital oqimidan ustun qo‘yishi lozim.

Hozirgi dunyoda ish beruvchilarning o‘ziga zarur mutaxassislarni topa olmasligi odatiy holga aylanmoqda, negaki, bozorda bunday mutaxassislarni o‘zi yo‘q. Kompaniyalar kerakli malakasi va tajribasi yo‘q insonlarni ishga olib, keyin ularni qayta o‘qitish uchun sarmoya sarflashga majbur. Shunga qaramay, davlat ko‘nikma va malakalariga talab bo‘lmagan yoki mehnat bozorida ortiqcha bo‘lgan mutaxassislar ta’limi uchun moliyalashda davom etmoqda. Ta’lim muassasalari ish beruvchilarning hozirgi talab-ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlaguncha, talaba o‘qishni bitirib ulgurmay mazkur talablar yanada o‘zgarib ketmoqda.

Shunday bo‘lsada, yetarli ish tajribasiga ega inson uning malaka va ko‘nikmalari o‘z dolzarbligini yo‘qotib, mehnat bozorida uning malakasi va tajribasiga talabni keskin kamayib ketishi xavfi ostida. Yangi, ehtiyojtalab ko‘nikmalarni o‘rganishga esa u qodir emas yoki uning istagi yo‘q. Kadrlar bo‘shlig‘i deb atalmish bu muammo har bir mamlakatda mavjud.

Kadrlar bo‘shlig‘i sharoitida ish beruvchilar ko‘pincha malakasi zarur talablarga taxminan mos keluvchi xodimlarni ishga yollashga majburdirlar. Aksariyat xodimlar o‘zlarining malakalariga muvofiq ish o‘rinlari yo‘qligidan har qanday ishga rozi bo‘ladilar. Shu tariqa ular mos malaka va tajribaga ega nomzodning ish o‘rnini egallaydi. Raqamli iqtisodiyotda axoli farovonligini strategik rejalashtirishda asosiy yo‘nalishlar quyidagilar hisoblanadi:

-axolining turmush darajasini oshirish maqsadli tavsiflarini shakllantirish;

-axoli farovonligi maqsadlarini amalga oshirishga ajratiladigan resurslarni tadqiq etish;

-iste’mol fondi hajmi va strukturasining istiqboldagi dinamikasini tadqiq etish;

-aholi daromadlari strukturasi va hajmi ko‘rsatkichlarini shakllantirish;

-iste’mol ijtimoiy fondlari shakllantirish jarayonlarini tadqiq etish.

Muayyan vazifalarni hal qilish aholining turmush darajasini oshirishga va ijtimoiy rivojlanish global, mahalliy va maqsadli ko‘rsatkichlariga o‘zgartirilgan strategik maqsadlar asosida erishiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti raqamlashtirish juda muhimdir, chunki AKTga ishonish mehnat unumdorligi va boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qolmoqda. Raqamli iqtisodiyot texnologiyalarining to‘g‘ri va talab qilinadigan joriy etilishi O‘zbekistonga odamlar va davlat institutlarining o‘zaro ishlashi va o‘zaro faoliyatida yangi bosqichga o‘tishga imkon beradi. Shunda jamiyatdagi va davlatdagi jarayonlar tezroq va samaraliroq bo‘lib, shtat va mintaqalarning raqobatdoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5349-sonli Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni

3.Xashimov P.Z., Faxriddinova Z.F. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari// Iqtisod va moliya/Экономика и финансы 2020, 3(135), 157-164 bet.

4. Bababekova. D.Sh. Raqamli iqtisodiyotni respublikada rivojlantirish omillarini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya.-Toshkent: “Iqtisod-moliya” nashriyoti., 2022 y.

MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich, Aliqulov Asadbek G‘ulomjon o‘g‘li
Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
Guliston davlat universiteti talabasi

Hozirgi kunda davlat tomonidan mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning samarali mexanizmini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

2020 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining budjet sohasidagi vakolatlarini kengaytirish, budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning mas’uliyatini yanada oshirish, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag‘laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini ta’minlashga qaratilgan yangi budjet tizimi joriy etildi.

Ilk bor, “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan mahalliy budjetlar xarajatlari xalq deputatlari mahalliy kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo‘yildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan hamda to‘liq mahalliy budjetlar ixtiyorida qoldiriladigan daromad turlari kengaytirildi. Shu bilan bir qatorda, Mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini yig‘ish ko‘rsatkichlarini oshirish orqali yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2022 yildagi PQ-458-son “Mahalla budjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi [1]. Mahallalar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini (keyingi o‘rinlarda — mol-mulk va yer solig‘i) aholining soliq to‘lash savodxonligini oshirish orqali undirishga ko‘maklashish va har bir mahalla o‘zining muammosini mustaqil hal etishi uchun 2023 yil 1 yanvardan boshlab, Respublikaning 14 ta hududida “Mahalla budjeti” tizimi huquqiy eksperiment tariqasida joriy etildi (1-jadval).

Mahalliy budjetlar moliyaviy barqarorligini ta’minlashda, birinchi navbatda, mahalliy budjet daromadlarining shakllanish mexanizmi, mahalliy budjet daromadlari tarkibi va ulushini tahlil qilish, hududlar iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Budjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-budjet tizimining shaffofligini oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet

daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishida manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida quyidagilar belgilandi:

1-jadval.

“Mahalla budjeti” tizimi joriy etilgan tumanlar

TT/r	Hudud nomi	Tuman nomi
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Beruniy
2.	Andijon viloyati	Andijon
3.	Buxoro viloyati	Olot
4.	Jizzax viloyati	Zomin
5.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi
6.	Navoiy viloyati	Karmana
7.	Namangan viloyati	Uychi
8.	Samarqand viloyati	Urgut
9.	Surxondaryo viloyati	Jarqo‘rg‘on
10.	Sirdaryo viloyati	Sayxunobod
11.	Toshkent viloyati	Bo‘ka
12.	Farg‘ona viloyati	Bag‘dod
13.	Xorazm viloyati	Bog‘ot
14.	Toshkent shahri	Uchtepa

soliq-budjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o‘rta muddatli budjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budjetni shakllantirishning yangi «natijaga yo‘naltirilgan budjet» tizimini joriy etish;

makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta’minlash bo‘yicha institutsional salohiyatni va budjet jarayoni ishtirokchilarining mas’uliyatini oshirish;

budjet mablag‘larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas’uliyatini kuchaytirish;

fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

budjet ma’lumotlarining ochiqligi, to‘liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash;

budjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish [2].

Qayd etilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo‘yicha vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar olib borish respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishi qilib belgilanishi lozim. Bu bir tomondan mahalliy hokimiyat organlarining daromad bazasini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan soliqlarning rag‘batlantiruvchi funktsiyasini yanada kengaytirish imkonini beradi.



1-diagramma. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining o‘zgarish dinamikasi (mlrd, so‘m)[3]

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida budjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo‘lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy himoya, kam ta’minlangan oila va shaxslarni yetarli darajada ijtimoiy himoya qilish, har bir hududdagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to‘g‘ri hal qila bilishga bog‘liqdir. Bunda mahalliy budjetlarga tushadigan soliq va yig‘imlarning turi, miqdorini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishda turli hokimiyat organlarining soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish va bunda mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bu boradagi vakolatlarini oshirish muhim yo‘nalish qilib belgilanishi lozim.

Mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlash, xarajatlarini barqarorlashtirish, ularning daromad bazasini kengaytirib borish dolzarb masalalardan biridir. Mahalliy budjetlarning daromad bazasi hududlarda yaratilayotgan milliy daromad, ya’ni ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, daromadlarning doimiy va bir maromda tushishi bilan bevosita bog‘liqdir. Mahalliy budjetlar daromadlarini oshirishning ichki rezervlari hududlarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, joylarda iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish har bir hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Tahlil etilayotgan yillarda mahalliy budjetlar daromadlari mahalliy budjetlar xarajatlariga nisbatan doimiy ravishda kamni tashkil etmoqda. Ayniqsa so‘nggi yillarda ularning orasidagi tafovut sezilarli ravishda farqlanganligini, ya’ni xarajatlarning keskin oshib ketganligini ko‘rishimiz mumkin.

2020 yildan boshlab mahalliy budjetni samarali shakllantirish va undan oqilona foydalanish yuzasidan mahalliy hokimiyat va mahalliy kengashlarga bir qator vakolatlar berildi.

Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tegishli ravishda:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorlarini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetidan, viloyatlar viloyat budjetlaridan va Toshkent shahri shahar budjetidan tumanlar va shaharlar budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini tasdiqlaydi;

2-jadval.

2015-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarida mahalliy soliqlarning ahamiyati,(foizda)[3]

Ko‘rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023

	y.	y.	y.	y.	y.	y.	y.	y.	y.
Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz-jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Shundan									
Mahalliy soliqlar jami;	11,3	11,9	11,5	7,2	4,2	3,2	3,9	4,0	4,3
Mol-mulk solig‘i	3,8	4,0	4,3	3,3	2,1	1,5	1,5	2,4	1,8
Yer solig‘i	2,1	2,4	2,2	1,9	2,1	1,8	2,4	1,6	2,5
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	2,0	1,8	1,4	-	-	-	-	-	-
Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	3,4	3,7	3,6	2,0	-	-	-	-	-

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjetlari, Toshkent shahri shahar budjeti, tumanlar va shaharlar budjetlari daromadlarining prognozini ma’qullaydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Mahalliy budjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi hamda mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko‘rsatishlarida muhim moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarini bajarilishi bilan chambarchas bog‘langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy budjet daromadlarini ko‘payishi va resurslarni tejamkorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi.

Mahalliy budjetlar potentsialini mustahkamlash maqsadida qonuniy tarzda nafaqat mahalliy soliq va to‘lovlarning tarkibini aniq belgilab qo‘yishi, balki respublika ahamiyatidagi davlat soliqlarining mahalliy budjetlar daromadlaridagi ulushlari dinamikasini tahlil qilish va uni yanada takomillashtirish ham zarurdir.

Ma’lumki, bugungi kunga kelib mol-mulk va yer soliqlari mahalliy soliqlar sifatida e’tirof etiladi. Tahlil etilayotgan yillarda mahalliy budjetlarning daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlarning ulushi yuqori emas.

Mahalliy soliqlarning ulushi tahlil etilayotgan yillarda o‘rtacha 8,2 foizni tashkil etib so‘nggi yillarda kamayish tendentsiyasiga ega bo‘lmoqda.

3- jadval.

2022-2023 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarining o‘zgarishi dinamikasi (mlrd.so‘m)[3]

№	Hududlar	2022 yil		Buydjet-lararo tartibga soluvchi transfertlar	2023 yil		Buydjet-lararo tartibga soluvchi transfertlar
		Daro-madlar	Xarajatlar		Daro-madlar	Xara-jatlar	
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2356,2	3874,2	1518,0	2703,3	5375,8	2672,4
2	Andijon viloyati	3059,4	4741,6	1682,3	3802,7	6608,2	2805,5
3	Buxoro viloyati	2904,0	3346,3	442,3	3817,2	4463,1	645,9
4	Jizzax viloyati	1727,2	2551,8	824,6	2184,9	3469,3	1284,4
5	Qashqadaryo	3483,0	5534,3	2051,3	4561,2	8380,2	3819,0

	viloyati						
6	Navoiy viloyati	2186,3	2186,3	-	2993,6	2993,6	-
7	Namangan viloyati	2903,2	4608,0	1704,8	3713,4	6613,4	2899,9
8	Samarqand viloyati	3955,8	963,8	1008,0	4958,8	7155,1	2196,3
9	Surxondaryo viloyati	2466,9	4453	1987,0	3042,3	6291,2	3248,9
10	Sirdaryo viloyati	1104,5	1777,7	673,2	1406,1	2492,3	1086,2
11	Toshkent viloyati	4378,9	4378,9	-	5866,2	5866,2	-
12	Farg‘ona viloyati	4242,5	5619,9	1377,4	5437,8	7618,8	2181,0
13	Xorazm viloyati	2220,6	3067,2	846,6	2719,2	4160,6	1441,4
14	Toshkent shahri	6044,7	6044,7	-	7739,3	7739,3	-
	Jami	43033,2	57148,7	14115,6	59946,0	79226,9	24280,9

Mol-mulk solig‘ining ulushi 2015 yilda 3,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2020 yilga kelib 1,5 foizni tashkil etgan va kamayish kuzatilgan. Yer solig‘ining ulushi 2015 yilda 2,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2020 yilga kelib ham 1,8 foizni tashkil etgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i va benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning respublika soliqlariga birlashtirilishi mahalliy budjet daromadlarida mahalliy soliqlarning kamayishiga olib kelgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, mahalliy budjet daromadlarini faqat o‘z daromadlari ya’ni, mahalliy soliqlar hisobiga shakllantirish imkoniyati kamaygan.

Bizningcha, bugungi kunda mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash uchun soliqqa oid qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro‘yxatini kengaytirish lozim.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tahlil etilayotgan yillarda ayrim hududlar mahalliy budjet daromadlari mahalliy budjet xarajatlaridan kamni tashkil etmoqda. Bu esa o‘z navbatida, mazkur hududlar mahalliy budjeti xarajatlarini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyojni yuzaga keltiradi.

2020 yilda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari 2019 yilga nisbatan kamaygan bo‘lsada, lekin yuqori budjetdan moliyaviy yordam oluvchi hududlar soni ortmoqda. Mahalliy budjetlar mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy imkoniyatidir. Mahalliy budjet daromadlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik ushbu hudud aholisi farovonligi yuqori bo‘ladi.



2-diagramma. Mahalliy budjetlar daromadlari dinamikasi [3]

Jadval ma’lumotlari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.06.2017 yildagi PF-5075-son “Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati

organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.06.2017 yildagi 445-son “Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zahiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ko‘zda tutilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida mahalliy budjetlarning daromad qismi birgina 2023 yilda 2022 yilga nisbatan qariyb 17 trln. so‘mga ko‘p bo‘lishi prognoz qilinmoqda (2-diagramma).

Shu bilan birga, mahalliy budjetlarning daromad va xarajatlarining o‘sib borishi asnosida budjetlararo tartibga soluvchi transfertlarning ulushi ham tobora o‘sayotganligiga guvoh bo‘lamiz (3-diagramma). 2021 yilda budjetlararo tartibga soluvchi transfertlar 10443,0 mlrd.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilda 24280,9 mlrd. so‘mni tashkil qilishi kutilmoqda, yoki bu ko‘rsatkich 2021 yilga nisbatan qariyb 2,3 baravar o‘sgan.



3-diagramma. 2022-2023 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetida budjetlararo tartibga soluvchi transfertlarning o‘zgarishi dinamikasi (mlrd.so‘m)[3]

Hududlar orasida faqatgina, uchta hudud Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida budjetlararo tartibga soluvchi transfertlardan foydalanilmaydi. Umuman olganda, mahalliy budjetlarning daromadlari bazasini mustahkamlash yaqin istiqbolda qolgan hududlarda ham budjetlararo tartibga soluvchi transfertlarni kamaytirishga xizmat qilishi, hududlarni donor hududlarga aylantirishga xizmat qilishi lozim.

Bizning fikrimizcha, mahalliy budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash mahalliy hokimiyat organlarining tadbirkorlikni rivojlantirishga, xususan, kichik va o‘rta biznes sohasida manfaatdorligini oshirishdan dalolat beradi, bunda davlatning ma’muriy-hududiy birliklari moliyaviy holatini yaxshilash va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘z daromad bazasini rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Shundan kelib chiqqan holda, birgina Sirdaryo viloyati misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.05.2022 yildagi 242-son “2022 — 2026 yillarda sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda Sirdaryo viloyatida 2022 — 2026 yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,6 baravar, sanoat mahsulotlari hajmini 1,6 baravar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,3 baravar, xizmatlar hajmini 3,2 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,5 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlar parametrlari tasdiqlangan [4]. 2023 yilda Sirdaryo viloyatining Yalpi hududiy mahsuloti 22,9 trln. so‘m atrofida bo‘lishi ko‘zda tutilgani holda, o‘sish ko‘rsatkichlari 2023 yilda sanoatda 109,1 %, qishloq xo‘jaligida 103,3% va xizmat ko‘rsatish sohasida 106,6% ni tashkil qilishi rejalashtirilgan

2022-2026 yillarda Sirdaryo viloyati mahalliy budjetiga tushumlar jami 7055,5 mlrd. so‘m, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo‘yicha ajratiluvchi kredit mablag‘lari 2600 mlrd. so‘mni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilishi hisobiga

Sirdaryo viloyatida ishsizlik darajasi va kambag‘allikka butunlay barham berish maqsad qilingan. Shu bilan bir qatorda, 2022-2026 yillarda “Fuqarolar budjeti” doirasida 330 mlrd. so‘m mablag‘ sarflash yuqorida tilga olib o‘tilgan Qarorda ko‘zda tutilgan.

2023Viloyat budjetining daromad qismi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (51%), yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (13%), noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (8%), jarimalar (7%), aksiz solig‘i (7%), davlat bojlari (6%), yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i (4%) va boshqa daromadlar hisobidan shakllanadi.

4-jadval.

Sirdaryo viloyati tuman va shaharlarining “o‘sish nuqtalari” va “drayver” sohalari[4]

T/r	Hudud nomi	Tuman (shahar)larning “o‘sish nuqtalari” va “drayver sohalari”
1.	Sirdaryo viloyati	Yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yo‘l bo‘yi infratuzilmani rivojlantirish, chorvachilik, parrandachilik, issiqxona, sholichilik, baliqchilik
2.	Guliston shahar	Yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mehmonxona xizmati, tibbiy va ta’lim xizmati, savdo, maishiy xizmatlar
3.	Shirin shahar	Qurilish materiallari ishlab chiqarish, issiqxona xo‘jaligi
4.	Yangiyer shahar	Yengil sanoat, mebel sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, tibbiy turizm
5.	Boyovut tumani	Yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, chorvachilik, issiqxona xo‘jaligi, sholichilik
6.	Guliston tumani	Yengil sanoat, ekoturizm, issiqxona, chorvachilik
7.	Mirzaobod tumani	Yengil sanoat, baliqchilik, anorchilik
8.	Oqoltin tumani	Yengil sanoat, meva-sabzavotni qayta ishlash, yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish, poliz ekinlarini etishtirish
9.	Sardoba tumani	Parrandachilik, chorvachilik, supurgi yetishtirish
10.	Sayxunobod tumani	Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, yo‘l bo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish, chorvachilik, baliqchilik, issiqxona xo‘jaligi, sholichilik
11.	Sirdaryo tumani	Farmatseftika va kimyo sanoati, savdo logistika, chorvachilik, sholichilik
12.	Xovos tumani	Qurilish materiallari ishlab chiqarish, uzumchilik, chorvachilik, poliz ekinlari va sabzavot mahsulotlari yetishtirish

2023 yilda viloyat mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘ miqdori 2 066,7 mlrd so‘mni tashkil qiladi. Eng ko‘p mablag‘ oluvchi tashkilotlar – Sog‘liqni saqlash sohasi (40%), Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (7%), Prezident ta’lim muassasalari (5%), “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturi va tashabbusli budjet uchun (5%), Xalq ta’limi boshqarmasi (5%), , Sport (3%) va Madaniyat boshqamasi (1%) hisoblanadi (3.1-rasm). Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Sirdaryo viloyati mahalliy budjetida budjetlararo tartibga soluvchi transfertlar 2022 yilga nisbatan 2023 yilda qariyb 61,3 foizga o‘sgan. Bunday vaziyatni tartibga solish uchun Sirdaryo viloyati hududlarining “o‘sish nuqtalari” va “drayver” sohalarini aniqlashtirish talab qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.05.2022 yildagi 242-son “2022 — 2026 yillarda sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarorida Sirdaryo viloyati tuman va shaharlarining “o‘sish nuqtalari” va “drayver” sohalari belgilab berilgan.

Hozirda budjetlararo tartibga solish amaliyoti ayrim mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismini shakllanishini ta’minlamoqda. Boshqaruvchi daromadlarning bunday miqdorda bo‘lishi mahalliy hokimiyat organlarining o‘z mas’uliyatlarini yuqori darajada his qilmaslikka olib keladi, fikrimizcha, bu holat iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatiga ko‘p ham mos kelavermaydi. Bundan tashqari mahalliy hokimiyat organlari respublikadagi donor mintaqalar va respublika budjeti orqali

qo‘llab-quvvatlanishini bilganliklari uchun o‘zlarining daromad bazalarini va iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga unchalik harakat qilmaydi. Ba’zi hududlar esa respublika budjetidan mumkin qadar ko‘proq mablag‘ olish maqsadida nafaqalar va turli ijtimoiy to‘lovlar hajmini sun’iy ravishda oshirishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2022 yildagi PQ-458-son “Mahalla budjeti tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori,https://lex.uz/docs/6326672
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4555 sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli yillar bo‘yicha ma’lumotlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.05.2022 yildagi 242-son “2022 — 2026 yillarda sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori.

SIRDARYO VILOYATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI HAMDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Begimqulov Javohirbek Jo‘raqul o‘g‘li, Pardaboyev Nursulton Abdukarim o‘g‘li
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tadbirkorlik muhitini takomillashtirish va uning salohiyatini oshirish to‘g‘risida to‘xtalib: “Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va konuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi, PF-5590-son farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonning ijrosi yuzasidan Sirdaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyatining to‘sqinliksiz amalga oshirilishini ta’minlash, biznes yuritish uchun kulay shart-sharoitlar yaratish va respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda[1]. Ushbu maqsadda muqobil tekshiruvlar va rejadan tashqari tekshiruvlarning barcha turlari bekor qilindi, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi bir qator litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-taomillari qisqartirildi hamda soddalashtirildi. Mazkur chora-tadbirlar viloyatda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga va Sirdaryo viloyatining respublika miqyosdagi reytingiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim bo‘g‘iniga aylangan, yildan - yilga ham sifat, ham son jihatdan yuksalib, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada ko‘tarishga o‘z xissasini ko‘shmoqda. Hududlarda, jumladan, Sirdaryo viloyatida tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida tanlanishi quyidagilar bilan ham izohlanadi:

1. Tashkil qilish va xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun katta xarajat va kapital qo‘yilmalar talab etmaydi.

2.Iqtisodiyotdagi ma’lum bir bo‘shliqlarni to‘ldiradi, uni barqaror sur’atlar bilan rivojlantirishni ta’minlaydi.

3.Aholini ish bilan bandligi va daromadining o‘sishini ta’minlaydi.

4.Ichki bozorni zarur iste’mol tovar va xizmatlar bilan to‘ldirishda asosiy yo‘llardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

5. Bozorlardagi talab va savdoning o‘zgarishlariga tez moslashadi. Shularni hisobga olib, Sirdaryo viloyatida birinchi navbatda, tadbirkorlikning huquqiy asosini huquqiy asosini mustahkamlashga alohida e’tibor berildi. Qishloq xo‘jaligi, savdo, xizmat turlarining barchasi va boshqa ko‘plab tarmoqlar deyarli to‘liq xususiy mulk sohasiga o‘tkazildi. Keyinchalik esa “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi, “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-tamoyillari to‘g‘risida"gi va shu kabi boshqa qonunlarning qabul qilinishi kichik biznes

va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning yangi bosqichiga o‘tishi uchun mustahkam hukuqiy asos vazifasini o‘tadi.

Viloyatda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash imkonini bermoqda. 2012-2021 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 72,0 foizdan 69,2 foizga pastlagan. (1-rasm).



1-rasm. Sirdaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)[2]

Manba: Sirdaryo viloyatining statistik axborotnomasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining kamayishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.

Tadbirkorlik muhitini takomillashtirish muqobil tekshiruvlar va rejadan tashqari tekshiruvlarning barcha turlari bir qator bekor qilindi, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-taomillari qisqartirildi hamda soddalashtirildi. Mazkur chora-tadbirlar viloyatda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga va Sirdaryo viloyatining respublika miqyosdagi reytingiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sirdaryo viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda oqilona foydalanishini ta’minlash, shu asnoda yangi ish o‘rinlari tashkil etish va mahalliy aholining daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 12.04.2018 yil PF-5412-son “Sirdaryo erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan viloyatning Sirdaryo tumanida tashkil etilgan.

Sirdaryo viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda mahalliy mineral-xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega raqobatbardosh, import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarilishini kengaytirish;

meva-sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to‘qimachilik, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmasevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo‘nalishlarda zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy investitsiyalarni, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish;

erkin iqtisodiy zona korxonalari o‘rtasida hamda boshqa mahalliy korxonalar bilan mustahkam kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirish asosida mahalliy xom ashyo va materiallardan yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

«Sirdaryo» EIZ hududida ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, shuningdek, ushbu hududda sifatli logistika xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha zamonaviy infratuzilmani shakllantirish;

erkin iqtisodiy zonalarning soha kadrlariga bo‘lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqib, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etishda va ularning erkin iqtisodiy zonada joylashgan korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashida qatnashish.

1-jadval.

Sirdaryo viloyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari[2]

значение для укрепления кормовой базы животноводства имеют осенние промежуточные посевы. Примеры осенних промежуточных посевов включают тритикале, рожь, ячмень, вику и нут. Поскольку эти культуры высевают осенью, период их вегетации приходится на осень, зиму и весну. С помощью промежуточных посевов ранней весной (апрель, май) можно заготовить 250-300 ц сенажа зеленой массы с гектара. Промежуточные культуры рекомендуется использовать не только в качестве корма для животных, но и в качестве сидерата (сидерата). С помощью этой технологии повышается плодородие почвы. Потому что корень остается в почве и превращается в перегной. Эта технология повышает продуктивность засоленных почв. В таблице 4.3 приведены рекомендации по продуктивности продовольственных культур и единице получаемых из них питательных веществ. По его словам, размещать посевы целесообразно с умом в зависимости от плодородия почвы, типа питательных культур и их питательных веществ.

Таблица 1. Рекомендации по продуктивности продовольственных культур и единице питания, получаемой от них.

(На примере фермерского хозяйства «Авазбек Маъмиров» Ховосского района)

	Вид продовольственных культур	**Посевная площадь**	**Производительность с/га**	**Общий собранный урожай, тн.**	**Пищевой блок**	**В пищевом блоке тн.**
	Люцерна	25	120	300	0,45	135
	Промежуточные культуры (пшеница, ячмень, овес)	15	350	525	0,35	184
	Кукуруза (на силос)		550	825	0,22	182
	Свекла	3	500	150	0,1	15
	Итого	**43**	**x**			**515**

Авторская разработка на основе данных фермерского хозяйства «Авазбек Маъмиров» Хавосского района.

На убранных полях промежуточных культур можно сеять и другие питательные культуры, такие как кукуруза, сорго и африканское сорго. В этом случае 400-500 ц/га на гектар посевной площади. будет шанс получить зеленую массу. Это дает возможность получать двойной урожай с обрабатываемой земли.

В хозяйствах, специализирующихся на животноводстве, необходимо эффективно использовать каждый гектар земли, отведенной под животноводство, а рациональное размещение кормовых культур во время уборки позволяет регулярно кормить скот питательными кормами (табл. 2).

Таблица 2. Схема эффективного использования земельных площадей, отведенных под животноводство, и размещения кормовых культур в каждом хозяйстве

N	**Виды продовольственных культур**	**Размещение кормовых культур (га.)**	**В процентах %**	**Урожайность с 1 га**	**Валовой доход, тн.**	**Полученный урожай Кормовая единица (тонны)**
1.	Люцерна на сено	20	40	120	240	110
2	Кукуруза			400	1	200

.	для силоса	25	50	300	000	262
3.	Промежуточные культуры на силос				750	
4.	Свекла для корма	5	10	800	400	72
	Итого	50	100	x	x	644

Авторская разработка.

Посевные поля Сырдарьинской области имеют разный уровень засоления. По этой причине селекция, создание и организация семеноводства солеустойчивых видов растений и их сортов является требованием времени. До сих пор не до конца налажен первичный посев промежуточных культур в условиях Сырдарьи. На данный момент следует отметить, что ведутся научно-исследовательские работы по созданию новых сортов питательных культур, пригодных для природно-климатических условий Сырдарьинской области. В результате созданы сорта, пригодные для природного климата нашего региона, в том числе тритикале «Армугон-60», вика «Мирзачол-1», Ара Узбекистан-30. Таким образом были отобраны перспективные питательные культуры, в том числе селекционные линии Л-1 и Л-2 махсара осеннего и вики, а также Л-1 и Л-2 сорго. В настоящее время с этими сортами и линиями ведутся селекционная и селекционная работы.

Научно обоснованные предложения и рекомендации. К концу 2022 года общее количество фермерских хозяйств и ООО, специализирующихся на племенном животноводстве, в Сырдарьинской области составит 706, из них крупного рогатого скота – 35 122, в том числе коров – 15 686, мелкорогих – 41 863, лошадей – 2 964.

По состоянию обеспеченности амбарами имеется 26 современных амбаров, 182 реконструированных и 451 старый.

Имеются 9 специальных залов, оснащенных доильным оборудованием, которые имеются в основном в хозяйствах с поголовьем более 50 дойных коров. В области имеется 174 портативных доильных оборудования. Для перевозки молока имеются 3 специальные машины.

В Сырдарьинской области земельные площади, отведенные хозяйствам, специализирующимся на животноводстве, составляют 21 633,9 га, в том числе площади орошаемых земель - 20 642,5 га, что составляет 95,4% от общей площади отведенных земель. Остальные 491 га занимают залежь и 20,8 га – пастбища.

Имеется 843 животноводческих фермы, оснащенных специальной техникой, из них 185 новых и 658 старых. По обеспеченности специалистами зоотехниками и ветеринарными врачами имеется 122 зоотехника и 62 ветеринарных врача.

Однако такая ситуация не позволяет развивать животноводство в регионе, стабильно обеспечивать население наиболее необходимыми продуктами питания, такими как мясо, молоко, яйца, по мере роста численности населения. Тот факт, что животноводческие фермы не обеспечены необходимым основным инвентарем на уровне спроса, не позволяет повысить продуктивность животноводства и повысить эффективность финансовых результатов этих ферм.

Направления развития животноводства в Сырдарьинской области

	Вид проблемы	Решение	Результаты
О развитии животноводства			
.	Под присмотром населения выращивается более 90-92 процентов общего поголовья крупного рогатого скота в области, производится 90-93 процента продукции животноводства. Система поставок не создана.	Создание в каждом районе не менее 2-х фермерских хозяйств, специализирующихся на выращивании кормов, организация реализации заготовленных ими кормов населению через специальные магазины.	Увеличится поголовье скота и продуктивность (животноводства) в хозяйствах, будут созданы новые рабочие места..
.	Продуктивность продовольственных культур из-за отсутствия технических средств для полива, обработки и своевременной уборки кормовых культур (люцерны, кукурузы, промежуточных культур), выращиваемых в средних и мелких хозяйствах, низкая.	Организовать **«Техническую службу»** в составе не менее двух предприимчивых предпринимателей в каждом районе и создать систему обеспечения их стартовым капиталом для проведения агротехнических мероприятий на основе подряда на кормовых полях животноводческих ферм.	За счет увеличения урожайности кормовых культур в хозяйствах увеличится поголовье скота и производство.
.	Повышение продуктивности отведенных кормовых посевов площадей, эффективное использование имеющихся кормовых площадей.	Повысить продуктивность за счет эффективного использования выделенных кормовых площадей и получения 10-12 тонн кормовых единиц с каждого гектара кормовой площади.	Увеличивая производство мяса и молока в фермерских хозяйствах, можно повысить продуктивность животноводства.
.	Высокоурожайных семян кормовых культур, выращиваемых животноводческими хозяйствами, не хватает и не покрывает текущая потребность.	Дальнейшее развитие деятельности фермерских хозяйств, специализирующихся на выращивании семян питательных культур области, наладить сотрудничество с научными учреждениями по выращиванию семян питательных культур, установить в семеноводческих хозяйствах оборудование для очистки семян люцерны.	Урожайность продовольственных культур увеличится, а виды продовольственных культур увеличатся.
.	Каждый животновод в начале года должен разработать собственный бизнес-план по увеличению поголовья скота и производства животноводческой продук-ции и	Научно обоснованно организовать работу по развитию животноводства в каждом хозяйстве.	В течение года животноводам прогнозируется увеличение поголовья крупного рогатого скота, рост производства и продуктивности.

	Вид проблемы	Решение	Результаты
	создать систему его утверждения.		
.	Расширение (оптимизация) животноводческих ферм.	Организация ферм не менее чем на 100-200 дойных коров, выделение достаточных кормовых полей, кредитных средств.	В крупные животноводческие хозяйства принимаются специалисты (зоотехник, ветеринар, осеменатор), большое внимание уделяется племенной работе и продуктивности, есть возможность получить новую технику уборки, организован комбикормовый цех, доильный цех. на промышленной основе стоимость молока и мяса будет низкой по сравнению с мелкими фермерами.
.	Отсутствие техники уборки и уборки продовольственных культур и принятия мер по их закупке за рубежом.	Освобождение от государственной пошлины на уборочную технику, приобретенную за рубежом для своевременной и качественной уборки продовольственных культур, выращенных на животноводческих фермах региона.	Улучшается оснащенность агрохол-дингов продовольственной уборочной техникой, а выращиваемые продовольственные культуры убираются своевременно и качественно. Повысится валовой сбор и урожайность питательных культур, улучшится снабжение скота кормами.
.	В качестве эксперимента создание в каждом районе по одному хозяйству по выращиванию и заготовке специальных сочных кормов (силоса и сенажа).	Появится возможность обеспечить в хозяйствах населения дешевые и качественные грубые и сочные корма для скота.	Продуктивность молока и мяса увеличивается в результате постоянного и востребованного снабжения находящегося на попечении населения скота сочными кормами. Общий доход населения от животноводства увеличился.
.	Эффективное использование и внедрение научных достижений и научного подхода в укреплении животноводческой и кормовой базы.	Для развития животноводства и создания прочной кормовой базы необходимо внедрение научных достижений и инновационных технологий в каждое фермерское и производственное предприятие.	В результате внедрения научных инноваций, передовых и эффективных инновационных технологий в производство во всех отраслях животно-водства повысится эффективность

	Вид проблемы	Решение	Результаты
			использования животноводства и продовольственных культур, снизятся затраты.

Список использованной литературы:

1. «Стратегия развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», источник: lex.uz.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан PQ-4015 от 13 ноября 2018 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию птицеводства». lex.uz.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 18 марта 2019 года «О мерах по дальнейшему развитию и поддержке отрасли животноводства». lex.uz .
4. Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 января 2020 года № PQ-4576 «Дополнительные меры государственной поддержки отрасли животноводства». lex.uz.
5. Бурханов А.Х. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти, дарслик 2022 йил, “Ziyo nashr-matbaa”, Sirdaryo pirint. 630-sahifa.
6. Бурханов, А. (2023). СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ НОВЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. International Journal of Economics and Innovative Technologies, 11(2), 166-179.

ИННОВАЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ СТРАТЕГИЯЛАРИ

О.Т.Сатторкулов, С.А.Бердикулов
и.ф.н., доцент
2 курс талабаси
ГулДУ Иқтисодиёт кафедраси

Ўзбекистондаги амалга оширилган иқтисодий ислоҳотлар натижасида ишлаб чиқариш корхоналарининг реал мулк эгалари вужудга келмоқда, бироқ корхоналарда инновация жараёнларини тадқиқ этиш ёки тадқиқ этилганлардан кенг кўламда фойдаланишни йўлга қўйиш заруриятдир. Республикамизда барча саноат тармоқларини рақобатбардошлигини ва экспорт потенциалини кучайтиришда инновациялардан фойдаланишни ривожлантириш заруриятлигини ҳисобга олган ҳолда бу масалаларнинг ечимини топишда мазкур жараённи амалга оширишнинг замонавий ташкилий-иқтисодий ва бошқарув механизмларини шакллантириш ўта муҳим ўринни эгаллайди. Жумладан, саноат корхоналарида инвестиция-инновация бўлимларини ташкил этиш, ҳамда уни фаолиятини ривожлантириш учун барча қулайликларни яратиш катта иқтисодий самара беради. Ушбу инвестиция-инновация бўлимининг фаолиятини ривожлантиришда қуйидаги қулайликларнинг яратилиши зарурлигини тақозо этади [1]:

− корхоналарда юқори малакали илмий-техник кадрларни, яъни мутахассисликка доир янгиликларни ярата олиш, уни ўзлаштириш ва амалга ошириш қобилиятларига эга мутахассисларни танлов асосида жалб этиш; − жалб этилган кадрларга уларни қониқтирадиган даражада моддий ва ижтимоий шарт-шароитлар яратиш; − жисмоний ёки юридик шахслар, олий ўқув юртлари, илмий текшириш институтлари, халқаро ташкилотлар билан инновацияларни ривожлантиришда ҳамкорликни йўлга қўйишни кучайтиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш. Ушбу амалга ошириладиган фаолият республикамизнинг иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда катта аҳамиятга эга бўлган ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятларининг қуйидаги иқтисодий механизмларини ишга солади: − корхоналардаги мавжуд технологияларни юқори модернизация қилиш учун қулай имкониятлар яратилади; − реал секторлардаги инвестиция оқимларини самарали ўзлаштирилади; − ишлаб чиқариш корхоналари юқори даражада иқтисодий ривожланади; − саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш фаолияти натижасида табиий муҳитга кўрсатаётган зарарнинг олди олинади ёхуд камайтирилади; − мамлакатимиздаги саноат тармоқларининг импорт улушини камайтириш баробарида экспорт улушини кўпайтиради. Жумладан, корхонанинг муваффақияти ва рақобатбардошлигининг кафолати унинг фаолиятини самарали инновацион стратегик йўналишларда олиб бориш ҳисобланади.

Инновацион фаолият бўйича оптимал стратегияни танлаш ушбу фаолиятни самарали бошқарувининг таркибий қисми бўлиб, ишлаб чиқаришда кўзланган даромад улушни купайтиради. Инновация стратегиясини самаралигини танлаш тадқиқотларни олиб бориш, янги маҳсулотларни яратиш каби фаолият турлари билан бевосита 409 боғлиқдир. Ушбу стратегия асосида стратегик режалаштириш, аввало, ресурсларни оқилона тақсимлаш ва ундан самарали фойдаланиш, яъни

корхона ресурсларини ташкил этувчи молиявий маблағлар, ишчи кучлар ва технологиялардан самарали фойдаланишни режалаштиришдан иборат. Бундан ташқари, корхона янги тармоқларни барпо этишда инқирозга юз тутган корхоналарни сотиб олиш орқали самарали «портфелига» эга бўлади ёхуд истеъмолга яроқсиз маҳсулотларни қайта ишлаш орқали янги истеъмолчиларни жалб этади, хаттоки янги бозорларни эгаллаш имконияти яратилади. Шунингдек, инновация стратегияси асоси бўйича корхона фаолиятини ташқи муҳитдаги ҳар қандай ўзгаришларга мослашувчан режаларни тузиш ва амалга оширишни йўлга қўйиш зарур. Бунда режада ишлаб чиқилган чора-тадбирларни амалга ошириш натижасида иш ўринларини яратиш, истеъмолга зарур бўлган маҳсулот ҳажмини кўпайтириш, аҳолини даромадини ошириш ва корхонанинг иқтисодий салоҳияти юксалади. Инновацион стратегия назарий ва эмпирик (амалий) тадқиқотлар олиб боришнинг муҳим йўналиши бўлиб, уни амалга оширишда қабул қилган қарорлар янгиликлардан фойдаланиш даражаси бўйича стратегик ва молиявий самарадорлиги ўсиб боради. Шунинг учун раҳбарият янгиликларни қабул қилишига ижобий муносабатда бўлса, уни жорий этиш эҳтимоли юқори бўлади ва белгиланган стратегик мақсадга эришилади.

Стратегик мақсадга эришишда аввал мақсад аниқ ва тўғри ифодаланиши, ташқи омилларнинг (мавжуд имкониятлар, хавф-хатар, рақобатчиларнинг кучли ва заиф томонлари) таҳлилларини аниқ олиб бориш, шундан сўнг инновация стратегиясини танлаш зарур. Ҳозирги вақтда замонавий инновация стратегиялардан, яъни юқори самарага эга бўлган ҳужумкор, мудофаа, иммитацион (ўхшаш) стратегиялардан фойдаланиш корхоналар учун зарурдир. Ҳужумкор стратегияда тадбиркор инновацион маҳсулотларни биринчилардан бўлиб ўзлаштиради ва бозорга олиб чиқади. Шу орқали тадбиркор ўз фаолиятининг рақобатбардошлигини оширади ва ўзи учун кўп даромад олишига имконият яратади. Чунки ҳужумкор стратегия асосида маҳсулотларни ўзлаштирилишида унинг рақобатчиси бўлмайди. Бу йўналишларда фаолият кўрсатаётган тадбиркорлар янгича ёндашувлар асосида оммалашмаган ишлаб чиқариш билан кўпроқ шуғулланадилар. Бу эса уларни биринчилар қаторида бўлишни таъминлайдиган муҳитни келтириб чиқаради. Ҳужумкор стратегия асосида бошқа ишлаб чиқарувчиларга жиддий таъсир кўрсатиш мумкин. Шунинг учун инновацияларни корхонада қўллашдан аввал «SWOT» таҳлилларини ўтказиб бориш йўлга қўйилади [1].

Мудофаа стратегиясида илмий-тадқиқот ва конструкторлик ишларини амалга оширишдаги бош вазифаси «харажат-натижа» нисбатларини жадаллаштириш ҳисобланади, яъни олиб бориладиган инновацион фаолиятнинг натижаларини истеъмолчилари аввалдан маълум бўлиши керак. Бундай стратегиялар рақобатчилар билан ҳисоблашиб ёки уларнинг ҳам хаттиҳаракатларини инобатга олиб амалга оширилади. Бироқ, барча фаолиятлар корхона манфаатига бўйсундирилган бўлади. Иммитацион стратегиядан янгиликлардан фойдаланиш бўйича фаол бўлган корхоналар томонидан қўлланилади. Бундай стратегия технологик ва бозор позицияси кучли бўлган кичик инновация фирмалари томонидан олиб чиқилган янгиликларнинг асосий истеъмол хусусиятини белгилайди. Истеъмолга қараб янгиликларни амалга ошириб бориш йўлга қўйилади. Стратегик турларни корхона ўз фаолиятидаги мақсад турини, иқтисодий потенциалини ва молиявий маблағларини, ташқи омилларни тўла қилинган таҳлиллари асосида танлаш зарур .

1-жадвал. Корхона фаолиятида инновацияларни амалга оширишдаги замонавий стратегиялар.

Инновацион стратегия турлари		
Хужумкор стратегия-бу тадбиркорлик рақобат тамойилига амал қиладиган корхона фаолиятига доир стратегия	Мудофаа стартегия-бу мавжуд бозорларда корхонанинг рақобат позициясини доимо эгаллашга қаратилган стратегия	Имитацион стратегия-бу стратегия технологик ва бозор позицияси кучли бўлган кичик фирмалар томонидан олиб чиқилган янгиликларнинг асосий истеъмол хусусиятини белгиловчи стратегия

Ўзбекистонда янги ишланмаларни тижоратлаштириш ва ишлаб чиқаришга жорий этишга борасида қуйидаги ишлар амалга оширилди [2], яъни:

Биринчидан, 2018-2022 йилларда жами 228,8 млрд. сўмлик 372 та илмий ишланмани тижоратлаштирилди. Олиб борилган ишлар натижасида умумий қиймати 217,3 млрд. сўм миқдорида

маҳсулот ишлаб чиқарилган ва 210,9 млрд. сўмлик маҳсулот сотилган ҳамда 17,9 млрд. сўмлик хизматлар кўрсатилган.

Маълумот учун: 2022 йил биринчи ярим йил якуни бўйича жами 104 млрд. сўмлик 255 та илмий ишланма тижоратлаштирилди. Олиб борилган ишлар натижасида умумий қиймати 33 млрд. сўмлик маҳсулот сотилган ҳамда 37,6 млрд. сўмлик хизматлар кўрсатилган.

Иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев раҳбарлигида 2020 йил 3 декабрь куни кенгайтирилган тарзда ўтказилган “Илм-фан ва инновацияларни ривожлантириш борасида олийгоҳ, илмий ташкилотлар, тармоқ ва ҳудудлар олдидаги устувор вазифалар тўғрисида” видеоселектор мажлиси 95-сонли баённининг 26-банди ижросини таъминлаш мақсадида жорий йилнинг 25-26 февраль кунлари Инновацион ривожланиш вазирлигида олий таълим муассасалари ва илмий ташкилотлар билан хўжалик бошқаруви органлари, тармоқ ташкилотлари ва ҳудудлар ҳамкорлигини ривожлантиришга қаратилган илмий ишланмаларни тижоратлаштириш Форуми ўтказилиб, унда ҳудуд иқтисодиётида мавжуд муаммолар ечимига қаратилган тайёр илмий ишланмаларни жорий қилиш, илмий ташкилотлар билан ҳамкорликда янги тадқиқот ишларини ташкил қилиш бўйича 15,6 млрд. сўмлик 36 та шартомалар имзоланиб, хозирги кунда 2,9 млрд. сўм маблағлар тегишли ташкилотларга ажратилган. Тармоқ ва истеъмолчи ташкилотлар ҳамда олий таълим муассасалари, илмий ташкилотлар ўртасида илмий ишланмаларни тижоратлаштириш, янги буюртмалар бериш, соҳага инновацияларни жорий қилишни молиялаштириш мақсадида 5,66 млрд. сўмлик 12 та шартомалар имзоланиб, хозирги кунда имзоланган шартнома ва иш режалар бўйича 11,310 млрд. сўм тегишли ташкилотларга ажратилган. Мазкур шартномалар тўлиқ амалга ошиши натижасида газ таъминотида қўлланиладиган “Одорант” имёвий реагенти маҳаллийлаштирилади ва йиллик 300 минг АҚШ долл. валюта сарфи тежалади, тоғ-кон саноатида радиоактив радон миқдорини аниқлаш учун радонометр ишлаб чиқарилади, олеин кислотасини олиш технологияси жорий қилинади, саноат оқава сувларини цианид ионларидан тозалаш технологияси жорий қилинади, қўшимча уран олиш технологияси жорий қилинади ва уран ишлаб чиқариш ҳажми эса 15 %га оширилади, металлургия тармоғида халқаро стандартларга жавоб берадиган электрод қопламалари ишлаб чиқарилади ва маҳсулот таннархи ўртача 30-50 % пасаяди, автомобил йўлларида қўлланиладиган юқори чидамли бетон ишлаб чиқариш технологияси жорий этилади. Тижоратлаштириш кузги Форум доирасида 125 та ташкилот, шу жумладан, инновацион ҳудудлар томонидан 362 та инновацион маҳсулот ва технологиялар намойиш этилди. Жумладан, Тижоратлаштириш баҳорги форуми доирасида молиялаштирилган лойиҳалар натижалари бўйича 44 та инновацион маҳсулот, технология ва янги ишланмаларнинг прототиплари ва саноат намуналари намойиш этилди. Натижада 15 турдаги инновацион маҳсулотларни сотиш бўйича 5,5 млрд сўмлик 10 та шартномалар имзоланди.

Учинчидан, инновацион маҳсулотлар ишлаб чиқарилишини ўзлаштиришга йўналтирилган ҳамда тижоратлаштиришгача тайёрлаш мақсадида 102,1 млрд. сўмга тенг 137 та лойиҳа Инновацион ривожланиш вазирлиги томонидан молиялаштирилди, шундан молиялаштирилган 44 та лойиҳага тармоқ ва хусусий сектор томонидан 35,718 млрд. сўм маблағлар жалб қилиниши кўзда тутилган. Мазкур лойиҳалар молиялаштириш доирасида 42 та янги инновацион корхоналар ташкил қилиниб, 2021 йилда 603 та янги ишчи ўрни яратилди.

Тўртинчидан, илмий-тадқиқот муассасаларини истеъмолчи ташкилотларга бириктириш натижасида 17 та илмий-тадқиқот муассасаларига бириктирилган 15 та вазирлик, идора ва хўжалик бирлашмалари илмий тадқиқот муассасаси масъуллари билан учрашув ўтказилди, илмий-технологик тараққиётни қўллаб-қувватлаш бўйича “Йўл харита”лари ишлаб чиқилди. “Йўл харита”сига асосан илмий ташкилотларга тармоқлар томонидан жами 143,9 млрд. сўм маблағлар ажратилиши бўйича келишувларга эришилди. Жорий йил ҳолатига 52,8 млрд. сўм маблағ тегишли илмий ташкилотларга ўтказилиши таъминланди.

Бешинчидан, илмий тадқиқотларни тижоратлаштириш, уларнинг амалий самарадорлик ва натижадорлигини, “буюртмачи-тадқиқотчи-инвестор” узвийлигини таъминлашга қаратилган инновацион ишланмаларнинг маҳсус Портали (http//:portal.spcenter.uz) ишга туширилган. Ушбу порталдан фойдланувчиларни рўйхатга олиш ва тегишли шахсий кабинетлар орқали ишлашга асосланган бўлиб, фойдаланувчилар “Буюртмачи”, “Инвестор” ва “Тадқиқотчи” категорияларига ажратилган. Ҳозирда “Тадқиқотчи” базасида 607 дан ортиқ инновацион ишланмалар мавжуд. Шунинг “Буюртмачи” базасида тармоқ корхоналари муаммолари ва уларни ечиш учун илмий ишланма ва инновацияларга бўлган буюртмалар 167 тага етди.

Бинобарин, мамлакатмизда янги инновацион лойиҳаларни жорий қилиш ва технологиялар трансфери бўйича қуйидаги ишлар амалга оширилди:

Биринчидан, “Яшнобод” инновацион технопаркида резидент мақомига эга 42 та корхона ўз инновацион лойихалари билан экстерриториаллик асосида фаолият юритиб келмоқда. Ҳозирги кунга келиб резидентлар томонидан 441 та янги иш ўринлари яратилган. Шунингдек, “Яшнобод” инновацион технопаркининг резидентлари томонидан 2019-2022 йиллар давомида жами 615,7 млрд. сўмлик маҳсулотлар ишлаб чиқарилди ва ички бозорга сотилди, шу билан бирга 4,9 млн. АҚШ доллари миқдорида маҳсулотлар Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Россия давлатларига экспорт қилинди. Ушбу инновацион лойиҳаларнинг ихтисослашуви - қурилиш, ахборот-коммуникация технологиялари, фармацевтика, қишлоқ хўжалиги, энергия тежовчи қурилмалар, ёнғинга-қарши кураш, машинасозлик, робототехника, кимё саноати ва бошқа йўналишларда самарали ишларни амалга ошириб келишмоқда.

Бундан ташқари резидентлар томонидан 11.4 млн. АҚШ доллари миқдорида инвестициялар киритилган. “Яшнобод” инновацион технопаркининг экстерриториаллик тамойили асосида Наманган вилояти “Чуст инновацион технопарки” филиали томонидан 10 та инновацион лойиха резидентлик мақомига эга бўлди. Ҳозирги кунга келиб резидентлар томонидан 79 та ишчи ўрин яратилди ва 236 млн. сўмлик маҳсулот ишлаб чиқилди. “Яшнобод” инновацион технопарки резидентларининг ҳорижий ҳамкорлари билан олиб борилган музокаралар натижасида “Дубай Экспо-2020” бутунжаҳон кўргазмаси доирасида 5,4 млн. АҚШ долларлик экпорт шартномалар ҳамда 1,7 млн. АҚШ долларлик импорт шартномалар имзоланди. Шу билан бирга, “Яшнобод” инновацион технопаркининг Наманган вилояти “Чуст инновацион технопарки” филиали томонидан 10 та инновацион лойиҳалар резидентлик мақомига эга бўлди. Ҳозирги кунга келиб мазкур резидентлар томонидан 80 нафар янги ишчи ўринлари ташкил этилган бўлиб, 230,6 млн. сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилди [2].

Стратегияни тўғри ва оқилона танлаш корхонанинг иктисодий самарадорлигини оширади, шу билан бирга экспорт потенциалини кўтаради ва рақобатбардошлигини мустаҳкамлайди. Бизнинг мамлакатда бугунги кунда корхоналарда инновацияларни қўллаш даражасини ошириш талаб этилади. Бунинг учун давлат сиёсатида инновацияларни жорий этишга йўналтирилган чора-тадбирлар устуворлик қилмоқда. Бунинг учун унинг мотивацияси яхши йўлга қўйилмоқда. Энг муҳими мамлакатимизда ҳуқуқий, иқтисодий ва ташкилий база тобора такомиллашиб бормоқда. Шунинг учун корхоналарда инновацион фаолият мотивациясига жиддий эътибор берилмоқда. Аммо баъзи корхоналарда ҳамон инновацион фаолият мотивациясининг муаммолари ҳақида сўз юритиш мумкин. аниқроғи айрим корхоналарни инновацияларни қўллаш жараёнлари жуда суст. Ўзбекистон иқтисодиётининг олдида жуда муҳим стратегик масаллардан бири – бу корхоналарда инновацияларни қўллашдаги салоҳиятни оширишдир. Бу масала технологик кризисдан чиқиш ва ишлаб чиқаришнинг паст индустриал технологик усулининг шаклланишининг тугунли йўналишларида узилишлар пайдо бўлишдан сақлайди.

Адабиётлар рўйхати:

1.И. Хотамов, Ш. Мустафакулов, М. Исаков, А. Абдувалиев. Корхона иқтисодиёти ва инновацияларни бошқариш. Ўқув қўлланма.-Т.:Иқтисодиёт, 2019 й. 483 бет

2. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигининг 2018-2022 йиллар кесимида амалга оширган ишлари юзасидан Ҳисоботи. Тошкент. 2023й

КОРХОНАЛАРДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ АСОСЛАРИ

О.Т.Сатторкулов, Д.Халимжонов

и.ф.н., доцент, ГулДУ Иқтисодиёт кафедраси

катта ўқитувчи, ГулДУ Яшил иқтисодиёт ва барқарор бизнес кафедраси

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини инновацион ривожлантириш-нинг 2026 йилгача Концепциясида таъкидланганидек, глобал рақобат шароитида шундай мамлакат ғолиб келадики, у ривожланган инфратузилмага эга бўлиб, инновацион ишланмаларни яратиш, тижоратлаштириш ва жорий этиш институтларига таянади [1]. Ҳозирги даврда барча мамлакатлар жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозининг оқибатларини кам ҳаражатлар билан тугатиш учун ишлаб чиқаришни қайта

қуроллантириш ва янги технологияларни ўзлаштириш, уларнинг ҳисобига рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқариш устида бандлар. Бугунги кунда республикамизда илмий-тадқиқот олиб борувчи 400 дан зиёд корхоналар рўйхатга олинган. Кейинги 10 йилда илмий-техника дастурларини амалга оширишда 224 та илмий-тадқиқот муассасалари, олий ўқув юртлари, тажриба-конструкторлик ташкилотлари, тажриба-конструкторлик ва кичик инновацион марказлар қатнашиб келмоқдалар. Ўзбекистоннинг илмий потенциали 36 минг кишидан иборат бўлиб, унда 2549 фан доктори, 9254 фан номзоди ва 15,7 минг тадқиқотчилар мавжуд. Илмий тадқиқотлар Ўзбекистон Фанлар Академиясининг 45 та илмий тадқиқот институтларида, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг 36 та олий таълим муассасасида (ОТМ), Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 34 та илмий ташкилотларида, Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлигининг 30 та илмий ва ўқув институтларида, 79 та илмий ва инновацион марказларида ва бошқа улар таркибига кирмайдиган лойиҳа ва тажриба-конструкторлик ташкилотларида олиб борилмоқда. Илмий ходимларни тайёрлашда дастурий ёндашув амалга оширилиб, таълим босқичларида ислоҳотлар чуқурлаштирилмоқда [2].

Ўзбекистонда таълим соҳасига давлат ҳаражатлари нисбий жиҳатдан юқори ҳисобланади. Кейинги 10 йил мабойнида уларнинг даражаси ЯИМнинг 10 фоизидан ортиқни ташкил этди. Бугунги кунда, БМТ маълумотларига кўра, мамлакатимизда таълимга йўналтирилаётган ҳаражатлар давлат бюджетининг 35 фоиздан ортиғини ташкил этмоқда. Бошқача айтганда, Ўзбекистон давлат бюджетидан ҳар йили 35 фоиз маблағ айнан таълим-тарбия соҳасига йўналтирилмоқда. Шунингдек, республикамизда илмий, илмий-техник ва инновацион потенциални яратиш ва тараққий эттириш соҳасида катта ишлар амалга оширилмоқда. Фан тизимини бошқаришни такомиллаштириш, илмий-инновацион фаолиятнинг қонуний ва меъёр ҳуқуқий асосини кенгайтириш, академик ва олий таълим тадқиқотларини такомиллаштириш чоралари амалга оширилмоқда, ишлаб чиқаришнинг инновацион характерини ошириш, ахборот ва инновацион инфратузилмаларини яхшилаш, янги илмталаб корхоналарни яратиш, янги юқори технологияларни жорий этиш ишлари анча фаоллашмоқда.

Минтақаларда илмий лойиҳаларни ташкил этиш ва жорий этиш мақсадида инновацион фаолият ва технологиялар трансферига масъул ҳудудий марказлар ишлаб турибди. Марказлар илмий-техника соҳасидаги мустақил агентликлар бўлиб, улар эркин ва демократик тарзда бошқарилади. Бошқарув таркибига маҳаллий ҳокимиятлар, корхона, илмий ва ўқув юртларининг вакиллари киради. Ҳозирги кунда республикамизда инновацион фаолият ва техника трансфери бўйича 8 та ҳудудий марказ фаолият олиб бормоқда. Улар Қорақалпоғистон Республикаси, Хоразм, Бухоро, Сурхондарё, Қашқадарё, Фарғона, Андижон, Наманган вилоятларида жойлашган.

2018-2022 йиллар мобайнида илмий фаолиятга оид давлат дастурлари доирасида умумий қиймати 1118,5 млрд. сўм бўлган 784 та лойиҳаларнинг бажарилиши таъминланди. Шу жумладан, 642,4 млрд. сўмлик 467 та амалий, 140,1 млрд. сўмлик 143 та инновацион, 237,6 млрд. сўмлик 76 та фундаментал, 10,1 млрд. сўмлик 3 та мақсадли ва 98,3 млрд. сўмлик 98 та халқаро лойиҳалар бажарилди [2].

Умумий қиймати 98,3 млрд. сўмлик 98 та (“Ўзбекистон-Ҳиндистон”, “Ўзбекистон-Хитой” ва “Ўзбекистон-ЕАПИ”) халқаро қўшма лойиҳалар бажарилмоқда.

а) “Ўзбекистон-Хитой” халқаро қўшма илмий лойиҳалар танловига тақдим этилган 61 та лойиҳадан ҳамкорликдаги экспертиза натижаларига кўра умумий қиймати 20,3 млрд. сўм миқдоридаги 21 та лойиҳа молиялаштирилди;

б) “Ўзбекистон-Ҳиндистон” халқаро қўшма илмий лойиҳалар танловига тақдим этилган 137 та лойиҳадан ҳамкорликдаги экспертиза натижаларига кўра умумий қиймати 27,1 млрд. сўм миқдоридаги 23 та лойиҳа молиялаштирилди;

в) Ўзбекистон-ЕАПИ” илмий лойиҳалар танловига келиб тушган 37 та лойиҳадан ижобий хулоса олган умумий қиймати 3,0 млрд. сўм миқдоридаги 2 та илмий лойиҳа молиялаштирилди;

г) Ўзбекистон-Туркия” илмий лойиҳалар танловига келиб тушган 38 та лойиҳадан ижобий хулоса олган умумий қиймати 7,5 млрд. сўм миқдоридаги 4 та илмий лойиҳа молиялаштирилди.

д) Ўзбекистон-Беларусь” илмий лойиҳалар танловига келиб тушган 70 та лойиҳадан ижобий хулоса олган умумий қиймати 13,9 млрд. сўм миқдоридаги 2 та илмий лойиҳа молиялаштирилди.

е) Ўзбекистон-Венгрия” илмий лойиҳалар танловига келиб тушган 33 та лойиҳадан ижобий хулоса олган умумий қиймати 2,9 млрд. сўм миқдоридаги 3 та илмий лойиҳа молиялаштирилди.

ё) Ўзбекистон-Япония” илмий лойиҳалар танловига келиб тушган 12 та лойиҳадан ижобий хулоса олган умумий қиймати 23,7 млрд. сўм миқдоридаги 12 та илмий лойиҳа молиялаштирилди [2].

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси ҳақида гапирадиган бўлсак уларда “билимлар иқтисодиёти”нинг шаклланишида давлатнинг фан соҳасидаги буюртмасидаги улуши камайиб, йирик корпорацияларнинг илмий бўлимлари, кичик ва ўрта миқёсдаги илмталаб фирмаларнинг мамлакат илмий-техник ривожланишидаги ҳиссаси ортиб бормоқда. Республикамиздаги инновацион тараққиёт давлат, кичик бизнес ва фуқаролик жамиятлари институтларининг тизимли ва мақсадга йўналтирилган ҳаракатларига таянган ҳолда давом этмоғи лозим. Бу мақсадларни амалга ошириш учун ОТМда инновацион фаолият, инновацион менежмент, технологиялар трансфери ва тижоратлаштириш, интеллектуал мулк назарияси ва ҳуқуқий асослари, инновацион лойиҳаларни бошқариш, бозорга йўналтириш соҳаларида фаолият юритувчи ходимлар тайёрланиши зарур, ОТМларида шундай курс ва ўқув дастурларини яратиш мақсадга мувофиқ. Инсон ресурсини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлашга қаратилган ёндашув билимлар жамияти концепциясини ташкил қилади ва қашшоқликка қарши кураш самарадорлигини таъминлаб, ривожланиш сиёсати асосини яратган ҳолда, инсон ҳуқуқлари ҳамда асосий эркинликларига тўлиқ риоя қилишни таъминлаши лозим. Негаки, билим ва ривожланиш ўртасидаги боғлиқлик билимлар жамиятини барпо этиш учун асос бўлиб, билим иқтисодий эҳтиёжларни қондириш воситаси ва ривожланишнинг ажралмас бир бўлаги саналади. Ривожланаётган билимлар жамияти марказида сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ўсиш суръати қашшоқликка қарши кураш, фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқларни илгари суриш мақсадлари ўртасидаги ижтимоий боғлиқликни яққол намоён этади.

Сўнгги йилларда янги ҳодисалар ва тушунчаларни ўрганадиган кўплаб илмий адабиётлар пайдо бўлди. Биринчи навбатда, билимларни яратиш ва улардан самарали фойдаланишга бағишланган таржима ишларини қайд этиш лозим. Билимларга асосланган иқтисодиётга бевосита тааллуқли бўлмаган айрим нашрлар интеллектуал капитал ва билимлар менежменти назариясининг у ёки бу жиҳатларини ишлаб чиқмоқда. А.А.Динкин, Н.И.Иванова, С.М.Климовнинг ишлари ушбу мавзудаги дастлабки Россия нашрлари сирасига киради. 2003 йилда Россия Федерацияси Президенти ҳузуридаги Россия давлат хизмати академиясининг муаллифлар жамоаси иши чоп этилди. Шу йили А.Н.Козирев ва В.Л.Макаровнингфундаментал иши, шунингдек, билимлар иқтисодиёти бўйича ўқув қўлланмаси нашр этилди. БМТ Ривожланиш Дастурининг Россияда билимларга асосланган жамият ташкил топишига бағишланган 2004 йилги йиллик тўплам мамлакат илмий ғоясига жиддий ўзгариш киритди.

Фан билан ишлаб чиқариш ўртасидаги узвий ҳамкорликни таъминлашнинг асосий шартларидан бири технологиялар трансферининг бозор механизмидир. Бу жараённи тезлаштириш учун миллий саноатимизда янги технологияларни яратиш ва мавжудларини қўллашни, олимлар томонидан бизнес таклифларини рағбатлантирувчи механизм яратилиши лозим. Концепцияда таъкидлан-ганидек, бундай механизм сифатида давлатнинг технологиялар трансферини қўллаб-қувватлайдиган илмий ва саноат корхоналарининг консорциуми бўлиши мумкин. Агар корхона янги ишланмани бозорда сотиб олмоқчи бўлса ва олимлар илмий ташкилот вакиллари сифатида илмий тадқиқотларни ниҳоясига етказишда, саноат технологиясини яратишда қатнашмоқчи бўлса, унда бу жараён, лойиҳа давлат томонидан молиялаштирилиши мумкин. Бундай ҳолатда ишланмаларни ниҳоясига етказиш ҳаражатларини қисман ёки тўла давлат қоплаши (яъни саноат корхонаси ёки илмий-тадқиқот институтининг риски пасаяди), илмий-тадқиқот институти тайёр маҳсулотни сотишдан олинадиган фойдадан ўз улушини олиши мумкин (яъни консорциумда иштирок этиш манфаатдорлиги ошади).

Институционал туб ўзгаришлар, билимлар иқтисодиётининг “ижтимоий капитал” деб ном олган қисмини тадқиқ этиш бўйича ишларни алоҳида блокка ажратиш мумкин. Бу борада Ф.Фукуяманинг ижтимоий капитал сингари тоифани жиддий равишда ривожлантириб, тўлдирадиган

иши алоҳида эътиборга лойиқ. Ушбу тоифа Ғарбда иқтисодий ва ижтимоий тадқиқотларда кенг қўлланилмоқда. Билимларга асосланган иқтисодиёт тўртта омил – ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш, инновацияларни ривожлантириш, ишчи кучини сифатли ўзгартириш, иқтисодий юксалиш ва аҳоли фаровонлигини оширишга таянади. Янги иқтисодиётда билимлар товарга айланади ва у алоҳида капиталдир. Билимлар ижтимоий товар ҳисобланади. Бу билимлар ўзлаштирилгач эса, улар нолинчи маржинал ҳаражатларга эга ижтимоий товарга айланади. Шу сабабли, янги билимларни яратувчи ахборот, билимлардан бепул фойдаланишни чеклаш, яъни муаллифлик ва янгиликни патентлаш муаммосига дуч келади.

Янги иқтисодиётда тармоқлар икки гуруҳга бўлинади: билимларни ишлаб чиқувчилар ва истеъмолчилар. Билимларни ишлаб чиқувчи гуруҳларга ахборот-коммуникация технологиялари тармоғи, муҳандислар, илмий ходимлар, дастурчилар, дизайнерлар ва бошқалар меҳнат қиладиган илмий муассасалар киради. Ахборотни бошқарадиган, қайта ишлайдиган ва тақсим-лайдиган соҳалар, яъни телекоммуникациялар, банклар, реклама агентлик-лари, суғурта, юриспруденция, тиббиёт, давлат бошқаруви, таълим соҳаси билимлар истеъмолчилари ҳисобланади.

Инновациялар билимларни ишлаб чиқариш кучларини ривожлантиришда асосий восита ҳисобланади ва билимларга асосланган иқтисодиётнинг асосий хусусиятини ифода этади. Иқтисодчилар тадқиқотлари шуни кўрсатадики, инновациялар бугун иқтисодий юксалишнинг асосий манбаи ва корхоналар, минтақалар ҳамда миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигининг муҳим омилидир. Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти экспертлари ҳисоб-китобларига кўра, кейинги йигирма йилда ривожланган мамлакатларнинг иқтисодий юксалиши бевосита инновациялар билан боғлиқ.

Замонавий иқтисодиётда инновация жараёнларини ривожлантиришнинг бир қанча принципиал хусусиятлари ва йўналишларини ифодалаш мумкин (уларнинг айримлари янги йўналиш эмас, балки инновацияларнинг янги тушунчалари ҳисобланади):

1.Тадқиқотлар ва ишланмалар инновациялар учун билимларнинг ягона манбаи ҳисобланмайди. Бозорни ўрганиш, рақобатчилар ва шериклар тажрибаси инновацион ахборотнинг кўп фойдаланадиган манбаларини ташкил қилади.

2. Инновациялар иқтисодиётнинг фақат илмталаб секторлари учун имтиёз ҳисобланмайди. Инновацион фаоллик муҳим ва бугунги кунда саноат тармоқлари, хизматлар соҳаси ҳамда иқтисодиётнинг давлат тармоғи, жумладан, давлат бошқаруви органларида амалга оширилмоқда.

3. Инновацион жараённинг чизиқли модели (фундаментал тадқиқотлардан тижорат учун сотиш) нотўғри. Инновацияни замонавий тушуниш инновацион жараёнларнинг интерфаол ва тизимли моделидан бошланади ва ушбу моделда инновация тизимлари (минтақавий, миллий ва халқаро) муҳим ўрин тутади. Мазкур тизимлар доирасида эса янги илмий ва технологик билимлар яратилади, жорий этилади ҳамда улардан фойдаланилади, инновацион жараёнлар қўллаб-қувватланади.

4.Инновациялар жадаллашмоқда ва уларни рағбатлантириш рақобатбардошликни таъминлаш учун муҳим ҳисобланади.

5. Инновацион жараёнлар янада глобаллашмоқда.

6. Корхоналар кенг кўламли технологияларга таянган ҳолда, кўп ҳолларда билимларни ташқаридан олишга мажбур бўлмоқда. Технологик альянслар, илмий ташкилотлар билан шартномалар, инновацион фаол корхоналар тармоқлари ва кластерлари сони кўпаймоқда.

Иқтисодий ривожланишда ахборот ва билимларнинг муҳимлигини умумий англашни эътироф этиш, сиёсий доиралар, бизнес вакиллари, менежерларнинг рақобатбардошликни таъминлашда инновациялар муҳим роль ўйнашига қатъий ишониши билимларга асосланган иқтисодиётни

шакллантиришни белгиловчи яна бир замонавий йўналишдир. Бу йўналишни ривожланиш омили сифатида баҳоламай бўлмайди. Жамият ва иқтисодиёт “аксини кўрсатувчи, рефлекцияли тизимлар” ҳисобланади, иқтисодий ўсиш омиллари тўғрисидаги тасаввурни ўзгартириш ўз-ўзидан бу тизимларни ҳам ўзгартиради ва уларнинг ривожланишига таъсир кўрсатади. Билимлар ва инновациялар муҳимлигини англаш менежментнинг маълум даражада бозорларда фирмалар ўзини тутиши ва уларни ривожлантириш стратегиясини белгилайдиган замонавий йўналишларини шакллантиради (билимларни бошқариш, инновацияларни бошқариш). Буни давлат даражасида англаш билимларга асосланган иқтисодиётни ривожлантиришнинг давлат стратегияси ва дастурларини ишлаб чиқишга ундайди.

Кейинги ўн йилда билимларни яратиш, етказиб бериш ва қайта ишлаш воситаларига таъсир кўрсатган технологик ўзгаришларкўлами айрим экспертларнинг янги билимлар даври бўсағасида турганимиз ҳақидаги тахминга келишини тақозо этди. Оғзаки анъаналар, ёзма сўз, кейинчалик эса босма сўзларга асосланган билимлар шаклларидан бошлаб, рақамли оммавий ахборот воситалари ривожланиши тармоқларни етказиб беришларини жадаллаштирадиган горизонтал ўқ ва бирикишни жадаллаштирадиган вертикал ўқ бўйича мислсиз кенгайтиришни рағбатлантирди. Халқ фаровонлигини таъминлаш ва мамлакатимизнинг жаҳондаги юқори позицияни сақлаш учун кўпроқ ва тезкор мулоқот қилишимизни талаб қиладиган даврга қадам қўймоқдамиз. Интерфаоллик – ушбу янги билимлар услубларининг яна бир ўзига хос хусусиятидир. Аслида эса, манбадан жамиятга марказлаштирилган коммуникацияни таъминлайдиган радио, телевидение ёки матбуот каби “бир томонлама оммавий ахборот воситалари” ва илк бор масофадан туриб “юзма-юз” гаплашиш имконини берган телефон ёки кечиктирмасдан боғланишни, мультимедия интерфейслари, авваламбор, уланган одамлар ва ташкилотларга реал вақтда ўзаро ҳамкорлик қилиш имконини таклиф этадиган Интернет каби интерфаол оммавий ахборот воситалари ўртасидаги фарқни аниқлашимиз даркор.

Адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлдаги «2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-165-сонли Фармони

2.Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигининг 2018-2022 йиллар кесимида амалга оширган ишлари юзасидан Ҳисоботи. Тошкент. 2023й

MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION XIZMAT TURLARINI JORIY ETISH AMALIYOTI

Matkuliyeva Sanobar Ismailovna
“Ma’mun universiteti” NTM ,
“Buxgalteriya hisobi va umumkasbiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ma’lumki, banklar oldidagi asosiy vazifalardan biri - mijozlar bazasini oshirishda bank xizmati turlarini ko‘paytirish, ko‘rsatiladigan xizmat turlari narxini optimallashtirish, yuqori malakali xodimlar va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlashdan iborat.

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan 12 turdan ziyod masofadan boshqariluvchi xizmat turlari ko‘rsatib kelinmoqda. Bugungi kunda masofadan boshqariluvchi bank xizmatlarining asosiy foydalanuvchilari Toshkent shahri aholisi sanaladi. Plastik kartochkalar, bankomatlar soni jihatidan ham Toshkent shahri yetakchi bo‘lmoqda. Bu esa mamlakatimiz hududlariga infratuzilma yetarli darajada etib bormayotganidan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda bank tizimi va “raqamli bank”ni rivojlantirish, innovatsiyalarga asoslangan xizmat turlarini kengaytirish va mavjud bank xizmatlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. SHulardan biri “raqamli bank” bo‘lib, ushbu xizmat turi rivojlangan va o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar bank tizimida keng qo‘llanmoqda. “Raqamli bank - innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatini ko‘rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko‘rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo‘linmasi. Raqamli banklar tomonidan bank xizmatlarini masofaviy

ko‘rsatish bankning ichki tartib-qoidalariga asosan hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi”[1].

Raqamli bank xizmati turlarining afzalliklari shundaki, ushbu xizmat turidan foydalanuvchilar o‘zlariga qulay va hamyonbop bo‘lgan xizmat turini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

SHuningdek, aholini bank xizmat turlaridan va infokioskalardan foydalanishida infokioskalar sonini oshirish kerak. Mamlakatimizdagi bankomatlar aksariyat qismini xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshiruvchi infokioskalar tashkil etadi, “cash by code”, “cash to card”, “card to card”, “cash-in” kabi infokioskalar soni yetarli emas, ma’lum bir banklar va savdo shahobchalaridagina joylashgan.

“Cash by Code” tizimida ishlovchi bankomatlar sonini ko‘paytirish lozim. Ushbu bankomat naqd pul berish va qabul qilish funktsiyasiga ega bo‘lib, bir vaqtni o‘zida plastikka naqd pul mablag‘larini jo‘natish va qabul qilish xususiyatiga ega.

“Cash-in” tizimida ishlovchi bankomatlar sonining ko‘paytirilishi mijozga kerakli bo‘lgan xorijiy valyuta yoki milliy valyutani naqd ko‘rinishda olish imkoniyatini beradi. Ushbu bankomat mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qulaylik yaratadi, bu esa mamlakatda turizmni rivojlantirishga turtki beradi.

O‘z navbatida, bank infratuzilmasini rivojlantirish bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, takomillashtirish orqali mijozlar sonini oshirish bilan bog‘liq samarali mexanizm ketma-ketligini ta’minlovchi omil hisoblanadi.

Bank xizmatlarini mijozlar uchun qulay bo‘lishi, bank xizmatlari bozoridagi operatsiyalar foydalanuvchilar uchun yanada tushunarli bo‘lishi, aholining umumiy moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi, bank faoliyatiga oid qonunchilikdagi o‘zgarishlar bank tizimida infratuzilmaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Banklarning kuchli raqobat sharoitida ijobiy nufuzini oshirish, mijozlar bazasini saqlash va ko‘paytirishga qaratilgan intilishlar mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ko‘plab tadqiqotchilar o‘z harakatlarini mijozlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish va rivojlantirishga, ularning manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qaratgan kompaniyalargina, pirovardida, muvaffaqiyatli bo‘ladi, deb ta’kidlab o‘tadi[2]. Banklar uchun mijoz “olamning markazi”ga aylanadi, u tufayli sotish va foyda olish hajmi keskin oshadi, kredit muassasalar esa ularning muammolari bilan emas, balki amalda qiziquvchi omonatchilarning manfaatlarini himoya qiladigan tashkilot sifatida qulay nufuzga erishadi.

YUqoridagi iqtisodchi olimlar fikrini o‘rgangan holda biz, bank xizmatlariga bo‘lgan yondashuvlarning o‘zgarishi tufayli aholiga xizmat ko‘rsatish jarayonida “bank infratuzilmalarining samaradorligi” tushunchasiga yondashuv ham o‘zgaradi. Bank xizmatlari bozorida aholiga bank tomonidan xizmat ko‘rsatish infratuzilmalarining samaradorligi deganda, odatda, iqtisodiy samaradorlik tushuniladi. Raqobat darajasi yuqori bo‘lgan davlatning bank faoliyatini tartibga solish jarayonidagi roli yuqoriligi sharoitida bank xizmatlarining samaradorligi faqat iqtisodiy jihatlarga bog‘liq emas. Quyida bank xizmatlarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik tavsiflarini ko‘rib chiqamiz.

Ijtimoiy samaradorlik tavsifi quyidagilar hisoblanadi:

- aholi farovonligining o‘sishi;
- mintaqada savdo aylanmasining oshishi;
- aholiga ko‘rsatilayotgan pullik xizmatlar hajmining oshishi;
- umumiy ishlab chiqarish hajmining oshishi;
- aholining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligining oshishi;
- mijozlarning bank xizmatlariga bo‘lgan ishonch darajasining oshishi;
- banklarning mijozga qaratilganlik darajasining oshishi;
- doimiy mijozlar ulushining oshishi;
- yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, ishsizlik darajasining kamayishi[3].

Iqtisodiy samaradorlik bank xizmatlari bozori ishtirokchilari faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- bank chakana xizmatlari bozorida daromad va uning o‘sish sur’atlarining oshishi;
- mijozlar bazasining oshishi;
- bank mahsulotlarining kengayishi;
-aholi pul mablag‘lari bilan mayda operatsiyalar sonining oshishi;
-kreditlar bo‘yicha muddat o‘tgan qarzdorlikning kamayishi;
-aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xatarlarning kamayishi; hududlarda, shu jumladan, hududning chekka qismida bank xizmatlaridan foydalanish miqyosini kengaytirish;

-xodimlarni, qo‘shimcha ofislarni saqlash bilan bog‘liq harajatlarning kamayishi va h.k.

SHuningdek, texnologik samaradorlik bank faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga bevosita bog‘liq hamda bank xizmati sifati va xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Texnologik samaradorlik quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

-bank operatsiyalari xavfsizligining oshishi;
- bitta operatsiyani amalga oshirishga ketgan vaqtning kamayishi;
- marketing tadqiqotlarining, mijozlarning mulohazalari monitoringining takomillashishi;
- bankning ichki ishini tashkil etishning takomilashishi;
- masofadan boshqariladigan operatsiyalar sonining oshishi;
- bank xizmatining barcha bosqichlarida texnologiyalarning qo‘llanilishi;
- plastik kartalarni qo‘llash miqyosining kengayishi;
- ofisdan tashqari bank xizmatlarining ommalashishi;
- xodimlarni masofadan uzluksiz o‘qitish imkoniyatlari.

Bank xizmatlari samaradorligining yo‘nalishlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xususan, bank faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy samara bermasa, muddatini uzaytirish tavsifiga ega bo‘lmaydi. Bunda bir vaqtning o‘zida bir nechta joyda bank xizmatlari samaradorligi oshgan taqdirda bir qator ziddiyatlar vujudga kelishi mumkin.

Birinchidan, bank xizmatining ijtimoiy va texnologik samaradorligini baholashda iqtisodiy samaradorligini baholash.

Ikkinchidan, bir yo‘nalish samaradorligining oshishi ikkinchi yo‘nalishning muvaffaqiyatli rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Agar bank mijozlari nuqtai nazardan samarali bank xizmatlarini tavsiflasak - bu sifatli, arzon, tezkor va zamonaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishdir, bu esa ayrim holatlarda bankning iqtisodiy maqsadlariga zid keladi. SHuning uchun bank xizmatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda kredit tashkilotlari rahbarlari tomonidan nafaqat boshqaruv tizimi, balki ushbu xizmatlar iste’molchilarining maqsadlari ham hisobga olinishi lozim. YA’ni xodimlarni mijozga e’tibor darajasini oshirish, tashkilotda innovatsion muhitni shakllantirish uchun shunday sharoit yaratish lozimki, unda iqtisodiy foyda bevosita mijozlarning talablari bilan bog‘liq bo‘lsin[4].

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali mexanizmlar o‘z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida to‘siq bo‘lmoqda”[5], - deya ta’kidlab o‘tgan.

Ma’lumki, banklar kredit taqdim etishda yetakchi o’rin egallaydi. O’z navbatida, kredit tashkilotlari butun moliyaviy xizmatlar sanoatining raqamli o’zgarishi va moliyaviy ekotizimni shakllantirishning asosiy o’tkazuvchisi bo’lib, moliya va iqtisodiyotning real sektorlari o’rtasidagi hamkorlik shakli va usullarini tubdan o’zgartirmoqda. Daromad darajasi har xil bo’lgan mijozlar iqtisodiy rivojlanish bosqichlaridan qat’i nazar, asosiy hayotiy maqsadlardan chalg’itmasdan, ko’proq innovatsion bank mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanishga moyillik ko’rsatishmoqda. Shundan kelib chiqib, ushbu tezislarda ilgari surilayotgan fikrlarning ilmiy yangiligi kredit skoringi metodlarini bank innovatsiyalarini rivojlantirish kontseptsiyasi doirasida ishlab chiqish va asoslash, shuningdek raqamli iqtisodiyotda banklar hamkorligining zamonaviy shakllarini yoritishdan iboratdir.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlari, umuman, barcha moliya-kredit institutlariga va ayniqsa banklar faoliyatiga faol ta’sir ko’rsatadi. Bu holat zamonaviy bank texnologiyalarini yaratishda namoyon bo’lgan bank innovatsiyalarini joriy etish oqibatlarini sifatli qayta ko’rib chiqish vazifalarini belgilaydi va innovatsion bank infratuzilmasini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, bank innovatsiyalarini amalga oshirish samaradorligini va uning bankning moliyaviy natijalariga banklarga tahdidlar darajasiga nisbatan ta’sirini baholash metodologiyasini ishlab chiqish zarurligini anglatadi. Banking innovatsiyasi bu nafaqat yangi mahsulotlarni yaratish va amalga oshirish, balki taqdim etilayotgan xizmatlar ro’yxatini kengaytirish, zamonaviy infokommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo’lib, bu bank mijozlariga bank xizmatlarini olish uchun noyob imkoniyatlarni ochib beradi.

Raqamli iqtisodiyotga bank innovatsiyalarini joriy qilish zamonaviy bank yangiliklari va bank infratuzilmasini shakllantirilmoqda va bu jarayonda skoring metodlarini takomillashtirishning ahamiyati oshmoqda. Shuningdek, qo’yilgan vazifalarni hal qilish bank sektorining institutsional bazasini

mustahkamlashga va uni rivojlantirishning munosib strategiyasini shakllantirishga yordam beradi: buning uchun bank boshqaruvining qo'shimcha shakllarini izlash, zamonaviy bank texnologiyalarini yaratish, bank kapitalini ko'paytirish, bank faoliyatini xatarlarini bashorat qilish masalalari dolzarbligicha qoladi va ilmiy yondashuvning ahamiyati yanada oshaveradi. Binobarin, bank innovatsiyalari va raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit skoringining takomillashtirish masalasi davr taqozosiga aylanmoqda [6].

Boston Consulting Group analitiklarining hisoblashlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot bo‘yicha boshqa rivojlanayotgan davlatlar yetakchilardan o‘rtacha 8-10 yilga orqada qolgan. Ammo agarda hech qanday chora-tadbirlar ko‘rilmasa, 3-5 yildan so‘ng orqada qolish 15-20 yilga ham yetishi mumkin. “Industriya 4.0” konseptsiyasi doirasida ushbu ko‘rsatkich milliy iqtisodiyotning investitsion raqobatbardoshlik reytingi ko‘rsatkichini aniqlashda asosiylaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, “Raqamli bank” tushunchasi 2015-2020 yillar davomida Yevropa davlatlarida jadallik bilan rivojlangan. Raqamli banklar o‘z mijozlariga yanada qulaylik va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanadi. Afsus bilan qayd etish lozimki, jahon iqtisodiy forumi ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatimiz bu ko‘rsatkich bo‘yicha oxirgi o‘rinlardan birida turadi. Moliyaviy sektorda huddi shu tufayli ro‘y berayotgan salbiy oqibatlarni yengib o‘tish uchun milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotni keng ko‘lamda qo‘llashga erishish asosiy masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Raqamli banking usullarini qo‘llash, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va mobil tizimlar rivojlanishiga alohida ahamiyat berish moliyaviy bozorlar va banklar rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

An’anaviy va raqamli banklar orasidagi asosiy farqlar[7]

An’anaviy banklar Raqamli bank	**An’anaviy banklar Raqamli bank**
Bank filiallar tarmoqlarining har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, sifat darajasiga e’tiborning sustligi;	Bank filiallari tarmog‘ining kengaytirilmasligi
Bank-mijoz o‘rtasida onlayn aloqa o‘rnatish holatining pastligi;	Bank-mijoz o‘rtasida onlayn aloqa tizimining 100 foiz o‘rnatilganligi
Mobil ilovalari ishlab chiqarilgan ammo mobil ilovalarda oddiy kartadan-kartaga pul o‘tkazish yoki kommunal to‘lovlar to‘lash jarayonlarida doimiy muammolar mavjud bo‘lib, ko‘p holatlarda tizimda uzilishlar kuzatiladi	Sifatli va foydalanuvchilar uchun qulay bo‘lgan mobil ilova
bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar chiqariladi, ammo ko‘p holatlarda tanish-bilishchilik katta rol o‘ynaydi (agar tanish bo‘lmasa, o‘sha mijoz 3 oy va undan ko‘p muddatga sarson-sargardonlikda yuradi)	Bozor talablariga javob beruvchi omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar (ya’ni, mijoz talabidan kelib chiquvchi) va tez fursatlarda xizmat ko‘rsatish
24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlari nomigagina faoliyat yuritadi, mijoz bir savoliga javob olish uchun bankning barcha bo‘limlari mutaxassislari bilan so‘zlashishiga to‘g‘ri keladi. Mijoz vaqti, telefon aloqa xizmati uchun mijoz tomonidan to‘lanadigan summa hisobga olinmaydi	Tezkor, sifatli, qulay va 24/7 rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi
Asosan ish haqi ma’lumotnomasi va boshqa qo‘shimcha hujjatlar so‘raladi	Ortiqcha hujjatlarning talab etimasligi
Boshqaruvning markazlashganligi va inson omili katta ro‘l o‘ynashi	Dastur tomonidan xizmat ko‘rsatilishi va inson omilining hissasi nisbatan kamayishi
Bank xarajatlarining ko‘pligi natijasida xizmatlar tannarxining yuqoriligi	Xizmatlar tannarxining arzon bo‘lishi (yirik bino va ofislarga zaruriyatning yo‘qligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF5296- sonli farmoni1 imzolangach, bank tizimiga

chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020 yilda **“Anorbank”** va **“TBC bank”**lar raqamli bank sifatida ro‘yxatga olindi. Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” o‘z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozi 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya’ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta’mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi (1-jadval).

Mazkur jadvalda ko‘rinib turganidek, raqamli banklar asosan mijozlarning qulayligiga xizmat ko‘rsatadi. Garchi an’anaviy banklar ham o‘z mobil ilovalarini yaratayotgan va 24/7 rejimdagi aloqa markazlarini faoliyatini yo‘lga qo‘yayotgan bo‘lsa ham ularning faoliyati va boshqaruvi markazlashgan holda amalga oshiriladi. Bu esa mijozlarning bank xizmatlaridan qoniqish darajasiga salbiy ta’sir o‘tkazadi.

2-jadval

Bank xizmatlari samaradorligini belgilovchi omillar [7]

Mijoz nazarida	**Kredit tashkiloti nazarida**
Xizmat ko‘rsatish sifati	
• bank xodimlarining muomalasi • xizmat ko‘rsatish tezligi; • banklarga bo‘lgan ishonch; • ko‘rsatilgan bank xizmatlarining shaffofligi; • bank bo‘limlarining qulay joylashgani; • yakka tartibda xizmat ko‘rsatish; • bank xizmatlaridan foydalana olish.	• bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi; • mijozlar bazasining o‘sishi; • bir mijozga maksimal darajada xizmatlarni sotish; • tezkor xizmat ko‘rsatish; • klientlardan kelib tushadigan shikoyatlarning kamayishi; • xizmat ko‘rsatish chog‘ida anglashilmovchiliklar sonining kamayishi.
Bank xizmatlari narxi	
• imtiyozli narxlarda arzonroq xizmatlarga ega bo‘lish; • dalat yoki bank tizimi tomonidan kafolatlanish; • yuridik shaxslar va fuqarolarga ko‘rsatiladigan xizmatlarni bo‘g‘imlash; • bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar narxining mo‘’tadilligi.	• risklarni sug‘urtalashda, bank xizmatlari narxini oshirish; • bino va xodimlarga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish; • mexnat qaytimi samaradorligini oshirish; • bank xizmatlari bahosining o‘sishi, bozor bo‘yicha o‘rtacha sur’atda; • bozorda raqobat muhitini qisqartirish.
Bank xizmati ko‘rsatish tizimining texnologik ta’minlanganligi	
• qisqa muddat ichida banklarda xizmat ko‘rsatish; • to‘lov operatsiyalarini xavfsizligi; • hisoblar bo‘yicha tezkor ma’lumotlar olish; • kredit tashkilotining axborotlashtirilgan hujjat almashinuvi;	• bank texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi; • kredit tashkilotining ichki hujjat almashnuvi tizimini takomillashtirish; • banklarda olib boriladigan operatsiyalar xavfsizligi; • xizmat ko‘rsatishni kengaytirish.

Bir so‘z bilan aytganda, banklar zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish, innovatsion xizmat turlarini joriy etish orqali universal bank xizmatlarini ko‘rsatishi lozim. Mijozlar tomonidan bankni tanlab olishda asosiy mezonlar sifatida: bankning nufuzi, qulay joyda joylashgani, zamonaviy bank xizmatlariga ega ekanligi baholangan. Bank xizmatlari samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqishda mijoz va kredit tashkilotlari o‘rtasidagi uchta asosiy turdagi aloqalarni ajratib olish lozim. Mijozlar nazarida bank xizmatlari mijozlarga foyda keltiradigan, ular uchun qulay va foydali bo‘lishi lozim deb tushuniladi, 2-jadvalda keltirilgan ishlarning asosiy yo‘nalishlardan foydalangan holda bank xizmatlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha muayyan usullarni ishlab chiqish mumkin.

Ya’ni bank xizmatlari samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

1) xizmat ko‘rsatish sifati;

2) bank xizmatlarining qiymati;

3) bank xizmatlarining texnologik xususiyati.

Bank xizmatlari iste'molchilari va sotuvchilari tomonidan bank xizmatlari samaradorligini tushunishda asosiy farq ko'rib chiqilib, ular bank xizmatlari sotuvchilari uchun iqtisodiy samaradorlik doimo birlamchi ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy samaradorlik xizmat sifatining oshishi xizmat ko'rsatishda yangi texnologiyalar tatbiq etilishining zarur sharti hisoblanadi, natijada, bozorda raqobatning oshishiga to'sqinlik qiladigan bank xizmatlari qiymatining oshishiga olib keladi. SHunday ekan, banklarda xizmat turlarining rivojlanishi va kengayishi, avvalambor, banklarga mijozlarni jalb etsa, ikkinchi tomonidan, bank infratuzilmasining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bank xizmatlarining rivojlanishi, xodimlarning mijozlarga qaratilganlik darajasini oshirish, xodimlar malakasini oshirish, innovatsion xizmatlarni joriy etish, xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtirish, yangi texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan samaradorlikni oshirish - bank infratuzilmasining rivojlanishiga olib keladi. Bunda infratuzilmani amalga oshirish mexanizmida tijorat banklarining asosiy daromad keltiruvchi kredit operatsiyasini amalga oshirishi natijasida tovar va xizmatlar sonining ortishi undan valyuta oqimi ko'payishi aks etgan. Bu esa, o'z navbatida, korxona daromadining oshishiga, ishchilarga ish haqi o'z vaqtida berilishiga imkon beradi. Iqtisodiyot zanjirsimon ketma-ketlikka o'xshatiladi, bir omilni ikkinchi omilga ta'siri kuchlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018 yil 30 iyundagi 22/5- son Qarori.
2. Apenko S.N., SHavrovskaya M.N. Klientoorientirovannost personala v kontseptsii marketinga otnosheniy//Vestnik Omskogo universiteta. Seriya «Ekonomika». – 2010. – № 2. – S. 50–56.
3. Vasilev A.V., Gerasimova E.B., Tishina L.S. Monitoring kachestva bankovskix uslug: monografiya. – Tambov: TGTU, 2004
4. SHayxutdinova E.S. Razvitie infrastruktur regionalnoy ekonomiki na osnove innovatsiy.Vestnik ekonomiki, prava i sotsiologii, 2015, №1 – S.72-77.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. http://uza.uz.
6. Xolov M. Bank innovatsiyalari va raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit skoringining takomillashuvi. «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya materiallari. 29-31b.
7. Avezov M.K. Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 3 | ISSUE 2 | 2022, 808-814b., www.scientificprogress.uz

GENERAL CHARACTERISTICS OF THE PUMP AND PIPELINE IN THE TRANSPORTATION OF OIL AND OIL PRODUCTS THROUGH MAIN PIPELINES

Kuvondikov Kuvonchbek, Obidjonov Ahror, Rixsixodjayeva Gulchexra

assistant, Tashkent State Transport University,

assistant, Tashkent State Transport University,

t.f.f.d.(PhD) dotsent, dotsent, Tashkent State Transport University

Pipeline transportation of oil products can be considered the most convenient type of transportation in the world. Today, Uzbekistan is starting to supply oil to the world. It provides an opportunity to deliver oil, diesel fuel, gasoline in any direction and in practically unlimited quantities. Transportation of petroleum products through pipelines allows for the quick and easy transportation of various types of oil and gas from one place to another. Its work does not depend on climate, geographical location, year or time of day - that is, it is carried out continuously and systematically. [1, 2, 9, 10, 11, 12, 13]

The efficiency of transportation of oil and oil products through pipelines is determined by the pumping mode obtained as a result of combining the characteristics of the pump and the pipeline. These characteristics change when the properties of the pumped medium change, when anti-turbulence is added, and when any structural changes are made to the pipeline or pump. The general characteristics of the pump and the pipeline can be changed by connecting additional pumping stations or increasing the engine speed.

Figure 1. Extraction of oil and oil products

If the power consumption is written in terms of pump efficiency, we get [3, 4, 5, 11]

$$N_{\text{уд}} = \frac{QH\rho g}{Q\eta_{nas}} = \frac{P}{\eta_{nas}} \quad (1)$$

Here:

η_{nas}- pump efficiency;

ρ- the density of the pumped medium;

P - differential pressure across the pump.

Taking into account the characteristics of the terrain, we change the formula (1) using the Darcy-Weisbach equation and obtain specific energy costs in the technological section. [6, 7, 8, 14, 15]

$$N_{\text{уд}} = \frac{\lambda L v^2}{2D\eta}\rho \quad (2)$$

The resulting formula allows determining the relative consumption of $N_{\text{уд}}$-power depending on the structural parameters of the pipeline: L - length and D - diameter, as well as technological parameters: v - fluid velocity in the pipeline, l - coefficient of hydraulic resistance of the pipeline, ρ - density of the pumped medium and η - The efficiency of the pumping device. Thus, the specific energy costs are determined by the hydraulic losses in the pipeline and the efficiency of the pump unit.

Knowing the relationship between the value of the unit cost of electricity and the activity carried out by the pipeline or pump, it is possible to determine the economic effect of this activity.

As an example, we should consider using anti-turbulence additives to increase pumping capacity and reduce energy costs. If the design parameters of the pipeline have not changed and the efficiency of the additive can be determined as follows, then formula (2) can be obtained. [9, 10, 11]

$$N_f = N_0(1-\psi)\frac{Q_f^2}{Q_0^2}\frac{\eta_0}{\eta_{fq}} \quad (3)$$

Q_f- the new pump volume obtained by applying the additive;

η_0 and η_{fq}- Q_0 and the efficiency of the pump unit at the flow rate, the same liquid

If we add such a concentration of the additive to fulfill the planned goal of increasing Q_f using the formula (3), we find how much the specific costs of energy change and find out the costs of measures to add the additive, in general, we need to determine how efficiently the additive is used.

When moving from the flow rate Q_0 to Q_f, unit costs decrease by Q_f= N_0 - N_f, which in monetary terms is ΔN -Rel, where Rel is the cost of electricity.[4, 8]

In this case, we find the benefit of using the supplement.

$$Э_{пр} = P_{эл}\Delta N\boldsymbol{t} + \Delta\boldsymbol{T} - \Delta З, \quad (4)$$

Here:

ΔЗ- the costs of implementing the technological process of production of pumps with additives;

t- validity period of the supplement;

ΔT- additional tariff revenues from increased pipeline capacity.

REFERENCES:

1. О формировании грузопотоков нефти в системе магистральных нефтепроводов ОАО «АК «ТРАНСНЕФТЬ»/ Кацал И.Н., Ляпин А.Ю., Дубовой Е.С. и др.//Наука и технологии трубопроводного транспорта нефти и нефтепродуктов. – М: НИИ Транснефть, 2016. – №2(22) – С.92-95.

2. Новоселов В.Ф., Левин В.С. Управление магистральными нефтепроводами при неполной информации // Трубопроводный транспорт нефти: Сб. научн. тр. - Уфа: ВНИИСПТнефть, 1981. - С.105-109.

3. Quvondiqov, Q. (2023). On the Issue of Efficiency in the Transportation of Oil Products by Main Pipeline. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*.

4. Quvondiqov, Q. (2021). Suv ta'minoti, oqova suv, gidravlika va suv resurslarini muhofaza qilish sohalarida yangi yutuqlar. *X МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНСИЯ*.

5. Quvondiqov, Q. (2022). Gidtrotransport tizimlaridagi adgeziyani dispers sistemalarni modifikaцyalash orqali kamaytirish. *Scienceweb academic papers collection*.

6. Quvondiqov, Q. (2023). Magistral va undan tarqalagn quvurlar tizimini gidravlik hisoblash. *ELEKTRON HISOBLASH MASHINALARI UCHUN YARATILGAN DASTURNING RASMIY RO‘YXATDAN O‘TKAZILGANLIGI TO‘G‘RISIDAGI GUVOHNOMA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI,№ DGU 24340, Talabnoma kelib tushgan sana: 03.04. 2023 Talabnoma raqami: DGU 2023 2692*.

7. Quvondiqov, Q. (2018). TTYMI talabalar turar joyidagi suv ta’minoti tizimlarining muammolari. *Scienceweb academic papers collection*.

8. Quvondiqov, Q. (2022). Quduqning siljishga, ag‘darilishiga va suzib chiqishiga bo‘lgan turg‘unligini hisoblash uchun dastur. *Scienceweb academic papers collection*.

9. Javokhir, O., Askar, B., Kuvonchbek, K., & Uchkun, U. (2023). Washing Filters Made From Local Raw Materials. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *2*(6), 281-288.

10. Quvondiqov, Q. (2023). MAHALLIY XOM ASHYOLARDAN TAYYORLANGAN FILTRLARNI YUVISH. *Международный современный научно-практический журнал Научный импульс*.

11. Quvondiqov, Q. (2023). Neft mahsulotlarini magistral quvurlar orqali tashishda nasos rejimi va nasos stansiyalarida elektr energiyasining xarajatlari. *Замонавий архитектура, бинолар ва иншоотларнинг мустаҳкамлиги, ишончлилиги ва сейсмик хавфсизлик муаммолари*.

12. Quvondiqov, Q. (2023). Neft va neft mahsulotlarini quvurlar orqali tashishda nasos va quvur liniyasining kombinasiyalashgan xususiyatlari. *Замонавий архитектура, бинолар ва иншоотларнинг мустаҳкамлиги, ишончлилиги ва сейсмик хавфсизлик муаммолари*.

13. Babayev, A. (2023). NEFT VA NEFT MAHSULOTLARINI MAGISTRAL QUVURLAR ORQALI TASHISHDA NASOS VA QUVUR LINIYASINING UMUMIY XARAKTERISTIKALARI. *Замонавий архитектура, бинолар ва иншоотларнинг мустаҳкамлиги, ишончлилиги ва сейсмик хавфсизлик муаммолари*.

14. Obidjonov, A., Umarov, U., Babaev, A., Quvondiqov, Q., & Umarova, D. (2023). Purification of borehole and domestic waters in rural conditions of Uzbekistan using filters and their hydraulic calculation. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 01084). EDP Sciences.

15. Umarov, U., Quvondiqov, Q., Obidjonov, A., Babaev, A., & Ochildiyev, O. (2023). Selecting wastewater treatment filters using local raw materials. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 03019). EDP Sciences.

PUMPING MODE AND COSTS OF ELECTRICITY AT PUMPING STATIONS WHEN TRANSPORTING OIL PRODUCTS THROUGH MAIN PIPELINES

Kuvondikov Kuvonchbek, Umarov Uchqun
assistant, Tashkent State Transport University,
dotsent, Tashkent State Transport University

The efficiency of transportation of oil and oil products through pipelines is determined by the pumping mode obtained as a result of combining the characteristics of the pump and the pipeline. These characteristics change when the properties of the pumped medium change, when anti-turbulent additives are added, and when any structural changes are made to the pipeline or pump. The general characteristics of the pump and the pipeline can be changed by connecting additional pumping stations or increasing the engine speed.

Let's see how the specific costs of electricity change depending on the pumping mode and the number of pumping stations. Figure 1 shows the dependence of head **H** and power N on the supply of three series-connected centrifugal pumps. These are the curves of $\mathbf{H_1}$, $\mathbf{H_2}$, $\mathbf{H_3}$ and $\mathbf{N_1}$, $\mathbf{N_2}$, $\mathbf{N_3}$, as well as the possible characteristics of the pipes $\mathbf{Q_{ta}}$, $\mathbf{Q_{tb}}$, $\mathbf{Q_{ts}}$. If we draw the beam from the origin to any point of the power consumption characteristic (for example, point a in Figure 1), then we see that the relative power consumption is the tangent of the slope. All points of light correspond to the same energy consumption. Analysis of the characteristics of field and main centrifugal pumps shows that the specific energy consumption of the pumps decreases as the flow rate **Q** increases. This is an important point in favor of the use of depressants and anti-turbulent additives and allows a simple and accurate analysis of pump efficiency. [1, 2, 3, 4, 12, 13, 14, 15]

If it is necessary to increase the flow rate from $\mathbf{Q_1}$ to $\mathbf{Q_3}$ according to the $\mathbf{H_3}$ characteristic, this can be done by installing, adding or adding a loop or anti-turbulent additive to the oil. However, in our experience, the cost of switching to the new mode was paid for by lower specific power consumption and increased pump capacity. As a result, we can estimate how much it will cost us to increase the flow through the pipeline. [5, 6, 7, 8]

If the power consumption is written in terms of pump efficiency, we can write qtsy. [9, 10, 11]



Figure 1 - Dependence of pressure H and power N on the supply of three series-connected centrifugal pumps

$$N_{\text{уд}} = \frac{QH\rho g}{Q\eta_{nas}} = \frac{P}{\eta_{nas}} \qquad (1)$$

Here:

η_{nas}- pump efficiency;

ρ- the density of the pumped medium;

P - differential pressure across the pump.

Let's consider the case when the characteristic of the pump with the connection of the next station moves along the unchanged characteristic of the pipeline, for example, from point $\mathbf{b_1}$ to points $\mathbf{b_2}$ and $\mathbf{b_3}$ (Fig. 1). As can be seen from Figure 1, the unit cost of pumps increases with the connection of each pumping station. Costs also increase with the number of revolutions. These conclusions also follow from formula (1).

REFERENCES:

1. О формировании грузопотоков нефти в системе магистральных нефтепроводов ОАО «АК «ТРАНСНЕФТЬ»/ Кацал И.Н., Ляпин А.Ю., Дубовой Е.С. и др.//Наука и технологии трубопроводного транспорта нефти и нефтепродуктов. – М: НИИ Транснефть, 2016. – №2(22) – С.92-95.
2. Новоселов В.Ф., Левин В.С. Управление магистральными нефтепроводами при неполной информации // Трубопроводный транспорт нефти: Сб. научн. тр. - Уфа: ВНИИСПТнефть, 1981. - С.105-109.
3. Quvondiqov, Q. (2023). On the Issue of Efficiency in the Transportation of Oil Products by Main Pipeline. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*.
4. Quvondiqov, Q. (2021). Suv ta'minoti, oqova suv, gidravlika va suv resurslarini muhofaza qilish sohalarida yangi yutuqlar. *X МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНСИЯ*.
5. Quvondiqov, Q. (2022). Gidtrotransport tizimlaridagi adgeziyani dispers sistemalarni modifikaцyalash orqali kamaytirish. *Scienceweb academic papers collection*.
6. Quvondiqov, Q. (2023). Magistral va undan tarqalagn quvurlar tizimini gidravlik hisoblash. *ELEKTRON HISOBLASH MASHINALARI UCHUN YARATILGAN DASTURNING RASMIY RO'YXATDAN O'TKAZILGANLIGI TO‘G‘RISIDAGI GUVOHNOMA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI,№ DGU 24340, Talabnoma kelib tushgan sana: 03.04. 2023 Talabnoma raqami: DGU 2023 2692*.
7. Quvondiqov, Q. (2018). TTYMI talabalar turar joyidagi suv ta’minoti tizimlarining muammolari. *Scienceweb academic papers collection*.
8. Quvondiqov, Q. (2022). Quduqning siljishga, ag‘darilishiga va suzib chiqishiga bo’lgan turg‘unligini hisoblash uchun dastur. *Scienceweb academic papers collection*.
9. Javokhir, O., Askar, B., Kuvonchbek, K., & Uchkun, U. (2023). Washing Filters Made From Local Raw Materials. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, *2*(6), 281-288.
10. Quvondiqov, Q. (2023). MAHALLIY XOM ASHYOLARDAN TAYYORLANGAN FILTRLARNI YUVISH. *Международный современный научно-практический журнал Научный импульс*.
11. Quvondiqov, Q. (2023). Neft mahsulotlarini magistral quvurlar orqali tashishda nasos rejimi va nasos stansiyalarida elektr energiyasining xarajatlari. *Замонавий архитектура, бинолар ва иншоотларнинг мустаҳкамлиги, ишончлилиги ва сейсмик хавфсизлик муаммолари*.
12. Quvondiqov, Q. (2023). Neft va neft mahsulotlarini quvurlar orqali tashishda nasos va quvur liniyasining kombinasiyalashgan xususiyatlari. *Замонавий архитектура, бинолар ва иншоотларнинг мустаҳкамлиги, ишончлилиги ва сейсмик хавфсизлик муаммолари*.
13. Babayev, A. (2023). NEFT VA NEFT MAHSULOTLARINI MAGISTRAL QUVURLAR ORQALI TASHISHDA NASOS VA QUVUR LINIYASINING UMUMIY XARAKTERISTIKALARI. *Замонавий архитектура, бинолар ва иншоотларнинг мустаҳкамлиги, ишончлилиги ва сейсмик хавфсизлик муаммолари*.
14. Obidjonov, A., Umarov, U., Babaev, A., Quvondiqov, Q., & Umarova, D. (2023). Purification of borehole and domestic waters in rural conditions of Uzbekistan using filters and their hydraulic calculation. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 01084). EDP Sciences.
15. Umarov, U., Quvondiqov, Q., Obidjonov, A., Babaev, A., & Ochildiyev, O. (2023). Selecting wastewater treatment filters using local raw materials. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 401, p. 03019). EDP Sciences.

“МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЙ ТИЗИМ ИЖТИМОИЙ БАРҚАРОРЛИГИ” ВА “МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШИ” ТУШУНЧАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАР

А.Холов

Сирдарё вилояти олий таълим, фан ва инновация бошқармаси шўба мудири

XX асрнинг ўрталарига келиб юқори ривожланган мамлакатлар учун ишлаб чиқилган иқтисодий ривожланиш моделининг ўзгариши муқобил йўлни танлаш масаласини юзага келтирди. Фаолиятнинг барча соҳаларида илмий ютуқлардан фойдаланиш ва уларни амалга оширишга

асосланган жадал ривожланаётган “билимлар иқтисодиёти” шароитида ривожланишнинг янги тури – инновацион ижтимоий йўналтирилган ривожланиш шаклланди ва бу, ўз навбатида, шахснинг профессионаллиги ва ижодкорлиги биринчи ўринга чиқишига, ишлаб чиқаришни ташкил этиш шартлари эса ахборот, инновацион технологиялар ва билимга асосланишига сабаб бўлди.

Бугунги кунда инновацион иқтисодий ривожланиш назариясини ривожлантиришга Адам Б. Яффе, Джош Лернер, Скотт Штерн, М. Гяратан, С. Торриси и Алессандро Пагано каби хориж иқтисодчилари салмоқли ҳисса қўшдилар. Улар турли мамлакатларнинг иқтисодий фаровонлиги бўйича олиб борган тадқиқотларида ривожланаётган мамлакатларнинг иқтисодий ўсишининг инновацияларга боғлиқлигини, шунингдек, иқтисодиётнинг инновацион ривожланишига асос бўлган иқтисодий ўсиш омилларини таъкидлаб ўтганлар.

Уларнинг фикрига кўра иқтисодиётнинг инновацион ривожланишининг асосий омилларига қуйидагилар киради [1]:

юқори даражадаги таълим;

инновацияларга сармоя киритишга тайёр хусусий капиталнинг мавжудлиги (венчур тадбиркор);

инновацияларга ички талабнинг мавжудлиги;

иқтисодиётнинг очиқлиги.

Иқтисодий адабиётларда «инновацион ривожланиш» концепциясининг моҳияти ҳозирда ва мунозараларга сабаб бўлмоқда. А.Б. Вебер, С.Н. Гавров, А.А. Галкин, Л.М. Гохберг, И.Е. Дикин, С.А. Зайченко, Г.А. Китова, Ю.А. Красин, И.А. Кузнецова, Б.Н. Кузык, С.Е.Литовченко, Б.З. Мильнер, М.В. Шеховцов, Ю.В. Яковец каби олимларнинг ишларида фаол муҳокама қилинмоқда.

Бундай эътиборни ҳукуматнинг 2022-2026 йилгача бўлган даврда мамлакатимизни инновацион ижтимоий йўналтирилган тараққиёт стратегияси билан ҳам изоҳлаш мумкин[2].

Бунда “инновацион ривожланиш” тушунчасига расмий таъриф берилган ва экспортга асосланган инновацион ривожланиш моделига ўтишни таъминлаш йўллари ҳақида батафсил тушунча берилган.

Инновацион ривожланиш тадбиркорлик эркинлиги, ижтимоий адолат ва миллий рақобатбардошлик мувозанатига асосланган ижтимоий ривожланишнинг янги механизмини шакллантириш билан боғлиқ. Буларнинг барчасини иқтисодий тизимнинг ижтимоий барқарорлигини таъминлаш шартлари деб аташ мумкин.

2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида инновацион ривожланишни амалга ошириш учун қуйидаги асосий йўналишларда жиддий ўзгаришлар амалга оширилиши талаб этилади:

инсон тараққиёти;

тадбиркорлик фаолиятини ва иқтисодиётга капитал жалб қилишни рағбатлантирадиган юқори рақобатбардош институционал муҳитни яратиш;

инновацион технологик ривожланиш асосида иқтисодиётни таркибий диверсификация қилиш;

анъанавий соҳаларда (энергетика, транспорт, қишлоқ хўжалиги сектори, табиий ресурсларни қайта ишлаш) рақобатбардошлик қобилиятини мустаҳкамлаш ва кенгайтириш;

Ўзбекистоннинг ташқи иқтисодий позицияларини кенгайтириш ва мустаҳкамлаш,

унинг глобал меҳнат тақсимотидаги иштироки самарадорлигини ошириш;

Ўзбекистон иқтисодиёти ривожланишининг янги моделига ўтиш.

Иқтисодиётни инновацион ривожлантириш мавзуси ва мавжуд экспорт-хом ашёдан инновацион ўсиш моделига ўтишни таъминлайдиган шароитлар масаласи иқтисодий адабиётларда фаол муҳокама қилинмоқда.

Масалан, А.А. Галкин, А.Б. Вебер, Ю.А. Красин, В.И. Пантинларнинг фикрига кўра иқтисодиётни инновацион ривожланишга ўтиш зарурати қуйидаги шартлар туфайли юзага келади [3]:

Биринчидан, жамиятда илгариги даврга қараганда юқори даражадаги билим ва кўникмаларни талаб қиладиган кўплаб янги глобал муаммоларнинг пайдо бўлиши.

Иккинчидан, жаҳон иқтисодий инқирози сабабли ишончли тарзда намоён бўлган жаҳон иқтисодий муносабатларини ташкил этиш модели ва уларни бошқариш технологияларини ўзгартиришнинг ҳаётий зарурати.

Учинчидан, малакали ишчи кучининг арзонлиги каби рақобат устунлигига эга бўлган замонавий саноат ривожланишининг янги, тез тараққий этаётган марказларининг пайдо бўлиши ва ривожланиши. Бу етакчи мамлакатларни ҳеч бўлмаганда ҳозирча янги рақобатчилар эришиши қийин бўлган моддий ишлаб чиқаришнинг юқори даражаларига ўтишга ундайди.

Ушбу муаллифларнинг фикрига кўра, инновацион ривожланишга ўтиш учун муайян шарт-шароитлар зарур. Бу, биринчи навбатда, ҳали қўлланишда бўлмаган, аммо инсонга сифат жиҳатидан янги яшаш шароитларини яратишга қодир бўлган билимлар тўпламидир. Бу – ишлаб чиқариш амалиётида илмий ғоялар ва хулосаларни амалга оширишга йўналтирилган илмий-ишлаб чиқариш базаси ва илмий инфратузилманинг мавжудлиги. Бу – яқинлашиб келаётган иқтисодий жараён учун зарур бўлган юқори малакали ишчи кучини тайёрлаш тизими. Бу давлат органлари учун капитални ушбу бурилишга сафарбар қилиш учун сақланиб қолган имкониятдир [3.253.]. Буларнинг барчаси иқтисодиётнинг кучли рақобатбардошлигини таъминлаш учун шароит яратади.

Инновацион ривожланиш, ушбу муаллифларнинг фикрича, қуйидаги омиллар туфайли инновацион иқтисодиётнинг шаклланишини таъминлайди:

1. Кейинги инновацион силжиш учун технологик, иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий шарт-шароитларни яратиш.

2. Мавжудлар моддий ишлаб чиқаришни тубдан инновацион модернизация қилиш.

3. Фаолиятнинг тубдан янгиланган инновацион соҳаларини яратиш. Бунга қуйидагилар киради: инсон ва атроф-муҳит муносабатларининг замонавий шакллари, композит ва бошқа сунъий материаллар тўпламини яратиш, ушбу материалларни қайта ишлашнинг тегишли усулларини жорий этиш, қайта тикланадиган энергия манбаларига ўтиш, ҳаётнинг барча соҳаларида микроэлектроника ва ахборот технологияларини қўллашни такомиллаштириш ва улардан тизимли фойдаланиш, инсоннинг яшаши ва меҳнат фаолияти учун зарур бўлган биологик шароитларни янада яхшилаш [4].

XXI асрнинг 20-йилларидан бошлаб жаҳон ва миллий бозорларда товарлар ва хизматларнинг рақобатбардошлигини аниқлайдиган олтинчи технологик тартиб тузилишига йўналтирилган инновацион ва технологик ютуқларнинг устувор йўналишлари тизимини аниқлаш;

устувор йўналишларни амалга оширадиган узоқ муддатли миллий инновацион дастурлар ва лойиҳалар тизимини ишлаб чиқиш (биринчи навбатда, бу ижтимоий комплексни янгилаш, машинасозлик ва мудофаа-саноат комплексларини, энергияни тежаш ва ривожлантириш дастурларининг муқобил қайта тикланадиган, экологик тоза энергия манбаларини модернизация қилиш).

Ушбу ёндашувнинг ўзига хос хусусияти соф “технократик ёндашув”дир. Муаллифлар асосан ишлаб чиқариш тармоқларининг моддий-техник базасини такомиллаштириш ва юқори технологик тартибдаги ускуналар ва технологияларни жорий этиш орқали ривожланишнинг инновацион сценарийсини тақдим этишни таклиф қиладилар.

Иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг юқоридаги таърифларидан ва бунга ўтишни таъминлаш йўлларидан келиб чиққан ҳолда (уларнинг рўйхати тўлиқ эмас) шуни таъкидлаш жоизки, уларнинг асосини иқтисодиётнинг турли томонлардан инновацион ривожланишини белгилаб берадиган турли жараёнларнинг хусусиятлари ташкил этади.

Аммо уларнинг барчаси, бизнинг фикримизча, инновацион ривожланиш жараёнининг ўзида тўлиқ акс эттирмайди.

Бизнинг фикримизча, иқтисодиётнинг инновацион ривожланишини таъминловчи асосий омиллар қуйидагилардан иборат:

1. Амалий тадқиқотлар ва ишланмаларга йўналтирилган фаннинг юқори даражада ривожланиши.

2. Илм-фан ва техниканинг илғор ютуқларини жорий этиш асосида иқтисодиётнинг анъанавий тармоқларини ривожлантириш ҳамда уларнинг жадал модернизация қилинишига эришиш.

3. Жаҳон бозорларида рақобатбардош бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқаришга йўналтирилган иқтисодиётнинг юқори технологияли тармоқларини ривожлантириш.

4. Иқтисодиётни инновацион ривожлантиришнинг устувор йўналишларини ҳисобга олган ҳолда касб-ҳунар таълими тизимини ривожлантириш.

5. Баркамол шахснинг ривожланиши ва инсон капиталининг шаклланишига ҳисса қўшадиган юқори даражадаги аҳоли фаровонлигига эришиш.

6. Минтақаларнинг мувозанатли ривожланишини таъминлашга қаратилган мақбул ҳудудий ишлаб чиқаришни ташкил этиш.

Инновацион ривожланиш жараёнида инсон капитали ижтимоий ишлаб чиқаришда асосий ўринни эгаллай бошлайди. Унинг даражаси беқиёс даражада юқори бўлади. Инновацион ходим нафақат илғор технологиялардан самарали фойдаланиши, балки уларни доимий равишда такомиллаштириб бориши, илмий ва технологик тараққиётнинг жадал суръатларига мос равишда ўз билим ва кўникмаларини янгилаб бориши керак [5].

Инновацион ривожланиш шароитида инсон капиталининг шаклланиши, бизнинг фикримизча, иқтисодий тизимнинг ижтимоий барқарорлигини таъминлайдиган омилларга боғлиқ (1.1-расмга қаранг).

1.1-расм. **Инновацион иқтисодий ривожланиш шароитида инсон капиталини шакллантириш омиллари ва шартлари**

Бу энг аввало умумий таълим ва касб-ҳунар таълими, хусусан, соғлиқни сақлаш, жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш, шахснинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга ҳисса қўшадиган ташкилотларни яратишга ёрдам берадиган тармоқларни ривожлантириш зарурлигини кўрсатади. Бу ерда сўз ижтимоий соҳанинг ҳам «анъанавий тармоқлари» (барча даражадаги таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, жисмоний тарбия ва спорт)ни ривожлантириш, ҳам экологик тоза шаҳарларда аҳоли пунктлари тизимини шакллантириш, жиноятчиликка ва камбағалчиликка қарши

кураш, арзон уй-жойлар ва бошқа ижтимоий соҳа объектлари билан таъминлаш ҳақида бормоқда. Буларнинг барчасига иқтисодий тизимнинг ижтимоий барқарорлигини таъминлаш орқали эришилади.

Шундай қилиб, иқтисодий ривожланишнинг инновацион тури ва иқтисодий тизимнинг ижтимоий барқарорлиги ўртасидаги дастлабки боғлиқлик мавжуд. Бир томондан, инновацион ривожланиш саноат иқтисодиётининг юқори технологик даражасини таъминлайди ва шу билан бутун аҳоли ва ҳар бир шахснинг умумий фаровонлиги учун шароит яратади. Бошқа томондан, ривожланишнинг инновацион усули ходимнинг ижодий қобилияти, билими, тажрибси, малакасидан, яъни жамиятнинг шаклланиши ва ривожланишини белгилайдиган фаолият соҳаларидан фойдаланишга асосланади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Innovation Policy and the Economy, Volume 5, National Bureau of Economic Research, Adam B. Jaffe, Josh Lerner, and Scott Stern: The MIT Press, Cambridge, Massachusetts - 2005.-452 p.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги № ПФ-60 «2022 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони

3. Инновационная модернизация России. Политологические очерки /Под редакцией Ю.А. Красина,- М.: Институт социологии РАН.- 2011,- 253 с.

4. Прогноз инновационно-технологической и структурной динамики экономики России на период до 2030 года с учетом мировых тенденций / Б.Н. Кузык, В.И. Кушлин, А. А. Петров, Ю.В. Яковец. — М.: Институт экономических стратегий,- 2006. —48 с.

5. Человеческий потенциал: опыт комплексного подхода/Под ред. И.Т. Фролова. М., 1999. - 176 с.

IJTIMOIY SOHADA FORSAYT TADQIQOTLARINING MOHIYATI

Abdushukurova Ikbol Kuchkarovna

Guliston davlat universiteti, “Tarix” kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya. So’nggi o’n yilliklarda dunyoda ilmiy va innovatsion rivojlanishning istiqbolli yo’nalishlarini aniqlashga, shuningdek, fan va texnika sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish oqibatlarini baholashga qaratilgan prognoz tadqiqotlarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, shuningdek, ularni rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vositasi – forsaytdir. Maqolada forsayt texnologiyasi, forsayt tadqiqot usullari va ulardan ijtimoiy sohada foydalanish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: strategiya, forsayt, innovatsiya, piring tahlil markazi, forsayt tadqiqotlari, kelajak.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. XXI asr muammolari: globallashuv, iqtisodiyot va jamiyatdagi jadal o‘zgarishlar, axborot texnologiyalari va oqimlarining oldindan aytib bo‘lmaydigan o‘zgarishlari, ekologik nomutanosiblik va hokazolar doimiy izlanish, tanlash, yaratish va noyob innovatsion yechimlarni qo‘llash zaruratini belgilaydi. XXI-asrdagi asosiy strategiyalardan biri atrof-muhit nomutanosibligi sharoitida homo sapiensning biologik tur sifatida saqlanib qolishidir. Axborot jamiyatini bilim va innovatsiyalar jamiyatiga aylantirilishi, transformatsiyasi sharoitida iqtisodiyot va jamiyatning bashoratli modellari tubdan o’zgarib bormoqda: insonning kreativ mehnati va barcha turdagi (texnik, iqtisodiy, ijtimoiy) innovatsiyalar rivojlanishning asosiga aylanadi; samaradorlik mezonlari - shaxsning ijodiy o’zini o’zi anglashi, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlash, tabiatni asrash, jamiyatda ne’matlarni oqilona taqsimlash va boshqalar hisoblanadi.

Strategik yondashuvlar zarurligini anglash, strategiyalarni yaratish, maqbul maqsad asosida qarorlar qabul qilish tez o’zgarib borayotgan dunyoda o‘z kelajagini mustaqil ravishda rejalashtiruvchi va shakllantiradigan rivojlangan mamlakatlar, tarmoqlar, ijtimoiy institutlarni ajratib turadi (masalan, Yevropa Ittifoqining 2020 yilgacha innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyasi, sanoatning yo'l xaritalari va boshqalar).

Eng so’nggi ilmiy yondashuvlar asosida to’laqonli strategiyalarni shakllantirish uchun bugungi kunda eng mos vositalardan birini forsaytli tadqiqot deb atash mumkin. Forsayt g’oyasi siyosiy tahlil, strategik

tahlil, prognozlash sohasidagi zamonaviy ishlanmalar imkoniyatlarining yaqinlashishi natijasida shakllandi va o'tgan asrning so'nggi choragida keng tarqaldi.

